

# INTERNATIONAL SCIENTIFIC FORUM XALQARO ILMIY FORUM



22 JUNE 2022 | UZBEKISTAN



# XALQARO ILMIY FORUM

*Ko'p tarmoqli ilmiy-amaliy  
anjuman materiallari*

**(2022-yil, 22-iyun)**



**(June 22, 2022)**

*Proceedings of the multi-disciplinary  
scientific-practical conference*

## INTERNATIONAL SCIENTIFIC FORUM



Mazkur ko'p tarmoqli ilmiy-amaliy xalqaro anjuman O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-6097-sonli Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, ilmiy faoliyatning asosiy yo'nalishlarini rivojlantirish hamda ilm-fanlar sohasida xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida 2022-yil 22-iyun kuni Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida tashkil etilgan.



#### **MAS'UL MUHARRIR:**

**Muhammadiyev Jabbor O'roqovich** –

O'zMU birinchi prorektori.

Fizika-matematika fanlari doktori, professor.

#### **TAHRIR HAY'ATI:**

**Muhammedjanova Lalixon Ashuralievna** –

O'zMU Etika va estetika kafedrasi mudiri.

Falsafa fanlari nomzodi, professor.

**Babamuratov Erkin Xaitovich** –

Termiz davlat universiteti professori.

**Turg'unov Abdurashid Abdumanobovich** –

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

**Eshbekov To'liqin Usmanovich** –

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

**Allayarova Soliha Narzulloevna** –

Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti.

**Yusubov Jaloliddin Kadamovich** –

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti.

#### **TEXNIK MUHARRIRLAR:**

**To'xtayev Ulug'bek Husniddin o'g'li** –

O'zbekiston Milliy universiteti tabalasi.

**O'roqova Asila Norto'ra qizi** –

O'zbekiston Milliy universiteti tabalasi.

#### **TASHKILYI QO'MITA ILMIY KOTIBI:**

**Usmanov Abdumomin Xolmomin o'g'li** –

O'zbekiston Milliy universiteti magistranti.

**Diqqat:** To'plamga kiritilgan maqola va tezislarda keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar mas'uldir!

This multi-disciplinary international conference was held on June 22, 2022, in National university of Uzbekistan with the aim of facilitating the tasks outlined in the Presidential Decree PF-6097 "On the confirmation of the conception of the development of science till 2030", development of main spheres of scientific activity and strengthening interdisciplinary cooperation.



#### **EDITOR IN CHIEF:**

**Muhammadiyev Jabbor Uroqovich** –

First Prorector of NUUZ. Doctor of physics-mathematical sciences, professor.

#### **EDITORIAL BOARD:**

**Muhammedjanova Lalikhon Ashuralievna** –

Head of the department of Ethics and Aesthetics. Candidate of Philosophical Sciences, professor

**Babamuratov Erkin Khaitovich** –

Professor at the Termez State university.

**Turgunov Abdurashid Abdumanobovich** –

Candidate of pedagogical sciences, docent.

**Eshbekov Tulqin Usmanovich** –

Candidate of philological sciences, docent.

**Allayarova Soliha Narzulloevna** –

Docent of the Tashkent State university of Law.

**Yusubov Jaloliddin Kadamovich** –

Docent of the National university of Uzbekistan.

#### **TECHNICAL EDITORS:**

**Tuxtayev Ulug'bek Husniddin ugli** –

Student at the National university of Uzbekistan.

**Uroqova Asila Nortura qizi** –

Student at the National university of Uzbekistan.

#### **SECRETARY OF ORGANIZING COMMITTEE:**

**Usmanov Abdumumin Xolmumin ugli** –

Master's the National university of Uzbekistan.

**Attention:** The authors solely responsible for all the information put forth in articles and theses in this.



## PSIXOLOGIYADA MOTIVATSIYA MUAMMOSINI O‘RGANILISHI

*Abdiravidov Sardorbek*

*O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti  
Amaliy psixologiya 3-kurs talabasi.*

*Kamalova Z.X.*

*O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti  
Ijtimoiy psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi.*

**Kalit so‘zlar:** Motiv, xulq-atvor, ichki turtki, ijtimoiy (sotsial), o‘quv motivlari, bilish motivlari, pozitsiya motivi, ehtiyoj, maqsad.

**Ключевые слова:** Мотив, поведение, внутренняя мотивация, мотивация (социальная), учебные мотивы, познавательные мотивы, позиционный мотив, потребность, цель.

**Keywords:** Motive, behavior, inner motivation, motivation (social), learning motives, cognitive motives, position motive, need, purpose.

**Anontasiya:** Motivatsiya va motivlarni o‘rganish yo‘llari va ularni odamlarga tog‘ri shakllantirish va ularni oldiga qo‘ygan maqsadlari sari yanada jadalik bilan rivojlantirish va psixologiyada motivlarning turlari o‘rganishning ahamiyati, usullari va psixologik motivlar.

**Аннотация:** О значении, методах и психологических мотивах изучения видов мотивов в психологии и способах изучения мотивов и мотивов и их более быстрого развития навстречу людям и их целям.

**Annotation:** The importance, methods, and psychological motives of studying the types of motives in psychology and ways of studying motivations and motives and their more rapid development towards people and their goals.

Motiv (psixologiyada) – inson faoliyatida muayyan maqsadni bajarishga sabab bo‘luvchi omil vazifasini bajaradi. Motivatsiya shaxsni harakatga va faoliyatga undovchi, ehtiyojning yuksak shakli sifatida paydo bo‘luvchi ichki turtki hisoblanadi.

Motivatsiya-bu maqsadga yo‘naltirilgan har qanday hatti harakatga boshlaydigan va saqlaydigan jarayon hisoblanadi. “Motivatsiya”atamasi “motiv” atamasidan kengroq tushunchadir. Zamonaviy psixologiyada ular ikkita ruhiy hodisani belgilaydilar.

-SHaxsning faolligini va uni belgilaydigan faoliyatini keltirib chiqaradigan motivlar to‘plami, ya‘ni xatti-harakatlarni belgilovchi kuch va omillar tizimi (bu xususan ehtiyojlar,sabablar, masadlar, niyatlar, intilishalar, va boshqa narsalarni o‘z ichiga oladi);

-Talim jarayonida motivlarni shakllantirish, muayyan darajadagi xatti-harakatlarni rag‘batlantiradigan va qo‘llab-quvatlaydigan jarayonning o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Motiv inson xulq-atvorining ichki barqarorligi, harakatga undovchi tushunchadir. Motivatsiya esa xulq-atvorni psixologik va fiziologik boshqarishning dinamik jarayoni bo‘lib,unga tashabbus, yo‘nalganlik, tashkilotchilik, qo‘llab-quvvatlash kabilar kiradi. Motivlar birinchidan, o‘quv faoliyatiga undasa, ikkinchidan, maqsadga erishish uchun zarur yo‘l va usullar tanlashga yordam beradi. O‘quv motivlari o‘quvchining maksadi, qiziqishlari, kelajak rejalari, ehtiyojlari bilan bevosita bog‘liq. O‘quv motivlari yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘ziga xos psixologik xususiyatlarga egadir. O‘quv motivlari masalasi ko‘pgina xorijlik psixologlar tomonidan tadqiq etilgan.

A.K.Markova Psixologiya fanlar doktori, professor. SSSR ta‘lim a‘lochisi motivlarni 2 ta katta guruhlariga ajratgan.

1.O‘quv faoliyatining mazmuni va uni bajarish bilan bog‘liq bilish motivlari.

2.O‘quvchining boshqa kishilar bilan o‘zaro ijtimoiy (sotsial) motivlar.

Motiv inson xulq-atvorining ichki barqarorligi, harakatga undovchi tushunchadir. Motivatsiya esa xulq-atvorni psixologik va fiziologik boshqarishning dinamik jarayoni bo‘lib,unga tashabbus,



yo‘nalganlik, tashkilotchilik, qo‘llab-quvvatlash kabilar kiradi. Motivlar birinchidan, o‘quv faoliyatiga undasa, ikkinchidan, maqsadga erishish uchun zarur yo‘l va usullar tanlashga yordam beradi. O‘quv motivlari o‘quvchining maksadi, qiziqishlari, kelajak rejalari, ehtiyojlari bilan bevosita bog‘liq. O‘quv motivlari yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘ziga xos psixologik xususiyatlarga egadir. O‘quv motivlari masalasi ko‘pgina xorijlik psixologlar tomonidan tadqiq etilgan.

Bu motiv turlari psixologik adabiyotlarda keng o‘rganilgan. O‘quvchining boshqa kishilar bilan o‘zaro ijtimoiy (sotsial) motivlar. Keng o‘rganilgan. Birinchi katta guruh motivlarini bir qancha. Bu motiv turlari psixologik adabiyotlarda kichik guruhlariga bo‘lish mumkin.

A) bilish motivlari – motivlar o‘quvchilarni yangi bilim egallashgayo‘naltirib turadi. Ularni darajasiga qarab ham ajratish mumkin. Bu o‘quvmaterialiga, voqea va hodisalarning mohiyatini bilishga, dastlabki deduktiv xulosa chiqarishga, nazariy tamoyillariga qiziqish bo‘lishi mumkin.

B) o‘quv bilish motivlari bilim egallashning usullarini o‘zlashtirib olish, mustaqil ilmiy bilish usullari va o‘zining o‘quv faoliyatini mustaqil boshqarish va o‘quv mehnatini to‘g‘ri tashkil etishga qiziqishida namoyon bo‘ladi.

C) mustaqil ta‘lim olish motivlari o‘quvchining bilimlarini o‘zlashtirishining usullarini mustaqil ravishda takomillashtirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bu o‘quvchida muvaffaqiyat qozonish motivlari deb nomlangan bilish motivlari darajasi mavjudligini Motiv inson xulq-atvorining ichki barqarorligi, harakatga undovchi tushunchadir.

Motivatsiya esa xulq-atvorni psixologik va fiziologik boshqarishning dinamik jarayoni bo‘lib, unga tashabbus, yo‘nalganlik, tashkilotchilik, qo‘llab-quvvatlash kabilar kiradi. Motivlar birinchidan, o‘quv faoliyatiga undasa, ikkinchidan, maqsadga erishish uchun zarur yo‘l va doimiy musobaqa paytida eng yangi xohishlarga erishish hammaning yuqori natijalariga solishtirish muvaffaqiyati va intilishidan iborat bo‘ladi.

Qisqa qilib aytganda- motivatsiya hozirgi kunda eng kerakli taminot hisoblanadi. Hozirgi zamonda har bir odam motivatsiyaga zarur deb ayta olman.

Motivatsiya xulq- atvor alternativalarini ko‘rib chiqish asosida doimiy tanlash va qarorlarni qisqa va lo‘nda qabul qilish jarayoni bo‘lib xizmat qiladi.

S.SHukurullayevaning fikricha bilish motivlari o‘quvchining o‘quv faoliyatidagi qiyinchiliklarni yengish barcha sohadan xabardor, eng zamonaviy inson qiyofasida namoyon bo‘lish uchun faollik va tashabbusning paydo bo‘lishini ta‘minlaydi.

Ikkinchi katta guruh, ya‘ni ijtimoiy motivlar ham bir qancha kichik guruhlariga bo‘linadi:

1. Keng ijtimoiy motivlar, Vatan uchun foydali bo‘lga bilimlarni olishga, o‘qish zarurligini tushunib yetishiga va javobgarlikni his qilib, o‘zining burch va ma‘suliyatini chuqur tushunib yetishiga qaratilgan. Bunda ijtimoiy motivlarga bilim egallashning zarurligini anglashini ham kiritish mumkin.

B) tor ijtimoiy motivlar atrofidadilar bilan muloqotda o‘z o‘rniga ega bo‘lish, yoqtirish, obro‘ga sazovor bo‘lish bilan bog‘liq. Bu motivlar insonning muloqotiga bo‘lgan ehtiyojlarini muloqotdan qoniqish hosil qilish, ular bilan munosabat o‘rnata olish, o‘zaro munosabatlarni hissiy jihatdan ta‘minlash kabi ehtiyojlar bilan bog‘liqdir. Shunday motivlardan biri o‘qituvchi, ota-ona va o‘rtoqlari tomonidan faqat ma‘qullash olishga intilishda namoyon bo‘ladigan muvaffaqiyat motividan iboratdir. Ba‘zida pozitsiya motivi o‘quvchida birinchi o‘rin egallash, eng yaxshi o‘quvchilardan biri bo‘lishga intilishida namoyon bo‘luvchi “obro‘-e‘tibor” yoki “porloq kelajak” motivi sifatida ham qaraladi. Pozitsiya motivi guruh yoki jamoada yetakchilik qilish, turli o‘quvchilarga ta‘sir o‘tkazish orqali peshqadamlikka erishishiga intilishida namoyon bo‘luvchi o‘z-o‘zini tasdiqlash motivi sifatida namoyon bo‘ladi.

C) ijtimoiy motivlarning ijtimoiy hamkorlik deb nomlangan turida o‘quvchi boshqalar bilan muloqotda bo‘lishni xohlabgina qolmay, balki o‘qituvchilar va do‘stlari bilan hamkorlik qilish usullarini anglab tahlil qilib, uning shakllarini doimo takomillashtirib borishga intiladi. Bu motivlar shaxsning kamolga intilishi o‘z-o‘zini tarbiyalashda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.



Motivlar birinchidan, o'quv faoliyatiga undasa, Ikkinchidan, Maqsadga erishish uchun zarur yo'l va usullar tanlashdayordam beradi. O'quv motiv masalasi ko'pgina horijlik psixologlar tomonidan tadqiq etilgan. Motivatsiyadan keying tushuncha bu-Ehtiyoj hisoblanadi.

Ehtiyoj - shaxsning holati sifatida ehtiyoj har doim inson tanasining yetishmasligi bilan bog'liq bo'lgan norozilik hissi bilan uzviy ravishda bog'liq hisoblanadi. Insoning ehtiyojlarining asosiy xususiyatlari- kuch, yuzaga kelish chastotasi va qodirish usullaridir.

O'zining motivatsion ma'nosidagi ehtiyojdan keying ikkinchi tushuncha bu: maqsaddir. Maqsad bevosita ongli natija deb ataladi, u hozirgi vaqtda haqiqiy ehtiyojni qondiradigan faoliyat bilan bog'liq harakatlar turi hisoblanadi. A.N.Leontiev Moskva Rossiya imperiyasi psixologi, faylasufining fikricha, biz faqat tushunadigan va real harakatdagi motivlarga duch kelamiz. Bola ko'pincha qancha o'qish zarurligini yaxshi tushunadi, lekin bu narsa ham unga o'quv faoliyat bilan shug'ullanish uchun turtki bo'la olmaydi. Bu bilish mayl shaklini olsagina biz real harakatdagi motiv bilan ish ko'rgan bo'lamiz. Faqat tushuniladigan motivlarga ma'lum sharoitda harakatdagi motivlar shaklini oladi. Bu narsa motivatsiyasini qayta qurish uchun jiddiy ahamiyatga egadir. Maktabning vazifasi ham bola motivatsiyasini qayta qurishdan iboratdir. L.N.Bojovich Sovet psixologi, L.Vygotskiy shogirtining fikricha ta'limni motivatsiyalash muammosi bo'yicha o'z oldiga o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabati, psixologik aspektlariqanday maydonga chiqadi, degan masalani hal qilishni maqsad qilib qo'yadi. Bu munosabatning psixologik mohiyatini ochadigan muhim jihatlaridan biri «o'quvchilar o'qish faoliyatini belgilayotgan motivlarning yig'indisi hisoblanadi. Bunda ta'lim motivlari deganda, biz bola nima uchun o'qiyotganligini yoki boshqacha aytganda, nima uchun o'qishga majbur qilishni tushunamiz». Dispozitsiya(motivlar), ehtiyojlar va maqsadlar insonning motivatsion sohasining asosiy tarkibiy qismidir. Motivatsion sohaning kengligi deganda har bir darajada taqdim etiladigan motivatsion omillarning-xilma-xillik (motivlar), ehtiyojlar va maqsadlarning xilma-xilligi tushuniladi. Inson turli xil motivlar, ehtiyojalar va maqsadlarga ega bo'lishi shart va zarur. Motivatsiya haqiqatan ham bu keng Dunyomizda eng katta ehtiyojlarimizdan biri bo'lib kelmoqda. Misol uchun orzuvingizga intiling va uni hayotingizga Maqsad qilib olib kiring. Bo'lmag'ur fikrlarga taslim bo'lmaydigan, o'z maqsadi sari dadil intiluvchanlikni, qo'llovchi yagona shaxs bu - sizning o'zingiz. Agar siz o'z maqsadingiz sari intilib, uni hayotingizga olib kirish uchun kurashmas ekansiz, uni hech kim siz uchun aslo bajarmaydi. Hayolingizda "Bu ishni bajarishga hali vaqt bor. Shoshilmaslik kerak" degan aldoqchi fikr uyg'onsa, har qanday yangi ishni, reja va loyihani amalga oshirish uchun sizga qulay bo'lgan vaqt hech qachon kelmaydi. Siz bajarishni hozir, ha, hozir boshlang. Kutmang. Aslo kelajagingiz sari qo'l siltab voz kechmang. Aksincha, yengni shimarib, astoydil harakat qiling. Siz kim bo'lishni xohlasangiz o'sha odamga aylana olasiz. Siz butun hayotingiz davomida oldingizga buyuk maqsadlarni qo'yib amalga oshirishga to'la haqlisiz. Ha, siz hayotingizni jozibali o'tqazish imkoniyatiga egasiz. Siz xohlagan vaqtingizda qanday hayotni orzu qilsangiz shunga erisha olasiz. Albatta bu maqolani o'qib turgan har bir inson buni uddalaydi, faqat harakat qilishdan to'xtamang o'z maqsadlaringizni shu bugundan belgilang va shu maqsad sari olg'a intiling hecham harakatdan to'xtamang yiqildingizmi qayta turing yana qayta uring yana yiqildingizmi yana harakat qilib Emaklang(O'rmalab) va oz maqsadingizga eshirmaguncha hecham to'xtamang Joningiz 0,1% qolgincha faqat va faqat harakat qiling va siz buni udalaganingizdan so'ng sizni chetdan kuzatib turganlar sen buni qanday uddalading deb so'rasalar ikki qo'lim va ikki oyog'im orqali deb javob bering.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Илин Е.Р. Мотивация и мотивы. – СПб: Изд-во Питер. 2000.
2. Маркова А.К. и др. Формирование мотивации учения. – М.: Просвещение.
3. Маркова А.К. Проблема формирования мотивации учебной деятельности.
4. Зимняя И.А Педагогическая психология. М., 2012.
5. Маркова А.К., Матис Т.А., Орлов, А.В. Формирование мотивации учения. М., 2010.
6. G'oziyev E.G'., Jabborov A.. Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi. T. 2003. 55-bet.



## TA'LIM JARAYONIGA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

**Begmatova Dilfuza**

*O'zbekiston Milliy universiteti kafedra mudiri.*

**Abdiraxmonov Abdig'ani**

*O'zbekiston Milliy universiteti talabasi.*

**Abduvaitov Otabek**

*O'zbekiston Milliy universiteti talabasi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim jarayoniga innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashdagi muammolar tahlil qilingan va ularni rivojlantirish omillari to'g'risida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'z:** innovatsion ta'lim texnologiyalari grafik organayzirlar, muommoli ta'lim texnologiyalari, kreativ texnologiyalar, didaktik o'yinlar, texnologizatsiya.

**Annotation:** This article analyzes the problems of the introduction of innovative educational technologies in the educational process and provides information on the factors of their development

**Key words:** problem-based learning technologies, creative technologies, didactic games, technology (technical map).

**Аннотация:** В данной статье предоставляется проблемы внедрения инновационных образовательных технологий в образовательный процесс и приводится информация о факторах их развития.

**Ключевые слова:** инновационные образовательные технологии – графические органайзеры, технологии проблемного обучения, креативные технологии, дидактические игры, технологизация.

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limning dunyo ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi, ta'limda kredit-modul tizimi amaliyoti joriy etilayotganida demokratiyalash va insonparvarlashtirish jarayonlarining rivojlanishi ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarga yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda.

«Ta'lim to'g'risidagi qonun»da zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o'zlashtirish zarurligi ko'p marta takrorlanib, ularni oliy o'quv yurtlariga olib kirish zarurati uqtirilgan.

Olib borilgan tahlillarning ko'rsatishicha, nega bugungi kunga kelib, zamonaviy pedagogik texnologiyaga qiziqish shunchalik darajada kuchaydi, degan mulohaza tug'ilishi tabiiy. Jamiyatimizga qanchadan-qancha bilimli va malakali kadrlarni etishtirib kelgan pedagogikaning o'ziga xos uslublari mavjud. Pedagogik jamoatchilikning aksariyati mana shu yo'ldan bormoqda, ammo mustaqil va kelajak sari intilayotgan jamiyatga bu yo'l kutilgan samara bilan xizmat qila olmaydi. Chunki buning zamirida ma'lum sabablar mavjud, ya'ni;

1. Dunyoning eng rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olish uchun, aholining ta'lim darajasini samarali jadallashtirish va uning samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishning zarurligi;
2. Fan-texnika taraqqiyotining yuqori darajada rivojlanganligi natijasida axborotlar tizimi hajmining tobora ko'payib borayotganligi;
3. Zamonaviy texnika va texnologiyalarni ta'limga tatbiq etish, ta'lim jarayonini kompyuterlashtirish, o'quv-tarbiya jarayonida axborot texnologiyasi va texnik vositalardan keng foydalanishga erishishi;
4. Talaba va professor-o'qituvchi faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish, o'qituvchi ta'lim maqsadi va mazmunini puxta bilishi, ta'lim usullari, metodlari va vositalarini yaxshi



- egallagan bo‘lishi, talabning qiziqish va intiluvchanligini to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish lozimligi;
5. Professor-o‘qituvchilar ta‘lim jarayonini yuqori darajada, samarali tashkil etish uchun maqsad va vazifalarni aniq belgilashi, ta‘lim natijasini oldindan qayd etishi, o‘quv predmetlarini to‘liq o‘zlashtirishga erishish uchun zaruriy ta‘lim vositalari, shart-sharoitlarini tayyorlashga erishishi zarurligi;
  6. O‘quv jarayoni uchun zarur moddiy-texnik bazaning yaratilgan bo‘lishligi;
  7. Ta‘lim-tarbiya jarayoni natijalarini xolisona va ob‘ektiv baholash, talabalarning bilim va malakalarini egallash jarayonini nazorat qilish va baholashni avtomatlashtirishga erishilganligi;
  8. O‘sib kelayotgan yosh avlodni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg‘or bilim berish usuli hisoblangan ob‘ektiv borliqqa kompleks yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishi kabi muammolardadir.

Demak, innovatsion ta‘lim texnologiyasi yuqorida keltirilgan shartlarning barcha talablariga javob beradigan ta‘limiy tadbir hisoblanadi.

Bugungi kunda pedagogik texnologiyani tushunish uchun asosiy yo‘l-aniiq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta‘lim oluvchi bilan muntazam o‘zaro aloqani o‘rnatish, zamonaviy pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta‘lim oluvchining xatti-harakati orqali o‘qitishdir. O‘zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o‘quv jarayonini to‘liq qamrab olishi kerak. Ayniqsa ta‘limda kredit-modul tizimi joriy etilayotgan oliy o‘quv yurtlarida talabalarga mustaqil ta‘lim bo‘yicha topshiriq va ko‘rsatmalar berilganda turli xil metodlardan foydalanish talab etiladi.

Demak, real ta‘lim amaliyoti ilg‘or pedagogik texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etish ta‘lim sifatini oshirishga xizmat qilishini to‘liq tasdiqlamoqda. Biroq ilg‘or pedagogik texnologiyalarni oliy ta‘lim jarayoniga qo‘llash bilan bog‘liq bir qator muammolar ham ko‘zga yaqqol tashlanmoqdaki, ularni e‘tiborga olish va hal etish ta‘lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bunday dolzarb muammolar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Oliy ta‘limda qo‘llash uchun mo‘ljallangan interfaol metodlar tasnifi va ularning mazmun-mohiyatini yoritib beruvchi o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarining yetarli emasligi. Garchi respublikamizda pedagogik texnologiyaga doir qator o‘quv qo‘llanmalar yaratilgan bo‘lishiga qaramasdan, mazkur o‘quv qo‘llanmalarda oliy ta‘lim jarayonida qo‘llash mumkin bo‘lgan interfaol metodlar va ularni qo‘llashga doir metodik ko‘rsatmalar aniq o‘z ifodasini topmagan. Mazkur holat oliy ta‘lim professor-o‘qituvchilarining interfaol metodlarni qo‘llashga doir ma‘lumotlardan to‘la xabardor bo‘lmaligiga olib kelmoqda. Oliy ta‘lim muassasalaridagi ta‘lim jarayonini kuzatish professor-o‘qituvchilar keng qo‘llaydigan interfaol metodlar juda kamchilikni tashkil etishini ko‘rsatadi.

2. Professor-o‘qituvchilar interfaol metodlarni qo‘llashda metodik qoidalarga to‘liq rioya etishlari lozim. Boshqacha aytganda, interfaol metodlar fanning o‘ziga xos xususiyati, mavzuning maqsad va vazifalari, talabalarning yosh xususiyatlari, mashg‘ulot shakli, auditoriyada maqbul shart-sharoitning mavjudligi kabi jihatlarni aniq hisobga olgan holda qo‘llash lozim. Oddiy bir misol: professor-o‘qituvchilar, ayniqsa, yosh o‘qituvchilar deyarli har bir mashg‘ulotida klaster metodini qo‘llaydi. Eng qizig‘i, mazkur metod orqali o‘quv maqsadiga erishish mumkin yoki mumkin emasligidan qat‘iy nazar undan foydalanish holati ko‘p uchraydi. Bundan tashqari, uch-to‘rt doirani chizish orqali tarmoqlar hosil qilish ham mumkin emas. Mazkur metod talabalarning ma‘lum bir narsa-hodisa, jarayon yoki tushunchaga oid fikrlarini umumlashtirish, ularni tizimlashtirish maqsadida qo‘llaniladi. Ana shu asosdan kelib chiqqan holda, klaster metodidan o‘tilgan materialni mustahkamlash bosqichidagina foydalanish mumkin. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytganda, interfaol metoddan noo‘rin foydalanish ta‘lim samaradorligini oshirishga emas, aksinchi mashg‘ulot sifatini pasaytirishga olib keladi.

3. Ta‘lim texnologiyalarini yaratish uchun professor-o‘qituvchilar o‘quv maqsadlarini pedagogik vazifalarga aylantirish, uni kutiladigan natijaga mos holda aniqlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishlari lozim. Barcha mashg‘ulotlarning texnologik ishlanmalarini yaratish jarayonida identiv o‘quv

maqsadlarini vazifalarga aylantirish uchun bir xil fe'l turkumidagi so'zlar (ma'lumot berish, ochib berish, yoritib berish, izohlash kabilar)dan foydalanish o'rinli bo'lmaydi. Buning uchun professor-o'qituvchilar Blum taksonomiyasini amaliyotda qo'llash ko'nikma va malakalariga ega bo'lishlari talab etiladi. Identiv o'quv maqsadlarini o'quv vazifalariga aylantirish ko'nikmasiga ega bo'lmasdan turib, mashg'ulot jarayonini muvafaqqiyatli loyihalashga erishish mumkin emas.

4. Oliy ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish an'anaviy o'qitish tizimining muqobili sifatida xizmat qilishi lozim. Chunki barcha auditoriya mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llashga zaruriyat yo'q. Eng asosiysi, texnologik yondashuv asosida o'quv mashg'ulotida kutilgan natijaga erishilishi lozim. Mazkur jarayonda maqsadga erishishga imkon beruvchi istalgan maqbul metodlardan foydalanish mumkin. Shuningdek, professor-o'qituvchilarning texnologik yondashuvni noto'g'ri talqin etgan holda, ma'ruza mashg'ulotlarini talabalarning o'zlari tomonidan o'tib berilishini talab qilishlari ham maqsadga muvofiq emas. Ma'ruza mashg'ulotiga nisbatan bunday yondoshuv uning samaradorligini ta'minlashga to'liq xizmat qilmaydi. Oliy ta'limda o'qitishning asosiy shakli sifatida ma'ruzaga qo'yiladigan metodik, shu jumladan ma'ruzachiga qo'yiladigan maxsus talablar mavjud. Mazkur talablarning to'liq bajarilishi professor-o'qituvchi (lektor) orqaligina samarali amalga oshishi mumkin. Faqat anjuman-ma'ruza mashg'ulotlarini talabalarning ma'ruzalari asosida tashkil etish imkoniyati mavjud va bu sohada respublikamizda katta tajriba to'plangan. Bunda ham anjuman-ma'ruzani tashkil etish va o'tkazish talablariga rioya qilinishi lozim.

Oliy ta'limda ma'ruza mashg'ulotlariga alohida ahamiyat beriladi. Professor-o'qituvchilar ma'ruza mashg'ulotlarining bir nechta usullaridan foydalanishlari mumkin. Shu usullardan samarali foydalanilganda ham innovatsion texnologiyalardan foydalanildi deb hisoblash mumkin. Chunki ma'ruza turlaridan anjumanli, binar, muammoli, ko'rgazmali, maslahatli, provakatsiya (oldindan rejalashtirilgan xatoliklar bilan mashg'ulot) ma'ruzalardan foydalanish ham professor-o'qituvchidan katta ma'suliyat, tayyorgarlik, ijodiy yondoshuv, ko'p mehnat talaba qiladi. Masalan, fizika mutaxassislari talabalariga dars o'tish jarayonida bir qator mashg'ulotlar, ya'ni ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari o'tkaziladi. Ushbu mashg'ulotlarning har biri alohida xususiyatga ega.

Hozirgi paytda ko'plab oliy ta'lim muassasalari laboratoriya invertarlari bilan shuningdek, kompyuter texnikasi hamda innovatsion ta'lim berishga imkoniyat beruvchi elektron doskalar va multimedialangan uskunalar bilan jihozlanmoqda. Bu esa ta'lim jarayoniga innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash imkonini beradi va ta'lim sifati samaradorligiga erishiladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, oliy ta'lim tizimida innovatsion ta'lim texnologiyalarni qo'llash samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi metodik vazifalarni muvafaqqiyatli hal etish lozim deb hisoblaymiz:

1) professor-o'qituvchilar innovatsion ta'lim texnologiyalarining "interfaol metod", "texnologiya", pedagogik texnologiya kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini aniq tushunib olishlari zarur. Mazkur tushunchalarning mohiyatini to'g'ri anglay olmaslik ularni qo'llashda ko'plab metodik qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Oliy ta'limda asosiy e'tibor o'qitish jarayonini loyihalash (texnologik model) va rejalashtirish (texnologik xarita)ga, ya'ni texnologizatsiyaga qaratilishi kerak;

2) oliy ta'limda fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanishda metodik qoidalar va ko'rsatmalarga rioya qilinishi kerak. Aniq metodik ko'rsatmalarga rioya etish orqali interfaol metodlarni samarali qo'llash imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa ta'lim sifatining oshishiga xizmat qiladi;

3) fanlar bo'yicha ta'lim texnologiyalarini yaratishda xilma-xillik, ijodiylik, innovatsion yondashuvlarga asoslanish, bir qolipga tushib qolishdan saqlanish maqsadga muvofiq. Mazkur jarayonda fanlarning, mashg'ulot shakllari, mavzularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yondoshish o'rinli bo'ladi.

Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishdagi muammolarni bartaraf etish uchun professor-o'qituvchilarga mustaqil ishlash, darsga tayyorgarlik ko'rish uchun sharoit



yaratish; xar bir fan sohasi bo'yicha innovator o'qituvchilar tamonidan tayyorlangan va darsda foydalanilgan innovatsion texnologiyalarni keng targ'ib etish, malaka oshirish davomida o'qituvchilarga fanlar kesimida individual yondashish kerak bo'ladi.

Oliy ta'limda talabalarga bilim berish jarayonida va fanlarni o'zlashtirishda baholashda innovatsion ta'lim texnologiyalari grafik organayzirlar, muommoli ta'lim texnologiyalari, kreativ texnologiyalar, didaktik o'yinlar elementlaridan foydalanish kerak.

Ta'limda innovatsion ta'lim texnologiyalardan foydalanish samaradorligi tajribalar asosida o'z isbotini topgan bo'lib, undan voz kechish mumkin emas, ayniqsa ta'limga kredit-modul tizimi joriy etilishi talabalar mustaqil ta'limini baholash va nazorat qilishda, shunday ekan unda yuzaga keladigan yuqoridagi to'siqlarni ilmiy izlanish va tajribalar yordamida bartaraf etib borish lozim. Bu borada respublikamizda juda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda va oshirilgan. Pedagog xodimlarni to'g'ri tanlash, ularning o'z fanini yaxshi biladigan qolaversa, ilg'or innovatsion texnologiyalar bilan qurollangan bo'lishlari zamon talabidir. Albatta olib borilayotgan sa'y-harakatlarimiz tufayli yosh avlodni Prezidentimiz aytganidek yuksak intellektual, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga erishamiz.

#### **Foydalanilgan dabiyotlar:**

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.–T., 2006.
2. D.A.Begmatova "Fizika o'qitish metodikasi" o'quv-uslubiy majmua. T. 2019.
3. D.A.Begmatova, M.Qurbonov Fizika o'qitish metodikasi. O'UM, 2020
4. <https://asaka.alex-its.uz/media/files/articles/444/1522043020.666.pdf>
5. <https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/>.

## BILIM OLISH HUQUQI KAFOLATLARI

*Abduganiyeva Gulruh Mansur qizi*  
*O'zbekiston Milliy universiteti*  
*Ijtimoiy fanlar fakulteti 2-kurs talabasi.*  
*Ilmiy rahbar: y.f.d.professor V.R.Topildiyev.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida “Bilim olish huquqi kafolatlari” qay tarzda tartibga solingani, uning huquqiy asoslari, shuningdek, mamlakatimizda yo'lga qo'yilgan ta'lim tizimi insonlarni ta'lim olish huquqiga ega ekanligi, O'zbekiston Respublikasidagi Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlari, chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslar qay tarzda ta'lim olishlari tahlil etilgan. tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** Bilim olish kafolatlari, ta'lim, Konstitutsiya, bilim olish huquqi, ta'lim tizimi, fuqarolar, Ta'lim to'g'risidagi qonun, davlat ta'lim standarti.

Davlatimiz O'zbekiston Respublikasi Mustaqillikning ilk kunlaridan ta'lim sohasini tubdan isloh qilishni o'zining asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilab oldi. Xalqimiz xohish-irodasi bilan qabul qilingan asosiy qomusimiz barcha sohalar qatori ta'lim tizimini ham sifat va mazmun jihatdan yangi bosqichga ko'tarishda muhim huquqiy asos bo'lib hizmat qilmoqda.

Bilim insonni yuksak darajaga ko'taribgina qolmasdan, u yashayotgan mamlakatni ham yuksaltiradi. Tajriba faqat bilim orqaligina ko'plab muammolarni hal qilish mumkinligini ko'rsatmoqda. Bilimli kishilar ko'p mamlakatlar rivojlanmoqda. Shuning uchun har bir uzoqni ko'zlovchi mamlakat o'z fuqarolarini bilimli bo'lishidan manfaatdor va shu yo'lda harakat qiladi. Fuqarolarning bilimli bo'lishida esa, bilim olish qanday yo'lga qo'yilganligi, unga qanday sharoit-imkoniyatlar yaratilganligi ta'sir qiladi. Bunda ta'lim tizimini qandayligi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

O'zbekistonda har bir shaxsning bilim olish huquqini ta'minlash maqsadida mukammal ta'lim tizimi shakllantirildi va takomillashtirilmoqda.

Konstitutsiyamizning 41-moddasida<sup>1</sup> “Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratida ekanligi belgilab qo'yildi.

Har kim bilim olish huquqiga ega ekanligi, mamlakatda yashovchi barcha aholi, fuqaroligi, millati, irqi, dini, jinsi va boshqalardan qat'iy nazar shu huquqdan foydalanishni bildiradi.

Konstitutsiyada belgilangan bilim olish huquqini O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda yangi qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni orqali ta'minlanadi. Qonunda ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar, ta'lim tizimi, ta'lim turlari aniq belgilab qo'yildi.

Ta'limning har bir bosqichi uchun davlat ta'lim standartlari belgilangan. Shu asosda ta'lim muassasalari uchun yo'nalishlariga mos ravishda o'quv rejalari tuzilib, shular asosida bilim berish yo'lga qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'limni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqdalar. “Yangi O'zbekiston maktabdan boshlanadi”, “Bilimsiz avlodni kelajagi yo'q” degan so'zlari uzoqni ko'zlanganidan dalolatdir.

Ta'limning har bir bosqichi uchun davlat ta'lim standartlari belgilangan. Shu asosda ta'lim muassasalari uchun yo'nalishlarga mos ravishda o'quv rejalari tuzilib, shular asosida bilim berish yo'lga qo'yilgan.

Mamlakatimizda keyingi vaqtlarda ta'limning barcha bosqichlarida, yangi pedagogik texnologiyalar asosida bilim berishni tashkil qilishga alohida e'tibor berilmoqda.

O'zbekistonda yo'lga qo'yilgan ta'lim tizimi insonlarni ta'lim olish huquqini ta'minlay olish qobiliyatiga ega.

---

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.



Konstitutsiyada bepul ta'lim olish davlat tomonidan ta'minlanishi belgilangan. Mamlakatimizda boshlang'ich, umumiy o'rta ta'lim, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda ta'lim bepul bo'lib barcha harajatlar davlat hisobidan ta'minlanadi.

Oliy ma'lumot olishda (bakalavr va magistratura) bepul ta'lim bilan kontrakt-to'lov asosida ta'lim olish qo'shib olib boriladi. Ya'ni oliy o'quv yurtlariga qabul qilinadigan talabalar belgilangan kvotalar bo'yicha davlat hisobidan ta'minlash asosida bepul ta'lim oladilar. Bularni kirish sinovlarida yuqori natijaga erishgan o'quvchilar tashkil etadi. Davlat byudjeti doirasida aniqlangan miqdor uchun yetarli ball to'play olmagan talabgorlar orasidan yuqori ko'rsatkichlarga erishganlari o'z ixtiyori bilan to'lov-kontrakt asosida oliy o'quv yurtiga qabul qilinishi mumkin. To'lov miqdori davlat tomonidan belgilanadi. To'lovni talabgorlar shaxsan, yoki ota-onalari jamg'armasidan to'lashi mumkin. Davlat tashkilotlari byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan, nodavlat tashkilotlari esa o'z jamg'armasidan o'z xodimlarini o'qishi uchun belgilangan to'lov summasini to'lashi mumkin.

Fuqarolarning bilim olish huquqini ro'yobga chiqarish uchun davlat xohlovchilarga kredit berishni yo'lga qo'ygan.

Shunday qilib, bilim olish huquqi bepul yoki to'lov asosida ta'lim olish bilan amalga oshadi.

Maktab ishlari davlat nazoratida degan Konstitutsiyaviy qoida ta'lim muassasalarini mulkchilik shaklidan qat'iy nazar (ular davlat muassasasi bo'ladimi, xususiyimi, chet davlatlarga qaraydimi) davlat tomonidan nazorat qilinishini bildiradi. Davlat ta'lim muassasalari to'laligicha davlat tomonidan boshqarilib, nazorat qilinsa, nodavlat ta'lim muassasalari o'quv dasturlari va rejalarini talab darajada bo'lishi, bilim berish saviyasini yuqori bo'lishi nazorat qilinadi. Attestatsiya (sinovlardan o'tgan) natijalariga ko'ra nodavlat ta'lim muassasalari Akkreditatsiya qilinadi va litsenziya beriladi. Litsenziyaga ega o'quv muassasalari davlat tomonidan tasdiqlangan va yuridik kuchga ega bitiruv haqidagi hujjatlar berish huquqiga ega.<sup>2</sup>

Bugungi kunda ta'lim olish huquqini takomillashtirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PF-5198-sonli "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 25-yanvardagi PF-5313-sonli "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-sonli "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi, 2018- yil 5-sentabrdagi PF-5538-sonli "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ularda bugungi kun yangi islohotlar bosqichida ta'lim tizimini rivojlantirishning dolzarb masalalari belgilab berilgan.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi " Ta'lim to'g'risida"gi qonunda ham bilim olish huquqining kafolatlari keltirib o'tilgan.

Ushbu Qonunning maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Shuningdek, qonunning 5-moddasida<sup>3</sup> Ta'lim olish huquqi alohida ta'kidlab o'tilgan.

Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi.

Ta'lim olish huquqi:

- ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish;
- ta'lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va o'quv dasturlarini innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda amalga oshirish;
- ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan holda (sirtqi, kechki, masofaviy) ta'lim olishni tashkil etish;
- kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'limni va boshlang'ich professional ta'limni bepul olish;

<sup>2</sup> O.T.Husanov Konstitutsiyaviy huquq 2020-yil. Darslik. B-135.

<sup>3</sup> Ta'lim to'g'risidagi qonun.

- oilada yoki mustaqil o'qish orqali ta'lim olgan fuqarolarga, shuningdek umumiy o'rta ta'lim olmagan shaxslarga akkreditatsiyadan o'tgan davlat ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlanadi.

Chet ellik fuqarolar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga va qonunchiligiga muvofiq O'zbekiston Respublikasida ta'lim olishga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ta'lim olish uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega.

Bizning fikrimizcha, Bilim olish huquqining kafolatlanishini yanada rivojlantirish uchun quyidagilarni kiritish mumkin:

“Ta'lim to'g'risida” gi qonun, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida” gi, ta'lim sohasiga tegishli bo'lgan barcha qonun hujjatlarini umumlashtirgan holda umumiy “O'zbekiston Respublikasi Ta'lim Kodeksi”ni ishlab chiqish ijobiy natija beradi. Ushbu kodeksda yoshlarni bilim olishiga to'sqinlik qilayotgan fuqarolar uchun javobgarlik choralarini kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O.T.Husanov Konstitutsiyaviy huquq 2020-yil. Darslik. B-135
3. Ta'lim to'g'risidagi qonun



## TABIY GEOGRAFIYANING TAKRORLASH DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI BILIM VA KO‘NIKMALARINI OSHIRISH VA ULARNI FANGA YO‘NALTIRISH USULLARI.

*Abdugofurov Shoxjaxon Muxammadqobul o‘g‘li*  
*Andijon Davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti talabasi.*

**Anotatsiya:** Bilim, ko‘nikma va malakalarni tekshirish — ta‘limning tarkibiy qismidir. Uning asosiy vazifasi — o‘quvchilar bilimini va ularning fan asoslarini o‘zlashtirish yo‘lidagi imkoniyatlarini aniqlashdan iboratdir. Tekshirish va baholash o‘quvchilarning burch va ma’suliyatlarini mustahkamlaydi, darslarga bo‘lgan e’tiborni oshiradi, o‘quvchilar Materik va okeanlar tabiiy geografiyasi kursiga bo‘lgan e’tiborni oshiradi. Ularda o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni muntazam bajarib borishga o‘rgatadi. O‘z kuch va imkoniyatiga ishonishga undaydi. Ushbu maqolada o‘quvchilarni 6-sinf Materik va Okeanlar tabiiy geografiyasi kursining takrorlash darslarida o‘quvchi-yoshlarni darsda olgan bilim va ko‘nikmalarini nazorat qilish va o‘qituvchi tomonidan baholash uchun qo‘llaniladigan metodlar haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Materik va Okeanlar tabiiy geografiyasi, og‘zaki tekshirish, yordamchi savollar, individual so‘rash, yozma tekshirish, geografik diktant, amaliy tekshirish usuli, topografik diktant, kartalarni solishtirish, kontur kartada beriladigan topshiriqlar, asboblarda yordamida ko‘nikmalarni tekshirish.

**Анотация:** Проверка знаний, умений и навыков — составляющая образования. Его основная задача — выявить знания учащихся и их возможности на пути овладения основами науки. Проверка и оценка укрепляют чувство долга и ответственности учащихся, повышают внимание к урокам, повышают внимание учащихся к курсу естественной географии материков и океанов. В них он учит систематически выполнять задания, данные учителем. Побуждает верить в собственные силы и возможности. В данной статье речь пойдет о методиках, применяемых на повторных уроках курса естественной географии материков и океанов 6 класса для контроля и оценки учителем знаний и умений, полученных учащимися-молодежью на уроке.

**Ключевые слова:** естественная география материков и океанов, устная проверка, вспомогательные вопросы, индивидуальное анкетирование, письменная проверка, географический диктант, метод практической проверки, топографический диктант, сопоставление карт, задания на контурной карте, проверка навыков с помощью приборов.

**Annotation:** Verification of knowledge, skills and qualifications is a component of Education. Its main task is an expression from determining the knowledge of students and their opportunities for mastering the basics of science. Examination and assessment will strengthen students' commitment and responsibility, increase students' attention to the lessons, increase students' attention to the course of natural geography of the mainland and oceans. They teach how to regularly perform the tasks assigned to them by the teacher. Motivate to believe in your own strength and capacity. In this article, we will talk about the methods used by the teacher to control and evaluate the knowledge and skills acquired by the pupil-youth in the lessons of repetition of the 6-th class course of natural geography of the mainland and the oceans.

**Keywords:** natural geography of the mainland and Oceans, verbal examination, auxiliary questions, individual asking, written examination, geographic dictation, practical method of verification, topographic dictation, comparison of Cards, assignments given on the contour card, examination of skills with the help of tools.

### **Kirish.**

Ma'lumki, fanda olingan bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish – hozirgi kunda ta'limning tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi – o'quvchilarni darslarda olgan bilimlarini va ularning ushbu fan asoslarini o'zlashtirish yo'lidagi imkoniyatlarini aniqlashdan iboratdir. Tekshirish yangi fan mavzularini o'rganishda nimalarga ko'proq e'tibor berish kerakligini ko'rsatib beradi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: noan'anaviy baxs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon eta olish va uni ifodalay olish imkoniyati, ma'ruza darslarining soni kamligi lekin amaliy mashg'ulotlar va takrorlash darslarining soni ko'pligi, o'quvchi-yoshlarga tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik va katta guruhlariga sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va shunga o'xshash boshqa metodlardan iboratdir. Interfaol metodlar ta'lim-tarbiyaviy yo'nalishdagi ishlar samaradorligini oshirishd o'ziga xos ahamiyatga ega.

Mazkur yangi pedagogik texnologiyaning afzalligi zamon sinovidan o'tib, interfaol darsning sifat va samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi bugungi kunda o'z isbotini topib bormoqda.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya.**

An'anaviy ta'limdagi bir tomonlamalik xalq ta'lim tizimidagi faqat ma'ruza mashg'ulotlarida emas, amaliy, takrorlash darslarida ham ustuvorlik qilsa, maktab ta'limida ham bu borada amaliy mashg'ulot darslarida ustuvorlik qiladi deb aytganda ayni muddao bo'ladi. Unga ko'ra 6-sinf Materiklar va Okeanlar tabiiy geografiyasi kursining “takrorlash” mavzusini maktab ta'limida “yetkazib beruvchi” rolida endi faqat o'qituvchi emas, balki o'quvchi namoyon bo'ladi. O'quvchi asosan, o'zi o'zlashtirgan bilimlarini namoyish etadi (so'zlab beradi), o'qituvchi esa uning fikrlarini tinglaydi, zarur o'rinlarda esa savollar bilan ham murojaat qiladi. Odatiy ta'limdagi vaziyatda o'quvchilar guruhi (jamoasi) butunlay sust ishtirokchiga ya'ni tinglovchiga aylanib qoladi. Bunday ta'limda bir qarashda o'qituvchi tomonidan uzatilayotgan axborotlarning qabul qilinishi o'quvchilar guruhi (jamoasi) uchun bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatini yaratyotgandek tuyulsada, shunday tarzda qabul qilingan bilimlar (axborotlar) psixologik tadqiqotchilarning fikrlariga ko'ra juda tez unutilar ekan. Buni quyidagi tadqiqotlar orqali ko'rib chiqamiz.

X.B.Nikadamboyeva, D.I.Ro'ziyeva, Z.A.Qarabazovlar o'zining “O'rta Osiyo geografiyasi”ni interfaol metodlardan foydalanib o'qitish imkoniyatlari (Uslubiy qo'llanma) kitobida amerikalik psixolog olimlar R.Karnikau va F.Makelrouning o'rganishlariga ko'ra shaxsning tabiiy fiziologik-psixologik imkoniyatlari muayyan shakllarda o'zlashtirilgan bilimlarni turli darajada saqlab qolish imkonini beradi. Ya'ni shaxs (o'quvchi yoki talaba): manbani o'zi o'qiganda 10 foiz, ma'lumot (axborot)ni eshitganda 20 foiz, sodir bo'lgan voqea, xodisa yoki jarayonni ko'rganida 30 foiz, sodir bo'lgan voqea, xodisa yoki jarayonni ko'rib, ular to'g'risidagi ma'lumotlarni eshitganda 50 foiz, ma'lumot (axborot)larni o'zi ulashganda (so'zlaganida, bilimlarini namoyish etganida) 80 foiz, o'zlashtirilgan bilim (ma'lumot, axborot)larni o'z faoliyatiga tatbiq etganida (nazariyotda o'rgangan bilimlar axborot va ko'nikmalarini amaliyotga joriy etganida) 90 foiz hajmdagi ma'lumotlarni yodda saqlash imkoniyatiga ega ekanliklarini yozgan.

### **Muhokama.**

Materiklar va Okeanlar tabiiy geografiyasi kursida o'quvchilar saviyasini yanada o'stirish uchun bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish usullarini takomillashtirish zarur hisoblanadi. Ushbu tekshirishlar muntazam ravishda maktab dasturlari talablariga javob beradigan xarakterda bo'lishi lozim. O'quvchilarning bilim va ko'nikma va malakalarini tekshirishda quyidagilarni nazarda tutish kerak:

1) Tekshirish vaqtida Materiklar va Okeanlar geografiyasi kursida beriladigan savollar o'quvchilarni faollashtirishda bilimlarini sinflashga, ulardan eng asosiylarini ajratib olishga, fikrlarini o'z so'zi bilan ifoda qila olishiga jalb etadigan darajada bo'lishi kerak;



- 2) Beriladigan savol-topshiriqlar o'quvchilarda hayot bilan bevosita bog'liq bo'lishi lozim. (Masalan, daryo deb nimaga aytiladi? Kim daryoni ko'rgan tasvirlab bering)
- 3) Javob vaqtida o'lka materiallaridan foydalanishni talab etish kerak;
- 4) O'quvchilarga beriladigan savollar qiyosiy harakterda bo'lishi kerak;
- 5) Berilgan savollarga o'quvchilarni javobi to'liq bo'lishi uchun qo'shimcha savollar berib, boshqa o'quvchilarni ham jalb etish mumkin;
- 6) O'quvchilar bilimni tekshirishni geografik o'yinlar, viktorinalar bilan birga qo'shib olib borish ham maqsadga muvofiqdir.

(masalan, Kompyuterda viktorina shakllantiriladi va savolning 4 ta variantdan biri belgilanadi: Yer yuzining umumiy maydoni qancha?)

- ° 510 mln. Km kv
- ° 448.9 ming km.kv
- ° 320 mln. Km.kv
- ° 520 mln. Km.kv

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini asosan uch xil usul bilan tekshiriladi:

- 1) o'g'zaki tekshirish usuli; (savollar berish orqali, viktorina va zakovat o'yinlari va b.);
- 2) Yozma tekshirish usuli (nazorat ishi, konspekt, test sinovi va b.);
- 3) Amaliy tekshirish usuli (tajriba, kuzatish, amaliy va laboratoriya ishlari va b.).

### **Natijalar.**

Yuqorida ta'kidlab, o'tilgan o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini asosan uch xil usullardan tashqari 6-sinf geografiya ta'limini to'g'ri tashkil etish uchun o'quvchilarning avvalolgan bilimlarini muntazam takrorlab borilishi kerak. "Takrorlash geografiya ta'limining asosidir".

O'g'zaki tekshirish ikki xil: yakkama-yakka individual va yoppasiga so'rash usulida olib boriladi.

Individual so'rash – og'zaki tekshirishning asosiy va ko'p qo'llaniladigan turi hisoblanib, ilmiy tasavvurlar va tushunchalar sistemasining qanchalik o'zlashtirganligini tekshirad va o'z fikr-mulohazalarini ifodalash imkoniyatini beradi. So'rashning mazkur usuli o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishi lozim, bu esa Materik va Okeanlar tabiiy geografiyasi fanidan beriladigan savolga bog'liq.

Takrorlash darsida o'quvchilarga asosan uch xil savol beriladi: asosiy, qo'shimcha va yordamchi.

Asosiy savol: Afrika iqlimini tarkib topishida qanday omillar hal qiluvchi rol o'ynaydi?

Qo'shimcha savol: Afrika iqlimining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat.

Yordamchi savol: Atlantika okeani va Afrika relyefi uning iqlimining tarkib topishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?


Materiklar va Okeanlar tabiiy geografiyasi kursida yozma tekshirish usuliga quyidagilar kiradi: nazorat ishi, konspekt, test sinovi, geografik diktant va boshqalar.

Yozma javob uchun beriladigan savollar qisqa, ayni vaqtda tugal javob talab qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Masalan, Afrika iqlimining tarkib topishida qanday omillar muhim ro'l o'ynaydi?

Geografik diktant o'quvchilarni geografik tasavvurlarini kengaytiradi, ularni topqirlik va hozirjavoblikka o'rgatadi. Yozma diktant o'tkazilayotganda uning mazmun-mohiyatiga e'tibor berish lozim.

Amaliy tekshirish usuli. Bu usul geograflarni asboblari (astronomik, meteorologik, gidrometeorologik, topografik), kartalar bilan ishlash, joy planini olish va meteorologik kuzatishga oid ko'nikma va malakalarini tekshirishda qo'llaniladi.

Kun, sana	Soat	Havo harorati, °C hisobida		Havo bosimi, mm Hg hisobida	Shamol		Bulutlilik	Bulut turi	Yogʻin turi	Tabiatdagi boshqa hodisalar
		Kuzatilgani	Oʻrtacha		yoʻnalishi	tezligi				
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
05.09	13:00	+28	—	718	Sh	—		—	—	—

### Xulosa.

Materiklar va Okeanlar tabiiy geografiyasi kursining takrorlash darslarida Oʻquvchilar bilim koʻnimalarini nazorat qilish va baholash usullari mavzusidagi ushbu maqoladan xulosa oʻrnida shuni aytilish joizki, tabiiy geografiya darslarida interaktiv metodlardan foydalangan holda takrorlash darslari oʻtilsa, oʻquvchilarda yodda saqlash va fanga boʻlgan muhabbatini ortiradi. Bu esa oʻquvchilarni vatanparvar shaxs kadr qilib yetishtirishda muhim ahamiyatga ega.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X.B.Nikadambaeva, D.I.Roʻziyeva, Z.A.Karabazov “Oʻrta Osiyo tabiiy geografiyasi”ni interfaol metodlardan foydalanib oʻqitish imkoniyatlari (uslubiy qoʻllanma). Toshkent 2017-yil.
2. Interfaol taʼlim metodlari – Shuhratbek.uz <https://shuhratbek.uz> internet sayti
3. Interfaol taʼlimning nazariy va tashkiliy jihatlari <https://slidetodoc.com> internet sayti.
4. A.Soatov, A.Abdulqosimov, M.Mirakmalov Geografiya (Materiklar va Okeanlar tabiiy geografiyasi). “Oʻqituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2017.
5. “Узбекистон Миллий Энциклопедяси” Давлат илмий нашриёти. Тошкент. 2000.
5. Maktab 6-sinf Materiklar va Okeanlar tabiiy geografiyasi Atlasi.
6. H.Vahobov, N.R.Alimqulov, N.B. Sultanova Geografiya oʻqitish metodikasi (Darslik).

## КОММУНИКАТИВ КОМПЕТЕНЦИЯНИНГ ИЖТИМОЙ- ПСИХОЛОГИК МАСАЛАЛАРИ

*Б.А.Абдуллаев*

*ЎзМУ “Умумий Психология” кафедраси ўқитувчиси.*

*А.Б.Юлдашқулов*

*ЎзМУ “Амалий психология” 2-босқич талабаси.*

**Аннотация:** Мазкур мақола коммуникатив компетенциянинг ижтимоий-психологик масалаларига бағишланган. Шунингдек, мақола матнида коммуникация компетенция тушунчаси, коммуникация феноменига оид тадқиқотлар, мулоқот ва ахборот алмашиш, коммуникациянинг ҳиссий ва ақлий жиҳатлари, мулоқот қилишга доир кўникма ва малакалар, коммуникациянинг фанлараро тадқиқи, коммуникатив компетенциянинг таркибий жиҳатлари каби масалалар ҳам кенг таҳлил этилган.

**Калит сўзлар:** Коммуникация, коммуникатив компетенция, ижтимоий-психология, мулоқот, ахборот алмашиш, оғзаки мулоқот, аксеология, эпистимология, ақлий-ҳиссий таъсир.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются социально-психологические проблемы коммуникативной компетентности. В статье также исследуются понятия коммуникативной компетенции, исследования коммуникационных явлений, коммуникации и обмена информацией, эмоциональных и психических аспектов общения, навыков межличностного общения и коммуникативной компетенции, коммуникативных навыков.

**Ключевые слова:** общение, коммуникативная компетентность, социопсихология, общение, обмен информацией, речевое общение, аксеология, эпистимология, психо-эмоциональное взаимодействие.

**Annotation:** In the state of socialism and psychologically problematic communicative competence. In the state of communication, communicative and communicative competence, communication and observation of information, emotional and psychic aspects of knowledge, navigational mejlichnostnogo obchenchen and communicativenews, communicativny navykov.

**Key words:** communication competence, sociopsychology, observation, obmen informatics, rechecking, acceology, epistemology, psycho-emotional.

Инсон ташки дунёнинг бир қисми бўлиб, у доимо бошқа одамлар ва тизимлар билан турли хил алоқалар ва муносабатларда бўлади, яъни у комуникация жараёнида доим фаол саналади. Ана шундай мулоқот қилишга доир билимлар, кўникмалар, ҳаётий тажриба ва махсус малакалар компетенция тушунчаси билан тушунтирилиб, уни тадқиқ этиш мулоқот ўрнатишга оид кўплаб янги ижтимоий-психологик билимларни юзага келтиради. Тадқиқотчи В.Г.Крыско фикрича, комуникация - бу тирик табиатдаги тизимлар ўртасида маълумот алмашиш ҳодисасидир[1,112]. Бундан фарқли ўларок, психология фанида жамиятнинг коммуникатив маданияти тушунчаси ҳам мавжуд бўлиб, у шахслар томонидан ахборот алмашиш жараёнида шаклланган меъёрлар, қоидалар ва кўникмаларнинг ўзлаштириш жараёни билан тушунтирилади. Коммуникация тушунчаси мазмунини таҳлил этишдан олдин аввало, коммуникация мавзусини ўз ичига олган мулоқот тушунчаси моҳиятига эътибор қаратиш ўринли саналади. Ҳозирга қадар амалга оширилган илмий изланишлар таҳлили шуни кўрсатадики, коммуникация тушунчаси турли фанларда тадқиқ этилган ва турли назарий қарашларга эга илмий категория ҳисобланади. Психолог Ж.М.Глозман хулосасига кўра, агар коммуникация тушунчаси фанлараро тадқиқотлар предмети бўлса, унда у одамлар ўртасидаги ўзаро боғлиқликларнинг бирикмасидир, бу ҳолат комуникация жараёнини ўрганишнинг долзарблигини белгилайди[2,72].



Тадқиқотчи Е.И.Рогов фикрига кўра, коммуникация жараёни - инсонлар ўртасидаги алоқа ўрнатиш жараёни ёки турли хил ишоралар тизимидан иборат ва бунда ишоралар орқали субъектларнинг ўзаро муносабати тавсифланади[3,69].

Демак, биргаликдаги фаолият, яъни маълумотлар алмашишда ўзаро ҳамкорликнинг ягона стратегиялари, инсонлар томонидан бир-бирларини идрок этиш ва тушуниш заруриятидан келиб чиққан ҳолда, коммуникация инсонлар ўртасида мураккаб, кўп қиррали жараёнидир.

Машхур файласуф Платон фикрича, алоқа бу “рационал ва ҳиссий маълумотлар, фаолият, тажриба, билим, кўникма ва қобилиятлар шунингдек, фаолият натижалари билан алмашинадиган субъектларнинг ўзаро муносабатидир” [4,156].

Демак, коммуникация тушунчаси мазмунида одамларнинг амалий ўзаро муносабатлари ва улар томонидан фаолиятини режалаштириши, уни амалга ошириш ва унинг назорати кабилар мужассамдир. Агар муносабатлар “коммуникация” тушунчаси орқали тушунтирилса, унда коммуникация деганда нутқ ва нутқсиз ўзаро таъсир ўтказиш орқали амалга ошириладиган ва алоқада иштирок этадиган шахсларнинг когнитив, ҳиссий ва хатти-ҳаракатлар соҳасидаги ўзаро муносабатлар жараёни тушунилади. Инсонда нутқнинг ривожланишини коммуникация воситаси сифатида тушунтирадиган кўплаб назариялар мавжуд.

Тадқиқотчилар Е.В.Андреенко фикрига кўра, ахборотни ўзлаштиришда мияда маълум бир асос мавжуд. У инсонга берилган ҳар қандай сўзнинг маъносини ўзгартириши шунингдек, бошқа сўларнинг маъноларини яратиши учун туғма қобилиятини белгилайди[5,93].

Бундай назария хатти-ҳаракатлар тушунчаларига мутлақо қарши саналади. Яъни тадқиқотчилар боланинг ривожланиши учун ўзаро таъсирлашиш муҳитини эмас, кўпроқ туғма биологик тузилмалар аҳамиятини эътиборга оладилар.

Тадқиқотчи И.А.Зимняя қарашларига кўра, коммуникация бу - биргаликдаги фаолият шунингдек, инсонлар ўртасида маълумотлар алмашиш эҳтиёжларини англариб, унда ўзаро алоқалар стратегияси, бошқа инсонларни идрок этиш ва тушуниш жараёни ҳам ўрин олган[6,69]. Мазкур таъриф алоқа ва фаолиятнинг бирлигига асосланган бўлиб, “ҳар қандай коммуникация шакли инсонларнинг биргаликдаги фаолиятининг ўзига хослигини англатади.

Юқорида келтирилган таъриф оғзаки мулоқотнинг мураккаблиги ва мукамаллиги, ундаги умумпсихологик қонуниятларининг энг характерли, энг қулай усулларда пайдо бўлиш шакллари тушунишга имкон беради. Бироқ, фаолият билан бир қаторда, мазкур муаммони таҳлил этишга имкон берувчи бошқа психологик ёндашувлар ҳам мавжуд.

Л.В. Мудрик томонидан олиб борилган “коммуникация” жараёнига оид тадқиқотда, кимнинг нима билан алоқа қилгани, қайси восита билан, катта инсонларда коммуникация, кичик болаларда коммуникатив кўникмалар ва унинг динамикаси каби масалалар кенг акс этган[7,148].

Айрим тадқиқотларда маълумот олиш, коммуникатор ва тингловчиларнинг хусусиятлари, коммуникация шароитлари ва воситалари илмий асосда ўрганилган. Ушбу ёндашувнинг марказий тушунчалари сифатида “ахборот”, “тизим”, “ўзаро таъсир” каби тушунчалар қабул қилинган.

Б.Б.Айсмонтас коммуникациядаги шахслараро муносабатларнинг мазмунини ҳисобга олган ҳолда, уни қуйидаги таркибий қисмларга ажаратади[8,89]:

-Норматив қисм, бу коммуникациянинг шахслараро жиҳатини ифодалаб, унда инсонлар ўртасида маълумотлар алмашилади;

-Эпистимологик қисм, бу коммуникациянинг когнитив жиҳати саналиб, объект ва субъектнинг ўзаро бир -бирларини тушуниши акс этади;

-Интерфаол қисм, бу ахборот алмашиш жараёнида шахсларнинг ўзаро муносабатлари, ўзаро мулоқот мотивларини қондиришга қаратилган психологик механизмлар мазмуни саналади.

Юқорида келтирилган таснифдан фарқли ўларок, А.Л. Потеряхина коммуникация жараёнининг қуйидаги жиҳатларини ажратади[9,71]:

-Белгили қисм, бу ерда коммуникация маълум бир белги тизими сифатида тушунилади ва бошқа кишиларга турли хил сигналларни ўзатиш воситаси саналади;

-Аксиологик қисм, бу коммуникация жараёнини қадриятлар алмашинуви сифатида тушунишдир.

Юқорида келтирилган коммуникация жараёнининг таркибий қисмлари таснифининг ўзига хослиги шуки, унда шерикларнинг ўзаро алоқаларидаги ҳис-туйғулари ва кайфиятлари билан боғлиқ бўлган жиҳатлари кўпроқ ҳисобга олинган.

Қундалик ҳаётда инсон болалигиданоқ мулоқот қилишни ўрганади шунингдек, у яшайдиган муҳит ва инсонлар ёрдамида мулоқот кўникмалари ва қобилияти шаклланади. Мулоқот кенг қамровли тушунча бўлиб, намоён бўлишига кўра бир неча турга бўлинади.

Ана шундай масалаларга оид мулоҳазаларни тадқиқотчи А.Л. Потеряхинанинг ишларида кўриш мумкин. Одатда мулоқотнинг икки жиҳати фарқланади. Яни оғзаки ва имо-ишораларга асосланган мулоқот, уни таҳлил этиш психоллингвистикага соҳасига оид жуда қизиқ маълумотларни аниқлаштиради. Оғзаки бўлмаган мулоқот, яъни имо-ишоралар, юз ифодалари, тана ҳаракатлари билан ифодаланиб, у инсон эмоционал ҳолатлари ҳақида маълумот берувчи алоқа тури ҳам ҳисобланади[9,85].

Муайян фаолият тури ва иштирокчиларнинг ўзаро мақомига кўра, коммуникация жараёни қуйидагича рўй беради: бошқарувчи ва бўйсунувчи, яъни бу мулоқот объектларининг индивидуал-психологик хусусиятлари билан боғлиқ фарқлари билан тушунтирилади.

Жамиятдаги инсонларнинг барчаси муайян функцияларни бажарадиган, жамоавий фаолиятнинг турли шаклларида қўлланиладиган ўзига хос таъсир воситаларига эгадир. Тадқиқот ишимизда таъсир воситаларини мулоқотнинг коммуникатив жиҳати сифатида кўриб чиқишни мақсад қилганмиз.

Тадқиқотчи А. Л. Потеряхин ўзининг “Бошқарув психологияси” монографиясида коммуникация тушунчасининг интеграл ва маҳаллий даражасини аниқлайди[9,102]:

- Интеграциялашган даражада – бунда коммуникация инсон учун ҳаётининг фаолият мазмунини таъминлайди. Бу ерда қуйидаги функциялар мавжуд:

1. Тартибга солувчи функция - бу функция ахборотларни тартибга солишга имкон беради. Яъни турли хил объектларнинг ўзаро таъсирларини режалаштириш, мувофиқлаштириш ва оптималлаштиришни амалга оширади;

2. Ижтимоий назорат функцияси – бу мулоқотдаги биргаликдаги ҳаракатлар яхлитлигини ва уни мувофиқлаштиришни таъминлайди;

3. Ижтимоийлаштириш функцияси – бу инсоннинг таълим олши ва маънавий етуклиги учун хизмат қиладиган функцияси саналади;

Демак, тадқиқотимизнинг мақсади мактабгача ёшдаги болаларнинг коммуникатив қобилияти ва унинг шаклланиши муаммоси экан, унинг намоён бўлиши ва унга тўсик бўлувчи омиллар ҳақида тўхталиб ўтишимиз зарур саналади. Коммуникация тушунчаси “лотинча” сўздан олинган бўлиб, “алоқа”, “ахборот”, “хабар бериш” маъноларини англатади. Е.И.Рогов фикрича, алоқа тушунчаси мазмунида қуйидагилар ажратилади[3,69]:

1. Алоқа- ижтимоий муносабатларнинг семантик томони ҳисобланади;

2. Алоқа-маълумотларни шахс томонидан бошқа шахсга ўзатиш жараёни;

3. Алоқа- инсонлар ўртасидаги маданий бирлик;

4. Алоқа - ахборот алмашувчиларни боғлайдиган маълумот канали;

5. Алоқа - маълумот беришдаги ўзаро таъсир ва қабул қилиш қобилияти;

6. Алоқа - маълумотларни узатиш ва олиш жараёни;

7. Алоқа – инсонларнинг бир-бирига ўзаро таъсир ўтказиши, ўз фикрлари ва қизиқишларини алмашиш жараёнидир;

8. Алоқа - инсонларнинг кайфияти ва ҳис-туйғулари акс этган хабар;

9. Алоқа - бир инсоннинг бошқа инсонга ғоя етказиш жараёни;

10. Алоқа - Ахборот олувчи шахснинг билими, бошқаларга ижтимоий муносабати ва хулқ-атвори кабиларни ўзгартирувчи манба.

Юқоридаги таснифдан кўринадики, моҳиятан алоқа феномени маълумот алмашишдир жараёнидир.

Ролларни бажаришда мулоқот субъектлари бири хабар берувчи, инкинчиси хабар олувчи сифатида қаралади.

Баъзи психологик адабиётларда коммуникатив қобилият тушунчаси икки томонлама ҳамкорлик жараёни яъни шахснинг маълумотга муҳтожлик ҳолати деб қаралади.

Е.В. Андриенко инсонлар ўртасидаги алоқа мавжудлигини бир қатор хусусиятлар билан тавсифлади[10,102]:

1. Икки шахс ўртасидаги муносабатларда уларнинг ҳар бири фаол саналади, яъни улар ҳамкорликдаги фаолият субъектлари саналади;

2. Ҳамкорликдаги фаолиятда улар ўзаро таъсир этиш томонлари саналади;

3. Бир шахс бошқа шахс учун ахборот узатувчи тизим саналади.

Инсонлар ўртасидаги алоқа муносабатлари доим ҳам барқарор ривожланишда бўлмайди. Мактабгача ёш даври мулоқотдаги тўсиқлар пайдо бўлишининг айна ёш босқичи саналади.

Л.В.Мудрик фикрича, коммуникатив тўсиқ - бу одамлар ўртасидаги ўзаро бир-бирларини тушунмаслик ҳолатидир. Коммуникатив тўсиқларнинг уч тури ажратилади[7,96]:

- Тушуниш тўсиқ - бу ахборотларни узатиш жараёнида хатоликлар;

- Фонетик тўсиқ - бу тушунарсиз тезкор нутқ, кўп сонли товушлар натижасида пайдо бўлади;

- Семантик тўсиқ – бу кўплаб алоқа иштирокчиларининг фойдаланиши билан боғлиқ хатоликлар;

- Стилистик тўсиқ - нутқ шаклидаги ахборот услубининг мос келмаслиги.

- Мантикий тўсиқ - мантикий тушунишдаги мураккаблик, ёки тинглаётган кишига нисбатан бефарқлик;

- Ижтимоий тўсиқ - маданий тафовутлар яъни диний, сиёсий ва бошқалар. Бунда мулоқотдаги шерикнинг шахс сифатида қабул қилиниши маълум бир касб, миллати, жинси ёки ёши билан боғлиқ тўсиқлар.

- Муносабатлардаги тўсиқ – бир кишининг бошқасига бўлган душманлик ва ишончсизлик хисси.

Демак, мулоқотда шериклар бир-бирларини тушунишлари ва бир хил тилда гаплашишлари ҳамда бир-бирларига ишонилари лозим саналади.

Инсон турли вазиятларда, турли ёш босқичларида яқинлик қилиш кўникмаларига эга бўлишлари шарт саналади. Бир сўз билан айтганда, етарлича ривожланган коммуникатив маданиятга эга бўлган киши, дуч келган фаолиятда самарали меҳнат қила олиши ёки ўқий олиши мумкин ҳисобланади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Крысько В. Г. социальная психология: Схемы и комментарии. – М.: 2001. – 208с.
2. Глозман Ж. М. Общение и здоровье в жизни личности: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Издательский центи «Академия», 2002. – 208с.
3. Рогов Е.И. Психология общения – М.: Гуманит. изд. Центр ВЛАДОС, 2001. – 336с.
4. Словарь по социальной педагогике: Учеб. Пособие для студентов высш. учеб. Заведений / Авт. – сост. Л.В. Мардахаев – М.: Издательский центр «Академия», 2002.
5. Андриенко Е. В. Социальная психология: Учеб. пособие для студ.высш. пед. учеб. заведений / Под. ред. В.А. Слостенина. – 2-е изд., доп.– М.: Издательский центр
6. Зимняя И. А. Педагогическая психология: Учебник для вузов. Изд. второе, доп., испр. и перераб. – М.: ЛОГОС, 2002. – 384с.
7. Мудрик Л.В. Социализация человека: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений.



## БИР НОМАЪЛУМЛИ НОЧИЗИҚ ТЕНГЛАМАНИ ЧЕБЫШЕВ ВА ЭЙТКЕН УСУЛЛАРИДА ЕЧИШ

*Абдуллаев Умиджон Тоҳиржон ўғли,  
Иномиддинов Сардорбек Низомиддинович,  
Настинов Садриддин Тождиддин ўғли.*

**Аннотация:** Ушбу мақолада бир номаълумли ночизик тенгламани Mathcad дастурида тақрибий ечилган.

**Калит сўзлар:** Mathcad, итерация, root

## РЕШЕНИЕ НЕИЗВЕСТНОГО НЕЛИНЕЙНОГО УРАВНЕНИЯ МЕТОДАМИ ЧЕБЫШЕВА И ЭЙТКЕНА

*Абдуллаев Умиджон Тоҳиржон ўғли,  
Иномиддинов Сардорбек Низомиддинович,  
Настинов Садриддин Тождиддин ўғли.*

**Аннотация:** В этой статье, рассмотрено задача решение нелинейных уравнений с помощью программы Mathcad.

**Ключевые слова:** Mathcad, итерация, корень

## SOLVING AN UNKNOWN EFFECTIVE EQUATION BY CHEBISHEV AND AITKEN

**Abdullayev Umidjon Tohirjon o'g'li,  
Inomiddinov Sardorbek Nizomiddinovich,  
Nastinov Sadriddin Tojiddin o'g'li.**

**Annotation:** In this article, is considered task decision nonlinear equations by means of program Mathcad.

**Key words:** Mathcad, iteration, root

Бир номаълумли  $f(x)=0$  кўринишдаги ночизик тенгламани тақрибий ечиш усуллари.

1) *Итерация усули.* Аввало итерация функцияси  $g(x)$  танлаб олинади:

$$f(x) = 0 \Leftrightarrow x = g(x), \quad q = \max \{ |g'(x)|, x \in [a, b] \} < 1 \quad (1)$$

Итерация функцияси  $g(x)$  кўп ҳолларда  $f(x)=0$  тенгламадан унда иштирок этаётган бирорта  $x$  га нисбатан ечиб олишдан келиб чиқади.

Итерация функцияси  $g(x)$  танлаб олинган итерациялар куйидагича қурилади:

$$x^{(k)} = g(x^{(k-1)}), \quad x^{(0)} \in [a, b], \quad k = 1, 2, \dots \quad (2)$$

$$\left| \xi - x^{(k)} \right| \leq q^k \left| \xi - x^{(0)} \right|, \quad \left| \xi - x^{(k)} \right| \leq \frac{q}{1-q} \left| x^{(k)} - x^{(k-1)} \right| \quad (3)$$

2) Учинчи тартибли аниқликдаги Чебышев усули (Ньютон усулининг ривожини)

$$f(x) = 0 \Leftrightarrow x = g(x), \quad g(x) = x - \frac{f(x)}{f'(x)} - \frac{f''(x)f^2(x)}{2f'''(x)}, \quad x^{(k+1)} = g(x^k), \quad k = 0, 1, \dots \quad (4)$$

3) Юкори тартибли Эйткен усули:

$$x_1^{(k+1)} = g_1(x_1^{(k)}), x_2^{(k+1)} = g_2(x_2^{(k)}), |\xi - x_i^{(k)}| = O(h_i^r),$$

$$g(x) = \frac{xg_1(g_2(x)) - g_1(x)g_2(x)}{x - g_1(x) - g_2(x) + g_1(g_2(x))}, x^{(k+1)} = g(x^{(k)}), |\xi - x^{(k)}| = O(h^{2r-1}) \quad (5)$$


Жумладан,

$$g_1(x) = g_2(x) \rightarrow g(x) = \frac{xg(g(x)) - g^2(x)}{x - 2g(x) + g(g(x))}, x^{(k+1)} = g(x^{(k)}), |\xi - x^{(k)}| = O(h^{2r-1}) \quad (6)$$

бу ерда,

$$g(x) = x - \frac{f(x)}{f'(x)} - \frac{f''(x)f^2(x)}{2f'''(x)}$$

Мисол.  $f(x) = x^3 + 5x - 4 = 0$  тенгламани Mathcad дастурида аниқ ечимни  $root(f(x), x)$  функцияси орқали  $uchim = 0.724$  га эришамиз.  $f(x)$  функциянинг графиги куйидагича:



Энди ечими тақрибий ечимини топсак. Бундан  $f(x) = 0$  га тенглаб  $x$  га нисбатан тенглама

$$g_1(x) = \frac{4 - x^3}{5}, g_2(x) = \sqrt[3]{4 - 5x}$$

ешиб  $g_1(x)$  ва  $g_2(x)$  функцияларни хосил қилиб оламиз:

Итерация усулини шартларига кўра  $|g_1'(x)| \leq 1, |g_2'(x)| > 0$  га эга. Демак,  $g_1(x)$  функцияни юқоридаги усулларга қўллаш мумкин.

Юқоридаги мисолни Чебышев усули орқали Mathcad дастури ёрдамида ечимини аниқласак:

Mathcad Professional - [hisoblash matematikasi]

File Edit View Insert Format Math Symbolics Window Help

Normal Arial 10

$$f(x) := x^3 + 5x - 4$$

$$g(t) := t - \frac{f(t)}{\frac{d}{dt}f(t)} - \frac{\frac{d^2}{dt^2}f(t) \cdot f(t)^2}{2 \cdot \left(\frac{d}{dt}f(t)\right)^3}$$

$$t_0 := 0 \quad k := 0..n \quad t_{k+1} := g(t_k) \quad \varepsilon_k := |t_{k+1} - t_k|$$

$t^T$	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
	0	0.8	0.72	0.724	0.724	0.724	0.724	0.724	0.724	0.724

$\varepsilon^T$	0	0.8	0.08	$3.741 \cdot 10^{-3}$	$1.16 \cdot 10^{-5}$	$1.095 \cdot 10^{-10}$	0
-----------------	---	-----	------	-----------------------	----------------------	------------------------	---

Бу усул Ньютон усулисигари катта тезлик билан аниқ ечимга яқинлашаётганини кўрсатиб турибди. Эйткен усулини Mathcad дастури орқали ечимини аниқласак:

Mathcad Professional - [hisoblash matematikasi]

File Edit View Insert Format Math Symbolics Window Help

Normal Arial 10

$$f(x) := x^3 + 5x - 4$$

$$g(t) := t - \frac{f(t)}{\frac{d}{dt}f(t)} - \frac{\frac{d^2}{dt^2}f(t) \cdot f(t)^2}{2 \cdot \left(\frac{d}{dt}f(t)\right)^3}$$

$$G(t) := \frac{t \cdot g(g(t)) - g(t)^2}{t - 2g(t) + g(g(t))}$$

$$n := 10 \quad t_0 := 0 \quad k := 0..n$$

$$t_{k+1} := G(t_k) \quad \varepsilon_k := |t_{k+1} - t_k|$$

$t^T$	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
	0	0.728	0.724	0.724	0.724	0.724	0.724	0.724	0.724	0.724	0.724

$\varepsilon^T$	0	0.728	$3.464 \cdot 10^{-3}$	$2.662 \cdot 10^{-8}$	$2.105 \cdot 10^{-8}$	$2.007 \cdot 10^{-8}$	$4.571 \cdot 10^{-8}$	$4.582 \cdot 10^{-8}$
-----------------	---	-------	-----------------------	-----------------------	-----------------------	-----------------------	-----------------------	-----------------------

Бундан кўришиб турибдики хар икки усулда ҳам тақрибий ечимлар аниқ ечимга катта тезлик билан яқинлашмоқда. Демак, бу усуллардан фойдаланилса, аниқ ечимни топишда самарали натижа беради.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Бахвалов Н.С. Численные методы. - М.: Наука, 1973-Т. 1-632 с.
2. А. Имомов ва бошқалар. Сонли усуллар ва алгоритмлар, ўқув қўлланма Наманган 2012й.
3. Исроилов М.И. Ҳисоблаш методлари. I, II - Т.: Ўқитувчи, 2003; Т.: Иқтисод- Молия, 2008.
4. Имомов А. Ҳисоблаш математикаси (усуллари). Наманган, НамДУ, 2007.- znuz\_749\_20101020110737.zip
5. Имомов А., Эшназарова М., Мелибоев Х. “Ҳисоблаш усуллари” масофавий курси. Ўзб. Давлат Патент гувоҳномаси, ВГУ №00280, Тошкент, 2012.
6. Имомов А. Ҳисоблаш усуллари ва MathCAD. Наманган, НамДУ, 2011.-88 б.
7. Имомов А. Решение краевой задачи для линейных ДУ в частных производных в Mathcad. Молодой учёный, №8(67), июнь 1, 2014 г.-с. 6-12



## MILLIY-MA'NAVIY SALOHIYATLI YOSHLAR – UCHINCHI RENESSANS BUNYODKORLARI

*Abdullayeva Muborak Mashrab qizi*  
*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*  
*Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi.*

**Annotatsiya:** Renessans haqida bilmagan, eshitmagan, uni boshdan kechirishni istamagan xalqlar sanoqli. Uni fanda ilk bor italyan gumanistlari qo'llagan. Lekin bugungi kunda bu so'zni Prezidentimiz nutqlarida bot-bot eshitib, uning shukuhini, quvvatini o'zgacha hayrat, o'zgacha mas'uliyat bilan idrok etmoqdamiz. Davlatimiz rahbari boshchiligidagi amalga oshirilayotgan strategik sa'y-harakatlar kun kelib Uchinchi Renessansga poydevor bo'lishi, bu ishda asosiy bunyodkor kuch – yoshlar ekani shubhasiz. Bugungi O'zbekiston – kechagi O'zbekiston emasligi, bugungi yoshlar – kechagi yoshlar emasligini isbotlashga hojat qolmaganining o'ziyoq fikrimiz isbotidir. Maqolada Uchinchi Renessans va uning bunyodkorlari bo'lgan yoshlar haqida fikr yuritimiz.

**Kalit so'zlar:** Renessans, yoshlar, milliy-ma'naviy salohiyat, ta'lim-tarbiya, Uyg'onish, ilm, allomalar, muhit.

Yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans poydevorini yaratish g'oyasi bilan uyg'un holda, mustaqilligimizning 30 yilligi munosabati bilan barpo etilgan Mustaqillik monumentining gultoji bo'lib o'rin egallagan Humo qushi nafaqat tinchlik va ezgulik, erkinlik va farovonlik timsoli, balki tarixchilar tomonidan ilmiy asoslangan ma'lumotlar asosida o'zining 3 ming yildan ziyod milliy davlatchilik tarixiga ega va shu tarixda ikki renessansni boshdan kechirgan ona diyorumiz – O'zbekistonning ramzi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonlaridan 2021-yilning 31-avgust kuni ochib berilgan Mustaqillik monumentidagi Humo qushi – renessans timsoli sifatida ko'kda mag'rur parvoz qilmoqda.

“Renessans” atamasini lug'aviy jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, fransuzcha “Renaissance”, italyancha – “Rinascimento” – qayta yuzaga kelmoq, yangidan tug'ilmoq, qayta tirilish, uyg'onish degan ma'noni anglatadi. Izohli lug'atlarda u mazmunan ancha keng tushuncha. Renessans madaniy hayotda, ilm-fanda, san'atda, ta'lim-tarbiyada, umuman, jamiyat hayotidagi evrilishlar, uzoq muddatli turg'unlikdan keyin qayta jonlanish, tez rivojlanish, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi yangi sifat bosqichiga chiqishi demakdir. Ilk bor atama XVI asrda me'mor, musavvir va san'at tarixchisi Jorj Vazari (1511-1574) tomonidan G'arbiy Yevropada burjua munosabatlari rivojlanishining dastlabki bosqichi bilan shartlangan tarixiy davrni tavsiflash uchun qo'llanilgan. Fransuz tarixchisi Jyul Mishle (1798-1874) tomonidan XIX asrda mazkur atama hozirgi ma'nosida ifodalangan. Renessans ijtimoiy hodisasi o'zbek tiliga Uyg'onish davri deb o'girilgan.

Avstriyalik atoqli sharqshunos Adam Mes o'zining 1909-yilda chop etilgan “Musulmon Renessansi” nomli fundamental asarida “Sharq” atamasiga O'rta yer dengizidan to Yevropa qit'asigacha bo'lgan yurtlar sifatida ta'rif berib, hududga IX-XII asrlarda madaniyat yuksaklarga ko'tarilgan qadimiy sivilizatsiya beshigi sifatida qarab, o'z qarashlarini bayon etgan<sup>4</sup>. Shu vaqtdan boshlab Renessans faqat Yevropaga tegishli ijtimoiy hodisa emasligi, Sharq xalqlari yevropaliklardan oldinroq bu jarayonni bosib o'tgani haqidagi izlanish va farazlar paydo bo'la boshladi. Olimlarning farazlari asosida qaraydigan bo'lsak, Renessans VII-VIII asrlarda Xitoyda, VIII asrda Hindistonda, IX-XII asrlarda hamda taraqqiyi mo'g'ul bosqini sabab ortga surilgan, lekin Amir Temur va temuriylar davrida rivoj topgan, Navoiy va Boburning sermahsul ijodi sabab yangi qirralarni kashf etgan O'rta Sharqda sodir bo'lgan.

Maqolaga bejizga “Milliy-ma'naviy salohiyatli yoshlar – Uchinchi Renessans bunyodkorlari” deb nom bermadik. Prezidentimizning ta'biri bilan aytganda: “Ilm va ta'limning qadriga yetib,

<sup>4</sup> Адам Мес. Мусульманский Ренессанс. Изд-во “Наука”. М., 1996, ст. 144-145

davlatimizda ilm va ta'lim o'rganish bilan muhit yaratilsa, bobolarimizga munosib hayot va kelajakni qura olamiz!". Demak, Uchinchi Renessansning bunyodkorlari – azmu shijoatli, intellektual va ma'naviy salohiyatli yoshlardir. Millatparvar va vatanparvar yoshlar salohiyati orqaligina biz yorug' kelajak kafolatidan umid qilamiz. Renessans mohiyatini biroz bo'lsada ochiqqlagan holda mavzuning birinchi qismidagi "milliy-ma'naviy salohiyat" haqidagi fikrlarni bayon qilsak. "Milliy-ma'naviy salohiyat" nisbatan yangi tushuncha bo'lib, fanga kirib kelganiga ko'p bo'lgani yo'q. Shu bois bu tushuncha ifodalaydigan hodisalar konsepsiyasi to'la ishlab chiqilmagan va bu tushuncha deyarlik o'rganilmagan. Bu hol o'z navbatida mazkur tushunchani alohida va o'zaro uyg'un holda tahlil qilish zaruriyatini vujudga keltiradi. Buning uchun esa, mavzuimiz markazida turadigan "milliy ma'naviyat" va "salohiyat" tushunchalariga aniqlik kiritish lozim.

Quyida "milliy ma'naviyat", "milliy-ma'naviy salohiyat" tushunchalari bo'yicha bildirilgan turli fikrlar tahlil qilinib, ularga o'z munosabatimiz bildirilgan.

"Millat", "milliylik", "milliy g'urur", "milliy odob", "milliy ma'naviyat" tushunchalarida mavjud bo'lgan "millat" so'zining o'zagini arabcha "mil" so'zi tashkil qiladi. Bu so'z arabchada "o'zak", "tub mohiyat", "negiz" ma'nolarini anglatadi<sup>5</sup>.

Millat - arabcha so'z bo'lib odatda xalq ma'nosini anglatadi. Falsafa qomusiy lug'atida "millat" tushunchasiga zamonaviy ta'rif berilgan. Jumladan, unda "Millat bu – til, ma'naviyat, milliy o'zlikni anglash, ruhiyat, urf-odatlar, an'ana va qadriyatlar yagonaligi asosida muayyan hududda yashovchi, ijtimoiy aloqalar bilan bog'langan, mustaqil subyekt sifatida o'ziga xos moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchi kishilarning etnik birligidir"<sup>6</sup> - deb ta'rif beriladi.

"Millat" tushunchasini ta'riflash murakkab, millat real shaxslardan tashkil topgan, shu bois ular turli ichki his-hayajon, ruhiy salohiyatga egadirlar. Ularning darajalariga oxirgi nuqtani qo'yishga intilishning o'zi masalaga g'ayriilmiy yondoshuvdan boshqa narsa emas. Chunki "milliy jarayon uzluksiz, doimo harakatdadir"<sup>7</sup> - deb ta'rif beradi, tadqiqotchi S.Otamurodov.

Demak, millat ma'lum bir hududda muqim yashab, tarixiy taraqqiyot davomida rivojlanib kelgan odamlarning ma'naviy-ruhiy birligining vujudga kelishi asosida tashkil topadi.

"Ma'naviyat" asosiy tushunchalar izohli lug'atida mavzuimiz doirasidagi tayanch tushunchaga quyidagi ta'rif keltirilgan:

"Milliy ma'naviyat – muayyan millatning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonida yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklari, u yashayotgan hudud, madaniy meros, milliy madaniyat, til, milliy ong, millat tarixi, o'tmishi, turmushi va yashash tarzi, hayotining tartib-qoidalari hamda bu bilan bog'liq milliy xususiyatlar majmui"<sup>8</sup>.

Milliy ma'naviyat mazmun-mohiyati "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch"<sup>9</sup>. asarida batafsil tahlil etilgan. Ushbu kitobga tayangan holda, milliy ma'naviyat tizimining quyidagi tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Millatning genofondi, tabiiy betakrorligi, o'ziga xosligi, tarixiy o'zgaruvchanligi va ijtimoiy rang-barangligi.
2. Millat tarixi, o'tmishi, kelajagi va ma'naviy merosi.
3. Milliy hudud, jamiyat va undagi jarayonlar, moddiy va madaniy yashash sharoitlari, iqtisodiy asos va ijtimoiy ustqurma bilan bog'liq jihatlar.
4. Urf-odat, an'ana, marosimlar, turmush tarzidagi milliylik, ular bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlar.
5. Milliy til, milliy madaniyat va ma'naviyat, milliy ong va milliy ruh, milliy tuyg'ular va g'oyalar.

Hozirgi ilmiy adabiyotlarda salohiyat tushunchasiga ko'plab ta'riflar berilgan. So'zning tub negiziga e'tibor qaratsak, "salohiyat" fransuzcha so'z bo'lib, potential – "kuch, quvvat" degan

<sup>5</sup> Quronov M. Bolam baxtli bo'lsin, desangiz...: tarbiya kitobi. O'quv qo'llanma. – T.: "Ma'naviyat", 2014. 131-b.

<sup>6</sup> Falsafa qomusiy lug'at. Q.Nazarov tahriri ostida. – Toshkent: "Sharq", 2004. 134-b.

<sup>7</sup> Otamurodov S. Globallashuv va millat. T.: "Ma'naviyat", 2008. 23-b.

<sup>8</sup> O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. "Ma'naviyat" asosiy tushunchalar izohli lug'ati. 2013. 209-b.

<sup>9</sup> I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: "Ma'naviyat", 2008. 18-b.

ma'noni anglatadi. Salohiyat tushunchasi ko'pgina sohalarga tegishli tushuncha hisoblanadi (iqtisodiy salohiyat, siyosiy salohiyat, madaniy salohiyat, ma'naviy salohiyat va hokazo).

O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida "salohiyat" tushunchasi arabcha "qobiliyat" ma'nosida, qobiliyat esa - insonning individual salohiyati va imkoniyatlari" tarzida keltiriladi<sup>10</sup>. Mazkur tushuncha Rossiyalik madaniyatshunos mutaxassis L.I.Shayxliسلامova tomonidan shunday ta'riflanadi: "Salohiyat - muayyan maqsadga erishish uchun, ma'lum vazifalarni hal qilishda ishlatilishi mumkin bo'lgan, ma'lum bir sohadagi mavjud bo'lgan barcha imkoniyat va imkoniyatlar majmuidir"<sup>11</sup>.

"Ma'naviyat" asosiy tushunchalar izohli lug'atida salohiyatga quyidagicha ta'rif keltiriladi. "Salohiyat (arabcha - yaroqlilik, vakolat, hukmdorlik) - iste'dodning bir turi bo'lib, insonning muayyan tarzda o'z ilhomini qabul qilishga tayyorlangandan so'ng beradigan sifat. Salohiyat so'zi kishi yoki millatning ichki imkoniyatlari, to'la namoyon bo'lmagan kuch-quvvati ma'nosida ham ishlatiladi. Salohiyat – millat, xalq, mamlakat, jamiyat kuch-quvvati, vaqti-soati kelganda namoyon bo'ladigan iqtisodiy, ilmiy, ma'naviy va boshqa imkoniyatlaridir"<sup>12</sup>.

Boshqa bir manbada tadqiqotchi X.Jumaniyozov "salohiyat" tushunchasini quyidagicha izohlaydi. Salohiyat lotincha "potention" so'ziga mos kelib, o'zbek tilida "kuch-qudrat, imkoniyat", "qobiliyat, iqtidor" ma'nolarini anglatadi. "Keng ma'noda esa jamiyat, davlat va shaxsning turli maqsad va rejalarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatlarini ta'minlovchi manbalar, zahiralari yig'indisidir"<sup>13</sup>.

Yuqoridagi ta'riflarni umumlashtirib, biz salohiyatga shunday ta'rif beramiz: salohiyat – muayyan maqsadga erishish jarayonida rivojlanib boradigan hamda kishi yoki millatning ichki yashirin imkoniyatlari va to'la namoyon bo'lmagan kuch-quvvatidir.

Ilmiy adabiyot va manbalarni tadqiq etish jarayonida olingan ma'lumotlar asosida quyidagicha yakuniy ta'rif kiritmoqchimiz: "Milliy-ma'naviy salohiyat – turli etnos, xalq, millatga xos umumiy milliy xususiyatlar (negizlar) asosida tarixan shakllanadigan, ularning turmush tarsi, tili urf-odat va an'analari, qadriyatlariga xos va mos bo'lgan umumiy milliy-ma'naviy xususiyatlar, fazilatlar majmuasining rivojlanganlik darajasi, ichki imkoniyatlari to'la namoyon bo'lmagan kuch-quvvatidir".

Ma'rifatparvar bobomiz Hoji Muinning: "Yoshlar! Yurtning umidi yolg'iz sizgadir!"<sup>14</sup> – degan so'zlari bugungi yoshlarimizga qarata aytilgandek go'yo. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilayotgan milliy ruhiyatimizga, xalqimiz armon-ormusiga yaqin Uchinchi Renessans g'oyasini xalqimizning milliy g'oyasiga aylanishi, uning amalga oshishi avvalo milliy-ma'naviy salohiyatli yoshlarimizga bog'liq. Buning uchun yoshlar bilimlarini yetarli darajada oshirishlari uchun ko'p kitob o'qishlari, izlanishlari va ustozlari bergan ilmni qunt bilan o'rganishlari lozim.

Mashhur Ma'mun akademiyasida kamolga yetgan Ibn Sino, Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy kabi yuzlab allomalar Sharq uyg'onish davrining birinchi bosqichiga, Temuriylar davri tamaddunining yorqin vakillari – Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi olimlar ikkinchi yuksalish bosqichiga hissa qo'shgan qiyos qilinsa, Uchinchi Renessans vakillari bugungi islohotlarning mevalaridan bahra olgan Yangi O'zbekiston bolalari orasidan yetishib chiqishi uchun bugun barcha zamin yaratildi.

Zotan, qaysi zamonda bo'lmasin, buyuk evrilishlar, o'zgarish va yangilanishlarda, avvalo, xalqning qudrati, shu xalq yoshlarining salohiyati va kuchiga tayaniladi.

<sup>10</sup> O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 2005.

<http://n.ziyouz.com/kutubxona/category/11-o-zbekiston-milliy-ensiklopediyasi>

<sup>11</sup> Shayxliسلامova L.I. Культурный потенциал: определение, сущность, специфика // В мире науки и искусства: вопросы филологии, искусствоведения и культурологии: сб. ст. по матер. меж. науч.-практ. конф. – Новосибирск: СибАК, 2013.

<sup>12</sup> O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. "Ma'naviyat" asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – T.: "G'afur G'ulom", 2013. 275-b.

<sup>13</sup> Jumaniyozov X. Mustaqillik va milliy rivojlanishning ma'naviy-mafkuraviy salohiyatini shakllantirish muammolari: s.f.n. dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: 2000. 15-b.

<sup>14</sup> Hoji Muin. Tanlangan asarlar. Yoshlar! Yurtning umidi yolg'iz sizgadir. – T.: Ma'naviyat, 2010. 107-b.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Адам Мец. Мусульманский Ренессанс. Изд-во “Наука”. Главная редакция Восточной литературы. М., 1996, ст. 144-145
2. Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz...: tarbiya kitobi. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Ma’naviyat”, 2014. 131-b.
3. Falsafa qomusiy lug‘at. Q.Nazarov tahriri ostida. – Toshkent: “Sharq”, 2004. 134-b.
4. Otamurodov S. Globallashuv va millat. T.: “Ma’naviyat”, 2008. 23-b.
5. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. “Ma’naviyat” asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – T.: “G‘afur G‘ulom”, 2013. 209-b.
6. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat”, 2008. 18-b.
7. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 2005.
8. Shayxlislamova L.I. Культурный потенциал: определение, сущность, специфика // В мире науки и искусства: вопросы филологии, искусствоведения и культурологии: сб. ст. по матер. меж. науч.-практ. конф. – Новосибирск: СибАК, 2013.
9. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. “Ma’naviyat” asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – T.: “G‘afur G‘ulom”, 2013. 275-b.
10. Jumaniyozov X. Mustaqillik va milliy rivojlanishning ma’naviy-mafkuraviy salohiyatini shakllantirish muammolari: s.f.n. dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent: 2000. 15-b.
11. Hoji Muin. Tanlangan asarlar. Yoshlar! Yurtning umidi yolg‘iz sizgadur. – T.: Ma’naviyat, 2010. 107-b.

## PTBFTPD:PC<sub>71</sub>BM POLIMERLAR ASOSIDAGI QUYOSH ELEMENTLARINING FOTOVOLTAIK PARAMENTRLARI

<sup>1</sup>*Abdullayeva S.O.,* <sup>2</sup>*Turg'unboyev A.Y.,* <sup>1,2</sup>*Saparbayev A.A.*  
<sup>1</sup>*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti.*  
<sup>2</sup>*U.A. Arifov nomidagi Ion plazma va lazer texnologiyalari instituti.*

So'nggi yillarda eritma bilan qayta ishlanadigan hajmiy getereoo'tish strukturaga ega polimer quyosh elementlari (PQE) arzon narxlarda ishlab chiqarish imkoniyati, yengil vaznli, egiluvchanligi va oson ishlab chiqarishning asosiy afzalliklari bilan katta e'tiborni tortdi [1]. Hajmiy getereoo'tish strukturaga ega PQElarida faol qatlam har doim konjugatsiyalangan polimerlarni va fulleren hosilasini (masalan, [6,6]-fenil C<sub>61</sub>-butirik kislota metil esteri (PC<sub>61</sub>BM) yoki [6,6]-fenil C<sub>71</sub>-butirik kislota metil esteri, (PC<sub>71</sub>BM)) o'z ichiga oladi. Fulleren hosilalarini ishlab chiqish bilan solishtirganda, kelajakda tijorat maqsadlarini amalga oshirish uchun yangi yuqori samarali konjugatsiyalangan polimerlar doimiy ravishda ishlab chiqilishi kerak [2]. Konjugatsiyalangan polimerlar organik makromolekulalar bo'lib, ular o'zgaruvchan ikki va bitta bog'larning magistral zanjiri bilan tavsiflanadi. Ularning bir-biriga o'xshash *p*- orbitallari delokalizatsiyalangan *p* -elektronlar tizimini yaratadi, bu esa qiziqarli va foydali optik va fotovoltaiik xususiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Yangi konjugatsiyalangan polimerlarni ishlab chiqish nuqtai nazaridan eng muvaffaqiyatli strategiya donor-akseptor sopolimerizatsiyasini qo'llashdir. Donor-Akseptorli konjugatsiyalangan polimerlar katta afzalliklarga ega, masalan: 1) quyosh fotonlarini ko'proq yig'ish uchun yuqori so'nish koeffitsienti bilan birga keng singdirish spektriga ega; 2) mos keladigan va osongina sozlanishi mumkin bo'lgan molekulyar energiya darajasiga ega bo'lish, natijada qabul qiluvchilarga mos keladigan ko'proq tanlovlarni ta'minlaydi; 3) zaryadni ajratish va tashishni osonlashtiradigan yaxshilangan zaryad harakatchanligiga ega [3].

Bu ishda PTBFTPD (tieno {2,3-f} benzofuran (TBF) va tienopirroledion (TPD) birikmalariga ega) asosidagi PQElarining fotovoltaiik xususiyatlari tadqiq qilindi. Buning uchun eng avvalo PTBFTPD asosidagi PQEni ishlab chiqarish texnologiyasi bilan qisqacha tanishib chiqamiz.

PTBFTPD asosidagi donor asosidagi PQElarni yasash quyidagi konfiguratsiyasi bilan ishlab chiqarilgan ITO/PEDOT:PSS/PTBFTPD:PC<sub>71</sub>BM /PFN/Al, nominal qatlam qarshiligi 15 Om/sm<sup>2</sup> bo'lgan ITO (indiy qalay oksidi) qoplangan shisha tagliklar, ultratovush vannada ultra toza suv, aseton va izopropil spirti bilan tozalanadi, 6 daqiqa kislorod plazmasi ishlov berilgach, PEDOT:PSS (poli(3,4-etilendioksitiofen) polistirol sulfonat) (40 nm) yupqa qatlami ITO ustiga yotqiziladi va keyin 20 daqiqa davomida 160 °C haroratli pechkada quritildi. PTBFTPD va PC<sub>71</sub>BM 10 mg/ml polimer donor konsentratsiyasida xlorobenzolda eritildi. Eritma bir necha soat davomida xona haroratida aralashtiriladi va PEDOT:PSS qatlam ustiga "spin coating" usuli bilan qoplanadi. Faol qatlamning qalinligi ~ 110 nm bo'ladi. Keyin PFN poly[(9,9-bis(3'-(*N,N*-dimethylamion)propyl)-2,7-fluorene)-*alt*-2,7-(9,9-dioctyl)-fluorene]ning yupqa qatlami metanol eritmasidan (2,0 mg/ml) 30 soniya davomida 2000 *ayl/min* tezlikda faol qatlamga "spin coating" orqali qoplanadi. Nihoyat, qalinligi 100 nm bo'lgan Al qatlami katod sifatida termik bug'lantirish usulida faol qatlamga  $4 \cdot 10^{-4}$  Pa bosim ostida qoplanadi.

PTBFTPD:PC<sub>71</sub>BM asosidagi PQElarni turli sharoitlarda tayyorlab, ularning ochiq zanjir kuchlanishi ( $V_{oc}$ ), qisqa tutashuv tok qoim zichligi ( $J_{sc}$ ), to'ldiruvchi factor ( $FF$ ), energiya o'zgartirish samaradorligi ( $EO'S$ ) kabi fotovoltaiik parametrlari parametrlarini tadqiq qilamiz. Yorug'lik ta'sirida turli sharoitlarda tayyorlangan PQElarining fotovoltaiik xarakteristikalari 1-jadvalda o'z ifodasini topgan. 1-jadvaldan ko'rinib turibdiki faol qatlam turli xil aylanish tezlik (1200 ÷ 2000 *ayl/min*)larida "spin coating" qilinganda EO'S dastlab aylanish tezligi oshganda oshib, ma'lum bir aylanish tezligiga erishganda optimal, so'ng aylanish tezligini oshirsak EO'S kamayar ekan. Bu yerda eng yaxshi optimal:  $V_{oc} = 1.01V$ ,  $J_{sc} = 3.52 mA/cm^2$  va  $\eta = 1.39 \%$

fotovoltaik parametrlar 1500 *ayl/min* aylanish tezligiga to‘g‘ri keladi. 2000 *ayl/min* aylanish tezligida “spin coating” qilinganda 1 % dan kam EO‘Sga erishildi.

**1-jadval-PTBFTPD:PC71BM asosidagi PQElarning fotoelektrik xarakteristikalari.**

Aylanish tezligi ( <i>ayl/min</i> )	$V_{oc}$ (V)	$J_{sc}$ mA/cm <sup>2</sup>	FF (%)	EO'S (%)
1200	0.99	2.81	38.98	1.12
1500	1.01	3.52	40.06	1.39
1700	0.98	1.61	40.64	1.13
2000	0.99	1.79	40.90	0.73

Endi PQEning PTBFTPD va PC<sub>71</sub>BM donor-akseptor material tarkibiga molekulyar strukturasi va morfologiyasini yaxshilash maqsadida qoshimcha sifatida 1,8-diodoktan (DIO), moddasini kiritamiz. Bunda qo‘shimcha DIO ni 2 %, 3 %, 4 %, 5 % li kichik konsentratsiyalarda qo‘shamiz. DIO qo‘shimchasi kiritilib yangi hosil qilingan PQElarning fotovoltaik parametrlari 2-jadvalda ko‘rsatilgan.

**2-jadval-PTBFTPD:PC71BM asosidagi PQElarning fotoelektrik xarakteristikalari**

DIO qo‘shimchasi massa ulushi (%)	$V_{oc}$ (V)	$J_{sc}$ mA/cm <sup>2</sup>	FF (%)	EO'S (%)
2	0.92	4.63	41.26	1.8%
3	0.94	5.05	46.43	2.2%
4	0.85	3.76	46.64	1.5%
5	0.87	3.91	39.68	1.36%

2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki PQE ga 3 % li DIO qo‘shimcha sifatida qo‘shilganda fotovoltaik parametrlari optimal chiqar ekan. Ya‘ni bu konsentratsiyada ochiq zanjir kuchlanishi 0.92 V, qisqa tutashuv tok zichligi 5.05 mA/cm<sup>2</sup> va EO‘S esa 2.2 % ga teng. Demak dastlab qo‘shimcha qo‘shilmaganda optimal EO‘S 1.39 % edi 3 % li DIO ni qo‘shimcha sifatida qoshganimizda EO‘S 2.2 % ga teng bo‘ldi. Ya‘ni qo‘shimcha kiritilganda EO‘S birinчисiga nisbatan 60 % gacha oshishini ko‘rdik.

Xulosa qilib aytganda PTBFTPD:PC<sub>71</sub>BM asosli konjugatsiyalangan PQElariing fotovoltaik parametrlari faol qatlamni hosil qiluvchi Spin Coater qurilmasining aylanish tezliklariga bog‘liq ekan. Faol qatlamni hosil qiluvchi Spin Coater qurilmasining 1500 *ayl/min* aylanish tezligi PTBFTPD:PC<sub>71</sub>BM asosidagi PQEning fotovoltaik parametri uchun optimal ekan. Ya‘ni fotovoltaik parametrlar faol qatlam qalinliklariga bog‘liq ekan. Bundan tashqari ma‘lum bir konsentratsiyada qo‘shimcha sifatida 1,8-diodoktan (DIO) moddasi kiritilganda PQEning fotovoltaik parametrlari oshishiga olib kelar ekan. DIOning ishtiroki plyonkalarining tartibli bog‘lanishi va zaryadlarning harakatchanligini va kristallanish morfologiyasini yaxshilaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Wantz G. et al. Stabilizing polymer-based bulk heterojunction solar cells via crosslinking // Polymer international. – 2014. – T. 63. – №. 8. – C. 1346-1361.
2. Saranya, K., Md Rameez, and A. Subramania. “Developments in conducting polymer based counter electrodes for dye-sensitized solar cells—An overview.” European Polymer Journal 66 (2015): 207-227.
3. Tore, Nesrin, et al. “Improvement in photovoltaic performance of anthracene-containing PPE–PPV polymer-based bulk heterojunction solar cells with silver nanoparticles.” Journal of nanoparticle research 16.3 (2014): 1-8.

## НАМУНАВИЙ УЙЛАРНИ ИССИҚЛИК ТАЪМИНОТИ

*Хайриддинов Б.Э<sup>1</sup>, Умарова С.У<sup>1</sup>, Абдурахимов Ж.Т<sup>2</sup>.*

*1. Қарши давлат университети. 2. Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти.*

**Аннотация:** Намунавий уй ҳаво температурасини бошқариш системасини математик модели ишлаб чиқилган. Моделни ишлаб чиқишда ташқи ҳаво температураси ва иссиқлик ташувчининг температураси ҳисобга олинган. Бинонинг атроф тусиқлари, потолок орқали атроф-муҳитга иссиқлик сарфи аниқланган. Тажрибадаги материалларга мувофиқ “МАТЛАБ” дастуридан фойдаланиб моделлаштириш тизимнинг натижалари графикда келтирилган.

**Таянч сўзлар:** температурани бошқариш, иссиқлик аккумулятор, иссиқлик сарфи, иссиқлик узатиш, иссиқлик энергияси, иссиқлик баланси.

**Аннотация:** Разработана математическая модель системы регулирования температуры воздуха гелиодома с теплоаккумулятором. При разработки модель учитывались температура наружного воздуха и температура теплоносителя. Определены теплопотери в окружающую среду от наружной стенки и потолка дома. Экспериментальные результаты обработки в программы “МАТЛАБ” и полученные результаты приведены в виде графика.

**Ключевые слова:** регулирование температуры, тепловой аккумулятор, теплопотери, теплопередача, тепловая энергия, тепловой баланс.


**Annotation:** A mathematical model of the system for regulating the air temperature of a heliohouse with a heat accumulator has been developed. When developing the model, the outside air temperature and the coolant temperature were taken into account. The heat loss the environment from the outer wall and ceiling of the house was determined. The experimental results were processed into “МАТЛАБ” programs and the results obtained are presented in the form of graph.

**Keywords:** temperature control, heat consumption, heat transfer, heat energy, heat balance.

Фан-техника тараққиёти аҳоли турмуш фаровонлигининг муҳим омилдир. Аҳоли яшайдиган намунавий уйларни йилнинг қиш фаслида иситиш учун сарфланадиган табиий ёқилғи-энергия ресурсларидан оқилона фойдаланиш ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш долзарб масалалардандир. Аммо табиий ёқилғи-энергия ресурсларидан қанчалик кўп фойдаланилса, уларнинг захираси шунчалик тез камайиб боради ва ишлаб чиқариш чиқиндиларининг атроф-муҳит тозалигини сақлашга салбий таъсири ошиб боради [1].

Шунинг учун муқобил энергия манбаларидан, хусусан республикамизнинг жанубий минтақаларида қуёш энергиясидан биноларни иситишда самарали фойдаланиш имкониятлари мавжуд. Муборакнефтверк МЧЖ (Маъсулияти чекланган жамият) тасарруфидаги ёрдамчи хўжалиқда қурилган иссиқлик намунавий уйнинг йилнинг қиш фаслидаги иссиқлик режимини тадқиқ этиш бўйича тажрибалар ўтказилди (1-расм)





1-расм. Фермер ва тadbиркор хўжаликлари учун тавсия этилган иссиқлик аккумуляторли гелио уйнинг иситиш тизимининг схемаси.

1-гелиоколлектор; 2-иссиқ ҳаво оқимининг I контури; 3- I контурнинг вентилятори; 4-иссиқлик аккумуляторининг кўндаланг кесими; 5-совуқ ҳаво оқимининг I контури; 6-совуқ ҳаво оқимининг II контури; 7- II контурнинг вентилятори; 8-Биогаз қозон қурилмаси; 9-совуқ ҳаво оқимининг II контури; 10-Иссиқлик сақловчи панель (материал); 11-Сувли бак иссиқлик аккумулятор; 12- Совуқ ҳаво оқими учун қувурлар.

Қуёш уйининг том қисмида шаффоф юзаси  $14 \text{ м}^2$  бўлган гелио ҳаво иситиш коллектори ва шаффоф юзаси  $3 \text{ м}^2$  бўлган фотоэнергетик қурилмаси горизонтга нисбатан  $\alpha=45^\circ$  бурчак остида жойлаштирилди (2-расм). Қуёш ҳаво иситиш коллекторида ҳавонинг ҳажмий сарфи  $G=0,56 \text{ м}^3/\text{с}$  бўлиб, шаффоф юзаси орқали йилнинг қиш фаслини қуёшли кунлари ўртача  $Q=12658 \text{ кЖ}/\text{м}^2 \cdot \text{кун}$  энергия ўтади. Бу энергия ҳисобидан гелиоколлекторда ҳаво ҳарорати  $308 \dots 315 \text{ К}$  гача ва унинг ички ҳаво ҳарорати ўртача  $T_{\text{ўрт}}=294,6 \text{ К}$  га тенг булади. Гелиоколлектор қувири (2), I контурли булиб, вентилятор (3) ва метал лист (4) дан тайёрланган. Ҳаво узунлиги  $l=4,2 \text{ м}$  вадиаметри  $d=0,25 \text{ м}$  бўлган иссиқлик аккумуляторли қувурга  $T_1$ –ҳарорат билан киради ва  $T_2$ –ҳарорат билан чиқади ва шу оқимжараёнида  $\lambda$ -иссиқлик ўтказувчанлик коэффициентига эга бўлган метал листдан тайёрланган қувур орқали ҳаракатланади ва иссиқликни бир қисмини сувли бакка бериб, гелиоколлекторли пастки умумлаштирилган қувурга (5) оқиб ўтади. Шунингдек бу ҳавонинг бир қисми II контурли шамоллатиш туйнуклари (9) орқали ўтиб уйничидаги ҳаво ҳароратини мўтадиллаштиради.

Тунда ва ҳаво булутли бўлган кунларда 9-туйнук қопламаси гелиоколлектор қувурини ёпади. Натижада I контур иш фаолияти автоматик равишда тўхтайтилади ва уйни ичидаги ҳавони II контурнинг 7-вентелятори автоматик равишда ишга тушиб, иссиқлик аккумулятори орқали ҳаво оқимини иситиб ўтишини таъминлайди ва шу асосда иситган ҳаво циркуляцияланиб хоналар ичидаги ҳавони мўтадиллаштиради. Уй ички ҳаво ҳарорати ўзгариши гелиоколлектор юзасидан ўтадиган қуёш нур энергиясига, иссиқлик аккумуляторига кирадиган ва ундан чиқадиган ҳаво ҳароратига иссиқлик аккумуляторига тўпланадиган иссиқлик миқдорига бино деворлари, шифти ва бошқа тўсиқлари орқали атроф-муҳитга сарфланадиган иссиқлик миқдорлари орасидаги боғланишларини тажриба ва назарий ҳисоблаш натижалари ўрганилди[2].

Тажрибалар кўрсатададики ташқи ҳаво температураси  $T_0=283 \text{ К}$  дан паст бўлмаган кунларда хона ичидаги ҳаво температураси  $T=288-296 \text{ К}$  бўлади. Ҳаво булутли ва ташқи ҳаво температураси сурункали  $T_0=268 \text{ К}$  дан паст бўлиши жараёнида қўшимча

биоэнергетик қурилма автоматик равишда ишга тушади, 28-33 % иссиқлик энергияси хисобидан хона ичидаги ҳаво температураси мўтадиллаштирилади.

Био хоналарини иситишда иссиқлик юкламаси

$$Q_{it} = Q_i + Q_{is} . \quad (1) \quad Q_i = K_b V_b (t_i - t_t) n ; \quad (2)$$

Ифодалар орқали ҳисобланадиб, бу ерда  $K_b$  - бинога келтирилган иссиқлик бериш коэффициентини, Вт/(м<sup>3</sup> К);  $V_b$  - бинонинг иситилаётган хоналарини ҳажми, м<sup>3</sup>;  $t_i, t_t$  - ички ва ташқи ҳаво температуралари, °С;  $n$  - вақтнинг даври, с. Иссиқ сув таъминотида иссиқлик юкламаси

$$Q_{is} = G m c_s(t_{is} - t_{ss}) n_k; \quad (3)$$

бу ерда  $G$  – бир киши учун суткалик иссиқ сувнинг сарфи, л/(одам сут);

$m$  - яшовчилар сони;  $c_s$  - сувнинг солиштирма иссиқлик сифими, Дж/(кг К);  $t_{is}, t_{ss}$  - иссиқ ва совуқ сувни температуралари, °С;  $n_k$  -  $n$  вақдаги кунлар сони.

Қуёш коллекторида  $n$  вақтда ишлаб чиқарилган иссиқлик миқдорини қуйидаги ифодадан [4,5] аниқланади.

$$Q_{kk} = \eta_{kk} F_{kk} [q_{yu} - K_{kk}(t_{ks} - t_t)] n; \quad (4)$$

бу ерда  $\eta_{kk}$  - қуёш коллекторининг термик ф.и.к.;  $F_{kk}$  - коллектор сиртининг юзаси, м<sup>2</sup>;  $q_{yu}$  - ютилган қуёш радиасиясининг интенсивлиги, Вт/м<sup>2</sup>;  $K_{kk}$  - коллекторнинг иссиқлик бериш коэффициентини, Вт/(м<sup>2</sup> К);  $t_{ks}$  - коллекторга сувнинг кириш температураси, °С. Қуёш коллекторининг самарадорлиги қуйидаги ифода билан аниқланади:

$$\eta_s = Q_{kk} / Q_{tsh}; \quad (5)$$

бу ерда  $Q_{tsh}$  - тушадиган қуёш радиасиясининг миқдори, Ж., Иссиқлик юкламаси  $Q_{it}$  қуёш коллекторининг тиниқ юзасидан ўтадиган радиация ва  $Q_{kk}$  ва қўшимча энергия  $Q_{km}$  биогаз қозон қурилмасидан узатиладиган иссиқ сув энергияси хисобидан қопланади. (2-расм)

$$Q_{it} = Q_{kk} + Q_{km} . \quad (6)$$



2-Расм Қуёш иситиш ва иссиқ сув таъминоти билан уйни кўриниши.

Иссиқлик юкламасини қоплаш учун қуёш энергиясининг улуши ёки қоплаш коэффициентини қуйидагича аниқланади

$$f = Q_{kk} / Q_{it}. \quad (7)$$

Агар тушадиган  $q_{yu}$  қуёш радиасияси  $[q]$  чегара миқдордан ортса, бундай шароитда қуёш коллектори фойдали энергияни беради:

$$q_{yu} \geq [q] = \frac{K_{kk}}{k} \eta_{ok} (t_{ks} - t_t); \quad (8)$$

бу ерда  $k$  - иссиқлик қабул қилгичнинг нур ютиш қобилияти;  $\eta_{ok}$  - коллекторнинг оптик ф.и.к. (8) формуладан кўринадик, иссиқлик узатиш коэффициентини  $K_{kk}$  қанчалик кичик, нур ютиш қобилияти  $k$  ва оптик ф.и.к.  $\eta_{ok}$  қанчалик катта бўлса, чегара миқдори  $[q]$  эса шунчалик кичик бўлади. Бу иссиқлик изоляцияси, иссиқлик қабул қилгичнинг сиртини

қорайтириш, ғадир-будурлаш, гофрлаш, икки қаватли ойна қоплаш, селектив қоплама ва вакуумланган коллекторларни ишлатиш йўли билан амалга оширилади.

**Намунавий уйларнинг қуёш иссиқ сув таъминотида энергия тежамкорликни баҳолаш.** Яшаш биноларида иссиқ сувга бўлган эҳтиёж асосан уй хўжалик ва маиший фаолият турларидан келиб чиқади. Намунавий уйларда иссиқ сув кир ювиш, ҳаммом, кунлик ювиниш ва бошқа кундалик маиший эҳтиёж учун сарфланади. Талаб этиладиган меъёрлар бўйича ҳар бир кишига бир кунда ҳарорати  $50-60^{\circ}\text{C}$  дан кам бўлмаган  $70-120\text{ л}$  иссиқ сув тўғри келиши керак. ўртача 5 кишилик оилада суткасига  $5 \times 100 = 500\text{ л}$  иссиқ сув сарф бўлади. Агар бу иссиқ сувни олиш учун сарф бўладиган иссиқликни ҳисобласак  $Q = cm \cdot \Delta t = 4,19 \cdot 500 \cdot 40 = 83800 \text{ кЖ}$  га тенг бўлади.

бунда  $c = 4,19 \text{ кЖ/кг К}$  – сувни солиштирма иссиқлик сиғими;  $m = 500 \text{ л} = 500 \text{ кг}$  – сув массаси;  $\Delta t = t_2 - t_1 = 60 - 20 = 40^{\circ}\text{C}$  – сувнинг қизиган ҳарорати. Йиллик сарфланадиган иссиқлик куйидагига тенг бўлади.  $Q_{\text{йил}} = (4,19 \cdot 500 \cdot 40) \cdot 365 = 30587 \text{ кЖ}$


Энди бу иссиқликни олиш учун керак бўладиган шартли ёқилғини ҳисоблаймиз.

$$G_{\text{sh.y.}} = \frac{Q_{\text{йил}}}{Q_{\text{sh.y.}}} = \frac{30587000}{29310} = 1043,56 \text{ кг}$$

5 кишилик ўртача оилада бир йилда сув учун  $G_{\text{ex.y.}} = 1043,56 \text{ кг} = 1,043 \text{ тонна}$  шартли ёқилғи сарф қилинади. Қарши шаҳри шароитида қуёш сув қиздиргичнинг ясси коллекторининг  $1\text{ м}^2$  сиртидан бир суткада қарийиб  $70-100 \text{ литр/м}^2\text{ сут}$  иссиқ сув олиш (ҳарорати  $60^{\circ}\text{C}$  дан кам бўлмаган) мумкинлиги тажрибаларда аниқланган. Демак, одам сони 5 кишидан иборат бўлган ўртача оила учун  $500 \text{ л}/100 \text{ л/м}^2 = 5\text{ м}^2$  юзали ясси қуёш коллекторларини лойиҳалаш етарли бўлади. Ҳисоблар таҳлили шуни кўрсатадики,  $S = 5\text{ м}^2$  фойдали юзага эга бўлган қуёш коллектори йилига  $800-850\text{ м}^3$  биогазни тежаш имконини беради.

Чунки Қашқадарё вилояти республикамизнинг жанубий вилояти ҳисобланиб, бошқа вилоятларга қараганда қуёш радиацияси нисбатан кўпроқ. Шу сабабли ҳам қуёш қурилмаларидан автоном иссиқлик таъминотида фойдаланиш кенг имкониятлар яратади. 3-расмда Муборакнефтгаз МЧЖ га қарашли намунавий уйнинг тажриба вариантини умумий кўриниши келтирилган.

Ёқилғи энергетика мажмуаси ҳар қандай мамлакат иқтисодиётининг асосини ташкил этади. Энергия ресурсларини ишлабчиқариш ва истеъмол қилиш кўлами халқ хўжалигини турли соҳаларининг ривожланиши даражасини белгилайди. Шунинг учун ҳозирги вақтда ҳар бир давлат барқарор ривожланиши учун ўзини барча турдаги энергия ресурслари билан тўлиқ таъминланиши катта аҳамиятга эга.



3-расм. Муборакнефтгаз МЧЖ га қарашли намунавий уйнинг тажриба вариантини умумий кўриниши.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Boboyev S.M., Shakirov G.Sh. Bo'riyev Q.U. Usmonxodjayeva M.R. "JSIJSU" T.: "Yangi asr avlodi" 2008. 261 bet.
2. К. А. Красношеков, А.С. Сукомел. Сборник задач по теплопередаче. –М.: Энергия 1989. 260-265 с.
3. Алимов Х.А., Қурбонова Н.М., Ибрагимова Г.М. Теплоснабжение солнечного дома в условиях Узбекистана// Муқобил энергетика №2 (02) 2021. 89-92 с.
4. Али Иссам Моделирование тепловых режимов эксплуатации зданий с использованием систем Матлаб/SJMULJK. Южно-Российский государственный технический университет (Цовочеркасский политехнический институт) JSSN 0321-2653 Известия вузов. Северо-Кавказский регион.// Технические науки 2009. №1 с.95-99.
5. Rieerer P. Matlab/Simulink For building and HVAC Simulation-State of The Art// Ninth International JBPSA Conference Montreal, Canada, 2005. August 15-18.



## EKOLOGIYA TA'LIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

*Abduraximov Mingjigit Kattabekovich,  
Xudoyberdiyev Jasurbek Ravshanbek o'g'li.  
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti.*

**Annotatsiya:** Bugungi kunga kelib ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga doir munosabatlarni, ushbu yo'nalishdagi bilimlarni yanada takomillashtirish va boyitish, barchaga yetkazish davlatimiz tomonidan belgilab berilgan eng asosiy vazifalardan hisoblanadi. Bunda avvalo, jamiyatimizda insonlarning ekologik savodxonlikni oshirish, ta'lim jarayonlarida esa ekologiya va atrof-muhit muxofazasi bo'yicha bilimlarni berish va bu jarayonning uzluksizligini ta'minlash, bugungi kunning eng muhim va dolzarb masalalaridan biridir.

**Kalit so'zlar:** Ekologiya, bilim, ta'lim, atrof-muhit, o'zbek modeli, globallashuv, konsepsiya, tabiat, oliy ta'lim, ekologik muammolar.

Vatanimiz O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab barcha sohalarda tubdan islohotlarni amalga oshirdi. Bu esa barcha sohalarda keng imkoniyatlarni ochilishiga zamin yaratdi. Respublikamiz bosib o'tgan 31 yillik tarixi davomida o'z siyosatini demokratiklik tamoyili asosida olib bordi va rivojlantirdi. Buning asosida esa zamonaviy o'zbek modeli yaratildi. Birgina ta'lim sohasini oladigan bo'lsak, ushbu sohada faol davlat siyosatini amalga oshirib ta'lim jarayonlari yangi bosqichga olib chiqildi. Albatta bu ishlarni amalga oshirishda birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov (1938-2016y.)ning xizmatlari beqiyos. Bugungi kunda bu ishlarni yanada yuksaltirish, barcha sohalarda tub islohotlarni amalga oshirish shuningdek, har bir insonni qadr-qimmatini ulug'lash amaldagi ikkinchi Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev tomonidan yanada takomillashtirilib, isloh qilinib jamiyat hayotiga tadbiiq etib kelinmoqda.

Lekin mana shunday globallashuv zamonida biz ba'zi fuqarolarimiz va yoshlarimiz ongida ona tabiatga bo'lgan munosabatlarida kamchiliklar ko'zga tashlanib gohida ularning tabiatga yetkazgan salbiy ta'sirlariga ham guvoh bo'lib turibmiz. Albatta, bu munosabatlarni tartibga solishda yurtboshimiz soha mas'ullariga doimo kerakli topshiriqlarni berib, ekologiya va atrof-muhit muxofazasiga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish kerakligini har bir yig'ilishlarida ta'kidlab kelmoqda. Buning natijasida esa ko'plab ekologik ahamiyatga ega bo'lgan davlat dasturlari, loyihalar, qaror va farmonlar jamiyat hayotiga tadbiiq etilib kelinmoqda. Xususan, o'tgan 2019-yil 27-may 434-son O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori ham shular jumlasidandir. Ushbu qaror bilan tanishadigan bo'lsak, unda quyidagi bandlar keltirilgan bo'lib:

**O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq uzluksiz ta'lim tizimida ekologik ta'limni rivojlantirishning asosiy tamoyillarini belgilash, ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga izchillik bilan bosqichma-bosqich tatbiiq qilish va shu asosda ekologik ta'limning samaradorligini yangi bosqichga ko'tarish;**

**-ta'lim dasturlarini mavjud ekologik muammolar va ularni bartaraf etish vazifalaridan kelib chiqib takomillashtirish;**

**-ta'lim oluvchilarning e'tiborini umumbashariy ekologik muammolarga qaratish orqali ularning ona tabiatning qayta tiklanmaydigan manbalarini saqlab qolish va ulardan oqilona foydalanish borasidagi mas'uliyatini kuchaytirish;**

**-ekologik ta'limning samarali shakllari va usullarini ishlab chiqish hamda joriy etish;**

**-ekologik ta'lim sifatini, kadrlar tayyorlash tizimi samaradorligini hamda barqaror rivojlanish kafolatlarini va ustuvorligini ta'minlovchi normativ-huquqiy, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;**

## **-ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatli davlat organlari va ta'lim sohasining o'zaro manfaatli hamkorligini rivojlantirish; zarurligi belgilab berilgan [1].**

Bizning fikrimizcha, bugungi kunda ekologik ta'limni uzluksizligi va tizimlilikini ta'minlash yanada rivojlantirish uchun avvalo, barcha oliy ta'lim muassasalarida mavjud ekologiya va atrof-muhit muxofazasi yo'nalishi va fakultetlarini universitetlardan ajratib olish, alohida oliy ta'lim muassasasi tashkil etish va o'qitilishini zarur deb hisoblaymiz. Bunda ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasi bo'yicha kadrlar tayyorlash faoliyatini ikki yo'nalishda xizmatlar sohasi va ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi kadrlar tayyorlash bo'yicha ish olib borish kerak. Birinchi yo'nalish bo'yicha kadrlar respublikamizda tashkil etilgan ekopatrullar, davlat tashkilotlari, boshqarmalar va qo'mitalarda faoliyat olib borishi, ikkinchi yo'nalishdagi kadrlar esa ilmiy va pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishini yo'lga qo'yish kerak deb hisoblaymiz. Biz ikkinchi ilmiy faoliyat yo'nalishida asosan, yurtimizdagi ekologik muammolarni tadqiq etish, o'rganish va ularni oldini olishga, yangi zamon talablariga mos keladigan loyihalarni ishlab chiqishga, insonlarning ekologik xafvsizligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy faoliyatni keng yo'lga qo'yish, shuningdek ta'lim jarayonlarida ustoz shogird an'anasini tashkillashtirishni va amalga oshirishni zarur deb bilamiz. Bizning bunday xulosaga kelishimizga sabab, bugungi kunda respublikamizdagi barcha oliy ta'lim muassasalaridagi mavjud ekologiya yo'nalishi ayrim fakultetlarning bir qismi sifatida yoki fakultetni to'ldiruvchi vosita sifatida bo'lib kelmoqda. Buning natijasida esa ekologiya va atrof-muhit muhofazasi bilan bog'liq jarayonlar rivojlanishida ko'plab oqsoqlik kuzatilmoqda. Albatta bu jarayonni amalga oshirish buning samarasini ko'rish uzoq vaqt talab etishi mumkin. Lekin, biz bugun ekologiya va atrof-muhit muhofazasini birinchi o'ringa qo'ymas, uning salbiy ta'sirlarini o'rganmas ekanmiz yaqin kelajakda buning natijasida ko'plab ekologik muammolarga duch kelishimiz mumkin. Buning oldini olish uchun esa xalqaro tajribani inobatga olgan holda bugungi kunda ekologiya ta'limi tizimini yanada takomillashtirishimiz zarur. Unutmashimiz kerakki, har birimiz kelajak uchun javobgarmiz.

### **Xulosa.**

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, bugungi kunda ekologiya va atrof-muhit muhofazasi insonlarning ijtimoiy hayotida va barcha sohalarda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, biosferaga insonlarning ta'siri ortib tabiatning ifloslanishi, turli ekologik muammolar yuzaga kelgan shunday bir paytda uni muhofaza qilish juda ham muhimdir. Negaki, inson tabiatda rivojlanadi, uning ne'matlaridan hayoti davomida foydalanadi. Inson tabiat va uning ne'matlarisiz yashay olmaydi. Shunday ekan uni asrab avaylashimiz, uning resurslaridan esa samarali, tejamkorona foydalanishimiz va uni ifloslantirmasligimiz kerak. Buning uchun esa jamiyatdagi barcha insonlarda, ayniqsa o'sib kelayotgan yosh avlodlar ongida ekologik ong, ekologik madaniyat va ekologik bilimlarni shakllantirishimiz zarur. Bunga erishishimiz uchun esa avvalo ekologik munosabatlarni oilada, mahallada, jamoatchilikda to'g'ri yo'lga qo'yishimiz va ekologik ta'lim jarayonlarini yanada takomillashtirishimiz zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shodimetov Yu. Ijtimoiy ekologiya. Toshkent „O'qituvchi“-1994y.
2. To'xtayev A.S. Ekologiya. Toshkent „O'qituvchi“-1998y.
3. Xolliyev I., Ikromov A. Ekologiya. Toshkent „Mehnat“-2001y.
4. Sultonov P.S., Ahmedov B.P., Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari. Toshkent „G'ofur G'ulom“ nomidagi nashriyot-2004y.
5. Ergashev A., Ergashev T., Ekologiya, Biosfera va tabiatni muhofaza qilish. Toshkent „Yangi asr avlodi“ nashriyoti-2005y.
6. Nigmatov A. Ekologiyaning nazariy asoslari. Toshkent „O'zbekiston faylasuflari“ milliy jamiyati nashriyoti-2013y.
7. O'zbekiston Respublikasi „Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi“ qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ”O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida“gi qarori 2019-yil 27-may 434-son.

## DARAXTLARNI AVTOMATIK O'G'ITLASH TIZIMI


*Nig'matov Azizjon Maxkamovich (Assistent),  
Abdusalomova Sevinch Sobir qizi (Talaba)  
"TIQXMMI" Milliy Tadqiqot universiteti.*

**Annotatsiya:**Quyidagi maqolada bog'dorchilikda o'g'itlash jarayoni ishlash tamoyili o'rganilib, hozirda mavjud muammolarni hal qilish masalalari ko'rib chiqilgan. Funktsional texnologik sxema ishlab chiqildi va avtomatlashtirishning texnik vositalari o'rganildi. Bundan tashqari bog'dorchilikda o'g'itlarni sepishni avtomatlashtirish tizimi uchun dasturiy ta'minot ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** Avtomatlashtirish, funksional sxema, datchik, kontroller, servomotor, dasturiy ta'minot, organik o'g'it, mineral o'g'it, kimyoviy element.

**Kirish.** Bahorda mevali daraxtlarni o'g'itlash mo'l hosil olish yo'lidagi muhim chora-tadbirlardan biridir. O'sish mavsumining boshida bog'dagi har qanday mevali daraxt mineral va organik ozuqa moddalarini olishni talab qiladi. Ularsiz to'liq rivojlanish va yaxshi meva berish mumkin emas. Eng e'tiborli jihati bahorda mevali daraxtlar va butalar mineral o'g'itga muhtoj. Bu ularning o'sishida, kuchli ildiz tizimining rivojlanishida, yangi barglar, gullar va mevalarning shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Azot o'z ichiga olgan yuqori kiyinish hosildorlikni oshirishi, shuningdek, meva sifatini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin. Azotdan tashqari, bahorda bog' o'simliklariga kaliy, magniy, fosfor, temir, oltingugurt, bor, kobalt, mis, marganets kabi kimyoviy elementlar kerak bo'ladi. Butalar va mevali daraxtlarni boqishning ikki yo'li mavjud: 1. Bahorgi murakkab mineral o'g'itlar kimyo sanoati mahsuloti bo'lib, ma'lum davrda ma'lum turdagi ekinlarga bo'lgan ehtiyojni hisobga olgan holda ishlab chiqariladi. 2. Organik oziqlantirish - bu tabiatning tabiiy jarayonlari natijasidir (parrandalar yoki qoramollar go'ngi, kompost).

**Muammoli vaziyat.** Bog'dorchilik - qishloq xo'jaligining meva, uzum va rezavor mevalarni yetishtiradigan muhim sohasi hisoblanadi. Respublikamizda hozirgi kunda taxminan 50 ming gektar bog' va shu jumladan 22 ming gektar mevazor mavjud. O'zbekiston hududida mevali daraxtlarni mineral va organik o'g'itlash jarayoni bahor fasliga to'g'ri keladi. Bog'larimizda o'g'itlash mavsumida o'g'itlash mashinasining mineral va organik o'g'itlarni uzluksiz sepishiga guvoh bo'lamiz. Bu isrof deganidir. Ya'ni bog'dagi har bir daraxtning ma'lum chegarasi bo'lib, daraxtlar orasidagi ortiqcha masofaga o'g'it sepilishi kerak emas. Hozirda mavjud tizim yuqoridagi holatda muammoga yechim bo'lolmaydi. O'g'itlash mashinasidagi qator kamchiliklarni o'rgangan holda, o'g'it sepish jarayonini avtomatik boshqarish tizimi ishlab chiqildi.



**1-rasm.** Bog'dorchilikda o'g'itlarni avtomatik sepish qurilmasining funksional boshqaruv sxemasi (izoh: rasmdagi ko'rsatkich ixtiyoriy olingan).

```

#include <Servo.h>
#define coef 5
#define min_zone 6
#define max_zone 44
#define Trig 5
#define Echo 6
#define servoPin 11
Servo myservo;

void setup() {
  pinMode (Trig, OUTPUT);
  pinMode (Echo, INPUT);
  myservo.attach (servoPin);
  myservo.write (0);
}
unsigned int impulseTime=0;
unsigned int distance_sm=0;

void loop() {
  digitalWrite (Trig, HIGH);
  delayMicroseconds (10);
  digitalWrite (Trig, LOW);
  impulseTime = pulseIn(Echo, HIGH);
  distance_sm = impulseTime/58;
  if (distance_sm >= min_zone && distance_sm <= max_zone)
  {
    myservo.write (coef * (distance_sm - min_zone));
  }
  else if (distance_sm < min_zone)
  {
    myservo.write(0);
  }
  else //иначе
  {
    myservo.write(180);
  }
  delay (100);
}

```

## 2-rasm. Daraxtlarni o'g'itlash tizimining dasturiy kodi

**Tadqiqot natijasi.** Tizim shundan iboratki, biz mashinaning o'g'it sepish jarayonini nazorat qilamiz. Ya'ni 1-rasmdagi funksional sxemada ko'rsatilganidek, ultratovush datchigi orqali o'g'itlash mashinasining ishini avtomatik boshqaramiz. Maxsus yozilgan dastur yordamida o'g'itlash masinasining uzluksiz o'g'it sepishiga yo'l qo'yilmaydi, mashina biz dasturga kiritgan masofalarga o'g'itni sepadi. Masalan, har bir daraxtning ikki tomonidan 30 sm masofada o'g'it sepilsin. Bu dasturga kiritilgan. Kontrollerga yozilgan maxsus dastur ultratovush datchigiga har bir daraxtga 30 sm masofa qolganda o'g'it sepishni boshlashi va har bir daraxtdan 30 sm masofa o'tib o'g'it sepishni to'xtatishi haqida buyruq beradi. Natijada, katta-katta bog'



maydonlarida mineral va organik o'g'itlarning isrofini kamaytiramiz. Yuqoridagi 2-rasmda daraxtlarni o'g'itlash tizimining dasturiy kodi keltirilgan.

**Xulosa.** Ishlab chiqilgan tizim orqali respublikamizdagi mevazor bog'larning har bir gektar maydonidan tejab qolingan organik va mineral o'g'itlar yana shuncha ekin maydoniga yetadi deb bimalol aytsak bo'ladi. Chunki, har bir mevali daraxt atrofiga beriladigan mineral yoki organik o'g'it, daraxtlar orasidagi ortiqcha masofaga uzluksiz sepiladigan o'g'itdan miqdor jihatdan farqlidir. Bu kabi holatlar iqtisodiy samaradorlikning o'sishiga turtki bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Автоматизация технологических процессов., I.F.Borodin., Yu.A.Sudnik., Moskva 2007 y.
2. Технические средства автоматизации. B.V.Shandrov., A.D.Chudakov. Moskva 2007 y.
3. Jekson R.G. Мир электроники., Moskva 2007 y.337 s.
4. Kruхmalev V.V., Gordienko V.N., Mochenov A.D. Цифровые системы передачи. Наука-М-2007 y.277 s.
5. Kotyuk A.F. Датчики в современных измерениях., Moskva 2006 y.225 s.
6. Lavrentev B.F. Схематехника электронных средств., Moskva 2010 y.278 s.

## THE SHIFTING OF FACE-TO-FACE LEARNING TO DISTANCE EDUCATION DURING THE PANDEMIC COVID-19

*Abduvaliyeva Gulsora Adakhamjon qizi,  
Student of Faculty of Foreign Language,  
Andijan State University, Uzbekistan  
Rahmanova Gulchehra Nematovna  
Senior teacher at Andijan State University.*

**Abstract:** This article contains how students` responses toward distance learning during the pandemic Covid-19. Moreover, this study also provided factual information, suggestion and advices on how distance learning implemented. The main topics of the form questions were student`s learning experiences, media and learning tools used by teaching and also new learning model during the pandemic Covid-19.

**Key words:** distance learning, student`s responses and experience, online learning.

Covid-19 or coronavirus had spread all over the world 2 years ago and still in process. At the end of March, 2020 Uzbekistan government officially announced that Uzbek people had been infected. The virus spread mainly from person to person through droplets, aerosolized transmission, surface transmission and fecal – oral. By understanding how coronavirus spread, the government decided to implement social distancing and protocols due to the spread of virus. The government called that this situation as a pandemic.

Many sectors had been affected such as education, economy, social activities and others. The pandemic had led education to have a new method of teaching instead of face to face learning and distance learning was the only option to make it happens. The shifting of teaching methodology due to pandemic of Covid-19 had impacted school, university and education provider.

The shifting from face-to-face teaching into virtual class created new challenges and effects. Besides, online learning environments can offer learners opportunities for flexibility, interaction and collaboration. Its flexibilities allowed both teachers and students to have choices about how and where they can spend their time learning. Likewise, the researcher would like to find out how student`s responses in the application of distance learning during the pandemic. Student`s learning achievement, progress and experiences were recorded to measure how effective distance learning applied comparing to face to face learning<sup>1</sup>.

In my opinion distance learning created a new atmosphere and different learning environment to both learner and teacher. The need of the teacher to be able to design a virtual learning material, create a new methodology of teaching through application and provide self-assessment and evaluation were important. Moreover, self-assessment should be a major component of online distance education. And also during quarantine caused by the Covid-19 pandemic, traditional face-to-face teaching methods in schools were not available. Schooling in Uzbekistan was in a stressful situation due to various circumstances, both temporary and structural, due to problems in the development of the country's economy as a whole. However, in a short time, it was possible to transform the entire system of education, switch it to a distance learning form in schools and, finally, complete the school year<sup>2</sup>.

Studying online is even made more interactive with the use of video conferencing software. That improves the ability to acquire and retain knowledge on a given subject. However, distance education limits social interaction, involves use of complex technology and has a negative perception among some employers. Students` responses were into face-to-face learning though distance learning was also conducted live by the lecturer. The atmosphere of distance learning could not replace face-to face learning environment and experience. Students` connection, internet data connection and supported device were still the major factor why distance learning

could not effectively replace face-to-face learning. Besides, the number of students who have those problems were still dominant in the population. A distance learning did not significantly replace face-to-face learning as it caused almost students have difficulty in time management, understanding new concept from new material and also lack of lecturer-students' interaction was the major problems of distance learning<sup>3</sup>.

Following advantages of distance learning for students might be mentioned here:

- Will not forget homework materials.
- Reduce social anxiety.
- Flexible scheduling opportunities.
- Stay healthy and keep others safe.
- Offer accessible to everyone.
- Allow for self-paced learning.
- There is no commute.
- Work better with an atypical work schedule.

In addition Online courses require more time than on-campus classes, make it easier to procrastinate, require good time-management skills, may create a sense of isolation, allow you to be more independent, require you to be an active learner<sup>4</sup>.

Perhaps the most immediately obvious advantage of distance education is the level of flexibility it provides for students. In general, remote learning tends to require more independent study and because modern distance education is usually online-based, students have more control over both when and where they study<sup>5</sup>.

The integration and development of distance learning will create opportunities for more young and middle-aged people who do not have enough resources to study in a traditional way. Due to the pandemic, all the educational institutions had to transfer into the online teaching system. This unexpected situation made both teachers and students of Uzbekistan face the challenges. At the same time, it created an opportunity to experience remote teaching and learning, which can become a groundwork on approval and application of distance education in Uzbekistan<sup>6</sup>.

To sum up from the findings and discussion of distance learning, weaknesses were found in some areas. Firstly, distance learning needs compatible devices to support the learning. Secondly, stable internet connection and provider support effective teaching and learning, and its flexibility and convenience in learning made better students become autonomous learners likewise, students' preferences to face-to-face learning had most numbers of responses. Moreover, better teaching and learning needed face-to-face learning activities that cannot be replaced by virtual or online learning platform and "teachers" syllabus design and contents of materials should be relevant and interesting. To create successful distance learning, the researcher concluded that there have to be suitable method that is capable to overcome students' difficulties in doing a distance learning. In addition, lack of students' facilities to support distance learning such as internet data, device and other online learning support is still major problem to almost student in the classroom.

#### References:

1. Corporate e-learning. (E-learning industry) Retrieved March 1, 2020, from [elearningindustry.com](https://elearningindustry.com): <https://elearningindustry.com>
2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan on the approval of the Concept of development of the system of Public Education of the Republic of Uzbekistan till 2030, DP-5712 29.04.2019. <<https://lex.uz>>
3. Gilmore, S., & Warren, S. (2007). Themed article: Emotion online: experiences of teaching in a virtual learning environment.
4. <https://www.distancelearningadvantages.com>.
5. <https://www.advantagesofdistancelearningforstudents.com>.
6. [https://www.researchgate.net/publication/360300395\\_Impact\\_of\\_COVID-19\\_on\\_Higher\\_Education\\_A\\_case\\_study\\_of\\_Uzbekistan](https://www.researchgate.net/publication/360300395_Impact_of_COVID-19_on_Higher_Education_A_case_study_of_Uzbekistan).

## DAVLAT BUDJETI DAROMADLARI VA XARAJATLARI TARKIBI

*Abduxolikov Xusan Abdulaxat o'g'li*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi  
toshkent iqtisodiyot va sanoat texnikumi 2 – bosqich talabasi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada davlat budjeti, davlat budjeti daromadlari, budjet daromadlarining asosiy moddiy manbai, davlat budjeti xarajatlari, uning turlari xilma-xil bo'lib, bir qator omillarga bog'liqligi, bu omillar ta'siri ostida har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning har bir bosqichidagi budjet xarajatlari tarkibi va tuzilishi shakllanishi hamda davlat budjeti xarajatlari o'zining funksional tayinlanishiga ko'ra bir necha guruhlariga birlashtirilganligi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** davlat budjeti, davlat budjeti daromadlari, davlat budjeti xarajatlari, omillar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish.

Davlat budjeti daromadlari va xarajatlari tarkibi haqida fikr yuritar ekanmiz, avvalo “davlat budjeti” o'zi nima ekanligi to'g'risida qisqacha to'xtalib o'tsak.

Davlat byudjeti — davlatning muayyan vaqt (odatda bir yil) uchun mo'ljallangan pul daromadlari va harajatlari majmui. Davlat byudjeti davlat ixtiyoridagi pul fondlarining taqsimlanishini bildirib, u davlat moliyasining bosh bo'g'ini hisoblanadi. Davlat byudjeti tarkiban umumdavlat (yoki markaziy) byudjeti (mamlakat miqyosidagi umumiy daromadlar va harajatlar yig'indisi) va mahalliy (munitsipal) byudjet (hududiy tuzilmalar — o'lka, viloyat, tuman va hokazo doirasidagi pul daromadlari va harajatlari)ga bo'linadi. Ikki turdagi byudjetlar nisbati mamlakatning ichki sharoitiga bog'liq bo'ladi. Davlat jamiyatga ijtimoiy xizmatlar (milliy xavfsizlikni ta'minlash, jamoat tartibini saqlash, atrof-muhitni himoya qilish, nochorlarga yordam berish, aholiga bepul ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va b.) ko'rsatadi va bularning barchasi harajat talab qiladi. Byudjet daromadlari soliqlar, soliqdan tashqari yig'imlar, davlat zayomlaridan tushgan pul, davlat mulkini sotishdan yoki ijaraga berishdan kelgan mablag'lardan shakllanadi. Byudjet daromadining aholi jon boshiga hisoblangan miqdori mamlakatning byudjet salohiyati (potensial) deb yuritiladi va bu byudjet daromadining umumiy hajmiga hamda aholining soniga bog'liq. Byudjet harajatlari uning daromadidan ortib ketsa, byudjet taqchilligi, ya'ni kamomadi yuzaga keladi. Kamomad miqdori mamlakat yalpi milliy mahsulotning 3 - 3,5% iga teng bo'lishi me'yoriy hisoblanadi. Byudjet kamomadining g'oyat oshib ketishi va uni daromad bilan ta'minlash mumkin bo'lmaganda byudjet harajatlari qisqartiriladi. Markaziy, mahalliy davlat byudjetlari va davlat byudjetidan tashqari fondlar (davlatning muayyan maqsadli fondlari, maxsus maqsadli soliqlar, zayomlar, byudjetdan subsidiyalar hisobiga yaratiladigan maxsus fondlar) yig'indisi davlatning yig'ma byudjetini tashkil etadi. Davlat byudjeti odatda, joriy yilda kelgusi yil uchun tuziladi. Iqtisodiy beqarorlik sharoitida u chorak yoki yarim yilga tuzilishi ham mumkin. Davlat byudjetini hukumat tuzadi va yuqori qonun chiqaruvchi organ (parlament) tomonidan tasdiqlanadi.

Davlat budjeti yalpi ichki mahsulotni qayta taqsimlash bosqichlarida yuzaga keladigan alohida iqtisodiy kategoriyalar – budjet daromadlari va xarajatlari orqali amal qiladi. Budjet daromadlari va xarajatlari – obyektiv tarzda mavjud va amal qiluvchi kategoriyalar bo'lib, ularning har biri o'ziga xos vazifani bajaradi: daromadlar davlat faoliyatining moliyaviy asosi bo'lib xizmat qilsa, xarajatlar esa turli-tuman umumdavlat va umumjamiyat ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Davlat budjeti daromadlari davlatning ixtiyoriga tushuvchi va uning markazlashgan pul fondini shakllantiruvchi pul mablag'laridir. Davlat budjeti daromadlari davlat bilan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va aholi o'rtasidagi mamlakat budjet fondining shakllanishi jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlarni anglatadi.

Budjet daromadlari to'lovchilariga ko'ra, soliqqa tortish obyektlariga ko'ra, undirish usuliga ko'ra, to'lash muddatlariga ko'ra bir-biridan farq qilishiga qaramasdan, ularning hammasi davlat



budjetining daromad qismini shakllantirishga xizmat qiladi. Budjetga to'lovlar pul shaklida amalga oshiriladi, budjetga tushgan pullar o'z egasini yo'qotadi, ya'ni budjetga to'lov to'lovchi shaxs aniq bir maqsadni ko'zlab to'lov to'lamaydi, budjet daromadlarining shakllanishi pul mablag'larining bir tomonlama harakati asosida sodir bo'ladi. Davlatning umumiy xazinasiga tushgan pullar davlat va jamiyat manfaatlari yo'lida ishlatiladi. Shu sababli davlat budjetining shakllanishi va ishlatilishida davlatning, xo'jalik yurituvchi subyektlarning va alohida shaxslarning manfaatlari kesishadi. Demak, budjet daromadlarining asosiy moddiy manbai milliy daromaddir. Agar davlatning moliyaviy ehtiyojlarini qondirish uchun milliy daromad yetarli bo'lmasa, davlat bunday ehtiyojni qondirish uchun milliy boylikni jalb etishi mumkin. Milliy boylik deganda ma'lum bir davrda jamiyatning ixtiyorida bo'lgan, hozirgi va o'tgan avlodning mehnatlari evaziga yaratilgan moddiy ne'matlar hamda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilingan tabiiy resurslar majmuyi nazarda tutiladi.

Budjet daromadlari haqida gapirar ekanmiz, «davlat daromadlari» degan tushuncha bilan «davlat budjeti daromadlari» tushunchalarini yaxshi farqlab olishimiz kerak. Davlat daromadlari davlat budjeti daromadlari bilan birgalikda, davlatga qarashli maqsadli fondlarning daromadlarini, davlat mulkida bo'lgan korxonalar va tashkilotlarning daromadlarini, shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyatdan tushuvchi daromadlarni o'z ichiga oladi. Shuni unutmaslik kerakki, davlat budjeti daromadlari solikli va soliqsiz daromadlardan tashkil topadi.

Endi, davlat budjeti xarajatlari haqida fikr yuritadigan bo'lsak, u – davlat va mahalliy hokimiyat vazifa va faoliyatini moliyaviy ta'minlashga yo'naltiriladigan pul mablag'laridir. Iqtisodiy mazmuniga ko'ra davlat budjeti xarajatlari – davlatning markazlashgan pul fondini taqsimlash va ishlatish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlardir.

Budjet xarajatlarining turlari xilma-xil bo'lib, bir qator omillarga bog'liq:

- davlatning tabiati va funksiyalariga;
- mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasiga;
- budjetning iqtisodiyot va xizmat ko'rsatish soha-tarmoqlari bilan aloqalarining ko'lamiga;
- davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishiga;
- budjet mablag'larini taqdim etish shakllariga va boshqalar.

Bu omillar ta'siri ostida har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning har bir bosqichidagi budjet xarajatlari tarkibi va tuzilishi shakllanadi. Masalan, agar davlatning asosiy e'tibori iqtisodiyot tarmoqlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lsa, unda budjet xarajatlari tarkibida yirik investitsiyalarni davlat resurslari hisobidan moliyalashtirish xarajatlari ustun bo'ladi. Davlatning asosiy e'tibori jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal qilishga, aholini ijtimoiy himoyalashga, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishga qaratilgan bo'lsa, xarajatlar tarkibida ijtimoiy maqsadlardagi xarajatlar ortib boradi.

O'z iqtisodiy mazmuniga qarab budjet xarajatlari joriy va kapital xarajatlarga bo'linadi.

Budjetning joriy xarajatlari – budjet xarajatlarining bir qismi bo'lib, davlat hokimiyati organlarining, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining, budjet tashkilotlarining joriy faoliyatini ta'minlashga, davlat tomonidan quyi pog'onadagi budjetlar va iqtisodiyotning ayrim tarmoqlariga mablag' ajratish, dotatsiyalar, subvensiyalar va subsidiyalar shaklida yordam ko'rsatish uchun ajratiladi.

Budjetning kapital xarajatlari – budjet xarajatlarining innovatsiya va investitsiya faoliyatini ta'minlaydigan qismi hisoblanadi. Unga tasdiqlangan investitsiya dasturiga muvofiq ishlab turgan yoki yangidan tashkil qilinadigan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarga investitsiyalar uchun mo'ljallangan xarajatlar kiradi. Bu xarajatlar investitsiya maqsadlari uchun budjet kreditlari tarzida beriladigan mablag'lar, kapital ta'mirlash xarajatlari va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish bilan bog'liq boshqa xarajatlardan iborat.

Davlat budjeti xarajatlari o'zining funksional tayinlanishiga ko'ra quyidagi guruhlariga birlashtirilgan:

1. Ijtimoiy soha (ta'lim, sog'liqni saqlash, fan, madaniyat, ommaviy axborot vositalari, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta'minot muassasalari va tadbirlarini mablag' bilan ta'minlash) va

aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash (ko‘p bolali va kam ta‘minlangan oilalarga nafaqalar, ijtimoiy yordamning boshqa turlari) xarajatlari;

2. Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash xarajatlari;

3. Iqtisodiyot xarajatlari;

4. Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari;

5. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini saqlab turish xarajatlari;

6. Sudlarni, adliya va prokuratura organlarini saqlab turish xarajatlari;

7. Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarini saqlab turish xarajatlari;

8. Zaxira jamg‘armalarini shakllantirish xarajatlari;

9. Boshqa xarajatlar.

Sanab o‘tilgan har bir guruh xarajatlar, o‘z navbatida, mahkamaviy va maqsadli belgisiga ko‘ra guruhlanadi.

Mahkamaviy belgisiga ko‘ra budget mablag‘larini oluvchi vazirlik, davlat qo‘mitasi yoki boshqa davlat boshqaruv organining xarajatlariga bo‘linadi. Bu belgiga ko‘ra xarajatlarni tahlil qilishda budget xarajatlarining qaysi tarmoq va sohalarga yo‘naltirilayotgani haqida xulosa qilish mumkin bo‘ladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, mustaqillik yillarida mamlakatda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurishga, erkin bozor munosabatlariga va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga, xalq osoyishta va farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratishga, xalqaro maydonda O‘zbekistonning munosib o‘rin egallashiga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Yurtimizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor vazifalari iqtisodiy erkinlashtirish, davlat boshqaruvchilik funksiyasini qisqartirish va uning iqtisodiyotga aralashuvini cheklashdan iborat. Shu bilan birgalikda milliy ishlab chiqarishni shakllantirish va rivojlantirish, budget-soliq siyosati yaxlitligini ta‘minlash, budget kamomadiga yo‘l qo‘ymaslik muhim ustuvor vazifalar qatoriga kiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Вахабов А.В., Сирожиддинова З.Х. Государственный бюджет: Учебник. –Т.: Iqtisod-Moliya, 2007.
2. Malikov T., Xaydarov N. Budget (tizimi, tuzilmasi, jarayoni). O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisod-Moliya, TMI-2008.
3. Qosimova G. Davlat moliyasini boshqarish. O‘quv qo‘llanma. –Т.: Iqtisod-Moliya. 2008.
4. Джамалов Х., Алиев С., Бюджетная система. –Т.: Издательский дом Тасвир, 2008.
5. Нурмухамедова Б., Кабирова Н. Финансы. –Т.: «Iqtisod-Moliya». 2009.
6. Nurmuxamedova B., Kabirova N. Moliya. O‘quv qo‘llanma. –Т.: Iqtisod-Moliya. 2012.
7. Vahobov A.V., Malikov T. Moliya. O‘quv qo‘llanma. –Т.: Iqtisod-Moliya. 2012.

## OVERVIEW OF ECHINOCOCCOSIS: TYPES, SPREAD, SYMPTOMS

*Ahmadbekova Iroda Anvarbek qizi*

*Student at Andijan State Medical Institute, Uzbekistan*

**Abstract:** In the present article a general overview of echinococcosis, its types, spread and symptoms were given. In addition, incubation period of disease was discussed and some strategies for prevention were provided.

**Key words:** cystic echinococcosis, Human echinococcosis, alveolar echinococcosis, hydatid disease.

It is suggested to give definition of the term “Echinococcosis” which is according to the information taken from World Health Organization (cited in Wikipedia) is a parasitic disease of tapeworms of the Echinococcus type. If to refer to some key facts related to Echinococcosis:

- Human echinococcosis is a parasitic disease caused by tapeworms of the genus Echinococcus.
- The two most important forms in humans are cystic echinococcosis (hydatidosis) and alveolar echinococcosis.
- Humans are infected through ingestion of parasite eggs in contaminated food, water or soil, or after direct contact with animal hosts.
- Echinococcosis is often expensive and complicated to treat and may require extensive surgery and/or prolonged drug therapy.
- Prevention programmes focus on deworming of dogs, which are the definitive hosts. In the case of cystic echinococcosis preventive measures also include, deworming dogs, slaughterhouse hygiene, and public education.
- More than 1 million people are affected with echinococcosis at any one time. [3]

According to Nunnary G. et al. (as cited in Rausch R, D’Alesandro A., 2002) “Echinococcosis or hydatid disease (HD) is a zoonosis caused by the larval stages of taeniid cestodes belonging to the genus Echinococcus. Six species of Echinococcus are known, but only four of them are responsible for human disease: Echinococcus granulosus (E. granulosus) (which causes cystic echinococcosis), Echinococcus multilocularis (E. multilocularis) (which causes alveolar echinococcosis), E. vogeli and E. oligarthrus (which cause polycystic echinococcosis)”. Recent studies have identified two new species, E. felidis and E. shiquicus, even if no data are available about their pathogenicity to humans. Hepatic alveolar and cystic echinococcosis are both life-threatening diseases because of their medical and economical impact and their wide geographical distribution. Polycystic echinococcosis is, on the contrary, confined to Central and South America and only few cases of this condition have been reported in man (2012).

The disease frequently begins without symptoms, which can last for years. The symptoms and signs that appear are determined by the cyst's size and location. Alveolar disease is a type of liver illness that can spread to other parts of the body, including the lungs and brain. When the liver is diseased, the patient may experience abdominal pain, weight loss, and skin discoloration with a yellow tint due to established jaundice. Chest pain, shortness of breath, and coughing are all symptoms of lung disease.

Actually, eating food or water containing the parasite's eggs, or coming into close contact with an infected animal, spreads the infection. The parasite infects meat-eating animals, and the eggs are secreted in their faeces. Dogs, foxes, and wolves are among the most commonly afflicted animals. These animals must ingest the organs of an animal that contains cysts, such as sheep or rodents, in order to become infected. [8] The sort of disease that arises in humans is determined by the Echinococcus strain that caused the infection. Ultrasound is the most common method of diagnosis, but computer tomography (CT) or magnetic resonance imaging (MRI) may also be utilized. Blood tests for parasite antibodies, as well as biopsies, may be useful.

Treatment of canines that may transmit the disease and immunization of sheep are two ways to prevent cystic disease. Treatment can be complicated. Cystic illness can be treated by draining it via the skin and then taking medicine. This type of disease is sometimes just observed. [4] The alveolar type frequently necessitates surgery, which is followed by medication. The drug used is albendazole, which may be required for a long time. Alveolar illness can lead to fatality.

The disease is found in almost every country and currently affects over one million people. According to statistics given in Wikipedia, up to 10% of specific populations in South America, Africa, and Asia are affected in some locations. About 1,200 people died from the cystic type in 2015, down from 2000 in 1990. The disease's annual economic cost is estimated to be over \$3 billion. [6] It is classified as a neglected tropical disease (NTD) and is part of the helminthiasis category of diseases (worm infections). [7] Pigs, cows, and horses are among the animals that can be affected.

*E. granulosus*, *E. multilocularis*, *E. oligarthrus*, and *E. vogeli* are localised in the liver (75 percent of cases), the lungs (5–15 percent of cases), and other body organs such as the spleen, brain, heart, and kidneys (10–20 percent of cases) in the human manifestation of the disease. Cystic echinococcosis develops as a slow-growing mass in the body in people who are infected with *E. granulosus* and therefore have cystic echinococcosis. Infections with alveolar and polycystic echinococcosis can also cause these slow-growing lumps, which are commonly referred to as cysts.

The person may be asymptomatic even if the cysts have grown to be very large, or symptomatic even if the cysts are quite little, depending on where the cysts are located in the body. If the person is symptomatic, the symptoms will depend largely on where the cysts are located. If a person has cysts in their lungs and is symptomatic, they will experience coughing, shortness of breath, and/or chest pain.

If a person has cysts in the liver and is experiencing symptoms, they will have abdominal discomfort, atypical abdominal tenderness, hepatomegaly with an abdominal mass, jaundice, fever, and/or anaphylactic reaction. Furthermore, if the cysts break while in the body, whether during surgical removal of the cysts or due to trauma to the body, the person would most likely have high fever, pruritus (itching), edema (swelling) of the lips and eyelids, dyspnea, stridor, and rhinorrhea.[1]

For all *Echinococcus* species, the incubation period might range from months to years, or even decades. It is mostly determined by the cyst's location in the body and its rate of growth.

To sum up, to prevent such a disease like *Echinococcus*, it is suggested to control hygiene and water sanitation; and there are some strategies of prevention and spreading the disease which may vary depending on the types of *Echinococcus*. For instance, health education programs, improved water sanitation, improved hygiene and de-worming of hosts (particularly red foxes) are all effective to prevent and control the spread of alveolar echinococcosis. While there are several control and preventative techniques for cystic and alveolar echinococcosis, there are just a few for polycystic echinococcosis. This is most likely due to the fact that polycystic echinococcosis is restricted in Central and South America, and the exact mechanism by which people become accidental hosts of *E. oligarthrus* and *E. vogeli* is yet unknown. There are currently no human vaccinations available to protect against any form of echinococcosis. [2] However, studies are being done to identify potential vaccine candidates for a successful human echinococcosis vaccination.



**References:**

1. Bitton M, Kleiner-Baumgarten A, Peiser J, Barki Y, Sukenik S (February 1992). "Anaphylactic shock after traumatic rupture of a splenic echinococcal cyst". *Harefuah* (in Hebrew). 122 (4): 226–8. PMID 1563683
2. Dang Z, Yagi K, Oku Y, et al. (December 2009). "Evaluation of *Echinococcus multilocularis* tetraspanins as vaccine candidates against primary alveolar echinococcosis". *Vaccine*. 27 (52):733945. CiteSeerX 10.1.1.539.7799. doi:10.1016/j.vaccine.2009.09.045. PMID 19782112
3. "Echinococcosis Fact sheet N°377". World Health Organization. March 2014. Archived from the original on 21 February 2014. Retrieved 19 March 2014.
4. "Echinococcosis Treatment Information". CDC. 29 November 2013. Archived from the original on 20 March 2014. Retrieved 20 March 2014.
5. "Echinococcosis [*Echinococcus granulosus*] [*Echinococcus multilocularis*] [*Echinococcus oligarthrus*] [*Echinococcus vogeli*]". CDC. 29 November 2013. Archived from the original on 20 March 2014. Retrieved 20 March 2014.
6. GBD 2015 Mortality and Causes of Death, Collaborators. (8 October 2016). "Global, regional, and national life expectancy, all-cause mortality, and cause-specific mortality for 249 causes of death, 1980–2015: a systematic analysis for the Global Burden of Disease Study 2015". *Lancet*. 388 (10053): 1459–1544. doi:10.1016/s0140-6736(16)31012-1. PMC 5388903. PMID 27733281
7. "Neglected Tropical Diseases". cdc.gov. 6 June 2011. Archived from the original on 4 December 2014. Retrieved 28 November 2014.
8. Rausch R, D'Alesandro A. The epidemiology of echinococcosis caused by *Echinococcus oligarthrus* and *E. vogeli* in the neotropics. In: Craig P, Pawlowksi Z. *Cestode zoonoses: echinococcosis and cysticercosis*. Amsterdam: IOS Press, 2002: 107-130

## 1998 YILDAN 2015 YILLAR MOBAYNIDA O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA EKSPORTNING TARKIBIY O‘ZGARISHLAR JARAYONINI TAHLILI

*Akbarov Shokhabbos*  
TDIU talabasi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, O‘zbekiston Respublikasining 2015-yilgacha bo‘lgan vaqt mobaynida eksport hajmiga ta‘sir etuvchi omillar, shuningdek eksport tarkibiga kiruvchi tovar va maxsulotlarning eksportdagi ulushi statistik tahlil qilingan va muallifning xulosa va takliflari keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** eksport, import, tashqi savdo, korrelyatsion-regression tahlil, Korrelyatsion matritsa, “Minitab” dasturi, determinatsiya koeffitsiyenti.

**Abstract:** This article provides a statistical analysis of the factors affecting the volume of exports of the Republic of Uzbekistan for the period up to 2015, as well as the share of goods and products in exports, and the author's conclusions and recommendations.

**Keywords:** export, import, foreign trade, correlation-regression analysis, correlation matrix, Minitab program, determination coefficient.

### Kirish.


Dunyo bo‘ylab iqtisodiy resurslar teng va tekis taqsimlanmagan, shuning uchun ham har bir mamlakat eksport va import operatsiyalarini amalga oshirishga ehtiyoj sezadi. Davlatning eksport salohiyatini rivojlantirish orqali juda tez fursatda rivojlanib borayotgan jahon iqtisodiyotida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy xavflardan, shuningdek mamlakatning importga qaramlikdan saqlanish, tashqi savdoda eksport mahsulotlari evaziga valyuta tushumini ko‘paytirish, bozordagi tovar va maxsulotlar hajmini ortishi hisobiga ishlab chiqarishni rivojlantirish va uning ko‘lamini kengaytirish, natijada esa aholi bandligini ta‘minlash imkonini beradi.

### Tahlil va natijalar.

Mamlakat eksport hajmini tahlil qilishda, dastlab, uning eksport strukturasi o‘rganib chiqishimiz muhim hisoblanadi. Bunda, eksportning asosiy ulushini tashkil qiluvchi mahsulot yoki xizmat turi aniqlab olishimiz, mamlakat eksporti qaysi sohalarga ixtisoslashganligini aniqlashimiz va o‘sha mahsulot yoki xizmat turining eksport hajmidagi o‘zgarishining natijasida yalpi eksportda qanday o‘zgarishlar kuzatilishini aniqlab olishimiz mumkin. Hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan tashqi iqtisodiy munosabatlarda deyarli barcha rivojlangan davlatlarning eksport tuzilmasida pirovard mahsulot va xizmatlar asosiy o‘rin egallaydi, lekin rivojlanayotgan va iqtisodiy jihatdan qoloq hisoblanadigan davlatlarning eksportining katta qismini xom-ashyo yoki yarim tayyor mahsulotlari tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasida mustaqillikka erishilgandan buyon eksport tarkibini diversifikatsiya qilishga va xom-ashyoning o‘rniga tayyor mahsulot hamda xizmatlar eksportini oshirishga katta e‘tibor qaratilmoqda.

### Rasm 1

#### 2014-2015-yillardagi O‘zbekiston Respublikasi eksport tarkibi [1].



Yuqoridagi O‘zbekiston Respublikasining 2014-2015 yillar mobaynidagi eksportining tarkibiy tuzilmasiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak :

- **elektr energiya va neft mahsulotlari** 25.9% (eksport tarkibida asosiy ulushni tashkil etgan) va bu ko‘rsatkich o‘z ulushini 2015 yilda ham saqlab qolgan.
- **paxta tolasi** 7,4% dan xom-ashyoni qayta ishlash hisobiga 5,7% ga pasaydi.
- **mashinasozlik va uskunalar** 2014 yilda 3,9% ni 2015 yilda esa 1,2% ni tashkil etdi.
- **oziq-ovqat mahsulotlari** 2014 yilda 11,9% edi 2015 yil 10,2% ga yetdi.
- **qora va rangli metallurgiya** 2014 yilda 6,9% edi 2015 yil 6,4% ga yetdi.
- **xizmatlar** 2014 yilda 21,6% edi 2015 yil 24,5% ga yetdi.
- **kimyo mahsulotlari** 2014 yilda 11,9% edi 2015 yil 10,2% ga yetdi. (4,6% dan 4,8% ga) va
- **boshqa sohalarning** (17,8% dan 21,3%ga) eksportdagi ulushi esa oshishi ro‘y bergan.

Mamlakatimizning tashqi savdo siyosatida, doimiy ravishda, mamlakat eksport salohiyatini yanada oshirish masalasi, diversifikatsiya qilish masalasi, investitsiyaviy faollikni kuchaytirish masalasi va import qilinayotgan mahsulotlarni imkon qadar mahallilashtirish eng ustivor maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Tarixdan ham malumki, Eksport har qanday davlatning asosiy daromad manbai hisoblanadi. Aynan u boshqa mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishda yetakchi rol o‘ynaydi. Shuning uchun mamlakat eksport salohiyatini va unga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish iqtisodiy-statistik tahlilning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

#### Jadval 1

**1998-2015-yillardagi O‘zbekiston Respublikasining mahsulot va xizmatlar eksporti hajmi (million AQSh dollarida)[2]**

Yillar	Jami eksport	Paxta tolasi (X1)	Oziq-ovqat mahsulotlari (X2)	Kimyo mahsulotlari (X3)	Energiya va neft mahsulotlari (X4)	Qora va rangli metallar (X5)	Mashinasozlik va uskunalar (X6)	Xizmatlar (X7)
1998	3372	1361,9	112,9	52,9	278,7	179,9	148,2	1086,7
1999	3099	883,4	207,1	100,3	372,1	139,1	103,5	1122,8
2000	3383,4	879,8	176,3	94,7	336,3	215,5	110,9	447,3
2001	3201	697,5	123,6	85,6	323,4	221,9	123,6	462,9
2002	2985	669,4	104,6	89,7	242,1	191,3	116,5	474,9
2003	3775	737,6	102	115,5	454	238,4	219,8	536,4
2004	4836	876	157	193,4	602	338,5	338,5	573,7
2005	5416	1033	206	216,6	623	379,1	400,8	659,3
2006	6390	1097	505	319,5	839	447,3	479,3	775,1
2007	8991	1127	761	503,5	1818	629,4	674,3	965,3
2008	12158	1067	512	680,9	2835	851,1	911,6	1200,7
2009	11536	1013	712	576,8	4032	830,6	634,5	1031,7
2010	12453	1573	1261	635,1	2975	846,8	684,9	1335,5
2011	14994	1348	1990	839,7	2779	1109,6	1004,6	1773,2
2012	14165,3	1222	1123	764,9	4774	1048,2	906,6	2050
2013	15345	1181,6	1503,8	613,8	4772,3	966,7	843,9	2485,9
2014	14556,4	1077,1	1732,2	669,6	3770,1	1004,4	567,7	3144,2
2015	13790,5	786,06	1406,6	661,9	3571,7	882,6	165,5	3378,7

2015 yil bilan 1998 yildagi natijalarni tahlil qiladigan bo'lsak :

- ✓ **Paxta tolasi eksport miqdori** 1361,9 dan 786,066 mln \$ ga pasaydi.
- ✓ **Oziq-ovqat mahsulotlari eksport miqdori** 112,9 dan 1406,6 mln \$ ga o'sdi.
- ✓ **Kimyo mahsulotlari eksport miqdori** 52,9 dan 661,9 mln \$ ga o'sdi.
- ✓ **Energiya va neft mahsulotlari eksport miqdori** 278,7 dan 3571,7 mln \$ ga o'sdi.
- ✓ **Qora va rangli metallar eksport miqdori** 179,9 dan 882,6 mln \$ ga o'sdi.
- ✓ **Mashinasozlik va uskunalar eksport miqdori** 148,2 dan 165,5 mln \$ ga o'sdi.
- ✓ **Xizmatlar eksport miqdori** 1086,7 dan 3378,7 mln \$ ga o'sdi.

Yuqoridagi jadvalda O'zbekiston Respublikasining yillik yalpi eksport hajmiga (Y) ta'sir etuvchi quyidagi omillar tanlab olindi: paxta tolasi (X1); oziq-ovqat mahsulotlari (X2); kimyo mahsulotlari (X3); energiya va neft mahsulotlari (X4); qora va rangli metallar (X5); mashinasozlik va uskunalar (X6); xizmatlar (X7) eksportlari. Endi korrelatsion tahlilni amalga oshirib ko'raylik (2-Jadval).

**Jadval 2**  
**Korrelatsion matritsa**

	Y	X1	X2	X3	X4	X5	X6	X7
Y	1							
X1	0,524 0,026	1						
X2	0,923 0,000	0,523 0,026	1					
X3	0,977 0,000	0,537 0,021	0,888 0,000	1				
X4	0,950 0,000	0,435 0,071	0,816 0,000	0,905 0,000	1			
X5	0,992 0,000	0,533 0,023	0,911 0,000	0,989 0,000	0,937 0,000	1		
X6	0,811 0,000	0,656 0,003	0,677 0,002	0,855 0,000	0,742 0,000	0,846 0,000	1	
X7	0,801 0,000	0,261 0,295	0,829 0,000	0,712 0,001	0,773 0,000	0,748 0,000	0,359 0,143	1

Korrelatsion matritsasiga ko'ra, barcha omillar eksport (Y) bilan kuchli bog'lanishga ega va X2, X3, X4 va X5 prediktorlarni bir modelda qo'llash mumkin. Lekin X3 va X5 prediktorlar o'zaro kuchli bog'lanishga egaligi va X5 o'zgaruvchi Y ni yaxshi aniqlagani uchun X3ni modeldan tushirib qoldirsak bo'ladi. Shuning uchun, masalaning regression modelini qurishda X2, X4 va X5 prediktorlardan foydalanamiz.

Kompyuterning "Minitab" dasturi va korrelyatsion-regression yordamida, O'zbekistonning yillik yalpi eksport hajmini aniqlovchi eng optimal (**R-Sq = 99,2%**) regressiya modeli quyidagicha ifodalanishini topamiz:

$$Y = 1214 + 1,22 X2 + 0,621 X4 + 9,04 X5$$

Yuqoridagi omillar yordamida tuzilgan model eksportni 99,2% (determinatsiya koeffitsiyenti) ga tushuntirib bera oladi. Olingan modelni amaliyotda, ya'ni jadval qiymatlarga mosligini sinab ko'rsak bo'ladi. Masalan, 2014-yil eksport hajmi 14556,4 million AQSh dollariga teng bo'lgan. Olingan modeldagi omillarning jadval qiymatlarini modelga qo'yib tekshirsak, eksportning model bo'yicha bashorat qiymati: **Y = 14721,2**ga teng bo'ladi. Jadval bo'yicha qiymat esa Y=14556,4 edi. Jadval va model qiymatlar orasidagi farq: **14721,2-14556,4=164,8 million AQSh dollariga teng**. Demak, xatolik juda kichik, deyarli 1% ni tashkil etadi. Shu sababli, topilgan modeldan amaliyotda foydalanish mumkin.



### **Xulosa va takliflar.**

Mamlakatda oziq-ovqat va meva-sabzavot mahsulotlari, energiya va neft mahsulotlari hamda qora va rangli metallar eksportga ko‘proq ta‘sir ko‘rsatishini guvohi bo‘ldik. Shu sababli, ushbu sohalarga jahon standartlariga mos keluvchi texnologiyalarni jalb etib, ushbu mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishimiz zarur. Davlatimiz tomonidan paxta tolasi eksportini yildan-yilga kamaytirib borishni, ularni qayta ishlab gazlama, kiyim-kechak ko‘rinishida eksport qilishni keng ko‘lamda qo‘llab-quvvatlashni davom ettirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning natijasida mamlakatimizning tayyor maxsulot eksport hajmi ortadi bu esa jahon bozoriga yarim taytayor maxsulot bilan emas, balki pirovard maxsulot bilan kirib borishimizni osonlashtiradi.

Mustaqillikka erishilgandan buyon davlatimizda iqtisodiyotni diversifikatsiya, modernizatsiya qilish ustida ko‘pgina ishlar bajarib kelinmoqda. Bu ishlarning davomi o‘laroq eksportda xizmatlar sohasining ulushi va hajmi yil sayin ortib bormoqda. Shu sababli, qayta ishlash sanoatini, mashinasozlik va uskunalar, kimyo va oziq-ovqat sanoatini, turizm, transport va bank-moliya kabi xizmatlarni yanada rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash kerak. Mamlakatimizga turistlarni jalb qilish uchun turistik zonalarni hajmini ortirishimiz lozim. Buning uchun bizda barcha imkoniyatlar mavjud. Faqatgina bor resurslardan oqilona foydalana olsak bo‘ldi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. [www.mfer.uz](http://www.mfer.uz)
2. [www.imf.org](http://www.imf.org), [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org) va [www.mfer.uz](http://www.mfer.uz), [www.gazeta.uz](http://www.gazeta.uz)
3. O‘zbekiston Birinchi Prezidenti I. A. Karimovning Vazirlar mahkamasi majlislaridagi ma‘ruzalari. 2010-2015 y.
4. Bakoev M.T. Lectures on Econometrics, Uwed press T.: -2009.
5. [www.mfer.uz](http://www.mfer.uz).
6. [www.ite-uzbekistan.uz](http://www.ite-uzbekistan.uz).
7. [www.mineconomy.uz](http://www.mineconomy.uz).
8. [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org).
9. [www.ecomical.uz](http://www.ecomical.uz).
10. [www.imf.org](http://www.imf.org).
11. [www.gazeta.uz](http://www.gazeta.uz).

## ISHLOV BERISH JARAYONIDA MATERIALDA MAHALLIY METASTABILLIKNI YARATISH VA UNING KESISH JARAYONINING KINEMATIKASIGA TA'SIRI

*Akramova Komila Shuxrat qizi*  
 Namangan muhandislik texnologiya instituti  
 Gmail: akramovakamila06gmail.com


**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, ishlov berish jarayonida tebranishning ta'siri xaqida fikr yuritilgan, ushbu ta'sirni bartaraf etish uchun ishlov berilayotkan materialda mahalliy metastabillik yaratishning ilmiy asoslari keltirilgan

**Kalit so'zlar:** tebranish, trayektoriya, material, metastabillik


Qirindi hosil bo'lish jarayonining reologik parametrlariga ta'sir qiluvchi mahalliy metastabillik A nuqtasi bo'yicha maxsus belgilangan traektoriya bo'ylab ishlov beriladigan qismning tashqi yuzasida kesilgan material qatlamining kutilayotgan ruxsati sohasida hosil bo'ladi (1-rasm). 2.2, a), bu tayyorgarlik bosqichida aylanish chastotasi pr sarlavhasi va LPV yaratish uchun S qurilmalarini oziqlantirish bilan shakllantiriladi. Mahalliy zonada materialning yuzasiga jismoniy ta'sir qilish zichlikning o'zgarishiga olib keladi yuqori energiyali konfiguratsiyalarni tashkil etuvchi panjara nuqsonlari, bu esa ushbu mahalliy mintaqada strukturaning metastabilligini oshirishga olib keladi. Keyin, ishlov beriladigan qismning aylanish chastotasi I va uzatish S (p va G. 2.2, 6) bilan pichoqni qayta ishlashda asbobning kesish qirradi Kesuvchi tekislik A nuqtada mahalliy fizik ta'sir zonasini kesishadi, u (2.3-rasm) buzuq kristall panjaraga, asosiy materialga nisbatan boshqa mexanik xususiyatlarga va qoldiq kuchlanishlarga ega, bu esa kuchlanish-deformatsiyaning bir zumda o'zgarishiga olib keladi. qirindi shakllanishi zonasidagi holat. 2.4 chizmada ish qismi yuzasida mahalliy jismoniy ta'sir zonasini oldindan yaratish jarayonining rivojlanishini ko'rsatadi. Kinematik tadqiqotlarda mahalliy jismoniy ta'sir zonasini hy va bp o'lchamlari bo'lgan uchburchak shaklida olingan. Keyin F -- h -b 72 ko'ndalang kesim zonasidagi maydonga ega bo'lgan ishlov beriladigan qismning bir aylanishi uchun mahalliy jismoniy ta'sir zonasining hajmi teng bo'ladi.

$$W_m = \frac{h_m \cdot b_m \cdot S_m}{2 \sin \mu_m} \cdot \text{MM}^3.$$


2.4 chizmada 6 ozuqa  $f_{ip}$  va kesish chuqurligi bilan an'anaviy burilish jarayonida qirindilari bir parcha shakllanishining bir parcha ko'rsatadi /. Ishlov beriladigan qismning -fi,, ga teng bo'lgan bir aylanishi uchun g plandagi burchakka ega bo'lgan kesgichning kesish qirradi Z o'qi yo'nalishi bo'yicha  $S_p$  uzatish tezligiga teng yo'ldan o'tadi. Shunday qilib, kesilgan qatlamning hajmi ishlov beriladigan qismning oldingi va keyingi aylanishlarida kesish tekisliklari tomonidan ko'ndalang kesimda hosil bo'ladi. Kesilgan qirindi qatlamining qalinligi a va kengligi b formulalar bilan



aniqlanishi mumkinligini hisobga olsak.



Qayta ishlangan materialda mahalliy metastabillikni yaratish sxemasi (o) va materialga dastlabki jismoniy ta'sirdan keyin ish qismini aylantirish jarayoni 31a 2.4, v dastlabki mahalliy jismoniy ta'sirga duchor bo'lgan ish qismini qayta ishlashning rivojlanishini ko'rsatadi. To'sarning kesuvchi tomonining tekisligida va kesilishida, spiral bo'ylab qo'llaniladigan mahalliy jismoniy ta'sir zonasini hajmi bilan qirindilarning kesilgan hajmining kesishish maydoni hosil bo'ladi.



Mahalliy jismoniy ta'sir zonasini va ko'ndalang kesilgan qirindi qatlaminin o'zaro joylashuvi sxemasi

2.5-rasmda ko'ndalang kesimida o'zgaruvchan xususiyatga ega bo'lgan qirindilar hajmi ko'rsatilgan, bu qirindining mahalliy jismoniy ta'sir zonasini hajmi bilan kesishgan joyida hosil bo'ladi. C nuqta kesuvchi chekka uchlarining mahalliy jismoniy ta'sir zonasiga kirishiga, C' nuqtasi esa undan chiqishga to'g'ri keladi. Keyin J kesimida xossalari o'zgaruvchan bo'lgan kesilgan metall qatlamning hajmi P qiymati bilan aniqlanadi, kesuvchi keskich mahalliy ta'sir zonasini kesib o'tadigan ishlov beriladigan qismning aylanmasining tegishli ulushi

$$W'_{cmp} = \frac{S_p^2 \cdot t}{\sin \mu_p} \cdot P_{cm}, \text{ MM}^3,$$

$$\text{где } P_{cm} = \frac{h_m + t \cdot \text{ctg} \varphi + t \cdot \text{tg} \mu_p}{2}$$

P olib tashlangan metall qatlamining ushbu hajmiga to'g'ri keladigan mahalliy ta'sir zonasining hajmi t, ishlov beriladigan qismning burilish qismi bo'ylab R,r kattaligi bo'yicha aniqlanadi, bu kesuvchi tomonning kirish qismiga mos keladi. mahalliy ta'sir zonasini va hisoblanadi

$$W'_m = \frac{h_m \cdot b_m \cdot S_m \cdot P_{\alpha}}{z\rho_3' \cdot t \cdot \sin \mu_m} \cdot t \cdot (\operatorname{ctg} \varphi + \operatorname{tg} \mu_p), \quad \text{MM}^3,$$

где  $P_{\alpha} = t \cdot (\operatorname{ctg} \varphi + \operatorname{tg} \mu_p)$ .

Tuzilishi va xususiyatlari o'zgartirilgan mahalliy ta'sir zonasida hajmining Ppp aylanish jarayonida olib tashlangan metall qatlamining umumiy hajmiga nisbati 57 ga teng.

$$(2.43) \quad \frac{W'_m}{W'_{\text{спор}}} = \frac{h_m \cdot b_m \cdot S_m \cdot \sin \mu_p}{z\rho_3' \cdot t \cdot \sin \mu_m} \cdot \frac{t \cdot (\operatorname{ctg} \varphi + \operatorname{tg} \mu_p)}{h_m + t \cdot (\operatorname{ctg} \varphi + \operatorname{tg} \mu_p)}$$

Asosiy metall va metallning mahalliy jismoniy ta'sirga ega bo'lgan hajm nisbati, qirindi shakllanishi jarayonini nazorat qilish uchun zarur bo'lgan kesish zonasida kuchlanish-deformatsiya holatining vaqti-vaqti bilan o'zgaruvchan sharoitlarining ishonchligi va samaradorligini belgilaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maksarov V.V. Plastik deformatsiyalar bilan dastlabki mahalliy ta'sirga ega plastik materiallarni kesish // Mashinostroyeniye i avtomatizatsiya proizvodstva. Universitetlararo. Shanba. Nashr. 12. - Sankt-Peterburg: SZPI, 1998. - P. 92 - 97.
2. Maksarov V.V. Kesish jarayonida qirindi shakllanishini simulyatsiya qilishda reologik vakillik. Universitetlararo. Shanba. Nashr. o'n to'rt. - Sankt-Peterburg: SZPI, 1999. - S.21 - 24.
3. Maksimova A.N. Qirindi shakllanishi jarayonini hisobga olgan holda texnologik tizim dinamikasini simulyatsiya modellashtirish asosida pichoqni mexanik ishlov berish samaradorligini oshirish / Dis. samimiy. texnologiya. Fanlar. - Sankt-Peterburg: IMASH, 2000. - 200 b.
4. Murashkin J.I. C. Kesish jarayoni dinamikasini o'rganish / Dis. dok. texnologiya. Fanlar. - D.: LPI, 1958. - 348 b.
5. Murashkin J.I. S., Murashkin S. JI. Mashina asboblarning amaliy nochiziqli mexanikasi. - D.: Mashinostroenie, 1977. - 192 p.
6. Orlikov M.L. Mashina dinamikasi. - K.: Vyscha maktabi, 1989. - 268 p.
7. Panovko Ya.G. Elastik tizimlarning tebranishlari paytida ichki ishqalanish. - M.: Fizmatgiz, 1960. - 193 b.
8. Petrov V.I. Instrumental tizimlar uchun tebranishlarni himoya qilish usullari // Tool, 1996. - P.6 - 7.



## INGICHKA ICHAKNING TURLI QISMLARIDAGI INTRAEPITELIAL LIMFOTSITLARI MIQDORIY KO'RSATKICHLARI

*Salomov Shoxabbos Nozimjon o'g'li*  
*Andijon davlat tibbiyot instituti*  
*„ Davolash ishi “ fakulteti 2-bosqich talabasi*  
*Ilmiy rahbar: Aliev Xusniddin Mahmudovich*  
*Andijon davlat tibbiyot instituti,*  
*Tibbiy Biologiya va gitologiya kafedrasi dotsenti.*

**Dolzarbliqi.** Anatomik jihatdan ingichka ichakni o'n ikki barmoqli ichak, och va yonbosh ichaklarga ajratib o'rganiladi. Ingichka ichakda ximusning hazm bo'lishi glikokaliks fermentlari, oshqozon osti bezi shirasi va o't suyuqligi fermentlari yordamida yakunlanadi. Ingichka ichak vorsinkalari jiyakli epiteliysi ovqat hazm qilish mahsulotlarini qon va limfa ichiga tanlab so'rilishini ta'minlaydi. Oshqozon-ichak shilliq qavatining juda katta yuzasi ko'plab yuqori invaziv potentsialli mikroorganizmlardan ta'sirlanadi. Sekretor immunoglobulinlarning A tipi (IgA,) shilliq qavatning birinchi himoya chizig'ini tashkil qiladi.

Yana bir himoya mexanizmi - bu mikroorganizmlarning kirib kelishiga to'sqinlik qiluvchi epiteliya hujayralarining to'siqlarini yaratadigan zich hujayralararo birikmalardir. Shu bilan birgalikda, asosiy himoya to'sig'i bo'lib, oshqozon-ichak traktida antitelolarni chiqaradigan - makrofaglar va shilliq qavatda hamda, shilliq osti qavatida joylashgan juda ko'p miqdordagi limfotsitlar va plazmatik hujayralari mavjud. Vorsinkalarning shilliq qavatidagi limfotsitlar so'ruvchi enterotsitlar orasida joylashgan bo'lib, ular intraepitelial limfotsitlar deyiladi. Birgalikda bu toplam hujayralar KALT (ichak bilan bog'langan limfoid to'qima - *gut-associated lymphoid tissue* — GALT) deb ataladi.

Ovqat hazm qilish tizimi organlarining turli xil eksperimental ta'sirlar ostida moslashish muammosi mahalliy va xorijiy mualliflarning ko'plab sharhlarida ta'kidlangan. Ushbu asarlarning salmoqli qismi ingichka ichakdagi kompensator-adaptiv jarayonlarni, struktura va funktsiya munosabatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Ingichka ichakning turli qismlari, ham strukturaviy (vorsinkalarning balandligi, kriptalar chuqurligi, epiteliy va qadahsimon hujayralari nisbati va boshqalar) ham funktsional (fermentativ va transport faolligi, bioelektrik faollik, ozuqa moddalarining so'rilishi) jihatidan proksimo - distal gradientining mavjudligi bilan xarakterlanadi. Ingichka ichak mikroflorasi, shuningdek, ichak epiteliysining arxitektonikasiga va hujayra tarkibiga, uning proliferativ - migratsiya holatiga, shilliq qavatning immun apparatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Amalda sog'lom odamlarda vorsinka balandligi, kengligi va shakli keng chegaralarda o'zgarib turadi. Vorsinka va kriptalarning chiziqli parametrlariga muvofiq, ingichka ichak vorsinka uzunlamasidagi bo'limlarida hujayralar soni o'zgaradi. Ushbu ilmiy ish ham proksimo - distal yo'nalishda ingichka ichak vorsinkasini gistologik tarkibiy qismlarini o'rganishning davomi hisoblanadi.

**Tadqiqot maqsadi.** Oq kalamushlarning ingichka ichaklari vorsinkalar intraepitelial limfotsitlarining morfometrik ko'rsatkichlarini o'rganish.

**Materiallar va uslublar.** Tadqiqot materiali 20 ta erkak oq kalamush edi. Hayvonlar oddiy vivariya sharoitida kemiruvchilar uchun tabiiy oziq-ovqatda saqlangan, buning asosi bug'doyning butun donasi, shuningdek, katta bo'laklarga bo'lingan sabzavotlar edi. Oziqlantirish kuniga ikki marta amalga oshirildi, bunda hayvonlarga oziq-ovqat va suvdan kerakli oziqlanish imkoniyati berildi. Yorug'lik-mikrosko'pida gistologik tekshiruv 12% neytral formalinda fiksatsiya qilingandan, ingichka ichakning qalinligi 5-6 mkm bo'lgan parafin kesmalarida o'tkazildi. So'ruvchi enterotsitlar, qadahsimon hujayralari va intraepitelial limfotsitlarni hisoblash uchun gistokimyoviy usullar bilan belgilangan bo'limlar kesmalari: neytral mukopolisaxaridlarni aniqlash uchun SHIK reaksiyasi va kislotali mukopolisaxaridlar

uchun Xeyl usuli bilan bo'yaldi. Enterotsitlar, shilliq hosil qiluvchi qadahsimon hujayralari va intraepitelial limfotsitlar vorsinka bir tomonida yo'naltirilgan bo'limlarda hisoblandi.

#### **Natijalar va muhokama.**

Ingichka ichak vorsinkalar yuzasi bir qavatli baland prizmatik hujayralar bilan qoplangan, chegarasi aniq. Ular bir-biriga yaqin joylashgan va ular orasidagi chegaralar oddiy yorug'lik mikroskopida ko'rinmaydi. O'n ikki barmoqli ichak vorsinkasi bo'ylama qismining bir tomonida yuqori prizmatik enterotsitlar soni  $68,4 \pm 1,2$  dona, yuqori prizmatik enterotsitlar orasida joylashgan qadahsimon hujayralari soni  $14,8 \pm 1,6$  dona; bazal membranaga yaqinroq joylashgan intraepitelial limfotsitlar soni  $5,9 \pm 1,1$  dona. O'n ikki barmoqli ichak vorsinkalari bo'ylama kesimining bir tomonida, enterotsitlarga nisbatan vorsinkalar intraepitelial limfotsitlari soni deyarli 12 marta, qadahsimon hujayralari esa deyarli 3 barobar kam.

Ingichka ichakning och ichak qismi vorsinkasining bo'ylama kesimida bir tomonidagi enterotsitlar soni  $93,5 \pm 0,9$  dona; qadahsimon hujayralari soni  $19,7 \pm 1,7$  dona; intraepitelial limfotsitlar soni  $7,8 \pm 0,7$  donani tashkil etdi. Enterotsitlar soniga nisbatan vorsinkadagi intraepitelial limfotsitlar soni deyarli 15 marta, qadahsimon hujayralariniki esa 3 barobar kam ko'rsatgichga ega bo'ldi. Yonbosh ichakda vorsinka uzunlamasi kesimining bir tomonidagi enterotsitlar soni  $60,1 \pm 1,3$ ; qadahsimon hujayralari soni  $33,4 \pm 2,5$ ; vorsinkadagi intraepitelial limfotsitlar soni  $13,4 \pm 0,6$  ni tashkil qiladi. Enterotsitlar soniga nisbatan vorsinka intraepitelial limfotsitlar soni deyarli 5 marta, qadahsimon hujayralariniki esa 3 barobar kam. Shunday qilib, morfometrik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, so'ruvchi enterotsitlar soni proksimal yo'nalishda dastlab ortib, keyin kamayadi, qadahsimon hujayralar va intraepitelial limfotsitlar soni esa, aksincha, ortadi. Ko'rinib turibdiki, bu proksimo - distal yo'nalishdagi mikroorganizmlar kolonizatsiyasi bilan bog'liq.

#### **Xulosa.**

Birinchi dan – ingichka ichakning yuqori qismida ya'ni o'n ikki barmoqli ichakda prizmatik epiteliylarning sonini o'rganib, sanab chiqqanimizda och ichakka o'tgan sari epiteliylar soni ortib bordi. Enterotsitlar asosan oziq moddalarni so'rish va uni keying qismlarga o'tkazish vazifasini bajaradi. Och ichakda o'n ikki barmoqli ichakka nisbatan enterotsitlar soni o'rtishi kuzatildi. Yon bosh ichakka o'tgan sayin enterotsitlar soni kamayadi.

Ikkinchi dan – Ingichka ichakning dastlab o'n ikki barmoqli ichak qismidagi vorsinkalaridagi qadahsimon hujayralar soni sanalganda ham ingichka ichakning har uch qismida tafovut sezildi. Ular sekret moddalar bilan to'lganda qadah shaklini oladi. Qolgan holatlarda silindrsimon holatda bo'ladi. O'n ikki barmoqli ichakdan yonbosh ichak tomon qadahsimon hujayralar soni ortishi kuzatildi. Bu esa ichaklarning quyi qismlarida ya'ni yon bosh ichak qismlariga o'tgan sayin ichaklarning sekret ishlab chiqarish xususiyati ortisiga olib keladi.

Uchinchi dan – endi shu vorsinkalardagi enterotsitlar orasida joylashgan limfotsitlar soni o'rganilganda, bu hujayralar ham, yon bosh ichakka tushgan sayin soni ortishi kuzatildi. Bu esa mikroflora ortishi bilan, asosiy himoya to'sig'ini ham kuchaytiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Зуфаров. К.А., Байбеков И.М., Хаджиметов.А.А. Компенсаторно-приспособительные процессы в кишечнике. – М. : Медицина. 1974. – 206 с.
2. Зуфаров. К.А. Структурные основы компенсаторно – приспособительных процессов. – Ташкент: Фан. 1976. - 222с.
3. Saydullayev.T, Aliev.H, Azizov.Yu, Tulanov D, Mamarasulova.S. The result of experimental studies of the lymphatic system of the small intestine in physiological condition. Journal of Critical reviews ISSN-2394 – 5125 . Vol 7, Issue 12,2020.
4. Dancygier H. Bacterien und intestinales Immunsystem/ Internist.-1989.-Bd.30.
5. Алиев Х.М. Рахманов Р.Р. Умарова . З.М. Камолдинова Р.А. Гистоструктура слизистой оболочки желудка крыс при однообразной белковой питании. „ Re-health “ электронный научно-практический журнал. N-3 . часть 2,2020. СТР . 204-208.

## “ABSOLYUT QORA JISM NURLANISH QONUNLARI” MAVZUSINI O‘QITISHDA STEAM TEXNOLOGIYASI

*Allayarova Sayyora Xadjibayevna*  
*Ajiniyaz nomidagi NDPI 1-kurs magistranti*

**Kalit so‘zlar:** issiqlik nurlanishi, STEAM texnologiyasi, i-spring suite test dasturi, absolyut qora jism, Plank formulasi, grafiklarni tasvirlash, valtablack.

**Anotatsiya:** Absolyut qora jism nurlanish qonunlari kvant mexanikasini o‘rganishda dastlabki ma’lumotlarni tushunishlarida muhim ro‘l o‘ynaydi. Shuningdek, uni o‘zlashtirish o‘quvchilarning kvant mexanikasi yaratilish tarixi, asosiy tushunchalarini tushunishi, ularning mohiyatini anglashiga yordam beradi. Ushbu maqolada “Absolyut qora jism nurlanish qonunlari”ni STEAM texnologiyasida avzulararo integratsiyada o‘qitishning o‘quvchilarda kuzatilgan samaradorligi haqida so‘z yuritiladi.

### **I. Kirish.**

Maktab eng muhim ijtimoiy institut sifatida jamiyat rivojlanishining holati va tendensiyalarini aks ettiradi va unga ta’sir qiladi. O‘z navbatida, ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o‘zgarishlar, ta’limga faol ta’sirini ko‘rsatadi va yangi tarixiy bosqich vazifalariga, harakatchanlik va adekvat javoblarni talab qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931-sonli qarori bilan tasdiqlangan” 2019-2021 yillarda Xalq ta’limi tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi”ning II-bo‘lim, ikkinchi bandida STEAM ta’limini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish haqida belgilab berilgan. Bu vazifani amalga oshirish maqsadida maktablarda darslarni STEAM texnologiyasida o‘qitish bugungi kun talabiga aylanmoqda. Oliy ta’lim tizimida ham kvant mexanikasini o‘rganishda fundamental bilimlarning ahamiyati kuchli ekanligi bu fanni o‘zlashtirishga ijobiy ta’sir qilishi ko‘p tadqiqotlarda amaliy tasdig‘ini topmoqda.

Shuningdek maktablarda kvant fizikasini o‘qitishning bir qator muhim masalalari:

-maktablarda “kvant fizikasi” bo‘limini qanday qilib yaxlit, mantiqiy izchil, integratsiyada o‘qitish kerak?

-maktab o‘quvchilarining ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda o‘qitish jarayonida kvant fizikasining zamonaviy g‘oyalaridan qanday foydalanish kerak?

-o‘quvchilarni ortiqcha yuklamasdan o‘rganilayotgan kvant mexanikasi tushunchalarini qanday kengaytirish mumkin?

Birinchi masala yuzasidan “Uzluksiz ta’lim tizimida kvant tasavvurlarini shakllantirish va rivojlantirishda izchillik” tamoyili haqida N. S. Matchanovning tadqiqodida o‘z aksini topgan. Shuning bilan birga yuqoridagi masalalarning qoniqarli yechimi sifatida STEAM texnologiyasida o‘qitishning afzalliklarini ko‘rishimiz mumkin.


### **II. Metodika.**

STEAM atamasi birinchi bo‘lib AQSh da ishlab chiqarilgan bo‘lib, STEM va STEAM texnologiyasi bugungi kunda ildiz otib bormoqda va XXIasr ehtiyojlarini chinakam qondirish uchun ijobiy harakat usuli sifatida rivojlanmoqda. STEAM u o‘quvchilarni bir vaqtning o‘zida beshta- tabiiy fanlar (Science), texnologiya (Technology), muhandislik (Engineering), tasviriy san’at (Art), matematika (Mathematics) o‘z ichiga olgan yangi ta’lim yondashuvi hisoblanadi. STEAM texnologiyasi bu fanlararo bog‘lanishni ya’ni, buraqs, dizayn, rasm fotosurat va yozuv kabi har qanday visual yoki ijro san’atini qamragan bo‘lishi mumkin. STEAM texnologiyasi bu mavzulararo integratsiyadir. Bu texnologiya o‘quvchilarning bilim ko‘nikma va malakasini rivojlantirishda va ularning kreativ fikr yuritishi, ijod qilishlarida, faolligini qo‘llab quvvatlashda va albatta ilmiy savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.

Absolyut qora jism nurlanish qonunlari mavzusini o'rganish, kvant mexanikasi yaralish tarixi va qonuniyatlarini tushinishda asos bo'la oladi. Absolyut qora jism nurlanish qonunlarini o'rganishda fizikaning termodinamika, optika, spektroskopiya, atom yadro zarralar fizikasi sohalaridagi va matematika, informatika, tasviriy san'at fanlari mavzulari bilan bog'liqlikda integratsiyalab o'qitish dars samaradorligini oshiradi. Shu bois, Absolyut qora jism qonunlari mavzusini STEAM texnologiyasi orqali o'qitish o'quvchilarda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni kamaytirishga yordam berdi. Masalan, termodinamik ko'rinishi-issiqlik nurlanishi, muvozanatlik, harorati; qo'llanilishi; optik ko'rinishi- infraqizil, qizg'ish, zarg'aldoq ko'rinishi, energetik yorqinligi, nurlanish oqimi, nurning sinish qaytish qonunlari, yutish koeffitsienti, nur o'tkazish koeffitsienti, qaytarish koeffitsienti, shaffof jismlar, absolyut qora jism, absolyut oq jism, kulrang jism; astronomiya-Quyosh absolyut qora jism hisoblanadi, uning tuzilishi; tasviriy san'at-grafigini chizish, sur'atlarni chizish, tasvirlash, fikr yuritish, tassavvur qilish, ranglarni solishtirish; matematik ko'rinishi-Vinning siljish qonuni, Reley-jins formulasi, Stefan-Bolstman qonuni, ularni Plank formulasi yordamida keltirib chiqarish, amaliy masalalar yechish; informatikadan foydalanish-elektron doskada mavzuni tushuntirish, ispring test dasturida test olish.

Issiqlik nurlanish qonunlari tatbiq qilish sohasi juda kengdir. U termodinamika, klassik va kvant sistemalarga, moddaga va maydonga, eng avval nurlanishning elektromagnit maydoniga tatbiq qilinadi. Issiqlik nurlanish nazariyasi nazariy fizikaning eng katta mustaqil bo'limlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Issiqlik nurlanishining eng ko'p tarqalgan turi – jismlarni qizdirishda paydo bo'ladigan nurlanishdir. Masalan, inson tanasidan chiqadigan nurlanish, duxovka pechida tovuq pishayotganimizda chiqadigan nurlanish, temirni qattiq qizdirish natijasida chiqadigan nurlanish, oy sirtidan chiqadigan nurlanishlar va boshqalar. Issiqlik nurlanishi-jismning ichki energiyasi hisobiga chiqariladigan elektromagnit nurlanish. Issiqlik nurlanishi ixtiyoriy haroratda vujudga kelib, past haroratlarda infraqizil nur ko'rinishida, yuqori haroratlarda qizg'ish zarg'aldoq va oq yorug'lik nurlar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Issiqlik nurlanishi jarayoni jismning harorati bilan muvozanat holatda sodir bo'ladi. Jismning harorati ortishi bilan, uning nurlanish jadalligi ham ortib boradi. Muvozanatda bo'lgan holat va jarayonlarga termodinamika qonunlarini qo'llash mumkin.

Quyosh sistemasidagi jismlar orasida "Quyosh" absolyut qora jism hisoblanadi. Quyosh bir xil sharoitda boshqa jismlarga nisbatan ancha ko'p issiqlik ajratadi. Absolyut qora jismning modeli –kichik tuynukli yopiq shardir (1-rasm).




1-rasm. Absolyut qora jism modeli.

$b = 2,9 \cdot 10^{-3} m \cdot K$  – Britaniyaning Survey muhandislik firmasi nomlangan dunyodagi tariflangan jismning namoyish qildi. Material 99,965 foizini, shu yorug'likni, radioto'lqinlarni yutadi. rang paydo bo'ladiki, u o'xshaydi. Qora ko'mir yorug'likning 96 foizini

Nurlanish spektri – energetik yorqinlik spektral zichligining to'lqin uzunlikka bog'liqligi:  $r_\lambda = f(\lambda)$

Spektral zichlik jismning kimyoviy tarkibi, hamda  $\lambda$  va  $T$  ga bog'liq:  $R_e = \int_0^\infty r_\lambda d\lambda$



2-rasm. AQJ ning nurlanish spektrining to'lqin uzunlikka bog'liqligi.


Vinning siljish qonuni  $b = \lambda_m T$  bu yerda Vin doimiysi deyiladi.

Nanosystems Vantablack deb eng qora material deb so'nggi versiyasini kirivchi nurlarning jumladan ko'rinadigan mikroto'lqinlar va Natijada shunday qora tubsiz chuqurga esa tushayotgan yutadi.



### I. Muhokama va tahlil.


Yuqorida ko'rsatilganday ma'lumotlarni, o'quvchilarga elektron doska orqali prezentatsiya ko'rinishida tushuntirib berildi va ulardan "ispring suite" test dasturida mavzuga doir test olib ularning kompyuter texnologiya o'rganish qobiliyatini rivojlantirildi. Kompyuter texnologiyalardan foydalanish ham vaqtni tejashga yordam beradi va ko'proq ma'lumotlarni o'rganishga va o'quvchilarning qiziqishlarini yanada rivojlantirishga imkon berdi. O'quvchilarga mustahkamlash bosqichida har bir o'quvchiga ispring test dasturida 10 tadan quyidagicha savollar berildi.



Tajriba-sinov ishlarini o'tkazish va uni samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov va nazorat guruhlarini ajratib olindi. Nazorat guruhlarida o'quvchilarga dars o'tish jarayoni odatdagidek olib borildi. Tajriba sinov guruhlarida esa STEAM texnologiyalarni qo'llab olib borildi. Tajriba sinov va nazorat bosqichidagi darslar bir xil, faqat darslar o'qitish metodikasi bo'yicha farq qilardi. Pedagogik tajriba-sinov o'tkazishda 1-sonli Nukus iqtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining 11– sinf o'quvchilarida olib borilgan tajriba-sinov natijalarini statistik metodlar yordamida tekshirdik. Tajriba-sinov guruhida 24 nafar o'quvchi va nazorat guruhlarida 26 nafar o'quvchi qatnashdi. Har bir o'quvchiga ispring test dasturida 10 ta savol uchun 10 daqiqa vaqt berildi. O'quvchilarning ko'pchiligi 68 foizi rasmi savollarga to'g'ri javob berishgan. Rasm, grafik ko'rinishida berilgan savollarning o'quvchilar tushunib olishlari oson bo'lishni kuzatdim. Tajriba-sinov guruhi o'quvchilarining bilim saviyalari va uzviylik asosida o'qitish ko'nikmalari sezilarli darajada yuqori ekanligi kuzatildi. Biz o'tkazgan tajriba- sinov natijalarini quyidagi jadvalda keltiramiz.

Guruhlar	O'quvchilar soni	O'zlashtirish darajasi			
		«qoniqarsiz»	«qoniqarli»	«yaxshi»	«a'lo»
Nazorat guruhi	26	0	13	8	5
Tajriba guruhi	24	0	1	11	12

Tajriba sinov natijalarini a'lo darajani 4 ball bilan, yaxshi darajani 3 ball bilan, qoniqarli darajani 2 ball bilan va qoniqarsiz darajani 1 ball bilan belgiladik.



#### IV. Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan diagrammadan ko‘rinib turibdiki, maktabda Fizika fanidan Kvant fizikasi bo‘limining “absolyut qora jism nurlanish qonunlari” mavzusini o‘qitishda STEAM texnologiyasida fanlar aro integratsiyada o‘qitishdan foydalanish quyidagi samaradorlikka erishishga olib keladi: tajriba-sinov guruhlarida “a’lo” bahoga o‘zlashtirish darajasi o‘rtacha 50 %ni (nazorat guruhlariga nisbatan 30,8% ga ko‘p), “yaxshi” bahoga o‘zlashtirish darajasi 45,83% (nazorat guruhiga nisbatan 15,03 % ga ko‘p) tashkil etgan bo‘lsa. “qoniqarli” baho olgan talabalar soni 4,17%ni (nazorat guruhiga nisbatan 45,83% ), ni tashkil etdi. Demak, mazkur statistik ma’lumotlar biz tomondan ishlab chiqilgan va amaliyotda sinab ko‘rilgan STEAM texnologiyasida mavzular bo‘yicha integratsiyada faol o‘qitish usullari amaldagi an’anaviy o‘qitish metodikasiga nisbatan samarali degan xulosaga kelishimizga asos bo‘ladi. Bu esa, tajriba guruhlarida “Fizika” fanini STEAM texnologiyasida mavzular bo‘yicha integratsiyalashgan holda o‘qitish metodikasi bo‘yicha olib borilgan ishlar samarador ekanligini ko‘rsatadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. M. Mirziyoyev “O‘zbekiston Respublikasini rivojlanish bo‘yicha harakatlar strategiyasi 2017-2021-yil”
2. Abdumalikov A.A., Mamatkulov R. Termodinamika va statistik fizika.-Toshkent: Voris nashriyoti, 2006.-129-b.
3. Матжанов Н. С. Изучение фундаментальных положений квантовой физике на разных уровнях образования.//Наука и просвещение.-2018-55 с.
4. Карлыбаева Г. Е. Матжанов Н. Мактаб физикасини ўқитишда ахборот коммуникацион технологиялар асосида ташкил этиш//Илим ҳам жамийет, Нукус, 2014 №3 74-75-б.
5. Majitova X. E, Yangiboyev X. A. STEAM ta’limiy dasturi bo‘yicha o‘quvchilarni innovatsion muhitga yo‘naltirish.// Fizika va texnologik ta’lim jurnali: №4-2021-149-b.
6. Андреанова Е. В. (идр.). Решение задач по квантовой физике.-Минск: БГУИР,-2014-с.8
7. C. Singh, M. Belloni, W. Christian. Improving student’s understanding of quantum mechanics. Physics Today, 8, 43-49, August (2006).
8. C. Singh, Interactive learning tutorials on quantum mechanics. Am. J. Phys., 76(4), 400-405, (2008).
9. D. Styer, The strange world of quantum mechanics, Cambridge Univ. Press, (2000).

## QUYOSH SUV ISITISH KOLLEKTORIDAGI ISSIQLIK ALMASHINUV JARAYONLARINI MATEMATIK MODELASHTIRISH

*Xayriddinov B.E., Umarova S.U. Allayorov A.T.  
Qarshi davlat universiteti.*

Mamlakatimizda inson manfaatlarini oily qadriyat deb qaralayotgan bir davrda ijtimoiy sohani taraqqiy ettirish, iqtisodiyotni barqaror sur'atlar bilan rivojlantirish, yaqin kelajakda barcha sohada amalga oshirilishi belgilangan yo'nalishlarda xususan energiya tejamkor muqobil energiya manbalaridan foydalanib issiq suv ishlab chiqarishda innovatsion qurilmalarni yaratish bilan issiq olish jarayonida zamonaviy texnologiyasini keng tadbiiq etish masalasi ham dolzarb ustuvor vazifalardandir.

Quyosh kollektorida issiqlik almashinuvi integral xarakteristikasi va temperature maydonini hisoblash metall qoplama orqali issiqlik uzatish jarayoni stasionar rejimda masalani yechilishiga asoslangan yassi kollektor bo'ylab temperature o'zgarishini aniqlash jarayonida trubalar bo'ylab oqadigan suyuqlik temperaturasi o'zgarishi bilan bog'lab yassi metall qoplamali suv isitish kollektoridagi temperatura o'zgarishini qo'yilgan masalani yechilishi mukammal tadqiq etishni talab etadi.

Muborakneftgaz MCHJ yordamchi xo'jaligida qurilgan yassi suv isitish kollektorida olib borilgan tadqiqotlarda, sistema bo'ylab bo'ylama temperature maydonini truba bo'ylab oqadigan suv temperaturasi o'zgarishi temperature maydoni stasionar va o'tish rejimidagi tadqiqotlar matematik modelashtirish metodi bilan nazariy asosda o'rganildi. Kombinatsiyalashtirilgan truba tipidagi yassi quyosh suv isitish kollektoridagi temperatura maydonidan trubalarga uzatiladigan issiqlikni ikki o'lchamli issiqlik uzatish tenglamasidan foydalanib quyidagicha ifodalaymiz.

$$\frac{\partial T}{\partial t} = a \left( \frac{\partial^2 T}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 T}{\partial y^2} \right) + \frac{S_n - q}{C\rho\delta} \quad (1)$$

Bu yerda  $q = K_{ef}(T - T_{oc})$  - atrof muhitga sarflanadigan issiqlik miqdori. Agar yassi quyosh suv isitish kollektoriga kiradigan suvning temperaturasi va tezligi o'zgarish bo'lsa, u holda panelga tushadigan quyosh nurlarining energiyasini miqdori bir xil bo'ladi va trubalardagi temperatura maydonixarakteriga ega bo'lib, plastinkaning bir tomoniga trubalarga tushadi. Shunga asosan quyilgan masalani yechish uchun shartli belgilarni quyidagicha ifodalaymiz.

$$\lambda\delta \frac{\partial T}{\partial y} \Big|_{y=0} = \alpha\pi d(T - T_j) \quad (2)$$

$$\frac{\partial T}{\partial y} \Big|_{y=L} = 0 \quad (3)$$

Taqdimotlar ko'rsatadiki, bu holda issiqlik oqimini bo'ylama miqdori y-ni e'tiborga olmaslik mumkin. Ya'ni

$$\frac{\partial T}{\partial x} \Big|_{x=0} = \frac{\partial T}{\partial x} \Big|_{x=H} = 0 \quad (4)$$

Agar yassi quyosh suv isitish trubkalarini solishtirma issiqlik sig'imini issiqlik almashinuv jarayoniga ta'siri e'tiborga olinadigan bo'lsa, u holda modelni interplyatsiyalashda plastinkani (metall listni) effektiv solishtirma issiqlik sig'imi va zichligini quyidagi tenglik bilan ifodalanadi.

$$C_{ef}\rho_{ef}V_{pl} = C_{pl}\rho_{pl}V_{pl} + C_T\rho_TV_\tau \quad (5)$$

Panelda quyosh energiyasi oqimini yutilishini  $S_p$  va plastinkaning shisha qoplagan yuzasidan atrof-muhitga uzatiladigan issiqlik miqdorini effektiv issiqlik uzatish koeffitsiyenti  $K_{ef}$  yassi quyosh suv isitish kollektorining joylashishi va issiqlik almashinuv jarayonlaridagi xarakteristikasi[2] adabiyotda keltirilgan metodika asosida aniqlandi. Bunda kollektordagi suyuqlikning temperature maydonini xarakterlashda bir o'lchamli energiya tenglamasidan foydalaniladi.

$$C_j \rho_j F \left( \frac{\partial T_j}{\partial t} + W \frac{\partial T_j}{\partial x} \right) = \alpha_j U (T - T_j) \quad (6)$$

boshlang'ich sharti  $T_j(0, x) = T_{j0}(x) \quad (7)$

va chegara sharti  $T_j(t, 0) = T_{jkir}(t) \quad (8)$

Agar yassi quyosh suv isitish kollektori rebrasimon trubkalardan tayyorlangan bo'lsa, u holda rebroning maksimal effektivligi


$$K_p = \sqrt{\frac{\delta K_{ef}}{\lambda}} \rightarrow 0 \quad (9)$$

Tenglik bilan ifodalanib, rebroning uzunligi bo'ylab temperaturasi o'zgarmaydi[2]. Shuning uchun  $K_p$  ning kichik qiymatlarida u koordinatada temperaturasini o'rtacha qiymatini olib, rebroning maksimal effektiv qiymatini aniqlik darajasiga muvofiq bo'lishini bir o'lchamli issiqlik uzatish tenglamasini quyidagicha ifodalaymiz.

$$C_p F \frac{\partial T}{\partial t} = \frac{(S_n - q) F}{\delta} - \frac{\alpha U}{\delta} (T - T_j) \quad (10)$$


bunda boshlang'ich shart  $T(0, x) = f(x) \quad (11)$

(10) va (6) tenglamalarni yechimi orqali quyosh suv isitish kollektor panelidagi va trubkalardagi issiq suv temperatura maydoni aniqlanadi. (1), (6) va (6), (10) differensial tenglamalar sistemasini yechishda oxirgi farqlar metodidan foydalaniladi[2]. Ikkinchi tartibli issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi (1) ni yechish uchun  $\omega_{t,x,y}$ -panjarali sohada local bir o'lchamli sxemadan foydalaniladi[2]. Bir o'lchamli differensial tenglamani olish uchun bu tenglama to'rt tochkali aniqmas oxirgi farqlar sxemasi asosida differensial tenglama approksimatsiyalanishi natijasida fazoviy va birinchi vaqt birligida ikkinchi tartibli approksimatsiya tenglamasi olindi. Bunda algebraik tenglamalar sistemasini yechishda yaqinlashtirilishi metodidan foydalanildi.[3] Shuningdek suyuqlik energiyasi ifodalovchi (6) tenglamani uch nuqtali chap tomonli aniqmas farqlar sxemasi bo'yicha approksimatsiyalandi. Belgilangan tenglamalarni yechish uchun algoretmarga muvofiq MATLAB dastur tuzildi. [1] adabiyotda keltirilgan tavsiyalarga muvofiq yassi quyosh suv isitish kollektorini asosiy xarakteristikalari dasturi kiritildi: kollektorni uzunligi 1,2 m, kengligi 0,64 m, trubalar orasidagi masofa 0,16m, trubalarning diametric 15 mm, yassi quyosh suv isitish panelini va trubalar devorini qalinligi 0,5 mm, panel plastinkasi va trubalar – misdan tayyorlangan, issiqlikni atrofga sarfini kamaytirish maqsadida mineral paxta bilan 0,1 m qalinlikda teploizolyatsiya qilingan va tiniq yuzasi bir qavatli shisha bilan qoplangan. Yassi quyosh suv isitish kollektori janubga nisbatan  $39^0$  burchak bilan o'rnatilgan (1-rasm).



1-rasm. Muborak neftgaz MCHJ yordamchi xo'jaligida qurib tajriba sinovdan o'tkazilgan yassi suv isitish kollektori

Yassi quyosh suv isitish kollektorining tiniq yuzasiga tushadigan quyosh energiyasining oqimi ( $700 \text{ Wt/m}^2$ ) va atrof-muhit temperaturasi ( $300 \text{ K}$  doimiy deb, quyilgan shu rejimga muvofiq ikki o'lchamli matematik model asosida hisoblash ishlari bajarildi. Qurilma  $600 \text{ s}$  davomida ishchi rejimda tadbiq etildi. Shu vaqt ichida quyosh nur energiyasini yutuvchi panelni o'rtacha temperaturasi  $23 \text{ K}$  ga ko'tarildi. Yassi quyosh suv isitish kollektor panelining kengligi va uzunligi bo'yicha ( $X$ -koordinata) turli qismlarida temperature taqsimlanishi 2-rasmda keltirildi.



2-rasm. Yassi quyosh suv isitish kollektor panelining kengligi bo'yicha temperature taqsimlanishi

1- $x=0 \text{ m}$  uchun; 2- $x=0,3 \text{ m}$ ; 3- $x=0,6 \text{ m}$ ; 4- $x=0,9 \text{ m}$ ; 5- $x=1,3 \text{ m}$

[1] adabiyotda keltirilgan. Bir o'lchamli va ikki o'lchamli modellardan olingan natijalar ( $K_p=0,48$  bo'lgan holda) orasidagi farqlar  $7\%$  ortmasligi ko'rsatdi. Real sharoitda yassi quyosh suv isitish kollektoriga akkumulyator-bak qo'yiladi, natijada sistemadagi suv temperaturasi ko'tariladi va iste'molchi etarli temperaturadagi issiq suv bilan ta'minlanishiga erishiladi.

O'rtacha parametrlri issiq suv bakini xarakteristik kattaliklari asosidagi matematik model quyidagi tenglama bilan ifodalanadi.

$$(C\rho V)_j \frac{\partial T_{jb}}{\partial t} = (C\rho F)_j (TW)_{kir} - (C\rho F)_j (TW)_{chiq} - \alpha S (T_{jb} - T_{sb}) \quad (12)$$




$$(C\rho V)_b \frac{\partial T_{cb}}{\partial t} = \alpha(T_{jb} - T_{cb}) - \frac{\lambda_u}{\delta_u}(T_{cb} - T_{oc}) \quad (13)$$

Kollektor bilan uzviy bog'langan issiq suv bakini hajmi  $47 \cdot 10^{-3} m^3$  bo'lib, sistemadagi suv tabiiy sirkulyatsiyalanadi. Sistemadagi issiq suvni sirkulyatsiyalanish tezligi gidravlik bosim va arximed kuchini tezlashtirishi orqali aniqlanadi. Yassi quyosh suv isitish kollektoriga beriladigan issiqlik oqimi approksimiyalanishi quyidagi tenglik bilan ifodalanadi[4].

$$H = H_{\max} \sin\left(\pi \frac{(t - t_{chiq})}{t_\delta}\right)$$

Bu erda  $t_{chiq}$ -quyoshning chiqish vaqti;  $t_\delta$ -quyoshli kunning davomiyligi. Quyosh nur energiyasining maksimal oqim zichligi. Atrof-muhit temperaturasini o'zgarishi  $7^{00}$  dan 11 soat chiziqli qonun bo'yicha o'zgaradi va 291 dan 303 K gacha bo'lib, 14 soat davomida o'zgarmasdan saqlanadi. Keyin  $18^{00}$  dan kamayib 291 K yetadi. 3-rasmda yassi quyosh suv isitish kollektor-bak akkumulyator sistemasida temperature o'zgarishi va suvni kun davomida sirkulyatsiyalanishi keltirilgan.



3-rasm. Yassi quyosh suv isitish kollektor-bak akkumulyator sistemasidagi trubalardan oqadigan suvning temperaturasi va tezligini vaqt bo'yicha o'zgarishi.

Kollektor panelida suvning maksimal temperaturasi kunning  $14^{00}$ - $15^{00}$  oraliqlariga mos keladi, bak akkumulyatordagi suvning maksimal temperaturasining ko'tarilishi davom etadi. Natijada bak akkumulyatordagi suvning temperaturasi 332 K gacha ko'tariladi. Yassi quyosh suv isitish kollektor trubalarida suvning sirkulyatsiyalanishi (3-rasm, 5-grafik) kollektor trubalariga kiruvchi (3-rasm, 4-grafik) va undan chiquvchi (3-rasm, 3-grafik) suvning temperaturasining o'zgarishiga bog'liq bo'ladi. Bu esa maksimum 12 soat davom etadi. Qurilmaning FIK 8 soat ishlatilganda 49% gat eng bo'ladi. Ishlab chiqilgan metodikadan yassi quyosh isitish kollektoridagi issiqlik almashinuv jarayonlaridagi issiqlik fizikaviy parametrlar doimiy (statsionar) yoki vaqt birligida o'zgaruvchan (nostatsionar) bo'lgan va atrof-muhit, quyosh radiatsiyasining oqimini harakterlovchi parametrlar o'zgaruvchan holatlarda bo'lganda ham hisoblash maqsadida shuningdek quyosh suv isitish kollektorini loyihalashtirish, optimal qurilma variantini yaratishda foydalanish uchun tavsiya etiladi.

### Maqolada qabul qilingan shartli belgilashlar:

T-temperatura;  $\alpha$ -temperatura o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti; x,y,z,-fazoviy koordinatalar; C-solishtirma issiqlik sig'imi;  $\rho$ -zichligi;  $\delta$ -qalinligi;  $\alpha, k, \lambda$ -issiqlik almashinuv, issiqlik berish, issiqlik uzatish koeffitsiyentlari; F-kundalang kesim yuzasi; U-namlanganlik parametric; d-diametri; W-tezlik; H-yassi quyosh suv isitish kollektorining uzunligi; L-kollektordagi trubalar orasidagi masofaning yarmi; t-vaqt; V-hajm;  $S_n$ -quyosh energiyasi oqimini yutilishi;  $B_i$ -Bio kreterisi; S-issiqlik almashinuv yuza.

Indeksalar: j-suv, b-bak,  $c_b$ -bakni devoir; 0-boshlang'ich; kir-kiruvchi; chiq-chiquvchi; o.c.-atrof-muhit; u-izolyatsiya; ef-effektiv; pl-panel.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. ДаффиДж.А., Бекман У.А. Тепловых процессии с использованием солнечной энергии. – М.: Мир. 1977. с.420
2. Кухаренко В.Н., Подольский А.Г., Федосова А.П. Методика расчета плоского солнечного коллектора// Гелиотехника. 2016.№3. с.52-56
3. Авезова Н.Р. Yassi kollektorlarda quyosh energiyasini issiqlikka aylantirish jarayonlarini modellashtirish va ularning asosiy parametrlarini issiq suv ta'minoti tizimlarida foydalanish uchun optimallashtirish-texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. T.: 2018. 30 bet.

## TAQDIMOTLARNI MASOFADAN BOSHQARISHDA ZAMONAVIY MOBIL TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

*Almirzayev Himoyiddin Qobil o'g'li*

*Surxondaryo viloyati Qumqo'rg'on tumani*

*79-maktab Informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** texnik o'qitish vositalari, virtual haqiqat, VR, kengaytirilgan haqiqat, MotionParallax, CAVE, ekzoskelet, haddan tashqari fokus, uch o'lchamli tasvir, multimedia.

**Kalit so'zlar:** kasbga yo'naltirish, ijtimoiy muhit, psixologik ta'sir, "Men" tabiati, kasb tanlash, faoliyat, kasbiy motiv.

*Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning an'anaviy texnik vositalari.*

Maxsus ta'lim sifatini oshirish va texnika fanlarini o'rganish jarayonining axborot bazasini kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining yetakchi oliy ta'lim muassasalarida talabalar tomonidan olingan nazariy bilimlarni mustahkamlashga yo'naltirilgan laboratoriya amaliyotining turli shakllari qo'llaniladi. Laboratoriya tajribasi eksperimental ma'lumotlarni olish jarayonining amaliy xususiyati bilan bilim olishning boshqa usullaridan tubdan farq qiladi. Mexanizmlar va qurilmalarni tavsiflash, eksperimentning maqsadli funksiyalarini tasdiqlash yoki rad etish uchun o'qishlarni qayta ishlash va natijalarni tahlil qilish tartiblari har qanday talabaga murakkab texnologiyaning haqiqatiga "tegish" imkonini beradi va uning ishlashi va amaliy faoliyati haqida birinchi ma'lumotni oladi. ilova.

Axborot texnologiyalari bo'yicha zamonaviy laboratoriya ustaxonasi matn va grafik ma'lumotlar orqali inson va kompyuter muloqoti asosida qurilgan. Raqamli ma'lumotlarni kompyuterda qayta ishlashning yaxshi o'rnatilgan usullari va grafikalar, jadvallar, chizmalar va animatsiyalar ko'rinishidagi vizual grafik tasvirlarni qurish qobiliyati kelajakdagi muhandis yoki olimning bilim faolligini rag'batlantiruvchi skameykadan turib, kasbiy mahoratini faol shakllantiradi. o'zlashtirilgan bilimlarga ijodiy yondashish bilan uyg'unlikda.

*Laboratoriya ustaxonasi uchun virtual haqiqat texnologiyasining xususiyatlari.*

Texnik fanlarni o'rganishda didaktik material sifatida ishlatiladigan grafikalar, diagrammalar, chizmalar va video ma'lumotlarning ravshanligiga qaramay, ularning tushunariligi va talabalar tomonidan idrok etilishi haqiqatni ko'rsatish uchun ikki o'lchovli ramka bilan cheklangan. Gorizontali yoki vertikal tekislikdagi voqelikning vizual proektsiyalari bo'lib, plakatlar yoki shaxsiy kompyuter monitoridagi tekis tasvirlar ko'rib chiqilayotgan ob'ektning fazoviy konturlarini va uning strukturaviy elementlarining uch o'lchovli joylashuvi rasmini to'liq etkaza olmaydi. Texnik fanlarni o'qitish amaliyotidagi inqilobiy yutuq laboratoriya amaliyotining an'anaviy shakllarini virtual haqiqat texnologiyalari bilan amaliy darsni kompyuter simulyatsiyasi yoki uch o'lchovli (3D) interfaol muhitga botgan foydalanuvchi bilan laboratoriya tajribasidan foydalanadigan qo'shilishi deb hisoblash mumkin. o'rganilayotgan jarayon haqida. Inson va kompyuter o'rtasidagi eskirgan matn-grafik ma'lumotlarning o'zaro ta'siridan virtual haqiqat texnologiyasining shubhasiz afzalligi - bu stereoskopik tarzda taqdim etilgan "virtual dunyoda" real vaqtda bevosita ishtirok etish illyuziyasi. Talaba mavhum makonda harakatlarning faol ishtirokchisi bo'lish imkoniyatini oladi, unda siz virtual ob'ektlarni yaratishingiz va ushbu ob'ektlar bilan ma'lumot almashish uchun kerakli virtual sharoitlarni o'rnatishingiz mumkin. Inson va kompyuterning o'zaro ta'sirining yangi usuli haqiqiy sezgilar (ko'rish, eshitish, teginish) orqali amalga oshiriladi, ular orasida taktil sezgilar alohida o'rin tutadi. Virtual haqiqat tizimlari foydalanuvchi qo'lining harakatlariga javob berish tufayli ekrandagi uch o'lchamli ob'ektlarni manipulyatsiya qilish imkonini beradi, bu esa talabalarga real ob'ektlarni jalb qilmasdan kompyuter qurilmalari va tizimlariga texnik xizmat ko'rsatish, sozlash, oldini olish va ta'mirlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi. qimmat qurilmalar va mexanizmlar.

Ta'lim muassasalarida foydalanish uchun tavsiya etilgan zamonaviy virtual reallik uskunalari oddiy kompyuter tizimlariga qaraganda insonning virtual muhit bilan o'zaro ta'sirini simulyatsiya qilish qobiliyatiga ega va barcha mavjud sezgilarga ta'sir qiladi. Shunday qilib, virtual muhitga ta'siri ham, atrof-muhitning ta'sirga bo'lgan munosabati ham simulyatsiya qilinadi. Virtual haqiqat ob'ektlari o'zini moddiy voqelikning o'xshash ob'ektlarining xatti-harakatlariga yaqin tutadi. Talabalar ushbu ob'ektlarga fizikaning haqiqiy qonunlariga (suyuqliklarning suyuqligi, tortishish kuchi, zarrachalarning to'qnashuvi va boshqalar) to'liq mos ravishda ta'sir qilishlari mumkin. Biroq, virtual haqiqatdan ko'ngilochar maqsadlarda foydalanishdan farqli o'laroq, foydalanuvchiga ushbu qonunlarni real hayotda mumkin bo'lganidan ko'ra ko'proq o'zgartirishga "ruxsat berilgan" (masalan, katta og'irliklarni ko'tarish, uchish, yo'qdan ob'ektlar yaratish va h.k.), inson-kompyuter interfeyslarining yangi avlodlari simulyatorlarni, interfaol o'qitish virtual muhitlarini, turli texnik muammolar yechimlarini ishlab chiqish uchun virtual prototiplarni yaratishda foydalaniladi. Virtual haqiqatdan qurilmalar, mexanizmlar, murakkab uskunalarini o'rganish bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish uchun muvaffaqiyatli ishlatilishi mumkin, agar haqiqiy qurilmalar bilan ishlash shaxsiy xavfsizlik uchun yuqori xavf bilan bog'liq bo'lsa (yuqori kuchlanish, yuqori og'irlikdagi yuklar va boshqalar). yoki ushbu qurilmalarni sotib olishning yuqori narxi tufayli mavjud emas. Virtual haqiqat texnologiyasi haqiqatda monolit bo'lgan texnik qurilmani tarkibiy qismlarga ajratish imkonini beradi,

Hozirgi vaqtda virtual haqiqat tizimlarida tasvirlarni shakllantirish va ko'rsatishni ta'minlaydigan bir nechta asosiy tizim turlari mavjud:

#### *virtual haqiqat dubulg'asi*

Zamonaviy virtual haqiqat dubulg'alari (HMD-display) dubulg'a emas, balki ko'zoynak bo'lib, ular chap va o'ng ko'zlar uchun tasvirlarni aks ettiruvchi bir yoki bir nechta displeylarni, tasvir geometriyasini sozlash uchun ob'ektiv tizimini va yo'nalishini kuzatuvchi kuzatuv tizimini o'z ichiga oladi. qurilma kosmosda. Qoida tariqasida, virtual haqiqat dubulg'alarini kuzatish tizimlari giroskoplar, akselerometrlar va magnitometrlar asosida ishlab chiqilgan. Ushbu turdagi tizimlar uchun keng ko'rish burchagi, foydalanuvchi boshining egilishlari va burilishlarini kuzatishda kuzatuv tizimining aniqligi, shuningdek, kosmosdagi bosh holatining o'zgarishini aniqlash va tegishli tasvirni ko'rsatish o'rtasidagi minimal kechikish. muhim hisoblanadi.

#### *MotionParallax3D displeylari*

Ushbu turdagi qurilmalar ba'zi smartfonlardan tortib virtual haqiqat xonalari (CAVE)gacha bo'lgan juda ko'p turli xil qurilmalarni o'z ichiga oladi. Ushbu turdagi tizimlar foydalanuvchi ko'zlari holati haqidagi ma'lumotlar asosida yaratilgan bir yoki bir nechta displeylarda virtual ob'ektlarning maxsus shakllangan proyeksiyalarini ko'rsatish orqali foydalanuvchi uchun uch o'lchovli ob'ekt illyuziyasini shakllantiradi. Foydalanuvchining ko'zlarining displeylarga nisbatan joylashuvi o'zgaranda, ulardagi tasvir mos ravishda o'zgaradi. Ushbu turdagi barcha tizimlar uch o'lchamli tasvirni, harakat paralaksini idrok etish uchun vizual mexanizmdan foydalanadi. Bundan tashqari, ko'pincha ular stereoskopik ko'rish yordamida stereo displeylar yordamida stereo tasvir chiqishini ta'minlaydi. MotionParallax3D displeylari uchun kuzatuv tizimlari foydalanuvchilarning kosmosdagi ko'zlari koordinatalarini kuzatib boradi. Buning uchun turli xil texnologiyalar qo'llaniladi: optik (foydalanuvchining ko'zning koordinatalarini kameradan tasvirda aniqlash, faol yoki passiv markerlarni kuzatish), kamroq - ultratovush. Ko'pincha kuzatuv tizimlari qo'shimcha qurilmalarni o'z ichiga olishi mumkin: giroskoplar, akselerometrlar va magnitometrlar. Ushbu turdagi tizimlar uchun foydalanuvchining kosmosdagi holatini kuzatishning aniqligi, shuningdek, boshning kosmosdagi o'zgarishini aniqlash va tegishli tasvirni ko'rsatish o'rtasidagi minimal kechikish muhim ahamiyatga ega. Ushbu toifadagi tizimlar turli xil shakl omillarida amalga oshirilishi mumkin: to'liq suvga cho'milgan virtual xonalardan tortib, uch dyuymli virtual haqiqat ekranlarigacha. faol yoki passiv markerlarni kuzatish), kamroq tez-tez - ultratovush. Ko'pincha kuzatuv tizimlari qo'shimcha qurilmalarni o'z ichiga olishi mumkin: giroskoplar, akselerometrlar va magnitometrlar. Ushbu turdagi tizimlar uchun foydalanuvchining kosmosdagi holatini kuzatishning aniqligi, shuningdek, boshning kosmosdagi o'zgarishini aniqlash va tegishli tasvirni ko'rsatish o'rtasidagi

minimal kechikish muhim ahamiyatga ega. Ushbu toifadagi tizimlar turli xil shakl omillarida amalga oshirilishi mumkin: to'liq suvga cho'milgan virtual xonalardan tortib, uch dyuymli virtual haqiqat ekranlarigacha. faol yoki passiv markerlarni kuzatish), kamroq tez-tez - ultratovush. Ko'pincha kuzatuv tizimlari qo'shimcha qurilmalarni o'z ichiga olishi mumkin: giroskoplar, akselerometrlar va magnitometrlar. Ushbu turdagi tizimlar uchun foydalanuvchining kosmosdagi holatini kuzatishning aniqligi, shuningdek, boshning kosmosdagi o'zgarishini aniqlash va tegishli tasvirni ko'rsatish o'rtasidagi minimal kechikish muhim ahamiyatga ega. Ushbu toifadagi tizimlar turli xil shakl omillarida amalga oshirilishi mumkin: to'liq suvga cho'milgan virtual xonalardan tortib, uch dyuymli virtual haqiqat ekranlarigacha. Ushbu turdagi tizimlar uchun foydalanuvchining kosmosdagi holatini kuzatishning aniqligi, shuningdek, boshning kosmosdagi o'zgarishini aniqlash va tegishli tasvirni ko'rsatish o'rtasidagi minimal kechikish muhim ahamiyatga ega. Ushbu toifadagi tizimlar turli xil shakl omillarida amalga oshirilishi mumkin: to'liq suvga cho'milgan virtual xonalardan tortib, uch dyuymli virtual haqiqat ekranlarigacha. Ushbu turdagi tizimlar uchun foydalanuvchining kosmosdagi holatini kuzatishning aniqligi, shuningdek, boshning kosmosdagi o'zgarishini aniqlash va tegishli tasvirni ko'rsatish o'rtasidagi minimal kechikish muhim ahamiyatga ega. Ushbu toifadagi tizimlar turli xil shakl omillarida amalga oshirilishi mumkin: to'liq suvga cho'milgan virtual xonalardan tortib, uch dyuymli virtual haqiqat ekranlarigacha.

#### *Virtual retinal monitor*

Ushbu turdagi qurilmalar to'g'ridan-to'g'ri retinada tasvir hosil qiladi. Natijada foydalanuvchi o'zining oldida havoda "osilgan" tasvirni ko'radi. Ushbu turdagi qurilmalar to'ldirilgan reallik tizimlariga yaqinroqdir, chunki foydalanuvchi ko'rgan virtual ob'ektlarning tasvirlari haqiqiy dunyodagi ob'ektlarning tasvirlari ustiga qo'yilgan. Biroq, ma'lum sharoitlarda (qorong'i xona, retinal tasvirning etarlicha keng qamrovi va kuzatuv tizimi bilan birgalikda) ushbu turdagi qurilmalar foydalanuvchini virtual haqiqatga cho'mish uchun ishlatilishi mumkin.

Bundan tashqari, turli xil gibril variantlar mavjud: masalan, tekislikda tasvirning to'g'ri proyeksiyasini olish proyektorlarni to'g'ridan-to'g'ri ko'zoynak ustiga qo'yish orqali erishiladi va stereoskopik ajratish sirtidagi aks ettiruvchi qoplama yordamida amalga oshiriladi. proyeksiya amalga oshiriladigan. Ammo hozircha bunday qurilmalar keng tarqalmagan va faqat prototiplar ko'rinishida mavjud.

#### *Taktil sezgilarni taqlid qilish*

Taktil yoki teginish hissiyotlarini simulyatsiya qilish allaqachon virtual haqiqat tizimlarida qo'llanilishini topdi. Bular qayta aloqa qurilmalari deb ataladi.

Ular virtual prototiplash va ergonomik dizayn muammolarini hal qilish, turli simulyatorlar, tibbiy simulyatorlar yaratish, robotlarni masofadan boshqarish, shu jumladan mikro va nano-, virtual haykallarni yaratish tizimlarini yaratish uchun ishlatiladi.

#### *VR qo'lqoplari*

VR qo'lqoplari UC San-Diego mutaxassislaridan tomonidan yumshoq robot texnologiyasidan foydalangan holda yaratilgan. Loyiha muallifi - muhandislik maktabining mashinasozlik professori Maykl Tolley. Yuqoridagi universitetning Jeykobs (Jacobs muhandislik maktabi).

Qo'lqoplar VR ob'ektlari bilan o'zaro aloqada bo'lganda taktil aloqani ta'minlaydi va virtual klaviatura bilan virtual pianino simulyatorida muvaffaqiyatli sinovdan o'tgan. Shu kabi qo'lqoplardan farqli o'laroq, bu qo'lqoplar robotlar uchun mo'ljallangan yumshoq muskullar bilan jihozlangan yumshoq ekzoskeletdan yasalgan bo'lib, ularni ancha yengil va qulayroq qiladi.

Virtual reallik qo'lqoplari nafaqat video o'yinlar va raqamli o'yin-kulgilarda, balki jarrohlikda va, albatta, ta'limda ham qo'llanilishi rejalashtirilgan.

Informatika fanini o'qitish jarayoniga texnik vositalarni joriy etishning afzalliklaridan quyidagi jihatlarni ta'kidlash kerak:

#### 1. Ko'rinish.

Uch o'lchovli vizualizatsiya talabalarga kompyuter qurilmalarining istalgan qismi yoki mikrochiplari dizaynining barcha nuanslarini maksimal darajada batafsil o'rganish imkonini



beradi. Virtual muhitda ehtiyot qismlar va jihozlar bilan ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish talabaga o'quv materialini o'zlashtirishga ishonch hosil qilish va murakkab uskunalar bilan ishlashda qimmatli amaliy tajribaga ega bo'lish imkonini beradi.

2. Xavfsizlik.

Haqiqatda yuqori voltli qurilmalar bilan ishlash bo'yicha ko'nikmalarni laboratoriya mashg'ulotlarida foydalanuvchining sog'lig'iga tahdid qilish ehtimoli yo'q. Boshqa tomondan, talabaning qimmatbaho asbob-uskunalarining vizual taqlidiga beparvo munosabatda bo'lishi uning buzilishi yoki buzilishiga olib kelishi mumkin emas.

3. Diqqatni jamlash

Talaba o'quv jarayoniga to'liq e'tibor qaratadi, bu axborot tizimlarining strukturaviy elementlarining o'zaro ta'sirini o'rganishda juda muhimdir va hokazo.

4. Maksimal suvga cho'mish

Virtual haqiqat uskunalari virtual makonda harakatlanish imkonini beradi, undan qurilmalar va mexanizmlardan foydalanish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar uchun foydalanish mumkin. Hozirgi vaqtda virtual haqiqatga sho'ng'ishning uchta darajasini tasniflash mumkin:

Standart monitor yoki proyektor ekrani orqali (tekis tasvir);

Stereoskopik monitor yoki proyektor va maxsus ko'zoynak (3D tasvir) yordamida:

· dubulg'a-displey, virtual qo'lqop va boshqalar orqali. (to'liq suvga cho'mish).

5. Haqiqatning ikkala rejimida ishni birlashtirish qobiliyati

Amaliy ish samaradorligi foydalanuvchining virtual reallikdan istalgan vaqtda haqiqiy tajriba/seminar sharoitiga, uning eslatmalariga, chizmalariga, diagrammalariga erkin chiqish imkoniyati tufayli keskin ortadi.

6. Haqiqiy mahsulotlarning muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur bo'lgan professional sezgi va ijodiy fazilatlarni shakllantirish.

Virtual haqiqat TSO'lari boshqa texnik vositalardan foydalanganda oddiygina erishib bo'lmaydigan boshqa fan sohalari kabi informatikani o'rganishda ham inkor etilmaydigan pedagogik ta'sir ko'rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Boltayev B, Mahkamov M, Daliyev A, Azlarov T, Abduqodirov A. Informatika va hisoblash texnikasi. O'qituvchi, 2005.

2. Boltayev B, Mahkamov M, R Azamatov A, R, Rahmonqulova S

3. Yuldashev U Yu Boqiyev RR Informatika

4. Kreynak Djoy Ensiklopediya Internet CPB Piter 2003-555c

## OYDIN HOJIYEVA SHE'RIYATIDA MUHABBAT MAVZUSI

*Asatjanova Iroda Maqsudbek qizi*  
*Urganch davlat universiteti talabasi.*

**Annotatsiya:** Hozirgi zamonaviy she'riyatda muhabbat mavzusi badiiy obyekt sifatida o'zining yetakchi mavqeyini saqlab qolgan. Iste'dodli shoira Oydin Hojiyevaning tabiatan g'oyat boy lirikalarida ishq mavzusi alohida o'rin tutadi. Shoiraning ishq lirikasi nafaqat axloqiy fazilatlariga, balki ijtimoiy motivlarga ham boy. Ushbu maqolada shoiraning muhabbat mavzusida yozilgan she'rlari tahlilga tortiladi.

**Аннотация:** В современной поэзии тема любви как художественный объект сохранила свое ведущее положение. Тема любви занимает особое место в лирике талантливой поэтессы Айдын Ходжиевой. Любовная лирика поэта богата не только нравственными качествами, но и социальными мотивами. В данной статье анализируются любовные стихи поэта.

**Annotation:** In modern poetry, the theme of love has retained its leading position as an artistic object. The theme of love occupies a special place in the lyric poetry of the talented poetess Aydin Khodjiyeva. The poet's love lyrics are rich not only in moral qualities but also in social motives. This article analyzes the poet's love poems.

**Kalit so'zlar:** ishq lirikasi, individual tuyg'ular, ritorika, tinish belgilar, motiv, obraz, lirik qahramon, adabiy tuzum, kontrast usuli, ijodiy kuch, psixologik yetuklik

**Ключевые слова:** любовная лирика, индивидуальные чувства, риторика, пунктуация, мотив, образ, лирический герой, литературный строй, прием контраста, творческая сила, психологическая зрелость.

**Keywords:** love lyrics, individual feelings, rhetoric, punctuation, motive, image, lyrical hero, literary system, contrast method, creative power, psychological maturity

Gravitatsiya olamning uyg'unligi va harakatini tartibga solgani kabi, inson sevgisi ham insoniy munosabatlarning abadiyligi va xavfsizligini ta'minlaydi. She'r bizga o'sha munosabatlarning asl mohiyati va qadrini tushuntirib beradi. Adabiyot inson muhabbatining eng buyuk va ishonchli targ'ibotchisi bo'lishi bilan birga, o'zining falsafiy-poetik asoslarini alohida sxema va qoliplar shaklida tayyorlab, kelajakka yetkaza oladi. "Sevgi mavzusi orqali shoir o'zining badiiy salohiyatini namoyish etadi. U barcha insonlar qalbiga yaqin va tanish bo'lgan, ularning qalb torlariga hamohang tuyg'ularni ifodalaydi."<sup>15</sup>

Muhabbat bu uchrashuvmi xiyobonlarda?

Xayol surib, oshiqona entikishlarmi?

Yo Laylidek o'rtanmoqmi otashin darddan?

Yoki ishqiy xatlar bitib, yosh to'kishlarmi?<sup>16</sup>

Oydin Hojiyeva lirikasida ishq madhiyasi muhim o'rin tutadi. Bu lirikaning badiiy qudrati shundaki, unda inson qalbidagi tuyg'u va kechinmalar, inson go'zalligi yuksak mahorat bilan tasvirlangan. Shoira she'rlarida qalb tubida yashaydigan, dil torlarini jonlantiradigan teran lirika, tuyg'u va hayajon bor. Shoiraning ham g'oya, ham mazmun, ham shakl jihatdan juda boy she'rlarida insoniy ishq timsoli alohida o'rin tutadi. Biroq uning asarlaridagi muhabbat intim, individual tuyg'ular ifodasi emas, balki chuqur ijtimoiy xususiyatga ega. Bunday she'rlarda zohiriy dabdaba, shov-shuvli ritorika, keraksiz, quruq gap-so'zlar yo'q. She'riyat o'quvchini nafaqat buyuk ishlarga, ezgu ishlar uchun kurashga chorlaydi, balki uning qalbiga yuksak estetik zavq, pokiza va yuksak tuyg'ularni singdiradi. Bu borada shoiraning biz shartli ravishda ishq lirikasiga nisbat bergan she'rlari tahsinga sazovor.

<sup>15</sup> Qayumov A. She'riyat jilolari. Toshkent. "O'qituvchi". 1997. 43-bet

<sup>16</sup> Hojiyeva Oydin. Tamal toshi: [She'rlar]. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988. 54-bet

Mendan - vafo, sendan muruvvat,  
Mendan - qo'shiq, sendan - hamiyat.  
Shunda bizga qo'ldosh muhabbat.  
Shunda bizni tark etmas niyat!

She'r boshida tinish belgilar ustunlik qiladi, deyarli har bir so'zdan keyin chiziqcha qo'yiladi. Bu faqat qahramonning his-tuyg'ularini ta'kidlaydi. Uning nutqi chalkash, qahramon doimo pauza qiladi. Lekin she'r oxirida nuqtalar undov belgisi bilan almastirilgan. Uning she'rlaridagi sevgi sukunatda kechayotganga o'xshaydi: hech narsa tushuntirilmaydi, hech narsa talqin etilmaydi, so'zlar shunchalik kamki, ularning har biri katta psixologik yukni ko'taradi. Boshqa hech bir she'rda Oydin Hojiyevadagidek jozibali, imo-ishoralarga boy, tinish belgilari beradigan kayfiyat bunchalik nozik bo'lmagan:

Mendan - araz, sendan - kechirim,  
Ma'yus tortsam - taskinim sendan.  
Borlig'ingcha mening taqdirim,  
Yer-u ko'kda maskanim - sendan! (*davomi*)

Shoira "araz – kechirim", "ma'yuslik – taskin", "men – sen" antonimlarini qo'llagan holda ikki obrazning qarama-qarshiligini ta'kidlaydi. Buni lirik qahramon ham tushunadi. Sevgining oxiri - hayotning oxiri, deb o'ylaydi qahramon. Bu uning ishini yanada qiyinlashtiradi. Oydin Hojiyevaning sevgi lirikasi qanchalik avtobiografik bo'lmasin, umuman muhabbat haqida fikr yuritish uning go'zalligi va ulug'vorligini anglash uchun keng imkoniyat yaratadi. Shoiraning ishq-muhabbatga munosabati insoniylikning eng oliy ko'rinishlariga, o'zini-o'zi ifodalashga bo'lgan munosabatdir. Shoira olamning eng go'zal manzaralarini, qalbining eng sog'lom, jo'shqin, eng insoniy "maskan"ini muhabbatda ko'radi.

Bu issiq og'ushda topib halovat,  
Muhabbat shavqidan yayraydi hayot.  
Qara sovuq miltiq ko'ksingda, xayhot,  
Yor bo'lolmadim deb chekadi faryod.<sup>17</sup>

She'r markazida ikkita motiv bor: lirik qahramon obrazi va baxtsiz ishq obrazi. Bu satrlarni o'qirkansiz, otilgan miltiqning ovozi eshitiladi. U qahramonning his-tuyg'ularini yaxshiroq tushunishga yordam beradigan kontrast va qarama-qarshilik usullariga asoslangan. Sog'inchdan qutulib, oshiq bo'lgan oshiqning yana ayriqliq lahzalariga yuz tutishi ishq azoblari bilan birga fidoyilik missiyasini ham ado etish zarurligini yana bir bor tasdiqladi. Bu yerda gap shundaki, visol lahzasidan keyin oshiq yana ajrashadi. Qalbdagi muhabbat tuyg'usi va ayriqliq hissining bir vaqtda paydo bo'lishi insonni abadiy qo'rquv va iztirobda saqlaydi. Bu abadiy ayrilishning mavjudligi abadiy istakning, abadiy sevgining belgisi va mazmuni bo'lishi kerak edi. Oydin Hojiyeva klassik, yangi va zamonaviy davrlarning ishqiy romantikasini, shuningdek, zamonaviy ishq taraqqiyotini o'zlashtirib va bu adabiy tizimni insonni qaytadan o'rganish, odamlar e'tiborini tortish uchun faollashtirib o'zgacha badiiy uslub yaratdi

Shoir bo'lg'ing kelar o'n sakkiz yoshda,  
Unda hamma narsa qofiyadoshdir.  
Tilingga kelmaydi sevgidan boshqa,  
Qalbingda quyoshdir, ko'kda quyoshdir.<sup>18</sup>

Muhabbat insonni o'z-o'zini va o'zgalarni kashf etishga olib keladi, u oddiy "oh-vohlar"dan emas, qalb va irodaning o'zida kamol topuvchi buyuk mehnatdan tug'iladi, surur va lazzatlargagina emas, buyuk mehnatlarga, bunyodkorliklarga chorlaydi. She'rda inson qalbining eng nozik tuyg'ulari, o'ylari ehtiros va san'at bilan tarannum etilgan, shoira qalbining hayot go'zalliklarini asrashga, bilishga da'vat etuvchi ovozi yangraydi. Oydin Hojiyeva nazdida muhabbat – inson go'zalligi va komilligiga sig'inish, hayotga muhabbat, odamiylik, do'stlik, sadoqat va vafo demakdir. Shoira lirikasida hayotning ijodiy kuchi, go'zalligi, insonning komilligi yuksak badiiy tilda tarannum etilgan. Hayotga muhabbat Oydin Hojiyevaning ilhom

<sup>17</sup> Hojiyeva Oydin. Nazokat: She'rlar, doston, qasida, badialar, o'ylar. - T.: "Sharq", 2007. 80- bet

<sup>18</sup> Hojiyeva Oydin. Mushfiq onajon: She'rlar va she'riy qissa, - T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. 233-bet

manbayidir. Shoira lirikasida muhabbat yuksak tuyg‘ularga asoslangan hayotdir. Bu sevgi ichki dunyosi boy insonning sevgisidir. Ijodkor hayotning mazmuni va maqsadini muhabbatda ko‘radi.

Bahor ko‘z o‘nggingda so‘zana boshlar,  
Rang ocha boradi, gul, yaproq, kurtak.  
Ko‘nglingda daryolar to‘lg‘ana boshlar,  
So‘zlar tiziladi misoli durdak. (*davomi*)

Ishq hukmron qalblar yomg‘irdan keyin ochilgan musaffo va beg‘ubor bahor osmonini eslatadi, unda faqat tiniqlik, rang-barang shafaq ko‘rinadi. Ishq go‘yoki inson qalbini filtrlaydi, uni o‘tmish va zararli narsalardan tozalaydi. U insonni go‘zallashtiradi, mehribon va oliyjanob bo‘lishga chorlaydi. Oydin Hojiyevaning lirik qahramoni o‘zidan real dunyo tashvish va muammolari ichida yashayotgan, lekin hayot romantikasini hech qachon unutmaydigan personaj sifatida e‘tiborni tortadi.

Ishqni gul atarlar xushbo‘y va xushrang,  
Gul ko‘zni quvnatar, mast etar yana.  
Guldan chinorlikni kutmoqlik, yalang,  
Shakarga tuz solmoq kabi bachkana.<sup>19</sup>

Shoira yaratgan ishq manzarasi keng qamrovli va boy bo‘lib, mehribon qalb hassoslik bilan ergashadigan hayot belgilari sifatida talqin etiladi. She‘rdagi ishq o‘ziga va o‘zgargan yuksak mavqeyiga qarshi isyonkor ruhda. She‘rlardagi zaif nuqta ham shu nuqta bilan bog‘liq. Ko‘proq his-tuyg‘ularning yechimi muallifga kerak bo‘lganda his-tuyg‘ularini ifoda eta oladigan estetik darajaga ega bo‘lishiga to‘sqinlik qiladi. Bu g‘oyani ayollar erkinligiga da‘vat etuvchi she‘rlarning aksariyatiga xos xususiyat deb hisoblash mumkin. Fikrlar publitsistik ohangda berilgani sari she‘ning estetik jozibasi yo‘qoladi, she‘riy yaxlitlik sezilmaydi. Ular tashvishga shunchalik berilib ketganki, murojaat shakllari o‘z ahamiyatini yo‘qotadi va ijtimoiy pafosdan tashqariga chiqqan olmaydi.

Sendan hech judolik tushmasin boshga;  
Muhabbat xazoni ro‘y bermasin hech.  
Mavjudlik boshqa-yu, yashamoq boshqa,  
Yashash - bu ishq bo‘lib tug‘yon urgan kuch!<sup>20</sup>

“Qalblarda muhabbat bo‘lmasa, yashash sevishdan ortiq bo‘lib qoladi. Olovli yurak egalari uchun esa sevish yashashdan tansiqroqdir. Bundaylarning ishqdan olovlangan qalblari "chirsillab yonib" ketishga qodir”<sup>21</sup>. Oydin Hojiyeva she‘rlaridagi ma‘no xilma-xilligi bilan turli xillikdan qochishga urinishlar o‘rtasidagi bog‘liqlik yosh muallifning muvaffaqiyati, deb baholanishi kerak. Sevgi hayotini ma‘yus, mo‘rt tuyg‘u bilan ifodalagan bu misralarda intonatsiyaning monotonligini uchratmaymiz. Shoiraning ishq olami turli tuyg‘u va ovozlari bilan ifodalangan hissiy ohanglarga boy bo‘lib, lirik uyg‘unlik shoir fikrlarining nozik ta‘sirini yakunlovchi asosiy omilga aylanadi. O‘zi yaratgan she‘riy qarama-qarshilik bilan shoir tuyg‘ularini kuchaytirib, obrazli fikr ifoda tuslarini oshirishga yo‘l ochadi.

Agar so‘nar bo‘lsa ishq yoqqan olov  
Tashvish shamolidan, ko‘zim yoshidan,  
Zarracha o‘kinmam, rostin beayov  
So‘ylang, iqrar bo‘ling avval boshidan.<sup>22</sup>

Lirik qahramonning ochiq va quvnoq ruhi katta quvonch va qayg‘ularga dosh bera oladi. Afsuski, shodlik kam, qayg‘u o‘nlab taqdirga yetardi. Ammo oshiq qalb o‘ziga tushgan hamma narsani ko‘tarib, g‘urur bilan yuradi. Va faqat muhabbatgina uning qalbining chidab bo‘lmasdek tuyulgan tubsizliklarini ochib beradi. She‘rni syujet emas, ko‘proq hissiyot ifodasi zamiriga qurish Oydin Hojiyevaga xos, lekin uning qisqa, ingichka obrazlari ajib bir uyg‘unlik

<sup>19</sup> Hojiyeva Oydin. Mushfiq onajon: She‘rlar va she‘riy qissa, - T.: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1983. 168-bet

<sup>20</sup> Hojiyeva Oydin. Tamal toshi: [She‘rlar]. - T.: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1988. 101-bet

<sup>21</sup> Qozoqboy Yo‘ldoshev. “Yoniq so‘z”. “Yangi asr avlodi”, 2006. 292-bet

<sup>22</sup> Hojiyeva Oydin. Mushfiq onajon: She‘rlar va she‘riy qissa, - T.: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1983. 169-bet

asosiga quriladi va she'rga miniatyur ixchamlik, ayni paytda yorqin o'ktamlik baxsh etadi. Uning she'rlaridagi ravonlik va dilbarlik so'z o'ynoqiligi emas, fikriy chuqurlik va hissiy takomilga bo'ysunadi.

Men yerdan, osmondan izladim xabar,  
Bahrdan izladim ishq degan gavhar.  
Benogoh topdim-u tushdim hayratga:  
Aylandi u quvonch, qayg'uga, dardga,  
Visolga, qo'shiqqa, yuz mashaqqatga,  
Mangu hayratga...<sup>23</sup>

Oydin Hojiyeva – nozikta'b, nozikxayol shoira. Uning ishq-muhabbatga munosabati uni ma'naviy topinish, estetik qadriyat va go'zallik darajasida anglash niyati bilan bog'liq. Qizig'i shundaki, muallif an'anaviy shakl, obraz, ibora va intonatsiyalarni yo'q qilib, ularni qaytadan jamlagan she'riyat makonida ishq lahzalari tubdan o'zgarib "mangu hayrat" maqomiga ko'tariladi.

Ey muhabbat, qovushtirgil sen mushtiq jonni,  
Chaqmoq chaqib u qayg'udan quvonch yaratsin.  
Quyosh kabi qamrab olsin jumla-jahonni,  
Suv bosganday shubxalarning qasrin nuratsin.<sup>24</sup>

Butun she'r davomida intonatsiya va poetika shunday tuzilganki, ular doimo kuzatilib turuvchi va doim barqaror holatda bo'lgan obraz (chaqmoq tasviri, balki birdaniga tutib, chalg'ituvchi tasvir) o'rnini bosuvchi formula doirasida harakatlanadi. "...ilohiy muhabbat, hayotni idealdagiday tasvirlashi emas, turmushni, tuzumni butun rang-barangligi, qora va oq bo'yoqlari bilan aslidagiday, insonni faqat yuksaklikda ulug'vor qilib emas, barcha tubalıkları bilan ko'rsatish ehtiyojini sezga edi."<sup>25</sup> Shoir o'zi qiyoslagan obrazlar fonida ilohiy tuyg'u bo'lmish ishq haqida ikki xil fikr bildira olgan: quyosh va chaqmoq, shu tariqa o'ziga xos badiiy lavha yaratgan. Demak, she'rda tasvirlangan lirik qahramonlardan biri yuksak axloqiy fazilatlarga ega oshiqdir. Shoir sevgiga murojaat qilgan bu qahramon tili bilan tuyg'ularning o'ziga xos metaforik kontrastini yarata oldi. Shu tariqa shoir sevgi munosabatlarida ma'naviy fazilatlar zarurligiga e'tibor qaratmoqchi bo'lgan. Oydin Hojiyevaning sevgi lirikasini falsafiy lirikadan ajratish qiyin, ular ko'pincha bir-birining davomi sifatida "harakat qiladi", buzilmas birlik hosil qiladi.

Oydin Hojiyevaning sevgi lirikasi cheksiz rang-barang va psixologik jihatdan tubsizdir, umuman olganda, uning muhabbat haqidagi she'rlari ko'proq psixologik yetuklikka, tajribaga aaslangan. Ularda inson tuyg'ulari tabiat bilan uyg'un holda berilgan, ularning badiiy tafsilotlari, she'riy yakunlari individual intonatsiya belgisi sifatida talqin etilishi mumkin. Shoiraning ishqqa bag'ishlangan she'rlari axloqiy ohanglari bilan ajralib turadi. U muhabbatni nafaqat insoniy tuyg'ularning eng yuksak cho'qqisi sifatida ko'rsatgan, balki bu munosabatlarning ma'naviy poklik, komillik, axloqiy yaxlitlik bilan bog'liqligini ham ta'kidlagan. Ya'ni, Oydin Hojiyevaning suyakli qahramoni ham boy ma'naviy-axloqiy fazilatlar sohibidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qayumov A. She'riyat jilolari. Toshkent. "O'qituvchi". 1997.
2. Qozoqboy Yo'ldoshev. "Yoniq so'z". "Yangi asr avlodi". 2006
3. Yo'ldosheva M. Yangilanishlar manguiligi: adabiy tadqiqotlar. – T.: ADIB nashriyoti, 2011.
4. Hojiyeva Oydin. Tamal toshi: [She'rlar]. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.
5. Hojiyeva Oydin. Nazokat: She'rlar, doston, qasida, badialar, o'ylar. - T.: "Sharq", 2007.
6. Hojiyeva Oydin. Mushfiq onajon: She'rlar va she'riy qissa, - T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.

<sup>23</sup> Hojiyeva Oydin. Mushfiq onajon: She'rlar va she'riy qissa, - T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. 219-bet

<sup>24</sup> O'sha manba, 55-bet

<sup>25</sup> Yo'ldosheva M. Yangilanishlar manguiligi: adabiy tadqiqotlar. – T.: ADIB nashriyoti, 2011. 26-bet



## AHOLI ORASIDA ALKOGOLGA QARAMLIK TARQALGANLIK DINAMIKASI

*Avezova Guloyim Sattarovna*  
*Jamoat sog'lig'ini saqlash maktabi dotsenti,*  
*Toshkent tibbiyot akademiyasi.*

**Muammoning dolzarbligi.** Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha har yili alkogolizm oqibatida 3,3 million o'lim holatlari sodir bo'lib, u barcha o'lim sabablarining 5,9%ini tashkil etadi [1,4,8]. Alkogolizmga qarshi kurash, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga qaratilgan chora tadbirlar o'tkazilishiga qaramasdan Respublikamizda, butun dunyodagi kabi alkogolizm muammosi dolzarbligicha qolmoqda. Alkogolizm va spirtli ichimliklarni iste'mol qilish har qanday jamiyat va umuman sivilizatsiyaning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi [5,7]. Ichkilikbozlik va alkogolizmning ijtimoiy oqibatlari juda keng bo'lib, jamiyatning ko'p jihatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tibbiy va demografik oqibatlar, aholi salomatlik darajasining pasayishi, kasallanishning ortishi, aholining muddatidan oldin o'limi, oilalarning buzilishi va bolalarning e'tiborsizligida namoyon bo'ladi, bu esa o'z navbatida bolalarning ichkilikka erta berilishiga olib keladi.

**Tadqiqotning maqsadi.** O'zbekiston Respublikasida surunkali alkogolizmning tarqalganligini o'rganish.

**Material va tadqiqot usullari.** O'zbekiston Respublikasida surunkali alkogolizm kasalligining tarqalganligini o'rganish uchun Davlat statistika qo'mitasining maxsus xisobot xujjatlaridan foydalanildi (2013-2018 yy).

**Olingan natijalar va ularning muhokamasi:** Davlat statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, 2016-2020 yillarda Respublikamiz viloyatlari aholisining surunkali alkogolizm bilan kasallanish darajasi jadvalda keltirilgan.

### Jadval

**Respublikamiz aholining surunkali alkogolizm bilan kasallanish darajasi (100000 aholiga nisbatan)**

Xududlar	2016	2017	2018	2019	2020
Qoraqalpog'iston Respublikasi	22,1	24,4	24,8	26,5	27,3
Qashqadaryo	14,2	31,0	14,0	20,8	27,1
Navoiy	6,9	17,8	19,3	22,9	22,3
Samarqand	19,0	19,2	10,1	25,0	32,1
Andijon	9,5	10,5	18,8	12,9	9,8
Toshkent sh.	14,2	17,8	18,8	22,9	16,3
Surxondaryo	22,4	23,1	29,4	29,6	24,5
Sirdaryo	14,2	25,2	29,1	27,6	19,6
Jizzax	22,1	20,8	25,8	41,8	23,5
Xorazm	22,1	28,3	28,3	28,9	23,1
Buxoro	25,7	23,8	14,3	30,9	21,9
Namangan	42,6	8,6	18,8	11,6	11,1
Toshkent viloyati	21,8	17,8	24,4	22,9	19,3
Farg'ona	24,7	18,6	18,8	19,1	18,2

Viloyatlar kesimida kasallikning tarqalgan darajasi notekis bo'lib, u Qashqadaryo, Samarqand, Navoiy va Qoraqalpog'iston Respublikasida o'rtacha respublika ko'rsatkichidan qariyb 2 barobar yuqoriligi qayd etilgan, shuning uchun bu viloyatlarni qizil rangda belgiladik. Andijon, Toshkent shahri, Surxandaryo, Jizzax, Xorazm viloyatlari o'rtacha respublika ko'rsatkichiga teng bo'lgan xududlar, ularni siyoxrangda belgiladik. Buxoro, Namangan, Toshkent va Farg'ona viloyatlari aholisining surunkali alkogolizm bilan kasallanish darajasi kamayish tendensiyasiga ega, xavorang bilan belgiladik. Biroq olingan bu ma'lumotlar aholi orasida surunkali alkaogлизм tarqalganligini ishonchli ko'rsatib bera olmaydi. Aholi orasida alkogolizmning tarqalganligini, aholining surunkali alkogolizm bilan kasallanish holatini (kasallanish darajasi va strukturasi)ni o'rganish uchun aholining birlamchi tibbiy sanitariya yordami muassasalariga murojaatlari asosida, aholi orasida tibbiy ko'riklar o'tkazish yo'li bilan, shuningdek, o'lim sabablarini chuqur tahlil qilish orqali o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi iqtisodiy sharoit va sog'liqni saqlashni isloh qilish davrida spirtli ichimliklarga qaramlik tibbiy va ijtimoiy jihatdan eng dolzarb muammolardan biri bo'lib, oila va ish joyida turli kasalliklar, nomutanosib xatti-harakatlar, nizoli vaziyatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Ma'lumki, ichkilikbozlik va alkogolizm ishlab chiqarish jarohatlarining asosiy sabablaridan biridir. Spirtli ichimliklarni haddan tashqari ko'p ichadigan odamlar orasida turli sabablardan o'lganlar soni umumiy aholiga nisbatan 2 - 4 barobar ko'pni tashkil qiladi. O'lim darajasi nafaqat jarohatlar bilan, balki ortiqcha spirtli ichimliklarni iste'mol qilish oqibatida yuzaga keladigan kasalliklar bilan ham bog'liqdir. Buning oqibatida birinchi navbatda, yurak-qon tomir va oshqozon-ichak tizimi kasalliklari rivojlanadi. Bundan tashqari, alkogolizmning o'ziga xos kasalliklari: jigar sirrozi, kardiomiopatiya, ruhiy - emotsional psixozlar, shaxsning degradatsiyasi va boshqalar kelib chiqadi [2,3].

Tadqiqotda shuningdek surunkali alkogolizmga olib keluvchi xavf omillar o'rganilgan. Narkologik dispanserida davolanayotgan bemorlarning 60,1%i 40-59 yoshdagi bemorlar xissasiga to'g'ri keladi, ikkinchi eng katta guruhni 18-39 yoshdagi odamlar (38,6%) tashkil etadi. Respondentlar orasida eng kichik guruh 60 yoshdan oshgan odamlar bo'lib, ular 1,7% ni tashkil qiladi. Olingan natijalarga ko'ra, bemorlarning ma'lumot darajasini tahlil qilish, ularning asosiy qismini oliy va o'rta maxsus ma'lumotlilar tashkil qilganligini ko'rsatdi. Bemorlarning eng ko'p qismi 40-59 yoshlarga to'g'ri kelib, o'rtacha yosh 43,2ni tashkil qildi. Bemorlarning eng ko'p ichadigan spirtli ichimligi bu pivo va o'tkir spirli ichimliklar (aroq) ekanligi aniqlandi. Kundalik iste'mol qilinadigan ichimliklar orasida pivo ustunlik qilib, bu eng keng tarqalgan ichimlikdir, u haftasiga 1 martadan ko'p iste'mol qilinadi. Respondentlarning aksariyati alkogolli ichimliklarni ichish sababini ana shunday an'anaga aylanganligini (44,5%) takidlaganlar. 20,0% bemorlar ya'ni har 5 tadan 1 tasi kayfiyatni ko'tarish uchun spirtli ichimliklarni ichishni takidlashgan, haddan tashqari psixoemotsional stress respondentlarning 30,4%ning spirtli ichimliklar ichishiga sabab bo'lgan. Bemorlarning aksariyati alkogolli ichimliklar ichish salomatlik bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarishi mumkinligini bilishadi.

#### **Xulosalar.**

1.Respublikamiz aholining surunkali alkogolizm bilan kasallanish darajasi 2016-2020 yillarda o'zgarishsiz tendensiyasiga ega, jumladan u 2016 yilda 100 000 aholiga 18,1 ni tashkil qilgan bo'lsa, 2020 yilda ko'rsatkich 18,7ni tashkil qilmoqda.

2. Respondentlar kundalik iste'mol qiladigan spirtli ichimliklar orasida pivo ustunlik qiladi (9,5%). Bundan tashqari, pivo eng keng tarqalgan ichimlik bo'lib, kuniga 1 marta yoki undan ko'p iste'mol qilinadi (45,5%). Xuddi shu chastotada kuchli spirtli ichimliklar (aroq) 16,4% respondentlar tomonidan iste'mol qilinadi. Biroq, respondentlarning 25,9% oyda 1-3 marta spirtli ichimliklarni qabul qilgan bo'lsa, 23,3% olti oy ichida 1-5 marta suiste'mol qilishgan. Quruq vino va shampan vinolari, shuningdek uyda tayyorlanadigan spirtli ichimliklar respondentlar o'rtasida unchalik ommabop emas. Respondentlarning uchdan bir qismi (27,9%) ushbu toifadagi alkogolli ichimliklarni olti oy ichida 1 - 5 marta iste'mol qiladi.

4. Spirtli ichimliklarni iste'mol qilish va uni suiste'mol qilish, unga qaramlikning paydo bo'lishida eng muhim sabablaridan biri bu mikrosotsial muhitning urf-odatlaridir. Bemorlarning aksariyati spirtli ichimliklarni suiste'mol qilish salomatlik bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarishi haqida xabardor. Biroq, bu xabardorlik yetarli darajada tushunilmaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Avezova G.S. Alkogolga qaramlik va uning profilaktikasiga tizimli yondashuv // Tibbiyotda yangi kun - Ilmiy referativ, ma'naviy –ma'rifiy jurnal. – 2020, 4 (32)- 69-72 b.
2. Аvezова Г.С., Тулиев Р.Р. Алькогольная зависимость и факторы риска// “Интеграционный подход оказания наркологической помощи населению в условиях модернизации” сборник тезисов 1-симпозиума наркологов Узбекистана с международным участием -2021 г., Стр.15-17
3. Ashurov Z.Sh. Deviant hulq –atvorli bemorlarda alkogolizm va narkomaniyaning klinik xususiyatlari// doktorlik diss.avtoreferati T-2017 y, 59 bet
4. Лисицын Ю. П., Копыт Н. Я. Алкоголизм (социально-гигиенические аспекты). — 2-е издание, переработанное и дополненное. — М: Медицина, 1983. — 233 с.
5. Mamatqulov B. “Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni boshqarish” “Ilm Ziyo” nashriyot uyi, 2013y. 7-bob 82- 100. 8 bob 101- 116.
6. Guloyim Sattarovna Avezova, Zarnigor Beshimova, Gulshod Sattarovna Avezova. Means and problems of forming a healthy lifestyle among the population. The American journal of medical sciences and pharmaceutical research, (2021) 3(05), 73-77
7. Global Status Report on Alcohol and Health 2011 (angl.). World Health Organisation.
8. [www.who.int/substance\\_abuse/publications/global\\_alcohol\\_report/en](http://www.who.int/substance_abuse/publications/global_alcohol_report/en)

## NUROTA TOPOTOPONIMLARI

*Oripov O'ralboy Axmedovich*

*NDPI O'zbek tilshunosligi kafedrasida katta o'qituvchisi, f.f.n.*

*Axmedov Salohiddin Sahobiddin o'g'li*

*NDPI O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 1-kurs magistranti.*

Toponimiyada bir ob'ektning atoqli oti bilan boshqa bir ob'ektni ham atash, ya'ni ob'ektlar nomining biridan ikkinchisiga ko'chishi, aniqrog'i toponimdan toponim hosil qilish ma'lum darajada keng tarqalgan xarakterli hodisadir. Bunday nomlar negizida toponim yotsa, ya'ni toponimdan toponim hosil qilinsa *topotoponimlar* deb yuritiladi. Topotoponim toponimik negizdan hosil bo'lgan toponimdir. Toponimning yangi, qo'shimcha vazifaga o'tishi, asosan, onomastik konversiya – nomni funksional ko'chirish orqali yuz beradi.

Topotoponimlarning hosil bo'lishida ikki xil jarayon yorqin ko'zga tashlanadi: 1) yonmayon, yaqin joylashgan ob'ektlarning nomi biridan ikkinchisiga o'tadi; 2) aksincha, uzoq joylashgan ob'ektlarning nomi biri-biriga o'tadi. Topotoponimlarning hosil bo'lish qonuniyatlari hali toponimiyada yaxshi o'rganilgan emas. Bunga sabab nom ko'chishi murakkab jarayon bo'lsa, ikkinchidan, biridan ikkinchisiga o'tgan nomlarning qaysi biri dastlabki nom ekanini aniq belgilashni talab qiladi. CHunonchi: Oqtosh degan qishloq ham, quduq ham bor yoki Maydonsoy degan qishloq ham, soy ham bor, Yomonjar degan qishloq ham, g'or ham bor. Qaysi birining nomi qaysisiga o'tgan? Toponimik shakl dastlab qaysi ob'ektning nomi bo'lgan? Bunday masala toponim mansub bo'lgan joyga borib aniqlashni talab qildi. Bizning Nurota toponimiyasi yuzasidan kuzatishlarimiz bitta nom (toponim)ning ko'p holda birdan ortiq ob'ektning nomi bo'lib kelishini ko'rsatdi. Biz to'plagan materiallar orasida 2,3,4,5 tagacha ob'ektga nom bo'lib kelgan toponimlar mavjud. Quyida ushbu nomlardan namunalar keltiramiz:

**1. Ikkita ob'ektning nomi bo'lib keluvchi toponimlar.** Bular quyidagilar:

- Qishloq va mahalla nomi: Al-Buxoriy, Xo'jaobod, YAngiturmush, Azizobod va b.
- qishloq va otar nomi: Boyovul (Boydovul) va b.
- qishloq va quduq nomi: Barotquduq, Balandquduq, O'tamurod va b.
- qishloq va koriz nomi: Boshkoriz, Boymat, YAngibino va b.
- qishloq va masjid: CHashma va b.
- qishloq va yaylov nomi: Bomin, Papanoy, Tikanli, YUlg'unzor va b.
- qishloq va maydon: Kichikchorbog' va b.
- qishloq va soy nomi: Buyumsoy, Kichiksoy, Sop, Qodoq va b.
- qishloq va tog' nomi: Bel va b.
- qishloq va tepalik nomi: Dehibaland, Kattachorbog', Urganji va b.
- qishloq va g'or nomi: Ko'tikuyuk va b.
- qishloq va qoya nomi: Modavot, Tutakli va b.
- qishloq va buloq nomi: Ko'kbuloq, Sovuqbuloq va b.
- qishloq va quduq nomi: Tosquduq, Teriquduq va b.
- mahalla va ko'cha nomi: Bahor, Bo'ston, Bog'ishamol, Binokor, Mustaqillik, Tinchlik,
- mahalla va guzar nomi: Nonvoylar, Ulug'lar, SHayxon va b.
- mahalla va qadamjoy: Sayidota va b.
- mahalla va koriz nomi: Sardoba, Hovuzak, SHirin hayot va b.
- mahalla va tepalik nomi: Karvon va b.
- mahalla va tog' nomi: CHilduxtaron kabi.
- mahalla va masjid nomi: Tillachilar, Tillashayx kabi.
- tog' va g'or nomi: Ajdarqiz, Kelinchak.
- tog' va tepalik: Kalapo'shtepa, Qoraqarg'a, Qirqqiz.
- tog' va chashma nomi: Beshbarmoq.
- tog' va buloq nomi: Qirqqozon va b.

- tog' va cho'qqi nomi: Sallali, Sandalcho'qqi, Qoyatosh va b.
- tog' va yaylov nomi: Mijgon, SHirg'alon, Qulonyaylov, Qulamajarsoy
- soy va buloq nomi: Gajir, Jonbuloq, Sariqzar, Tangli va b.
- soy va ariq: Otsug'orar, Torsoy va b.
- soy va qoya nomi: YAng'oqli, Ottuyoq va b.
- soy va jarlik: Konsoy va b.
- soy va dara nomi: Burgan, Echkili va b.
- soy va yaylov nomi: Jo'lisoy, Ismaloqsoy, Kelinsoy, Qarmoqli va b.
- soy va g'or nomi: Ikkitut, Ko'hak, Kampirsoy, Tandirsoy, Xarsangsoy.
- soy va koriz nomi: Meliboy, Quvondiq va b.
- Koriz va ariq: Ravshan, Dumariq va b.
- Koriz va buloq nomi: Korizak, Po'lat, Poshshot, Totli va b.
- Koriz va quduq nomi: Normatqozg'on, Uzunsuv, YUnusobod, Karimboy
- buloq va g'or nomi: Ko'rbuloq, Naychali va b.
- buloq va quduq: Kallahovuz va b.
- buloq va qoya nomi: Piyozli va b.
- buloq va tepalik nomi: SHarshara, Eshmattepa va b.
- qir va cho'qqi nomi: Ingichka kabi.
- yaylov va tekislik nomi: Bahorikor kabi.

2. **Uchta ob'ektning nomi bo'lib keluvchi toponimlar:** Andoq - qishloq, ziyoratgoh, tepalik; Alqorli-soy, tepalik, dara; Boshputov - soy, yaylov, dara; Bozorboy -cho'qqi, qishloq, qo'ra; Jaylovsoy – g'or, soy, qishloq va b.

3. **To'rtta ob'ektning nomi bo'lib keluvchi toponimlar:** Jizmon-tepalik, tekislik, yaylov, soy; Ko'ktosh – tog', soy, qadamjoy, qabriston; Ko'ksaroy – qishloq, tekislik, yaylov, soy; Kuygansoy – soy, yaylov, otar, dara; Oqtepa – qishloq, tepalik, g'or, ariq va b.

4. **Beshta ob'ektning nomi bo'lib keluvchi toponimlar:** Nurobod – mahalla, koriz, buloq, ariq, qabriston; Arab - qishloq, mahalla, ariq, urug', gular; Zaynibobo - qoya, avliyo, tekislik, buloq, soy kabi.

5. **Oltita ob'ektning nomi bo'lib kelgan toponim:** Oqtosh – koriz, dara, tog', cho'qqi, buloq, avliyo kabi.

Demak, Nurota tuman toponimlariga faqat bir tomonlama qarash, qandaydir xulosalar chiqarish bugungi kun talablariga mutlaqo javob bermaydi. Nudud toponimlarini har tomonlama o'rganish kerak bo'lsa, ilmiy asoslash davr talabidir. Biz keyingi tadqiqotlarimizda bu yuqoridagilarni albatta inobatga olamiz degan umiddamiz.



## DUNYO XAMJAMIYATINI XAVOTIRGA SOLAYOT MAYMUN CHECHAGI KASALLIGI

**Amonov S. B.**

*Toshkent tibbiyot akademiyasi Termez filiali.*

**Majidova D.B.**

*Termez davlat universiteti.*

**Annotatsiya:** Maymun chechagi kam uchraydigan virusli kasallik bo'lib, asosan yovvoyi hayvonlardan (kemiruvchilar, primatlar) odamlarga yuqadi. Kasallikning belgilari isitma, bosh og'rig'i, mushak va bel og'rig'i, shishgan limfa tugunlari, titroq va charchoqni o'z ichiga oladi. Teri toshmasi yuz va tananing boshqa qismlarida ham paydo bo'lishi mumkin. Maymun chechagi epidemiyasi bo'yicha o'lim darajasi 1% dan 10% gacha.

**Kalit so'z:** Maymun chechagi, virus, toshma, isitma, o'lim, vaksina, papula, vezikula, pustula.

## MONKEY DISEASE DISEASE THAT CONCERNS THE WORLD COMMUNITY

**Amonov S. B.**

*Termez branch of Tashkent Medical Academy.*

**Majidova D.B.**

*Termez State University*

**Annotation:** Monkey pox is a rare viral disease that mainly affects humans from wild animals (rodents, primates). Symptoms include fever, headache, muscle and back pain, swollen lymph nodes, tremors, and fatigue. Skin rashes can also occur on the face and other parts of the body. The death toll from the monkey pox epidemic ranges from 1% to 10%.

**Keywords:** smallpox, virus, rash, fever, death, vaccine, papule, vesicle, pustule.

Virusli yuqumli kasalliklar hozirda ham tibbiyotning dolzarb muammolaridan biridir. Yer yuzida hozirgi vaqtda milliardlab odamlar u yoki bu turdagi virusli yuqumli kasalliklar bilan kasallanadilar. Tibbiyot xodimlarining samarali harakatlari natijasida ba'zi kasalliklar butunlay bartaraf qilingan bo'lsada, ayrim kasalliklar bilan kasallanish darajasi yuqoriligicha qolmoqda. 2022 yil may oyida bir vaqtning o'zida Yevropa va Amerikaning bir nechta mamlakatlarida, shuningdek Avstraliyada maymun chechagi — tabiiy chechakka o'xshash, virusli kasallik bilan zararlanish holatlari [aniqlandi](#). Bu haqdagi ilk xabarlar Buyuk Britaniyada [e'lon qililib](#), keyinchalik ushbu virus Portugaliya, AQSh, Shvesiya, Kanada va boshqa mamlakatlarda, ya'ni [:https://global.health](https://global.health) veb sayitining 2.06.2022 dagi ma'lumotiga ko'ra Ukrainada 208, Ispaniyada 156, Portugaliyada 138, Kanadada 57, Germaniyada 43, Niderlandiyada 40, Fransiyada 33, AQSh da 22, Italiyada 20, Belgiyada 14 , BAA 8, Chexiyada 6, Irlandiyada 6, Yangi Zelandiyada 6, Shvedsiyada da 5 nafar fuqarolarda kasalik aniqlangan. Maymun chechagi nomini olgan bu kasallik katta ehtimol bilan tabiatda azaldan bo'lgan. Lekin ilk bor 1958 [yilda](#) Daniyadagi laboratoriya maymunlaridan ajratib olingan va shu nomni olgan. Odamda esa birinchi marta 1970 yilda Kongoda qayd qilingan va shundan so'ng Afrika hududida muntazam uchrab turgan. 1981–1986 yillarda o'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra hududda jami 338 holat qayd etiladi va 33 ta o'lim holati yuz beradi (9,8 foiz). 1991–1999 yillar oralig'ida yana 511 ta holat ro'yxatga olinadi. AQShda 2003 [yilda](#) zoodo'kondagi kemiruvchi hayvonni o'ynagan bolada qayd etiladi va shu yilning o'zida yana 71 kishida bu kasallik kuzatiladi. Ularning aksariyati Ganadan olib kelingan kalamushlarni xarid qilganlar edi. Vaqtida ko'rilgan choralar natijasida kasallik tarqalishining oldi olinadi, bemorlar orasida o'lim holati qayd etilmaydi. Yevropadagi ilk holat joriy yilning 7 mayida Buyuk Britaniyaning Nigeriyaga

borib qaytgan ikki fuqarosida qayd etildi. Keyinchalik boshqa davlatlarda, qit'alarda, jumladan Yevropaga borib kelgan sayyohlarda ham uchray boshladi. Kasallanganlarning aksariyati 20–40 yosh orasidagi erkaklar edi. Bu yerda yana bir muhim va nozik jihat bor – 9 holatning 6 tasida kasallanganlar besoqolbozlar [bo'lishgan](#).

Maymun chechagi zoonoz kasallik bo'lib, qo'zg'atuvchisi Poxviridae oilasiga kiruvchi, DNK saqlovchi Orthopoxvirus virusi (Monkeypox virus) xisoblanadi. Ayni paytda maymun chechagining ikki asosiy shtammi aniqlangan – Markaziy Afrika va G'arbiy Afrika shtamlari. Virus tanaga shilliq pardalar, nafas olish organlari va hatto teridagi kichik yaralar orqali kirishi mumkin. Kasallikning ayni davrdagi yuqishi bo'yicha yakuniy xulosalarga kelinmagan. Chunki uning uzoq vaqtdan buyon o'rganilgan yuqish yo'llari, ya'ni bemor yoki infeksiya tashuvchi hayvon bilan yaqin kontaktda bo'lish, ko'z shilliq qavatlari, nafas yo'llari va zararlangan teri orqali virus o'tishi bugungi davr voqeligiga mos kelmay qoldi. Hozir Britaniyalik olimlar virus jinsiy aloqa yo'li bilan ham yuqishini isbotlagan va bugun mana shu yo'l o'rganish hamda zarur choralarini ko'rish uchun eng ustuvor bo'lib turibdi. JSST ma'lumotlariga ko'ra, maymunchechak jinsiy yo'l bilan yuqadimi yoki yo'qmi hali aniq emas. Kaliforniya universiteti epidemiologi doktor Anna Rimouin "Nature" jurnaliga bergan sharhida jinsiy aloqa paytida sherikning infeksiyasi faqat uzoq muddatli yaqin aloqa bilan bog'liq bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. Ammo jinsiy aloqa bilan o'tish ham zaxm, gonoreya kabi kasalliklar yuqishi singari odatdagidek kechmasligi hali chuqur tadqiqotlar zarurligini anglatadi.

Patogenezida virus organizmga tushgach, regionar limfatugunlariga kirib, bu yerda ko'payadi. 1-2 kun o'tgach virus qonga o'tadi va undan parenximatoz a'zolarga, teriga kirib zo'r berib ko'payadi. Shundan keyin kuchli virusemiya rivojlanadi, bu kasallikning boshlanishini bildiradi. Virus teri va shilliq pardalarga cho'kishi oqibatida u yerda papulalar, vezikulalar, pustulalar hosil bo'ladi. Vezikulalar nozik to'siqchalar bilan ajralgan ayrim bo'shliqlardan iborat. Bunda turli a'zolar og'ir holatlarda qon tomirlari ham zararlanadi (gemorragik sindrom), bunga ikkilamchi infeksiya qo'shiladi.

Maymunchechak klinik jihatdan tabiiy chechakka o'xshaydi, garchi u chechakdan yengilroq kechadi. Kasallikning inkubatsiya davri 5-21 kun, o'rtacha 6-13 kun. Kasallikning dastlabki belgilari: febril isitma - 38,5° dan yuqori; titroq; kuchli bosh og'rig'i; kuchli zaiflik; limfadenopatiya - limfa tugunlarini kattalashgashuvi; miyalgiya - mushak og'rig'i; bel og'rig'i. O'rtacha, birinchi alomatlardan 1-3 kun o'tgach, makula toshmasi paydo bo'ladi, yani tekis qizil dog'lar. Bu toshmalar ko'pincha yuz, kaft va oyoqlarda, kamroq og'iz shilliq pardalarida, jinsiy a'zolar va konyunktivada toshadi. Teri toshmalarining lokalizatsiyasi bo'yicha 95% hollarda - yuz; 75% hollarda - oyoq va qo'llar; 70% hollarda - og'iz shilliq qavati; 30% hollarda reproduktiv organlar; 20% hollarda - kon'yunktiva va shox pardalarda uchraydi. Vaqt o'tishi bilan toshma elementlari o'zgaradi.

#### **Toshma rivojlanishining asosiy bosqichlari:**

**Makula** - qizil dog'lar.

**Papula** - teridagi qizil "tugunlar" bo'lib, toshma paydo bo'lgandan keyin taxminan 3 kun o'tgach, xosil bo'ladi.

**Vesikula** - tiniq suyuqlik bilan to'ldirilgan pufakchalar kasallikning 4-5 kunlarida paydo bo'ladi.

**Pustula** – yiringli pufakcha, 6-7-kuni paydo bo'ladi va kasallikning ikkinchi haftasi oxirida quriydi.

**Qobiq(crusta)**. Qobiqlarni olib tashlaganidan so'ng, bemorda terida chandiqlar yoki pigmentatsiya joylari bo'lishi mumkin. Shu vaqtga kelib bemorni axvoli ancha yengillashadi.

Kasallik 2-4 hafta davom etadi. Simptomlarning og'irligi kasallangan odamning yoshiga, surunkali kasalliklariga va virusning shtamiga bog'liq - Evropa va Qo'shma Shtatlar bo'ylab tarqalgan G'arbiy Afrika shtammi, Kongo (Markaziy Afrika) shtammiga qaraganda yengilroq kechadi. Virus ayniqsa bolalar, homilador ayollar va immuniteti zaif odamlar uchun (masalan, immunosupressiv dorilarni qabul qilganlar yoki immuniteti zaif odamlar) xavflidir. 1970-1990 yillarda 47 ta o'lim qayd etilgan, ularning barchasi o'n yoshgacha bo'lgan bolalar orasida kuzatilgan. So'nggi yillarda har yuz bemorga o'rtacha 3-6 o'lim to'g'ri keladi. Hozircha joriy

epidemiya vaqtida o'lim holatlari qayd etilmagan. Kasallikdan so'ng turg'un immunitet xosil bo'ladi. Maymun chechagining asoratlari ikkilamchi infeksiyalar, bronxopnevmoniya, sepsis, ensefalit va shox parda infeksiyasini (ko'pincha ko'rishni yo'qotish bilan) o'z ichiga olishi mumkin. JSST ma'lumotlariga ko'ra, o'lim darajasi G'arbiy Afrika shtammi uchun 3,6%, Kongo shtammi uchun - 10,6%. Maymun chechagi kasaligiga tashxis qo'yishning eng samarali usuli bu PZR. Tahlil uchun teri toshmasidan (vezikula va pustula) suyuqlik namunalari olinadi. PZR qon testlari kamdan-kam qo'llaniladi. Bunga sabab virusemiyaning davomiyligi - juda qisqa va natija noto'g'ri bo'lishi mumkin. Shuning uchun qonni PZR testdan o'tkazish tavsiya etilmaydi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, chechakni davolash uchun ro'yxatga olingan virusga qarshi Tecovirimat preparati maymunchechakda ham samarali. AQShda chechakni davolash uchun brinsidofovir preparati ham tasdiqlangan. Rossiyada NIOCH-14 preparatini ro'yxatdan o'tkazish rejalashtirilmoqda. Bundan tashqari, bemorni ahvolini yengillashtirish maqsadida dezintatsikasion, simptomatik terapiya va bakterial infektsiyani oldini olish hamda davolash uchun antibiotik terapiyasi qo'llaniladi.

Ilmiy jurnalist Sonia Shahning «Pandemiya» nomli kitobida Kaliforniya universitetining epidemiologi Enn Rimoyn maymun chechagini «biz uchun ma'lum bo'lgan yovuzlik» deb ataydi. Odamlar bu kasallik haqida XX asrning o'rtalaridan beri bilishadi (aslida odamlar bu virus minglab yillar davomida kasallanishgan). Hozirda pandemiyaning oldini olishga yordam beradigan dorilar va vaksinalar mavjud. Xususan, dunyoda chechakka qarshi bir nechta vaksinalar [ro'yxatga olingan](#) va ular katta ehtimol bilan maymun chechagidan ham himoya qiladi — yoki hech bo'lmaganda kasallikning kechishini osonlashtiradi. Hozircha, bu vaksinalar hech qayerda sotilmaydi. Ular kasallik tarqalishining sezilarli xavfi mavjud bo'lgan hollarda tibbiy tashkilotlar orqali taqdim etiladi. Ko'pgina mamlakatlarda, epidemiologik vaziyatdan qat'i nazar, faqat chechak yoki maymun chechagi bilan kasallanish ehtimoli ko'proq bo'lgan tibbiyot xodimlari (masalan, ba'zi epidemiologlar, yuqumli kasalliklar bo'yicha mutaxassislar, virusologlar), shuningdek, chechak bilan kasallangan bo'lishi mumkin bo'lgan bemor (yoki bemorning narsalariga tekkan) bilan aloqada bo'lgan odamlar emlanadi. Ma'lumotlarda keltirilishicha, Rossiyada chechakka qarshi to'rtta vakcina ro'yxatga olingan (beshinchisi jarayonda). Ikkita vakcina tabletka shaklida ishlab chiqariladi, faqat revaksinatsiya uchun ishlatiladi va faqat kattalar qo'llashi uchun mo'ljallangan. Qolgan ikkitasi shpris yordamida yoki teriga surtish orqali qo'llaniladi. Kasallik hozircha jiddiy xavf solmayotgan bir paytda barchani emlash — bu bahsli qaror. Vaksinalar nojo'ya ta'sirga ega bo'lgani uchun agar emlash to'g'risida qaror qabul qilingan bo'lsa, keltiriladigan foyda xavflardan ustun bo'lishi shartdir. Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, bu kasallikni oldini olish uchun profilaktik chora tadbirlarni kuchaytirish, ommaviy axborot va televidiniya orqali kasallik haqida to'liqroq ma'lumotlar berib borish samarali usullar xisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1) Инфекционные\_болезни,\_Аликеева.Г.К.,\_2016 г
- 2) Юқумли касалликлар эпидемиологи ва паразиталогия. Мусабоев. Э.И. Байжонов А.К. Тўшкент-2007 й.
- 3) Болаларнинг юқумли касаллик. (Маҳмудов О.С.) - 2008 й.
- 4) <https://trends.rbc.ru/trends/social>
- 5) <https://uzreport.news/society>.

## TOHIR MALIK ASARLARIDA FREYM FENOMENI TADQIQI

**Iroda Bahronova**

*Navoiy davlat pedagogika instituti 1-kurs talabasi.*

*Ilmiy rahbar: f.f.f.d.(PhD) N.J.Yarashova*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada freym fenomenining ifodalanishi, kognitiv tilshunoslikdagi ahamiyati haqida soʻz yuritildi, bu borada oʻzbek va jahon tilshunoslarining qarashlari oʻrganildi. Tohir Malik asarlari misolida “choy” hamda “xarid qilmoq” freymi tahlil qilindi.

**Kalit soʻzlar:** kognitiv tilshunoslik, freym, kognitologik tadqiqotlar, glyuttonik diskurs, “choy” freymi, “xarid qilmoq” freymi.

## EXPRESSION OF FRAME PHENOMENON IN THE WORKS OF TAHIR MALIK

**Iroda Bahronova**

*First year student of Navoi State Pedagogical Institute*

*Supervisor: Doctor of Philosophy (PhD) N.J.Yarashova*

**Annotation:** This article discusses the expression of the frame phenomenon, its importance in cognitive linguistics, which studies the views of Uzbek and foreign scholars. Tahir Malik analyzes the “tea” frame and the “buy” frame on the example of his works

**Keywords:** cognitive linguistics, frame, cognitive research, gluttonic discourse, “tea” frame, “excitement” frame.

Milliy xarakterni oʻrganish, bir til vakillarining dunyoqarashini tahlilga tortishda gastronomik freymlar tadqiqi muhim ahamiyatga kasb etadi. Zero, bir xil tushunchaning ikki madaniyat ongidagi turlicha yoki oʻxshash interpretatsiyasini tahlil qilish, madaniyatlar toʻqnashuvida yuzaga keladigan psixoemotsional muammolarni bartaraf etishga yordam beradi. Oʻzbek xalqi oʻzining madaniyati bilan ajralib turadi. Oʻzbek madaniyatida “choy ichish” hamma ish tugaganda, oyoqni uzatib charchoq chiqarish, gurunglashish, ayollar oʻrtasidagi choy ichishlar “gʻiybatlashish”, “dardlashish” kabilarni anglatadi. Shu sababdan ish vaqti idorada tushlik payti boʻlmasa, choynakdan choy quyib, davra boʻlib choy ichib oʻtirish maqullanmaydigan holat hisoblanadi. Choy ichishdan maqsad doim ham chanqoqni qondirish boʻlmaydi. Masalan, ingliz madaniyatida doʻstlari yoki yaqin tanishlarni uyga choyga taklif qilib, ingliz choyxoʻrligi anʼanalarini namoyish etish bu oʻsha oilaning aslzoda, ingliz qadriyatlariga sodiq ekanligini koʻrsatish uchun ham qilinishi mumkin<sup>26</sup>.

Turli xalqlarda choy freymi turlicha talqin qilinadi. Oʻzbek madaniyatida ham mehmon kutish odoblaridan biri choyga taklif qilish hisoblanadi. Bu xalqimizning mehmondoʻst ekanligidan darak beradi: “*Qariya uyiga yaqinlashgach, Kozlov mehmonlarni olib ketajagini maʼlum qildi. Qariya uning gaplarini eshitib, bosh chayqadi.*

– *Avval uyga kiringlar. Bir piyoladan choy ichinglar.*

...*Soʻng “dasturxonga marhamat qilinglar”, deb chiqdi-da, dam oʻtmay choynakda choy koʻtarib chiqdi.*

– *Siz gazada qaynagan choyga oʻrganib qolgansiz. Samovarchoyni ham bir koʻringlar-chi, – dedi jilmayib.” (Sh. II t., 174-b.)*

Oʻzbek tilshunosligida choy freymi charchoqning oldini olish, rohatlanish, gʻamlardan xoli boʻlish maʼnosida ham qoʻllaniladi. Jumladan: “*Asadbek issiq tanchaga oʻtirib rohatlandi. Chuvrindi uzatgan piyoladan bir hoʻplam qaynoq choy ichdi.” (Sh. II t., 227-b.)*

Oʻzbek va ingliz madaniyatida “choy ichish” feymi M.V.Undrisova tomonidan taklif etilgan mazkur freym tuzilmasi klasteri asosida tahlilga tortilar ekan, bunga qoʻshimcha ravishda

<sup>26</sup> Odilova G.K. Xususiy diskurslar lingvomadaniy talqinining nazariyasi va amaliyoti. – Fargʻona, 2020. – B. 21.



“maqsadlar” stoli kiritiladi. Zero, “choy ichish freymi”ning ikki madaniyat kesimidagi qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va ingliz madaniyatida bir qator umumiy o‘xshashliklar (choyga mahsulotlarni qo‘shib iste‘mol qilish, jarayon osti subfreymi) va farqlar (marosim, jarayon oldi subfreymi, muhit) ko‘zga tashlanadi. Biroq bu ikki madaniyatning umumiy bir jihati borki, bu choy ichishdagi maqsad jarayonida namoyon bo‘ladi. Ikki xalq madaniyatidagi choy ichish freymida ham harakatdan maqsadning mavjudligi, ikki millat madaniyatlarining mushtarakligini ta‘minlaydi. Hatto choy freymi aloqa-munosabatlarning yaqinlashuviga ham xizmat qilishi kuzatilgan: *“Birodarlarimizdan biri maqtandi: “sinfdoshlarimiz bilan do‘stligimizni hech buzmaymiz. Har kuni ishdan keyin falonchi o‘rtog‘imiznikidan uchrashamiz, choy-poy ichib, shaxmat-nardi o‘ynab, televizor tomosha qilib, kechqurun ba‘zan o‘n bir-o‘n ikkigacha o‘tiramiz...”* (O.M., 10-b.)

Tilshunoslikka oid tadqiqotlarda glyuttonik diskurs obyekti sifatida “ovqatlanish”, “choyxorlik”, “diniy marosimlardagi tanovul dasturxon” va hokazo glyuttonik freymilar tadqiq etilsa, bu orqali nafaqat biror millatning tanovul qoidalari, balki ovqatlanish madaniyati va shu millat kishilarining tabiati, fe‘l-atvoriga xos bo‘lgan xususiyatlarni ham oydinlashtirish mumkin bo‘ladi. Shu ma‘noda aytish mumkinki, “Glyuttonik diskurs” psixologiya va madaniyatshunoslik, kognitologik tadqiqotlar obyekti hamdir.

– *Singiljon, sen tezgina choy tayyorla. Men senga ming marta aytdim: besh ming bilan keladigan odamning izzati baland bo‘ladi, shu obro‘ga yarasha dasturxon tuzab qo‘y, dedim.* (T.46-b)

Taniqli tilshunos Ch.Fillmor talqinida “freym” tushunchasi ancha tor ma‘no kasb etadi. Uning talqinicha, freym tajribani andozaga soluvchi kognitiv tuzilma bo‘lib, ushbu tuzilma lisoniy birliklar vositasida shakllanadi hamda konseptning negizini tashkil qiladi. Charlz Fillmor freym tushunchasini izohlash uchun keltirgan ayrim misollarga murojaat qilamiz. Binobarin, “commercial event” (savdo voqeasi) deb nom olgan freymni olaylik. Ushbu freymda aks etadigan voqea inglizcha *buy* “xarid qilmoq” freymi qo‘llanilishi bilan tasvirlanadi. Dastlab “A” shaxsning puli bor, boshqa bir shaxs “B” da sotiladigan mol (tovar) mavjud. Narx kelishilgandan so‘ng “A” pulni “B” ga to‘laydi va kerakli molni sotib oladi. Voqeaning yakunida “A” xarid qilingan tovarning egasiga aylanadi. “B” esa – pulning egasiga. Ayrim yo‘l-yo‘lakay uchraydigan holatlarni chetlab aytish mumkinki, BUY “xarid qilmoq” kategoriyasi kamida yana to‘rt kategoriya bilan bog‘lanadi. Bular BUYER “xaridor”, SELLER “sotuvchi”, GOODS “tovar, mol” va MONEY “pul” kabilardir. Aynan shu kategoriyalar bog‘liqligi BUY “xarid qilmoq” freymini tashkil etadi<sup>27</sup>. Misol tariqasida Tohir Malikning “Talvasa” asariga yuzlansak, bunda BUYER “xaridor” – Jasur ismli yigit, SELLERS “sotuvchilar” – Toshqul va Keldiyor, GOODS “tovar, mol” – uy, MONEY “pul” – besh ming dollar. Bular birgalikda “xarid qilmoq” freymini yuzaga keltirganini ko‘rishimiz mumkin. Asarda bu jarayonning borishi quyidagicha kechadi: – *Savdomiz pishgan-ku? Yo aynidingizmi? – dedi xaridor norozi ohangda. Hanifa javob berishga ulgurmay, gapni Bo‘ron ilib ketdi:*

– *Nega aynir ekan? Bizning singiljon ayniydiganlardan emas. Savdongiz pishgan, biz savdoga aralashmaymiz. Biz guvohlarmiz. Bunaqa katta pulning oldi-berdisiga guvoh aralashmasa bo‘lmaydi...* (T., 44-b.)

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, kognitiv tilshunoslikda freym fenomenining o‘rni beqiyos. Lisoniy belgilarning mazmunini tadqiq qilishning bu yo‘sindagi kognitiv namunasi grammatika tizimini voqelikning mavhum tasviri – sxemasi haqidagi an‘anaviy fikrdan uzoqlashishga undashi tabiiy. Kognitiv modellardan biri bo‘lgan freymilar kishi tarbiya topgan madaniy muhit bilan bog‘liq. Zero, kognitiv birliklar madaniyatda mavjud bo‘lgan voqelik bilan birgalikda shakllanaveradi.

<sup>27</sup> Fillmore Ch.J. Frames and the semantics of understanding//Quaderni di semantica. Vol.VI,No.2. December, 1985.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Fillmore Ch.J. Frames and the semantics of understanding//Quaderni di semantica. Vol.VI, No.2. December, 1985.
2. Malik T. Odamiylik mulki. – Toshkent: Istiqlol, 2005.
3. Malik T. Shaytanat. 5 jildlik, 2-jild. – Toshkent: Sharq, 2006.
4. Malik T. Talvasa. – Toshkent: Sharq, 2012.
5. Odilova G.K. Xususiylar diskurslar lingvomadaniy talqinining nazariyasi va amaliyoti. – Farg‘ona, 2020.
6. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006.

## YELKA HARAKATLARINING PARALINGVISTIK XOSLANISHI

*Barotova Muhiba Orifovna*  
*BuxDU I bosqich doktoranti.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada paralingvistik vositalar tushunchasiga ta'rif berilgan holda yelka harakatlariga xos intonemalar atroflicha yoritilgan. Tilga yondosh birliklar orasida yelka bilan bog'liq paralingvizmlarning ahamiyati va ayniqsa, o'zbek xalqi orasida qo'llanishi adabiy parchalar yordamida ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Paralingvistik vositalar, ekstralingvistik vositalar, semantik ma'no, intonema, ma'no nozikligi.

Ma'lumki, kishilar o'zaro aloqada, fikr almashishda hamda o'z his-tuyg'ularini bildirishda til vositalaridan foydalanib qolmay, yordamchi vositalar sifatida unga yondosh birliklarni ham ishlatishadi. Bunday yordamchi vositalaridan eng muhimlari nutq jarayonida kishi a'zolarining o'z fikr va tushunchalariga mos ravishdagi shartli harakatidir va ular paralingvistik yoki ekstralingvistik vositalar deyiladi [1]. Jonli so'zlashuv nutqida ma'lumotni qisqa va tushunarli ifodalashda, fikrning ta'sirchanligini oshirishda holat va sharoitdan kelib chiqib qo'l, yelka, bosh kabi tana a'zolarining tegishli harakatlaridan foydalaniladi. Xususan, o'zbekona nutq jarayonida ishlatiladigan til vositalariga yondosh birliklar xilma-xil bo'lib, ular orasida qo'l, bosh, ko'z, yelka harakatlari orqali fikr anglatish salmoqli o'rin tutadi. Quyida o'zbek asarlarida qo'llangan yelka harakati bilan bog'liq ayrim paralingvizmlar va ularning semantik ma'nolari xususida so'z boradi.

O'zbek xalqi orasida yelkasini qisish, yelkasini tutish, yelkasiga qo'l tashlash kabi bir qator harakatlar borki, konkret nutq vaziyatida ular bilmaslik, ko'rishish, do'stlashish kabi ma'no nozikliklarini anglatish uchun xizmat qiladi. Ammo dalillar shuni ko'rsatmoqdaki, aynan bir harakat turli nutq vaziyatlarida boshqa-boshqa intonemalarni namoyon qilishi mumkin ekan. Masalan:

1. *Mayor qog'ozga ko'z yugurtirdi-yu, betoqat qarab turgan Zohidga uzatdi. — Yana o'sha taksoparkmi? — dedi Zohid ajablanib. — Nima, bu tasodifmi?*  
*Soliev «bilmayman» deganday yelkasini qisib qo'ydi. — Ikkidan biri: yo tasodif, yo kimningdir befahmli [6, 35].*

2. — *O'zizam ja haligidaqa odamsiz-da oka! — Dalavoy dadamga yuzlanib, baralla ovozda kuldi. — Qilar ishni qip qo'yib, tag'in odamni so'kib o'tiribsiz, oka. Dadam uzrli qiyofada yelkasini qisdi. — Endi, ukam, jahl chiqqanda, aql ketadi... — O'ziyam ja, kattasini ag'daribsiz-da, oka! — Dalavoy negadir yana kuldi [4, 48].*

3. — *Qancha so'rayapsiz o'zi? — dallol onamning gapini bo'ldi.*  
*— Besh yuz.*  
*— Nima? — dallol dahshatli gap eshitgandek ko'zini ola-kula qildi. — Besh yuz so'mga govmish sigir beradi-ku! Hozir bozor arzon. Qish kelyapti, yanga! Qish kelyapti! Yem tashvishi bor, pichan tashvishi bor... Onam norozi qiyofada yelkasini qisdi.*  
*— Mana shu bolamga pufayka olib bermoqchiman. Adasi besh yuzdan kamiga ko'nma deganlar [4,60].*

Birinchi parchada “yelkasini qismoq” ifodasi “*bexabarlik*” ma'nosini anglatib kelgan holda, ikkinchi misolda aynan o'sha paralingvistik vosita “*hijolat bo'lmoq*” intonemasini namoyon etgan. Uchinchi gapda esa har ikki ma'noga ham o'xshamaydigan “*norozi bo'lmoq*” intonemasini ifodalamoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, paralingvistik vositalarning qanday ma'no anglatishi nutq vaziyati va adresant-adresat muloqoti jarayonida namoyon bo'ladi.

Yelka harakati bilan bog'liq paralingvistik vositalar faqat “yelkasini qismoq” ifodasi bilan cheklanib qolmagan. Kishilar orasida “*yelkasidan tutmoq*”, “*yelkasidan turtmoq*”, “*yelkasiga qo'l tashlamoq*”, “*yelkasiga qoqmoq*” singari bir qator harakatlar borki, ularning har biri o'ziga

xos ma’noviy xususiyatga ega hamda o‘zbek xalqi orasida keng qo‘llanilib keladi (1-ilova). Ayniqsa, “yelkasiga qoqmoq” harakati milliylik xarakteriga ega bo‘lib, xalqimizning kundalik turmushida, do‘stona munosabatlarda, salomlashish-ko‘rishish jarayonida muloqotning ajralmas qismiga aylanib qolgan. Masalan:

1. *Zebi opaga salo-o-m! Zebi xola erkakcha yurish qilib yaqin borgan edi, ichkaridan tugun olib chiqishdi. Zebi xola tugunni olarkan, kelinning yelkasiga qoqdi.* — *Baxtli bo‘lgin, qizim! (tabriklamoq)* [4, 60].

Mazkur parchadagi “yelkasiga qoqmoq” paralingvizmi o‘zbek xalqining madaniyatini aks ettiruvchi vosita bo‘libgina qolmay, gender xoslanishni ham namoyon etmoqda. Chunki xalqimizda ko‘rishganda yoki tabriklaganda, asosan, ayollar suhbatdoshining yelkasini qoqish orqali fikrlarini anglatadilar. Bu ifodaning ayollar orasida nisbatan kengroq ishlatilishini navbatdagi misol orqali yaqqol ko‘rish mumkin:

2. *Bu — Dalavoyning xotini ekanini endi tushundim. Hayron bo‘lib goh onamga, goh Dalavoyning xotiniga qarab turardim.*  
— *Voy, gapingiz qurmasin! — oyim uning yelkasiga qoqdi.* — *Qo‘ying-e, nima, men payg‘ambar bo‘pmanmi? Jahl ustida aytgan bo‘lsam, ming marta qaytib oldim, o‘rgilay!*  
— *U choy quyib uzatdi. — Shuni o‘ylab yuribsizmi hali? Qo‘ying, o‘zingizni bosing* [4, 99].

3. *Bashirjon uning nima deyayotganiga tushunmadi. Po‘lat aka hamon uning yelkasiga qoqib,*  
— *Zarari yo‘q-q... M-mayli bo‘sh-shatsa...* [2, 76]

4. — *Voy, kasofat-ey! — dedi Qiyomxon.*  
— *Aytgan edim-ku, akajon, meni ko‘rolmaydi, deb...*  
— *Nichevo! — dedi Bashirjon uning yelkasiga qoqib.* — *Shoshmay turing, yaqinda bu dargohdan dumini butunlay tugib yuboramiz. Ana keyin starshiy inspektorlik ham... o‘zlariga qoladi-da* [2, 207].

Ushbu gapda “yelkasiga qoqmoq” harakati “tasalli bermoq” intonemasini bildirish maqsadida qo‘llangan. Keyingi misolda esa erkaklar orasida ham yelkaga qoqib gapirish holati uchrashi aks ettirilgan:

4. — *Bolam, shaytonga hay bering. Gunohi bo‘lsa, ana, milisa turibdi. Olib borsin, so‘roq qilsin...*

— *Ota, ko‘ngilchanglik qilmanglar. Bunaqalarning mingtasini yig‘ishtirib kelsangiz, bitta pichoqqa sop bo‘lmaydi-yu, ammo hammayoqni qiyomat qilib ketish qo‘llaridan keladi. Siz milisaga ishonmang, ota.*

— *Bolam, menday nodon cholga xo‘p, deya qoling, yuring, — chol shunday deb uning yelkasiga qoqdi. Shundan so‘ng hozirgina sher kepatasidagi Zelixon qo‘y holiga tushdi* [5, 194].

Ko‘rinib turibdiki, “yelkasiga qoqmoq” paralingvistik vositasi aksariyat hollarda ayollar nutqi jarayonida qo‘llansa-da, erkaklar, xususan, yoshi ulug‘ kishilar orasida ham ma‘lum maqsadlarda qo‘llanadi. Chunonchi, yuqoridagi misolda bu vosita “maslahat bermoq” intonemasini bildirmoqda.

Boshqa misolga yuzlansak:  
— *Ha, tuzuk, tuzuk, — dedi Shamsi To‘rayevich Bashirjonning yelkasiga minnatdor qoqarkan. — Adashmasdan topib kelibsanmi, malades! Lekin juda ovvora bo‘libsand* [2, 250].

“Qahqaha” asaridan olingan ushbu parchada “yelkasiga qoqmoq” paralingvizmi minnatdorchilik bildirish maqsadida qo‘llangan. Keltirilgan misollar shuni ko‘rsatmoqdaki, yelka harakati bilan bog‘liq paralingvistik vositalar xalqimiz orasida bosh, qo‘l, ko‘z bilan bog‘liq harakatlar singari turli vaziyatlarda hamda muayyan maqsadlarda qo‘llaniladi. Shu sababli bu kabi kinesik vositalarni chuqurroq tahlil qilish va ma‘noviy xilma-xilliklarini aniqlash paralingvistikaning muhim masalalaridan biridir. Shu kunga qadar kinesik vositalar orasida qo‘l va bosh harakatlarining turli shakllari xususida fikrlar bayon qilingan bo‘lib, yelka harakatlari bu borada passiv ekanligi, o‘zbek xalqi orasida faqat “yelka qisish” hamda “yelkalar silkinishi” ishorasi

ishlatilishi ta'kidlangan.<sup>28</sup> Biroq berilgan misollardan ko'rinib turibdiki, yelka harakatlari bilan bog'liq paralingvizmlar ham xalqimiz muloqoti jarayonida tez-tez ishlatilib turiladi. Shunisi ahamiyatliki, yelka harakati bilan bog'liq paralingvistik vositalar xilma-xil bo'libgina qolmay, ularning har biri o'ziga xos bo'lgan emotsional ma'nolarni (hayratlanish, hadiksirash, dalda berish, uyalish, ikkilanish, ilojsizlik va b.) nutqiy vaziyat va adresatlarning shaxsiy sifatlaridan kelib chiqqan holda namoyon qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Paralingvistik vositalar va ular anglatadigan ma'nolar keng qamrovli bo'lib, o'zbekona paralingvizmlarni to'la tadqiq qilish tilshunosligimiz oldida turgan muhim masalalardan biridir. Bu xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarni yaxshi yo'lga qo'yishga va madaniyatini to'la o'rganishga imkon yaratadi. Shuningdek, o'zbek tilshunosligining dunyo tilshunosligi orasidagi o'rni va qimmatini oshirishga ham xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev A. O'zbek yilida ekspressivlik ifodalanishining sintaktik usuli. — T.; 1987.
2. Аминов Неъмат. Қаҳқаҳа. Қиссалар ва ҳикоялар. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. –Тошкент. 1987. – 352 б.
3. Ахмедов Б.Р. Паралингвистик воситаларнинг гендерологик ва прагматик тадқиқи: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Андижон, 2021. – 155 б.
4. Hoshimov O'. Dunyoning ishlari. – T.: Sharq, 1996. – 210 b.
5. Tohir Malik. Shaytanat (1-kitob). – T.: 2007. – 210 b.
6. Tohir Malik. Shaytanat (2-kitob). – T.: 2008. – 216 b.

#### \*1-ilova.



<sup>28</sup> Ахмедов Б.Р. Паралингвистик воситаларнинг гендерологик ва прагматик тадқиқи: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Андижон, 2021. – 155 б.

## KONSTITUTSIYA – YOSHLAR HUQUQINING KAFOLATI

*Baxtiyorova Farangiz Ulug‘bek qizi*  
*Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi.*

**Annotatsiya:** Bugungi kunda rivojlanayotgan va kundun-kunga yangicha qiyofa kasb etib borayotgan yurtimizda yoshlarning o‘rni va ahamiyati yuqori hisoblanadi. Maqolada aholi sonining katta qismini tashkil etayotgan yoshlarning huquqlarini ta‘minlash va ushbu harakatlar orqali ularni har tomonlama yetuk va salohiyatli qilib komil inson darajasiga yetishida ko‘maklashish sa‘y-harakatlari yurtimizda qay darajada kechayotganli haqida muhokama qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Yoshlarning konstitutsion huquqlari, huquqiy mafkura, ta‘lim islohotlari, siyosiy huquqlar.

*“Yoshlar – O‘zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasi.”*  
*Sh. Mirziyoyev*

Yillar davomida shakllanib, rivojlanib kelayotgan va ta‘kidlab o‘tish joiz bo‘lgan, inson huquqlari va uning erkinliklarini ta‘minlash, shaxs manfaatlarini va eng asosiysi, uning qadrini har narsadan ustun qo‘yuvchi adolatli va ko‘plab imtiyoz va imkoniyatlar beruvchi konstitutsiya va qonun hijjatlarining mavjudligi har birimiz uchun ahamiyatli holatdir. O‘zbekiston Respublikasi yosh davlatlardan biri hisoblanadi va shunga qaramay, kuchli rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tib, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy davlat barqo qilish sari ildam odimlamoqda. Mamlakat taraqqiy etishining asosiy shartlaridan biri esa inson huquqlari kafolatlanadigan adolatli jamiyatning mavjudligidir. O‘zbekistonda ham inson huquqlarining chin ma‘nodagi kafolati bu – oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan Konstitutsiyadir. Unda davlat hokimiyati asoslari, uni boshqarish prinsiplari, davlat organlarining vakolatlari va aholining turli qatlamlari manfaatlarini himoya qiluvchi, ularga huquq va erkinliklari beruvchi normalar turli moddalarda ifodalangan. Ayniqsa, konstitutsiyamiz va u asosida qabul qilingan ko‘plab normativ-huquqiy hujjatlarda yoshlar huquqlarini ta‘minlashga alohida e‘tibor berilishi, o‘z kelayotgan yosh avlodga katta imkoniyatlar eshigini ochishi turgan gap. Hozirda, ham ruhan ham jismonan kuchga to‘la, har sohada raqiblarini yer tishlatuvchi va yangi g‘oyalar bilan yangilikka intiluvchi yoshlarimiz juda ko‘p. Yoshlar davlat aholisining yarmidan ko‘pini tashkil qiladi. Bu esa yoshlarga bo‘lgan e‘tiborni yanada oshirish uchun asos bo‘la oladi. Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, *“Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qat‘iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifalarimiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”*<sup>29</sup>. Darhaqiqat, yoshlarga oid siyosat bugungi kunda ham izchil olib borilmoqda. Xususan 2016-2021- yillarda yoshlar siyosatiga oid 5 ta qonun va 55 ta qonunosti hijjati qabul qilingan. Masalan, “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, “Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va bandligiga ko‘maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda, bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida” va “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi prezident farmonlari qabul qilindi. Bundan tashqari, hududiy tashkilotlar ham o‘z hududida istiqomat qilayotgan

<sup>29</sup> Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: “O‘zbekiston”, 2016. 14b.



yoshlarning muammolari bilan ishlash va ularning manfaatlarini ta'minlash uchun yoshlar ishlari agentligining hududiy bo'limlari tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi orqali yoshlar keng ko'lamli huquq va erkinliklarga ega bo'ladi. Masalan, konstitutsiyamizning 34-moddasiga ko'ra, o'zbekiston fuqarolari kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadir.<sup>30</sup> Bu fuqarolarning siyosiy huquqi hisoblanib 18 yoshga to'lgan fuqarolar siyosiy partiyalarga a'zo bo'la oladi. Yoshlar ushbu siyosiy huquqidan oqilona foydalanmoqda, ular partiyalar faoliyatida qatnashish orqali davlatning siyosiy hokimiyatiga va boshqaruviga befarq emasliklari va yurtimizda kechayotgan siyosiy voqealarning bevosita guvohi bo'lishmoqda. Siyosiy partiyalarga a'zo bo'lish orqali xalq vakilligi organlariga a'zo bo'lish va turli lavozimlarga partiya tomonidan tavsiya etilish orqali yoshlarimiz hokimiyat ishlari o'zlarini namoyon qilmoqda. Xo'sh, yoshlar bu huquqlaridan yetarli darajada foydalanmoqdam? O'zbekistonda mavjud 5 ta partiyaning a'zolarining ko'pchiligini yoshlar tashkil etishini ko'rishimiz mumkin.

	<i>Siyosiy partiya nomi</i>	<i>Umumiy a'zolari soni</i>	<i>30 yoshgacha bo'lgan yoshlar soni</i>	<i>% ulushi</i>
1.	Xalq demokratik partiyasi	520.000	265.000	51 % <sup>31</sup>
2.	Adolat sotsial demokratik partiyasi	430.496	167.893	39 % <sup>32</sup>
3.	Milliy Tiklanish	358.377	173.399	48.3 % <sup>33</sup>
4.	Ekologik partiya	453.000	180.294	39.8 % <sup>34</sup>

Ko'rishimiz mumkinki, siyosiy partiyalar a'zolarining ko'pchiligi 30 yoshga to'lmagan yoshlar hisoblanadi. Ammo, aholining yarmidan ko'pini tashkil qiluvchi yoshlar uchun bu natijalar kamlik qiladi. Afsuski, ayrim yoshlar hatto bu kabi siyosiy huquqidan qanday foydalanishni bilmaydi. Ayni davrda har bir partiyaning o'z rasmiy saytlari mavjud bo'lib, ular orqali elektron shaklda partiya a'ziligiga ro'yxatdan o'tish va har bir partiya o'z dasturida belgilangan maqsadlari sari a'zolari birgalikda harakat qilishda ishtirok etish mumkin. Zero, har bir yosh o'z qarashlarini erkin bildirish orqali jamiyatda mavjud muammolarning yechimini topishda ishtirok etadi, faol siyosiy va huquqiy ong egasi bo'lib shakllanib boradi.

Konstitutsiyaviy siyosiy huquqlardan yana biri 35- moddada mustahkamlab qo'yilgan fuqarolar jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish, shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Birinchidan, yoshlar jamiyat va davlat boshqaruvida bevosita o'zi yoki bilvosita o'z vakilini saylash orqali ishtirok eta olishi mumkin. Ya'ni bunda vakillarini saylash orqali hokimiyat ishlarida o'z manfaatlarini ta'minlovchi vakili mavjud bo'ladi. O'zbekistonda saylov yoshi 18 yosh bo'lib, ma'suliyat talab qiladigan muhim siyosiy huquqlardan biri hisoblanadi. Negaki, kelgusida u saylagan vakil jamiyat ravnaqiga chin dildan hissa qo'sha olishiga saylovchi

<sup>30</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.02.2021-y., 03/21/671/0093-son, <https://lex.uz/docs/-20596>

<sup>31</sup> O'zbekiston Respublikasi Xalq demokratik partiyasi 2021-iyun holatiga ko'ra a'zolari soni. <https://xdp.uz/uz/history>

<sup>32</sup> O'zbekiston Respublikasi Adolatsotsial-demokratik partiyasi a'zolari soni. <https://adolat.uz/>

<sup>33</sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy Tiklanish demokratik partiyasi. <https://mt.uz/>

<sup>34</sup> O'zbekiston Respublikasi Ekologik partiyasi. <https://ecouz.uz/>

yoshlarning ishonchi komil bo'lishi kerak, bu jarayonda esa sinchkovlik kanda qilmaydi. *“Saylov madaniyati siyosiy madaniyatning boshqa turlaridan farqli o'laroq, qonunchilik doirasidan tashqarida mavjud bo'lishi mumkin emas. Madaniyatning ushbu turi faqat saylov jarayoni sub'ektlarining davlat siyosati bilan bog'liq bo'lgan yo'nalishlarini qamrab oladi. Saylov madaniyati fenomeni jamiyatning deyarli har bir a'zosini siyosat sohasida qamrab oladi”*<sup>35</sup>. Yoshlarning saylov madaniyatini oshirish, ushbu siyosiy huquqni qanchalik ahamiyatli ekanligini anglab yetishlari va faol ishtirok etishi lozim. Har bir yoshning ovozi muhimdir. Xususan, 2021- yilgi Prezident saylovida ham saylovchilarning yagona elektron ro'yxatiga 21 million 249 ming 921 nafar saylovchi kiritilgan. Ulardan 6 million 993 ming 924 nafarini (qariyb 33 foizi) 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etgan edi. Shulardan 880 ming 155 nafar yoshlar ilk marotaba o'zining saylov huquqidan foydalangan.

Qanchadan-qancha buyuk shaxslarga beshik bo'lgan yurtimizda ta'lim-tarbiya azaldan oliy qadriyat sifatida bilib kelinadi. Navoiydek shoirlarning sultoniga, Al- Xorazmiydek ilk algebra fanining asoschisiga, osmon sirin kashf qilishni maqsad qilib qo'ygan Ulug'beklarga ona zamin bo'lgan yurtimizda, bugun ham ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yoshlarni har tomonlama yetuk va ma'rifatli qilish chora tadbirlari amalga oshirilmoqda. Yoshlarning yana bir muhim konstitutsiyaviy huquqlaridan biri 41-moddada ta'kidlanganidek, ta'lim olish huquqidir. 2019-yili “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi” qonun qabul qilinib, uning asosida ta'lim olishning, inson shakllanishining debochasi bo'lgan Maktabgacha ta'lim muassasalarining qurilishi, mavjudlarining esa ta'mirlanish ishlari amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, 2021 yilda maktabgacha ta'lim qamrovi 65 foizga, 2023 yil oxirida esa 75 foizga yetkaziladi. 600 milliard so'm subsidiya berilib, 2 mingta xususiy bog'cha ochilishi kutilmoqda. 11 yillik maktab ta'limining joriy etilishi, ta'lim tizimidagi muhim o'zgarishlardan biri bo'ldi. Chekka hududdagi maktablarning infratuzilmasi yaxshilanib bormoqda. **Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda “Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish to'g'risida”gi 997-sonli qarori qabul qilindi.**

Unga asosan Dunyoning yuksak taraqqiy etgan davlatlarida ta'lim sohasida baholashning PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS kabi xalqaro baholash dasturlari amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etilmoqda<sup>36</sup>. Bu baholash tizimlari ta'lim tizimidagi kamchiliklarni xolisona aniqlashga katta yordam beradi. Pisa test natijalari ko'ra ba'zi saboqlar chiqarildi:

- Aksariyat o'quvchilar XXI asrda yashashga tayyor emaslar, ya'ni zamonaviy jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan kompetensiyalariga to'laqonli ega emaslar.
- Maktab ta'limi ko'p jihatdan bu kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilmagan. - O'quvchilar egallagan bilim va ko'nikmalarini qayerda ishlatilishini bilishmaydi.
- O'qitish uslublari eskirganligini ham ko'rsatgan. Chekka hududlarda ta'lim saviyasi part, o'qituvchilarning malakasi va ko'nikmalari talabga javob bermaydi. Buning yaqqol misoli, chekka hudud maktablarida kompyuter dasturlari bilan ishlash ko'nikmasini shakllantiruvchi fan, ya'ni informatika fani amaliy o'tilishni o'rniga faqat kitob bilan cheklanishadi, kompyuter jihozlari bilan ta'minlanganligiga qaramay, ko'pchilik yuqori sinf o'quvchilari kompyuterdan foydalanishni bilishmaydi. Bularning barchasi ta'lim tizimida amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlarning ko'pligidan dalolat beradi.

Maktab bitiruvchilarini oliy ta'limga qamrab olish darajasi 2016 yilgi 9 foizdan 2020 yilda 25 foizga yetgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8- oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan **O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi** qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog'lom raqobat muhitini yaratishni maqsad qilgan.

<sup>35</sup> Parfenova, Olga Okorokova, Matryona Grigoriev, Electoral behaviour of young people at regional elections. 2018 [:https://www.researchgate.net/publication/328932144 Electoral behaviour of young people at regional elections/citation/download](https://www.researchgate.net/publication/328932144_Electoral_behaviour_of_young_people_at_regional_elections/citation/download)

<sup>36</sup> Toshmurodova Moxigul Boltayevna (2022). Ta'lim tizimidagi islohotlar – kelajak poydevori. Ta'lim fidoyilari, 21 (6), <https://cyberleninka.ru/article/n/ta-lim-tizimidagi-islohotlar-kelajak-poydevori>

Xulosa o‘rnida shuni aytishim mumkinki, konstitutsiya va u asosida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar yurtimizda istiqomat qilayotgan har bir yoshga teng huquq va keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Shu qismda bir savol tug‘iladi, yoshlarga berilgan imkoniyatlar, ularning hayotini yaxshilovchi islohotlar son jihatdan ko‘p bo‘lsada, ulardan unumli foydalanilmasa oqibat qanday bo‘ladi? Shunday ekan, avvalo, har birimiz vatan oldidagi burch va ma’suliyatimizni chuqur anglab berilayotgan har qanday huquq va erkinliklardan rivojlanish yo‘lida foydalanishimiz darkor. Prezidentimiz yoshlarga qarata ta’kidlaganidek: “Ajdodlardan ibrat olib hayotda mo‘jizalar yaratishga astoydil intilishingiz kerak”.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: “O‘zbekiston”, 2016. 4-bet.
2. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.02.2021-y., 03/21/671/0093-son, <https://lex.uz/docs/-20596>
3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq demokratik partiyasi 2021-iyun holatiga ko‘ra a‘zolar soni. <https://xdp.uz/uz/history>
4. O‘zbekiston Respublikasi Adolatsotsial-demokratik partiyasi a‘zolari soni. <https://adolat.uz/>
5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Tiklanish demokratik partiyasi. <https://mt.uz/>
6. O‘zbekiston Respublikasi Ekologik partiyasi. <https://ecouz.uz/>
7. Parfenova, Olga Okorokova, Matryona Grigoriev, Electoral behaviour of young people at regional elections. 2018:[https://www.researchgate.net/publication/328932144\\_Electoral\\_behaviour\\_of\\_young\\_people\\_at\\_regional\\_elections/citation/download](https://www.researchgate.net/publication/328932144_Electoral_behaviour_of_young_people_at_regional_elections/citation/download)
8. Toshmurodova Moxigul Boltayevna (2022). TA‘LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR – KELAJAK POYDEVORI. Ta’lim fidoyilari, 21 (6), <https://cyberleninka.ru/article/n/ta-lim-tizimidagi-islohotlar-kelajak-poydevori>

## AQSH TA MEKTEPKE SHEKEMGI BILIMLENDIRIW SHÓLKEMINIŇ TÚRLERI HÁM ISKERLIGI

**Bekimbetova A.A.**

*p.i.k, docent*

**Isnaddinova A.**

*NMPI tálím hám tárbiya teoriyası hám metodikası (MSHT) 1-kurs magistranti.*

Mektepke shekemgi tálím sisteması úzliksiz tálímniń birinshi hám eń tiykarǵı buwını esaplanadı. Mektepke shekemgi tálím sistemasız jas áwladdı barksamal, hár tárepleme jetik, salamat qılıp tárbiyalawdı kóz aldımızǵa keltiriw qıyın.

Kóp jıllıq ilimiy baqlaw hám izertlewler sonı kórsetedi, insan óz ómiri dawamında alatuǵın barlıq informaciyalardıń 70 payızın 5 jasqa shekem bolǵan dáwirde alar eken. [1,33-bet] Demek, balanıń salamat hám bilimli, barksamal shaxs bolıp jetilisiwinde mektepke shekemgi tálím úlken áhmiyetke iye. Ózbekstan Respublikası Ministrler Kabinetiniń “Mektepke shekemgi tálím tarawına innovacion jantasıwları járiyalaw joybarların ámelge asırıw ushın eksperimental maydanshalardı shólkemlestiriw shara-ilájları haqqında”ǵı Qararında respublikamızda mektepke shekemgi tálimdi shólkemlestiriw tarawında aldınǵı shet el tájriybelerin, mektepke shekemgi jastaǵı balalarǵa tálím hám tárbiya beriw tarawında innovacion usıllar hám nátiyjeli pedagogikalıq ámeliyatlardı úyreniw, mámleketlik mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemleri iskerligine jariyalaw boyınsha islerdi turaqlı tiykarda shólkemlestiriwdi ámelge asırıw tiykarǵı wazıypalardan biri etip belgilendi.

Mámleketimizde mektepke shekemgi tálím sistemasın túpten jetilistiriw, aldınǵı shet el tájriybelerin esapqa alǵan halda nátiyjeli tálím hám tárbiya beriw forma hám usılların en jaydırıwǵa qaratilǵan bir qansha reformalar ámelge asırılmaqta. Bunıń ushın dúnyanıń bir qansha rawajlanǵan mámleketleri, atap aytqanda Koreya, Germaniya, Rossiya, Yaponiya, Fransiya h.b mámleketlerdiń tálím hám tárbiya beriw procesi, úzliksiz tálím basqıshları úyrenilip atır. Rawajlanǵan mámleketler qatarınan orın alǵan Amerika Qurama shtatlarında da tálím hám tárbiya procesi bir qansha alǵa ilgerilegen. AQSH ta úzliksiz tálím sistemasınıń birinshi basqıshı yaslı hám balalar baqshalarında ámelge asırıladı. Amerikadaǵı balalar baqshaları turaqlı ráwishte mámleketlik hám túrli jámáátlik shólkemler qadaǵalawı astında bolǵan. AQSH ta mektepke shekemgi tálímniń áhmiyetin tómendegishe túsindiriwge boladı: eger balaǵa jaslıǵınan baslap úyretilse hám onda pánlerge qızıǵıwshılıq kórsetilse, balalardıń qábiletleri hám nátiyjeli mektepte oqıw imkaniyatları artadı. Erte jasta ámelge asırılmaǵan hár bir nárseni keleshekte iyelew júdá qıyın. AQSH ta mektepke shekemgi tálím “balalar baqshaları” dep atalatuǵın mekteplerden baslanadı. Olardıń barkshezi zárúr bolǵan barlıq nárseler menen tolıq úskenelengen, bul balanıń ulıwmalıq rawajlanıwın jaqsılaytuǵın fizikalıq, sezimlik yamasa aqlıy iskerlikler ushın ideal shárayatlardı jaratadı. Balalar baqshalarında balalar 3 jastan 5 jasqa shekem tálím hám tárbiya aladı [3,287-bet] Joqarıda aytıp ótilgenindey, Amerikada mektepke shekemgi tálím sisteması ekige bólingen. Olardıń hár biri málim jastaǵı hám individual scenariyeler hám dástúrlerge muwapıq balalar menen shınıǵıwları óz ishine aladı. Amerikada balalar baqshaları dúzilisi jaǵınan mámleketlik, jeke, úy baqshaları hám jámáátlik baqshalarǵa bólinedi. Mámleketlik balalar baqshaları xalıq arasında jeterlishe belgili emes. Bunıń tiykarǵı sebebi Rossiya mektepke shekemgi tálím sistemasınıń kemshilikleri sıyaqlı, yaǵnıy bir toparda balalar sanınıń hádden tıs kóp bolıwı, hámde hár bir balaǵa jeterlishe itibar joqlıǵı menen túsindiriledi. 2021-2022-jılda mámlekette jeke balalar baqshalar eń keń tarqaladı. Olarǵa amerikalıq balalardıń shama menen 60 payız qatnaydı. Bunday mekemeler oqıw dástúrleri, awqatlanıw hám basqa xızmetler menen baylanıslı bolǵan hár túrlilik penen ajıralıp turadı. Qaǵıyda tiykarında, olar balalardı tasıw ushın ózleriniń arnawlı avtobuslarına iye bolıp, olarda turistik hám mámlekettiń

dıqqatqa ılayıq jerlerine sayaxatlar da ámelge asırıldı. Amerikada úy baqshaları uzaq waqıtlardan berli xalıq arasında belgili. Tiykarınan, olar turar-jay imaratında, bir xananı hám ashıq oyın maydanshasın qayta rejelestiriw arqalı qurılğan hám úskenelengen. Bul baqsha túri óz nábwetinde 2 kategoriyağa bólinedi: úlken hám kishi úy baqshaları. Ekinshi túr ushın balalardıń maksimal sanı balanıń tiyisli jası hám úlkenler jasına qarap 10 baladan aspaı kerek. Úlken úy baqshalarında 12 balağa shelem ruqsat beriledi, bunda balalar jası hám tárbiyashılar esapqa alınadı. Statistikalıq maǵlıwmatlarğa qaraǵanda amerikalıq ata-analardıń 10 payız bul baqsha túrin basqalardan abzal kóredi.

Balalar baqshalarında azanǵı qabıllaw 7:00-8:30 aralıǵında ámelge asırıldı. Balalar sabaqlar baslanǵanǵa shekem oyınshıqlar hám basqa materiallar menen oynaydı, 08:45 de sabaqlar baslanadı. Sabaqtan soń azańǵı shaydı ishedı, soń bala rawajlanıwına maslastırılğan shınıǵıwlar dawam etedi. Saat 12:00 de túslık waqtı bolıp, 12:20-14:00 aralıǵı – tınıshlıq waqtı – barlıq balalar ushın dem alatuǵın waqt esaplanadı. Bul waqıtta tárbiyashı ótilgen materialdı analiz qıladı hám keshki shınıǵıwlarǵa tayarlanadı. Belgili bolǵanıday, AQSH ta mektepke shekemgi tálim sistemasına joqarı dárejede itibar qaratılıp kelinbekte. Bul keleshekte hár bir balanıń múnásip kamal tabıwına túrtki boları sózsiz. AQSH mektepke shekemgi tálim sistemasın úyrenenimizde Ózbekstan mektepke shekemgi tálim sisteması menen bir qansha parqlar bar ekenligi anıqlandı. Balalar mektepke barıwda mektepke shekemgi tálimniń májbúriy emesligi (bazı shtatlarınan tısqarı), baqshanı juwmaqlaǵanı haqqında sertifikat(guwalıq) beriliwi, toparda balalar sanınıń az bolıwı, jeke baqshalardıń mámleketlik baqshalarǵa salıstırǵanda qamraw dárejesiniń joqarılıǵı tiykarǵı parqlardıń biri bolıp tabıladı. Degen menen, eki mámleketniń mektepke shekemgi tálim sistemasınıń uqsas tárepleri de kózge taslandı, atap aytqanda balalardı mámleketlik baqshalarǵa qabıllaw jası (3 jas), dúzilisi(mámleketlik, jeke hám úy baqshalar), joqarı maǵlıwmatlı kadrlar menen támiynlengenligi, toparda oraylardıń shólkemlestirilgenligi(muzıka, kitap múyeshi, asxana, tábiyat múyeshi) anıqlandı.

Juwmaqlap aytqanda, shet el mámleketleri tájriybesin úyrenip, olardıń unamlı táreplerin ózimizdiń milliy tálim sistemasına alıp kiriw maqsetke muwapıq. Shet el mámleketleriniń mektepke shekemgi tálim sistemasın úyreniw, olardıń aldınǵı tájriybesin analizlew hám respublikamız shárayatına maslastırıw boyınsha anıq shara-ilájlardı islep shıǵıw mámleketimiz mektepke shekemgi tálim sistemasın jetilistirip, zamanagóylestiriwge imkán jaratadı.

### **Paydalanılǵan ádebiyatlar:**

- 1.Karimov.I.A Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.T.: Ma'naviyat,2008 33-bet
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta'lim sohasiga innovatsion yondashuvlarni joriy etish loyihalarini amalga oshirish uchun eksperimental maydonchalarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 19.07.2019 y 605-sonli Qarori
- 3.K.Hashimov,S.Nishonova Pedagogika tarixi. Darslik. T.: 2006
- 4.Preschool Education And Modern Approach Towards It. The Analysis Of Educational Systems In Different Countries A.Bekimbetova  
[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=CDp5fTgAAAAJ&citation\\_for\\_view=CDp5fTgAAAAJ:ufrVoPGSRksC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=CDp5fTgAAAAJ&citation_for_view=CDp5fTgAAAAJ:ufrVoPGSRksC)
- 5.Development of intellectual and cognitive skills in preschool children through improvement of pedagogical potential A.Bekimbetova  
[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=CDp5fTgAAAAJ&citation\\_for\\_view=CDp5fTgAAAAJ:KlAtU1dfN6UC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=CDp5fTgAAAAJ&citation_for_view=CDp5fTgAAAAJ:KlAtU1dfN6UC)
6. [www.visasam.ru](http://www.visasam.ru)



## URBAN PLANNING IN DALVARZINTEPA

*Berdimurodova Muhayyo Nuriddinovna*

*Termez State University, Faculty of History 2nd year student of archeology.*

**Abstract:** This article provides a comparative analysis of the historiography, temples, sculptures, and literature on the subject of urban planning in Dalvarzintepa, the capital of the Kushan state.

**Keywords:** City, shahristan, royal palace, fortress, temple, tarh, arch, defensive wall, dome, village, fortress.

## ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВО В ДАЛВАРЗИНТЕПЕ

*Бердимуродова Мухайё Нуриддиновна*

*Термезский государственный университет,  
исторический факультет студентка 2 курса археологии.*

**Аннотация:** В данной статье проводится сравнительный анализ историографии, храмов, скульптуры и литературы на тему градостроительства Далварзинтепа, столицы Кушанского государства.

**Ключевые слова:** Город, шахристан, царский дворец, крепость, храм, тарх, арка, оборонительная стена, купол, деревня, крепость

## DALVARZINTEPADA SHAHARSOZLIK


*Berdimurodova Muhayyo Nuriddinovna*

*Termiz Davlat universiteti Tarix fakulteti arxeologiya ta'lim yo'nalishi II-bosqich talabasi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Kushon davlatining poytaxti Dalvarzintepaning shaharsozligi, o'rganilish tarixshunosligi, ibodatxonalari, haykaltaroshligi va mavzuga tegishli adabiyotlarning qiyosiy tahlili amalga oshirilgan.


**Kalit so'zlar:** shahar, shahriston, shohsaroy, qal'a, ibodatxona, tarh, ark, mudofaa devor, gumbaz, qishloq, qurg'on.

**Kirish:** O'zbekistonning eng ko'hna yodgorliklarning aksariyati Surxondaryo viloyatidadir. Xolchayon, Dalvarzintepa, Ayritom, Qiziltepa, Bandixon, Zartepa, Kampirtepa va boshqalar shular jumlasidandir. Hozirgi Surxondaryo hududi qadimda Baqtriya podsholigi tarkibiga kirgan. Miloddan avvalgi 250-yilda vujudga kelgan Yunon Baqtriya podsholigiga O'rta Osiyoning katta yerlari qatori surxon vohasi ham qaragan. Milodning boshlarida Surxondaryo Kushonlar davlati tarkibiga kirgan. Surxondaryo hududida Kushon davriga oid arxeologik yodgorliklar juda ko'p va xilma-xildir. Ahamoniylar va yunon Baqtriya davridan bu yerda hozircha 40 ta shahar-manzil ma'lum bo'lgan bo'lsa, Kushon davriga oid 120 dan ortiq shahar va qishloqlar aniqlangan.



**1-rasm.** Dalvarzintepa yodgorligining Google Earth Dasturda ko'rinishi.

Shu o'rinda shuni aytib o'tmoqchiman muhtaram birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning "Inson uchun tarixdan judo bo'lish-hayotdan judo bo'lish demakdir" degan ajoyib so'zlari bor edi. Darhaqiqat inson tarixini bilmay hech qanday natijaga erisha olmaydi. Hammamizga ma'lumki Kushon davlatining poytaxti Dalvarzintepa Surxondaryo viloyati sho'rchi tuman markazi sho'rchi shahridan 10 km shimoli sharqda joylashgan. Dalvarzintepa mayoni 47 gektarni tashkil qiladi. U 2 qismdan iborat bo'lib shohsaroy qal'asi va shaharning o'zidan iborat. Kushon davri shimoliy Baqtriya shaharlarining shakllanish jarayoni, ularning tarixi va tuzilishi ko'p hollarda uning asosiga ilgari aholi yashagan manzilgohlar bilan 37bog'liq bo'lgan. Bu holatni arxeologik ma'lumotlar asosida o'rganilgan. E.V.Rtveladze o'z asoslari bilan farqlanuvchi shaharlarning quyidagi uchta guruhga ajratadi.



**2-rasm.** Shaharning umumiy ko'rinishi rejasi.

Ahamoniylar davriga borib taqaladigan qadimgi asosga ega bo'lgan ko'p qatlamli shaharlar (Jondavlattepa, Qalaimir, Xayitobottepa).

Yunon Baqtriya yoki Salavkiylar davriga borib taqaladigan qadimgi asosga ega bo'lgan ko'p qatlamli shaharlar (Dalvarzintepa, Qayqubotshoh, Saksonohur, Termiz, Shahrinav, Xolchayon).

Yuechji yoki Kushon davrida paydo bo'lgan shaharlar (Zartepa, G'arovqal'a, Kallaminor, Shohtepa).

Kushon davri shaharlarining kelib chiqishi va shakllanish jarayonini dalvarzintepa nisbatan yaxshi aks ettirgan. Dalvarzintepa yunon baqtiryay yoki salavkiylar davriga taqaladigan qadimgi asosga ega bo'ladigan ko'p qatlamli shaharlar sirasiga kiradi. Dalvarzintepa ko'hna shahar markazi keng ko'cha bilan ikki asosiy qismga bo'lingan. Bu ko'cha shahar darvozasidan boshlanib unchalik katta bo'lmagan maydonga chiqqan. Maydon esa boy va hashamatli binolar bilan qurshalgan. Markaziy ko'chadan esa ikki tomonga ko'cha va tor ko'chalar o'tgan. Manbalarda aytib o'tilishicha dalvarzintepa mahallalari tabaqachilik asosida bunyod etilgan.


**Asosiy qism:** Taxminan mil.avv II-asrning ikkinchi yarmi yoki milodiy I-asr boshlarida dastlabki markaz o'rnida qalinligi 7 metrli devor va xandaq bilan o'rab olingan mustahkam qa'la shakllandi. Dalvarzintepa shahri aniq to'g'ri burchakli rejasi va shu reja asosidagi devorlari bilan ajralib turadi. Uning ichida jadallik bilan qurilish ishlari olib boriladi. Shu paytdan boshlab dalvarzintepa tarixida yangi davr ya'ni shahar davri boshlandi. Dalvarzintepaning keyingi rivojlanish bosqichi kushon davriga keladi: Ya'ni bu bosqichda turar-joy inshootlari,

1. <sup>37</sup> Г.А.Пугаченкова, Е.В.Ртвеладзе. "Дальверзинтепе-кушанский город на юге Узбекистана". Т.1978.
2. Shokir Pidayev. "Sirli kushonlar saltanati". Т.1990.
3. I.A.Karimov. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q". Т.1998

ibodatxonalar, ishlab chiqarish mahallalari paydo bo'ldi va atrofi mustahkam devorlar bilan o'rab olindi. Ya'ni bir tomonda dafn marosimlari o'tkaziladigan joy bo'lsa ikkinchi tomoni qishloq xo'jaligi bilan bog'liq mulklar markazlashgan kattagina shahar joylashgan.

Kushon davri shaharlari loyiha asosida bunyod etilgan bo'lib bu davr shaharsozligi dalvarzintepa, zartepa ko'hna termiz va uning tarkibiy qismlari hisoblangan Qoratepa, Fayoztepa o'rnidagi diniy inshootlarga orqali yaxshi o'rganilgan.

1972-yil kushonlar davri madaniyatining mashhur yodgorligi dalvarzintepada 200metrli devor qoldiqlari topilib uning eni 4,6metr, balandligi 2metr bo'lgan.




**3-rasm.** Turar-joy binolarining qayta tiklangan ko'rinishi

Surxon vohasining kushon davri shaharlari ma'muriy, iqtisodiy markaz bo'lish bilan bir qatorda diniy markazlar vazifasini ham o'tagan. (Ko'hna Termizdagi Qoratepa, Fayoztepa, Zurmala, ayritom, va dalvarzintepadagi balandligi 5m keladi. Dalvarzintepa atrofida devor bilan o'ralgan ark xarobasi bo'lib, ark devorining uzunligi 130metrga, balandligi esa 2,5metrga tengdir. Dalvarzintepa sharqiy qismida xatto 80metr masofada eni 4metrlik tosh yo'l kovlab ochildi. Bulardan tashqari bu yerda bir necha to'rt burchakli paxsa devorli uylar topildi.

Dalvarzintepa chekkaroq joyidan I-asrda tiklangan budda ibodatxonasi, shaxristonidan buddaning boshi bodxesatvaning mahorat bilan ishlangan mahobatli haykali, fil suyagidan tayyorlangan shaxmatning ikki donasi topildi.





**4-rasm.** Gorizontal va vertikal ko'rinishi

Shahar ibodatxonasidagi markaziy zal to'lliqlik ochib o'rganilgan boshqa xonalar esa qisman qazilgan. U milodiy II-asr oxiri va III-asr birinchi yarmiga tegishli deb hisoblansada milodiy III-IV va hatto VI-VII-asrlarga tegishli, degan taxminlar ham yo'q emas. Shahar tashqarisidagi ibodatxona faoliyati mamlakatimiz olimlarining fikricha milodiy I-III asrlarga to'g'ri to'rtburchak tarxga ega markazida uch tomondan shartli ravishda kichik ibodatxona, shohlar zali va xizmat ahamiyatidagi xonalar deb nomlangan tor to'g'ri to'rtburchak yo'laksimon xonalar bilan o'ralgan stupadan (8x7-7x7) iborat massiv joylashgan.<sup>38</sup>

Akademik E.V. Rtveladze va arxeolog B.A. Turg'unovlar dalvarzintepa mudofaa devori 40x40-42x10-12 santimetrli xom g'ishtlardan qilinganligi, qalinligi esa 6,1 metrni tashkil etganligi mudofaa devorlarini qurishda grek va Baqrtiya usullaridan kengroq foydalanib, devor ustiga kuzatuv minoralari qurilganligi taxlil etganlar<sup>39</sup>. Shahar arki mudofaa devorlari mustahkam xom g'ishtdan qurilib, devorning qalinligi 3 mer bo'lib, uning balandligi 5,8 x 3,5 metrgacha bo'lgan. Qal'a devorlari tepasida mudofaa yo'laklari bo'lib maxsus o'q otadigan tuynukchalar joylashtirilgan. Mudofaa devorlari burchagida mudofaa qurg'onchalari o'rnatilib, dushman hujumlarini qaytarish, harakatlarni tashkil qilishda ushbu qurg'onlar alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Mishodi hududidagi qadimgi ilk shahar markazlari hisoblangan Qizilcha-6 va Qizilcha-1 dagi mudofaa devorlari to'g'ri to'rtburchak mustahkam qilib qurilgan.<sup>40</sup> Dalvarzin mudofaa devorlari atrofi chuqur qazilgan zovurlardan iborat bo'lib suv bilan to'ldirilgan. Dalvarzin qurilish usuli Qizilcha-6 mudofaa inshootlariga o'xshaydi. Dalvarzin nauslari ichki zallari alohida xonalar bilan bog'lanib, xonalar mustahkam to'g'ri to'rtburchak uslubda, har bir xona o'zi bajaradigan vazifasiga qarab taqsimlangan. Dalvarzintepa shahrida budda monastiri shaharning ichki qismida joylashib, muxtasham zallari, chiroyli haykallar bilan bezatilib, ohaktosh uslubida loyga ishlov berish natijasida did bilan ishlangan haykallar o'zining go'zalligi bilan alohida ajralib turadi.

Dalvarzintepa umumiy hududining 34 foizini mudofaa inshootlari, 41 foizini asosiy istiqomad qismi, 7 foizini maydonlar va ko'chalar 18 foizini boshqa binolar egallagan deb tahmin qilinmoqda.<sup>41</sup>

<sup>38</sup> Qadimgi O'zbekistonda buddaviylik va buddaviy meros'. T.2011.40-42-bet.

<sup>40</sup> Sayfulla Tursunov, Qurbon Eshboyev, "Sho'rchi tarixidan lavhalar". T.2014.19-20-bet.

<sup>41</sup> E.V. Rtveladze. "O'zbekistonning tarixiy o'tmishi". T.2009.125-bet.

Dalvarzintepa shaharsozligi haqida gap ketganda ibodatxonalariga to'xtalmasdan iloji yo'q. Bilamizki dalvarzintepada 2 ta yirik ibodatxona mavjud. Avval shimoldan ya'ni Termiz tarafdin buddaviy rohiblar, koloniyalari shimolga qarab siljiydi va Dalvarzintepaga kelib o'rnashadi. Dastlab Dalvarzintepa aholisi shahar tashqarisidan mujazgina ibodatxona quradi buning sababi esa shahar hukmdori ularga ruhsat bermaydi. Eng qizig'i esa ibodatxonaning ichki qismiga Dalvarzintepa hukmdorining oila azolarining tasvirlari bilan bezatilgan. Bular orasida eng mashhur kushon shahzodasining boshi va Devata haykallari joy olgan. Ibadatxonada hukmdor oila a'zolarining tasvirlanishi natijasida shahar hukmdori buddaviylik ta'limotiga qiziq boshlaydi va shahr markazidan yirik buddaviylik ibodatxonasini qurdiradi.

Dalvarzintepadagi shahar chekkasida joylashgan budda ibodatxonasida donatorlarning tasviri aks ettiradi. Bularning orasida eng jozibali haykalcha yuz chehralaridan oliyjanoblik balqib turgan oltin tuqalar bilan bezatilgan baland uchlik qalpoq kiyib olgan" kushon shahzodasi "ning boshidir. Mana shu haykalchanning boshini G.A. Pugachenkova Kamain ibodatxonasidagi, shoh antioxning boshi bilan taqqoslagan va ularda uslubiy yaqinlikni ko'rgan. Shu bilan birga biz tomonimizga pishiq puxta o'rganilgan tilla tangalardagi kushon shohi Vasudeva Ining tasviri dalvarzintepadan topilgan." Kushon shohi boshi bilan taqqoslab ko'rganda yuz qirralarida yaqin o'xshashlik borligi bosh kiyimi shakli va bezaklari ham ikkala shaxsda bir xil nomsiz "Kushon shahzodasi"ning haykalchasi boshi, kushon podshohi " Vasudeva ".ning tasviri ekanligi tahmin qilinmoqda.<sup>42</sup>

Dalvarzintepada shaharsozlik bilan birgalikda haykaltaroshlik ham taraqqiy etgan. Bunga isbot tariqasida dalvarzintepadan topilgan iloha Nana ibodatxonasining devoriy rang tasviri aks ettiriladi va u ham parchalardan iborat bo'lib polda yotgan holda topilgan. Tamirlangan sahnada, zoomorfli taxtda o'tirgan iloha, va unga tomon yo'nalgan va boshi uzra jajji gudakni ko'tarib olgan oppoq libosdagi kohin va qo'lida ikki nafar chaqaloqni ko'tarib olgan kohina tasvirini ko'rishimiz mumkin.

Ibadatxona naqshida erkin bo'shliq mavjud emas, barcha shakllar qizil tusda tasvirlangan va o'simlik navdalari, oltinbargli gullar bilan to'ldirilgan. Palitra ancha keng bo'lib naqshlarda qora, moviy, jigarrang va sariq ranglardan foydalaniladigan, shunisi borki ayollar va bolalar shaxsida teri rangi och pushti erkaklarniki esa qizil rangga bo'yalgan. Shakllar tarxi ingichka qora chiziq bilan hoshiyalangan. Shakllar hajmi nurli soyalar yordamida va tarhning chetlari onda-sonda qizil chiziqlar bilan qoralangan, tasvirlar berilishining usuli ham turli xil bo'lgan. Ibadatxonaning chetlari bo'ylab barcha rang tasvirli manzara naqshli hoshiyalar bilan bezatilgan. Ular o'simlik navdalari uchburchak yoki ikki bargli geometrik shakllar (qora fondagi oq doirachalar) yoki shunchaki qizil, qora jigarrang chiziqlar sifatida talqin etilgan. Xona devorining yuqori qismi alibastr yuzasiga tortilgan naqshlar bilan bezatilgan bo'lib ular Ellinizmga xos san'atda keng tarqalgan, yugurayotgan to'lqinlar ohangini aks ettirgan. Dalvarzintepadan topilgan taqvodan hunarmand kishining uyi ichidagi xonalarida ko'plab naqshli parchalar aniqlangan, ulardan birida ko'p shaklli sahna taqdim etilgan bo'lib, unda ot va uning yonida turgan erkak kishi va ikki qavatli bolaxonadan ularga qarab turgan ayol tasvirlangan.<sup>43</sup> Dalvarzintepadagi antik davr iste' hkomlarining tashlandiq holatga kelib yemirilish jarayoni VI-VII-asrlarda inqirozdan chiqqan iste' hkom qulay, baland manzil sifatida qayta qurilib tiklandi. Shaharning o'zi esa xaroba bo'lib qoladi. Dalvarzintepa aholi maskani sifatida arablar istilosi chog'ida uzil kesil tugadi. Chunki arkda ham shahristonda ham arablar kelganidan keying davrning izi yo'q.<sup>44</sup>

<sup>42</sup> E.V. Rtveladze. "O'zbekistonning tarixiy o'tmishi". T.2009.97-bet.

<sup>43</sup> E.V. Rtveladze. "O'zbekistonning tarixiy o'tmishi". T.2009.99-bet.

<sup>44</sup> S. Tursunov, E. Qobilov, B. Murtazoyev, T. Pardayev. "Surxondaryo tarixi". T.2004.57-58-59-bet.





**5-rasm.** Hammom g'ishtli qoplama.

Dalvarzintepa atrofida bir qancha kichik tepalar saqlanib qolgan. Arxeologlar bu tepalarning bir nechtasida qazish ishlarini olib bormoqdalar. Tepalarning biridan Kushonlar davriga oid ibodatxona xarobasi topildi. Ibadatxona bir nechta xonalardan iborat bo'lib, xona ichidan budda dini xudolarining turli haykallari topildi. Xaykallarning hammasini mahalliy Baqtriyalik haykaltaroshlar tayyorlaganlar<sup>45</sup>. Shuning uchun ularda Baqtriya tasviriy san'atining ananalari o'zining yorqin ifodasini topgan. Shunday bo'lsada haykallarda gandxar va yunon-rim san'atlari ananalarining ta'siri birmuncha sezilarlidir. Shuningdek, yaqinda bu yerda yana bir noyob yodgorlik borligi aniqlandi. Dalvarzintepadan bir necha kilometr uzoqlikdagi kichik tepani tekislayotgan traktorlar xom g'ishtdan qurilgan binoning devorlarini kurib qoldilar va bu tug'risida darhol arxeologlarga xabar berdilar. Bu yerda uzun yo'lakning tarhi aniqlandi. Yo'lakning har ikki tomonida turttadan joylashgan. Xonalarning shifti gumbazsimon qilib qurilgan. Bu xonadan odam suyaklari, sopol idishlar turli taqinchoqlar va tangalar topildi. Har bir xada bir necha odam kumilgan ekan. Ularning suyaklari har tomonga sochilib ketgan albatda bu bejiz emas. Dalvarzintepa quyi shaharning janubiy qismida, qurg'on devori yaqinida burchaklari yumaloq bo'lgan to'g'ri burchakli tepalik joylashgan. Tahminan 90x60 metr o'lchamdagi taglikdan tepagacha bo'lgan belgilardan farq qiladi. 1968-yil G.A.Pugachenkova uning shimoli va g'arbiy yonbag'irlarida sopol shlak parchalari qayt etilgan. Sharqiy tarafdagi chuqurlikda esa devor konturi topilgan. Qazishmalar chog'ida kichik sopol pech topildi. Baqtriya shahrining hunarmandchilik kvartallarining birining tabiatini baholash maqsadida keyingi yillarda bu tepalikda qazishmalar L.Nekrasova, M.Isxakovlar tomonidan 1970-1974-yillarda amalga oshirildi. Bu kulolchilik uyi bo'lib chiqdi, unda uchta zona bor. Yuqori- shimoliy g'arbiy qismida qazish ishlari boshlangan va turtburchak vanna topilgan, yuqori bino shartli ravshda bino deb nomlanmagan.<sup>46</sup> O'rta tepalikning janubiy qismida hovli tahminan 30x30 metda joylashgan. Pastkisi sopol pechlari qurilgan yon bag'irlari etagida turli darajadagi qazishlar va chuqurlarni yotqizish shuni ko'rsatadiki, kulollar turar joining qurilishi tabiiy tepalikda uning relyefidan foydalangan holda amalga oshirilgan, buning natijasida binolarning pol belgilaridan farqi bor. Qadimgi binolarda devorlarining qoliqlari bilan madaniy qatlam yuqori zonada 0,5 dan 2 metrgacha boradi o'rtada esa 0,3 dan 1 metrgacha pastki zonada esa materik iyosi bilan boradi . va qazishmalar natijasida ma'lum bo'lishicha, bu joydagi madaniy konlarning qalinligi maksimal balandligi 15 metrga yetganligi sababi, keyinchalik qal'a o'zgartirilgan tepalikning balandligi 7-8 metrga yetgan degan xulosaga kelishimiz mumkin. Xulosa qilib shuni aytish kerakki Dalvarzintepaning juda katta joyi egallanganligi qurilishlar zichligi, arxeologik qatlamlar qalinligi mazkur qadimiy shaharning milotdan avvalgi I-asrda va milodning dastlabgi yillarida barq urib, yashnab turgan viloyat markazi bo'lganligidan dalolat beradi. Dalvarzintepa antik davrda davlat ma'muriyati, yirik ibodatxonalar, iqtisodiy aloqa tamoqlari, harbiy salohiyat mujassamlashgan katta tarixiy-madaniy viloyat markazi bo'lib yirik markaziy shaharlar sirasiga kirgan. O'zidan kichik bo'lgan ko'plab aholi qarorgohlari unga buysunganligini ko'rishimiz mumkin.

<sup>45</sup> S. Tursunov, E.Qobilov, T.Pardayev, B.Murtazoyev. "Surxondaryo tarix kuzgusida". T.2001.32-33-bet

<sup>46</sup> Г.А.Пугаченкова, Е.В.Ртвеладзе. "Дальверзинтепе-кушанский город на юге Узбекистана".Т.1978.97-98-bet.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Г.А.Пугаченкова, Е.В.Ртвеладзе. “Дальверзинтепе-кушанский город на юге Узбекистана”.Т.1978.
2. Bahodir Eshov. “O’zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi”. Т.2019.
3. E. V. Rtvladze. “O’zbekistonning tarixiy o’tmishi”. Т.2009.
4. Nurislom Tuxliyev, Alla Kremantsova. “O’zbekiston Respublikasi”. Т.2002.
5. I. A. Karimov. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q”. Т.1998.
6. Islom Botirov, Tuxtash Annayev. “Surxondaryo viloyati arxeologiya muziyi (qisqacha yo’llanma). Т.2002.
7. S. Tursunov, E. Qobilov, T. Pardayev, B. Murtazoyev. “Surxondaryo tarix kuzgusida”. Т.2001.
8. “Qadimgi O’zbekistonda buddaviylik va buddaviy meros”. Т.2011.
9. Sayfulla Tursunov, Qurbon Eshboyev, “Sho’rchi tarixidan lavhalar”. Т.2014.
10. S. Tursunov, E. Qobilov, B. Murtazoyev, T. Pardayev. “Surxondaryo tarixi”. Т.2004
11. Sayfullo Tursunov. “Surxondaryo viloyati toponimlari”. Т.2008.
12. Shokir Pidayev. “Sirli kushonlar saltanati”. Т.1990.
13. Shokir Pidayev. “Qadimiy termiz”. Т.2001.
14. Azamat Ziyov. “O’zbek davlatchiligi tarixi”. Т.2000.
15. Г.А.Пугаченкова, Е.В.Ртвеладзе. “Северная Бактрия Тохаристан”. Т.1990.

## CHIQINDISIZ TEXNOLOGIYALAR SARI

*Mukumova Husnora Irgashevna*

*Qarshi davlat universiteti Geografiya kafedrasida o'qituvchisi.*

*Bo'riyeva Dilobar Ali qizi*

*Qarshi davlat universiteti Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari 2-kurs talabasi.*

Tabiatni, tabiiy landshaftlarni tabiiy holida asrab kelajak avlodga yetkazish ilmiy fan oldidagi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Buning uchun dastlab ishlab chiqarishda chiqindisiz texnologiyalarni joriy qilish lozim. Chunki chiqindilar hozirgi kunda atrof muhitni ifloslaydigan asosiy manbalardan biri bo'lib qolmoqda. Ularning tabiatda xoh qattiq, xoh suyuq, xoh gaz holatda bo'lsin atrof - muhit uchun zarari katta.

Chiqindilarni qayta ishlash, ulardan oqilona foydalanish va chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish bugungi kunning eng dolzarb masalasi hisoblanadi. Chunki, chiqindilarning atrof - muhitga yetkazayotgan zarari yildan yilga ortib bormoqda. Chiqindisiz texnologiyalarni joriy etgan holda ishlab chiqarishni rivojlantirish hozirgi zamon talabidir.

Shu kunga qadar fanda chiqindilarning 900ga yaqin turi qayd etilgan bo'lib, har yili dunyoda chiqindilar hajmi 3% ga ko'paymoqda. Natijada chiqindilarning atrof-muhitga yetkazadigan zarari ortib bormoqda. Biz ularning tabiatga salbiy ta'sirini quyidagi holatlarda ko'rishimiz mumkin:

- 1- Atmosferani ifloslantiradi;
- 2- Litosferaga zarar yetkazadi;
- 3- Chiqindi poligonlarida yig'ilgan turli xil chiqindilar zararli bakteriyalar rivojlanishi uchun muhit hisoblanadi;
- 4- Chiqindilardan chiqayotgan zararli birikmalar ekologik muvozanatning buzilishiga olib keladi;
- 5- Chiqindilar chiqarayotgan zaharli moddalar aholi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, turli allergik va onkologik hamda yuqumli kasalliklarning ko'payishiga sabab bo'lmoqda.

Sanoat tarmoqlaridan chiqayotgan chiqindilar geografik qobiqning o'zgarishi va uning ifloslanishiga olib kelmoqda. Sanoatda ishlab chiqarishning intensivlashuviga qaramay ishlab chiqarish jarayonida xom ashyoning bir qismi chiqindi sifatida geografik muhitga chiqarib tashlanmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda atrof - muhit ifloslanishida sanoat va tabiiy energiya (ko'mir, gaz, slanes, torf va boshqalarni yoqishdan chiqqan chiqindi va gazlar) chiqindilari 55 %ni tashkil etadi. Sanoat tarmoqlari va tabiiy energiyadan har yili geografik qobiqqa 17,3 mlrd. t har xil zararli gazlar, 4 mlrd. t qattiq chiqindilar chiqib, atmosferani har xil chang, qurum, gaz va radioaktiv moddalar bilan ifloslamoqda. Natijada geografik qobiq unsurlarining o'zaro aloqalariga salbiy ta'sir etishdan tashqari, atmosferadagi o'sha har xil chang to'zon va qattiq zarrachalar, yog'inlar, shamollar orqali yer yuziga qaytib tushib suv, tuproqni ifloslamoqda, har xil inshootlar, binolar va ularning tunukalarini yemirilishini tezlashtirmoqda. Geografik qobiqqa ta'sir etib, uni o'zgartirilishida tog'- kon sanoati ham ishtirok etadi.

Bugungi kunda fan - texnika yutuqlaridan foydalanib, yer osti boyliklari ham tezkorlik bilan o'zlashtirilmoqda. Hozir yiliga yer bag'ridan qazib olinayotgan foydali qazilmalar va qurilish materiallarining miqdori A.N.Kurakova ma'lumotiga ko'ra, 190 - 200 mlrd. t atrofida bo'lib, ularni qazib olish uchun 6000 km<sup>2</sup> yer ag'darilib, bir yerdan ikkinchi yerga olib borib tashlanmoqda. Bu esa geografik qobiq landshaftlarining o'zgarishiga, ularni ifloslanishiga olib kelmoqda.

Tabiiy landshaftlarning o'zgarishida yana ma'danlarni ochiq usulda yoki karyer usulida qazib olish ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu usulda ma'danlarni qazib olishda uning ustki qatlamidagi keraksiz jinslar olinib, boshqa yerlarga tashlandiq jins sifatida tashlanadi. Natijada yangi «texnogen» relyef shakllari karyerlar, shaxtalar, tashlandiq jins uyumlari kabi antropogen landshaft vujudga kelmoqda.

Har soniyada sayyorada tabiatga zarar keltirmaydigan uch kilogramdan ortiq tabiiy chiqindi yuzaga keladi. Unga tuxum po'chog'i, mevalar po'stlog'i va boshqalar kiradi. Oziq ovqat qoldiqlari aholi vakili chiqindi savatining 29 %ga yaqinini tashkil qiladi. Qolgan 13 %i - shisha, 11 %i plastmassa, 4 %i metal chiqindilar bilan band. 18 %i esa boshqa turdagi chiqindilarga kiradi. Ma'lumot o'rnida shuni aytishimiz mumkin, qog'ozdan tayyorlangan salfetka dengiz suvida 3 oyda, gugurt cho'plari 6 oyda to'liq eriydi. Tamaki qoldig'i esa 5 yilgacha suzib yuradi. Polietilen paket suvni 10 - 12 yil davomida ifloslantiradi, neylon buyumlar 35 yildan keyin yo'q bo'ladi, temir banka butunlay yo'q bo'lishi uchun 500 yil kerak. Shisha butilka to'liq erishi uchun esa 1000 yil zarur bo'ladi. Tabiiy landshaftlarning o'zgarishida antropogen omilning ta'siri kattaligini chiqindilarning Qarshi shahri atrofidagi tabiatga ta'sirida ko'rishimiz mumkin. Biz Qarshi shahri Qo'ng'irtog' yaqinidagi chiqindi poligonida bo'lib vaziyatni o'rgandik. Bu yerdagi holat umuman talabga javob bermaydi. Poligon aholi punktlariga borgan sari yaqinlashib bormoqda. Poligonda aholining maishiy chiqindilari, qurilish materiallari qoldiqlari, polietilen va rezina buyumlar va boshqa ko'plab turdagi chiqindilar yillar davomida to'planib kelgan. Poligon tabiiy landshaftlarning faqatgina tashqi ko'rinishiga emas, balki ularning sifatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chiqindilar shamol ta'sirida bir necha kilometr masofagacha uchib borib, aholi xojalik faoliyatiga ta'sir etishi tufayli aholi o'rtasida kasallanish ko'rsatkichlari ortib, ekologik muvozanat buzilmoqda. Bu muammoga befarq qarash mumkin emas! Chiqindilar va ulardan oqilona foydalanish bilan bog'liq muammolarni o'rganish va tahlil qilish faqatgina ilm-fanning emas, balki butun insoniyatning vazifasidir. Bunga aholining ekologik madaniyatini oshirish orqali erishish mumkin. Shu maqsadida Qarshi shahridagi "Qo'ng'irtog'" tepaliklari va ushbu hududni tozalash, obodonlashtirish ishlarida yoshlar o'z tashabbuslarini ko'rsatishdi. Yoshlar ishlari agentligi Qarshi shahar bo'limi mas'ullari, Qarshi shahridagi MFY yoshlar yetakchilari hamda ko'ngilli yoshlar "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida ushbu hududni turli chiqindilardan tozalash ishlarini olib bordilar. Qo'ng'irtog' tepaliklari atrofi kelgusida yashil hududga aylantirish hamda minglab ko'chatlar o'tqazish ko'zda tutilgan ekan, bunda albatta, Qarshi shahri yoshlari ham o'z hissalarini qo'shdilar. Ushbu ishda 100 nafarga yaqin ko'ngilli yoshlar ishtirok etdilar.



Dolzarb 40 kunlik aksiyasi doirasidagi ishlar ham o'z natijasini bermoqda Prezidentimiz tashabbusi bilan e'lon qilingan ushbu loyihalar davomida Qarshi shahrida daraxt ekish ishlari uyushqoqlik bilan tashkil etilmoqda. Aksiyada shahar hokimligi tomonidan 200 ming tupdan ortiq mevali va manzarali daraxt ko'chatlari, 1 mln donaga yaqin tol, terak va atirgul qalamchalari olib kelinib, shahardagi 64 ta mahalla fuqarolar yig'inlaridagi xonadonlarga, ko'chalarga hamda ijtimoiy soha obyektlari - maktablar, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, tibbiyot muassasalari hovlilariga, bo'sh turgan maydonlarga ekish uchun tarqatib berildi. Buni o'rganish davomida Qashqadaryo viloyatidagi Qashqadaryo Eko Trans MCHJda bo'lib, u yerda chiqindilar va ularning atrof - muhitga yetkazayotgan salbiy ta'siri hamda chiqindisiz texnologiyalar haqida ma'lumotga ega bo'ldik.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 - yil 1- apreldagi "Ekologiya va atrof - muhit sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida" gi PF-5024- sonli Farmoni hamda 2017 – 2021 - yillarda maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish va rivojlantirish bo'yicha chora - tadbirlar to'g'risidagi



PQ – 2916 - sonli Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Qarshi shahrida qattiq va maishiy chiqindilarni yig'ish va tashish, qayta ishlash va utilizatsiya qilish bo'yicha QASHQADARYO EKO TRANS MCHJ klassteri tashkil etilgan. QASHQADARYO EKO TRANS MCHJ jamoasi Qarshi shahrida sanitariya va ekologik vaziyatni yaxshilash, aholi turmush darajasi va sifatini yanada oshirish uchun yuridik va jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatib kelmoqda. Jamiyatda jami 265 nafar ish o'rni yaratilib ishchi - xizmatchilar ish bilan ta'minlandi. Qarshi shahrida tashkil etilgan QASHQADARYO EKO TRANS MCHJ ning 2,2 mlrd. so'm va O'zmilliy bankning 8,3 mlrd. so'm hamda 2,9 mln. AQSH kredit mablag'lari jami 5138,1 ming dollar hisobiga 44ta maxsus texnika va 6ta texnologik uskunalarni (5tasi qayta ishlash va 1ta saralash) xarid qilish bo'yicha Xitoyning BESTON (HENAN) MACHINERY CO.LTD kompaniyasi bilan shartnomalar imzolangan. Hozirgi kunda 22 ta texnika Qarshi shahridagi 62 ta mahallalarga va yuridik tashkilotlarga xizmat ko'rsatib kelmoqda.

QASHQADARYO EKO TRANS MCHJ G'uzor tumanidagi Chiqindilarni saralash va qayta ishlash kompleksi bilan bevosita hamkorlikda ish olib boradi. Yig'ilgan chiqindilar ushbu kompleksga yetkazib beriladi va u yerda chiqindilar qayta ishlanib, ulardan ko'mir briketi (bioko'mir), granula va qog'oz ishlab chiqariladi, kompleksga keltirilgan chiqindilarning 30 - 40%i qayta ishlanadi, qolgan qismi esa bioo'g'itga aylantiriladi.

Hozirgi kunda QASHQADARYO EKO TRANS MCHJ da: 44ta maxsus texnikalar (30 ta chiqindi tashish texnikasi, 8ta samosval, 1ta assenizator, 1ta gildirakli ekskavator, 1ta buldozer, 2 ta avtoyuklagich) olib kelingan. 1ta chiqindilarni qayta saralash uskunasi xarid qilingan bo'lib korxonada qurilishi ishlari yakunlanib, saralash uskunasi ishga tushirilgan. Plastmassa quvurlar ishlab chiqarishga mo'ljallangan liniya olib kelib o'rnatilgan.



Chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish orqali atrof - muhitga ajraladigan chiqindilar ikkilamchi xomashyo sifatida qayta ishlashga beriladi va ularning atrof-muhitga zararli ta'siri deyarli bo'lmaydi. Bunda asosiy xomashyo va undan qoladigan chiqindidan kompleks va samarali foydalanilsa:

- birinchidan, xomashyoning ortiqcha sarflanishining oldi olinadi;
- ikkinchidan, atrof - muhit ifloslanishdan saqlanadi;
- uchinchidan har xil kasalliklarning kelib chiqishi kamayadi;
- to'rtinchidan chiqindisiz texnologiyalar yordamida energiya tejiladi.
- beshinchidan agar aholi o'z chiqindilarini o'zi saralasa ortiqcha ishchi kuchiga va qayta ishlovchi texnikalarga ehtiyoj sezilmaydi, ya'ni sarf - xarajat kamroq bo'ladi. Shuningdek, chiqindilarni qayta ishlash jarayoni tez bo'ladi, vaqt tejiladi. Bu borada :
  - Birinchi o'rinda aholining ekologik madaniyatini oshirish
  - Ikkinchi o'rinda ishlab chiqarishga chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish
  - Uchinchi o'rinda ishlab chiqarish korxonalarini yangi avlod chiqindisiz texnologiyalari bilan jihozlash; Bu o'rinda chiqindisiz texnologiyalar ishlab chiqarishdagi eng muhim bosqichga aylanishi zarur Texnologiyalarning sifat jihatdan mukammalligi va ekologik jihatdan zararsizligi, kam chiqindi ajratishi va ajratgan taqdirda ham atrof - muhitga bezarar bo'lishi lozim..



-To`rtinchi o`rinda ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilaridan ekologik muvozanatni buzmaganda samarali foydalanish kabi ishlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Bu bizga nima beradi?

- Chiqindisiz texnologiyalar orqali atrof - muhit ifloslanish darajasi pasayadi;
- Atmosferaga chiqarilayotgan har xil zaharli moddalar va litosferani zararlayotgan har xil zararli chiqindilar miqdori kamayadi;
- Chiqindi poligonlarida joy tejaladi;
- Chiqindisiz texnologiyalar orqali xomashyo isrofining oldi olinadi ya'ni xomashyodan kompleks foydalaniladi;
- Yangi mahsulot turlari yaratiladi.

Chiqindisiz texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish va chiqindilardan oqilona foydalanish uchun quyidagilar zarur:

1) aholiga ekologik madaniyatni singdirish uchun turli tadbirlar tashkil etishi. Ularga tabiat insoniyatning umumiy uyi ekanligi, uni asrab - avaylab kelgusi avlodga yetkazish har birimizning zimmamizdagi burch ekanligini anglatish;

2) aholi o'z chiqindilarini o'zi saralashi ;

3) ishlab chiqarishga kam energiya sarf qiluvchi chiqindisiz texnologiyalarni joriy etilishi.

Kelgusida aholi o`rtasida chiqindilarga to`g`ri munosabatda bo`lish ko`nikmalarini hosil qilish orqali tabiat muhofazasiga erishamiz deb umid qilamiz.

## “XAMSA” DOSTONLARIDA JOMIY TA’RIFI

*Boboqulova Feruza Fazliddin qizi*

*NavDPI O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 3-bosqich talabasi.*

**Annotatsiya:** Bilamizki, Abdurahmon Jomiy bilan Alisher Navoiy ustoz-shogird bo‘lish bilan bir qatorda, yaqin do‘st ham bo‘lganlar. Navoiyning Jomiyga bo‘lgan ehtiromi cheksiz edi. Jomiy vafotidan so‘ng unga bag‘ishlab yodnoma yozishi ham buning yorqin dalilidir. Shuningdek, Navoiy o‘zining bir qancha asarlarida, xususan, “Xamsa” dagi barcha dostonlarda Jomiy ta’rifi uchun alohida boblar ajratgan. Quyidagi maqola orqali esa “Xamsa” dagi ana shu boblarda Navoiyning Jomiyga nisbatan qanday ta’rif-u tavsiflar qo‘llaganini, uning qaysi jihatlariga ko‘proq urg‘u berganini va Jomiy bilan munosabati qanday bo‘lganini yanada yaxshiroq bilib olish mumkin.

**Kalit so‘zlar:** Navoiy; Jomiy; “Xamsa”; jahon ofati; jon ofati; nurun alo-nur; qutbi tariqat; durri haqoyiq; ishtihor; fuzun.

Buyuk ikki siymo - Alisher Navoiy va Jomiy bir-birlari bilan o‘zaro do‘stona hamda ustoz-shogird munosabatida bo‘lishgan. Navoiy Jomiyning o‘ziga ustoz, pir deb bilgan. “Mavlono Abdurahmon Jomiy katta olim va mashhur shoirligi tufayli uning muxlislari va shogirdlari sonanoqsiz edi. Lekin bular orasida Alisher Navoiychalik samimiy muxlis va eng yaqin do‘st hamda bu samimiyat va yaqinlikni umrining oxirigacha qat’iy sadoqat bilan barqaror saqlagan kishi topilmasa kerak. Alisher Navoiy kamolot kasb etib, iste’dodi yanada jilolangani, ulug‘ shoirlik va mutafakkir olimlik cho‘qqisiga ko‘tarila va davlat arbobi darajasiga erisha borgani sari uning Jomiyga muhabbati, izzat va ehtiromi tobora orta bordi, bu g‘oyat samimiy munosabat eng yaqin va uzilmas do‘stlik darajasiga borib yetdi. Bunda hech qanday g‘ayri tabiiylik yoki favquloddalik yo‘q, albatta”<sup>47</sup>. Navoiy Jomiy vafotidan keyin unga atab 1494-yilda “Xamsat ul-mutahayyirin” asarini yozadi. Bundan tashqari, Navoiy Jomiy haqida “Xamsa” ning barcha dostonlarida, “Nasoyim ul-muhabbat”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Mahbub ul-qulub” asarlarida va “Majolis un-nafois” ning 3-majlisida ham to‘xtalib o‘tadi. Bular orasida, ayniqsa, “Xamsa” dostonlaridagi Jomiyga berilgan ta’riflar alohida ahamiyatga egadir. Navoiy “Xamsa” dagi har bir dostonning boshlanmasida hamd, na’t qatori salaflar madhiga ham to‘xtalib o‘tadi. Muallif Nizomiy va Dehlaviy ta’rifi uchun bir bob ajratsa, Jomiyning o‘zi uchun alohida bir bob ajratadi. Masalan, “Hayrat ul-abror” ning 13-bobi, “Farhod va Shirin” dostonining 7-bobi, “Layli va Majnun” ning 6-bobi, “Sab’ai sayyor” va “Saddi Iskandariy” dostonlarining 7-boblari Jomiy tavsifiga bag‘ishlangan. Navoiy har bir dostonida bir-birini takrorlamaydigan, go‘zal tashbehlarini ishlatishga harakat qiladi. Quyida keltirilgan boblar tahlilida bunga o‘zimiz guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, “Hayrat ul-abror” dostonining 13-bobi Jomiy ta’rifida bo‘lib, jami 65 baytdan iborat. Ushbu baytlardan faqatgina 54-baytdagina bir marotaba “Jomiy” so‘zi keltiriladi. Navoiy Jomiyning ta’riflar ekan, har bir dostonida, eng avvalo, uning diniy jihatdan yuksak martabaga ega ekanligiga urg‘u berib o‘tadi. “Hayrat ul-abror” da ham ta’rifni shu jihatidan boshlaydi:

Ulki bukun qutbi tariqatdur ul,

Koshifi asrori haqiqatdur ul.

(“Hayrat ul-abror”. 50-bet).

Ya’ni bu yerda Jomiy “so‘fiylik yo‘l-yo‘rig‘ining yagona porloq yulduzi” va “haqiqat sirlarini ochuvchi” deyilmoqda. Keyingi baytlarda esa Navoiy uni jahonga, katta olamga qiyos etadi. Shuningdek, bob sarlavhasida Navoiy Jomiyning o‘z qora kunlarining quyoshi deb aytgan bo‘lsa, bobda esa Jomiyga boshqalarga qaraganda ko‘proq o‘zining ojiz va muhtoj ekanligini aytadi.

<sup>47</sup> P. Shamsiyev – “Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy”. T.: “Fan” nashriyoti. 1966. 6-bet.

Nomag'akim roqim etib xomasin,  
Ko'rmadi men ko'rmayin el nomasin.

(“Hayrat ul-abror”. 52-bet).

Baytdagi “roqim” va “xoma” so'zlarini izohlaydigan bo'lsak, “roqim” so'zi “xat yozuvchi, kotib” degan ma'noni, “xoma” so'zi esa “qalam” degan ma'noni bildiradi. Bu yerda ijodkor Jomiy biror asar yozsa, uning asarini birinchi bo'lib o'zi ko'rganini faxr bilan ta'kidlamoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, Navoiy va Jomiy badiiy ijodda ham bir-birlariga maslakdosh bo'lishgan. Mahmud Hasaniyning “Jomiy va Navoiy” kitobida aytilganidek: “Jomiy bilan Navoiy birinchi tanishgan davrlaridan boshlab, to umrlarining oxirigacha har bir ishda hamkor, maslahatdosh va maslakdosh bo'ldilar.

Ular bir mavzuda asarlar yozishdi, bir-birlariga mavzular berishdi, adabiyotning o'sha davr uchun zarur umumiy masalalarini muhokama qilishdi, ularning asosini birga ishlab chiqishdi, bir-birlarini rag'batlantirishdi va bir-birlariga madad berishdi”. Dostonda aytilishicha, ikki mutafakkir bir kuni yig'ilishda suhbatlashib, ustoz va shogirdlar haqida fikr yuritishadi. Shunda Nizomiy va Dehlaviyni ham eslab, ular yozgan “Xamsa” ni maqtashadi. Ayniqsa, ikki “Xamsa” dagi o'n doston ichidan avvalgi ikki doston juda ajoyib ekanligini ta'kidlashadi. Oradan 1-2 oy o'tib, Navoiy Jomiyning uyiga borganida Jomiy o'zining “Tuhfat” ini tugatganini aytadi. Asarda Jomiyning dostoni oldingi ikki xamsanaviskidan hajman kichik bo'lsa-da, ammo ma'no jihatdan boy deyiladi. Navoiy uning dostonini o'qib, o'zining ko'nglida ham “Xamsa” yozish istagi tug'iladi. “Ular “Xamsa” yaratish to'g'risida ko'p so'zlashganlar. Jomiy Navoiyning turkiy tilda “Xamsa” yozish istagi borligini bilardi. U ushbu kitobni Navoiyga ko'rsatar ekan, uni o'sha maqsadning ijrosiga chorlamoqda edi”<sup>48</sup>. Shundan so'ng, Navoiy ham o'z “Xamsa”sini yozishga ahd qiladi va ular forscha yozgan bo'lsa, men turkcha yozaman deb aytadi. Beshlikni yozishdan avval Nizomiy bilan Dehlaviy ruhlariga fотиha o'qisam, Jomiy esa menga fотиha bersa, ular meni qo'llasa deya quyidagi mashhur misralarni keltiradi:

Yo'ldasa, bu yo'lda Nizomiy yo'lum,  
Qo'ldasa, Xusrav bila Jomiy qo'lum.

(“Hayrat ul-abror”. 55-bet).

Shu bilan birga, Navoiy o'zidan oldin “Xamsa” yozgan uch buyukni o't, suv, havoga qiyoslasa, o'zini tuproqqa, ularni sarv, gul va lolaga, o'zini esa o'tinga, ipak va atlasga ularni o'xshatsa, o'zini kigizga, la'l, yoqut, dur desa ularni, o'zini qahraboga va oxirida ularni musaffo mayga va o'zini uning quyqasiga tenglashtiradi. Ularning oldida o'zini it kabi past baholab, itlari kabi men ham mangulik g'origa kiray deydi va bu fikri orqali podshoh zulmidan qochib, bir g'orga yashiringan uch aziz va ularga ergashib, yaxshilarga ergashgani uchun azizlar hisobiga qo'shilgan it to'g'risidagi afsonaga ishora qiladi.

“Xamsa”ning ikkinchi dostoni bo'lmish “Farhod va Shirin”da 7-bob 34 baytdan tashkil topgan. Shuningdek, bu dostonda 1- va 33-baytlarda “Jomiy” ismi qo'llanilgan. Navoiy dostonida Jomiy ta'riflar ekan, Xusrav bilan Nizomiy bir pil (fil) bo'lsa, Jomiyning o'zi yuz pil (fil)chadir deydi.

Muhabbat jomi durdoshomi uldur,  
Hamon Zindapili Jomiy uldur.

(“Farhod va Shirin”. 28-bet).

Baytdagi “durdoshom” so'zi “may quyqasini ichuvchi” degan ma'noni anglatadi. Ya'ni bu yerda muallif Jomiy muhabbat jomidagi mayning quyqasini ichuvchi demoqda va hamshahari Zindapili Jomiy ham shudir deb, u bilan o'zaro taqqoslamoqda. Shu bilan bir qatorda, asarda Navoiy Jomiy “fano timsoli”, “ulug' olam” va “eng olis, yetib bo'lmas maqsad” deb ataydi. Oldingi dostonida darveshlik xirqasi haqida fikr yuritilgan bo'lsa, bu dostonida faqirlik libosiga to'xtalib o'tiladi. Muallif Jomiy madh etar ekan, uning o'zi bir dengiz, so'zlari shu dengizdagi gavharlar, qalami esa o'sha gavharlarni sochuvchidir deb aytadi. Navoiy o'zini uning ham muridi, ham quli deydi.

<sup>48</sup> A. Qayumov – “Alisher Navoiy”. T.: “Kamalak”. 1991. 86-bet.

40 baytdan iborat bo'lgan “Layli va Majnun” ning 6-bobi Mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy madhidadir. Ushbu dostonning 18-baytidagina “Abdurahmon” va “Jomiy” nomlari keltiriladi, xolos. “Layli va Majnun”da ham boshqa dostonlarda bo'lgani kabi ta'rif, avvalo, uning diniy fazilatlarini va ishlarini maqtash bilan boshlanadi. U har bir sajda qilganida Oллоh visoliga erishadi deydi Navoiy.

Sochib laqabi jahon aro nur,  
Zoti bila nurun alo-nur.  
Abdurahmondin oti nomiy,  
Lekin topib ishtihor Jomiy.

(“Layli va Majnun”. 34-bet).

Birinchi baytda Navoiy Jomiyning Nuriddin ismiga ishora qilib, ham zoti, ham laqabi bilan nur ustiga nurdir demoqda. Keyingi baytdagi “ishtihor” so'zi “mashhur bo'lmoq”, “shuhrat topmoq” ma'nolarini bildiradi. Ya'ni bu yerda shoir ismi Abdurahmon bo'lsa ham, Jomiy bilan tanilgan deyilmoqda. Shoir she'riyati nasr singari yaxshi, nasri esa nazmdan ko'ngilni junbushga soluvchi deya ta'riflanadi. Navoiy Jomiyning “Silsilat uz-zahab”, “Subhat ul-abror”, “Tuhfat ul-ahror”, “Yusuf va Zulayho” va “Devon” asarlarining yaratilishiga ham to'xtalib, “Silsila” asari yaratilganda yuzlab aql unga shaydo bo'ldi, “Tuhfa”ni ko'rib esa kishilar o'z jonlarini fido qildilar deydi. “Subha” talqini tugallanganda farishtalar davrasida tasbeh zikri boshlandi. “Ahsan ul-qissa” yoziliboq, xalqning suyuqli asariga aylandi va “Devon”ni muhayyo qilganida, Surayyo yulduzlari uning boshiga gavhar sochdi deyiladi dostonida.

Bahrom va Dilorom muhabbatini tarannum etuvchi “Sab'ai sayyor” dostoni (7-bob 45 baytdan iborat)da Jomiy ilmda tengsiz ekanligini, riyozat ilmini ham yaxshi bilishini aytadi. Lekin biror o'rinda “Jomiy” nomini keltirmaydi. Ushbu dostonida Navoiy buyuk shoirni tavsiflar ekan, bismillodagi “bo” harfi nuqtasining o'ziga tafsirda ko'plab asarlar yozganini aytadi, shuningdek, tafsir ilmida uni buyuk bir daraxt deya e'tirof qiladi.

“Arbain”iki aylabon tartib,  
Arabiy birla forsiy tarkib.  
Arbain ahli darkidin ojiz,  
Ko'rmayin bo'yla “Arbain” hargiz.  
Faqr ichinda imomi olam ul,  
Qaysi olam, imomi A'zam ul.

(“Sab'ai sayyor”. 35-bet).

Ushbu baytlarda Navoiy Jomiy “Arbain” asarini arab va fors tilida yozib, bu asarni yozishga qo'l urganlarni hayron qoldirganini, faqirlikning imomi bo'lmish A'zam olamida imom ekanligini aytib o'tadi va Jomiy fiqh ilmida Imom A'zamga tenglashtiradi. Bundan ko'rinib turibdiki, Jomiy din ilmida ham yuqori cho'qqilarni egallagan buyuk shaxsdir. “Layli va Majnun” dostonida sanalganidek, bu dostonida ham Navoiy Jomiy asarlaridan bir qanchasini sanab o'tadi. Jumladan, shoir ibn al-Faridning “Qasidai Xamriya”siga sharh tarzida bitilgan ““Lavome' fi sharh ul-xamriya”, so'fiy va mashoyixlar haqidagi “Lavoyih” asari, falsafa va tasavvufga oid “Ashi'at ul-lamaot”, Ibn Forizning fiqhga oid “Toiya” kitobiga sharh sifatida bitilgan “Tovu mimiya”, “Shavohid un-nubuvvat”, “Nafohat ul-uns min hazarot ul-quds”, “Tuhfat ul-ahror”, “Subhat ul-abror”, “Silsilat uz-zahab”, “Haft avrang” dostonlaridan Yusuf va Zulayho haqidagi “Oshiq-u ma'shuq” singari asarlari va qasida, g'azallari haqida fikr yuritadi.

“Xamsa”ning so'nggi dostoni “Saddi Iskandariy”da ham 7-bob Jomiy madhidadir. Ushbu bob umumiy 44 baytdan tuzilgan. Bobning oxirgi ikki baytida “Jomiy” nomi keltiriladi. Bu dostonida Navoiy Jomiy ilm osmonining quyoshi, quyosh nima, so'z jismining jonidir deya ta'riflaydi. Ijodkor ta'rifi davomida “jom” va “may” ta'rifini ham keltirib o'tadi va bu bilan Jomiyning nazmiga ishora qiladi.

Qayu nazm, balkim jahon ofati,  
Jahon ofati yo'qki, jon ofati.

(“Saddi Iskandariy”. 47 bayt).

Ushbu baytni izohlaydigan bo'lsak, bu yerda ijodkor Jomiy nazmi oddiy bo'lmay, jahonga ofat soladigan, yo'q jahon emas, balki jonga ofat soladigan deya fikr bildirib o'tgan. Shu bilan birga, muallif uning "Xamsa"sini maqtaydi. Jomiyning "Xamsa"sini Nizomiyning "Xamsa"si bilan solishtirib, undan ortiq bo'lsa ortiqki, ammo kam emas deydi.

Aning baytig'a gar fuzundir adad,

Vale yo'qturur munda ma'nig'a had.

Necha anda durji daqoyiq durur,

Vale munda durri haqoyiq durur.

(“Saddi Iskandariy”. 47-bet).

Birinchi baytdagi “fuzun” so'zi “ziyoda”, “ko'p” degan ma'nolarni bildiradi. Ya'ni ushbu baytlarda Nizomiyning “Xamsa”si hajman katta bo'lsa, Jomiyning ma'no jihatdan boy, Nizomiyda nozik ma'nolar yig'indisi bo'lsa, lekin bunda haqiqat dur-u gavharlari mo'l deyilmoqda. Keyingi baytlarda taqqoslashni davom ettirib, agar uni daryo deysa, Jomiyning kon deymiz, agar Nizomiyning ko'ngil desak, buningni jon deymiz deydi Navoiy. 3- 4-dostonlarda sanab o'tilganidek, “Saddi Iskandariy”da ham Jomiy “Xamsa”si tarkibiga kiruvchi dostonlar sanab o'tiladi. Ta'rifining so'nggida esa Jomiydek barkamol odam dunyoda yo'q, avval ham bunday ulug' zot bo'lgani ma'lum emas deya ta'kidlaydi Navoiy. Bob yakunida muallif Tangriga murojaat qilib, Jomiy so'zini el joniga foyda qil deydi va o'zi ham u bilan may ichib, devonalardek so'z aylamoqchiligini aytadi. Dostonning so'nggi 89-bobida ham Navoiy Jomiy ta'rifini keltirib o'tadi. Bu haqda P. Shamsiyev o'zining “Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy” nomli asarida shunday deydi: “Saddi Iskandariy” dostoni oxiridagi “Xamsa”ning yakunlovchi bobida Jomiyning ulug'ligi to'g'risida talqin etilgan jozibali qalb so'zlari kishini to'lqinlantiruvchi kuchga egaligi bilan diqqatga sazovordir. Bu bobda Navoiy yana bir bor Jomiyning chin do'st, jonkuyar murabbiy ekanini aytib, uning badiiy so'z olamida ulug' siymolar guruhiga mansubligini bob davomida isbotlab boradi”.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Navoiy har bir dostonida Jomiy ta'rifi to'xtalar ekan, unga nisbatan yuksak hurmati borligini ko'rsatishga harakat qiladi. Uning asarlari, xususan, “Xamsa” asari hech kimnikidan qolishmasligini alohida ta'kidlab o'tadi. Shuningdek, Navoiy A. Jomiy nafaqat badiiy ijodda, balki tariqat va so'fiylikda ham tengi yo'q ekanligini isbotlab beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shamsiyev P. – “Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy”. T.: “Fan” nashriyoti. 1966.
2. Qayumov A. – “Alisher Navoiy”. T.: “Kamalak”. 1991.
3. Hasaniy M. – “Jomiy va Navoiy”. T.: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
4. Fozilov E. – “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati”. T.: “Fan” nashriyoti. 1984.
5. A. Navoiy - “Hayrat ul-abror”. T.: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2020.
6. A. Navoiy – “Farhod va Shirin”. T.: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2020.
7. A. Navoiy – “Layli va Majnun”. T.: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2020.
8. A. Navoiy – “Sab' ai sayyor”. T.: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2020.
9. A. Navoiy – “Saddi Iskandariy”. T.: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2020.



## YUKSAK MA'NAVIYATLI YOSHLARNI TARBIYALASHDA O'RTA OSIYO ALLOMALARINING ILMIY MEROSLARINING O'RNI VA AHMIYATI

*Boymatova Maxliyo Abduraximovna*  
*Toshkent shahar Mirobod tumani*  
*147-maktab tarix va tarbiya fani o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** O'rta Osiyo tarixiy voqealarga g'oyat boy o'lka bo'lishi bilan birga azaldan ilmfan, madaniyat va ma'naviyatning markazlaridan biri bo'lib kelgan. Bu o'lka dunyoga ma'naviyat va ma'rifatning barcha sohalarida yuzlab, minglab jahonshumul ulug' zotlar, davlat arboblari tarbiyalab bergan. Umumbashariyat ma'rifatparvarligini yaratishda buyuk ajdodlarimiz bevosita ishtirok etganlar, uning taraqqiyoti va boyishiga ulkan hissa qo'shganlar. O'rta Osiyoning madaniy merosi jahon madaniyati va ma'rifatining zuviy ajralmas tarkibiy qismidir.

**Kalit so'zlar:** yuksak, ma'naviyat, yoshlar, tarbiya, O'rta Osiyo, alloma, ilmiy, meros.

IX-XV asrlarni Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida shartli ravishda «Renessans» (uyg'onish) davri deb atashadi. Ma'naviyat va ma'rifatning g'oyat gullab-yashnashi bu davr uchun xarakterli bo'lgan. Bu davrda qomusiy ilm egalari, ajoyib shoirlar, buyuk davlat arboblari etishib chiqqan. Dunyoviy fanlarning tez sur'atlarda taraqqiy etishi keng tarjimonlik faoliyatiga ta'sir etdi. Bu jarayon, ayniqsa halifa Ma'mun davrida (813-133 yy.) Bag'dodda «Bayt-ul-hikma» (Donolar uyi) tashkil etilgan paytda tezlashdi. Yunon falsafasi va tabobati, hind hisobi, al-ximiya va ilmu nujumga oid asarlar arab tiliga o'girildi. Bunda Markaziy Osiyodan etishib chiqqan mutafakkirlar al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, al-Farobiy, Ibn Sino, al-Beruniy kabi mutafakkirlar ham katta rol o'ynadilar.

O'rta Osiyoda tabiiy-ilmiy tafakkuri rivojining boshlanishi buyuk allomalar al-Farg'oniy va al-Xorazmiylar nomi bilan bog'liqdir. Ularning har ikkovi ham Bag'doddagi "Bayt-ul-hikma"ning etakchi ilm sohiblaridan sanalgan. 1998 yilda alFarg'oniy tavalludining 1200 yilligi yurtimizda keng nishonlandi. Uning vafoti 861 yildir. U mashhur falakkiyotshunos olim. Uning asosiy asarlari "Astronomiya va astralyabiyaga kirish", "Falakdan bo'ladigan sabablar", "Astralyabiya fani usullari", "Osmon harakatlari va yulduzlar ilmi" va boshqalardir. Farg'oniyning "Astronomiya asoslari" kitobi o'sha davrdagi astronomiya sohasidagi bilimlarning qomusi bo'lgan. Unda qadimgi falakkiyotshunoslik bilimlari, uning qoidalari, usullari bayon qilingan. Asar XII asrdayoq lotin tiliga tarjima etilib, ko'p asrlar davomida Evropada astronomiya bo'yicha qo'llanma, darslik sifatida xizmat qilib kelgan. U Evropada alFraganus nomi bilan mashhur bo'lgan.

Al-Xorazmiy (780-850 yy.) Sharqning buyuk mutafakkiri, qomusiy olimdir. Uning ilmu-nujum, geodeziya, geografiya va ayniqsa riyoziyot sohasidagi xizmatlari beqiyosdir. U arab, hind, lotin, yunon, fors tillarini bilgan. Xorazmiy bir qancha kitob va risolalarning muallifidir. Bulardan eng mashhuri "Kitob al-jabr va al-muqobala" asaridir. Bu asar riyoziyotda yangi mustaqil fan - algebraning vujudga kelishiga zamin bo'ldi. U tenglamalarni echishning ikki usulini - al-jabr, ya'ni qarama-qarshi ishoralarni yagona musbat ishoraga keltirish va al-muqobala, ya'ni bir hil hadlarni qarama-qarshi qo'yishni kashf qildi.

Sharq falsafiy, ijtimoiy, axloqiy fikri rivojini Abu Nasr Farobiysiz (873-950) tasavvur etish qiyin. U "Sharq Aristoteli", "Ikkinchi muallim" degan unvonga sazovor bo'lgan mutafakkirdir. Sharqda qadim Yunonistonning eng mashhur faylasufi Aristotel "Birinchil muallim" deb yuritilgan. Farobiy ko'p tillarni bilgan qomusiy olimdir. U yaratgan asarlarning umumiy soni 160 ta bo'lib, uni ikki guruhga ajratish mumkin: 1) qadimgi Yunon faylasuflari va tabiatshunoslarini - Aristotel, Platon, Evklid, Galen va boshqalarning ilmiy merosini tarjima qilish, sharhlash, targ'ib qilish va o'rganishga bag'ishlangan asarlar; 2) o'rta asr fanining tabiiy, ijtimoiy-falsafiy sohalariga oid risolalar. Masalan, "Aristotelning "Metafizika" asariga izoh", "Aristotelning "Osmon sistemasi" kitobiga izoh", "Aristotelning "Etika" kitobiga sharh",

"Substansiya haqida so'z", "Masalalar manbai", "Qonunlar haqida kitob", "Bo'shlik haqida kitob", "Musiqqa haqida so'z", "Fozil odamlar shahri" va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Farobiyning fikricha insonning va jamoatning g'alabaga erishuvi, yaxshilikni qo'lga kiritishi, axloqiy va aqliy mukammallikka ko'tarilishi inson va jamoaning o'z qo'lidir. U davlatni fozil va johil davlatlarga bo'ladi. Fazilatli shaharlarda ilm-fan, falsafa, axloq-ma'rifat birinchi o'rinda bo'lmog'i lozim deb biladi. Shunda jamiyat etuklikka erishadi. Fozil shahar boshlig'i bilimli, haqiqatni sevuvchi, yolg'on va yolg'onchilarga nafrat bilan qarashi, adolatni yaxshi ko'ruvchi va adolat uchun kurashuvchi bo'lishi kerak deb aytadi. Farobiy insonni kamoloti uchun xizmat qilgan, hayr-ehsonli ishlar, go'zal insoniy fazilatlarini yaxshilik deb hisoblaydi. Insonning kamolotiga to'sqinlik qiluvchi dangasalik, bekorchilik kabi yomon odatlar, bilimsizlik, ongsizlik, kasb-hunarga ega bo'lmaslik kabi nuqsonlarni yomonlik deb, kishilarni undan ogohlantiradi.

Allomalarimizning ta'lim-tarbiya va mehnat borasida qilgan ishlari haqida batafsil to'xtaladigan bo'lsak, Ibn Sino yoshligida zo'r mehnat, izlanish, g'ayrat bilan ilmlarni o'rganishga kirishgan. U bu haqida shunday yozadi: "Uyquga ketgan vaqtimda ham o'ngimdagi masalalarni ko'rardim. Shu holatda ko'p masalalar tushumda menga ayon bo'lardi... shu zaylda hamma ilmlarni, mustahkam egallay oldim. Insonning imkoniyat darajasida egallaydigan darajada bilimni egallab oldim. Aristotelning "Metafizika" sini "qirq bir marta qayta o'qidim". U menga hatto yod bo'lib ham qoldi. Lekin shunday bo'lishiga qaramay, men uni va uning maqsadlarini tushuna olmasdim", - deb yozadi u tarjimai holida. Ibn Sino bu muammoni Farobiyning Aristotel "Metazifika" siga yozgan sharhini o'qib hal qiladi.

IX-XII asrlar ma'naviyati va ma'rifati rivojida XI asrning ko'zga ko'ringan shoiri Yusuf Xos Hojib ham katta o'rin tutadi. Yusuf Xos Hojib o'zining yagona dostoni bo'lmish "Qutadg'u bilig" bilan mashhurdir. Bu asar 1069 yilda yozilgan bo'lib, uni shoir Qashg'ar hokimi Sulaymon Asrlon qoraxonga bag'ishlagan. Shu asari uchun unga Xos Hojib, ya'ni buyuk xonning maxsus maslahatchisi unvoni berilgan. Doston qahramonlari - hokim Kuntug'di adolat ramzi, vazir Oyto'ldi baxt ramzi sifatida, vazirning o'g'li O'gdulmish aql ramzi sifatida tasvirlanadi. Mutafakkir inson faqat jamiyatda, boshqa kishilar bilan muloqotda va foydali mehnatda chinakam kamolotga etadi, degan g'oyani ilgari suradi. Insonga foyda keltirmaydigan inson - o'likdir, deb ta'kidlaydi. Jamiyatda mehnat ahli - dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlar hal qiluvchi rol o'ynaydi, deb uqtiradi. Shuning uchun, Yusuf Xos Hojib hokimga adolatli bo'lish, o'zboshimchalik va qonunsizlikka yo'l qo'ymaslikni maslahat beradi. Yusuf Xos Hojib ilm va ma'rifatni jamiyatning taraqqiyotiga, gullab-yashnashiga olib keluvchi kuch deb bilib, ularni egallashgan da'vat etadi. U kishini zulmat ichidagi uyga, bilimni esa ana shu uyni nurafshon etuvchi mash'alga o'xshatadi. Shoir kishilarni so'zlaganda o'ylab gapirishga chaqiradi. So'zingga ehtiyot bo'l, boshing ketmasin, tilingga ehtiyoj bo'l, tishing sinmasin. Ma'nodor so'z donolik alomati, bema'ni so'z mahmadanagarchilik axmoqlik alomatidir. Shu bois odam ko'proq quloq solib, kam gapirishi kerak deb aytadi. Yusuf Xos Hojib shuningdek, insonning tashqi qiyofasi uning ichki ma'naviy dunyosiga mos bo'lishiga katta ahamiyat beradi. Mutafakkir yolg'onchi, munofiq kishilar jamiyat uchun zararli, bunday kishilardan uzoq bo'lish kerak deydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 25-dekabr kuni yoshlar forumida ishtirok etdi. Prezidentimiz o'z nutqida yoshlarimizni ulug' allomalarimizdan namuna olgan holda bilim olishga undadi: "Buyuk ajdodimiz Muhammad Xorazmiyning bir hikmati bor: "So'z - gul, ish - meva". O'ylaymanki, bugun belgilab oladigan rejalarimiz qanchalik pishiq-puxta bo'lsa, ishingiz ham shunchalik yaxshi samara beradi, - dedi Shavkat Mirziyoyev. - Sizlar ko'p kitob o'qigan, bilimli avlod sifatida yurtimiz o'tmishda jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini yaxshi bilasiz. Siz Xorazmiylar, Farg'oniyalar, Beruniy va Ibn Sino, Ulug'bek, Navoiy va Boburlar, Buxoriylar, Termiziylar avlodisiz. Ana shunday buyuk vatandoshlarimiz yaratgan bebaho bilim va kashfiyotlar bugun ham butun insoniyatga xizmat qilmoqda"[3]. Prezidentimiz o'z so'zida davom etar ekan, bu o'rinda qomusiy olim Muhammad Xorazmiy asos solgan ilm - "algoritm"ni eslashning o'zi kifoyaligini ta'kidladi. Ushbu ulug', zotning beqiyos xizmatlarini insoniyat hamon minnatdorlik bilan eslamog'da. Uning olamshumul kashfiyotlari bugungi

axborot texnologiyalarini yaratishda ham asos bo'lgan. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'rta Osiyolik buyuk allomalarimizning ilm-fan va ta'limda shunday natijalarga erishgani hozirgi kun yoshlarining xotirasida abadiy saqlangan va o'zining o'chmas izi qodirgan.

Yuqoridagi keltirilganlardan xulosa qiladigan bo'lsak buyuk allomalarimizning bizlarga qoldirgan ilmiy me'rosi ham buyukdir. Ushbu ilmiy me'rosdan hozirgi zamon bilan uyg'unlashtirilgan holda foydalanish har bir bilim oluvchi uchun muhimdir. Allomaning uqtirishicha, bolaning bilim olishga bo'lgan qiziqishi, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o'rinni egallaydi. Oilada ota -onalar, ayniqsa, o'qimishli ota - onalar o'z farzandlarining haqiqiy inson bo'lib kamol topishiga alohida e'tibor berishlari lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.: Sharq. 1998-yil
2. N.A.Jumayeva. O'rta Osiyo allomalarining ilmiy me'rosi. Uslubiy qo'llanma. Buxoro, "Durdona" nashriyoti. 2013.
3. [review.uz/uz/712](http://review.uz/uz/712) Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston yoshlari forumida yoshlar uchun muhim bir yangilikni yetkazdi.
4. Rasulov, A. R. (2021). O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari faoliyati, o'zgarish va muammolar. Academic Research in Educational Sciences, 2(2), 257-264.

## KIMYO FANINI O‘QITISHDA STEAM DASTURINING MOHIYATI

*Bulitova Shaxnoza Axadjonovna*  
*Toshkent viloyati Olmazor tumani*  
*15 - maktabning kimyo fani o‘qituvchisi.*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada tabiiy fanlarning o‘qitishda STEAM dasturi haqida yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** STEAM dasturi, zamonaviy islohotlar, axloqiy fazilat, ta’lim.

O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlardan asosiy maqsad, yurtimizda sog‘lom va barkamol, bilimli, yuksak ma’naviy – axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan avlodni shakllantirishdan iborat. Aynan ana shu maqsadga erishish uchun muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev rahnamoligida yangi davrda yashaydigan, yangicha fikrlaydigan, yangi ishlab chiqarish, ijtimoiy sharoitlarda faoliyat ko‘rsatadigan, zamonaviy kasbiy mahoratga ega bo‘lgan mutahassis kadrlar tayyorlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Shu jumladan tabiiy fanlarga bo‘lgan e’tiborni ko‘redigan bo‘lsak, Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev tashabbuslari bilan yangi ochilgan Prezident maktablaridir. Bu maktablar aniq va tabiiy fanlarga ixtisoslashgan maktablar bo‘lib, bu yerda o‘quvchilar bu fanlarning chuqur o‘zlashtirishadi. Bundan tashqari Prezidentimiz tomonida yangi 2020 – yilda tabiiy fanlar jumlasidan aynan kimyo biologiya fanlariga katta e’tibor qaratilishi kerakligini alohida ta’kidlab o‘tdilar. Bundan maqsad, o‘quvchi qancha tabiiy aniqrog‘i kimyo fanining yaxshi o‘zlashtirsa, ishlab chiqarish sohasiga juda ulkan xissalarini qo‘shish imkoniyati shunchalik ko‘p bo‘ladi.

STEAM ta’lim tizimi nima?

Agar ushbu qisqartmani yoysak, quyidagilarni olamiz:



**STEAM bu — S – science, T – technology, E – engineering, A – art va M – math.** Ingliz tilida bu shunday bo‘ladi: **tabiiy**

**fanlar, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika.**

Ushbu yo‘nalishlar zamonaviy dunyoda eng mashhur bo‘lib kelayotganini unutmang. Shuning uchun bugungi kunda STEAM tizimi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda. STEAM ta’limi yo‘nalishi va amaliy yondashuvni qo‘llash, shuningdek, barcha beshta sohani yagona ta’lim tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan.

### **STEAM yondashuvi o‘quv samaradorligiga qanday ta’sir qiladi?**

Uning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, amaliyot nazariy bilimlar singari muhimdir. Ya’ni, o‘rganish paytida biz nafaqat miyamiz bilan, balki qo‘limiz bilan ham ishlashimiz kerak. Faqat sinf devorlarida o‘rganish tez o‘zgaruvchan dunyo bilan hamqadam emas. STEAM yondashuvining asosiy farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o‘rganish uchun ham miyani, ham qo‘llarini ishlatadilar. Ular olgan bilimlarni o‘zlari “uqib oladilar”.

### **STEAM ta’limi nafaqat o‘qitish usuli, balki fikrlash tarzidir.**

STEAM ta’lim muhitida bolalar bilimga ega bo‘ladilar va darhol undan foydalanishni o‘rganadilar. Shuning uchun, ular o‘sib ulg‘ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrof muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o‘zgarishi bo‘ladimi, bunday murakkab masalalarni faqat turli sohalardagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Bu erda faqat bitta mavzu bo‘yicha bilimga tayanish etarli emas.

### **STEAM yondashuvi bizning ta’lim va ta’limga bo‘lgan qarashimizni o‘zgartirmoqda.**

Amaliy qobiliyatga e’tibor berib, talabalar o‘zlarining irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o‘rganadi. Ushbu ko‘nikmalar va bilimlar asosiy ta’lim vazifasini tashkil etadi, ya’ni. bu butun ta’lim tizimi nimaga intilishini.



### Ta'limga ushbu yangi yondashuv qanday paydo bo'ldi?

Bu nazariya va amaliyotni birlashtirishning mantiqiy natijasidir. STEAM Amerikada ishlab chiqilgan. Ba'zi maktablar bitiruvchilarning martabalarini e'tiborga olishdi va fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishdi va STEM tizimi shu tarzda shakllandi. (Fan, texnika, muhandislik va matematika). Keyinchalik bu erda Art qo'shildi va endi STEAM oxirigacha shakllandi. O'qituvchilar ushbu mavzular, aniqrog'i ushbu fanlardan bilimlar kelajakda talabalarning yuqori malakali mutaxassis bo'lib etishishiga yordam beradi, deb hisoblashadi. Oxir oqibat, bolalar yaxshi bilim olishga intilishadi va uni darhol amalda qo'llashadi.



### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayfurov D. Malaka oshirish tizimida masofaviy ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari" Kasb-hunar ta'limi j. – T.: 2002. №5- 6. – 28-29-b.
2. Sayfurov D. Masofadan o'qitish tizimining shakllanishi va rivojlanishi // Kasb-hunar ta'limi j. – T.: 2004. - №6. – 16-20-b.



## TA'LIM JARAYONIDA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARI VA VIRTUAL LABORATORIYALARNING AHAMIYATI

*Choriyev Behruz Shuxrat o'g'li*  
*O'zbekiston Milliy universiteti.*

*Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalari, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak.*

**Sh.M.Mirziyoev**

Bugungi kunda ta'lim muassasalarida informatika, matematika, fizika, biologiya, kimyo va boshqa fanlarni o'qitish vositasi sifatida innovatsion texnologiyalardan foydalaniladi. Ta'lim muassasalarida fanlarga tegishli laboratoriya xonalarining moddiy-texnik bazalari yo'q yoki eksirgan, foydalanishga yaroqsiz hollarda fanni o'qitishda multimedia texnologiyalaridan yoki virtual laboratoriyadan foydalanish bilim oluvchilarni ushbu fanga qiziqishini orttiradi va yaxshi tushunishiga, fikrlashiga, o'zlashtirishiga imkon beradi.

Umuman olganda, ta'lim tizimi multimedia mahsulotlari samaradorligi yaqqol ko'rinuvchi sohalardan biridir. Talabalar didaktik materiallarni tinglash va ko'rish barobarida, taqdimotni boshqarishda ham faol ishtirok etadilar. O'zlari uchun tushunarsiz yoki qiziqarli bo'lgan bo'limlarga qaytish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Multimedia vositalari, virtual laboratoriyalar yordamida o'qitish ta'lim jarayonini ancha yengillashtiradi. Masalan, fizika, kimyo, biologiya fanini o'qitishda turli jismlarni, moddalarni, turlarni o'zaro ta'sirini kompyuter animatsiyasidan foydalanilgan holda ko'rsatilsa tushinish oson va qiziqarli kechadi. Jarayonni sun'iy tasvirlash, bu orqali obrazni yaxlit idrok etish ta'minlanadi [1-2].

Multimedia vositalari, mahsulotlari, hamda virtual laboratoriyalarning yana bir afzalligi shundaki, ulardan foydalanish ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini yaxshilabgina qolmay, xavfsiz, atrof muhitning tozaligiga va moliyaviy resurslarini tejashga olib keladi. Shuningdek, bilim oluvchilar bilan ijtimoiy va aniq fanlar doirasida turli fanlarni qiziqarli interaktiv darslar shaklida olib borish, laboratoriya ishlarini amalga oshirish imkonini beradi.

Multimedaning ta'limdagi ahamiyati, uni tizimda qo'llashning dolzarbligi va samaradorligi xorijiy olimlar tomonidan izchil tahlil qilingan. Amerikalik olimlar D.M.Villovs va X.A.Xauton ta'limni tashkil etishning umumiy masalalarini o'rganib chiqib, multimedaning alohida fanlar doirasida qo'llanish istiqbollari belgilab berishgan bo'lsa, tadqiqotchilar M.Boys, S.Braun, R.Maer, L.Riberlar esa multimedaning aynan oliy ta'lim tizimidagi o'rnini tadqiq qilishgan. Xulosa sifatida esa topshiriqlarni bajarish, mustahkamlashda multimedadan maqsadli foydalanish yuqori ko'rsatkichlarga olib kelishini qayd etishgan.

Mutaxassislarning aniqlashlaricha, eshitilgan ma'lumotning chorak qismi xotirada saqlanadi. Agarda ma'lumot faqat tasviriy tarzda yetkazilsa (ya'ni ko'rish orqali qabul qilinsa), u holda uning xotirada saqlanish darajasi uchdan bir qismga yetadi. Mazkur ikki omil birlashtirilgan tarzda, ya'ni ma'lumot bir paytning o'zida eshinish va ko'rish orqali qabul qilinsa ma'lumotning o'zlashtirilish darajasi 50% ni tashkil etadi. Ushbu jarayonga ma'lumotni o'zlashtiruvchi (o'quvchi, talaba) ni ham bevosita jalb etish (masalan, multimedia ilovalari shaklidagi interaktiv o'qitish dasturlaridagi bevosita ishtiroki) esa ma'lumotning xotirada saqlanishi yoki o'zlashtirilishini 75% ga yetkazadi [3-4].

Yuqorida ta'kidlanganidek, multimedia texnologiyalari o'zlashtirish darajasini 2-3 barobar orttiradi. Multimedaning ta'limda qo'llanishi umumiy va mustaqil ta'lim samaradorligini oshirishi bilan birga, mutaxassisning professional rivojlanishiga ham ko'mak beradi. Ayniqsa masofaviy ta'limda uning o'rni katta.

Xulosa qilib aytganda, multimedia vositalari, mahsulotlari, virtual laboratoriyalardan o'quv jarayonida foydalanish fanga talabalarni qiziqtirish va ularning professional bilimni chuqurlashtirish, shuningdek, mutaxassis kadr bo'lishida zarur amaliy tayyorgarlik darajasini oshirish imkonini beradi. O'quv jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanish ish hajmining kamayishida, talabalar amaliy mashg'ulotlarda axborot texnologiyalarini chuqur o'rganishida, o'qituvchining fanni o'qitish metodikasini boyitishda foydali va samaralidir. Shuningdek, o'quv topshiriqlari doirasini sezilarli darajada kengaytirish va bitiruvchilarni tayyorlash, xususan, axborot texnologiyalari sohasida mutaxassislarni sifatini oshirish imkonini beradi.

Bugungi kunda mavjud multimedia kurslari va ta'limiy dasturiy mahsulotlar dars mashg'ulotlarini yangi usulda shakllantirishga sharoit yaratadi. Bu esa ta'limning istiqboli, o'zlashtirishning yuqori darajasi, yangi avlod darsliklari va nazariyaning amaliyot bilan uyg'unlashuvini ta'minlaydi.

O'quv jarayonini mazmun va sifat jihatdan sezilarli darajada yaxshilashning mumkin bo'lgan usullaridan biri bu zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Андресен, Бент. Б. Мультимедиа в образовании: специализированный учеб. курс: [пер. с англ.] / Бент. Б. Андерсен, Катя Ван Ден Бринк. - 2 - е изд. ; испр. и доп. - М.: Дрофа, 2007. - 221 с.
2. Соловов, А.В. Виртуальные учебные лаборатории в инженерном образовании / А.В. Соловов // Сборник статей «Индустрия образования». Выпуск 2. – М.: МГИУ, 2002. С.386-392.
3. Захарова И.Г. Информационные технологии в образовании: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2003.
4. Cotto Bob, Richard Oliver. Understanding Hypermedia: From Multimedia to Virtual Reality. – London: Phaidon Press, 1993.

## EXINATSEYA O‘SIMLIGINI YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI VA DORIVORLIK XUSUSIYATLARI

*Choriyev Jahongir Olimjon o‘g‘li  
Toshpo‘latova Hilola Toshboltayevna  
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalari.*

**Anotatsiya:** AQSh sharqiy qismi o‘simligi. O‘zbekistonda manzarali va dorivor o‘simlik sifatida yetishtiriladi. O‘rmon va adirlarning quruq va ochiq joylarida o‘sadi. Exinaseya ko‘p yillik o‘simlik, bo‘yi 1 m. To‘pgullari 0,5 m diametrni egallaydi. Iqlimga bog‘liq ravishda may oyi oxiridan yoki iyul boshidan gullaydi. O‘simlik hashoratlar (kapalak, ari) yordamida changlanadi.

**Kalit so‘zlar:** Exinatseya, iqlim, nav, kultivatsiya, antiseptik, preparatlar.

**Kirish.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-noyabrdagi PQ-4901-son qaroriga 1-ilova. Respublikaning hududlarida tabiiy holda o‘sovchi dorivor va oziq-ovqatbop, texnik o‘simliklarning zaxiralaridan oqilona foydalanishda, ularning areallarini va tabiiy zaxiralarini o‘rganishda, o‘simlik dunyosi obyektlari biologiyasi va anatomiyasini o‘rganishda, yovvoyi holda o‘sovchi dorivor o‘simliklar nav-namunalarini yig‘ish va ulardan dorivor moddalari eng ko‘p to‘planadigan navlarini ko‘paytirish, ishlab chiqarishga joriy etishda uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatish. Bir turdagi dorivor o‘simliklarning turli tuproq-iqlim sharoitida yetishtirilgan o‘simlik xomashyolarini tovarshunoslik tahlil qilishda va fitokimyoviy taqqoslashda hamda ularning sifatiga baho berishda, O‘zbekiston sharoitida introduksiya qilingan dorivor o‘simliklar xomashyosining xalqaro standartlar talabiga mos kelishini o‘rganishda, ularga amaldagi qonun hujjatlariga muvofiqlashtirilgan holda milliy standartlarni joriy etishda ko‘mak berish.

O‘simlik immun tizimini umumiy barqarorlashtirish xususiyatiga ega. O‘simlikdan Germaniyada 200 dar ortiq preparatlar tayyorlanadi. O‘simlikning ildizi va yer ustki qismidan yaralarni, kuyishni davolashda ishlatiladi. Exinaseya moddalar almashinuvini barqarorlashtiruvchi, antiseptik, o‘t haydovchi, ovqat hazm bo‘lishi va so‘lak ajralishini yaxshilovchi xususiyatga ega.

O‘zbekistonda tayyorlashga tavsiya etildi.

**O‘simlikning morfologik belgilari:** Ko‘p yillik gulli o‘simlik Echinacea (Echinacea) - Asteraceae yoki Asteraceae oilasiga tegishli. Bu turga taxminan 9 tur kiradi. Bu o‘simlikning vatani Shimoliy Amerikaning sharqiy qismidir. Yunon tilidan "echinacea" nomi "kirpi yoki kirpi kabi tikanli" deb tarjima qilingan. Eng mashhur tur echinacea purpurea yoki rudbeckia purpurea



bo‘lib, bunday o‘simlik muqobil va rasmiy tibbiyotda, shuningdek, manzarali bog‘dorchilikda juda keng qo‘llaniladi. K. Linnaeus 1753 yilda birinchi marta bunday o‘simlikni tasvirlab bergan, shu bilan birga u Rudbeckya jinsiga tegishli. Biroq, qirq yil o‘tgach, Echinacea alohida turga ajratildi, chunki bu o‘simliklar o‘rtasida sezilarli farqlar topildi.

**Geografik tarqalishi.** AQSh sharqiy qismi o‘simligi. O‘zbekistonda manzarali va dorivor o‘simlik sifatida yetishtiriladi. O‘rmon va adirlarning quruq va ochiq joylarida o‘sadi.

**Dorivorlik xususiyatlari.** O‘simlik immun tizimini umumiy barqarorlashtirish xususiyatiga ega. O‘simlikdan Germaniyada 200 dar ortiq preparatlar tayyorlanadi. O‘simlikning ildizi va yer ustki qismidan yaralarni, kuyishni davolashda ishlatiladi. Exinaseya moddalar almashinuvini barqarorlashtiruvchi, antiseptik, o‘t haydovchi, ovqat xazm bo‘lishi va so‘lak ajralishini yaxshilovchi xususiyatga ega.

**Yetishtirish texnologiyalari.** Exinaseya odatda urug‘lari orqali ko‘paytiriladi. Exinaseya o‘simligining plantatsiyalarini tashkil etish uchun mart oyida maxsus pollarga urug‘lar sepiladi. Gektar hisobiga yetadigan ko‘chat tayyorlab olish uchun pollarga 3-4 kg urug‘ sepiladi. Pollarda maxsus tayyorlangan tuproq (1-1-3=qum-go‘ng-tuproq) bo‘lishi kerak. Ekilgan urug‘lar ustidan elakdan o‘tkazilgan chirindiga boy tuproq 2-3 sm qalinlikda sepiladi. Urug‘lar sepilgandan so‘ng 25-30 kunda unib chiqadi. Mavsum davomida 8-9 marta sug‘orilib, doimiy ravishda begona o‘tlardan tozalanadi. Yil davomida o‘simlikning bo‘yi 15-20 sm.gacha yetadi va katta maydonga ko‘chirib o‘tqazish uchun tayyor holga keladi. O‘simlik katta maydonga ekish uchun quyosh nuri yaxshi tushadigan maydon tanlanishi kerak. O‘simlik nihollarini ekish uchun tanlangan maydon sentabr oyida haydashdan oldin 50 tonna go‘ng, 100 kg fosfor gektariga solinadi. Maydon 25-30 sm chuqurlikda haydaladi, molalanadi. Ko‘chatlar qator oralig‘i 70 sm, tup oralig‘i 25 sm masofada ekiladi. Mavsum davomida 8-10 marta sug‘oriladi, 2 marta kultivatsiya qilinib, begona o‘tlardan tozalanadi.

#### **Foydali xususiyatlari.**

Bu o‘simlikdan tayyorlangan vositalar antimikrobiyal, antifungal, antiviral va yaralarni davolash ta‘siri bilan ajralib turadi, ular immunitet tizimini mustahkamlash uchun, shuningdek, aqliy yoki jismoniy ortiqcha ish uchun ishlatiladi

-Organizm immun sistemasini barqaror holatda saqlash;

-Yaralarni davolash;

-Kuygan terini yaxshilash;

-Moddalar almashinuvini barqarorlashtirish;

-Antiseptik;

-O‘t haydovchi

-Ovqat hazm bo‘lishini yaxshilaydi va so‘lak ajralishini me‘yorlashtiradi va boshqa hususiyatlarga ega

#### **Qo‘llash mumkin bo‘lmagan holatlar.**

- Bu o‘simlikdan olingan vositalar ba‘zida allergik reaksiyaga sabab bo‘ladi.

-Ular homilador ayollar, shuningdek, emizikli ayollarga;

- Ko‘p skleroz, progressiv sil, leykemiya, kollagenoz bilan og‘rigan odamlar tomonidan foydalanilmasligi kerak. Umuman olganda, bunday dorilarni qo‘llashdan oldin, mutaxassis bilan maslahatlashish tavsiya etiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Lama Y.C., Ghimire S.K. and Thomas Y. Medicinal plants of Nepal: Amchic and Conservation. WWF Nepal Program, Kathmandu 2001.

2.Gerard Bodeker, K.K.S. Bhat, Jeffrey Burley, Paul Vantomme. Medicinal plants for forest conservation and health care. Rome, 1997

3.O‘. Ahmedov, A. Ergashev, A. Abzalov, M. Yulchieva. O‘quv darslik. // Dorivor o‘simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiya. Toshkent – 2009, -216 b.

4.Murdaxaev Yu.M Sug‘oriladigan yerlarda dorivor o‘simliklarni introduksiyasi. // doktorlik ilmiy darjasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent. Fan. 1996. 67b.

5.To‘xtaev B.Yo. Sho‘r yerlarda dorivor o‘simliklarning introduksiyasi // doktorlik ilmiy darjasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent. Fan. 1996. 58 b.



**BO‘LAJAK INFORMATIKA O‘QITUVCHILARIGA SUN‘IY INTELLEKT  
ASOSLARINI O‘RGATISHDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH  
TEXNOLOGIYASINI QO‘LLASH**

***Choriyev Xamid Azamovich***

*Termiz davlat universitetining tayanch doktoranti (PhD)*

+998975320684

***Panjiyeva Nazokat Normaxmatovna***

*Termiz davlat universitetining maqsadli tayanch doktoranti (PhD)*

Sun'iy intellekt hozirgi vaqtda bilimlarni taqdim etish, ekspert tizimlarini ishlab chiqish, mashinani ko'rish vositalaridan intellektual o'yinlar va robototexnika vositalarini ishlab chiqishgacha bo'lgan turli sohalarida tobora ko'proq foydalanilmoqda. Sun'iy intellekt zamonaviy informatikaning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biridir. Uning savollari umumta'lim maktabining o'quv jarayoniga faol joriy etilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 17-fevraldagi PQ-4996-son qarori 5-ilovasida 2021/2022 o'quv yilidan boshlab grant asosida "Sun'iy intellekt" yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlash bosqichma-bosqich boshlanadigan oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar ro'yxati tasdiqlandi va mana 1 yildirki mutaxassislar shu yo'nalishda ilm olib kelishmoqda. Shu bois universitetda bo'lajak informatika o'qituvchilarini tayyorlashda sun'iy intellekt masalalarini zamonaviy tendensiya va talablarni hisobga olgan holda o'rganish zarurati paydo bo'ldi.

Uning maqsadi talabalarda qo'llaniladigan asosiy yo'nalishlar va usullar haqida tahlil bosqichida ham, rivojlanish bosqichida ham tushunchalarni shakllantirishdan iborat intellektual tizimlarni joriy etish demakdir. Sun'iy intellekt fanini o'rganishda ko'rib chiqiladigan asosiy bo'limlar: sun'iy intellekt tushunchasi, bilimlarni ifodalash modellari, ekspert tizimlari, mantiqiy va funktsional dasturlash, neyron tarmoqlar. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu savollar informatika va informatika fanini o'qitish metodikasi bo'yicha davlat imtihonlariga kiritish taklifini bergan bo'lar edik. Talabalar bilimlarni ifodalash modellarini bir-biridan va bundan tashqari, ularni qo'llash sohalarida ajratadilar; ekspert tizimining tuzilishi va uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi aloqalar; neyron tarmoqlarning tuzilishi, modellari va foydalanish imkoniyatlari. Istisno - bu mantiqiy va funktsional dasturlash, bu eng tushunarli bo'limdir, chunki uni o'rganish yetarli miqdordagi amaliy va laboratoriya ishlarini ta'minlaydi. Shunday qilib, aksariyat hollarda "Sun'iy intellekt" yo'nalishini o'rganish nazariy materialni ko'proq ko'rib chiqishni va kamroq darajada uni pedagogika universitetida ham, ixtisoslashtirilgan maktabda ham amaliy qo'llashni o'z ichiga oladi. Shunday ekan, bo'lajak informatika o'qituvchilarini "Sun'iy intellekt" yo'nalishi bo'yicha yanada samarali tayyorlash uchun, bizningcha, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasini qo'llashga asoslangan metodik ta'lim tizimini ishlab chiqish zarur. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha ta'lim texnologiyasi quyidagi bosqichlar shaklida taqdim etiladi: qiyinchilik, mazmunni tushunish, mulohaza yuritish, shuningdek, bir qator metodik usullar. Tanqidiy fikrlash orqali mualliflar talaba va o'qituvchining tadqiqot madaniyatining yuqori darajasini, qiziquvchanlikning namoyon bo'lishini, muayyan masala bo'yicha o'z nuqtai nazarini rivojlantirishni, uni himoya qilish qobiliyatini belgilaydigan fazilatlar va ko'nikmalar yig'indisini tushunadilar. mantiqiy dalillar bilan, tadqiqot usullaridan foydalanish.

Sun'iy intellektning asosiy bo'limlarini (bilimlarni ifodalash modellari, ekspert tizimlari, neyron tarmoqlar va boshqalar) inson faoliyatining turli sohalarida amaliy qo'llanilishini nazarda tutish kerak. Sun'iy intellektning asosiy bo'limlarini (bilimlarni ifodalash modellari, ekspert tizimlari, neyron tarmoqlar va boshqalar) o'rganishda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasining metodik usullarini amaliy qo'llash asosida qurishni o'rganish, rejalashtirishga tayyorlik kabi fazilatlarini shakllantirish, fikrlashning moslashuvchanligi, aqliy zo'riqishdagi qat'iyatlilik, o'z xatolarini tuzatishga tayyorlik, xabardorlik (aqliy faoliyat jarayonida o'zini kuzatish qobiliyati), murosali yechimlarni izlash.




Tayyor o'qitilgan neyron tarmog'i misolida talabalar analitik usulda ishlashning asosiy bosqichlari bilan tanishadilar. Tushuntirish kichik hajmdagi kirish ma'lumotlari bilan aniq mavzu sohasida amalga oshiriladi, masalan, uchburchak turlarini uning uchlari koordinatalari bo'yicha aniqlash masalasi ko'rib chiqiladi. Bo'lajak informatika o'qituvchilari neyron tarmog'ini o'qitish ma'lumotlar bazasiga asoslanishini tushunishadi, u ettita ustunli jadval: uchburchakning uchlari koordinatalari (abscissa va ordinata) va uchburchakning tegishli turiga yuklanadi. "Neyron tarmoq" funksiyasi taqdim etiladi. Ushbu funktsiya tarmoq parametrlarini aniqlash, shuningdek, tizimda mavjud bo'lgan o'rganish algoritmlari yordamida uni o'qitishni amalga oshirish imkonini beruvchi oldindan belgilangan tuzilishga ega neyron tarmoqni qurishga qaratilgan. Natijada, talabalar keyinchalik bashorat qilish, qidirish, ma'lumotlarni siqish va boshqa ilovalar uchun ishlatiladigan neyron tarmoq emulyatorini oladi.

Shunday qilib, talabalar maydonlarni (kirish va chiqish maydonlarini) belgilashni o'rnatish bilan tanishadilar; maydon qiymatlarini normallashtirish bilan (chiziqli normalizatsiya, noyob qiymatlar, bit niqobi); o'quv namunasini o'rnatish bilan, neyron tarmog'ining tuzilishini o'rnatish bilan (yashirin qatlamlar va ulardagi neyronlar soni, shuningdek neyronlarning faollashuv funktsiyasi); neyron tarmog'ini o'rgatish bilan (xatolarni orqaga tarqalish usuli, elastik tarqalish usuli). Shuningdek, scatter diagrammasi yordamida o'quvchilardan o'qitilgan neyron tarmoqning "haqiqiyli", "haddan tashqari o'qitilganmi", yashirin qatlamlar va neyronlar to'g'ri tanlanganmi yoki yo'qligini baholash so'raladi (1-rasm).

Bunday dastlabki ishlardan so'ng talabalar neyron tarmoqni o'zlari o'qitishga va matematika, psixologiya, pedagogika, sotsiologiya va boshqalar kabi ma'lum bir sohada mutaxassis bo'lishga taklif qilinadi.

Amalga oshirilgan laboratoriya ishlarini tekshirgandan so'ng, nazariy tahlilga o'tish kerak. Muammoli ta'lim metodi va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasidan foydalanib, neyron tarmoq ta'rifi, uning tuzilishi va maqsadi haqida umumiy xulosa chiqaramiz. Bo'limni keyingi o'rganish neyron tarmoqlarni nazariy o'rganish yo'nalishida davom etmoqda. Talabalarda neyron va neyron tarmoq haqida allaqachon tasavvur mavjud bo'lib, ular o'qituvchi bilan birgalikda umumlashtiriladi. Keyinchalik Xopfil va Xemming neyron tarmoqlari, ularning blok diagrammasi va ishlash algoritmlari ko'rib chiqiladi. Ushbu masalani batafsilroq va chuqurroq tushunishni istagan talabalarga neyron tarmoq yordamida dastur kodini yaratish bo'yicha topshiriqlar taklif etiladi.



Rasm. 1. O'rgatilgan neyron tarmoqning tarqalish grafigi

Ushbu tizim asosida talabalar quyidagi laboratoriya ishlarini bajaradilar:

1. Yassi figuralarning maydonini aniqlash.

Ushbu ish asosida bilimlarni ifodalashning ishlab chiqarish modelini ishlab chiqish amalga oshiriladi; foydalanuvchi bilan o'zaro aloqa qilish usullari, kiritish, chiqarish va chizish funktsiyalari ko'rib chiqiladi. Muammoni hal qilish natijasida tizimni ma'lum bir raqam (kamida 4 ta raqam) tanlashni tan olishga, shuningdek uning maydoni va grafik ko'rinishini hisoblashga o'rgatish kerak.

2. Tekislik figuralarining kesishish maydonini aniqlash.

Ushbu laboratoriya ishi natijasida bo'lajak informatika o'qituvchilari geometrik modellashtirish misolida bilimlarni rasmiylashtirish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Ikki tekis figuraning kesishish maydonini hisoblash uchun turli xil usullar, shu jumladan Monte-Karlo usuli qo'llaniladi.

Xulosa qilsak, dastlab OTM larda bakalavr va magistratura yo'nalishida sun'iy intellekt yo'nalishida mutaxassisliklar tayyorlash boshlandi, bosqichma-bosqich maktab dasturlarida ham shu yo'nalish kiritib borilsa, XXI asrda soha mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj ta'minlanadi.

## ERKIN VOHIDOV PUBLISISTIKASIDA TILGA OID MASALALAR

*Choriyeva Yulduz Alisher qizi*  
*O‘zbekiston Milliy universiteti 2-bosqich talabasi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning o‘zbek tili va uning tevaragida kechgan muammolar xususida so‘z yuritgan publisistik maqolalari tahlil qilingan.

**Kalitso‘zlar:** til muammolari, davlat tili, o‘zbek tili, badiiylik mahorati,

Til har bir millat, xalqning oynasidir. Oyna hamma narsani akslantirganidek til ham xalqning turmush tarzi boyligi, qanday nuqson va kamchiliklari borligini namoyon etadi. Til millat ruhi va qalbini ifodalovchi vosita hamdir. Millat taraqqiy etsa, til ham boyiydi, rivojlanadi. O‘zbek tili bugungi o‘z taraqqiyiga mustaqillik tufayli erishdi. 1989-yil 21-oktabrda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgani e‘lon qilindi va bu chin ma‘noda ilm va ijod ahlining bayrami edi. Biz o‘zbek tili haqida uning o‘tmishi, buguni, kelajagi haqida qayg‘urmas ekanmiz, uni bayram sifatida nishonlashni oddiy yuzakilik sifatida deb bilaman. Chunki tilni sevish u haqida balandparvoz gaplar aytish bilangina o‘lchanmaydi.

Gapirsa gap, o‘rtaga qo‘ysa masala ko‘p. Ona tilimizni uni sevish, u bilan faxrlanish, ta‘riflar berishning o‘zi kam ekan. Til ustida mehnat qilish, uni boyitish, yanada go‘zal va qudratli qilish olim va ijodkorlarning, men o‘zbekman degan har bir yurt farzandining burchi ekan<sup>49</sup>.

Tilini sevgan xalq uni o‘rganishi, tarixini bilishi, kelajagi haqida qayg‘urishi kerak. Millat ehtiyojini chuqur anglab yetgan, o‘zining yuragidagi til masalalariga oid javobsiz savollariga ayni shu maqolalari orqali javob qaytarmoqchi bo‘lgan. Til muammolari va so‘z qo‘llashdagi xatolarimiz haqida Erkin Vohidov o‘zining bir nechta “O‘zbekcha salomga o‘zbekcha alik bo‘lsin”, “Ruhimiz ehtiyoji”, “Ona tilim”, “Bahsga chorlov”, “E, o‘zimiz ekanku”, “Nelar topdik, nelar yo‘qotdik”, “Ulg‘aygan so‘zlar”, “Tilning joni bor” kabi o‘nlab maqolalarida o‘z fikrlarini asosli yoritadi. Shoir Erkin Vohidov publisistikasida til masalalari o‘z o‘rniga ega. Maqolalarda shoir o‘z fikrlari, qarashlari bilan o‘zbek tilining haqiqiy fidokori, jon kuyari bo‘lganligi ko‘rinadi. Shoir “Ruhimiz

ehtiyoji”<sup>50</sup> nomli maqolasida: “Davlat tili amaldagi rasmiy til bo‘lishi kerak. Qonunda bor hayotda yo‘q bo‘lgan davlat tili hech kimga kerak emas.” – deydi.

Ayni o‘sha davrlarda til to‘g‘risidagi muammolarni Erkin Vohidov haqli ravishda, o‘zbekning fidoyi farzandi bo‘lib tahlil qilaoldi. Ya‘ni bu davrda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilsada, uning ba‘zi bandlari, jumladan, “Rahbar va xodim o‘rtasidagi munosabatlarda muloqot tilini tobe xodim tanlashi, rahbar muomala va axborot tili sifatida o‘zbek tilini yoki rus tilini qo‘llashi mumkin”,<sup>51</sup> deyilgan qismga shoir tanqidiy ko‘z bilan qaraydi. Chunki bu o‘zbek tiliga nisbatan nohaqlik edi. Bu hodisani Erkin Vohidov achchiq yumorga yo‘yib: “Nasriddin Afandi idorasida ham bunday qonunni yaratish xayolga kelmagan”,- deydi.

Tilimiz to‘g‘risida yurtimizda ana shunday nohaqliklar, mensimasliklar bo‘lib turgan bir vaqtda ham achinarli ham quvonarli hodisa haqida Erkin Vohidov to‘xtalib o‘tadi. “O‘zimiz yetarlicha darajada qadrlamagan o‘zbek tili sho‘ro zamonida ham Amerika, Yaponiya, Yevropa malakatlarida o‘rganilar edi. Ilza Sirtautas, Eduard Olvort, Andrash Bodrogligeti (AQSh),

<sup>49</sup>Erkin Vohidov. So‘zlatofati. “O‘zbekiston”. Toshkent. 2018

<sup>50</sup>Erkin Vohidov. So‘zlatofati. “O‘zbekiston”. Toshkent. 2018

<sup>51</sup>Erkin Vohidov. So‘zlatofati. “O‘zbekiston”. Toshkent. 2018

Ingeborg Boldauf, Zigred Klaynmifel (GFR), Kisao Komatsu (Yaponiya) kabi atoqli professorlar tomonidan ona tilimiz tahlil qilingan va o'qitilgan.<sup>52</sup>

Biz ulardan minnatdor bo'lishimiz kerak. Chunki ular o'zbek tilini o'rganish barobarida uni targ'ib qilgan va uni tanita olgan.

Hamma zamonda tilni tanituvchilar bu o'sha xalqning yozuvchi va shoirlari hamdir. So'zdan qay o'rinda foydalanish orqali shoir va yozuvchilar o'zining badiiylik mahoratini, o'z tilini qay mukammallik darajasida bilishini ko'rsatadi.

Erkin Vohidov go'zal so'zlarni qo'llab, go'zal tashbeh qilolgan. "Agar tilni xazina desak, u ko'mib qo'yilgan, sandiqqa saqlanadigan xazina emas, balki ipak qurti kabi tirik xazina ekan." "... yuz ming so'zlik lug'atlar menga gugurt qutisiga jo bo'lgan sonsiz pilla urug'ini eslatadi."<sup>53</sup> - deydi shoir til haqidagi fikrlarini davom ettirib. Nega endi so'z

pilla urug'i bo'lishi kerak? Chunki pilla bu xazina demakdir. Xazina bo'lganda ham juda nozik, nafis va noyob xazinadir. Til - ipak qurti, so'z esa pilla urug'i bo'lgan xazinadir. Mana shu xazinadan biz foydalana bilishimiz, xazinamizni boyitish, undagi kamchiliklarni bartaraf etishimiz lozim.

O'zbek tilida mavjud bo'lgan so'z qo'llashdagi xatolarni Erkin Vohidov shoirona ko'z bilan tahlil qiladi. Masalan maqolada shunday fikrlar keltiriladi. Keyingi yillarda tilimizga "oliygoh", (institut) so'zi kirib qoldi. "Qarorgoh", "Sajdagoh", "Janggoh" so'zlaridan joy ma'nosini bildiruvchi "goh" qo'shimchasi oldidan predmet yoki harakat nomini anglatuvchi so'zni qo'shib atama yasash mumkin. Lekin "oliygoh" deyishimiz g'alatdir. Chunki "goh" qo'shimchasi sifat yo ravish bilan ishlatilmaydi.<sup>54</sup> Aynan oliygoh so'zi "O'zbek tilining izohli lug'ati" da ham uchramaydi.

Nutqimizda ancha faol bo'lgan shunday so'zlar borki, biz ularni yetartlicha xato qo'llaymiz. Masalan Erkin Vohidov e'tibor qaratgan "fuqarolar" "axborotlar", "g'alati" kabi so'zlarni tahlil qilamiz.

Aslida fuqaro so'ziga -lar ko'plik qo'shimchasini qo'shish xato. Fuqaro so'zi "O'zbek tilining izohli lug'ati" da quyidagicha ta'riflangan. Fuqaro arabcha-"faqir" so'zining ko'pligi. Biror mamlakatning doimiy (muayyan yuridik huquqlarga ega bo'lgan aholisi).<sup>55</sup> Demak, fuqaro so'zi faqir so'zining ko'plik shakli ekan, unga yana ko'plik affiksi qo'sholmaymiz, mantiqsizlikka yo'l qo'ygan bo'lamiz.

Axborot so'zining asosiga ham to'xtalamiz. Axbor arabcha "xabar" ning ko'pligi. Xabar, xabarlar, ma'lumot.<sup>56</sup> Biz arabchadan o'zlashgan xabar so'zining ko'plik shakliga, ya'ni "axbor"ga ikki marotaba ko'plik qo'shimchasini qo'shib pleonazmga yo'l qo'ygan bo'lamiz. Pleonazm hodisasi tilda bir xil yoki sinonimik ifoda vositalarining semantik jihatdan takror holda qo'llanishi hisoblanadi.

Erkin Vohidovning "Jahon tajribasi va "izm" lar" nomli maqolasida baynalminal so'zlarni tarjima qilish, yoki ularni o'zbek tiliga moslash, xalqqa qulay qilish masalalari buning esa badiiy adabiyot, she'riyat uchun zarurligi gapirilgan.

Orzu qilamanki, "atom" so'zi o'zbekchada "zarra" deb ishlatilsayu, men shunday tuyuq yozsam :

Boqiy ermaslar quyosh ham, zarra ham  
Parchalangay parchalanmas zarra ham,

Lekin ey dil, ruh abaddir, ruh abad,  
O'zgasiga qilma parvo zarra ham.<sup>57</sup>

<sup>52</sup>Erkin Vohidov. So'zlatofati. "O'zbekiston". Toshkent. 2018

<sup>53</sup>Erkin Vohidov. So'zlatofati. "O'zbekiston". Toshkent. 2018

<sup>54</sup>Erkin Vohidov. So'zlatofati. "O'zbekiston". Toshkent. 2018

<sup>55</sup>O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent. 2020. IV jild.

<sup>56</sup>O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent. 2020. I jild

<sup>57</sup>Erkin Vohidov. So'zlatofati. "O'zbekiston". Toshkent. 2018

Zarra – (arabcha bo‘lakcha; chang; atom) 1. Moddalarning ko‘zga ko‘rinmas, kichik mayda bo‘lagi (ot). 2. Ravish .ozgina, oz, judakam.<sup>58</sup>

Birinchi va ikkinchi misralarda ot so‘z turkumidagi zarra so‘zi qo‘llangan bo‘lsa, to‘rtinchi misrada ravish vazifasidagi zarra so‘zi qo‘llangan. Shoirning orzusi 1 va 2 zarra so‘zlariga tegishli. Quyoshning ham zarraning ham boqiy emasligi, atom ya‘ni zarra ham bo‘linishi, hamma narsa parchalanadi, faqat ruh abad o‘zgasiga zarra ham, ozgina ham parvo qilma deydi shoir.

Erkin Vohidov mana shunday kamchiliklarimizni o‘tkir nigoh bilan anglagan haqiqiy xalq shoiridir. U hamisha o‘zbek tilining jonkuyari bo‘lgan va buni har bir maqolalarida ko‘rishimiz mumkin. Millati, xalqini sevgan farzand ona tili masalalariga befarq qarayolmaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Vohidov Erkin. So‘z latofati. “O‘zbekiston” Toshkent. 2018.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I, II, IV jildlar Toshkent. 2020.

---

<sup>58</sup>O‘zbektiliningizohlilug‘ati. Toshkent. 2020. II jild.



## MATEMATIKA FANINI TA'LIM TIZIMIDA O'QITISH VA TAKOMILLASHTIRISH

*Do'stov Sunnatullo*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*“Oliy matematika” kafedrasida o'qituvchisi,*

*Choriyev Otabek*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Matematika ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi.*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktablarda matematika fanini o'qitish va uni takomillashtirish istiqbollari, matematikani o'qitishda texnik vosita va ko'rgazmali qurollardan foydalanish malakalarini shakllantirish, matematika o'qitishning umumta'limiy maqsadi o'z oldiga quyidagi vazifalari, o'quvchilarda matematik tafakkurni va matematik madaniyatni rivojlantirish haqida batafsil bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** matematik qonuniyat, matematik tafakkur, o'qitish usullari.

**Kirish.** Matematik ongni bog'cha, maktabning ilk davridan shakllantirish kerak. Matematika fani hamma aniq fanlarga asos. Bu fanni bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab keta oladi. Matematika so'zi qadimgi grekcha – mathema so'zidan olingan bo'lib, uning ma'nosi «fanlarni bilish» demakdir.

Matematik tafakkur ob'yektlari va ularni yasash haqida mantiqiy xulosalar chiqarish, mulohazalarni shakllantirish, asoslash va isbotlash ko'nikmalarini shakllantiradi va bu asosda mantiqiy tafakkur rivojlanadi. Bundan tashqari algoritmik tafakkurni shakllantirish, ma'lum bir algoritm bo'yicha faoliyat ko'rsatish va yangilarini ko'rish ko'nikmasini tarbiyalaydi. Matematikadan misol va masalalarni yechish jarayonida tafakkurning ijodiy va amaliy qirralari rivojlanadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Matematika darslarida o'rganiladigan har bir matematik xulosa qat'iylilikni talab qiladi, bu esa o'z navbatida juda ko'p matematik tushuncha va qonuniyatlar bilan ifodalanadi. O'quvchilar ana shu qonuniyatlarni bosqichma-bosqich o'rganishlari davomida ularning mantiqiy tafakkur qilishlari rivojlanadi, matematik xulosa chiqarish madaniyatlari shakllanadi.

O'quvchilarni biror matematik qonuniyatni ifoda qilmoqchi bo'lgan fikrlarni simvolik tilda to'g'ri ifodalay olishlari va aksincha simvolik tilda ifoda qilingan matematik qonuniyatni o'z ona tillarida ifoda qila olishlariga o'rgatish orqali ularda matematik madaniyat shakllantiriladi.

Boshlang'ich matematika maktab matematika kursining asosidir. Maktab matematika kursining maqsadi o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda matematik bilimlar tizimini ma'lum bir usulda (metodika orqali) berishdan iborat. (Metodologiya so'zi yunoncha so'z bo'lib, “yo'l” degan ma'noni bildiradi.)

Matematik metodologiya pedagogika va didaktikaning asosiy bo'limlaridan biri bo'lib, matematikani ta'lim maqsadlariga muvofiq holda o'qitish va o'rganish qonuniyatlarini o'rganuvchi mustaqil fandır.

Ko'rinib turibdiki, yoshlarga matematika fanini o'rgatish fanni yaxshi bilishni, o'qitish metodlaridan foydalana bilishni talab qiladi. Shuningdek, u pedagogika, psixologiya va boshqa fanlarni chuqur bilishi kerak. Bu jarayonda o'qituvchi fidoyi kasb egasi sifatida o'quvchilarning dunyoqarashini boyitishi kerak. O'qituvchi kasb sifatida mantiq dahosi bo'lishi va shu mantiqni darsda qo'llay bilishi kerak.

**Natijalar.** Mashg'ulotning asosiy maqsadi o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini, mustaqil tanlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda zarur bilimlarni egallashdan iborat. Matematika darslarida aqliy yuklamaning ortishi butun dars davomida o'quvchining faolligini va materialga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Demak, o'qituvchi o'quvchilar tafakkurini

faollashtiradigan, mustaqil bilimlarini ifodalovchi yangi faol o'qitish metod va usullaridan foydalana bilishi kerak.

Matematikaga qiziqish uyg'otish o'qitish uslubining yuqori saviyasi va o'quv ishining qanchalik mahorat bilan qurilganligiga bog'liq. Har bir o'quvchi darsda faol bo'lishi, zavq bilan ishlashi va bilimga bo'lgan ishtiyoqning paydo bo'lishi va rivojlanishidan boshlang'ich nuqta sifatida foydalanishi, asosiy e'tiborini bilimga bo'lgan qiziqishini chuqurlashtirishga qaratishi kerak.

Bu, ayniqsa, o'smirlarning u yoki bu fanga bo'lgan doimiy qiziqishini va qiziqishini aniqlashda, u qayta shakllanganda juda muhimdir. Shu nuqtada, matematikani tezda qo'llash kerak. Matematika o'qitish jarayonida matematik maqollar ham bolalarni insonparvarlik, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash omili bo'lib xizmat qiladi.

Amaliy mashg'ulotlar va unda masalalar yechish aniq berilgan misollar yordamida nazariy materialni yaxshiroq o'zlashtirish va tushunishga, talaba tomonidan nazariyani amaliyotga qo'llay olish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan. Matematik ta'lim tizimining bunday tashkil etilishi odatiy bo'lib, biz uni hech qanday qarshiliksiz qabul qilamiz. Aslida ta'lim jarayoni talabalar aqliy faoliyatiga suyanuvchi bir qancha qismlardan tashkil topgan kompleksdan iborat.

**Muhokama.** Yoshlarga matematika fanini o'rgatish uchun o'qituvchi ushbu fanlarni yaxshi bilishi, o'qitish usullaridan mohirona foydalana olishi zarur. Shu bilan birga pedagogika, psixologiya va boshqa fanlarni ham chuqur bilish zarur. Mashg'ulotning asosiy maqsadi o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini, mustaqil tanlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda zarur bilimlarni egallashdan iborat.

Bu matematika darsida aqliy yuklamani oshiradi va o'quvchini dars davomida faollik va materialga qiziqishni oshirish zarurligi haqida fikr yuritishga majbur qiladi. Shuning uchun o'quvchilarning tafakkurini faollashtirish, mustaqil bilimlarini ifodalash uchun o'qitishning yangi faol uslub va uslublari o'rgatiladi.

Matematika faniga qiziqish uyg'otish o'qitish metodikasi sifati va o'quv faoliyati darajasiga bog'liq. Har bir o'quvchi darsda faol va zavq bilan ishlashi, bilimga bo'lgan ishtiyoqning paydo bo'lishi va rivojlanishidan boshlang'ich nuqta sifatida foydalanishi, asosiy e'tiborni o'rganishga qiziqishni chuqurlashtirishga qaratishi kerak.

Zamon bilan hamqadam rivojlanib borgandagina yuksak intellektual avlodni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz. O'quvchilarda matematik tafakkurni va matematik madaniyatni shakllantirish asosiy maqsadlardan biri sanaladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kun o'quvchisini bugungi zamonning talablari asosida o'qitish lozim. Zero, yangi texnologiyalar zamonida dunyoga kelayotgan o'g'il-qizlar o'zining bir qator umumiy sifatleri bilan ajralib turadi. Turmush tarzimiz, qiziqish va xohish-istaklarimiz global makonda qariyb o'xshash tus olayotgan bir vaqtda kechagi o'qitish usullari bilan maqsadga erishib bo'lmaydi.

Matematika darslarida o'rganiladigan har bir matematik xulosa qat'iylikni talab qiladi, bu esa o'z navbatida juda ko'p matematik tushuncha va qonuniyatlar bilan ifodalanadi. O'quvchilar ana shu qonuniyatlarni bosqichma-bosqich o'rganishlari davomida ularning mantiqiy tafakkur qilishlari rivojlanadi, matematik xulosa chiqarish madaniyatlari shakllanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bikboyeva N.U. va boshqalar. «Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi», T., «O'qituvchi», 2000.
2. Kollogarov A. N. Tahriri ostida. Algebra va analiz asoslari. 10-11 sinflar uchun darslik. -T.: «O'qituvchi». 1992.
3. Galitskiy M.A. va boshqalar. «Algebra va matematik analiz kursini chuqur o'rganish» T., «O'qituvchi», 1995.
4. Alixonov S. «Matematika o'qitish metodikasi». T., «O'qituvchi» 2004.
5. Azlarov T., Monsurov X. Matematik analiz. -T.: «O'qituvchi». 2001.

**MURAKKAB FUNKSIYALAR GRAFIKLARI MAVZUSINI YORITISHDA AKT DAN FOYDALANISH.**


*Do'stova Shahlo Baxtiyotovna*  
*Buxoro Davlat universiteti*

Bizga ma'lumki  $X$  to'plamdan olingan har bir  $x$  elementga  $Y$  to'plamdan olingan biror bir  $y$  elementning mos qo'yilishiga funksiya deyiladi. Bu moslikni ifodalovchi nuqtalarni Dekart koordinatalar sistemasida tasvirlab, bu nuqtalarni egri chiziq bilan tutashtirsak, berilgan funksiyaning grafigi yasaladi.  $y=f(g(x))$  ko'rinishidagi funksiya murakkab funksiya deyiladi. Har qanday murakkab funksiyaning grafigini elementar funksiya grafigidan foydalanib chizish mumkin. Ba'zi murakkab funksiyalar grafiglarini elementar funksiyalar grafiglaridan foydalanib yasashni ko'rib o'tamiz:

1)  $y=f(x-a)$  funksiya grafigi  $y=f(x)$  funksiya grafigini  $OX$  o'qi bo'ylab  $a$  birlik o'ngga siljitishdan hosil qilinadi. Bu yerda  $a>0$

**Misol.**  $y=(x-5)^2$  funksiya grafigi  $y=x^2$  funksiya grafigini  $OX$  o'qi bo'ylab 5 birlik o'ngga siljitishdan hosil qilinadi.


X	y1	y2
-4	16	81
-3	9	64
-2	4	49
-1	1	36
0	0	25
1	1	16
2	4	9
3	9	4
4	16	1



2)  $y=f(x+a)$  funksiya grafigi  $y=f(x)$  funksiya grafigini  $OX$  o'qi bo'ylab  $a$  birlik chapga siljitishdan hosil qilinadi. Bu yerda  $a>0$ .

**Misol.**  $y=(x+4)^3$  funksiya grafigi  $y=x^3$  funksiya grafigini  $OX$  o'qi bo'ylab 4 birlik chapga siljitishdan hosil qilinadi.


X	y1	y2
-4	-64	0
-3	-27	1
-2	-8	8
-1	-1	27
0	0	64
1	1	125
2	8	216
3	27	343
4	64	
5	125	



3)  $y=f(x)-a$  funksiya grafigi  $y=f(x)$  funksiya grafigini OY o'qi bo'ylab  $a$  birlik pastga tushirishdan hosil qilinadi. Bu yerda  $a>0$ .

**Misol.**  $y = \log_5 x - 0,4$  funksiya grafigi  $y = \log_5 x$  unksiya grafigini OY o'qi bo'ylab 0,4 birlik pastga tushirishdan hosil qilinadi.


X	y1	y2
4	0,8613531	-0,539
5	1	-0,4
6	1,1132828	-0,287
7	1,209062	-0,191
8	1,2920297	-0,108
9	1,3652124	-0,035
10	1,4306766	0,0307
11	1,4898961	0,0899
12	1,5439593	0,144



4)  $y=f(x)+a$  funksiya grafigi  $y=f(x)$  funksiya grafigini OY o'qi bo'ylab  $a$  birlik yuqoriga ko'tarishdan hosil qilinadi. Bu yerda  $a>0$ .

**Misol.**  $y = 3^x + 7,1$  funksiya grafigi  $y = 3^x$  unksiya grafigini OY o'qi bo'ylab 7,1 birlik yuqoriga ko'tarishdan hosil qilinadi.


x	y1	y2
-4	0,0123457	7,1123
-3	0,037037	7,137
-2	0,1111111	7,2111
-1	0,3333333	7,4333
0	1	8,1
1	3	10,1
2	9	16,1
3	27	34,1
4	81	88,1



Bu qoidalardan kelib chiqadiki, masalan,  $y=f(x-a)+b$  funksiya berilgan bo'lsa, uning grafigini  $y=f(x)$  elementar funksiya grafigidan foydalanib, chizish uchun bu funksiya grafigini OX o'qi bo'ylab  $a$  birlik o'ngga va OY o'qi bo'ylab  $b$  birlik yuqoriga ko'tarishdan hosil qilinadi. Bu yerda  $a>0, b>0$ .

**Misol.**  $y = |x + 4| - 2$  funksiya grafigi  $y = |x|$  funksiya grafigini OX o'qi bo'ylab 4 birlik chapga siljitishdan va OY o'qi bo'ylab 2 birlik pastga tushirishdan hosil qilinadi.

x	y1	y2
-7	7	1
-6	6	0
-5	5	-1
-4	4	-2
-3	3	-1
-2	2	0
-1	1	1
0	0	2
1	1	3
2	2	4
3	3	5



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Dustova Sh.B., “NUMBER AND LOCATION OF EIGENVALUES OF GENERALIZED FRIEDRICHS MODEL WITH FINITE RANK PERTURBATIONS” Academy. Научно – методической журнал. Россия.2020. №4(55), стр. 4-8.
2. Do’stova Sh.B., “Yuqori darajali tengsizliklarni oraliq usulidan foydalanib yechish” Scientific progress, 2:1 (2021, noyabr), p. 195-196
3. Dustova Sh.B., “NUMBER AND LOCATION OF EIGENVALUES OF GENERALIZED FRIEDRICHS MODEL WITH FINITE RANK PERTURBATIONS” Academy. Научно – методической журнал. Россия.2020. №4(55), стр. 4-8.
4. Ш.Б.Дустова “РЕШЕНИЕ СИСТЕМ УРАВНЕНИЯ ВЫСШЕЙ СТЕПЕНИ ПРИ ПОМОЩИ ПРОГРАММЫ EXCEL”
5. Дустова Ш.Б., “Интегрирование биномиальных дифференциалов” Scientific progress, 2:1 (2021), p. 183-184
6. Shahlo Dustova “ON THE NUMERICAL RANGE OF A 2x2 OPERATOR MATRIX”. *Journal of Global Research in Mathematical Archives* RESEARCH PAPER Available online at <http://www.jgrma.info> © JGRMA 2019, Volume 6, No.11, November 2019. All Rights Reserved 52
7. Дустова Ш.Б., “Логарифм. Логарифмическая функция и её свойства” Scientific progress, 2:1 (2021), p. 185-186.
8. Do’stova Sh.B. EXCEL DASTURINING AMALIY MASALALAR YECHISHDA TADBIQI



## BUYUK IPAK YO‘LINING PAYDO BO‘LISHI BORASIDAGI AYRIM MULOHAZALAR

*Egamov Nazirbek Nurillayevich*

*TerDU “O‘zbekiston tarixi va manbashunoslik” kafedrası stajyor-tadqiqotchisi.*

**Annotatsiya:** Tarix fani faktlarga hamda ilmiy asoslarga tayanib ish tutadi. Qarangki, Buyuk ipak yo‘li tashkil topishi haqida ham bir qancha qarashlar mavjud. Shu sababli ushbu fikrlarni ilmiy asoslar va faktlar asosida qaytadan tahlil qilib o‘rganib chiqdik.

**Kalit so‘zlar:** Ipak, urbanizatsiya, Xan sulolasi, savdo, diplomatiya, Chjan Syan, “Buyuk Hind yo‘li”, g‘arb va sharqni bog‘lagan "Otin ko‘prik".

O‘tmishda sodir bo‘lgan jarayonlar va voqealarni xolisona va aniq qilib yoritish tarixchi olimlar oldidagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ko‘plab olimlar ayni bir masalaga qayta-qayta murojaat etaveradilar. Chunki mavjud masalaga aniqlik kiritish, uni yanada ko‘proq faktlar asosida tahlil qilish voqea-hodisaning ishonchlilik darajasini mukammal ko‘rinishga keltiradi. Shuning uchun ham biz ushbu maqola orqali Osiyo va Yevropani mayin mato kabi bog‘lab kelgan azim yo‘l – Buyuk ipak yo‘lining paydo bo‘lishi borasidagi ba‘zi bir mulohazalarni o‘rtaga tashlab, uni yanada teranroq anglashga harakat qildik. Buyuk ipak yo‘lining shakllanishi va rivojlanishi murakkab tarixiy jarayon bo‘lib, u xalqlar o‘rtasidagi savdo, madaniy, diniy va diplomatik aloqalarning taraqqiy etishida alohida ahamiyat kasb etgan. Uning paydo bo‘lishi faqatgina savdoni rivojlantiribgina qolmay, karvon yo‘li ustida joylashgan hududlarda urbanizatsiya jarayonining tezlashishiga, xizmat ko‘rsatish turlarining yaxshilanishiga, hunarmandchilik sohalarining kengayishiga va aholining o‘zga xalqlar madaniyati bilan yaqindan tanishishiga imkon yaratib bergan. Shuning uchun mutaxassis olimlar ushbu buyuk yo‘lining tarixda tutgan o‘rnini juda ham qimmatli deb hisoblaydilar. Ko‘pgina tarixiy adabiyotlar va darsliklarda Buyuk ipak yo‘lining tashkil topish jarayoni miloddan avvalgi II asrga borib taqalishi va Xan sulolasi hukmdori U-Dining elchisi Chjan Szyanning yurgan yo‘li unga asos bo‘lganligi haqidagi ma‘lumotlarni uchratamiz. Bu anchagina ishonchli ma‘lumot, lekin shunday bo‘lsa ham tarixchi olimlar tomonidan bildirilgan boshqa fikrlarni ham o‘rganib chiqib, xulosa qiladigan bo‘lsak foydadan holi bo‘lmaydi.

Tarixchi olim Amriddin Berdimurodov o‘z asarida Buyuk ipak yo‘liga Aleksandr Makedonskiy istilosidan qochib, Sharqiy Turkiston hududiga borib qolgan sug‘d savdogarlari asos solgan bo‘lishi mumkinligini aytadi. Bizningcha, bu anchagina mulohazaga chorlaydigan fikr. Oddiygina qilib o‘ylab ko‘raylik. O‘z vatanini tashlab o‘zga yurtga ketgan kishi borgan mamlakati aholisining shart-sharoitini, ijtimoiy va bozor munosabatlarini ko‘rib o‘rgangach, avtomatik sur‘atda uni o‘zining vatanidagi ahvol bilan solishtiradi. Shundan kelib chiqadigan bo‘lsak, sug‘d savdogarlarida o‘zlari uchun yangilik bo‘lgan mahsulotlarni o‘z vatani bozorlariga olib borib sotish va aksincha, o‘z yurti bozorlarida ko‘plab topiladigan, ammo ko‘chib kelgan mamlakati bozorlariga begona bo‘lgan mahsulotlarni bu yerga olib kelib sotish fikri tug‘ilganligi tabiiy jarayon. Ayniqsa, savdogarlik qon-qoniga singib ketgan sug‘diylardan bu narsani kutish anchagina o‘rinli. Xitoyda bir necha yillar davomida faoliyat olib borgan xitoyshunos olim Ablat Xo‘jayev Buyuk ipak yo‘li Chjan Szyandan bir necha asrlar oldin ham faoliyat yuritganligini, bu yo‘l ko‘chmanchi qabilalar hayotida ham muhim ahamiyat kasb etganligini ta’kidlaydi. Bunga asos qilib arxeologlar tomonidan ko‘chmanchi xalq vakillari qabrlaridan Buyuk ipak yo‘lida tashiladigan mahsulotlarning topib o‘rganilganligini haqidagi misollarni keltiradi. Olimning fikricha, bu davrlardagi savdo yo‘li doimiy xarakterga ega bo‘lmagan bo‘lsada, Ipak yo‘lining boshlanishiga aynan shu davrdagi savdogarlar tamal toshini qo‘yganlar. Chjan Szyan yashagan davrdan boshlab esa bu yo‘ldagi harakatlar doimiy xarakter kasb eta boshlagan. Bu fikr ham haqiqatga yaqin, chunki Chjan Szyan yashagan davrdan oldin ham Sharq va G‘arb o‘rtasida diplomatik va elchilik aloqalari mavjud bo‘lganligi sir emas.

Akademik Edvard Rtveladze o'zining "Buyuk Hind yo'li" asarida Chjan Szyanning Baqtriyaga kelganida bambukdan yasalgan tayoqchalar va Shu (Sichuan) dan keltirilgan rasmlarni uchratganligini aytib, elchining tashrifigacha ham Baqtriya va Xitoy o'rtasida savdo aloqalari mavjud bo'lgan degan xulosani beradi. Shu o'rinda olim tarixda "Buyuk Hind yo'li" deb atagan yo'l mavjud bo'lganligiga ishonch bildirib, aynan shu yo'l Buyuk ipak yo'lining shakllanishiga asos bo'lib xizmat qilgan bo'lishi mumkin degan taxminlarini ham bayon qilib o'tadi. E. Rtveladze bu o'rinda Batriyaning Hindiston orqali Janubiy Xitoy shaharlari bilan bo'lgan aloqalarni nazarda tutadi. Ammo Chjan Szyan davridan boshlab Xitoy va Markaziy Osiyo o'rtasidagi aloqalar asosan mintaqamizning shimoli-sharqiy hududlari orqali amalga oshirilganligi ma'lum. Xiyoylik arxeologlar Tyanshanning janubiy yon bag'irlaridagi so'nggi bronza –ilk temir davriga mansub Ukunbaka (Sinbaka) makonidan O'rta Osiyodan keltirilgan dastali bronza oyna va temir o'roq kabi ashyolarni topganligi ham mintaqamizning hozirgi Xitoydagi Sharqiy Turkiston bilan aloqalarining qadimiyligini yana bir bor isbotlab beradi. Akademik Yuriy Buryakovning fikricha, qadimgi dehqonlarning bu makonidan naqshi va shakliga ko'ra Chust va Burg'ulik madaniyatlari sopol idishlariga o'xshash idishlarning topilishi esa O'rta Osiyo va Xitoyning qadim aloqalaridan dalolat berib turibdi. Shu fikrlardan kelib chiqadigan bo'lsak, o'sha paytlarda ham bu mintaqalar o'rtasida savdo karvon yo'llarining ham mavjud bo'lganligi ehtimoli ancha oshadi. Faqat bu davrda ipak matosi hali paydo bo'lmagan bo'lishi yoki ipak asosiy to'lov vositasi sifatida ishlatilmagan bo'lishi mumkin. O'ktam Mavlonov, Ablat Xo'jayev kabi tarixchi olimlar o'z asarlarida ipakning paydo bo'lishini m. a. I mingyillikning o'rtalarida yuz bergan degan fikrni bayon qiladilar va bu borada Xitoy tarixchilarining asarlaridan iqtibos keltiradilar. Ammo bu ma'lumotlar asosli bo'lgan taqdirda ham o'sha davrlarda G'arb mamlakatlari uchun ipak matosi umuman begona mahsulot hisoblangan. M. a. II-I asrlarga kelib esa ipak G'arb dunyosi aholisini, xususan, G'arb ayollarini o'ziga maftun qila boshlaganligi haqida ma'lumotlar bor. Jumladan Misr malikasi Kleopatra o'z saroyidagi bazmlarning birida ipakdan tikilgan ko'ylagi bilan barcha ayollarning havasini keltirganligi ma'lum. Ushbu birgina misol m. a. II-I asrlarda Buyuk ipak yo'li va unda tashiladigan mahsulotlarga nisbatan qiziqishning naqadar yuqori bo'lganligini ko'rsatib turibdi. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, dunyoning ko'pgina xalqlarini o'zaro bog'lagan Buyuk ipak yo'li m. a. I mingyillikning boshlaridan boshlab sekin-astalik bilan Sharq va G'arb mamlakatlari hayotiga kirib kela boshlagan va avvaliga bir necha asr davomida bu yo'l biroz bo'lsada sust rivojlangan. Chjan Syanning faoliyatidan keyin esa xitoyliklarning G'arb mamlakatlari, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari bilan yaqin aloqa qilishga intila boshlashlari, sug'd savdogarlarining savdo ishlaridagi mahorati, baqtriyaliklarning jonbozligi, forslarning vositachilik qobiliyati, ipakning xalqaro savdoga chiqishi va uning asosiy ayirboshlash vositasiga aylanishi kabi bir qator omillarning uyg'unlashuvi Buyuk ipak yo'lining gurkirab rivojlanishiga olib kelgan. Ajdodlarimizga ikki ming yildan ko'proq vaqt davomida xizmat qilgan bu yo'l haqiqiy ma'noda G'arb va Sharqni bog'lagan "Oltin ko'prik" vazifasini bajargan desak mubolag'a bo'lmaydi. Bugungi kunda ushbu "Oltin ko'prik"ni qayta tiklash bo'yicha bir qator davlatlar, shu jumladan bizning hukumatimiz tomonidan ham bir qancha amaliy ishlar olib borilmoqda. Chunki bu yo'lning tiklanishidan unga aloqador mamlakatlarning barchasi birdek moddiy va madaniy manfaat topishlariga shubha yo'q.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abduxaliq Abdurasul o'g'li. Ipak mamlakati haqida. Akademik A. Asqarov tavalludining 70 yilligiga bag'ishlangan ilmiy anjuman materiallari. Toshkent. 2005
2. Abduxaliq Abdurasul o'g'li. Buyuk ipak yo'li. Toshkent. Muloqot. 1994
3. Berdimurodov Amriddin, Shoira Indiaminova. Buyuk ipak yo'li: qit'alar va asrlar osha. Toshkent. "O'zbekiston" 2017
4. Buryakov Yu. F. Ekonomicheskoye i kulturniyesvyazi Chacha I Fergani. Buyk ipak yo'li va Farg'ona vodiysi: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent. 2004
5. Mavlonov O'ktam. Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari. Monografiya. Toshkent. Akademiya 2008.

## QANDLI DIABETDA OYOQNING YIRINGLI-NEKROTIK SHIKASTLANISHLARINING PATOMORFOLOGIK JIHATLARINI KOMPLEKS DAVOLASHNI O'RGANISH

*Ergashev Ulug'bek Yusuffjanovich*

*Toshkent tibbiyot akademiyasi 2-son Umumiy jarrohlik kafedrasini mudiri, t.f.d., professor.*

*Zohirov Adhamjon Rafiqovich*

*Toshkent tibbiyot akademiyasi 2-son Umumiy jarrohlik kafedrasini assistenti.*

*Ernazarov Hojimurol Irsaliyevich*

*Toshkent tibbiyot akademiyasi 2-son Umumiy jarrohlik kafedrasini assistenti.*

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda qandli diabet va ularning asoratlarini davolash dolzarb muammoligicha qolmoqda. Qandli diabet asorati bo'lgan diabetik tovon sindromi bilan kasallangan bemorlarning hayot sifati va mehnat qilish qobiliyati tobora yo'qolib bormoqda. Qandli diabet va ularning asoratlarini davolash mamlakatimizning iqtisodiy va moliyaviy samaradorligiga ta'sir etmoqda. Shu sababli mamlakatimizda ishlab chiqarilgan yangi - Reomannisol preparati qandli diabetning asorati bo'lgan oyoqning yiringli-nekrotik jarayonini to'xtatishga yordam bermoqda.

**Kalit so'zlar:** diabetik oyoqning eksperimental modeli, yiringli-nekrotik jarayon, tajriba hayvonlari, alloksan, reomannisol.

**Dolzarbliqi.** Qandli diabet - surunkali kasallik bo'lib, me'da osti bezining insulin ishlab chiqarishining absolyut yetishmasligi oqibatida, organizmda moddalar almashinuvi buzilishi kelib chiqadigan kasallik [12]. Bemorlarning o'lim darajasi yuqori bo'lganligi uchun hozirgi kunda dunyo olimlari har xil dori vositalarni ishlab chiqishmoqda va amaliyotda qo'llamoqdalar [13]. Yangi yaratilgan dori vositalarni hayvonlarga qo'llash uchun avvalo ularning modellarini yaratish masalasi turadi [14]. Shunday modellardan biri alloksanli diabet modeli.

1. Аметов А.С., Богданова Л.Н. Гипергликемия и глюкозотоксичность — ключевые факторы прогрессирования сахарного диабета 2-го типа // РМЖ. — 2010. — №23. — С. 1416–1418. — [http://www.rmj.ru/articles\\_7322](http://www.rmj.ru/articles_7322).
2. Волчегорский И.А., Долгушин И.И., Колесников О.Л., Цейликман В.Э. Экспериментальное моделирование и лабораторная оценка адаптивных реакций организма. Челябинск: Издательство Челябинского государственного педагогического университета; 2000.
3. Гостищев В.К., Афанасьев А.Н. Стандарты лечебнодиагностических мероприятий у больных диабетической остеоартропатией и гнойно-некротическими поражениями стоп // Сб. ст. конф. «Стандарты диагностики и лечения в гнойной хирургии». М., 2001. С.107-112
4. Кузин М.И. Раны и раневая инфекция. М. Медицина, 1990, с. 258.
5. Bennett W.L., Maruthur N.M., Singh S. et al. Comparative effectiveness and safety of medications for type 2 diabetes: an update including new drugs and 2-drug combinations // *Ann. Intern. Med.* — 2011. — Vol. 155, N 1. — P. 67–68.
6. Eidi M., Eidi A., Saeidi A. et al. Effect of coriander seed (*Coriandrum sativum* L.) ethanol extract on insulin release from pancreatic beta cells in streptozotocin-induced diabetic rats // *Phytother. Res.* — 2009. — Vol. 23. — P. 404–406.
7. Guillemin, Y., Le Broc, D., Ségalen, C., Kurkdjian, E., and Gouze, J.N. 2016. Efficacy of a collagen-based dressing in an animal model of delayed wound healing. *J. Wound Care* 25: 406–413. [medline] [CrossRef]
8. Vergouwe Y., Soedamah-Muthu S., Zgibor J. et al. Progression to microalbuminuria in type 1 diabetes: development and validation of prediction rule // *Diabetologia.* — 2010. — Vol. 53. — P. 254–262.
9. Ergashev U. Y., Ernazarov Kh. I., Zohirov A. R., Alzabni I. D. 2022. Complex Treatment of Experimental Model of Diabetic Foot Syndrome. *American Journal of Medicine and Medical Sciences* 2022, 12(5): 471-480. DOI:10.5923/j.ajmms.20221205.05.
10. Ergashev U.Y., Mustafakulov G.I., Muminov A.T., Minavarkhujayev R.R., Yakubov D.R., Ernazarov Kh.I., Zohirov A.R. 2021. THE ROLE OF MINIMALLY INVASIVE TECHNOLOGIES IN THE TREATMENT OF LIVER CAVITIES. *Frontiers in Bioscience-Landmark*, 8, 82-89, DOI:10.52594/4945
11. Ernazarov Kh.I., Zohirov A.R., Ergashev U.Yu., Israilov R.I. PATHOLOGICAL PICTURE OF VITAL ORGANS IN AN EXPERIMENTAL MODEL OF DIABETIC FOOT. *Herald TMA* № 1, 2022. 74-79. e-mail: rio-tma@mail.ru. rio@tma.uz

## TURKIY TILLARDAGI PARALLEL KORPUSLARNING AMALIY AHAMIYATI

*Eshmamatova Mahliyo Xamzayevna*

*O'zbekiston Milliy universiteti Kompyuter lingvistikasi 1-bosqich magistranti.*

**Annotatsiya:** Bugungi kunda korpus tilshunosligi ko'pincha kompyuterlar va elektron korpuslar orqali real hayotda tildan foydalanishni o'rganish bilan shug'ullanadigan yangi lingvistik fan sifatida tushuniladi. Parallel korpuslar juda ko'p ekanligi bilan bog'liq empirik tadqiqotlarga imkon beruvchi til tadqiqotlari va tabiiy tilni qayta ishlashda turli xil uslublari mavjud. O'tgan yillarda avtomatik vositalar yordamida parallel korpuslarni qurish va tarjima ma'lumotlaridan qayta foydalanish usullari ishlab chiqildi Turkiy tillardagi mashina tarjimasining rivojlanish bosqichlarida parallel korpuslarning ahamiyati, o'rni va rivojlanishi. Bugungi kunga kelib, jahon talabiga aylangan tarjimashunoslikda korpus va parallel korpuslardan foydalanish rivojlanmoqda.

**Kalit so'z:** mashina tarjimasini, korpus, parallel korpus, turkiy tillarda.

## THE PRACTICAL SIGNIFICANCE OF PARALLEL CORPUS IN TURKIC LANGUAGES

**Annotation:** Today, corpus linguistics is often understood as a new linguistic science that deals with the study of the use of language in real life through computers and electronic corpus. there are different methods of language processing. The importance, place and development of parallel corpus in the development stages of machine translation in Turkish have been developed in the past years. .

**Keywords:** machine translation, corpus, parallel corpus, in Turkish.

Hozirgi kunda tobora kompyuter texnologiyalaridan foydalanish jadalashib bormoqda, shu sababli tarjima sohasida ham ikki tili, ko'p tili parallel korpuslar hamda qiyosiy til korpuslaridan foydalanish jadallashib bormoqda.

Turkiy tillar o'rtasidagi mashina tarjimasini bo'yicha ham bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, turkman tilidan turk tiliga asoslangan mashina tarjimasini bo'yicha Güneyd Tantuğ, Aşref Adalı, Kemal Oflazer tomonidan olib borilgan izlanishlarini uchratamiz. Ertuğrul Yılmaz, İlknur Durgar El-Kahlout, Burak Aydın, Zişan Sıla Özil, Coşkun Mermer kabi olimlar frazaga va ierarxik frazaga asoslangan statistik mashina tarjimasini (turkcha-inglizcha), Gorkem Ozbek ishlarida esa tarjima jarayoni quyidagicha olib borilgan: birinchi bosqich matnlardan olingan taxminiy morfologik ehtimollik, so'z shakllarini ajratish va frazalarning asosini aniqlash. Bu texnologiya Sabanci universiteti (Turkiya) professori Kemal Oflazer tomonidan ishlab chiqilgan. O'zbek tili bo'yicha mashina tarjimasiga doir deyarli fundamental izlanish olib borilmagan edi. M.Xakimov ishlarida kengaytirilgan matematik modelga asoslanilgan mashina tarjimasini texnologiyasi bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Biroq o'zbek tilidagi ma'lumotlarning yetarli emasligi yaratiladigan dasturiy ta'minotlarga ta'sir ko'rsatgan. Nilufar Abduraxmonova tomonidan "Inglizcha matnlarni o'zbek tiliga tarjima qilish dasturining lingvistik ta'minoti (sodda gaplar misolida)" mavzusidagi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan (2018) dissertatsiyasida o'zbek tilining lingvistik modellari, sintaktik strukturalar orqali tarjima qilish, qolaversa, transfer usuli qardosh bo'lmagan tillar uchun mos ekanligi ilmiy jihatdan o'rganilgan.<sup>59</sup>

Korpus lingvistikasi - kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda lingvistik korpuslarni (matnlar korpuslarini) qurish va ulardan foydalanishning umumiy tamoyillarini ishlab chiqadigan, hisoblash tilshunosligining bo'limi. Lingvistik, matnlar korpusi (yoki odatda

<sup>59</sup> Abduraxmonova Nilufar. Mashina tarjimasining lingvistik ta'minoti. Monografiya. Toshkent-2018 19-22 bet



shunchaki matnlar korpusi) muayyan lingvistik muammolarni hal qilish uchun mo'ljallangan, birlashtirilgan, tuzilgan, belgilangan, filologik jihatdan malakali til ma'lumotlarining katta, mashina o'qiy oladigan formati sifatida tushuniladi. Bugungi kunda korpus tilshunosligi ko'pincha kompyuterlar va elektron korpuslar orqali real hayotda tildan foydalanishni o'rganish bilan shug'ullanadigan yangi lingvistik fan sifatida tushuniladi. Matnlar va ularning tarjimalarini o'z ichiga olgan parallel korpus so'nggi o'n yil ichida tabiiy tilni qayta ishlashda mashhur tadqiqot yo'nalishi bo'ldi. Bu parallel korpuslar juda ko'p ekanligi bilan bog'liq empirik tadqiqotlarga imkon beruvchi til tadqiqotlari va tabiiy tilni qayta ishlashda turli xil uslublari mavjud. O'tgan yillarda avtomatik vositalar yordamida parallel korpuslarni qurish va tarjima ma'lumotlaridan qayta foydalanish usullari ishlab chiqildi.<sup>60</sup>

Parallel korpuslar bir tilli (agar bir tilning dialektlari, variantlari, ushbu tilda so'zlashuvchilar va o'rganuvchilarning tili taqqoslansa), ikki tilli va ko'p tilli bo'lishi mumkin.

Matnlar parallellik mezoniga ko'ra 2 turga bo'linadi quyidagicha:

- aslida parallel holatlar (tarjima korpusi) — qaysidir manba tilda yozilgan asl matnlar majmui bo'lgan korpus va matnlar - bu manba matnlarning bir yoki bir necha boshqa tillarga tarjimalari;
- solishtiriladigan korpus (qiyoslanadigan korpus) – matnlarni qaysidir asosda birlashtirgan korpus (bir xil) mavzu sohasi, tilning dialektlari, mintaqaviy navlari, o'zbek tilining navlari yoki boshqalar tillarni aytish mumkin.

Har ikki turdagi korpuslar tarjimaning samarali usullarini, jumladan kompilyatsiya qilish uchun mashina tarjimasini ishlab chiqish uchun ishlatiladi. Korpus tilshunosligi ushbu sohada to'plangan korpuslar—tabiiy kontekst ("realiya") bilan minimal eksperimental aralashuv bilan tilni ishonchli tahlil qilish mumkin. Matn-korpus usuli har qanday tabiiy tilda yozilgan matnlar to'plamidan ushbu tilni boshqaradigan mavhum qoidalar to'plamini olish uchun foydalanadi. Ushbu natijalar ushbu mavzu tili va shunga o'xshash tahlillardan o'tgan boshqa tillar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish uchun ishlatilishi mumkin. Birinchi bunday korpuslar manba matnlaridan qo'lda qilingan, ammo endi bu ish avtomatlashtirilgan.<sup>61</sup>

Rule-based machine translation from Kazakh to Turkish Sevilay Bayatli, Sefer Kurnaz, Inar Salimzianov, Jonathan North Washington, Francis M. Tyers tomonidan ishlab chiqilgan korpusda asosan Qozoq va turk tillari o'rtasida qozoq-tatar (Salimzianov va boshq., 2013), tatar-boshqird (Tyers va boshqalar, 2012b), qrim-tatar-turk va ingliz-qozoq (Sun detova va boshqalar, 2015) MT tizimlari. Turk va boshqa turkiy tillar, jumladan turk-qrim tatarlari o'rtasida tarjima qiladigan bir qancha boshqa MT tizimlari mavjud (Altintash, 2001), Turk-Ozarbayjon (Hamzaoglu, 1993), Turk-Tatar (Gilmullin, 2008) va Turk-Turkman (Tantuğ va boshq., 2007a,b) MT tizimlari. Qozoq tilidan/qozoq tilidan tarjima qilish tizimlariga kelsak (yuqorida aytib o'tilganlar bilan bir qatorda), grammatik va statistik yondashuvdan foydalanadigan ikki tomonlama qozoq-ingliz mashinali tarjima tizimi (Tukeyev va boshq., 2011) mavjud. Altenbek va Xiao-long (2010) qozoq tilining flektiv affikslari uchun segmentatsiya tizimini taklif qiladilar. Maxambetov va boshqalar. (2015), Kessikbayeva va Ci cekli (2014) va Kairakbay va Zaurbekov (2013) qozoq morfologik tahlili ustida ishlamoqda. Qozoq va turk tillari ham Google Translate<sup>62</sup> va Yandex tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan tillar qatoriga kiradi Translate<sup>63</sup> vositalari.

Morfologik analizator. Manba tilidagi (SL) matnni yuzaki shakllarda (SF) (so'zlar, yoki aniqlangan hollarda, ko'p so'zli leksik birliklar) segmentlarga ajratadi va har biri uchun lemmadan (lug'at yoki iqtibos shakli) iborat bir yoki bir nechta leksik shakllarni (LF) beradi. ), leksik kategoriya (yoki nutq qismi) va fleksiyon ma'lumotlari.

- Morfologik disambiguator. Qozoq turkiy tarjimoni Cheklash Grammatikasi (CG) formalizmiga asoslangan holda (Karlsson va boshqalar, 1995) morfologik mantiqiy ma'no ajratuvchi, noaniq gap uchun morfologik tahlillarning eng adekvat ketma-ketligini tanlaydi.

<sup>60</sup> Abduraxmonova N. O'zbek tili elektron korpusining kompyuter modellari (monografiya), – Toshkent, 2021. – 200 b.


<sup>61</sup> Дмитриев А. В., Коган М. С. Потенциал корпусной лингвистики в подготовке специалистов в области компьютерной лингводидактики // Общество. Коммуникация. Образование. – 2019. – Т. 10. – №. 4. – С.

<sup>62</sup> <http://translate.google.com>

<sup>63</sup> <http://translate.yandex.com>

- Leksik ko'chirish. Ushbu modul har bir SL LF ni o'qiydi va tegishli XML faylidan tuzilgan chekli holat transduser sifatida kodlangan ikki tilli lug'atda qidirib, tegishli maqsadli tilni (TL) LF beradi. Leksik uzatish moduli bitta SL LF uchun bir nechta TL LFni qaytarishi mumkin.
- Leksik tanlash. Leksik tanlash moduli Tyers va boshqalar. (2012a) kontekst qoidalariga asoslanib, noaniq SL LFlarning eng adekvat tarjimasini tanlaydi.
- Strukturaviy uzatish. Strukturaviy transfer mahalliy sintaktik operatsiyalarni bajaradigan modul har bir belgilangan LF naqshiga amalni bog'laydigan qoidalarni o'z ichiga olgan XML fayllaridan tuzilgan. Naqshlar chapdan o'ngga qo'llaniladi va eng uzun mos keladigan naqsh har doim tanlanadi.
- Morfologik generatorni o'zgartiradi tomonidan ishlab chiqarilgan maqsadli til LFlarining ketma-ketligi maqsadli til XFlarining tegishli ketma-ketligiga tizimli o'tkazish.
- Post-generator. Orfografik amallarni bajaradi, masalan, elision (italyanchada da + il =dal kabi). Ushbu modul hozirgacha bizning tarjimonimizda qo'llanilmagan.
- Reformatter. Shakllanishdagi har qanday formatni inkapsulatsiya qiladi.

Apertium platformasi har bir modul uchun lingvistik ma'lumotlarni (agar ko'rib chiqilayotgan modul talab qilsa) tavsiflash uchun "vanil" dasturi va rasmiyatchilik deb atash mumkin bo'lgan narsani taqdim etadi.



1-rasm: Oddiy Apertium MT tizimining quvur liniyasi arxitekturasi.

Shuni ta'kidlash kerakki, yuqorida tavsiflangan quvur liniyasi modullari bir-biridan mustaqil va shuning uchun turli xil dasturlarga tayanishi mumkin, ular turli xil zararli dasturlarga tayanishi va qoidaga asoslangan, statistik yoki gibril xarakterga ega bo'lishi mumkin. Masalan, Cheklov Grammatikasiga asoslangan morfologik disambiguator bir nechta boshqa Apertium MT tizimlarida topilgan Yashirin Markov modeliga asoslangan statistik teggerning o'rnini bosuvchi vosita sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Ta'riflangan morfologik o'tkazgichlar uchun ishlatiladigan formalizmlar ham shunday.<sup>64</sup>

Jumladan, yana bir parallel korpusga nazar solsak, Duygu Atamanning Bianet: A Parallel News Corpus in Turkish, Kurdish and English nomli korpusida Ingliz-turk tillari yo'nalishidagi yagona parallel xabarlar korpusi Janubiy-Sharqiy Euro pean Times (SETIMES) korpusidir (Tyers va Alperen, 2010). (Shimoliy), 8 millionga yaqin ma'ruzachilar (Simons and Fennig, 2017). Ikki til tabiatan bir-biridan mutlaqo farq qiladi, kurd tili hind-evropa tili, turk tili esa turkiy tillar oilasiga tegishli Bianet korpusining to'plami asosan uch bosqichdan iborat:

- Gazetalardan turkcha yangiliklar maqolalarini skanerlash
- Hujjat darajasidagi tarjimalarni olish va har bir til juftligida taqqoslanadigan hujjatlarni yaratish
- Hujjatga moslashtirilgan korpusdagi har bir jumlaning moslashtirish.

Til	Gaplar soni	Tokenlar soni	Lug'at hajmi
Turkcha-inglizcha	35 080	741 080 (EN) - 582 783 (TR)	61 517 (EN) - 103 812 (TR)
Ingliz-kurd	6 486	139 334 (EN) - 126 350 (KU)	19 362 (EN) - 21 462 (KU)
Turk-kurd	7 390	121 119 (TR) - 142 668 (KU)	32 064 (TR) - 23 333 (KU)

1-jadval: Korpusning statistik xususiyatlari. EN: Ingliz tomoni. TR: Turkiya tomoni. KU: Kurd tomoni.

<sup>64</sup> Bayatli S. et al. Rule-based machine translation from Kazakh to Turkish. – 2018.

Ma'lumotlar to'plami	Korpus	Til	Gaplar	So'zlar
Parallel ma'lumotlar (Tarjima modeli)	SETIMES	inglizcha-turkcha	205,706	5,107,219 (EN) - 4,589,614 (TR)
	Bianet	inglizcha-turkcha	35 080	741 080 (EN) - 582 783 (TR)
	Bianet	inglizcha-kurdcha	6 486	139 334 (EN) - 126 350 (KU)
	Bianet	kurdcha-turkcha	7 390	142 668 (KU) - 121 119 (TR)
Dev	WMT dev 2016	inglizcha-turkcha	1 001	22 136 (EN) - 16 954 (TR)
Test	WMT test2016	inglizcha-turkcha	3 000	66 394 (EN) - 54 128 (TR)

2-jadval: Ingliz-Turkiya tajribalarida foydalanilgan ma'lumotlar to'plami. EN: Ingliz tomoni. TR: Turkiya tomoni

Ma'lumotlar to'plami	Korpus	Til	Gaplar	So'zlar
Parallel ma'lumotlar (Tarjima modeli)	Ubuntu & GNOME	inglizcha-kurdcha	65,357	206,855 (EN) - 219,279 (KU)
	Bianet	inglizcha- kurdcha	6 486	139,334 (EN) - 126,350 (KU)
	SETIMES & Bianet	inglizcha- turkcha	240,786	5,848,299 (EN) - 5,172,397 (TR)
	Bianet	turkcha- kurdcha	7 390	142 668 (KU) - 121 119 (TR)
Dev	Bianetdan namuna olingan	inglizcha- kurdcha	500	11,311 (EN) - 5,399 (KU)
Test	Bianetdan namuna olingan	inglizcha- kurdcha	500	11,174 (EN) - 5,696 (KU)

3-jadval: Ingliz-kurd eksperimentlarida foydalanilgan ma'lumotlar to'plamlari. EN: Ingliz tomoni. KU: Kurd tomoni.

Tizim	Chiqish balli BLEU chrF3
Asosiy model yangiliklari	11.50 0.4139
Birlashtirilgan model yangiliklari	13,77 0,4343
<b>Ko'p tilli model yangiliklari</b>	<b>13,92 0,4360</b>

4-jadval: Ingliz-Turkiya tajriba natijalari.

Asosiy model yangiliklari: Model faqat SETIMES korpusidan foydalangan holda yaratilgan. Birlashtirilgan model yangiliklari: SETIMES yordamida yaratilgan model va Bianet korpusining ingliz-turk qismi. Ko'p tilli model yangiliklari: SETIMES va yordamida yaratilgan model Bianet korpusining barcha qismlari. Eng yaxshi ballar qalin harf bilan yozilgan shrift. Bazadagi barcha yaxshilanishlar statistikdir muhim ( $p$ -qiymati  $<0,05$ ).

Tizim	Chiqish balli BLEU chrF3
Ikki tilli model Umumiy	5.41 0.2257
<b>Ko'p tilli Model Umumiy</b>	<b>8.51 0.2406</b>

5-jadval: Ingliz-kurd eksperimenti natijalari. Ikki tilli

Umumiy model: Ingliz kurd tilida korpus yordamida qurilgan model. Ko'p tilli model umumiy: Model ingliz-kurd korpusi va Bianet korpusidagi barcha tillarda yaratilgan.<sup>65</sup>

<sup>65</sup> Ataman D. Bianet: A parallel news corpus in turkish, kurdish and english //arXiv preprint arXiv:1805.05095. – 2018.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abduraxmonova Nilufar. Mashina tarjimasining lingvistik ta’minoti. Monografiya. Toshkent-2018 19-22 bet.
2. Abduraxmonova N. O‘zbek tili elektron korpusining kompyuter modellari (monografiya), – Toshkent, 2021. – 200 b.
3. Дмитриев А. В., Коган М. С. Потенциал корпусной лингвистики в подготовке специалистов в области компьютерной лингводидактики //Общество. Коммуникация. Образование. – 2019. – Т. 10. – №. 4. – С. 69-85.
4. <http://translate.google.com>
5. <http://translate.yandex.com>
6. Bayatli S. et al. Rule-based machine translation from Kazakh to Turkish. – 2018
7. Ataman D. Bianet: A parallel news corpus in turkish, kurdish and english //arXiv preprint arXiv:1805.05095. – 2018.

**“XUDOVAJDI JAHON” - TURKON XOTUNNING SIYOSIY FAOLIYATI  
SHIHOBIDDIN MUHAMMAD NISOVIY TALQINIDA (“SIYROT US-SULTON  
JALOLUDDIN MENKBURNI” ASARI ASOSIDA)**

*Fayzullayev Oybek Ixtiyor o‘g‘li*  
*Termiz davlat universiteti talabasi.*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Jaloliddin xizmatiga kirgach doimo uning yonida bo‘lgan va Xorazmshohlar davlatining mansabdor shaxslari orasida yurgan, mamlakatning ichki va tashqi siyosatini, o‘sha davrdagi voqea-hodisalarning jonli guvohi Shihobiddin Muhammad Nisoviyning “Siyrot us-Sulton Jaloluddin Menkburni” asarida “olam ayollarining malikasi” – Turkon xotunning mamlakatdagi mavqei, siyosat bobidagi faoliyati qay tarzda yoritilganligi o‘rganilgan.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается освещение политической деятельности Туркон хотун в творчестве Шихабиддина Мухаммед Нисави «Сират ус-Султон Жалолуддин Менкбурни», состоявшего на службе у Джалалидина и ходившего рядом с ним.

**Annotation:** In this country, the coverage of the political activities of Turkon Khotun in the works of Shakhobiddin Muhammad Nisavi “Sirat us-Sultan Jaloliddin Menkburni”, who was in the service of Jalaliddin and who sat next to him, is considered.

**Kalit so‘zlar:** An-Nisoviy, Alovuddin Takash, “Xudovandi jahon”, Bekdili urug‘i, Jaloluddin Menkburni, O‘zlog‘shoh, vazir, taxt, Ilol qal‘asi, Gurganch.

Shihobuddin Muhammad ibn Ahmad Nisoviyning (1193-1249 yy.) “Sirat us-sulton Jaloluddin Menkburni”<sup>66</sup> (Sulton Jaloluddin Menkburnining tarjimai holi) asarini tarixshunoslar hozirgacha yuksak qadrlaydi. Nisoviyning otasi Niso<sup>67</sup> viloyatiga qarashli Xurandiz qal‘asining hokimi bo‘lib, Xorazmshohlar davlatining e‘tiborli amirlaridan biri bo‘lgan. Uning vafotidan so‘ng davlati va mansabi o‘g‘liga o‘tgan. Nisoviy 1223-yilga qadar Niso viloyatining hokimi Nusratuddin Hamzaning noibi bo‘lib xizmat qilgan. Nashjuvon<sup>68</sup> hamda al-Halqada<sup>69</sup> mo‘g‘ullar bilan bo‘lgan janglarda shaxsan ishtirok etgan. So‘ng Astrobod viloyatlaridan Kabud joma<sup>70</sup> hokimi Imom ud-davla Nusratuddin Muhammad huzuriga kelgan va uning yordami bilan yana Nisoga qaytishga muvaffaq bo‘lgan, lekin oradan ko‘p vaqt o‘tmay, Nisoda o‘zaro urushlar kuchayib ketganligi sababli u Iroqqa ketib qoladi va 1223-yili Sulton Jaloluddin Manguberdining (1220—1231) xizmatiga kiradi. Shihobuddin Muhammad Nisoviy kotib al-insho lavozimida 1231-yilgacha, ya‘ni Sultonning o‘limiga qadar xizmat qiladi.

Shihobuddin Muhammad an-Nisoviy O‘rta Osiyo, Kavkaz, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarining mo‘g‘ul istilosi davridagi (1220—1231) ijtimoiy-siyosiy ahvolidan bahs yurituvchi “Siyrot us-sulton Jaloluddin Menkburni” nomli qimmatli asarini 1241-yilda Jaloliddin o‘limidan 10 yil o‘tgach yozishga kirishgan va 1249 yil vafotidan sal oldin yozib tugallagan. Asar memuar — xotira-yodnoma tarzida yozilgan bo‘lib, muqaddima va 108 bobdan iborat. Asarning I—IV boblarida mo‘g‘ul-tatarlar, Chingizxonning kelib chiqishi, xon bo‘lib ko‘tarilishi masalalari ixcham tarzda bayon etilgan. V-XXII boblar xorazmshoh Alouddin Muhammadning

<sup>66</sup> Shihobiddin Muhammad an-Nisoviy. Siyrot us-sulton Jalol ad-din Mengburni (Sulton Jaloliddin Mangubardi hayoti tafsiloti) /Kamol Matyoqubov tarjimai. –Toshkent: “O‘zbekiston”, 2006. -384 b.

<sup>67</sup> Niso – ushbu asar muallifi an-Nisoviyning yurti. Uning xarobalari Ashxoboddan 18 kilometr uzoqlikda joylashgan.

<sup>68</sup> Nashjuvon - Nisoning katta qishloqlaridan biri.

<sup>69</sup> al-Halqa - Jurjon qishloqlaridan biri

<sup>70</sup> Kobud joma (hozirgi nomi Hojilar)- Astrobodning Sharqiy qismida joylashgan maskan.



hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan. XXIII bobdan boshlab kitobning to oxirigacha mo'g'ul istilosi va Xorazmshoh Alouddin Muhammadning fojiali taqdiri, Sulton Jaloluddinining hayoti va kurashi, fojiali halokati hikoya qilinadi.

Ushbu asarning 1224 -1231 yillar voqealarini o'z ichiga olgan boblari original va zo'r ilmiy ahamiyatga ega, chunki bayon etilmish voqealarning ko'pchiligida muallifning bevosita shaxsiy ishtiroki bor. Mana shuning uchun ham bu kitob tarix ilmi namoyandalarining diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etib kelgan<sup>71</sup>.

Asarda Xorazm hukmdorlarining omilkor boshqaruvchi bo'lganliklarini o'qishimiz mumkin. Ayniqsa, Alouddin Muhammad Xorazmshoh davrida hududlar kengayganligi, shon-shuhrati ortib, mamlakati Iroqning chegarasidan Turkistongacha yetganligini mahorat bilan yoritadi. Shuningdek, Xorazmshohlar saltanati tarixida o'ziga xos nufuzga ega malika Turkon xotun haqida ham ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, "Turkon xotun hayotining ba'zi bir jihatlari va uning fe'l atvori"<sup>72</sup> deb nomlangan bobida shunday ma'lumotlar keltiriladi. "U Bayot urug'idan edi"<sup>73</sup>. Bayot urug'ining Emek qabilasiga mansub hisoblanadi. Uning ishi yurishib turk mamlakatlaridan birining hukmdori Jonkishixonning qizi edi. El-Arslonning o'g'li Takish hukmdorlarning o'g'li hukmdorlarni qizini olgani kabi unga uylandi. Hokimiyat sulton Muhammadga otasi Takishdan meros bo'lib o'tganidan keyin Emek va unga qo'shni bo'lgan qo'shni qabilalar uning davlati tarkibiga kelib qo'shildilar. Shu sababli sultonning kuchi ko'paydi, u esa ularni yanada ulug'ladi. Natijada Turkon xotun mamlakatni boshqara boshaldi. Sulton qaysidir mamlakatni bosib olgudek bo'lsa, uning qaysidir viloyatini onasining yaqinlari uchun ajratib beradi".

XI asrning oxirlarida hukmdorlik faoliyatini boshlagan Anushteginiylar o'g'uzlarning Bekdili urug'idan yetishib chiqqan edi. Tarixnavislarning ma'lumotlariga ko'ra, Anushtegin xorazmshohlarning valiahdlari, hukmdorlari ularning Bekdili urug'idan tug'ilgan farzandlaridan tayinlanardi. Boshqa urug'ga mansub ayollardan tug'ilgan shahzodalar hukmdorlikka munosib ko'rilmadi. Bunday tartib mamlakatda urug'lar, qabilalar o'rtasida taxt uchun kurashlarni kamaytirishga, sulolaning hukmronlik qudratini oshirishga xizmat qildi. Bu holat 1200 yil Alouddin Takash hukmronligining oxirigacha davom etdi. 1200 yil Muhammad Xorazmshoh taxtga o'tirishi bilan amal qilib kelinayotgan qoidalarga putur yetdi. Negaki, Takashdan keyin taxtga Nosiriddin Malikshoh o'tirishi kerak edi. U Takashning Bekdili urug'iga mansub xotinidan tug'ilgan bo'lib, bu sulolaning ichki tartiblariga mos edi. Biroq Nosiriddin Malikshohning 1197 yilda vafot etishi, Alouddin Muhammadning taxtga kelishiga sabab bo'ldi. Alouddin Muhammad Takashning qipchoq urug'iga mansub xotini Turkon xotundan dunyoga kelgan edi. Takash vafot etgach o'g'li Alouddin Muhammadni ham, u boshqargan Xorazmshohlar davlatini ham Turkon xotun qo'lga oladi. Bekdili urug'iga mansub amaldorlarni mansablaridan chetlashtirib, yuqori lavozimlarga qipchoq urug'idan bo'lgan o'z yaqinlarini qo'yadi<sup>74</sup>. Ko'p vaqtlarda bu mansabdor shaxslarga Turkon xotunning siyosiy ta'siri kuchli bo'lgan.

An-Nisoviy uning fe'l-atvori xususida shunday yozadi: "U aqlli ayol edi. Unga shikoyat xatlari, arznomalar kelgudek bo'lsa, ularni sinchikovlik bilan adoalat nuqtayi nazaridan ko'rib chiqardi va jabr qiluvchining zulmi ostida ezilgan odam tarafini olardi. Ammo u qotillikni mardlik nishonasi deb baholardi. U mamlakat uchun ko'plab yaxshi ishlar qildi"<sup>75</sup>.

<sup>71</sup> Muarrixlar al-Futuvvatiy (1244-1323), Ibn Xaldun (1332-1406), Badruddin Ayniy (vaf.1451) qimmatli manba sifatida foydalanganlar. Zamonaviy sharqshunoslar ham o'sha davrga oid tadqiqotlarida bu asarni chetlab o'ta olmaydilar. "Sirot us-sulton Jaloluddin Menkburni" nomli asarning arabcha matni, fransuzcha tarjimasi bilan 1891-1895-yillari Parijda, Qohirada chop qilingan. Uning qisqartirilgan turkcha (tarjimonlar Yusuf Ziyov va Ahmad Tavhid) va forsiy (tarjimonlar Muhammad Ali Nosih va Mujtab Minoviy) tarjimalari mavjud. Asaming turkmanlar va Turkmanistonning XIII asrdagi ijtimoiy-siyosiy ahvolidan hikoya qiluvchi qismi rus tilida (tarjimon S. L. Volin) nashr etilgan edi. Kitobni to'liq holda avval Bokuda, keyin Moskvada Z.M .Buniyatov rus tiliga tarjima qilib, ilmiy izohlar bilan nashr ettirgan

<sup>72</sup> An-Nisoviy, Siyrot us-sulton, 66-bet.

<sup>73</sup> Juvayniyning yozishicha, qang'li urug'idan bo'lgan qipchoq xoni Aqronning qizi edi.

<sup>74</sup> Matyoqubov K. Malikaning jasorati /Adolat ijtimoiy-siyosiy gazetasi, №18-son, 2020 yil.

<sup>75</sup> An-Nisoviy, Siyrot us-sulton, 64-bet.

Muarrixning ma'lumotiga ko'ra, hukmdor saroyida tarbiyalanib, voyaga yetgan Turkon xotun o'ziga yarasha aql-idrokka va boshqaruv iste'dodiga ega bo'lgan: "Uning kotiblari (kuttab al-insho) yettita edi. Ularning hammasi mashhur, davrining atoqli va oliyjanob insonlari edi. Agar undan va sultondan bir masala bo'yicha ikkita munosabat bildirilgan noma kelib qolgudek bo'lsa, uning bitilgan muddatiga qaralardi. Ulardan qaysi biri keyin yozilgan bo'lsa, shu nomadagi fikr mamlakat uchun asos qilib olinardi. Uning farmonlaridagi tug'rosi quyidagicha edi "Ulug' Turkon, mo'minlar va tinchlikning himoyachisi, ikki olam ayollarining malikasi" degan so'zlar edi. U bu so'zlarni qalam bilan katta qilib, chiroyli tarzda yozib qo'ygandi, uni boshqa biror odam o'zgartira olmasdi"<sup>76</sup>.

Bu so'zlardan ko'rinib turibdiki, Turkon xotun faqat yomon fazilatlar egasi emas, balki mamlakat uchun ulkan ishlarni amalga oshirdi, ko'p yaxshi ishlar qildi. Xalqning arz va shikoyatlarini ham Turkon xotun ko'rib chiqishini bildik. Uning o'z shaxsiy devonxonasi bo'lganligi ham davlat miqyosidagi ishlarni, muhim masalalarni mustaqil ravishda yechish imkoniyatiga ega ekanligini ko'rsatadi. Turkon xotun "Jahonning hokimi" degan taxallusga ega bo'lib, farmonlaridagi shaxsiy muhri – to'g'rosida: "Ismat ud-Dunyo vad-Din Ulug' Turkon malika niso al-olamiyn" (Dunyo va uning pokdomoni, Ulug' Turkon, olam ayollarining malikasi) deb bitilgan edi. Bular nihoyatda ustalik bilan ishlangan bo'lib, soxtalashtirib bo'lmadi va u o'z shiorini o'g'li shiorining yoniga qo'yar edi"<sup>77</sup>.

Asarni o'qish jarayonida Sulton Muhammad Xorazmshoh onasi Turkon xotundan hokimiyatni boshqarish, muhim lavozimlarga nomzod qo'yishda maslahatlar so'rab turganligini bilishimiz mumkin. "O'sha paytlar Sulton vaziri Nizomulmulk ibn Nizomulmulk Bahovuddin Ma'sud al-Xaraviyni mansabidan chetlashtirganda bu lavozimga kimni qo'yish to'g'risida onasidan maslahat so'ragandi. U esa unga Nizomulmulk Nosiriddin Muhammad ibn Solihni vazir qilib tayinlashni maslahat bergandi. Sulton onasi katta va kichik, ahamiyatli va ahamiyatsiz bo'lsin, biror ish yuzasidan buyruq berganda ikki sababga ko'ra hech qachon qarshilik qilmasdi. Birinchi sababi: ota-onasiga bo'lgan muhabbati tufayli edi, onasi undan ko'p ishlarda yordamini ayamagandi. Ikkinchi sababi: davlat tepasidagi ko'plab amirlar onasi urug'idan edi, Sulton ular bilan birga xitoyilarga qarshi kurashib, ular mamlakatini tortib olgandi. Ana shular uchun ham u yuqoridagi nomini eslatganimiz, ya'ni onasi tavsiya etgan odamni qanchalik xushlamasin, yomon ko'rmasin, dardini ichiga yutib, vazirlik lavozimiga qo'ygandi. Ammo Nizomulmulkda vazirlik mansabi uchun ibrat qilib ko'rsatadigan narsa yo'q edi, aksincha takabburlik, isrofgarchilik avjiga chiqqandi. Sulton poraga o'chligi uchun uni jazolashni niyat qilib qo'ygandi. Sulton uni vazirlikka yuksak layoqati uchun emas, balki onasining g'ulomi, aniqrog'i, g'ulomining o'gli bo'lgani uchun olgandi... Sulton Nosiriddinni vazirlikdan chetlashtiradi va vaziriga shunday deydi, "O'z ustozingning eshigiga yo'qol". Ya'ni sulton uni onasi huzuriga, Xorazmga jo'natdi"<sup>78</sup>. Biroq Muhammad Xorazmshoh tomonidan o'zi tomonidan tavsiya qilingan nomzod mansabidan chetlashtirilib, haydab yuborilganligi Turkon xotunni nafsoniyatiga tegdi. U o'g'lining qaroriga qarshi borib, badarg'a qilingan Nizomulmulkni Xorazmda tantanali ravishda kutib oladi, hatto uni kutib olish uchun "shahar aholisining katta-yu kichik, amaldoru faqir - hammasini jalb qilgandi"<sup>79</sup>. Voqealar rivojida hukmdor onasining endi haddidan oshishiga guvoh bo'lib boramiz: "Sulton Xorazmga Izziddin To'g'rul boshchiligida qo'shin yuborib, Nosiriddinning boshini olib kelishni buyuradi. U Xorazmga yaqinlashganda Turkon xotun Sultonning niyati va qaroridan to'la xabar topgan edi. Uning bu ishni amalga oshirish uchun kelayotganini bilib, uni huzuriga olib kelishni buyuradi. U(Turkon xotun) unga (Iziddinga) Nosiriddin vazirlik kursisiga o'tirgan paytda devonxonada bo'lishini tayinlaydi (bundan oldin u Nosiriddinga Xorazm hukmdori, Sulton taxtining valiahdi Qutbiddin O'zlog'shoning vaziri lavozimini topshirgan edi). Aytilgan paytda Izziddin devonxonada bo'ladi.

Shunda unga bu yerda yig'ilganlar guvohligida Sultonning Nosiriddinga salomini yetkazishni va uning nomidan "Mening sendan bo'lak vazirim yo'q. Sen o'z devoningning boshchisi bo'lib qol.

<sup>76</sup> An-Nisoviy, Siyrot us-sulton, 64-65-betlar.

<sup>77</sup> Buniyodov Z. Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097-1231) //A.Ahmad va M.Mahmud tarjimai. –Toshkent, 1998. –B. 159.

<sup>78</sup> An-Nisoviy, Siyrot us-sulton, 49-51-betlar

<sup>79</sup> An-Nisoviy, Siyrot us-sulton, 53-bet.

Mening mulkimda hech kim sening yorliqlaringga qarshi chiqolmaydi va hukmronligingni rad etmaydi", degan so'zlarni aytishni tayinlaydi. Nomini aytganimiz (Izziddin) boshqa imkoni bo'lmaganidan xuddi shunday qiladi. Bu bilan u Sulton buyrug'iga ham qarshi boradi"<sup>80</sup>.

Turkon xotun nafaqat sulton, balki moliyaviy ishlar, arkoni davlat va saroy amaldorlari ustidan ham hukmronlik qilgan. Ko'p hollarda Muhammad Xorazmshoh tomonidan e'lon qilingan qarorlar Turkon xotun tomonidan hech qanday asossiz, kengashsiz bekor qilinar edi. Sulton Nizomulmulkni chetlashtirib, uni jazolashni buyurgan Izziddin To'g'rul ham Turkon xotun buyrug'i bilan bu ishni qilmadi. Bu ham yetmaganidek, Turkon xotun devonda Sulton nomidan yolg'on gaplarni gapirishga Izziddin To'g'rulni majbur qildi. Bundan ko'rinib turibdiki, bir tomondan Sulton va ikkinchi tomonda Turkon xotun turganda Izziddin To'g'rul Xorazm hukmdori, 27 mamlakatni bo'ysundirgan, hattoki, Bag'dodga yurish qilgan Sultonning emas, balki uning onasi Turkon xotunning buyrug'iga amal qildi. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, amaldorlar Sultondan emas ko'proq Turkon xotundan qo'rqqanlar. Qanchadan qancha hududlarni bo'ysundirgan, uning hukmdorlarini itoat ettirgan, hech qaysi hukmdor amalga oshirilmagan qoraxitoylarni daf qilgan Sulton oddiygina vazirini ham jazolay olmadi. Aksinch, Turkon xotunning qilgan ishlari orqali u yanada yuksaklarga ko'tarildi, ya'ni "Nosiriddin... vazir qilib tayinlangan paytda Sulton unga to'rtta nayzador tayinlagan edi. Odatda ulug' vazirlarga shunday ehtirom ko'rsatilardi, nayzadorlar nayzalari sopiga esa tillo qoplama qoplanardi. Xorazmda vazirlar atrofiga sakkiz nayzador qo'yiladigan bo'ldi. Bu ularning nasabini ulug'lashga qaratilgandi. Bular haqidagi ma'lumotlar Movarounnahrda turgan Sultonga ham yetib borar, bu uning g'azabini kuchaytirardi"<sup>81</sup>.

Alovuddin Takash Qutbiddin Muhammadni valiahdlikka tayinlagach, uni Bekdili urug'iga mansub bo'lgan bo'lgan Oychechakka uylantirdi. Va bu nikohdan 1199 yilda tug'ilgan Jaloliddin Mengburnini Alouddin Muhammadning valiahdi deb e'lon qildi. Bu bilan u xorazmshohlar taxtida Bekdili urug'iga mansub anushteginiylar sulolasi hukmronligi davom etishini xohladi. Afsuski, uning o'limi bu orzuni ushaliyga yo'l bermadi. Turkon xotun esa o'g'lini o'z urug'iga mansub qipchoq xonlarining qizlariga uylantirib, ulardan tug'ilgan farzandlarni taxt vorislari etib belgiladi. Bu yerda biz Turkon xotunning Anushteginiylar sulolasida o'rnatilgan ichki tartiblarga o'zgarishlar qilib, o'zi mansub bo'lgan urug' vakillarining hokimiyatni egallashini xohlayotganini ko'rishimiz mumkin. Eri Takashning vasiyatiga qarama-qarshi o'laroq, Jaloliddinni valiahdlikdan chetlashtiradi, uning o'rniga Sulton Muhammadning qipchoqlardan bo'lgan xotinidan tug'ilgan o'g'li O'zlog'shohni taxt vorisi etib tayinlaydi va o'zining nazoratida bo'lgan Xorazm, Xuroson hamda Mozandaronga hokimlik qilish huquqini berdi. Uning uchun mana bunday to'g'ro ham tanladi: "Sulton Abul Muzaffar O'zlog'shoh ibn Sulton Sanjar G'iyos amir al-mo'minin"<sup>82</sup>. Shu tariqa Jaloliddin va Turkon xotun o'rtasida ziddiyatlar kuchayadi.

Xorazmshohlar davlatini Urganchda – Turkon xotun, Samarqandda – Sulton Muhammad boshqaradi va shu tariqa, mamlakatda qo'shhokimiyatchilik vujudga keladi. Bizga ma'lumki ko'pgina davlatlar ham parchalanib ketishiga sabab, qo'shhokimiyatchilikdir. Xorazmshohlar davlati tirgaklariga ham ayni shu sabab tufayli shikast yetdi. Lashkarlar, sarkardalar, davlat arkonlari o'rtasida ziddiyat avj oladi, qabilalar, urug'lar o'rtasidagi yakdillik yo'qoldi. Bu esa o'z navbatida, mo'g'ullarning xorazmshohlar davlatini bosib olishiga xizmat qildi. Chingizxon hiyla ishlatib ona va bola o'rtasiga sovuqchilik tushirishga harakat qildi. Buning uchun u asli xorazmlik bo'lgan, Chingizxon tomonga o'tib ketib ketgan hojib Donishmanddan foydalandi: "Chingizxon o'ziga sodiq bo'lgan odamlardan yana biri - hojib Donishmandni Xorazmga Turkon xotun huzuriga jo'natdi. U unga bunday nomani berdi: "Ma'lumki o'g'ling huquqlaringni poymol etib, senga yomonlik qildi. Shu sababli men uning ba'zi amirlari bilan kelishgan holda unga qarshi yurish qilmoqchiman. Agar sen shartimga ko'nsang, mening so'zlarim ishonchli ekanligini bilmog'chi bo'lsang, huzurimga kimnidir yubor. Shundan so'ng Xorazm, Xuroson, Jayhunning

<sup>80</sup> An-Nisoviy, Siyrot us-sulton, 53-54-betlar.

<sup>81</sup> An-Nisoviy, Siyrot us-sulton, 54-bet.

<sup>82</sup> Buniyodov Z. Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097-1231) //A.Ahmad va M.Mahmud tarjimai. –Toshkent, 1998. –B. 160.

narigi tomonidagi ularga tegradosh bo'lgan mulklar ham senga beriladi". Ushbu elchi bilan bir vaqtda Sultonning Jayhun qirg'oqlaridan qochganligi xabari keldi. Turkon xotun vahimaga tushib qoldi. Chingizxon nomasiga ham javob yozmadi"<sup>83</sup>.

O'z navbatida Sultonning qo'liga ham onasi yaqinlari bo'lgan qipchoq lashkarboshilari tomonidan Chingizxonga yozilgan noma "tasodifan" tushib qoldi. Bu haqda asarning 17-bobida keltirilgan bo'lib, bu fitna asli o'trorlik bo'lgan, sotqin Badriddin Amid<sup>84</sup> tomonidan amalga oshirildi. Uning tavsiyasiga ko'ra, Chingizxon a'yonlari tomonidan soxta maktub tayyorlandi. Unda "Biz o'z urug'imiz va bizdan panoht istaganlar bilan birgalikda turkiylar mamlakatidan Sulton huzuriga, uning onasiga xizmat qilish uchun keldik. Bizlar unga yer yuzining barcha davlatlariga qarshi kurashda, ularni bosib olishda, hukmdorlari va aholisini bo'ysundirishga yordam berdik. Endilikda uning onasi haq-huqulariga nisbatan niyatlari va munosabatlari o'zgardi: u o'zining manmanligi natijasida takabburligini ko'rsatmoqda. Shu sababli u (Turkon xotun) Sultonga yordam bermasligimizni buyurdi. Bizlar esa sening (Chingizxon) kelishingni kutayapmiz, sening amringga bo'ysunish niyatidamiz"<sup>85</sup>, deyilgandi. Maktub o'z kuchini ko'rsatganligiga tarix shohid.

Asarning "Turkon xotunning olti yuz o'n oltinchi yilning oxirgi kunlarida (1220 yilning mart oyi boshlarida) Xorazmni tashlab chiqishi bayoni" deya nomlangan 18-bobida Turkon xotun Xorazmni qanday tark etgani, tark etayotganda qanday gunoh ishlar qilgani, qanday qilib Chingizxon qo'liga asir tushib qolgani haqida bayon etiladi. "U Xorazmda qolish imkoniyati yo'qligini bildi va o'zi bilan olishi mumkin bo'lgan narsalarning hammasini - Sulton xotinlarini, kichik yoshdagi bolalarni, xazinadagi boyliklarni olib shahar bilan xayrlashib, Xorazmdan chiqdi. Uning xayrlashish onlarini ko'rganlarning ko'ngillari yumshab, ko'zlaridan yosh oqdi. U ketishidan oldin asrlar bo'yi o'zi uchun sharmandali bo'lgan, asrlar bo'yi bir la'nat bilan eslanadigan bir adolatsiz ishni qildi. U bu urush olovlari tezlikda barham topadi, uzilgan iplar yana qaytadan ulanadi, qop-qora tun zulmatidan keyin tong yana nur sochadi deb o'ylab, Xorazmda asirlikda bo'lgan hukmdorlarni, ularning o'g'illarini, yuqori martabali zotlarni, olijanob insonlarni, ulug' sadrlarni qatl qildirdi. Uning himoyasida bo'lgan bunday insonlar 22 ta edi. Bularning orasida Sulton To'g'rul as-Saljuqiyning o'g'li, Balx maligi Imodiddin, uning o'g'li, Yermiz hukmdori al-Malik Bahromshoh, Bomiyon hukmdori Alovuddin, Vaxsh hukmdori Jamoliddin Umar, Sig'noq hukmdorining ikki o'g'li, Burhoniddin Muhammad Sadr Jahon, uning ukasi Iftixor Jahon va ikki o'g'li Malik al-Islom, Aziz al-Islom hamda yana boshqalar bor edi. U o'z nuqsonlarini nima bilan yopishni bilmasdan bu ishni qildi. Buning o'rniga qilgan ishlari uchun Olloh oldida tavba tazarru, adolatni tan olganida, ehtimol, shunday sharmandali holga tushmagan bo'larmidi"<sup>86</sup>.

Biz ko'rib turibmizki, mamlakat hukmdori ham mudofaani tashkil etish o'rniga davlatni tashlab qochib ketdi, bu ham yetmaganidek o'zini "hukmdor" hisoblagan Turkon xotun ham Xorazmni o'z holiga tashlab ketdi. Qochib ketishi bilan bir qatorda, buyuk zotlarni, hukmdor farzandlarini qatl ettirib, poyatxtni ularning qoniga "botirib ketdi".

Shihobiddin Nisoviyning qayd etishicha, Turkon xotun 1220-yil Ilol<sup>87</sup> qal'asida mo'g'ullarga asir tushadi va barcha xizmtkorlari bilan birga Chingizxon huzuriga yetkaziladi<sup>88</sup>. Sultonning farzandlari qatl etiladi, qizlari esa mo'g'ullarga turmushga beriladi<sup>89</sup>. Nasaviyning ta'kidlashicha, Turkon xotun Jaloliddin oldiga borishini istmagan, uni or bilgan. Qoraqurumga keltirilgan Turkon xotun qashshoqlikda hayot kechiradi va shu yerda vafot etadi<sup>90</sup>.

<sup>83</sup> An-Nisoviy, Siyrot us-sulton, 61-6er

<sup>84</sup> O'trorning bosib olinishiga qadar mo'g'ullar tomonga o'tib ketgan Badriddin al-Amidning urug'-aymoqlari va yaqinlari Sultonga dushman bo'lgan "Ruhoniylar tashkiloti" dan edilar. Bu ruhoniylar Buxoro sadrlari va Samarqand shayxlariga nisbatan dushmanlikni yaqqol namoyon qildilar. Chingizxon Badriddin al-Amiddan Xorazmshohlar qo'shinlarining joylashishi, davlat ichidagi nizolar, kelishmovchiliklar to'g'risida ko'plab ma'lumotlar oldi. U bu ma'lumotlardan keng foydalandi.

<sup>85</sup> An-Nisoviy, Siyrot us-sulton., 59-6er

<sup>86</sup> An-Nisoviy, Siyrot us-sulton, 63-64-betlar

<sup>87</sup> Ilol- Mozandaronda mustahkam qal'alardan biri. Sori daryosining yuqori qismida joylashgan.

<sup>88</sup> An-Nisoviy, Siyrot us-sulton, 63-6er

<sup>89</sup> O'sha joyda

<sup>90</sup> An-Nisoviy, Siyrot us-sulton, 63-64-betlar.

Ming afsuski "ikki olam malikasi", "Xudovandi jahon" nomlari bilan mashhur bo'lgan malika mo'g'ul qo'lga asir tushdi. Jaloliddin oldiga borishni o'ziga or bildi. Taqdirni qarangki Takishning suyuklisi, Sulton onasi Chingizxonning dasturxoniga qaram bo'lib qoldi. Bungacha u qanday inson edi? Farmonlari har bir viloyatda so'zsiz ijro qilinmasmidi? G'ur sultoni poytaxtga yurish qilganda shahar mudofaasini tashkil etishga katta hissa qo'shgan aynan shu inson emasmi? Albatta, o'sha Turkon xotun edi. Endichi?

Xulosa qilsak, an-Nisoviy asarining ahamiyatli jihati shundaki, o'ganilayotgan davrga oid manbalarning ko'pchiligi mo'g'ullar tomonidan turib yoritilgan bo'lsa, bu asarda tarixga xorazmshohlar tomonidan turib nigoh tashlanadi. Turkon xotuning mamlakat hayotida tutgan o'rnini Nisoviy yangicha asosda yoritadi. U g'uriylar sultoni Shihobiddin Gurganjga yurish qilganda, shahar mudofasini kuchli tarzda tashkil qilganligi, aholining arznomalari bilan shug'ullanishi, jabr qiluvchining zulmi ostida ezilgan odamni himoya qilishi, mardlikni juda qadrlashi shular jumlasidan. Biroq boshqaruv ishida u ko'proq davlat manfaatlarini emas, balki shaxsiy manfaatlarni ustun qo'yganligi, garchi loyiq bo'lmasada o'z urug'i vakillariga yuqori mansablarni berganligi asarda mohirona tarzda yoritilgan. Shunday qilib, "Xudovandi jahon", olam ayollarining malikasi - Turkon xotun ko'pchilik nigohida Xorazmshohlar davlatining tanazzuliga sababchi bo'lgan shaxs sifatida tarix zarvaraqlarida qoldi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shihobiddin Muhammad an-Nisoviy. Siyrot us-sulton Jalol ad-din Mengburni (Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti) /Kamol Matyoqubov tarjimai. –Toshkent: "O'zbekiston", 2006. -384 b.
2. Buniyodov Z. Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097-1231) //A.Ahmad va M.Mahmud tarjimai. –Toshkent, 1998. -256 b.
3. Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi (davri, madaniy hayot, manbalar) //Ilmiy to'plam. – Toshkent: Fan, 1999. -108 b.
4. Matyoqubov K. Malikaning jasorati /Adolat ijtimoiy-siyosiy gazetasi, №18-son, 2020 yil.



## ИССИҚЛИК АККУМУЛЯТОРИ БЎЛГАН ҚУЁШ ИССИҚХОНАЛАРИДА НОСТАЦИОНАР ИССИҚЛИК РЕЖИМИНИНГ МАТЕМАТИК МОДЕЛИ

*Ғаниев С.Й.*

*Қарши муҳандислик-иқтисодийёт институти магистранти.*

*Бозорова Н.Р.*

*Қарши давлат университети 4-курс талабаси.*

*Илмий раҳбар: проф. Хайриддинов Б.Э.*


**Аннотация:** Мақолада ер ости сувли иссиқлик аккумулятор билан қуёш иссиқхонасининг ностандарт иссиқлик режимини тадқиқ этишнинг математик модели келтирилган. Ягона тизим сифатида узаро таъсир этувчи элементлар: ички ҳаво, тупроқ, ўсимликлар, сув, иссиқлик аккумулятори билан боғлиқ омиллари қуриб чиқилди.

**Резюме:** В статье приведена математическая модель нестационарного теплового режима солнечной теплицы с подпочвенным водяным аккумулятором тепла. Совместно, как единая система, рассматриваются взаимодействующие элементы: внутренний воздух, почва, растения, водяной аккумулятор тепла, климатические факторы.

**Resume:** The article deals with the mathematics model of non-stationary thermal conditions of solar hot-house with subsoil water accumulator of heat. Jointly as a united system the reciprocal elements are considered: interior air, soil, plants, water accumulator of heat and climatic factors.

Қаралаётган гелиоиссиқхонаининг бошқа ҳимояланган тупроқли иншоотлардан асосий фарқи шундаки, бундай иссиқхоналарда тупроқ ости аккумуляторининг мавжудлигидадир. Шу сабабли бундай қурилмаларда физик жараёнларни етарли даражада тўла ифодалаш учун мавжуд услубларни такомиллаштиришга тўғри келади. Қуёш иссиқхонасидаги рўй бераётган иссиқлик ва масса алмашинув жараёнлари барқарор бўлмаган мураккаб жараёнлар деб қаралади.

Гелиоиссиқхона иссиқлик режимининг математик модели конструкциянинг элементлари мувозанат тенгламаларига асосланади. Ўзаро таъсир қилувчи элементлар биргаликда ягона система деб қаралади: бунга иссиқхонадаги ҳаво, тупроқ, ўсимлик, тупроқ ости сувли аккумулятори ва иқлим факторлари киради. (1-расм).



**1-расм. Сувли иссиқлик аккумулятори бўлган қуёш иссиқхонаси иссиқлик мувозанатининг математик моделини ҳисоблаш схемаси:**

1-гелиоиссиқхона, 2-ўсимик, 3-сувли иссиқлик аккумулятори.

Гелиоиссиқхонанинг ҳавоси учун иссиқлик баланси:

$$c_{\theta}\rho_{\theta}V_{\theta}\frac{dT_{\theta}}{d\tau}=Q_{n\theta}+\alpha_n(T_n-T_{\theta})F_n+\alpha_p(T_p-T_{\theta})-\alpha_c(T_{\theta}-T_{cm})-G_{c\theta}(T_{\theta o}-T_{\theta l})-G_u c_{\theta}(T_{\theta}-T_n); \quad (1)$$

бунда  $c_{\theta}\rho_{\theta}V_{\theta}\frac{dT_{\theta}}{d\tau}$  -иссиқхонадаги ҳаво иссиқлик миқдорининг ўзгариши;

$Q_{n\theta}$ -иссиқхонанинг бутун ҳажми бўйича бир неча марта қайтиш натижасида қуёш радиациясини ютишининг йиғинди миқдори;

$\alpha_n(T_n-T_{\theta})F_n$ ,  $\alpha_p(T_p-T_{\theta})$  -иссиқхона ичидаги тупроқ ва ўсимликнинг унинг ҳавосига берадиган иссиқлиги;

$\alpha_c(T_{\theta}-T_{cm})$  -иссиқхонанинг шиша қопламаси ва жанубий девори орқали иссиқлик йўқотиши;

$G_{c\theta}(T_{\theta o}-T_{\theta l})$  -сувли иссиқлик аккумуляторига берилаётган иссиқлик;

$G_u c_{\theta}(T_{\theta}-T_n)$  -иссиқхона ички ҳавосини инфилтрацияси орқали иссиқлик йўқотишли

Шишали қоплама юзасидаги иссиқлик баланси:

$$c_c m_c \frac{dT_c}{d\tau} = A_c q_{n\theta} F_c + \alpha_c(T_{\theta} - T_c) F_c + \alpha_n(T_c - T_n) F_c + rG_{k\theta} F_c; \quad (2)$$

бунда  $c_c m_c \frac{dT_c}{d\tau}$  -шишали қопламадаги иссиқлик миқдорининг ўзгариши;

$A_c q_{n\theta} F_c$  -ютилган қуёш радиациясининг миқдори;

$\alpha_c(T_{\theta} - T_c) F_c$ ,  $\alpha_n(T_c - T_n) F_c$  -иссиқхона ички ҳавосидан шиша қопламасига ва шиша қопламадан ташқи муҳитга узатилаётган иссиқлик миқдори;

$rG_{k\theta} F_c$  -шиша юзасига бўғнинг конденсацияланишидаги иссиқлик миқдори.

Жанубий деворнинг юзларидаги иссиқлик баланси:

$$c_{cm} m_{cm} \frac{dT_{cm}}{d\tau} = A_{cm} k_{np} q_{n\theta} F_{cm} + \alpha_{ncm}(T_{\theta} - T_{cm}) F_{cm} + \alpha_{ncm}(T_{cn} - T_n) F_{cm}; \quad (3)$$

бунда  $c_{cm} m_{cm} \frac{dT_{cm}}{d\tau}$  - жанубий девордаги иссиқлик миқдорининг ўзгариши;

$A_{cm} k_{np} q_{n\theta} F_{cm}$  -ютилган қуёш радиациясини миқдори;

$(\alpha_{ncm}(T_{\theta} - T_{cm}) F_{cm}$ ,  $\alpha_{ncm}(T_{cn} - T_n) F_{cm}$  -иссиқхона ички ҳавосидан деворга ва ундан атроф-муҳитга узатилаётган иссиқлик миқдори.

Тупроқ юзасининг температураси иссиқлик ўтказувчанликнинг тенгламаси билан аниқланади, яъни

$$\partial T_n / \partial \tau = a_n \partial^2 T_n / \partial y^2 \quad (4)$$

қуйидаги чегара шартлари билан:  $y=0$  бўлган ҳолда:

$$\lambda_n \partial T_n / \partial \tau F_n = A_n k_{np} q_{n\theta} F_n + \alpha_n(T_n - T_{\theta}) F_n - rG_n F_n; \quad (5)$$

$y=\delta$  бўлганда эса,  $t_n=t=const$  бўлади;

бунда  $\lambda_n \partial T_n / \partial \tau F_n$  - иссиқлик ўтказувчанлик орқали тупроқ қатламларига узатилаётган иссиқлик;

$A_n k_{np} q_{n\theta} F_n$  – ютилган қуёш радиациясининг миқдори;

$\alpha_n(T_n - T_{\theta}) F_n$  – тупроқ юзасидан ички ҳавога узатилаётган иссиқлик миқдори;

$rG_n F_n$  – тупроқдаги намликни буғлантиришга сарфланаётган иссиқлик.

Ўсимлик барглари юзларидаги иссиқлик баланси

$$c_p m_p \frac{dT_p}{d\tau} = A_p k_{np} q_{n\theta} F_p + \alpha_p(T_p - T_{\theta}) F_p - rG_p F_p; \quad (6)$$

бунда  $c_p m_p \frac{dT_p}{d\tau}$  – жанубий девордаги иссиқлик миқдорининг ўзгариши;

$A_p k_{np} q_{n\theta} F_p$  – ютилган қуёш радиациясининг миқдори;

$\alpha_p(T_p - T_{\theta}) F_p$  –ўсимлик барглари юзларидан иссиқхона ички ҳавосига узатилаётган иссиқлик миқдори;

$rG_p F_p$  – ўсимлик баргларидаги намликни буғлантиришга сарфланаётган иссиқлик.

Сувли иссиқлик аккумуляторидаги иссиқлик миқдорининг ўзгариши:

$$c_{va} m_{va} \frac{dT_{va}}{d\tau} = w_m \rho_v c_v \pi \frac{D_m^2}{4} L_m (T_{\theta o} - T_{\theta l}) n_m \quad (7)$$

Тизим элементлари юзаларидаги  $a_c, a_n, a_p, a_{cm}, a_{nct}$  иссиқлик бериш коэффициентлари конвекция ва нурланиш орқали иссиқлик бериш коэффициентларидан иборатдир, яъни

$$a_l = a_{kl} + a_{ul} \quad (8)$$

(1)-(7) тенгламалар тизими етарли ва тола тарзда гелиоиссиққонанинг ичида рўй бераётган физик жараёнларни акс эттиради Математик моделнинг ишончлилиги фойдаланаётган иссиқлик-физик параметрлари ва қаралаётган тизимдаги элементларнинг иссиқлик алмашув коэффициентларининг аниқлик даражасига боғлиқдир.  $q_{nd}, Q_{nb}, A_c, A_n, A_{cm}, k_{np}, a_c, a_n, a_p, a_{cm}, a_{nct}$  ларнинг қийматлари [1-4] даги маълумотлардан аниқланади  $G_{kd}$  - [3]  $G_n, G_p$  - [5] да келтирилган усул билан аниқланади. Тақдим этилган математик модел температура режимини таҳлил қилиш, иссиққона ва сувли иссиқлик аккумуляморларини мақбул конструктив ва режимли параметрларини аниқлаш имконини беради.

### Шартли белгилар:

$A_c, A_n, A_p, A_{cm}$  - шиша тупроқ ўсимлик деворларининг куёш радиациясини ютиш коэффициентлари;

$a_n$  тупроқнинг температура ўтказувчанлик коэффициенти, м/с;

$c_v, c_c, c_{va}$  - ҳавонинг, шишанинг ва сувнинг солиштирма иссиқлик ситими ж/(кг·К);

$F_c, F_n, F_p, F_{cm}$  - шиша, тупроқ ўсимлик ва деворларнинг юзалари м<sup>2</sup>;

$G_{kd}, G_n, G_p$  - конденсат, тупроқ ва ўсимлик баргларида бутланган намликларининг солиштирма массаси, кг/м<sup>2</sup>;

$G$  - сувли иссиқлик аккумулятори орқали ўтадиган ҳавонинг массавий сарфи кг/с;

$k_{np}$  - шишанинг куёш радиациясини ўтказиш коэффициенти;

$m_c, m_{cm}, m_p, m_{va}$  - шиша, девор, ўсимлик барглари ва сувли аккумуляторнинг массаси, кг;

$q_{nd}$  - тушаётган куёш радиацияси зичлиги, Вт/м<sup>2</sup>;

$r$  - буғ ҳосил қилиш иссиқлиги, Ж/кг;

$T_v, T_n$  - ички ва ташқи ҳаво температураси, К;

$T_c, T_n, T_p$  - шишанинг, тупроқнинг ва ўсимлик баргларидаги температураси К;

$T_{cv}, T_{cn}$  - деворнинг ички ва ташқи юзалари температуралари, К;

$T_{vo}, T_{el}$  - сувли аккумуляторнинг кириши ва чиқишидаги ҳавонинг температураси, К;

$T_{va}$  - иссиқлик аккумуляторидаги сувнинг ўртача массавий температураси, К;

$V_v$  - иссиққона ичидаги ҳавонинг ҳажми м<sup>3</sup>;  $y$  – координата, м;

$D_m, L_m$  - иссиқлик аккумуляцияловчи қувурнинг диаметри ва узунлиги м;

$n_m$  - иссиқлик аккумуляцияловчи қувурларнинг сони, дона;

$w_m$  - иссиқлик аккумуляцияловчи қувурдаги ҳавонинг тезлиги, м/с;

$a_c, a_n$  - шишанинг ички ва ташқи юзаларидаги иссиқлик бериш коэффициентлари, Вт/м<sup>2</sup>;

$a_n, a_p$  - тупроқ ва ўсимлик барги тозаларидан иссиқлик бериш коэффициентлари, Вт/(м<sup>2</sup>·К);

$a_{cm}, a_{nct}$  - деворнинг ички ва ташқи юзаларидан иссиқлик бериш коэффициентлари, Вт/м<sup>2</sup>;

$\delta$  - тупроқ қатламнинг қалинлиги, м;


$\lambda_n$  - тупроқнинг иссиқлик ўтказувчанлик коэффициенти, Вт/(м<sup>2</sup>·К);

$\rho_v$  - ҳавонинг зичлиги, кг/м<sup>3</sup>;

$\tau$  - вақт, соат.

### Фойдаланилган адабиётлар:

1. Холлиев Б.Ч. Тепловой режим гелиосушилки-теплицы с водяным аккумулятором тепла. Автореферат канд. дисс. -Ашхабад, 1990. -С.23.
2. Ким В.Д., Хайриддинов Б.Э., Холлиев Б.Ч. Радиационные и метеорологические режимы Кашкадарьинской области. -Карши. СамГУ 2000. -С 73
3. Егизаров А.Г. Отопление и вентиляция зданий и сооружений сельскохозяйственных комплексов. -М.: Стройиздат 1981. -С.239.
4. Ким В.Д., Хайриддинов Б.Э., Холлиев Б.Ч. Естественно-конвективная сушка плодов в солнечных сушильных установках: практика и теория. -Т. Фан. 1999. -С. 378
5. Ратсерт У.Х. Испарение в атмосферу. Теория, история, приложения. -Л.: Гидрометиздат, 1985. -С 351.



РАСМ. Инноватция технологиялар асосида ишлатиладиган комбинациялаштирилган икки контурли ясси қўёш сув иситиш коллекторли қурилмасининг қўндаланг кесими

## O‘SMIRLARDA O‘Z-O‘ZIGA BO‘LGAN ISHONCH HISSINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

*G‘aybullayeva Dilnoza Muxammadjon qizi*

*Oila va xotin – qizlar ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti.*

O'smirlik davridagi rivojlanish va shaxsiy ishonchni shakllantirish jarayonini tushunish uchun o'smirlik davrining psixologik xususiyatlarini hisobga olish juda muhim hisoblanadi. O'smirlik "kattalik" ga o'tish davrini ifodalovchi barcha bolalik yoshlarining eng qiyin va murakkabidir. O'tish holatining asosiy mazmuni biologik ma'noda aniqlanadi, chunki bu balog'at yoshi bo'lib, unga parallel ravishda tananing barcha morfofunktsional tizimlari yetuklikka erishadi

O'smirlik ontogenezning «tanqidiy» davrlaridan biridir. Psixologik adabiyotlarda o'smirlik davrining tanqidiyligi (inqirozi) bilan bog'liq turli xil nazariy asoslar mavjud. Demak, masalan, chet ellik psixologlar S.Byuler va Z.Freyd o'smirlik inqirozining asosiy sababi sifatida "balog'at yoshi"ni hisoblaydilar [218; 228], E. Spranger - "bola qaramligidan xalos bo'lish" jarayoni [248], S. Xoll - "o'z-o'zini anglashning rivojlanishi" ko'rsatkichi, mahalliy psixologlar L.S. Vigotskiy, K.N. Polivanova, A.M. Parishionerlar va D.B. Elkonin "kattalikka bo'lgan ehtiyojning paydo bo'lishi asosida shaxsni sifat jihatidan qayta qurish" natijasidir deb hisoblaydilar.[1].

O'smirlik davri boshqa yosh davrlariga nisbatan qisqa vaqt ichida ko'plab o'zgarishlar ro'y beradi, ular ba'zan bolaning oldingi yosh xususiyatlarini "radikal tanaffus" xarakteriga ega ekanligini bilan belgilanadi. Bundan tashqari, ko'pchilik olimlar ushbu o'zgarishlar har bir o'smirning o'zini o'zi anglashning yangi darajasining paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lishi mumkinligiga, uning o'ziga xos xususiyati o'smirda o'z-o'zini bilish qobiliyati va ehtiyojining paydo bo'lishidir degan fikrni ilgari surishadi. O'smirlik davrini eng "qiyin", "o'tish davri" va "tanqidiy" deb belgilab, shuni ham ta'kidlash kerakki, bu yosh ontogenezning "sezgir" davrlaridan biridir. Yoshning sezgirligi, rus psixologi M.B. Kalashnikova, o'smirlarda shaxsiy rivojlanish uchun optimal imkoniyatlar va sharoitlar bilan tavsiflanadi. Buning asosiy sharti o'z-o'zini anglashning yangi darajasini shakllantirishdir [2]

Bizning fikrimizcha, o'z-o'zini anglashning o'smirning shaxsiy ishonchini rivojlantirish va shakllantirishga ta'siri masalasi hali ham kam o'rganilgan Budich asarlarida, A.M. Parishionerlar, E.A. Serebryakova va O.A. Fedosenko o'z-o'ziga bo'lgan ishonch hissi shaxsning o'zini o'zi anglashi bilan o'zaro bog'liqligini ta'kidladi, ammo o'smirlik bilan bog'liq bo'lganligi muhim ahamiyatga ega. Bunday savolni ochib berish uchun I.I.Chesnokovanning nazariy ishlanmalariga tayanib. Chesnokova, keling, o'z-o'zini anglashni shaxsning muhim "markaziy" shakllanishi sifatida ko'rib chiqaylik, uning tuzilishi uning uchta tarkibiy qismi - kognitiv ("o'zini o'zi bilish"), hissiy-qiyimatli va tartibga soluvchi ajralmas birlikda ifodalanadi. [3].

**Kognitiv komponent** ("o'z-o'zini bilish") "o'zini bilish jarayoni" o'zi haqidagi bilimlarning korrelyatsiyasi sodir bo'ladigan ramka mezoniga muvofiq o'tadi. Birinchi darajada, korrelyatsiya "men" va "boshqa shaxs" ni taqqoslash doirasida amalga oshiriladi, ya'ni inson asosan tashqi ta'sirlarga, shu jumladan o'zini boshqa odamlar bilan qiyosiy kontekstda tayanadi.

I.I.Chesnokovani fikricha, o'smirlik davrida, bu daraja o'smirning boshqa odamlarga va birinchi navbatda, eng yaqin tengdoshlariga bo'lgan kognitiv qiziqishida namoyon bo'ladi. Tengdoshiga bo'lgan qiziqish, u bilan muloqot qilish, uning fazilatlarini, xulq-atvori haqida o'ylash jarayonida chuqurlashadigan o'smirni o'ziga yaqinroq qarashga undaydi. U o'z xatti-harakatlarini tahlil qilishni boshlaydi, his-tuyg'ularini, qobiliyatlarini, xususiyatlarini va hokazolarni tushunishga harakat qiladi. [3].

Ikkinchi darajada, o'zi haqidagi bilimlar avtomuloqot jarayonida korrelyatsiya qilinadi, ya'ni. "Men va men" doirasida. O'smir "boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatda olingan tayyor bilim" dan foydalanib, o'zini o'zi bilish jarayonini amalga oshira boshlaydi. Bu bilish jarayonida u boshqa shaxsning bilishidagi kabi ketma-ketlikni saqlaydi, ya'ni. Birinchidan, sof tashqi,



jismoniy xususiyatlar, so'ngra har qanday faoliyat turlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fazilatlar va nihoyat, ichki dunyoning yashirin xususiyatlari sifatida shaxsiy fazilatlar ajratiladi

Bunday bilimlar jarayonida o'smirlar nafaqat ularning tashqi ko'rinishi, temperamenti va xarakterining xususiyatlari to'g'risida xulosa chiqaradilar, balki ularning shaxsiyatini yaxshilash yo'llarini ham belgilaydilar. Bunday yo'lning asosiy rolida, mahalliy psixolog V.G. Maralov, shaxsiy xususiyatlardan birining rivojlanishi, xususan, o'ziga bo'lgan ishonch hissi bo'lishi mumkin. O'z-o'ziga bo'lgan ishonch hissini rivojlantirish zarurati, muallifning fikricha, o'smirning boshqa odamlar bilan konstruktiv munosabatda bo'lish ehtiyojidan kelib chiqadi. Shu bilan birga, V.I. Slobodchikov va G.A. Tsukerman "aynan shu bosqichda inson birinchi marta o'z tarjimai holi, o'z imkoniyatlarining muallifi sifatida o'zini angelaydi, o'z kelajagi uchun shaxsiy javobgarlikni o'z zimmasiga oladi, boshqa odamlar bilan birga bo'lishda o'zini o'zi anglash chegaralarini aniqlaydi" [4].

Biroq, o'z-o'zini anglash nafaqat o'z-o'zini bilishni o'z ichiga oladi. O'z-o'zini anglashning har qanday harakati, o'z-o'zini bilishning birligini, u qanday shaklda paydo bo'lishidan va qanday darajada amalga oshirilganidan qat'i nazar, va bevosita ushbu jarayonga kiritilgan ma'lum bir tajribalar tizimini ifodalaydi. Ushbu tajribalar, o'z-o'zini anglashning hissiy va qadriyat komponentini tashkil qiladi.

O'z-o'zini anglashning **hissiy-qiymatli komponenti** tajribalar bilan bog'liq bo'lib, u shaxsning o'zi haqida o'rgangan, tushungan, "kashf qilgan" narsaga munosabatini aks ettiradi. O'smirlar o'zlarida ijobiy xususiyatlarni ko'rmaydilar va shunga mos ravishda ularning o'zidan noroziligi kuchayadi. Bu "o'ziga xos tajriba" sifatida o'smirning fe'l-atvori, tashqi ko'rinishi, tanasi va boshqalar haqidagi "o'zini tavsiflash"da aks etadi. O'z-o'zini anglashning o'ziga xos hissiy "fondini" shakllantiradi, buning asosida odamda o'ziga nisbatan ma'lum bir munosabat shakllanadi. Bu munosabat o'z-o'zini hurmat qilishning yuqori yoki past darajasida namoyon bo'ladi. Bunday o'z-o'zini hurmat qilishning o'ziga xosligi ko'plab psixologlar tomonidan o'rganilgan. O'smirlik bilan bog'liq holda, shunga o'xshash tadqiqotlar I.S. Kon, V.V. Stolin, M.R.Rosenberg va R.D.Simmonsning asarlarida o'smirlik davrida o'z-o'zini hurmat qilish past darajada namoyon bo'lishi qayd etilgan.

Xorij psixologlari M.R.Rosenberg va R.D.Simmons 8 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan 2000 ga yaqin bolalar va o'smirlarni tekshirgan Simmons 12 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan o'smirlarning o'zini o'zi qadrlash darajasi sezilarli darajada pasayganini aniqladi. Bu bolalar ayniqsa zaif va boshqalarning tanqidiga sezgir. Agar ular o'zlarida biron bir kamchilikni topsalar, boshqalarga qaraganda og'riqliroq munosabatda bo'lishadi va, qoida tariqasida, bu bolalar o'zlaridan qoniqmaydilar. Ushbu ma'lumotlarga asoslanib, mualliflar o'z-o'zini hurmat qilishning yuqori darajasi o'smirlik davrida shakllanishi kerak degan xulosaga kelishdi [5].

O'smirlik davrida o'z-o'zini hurmat qilishning yuqori darajasini shakllantirish zarurati, bizningcha, o'z-o'zini anglashning ushbu komponenti o'smirning shaxsiy ishonchini shakllantirish va rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatishi bilan ham bog'liq. Buning isboti sifatida L. Kale, R. Kulka va D. Klingel tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadi, o'z-o'zini hurmat qilish darajasi yuqori bo'lgan odamlar o'z guruhlarida yetakchilik qilishini va o'zini ishonchli his qilishini aniqladi. O'zini past baholaydigan odamlar ko'proq taklif qilishadi va o'zlariga shubha qilishadi. Xuddi shunday holat o'smirning o'zini o'zi qadrlashida ham kuzatiladi. Bu holda o'z-o'zini hurmat qilish o'z-o'zini anglashning kognitiv va hissiy-qiymatli komponentining etukligi ko'rsatkichidir. Shunday qilib, I.I. Chesnokova o'z-o'zini bilishning nomukammal shakllari, xususan, o'ziga nisbatan salbiy munosabat va o'zini o'zi qadrlashning past darajasi bilan o'smirda o'zini o'zi qadrlashning nomukammal shakllari ham shakllantirilishini isbotladi

Demak, o'zini-o'zi hurmat qilish o'smirda o'ziga bo'lgan ishonch hissining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shunday qilib, o'smirlarda o'zini o'zi qadrlashning haddan tashqari pastligi o'ziga nisbatan ishonchsizlikni shakllantiradi. Yuqori o'z-o'zini hurmat qilish, xususan, aksincha, o'ziga ishonchni shakllantiradi. Bundan kelib chiqadiki, o'smirning o'z-o'ziga bo'lgan ishonch hissini rivojlantirish va shakllantirish uchun "**o'zini-o'zi hurmat qilish**" zarur.

O'smirning o'z-o'ziga bo'lgan ishonch hissini rivojlantirish va shakllantirishda o'z-o'zini anglashning **hissiy-qadriyat komponentining** o'ziga xos xususiyatlarini aniqlagan holda, "o'zini o'zi qadrlash" kabi komponentlar ham o'z aksini topishini qo'shimcha qilish kerak.

**O'z-o'zini anglashning tartibga soluvchi komponenti.** Normativ komponentning o'ziga xos xususiyatlari, ushbu komponent umuman olganda o'z-o'zini anglashning etukligini ob'ektiv baholashga imkon beradi .

**Tartibga soluvchi komponent** "o'z-o'zini anglashning yaxlit jarayonining yakuniy bo'g'inidir". Ushbu komponent, Chesnokovning fikriga ko'ra, shaxsning xatti-harakatlarini o'zini o'zi boshqarishida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, muallif xulq-atvorni o'z-o'zini tartibga solishni "o'zini o'zi bilish va o'ziga nisbatan hissiy va qadriyatli munosabat natijalarining birligi" deb tushunadi.

O'smirlik davrida o'zini o'zi anglash xulq-atvorni boshqarish jarayoniga tobora ko'proq kiritila boshlaydi. Buning uchun asosiy ichki tutqich "o'z-o'zini hurmat qilish" bo'lib, u bir tomondan o'z-o'zini bilish sohasida, ikkinchi tomondan, hissiy-qiymat komponenti sohasida integratsiyalashgan ish natijasini tavsiflaydi .

Yuqorida qayd etilgan mualliflarning fikricha, o'z-o'zini rivojlantirishning eng muhim vositasi sifatida o'z-o'zini tarbiyalash birinchi navbatda aynan o'smirlik davrida kuzatish mumkin. U aqliy rivojlanishning tegishli darajasi va o'z-o'zini anglashning ma'lum jihatlarini - o'z-o'zini bilish, o'ziga nisbatan hissiy va qadriyat munosabati va o'zini o'zi tartibga solish bilan tayyorlanadi. Bunday psixologik tayyorgarlik fonida o'smirlar o'zlarini o'zgartirishga, o'zini yaxshilashga harakat qilmoqdalar. O'z-o'zini hurmat qiladigan va o'z qobiliyatlari haqida ijobiy fikrlarga ega bo'lgan o'smirlar odatda o'zini past baholaydigan o'smirlarga qaraganda ancha yaxshi o'qishadi deyish mumkin.

Ruvinskiy va A.E. Solovyova shuni ta'kidlab ko'rsatdiki, o'smirlarning 70% dan ortiq o'z-o'zini tarbiyalash bilan shug'ullanadi. Biroq, u sezilarli farqlarga ega bo'lishi mumkin. Bu ularning ideallarida yaqqol ko'rinadi. Aynan idealning mazmuni o'smirning o'z-o'zini tarbiyalash dasturi bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, idealni tanlash o'z-o'zini hurmat qilish xususiyatiga bog'liq. Agar o'z-o'zini hurmat qilish adekvat (to'g'ri) bo'lsa, tanlangan ideal yuqori talablar, o'zini o'zi tanqid qilish, o'z-o'ziga bo'lgan ishonch, qat'iyatlilik kabi fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi va o'zini o'zi qadrlash adekvat bo'lmagan (noto'g'ri), keyin noaniqlik yoki o'ziga haddan tashqari ishonch, tanqidsizlik va boshqa fazilatlar ham shakllanishi mumkin. [6].

Yuqorida aytilganlar o'smir o'zini o'zi hurmat qilish uning xatti-harakatlarini tartibga soluvchi bo'lib xizmat qiladi degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Bu hodisa asosan o'smirning ta'lim faoliyatidagi muvaffaqiyati, ijtimoiy mavqei va o'z-o'zini tarbiyalashda namoyon bo'ladi.

Mahalliy mualliflarning asarlarida shaxsning o'zini o'zi qadrlashi haqida xuddi shunday taxmin qilingan. Bizning nazariy tahlilimiz shuni ko'rsatadiki, bu holda o'z-o'zini hurmat qilishning tartibga soluvchi funktsiyasi, inson faoliyatidagi xatti-harakatlarning muvaffaqiyati to'g'risidagi ijtimoiy-psixologik xorijiy kontseptsiyalarga mos ravishda aniqlangan.

Shunday qilib, Kling, D.S. Hayda, S.D. Shovers va V.N. Busvellning tadqiqotlarida o'z-o'zini hurmat qilish darajasi yuqori bo'lgan odamlar o'z xatti-harakatlarida hal qiluvchi, muvaffaqiyatli va ishonchli ekanligini aniqladi. S.Xarter ishida o'z-o'zini hurmat qilish insonning faoliyatdagi maqsadlariga erishishning samarali jarayoni bilan birga kelishi isbotlangan. X Benzuraning tadqiqotida o'z-o'zini hurmat qilishning xatti-harakatlarga dosh berishning samarali strategiyalari bilan aloqasi o'rganildi. Xususan, muallif o'z-o'zini hurmat qilish va vaziyatni faol ravishda yengish yoki rejalashtirish o'rtasida ijobiy korrelyatsiyani aniqladi, shu bilan birga qochish strategiyasida salbiy korrelyatsiyalar kuzatildi. Bundan kelib chiqadiki, o'zini o'zi hurmat qilish, shaxsning faoliyatda o'z xatti-harakatlarini amalga oshirish muvaffaqiyatini belgilaydi. O'smirning shaxsiy ishonchini rivojlantirish, shuningdek, o'z-o'zini hurmat qilish va o'zini o'zi hurmat qilish o'zini o'zi anglashning tartibga soluvchi komponenti orqali namoyon bo'lishi mumkin. Shu munosabat bilan K.A.Abulxanova Slavskaya, E.A.Aronova, V.I.Morosanova va I.V.Plaxotnikovalar o'z-o'zini anglashning tartibga soluvchi komponentiga shaxsiy ishonchning rivojlanishi shaxsning o'zini o'zi boshqarish qobiliyati bilan bog'liqligini ta'kidladilar. Shu bilan birga, mualliflar o'z-o'zini tartibga solishni "individdning o'zgaruvchan hayot sharoitlariga

moslashishga, o'zini va xatti-harakatlarini boshqarishga, faoliyatining yo'nalishi va mazmunini o'zgartirishga imkon beradigan psixologik mexanizm" deb tushunishadi. Shaxs tomonidan o'z faoliyatini tartibga solishning faoliyatda amalga oshirilishini tahlil qilaylik. E.A. Aronova, V.I. Morosanova va I.V. Plaxotnikovaning so'zlariga ko'ra, shaxsning faoliyatdagi faoliyatini tartibga solish bo'yicha tadqiqotlar asosan o'rta maktab o'quvchilari va universitet talabalari tomonidan o'quv topshiriqlarini muvaffaqiyatli bajarishning hal qiluvchi omillarini o'rganish bilan bog'liq holda amalga oshirildi. O.A. Konopkina (1980), insonning ishonchini rivojlantirishda uning faoliyatini shaxs tomonidan tartibga solish "o'zini o'zi boshqarishning yaxlit tizimini shakllantirish" bilan bog'liq degan xulosaga keldi. Shu bilan birga, o'z-o'zini tartibga solish tizimi ostida mualliflar O.A. Konopkin "o'z-o'zini tartibga solishning yaxlit jarayonini keltirib chiqaradigan bir qator funktsional aloqalarning o'zaro ta'sirida amalga oshiriladigan yaxlit, yopiq tuzilmali, ochiq axborot tizimi" ni tushunadi. Bunday havolalar sifatida quyidagi komponentlar ko'rib chiqildi.

**1. Maqsadni rejalashtirish.** Bu bog'lanish asosida o'z-o'zini tartibga solishning butun jarayoni shakllanadi. Bu jarayon tizimni tashkil etuvchi funktsiyani bajaradi va u qabul qilgan maqsadga erishishda inson faoliyati va xatti-harakatlarining yo'nalishini ta'minlaydi.

**2. Muhim shartlar modeli.** Maqsadga muvaffaqiyatli erishish uchun ichki va tashqi sharoitlar to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettiradi va tartibga solish jarayonida ma'lumot manbai vazifasini bajaradi, buning asosida inson o'z maqsadiga erishishda o'z faoliyatini dasturlaydi.

**3. Harakatlarni bajarish dasturi.** O'z-o'zini tartibga solishning ushbu aloqasini anglagan holda, shaxs maqsadga erishish uchun ma'lum bir dastur yaratib, qurilishning tartibga solish funktsiyasini bajaradi. Bunday dastur axborot ta'limi bo'lib, shaxsning o'zi tomonidan "muhim" deb belgilangan sharoitlarda maqsadga erishishga qaratilgan.

**4. Natijalarni baholash va tuzatish.** Ushbu havola faoliyatning oraliq va yakuniy natijalarini baholash funktsiyasini bajaradi. Maqsadning umumiy shakllanishi, V.I. Morosanova ko'pincha odamning maqsadga erishishdagi faoliyatini aniq, "keskin yo'naltirilgan" tartibga solish uchun etarli emas va shuning uchun odam o'zining sub'ektiv tushunchasiga mos keladigan natijani baholash mezonlarini shakllantiradi.

**5. Haqiqiy natijalarni monitoring qilish va baholash.** Bu V.I. Morosovaning so'zlariga ko'ra, sub'ekt tomonidan qabul qilingan "muvaffaqiyat mezonlari" tizimiga nisbatan joriy va yakuniy natijalarni baholash funktsiyasini bajaradigan tartibga solish bo'g'ini. Morosanova, maxsus izohlarni talab qilmaydi. U dasturlashtirilgan faoliyat yo'nalishi, uning bosqichlari va yakuniy natijalari va ularga erishishning haqiqiy yo'nalishi o'rtasidagi kelishuv (yoki kelishmovchilik) darajasi haqida ma'lumot beradi.

**6. O'z-o'zini tartibga solish tizimini tuzatish bo'yicha qarorlar.** Ushbu funktsiyani amalga oshirishning o'ziga xosligi shundaki, agar bunday tuzatishning yakuniy (ko'pincha ko'rinadigan) momenti haqiqiy bajarilgan harakatlarni tuzatish bo'lsa, buning asosiy sababi tomonidan kiritilgan muvaffaqiyat mezonlarining o'zgarishi bo'lishi mumkin.

V.I. Morosanova va uning shogirdlari E.A. Aronova va I.V. Plaxotnikov tartibga solish jarayonining barcha bo'g'inlari axborot shakllanishi bo'lib, bir-biri bilan tizimli ravishda bog'langanligini va o'z mazmunli va funktsional aniqligini faqat o'z-o'zini tartibga solishning integral jarayoni tarkibida olishini aniqladi.

Shu bilan birga, amaliy faoliyatning turlarida, xususan, mashg'ulotlarda muvaffaqiyat insonning o'z-o'ziga bo'lgan ishonchi asosida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan yaxlit tartibga solish tizimining ishlashi bilan ta'minlanadi. Agar ushbu jarayonning biron bir funktsional aloqasini amalga oshirish etarli bo'lmasa, odam o'z faoliyatini amalga oshirishda noaniqlik va muvaffaqiyatning etishmasligini boshdan kechiradi [7].

Tizimning bunday shakllanishi nafaqat shaxs tomonidan faoliyatni amalga oshirishda, balki o'z-o'zini tartibga solishning individual uslubiy xususiyatlarida ham namoyon bo'ladi. Bunday holda, ular "odam uchun uning faoliyati va xatti-harakatining har xil turlarida barqaror ravishda namoyon bo'ladigan aqliy o'zini o'zi boshqarish tizimining xususiyatlariga xosdir". Bu xususiyatlar, V.I. Morosanova, inson o'z harakatlarini qanday rejalashtirishida, o'z maqsadlariga erishish uchun muhim bo'lgan shart-sharoitlarni qay darajada hisobga olishida, o'z harakatlarini

kuzatish, baholash va tuzatish jarayonlari qanday rivojlanishida, shuningdek, qanchalik mustaqilligida namoyon bo'ladi. , maqsadli, tashqi sharoitdagi o'zgarishlarni hisobga olishga qodir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, inson faoliyatdagi faoliyatini shaxs tomonidan tartibga solish o'zini o'zi boshqarishning yaxlit tizimini shakllantirish bilan bog'liq. Bunday yaxshi shakllanganlik individual uslub xususan, mustaqillik, moslashuvchanlik va barqarorlik kabi psixologik xususiyatlarda namoyon bo'ladi. Shaxs tomonidan uning faoliyatidagi faoliyatini tartibga solishni hisobga olgan holda, bizning fikrimizcha, o'smirning muloqotdagi faolligining namoyon bo'lishi masalasini alohida ta'kidlash kerak. O'smirlarning muloqotdagi faoliyatini tartibga solish odamlarning o'zaro munosabatlaridagi asosiy shart ekanligi aniqlandi. Bunday faoliyat o'smir uchun uning shaxsiyatining rivojlanishida harakatlantiruvchi muhim ahamiyatga ega. Shaxsning muloqotdagi faoligi shaxsning ishonchining mavjudligi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Chunki, o'ziga ishongan odam muloqotda faol, ishonchsiz odam esa passiv ekanligi isbotlangan. Bunday faoliyat, boshqa muallifga ko'ra - A.G.Gretsov, xulq-atvor belgilarida ham namoyon bo'ladi. O'ziga ishongan odam, muallifning fikricha, xotirjam ko'rinadi, o'zini vijorli tutadi. Uning ochiq ko'rinishi, hatto turishi, xotirjam va ishonchli ovozi bor. Ishonchsiz odam, aksincha, juda jim, uyatchan, yuradi, egilib, boshini pastga tushiradi. Muloqotda faoliyatning ahamiyatini aniqlab, biz bunday faoliyat turli yo'llar bilan namoyon bo'lishi mumkinligini ta'kidlaymiz. K.A.Abulxanova Slavskayaning ta'kidlashicha, bu nafaqat shaxsning muloqotida va faoliyatida, balki uning hayotiy pozitsiyasida ham namoyon bo'ladi - shaxs o'zining kundalik hayoti sharoitlarini qanday o'zgartirishi va hayot yo'nalishini boshqarishi. Uning asosiy sharti insonda ishonchning mavjudligidir. Afsuski, bu jihat o'smirlik davri misolida o'rganilmagan, ammo shunga qaramay, K.A.Abulxanova-Slavskaya, biz insonning hayotiy pozitsiyasi o'ziga ishonchga bog'liq deb taxmin qilishimiz mumkin.

Shunday qilib, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni ta'kidlash mumkin, o'smirlik barcha bolalik davrlari ichida eng qiyin va murakkab, bu ontogeneznning "o'tish", "tanqidiy" davridir. Bu yoshda o'z-o'zini anglashning yangi darajasi shakllanadi, buning asosida o'smirning shaxsiy ishonchining rivojlanishi sodir bo'ladi. Bu xususiyatni rivojlantirishda o'z-o'zini anglashning kognitiv, hissiy-qiyamatli va tartibga soluvchi komponentlari ishtirok etadi. Kognitiv komponent "o'zini bilish jarayoni" sifatida o'smirmga shaxsiyatini yaxshilash yo'llarini belgilashga imkon beradi. Ushbu usullardan biri o'ziga ishonchni rivojlantirish bo'lishi mumkin. Ishonchni rivojlantirish va shakllantirishda "o'z-o'zini bilish tajribasi" bilan bog'liq hissiy-qiyamat komponenti o'smirning o'zini o'zi qadrlash va o'zini o'zi qadrlash darajasini belgilaydi. "O'z-o'zini anglashning yaxlit jarayonining yakuniy bo'g'ini" sifatida tartibga soluvchi komponent o'smirning o'z faoliyatini tartibga solish qobiliyatidir. Bunday faoliyat faoliyatda, muloqotda va hayotiy pozitsiyani modellashtirishda namoyon bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Выготский, Л.С. Педология подростка: проблемы возраста [Текст] / Л.С. Выготский // Собрание сочинений: в 6 т.: т. 4. - М.: Педагогика, 1983.-С. 5-220.
2. Калашникова, М.Б. Проблема сензитивности подросткового возраста [Текст] / М.Б. Калашникова // Вестник НовГУ. - 1998. - № 6. - С. 79-83
3. Чеснокова, И.И. Проблема самосознания в психологии [Текст] / И.И. Чеснокова. - М.: Наука, 1977. - 144 с.
4. Слободчиков, В.И., Цукерман, Г.А. Интегральная периодизация общего психического развития [Текст] / В.И. Слободчиков, Г.А. Цукерман // Вопросы психологии. - 1996. - № 5. - С. 38-50.
5. Rosenberg, M.R., Simmons, R.G. Sex differences in the self-concept in adolescence [Text] / M.R. Rosenberg, R.G. Simmons // Sex Roles. - 1975. -Vol. 1,N 2.-P. 347-359
6. Рувинский, Л.И., Соловьева, А.Е. Психология самовоспитания [Текст] : учеб. пособие по спецкурсу для студентов пед. ин-тов / Л.И. Рувинский, А.Е. Соловьева. -М.: Просвещение, 1982. - 143 с.



## QISH OSMONI YULDUZLARGA TO‘LGAN CHOG‘DA

*G‘ulomova Zoxira*

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti*

*Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishining I-kurs talabasi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Normurod Norqobilovning hikoyasi tahlil qilinda. Asarda ba’zi so‘zlarning tavsifi va asar syujeti tahlil qilindi. Asar qahramonlarining ruhiy dunyosi ochib berildi.

**Kalit so‘zlar:** syujet, obraz, yovvoyi hayvonlar, ichkikechinma, ruhiy olam.

**Annotation:** This article analyzes the story of Normurad Norkobilov. The play analyzes the description of some words and the plot of the work. The spiritual world of the heroes of the work was revealed.

**Keywords:** plot, image, wild animals, intoxication, spiritual world.

**Kirish. (Introduction)** Badiiy asarning ta’sirchan, jozibali chiqishini ta’minlash uchun har bir ijodkor, albatta, badiiy to‘qimadan foydalanadi. Badiiy to‘qima obrazning ichki-tashqi qiyofasi, maqsad, intilishlarini namoyon etuvchi voqealarni o‘ylab topishdir. Badiiy to‘qima obrazning qiyofasini yorqin ettirganidek, asardagi voqealarning qiziqarliligini ta’minlaydi. Chunki badiiy to‘qima ijodkorga mavjud voqelikni aslidagidan ko‘ra keskinroq, shiddatliroq, qiziqarliroq ko‘rsatish imkonini beradi.<sup>91</sup> Hikoya janriga mansub asarlarda inson hayotidagi birgina voqea ma’lum qilinib, shu orqali uning ichki dunyosi, fe’l-atvori ochib beriladi. Uilyam Folkner: “Adabiy janrlar ichida eng og‘iri she’riyatdan keyin hikoyachilikdir... Romanda anchayin nuqsonlar, pala-partishlik sezilmasligi mumkindir. Buning uchun kitobxon yozuvchidan ranjimaydi. Lekin muxtasarlikda she’rdan keyingi o‘rinda turadigan hikoyada, fahmimcha, deyarli har bir so‘z o‘z o‘rnida qo‘llanishi kerak...” deydi<sup>92</sup>

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** “Ovul oralagan bo‘ri” Normurod Norqobilning bu hikoyasi qish fasli tasviri bilan boshlanib qish fasli tasviri bilan tugaydi. Chunki qish faslini qorsiz tassavvur qilib bolmaydi. Yozuvchi Normurod Norqobil ham hikoyada “Qish chillasida qorsiz dash ko‘zga juda hunuk ko‘rinadi” deya tarilaydi. Yovvoyi hayvonlar ham bunday ob-havoni yoqtirmaydi. Nima uchun bu hikoya yovvoyi hayvon aynan “bo‘ri” tasvirlangan, chunki mening fikrimcha bo‘rilar bir-biriga vuda vafodor bo‘ladi bu hikoyada ham berilgan va yana bo‘rilar har doim to‘da bolib yashaydi. Hatto bo‘rilar bolasini o‘g‘irlashsa o‘sha o‘g‘irlagan qishloqga hatto kunduzi ham borishga o‘zida jur‘at topadi. Bolasini qidirib qishloqni enka – tinkasini chiqarib yuborarmish deb tasvirlangan. Bo‘rilarning harakteri insonlarning harakteriga yaqin bo‘lgani uchun aynan shu hayvon tanlangan deb o‘yladim. Hikoyada olti marta “qish” so‘zi ishlatilgan. Hikoyada bosh qahramonlar cho‘nkalla, oqyol, chinoq va uruntumshuqlar hisoblanadi.

Cho‘nkalla- kuchli, zabardas, kallasini katta, zo‘r, katta degan ma’nolarni anglatadi. Haqiqatdan ham cho‘nkalla nomiga monand bo‘ri edi. Oqyol uning yonida xohlagan ishini qilar, xohlaganicha erkalar edi. Cho‘nkalla hikoyada “qoyaday mustahkam himoyachi” deb ham ta’riflanadi. Chinoq –qulog‘i kesilgan, yoki qulog‘i kertik. Sho‘x hayvonlarning bosili uchun yoshligida quloqlari kesiladi. Chinoq ham shunday sho‘x bo‘lgani uchun yozuvchi unga shunday nom beradi. Oqyolning kurakda turmaydigan qiliqlari ko‘p edi. Gardanidagi bir tutam oppoq tuki-yoli ham o‘sha betizgin qiliqlaridan birining samarasi. To‘dadagi bo‘rilar torgina o‘zanda salqinlanib yotishganda, u olisdagi suruvni qora tortadi. Maqsad noaniq tikraygan qoraga alaxsib, suruvga juda yaqin borganini sezmy qoladi. Yilning bu faslida bo‘ri zotining suruv bilan umuman ishi bolmasdi. Shuning uchun cho‘pon xotirjam, itlar esa yarim pinakda edi. U panada

<sup>91</sup> Abdulla Ulug‘ov Adabiyotshunoslik nazariyasi. 113b

<sup>92</sup> “Yoshlik” jurnali 1988 yil, 6-son, 42-bet



turib qo‘ylarni kuzatar ekan, bunda qon to to‘kish istagi paydo bo‘ladi va tevarakni o‘rganmay turib, hujumga o‘tadi. Oqibat o‘ljaga yetmay ulkan itning changaliga tushadi. O‘shanda u tasodifan omon qolar ekan gardanidan juda qattiq yaralangan edi. Keyinchalik o‘sh yaralangan joyidan oppoq tuk osib chiqadi. Shuning uchun mahalliy choponlar uni “Oqyol” deb ataydilar.

Hikoya boshlangandan to tugaguniga qadar undagi voqea hodisalar qishloq yani ovul hayoti bilan bog‘liq boladi. Yani Oqyolni Cho‘nkalladan arazlab ketib qolishi va Salom mergan qoygan tuzoqqa tushib o‘zini umriga o‘zi zomin bo‘ladi. Oqyolni qutqarmoq istagan Cho‘nkalla unga shunday bog‘lanib qolganki hatto kuppa-kunduz kuni ham qishloqqa borishga o‘zida jur‘at topadi. Buni ko‘rib qishloqdagilar ham hayron qoladi. Odatta bolasidan ayrilgan bo‘rilar qishloqqa kunduzi kelishga botina olardi, Chonkallaning jufti orqasidan kelishi qishloqdagilarni hayratda qoldiradi. “Ovul” hikoyada bekorga tanlanmagan chunki qadimda ovul deb bir-biriga qadirdon, qon-qarindosh bo‘lgan insonlar yashaydigan joyni aytishgan. Ular bir-biri bilan qarindosh-urug‘ bo‘lishgan. Bo‘rilar ham o‘zlarini to‘da-to‘da bo‘lib yashashgan. Ular o‘zlarini to‘dasiga begonani kiritmaydi. Yozuvchi fikrimcha ovul hayotini bo‘rilar hayoti bilan bog‘lagan. Yani ovulda ham qon-qarindoshlik begonalar bo‘lmagan, bo‘rilar to‘dasida ham qon-qarindoshlik begona bo‘rini to‘dasiga kiritmagan. Yozuvchi shuning uchun ham aynan “Ovul” so‘zini tanlagan. Hikoyada keltirilgan “aroq” so‘zi hikoyada asosiy ro‘l o‘ynagan deb o‘yladim, chunki shu aroqning o‘tkir hidi Cho‘nkallaning dimog‘iga o‘rnashib qoladi va uning hujumkor shashtini ancha tushiradi. Yozuvchi “Agar dimog‘ini kuydira yotgan aroq hidi bo‘lmaganda ham bo‘lmaganda, yo‘lga to‘g‘anoq bo‘lib turgan g‘animni tinchitish uning uchun bir soniyalik yumush edi” deb yozadi. Agar shu detal hikoyaga kiritilmaganda hikoya boshqacha yakun topgan bo‘lardi balkim. Yozuvchi hikoyani yoza yotganda har bir detalni o‘z o‘rnida qo‘llagan, unga alohida e‘tibor bergan. “Salom mergan miltiqni qiya tutgancha jondorga yaqinlashar ekan unga ancha yetmay to‘xtadi. Yerdan tosh olib otdi. Yirtqichning tumshug‘i tagiga borib tushdi. U o‘sha-o‘sha “muzlab” yotaverdi. Salom mergan va nihoyat uning tepasiga bordi. Tanida o‘q izini ilg‘amagach, bosh tomoniga o‘tdi. Jonivorning qishloqqa tikilgan ko‘zlarida yosh qotib qolgandi”. Bu misralarni yozuvchi shunday mahorat bilan tasvirlaganki, uni o‘qigan inson benihoya o‘zini o‘sha olamda jondorning yonida tasavvur qiladi. O‘zini shu olamga tushib qolgandek his qiladi. Mahbub asining ishqida, uning bu olamda, yonida yo‘qligini his qilib yuragi bunday judolikka bardosh bera olmaydi. Ayniqsa uning ko‘zlarida qishloqqa yani mahbubasi Oqyol abadiy uyquga ketgan tomonga qaragancha bu hayotdan ko‘z yumadi. Hayvonlarda ham insonlarnikidan kuchliroq muhabbat borligiga ishonchimizni yanada oshiradi. Buni ovchi Salom mergan ham anglab yetadi. Shuning uchun ham Cho‘nkalla yonginasida bo‘lsada unga o‘q uzmaydi. Uni o‘lishini hohlamaydi.

Yozuvchi Cho‘nkallaning o‘liniga nisbatan jonsiz, harakatsiz, o‘lib so‘zlarini ishlatmay muzlab yotardi deb tariff beradi. Chunki bunda birinchidan qish fasli bo‘lgani uchun muzlamoq fe‘lini ishlatgan va yana u hayotida Oqyol bo‘lmagani uchun uni yo‘qotib, usiz bu hayotda ba misoli muzlab qoldi. Buni uch tomonlama tahlil qilsak.

Muzlamoq :

1. Hikoya asosan qish faslida bo‘lganligi uchun o‘limini qish faslida ifodalaydi. Ya‘ni sovuqdan muzlab qoldi.
2. Asarning badiiy bo‘yoqdorligini oshirish uchun “o‘ldi” so‘zini o‘rniga “muzlamoq” so‘zini ishlatgan.
3. Bu ikki tomonlama (simmetrik) ma‘no anglatadigan so‘z
  1. Hayvonni jon taslim qilishidan muzlashi.
  2. Salom merganni hayvonning holatini ko‘rib ko‘nglining muzlashi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Normurod Norqobul “Ovul oralagan bo‘ri”
2. Abdulla Ulug‘ov Adabiyotshunoslik nazariyasi. “G‘ofir G‘ulom nomidagi nashiriyot” 2017.
3. “Yoshlik” jurnali 1988 yil, 6-son, 42-bet.

## ISHTIXON TUMANIDA ZIYORAT TURIZIMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

*G'uzorov Bekmuhammad Ulash o'g'li*

*Nematov Behro'z Akrom o'g'li*

*Samarqand davlat universiteti Geografiya va ekologiya fakulteti talabalari.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ishtixon tumanida ziyorat turizimini yanada rivojlantirish borasida olib borilishi kerak bo'lgan ishlar ularning amaliy ahamiyati hamda kelajak istiqbollari haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** turizm, turizm bozori, ziyorat turizmi, masjid, turistik mashrut.

Turizm (sayohat) ijtimoiy tarbiyaviy xususiyatlarga ega bo'lgan nazariy va amaliy fandır. U o'zining ijtimoiy tizimlar bilan bog'liq bo'lgan o'z tarixi hamda rivojlanish jarayoniga ega. Turizm umumiy ma'noda sayr-sayohatlar sarguzashtlarni ifoda etadi. Shu sababdan ular ijtimoiy turmush va mehnat jarayonlaridan tarkib topadi.

Mamlakatimizda turizm bozorining turli yo'nalishlariga yo'naltirilgan turizm mahsuloti va xizmatlarini diversifikatsiya qilish, ularning raqobatbardoshligini yanada oshirish, turizm mahsulotlarini keng targ'ib qilish, shuningdek mamlakatimizning sayohat va dam olish uchun xavfsiz manzil sifatidagi imijini mustahkamlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24 fevral 2021 yildagi "Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarorida muvofiqlashtirish kengashining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

- O'zbekistonning ziyorat turizmi salohiyatini to'liq o'rganish, ma'lumotlarni tizimlashtirish, ziyoratgohlar, ulamolar va ularning ilmiy merosi haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlarni shakllantirish;
- Gidlar va ekskursiya yetakchilarining ekskursiya materiallari uchun sifatli materiallar shakllantirilishini muvofiqlashtirish;

Ushbu tadqiqot ishimiz qisman bo'lsada mazkur me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda xizmat qiladi.

Bugungi kunda yurtimizda yuzlab tarixiy-madaniy obidalar ziyoratgohlar sifatida saqlanib kelinayotganligi quvonarli holdir. Bu kabi ziyoratgohlar bugun nafaqat yurtimiz, balki butun dunyo musulmolarning muqaddas qadamjolari hisoblanadi.

Ziyorat – xudoyuy kichilarning muqaddas joylarga sig'inishga intilish, muqaddaslik orqali Xudoga iltijo qilish, idroki va qalbini tinchlantirish, muqaddaslik haqiqatini tushunish, xoli bo'lish va poklanish yo'lini ochish imkoniyati.

Ziyorat turizmining asosiy maqsadi muqaddas joylarning tarixi, tarixiy voqealar yoki mashhur tarixiy va afsonaviy shaxslar, aziz-avliyolarning nomi bilan bog'liq joylarni borib ko'rish va aziz-avliyolarning hayoti, me'morchilik yodgorliklari, diniy obidalar san'ati bilan tanishishdan iborat. Ayrim hollarda tabiiy obyektlar (suv havzalari, g'orlar, tog'lar, daraxtzorlar va b.) ham ziyorat turizmining obyektlari bo'lishi mumkin

Yuqoridagi qaror ijrosini taminlash borasida tumanimizda ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bevosita tuman tarixiga nazar tashlaydigan bo'sak u Zarafshon vodiysidagi qadimgi shahar bo'lib, Oqdaryo va Qoradaryo oralig'idagi Miyonqol orolida joylashgan hisoblanadi. Barpo bo'lgan yili noma'lum, ilk feodalizm davrida mustaqil hokimlik markazi bo'lgan. Keyinchalik So'g'diyona tarkibiga kirgan. Samarqand arablar tomonidan bosib olingach so'g'd Ishxitarlari, Ishtixonga kelib uni poytaxt qilgan. Aynan "Ishtixon" nomi ham "Ishxithon" so'zidan kelib chiqqan. X asrda Ishtixon qa'la, shahriston va rabotdan iborat katta shahar bo'lgan. Tumanning o'zi 1943 yil 18 mayda tashkil topgan. Shaharning qadimiyligi qolaversa tabiiy geografik o'rnining qulayligi hudduda bevosita turizmning yangi tarmog'i hisoblanmish Ziyorat turizimini rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Fikirimizni tuman miqyosidagi ziyoratgohlar misolida davom ettiradigan bo'lsak, tumanda ziyorat turizmini rivojlantirishdan ko'zlangan asosiy maqsad, qadimgi va hozirgi zamon obidalarini bilan yurtdoshlarimizni tanishtirish va ular haqida yetarlicha ma'lumotlarga ega bo'lishdir. Ya'ni tuman hududdagi ziyoratgohlarni turistik obyekt sifatida yuqori cho'qqiga olib chiqish.

Hozirgi vaqtda Ishtixon tumanida 11 ta jome masjidlari bor ular quyidagilar:

- ❖ Ishtixon jome masjidi
- ❖ Shayx Burxoniddin jome masjidi
- ❖ Zarband jome masjidi
- ❖ Qalandar Xo'ja jome masjidi
- ❖ Boylota jome masjidi
- ❖ Oqqo'rg'on jome masjidi
- ❖ Orlot (eski Muhojirlar) jome masjidi
- ❖ Sufiy Alloyor jome masjidi
- ❖ Polvon Ota jome masjidi
- ❖ Dehqonobod jome masjidi
- ❖ Sug'ot jome masjidi

Ishtixon tumanida ziyorat turizmini rivojlantirish uchun hozirda yetarli darajada ishlar olib borilmoqda. Misol tariqasida, Polvon Ota jome masjidi ya'ni, Polvon Ota ziyoratgohi, qadamjo hisoblanadi. U Ishtixon tumanining Mitan qo'rg'onida joylashgan. Masjidning shimol tarafida "Polvon Ota" (Ahmad Zamjiy) maqbarasi joylashgan. Maqbara eskidan mavjud bo'lib oldingi holati kichik, ikki binodan iborat, chilla xona va maqbaradan iborat. Bu imorat ham 2001-2002 yillarda buzilgan, keyin pishiq g'ishtdan yorug' va ko'rkam qilib qayta qurildi. E'tiborlisi masjidning o'zida "Polvoni Ahmad Zamjiy daftari soniy" nomli eski o'zbek yozuvidagi kitob saqlanib, unda asosan jang nima voqealari bayon etilgan. Ahmad Zamjiy, Hazrati Aliyning o'g'li Muhammad Hanafiyning nabirasi bo'lgan. Abu Muslim Qutaybi bilan zamondosh bo'lib, janglarda yelkadosh bo'lgani aytiladi. Qabri Mitan qo'rg'onidan tashqari Xiyvada ham borligi, Ahmad Abdol deb atalishi rivoyat qilinadi. Vafotidan so'ng jasadi turli shahar shohlari tomonidan talash bo'lganligi uchun vasiyatiga binoan 7 dona tobut yasatilib yetti tomonga berib yuborilganli va tobut ochilganda hammasida jasadlari borligi haqida mahalliy xalq orasida turli rivoyatlar mavjud. Hozirgi kunda ziyoratgoh hududida rekonstruksiya ishlari olib borilmoqda. Masjid kengaytirilib endilikda 2500 kishini o'z bag'riga sig'ira oladi.

Tumandagi yana bir masjid "Orlot" muhojirlar jome masjididir. U Orlot M.F.Y Orlot qishlog'ida joylashgan maydoni 10 gektarga teng. Masjid to'liq mahalliy aholi tomonidan hashar yo'li bilan 1992-1995 yillarda qurilgan, keyinchalik masjidga marhum muftiy hazratlari Usmonxon Alimov O'zbekiston musulmonlar idorasining raisi (2006-2021) boshchiligidagi bir qator asli Samarqandlik bo'lgan Saudiya Arabistonida yashovchi o'zbek Umar Samarqandiy va boshqa Saudiya Arabistonida yashovchi vatandoshlarimiz homiylik qilish natijasida masjid viloyatda ko'zga ko'ringan majmuaga aylandi. Etiborlisi marhum muftiy hazratlari shu joyga dafn etilgan. Bu esa hududga tashrif buyuruvchilarning sonini oshishiga olib keladi. Masjidda bir vaqtning o'zida 2500 kishi ibodat qilish imkoniyatga ega.

Xulosa o'rnida shuni aytadigan bo'lsak, ziyorat turizmini rivojlantirish tuman miqyosidagi ziyoratgohlarni respublika miqyosiga olib chiqishdir. Tuman hududidagi ziyoratgohlarni mashrutini tuzish tumanning turistik salohiyatini kelajakda rivojlanishiga uning geografik o'ri ham qulayligidir. Samarqand shahri, Imom Al-Buxoriy, Polvon Ota, Nurota ziyoratgohlari o'rtasida turistik mashrutni tashkil qilish kelajakda bu mashrutlarning imkoniyatini yuksak darajaga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Respublika shuningdek viloyatlar miqyosida ham ziyorat turizmini yanada rivojlantirish uchun sayyohlik infratuzilmasi obyektlariga qaratigan ustuvor investitsiya loyihalarini amalga oshirish, tarixiy obidalarni zamon talablari asosida rekonstruksiya qilish bu soha taraqqiyotida ijobiy natijalar beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullayev S.I. Muqumova H.I. Ziyorat turizmi, uning xususiyatlari va funksiyalari. O'zbekistonni top o'n turistik hududlar qatoriga kiritish istiqbollari: barqaror rivojlanish imkoniyatlari mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. -Buxoro, 2020. -B.94
2. Gumetov F. Allabergenov A. Turizm geografiyasi -Toshkent, Talqin, 2004, Mirzayev M. Aliyeva M. Turizm asoslari -Toshkent, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2011, 287 b.
4. Tulenova X. Turizm. -Toshkent, Iqtisod-moliya, 2016. 143 b.
5. Xoldarov T. Turizm -Toshkent, 2006, 81 b.
6. G'uzorov B. Samarqand viloyatida turizmning bugungi holati va kelajak istiqbollari. O'zbekistonni top o'n turistik hududlar qatoriga kiritish istiqbollari: Barqaror rivojlanish imkoniyatlari mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami, -Buxoro, 2020, -B. 30-31.

## RAUF PARFI SHE'RIYATIDA OKSYUMORONLARNING USLUBIY-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

*Gopirova Xurshida To'liqinjonovna*  
*Farg'ona davlat universiteti magistranti.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Rauf Parfi she'riyatidagi oksyumoronlarning uslubiy-semantik xususiyatlari tahlil ostiga olingan.

**Kalit so'zlar:** oksyumoron, modernizm, g'ayriodatiy birikmalar, nazm, estetika, intonatsiya, individuallik, aniqlovchi, aniqlanmish, leksik ma'no, stilistika, ohang, mantiqsizlik.

Hammamizga ma'lumki, she'riyat ko'ngil mulki. Uning ranglari, ohangi inson dil torlarini chertadi. She'ning shakli qisqa bo'lsada, o'zida olam-olam ma'nolarni yashib keladi. Rauf Parfi mana shunday ma'nolarni o'zining ijodidagi barcha she'rlariga jo etganlardan. Rauf Parfi o'zbek she'riyati va adabiyotiga boshqa ijodkorlarga o'xshamagan o'zining modernistik(zamonaviy) uslubi bilan kirib keldi. Uning lirikasida inson ruhining nafis va teran istioraviy tahlilini ko'rishimiz bilan birga so'zlardan noodatiy tarzda foydalanish holatlarini ham kuzatdik. Bu esa nafaqat adabiyotimizga, bilaks tilshunosligimizning ravnaqiga ham o'z hissasini munosib qo'shishiga olib keldi. Badiiy matnning sintaktik xususiyatlarini o'rganishimiz chog'ida oksyumoron deb ataluvchi hodisani uchratamiz.

**Oksyumoron** – grekcha so'z bo'lib, “o'tkir lekin bema'ni” degan ma'noni bildiradi. Oksyumoron ba'zi adabiyotlarda “okkozional birikmalar”, “noodatiy bog'lamalar” hamda “g'ayriodatiy birikmalar” deb ham yuritiladi. [ 1,39 ]

“So'z estetikasi” X. Abdurahmonov va N. Mahmudovlar shunday yozadi: “Ayrim hollarda ma'nolari bir-biriga mutlaqo zid bo'lgan so'zlarni o'zaro bog'lash bilan g'ayriodatiy birikmalar hosil qilinadi. Bunda birikma juda yuqori ekspressivlik va emotsionallik kasb etadi, kuchli emfatik intonatsiyaga ega bo'ladi. Adabiyotshunoslikda bu oksyumoron nomi bilan yuritiladi.

Lov-lov yonayotir quyosh ul najot,

Osmon chorlayotir, chorlar yuksak tog'.

Shunday yuragimda **tovushsiz faryod**,

Men senga inonmoq istayman, evoh...

parchasidagi *tovushsiz faryod* birikmasi, ko'rinib turibdi, g'ayri odatiydir. Chunki bu so'zlarning ma'nolari bir-biriga zid, ya'ni *faryod* so'zi me'yoridan ortiq ovoz bilan nola qilishni bildirgani holda, *tovushsiz* so'zi unga aniqlovchi qilib qo'llangan. Ana shuning hisobiga lirik qahramonning murakkab hissiy holatiga emfatik intonatsiya berilgan, birikma kuchli emotsionallikni ifodalovchi asosiy vositalardan biriga aylangan".[ 1,43 ]

Bunday birikmalar yangiligi, individualligi, ko'nikilmaganligi va ohorliligi bilan tasvirning ifodaliligini ta'minlaydi. Ba'zan bunday noodatiy birikmalarni antitezaning bir ko'rinishi sifatida baholashadi. Lekin bu ikki tushuncha bir-biridan tubdan farq qiladi. Antitezada zid ma'nodagi ikki so'z bir-biriga qarama-qarshi qo'yilsa, oksyumoronda mazmun jihatidan zid tushunchalarni ifodalovchi so'zlar ajralmas birlikni hosil qilib keladi. Ular ko'proq anqilovchi – aniqlanmish munosabatida bo'ladi. Bu birikmaning shakl tomonidan ko'rinishi asosan, sifat+ot ko'rinishida bo'ladi. Masalan, Rauf Parfidan shirin o'lim, g'arib baxtiyorlik, aqlli tentak, soqolli ko'sa, telba g'arib. G'ayriodatiylik kasb etgan oksyumoron odatiy ikki so'zning birlashtirilishi bilan yuzaga chiqavermaydi. Ijodkorning badiiy tafakkuri mahsuli sifatida noodatiy birikmalar hosil bo'ladi. Shu sababli ham mantiqsizlik bilan bog'langan g'ayriodatiy birikmalarni oksyumoron deya olmaymiz. Odatiy bo'lmagan birikmalar o'zlarining “yangiligi”, individualligi va ayni g'ayriodatiyligi bilan tezda diqqatni o'ziga tortadi. Kitobxon beixtiyor bunday birikmalar ustida o'ylay boshlaydi, natijada, ijodkorning niyatiga chuqurroq tushunadi. Shuning uchun ham odatiy birikmalarga qaraganda, g'ayriodatiy birikmalar badiiylik nuqtai nazaridan ko'proq ahamiyatlidir. [1,39 ]



Demak, Oksimoron yoki oksyumoron stilistik figura, mantiqan tamomila zid tushunchalardan hosil bo'lgan sintaktik birlik. Oksyumoron ijodkorimiz lirikasida eng ko'p uchraydigan noodatiy birikmalarning eng faolidir. Bu stilistik birlik real voqea – hodisa yoki obraz tasviriga emotsionallik berish uchun xizmat qiladi. Rauf Parfi ijodida bunday zid tushunchalarni bir nechtasini ko'rib chiqamiz:

Buncha g'arib bo'lmasa bu koshona?

Buncha **hunuk bu go'zal xonim?**

Nechun hech kim axlatga otmas?

Ijodkor *g'arib koshona* deya nahsga bosgan xona(islovotxona)ni nazarga tutgan holda "Buncha hunuk bu go'zal xonim" – oksyumoronini axlat, go'ng, bulg'oq ichida ungan gul fojiasi holatini yoritishda ifodalab kelgan. Shoir noodatiy birikmani qo'llash bilan juda yuqori ekspressivlik va emotsionallikka erishgan.

Hech narsa yupatmas shoir, hech narsa,

**G'arib baxtiyorlik** endi yupatar.

Yulib vujudimni titib axtarsam

Dunyoviy alamning toshlari yotar.

Bandagi "G'arib baxtiyorlik" – oksyumoron. She'rdagi emotsional bo'yoqdorlik kuchli ta'sirga ega. "g'arib" – so'zi kambag'al, qashshoq, faqir bechora ifoda semalariga ega bo'lib, salbiy bo'yoqdorlikka ega. [ 4,437] Bu so'z asosiy mantiqiy ma'nosini yo'qotib, ijobiy ma'noni kuchaytirish uchun xizmat qilmoqda. Salbiy ma'no berishiga qaramay bu so'z sifatlash ta'sirida *baxtiyorlik(o'z hayotidan mamnunlik, soadatmandlik)* so'zining ijobiy bo'yoqni kuchliroq oshirishga xizmat qilmoqda.

Qorlariga qorishdi osmon,

Elay ketdi nurli changini.

Qaydan olsin bechora rassom,

Bunday **ma'yus sevinch** rangin.[ 2,80 ]

"Ma'yus sevinch" oksyumoron. Bir-biriga zid tushunchalarni bildiruvchi bu ikki so'z birgalikda ta'sirchanlik quvvati ostida oksyumoronning go'zal ko'rinishini tashkil etgan. She'ning ma'noviy quvvatiga ta'sirchanlik hissini kiritgan. Ma'yus – so'zi umidsizlangan, ruhi tushgan ma'nolarini bildirib, bu leksemada "*noumid, tushkun holatli*" semalarini ifodalaydi;[4,568] salbiy uslubiy bo'yoqqa ega so'z. Sevinch – xusandlik, shodlik his-tuyg'ularini ifodalaydi;[4,471] ijobiy uslubiy bo'yoqqa ega. Bu ikkisi birgalikda mantiqiy bog'langan holda she'ning go'zal ma'nosiga putur yetkazmay, balki uni jozibasini oshirishda ko'mak berib kelmoqda. Ma'yus sevinch oksyumoroni birlashib, aniqlovchili birikmani hosil qilmoqda desak, yanglishmaymiz.

Maqtov kimga yoqmas, ko'ngling to'ldirir,

Maqtov – **shirin og'u, shirin – o'ldirar.**

Rauf Parfi ikki misralik ushbu she'rida odatiy bo'lmagan birikmalarni qo'llab individual uslub holatini ifodalash bilan birga noodatiy ma'noni yuzaga chiqarga. So'zlashuv uslubiga xos bo'lgan *shirin* so'zining ma'no ottenkasi – (mazali, totli; shakarli; yoqimli) degani bo'lib ijobiy bo'yoqdorlikka egadir. Bunga zid ma'noda g'ayriodatir birikma hosil qilgan so'z *og'u* esa badiiy uslubda ko'p qo'llanilib, zahar, achchiq kabi ifoda semalarini bildiradi. Salbiy bo'yoqqa ega bo'lgan bu so'z bir- biriga teskari ma'nolarni ifodalagan holda oksyumoronning go'zal ko'rinishini ifodalagan. Aslida, so'z ma'nolari nomuofiqligi va zidligi bois ular o'zaro bir-biriga bog'lanmasligi mumkin. Masalan, fojiali o'lim bog'lamasi mantiqan to'g'ri keladi, lekin shirin o'lim bog'lamasi mantiqan noto'g'ri. O'g'uning shirini bo'lmaganidek, o'limning ham bunday bo'lmaydi. Umuman, ijodkorimiz mantiqqa noto'g'ri bo'lgan bunday bog'lamalarni she'riyatida ko'plab qo'llaydi.

Hasratimning

**Suyuq toshlaridan**,

Daxma qurmoqchiman

O'zimga.

Ichida o'z jasadim bo'lsin.

Yoki:

Qaldiratar temirlarini, dengiz –

**Bu og‘uli, suyuq osmon.**

Mazkur she‘rda “suyuq tosh” birikmasi zidlik ma‘nosi bilan ifodalanib oksyumoronni tashkil etmoqda. Suyuq va tosh so‘zlari bir biridan ancha uzoqda bo‘lgan tushunchalarni ifodalaydi. Bu tushuncha nutqimizda kam hollarda uchraydi. Ularni alohida-alohida olib ko‘rsak, antonimlikni hosil qilmaydi. Negaki, tosh – yaxlit massa yoki bo‘lak-bo‘lak holda uchraydigan, qattiq jism. Suyuq – oqish va o‘zi ishg‘ol qilib turgan idish shaklini olish xususiyatiga ega bo‘lgan, suyuq jism. Bir-biriga mutlaq teskari ma‘no anglatuvchi ikki so‘zni mazmunan bir birikmada bog‘lashdek ishni oksyumorongina bajara oladi. Lekin u she‘rning estetik go‘zalligiga zarracha ham salbiy ta‘sir ko‘rsatmaydi. Aksincha, ijodkorning mahorati bunga yo‘l bermagan holda ikki zid tushunchani birga bog‘lab noodatiy birikmani yuzaga chiqaradi. Toshning qattig‘i, kattasi, kichigi bo‘ladi-yu, lekin suyuq bo‘lmaydi. Osmon esa movviy, go‘zal bo‘lishi mumkin, lekin suyuq bo‘lmaydi. *Og‘uli osmon* ham oksyumoron. Shoir bu okkozional bog‘lamalar orqali she‘rlarida individuallik, o‘ziga xoslik kabi yangi ohori to‘kilmagan, tesha tegmagan ma‘nolarni yaratadi.

Uyg‘on, ey malagim, tur, o‘rningdan tur,

**Otashin muzlarda** isinaylik, yur.

**Yong‘inli daryoda** quloch ota

Bu yerdan ketaylik, faqat ketaylik.[5,661]

Rauf Parfi tuyg‘ular dunyosida yashaydi. U so‘zlarda ma‘no istab emas, shunchaki uni ichida yashab yozadi. Oksyumoron birikmalar ham shu tufayli she‘rlarida tug‘iladi. Shoirning “Uyg‘on, ey malagim” she‘rida kelgan oksyumoronlarga e‘tibor beradigan bo‘lsak, ularning g‘ayriodatiy ma‘nolarini, tasvir ifodalarini ko‘ramiz.

*Otashin* – leksemasi “alangali, qalb harorati ila isitilgan, jo‘shqin”[4,154] kabi ma‘nolarni ifodalaydi. Ko‘proq badiiy uslubda ishlatiladigan bu so‘z ijobiy bo‘yoqqa ega.

**Otashin** leksemasi *issiq* semasida anglashiladi. Bunga zid ma‘noda “muz” leksemasi yuqoridagi boblarimizda keltirganimizdek, suvning nol holatdagi so‘vishi, yaxlagani tushuniladi. Ya‘ni *muz* leksemasidan *sovuq* semasi anglashiladi. Rauf Parfi mana shu so‘zlarning leksik ma‘nolaridan kelib chiqib, o‘zaro ma‘nolari zid bo‘lgan so‘zlarni qo‘llab oksyumoronni yuzaga chiqaradi. Aniqki, muzda isinib bo‘lmaydi. Bu qo‘llanish she‘rning ta‘sirchanligini oshiradi.

Yong‘inli daryoda – oksyumoron. Inson tasavvur dunyosi juda keng. Lekin daryoning yong‘inli bo‘lishini insonning tasavvur dunyosiga joylab bo‘lmaydi. Bu mantiqqa to‘g‘ri kelmaydigan holat. Daryo – bu kenglik, suvlik joy. Suv manbai desak ham bo‘ladi. Yong‘in esa olov demakdir. Suv va olov bir-birini inkor etadigan narsalardir. Antonimlik holatidagi bu so‘zlarni shoir bir joyda birlashtirib badiiylik hosil qilgan, natijada esa g‘ayriodatiy birikma, oksyumoron hosil bo‘lgan. Ijodkorimiz lirikasidagi bunday ko‘rinishlarni uning ko‘pgina she‘rlari misolida ko‘rishimiz mumkin. Uning she‘rlarida *o‘lim ojizdir, hayol telba, devorlar saqov, yoshlar qonli, o‘lim yig‘laydi, fontan g‘amli, lomokon so‘qir, yuraklar sovuq, g‘aribi telba, sevgisi o‘jar, o‘limi shirin, og‘usi shirin, bog‘lari g‘arib, dunyosi mozor, baxti g‘arib, tovushi qonli, sukunati baqiradi, jallodi qahramon, yosh shoiri ko‘hna, og‘rig‘i buyuk, tovushi quvg‘in, ovozi sinadi, osmoni, yulduzi sinadi, hayot dovdur, tog‘lari hayqiradi, shamoli junjikadi, karvoni alam ortadi* vahokazo. Shoir she‘rlarida man shunday oksyumoronlardan foydalanadi.

Dedi: “Chindan-da shoyoni- taassuf so‘zlari bor, yo –

Xalos etmishmi zillat kunlaridan qavmini Muso?

“**Tirik mayitlar**”ni, oyo, tiriltirmish bo‘ldimi Iso?

Muhabbat ruhi ila etdimi o‘liklarni ehyo?”

So‘z qo‘llashda mahoratli bo‘lgan Rauf Parfi she‘ridagi oksyumoron she‘rning emotsional ta‘sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. “Tirik mayit” oksyumoron. Bu ikki so‘zni alohida alohida olib qaraganimizda bir-biriga antonim tushunchalarni ifodalaydi. Tirik – leksemasi o‘lmagan, hali yashab turgan; hayot, barhayot semalarini ifodalab keladi.[ 4,109] Mayit

leksemasida esa hayotiy harakatdan to‘xtagan, o‘lgan jism ifodasi anglashiladi. Ko‘rinib turganidek noodatiy bog‘lanishdan yuzaga kelgan “tirik mayit” oksyumoroni individual, ohorliligi bilan ajralib turadi. Rauf Parfi turli so‘zlarni mana shunday noodatiy tarzda bog‘laydi. Natijada she‘rda obrazlilik yuzaga chiqadi.

**Sho‘rpeshona ishqni tolega yo‘yib,**

Jimgina taqdirga berganimda tan.

Ishonchu armoning ko‘ksimga o‘yib,

**Dovdir hayotimga kirib kelding san.**

Mazkur she‘r misralarida oksyumoron “sho‘rpeshona ishq”, “dovdir hayot” kabi birikmalarni o‘z ichiga oladi. Ishq, hayot so‘zlari mavhum hodisalaridagina ishtirok etadi. Sho‘rpeshona, dovdir so‘zlari esa insonlarning yashash jarayonidagi harakatlarida yuz beradi. Insonlarga xos xususiyatni anglatuvchi bu so‘zlar mavhumlikni anglatuvchi ishq, hayot leksemalari bilan birga qo‘llanib noodatiy birikmalarni yuzga chiqaradi. Bunda obrazlilik va ta‘sirchanlik she‘rni yuqori darajaga olib chiqadi.

Sensiz dunyo menga nimadir, gulim,

Har ne uchun bo‘lar, har neki ezgu,

Qonimni muzlatar **tirilgan o‘lim.**

Mazkur she‘rdagi “tirilgan o‘lim” oksyumoroni tashkil etadi. O‘lim – jismni harakatdan to‘xtagan, tinch holati hisoblanadi. Uning qayta tirilishi esa mantiqqa to‘g‘ri kelmaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, g‘ayriodatiy bog‘lanish o‘zaro mos kelmaydigan ikki leksik birlikning uyg‘unlashuvini yuzga chiqadi. Shu tufayli ham bu ikki so‘zlar bir-biriga leksik jihatidan bog‘lanadi. Bu bog‘lanish esa she‘rda yangi tasavvur va tushuncha hosilasini beradi. Uslub jihatidan oksyumoronlar ixcham, lo‘nda va ta‘sirli vositalar hisoblanadi. Oksyumoronlar inson ruhiy olamini kezadi. Uning qalb kechinmalarini sirli oynadek kashf etadi. Kitobxonni o‘yga toldirib, uni mantiqiy tafakkur olamini ishga solishga undaydi. Oksyumoron nutq hodisasi sifatida mantiqni, til sifatida esa mantiqsizlikni ifodalaydi. Oksyumoron badiiy ta‘sirga ega, uslubiy vosita sifatida kuchli ta‘sir etadi. Shu tufayli unga estetik vosita sifatida e‘tibor qaratish darkor.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз естетикаси. – Тошкент: Фан, 1981. 39Б
2. Rauf Parfi. She‘rlar. Internet. WWWziyouz.com
3. Рауф Парфи. Қайтиш. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981. 9 Б.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. – Тошкент:, 2008. Б.17.
5. Ғаниев И. Рауф Парфи Ўзтурк дунёси. – Тошкент:, 2021, 661 - бет.
6. Рауф Парфи. Қайтиш. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981. 9 Б.

## THEORETICAL FOUNDATIONS OF ISLAMIC ECONOMICS AND PROSPECTS OF ISLAMIC FINANCIAL SERVICES IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

*Gulomova Saidakhon Tokhir kizi*

*3rd year student Yeoju Technical Institute in Tashkent.*

**Abstract:** Over the past few years, economic downturns have indicated the riskiness of conventional economic and financial system. The core concept of these risks are mainly associated by one – sided gains, and in most cases the financial institutions are the winners in financial transactions. Unlike interest – based economics, the Islamic Economics lead people toward mutual gain and loss in all aspects of economic activity. Since, the concept of Islamic Economics is based on the rules of Sharia’h, it offers equality and at the same time leads people toward owning property and conducting business activities by getting rid of hoarding and other related speculations. This article focuses not only on theoretical aspects of Islamic financial instruments but also states about the efficiency of implementing them in the practice, in the case of Uzbekistan.

**Key words:** Gharar, Maysir, Riba, positive correlation, hoarding, partnership, Sukuk, financial market, economic transaction.

“Those who charge usury are in the same position as those who are controlled by devil’s influence. This is because they say that trade is the same as the usury. However, the God permits trade and prohibits usury. Thus, whoever heeds his commandment from his Lord and refrains from usury he may keep his past earnings, and his judgement rests with Allah. As for those who persist in usury, they incur Hell, where in they abide forever.”

(2:275)

**Introduction.** Islamic economics which is based on the Shariah principles and rules from the Holy Quran and the Sunnah lead people to the right path in conducting economic transactions. Since the moral of Islamic religion is to ensure equity and justice, the same applies to the economic concept by making everyone equal, not dividing into social classes as well as using resources properly without causing any damage to the nature. It is clear that Islamic Economics is not as old as conventional economic system, however it has had several periods each of which totally differed from one another and had new versions of transformation. In addition, it is commonly thought that Islamic Economics is against to the rules of market economy. However, this is not the true concept at all, since in Islam competition is allowed while the monopoly which is understood as satisfying only single individual’s needs is prohibited. From the perspective of Islamic Economics - the need is limited. Thus, any individual should not be a materialistic person. Moreover, this is also the clue that in Islamic economics it is not so essential to be addicted to luxuries or other kinds of wealth that is the reason why the needs should be limited. Because unlimited needs or marginal utility as it is called in terms of conventional economic principle, can make people only thinking about individual needs which rises the feeling of ego. Consequently, this scenario is similar to the monopoly because in monopolistic system the monopolist only thinks about his or her desired goal and the price policy is ruled by him or her. Thus, Islamic economics is not against the principles of the supply and demand but is against for materialistic concept which is the base of monopoly.

**Islamic Financial Services - as a means of Economic prosperity and Social equality.** Islamic Economic system has its own financial products that substitute conventional financial services. The peculiarity of Islamic financial services from conventional ones – avoiding Riba, Maisir and Gharar. The most commonly known financial services are: Mudaraba, Musharakah and Murabaha. Mudaraba is one of the purest forms of partnership in Islamic finance. The reason for such consideration is its core values that are based on establishing trust and equitable shares. Mudaraba is also like a trust financing which Islamic finance is successfully transformed into financial instruments at the same time substituting conventional interest based system. Typically,

two parties are involved in Mudaraba. The Rab al Maal – the depositor or more appropriate to say the investor. The Mudarib – the entrepreneur, businessmen. The Rab al Maas the money, tangible or intangible asset that is invested for certain business. Hence, in order to start a business or in establishing a partnership the Rab al Maal provides or invests for a specific project while the Mudarib spends his time and labor for managing the project. Since, the work is managed by Mudarib the Rab al Maal has no right for intervening the business process since he or she is only investor [1]. The next type of partnership in Islamic Economics is Musharaka. It is derived from Arabic word “Shirkah” which means partnership. In comparison with Mudaraba the Musharaka is a long term partnership and all parties either invest and devote their time and labor for the job they are involved in. Profits in this contract is shared according to the ratio that is agreed in the contract before starting a business, while the loses are shared according to the amount of money each individual invested. Musharaka is also divided into several types they are Muwafada or unlimited type, Inan or limited type, Constant or Permanent Musharaka, Temporary Musharaka, Wujuh Musharaka, Musharaka al Milk. Muwafada Musharaka or unlimited Musharaka is a type of partnership that all parties are not limited from specific activities. They all have the equal rights and responsibilities for all actions that are done in the business process. This type of partnership is not very common in Islamic finance. Inan or limited Musharaka – in this type of partnership the profit is shared according how much parties contributed at a negotiated price in the contract before the start of the business. Also the person who is not involved in the contract or business does not gain any profit. In addition, the partnership based on Musharaka is one the well - known or mostly used partnership in Islamic finance. Since, the Musharaka is the widely spread form of partnership in Islamic finance it is used in several spheres which proves that this type of partnership is appropriate for mostly and everyday transactions. These are: domestic trade, import of finance, credit facilities, agriculture finance, diminishing finance [2]. Murabaha is a mode of financing which is aimed for selling with profit. However, some people may think that the percentage that is added as a profit is interest, while this interpretation is wrong. This percentage is agreed and known to both parties so there is no uncertainty, at the same time while operating business it is permitted to gain profit – so the profit is gained in Murabaha. Thus, it would be wrong to confuse the Murabaha contract with interest based financing because of not only elimination of uncertainties, but because of the origin of the contract itself where it derived and what are the rules for. Since it is derived according to Shari’ah rules, there is no way of comparing this contract with conventional interest based system [2].

**The prospects of Islamic Financial services in the Republic of Uzbekistan as a means of prosperous Economics.** Uzbekistan is one of the highly developing countries in Central Asia. Having population with 33 million, almost 90% of which are Muslims – the prospects of Islamic Finance is not risky. According to statistics conducted by UNDP the growth of Islamic finance and the economic system of the country are positively correlated. The reason behind would be the religious aspects of the demographics. Indeed, since the majority of population follow Islam most of them obey using interested based financing products such as loans, deposits, mortgages and other conventional banking products. At the same time, lack of belief towards conventional banking system decreases the attractiveness of investments towards the country which leads to the decrease of GDP in long term scale. Thus, Islamic financial products have great opportunities for Uzbekistan by making its economy more attractive on the global scale [4].

While mentioning about the prospects of Islamic finance it would be appropriate to state about current situation of this field in Uzbekistan. In comparison with CIS countries Uzbekistan is still lagging behind in terms of implementing Islamic financial instruments despite of its Muslim demographics. The drawbacks lie behind legislation system as well as tax code of the Republic of Uzbekistan. According to experts in order to enhance this system in Uzbekistan there should be cardinal changes in legislation, tax codes and banking system of Uzbekistan. [5] However, there is hope for the prosperity of Islamic finance industry since some opportunities are being carried out on the way of implementing Sharia’h based economics. For instance, on



May 15 – 16<sup>th</sup> 2022 a memorandum was signed between AAOFI and Islamic Business and Finance company on further cooperation in preparing specialists in the sphere of:

- Professional Accountant in Islamic Finance;
- Sharia'h – certified consultant and auditor;
- Certificate of Excellence in Financial Standard Accounts[6].

Besides that, Asia Alliance Bank enhances cooperation with international Islamic financial cooperation. During the annual meeting an agreement was reached to allocate an additional \$ 20 million for Asia Alliance Bank. Representatives of the ICD also expressed the readiness to support the bank in financing and launching the project “Islamic window” which is planned to be established within the bank [7]. When it comes on implementation of Islamic financial products in the market of Uzbekistan we can say that a lot of opportunities are there. Since, the main percentage of exports is dependent on agricultural products – implementation Istisna and Salam contracts will be much demandable. In addition, according to the dialogue which was on August 20, 2021 a large number of issues were raised in the sphere of taxation, land use and many others. Then, following the results of the meeting, appropriate instructions were given and specific tasks were set. This means - the opportunities for entrepreneurs is huge which further should lead to the introduction of partnership based products which will be much efficient for the economic and investment condition of the country. It is obvious to say, the improvement of economic system is reflected in financial market. To be more precisely bonds and stocks, but Islamic finance offers substitute for this financial instrument which is called Sukuk. The emission of Sukuk certificates makes financial market much transparent and attractive for investors. Moreover, currently the transformation of this field is being carried out and it is planned to improve this field in three stages:

1. Creating institutional framework;
2. Emission of Sukuk;
3. Developing long – term program.

In addition, the expertise of Malaysia in terms of Sukuk is being learned after which we can also work at that system [8]. All in all, we can say that implementation of Islamic financial products enhances the economic situation of Uzbekistan. It enables the following benefits not only for the economy but also for the society itself:

- ✓ Increases the circulation of money through Islamic financial institutions;
- ✓ Creates more jobs within the country and reduces unemployment level;
- ✓ Increases investment attractiveness and stimulates the economy by reducing inflation rate.

**Conclusion.** To conclude, implementation of Islamic financial products in Uzbekistan has high prosperity. All these financial transactions are interest free which lead to the increase of belief among house- holds, legal entities and so on. Moreover, Islamic financial instruments help the economy to prosper and bring the benefit to society. Uzbekistan is a country with a high potential towards implementing Islamic financial products thus this sphere should be improved and maintained by stability.

#### References:

1. Mufti Muhammad Taqi Usmani, “An introduction to Islamic Finance” p 32
2. Syeda Fahmida Habib “Fundamentals of Islamic Finance and Banking” p 111 – 112, p 79
3. “The Introduction of Islamic Finance in Banks of Uzbekistan and the Legal Changes Ahead”, Feb 12, 2021, Available at: <http://uzbekistanlawblog.com/the-introduction-of-islamic-finance-in-banks-of-uzbekistan-and-the-legal-changes-ahead/>
4. Kayimova Z.A, Bakaeva M.A “The Role of Islamic Finance in the Capital Market in Uzbekistan” – European Journal of Innovation in Nonformal Education, Volume 2, Issue 1, ISSN: 2795 – 8612
5. “A leading international organization on Islamic finance has established cooperation with Uzbekistan”, May 24, 2022, Available at: <https://islommoliyasi.uz/uz/aaofi-hamkorlik/>
6. “Asia Alliance Bank is strengthening cooperation with international Islamic financial institutions”, June 8, 2022, Available at: <https://islommoliyasi.uz/uz/5426/>

## SO‘ROQ GAPLARNING TASNIFLANISHI HAQIDA

*H.Hodiyeva*

*BuxDU magistranti.*

**Annotatsiya:** Ushbu axborotda so‘roq gaplarning tasniflanishi haqida fikr yuritilgan. Unda so‘roq gaplar, uning turlari, so‘roq gaplarni shaklantiradigan vositalarning qo‘llanishi bilan bog‘liq qarashlar o‘z aksini topgan.

**Kalit so‘zlar:** o‘zbek tili, sintaksis, gap, gap turlari, gapning ifoda maqsadi, so‘roq gap, so‘roq olmoshi, so‘roq yuklamasi, intonatsiya.

O‘zbek tilidagi so‘roq gaplar tasnifi haqida fikr yuritganda mavjud adabiyotlarda bayon etilgan qarashlarni tahlilga tortish o‘rinli bo‘ladi. Biz ushbu axborotda so‘roq gaplar borasida bildirilgan ayrim fikrlarni o‘rganib, ularga doir o‘z qarashlarimizni bayon etishga harakat qilamiz.

M.Asqarova va boshqalarning “O‘zbek tili” pedagogika bilim yurtlari uchun darslik (Toshkent, 1976) kitobida “Gap haqida umumiy tushuncha” mavzusi ostida gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari quyidagicha ta’riflanadi: “...gapning intonatsiyasi o‘zgartirilsa, masalan hayajon bilan aytilsa, gap turi ham o‘zgaradi. Demak, gap nutqning grammatik va intonatsion jihatdan shakllangan, xabar, so‘roq yoki istak-buyurish ma’nolarini bildiruvchi kichik bo‘lagidir [1, 26], deya qayd etilgan. Bundan anglashiladiki, mualliflarning fikricha gapning ifoda maqsadigaga ko‘ra turlarini aniqlashda intonatsiya yetakchilik qiladi. Mazkur manbada so‘roq gaplar, ularning shakllanishi haqida qisqacha ma’lumot berilgan.

So‘roq gaplarda so‘zlovchi o‘zi bayon qilayotgan fikr haqida tinglovchidan ma’lumot olmoqchi bo‘ladi yoki tinglovchidan fikrini tasdiqlash, inkor qilish uchun javob talab qiladi.

So‘roq gaplarning intonatsiyasi ovozning ko‘tarilishi bilan xarakterlanadi. Agar gapda qachon?, qancha?, qanday?, necha? kabi so‘roq so‘zlar ishtirok etsa, u so‘zlarning o‘rniga qarab, intonatsiyasi kuchli bo‘ladi. Ya’ni bu so‘zlar a) gapning boshida kelsa, intonatsiya avval ko‘tarilib, gap oxirida pasayadi: *Ne deding? Qachon kelding?* b) gapning o‘rtasida kelsa, intonatsiya gapning o‘rtasida ko‘tarilib, keyin tushadi: *Chunonchi, qandoq ishlarni? Bilmayman, kim ul kishi?* v) gapning oxirida kelsa, ohang gap oxirida ko‘tariladi: *Padaring kim? Otlari nima?* [2]. So‘roq gaplarda so‘roq yuklamalari: -mi, -chi, -a, (-ya) ishtirok etganda, gap oxirida intonatsiya baland bo‘ladi: *Uqdingmi? Mard bo‘lsang, askaringni to‘plab, man bila urishib ko‘r-chi? Ha nafasing ichingga tushib ketdi-a?* [2]. So‘roq so‘zlar yoki so‘roq yuklamalari ishtirokisiz, faqat so‘roq intonatsiyasi orqali ham so‘roq gaplar hosil qilinishi mumkin. Bunday gaplar shaklan darak gaplarday bo‘lsa ham, intonatsiyasi so‘roq gap ekanligini ko‘rsatadi. *Juda soz, ammo ilmi riyoziy va handasadan bexabardursan ?* [2].

So‘roq gaplardagi aniqlanayotgan gapning biror bo‘lagi kuchli intonatsiya bilan aytiladi. Ba’zi so‘roq gaplarda so‘zlovchi tinglovchidan javob talab qilmaydi. Bunday gaplar qisman hishayajon bilan aytiladi va ular so‘roqni emas, biror voqea-hodisani tasdiqlash yoki inkor etish uchun ishlatiladi: *Nima, o‘zimizga o‘zimiz dushmanmizmi?* (Dushman emasmiz ma’nosida) [2]. So‘roq gaplarning bu turi ritorik so‘roq gaplar deyiladi. Ushbu manbada so‘roq so‘zlarning o‘rniga qarab, ovoz ko‘tarilishi va pasayishi aytilgan. Bizningcha esa bu fikr ayrim hollardagina to‘g‘ri kelishi mumkin. Ovozning ko‘tarilishi yoki pasayishi kishining holatiga, hayajoniga ham bog‘liq. So‘zlovchining so‘zlash jarayonida hayrat, g‘azab, taajjub, quvonch kabi holatlari yuzaga chiqqanda ovoz o‘zgarishi mumkin. Oddiy suhbat jarayonida yoki matnda bunday hol kuzatilmaydi. *Shul gapingizni kecha aytmaysizmi ?* [2] Ushbu gapda urg‘u qaysi so‘zga tushsa, shu so‘z baland ohang bilan aytiladi. Bunda so‘zlovchini aynan nima qiziqtirayotgani ahamiyatli. Tinglovchi ham shunga mos javob qaytaradi. Aynan so‘roq yuklamasini olgan so‘z baland ohang bilan aytiladi degan fikr hamma vaqt ham o‘zini oqlolmaydi. *Nima hodisa bo‘ldi?* [2] So‘zlovchi qanday hodisa ro‘y berganligi haqida o‘zini qiziqtirgan axborotni so‘rayapti. Bu yerda ham so‘roq so‘z gap boshida kelgani uchun baland ovoz bilan aytilmaydi. Balki, uch so‘z ham bir so‘z tarzida bir xil ohang va tezlikda aytiladi.

G'.Abdurahmonov, A.Sulaymonov, X.Xoliyorov, J.Omonturdiyevlar hammuallifligida nashr ettirilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Sintaksis, Oliy o‘quv yurtlarining filologiya fakultetlari sirtqi bo‘lim studentlari uchun qo‘llanma” (Toshkent 1979) kitobida “Gapning mazmuniga ko‘ra klassifikatsiyasi” qismida “... so‘zlovchi yoki yozuvchi obyektiv borliqdagi narsa, hodisalarni gap orqali aks ettiradi. Bunda u o‘z oldiga har xil maqsad qo‘yishi mumkin. Masalan, u gap orqali biror fakt haqida xabar beradi va savolga javob olishni istaydi yoki o‘z xohishini (buyruq, iltimos kabilarni) ifodalashni ko‘zda tutadi. Ana shu ifoda maqsadi nuqtai nazaridan gaplar darak gap, so‘roq gap, buyruq gap kabi turlarga bo‘linadi [3, 26], deya fikr yuritilgan. Demak, mualliflar gaplarni ifoda maqsadi nuqtai nazaridan bir guruhga birlashtirib, darak, so‘roq va buyruq gap kabi turlarga bo‘lib o‘rganishgan. Bizningcha ham bu to‘g‘ri fikr. Sababi quyidagi gap turlarida maqsad aniq. Uchala turda ham axborot bor. Shu bilan birga ushbu manbada gaplar kuzatilgan maqsadiga, semantikasiga ko‘ra tasniflanar ekan, so‘roq gap haqida quyidagicha ma‘lumot beriladi [3, 32]. So‘zlovchining o‘ziga noma‘lum bo‘lgan biror voqeani suhbatdoshdan bilib olish istagini, zaruriyatini ifodalovchi gap so‘roq gap deyiladi. Darak gaplarda so‘zlovchi uchun ma‘lum bo‘lgan faktlar bildirilsa, so‘roq gaplarda, aksincha, biron narsaning noma‘lumligi va so‘zlovchining shu noma‘lum faktni bilib olish istagi ifodalanadi.

So‘roq gaplar, asosan, dialogik nutqqa xos bo‘lib, tinglovchidan biror faktning inkor yoki tasdiq qilinishi talab etiladi. So‘roq gaplar kim, nima, qachon, qanday, kabi so‘roq so‘zlar yoki -mi, -chi, -a. (-ya) kabi so‘roq yuklamalari vositasida tuziladi. So‘roq gaplar tarkibida nahot, nahotki, axir, rostdan kabi so‘zlar ishtirok etishi mumkin. Bunda so‘roq bilan bir vaqtda har xil modallik ottenkalari (shubha, gumon, ishonchsizlik, ta‘kid kabilar) ham anglashiladi. So‘roq gaplar ifodalanish vositalari jihatdan bir qancha ko‘rinishlarda bo‘ladi. Bulardan asosiylari quyidagilar:

1. Yuklamalar vositasida tarkib topgan so‘roq gaplar. Bunda ifodalanayotgan fikr so‘zlovchi uchun noma‘lum bo‘lmaydi. So‘zlovchi bu holda o‘z fikrining tinglovchi tomondan tasdiq yoki inkor qilinishini bilib olishni maqsad qilib qo‘yadi. Bunday so‘roq gaplarga ko‘pincha ha, yo‘q so‘zlari yoki shu so‘roq gapdagi so‘roq bildirgan so‘zning o‘zi bilan javob qaytariladi. *Kecha bir tangaga olgan kitobingizmi? –Ha. Agar o‘shal majusiylarning kitoblari yig‘ilgan makonga o‘t tushib ketsa-yu, sizni guvohlikka chaqirtirsalar, eshitganingizni tasdiqlashdan bosh tortmaysizmi? –Yo‘q. Buxoroda-chi? –Buxoroda mutassib mullolar, agar Xorazmga qarab parvoz qilmasam, qanotlarimni kesar edilar... [2].*

2. So‘roq so‘zlar vositasida shakllangan so‘roq gaplar. Bunday so‘roq gaplar kim?, nima?, qanday?, qaysi?, qayerda?, qayerga?, qachon?, nima uchun? singari so‘roq so‘zlar yordami bilan tuziladi. Bu so‘zlar nima haqida so‘roq berilganligini bildiradi. Bu holda so‘roq gap so‘zlovchi uchun noma‘lum bo‘lgan narsani aniqlab olishga qaratilgan bo‘ladi. Masalan:

–*Seni ilgari ko‘rmas edim-ku, qayerliksan?*

–*Afshonalik.*

–*Padaring kim? Otlari nima?*

–*Abdullo ibn Hasan, ibn Sino...*

–*Xo‘sh, oting nima?*

–*Husayn.*

–*Necha yoshdasan?*

–*To‘qqiz yoshga to‘lib, o‘nga qadam qo‘ydim [2].*

Bunday gaplarda so‘roq so‘zlardan so‘ng so‘roq mazmunini konkretlashtiruvchi boshqa so‘zlar ham keltirilishi mumkin.

3. So‘roq ba‘zan faqat intonatsiya vositasidagina anglatilishi mumkin. Bunday so‘roq gaplarda ko‘pincha taajjub, shubha, hayratda qolish, gumon kabi modal ottenkalar ifodalanadi. Masalan: *Qalay, shogirdingiz sizni shoshirib qo‘ymayotirmi? – deb so‘radi baqqol, so‘z orasida.*

–*Shoshirish ham gapmi?! – dedi Notiliy qandaydir g‘ayirlik bilan. Odam bolasida bunday xotira va zakovat quvvati bo‘ladur, deb sira o‘ylamas edim [2].*

Faqat intonatsiya bilan shakllangan so‘roq gaplar o‘ziga xos balandroq ovoz bolan talaffuz qilinadi.

So‘roq gaplarga odatda darak gaplar bilan javob qaytariladi. Biroq aksariyat holda kesimi birinchi va uchinchi shaxs buyruq fe‘li bilan ifodalangan so‘roq gaplarga darak gaplar bilan emas, balki buyruq yoki qarshi qo‘yilgan so‘roq gaplar bilan javob qaytariladi: *–Nima qilay, mashinani garajga eltib qo‘yaymi?*

*–Yo‘g‘e... Orqangga qaytib o‘tirasanmi?*

*–Bo‘lmasa, qayerga boray?*

*–Dalaga bora qolmaysanmi? Bitta-yarimta uchrab qolsa, uyga olib borib qo‘yasan.*

Grammatik jihatdan so‘roq formasidagi gap mazmunan hamma vaqt ham so‘roq qimmatiga ega bo‘lavermaydi va o‘ziga javob qaytarilishini talab qilavermaydi. Bunday gaplar ritorik so‘roq gaplar deyiladi. Ritorik so‘roq gaplar o‘z ichida yashirin tasdig‘i mavjud bo‘lgan gaplardir. Shuning uchun ular qo‘yilgan savolga javob talab qilmaydi. So‘zlovchi va yozuvchi bunday gaplardan voqea-hodisa belgisini alohida ta‘kidlamoqchi bo‘lganda foydalanadi.

Ritorik so‘roq gaplarning yana bir ko‘rinishi so‘roq-inkor, ya‘ni yashirin inkorni o‘z ichiga olgan gaplardir. Ritorik so‘roq gaplar badiiy asarlarda, emotsional – ta‘sirchan nutqda turli hishayajon, tuyg‘ularni ifodalash uchun stilistik vosita sifatida qo‘llanadi. Bunday gaplarda ko‘pincha so‘roq bildiruvchi so‘zlar qatnashadi. Biroq bunday so‘roq so‘zlar, so‘roq ma‘nosiga ega bo‘lmay afsuslanish, tasdiq ma‘nolarini ifodalaydi. *Nega bunday qilding?*(Afsuslanish) *Menga maqtanishni kim qo‘yibdi?* (Tasdiq)

So‘zlovchi suhbatdoshini o‘ziga fikrdosh qilish, o‘ziga nisbatan xayrixohlik, rozilik hislarini uyg‘otish maqsadida ko‘pincha ritorik so‘roq gaplardan foydalanadi.

Ba‘zan tinglovchi so‘zlovchining so‘rog‘iga darak gap bilan emas, ritorik so‘roq gap bilan qarshi so‘roq beradi va shu bilan o‘z fikrini ta‘kidlaydi. Ritorik so‘roq gaplar fikr va mulohazalarni yakunlash yoki tinglovchining diqqatini susaytirmaslik maqsadida qo‘llaniladi. Suhbatdoshning e‘tiborini o‘ziga jalb qilish maqsadida ko‘pincha ritorik so‘roq gapdan foydalaniladi. So‘zlovchining biror ishga kirishish oldidan taraddudda qolganligini, ikkilanganligini ifodalash uchun ham ritorik so‘roq gap qo‘llanadi: Bunda so‘roq gaplarning kesimi odatda shart fe‘li bilan ifodalanadi. Ayrim hollarda kesimdan keyin -midi, -dimi, -mikan, -mikin kabi elementlari ham qo‘llaniladi. Kesimi -midi, -dimi elementlari bilan shakllangan ritorik so‘roq gaplar aniq tasdiq mazmunini ham ifodalaydi. *Yuzta kitob o‘qigan bilan olim bo‘lib qoldimi kishi?*

Bunday gaplar forma jihatidagina so‘roq gapga o‘xshaydi, biroq o‘ziga javob qaytarilishini talab qilmaydi.

So‘roq gaplar maxsus so‘roq intonatsiyasi bilan talaffuz qilinadi. Bu intonatsiya darak gap intonatsiyasidan keskin ravishda farq qiladi. So‘roq gaplarda bevosita so‘roqni bildiruvchi so‘zda ovoz kuchayadi. Mazmun kuchli emotsiya bilan ifodalansa, ritorik so‘roq gaplar oxiriga so‘roq belgisi bilan birga undov belgisi ham qo‘yiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ushbu manbada mualliflar boshqa manbalardan farqli ravishda so‘roq gaplar tarkibida nahot, nahotki, axir, rostdan kabi so‘zlar ishtirok etishi, hamda bunday so‘roq gaplarda so‘roq bilan bir vaqtda har xil modallik ottenkalari (shubha, gumon, ishonchsizlik, ta‘kid kabilar) ham anglashilishi qo‘shimcha ma‘lumot sifatida keltirishgan. Bundan tashqari so‘roq gaplarning ifodalanishi jihatdan ham asosiy vositalari keltirilib, to‘liq yoritib berilgan. Ritorik so‘roq gaplarning yana bir ko‘rinishi so‘roq-inkor, ya‘ni yashirin inkorni o‘z ichiga olgan gaplar haqida mulohaza yuritilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Asqarova M., Qosimova K. Jamolxonov X. Ўзбек адабий тили. Дарслик –Т.: Ўқитувчи.
2. Абдурахмонов Ф., Сулаймонов А., Холиёров Х., Омонтурдиев Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Олий ўқув юртларининг филология факултетлари сиртки бўлим студентлари учун қўлланма. –Т.: Ўқитувчи, 1979.
3. Миркарим Осим. Карвон йўлларида. Сайланма. Тарихий кассалар, – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.



## OSHIQ OZORI OSHUFTA

*Husanova Dildora Narzulla qizi*

*O'zbekiston Milliy universiteti*

*Jurnalistika fakulteti talabasi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Tilarmen muztar etsa ofati osuda jonimni” deb boshlanuvchi g‘azalining badiiy-estetik jihati va mazmun ko‘lami haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** G‘azal, aruz, vazn, qofiya, so‘z san‘ati, tasavvuf, ishq ilohiy.

**Annotation:** This article discusses the artistic and aesthetic aspect and scope of Alisher Navoi’s ghazal, which begins with “If beggar dies, disaster strikes my soul”.

**Key words:** Ghazal, aruz, measure, rhyme, word art, mysticism, divine love.

Hayot – olam sir-sinoatlarini o‘zida jamlagan, falsafiy mushohadalarga, turfa xil jumboqlarga to‘la borliq, ibtidodan intihogacha davom etadigan fano va baqo o‘rtasidagi ko‘prik, mohiyatan yaratgan tomonidan hadya etilgan ilohiy ne‘matdir. Har bir inson bu davrni o‘zgacha bosib o‘tadi. Ularning orasida eng baxtlilari, nazarimizda, ishq ilohiyini anglaganlari bo‘lsa, ajab emas. Shunday ishqni anglagan va buni o‘zining hayotiy maslagiga aylantirgan ijodkorlardan biri, tabiiyki, hazrat Navoiydir. Shoir ijodi betakror, serqirra va serma’no. Uning asarlaridagi mazmun ko‘lami shu qadar kengki, tahlil qilish mobaynida hayotning har jabhasiga taalluqli fikr va mulohazalarni olish mumkin.

Shoirni bejiz Maqsud Shayxzoda: “*G‘azal mulkingning sultoni*”, – demaydi. Gap faqat sonda emas, agar shunday bo‘lganda, tarixda “*soni bor, salmog‘i yo‘q*” asarlar qolgan bo‘lardi, bu yerda g‘azallarining saviya jihatdan balandligi, tuyg‘ularning yuksakligi alohida e‘tirofqa loyiq. Buning boisi esa ularning bevosita yoxud bilvosita husni mutlaqqa tomon yo‘naltirilganligidir. Zero, insonning oliy matlabi hamma zamonlarda va makonlarda birdek dolzarb va ahamiyatli bo‘lgan.

*Tilarmen muztar etsa ofati osuda jonimni,*

*Sovursa ofiyat birla tuzulgan xonumonimni.*

*Chiqib sarxush, chopib abrash, qilib javlon, olib maydon,*

*Vujud iqlimidin mahv aylasa nom-u nishonimni*

Yuqoridagi g‘azal ham shunday ruhda yozilgan bo‘lib, bevosita tasavvuf bilan bog‘lanadi. Tasavvuf “... *kunlarini haqiqiy ishq shavqi bilan o‘tkazgan, qalb pokligini har narsadan yuqori qo‘ygan, buning ushuni esa ko‘ngilni g‘aflat, jaholat, gumrohlikdan muhofaza qilib, moddiy olam tashvish-u munoqashalaridan o‘zini forig‘ etib, ruhiy qobiliyatlarini kamolga yetkazishga uringan zotlarning yo‘li*”dir [3:30].

Navoiyning biz keltirgan ushbu g‘azalida ham shu jihat mujassam bo‘lib, shoir bu g‘azalni tartibiga ko‘ra “Badoe’- ul bidoya” (“Badiiylik ibtidolari”) devonining 701-g‘azali sifatida, “Xazoyin - ul maoniy” (“Ma’nolar xazinasini”) ning birinchi devoni, ya’ni “G‘aroyib - us sig‘ar” (“Bolalik g‘aroyibotlari”) da esa 587-g‘azal sifatida keltiradi. Demak, g‘azal shoirning yoshlik yillarida yozilgan. Najmiddin Komilov Navoiy devonlarining asosiy qismini ishq ilohiyini tarannum etgan irfoniy-ma’rifiy mazmundagi g‘azallar tashkil qilishini aytib, ularni bir necha guruhga bo‘ladi:

1. Munojot g‘azallar.
2. Xudo va payg‘ambar madhiga bag‘ishlangan na’t-hamd g‘azallar.
3. Oshiqning ahvolini tasvirlovchi “*sharhi hol*” g‘azallar.
4. Falsafiy fikr-mushohadalarni ifodalovchi g‘azallar [2:115].

“*Tilarmen muztar etsa ofati osuda jonimni*” deb boshlanuvchi g‘azali esa, asosan, oshiqning ahvolini tasvirlovchi “*sharhi hol*” g‘azallar sirasiga kiradi. Bunda oshiqning ishqqa muhtalo bo‘lishi, uning ayovsiz oqibatlari va natijada oshiqning qanday ahvolga tushgani haqida fikr yuritiladi.



Gʻazal aruzning hazaji musammani solim bahrida yozilgan boʻlib, bu oʻqishda qulaylikni, ohangda musiqiylikni yuzaga keltirgan.

*Ti lar men muz ta ret sa o fa ti o su da jo nim ni,*  
*V - - - / V - - - / V - - - / V - - -*  
*Ma fo i lun / ma fo i lun / ma fo i lun / ma fo i lun*

*So vur sa o fi yat bir la tu zul gan xo nu mo nim ni.*  
*V - - - / V - - - / V - - - / V - - -*  
*Ma fo i lun / ma fo i lun / ma fo i lun / ma fo i lun*

Qofiyaning tuzilishiga koʻra, asosan, 4 ta turi mavjud:

1. Mujarrad qofiya. 2. Murdaf qofiya. 3. Muqayyad qofiya. 4. Muassas qofiya.

Bu gʻazal esa murdaf (ridfli) qofiya turiga xos boʻlib, raviy harfidan oldin choʻziq unlilardan biri kelgan qofiya hisoblanadi. Sheʼriyatimizda, asosan, raviydan oldin “o” choʻziq unlisi kelgan murdaf qofiya juda koʻp qoʻllagan. Navoiyning ushbu gʻazalida ham buni kuzatish mumkin.

Qofiyaga, asosan, forsiy soʻzlar olingan: jon – xonumon – nishon – qon – notavon – nihon – xurdadon – asragʻon. Bulardan “jon – xonumon – nishon – notavon – nihon” soʻzlari forsiy, “qon – asragʻon” turkiy, “xurdadon” arabcha soʻzlardir.

Bir qarashda gʻazal mazmunini uqib olish qiyin, biroq undagi badiiyat boʻyoqlari, salmoqdor mazmun, soʻzlar oʻrtasidagi oʻzaro mutanosiblik va kelishuv orqali bora-bora shoir aytmochi boʻlgan fikrni ilgʻab olasiz.

Birinchi bayt boʻlmish matlaʼ (ar. – quyosh, oy, yulduzning chiqish joyi, boshlanish, mabdaʼ). Oʻquvchi yoki eshituvchini oʻziga tortishi, sheʼrning davomini oʻqishga ragʻbat uygʻotishi uchun shoirlar matlaʼning shaklan goʻzal, mazmunan teran, badiiy jihatdan yuksak chiqishiga katta eʼtibor berganlar. Roduyoniyning yozishicha, ilk baytning shakl va mazmun jihatidan goʻzal boʻlishi balogʻat qoidalari hisoblanadi) [1:322] ni shoir kuchli va keskin oh-u zor bilan boshlaydi.

*Tilarmen muztar etsa ofati osuda jonimni,*

*Sovursa ofiyat birla tuzulgan xonumonimni.*

Muztar – ar. majbur boʻlgan, majbur qilingan; muhtoj; iztirobli, noqulayli holat. Baytda kimga murojaat qilinayotganligi haqida biror marta aniq aytilmaydi, biroq har safar nola qilinayotganda kimgadir boʻlgan talpinish seziladi. Zohiran majoziy ishqa yaqin boʻlib, yorning jafolarini kuylagandek boʻlsa-da, bu gʻazalda, asosan, ishq ilohiy haqida soʻz boradi. Shoir ilohiy ishqni anglay boshladi, ushshoqlik holini his qilmoqda, oshiqlik oson emasligini, bu yoʻlda koʻp mashaqqat chekish kerakligini bilsa-da, bu yoʻldan borishga qatʼiy ahd qilgan. Shu bois, nima boʻlmasin, uni bu matlabidan qaytarib boʻlmaydi. Shuning uchun ham uning oʻzi bu gʻamlarni maʼshuqdan soʻraydi hatto. Eʼtibor bering, “*oshiqligim ofati osuda jonimni (jon bu ruh, osuda ruh – tinch hayot) iztirobga solsin, bunga majbur qilsin, ofiyat (sogʻliq) bilan bunyod boʻlgan xonumonim – bor-u yoʻgʻimni, yanayam aniqrogʻi, jismimni, tanamni sovursin, mayli men roziman, balki buni men oʻzim tilayman*“ deya oʻziga juda katta qiyinchiliklarni soʻraydi. Holbuki, oshiq'larga hamisha bu kabilar toʻsiq boʻlib kelgan. Navoiyning daholigi-yu matonati ham shunda: u hamisha toʻgʻri yoʻlning mashaqqatlarga boy boʻlishini bilgan va bunga oʻzini tayyorlagan. Qolaversa, ilohiy ishqqa muhtalo boʻlish shu qadar baxtki, undagi azoblar Navoiydek haqiqiy ushshoq ahli uchun shirin va totli azobdir.

Baytdagi *ofat, osuda, ofiyat* soʻzlaridagi “o” tovushining takrori assonansni, yaʼni unli tovushlar uygʻunligini yuzaga chiqargan. Qolaversa, qofiyadagi “o” choʻziq unlisi ham ritmda oʻzaro ohangdoshlikni taʼminlagan.

*Chiqib sarxush, chopib abrash, qilib javlon, olib maydon,*

*Vujud iqlimidin mahv aylasa nom-u nishonimni*

Avvalo, baytning birinchi misrasidagi ichki qofiya eʼtiborimizni tortadi. Chunki bu ohangdoshlik oʻqish paytida goʻzal musiqiylikni yuzaga chiqargan va tadrij sanʼatiga asos boʻlgan.

Chi chiqib sarxush	C chopib abrash	qilib javlon	olib maydon
--------------------	-----------------	--------------	-------------

Sarxush – forscha, “mast”, “xursand”, “kayfi chog” degani. Abrash – chavkar, xoldor ot. Baytdan shunday xulosa chiqadi: “ishqim shu darajada ortmoqdaki, bu ishq meni o‘z ko‘yida sarxush, mast qilib, chavkar otdek tinmay choptirib (shoir bejiz *abrash* so‘zini tanlamagan, bu nafaqat vazn taqozosi, balki mazmun ehtiyoji hamdir, chunki qadimdan chavkar otlar judayam chopag‘on bo‘lishgan), javlon qilishga, maydon olishga undab, oxir-oqibatda, shuncha ko‘rgiliklarni ko‘rsatib, evaziga nom-u nishonimni olib ketsa ham ajab emas, chunki mening ishqim o‘zimdanda kechmoqqa yetadi”. Ya‘ni shoir bu ishq ortidan kelayotgan turli sinovlarni bizga baytma-bayt “sharhi hol” qilmoqda. Uchinchi baytga qaraylik:

*Urub jonimg‘a neshi g‘am, tuzub qatlim uchun marham,*

*Xino qilsa balo shohidlari ilgiga qonimni*

Bu baytda oshiq alam-anduhlari yanada og‘irlashadi, chunki yor g‘am nishlarini oshiq qalbiga ayamasdan sanchgan, bu ham yetmagandek, uni qatl qilmoqqa mahkum qilgan. Bu hukmning bajosini ko‘rgan shohidlar – guvohlar esa oshiq qonini hech ikkilanmay qo‘llariga xino qilishi (xino yoki xina o‘simligidan olinadigan bo‘yoq modda, ayol-qizlarning qo‘lga naqshlar chizishda foydalanadigan go‘zallik vositasi) ham mumkin. Ko‘rinadiki, shoir oddiygina xina qo‘yish holatidan o‘zining hol-ahvolini aks ettirishda unumli foydalangan. Bundan Navoiyning ijtimoiy holatlarga ham qay darajada e‘tiborli ekanligini ko‘rish mumkin. Qon bilan xino chizish bu ohoriy tashbehni yaratgan deyish mumkin. Keyingi baytda esa ishqda eng dolzarb mavzulardan biri bo‘lmish ayriliqqa e‘tibor qaratiladi:

*Firoq ichra alifdek qaddima g‘am tog‘ini yuklab,*

*Uhud ostidagi dol etsa jismi notavonimni.*

Firoq, ya‘ni uzoq ayriliqning azoblari yig‘ilib-yig‘ilib, alifdek tik qomatimga g‘am tog‘ini yuklaydi (tik qomatning arab alifbosidagi alif – “ا” harfiga o‘xshatilishi an‘anaviy tashbehlardan hisoblanadi). Keyingi misrada shoir ajib kitobot san‘atini qo‘llaydi. Arab alifbosidagi harflarning nafis shakllaridan go‘zal o‘xshatishlarni yaratadi. Ya‘ni yuqoridagi g‘amlardan mening tik qomatim egildi, buning natijasida endi u dol – “د” kabi egik holatga o‘tdi. Baytdan quyidagi mazmuni ham chiqarish mumkin, Uhud (Qur‘on, Oli Imron surasida bu haqida keladi. Shu nomdagi tog‘ bilan bog‘liq jang. Tarixda Uhud jangi nomi bilan qolgan) so‘zi arab tilida “دُحَا” shaklida yoziladi, g‘amlarim to‘plandi-da, bir yuk bo‘lib yelkamga tushdi, bu go‘yo Uhud tog‘i ostidagi dolga o‘xshaydi, Uhud so‘zi yozilganda eng oxirida dol – “د” keladi, ya‘ni barcha harflarning ostida qoladi, shu kabi mening holatim ham g‘am tog‘i ostida qolgan egik dol – “د”ga o‘xshaydi. Baytda “dol” literonimining badiiy-estetik xususiyati ochib beriladi. So‘zimiz isboti sifatida quyidagi misolni keltiramiz:

*“Dol harfi egilgan qomat hamda yorning gajagi, zulfi ma‘nolarida ishlatiladi. Dol harfining egik qomat ma‘nosida ifodalanishi:*

*Baski bedodning yukin tortib, qadim bo‘lmish nigun,*

*Go‘yo ul bedodning ostida qolg‘on, “dol”i men.*

Bedodning yukini, ya‘ni jabr-zulmini tortib qaddim bukildi, go‘yo u bedodning ostida qolgan “dolman”: lirik qahramonning qomati egik “dol” harfiga qiyoslangan. Shoir so‘z o‘yini vositasi bilan lirik qahramonning holatini chiroyli ifodalash maqsadida “bedod” so‘zining oxiridagi “dol” harfiga diqqatini qaratadi. Aniqroq qilib aytganda, “bedod” so‘zidagi oxirgi “dol” harfi orqali shoir butun og‘irlikni, yukni ham nazarda tutgan. “Dol” harfining yozuvdagi shakli egik, bukik bo‘lganligi sababli, harfning yozuvdagi shakli ko‘chim uchun asos bo‘lgan. Ya‘ni harf nomi emas, yozuvdagi ko‘rinishi ko‘chma ma‘noda qo‘llangan. Shu bois egik qomat “dol” harfiga ko‘chgan”[4:44-45]. Naqadar go‘zal va san‘atkorona yondashuv. Bu kabi topilmalarni Navoiy ijodida ko‘plab uchratish mumkin.

*Junun ko‘yida usruk sudratib ratb-ul-lison qilsa,*

*Fano avboshig‘a dayr ichra bu rozi nihonimni.*

Junun – jinnilik, devonalik, Iloh ishq bilan mast kishi; fano – yomon axloqning yo‘qolishi; dayr – otashparastlar ibodat xonasi, mayxona, majozan: pir dargohi[5:154]. Avbosh – 1) bebosh, daydi, bezori; 2) tasavvufiy istilah. Muhabbat va jazba g‘alabasidan gunoh yoki savobni o‘ylamay, ongsiz ravishda yoki behudlik bilan ko‘ngliga kelgan ishni amalga oshiradigan kishi; majzub solikning sifati[1:49]. Majnunlik, devonalik yo‘lida bu ishq meni yomon axloqlardan yiroq qilsa, pir dargohiga yo‘naltirsa, bu ishqim meni nimaga undasa ham, uni to‘g‘ri deb bilib, gunoh-u savobni o‘ylamay, o‘sha yo‘ldan yurishga rozi bu holimda hatto ko‘z yosh to‘kishga majbur qilsa ham mayli, roziman deya oshiq o‘z holini bayon qiladi.

*Yuzin aylab qaro, keynicha solib ishq atfolin,*

*Bari mast-u malang o‘ynatsa aqli xurdadonimni.*

Xurda – noziklik, kichik nuqson, xurdadon – nozikfahm, nozik ma‘nolarni tushunadigan odam. Ishqiga muhtalo qilguvchi avval o‘zini sezdiradi, keyin ishq nihollarini eka boshladi, natijada uning turli g‘am-anduhlari boshimga yog‘ildi, Firoqida yondim – bularning bari meni mast-u malang qildi, nozik fikrlarimni tebratdi. Bu yerda mast-u malang bo‘lishni, zohiriy ma‘noda emas, botiniy ma‘noda tushunish kerak. Tasavvufda may ilohiy ishq timsoli bo‘lsa, undan mast bo‘lish, tabiiyki, uning ilohiy nurlaridan bahramand bo‘lmoqdir. Bu mavzu maqta‘da davom ettiriladi:

*Navoiy, ne may erdikim, ichib olamg‘a fosh ettim*

*Ulustin yoshurun yillar ko‘ngulda asrag‘onimni.*

So‘nggi baytda shoir o‘ziga murojaat qilib, ilohiy ishqdan chinakamiga mast bo‘lganini tan oladi: ey Navoiy, bu qanday may ediki, sen yillar mobaynida ko‘nglingda saqlaganlarningning barini oshkor qilding, u seni ne ko‘ylarga soldi. Ya‘nikim, ilohiy ishq shu qadar pok tuyg‘uki, siz qalbingizda birorta sirni saqlay olmaysiz, buning keragi ham yo‘q, chunki ochiqqalb, samimiy, sofdil bo‘lishdir asli uning maslagi.

Darhaqiqat, tasavvuf ta‘limoti husni mutlaqni kuylovchi eng go‘zal yo‘l. Undagi asosiy yo‘nalish – nafs tarbiyasi. Nafsini jilovlay olgan inson har narsaga qodir va u Yaratganning ilohiy dargohiga borishga loyiq ko‘riladi. Navoiy ham aynan g‘azallarida, asarlarida shu mavzuni kuylaydi, ya‘ni nafsni yenging, ruhni tarbiya qiling: “Nafs itini qilsang zabun, Olamda yo‘q sendek shujo‘ (shijoatli)”. Yuqorida ko‘rib o‘tgan g‘azalimizda ham ishq ilohiyga tutashgan oshiqning holahvolidan xabardor bo‘ldik, bunda shoir oshiqlikning qiyinchiliklarga boy bo‘lishini, yo‘ldagi mashaqqatlarning qay tarzdaligini, firoq, alam-anduhlarning yuk bo‘lishini aytib o‘tadi, biroq bularning bari oshiqni toblaydigan sinovlar bo‘lib, oxir-oqibatda oshiq yuksak maqsadiga – Yorning ilohiy dargohiga erishadi.

Navoiy zamonidagi bu fikrlar bevosita hozirgi zamon uchun ham birdek dolzarb va ahamiyatli. Chunki nafsni yengish va Yaratganni anglash bu hayotning mohiyatini anglashga olib boradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alisher Navoiy. Qomusiy lug‘at. I jild. –T.: Sharq, 2016. –B. 536.
2. Alisher Navoiy. G‘azallar. Sharhlar. –T.: Kamalak, 1991. –B. 176.
3. Haqqulov I. Tasavvuf, tarix, mohiyat va tadqiq talablari. O‘zbek tili va adabiyoti. –T. 2017. 4- son. –B. 124.
4. Jabborova S. Navoiy badiiy asarlaridagi literonimlarning lisoniy-badiiy xususiyatlari. Buxoro. 2016. –B. 69.
5. Komilov N. Ma‘nolar olamiga safar. –T.: Tamaddun. 2012. –B. 316.

## YURISTNING NUTQ MADANIYATI

*Ibrohimov Saidakbar Ilhomjon o'g'li*

*Toshkent shahar yuridik texnikumi 2-bosqich o'quvchisi.*

**Annotatsiya:** Xalqimiz farovonligi maqsadida davlatchilik va qonunchilik yanada rivojlanib borayotgan bir paytda «Yuristning nutq madaniyati» ijtimoiy hayotda muhim masalalardan biriga aylandi. Ya'ni nutq madaniyatini egallash, madaniy gapirishga intilish, fikr mahsulini matnga to'laqonli tushira olish mahorati barcha kasb egalarining, shuningdek, yuristlarning ham kundalik ishi bo'lmog'i lozim. Hozirgi kunda nutq madaniyati muammosini kun tartibiga hayotning o'zi qo'ymoqdaki, kishilik jamiyatining madaniy-ma'rifiyligini busiz tasavvur qilish qiyin. Shu sababli nutq madaniyati, qonuniy «nutq ehtiyoji» hayotiy talabga aylanishi aniq.

**Kalit so'zlar:** nutq, madaniyat, yurist, til, qonun tili, yuridik nutq, yozma nutq, og'zaki nutq, yurisprudensiya

**Nutq madaniyati tushunchasi.** Nutq madaniyati inson umummadaniyatining bir qismi bo'lib, fikrni adabiy til me'yorlariga muvofiq to'g'ri, erkin, aniq, mantiqan izchil, yoqimli va ta'sirli bayon qilishdir. Nutq madaniyati deyilganda til birliklaridan, jumladan, lug'aviy, grammatik va uslubiy vositalardan nutq jarayonida to'g'ri va o'rinli foydalanish nazarda tutiladi. Nutq madaniyati kishidan til boyligini – lug'aviy birliklar, grammatika, orfografiya, nutq uslublari va ularning har biriga xos xususiyatlar hamda me'yorlarni yuqori darajada bilishni talab etadi. Bundan tashqari, nutq madaniyati kishining shaxsiy madaniy saviyasi bilan ham bog'liqdir. Shuni ta'kidlash kerakki, til mustaqilligisiz mustaqil davlatni tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu boisdan tilimiz jozibasiz, tilimizning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni, ahamiyati, nutq madaniyati, nutq nafosati to'g'risida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishning ahamiyati benihoya kattadir. Nutq madaniyatining yana bir jihati shuki, fikrni og'zaki yoki yozma shaklda ifodalashda, albatta, mantiqiy izchilikka rioya qilish muhimdir. Lug'aviy-grammatik, uslubiy me'yorlar adabiy tilning hamma ko'rinishlari uchun xos bo'lsa, imlo va tinish belgilariga oid me'yorlar adabiy tilning faqat yozma shakli uchun, to'g'ri talaffuz me'yorlari esa og'zaki shakli uchun xos bo'ladi. To'g'ri, aniq, ifodali va yoqimli so'zlash uchun til boyliklaridan mazmunga mos so'zni tanlay olish qobiliyatini takomillashtirish zarur. Buning uchun so'zni o'rinsiz takrorlamaslik, so'z shaklini, gap turini to'g'ri qo'llash, har bir uslubning o'ziga xos belgi va mezonlarini ongli idrok qilish maqsadga muvofiqdir. Nutq madaniyati so'zlovchining shaxsiy madaniy saviyasi mezoni bo'lganligi uchun kishidan katta mehnat talab etiladi. Buning uchun nutqda xalq maqollaridan, iboralardan unumli va o'rinli foydalana olish; hadis, hikmatli so'zlardan nutq jarayonida iqtiboslar keltira olish va ularning mohiyatini tahlil qila olish mahoratini takomillashtirish lozim. Yuristlar esa yuqorida qayd etilgan ko'rsatmalarga to'la amal qilishlari bilan birga yuridik tilning barcha me'yorlari va mezonlarini zarur darajada o'zlashtirishlari maqsadga muvofiqdir. Yuristlar qonunlar matnlaridagi yuridik terminlar mohiyatini to'g'ri o'z o'rnida qo'llashga rioya qilishlari zarur.

Yuristning nutq madaniyati tushunchasini yana quyidagicha izohlash o'rinlidir:

1. Yuristning nutq madaniyati yuridik tilni, uning qonun-qoidalarini ongli idrok qilish asosida yurisprudentsiya doirasida ifodali nutq tuza olish mahoratidir.
2. Yuristning nutq madaniyati faqat to'g'ri nutq tuzish emas, balki nutqiy chechanlikdir.
3. Yuristning nutq madaniyati til vositalaridan o'rinli foydalangan holda huquq sohasida maqsadga muvofiq so'zlash va yoza olish san'atidir.
4. Yuristning nutq madaniyati bu, avvalo, ravon va mazmunli, oddiy va tushunarli fikrlash madaniyatidir.

Yuristlarimiz nutq madaniyatining yuqorida eslab o'tilgan talablariga har doim rioya qilishlari lozim. Zero, hozirgi zamon yuristlari nutqning ma'muriy-buyruqbozlik usuli, muomala madaniyatidan emas, balki til madaniyatining milliy istiqloq g'oyalari bilan yo'g'rilgan



shakllaridan foydalanmoqlari zarur. Zo'ravonlikka asoslangan sobiq sovet tuzumida huquq-tartibot idoralarida faoliyat ko'rsatgan aksariyat xodimlarning nutqida qammataman, yo'qotaman, bo'ynigga ol aks holda shu yerdan chiqmaysan, urug'-aymog'ing bilan quritvoraman kabi ko'plab qo'pol so'zlarning qo'llanilishi huquq-tartibot idoralari faqat jazolovchi organ bo'lganligidan dalolat beradi. Mustaqillik esa zamonaviy yuristlarning huquq madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan nutq madaniyati, muomala madaniyatiga, nutq madaniyatiga ham alohida e'tibor berishni talab etmoqda. Lekin hozirgi kunda ham huquq-tartibot organlarida faoliyat ko'rsatayotgan ayrim xodimlarning nutqida yuqoridagi kabi so'zlar uchrab turishini kuzatish mumkin. Buni oqlab bo'lmaydi, albatta. Chunki huquq-tartibot organlari xodimlari davlatning ramzidir. Ularning muomala madaniyati yuqori darajada bo'lishi shart. Darhaqiqat, prezidentimiz tomonidan huquq madaniyatining davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi huquq madaniyati bilan uzviy bog'liq bo'lgan nutq madaniyatiga bo'lgan ijobiy munosabatning ham yaqqol ko'rinishidir. Odamiylikning muhim fazilatlaridan biri xushmuomalalik, muloyimlikdir. Bu fazilatlar bevosita tilga, so'zga bo'lgan munosabatda namoyon bo'ladi. Zero, tilning ko'rki, aql-zakovatning ziynati so'zdir. So'z muqaddas, u faqat ezgullik, yaxshilik uchun xizmat qilishi lozim. Yunon faylasuflarining ta'kidlashlaricha, til har bir aql sohibi fazilati xazinasining kalitidir va har kishining bilimi, odobi uning so'zlaridan yaqqol bilinib turadi. Ayniqsa, yuristlar ijtimoiy hayotda ko'pchilik bilan muloqotda bo'ladilar, har xil toifadagi kishilar (guvohlar, jabrlanuvchilar, aybdorlar, jinoyatchilar va b.) bilan ro'baru keladilar. Tergov va sud jarayonida o'ta ehtiyotkorlik ularning tilga bo'lgan munosabatida yaqqol namoyon bo'ladi. Qolaversa, yuristlar faoliyatini rasmiy hujjatlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Tergov ishlari bilan bog'liq turli bayonnomalarni to'ldirish, sud hukmi, ayblov nutqini tayyorlash va boshqa rasmiy hujjatlarni o'ta savodxonlik bilan yozish ham ularning til vositalaridan foydalana olish qobiliyatiga bog'liqdir. Demak, yuristning o'zi mohir notiq, nutqi esa mantiqli va ta'sirli bo'lmog'i davr talabi. Lekin hozirgi kunda yurisprudentsiya tarmoqlariga oid rasmiy hujjatlarni davlat tili qonun-qoidalariga muvofiq, adabiy til me'yorlariga asoslangan holda tayyorlash talab darajasida deb bo'lmaydi. Masalan, Notarius tomonidan tuzilgan oddiygina «Hadya shartnomasi», «Oldisotdi shartnomasi» kabi rasmiy hujjatlarda, sud hukmi matnlarida ham imloviy va uslubiy xatolar uchraydiki, hozirgi sharoitda bunga odalarimiz o'zlari e'tibor qaratishib, hattoki bunday jumalarni ommaviy axborot vositalarida ham e'lon qilmoqdalar. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, kodekslar, qonunlarning moddalari mazmunini kengaytirib yozish, har bir modda yuzasidan mulohazalar, izohlar, sharhlar tuzish mashqlari o'tkazish yuristlarning savodxonlik va notiqlik san'atini yuksaltirishga yordam beradi.

**Huquqiy til me'yorlari.** Har qanday ijtimoiy aloqa, fikrlashuv va muloqot, jumladan, barcha huquqiy munosabatlar ham til orqali namoyon bo'ladi. Tilsiz fikrni ifodalash mumkin bo'lmaganidek, til ham o'z ifodasini fikrsiz shakllantira olmaydi. Binobarin, huquq insonlarning asosiy ehtiyojlari va manfaatlarini ta'minlaydigan, kafolatlaydigan vosita bo'lsa, til ana shu huquqning reallashuvida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Huquqqa oid har qanday fikr, tushuncha, belgi, harakat-hodisa va munosabat so'zlarda o'z ifodasini topadi, ya'ni so'zlardan, iboralardan, atama va terminlardan tarkib topgan ifoda qolipiga, ifoda shakliga tushmaguncha munosabat, ijtimoiy aloqa, muomala (fikrlashuv) yuzaga chiqmaydi. Fikrning, xususan yuridik fikrning voqeligi ham, mavjudligi ham tilda namoyon bo'ladi. Tilsiz, so'zsiz hech qanday aniq va tayyor holdagi yuridik fikr bo'lmaydi. Yuridik tilda fikr so'zlar, terminlar va bular ishtirokida tuzilgan muayyan sintaktik qurilmalar - gap modellari orqaligina shakllanadi va nutqda o'z ifodasini topadi: til huquqning «yashash» shartidir.

Darhaqiqat, til yuristning tafakkur yuritish quroli bo'libgina qolmasdan, balki uning ijtimoiy va moddiy ahvolini ko'tarish vositasi, xalqqa yaqinlashtiradigan tanitish belgisi ham sanaladi. Shu o'rinda Yevropalik mashhur bir yuristning fikrlarini keltirib o'tishni lozim deb hisoblayman. U "Meni barcha boyliklarimni olinglar, moddiy topganlarimdan mahrum qilsangiz ham roziman. Biroq, so'zlash huquqimdan mahrum etmanglar, Shunda men yo'qotgan barcha boyliklarimni yana o'n karra ortig'i bilan topib olaman", degan ekan. Demak, bu bilan yuristning notiqlik mahorati va uning odamlar bilan ishlashdagi qobiliyatini ko'rishimiz mumkin. Davlatimizda huquqiy islohotlar o'tkazilayotgan hozirgi sharoitda qonunlar tili va uslubi, huquq



terminologiyasi muammolari hamda zamonaviy yuristning nutq madaniyati masalalari muhim ahamiyatga ega. Har qanday islohotlar qonunlarni o'zgartirmasdan amalga oshirilmaydi, bu esa o'z-o'zidan, yangi-yangi til birliklari (so'z va terminlarning) va shakllarning rivoj topishi uchun zamin hozirlaydi. Qonun tilida noto'g'ri qo'llanilgan birgina tovush, qo'shimcha va so'z, hatto, birgina tinish belgisi qo'pol mazmuniy va uslubiy xatolarni, nuqsonlarni, g'alizliklarni keltirib chiqaradi.

Masalan, Bu hikoya voqealar menga yod.

Bu hikoya voqealari menga yot.

Misolda keltirilgan yod va yot so'zlari paronim, ya'ni talaffuzi va shakli bir-biriga yaqin so'zlar bo'lsa-da, ma'nolari har xildir. Ularning o'rnini almashtirib qo'llash gapning mazmunini tubdan o'zgartirib yuboradi. Yoki quyidagi misolga e'tiborni qarataylik:

1. O'lim yo'q, shafqat.

2 O'lim, yo'q shafqat.

Yoki,

Sen savodsiz, odam emassan

Sen savodsiz odam emassan

Ko'rinib turibdiki birgina vergulning o'rnini almashtirish yoki uni ishlatmaslik nafaqat uslubiy xato hisoblanadi, balki jinoyatni yuridik baholashda ham kechirib bo'lmaydigan xatolarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham yuristlarimiz tergov hujjatlarini yozishda, qonun loyihalarini tayyorlashda, sud hukmi matnlarini tuzishda o'ta ziyrak va zukko, bilimdon va ehtiyotkor bo'lmoqlari lozim. Chunki tergov, sud jarayoni bilan bog'liq hujjatlar yoxud qonunlar moddalarining har birida inson taqdiri yotadi. Shunday qilib, huquq va til bir jarayonning ikki tomoni bo'lib, huquq mazmun bo'lsa, til o'sha mazmunning voqe bo'lishidagi vositadir. Mazmun bilan shaklning uyg'unlashuvi esa yuristlarimiz qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.

**Til va nutq.** Yuridik til va yuridik nutq to'g'risida fikr yuritishdan oldin til va nutq hodisalarining o'ziga xos xususiyatlarini bilib olish o'rinli. Til va nutq bir-biridan farq qiladigan, lekin o'zaro aloqador ikki ijtimoiy, ruhiy-ma'naviy hodisadir. Ya'ni til aloqa quroli, fikr bayon qilish vositasi bo'lsa, nutq so'zlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni va shunday jarayon natijasida yuzaga keladigan faoliyatdir. Bu ikki hodisani qiyoslaganda oradagi farqlar yanada oydinlashadi. Ya'ni, bir auditoriyada yigirmata yurist o'tirgan bo'lsa, ularning gaplashadigan tillari bir bo'lsa-da, lekin nutqlari yigirma xil bo'lishi tabiiy. Til faqatgina aloqa vositasi bo'lib qolmasdan, balki dunyoni ko'rish, eshitish, bilish, idrok etish vositasi hamdir. Bundan tashqari, tilning ruhiy va estetik hodisa ekanligini ham yoddan chiqarmasligimiz zarur. Til bamisoli - ummon. Unda barcha fikrlar uchun «libos»lar topiladi. Lekin tilning jozibasi, kamalak misol tovlanishi bevosita nutq orqali, nutq jarayonida yuz beradi. Ba'zan nutq jarayonida tilning jozibasi, jilolanishi, mo'jizakorligi yuzaga chiqmay qolishi mumkin. Shu bois yurist so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolarini to'la anglashi, har bir so'zning uslubiy mezonlarini, ma'no qirralarini ongli idrok etishi talab etiladi. Zero, hazrat Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida to'g'ri ta'kidlaganlaridek, "Til muncha sharaf bila nutqning olati (quroli)dur va ham nutqdurki, agar nopisand zohir bo'lsa, tilning ofatidir". Tilni xalq yaratadi, nutq esa shaxsiy boyluk sanaladi. Har kim o'z qobiliyati, so'z boyligi, shaxsiy fikrlash layoqatiga qarab gap tuzadi va so'zlaydi. Shuning uchun ham nutq oldiga nihoyatda ulug' bir talab qo'yiladi: o'ynab gapirsang ham, o'ylab gapir. Zero, nutq (so'z) aqlning tarozisi, aqlning o'lchovi.

**Yuridik til va uning o'ziga xos xususiyatlari.** Yurisprudentsiya tarmoqlariga oid orfografik, leksik, grammatik va uslubiy xususiyatlar yuridik tildir. Taniqli huquqshunos olim professor A.Saidov ta'kidlaganidek, "Yuridik til – ko'pining yillik taraqqiyot va ko'p avlodlar tajribasi mahsuli". "... Huquq rivojlanishining tarixiy tajribalarini o'zida mujassam qilgan yuridik til inkor etish mumkin bo'lmagan qadriyat, huquqiy madaniyatning ajralmas qismidir". Yuridik til adabiy tilning tarkibiy qismi, o'ziga xos ko'rinishga ega til bo'lib, asosan, qonunchilik va rasmiy doirada qo'llaniladi. Ya'ni yuridik til o'ziga xos lug'aviy birliklari, gap qurilishi, uslubiy jihatlari hamda huquqqa oid tushunchalarni ifodalovchi terminlari bilan ajralib turadi. Barcha huquq manbalari yuridik tilda yoziladi. Tergov jarayoni, sud, advokat faoliyati, qonunlar ifodasi ham yuridik til asosida o'z in'ikosini topadi.

Yuridik til o'z mohiyatiga ko'ra bir necha turlarga, ya'ni qonun tili, ilmiy yurisprudentsiya tili, sud tili, huquqshunos-pedagog tili, huquqshunos-publitsist tili, prokuror tili, advokat tili kabi guruhlarga bo'linadi. Yurisprudentsiya tarmoqlariga oid leksik-grammatik xususiyatlar umumiyliigi bilan bir-biriga yaqin tursa-da, lekin o'ziga xos xususiyliklarga ham ega bo'ladi. Masalan, fuqarolik sudi faoliyatida qo'llaniladigan (taraf, taraflarning tortishuvi, da'vo qo'zg'atish, hal qiluv qarori, da'voni ta'minlash) terminlar jinoyat sudi faoliyatida qo'llaniluvchi terminlar (firibgarlik, genotsid, nomusga tegish, terrorizm)dan tubdan farq qiladi. Badiiy uslub va so'zlashuv uslubida badiiy obrazli so'zlar, tasviriy vositalar, frazeologik birliklar keng qo'llanilsa-da, biroq yuridik til rasmiy xususiyatga ega bo'lganligi uchun unda bunday til vositalarini qo'llashga ehtiyoj tug'ilmaydi. Chunki yuridik tilning birlamchi belgisi uning rasmiy bo'yoqqa egaligidir. Qat'iylik, mantiqiylik, qisqalik, aniqlik kabi xususiyatlar yuridik tilning nufuzini belgilovchi me'yorlardir. Yuridik til har xil beo'rin qaytariqlar, so'z takrorlari, tushunilishi qiyin ifodalar hamda ortiqcha sifatlashlar, ko'chma ma'noli so'zlardan xoli bo'lishi lozim. Ayniqsa, yuridik tilning tarkibiy qismi bo'lgan qonun tili gap qurilishi jihatdan tushunilishi yengil bo'lishi va oddiy fuqaro ham tez tushunib oladigan talablarga javob beradigan bo'lishi shart. Ma'lumki, qonun – jamiyatni tartibga solib turuvchi vosita, u inson manfaatlarini va ehtiyojlariga xizmat qiladi. Qonunning mazmuni, mohiyati, sifati, nufuzi til qoidalariga nechog'liq rioya etilishiga ham bog'liqdir. Qonunning ustuvorligi ham uning adabiy til me'yorlari asosida tuzilishi bilan belgilanadi. Adabiy til me'yorlariga to'liq javob bermaydigan qonun mazmunan va mantiqan tushunarsiz bo'ladi. Qonun tili davlatning rasmiy yuridik tili bo'lib, davlat bilan fuqarolar o'rtasidagi "muomala", "muloqot" vositasidir. Qonun faqat yuristlar yoki huquq sohasidagi mutaxassislar uchun qabul qilinmaydi, balki u davlatning barcha fuqarolari uchun tegishli bo'ladi. Shu bois qabul qilinayotgan qonunlarning tuzilishi imkon qadar sodda, iloji boricha g'alizliklardan, noaniqliklardan xoli bo'lishi lozim. Yuridik tilda o'zlashmagan xorijiy so'zlar va terminlar qo'llanilishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. O'zlashgan terminlar bundan mustasnodir. O'zbek tilida muqobili bo'la turib xorijiy terminlarni qo'llash ham o'zini oqlamaydi. Agar yuridik tushunchalarni ifodalash uchun o'zbek tilida unga muqobil so'z yoki termin topilmasa, tarjimada ortiqcha sun'iylikka bormasdan xorijiy terminlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bu qoida jahon fanida qabul qilingan til qonuniyati hisoblanadi. Biroq ilmiy-yurisprudentsiya tilida umumxalqqa tushunarli bo'lmagan, faqat yuristlar, huquqshunos olimlarga tushunarli bo'lgan so'zlar va terminlar qo'llanilishi mumkin. Bu ilmiy uslubning talabidir. Yuridik tilda shevaga oid so'zlar, jargonlar, o'zlashmagan so'zlar, o'ta obrazli iboralarni qo'llashga yo'l qo'yilmaydi. Qonun tili yuridik tilning o'zagi, tub "mag'zi" hisoblanadi. Qonun tilining eng muhim me'yorlaridan biri aniqlik bo'lib, tushunchaning mohiyati qonun moddalarida to'laqonli ifodalanishi va mamlakatning har bir fuqarosi kimligidan, qaysi kasb egasi bo'lishidan, ma'lumotidan qat'iy nazar tezda anglab yetishi zarur. Qisqalik qonun tilining asosiy belgilaridan biridir. Imkon qadar qonun moddalari tarkibi sinqiq, sodda va mufassal bo'lishi zarur. Qisqa jumalarda keng ma'no-mazmunni ifodalash ham qonun matnining tez anglab olinishini ta'min etadi. Albatta, bunda ellipsisga yo'l qo'yilmaydi, ya'ni gap bo'laklari tushirilmaydi. Chunki qonun moddalari tarkibidagi gap bo'laklarining tushirilishi qonunning mohiyatiga salbiy ta'sir etadi. Qonunlar adabiy tilning rasmiy uslubida tayyorlanadi. Shuning uchun qonunlar tarkibidagi til vositalari – lug'aviy birliklar, terminlar, fe'l nisbatlari, fe'l mayllarining rasmiy bo'yoqdorligi har bir moddaga rasmiylik belgisini beradi. Masalan, Barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlarini bajaradilar (O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 47-modda) Bu misoldagi fuqarolar so'zi o'rniga uning sinonimlari (odam, inson, shaxs, kishi)dan birini yoki burch so'zi o'rniga uning sinonimlari (vazifa, topshiriq)dan birini qo'llasak rasmiylik belgisi susayadi. Rasmiylik bo'lmas ekan, qonunning kuchi ham yo'qoladi. Shu bois qonun ijodkorlari rasmiy uslubning lisoniy xususiyatlarini zarur darajada o'zlashtirishlari talab etiladi. Qonunlar tili xolislik belgisiga ham ega bo'lishi zarur. Qonun oldida hamma tengdir degan qoidaning o'zi qonunning xolisligini ta'minlaydi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o'rnatiladi (O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 21-modda). Bu modda o'z mohiyatidan tashqari hech kimga hech qanday qo'shimcha imtiyoz berilmaydi degan

tushunchani anglatadi. Shuning o'zi ham xolislikni belgilaydi. Mantiqiy izchilik ham qonun tilining asosiy belgilaridan biridir. Ya'ni shakl bilan mazmun mantiqan muvofiq bo'lishi zarur. Adabiy til me'yorlariga rioya qilinmagan, grammatik jihatdan noto'g'ri tuzilgan qonunlar mantiqiy izchil bo'lmaydi. Qonunchiligimizda ba'zi bir qonun moddalari tahrir talabdir. Qonun tilining yana bir belgisi uning barqarorligidir. Qonunlarning qat'iyligi uning barqarorligini, turg'unligini belgilaydi, shuning uchun qonun moddalarini har kim o'zicha o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

**Og'zaki va yozma yuridik nutq.** Nutq til vositalari orqali so'zlashish, muomala jarayonidir. So'nggi yillarda nutq kishilar til orqali bir-biri bilan muomala, aloqa qilishning usuli deb qaralishi ham fikrimizni tasdiqlaydi. Til umumiylik, nutq esa xususiylik belgilari bilan farqlanadigan ijtimoiy hodisalar bo'lib, ikkalasi ham jamiyatga xizmat qiladi. Nutq og'zaki va yozma ko'rinishlarga ega bo'ladi. Biroq nutqning bu ikki ko'rinishi bir-biridan ba'zi jihatlari bilan farqlanadi. Og'zaki nutq so'zlovchi – prokuror, sud, advokat, tergovchi gapirib turgan lahzadagina mavjud bo'ladi, so'zlash jarayoni tugashi bilan og'zaki nutq ham tugaydi. Lekin nutq ta'sirida berilgan ma'lumot, axborot, hukm tinglovchi ongida uzoq vaqtgacha saqlanishi, tinglovchi – aybdor, guvoh, sudlanuvchi xulqiga, qalbiga ta'sir etishi tabiiy.

**Yuridik og'zaki nutq xususiyatlari, asosan, quyidagilardan iborat:**

1) Yuridik og'zaki nutq kommunikativ jarayon bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Og'zaki nutq tezkorlik bilan amalga oshadi, shuning uchun har qanday yurist ifodalayotgan fikriga mos so'zni, gapni tanlay olish qobiliyatini shakllantirib borishi maqsadlidir. Ba'zan sud jarayonida prokuror, sud yoki advokat voqeiylikka, aytilishi lozim bo'lgan fikrga, hodisalarni dalillashga mos, muvofiq so'z topa olmay qoladi. Og'zaki nutq tayyorgarliksiz, ya'ni favqulodda yuzaga keladi, shuning uchun kishi o'z nutqida voqeiylikdan uzoqroq so'zni ishlatib yuborishi ham mumkin. Natijada aytilgan nutq nishonga borib tegmaydi, ko'zlangan maqsad amalga oshmay qoladi. Og'zaki nutq jarayonida odam bir vaqtning o'zida fikrlaydi hamda so'zlaydi, shuning uchun voqeiylikka mos so'zlarni tanlashga deyarli imkoniyat bo'lmay qoladi. 2) Og'zaki nutqda gap qurilishini aql nazorat qilib boradi. Bunda xotiraning roli katta. Agar xotira sust bo'lsa, og'zaki nutqda gap tuzilishi, so'z birikmalari o'zaro mantiqan va grammatik jihatdan bog'lanmay qoladi. 3) Yuridik og'zaki nutq, asosan, tahrir imkoniyatidan mahrum bo'ladi. U qanday shaklda namoyon bo'lgan bo'lsa, shundayligicha tinglovchiga yetib boradi. 4) Yuridik og'zaki nutqda takrorlar, qaytariqlar ko'p uchraydi. 5) Yuridik og'zaki nutqning lug'aviy tarkibi yozma nutqqa nisbatan kam bo'ladi. Olmoshlar, yuklamalar, modal so'zlar, bosh va tushum kelishigidagi otlar ko'proq ishlatiladi. Og'zaki nutqda ellipsisga yo'l qo'yiladi, ya'ni nutqning tejamkor bo'lishi uchun ba'zi gap bo'laklari tushiriladi. To'liqsiz gaplar ko'p qo'llanadi. 6) Yuridik og'zaki nutqda so'zlovchining faol nutqiy harakati pauza (to'xtam), ohang, urg'u, unililarning cho'zib talaffuz etilishi; turli xil (imo-ishora)lar, mimika (qiyofaning o'zgarishi)lar fikrning tinglovchiga yetib borishida muhim ahamiyat kasb etadi. 7) Og'zaki nutqda talaffuzning ahamiyati katta. Gapga ustalikni talaffuz ravonligidan ayricha tasavvur etib bo'lmaydi. No'noq talaffuz tergov jarayonida, sud jarayonida, ayniqsa, sud hukmi o'qilishida noxush vaziyatni keltirib chiqarishi mumkin. Sud hukmi o'qilayotganda har bir so'z, har bir termin yoki har bir gap ravon talaffuz etilishi shart. Toki o'qilayotgan hukm davlat nomidan ifodalanayotgani aniq bilinib tursin. Og'zaki nutqni shakllantirish va takomillashtirish ko'proq yozma nutqning takomiliga bog'liq. Yozma nutqda esa til vositalarini tanlash va qo'llashga to'liq imkoniyat bo'ladi. Yozma nutqni xohlagancha tahrir qilish mumkin. Yozma nutqda og'zaki nutqdagi kabi hayajon bo'lmaydi, notiq shoshilmasdan, o'ylab nutq tuzadi. Shu sababdan ham yozma nutq og'zaki nutqdan ko'ra ravon, aniq va izchilroq bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, lex.uz
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008
3. Usmonov S. Yuristning nutq madaniyati. - T.: Toshkent, 2005
4. Husanov B., G'ulomov V. Muomala madaniyati. T.: Toshkent, 2009
5. S.Usmonov, SH. Ziyamuxamedova. Yurist nutq amaliyoti.
6. Shaxsiy rivojlanish. Darslik. Toshkent, 2020

**O'TLOQI-BOTQOQ TUPROQLAR SHAROITIDA MOSH**  
**(Phaseolus aureus Piper)**  
**YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASINI TAHLILY O'RGANISH**

**UO'T: 633.11.582.282.53**

*Idrisov Xusanjon Abdujabborovich (q.x.f.f.d (PhD)*  
*FarDU Mevachilik va sabzavotchilik kafedrasasi mudiri.*

**Annotatsiya:** Maqolada o'tloqi-botqoq tuproqlar sharoitlarida olib borilgan tadqiqot natijalari bayon etilgan. O'tkazilgan tadqiqotlarda mosh navlarining o'sish dinamikasiga o'rganilgan texnologik omillar ta'sir ko'rsatgan. Ekish muddati bo'yicha navlarning o'sishi bahorgi muddatga nisbatan takroriy 20 iyun va 1 iyulda ekilganda poya balandligi 2,3-5,2 sm ga yuqori bo'lganligi aniqlangan. Ekish me'yori va muddati «Navro'z» navining hosil elementlariga ta'sir ko'rsatib, kech ekilganda va ekish me'yori oshganda shoxlar soni, dukkak soni, vazni, don soni va vazni hamda 1000 dona don vazni kamayganligi, bir tupdagi don vazni bahorda ekilganda ekish me'yorlari bo'yicha 14,7-12,9 grammni tashkil qilganligi, don vazni takroriy 20 iyunda ekilganda mos ravishda 14,9-13,0 grammni; 1 iyulda ekilganda 14,7-12,6 grammni; 10 iyulda ekilganda 13,9-12,0 grammni tashkil qilganligi aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** Mosh, oqsil, nav, Navro'z, hosildorlik, poya, vegetatsiya, gul, shonalash, dukkaklash.

**Kirish.** «Dukkakli ekinlar yer yuzida 135 mln. gektar maydonga ekiladi, shundan takroriy ekin sifatida dukkakli-don ekinlari 91,6 mln. gektar maydonga ekilib, o'rtacha don hosildorligi 12,0 s/ga, yalpi hosil 206,4 mln. tonnaning tashkil etadi. Dunyo bo'yicha moshdan olinadigan hosil 5,3 mln. tonnani tashkil etadi, moshni yetakchi yetishtiruvchi va iste'molchi davlat Hindiston hisoblanadi. Shuningdek mosh o'simligi Osiyoning yetakchi davlatlarida ko'p ishlab chiqarilmoqda: Birma ishlab chiqarilgan donning 58,5% ni eksport qiladi, Hindiston 39,6 % ni, Xitoy 13,5% aholisi iste'mol qiladi». Shundan kelib chiqqan xolda, dunyoda aholini oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda mosh ekini maydonlarini kengaytirib, yetishtirish texnologiya elementlaridan ekish muddati va me'yorlarini ishlab chiqish katta ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda dukkakli ekinlar xususan mosh yetishtirishning ilg'or resurstejamkor texnologiyasi bo'yicha keng ko'lamdagi ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Moshning potensial imkoniyatidan foydalangan holda o'ziga xos resurstejamkor yetishtirish texnologiyalarni ilmiy asoslariga tayanib, tuproq-iqlim sharoitlariga mos bo'lgan navlardan ekologik toza, tarkibida oqsil va vitaminlarga boy bo'lgan don hosili yetishtirmoqdalar. Shu nuqtai nazardan, moshning serhosil navlarining yetishtirish agrotexnologiyalarini takomillashtirish ya'ni ekish muddati va me'yorlarini to'g'ri belgilash, mineral o'g'itlar bilan oziqlantirishni maqbullashtirish hamda navbatlab ekishni to'g'ri tatbiq etish bo'yicha tadqiqotlar natijasida tuproq unumdorligini tiklash va oshirish, chorvachilikni to'yimli ozuqa bilan ta'minlash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi tibbiyot xodimlarining tavsiyasiga ko'ra bir yilda bir kishi 4,3 kg mosh iste'mol qilishi kerak. Hisob-kitob qilinsa, respublikamizning barcha aholisiga bir yilda jami 155 ming tonna mosh talab etiladi.

Yetishtirilgan 360 ming tonna mosh donining 200 ming tonnasi Avstraliya, Afg'oniston, Belgiya, Hindiston, Xitoy, Koreya, Turkiya, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, BAA va boshqa mamlakatlarga eksport qilish imkoniyati mavjud. Birgina 2021-yil hosildan 128 ming tonna mosh (2020-yilga nisbatan 29 ming tonna ko'p) o'rtacha 0,8 \$ AQSH dollaridan, jami 102,5 mln dollarga dunyoning o'ndan ortiq mamlakatlarga eksport qilingan.

Mosh respublikaning barcha hududlarida asosiy va takroriy ekin sifatida ekiladi. Ushbu ekin almashlab ekish tizimida barcha ekinlar uchun eng yaxshi o'tmishdosh hisoblanadi. Respublikada ekilayotgan dukkakli donlardan soya, xo'raki no'xat, gorox, yasmiq ekinlari



urug'ligini ekish oldi innokulyantlar bilan ishlov berilmasa, ularning ildizida biologik azot hosil bo'lmaydi. Mosh esa respublika hududlarining barcha tuproqlarida avvaldan ekib kelinayotgani tufayli tuproqlarda biologik azot to'plovchi tuganakli bakteriyalari tabiiy shakllanadi hamda ko'chat qalinligidan kelib chiqib, gektariga sof holda o'rtacha 80–120 kg azot to'playdi.

Shuning uchun ham ushbu ekin maydonlari yildan-yilga kengayib bormoqda. Jumladan, 2018-yilda mosh ekin maydonlari 213 ming gektarni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda 232 ming gektar (+20 ming ga) maydonga ekilgan. Don hosildorligi o'rtacha 2,4 sentnerga ortib, jami 360 tonna don yetishtirildi.

**Adabiyotlar sharhi.** Z.Jumaev va A.Sirimovlar mosh doni 24-28% oqsilga ega bo'lib, ang'izda yetishtirilsa, donidagi ko'kat massasidagi oqsilning sezilarli darajada oshishi bilan birga tuproqni azotga boyitishi ham sezilarli darajada oshishini qayd etganlar. Qoraqalpog'iston sharoitida moshni ang'izda yetishtirib, har gektar yer hisobiga tuproqda 100 kg gacha sof azot tuplanishi bilan birga 200-300 s/ga ko'kat massa ham yetishtirganlar [1; 20-25-b.].

Mosh yuqori harorat va qurg'oqchilikka bardoshliligi sababli ko'proq kuzgi boshqoli don ekinlari ang'izida takroriy ekin sifatida yetishtirilmoqda [1]. Shu sababli ham moshni takroriy ekin sifatida paxta va boshqoli don ekinlari almashlab ekish tizimiga kiritilishi istiqbolli hisoblanadi.

Sh.Ernazarov, S.Negmatova va boshqalarning ma'lumotiga ko'ra, ang'izda takroriy ekinlar yozning ikkinchi yarmida yetishtirilsa, bahordagiga nisbatan vegetatsiya davri birmuncha qisqaradi. Chunki, takroriy ekinlar kunning qisqarishi sharoitida o'simlikning yorug'lik reaksiyasi qisqa kunlarda o'tishi natijasida vegetatsiya davrining davomiyligi ham qisqaradi. Natijada takroriy ekinlar yozning ikkinchi yarmi mobaynida to'liq pishib yetiladi [6; 27-28-b.].

A Mansurov [88; 119-b.] ning Andijon viloyati sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlari sharoitda 2012-2015 yillarda o'tkazgan tajribalarida aniqlanishicha, takroriy ekin turlaridan keyin ekilgan kuzgi bug'doyning hosildorlik ko'rsatkichlari nazorat variantiga nisbatan eng yuqori hosil mosh o'rniga ekilganda kuzatilgan. Jumladan, hosildorlik nazorat variantida o'rtacha gektaridan 52,4 s/ga ni tashkil etgan bo'lsa, makkajo'xori o'rniga ekilganda 4,9 s/ga, tariqdan keyin ekilganda 2,5 s/ga, soyadan ekilganda 12,0 s/ga va moshdan keyin 14,5 s/ga qo'shimcha don va shunga mos ravishda somon hosili olingani aniqlangan.

Mosh kuzgi bug'doydan keyin ang'izida maxsus texnologiya bo'yicha suv ta'minoti cheklangan sharoitda maqbul muddatda ekilsa, don hosili 18,6-19,3 s/ga ni tashkil etib, tuproqdagi tabiiy azotning to'planishi sezilarli darajada oshadi [2; 257-258-b.].

**Tajribalarni o'tkazish joyi, sharoiti, uslubi va o'tkaziladigan asosiy kuzatuvlar.** Tajribalar ShITIning tajriba maydonlarida 13/1 karta (2,07) chekida olib borildi. Tajriba maydoni Toshkent viloyatining janubiy sharqiy qismida, Toshkent shahridan 15 km uzoqlikda Chirchiq daryosining chap qirg'og'ida geografik o'rni bo'yicha Grinvich shkalasida 69<sup>0</sup>18 Sharqiy uzunlikda va 41<sup>0</sup>20' Shimoliy kenglikdagi tekisliklarda joylashgan. Tuproq-o'tloqi. Tajriba dalasining tuprog'i sho'rlanmagan, xaydov qatlami 30–40 sm. Tuproqdagi eritmalarning rN miqdori 6,8-7,3 birliklarida bo'lib, mexanik tarkibi bo'yicha og'ir loylidir.

Ilmiy tadqiqot ishlarida olib borilgan fenologik kuzatuvlar va biometrik o'lchovlar "Metodika Gosudarstvennogo sortoispitaniya selskoxozyaystvennix kultur" va "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari" (O'zPITI, 2007) asosida o'tkazilgan. Fotosintez sof mahsuldorligini (A.A Nichiporovichning vazn uslubi) aniqlash, shuningdek olingan natijalar B.A.Dospexovning "Dala tajribalari uslublari" bo'yicha Microsoft Excel dasturi yordami asosida matematik statistik tahlil qilindi va hisoblandi [3.4; 317-325, 78-84-b.].

**Tadqiqot natijalari va muxokamasi.** O'simlikning hosildorlik ko'rsatkichlarini yaxshi bo'lishida vegetativ organlarni alohida o'rni bor Shu jumladan poya balandligini ko'rsatib o'tish mumkin bo'ladi. Poya balandligi hosil shakllanishining asosiy manbalaridan biri bo'lib xizmat qiladi. O'simlikning poyasi navga mos o'lchamiga yaqin bo'lsa, demak bu nav yaxshi o'sib rivojlangan bo'ladi. Tajribada o'rganilgan mosh navlari bu ko'rsatkich bo'yicha ancha farq qiladi. Navro'z navida 12 mayda ekilganda 4 ta chin bargi rivojlanish fazasida ekish me'yorlari bo'yicha poya balandligi 12,4-15,5 sm ni tashkil qilgan.



Ekish me'yorlari oshishi evaziga poya balandligi 1,4-3,1 sm ga oshgan. Gullash fazasida ekish me'yorlari bo'yicha poya balandligi 43,7-46,8 sm ni tashkil qilib, ekish me'yorlari oshishi evaziga 1,8-3,1 sm ga oshgan. Dukkaklanish fazasida poya balandligi ekish me'yorlari bo'yicha 92,4-96,4 sm ni tashkil qilib, ekish me'yorlari oshishi tufayli poya balandligi 1,7-4,0 sm ga oshganligi aniqlangan. Navro'z navi 20 iyunda ekilganda shonalash rivojlanish fazasida ekish me'yorlari bo'yicha poya balandligi 15,3-19,0 sm ni tashkil qilgan. Ekish me'yorlari oshishi evaziga poya balandligi 1,9-2,7 sm ga oshgan. Gullash fazasida ekish me'yorlari bo'yicha poya balandligi 45,3-49,0 sm ni tashkil qilib, ekish me'yorlari oshishi evaziga 1,6-3,7 sm ga oshgan. Dukkaklanish fazasida poya balandligi ekish me'yorlari bo'yicha 95,0-98,7 sm ni tashkil qilib, ekish me'yorlari oshishi tufayli poya balandligi 2,0-3,7 sm ga oshganligi aniqlangan.

### 1-jadval

**Navro'z navining poya o'sish dinamikasi, sm**

**( o'rtacha uch yillik 2016-2018 y) 1tup o'simlikda**

Экиш мuddати А	Экиш ме'yori ming dona/ga В	Rivojlanish davrlari		
		shonalash	gullash	dukkaklash
12 may	200	12,4	43,7	92,4
	300	13,8	45,5	94,1
	400	15,5	46,8	96,4
20 iyun	200	15,3	45,3	95,0
	300	17,2	46,9	97,0
	400	19,0	49,0	98,7
1 iyul	200	17,2	47,1	96,1
	300	19,0	48,9	97,6
	400	21,0	50,8	99,8
10 iyul	200	17,7	45,8	92,0
	300	19,3	48,0	92,7
	400	21,0	50,3	96,6

Navro'z navi 1 iyulda ekilganda 4 ta chin bargi rivojlanish fazasida ekish me'yorlari bo'yicha poya balandligi 17,2-21,0 sm ni tashkil qilgan. Ekish me'yorlari oshishi evaziga poya balandligi 1,8-3,8 sm ga oshgan. Gullash fazasida ekish me'yorlari bo'yicha poya balandligi 47,1-50,8 sm ni tashkil qilib, ekish me'yorlari oshishi evaziga 1,8-3,7 sm ga oshgan. Dukkaklanish fazasida poya balandligi ekish me'yorlari bo'yicha 96,1-99,8 sm ni tashkil qilib, ekish me'yorlari oshishi tufayli poya balandligi 1,5-3,7 sm ga oshganligi aniqlangan. Navro'z navi 10 iyulda ekilganda 4 ta chin bargi rivojlanish fazasida ekish me'yorlari bo'yicha poya balandligi 17,7-21,0 sm ni tashkil qilgan. Ekish me'yorlari oshishi evaziga poya balandligi 1,9-3,3 sm ga oshgan. Gullash fazasida ekish me'yorlari bo'yicha poya balandligi 45,8-50,3 sm ni tashkil qilib, ekish me'yorlari oshishi evaziga 2,2-3,8 sm ga oshgan. Dukkaklanish fazasida poya balandligi ekish me'yorlari bo'yicha 92,0-96,6 sm ni tashkil qilib, ekish me'yorlari oshishi tufayli poya balandligi 0,7-4,6 sm ga oshganligi aniqlangan. Navro'z navining poya balandligi ekish muddatlari kechikkan sari oshib borganligi aniqlandi. Eng yuqori poya balandligi iyul oyida ekilganda kuzatilgan. Yozni ikkinchi yarmida ekilgan mosh bahorgiga nisbatan yaxshiroq o'sgan. Demak, shu muddatlarda mosh uchun qulay sharoit mavjud bo'lgan deb hisoblaymiz. Hosil yig'ib olingandan keyin hisobli o'simliklar tahlil qilinib hosil elementlari aniqlangan. Ekish me'yorlari oshgan sari shoxlar soni kamayib borganligi aniqlangan. Moshning Navro'z navi bahorda ekilganda shoxlar soni 4,1 dan 3,4 gacha kamayib borgan. Takroriy ekilganda shoxlar soni 3,5 dan 2,5 gacha kamaygan. Dukkaklar soni bahorda ekilganda ekish me'yorlari ta'sirida 34,3 dan 26,0 donagacha kamaygan. Takroriy ekilgan muddatlarning barchasida dukkak soni 25,0 donadan 21,1 donagacha kamayganligi kuzatilgan. Bir tupdagi dukkak vazni bahorda ekilganda 26,1-23,1 grammni tashkil qilgan; takroriy muddatlarda ekilganda dukkak vazni 25,0 dan 17,7 grammgacha kamaygan. Navro'z navining dukkagi uzun bo'lib bahorda ekilganda dukkak uzunligi 12,1-9,4 smni tashkil qilgan. Takroriy ekilgan muddatlarda dukkak uzunligi qisqarib 9,6-8,0 sm ni tashkil qilgan (2-jadval).

Bir tup o'simlikdan chiqqan don soni mosh navlari bahorda ekilganda ekish me'yori oshgansari kamayib borganligi aniqlangan. Moshning Navro'z navida don soni 239,2 donadan 215,8 donagacha kamayganligi kuzatildi. Takroriy barcha muddatlarda ekilganda don soni ekish me'yori va muddati evaziga kamayib borgan.

## 2-jadval

Navro'z navini ekish me'yori va muddatini biometrik ko'rsatkichlarga ta'siri ( o'rtacha uch yillik),

№	Экиш мuddати	Экиш ме'yori ming tup /ga	Shox soni (dona)	1tup/dukkak			1 tup/don		1000 ta don vazni, g
				soni	vazni, g	uzunligi sm	soni	vazni, g	
1	12 may	200	4,1	34,3	26,1	12,1	239,2	23,9	51,9
2		300	3,8	28,0	25,0	10,5	228,2	22,3	48,5
3		400	3,4	26,0	23,1	9,4	215,8	19,0	46,1
4	20 iyun	200	3,5	33,1	25,0	9,6	226,4	23,6	47,8
5		300	3,3	31,4	24,2	9,4	215,9	21,5	45,3
6		400	3,0	27,7	22,1	8,9	210,4	16,8	43,7
7	1 iyul	200	3,0	29,1	24,8	9,1	191,2	20,1	46,2
8		300	2,9	27,4	22,2	8,6	183,8	18,2	44,2
9		400	2,6	23,7	20,5	8,4	176,2	17,4	40,9
10	10 iyul	200	2,9	26,7	20,4	8,7	173,3	15,8	42,8
11		300	2,6	23,4	18,4	8,3	166,8	15,1	41,1
12		400	2,5	21,1	17,7	8,0	157,8	14,3	40,0

O'rganilgan texnologik tadbirlar dukkakdagi don soniga ham ta'sir ko'rsatgan. Bahorda ekilganda o'rtacha bir dukkakda ekish me'yorlari bo'yicha 239,2-228,2-215,8 donani tashkil qilgan. Mosh 20 iyunda ekilganda bir dukkakda don soni ekish me'yorlari bo'yicha 226,4-215,9-210,4 dona; 1 iyulda ekilganda 191,2-183,8-176,2 dona; 10 iyulda ekilganda 173,3-166,8-157,8 donani tashkil qilgan.

Bir tupdan chiqqan don vazni bahorda ekilganda ekish me'yorlari bo'yicha 23,9-19,0 grammni tashkil qilgan. Don vazni takroriy 20 iyunda ekilganda 23,6-16,8; 1 iyulda ekilganda 20,1-17,4 gramm; 10 iyulda ekilganda don vazni 15,8-14,3 grammni tashkil qilgan. Kech ekilganda dukkak soni va vazni, don soni va vazni kamayib borishi kuzatilgan, bu albatta hosildorlikka o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Etilgan donni qanchalik to'la etilganligini 1000 ta donni vazniga qarab baholash mumkin. Bahorda ekilganda donni mutloq vazni ekish me'yorlari bo'yicha 51,9-46,1 grammni tashkil qilgan. Takroriy ekilganda o'simlikning amal davri qisqaradi va shu sharoitda hosil bo'lgan donning mutloq vazni qisqa muddatga o'z me'yoriga etolmaydi va kech ekilgan muddatlarda kamayib boradi (4.46.-jadval). Navro'z navida ekish me'yori va muddatini ta'sirida bir dukkakda don soni 239,2-157,8 donani tashkil qilgan.

**Xulosalar.** 1.Mosh navlarining o'sish dinamikasiga o'rganilgan texnologik omillar ta'sir ko'rsatgan. Ekish muddati bo'yicha navlarning o'sishi bahorgi muddatga nisbatan takroriy 20 iyun va 1 iyulda ekilganda poya balandligi 2,3-5,2 sm ga yuqori bo'lganligi aniqlangan. Ikkala navning o'sishiga ekish me'yori sezilarli ta'sir ko'rsatib, ekish me'yori oshgan sari poya balandligi 0,9-4,6 sm ga oshganligi, ertapishar «Durдона» navining poya balandligi «Navro'z» naviga nisbatan ancha past bo'lganligi aniqlangan.

2. Ekish me'vori va muddati «Navro'z» navining hosil elementlariga ta'sir ko'rsatib, kech ekilganda va ekish me'vori oshganda shoxlar soni, dukkak soni, vazni, don soni va vazni hamda 1000 dona don vazni kamayganligi, bir tupdagi don vazni bahorda ekilganda ekish me'yorlari bo'yicha 14,7-12,9 grammni tashkil qilganligi, don vazni takroriy 20 iyunda ekilganda mos ravishda 14,9-13,0 grammni; 1 iyulda ekilganda 14,7-12,6 grammni; 10 iyulda ekilganda 13,9-12,0 grammni tashkil qilganligi aniqlangan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Atabaeva X.N, Sattarov M.A, Idrisov X.A Sug'oriladigan maydonlarda mosh etishtirishning intensiv texnologiyasi bo'yicha tavsiyanoma. Toshkent 2019.
2. Atabaeva X.N, Xudoyqulov J.B O'simlikshunoslik.T "Fan va texnologiya". 2018.
3. Dospexov B.A. Metodika polevogo opyta. - M.: Kolos, 1985. - 317 s.
4. Dala tajribalarini olib borish metodikasi O'zPITI.2007 yil .
5. Jumaev Z. Sirimov A Moshning ang'izga ekish agrotexnikasi. Sug'oriladigan yerlarda boshqoli g'alladan keyin ekiladigan takroriy ekinlarni parvarishlash bo'yicha tavsiyalar. Toshkent.1995. B 18-22.
6. Ernazarov Sh. Negmatova S Ang'izda yetishtirilgan moshning hosildorligi va samaradorligi. "Agro ilm". O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali ilmiy ilovasi, Toshkent, 2009. № 1(9). B.27-28.
7. Mansurov A.M "Maqbul takroriy ekin turlarini tuproq unumdorligi va kuzgi bug'doy hosildorligiga ta'siri"//Qishloq xo'jaligi falari bo'yicha falsafa fanlari doktorlik dissertatsiya ishi. Toshkent.2017 B 119.

## “MIRZO ULUG‘BEK” TRAGEDIYASIDA ULUG‘BEK TIMSOLIGA NISBATAN QO‘LLANILGAN MUROJAAT BIRLIKLARINING LISONIY TAHLILI

*Muhtaram Ikramova*

*NamDU O‘zbek tili yo‘nalishi tayanch doktoranti.*

**Annotatsiya:** Maqolada “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasida Ulug‘bek timsoliga nisbatan qo‘llanilgan murojaat birliklarining leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari tahlili berilgan.

**Kalit so‘zlar:** murojaat birliklari, tragediya, lingvopoetika, kommunikativ sema, sotsial munosabat.

## АНАЛИЗ ЕДИНИЦ ОТСЧЕТА, ИСПОЛЬЗОВАННЫХ В ТРАГЕДИИ «МИРЗО УЛУГБЕК» ПРИМЕНИТЕЛЬНО К ОБРАЗУ УЛУГБЕКА

*Мухтарам Икрамова*

*НамДУ узбекский язык базовый докторант*

**Аннотация:** В статье анализируются лексико-семантические и методологические особенности единиц референции, использованных в трагедии «Мирзо Улугбек» применительно к образу Улугбека.

**Ключевые слова:** апелляционные единицы, трагедия, лингвопоэтика, коммуникативная сема, социальные отношения.

## ANALYSIS OF THE UNITS OF REFERENCE USED IN THE TRAGEDY “MIRZO ULUGBEK” IN RELATION TO THE IMAGE OF ULUGBEK

*Muhtaram Ikramova*

*NamDU Uzbek language basic doctoral student*

**Annotation:** The article analyzes the lexical-semantic and methodological features of the units of reference used in the tragedy “Mirzo Ulugbek” in relation to the image of Ulugbek.

**Keywords:** appeal units, tragedy, lingvopoetics, communicative sema, social relations.

Kishilik jamiyatida shaxslarning ma‘lum bir voqelikka turli ijtimoiy munosabatlari murojaat birliklari orqali ifodalanadi. So‘zlovchi nutqining tinglovchiga nisbatan ijtimoiy-ruhiy holatidagi kommunikativ semalarni aynan ifodalashda murojaat birliklarining turli ko‘rinishlaridan foydalaniladi. Murojaat birligi fikr yuritish, tafakkur bilan bog‘liq ijtimoiy-mantiqiy hodisa sifatida sotsial lingvistika obyektidir.<sup>93</sup> Murojaat birliklari nutqni ham shaklan, ham mazmunan murakkablashtiruvchi vositadir. Ular ifodalanayotgan nutqqa turli kommunikativ funksiyalarni, jumladan, ekspressiv, appelyativ, konnotativ vazifalarni yuklaydi. Xususan, shoir va dramaturg Maqsud Shayxzoda “Mirzo Ulug‘bek” tarixiy tragediyasida har bir murojaat birligidan o‘rinli foydalangan va ular turli subyektiv munosabatlarni ifodalashga xizmat qilgan. Dramatik turga mansub asarlarning asosini monologik nutq, dialogik nutq tashkil etadi. Shu nuqtayi nazardan obrazlar muloqotida murojaat birliklarining turli ko‘rinishlaridan foydalanishni taqazo etadi. Ayniqsa, obrazlar psixologiyasini, xarakterini ochib berishda zaruriy til birliklaridan biridir. Jumladan, “Mirzo Ulug‘bek” tarixiy tragediyasida ijodkor Ulug‘bek timsolini shunday ochib berganki, har bir til vositasida bosh qahramonning naqadar purviqor, shohona shaxs, donishmand, ilm egasi, mehribon ota, mehribon o‘g‘il, jonkuyar lashkarboshi kabi xislatlar egasi ekanligini anglaymiz. Maqsud Shayxzodaning shayxona mahorati va til uslubi ravon ekanligini Ulug‘bek obrazi uchun alohida murojaat shakllari “kashf” etganligida ham seziladi, ya‘ni Ulug‘bek atrofidagi obrazlar nutqida bosh qahramon uchun alohida-alohida murojaat shakllarini qo‘llaydi.

<sup>93</sup>Ақбарова З. Ўзбек тилида мурожаат шакллари. – Тошкент: Академ наشر, 2015. – Б. 15.

Bir murojaat birligi boshqa timsol nutqida deyarli foydalanilmagan. Xususan, Samarqand dorug‘asi Farmonshoh nutqida quyidagi murojaat shakli ifodalangan:

Hukmingizga bo‘yin egdim, **Janob shahriyor!**<sup>94</sup>

Ushbu murojaat shakli tuzilish jihatidan so‘z birikmasi shaklida berilgan. Lug‘aviy semasida *janob* leksemasi arabcha “muhtaram zot”<sup>95</sup>, *shahriyor* leksemasida esa fors-tojikcha “shohlar shohi, buyuk podshoh”<sup>96</sup> semalari mavjud bo‘lib, Mirzo Ulug‘bekning buyuk saroyga xos shaxs ekanligi, shohlar ichra aziz, bebaho zot ekanligi *Janob shahriyor* birikmasidagi murojaat shaklida aks ettirilgan. Shuningdek, Ulug‘bekka xos obrazlilikni ochib berish bilan birgalikda *shohona hurmat, shohona izzat-ikrom* subyektiv munosabati ifodalangan.

Tragedik asarlarda murojaat shakllarini qo‘llashdan asosiy maqsad, so‘zlovchi tinglovchiga ijtimoiy maqsadini yetkazish va ifodalangan murojaat shaklida adresant subyektiv baho semasini yoritib berishdir. Tilshunoslikka oid adabiyotlarda murojaat shakllarini ma‘lum omillar asosida tur va xillarga ajratiladi. Har bir tasnif uchun shartlilik belgisi bo‘lishi lozim. Xususan, obrazlar nutqida Ulug‘bekka nisbatan qo‘llangan murojaat shakllarini ijtimoiy-sotsial jihatdan quyidagicha tasniflaymiz:

1. Saroy a‘yonlari nutqiga xos murojaat shakllari.
2. Oddiy xalq nutqiga xos murojaat shakllari.
3. Gavharshodbegim nutqiga xos murojaat shakllari.
4. Firuza nutqiga xos murojaat shakllari.
5. Ali qushchi nutqiga xos murojaat shakllari.
6. Abdullatif nutqiga xos murojaat shakllari.

Asar matnidagi har bir murojaat shakllari orqali turli adresantlar nutqida Ulug‘bekka nisbatan turli subyektiv baho semalari anglashiladi. Jumladan, saroy a‘yonlari nutqiga xos murojaat birliklarida Mirzo Ulug‘bekka nisbatan turli ekspressiv munosabatlarni *ehtirom, faxr, maqtov, xursandlik* semalarini ifoda etilganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan,

**Shahriyori juvonbaxt, zebundayi toj-u taxt sulton Ulug‘bek ibni sulton**, ahli fasod gumrohlarni va ko‘nmamak badxohlarni tor-u mor va asir-u zor qildilar. (“M.U.” 50-b.)

Murojaat shakli Hudaychi nutqida keltirilgan bo‘lib, Ulug‘bekka xos bo‘lgan *hurmat* va *ehtirom* semasini ochib berish bilan bir qatorda, jumlagi *ko‘tarinkilik* va *xursandchilik* semalarini yuklagan. Tarkibidagi *juvonbaxt* leksemasi “baxtiyor, tolesi baland” (2-tom, 110-bet) kabi lug‘aviy ma‘nolarda qo‘llanilishini e‘tiborga olsak, murojaat birligida *toj-u taxtning ko‘rki, tolesi baland sulton o‘g‘li* kabi qo‘shimcha subyektiv baho semalari mavjud. Shuningdek, Ulug‘bekka xos bo‘lgan murojaat shaklida shayxona uslubdagi badiiy metaforik o‘xshatish mavjud. *Juvonbaxt, toj-u taxt* leksemalarini ketma-ketlikda qo‘llash orqali murojaat birligiga ohangdorlik, musiqiylik, jarangdorlik kabi funksiyalar yuklangan.

Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasida tarixiy g‘oya va tarixiy kolorit belgisi yetakchilik qiladi. Asarning tarixiy pafosida Ulug‘bek shaxsiyatini ochib berish nazarda tutilgan va Shayxzoda bu maqsadga erishgan. Ulug‘bek – ilm egasi va shuningdek, saltanat, saroy egasi hamdir. Ijodkor aynan shu sabablarga ko‘ra Mirzo Ulug‘bekka nisbatan tarixiy saroy muhitiga xos bo‘lgan murojaat birliklaridan foydalanadi. Bejiz birinchi tasnif turini saroy a‘yonlari nutqiga xos bo‘lgan murojaat shakllari deb nomlamadik. Jumladan, asar matnida saroyga turli elchilar tashrif buyuradilar va Hind elchisi nutqida quyidagi murojaat shakli qo‘llaniladi:

**Shavkatmaob hukmdor** mangu baxt kelsin! (“M.U”. 24-b.)

*Shavkatmaob* komponentidagi “shavkat” – kuch, “maob” – panohgoh kabi lug‘aviy semalarini e‘tiborga olsak, asarda bu leksema “*kuchli panohgohimiz*” degan ma‘noni anglatadi. Murojaat shakli so‘z birikmasi tarzida ifodalaniib asar mazmuniga *Ulug‘bekona shon-sharaf, qudratli podshoh* semalarini yuklagan. Har bir ijodkorning tilshunoslik sohasidagi san‘atkorligi birinchi galda omma tilida keng iste‘molda bo‘lgan leksema va birikmalarni asar matnida mohirona qo‘llash va unga til birligi sifatida turli subyektiv munosabatlarni kirita olishida ko‘rinadi.

<sup>94</sup> Шайхзода М. Мирзо Улуғбек. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б. 17.

<sup>95</sup> Ўзбек тилининг изонли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – 2-ж. – Б. 72.

<sup>96</sup> ismlar.com



Maqsud Shayxzoda ana shunday ijodkorlardandir. Ulug‘bek uchun xos bo‘lgan oddiy xalq nutqida ifodalangan murojaat birliklari asar badiiyatini yanada oshirgan, turli ijtimoiy funksiyalarni ochib berishga xizmat qilgan. Jumladan, quyidagi murojaat birligi fikrimiz dalilidir:

Arzimizni eshitgaysiz, *qiblayi olam!*

Xirojlardan, o‘lponlardan va zakotlardan

Qaddimizni ko‘tarolmay qoldik, *podshoh*. (“M.U”. 54-b.)

Bu murojaat birlari Ota Murod nutqida keltiriladi. Qibla leksemasi arabcha “namoz paytida yuz qaratiladigan tomon” (5-tom, 273-b.) lug‘aviy ma’nosida qo‘llaniladi. Murojaat shakli so‘z birikmasi tarzida ifodalangan bo‘lib, “*yetti jahon qiblagohi*” semasi ostidagi metaforik o‘xshatishdir. Murojaat birligi sifatidagi *qiblayi olam*, *podshoh* leksemalari Ulug‘bek shaxsiyatini ochib berish bilan bir qatorda, podshoh va oddiy xalq o‘rtasidagi sotsial munosabatni ochib bergan.

Asar sistemasida oddiy xalq nutqida ifodalangan har bir murojaat birligi Ulug‘bek shaxsiyatini, davr muhitini va til belgilarining ishlatilish o‘rinlarini ochib bergan. Shunday murojaat birliklaridan biri Bobo Kayfi nutqida kuzatiladi:

*Shafqatpanoh*, omon bo‘ling, yashang o‘zingiz!

Haytovur, shu erkinlik ham zap yaxshi narsa.

Bandasiga ko‘rsatmasin shu Ko‘ksaroyini. (“M.U”. 126-b.)

Asar matnida Bobo kayfi “*yoshini ham, ishini ham tayinlash mahol bo‘lgan bir shaxs*” birikmasi shaklida ifodalanadi. Voqealar rivojidadagi til birliklarida Bobo Kayfi erkinlikni sevuvchi Hayyommonand shaxs ekanligi anglashiladi va murojaat birligi orqali Ulug‘bekka nisbatan *yaqinlik*, *do‘stona* subyektiv baho semalari anglashilgan.

Gavharshodbegim – Shohrux Mirzoning ayoli, Mirzo Ulug‘bekning onasi bo‘lib, asar matnida 75 yosh sifatida ko‘rsatiladi. Lingvopoetik tahlil jarayonida til birliklarida Gavharshodbegim obrazining shohona ayol, aslzoda xonim kabi shaxsiyatlarini anglaymiz. Gavharshodbegim nutqida Ulug‘bek timsoli uchun xos bo‘lgan murojaat shakllarining ham ona sifatida, ham yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi saroy ayoli sifatidagi turli ko‘rinishlari mavjud. Ijodkor Gavharshodbegim va Ulug‘bek o‘rtasidagi ona↔o‘g‘il, ona↔shoh, ustoz↔o‘g‘il kabi sotsial munosabatlardan kelib chiqib turli munosabat shakllaridan foydalanadi. Xususan, Maqsud Shayxzoda Gavharshodbegim nutqida o‘g‘liga nisbatan quyidagi murojaat shaklini ifodalaydi:

*Ulug‘ Mirzom!* Qo‘rqmang, hali susayganim yo‘q,

Saltanatning ahvolidan ko‘ngilda tashvish. (“M.U.” 98-b.)

Bu murojaat orqali Ulug‘bekni ulug‘lash asnosida *onalarcha azizlash*, *erkalash*, *hurmatlash* tarzidagi semalar mavjud. Misralar silsilasidagi subyektiv munosabatda “*Xurosonda ikkinchi sulton bo‘ldim, Samarqandda-chi shunchaki ona, balki shu sabab yurtda notinchlikdir*” zamiridagi semalar uyg‘unlashgan.

Firuz – Mirzo Ulug‘bekning suyuqli ayollaridan bo‘lib Mirzo Ulug‘bekni hayot yo‘lidagi yagona hamrohi va ustoz deb biladi. Maqsud Shayxzoda Ulug‘bek va Firuz o‘rtasidagi rafiqa↔shoh, suyuqli yor↔shoh, yor↔ustoz kabi ijtimoiy munosabatlar yuzasidan Firuz nutqida Ulug‘bek timsoliga xos bo‘lgan murojaat birliklarini mohirona qo‘llaydi. Har bir murojaat birligilida ko‘proq rafiqa↔ustoz munosabat semasi yetakchilik qiladi.

Hamma gapni bilaman, *ustoz!*

Hatto mozor uyigacha sizga yo‘ldoshman. (“M.U.” 187-b.)

Ma‘lumki, ustoz leksemasi fors tilidan o‘zlashgan bo‘lib “yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi”(4-tom, 302-b.) lug‘aviy ma’nosida izohlanadi. Firuz nutqida bunday murojaat shaklining ifodalanilishi va ko‘p marotaba takrorlanishining sababi, xat-savod ilmini Ulug‘bek orqali o‘zlashtiradi, ya‘ni ustoz murojaat shakli orqali *begim*, *suyuqli yorim*, *dilbandim*, *ikki dunyo saodatidagi umr-yo‘ldoshim*, *muallimim* kabi ma‘nodosh semalar mavjud.

Firuz nutqida uchraydigan murojaat shakli quyidagi misralarda ham keltirilgan:

Hay, ontiga sodiq qolgan mardlardan kim bor?

*Valine‘mat*, bizlar bormiz! (“M.U.” 159-b.)

Maqsud Shayxzoda ushbu murojaat birligini aynan Firuza nutqida ko‘p o‘rinlarda qo‘llaydi. Sababi voqealar rivojidadagi lingvistik birliklardan ma‘lumki, valine‘mat murojaatida *oliyhimmat, xayr-saxovatli, ne‘matlar egasi* kabi semalar mavjud. Shuningdek, murojaat shakli Firuza timsolining sevimli yor, shogird va nozik harakterga ega bo‘lgan ayol ekanligini obraz sifatida ochib bergan.

Murojaat shakllari, odatda, atoqli ot holatidagi ism, familiya ko‘rinishida va adresantning kasb, mashg‘ulot, lavozim, unvonidan kelib chiqqan leksema, so‘z birikmalari shaklida ifoda etiladi. Tragediya matnida Ali Qushchi obrazi nutqida Ulug‘bek shaxsi uchun keltirilgan murojaat birliklari aynan adresant ijtimoiy hayotidan olingan birliklardir. Xususan:

**Davlatpanoh**, shu nuqtada soniyalarning

Tanosibi Pitlimyusdan andak boshqacha... (“M.U.” 36-b.)

Ali Qushchi Mirzo Ulug‘bekning shogirdlari o‘rtasida shuningdek, saroy ahli a‘yonlari orasida og‘ir damlarida yonida malham bo‘luvchi eng yaqin insonidir. *Davlatpanoh* shaklidagi murojaat birligida *pir, ustoz* ma‘nosidagi leksemalar ham anglashiladi.

Maqsud Shayxzoda *ustoz* leksemasining murojaat shaklini Firuza nutqida shuningdek, Ali qushchi murojaatida ham ifoda etadi:

**Ustoz**, Mirzo Ulug‘bekning yulduz jadvali!

Bu asarlar uzoq mehnat samarasidir. (“M.U.” 23-b.)

Shayxzoda bu murojaat shaklini ikki timsol nutqida qo‘llaydi, ammo ular bir-biridan subyektiv munosabat nuqtayi nazaridan farqlanadi.

Abdullatif – padarkush, jamiyat va tarix la‘natiga uchragan xiyonatkor o‘g‘il obrazi. Abdullatif nutqida ifoda etilgan ota shaxsiyatiga aloqador har bir murojaat shakllarida bo‘yoqdor mazmundagi leksemalar, birikmalar zamirida *g‘arazgo‘ylik* va *tubanlik* ma‘nolari anglashiladi. Jumladan:

Movarounnahr hukmdori kim ekan hozir?

**Shahriyori falakviqor hazrat Ulug‘bek!**

Ulug‘bekni bilarkansan, u men bo‘laman! (“M.U.” 147-b.)

Abdullatif nutqida keltirilgan ushbu murojaat shakli tuzilish jihatdan murakkab so‘z birikmasi shaklida ifodalangan. Misralarda badiiyatni, bo‘yoqdorlikni, metaforik o‘xshatish asosidagi obrazlilikni ochib berishga xizmat qilgan. Tragedik asarlar asosini monologik, dialogik nutq tashkil etadi. Shu jihatdan bu janrdagi asarlarda murojaat birliklari ko‘p qo‘llaniladi. Qo‘llanilgan har bir murojaat birliklari turli kommunikativ munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Mulohaza, misollar shuni ko‘rsatadiki, tragedik pafos yetakchilik qilgan asarlarda qo‘llanilgan murojaat shakllari lingvopoetik mohiyatni ifodalashga xizmat qiladi. Shuningdek, murojaat shakllari yozuvchi tilining rang-barangligini ko‘rsatish bilan bir qatorda asar davri koloritini ochib beradi, har bir adresant nutqining alohidaligni ta‘minlaydi, adresantning aniq subyektiv munosabatini ochib berishga xizmat qiladi. Asardagi murojaat shakllarini ma‘lum omil va shartlarga ko‘ra tasnif etish esa asar badiiyatini, tilning sistem-struktur darajasini boyitadi. Maqsud Shayxzoda uslubiyatida keltirilgan Ulug‘bek timsoliga xos bo‘lgan murojaat birliklari tarixiy kolorit belgisini ochib berish bilan birgalikda timsol falsafasini, timsol olamini oydinlashtirgan. Go‘yo bu murojaat shakllari faqat Mirzo Ulug‘bek siymosi uchun yaratilgan, uni boshqa sinonim variant bilan almashtirish badiiylilikni, uslubiyatni, til etikasini buzadigandek. Shayxona uslubda “kashf” etilgan Ulug‘bek timsolini yaratishdagi murojaat shakllari adresant va adresant o‘rtasidagi turli ijtimoiy-sotsial, ekspressiv munosabatlarni ochib berishga xizmat qilgan. Badiiylilikni, obrazlilikni yanada oshirgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Акбарова З. Ўзбек тилида мурожаат шакллари. – Тошкент: Академ нашр, 2015.
2. Боймирзаева С.У. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи: Филол.фан.ном... дисс. – Тошкент, 2004.
3. Ўзбек тилининг изонли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020.
4. Шайхзода М. Мирзо Улуғбек. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994.
- Ёриев Б. Язык поэзии М. Шайхзаде: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1979.

## EDUCATION OF CHILDREN IN UZBEK FAMILIES IN THE PERIOD OF GLOBALIZATION: ACHIEVEMENTS AND CHALLENGES

*Ikromaliyeva Saodatoy Shuhratbek qizi*  
*Andijan Pedagogical Institute of Masters*

**Annotation:** This article discusses the issues of child rearing in families, including the role of the community and public policy in the formation of the younger generation.

**Keywords:** neighborhood, internet, books, movies, civilization, global, children, information, cartoon, advertising.

In any society, special attention is paid to the issue of youth. Because our youth was the future of society, the foundation of our future. In our holy religion of Islam, negligence in the upbringing of children is also severely criticized, and one of the hadiths says: "It is enough for a person to be negligent of those in his care." Indeed, negligence will lead to the emergence of big and small flaws for society tomorrow. [P. 2,19] Indeed, the issue of youth is one of the most important issues in our country in today's era of globalization. In this regard, President Mirziyoyev said: "We consider it our priority to improve the activities of all links of the education system in accordance with modern requirements.

Speaking about the upbringing of the younger generation, I would like each of us, especially our sons and daughters, who are now coming to life, to follow these ideas of our grandfather Abdurauf Fitrat. Here is what our great ancestor wrote: -depends on the upbringing they received from their mothers as children. [pp. 1,22-23] It hasn't been that long before that a neighborhood once had seven neighborhood parents. The behavior, attitudes, and culture of the young people living in the neighborhood have always been under the control of the luminaries. If a young person misbehaves, the elders of the mahalla reprimand him and guide him to the right path. The parents of that young man were only happy with the luminaries. As a result, there were no incidents, divorces or crimes in the neighborhood. Since the weddings were held under the guidance of the elders, peace and tranquility were always ensured. The end of the XX century - the beginning of the XXI century is marked by the unique impact of the media on our society. The 21st century has come to be known as the global information age, civilization has entered our country. Civilization means growth. But if we compare that growth to a coin, we can clearly see the other side of the coin as well. Now information and communication technologies are entering our lives. The Internet is working. Isn't it through these that the minds of our young people, in addition to the positive ones, also receive information that has a serious negative impact on the upbringing of young people? One of the most common media is television. One of the favorite pastimes of mothers in families is watching TV series. Of course, there are films that are educationally valuable, but there are many that are contrary to our national values and traditions. [P. 3,85] Another is cartoons. The young child imagines and understands the world around him through images, on the basis of which he builds his own model of worldview. The image of a woman appears as a brick of this model. While watching the female protagonists in the cartoons, our children create images of the future, try to imitate them. Psychologists point out that in some foreign cartoons, female protagonists are created in such a way that watching it chronically leads to the extinction of generational and reproductive functions in the minds of young people. Nowadays, many FM and TV channels show songs and video clips of songs. But in these clips, one can observe that the dress code of young people, the meaninglessness of the songs, and the words they say contradict our national values. The Internet has become a huge source of information today and one of the most effective means of acquiring knowledge. Through the Internet, students can increase their knowledge and communicate with their peers. However, the negative impact of the Internet on the upbringing of young people as a result of parental indifference is manifested in the following: pornography, pyrotechnics, suicide, drug

trafficking and its impact on the human body. One of the most popular services of the Internet among young people is chat, forums and communication with strangers on various social networks. The most worrying aspect of this is that young people may unknowingly engage in criminal activities, even with criminal motives. [Pp. 4,189] Not all information received from the Internet is positive. I compare such information to a spider web. If you're caught in that trap, you're unlikely to get out. Now, frankly, there are more and more films that promote rudeness. It's no secret. There is no need to describe the extent to which foreign-produced serials, which do not correspond to our mentality at all, affect the upbringing of our youth. Aren't such films, in which rape, murder, and crime are the main themes, in fact the "gifts" that our opponents are preparing for us and giving us cheap bail? Have we ever wondered why some of our young people know that February 14 is Valentine's Day, but they can't imagine that our world-famous compatriot Zahiriddin Muhammad Babur was born on this day. After all, where did some kind of Christian Valentine's Day come from and why is it rapidly capturing the minds of our youth. Perhaps the pure love depicted in the image of Farhod and Shirinlar, Layli and Majnunlar, Otabek and Kumush are so strange. Remember, at the wedding, Otabek enters the room where Silver is standing and gently holds her hand.

"Don't touch," said Kumush shyly.

"Why don't you look," Otabek asks.

Silver looked at him out of obligation and his eyes twinkled.

"Are you that?" Only that look of his was full of pure love. [Page 5,136]

Sometimes we complain about the upbringing of young people. Isn't it because each of us can't devote more time to educating young people than our daily chores? What will happen tomorrow if our youth today do not have an understanding of the great ancestors of the past, a deep understanding of the content and essence of our national values?

There is a wonderful proverb in our nation. "You reap what you sow."

So what kind of seed are we planting in the ground today. Will tomorrow's harvest be baroque?

Such questions should bother each of us. We have listed the problems in the upbringing of young people above, but along with the problems we have successes. The child learns the first upbringing from the family, from the parents. If the parents are educated, the child will be educated. The younger generation goes from the family to the educational institution. Today in our country there are decisions on state youth policy aimed at developing the abilities of young people, the development of preschool education, teaching children Islamic science from an early age, the formation of computer literacy, the development of private kindergartens, schools.

### **Problems and achievements in the upbringing of the younger generation**

<b>No</b>	<b>Problems</b>	<b>Achievements</b>
1	Internet	Family-national customs and traditions
2	mobile phone	neighborhood
3	television	Our holy religion is Islam
4	songs	Education is our home
5	cartoons	A legacy left by our great scholars
6	advertisements	Teacher disciple tradition

**References:**

1. Sh.M.Mirziyoyev The rule of law and the protection of human interests are the key to the development of the country and the well-being of the people. T “Uzbekistan” -2017
2. A.Qodiriy Last daysT “new century generation-2012”
3. M.Kuronov My child is happy, if you want to kiss T "Manaviyat" -2014
4. H.Yuldashev Concept of cooperation of family, mahalla educational institution in upbringing harmoniously developed generation T-2012
5. Z.Gafurov S.Toshev Spiritual lessons Karshi "Nasaf" -1999.



## OILAVIY TADBIRKORLIK RIVOJLANISHINING IJTIMOIY-IQTISODIY MOHIYATI

*Latipova Nodira Muhtarjanovna*  
*Sotsiologiya fanlari doktori, professor.*  
*Imomnazarov Hasan Ixtiyor o'g'li*  
*O'zMU magistranti.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Oilaviy tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishda e'tibor qaratish lozim bo'lgan asosiy masalalar hamda iqtisodchi olimlarning qarashlari, shuningdek oilaning iqtisodiy vazifasi haqida to'xtalib o'tilgan. Iqtisodiy munosabatlarning oilaviy tadbirkorlik va ishbilarmonlik faoliyati xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlarida xususan, savdo, maishiy xizmat ko'rsatish, umumiy ovqatlanish, qurilish va transport, maorif va tibbiy xizmat ko'rsatish sohalarida ham jaddal rivojlanib borishida oilaviy tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Oila, tadbirkorlik, faoliyat, uy xo'jaligi, savdo, iste'molchi, subyekt, funktsiya, xizmat ko'rsatish.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются основные вопросы, которые необходимо учитывать при открытии семейного бизнеса, а также взгляды экономистов, а также экономическая роль семьи. Социально-экономическое значение семейного бизнеса проявляется в бурном развитии семейного бизнеса и предпринимательской деятельности в других отраслях экономики, в частности в торговле, бытовом обслуживании, общественном питании, строительстве и транспорте, образовании и здравоохранении.

**Ключевые слова:** Семья, бизнес, деятельность, домашнее хозяйство, торговля, потребитель, субъект, функция, услуга.

**Abstract:** This article discusses the main issues that need to be considered when starting a family business, as well as the views of economists, as well as the economic role of the family. The socio-economic significance of family business is revealed in the rapid development of family business and entrepreneurial activity in other sectors of the economy, in particular in trade, consumer services, catering, construction and transport, education and health care.

**Keywords:** Family, business, activity, household, trade, consumer, subject, function, service.

Oilaviy tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini ochish, mohiyatini to'liq tushunish uchun oila, uy xo'jaligi, oila xo'jaligi kabi tushunchalarning mazmunini tadqiq qilishni taqazo qiladi. Oila – jamiyatning, ijtimoiy-iqtisodiy hayotning boshlang'ich bo'g'ini va iqtisodiy munosabatlarning asosiy sub'ekti sifatida, bozor munosabatlari sharoitida o'zining yangicha talqini va ta'rifini talab etmoqda. Iqtisodiy adabiyotlarda "uy xo'jaligi"ga nisbatan turlicha qarashlar shakllanib kelgan. Dastlabki uy xo'jaliklari taraqqiyoti davomida A.Smit va uning izdoshlaridan biri bo'lgan J.B.Sey mulohazalari diqqatga sazovordir. A.Smit omillarning sifat jihatlariga, ularning ishlatilishiga ahamiyat beradi, pirovard natijada uy xo'jaliklarining daromadi va iste'mol imkoniyatlarini shakllantiradi. J.B.Sey mulohazalarida boylikni taqsimlash nazariyasi muomala va ishlab chiqarish nazariyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Moddiy boyliklar alohida sub'ektlar orasida emas, balki alohida sinflar o'rtasida aylanadi. A.Chayanovning "Krestyan xo'jaliklarini tashkil etish" nomli asarida oilaviy tadbirkorliklar tuzilishi, ularning turli darajadagi mahsulot ishlab chiqarish qobiliyatiga rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar chuqur tahlil etilgan. Uning fikricha, tadbirkorlik faoliyatini yurituvchi oilalarning eng muhim jihati shundaki, ular hech qanday yollanma mehnatga asoslanmasdan oilalarning o'z kuchiga tayanib tadbirkorlik yuritishidir; ular ham iste'molchi xo'jalikdir, chunki ular o'z oldiga daromad olish emas, balki oilaning moddiy ehtiyojini qondirishni maqsad qilib qo'yadi.<sup>97</sup>

<sup>97</sup> N.Zvereva. A.V.Chayanov o razmere semi i krestyanskogo domoxozyaystva //Vestnik statistiki. – 1991. - №7. –S.47

Bugungi kunga kelib, bozor munosabatlarining shiddat bilan rivojlanishi bu muammoga yangidan yondashishni talab etmoqda. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda, kasanachilikda va aholiga turli xil xizmatlar ko'rsatishda oilaviy xo'jaliklar faoliyati alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ular bugungi kunda nafaqat iste'molchi, balki tovar xo'jaligiga aylanib bormoqda. Shu bois, hozirgi paytda, oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy muammosiga katta e'tibor berilmoqda va bu soha iqtisodiy nazariya faniga kiritilib, iqtisodiy munosabatlarning asosiy sub'ekti sifatida qaralmoqda.<sup>98</sup>

Bozor munosabatlari sharoitida oilaviy tadbirkorlik yuritishni tadqiq qilish bir necha yo'nalishlar bo'yicha olib borilmoqda. Masalan, sotsial-demagrafik (aholishunoslik) muammolarni o'rganishda, ijtimoiy-iqtisodiy siyosat chora-tadbirlarining aniq va umumiy strategiyasini ishlab chiqishda, mehnat bozoringing shakllanishida, aholi daromadlari va turmush darajasini tadqiq etishda, iste'mol tovarlari va xizmatlarini ishlab chiqishda, hamda ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni yechishda qaralmoqda.

Oila to'g'risida A.O'lmasovning "Oila iqtisodi" nomli risolasida "Oila - kishilarning qon-qarindoshlik, mulk va manfaat umumiyliigi va talab-ehtiyojlarini birgalikda qondirishga asoslangan, maqsadi yagona bo'lgan majmua, ya'ni mikroijtimoiy tuzilmadir"<sup>99</sup> – deb ta'riflanadi. Oila to'g'risida boshqa fikrlar ham bor. Masalan, "Iqtisodiy nazariya" bo'yicha oliy o'quv yurtlariga mo'ljallangan darslikda "Oila - shaxs, oila va butun jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy ehtiyojni qondirishga qaratilgan faoliyatini amalga oshirish uchun bir-biri bilan qarindosh urug'chilik aloqalari asosida tashkil topgan kishilarning kichik guruhi"<sup>100</sup> deyilgan.

Iqtisodiy jihatdan qaraganda oilaviy byudjet oilalar uchun ijtimoiy-iqtisodiy hayotning boshlang'ich bo'g'ini va iqtisodiy munosabatlarning asosiy sub'ekti hisoblanadi. Yuqoridagi ta'riflarda, oilaning tarkibi va aloqadorlik belgilari o'z ifodasini topgan bo'lib, oilaga asosan iste'mol qiluvchi sub'ekt sifatida qaraladi. Biroq, bizga ma'lumki, hozirgi davrda oila faqat iste'mol qiluvchi sub'ekt emas, balki mustaqil xo'jalik yurituvchi, hamda iqtisodiyotning ajralmas sub'ektiga aylanib bormoqda. Shu jihatlarni hisobga olsak, ushbu ta'rifda oilaning ijtimoiy – iqtisodiy funksiyasi to'la yoritilmagan. Umumiy holda, oilaga, nikohga asoslangan yoki kishilarning qonqarindoshlik asosida birikishi va umumiy tirikchilik yuritishda bir-biriga mas'uliyatli kishilar guruhi, deb tushunish mumkin. Biroq, statistik ma'lumotlarni olish uchun bu umumiy tushunchaga aniqlik kiritish kerak bo'ladi.

Bu holda, ayrim belgilarni ko'rsatib o'tish lozim. Bir oilani boshqasidan farqlash va individni uning tarkibiga qo'shish yoki qo'shmaslik imkoniyatini beruvchi ayrim belgilarni kiritamiz. Odatda bunday belgilarga qarindoshlik yoki shu harakterdagi kishilar, hamda birgalikda yashovchi yoki birgalikda xo'jalik yurituvchi kishilarning aloqadorlik belgilari xizmat qiladi. Aholini ro'yxatga olishda, qarindoshlik yoki quda-andachilik, birga yashovchi va umumiy oila byudjetiga ega bo'lishi kabi belgilariga qarab aniqlanadi. Bozor munosabatlari sharoitida, oilaga iqtisodiy sub'ekt sifatida qarash maqsadga muvofiq. Yuqoridagi tariflarni e'tirof etgan holda, biznes faoliyati "oila" da emas, balki "oila xo'jaligi" da amalga oshishini hisobga olsak, oilaviy biznesda quyidagicha ta'rif berish maqsadga muvofiqdir: "Oilaviy biznes deganda, jismoniy yoki yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan, er-xotin va ularga ko'maklashadigan oila a'zolarining mehnatiga va mulkiga tayanib, qonuniy asosda daromad olishga mo'ljallangan biznes faoliyati tushuniladi". Haqiqatdan ham ushbu ta'rifda, oilaviy tadbirkorlik faoliyatini yuritishda daromad olish manbai ya'ni mulki, faoliyati va unga aloqador shaxslar o'z ifodasini topgan. Shu bilan birga oilaviy biznesning qishloqda dehqon xo'jaligi sifatida namoyon bo'lishi ham nazarda tutiladi. Ushbu ta'rifga tayanilgan holda xizmat sohasidagi oilaviy bizneska ham ta'rif berish mumkin.

<sup>98</sup> A.O'lmasov, M.Sharifxo'jayev. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik, T.:Mexnat, 1995 137-147 b.,

<sup>99</sup> A.O'lmasov "Oila iqtisodi". Toshkent - "Mehnat" – 1998 y.

<sup>100</sup> Экономическая теория. Учебник для студентов ВУЗ, обучаемых по экономическим специальностям. - Т.: Shark, 1999.-188 бет

Xizmat sohasida oilaviy biznes deganda, jismoniy yoki yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan, er-xotin va ularga ko‘maklashadigan oila a‘zolarining mehnati va mulkiga tayanib, xizmat ko‘rsatish natijasida qonuniy daromad olishga qaratilgan faoliyati tushuniladi.

Bugungi kunda barcha oilalarda moddiy farovonlikni ta‘minlash masalasi kun tartibida turgan muhim muammolardan biridir. Ammo bu muammoni birdaniga hal qilib bo‘lmaydi. Buning uchun har bir oila a‘zosi o‘ta biznes va aql bilan ish tutishi lozim. Oilalardagi muammolarni hal qilish, hamda oilalarni tadqiq qilish zaruratining mavjudligini va uning qo‘llamini oshirishning muhimligini yana bir bor ko‘rsatib berdilar. Zero, oila xo‘jaliklarining iqtisodiy imkoniyati ma‘lum darajada cheklangan. Undan faqat samarali foydalangan taqdirdagina ko‘zlangan maqsadga, ya‘ni oila farovonligiga erishish mumkin. Bu farovonlikka erishish uchun esa, har bir oilada biznesni yo‘lga qo‘yish, xizmat sohasida oilaviy biznesning iqtisodiyotda tutgan o‘rni va uni rivojlantirishning ijtimoiy – iqtisodiy ahamiyatini o‘rganishni taqozo etadi.

Xulosa o‘rnida, oila – bozor munosabatlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning samaradorligini oshirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish zarur:

- oilaviy tadbirkorlik faoliyatini yuritishda resurslarni ularning o‘z tadbirkorlik faoliyatlarigajalb etishni kuchaytirishga yunaltirilgan siyosatni amalga oshirish bilan birga kredit tizimini rivojlantirish;
- oilaviy tadbirkorlikni rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar yaratish maqsadida tadbirkorlik va mulkchilik xuquqlariga oid to‘plamlar yaratish hamda, garovga qo‘yilgan mulk yoki oila aktivlarini sotib olish xuquqiga qattiy amal qilishni ta‘minlash;
- yosh oilalarning kreditlar olish imkoniyatlarini yanada kengaytirishga ko‘maklashish zarur. Bu esa oilaning mulkiy ta‘minlanganlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

## **YERYONG‘OQ, LOVIYA VA MOSH O‘SIMLIKLARINING DONLARI VA YER USTKI QISMLARINING POLISAXARIDLARINI SIFAT VA MIQDOR TARKIBINI O‘RGANISH NATIJALARI.**

*Muqimjonova Umidahon Vahobjon qizi*

*Qo‘qon davlat pedagogika instituti, Kimyo kafedrasida doktoranti.*

*Isaqov Muhammadjon Yunusovich*

*Qo‘qon davlat pedagogika instituti, Kimyo kafedrasida dotsenti kimyo fanlari nomzodi.*

Dukkakdoshlar qimmatbaho oziq-ovqat hamda manzarali o‘simliklardir. Dukkakli don ekinlari xalq xo‘jaligi uchun kata ahamiyatga ega, doni oqsil( mosh, no‘xat, soya, yasmiq va boshqalar), kraxmal va moyga boy (soya, yeryong‘oq va boshqalar). Ayrim dukkakdoshlar – akatsiya, ko‘k no‘xat, pechakgul, bo‘ridukkak manzarali, ba‘zilari esa shirinmiya yoki qizilmiya, termopsis, sano, kassiya va boshqalar dorivor o‘simliklardir. Dukkakdoshlarning ko‘pchilik turlari zaxarli, o‘zida har hil alkaloidlar hamda glikozidlar to‘playdi. Dukkali o‘simliklardan mosh, loviya, no‘hat va yeryong‘oq mikro elementlarga boy va shifobaxsh bo‘lganligi uchun ko‘p is‘temol qilinadi. Ular pishib yetilgan vaqtida temirning miqdori 5-11 mkg/kg ni tashkil etadi. Ular unib chiqqan va gullab to‘la yetilgan davrida temirning miqdorlarini o‘rganish amalga oshirilgan.

Loviya, mosh, no‘xat va yeryong‘oq donlari oqsil, alkil aminokislotalarga, moy va uglevodlarga, klechatkaga, vitaminlar hamda makro va mikroelementlarga boy manbalardan biri ekanligi to‘g‘risida avvalgi maqolalarimizda batafsil bayon etganmiz. Olib borayotgan tadqiqotimizning asosiy maqsadi dukkakli o‘simliklardan loviya, mosh, no‘xat va yeryong‘oq asosida kompozitsion mahsulot tayyorlashdan iborat bo‘lganligi uchun uning polisaxaridlar tarkibini o‘rganishni maqsad qildik. Shu sababli Farg‘ona viloyati Beshariq tumani Soy bo‘yi mahallasida yetishtirilgan loviya, mosh va yeryong‘oq o‘simliklarining donlari va poyalaridan tayyorlangan yeryong‘oq poyasi - BYP; loviya poyasi - BLP; mosh poyasi - BMP; yeryong‘oq doni - BYD; loviya doni - BLD; mosh doni – BMD namunalarini O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Bioorganik kimyo instituti laboratoriyasida polisaxaridlar tarkibi o‘rganildi.

100 g ochiq havoda quritilgan va ezilgan hamda elangan xom ashyolar yeryong‘oq poyasi - BYP; loviya poyasi - BLP; mosh poyasi - BMP; yeryong‘oq doni - BYD; loviya doni - BLD; mosh doni – BMD xlorofil va lipofil komponentlarni olib tashlash uchun xloroform bilan ishlov berildi. Keyinchalik, quritilgan xom ashyo 5 mm teshiklari bo‘lgan elakdan o‘tadigan zarracha hajmiga kelguncha ikki marta ezildi. O‘simliklarning donlari va poyasidan xloroform bilan ekstraksiya qilish orqali xlorofillar va lipofil moddalar ajratildi.

Dastlab xom ashyolar quritildi, keyin suv hammomida 20 °C ga qadar qizdirilgan holda, 1: 3 xomashyo ekstragent nisbatida 2-3 soat davomida ikki marta suv bilan ekstraksiya qilindi. Keyin olingan ekstraktlar filtrlandi, birlashtirildi va aylanadigan bug‘latgichda(rotorda) quyiqlik massaga qadar bug‘latildi. Polisaxaridlar ikki marta 94% etanol bilan cho‘ktirildi. Hosil bo‘lgan cho‘kma sentrafugalash (6000/10 min) yo‘li bilan ajratildi, cho‘kma yuvildi va spirt bilan quritildi. Polisaxaridlar yig‘indisining quruq massaga nisbatan miqdori 6-7% ni tashkil qiladi. Gidrolizat gaz-suyuqlik xromatografiya usuli bilan o‘rganildi.

Gidrolizatlarining monosaxaridlarini sifat jihatidan aniqlash ularning saqlanish vaqtini monosaxaridlar aralashmasining standart saqlanish vaqti bilan solishtirish orqali amalga oshiriladi. Gidrolizatdagi monosaxaridlarining miqdoriy nisbati cho‘qqilarning maydonlarini hisoblash yo‘li bilan aniqlanadi. Namunalar asosida o‘tkazilgan tadqiqot natijalari ya‘ni dukkakli o‘simliklardan Yeryong‘oq, loviya va mosh donlari va poyalarining polisaxaridlar tarkibi natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

**Yeryong‘oq, loviya va mosh donlari va poyalaridagi umumiy polisaxaridlar miqdori.**

<b>№</b>	<b>Namuna</b>	<b>Polisaxaridlar miqdori %</b>	<b>№</b>	<b>Namuna</b>	<b>Polisaxaridlar miqdori %</b>
<b>1</b>	BYD	9,05	4	BYP	4,28
<b>2</b>	BLD	5,53	5	BLP	4,81
<b>3</b>	BMD	4,04	6	BMP	10,55

O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yeryong‘oq donida loviya va mosh donlariga nisbatan polisaxaridlar miqdori 2 baravar ko‘p bo‘lib, o‘simlik donining quruq massasiga nisbatan 9,05 % tashkil etmoqda. O‘simlik donlari asosida tayyorlanish rejalashtirilgan kompozitsion mahsulotimizning asosiy qismini yeryong‘oq donlaridan iborat bo‘lishi uning ozuqa bobligini taminlaydi.

Dukkakli o‘simliklar yeryong‘oq, loviya va moshlarning yer ustki qismidan olingan namunalarning polisaxaridlar tarkibini o‘rganish jarayonida mosh poyasida polisaxaridlarning miqdori loviya va yeryong‘oq yer ustki qismidagiga nisbatan 2-3 baravar ko‘pligi aniqlandi. Demak, o‘simliklarning yer ustki qismidan kompozitsion materiallar tayyorlashda moshning poyasini asos qilib olish maqsadga muvofiqdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ibragimov A.A. Xo‘jayev V.U. Umarxonova U. Tojiboyev D. Isaqov M. Vigna sinensis, cicer orientinum, phaselousayreus arachhis hypogaea dukkakli o‘simliklarni kimyoviy tarkibiga ko‘ra sinflash masalalari.// FarDU ilmiy xabarlari.- Farg‘ona, 2020, N1, 24-29 b.
2. Muqimjonova U.V. Isaqov M.Yu. Xo‘jayeva N.T. No‘xat, mosh va loviyada temirning to‘planish dinamikasi// “Tovarlar kimyosi xamda xalq tabobati muammolari va istiqbollari “ VII-xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Andijon ,2020, 69-71 b.
3. Azizov.D.Z., Saburova. A.X., Azizova.D.Sh., Rahmanberdiyeva. R.K.. //Полисахариды надземной части Astragalus villosissimus L.Farmatsevtika jurnali №1.2019 стр26-29.



## ELEKTRON PULLAR VA JAMIYAT

*Isayev Atabek Jo‘raboyevich*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Raqamli iqtisodiyot kafedrasi doktoranti.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning rivojlanishi oqibatida elektron pullarning jamiyatimizga kirib kelishi, uning afzalliklari, shu bilan birgalikda kamchiliklari tahlil qilingan. Bundan tashqari mamlakatimizda elektron to‘lov tizimlar orqali pul o‘tkazmalarining hajmi atroflicha ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** Elektron pul, elektron to‘lov tizimi, elektron hamyon, Markaziy bank, elektron pul muomalasi.

Bozor tizimining asosini pul-tovar munosabatlari tashkil etadi. Shuning uchun bozorni pulsiz tasavvur qilish qiyin. Pul orqali bozorda iste‘molchi xohlagan tovar yoki xizmatni xarid qilish imkoniyatga ega. Innovatsion texnologiyalar davrida raqamli texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanishi pul-tovar munosabatlarga qanday ta‘sir qiladi, degan savolni keltirib chiqishi tabiiydir. Raqamli texnologiyalar hayotimizning ajralmas qismi bo‘larkan bu o‘z navbatida daromadga, tijoratga, kredit va valyuta munosabatlariga ta‘sir etmay qolmaydi. Jamiyatimizda naqd pul asta-sekin elektron pulga (electron money) o‘z o‘rnini topshirib bormoqda, tobora ko‘proq insonlar pul mablag‘larini kredit kartalari yoki elektron hamyonlarda saqlashni afzal ko‘rishadi, bu qulayroq va xavfsizroq deb hisoblaydilar.

Elektron pul - bu elektron operatsiyalarni osonlashtirish uchun ishlatiladigan bank raqamli tizimlarida mavjud bo‘lgan valyuta. Ularning qiymati naqd pul bilan ta‘minlanadi va shuning uchun ularni banklar yoki bankomatlar orqali moddiy shaklga, ya‘ni naqd pulga transformatsiya qilish mumkin. Bu elektron pul va kriptovalyuta o‘rtasidagi asosiy farq.

Ayni paytda deyarli barcha to‘lov tizimi mavjud kompaniyalar Payme, Anorbank, Click yoki Qiwi kabi elektron hamyonlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi. Elektron hamyonlar yordamida siz tovarlar, kommunal xizmatlar, soliqlar va boshqa kundalik operatsiyalar uchun to‘lashingiz mumkin. Gazeta.uz sayti ma‘lumotiga ko‘ra, 2021-yilning oxiriga kelib O‘zbekistonda elektron pul tizimlari mavjud kompaniyalar soni 10 taga yetdi.

Ushbu xizmatlarning ommabopligi yil sayin ortib bormoqda. Elektron hamyon xizmatlari tijorat banklar, shu bilan birgalikda Markaziy bank ro‘yxatidan o‘tgan to‘lov tashkilotlari tomonidan ham ko‘rsatiladi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma‘lumotlariga ko‘ra, 2021-yil yanvar-iyun oylarida bank kartalariga 126,9 trln. so‘mlik mablag‘lar kelib tushib, ushbu davrda bank kartalaridagi 42,1 trln. so‘mlik (33,2 foiz) mablag‘lar aholi tomonidan naqdlashtirib olingan. Bu shundan dalolat beradiki, mamlakatimiz aholisining elektron pullardan foydalanishdagi qulayligini yana bir bor isbotladi. Elektron pullarning muomalada keng tarqalishi naqd puldan foydalanishning qisqarishiga olib keldi. Va elektron pul odatda xavfsizroq va shaffofroq to‘lov usuli, deb hisoblansa ham, uning kamchiliklari ham yo‘q emas. Elektron pullar global miqyosda moliyaviy operatsiyalar uchun ishlatiladi. Ular ko‘pincha elektron bank tizimlarida qayta ishlanadi va elektron ishlov berish orqali nazorat qilinadi. Pulning faqat kichik bir qismi jismoniy shaklda qo‘llanilganligi sababli uning katta qismi bank kassalarida saqlanadi va markaziy banklar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.

Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining muhim vazifasi naqd pullarni miqdoran boshqarishdir. Shuningdek, pul-kredit siyosati va ochiq bozor operatsiyalari orqali nazorat qilish. Elektron pulning o‘ziga xos shaffofligi tufayli ko‘pchilik foydalanishning ko‘payishi inflyatsiya xavfining sezilarli darajada pasayishiga olib kelishi mumkinligini taxmin qilmoqda. Elektron pullar turli joylarda saqlanishi mumkin. Aksariyat jismoniy shaxslar va korxonalar o‘z pullarini omonatdagi naqd pullarning elektron hisobini taqdim etadigan banklarda saqlaydilar. Biroq, Payme yoki Qiwi kabi oldindan to‘langan kartalar va raqamli hamyonlar ham foydalanuvchilarga elektron pul uchun o‘z naqd pullarini depozit qilish imkonini beradi.

Bunday kompaniyalar o'z daromadlarini hisob-varaqlardan yechib olingan yoki elektron puldan naqd pulga aylantirilgan har qanday summaning foizini undirish orqali oladilar. Ko'pgina foydalanuvchilar tranzaksiyalarni turli usullar bilan elektron shaklda qayta ishlaydilar. Bunga to'g'ridan-to'g'ri depozitlar orqali ish haqini olish, bir hisobdan ikkinchisiga pul o'tkazish yoki kredit va debet kartalari yordamida pullarni sarflash hisoblanadi. Naqd pullardan foydalanish muayyan vaziyatlarda juda qulay, ammo vaqt o'tishi bilan uning roli asta-sekin kamayadi. Mutaxassislarning fikricha, elektron pul xavfsizroq va ulardan foydalanish qulayroq. Buning sababi shundaki, ular butun dunyo bo'ylab savdoda keng qo'llaniladi va ularni yo'qotish xavfi minimal-lashtiriladi.

Shunday qilib, jahon moliya bozori elektron pullar bilan operatsiyalarni amalga oshirish uchun ishonchli infratuzilmani yaratdi. Bu, birinchi navbatda Visa va Mastercard kabi to'lovlarni amalga oshirish tizimi orqali ko'rishimiz mumkin.

Banklar va moliyaviy institutlari o'z mijozlariga maxsus tarmoq kartalarini chiqarish uchun elektron pul tarmog'i protsessorlari bilan hamkorlik qiladilar. Ular bank hisob-varaqlaridan savdo tashkilotlarga bo'lgan elektron operatsiyalarni osonlash-tiradi. Elektron pullar elektron tijorat orqali ham osonlik bilan o'tkaziladi, bu esa iste'molchilarga tovar va xizmatlarni onlayn tarzda qulay xarid qilish imkonini beradi.

Qisqa vaqt ichida elektron pullardan foydalanish odatiy holga aylandi. Bu o'zga-rishlar ko'pincha banklar tomonidan yaxshi qabul qilindi va ko'plab afzalliklarga ega bo'ldi. Ammo shunga qaramay, ular bir qator xavf va zaifliklarga ega. Birinchi navbatda, muammo kiberfiribgarlikka tegishli. Elektron pullar asl egasining haqiqiy shaxsini jismoniy tekshirish zaruratisiz o'tkazilishi yoki hisobdan chiqarilishi mumkin.

Bundan tashqari karta yo'qolgan taqdirda siz mablag'ni yo'qotishingiz mumkin. Agar karta internet orqali xarid qilish imkoniyatiga ega bo'lsa, yo'qotishlar bir necha baravar oshib boradi. Bu holatda yagona yechim - kartani bank orqali blokirovka qilishdir. Buning o'zi ham vaqtni talab etadi.

Elektron operatsiyalarni amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan kompyuter tizimlari nomukammal va ishonchsizdir. Va bu shuni anglatadiki, katta miqdordagi pul o'tkazmalari yoki boshqa elektron operatsiyalar istalgan vaqtda oddiygina tizimdagi xato tufayli noto'g'ri ketishi mumkin. Agar ma'lumot yo'qolsa, ushbu tizim xodimlariga nimanidir isbotlash qiyin bo'ladi.

Odamlar soxta hisobvaraqlar ochishni o'rgangani uchun elektron tranzaksiyalar shaffofligi ancha pasaydi. Buning natijasida daromadlarni soliq idorasidan yashirish osonroq bo'lib qoldi.

Shuningdek, elektron pullar orqali halol bo'lmagan yo'l bilan topilgan katta miqdordagi mablag'lar naqd pullarga aylantirish imkoniyati paydo bo'ldi.

Ma'lum bo'lishicha, ayrim mamlakatlarda giyohvandlik biznesining moliyaviy tuzilmasida elektron pullardan foydalanishga asoslangan giyohvandlik vositalari bilan hisob-kitob qilish va keyinchalik qonuniylashtirish tizimlari mavjudligini uchratish mumkin.

Elektron pullar tizimini yana bir salbiy tomoni bu - uni internet bilan bog'liq-ligidir. Internet mavjud bo'lmagan hududlarda afsuski, bu pullardan foydalanish imkoni yo'q. Lekin yildan yilga internet tizimi takomillashib bormoqda va yaqin vaqt ichida mazkur muammo o'z yechimini topadi. Xulosa o'rnida aytish kerakki, elektron pullardan foydalanishning afzalliklari kamchiliklarga qaraganda ancha ko'p. Bundan tashqari, tizim yildan yilga takomillashtirilmoqda. Shu bilan birga elektron pul tufayli biz istalgan mahsulot yoki xizmat uchun masofadan turib to'lovni amalga oshirishimiz mumkin. Elektron pullar orqali vaqtimiz tejalishi, xarajatlarning kamayishini kuzatamiz. Bundan tashqari, bizda katta miqdordagi qog'oz pullarni hisoblamasdan katta miqdordagi pullarni boshqarish imkoniyati ham paydo bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. [www.kun.uz](http://www.kun.uz)
2. [www.gazeta.uz](http://www.gazeta.uz)
3. [www.aif.ru](http://www.aif.ru)
4. [www.mobilaser.kz](http://www.mobilaser.kz)
5. [www.platform.plus-one.ru](http://www.platform.plus-one.ru)

## “ALPOMISH” DOSTONIDA MILLIY URF – ODATLARNING AKS ETISHI

*Islamova Dilorom Zafar qizi*  
*Samarqand davlat universiteti magistranti.*

**Annotatsiya:** Maqolada “Alpomish” dostonida aks etgan milliy qadriyatlarimizning bugungi kundagi ahamiyatiga e’tibor qaratilgan. Qadriyatlar bamisli xalq ma’naviyatini ko’rsatuvchi ko’zgudir. Ular asrlar osha sayqallanib bizgacha yetib kelgan. Buni o’quvchi yoshlar ruhiyatiga singdirishda maktab adabiy ta’limining o’rni beqiyos. Adabiyot tarbiya berish vositasi ekan, o’qituvchi “Alpomish” dostonini o’rgatish davomida qahramonlar ruhiyati orqali sof samimiy fazilatlarni o’quvchilarga yuqtirishi kerak.

**Kalit soʻzlar:** epos, doston, baxshi, Alpomish, marosim, marosim folklori, syujet, an’ana, ta’lim jarayoni, nomoddiy madaniy meros.

## ЭПОС «АЛПОМЫШ» ЯВЛЯЕТСЯ ОТРАЖЕНИЕМ НАЦИОНАЛЬНЫХ ТРАДИЦИЙ И ОБЫЧАЕВ

*Исламова Дилором Зафар кызы*  
*Самаркандский государственный университет, магистр.*

**Аннотация:** В статье поясняется, что великие многовековые идеи Алпомышья являются не только уникальным эпосом фольклора, но и энциклопедией национальных ценностей. Для повышения интереса учащихся к эпосу Алпомыш учителю следует рассказать о значении эпоса в истории нашего народа.

**Ключевые слова:** эпос, эпос, бакши, алпомыш, обряд, обрядовый фольклор, сюжет, традиция, воспитательный процесс, нематериальное культурное наследие.

## THE EPIC "ALPOMISH" IS A REFLECTION OF NATIONAL TRADITIONS

*Islamova Dilorom Zafar qizi*  
*Samarkand State University, Master*

**Annotation:** The article explains that Alpomish's great centuries-old ideas are not only a unique epic of folklore, but also an encyclopedia of national values. To increase students' interest in the epic Alpomish, the teacher should talk about the significance of the epic in the history of our people.

**Keywords:** epic, epic, baxshi, Alpomish, ritual, ceremonial folklore, plot, tradition, educational process, intangible cultural heritage

Har bir millatning ma’naviy qiyofasini aks ettiradigan ko’zgusi bor. Bu ko’zgu xalq og’zaki orqali namoyon bo’ladi. Xalq og’zaki ijod namunalari xalq tomonidan yaratilib, ular tomonidan sayqallanadi. Mangu hikmat namunasi bo’lgan asarlarda ajdodlarimizning urf-odat va an’analari, odo-axloqi va ma’naviyati yorqin aks ettiriladi. Ularning eng sara namunasi “Alpomish” dostoni hisoblanadi. “Alpomish” dostonida xalqimizga xos xislatlar yoritilgan bo’lib, uni o’quvchilarga boshqa xalq og’zaki ijodi namunalari bilan solishtirib tushuntiriladi. “Rustam” dostonini olaylik, unda doston syujeti ham ayni tug’mas kundoshlar uyushtirgan tuhmatlar sabab ro’y bergan voqealar asosida rivojlanadi. Dostonda “Sultonxon bu tushni hech kimгаа aytmay, Huroyimga aytdi: “Dunyoda bir qo’rqan yomon, bir quvongan yomon” degan gap bor. Men qariganda farzandli bo’ldim. Men shu yerda yursam, sen bir kun tug’ib qolarsan, men quvonganimdan yuragim yorilib, o’lib qolarman.

Qurudim mamlakatiga safar qilayin. O'n to'rt yilda borib kelarman. Oldimga suyunchi deb chiqqan kishiga ayamandan tanga-tilla berarman, qulog'idan dunyoga ko'marman, balki qo'rg'onbegi qilarman<sup>101</sup>,-deb qo'yilgan. "Alpomish" dostonida ayni shu holat quyidagicha izohlanadi: "...biylar ikkovi aytdi: "Bizlar ham bir shohlik shavkatini qilsak, ovga chiqib ketsak, farzandlar yer yuziga tushsa, suyunchi, deb bir nechalar oldimizga yo'lga chiqib, bizlardan tilla-tanga in'om olsa",-deb o'ylarni o'ylab, biylar ovga jo'nab ketdi<sup>102</sup>". Demak, xalqimizga xos xislatlardan biri - bu o'z quvonchiga atrofdagilarni ham sherik qilish ekan.

"Alpomish" dostoniga o'quvchilarda yanada qiziqishni orttirish maqsadida o'qituvchi dostonning xalqimiz tarixida naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini va unda aks etgan milliy urf-odatlarimizning bugungi kundagi qiyofasini ham aytib o'tishi lozim. Ism qo'yish otabobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan milliy qadriyat hisoblanadi. Ism bolaning qaysi sulola vakili ekanligi, u tug'ilgan fasl, vaqt va marosim, xulq-atvor va alohida belgilarini aks ettirib, oilaning, mahallaning yoshi ulug' kishilari tomonidan qo'yiladi. Bola ulg'ayib, el-u yurtning hurmatiga sazovor bo'ladigan komil inson bo'lib yetishida munosib ism qo'yish otanonaning farzand oldidagi burchi yoyinki, o'zbekona tarbiyaning boshi hamdir. Dostonda biylarning o'n olti Qo'ng'iro't urug'ining odamlarini chaqirib, qirq kecha-yu qirq kunduz to'y berishi, to'y tarqaydigan kuni qalandar qiyofasida Shohimardon pir bolalarni etagiga solib, Boybo'ring o'g'lining otini Hakimbek, qizining otini Qaldirg'och, Boysarining qizining otini oy Barchin qo'yib, oy Barchinni Hakimbekka atashtirib, beshkirti qilib, fотиha qilib ketishida yoki Alpomish Kashal elida necha yillar bandi bo'lgan payt oy Barchin otasining joyini tutar deb o'g'lining otini Yodgor qo'ygan va o'g'liga quydagi: O'lmasa Yodgor bolam er yetar, Omoneson bolam o'lmay er yetsa, Boybo'ring yuragidan cher ketar, Otasin o'rmini Yodgorjon tutar. Ota yurtin Yodgor qo'zim tebratar, G'anim bo'lgan dushmanlarni bo'zlatar, Otasi er edi, erday bo'p o'tar, Otasining yurtin shunday bo'p tutar<sup>103</sup> so'zlarida ism bolaning kelajagi, taqdiri va hayot yo'lini belgilovchi omil ekanligini ko'rishimiz mumkin. Uch qarzdan biri hisoblanib, sharq xalqlari orasida keng tarqalgan udumlardan yana biri xatnadir. Xatna odati berk tarzda o'tkazilib, bugungi kunda nomi va aytilishi o'zgargan, lekin to'yi amalda o'tkazilaveradi. Xatna-musulmon bolasining "qo'lini halolash", ya'ni gigiyenik tomondan toza va sog'lom bo'lishini ta'minlaydi. Bu odat islom dini paydo bo'lmasdan oldinroq, Axura Mazda- Avesto davrida Eron va Turonda, so'ngroq yahudiy xudolarning o'z ko'rsatmasiga ko'ra, o'g'il bola tug'ilgan kundan to 12 kungacha albatta uning jinsiy a'zosini chilpish odatini amalga oshirgan<sup>104</sup>. Bizning yurtimizga bu odat islom dini kirib kelishi bilan qat'iy o'rnashib olgan. Dostondagi voqealar chupuron to'yda Boybo'ri bilan Boysarini o'n olti urug' Qo'ng'iro't elining xaloyiqlari behurmat qilganliklari va ularga qarata: - Ey, Boybo'ri va Boysari! Bul to'y o'g'illining o'g'lidan, qizining qizidan qaytadi, sening nimangdan qaytadi?! O'zing o'lsang, molingga har merosxo'r chiqadi, og'ziga odam kirib ketadi. Sening bundan bu yoqdagi yeydiganing oshning keti-ko'ti bo'ladi. Biz sening davlatingdan bo'lib olamizmi?! degan misralari orqali rivojlanib boradi. Dostonni o'qish davomida o'qituvchi farzand- bu insonning orqasidan qoldiradigan izi, avlodining davomchisi bo'libgina qolmay, bugun kelajagimiz yaratuvchisi bo'lgan Alpomish-u Barchinoylarning davomchilari bo'lib yetishishlari kerakligini ta'kidlab o'tishi lozim.

Dostonda aks etgan yana bir odatlarimizdan biri sovchilikdir. "Vatan ostonadan, hovli bo'sag'adan, oila sovchilikdan boshlanadi",-deganlaridek, sovchilik ikki xonadonni va ikki qalbni bir-biriga qarindoshlik rishtalari orqali bo'lashga xizmat qiluvchi vositadir. Odatda, sovchilikka el orasida obro' qozongan, ko'pni ko'rgan kayvani kishilardan tayinlangan. Xususan, "Alpomish" dostonida Surxayil mastonning to'qqiz kampir bilan Qorajonga oy Barchinni so'rab sovchi bo'lib kelishi va sovchilik an'anasiga ro'ya etgan holda murojaat qilishida ko'rishimiz mumkin: Qozonda qaynagan shirboz go'shmidi, Shul qizingning agar boshi bo'shmidi? Boshi bo'shmi deyin, sendan so'rayin, Kelin qilib biror ro'mol o'rayin, Qorajonga atashtirib borayin,

<sup>101</sup> Rustamxon: Doston/[Aytuvchi Fozil Yo'ldosh o'g'li, Yozib oluvchi va nashrga tayyorlovchi H. Zarifov, to'ldirib qayta nashrga tayyorlovchilar: J. Eshonqul, Selami Fidokor]. -T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. -7-bet.

<sup>102</sup> Alpomish. O'zbek xalq ijodi. -Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2016. -35-bet.

<sup>103</sup> O'sha kitob. -274-bet.

<sup>104</sup> Mahmud Sattor. O'zbek udumlari. -Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016-18-bet.



Mehmon bo‘lib biror gularim tushdi, Iting ko‘p taladi, ko‘p nasham uchdi, Shul qizingni ko‘rib ko‘nglim xushdi[r], Albatta qizingning bul boshi bo‘shdi[r]. Boybicha, eshitgin aytgan so‘zimdi, Ko‘ngling bo‘lib xafa qilma o‘zingdi, Kelin qilib ketay, sening qizingdi, Sening qizing Qorajonga lozimdi[r]. Qizingning boshida taralgan chochi, Qorajon ham yigitlarning me‘roji, Mening aytgan gapim bunda bilsang-chi, Qorajonni kuyov qilib olsang-chi, Rasmi-qa‘dang menga ma‘lum qilsang-chi. Nima deb amr etsang ani berayin, O‘zbek boylar, rasimingni so‘rayin, Qorajonning vaqtin xushlab turayin, Qizingman ikkovin birga qilayin. Oshiqning fahmidir qorong‘i kecha, Yig‘lasang, holingga yig‘lar bir necha, Bu so‘zima javob bergin, boybicha. Sening qizing tarzin ko‘rdim, oyimcha, Qorajon ham yomon emas, bekbachcha, Ikkovi ham o‘ynab yursin har kecha, Qizing bilan ro‘zg‘or qilsin o‘lgancha, Bu gaplarni hazil bilma, boybicha. Bir obloga yetgay aning nolasi, Turgan yerim boyning kulbaxonasi, Men bo‘laman Qorajonning enasi. Necha qizlar Qorajon deb intizor, O‘ziga teng ko‘rmas bolam zo‘rabor, Sen qizingni bersang, ko‘ngli xush bo‘lar, Sening qizing Qorajonman barobar, O‘ynab-kulsa, bolam Qorajon shunqor, Qorajonning aytgan qizi shunda bor. Kelin qilib borsam, ko‘ngli topilar, Necha mahram Qorajonga xizmatkor, Shul qizingni sening bermaging darkor. Bundan ko‘rinib turibdiki, har bir ota-ona farzandi taqdiriga befarq qaray olmaydi. Barchin ham barkamol, voyaga yetgan, savod chiqarib, chorvador xalqqa xos xususiyatlarni o‘zida jamlagan, husning ovozasini olamni tutgan suluv qiz edi. Garchi Surxayil kampir va uning yetti o‘g‘li Qalmoq yurtida qanchalik obro‘ga ega bo‘lmasin, bir musofir boyning qizini rasm-rusumlariga mos tarzda so‘rab, urf-odatlarini hurmat qilishdi. Bunga javoban Barchin ulardan olti oyga muhlat so‘radi. Nourmid qilmadi. Barchindagi shijoat, qat‘iyat taqdirini birovlarining qo‘liga topshirib qo‘ymaslikni, to‘rt shartini bajargan mard, jasur pahlavon uning kelajagi, yurtining ertasi bilan hayot yo‘lini bog‘lashga chaqirdi. Doston oraqali bugun biz o‘z taqdirimizga befarq bo‘lmasligimiz, keksa avlod vakillaridan ibrat olishimiz kerakligini unutmaylik. Barchinning qo‘ygan shartlarida ham o‘zbekona ruh ustunlik qiladi. Xususan, ikkinchi kurash sharti qadimda yigit va qizlarning balog‘atga yetib, turmush qurishlaridagi asosiy shartlardan biri turmushga chiqadigan qiz avvalo o‘z tengdoshlaridan besh-oltitasini ko‘pchilik oldidagi halol kurashda yengishi, yiqitishi talab qilingan. Bu jarayon dushman lashkarlari bilan hayot-mamot janjlari ketayotgan paytga to‘g‘ri kelsa, (bunday damlar tarixda bot-bot uchrab turgan) turmush qurmoqchi bo‘lgan qiz dushman navkarlaridan besh-oltitasini o‘ldirib, kallasini onaboshiga keltirib ko‘rsatishi talab qilingan.

Ana shu shartlardan keyingina oila qurayotgan qiz bir yostiqqa bosh qo‘yadigan yigiti bilan bel olishgan. Bo‘lajak er bilan kurashda teng bo‘lsagina, u bilan oila qurish huquqiga ega bo‘lib, sog‘lom turmush va qudratli oila qurish uning kelajagini bosh omili bo‘lgan<sup>105</sup>. Mana shunday oilalarda bosqinchilarga qarshi kurasha oladigan, vatan himoyasiga hamisha tayyor yigit-qizlar voyaga yetgan. Barchin ham mard yigitlarni kurash maydonida sinagan. Bugungi kunga kelib, kurash milliy o‘yin sifatida bayram va sayillarda o‘tkazilib, jahon sport turlaridan biriga aylanib ulgurgan. Dostonda alohida o‘ringa ega bo‘lgan marosimlardan biri to‘ydir. To‘y – yaqin do‘st-uyor, qarindosh-urug‘ diydoriga, shirin taomlarga, yaxshi kuy va qo‘shiqqa, bayram shodiyonalari, kulgi va quvonchga to‘yishdir. O‘zbek xalqi qadim zamonlardan buyon to‘y qilib, elga osh berib kelgan. Buning ifodasini Alpomish va Barchinning nikoh to‘ylari misolida ko‘rishimiz mumkin: Baxmal o‘tovda chimildiq tutib, kuyov no‘karlari bilan kuyovni kirgizmoqchi bo‘lib, bir necha xotinlar “kampir o‘ldi” bo‘lib, o‘lganiga bir nima olib, “it irillar” degan rasmini qilib, bunga ham bir nima berib, har zamon salom solib, uydan ichkariga kirib, chimildiqda o‘tirib, oldiga dasturxon solib, qo‘ylarning to‘shini pishirib olib kelib, bularning oldiga qo‘yib, xo‘p yeb to‘yib, kuyov no‘karlarga to‘ppi, ro‘mol, sarpoylar berib, hammasi o‘z rasmi-qa‘dasini qilib, kuyov no‘karlar chiqib ketdi, bular ham mazgiliga-joy-joyiga qarab ketdi<sup>106</sup>. Ushbu “it irillar” marosimi kelin tomonidan bajariladi. Chimildiq tutilgan uyga kirmoqchi bo‘lgan kuyov navkarlarining yo‘li to‘silib, ostonada turgan kelinning yaqin qarindoshi uvali-juvali kampir it bo‘lib irillaydi. Qachon kuyov kampirni rozi qilsa, ichkariga kiritiladi. Shundan so‘ng, “kampir o‘ldi” marosimi boshlanadi. Unda uvali-juvali kampir tush

<sup>105</sup> O‘sha kitob.-49-bet.

<sup>106</sup> Alpomish. O‘zbek xalqi ijodi. -Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016.-202-bet.



ko‘radi. So‘ngra tushida ko‘rganlarini aytadi: Bir tush ko‘ribman, Ikki yoshni xush ko‘ribman, Boshimdagi humo qush kuyov bolaga davlat bo‘lsin, Qo‘ynimdagi toj kelinbolaga farzand bo‘lsin – deya yangi oila barpo bo‘layotganligiga ishora qiladi. Doston davomida Barchinni bekning qoshiga op kirmoqchi bo‘lib, ko‘p qizlar olib, baxmal qoplagan oq kigizga solib, ”qadimgi rasmimizni qilamiz”, -deb qizlar ko‘tarib, ko‘targani quvvati kelmay halak bo‘lib, uytib-buytib olib kelib, Hakimbekning qoshiga olib kirib, xotinlar rasmini qilib, ”choch siypatar”, ”qo‘l ushlatar”ini qilib, bir necha yangalar sho‘xlik qip turib: ”Nima qilsangiz, ixtiyor o‘zingizda”, -deb sho‘xlik bilan bir nechasi javob berib, har qaysisi o‘z mazgiliga ketdi<sup>107</sup>. ”Choch siypatar” marosimida qiz bolaning sochi o‘rilishi, uning balog‘atga yetganligini anglatadi. Qachonki qiz bola balog‘at yoshiga yetsagina, turmushga berishga tayyor hisoblanadi.” Qo‘l ushlatar” marosimi esa ikki yoshni yangi hayotga birgalikda qadam qo‘yishlari, bir-birlari bilan hamfikir bo‘lishga undaydi. Nikoh to‘yidan keyin o‘tkaziladigan marosimlar xalqimizning jo‘mard tabiati, qo‘li ochiqlik odati, to‘kin-sochin, erkin hayoti mazmunidan kelib chiqqan. Dostonda aks etgan turli-tuman o‘zbek milliy urf-odatlar va oilaviy-maishiy marosimlari muayyan badiiy ifodasi bilan doston syujetini asosini tashkil etadi va maishiy hayotda o‘z o‘rnini yo‘qotmagan. O‘qituvchi o‘quvchilarning faqatgina bilimiga emas, balki ularning tarbiyasiga mas’uldir. Bu esa o‘quvchilarga ta’lim va tarbiyani uyg‘un holda berib borishimiz kerakligini anglatadi. Biz dostonni o‘qitish davomida ana shunday qadriyatlar qadr topgan yurtda tinch-osuda yashayotganligimizdan faxrlanish hissini o‘quvchi yoshlar qalbida uyg‘otishimiz kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.- T.: O‘zbekiston-2017.
2. Alpomish (O‘zbek xalq qahramonlik dostoni).- Toshkent: Sharq NMAK Bosh tahririyati-2010.
3. Yo‘ldoshev Q. Alpomish talqinlari yoki doston badiiyati hamda millat ma’naviyati haqida ayrim fikrlar.- T.: Ma’naviyat-2002.
4. Mahmud Sattor. O‘zbek udumlari.- Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

---

<sup>107</sup> O‘sha kitob.-202-bet.

## KOMPOZITSIYA VA SUJETNING TARKIBIY QISMLARI ABDULLA QAHHOR HIKOYASIDA

*Islomov Shohijahon Shuhratjon o'g'li*  
*Denov tadirkorlik va pedagogika instituti talabasi.*

**Anontatsiya:** Ushbu maqolada Adabiyotshunoslikda qo'llaniladigan Sujet va uning tarkibiy qismlari, kompozitsiya konflikt kabi tushunchalarni taniqli yozuvchi Abdulla Qahhorning hikoyalarida naqadar o'z aksini topgani haqida so'z yuritildi.

**Kalit so'zlar:** hikoya g'oyasi, sujet, kompozitsiya, konflikt, kulminatsiya.

**Kirish.** Hammamizga ma'lumki Abdulla Qahhor asarlarining mavzusi va ko'lami-juda keng. Biz tahlilga adibning "Anor" qissa va hikoyalar to'lamidagi "Mayiz yemagan ayol" hikoyasini tahlil uchun tanladik. Avvalombor hikoya sujeti haqida so'z yuritadigan bo'lsak. Hikoya boshidanoq gap nima haqida borishi va uning asosiy qahramonlari qanday atmosferasida ekanligi ko'zga tashlanadi. Hikoya g'oyasi: ayrim insonlar hammdan ayb qidirib, o'zidan bexabarligini ochiq oydin ko'rsatib berish uchun o'zbek millati uchun muhim qadriyat bo'lgan "paranjini" misol qilib oladi. Qiyoslaslaydigan bo'lsak: A.Frans "Insoniyat tarixi" hikoyasida asarning asosiy g'oyasini "Odamlar tug'iladilar, azob chekadilar va o'ladilar" degan fikrni kitobxonga yetqazish uchun to'g'ridan-to'g'ri aytmaydi balki "hayotda bo'lgan bir voqea" sifatida bayon qilib beradi. Huddi shunday hammamiz ma'lum va mashxur "O'g'ri" hikoyasida "dehqonning o'g'irlab ketilgan bir hokizi" misolida jamiyatdagi poraxo'r, amalparastlarning qiyofasini ochib bera olgan. Adabiyotshunoslikda hikoya qilinayotgan voqea „sujet“ deb ataladi. (Sujet fransuzcha "predmet", ya'ni tasvirlanayotgan yoki bayon etilayotgan narsa demakdir.) Adabiyotning kichik janrlari (masalan, hikoya)da ko'pincha bir kichik voqea va uning tafsiloti tasvirlanadi. Yirik janrlarga mansub asarlar sujeti esa kop tarmoqli bo'ladi. Bunday holatda sujetning murakkabligi xususida gap boradi. Har ikki holda ham sujet asar mazmuniga asos bo'lgan kichik yoki katta voqea bo'lib qoladi.

**Konflikt — sujetning o'zani.** Ma'lumki, rivojlanish qarama qarshiliklarning kurashi oqibatidir. Ijtimoiy taraqqiyotning xuddi shu qonuniga mos holda adabiyotda ham hayot harakatda ko'rsatiladi. Hikoya boshida takidlaganimizdek parangi e'tiborni tortadi va qahramonlar hayotida kichik-kichik o'zgarishlar yuz bera boshlashdi (Norqo'zining fikrlash doirasi u gunoh deb hisoblab yurgan narsalari va tirnoq ostidan kir qidirib, o'z ahvolidan bexabar qolib hammani oldida izza boladi) Bu o'zg arishlarni maydonga keltirgan omil sujet chiziqlari ichida yashingan qarama-qarshiliklardir. (Norqo'zining dunyoqarashi va bunga qarshi va yondsh fikrlar mavjud bo'lsa. Uning tilidan qo'ymagan ibo-hayo, or-nomus masalari uning harakatlariga hikoya songida zidlanadi) So'ng hikoya songida obrazlarning karakterlar bir-birlariga zidladi. Norqo'zining fikrlari yoqlab chiqqan bir necha "aqillilar" va bunga qarshi chiqqan va ustidan kulgan boshqa obrazlar. Sujetida konflikt bo'lmagan asar ta'sirchan bo'lmaydi, chunki unda hayotiy haqiqat yorqin va izchil ifodalanmaydi. Faqat xarakterlar to'qnashuvi natijasidagina odamlarning ichki dunyosi to'la ochiladi. Konflikt butun asar sujeti va mazmunining yo'nalishini ta'min etadi. Konfliktsiz sujet „yasash“ mumkin emas. Chunki sujet o'zining chuqurm ohiyati jihatidan harakat qilayotgan konfliktdir<sup>108</sup>.

**Sujetning tarkibiy qismlari.** Abdulla Qahhorning "Mayiz yemagan ayol" hikoyasi quyidagicha boshlanadi: «Ayol kishi erkakka qo'l berib so'rashdimi, bas!.. Ro'za tutgan kishi og'zini chayqasa, suv tomog'iga ketmasa hamki, ro'zasi ochiladi – shu og'iz chayqashdan bahra oladida! Abdulhakimning qiziga usta Mavlonning o'g'li bir hovuch mayiz berganini o'z ko'zim blian

<sup>108</sup> Adabiyot nazariyasi: Universitet va pedagogika institutlari filologiya fakulteti talabalari uchun darslik (Izzat Sulton; mas'ul muharrir Naim Karimov). Qayta ishlangan va to'ldirilgan uchinchi nashri. — T.: O'qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005 — 107 b

ko'rganman. Hayo bormi shularda? Shariat yo'li – xo'p yo'l. O'n bir yasharida paranji yopinmagan qizdan qo'lni yuvib qo'ltiqqa ura bering. Paranji hayotning pardasi-da!»<sup>109</sup>.

Hikoya ushbu parcha bilan boshladi. Kitobxon ongida hikoya haqida ilk ma'lumot beradi. Asarning bunday qismi *ekspozitsiya* deb ataladi. („Ekspozitsiya“ (lotincha) —“bayon” , “tushuntirish demakdir) Ekspozitsiya sujet va konflikt boshlanishidan avva keladigan muqaddimadir. Ekspozitsiyaning muhim sharti va fazilatlaridan biri uning qisqa va mazmundor bo'lishidir. Hatto shu kichik ekspozitsiya ham bizga faqat qahramon va u harakat eta boshlaydigan sharoit haqida ma'lumot berish bilangina cheklanmaydi, balki bizni qahramonning bundan keyingi sarguzashtlarini to'g'ri tushunishga tayyorlaydi. Hikoya adib ishlatgan ekspozitsiya juda qollanilgan, ba'zi yozuvchila bu qismni asarning o'rtasida berib boradi. Yozuvchi tanlagan usulda asosan dedektiv yo'nalishdagi asarlarda ishlatadi. Asar yoki hikoya boshida qottik yoki jinoyat haqida biroz gap yuritiladi va kitobxonni ipsiz bog'lab qo'yadi..

Sujetning ikkinchi tarkibiy qismi *tugundir*. Mulla Norqo'zining xotini pokdomon. Agar mulla Norqo'zi o'n yil yuziga kulib qaramasa, qopdan ko'ylak, bo'yradan lozim kiyishga majbur qilsa ham, pinagini buzmaydi. Har qanday xotin bilan ham inoq bo'lavermaganining o'zi o'ta diyonatli, pokdomon ekanining nishonasidir. Uning bitta-yu bitta o'rtog'i bor. Bu xotin to'g'risida mulla Norqo'zi shunday fikrda: agar farishta ilgari o'tgan bo'lsa – shuning onasi, endi tug'lsa – shuning bolasi bo'ladi, agar hozir yer yuzida bo'lsa – shu xotinning o'zi. Keltirilgan bu qismdan boshlab kitobxon uchun yechilishi kerak bo'lgan masala “jumboq” ekspozitsiyadan o'sib chiqadi. Bundan keying voqealarda nomalum kimsaning naqadar azizligi, ezozlanishi asardagi keying konfliktini yuzaga chiqaradi. Yuzaga kelgan tugun va konfliktning ochilishi asta-sekin voqelarni keskinlashtiradi va sujetning yana bir muhim tarkibiy qismi- *voqealar rivojini* yuzaga chiqaradi. Konflikt va sujetning rivoji keskinlashib borgadi va hikoya kulminatsiyasini o'zida aks ettiradi. (“Kulminatsiya” (lotincha) „cho'qqi“ demakdir.) Kulminatsiya xarakterlar orasidagi to'qnashuvning eng o'tkir, hal etuvchi holatidir<sup>110</sup>.

Portret va Peyzaj. Kishilarning asarda badiiy so'z vositasida chizilgan tashqi qiyofasi *portret* deb ataladi. Portretga yana qahramonning gap ohangi, o'ziga xos qiliqlari va turli ruhiy holatlar munosabati bilan uning yuzida bo'ladig an o'zgarishlar (mimika) ham kiradi. Asosan portret ikki xil yo'l bilan chiziladi. Tashki ko'rinish va ichki dunyosi orqali. Birinchi yo'lda qahramon kitobxon ko'z ongida gavadaladi. Ba'zan bu usul tashlab ham ketilishi mumkin bunday paytda yozuvchi qahramonni ichki dunyosini uning harakati va o'zining tutishi orqali kitobxonning ongiga joylaydi va kitobxon xayolida qahramonni tassavvur qiladi. Abdulla Qahhor mazkur hikoya ikkinchi yo'ldan borgan: Mulla Norqo'zi har kuni bozordan qaytib samovarga chiqadi va ko'ngli tortgan odamlarni atrofiga to'plab, yarim kechagacha shariatdan yuz o'girgan xotinlar to'g'risida shunday vaysab o'tiradi; ba'zan panjasini yozib, o'zi bilgan oilalarni sanab chiqadi.

**Kompozitsiya.** Asarning g'oyaviy -estetik ta'siri uning turli qism iarinig bir-biriga qanchalik mutanosibligiga ham bog'liqdir. Asarning turli qismlari orasidagi mutanosiblik *kompozitsiya* deb ataladi (“kompozitsiya” lotincha “tuzilish” demakdir). Asar kompozitsiyasi, dast avval, muallifning tasvir etilayotgan hayotiy materialga munosabati bilan belgilanadi, ya'ni kompozitsiya birinchi navbatda g'oyaviy-estetik tushunchadir. Yozuvchi nuqtayi nazari kompozitsiyaning hal etuvch i unsuridir. L.Tolstoyning fikricha “kompozitsiya” dast avval markazni tayin etib olish san'atkorning nuqtayi nazari markazini belgilab olishdir. Abdulla Qahhor ushbu hikoyasining kompozitsiyasi- O'zbek xalqi uchun muhim qadriyatlar biri sanalga or-nomus masalasini Norqo'zi misolida kulguli va achinarli qilib ochib berilgan. A.Qodiriy “O'tgan kunlar”da tasvir markaziga XIX asrning eng ilg'or kishilari - Otabek , Yusufbek hoji, Kumush va ularga o'xshashlarni qo'yishga qasd etadi bu hol butun roman kompozitsiyasini belgilaydi. Kompozitsiyaning yana bir muhim sharti shundaki asar boshdan ortiq voqealar rivoji mantiqiy bog'lanishi kerak.

<sup>109</sup> Abdulla Qahhor. Anor. Qissa va hikoyalar. Abdulla Qahhor.: – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi 2012.

<sup>110</sup> Adabiyot nazariyasi: Universitet va pedagogika institutlari filologiya fakulteti talabalari uchun darslik (Izzat Sulton; mas'ul muharrir Naim Karimov). Qayta ishlangan va to'ldirilgan uchinchi nashri. — T.: O'qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005.

Kompozitsiya shuningdek bayon qilish usli hamdir-bunda yozuvchi butun tasvirni o'z nuqtayi nazaridan yoki biron bir asar qahramonining o'rnidan tasvirlanib beradi. Abdulla Qahhor o'z hikoyalarida asosan birinchi yo'ldan boradi.

XULOSA: Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Abdulla Qahhor hikoyalarida sujetning barcha qismlaridan oqilona foydalanilganligiga guvoh bo'lamiz bu hikoyaning yanada o'qimishli va kitobxon qalbidan joy olishida muhim ro'l o'ynaydi. Tahlil davomida shuni guvohi bo'ldikki Abdulla Qodiriy va Abdulla Qahhorning ijod yo'li sujet masalasiga kelganda bir-birini takrorlab to'ldirib kelmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Adabiyot nazariyasi: Universitet va pedagogika institutlari filologiya fakulteti talabalari uchun darslik (Izzat Sulton; mas'ul muharrir Naim Karimov). Qayta ishlangan va to'ldirilgan uchinchi nashri. — T.: O'qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005.
2. Abdulla Qahhor. Anor. Qissa va hikoyalar. Abdulla Qahhor.: – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi 2012. – 86 bet.
3. kh-davron.uz
4. Ziyoz.uz

## UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QURADIGAN YOSHLAR - BIZ BIR KUCHMIZ

*Ismatova Feruza Abdurahobovna*

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi*

*Aleksandr Faynberg nomidagi davlat stipendiyasi sohibasi.*

**Annotatsiya:** O'zbekiston Respublikasida bo'lyotgan muhim o'zgarishlar hamda bu islohotlarga yoshlarimizning munosabati. Prezidentimizning yoshlar uchun yaratyotgan imkoniyatlari va bu imkoniyatlardan qay darajada foydalana olishimiz. Eng muhim masala esa biz uchinchi renessans poydevorini qanday yoshlar bilan qurmoqchimiz? O'zbekiston kelajini qutqaradigan yoshlarni bir nuqtada bir mavzu doirasida birlashtira bilishimiz.

**Kalit so'zlar:** Uchinchi renessans, islohotlar, taraqqiyot, milliy g'oya, rivojlanish.

Mamlakatimiz taraqqiyoti borgani sari kengayib Jahon miqyosida o'z o'rniga ega davlatlar qatoridan joy olmoqda. Shuningdek Muhtaram prezidentimiz so'zlari bilan aytganda yurtimiz yashnamoqda va har tomonlama o'sib rivojlanmoqda. Jonajon diyorimiz O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining nishonlanishi munosabati bilan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tantanali tabrik nutqida taraqqiyotimizning maqsadi Uchinchi Renessans bo'lishi lozimligini ta'kidladi. Nihoyatda jozibali mazkur strategik g'oya o'zining ulug'vorligi, milliy yuksalish barcha jabhalarda qanday umumiy maqsadni ko'zlamog'i zarurligini ko'rsatadi. Amalda davlat rahbari taraqqiyotning hozirgi bosqichida O'zbekiston milliy g'oyasining yangi va aniqlashtirilgan mazmunini ifodaladi. Uchinchi Renessans g'oyasini, avvalo, jamiyatimiz chuqur anglab olmog'i kerak. Har jabhada, sohada qiladigan ishlarimiz, rejayu istiqbol dasturlarimiz, ta'lim-tarbiya va kadrlar siyosati, investitsion siyosat — barchasi unga sharoit va muhit yaratishga qaratilmog'i lozim. Shunday ekan biz avvalo "Renessans" so'zining ma'nosini anglamog'imiz lozim. Renessans nima? Nega Uchinchi Renessans deyilmoqda? "Renessans" lug'aviy fransuzcha "qayta tug'ilish" degan ma'noni anglatadi. Atama sifatida uning mazmuni ancha keng: madaniyatda, ilm-fanda, san'atda, ta'lim-tarbiyada, umuman, jamiyat hayotida uzoq muddatli turg'unlikdan keyin qayta jonlanib, tez rivojlanishni, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi yangi sifat bosqichiga chiqishini bildiradi. Ilk bor atama Yevropada o'rta asrlar mutaassibligidan keyin 15-16 asrlardagi rivojlanish davriga nisbatan qo'llanilgan. Renessans atalmish mazkur ijtimoiy hodisa o'zbek tiliga Uyg'onish davri deb o'girilgan. Bu degani biz qaytadan uyg'onish davrini yaratishimiz zarur. Ya'ni bo'lyotgan voqealarni to'lig'icha anglashimiz va rivojlanish sari harakat qilishimiz zarur. Prezident biz haqimizda – yoshlar haqida alohida e'tibor va qat'iy ishonch bilan gapirdi. Ta'lim, dedi, matematika, kimyo, biologiya – fundamental fanlarni zo'r o'qitaylik, dedi, innovatsiyalarga yo'l ochaylik, dedi. Yoshlarning ma'rifati, ma'naviyati bosh masalamiz, strategik vazifamiz, ustuvor yo'nalishimiz, dedi. Deganlarining amaldagi isbotini ko'ring: so'nggi to'rt yilda O'zbekistonda 43 ta yangi oliy ta'lim muassasasi tashkil etildi. Bu yil esa oliy o'quv yurtlariga kirish uchun bir yarim millionga yaqin yigit-qizlar hujjat topshirdi, Shu o'quv yilidan yana bir yangi tizim joriy etildi: kam ta'minlangan oilalarda ulg'ayayotgan qizlarimizning bilim olish imkoniyatini kengaytirish maqsadida OTMda ular uchun davlat granti asosida 940 ta qo'shimcha o'rin ajratildi. Mana sizga iste'dodlarning intilishlarini ro'yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda munosib o'rin egallashlari uchun yaratilgan imkoniyatlar! Shuningdek yoshlar uchun yana bir qator imkoniyatlar yaratilmoqda. Mamlakatimizda davom etayotgan bugungi shiddatli jarayonlar, sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilgan islohotlar, insonlar ongi tafakkuridan o'rin olib, ularning dunyoqarashini shakllantirayotgan demokratik tamoyillar haqida so'z ketganda, o'tayotgan kunlarni mazmun-mohiyatiga ko'ra asrlarga tenglaymiz. Darhaqiqat, tarixan qisqa vaqt ichida, ya'ni o'tgan besh yillikda hayotimizdan mustahkam o'rin olgan va ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy jabhalarni to'liq qamrab olgan o'zgarishlar, yangiliklar ko'lami shu qadar kengki, ularning har biri o'z tahlilchilarini kutib turibdi.



Biroq, bugun xalqimizga, ayniqsa, o‘sib kelayotgan yosh avlodga ro‘y berayotgan o‘zgarishlar mohiyatini va ertangi ko‘zlagan marralarimizni, Yangi O‘zbekiston, Uchinchi Renessans mazmun-mohiyatini, “...odamlarimiz turmushida, tafakkurida kuzatilayotgan yangilanishlar, shuningdek, jamiyatimiz hayotida yangidan-yangi voqelikka aylanayotgan keskin burilishlar tasviri...”ni yetkazishni istar ekanmiz, e‘tiborimizni shubhasiz, ushbu yangilik va o‘zgarishlarning tashabbuskori, elimizning olovqalb farzandi, millat Sardori – Prezidentimizning Vatan va Millat istiqboli, shoni yo‘lida olib borayotgan faoliyati, ta‘bir joiz bo‘lsa, orzu-yu istaklariga qaratmog‘imiz, shaxsi, siyosiy irodasi va ruhiy olamini anglashga intilmog‘imiz foydadan xoli bo‘lmaydi. O‘zbekiston xalqining ko‘p asrlik boy tarixiga nazar tashlar ekanmiz, unda taraqqiyot cho‘qqilarini zabt etishning mashaqqatli bosqichlarini ko‘rishimiz mumkin. Bu bosqichlarda davlatchiligimizning shakllanishi, jamiyatda ilmu fan, san‘at va madaniyatning yuksalishi, buyuk siymolarning o‘z ijodida erishgan yutuqlari jahon tamaddunining rivojiga hissa qo‘shishdek iftixorli jarayonlar gavdalanadi. Matonatli xalqimiz esa azal-azaldan o‘zgarish va qiyinchiliklarga tayyor bo‘lgan. Bilamizki, jamiyat hech qachon bir joyda turmaydi va doim rivojlanish hamda yangilanishga intiladi. Shu sababli - qadriyatlar, urf-odatlar va an‘analar o‘zgaradi. Yoshlar esa – shu taraqqiyot va o‘zgarishlarni harakatlantiruvchi kuch asosidir. Yoshlar ongi, tafakkuriga o‘z buzg‘unchi g‘oyalarini singdirishga urinayotgan kuchlar tazyiqi bir zum ham susaymayotgan bir paytda, biz yoshlar otilib BIZ BIR KUCHMIZ dey ta‘kidlab prezidentimizning yonlarida kamarbasta bo‘lib turishimiz hamda ularga bu islohotlarda imkon boricha yordam berishimiz zarurdir va bizning xalqimiz oldidagi farz amallarimizdan hisoblanadi. Shuning keling O‘zbekiston yoshlari biz bir nuqtada birlashaylik. Yurtimiz kelajagini o‘z qo‘llarimiz barpo etib jahonga tanitaylik !

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://xs.uz/uz/post/uchinchi-renessans-millij-goya-sifatida>
2. <https://uzlidep.uz/uz/news-of-party/11037>
3. <https://www.uwed.uz/uz/news/fulltext/1429>
4. <https://yoshlarakademiyasi.uz/2021/01/04/uchinchi-renessans-yoshlar-nigohida/>
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/uchinchi-renessans-haqida-ba-zi-mulohazalar>.

## O‘ZBEK NASRIDA POLVON OBRAZINING YARATILISHI

*Ismonaliyeva Mahbuba Jabarali qizi*  
*Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti.*

“Ilhom va mahorat topishgandagina kitob yozuvchining qalbidan qo‘shiqday otilib chiqadi...”<sup>111</sup> - degan edi Abdulla Qahhor “Ilhom va mahorat samarasi” maqolasida. Oltmish yillar muqaddam Said Ahmadning “Ufq” romani tog‘risida aytilgan bu fikrlar o‘z kuchini yo‘qotmay, asar haligacha kitobxonlar qo‘lidan tushmay kelmoqda.

Trilogiyada davriyligi bo‘yicha birinchi, yaratilish jihatidan esa oxirgisi bo‘lgan “Qirq besh kun” romani mamlakatimizning irrigatsiya tizimidagi ulkan voqea sanalmish Katta Farg‘ona Kanalining bunyod etilishi haqidagi asardir. Lekin bu asar bizni milliy ma‘naviyatimizni o‘zida yorqin namoyon etuvchi o‘zbek polvonlari hayotidan hikoya qiladigan ilk asarligi bilan qiziqtiradi.

Adabiyotshunos olim Umarali Normatovning “Ufq” trilogiyasi yaratilishi bo‘yicha Said Ahmad bilan olib borgan suhbatida “...asl toshkentlik bo‘la turib, nuqul Farg‘ona kishilari haqida yozasiz..., bu o‘zingizdagi shaxsiy mayl oqibatimi yoki nasrimizdagi an‘analari bilan bog‘liqmi?”<sup>112</sup> – degan savoliga adib “Bilmadim, o‘zbek xalqiga xos milliy xususiyatlar, xalqning an‘analari, manzaralaridagi milliy ruh bu taraflarda kuchliligimi, manzaralarning go‘zalligimi, bilmayman. Har qalay kitob yozishga mayl yo‘q paytlarida ham o‘sha taraflarga ketib qolgim kelaveradi”, [B.275] - deb javob bergan edi. Haqiqatdan ham, Said Ahmadning ko‘plab asarlarida go‘zal vodiy manzaralari-yu, tanti insonlari qiyofasini ko‘rishimiz mumkin. “Ufq” trilogiyasining birinchi kitobi bo‘lmish “Qirq besh kun” romanida ham Katta Farg‘ona kanali qurilishidagi xalqning matonati va shu xalq ichidan chiqqan zarbdor polvonlarning fidokorona mehnati qalamga olingan.

Yozuvchining badiiy niyati o‘laroq, qirq besh kun ichida haqiqiy polvonga aylanishi kerak bo‘lgan Azizxon obrazi asarning markaziy qahramoni sifatida harakatlanadi, asar voqealari uning shu qisqa vaqt oralig‘idagi hayoti va xarakterida sodir bo‘lgan keskin o‘zgarishlar ustiga qurilgan. Azizxon kuch-quvvatga to‘lgan, tizginsiz, hech bir odamzod bilak kuchi bilan unga tenglasha olmaydigan tarzda tasvirga olinadi: “Azizxon egasiz qolgan ot-aravalarni ko‘rib paytdan foydalanmoqchi bo‘lipti. Ikkita otni aravadan chiqazib bolalarni mindiripti. O‘zi ko‘cha tarafdagi darvozaning bir tavaqasini chiqazib ko‘cha o‘rtasida qorniga qo‘yib yotib opti. Bolalar ot bilan qornidagi darvozaga chiqishipti. Aravakashlar kelisha ot yo‘q. Bolalar ot minib chiqqan darvoza taxtasining bosh tarafida Azizxonning iyagi chiqib turipti. U kuchanib yana bittang ot minib chiqqlaring, deb buyruq qilyapti”,<sup>113</sup> Azizxonning kuch-qudrati kundankunga oshib, yer-u ko‘kka sig‘may boradi, bu esa atrofdagilarda hayrat uyg‘otadi, ammo bu kuch foydasiz ishlarga sarf bo‘lib, doimo ota-onasining xalq orasida izza bo‘lishlariga sabab bo‘ladi: “Tog‘a kolxoz medpunktiga vodoprovod tushirish uchun ko‘cha boshiga yigirmatacha temir quvur keltirib qo‘ygan edi. Azizxon o‘rtoqlari bilan bahs boylashib, ertalabgacha hamma quvurlarni egib g‘ildirak qilib qo‘yipti. Ana o‘shanda Ummatali quvur haqini to‘lashga majbur bo‘lgan..., Ummatali hayron edi. Bu bolada shuncha kuch, shuncha g‘ayrat qaydan paydo bo‘ldi ekan?” [B.27] Qahramondagi bunday bo‘rttirish, oshirib-toshirishlar asar yaratilgan vaqtida turli bahslarga sabab bo‘lgan, bugungi kitobxon ham bu tasvirlarni mubolag‘a sanashi mumkin. Yuqorida zikr etilgan suhbatda muallif shunday degan edi: “Azizxonni o‘zim xayolan ijod qilganman. Azizxonni bebosh, yerga ursa ko‘kka sapchiydigan, qilish-qilmishidan elga naf tegmaydigan beboshvoq yigit. Men uni atay shunday tasvirladim. Bunga sabab, Norin daryosiga

<sup>111</sup> Abdulla Qahhor. Ilhom va mahorat samarasi. – Toshkent, 1965 // <https://ziyouz.uz/matbuot/sovet-matbuoti/abdulla-qahhor-ilhom-va-mahorat-samarasi-1965>

<sup>112</sup> Normatov U. Trilogiyaning tug‘ilishi. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2021. –B.274. Keyingi o‘rinlarda ushbu manbadan olingan ko‘chirmalar qavs ichida beriladi.

<sup>113</sup> Said Ahmad. Ufq. – Toshkent: Sano-standart, 2016. –B.15. Keyingi o‘rinlarda ushbu manbadan olingan ko‘chirmalar qavs ichida beriladi.

uni qiyos qilmoqchi edim. Norin daryosi ko'pirib-toshib, ekinzorlarni payhon qilib oqardi. Shunday beqiyos xazinadan naf kam edi. Azizxon ham shunaqa. Unda fil kuchi bor. Ammo bu kuch behuda ishlarga sarf bo'ladi. Shu ikki kuchning bo'sunishini tasvirlamoqchi bo'ldim". [B.278] Katta Farg'ona kanalining bunyod etilishi Norin daryosi suvi orqali Farg'ona vodiysi qishloq xo'jaligi tizimining rivojlanishiga katta turtki bo'ldi. Azizxon obrazidagi polvonlik xususiyatlari ham kanal qurilishi fonida shakllana boradi. Adib buning uchun qahramonini qurilish manzili tomon yetaklaydi: *"Yigitlik g'ururi bilan hech narsadan tap tortmaydigan, qiz olib qochish allaqanday mardning ishi, deb bilgan Azizxon hozircha nochor edi..., afsuski u, hatto kelgindi itning ham dumi chotiga qisiqlik bo'ladi, deganlaridek, mo'mingina bo'lib, o'z taqdirini kutardi"*. [B.50] Qurilish bilan bog'liq voqealar tizginida qahramonda o'zbek polvonlariga xos or-nomus tushunchalari shakllana boradi. Qahramon xarakteri takomili uchun turli ziddiyatli sahnalar uyushtirib boriladi: *"-Uka, Farg'ona polvonlari sal mundoqroq bo'ladi. Uyiga yaqinroq joyda ishlamasa, xotinini sog'inib qoladi. Bu gap Azizxonning jon-jonidan o'tib ketdi. Shart burildi-yu alohida kursida taltayib bir o'zi o'tirgan Esh polvonning tepasiga keldi. - Yana bir marta qaytaring shu gapingizni, Polvon aka. Esh polvon uni pisand qilmay, o'taver, o'taver, deb masxarali iljaydi. Azizxon titrab ketdi. Yaktaginging yengini ham shimarmay uni kursi bilan qo'shib shart ko'tardi. Pildiragancha davradan olib chiqib ketdi-yu, ko'cha o'rtasiga otdi"*. [B.52] Polvonlarning hayot tarzidan ma'lumki, polvonlik tamoyillari shakllanishida kurash bosh mezon sanaladi. Har bir polvonga xos alohida iqtidor, yutuq va shu qatorda kamchiliklar ham kurash davralarida yuzaga chiqadi. "Qirq besh kun"da ham shu kabi kurash sahnalarini, har bir vodiy polvonining o'ziga xos xususiyatlarini ko'ramiz, bu kurash sahnalarini xayolan kuzatib, Said Ahmad tili bilan aytganda, *ana o'zbek polvonlari, ana deya g'ururlanib ketasan kishi: "Odamlar unga pul uzata boshlashdi. Azizxon qip-qizarib ketdi. Umrida u bunaqa qilmagan edi. Jo'ra polvonning qo'lidan yulqinib chiqib joyiga o'tirmoqchi bo'ldi. Bir chol yo'lini to'sib chiqdi. - Jinni bo'lma, bolam. Bu kurashning taomili. Olmasang, xaloyiqni xafa qilasan"*. [B.65] Azizxon obrazida bir vaqtning o'zida xokisor bolalik, ayni paytda esa o'zbek erlariga xos mardlik va halollik mujassamlashtiriladi. Yozuvchi uning timsolida kurashchi polvonlarning umumlashma qiyofasini yoritishga harakat qilib boradi. Ulardagi mardlikni, oriyatni ulug'laydi: *"- Va'dang esingdami, ukajon? - Esimda, - dedi Azizxon ham shivirlab. - Yana ikki aylanamiz-u ajrashamiz. - Yo'q, Polvon aka, ovora bo'lasiz. Bir yoqli qilmay ajralish yo'q. - Va'dangni unutibsan-da, bola? - Agar o'rtaga qo'sh pichoq oralamaganda, o'lay agar, yiqilib ham berardim. Nomardlik qildingiz. Endi mardlikni sizga o'rgatib qo'yganim bo'lsin"*, [B.68] Azizxonda polvonlarga xos xarakter xususiyatlar ana shunday ziddiyatlar asosida shakllana boradi. Shiddat bilan odimlayotgan voqealar uni xalq og'ziga tushgan, elga tanilgan inson darajasiga ko'taradi: *"U suzarkan shu paytgacha qilgan ishlarining birontasidan yurtga naf tegmagani, endigina, shu bugun, shu soatda yurt ishiga yaroqli odam bo'lib qolganini sezar, yana allaqanday ishlar qilib odamlarning olqishini olgisi kelardi"*, [B.76] Yozuvchining U.Normatov bilan bo'lgan suhbatida Azizxon obrazining prototipi yo'qligini, yana bir o'rinda esa fantaziya mahsuli sanalmish personajlar ham aniq shaxslarning yig'indisi ekanligini, Azizxonni kanal qurilishida nomi chiqqan polvon Do'nan Do'smatovni ko'z oldiga keltirib turib yozganini ta'kidlaydi. Aytib o'tish joizki, asar voqealarining ba'zi o'rinlarida qahramon bajarayotgan ishlarga kitobxonda shubha uyg'onadi. Azizxonning qorniga taxta qo'yib yuk mashinasini ko'tarishi-yu, yelkasida temirni obkashga o'xshatib qo'yib, 14 odamni osiltirib o'sha temirni egishi sahnalariga o'quvchini ishontirish biroz mushkul. Ba'zi tasvirlarda esa mubolag'aning haddi a'losini ko'rishimiz mumkin: *"To'g'onga beton olib tushgan mashina qaytib chiqayotganda qiyalikda motori o'chib orqaga keta boshladi. Ancha urinib eskib qolgan mashinaning tormozi ishdan chiqqan edi. Agar orqaga qarab shitob g'ildirab ketadigan bo'lsa, poydevor qoliplarini sindirib, o'zi daryoga tushib ketishi aniq. Azizxon shartta sapchib turdi-yu, ildam borib yelkasi bilan mashina kuzoviga tiralib to'xtatib qoldi. Shofyor to qaytadan o't oldirguncha u mashinani qilt ettirmay tutib turdi"*, [B.132] Adib munaqqidning qahramondagi mana shunday g'ayritabiiy xususiyatlari va bunga o'quvchini ishontirish haqida bergan savoliga shunday javob beradi: "Romanning bir necha bobi yozilgandan keyin o'zim ham sizga o'xshab qahramonimning qilayotgan ishlariga shubhalana boshladim.

Buyog`ini yozmay, Azizxonni sal boshqacharoq tasvirlasammikan, deb turganimda Vodil qishlog`ida qahramonimning yoshi bilan yoshi teng bir polvon bor deb eshitib qoldim. Vodilga borsam, polvon Hamzaobodga o`yin ko`rsatgani ketgan ekan. Qidirib bordim. Alijon ismli bu yosh polvon kishi aqlini lol qoldiradigan o`yinlar ko`rsatardi. Tog`dan dumalab tushgan katta harsangtoshni sakkiz kishi arang sudrab uning qorniga qo`yishdi. To`rt kishi har biri yigirma besh kilo keladigan to`rtta bolg`a bilan harsangni uning qornida maydalashdi. Ichi to`la odam avtobusni Alijon qornidan yurgizib o`tkazdi. Qorniga taxta qo`yib yigirma kishini chiqazdi. Azamat yigitlar uning qornida turib “Andijon polka”siga o`yin tushishdi... Men Azizxonning polvonligini ana shu Alijondan olganman. Mayli, Azizxonning polvonligini mubolag`a deysizmi, haqiqat deysizmi, o`zingiz bilasiz. Agar yozuvchi sifatida ishontirolmagan bo`lsam, ayb menda”. [B.281] Xalqimiz – polvonlar yurti. Unda ne-ne azamatlar o`tmagan. Romandagi Aziz polvon obrazining ham yozuvchi aytganidek, aynan prototipi bo`lmasa-da, u ma`lum bir nomdor polvonlarga, xalqimizning alp o`g`lonlariga qiyoslab yaratilganligi aniq. Yozuvchining o`zi ham bunga guvohlik bermoqda. Yana muallif “Qirq besh kun” romani asosan aniq hujjatlar asosida yozilgani, ko`pchilik ishtirokchilar o`z ismi-familiyalari bilan aniq tasvirlanganini aytib o`tadi. Said Ahmad: “Har qanday yirik asar uchun hammadan burun inson taqdiri kerak. Ammo qirq besh kunda qanday qilib taqdir yaratib bo`ladi? Bu qiyin vazifani Azizxon orqali ko`rsatishga harakat qildim. Buning uchun men tanlagan qahramon xarakteri boshqacharoq, shiddatli oqimga tushganda to`lqinlarga qarshi dadil suza oladigan bo`lishi kerak edi”, [B.283] – deya aytib o`tadi suhbat davomida. Adib qahramoni boshiga og`ir savdolar soladi. Bulardan biri qahramon xarakterida keskin burilish yasagan, asar so`nggiga qadar Azizxonning ruhiyatiga ezginlik berib turgan Lutfinisaning o`limi sahnasidir. “Azizxon yo`lakdan o`tishi bilan ayvon o`rtasida ustiga oq choyshab yopilgan Lutfinisaning jasadini ko`rdi. O`zini tutolmay ichidan bir olov keldi-yu, tomog`iga qadalib turib qoldi. Birdan bu o`t portlagandek tomog`idan yig`i bo`lib otilib chiqib ketdi. Azizxon alam-sitam bilan Lutfinisa jasadiga o`zini otdi. Kimdir uni tirsagidan olib ko`tarmoqchi bo`lgan edi, Orzixon aya: - Mayli, qo`yib beringlar, ular bamisoli Layli-Majnun edilar. Mayli, yig`lasin, to`yib yig`lasin. Armonlarini to`kib yig`lasin, - dedi”, [163-bet] Lutfinisaning to`y kunida o`g`irlanishi Azizxonning Katta Farg`ona kanali qurilishiga kelishiga, bu yerda esa xalq og`ziga tushib, Aziz polvon nomini olishiga sabab bo`lgan bo`lsa, o`z akasi tomonidan Lutfinisaning o`ldirilishi, armonli muhabbat tasvirlari qahramonning dunyoqarashidagi keskin burilishlarga sabab bo`ladi. “Bir odam olamdan ketdi. Ammo hayot o`z oqimidan bir nafas to`xtamasdi. Oftob – o`sha oftob. Kecha qanday bo`lsa, bugun ham o`shanday porlab turipti. Daryo hech narsa sezmagandek qirg`oqqa bosh urib pishqirib oqyapti. Biroq birinchi muhabbatini tuproqqa ko`mgan Azizxon kechagi Azizxon emasdi. Uning nazarida quyosh qog`ozdagi yog` tomchisidek xira, bug`doyi o`rib olingan sap-sariq adirlar tobutga yopilgan malladek suvuq, xunuk edi”, [B.166] Azizxonning atrofiga bo`lgan, jamiyatga bo`lgan qarashlari o`zgardi, muallif tabiat manzarasini ham uning ruhiyatidagi burilishga moslab chizadi. Azizxonga quyosh qog`ozdagi yog` tomchisidek xira, sap-sariq adirlar tobutga yopilgan malladek sovuq ko`rina boshladi. Qahramonida sodir bo`lgan bunday keskin o`zgarishga nisbatan yozuvchi shunday fikr bildiradi: “Azizxonni katta oqimga tashladim. Uning taqdir jarayonini tezlashtirish kerak..., Azizxon taqdirini tezlatish uchun har bir daqiqada to`qnashuvlarga duch keltirdim. Shu qirq besh kun ichida u o`limni ham, sevgini ham, obro`ni ham, ta`nalarni ham yurt muhabbatini ham, ota-ona mehri-yu zorlarini ham ko`rdi. O`t-olov, hayotni bir o`yin, ermak deb tushungan bola yurt ko`zida jamiyatning aktiv quruvchisiga aylandi”, [B.283] Asar voqealari so`nggigacha Azizxonga raqib qilib tasvirlangan Esh polvon va uning Azizxon bilan bo`lgan suhbatlari orqali qahramonning butunlay o`zgargan xarakteri va ruhiy dunyosi aksini topadi: “U Azizxonning betiga qarab o`ylanib qoldi. Azizxon u ko`rgan kundan beri butunlay o`zgarib ketganga o`xshab tuyildi. Yuzlari cho`zilib, ko`zlari sal ichkariga cho`kkandek, iyaklari bo`rtib qolgandek. Azizxon u ko`rgandagi norasta bolaga o`xshamasdi. Bosiq ovozida, o`ychan boqishlarida, yurt ko`rgan, tirikchilikning achchiq-chuchugini totigan erkak nuqsi sezilib qolgandi. –Xo`sh, gapir! – dedi Esh polvon... – Yo`q, avval ayting, kechira olasizmi? Men sizni ko`p qiynadim. Davra to`rlarida yurgan, bировga so`zini bermagan sizdek odamni yurt oldida uyatga qo`ydim”, [B.229] .



Yoshligidan qishloqning “ko`ziri” deb nom olgan, kuchini ko`rsatib qo`yish uchun eshak qo`shilgan aravaning orqasidan tortib yurgizmay qo`yadigan, qopdagi bug`doymi, unmi, nima bo`lsa tishi bilan ko`tarib otadigan bu bola xalq bilan birga og`ir mehnatga kirib, boshiga tushgan turli sinovlar natijasida haqiqiy erkakka, shu bilan bir qatorda yurtga dong`i ketgan Aziz polvonga aylanadi: *“Hamisha iyagini ikki kaftiga tirab o`tiradigan dardchil onasi, qachon odam bo`lasan, tentagim, deb noliydigan dadasi ko`z oldida paydo bo`ldi. “Ayajonim, dadajonim, mana, odam bo`ldim-ku, endi koyimang!” deb qichqirgisi keldi. Osmoni falakda qog`ozlar uchardi. Bolalar qichqirardi. Butun vodi`y og`zida doston bo`lgan Azizxon yo`l chetida yig`idan ko`zlari qizarib, hiqqillab borardi”*, [B.234] Said Ahmad: “Shunday qilish kerakki, o`quvchi aytgan gaplarimga ishonsin, uning ko`nglida zarracha gumon qolmasin. Bu yerda endi badiiy mahorat ish berishi kerak. Birinchidan, o`quvchi Azizxonni sevib qolsin. Ikkinchidan, o`quvchi hammavaqt Azizxon tarafida bo`lsin. Uchinchidan, syujet oqimi o`quvchini shoshirib qo`ysin. Agar shularga erisholsam, o`quvchi Azizxonni qirq besh kunda boshqacha odam bo`lib qolganiga ishonishi mumkin”, [B.284] – degan edi qahramoni haqida o`z fikrlarini bildiradi turib. Romanni o`qish davomida kitobxon Azizxonning bolalarcha beg`uborligiga, chin polvonlardek halollik va oriyatni mahkam tutishiga, qo`yingki, asardagi turish-turmishiga oshiq bo`ladi. Doimo Azizxon tomonida turib unga zafarlar tilaydi. Uning boshdan kechirganlariga shubha qilmay ishonadi. Bu, albatta, Said Ahmadning yillar davomida shakllangan yuksak badiiy mahorati bilan bog`liq. Abdulla Qahhor aytganidek: “Yaxshi yozuvchilarimizdan Said Ahmadning “Ufq” kitobi tengqurlari orasida yarqirab turibdi. Bu kitobni kitobxon boshdan-oyoq shavq bilan, hech qayerda turtinmasdan, diqqati susaymasdan, ishtahasi b`yilmasdan y`qib chiqadi”.<sup>114</sup>

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Normatov U. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2021.
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2018.
3. Quronov D va b. Adabiyotshunoslik lug`ati. – Toshkent: Akademya, 2010.
4. Said Ahmad. Ufq. – Toshkent: Sano-standart, 2016.
5. Abdulla Qahhor. Ilhom va mahorat samarasi. – Toshkent, 1965.

<sup>114</sup> Abdulla Qahhor. Ilhom va mahorat samarasi. – Toshkent, 1965 // <https://ziyouz.uz/matbuot/sovet-matbuoti/abdulla-qahhor-ilhom-va-mahorat-samarasi-1965>



## INFORMATIKA FANINI O'QITISHNING AMALIY MAQSADI

### *Do'stov Sunnatullo*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*"Oliy matematika" kafedrası o'qituvchisi.*

### *Izzatullayeva Nigora*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Matematika va informatika ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabda informatika fanini o'qitish va bu sohani o'rganish informatikabilanbevositabog'liqbo'lgankasblarda qo'l kelishi haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** informatika, ob'yekt, modellar, kompyuter, axborot texnologiyalari, sivilizatsiya.

**Kirish.** Bugungi kunda dunyodagi tadqiqotchilar va amaliyotchilarning nisbatan yosh va jadal rivojlanayotgan ilmiy fan-informatika faniga qiziqishi tobora ortib bormoqda. Chunki axborot texnologiyalari harkuni inson hayotiga tobora kuchli tarzda kirib bormoqda. Shuningdek, informatika fundamental axborot-mantiqiy modellar haqidagi fan hisoblanadi.

Informatika fanini o'rganish ob'yekti axborotning tuzilishi va uni qayta ishlash usullari hisoblanadi. Bundan tashqari, deyarli barcha zamonaviy maktab o'quvchilari uyda kompyuterga ega bo'lishlari va maktabdan keyin o'z bilimlarini oshirishda ulardan foydalanish nazarda tutilmoqda. Maktabda informatika fanini o'rganish o'quvchilarga zamonaviy axborot texnologiyalarini o'rganishga yordam beradi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Maktab informatika faniga faol rivojlanayotgan informatika fanining mazmunini tashkil etuvchi barcha xilma-xil ma'lumotlar kiritilishi mumkin emas. Shu bilan birga, umumta'lim funksiyalarini bajaradigan maktab predmeti fanning mohiyatini ochib beradigan, o'quvchilarni boshqa fanlarning asoslarini o'rganish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va ko'nikmalar bilan qurollantiradigan eng muhim, asosiy tushunchalar va ma'lumotlarni aks ettirishi kerak.

Maktabdagi informatika kursini o'rganish, shuningdek, o'quvchilarni ushbu bilimlarni doimiy va ongli ravishda o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan asosiy ko'nikmalar hamda maktabda o'rganilgan boshqa fanlarning asoslarini qurollantirishga mo'ljallangan.

Informatika sohasidagi bilimlarni o'zlashtirish, shuningdek, tegishli ko'nikma va malakalarni egallash o'quvchilarning umumiy aqliy rivojlanishi, ularning fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish kabi shaxsiyat xususiyatlarini shakllantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatishga mo'ljallangan.

Maktab informatika kursining amaliy maqsadi o'quvchilarning mehnat va texnologik tayyorgarligiga hissa qo'shish, ya'ni ularni bitiruvdan keyin ishlashga tayyorgarlikni ta'minlaydigan bilim, ko'nikma va malakalar bilan jihozlash.

Kasb-hunarga yo'naltirish uchun informatika kursi talabalarga kompyuter va informatika bilan bevosita bog'liq bo'lgan kasblar, shuningdek, kompyuterlardan foydalangan holda maktabda o'rganilayotgan fanlarning turli xil qo'llanmalari to'g'risida ma'lumot berishlari kerak.

Masalaning ishlab chiqarish tomoni bilan bir qatorda informatika fanini o'qitishning amaliy maqsadlari ham "kundalik" jihatni yoshlarni kompyuter texnologiyalari va boshqa axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan kundalik hayotda oqilona foydalanishga tayyorlashni nazarda tutiladi.

**Natijalar.** Maktab informatika kursining ta'lim maqsadi, birinchi navbatda, o'quvchilarning dunyoqarashini kuchli ta'siri bilan ta'minlash va bu jamiyatda sivilizatsiya taraqqiyotida hisoblash texnologiyalari va axborot texnologiyalari vositalarining imkoniyatlari va roli to'g'risida xabardorlikka undaydi.

Maktab informatika kursining maktab o'quvchilarining ilmiy dunyoqarashiga qo'shgan hissasi fanning uchta asosiy tushunchalaridan biri bo'lgan ma'lumot g'oyasining shakllanishi bilan belgilanadi: zamonaviy ilmiy tuzilishga asos bo'lgan materiya, energiya va axborot.

Bundan tashqari, informatika fanini sifat jihatidan yangi bosqichda o'rganayotganda aqliy mehnat madaniyati shakllanadi va o'zishini rejalashtirish, uni oqilona bajarish, uni amalga oshirishning real jarayonini amalga oshiradi.

XXI asr axborot asri, axborot texnologiyalari asri ekanligi barchamizga ma'lum, bu asrda savodxon kishi bo'lish uchun, avvalo, kompyuter savodxon bo'lish, axborot texnologiyalarini puxta egallamoq lozim. Har bir mutaxassis, u qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar, o'z vazifasini zamon talabi darajasida bajarishi uchun axborotga ishlov beruvchi vositalarni, ularni ishlatish uslubiyotini bilishi va ularda ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur. Shu sababli bugungi kunda mustaqil Respublikamizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mazmun-mohiyati, maqsadi va vazifalari aniq belgilab olingan.

**Muhokama.** Zamonaviy kompyuterlarni boshqara olish malakasiga ega bo'lish har bir yosh avlodga zarurdir. Shuning uchun, umumiy o'rta ta'lim maktablarida informatika fanining birinchi va muhim vazifalaridan biri o'quvchilarda aniq bir fikrlash usulini shakllantirishdir. O'qitish shakli va usuli yosh o'quvchilarning fikrlashini va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Masalaning qiyin tomoni shundaki, bir tomondan o'quvchining fikrlashini va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish bo'lsa, ikkinchi tomondan ularga zamonaviy kompyuterlar olami haqidagi bilimlarni qiziqarli va uyg'un ko'rinishda berishdir.

Informatikadan mustaqil ishlar bajarish o'quvchilarning individual faoliyatini nazarda tutuvchi shakllardan biri hisoblanadi. Kompyuterlarda amaliy mashg'ulotlar o'tkazish guruh bo'lib ishlashni talab etadi. Ma'ruza tariqasida darslarni olib borish o'qitishning frontal shakllariga misol bo'ladi.

Dasturlash – kompyuterlar va boshqa mikroprosesorli elektron mashinalar uchun dasturlar tuzish, sinash va o'zgartirish jarayonidan iborat. Odatda dasturlash yuqori saviyali dasturlash tillari (Java, Python, C++, Javascript, Delphi, PHP) vositasida amalga oshiriladi. Bu dasturlash tillarining semantikasi odam tiliga yaqinligi bois dastur tuzish ancha oson kechadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, maktablarda informatika fanini o'qitish bo'yicha dasturlar va kurslar yuqori darajada ishlab chiqilgan, o'quvchilar axborot texnologiyalarini o'rganish bilan juda erta tanishadilar. Eng asosiysi, bolaning kompyuter monitorida o'tkazgan vaqtini oqilona foydalanish va albatta, yosh mezonlariga muvofiq bolalarning umumiy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni filtrlash.

Zamonaviy obyektga yo'naltirilgan va visual dasturlash tillari – So'nggi yillarda kompyuterning dasturiy ta'minoti rivojlanishi asosiy yo'nalishlaridan biri bu ob'ektga yo'nalgantirilgan dasturlash sohasi bo'ldi. Obyektga yo'naltirilgan operatsion tizimlar (Masalan, Windows), amaliy dasturlash va obyektga yo'naltirilgan dasturlash (OYD) tizimlari ham ommalashdi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29 avgustdagi «Ta'lim to'grisida»gi qonuni// Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori–T.: Sharq,1997.
- 2.AsyaymovS.V., Beknazov O.N. O'quvchilar bilimni baholash tizimida pedagogik testning o'rni. O'quv-metodik qo'llanma.T.-2012.
- 3.Xo'jayev N., Xoshimova M., Xakimova M., Ochilova G., Musaxonova G. Pedagogika: Oliy ta'lim talabalari uchun darslik.–T.:TDIU,2009.
- 4.Ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari mavzusidagi seminar-trening materiallari.– Toshkent.2002.
- 5.Kayumova N.A. Informatika o'qituvchisining metodik tizimini loyihalash.//Zamonaviy ta'lim.- Toshkent,-2017.

## INSON QADRINI ULUG'LASH

*Jaksimova Z.R. – 1-kurs talaba, Abishov M.S. – e.i.k., katta o'qituvchi.  
Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti, Nukus shahri.*

Inson qadri-ulug. U ertaga emas, uzoq kelajakda emas, aynan bugin o'z hayotidan rozi va mamnun bo'lib yashashi kerak. Inson dunyoda umid bilan yashaydi. Orzularimga etay, shinam uy-joyim bo'lsa, yon-atrofimdagi qulay sharoit, bekamu ko'st muhit hukm sursa, jamiyatga, raiyatga, davlatga, oilamga, ota-onamga, do'stu yorlarga, mahalla-ko'ygga, qishlog'imga, yurtimga foydam tegsa, murodu maqsadim ushalsa, deydi.

Keksalar Odam bolasi hayotdan rozi bo'lsa, tog'ni tolqon qiladi deyishadi.

Kim buni tushinar, kim buni anglamas. Prezidentimiz har bir inson umid bilan yashar ekan, ertaga, indin, yoki undan keyin emas, hozir, shu bugin niyatiga yetishini, umridan, hayotidan, har bir kundan rozi, mamnun bo'lishi istaydi.

Bu- ulug' bor maqsad, ezgu amal, abadiyatga daxldor fikrat.

Zero, bugun odamlarni rozi qilish kelajagimizni go'zal, betakror, ulkan salohiyat va qudrat kasb etishini ta'minlaydi. Bu inkor qilib bo'lmas haqiqat. Chunonchi, baxtli odamlargina dunyoni yangilashga, o'zgartirishga qodir. Mamlakatimiz siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarda jo'shqin hamda jadal islohotlar davriga kirdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Yangi yil munosabati bilan O'zbekiston xalqiga yo'llangan tabrigida 2022-yilni qanday nomlash bo'yisha o'z taklifini ma'lum qildi.

Biz yangi yildan nom berishda, keng jamoatchilikning fikrlarini o'rgandik. Ana shu takliflardan kelib chiqib, men Yangi-2022 yilni mamlakatimizda "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili deb e'lon qilishni taklif etaman",-dedi davlat rahbari.

"Inson qadrini ulug'lash yurtimizda yashayotgan har bir odamning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash demakdir. Bu borada jamiyatimiz asosi bo'lgan mahalla hal qiluvchi o'rin tutadi,-deb takidlab o'tti rahbarimiz.

Shavkat Mirziyoyev bundan buyon har bir mahallada samarali ish olib borish faoliyatning bosh mezoniga aylanishini ta'kidladi.

Yangi O'zbekistonda erkin fuqarolik jamiyati barpo etish va insonparvar demokratik huquqiy davlat qurish yo'lida keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad inson, uning huquq va manfaatlarini ta'minlash.

Konstitutsiyamizda belgilanishicha, O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatı va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadiryat hisoblanadi.

Insonni ulug'lash, uning huquq va qonuniy manfaatlarini ifoda etish hamda har tomonlama kamol toptirish Konstitusiyaning asosiy g'oyasiga aylantirilgan. Zero shaxsning sha'ni va qadr-qimmatı, uning hayoti va sog'lig'i yoki shaxsiy erkinligi takrorlanmaydigan boylikdir.

Konstitusiyamizning 26-moddasida, hesh kim qiynoqqa solinishi, zo'ra vonlikka, shavqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzda tazyiqqa duchor etilishi mumkin emasligi belgilab qo'yilgan.

Shunga asosan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat proesssual kodeksning Shaxsning shani va qadr-qimmatini hurmat qilish deb nomlanuvchi 17-moddasida sudya, prokuror, tergovchi va surishtiruvchi ishda qatnashyotgan shaxslarning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishlari shartligi hamda hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ra vonlikka, shavqatsiz yoki inson sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzda tazyiqqa duchor etilishi mumkin emasligi kabi qoidalar o'z ifodasini topgan. Inson sha'ni va qadr-qimmatini kamsitadigan, uning shaxsiy hayotiga taalluqli ma'lumotlar oshkor bo'lishiga olib keladigan, sog'ligini xavf ostiga qo'yadigan, asossiz ravishda unga jismoniy yoki ma'naviy azob-uqubat etkazadigan harakatlar qilish ta'qiqlanishi shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish principining mohiyatini tashkil qiladi. Shuningdek, O'zbekiston Respubliikasi mazkur Konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi oliy Majlisining 1995 yil 31 avgustdagi 130-I-sonli "1984 yil 10 dekabrda

Qiynoqlarga solishga va muomlada bo'lish va jazolashning boshqa shavqatsiz, g'ayrinsoniy yoki qadr-qimmatni tahqirlovchi turlariga qarshi konvesiyaga qo'shilish haqida"gi qaroriga muvofiq qo'shilgan.

O'zbekiston inson huquqlari bo'yisha 70 ta asosiy hujjatga qo'shilgan, BMT tomonidan qabul qilingan 10 ta xalqaro shartnomaning bevosita ishtirokchisidir.

Milliy qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotiga xalqaro standartlarini tizimli faoliyatida kuch ishlatish, zo'ravonlik holatlari ham uchrab turmoqda."Biz so'nggi uch yarim yilda qiynoqlarga yo'l qo'ymaslik bo'yisha jiddiy va ortga qaytmaydi-gan islohotlarni amalga oshirdik. Lekin, Andijon shahar va Chiroqchi tuman ichki ishlar idoralarida yaqinda sodir bo'lgan fojiali holatlar tizim rahbarlarini uyg'otishi, aniq xulosalar qilishga chorlashi kerak,-deya ta'kidladi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev joriy yilning 30-iyun kuni videoselektor yig'ilishida. Bosh prokuraturaning ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi uch yil ichida qorqitish va boshqa ta'qiblar bo'yicha 757 ta da'vo kelib tushgan (2019 yilda - 208, 2018 yilda - 352, 2017 yilda - 197). Shulardan faqatgina 33 tasi (2019 yilda - 16, 2018 yilda- 10, 2017 yilda - 7 tasi), ya'ni 4,4 foizi bo'yicha jinoyat ishlari qo'zg'atilgan (manba: ombudsman.uz).

Biz keltirib o'tgan muammolar o'z yechimini kutib turibdi. Xalqimizni rozi qilish eng ezgu muddaomiz ekan, demak, har birimiz zimmamizga olgan masu'liyatni his etishimiz, burchimini oqlashimiz kerak emasmi?, El duosi boshqa toj, el ranjishi esa yaqshisi, duo olaylik, qishlog'u mahallalardadi jajji bolalar ulg'aygash, biz mehr oqibatli, va'dasiga vafodor mutasaddilar davrida yashadik, deya rahmat aytsin.

## ZAMONAVIY JAMIYATDA AYOLLARNING BOSHQARUVDAGI ROLI

*Jalilova Dilshoda Ural qizi*

*Nizomiy nomidagi TDPU Ta'lim muassasalarining boshqaruvi  
magistratura mutaxassisligi 2-bosqich magistranti.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola zamonaviy jamiyatda ayollarning tutgan o'rnini va rolini aniqlaydi hamda ayollarda yetakchilik xususiyatlarini ko'rib chiqadi. Bulardan tashqari maqola jahonda menejment sohasida ayol rahbarlarning rivojlanish istiqbollari borasida fikr-mulohazalarga ham to'xtaladi. Jamiyatimizda bugungi kunda hukumat tomonidan ayollarning boshqaruv sohalarida faoliyat yuritishi uchun yaratilgan imkoniyatlar to'g'risida ham maqolada so'z yuritilgan.

**Kalit so'z va iboralar:** boshqaruv, rahbar, boshqaruvchi ayol, liderlik, yetakchilik, zamonaviy jamiyat, tadbirkor, «zaif jins».

**Аннотация:** В данной статье определяется место и роль женщины в современном обществе и рассматриваются особенности лидерства у женщин. Также в статье рассматриваются перспективы развития женщин-лидеров в сфере менеджмента во всем мире. В статье также рассматриваются возможности, созданные государством для женщин в нашем обществе сегодня.

**Ключевые слова и термины:** менеджмент, лидер, женщина-менеджер, лидерство, лидерство, современное общество, предприниматель, «слабый пол».

**Abstract:** This article defines the place and role of women in modern society and discusses the peculiarities of women's leadership. The article also discusses the prospects for the development of women leaders in the field of management around the world. The article also discusses the opportunities created by the state for women in our society today.

**Keywords and terms:** Management, leader, female manager, leadership, leadership, modern society, entrepreneur, "weaker sex".

Bugungi kunda butun jahon bo'ylab turfa boshqaruv sohalarida ayol rahbarlarning o'rnini va sonini ortib borayotganiga ko'zimiz tushmoqda. Ayollar o'z bilim va salohiyati, yetakchilik va liderlik qobiliyatlarini namoyon etish uchun olganliklari tufayligina bugun jamiyatda bunday yuksak mavqega ega bo'lib kelyaptilar. Zamonamiz rivojlangani sayin jamiyatda ayol muhim va hattoki, eng asosiy darajada rolni ushlab turmagan sohani topish muqarrar bo'lib qolmoqda. Prezident, bosh vazir, diplomat, yirik siyosiy partiya rahbari yoki a'zosi, tadbirkor va yana bir necha sohalarida ilg'orlik qilayotgan ayollar buning yaqqol isbotidir. So'nggi yillarda boshqaruv sohasiga kirib kelgan va u yerda o'zining mustahkam o'rnini topa olgan, yetakchilik qobiliyati bilan oldingi o'rinni egallay olgan, muvaffaqiyatli boshqaruvni amalga oshirayotgan «zaif jins» vakillarining soni tobora ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida, ayol rahbar, yirik bir tashkilotning tepasida turgan boshqaruvchi ayollarning jamiyatdagi roli oldinlab borayotganini ko'rsatadi.

Shunday bo'lsa-da, erkak va ayol boshqaruv xususiyatlari ustidan tadqiqot olib boruvchi mutaxassislarning bir to'xtamga kela olmaganini ko'rishimiz mumkin. Mutaxassislarning aksariyati, liderlik xususiyati faqat erkaklarga xos, ayollar esa faqatgina o'zlarida mavjud yetakchilik uslubiga moslasha oladi desalar, yana ayrimlari boshqaruv faoliyati jarayonida ayol rahbarlarning tezda ko'zga tashlanuvchi o'ziga xos boshqaruvchilik qobiliyatlari erkaklarnikidan juda farq qiladi degan fikrni bildiradi. Ayoldan yaxshi rahbar chiqmaydi, ular yetuk boshqaruvchi bo'la olmaydi degan umumiy fikr uzoq vaqtdan buyon butun dunyo maydonida barqaror stereotipga aylanib ulgurgan. Biroq o'z sohasining yetakchisiga yoki kasbiy faoliyati davomida ulkan zafarlarga erishib ulgurgan, boshqaruvchilik qobiliyati bilan tartibli jamoani tuzib, uning boshqaruvini muvaffaqiyatli yo'lga qo'ygan ayollarning yetishib chiqqani bu fikrning aks ekanini dalillab beradi.



Hozirgi zamonaviy hayotda yirik kompaniya va tashkilotlarga rahbarlik qilayotgan ayollarning soni talaygina. Hatto, biznes faoliyatini quyi qismdan boshlab, yirik kompaniya darajasiga yetkazib, shu kompaniyalarni muvaffaqiyatli boshqarayotgan ayollarni ham ko'rishimiz mumkin. Ular hamisha o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitda yuqori darajada moslashuvchanlik, mas'uliyat hamda maqsad sari intilishdan ortga chekinmaydigan xislatlarini namoyon qilib kelmoqdalar. Ayni shu xususidan kelib chiqib, bugun bizning jamiyatda ham ilg'orlik qilayotgan ayollar haqida gapirish o'rinli bo'ladi. Yurtimizda boshqaruv sohasiga endigina kirib kelgan yoxud bu sohaning tajribasini egallab ulgurgan ayol rahbarlar ham yo'q emas. Ular bugun jamiyatimizning yanada ilgarilishida, yurt ravnaqi uchun amalga oshirilayotgan turfa jabhalarda erkaklardan qolishmagan holda ildam harakat qilmoqdalar. Shu boisdan ham hatto, «Harakatlar strategiyasi»da ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, davlat va jamiyatdagi rolini kuchaytirish, ayollarni ishga joylashtirish, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini tadbirkorlikka keng jalb etish va oila poydevorini yanada mustahkamlash ishlari belgilangan edi.

Bugun jadal sur'atlarda rivojlanayotgan respublikamizning turli sohalarida ayollarning roli va boshqaruv jarayonidagi o'rnini oshirish ham milliy barqaror taraqqiyotning asosiy elementlaridan biri sifatida qaralmoqda. Rahbarlik mavqeidagi ayollarning muhim vazni mavjudligi barcha mamlakatlarda jamiyatlarning ijobiy rivojlanishiga olib kelganligini bilgan davlatimiz bu borada jamiyatdagi faol ayollarga qator imkoniyatlar eshigini ochib beryapti. Bunday imkoniyatlar sifatida o'zini o'zi boshqarish organlarini moliyalashtirishning yangi tizimiga o'tish – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020-yil 18-fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonini aytishimiz mumkin. Ushbu farmonga muvofiq, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari va mahalla tizimlarida ayollar ishtiroki keskin kengaydi. O'z biznesini ochayotgan va salmoqli muvaffaqiyatga erishayotgan tadbirkor ayollarning soni ham oshib bormoqda. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, kichik korxonalar rahbarlarining 40,4 foizini, mo'jaz tadbirkorlik sub'yektlari rahbarlarining 13,7 foizini xotin-qizlar vakillari tashkil etmoqda. O'tgan asrlarga nazar tashlasak, ayollar faqat oila ishlari bilan mashg'ul bo'lganlar. XXI asr ayollarining esa farzand tarbiyasi, oilasiga sadoqatidan tashqari boshqa qadriyatlar ham shakllandi. Bu ularning jamiyatda o'z o'rnini topishga intilishi, egallagan kasbi orqali jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shish istagidir, bu ijobiy holatdan tashqari takomillashgan maishiy xizmat ko'rsatish texnologiyalari muayyan darajada qo'l mehnatini osonlashtirdi, aniqrog'i ayollarning jismoniy jihatdan sraflaydigan kuchlarini tejashga sabab bo'ldi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, rivojlanishlar asrida, taraqqiyotning ildam pillapoyasida turgan jamiyatimizda xotin-qizlarimizni «ko'zgu» deya olishimiz mumkin. Chunki, jamiyatning ijtimoiy tuzumi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, o'sha jamiyat aholisi turmushining farovonlik darajasi, oilalar barqarorligi, kelajak avlod – farzandlar tarbiyasi, iqtidori, jamiyatdagi intellektual salohiyat, ma'naviyat va madaniyat, ma'rifat, qo'yingki, barcha jabhalarda erishilgan yutuqlar shu jamiyat taraqqiyotiga xotin-qizlarning qo'shadigan hissasi va o'sha jamiyatning ayollarga munosabati bilan belgilanadi. Hukumutimiz ayni shu jihatlarni inobatga olib, bugun ayollarga davlat boshqaruvida ham, jamiyatdagi boshqa sohalar rahbarligida ham faoliyat olib borishiga keng imkoniyatlar bermoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. S.A.Axrorova. «Mahalla boshqaruvida xotin-qizlarning ishtiroki». 2021.
2. «Xalq so'zi» gazetasi No 42 27.02.2021(The word of the people No42 27.02.2021).
3. «Xalq so'zi» gazetasi No 48 07.03.2021. ("The word of the people" No 48 07.03.2021)
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo'mitasi ma'lumotlari. (Data of the State Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan.)
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyovning 2021 yil 7 martda O'zbekiston xotin-qizlariga yo'llagan tabrigidan. (President of the Republic of Uzbekistan From the congratulatory message of Sh.Mirziyoyev to the women of Uzbekistan on March 7, 2021.)

## P3HT VA ITIC MODDALAR ASOSIDAGI FAOL QATLAMLAR STRUKTURASINING SPEKTROSKOPIK TAHLILI


<sup>2</sup>Jo'rayeva Sh.A.,<sup>1,2</sup>Saparbayev A.A.

<sup>1</sup>U.A. Arifov nomidagi Ion-plazma va lazer texnologiyalari institute,

<sup>2</sup>Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti.

Hozirgi vaqtda organik quyosh elementlari (OQE) sohasida dunyo bo'ylab keng ko'lamda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu tadqiqotlar yo'nalishlari OQElarni tayyorlashda arzon va oddiy metodlar ishlab chiqish, ularning yaroqlik muddatini uzaytirish, OQElarni tayyorlash uchun materiallarni to'g'ri tanlay olish va OQElarida vaqt o'tishi bilan degradatsiya jarayoniga sabab bo'luvchi omillarni o'rganish kabi muammolar ustida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

OQElarning degradatsiyasi odatda ulardagi fotovoltaik parametrlarning vaqt o'tgani sari pasayishi bilan tavsiflanadi. Bunday pasayishni ma'lum fizikaviy sharoitlarda o'rganish, degradatsiyaning asosiy sababi bo'lgan tashqi yoki ichki ta'sir omillarni, bunday jarayonlarning asosiy mexanizmlari va ko'lamini aniqlash imkonini beradi. Bu o'z navbatida, OQElarning optik xarakteristikalarini – yutilish va fotoluminessensiya spektrlarida tegishli o'zgarishlarga olib kelishi mumkin [1]. OQElarning optik xossalari va fotovoltaik parametrlaridagi bunday o'zgarishlarni aniqlab, qurilmaning degradatsiya darajasini son jixatdan baholash mumkin. Shu xolatdan kelib chiqib bizning bu ishda, P3HT:ITIC aralashmasi asosidagi yupqa faol qatlamdan tayyorlangan OQEning yutilish va fotoluminessensiya spektrlari o'rganildi [2].




### 1-rasm. P3HT:ITIC faol qatlamining vaqt o'tishi bilan yutilish spektrining o'zgarishi.

Ta'kidlash kerakki, yangi tayyorlangan P3HT:ITIC yupqa qatlamlari yutilish spektrlarining vaqt o'tishi bilan o'zgarishida asta sekin stabillashish holatini ko'rish mumkin: birinchi 10 sutkalik davrda katta o'zgarishlar kuzatilgan P3HT:ITIC yupqa qatlamining yutilish spektrlari, keyingi davrda, ya'ni undan keyin 30 sutka o'tganda anchagina sust o'zgarishlarni namoyon qilgan (1-rasm). Optik yutilish o'zgarishlarini bunday susayishi ushbu faol qatlam asosidagi OQEning fotovoltaik parametrlarida xam o'z aksini topgan.

Ushbu o'rganilgan tuzilmalarning boshqa tarkibiy materiallari, shu jumladan taglik ham o'rganilayotgan optik sohada quyosh nurini yutmasligi sababli, ularning yutilish va

lyuminessensiya spektrlari sof yupqa qatlamidagi xarakterli o'zgarishlarni aks ettiradi. Vaqt o'tishi bilan OQElardagi optik yutilishning oshib borishini ularning degradasiyasi ko'rsatkichi deb hisoblash mumkin. Bu ko'rsatkich organik materiallariga xos bo'lib, OQElarning tarkibiy materiallaridagi strukturaviy o'zgarishlar bilan bevosita bog'liqdir. 2-rasmda P3HT:ITIC aralashmalaridan tayyorlangan qatlamlarning yangidan tayyorlangan holatida va 30 sutka o'tgandan keyin 530 nm to'lqin uzunlikdagi lazer nuri ta'siridagi fotolyuminessensiya spektrlari keltirilgan. Ushbu spektrlardan shuni ko'rish mumkinki, fotolyuminessensiya, asosan, P3HT hisobiga vujudga keladi. Buning ikkita sababi bor: (i) P3HT lazer nurini boshqa tarkibiy materiallardan ancha kuchliroq yutadi, (ii) yupqa qatlamda akseptor (ITIC) molekularining fotolyuminessensiyalash kvant chiqishi (samaradorligi) P3HTga qaraganda anchagina past. Shunga qaramay, 2-rasmdagi P3HT:ITIC yupqa qatlamining fotolyuminessensiya spektrida ~750 nm sohada ITICning fotolyuminessensiyasining kichik pikini ko'rish mumkin[94].



**2-rasm. P3HT:ITIC yupqa qatlamlarining yangi tayyorlangan vaqtdagi va 30 sutkadan keyin o'lgan fotolyuminessensiya spektrlari.**

Yupqa qatlamning (P3HT:ITIC) vaqt o'tishi bilan bog'liq degradasiyasi fotolyuminessensiya intensivligini ortishiga olib keldi. 2-rasmdagi fotolyuminessensiya spektrlarining vaqt o'tishi bilan o'zgarishi P3HT:ITIC yupqa qatlamidagi fotolyuminessensiya intensivligini 63% ga oshishi bilan xarakterlanadi. Bu bayon etilgan eksperimental tadqiqotlar va ularning taxlilidan quyidagicha xulosalar qilish mumkin. OQElarning vaqt o'tishi bilan yutilish spektrlari kamayib borgan holda FL spektr intensivligi ortar ekan. Bunga sabab organikfotovoltaiq qurilmalarning atmosfera muhitida kislorod va namlik (suv molekulari) bilan ta'sirlashib tez degradasiyaga (oksidlanish tufayli faol qatlamning ishchi strukturasi buzilishi) uchrashi bilan tushuntiriladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Zakhidov, E., et al., A determination of structural changes of the organic photovoltaic cells on the basis of polymer materials P3HT: PCBM and P3HT: ITIC with using absorption and photoluminescence spectra. *Uzbekiston Fizika Zhurnali*, 2019, 21 (3): 184-195.
2. Zakhidov, E., et al., Comparative study of absorption and photoluminescent properties of organic solar cells based on P3HT: PCBM and P3HT: ITIC blends. *Applied Physics A*, 2019, 125 (11): 1-7.
3. Liang, Q., et al., Reducing the confinement of PBDB-T to ITIC to improve the crystallinity of PBDB-T/ITIC blends. *Journal of Materials Chemistry A*, 2018, 6 (32): 15610-15620.

## TUT IPAK QURTI BOQISHDA IPAK QURTI KASAL EKANLIGINI QANDAY BILISH MUMKIN?

UO‘K 638.24

*Jumag‘ulov Qaxramon Alievich*  
*Toshkent davlat agrar universiteti dotsenti,*  
*Xaqnazarova Umida Ural qizi*  
*Toshkent davlat agrar universiteti magistranti.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, tut ipak qurtini boqish jarayonida kasallangan qurtlarni qurt boquvchilar tomonidan qanday aniqlash mumkinligi tug‘risida bir qator usullar keltirilgan bo‘lib, bu usullar mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan uzoq yillik ilmiy izlanishlari natijasida asosida aniqlanib, qurt boquvchilarga ma‘lumot sifatida keltirildi.

**Annotation:** In this article, a number of methods are presented on how to identify infected worms by worm breeders in the process of feeding mulberry silkworms, which were identified by local and foreign scientists on the basis of long-term scientific research by local and foreign scientists and provided as information to worm breeders.

**Kalit so‘zlar:** Tut daraxti zararkunandalar, tut daraxti barglari, kimyoviy preparatlar, ipak qurti.

Ma‘lumki so‘ngi yillarda mamlakatimizda tut ipak qurtini boqib undan pilla hosili olish jarayoni bir yilda to‘rtta mavsumda amalga oshirilmoqda. Yetishtirilayotgan pillalarning navdorlik xususiyati ko‘p jixatdan tut ipak qurtini boqish agrotexnikasini to‘g‘ri qo‘llanilishiga bog‘liq. Aks xolda tut ipak qurtini boqish agrotexnikasining to‘g‘ri qo‘llanilmasligi ipak qurtlarini o‘sish va rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, ularning kasallanishiga sababchi bo‘ladi. Buning oqibatida pillalarning barcha mahsuldorlik ko‘rsatkichlari, jumladan pilla hosildorligi, navdorligi, ipakchanligi va pillalarning yigiriluvchanligi kabi ko‘rsatkichlar keskin ravishda tushib ketadi. Ma‘lumki, tut ipak qurti bir qator mikroorganizmlar ta‘sirida kasallanadi. Bularga bakteriyalar, zamburug‘lar, viruslar va bir hujayrali sodda hayvonlar kiradi.

Tut ipak qurti kasallikka chalinsa, uni davolashning deyarli imkoni bo‘lmaydi, faqatgina kasallikni oldini olish chora-tadbirlari olib boriladi. Ipak qurtini parvarishlash jarayoni 24-25 kun davom etib, bu vaqt davomida turli omillar sababli tut ipak qurti kasallanadi. Bunday omillarga tut ipak qurti uchun qo‘lay bo‘lgan harorat, namlik, yorug‘lik va havo almashinish kabi jarayonlarning yaratib berilmasligidir. Shu bilan bir qatorda qurt boqish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida inkubatoriya va qurtxonalarini dezinfeksiya qilish tadbirlarini ham sifatsiz amalga oshirilishi bunga yaqqol sabab bo‘ladi. Bundan tashqari qurt boqish agrotexnikasida qurtlarni oziqlantirish miqdori, oziqlanish maydonini o‘z vaqtida tashkil qilib, ularni o‘z vaqtida siyraklashtirib borish, po‘st tashlash (uyqu) jarayonida muddatidan oldin (po‘st tashlab ulgurmasdan) ozuqa berish kabi jarayonlarning qo‘pol buzilishi bugna asosiy sababchi bo‘ladi.

Tut ipak qurti uchun mu‘tadil sharoitni yaratish va qurt boqish agrotexnikasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali o‘ndan mo‘l va sifatlil hosil olish to‘g‘risida olimlarimiz tomonidan ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Buning natijasida pilla hosildorligi va uning bir qator ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lishi ilmiy jixatdan isbotlab berilgan.

Ammo bugungi kunda kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, tut ipak qurtini boqish bilan shug‘illanuvchi qurt boquvchi kasanachilar va zvenolar inkubatoriya va qurtxonalarini sifatsiz dezinfeksiya qilish, qurt boqish uchun yetarli sharoit yaratilmasligi va agrotexnik tadbirlarga amal qilinmasligi evaziga seleksioner olimlarimiz yaratgan zot va duragaylar o‘zining potensialini nomoyon qilmay pilla hosildorligini keskin tushib ketishiga sababchi bo‘lmoqda.

Bunday holatni qiman bo‘lsada oldini olish uchun tut ipak qurtining kasallanganligini o‘z muddatida payqash ham yuqari samara beradi. Buning uchun mahalliy va xorijiy olimlarimizning tut ipak qurtini kasalligini aniqlash usullariga nazar solamiz.

Ipak qurti kasalligini aniqlash bo'yicha xorij va mahalliy olimlarimizning quyidagi qarashlarini jamlab e'tiboringizga havola etamiz.

**1-rivojlanishini kuzatish.** Sog'lom ipak qurti doimiy ravishda o'sib rivojlanib boradi. Agarda tana gipertrofiyasi jadal rivojlanishdan orqada qolsa yoki sezilarli darajada qisqarib ketsa ya'ni yoshiga nisbatan kichik bo'lsa, ipak qurti tanasida moddalar aylanishi buzilishidan dalolat beradi. Bunday ipak qurtlarining rivojlanishi sekin kechayotganligi tufayli ipak qurti tanasi kasallanishga moyil bo'ladi. Bu esa ipak qurtida kasallikning paydo bo'lishiga eng katta sababchisi bo'ladi.

Agar ipak qurti tanasi juda noziklashib ketsa qurtxonada havo yaxshi aylanmaganligi sababli ipak qurti chiqindi gaz (CO<sub>2</sub>) bilan zaharlanayotgan bo'ladi. Shuningdek kam miqdorda kimyoviy preparatlar bilan zaharlanganda ham rivojlanishdan orqada qolib ketadi.

**2 -oziqlanishini kuzatish.** Tut ipak qurti oziqlanishdan mutloqo to'xtashi bu ularning pestitsidlar bilan zaharlanganligidan dalolat beradi. Shu sababli pestitsidlar bilan zaharlanib qolmasligi uchun ehtiyot choralarini qo'llash zarur. Zaharlangan ipak qurtlari sudrala boshlaydi, asta-sekin ovqatlanishdan to'xtaydi.

**3- harakatni kuzatish.** Sog'lom ipak qurtlarining xatti-harakati jonli, sergak va sezgir. Nosog'lom ipak qurtlari g'ayritabiiy reaksiyaga kirishadi. Bu hol qurtxonadagi doimiy ravishdagi o'zgaruvchan harorat oqibatida yuzaga keladi. Oddiy qilib aytganda ipak qurtlari shamollaydi va tanasida yering (balg'amga uxshash maddalar) tuplanadi. Bu orttirilgan yuqumsiz kasallik hisoblanadi. Bunda yeringdan aziyat chekayotgan ipak qurtlari bezovtalanib emaklaydi, ko'pincha ipak qurti oziqlanish maydonidan chekkaga sudralib chiqib ketadi. Shuningdek bunday o'zgaruvchan haroratda ipak qurtlari sekin harakatlanish va reaksiyaga javob bermaslik bilan kuzatiladi. Bu jarayonga ilmiy jixatdan qaraydigan bo'lsak gastrointestinal sepsis yani oq boveriya kasalligining boshlanishidir.

**4 tana rangini kuzatish.** Agarda ipak qurtlarining bo'g'inlari yoki intersegmental (bo'g'um oralari) membranalari shishgan bo'lsa, bunday hollarda ipak qurtlari kuchli zaharlanganligidan dalolat beradi. Bunda ipak qurti tanasida septikemiya (septicemia) jarayoni kuzatilib nobud bo'ladi va avvaliga uning tanasi qotib, keyin yumshaydi, tez chiriydi va nihoyat o'lgan ipak qurti murdasi asta-sekin qotib nut shoxlari yoki pilla o'rash dastalariga osilib qoladi.

**5 -Ipak qurtini qayd qilish (qusishni) holati.** Zaharlanish katta qusishni keltirib chiqarishi mumkin. Ozingina me'da shirasi ipak qurtining og'iz organi orqali chiqib turadi. Bu holat ham zaharlangan ozuqadan kelib chiqadi.

**6- ahlatini (ekskrementini) tekshirish va kuzatish** Gastrointestinal yiringli kasallik, virus va bakteriyalarning birga yuqishida yuzaga keladi. Bu kasallikni keltirib chiqaruvchi bakteriyalarga viruslar kata sababchi bo'ladi. Bunda ovqat hazim qilish sistemasi orqali ozuqa hazim bulmay ipak qurtlari yumshoq najas ajratadi. hatto suyuq najaslarini chiqaradi. Shuningdek suyuq najas ajralishi *fosfororganik pestitsidlar* bilan zaharlanganda ham yuzaga keladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Собиров С.-Ипак куртининг юқумли касалликлари. Тошкент. 2003. Б. 16-17.
2. Собиров С. Ипак қурти юқумли касалликлари диагностикаси ва эпизоотологияси “Sano-standart” нашриёти, Тошкент, 2015.Б. 26-27.



## O‘QITUVCHI KASBIY MADANIYATNI TARKIBIY KOMPONENTLARI

*Jumayeva Gulnara Tursunpulatovna*  
*Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi.*

Ushbu maqolada o‘qituvchilarning kasbiy madaniyatini rivojlantirish muammosining dolzarbligi va nazariy asoslari, maktab o‘qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish jarayoni, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘zini o‘zi qadrlash, reflektiv va ijodiy fikrlash, qiymat-gnoseologik va faoliyat-ijodiy tahlil qilinadi. tuzilmalar, tarkibiy qismlarning mazmuni ta’kidlangan. Maqolada, shuningdek, maktab o‘qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari va tarkibiy qismlari ko‘rsatilgan.

**Tayanch so‘z va tushunchalar:** kasbiy madaniyat, kasbiy faoliyat, aks ettirish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z-o‘zini baholash, psixologik, pedagogik.

### STRUCTURAL COMPONENTS OF TEACHER PROFESSIONAL CULTURE

This article analyzes the relevance and theoretical foundations of the problem of developing the professional culture of teachers, the process of developing the professional culture of school teachers, self-control, self-esteem, reflective and creative thinking, value-epistemological and activity-creative structures, the content of the components is highlighted. The article also presents the psychological and pedagogical features and components of the development of the professional culture of school teachers.

**Key words and concepts:** professional culture, professional activity, reflection, self-control, self-assessment, psychological, pedagogical.

**Kirish.** Jahon pedagogik amaliyotida mutaxassis kadrlarning kasbiy madaniyati va ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish orqali ularning o‘zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuvchanligini ta’minlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Ushbu tendentsiya so‘ngi vaqtlarda xalqaro ilmiy jamoatchilik tomonidan “pedagogik dunyoqarash” (pedagogical worldview) muammosiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarning ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda. Darhaqiqat, jamiyatning siyosiy, ijtimoiy va madaniy tabiatining doimiy o‘sish va o‘zgarishda ekanligi zamonaviy mutaxassislardan, xususan, pedagog-o‘qituvchilardan o‘z kasbiy qadriyatlarini va shaxsiy e’tiqodlariga ega bo‘lishni, nafaqat o‘zining, balki o‘zga madaniyatni ham qabul qila bilishni, ijtimoiy ehtiyojlarga muvofiq pedagogik dunyoqarashi va qobiliyatlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi.

**Mavzuning dolzarbligi va tadqiqot maqsadi.** Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohani modernizatsiya qilish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o‘qitish usullarini joriy etish, xalqaro standart asosida yuqori malakali, “kreativ fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish asosiy strategik vazifalar” sifatida belgilangan. Bu esa, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarni takomillashtirishni taqozo etadi<sup>115</sup>.

<sup>115</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

**Adabiyotlar tahlili.** Maktab o'qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish haqida gap ketganda, eng avvalo, “madaniyat” tushunchasining mohiyatini aniqlab olish zarur. Madaniyat tushunchasi Sharq allomalarining adabiy meroslarida hamda pedagog-psixolog olimlar tomonidan quyidagicha talqin qilingan: “Madaniyat” so'zi zamonaviy nutqda juda keng qo'llaniladi. “Madaniyat” so'zi lotincha “cultural” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “tarbiyalash, o'stirish, rivojlanish, e'zozlash” degan ma'noni anglatadi.

Kasbiy madaniyatga oid qarashlar qadimgi qo'lyozmalarda, diniy va didaktik manbalarda o'z aksini topgan. Jumladan, “Avesto”da kasb-hunarga hurmat, kasbga sadoqat, mehnatsevarlik, xushmuomalalikka undovchi hikmatlar, Islom dini ta'limotida mehnat qilish va uning ortidan topilgan boyliklardan zakot berilishi, har bir musulmon kishi o'z kasbining orqasidan halol yo'l bilan rizq topishi kerakligi haqidagi o'gitlar odamlarda kasbiy madaniyat rivoji odob-axloq qoidalariga bog'liq ekanligi asoslangan.

XV asrda yashab, ijod etgan mutafakkir Kamoliddin Husayn Voiz al-Koshifiy bola tarbiyasida maktab va muallimning alohida o'rni borligi hafida gapirib, muallimlar dono, bilimli, shirinsuxan, adolatli bo'lishi zarur, deb hisoblaydi. Alloma murabbiylar to'g'risida “Axloqiy Muhsiniy” asarida quyidagi fikrni keltiradi: “O'qituvchi bolaga nasihat va ta'lim berishda lutf va odob qoidalariga rioya qilishi darkor. Jamoatchilik joylarida o'quvchiga pand berish yaramaydi, balki xilvat joyda bolaga nasihat qilish zarur. Agar murabbiy nasihat berishning fursati kelganini bilsa, unga muloyimlik bilan murojaat qilishi lozim, chunki bizning zamonamizda muloyim va xushfe'l bo'lish maqsadga muvofiqdir”.

Ta'lim-tarbiya birligi va axloq masalalariga yetuk tarbiyashunos olim sifatida yondashgan olim Abu Rayhon Beruniy o'zining pedagogika va psixologiyaga oid qimmatli fikr-mulohazalarini va ma'rifiy-didaktik qarashlarini bayon etib, ilm hamda ma'rifat sari intiluvchi tolib va muallimlarga deydiki: “Ilm dargohiga kirar ekansan, qalbing kishini ozdiruvchi illatlardan, odamni ko'r qilib qo'yadigan nafs va turli buzg'unchi holatlardan, qotib qolgan turli eski urf-odatlardan, hirsdan, raqobatdan, ochko'zlikni quli bo'lishdan ozod bo'lmog'i darkor”<sup>116</sup>.

Alisher Navoiy yosh avlod tarbiyasini har qanday tasodifiy murabbiyga ishonib topshirib bo'lmasligini aytib, o'qituvchi shaxsiga nisbatan yuksak talablarni qo'yadi. Navoiy o'zining “Mahbub-ul qulub” asarida ta'limiy-tarbiyaviy fikrlari hamda o'qituvchi shaxsi, uning ma'naviyatiga doir qarashlarini keltirib o'tadi. Navoiyning fikricha: “O'qituvchi faqatgina dars beruvchi, bilim beruvchi emas, balki mahoratli tarbiyachi bo'lishi lozim. Muallim nodonlikdan, mutaasiblikdan, johillikdan yiroq bo'lishi, haqiqiy muallim olimlar orasida eng sara “malak qiyofali” kishi bo'lishi, ya'ni sof ko'ngilli, pok qalbli, insofli, karam-muruvvatli, odobli, vafoli, kishilikning eng yaxshi va oliyjanob hislatlarini o'zida aks ettiruvchi bo'lishi kerak”<sup>117</sup>.

G'.G'ofurov, N.Hakimov va B.Alievlar o'zlarining “Madaniyat va jamiyat” kitobida “madaniyat” tushunchasining quyidagi o'ziga xosliklarini ta'kidlab o'tishadi: “Madaniyat tushunchasida moddiy va ma'naviy boyliklar hamda inson ruhiy olami ifodalanadi. Shu bois madaniyat tarkibida uch asosiy qatlam mavjud:

insoniyatning muntazam aqliy va jismoniy faol ijodiy faoliyati;

moddiy va ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqish, iste'mol qilish (foydalanish) va asrash;

qadriyatlar, axloqiy tushunchalar, huquqiy amallarning hayotga tadbiiq etuvchi ijtimoiy tuzilmalar.

Madaniyat – faol ijodiy faoliyatdir. Inson faol ijodkorlik orqali rivojlanadi va taraqqiyotga erishadi. Ijodkorlik – inson ma'naviy-ruhiy faoliyatining chegaralarini kengaytiradi. Inson ijodiy ko'nikmalar, aqliy va jismoniy mehnat orqaligina ijodkorlik maqomiga ega bo'ladi”<sup>118</sup>. Pedagog olim Oynisa Musurmonovanning ta'kidlashicha esa, “Madaniyat jamiyat taraqqiyoti darajasini xarakterlovchi, ijtimoiy-tarixiy amaliyot jarayonida mujassam bo'ladigan tizim

bo'lib, shaxsning ijtimoiy va ma'naviy mazmunini tashkil etadi. Bunda madaniyat shaxs va uning faoliyati o'rtasidagi o'zaro ta'sirga doir qonuniyatlar, shu jumladan shaxs va jamiyatning

<sup>116</sup> Abu Rayhon Beruniy. 100 hikmat (Ibratli so'zlar). Toshkent: Fan, 1993. – 248 b.

<sup>117</sup> Alisher Navoiy. Mahbub-ul qulub. Asarlar. 15-tom. – Toshkent: Fan, 2005. – 244 b.

<sup>118</sup> I.Mahkamov U.I. Yuqori sinf talabalarida axloqiy madaniyatni shakllantirishining pedagogik asoslari. Ped.fan. doktori. ... diss. – T.: 1998.

borliqqa bo'lgan madaniy munosabatlarining paydo bo'lishi, rivojlanishi, shaxsning talabi, qiziqishi, xohishiga mos ravishda uning madaniy faoliyatini tashkil qilish yo'llari, ma'naviy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari tizimi, shaxsning ma'naviy rivojlanishi va ma'naviy madaniyatini shakllantirish qonuniyatlari majmuidan iborat<sup>119</sup>. Yuqoridagi ta'riflardan ma'lum bo'ladiki, madaniyat - bu insonlarning ijodiy faoliyati tufayli yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmuigina bo'lib qolmay, ayni paytda u jamiyat taraqqiyotining darajasini ham ifodalaydi, ya'ni, jamiyatdagi bilim, mezon va qadriyatlarning yig'indisi madaniyatda gavdalanadi. Umumiy bir soha sifatida madaniyatga tizimli yondashuv bir-biriga ta'sir etuvchi turli madaniyat sohalarining o'ziga xos xususiyatlarini qismlarga bo'lib emas, balki ularni yaxlit tasavvur qilish imkoniyatini beradi. Tizimli yondashuv tadqiqotning juda ko'p uslublaridan foydalanishga imkon yaratadi. Ya'ni, ayrim bir uslublar bilan olingan natijalarni boshqalariga qarama-qarshi qo'ymasdan xulosa chiqarishga asos bo'ladi.

Psixologik ta'riflar uchta unsuridan biriga e'tiborni qaratadi:

yoxud muhitga moslashish jarayonida («kishining hayotiy sharoitlarga moslashuvi yig'indisi madaniyat, yoki madaniyatni anglatadi...») –U.Samner va A.Keller);

yoxud o'rgatish jarayonida («Madaniyat – bu o'rganilgan xatti-harakat uchun ijtimoiy alomat, ya'ni insonga tug'ilishi bilanoq shart bo'lmagan xatti-harakat, uning tug'ma xujayralarida yoki ijtimoiy chumolilardagi singari oldindan belgilanmagan, balki har qaysi yangi avlod tomonidan katta yoshdagi kishilardan o'rganish orqali o'zlashtirilishi lozim»<sup>120</sup> – R.Benedikt); yoxud odatlarni shakllantirishga («Madaniyat – bu guruhlar, jamoa yoki jamiyat uchun umumiy bo'lgan odatiy xatti-harakat shaklidir. U moddiy va nomoddiy unsurlardan iborat» – K.Yang).

Madaniyat o'zining tuzilishi va shakliga ega ekanligini ta'kidlagan sotsiolog-antropolog Uord Gudenau madaniyat tushunchasining muhim to'rt komponentini ajratib ko'rsatadi:

1. Tushuncha (kontseptlar). Ular asosan tilda mavjud bo'ladi va kishilarga o'z tajribalarini orttirish va tartiblashtirishga yordam beradi. Biz barchamiz dunyoni predmetlarning shakli, rangi va ta'mi orqali qabul qilamiz, turli madaniyatlar o'z dunyosini turlicha tashkil etadi. Nemislar ovqatni tanovul qilish bo'yicha insonlar (essen) va hayvonlarning (fressen) orasidagi farqni tadqiq etadilar, ingliz tilida esa buning uchun faqat birgina so'z – «eat» mavjud.

2. Munosabat. Agar tushuncha dunyoni yoritib bersa (u nimadan tashkil topganini), u holda munosabat – ushbu qismlar bir biri bilan makonda va vaqtda belgilari bo'yicha qanday bog'lanishi to'g'risidagi ma'lum tasavvurni anglatadi.

3. Qadriyatlar – ular intilish lozim bo'lgan maqsadlarga nisbatan jami maslaklar tomonidan taqsimlanadi. Qadriyatlar shubha ostida qolmaydi, ular barcha kishilar uchun etalon, ideal sifatida xizmat qiladi. Agar vafodorlik qadriyat hisoblansa, u holda undan chekinish sotqinlik singari qoralanadi. Agar ozodalik qadriyat hisoblansa, u holda pala-partishlik va ifloslik nojo'ya xatti-harakat kabi qoralanadi. Jamiyat alohida shaxslardan tashkil topgan, bunda ular mazkur yoki boshqa qadriyatlarni taqsimlashni tanlashlari mumkin. Ba'zilar jamoatchilik qadriyatlari bilan boshqalari esa yakka-asosli qadriyatlarini tarafdoridirlar. Ba'zilar uchun oliy qadriyat bu pullar bo'lishi, boshqalari uchun – ma'naviy benuqsonlik, uchinchi shaxslar uchun esa – siyosiy martaba bo'lishi mumkin. Kishilar qanday qadriyatlarga asoslanishlarini yoritib berish uchun sotsiologlar qimmatli orientatsiya atamasini kashf etdilar. Ular xulq-atvor me'yorlari sifatida muayyan qadriyatlarni tanlashni yoki yakka munosabatlarni yoritib beradilar. Qadriyatlar guruh yoki jamiyatga, qimmatli orientatsiyalar - shaxsga tegishlidir. Qadriyatlar siz tomoningizdan boshqalar bilan hamkorlikda taqsimlangan maslaklarni namoyon etadi. Qadriyatlar negizida yotuvchi g'oyalar bilimlar asosi bo'lib xizmat qiladi. Bilimlar – biror bir narsa haqidagi to'g'ri ma'lumotlar, ilmiy ma'lumotlar. Bilimlar tayyorlangan kishilar tomonidan amalga oshirilgan ixtisoslashtirilgan faoliyat – ong natijasi bo'lib xizmat qiladi.

<sup>119</sup> Musurmonova O. Yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari. Ped. fan. dok. ...diss. avtoref. – T.: 1993. –B.48.2.

<sup>120</sup> Benedikt R. Psixologicheskie tipi v kul'turax Yugo-Zapada SSHA // Antologiya issledovaniy kul'turi.

E'tiqod – biror-bir real yoki illyuzor g'oyaning hissiy tarafdorligi, maslakdir. E'tiqod – nima haqiqat yoki deyarli to'g'riligi haqidagi tasdiqdir. Qadriyatlar esa yaxshi yoki kutilganlarga taalluqlidir. Ular o'rtasidagi farq aynan shundan iborat. E'tiqod o'z-o'zidan afsonani bilimdan farqlamaydi.

4. Inson o'z madaniyatining qadriyatlar bilan kelishgan holda yashashi uchun o'zini qanday tutishi lozimligini belgilovchi qoida va me'yorlar. Me'yorlar – bu: odatlar, etiket, qonunlar, urf-odatlar, marosimlar.

Milliy, o'ziga xos rangga ega bo'lgan madaniyat komponentlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- an'analar (yoki madaniyatning barqaror unsurlari), shuningdek urf-odatlar (madaniyatning “sotsiome'yoriy” sohasida an'ana sifatida belgilangan) va marosimlar (mazkur tizimda ustunlik qiluvchi me'yoriy talablarga anglanmagan murojaat vazifasini bajaruvchi);

- an'analar bilan uzviy bog'liq maishiy madaniyat (u ko'pincha me'yoriy talablarning ushbu tizimida ustunlik qiladi);

- kundalik xulq-atvor (ba'zi muomala sotsiumida qabul qilingan ba'zi madaniyat vakillarining odatlari), shuningdek ba'zi lingomadaniy birlik tashuvchilari foydalanadigan ular bilan bog'liq imo-ishora va pantomimik (kinesik) kodlar;

- atrof olamni idrok etishning o'ziga xosligini aks ettiruvchi «dunyoning milliy tasviri», biror-bir madaniyat vakillari fikrining milliy xususiyatlari;- biror-bir elatning madaniy an'analarini aks ettiruvchi badiiy madaniyat. Texnika oliy o'quv yurtlari talabalarida kasbiy madaniyatni shakllantirish muammosini tadqiq etgan N.Akbarovning fikricha: “oliy ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarining kasbiy madaniyatini shakllantirish oliy ta'lim jarayonida muhandis-pedagoglar kasbiy tayyorgarligining sifat va samaradorliginiga aminlash asosida amalga oshirilishi lozim. Mazkur muammoni muvaffaqiyatli hal etish bozor munosabatlari sharoitida yangi kasblarni egallash imkoniyatini beradi, shaxsni ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga tayyorlashni ta'minlaydi, talabalarining kasbiy madaniyatini o'zlashtirish bilan bog'liq ijldiy imkoniyatlarini muntazam boyitib boradi”. Refleksiya – bu har jihatdan inson hayotining ontologik tomonini ifodalaydi va insonning o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi. “Inson rivojlanishi psixologiyasi (“Psixologii razvitiya cheloveka”)” kitobining mualliflari refleksiya inson sub'ektivligining eng muhim, markaziy hodisasi ekanligini bildirib, quyidagi ta'rifni beradi: "u shaxsga o'z-o'zini hamda faoliyatini tahlil qilishga imkon beradi, shuningdek, hissiy holatlar, kechinmalar, odamlarning xatti-harakatlari va munosabatlarini aks ettiradi, umuman olganda – alohida e'tibor (tahlil va baholash) va amaliy o'zgarish (o'zgarish va rivojlanish)”ga imkon beradi”

O'qituvchi shaxsini shakllantirish va o'z-o'zini rivojlantirish muammolarini tadqiq etgan pedagog olim V.A.Slastenin refleksiv jarayonlarni izohlashning ikki an'anasi mavjudligini ta'kidlaydi :

- kognitiv va hissiy kechinmalar mohiyatini izohlashga va ularni konstruksiyalashga olib keladigan ongning refleksiv tahlili;

- insonning o'z-o'zini va shaxslararo muloqot mazmunini tushunish refleksiyasi.

Bu bilan bog'liq ravishda refleksiyaning quyidagi xususiyatlarini farqlab ko'rsatishimiz mumkin:

- o'z-o'zini va boshqalarni tushunish;

- o'z-o'ziga va boshqalarga baho berish;

- o'z-o'zini va boshqalarni izohli tahlil qilish.

V.Slobodchikovning fikricha, refleksiya orqali ta'lim jarayoni ishtirokchilarining “o'z faoliyatiga bo'lgan munosabati muvofiqlashtiriladi va hamkorlikdagi faoliyatning shakl va mazmuniga mos ravishda mazkur faoliyatning qayta tashkil etilish”<sup>83</sup>ni ta'minlanadi.

G.S.Suxobskaya va L.L.Gorbunovalar tomonidan refleksiya “o'zini-o'zi anglashning tasvirlanishi, muloqot jarayonida sub'ektning suhbatdosh sifatida qanday qabul qilinayotganligini anglashi, sub'ektning muammoni va uning vujudga kelish sabablarini ko'ra olishi, aniqlashi, o'rganishi va tahlil qila olish qobiliyati sifatida keltiriladi”. G.M.Kodjaspirova va A.YU.Kodjaspirovlar refleksiya tushunchasini “o'z-o'zini anglash, o'zini-o'zi nazorat qilish; o'zining shaxsiy xatti-harakatlari va ularning oqibatlarini anglash uchun yo'naltirilgan faoliyat, insonning nazariy faoliyatlarining shakli, ya'ni o'tmishga (orqaga) murojaat qilishi” sifatida talqin etadi”.

Umumiy o'rta ta'lim muassasasi o'quvchilarida refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish jarayonini tashkil etish va boshqarish muammosini tadqiq etgan D.Xakimovning qayd etishicha, “shaxs refleksiv ko'nikmalari samarali fikrlash va faoliyat yuritishning muhim mexanizmi, yuz berayotgan hodisani keng tizim kontekstida tushunish jarayonlarini alohida tashkil etish (u vaziyat va harakatlarni baholashni, vaziyatlarni hal qilish usullari va operatsiyalarini topishni o'z ichiga oladi), xatti-harakatlar va ularning oqibatlarini anglash uchun yo'naltirilgan faoliyat, insonning nazariy faoliyatlarining shakli, ya'ni o'tmishga (orqaga) murojaat qilish hamda sub'ektning ma'lum bir muammoni va uning vujudga kelish sabablarini ko'ra olishi, aniqlashi, o'rganishi va tahlil qila olish qobiliyatidir”. Maktab o'qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish bilan bog'liqlikda refleksiyaning quyidagi tur, daraja va shakllarini ajratib ko'rsatish mumkin (1.2.1-rasmga qarang).

Rus olimlari S.YU.Stepanov va I.N.Semenov lar quyidagi refleksiya turlarini tavsiflab, mazkur mexanizm shaxsda “Men” obrazining shakllanishida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi.



**1.2.1-rasm. Kasbiy madaniyatni rivojlantirish bilan bog'liqlikda refleksiv ko'nikmalarning tur, daraja va shakllari.**

Kasbiy bilimlar o'qituvchi kasbiy madaniyatini rivojlantirishda asosiy hisoblanadi. O'qituvchining bilimi, bir tomondan, o'zi o'qitadigan fanga, ikkinchi tomondan, talabalarga qaratiladi. Kasbiy bilimlar mazmunini o'quv fani hamda uni o'qitish metodikasi, psixologik va pedagogik jihatdan tashkil qilinadi. Kasbiy pedagogik bilimlarning o'ziga xos jihatiuning majmuaviyligi hamda integrativligidan iborat. Kasbiy bilimlar asosida o'qituvchining harakatlari, odatlari, o'z faoliyatiga asoslangan qonuniyatlari va tamoyillarini belgilab beruvchi pedagogik tafakkuri shakllanadi.

Pedagog-mutaxassis kadrlarning kasbiy madaniyatini rivojlantirish va ijtimoiy-madaniy kompetentligini shakllantirish orqali ularning o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuvchanligini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu tendentsiya so'ngi vaqtlarda xalqaro ilmiy jamoatchilik tomonidan “pedagogik dunyoqarash” (pedagogical worldview) muammosiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarning ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Darhaqiqat, jamiyatning siyosiy, ijtimoiy va madaniy tabiatining doimiy o'sish va o'zgarishda ekanligi zamonaviy mutaxassislardan, xususan, pedagog-o'qituvchilardan o'z kasbiy qadriyatlari va shaxsiy e'tiqodlariga ega bo'lishni, nafaqat o'zining, balki o'zga madaniyat turlarini ham qabul qila bilishni, madaniy an'analar va ijtimoiy ehtiyojlarga muvofiq pedagogik dunyoqarashi va qobiliyatlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi.


Maktab o'qituvchisining kasbiy-shaxsiy jihatdan o'z mavqeini o'zi belgilashi, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini takomillashtirish, o'z-o'zini rivojlantirish va “o'z-o'zini mukammal darajadagi mutaxassis” sifatida uning mohiyati va ahamiyatini anglash, pedagogik mahoratning serqirra usullarini egallash muhim vazifasi ekanligiga alohida e'tibor berilgan.



Bu o'qituvchilarning kasbiy madaniyatini oshirib borishdagi murakkab va og'ir yo'ldagi birinchi, lekin oxirgi qadam emas. U o'qituvchining o'z-o'zini tarbiyalashi, o'z-o'zini mukammallashtirishi va o'z-o'zini rivojlantirishiga asos bo'ladi.

Kasbiy madaniyatni rivojlantirish jarayoni insondagi motivlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, uning mohiyati - inson xulq-atvorining ichki barqarorligi, harakatga undovchi tushunchada ifodalanadi. Motivatsiya esa “xulq-atvorni psixologik va fiziologik boshqarishning dinamik jarayoni”<sup>25</sup> bo'lib, unga tashabbus, yo'nalganlik, tashkilotchilik, qo'llab-quvvatlash kiradi.

Maktab o'qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish bilan bog'liqlikda motivlar birinchidan, kasbiy muvaffaqiyatga undasa, ikkinchidan, maqsadga erishish uchun zarur yo'l va usullar tanlashga yordam beradi. Kasbiy madaniyatni rivojlantirish xususiyatlari bilan bog'liqligini inobatga olgan holda maktab o'qituvchilarining ham kasbiy motivlari turli yosh davrlarida turlicha bo'ladi.



### 1.3.1-rasm. Maktab o'qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish tuzilmasi.

Kasbiy madaniyat pedagogik faoliyatning asosiy manbai bo'lib, o'qituvchining ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

Kasbiy madaniyatni rivojlantirish – jamiyat va millatning ichki hayoti va idrokini mujassamlashtiruvchi qudratli kuch, inson va jamiyat rivojlanishining asosi sifatida umuminsoniy madaniyatning asosiy negizi sifatida iqtisodiy-ijtimoiy hayot tizimining shakllanishi, o'zgarishiga kuchli ta'sir etadi.

**Xulosa va amaliy takliflar.** Kompetensiyaviy yondashuv asosida maktab o'qituvchilarida kasbiy madaniyatni rivojlantirishning tashkiliy-funksional modeli hamda texnologiyasi asosida ishlab chiqilgan maxsus kurs-dasturlariga binoan ta'limiy tajriba-sinov ishlari olib borilgan. Bunda o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyatini bevosita va bilvosita pedagogik kuzatish, ular ishtirokida reflektiv-rivojlantiruvchi texnika mashqlarini bajarish, hamkorlikda o'qitish, maxsus pedagogik-psixologik trening mashg'ulotlarining yo'lga qo'yilishi, o'z-o'zini baholash kabi metodlar yordamida o'qituvchilarda kasbiy madaniyatga doir sifatlarning rivojlantirilishiga katta ahamiyat qaratilgan. Nazariy tadqiqotlar natijasida aniqlangan ilmiy yechimlar modulli ishlanmalar yaratishda amaliy qo'llanilgan va aniqlashtirilgan;

Real hayotiy va pedagogik vaziyatli topshiriqlar, treningmashg'ulotlariga tayangan holda biz tomonimizdan tavsiya etilayotgan metodikaning samaradorligi, shuningdek, maktab o'qituvchilarida kasbiy madaniyatning rivojlanganlik dinamikasi aniqlandi va kasbiy madaniyatning rivojlanganlik darajasini baholash uchun mezonlar ishlab chiqilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.10.2019 y.
2. Abu Rayhon Beruniy. 100 hikmat (Ibratli so'zlar). Toshkent: Fan, 1993. – 248 b.
3. Alisher Navoiy. Mahbub-ul qulub. Asarlar. 15-tom. – Toshkent: Fan, 2005. – 244 b.
4. Mahkamov U.I. Yuqori sinf talabalarida axloqiy madaniyatni shakllantirishining pedagogik asoslari. Ped.fan. doktori. ... diss. – T.: 1998. –B. 28.
5. Musurmonova O. Yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari. Ped. fan. dok. ...diss. avtoref. – T.: 1993. –B.48.2.
6. Taylor E.B. «Pervobitnaya kul'tura» –M.: Izdatel'stva politicheskoy kul'turi, 1989. –S. 45.
7. Uayt L. «Nauka o kul'ture». –M.: ROSSPEN, (Seriya Kul'turologiya. XX vek). 2004. –S. 960.
12. Pedagogik atamalar lug'ati. R.X.Juraev va boshq. Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti. – T.: 2008, 136 b. 40-b.
8. Valiev B.N. Iqtisodiy madaniyat va uni shakllantirish omillari. Falsafa.fan.nom. ... diss.– T.: 2004. –B.134.
9. Uayt L. «Nauka o kul'ture». –M.: ROSSPEN, (Seriya Kul'turologiya. XX vek). 2004. –S. 960.
10. Akbarov N. Texnika oliy o'quv yurtlari talabalarida kasbiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari. Ped.fan.nomzod....dis. – T.: 2008. – 6 b.
11. Slobodchikov V.I., Isaev YE.I. Psixologiya razvitiya cheloveka. Razvitie sub'ektivnoy real'nosti v ontogeneze. Uchebnoe posobie»: PSTGU; Moskva; 2013, 400 s. – 161 s.
12. Slastenin V.A., Podimova L.S. Pedagogika – innovatsionnaya deyatel'nost'. – M.: Magistr, 1997. – 146 s.
13. Suxobskaya G.S., Gorbunova L.L. Vzaimosvyaz` teorii i praktiki v protsesse podgotovki i povisheniya kvalifikatsii pedagogicheskix kadrov.– M.: NII IOO APN, 1991. – 92 s. 15-b.
14. Kodjaspirova G.M., Kodjaspirov A.YU. Pedagogicheskiy slovar`. – M.: Akademiya, 2003. – 176 s. 130-b.
15. Semenov I.N. Refleksivnaya psixologiya tvorchestva: kontseptsii, eksperimentatika, praktika // Psixologiya. Jurnal Visshey shkoli ekonomiki. – Moskva, 2005. T. 2. – № 4. – S.65–73.
16. G.T.Jumayeva. 3/(2022), Maktab o'qituvchilarida kasbiy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish. Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi, 378-380 b.

## QASHQADARYO VILOYATI ILK TEMIR DAVRI YODGORLIKLARI O‘RGANILISH TARIXSHUNOSLIGI

*Jurayeva Fayoza*

*Termiz Davlat universiteti Tarix fakulteti  
Arxeologiya ta’lim yo’nlisi talabasi.*

**Annostatsiya:** Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatidagi temir davri yodgorliklarining o‘rganilish tarixshunosligi bo‘yicha ma’lumotlar yoritilgan. Mavzuga tegishli adabiyotlarning qiyosiy tahlili amalga oshirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Yerqo‘rg‘on, Uzunqir, Nashebolo, Naxshab, Sangirtepa, daxma temir, devor.

O‘rta Osiyoda ilk temir davri miloddan avvalgi I ming yillik bilan belgilanib, turli xil tarixiy va arxeologik ilmiy adabiyotlarda «qo‘lda yasalgan naqshli sopollar madaniyati» (QYANSM) deb atalgan ushbu davr Farg‘ona vodiysida Chust, Toshkent vohasida Burg‘uluq, Surxondaryoda Kuchuk I, Qizil I, Qashqadaryoda Yerqo‘rg‘on I, Samarqand Sug‘dida Ko‘ktepa I, Afg‘onistonda Tilla I, Janubiy Turkmanistonda Yaz I nomlari bilan o‘rganib kelinmoqda<sup>121</sup>.

Xususan, Qashqadaryo vohasining ilk temir davri yodgorliklari (mil.avv. I ming yillikning birinchi yarmi) Markaziy Osiyoning boshqa viloyatlari (Murg‘ob, Zarafshon, Surxon vohalari, Amudaryo quyi oqimi va boshqalar)ga nisbatan kam o‘rganilgan. Ilk temir davriga oid dastlabki yodgorliklar S.K. Kabanov tomonidan Tanxozdaryo va Yakkabog‘daryoning quyi qismlaridan topib tekshirilgan edi. 1972 yillarda Z.I.Usmonova va X.Duke tomonidan Chimqo‘rg‘on suv ombori hududida mil.avv. I ming yillik boshlari va o‘rtalariga oid qadimgi manzilgoh qoldiqlari va sopol idishlar topishadi. R.H.Sulaymonov va M.H.Isomiddinovlar tomonidan esa Janubiy Sug‘dning eng yirik shahar xarobalaridan biri – Yerqo‘rg‘on arxeologik jihatdan o‘rganildi. Yerqo‘rg‘on hududining o‘zlashtirilishi aynan so‘nggi bronzadan ilk temir davriga o‘tish bosqichida boshlanganligi aniqlandi. Tadqiqotlar davomida Qashqadaryo quyi qismida o‘troq dehqonchilik madaniyatining shakllanishi jarayonining ilk temir davridan antik va ilk o‘rta asrlargacha bo‘lgan bosqichlari xronologik jihatdan aniqlandi.

ToshDU O‘rta Osiyo arxeologiyasi kafedrasining 1976-1979 yillarda A.S.Sagdullaev tomonidan olib borilgan tadqiqotlari natijasida Qashqadaryo vohasining sharqiy qismida ham bir qator ilk temir davri yodgorliklari ochildi. 1981-1984- yilda N.I. Krashennikova boshchiligidagi ekspeditsiya tomonidan Sho‘rob daryosining o‘rta oqimida mil.avv. I ming yillik birinchi yarmiga oid Podayoqtepa, Sangirtepa va Uzunqir yodgorliklari ochib o‘rganildi, Ushbu yodgorliklarda shurflar amalga oshirildi, hamda ularning mudofaa devorlarini o‘rganish borasida tadqiqotlar o‘tkazildi.

Podayoqtepa, Sangirtepa va Uzunqir yodgorliklari Qashqadaryo o‘rta oqimidagi Sho‘rob daryosi bo‘yida vohaning eng yirik va qadimiy madaniy xo‘jalik hududida joylashgan. Xususan, Qashqadaryo viloyati (janubiy So‘g‘diyona) hududlaridan ilk temir davriga mansub bo‘lgan **Yerqo‘rg‘on, Daratepa, Uzunqir, Qo‘rg‘oncha** singari yodgorliklar o‘rganilgan. Yodgorliklardan xom g‘ishtdan va paxsadan qurilgan bino qoldiqlari, metall qurollar, hunarmandchilik buyumlari topilgan.

**Yerqo‘rg‘on** — qadimiy shahar xarobasi (mil.avv. VI- VIII asrlar — mil. VI asr). Qarshi shahridan 10 km shim.da joylashgan. Tarixiy manbalarda Baxl, Bolo, Valaam, Nashebolo nomi bilan tilga olingan. Yerqo‘rg‘onda dastlab Turkiston arxeologiya havaskorlari to‘garagi a‘zolari (L. I. Zimin, I. Kastanye), keyinchalik arxeologlar A. I. Terenojkin (1946), S. K. Kabanov (1946—72 tanaffus b-n), Ya. G‘ulomov (1959—64), M. Ye. Masson (1963—64) tekshirishlar olib borgan. 1973-yildan O‘zbekiston FA Arxeologiya institutining Qashqadaryo ekspeditsiyasi ham qazish ishlari olib boradi.

<sup>121</sup> Xamidov O.A. Shimoliy Baqtriyaning Kuchuk I davriga oid yangi yodgorliklari. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. Toshkent, 2021. –B. 5.

Qadimiy Yerqo‘rg‘on shahri tarixi haqida biz quyidagilarni aytishimiz mumkin: Qashqadaryo daryosi vodiyaning vohaga kirib kelishida bir qancha irmoqlarga bo‘linar va quruq deltani hosil qilardi; deltadan oqib o‘tuvchi irmoq chap qirg‘og‘ining quyi qismida miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda tarqoq holdagi dehqonlarning istiqomat joylari, ya‘ni qishloqlari paydo bo‘la boshladi. Uning markaziy qismi himoya devori bilan o‘ralgan. Shu yo‘l bilan Qashqadaryo vohasining eng dastlabki poytaxt markazlari vujudga kelgan.

Yerqo‘rg‘onning hududi ichki va tashqi devorlari chegarasida eski shahar xarobalaridan iborat bo‘lgan turli xil kattalikdagi balandliklar bilan o‘ralgan. Eng katta balandlik hukmdor qasri ekanligi ma‘lum bo‘ldi. shuningdek, sitadel (qal‘a ichidagi qo‘rg‘on), shahar ibodatxonasi, maqbara zardushtiylilik ibodatxonasi, hunarmandlar mahallalari qazib olindi. Yerqo‘rg‘on atrofida, butunlay yo‘qolib ketgan, o‘zaro zich joylashgan shahar oldi imoratlar bo‘lgan va ilk ming yillikning birinchi yarmida keng jihozlangan shahar oldi hududi g‘arbgacha tomon Qashqadaryo sohillarigacha cho‘zilgan. Yerqo‘rg‘ondagi shahar VI asrda eftalitlar davlatini ishg‘ol qilish davomida Turk xoqonligi va Eron sasoniylarining birlashgan kuchlari tomonidan yoqib yuborilgan va vayron qilingan. Yerqo‘rg‘on shahri qazilmalaridan olingan ko‘plab buyumlar to‘plami Qarshi vohasi hamda poytaxt shahri tarixi va madaniyati bir necha bosqichda rivojlanganligini isbotlashga yetarli asos bo‘la oladi.

Yerqo‘rg‘on qasri o‘z tuzilishi va umumiy mazmuniga ko‘ra, O‘rta Osiyoning mashhur qasrlaridan biri bo‘lgan. U har biri alohida reja asosida qurilgan mustaqil ikkita, ya‘ni yuqori va pastki maydonchalarga bo‘linganligi bilan ham o‘ziga xosdir. Yuqori maydonda keng chiziq bo‘yicha cho‘zilgan alohida tsellalar (xonalar), vestibullar, sharqqa qaratilgan ayvonlar, hovlilar va ovqatlanish xonalari mavjud bo‘lib - bularning bari tor yo‘laklarining ikki qatori bilan tutashtirilgan edi. Uni qasr ibodatxonasi bo‘lgan deb hisoblash mantiqan to‘g‘ridir. Yerqo‘rg‘on qasrining tor yo‘lakchalar bilan birlashtirilgan hovlichalar va imoratlar tuzilishiga ega bo‘lgan pastki maydoni rejasini tuzilishi qadimgi sharqning ko‘pgina qasr majmualariga xos. Bularga Bobildagi Navuxodonosor qasri va Suzadagi Doro qasrini misol qilib olish mumkin. Qadimgi O‘rta Osiyo qasrlari bilan Yerqo‘rg‘on qasrini unda alohida ibodatxona majmuasi mavjudligiga yaqinlashtiradi. Qizilqir, Qal‘aliqir, Tuproqqal‘a, Yerqo‘rg‘on va Panjikent qasrlari shu jihatlari bilan axamoniylarning Pasargad, Suza va Persapoldagi mashhur qasrlaridan farq qiladi va ularning saroy qurilishidagi yanada qadimiy hisoblanmish Ossuriya va Midiya an‘analariga borib taqalishi extimoli mavjud. Balki, "davlatlar qirolligi"da juda ko‘p muhim ibodatlar (ilohlar) bo‘lgandir. Shuning uchun rasmiy qabullar bo‘ladigan zal "apadanalar" axamoniylar qasrida markaziy o‘rin tutgan bo‘lib, ularda sajda qilish inshootlari bo‘lmagan. Axamoniylar qasrlari umumimperiya ma‘muriy integratsiya markazlari hisoblangan.

Yerqo‘rg‘on qasri xususiyatlari haqida xulosa qilib shuni aytish kerakki, shahar va qasr ibodatxona majmualari bir-biridan tamomila farq qilgan. Markazida olov yongan qasr ibodatxonasi tsellasi, yo‘laklar tizimi orqali kunduzga yorug‘lik va atmosfera ta‘siridan butunlay ajratib qo‘yilgan. Shuningdek, tasviriy san‘at izi ham sezilmaydi, bu taxminan qasr va shahar muqaddas dargohlari ibodatdagi farq bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Qasr ibodatxonasi doimiy olov saqlashga mo‘ljallangan edi. Olov ma‘bud (iloh) sharafiga, yoki III-IV asrlardagi Naxshab hukmdorlarining ilohiylashtirilgan ajdodi sharafiga yoqilishi mumkin edi.

Yerqo‘rg‘onning yana bir ulkan inshooti III-IV asrlarga taqaluvchi hukmdorlar maqbarasidir. Me‘moriy jihatidan ushbu topilma shahar tomonga qaratilgan va uch tomondan tor yo‘laksimon imorat bilan o‘ralgan to‘rtburchak markaziy zal yoki ayvon ko‘rinishiga ega bo‘lgan noyob ijodiy yodgorlikdir. Majmua yuqori zinali, ehromli platformada qurilgan bo‘lib, tepaga olib chiquvchi ganch surilgan pishiq g‘ishtdan terilgan paradli






(hashamatli) zinasini ham mavjud bo‘lgan. Maqbara interüeri tuzilishi echimi mashhur kushon ibodatxonasi surxkotalning rejasini takrorlaydi. Yerqo‘rg‘onda rejalashtirishning bu turi hashamatli maqbaralar qurilishida ko‘p bor qo‘llanilgan.



Zardushtiylilik O‘rta Osiyo va So‘g‘dda qadimdan mavjud bo‘lganligi to‘g‘risida yozma manbalar guvohlik beradi. Bu ma‘lumotlar Yerqo‘rg‘onda daxmani qazish ishlari olib borilganda o‘z isbotini topdi. Yerqo‘rg‘on daxmasi - So‘g‘diyona antik arxitekturasidagi o‘z mohiyati va maqsadiga ko‘ra noyob to‘rt burchakli monolit shakliga ega bo‘lgan, -g‘arbiy va sharqiy old tomonida ikki marosim maydoni mavjud bo‘lgan shaklni eslatadi.



Sho‘robsoy qirg‘og‘ida Uzunqir xarobalari joylashgan. Hozirgi vaqtda yodgorlikning katta qismi tekislanib ketgan va faqat janubi-g‘arbiy tomonida mudofaa devorlarining uzunligi 450 metrga teng bo‘lgan qismi saqlanib qolgan. 1983 yilda Uzunqir mudofaa devorining saqlanib qolgan qismida N.I. Krashennikova tomonidan tadqiqotlar o‘tkazildi. Tadqiqotlar davomida devorning tashqi tomonida unga kirish joyi va bitta shinakka ega bo‘lgan xona qoldiqlari ochib o‘rganildi. Xona devorlari va sathi somon bilan suvalgan. Sathda sopol siniqlari va bronzadan ishlangan kamon o‘qlarining uchlari topildi. Tadqiqotlarga ko‘ra qal‘a devori ahamoniylar davrida qurilgan degan xulosa chiqadi. A.S.Sagdullaev va N.I.Krashennikovalar olib borgan tadqiqot ishlari natijasida Uzunqirni Nautaka shahrining markazi hisoblashgan, keyinchalik markaz hozirgi Kitob shahri o‘rniga ko‘chdi.

Uzunqirda mudofaa devori va manzilgoh hududini o‘rganish borasidagi ishlar 1986 yilda A.S.Sagdullaev boshchiligidagi arxeologik ekspeditsiya tomonidan qayta tiklandi. N.I. Krashennikova tomonidan qazishmalar o‘tkazilgan joyda devor tashqi tomoni aniq tasviri ko‘zga tashlandi. Ushbu devor qismi bo‘ylab, Uzunqir mudofaa devori janubiy qismini o‘rganish davom ettirildi.

Uzunqir mudofaa devorida qazishmalar o‘tkazishdan oldingi balandligi 6 metr, qalinligi asosida 26 metr, nurab tushgan qismi tashqi tomonida 5 metr, ichki tomonida 4 metrga teng. Devor tashqi tomonini tozalash davomida to‘g‘ri burchakli rejaga ega bo‘lgan burji ochilib, uning ichida xona mavjud bo‘lgan. Burjning barcha devorlarida tashqi tomondan pilyastra (to‘rtburchak shakldagi yarim ustun) bo‘lganligi janubiy devorda ular ikkita g‘arbiy va sharqiy devorda bittadan bo‘lgan. Burchaklardagi yarim ustunlarda nayza shakldagi “aldamchi” shinaklar mavjud bo‘lgan. Burjning janubiy devoridagi pilyastralarda “aldamchi” shinaklar mavjud bo‘lmasdan, ularning oralig‘ida asosiy devordan bo‘rtib chiqqan va mayda tosh yotqizilgan poydevorda turgan jangovor shinak mavjud bo‘lgan. Burjning Sharqiy va g‘arbiy



devorlarida yana ikkita jangovor shinak mavjud. Burjga kirish joyi shimoliy tomondan tor yo‘lak orqali bo‘lib, ushbu yo‘lak yuqori qismi qiya qilib qo‘yilgan g‘ishtlar yordamida qurilgan arksimon shaklga ega. Uzunqirning mil.avv. VII asrdayoq to‘g‘ri burchakli burjlari va burj ichi xonalari, nimustun, jangovor hamda sohta shinaklari bo‘lgan ilk mudofaa devorini tiklashda foydalanilgan istehkom usullari O‘rta Osiyo janubidagi o‘sha davrda mavjud bo‘lgan boshqa hech bir obidada qayd etilmagan. Bu usul boshqa obidalarda ancha keyinroq kuzatilgan, lekin Old Osiyo yodgorliklari bilan ko‘pgina umumiy jihatlarga ega. Masalan, Bobilning (mil.avv. VII-VI asrlar) va ba‘zi Mesopotamiyadagi boshqa yirik shaharlarning mudofaa devorlari burjlar bilan mustahkamlanib, yarim ustunlarga ega bo‘lganki, bu hol Uzunqir me‘morlari tomonidan Old Osiyo an‘analari qo‘llanilganligidan dalolat beradi. Burjdan Sharqiy tomonda umumiy uzunligi 20 metr bo‘lgan devor qismi va yana bir burj ochildiki, u o‘z muhandislik qurilishiga ko‘ra birinchisini qaytaradi. Ikkinchi burj yaxshi saqlanmagan. Devor ichki yo‘lagi yoki o‘q otilish uchun ishlatilgan maxsus joylarni aniqlash maqsadida mudofaa devorining Sharqiy qismida birinchi va ikkinchi burjlar oralig‘ida qazishmalar amalga oshirildi. Tadqiqotlar natijasida birinchi devorning ichki tomoni bo‘lagi va jangovor shinakka chiqish joyi ochildi. Ikkinchi devor ichki aylanasining burj xonasidan Sharqiy qismida yo‘lak chiqish joyi ochildi. Devorning yuqorigi qismidan turib amalga oshirilgan ikkinchi mudofaa chizig‘i mavjud bo‘lganligini ham tahmin qilish mumkin. Ikkinchi davrda birinchi devorga tutash qilib, uning g‘ishtlari bilan bir xildagi xom g‘ishtlardan qalinligi 1,6 metr bo‘lgan yangi qo‘shimcha devor qurilgan. Devorning umumiy qalinligi 3,45 metrga etadi. Shinaklarga olib boruvchi yo‘laklar ikkinchi devorning paxsasi bilan to‘ldiriladi, lekin burj ichi xonalarida hayot davom etadi. Keyingi, uchinchi davrda ichki tomon bo‘yicha qalinligi 1,2 metrga teng bo‘lgan yana bir qo‘shimcha devor quriladi. U burjlarga olib boruvchi yo‘llarni berkitib qo‘yadi.

Uzunqirning shimoli-g‘arbiy qismida amalga oshirilgan shurfda qo‘lga ishlangan oshxona idishlari bo‘laklari, hayvon suyaklari, o‘simliklar urug‘larining qoldiqlari topilgan. 1984 yilda N.I. Krashennikova tomonidan qalinligi 2,5 metrga teng bo‘lgan qurilish qoldiqlari yorg‘uchoq, suyak qoldiqlari, sopol siniqlari, kul qatlamlari mavjud bo‘lgan madaniy qatlam topilgan bo‘lib, u mil.avv. I ming yillik boshlari bilan belgilangan. Tadqiqotlar natijalari va shurflardan olingan ma‘lumotlar Uzunqir o‘rniga ilk temir davri shahar markazi mavjud bo‘lganligidan dalolat beradi. Uzunqir manzilgohining mudofaa devorini o‘rganish davrida qo‘lga kiritilgan topilmalar Janubiy Sug‘dning ilk temir davri mudofaa me‘morchiligiga doir yangi ma‘lumotlar berdi. Uzunqirning shimoliy tomoni SHO‘rob daryosi bilan mudofaalangan bo‘lib, lekin ushbu joydan topilgan devor qoldig‘i manzilgohning bu qismida ham mudofaa devori mavjud bo‘lganligidan dalolat beradi. Uzunqirning maydoni 70 gektarga teng bo‘lib, mil.avv. VIII-VII asrlarga taalluqliligi aniqlangan Uzunqirdagi g‘arbiy, Sharqiy va janubiy mudofaa devorlari qoldiqlarining qalinligi 20 metr bo‘lgan va Sho‘robsoydan tortilgan sun‘iy handaq o‘rab olgan bo‘lib, shimoliy tomon uchun bunday handaq vazifasini Sho‘robsoyning o‘zi bajargan. Uchta joyda darvozalar o‘rni aniqlanmagan. Keyingi davrda Uzunqir yanada kengroq o‘zlashtirildi. Uning huddi shu darajasi kengaydiki, aholini himoyalash maqsadida istehkomlar qurish ehtiyoji tug‘ildi. Mil.avv. VII-VI asrlarda murakkab mudofaa tizimi: xom g‘ishtlardan qurilgan mustahkam devordan bo‘rtib chiqqan, burj xonalariga va pilyastralarga ega bo‘lgan burjlar bilan mustahkamlangan mudofaa devorlari vujudga keladi. Lekin dastlabki davrda Uzunqir devori qalinligi, burjlar oralig‘ida bor-yo‘g‘i 1,85 metrga teng bo‘l Uzunqir – Janubiy Sug‘dda ilk shahar tuzilmasining shakllanishiga misoldir. U yirik o‘troq dehqonchilik vohasining hamda Janubiy Sug‘ddagi alohida viloyatning xo‘jalik, ma‘muriy, harbiy va madaniy markazi bo‘lgan. Markaziy Osiyo shaharlari taraqqiyotining keyingi davrida ushbu belgilar yirik antik shaharlar (mil.avv. III-II asrlar) uchun ham xos bo‘ladi.

Daratepa yodgorliklarida o‘tkazilgan ko‘p yillik tadqiqotlar natijasida ushbu hudud uchun xos bo‘lgan mil.avv. VII-IV asrlarga oid turli turar joylar tuzilishi qazib o‘rganildi.

Sangirtepa yodgorligi esa Uzunqir yodgorligidan janubda joylashgan bo‘lib, orasidagi masofa taxminan 1 km.ni tashkil etadi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, Sangirtepaning ilk shakllanish davri mil.avv. IX-VIII asrlarga to‘g‘ri keladi. Bu davrda bu yerda mustahkam paxsa devor bilan o‘ralgan yirik inshoot barpo etiladi.

Mil.avv. VIII-VI asrlarda yodgorlik atroflari o'zlashtirilib, qurilishlar olib borilgan. Tadqiqotlar davomida Sangirtepa manzilgohidan mil.avv. IX-VII asrlarga oid odam skelet suyagining qoldiqlari ham topilgan. Tadqiqotlar Sangirtepaning balandligi 8 metr va o'lchamlari 85x65 metr bo'lgan to'rtburchak shaklidagi markaziy tepalikda amalga oshirildi. Sangirtepa janubiy va g'arbiy tomonlaridan mudofaa devorlari bilan o'ralib, uning umumiy maydoni 3 gektardan iborat bo'lgan. Yodgorlikning qariyb barcha qismi qishloq xo'jalik ekinlari ekish maqsadida tekislab yuborilgan. Sangirtepa markaziy tepaligining shimoliy – g'arbiy qismida amalga oshirilgan shurf bu yerda madaniy qatlarning qalinligi 6,85 metrga teng bo'lganligini ko'rsatdi. Strategafiya markaziy tepaning ushbu qismida hayot murakkab kechganligi va to'rtta qurilish davri mavjudligini ko'rsatadi. Tepalikka chiqish joyida, uning g'arbiy va shimoli-g'arbiy tomonlarida amalga oshirilgan shurf ishlari natijasida biror-bir yangi ma'lumot qo'lga kiritilmagan, lekin ularning natijasida yodgorliklarning ushbu qismida yashash joylari bo'lmaganligi, gumus va kul qatlamlar esa ushbu joydan mol saqlash uchun qo'ra sifatida foydalanganligini ko'rsatadi.

Sangirtepadagi arxeologikstratigrafik tadqiqotlar natijasida manzilgoh-ning shakllanish tarixi uning o'zlashtirilishi va tashlandiq holga kelish bosqichlari aniqlandi. Sangirtepaning ilk shakllanish davri mil.avv. IX-VIII asrlarga oid. Ushbu davrda bu erda mustahkam paxsa devor bilan o'ralgan yirik inshoot qad ko'taradi. Birinchi, eng dastlabki davr uchun tashqi paxsa devorning mavjudligi xos bo'lib, yodgorlikning butun hayoti davomida saqlanib qolgan ushbu devor mudofaa maqsadlariga xizmat qilganligini taxmin qilish mumkin. Manzilgohning o'zlashtirilgan qismini mustahkamlash ehtiyoji paydo bo'ladiki, natijada qariyb 3 gektarga teng hudud devor – to'siq bilan o'raladi. Sangirtepa mustahkam va qalin devorlar bilan o'ralib, mahalliy hukmdor qarorgohi (arki)ga aylanadi. Sangirtepadagi monumental imoratda katta xona bo'lib, uning shimoli-g'arbiy qismida ostida toza qum qatlami saqlanib qolgan mehrob (otashkada) joylashgan. Devor bo'ylab supalar hamda diametri katta bo'lmagan, turli chuqurlikdagi qator dumaloq o'ralar joylashgan. Bu o'ralarning ba'zilar kul bilan, boshqalari – qum, yana birlari qum shag'al bilan to'ldirilgan. Arxeologik ma'lumotlarning dalolat berishicha, mil.avv. IV-III asrlarga kelib, Sangirtepada hayot to'xtaydiki, tashlandiq va tushkunlik holatlari ham buni tasdiqlaydi. Bu turdagi yodgorliklar ilk temir davrida Marg'iyona, Baqtriya va Sug'diyonada keng tarqalgan. Ko'p hollarda ular uncha katta bo'lmagan hududlarni egallagan, lekin ularning mudofaa devorlari bilan o'ralgani kuzatiladiki, bu belgi ularning harbiy strategik ahamiyatidan dalolat beradi. Xuddi shunday belgilar Sangirtepaga ham xos bo'lib, uni ham yirik shahar qo'rg'oni bo'lgan yodgorliklar toifasiga kiritish mumkin. O'tgan asrning oxirida Sangirtepada amalga oshirilgan arxeologik tadqiqot ishlari natijasida, 2003 yilda amalga oshirilgan qazish ishlari davomida sosoniylar davriga oid olov ibodatxonasining o'rni aniqlangan Janubiy Sug'd ilk temir davri tarixining muhim jihatlaridan biri – Sangir I va Uzunqir I turidagi sopol idishlarning vujudga kelishidir. Janubiy Sug'ddagi ilk shaharlar shakllanish va rivojlanishiga misol qilib Sangirtepa va Uzunqirni ko'rsatish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Isamiddinov M.X. Sulaymanov R.X. "Yerqo'rg'on." Toshkent.1984
2. Sulaymanov R.X. "Qadimgi Naxshab". Toshkent.2000
3. Turebekov M. "Qal'ai – Zohoki Moron posyolkasi istehkomlarini arxeologik tadqiq qilish."
4. O'zbekiston moddiy madaniyati tarixi, jild 15. Toshkent,1979

## TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN DARS JARAYONIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

*Kamardinova Charos Baxtiyorovna  
Kamardinova Shaxlo Baxtiyor qizi  
O'zDJTSU talabalari.*

**Annotatsiya:** Innovatsion faoliyat pedagogning o'z kasbini takomillashtirishdagi mavjud shakl va vositalarni egallashga ijodiy yondashuvini nazarda tutishi. Ta'limdagi hammaga ma'qul bo'lgan ilmiy tasavvurlar va innovatsion pedagogik faoliyat haqida barqaror va hammaga ma'qul bo'lgan ilmiy tasavvurlar tasniflar shu paytgacha mukammal tarkib topgan emasligi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda interfaol metodlardan foydalanishi haqida

**Аннотация:** Инновационная деятельность подразумевает творческий подход педагога к овладению существующими формами и средствами совершенствования своей профессии. Устойчивые и общепризнанные научные представления об образовании и инновационной педагогической деятельности устойчивые и общепризнанные научные представления о том, что классификации до сих пор не были идеально составлены. Инновационные технологии-это внедрение новизны, изменений в деятельность учителя и ученика в педагогическом процессе, использование в ее реализации интерактивных методов.

**Abstract:** Innovative activity implies a creative approach of the teacher to mastering the existing forms and means of improving his profession. Stable and all-pleasing scientific imaginations about scientific imaginations and innovative pedagogical activity, which are acceptable to all in education, are the fact that the classifications have not yet formed an excellent composition. Innovative technology is the introduction of innovations, changes in the activities of teachers and students in the pedagogical process and the use of interactive techniques in its implementation

**Kalit so'zlar:** texnologiya, innovatsiya, konsepsiya, manbaa, metod, optimallilik, mikroinnovatsion jarayon, pedagogik jamoalar, innovasiyon o'qitish.

**Ключевые слова:** технология, инновация, концепция, ресурс, метод, оптимальность, микроинновационный процесс, педагогические коллективы, инновационное обучение.

**Keywords:** technology, innovation, concept, source, method, optimality, microinnovation process, pedagogical teams, innovation training.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2018-yilga faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar vatexnologiyalarni qo'llab quvvatlash yili deb nom berishni taklif etgan edilar. Davlatimiz rahbari innovatsiyaning ahamiyati tog'risida quyidagilarni ta'kidladi: «Innovatsiya bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak». 2018-yilda respublikamizda innovatsiyalarni rivojlantirishning asosiy vazifalari qatorida quyidagilar belgilandi: «Kelgusi yilda ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, buning uchun zarur moliyaviy resurslarni safarbar etish, ushbu jarayonda iqtidorli yoshlar ishtirokini, ijodiy g'oya va ishlanmalarni har tomonlama qo'llab quvvatlash vazifasi e'tiborimiz markazida bo'ladi» [1] Demak, bugungi kunda har bir soha va tizim faoliyatini innovatsion g'oyalar va texnologiyalar asosida olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan mavzuga kirishishdan oldin «innovatsiya» so'zining ma'nosiga biroz to'xtalishini lozim topdik. Innovatsiya tushunchasi (lotincha novus yangi) tadqiqotlarda va ilmiy ishlarda XIX asrlarda qo'llanila boshlagan. Avval u alohida elementlarni bir sohadan boshqa sohaga kiritishni ifodalagan. Texnikaviy yangiliklar kiritish qonuniyatlarini o'rganib firmalar foyda olish uchun «innovatsion siyosatni» butun bir tizim sifatida o'zlashtirishdi. Mazkur faoliyat jamiyat hayotining ixtiyoriy bo'g'inini yangilash bo'yicha umumiy belgilarga, qonuniyatlar, yangilik kiritish mexanizmiga ega.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir o'quvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish o'quvchi uchun qiziqarli mashg'ulotga aylanadi. Interfaol usullar qo'llanilganda o'quvchilar o'qituvchilar yordami va hamkorligida mustaqil ishlash ko'nikma va malakalariga ega bo'ladi. O'quvchilar yangi bilimlarni ilmiy izlanish, tadqiqotchilik, tajriba sinovlar o'tkazish asosida o'zlashtiradilar. Ilm orqali bilim olish tamoyiliga amal qilinadi. Ta'lim jarayoni qatnashchilari kichik guruhlar bo'lingan holda ishlaydilar. O'quv topshiriqlari alohida bir o'quvchiga emas, balki kichik guruhning barcha a'zolariga beriladi. O'qitish jarayonini tashkil etishning asosiy shakli darsdir. Hozirgi paytda darsning xilma xil noan'anaviy shakllari joriy etilmoqda. Bunday darslar o'quvchining ijodiy qobiliyatini o'stirish, aqliy salohiyatini kuchaytirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va har bir yangilikni tez va to'la qabul qila olish ko'nikma va malakalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Dars jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarda ilmiy izlanishga qiziqishni uyg'otadi, ijodkorlik va bunyodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada egallangan bilim, ko'nikma va malakalar amaliy faoliyatda tatbiq etiladi, o'zlashtirish sifati oshadi. Buning uchun o'qituvchi mahoratli bo'lishi va mavzularning mazmuniga qarab darsni to'g'ri rejalashtirishi, mashg'ulot davomida barcha o'quvchilarni faol va ongli ishlashlariga erishmogi lozim. Zero, o'qituvchi ta'lim islohotining bosh ijrochisidir. Bunda har bir o'qituvchini qisqa vaqt ichida juda kata miqdordagi axborot to'plamini o'zlashtirish, qayta ishlash va amalda qo'llay olishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Uni hal qilishda o'qituvchiga o'qitishning an'anaviy usullari bilan birga zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan kompyuterlardan foydalanish yordam beradi. Pedagogik innovatsiya bu pedagogik faoliyatdagi yangilik, o'qitish va tarbiya mazmuni va texnologiyasidagi o'zgarishlar, ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan. Innovatsiya - innovatsiya natijasi sifatida tushuniladi va innovatsion jarayon uchta asosiy bosqichning rivojlanishi sifatida qaraladi: g'oyani yaratish (ma'lum bir holatda, ilmiy kashg'iyot), amaliy jihatlarda g'oyalarni rivojlantirish va yangiliklarni amaliyotga tatbiq etish. [2]

Pedagogik innovatsiyalab samaradorligining o'lchovi sifatida optimallik o'qituvchi va o'quvchilarning kafolatlangan natijaga erishishi uchun kuch-quvvat sarflashlarini taqozo etadi. Turli o'qituvchilar va o'quvchilar o'zlarining shaxsiy pedagogik hamda o'quv faoliyatlari jarayonida turlicha darajadagi samaradorlikka erishadilar. Xuddi mana shuning o'zi pedagogik innovatsiyalarning optimallik darajasini belgilaydi. Innovatsion usullarning eng muhim belgisi sifatida natijalanganlik o'qituvchi faoliyatida ijobiy yutuqlarga erishilgandagina namoyon bo'ladi. O'lchovlardagi texnologiklik, kuzatuvchanlik, natijalarning qayd etilganligi o'qitishning yangi usullari, metodlarini baholash orqali namoyon bo'ladi. Mazkur o'lchovning ahamiyatli jihati shaxs, uning idroki va tushunchalarini shakllantirishning bir butunligida namoyon bo'ladi. Shu munosabat bilan innovatsion jarayonni ilmiy g'oyani amaliy foydalanish bosqichiga olib chiqish va shu bilan bog'liq ijtimoiy pedagogik muhitdagi o'zgarishlarni amalga oshirish jarayoni deb hisoblash mumkin. G'oyalarning innovatsiyaga aylanishini ta'minlaydigan va bu jarayonni boshqarish tizimini shakllantiradigan faoliyat bu innovatsion faoliyatdir. Innovatsiya jarayoni rivojlanish bosqichlarining yana bir o'ziga xos xususiyati mavjud. Pedagogik tajribada pedagogik innovatsiyalarni ijodiy qo'llash alohida o'qituvchilar ish faoliyatining boshlang'ich bosqichida namoyon bo'ladi. Mazkur innovatsiyalar tajribasi sinovdan o'tkazilib, ob'ektiv baholangandan so'ng ommaviy tarzda qo'llash uchun taqdim etiladi. Keng ommalashgan, ijobiy natijalarga erishish imkonini beradigan innovatsion usullardan foydalangan holda o'qituvchilarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Pedagogik innovatsiyalarni baholash mezonlarini bilish o'qituvchining pedagogik ijodning rangbarang shakllarini o'zlashtirishi uchun qulay sharoit yaratadi. Pedagogik madaniyatning oddiy esda qolgan bilimlarni takrorlash shaklidan boshlab, ilmiy pedagogik jamoatchilikka ma'lum bo'lgan g'oyalar, konsepsiyalar, texnologiyalarni o'z shaxsiy faoliyatiga singdirishdan ularni evristik, kreativ ishlab chiqish va liyotga joriy etishga qadar bo'lajak pedagoglarning kundalik harakati mazmunini tashkil etishi lozim.



Pedagogik innovatsiyalarning mazmuni, uni qo'llash metodlarini bo'lajak o'qituvchilar tajribasiga singdirish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim muassasasi hayotiga pedagogik innovatsiyalarni keng ko'lamda olib kirish uchun unda yangilik muhitini yaratish, muayyan axloqiy psixologik holatni shakllantirish, tashkiliy, metodik, psixologik xarakterdagi choratadbirlarni kullash talab etiladi. Shu maksadda bulajak ukituvchilarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish, ularni pedagogik innovatsiyalar bilan izchil kurollantirib borish, innovatsion usullarni tahlil va tatbiq qilishga o'rgatish vazifasini kuyish lozim[2]. Pedagogika fanida ta'lim tizimidagi yangilik masalalari muttasil mutaxassislar tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Biroq, ijtimoiy-pedagogik yangiliklar mintaqaviy ta'lim tizimini rivojlantirish omili sifatida, bir tomondan, nisbatan yaqinda tez rivojlanayotgan ijtimoiy pedagogika fan va amaliy faoliyat sohasi sifatida nisbatan yaqinda paydo bo'lganligi sababli, boshqa tomondan, ta'limni markazsizlashtirish va mintaqalashtirishning ijtimoiy tendensiyasining nisbiy yangiligi bilan bog'liq. Bundan tashqari, xususiy, to'g'ri pedagogik (masalan, uslubiy) yangiliklarning samaradorligi, agar ular ijtimoiypedagogik rejada qo'llab-quvvatlanmasa, qo'llab quvvatlanmasa, ancha past bo'ladi. Shunday qilib, xususiy innovatsiyalar va ijtimoiy-pedagogik yangiliklarni qo'llabquvvatlovchi ijtimoiy-pedagogik kontekstni yaratish ham, ma'lum hajm, miqyos va daraja umuman mintaqaviy ta'lim tizimini rivojlanishini sezilarli darajada kuchaytirishi mumkin. [3] Xususan, turli xil innovatsion jarayonlarning hayotiy davrlarini o'rgangan pedagogik innovatsiyalar sohasi mutaxassisi V.I.Zagvyazinskiy ta'kidlashicha yangilikni rivojlantirish natijasida ijobiy natijalarga erishgan holda, o'qituvchilar uni asossiz ravishda uni universallashtirishga, uni pedagogik amaliyotning barcha sohalariga tatbiq etishga intilayotganliklarini ta'kidlaydilar. Ko'pincha muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi va umidsizlikka olib keladi, yangilikka soviydi. Boshqa bir tuzilmani (hozir aytilganiga juda yaqin) aniqlash mumkin. Bu moddiy ishlab chiqarish sohasidagi innovatsiyalar nazariyasidan olingan innovatsiya genezisining tuzilishi. Ammo o'quvchi yetarlicha rivojlangan tasavvurga ega bo'lsa, maktabdagi innovatsion jarayonlarga o'tish juda qulay: g'oyaning paydo bo'lishi - rivojlanishi - dizayn (qog'ozda nima bor) - ishlab chiqarish (ya'ni amaliy ishda o'zlashtirish) - boshqa odamlar tomonidan foydalanish. [4] Yuqoridagilardan tashqari har qanday innovatsion jarayonda yangiliklarni yaratish va yangiliklardan foydalanish (o'zlashtirish) kabi tuzilmalarni ko'rish oson; bir-biri bilan bog'liq bo'lgan mikroinnovatsion jarayonlardan iborat bo'lgan butun maktabning rivojlanishi asosida yotadigan murakkab innovatsion jarayon.





**Xulosa.** O'qituvchilarda ijodkorlikni shakllantirishning muhim pedagogik sharti uni mustaqil bilim olish va ijodiy fikirlashga yonaltirishdan iborat. Shu bilan bir qatorda, o'qituvchilar orasida ijodiy muhit, muayyan ma'naviy-ruhiy holat, tashkiliy, metodik, psixologik chora-tadbirlar qo'llashga ham alohida e'tibor qaratish lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // «Xalq so'zi» gazetasi, 2017 yil 23 dekabr
2. Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. I Monografiya. - T.: «Fan va texnologiyalar», 2016. - 77-b.
3. Mochalova N.M. Maktabning metodik ishini tashkil etishning innovatsion yondashuvlari: O'quv qo'llanma. - Ufa, 2002. - 86 bet Slastenin V.A., Podimova L.S. Pedagogika: innovatsion faoliyat. - M., 1997
4. Panfilova A.P. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: Faol o'rganish: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik / A.P. Panfilov. - M., Akademiya, 2009 y.
5. <https://uz.denemetr.com/docs/769/index-31283-1.html?page=9>.

## RAQAMLI SOTSIOLOGIYANING JAMIYAT HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI

*Kandaxorova Madina Ishratovna*  
*O‘zbekiston Milliy universiteti 2-bosqich talabasi.*  
*Hamroyev Og‘abek Ziyodullo o‘g‘li*

Mustaqil O‘zbekistonda kundan kunga texnologiyalar rivojlanib bormoqda. Juda tez suratlarda bir-biridan mukammal va takomillashgan texnologiyalar kirib kelmoqda. Bugungi kunda jamiyat hayotini texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2018-yil 28-dekabrda 2019-yil uchun eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatimizda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturini hayotga tatbiq etish zarurligini ta’kidladilar<sup>122</sup>. 2020-yilda “Raqamli O‘zbekiston-2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni imzolandi.<sup>123</sup> Unga ko‘ra, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari IT parklarni tashkil etish, sohani malakali kadrlar bilan ta’minlashni ko‘zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilgan. 2020-2022 yillarda tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish doirasida, aholi punktlarini Internet tarmog‘iga ulash darajasi, jumladan ulanish portlarini 2.5 milliongacha ko‘paytirish yo‘lga qo‘yilmoqda.

Hozirgi kunda hayotning har jabhasida ijtimoiy tarmoqlardan foydalaniladi. Sotsiologiya sohasida ham Internetning ahamiyati katta. U ishimizni birmuncha yengillashtiradi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Axborot texnologiyalari rivojlanganligi tufayli kiber so‘zi raqamli so‘ziga almashtirilmoqda. “Kiber” so‘zi 1990-yillar va 2000-yil boshlaridan buyon qo‘llaniladi<sup>124</sup>. “Raqamli” so‘zi esa yaqindagina kirib keldi. Raqamli sotsiologiya – bu kundalik hayotning bir qismi sifatida raqamli ommaviy axborot vositalaridan foydalanishni va ushbu turli xil texnologiyalar odamlarning xatti-harakatlari, ijtimoiy munosabatlari va o‘zini o‘zi boshqarish konsepsiyasiga qanday hissa qo‘shishini tushunishga qaratilgan subintizom. Raqamli sotsiologiya to‘g‘risida hozircha yagona metodologiya va nazariya mavjud emas. Raqamli sotsiologiya zamonaviy axborot tizimlari va texnologiyalaridan tadqiqot usullari sifatida foydalanadi. Raqamli sotsiologiyaga oid bo‘lgan birinchi ilmiy maqola 2009-yilda yozilgan. Raqamli sotsiologiya kibersotsiologiya bilan deyarli bir xil vazifa bajaradi. Sotsiolog Lupton tomonidan raqamli sotsiologiyaning to‘rt jihati aniqlangan<sup>125</sup>: Professional raqamli amaliyot: professional maqsadlar uchun raqamli media vositalaridan foydalanish, tarmoqlarni yaratish, elektron profil yaratish, tadqiqotlarni ommalashtirish va almashish. Sotsiologik bloglar soni tobora ko‘payib bormoqda. Masalan, Twitterga ko‘proq sotsiologlar tashrif buyirishmoqda<sup>126</sup>. Raqamli foydalanishning sotsiologik tahlillari: odamlarning raqamli axborot vositalaridan foydalanishda o‘zini anglash tuyg‘usi, ijtimoiy munosabatlarni o‘rganish. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ijtimoiy faollik raqamli sotsiologiyaga e‘tiborni qaratdi. Masalan, ko‘plab sotsiologik maqolalar Twitter kabi ijtimoiy media platformalaridan foydalanishda paydo bo‘ldi, YouTube va Facebook faol sabablar va siyosiy harakatlarni tashkil etish to‘g‘risida xabarlarini etkazish vositasi sifatida xizmat qilib keldi. Raqamli ma’lumotlarni tahlil qilish: ijtimoiy tadqiqotlarning sifatini oshirish uchun raqamli ma’lumotlardan keng foydalanish. Raqamli

<sup>122</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

<sup>123</sup> <https://lex.uz>.

<sup>124</sup> Lupton, d. Digital Sociology: An introduction. Sydney: University of Sydney, 2002. <http://hdl.handle.net/2123/8621>

<sup>125</sup> Wynn, J. (2009) Raqamli sotsiologiya: sohada va sinfda paydo bo‘lgan texnologiyalar. Sotsiologik forum, 24(2).

<sup>126</sup> Lupton, d. Digital Sociology: An introduction. Sydney: University of Sydney, 2002. <http://hdl.handle.net/2123/8621>.

sotsiologlar odamlarning raqamli ommaviy axborot vositalaridan foydalanishni tekshirishda turli xil yondashuvlardan foydalanadilar, ham sifatli, ham miqdoriy. Ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo'lishi sotsiologlarga ijtimoiy hodisani o'rganishning yangi usulini taqdim etdi. Ijtimoiy media tarmoqlari Facebook va Twitter, tadqiqot uchun tobora ko'proq yuklab olinmoqda. Masalan, Twitter ma'lumotlari tadqiqotchilarga Twitter API orqali osonlikcha taqdim etadi. Twitter tadqiqotchilarga demografik ma'lumotlar, vaqt va joylashuv ma'lumotlari va foydalanuvchilar o'rtasidagi aloqalarni taqdim etadi. Ushbu ma'lumotlardan tadqiqotchilar foydalanuvchi kayfiyati va ular bir-biri bilan qanday aloqa qilishlari to'g'risida tushuncha olishadi.

Tanqidiy raqamli sotsiologiya: ijtimoiy va madaniy nazariyadan xabardor bo'lgan raqamli axborot vositalarining refleksli va tanqidiy tahlilini o'tkazish. Raqamli sotsiologiyaning o'rni va ahamiyati hozirgi umumiy ijtimoiy tadqiqotlar doirasida biroz past. Tadqiqotlarda raqamli sotsiologiyani qo'llashning afzalliklaridan biri u qo'shimcha mablag' talab qilmaydi. Bir vaqtning o'zida bir nechta usullarni qo'llash mumkin. Lapton raqamli sotsiologiyani professional raqamli amaliyotlar nuqtai nazaridan belgilaydi.

Bugungi kunda raqamli sotsiologiyani rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi. Raqamli sotsiologiyaning yuksak pog'onalarga chiqishi uchun imkoniyatlar yaratilishi zarur. Raqamli sotsiologiya sohasidagi tadqiqotlarni hozirgi tadqiqot tendensiyalarining asosiy masalasi sifatida rivojlantirishni yo'lga qo'yish darkor. Jamiyatdagi muammoli vaziyatlarning yengillashishida sotsiologik tadqiqotlarning hissi juda kata. Har bir tadqiqotni raqamli sotsiologiya bilan boyitsak, tadqiqotlarimizning sifati anchagina oshadi. Xulosa sifatida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, hozirda tadqiqotlarning kata qismi virtual olamda olib borilmoqda. Shu boisdan, tadqiqotlarimiz rivoji uchun raqamli sotsiologiyani takomillashtirish foydadan holi bo'lmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi
2. Lupton, d. Digital Sociology: An introduction. Sydney: University of Sydney, 2002.
3. Wynn, J. (2009) Raqamli sotsiologiya: sohada va sinfdan paydo bo'lgan texnologiyalar. Sotsiologik forum, 24(2), 448-456
4. Lupton, d. Digital Sociology: An introduction. Sydney: University of Sydney, 2002.

*Karimov O.*

*FarDu “San’atshunoslik” fakulteti o’qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada estetik tarbiya, madaniyat va san’atning tarbiyadagi o’rni va ahamiyati haqida bo’lib, bu jarayonda jamiyatdagi voqea-xodisalar bilan chanbarchas bog’liqligi aks ettirilgan. Shu bilan birga shaxsni estetik tarbiyasini san’at vositasida amalga oshirishning afzal tomonlari ifodalangan.

**Kalit so’zlar:** Zamonaviy san’at, rangtasvir, innovatsiya, video art, pop art, strit art instalyatsiya, Madaniyat markazi, Milliy madaniyat.

**Аннотация:** В этой статье обсуждается роль и важность эстетического воспитания, культуры и искусства в образовании, а также то, как этот процесс тесно связан с событиями обществе при этом выражаются преимущества эстетического воспитания личности через искусство.

**Ключевые слова:** современное искусство, живопись, инновации, видеоарт, поп-арт, инсталляция стрит-арта, культурный центр, национальная культура.

**Abstract:** This article discusses the role and importance of aesthetic education, culture, and the arts in education, and how this process is closely related to events in society. At the same time, the advantages of the aesthetic education of the individual through art are expressed.

**Keywords:** Contemporary Art, Painting, Innovation, Video Art, Pop Art, Street Art Installation, Cultural Center, National Culture.

XX asrning oxirlariga kelib xalqimizning azaliy orzulari amalga oshdi, 1991 yildan O’zbekiston mustaqil davlatga aylandi. Bu esa xalqimiz tarixida yangi sahifa ochdi. O’zbekiston xalqaro huquqiy ob’ektga aylanib, 1992 yil BMTga, 1993 yili YUNESKOga a’zo bo’ldi.

Buyuk vatandoshlarimiz – Imom Buxoriy, Xakim Termiziy, Xoja Bahouddin Naqshbondiy, Imom Motrudiy, Burxoniddin Marg’oniy kabilarning nomlari qayta tiklandi. O’tmishning buyuk mutaffakirlari, shoir va musavvirlari – Abu Rayhon Buruniy, Abu Ali Ibn Sino, Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Axmad Farg’oniy, Mirzo Ulug’bek, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Muhammad Murod Samarqandiy hamda jadidchilik harakati vakillarining nomi g’urur bilan tilga olindi. Ulug’ Soxibqiron Amir Temurning tariximizda tutgan o’rni va ahamiyatini ham nihoyat haqqoniy talqiniga erishdi.

“Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridayoq, - deb yozadi davlatimiz Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev – ajdodlarimiz tomonidan ko’p asrlar mobaynida yaratib kelingan g’oyat ulkan, bebaho ma’naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko’tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo’lib qoldi. Biz ma’naviy qadriyatlarni tiklashni- milliy o’zlikni anglashni o’sishidan, xalqning ma’naviy ildizlariga qaytishdan iborat, uzviy-tabiiy jarayon deb hisoblaymiz.”

Jamiyatning ma’naviy madaniyatini shakllantirishda samarali vositalardan biri bu insonparvarlik va ma’naviy qadriyatlar tizimini to’g’ri shakllantirishdir. “Shu nuqtai-nazardan qaraganda, buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avlialarimizning bebaho merosi, sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish’ ularda milliy g’urur va iftixor tuyg’ularini kuchaytirishga alohida etibor qaratishimiz kerak”<sup>127</sup>. Albatta tarixiy meros va ma’naviy qadriyatlar jamiyat ma’naviy kamolotida o’rni va hamda ta’siri beqiyosdir. Demak ma’naviy madaniyat- annanaviy faoliyatining mahsuli sifatida insonni ma’naviy uyg’otadigan, qo’llab-quvvotlaydigan va rivojlantiradigan madaniyat shaklidir.

<sup>127</sup>O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil uchun mo’jallangan eng muhim ustuvor vazifalari haqida Oliy Majlisga murojatnomasi // 29.12.2019. <http://uza.uz>.

Shu sababli, ma'naviy madaniyat yaxshi o'qilgan yoki o'qimishli bo'lish bilan xarakterlanmaydi balki u bir odamni ongli va ma'suliyatli faoliyatiga qodir shaxsga aylantiradi. Ma'naviy madaniyat inson faoliyati sohasi bo'lib, u jamiyat ma'naviy hayotining turli tomonlarini, shuningdek ma'lum bir madaniy va tarixiy birlikka yoki umuman insonga hos bo'lgan bilimlar va dunyo qarash g'oyalari tizimini qamrab oladi. Shu nuqtaiy nazardan fikrimizni o'zbek faylasuf olimlari qarashlari bilan qiyoslashga xarakat qilamiz.

M.Abduraxmonov va H.Raxmonov fikricha ma'naviy madaniyat ta'lim va fan sohasiga oid ilmiy faoliyatni, axloqiy va estetik madaniyatni o'z ichiga oladi. Natijada ma'naviy madaniyat insonning layoqati va faoliyatining buyumlarda moddiylashgan shakilda, insoniyat tomonidan yaratilgan ma'naviy qadiryatlar (ilim, sa'nat, xuquq, axloq qoidalari) shaklida mavjud bo'ldi<sup>128</sup>.

A.Ochilidiyev ma'naviy madaniyat o'z mohiyatiga ko'ra ma'naviy ishlab chiqarish, ijtimoiy ong shakllarining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan faoliyatning barcha sohalarini qamrab olishni ta'kidlaydi. Fikrni davom ettirib u har-xil tasavvur va go'yalar, ta'limotlar, ilmiy bilimlar, san'at asarlari va axloqiy normalar kabi ma'naviy madaniyatning turli shakllari ana shu faoliyatning natijasidir, deb baho beradi. Ular o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida turgan va o'z aro ma'lum bir musbatlarga kirishgan kishilar tomonidan yaratilgan. Demak, ma'naviy madaniyat ma'naviy faoliyati natijasi sifatida chiqayotgan xodisalargina emas, balki ularni yaratish jarayonida kishilar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni ham ifodalaydi<sup>129</sup>. Qiyosiy taxlil natijasida biz ma'naviy madaniyat inson faoliyatini ma'naviylashgan shakli natijalarini o'zida aks ettiradi hamda tasavvurlar, g'oyalar, ta'limotlar, ilmiy bilimlar, san'at asarlari va axloqiy normalar uning elementlaridir, degan hulosaga keldik.

Ma'naviy madaniyatning turli shakllari fan, din, falsafa, san'at, axloq, xuquq, siyosat, mafkura, milliy o'zlik kabilardir. "Ma'naviy madaniyatning ayrim shakllari ma'lum bir doirada, boshqalari esa barcha sohalarda amal qiladi. Masalan, axloqning shakllanishi va paydo bo'lishida butun jamiyat xizmat qilgan bo'lsa, san'atni noyob qobiliyat egalari yaratadi. Kundalik bilim xammaga ozmi-ko'pmi xoc bo'lsa, faqat buyuk mutafakkirlargina ilm tufayli daholar darajasiga yeta oladilar<sup>130</sup>.

Yuqoridagi o'zbek faylasuflarining ilmiy taxlillaridan kelib chiqib ma'naviy madaniyatning o'sib borishi va uni inson ongida oziqlanishini qondirishda san'at juda katta ro'l o'ynaydi. O'zbekistonda yangi ma'naviy – g'oyaviy yo'nalishlarning shakllanishi o'z navbatida, zamonaviy san'atning barcha sohalariga samarali ta'sir etdi. Ijodiy izlanishlar doirasini kengaytirdi va badiiy tafakkur rivojini yanada jadallashtirdi. Barcha shaharlarimizda ulkan qurilishlar amalga oshirildi, me'morchilik jadal rivojlandi.

San'at- estetik tadqiqot obyektining umumiy nomi, mushtarak tushuncha. Xususiy tushuncha sifatida u voqelikni go'zallik va xunuklik, ulug'vorlik va tubanlik kabi qadriyatlar va aksilqadriyatlar orqali muayyan xil, tur hamda janrlar doirasida in'ikos ettiradigan badiiy ijod mahsulini anglatadi. Mustaqillik yillarida san'at yangi yo'nalishini belgilab ola boshladi. Yigirma yil davomida bu "yangi yo'nalish" haqidagi tushuncha zamirida oddiygina jarayon ifodalanayotgan bo'lsa-da, uning asosini zamonaviy art – menejment kutilmagan tezlik bilan yangi shakllarni egallashga intilgan rassomlar va kuratorlarning nihoyatda og'ir mehnati, respublika zamonaviy san'ati tajribalari, xalqaro badiiy jarayondan tashqarida mahalliylik qolmay turib, ularning imkoniyatlarini kengaytirishga intilish tashkil etdi. San'atda yangi yo'nalishlar, zamonaviy rangtasvir, video art, pop art, perfomis, illuziya kabi turlari paydo bo'ldi. Bu yo'nalishlar ostida chuqur falsfa va murakkab g'oyalar yotadi. Bu yo'nalishlarda yutimizda S.Jabborov, B.Ismoilov, F.Axmadaliyev, M.Qaroboyev, I.Jabborov kabi qator yosh ijodkorlar asarlar yaratmoqda. Ularning asarlarini tushunish va his qilish uchun tarixni bilmoq, faylasuflar tarixini o'qimoq lozim. Bu vaziyat tomoshabinni kitobxonlikka chorlaydi, chuqur bilim esa ma'naviy ongini kengayishiga sabab bo'ladi. Zamonaviy san'atda asosan g'oya birinchi o'rinda turadi.

<sup>128</sup> Abduraxmonov M., Raxmonov N. Madaniyatshunoslik –Toshkent: 2008. – 37 b.  
<sup>129</sup> Ochilidiyev A. Madaniyat falsafasi. –Toshkent: Muharrir, 2010. – 33 b.



Chunki, rassom tomonidan berilgan ranglar va asardagi obraz yoki badiiy elementlarni joylashuvi albatta falsafiy hikoyani namoyon qiladi. Bunda insoniyatni muammolari, jamiyatdagi turli ijtimoiy munosabatlarni o'zida aks ettiradi. Jamiyatni o'zini shaxsiy dunyo qarashi va ichki tuyg'ulari bilan buni xis etadi va ongli ravishda taxlil qiladi. Ammo glaballashuv zamonda zamonaviy san'atning turlari ko'payib bormoqda. Ayrim qo'shtirnoq ichidagi san'at yo'nalishlari jamiyat ongiga qattiq ta'sir etmoqda. Masalan; sitrit art yo'nalishi. Bu bo'yoqlar orqali turli belgilar, logotiplar va ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi vositalarni, devor yuzasiga, katta yo'l ustilariga chizishdir. Yevropa davlatlarida bu asosan reklama uchun yaratilgan bo'lishi mumkin. Ammo mintalitet, milliy g'urur tushunchalari mavjud. Bizning yurtimizda ayrim yoshlarimizni ma'naviy bilimlari yetmasligi sababli bu san'at yo'nalishi shunchaki bezorilikka aylandi. Ayrim qo'shtirnoq ichidagi xulq-atvori past yoshlarning xarakteratlari jamiyatning madaniyati va ma'naviyatiga sezirarli ta'sir etmoqda. Xalqimizda bir gap bor “ Kasalni davolagandan uni oldini olgan maqul” shu boyis bunday xarakatlarga davlat tomonidan cheklovlar va tartibga soluvchi qonunlar ishlab chiqmog'i lozim. Yoki bo'lmasam bu yoshlar ijodiy qobiliyatidan kelib chiqib san'atning aniq yo'nalishlariga yo'naltirmoqlik darkor. Xulosa qilib aytganda, San'at va madaniyat sohalari doimo bir-birini to'ldirib boradi. Sa'natning memorchilik, rassomchilik, amaliy san'at, xaykaltaroshlik yo'nalishlari aynan jamiyat ma'naviy madaniyatida muhim o'rin egallaydi. Qaysi sohada bo'lishidan qat'iy nazar ijodkor tomonidan yaratilgan xar bir san'at asari o'zida milliylik, estetik didni aks ettirmog'i lozim. O'zbekiston konseptual san'atining shakllanishi va rivojlanishining qisqa, ammo alohida tarixini aks ettiradi. Biz mustaqil yurt farzandlarimiz. Davlatimiz bayrog'ini butun jahon arenalarida ko'tarish uchun barcha imkoniyatlar va erkinliklar yaratilgan. Biz Temuriylar, Boburiylar, Imom Buxoriy kabi buyuk yurt farzandlarimiz va shunga munosib bo'lmog'imiz bizdan keyingi avlodga ma'naviyat va madaniyatni asl xolicha qoldirmog'imiz kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalari haqida Oliy Majlisga murojatnomasi // 29.12.2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2017 yil 25-dekabr kuni madaniyat va san'at sohasidagi dolzarb masalalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqi.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
4. Abduraxmonov M., Raxmonov N. Madaniyatshunoslik –Toshkent: 2008. – 37 b.
5. Ochildiyev A. Madaniyat falsafasi. –Toshkent: Muharrir, 2010. – 33 b.
6. Abdulhamid Cho'lpon. Vatanimiz Turkistonda temir yo'llar // Sadoyi Farg'ona.1914.
7. A.Xakimov “Ego loyxasi: Zamonaviy san'atning taxlili”, T. 2010.
8. D.To'xtamurodova “Ijodiy izlanish qirralari”, San'at J, 2015/2 son.

## TEACHING CONFERENCE INTERPRETING

*Karimova Rayhon G'ayratovna*

*Head of Preschool Education № 10 Khasarasp district of Khorezm region.*

**Annotation:** The given article delves into the issue of teaching conference interpreting namely consecutive interpreting. It explains some peculiarities and problems that may arise while interpretation and the article presents the techniques, which can be used to enhance the abilities of interpreters.

**Key words:** conference interpreting, consecutive interpreting, note taking, mnemonics

Conference interpreting has become very important in global society as interpreting plays an important role in communication. Conference interpreters work not only during conferences, but also in other settings, including meetings of committees and working groups in international organizations, visits of personalities, meetings of boards of directors of large corporations, medical, information technology, economic and other scientific and technical training seminars, TV programs, arbitration proceedings, and even court trials. In other words, their activity partly overlaps with liaison interpreting, court interpreting and media interpreting. Interpreting is an interesting but not easy work because interpreters often encounter many problems and must handle them, especially in consecutive interpreting.

Consecutive interpreting is typically used for press conferences, after-dinner speeches and similar occasions. The statements to be interpreted can be as long as 20 minutes. As the capacity of the human memory is insufficient to provide a consecutive of longer statements, the interpreters make notes to support their memory and thus to facilitate the rendition in the target language. Interpreting is rendering information and idea from one language into another language by mean of speaking. Particularly, in the consecutive, interpreters have to give a rendering of speech's segments after a party has finished speaking. Interpreters must receive and understand the incoming message and then express its meaning in the target language. Despite understanding the process, they still get many problems in term of memory and note taking. The interpreters can face some problems that lead to weakness, along with identifying the solutions that will possibly help us improve the ability of memorizing and taking note.

To facilitate the process of consecutive interpreting, professional interpreters typically use a special system of note taking. In the approaches developed based on practical interpreting experience, these notations are commonly regarded as a notetaking technique, and in relevant specialist literature, they are often considered as a language-independent instrument.

The first problem that the interpreters often meet is memory ability, which is believed to be one of the major elements affecting the process of storing and conveying information. During the process of consecutive interpreting, the short-term memory is used for the temporary storage of segments of speech so that they can be decoded and re-encoded. In consecutive, while listening, interpreters have to decide what to take down in their notes and how. They also have to pay some attention to the writing process itself.

Despite having good awareness about the significance of memory in consecutive interpreting, the forthcoming interpreters face difficulties mastering it due to the lack of technique of concentration and mnemonic abilities. The first technique that should be pointed out is the deficiency of concentrating during the procedure of listening, which is thought to create difficulties in memorizing. It is evident that amateur interpreters cannot memorize the main ideas mentioned in the speech unless they pay full attention to the speakers. Secondly, lack of mnemonic capacities may prevent people from getting access to sources of information quickly and exactly. No longer can the interpreter accurately turn the source language in to another language when they have no ability to store a certain amount of information for a short time.

However memorizing causes obstacle in interpreting, it is not something that cannot be mastered.

By hard-working and regular practicing, everyone in general and interpreter in particular can improve his memorizing skill. In order to comprehend and memorize information effectively, it is also crucial to listen to a variety of recordings from various sources. We should choose the topics most interesting first and then move to other less interesting ones. Different types of exercise also greatly contribute to our improvement. For instance, you can listen to anything you like and then try to memorize as much information as you can. Obviously, these solutions above can help you enhance your memorizing skills.

The activity of taking note is also considered a second barrier. It is necessary to highlight important roles of note taking in enhancing concentration, relieving the memory and activating the memory of the interpreter with cues or signals that call up the information in the speech.

Although notes have profound influences in interpreting process, it might not be a simple one. Based on the problems above, some methods are introduced to foster the ability of note taking. Note taking in the interpreting should not take the form of shorthand. This is a time-consuming process of deciphering is needed if all the notes are taken in shorthand codes. Even the most experienced stenographer cannot be as quick and accurate as an interpreter can when he decodes his notes. Therefore, note taking in consecutive interpreting had better use more words, which can be directly recognized. Some interpreters even create their own words, which are clear only for them. However, the principle of creating new symbols is that they should represent words or concepts that appear frequently. Once the symbols are created, the interpreter should practice using them repeatedly. Only when the interpreter may make quick responses to them can they be used in note taking. In short, the interpreter should only use symbols, which represent words, or concepts that appear frequently and whose meanings he or she is very familiar with. Symbols can only serve as supplements; it can never take the place of words in note taking.

Memory is expected to work simultaneously with note taking. As noted earlier, note taking is used to supplement memory efficiency. We can trust our notes no more than our memory. Accuracy in interpreting is only possible when we combine the two skills together. The process of note taking should be accompanied by memory. Notetaking is not to interfere in memory.

Firstly, it is good to get to know the topic or if possible the copy material prior to the work in order not to be new with the content of the utterance. In addition, practicing taking note in separated and logical form is well recommended to avoid all confusion when reading back notes. Moreover, notes using abbreviations and symbols are very helpful in activating the most information in limited time with the least effort, for example, International Monetary Fund (IMF) or International Criminal Police

Organization (INTERPOL). Besides, some symbols are also useful such as, increase ↑, decrease ↓, etc. In conclusion, interpreters usually encounter many problems in each of stages in consecutive interpreting process. Therefore, each interpreter must make an effort to improve his or her interpreting skills and knowledge. Good memorization and note-taking techniques are the keys of a successful interpreter.

#### **Reference:**

1. Gile, D. 1995. Basic Concepts and Models for Interpreter and Translator Training. Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins.
2. Gile, D. 2000. "The history of research into conference interpreting." *Target* 12:2. 297-321.
3. Cecchini P. The Benefits of a Single Market. –Aldershot, 1988
4. Rodriguez-Pose A. The European Union: Economy, Society and Policy. –Oxford, 2002
5. Шемятенков В.Г. Европейская интеграция. –М.: Международные отношения. 2003.

**ONA TILI DARSLARIDA MUMTOZ MATN BILAN ISHLASHDA  
USLUBIY TAVSIYALAR ( “LISON UT-TAYR” ASARI ASOSIDA)**

Sitorai Mohi Xosaga kiraverishda tashqi hovli, uning janubiy-g'arbiy tomonida kichik hovlili xazinaxona, janubi-sharqidagi qarama-qarshi burchakda yozgi dam olish joyiga kiriladigan darvoza bor. Yozgi dam olish joyi bog'ning to'rida bo'lib, bino kichik hovli va hovuzchaga ega. Dam olish joyining atrofi baland imorat bilan o'ralgan. Bino assimetrik yechimda milliy tusda chiroyli qilib ishlab chiqilgan.

Xulosa sifatida shuni qayd etish mumkinki, Buxoro amirligi me'morchiligining eng nodir namunasi sifatida Sitorayi Mohi Xosa saroy majmuasini olishimiz mumkin. Bu me'moriy obida barpo etilishi va bezagida nafaqat milliy an'analar, balki yevropacha an'analardan ham foydalanilgan va ular mahalliy uslublar bilan uyg'unlashib ketgan. Ammo so'ngi yillarda ushbu obidaning holati va unga mahalliy aholining munosabati qoniqarli emas, fikrimcha agar tarixchi talabalar hamda boshqa soha vakillaridan ko'ngillilar guruhi tuzilib shu kabi qadimiy va tarixiy inshootlarning holatini o'rganib omma tasarrufiga havola etiladigan bo'lsa albatta ko'riladigan muammoning natijasi ham.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 2-том. – Т.: «ЎзМЭ» давлат-илмий нашриёти, 2001.
2. Жумаев Қ. Ситорай Моҳи Хоса халқ амалий санъати музейи // Моziydan sado, №1, 2003.
3. Жумаев Қ. Ситорай Моҳи Хоса. – Бухоро, 2010.
4. Раҳмон Муиний. Бухоронинг меъморий ёдгорликлари. Қисқа йўлбошловчи. – Бухоро, 2006.
5. Vaxitov M., Mirzayev Sh. Me'morchilik. I qism. – Т. 2010.
6. <https://uzbekistan.travel/uz/o/sitorai-mohi-xosa-songi-buxoro-amirining-shahar-tashqarisidagi-qarorgohi/>

## SOYA YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASINING AYRIM JIHLARI XUSUSIDA

*Mavlonova Gulnoza Djambulovna*

*Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti, Biologiya kafedrasi o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada dukkadoshlar oilasiga mansub soya o'simligining biologik tasnifi, o'sishi, rivojlanishi, yetishtirish texnologiyasi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan soyaning o'ziga xos xususiyatlari haqida turli-tuman manbalari orqali yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Soya tarixi, dehqonchilik xususiyatlari, qishloq xo'jaligi ekinlari, tuproq unumdorligi, o'simlik navlari, oziq-ovqat mahsulotlari.

Bugungi kunda insoniyatning oziq-ovqat va biologik faol moddalarga bo'lgan talabi o'zgarishi foydali mahsulotlarni iste'mol qilish, tendensiyasining rivojlanishi ehtiyojning tobora oshib borishiga olib kelmoqda. Xususan, mamlakatimizda soya moyli maydonlarining kengaytirilishi va ulardan tayyorlanadigan mahsulotlarning ko'payishi aholining yog'-moy mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini to'la qondirish hamda chorvachilikni izchil rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Soya ming yillar davomida Sharqda yetishtirilgan, u yerdan butun jahonga tarqalgan va hozirgi kunda esa dunyo bo'ylab kata maydonlarda yetishtirilmoqda. Olimlar soyaning vatani Xitoy, Koreya, Manjuriya kabi uzoq Sharq mamlakatlari deb hisoblashadi. Soya o'simligi jahonda eng ko'p yetishtiriladigan ekinlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda AQSH, Braziliya va Argentina soya yetishtirish bo'yicha yetakchilik qilmoqda. Soya doni tarkibida katta miqdorda oqsil va moy mavjud, bundan tashqari mineral va vitaminlarga juda boy hisoblanadi. Urug'ining tarkibida 18-24% yog', 35-45% oqsil, 30% uglevod va 5% mineral, ko'p miqdorda vitamin va amino kislotalar mavjud. Soya tuproqni azot bilanta'minlovchi dukkakli ekinlardan hisoblansada, doni tarkibida yog' bo'lganligi sababli moyli ekinlar guruhiga kiradi.

Soyaning ildiz tizimi o'q ildizli, asosiy ildizning yuqori qismi yo'g'onlashgan. Pastga qarab ingichkalashgan va yon ildizlar ko'p marta shoxlangan ildizlari 150-200 sm gacha chuqurlikka kirib boradi, ammo asosiy ildiz massasi tuproqning 50 sm gacha bo'lgan qatlamida joylashgan bo'ladi. Soya ildizining o'sishi donning shakllanish davrigacha davom etadi.

Poyasi – o'simlik turiga va bo'yiga qarab o'zgaradigan 10-15 bo'g'imdan tarkib topgan, bo'g'im oraliqlari uzunligi 3-18 sm, dag'al, silindrsimon bo'ladi. Poyalari tik o'suvchi ba'zan yotib o'suvchi shakllari ham mavjud va qattiq tuzilishga ega bo'lib usti zich joylashgan tukchalar bilan qoplangan. Rangi yashil, ba'zan antotsin dog'lari bo'ladi. Poya balandligi turiga, ekish muddatlariga va yetishtirish texnologiyasiga bog'liq bo'lib 60-150 sm atrofida bo'ladi. Poya pastdan shoxlanadi, siyrak ekilganida yanada ko'proq shoxlanadi. Soya o'simligining barglari uchta bargchadan tarkib topgan murakkab barg, barg asosida yon bargchalari mavjud. Kech pishar navlarda ertapishar navlarga qaraganda barglar yirikroq. Barg yaprog'ining shakli tuxumsimon, ovalsimon yoki rombsimon bo'lib, uzunligi 3-15 sm bo'ladi. Barg qo'ltig'ida 2-25 tadan joylashgan kapalaksimon shingil to'pgul. Gultojisi oq va binafsharang. Changchilari 10 ta, changlanishi yopiq. Asosan ikkinchi mahsulot ekilishida unib chiqishidan 25-30 kun keyin gullash boshlanadi va o'simlik tanasida pastdan tepaga qarab 25-30 kun davom etadi. Soya o'zidan changlanadi. Kamdan - kam holatda chetdan changlanishi mumkin. Dukkagi 3-5 sm uzunlikda va 1 sm qalinlikda bo'lib, to'g'ri yoki egilgan, qavariq yoki yassi, xanjarsimon o'tkiruchli tuzilishga ega. Dukkaklarning shakllanishi gullashdan 11-15 kun o'tgandan so'ng boshlanadi. Dukkaklar bo'g'imli vakuchli tuklangan bo'lib ichida odatda 2-4 ta urug' bo'ladi. Yashil rangli dukkaklar rivojlanish davri davomida sariq yoki jigarrangga o'zgaradi. Soya urug'lari yassi yoki dumaloq tuzilishga ega. Urug' qobig'i qattiq, yaltiroq rangi esa navlariga bog'liq holda turlicha sariq, yashil yoki jigarrang bo'ladi. Donida oqsil miqdori 40-45 foiz va yog' miqdori esa 18-22 foizni tashkil etadi. Tarkibidan yog'i olingan soya kunjarasi inson iste'molidan tashqari hayvon ozuqasi sifatida hamishlatiladi.



Soya issiqsevar o'simlik hisoblanadi. Urug'lari 6-7 °C da una boshlaydi, maysalarining unib chiqishi uchun optimal harorat esa 12-14°C hisoblanadi. Soya o'simligi uchun vegetatsiya davri davomida talab etiladigan foydali. Soya va maxsar yetishtirish harorat yig'indisi 1700-3200°C. Rivojlanish davri davomida 18°C dan past va 40°C dan yuqori havo harorati soyaning rivojlanishiga negativ ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tuproqqa bo'lgan talabi haqida to'xtalinadigan bo'lsa, soya tuproq unumdorligiga talabchan o'simlik hisoblanadi. Odatda o'rta (neytral) rN6,0-6,5 tuproq kislotaligi soya uchun normal hisoblanadi. Neytral muhitga ega bo'lgan, unumdor, chirindiga boy, yaxshi o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan tuproqlarda soyadan yuqori hosil olish mumkin. Sho'rlangan tuproqlarda soya yetishtirilganda hosil keskin pasayadi. Qurg'oqchilikka arpa va bug'doyga qaraganda chidamsiz ammo jo'xoriga nisbatan chidamlidir. Soya ildizidagi azota bakteriyalarning kislotali tuproqlarda yaxshi rivojlana olmaydi, shuning uchun tarkibida kislotaga mavjud bo'lgan o'g'itlardan foydalanmaslik maqsadga muvofiq. Yerni ekishga tayyorlash. Dala kuzda 28-30 sm chuqurlikda plug bilan haydaladi. Bahorda o'tkaziladigan boronalash tuproqdagi namlikni saqlash bilan birgalikda ekish oldidan tuproqni mayin, donador va zichligini me'yorida bo'lishiga olib keladi. Nihollarning bir tekis unib chiqishi hamda rivojlanishi uchun urug'larni bir xil chuqurlik va namga ekish muhim ahamiyatga ega. Chizel o'tkazishda ishlov chuqurligi 13-15 sm, kultivatsiya o'tkazilsa, 6-8 sm dan oshmasligi kerak. Kuchli darajada ko'p yillik begonao'tlar bilan zararlangan maydonlarda, istisno tariqasida, ag'dargichi olib tashlangan, orqasiga borona tirkalgan plug bilan 16-18 sm chuqurlikda yumshatish hisobiga ularni ildizlari tuproq yuzasiga chiqariladi va taroqlab tashlanadi. Soya takroriy ekin sifatida kuzgi boshhoqli don ekinlaridan so'ng ekiladi. Takroriy soya yetishtirish uchun yer tayyorlash issiq vaqtga to'g'ri kelganligi va vaqtning qisqaligi sababli asosiya nisbatan birmuncha murakkab hisoblanadi. Kuzgi donli ekinlar yig'im-terimining iyun oyiga to'g'ri kelishi, yuqori havo haroratining tuproqqa negativ ta'siriga qarshi tuproq ishlovining qisqa muddatlarda amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ekish muddatlari tuproqning holati, namligi, navning biologik xususiyatlariga bog'liq. Soya asosiy ekin sifatida tuproqning 10 sm gacha bo'lgan qatlamida haroratning 12-13°C ga yetganida ekish maqbul hisoblanadi. O'zbekistonda asosiy ekin sifatida soya ekishning maqbul muddatlari janubiy hududlarda 25 martdan 5 aprelgacha, markaziy hududlarda 1 apreldan 15 aprelgacha, shimoliy hududlarda esa 15 apreldan 25 aprelgacha bo'lgan muddatlar hisoblanadi. Ertapishar navlarni esa may oyining o'rtasigacha bo'lgan muddatlarda ekish mumkin. Takroriy ekin sifatida ekish muddati iyun oyida kuzgi boshhoqli don ekinlarining yig'im-terimidan so'ng amalga oshiriladi. Bakteriyadan foydalanilganida soya ildizlarida yetarlicha azot birikib qolgani uchun o'simlik bu azot manbaidan albatta foydalanadi. Shu sababdan soya bakteriyasidan foydalanilganida ekish vaqtida yanada ko'proq azotli o'g'it berilishiga hojat yo'q. Bundan tashqari, azotli o'g'itlardan me'yordan ortiq foydalanilganida tuganak bakteriyalar hosil bo'lishining kamayishi va bakteriyalarning faoliyati natijasida hosil bo'ladigan azot to'planishi ham kamayishini unutmazlik lozim. Unib chiqishidan 2-3 hafta o'tgandan keyin ildizlar tekshirilganda bakteriya faoliyatining natijasida bo'rtmalar paydo bo'lganligini ko'rish mumkin. Olib borilgan uzoq yillik tajriba natijalariga asosan, soya o'simligiga 30-40 kg azot, 70-90 kg fosfor va 30-40 kg kaliy solish lozim deb hisoblanadi. Soyada ekish jarayoni urug' ekish mashinasi yordamida amalga oshiriladi. Respublikamizda urug' ekish me'yori ertapishar navlar uchun 400-500 ming dona, o'rtapishar navlar uchun 350-400 ming dona va kechpishar navlar uchun 300-400 ming dona qilib belgilangan. Shundan kelib chiqib gektariga 60-70 kg dan 90 - 100 kg gacha unuvchan. Bu miqdorga urug'ning yirikligi ham o'z ta'sirini o'tkazadi va yirik urug'larning ekilish me'yori tabiiy ravishda ko'proq bo'ladi. Burishgan, yorilgan, yashil va yetilmagan urug'lar ekish uchun yaroqsiz hisoblanadi. Soya 3-5 sm chuqurlikka qator orasi 60-70 sm qilib ekiladi. Tuproq yuzasi qurib qolgan bo'lsa 6-7 sm gacha chuqurlikka ekish mumkin. Ekinni parvarishlashga kelinadigan bo'lsa, birinchi kultivatsiya ishlari maysalar qiyy'os unib chiqqandan so'ng amalga oshiriladi. Keyingi kultivatsiya ekinzorni begona o'tlar bilan zararlanishi, tuproqning holati, sug'orishdan keyin tuproqning yetilganligiga qarab o'tkaziladi. Qator oralarini ishlash odatda har 10-15 kunda dalaning holatiga qarab o'tkaziladi. Birinchi kultivatsiya 6-8 sm, keyingilari 10-15 sm chuqurlikda o'tkaziladi. Ekinlarni sug'orish ishlarini amalga oshirishda tuproqning mexanik

tarkibi va sizot suvlarning sathini hisobga olish lozim. Hududning iqlim sharoitlariga bog'liq holda sug'orish me'yorlari 700 dan 4500 m<sup>3</sup>/ga bo'lishi mumkin. Soya rivojlanishining gullash va dukkak hosil davrida suvga bo'lgan talabi yuqori bo'ladi. Shu sababli sug'orish vaqtini kechiktirmaslik lozim. Soya barglarning qisqarishi va xiralashishi sug'orish muddati kelganligini bildiradi. Sug'orishlar don to'lishishidan so'ng to'xtatiladi. Sug'orishni erta yakunlash hosilni kamaytiradi, kechiktirish esa vegetatsiya davrining uzayishiga sabab bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Атабаева Х.Н. Худайкулов Ж.Б., “Ўсимликшунослик”, “Фан ва технологиялар” нашриёти, Тошкент; 2018.
2. Сулаймонов Б.А., Атабаева Х.Н. ва бошқалар. “Соя экинни етиштиришни биласизми” Тош ДАУ тахририят нашриёт бўлими, Тошкент; 2017.
3. Туркия Республикаси Озиқ-овқат қишлоқ хўжалиги вазирлиги ҳамда “Денизбанк” ҳамкорлигида тайёрланган “100 та китоб”дан иборат тўплами.
4. Ёрматова Д.Ё., Хушвақтова Х.С. “Мойли экинлар”, Зарафшон; 2008.
5. Deniz Bank. Soya va Aspir Yetistiriliciligi. Ankara; 2012.
6. Атабаева Х.Н., Юлдашева З.К. “Мойли экинлар биологиясининг илмий асослари ва етиштиришда инновацион технологиялар” ЎзР Фанлар академияси Асосий кутубхонаси.
7. Файзиев, В. Б., Кадырова, З. Н., Эшбоев, Ф., Жураева, У. М., & Вахабов, А. Х. (2014). ИЗУЧЕНИЕ РАСПРОСТРАНЕНИЯ У ЕСТЕСТВЕННЫХ РАСТЕНИЙ-РЕЗЕРВАТОРОВ УВК МЕТОДОМ ИФА. Вестник Прикаспия, (2), 6-9.
8. Zakirov, D., & Madaminova, G. (2020). CLUSTER TEACHING METHOD FOR DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL EDUCATION AND FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE OF SCHOOLCHILDREN IN GENERAL EDUCATIONAL SCHOOLS. Биология ва экология электрон журнали, 2(2).
9. Zakirov, D. (2020). ECOLOGICAL EDUCATION IN PRESCHOOL INSTITUTIONS. АСТАНУУз, 1(4), 72-74.
10. Доннер Уткирович Закиров, & Жасур Хабибуллаевич Гулямов (2020). ЭКСКУРСИОННАЯ МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ПО РАЗВИТИЮ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ШКОЛЬНИКОВ В ОБЩЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНА ШКОЛАХ, Science and Education, 1 (Special Issue 1).
11. Zakirov, D., & Madaminova, G. (2020). Ekologik ta'limni rivojlantirish va umumiy o'rta maktablarida o'quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirish. Биология ва экология электрон журнали, 2(2).
12. Собирова, З. Ш., & Файзиев, В. Б. (2020). ОСОБЕННОСТИ РОСТА И РАЗВИТИЯ РАЗЛИЧНЫХ ГЕНОТИПОВ КУКУРУЗЫ ИНФИЦИРОВАННЫХ MDMV (Maize dwarf mosaic virus). Биология ва экология электрон журнали, 4(2).
13. Атабаева, Д, & Файзиев, В. Б. (2020). УЦУВЧИЛАРИНИНГ СОГЛОМ УСИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИДА УЙЦУНИНГ АДАМИЯТИНИ УРГАНИШ. Биология ва экология электрон журнали, 4(2).
14. Муталов, К. А., Рамазонов, Б. Р., & Закиров, Д. У. (2020). Полукустарничковая растительность Юго Западного Кызылкума Материалы международной научно-практической конференции «Охрана и рациональное использование природных ресурсов Южного Приаралья» г.
15. Закиров, Д. У. (2020). ЭКОЛОГИК ТАЪЛИМДА МАНТИҚИЙ ФИКРЛАШ ВА МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМДАН УНУМЛИ ФОЙДАЛАНИШНИ РИВОЖЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ. Биология ва экология электрон журнали, 4(2).
16. Abdukhmidovna, M. N, (2020, August). MODERN ASPECTS DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL COMPETENCE OF STUDENTS IN UNIVERSITIES. In Archive of Conferences (Vol. 4, No. 4, pp. 163-167).
17. Ramazonov, B. R., Mutalov, K. A., Fayziev, V. B., & Koraev, S. B. (2020), Morphogenetic characteristics and biological activity of takyр and meadow soils of the republic of karakalpakstan (on the example of soils of chimbay district).

## INFLYATSION TARGETLASH SIYOSATINI O‘ZBEKISTONDA JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

*Jumaniyazov I. (Dotsent)*  
*Mingboyev I. (TMI talabasi)*

Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida narxlar barqarorligini taminlashda monetary siyosatning tobora ommalashib borayotgan yangicha usuli inflyatsion targetlash rejimi bo‘lib, hozirgi dunyoning 30 ga yaqin mamlakatlar inflyatsiya darajasini samarali jilovlashda ushbu usulni qo‘llab kelmoqda. Inflyatsiya, iqtisodiy tizimni majburlantiruvchi birlamchi omillardan biri sanaladi. Har qanday hukumat esa uni past darajada tutib turishga harakat qiladi.

Shunga monand, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabrdagi “Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan Markaziy bankning o‘rta muddatli istiqbolda inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o‘tish taklifi qo‘llab-quvvatlangani ham shunday say harakatlardan biridir.<sup>131</sup>

O‘zbekistonda inflyatsiya darajasini pasaytirish barqaror uzoq muddatli iqtisodiy o‘shishga erishishning eng muhim shartidir. Biroq so‘nggi yillarda dunyo mamlakatlarida inflyatsiyaning nisbiy o‘shishga monand ravishda O‘zbekistonda ham inflyatsiya darajasi yil sayin oshib bormoqda. Nisbatan yuqori inflyatsiya iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalari uchun jiddiy qiyinchiliklar tug‘diradi: davlat uchun jamiyatda ijtimoiy keskinlikni yuzaga keltiradi; tadbirkorlar uchun ularning investitsiyaviy va kredit imkoniyatlarini pasaytiradi; aholi uchun turmush darajasini pasaytiradi.

Inflyatsion targetlashning asosiy shartlari bo‘lib, inflyatsiya past bo‘lgan sharoitda iqtisodiyotning samarali faoliyat yuritishi, milliy valyutaning suzuvchi kursi rejimlari, ishonchli moliyaviy tizimning mavjudligi, jamoatchilikning pul-kredit siyosatiga ishonchi, markaziy bankning mustaqilligi, eng asosiysi esa pul-kredit siyosatining maqsad va vazifalarini ro‘yobga chiqarishdir.

Odatda, narxlar barqarorligini taminlash Markaziy bankning foiz stavkalarini o‘zgartirish bilan amalga oshiriladi. Bunday vaziyatda banklar bir-birlariga qarz berishda belgilanadigan banklararo foiz stavkalari tartibga solinadi. Agar inflyatsiya maqsad ko‘rsatkichidan yuqori bo‘lsa, unda banklar foiz stavkalarini ko‘taradi.

Biroz vaqt o‘tgach, bu amal inflyatsiyaning pasayishiga olib kelishi mumkin. Aksincha, agar inflyatsiya darajasi maqsad ko‘rsatkichidan pastroq bo‘lsa, unda banklar foiz stavkalarini pasaytiradi. Shunday qilib, regulyator restriktiv yoki ekspansion pul-kredit siyosatini amalga oshiradi.

Inflyatsiyani targetlash qattiq va moslashuvchan usullarga ko‘ra farqlanadi. Inflyatsiyani qattiq targetlash doirasida Markaziy bank har qanday makroiqtisodiy sharoitda inflyatsiyaning belgilangan maqsad ko‘rsatkichlariga erishish yuzasidan o‘z zimmasiga ulkan mas‘uliyat oladi. Ushbu tizim iqtisodiy subyektlarning Markaziy bank siyosatiga nisbatan ishonchini mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

Rejimning kamchiligi, pul-kredit siyosati instrumentlarining tez-tez va sezilarli o‘zgarib turishi bo‘lib, bu qisqa muddatda iqtisodiy o‘shish, ish bilan bandlik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning boshqa parametrlariga salbiy tasir ko‘rsatadi. Moslashuvchan inflyatsion targetlash rejimi qisqa muddatda maqsaddan chetga chiqishga imkon beradi hamda inflyatsiyaga qarshi pul-kredit siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish parametrlariga salbiy tasirini yumshatishga imkon beradi.

<sup>131</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PK-3272- sonli qarori. 13.09.2017 yil <http://lex.uz/docs/3339554>

Quyida inflyatsiyani targetlash siyosatini qo'llovchi mamlakatlarning unga o'tishdan oldingi va keying inflyatsiya holati keltirilgan.

**1-jadval**

**Inflyatsiyani targetlash siyosatini qo'llovchi mamlakatlarning unga o'tishdan oldingi va hozirgi inflyatsiya holati<sup>132</sup>**

№	Mamlakatlar nomi	Inflyatsiyani Targetlashsiyosatga O'tish davrida inflyatsiya summasi(0%)	Inflyatsiyani Targetlash siyosatiga o'tish davrida inflyatsiya sur'atlari (0%)	2016 yilga Inflyatsiyani O'rtacha yillik ko'rsatkichi (0%)	2017 yilga inflyatsiyani O'rtacha yillik ko'rsatkichi (0%)	Pul-kredit siyosatining Avvalgi maqsadli Ko'rsatkichlari
<b>Rivojlangan mamlakatlar</b>						
1	Yangi zelandiya	1990	6,1	0,6	1,9	Yo'q
2	Kanada	1991	5,6	1,4	1,6	Yo'q
3	Buyuk Britanya	1992	4,3	1	2,7	Almashuv kursi
4	Avstraliya	1993	1,8	1,2	2,0	Yo'q
5	Shvesiya	1993	1,8	1,1	1,9	Almashuv kursi
6	Shvetsariya	2000	2,6	-0,4	0,5	Pul taklifi
7	Islandiya	2001	6,4	1,7	1,8	Almashuv kursi
8	Norvegiya	2001	3,0	3,5	1,9	Almashuv kursi
<b>Rivojlanayotgan mamlakatlar</b>						
1	Chexiya	1997	8,6	0,6	2,4	Almashuv kursi va pul taklifi
2	Isroil	1997	9,0	-0,5	0,2	Almashuv kursi
3	Polsha	1998	7,3	-0,6	2,6	Almashuv kursi
4	Chili	1999	3,3	3,7	2,2	Almashuv kursi
5	JAP	2000	5,4	6,3	5,3	Pul taklifi
6	Janubiy Koreya	1998	7,5	0,9	1,9	Pul taklifi
7	Meksika	2001	9	2,8	6	Pul taklifi
8	Fillipin orollari	2002	4,5	1,7	3	Almashuv kursi va pul taklifi

Jadval malumotlaridan ko'rinib turibdiki, mazkur strategiyani o'z iqtisodiyotiga joriy etgan mamlakatlarning deyarli barchasi ijobiy ko'rsatkichlarga erishgan.

Jumladan, rivojlangan mamlakatlardan Kanada 1991 yilda targetlash siyosatiga o'tishdan avval inflyatsiya darajasi 5,6% ni ko'rsatgan, targetlash rejimini qo'llashning natijasi o'laroq, bugungi kunda bu ko'rsatkich 1,6% ga tushirilgan. Birlashgan qirollikda esa 1992 yilda 4,3% bo'lgan bo'lsa, keying yillarda 1,0 % ga tushgan. Rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan, Chexiyada

<sup>132</sup> Sattarov.O. "Inflyatsiyani targetlash siyosati hamda uning jahon amaliyotida namoyon bo'lishi". Iqtisodiy va innovatsion texnologiyalar" ilmiy – electron jurnali ( 3-son, may-iyun 2014).

inflyatsion targetlashni qo'llashdan avval 8,6% bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda 2,4% tushgan. Isroilda dastlab 9,0% bo'lgan bo'lsa, keyingi yillarda 0,2% ni tashkil qilgan. Polsha mazkur rejimni 1998 yil qabul qilishidan oldin qadsizlanish darajasi 7,3% bo'lgan, samarali qo'llash natijasida uni 2,6% ga tushurishga muvaffaq bo'lgan.

Umuman olganda, inflyatsion targetlash siyosatini qabul qilgan mamlakatlarda inflyatsiya darajasi yetarlicha past darajada va barqaror ekanligi malum bo'ldi.

Pul-kredit siyosatini qo'llash bo'yicha jahon tajribasi iqtisodiyotning uzoq muddatli o'sishiga qulay shart-sharoitlar yaratish uchun narxlar barqarorligiga qaratilishini tasdiqlaydi. Shu munosabat bilan Markaziy bank tomonidan amalga oshirilishi rejalashtirilgan pul-kredit siyosatining asosiy maqsadi inflyatsiya sur'atlarini bosqichma-bosqich pasaytirishdir.

Shunday bo'lsa-da, O'zbekiston Respublikasi pul-kredit tizimi va iqtisodiyotning real sektori rivojlanishining xususiyatlari, shuningdek, tashkiliy-huquqiy asoslarning zaifligi yaqin kelajakda mamlakatda inflyatsiyani targetlash rejimi va suzib yuruvchi valyuta kursini qo'llashda imkon bermaydi. Mazkur rejimni qo'llash, rivojlanishi tashqi omillar bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiyotga joriy qilish noaniq va bahsli masalalardir.

O'zbekiston iqtisodiyotining xomashyo eksportiga yo'nalganligi tufayli, tashqi bozorda xomashyo narxlarining qimmatlashuvi, milliy valyutaning mustahkamlanishiga olib keladi va eksport qilmaydigan ishlab chiqarish sohasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu holda an'anaviy ravishda, mamlakatda yaqqol ko'rinib turgan taklif inflyatsiya xukm surayotgan paytda talab inflyatsiyasini tartibga solishga qaratilgan inflyatsion targetlash rejimini joriy qilish ushbu vositaning samaradorligi pasayishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, inflyatsiyani tartibga solish zarurati, mamlakat raqobatbardoshligini oshirish va uning jahon iqtisodiyotiga samarali integratsiyasini mustahkamlashni talab qiluvchi global munosabatlar bilan bog'liqdir. O'zbekiston Markaziy bank va boshqa hukumat idoralarning inflyatsion targetlashni joriy etish uchun institusional, xuquqiy va iqtisodiy islohatlarni ( yangi soliq konsepsiyasi, axborot oshkorligini ta'minlash, moliya bozorini rivojlantirish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun qo'shimcha chora-tadbirlar) ishlab chiqish uchun harakat qilishiga qaramasdan, aholi real daromadlarining past ko'rsatkichlari, inflyatsion kutilmalarning yuqoriligi, soliq siyosatining ushbu rejimini qo'llash istiqbollari so'roq ostiga qo'yadi. Boshqacha aytganda, mavjud makroiqtisodiy va institusional muhit, O'zbekistonda inflyatsiyani targetlashni muvafaqqiyatli amalga oshirish uchun asosiy va birlamchi to'siqdir.

O'zbekistonda o'rta muddatli istiqbolda inflyatsiyani targetlash siyosatini qo'llash va uni muvafaqqiyatli amalga oshirish hamda pul-kredit siyosatini sog'lomlashtirishning asosiy sharti sifatida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- Tabiiy monopoliyalar maxsulotlari va xizmatlarining baxolari o'sish sur'atlarini pasaytirish va barqarorligini ta'minlash lozim.
- Pullar taklifini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish.
- Markaziy bankning komunikatsion siyosatini rivojlantirish hamda iqtisodiy subyektlarning pul-kredit siyosatiga nisbatan ishonchini oshirish lozim.
- Tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalarini shakillantirishning bozor mexanizmlarini joriy etish.
- Iqtisodiyotning pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish.
- Monetar siyosatning ta'sirini instrumentlarini tanlash orqali transmission mexanizm kanallari samaradorligini oshirish;
- Ichki valyuta bozori faoliyatini yanada liberallashtirish va takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni tizimli davom ettirish;
- Monetary siyosatning mavjud instrumentlarini takomillashtirish va yangi zamonaviy bozor instrumentlarini joriy etish;
- Banklararo pul bozori faoliyatining shaffofligini oshirish va rivojlantirish;
- Moliya bozorini, shu jumladan, davlat qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish;



## YANGI O‘ZBEKISTONDA III RENESSANS TARAQQIYOTI UCHUN ENG AVVAL MA’NAVIYAT, KEYIN BOSHQASI

*Mirzahamdorov Saxovatbek Dilshodbek o‘g‘li*  
*Andijon Davlat univesiteti, Tarix fakulteti 2-kurs talabasi.*

Bir qancha davlatlar va jamiyatlar o‘z oldiga avval iqtisod, keyin siyosat tamoyilida yoki uning aksi ko‘rinishida kelajak modullarini yaratdilar. Lekin ma’naviylikka to‘laligicha erisha olmadilar. Buning oqibatida siyosiy jabhada I va II jahon urushlari, terrorizm, ommaviy qirg‘inlar ro‘y berdi. Umuman olganda bu davrda jamiyatlarning iqtisodiy va siyosiy qudrati ba’zi jamiyatlarni baxtli qilishga yetmadi, balki vayronaliklar uchun xizmat qildi. Chunki, iqtisodiyot va siyosatni boshqarib turuvchi ma’naviylik urush kelib chiqish darajasiga yetgulik darajasida unutilib qo‘yilgandi. Aslida iqtisodiyot va siyosat hech qaysi jamiyat uchun baxtli kelajak va’da qilmaydi ham. Turli davrlarda shunday vayronaliklar bo‘ldiki, bu ba’zi mamalakatlar uchun asrga tatigulik miqdorida iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqardi. Yuqorida keltirganlarimiz barchasi faqatgina insoniyatning siyosiy jabhadagi mag‘lubiyati xolos. Ming afsuski, insoniyat ma’naviyatsizlik natijasida inson o‘zligini, tabiatni, axloqiy va muqaddas qadriyatlarini boy bermoqda. Insoniyatni iqtisodiy yoki siyosiy jihatdan emas, balki ma’naviy qudratli qilish ayni global masaladir. Ayni shuning uchun bunga bir qadar yechim topishga harakat qilib ko‘rsak.

Tarixga qisqa nazar solsak, ma’lumki, jahondagi jamiyatlar u yoki bu davrda qaysidir miqyosda o‘z va jahon renessanslarini boshidan kechirganlar. Ilm-fan, madaniyat va tafakkurda eng yuqori cho‘qqilarga erishganlar. Yangi O‘zbekistonda ham III renessans uchun asoslangan strategiyalar bilan qurollangan holda amaliy harakatlar boshlangan. O‘zbekiston tarixida avval ham renessanslar bo‘lgan. Ammo ular miqyosi va mazmuniga ko‘ra tasniflanadi. Ma’lumki renessanslar ikki miqyosda bo‘lgan. Birinchi shakliga – ilm-fan, madaniyat va tafakkuriy rivojlanishda jahonga ta’sir o‘tkaza olish bilan lol qoldira olgan mutlaq renessans bo‘lsa, ikkinchi shakliga – jamiyaning avvalgi holatidan mamlakat ichra katta sakrashlar orqali amalga oshuvchi nisbiy renessansni misol sifatida ko‘rsatishimiz mumkin. Masalan, IX-XII asrlar Sharq Rennansini mutlaq darajadagi renessanslar qatoriga kiritsak, jadidlar XIX asr oxir - XX asr boshlarida amalga oshirmoqchi bo‘lgan lekin, diniy mutassiblik, mamlakatdagi monarxiya, SSSR tomonidan qo‘yilgan to‘siqlar orqali bu amalga oshmay qolgan jadidlar renessansi esa nisbiy renessans hisoblanadi. Shunday ekan bizda o‘rinli savol tug‘iladiki, bizning xalqimiz uchun qaysi bir renessans manfaatliroq yoki qulayroq Bu savolga muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida quyidagicha javobni keltirmoqda: “Ayni paytda biz erishilgan yutuqlar bilan kifoyalanib qolmasligimiz, xotirjamlikka berilmasligimiz lozim. Bu yo‘lda ko‘zlagan marralarimizga erishish va yangi jamiyatning mustahkam poydevorini yaratish, O‘zbekiston dong‘ini olamga yoyish bilan bog‘liq dolzarb vazifalarimiz borligini yaxshi anglaymiz” [1, b. 6].

Shunday ekan jamiyatda komil inson va buning natijasi o‘laroq eng baxtli jamiyat yaratishda endi avval iqtisod, keyin siyosat emas, baxtli endi yangi ijtimoiy-siyosiy ezgu g‘oya bo‘lmish “Eng avval ma’naviyat, keyin iqtisod va eng so‘ngida siyosat” degan shior va mafkurani ilgari surmoqchimiz. Shuningdek, bu g‘oya komil inson hamda baxtli jamiyat qurishda birdek formula bo‘lib xizmat qiladi. Chunki, inson jamiyatning bir qismi, jamiyat esa ko‘plab insonlarning ayni bir maqsadda uyushgan jamoasidir. Jamiyat ham, inson ham qaysidir manfaat uchun yashaydi hamda rivojlanadi. Bu borada ma’naviyatning siyosat va iqtisoddan ustun qo‘yamiz. Osmono‘par va havoyi gaplardan qochgan holda bu g‘oyamizni dalillab, ko‘rsatib o‘tsak. Manaviyatning ustun jihatlari esa quyidagicha:

Birinchidan siyosat va iqtisodiyot neytral sohalar bo‘lib, yaxshilikka ham, yovuzlikka ham birdek xizmat qilishi mumkin. Ma’naviyat esa mutlaqo ijobiy tushuncha bo‘lib, uning qarshisida faqat, ma’naviyatsizlik turadi xolos.

Ikkinchidan iqtisod va siyosat kabi moddiyatni mutlaqlashtiruvchi sohalar bu jarayonni tashkil etuvchi eltuvchi vositalardir. Ma'navyat esa butun maqsadni belgilovchi, yo'naltiruvchi va hattoki maqsadni o'zi bo'lishi ham mumkin.

Uchinchisi va eng asosiysi, ma'navyat nafaqat bu dunyo balki ikki dunyo saodatini belgilovchi asosdir.

Endigi so'zni ma'navyatning asl mohiyati borasida so'zlasak. Bir qancha olimlar fikricha ma'navyat deganda insondagi barcha ijobiy fazilatlar yig'indisidir. Bizningcha ma'navyat - insondagi axloq, e'tiqod va aqlining uyg'un tarzidagi mohiyatidir. Chunki, inson hayvonot olamidani aql-tafakkuri bilan emas, balki ma'naviyati bilan ajrab turadi. Ma'navyat esa insondagi hayvonot olamida bo'lmagan aql-tafakkur, go'zal xulq va e'tiqodning nafaqatgina borligi bilan emas, balki bu fazilatlarini o'zaro uyg'unlashuv qobiliyati deb qaraymiz. Uyg'unlashuv deganda biz shuni nazarda tutaymizki, ilm-fan ham, axloq ham, din ham o'z holicha yakka holda qaysidir shaxslar yoki qaysidir manfaatlar qo'lida qurol, ixlosmandlari esa o'yinchoq bo'lishi mumkin. Lekin bu sohalarining birgina farqli yutug'i agar ilm-fan, axloq va din bir-biriga uyg'un holda va bir-birini to'ldirib tursa, bir-biri bilan hisoblashib tursa, albatta, dunyoda tinchlik o'rnatilishi mumkin. Nafaqat tinchlik, bir-biriga uyg'unlashish hisobiga din ham, ilm fan ham, inson axloqi ham yuksalishiga olib keladi. Bu yuksalish esa insoniyat iqtisodiy va siyosiy ahvoriga sezilarli ta'sir etishi aniq. Bundan kelib chiqib, jamiyatimizdagi ana shu uch qadriyatning ahamiyatini ko'rib chiqsak;

**Muqaddas din.** Umuman olganda barcha dinlarning asosi ezgulik hisoblanadi. Dinlar jamiyat hayotida birlashtirish, tasalli berish, tarbiyalash va boshqa funksiyalarni ham bajaradi. Buni shunday dalillaymizki, dunyoga ta'sir o'tkazgan buyuk daholarning reytingida yetakchi o'rinlarda o'z davrining sivilizatsion ta'limotlar va dinlar asoschilari bo'lmish payg'ambarlar bo'y ko'rsatib turibti. Dinni aql nuqtai-nazaridan olib qarajak, avvalo tarbiyaviy mafkura sifatida zarurdir va biz hech qaysi usulda ham dindan ayro tusha olmaymiz. Lekin, hozirgi kunda diniy terrorizm holatlari va aqidaparastlik holatlari ro'y bermoqda va bunda tabiiyki, aqlga sig'mas va sog'lom axloqiy holatlar cheklanib qolayotganligi ko'rinib turibti. Hammaga ma'lumki, biror narsani tushunib, oldini olish uchun u haqida xabardor bo'lish kerak. Dunyo Islom terrorizmi domiga tushib qolayotgan bo'lsa, unga qarshi to'g'ridan – to'g'ri qarshi kurashish emas, balki ayni shu islom dini haqida asosiy bo'lsa-da bilim va malakaga ega bo'lish zarur. Aytish kerakki, aql dinning butun g'ayb sirlarini bilishga va butun boshli bir dinni tiyib turishga qudrati yetmaydi ham. Chunki, inson dinning o'zi bildirib qo'ygan narsasini bilib, boriga qanoat qiladi. Ammo aql dinning asl mohiyatiga nisbatan qo'llanilish talqinini nazorat qilish qudratiga ega. Xuddi shu sababdan ham din va ilm-fanning uyg'unlashuvi bu borada o'rinlidir.

**Axloqning** tinchlikparvarlik, elparvarlik, ezgulik va mehribonlik do'stlik kabi o'ziga xos o'z kategoriyalari va talqinlari bo'lib, eng mo'jizaviy xususiyatli tarafi shundaki, uni barcha insoniyat yaxlit, birdek qabul qilishidir. Chunki insonlar ilmiy tomonlama g'oyalar qarama-qarshiligi yoki din tomonlama esa mafkuralar va ta'limotlar qarama-qarshiligi vujudga kelishi mumkin. Lekin axloqni esa hamma birdek qabul qiladi. Chunki, axloqiy qadriyatlar na diniy mafkura va na ilmiy g'oyani mutlaqlashtiradi. Lekin hozirgi kunda erkinlikning keragidan oshiq madh etilishi aqlga sig'mas va diniy normalarga tushmaydigan axloqiy tizimlarni ishlab chiqilishiga olib kelmoqda. Bir jinslilarning o'zaro nikohi, jins almashtirilishi va hayosizlik holatlari shular jumlasidandir. Bu holatlar erkinlikning tarannumi deb qabul qilinishi mumkin lekin, bu sog'lom aql va sog'lom aqidadagi dinga nomuvofiqligi ko'zga ko'rinib qoladi.

Ilm-fanni barcha inson o'z aqlini jamiyatning barcha sohalarida yangilik va o'zgartirishlar kiritishda Xudo tomonidan berilgan eng ulug' ne'mat. Lekin inson ongidagi ilm ham o'z o'rnida qalbgaga qovushmog'i kerak, agar ikkalasi bir-biriga qovushmasa u ilmdan eng kamida foyda ham yo'q, aksincha, yomonlik uchun xizmat qilishi ham mumkin. Chunki, agar aql qalb bilan qovushmasa u insonni hech qachon oqil deb bo'lmaydi, balki hiylakor va ayyor shaxs bo'lib qoladi. Bunga isbot qilib, tadqiqotchi tashkilotlar tomonidan antiqa shikoyatlarni ko'rsatib o'tmoqchimiz. Ular jinoyatlarning avvaldan puxta rejalashtirilib, "oqilona" amalga

oshirilayotganidan shikoyat qiladilar. Bunday jinoyatlarning eng yirik ko‘rinishlari jahon urushlari shaklida ham yaqqol namoyon bo‘layotganini ko‘rish mumkin.

Ma‘navyatining asosini tashkil etuvchi na muqaddas dini, na yuksak axloqiy qadriyatlari va na ilm-fani bo‘lmagan jamiyatning kelajagi o‘likdir.

Bizning fikrga ko‘ra ma‘naviylik g‘oyalari avvalo hech qanday siyosiy, iqtisodiy va boshqa manfaatlarga emas, balki insoniyatga xizmat qilishligi lozim.

Ijtimoiy fanlar va ma‘naviylik (din, axloq va ilm-fanning uyg‘unlashuvi)ni birlashtirib turuvchi asosiy omil bu ularning **mafkuraviyligidir**. Chunki ijtimoiy fanlar ham o‘z o‘rganish obyekt va predmatiga ega fan bo‘lishligi bilan birga jamiyatning ongiga ta‘sir qila oluvchi mafkura hamdirlar.

**II yo‘nalish.** Yangi O‘zbekistonda III Renessansga olib boruvchi II yo‘nalish shundan kelib chiqadi. Jamiyat hayotida iqtisodiy va siyosiy omillarga e‘tiborni susaytirmagan holda, inson ongiga ijtimoiy normalarni singdirish va insoniyat o‘z-o‘zini halok etuvchi holga kelgan davrda endi ko‘proq ijtimoiy yangiliklarga e‘tibor kuchaytirish lozim. Bunga asoslanganimizning sabablari quyidagicha:

Dastlabki sababi ijtimoiy sohada tadqiqot va amaliyot maydoni jamiyatning o‘zi ekanligi jamiyatda ijtimoiy g‘oyalarning liberallashtirishiga olib keladi.

Ikkinchidan ijtimoiy bilimlar ayni bir qolipga solinmagan bo‘lib, tadqiqoti ham mutlaqo erkinligi bu sohada yangilik qilish ancha muvaffiqiyatli kechishini ta‘minlaydi. Zero, barcha texnik va texnologik ixtirolar ana shu ijtimoiy masalalar hal qilingandan so‘ngina mumkindir.

Uchinchidan odamlar bir-birlaridan o‘zlarining fikrlashlari, fe‘l-atvori, qarashlari, e‘tiqodlari, orzulari kabi jihatlarida farqlangani kabi jamiyatlar ham ayni shu o‘rinda bir-biridan farqlanishi har bir jamiyatni o‘z etnopsixologiyasiga mos ravishda taraqqiyot mafkurasini yaratishi lozimligini taqozo qiladi. Masalan, ayni bir jamiyatda ish bergan mafkuralar boshqa jamiyatlarda ish bermasligi yoki qaysidir ijtimoiy tushunchani hamma xalq birday qabul qila olmasligi mumkin. Aytaylik “demokratiya” tushunchasini qaysidir jamiyat tenglik, yana qaysidir jamiyat erkinlik, yana qaysidir jamiyat esa haqiqat deb qabul qiladilar. Ayni shuning uchun ham har bir jamiyat etnopsixologik jihatdan o‘zligini anglab yetib o‘z taraqqiyot mafkuralarini belgilashi lozim. Bu yo‘lda ularga ijtimoiy fanlar va ma‘naviy (muqaddas qadriyatlari, axloqi va ilm-fani) omil katta ro‘l o‘ynaydi.

To‘rtinchidan hozirgi kunda mamlakatlararo raqobatlarida davlatlarning texnik-texnologik jihatdan ustunlik xususiyati allaqachon o‘z o‘rnini mafkuraviy ko‘rinishga bo‘shatib bergan. Texnik qurollar esa “qo‘rqitish” vositasi bo‘lib qolgan xolos. Shunday ekan, har xil mafkuralardan himoyalashda tabiiyki, ijtimoiy fanlarga tayanishimiz aniq. Bunda tabiiy va aniq fanlar bilan g‘oyaviy chigallikni baholab ham, yechib ham bo‘lmaydi.

Biz bu g‘oyamizni ilgari surmoq uchun ijtimoiy dasturimizni e‘lon qilamiz.

#### **“Renessans” dasturi.**

Ma‘naviylikni targ‘ib qiluvchi axloqiy va diniy qadriyatlarni o‘zaro taqozo qiluvchi ijtimoiy fanlar bo‘lib, ayni shu ijtimoiy fanlar orqali insonni o‘qitib va o‘qitilgan mukammal malakaviy nazorat attestatsiyasini o‘tkazish dasturi orqali, inson ongiga ma‘naviyat singdirish lozim.

Dasturning maqsadi quyidagicha bo‘lishi lozim.

- Shaxs potensialini tashqi voqeikka muvofiqlashishini oshirish orqali ularning ijtimoiy-siyosiy va ma‘naviy salohiyatini imkon qadar oshirish.
- Shaxsni jamiyatda ijtimoiylashuvini faollashtirib, shaxs sifatida kamolga toptirish.

Dasturning xususiy vazifalari:

- Shaxsning ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-ma‘rifiy salohiyatini baholash;
- Dastur shartlarining vazifasi shaxsning bilimni malakaviy-ko‘nikmaviy shaklda attestatsiya qilish va bilimlarning tahlil va xulosaviy tanqidiy amaliyoti ya‘ni olgan bilimlarini hayotga tadbiiq eta olish qobiliyatini shakllantirish. Eslatib o‘tish kerak, dastur test jarayonida omad emas, balki qattiq mehnat va yuksak amaliy bilim fundamental ahamiyatga ega.
- Dasturda hamma g‘olib bo‘la olish imkoniyati hisobga olingan holda shaxsning o‘z ichki qobiliyatini o‘zga shaxsga nisbatan emas, balki o‘z-o‘zini boshqara va yo‘naltira olish qobiliyati orqali shakllantirish va yuksaltirish.

- Dasturning asosiy mexanizmi quyidagi ijtimoiy fanlarning shaxsning kundalik faoliyatlari uchun mo'ljallangan va o'sha shaxsni jamiyat bilan munosabatini bevosita bog'lab turuvchi, ayniqsa, shaxsning ehtiyoji va jamiyatning butun jabhasining rivojini belgilab beruvchi fan sohalarini hayotga tadbiiq eta olish qobiliyatini shakllantirilganini attestatsiya nazoratidan o'tkazib baholash.

Dastur quyidagi bir-birini rad etmaydigan balki taqozo qiladigan ijtimoiy fanlar asosida bilim va amaliy ko'nikmalarni o'zgaralar bilan raqobat qilish hisobiga emas, balki o'zi-o'zini mashg'ul qilish, imkoniyatlarini to'g'ri yo'naltirish va rivojlantirish hisobiga o'zlashtirish ham ko'zda tutiladi. Shuningdek, nazorat imtixonini asosida xotira kuchiga tayanuvchi va natijalari omadga bog'liq bo'lgan emas, balki, mukammal amaliy-malakaviy test dasturi bo'lgan holda faoliyat yuritirishi lozim.

- 1) Ibrat (Tarix va Adabyot).
- 2) Qonunchilik.
- 3) Psixologiya
- 4) Iqtisodiyot
- 5) Chet tili
- 6) Qadriyatlar. (urf-odatlar, dini va boshqalar kabi).

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. T.: "O'zbekiston", 2021, 464 b.

## UCHUVCHISIZ UCHISH APPARATLARIDAN QISHLOQ XO‘JALIGIDA KENG FOYDALANISH

*Modullayev J.S. (TATU)*

*Mamashov S.A. (TATU)*

Uchuvchisiz uchish apparatlarini tasniflash qiyin, chunki ular turli xil xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkin. Bu xilma-xillik UAV konfiguratsiyasi va komponentlarining ko‘pligidan kelib chiqadi. Hozirgi kungacha ishlab chiqaruvchilar hech qanday standartlar bilan cheklanmagan. Natijada, bugungi kunda aviatsiya regulyatorlari tomonidan UAV qanday jihozlanishi kerakligi haqida hech qanday talablar yo‘q. Dronlar 4 qanotli vertolyotga o‘xshaydi. Ular hajmi, funktsionalligi, parvoz masofasi, avtonomiya darajasi va boshqa xususiyatlar bilan farqlanadi.

An’anaviy ravishda barcha dronlarni 4 guruhga bo‘lish mumkin:

**Mikro.** Bunday UAVlarning og‘irligi 10 kg dan kam, havoda o‘tkaziladigan maksimal vaqt 60 minut. Parvoz balandligi - 1 kilometr.

**Mini.** Ushbu qurilmalarning vazni 50 kg ga yetadi, havoda o‘tkaziladigan vaqt 5 soatga yetadi. Parvoz balandligi 3 dan 5 km gacha o‘zgarib turadi.

**O‘rta.** Og‘irligi 1 tonnagacha bo‘lgan uchuvchisiz uchish apparatlari 15 soatlik parvozga mo‘ljallangan. Bunday UAVlar 10 kilometrgacha balandlikka ko‘tariladi.

**Og‘ir dronlar.** Ularning vazni bir tonnadan oshadi, bir kundan ortiq davom etadigan uzoq masofalarga parvozlar uchun qurilmalar ishlab chiqilgan. Ular 20 kilometr balandlikda harakatlana oladilar.

Uchuvchisiz transport vositasi konstruksiyasida sun‘iy yo‘ldosh navigatori va dasturlashtiriladigan modul mavjud. Agar UAV ma‘lumotni qabul qilish, saqlash va operator konsoliga uzatish uchun ishlatilsa, unda xotira kartasi va uzatuvchi qo‘shimcha ravishda o‘rnatiladi.

Dizayn va funktsionallik mashinaning maqsadiga qarab farq qiladi. Inson buyruqlarini qabul qiladigan va ularga javob beradigan dron modellari mavjud. Bunday qurilmalarda maxsus buyruq qabul qiluvchi modullar o‘rnatiladi.

Jahonda keng tarqalgan Jason & Partners Consulting dronlarni (UAV) quyidagi asosiy xususiyatlarga ko‘ra tasniflaydi:

- dizayn /sozlamalar bo‘yicha;
- uchish turi bo‘yicha;
- mo‘ljallangan maqsad uchun:
- texnik xususiyatlarga ko‘ra;
- elektr stantsiyasining turi bo‘yicha;
- foydali yuk bo‘yicha;
- avtomatlashtirish tizimining turlari bo‘yicha;
- to‘qnashuvning oldini olish tizimiga ko‘ra;
- navigatsiya turi bo‘yicha;
- radiochastota spektrining o‘tkazish qobiliyati bo‘yicha;
- bortda ma‘lumotlarni qayta ishlash;
- dasturiy ta‘minot ixtisosligiga ko‘ra.

2019-yil mart oyi oxiriga kelib Xitoyda ommalashib borayotgan yangi kasb – qishloq xo‘jaligi dronlari operatori paydo bo‘ldi. Texnologiya rivojlanishi bilan ularga talab ortib bormoqda, chunki malakali mutaxassis oddiy ishchiga qaraganda ancha katta maydonga xizmat ko‘rsatishga qodir. Qizig‘i shundaki, yangi kasbning tarqalishiga qishloq joylarda ishchi kuchining yetishmasligi ham yordam beradi.

Ko‘pgina xitoylik yoshlar kambag‘al qishloqlardagi uylarini tark etib, Pearl daryosi yoki Yangtzi deltalaridagi fabrikalarda yoki boshqa malakasiz ishlarda ishlashmoqda. Uyda o‘tirgan keksa fermerlar ko‘pincha o‘z yerlarini dehqonchilik qilib, hosil yig‘a olmaydilar, shuning uchun



o'z yerlarini yirik kompaniyalarga ijaraga berishni afzal ko'radilar. Ular o'z navbatida, olingan uchastkalarini birlashtirib, ushbu hududlarda hosildorlikni oshirish va mablag'ni tejash maqsadida qishloq xo'jaligi dronlaridan foydalanish uchun eng yangi texnologiyalarni o'rnatmoqda. Xitoy bu ishda yolg'iz emas: boshqa davlatlar, masalan, Yaponiya ham dronlarga murojaat qilayotgani ma'lum, chunki yosh avlod oddiy fermer xo'jaliklarida ishlashni istamaydi. Qishloq xo'jaligida quyidagi maqsadlarda dronlardan foydalanish mumkin:

### **1. Tuproq va dala tahlili.**

Uchuvchisiz uchish apparatlari (UAV) tuproq sifati va holati haqida ma'lumot beradi. Ular tuproqlarni 3D formatida xaritada tushiradilar. Bu o'lik zonalarini aniqlash orqali ozuqa darajasi va tuproq tarkibi bilan bog'liq muammolarni aniqlash imkonini beradi.

Xaritalar yordamida siz tuproqni parvarish qilish, ekish va ekinlarni yetishtirishning eng samarali sxemalarini aniqlashingiz mumkin. Dalalarning doimiy monitoringi suvdan oqilona foydalanish va tuproqdagi ozuqa moddalarini nazorat qilishni ta'minlaydi.

### **2. Ekinlarni ekish.**

So'nggi paytlarda dron ishlab chiqaruvchilari nafaqat kuzatish va dalada ishlov berish, balki urug'larni ekishni ham o'zlashtira boshladilar. Bu usul yaqinda paydo bo'lgan va hali rivojlanish bosqichida. Maxsus dasturlashtirilgan dronlardan foydalanib, kompaniyalar urug' ekish bo'yicha tajriba o'tkazmoqda, bu usulning narxi va samaradorligini o'rganmoqda.

Urug'larni ekish uchun 25 kilogramm urug'larni, gerbitsidlarni yoki o'g'itlarni ko'tarishga qodir bo'lgan kichik apparat ishlatiladi. Bu ekish paytida shaxsiy ishtiroki bilan vaqtni kamaytirish imkonini beradi. Ushbu texnologiya ko'plab fermer xo'jaliklariga mos keladi, ish haqi va yoqilg'i xarajatlarini kamaytiradi.

### **3. Maydonlari kimyoviy dorilash.**

Yaxshi hosilni ta'minlash uchun doimo o'g'itlash va kimyoviy dorilar sepish kerak. Endilikda qayta ishlash transport vositalari yordamida amalga oshirilmoqda, ularga xizmat ko'rsatish qimmat va ko'p yoqilg'i sarflanadi. Yangi paydo bo'lgan infestatsiyalarni kimyoviy dorilash uchun dronlardan foydalanish ancha xavfsizroq va tejamkorroq. Dronlar avtonom ishlashga qodir va jadval va berilgan marshrutga muvofiq uchish uchun dasturlashtirilgan.

Masalan, siz dalaning kichik maydonida qo'ziqorinni topdingiz. Vaqt va resurslarni behuda sarflaydigan kichik maydon uchun traktor, purkagich va buzadigan amallar eritmasini tayyorlashingiz kerak bo'ladi. Dronlardan foydalanib, kerakli maydonni tez va samarali qayta ishlashingiz mumkin.

### **4. Sug'orish.**

Sug'orish juda murakkab jarayon. Sug'orish inshootlari ko'p kilometrlarga cho'zilishi mumkin. Termokameralar bilan jihozlangan dronlar yordamida siz sug'orish bilan bog'liq muammolarni, qayerda ortiqcha bo'lishini, qayerda namlik yetishmasligini aniqlay olasiz.

Sug'orish tizimi haqida ma'lumot to'plash orqali siz eng samarali ekin ekish usullaridan foydalanishingiz, suv drenajini yaxshilash, turg'unlik va suv to'planishidan qochishingiz mumkin. Sug'orish tizimidagi buzilishlarni bartaraf etish. Agar siz ularni qarovsiz qoldirsangiz, butun hosilni yo'qotish xavfi mavjud. Dronlar bu muammolarni hosilingizga zarar yetkazmasdan oldin topadi.

### **5. Dala monitoring.**

Oddiylik, tezlik va samaradorlik - keng ko'lamlı ekinlarni tahlil qilishda dronlarning asosiy afzalliklari. Siz samolyotlar, vertolyotlar yoki sun'iy yo'ldoshlardan olingan tasvirlardan foydalanishingiz mumkin, lekin bu juda qimmat. Dron yordamida agar ob-havo imkon bersa, istalgan vaqtda dalani kuzatishingiz mumkin. Suratlarini real vaqtda olish mumkin va o'simlik o'sishini ko'rsatadigan dala hayotining xronologiyasini tuzish mumkin. Infraqizil datchiklar yordamida ekinlarning sog'lig'ini yorug'likning yutilishi asosida baholash mumkin, bu esa fermer xo'jaliklarining faoliyatini har tomonlama baholash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak dronlarga bo'lgan talab yildan-yilga ortib bormoqda. Bu texnologiyani biz ham mamlakatimizda rivojlantirib qishloq xo'jaligiga faol tadbiriq etib borishimiz kerak.

## THEORETICAL FUNDAMENTALS OF AUDIT OF DEPOSIT OPERATIONS IN COMMERCIAL BANKS AND STUDY OF THE PROCEDURE OF CONDUCTING AUDIT OF BANK DEPOSIT

*Muminova Parvina Ilhomovna*

*Tashkent Financial Institute*

*E-mail: pari2808@mail.ru*

*Muminov Zokir Shavkatovich*

*Tashkent Financial Institute*

*E-mail: zokirmuminov0304w@gmail.com*

**Annotation:** This article provides a brief overview of the theoretical foundations of auditing deposit operations in commercial banks and the procedure for conducting audit of deposit operations to develop the knowledge of the population about the banking system on the measures taken to develop science and the digital economy.

**Keywords:** bank, deposit, savings, term, demand, deposit, certificate of deposit, liability, depositor, auditor, audit, accounting policy, deposit policy, balance sheet, report, auditor, internal audit, external audit.

If we study and analyze the period from the origin of banks to the present day, we will see that the concepts of savings and deposits appeared as soon as the first banks appeared. Because the rich and the poor have always existed. It would be wrong to say that the emergence of the concept of deposit by the demand for safe deposit of surplus funds by the rich.

Deposit operations are operations on attraction and storage for a certain period of time according to the purpose of the deposit on the basis of agreements concluded by banks with depositors. Deposits account for the bulk of the funds raised by commercial banks. Deposits are formed at the expense of funds deposited by depositors or kept in a bank account for a certain period of time during operations. There is no single approach in the economic literature on deposits and deposits in general, which is used in banking practice. In international banking practice, a deposit is a security or money given to a financial institution or banking institution for safekeeping. According to Russian economist LS Padalkina, the deposit includes only time deposits. E.M.Rode states that deposits include all time and demand deposits, except for savings certificates.

Types of deposits:

Demand deposits;

Term deposits;

Savings deposits;

Other deposits.

To ensure the stability and stability of banks, first of all, it is necessary to constantly monitor their activities through internal and external audits. The purpose of the audit is to determine the accuracy of the submitted reports, the actual state of the business, its legality and compliance with the requirements of financial reporting and accounting.

Audit objectives:

- Compliance of the Bank's operations with the requirements of the country's legislation, regulations, guidelines and regulations;
- Checking the existence and validity of bank deposit agreements; Timely and complete recording of deposit operations in the accounting records;
- Evaluation of the bank's deposit policy
- Assess the correctness of the funds transferred to the Central Bank's reserve fund when maintaining deposit accounts.

The main objectives of the internal audit of deposit operations are:

- to protect the interests of depositors, to maintain the results achieved and intended by the bank during its activities;
- Determining the accuracy, completeness and reliability of the submitted reports;
- Verification of compliance of the submitted reports with the requirements of applicable law, accounting and financial reporting.

The main purpose of the audit of bank resources conducted by the audit service of commercial banks is to monitor the effective operation of the bank through the implementation of internal control monitoring and objective analysis, evaluation recommendations and information on the control and results of banking activities. Assistance to the Bank's Management Bodies and ensuring the level of financial reliability and security of the banking system for the bank's creditors and depositors in the regional and district (city) branches of the bank, as well as analysis of its overall financial performance.

When conducting an audit of a bank's deposit operations, the following issues should be examined:

- compliance with the current legislation of the Republic of Uzbekistan and the regulations of the Central Bank, as well as the internal policies and regulations of the Bank's Management Board in the implementation of administrative and operational processes to achieve the objectives of the bank's activities.
- correctness and validity of the bank's transactions on deposits and other operations;
- accuracy, orderliness, precision and reliability of accounting and financial statements;
- the state of internal control, the timely and accurate preparation of reports and their submission to the appropriate places;
- checking and evaluating the adequacy and effectiveness of the internal control system;
- Analysis of the application and effectiveness of risk management processes and risk assessment methodologies
- Analysis of the accuracy and reliability of accounts and financial statements (as well as published);
- Checking the integrity, reliability and timeliness of reports in accordance with the laws of the Republic;
- -professional skills and executive discipline of employees;
- -archive work.

During the audit of transactions, the legality of the issuance and transfer of funds from perpetual deposit accounts, loans and other accounts can be checked to the extent determined by the head of the audit of documents and personal accounts. In this case, it is necessary to pay special attention to the orders for the purchase of material goods, especially transactions signed by officials who do not serve the customer, and at the same time check the correctness of the documents. The audit of deposit operations is carried out mainly by the internal audit of the bank. The audit of the activities of the parent bank and branches is carried out in accordance with the "Audit Plan of the Audit Service for the audit of branches" approved by the Board of the Bank, and this document is confidential. The audit plan should include the Central Bank and all its branches. In the event of a sharp change in the deposit status of the branches or when the auditor identifies a threat to the security of the deposit, the audit plan should be amended. The documents to be audited must be calculated in advance or in sequence, and the results obtained must be compared with the balance sheet. Documents to be audited and cash documents in banking institutions, where the books of accounts are kept, the numbers of debited balance sheets are sewn in ascending order, are compared with the entries in this book. The amount of documents received for verification of accounting is compared with the amount on the accounting tapes with the name of the institution, date, number and link of lists, the cost of documents in a given group, the signatures of the operators who performed the calculation and comparison. the results of all the tapes for the day are added together and the data obtained are compared with the balance.

**List of used literature:**

1. “Requirements for Internal Audit of Commercial Banks” № 3302  
NIZOM 2021 16 April
2. On the Central Bank of the Republic of Uzbekistan (new edition) November 11, 2019
3. On Banks and Banking (new edition), November 5, 2019
4. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) - Portal of the state power of the Republic of Uzbekistan.
5. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz) - Official site of the Press Service of the President of the Republic of Uzbekistan.
6. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) - the official site of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan.
7. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) - information from the official website of the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan.
8. [www.cer.uz](http://www.cer.uz) - The official website of the Center for Economic Research.

## KELAJAK POYDEVORI BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDAN BOSHLANADI

*Munavvarxonova Mahliyoxon Muzaffarxon qizi*  
*Namangan davlat universiteti talabasi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘lim sohasi haqida tushuncha, uning yurt kelajagi uchun qanday ahamiyati mavjud ekanligi, yurtimizdagi ta‘lim tizimiga doir bo‘layotgan turli siyosatlar haqida va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini zamonaviy usullar orqali o‘qitish, ta‘lim bilan birgalikda tarbiyani ham uzluksiz ravishda olib borish, mutafakkirlarimizning ta‘lim haqidagi bildirgan qisqacha fikrlari yoritib berilgan.

**Аннотация:** Эта статья дает понятие о сфере начального образования и его важность для будущего страны, о разных политиках в системе образования в нашей стране и обучение учеников начальных классах через современные методы, вместе с обучением непрерывно вести воспитанию и также освещены краткие высказывания мыслителей образование.

**Annotation:** There is concept about primary branch, it's future which significant for our homeland, different politics which are related to system of education and the way of new methods how to educate primary branch, teaching subjects and upbringing should be educated continuously, our ancestor's concepts about education is explained in this article.

**Kalit so‘zlar:** ta‘lim, tarbiya elementlari, barkamol inson, axborot texnologiyalari, Abu Rayhon Beruniy, poydevor, bozor iqtisodiyoti, innovatsion usullar.

**Ключевые слова:** образование, элементы образования, гармоничная личность, информационные технологии, Абу Райхан Беруни, фундамент, рыночная экономика, инновационные методы.

**Keywords:** education, elements of education, harmonious human being, information technology, Abu Rayhan Beruni, foundation, market economy, innovative methods.

Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan, mustahkam zaruriy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan masala hisoblanadi. Bugungi kunda o‘zida ta‘lim va tarbiya elementlarini mujassamlashtirgan boshlang‘ich ta‘lim jarayonini tashkil etish oldimizga qo‘yilgan dolzarb vazifalarimizdan biridir. Chunki yosh avlodning kelajakda kim va qanday inson bo‘lib tarbiyalanishi ham boshlang‘ich ta‘limga har tomonlama bog‘liq bo‘ladi. Bekorga umumiy o‘rta ta‘limning ajralmas qismi yoki yuragi boshlang‘ich ta‘limdir deyilmaydi. Boshlan‘ich sinfdan boshlab o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga, yangiliklar yaratishga o‘rgatish lozim. Boshlang‘ich sinflarda o‘qitilayotgan har bir fanlarni hayot bilan bog‘lab, undagi muammolarni har tomondan hal qila olishga o‘rgatadigan bo‘lsak, o‘quvchida ijodiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanib boradi. Yuqoridagi fikrlarimizning tasdig‘i sifatida yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi so‘zlarini keltirib o‘tishimiz mumkin: “Yoshlarimiz haqli ravishda vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo‘lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi. Bu sohada olib borilayotgan keng miqyosli ishlarimizni, xususan, ta‘lim va tarbiya bo‘yicha qabul qilingan umummilliy dasturimizni mantiqiy yakuniga yetkazishimiz zarur”. [1] Darhaqiqat, kundan kunga ta‘lim tizimida yangidan yangi o‘zgarishlar, qonun va qonunosti hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritilayotgani barchamizga ma‘lum. Har bir ish o‘z-o‘zidan bo‘lib qolmaydi. Ana shu ishning rivojlanishi uchun vaqtlar talab qilinadi va shundagina bajargan ishimizda sifat bo‘ladi. Mustaqilligimiz asoschisi I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan beshta tamoyilning biri sanalgan bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich (tadrijiy) o‘tish usuli kabi ta‘lim sohasida ham ana shunday usullardan foydalanilib kelinmoqda. Misol uchun boshlang‘ich ta‘limda avvallari 3 yillik o‘qitish amalga oshirilgan bo‘lsa, keyinchaik bir yil davomida sinov asosida yurtimizning ayrim hududlarida ikkitadan sinflar, ya‘ni biri 4 yillik boshlang‘ich sinflar, keyingisi eski tartibdagi 3 yillik sinflar tashkil etildi.



Ana shu paytlarda katta bir savol oldimizga tashlangan edi: “3 yillik boshlang‘ich ta‘limning samarasi yuqorimi yoki 4 yillik boshlang‘ich ta‘limnikimi?”. Aytib o‘tganimizdek bir yillik tajribadan so‘ng ana shu sinflar doimiy ravishda kuzatib borilib, 9-sinfga kelganda boshlang‘ich sinfda 4 yil o‘qigan bolalar 3 yilliknikiga qaraganda maktabni a‘lo baholarga tamomlab chiqib ketganlar. Bundan ko‘rinib turadiki, boshlang‘ich ta‘limda chuqurroq bilim olgan va ko‘proq ma‘lumotga ega bo‘lgan o‘quvchilar kelajakda o‘z o‘rnlarini topishda qiyinchilikka kamroq duch keladi. Zero, xaqimizning: “Yoshlikda olingan bilim toshga o‘yilgan naqsh kabidir”, – deya aytgan hikmatli gaplari o‘z tasdig‘ini topadi. Olimlarimizning statistikalariga qaraganda inson miyasining ma‘lumotni qabul qilish darajasi yuqori bo‘lgan davri ham 6-10 yoshni, ya‘ni boshlang‘ich sinflik davrlarni o‘z ichiga olar ekan. Boshlang‘ich ta‘limni 1-4 sinflar qamrab oladi hamda o‘quvchilarning fan asoslari bo‘yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o‘zlashtirish ehtiyojini, asosiy o‘quv-ilmiy, umummadaniy bilimlarni milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma‘naviy-axloqiy fazilatlarini, mehnat ko‘nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof muhitga ongli munosabatda bo‘lish va kelajakda erkin kasb tanlay olish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bugungi axborot texnologiyalari rivojlanib borayotgan bir paytda yurtimizda ta‘lim tizimiga ham yuksak e‘tibor qaratilmoqda. Shular qatorida bizning boshlang‘ich ta‘limga ham. Ta‘lim so‘zini ishlatishimiz bilanoq xayolimizga tarbiya degan atamani ham keltiramiz. Bugungi ta‘limning zamonaviy talabi ham ana shundan iborat. Ta‘limni tarbiya bilan o‘zaro birgalikda olib borish boshlang‘ich ta‘lim sifatini yanada oshiradi. Bu esa, kelajakda har tomonlama yetuk, barkamol insonni jamiyatga yetishtirib bera olishning samarali usuli bo‘ladi. Bizlar ham bir paytlar maktab o‘quvchisi bo‘lganmiz. Va, albatta, boshlang‘ich sinfda ham tahsil olganmiz. Eslab qaraydigan bo‘lsak, hozirgi jajji bolajonlarga o‘xshab, ustozlarimizning etaklariga yopishib olib, ulardan nari ketmas edik ham. Bularning barchasidan shuni tushunishimiz mumkinki, bizlar ham kelajakda boshlang‘ich sinflarga saboq beradigan ustoz bo‘lib yetishamiz, albatta. Shunday ekan bizning zimmamizda juda katta mas‘uliyat bor ekanligini har bir lahzada yodimizda tutishimiz zarur bo‘ladi. Shuni ham yodimizdan chiqarmasligimiz kerakki, yurtboshimiz siyosatlariga binoan, ta‘limni tarbiya bilan birgalikda amalga oshirish kerakligi ham yelkamizdagi yukni ikki barobar oshiradi. Yuqoridagi fikrlarimizda aytib o‘tganimiz kabi, yuqori sinflardan ko‘ra boshlang‘ich sinflarda olinadigan bilim va tarbiya haqiqiy toshga o‘yilgan naqsh kabi bo‘la oladi. Bola boshlang‘ich sinflardan yuqori sinflarga yetarli bilim va ko‘nikmalar bilan o‘tsa, ana shu boladan kelajakda o‘z kasbining yetuk va malakali egasi bo‘lib yetishib chiqishiga bemaol kafolat bera olinadi. Lekin boshlang‘ich sinfligidanoq yomon xulqli va bilimsiz bo‘lib chiqadigan bo‘lsa, uni yuqori sinflarda tarbiyalash igna bilan quduq qazigandek bo‘ladi. Buning uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchikaridan juda katta mas‘uliyat talab etiladi. Bugungi ta‘lim tizimining talabi zamonaviy (innovatsion) usullardan va texnologiyalardan foydalanish orqali bolalar bilimlarini oshirish va ularda yaratuvchalik qobiliyatlarini shakllantirishdan iborat. Ana shunda bizlar kelajakni yarata oladigan kadrlarni tarbiyalab beruvchi poydevor vazifasini o‘tagan bo‘lamiz va, albatta, o‘z vazifamizni ado etganimizni anglaymiz. Buyuk bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniy komillikning asosini ilmi bo‘lishda deb hisoblaydi va barcha illatlarning asosiy sababi ilmsizlikdir, deya urg‘u beradi. Alommaning fikricha, axloqiylik, to‘g‘rilik, odillik, tadbirkorlik, o‘zini vazmin tutish, kamtarlik, insof, ehtiyotkorlik, shuningdek, adolli va vijdonli bo‘lish komil inson qiyofasida aks etishi zarur bo‘lgan eng asosiy sifatlardir. Ana shunday komillikka eltuvchi barcha fazilatlarini shakllantirishda insonni boalalik chog‘idan boshlab ta‘lim va tarbiyani birdek olib borish zarur deb bilganlar. Darhaqiqat, ushbu fikrlar biz yuqorida aytganimizdek, insonning barcha yaxshi yoki yomon fazilatlarini o‘zida shakllantiradigan davr 6-10 yoshlardan boshlanadi. Mutafakkirimizning fikridan ham bilib olishimiz mumkinki, ular aytgan fazilatlarini shakllantiradigan davr bilan biz aytayotgan aynan boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalar davrlari o‘zaro mos keladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, boshlang‘ich ta‘lim sinflarida olinadigan ta‘lim va tarbiya kelajakda yetuk va barkamol shaxslar yetishib chiqishida poydevor vazifasini bajaradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.M.Mirziyoyev. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”.
2. I.A.Karimov. “O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda” Toshket-2000.

## YERYONG‘OQ, LOVIYA VA MOSH O‘SIMLIKLAR DONLARINING LIPIDLAR TAVSIFI.

*Muqimjonova Umidahon Vahobjon qizi*

*Qo‘qon davlat pedagogika instituti, Kimyo kafedrasida doktoranti.*

*Isaqov Muhammadjon Yunusovich*

*Qo‘qon davlat pedagogika instituti, Kimyo kafedrasida dotsenti kimyo fanlari nomzodi.*

Biz olib borayotgan tadqiqot ob‘ektlari-Yeryong‘oq (*Phaseolus ayreus*), loviya (*Vigna sinensis*), mosh (*Arachhis hypogaea*) muhim dukkakli o‘simliklardan biri bo‘lib, qishloq xo‘jaligida muhim oziq-ovqat mahsuloti sifatida foydalaniladi. Xalq tabobatida ham muhim davolash vositalaridan xisoblanadi. Chunki ularning donlari vitaminlar, oqsillar, moylar, makro va mikroelementlarga boydir. Dukkakli o‘simliklarning ko‘plab turlari mavjud bo‘lib, ularning element va organik tarkibini o‘rganishga va tahlil qilish tadqiqotchilarda katta qiziqish uyg‘otmoqda. Dukkakli o‘simliklardan olinadigan mahsulotlar ularning kimyoviy tarkibiga bevosita bog‘liq bo‘lib, kimyoviy tarkib esa ularning turlariga, yetishtiriladigan tuproq va iqlim sharoitlariga mos ravishda o‘zgarib boradi. Shu sababli ham turli sharoitlarda yetishtirilgan dukkakli o‘simliklarning donlari va poyalarining kimyoviy tarkibini o‘rganish va tahlil qilish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

2021-yili Farg‘ona viloyatining Beshariq tumani Soy bo‘yi maxallasida yetishtirilgan mosh, loviya, yeryong‘oq kabi dukkakli o‘simliklar donlari (mevalari) tadqiqot ob‘ekti sifatida olingan bo‘lib, tuproqqa ekilgan dukkakli o‘simliklar donlari yetilgandan so‘ng ularning donlaridan analiz uchun olingan namunalar quyidagicha belgilandi: yeryong‘oq doni namunasi - 2021 BYD; loviya doni namunasi -2021 BLD; mosh doni namunasi -2021 BMD.

Dukkakli o‘simliklar donlaridan olingan namunalardagi lipidlar va yog‘ kislotalar S.Yu.Yunusov nomidagi o‘simliklar kimyosi instituti lipidlar kimyosi laboratoriyasida bajarildi. Donlardagi neytral lipidlar uchun donlar havoda quritildi, maydalandi va Sokslet apparatida ekstraksiyon benzin (q, tem. 72-80 °C) bilan ekstraksiyalab olindi. Ekstraksiya natijasida namunalardan ajratib olingan lipidlar miqdorini tahlili shuni ko‘rsatadiki, dukkaklilarning donlaridagi namlik miqdori odatdagi sharoitda bir-biriga yaqin bo‘lib, qiymati 6,5-8,5 % ni tashkil etadi. Neytral lipidlar miqdori yeryong‘oqda namlikni hisobga olgan holda 46 % ni, absolyut holatda esa 50 % dan yuqori. Mosh va loviyada esa neytral lipidlar miqdori 1,4- 1,6 % ni tashkil etadi. Absolyut holatda esa 1,5-1,8 % tashkil etadi.

Neytral lipidlarning komponentlari tarkibi silufof plastinkasida yupqa qatlam xromatografiyasi metodidan foydalanib topildi. Neytral lipidlarni ajratish uchun geksan: efir aralashmasidan iborat 4:1; 3:3 va 7:3 nisbatli sistemalardan foydalanildi. Analiz natijalari don namunalariidagi neytral lipidlar asosan triglitsirirlar (yog‘ kislotalarning glitsirin bilan murakkab efirlari) dan va erkin yog‘ kislotalar hamda ularga yo‘ldosh udlevodlar, fitosterollar va triterpenollardan iboratligini ko‘rsatdi.

Neytral lipidlardagi yog‘ kislotalar tarkibini aniqlash uchun don namunalariidan olingan lipidlar ishqorning spirtli eritmasida gidrolizlandi va hosil bo‘lgan yog‘ kislotalar yangi tayyorlangan diazometan bilan metillandi. Yog‘ kislotalarning metil efirlari qo‘shimchalardan slika gelda preparativ yupqa qatlam xromatografiyasida 4:1 nisbatli erituvchilar sistemasida tozalandi. Plastinkadagi yog‘ kislotalari metil efirlariga tegishli zonalar qirib olindi va slika geldan xloroform bilan bir necha marta elyuirlab olindi. Xloroformli elyuatlarni to‘plab, xloroform rotorli bug‘latgichda haydaldi. Erituvchidan ajratilgan yog‘ kislotalarning metil efirlari geksanda eritildi va alangali ionlashtiruvchi detektorli, HP-5 harakatsiz fazali, 30m\*0,32 mm li kapililyar kolonkali gaz-tashuvchi-geliy bo‘lgan va temperaturasi 150-270 °C ga prog-rammalashtirilgan Agilent 1890 N xromatografida analiz qilindi. Analiz natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

(1-jadval)

**Dukkakli o'simlik donlaridagi neytral lipidlar yog' kislotalarning miqdoriy tarkibi, (yog' kislotalarning umumiy massasiga nisbatan %).**

№	Yog' kislotalar nomi	Miqdori		
		BYD 2021	BMD 2021	BLD 2021
1	Миристин к-та, 14:0	Сл.	0,35	0,19
2	Пальмитин к-та, 16:0	11,25	24,58	24,31
3	Пальмитолеин к-та, 16:1	0,06	-	-
4	Маргарин к-та, 17:0	0,15	-	0,30
5	Стеарин к-та, 18:0	3,20	5,54	5,38
6	*Олеин к-та, 18:1ω9 Линолен к-та, 18:3ω3	36,73	26,39	31,97
7	Линол к-та, 18:2ω6	39,99	39,42	30,93
8	Арахин к-та, 20:0	1,60	1,26	1,59
9	Эйкозен к-та, 20:1ω11	1,18	0,43	0,49
10	Беген к-та, 22:0	3,78	1,32	2,95
11	Лигноцерин к-та, 24:0	1,85	0,71	1,11
12	Церотин к-та, 26:0	0,21	-	0,78
	∑ To'yingan yog' kislotalar	22,04	33,76	36,61
	∑ To'yinmagan yog' kislotalar	77,96	66,24	63,39

Bu yog' kislotalar gaz xromotografida tekshirilgan sharoitda ajralmaydi va bitta pik bilan chiqadi. Analiz natijalariga ko'ra o'rganilgan dukkakli o'simliklar donlarida to'yinmagan yog' kislotalar miqdori (79,09-63,39%), to'yingan yog' kislotalarinikiga nisbatan yuqori (20,91-36,61%). Bu to'yinmagan kislotalarning asosiy qismini essensial-18:2 ω 6 – linolin va olein+ linolen 18:1 ω9+18:3 ω3 kabi yog' kislotalar tashkil etadi. Palmitolein yog' kislota mosh va loviyada, margarin yog' kislota esa moshda aniqlanmadi. Yeryong'oqda miristin kislota qoldiqlari qayd etildi, mosh va loviyadagi miqdori esa juda kichik qiymatga ega (0,35 va 0,19%). Donlarda 13 ta yog' kislotalar aniqlandi, ularning poyalaridagi tarkibi esa 15 ta bo'lib, kaprin, laurin, pentadekan donlar lipidlarida mavjud emas.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. U.V. Muqimjonova, M. Yu. Isaqov, N. T. Xo'jayeva. // *Vigna sinensis, Phaseolus ayreus, Arachhis hypogaea o'simliklar donlari va poyalarining organik tarkibi. Tovarlar kimyosi va xalq tabobati jurnali. Andijon 2022, 185-205 bet*
2. Руководство по методам исследования теххимическому контролю и учету производства в масложировой промышленности, том II, Ленинград 1965 г. с. 146-147.
3. Руководство по методам исследования теххимическому контролю и учету производства в масложировой промышленности, том II, Ленинград 1965 г. с. 152-155.
4. I. Folch, M. Less, H.S. Stanley, *J. Biol. Chem.*, 226, 447 (1957)

**“BIR SOATDA 220 TA INGLIZ TILIDAN SO‘Z YODLASH:  
TA’LIMGA YANGICHA YONDASHUV”**

***Murotaliyev Dadilbek***

*Namangan viloyati, Pop tumani,  
45-o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi.*

Mnemotexnika, mnemonika, mnemosport shu va shunga o‘xshash terminlarni keyingi vaqtlarda ko‘p bora eshitayotgan bo‘lsangiz bu tabiiy holat. Mnemonika o‘zi nima? nima uchun biz uni o‘rganishimiz kerak? ta’lim olishimiz uchun qanday foydasi bor? Agar siz chet tilini o‘rganayotgan bo‘lsangiz va 1 soat vaqt davomida 200 tadan ortiq so‘z yod olishingiz kerak bo‘lsa. (Oyiga 3500-4000 atrofida) 100 xonali sonlar ketma-ketligini yod olish imkonsiz deb o‘ylasangiz. Agar yod olishingiz kerak bo‘layotgan ma’lumotlarni qayta-qayta o‘qib miyangizda kuchli bosim his qilayotgan bo‘lsangiz. Mnemotexnika aynan siz uchun.

Mnemotexnika bu - katta hajmdagi ma’lumotlarni eslab qolishga yordam beradigan maxsus texnikalar to‘plami hisoblanadi. U tasavvur hamda bog‘liqlik, ya’ni assotsiatsiyaga asoslanadi. Ma’lumotlar deganda faqatgina horijiy tildagi so‘zlar va yoki yuqorida aytib o‘tganimiz raqamlargina emas, balki tarixiy voqea va hodisalar, davlatlar va ularning poytaxtlari, Mendeleev davriy sistemasi, inson yuzi, ismi va shu kabi ko‘plab insoniyat hayotining ajralmas qismi bo‘lgan narsalarni olishimiz mumkin. Hozirgi davrda mnemotexnika haqida internet orqali yetarlicha ma’lumotga ega bo‘lishingiz mumkin. Qolaversa o‘zbek tilida bir necha kitoblar yozildi. O‘zbekistondagi ilg‘ov o‘quv markazlarining ham o‘quv dasturidan mnemotexnika munosib o‘rin egallab ulgurdi. Ayni vaqtda OTM ga o‘qishga kirish uchun majburiy fanlar mavjud bular Ona tili, Tarix, Matematika fanlaridir. OTM so‘zining bosh harflaridan majburiy fanlar qaysilar ekanligini bilib olishingiz mumkin. Bu ham mnetexnika.

Mnemotexnika haqida ilmiy ma’lumotlarni internet orqali keraklicha topa olasiz. Biz esa amaliy qismga o‘tamiz va mashqlar bajaramiz. Tasavvur va assotsiatsiya yordamida 2022-yil qaysi sana qaysi hafta kuniga to‘g‘ri kelishini o‘rganib chiqamiz. Bu mnemotexnik usul yordamida Namangan viloyati, Pop tumani Xalq ta’limi bo‘limiga qarashli 45-maktabning 4-sinf o‘quvchilari bilan mashq o‘tkazib ko‘rganman. 25-30 daqiqa o‘rganish uchun vaqt va 92% aniqlikdagi natija. Barchasi oddiy. Misol uchun sizdan 11-dekabr sanasi qaysi kunga to‘g‘ri keladi desam, o‘ylanmay yakshanba kuniga deb ayta olasiz. Texnikaning asosiy siri bu- har bir oying birinchi yakshanbasi qaysi sanaga to‘g‘ri kelishini bilib olishdir. Hammasi shunchalar oddiy deyapsizmi? Lekin 12 oy unutmang. Nima uchun kerak? Kompyuter va smartfonlar bor-ku deyapsizmi? Nari borsa 30 daqiqa va siz 3-4 soniyada xatosiz aytib berishingiz, ishlaringizni rejalashtirishingiz mumkin. Qolaversa, tanishlaringizni ham hayratga solishingiz mumkin.

12 ta oy uchun bittadan assotsiatsiya so‘z topamiz. Mavhum so‘zlardan qochgan holda imkon qadar ko‘rish mumkin bo‘lgan predmetlari olsak yaxshi. Yanvar oyi yangi yil, demak archa. Fevral bu oy taqvimda goho, 28 goho 29 kun. Demak, kalendar. Mart o‘z-o‘zidan ayonki atirgul. Aprel hazil kuni bunga smaylik olamiz. May so‘nggi qo‘ng‘iroq. Qo‘ng‘iroqni olamiz. Iyun bolalar kuni-qo‘g‘irchoq. Iyul istirohat bog‘i - charxpalak. Avgust imtixon-titul varog‘i. Sentabr o‘qish boshlanadi - forma. Oktabr ustozlar kuni - jurnal. Noyabr yomg‘ir mavsumi - soyabon. Dekabr esa qorbola. Yakunda mana bunday assotsiatsiya hosil bo‘ladi.

Yanvar Archa	Aprel Smaylik	Iyul Charxpalak	Oktyabr Jurnal
Fevral Kalendar	May Qo‘ng‘iroq	Avgust Titul varoq	Noyabr Soyabon
Mart Atirgul	Iyun Qo‘g‘irchoq	Sentyabr Forma	Dekabr Qorbola

Endi nima qilamiz bilasizmi? Menimcha topdingiz! Ha har bir oyning birinchi yakshanbasi qaysi kunga to‘g‘ri keladi bilib olamiz. Ularni ham yuqoridagi kabi grafik shaklida So‘zlardan so‘ng yozib chiqamiz. Natijada quyidagi jadval hosil bo‘ladi.

Yanvar Archa 2	Aprel Smaylik 3	Iyul Charxpalak 3	Oktyabr Jurnal 2
Fevral Kalendar 6	May Qo‘ng‘iroq 1	Avgust Titul varoq 7	Noyabr Soyabon 6
Mart Atirgul 6	Iyun Qo‘g‘irchoq 5	Sentyabr Forma 4	Dekabr Qorbola 4

Keyingi qadam bu obrazlarni raqamlarga assotsiatsiya orqali bog‘lab chiqish. Demak, boshladik.

*Yanvar>archa>2* Yangi yilning birinchi kuni bitta archa emas 2 ta bezatilgan archa turipti. (Tasavvur qilsangiz juda oson bo‘ladi)

*Fevral>kalendar>6* Kalendar oldingiz va faqat 6 oydan iborat ekan. Qolgan 6 oy yo‘q.

*Mart>atirgul>6*. Yaqin kishingizga 6 dona atirgul sovg‘a qildingiz.

*Aprel>smaylik>3*. Tasavur qiling 3 dona smaylik turibti. Biri -jilmayib, ikkinchisi -bezrayib va uchinchisi- yig‘lab.

*May>qo‘ng‘iroq>1*. So‘nggi qo‘ng‘iroq umringizda bir bora bo‘ladi to‘g‘rimi?

*Iyun>qo‘g‘irchoq>5*. Bozordan bolalar uchun besh dona qo‘g‘irchoq sotib oldingiz.

*Iyul>charxpalak>3*. Istirohat bog‘ida charpalakka chiqdingiz va sal qolsa uchib ketay dedingiz.

*Avgust>titul varoq>7*. Titul listda atiga 7 ta xatoga yo‘l qo‘yibsiz. Natijada talaba bo‘ldingiz.

*Sentyabr>Forma>4*. Forma to‘rt qismdan iborat. Bular qora tufli, qora shim, oq ko‘ylak va galstuk.

*Oktyabr>jurnal>2*. Baholaringizni ko‘rmoqchi bo‘lib jurnalni ochib qaradingiz. U yerda esa faqat ikki baholar.

*Noyabr>soyabon>6*. Sizda qop-qora soyabon bor. Unga oq rangda 6 raqami yozilgan.

*Dekabr>qorbola>4*. Qish qorbola yasayapsiz. Qorbola ham yangicha shaklda. Dumaloq emas , balki to‘rt burchak shakllardan iborat.

Tayyormisiz! Boshladik. Biror sanani tanlaymiz. Misol uchun 27- aprel. 27 raqamidan aprel oyiga bog‘langan raqamni, ya'ni 3 ayiramiz. Natija 24 bo‘ladi. Undan 7 karrali son 21 ni ayiramiz. 3 qoldiq. Qoldiq son o‘sha hafta kuni, ya'ni chorshanba. Keyingi sana 19 - dekabr.  $19-4=15$ ,  $15-14=1$  demak 19-dekabr dushanba.  $28 - avgust$ .  $28-7=21$ .  $21-21=0$  va yoki  $21-14=7$ . Agar oxirgi natija 0 yoki 7 chiqsa, demak ushbu kun yakshanba bo‘ladi. Endi biroz boshqacha holatni ko‘ramiz. Misol uchun 3 - iyun sanasi. 3 dan 5 ni ayirib bo‘lmaydi. Nima qilamiz ? So‘ralayotgan sanaga o‘sha oyning birinchi yakshanbasi va 7 raqami orasidagi farqni qo‘shib qo‘yamiz. Natijada  $3+2=5$  hosil bo‘ladi. 5 - hafta kuni juma. Meni fikrimcha, qay tartibda bajarilmoqda to‘laqonli tushuncha sizda hosil bo‘ldi.

Endi Chet tilidagi so‘zlarni yodlash bo‘yicha ham mashq bajaramiz. Axir maqola nomidan ham shu haqida gap ketishi kerak ekanligi ma'lum edi-ku.

Boshlanishiga rus tilidan bir nechta so‘zlarni ko‘rib chiqamiz. Ushbu so‘zlarning fe‘l so‘z turkumiga oid bo‘lishini maqsadga muvofiq deb o‘yladik.

Знать - Bilmoq,

Молчать - jim turmoq,

Писать - Yozmoq

Красить - bo‘yamoq

Играть - O‘ynamoq

Уйти - Ketmoq

Пойти - Bormoq

Гулять - Sayr qilmoq

Думать - O‘ylamoq



Assotsiatsiya bo'yicha bog'lab ko'ramiz. Birinchi so'z Знать so'zi o'zbek tilida bilmoq ma'nosini beradi. Знать so'ziga o'zbek tilida talaffuz jihatidan Знак so'zi yaqin. Aslida znak ruscha so'z, ya'ni belgi so'zi yo'l ko'rsatuvchi belgi hisoblanadi. Знать>Знак<bilmoq, Assotsiatsiya orqali bog'laymiz. Yo'ldagi znaklar nimani anglatishini bilaman. Imkon qadar bog'layotganda znakni tasavvur qiling. Keyingi Молчать>Мол(hayvon)<Jim turmoq, Мол jim turadi gapirmaydi. Писать>pistolet<yozmoq. Pistolet bilan yozmoq. Красить>kraska<bo'yamoq. Kaska bilan bo'yamoq. Играть>Igor<O'ynamoq. Igor ismli bola stadionda o'ynamoqda. Уйти>uy<ketmoq. Uyga ketish vaqti bo'ldi. Пойти>Paytida<bormoq. Taklif qilingan joyga paytida bormoq. Гулять>Gulzor<sayr qilmoq. Gulzorda sayr qilmoq. Думать>Dumaloq stul<o'ylamoq. Dumaloq stulda o'tirib olib o'ylamoq. Yana misollar keltrish mumkin. Agar mnemonika bilan ko'proq shug'ullanishni yo'lga qo'ysangiz assotsiatsiya so'zlarni topish umuman qiyin bo'lmay qoladi.

**Endi ingliz tilidan so'zlar ko'ramiz.**

- work - ishlamoq,
- cut - kesmoq,
- shout - baqirmoq
- see - ko'rmoq
- answer - javob bermoq
- speech - nutq qilmoq.
- run - yugurmoq, ran
- weep - yig'lamoq.
- value - qadrlamoq.

Assotsiatsiya asosida bog'lashni boshlaymiz. Talaffuz jihatidan o'zbek tilidagi so'zlarga o'sha so'zning o'zbek tilidagi ekvivalentini topib bog'laymiz. O'xshashlik 100 % bo'lishi shart emas. 50-60 % o'xshashlik yetarli bo'ladi.

Ingliz (so'z)	Assotsiatsiya	O'zbek tilida	Mnemonik zanjir
work	o'rik	ishlamoq	O'rik ustida ishlamoq
Cut	katta	kesmoq	katta tarvuzni kesmoq
Shout	Shotut	baqirmoq	Shotut deb baqiryapsiz
See	Si nomli kino	ko'rmoq	Si kinofilmini ko'rmoq
answer	ensa	javob bermoq	javob berolmay ensam qotdi
speech	spid	nutq qilmoq	spid haqida nutq qilmoq
run	randa	yugurmoq	qo'lda randa bilan yugurmoq
weep	vip (sim karta)	yig'lamoq	vip sim karta uchun yig'lamoq
value	Valuyev	qadrlamoq	Valuyevni bokschilar qadrlashadi

So'z yodlamoqchi bo'lgan insonning o'zbek tilida ham so'z boyligi yetarli darajada bo'lishi, ko'p kitob o'qigan bo'lishi kerak. Assotsiatsiya orqali bog'lanayotganda ham tasavvur qila olishi kerak. Assotsiatsiya so'z har ikki tomonga zanjir bo'lib bog'lansa ,eslash qiyin bo'lmaydi. Bu xuddi uch halqadan iborat zanjirga o'xshaydi. Birinchi qismda ingliz tilidagi so'z, ikkinchi qismda bog'lovchi so'z va oxirgi qismda o'zbek tilidagi so'z. Ingliz tilidagi so'zni eshitsangiz va yoki o'qisangiz ikkinchi qismdagi talaffuzan yaqin so'z yodingizga keladi. Ikkinchi zanjirdagi so'zni eslasangiz unga bog'langan o'zbek tilidagi so'z esga keladi.



Albatta, bunday natijaga qisqa muddatda mustaqil, ustozdan o‘rganmasdan erishib bo‘lmaydi. Ammo sabr ila mnemonika o‘rganilsa, natija bo‘ladi. Ishonch bilan ayta olamanki buning iloji bor. Men o‘z o‘quvchimiz mnemonikani o‘rgatdim. O‘zim mehnat faoliyatini olib borayotgan Pop tumanidagi 45-maktabning 9-sinf o‘quvchisi Salimjonov Qilichbek "BIR SOAT VAQT ICHIDA 220 TA INGLIZ TILIDAN SO‘Z YODLADI" Bu natijaga erishish uchun bir yarim oy mnemonika mashqlarini bajardi va natijaga erishdi. Yodlash texnikasi haqida biroz to‘xtalib o‘tsak. Yuqoridagi usul bilan so‘zlar o‘zaro assotsiatsiya qilinadi, ya'ni bog‘lanadi. Har safar 25-30 ta va yoki 50 ta so‘z yod olinishi bilan bir marta tezkor tarzda qaytarib chiqiladi. Tasavvur qilishda imkon qadar noodatiy bog‘liqlik bo‘lishiga harakat qilindi. *Barchasini batafsil bayon etish uchun kitob yozish kerak. Ha kitoblar ham yozilgan. Biz imkon qadar qisqa qilishga harakat qildik. Savollar tug‘ilgan bo‘lsa biz bilan bog‘lanishingiz mumkin. Imkon qadar javob berishga harakat qilamiz.* Maqsadimiz: Yoshlarimiz yana butun dunyoga o‘z aql-u zakovati bilan o‘rnak bo‘lsinlar. Fanlar bo‘yicha o‘z o‘rnida xotiralari bilan ham yuksak natijaga erishsin. Buyuk ajdodlarimizga amalda munosib izdosh bo‘lsinlar va bu ulug‘ maqsad yo‘lida biz ozgina bo‘lsada yordam berolsak, bundan faqat xursand bo‘lamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Андрей Сафронов. Супер память за семь шагов: Книга тренинг.
2. Станислав Матвеев. Феноменальная память. 2012.

## AMALIY FILOLOGIYANING JAMIYAT HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI

*Muxammadiyeva Kamola Doston qizi*  
*O‘zbekiston Milliy universiteti 1-kurs talabasi.*

**Annotatsiya:** Maqolada jamiyat amaliy filologik tadqiqotlarga nechog‘lik muhtoj ekanligi, amaliy filologiyaning hozirgi kundagi ahamiyati va tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari to‘g‘risida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** amaliy filologiya, lingvistik eksperteza, sud lingvistikasi, tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng mavjud ona tili ta‘limining yaroqsiz holga kelib qolganligi, uni tubdan isloh qilish lozimligi, ta‘lim maqsadi, mazmuni va usulini yangilash zarurati paydo bo‘ldi. Hozirgi zamonaviy davr bilimli shaxsgagina emas, balki bilim olish yo‘llarini puxta o‘zlashtirgan, o‘zida bor bo‘lgan bilimlarini amaliy qo‘llay oladigan, mustaqil idrok qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lgan ongli fuqaroga ehtiyoj sezdi. Bugungacha bo‘lgan davrda ta‘limda ijodiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi usullarga ustuvorlik berilishiga qaramasdan, til qurilishi haqida ko‘p hollarda amaliy tatbiqdan yiroq, kam samarali lingvistik bilimlar berishdan iborat eski an‘ana hanuzgacha saqlanib kelmoqda. Bugungi kunda boshlang‘ich sinflarda deysizmi, umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida yoki akademik litsey va kasb-hunar kollejarida deysizmi, til qurilishi bo‘yicha beriladigan bilimlar hissasi ona tilidan amaliy foydalanish kompetensiyasidan ancha ustunlik qiladi. Vaziyat shu darajaga yetdiki, e‘tibor berib qaralsa, ona tili ta‘limi maqsadi ijodiy tafakkur sohibi va til imkoniyatini egallagan va uni amaliyotga tatbiq qila oladigan shaxsni tarbiyalash emas, balki tilshunos olimni yetishtirishga o‘xshab qoldi. Yangi asrda jamiyatning barcha sohalari shiddat bilan rivojlanib boryaptiki, davr tildan amaliy foydalanish samaradorligini fanning ham, ta‘limning ham asosiy vazifasiga aylantirib qo‘ydi. Amaliy filologik faoliyat ijtimoiy zarurat demakdir. Amaliy filologik ta‘limni yo‘lga qo‘yish, amaliy filologik faoliyat olib borish va bunga doir tegishli tadqiqot ishlarini amalga oshirish ehtiyoji ijtimoiy hayotimizda ancha ilgari vujudga kelgan edi. Yevropa mamlakatlarining ko‘pchiligida tilshunos olimlar lingvistik ekspertiza bo‘yicha ham nazariy, ham amaliy bilim va ko‘nikmalarga ega. Sud tashkilotlari va tergov bo‘limlari tilshunoslik sohalari bo‘yicha muammolar kelib chiqqanda o‘z sohasining mutaxassislaridan tilshunos ekspert sifatida bu ishga munosabat bildirisha va lingvistik ekspertiza yozib berishi haqida murojaat xatlari yuborishadi. Lekin hanuzgacha bizning yurtimizda bu soha rivojlanmagan. Tilshunos olimlarimizning deyarli barchasi lingvistik ekspertiza bo‘yicha ko‘nikmaga ega emas. Bunga doir yana ayrim dalillarni keltirib o‘tamiz. Yurtimizdagi tilshunos olim ish faoliyatida yuz bergan voqeani misol qilib keltirishimiz mumkin. Olim ishlaydigan O‘zbek tilshunosligi kafedrasiga bir kishi kelib, o‘zini tergovchi deb tanishtiradi va bir masalada yordam berishlarini so‘raydi. Ma‘lum bo‘lishicha, o‘z joniga qasd qilgan bir kishi xat qoldirgan bo‘lib, unda hayotdan o‘z xohishi bilan ketayotgani, bunda hech kimni ayblamasligi aytilgan. Tergovchiga shu xat borasida lingvistik xulosa zarur ekan. Xatni marhum o‘z qo‘li bilan yozgani aniq, biroq u o‘z hohishi bilan yozganmi, biron majburlaganmi, yozish jarayonida uning ruhiy holati qanday bo‘lgan – ana shularni oydinlashtirmoqchi ekan. Shunda olim bunday savollarga javob berish imkoni yo‘qligi, u bilan tilshunoslik shug‘ullanmasligini aytadi. Tergovchi esa o‘zining Moskvada tahsil olganini va amaliyot chog‘ida shunga o‘xshash muammolar bilan mutaxassislar Moskva davlat universitetining filologiya fakultetiga tez-tez murojaat qilishlariga guvoh bo‘lganini, fakultet talabalariga «Sud lingvistikasi» fani maxsus o‘qitilishi, bunday kadrlarga ehtiyoj kattaligi va maoshlari ham yuqori ekanini aytadi. Bu shuni anglatadiki, yurtimizda ham "Sud lingvistikasi" fanini joriy qilishimiz va davlatimizda bu sohani imkoni boricha rivojlantirishimiz zarur. G‘arb mamlakatlarida amaliy filologiyaning juda ko‘plab sohalari mavjud "Tovar yorliqlarida harf shakllarining inson psixikasiga ta‘siri", «Tashqi reklamalarda vizual urg‘u», «Falon temperamentli shaxsning nutqi» kabi mavzularda doktorlik dissertatsiyalari himoya

qilinganligi, ular tegishli korxonalar tomonidan ancha yaxshi moliyalashtirilganligi bularning yaqqol dalili bo'la oladi. Kundalik hayotda tilning amaliy qo'llanilishi bilan bog'liq ko'plab ishlarni bajarishimizga to'g'ri keladi. Turli hujjatlarni tayyorlash, matnlar tahriri, lug'at va qomuslar tuzish yoki ularga munosabat bildirish va hokazo, bu ishlarning birortasi bo'yicha tilshunoslik sohasida o'quvchi talabalarda va shu sohaning mutaxassislarida ham maxsus ma'lumot yo'q va ularni bajarishda hayotiy tajriba asosida ish ko'rib kelinadi. Masalan, matn tahriri bo'yicha maxsus dasturlashgan ma'lumotga ega bo'lmagan an'anaviy filologlar tahrir ishlarini amalga oshiradilar, lekin ehtiyojmand kishiga bu bo'yicha tizimli va umumiy mohiyatli maslahat berishda qiynalishadi. Tayyorlanayotgan filologlarimiz lug'at va qomuslar tuzish yoki ularning elektron ko'rinishlarini tayyorlash bo'yicha hech qanday amaliy ma'lumotlarga ega bo'lmaganini hisobga olsak, bugungi kunda kitob rastalarini son-sanog'i yo'q sifatsiz lug'at va qomuslar, so'zliklar bosib ketayotganligi tabiiy holdir. Bu lug'atchilik amaliy filologiyaning peshqadam sohasi sifatida rasman mutlaqo yo'lga qo'yilmaganligi, oliy filologik ta'lim tarkibida lug'atchilik ta'limi yo'qligi bilan bog'liq. Ijtimoiy hayotimizda amaliy filologik faoliyat bilan shug'ullanuvchi kadrlarga kuchli ehtiyoj mavjudligi keltirib o'tilgan dalillarda ham o'z isbotini topgan. Amaliy filologiya bakalavrida professional kompetensiyani shakllantirish uchun ixtisoslik fanlari tarkibida, umumfilologik fanlar bilan birgalikda, sof amaliy maqsad va mazmundagi «Matn tahriri», «Kommunikatsiya asoslari», «Rasmiy hujjatlar tilining amaliy masalalari», «Lingvistik ekspertiza», «Kalligrafiyashunoslik asoslari», «Matn ustida ishlashning filologik asoslari», «Kasbiy faoliyatning axborot texnologiyalari», «Kasbiy kommunikatsiyaning filologik ta'minoti», «Amaliy leksikografiya», «Til korpusi» kabi o'quv kurslarining joriy etilishi maqsadga muvofiq. O'zbek amaliy tilshunosligi bilan bir qatorda tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari hisoblangan etnolingvistika, sotsiolingvistika, ekolingvistika, psixolingvistika, kompyuter lingvistikasi, neyrolingvistika, sud lingvistikasi kabi sohalarni rivojlantirishga ham kuchli e'tibor qaratishimiz darkor. Til nutqiy faoliyatda yuzaga chiqqani tufayli nutqiy faoliyat tilshunoslikda ham, psixologiya fanida ham tekshirish obyekti sanaladi. Tilshunoslik va psixologiya fanlarining ushbu kesishish nuqtasi mazkur fanlar oralig'ida psixolingvistika yoki lingvopsixologiya yo'nalishining yuzaga kelishiga olib keldi. Psixolingvistika atamasi dastlab 1946-yilda amerika psixologi N. Pronko tomonidan qo'llandi va XX asrning 50-yillaridan keng yoyildi. Biroq uning ildizlari XIX asrda qiyosiy-tarixiy tilshunoslik negizida vujudga kelgan psixologizm oqimiga borib taqaladi. Uning asoschisi G.Shteyntal tilda xalq ruhining ifodalanishini ta'kidlab, sotsial, etnik psixologiyani yaratishga intildi. Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlaridan biri bo'lgan etnolingvistika atamasi grekcha "etnos" xalq, qabila so'zlaridan olingan bo'lib, XIX asrning 70-yillarida Amerika hindularining tili, madaniyati va urf-odatlarini o'rganishning kuchayishi tufayli yuzaga kelgan. Ma'lumki, xalq tarixida, turmush tarzida yuz bergan har bir voqea, urf-odatlar uning tilida aks etadi, shuning uchun til bilan uning egasi bo'lgan xalq o'rtasida uzviy aloqa mavjud. Toponim, etnonimlarni xalqning tarixini bilmay turib o'rganib bo'lmaydi, shuningdek, etnografiya ham tilshunoslikka qimmatli materiallar beradi. Til amaliyoti va rivojlanishida etnomadaniyat, etnopsixologik omillarni o'rganish ehtiyoji tilshunoslikda etnolingvistika yo'nalishini yuzaga keltirdi. Psixolingvistika lisoniy imkoniyatlar asosida nutqiy birliklarni hosil qilish va qabul qilish, nutq jarayonida ruhiy holatlarga, bunda sharoit (situatsiya), o'xshashlik (analogiya), farqlash (differentsiatsiya), ta'sirchanlik, so'zlovchi va tinglovchi ruhiy holati masalalariga alohida e'tibor beradi. Filologiya sohasida bu kabi yangi yo'nalishlarni ommaga keng tatbiq qilish va uni amaliy qo'llash shu soha oldida turgan dolzarb muammolarning yechimi hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "Tilshunoslikning dolzarb muammolari" Urganch-2019, "Adabiyot uchqunlari" nashriyoti.
2. Baxtiyor Mengliyev "Amaliy filologiya istiqbollari" nomli maqolasi "Ma'rifat" gazetasi-2015.
3. "Filologik tadqiqotlar" 2014 "Turon, zamin, ziyo" nashriyoti
4. Shayxislamov, N. (2020). So'z urg'usining o'zbek va ingliz tillaridagi farqlash vazifasining qisqacha tavsifi. O'zbekistonda innovatsion ilmiy tadqiqotlar va metodlar, 13-14.
5. I. Toshaliyev. "Til va jamiyat". Toshkent-2015.

**THE OVERALL EFFICIENCY OF THE DEVICE CONSTANTLY MONITOR THE QUALITY OF THE PRODUCT AND IS A GUARANTEE OF CONSUMER CONFIDENCE**

*Normatov Islomiy Ilxombek o'g'li*  
*Andijan Machine building Institute Assisatant.*



*Sobirov Begzodbek Ulug'bek o'g'li*  
*Andijan Machine building Institute Master.*

*Isroilov Asadbek Ilxomjon o'g'li*  
*Fergana Polytechnic Institute Student.*

**Keywords:** OEE(overall equipment effectiveness), TPM(total preventive maintenance), MTTR(Mean Time to Repair), MTBF (Mean Time between Failures), efficiency, maintenance, six losses, quality, reliability, availability.

**Annotation:** Meeting current unlimited needs with limited resources is a global challenge. To do this, of course, business owners need to increase production efficiency, to produce quality products on the first try. Such a result can be achieved only with the help of equipment, the quality and efficiency of which are constantly monitored. Through this article you produce general equipment in enterprise get acquainted with the method of performance evaluation, and you can learn the essence of the calculation formulas in it.

Overall efficiency of the equipment (OEE) - reliability and effective formation of the maintenance system. This means that the machine must perform the task assigned to it as intended, that is, failure requires a minimum downtime. This is a very important indicator, as the number of unscheduled outages increases, production decreases. Figure 1. Note that as the individual stop times increase, so does the time outside the overall plan. Therefore, anyone evaluating OEE should know the average repair time (MTTR). The efficiency of the system is often the system ability to perform the intended function representing one or more values expressed as indicators <sup>[1]</sup>.







In general, three parameters need to be considered to calculate OEE:

- 1) Availability is the percentage of a device's reliability that can be used by a machine or equipment at any time.

Availability =  $100 * MTBF / (MTBF + MTTR)$  ; Example: Calculate the natural presence of a system with an average failure time (MTBF) of 50 hours and an average repair time (MTTR) of 1 hour: Availability =  $100 * MTBF / (MTBF + MTTR) = 50 / (50 + 1) = 0,98 * 100 = 98\%$ .

- 2) Performance =  $([ideal\ rotation\ time\ and\ total\ parts\ performance] / [working\ time]) \times 100$  Example: A machine is scheduled to operate in an 8-hour (480-minute) shift with a 30-minute break, A 60-minute unscheduled break, the machine should produce 40 units per hour, a total of 242 units, to determine performance efficiency.

Available time = scheduled 450 minutes - 60 minutes unscheduled stop time = 390 min;

Production speed Production speed =  $\frac{242\ products}{390\ minute} = 37,2\ pieces/hour$

Performance =  $37,2\ (pieces/hour) / 40\ (pieces/hour) = 93,0\%$

- 3) Quality =  $([total\ parts - quantity\ of\ defects] / [total\ parts]) \times 100$

Example: The machine produced 242 products in one shift, 12 of which were found to be non-compliant (or in need of repair). Evaluate the quality of the car<sup>[2]</sup>.

$$Quality = \frac{242\ pieces - 12\ pieces\ appropriate}{242\ pieces} * 100\% = 95\%$$

OEE = Availability \* Performance efficiency \* Quality

<http://oe.yoshlartexpark.uz/><sup>[3]</sup> through this site it is possible to determine the overall efficiency of the device and save it in the system memory. If you do not enter the "Performance" value correctly in the program, the calculation will not be performed<sup>[4]</sup>.

**Conclusion:** To improve the OEE, the organization has three they have to organize the work in that direction are as follows:

- 1) Availability:
  - Reduce unplanned downtime.
  - Identify and eliminate specific and general causes.
  - Analyze and improve MTBF, MTTR and other reliability issues.
  - Use TPM and emergency care teams.
  - Give priority to preventive maintenance.

Performance efficiency:

- Improve performance to limit ideal cycle time.
- Optimize production time.
- Determine the cause of the machine failure.
- Identify and close the gap of asymmetry operations with appropriate operators or process flows.

Identify and standardize transactions that do not add value to any product.

Quality:

- Understand value flow to set strategic buffers to prevent shortages.
- Identify indicators and pathways for improvement plans
- Identify problem areas and set up an error or bug check.
- Identify boundary patterns and report them. Make sure the samples are not subject to degradation due to time or open environment.
- May occur in the development of OEE suitable for solving existing problems and applied problem resources and process distribute experts.

### References:

1. D.H. Stamatis. The OEE primer : understanding overall equipment effectiveness, reliability, and maintainability. New York-2010 yil. 62-page.
2. D.H. Stamatis. The OEE primer : understanding overall equipment effectiveness, reliability, and maintainability. New York-2010 yil. 100-page.
3. <http://oee.yoshlartexnoparki.uz/>
4. Dennis McCarthy & Nick Rich. Lean TPM. A Blueprint for Change. Second edition Butterworth-Heinemann is an imprint of Elsevier. USA Copyright © 2015.

## O‘ZBEK TILI O‘QITISHDA TEXNOLOGIK JARAYONLAR

*O‘rinboyeva Xurshida Xayrullayevna*

*Namangan muhaandislik-texnologiya instituti*

*o‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Til va tafakkur tushunchalari, til va nutq, ularning farqi, tilning o‘ziga xos jihatlari, so‘zning qanchalar yuksakligi turli metodlar orqali namoyish etish mumkin.

**Kalit so‘zlar:** Til, Nutq, Ma‘naviyat, Tafakkur, O‘zbek tili, “Maqollar zanjiri” metodi, “SINKVEYN” texnologiyasi, “Har bir - sehr” o‘yini haqida aytib o‘tilgan.

**Til** — murakkab muloqot tizimi va shu tizimni o‘rganish va ishlatish qobiliyati. Tilni o‘rganuvchi sohaga tilshunoslik deyiladi.

**Nutq** — tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli. Nutq deganda uning og‘zaki (ovozli) va yozma ravishda namoyon bo‘lishidagi jarayonlar, ya‘ni so‘zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar) tushuniladi.

**Ma‘naviyat** — «Ma‘naviyat» so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, odob-axloq majmui degan ma‘noni bildiradi. Inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha.

**Tafakkur** — inson aqliy faoliyatining yuksak shakli; obyektiv voqelikning ongda aks etish jarayoni.

**O‘zbek tili** — bu ona tilim, ota-bobolarim tili, milliy o‘zligimiz ifodachisidir.

Tabiat va jamiyat mahsuli bo‘lgan inson, ayni paytda, ularning oliy namunasi ham sanalib, olamni narsa va predmet shaklida, voqea va hodisa tarzida miyasida aks ettiradi, idrok qiladi, fikrlaydi. Bu jarayonda muhim vosita hisoblangan tilning ahamiyati g‘oyatda muhimdir. Til milliy madaniyatning shakli sifatida tafakkurning mevalari va ma‘naviy boyliklarini zamon va makonda abadiylashtiradi. Shuning uchun ham til va tafakkurni bir-biridan alohida tarzda tasavvur qilib bo‘lmaydi. «Til bilan tafakkur bir-birini taqozo etadigan ajralmas hodisadir. Tilsiz tafakkur bo‘lmaganidek, til ham tafakkursiz bo‘lmaydi». Shu ma‘noda o‘zbek tili darslarida noan‘anaviy texnologiyalardan foydalanish talabalar nutqini oshirishga xizmat qiladi.

**“Maqollar zanjiri” metodi.** Maqollardagi nuqtalar o‘rniga tushirib qoldirilgan so‘zlarni qo‘yib chiqing.

<i>№</i>	<i>Maqollar</i>	<i>Javob</i>
1.	<i>Dilni dilga ...</i>	
2.	<i>Intizomli lashkar</i>	
3.	<i>Sarishtali uy -... uy.</i>	
4.	<i>... kurashga to‘ymas.</i>	
5.	<i>... topsa, bo‘lib yer, ... topsa bosib yer.</i>	
6.	<i>Rejali ish – hamisha</i>	
7.	<i>Shoshganda ...</i>	
8.	<i>... yaltiroqning ...</i>	
9.	<i>Qoqilsang ...dan</i>	
10.	<i>... bilan... egizak.</i>	

“SINKVEYN” texnologiyasi

“SINKVEYN” - bu besh satrdan iborat bo‘lib, unda berilgan tushuncha birinchi satrdan to‘rtinchi satrgacha kengayib boradi. Birinchi qatorda mavzu (kalit ) beriladi, ikkinchi qatorda unga bir yoki ikkita aniqlovchi tanlanadi.

Uchinchi qatorda uni harakat-holat (fe'l) bilan to'ldiriladi. To'rtinchi qatorda har xil usul bilan yoyiq gapga aylantiriladi. Beshinchi qatorda kalitning ma'nodoshi (sinonimi) keltiriladi.

	1-daraja	2-daraja	3-daraja	4-daraja	5-daraja
Orfografiya					
Kutubxona					
Maqol					

**“Har bir - sehr” o‘yini.** Berilgan lardan birikmalari tuzing, shu birikmalarni hamda ularning sinonimlarini qo‘llab matn tuzing (ustoz, o‘qituvchi, muallim; vatan, yurt, makon, diyor...).

Masalan:

Ota	Ona
O - ila boshlig‘i T - arbiyachi A - qlli maslahatchi	O - ila bekasi N - amuna ko‘rsatuvchi A - ziz inson
Aka	Uka
A - dolatpesha, adolatli K - o‘makchi do‘st A - ql ko‘zgusi	U - mid chirog‘i K - elajak tayanchi A - hillik namunasi
Do‘st	Yor
D - ardkash birodar O‘ - rnak ko‘rsatuvchi S - irdosh inson T - ayanch bo‘luvchi	Yo‘ - ldosh, O - qibatli do‘st R - ahmdil inson

Ustoz	Muallim
U - S - T - O - Z -	M - U - A - L - L - I - M -
Vatan	Yurt
V - A - T - A - N -	Y - U - R - T -

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonova M. Fattaxova D. Xalmuxammedova U. Inogamova N. Egamberdiyeva N. O‘zbek tili (o‘quv qo‘llanma). - Toshkent: Mumtoz so‘z, 2018.
2. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat. Darslik. - T.: “Barkamol fayz media”, 1992. - 424 bet;
3. Muhiddinova X., Salisheva Z., Po‘latova X. O‘zbek tili (oliy ta‘lim muassasalari rus guruhlari uchun darslik). - Toshkent: O‘qituvchi, 2012. - 288 b.
4. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish (amaliy qo‘llanma). - Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. - 456 b.
5. Qurbonova M., Yo‘ldoshev M. Matn tilshunosligi: – Toshkent: Universitet, 2014.

## ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARINI O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

**O‘rinboyeva Xurshida Xayrullayevna**  
 Namangan muhaandislik-texnologiya instituti  
 o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini o‘qituvchisi.

**Annotatsiya:** Maqol va matal kabi ixcham va mazmundor xalq og‘zaki ijodi janrlarida ham fikr ifodasi uchun metodlarning ahamiyati katta.

**Kalit so‘zlar:** Maqollar zanjiri” metodi, “Hikmatli so‘zlar insonni ulug‘lar” metodi, Har bir so‘z - sehr” o‘yini.

Maqol va matal kabi ixcham va mazmundor xalq og‘zaki ijodi janrlarida ham fikr ifodasi uchun metodlarning ahamiyati katta.

Bu metodlarda asosan, “Takror komponentlar maqol, matal kabilarning sodda, ixcham formada shakllanib, tez yodda saqlanishiga yordam beradi. Fikrni sodda ifodalash uchun, so‘zlarni tejab, iqtisod qilib ishlatish uchun, fikrning emotsionalligini ta‘minlashga, voqea-hodisa, predmet-narsalar nomini logik jihatdan ajratib ko‘rsatishga xizmat qiladi”<sup>133</sup>. Tovushlar takrori ma‘noni kuchaytirib, ta‘sirchanlikni oshiradi.

Ona tili ta‘limida xalq og‘zaki ijodi namunalarini turli metodlar orqali qo‘llash o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini orttiradi.

**“Maqollar zanjiri” metodi.** Maqollardagi nuqtalar o‘rniga tushirib qoldirilgan so‘zlarni qo‘yib chiqing.

<i>No</i>	<i>Maqollar</i>	<i>Javob</i>
1.	<i>Dilni dilga ...</i>	
2.	<i>Intizomli lashkar</i>	
3.	<i>Sarishtali uy -... uy.</i>	
4.	<i>... kurashga to‘ymas.</i>	
5.	<i>... topsa, bo‘lib yer,... topsa bosib yer.</i>	
6.	<i>Rejali ish – hamisha</i>	
7.	<i>Shoshganda ...</i>	
8.	<i>... yaltiroqning ...</i>	
9.	<i>Qoqilsang ...dan</i>	
10.	<i>... bilan... egizak.</i>	

<sup>133</sup>Abdurahmonov X. Maqol va matallarda takror komponentlarning qo‘llanishi // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1974. – 3-son. – B. 63.



“Hikmatli so‘zlar insonni ulug‘lar” metodi. Buyuk faylasuf va olimlarning hikmatli iboralaridan aytib, ularni ma’nosini sharhlab, jadvalga to‘ldiring.

<i>No</i>	<i>Hikmatli so‘zlardan namunalar</i>	<i>Muallifi</i>
1.	<i>O‘z birodaringni sukut saqlab tingla, Garchi uni eshitishga rag‘bating va mayling bo‘lmasa ham, uning hurmatini o‘rniga qo‘y.</i>	<i>Mahmud Az-Zamaxshariy</i>
2.	<i>Bilimdan yozilur bor tugun – chigal, Bilim bil, uquv ol, o‘zing har mahal</i>	<i>Yusuf xos Xojib</i>
3.	<i>Agar g‘ishtni qiyshiq qo‘yarkan ma‘mor, Yulduzga yetsa ham qiyshiqdir devor.</i>	<i>Bedil</i>
4.	<i>Bilim bilan bo‘lur odamda iymon, Bilimdan devni ham bog‘lamoq oson.</i>	<i>Firdavsiy</i>
5.	<i>Befoyda so‘zni ko‘p aytma, Foydali so‘zni ko‘p eshiturdin qaytma.</i>	<i>Alisher Navoiy</i>
6.	<i>Ilm o‘qub qilmagan amali maqbul, dono sochib ko‘tarmadi mahsul,</i>	<i>Alisher Navoiy</i>
7.	<i>Agar ilmdan kiygan bo‘lsa toj, ul toj osmondan undiradi boj.</i>	<i>Dehlaviy</i>
8.	<i>Jahd ila, ilmga kim urdi boshin, shamoldan yurgizdi tegirmon toshin.</i>	<i>Dehlaviy</i>
9.	<i>Ziyo-la yuraman desang dunyoda, ilm ol, hunar o‘rgan qolma piyoda</i>	<i>Is‘hoqxon To‘ra Ibrat</i>
10.	<i>Kitob-beminnat ustoz, bilim va ma‘naviyat yukshalishishiga erishishning eng asosiy manbaidir.</i>	<i>Alisher Navoiy</i>

**Har bir so‘z - sehr” o‘yini.** Berilgan so‘zlardan so‘z birikmalari tuzing, shu birikmalarni hamda ularning sinonimlarini qo‘llab matn tuzing (ustoz, o‘qituvchi, muallim; vatan, yurt, makon, diyor...). **Masalan:**

<b>Ota</b>	<b>Ona</b>
O - ila boshlig‘I T - arbiyachi A - qlli maslahatchi	O - ila bekasi N - amuna ko‘rsatuvchi A - ziz inson
<b>Aka</b>	<b>Uka</b>
A - dolatpesha, adolatli K - o‘makchi do‘st A - ql ko‘zgusi	U - mid chirog‘I K - elajak tayanchi A - hillik namunasi
<b>Do‘st</b>	<b>Yor</b>
D - ardkash birodar O‘- rnak ko‘rsatuvchi S - irdosh inson T - ayanch bo‘luvchi	Yo‘- ldosh, O - qibatli do‘st R - ahmdil inson

Bunday texnologiyalar orqali yoshlarni fikrlashi, ravon so‘zlashi nutq komponentlarini o‘rinli qo‘llashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdurahmonova M. Fattaxova D. Xalmuxammedova U. Inogamova N. Egamberdiyeva N. O‘zbek tili (o‘quv qo‘llanma). - Toshkent: Mumtoz so‘z, 2018.
2. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat. Darslik. - T.: “Barkamol fayz media”, 1992. - 424 bet;
3. Muhiddinova X., Salisheva Z., Po‘latova X. O‘zbek tili (oliy ta‘lim muassasalari rus guruhlar uchun darslik). - Toshkent: O‘qituvchi, 2012. - 288 b.
4. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish (amaliy qo‘llanma). - Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.- 456 b.
5. Qurbonova M., Yo‘ldoshev M. Matn tilshunosligi: – Toshkent: Universitet, 2014.
6. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. – T., 1989.
7. Karimov S.a O‘zbek tili uslubshunosligining hozirgi bosqichdagi muammolari. Ma‘ruzalar matni. Samarqand, 2006.

## BOLA NUTQINING PSIXOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI

*Obloberdiyeva Nozima Boxodirovna*  
*BuxDU, lingvistika yoʻnalishi magistranti.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalar nutqining psixolingvistik xususiyatlari hamda uning oʻziga xos jihatlari haqida maʼlumot berilgan. Qayd etib oʻtish lozimki, aynan 6-7 yoshli bolalarning nutqidagi mavjud psixolingvistik omillar nutqiy kamchiliklari, ularga qaratilgan nutqlarning bola tafakkuriga qayd darajada taʼsir qilishi, baʼzi hollarda kuzatiladigan nutqiy beqarorlik masalalarida namoyon boʻladi.

**Kalit soʻzlar:** bolalar nutqi, psixolingvistik omil, kuzatuv natijalari, pragmalingvistika, nutqiy kamchiliklar.

## ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ РЕЧИ ДЕТЕЙ

*Облобердиева Нозима Боходировна*  
*Бухарский государственный университет, магистр лингвистики.*

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о психолингвистических особенностях детской речи и ее особенностях. Следует отметить, что имеющиеся психолингвистические факторы в речи детей 6-7 лет проявляются в речевых дефектах, степени влияния обращенной на них речи на мышление ребенка, а в ряде случаев - в речевой неустойчивости.

**Ключевые слова:** детская речь, психолингвистический фактор, результаты наблюдения, прагмалингвистика, дефекты речи.

Barchamizga maʼlumki, inson dunyoga kelgach, u gapirish koʻnikmasini toʻliq egallaguniga qadar koʻplab yoʻllarni bosib oʻtadi. Ana shu yoʻllar davomida baʼzi hollarda muvaffaqiyatga erishsa, baʼzi hollarda qiyichiliklarga duch keladi. Biz ham ushbu maqolamizda bolalarning ruhiyatini bevosita aks ettirgan holda ularning nutqidagi yutuqlar hamda baʼzan yuz beradigan kamchiliklar toʻgʻrisida batafsil maʼlumot beramiz .

Bolalar nutqi – darajama-daraja rivojlanib kelayotgan qobiliyat sanaladi[5]. Dastavval ogʻzaki nutq tizimini qoʻllashga erishgan bola maʼlum vaqtlar oʻtib yozish malakasini egallay boshlaydi hamda umri davomida ushbu koʻnikmalaridan foydalanishga harakat qiladi. Biroq masalaning muammoli jihati ham mavjud boʻlib, bu bevosita bolalarning ruhiy holati bilan bogʻliq holda namoyon boʻladi. Ana shunday nutqiy muammolarning bola psixikasi bilan bogʻliq jihatlari psixolingvistika fanining obyekti hisoblanadi. Shu oʻrinda bir savol tugʻilishi tabiiy, xoʻsh, bolalardagi ( biz nazarda tutayotgan yosh 6-7 yosh oraligʻidagi bolalar) psixolingvistik nutqiy kamchiliklar qay tarzda yuzaga keladi, uning paydo boʻlish omillari nimalardan iborat?


Bolalardagi psixolingvistik nutqiy kasalliklar qay tarzda yuzaga kelganligiga koʻra ikki turga ajratiladi, yaʼni :

- I. *Tugʻma nutqiy kamchiliklar.*
- II. *Orttirilgan nutqiy muammolar[7].*

Yuqoridagi qayd etilgan muammolarning omillari sifatida quyidagilarni qayd etishimiz mumkin: Tugʻma nutqiy muammolar onalarning homiladorlik davrigacha , homiladorlik davri hamda undan keyingi davrlar bilan bogʻliq boʻlib, bunda onaning roli juda ham ahamiyatlidir. Ona tanasidagi kasalliklar , jumladan, TORCH infeksiyasi, SARS yuqumli kasalligi hamda turfa salbiy illatlar ( spirtli ichimliklar isteʼmoli, tamaki chekish , gijohvandlik va hokazo) bolada nutqiy kamchiliklarning paydo boʻlishiga sabab boʻluvchi asosiy omillar sifatida baholanadi. Bunda tashqi omillar ham mavjud boʻlib, baʼzi hollarda shifokorlar tomonidan ayollarning homiladorlik davrida buyurilayotgan notoʻgʻri dori vositasi ham bolalardagi nutqiy kasalliklarning “yashirin” sababchisi boʻlishi mumkin[11].

Orttirma nutqiy nuqsonlar esa farzand dunyoga kelgach, uning hayotiy faoliyati davomida yuzaga keladigan kamchilik hisoblanadi. Chetki ta'sirlar natijasida – kimdir tomonidan qo'rqitilishi, go'daklik chog'ida yiqitib qo'yishi yoki bo'lmasa noto'g'ri parvarish natijasida yoxud individual omil – tez-tez kasal bo'lish (asosan, yuqumli kasalliklar), yiqilib tushish kabilar orttirma nutqiy nuqsonning bosh sabablaridandir. Ta'kidlash lozimki, tug'ma hamda orttirma nutqiy kasalliklarning bolada namoyon bo'lishi fanda alaliya deb yuritiladi. “A” – yo'q, “laliyos” - nutq ma'nosini ifodalagan ushbu atama bola nutqidagi kamchiliklarning aks etishi bilan bevosita xarakterlanadi[9].

Psixolingvistika fani tarmog'ida o'rganiluvchi ushbu kasallikning o'rganilishi miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Biroq, shuni ham eslatib o'tish lozimki, ushbu kasallik fanga “alaliya” tarzida ma'lum bo'lishidan oldin mutlaqo boshqa nomga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Jumladan, “tug'ma afaziya”, “ontogenetik afaziya”, “disfaziya” va shu kabi nomlar alaliyaning dastlabki nomlari sifatida xarakterlanadi. Bola ruhiyatiga bevosita ta'sir o'tkazish orqali yuzaga keladigan ushbu kasallik bolalar orasida o'rtacha 0,1 foizni tashkil qiladi[8]. Alaliya kasalligining nutqda namoyon bo'lishi uch xil ko'rinishga ega:



Bola ruhiyati buzilishi natijasida sodir bo'ladigan sensor alaliyaning muhim jihati sifatida nutq analizatorining eshitish yo'li shikastlanishi asosida yuzaga keladigan oqibatlari qayd etib o'tiladi. Bunda bola unga qarata so'zlovchi tomonidan aytilgan gapni yaxshi anglay olmaydi, natijada, undagi psixologik buzilish sodir bo'lib, bevosita uning nutqida o'z aksini topadi. Sensor alaliya bolaning xatti-harakatlarida ham namoyon bo'ladi hamda haddan ortiq harakatlanishning bola tanasida kuzatilishi aynan sensor alaliyaning belgilaridan biri sifatida ifodalanadi[3].

Alaliyaning ikkinchi turi bu motor alaliya hisoblanib, bunda bola nutqida psixik jarayonlarning tafakkur, xotira, shuningdek, nutqiy faoliyatning ayrim bosqichlarining o'zaro munosabati asosida motor alaliyaning ta'siri kuzatiladi. Motor alaliya bilan kasallangan bola o'z nutqini to'g'ri ifodalay olmasligi bilan xarakterlanadi, bunda bola tafakkurida turli chalkashliklar sodir bo'ladi. Motor alaliya bilan og'rikan bolalar ustida ko'plab amaliy tarjibalar olib borilgan, ularga turlicha rasmlar namoyish etilgan, biroq natija kutilmagan voqeliklarga sabab bo'lgan: bolalarga ko'rsatilgan “tarq” rasmining “soch” tarzida ifodalanishi, “qoshiq”ning “pichoq” bilan almashtirilishi bolalardagi nutqiy buzilishning dalillari edi[4]. Motor alaliyaning belgilari:

- haddan tashqari ko'p yiqilib tushish;
- nutq jarayonida 1-3 bo'g'inli so'zlarni ishlatish;
- ot so'z turkumiga oid so'zlarning salmoqli qo'llanilishi;
- kiyim tugmalarini mustaqil qaday olmaslik (qo'l motorikasi bilan bog'liq);
- oddiy jumboqlarni ham yecha olmaslik[6].

Eng so'nggi alaliya aralash alaliya hisoblanib, uning ikki turi mavjudligi bilan asoslanadi, ya'ni : motor-sensor alaliya hamda sensomotor alaliya.

Shu o`rinda ta`kidlash lozimki, bolalar psixikasi buzilishi natijasida yuzaga keladigan alaliyaning o`z davo choralari mavjud bo`lib, u, asosan, uch bosqichda amalga oshiriladi, ya`ni[4]:

<b>№</b>	<b>Bosqich</b>	<b>Davo choralari</b>
<b>1</b>	<b>I bosqich</b>	Ushbu bosqichda diqqat, asosan, bolalardagi nutqiy faollikni tarbiyalashga qaratiladi, so`ngra faol hamda nofaol lug`atni shakllantirish orqali davo muolajalari davom ettiriladi.
<b>2</b>	<b>II bosqich</b>	Ikkinchi bosqichning muhim xususiyati sifatida frazali nutqni shakllantirish, nutqning grammatik jihatdan to`g`rilanishi amalga oshiriladi.
<b>3</b>	<b>III bosqich</b>	Umuman olganda, bolalar mustaqil nutq tuzishlari uchun muolajalar olib borishda nutqiy faoliyatni har tomonlama shakllantirish nazarda tutiladi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, bolalar nutqining psixolingvistik jihatdan tadqiq qilinishi ularning nutqiy muloqotidagi yutuqlarni tadqiq etib, kamchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, bolalar nutqining psixolingvistik tahlili bolalardagi mavjud yoki keyinchalik yuzaga kelishi mumkin bo`lgan kasalliklarning oldi olinishiga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Беккер К. П., Совак М. Логопедия: Пер. с нем. — М.: Медицина, 1981. — 288 с.
2. Голик А., Мамцева В. Алалия //Справочник по психологии и психиатрии детского возраста/ Под общ. ред. С. Ю. Циркина. — СПб.: Изд-во «Питер», 1999. — С. 155.
3. Зеeman М. Расстройства речи в детском возрасте. — М., 1962.
4. Коган В. Алалия //Справочник по психологии и психиатрии детского возраста/ Под общ. ред. С. Ю. Циркина. — СПб.: Изд-во «Питер», 1999. — С.155.
5. Козловская Г., Мастюкова Е. школьных навыков нарушения //Справочник по психологии и психиатрии детского возраста/ Под общ. ред. С. Ю. Циркина. — СПб.: Изд-во «Питер», 1999. — 389—390
6. Понятийно-терминологический словарь логопеда / Под редакцией В. И. Селиверстова. — М.: Гуманитарный издательский центр ВЛАДОС, 1997. — С. 38. — 400 с. — 25 000 экз. — ISBN 5-691-00044-6.
7. Правдина О. В. Логопедия. — М.: Просвещение, 1973. — 272 с.
8. Эдинова М. Б. Алалия // Большая медицинская энциклопедия /Гл. ред. Б. В. Петровский. — Изд-е третье. — М.: Изд-во "Большая энциклопедия, 1974. — Т. I. — С. 120—121.
9. Энциклопедический словарь медицинских терминов. В 3-х томах / Главный редактор Б. В. Петровский. — М.: Советская энциклопедия, 1982. — Т. 1. — С. 37. — 1424 с. — 100 000 экз.
10. Августова, Р. Т. Говори! Ты это можешь! — Олимп, АСТ. — 304 с. — ISBN 5-17-013245-X, 5-8195-0684-
11. Крюков Н. Н., Уханова Т. А., Гарилов А. П. и соавт., Учебно-методическое пособие для врачей: Электропунктурная диагностика и терапия заболеваний нервной системы и расстройств психологического развития у детей, ГОУ ВПО Министерства здравоохранения и социального развития РФ СамГМУ, Самара 2008.

## GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI OQIBATLARI VA UNING OLDINI OLISH CHORA – TADBIRLARI

*S. Ochilov*

*Sharof Rashirov nomidagi Samarqand Davlat universiteti  
Samarqand, O'zbekiston, [sanjarochilov77777@gmail.com](mailto:sanjarochilov77777@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Global iqlim o'zgarishlari keltirib chiqaruvchi sabablar, havoni ifloslovchi manbalar va ularni qisqartirish chora tadbirlari, iqlim o'zgarishlariga qarshi xalqaro kelishuvlar, O'zbekistonda iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish tadbirlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** sanoat inqilobi, iqlim o'zgarishlari, havoning ifloslovchi manbalar, xalqaro kelishuvlar, iqlim o'zgarishi oqibatlari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi.

## THE EFFECTS OF GLOBAL CLIMATE CHANGE AND ITS PREVENTION MEASURES

*S. Ochilov*

*Samarkand State University named after Sharof Rashirov  
Samarkand, Uzbekistan, [sanjarochilov77777@gmail.com](mailto:sanjarochilov77777@gmail.com)*

**Abstract:** The causes of global climate change, sources of air pollution and measures to reduce them, international agreements on climate change, measures to combat climate change in Uzbekistan.

**Keywords:** industrial revolution, climate change, sources of air pollution, international agreements, the consequences of climate change, the United Nations General Assembly.

XVIII asrning ikkinchi yarimiga kelib insoniyat o'z taraqqiyot bosqichining sanoat inqilobi davriga yetib keldi, aynan ushbu taraqqiyot bosqichida sanoatning yangi va zamonaviy turlari hisoblangan mashinasozlik hamda transport tarmog'ining yoqilg'i resurslari bilan ishlaydigan turlari shakillandi, bu esa o'z navbatida insoniyatni yoqilg'i foydali qazilmalar va tabiiy resurslarga bo'lgan ihtiyojini yanada oshirishga olib keldi va yer yuzasining yoqilg'i resurslariga boy bo'lgan mintaqalarida ko'mir, neft va tabiiy gaz singari foydali qazilmalarni katta hajimda qazib olish avj oldi. XX asrning 50 – yillaridan keyin esa yuqorida aytib o'tilgan jarayonlar yanada kuchaydi, yer yuzasidagi barcha davlatlarda sanoat, transport va qishloq xo'jaligi tarmoqlari yanada jadallik bilan rivojlandi, dunyoda aholisi milliondan oshiq bo'lgan ko'plab shaharlar shakillandi bu jarayonlar natijasida geografik qobiqning asosiy komponenti bo'lgan atmosfera havosining turli xildagi zararli gazlar bilan ifloslanishiga olib keldi. Umuman olganda atmosfera havosining asosiy ifloslovchi manbalar ikki turga bo'linadi:

- Tabiiy omillar - kosmik changlar, vulqonlarning otilishi, tog' jinslarining yimirilishi va tuproqning nurashidan vujudga kelgan moddalar, o'simlik va hayvon qoldiqlari, o'rmon va dashtdagi yong'inlar, dengiz suvining mavjlanishi bilan havoga chiqqan tuz zarrachalari kabilarni misol qilib ko'rsatish mumkin ushbu omillar ta'siri natijasida atmosfera havosining ifloslanishi antropogen ta'sir natijasida ifloslanishga nisbatan ancha past hisoblanadi.

- Antropogen ta'sirlan natijasida ifloslanish – inson xo'jalik faoliyati ta'sirida atmosferani ifloslanishi bugungi kunda havo tarkibining bo'zilibishiga eng katta ta'sir etuvchi tarmoqlarni o'zida jamlagan bo'lib, quydagicha taqsimlash mumkun: avtomobil transporti birinchi o'rinni (40%); energetika sanoati ikkinchi o'rinni (20%); korxonalar va tashkilotlar tamonidan ishlab chiqarilgan chiqindilar uchinchi o'rinni (14%); qishloq xo'jaligidan chiqarilgan zararli moddalar va chiqindilar, maishiy kommunal xo'jaligi va boshqalar zimmasiga ifloslanishning (26%) to'g'ri keladi. Troposferada suv bug'lari, uglerod ikki oksidi, metan, xlor, uglerod, azot oksidi, ozon va boshqalarning mavjudligi tufayli qaytgan radiatsiyaning ma'lum miqdori ya'na yerga qaytadi. Ma'lumotlarga ko'ra, aynan shu moddalarning troposferada mavjudligi sababli hozirgi vaqtda



atmosferaning quyi qismidagi havoning o'rtacha harorati  $15^{\circ}\text{C}$  ni tashkil qiladi. Agar issiqxona samarasi bo'lmaganda harorat minus  $30^{\circ}\text{C}$  bo'lishi mumkin edi. Atmosferaning yuqori qatlamida yerdan qaytgan radiatsiya hisobiga havo ma'lum darajada isishi ko'zatiladi va harorat qaytadan yerga qaytadi, binobarin sayyora sathi qo'shimcha miqdorda isiydi. Ushbu hodisani "issiqxona samarasi" deb ataladi.<sup>134</sup> Umumiy xolda olganda atmosferada miyoriy tarizda kechadigan "issiqxona samarasi" atmosfera havosining sovib ketmasligiga ta'sir etar ekan, ammo havo tarkibiga katta hajimda tabiiy va antropogen ta'sirlar natijasi chiqariladigan chiqindilar, zararli moddalar ta'sirida atmosferaning qo'yi qismida katta hajimdagi zararli gazlarning to'planishi, havoning tiniqlik darajasini kamayishiga olib keladi va quyoshdan keladigan nurlarning atmosferada sinishi natijasida tarqoq radiyatsiya oshishi ko'zatiladi bu esa o'z navbatida yer yuzi bo'ylab o'rtacha havo haroratining yillik oshishiga olib kelmoqda. Yer yuzida o'rtacha havo haroarti 1890 – yilda  $14.5^{\circ}\text{C}$  dan 1980 – yilda  $15.2^{\circ}\text{C}$  ga ya'ni  $0.7^{\circ}\text{C}$  ortgani aniqlangan bu havo haroarining ko'tailishi u qadar katta ko'rsatgich deb qaralmasada ammo doimiy tarizda o'sib borishi natijasida katta talofatlarga sabab bo'lishi mumkun, havo haroratining bu tarizda oshib borishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar esa sanoat, qishloq xo'jaligi, transport tarmoqlaridan chiqadigan turli xildagi chiqindilar hisoblanadi, hozirda yer yuzida xo'jalik faoliyati bilan bog'liq holda atmosferaga har yili 500 mln.tonna [oltingugurt gazi](#), sulfat oksidi, azot oksidi, 6,5-7 mlrd. t. karbonat angidrid chiqarilmoqda. Shuningdek atmosferaning ifloslanishida va ko'plab kislorodni sarflanishida samolyotlarning ham roli katta. Birgina reaktiv samolyot 8 soat ichida Amerikadan Yevropaga uchib o'tganda 50-100 tonnagacha kislorod yoqadi, ya'ni buni 100 ming gektar o'rmonzor bir kunda chiqarib beradi.

Agar yer yuzida o'rtacha harorat 3-4  $^{\circ}\text{C}$ ga ko'tarilsa, iqlim mintaqalari yuzlab kilometr ga surilishi, dehqonchilik chegaralari shimolga kirib borishi va juda katta maydondagi doimiy muzliklar erib ketishi mumkin. Shimoliy Muz

okeanini qoplagan muzlar yozda erib ketib, kemalar bemalol suzib yurishi mumkin. Ikkinchi tomondan esa, Moskva va uning yon atrofidagi shaharlar iqlimi Kavkaz ortining hozirgi iqlimiga o'xshab qolar edi. Afrikadagi ekvatorial zona shimolga surilib, Sahroi Kabirni egallashi mumkin. Antarktida va Grenlandiya muzliklari erib ketib, natijada Dunyo okeani sathi 66 metrga ko'tarilgan bo'lar edi. Buning natijasida esa hozirda insoniyat yashab turgan 25 % qirg'oqlar suv ostida qolgan bo'lar edi.<sup>135</sup>

Dunyo miqyosidagi global iqlim o'zgarishi insoniyat oldida dolzarb sanalgan o'z yechimini ko'tib turgan muammo hisoblanadi, ushbu maqsadda atmosfera havosi tarkibidagi zararli gazlarni kamaytirish, "issiqxona samarasini" salbiy holatlarini oldini olish, global iqlim o'zgarishiga qarshi ko'rashish, ozon qatlamini muhofaza qilish bo'yicha xalqaro hamjamiyat tamonidan bir qancha konvensiyalar va kelishuvlar amalga oshirilgan. Xususan 1985 – yilda Avstriya poytaxti Vena shahrida 120 ta davlat ishtirokida "Ozon qatlamini muhofaza qilish" bo'yicha Vena konvensiyasi, Kanada davlatining Monreal shahrida "Ozon qatlamini yemiruvchi maddalar" to'g'risida Monreal bayonnomasi, 1997 – yilda Yaponiyaning Kiota shahrida 125 ta davlat ishtirokida "Iqlim o'zgarishi" to'g'risidagi BMTning konvensiyasiga Kioto bayonnomasi, Buyuk Britaniyaning London shahrida "Ozon qatlamini yemiruvchi moddalar" to'g'risidagi Monreal bayonnomasiga London tuzatishlari, 2015-yil 12-dekabrda esa Fransiyaning poytaxti Parij shahrida Parij Bitimi qabul qilingan, ushbu hujjat 2016-yil 4-noyabrda kuchga kirgan. Bitimning maqsadi BMT Iqlim o'zgarishlari bo'yicha doiraviy Konvensiyani amalga oshirilishini faollashtirish,

global o'rtacha haroratning industriallashtirishgacha (1750-y.) bo'lgan darajaga nisbatan  $2^{\circ}\text{C}$  ga saqlab turish hamda haroratning selsiy bo'yicha 1,5 darajagacha o'sishini cheklashga harakat qilishdan iborat. Bu 2050-yilga kelib issiqxona gazlari global ajratmalarini 40-70 foizga kamaytirishni va 2100-yilga kelib uning 0 yoki manfiy ko'rsatkichga yetkazishni talab etadi.

<sup>134</sup> Rafikov A.A. Geoekologik muammolar. –T.: "O'qituvchi", 1997. – 16 b.

<sup>135</sup> Sharipov Sh.M., Allaberdiyev R.X., Kuchkarov N.Y. Geoekologiya. O'quv qo'llanma. –T.: Adib, 2007.-70b.

Yuqorida ko'rib o'tilgan xalqaro hamkorliklar doirasida amalga oshiriladigan ishlarda butun jahondandagi davlatlar xususan O'zbekiston ham hamjihatlikda harakat qilishni talab etadi, chunki mamlakatimizning geografik joylashuvi, qurg'oqchil iqlim mintaqasida ekanligi, hududimizning katta qismi cho'llar egallagani, mavjud suv resurslari bilan taminlanganlik darajasi yuqori emasligini inobatga olib, global iqlim o'zgarishlariga qarshi mamlakatimiz hududida chora – tadbirlar olib borishni taqozo etadi, global iqlim o'zgarishining rivojlanishi O'zbekiston uchun quydagi ijtimoiy – iqtisodiy va ekologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkun:

- Havo harorat ortib borishi natijasida suvning bug'lanish darajasini oshishi, chuchuk suvni asosiy manbai hisoblangan tog' muzliklarining erishi va hududlarda suv resurslari kamayishiga olib kelishi;
- Global iqlim o'zgarishi oqibatida yil davomid yog'ingarchilik bo'lmagan kunlar soni ko'payishi;
- Yog'ongarchilikning bo'lmasligi va tuproqning namligi kamayishi hisobiga takroriy qurg'oqchilik xavfi ortmoqda va hosildorlik ko'rsatkichlari tushib ketmoqda;
- Orol dengiziga quyiladigan suv hajmining kamayishi daryo deltasining cho'lga aylanishi va qurigan dengiz tubida yangi cho'l maydonlari paydo bo'lishini tezlashtiryapti;
- Atmosfera havosida katta maydonlarda changlanish ortmoqda;
- Isish va sovish kabi anomal hodisalarning o'zgarishi qishloq xo'jaligi mahsulotlari va mevalarning nobud bo'lishiga olib kelmoqda.

Global iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish jarayonida O'zbekiston xalqaro hamjamiyatlar tamonidan ishlab chiqilgan dasturlarini qabul qilgan, xususan Manreal bayannomasiga Kapengagen tuzatishlari 1998 – yilning 1 – mayida, Ozon qatlamini muhofaza qilish bo'yicha Vena konvensiyasiga 1993 – yilning 18 – mayida, Ozon qatlamini yemiruvchi moddalar to'g'risida Monreal bayonnomasi 1995 – yil 22 – dekabrda, “Iqlim o'zgarishi” to'g'risidagi BMTning konvensiyasi Kioto bayonnomasiga 1999 – yilda imzolangan, ushbu konvensiya va bayonnomalarga ko'ra bugungi kunda iqlim o'zgarishlari, “issiqxona samarasi” singari yer shari va uning tabiat kompanitlariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan global muammolarni keltirib chiqaradigan omillarga qarshi kurashish bo'yicha ishlar olib borilmoqda, jumladan atmosfera havosini ifloslovchi sanoat, avtotransport vositalari, maishiy xo'jaliklardan chiqariladigan chiqindi va zararli gazlar salmog'ini kamaytirish maqsadida ishlar olib borilmoqda. 1985-yilda jami chiqindilarni miqdori 4,2 mln tonnani tashkil qilgan xolda 1994-yilda bu raqam 2,4 mln tonnagacha kamayadi. Bu jihatdan sanoat korxonalaridan chiqarilgan chiqindilar 1,5 mln tonnadan 0,9 mln tonnagacha qisqaradi. Transport vositalaridan chiqqan ifloslovchi moddalar esa 2,7 dan 1,4 mln tonnagacha kamayadi. Buncha chiqindilarning kamroq chiqarilishi korxonada duxonalariga turli konstruksiyadagi gaz va changni ushlab qoluvchi hamda tozalovchi moslamalarining o'rnatilishi va mavjudligining samaradorligini oshirish sabab bo'ladi. Shuningdek ishlab chiqarish hajmining kamayishi va shunga muvofiq yoqilg'idan foydalanish miqdorining pasayishi ta'sir ko'rsatgan.

Ma'lumotlarga ko'ra sanoat korxonalarida 1981-1985 yillarda har yili soatiga 421,3 ming m<sup>3</sup> gazni tutib qoluvchi va zararsizlantiruvchi moslama ishga tushirilgan bo'lsa 1986-1990 yillarda 723 ming m<sup>3</sup> 1991 yilda 1282,3 ming m<sup>3</sup> 1992 yilda 79,6 ming m<sup>3</sup> 1993 yilda 357,8 ming m<sup>3</sup> 1994 yilda 514 ming m<sup>3</sup> gazni tutib qoluvchi va zararsizlantiruvchi moslamalar o'rnatildi. Respublika 1992-yilda jami ushlab qolingani va zararsizlantirilgan texnogen chiqindilar miqdori 1985-yilga nisbatan 6% ga ortgan, ya'ni 1985 yilda chiqindilarning 65% ushlab 1992 yilda bu miqdor 71% [ni tashkil qiladi](#). Ushbu amaliy jarayonlarni amalga oshirish orqali havo tarkibini ifloslovchi manbalar tarkibini kamaytirishga erishish mumkun.

Davlatimiz tamonidan yuqoridagi amalga oshirilgan ishlarni o'zviy davomi sifatida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yil sentabr oyida BMTning Barqaror rivojlanish sammitida qabul qilingan 70-sonli rezolyutsiyasiga muvofiq, shuningdek, 2030-yilgacha bo'lgan davrda BMTning Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2018-yil 20-oktabrda 2030-yilgacha bo'lgan davr uchun 16ta Barqaror rivojlanish

milliy maqsadlari hamda ular bilan bog‘liq bo‘lgan 125 ta vazifalar tasdiqlandi, ushbu dasturning 16 – maqsadida iqlim o‘zgarishlariga qarshi quyidagi vazifalar belgilandi:

- 13.2- vazifa. Iqlim o‘zgarishlariga aks – ta’sir choralarni milliy darajada siyosatga, strategiyaga va rijalashtirishga kiritish;

- 13.3- vazifa. Odanlar va muassasalar, tashkilot va korxonalarining iqlim o‘zgarishi oqibatlarini oldini olish, ularga moslashish va xavfli iqlim hodisalarining tavakkalchilikdan erta ogohlantirish bo‘yicha xabardorligi, ma’lumotlarni tarqatishini hamda imkoniyatlarini yaxshilash.

Iqlim o‘zgarishlariga qarshi davlatimiz tamonidan amalga oshiriladigan ishlar yanada ommalashtirish maqsadida iqlim o‘zgarishlarining oldini olish va unga moslashish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi:

- oila va ta’limda ekologik madaniyatni rivojlantirishga etibor qaratish;
- ishlab chiqarish tarmoqlarida havoni ifloslovchi gazlar salmog‘ini kamaytirish va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish;
- atmosfera havosini kam ifloslovchi ekologik toza transport vositalarini ommalashtirish;
- yirik shaharlar va transport yo‘llari atrofida yashil hududlarni tashkil etish;
- qishloq xo‘jaligida va suvni ko‘p talab etadigan ishlab chiqarish tarmoqlarida suv resurslaridan intensive foydalanish;
- sanoat, maishiy xo‘jalik tarmoqlaridan chiqariladigan chiqindilarni qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirish;
- qayta tiklanuvchi quyosh va shamol energiya manbalaridan foydalanish. Ushbu tadbirlari amalga oshirish orqali iqlim o‘zgarishlari oqibatlarini ma’lum bir darajada kamaytirish, mamlakatimizda hosil bo‘lishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish to’sqinlik qiluvchi ekologik tanglikni oldini olishga erishiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdulqosimov A.A., Abdurahmonova Yu., “Voha landshaftlarini muhofaza qilishning geologik muammosi”. // SamDU ilmiy to‘plami. Samarqand, 2004 y.
2. Rafikov A.A. Geoekologik muammolar. –T.: "O‘qituvchi", 1997.
3. Sharipov Sh.M., Allaberdiev R.X., Kuchkarov N.Y. Geoekologiya. O‘quv qo‘llanma. – T.: Adib, 2007.
4. G‘ulomov P.N. Inson va tabiat. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2009.
5. G‘ulomov P.N. O‘zbekiston tabiatidan foydalanishning geografik asoslari. “ Universitet”, - T.:, 1990.
6. <http://nsdg.stat.uz>.

## KO'KRAK BEZI SARATONINI DAVOLASHDA YERQALAMPIRIDAN FOYDALANISH

*Asqarov Ibrohim Rahmonovich*

*Andijon davlat universiteti, Kimyo kafedrası professori,  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan ixtirochi, O'zbekiston Tabobat akademiyasi ra'isi.*

*Xojimatov Maxsadbek Muydinovich*

*Andijon davlat universiteti dotsenti, Kimyo fanlar doktori.*

*Bokiyev Mirzoxidbek Muzafarjon o'g'li*

*ADTI Biologik kimyo kafedrası assisenti.*

*Olimjonova Guloyim Dilshodbek qizi*

*Andijon davlat universiteti, Kimyo yo'nalishi 1-kurs magistranti.*

**Anotatsiya:** Mazkur maqolada saraton kasalligining tavsiflari, xalq tabobati bilan davolashda qo'llaniladigan uslublar va ularning organizmga ijobiy ta'sirlari, biologik oziq-ovqat qo'shilmalari, ularning foydali tomonlari, organizmning immun tizimini tiklash va saraton kasalligining kelib chiqish sabablari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Saraton kasalligi, xalq tabobati, yerqalampir, askorbat kisatasi, vitaminlar, fermentlar.

**Аннотация:** В этой статье описывается рак, методы лечения в народной медицине и их положительное влияние на организм, биологические добавки к пище, их преимущества, восстановить иммунную систему организма и информация о причинах рака.

**Ключевые слова:** Рак, народная медицина, хрен, аскорбиновая кислота, витамины, ферменты.

**Annotation:** descriptions of cancer in this article, methods of treatment in folk medicine and their positive effects on the body, biological food additives, their benefits, restore the body's immune system and information on the causes of cancer.

**Keywords:** cancer, folk medicine, ground pepper, ascorbic acid, vitamins, enzymes.

Tabobat ilmi-abadiy ilm, muayyan ma'noda ilmlar cho'qqisi, inson o'z-o'zining idora etishining eng yuksak ko'rinishi. Yer yuzida insoniyat paydo bo'libdiki, tabobat ham vujudga kelgan. Hayot bilan xastalik o'zaro uzviy bog'lanib ketgan tushunchalardir. Boshqacha aytganda, har qanday dard hayot tarzi ishdan chiqqanidan ogohlantiruvchi belgi hisoblanadi. Kasalliklar bizni har qadamda ta'qib etadi, na'faqat jismoniy, balki ruhiy dardlar ham shular jumlasidandir. Odamlarning o'zigina emas, butun boshli xalqlaru tamaddunlar ham xastalanadi. Insonlar majburiy yoki ongli-ixtiyoriy ravishda komillikka intilishning har qanday ko'rinishi yana o'sha tib ilmi bilan bog'liq. Har qanday ma'lumot ham sof tibbiy mashg'ulot hisoblanadi[1].

Tabobat-to'g'ri hayot tarzini yo'lga qo'yish sa'nati, inson hayotining barcha sohalarini tartibga solish ilmi. Tibbiyot-bizga ma'lum fanlarning eng zaruri, eng murakabi va eng muhimi. U-ilmilar ilmi, sa'natlar sa'nati. Tabobatning asosiy obekti bo'lgan inson bag'oyat murakkab mavjudot. Uning o'ta darajada qudratliligi va o'ta darajada zaifligi bor. Albatta, qadimgi davrlarda aytib o'tilgan davolash usullari bilan bugungi tabiblar orasida biroz farq topilishi tabiiy xol. Chunki zamonaviy inson organizmi o'tmishdagi kishilar organizmidan farq qiladi. Bunga ruhiy-fiziologik, ekologik omillar sabab bo'lishi mumkin. Qolaversa, shifobaxsh giyohlarning o'zi ham o'zgarishga uchragandan tashqari, har bir inson organizmi alohida, individual xususiyat kasb etishi mumkin[2]. 2018-yil 12-oktabrda "O'zbekiston Respublikasi Xalq tabobati sohasini tartibga solish chora tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori qabul qilinishi xalq tabobati mutaxassislari faoliyati uchun qonuniy asos bo'ldi[3]. 1926-yilda sobiq Sho'rolar hukumati Davrida Xalq Komissarlar Sovetining maxsus qarori bilan xalq tabobati mutaxassislari faoliyati cheklangan edi.


O'tgan 92 yil mobaynida xalq tabobati vakillari deyarli yashirincha faoliyat olib bordilar. Qadimdan meros bo'lib qolgan xalq tabobati davolash usullari tabiblar tomonidan ko'z qorachig'idek asralib, avloddan avlodga o'tib keldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining xalq tabobatini rivojlantirish to'g'risidagi ushbu qarori tabiblar faoliyati uchun katta yo'l ochdi[4]. Saraton-(boshqa nomlari, konser-lot. qisqichbaqa. Rak-ruscha) hujayralarning (atipik o'sish) tartibsiz va tez ko'payishiga aytiladi. Atipik o'sish bunday hujayralar qarishi yoki jarohatlanishiga qaramay, cheksiz ko'payishi bilan ifodalanadi. Sog'lom hujayralardan farqli o'laroq, bunday hujayralarda tabiiy o'lim yuqori bo'lib, to'xtovsiz bo'linib ko'payishi natijasida sog'lom hujayralarni ham nobud qiladi[5].

Bugungi kunda ayollarimiz orasida keng tarqalib borayotgan ko'krak bezi kasalligi xarakterli xususiyatlaridan biri shuki, to'qimalarda o'simta bo'lib rivojlangandan keyingina kasallik belgilari yuzaga chiqadi va tanadagi o'simta o'sayotgan a'zolarining funksiyasi keskin buziladi. Saraton kasalligi boshlanayotganda, u tananing qaysi qismida rivojlanayotganidan qat'iy nazar, qattiq og'riq bermaydi. Ba'zi hollarda bemor og'riqni sezmasligi ham mumkin. Shuning uchun bemor vrachga kech murojaat qiladi. Shu tufayli ham kasallik ancha ulg'ayib ketadi va uni davolash jarayoni qiyin kechadi[6].

Shifokor bilan maslahatlashgan holda tibbiy davolash usullariga qo'shimcha shaklda xalq tabobati uslublaridan ham foydalanmoqdalar. Zamonaviy tibbiyotda esa, ko'krak bezi saratonini davolashda kimyoterapiya, jaroxlik amaliyoti va shu bilan birga nur terapiyalaridan ham foydalanib kelmoqda.

Xalq tabobatida bugungi kunda saraton kasalligi va shu bilan birga ko'krak bezi saratonini davolashda yerqalampiridan foydalanishni yo'lga qo'ymoqda.

Ildizlarida sinegrin degan glikozid, merozin fermenti, lizosin degan anitiotik modda, askorbat kislatasi; barglarida flavonoidlar, alkaloidlar mavjud. Yerqalampirining o'tkir xidi, unda bo'ladigan allil moyi-allil izotiostanid borligiga bog'liq. bu o'simlikda achchiq efir moylari aralashmasi mavjud[7].



### **Askorbat kislotasi.**

Xalq tabobatida ildizlarining ezib tayyorlangan bo'tqasi, undan tayyorlangan suvi ovqat hazmini yaxshilaydigan, balg'am ko'chiradigan, siydik haydaydigan vosita tariqasida me'da va jigar, qovuq kasalliklarida buyuriladi, shuningdek damlamasi revmotizm, radikulitda qarshi vosita sifatida qo'llaniladi[8].

Yerqalampir suvi bakteriyalar, zamburug'larga qarshi chalg'itadigan ta'sir ko'rsatadi. Qaynatma va damlamalari surunkali kolit, xolesistit kasalliklarida naf beradi[9].

Bugungi kunda xalq tabobatini davolashda yerqalampir sharbatidan iste'mol qilish buyurilmoqda. Qalampir tarkibida Mg, K, Fe moddasi ko'p. Yerqalampir tarkibidagi plastir esa tanadagi turli xil og'riqlarga barham berib, saraton kasalligini davolashda ham alohida ahamiyatga ega ekanligi aytib o'tilgan[10].


Ilgari yerqalampir oshqozon gastrit, oshqozon yarasini keltirib chiqaradi deb hisoblanardi. Lekin izlanishlar bu fikrlar noto'g'ti ekanini amalda isbotlandi. Aksincha, qalampir tarkibidagi bakteriyalar paydo bo'layotgan har qanday o'zgarishlarni nobud qilish xususiyatiga ega ekanligi isbotlandi[11].



Har xil sabzavot va mevalardan tayyorlangan sharbatlar turli kasalliklarni davolashda yordam beradi, shuningdek immunitetni mustahkamlaydi. Nobud bo'lgan hujayralar o'rnini tez tiklash xususiyatiga ega.

Yerqalampir tarkibida tabiiy indol-3 karbinolning mavjudligi sababli ekstratlarning organizmga ta'sirlari mexanizmi juda katta[12].

AQSH dagi Klivlend klinikasi tadqiqotchilari ta'kidlashicha har kuni iste'mol qilingan yerqalampir yoki sharbati, organizmdagi zararli moddalarni chiqarib tashashlashga xususiyati yetadigan yagona modda deb aytib o'tishgan[13].



### Indol (III) karbinol

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.R.Asqarov. "Tabobat qomusi" Toshkent 2019y. 5-b
2. I.R.Asqarov. "Tabobat qomusi" Toshkent 2019y. 7-b
3. <https://xalq-tabobati.uz.xalq-tabobatisayti>
4. И.Р.Асқаров "Сирли табобат" Тошкент. 2021г. 5-б
5. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki>.
6. I.R.Asqarov. Saratonning davosi bor. "Sharq tabobati" jurnali. 2001, №4.
7. <https://oz.sputniknews-uz.com>.
8. I.R.Asqarov. "Tabobat qomusi" Toshkent 2019y. 310-b
9. I.R.Asqarov. "Tabobat qomusi" Toshkent 2019y. 314-b
10. <https://m.youtube.com/watch>
11. <https://hordiq.uz.2021/07/23.er>
12. <https://m.facebook.com.posts>
13. <https://books.google.co.uz.books>.

**BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILIDAN YANGI BILIM, KO‘NIKMA VA MALAKALARNI HOSIL QILISH DARSLARINI ZAMONAVIY TA‘LIM VOSITALARI ASOSIDA TASHKIL ETISHDA LUG‘AT USTIDA ISHLASHNING LINGVISTIK ASOSLARI VA VAZIFALARI**

*Ollaberganova Sanobar Xamidovna*

*UrDU dotsenti, f.f.n.*

*Matyakubova Nuriya Azimbayevna*

*UrDU Ta‘lim va tarbiyaviy ishlar nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi magistranti.*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf ona tilidan yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, darslarini zamonaviy ta‘lim vositalari asosida tashkil etishda lug‘at ustida ishlashning lingvistik asoslari va vazifalarini o‘qitishning samaradorligi masalasi yoritib berilgan. Unda boshlang‘ich sinf ona tilidan yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilish darslarini zamonaviy ta‘lim vositalari asosida tashkil etishdan foydalanish pedagogik muammo sifatida tahlil qilingan hamda boshlang‘ich ta‘limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash va unga qo‘yiladigan talablar o‘rganilgan. Boshlang‘ich ta‘limda zamonaviy ta‘lim vositalari asosida tashkil etishda lug‘at ustida ishlashning lingvistik asoslari va vazifalarini qo‘llash mazmuni va uning metodik imkoniyatlari, ona tili va o‘qish darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish kabi masalalar o‘z yechimini topgan. Shuningdek, boshlang‘ich sinf ona tilidan yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilish darslarini zamonaviy ta‘lim vositalari asosida tashkil etishda lug‘at ustida ishlashning lingvistik asoslari va vazifalarini o‘qitishning samaradorligini oshirish omili ekanligi tavsiflangan.

**Kalit so‘zlar:** lug‘at tarkibi, leksika, leksikologiya, ta‘lim, ta‘lim berish, didaktika, innovatsion texnologiy, interfaol metodlar, frazeologik birliklar, shevaga, jargonga oid so‘zlar, so‘zlashuv tilida ishlatiladigan sodda so‘z va iboralar, so‘z tarkibi, so‘z yasalishi, so‘zlarning o‘zgarishi.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается эффективность обучения лингвистическим основам и задачи работы со словарем при формировании новых знаний, умений и навыков по родному языку в начальной школе, организация уроков на основе современных средств обучения. Анализируется использование организации уроков по формированию новых знаний, умений и компетенций в начальной школе на основе современных средств обучения как педагогическая проблема и требования к использованию инновационных технологий в начальном образовании. Рассмотрены такие вопросы, как содержание и методические возможности применения лингвистической основы и задачи работы над словарем в организации начального образования на основе современных средств обучения, использование инновационных технологий на родном языке и уроках чтения. Также охарактеризовано как фактор повышения эффективности обучения лингвистическим основам и задачам работы со словарем при организации занятий по формированию новых знаний, умений и компетенций в начальной школе на основе современных средств обучения

**Ключевые слова:** словарная структура, лексика, лексикология, образование, обучение, дидактика, инновационные технологии, интерактивные методы, фразеологизмы, диалект, жаргонные слова, простые слова и словосочетания, используемые в разговорной речи, структура слова, словообразование, словоизменение.

**Annotation:** In this article, it is given the effectiveness of teaching the linguistic foundations and tasks of working on a dictionary in the formation of new knowledge, skills and abilities in mother tongue in the primary school, the organization of lessons on the basis of modern teaching aids. It analyzes the use of the organization of lessons on the formation of new knowledge, skills and abilities in the native language on the basis of modern teaching aids as a pedagogical problem and the requirements for the use of innovative technologies in primary education studied.

Issues such as the content and methodological possibilities of applying the linguistic basis and tasks of working on the dictionary in the organization of primary education on the basis of modern teaching aids, the use of innovative technologies in mother tongue and reading lessons have been addressed. It is also described as a factor in increasing the effectiveness of teaching the linguistic foundations and tasks of working on a dictionary in the organization of lessons on the formation of new knowledge, skills and competencies in the primary school on the basis of modern teaching aids.

**Key words:** dictionary structure, lexicon, lexicology, education, teaching, didactics, innovative technology, interactive methods, phraseological units, dialect, slang words, simple words and phrases used in colloquial language, word structure, word formation, word change.

Boshlag'ich ta'lim uzluksiz ta'limning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Ona tili ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'zgaralar fikrini anglash, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ona tili ta'limiga o'quv fani emas, balki, butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi. Jamiyatimiz istiqbolda qanday bo'lishi va unda qaysi avlodlarimiz yashashi har tomonlama farzandlarimizning tarbiyasi va ta'limga bog'liq. Ayniqsa, bugungi kunda davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tashabbuslari bilan o'quvchi, talaba-yoshlarning, pedagoglarning keng firllashlari, lug'at boyliklarini o'stirishda kitob o'qish masalalariga davlat siyosati darajasida qaralib, yanada keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu yurtimiz rahbarining quyidagi fikrlarida ham yaqqol aks etgan: "Ayni paytda, axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o'zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do'st bo'lishga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ'ib qilishga alohida e'tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb etadi".

Boshlang'ich ta'limning sinfda o'qish darslarida o'quvchilar tabiat, jamiyat, unda yashovchi kishilar hayoti haqida, ularning o'tmishi, hozirgi yashash hayoti hamda mashhur kishilar to'g'risida bilib oladilar. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslariga o'quvchilarni ona tilini puxta o'zlashtirishga tayyorlashning ajralmas qismi, ta'lim jarayonida ularni axloqiy-estetik tarbiyalashning muhim vositasi sifatida qaraladi.

Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi ona tili ta'limi orqali amalga oshiriladi. Maktabda ona tili o'qitishdan asosiy maqsad og'zaki va yozma nutq yuzasidan o'quvchilarda mustahkam bilim hosil qilish, ishlab chiqarishning hayotning hamma sohalarida faol ijodiy faoliyat ko'rsata oladigan savodli va madaniyatli kishilarni tarbiyalab yetishtirishdir. Umumiy ta'lim maktablarining asosiy vazifalari yosh avlodga fan asoslaridan chuqur va mustahkam bilim berish, ularni amalda qo'llash malakalarini yaratishdir. Bu vazifani amalga oshirishda boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslari alohida ahamiyatga ega. So'z tilning ma'no bildiradigan asosiy birligidir. So'z va so'z birikmasi aniq narsalarni, mavhum tushunchalarni, hissiyotni ifodalaydi. Tilda mavjud bo'lgan barcha so'z va iboralarning yig'indisi *lug'at tarkibi* yoki *leksika* deyiladi. Leksikologiya o'zbek tilining lug'at tarkibini o'rganadigan bo'limdir. Leksikologiya lug'at tarkibidagi so'zlarning nutqda ma'no ifodalash xususiyati, qo'llanish faolligi, boyib borishi, ba'zi so'zlarning eskirib, iste'moldan chiqib ketishi, ma'no ko'chish hodisasi kabilarni o'rganadi. Shu sababli leksikologiya lug'at ustida ishlash metodikasining lingvistik asosi hisoblanadi. Har qanday nutqiy bayon grammatik jihatdan o'zaro bog'langan, mazmunga mos so'z va so'z birikmalarining ma'lum izchillikda joylashtirilishidan tuziladi. Kishining lug'ati qanchalik boy va rivojlangan bo'lsa, uning nutqi ham shunchalik boy bo'ladi; o'z fikrini aniq va ifodali bayon etishiga keng imkoniyat yaratiladi. Shuning uchun lug'atning boyligi, xilma-xilligi, harakatchanligi metodikada nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning muhim sharti hisoblanadi. Hozirgi o'zbek adabiy tili ulkan lug'at boyligiga ega. Besh jildlik «O'zbek tilining izohli lug'ati» da 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi berilgan bo'lib, bular umumiy qo'llaniladiganlaridir.

Bunga o'zbek tilida nashr etilgan turli terminologik lug'atlarda, o'zbek tili sinonimlari, antonimlari, frazeologik lug'atlarida va turli izohli lug'atlarda berilgan so'zlar qo'shilsa, lug'at boyligi yana ming-minglab oshadi. Bulardan tashqari, juda ko'p so'zlar ko'p ma'noni bildiradi. Masalan, shu izohli lug'atda "bosh" so'zining 40 dan ortiq asosiy va frazeologizm bilan bog'langan ma'noda ishlatilishi berilgan. Maktabda nutq o'stirishning muhim vazifalaridan biri lug'at ustida ishlashni yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yo'nalishlarini ajratish va asoslash, o'quvchilarning lug'atini boyitish jarayonini boshqarish hisoblanadi.

Maktabda lug'at ustida ishlash metodikasi to'rt asosiy yo'nalishni ko'zda tutadi:

1. *O'quvchilar lug'atini boyitish, ya'ni yangi so'zlarni, shuningdek, bolalar lug'atida bo'lgan ayrim so'zlarning yangi ma'nolarini o'zlashtirish.* Ona tilining lug'at boyligini bilib olish uchun o'quvchi o'z lug'atiga har kuni 8-10 ta yangi so'zni, shu jumladan, ona tili darslarida 4-6 so'zni qo'shishi, ya'ni shu so'zlar ma'nosini o'zlashtirishi lozim.

2. *O'quvchilar lug'atiga aniqlik kiritish.* Bu ichiga quyidagilarni oladi: 1) o'quvchi puxta o'zlashtirmagan so'zlarning ma'nosini to'liq o'zlashtirish, ya'ni shu so'zlarni matnga kiritish, ma'nosi yaqin so'zlarga qiyoslash, antonim tanlash yo'llari bilan ularning ma'nosiga aniqlik kiritish; 2) so'zning kinoyali ma'nosini, ko'p ma'noli so'zlarni o'zlashtirish; 3) so'zlarning sinonimlarini, sinonim so'zlarning ma'no qirralarini o'zlashtirish; 4) ayrim frazeologik birliklarning ma'nosini o'zlashtirish.

3. *Lug'atni faollashtirish, ya'ni o'quvchilar ma'nosini tushunadigan, ammo o'z nutq faoliyatida ishlatmaydigan nofaol lug'atidagi so'zlarni faol lug'atiga o'tkazish.* Buning uchun shu so'zlar ishtirokida so'z birikmasi va gaplar tuziladi, ular o'qiganlarni qayta hikoyalash, suhbat, bayon va inshoda ishlatiladi.

4. *Adabiy tilda ishlatilmaydigan so'zlarni o'quvchilar faol lug'atidan nofaol lug'atiga o'tkazish.* Bunday so'zlarga bolalarning nutq muhiti ta'sirida o'lashib qolgan adabiy til me'yoriga kirmaydigan, ayrim adabiy asar va so'zlashuv tilida qo'llanadigan sodda so'z va iboralar, sheva va ijtimoiy guruhga oid so'zlar kiradi. Adabiy til me'yori degan tushunchani o'zlashtirgach, o'quvchilar yuqorida izohlangan so'zlar o'rniga adabiy tildagi so'zlardan foydalana boshlaydilar. Adabiy tilga oid malakalari mustahkamlangan sayin shevaga, jargonga oid so'zlar, so'zlashuv tilida ishlatiladigan sodda so'z va iboralar o'quvchilarning faol lug'atidan chiqib keta boshlaydi. O'quvchilar lug'ati quyidagi manbalar asosida boyitiladi va takomillashtiriladi:

1. *Atrofni o'rab olgan muhitni: tabiatni, kishilarning hayoti va mehnat faoliyati, bolalarning o'yini va o'qish faoliyatini, kattalar bilan munosabatni kuzatish.* Tabiat qo'yniga, turli joylarga, muassasalarga ekskursiya vaqtida bolalar narsa va hodisalarni kuzatish bilan ko'pgina yangi nom va iboralarni o'rganadilar. Bu ekskursiyalar yuzasidan o'tkazilgan suhbat vaqtida ularning bilimi chuqurlashtiriladi, ayrim so'zlar ma'nosiga aniqlik kiritiladi.

O'quvchilar lug'atini va nutqini boyitishda eng ishonarli manba badiiy asarlar hisoblanadi. O'qish darslarida o'quvchilar Oybek, H. Olimjon, M. SHayxzoda, G'. G'ulom, H. Hakimzoda, Zulfiya, Uyg'un, A. Qahhor, P. Mo'min, Q. Muhammadiy, Sh. Sa'dulla,

Z. Diyor kabi ko'pgina so'z ustalarining asarlarini o'qiydilar. O'zbek tilini yuksak badiiy obrazlar yordamida o'zlashtiradilar. O'qish darsida bolalar lug'ati ma'lum mavzularga oid so'zlar hisobiga ham boyiydi. Ular lug'atiga axloqiy tushunchalarni ifodalovchi *yoqimtoy, shirinso'z, mehribon, haqqoniy, botir, mard, jasur, mehnatsevar* kabi ko'pgina so'zlar qo'shiladi. Matn ustida ishlash jarayonida ko'p ma'noli so'zlar, sinonimlar, ko'chma ma'noda ishlatiladigan so'zlarni, ba'zi frazeologik birikmalarni bilib oladilar. Bolalar mustaqil o'qishga o'rganganlaridan keyin ular lug'atiga kitob, gazeta, jurnal materiallari katta ta'sir qiladi. Shuning uchun ham sinfdan tashqari mustaqil o'qish va unga rahbarlik shakllari o'quvchilar lug'atini boyitishning, nutqini o'stirishning eng muhim manbalaridan hisoblanadi. Maxsus mashqlar yordamida grammatika va imloni o'rganish darslari ko'pgina so'z va atamalarni o'zlashtirishga yordam beradi, o'quvchilar predmet, belgi, harakat, sanoq, tartib ifodalaydigan so'zlarni bilib oladilar. Bu darslarda o'quvchilar lug'ati tartibga solinadi, so'z turkumlarini o'rganish jarayonida guruhlanadi, so'z tarkibi, so'z yasalishi, so'zlarning o'zgarishini o'rganish bilan esa lug'atga aniqlik kiritiladi; ular o'rgangan so'zlaridan o'z nutqlarida foydalana boshlaydilar, natijada lug'atlari faollashadi. O'quvchilar lug'ati maxsus lug'aviy-mantiqiy mashqlar

yordamida ham boyiydi, tartibga tushadi. Bulardan tashqari, kinofilm va televizor eshittirishlarining matnlari, o'qituvchi va boshqa maktab hamda maktabdan tashqari muassasalar xodimlarining nutqlari ham o'quvchilar lug'atini boyitish va takomillashtirish manbalari hisoblanadi. Lug'atni boyitishda turli lug'atlar juda foydali qo'llanmadir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun "Imlo lug'ati" mavjud. O'qituvchi ma'lumot uchun ham, material tanlash uchun ham turli lug'atlardan (o'zbek tilining sinonimlar, antonimlar, frazeologik lug'atlaridan, turli terminologik lug'atlardan) muvaffaqiyatli foydalanadi.

Lug'at ustida ishlashda turli ta'lim metodlari hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda ajdodlarimizning o'qitishga oid qaysi usullar samarali natija berishi to'g'risida o'z qarashlarini ham meros qilib qoldirishganlar. Jumladan, Beruniy lug'at ustida ishlashga, o'qitishga faqat induktiv yo'l bilangina emas, balki deduktiv yo'l bilan ish tutish lozimligini ta'kidlaydi. Bunda olim har qaysi metodni o'z joyida qo'llamoq zarurligini yaxshi bilganligi, bunday o'qish jarayonida tafakkurni o'stirib, bilishning sifatini yaxshilaydi, aqliy bilimlarni boyitadi, lug'at boyligini oshiradi.

Ma'lumki, o'quvchi-talabalarni aniq, to'g'ri, ravon o'qishga o'rgatish, so'z va so'z brikmalarining ma'no-mazmun, mohiyatini to'g'ri anglay bilishida lug'at ustida ishlashning ahamiyati katta hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida o'qish bilan savod o'rganish jarayonida o'quvchi-talabaning bilim, malaka va ko'nikmalarini takomillashtiradi. O'qish darslarida grammatika, orfografiya, matematika, orfoepiya, tabiatshunoslik va boshqa fanlardan beriladigan bilimlarni mustahkam egallashda muhim ro'l o'ynaydi.

Abu Rayhon Beruniy ilm olishda takrorlashni ustun qo'yadi. O'qilganlarning hammasini qaytarib o'qish deganda, asosan, xato qilmay, so'zlarni buzmay ya'ni to'g'ri talaffuz me'yorlariga rioya qilgan holda, ortiqcha tovush ishlatmay, bo'g'inlarni tushurib qoldirmay, so'z urg'usini o'z o'rnida qo'llab to'g'ri o'qishni ta'kidlaydi. O'qishning tez, to'g'ri ifodali bo'lishi, o'qish davomida bolaning o'z-o'zini tuzatib borishi xatosiz o'qishga yordam beradi. X-XI asrlarda Beruniyning didaktikasidagi ta'lim berish usullari va metodlari ayrim jihatlarining soddaligi va qarama-qarshiliklarga qaramasdan, kata kashfiyotligi va ilmiyligi bilan qimmatli hisoblanib kelingan. Hozirgi ta'lim –tarbiya jarayonida ham asos sifatida qo'llanilib kelinmoqda. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlamoqchimizki, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning:

mamlakatimizda yoshlarning ilm olishiga bo'lgan e'tibor so'nggi 5 yillikda yuqori cho'qqiga yetdi. Yurtimizda oliy ta'lim muassasalari sonining 77 tadan 141 taga yetkazilishi, 26 ta xorijiy oliygohlarning filiallari ochilishi, oliy ta'limga qamrov 9 foizdan 28 foizga ko'tarilishi biz yoshlar uchun ulkan imkoniyat hisoblanadi. Ushbu masalalar ham kitobda batafsil yoritilgandir. Binobarin, "Tomirlarida buyuk bobolarining qoni oqayotgan yoshlarimiz ulug' ajdodlarimizning munosib vorislari bo'lishi, ular kabi ulkan maqsadlar sari intilib yashashi va yuksak marralarga erishishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishimiz zarur", deb yozadi Prezidentimiz o'z asarida.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston Strategiyasi" nomli kitobi chop etildi. Unda Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessansni qurish bo'yicha qilinayotgan ishlar va milliy taraqqiyot istiqbollari haqida fikr yuritiladi.
2. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Yangi tahrirdagi o'quv dasturi // Boshlang'ich ta'lim.- Toshkent, 2005.- 5-son, 21-33-betlar.
3. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari (Ona tili, o'qish, matematika, atrofimizda olam va tabiatshunoslik) (1–4 sinflar).- Toshkent, 2017.
4. G'ulomov A. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. — Toshkent: "O'qituvchi", 1992.
5. G'ulomova X., Boqiyeva H.O'quvchilar lug'atini boyitish// Boshlang'ich ta'lim, 2011, 10-son, 10-11-betlar.
6. N.Atayeva, F.Rasulova, M.Salayeva, S.Hasanov "Umumiy pedagogika" Toshkent, 2013-yil I-tom, 261-262-betlar.



## COVID-19 БИЛАН ОҒРИГАН БЕМОРЛАРДА ТУБЕРКУЛЕЗНИ ТАШХИСЛАШ САМАРАДОРЛИГИ

*Д.О.Онгарбайев, Н.Н.Парниева, К.С.Мухамедов, М.И.Ходжаева,  
Ш.Ш.Масавиров, А.Ж.Шаниязов<sup>1</sup>, Х.П.Алимова, С.З.Эшонов<sup>2</sup>*

*Тошкент тиббиёт академияси<sup>1</sup>, Республика 1-сон махсус Зангиота шифохонаси<sup>2</sup>.*

**Кириш.** Туберкулез инфекциясининг тарқалиши янги Coronavirus (COVID-19) пандемияси шароитида долзарб муаммо бўлиб шаклланди [1,3]. Эпидемик тадбирларни ўтказишнинг зарурати кўп мамлакатларда юзага келиб, туберкулез (ТБ) инфекцияси скринингини ўтказиш бўйича чекланишлар пайдо бўлди. Бу ҳолат дунёнинг барча давлатларида ТБ га қарши дастурлар фаолятини ва ТБ билан касалланган беморларга кўрсатилаётган ёрдамни чеклашга таъсир қилди [3,4]. ЖССТ экспертлари ТБ билан касалланиш кўрсаткичларини ҳисоблаганда Covid-19 дунёнинг турли мамлакатларида камайганлигини қайд қилди. Бундай ҳолат, ҳақиқатга тўғри келмайди, чунки Covid-19 пандемия даврида эпидемик тадбирлар локдаун туфайли ТБ касалларини кам аниқлаш сабаби билан боғлиқ [2]. Прогноз қилинишича, ушбу вазиятда касалланган шахслар сонинининг объектив камайиши ва кеч аниқланиши фонида ТБ дан ўлим сони ошади [5]. Бугунги кунда ТБ ва Covid-19 касалликларининг ёндош келиши ва ТБ билан касалланган беморларнинг умумий амалиёт шифохоналарининг диагностика бўлимларига госпитализация қилишида иккиланишларни туғдирмоқда [4]. Бундай шароитда туберкулез микобактерияси (МБТ) ДНКсини ажратиш олиш ва мақбул давога кўрсатма бериш учун бактериологик ва молекулар-генетик диагностик усулларини ТБни даволаш шифохоналари махсус лабораторияда текшириш зарур. Ушбу зарурат ТБ билан касалланган беморларда МБТнинг оғирроқ кечиши прогнози билан ўзаро боғлиқ бўлиши мумкин. Хитойлик муаллифлар ўз изланишларида бундай хулосани келтиришган [6]. Баъзи муаллифлар стандарт шароитда ҳам ТБ диагностикасида қийинчиликлар мавжудлиги ва аниқлик фақатгина 48% ҳолатларда эканлигини таъкидлайдилар (верификация қилинади) [7, 8]. Пандемия шароитида эса сезиларли ёмонлашиши мумкинлигини тахмин қиладилар. Кўп ҳолларда Covid-19 инфекцияси ва ТБ да ҳам субфебрил ҳарорат кўтарилиши реакцияси, йўтал, иштаҳа пасайиши, ҳансираш кабилар билан намоён бўлади [9]. Мавжуд тестлар ёрдамида SARS-CoV-2 вируси ДНКсини фақатгина 60–70% ҳолларда ажратиш мумкин ва бу ПЗР бу тестларининг паст диагностик сезувчанлиги билан боғлиқ [10]. Бундай ҳолларда Covid-19ни мультиспираль компьютер томографияси (МСКТ) ёрдамида ташхислаш ва бошқа патологик ҳолатлар билан дифференциал ташхислашда аниқроқ усул бўлиб хизмат қилиши мумкин [11]. Шунини ҳисобга олиш керакки, ТБга гумон қилинганда МСКТ ҳамда лабораторияда тасдиқлангандагина ТБ диагнозини тўғри қуйиш мумкин. Балғамда бактерия ажралмайдиган шароитда ТБ диагнозини қуйиш учун гистологик материал олишнинг имкониятидан фойдаланиш мумкин [8]. Аммо, кўпинча бу усулни қўллашга журъат қилинмайди. Адабиётда ТБ ва Covid-19 нинг бирга келишини ёритадиган санокли илмий мақолалар тақдим этилган ва муаллифлар Covid-19 фонида ўзига хос ўзгаришларни ташхислашда эҳтимолий қийинчиликларни кўрсатишмоқда холос [12]. Муаллифлар, Covid-19 фонида туберкулезни ўз вақтида диагностика ўтказиш зарур эканлиги тақдим этишган.

**Клиник ҳолат.** Бемор аёл Т. (57 ёш), пенсионер, 5 кундан бери иситма безовта қилгани учун оилавий поликлиникага (ОП) мурожаат қилиб, рақамли рентгенография ўтказилган ва йўлланма асосида (форма №037) туманлараро фтизиатрия диспансерига (ТФД) чап ўпканинг юқори бўлаги патологик сояланиш билан келган.

**Анамнездан.** Бемор охирги 6 ой мобайнида чет давлатга чиқмаган, ТБ билан касалланмаган ва мулоқатда бўлмаган. Инфекцион касаллар билан мулоқатда

булганлигини аниқ айта олмайди. Қон ва ўрнини босувчи препаратлар қабул қилмаган, хирургик манипуляция қилдирмаган. Стоматолог ва косметолог қабулида бўлмаган.


ТФД да шикояти ва нур ташҳисига асосланиб 13.06.2020 й бактериоскопия, ва Covid-19га ПЗР топширди ва манфий натижа олинди. Умумий қон таҳлилида эритроцитлар чокиш тезлиги 16 мм/соат, умумий печоб таҳлили ва биохимия таҳлили нормада. Беморга Covid-19 энгил кечиши диагнози билан яшаш жойи бўйича амбулатор даволаниш буюрилди ОПда Covid-box (у ерда симптоматик ва вирусга қарши даво учун керакли препаратлар мавжуд) берилди. Касалликнинг 8-куни беморда сезиларли ижобий томонга ўзгариш бўлмаганлигини инобатга олиб, 21-июн ойида қайта Covid-19га ПЗР топширди. Кўкрак қафаси аъзоларини МСКТ текшируви ўтказилганда, иккала ўпкада ўзгаришлар кучайиб бораётгани кузатилди, бу стационарга ётқизилишига асос бўлди (расм1.).



**1 расм.** Вирусли пневмониянинг кучайиши билан Республика 1-сон махсус Зангиота шифохонаси қабул бўлимига келиб тушишидан олдинги кўкрак қафаси аъзолари МСКТ текшируви (касалликнинг 13-куни).

Covid-19га лаборатория текшируви 21.06.2020 й (касалликнинг 13-куни) ижобий натижа кўрсатди. Асосий: «U07.1 Коронавирус инфекцияси COVID-19 (тасдиқланган), ўрта оғир кечиши», ҳамроҳ: Икки томонлама интерсистиал пневмония (КТ 1) ташҳиси қўйилди.

Бемор анамнезидан маълумки, унга гидроксихлорокин сульфат, азитромицин, аскорбин кислотаси (инъекция учун эритма), амброксолгидрохлорид ва парацетамол билан симптоматик ва патогенетик терапия №5-клиник протокол тавсияларга мувофиқ ўтказилган [13]. Бемор аҳволи яхшилангандан сўнг яшаш жойи бўйича терапевт назорати остида бўлиш шarti билан бўлимдан чиқарилди. Касалхона шароитида кўкрак қафаси аъзолари назорати МСКТ ўтказилмаган. МСКТ назорати бир ойдан кейин хусусий клиникада 16.07.2020 й. амалга оширилган, чап ўпканинг юқори бўлмасида контурли юмалок фокуссимон соя катталашгани аниқланган (расм. 2).



**2 расм.** 16.07.2020 й. Нафас аъзоларининг 2-МСКТ динамикадаги текшируви (касалликнинг 25-куни).

Бунда чап ўпка юқори бўлмасида контурли юмалок фокуссимон соя катталашиши аниқланган. Бемор онколог кўригига юборилган. Амбулатор тартибда онколог томонидан онкомаркеры текширувларга юборилган ва манфий олинган. 16.07.2020 й. онколог томонидан фтизиатр кўригидан ўтиш тавсия қилинган.

20.07.2020 й. фтизиатр кўригидан ўтган ва ТФД текширувлар учун йўлланма берилган.

**Беморнинг клиник ҳолати.** ТФДга келганда беморда интоксикация аломатлари йўқ. Шикояти қийин ажраладиган балғамли йўтал, жисмоний зўриқишда ва тунги вақтларда яққол терлаш, кўкрак қафасининг тўш орқаси соҳасида сиқилиш ҳиси кузатилди.

Умумий аҳволи қониқарли, иситма йўқ. Тери қопламлари одатий тусда, қуруқ, тоза. Периферик лимфа тугунлари катталашмаган. Пулс 1 дақиқада 76та, ритмик. Сатурация–98%. АҚБ, 130/90 мм.сим.уст. Юрак тонлари аниқ. Шовқинлар йўқ. Нафас олиш тезлиги 1 дақиқада 18та. Юқори бўлмаларда сустлашган, тарқалган дағал, қуруқ хириллашлар эшитилади. Қорни юмшоқ, пайпаслаб кўрилганда оғриқсиз. Жигар қовурға ёйи четида, оғриқсиз, чети текис. Талоқ пайпасланмади. Бел соҳасида туртки аломати икки томонлама манфий. Физиологик ташқарига чиқишлар бузилмаган. Болдирлар бироз шишган.

**Комплекс текширув натижалари.** ТФД да босқичидаги текширувда бурун-ҳалқум ва оғиз-ҳалқум шиллиқ пардаси 13.06.2020 йилдаги (касалликнинг 5-куни) суртмасида SARS-CoV-2 вируси ДНКси ажратиб олинди манфий натижа, 21.06.2020 йилда (касалликнинг 13-куни) ижобий натижа ва сўнгра 20.07.2020 йилда (касалликнинг 42-куни). ПЦР усули орқали SARS-CoV-2 вируси ДНКга манфий суртмалар олинди.

28.07.2020 йилдаги Диаскинтест синамасы ижобий бўлиб, фаол туберкулез инфекцияси мавжудлиги исботлади. Лаборатор текширувлар маълумотларига кўра ТФД га келганда умумий қон таҳлилида нормадан оғишлар аниқланмаган. Қон биохимик 24.07.2020 й таҳлилида умумий билирубиннинг даражаси нормада бўлиб (29,9 мкмоль/л), боғланмаган билирубиннинг ошгани (6,3 мкмоль/л), холестерин миқдори ошганлиги (7,09 ммоль/л) эътиборни ўзига тортди. Қолган кўрсаткичлар норма чегараларида эди. Балғамнинг бактериоскопик текширувлари (13-14.06.2020й., 24-25.07.2020й) Цил-Нилсон бўйича бўйлиб, кислотага чидамли МБТ аниқланмади. 25.07.2020 й. GeneXpert усули орқали балғам текширилганда МБТ ДНКси аниқланмади. 26.08.2020й. кўкрак қафаси МСКТ 3-текшируви маълумотларига кўра (3 расм), чап ўпканинг 3-сегментида субплеврал соҳада 40x25 мм ўлчамли (динамикада катталашishi билан) нотўғри шаклдаги инфилтрат аниқланди. Ўнг томонда С3, С5 ва чап томонда С6 да ташқи чегаралари (контурлари) аниқ якка ўчоқли ўзгаришлар сақланиб қолган. Субплеврал соҳаларда пневматизациянинг камайishi билан «хирашиша» туридаги регрессия динамикаси кузатилди. Беморга туберкулома диагнози қўйилди, хирургик даво ва гистологик тасдиқлаш учун, РИФ ва ПИАТМ торакал жарроҳлик бўлимига йўлланма берилди. У ерда 15.09.2020й. «Кенг чап томонлама юқори лобэктомия тизимли лимфодиссекция билан» жарроҳлик амалиёти ўтказилди. 16.09.2020 йилдаги гистология текширувига кўра морфологик сурат ТБга хос ўзгаришлар аниқланди. Беморга: илк бор аниқланган туберкулез бўйича юқори чап томонлама кенг лобэтомиядан (15.09.2020) кейинги ҳолат, МБТ(-) ташхиси қўйилди. Беморга ТБга қарши асосий қаторга кирувчи 4та препаратлар (Изониазид, Рифампицин, Этамбутол, Пиразинамид) билан даволаш курси ўтказилди. Даволаш курси қониқарли ва



алоҳида белгиларсиз ўтди.

**3 расм.** 26.08.2020 й. Жарроҳлик амалиёти ўтказилишидан олдин нафас аъзоларининг 3-МСКТ динамикадаги текшируви (касалликнинг 79-куни).

**Муҳокама.** ТБ ва Covid-19 нинг ёндошиб келишига оид илмий изланишлар ҳозирги давирда етарли эмас. Биз тажрибамизга

ассосланган ҳолда, беморда Covid-19 ва ТБ га хос аломатлар билан келганда бир қатор диагностик муаммолар билан тўқнашиш оқибатларини кўрсатиб ўтишига ҳаракат қилдик. Бундан ташқари Covid-19 пандемияси шароитида эпидемик тадбирлар ўтказиш зарурати туберкулез инфекцияси скринингини ўтказиш имкониятининг кескин камайishi кузатилган. Бу ҳолат, туберкулез билан касалланган беморларни қўллаб-қувватлаш бўйича ўтказилаётган миллий дастурлар фаолиятини ёмонлашувига олиб келди. ЖССТ маълумотларига кўра туберкулез билан касалланиш даражаси юқори бўлган мамлакатларда касалликнинг кеч аниқланиши туфайли ундан ўлим сонининг кутилаётган оishi фонида касалланиш кўрсаткичи пасайишига олиб келган. Баъзи тадқиқотчилар ривожланадиган иммун супрессия ҳисобига туберкулез билан касалланган беморларда туберкулез инфекцияси эндоген реактивацияси ва COVID-19 нинг оғирроқ кечишига тахмин қилишмоқда.

**Хулоса.** Бугунги кунда бутун дунё жамияти Covid-19 инфекцияси тарқалиши билан тўқнаш келди, пандемиягача бўлган барча йўналишлардаги муаммоларни кучайтирди. Туберкулез аввалгидек инсонлар ҳаётга хавф солиб келмоқда. Ҳозирги кундаги илмий тадқиқотларида Covid-19 тарқалиши фонида туберкулез бўйича эпидемик ҳолатининг ёмонлашиши эҳтимоли борлигини кўсатишмоқда. Covid-19 пандемияси даврида изоляция режимин қўллаш зарурати, туберкулезни аниқлаш жараёнининг бузилиши, шунингдек аввал касалликни ўтказган беморлар ва латент туберкулез инфекцияси бўлган шахсларда туберкулезнинг реактивацияси, туберкулез билан касалланган беморларда Covid-19 нинг оғир намоён бўлиши хавфи мавжуд.

## NUROTA ETNOTOPONIMLARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

*Oripov O'ralboy Axmedovich*

*NDPI, O'zbek tilshunosligi kafedrasida katta o'qituvchisi, f.f.n.*

*Axmedov Salohiddin Sahobiddin o'g'li*

*NDPI, O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 1-kurs magistranti.*

**Annotatsiya:** Nomlar, xususan, joy nomlari, urug`-qabila nomlari bilan bog`liq ma`lumotlarni o`rganish, tahlil qilish bilan insonlar qadim zamonlardan buyon shug`ullanib kelganlar. Ushbu maqolada Nurota tumani hududiga tegishli bo`lgan etnotoponimlarning yuzaga kelishiga doir ayrim fikr va mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** etnotoponim, etnonim, etnooykonim, urug` nomlari, joy nomlari

Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning «Ma`naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi. Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo`lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo`lmaydi»[1], - degan fikrlari o`lkamiz toponimiyasini tadqiq qilish uchun ham tegishlidir.

Etnik nomlar – etnonimlarga urug`, qabila, elat, xalq, millatlarning nomlari kiradi. Turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida etnonimlardan yasalgan toponimlar keng tarqalgan va bunday nomlar “Etnik belgilar asosida yasalgan toponimlar”, “Etnotoponimlar” deb yuritilmoqda.

Nurota etnonimlari va etnotoponimlarini o`rganishda Abulg`oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk” va “Shajarayi tarokima” singari asarlari ham tarixiy-etnografik dalillarga boy ishonchli manba bo`la oladi. Ushbu asarlarda turkiy qabilalarning kelib chiqishi haqida qimmatli tarixiy ma`lumotlar hamda afsona va rivoyatlar mavjud. Ayniqsa, etnonimiyaga oid ma`lumotlar taniqli tilshunos X.Doniyorov tomonidan batafsil tahlil qilingan.[2]

Nurota tumani hududidagi etnotoponimlarni tahlil qilishdan oldin bitta masalaga, ya`ni etnonimlarning atoqli ot sistemasiga munosabati muammosiga qisqacha to`xtab o`tishga to`g`ri keladi. Chunki biz o'z ishimizda etnonimlarni atoqli otlar guruhida talqin qilmoqdamiz, ammo bu masalada nomshunoslikda turlicha qarashlar mavjud. Bir guruh tadqiqotchilar etnonimlarni atoqli ot deb hisoblashadi. Chunonchi V.A. Nikonovning yozishicha, etnonimlarning atoqli ot ekani yoki atoqli ot emasligini hal qilish ushbu nomlar haqidagi nazariyaga yetarli ravishda aniqlik kiritish bilan bog`liqdir[3]. A.V.Superanskaya etnonimlarni “Onomastika doirasiga kirmaydigan lug`aviy birliklar kategoriyasiga mansub”, — deb biladi[4]. Ushbu masala o'zbek nomshunosligida ham hal etilmagan.

O'zbekcha matnlarda etnonimlarning goh bosh, goh kichik harflar bilan yozilayotganligi ham bu masalada ikkilanish mavjudligidan darak beradi. Umuman, ushbu muammo alohida tekshirishlarni talab qiladi. Ammo bitta masala aniqki, etnonimlar toponegizlar orasida yetakchi o`rin egallaydi.

Turkiy, jumladan, o'zbek etnonimlari to`g`risida tarixchilar, etnograflarning asarlarida juda ko`p ma`lumotlar mavjud. O'zbek etnonimiyasini tadqiq qilish ishiga keyingi yillarda X.D.Doniyorov[5] va S.S.Gubayevalar[6] katta hissa qo`shdi.

Professor T.Nafasov Qashqadaryo viloyati hududidan 400 ta etnotoponimlarni to`plaganini[7], T.Rahmatov Samarqand va uning atroflari hududida 200ga yaqin etnotoponimlar mavjudligini yozishgan edi[8]. S.Qorayev O'zbekiston hududidagi aholi istiqomat qiluvchi joy nomlarining 10 dan 30 foizi etnotoponim ekanini aytgan[9]. S.S.Gubayevaning fikricha esa, Farg`ona vodiysida bu miqdor ba`zi joylarda 30-50 foizgacha, ayrim hududlarda esa 10-11 foizni tashkil qiladi[10]. O'zbek toponimiyasi bo`yicha yoqlangan ishlarining barchasida o`rganilayotgan hududda uchraydigan etnotoponimlar tahlil qilingan.



O'zbek toponimikasida etnotoponimlar maxsus tadqiq qilingan ishlar ham yuzaga keldi. Biz bu o'rinda A.Otajonovning Xorazm etnotoponimlariga[11], A.Turobovning Samarqand viloyati etnooykonimlariga[12] bag'ishlangan ishlarini ko'zda tutmoqdamiz. Har ikkala tadqiqotda o'rganilayotgan hudud toponimiyasidagi etnonimik negizlar asosida yasalgan nomlar atroflicha tahlil qilingan. O'zbekistonning turli hududlarga mansub etnonimlar tahlili shuni ko'rsatganki, toponimlarning bu tipi yuzaga kelishiga ko'ra ikki belgisi bilan ajralib turadi:

1. Etnonimlar ko'proq aholi istiqomat qiluvchi hududlarda uchraydi.
2. Etnotoponim ko'chmanchi aholi yashagan yoki ularning avlodlari yashayotgan joylarda uchraydi.

Biz Nurota tumani hududidan to'plagan etnotoponimlar miqdori 80 tadan oshadi. Bu biz to'plagan umumiy materialning 4 foizini tashkil qiladi.

Etnotoponimlarni ularning etnonimik negiziga ko'ra (toponegiziga) ikkiga bo'lish mumkin:

1) Negizida xalq, elat yoki millat nomi yotgan etnotoponimlar: Arab (q.), Qozoqovul, Turkmanlar (q), Turkmanariq kabi.

2) Negizida urug', qabila va ularning mayda shaxobchalari nomi yotgan etnotoponimlar: Qovchin (qq), Qiyot (qq), Bolg'ali (qq.), Bahrinto'p (qq.), Qo'shtamg'ali (qq.), Kerayit arig'i kabi.

Toponimning etnotoponim ekanini, ya'ni nom negizida etnik leksika yotganini aniqlash ba'zan qiyinchilik tug'diradi. Mana shunday hollarda toponimning tarkibidagi ba'zi ko'rsatkichlarga e'tibor berish lozim bo'ladi. Odatda tarkibida quyidagi belgilar uchrasa, toponim etnonimdan yasalgan bo'ladi.

1) Nom tarkibida to'p (to'b), to'pi (to'bi) so'zlari uchraydi. Bu so'zlar aslida etnonimik indikatorlardir. X.Doniyorov shodmonto'pi, shodito'pi, yashig'to'pi, qozoqto'pi kabi etnonimlarni qayd etgan[13]. S.Gubayeva tarkibida to'p, to'plar so'zlari mavjud nomlar etnotoponim degan xulosaga kelgan va Kaltato'pi, Xolmonto'p, Eshboyto'p, Urto'p, Taqchito'p, Shayitto'p kabi nomlarni dalil sifatida keltirgan edi[14]. Nurota toponimiyasida ham tarkibida ushbu komponent bor bo'lgan toponimlar mavjud: Bahrinto'p (qq.), Erganakto'p (qq.), Eshonto'p (qq.) kabi.

2) Oxirida -li, -di, -ti (lahjaviy) qo'shimchalari mavjud ba'zi toponimlar etnotoponimlardir: Jilontamg'ali, Kovushli, Taroqli, Qo'shtamg'ali, Qoziyoqli, Bolg'ali, Tug'ali, Keshtali (Kashtali), Cho'michli, Choriqli, Qaychili, Chiroqli, Ilonli, Sarkali va b.

3) Oxirida -chi qo'shimchasi mavjud ba'zi nomlar etnotoponimlardir: Polvonchi (qq.), Tuyachi, Tuyachitepa, Cho'pchi (qq.), Korizchi kabi.

4) Tarkibida -lar qo'shimchasi kelgan nomlar etnotoponimlardir. X. Doniyorov beklar, boylar, yortilar, kallalar, parchalar, xo'jalar, qirqlar, qoralar, qullar kabi etnonimlar borligini qayd etgan[15]. S.Gubayeva -lar affiksli Pillakashlar, Arablar, Xastalar tipli nomlarni etnotoponim deb hisoblaydi[16]. S.Qorayev fikricha esa, -lar, -on, -obod so'zli nomlar etnotoponimlarga kiradi[17]. Nurota toponimiyasida -lar qo'shimchasini olgan quyidagi nomlar mavjud: Minglar, Cho'rilar, Ko'salar, Zarkokillar, Gadoylar, Ulug'lar, Garruklar, Arablar (aq.), Kulollar va b.

5) Tarkibida -on, -yon qo'shimchalari mavjud nomlar etnotoponimlar hisoblanadi. Ko'plik tushunchasini ifoda etuvchi ushbu tojikcha affikslar o'zbekcha -lar qo'shimchasiga to'g'ri keladi. Ushbu qo'shimchalar O'zbekiston hududidagi tojikcha toponimlar tarkibida uchraydi. Chunonchi, Nurota hududida Uyron toponimi uchraydi. Ammo ushbu model Nurota hududi uchun xarakterli emas.

6) Oxiri -i qo'shimchasi bilan tugovchi ba'zi nomlarni ham etnotoponimlarga kiritish mumkin: Ajinabegi, Urganji kabi. Ushbu model ham Nurota toponimiyasida siyrak uchraydi.

Etnotoponimlarning ma'nosini talqin etish borasida ancha munozarali tomonlar bor. Ba'zi ishlarda etnotoponimning (toponimning) ma'no va etimologiyasi deb, uning negizida yotgan etnonimning ma'no va etimologiyasi talqin qilinadi. Bunga qo'shilish qiyin. Aslida etnotoponimlarning ma'nosi soddadir, ya'ni har qanday etnotoponim o'zi mansub bo'lgan



hududda o'tmishda etnonimda ifodalangan etnik guruh yashagani yoki ularning avlodi hozirda yashayotgani haqida darak beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiklol va tarakkiyot yo'li. - Toshkent: O'zbekiston, 1992. - 71-bet.
2. Doniyorov X. O'zbek xalqining shajara va shevalari. –T.: Fan, 1968. 14-35-b.
3. Nikonov V.A. Etnonimiya // Etnonimы. – Moskva: Nauka, 1970. – S. 5.
4. Superanskaya A.V. Obshaya teoriya imeni sobstvennogo. - S.205.
5. Doniyorov X. O'zbek xalqining shajara va shevalari. – Toshkent: Fan, 1968.
6. Gubayeva S.S. Etnonimы v toponimii Ferganskoy dolinы. – Avtoref. diss. ... kand. filol. Nauk. – M., 1973.
7. Nafasov T. Toponimы Kashkadarinskoy oblasti. - Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. - Tashkent, 1968. - 11-bet.
8. Raxmatov T. Toponimiya goroda Samarkanda i yego okrestnostey. - Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. - Moskva, 1973. - S. 21.
9. Korayev S. Opyt izucheniya toponimii Uzbekistana. - Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. - Tashkent, 1969. - S.8.
10. Gubayeva S.S. Avtoreferat. - S.9.
11. Otajonova A.J. Xorazm etnotoponimlari va ularning lugaviy asoslari - Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. – Tashkent, 1997. O'sha muallif. Xorazm etnotoponimlari – Toshkent: Fan, 1997.
12. Turobov A.I. Samarkand viloyati etnonim va etnooykonimlarining taxlili. - Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. – Toshkent, 1999.
13. Doniyorov X. Keltirilgan ish. -63-bet.
14. Gubayeva S.S. Keltirilgan avtoreferat. - 12-bet.
15. Doniyorov X. Keltirilgan ish. - 82-bet.
16. Gubayeva S.S. Avtoreferat. - 12-bet
17. Korayev S. Avtoreferat. - 23-bet.

**TURISTIK-REKREATSION KOMPLEKSNING  
INVESTITSION JOZIBADORLIGI  
(SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDIDA)**

*Otajanov Umid Abdullaevich*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, iqtisodiyot fanlari doktori.*

*Abdullayev Bunyod O'tkirovich*

*Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlashi instituti katta o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Maqola Surxondaryo viloyatida Turistlarni jalb qilish jarayoning iqtisodiy samaradorligi oshirish hamda iqtisodiy rivojlanishi uchun asosiy masala investitsiyalarni jalb qilish bo'lib, bu iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini yuksaltirishga olib kelishi kerak. Jarayon turizm faoliyatini jonlantirish, yangi ishchilarni yaratishga yordam beradi joylar, aholining turizm xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish va mamlakat va uning hududlari iqtisodiy salohiyatini oshirish.

**Kalit so'zlar:** turistik-rekreatsion kompleks, investitsion jozibadorlik, investitsion salohiyat, investitsiya tavakkalchiligi, reyting, turizm, infratuzilma, mintaqaviy iqtisodiyot.

**Аннотация:** Основным вопросом повышения экономической эффективности процесса привлечения туристов в Сурхандарьинскую область и развития экономики является привлечение инвестиций, что должно привести к развитию ключевых отраслей экономики. Процесс будет способствовать оживлению туристической деятельности, созданию новых рабочих мест на местах, удовлетворению потребности населения в туристических услугах и повышению экономического потенциала страны и ее регионов.

**Ключевые слова:** туристско-рекреационный комплекс, инвестиционная привлекательность, инвестиционный потенциал, инвестиционный риск, рейтинг, туризм, инфраструктура, региональная экономика.

**Annotation:** The main issue of increasing the economic efficiency of the process of attracting tourists to the Surkhandarya region and developing the economy is attracting investments, which should lead to the development of key sectors of the economy. The process will contribute to the revival of tourism activities, the creation of new jobs in the field, meeting the needs of the population in tourism services and increasing the economic potential of the country and its regions.

**Keywords:** tourist and recreational complex, investment attractiveness, investment potential, investment risk, rating, tourism, infrastructure, regional economy.

Turistik rekreatsiya kompleksi (TRK) korxonalarining samarali ishlashi, ularning rivojlanish sur'atlarini ta'minlash va raqobatbardoshlik darajasini oshirish ko'p jihatdan ularning investitsiya faolligi darajasi bilan belgilanadi. Avvalo, korxonalarining investitsiya faolligi darajasi ularning investitsion jozibadorlik darajasi bilan tavsiflanadi, bu holda investor investitsiya ob'ektini tanlashda va investitsiya qilishni boshlash to'g'risida qaror qabul qilishda rag'bat bo'ladi. Shu munosabat bilan savdo majmuasi korxonalarining investitsion jozibadorligi muhim iqtisodiy toifaga ega bo'lib, savdo majmuasi korxonalarining investitsion jozibadorlik darajasini aniqlash va oshirish uning faoliyatining mustaqil vazifalari sifatida qaralishi lozim. Investitsiyalarni jalb qilish nuqta nazaridan:

- “ishbilarmonlik jozibadorligi” sifatida – hamkorlik va munosabatlarni tahlil qilish, baholash va tanlashda agentlar o'rtasida, bu tugallangan bitimlarning sifati, me'yorlar va majburiyatlarga rioya qilish, ma'lum bir imidjni saqlash bilan tavsiflanadi;
- “infratuzilmaviy jozibadorlik” sifatida – biznesni joylashtirish uchun joy yoki hududni tahlil qilish, baholash va tanlashda;
- investitsion joziba sifatida investitsiya ob'ektlarini tavsiflash va baholash;

- reyting solishtirishni amalga oshirish, investisiya jarayonlarini qiyosiy tahlil qilish;
- iqtisodiy ierarxiyaning turli darajalari va iqtisodiy rivojlanish bosqichlariga nisbatan.

Infratuzilma va biznesning jozibadorligi investitsiya jozibadorligining tarkibiy elementlari, shuning uchun ularni joylashtirish qonuniydir investitsiya jozibadorligini tahlil qilish va baholash doirasida.

Savdo-ko'ngilochar markazi korxonalari investitsiya faoliyatining nazariy asoslarini ko'rib chiqsak, yirik sarmoya kabi toifalarning mohiyatini aniqlashda yagona pozitsiyani ishlab chiqish rol o'ynaydi. korxonalarining jozibadorligi, korxonalarining investitsion salohiyati, sarmoya xarid qilish markazlari korxonalari xavfi, chunki bu kafolatdir tegishli masalalarni muvaffaqiyatli hal etish investitsion jozibadorlik "daromad va investitsiya xavfining kutilayotgan nisbati" sifatida, shu jumladan investitsiyalar iqlim, investitsion salohiyat, investitsion risklar. Biz investitsiyalarni aniqlaymiz savdo majmualari korxonalarining salohiyati Tadqiqotlar alohida e'tiborga loyiqdir turli ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning investitsion salohiyati reytingini taqdim etadi. Miqdorni aniqlash shakldagi ushbu salohiyatning tarkibiy qismlarini baholash mehnat, iste'mol, ishlab chiqarish, moliyaviy, institutsional, innovatsion, infratuzilma, tabiiy resurslar potentsiallarni hisobga olgan holda mualliflar birgalikda investitsiyalarning miqdoriy qiymatini belgilaydilar salohiyat. Ko'rib chiqilayotgan ishlarda, bir qator kamchiliklarga e'tibor bering: bitta yo'qligi "investitsiya salohiyati" tushunchasini aniqlashda yondashuv, yetarli asosli emas uning parametrlarini baholash tamoyillari (masalan, institutsional, innovatsion), sub'ektiv (ekspert) yondashuvning mavjudligi ko'rsatkichlar to'plamini aniqlash va turli vazn koeffitsientlari, Muallifning fikricha, investitsiya salohiyati korxonalari - investitsiyalar uchun maksimal imkoniyatni ta'minlaydigan investitsiya resurslari va ulardan foydalanish shartlari to'plami.

Xavf omili Yoqilg'i dispenserining ishlashida ob'ektiv, doimiy ta'sir etuvchi omil xavf hisoblanadi investitsiya faoliyati bilan bog'liq. Investitsiyalar rentabelligi oshishi bilan, yangi investitsiya texnologiyalarini qo'llash, investitsiya faoliyatini diversifikatsiya qilish uning darajasi oshadi. Shuning uchun investitsiya jozibadorligining ikkinchi ajralmas komponenti bu investitsion riskdir.

Bizning fikrimizcha, SEC korxonalarining investitsion jozibadorligi SEC korxonalarining mumkin bo'lgan ustuvorlik darajasini ifodalaydi. investitsiyalari natijasida shakllangan investorlar potentsial va investitsiya xavfi. Bunda kontekstda, xususiyatlarni keltirish va investitsiyalarni darajalash o'rinli bo'ladi turistik va rekreatsiyaning jozibadorligi majmua va uning korxonalari.

Shakllanish xususiyatlari savdo majmuasining investitsion jozibadorligi

Turistik-daryo-reaksiya kompleksining investitsion jozibadorligi quyidagi xususiyatlarni hisobga olgan holda shakllantiriladi:

- siyosiy barqarorlik va uning taxminiyligi kelajak uchun;
- makroiqtisodiy ko'rsatkichlar (inflyatsiya darajasi, YaIMning o'sish sur'atlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash foiz stavkasi va boshqalar) va ularning kelajak uchun prognozi;
- normativning mavjudligi va mukammallik darajasi investitsiya faoliyati sohasida faoliyat yuritadi va mamlakatdagi soliq tizimi;
- ijtimoiy muhit (turmush tarzi, darajasi jinoyat va ijtimoiy guruhlar ichidagi va o'rtasidagi munosabatlar va boshqalar);
- investitsion risk darajasi va boshqalar.

Turistik-ko'ngilochar majmuaning investitsion jozibadorligi uchun zamin yaratadi mintaqaviy darajada va alohida SEC korxonalari darajasida investitsiya jozibadorligi. Shu bilan birga, investitsiyalar savdo majmualari korxonalarining jozibadorligi mumkin tufayli umumiy fondan sezilarli darajada farq qiladi boshqa bir qancha ta'sir qiluvchi kuchlarning kuchga kirishi omillar. Investitsion jozibadorlik mintaqaviy TRK, birinchi navbatda, uning sanoat rivojlanish darajasi, geografik joylashuvi va tabiiy-iqlim sharoitlari, shuningdek darajasi infratuzilmani rivojlantirish, shu jumladan investitsiya faoliyati uchun, investorlar uchun mavjud imtiyozlarning muhimligi va boshqalar.

Ushbu fikrlardan kelib chiqqan holda, turistik-rekreatsioon kompleksning investitsion jozibadorligi nuqtai nazaridan biz ob'ektiv shartlar (belgilar, belgilar) to'plamini tushunishni taklif qilamiz.

Savdo-ko'ngilochar majmuasining o'ziga xos investitsion salohiyati va investitsiya xatarlari darajasidan kelib chiqqan holda rivojlanish maqsadida jalb etilishi mumkin bo'lgan kapital tashkil etuvchi investitsiyalarga samarali talabni belgilovchi omillar, vositalar) va imkoniyatlari. Boshqacha qilib aytganda, savdo markazining investitsion jozibadorligi - istiqbol, rentabellik, undan foydalanish samaradorligi va o'z mablag'lari hisobidan savdo majmuasini rivojlantirishga investitsiya qilish xavfini minimallashtirish nuqtai nazaridan investitsiya potentsialining umumiy tavsifi. va investorlarning mablag'lari.

**Xulosa.** Muallifning fikriga ko'ra, belgilashda turistik-rekreatsioon kompleksning investitsion jozibadorligini hisobga olish kerak ham investitsiya potentsial omillari, ham investitsiya riski omillarining ta'siri. Ko'proq Bundan tashqari, tahlil qilingan investitsion salohiyatning iqtisodiy jihatdan ahamiyatli ko'rsatkichlari to'plami va investitsiya tavakkalchiligi shakllanishi kerak ham mintaqaning investitsion jozibadorligi, ham turistik-rekreatsioon kompleksning ixtisoslashtirilgan korxonalarining investitsion jozibadorligi tarkibiy qismlaridan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Александрова, А.Ю. Международный туризм: учебник / А.Ю. Александрова. – М.: Кнорус, 2013. – 470 с.
2. Александрова, А. Ю. Международный туризм: учебное пособие для вузов / А. Ю. Александрова – М.: Аспект Пресс, 2007. – 358 с.
3. Аликаева, М.В. Теоретические аспекты маркетинговых исследований рынка рекреационных услуг [Электронный ресурс] / М.В. Аликаева, Л.З. Керефова, А.С. Дзамихов // Современные проблемы науки и образования. - 2014. – № 6. URL.: <http://www.science-education.ru/120-16227> дата обращения 14.11.2016
4. Анохин, П. К. Узловые вопросы теории функциональных систем. / П. К. Анохин. - М. : Наука, 1980. – 196 с.
5. Асланов, Д. И. Исследование санаторно-курортного комплекса : теория и методология: монография / Д.И.Асланов; Пятигорский гос. гуманитарно-технологический ун-т. - Пятигорск : РИА-КМВ, 2011. – 123 с.
6. Афанасьев, О.Е. Этапы развития сферы туристских услуг в Крыму / О.Е. Афанасьев // Современные проблемы сервиса и туризма. №1, 2015. – с. 5-13.
7. Бабун, Р. В. Организация местного самоуправления: учебное пособие / Р. В. Бабун. - 3-е изд., перераб. и доп. - М. : КНОРУС, 2013. – 280 с.
8. Бадин, В. А. Системный взгляд на развитие Сочи / В. А. Бадин, С. В. Бадина // Вестник СГУТиКД. - 2012. - № 2 (20). – С.35-38.

## QOVUNING ASOSIY KASALIKLARI

*A.A.Otajonov (Tayanch doktorant)*

*N.S.Xaytbaeva (Ilmiy rahbar: q/x.f.f.d., dotsent.)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada poliz ekinlari, jumladan qovunda uchraydigan asosiy kasalliklar tavsifi hamda unga qarshi kurashish choralari muhokama etilgan hamda tavsiyalar berilgan.

**Kalit soʻzlar:** Qovun, poliz, fuzarioz, un shudring, kasalliklari, qarshi kurash choralari Respublika sharoitida ekish uchun kasalika chidamliy tavsiya etiladigan navlar. Qovunni ertapishar – Rohat, oʻrtapishar – Suyunchi–2, Oltin vodiy, Lazzatli, Oltintepa, Obi novvot, Gurovak, Boʻrikalla, kechpishar – Toʻyona, Gurlan, Amudaryo, Gulobi Xorazmiy, Zar gulobi, Saxovat, Umrboqiy, Beshak kabi navlari ekish uchun kasalik bardoshlidir.

**Kirish.** Qovunda keng tarqalgan kasalliklarda fuzarioz soʻlishi (fuzarioz vilt) ni *Fusarium oxysporum* f.sp. *melonis* gifomitset zamburugʻi qoʻzgʻatadi. Oʻzbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirgʻiziston va Janubiy Qozogʻistonda qovun yetishtirishda eng katta zarar keltiradigan oʻsimlikning oʻsish va rivojlanishiga zarar keltiradi.

Nundan tashqari ikkita keng tarqalgan zamburugʻlardan ular un-shudring va alterniozlardir.

Fuzarioz soʻlish bilan qovun barcha oʻsish va rivojlanish fazalarida zararlanadi. Yosh maysalarning urugʻbarglari, poyasi (gipokotil) va ildiz boʻgʻzida qaynoq suvga kuyganga oʻxshash, rangsiz, soʻngra qoʻngʻir tus oluvchi dogʻlar rivojlanadi, ular chiriydi va maysalar qurib qoladi, ekin siyrak boʻlib qoladi. Ertapishar navlar maysalarining 43-86 foizi nobud boʻlgani Oʻzbekistonda kengtarqalgan.

**Asosiy qism. Fuzarioz soʻlish** ekinlarda meva rivojlanishi va pisha boshlashi paytida koʻplab uchraydi. Oldin oʻsimlikning pastki qismida barglarida sargʻish, soʻngra qoʻngʻir tus oluvchi dogʻlar paydo boʻladi va ular yuqori qismida barglariga oʻtadi. Palaklardan biri yoki bir nechtasi, soʻngra butun oʻsimlik soʻladi ildizlarini zararlaydi. Baʼzan oʻsimlik kasallikka mavsum soʻngigacha rivojlanadi, soʻlmaydi, ammo ular qovun osimlikini rivojlanish paslatadi, palagi kalta boʻlib qoladi, kam hosil tugadi. Kasallikning tez rivojlanuvchi shakli kuzatilganda oʻsimlik 1-2 kun ichida soʻlib qoladi. Soʻlishning sababi – oʻsimlikning oʻtkazuvchi tomirlari zamburugʻ mitseliysi bilan rivojlanishi va asimilatsiyon jaryonlar buziladi. Soʻlgan oʻsimliklarning ildizi va poyasi kesib koʻrilganda, ularda sargʻish, jigarrang va qoʻngʻir dogʻlarni koʻrish mumkin, ammo bu dogʻlar har doim mavjud boʻlmaydi. Fuzarioz soʻlish qovun hosilini 30% gacha kamaytiradi.

*F. oxysporum* f.sp. *melonis* tor ixtisoslashgan va u boshqa poliz ekinlarini zararlamaydi.

Patogen rivojlanishi uchun muʼtadil havo harorati 25-28<sup>o</sup>S, minimum 12<sup>o</sup>S va maksimum 34<sup>o</sup>S; qishda zamburugʻ 15<sup>o</sup>S sovuqda ham nobud boʻlmaydi. Ekin ichida va boshqa dalalarga kasallik tuproq zarrachalari, tuproqqa ishlov berish asbob-uskunalari va sugʻorish suvidagi zamburugʻ propagulalari (mitseliy parchalari, konidialari va h.k.) orqali tarqaladi.

Mavsumdan mavsumga kasallik oʻsimlik qoldiqlari va kamroq darajada (3- 8% gacha) urugʻlar bilan oʻtadi. Zamburugʻ oʻsimliklarga ildizlari orqali kiradi. U tuproqda koʻp yil saqlanishi mumkin.

**Kurash choralari.** Kasallik mavjud boʻlgan dalalarga 4-5 yilgacha qovun ekmaslik; soʻlishga chidamli navlar ekish; urugʻlikni faqat sogʻlom oʻsimlik mevalaridan olish, ekishdan oldin uni mikroelementlar (Fe, B, Zn, Mn, Cu) eritmasida va samarali fungitsid (misol uchun, Vitavaks 200FF) bilan dorilash; tarkibida elementlar balansi mavjud boʻlgan oʻgʻitlarni kiritish; oʻsimlik qoldiqlarini daladan chiqarib, yoqib yuborish tavsiya qilinadi<sup>136</sup>.

Oʻzbekistonda ekinga superfosfatning 5% li eritmasini 3 marta (ekin 4-10 barg chiqarganda, gullash-meva tugish paytida hamda mevalar pisha boshlaganda) purkash kasallikka qarshi yaxshi natija bergan.

<sup>136</sup> Sheraliev A.Sh., Raximov U.X. Qishloq xoʻjalik fitopatologiyasi. Toshkent-2014.



**Un-shudring** kasalligi bilan bodring, qovun va qovoqning barcha turlari, itqovun va boshqa bir nechta begona o'tlar, ba'zan esa tarvuz ham zararlanadi. Uni askomitset obligat parazit zamburug'lar, asosan *Sphaerotheca fuliginea* f. *cucumidis*, kam hollarda (tog'larda) *Erysiphe cichoracearum* f. *cucurbitacearum* qo'zg'atadi.

Un-shudring O'zbekistonda **qovun** yetishtirishda eng katta zarar keltiradigan kasalliklardan biridir; bu kasallik tufayli har yili qovun hosilining 36 foizi, epifitotik yillari esa 64 foizigacha yo'qotiladi. "O'zbekiston sabzavot, poliz va kartoshka ekinlari ilmiy-tadqiqot instituti" xodimlari tomonidan yaratilgan 9 ta qovun navi un-shudringga yuqori darajada chidamlidir.

**Kurash choralari.** Chidamli navlar yaratish va qo'llash; sog'lom o'simliklardan olingan, puxta saralangan, samarali fungitsid bilan dorilangan urug'lik ekish; kasallik boshlanishi bilan ekinga fungitsid, jumladan Bayleton 25% n. kuk. (0,2-0,6 kg/ga), Karatan LS 50% em. k. (0,5-1,0 l/ga), Topsin-M 70% n. kuk. (0,8-1,0 kg/ga), kolloid yoki n. kuk. shaklidagi oltingugurt (2,0-4,0 kg/ga), OOO (0,5-1<sup>o</sup> li eritma) va boshqalarni 1 yoki 2 marta purkash; daladan o'simlik qoldiqlarini yo'qotish, ularni begona o'tlardan toza holda tutish; dalani chuqur kuzgi shudgor qilish, almashlab ekish tavsiya qilinadi<sup>137</sup>.

Poliz ekinlarida soxta un-shudringni *Peronosplasmopara cubensis* (sinonimi *Pseudoperonospora cubensis*) oomitset zamburug'i qo'zg'atadi. Kasallikka barcha poliz ekinlari moyil, ammo ko'pincha bodring va mushk qovunga katta zarar yetkazadi.

Zararlangan barglarda mayda tomirchalar oralarida joylashgan, serqirra oqish dog'lar paydo bo'ladi, keyinroq ular sarg'ayadi yoki qo'ng'ir tus oladi, barg olachipor bo'lib qoladi. Dog'lar so'ngra bir-biriga qo'shib ketadi va qo'ng'ir tus oladi. Bargning ostki tomonidagi dog'lar ustida mayin oqish yoki och-kulrang mog'or qatlami rivojlanadi, yuqori namlik sharoitida bu qatlam kulrang, to'q-qizg'ish yoki binafsha tus oladi. Zararlangan barglar qotib, qurib qoladi. Kuchli zararlangan o'simliklar barglarining ko'pchiligi to'kilib ketadi, natijada hosil pasayadi.

Kasallik yomg'ir tomchilari va shamol orqali hamda ishchilar kiyimlari va asbob-uskuna vositasida tarqaladi. Yuqori namlik va nisbatan past harorat kasallik uchun qulay hisoblanadi.

**Kurash choralari** chidamli navlar yaratish va qo'llash; urug'likni ekishdan 2-3 oy oldin 40<sup>o</sup>S haroratda 8 soat davomida isitish va fungitsid bilan dorilash; o'sish davrida maxsus fungitsidlardan (1% li Bordo suyuqligi; 0,4% li mis xloroksid; Kvadris 25% sus.k., 0,4-0,6 l/ga; Ridomil MS, 68% s.e.g., 2,5 kg/ga; Strobi 50% s.e.g. yoki 50% sus.k. 0,2-0,3 kg,l/ga va b.) birini qo'llashdan iborat.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. B. A. Hasanov, R.O. Ochilov, R.A. Gulmurodov. Sabzavot, kartoshka hamda poliz ekinlarining kasalliklari va ularga qarshi kurash. Toshkent 2009
2. Sheraliev A.Sh., Raximov U.X. Qishloq xo'jalik fitopatologiyasi. Toshkent- 2014
3. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida ishlatish uchun ruxsat etilgan pestitsidlar va agroximikatlar ro'yxati. Toshkent 2013.
4. [agroflora.ru](http://agroflora.ru) [agronomu.com](http://agronomu.com) glav-dacha.ru
5. Sheralieyev A., Rahimov U. Qishloq xo'jaligi fitopatologiyasi. Toshkent.
6. Androsov A. O kulture din v Srednei Azii i mestnie ix sorta.
7. Arasimovich V.V. Bioximiya dini.//V kn.: «Bioximiya kulturnix rasteniy».-
8. Ashurmetov A.A. O samostoyatelnosti roda Melo Adans.
9. Balashev N.N. Baxchevodstvo.//T. «O'qituvchi».- 1976. – 423 b.
10. Bel-Kuznetsova V.F., Zhitneva N.E. Dini Uzbekistana.//T. Izd. Komiteta nauk UzSSR.
11. Bo'riev X.Ch., Ashurmetov O.A. Poliz ekinlari biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi.
12. Dudko P.N., Karimov A.K., Ermoxin B.N., Uspenskaya E.V. Atlas «O'zbekiston qovunlari. Dini Uzbekistana».//T.: UDN- 1962.- 184 b.

<sup>137</sup> O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida ishlatish uchun ruxsat etilgan pestitsidlar va agroximikatlar ro'yxati. T-2013.

## DRAMA AS A PEDAGOGICAL FACTOR ENCOURAGING LEARNERS' SOCIOLOGICAL THINKING

*Odilova Gulchiroy Xusniddin Qizi*

*Student of Andijan State University of Foreign languages faculty*

**Abstract:** The article addresses the topic of using drama as a pedagogical factor for stimulating students' sociolinguistic thinking in teaching foreign languages. Particular attention is paid to the question of how this factor can be used in teaching to encourage students to make the most of the foreign language in class. The authors draw attention to the fact that the drama and role play can be different depending on the complexity and language skills of students, and that the correct choice of the type of drama, roleplaying game corresponding to the level of knowledge of the group. The article demonstrates that drama games are extremely helpful and can help students to consolidate their acquired knowledge, sociolinguistic competence, critical and sociolinguistic thinking, and teach them a foreign language for professional purposes. The practical significance of the article lies in the fact that using drama is a studentcentered teaching method that develops their sociolinguistic thinking, communicative and sociolinguistic competence. The authors are of the opinion that drama promotes the application of theoretical knowledge in practice, thus bridging the gap between theory and practice; also it is extremely effective for learning about the real world and for improving professional skills. This article demonstrates that drama sessions put students in real-life situations by teaching those skills such as the ability to make phone calls, book a hotel, order food in restaurants, talking to a salesperson in a store, negotiating, having an interview at employment, exchange views, and debate in a foreign language.

**Keywords:** drama, stimulation, encouraging. Sociolinguistic thinking, critical thinking, communicative competence, teaching foreign languages, intercultural communication, competence-based approach, interactive teaching methods, play method, role-playing games, speaking skills.

**1. Introduction.** In the modern world, more and more interest in the study of foreign languages is growing [5]. Foreign languages are in demand as a means intercultural communication, it is a social order in our modern society [8]. Educational Standard provides for teaching a foreign language, pursuing the main goal: development of sociolinguistic thinking, critical thinking, communicative competence [4]. Implementation of interactive teaching methods to form a competence-based approach, which is one of the requirements of the Educational Standard, very promising to implement in the form of conducting classes in the form of business or drama [2].

Drama is an extremely valuable method of learning a foreign language. Drama encourages thinking and creativity abilities, allow students to develop speech skills and practice using foreign language in an environment, as much as possible close to real life. In the article we discuss at this technique in detail. The drama is primarily associated with recreating frequently recurring situations of intercultural communication when the proposed roles are recognized and further changed when they playback. In the process of intercultural communication this factor expands the space of imagination, as a result of which the ability to perceive the norms of another linguistic culture. Close to this factor simulation when artificially created specific situations of intercultural communication in order to predict possible options, the reaction of the communicant and the results of communication [3]. The terminology used in articles and books on the drama, role play games and imitations in teaching foreign languages. Here just a few of the terms that are often used interchangeably are "simulations", "Games", "role-playing games", "simulation games", "Role-playing games – simulations"

[18]. However, the simulation is broader concept than drama. Ladousse [15] considers simulations to be complex, lengthy, and relatively inflexible, while drama, role play games rather simple, short and flexible [15].

Simulations simulate real life situations, while in the drama, role-playing game the participants play characters from real everyday life [18]. Simulations always include an element of drama, role-playing game [15]. In this paper, drama, the role play / simulation method will be analyzed using following format:

- language theory,
- language teaching theory,
- the goals of the method,
- curriculum model,
- educational activities,
- the role of students,
- the role of the teacher,
- the role of teaching materials,
- game process,
- tips for a successful drama.

**II. Literature review.** Richards and Rogers consider three theoretical views on language: structural, functional, and interactive. Drama is interactive. With this point of view, language is seen as a means for the implementation of interpersonal relationships and performing social interactions of individuals [16].

Drama promotes effective interpersonal relationships and social interactions between their participants. "For simulations to be effectively implemented, participants must take on duties and responsibilities for their roles and functions, and do their best in the situation they are in" [13]. In order to fulfill their role responsibilities, students must use effective social skills in relation to other participants in the simulation. For the first time, drama technology appeared in France. Francis Debizer gives the following definition of drama in pedagogy: "Drama as applied to language is an imitative, invented and enacted reproduction of interpersonal contacts organized around problematic situations: studying a case, solving a problem, making a decision, etc." [6].

Christopher and Smith note that the content language learning during drama factor can be specified or not specified, distinguishing between "convergent" and "divergent" models. [11]. When a convergent model is used, speech patterns and behaviors are refined. When the divergent model is used, the speech exchange models remain undefined.

Scarsella and Crookall conducted a study to show how drama in teaching makes learning a foreign language easier. They believe that students acquire a language in the following cases:

1. when they receive a large amount of new material available;
2. when they take an active part in the learning process;
3. when they get positive emotions and the relationship in the team of students is benevolent [18].

In drama in pedagogy using the available material, students are included in the process of real communication, playing their roles in the game. Active participation, absorption of students in the process, the game leads to the fact that students forget about they are learning a foreign language. Students have the opportunity to try new behaviors in a safe environment that helps them develop long-term motivation, aimed at learning the language.

**III. Research materials and methods.** Cummings and Hansel claim to be the first step in preparing a drama, role play is deciding on its criteria. They give, for example, a common goal: "I want my students to feel free and confident when eating out or more at ease in business situations such as negotiating conclusion of a contract" and name specific goals: "I want my students to know how to place orders in fast food restaurants" distinguishing them from these general goals [12].

*Curriculum model.* The curriculum model can be a combination of “procedure” and “process”. At the beginning of modeling the situation, own activity the student is crucial for learning, but the tasks must be chosen by the teacher, thus Skehan talks about the procedure of the learning process [20]. For example, at the beginning drama games such as the “Famous people”, is described by Laduss [15]. In this simple guessing game, the student acts as a well-known person. Students groups ask this student questions to guess the name of the person they represent student. Games that follow this simple drama, role-playing game, involve more difficulty. Simulation of game situations that occurs over several periods of learning allows students to control the nature of interactions [20]. This can be done, for example, “Competition of projects” [15]. In this drama, students simulate situations that have direct relation to them. They decide which situation to simulate in the role-playing game, what question to choose within the framework of the event to study, how to define the roles of the participants, etc.

- 1) Stately, plump Buck Mulligan came from the stairhead, bearing a bowl of lather on which a mirror and a razor lay crossed. P.2. Биққи Бак Маллиган совун кўпиртирилган идиш устига устма-уст қўйилган ойна билан устарани кўлида кўтарганча пиллапоянинг юқори сахнига улғуворона бир қиёфада чиқиб борди. P.22. ( In this case expanding meaning and syntactic rearrangement are used ).
- 2) -Will he come? The jejune Jesuit! Ceasing, he began to shave with care. P.4P -Борасан сен орқиқ тентак! Кейин оғзини юмиб ҳафсала билан юзини қира бошлади. P.23. (Joining two sentences into one).
- 3) -The mockery name of it! He said gaily. Your absurd name, an aсient Greek! - Тақдир кинояси,-деди у шодон,-сенга шундай ўхшовсиз ном беришган. Кўҳна юнон! P. 23. (Breakdown of a sentence into two).
- 4) -God! He said quietly. Isn't the sea what Agly calls it: a great sweet mother? The scrotumtightening sea. P.6. -Шундай,-деди у секин.-Элжи ҳақ; у денгизни бўз меҳрибон деган, мишиқи-кўқимтир денгиз. P.24. (Omission of a separate word).
- 5) -Tell me, Mulligan, Stephen said quietly.- Yes, my love? P.6. -Менга қара, Маллиган, - деди осойишта Стивен.- Нима дейсан, болакай? (Transfer words from text to text).
- 6) -Ah, poor dogsbody! He said in a kind voice. I must give you a shirt and a few noserags... P.7. -Шўрлик болакай, - деди у эркалаб,-сенга кўйлак билан рўмоллар бермасам бўлмас экан. P.24. (Joining two sentences into one).
- 7) That woman is coming up with the milk. -Сутчи келяпти сути билан. p.19 (Changing of a word order; Transfer words from text to text).
- 8) The blessing of God on you! Buck Mulligan cried jumping up from his chair... P.20. -Худо хайрингизни берсин, -хитоб қилди Бак Маллиган, курсидан дик этиб туриб ... P.34. (Joining two sentences into one).

**Discussion.** Thus, on above given examples it is clear that syntactic transformations are often used and almost they are existed in every sentences. Moreover, it occurs that translator creates the text even the new literary work from his own style to be understandable for readers but keeping the content of the text.

To conclude about transformations the following conclusion is preferable to note that are often used in our analysis of comparing sentences in the work as omission of separate word, joining two sentences into one, changing of a word order, transfer words from text to text and syntactic rearrangement.

**References:**

1. Jeyms Joys .-Uliss sarguzashtlari.-Toshkent -2013.840 bet.-Jahon adabiyoti kutubxonasi.
2. James Joyce.- Ulysses .-Planet PDF. <https://www.planet.pdf.com>.
3. Salomov G '. Fundamentals of translation theory. Tashkent, 1983.
4. Stepura S.N.Perevodcheskaya retsepsiya romana Dj.Djoysa "Uliss" v russkoy literature 1920-1930-x gg.: Diss....kand.filol.nauk:10.01.01.Tomsk.2013 203.
5. Stepura S.N. Djoys kak yavleniye russkogo modernizma.// "Young scientist", #6 (86), Philology, M 2015.-P. 839-841.
6. Schweitzer A.D. Translation theory: Status, problems, aspects - M., 1988.
7. <https://www.oxfordbooks.com>.
8. <https://www.wordfoolery.wordpress.com>.



## “YURMOQ” LEKSEMASINING SEMANTIKASI VA TEZAURUSI XUSUSIDA

*Qahharova Sabohat Abdug'afurovna*

*O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti.*

**Annotatsiya:** Til birliklarining ma'nolari haqidagi asosiy ma'lumotlar mavjud lug'atlarda aks etadi. Tilshunoslik fani taraqqiyotining hozirgi bosqichida leksikografiya lug'atni muloqot dinamikasidan kelib chiqib uning ma'nosini tavsiflaydi. Shu sababdan lug'at tadqiqotchilarning doimiy diqqat markazida bo'lgan va shunday bo'lib qoladi.

Mazkur maqolada mavzuga doir o'zbek, rus va ingliz tillaridagi ilmiy manbalar hamda internet saytlaridagi lug'atlardan maqsadli foydalanilgan holda bugungi kun tilshunoslari oldida turgan dolzarb muammo sanalgan .semantik, ontologik lug'at hamda tezauruslar xususida so'z boradi, tegishli ilmiy xulosalar chiqariladi hamda amaliy tavsiyalar beriladi.

**Kalit so'zlar:** lug'aviy birliklar, sinonim, semantik lug'at, ontologik lug'at, tezaurus, thesaurus.com, Collins Thesaurus va Oksford Thesauruslar

**Kirish.** Til tizimida lug'aviy birliklarni semantik jihatdan o'rganish hozirgi zamon tilshunosligining muhim vazifasidir. Ushbu muammoni hal qilishda til birliklarining, xususan, harakat semali lug'aviy birliklarning semantik nazariyasi muhim rol o'ynaydi. Afsuski, hozirgi kunda o'zbek tilshunosligida rus, ingliz tillarida yaratilgan semantik, ontologik lug'at hamda tezauruslarning yo'qligi hozirgi zamon tilshunosligimizning dolzarb muammolaridan biridir. Birgina rus tilshunosligiga nazar tashlaydigan bo'lsak, semantik lug'atlarning bir nechta turlari ishlab chiqilganligini ko'rishimiz mumkin[1,2,3], hatto olti jilddan iborat semantik lug'at mavjudligi, uning 4-jildi bevosita leksik ma'noga ega mustaqil fe'llar xususida bo'lib, ular bir qator ma'noviy guruhlariga tasnif qilinib, izohlanganligini ta'lidlash lozim [4].

Bu kabi lug'atlar nafaqat o'zbek tilining mukammal milliy hamda ta'limiy korpusini yaratishda, balki ona tili sanalgan o'zbek tilida so'zlashuvchilarning ham, o'zbek tili ona tili bo'lmaganlarning ham so'z boyligini rivojlantirish va boyitishda amaliy yordamchi bo'lib xizmat qiladi va nutqdagi noaniqlik va xatolarning oldini oladi. Shu bilan bir qatorda ta'lim maqomiga ham ega bo'lishi o'zini oqlaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** XX asr o'zbek tilshunosligida olim Sh. Rahmatullayev tomonidan yaratilgan til birliklarining sinonim, antonim kabi lug'at turlariga tayangan holda o'zbek tilining kompyuterga asoslangan lingvistik-leksikografik bazasini yangilash zarurligi bugungi kun tilshunoslari oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Shu bois yuqorida keltirilgan semantik, ontologik lug'at hamda tezauruslarni ishlab chiqish xususida tadqiqotchi olimlarimiz ilmiy nashr va jurnallarda o'z fikr-mulohazalarini keltirib o'tishgan[7,8]. Rus va ingliz tillarida tezaurus lug'atlarning sara namunalari yaratilgan bo'lib, xususan, ingliz tilshunosligining bir qator leksikografiyasiga oid saytlarida, jumladan, <https://www.merriam-webster.com/thesaurus> saytida “yurmoq” lug'aviy birligining 146 ta semasi (synonyms of walk), <https://www.macmillandictionary.com/thesaurus> saytida esa 82 ta semasi (definitions of walk), <https://www.yourdictionary.com> saytida mazkur so'zning 117 ta'rifi misollar bilan izohlab ko'rsatiladi. 1998-yil Rossiya Fanlar akademiyasi tilshunos olimlari tomonidan 6 jilddan iborat, so'zlar va ma'nolar sinflari bo'yicha tizimlashtirilgan rus tilining semantik lug'ati nashr etilgan. Bu lug'at, umuman olganda, 300 000 ga yaqin leksik birliklar – so'z va frazeologik birliklarning ma'nolarini qamrab olgan. Har bir jild mustaqil leksikografik tadqiqot bo'lgan alohida tayyor ish hisoblanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** “Yurish” harakati semali fe'llarning tadqiqot predmeti sifatida tanlanishi, bu fe'llarning o'zbek tili lug'atida yetarlicha katta qatlamini tashkil etishi kommunikativ nuqtayi nazardan muhim ahamiyatga ega. Ushbu semali fe'llarning aksariyati polisemantik bo'lib, M. Brealning kuzatishiga ko'ra, "bir so'zda qancha ko'p ma'no to'plangan bo'lsa, u intellektual va ijtimoiy faoliyatning turli tomonlarini ifodalaydi deb taxmin qilish uchun ko'proq asos bo'ladi" [5].

Fe'ning semantik tuzilishi "barcha boshqa grammatik kategoriyalarga qaraganda ko'proq sig'imli va moslashuvchan" [6] bo'lgani uchun, uning tizimli tavsifi uchun uning semantik makonini ajratishning umumiy mezonlarini aniqlash kerak. Bu mezonlarning asoslanishi ishning ilmiy yangiligini tashkil etadi.

“Yurmoq” fe’lining semalari <https://www.yourdictionary.com> saytida quyidagicha beriladi:

The screenshot shows the 'YourDictionary' website interface. At the top, there is a search bar with the word 'walk' entered. Below the search bar, the page title is 'Walk definition' with a pronunciation guide 'wôk' and a speaker icon. There are tabs for 'Meanings', 'Synonyms', and 'Sentences'. Under 'Meanings', it lists 'Words form: walked, walking, walks' and a 'See word origin' link. The first definition is 'To go on foot for pleasure or exercise; stroll.' with an example sentence: 'Walked along the beach looking for shells.' and a frequency bar. The second definition is 'To traverse by walking (analogous gradual movement).' with an example sentence: 'I walked the streets aimlessly. Debugging this computer program involved walking the heap.' and a frequency bar. The third definition is 'To conduct oneself or behave in a particular manner; live.' with an example sentence: 'Walks in majesty and pride.'

- **Tahlil va natijalar (Analysis and results).** O‘zbek tilida ham “yurmoq” fe’lining xuddi shu shaklda sememasini izohlash mumkin.

	Ta'rif	Sinonimlari	Misol
1	Piyoda sayohat qilish harakati	yurmoq, sayr qilmoq, kezmoq, sayohat qilmoq, aylanmoq	Hozir o‘rtoqlarim tog‘ni <u>aylanib yurishibdi.</u>
2	Oyoq yordamida qadam tashlab, oldinga siljish	yurmoq, qadam tashlamoq, odimlamoq, qadam ranjida qilmoq,	Abbos ikki qadam tashlab o‘ylanib qoldi.
3	Yurish usulining turli holatlarda berilishi	yurmoq, gandiraklamoq, lapanglamoq, emaklamoq, o‘rmalamoq	Rahmonqul uyiga gandiraklab kirib keldi.

Yuqorida keltirilgan jadvalni yana davom ettirish mumkin.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Hozirgi kunda elektron tezauruslarning internetda bir nechta qulay variantlari mavjud. Bularga thesaurus.com, Collins Thesaurus va Oksford Thesauruslari misol bo'la oladi. Foydalanuvchilar sinonimlar va antonimlarning to'liq to'plamini ko'rish uchun so'zni kiritishlari kerak. Qolaversa, matn protsessorlarining ko'p dasturlarida to'g'ridan to'g'ri o'rnatilgan tezauruslar mavjud. So'z ustiga sichqonchani o'ng tugmachasini bosish va menyuni to'g'ri tanlash orqali foydalanuvchilar sinonimlarning butun ro'yxatiga va hatto qalqib chiquvchi tezaurusga kirishlari mumkin.

Xulosa shuki, Zamonaviy semantik, ontologik lug'at hamda tezauruslar axborot izlashning muhim vositalaridan biri bo'lgan ilmiy tadqiqotda, kompyuter lingvistikasi, korpus tilshunosligida alohida o'rin tutadi, qolaversa, tarjima jarayonidagi noqulayliklarni bartaraf etadi. Ilmiy kutubxonalarda esa ma'lumotni tarqatish jiddiy shakllantirilgan tezaurusni talab qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Лексико-семантические группы русских глаголов: Учебный словарь-справочник. / Под общ. Ред. Т. В. Матвеевой. Свердловск, 1988.
2. Русский семантический словарь / Сост.: Ю. Н. Караулов, В. И. Молчанов, В. А. Афанасьев, Н. В. Михалёв. М., 1982.
3. Русский семантический словарь: Опыт автоматического построения тезауруса: от понятия к слову / Отв. ред. С. Г. Бархударов. М., 1982.
4. Русский семантический словарь. Толковый словарь, систематизированный по классам слов и значений: В 6 т. / Российская академия наук. Ин-т рус. яз. им. В. В. Виноградова; Под общей ред. Н. Ю. Шведовой. – М.: "Азбуковник", 1998
5. Michel Breal Essai De Semantique. Science Des Significations. (1924), Slatkine Reprints 1 Janvier 1976. Sciences humaines & sociales
6. Виноградов В.В. Русский язык, грамматическое учение о слове, Изд. 3-е. М., 1986.
7. Suyunov B.T. Tezaurus va kompyuter texnologiyalariga doir. // Kompyuter Lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar. Respublika ilmiy-texnikaviy konferensiya // Vol. 1 №. 01 (2021) 134-139-b.
8. Abjalova M., Sharipov E. O'zbek tezaurus lug'ati uchun sifat turkumi bazasini yaratish masalasi // kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar. Respublika ilmiy-texnikaviy konferensiya. Vol. 1 №. 01 (2021) 189-193-b.
9. <https://www.merriam-webster.com/thesaurus>
10. <https://www.macmillandictionary.com/thesaurus>
11. <https://www.yourdictionary.com>

## BADIIY ASARDA LINGVISTIK TAHLILNING O‘RNI VA AHAMIYATI ( SAIDA ZUNNOVANING HIKOYALARI ASOSIDA)

*Qo‘ziboyeva Go‘zal Saidrasul qizi*

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat*

*O‘zbek tili va Adabiyoti universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti 3-kurs talabasi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada badiiy asarlarni lingvistik, grammatik, morfologik, sintaktik tahlil qilish turlari bayon etilgan. Badiiy asarning lingvistik tahliliga misollar va barqaror birikmalar asosida tahlil qilingan va ma‘nolari izohlangan. Asarlarni bunday tahlil qilishdan maqsad va uning vazifalari to‘liq yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** lingvistika, lingvopoetik, kommunikativ, ekspressiv, konstruktiv, morfologik, akkumulyativ, semantik xususiyat.

**Annotation:** This article describes the types of linguistic, grammatical, morphological, syntactic analysis of works of art. The linguistic analysis of a work of art is analyzed on the basis of examples and stable combinations and its meanings are explained. The purpose and tasks of such an analysis of the works are described in detail.

**Keywords:** linguistics, lingvopoetics, communicative, expressive, constructive, morphological, accumulative, semantic features.

**Аннотирование:** В статье описаны виды лингвистического, грамматического, морфологического, синтаксического анализа произведений искусства. На примерах и устойчивых сочетаниях анализируется лингвистический анализ произведения искусства, разъясняются его значения. Подробно описаны цель и задачи такого анализа работ.

**Ключевые слова:** лингвистика, лингвопоэтика, коммуникативные, выразительные, конструктивные, морфологические, аккумулятивные, семантические признаки.

O‘zbek tilshunosligida badiiy asar tilini o‘rganishga qaratilgan bir qancha kuzatishlar natijasida asosan lingvistik va lingvopoetik yo‘nalishlar ajralib turadi. Lingvistik yo‘nalish. Tilning muayyan tarixiy davridagi holati, ayni holatga mos bo‘lgan badiiy xususiyatlar, leksik, fonetik va Grammatik o‘zgarishlar, tilning hozirgi holati bilan umumiy va farqli holatlari ilmiy talqin etish maqadida o‘sha davrga oid adabiy-badiiy asarlarning tili o‘rganiladi. Bunda badiiy asarlar, yozma yodgorliklar tili ayni maqsaddagi tadqiqot uchun faqat asosiy dalil bo‘lib xizmat qiladi. Til tarixini tasvirlash va tadqiq etishda bu qadim tarixga ega va qadimiy lingvistik an‘ana sifatida rivojlanib kelmoqda.

Lingvistik tahlil uchun misol tanlashda quyidagi tartibga amal qilish talab etiladi:

1. alohida til birligi tanlanadi: tovush, so‘z, so‘z birikmasi, gap va ibora (frazologik birlik);
2. ma‘lum bir qism tanlanib, shu qism ichidan til birligi yoki til birliklari olinadi; so‘z uning fonetik yoki morfologik strukturasi o‘rganiladi, so‘z birikmasi yoki gap bo‘lagi tanlanib sintaktik sintaktik xususiyatlari o‘rganiladi;
3. ma‘lum bir qism tanlanib, u yaxlitligicha o‘rganiladi.<sup>144</sup>

Badiiy asarda inson uchun muhim bo‘lgan g‘oyaning mavjudligi mazmun salmoqdorligiga tengdir. Har qanday yozuvchi asarga muhim g‘oyani yuklashga harakat qiladi. Yozuvchining hayotni idrok etishi uning g‘oyani ifodalash mahorati bilan belgilanadi. Badiiy asarlarda so‘z hayot voqeligini aks ettirish uchun material, vosita vazifasini bajaradi. Adib, shoir voqelikning muayyan ko‘rinishi, kishilarning holat, harakat, kechinmalarini aniq va ta‘sirchan ifodalaydigan so‘zlardan foydalanadi. Ushbu so‘zlar kishilarning ongiga ta‘sir etib, ularda hayotning muayyan voqeligi, insoniy kechinma, tuyg‘ulari badiiy til orqali tasavvur uyg‘otadi. Badiiylik san‘atning barcha turlari uchun xosdir. So‘z san‘ati – adabiyot asosida ham badiiylik yotadi.

<sup>144</sup> Лингвистик таҳлилю Т. Қудратовб Т. Нафасовб. Ўқув қўлланма. “Ўқитувчи “ Т. 1981.

Adabiy asarlarda hayot hodisalari o'z ko'rinishida emas, ijodkorning badiiy tili va badiiy mahorati orqali ifodalanadi. She'r, hikoya, qissa, roman, drama va shu kabi asarlarni lingvistik tahlil qilish, undagi so'zlarni tahlil qilish orqali yozuvchi mahorati va badiiy til darajasidan qanchalik foydalanganligini bilish mumkin.

**Iboralarning semantik xususiyatlari.** Ikki yoki undan ortiq so'zlarning o'zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga shu ko'rinishda kiritgan til egalari xotirasida imkoniyat sifati mavjud bo'lgan til birliklari barqaror birikmalar deyiladi. Voqeylikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko'zo'ngida aniq va ravshan tasvirlashda frazeologik iboralarning ahamiyati katta.<sup>145</sup> Shu o'rinda adibimiz, **Saida Zunnunova** ham **“Qo'llar”** hikoyasida iboralardan samarali foydalangan. Barcha birliklar juda topib qo'yilgan o'sha vaziyat va bo'lib o'tayotgan voqeaga. Bu kabi iboralar so'z tejash va so'z ma'nosini aniq lo'nda keltirishga, yozuvchi bilan kitobxon o'rtasidagi muloqot jarayonini osonlashtirishga va asar mazmunini yanada teranlashtirishga yordam beradi. Yozuvchilar odatda, tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni tanlab qo'llash bilangina kifoyalanib qolmaydilar. Balki qahramonlar tabiati, ruhiy holati, hayot tarziga moslab o'zgartiradi, qayta ishlaydi. Shu tarzda xalq iboralari sayqallanadi, yangi ma'no ko'niklari bilan to'yinib boradi. O'quvchi lug'at boyligining muhim qismini iboralar tashkil qiladi. Ma'nosi va qo'llanilishi jihatidan bir so'zga teng keladigan, ko'chma ma'no ifodalaydigan so'zlar qo'shilmasi iboralardir. U nutqimizni boyitadigan, go'zallashtiradigan va ta'sirchanligini oshiradigan vositadir. Badiiy asarni lisoniy tahlil qilish jarayonida yozuvchining tildan foydalanish mahorati mahoratini namoyon etadigan, emotsional-ekspressiv ifoda semalari qavariq holda reallashgan leksik birliklarni aniqlash va ular adibning badiiy –estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilgani haqida mulohaza yuritish kerak. Buning uchun badiiy asar tilidagi ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli, ko'p ma'noli, tarixiy va arxaik so'zlar, yangi yasalmalar, shevaga oid so'zlar, chet va vulgarizmga oid so'zlar ajratilib tahlil qilinadi. Men badiiy asar tilini tahlil qilishda **Saida Zunnunovaning “Qo'llar” va “Yolgizlik”** hikoyalariga to'xtaldim. Badiiy asarni, badiiy nutqda qo'llaniladigan so'z va so'z vositalarining ma'no xususiyatlarini ifodadorlik ko'lamini hisobga olgan holda tahlil qilish, asarni tahlil qilish bilan bir qatorda, kitobxonlarning badiiy asardan estetik zavq olishini kuchaytiradi, ularning badiiy asarga bo'lgan qarashlarini rivojlantiradi. Bunda iboralarni badiiy matndan ajratib olgan holda bu frazeologik birliklarning sinonimlik qatori va ma'noviy jihatlari tahlilga olinmoqda.

**“Suv sepganday jim-jit bo'lib qoldi”.** Boshqa variant “suv quyganday jim-jit” Hech qanday tovush va odamning ovozi, sharpasi yo'q degan ma'nolarni ifodalaydi.<sup>146</sup>

**“Oyoq uchida yurmoq”.** Sekin, ohista harakat qilish ma'nosida ifodalanagan.

**“Guldek yarashmoq”.** Bunda mos kelmoq, mos tushmoq ma'nosi mavjud. Bundan tashqari “gul” so'zining turli ma'noviy sinonimiyasini ham ko'rib chiqsak bo'ladi.

**Saida Zunnunovaning** yana bir **“Yolg'izlik”** hikoyasini ham frazeologik birliklar doirasida lingvistik tahlilga olsak, bu asarda quyidagi frazeologik birliklarni ko'rishimiz mumkin.

**“Og'zi qulog'igacha yoyilmoq”.** Behad sevinmoq, xursandligi tufayli lab-lunjini yig'ishtirib ololmaslik. Sinonimlari: “Boshi ko'kka yetmoq”, “Terisiga sig'may ketmoq”.<sup>147</sup>

**“Qoshi chimrilmoq”.** Jahli chiqmoq, hayron qolmoq, savoliga javob topaolaslik va imo ishora qilmoq ma'nolarida ishlatiladi.

**“Yuragi uvishib ketmoq”.** Qo'rqib ketmoq, havsirammoq, cho'chib tushmoq, achinmoq ma'nolarida ifodalanadi.

**“Tish tirnog'i bilan yopishmoq”.** Qarshi chiqmoq, biron bir narsaga qarshi chiqmoq, rad etmoq ma'nolarida ifodalanadi.

**“Qovog'i tushmoq”.** Xafa bo'lmoq, umidsizlikka tushmoq, havsalasi pir bo'lmoq ma'nolarida ishlatiladi.

**“Rangi oqarib ketmoq”.** Qo'rqib ketmoq, havsirammoq, seskanmoq, cho'chib tushmoq ma'nolarida ifodalaniladi.

<sup>145</sup> Nurmanov A., Sobirov A., Yusupova Sh. “Hozirgi o'zbek adabiy tili”. T.: “Sharq”. 2002. –B.103.

<sup>146</sup> O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati” Sh Rahmatullayev. “O'qituvchi. T. 1978

<sup>147</sup> O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati” Sh Rahmatullayev. “O'qituvchi. T. 1978



Yozuvchi hamda shoirlarning asarlarini o‘rganish, til va adabiy til namunalari bilan tanishish imkonini beradi. Badiiy adabiyot tili haqidagi soha tilshunoslikka ham, adabiyotshunoslikka ham oid bo‘lib, ikki sohaning kesishganidan hosil bo‘lgan, lekin ularning har ikkalasidan ham farqlidir. Badiiy asar tilining amaliy xususiyati uni lingvistik qahlil qilishda namoyon bo‘ladi. Asarni lingvodidaktik tahlil qilish usullarida, uning badiiy tasvir vositalarini tahlil qilishda ko‘rinadi. Barcha asarlarni tilning turli xil lingvistik sathida tahlilga olish mumkin. Bunda asarning badiiy estetik darajasi aniqlanadi. Adibimiz, tasvirga muvofiq iboralarni qo‘llash bilangina kifoyalanmagan. Balki asar qahramonlarining tabiati, hayot tarsi, fe‘l –atvori, ruhiy holati barchasini hisobga olgan holda qo‘llagan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, badiiy asar tilini tahlil qilish, til vositalarining nutqda ma’lum bir uslubiy ma’nolarda qo‘llanilishini o‘rganish, ularning sintaktik vazifalarini aniqlash, har bir morfologik birlikning semantik, grammatik va sintaktik imkoniyatlarini aniqlash, hozirgi kunda o‘zbek tilshunosligi rivojida, xususan, badiiy asar tili yoki boshqa bir matnni tahlil qilishda katta amaliy ahamiyatga ega deb hisoblayman. Shuningdek, badiiy asarning lisoniy xususiyatlarini o‘rganish ta’lim jarayonida muhim uslubiy vosita ham sanaladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Лингвистик таҳлил. Т. Қудратов. Т. Нафасовб. Ўқув қўлланма. “Ўқитувчи” Т. 1981.
2. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” Sh Rahmatullayev. “O‘qituvchi. Т. 1978
3. Nurmanov A., Sobirov A., Yusupova Sh. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. Т.: “Sharq”. 2002
4. Saida Zunnunova “Qo‘llar”. <https://n.ziyouz.com/1926-1977/>
5. Saida Zunnunova “Yolg‘izlik” <https://n.ziyouz.com/1926-1977/>

## BIO – O‘SIMLIK MAYDA – TALQONLARINING BETON VA QORISHMALAR XUSUSIYATLARIGA TA’SIRI

**UDK 666.9(07)**

*Qobilov Sh.E.*

*SamDAQI, 101-QMBK va UICHT guruhi magistranti.*

**Annotatsiya:** Barchamizga ma’lumki, Beton va quruq qurilish aralashmalari zamonaviy qurilish sanoatining asosiy materiallari bo’lib, yaqin kelajakda bu materiallarning qo’llanilish doirasi yanada oshadi va foydalanish sohalari kengayadi. Biroq, tobora rivojlanayotgan bugungi kun talabiga ko’ra, o’zgaruvchan tashqi va ichki sharoitlarda, betondan tayyorlanadigan konstruksiyalarga qo’yiladigan talablarni hisobga olgan holda sohani yanada rivojlantirish va doimiy takomillashtirishni talab qiladi. Shu sababli, betonning eng asosiy komponentlaridan biri suv sarfini kamaytirish shu bilan birgalikda uning mustahkamligini oshirish va betonning qotish vaqtini tartibga solish hamda boshqarish va beton qorishmaning ish qobiliyatini yaxshilash maqsadida tabiiy bir yillik bio – o’simlik mayda talqonlarini beton va qorishmalar tarkibiga sirti faol plastifikator sifatida qo’llash va ularning xususiyatlariga ta’sirini o’rganish mumkin.

**Аннотация:** Все мы знаем, что бетон и сухие строительные смеси являются основными материалами современной строительной индустрии, и в ближайшем будущем сфера применения этих материалов будет увеличиваться, а область применения расширяться. Однако современный меняющийся спрос требует дальнейшего развития и постоянного совершенствования отрасли в меняющихся внешних и внутренних условиях с учетом требований, предъявляемых к бетонным конструкциям. Поэтому одним из важнейших компонентов бетона является снижение расхода воды при повышении его прочности и регулировании сроков схватывания бетона и повышении эксплуатационных характеристик бетонной смеси при применении и изучении влияния на их свойства.

**Annotation:** We all know that concrete and dry building mixes are the main materials of the modern construction industry, and in the near future the scope of application of these materials will increase and the field of application will expand. However, today's evolving demand requires further development and continuous improvement of the industry in the changing external and internal conditions, taking into account the requirements for concrete structures. Therefore, one of the most important components of concrete is to reduce water consumption while increasing its strength and regulating the setting time of concrete and improving the performance of the concrete mix. application and study the effect on their properties.

**Kalit so’zlar:** Beton, o’simlik talqoni, sirti faol moddalar, qotish vaqtini tartibga solish va boshqarish.

**Ключевые слова:** Бетон, растительный тальк, поверхностно-активные вещества, регулирование и контроль времени твердения.

**Keywords:** Concrete, plant talc, surfactants, curing time regulation and control.

Beton butun dunyo bo’yicha qurilish sohasida asosiy va eng ko’p qo’llaniladigan materiallardan biridir. 19-asrning boshlarida beton ishlarida tabiiy o’simlik tolalarining turli qismlarini qayta ishlamasdan qo’shimcha sifatida foydalanishgan [1]. Beton ishlarida quruq holdagi tabiiy o’simlik tolalaridan foydalanishning asosiy afzalligi beton xususiyatlarining sezilarli darajada yaxshilanishi va oddiy tolasiz betonga nisbatan arzonligi bilan ifodalanadi [2]. Bundan tashqari, betonga tabiiy o’simlik tolalarini qo’llash undagi yoriqlar hajmi va sonini kamaytiradi va shu bilan birgalikda egiluvchanlik, zarbga chidamlilik va boshqa ko’plab fizik – mexanik xossalarini yaxshilaydi [3,4]. Tabiiy o’simlik tolalarining asosiy kimyoviy tarkibi asosan, lingosellyuloza (sellyuloza, gemitsellyuloza va lignin) bo’lib, o’simlik turlari va rivojlanish bosqichiga qarab, bu tarkibiy qismlar o’zgaruvchan bo’lishi mumkin[5]. Geremew va boshqalar, tabiiy palma

tolalarini gidroksidlar bilan ishlov berish bo'yicha o'z tadqiqotlarida tolalarni 24 soat davomida 4 %li NaOH eritmasida ishlov berib beton qorishmasiga qo'shish orqali betonda yuqori cho'zilish chidamliligini oshirish mumkin degan xulosaga kelishgan [6]. Meheddene Machaka va boshqalar, qamish o'simligi tolalarining betonga qo'llanilishi betonning zichligini biroz (5% gacha) kamaytiradi va tolalar betonga sement massasiga nisbatan 1.5% qo'shilganda, dastlabki 3 sutkada siqilishdagi mustahkamligi 34% gacha kamayishi kuzatilgan. Biroq, tabiiy qamish tolasi qo'shilgan betonning dastlabki 28 sutka davomida qotishi siqilish mustahkamligining oddiy tolasiz beton mustahkamligiga nisbatan sezilarsiz darajada pasayishi kuzatilgan [7]. Beton ishlarida tabiiy qamish tolalarining qo'llanilishi beton suv shimuvchanligini kamaytiradi. Shon va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotda, Qozog'istonda o'sadigan tabiiy qamish tolalarini turlicha nisbatda (2%, 4% va 6%) ohak aralashmasiga qo'shib, ohak aralashmasining fizik-mexanik va issiqlik xossalari o'rganilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ohak aralashmasida tabiiy qamish tolalaridan foydalanish oddiy ohak aralashma bilan solishtirganda siqilish va egilish mustahkamliklarini yaxshilamasam ham, mualliflar ohak aralashmasiga tabiiy qamish tolalarining qo'shilishi issiqlik yo'qotilishining sezilarli darajada pasayishiga olib keladigan afzalliklarga ega degan xulosaga kelishgan [8]. Jamshaid, H. va boshqalar o'z tadqiqotlarida, beton ishlarida tabiiy selluloza tolalarini qo'llash (2% dan kam) betonning mexanik ko'rsatkichlari yaxshilanganini va tolalarning 2 % dan ortiq qo'llanilishi betonning siqilishdagi, egilishdagi mustahkamligiga va zarbbardoshligiga sa'lbiiy ta'sir ko'rsatadi [9]. V.I.Buzulukov o'z tadqiqot ishlarida beton qorishmalari uchun samarali plastifikator olish maqsadida, selluloza ishlab chiqarishda lignin chiqindilarining oksidlanish va gidrolitik degidratatsiya jarayoni qonuniyatlarini o'rganib chiqqan. Betonga qo'llaniladigan lignosulfonat qo'shimchalarining optimal miqdori sement massasining (0.3 - 0.5) % ini tashkil qiladi va eksperimental tadqiqot natijasi shuni ko'rsatdiki, plastifikatorlardan foydalanish sement sarfini 15% gacha tejash imkonini bergan [10].

Yuqoridagi o'tkazilgan tadqiqotlarni tahlil qilgan holda biz shunday xulosaga keldik-ki, har qanday tabiiy bio - o'simliklar quruq poyasidan yanchilgan mayda talqonli qo'shimchalar tayyorlab ularning tarkibi va tuzilishini yo'naltirilgan rekonstruksiya qilish yo'li bilan sirti faol moddalarga aylantirish va ularni potensial plastifikator sifatida beton va qorishmalar tarkibiga qo'shib yuqori samarali material ishlab chiqarish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Faruk, O.; Bledzki, A.K.; Fink, H.P.; Sain, M. Biocomposites reinforced with natural fibres: 2000–2010. *Prog. Polym. Sci.* 2012, 37, 1552–1596. [CrossRef].
2. Pacheco-Torgal, F.; Jalali, S. Cementitious building materials reinforced with vegetable fibres: A review. *Constr. Build. Mater.* 2011, 25, 575–581. [CrossRef]
3. Mello, E.; Ribellato, C.; Mohamedelhasan, E. Improving concrete properties with fibers addition. *Int. J. Civ. Environ. Eng.* 2014, 8, 249–254.
4. Sanjay, M.R.; Madhu, P.; Jawaid, M.; Senthamarai Kannan, P.; Senthil, S.; Pradeep, S. Characterization and properties of natural fiber polymer composites: A comprehensive review. *J. Clean. Prod.* 2018, 172, 566–581. [CrossRef]
5. Sathishkumar, T.; Navaneethakrishnan, P.; Shankar, S.; Rajasekar, R.; Rajini, N. Characterization of natural fiber and composites - A review. *J. Reinf. Plast. Compos.*
6. Machaka, ElKordi, A. Machaka, M.; Khatib, J.; Baydoun, S.; Elkordi, A.; Assaad, J.J. The Effect of Adding Phragmites australis Fibers on the Properties of Concrete. *Buildings* 2022, 12, 278. <https://doi.org/10.3390/buildings12030278>
7. Shon, C.-S.; Mukashev, T.; Lee, D.; Zhang, D.; Kim, J.R. Can Common Reed Fiber Become an Effective Construction Material? Physical, Mechanical, and Thermal Properties of Mortar Mixture Containing Common Reed Fiber. *Sustainability* 2019.
8. Jamshaid, H.; Mishra, R.K.; Raza, A.; Hussain, U.; Rahman, M.L.; Nazari, S.; Chandan, V.; Muller, M.; Choteborsky, R. Natural Cellulosic Fiber Reinforced Concrete: Influence of Fiber Type and Loading Percentage on Mechanical and Water Absorption Performance. *Materials* 2022, 15, 874. <https://doi.org/10.3390/ma15030874>.

## UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARDAGI MA‘NAVIY-MA‘RIFIY ISHLARNI TASHKIL ETISHNING TARBIVAVIY AHAMIYATI

*Qobilova E‘zozxon*

*Qo‘qon davlat pedagogika instituti dotsenti.*

**Annotasiya.** Ushbu maqolada maktablardagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar mazmuni va uni tashkil qilish uslubi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** san‘at tadbir, marosim, tarbiya, idrok, musiqa, nafosat, ta‘lim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan, zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma‘naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta‘lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e‘tibor qaratib kelmoqda. Prezidentimiz maktab ta‘limi tizimini isloh qilish bo‘yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, bu borada oldimizda turgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritir ekan, ulug‘ ma‘rifatparvar bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Dunyo imoratlari ichida eng ulug‘i maktabdir” degan fikrini alohida ta‘kidlab, bu masalaning mohiyati va ahamiyatiga atroflicha to‘xtalib o‘tdi. Haqiqatan ham, jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularda jamiyat hayotini o‘zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo ta‘lim tizimidan, bog‘cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko‘ramiz. Chunki maktabni o‘zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o‘zgartirib bo‘lmaydi. Ta‘lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu – maktab. Maktabni maktab qiladigan kuch esa o‘qituvchilardir. Ma‘lumki, murakkab o‘tish yillarida maktablardagi ma‘naviy-ma‘rifiy muhit, o‘qituvchi kasbining obro‘yi, nufuzi pasayib ketgani, yangi davr pedagoglarini tarbiyalash, pedagogika fanini rivojlantirish, innovatsion ta‘lim texnologiyalarini joriy etishga yetarli e‘tibor berilmagani sohada bir qator jiddiy muammolarni keltirib chiqardi. Keyingi yillarda ana shu muammolarni samarali hal etish, kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha mamlakatimizda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz tomonidan xalq ta‘limi tizimiga oid 6 ta farmon va qaror, Vazirlar Mahkamasining 21 ta qarori qabul qilinib, bu sohada islohotlarning huquqiy-me‘yoriy asoslari mustahkamlandi. Ota-onalar, jamoatchilikning istaklari inobatga olinib, yurtimizda 11 yillik maktab ta‘limi tizimi tiklandi. So‘nggi uch yilda yurtimizda 157 ta umumta‘lim maktabi yangidan qurildi. Ulug‘ allomalarimiz – Mirzo Ulug‘bek va Muhammad Xorazmiy nomidagi iqtidorli bolalar maktablari, Hamid Olimjon va Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ibroyim Yusupov, Is‘hoqxon Ibrat, Muhammad Yusuf, Halima Xudoyberdiyeva nomlari bilan atalgan ijod maktablari, “Temurbeklar maktabi”, Prezident maktablari, xususiy maktablar singari yangi va zamonaviy namunadagi ta‘lim dargohlari tashkil etilgani yurtimiz farzandlari uchun ta‘lim-tarbiya olish borasida yangi imkoniyatlar ochib bermoqda.

Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan «Ta‘lim to‘g‘risidagi Qonun» hamda «Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi»da ta‘lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko‘tarish, kadrlar tayyorlashning yangi tizimini yaratish, barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalash asosiy maqsad qilib belgilanib, uni hayotga tadbir etish ishlari davlat siyosatining ustivor yo‘nalishlaridan deb hisoblanishi ko‘rsatilgan.

«Ta‘lim to‘g‘risidagi Qonun»da etim va ota-onasining homiyligidan mahrum bo‘lgan, jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsonli bolalar va o‘smirlarni, ijtimoiy yordamga muxtoj bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish va o‘qitish borasida ta‘lim hamda vossiylik organlarining burch va vazifalari belgilab berilgan. Har qanday ijodkorlik, buning ustiga pedagogik ijodkorlik quruq joyda, faqat hissiy kechinmalar asosida boshlanishi mumkin emas. Tarbiya san‘atida o‘zining pedagogik mahorati, o‘zining «bir qolipdagi» mehnat madaniyati borki, ularni bilib olish zarur. Pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish butun tizimi ana shuni bilib olishga qaratilishi kerak. Biroq, hali hech kim oliy o‘quv yurtida o‘qib yoki o‘qituvchilar malakasini oshirish kursini tamomlagandan keyin usta pedagog bo‘lib qolmagan.

Pedagogik mehnat ustalari ta'lim muassasalarida vujudga keladi, o'quvchilar bilan muomalada shakllanadi. Demak, tarbiyaviy tadbirlar jarayonida pedagog pedagogik mahoratga ega bo'lish bilan birga, u o'quvchi qalbini tushunishi, uning qiziqish va moyilliklarini his qilishi kerak. Shunga ko'ra tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirishi va o'tkazishi lozim. Albatta, rejalashtirish o'quvchilarning maslahatisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Tarbiyaviy tadbirlarni shunday tashkil qilish kerakki, unda o'quvchilar faol bo'lishsin, o'qituvchi esa nazoratchi sifatida namoyon bo'lsin. Shundagina ko'zlangan maqsadga aniq va tez erishish mumkin. O'quvchilar bilan tarbiyaviy tadbirlar o'tkazishda o'qituvchining muomala odobi ham juda katta ahamiyatga egadir. O'qituvchining o'quvchilar bilan bevosita yoki bilvosita muomalasi o'tkazilishi lozim bo'lgan tarbiyaviy tadbirlarga tayyorgarlik jarayonida sodir bo'ladi. Mazkur jarayonni o'quvchilarning muomalasiga ta'sir ko'rsatishning o'ziga xos vositasi deb qarash mumkin. Muomala – bu ma'lumotlar, axborotlar jarayonidir. Ushbu jarayon ikki yo'nalishda, ya'ni boshqarish subyektidan (o'qituvchidan) boshqarish obyektiga (o'quvchiga) borishi yoki aksincha – obyektidan subyektga borishi mumkin. O'qituvchi bevosita shaxslararo muomaladan o'z tarbiyalanuvchilari, umuman jamoa haqida, undagi ichki jarayonlar haqida g'oyat xilma-xil ma'lumotlarga ega bo'ladi va hokazo. O'z navbatida o'qituvchi muomala jarayonida o'z o'quvchilariga ham ustoz va shogird odobi an'analari mavzusiga qaratilgan ma'lumotlarni ma'lum qiladi. Bunda o'qituvchi o'tkazilishi kerak bo'lgan tarbiyaviy tadbirlar mazmuni, shakli, vositalari haqida o'z tarbiyalanuvchilariga ma'lumot berish bilan birga, ularning ishlash jarayonlari haqida ham tushuncha beradi.

O'zbek xalq pedagogikasida bolalarni insonga mehrli, rahm-shafqatli, insonparvar, kindek qoni to'kilgan zaminiga mehr qo'yish va h.k kabi tuyg'ularni singdirishga katta e'tibor berib kelingan. O'quvchilar ma'naviy-ahloqiy tarbiyasining muhim qismlari bo'lmish vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvat his-tuyg'ularini shakllantirish katta ahamiyatga ega. Maktabda o'quvchilarda yuksak ma'naviy-ahloqiy hislardan vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvat his-tuyg'ularining paydo bo'lishi va rivojlanishi, asosan bolalarning katta kishilar bilan qiladigan o'zaro muomala, muloqot va munosabatlariga bog'liq bo'ladi. Insonda eng yuqori ma'naviy hislardan vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvat his-tuyg'ulari bir-biri bilan uyg'unlashib ketgan. Bularni bir-biridan ajratib qarash qiyin. Bular bir-birining zamirida paydo bo'luvchi, shakllanuvchi va shaxs ma'naviyatini belgilovchi his-tuyg'ulardir. Mehr-muruvvat his-tuyg'ulari vatanparvarlik, insonparvarlik his-tuyg'ulari zamirida va aksincha mehr-muruvvat his-tuyg'ulari zamirida vatanparvarlik, insonparvarlik his-tuyg'ulari paydo bo'ladi. Insonparvarlik tushunchasi - o'zbek millatida o'ziga xos alohida xususiyatga ega. Bu fikrlar zamirida Ona-Vatan va o'z xalqiga cheksiz muhabbat va mehr his-tuyg'ulari bilan to'lib-toshgan avlodni kamol toptirish, uning ongida vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr – muruvvat his-tuyg'ularini shakllantirish vazifasi turganligini anglash qiyin emas. O'zbeklarning urf-odatlarini bo'yicha, o'zi yashab turgan joy muqaddas hisoblanadi. Bu muqaddas tuproqqa nisbatan yovuz niyat, yomon so'z aytilmaydi. Vatan, yurt, millat tushunchalari ulug'vor tushunchalar bo'lib, hamisha mehr-muxabbatdan quvvat oladi. Shu jihatdan qaraganda, bu tuyg'ular egizak qondoshu- jondoshdurlar. Bu his-tuyg'ularni yosh murg'ak yuragida uyg'atish, uni rivojlantirish va takomillashtirib borish, barcha maktab o'qituvchilari faoliyatlarida, ota-ona, mahalla fuqarolari va xokazolarning muqaddas burchlari hisoblanadi. Mustaqil O'zbekistonning kelajagi, ko'p jihatdan, barkamol avlod tarbiyasiga bog'liq. Buning uchun dono xalqimizning va mutafakkirlarimizning durdona fikrlariga rioya qilib, yoshlarimizga bolalikdan boshlab ajdodlarimiz tomonidan qo'llab kelingan eng xalqchil odob namunalari va his-tuyg'ularni o'rgatib borishimiz zarur. Vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvat his-tuyg'ulari — bu qo'shaloq tuyg'ular bo'lib, ularni bolalarimiz ma'naviy-ahloqiy tarbiyasi tizimida birgalikda singdiriladi. Bolalarimizning ilk yoshlik paytlaridan boshlab, bu yuqori his-tuyg'ularini shakllantirib, o'stirib borish - ularni ijtimoiy turmushning murakkab vaziyatlariga moslashtirib beruvchi kelajakdagi barkamol shaxs tarbiyasi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish imkoniyatini beradi. Vatan tuyg'usi to'g'risidagi fikrlar jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan yurtdosh mutafakkirlarimiz al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Mansur as-Samarqandiy, Ibn Sino asarlarida ham o'z ifodasini topgan.



Vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ulariga sodiq bo'lib, o'z asarlarida bu tushunchalarning muqaddas ekanligini XX asrning 30-50 va nihoyat 80-yillarida xalqimizga qarshi uyushtirilgan ishlarda – qatag'onlik va surgun azoblarini o'z boshlaridan kechirib, halok bo'lgan yurtdoshlarimiz, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir kabi yozuvchi, shoirlarimiz o'z asarlarida kuylaganlar. Hadislarimizda «Vatanni sevmoq iymondandir» deyiladi. Vatan ostonadan boshlanadi, deydi donishmandlar. Bu dono so'zlar har bir kishining o'z vatanini sevish va qadirlashga da'vad etadi. Demak, Vatan inson uchun o'zi tug'ilib o'sgan joy, go'shadan boshlanib butun bir mamlakatni qamrab oladi. Musiqani sevuvchi insonning ko'ngli ezgulikka moyil bo'ladi, ya'ni u jaholatga qarshi samarali vosita, o'tkir quroldir. U bor yerdan hajolat qochadi. U millat tanlamaydi, lekin milliy ruh uyg'otad. Ta'lim tizimida ham musiqiy ta'limni ushbu tizimni eng quyi pog'onasi bo'lgan maktabgacha tarbiya muassasalari faoliyatidan boshlab kuchaytirmoq, bu yo'lda uchrayotgan to'siq va muammolarni bartaraf qilmoq kerak. Chunki, biz ham farzandlarimizning kelajakda jaholatdan yiroq, ma'rifatli, fozil va komil insonlar bo'lib yetilishini istaymiz. Shuning uchun ularni bolalikdan musiqasevar, adabiyot va san'atning barcha jabhalariga ixlosmand, keng fikr, axloq-odobli, mehr-oqibatli, badiiy-estetik dunyoqarashi yuksak qilib tarbiyalashimiz va shu ishni bolalar bog'chalaridan boshlamog'imiz lozim. Tadbirlarning eng asosiysi bayram ertaliklari bo'lib, u uzoq tayyorgarlik hamda tashkilotchilik, puxta bilim va mahorat talab qiluvchi tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu muassasalarda ertaliklar asosan mustaqillik kuni (1-sentabr), yangi yil, vatan himoyachilari kuni (14-yanvar), xotin-qizlar kuni (8-mart), navro'z umumxalq bayrami (21-mart), xotira kuni (9-may) va bog'cha bilan xayrlashish kuni (1-iyun bolalar kuni) ga bag'ishlab o'tkaziladi. Sinf dan va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar – o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Ularning dunyoqarashini to'g'ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot, ishlab chiqarish bilan chambarchas bog'lanishiga zamin yaratadi. Sinf dan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchining vazifalari ham ko'p qirralidir. Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi: -darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish; -o'quvchilarning sinf dan va maktabdan tashqari ko'p qirrali ishlarini pedagogik jamoa, o'quvchilar tashkilotlari, sinf faollari yordamida yo'lga ko'yish; - sinf dan va maktabdan tashqari ishlar yo'nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda o'qituvchilar, ota-onalar, sinf faollari, uslubiy yordam ko'rsatish; umummaktab va maktablararo o'tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tadbirlarda qatnashish o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish. Maktabda tarbiyaviy ishlarni aniq rejalashtirmasdan, uning mazmuni, shakl va usullarini aniqlamasdan, ma'lum bir tizimga solmasdan turib ko'zda tutilgan maqsadga erishi qiyin. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalariga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari klublari va markazlari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, san'at maktablari, musiqa maktablari, studiyalar, kutubxonalar, sog'lomlashtirish muassasalari va boshqa muassasalar kiradi. Musiqiy ommaviy va tarbiyaviy ishlarga oid to'garaklarda o'quvchilarning badiiy-estetik didini, ma'naviyatini, axloqini Vatanga, el-yurtga bo'lgan mehr-muhabbatini mehnatga, bilim olishga bo'lgan intilishini, qobiliyatini oshirish va albatta yangi-yangi samarali ishlarga bosh qo'shmog'i muhim ahamiyat kasb etadi. Tadbirni amalga oshirish rejasida estetik, tarbiyaga e'tiborni qaratish lozim. Shunda o'tkazilayotgan tadbir: hox konsert ko'rinishida bo'lsin, hox saxnaviy ko'rinish shaklida bo'lsin: nafaqat tomashabinlarga, balki ko'rinishda ishtirok etayotgan, qatnashayotgan o'quvchilarga ham estetik zavq-shavq bag'ishlaydi. Demak: Barkamol inson uchun zarur bo'lgan musiqiy, ommaviy tadbirlarni amalga oshirishning mohiyati mazmunini to'g'ri taxlil qilib munosabat bildirish; Musiqiy ommaviy tadbirlarni tashkil etish va uni amalga oshirishning shakl va yo'llarini izlash. Musiqiy ommaviy tadbirlarni tashkillashtirish va uni ko'tarinki ruxda o'tkazish ta'lim muassasalarida badiiy havaskorlik to'garaklariga iqtidorli yoshlarni jalb etish, sahnaviy ko'rinishlar orqali o'quvchilarni ma'naviy estetik tarbiyalash, ularga davr bilan hamohang bo'lgan asarlarni, kuy va qo'shiqlarni, raqslarni o'rgatish, drama, komediyali sahnaviy ko'rinishlardan baxramand etishdek ma'suliyatli va sharaflil ishlar zamon talabiga mos va juda zarur yumushlardir.

O'quvchilar qalbini urf-odatlarimiz, qadriyatlarimizni o'rgatish orqali ulardan odob-axloq nurlarini yoritmoqchi bo'lgan tarbiyachi o'quvchi chuqur bilim, keng maxorat va tarbiyachilik, tashkilotchilik san'atini egallamog'i lozim. Maktabda sinfdan tashkari musika tugaraklarini amalga oshirish metodikasi kursining maqsadi:

-bo'lajak o'qituvchi tarbiyachilar, to'garak rahbarlariga tarbiyaga doir tadbirlarni amalga oshirishning nazariy va amaliy asoslari haqida bilim berish;

-o'quvchilarni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashda o'zbek xalqining urf-odatlari, milliy va ma'naviy qadriyatlaridan foydalanish manbashunoslikka o'rgatish;

-ommaviy tadbirlarni rejalashtirishda o'quvchi yoshlarning yosh xususiyatlari qiziqishi, jamoadagi ijobiy va salbiy tomonlarining mavjud darajasiga e'tibor berish;

-tarbiyaviy tadbirlarni sifat va samaradorligini oshirishda yangicha ishlash metodi va shakllaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish kabilar.

Darsdan tashqari olib boriladigan ishlar mazmunida innovatsion texnologiyalarini qo'llab shaxs ma'naviyatini shakllantirish, ongini o'stirish va tafakkurini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bular orqaligina erkin va mustaqil fikrlaydigan, o'zligini anglay oladigan, ya'ni har xil zararli oqimlarga qo'shilib ketavermaydigan bo'lajak mutaxassislarni intellektual salohiyatli, siyosiy ongli qilib tarbiyalash imkoniyati yaratiladi. Shaxs ma'naviyatini shakllantirish muammosi asrlar davomida ilm ahli uchun dolzarb muammo bo'lib kelgan. Chunki shaxs ma'naviyati jamiyat ma'naviyatini tashkil etadi. Ular zamon va makon nuqtai nazardan kelib chiqib turlicha fikr bildirgan. Hozirgi kunda maktablardagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar, o'quvchilar darsdan tashqari olib boriladigan ishlar pedagogic muammo sifatida imkon darajasida tashkil etilgan, ammo davr talabi ularni yanada takomillashtirishga undamoqda. Maktablardagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar mazmundai o'quvchilar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini yanada takomillishtirish o'quvchilar ota-onalari uchun mo'ljallangan tadbirlarni mazmunan boyitish lozim ekanligi aniqlandi. O'quvchilarning ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarga qiziqishini oshirish Maktablarda tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning amaliyotdagi ahvoli muntazam tashkil etiladigan tadbirlarga o'zgacha ruh bag'ishlash kerakligini ko'rsatadi. Maktabda darsdan tashqari olib boriladigan ishlar senariyalarini tuzish, milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz haqida batafsil ma'lumotlar tayyorlash, ularni yoshlarimiz ongiga singdirishga qulay holga keltirib, ya'ni axborot ko'rinishiga keltirib tizimlarga (qomusiy va hadis ilmi olimlari, shoirlar, yozuvchilar, tarixchilar, faylasuflar, xalq qahramonlari, davlat arboblari, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan rasm-rusumlar va urf-odatlar, an'analar va h.k.) ajratish ijobiy pedagogik samara beradi. Maktablarda olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni takomillashtirishdan pirovard maqsadimiz xalq farovonligi, yurt tinchligi, Vatan taraqqiyoini o'zida mujassam qilgan Ozod va obod Vatan qurishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, ommaviy musiqiy tadbirlar orqali bo'lajak barkamol avlodlarimizni badiiy-estetik tarbiyalash ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan musiqa o'qituvchilari maktagacha, maktabdan tashqari muassasa rahbarlari, tarbiyachilarining muqaddas burchlaridir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha xarakteristik strategiyasi to'g'risida" farmon.
2. 2017-2021- yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha xarakteristik strategiyasi.
3. Mirziyoyev Sh. Erkin va faravon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston, 2017-yil.
4. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. T.: O'zbekiston, 2017-yil.
5. Mirziyoyev Sh. Xalq so'zi, 2017-yil, 16-yanvar
6. Y.Rajabiy. I. Akbarov. O'zbek xalq musiqasi tarixi, (O'qituvchi). 1981-yil.
7. A..Jabborov. O'zbek bastakor va musiqashunoslari. Toshkent. 2004
8. O'zbek mavsumiy marosim folklori (o'quv qo'llanma). 2008-yil
9. G.Sharipova, G'.Najmiddinov. Musiqa o'qitish metodikasi (darslik). 2018.

## RAQAMLI TARIXNING TARAQQIYOTI ARXEOLOGIYA MISOLIDA

*Qobulova Gulzoda Maxsud qizi*  
*Urganch davlat universiteti Magistratura*  
*bo'limi 211-tarix guruh magistranti.*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola raqamli tarixning taraqqiyotini arxeologiya misolida nazariy va amaliy jihatdan umumlashtirishda katta ahamiyatga ega. Arxeologiya fanida raqamli texnologiyalarga bo'lgan innovatsion talablarni o'rganishga integratsion yondashish kabi masalalar alohida o'rin egallagan.

**Kalit so'zlar:** IT, 3D, VR (Virtual haqiqat), MR (Mixed Reality), AR (kengaytirilgan haqiqat), SAPR, MicroStation, AutoCAD Map, Easy CAD, GIS.

Jamiyatning rivojlanishida axborot texnologiyalarining ahamiyati o'sib bormoqda. Bu jamiyatni texnologiyalashtirish bilan bog'liq tadbirlar hisoblanadi. Jamiyatning turli tuzilmalari va quyi tizimlariga ham ta'sir ko'rsatadigan o'zgarishlar raqamli texnologiyalar tizimga kiritilgandir. IT yozishni yaratish, bosma ixtiro, telefon, telegraf, radio, televizor, kompyuter texnikasi va boshqalardan iborat. Barcha ITni ikkita katta guruhga bo'lish mumkin:

1. An'anaviy IT
2. Zamonaviy IT

Zamonaviy IT ning o'ziga xos xususiyatlari multimedia, sun'iy intellekt va boshqalar birinchi navbatda hayotimizga kirib borishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Amalga oshirilgan barcha boshqa texnologiyalardan farqli o'laroq moddiy ishlab chiqarish sohasi va turli faoliyatlarga bilvosita ta'sir qiladi. Zamonaviy IT ta'siri bilan ajralib turadi. Unda avtogenerativ, ya'ni o'z-o'zini ishlab chiqarish qobiliyati mavjud. Zamonaviy IT ning paydo bo'lishi turfa yaratilishga olib keladi. Zamonaviy IT joriy etishdan asosiy maqsad butun ma'naviy va amaliy tizimdagi tub o'zgarishdan iborat bo'ladi. Raqamli texnologiyalarning o'ta tezkorlik imkoniyatidan iborat axborotni uzatish va amalga oshirish nafaqat inson yordamida

miya hamda an'anaviy aloqa vositalari, balki butunlay yangi axborotning moddiy bazasini yaratuvchi texnik qurilmalar hisoblanadi. Izlash maqsadida arxeologik ma'lumotlarni tizimlashtirish vazifasi sifatida arxeologiya paydo bo'lganidan beri tahlil qilish mavjud. Hozirgi bosqichda qog'oz kataloglar elektronga almashtirildi. Ma'lumotlar bazalari bu katta hajmlarni boshqarish imkonini beradi. Arxeologik ma'lumotlarni yaratish texnologiyalari birlamchi ma'lumotlarning shakllanish bosqichlari va arxeologik tadqiqotlar jarayonlari, shu jumladan adabiy manbalar bilan ishlash va topilmalar tavsifi barchasini qamrab oladi. Bunday texnologiyalarning amalga oshirilishi tarixiy tadqiqotning to'liqligi, ishonchiligi va adekvatligi ma'lumotlar jarayonining muhim mezonlari hisoblanadi. Kelajakda foydalanish uchun texnologiyalar joylashtirishni taqdim etiladi. Buning uchun turli xil boshqaruv tizimlari qo'llaniladi. Ma'lumotlar bazalari (DBMS), xususan, ma'lumotlarni taqdim etishning gipermatn va multimedia shakliga e'tibor qaratiladi. Bunda axborot texnologiyalarini joriy etish arxeologik tadqiqotlarning tizimida sezilarli darajada mehnat unumdorligini oshiradi. Arxeologik mavzularga oid asosiy elektron resurslar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Institutlar veb-serveridagi elektron kutubxonalar, boshqa tashkilotlar, shaxslarning shaxsiy veb-saytlarida; elektron jurnallar (arxeologiya va etnografiyaga oid jurnallar, almanaxlar ichida, arxeologik forumlar); virtual arxeologik muzeylar

Arxeologik ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyalari tushunchalar tarkibidagi eng muhim va mas'uliyatli bo'g'indir. Har bir raqamli xaritalarni yaratish va ulardan foydalanish jarayoni tarixiy bilim sohalari jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kompyuterning vazifasi xaritalashda rivojlanish xronologiyasini qayta qurish bo'yicha arxeologik obyektlarning funksional-tarixiy talqinining shakllanish jarayonini fazoviy modellashtirishga asoslangan. Birinchi bosqichda manba shakllanadi.

Asosiy vazifa arxeologik qazib olish va ma'lumotlarini kompyuterga qulay shaklda kiritish uchun hujjatlashtirishdan iborat bo'ladi. Ikkinchi bosqich - kompyuter xaritasini yaratish bosqichida to'liq simulyatsiya qiladigan madaniy makon kompyuter modelini yaratish hisoblanadi. Mazkur jarayonda kompyuter xaritasini shakllantirish to'plamga aylantiriladi, 3D tasvirga "planigrafik" manba ma'lumotlari har bir obyektida manbaning mohiyatini iloji boricha saqlashga imkon beradi. Sharhlash bilan bog'liq yakuniy bosqich tahlilni o'z ichiga oladi. Buning asosida obyektning rivojlantirish va madaniy qatlamni fazoviy-vaqtinchalik rekonstruksiya qilish mumkin. Topilmalar to'plami, qatlam tuzilishi fazoviy bog'langan bo'lib, ushbu model doirasida funksional-tarixiy qayta qurish muammosiga yechim beriladi. Kompyuter xaritalash texnologiyasini qo'llash arxeologik obyektida bir qator fundamental muammolarni hal qilishga imkon beradi:

- 1) arxeologik joy haqidagi ma'lumotlarni to'liq chiqarish, nusxalash va saqlash, uning virtual qiyofasini yaratishni hal qiladi;
- 2) manbaga yo'naltirilgan maydonni aylantirish texnologiyasi, avtomatik o'qiladigan shakldagi ma'lumotlar uchun poli-informativ manbani shakllantirish;
- 3) arxeologik obyektida o'qish imkoniyati nafaqat inglizcha axborot, balki tarkibiy (yashirin) madaniy qatlam elementlarining joylashishi ham o'zaro ifodalangan bo'ladi.

SAPR dasturlari qadimiy binolar kabi arxeologik joylarni rekonstruksiya qilish uchun ishlatilishi mumkin. AutoCAD dasturlari bilan bir qatorda juda mashhur MicroStation, AutoCAD Map, Easy CAD va boshqalar mavjud. Asosiy usul arxeologlar tomonidan bunday dasturlarni qo'llash - chizmalar va qazishmalarning uch o'lchamli rekonstruksiyalari, dafn inshootlari va aholi punktlari, shuningdek, me'moriy yodgorliklar topadi. Bugungi kunda 3D rekonstruksiya me'moriy tuzilmalarni qadimiy hujjatlashtirishni sifat jihatidan o'zgartirishga imkon beradi. SAPR modellari nafaqat kelib chiqishi mumkin geometrik konstruksiyalardan, balki mustahkamlik, barqarorlik shartlaridan va boshqalardan iborat bo'ladi. Bundan tashqari, 3D modellarni arxitektura sifatida ko'rsatilishi mumkin. Shuningdek arxeologik obyektlarga kirish cheklanganda birinchi navbatda ularning shikastlanishi yoki yo'q qilinishining oldini olish maqsad qilingan.

Zamonaviy kompyuterlarning kuchli hisoblash qobiliyatlari arxeologiya fanida yangi ilmiy intizom – virtual haqiqatning paydo bo'lishiga olib keldi. Qadimgi yodgorliklarning uch o'lchovli modellari to'plamiga ega bo'lish mumkin. Virtual haqiqat arxeologik ko'rgazma interaktiv, ya'ni kuzatuvchiga navigatsiya qilish imkonini beradi hamda virtual makonda, bir vaqtlar mavjud bo'lgan narsalarni o'rganib chiqadi. Qadimgi binolar odatda urushlar, yong'inlar, tabiiy ofatlar natijasida vayron bo'lgan devorlar ko'rinishida saqlanib qolgan. Faqat kuchli kompyuterlar paydo bo'lishi bilan o'tgan davrlar tasvirlari virtual vositalar yordamida qayta tiklana boshladi. Bundan tashqari, virtual haqiqat joriy etish arxeologiyani ta'lim va turizm sohalarga yaqinlashtirdi. VR dunyosi butunlay virtualdir. Odamning eshitishini, teginishini, hidni, ta'mni, kuchini, harakatlarini va boshqa hissiy tizimlarini rag'batlantirish orqali immersev tajribaga erishiladi. Bularning barchasi real dunyoda mavjud emas, faqat VR uskunalari ishtirokchilarning his-tuyg'ularini o'zgartiradi. AR (kengaytirilgan haqiqat), AR dunyosi qisman haqiqiy va qisman virtualdir. Boshqacha qilib aytganda, haqiqatan ham dunyo raqamli axborot tashuvchisi sifatida mavjud. Odamlar taqib olgan VR ko'zoynaklar kichkina mobil ekranga o'xshaydi. Aslida, haqiqiy VR ko'zoynaklari raqamli ma'lumotlarning tashuvchisidir. Bu AR turidir va AR qurilmasining holati yoki yo'nalishi o'zgariganda tasvirlarning holati o'zgaradi. MR (Mixed Reality) - bu foydalanuvchi tajribasining realizmini kuchaytirish uchun VR va ARning yanada rivojlanishi hisoblanadi:  $MR = VR + AR = \text{virtual dunyo} + \text{raqamli ma'lumot} + \text{haqiqiy dunyo}$ . Bu shuningdek virtual va voqelikning uyg'unligi bo'ladi. MR texnologiyasi tomonidan ishlab chiqilgan raqamli ma'lumot real dunyoni tashuvchisi sifatida ham ishlatilishi mumkin va u uch o'lchovli hamda yanada realdir. MR va AR o'rtasidagi farq shunda bo'ladiki, MR dunyosida, real dunyoda taqdim etilgan virtual obyektlar foydalanuvchining pozitsiyasi o'zgarigani sababli joydan tashlanmaydi. Ularning pozitsiyalari aslida nisbatan barqarorlikdan iboratdir. Rivojlangan MR dunyosida foydalanuvchilar virtual obyekt va qaysi biri haqiqiy obyekt ekanligini ajrata olmaydilar.



VR virtual muhitni yaratadi va foydalanuvchilarga virtual muhitga kirishga imkon beradi, foydalanuvchilarni uch o'lovli ma'lumotlarga botiradi va realizm tuyg'usini yaratadi.

Arxeologiya taraqqiyotining hozirgi bosqichida uning amaliyoti va nazariyasida geografik axborot usullari va texnologiyalari jadal kirib bormoqda. Geografik axborot tizimlari (GIS) va Yerni masofadan zondlash (ERS) koinotdan (GPS) va sun'iy yo'ldosh tasvirlari bir qator afzalliklarga ega. Aniqroq va ishonchli georeferensiya, keng ko'lamli texnikalar imkoniyati bilan arxeologik yodgorliklarni avtomatlashtirilgan tahlil qilish, natijalarni vizuallashtirish va boshqalar usullar boshlandi. Arxeologik tadqiqotlarda texnologiyalar an'anaviy amaliyotni siqib chiqarish va arxeologlarni zamonaviy kompyuterlarni tobora o'zlashtirishga majbur qilmoqda. Asosan, GIS fazoviy va vaqtinchalik ma'lumotlarni qayta ishlashning avtomatlashtirilgan tizimidir, bunda integratsiyalashuvining asosi geografik ma'lumotlardir. GIS strukturasi - bu geoma'lumotnomaga ega bo'lgan ma'lumotlar bazasi yerdagi ma'lum bir nuqtaga va tizimga fazoviy tahlil o'rnatilgan. GIS yaratish uchun individual geografik arxeologik axborot tizimlari hududlarda arxeologik yodgorliklarni qazish, qadimiyligni o'rganish va boshqalardan foydalanish mumkin. GIS dan foydalanish nafaqat yozib olish imkonini beradi. Arxeologik topilmalarning fazoviy joylashuvi, balki hali o'rganilmagan yodgorliklarning joylashishini, ularning tarqalish tendensiyalari asosida hududlar taxmin qilish mumkin. Arxeologiyada GIS dan foydalanishga misol qadimiy xaritalar asosida landshaft o'zgarishlarini rekonstruksiya qilish bo'ladi. Buning uchun xaritalar skanerlanadi, raqamlashtiriladi, vektor formatiga aylantiriladi va zamonaviy raqamli xaritalarga joylashtiriladi. Identifikatsiyadan keyin xaritalarda mavjud bo'lgan ayrim obyektlarning eski xaritani yangisiga ulash amalga oshiriladi. Birlashtirilgan xaritalarni vaqt o'tishi bilan landshaft o'zgarishlarini izohlash hamda tahlil qilish imkonini beradi. GISni loyihalashning uch bosqichini ajratish mumkin:

- 1) Loyiha konsepsiyasini ishlab chiqish va asosiy ma'lumotlarni yig'ish;
- 2) Loyihaning mantiqiy modelini ishlab chiqish;
- 3) Loyihani amalga oshirish.

Geografik axborot tizimida har bir arxeologik obyekt atributiv (semantik) ma'lumotlarga ega bo'lishi shart. GIS dizayni odatda mantiqiy qadamlar ketma-ketligi asosida tashkil qilinadi. Arxeologiya tadqiqotining arxeologiya obyekti madaniy qatlaminin yemirilishi bilan bog'liq bo'lmagan (madaniy qatlam qalinligini aniqlash uchun cheklangan qazishmadan tashqari) va arxeologiya obyektini aniqlash, xaritalashtirish, uning chegaralarini belgilash, izohlash, tekshirish, shuningdek ilgari aniqlangan arxeologiya obyekti to'g'risida zamonaviy ma'lumotlarni olish maqsadida amalga oshiriladigan turi arxeologiya qidiruvlari deb ataladi. Zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlari va kompyuter telekommunikatsiyalari arxeologik ma'lumotlarni uzatish uchun kengaymoqda. Telekommunikatsiya usullari ilmiy aloqa vositasi sifatida ilmiy seminarlar, konferensiyalar tashkil etishda rivojlanmoqda. Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi.

#### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. Васильев Ст.А. Автоматизация вывода археологических объектов на карту. Проблема организации данных // Круглый стол «Геоинформационные технологии в археологических исследованиях». Сборник докладов. Москва, 2003. СДРОМ.
2. Васильев Ст.А. АИС Археограф: система описания археологических памятников и вывода данных в ГИС // Археология и компьютерные технологии: представление и анализ археологических материалов: Сб. ст. / Отв. ред., авт. предисл. М.Г.Иванова, И.В.Журбин. - Ижевск, 2005.
3. Васильев, С. Применение компьютеров в археологии / С. Васильев // Статья на сайте «Археология.РУ - Скифика-Кельтика» [Электронный ресурс]. – 2005.
4. Васильев, С. ГИС и археология / С. Васильев // Статья на сайте «Археология.РУ - Скифика-Кельтика» [Электронный ресурс]. – 2005.
5. [http://www.archaeology.ru/sci\\_methods/sc\\_gis\\_00.html](http://www.archaeology.ru/sci_methods/sc_gis_00.html).



## O‘ZBEKISTONDA TASVIRIY SAN’AT TA’LIMINI RIVOJLANTIRISHDA IJODIY QOBILIYATLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.

*Qonarbaev Sulaymon Genjeboy o‘g‘li –*

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti talabasi.*

**Annotasiya:** Mazkur maqola O‘zbekistonda tasviriy san’at ta’limini rivojlantirishda pedagogika oliy ta’lim tizimidagi tasviriy san’at ta’labalarini kasbiy tayyorlashda qadimda faoliyat ko‘rsatgan buyuk san’atkorlarning badiiy ijod namunalari o‘rganib tahlil qilish, san’at asarlarini yaratish jarayonlari bilan tanishtirish masalalariga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** Tasviriy san’at, badiiy ijod, tasviriy san’at ta’limi uslublari.

Bo‘lajak rassom — pedagogni o‘qitish va kasbiy tayyorlash tizimi aniq va ilmiy asosda bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Bu yo‘nalishda dastlabki ta’lim va tarbiya umumta’lim maktablari doirasida amalga oshiriladi. Qadimda barakali ijod qilib, o‘zlaridan buyuk tasviriy san’at asarlarini meros qilib qoldirgan mashhur ijodkorlarning tasviriy san’at sohasida erishgan tajribalari bugungi kunda uzluksiz ta’lim tizimida, xususan turli badiiy maktablarda yoshlarni tasviriy san’atdan saboq berishda asos hisoblanadi. Shuning uchun tasviriy san’atni o‘rganishni xohlovchi va tasviriy san’at olamiga endigina kirib kelayotgan bo‘lajak rassom eng avval qadimda ijod qilgan rassomlarning klassik asarlarini o‘rganib tahlil qilishi va olgan bilimlari hamda ko‘nikmalari asosida o‘z shaxsiy ijodiy yo‘lini tanlab chiqishi va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishi kerak.

Tasviriy san’at sohasidagi talabalarni kasbiy tayyorlash, shaxsning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish masalalariga, hamda ijodiy jihatdan yoshlarni kasbiy tayyorlash masalalarida qadimgi Yevropa Badiiy Akademiyalarining mashhur rassomlari, nazariyotchilaridan Lonardo da Vinchi, Mikeladjelo Buanorotti, Piter Paul Rubens. Rafael Santi, Albrect Dyurer va boshqalarning ilmiy va ijodiy asarlarini keltirish mumkin. Rossiya tasviriy san’at namoyandalaridan 19-20 asrda ijod qilgan I.Ye.Repin, N.Savrasov, Pavel Chistyakovlarning ijodiy hamda ilmiy ishlarni keltirish mumkin. Rus pedagog va psixologlardan A.V.Bakushinskiy, L.S.Vigodskiy, Y.I.Ignatev, Y.A.Flerina, T.S.Komarova, S.L.Rubinshteyn, B.M.Teplovlar bo‘lajak rassomlarni ijodiy jihatdan kasbiy tayyorlash masalalariga murojaat qilgan bo‘lsalar, mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish muammolariga bag‘ishlangan masalalarga olimlardan L.G.Medvedev, L.A.Ivaxneva, V.K.Lebedko, Y.V.Shoroxov, V.S.Kuzin, V.V.Koreshkov, A.S.Xvorostovlar o‘zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida murojaat qilganlar. O‘zbekistonlik olimlardan B.B.Baymetov, S.S.Abdullayev, B.B.Azimov, N.X.Tolipov, Q.Q.Qosimov, R.X.Xasanov va boshqalar ham ko‘plab taqdiqot va ilmiy izlanish olib borganlar. Har qanday o‘quv predmetining rivojlanishi tarixiy rivojlanish jarayonlari bilan bevosita bog‘liq. XVII asrda akademik rasm chizishning nazariy qoidalari Uyg‘onish davri rassomlarining talqinlaridayoq ifoda etila boshlangan. XVIII asrda yuzaga kelgan suratga akademik o‘qitish nazariyasi ma’lum o‘zgartirishlar kiritilib, endi badiiy amaliyot yangi sharoitlarida amalga oshirildi. XIX asrda akademik rasm nazariyasi va amaliyotida o‘quv masalalarini kompleks hal etish bo‘yicha faol izlanishlar boshlangan. Badiiy akademik maktab yo‘nalishida o‘quvchilarni faqatgina bilim va ko‘nikmalar bilangina qurollantirish emas, balki ijodiy faoliyatda ham ishtirok ettirish ko‘zda tutiladi. Ba’zida endigina ish boshlagan rassomlar qonun-qoidalarga amal qilmaydilar va maktab o‘zining an’anaviy ko‘rsatmalari bilan ularning individualligi rivojlanishiga halaqit beradi deb o‘ylab darhol murakkab ijodiy masalalarni hal etishga urinadilar. Maktab esa o‘quv muasasasi sifatida o‘zining dars o‘tish ilmiy usullari bilan ijodiy qobiliyatlar rivojlanishiga hech qachon halaqit qilmagan, aksincha, u yosh rassomlar rivojlanishi, ta’lim olishi va shakllanishiga yordam bergan. Tasviriy san’atning hamma turlari uchun asosiy qoida bo‘lgan rasmlarni chizishni o‘rganib olishda maktab ayniqsa, zarur hisoblanadi. Shuning uchun hech kim maktabni o‘z usullari bilan o‘zboshimchalik qilib, rassomlar studiyasiga aylantirishga haqqi yo‘q. Maktabga qarshi bo‘lganlar - odatda yosh, boshlovchi rassomlar orasida ba’zan shunday is’tedod egalari uchraydiki, maktab ularni

rivojlanishiga halaqit beradi, havoskor rassomlar ko'rgazmalarida juda ham mazmunli asarlar uchraydi, ularga rassomlar maktabda o'qimay ham erishganlar, deydilar. Ta'lim psixologiya va pedagogikasi ijodiy qobiliyatlar va ijodiy faollik rivojlanishi o'quv jarayonida katta natijalar berishi mumkin deb, hisoblaydi. Demak, ta'lim jarayoni, ta'lim faoliyati maktabning diqqat markazida bo'lishi kerak. "Erkin ijod" usuli tarafdorlari, sodda bolalik rasmlari shunisi bilan ajoyibki u dunyoni o'ziga qabul qilishini ifoda etadi, tasviriy san'atda esa bola o'zining ijodiy tashabbusini qizg'in namoyon etadi deb hisoblaydilar. Rasm chizish jarayonida bola ijodiy yaratuvchilikdan zavqlanadi va biz buni unda butun hayoti davomida saqlab qolishimiz kerak. "Erkin tarbiya" tarafdorlari umumta'lim maktablari rassomlarni tarbiyalamaydi, deb aytadilar va bolalarni realistik san'atning hamma qonun va qoidalariga o'qitish kerak emas deb hisoblaydilar. Boshlovchi rassom tasvirni ko'rishdan oldin har bir bosqichda avvaliga qog'ozga tushirmoqchi bo'lgan tasvirining hayoliy tasvirini yaratib oladi: predmet shakli, o'ziga xoslik xususiyatlari haqida tasavvuri hali aniq bo'lmaganida, u umumiy sxemali shakl bilan cheklanadi, shundan keyin, pedagog tushuntirgan narsa haqida kuzatish olib borish va qayta tushunib olgan sari u ko'rinayotgan naturani haqiqiy hamda emotsional — mazmunli ifoda etilishiga yaqinlashib boradi. Bugungi kunda ba'zi pedagoglar tasvirlarida naturani ko'rish va taxlil qilishga e'tibor qaratmaydilar. Bunday usulni qo'llamaydilar, uning badiiy ijodga ta'sir etishida "sxematizm" va qonun-qoidalar badiiy rivojlanishga to'sqinlik qilishini sabab qilib ko'rsatadilar. Akademik tasvirlashga qarshi chiqib, murakkab shaklni soddalashtirish, sxemalarga, qoidalariga qarshi chiqadilar, tasvirlashda metodik bosqichlarda tasvirlash bu rassomni ijodiy rivojlanishga to'sqinlik qiladi deb hisoblaydilar.

Ma'lumki, hamma o'quvchilar akademik rasm chizishning bir xil qonun va qoidalarini o'rganishlariga qaramay, ularning har biri naturani o'z tasavvuriga ko'ra o'zicha qabul qiladi va shuning uchun tasvirda to'la bir xillik bo'lishi mumkin emas. Rassom shu bilan birga naturadan nusxa oluvchi sifatida emas, balki uni qayta quruvchi sifatida ishtirok etadi. Bunga yana shuni ham qo'shish mumkinki, u yangi o'quv masalasini hal etishga kirishar ekan, o'zi uchun ko'plab yangiliklar yaratadi, demak, o'zini ijodiy yo'nalishini namoyon etadi. Realistik tasvir yaratish juda murakkab ijodiy jarayon hisoblanadi va eng avvalo bu jarayon ob'ektning hayoliy obrazini moddiy yaratish bilan bog'liq bo'ladi, ya'ni haqiqiy uch o'lchamli predmetni tasviriy ikki o'lchamli qog'oz tekisligiga ko'chirish bilan bog'liqdir. Ko'rib turgan obrazni tasvirga o'tkazish jarayoni ijodiy fikrlashsiz mumkin emas: bunda rassom taqqoslashga, solishtirishga, umumlashtirish, mulohaza qilishiga majburdir. O'zining ko'p asrlik davrida badiiy rassomchilik maktablari yosh rassomlar ijodiy qobiliyatini rivojlantirish sohasida ulkan pedagogik tajriba to'plagan. Bu o'tmishdagi rassom-pedagoglarning tajribalari diqqat bilan o'rganish va umumlashtirishni talab etadi, ularning asosida biz tasvir chizish akademik mashg'ulotlarida ijodiy qobiliyatini rivojlantirish yangi ilmiy asoslangan usullarini ishlab chiqishga kirishishimiz mumkin bo'ladi.

Qadimgi rassomlarning yutuqlari, tajribalarini e'tiborga olmaslik, badiiy maktabning yo'q bo'lishiga, san'atning "nodon"lashishiga olib keladi. Nazariya va amaliyotning tabiiy ravishda birligi yosh rassomning faol rivojlanishiga, uning ijodiy qobiliyati o'sib borishiga yordam beradi. Rassomning ilmiy bilimlari qanchalik ko'p bo'lsa, uning haqqoniy tasvirlangan asarga baho berishi shunchalik mukammal, texnik mahoratining darajasi shunchalik boy, uning ijodiy faoliyati mahsuloti shunchalik ifodali va yorqin bo'ladi. Rassomchilik maktabida ilmiylik tamoyili ijodiy qobiliyatlar rivojlanishi faol omili sifatida eng avval ilmiy bilimlar tizimini o'zlashtirib olishdan iborat bo'ladi, bu esa boshlovchi rassomga tabiatdagi hodisalarni real haqiqiy shaklini ko'rish qonuniyatini to'g'ri tushunishga yordam beradi, shu bilan realistik san'at usullarini ham egallashga yordam beradi. Buni Qadimgi Yunon Uyg'onish davri va Yevropa Akademiyalarida XVII-XIX asrlarda ham rassom-pedagoglarning yaxshi tushunishgan. Tarixchilarning guvohlik berishlaricha, Sinion rassomlik maktabi eshigiga shunday deb yozib qo'yilgan ekan: "Bu yerga tasvirlash qoidalarini bilmaydigan insonlar qo'yilmaydilar". Ingliz badiiy akademiyasining buyuk rassomi va pedagogi Djoshua Reynolds shunday degan: "Bizning san'atimiz - faqatgina bu xudo bergan iste'dod emas, lekin u mexanik hunar ham emas, uning asosi aniq fanlarga tayanadi". Biz ilgari aytib o'tganimizdek, maktab sharoitida rassom faoliyati

aniq masalani yechishda o'tadi, ular unda estetik talablar uyg'otadi, shu bilan birga tabiiy kuch bilan qoniqish izlovchi talab uyg'otadi. Qo'yilgan masalaning yechimi, agar ilgari ham bir necha bor hal etilgan, o'quvchiga yaxshi ma'lum bilimlar doirasidan chiqmasa, oson va oddiygina kelib chiqadi. Bunday holatlarda masala odatiy hal etiladi. Shundan keyin an'anaviy tajriba yetarli bo'lmagan davr keladi, yangi yo'llar izlash, fikrlar o'zgaruvchanligi hamda fahm-farosatdan unumli foydalanishimiz kerak bo'ladi.

Nima kelib chiqqani va yana nimalar qilish mumkinligini doimo tekshirib borish davri keladi. Masalan, gipsli bosh tasvirini chizishdan tirik boshning suratini chizishga o'tishda talaba inson boshining shakliy tuzilish qonuniyatlarini bilib olib va qarash nuqtasiga bog'liq ravishda konstruktiv ko'rinish sxemasining o'zgarishini bila turib (perspektiv ko'rinishni), tasvirni ko'rish birinchi bosqichlarida o'z masalasini osongina hal qila oladi. Ammo keyinchalik, tirik boshning individual xususiyatlarini yetkazib berishda mavjud bilim va ko'nikmalar yetarli bo'lmay qoladi va u o'z fahm-farosatiga va uzoq vaqt to'plagan ijodiy qobiliyatlariga murojaat etadi. Bunday holatda yetishmaydigan bilimlarni naturani diqqat bilan kuzatish va ilgari egallagan ilmiy bilimlaridan ijodiy foydalanish yo'li bilan olish mumkin.

Xulosa o'rnida aytganimizda, Uyg'onish davri rassomlari "qo'l bilan emas, balki bosh bilan chizamiz" - deb aytganlar. Ular bu fikrga tajribaga tayanish, bilish va tasvirlash, tabiatni intuitiv tushunish asosida kelganlar. Bugungi kunda psixologiya fani insonning fikrlash faoliyati tabiatini ochib bermoqda. Boshlovchi rassomning inson bosh shaklini tasvirlashi uchun plastik anatomiya yordam beradi. Har gal o'quv topshiriqlarini bajarishida boshlovchi rassom yangilikni bilib oladi, boshqacha o'rganadi, odamlar yuziga professional nazar bilan qaraydi, portretni tasvirlash san'atida yangi ko'nikmalarni egallaydi, boshqacha aytganda turli maqsadlar faol ijodiy faoliyatga kirib keladi. O'quv tasvirini chizishda birinchi asosiy metodik ko'rsatmani pedagog berishi kerak. Keyinchalik esa, rassomning ijodiy faolligi rivojlanib, unda o'z tasvirlash usuli paydo bo'ladi. Bunga esa talabalar tajribali pedagog yordamida erishishlari mumkin, pedagog esa buning uchun umumiy ko'rsatmalardan individual ko'rsatmalarga o'tishi kerak va har bir talaba qobiliyatini hisobga olishi kerak deb hisoblaymiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Boltaboevich, B. B. (2020). Formation of the skills of portraying the future teacher of fine arts in pencil drawing. *ACADEMICIA. ATI International Multidisciplinary Research Journal*, 10{5}, 1122-1127.
2. Sultanov Kh.E., Sobirov S.T., Ismatov U.Sh., Illustration and the Influence of Illustrator on Children's Understanding of Fairy Tales and Works of Art in Books / *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, Vol. 24, Issue 05, 2020.
3. Галипов Нозим Хамидович Байметов Ботир Болтабаевич. Методическая последовательность работы над живописным портретом в педагогическом ВУЗе. 2016/4. Журнал. Научная дискуссия: вопросы педагогики и психологии. Том 1. Номер 4 (49). Страницы. 46-51. Издатель Наука, образование и культура.
4. Султанов Х.Э., Бекмуродова Ш. Искусство Узбекистана, его итоги, достижение и перспективы / *МОЛОДОЙ УЧЁНЫЙ научный журнал*// №4 -2016: -С. 1241-1243.
5. Shuhratovich, I. U. (2020). Technologies of working on graphic materials in fine arts classes (on the example of working still life in the pen. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8 (4), Part II, 41-45.

## MADANIYAT MARKAZLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI VA USULLARI

*Sh.K.O'rinov*

*BuxDU "Musiqqa ta'limi" kafedrası o'qituvchisi.*

*Rahmatova Maftuna*

*BuxDU San'atshunoslik fakulteti 1-bosqich talabasi.*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada madaniyat markazlari faoliyatini takomillashtirish imkoniyatlari va usullari, shuningdek buguni kunda sohada amalga oshirilayotga keng ko'lamli ishlar haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Madaniyat markazlari, yangi O'zbekiston, konsepsiya, to'garak, san'at, madaniyat, auditoriya.

Madaniyat markazlari aholining bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida eng tashkil etilgan va faoliyat yuritadigan sanaladi. Aholi bo'sh vaqtini samarali tashkil etish mamlakat iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalarida ijobiy ta'sir etadi. Yuqoridagilarni inobatga olib, madaniyat markazlarining funksiyalari va vazifalari maqolada yoritiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekistonda milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son qarori ijrosini ta'minlash, madaniyat markazlari faoliyatini yanada rivojlantirish, moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, ularni barkamol avlodni tarbiyalash borasidagi rolini oshirish, u yerdagi ijodiy muhitni yaxshilash, nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ'ib etish, xalq og'zaki ijodiyoti va havaskorlik san'atini rivojlantirish borasida yurtimizdagi madaniyat markazlarining faoliyatidagi masalalar muhim hisoblanadi. Bu borada juda ko'plab ishlar amalga oshirilmogda. Buxoro viloyatida bugungi kunda 49 ta madaniyat markazlari mavjud bo'lib, ularni takomillashtirish va ish faoliyatlarini yangi usullarda yo'lga qo'yish bo'yicha qator samarali ishlar tashkil qilinmogda. Insoniyatning ilk o'tmishi, birinchi moddiy va ma'naviyat, madaniyat maskanlari Sharqda shakllagan va insoniyatning keying taraqqiyoti uchun zamin tayyorlab bergan. Ko'hna Sharq ma'rifat beshigi. Uni yaxlit birlashtirib turuvchi mushtarak xususiyatlar va qadriyatlar falsafasi mavjud. Modomiki, Sharqning ajralmas qismi O'zbekiston haqida gap borar ekan, Sharq xalqlarining sermulohazakorligi, mavjud vaziyatlarda zarur qaror qabul qila olishga intilishi, inson hayotining mazmuni mehnatu ijodda o'rnak bo'lish, yomonlikdan saqlanish, bir marta beriladigan hayotni ezgu amallarga sarflash ana shu xalqning umr mezoniga aylanganini ko'rish mumkin. Davlat muassasasi shaklida tashkil etilgan, aholining madaniy ehtiyojlarini o'rganish, shuningdek madaniy-ma'rifiy va ko'ngilochar xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi, badiiy ijod, amaliy san'at va havaskorlik bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxs madaniyat markazidir.

### **Madaniyat markazlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:**

aholiga ko'rsatiladigan madaniy xizmatlar sifatini yaxshilash, aholining bo'sh vaqti mazmunli o'tishini ta'minlash va madaniy ehtiyojlarini qanoatlantirish, ijodiy jamoalarning milliy qadriyatlarni, urf-odatlar va an'analarni o'zida mujassam etgan namunaviy dasturlarni shakllantirish;

xalq ijodiyotini va badiiy havaskorlikni saqlash hamda rivojlantirish, badiiy va amaliy ijodiy jamoalarni, havaskorlik guruhlarini tashkil etish, ularning faoliyat ko'rsatishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, shuningdek ijodiy jarayonlarni tizimli asosda boyitib borish;

bolalarni to'garaklarga jalb etish, ularni chet tillarga o'qitish, "Nutq madaniyati" kurslarini tashkil etish, xalq ijodiyotining barcha janrlari va yo'nalishlarini, havaskorlik san'atini va nomoddiy madaniy merosni keng targ'ib qilish, shuningdek ularni asl hoida kelajak avlodga yetkazish;

xalq ijodiyoti va tomosha san'ati tanlovlarini, tuman (shahar) festivallarini o'tkazish, iste'dodli yoshlarni aniqlash hamda ijodkor yoshlarni qo'llab-quvvatlash;



ommaviy bayramlar, tomoshalar hamda xalq sayillarini tashkil etish, yuridik va jismoniy shaxslar bilan tuzilgan shartnomalarga ko'ra ijtimoiy-madaniy bo'sh vaqtni tashkil etish sohasida pulli xizmatlar ko'rsatish va h.k. 2019 yil 30-martda "Madaniyat markazlari faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi. Qarorga ko'ra madaniyat markazlari faoliyatini baholash, baholash natijalariga ko'ra 1 o'rin uchun vazirlikning esdalik sovg'alari va BHMning 25 baravari miqdorida pul mukofoti bilan taqdirlanadi. Qolgan 2,3,4 o'rinlar hududiy boshqarmalar tomonidan taqdirlanadi. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligi, viloyatlar madaniyat boshqarmalari va Toshkent shahar madaniyat bosh boshqarmasi tomonidan barcha "Namunali madaniyat markazi" deb hisoblangan madaniyat markazlari binosining peshlavhasiga "Namunali madaniyat markazi" degan yozuv joylashtiriladi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad sog'lom raqobatni yuzaga keltirish va madaniyat markazlarining amalga oshirgan ishlari va mehnatlarini munosib taqdirlash hamda ular orasida sog'lom raqobat mehnat unumdorligini oshirishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son qarori bilan tasdiqlangan "2019-2020-yillarda madaniyat markazlari faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi"ga asosan vazirlikning eng quyi tizim tashkiloti bo'lgan madaniyat markazlarida ovoz yozish, foto-video, teatr studiyasi, kutubxona va o'quv zali, kino zali, kartinalar galereyasi, sport seksiyasi, attraksionlar shaharchasi va bolalar dunyosi burchagi, yozgi sahna, lingafon, kompyuter, to'garak, ansambl, milliy hunarmandchilik va maishiy usta xonalarini xususiy tadbirkorlarni jalb etish; tarixiy, badiiy va zamonaviy kino filmlar namoyishini yo'lga qo'yish orqali tashkil etilmoqda. "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6000-son Farmoniga asosan tadbirkorlik faoliyatidan keng foydalangan holda har bir hududda ko'chma sirkalar (shapito, dorbozlar guruhleri) hamda hayvonot bog'lari tashkil etilmoqda hamda 2020-yil 1-sentabrdan boshlab ko'chma sirkalar (shapito, dorbozlar guruhleri) tomonidan o'tkaziladigan tomosha tadbirlariga ommaviy tadbir o'tkazish uchun ruxsatnoma va ruxsat berish xususiyatiga ega boshqa hujjatlarni olish; ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya va Favqulodda vaziyatlar vazirligi organlari ko'chma sirkalar (shapito, dorbozlar guruhleri) tomonidan o'tkaziladigan tomosha tadbirlarida jamoat tartibi va yong'in xavfsizligini to'lov undirilmagan holda ta'minlash; davlat organlari va tashkilotlari tizimidagi madaniyat va istirohat bog'lari, sport inshootlari, sayilgohlar va boshqa ochiq hududlarda ko'chma sirkalar (shapito, dorbozlar guruhleri) tomonidan tomosha tadbirlari o'tkazish uchun ijara va boshqa turdagi to'lovlar undirish; nomoddiy madaniy meros obyektlarini (dorboz, askiya va lapar) asrash va ulardan foydalanish faoliyati o'zini o'zi band qilgan fuqarolarga vaqtinchalik mehnat guvohnomalari beriladigan faoliyat (xizmatlar, ishlar) turlari ro'yxatiga kiradi (madaniyat markazlari tarkibida faoliyat yuritayotgan shaxslar bundan mustasno) va ularning ushbu faoliyatdan olingan daromadlariga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tatbiq etilmasligi belgilandi. Bundan asosiy maqsad, bugungi kunda madaniyat markazlari faoliyati yanada takomillashtirish, muassasalarga aholini kengroq jalb qilish, markazlarda malakali kadrlarni ish bilan ta'minlash masalarini ko'rish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. D.Yusupaliyeva, G.Xudoyberganova. "Madaniy-ma'rifiy muassasalarda ijodiy jamoalar bilan ishlash uslubiyoti" o'quv qo'llanma, –T.: "Navro'z" nashriyoti 2019 y. –118 bet.
2. S.To'ychiyeva "Madaniyat va san'at sohasi faoliyatini tashkil etish va boshqarish" darslik.2020.
3. A.Haydarov. "Harakatlar strategiyasi va ma'naviy yuksalish". Toshkent-2020.335-bet.
4. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop. –Toshkent: Sharq, 1998. –B,239.
5. "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonuni.
6. "Madaniyat markazlari faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 2019-yil 30-mart.



## TRANSPORT SHOVQINI VA UNING OQIBATLARI

**B.N.Raupov**

Qarshi Davlat universiteti o'qituvchisi.

**Annotatsiya:** Maqolada shovqin, uning zarari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Shovqin, tovush, kasallik.

## ШУМ ТРАНСПОРТА И ЕГО ПОСЛЕДСТВИЯ

**Аннотация:** В статье представлена информация о шуме и его вреде.

**Ключевые слова:** Шум, звук, болезнь.

## TRAFFIC NOISE AND ITS CONSEQUENCES

**Annotation:** The article provides information about noise and its dangers

**Keywords:** noise, sound, disease.

Tovush bu umri yer paydo bo'lishi bilan teng xodisadir. Sayyoramiz kuchli zarblar, tovushlar, tebranishlar xamroxligida paydo bo'lgan. Tirik organizmlarning evolyutsion taraqqiyoti davomida eshitish organi shakllandi. Bu esa tirik organizmlarga muhitdan ko'pgina ma'lumotlarni o'zlashtirib, xavfdan oqox bo'lishni ta'minladi va natijada yashovchanlikni oshirdi. Keyinchalik ovoz tufayli o'zoro munosabatlar shakllandi. Hayvonlar ovozdin ko'payishda, to'dadagi holatni boshqarishda, xavfni bildirishlarda foydalana boshladilar. Insonda xam ovoz shu taxlit muhim ahamiyatga ega bo'lib, ovda, xavf-xatarda oqoxlantirishda yangi ovozlardan foydalana borishi, so'z va gapni yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Sanoatni rivojlanishi, bug' mashinasi, ichki yonuv dvigatellarini yaratilishi, temir yo'l tarmoqlari, reaktiv samolyotlar, murakkab stanoklar, shovqinni tobora ortib borishiga sabab bo'ldi. Xozirda sayyoramiz axolisining kattagina qismi shovqindan aziyat chekmoqda. 1948yil va 1961 yilda Londonda 1400 kishi o'rtasida o'tkazilgan, xonangizda sizni ko'cha shovqini bezovta qiladimi degan savolga, 1948 yilda 23% kishi, 1961yilda esa 50% kishi albatta deb javob bergan. Keyinchalik shovqinni o'rganish, unga qarshi kurash ishlari xavo, quruqlik transporti, me'morchilik soxalari bilan cheklangan edi. Xozirda shovqinga qarshi kurash dunyo bo'yicha ommalashib, xamma sohani qamrab, kengayib bormoqda.[1] Shovqin omili rivojlangan davlatlarda kuchli salbiy ekologik omilga aylandi. Texnika va sanoatning rivojlanishi shovqin omilining rivojlanishida asosiy sabab bo'lmoqda. Bu esa mutaxassislar e'tiborini shovqin omiliga qaratilishiga va aholi, ishchilarni turli shovqin ko'rinishlaridan muhofaza qilish choralarni izlashga chaqirmoqda. [2] Yirik shaharlarda shovqin ta'siri ostida aholining katta qismi istiqomat qiladi. 60%dan ortiq shahar aholisi o'ta yuqori shovqin ta'sirida yashaydi. Ma'lumki shovqin kuchi normadan 25db yuqori bo'lganda ish faoliyati 20-25% kamayadi, talabga javob bermaydigan mahsulot miqdori 12,5%ga ortadi. Bu muammoni organish orqali xulosa qilish mumkinki, shovqin kuchini 1dbga kamaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini 0,3-1%ga oshiradi. Mamlakat miqyosida bu katta iqtisodiy natija beradi [3]. Shovqin-suron musiqaviy xususiyatga ega bo'lmagan, yoqimsiz va xavfli ovozdir. Shu tufayli kishilarning normal ishlashiga, dam olishiga halal beradi, mexnat unumdorligi va ish qobiliyatini pasaytiradi, asabini bo'shashtiradi, yurak-qon tomirlarini zaiflashtiradi, bosh og'rig'iga, uyqusizlikka duchor qiladi, yurak urushini tezlashtiradi, qisqasi inson organizmida salbiy fiziologik o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Shu sababli shovqin-suronni kamaytirish, unga qarshi kurashish asrimizning umumbashariy muammosiga aylanib qoldi. [4] Tovush insoniyatning doimiy hamrohi bo'lib, fizik hodisadir. Inson qulog'i 16Gs dan 20000 Gs oralig'idagi tovushlarni qabul qilish imkoniyatiga ega. 16 Gs gacha bo'lgan tovushlar infra tovush, 20 kGs dan yuqorisi ultra tovushlar deyiladi. Muhitdan ma'lumotlarni qabul qilishda inson beshta sezgidan foydalanadi, uning biri eshitishdir. Inson ko'rish orqali 90%, eshitish orqali 9% va 1% ma'lumotni boshqa sezgilari orqali oladi. Eshitish sezgisi bu muhimligi jihatidan ikkinchi o'rinda turadi.[5]

Shovqinning kishi organizmiga ta'siri psixologik va fiziologik bo'lishi mumkin. Ko'pincha bu kasalliklar bir-biriga chambarchas bog'liqdir. Doimiy yoki qaytariluvchan shovqinlar ruhiy ta'sir, asablar qo'zgalishini kelib chiqadi. Dam olish payti yoki uyqu vaqtida shovqin ovozi kuchsiz bo'lsa ham ta'sir etishi yaxshi hordiq chiqorolmaslik va natijada ish faoliyatini pasayishiga sabab bo'ladi. Shovqinning fiziologik ta'siri birinchi bo'lib ichki quloqni zararlaydi. Ko'pchilik xolatda eshitishning sekin susayib borishi tufayli kishilar buni sezmay qoladilar, oqibatda eshitishni buzadigan turli kasalliklar, tinnitius, giperakuziya, diplakuziya va quloq og'irligi rivojlanadi.

Tinnitius shunday kasallikki bunda kasal kishi aslida yo'q ovozlarni eshitadi. Bular boshda doimiy mavjud g'uvillash, vizillashlar bo'ladi. Axolining 10-15% qismida bu kasallik kuzatiladi. Kuchli darajadagi tinnitiusdan 3-5% axoli aziyat chekadi. Bu kasallik jahl chiqishi, hayajon ta'sirida yanada kuchayadi. Bu kasallikni dori vositalari yoki jarrohlik usulida davolab bo'lmaydi. Faqat bemorni ahvolini yaxshilaydigan, uni ruhan qo'llab quvvatlashga asoslangan terapiya mavjud. Giperakuziya bu ovozga nisbatan o'ta yuqori sezuvchanlikdir. Bunda uncha yuqori bo'lmagan tovushlar xam kishiga baland ovoz kabi noxush ta'sir etadi. Bu kasallik ba'zida tinnitius bilan birga yoki alohida namoyon bo'ladi.

Diplakuziyada ovozlari kishiga shuvalib eshitaladi. Xatto ovoz aniq talaffuz etilganda xam quloq bu tovushlarni aniq eshita olmaydi, bunda bir tovush ikki marta aks sado kabi eshitaladi. Bir quloq oldin, keyingisi kechikib qabul qilgandagi bunday tovush ayniqsa musiqa eshitayotganda kishiga yomon ta'sir etadi. Eng ko'p tarqalgan fikrlardan biri, inson shovqinga ko'nikadi deyiladi. Men shovqinga moslashdim deb o'ylagan odamlarning ko'pchiligida ma'lum ovoz chastotalarini qabul qilish yo'qolgandir. Birinchi navbatda yuqori chastotali tovushlarni eshitmaslik yuzaga kelgani uchun ko'pchilik buni sezmaydi. Bunda kishilar qushlar sayrashi va hashorat chirillashini eshitmaydi. So'ng navbat odam tovushi yoki unsiz tovushlar yo'qolishi va so'ngra undosh tovushlar yo'qolishiga keladi.[6]

Tadqiqotning maqsadi shundan iboratki, Qarshi shahridagi transport shovqinlarning ta'sir darajasi xaqida ma'lumotlar juda kam. Hududdagi transport shovqini miqdori, insonlarga ta'sirini o'rganish, taxlil qilish, xulosalash.

Qarshi shahrining serqatnov ko'chalarida shovqin darajasini o'rganilganda quyidagicha holat kuzatildi. Ma'lumki transport vositalari uchun quvvatiiga nisbatan davlat shovqin normalariga asosan ruxsat etilgan me'yor

Engil mashina va boshqa transportlar 84db  
 Yuk mashinalari (ogirligi 3500 t) 85db  
 (og'irligi 3500-12000 t, ot kuchi 220) 89db  
 (ot kuchi 220 dan ortiq mashinalar) 92db deb belgilangan.

Qarshi shahrining bir nechta ko'chalarida olib borgan nazoratlarimizda quyidagi jadvaldagi holat kuzatildi.

Qarshi shahar ayrim ko'chalaridagi shovqin miqdori (10.04.2022) **1-jadval**

Mashina va motosikl turlari	Ruxsat etilgan tovush darajasi ( db)	Amalda ( db)	Ko'cha nomi	Farq
Engil mashina va boshqa transportlar	84	89	Amir Temur	5
Yuk mashinalari (ogirligi 3500 t)	85	92	Ko'chabog'	7
(og'irligi 3500-12000 t, ot kuchi 220)	89	98	Qarshi-beshkent yo'li	9
(ot kuchi 220 dan ortiq mashinalar)	92	107	Jayhun	15

O'lchovlar natijasi shuni ko'rsatadiki, ayrim transport ko'p qatnaydigan ko'chalarda shovqin miqdori, belgilangan me'yorlardan yuqori. Bunday ko'chalarda yashovchi kishilarning derazalari shovqin o'tkazmaydigan bo'lishi, ko'chada doimiy hizmat o'taydigan davlat avto nazorat hodimlari maxsus shaxsiy himoya kiyimlaridan foydalanisshlari tavsiya e'tiladi.

Shovqinning ta'sirini oldini olish uchun aholi yashaydigan joylarda ko'kalamzorlashtirish muhim ahamiyatga ega, Ma'lumotlarga ko'ra bir qator ekilgan daraxt 2-4 db shovqinni yutadi. Istirohat bog'larida, ko'kalamzorlashtirilgan maydonlarda daraxtlar shovqinni 70 % gacha yutadi. Shahar sharoitida to'g'ri o'tkazilgan daraxtlar shovqinni 20 % gacha yutishi mumkin. Ko'cha xarakatini tartibga solish, sershovqin transportlar o'rniga past tovushli transport ishlatish, turar joy binolarini tovush o'tkazmaydigan materiallardan qurish kabi ishlarni amalga oshirish lozim. Natijada aholini shovqindan zararlanishi oldi olinadi, daraxtlar ekilishi tufayli ekologik ahvol yaxshilanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Teylor.R Shum perevod ang D.I. Arnolda Mir 1978 308 c
2. Belov C.B Texnosfera: aspekti i ekologichnosti vestnik MGTU 1998 EN №1
3. Ivanov, N. I. Injenernaya akustika. Teoriya i praktika borbi s shumom. M. Logos, 2008. – 258 s.
4. I.Nigmatov, M.Tojiyev, O.R. Yuldashev. Favquloddda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi. Darslik. Toshkent, 2010 y.
5. Salomatlik ensiklopediyasi T. 1985-556 b
6. V.V. Kosarev ,C,A.Babanov Professionalniye bolezni. Uchebnoye posobiye. Infra-M 2011.
7. Internet ma'lumotlaridan foydalanildi.

## SHIFOXONADAN TASHQARI IKKI TOMONLAMA INTERSTITSIAL PNEVMONIYA PATOGENEZIDA ENDOGEN FAKTORLARNING O'RNI

*Raximberganov Sanjarbek Rustam o'g'li*  
*Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali.*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'pkaning interstitsial kasalliklari, ularning klassifikatsiyalanishi, o'pka interstitsial kasalliklarining o'ziga xos tomonlari, shifoxonadan tashqari ikki tomonlama interstitsial pnevmoniya patogenezida yosh, yondosh kasalliklar, fon kasalliklar, kompensator mexanizmlarning o'rni haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Yurak ishemik kasalligi, qandli diabet, ekstrasistoliya, nafas yetishmovchiligi, yondosh kasallik.

**Mavzuning dolzarbligi.** Hozirgi kunda pnevmoniyaning barcha turlari orasida interstitsial pnevmoniya dolzarb kasalliklardan biri hisoblanadi. Ko'pincha shifokorlar uning qayerdan kelib chiqqanligini, uning haqiqiy sabablari nima ekanligini aniqlay olmaydilar. Ammo kasallik agressiv tarzda davom etadi va o'pkaning o'ziga jiddiy zarar yetkazadi [1,2].

Interstitsial pnevmoniya - bu yallig'lanishning o'ziga xos turi bo'lib, unda patologiyaning surunkali holga kelishi ehtimoli juda yuqori bo'lib, kasallik kamdan-kam uchraydigan bo'lsa-da, bu juda xavflidir. Klassik pnevmoniyada yallig'lanish alveolalar sohasida paydo bo'ladi. Shu sababli, o'pkaning qon va atrof-muhit bilan gaz almashinuvi yomonlashadi [5,6]. Interstitsial pnevmoniya o'rtasidagi asosiy farq alveolalarni o'rab turgan va organing (interstitsial yoki biriktiruvchi to'qima) karkasini tashkil etuvchi to'qimalarning yallig'lanish jarayonidir [3,4].

Jarayon o'tkir yoki surunkali bo'lishi mumkin, alveolalar atrofidagi to'qimalar shishadi, buning natijasida o'pka nafas olayotganda yaxshi kengaymaydi, ular "qattiq" bo'ladi. Natijada, o'pkada chandiqli (fibroz) shakllana boshlaydi, bu esa o'z vazifalarini to'liq bajarolmasligiga sabab bo'ladi.

Ushbu pnevmoniya paydo bo'lishining asl sababini, olimlar hali ham aniq bilishmaydi. Buning sababi immunitet tizimining buzilishi bo'lishi mumkin bo'lgan nazariyalar mavjud. Ammo immunitet tizimi buzilishi uchun ba'zi tashqi provokatorlar kerak. Ular orasida:

- infeksiyalarning ayrim turlari - mikoplazma, xlamidiya, gerpes virusi, legionella, pnevmosistit;
- yomon odatlar (ayniqsa, chekish);
- OIV va OITS;
- organizmdagi autoimmun jarayonlar (Shegren sindromi);
- immunitetning buzilishi (qondagi immunoglobulinlar darajasining o'zgarishi).


Hozirgi kunda esa eng xavfli interstitsial pnevmoniya keltirib chiqaruvchi asosiy omillardan biri koronavirus infeksiyasi hisoblanadi [2,3].

Hammamizga ma'lumki, hozirgi davrda global muammo –bu koronavirus infeksiyasi keltirib chiqarayotgan kasallikdir. Uning laborator-dagnostikada manfiy natija berib, klinikasi koronavirus infeksiyasi keltirib chiqarayotgan kasallik kabi kechayotgan shakli ham mavjud. Aholi orasida o'zining tez tarqalishi, kasallikning poliorgan patologiyalar chaqirishi, asorat qoldirishi yuqoriligi jihatdan boshqa kasalliklardan xavflidir [1].

**Maqsad.** Shifoxonadan tashqari ikki tomonlama interstitsial pnevmoniya patogenezida ishtirok etuvchi endogen faktorlarning rolini o'rganish.


**Natija.** Shifoxonadan tashqari ikki tomonlama interstitsial pnevmoniya tashxisi bilan Urganch shahar shifoxonasi Terapiya bo'limida davolanayotgan 60 nafar bemorda kuzatuv ishlari olib borildi. Bemorlarning 50 foizida (30 nafarida) yondosh kasallik sifatida yurak –qon tomir sistemasi kasalliklari: yurak ishemik kasalligi (I 20) va arterial gipertoniya (II 10) aniqlandi. Shundan 20 foizida (12 nafarida) yondosh kasalliklardan Yurak ishemik kasalligi. Zo'riqish stenokardiyasi. Funktsional sinf II (I 20); 20 foizida (12 nafarida) Yurak ishemik kasalligi. Zo'riqish stenokardiyasi. Funktsional sinf III (I 20); bemorlarning 30 foizi (18 nafarida) esa arterial gipertoniya (I 10) borligi aniqlandi. Surunkali gepatit C (B 18.2) ham 30 foiz (18 nafarida) holatda topildi. Surunkali piyelonefrit (N11) 20 foizni (12 nafar bemorda) tashkil etdi.

Keng tarqalgan kasallik hisoblangan anemiya (qonning hajm birligida eritrotsit va gemoglobin miqdorining kamayishi) esa 20 foizni tashkil etishi aniqlandi.



O`pka to`qimasining kompyuter tomografiya xulosasiga ko`ra shikastlanishi eng baland 60 foiz shikastlangan bemorlarda AG(I 10) va buyrak tosh kasalligi borligi aniqlandi. Eng past shikastlanish aniqlangan bemorda (20-30 foiz shikastlanish) qandli diabet, anemiya borligini kuzatdik. O`rtacha zararlanish 25-45 foiz holatni tashkil etganda yondosh kasalliklar YuK aniqlandi. Yoshi katta bemorlarda (70 yosh va undan kattalarda) puls va nafas olishlar soni mos ravishda daqiqasiga 72marta va 22 martani tashkil etdi. Yoshi eng kichik bemorda(31 yosh) mos ravishda 95 marta va 25 martani tashkil etdi.


Kasallikning asoratini esa nafas yetishmovchiligi va ekstrasistoliya tashkil etib, nafas yetishmovchilik II daraja 20 fioz holatda (12 nafar bemorda) – surunkali piyelonefrit (N 11) bilan og`rigan bemorlarda; nafas yetishmaslik I daraja 10 foiz holatda (6 nafar bemorda) xolesistit(K 81) va tuxumdon kistasi mavjud bemorda; qorinchalar ekstrasistoliyasi (I 49.4) 10 foiz holatda (6 nafar bemorda)- AG va YuK.Zo`riqish stenokardiyasi. Funktsional sinf III yondosh kasalligi bo`lgan bemorlarda topildi.



**2-rasm. Kasallik bilan og`rigan bemorlarda yondosh kasalliklarning uchrash chastotasi va asorat qolishida yondosh kasalliklarning ta`siri.**



Ularning qonidagi biokimyoviy oʻzgarishlar ham yondosh kasalliklar bilan ushbu kasallik patogenezida bogʻliqlik bor ekanligini koʻrsatdi. Bemorlar qon zardobidagi umumiy oqsil, kreatinin, glyukoza, umumiy bilirubin, bogʻlangan bilirubin, erkin bilirubin, C-reaktiv oqsil tekshirildi va quyidagicha natijalar olindi: Umumiy oqsil 40% bemorda meʼyoriy koʻraskichdan yaʼni 65g/l dan kamayganligi aniqlandi. Qondagi glyukoza miqdori 30% bemorda meʼyoriy koʻraskichdan ortishi aniqlandi, yaʼni 6.66 mmol/l dan koʻpaydi. 90 %ida kreatinin miqdori ortishini kuzatdik. Umumiy bilirubin miqdori 20% holatda, 20,5mkmol/l dan ortishini kuzatildi. Erkin bilirubin 10% holatda, bogʻlangan bilirubinning 20% holatda ortishi aniqlangan boʻlsa, kamayishi yaʼni 0% ni tashkil etishi 60% holatda topildi. Yoshga bogʻliq tomonlari esa bemorlarni uchta guruhga ajratdik. Ular I guruhga 30 yoshdan 50 yoshgacha boʻlgan bemorlar; ikkinchi guruhga 50 yoshdan 70 yoshgacha, uchinchi guruhga 70 yosh va undan yuqori yoshdagi bemorlar kiritildi. Ularda yoshlar ortishi bilan qondagi biokimyoviy oʻzgarishlar miqdori quyidagicha ortib borganligi aniqlandi. (1-grafik)



**3-rasm. Shifoxonadan tashqari ikki tomonlama interstitsial pnevmoniya kasalligi bilan ogʻrigan bemorlarda qondagi umumiy oqsil miqdori kamayishi, erkin bilirubin ortishi, kreatinin ortishini yoshlarga bogʻliq ravishda ifodalanishi.**

**Natijalar muhokamasi.** Yuqoridagi holatlardan koʻrinadiki, shifoxonadan tashqari ikki tomonlama interstitsial pnevmoniya bilan ogʻrigan bemorlarda koʻpchiligida (50 %ida) qon aylanish sistemasi kasalliklari mavjud. Kasallikning asorat qoldirishi arterial gipertoniya bilan ogʻrigan bemorlarda kuzatildi. Bunga sabab esa kichik qon aylanish doirasidagi qon tomirlarda shikastlanish chaqirishidir. Kasallikning asorat chaqirishi ham bemorda avvaldan mavjud boʻlgan yondosh yoki fon kasalliklar bilan uzviy bogʻliqlikda yuzaga chiqadi, shuning uchun Yurak ishemik kasalligi. Zoʻriqish stenokardiyasi. Funksional sinf III bilan ogʻrigan bemorda ekstrasistoliya rivojlangan. Kasallik davrida oʻpka toʻqimasining va yondosh kasallik mavjud boʻlgan organlarning yanada zararlanishi kuzatilib, uning yoshga bogʻliqligini inobatga oladigan boʻlsak, yoshlarda, organizmning reaktivligi kuchli boʻlgan bemorlarda zararlanish nisbatan koʻproq, demak ushbu kasallik asosida immunopatologiyalar yotishi mumkin. Qondagi umumiy oqsil 6,5-8,5g% yoki SI birligi boʻyicha 65-85g/l norma hisoblanib, shundan I. albuminlar: 4-5g% yoki 40-50g/l;

II. globulinlar: 2-3g% yoki 20-30g/l; shundan

1) α1: 0.45g% yoki 4.5g/l

2) α2 : 0.56g% yoki 5,6 g/l

3) β: 0.76g% yoki 7.6g/l

4) γ: 1.39g% yoki 13.9g/l

III.fibrinogen: 0,2-0,4g% yoki 2-4g/lni tashkil etadi. Umumiy oqsil miqdori kamaygan bemorlarning yondosh kasalliklariga e'tibor beradigan bo'lsak, ularda glomerulonefrit, yoki surunkali gepatit C aniqlandi. Hammamizga ma'lumki, glomerulonefritda proteinuriya kuzatiladi bu esa oqsil miqdorining kamayishiga sabab bo'ladi. Surunkali gepatit C kasalligida oqsil sintezining izdan chiqishi hisobiga qondagi oqsil kamayadi.

Glyukoza normal holatda 4.44-6.66 mmol/lni tashkil etadi. Glyukoza miqdori ortishi esa gepatit yoki qandli diabet II tip bilan og'rikan bemorlarda kuzatildi. Qandli diabet bilan og'rikan bemorlarda plazmada glyukoza miqdori ortishi ma'lum.

Mochevina va kreatinin miqdori ortishi esa surunkali piyelonefrit yoki gepatit C bilan og'rikan bemorlarda aniqlandi. Kreatinin – azot almashinuvini oxirgi mahsuloti hisoblanadi. U mushak to'qimasida fosfokreatindan hosil bo'ladi. C-reaktiv oqsil ortishi esa gepatit C, qandli diabet II tip, surunkali piyelonefrit bilan og'rikan bemorlarda kuzatildi. C-reaktiv oqsil organizmda yallig'lanish jarayonida ko'payadigan o'tkir faza oqsillari guruhiga kiradi. Pnevmonoklarning polisaxarid qismini o'ziga bog'lab olish xususiyatiga ega. Mikroblarni opsonizatsiya qiladi.

**Xulosa.** Shifoxonadan tashqari ikki tomonlama interstitsial pnevmoniya bilan, asosan, birinchi navbatda yurak –qon tomir sistemasi kasalliklari bilan kasallangan bemorlar og'riydi. Yurak –qon tomir sistemasi kasalliklaridan YuIK bilan zararlanganlar asosiy o'rinni egallaydi. O'pka to'qimasining zararlanishi va yosh o'rtasida bog'liqlik mavjud. Bemor qancha yosh bo'lsa, kompensator mexanizmlar (puls va nafas olishlar soni ortishi) hisobiga o'pka shuncha kam zararlanadi. O'pka to'qimasining zararlanishi AG va piyelonefrit bilan og'rikan bemorlarda yuqoriligi sababli, zararlanish o'pka qon tomirlarida bosim ortishi bilan bog'liq. Kasallikning asorat qoldirishi ham yondosh kasalliklarga bog'liq. Kasallikning asorati sifatida nafas yetishmovchiligining shakllanish ehtimoli AG va piyelonefrit bilan og'rikan bemorlarda yuqori. Kasallikning asorati sifatida nafas yetishmovchiligi shakllanishi arterial bosim yuqoriligi bilan bog'liq bo'lib, arterial qon bosimi qancha ortsa, asorat qoldirish xavfi shuncha ortadi. Kasallikning asorat sifatida qorinchalar ekstrasistoliyasi rivojlanishi YuIK va AG bilan og'rikan bemorlarda yuqori. Kasallikning asorat qoldirish ehtimoli yoshlar bo'yicha bemor yoshi qancha kichik bo'lsa, xavf shuncha ortadi. Shifoxonadan tashqari ikki tomonlama interstitsial pnevmoniya kasalligi organizmda kechayotgan surunkali kasalliklarning remissiya davrini qisqartirib, qo'zish davriga sabab bo'ladi. Kasallikning patogenezida shundan kelib chiqqan holda bemorda latent davrda kechayotgan kasalliklar, yondosh kasalliklar asosiy rolni egallaydi. Ushbu kasallikda kuzatilgan biokimyoviy o'zgarishlar asosida organizmning rezistentligi, reaktivligi pasayishi yotadi. Demak, ushbu kasallik patogenezida endogen faktorlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois kasallikni davolashda va profilaktik chora-tadbirlarni tashkillashtirganda yondosh va fon kasalliklarga qarshi o'tkaziladigan davo choralari samaradorlikni sezilarli darajada orttirishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Novel Coronavirus Pneumonia Emergency Response Epidemiology Team. Vital surveillances: the epidemiological characteristics of an outbreak of 2019 novel coronavirus diseases (COVID-19) – China. *China CDC Weekly*. 2020;2(8):113-22
2. Raghu G., Collard H.R., Egan J.J. et al. An official ATS/ERS/JRS/ALAT statement: idiopathic pulmonary fibrosis: evidence\_based guidelines for diagnosis and management. *Am. J. Respir. Crit. Care Med.* 2011; 183: 788–824.
3. Travis W.D., Costabel U., Hansell D.M. et al. An official American Thoracic Society/European Respiratory Society statement: Update of the international multidisciplinary classification of the idiopathic interstitial pneumonias. *Am.J. Respir. Crit. Care Med.* 2013; 188: 733–748.
4. Solomon J.J., Chartrand S., Fischer A. Current approach to connective tissue disease-associated interstitial lung disease. *Curr. Opin. Pulm. Med.* 2014; 20: 449–456.
5. Vij R., Strek M.E. Diagnosis and treatment of connective tissue disease-associated interstitial lung disease. *Chest.* 2013; 143: 814–824.
6. Fischer A., du Bois R. Interstitial lung disease in connective tissue disorders. *Lancet.* 2012; 380: 689–698.

## VOYAGA YETMAGAN SHAXSLAR ISHLARINI SURISHTIRUV VA DASTLABKI TERGOV JARAYONIDA YURITISH TARTIBI

*Raximov Nodirbek Mutalliyevich*

*Namangan Davlat universiteti Yuridik fakulteti magistranti.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada voyaga yetmagan shaxslar ishlarini surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida yuritish tartibi, voyaga yetmaganlarning jinoyatlari to'g'risidagi ishlarni yuritishning o'ziga xos xususiyatlari, voyaga yetmaganlarning jinoyatlariga doir ishlarni tergov qilish, surishtiruv, dastlabki tergov harakatlari va sud muhokamasi davrida voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar, ehtiyot choralarini qo'llash, voyaga yetmagan shaxsni javobgarlikdan yoki jazodan majburlov choralarini qo'llagan holda ozod qilish masalalari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Voyaga yetmaganlar, o'zini tuta bilish, tergov harakatlari, sud muhokamasi, sud terгови, isbot qilinishi lozim bo'lgan holatlar, qonuniy vakil, advokat, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, ehtiyot choralari, javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish, majburlov choralari.

## ПОРЯДОК ПРОИЗВОДСТВА ДОЗНАНИЯ И ПРЕДВАРИТЕЛЬНОГО СЛЕДСТВИЯ В ОТНОШЕНИИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ

*Рахимов Нодирбек Муталлиевич*

*Магистр Наманганского государственного университета юридического факультета.*

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются порядок дознания и предварительного следствия в отношении несовершеннолетних, особенности правонарушений несовершеннолетних, расследования правонарушений несовершеннолетних, дознания, предварительного следствия и правонарушений несовершеннолетних, применения в необходимых случаях мер пресечения, освобождения несовершеннолетнего от ответственности или наказания принудительными мерами.

**Ключевые слова:** Несовершеннолетний, самоконтроль, следственные действия, судебное разбирательство, судебное разбирательство, обстоятельства, подлежащие доказыванию, законный представитель, защитник, подозреваемый, обвиняемый, меры пресечения, освобождение от наказания или наказания, меры принуждения.

## THE PROCEDURE FOR CONDUCTING AN INQUIRY AND PRELIMINARY INVESTIGATION IN RELATION TO MINORS

*Rakhimov Nodirbek Mutallievich*

*Master of Namangan State University Faculty of Law*

**Annotation:** This article discusses the order of inquiry and preliminary investigation in relation to minors, the features of juvenile delinquency, the investigation of juvenile delinquency, inquiry, preliminary investigation and juvenile delinquency, the application, if necessary, of preventive measures, the release of a minor from liability or punishment by coercive measures.

**Keywords:** Minor, self-control, investigative actions, trial, trial, circumstances to be proven, legal representative, defender, suspect, accused, preventive measures, release from punishment or punishment, coercive measures.

Bola huquqlari inson huquqlari tizimida alohida o'rin tutishi, bir necha omillar bilan tavsiflanadi, bir tomondan, bolalar kattalar ega bo'lgan va foydalanadigan huquqlarning hammasidan ham foydalana olmaydilar, ikkinchi tomondan aynan ularning hali voyaga yetmaganliklari sababli, davlat va jamiyat tomonidan alohida g'amxo'rona munosabat ko'rsatilishi va ayrim imtiyozlar berilishi talab etiladi. Shu bilan birga, katta yoshdagilar va voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilingan jinoyat ishlarini ko'rishning bir biridan nafaqat yosh jihatidan balki, sifat jihatidan ham farq qiladigan xususiyatlari mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 547-moddasida voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritish tartibi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, ushbu moddaga muvofiq, jinoyat qilgunga qadar o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritish tartibi umumiy qoidalar, shuningdek JPKning 548 — 564-moddalari asosida belgilanadi. Voyaga yetmagan shaxsga ayblov e'lon qilish vaqtida himoyachi bilan bir qatorda voyaga yetmagan shaxsning qonuniy vakili ham ishtirok etadi.

Voyaga yetmagan gumon qilinuvchini va ayblanuvchini so'roq qilish himoyachi, qonuniy vakil ishtirokida amalga oshiriladi. Himoyachi va qonuniy vakil gumon qilinuvchiga va ayblanuvchiga savollar berishga haqli. So'roq yakunlangach, himoyachi va qonuniy vakil bayonnoma bilan tanishishga va u haqda o'z mulohazalarini bildirishga haqli. Voyaga yetmagan gumon qilinuvchini, ayblanuvchini so'roq qilishning umumiy davomiyligi kun davomida dam olish va ovqatlanish uchun bir soatlik tanaffusni hisobga olmaganda olti soatdan oshmasligi kerak. Voyaga yetmagan gumon qilinuvchini yoki ayblanuvchini so'roq qilishda surishtiruvchining, tergovchining yoki prokurorning ixtiyoriga ko'ra yoxud voyaga yetmagan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi himoyachisining, qonuniy vakilining iltimosiga binoan pedagog va (yoki) psixolog ishtirok etishi mumkin. Pedagogning va (yoki) psixologning ishtirokini ta'minlash jinoyat ishini yuritayotgan surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning yoki sudning zimmasiga yuklatiladi. Pedagog va (yoki) psixolog surishtiruvchining, tergovchining ruxsati bilan gumon qilinuvchiga yoki ayblanuvchiga savollar berishga, so'roq tugaganidan so'ng esa, so'roq bayonnomasi bilan tanishib, bayonnomadagi yozuvlarning to'g'riligi va to'liqligi haqida o'z fikrlarini yozma shaklda bayon etishga haqlidir. Bu huquqlar surishtiruvchi, tergovchi tomonidan pedagogga va (yoki) psixologga voyaga yetmagan shaxsni so'roq qilishdan oldin tushuntiriladi va bu haqda so'roq bayonnomasida qayd qilinadi.

Jinoyat protsessual kodeksining 236-moddasida nazarda tutilgan asoslar bo'lgan taqdirda voyaga yetmagan ayblanuvchiga ushbu Kodeksning 237-moddasida nazarda tutilgan ehtiyot choralaridan birini qo'llash mumkin. Voyaga yetmagan shaxs ota-onasining, homiylar, vasiylarning qaroviga yoki, bosharti u bolalar muassasasida tarbiyalanayotgan bo'lsa, shu muassasa rahbarlarining qaroviga ham berilishi mumkin.

Voyaga yetmagan ayblanuvchiga nisbatan ehtiyot choralari qo'llanilgani to'g'risida uning qonuniy vakiliga, agar bunday vakil bo'lmasa, boshqa qarindoshlariga xabar qilinadi.

Voyaga yetmagan shaxsni ota-onasi, vasiylar, homiylar yoki bolalar muassasasi rahbarlarining qaroviga topshirish mazkur shaxslardan birontasi voyaga yetmaganning surishtiruvchi, tergovchi, prokuror huzuriga va sudga o'z vaqtida kelishini, shuningdek ayblanuvchining ushbu Kodeks 46-moddasida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarishini ta'minlash mas'uliyatini yozma ravishda o'z zimmasiga olishidan iboratdir. Voyaga yetmaganni ota-onasining, vasiylarning, homiylarning yoki boshqa shaxslarning qaroviga topshirish ularning, shuningdek voyaga yetmagan shaxsning o'zining roziligi bilangina amalga oshiriladi. Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud voyaga yetmagan shaxsni qarovga topshirishdan oldin ota-onalar, vasiylar yoki homiylarning shaxsi, ularning voyaga yetmagan shaxs bilan o'zaro munosabati haqida ma'lumot to'plashi va ular o'smirni qarov ostiga olishni lozim darajada amalga oshirishga qodir ekanligiga ishonch hosil qilishi kerak. Ayblanuvchi o'z vazifasini bajarmagan taqdirda uni o'z qaramog'iga olgan shaxs qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka tortilishi mumkin. Ehtiyot choralari qo'llash uchun asoslar bo'lgan taqdirda, voyaga yetmagan ayblanuvchini, sudlanuvchini turmush va tarbiyalanish sharoitiga ko'ra ilgarigi yashash joyida qoldirib bo'lmasa, u surishtiruvchining, tergovchining prokuror sanksiya bergan qaroriga yoki sudning ajrimiga binoan bolalar muassasasiga joylashtirilishi mumkin.

Ehtiyot chorasini sifatida qamoqqa olish yoki uy qamog'ini voyaga yetmagan shaxsga nisbatan faqat ushbu Kodeksning 236-moddasida nazarda tutilgan asoslar bo'lganda va unga besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tayinlanishi mumkin bo'lgan qasddan jinoyat sodir etganlikda ayb e'lon qilingan hamda ayblanuvchining munosib xulq-atvorda bo'lishini boshqa ehtiyot choralari ta'minlay olmaydigan taqdirda qo'llanilishi mumkin.

Voyaga yetmagan shaxsga nisbatan qamoqqa olish yoki uy qamog'ini tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi masalani ko'rib chiqishda prokuror ish materiallari bilan shaxsan tanishib chiqishi, iltimosnomaning asoslilikini tekshirishi, hodisaning favquloddaligiga ishonch hosil qilishi va ayblanuvchini ushbu ehtiyot chorasini qo'llash bilan bog'liq holatlar bo'yicha so'roq qilishi shart.

Voyaga yetmaganlar ishlari yuzasidan xorijiy davlatlar jinoyat protsessual qonunchiligi normalariga e'tibor qaratamiz. Rossiya Federatsiyaning Jinoyat protsessual kodeksining XVI bo'limi Ayrim toifadagi jinoyat ishlari bo'yicha ish yuritishning xususiyatlariga bag'ishlangan bo'lib, 50-bob, 420-432 moddalarida Voyaga yetmaganlarga oid jinoyat ishlari bo'yicha ish yuritish bo'yicha qoidalar mavjud. Xususan, 420-moddada Voyaga yetmaganlarga oid jinoyat ishlari bo'yicha ish yuritish tartibi quyidagilardan iborat,

1. Mazkur bobning talablari jinoyat sodir etilgan paytga qadar o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarga nisbatan jinoyat ishlari bo'yicha qo'llaniladi.
2. Voyaga yetmagan shaxs tomonidan sodir etilgan jinoyat to'g'risidagi jinoyat ishi bo'yicha ish yuritish ushbu Kodeksning ikkinchi va uchinchi qismlarida belgilangan umumiy tartibda, ushbu bobda nazarda tutilgan istisnolardan tashqari amalga oshiriladi.

Rossiya Federatsiyasi JPKning 425-moddasida Voyaga yetmagan gumonlanuvchini, ayblanuvchini so'roq qilish tartibi ko'rsatilgan. Unga muvofiq, voyaga yetmagan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchini so'roq qilish kuniga 2 soatdan, jami 4 soatdan ortiq tanaffussiz davom ettirilishi mumkin emas. Voyaga yetmagan gumon qilinuvchini, ayblanuvchini, himoyachini so'roq qilishda unga savollar berish huquqiga ega bo'lgan himoyachi ishtirok etadi, so'roq yakunida bayonnoma bilan tanishib, bayonnomaning to'g'ri va to'liqligi to'g'risida mulohaza bildiradi. O'n olti yoshga to'lmagan yoki shu yoshga to'lgan, lekin ruhiy kasallikka chalingan yoki aqli zaif bo'lgan voyaga etmagan gumon qilinuvchi, ayblanuvchini so'roq qilishda o'qituvchi yoki psixolog ishtirok etishi shart. Tergovchi, surishtiruvchi voyaga etmagan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchini so'roq qilishda himoyachining iltimosiga binoan yoki o'z tashabbusi bilan o'qituvchi yoki psixologning ishtirokini taminlaydi. O'qituvchi yoki psixolog tergovchi, surishtiruvchining ruxsati bilan voyaga etmagan gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga savollar berishga, so'roq yakunida esa so'roq bayonnomasi bilan tanishib chiqishga haqli. Tergovchi, surishtiruvchi tomonidan voyaga etmagan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchini so'roq qilishdan oldin o'qituvchi yoki psixologga tushuntiriladi, bu haqda bayonnomada qayd etiladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 559-moddasiga muvofiq, voyaga yetmagan ayblanuvchiga surishtiruv, dastlabki tergov tamomlanganligi e'lon qilinib, unga ish materiallari ko'rsatilayotganda uning qonuniy vakili ishtirok etadi. Surishtiruvchi, tergovchi qonuniy vakilga ayblanuvchini ish materiallari bilan tanishtirish vaqti va joyi to'g'risida xabar berishi kerak. Surishtiruvchi, tergovchi voyaga yetmagan ayblanuvchiga uning shaxsi shakllanishiga salbiy ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ish materiallarini tanishish uchun ko'rsatmaslik to'g'risida qaror chiqarishga haqlidir. Voyaga yetmagan sudlanuvchining himoyachisi, qonuniy vakili, shuningdek prokurorning fikrini eshitib, voyaga yetmagan shaxsga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan holatlar tekshirilayotganda sud o'z ajrimi bilan uni sud zalidan chiqarib turishga haqli. Voyaga yetmagan shaxs sud zaliga qaytarilganidan so'ng raislik qiluvchi unga yo'qligida bo'lib o'tgan muhokama mazmunini yetarli hajmda va shaklda ma'lum qiladi va uning yo'qligida so'roq qilingan shaxslarga savol berishi uchun voyaga yetmagan imkoniyat yaratib beradi. Sud, zarurat bo'lganda, voyaga yetmagan shaxsning jinoyati to'g'risidagi ishni ko'rish vaqti va joyi haqida voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyaga xabar beradi. Sud, shuningdek bu komissiya vakillarini guvoh sifatida so'roq qilish uchun sud majlisiga chaqirishga haqlidir.



Shuningdek, mazkur kodeksning 563-moddasida voyaga yetmagan sudlanuvchiga nisbatan hukm chiqarishda sud tomonidan hal etiladigan masalalar ko'rsatib o'tilgan bo'lib, unga ko'ra voyaga yetmagan sudlanuvchiga nisbatan hukm chiqarishda sud, ushbu Kodeksning 457-moddasida ko'rsatilgan masalalardan tashqari, basharti voyaga yetmagan shaxs shartli hukm qilinsa, unga ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazo tayinlansa, voyaga yetmagan shaxsga jamoat tarbiyachisi tayinlash zarurligini muhokama qilishga majbur.

Voyaga yetmagan shaxsni javobgarlikdan yoki jazodan majburlov choralari qo'llagan holda ozod qilish kodeksning 564-moddasida ko'rsatib o'tilgan. Unga muvofiq, voyaga yetmagan shaxsni Jinoyat kodeksi 87-moddasining birinchi qismiga muvofiq javobgarlikdan ozod qilib, materiallarni voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyada ko'rishga topshirishda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror qaror, sud esa ajrim chiqaradi. Voyaga yetmagan shaxsga nisbatan ishni ko'rishda Jinoyat kodeksi 87-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan hollarda sud voyaga yetmagan shaxsni jazodan ozod qilish va unga nisbatan majburlov chorasini qo'llanish to'g'risidagi masalani muhokama etishi shart. Sud majburlov chorasini qo'llanish yoki qo'llanmaslik to'g'risida asoslantirilgan ajrim chiqaradi. Majburlov chorasini qo'llanish yoki qo'llanmaslik to'g'risidagi ajrim ustidan umumiy tartibda shikoyat berilishi va protest bildirilishi mumkin.

Voyaga yetmaganlarning jinoyatlariga doir ishlarni tergov qilishda unga yon atrofidagi shaxslarning ta'siri e'tiborga olinishi lozim. Zero, o'smir o'zlashtirgan rol nafaqat u jinoyatga qo'l urushiga turtki berishi, balki uning tergovda o'zini tutish, keyinchalik, u ozodlikdan mahrum etilgan taqdirda, tarbiya koloniyasidagi xulq atvorini belgilashi mumkin. Shu bois, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish uchun eng avvalo, bu borada belgilangan tadbirlar huquqni muhofaza qilish organlari, jamoat tashkilotlari va boshqa davlat organlari bilan birgalikda olib borilishi kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <http://www.lex.uz>
2. . O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi. Toshkent. 1994 yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Qarori. 2000-yil.
4. Alohida toifadagi jinoyat ishlarini yuritish va ularni takomillashtirish muammolari. Toshkent. "Yangi asr avlodi". 201- yil
5. Rossiya Federatsiyasi Jinoyat protsessual kodeksi. 2001 y. N 174-FZ

## MUSTAQIL TA'LIM – TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNI VA IJODIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMIL

*M. Raxmatov (dotsent)*

*M. Rasulova (katta o'qituvchi)*

*Shakarov Bahodir (3-bosqich talaba)*

*Sh. Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim sifatini va talabalarda ijodiy faoliyatini rivojlantirishda asosiy omillardan biri mustaqil ta'lim ekanligi “Elektr energiyasidan xalq xo'jaligida foydalanish” fanida “Elektr energiyasini ishlab chiqarishni muqobil manbalarini O'zbekistonda qurish bo'yichaolib borilayotgan ishlar misolida ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** elektr energiyasi, muqobil energiya manbalari, quyosh elektr stansiyalari, shamol elektr stansiyalari, gidroelektr elektr stansiyalar, ta'lim sifati, ijodiy faoliyat, mustaqil ta'lim, investitsiya, taraqqiyot strategiyasi, zararli chiqindilar.

Ma'lumki, Oliy ta'lim tizimida olib borilayotgan ta'lim – tarbiya ishlarining samaradorligi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy islohotlarning natijadorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Shu sababli keyingi 2 – 3 yillarda Oliy ta'lim tizimida qabul qilinayotgan qonun, farmonlar, qarorlar va boshqa hujjatlar ta'lim sifatini oshirishni ta'minlashga qaratilgan. Misol sifatida 2020 – yilda qabul qilingan “Ta'lim tog'risida”gi qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida” gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi taraqqiyot davrida ta'lim – tarbiya va ilm – fan sohalarini rivojlantirishning chora – tadbirlari to'g'risida”gi PF – 6108 – sonli farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 – yil 6 – noyabrdagi “Ta'lim – tarbiya tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida” gi PQ – 4884 – sonli qarori, Yangi O'zbekistonni 2022 – 2026 – yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi va boshqa hujjatlarda ta'lim sifatini oshirish vazifasi va uni yechish yo'llari aniq ko'rsatib berilgan. Ma'lumki, umumiy o'rta maktablar uchun texnologik ta'lim fani bo'yicha bo'lajak mutaxassis – o'qituvchilarni tayyorlashda o'quv – rejasida “Elektr energiyasidan xalq xo'jaligida foydalanish” fanini o'qitish ham kiritilgan.

Ushbu maqolada biz “Elektr energiyasidan xalq xo'jaligida foydalanish” fanida o'rgatiladigan “Elektr energiyasini ishlab chiqarish usullari” mavzui misolida ta'lim sifatini oshirish va talabalar ijodiy faoliyatini rivojlantirishda mustaqil ta'limning ahamiyati to'g'risida to'xtalib o'tamiz.

Adabiyotlardan ma'lumki, ta'lim sifatini oshirish va shu bilan birgalikda talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda mustaqil ta'limning quyidagi turlaridan keng foydalanish mumkin:

1. Yangi bilimlarni olish, mustaqil bilim olish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.
2. Bilimlarni aniqlash va mustahkamlash.
3. Amaliy xarakterga ega bo'lgan ko'nikma va malakalarni shakllantirish.
4. Ijodiy xarakterga ega bo'lgan ko'nikma va malakalarni shakllantirish va boshqalar.

Ta'lim sifatini oshirishda mustaqil ta'limning boshqa turlari va usullaridan ham foydalanish mumkin. Masalan, biz asosiy maqsadli har xil manbalardan mustaqil holda yangi bilimlar olish turidan foydalanamiz.

Ma'lumki, elektr energiyasidan xalq xo'jaligida foydalanish fanida elektr energiyasi ishlab chiqaradigan issiqlik elektr stansiyalari, gidroelektr stansiyalar, atom elektr stansiyalari to'g'risida materiallar berilgan, ammo muqobil manbalar to'g'risida ma'lumotlar berilmagan. Shuning uchun elektr energiyasi ishlab chiqarishning noan'anaviy, ya'ni yangi energiya olish manbalarini izlab topish va ulardan foydalanish to'g'risida asosiy bilimlarga ega bo'lish katta ahamiyatga ega. Qolaversa, tabiiy boyliklar zaxirasi cheklangan bo'lib, vaqti kelib ularning tugashi allaqachon isbotlangan. Hisob kitoblarga qaraganda neft 45 – 50 yilga, tabiiy gaz 70 – 75 yilga, ko'mir esa 150 – 160 yilda yetar ekan.

Shuning uchun elektr energiyasi ishlab chiqarishning yangi manbalarini izlab topish davr talabi bo'lib qoldi. Bunga yana asosiy sabablardan biri hozirgi vaqtda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining quvvati xalq xo'jaligining hamma sohalarini va aholining ehtiyojini to'la qondira olmayapti. Mustaqil ta'limning ta'lim sifatini oshirishdagi va talabalar ijodiy faoliyatini rivojlantirishdagi ahamiyatini muqobil energiya manbalari misolida adabiyotlardan foydalangan holda ko'rib o'tamiz. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, muqobil energiya masalasi hozir dunyodagi asosiy eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Masalan 2020 – yilda muqobil energiyani joriy etish bo'yicha jahon rekordi o'rnatilib, 200 G Vt dan ko'proq quvvatlar ishga tushirildi. Bloomberg NEF kompaniyasi ekspertlari qayd etishicha, dunyoda koronavirus pandemiyasi hukm surishiga qaramay bunday natijaga Quyosh elektr energiyasi va vadorod transporti tarmog'iga juda katta miqdorda investitsiyalar yo'llanishi hisobiga erishildi. Xususan, quyosh energiyasining o'ziga 150 milliard AQSH dollari, ya'ni 2019 – yilga nisbatan 12 % ko'p sarmoya kiritilgan. O'zbekistonda ham muqobil energiya manbalaridan foydalanish bo'yicha ma'lum bir ishlar boshqa mamlakatlar bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda, ana shularga qisqacha to'xtalib o'tamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 – yil 22 – avgustdagi qaroriga asosan, yurtimizda 2030 – yilga borib muqobil energiya manbalarining elektr quvvati ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushini ikki barobarga oshirish belgilab berilgan edi. Hozirgi vaqtda bu ko'rsatkich 12 – 14 % ni tashkil etadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda quyosh energiyasidan foydalanish uchun juda katta imkoniyatlar bor. Chunki respublikamizdagi aktinometrik stansiyalar tarmog'ining ko'p yillik kuzatuvlari yurtimizda yilning 300 – 320 kuni quyosh saxovatidan to'la bahra olishini, turli hududlarga yiliga 2400 dan 3090 soatgacha yog'du taralib turishini ko'rsatdi. Uning yillik quvvati 509 dan 760 milliard klovatt soatgacha bo'lib, bu mavjud va tadqiq qilingan uglevodorod zaxiralari nisbatan ancha ko'p. Agar bunga bir trillion KVt soatgacha bo'lgan shamol, 21 milliard KVt soatdan ortiq gidroenergetika, 6 milliard kub metr hajmdagi biomassa va hali quvvati to'liq aniqlanmagan vodorod qo'shilsa, muqobil energetikaning salohiyati nihoyatda ulkanligini ko'ramiz. Biroq yaqin vaqtlarda muqobil energetikadan foydalanish bo'yicha deyarli amaliy ishlar qilinmagan edi. Shukurkim, 2017 – yildan boshlab muqobil energetikadan foydalanishga katta e'tibor berila boshlandi. Bu borada 2019 – yil 22 – maydan kuchga kirgan “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida”gi qonun katta ahamiyat kasb etdi. Ana shu qonunga asosan tadbiiq etiladigan yirik loyihalarga asosan o'n yil ichida umumiy quvvati 5000 megavatt bo'lgan quyosh va 3000 megavattga teng bo'lgan shamol elektrstansiyalarni qurish rejalashtirilgan.

2019 yildan boshlab muqobil energiya manbalaridan foydalanib elektr energiyasi ishlab chiqarish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishda o'zimizdagi mutaxassis tashkilotlardan tashqari jahonning Xitoy, Janubiy Kareya, Yaponiya, Saudiya Arabistoni, BAA, Hindiston, Janubiy Afrika, Rossiya, Norvegiya, Ispaniya va Fransiya kabi mamlakatlarning yetuk kompaniyalari bilan ham hamkorlik ishlari olib borilmoqda, bunga misol qilib quyidagilarni olishimiz mumkin.

Prezidentimizning 2020 – yil 14 – apreldagi “Navoiy viloyatida quvvati 100 MVt bo'lgan fotoelektrik stansiyani qurish” investitsiya loyihalashini amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida”gi qarorga asosan Navoiy viloyatida 100 MVt quvvatli fotoelektr quyosh elektrstansiyasini qurish ishlari BAA “Masdar” kompaniyasining loyihasi asosida olib borilayapti va bu Navoiy viloyatining Karmana tumanida 268 gektar maydonni tashkil qiladi. Elektr energiyasini ishlab chiqarish va uzatishni loyihalashtirish hamda infratuzilmasini yaratishga ixtisoslashtirilgan Xitoyning “SECO” kompaniyasi loyihasiga bosh pudratchi hisoblanadi. Xuddi shuningdek, Navoiy viloyatining Zarafshon shahri yaqinida ikkinchi investitsiyaviy loyiha quvvati 500 MVt dan 1,5 gacha bo'lgan shamol elektr stansiyalarini ham qurishi BAA ning “Masdar” kompaniyasi tomonidan amalga oshirilmoqda va bu ishlar 2024 yilning oxiriga qadar yakunlanish rejalashtirilgan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu ishlab chiqariladigan elektr energiyasi 1,5 million xonadonga yetgan holda 3,3 million tonna karbonat angidridning kamayishini ta'minlaydi. 2021 yilning 19 – aprel kuni Saudiya Arabistonning “ACWA POWER” kompaniyasi rahbari bilan O'zbekiston investitsiyalar va tashqi savdo vaziri tomonidan o'tkazilgan muzokarada amaldagi qo'shma loyihalarni hayotga tadbiiq etish, shuningdek muqobil energiya sohasida investitsiyaviy

hamkorlikni yanada kengaytirish istiqbollari muhokama etildi. Bunda Sirdaryo issiqlik elektr stansiyasi negizida quvvati 1500 MVT bo'lgan kombinatsiyalangan skill elektr stansiyasi qurilishining borishi, Qoraqolpog'istonda umumiy quvvati 1,5 GVt gacha bo'lgan yangi shamol elektr stansiyalarini qurish, Buxoro viloyatida umumiy qiymati 1,0 GVt bo'lgan ikkita shamol elektr stansiyalarni qurishiga kelishib olindi.

Mamlakatimiz qayta tiklanadigan energiya manbalarini loyihalarida qatnashish bo'yicha yaxshi shartlarni taklif qilgan yirik kompaniyalar bilan bevosita muzokaralarni faol davom ettirayapti. Masalan, Fransiyaning "Tota Erin" kompaniyasi tomonidan Samarqand viloyatining Nurobod tumanida quvvati 100 MVt bo'lgan quyosh elektr energiyasini qurish rejalashtirilgan. Xuddi shuningdek, 2020 – yilda "Scalling Solar II" doirasida tenderlarning navbatdagi bosqichi o'tkazilganda Samarqand va Jizzax viloyatlarida har biri 200 MVt li quvvatga ega bo'lgan ikkita fotoelektr quyosh stansiyasi qurilishi uchun tenderda qatnashish uchun jahonning 83 ta kompaniya va konsortsiumlari hamkorlik ishlarini olib borishi uchun tayyor ekanligini bildirishgan.

Bulardan tashqari bitta loyihani Surxandaryo viloyatining Sherobod tumanida ishga tushirish 2020 – yil 1 – fevraldan Osiyo taraqqiyot banki ko'magida ishlari olib borilayapti.

Bu quyosh elektr stansiyalarning quvvati kamida 200 MVt o'zgaruvchan tok quvvatiga ega. Shuningdek, ikkinchi loyiha 300 MVt quvvatga ega fotoelektr stansiyasini ham Sherobod tumanida qurib 2024 – yilning oxirigacha ishga tushirish rejalashtirilgan. Yillik ishlab chiqarish 1,1 milliard KVt soatdan ortiq bo'lgan 500 MVt quvvatga ega bo'lgan 2 ta FES viloyatidagi elektr energiyasi iste'molining taxminan 30 foizini ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladi. O'zbekistonda yaqin besh yillarda muqobil energiya manbalaridan foydalanib elektr energiyasi olish bo'yicha rejalashtirilgan ishlar ya'ni O'zbekistonning 2022 – 2026 – yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi loyihasida aniq ko'rsatib berilgan. Ushbu loyihaga asosan 2026 – yilga kelib 8 ta shamol elektr stansiyasini qurish evaziga 4 GVt elektr energiyasi ishlab chiqarish, quyosh fotoelektr stansiyalarining quvvatini GVt ga yetkazish uchun qo'shimcha 10 ushbu turdagi stansiya ishga tushirish rejalashtirilmoqda. Shu bilan birga 15 ta gidroelektr stansiya quriladi va mavjudlari modernizatsiya qilinadi. Yaqin besh yillikda mamlakatimizning turli hududlaridagi bir millionga yaqin uy xo'jaliklarini uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlash imkoniyati yaratilib, yiliga 3 milliard kubmetr tabiiy gaz tejaladi. Atmosferaga chiqiriladigan zararli chiqindilarning hajmi 8 million tonnagacha kamaytiriladi.

Xuddi shuningdek, taraqqiyot strategiyasida "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish orqali 2026 – yilga qadar iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 % ga oshirish va havoda chiqariladigan zararli gazlar hajmini 20 % ga kamaytirish choralari hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish va qo'llab quvvatlash masalasiga katta e'tibor berilgan.

Taraqqiyot strategiyasida qo'yilgan vazifalardan gidroelektr stansiyalar qurish masalani yechishda quyidagi asosiy fakti misol sifatida keltirishimiz mumkin. O'zbekiston va Tojikiston Respublikalarining Prezidentlari Sh. Mirziyoyev va E. Raxmon 2 – iyunda Zarafshon daryosida 2 ta gidroelektr stansiyalari qurishga kelib olishdi hamda bu ikki bosqichda amalga oshiriladigan bo'ldi. Birinchi bosqichda, yiliga o'rtacha 832 million kilovatt soat elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi, quvvati 140 MVt ga teng Yovon gidroelektrstansiyasi qurilishi amalga oshiriladigan bo'ldi. Ikkinchi bosqichda, yiliga o'rtacha 560 million kilovatt soat elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi, quvvati 135 MVT ga teng bo'lgan Fandaryo gidroelektr stansiyasini qurish amalga oshiriladigan bo'ldi. Mazkur loyihalarning yillik umumiy ishlab chiqarish hajmi 1400 mln kVt soatni tashkil etadi. Bu esa o'z navbatida 600 mingdan ortiq oilani elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojini qondirish imkonini beradi. Mazkur gidroinshootlarini qurilishi yuzasidan loyihaning buyurtmachisi etib, tomonlar ishtirokida aksiyadorlik jamiyati shaklida "TaUzHIDRO" qo'shma korxonasi tashkil etildi va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish rejalashtirildi. Mazkur loyihani moliyalashtirishga yetakchi xalqaro institutlar, shu jumladan Osiyo taraqqiyot banki hamda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki yordamlashmoqchi. Shunday qilib mamlakatimizda muqobil energiyadan foydalanish ishlari xalqaro kompaniyalar bilan birgalikda amalga oshirilmoqda.

Demak talabalar mavzu bo'yicha mustaqil ta'limni biz ko'rsatib o'tganimizdek har xil manbalardan olingan materiallar bilan amalga oshirsa bajarilgan ishlar samaradorligi ortadi. Shunday qilib, kuzatishlar va tajribalar shuni ko'rsatdiki, barcha fanlar bo'yicha mavzularni o'rganishda talabalarning mustaqil ta'lim ishlari shu fanlarni o'zlashtirishda ta'lim sifatini oshirish bilan birgalikda talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirar ekan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim tog'risida" gi qonun. Toshkent shahri 2020 – yil 23 – sentabr O'RQ – 637.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 – yil 6 – noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim - tarbiya va ilm – fan sohalarini rivojlantirishning chora tadbirlar tog'risida" gi PF – 6108 – sonli farmoni. Toshkent. 6 – noyabr 2020 – yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 – yil 6 – noyabrdagi "Ta'lim – tarbiya tizimini yanada takomillashtirish. To'g'risida"gi PQ – 4884 – sonli qarori. Toshkent 6 – noyabr 2020 – yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 – yil 28 – yanvardagi "Yangi O'zbekistonning 2022 – 2026 – yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF – 60 – sonli farmoni. Toshkent. 28 – yanvar 2022 – yil.
5. M. Raxmatov, N. Jalilov, O. Eshniyozov. The importance of independent education in the training of qualified professionals. Proceedings of International scientific – Practical Conference on "Cognitive research in education" 15<sup>th</sup> April 2021. Uzbekistan 2021. 753 – 756 p.
6. Валиулина Д. М, Зимняков С. А, Козлов В. К. В Введение в специальность. Учебное пособие для студентов. Электро энергетика и электро техника Казан. 2008 г. 116 стр.
7. В. С. Холянов, О. М. Холянов. Основы электроэнергетики. Учебное пособие. Владивосток. Изд. ДВГЕУ. 2007 гг.
8. M. Raxmatov, N. Jalilov, O. Eshniyozov. "Elektr energiyasidan xalq xo'jaligida foydalanish" uslubiy qo'llanma. Samarqand 2021. 124 bet.
9. Raxmatov M., O. Eshniyozov, N. Jalilov "Talim sifatini oshirish va talabalar ijodiy faoliyatini rivojlantirishda mustaqil ta'limning ahamiyati. Pedagogical sciences and teaching methods. International conference (COPENAGEN) 2022 15 march Part 11,75 – 79.



## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KREATIVLIGINI OSHIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH

*Raxmatova Hamida Ismatillo qizi*

*Termiz davlat universiteti*

*Ijtimoiy fanlar fakulteti 2-bosqich talabasi.*

**Annotatsiya:** Har jihatdan rivojlanib borayotgan zamonda kuchli kadr bo'lish, har bir muammoga kreativ yondashish muhim masalalardan biriga aylanib ulgurdi. Bu muammoarni hal qilishda esa ta'lim jarayonini yuqori darajada tashkil qilish zarur. Ta'limda ijobiy natijalarga erishish, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilim asoslarini puxta o'rgatish, ularda dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamini kengaytirish, ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish borasidagi ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish bilan belgilanadi. Bu borada ta'lim-tarbiya jarayoniga ko'plab o'zgartirishlar kiritilmoqda, yangicha yondoshuvlar tadbiiq etilmoqda. Keltirilgan ushbu maqolada boshlang'ich sinf oquvchilarining kreativligini oshirishda didaktik o'yinlardan foydalanish yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Didaktika, o'yin, didaktik o'yinlar, tinch o'yinlar, harakatli o'yinlar, aralash turdagi o'yinlar, musobaqa o'yinlar, sahnali o'yinlar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son "Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti hamda umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinflari uchun ona tili fani bo'yicha malaka talablari asosida tuzilgan yangi o'quv dasturi Xalq ta'limi vazirining 2017-yil 3-iyundagi "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari talablari asosida takomillashtirilgan o'quv dasturlarini tasdiqlash va amaliyotga joriy etish to'g'risida"gi 190-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan va umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-4-sinflari uchun amaliyotga joriy etilayotgani hamda o'qitishning zamonaviy metodlaridan foydalanish yuqori samaradorlikka olib kelmoqda. Shunday bo'lsada jahon hamjamiyatida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash har jabhada yangiliklar joriy qilish, har bir muammoga kreativlik bilan yechim topishni talab qilmoqda. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. Darslar davomida didaktik o'yinlar metodidan foydalanish zamonaviy ta'lim metodi sanaladi. Bu metod orqali o'quvchilarni topqirlik, sezgirlikka, hozirjavoblikka o'rgatiladi. Ma'lumki 1-sinfga qabul qilinib, maktab ostonasida ilk qadam qo'ygan bolaning faoliyatida o'yin asosiy o'rinni egallaydi. O'yin ularning eng sevimli mashg'uloti bo'lib, ular har qanday mashg'ulotni o'yin bilan uyg'unlashtirishga harakat qiladilar. Shunday ekan o'qituvchi o'quvchi faoliyatidan ularning sevimli mashg'uloti - o'yinni siqib chiqarmasdan, undan maqsadga muvofiq foydalanish bilan ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi. O'yin - bola hayotining uzviy qismidir. O'yin orqali bola atrof - muhit, tabiat hodisalari, manzaralari, buyumlar, o'simliklar, hayvonlar dunyosi bilan tanishadi. Boshlang'ich ta'lim davrida o'quvchilarning aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilishda didaktik o'yinlar alohida ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlar jarayonida o'quvchilar o'yin qoidalariga qat'iy rioya qilishga o'rganadilar, inoqlik his - tuyg'ulari, dunyoqarashlari shakllanib boradi. Ta'lim jarayonida didaktik o'yinlar o'quvchilarning xususiyatiga ko'ra tashkil etilishi kerak. Bu esa ularga bilim berishni yengillashtirishga, ko'rgazmalilikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarni toliqtirmaslik, zeriktirmaslik imkonini yaratadi. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan didaktik o'yinlar 2 xil tasnifga ega.

Mazmuniga ko'ra:

1. Tinch o'yinlar; 2. Harakatli o'yinlar; 3. Aralash turdagi.

Amalga oshirish shakliga ko'ra:

1. Musobaqa o'yinlar; 2. Sahnali o'yinlar.

Ta'lim va o'qitish mazmunining nazariy masalalarini, uning shakli va uslublarini pedagogikaning bir qismi bo'lgan didaktika o'rganadi.

Umuman pedagogika singari didaktika ham rivojlanadi. Uning rivojlanishiga Yan Amos Kamenskiy hissa qo'shdi. Uning "Buyuk didaktika" asari o'qitishni rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Boshlang'ich ta'lim didaktikaning asoslari Shvetsariya pedagogi I.G. Pestolotsi asarlarida ishlab chiqilgan. Bulardan tashqari rus didaktikasining atoqli namoyondasi K.D. Ushinskiy bo'lgan. U ham o'qitish masalalarini chuqur psixologik asosini yaratdi. O'zbek xalqi orasida ham H.H. Niyoziy, A. Avloniy kabi pedagoglar yetishib chiqdi. Ular ham o'zbek xalq maktablarini ochish, o'quvchilarga darsliklar yozish kabi ishlarni davom ettirdilar. Didaktikaga asoslangan holda biz o'quvchilarga bilim beramiz. Ta'lim jarayonida turli usullardan foydalanamiz. Dars turini to'g'ri va muvaffaqiyatli o'tish uslubini ham to'g'ri tanlasak dars yaxshi natija beradi. Har bir darsni ko'rgazmali va texnika vositalari bilan o'tkazish joizdir. Shundagina dars bilimga boy o'tadi. O'qituvchi izlanuvchan bo'lishi, darslarni rang-barang usulda o'tishi kerak. Dars qiziqarli o'tishi uchun faqat ko'rgazma qurollardan foydalanib qolmay, o'yin elementlaridan, dars davomida harakatli daqiqalardan foydalanish lozim. O'yin elementlaridan nafaqat darsda, balki darsdan tashqari ishlarda konferensiya darslarida foydalanish mumkin. Bu albatta boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallangan. Ular bu yoshda o'yinqaroq, tez zerikuvchan, diqqati tarqoq bo'ladi. O'yin orqali ularni darsga, mavzuga jalb qila olishimiz mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilari yosh bo'lgani uchun ularga sodda tilda tushunarli holda bilim berish va darslarda o'yin elementlaridan foydalanish lozim.

Didaktik o'yinlar jarayonida o'qituvchi o'yinga rahbarlik qilish va bolalarning hatti-harakatlarini doimo kuzatib turishi kerak. Chunki bolalar o'yin jarayonida har tomonlama tarbiyalanadilar. Darslar davomida mavzuga oid o'yinlardan foydalanish o'qituvchining kasb mahoratiga bog'liq. Sababi to'g'ri tanlangan didaktik o'yinlar o'quvchilarning har tomonlama kreativligini oshiradi.

Savod o'rgatish jarayonida quyidagi didaktik o'yinlardan foydalanishni tavsiya qilaman:

**"Kim topog'on?"** o'yini.

Bu o'yinda sinf o'quvchilari kichik guruhlariga bo'linadi. Har bir guruh o'quvchilari biletlarda yashiringan so'zdagi harflar ishtirokida yangi so'z hosil qilishi kerak bo'ladi. Masalan, biletida "O'zbekiston" so'zi yashiringan bo'lsin. Bunda:

O'zbekiston – o'zbek, bek, ek, o'z, kon ....

Eng ko'p so'z topgan guruh o'yin g'olibi deb topiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son "Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti hamda umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinflari uchun ona tili fani bo'yicha malaka talablari asosida tuzilgan yangi o'quv dasturga binoan 2-sinf ona tili darsligining 3-bo'limi "So'z" mavzusiga ajratilgan. O'qituvchi ushbu bo'limda mazkur o'yindan samarali foydalana oladi. Chunki DTS talabiga ko'ra o'quvchilarda bu vaqtda **nutqiy kompetensiya va lingvistik kompetensiya** to'liq rivojlangan bo'ladi.

**"Sezar kodi"** o'yini.

Avvalo alfabetdagi harflar joylashgan o'rniga qarab raqamlanadi. Masalan:

a-1, b-2, d-3, e-4, f-5, g-6, h-7, i-8, j-9, k-10, l-11, m-12, n-13, o-14, p-15...

So'ngra o'qituvchi tomonidan so'z aytiladi, o'quvchilar aytilgan so'zni tartib raqamlari bilan kodlab chiqishadi. Masalan:

Ona- 14131, olam- 1411112, lola-1114111

Kim so'zlarni to'g'ri va tez kodlasa o'sha o'quvchi g'olib deb topiladi.

**"Quruvchilar"**

o'yini.

Bu o'yinda berilgan so'zlarni o'z o'rniga qo'yib, chiroyli va to'g'ri gap tuza olgan o'quvchi g'olib hisoblanadi. Masalan: yetti, qiladi, soat, nonushta, Rustam kabi so'zlardan to'g'ri gap tuzishlari kerak bo'ladi. Kim chiroyli va to'g'ri gaplar ko'p tuzsa, u yaxshi quruvchi hisoblanadi.

**"Kim ziyrak?"** o'yini.

Mazkur o'yindan matematika fanida samarali foydalansa bo'ladi. O'yin taribi quyidagicha:

O'quvchilar 3 qatorga bo'linadilar. Har bir qator o'quvchilari doskaga chiqadi. O'qituvchi toq va juft sonlarni aralashtirib ketma-ket aytadi. Toq son kelganda o'quvchilar qarsak chalishadi. Adashib ketgan o'quvchilar o'yindan chetlashtiriladi.

O'yinlar faqat didaktik vosita bo'lmay, bola hayotining asosiy shaklidir. Shuning uchun biz o'yinning nozik tomonlarini egallamay turib, o'yin faoliyatini boshqarishini o'rganmay turib oldimizda turgan mas'uliyatli vositalarni hal qila olmaymiz. Tilni o'rganish o'quvcilar zehni, aqli, ongi, madaniy darajasini oshiradi va tilni puxta o'rganmay turib, boshqa fanlarni o'zlashtirish qiyin. Chunki har bir predmetni ifodalash, bolaga o'rgatish hamisha so'zlar vositasida amalga oshadi. O'yin orqali bola faoliyati mukammallashadi, ularni jismonan rivojlanishiga yordam beradi. O'yin jarayonida qiyinchiliklarni, to'siqlarni yengishga o'rgatib boradi. O'yin bolalar faoliyatining asosiy turi. Bola o'yin orqali materiallarning ko'rinishi, rangi, tuzilishi turli o'simlik va hayvonot olamidagi o'zgarishlarni anglaydilar. O'yin- bu bolalar uchun o'qish, mehnat qilish va tarbiya vositalaridir. Biroq, darsning asosiy qismini o'yin darsiga aylantirib qo'ymaslik lozim. Bola hayotining asosiy turi o'yindir. "Bola uchun o'yin voqelik"- deb yozgan edi K.D. Ushinskiy, binobarin, tevarak atrofdagi voqelikdir. U bolaga xususan tushunarli bo'lgani uchun qiziqdir, o'yin bolaga shuning uchun tushunarliki, unda qisman bolaning o'zi yaratgan narsa bor. Bolalarning o'yin faoliyati maktabgacha yoshda paydo bo'lib, o'z taraqqiyotida oddiy taqlid qilishdan murakkab rolli o'yinga qadar bo'lgan yo'lni bosib o'tadi, bu o'yin dastlab kishilarning predmetlar bilan bog'liq faoliyatini, so'ngra o'ziga xos xususiyatlarni aks ettiradi. O'yin o'sib borayotgan bola organizmining zaruriy ehtiyojidir va u orqali bolalarda tashkilotchilik ko'nikmalari tarbiyalanadi. Ammo o'yin har qanday sharoitda ham o'yindir. Shunday o'yinlar ham borki, ular bolalarga mustaqillikni, oddiylikni, bir- biriga yordam berish hissini tarbiyalaydi. Yan Amos Kamenskiy Grammatik o'yinlardan sistemali foydalanishning ahamiyati xususida gapirib, bunday deb yozgan edi: "Bola sog'lom bo'lishi uchun u doimiy harakatda bo'lishi zarur, shundagina o'yin qiziqarli o'tadi".

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning kelajagi ko'p jihatdan barkamol, intellektual salohiyatli avlod va unga ta'lim –tarbiya berish sifatiga bog'liq. Bunda kichik yoshdagi maktab o'quvchilari bilan ularning bilish faoliyatini rivojlantirib borish, amaliy ko'nikma hosil etish vazifalari bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning bilish faoliyatini shakllantirib, rivojlantirib borishda o'qituvchilarimiz ta'limning innovatsion texnologiyalaridan foydalanib, o'z darslarini qiziqarli etib tashkillashtirib o'tishlari zarur. Didaktik o'yinlardan foydalanish esa aynan shu muammolarga yechim bo'la oladi.

#### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "Umumiy va O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi qarori, Toshkent shahri, 2017-yil 6-aprel, 187-son.
2. "Pedagogik texnologiya asoslari". J.G'.Yoldoshev,S.A.Usmonov.Toshkent-2004.
3. Shoyimova M, "Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarida turli qiziqarli o'yinlardan foydalanish".
4. Farberman. B.L. "Ilg'or pedagogik texnologiyalar".- T.: 2001.
5. Dadamirzayev G'. "Pedagogik texnologiyalar bo'yicha izohli tayanch so'z va iboralar" . Metodik qo'llanma. –Namangan, NamMPI, 2008 yil, 30-bet.

## TURKIYANING JAHON IQTISODIYOTIDAGI O‘RNI VA YUTUQLARI

*Raxmonova Umida Abdurasul qizi*  
*Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatika universiteti*  
*“Xalqaro huquq” fakulteti 2-kurs talabasi.*

**Annotatsiya.** Maqolada avvalo Turkiya davlatining o‘ziga xos belgilari, ustuvor xususiyatlari borasida so‘z boradi. Hozirgi iqtisodiyotdagi erishgan yutuqlari, ularning sabablari, rivojlanish strategiyalari yoritilgan. So‘nggi qismida Turkiyadagi ayni muammolar o‘rganilib, bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Iqtisodiyot, Taraqqiyot strategiyasi, statistika, Investitsiya, YaIM.

## THE ROLE AND ACHIEVEMENTS OF TURKEY IN THE WORLD ECONOMY

*Rakhmonova Umida Abdurasulovna*  
*2 rd year full-time student of the International Law faculty*  
*the University of World Economy and Diplomacy.*

**Annotation.** The article first of all discusses the specific features and priorities of the Turkish state. The achievements of the current economy, their causes, development strategies are revealed. In the last part, the same problems in Turkey are studied and described.

**Key words:** Economy, Development Strategy, Statistics, Investment, GDP.

Jahon davlatlari orasida iqtisodiyoti tobora jadal rivojlanib kelayotgan Turkiya xalqaro miqyosda o‘zining munosib o‘rinlarini egallamoqda. Geografik o‘rniga ham nazar tashlaydigan bo‘lsak, nihoyatda qulay joylashuv— Osiyo va Yevropa qit‘alari tutashgan Afrika, Amerika va Avstraliya qit‘alariga chiqish chorrahasida joylashgan. U ko‘pgina mamlakatlarni birlashtiruvchi, temir va tosh yo‘llar, suv va havo yo‘llari bilan bog‘lovchi markaziy mintaqalarning birini egallagan. Yuqori rivojlangan va industrial hamda aholisi ko‘p bo‘lgan shaharlarga Anqara, Istambul, Izmir, Adana, Bursa shaharlari kiradi. Yirik port shaharlari qatoriga Istambul, Izmir, Trabzon shaharlari kiradi. Istambul porti Yevropadagi yirik port shaharlari qatoridan joy olgan. Turkiyaning uch tomoni dengiz bilan o‘ralganligi, dengiz qirg‘oqlarining qumloqligi, musaffo havosi, shifobaxsh, chiroyli tabiati dunyoning barcha mamlakatlaridan millionlab sayohatchilarni o‘ziga chorlaydi. Bunday qulay tabiiy sharoit iqtisodiyotning rivojlanishiga yana bir ajoyib imkoniyat demakdir. 2022-yil Turkiyani 13 mln. xorijiy sayyoh ziyorat qildi, turizmdan tushgan daromad 10 mlrd. AQSH dollariga yetdi (Pul birligi — turk lirasi). Bu imkoniyatlardan foydalanish u yerdagi kishilar qo‘lidadir. Turk xalqi ham o‘zining mehnatsevarligi, ishbilarmonligi, yaxshi xulq-atvori bilan dunyoga ma‘lum. Turk olimlarning, maorif va madaniyat xodimlarining ham jahon fantexnika va madaniyati rivojlanishdagi xissasi desak adashmaymiz.

Turkiyaning iqtisodiy rivojlanish bosqichlarini asosan 4ta davrga bo‘lishimiz mumkin:

**birinchi bosqich** - inqilobgacha bo‘lgan davr (ya‘ni 1923-yilgacha), bu birinchi bosqich iqtisodiy rivojlanishda ishlab chiqarishda davlat mulkining xukmronligi, ijtimoiy sohada bir partiyali boshqaruv tizimining mavjudligi bilan xarakterlanadi;

**ikkinchi bosqich** - inqilobdan 1940-yilgacha bo‘lgan davr, ya‘ni eng asosiy islohot bu 1933 yilda qabul qilingan 1-besh yillik rejasidir;

**uchinchi bosqich** - 1940-1970-yillarning oxirlarigacha;

**to‘rtinchi bosqich** - 1980-yildan to hozirgi kungacha bo‘lgan iqtisodiy o‘sish davri.

Har bir mamlakat iqtisodiyotini tashkil etish va rivojlantirishning strategiyasi, maqsadlari, umumiy tamoyillari ifodalangan nazariy qarashlar majmui hisoblanmish Iqtisodiy taraqqiyot modeli mavjud bo‘ladi. 1983 yilning noyabr oyida o‘tkazilgan parlament saylovlari natijasida “harbiy diktaturaning tugatilishi” davlat tepasiga demokratik kuchlarning kelishi iqtisodiyotning yuksalishiga, ayniqsa, ijobiy turtki bo‘ldi. Bu mamlakatning bozor iqtisodiyotiga o‘tishini tezlashtirdi va o‘z yo‘lini topishiga olib keldi. Turkiyaning shu darajaga kelishi uchun zamin -



aynan uning taraqqiyot strategiyasidir. Ushbu strategiyasi “Turk modeli” bo’lib, ba’zan “Turk mo’jizasi” deb ham ataladi. Bu iqtisodiy islohotlar natijasida Turkiya “yangi industrial mamlakatlari” qatoriga qo’shilish imkonini berdi. Bu model jahonning ilg’or mamlakatlari erishgan yutuqlari asosida o’z millatining urf-odatlarini, tabiiy, tarixiy va iqtisodiy xususiyatlarini to’liq hisobga olgan holda, bozor iqtisodiyoti prinsiplarini to’liq qo’llashga asoslangan edi. Boshqacha qilib aytganda, rivojlangan mamlakatlar bozor iqtisodiyoti modelini Turkiya uchun foydali qo’llanilishi mumkin bo’lgan tomonlarini butunlay ko’chirmay, taqlid qilmay, Turkiya sharoitiga mohirona moslashtirishdir. Turk modeli aynan Erxard modelining andozasi bo’lib, nemislar tajribasi asosida shakllantirilgan. Faqat ushbu modelda Turkiya mamlakatining yengil sanoatini rivojlanishiga katta e’tibor berilgan. Pul va narx-navo islohotlari olib borilgan. Bugungi kunda Turkiya o’rta rivojlangan davlatlar qatoriga kiradi. Shuningdek, shuni ham aytish kerakki, Turkiyaning rasmiy ma’lumotlariga qaraganda Turkiya iqtisodiyoti - oliyaviy resurslarni jamlash, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, aholini yalpi ish bilan ta’minlash, boshqaruv va tadbirkorlik tizimlarini rivojlantirish kabi to’rtta ustuvor yo’nalishlar orqali belgilanadi. Ushbu to’rtta yo’nalishni qarab chiqqanimizda eng asosiy muammo moliyaviy resurslarni o’zlashtirish ham, yangi xodimlarni tayyorlash ham moliyaviy resurslarni talab qiladi.

Turkiya hozirda agrar-industrial mamlakatdir. Turkiyaning tashqi savdo-sotiqdagi eng asosiy sheriklari: Germaniya, AQSh, Rossiya, Italiya va Buyuk Britaniya mamlakatlari kiradi. Turkiya eksportining asosiy ulushi G’arbiy Yevropa mamlakatlariga to’g’ri keladi, xuddi shunday holat mamlakatning importida ham, ya’ni mamlakatning asosiy importdagi ulushining 55%i G’arbiy Yevropa mamlakatlariga to’g’ri keladi. Umumiy eksportini 40%ini to’qimachilik mahsulotlari tashkil qiladi. 2021-yilda tovar va xizmatlar eksporti 24,9 foizga, import esa 2,0 foizga oshdi. O’tgan yilning zanjirli jismoniy hajmi indeksiga ko’ra, 2021-yilda tovar va xizmatlar eksporti 24,9 foizga, import esa 2,0 foizga o’sdi. 2021-yilning to’rtinchi choragida zanjirli hajm indeksi sifatida mahsulot va xizmatlar eksporti 20,7 foizga, import esa o’tgan yilning shu choragiga nisbatan 2,6 foizga o’sdi. Mamlakatning tashqi qarzi 1110 mlrd. AQSh dollarini tashkil qiladi.<sup>148</sup>

Mamlakatda avtomobil transportining ahamiyati katta. Temir yo’l transporti boshqa transport turlariga qaraganda ancha orqada qolgan, sababi, yuqorida aytganimizdek, mamlakat xududlarining ko’plab joylari tog’-yon bag’irlari tashkil qilganligi bois, temir yo’l transporti uncha rivojlanmagan. Avtomobil yo’llari uz. 63167 km, temir yo’l uzunligi 10940 km. Mamlakat ichkarisida yo’lovchilarning 95% avtomobil transportida, mamlakat tashqarisiga yo’lovchilar, asosan, havo yo’llari, yuklar esa, asosan, dengiz yo’li orqali tashiladi. Turkiya dengiz savdo floti 3157 kemadan iborat bo’lib, u eksport yuklarning 72%, import yuklarning 95% ni tashiydi. Asosiy portlari: Istanbul, Mersin, Izmir, Trabzon, Iskandarun, Anqara, Istanbul, Izmir shaharlarida xalqaro aeroportlar bor. Bosfor bo’g’ozi ustiga osma ko’prik qurilgan. Turkiyaning eng muhim neft quvuri tarmog’i yiliga 70,9 mln. tonna Iroq neftini Jeyxan dengiz terminaliga yetkazib beradi. Chorvachilik sanoati respublikaning dastlabki yillariga nisbatan hosildorlik darajasida unchalik yaxshilanishni ko’rsatmadi va keyingi o’n yillikda turg’unlik yuz berdi. Biroq, chorvachilik mahsulotlari, shu jumladan go’sht, sut, jun va tuxum, ko’proq narsalarga hissa qo’shdi 1/3 qishloq xo’jaligi mahsuloti qiymatining. Baliq ovlash iqtisodiyotning yana bir muhim qismidir.

Ishlab chiqarish omillari va tabiiy boyliklariga alohida e’tibor qaratish lozim. Turkiya chetga qora va rangli metall rudalari, po’lat, gazlama, ho’l meva, tamaki, charm buyumlar, kimyoviy mahsulotlar, elektronika va ro’zg’or buyumlar chiqaradi, chetdan neft, mashina va uskuna, sanoat xom ashyosi va tayyor buyumlar oladi. Olmoniya, Italiya, AQSH, Fransiya, Rossiya, Kavkaz va O’rta Osiyo mamlakatlari bilan savdo qiladi. Qazilma boyliklarni qazish va izlash kompaniyalarining 80%i davlat sektoriga qaraydi. Anqara, Ko’niya va Sinop viloyatlarida yirik neft zahiralari mavjuddir. Turkiyada gaz qazish chiqarish faqatgina 1985 yildan boshlandi, hamda gaz qazish chiqarish mamlakatning eng yosh tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, surma (jahon bo’yicha surma zahirasining 25%i), simob (jahon bo’yicha simob zahirasining 25%i), xrom (jahon bo’yicha xrom zahirasining 8%i, taxminan 25 mln.tonna), volfram rudasi (jahon bo’yicha

<sup>148</sup> <https://data.tuik.gov.tr/Bulten/Index?p=Yurt-Ici-Uretici-Fiyat-Endeksi-Mayis-2022-45854&dil=1>



zahiraning 7%i), uran rudasi (jahon bo'yicha uran rudasi zahirasining 5,5%), mis (jahon bo'yicha mis zahirasining 4,5%i) aynan Turkiyaga to'g'ri keladi.<sup>149</sup>

Turkiya asal ishlab chiqarish sohasida dunyoda ikkinchi o'rinda turadi. Bu haqida O'rmon va Suv Ishlari Vaziri Veysel Eroglu, Asal O'rmonlari Faoliyat Dasturi doirasida hozirgi kungacha 249 asal o'rmoni vujudga keltirildi va Turkiyaning asal ishlab chiqarishda 6-o'rindan 2-o'ringa chiqqanini bildirdi.<sup>150</sup>

Turkiya zaytun moyini iste'mol qilish va ishlab chiqarishda ming yillik an'anaga ega. Uning ishlab chiqarilishi Egey dengizini o'rab turgan hududda to'plangan. Uning Evropa, Osiyo va Afrika o'rtasidagi strategik pozitsiyasi dunyoning eng yirik zaytun moyi ishlab chiqaruvchilardan biriga aylanib, uchta qit'adagi mamlakatlar o'rtasida aloqalar bozorini yaratishga imkon berdi. Turkiyadagi zaytun daraxtlari soni uning umumiy aholisidan uch baravar ko'pligi taxmin qilinmoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2013 yilda bu 74,9 million kishini tashkil etadi. Turkiya bo'ylab 250 millionga yaqin zaytun daraxtlari mavjud. Ko'p navlari bor Turkiyada zaytun moyi, lekin Ayvalik hududida, Egey dengizi qirg'og'ida ishlab chiqarilgan eng qadrliligi; uning ta'mi Italiyaning Toskana shahrida ishlab chiqarilgan zaytun moyiga juda o'xshash

Pandemiya davrida iqtisodiy o'sishdan to'xtamagan, aksincha, musbat ko'rsatkich, ya'ni 6.7 bilan chiqqan yagona davlat bu – Turkiya.<sup>151</sup>

Shuningdek, Turkiyaning yana bir iqtisodiyotdagi muvaffaqiyati bu OECD (Organization for Economic Cooperation and Development)- Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zoligi va hamkorlikda ish ko'rishidir.

“Anadolu Agency” ma'lumot berishicha Turkiya 2023-yilda meva sharbati eksportini 1 milliard dollarga oshirishni rejalashtirmoqda. Meva sharbatlari ishlab chiqarish uchun yiliga 1,3 million tonna yangi meva qayta ishlandi.

Savdo vazirligi bo'lim boshlig'i Mehmet Mush Turkiya eksporti aprel oyida yangi tarixiy cho'qqiga chiqdi, deya o'tgan oydagi eksport ma'lumotlarini e'lon qildi. Ishsizlik darajasi 10.7% ni ko'rsatib, moliyaviy investitsiya vositalarining real daromadlilik stavkalari - 2022 yil aprel eng yuqori oylik real daromad BIST 100 indeksida bo'ldi. (Mehnat statistikasi 2022 yil, fevral hisoboti bilan) Turkiyaning iqtisodiy erkinlik reytingi 56,9 bo'lib, 2022 yil indeksida iqtisodiyoti eng erkin 107-o'ringa chiqdi. Turkiya Yevropa mintaqasidagi 45 davlat orasida 42-o'rinni egalladi.<sup>152</sup> 2021 yilgi so'rov natijalariga ko'ra, Turkiyada uy xo'jaliklarining yillik o'rtacha mavjud daromadi 10,6 foizga o'sdi va 76 ming 733 lirani tashkil etdi.

Daromad taqsimoti tengsizligi mezonlaridan biri bo'lgan Jini koeffitsienti nolga yaqinlashganda daromad taqsimotidagi tenglikni ifodalaydi va birga yaqinlashganda daromad taqsimoti yomonlashadi. Oxirgi tadqiqot natijalariga ko'ra, Jini koeffitsienti o'tgan yilga nisbatan 0,009 punktga kamaygan holda 0,401 deb baholandi. Daromadning eng katta ulushini oladigan jamiyatning 20% daromadining eng kam ulush olgan 20% daromadiga nisbati sifatida hisoblangan P80/P20 nisbati 8,0 dan 7,6 gacha, va eng katta ulushga ega bo'lgan daromaddan 10% Undan olingan daromadning 10% eng kam ulush olgan daromadga nisbati sifatida hisoblangan P90/P10 nisbati 14,6 dan 13,7 ga kamaydi.

Bojxona ittifoqi(CU) doirasida Turkiya Yevropa Ittifoqi bilan bir xil umumiy savdo siyosati choralarini qo'llaydi. Yagona bojxona ta'rifi bilan birgalikda imtiyozli savdo rejimi uchinchi mamlakatga nisbatan qo'llaniladigan savdio siyosatining eng muhim qismini tashkil etadi.<sup>153</sup>

Turkiya bank tizimi kapitalning yuqori darajadagi jamlanuvini bilan xarakterlanadi. Mamlakatdagi beshta yirik bankda barcha aktivlarning 54% i, depozitlarning 56% i, kredit manbalarining 59 %i jamlangan. Agar 10ta yirik bankni oladigan bo'lsak, ko'rsatkichlar shunga muvofiq 79, 82 va 81.5% bo'ladi. Davlat banklarining kamligiga qaramay, ularda bank kapitalining 50%i jamlangan.

<sup>149</sup> <https://www.tuik.gov.tr/>

<sup>150</sup> <https://data.tuik.gov.tr/Bulten/Index?p=D%C3%B6nemsel-Gayrisafi-Yurt-%C4%B0%C3%A7i-Has%C4%B1a-IV.-%C3%87eyrek:-Ekim-Aral%C4%B1k-2021-45548&dil=1>

<sup>151</sup> <https://www.aa.com.tr/en/economy/turkeys-gdp-performance-stands-out-during-pandemic/2062270>

<sup>152</sup> <https://www.heritage.org/index/country/turkey>

<sup>153</sup> <https://www.allaboutturkey.com/economy.html>

“Ziroat Bankasi”, “Emlak Bankasi”, “Yapi kredi Bankasi”, “Akbank” banklari esa eng yirik xususiy bankzar xisoblanadi. Hozirgi kunda Rossiyada Turkiya kapitali ishtirokidagi 5ta bank faoliyat ko’rsatmoqda. O’zbekiston banklari esa hozircha Turkiyada o’z filiallari yoki vakolatxonalariga ega emas. Turkiyada xorij sarmoyasi ishtirokidagi bankni ta’ sis etish yoki chet el banki filialini ochish uchun Turkiya Markaziy bankida qariyb 12 million dollar miqdoridagi mablag’ni nizom sarmoyasi ko’rinishida deponentlash lozim<sup>154</sup>.

Xulosa o’rnida yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga tayangan holda aytish mumkinki - Turkiya rivojlangan infratuzilma tarmog’i va global miqyosda raqobatbardosh ishchi kuchi bilan jihozlangan dinamik rivojlanayotgan bozordir. davlat rivojlanishi uchun albatta uning strategiyasimuhim rol o’ynaydi. Turkiyaning “Turk modeli” iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish uchun asosiy omil bo’lgan.

Bilamizki, iqtisodiy o’sishni YaIM ko’rsatkichlai belgilab beradi. Turkiyaning YaIM asosini asosan 3 yo’nalish: qishloq xo’jaligi, sanoat, xizmat ko’rsatish, bundan tashqari quyidagi qisqa umumlashtiruvchi yakunlar yuqori ko’rsatkichlarga olib chiqadi:

Mevalar, choy, uzum, zaytun, asal ishlab chiqarsih juda rivojlanganligi tufayli, ularni eksport qilish ancha foyda keltiradi. Shuningdek, shu qatori o’r,on yong’oqlarini aytib o’tish kerak. Jahondagi yong’oqlarning 2/3qismi Turkiyaga to’g’ri keladi;

Turkiyada o’rtacha oylik ish haqi 400\$bo’lib, bu aholining yanada mehnatkash bo’lishiga turtki hamdir; Turkiya yoshlari va ko’pgina aholisi Germaniya kabi davlatlarda o’qib, tajriba orttirib kelishadi. Bu esa o’z navbatida rivojlanish uchun yana bir qadamdir;

Turkiyaning turistlarga boy bo’lgan afsonaviy Istanbul, Izmir kabi yuragi bor. Har bir shaharlari Turkiya uchun alohida foyda keltiradi;

Shaharlarining olovi bu uning bozorlaridir. Savdo-sotiq bo’yicha katta tajribaga ega desak mubolag’a bo’lmaydi.

Har bir davlatda bo’lgani kabi Turkiyaga mamlakatning ko’plab yerlari tog’lik joylarda joylashganligi sababli qishloq xo’jaligining ba’zi tarmoqlarida qiyinchilik tug’dirmoqda, qo’shni Iroq mamlaktidagi notinchlik, inflyatsiya\_dolzarb masala hisoblanadi va davlat tomonidan choralar ko’rilmogda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Turkiye Istatistik Kurumu <https://www.tuik.gov.tr/#>
2. Anadolu Agency <https://www.aa.com.tr/ru>
3. All about Turkey <https://www.allaboutturkey.com/economy.html>
4. Turkiya iqtisodi rasmiy portal <https://www.trt.net.tr/Anasayfa/Anasayfa.aspx>
5. The World Bank <https://www.worldbank.org/en/country/turkey/overview>
6. Reuter <https://www.reuters.com/markets/asia/turkish-economic-growth-surges-11>
7. The heritage foundation <https://www.heritage.org/index/country/turkey>

<sup>154</sup> <https://data.tuik.gov.tr/Bulten/Index?p=Finansal-Yatirim-Araclarinin-Reel-Getiri-Oranlari-Mayis-2022-45574&dil=1>

**MILLIY RAQSLARIMIZ – MILLIY QADRIYATLARIMIZNING BIR BO‘LAGI**

*Ashurova Feruza Axmatovna*  
*TDAU o‘qituvchisi.*  
*Ro‘zimboyeva Aziza Murod qizi*  
*TDAU talabasi.*

Xalq raqs san‘ati ashula va musiqa bilan chambarchas bog‘lanib ketgan. Bu an‘ana hozirgi kungacha ham davom etib kelmoqda. Shu sababdan, bugungi kunda respublikamizda xalq badiiy ijodiyotining eng rivojlangan turi folklor-etnografik ansambllari madaniy hayotimizda oldingi o‘rinlarda turadi. Shu o‘rinda viloyatlardagi ansambllarning ijodiy faoliyatlariga to‘xtalib o‘tsak. XX asrning 60-yillaridan boshlab respublikamizning barcha viloyatlaridagi tumanlarda bir emas, bir nechta ashula va raqs ansambllari gurkirab o‘sa boshladi. Joylardagi faoliyat yuritayotgan ilg‘or madaniyat xodimlari bo‘lgan xonandalar, sozandalar, raqqosalarga uslubiy va amaliy yordam berish uchun poytaxtdan malakali mutaxassislar, bastakorlar, baletmeysterlar taklif qilingan. Ular yangi ansambllarni tashkil qilishda, repertuarlarini boyitishda o‘z hissalarini qo‘shganlar. O‘zbek musiqa va raqs san‘atining merosiga aylangan «Bayot», «Namanganning olmasi», «Otmagay tong», «Tanovar», «Munojot», «Rohat», «Ko‘ngil taronasi», «Andijon polkasi» kabi ko‘plab ommaviy va yakka raqslarni sahnalashtirib berganlar. Bunday ansambllar yillar davomida xalqning xizmatida bo‘lib, ularning mehrini qozongan. Respublika miqyosida o‘tkazilgan turli tanlovlar, festivallarda ishtirok etib yuqori natijalarga erishgan ansambllarga «Xalq ansambli» unvonlari berilgan, ularning chet davlatlarda o‘tkaziladigan xalq ijodiyoti festivallarida ishtirok etishi ta‘minlangan. O‘zbekistonda mustaqillik e‘lon qilinganidan so‘ng, milliy raqs san‘atining mumtoz va zamonaviy ijro namunalari “oltin fondi”ni yaratish; xalqimiz, xususan, yosh avlodni milliy raqs san‘ati haqidagi nazariy va amaliy bilimlar bilan keng tanishtirish orqali ularning qalbi va ongida milliy o‘zlikni anglash, ajdodlar merosiga hurmat tuyg‘usini, yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish; milliy raqs san‘atini mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda keng targ‘ib qilish maqsadida Davlat raqs ansamblining milliy hamda jahon xalqlari raqslaridan iborat dasturlari asosidagi gastrol-konsert faoliyatini yo‘lga qo‘yish kabilarda katta e‘tibor qaratildi. Umumxalq bayramlari keng nishonlana boshlandi, xalq ijodi festivallari, turli ko‘rik-tanlovlarning o‘tkazilishi natijasida folklor janri rivojlanib respublikamizning turli hududlaridagi ashula va raqs ansambllari negizida o‘ziga xos bo‘lgan folklor-etnografik ansambllar tashkil qilindi<sup>155</sup>. Mazkur ansambllarning faoliyati haqida gap ketganda eng mashhur o‘zbek milliy raqslari esga olinishi tabiiydir. Xo‘sh, milliy raqslarimiz bugungi kunda qay darajada ommalashgan? Misol tariqasida “Lazgi” yoki “Andijon polkasi” raqslarini olaylik. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng xalqimizning musiqa va san‘atga bo‘lgan qiziqishi tobora oshib borganligi haqida talaygina ma‘lumotlarni keltirib o‘tishimiz mumkin. Ma‘lumotlarga ko‘ra bu davrga kelib xalqqa yaqinlashish, el orasida yurish, eng noyob xalq iste‘dodlarini izlab topish zarur edi. Shu maqsadda bir qancha ko‘rik-tanlovlar o‘tkazildi. Jumladan, milliy soz ijrochilarining «Asrlarga tengdosh navolar», mashhur san‘atkorlar asarlari ijrochilarining «Boqiy ovozlari», askiya, qiziqchi va masxarabozlar, shuningdek lapar, yalla ijrochilarining ko‘rik-tanlovlari tashkil etildi. Ular bir necha o‘nlab iste‘dodlarni kashf qildi. Bu kabi tadbirlar, festivallar o‘tkazilishi an‘anaga aylanib, xalqaro miqyosda nomoddiy madaniy merosni asrash yuzasidan olib borilayotgan harakatlar bilan uyg‘unlashib ketdi. Mustaqillik yillari musiqa san‘atini akademik, an‘anaviy va zamonaviy yo‘nalishlarida rivojlanishiga zarur shart-sharoitlar yaratish qatorida ta‘limiga ham e‘tibor berildi. Ya‘ni shuni quvonch bilan aytish mumkinki, Xorazmning «Lazgi» raqsi O‘zbekiston madaniy merosining elementi sifatida insoniyat nomoddiy merosining representativ ro‘yxatiga kiritildi. Bu haqdagi qaror YuNESKOning Nomoddiy merosni asrash hukumatlararo qo‘mitasi majlisida qabul qilingan bo‘lib, raqsdagi joziba, otashin va betakror harakatlar mazkur qo‘mita a‘zolarining hayratini ming

<sup>155</sup> Xoreografiya va raqs san‘ati asoslari Toshkent, 2015-yil.

chandon oshirgan, ehtimolki, ularni ham beixtiyor raqsga chorlagan ko‘rinadi. Zotan, YuNESKOning Nomoddiy merosni asrash hukumatlararo qo‘mitasi “Lazgi”ning Insoniyat nomoddiy merosi Reprezentativ ro‘yxatiga kiritilishini ovoz bermasdan, keng konsensus asosida ma‘qullagani bu fikrimizni isbotlaydi. Bu nimadan dalolat? Bu, hech shubhasiz, qadimiy va boy tariximiz, madaniyatimiz ildizlari naqadar teranligidan, ajdodlarimizning ijodkor va san‘atkor xalq bo‘lishganidan, dunyo raqs san‘atida o‘z o‘rnimiz va ovozimiz borligidan nishona. “Lazgi” raqsi mazkur ro‘yxatga nomzod sifatida 2017-yilda O‘zbekistondan Xalqaro “Oltin meros” xayriya jamoat fondi tarafidan taqdim qilinganligi insoniyatning bebaho mulkiga aylanganligi biz uchun faxrlansa arzigulik hodisadir. “Andijon polkasi” raqsi haqida esa bizning fikrimiz quyidacha. “Andijon polkasi” – o‘zbek xalq cholg‘u kuyi va aynan shu nomdagi raqs. O‘tgan asrning 20-yillaridan boshlab andijonlik sozanda va aktyor Orif Garmon Toshmatov talqinida ommaviylashgan. Andijon polkasi 2/4 (yoki 4/4) musiqa o‘lchovi, odatda sof major tonalligi, sho‘x siyrati bilan ajralib turadi. U bir tomondan o‘zbek mumtoz kuylari (masalan, Navo charxi)ga, ikkinchi tomondan esa boshqa xalqlar (jumladan rus) folklori namunalariga ohangdosh. Andijon polkasi surnay, qo‘shnay, shuningdek garmon tovush qatoriga xos diatonik tuzilmalari, odat tusidagi kuy yo‘nalishlarini o‘zida uyg‘unlashtirgan. Andijonda “Andijon polkasi” xalq raqs ansambli tashkil etilgan (1957)<sup>156</sup>. O‘shandan buyon mazkur raqs o‘z jozibadorligi bilan bir qancha muxlislarini topib ulgurgan. Endi xalqimiz shu narsaga intilishi kerakki, nafaqat “Xorazm lazgisi”, balki uning boshqa kuy va qo‘shiqlari ham jahon sahnalarini ko‘rishi kerak. Bu uchun bizda imkomiyat va shart-sharoitlar yetarli darajada. Ammo biz milliy raqslarimizga yetarlicha e‘tibor qaratyapmizmi? Ularni ommalashtirishga harakat qilyapmizmi?

Bugungi kunda yoshlar orasida to‘y-marosimlarda “Lezginka”ga raqsga tushish judayam urfga kirib ketyapti. (ayniqsa, yigitlar o‘rtasida). Nega? Ushbu savolga javob berish uchun mazkur raqs haqidagi bilimlarimizga murojaat qilamiz. Birinchidan, “Lezginka” nafaqat go‘zal harakatlar va aqldan ozgan ritmning kombinatsiyasi, balki tanani yaxshi jismoniy shaklda saqlash, mushak va organlarni tonuslantirish, yoshlikni uzaytirish va quvvat bilan to‘ldirish uchun ajoyib usul ekanligi keng targ‘ib etilmoqda. Ko‘p odamlar ertalabni jismoniy mashqlar bilan emas, balki lezginkaning ishlashi bilan boshlashadi. Bu butun kun davomida ijobiy energiya zaryadini olgan holda “uyg‘onish”ning yaxshi usuli sifatida yaxshi an‘anaga aylanib bormoqda. Bugun amaliyot shuni isbotladiki, ilhomlantiruvchi musiqa ostida 2,5 soatlik ritmik raqslar davomida inson 1 kg gacha ortiqcha vazndan xalos bo‘lishi mumkin ekan. Bu faqat to‘g‘ri harakatlarni o‘rnatish uchun emas, balki umuman sog‘liq uchun ham foydali bo‘lgan mag‘rur pozitsiyani shakllantirar ekan. Ikkinchidan, yaxshi musiqa har qanday ishda muvaffaqiyat kaliti bo‘lgan ishonchni yanada orttirar ekan. Ishonch “Lezginka”ning asosi hissiy tarkibiy qism bo‘lganligi sababli, hissiyotlarning butun yorqin spektrini nigoh orqali yetkazish qobiliyati nafaqat sehrli ijro uchun, balki kundalik hayotda ham foydali ekan. “Kavkaz lezginkasi” raqsidagi harakatlarni, chaqqonlikni, uddaburonlikni, ziyorlikni – hamma-hammasini o‘zimizning milliy kuyimiz “Andijon polkasi”da ham kuzatishimiz mumkin. Har ikki raqs ham raqqosdan chaqqonlik va nafislikni talab etadi.

Bugun to‘ylarda, turli tadbirlarda yigitlarning “Kavkaz lezginkasi”ga raqs tushishi urf bo‘lib bormoqda. “Andijon polkasi” ham insonda kuch-g‘ayrat, sog‘lom turmush tarzini uyg‘otadi deb bermalol aytish mumkin. Faqat biz uni ommalashtira olmayapmiz, xolos. Shu sababli ham yoshlarimizda boshqa xalqlarning raqs san‘atiga qiziqish kuchayib bormoqda. Shunday ekan, “Andijon polkasi”ni yoshlar orasida targ‘ib qilib “Lezginka singari” ommalashtirishimiz, milliy raqs san‘atimizni dunyo miqyosiga olib chiqishimiz raqs san‘ati sohasidagi dolzarb vazifalarimizdan biri ekanligini unutmashimiz zarur. Bu uchun eng avvalo bog‘cha, maktab, litsey va kollejlarda raqs to‘garaklarini tashkil etishimiz va ularda to‘garak a‘zolariga “Andijon polkasi” raqsini o‘rgatish lozim. Ularni milliy raqsimizga qiziqishini uyg‘otish, qiziqishlarni yanada kuchaytirish uchun esa turli xil ko‘rik-tanlovlarning tuman, viloyat hamda respublika bosqichlarini tashkil etib munosib rag‘batlantirib borish kerak. Bu orqali milliy raqsni ommalashtirish, uni dunyo taniydigan darajaga olib chiqish bilan birgalikda, milliy qadriyatlarimizni ma‘naviy meros sifatida kelajak avlodga yetkazishga hissa qo‘shish mumkin.

<sup>156</sup> O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Xoreografiya va raqs san’ati asoslari Toshkent, 2015-yil
3. R.Karimova. « O‘zbek raqslari». T.: «Cho‘lpon» nashriyoti, 2003.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-fevraldagi PQ-4584-sonli qarori.



## TOMCHILATIB SUG'ORISHNING TEXNOLOGIK XUSUSIYATLARINING ILMIY ASOSLARI

*Sadullaev Azamat Nafiddinovich*

*“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti magistranti.*

**Anotatsiya.** O'simliklarning aniq talabidan kelib chiqib, ularning ildiz tizimi rivojlangan tuproq qatlamiga kerakli vaqtda va kerakli miqdordagi suvni va oziqalarni yetkazib berish boshqarilib boriladi. Ildiz rivojlanish zonasiga suv uzatish nuqtalari oldindan belgilanmaydi, balki joy sharoiti, tuproq turi va ekin turiga qarab joyida belgilanadi. Sug'orish vaqtida barcha o'simliklarga suv bir xil miqdorda beriladi. Qatorlar orasining quruq qolishi suvchining har doim harakatlanishiga imkon beradi, hattoki sug'orish ishlari davom etayotgan sharoitda ham. Sug'orish suvlarini bevosita har bir o'simlikka yetkazib berish uchun turli xildagi tomchilatgichlar va boshqa jihozlar ishlab chiqarilmoqdaki, ular har xil sifatidagi sug'orish uchun yaroqli suvlar va turlicha dalalarga mos keladi.

**Kalit so'zlar:** Tomchilatib sug'orish, texnologik xususiyat, tomchilatgich, agrotexnik tadbirlar, energiya, mehnat resurslari, begona o'tlar, kimyoviy moddalar, maxsus mutaxassislar, hisobiy namlik, o'g'it sarfi, elektr quvvati, ho'llanganlik miqdori

Tomchilatgichlar ma'lum nuqtaga suvni yetkazib berganidan so'ng kapillyarlik xususiyatiga mos ravishda barcha yo'nalishlarda harakat qilib tuproqni namlaydi. Tomchilatib sug'oriladigan ekin maydoni bo'ylab namlik miqdori va umumiy bosim notekisligi qisman mavjud. Tomchilatib sug'orish shunday imkoniyatlarga egaki, dala konturining ma'lum bir qismini tabaqalab sug'orish mumkin. Ya'ni sug'orish ishlarini xohlagan vaqt oralig'ida, boshqa agrotexnika ishlariga halal bermasdan bajarish mumkin bo'ladi. Tomchilatib, sug'orish tuproqqa ishlov berish, zararkunanda va hasharotlarga qarshi ishlov berish, hosilni yig'ishtirish ishlarini bajarishga xalaqit bermaydi.

Boshqa sug'orish usullariga qaraganda tomchilatib sug'orishda sug'orish suvlarining samaradorligining eng yuqoriligini quyidagi sabablar tasdiqlaydi:

- Hosildorlikning nisbatan yuqori ekanligi va birlik miqdordagi hosilni yetishtirish uchun sarflanadigan suv miqdorining kam ekanligi;
- Bug'lanishga suv yo'qotilishining kamligi, yomg'irlatib sug'orishga nisbatan namlanadigan maydonning 60 % ga kamligi;
- Shamol namlanishga va bug'lanishga ta'sir etmaydi;
- Qiyin relefli va yuqori nishabli dala sharoitida ham tashlamaga suv chiqarmasdan sug'orish ishlarini bajarish imkoniyati;
- Begona o'tlarning miqdori boshqa sug'orish usullariga nisbatan juda oz;
- Yerni joriy tekislash talab etilmaydi;
- Tomchilatib sug'orish sistemasi yomg'irlatib sug'orish sistemasiga qaraganda bosim o'zgarishiga unchalik sezgir emas;
- Sug'orish suvi bilan birgalikda mineral oziqalarni va kasallik va zararkunandalarga qarshi ishlatiladigan zaharli kimyoviy moddalarni berish mumkinligi;
- Ko'pchilik ekinlarning erta pishishi, chunki tomchilatib sug'orishda yomg'irlatib sug'orish va jo'yak orqali sug'orishga qaraganda tuproq harorati yuqori va oziqa yetarli.

Ekinlarni oziqlantirish tomchilatib sug'orishning ajralmas bir bo'lagi hisoblanadi, shuningdek kerakli elementlarni ekinga yetkazib berish uchun juda qulay. Bu ayniqsa qurg'oqchil rayonlarda bir yillik ekinlarni yetishtirishda juda bebaho hisoblanadi. Ozuqa moddalarini foydalanish koeffitsienti 0,98 ni tashkil etadi. Mineral oziqalarni tejab, kerakli miqdorda va ekinlarning rivojlanish fazasini hisobga olib sug'orish orqali berish ularning rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek tomchilatib sug'orish qo'llanilganda tuproq tarkibidagi havo deyarli siqib chiqarilmaydi va aeratsiya uchun yaxshi muhit yaratiladi, bu esa o'z navbatida ekinlarning ildizi orqali nafas olishiga imkon yaratadi.

Quyidagi sabablarga ko'ra tomchilatib sug'orish boshqa sug'orish turlariga qaraganda madaniy ekinlar uchun yaxshi profilaktika sharoitini yaratib beradi:

- Sug'orish vaqtida o'simlik tanasining ho'llanmasligi hisobiga kasallik va zararkunandalarning tarqalishini kamaytiradi;
- Ishlatilgan insektitsid va fungitsidlar o'simlik bargidan yuvilmaydi, yomg'irlatib sug'orilganda esa buning teskarisi sodir bo'ladi;
- Sug'orilgan dala maydonidagi begona o'tlarning soni ancha kam bo'ladi; chunki namlik bevosita madaniy o'simliklarning ildiz qatlamiga yaqindan beriladi;
- Tomchilatib sug'orishda sug'orish suvlari bilan ariq yoki kanaldan oqib kelayotgan begona o'tlarning urug'i filtrda tutib qolinadi va natijada ularning ekin dalasiga yetib borishining oldi olinadi;
- Tomchilatib sug'orish ba'zi bir yuqori namlik sharoitida rivojlana oladigan kasalliklarning oldini oladi.

Tomchilatib sug'orish boshqa sug'orish usullariga qaraganda ancha kam mehnat va energiyatalab etadi, sug'orishga tayyorgarlik ishlari hajmi va vaqti oz miqdorda bo'ladi.

Tomchilatib sug'orishda ekinlarning sug'orish rejimini aniqlash muhim hisoblanadi. Bunda asosan vegetatsiya mavsumida har bir sug'orishdagi bir martalik sug'orish normasi va mavsumiy sug'orish normasini bilish kerak bo'ladi. Sug'orish rejimi hisoblash orqali topib olinadi. Bunda ekin turning biologik xususiyatlari, iqlim sharoiti, tuproq turi va gidrogeologik sharoit hisobga olinadi. Tomchilatib sug'orishda o'simliklar ildiz sistemasining o'ziga xos rivojlanishi kuzatiladi, qisqa muddatga va tez-tez sug'orish ishlarini bajarilishi hisobiga ildiz chuqurga ketmaydi. Shuning uchun tomchilatib sug'orishda hisobiy namlanish qatlami chuqurligi quyidagicha bo'ladi.

<b>Ekin turi</b>	<b>Rivojlanish fazasi</b>	<b>Hisobiy namlanish chuqurligi, sm</b>
<b>Go'za</b>	Shonalashgacha	40-50
	Gullash davri	65-75
	Hosil pishish davri	50-60
<b>Makkajo'xori</b>	Popuk chiqarguncha	40-50
	Popukni tashlaguncha	60-75
<b>Lavlagi</b>	Ildizi rivojlanguncha	30-40
	Barglari kattalashguncha	40-50
	Ildiz meva tukguncha	55-60
<b>Karam, piyoz, bodring</b>	Ildiz mustahkamlanguncha	20-30
	To'la rivojlanish davri	30-50
<b>Kartoshka, pomidor</b>	Ildiz mustahkamlanguncha	30-40
	To'la rivojlanish davri	45-60
<b>Bog' va uzumzorlar</b>	Vegetatsiya davrida	70-100

Agar tuproq qatlami sayoz bo'lgan donador tuproq (50 – 60 sm) bo'lsa va to'shama qatlam shag'al yoki qum toshdan iborat bo'lsa, hisobiy qatlam qalinligi tuproqning shag'algacha bo'lgan qismi olinishi kerak.

**Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki**, tomchilatib sug'orish o'g'it sarfini 25 - 30 % qisqartirishga, sug'orish suvlarini 40 - 50 % gacha qisqartirishga (jo'yak orqali sug'orishga nisbatan), hosildorlikni ancha oshishiga olib keladi. Lekin, har qanday tomchilatib sug'orish sistemasini ishlatish uchun yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashni talab qiladi. Shuningdek, nasos sistemasini ishlatish uchun elektr quvvati sug'orish mavsumida to'la ta'minlangan bo'lmog'i kerak va barcha sistemaning ishlashini doimo nazorat etib turish va kerak bo'lganda sozlash ishlarini bajarish lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Teshayev Sh. Nurmatov Sh. Muborakov A. va boshqalar. *G‘o‘za parvarishida suv va manba tejoyvchi agrotexnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar*. Toshkent 2013 yil. 44 bet.
2. Rahimboyev F. M. va boshqalar. *Qishloq xo‘jaligida sug‘orish melioratsiyasi*. Toshkent. Mehnat 1994-yil. 327 bet.
3. —Tomchilatib sug‘orish tizimini va suvni tejaydigan boshqa sug‘orish texnologiyalarini joriy etish va moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizom - <https://lex.uz/docs/-2191966>.
4. Internet ma‘lumotlaridan ham foydalanildi.

## SINXRON TARJIMADA KOMPRESSIYA VA DEKOMPRESSIYA STRATEGIYALARINING ASOSIY OMILLARI

*Saidova Marjona Abdimutal qizi*  
*SamDCHTI talabasi.*

**Annotatsiya:** Sinxron tarjima turlari orasida eng murakkab tur hisoblanganligi uchun tarjimondan maxsus mahoratni — bir vaqtda turli strategiyalardan foydalana olish qobiliyatini talab qiladi. Sinxron tarjima jarayonida bir qator strategiyalardan, jumladan, kutish, ehtimollilik, Stolling– vaqtdan yutish strategiyalardan keng foydalaniladi. Shu bilan bir qatorda kompressiya va dekompressiya strategiyalarining ham o'ziga xos o'zni mavjud. Ushbu maqolada sinxron tarjima jarayonida qo'llaniladigan kompressiya va dekompressiya strategiyalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, bu strategiyalarning o'zaro bir-biridan farqlari va ularni tarjimada to'g'ri qo'llash qonunlari aks ettiriladi.

**Kalit so'zlar:** kompressiya, tarjimada ekvivalentlik, til belgilari, kommunikativ intensiya, dekompressiya, funksional parametrlar, kommunikativ effekt.

Bir tildan ikkinchi tilga tarjima amalga oshirilganda axbarotni ma'lum darajada qisqartirish yoki, aksincha, ma'lumotlarni vaziyat nuqtai nazaridan kengroq tushunchalar bilan ifodalashga to'g'ri keladi. Bunday vaqtda tarjima nazariyasiga ko'ra ikki xil strategiyalardan foydalaniladi: kompressiya va dekompressiya.

**Kompressiya.** Kompressiya deganda dastlabki matnga qisqaroq shakl bergan holda uning asl ma'nosini saqlab qolish tushuniladi.

Nazariy jihatdan olib qaraganda, sinxron tarjimadagi qisqarish Chernov tomonidan olib borilgan asosiy tadqiqotlarda keng ko'lamda yoritilgan bo'lib, u uchun bu “Sinxron tarjimaning ekstremal sharoitlarida mehnatni tejash vositasi. (bu nutqning tematik tarkibiy qismidagi lingvistik ortiqchalik tufayli mumkin bo'lgan) hisoblangan.[1][2][3] Shundan kelib chiqadiki, doim ham tarjimon so'zlovchi nutqini to'liqligicha tarjima qilmasdan, kompressiya strategiyasiga tayanadi va bu unga mehnat unumdorligini oshishiga yordam beradi.

Chernovning so'zlariga ko'ra sinxron tarjimada qisqarish nutqning turli shakllarida bo'lishi mumkin. Ular quyidagilardir: bo'g'inlarning qisqarishi, leksik (so'zlar) qisqarish, sintaktik qisqarish, semantik qisqarish va kontekstual qisqarish.[4,5,6] Bo'g'inlarni qisqartirishda asliyat tilidagi ko'p bo'g'inli so'zlarga tarjima tilida kamroq bo'g'inga ega bo'lgan so'zni tanlay olishdir. Bu jarayon eng past darajada amalga oshiriladigan kompressiya turidir. Chunki so'zlarni bo'g'in darajasida siqish tarjimon ishiga unchalik foydali bo'lmaydi. Lekin imkon darajasida ixchamroq so'zlarni tanlash tarjimada mehnatni tejashga yordam beradi.

Kompressiyaning ikkinchi turi — leksik qisqartirish, ya'ni, kamroq so'zlardan foydalanish demakdir. Aslida asl ma'noni so'zlarni qisqartirish orqali ifodalash mushkul vazifadir. Lekin mahoratli tarjimon aynan shu strategiyani o'zining eng ko'p “mehnat tejash” strategiyasiga aylantira oladi.

Keyingi turga keladigan bo'lsak, bu sintaktik qisqartirish deb nomlanadi. Bunda asosan gap strukturaviy jihatdan qisqaradi. Misol uchun, murakkab gaplar bir nechta sodda gaplarga bo'linib tarjima qilinishi mumkin. Settonning so'zlariga ko'ra bu usul ingliz tilida *Salami texnikasi* deb nomlanadi.[7] Bunga yana misol qilib shuni ko'rsatish mumkinki, asliyat tilida biror tashkilot, mamlakatlarning to'liq nomi tarjima tilida qisqartma shaklda berilishidir. Masalan, Amerika Qo'shma Shatatlarini ingliz tiliga US deb tarjima qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Semantik qisqartirish bu takroriy va ortiqcha so'zlarni olib tashlash demakdir. Masalan, “Qushlar uchish uchun mavjuddirlar, baliq suzish uchun, ayollar erini arralash uchun” — “Birds gotta fly, fish gotta swim, wives gotta nag”. Jonli nutqni qisqartirish va asl ma'nosini ochib berish mahorati sinxron tarjimon san'atidagi eng birinchi va muhim mahoratlardan biridir.

**Misol:** Ma'ruzachi: Uchuvchi- pilotning kabinasi eshigi shunday moslashganki, tashqaridan begona unsurlarning ijoatsiz bostirib kirish holatida avtomatik tarzda blokirovka bo'ladi ( uchish xavfsizligi bo'yicha konferensiya). Tarjimon: The cockpit door is tamper- proof ( kokpit ( samalyotda pilot kabinasi) eshigi tashqi ta'sirga chidamli). [8] Shuningdek, tarjima nazariyasi va amaliyotida olg'a surilgan talablardan biri bu dastlabki va yakuniy matnning ekvivalentlik talabidir. N. Ismatullayevaning o'quv qo'llanmasida keltirilishicha, Y. I. Retsker kompressiya strategiyasida ekvivalentlikni quyidagicha ta'riflaydi: “ Ekvivalent kontekstga bog'liq va tobe bo'lmagan bir ma'noli muvofiqlikdir. U matnlararo munosabatlarda emas, balki matnning mikrobirliklari orasidagi munosabatlarda mavjud”. A. D. Shveyser tarjimonlik ekvivalentligining quyidagi uch unsurini ajratgan:

- Komunikativ intensiya
- Matnning funksional parametrlari
- Kommunikativ effekt

**Dekompressiya.** Dekompressiya o'zbek tiliga “ kengayish” deb tarjima qilinadi.[9] Dekompressiya strategiyasi kompressiya strategiyasiga mutlaqo ziddir. Bu strategiyani qo'llaganda, tarjimon asl matnda tushinilishi qiyin bo'lgan, yoxud murakkab jumla va so'zlarni tarjima tiliga ma'lum bir tushuntirishlar, izohlar keltirib o'tishga to'g'ri keladi. Ya'ni bir tildan ikkinchi tilga tarjima amalga oshirilganda tarjima tildagi matn kattaroq bo'lishi ehtimoliy holdir. Bunga Bart quyidagidek izoh beradi: “ Tushuntirish iboralarini talab qilgan so'z birikmalari tuzilma va g'oyalari mavjud va tarjimonlar soddaroq qilish uchun bir narsani qisqartirgandan ko'ra aniqlik kiritish maqsadida qo'shimcha kiritishni afzal biladi”: Ma'ruzachi: Let us look at what we call “ binge drinking”. What they labeled as binge drinking for young people, more than five drinks in a row in a couple of hours. So that's a lot of alcohol for someone who is a smaller person, smaller body size. ( Fetal Alcohol Syndrom Conference). Tarjimon: “Aysh- ishrat ichkilikbozligi” deb nomlangan keyingi bosqichini ko'raylik. Bu nom o'smirlar va yoshlar ketma- ket ikki soat davomida toza spirt hisobida besh grammlil dozadagi ichkilikdan beshtadan ziyod ichish holatlari uchun berilgan. Bu kichik vaznli kishi uchun katta miqdordir.[10]

Xulosa qilib aytganda, sinxron tarjima jarayonida kompressiya va dekompressiya strategiyalaridan foydalanish tarjimon faoliyatiga ijobiy natija olib keladi. Chernov va boshqa olimlarning tadqiqot natijalaridan shuni bilishimiz mumkinki, kompressiya strategiyasi tarjimada mehnat tejash vositasi sifatida xizmat qilsa, dekompressiya strategiyasi ma'lum bir tarjimasi murakkab so'zlarni kontekstdan kelib chiqib izohlash va shu orqali bu vaziyatdan samarali chiqib ketishga yordam beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alessio Iacovoni. Compression in simultaneous interpreting: fact or myth? A corpus based study.
2. Chernov, G. 1994. 'Message Redundancy and Message Anticipation in Simultaneous Interpreting'. In Lambert S. and Moser-Mercer B. (eds), Bridging the Gap: Empirical Research in Simultaneous Interpretation, Chapel Hill: John Benjamins Publishing Co., 139-153.
3. <https://iacovoni.files.wordpress.com/2010/08/tesi.pdf>
4. Chernov G. V. Simultaneous interpretation: speech compression–linguistic problem // Notebooks of a Simultaneous interpretation. – M., 1969.
5. Abdykalykov Murat. The IMPORTANCE OF USING THE COMPRESSION STRATEGY WHEN PERFORMING SIMULTANEOUS INTERPRETATION FROM ARABIC INTO KAZKHAH
6. <https://impactjournals.us/download/conference/conf-15201-13959486822%20The%20Importance%20of%20Using%20the%20compression%20strategy-Abdykalykov.M.M.pdf>
7. Setton, R. 2002. 'A methodology for the analysis of interpretation corpora'. In Garzone G. & Viezzi M. (eds) Interpreting in the 21<sup>st</sup> Century: Challenges and Opportunities: Selected Papers from the 1<sup>st</sup> Forli Conference on Interpreting Studies, 9-11 November 2000.
8. X. Hamidov, N. Ismatullayeva, S. Ergasheva. Sinxron tarjima. O'quv qo'llanma. T.:—2020
9. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/decompression>
10. [https://hozir.org/pars\\_docs/refs/36/35216/35216.pdf](https://hozir.org/pars_docs/refs/36/35216/35216.pdf)



## ANIQLOVCHI ERGASH GAPLARNI SHAKLLANTIRUVCHI VOSITALARNING DARSLIKLARDAGI TAHLILI

*Salimov Azizbek Samat o'g'li*

*Sh.Rashidov nomidagi SamDU*

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti.*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada “O‘zbek tili grammatikasi”, “Tarixiy sintaksis” kitoblarida, Umumiy o‘rta ta‘lim 9-sinf “Ona tili” darsligida aniqlovchi ergash gaplarni shakllantiruvchi vositalarning berilishi haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Ergashtiruvchi bog‘lovchilar, qadimgi turkiy yozma yodgorliklar, nisbiy so‘zlar, izohlovchi so‘zlar, fe‘lli sifatdosh, kesimlar miqdori, -sa shart mayli, -ki yuklamasi, intanatsiya.

Aniqlovchi ergash gaplar ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, ularda turli qarashlar aks ettirilgan. Aniqlovchi ergash gaplar boshqa tillarda ham mavjud bo‘lib, biz maqolamizda o‘zbek tilida aniqlovchilarning o‘rganilishiga e‘tibor qaratib o‘tamiz. Qadimgi turk yozma yodgorliklariga qaraydigan bo‘lsak, ergashgan qo‘shma gaplarni turlari shu davrlarda shakllanganini ko‘rishimiz mumkin. “*Йэмй бу төрт ариг диндарлар ким тавгая йиринтэ эрүрлүр – бу то‘рт рок диндорки, Табг‘ач yeridandirlar (Turfon tekistidan).* O‘rxun yodgorligi yozuvlarida нэ (нэқ), қач, ким so‘roq olmoshlarining nisbiy olmosh vazifasida qo‘llanganligini ko‘ramiz: *Нэқ сабим эрсйр бақзу таиқа уртим – nima so‘zim bo‘lsa, uni mangu toshga o‘ydim. Қач нэқ эрсйр елүртамчи кўк – Qanday bo‘lmasin, u bizni o‘ldirishi mumkin.*”<sup>157</sup>

Bu kabi kuzatishlarni G‘.Abdurahmonovning “Tarixiy sintaksis”, “O‘rxun yodnomalari tilida qo‘shma gap konstruksiyalari” kitoblardan ko‘rishimiz mumkin.

Qadimgi turk tilida o‘tgan va hozirgi zamon sifatdoshlar aniqlovchi ergash gaplarni shakllantiruvchi vosita bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. *Тинэси оғлу йатуғма Бэқлигак тағуғ... иртимиз – Tinesining o‘g‘li Bangilak tog‘igacha quvladik.* “Devoni-lug‘atit turk” va “Qutadg‘u bilik” asarlarida bosh kelishikdagi sifatdosh aniqlovchi ergash gapning kesimi bo‘lib kelganligini kuzatishimiz mumkin: “*Бир анча йуруйу, бир ата туру, Ахир тэгди Элик турур ордуқа – Bir qancha yurib, bir qancha turib, Elik turgan o‘rdaga axir yetdi* (ҚБ, Н., 46; 249). *Киши түрмадүк элкй қирса қали – Agar kimda kim kishi ko‘rmagan elga kirsas* (ҚБ, Н., 47; 250).

G‘.Abdurahmonovning “Tarixiy sintaksis” kitobida “Tafsir”da *тэ* fe‘li sifatdosh formasida aniqlovchi ergash gapni tashkil etgan. *Манат тэдүки тақи бут турур – Mehnat degan yana bir but bor* (Тф., 36 6, 5).”<sup>158</sup> Qadimgi turkiy tilda shart fe‘lining aniqlovchi ergash gaplarni tashkil etishda qo‘llanganligini “Devoni lug‘atit turk” va “Qutadg‘u bilik” asarlarida keltirilganligini aytib o‘tishimiz lozim.

Bu asarlarda nisbiy so‘zlar ham aniqlovchi ergash gaplarni shakllantirganini kuzatishimiz mumkin. “*Кимўқ элги болса будунқа узун, Силик болсу қулқу қулунчу тўзўн – Senga qarashli kimning qo‘li xalq ustida bo‘lsa, uning xulqi muloyim, ishi to‘g‘ri bo‘lsin* (ҚБ, Н., 50; 254)”<sup>159</sup> Keyingi davrlarda A.Navoiy, Z.M.Bobur, Abulg‘ozi Bohodirxon kabi ko‘plab olimlarimiz asarlarida aniqlovchi ergash gaplarni qo‘llaganliklarini ko‘rishimiz mumkin. Hozirgi o‘zbek tilshunosligida ham ushbu mavzu bo‘yicha turli tadqiqotlar olib borildi va qadimgi turkiy tilda aniqlovchi ergash gaplarni shakllantiruvchi vositalar hozir ham o‘zgargani yo‘q faqat vaqt nuqayi nazaridan qo‘shimchalarning shakli o‘zgargan deyishimiz mumkin.

“O‘zbek tili grammatikasi” kitobida aniqlovchi ergash gaplarni shakllantiruvchi vositalar sifatida quyidagilar keltirilib o‘tiladi:

- **Nisbiy so‘zlar yordamida.** “Bunday ergash gaplar bosh gapdagi olmosh orqali ifodalangan qaratqichli aniqlovchining ma‘nosini konkretlashtiradi. Shuningdek,

<sup>157</sup> F. A. Абдурахмонов Тарихий синтаксис. Узбекистон ССР «Фан» нашриети. Т о ш к е н т-1974, – 42 б.

<sup>158</sup> F. A. Абдурахмонов Тарихий синтаксис, Узбекистон ССР «Фан» нашриети. Т о ш к е н т-1974, – 48 б.

<sup>159</sup> Yuqoridagi manba: 69-70 b.

qaratqichli bo‘lmagan bosh gap uchun aniqlovchilik vazifasini bajaradi: *Kimning ko‘ngli to‘g‘ri bo‘lsa, uning yo‘li ham to‘g‘ri bo‘ladi (Navoiy).*”<sup>160</sup> Bunday gaplarda ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vosita -sa shart bog‘lovchisi hisoblanadi. Nisbiy so‘zlar qo‘shma gapning har ikki qismida qo‘llanilib, birinchi ergash gap, keyin bosh gap keladi. Bunda ergash gap qismida so‘roq ma’nosidagi olmoshlar, bosh qismida so‘roqqa javob bo‘luvchi ko‘rsatish olmoshlar keladi.

- **Izohlovchi so‘zlar-ko‘rsatish olmoshlari yordamida.** “Ergashgan qo‘shma gaplar tarkibida shunday so‘zlar ham ishlatiladi, ularni biz shu kungacha nisbiy so‘z deb nomlab kelgan bo‘lsak ham, ular nisbiy so‘z bo‘la olmaydi. Bunday so‘zlar faqat ergashgan qo‘shma gapning bir komponenti- ko‘proq bosh gap tarkibida kelib, ergash gap tomonidan izohlanadi”.<sup>161</sup> Shuning uchun biz bunday so‘zlarni izohlovchilar deb ataymiz. Bunday ergashgan qo‘shma gaplarning kesimlari -ki orqali birikadi. Izohlovchi so‘zlar vazifasida ko‘proq ko‘rsatish olmoshlari va boshqa so‘zlar qo‘llaniladi: *Hali shunday o‘qiyki, hamma havas qilsin.*

Ko‘rsatish olmoshi qanday vazifada kelsa, ergashgan qo‘shma gap shu nom bilan yuritiladi. Ayrim, ba’zi so‘zlari aniqlovchi ergash gaplarda bosh gap tarkibidagi otga bog‘lanib kelib, uning ma’nosini aniqlashtirib, izohlab keladi: *Ayrim badfe‘l kishilar borki, yomonlik qilmaganlarining o‘ziniyoq yaxshilik qilganga yo‘yadilar (Ezop).* Aniqlovchi ergashgan qo‘shma gaplarni bog‘lovchi vositalar qatoriga **intanatsiyani** ham olsak bo‘ladi. Bunda izohlovchi so‘zlar ishtirok etgan qo‘shma gaplarda keladi va shu gapning davomidan boshqa gap kelayotganini ko‘rsatadi: *Shunday javob beringki, hech kim rad eta olmasin.*

**Aniqlovchi ergashgan qo‘shma gaplarning darsliklarda berilishi.** Qo‘shma gaplar haqida qanday ta’rif berilganigiga to‘xtalib o‘tamiz. “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik” to‘ldirilgan 4-nashrida soda va qo‘shma gaplarni ajratishga “Kesimning nechtaligi gaplarni sodda va qo‘shma gaplarga ajratishga asos bo‘ladi”<sup>162</sup> degan qoida berilgan. Bunda faqat uyushiq kesimlar budan mustasno hisoblanadi va bu yuqoridagi qoidaga mos kelmay qoladi. Negaki, uyushiq kesimda kesimlik shakllari oxirgisiga qo‘shiladi: *Er kishiga zeb-u ziyinat hikmat va donishdur (A.Navoiy).* Biz uzoq yillardan buyon shu qishloqda yashab, mehnat qilib kelmoqdamiz. Aniqlovchi ergashgan gaplarga darsliklarda bog‘lovchi vositasiga qarab uni aniqlab olishimiz kerak bo‘ladi. Gap bo‘laklariga ko‘ra nomlanib tasniflanmagan. Bilamizki, aniqlovchi ergashgan qo‘shma gaplar nisbiy so‘zlar va ko‘rsatish olmoshi yordamida hosil qilinadi. Nisbiy so‘zlar yordamida hosil qilinganda bog‘lovchi vosita -sa shart mayli qo‘shimchasi bo‘lsa, ko‘rsatish olmoshlari yordamida hosil qilinganda -ki yuklamasi bosh gap va ergash gapni bog‘lovchi vosita hisoblanadi: *Kimning aqli ko‘p bo‘lsa, ayblari yashirin va do‘stllari ko‘p bo‘ladi (“Mashriqzamin – hikmat bo‘stoni”). Biz shunday kutubxona bino qilaylikki, butun el qoshida manzur va mo‘tabar bo‘lsin (Oybek).*

Aniqlovchi ergash gaplarni biz tarixiy asarlarda kelganini kuzatdik. Hozirgi kunda ham o‘rganilib kelinmoqda, maktab darsliklarida aniqlovchi ergash gaplarni hosil qiluvchi vositalarning kengroq berilib o‘tilsa o‘quvchilarning sifatdoqlik birikmalardan farqlashda qiyinchiliklarga duch kelmaydilar.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F. A. Абдурахмонов Тарихии синтаксис. Узбекистон ССР «Фан» нашриети. Т о ш к е н т, 1974
2. Ўзбек тили грамматикаси. II том. Синтаксис. Тошкент: Фан, 1976
3. N.M.Mahmudov, A.Nurmonov, A.SH.Sobirov Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. Toshkekt: Tasvir. – 2019.

<sup>160</sup> Ўзбек тили грамматикаси. II том. Синтаксис. Тошкент: Фан, 1976, – 403 б.

<sup>161</sup> Ўзбек тили грамматикаси. II том. Синтаксис. Тошкент: Фан, 1976, – 412 б.

<sup>162</sup> N.M.Mahmudov, A.Nurmonov, A.SH.Sobirov Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. Toshkekt-2019.

## APPLICATION OF MODERN HONEYPOT TECHNOLOGY TO PREVENT CYBER ATTACKS IN THE FIELD INFORMATION SECURITY

*Salimova Husniya Rustamovna*

*Master's degree, specialty "Information Security",  
Tashkent University of Information Technologies  
named after Muhammad al-Khwarizmi, Uzbekistan.*

**Abstract:** A honeypot is a closely monitored network decoy serving several purposes: it can distract adversaries from more valuable machines on a network, provide early warning about new attack and exploitation trends, or allow in-depth examination of adversaries during and after exploitation of a honeypot. Deploying a physical honeypot is often time intensive and expensive as different operating systems require specialized hardware and every honeypot requires its own physical system. This paper presents Honeyd, a framework for virtual honeypots that simulates virtual computer systems at the network level. The simulated computer systems appear to run on unallocated network addresses. To deceive network fingerprinting tools, Honeyd simulates the networking stack of different operating systems and can provide arbitrary routing topologies and services for an arbitrary number of virtual systems. This paper discusses Honeyd's design and shows how the Honeyd framework helps in many areas of system security, e.g. detecting and disabling worms, distracting adversaries, or preventing the spread of spam email.

**Keywords:** Honeyd, honeypot, Network data, routing topology

**Introduction.** Internet security is increasing in importance as more and more business is conducted there. Yet, despite decades of research and experience, we are still unable to make secure computer systems or even measure their security. As a result, exploitation of newly discovered vulnerabilities often catches us by surprise. Exploit automation and massive global scanning for vulnerabilities enable adversaries to compromise computer systems shortly after vulnerabilities become known. \*This research was conducted by the author while at the Center for Information Technology Integration of the University of Michigan. One way to get early warnings of new vulnerabilities is to install and monitor computer systems on a network that we expect to be broken into. Every attempt to contact these systems via the network is suspect. We call such a system a honeypot. If a honeypot is compromised, we study the vulnerability that was used to compromise it. A honeypot may run any operating system and any number of services. The configured services determine the vectors an adversary may choose to compromise the system. A physical honeypot is a real machine with its own IP address. A virtual honeypot is a simulated machine with modeled behaviors, one of which is the ability to respond to network traffic. Multiple virtual honeypots can be simulated on a single system. Virtual honeypots are attractive because they require fewer computer systems, which reduces maintenance costs. Using virtual honeypots, it is possible to populate a network with hosts running numerous operating systems. To convince adversaries that a virtual honeypot is running a given operating system, we need to simulate the TCP/IP stack of the target operating system carefully, in order to deceive TCP/IP stack fingerprinting tools like Xprobe or Nmap. This paper describes the design and implementation of Honeyd, a framework for virtual honeypots that simulates computer systems at the network level. Honeyd supports the IP protocol suites and responds to network requests for its virtual honeypots according to the services that are configured for each virtual honeypot. When sending a response packet, Honeyd's personality engine makes it match the network behavior of the configured operating system personality. To simulate real networks, Honeyd creates virtual networks that consist of arbitrary routing topologies with configurable link characteristics such as latency and packet loss. When networking mapping tools like traceroute are used to probe the virtual network, they discover only the topologies simulated by Honeyd. Our performance evaluation of Honeyd shows that a 1.1 GHz Pentium III can support 30 MBit/s aggregate bandwidth and that it can sustain over two thousand TCP transactions per second.

The experimental evaluation of Honeyd verifies that fingerprinting tools are deceived by the simulated systems and shows that our virtual network topologies seem realistic to network mapping tools. To demonstrate the power of the Honeyd framework, we show how it can be used in many areas of system security. For example, Honeyd can help with detecting and disabling worms, distracting adversaries, or preventing the spread of spam email.

Har bir ko'lining o'z mikroiklimi mavjud va ko'llarni suv bilan ta'minlaydigan alohida kanallari bor. Ko'llar deyarli cho'lda qum tepaliklari orasidagi chuqurlikda joylashgan va ularning maydoni qishloq xo'jaligida foydalaniladigan suvlarning balansiga bog'liq xolda o'zgaradi va ko'llarning barqarorligini ta'minlaydi.

Irrigatsion ko'llarning suvini kamayishi va ko'payishi albatta atrof lanshaftlariga ham turlicha ta'sir ko'rsatmasda qilamaydi bunday ta'sirlarni o'rganinsh albatta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Ko'llarning qirg'oqlari chekinishi va suv bosishi natijasida turli xil lanshaftlar tarkib topadi va bu lanshaftlar suv hajmi kamayishi kuzatilsa, atrof lanshaft xillarining o'zgarishi qirg'oqdan tortib ko'l tubiga tomon yarim gidromorf-subakval yo'nalishda, qirg'oqdan atrofga tomon yarim gidromorf-avtomorf o'zgarishlari kuzatiladi. Aydar-Arnasoy ko'llarining misolida yonbag'r lanshaftlari o'simlik, tuproq, relyef va yotqiziqlarning xususiyatiga asoslanib 4 ta lanshaft xiliga ajratishimiz mumkin.

1-xildagi lanshaftlar suv kamayishi natijasida paydo bo'lgan sho'ra-yontiq-sarsazan o'sadigan ustini yupqa qum qoplagan tagi sho'rxok va sho'rtoplardan tashkil topgan to'lqinsimon yuzalar lanshafti.

2-xildagi siyrak sarsazan va sho'ralar o'sadigan po'rsildoq sho'rxokli qisman botqoqlashgan to'lqinsimon yuzalar lanshafti.

3-xildagi kuchli sho'rlangan va botqoqlashgan, bazi joylarda tuz qoplami tarqalgan botiq tubi lanshafti.

4-xildagi chekkalari qamish qovg'a bosgan sho'r ko'llar lanshafti.

Cho'l hududida joylashgan mazkur irrigatsion ko'llar hudud lanshaftlarini tubdan o'zgarganligi hududning geomorfologik asosini o'zgarganligi bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Mazkur hududlar inson tomonidan maqsadli ravishta o'zgartirilgan lanshaft xillarining natijasi bo'lib xizmat qiladi. Albatta tabiat insoniyatga o'z javobini qaytarishini yodimizdan chiqarmagan xolda.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, irrigatsion ko'llarning suvlariga kelib tushadigan zararli kimyoviy moddalar nafaqat atrof lanshaftlariga balki insoniyat sog'ligiga ham o'zining ta'sirini o'tkazib qolmasdan turli xil fojeali oqibatlarini ham keltirib chiqarishi malum. Ko'llarning suv sathini bir meyorda ushlab turish bilan bog'liq amaliy chora tadbirlarni qo'llash bizning vazifamiz bo'lib bu boradagi qabul qilingan turli qarorlarni qo'llab quvvatlashimiz joizdir. Lanshaftlarning inqirozga yuz tutushi oldini olishda amaliy ishlar qilish tuzlarning atrofga tarqalishini oldini olishda o'simlik turlarini boyishiga yordam berishimiz lozim. Mazkur hududlarning mikroiklimini muxofaza qilish doirasida amaliy ishlarni olib bormoqlik kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abbasov S.B., Sabirova N.T. Arid mintaqa ko'llarining ekologik xavfsizligi masalalari. //Geografiya va Geografiya ta'limidagi muammolar. Respublika ilmiy- amaliy konferensiya materiallari. Toshkent, 2018.-B.19-22.
2. Alibekov L.A. Inson va tabiat. –T.; Fan va texnologiyalar, 2016.-272b
3. Abbasov S.B Qizilqum cho'li lanshaftlari dinamikasi va ekologiyasi . Monografiya. – Samarqand. SamDu, 2019. 176 b
4. Abbasov S.B., Sabirova N.T. Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda monitoring roli ( Aydar-Arnasoy ko'llari tizimi misolida) Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. 2021-B 11-14

## TABIIY FANLARNI O‘QITISHDAGI HAMKORLIK NATIJALARI VA TAHLILI (MOBIL GURUHLARDA)

*Sharipboyeva Y.M.*

*TVCHDPI Biologiya o‘qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Bugungi kunda mamlakatimizda yosh avlodning ta‘lim olishi, har tomonlama yetuk inson bo‘lib yetishi uchun ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta‘lim tizimida o‘qituvchilarning o‘zaro malaka almashishi va oliy ta‘limga o‘quvchilarning kirish koeffitsiyenti past bo‘lgan o‘rta maxsus maktablardagi o‘qituvchilarga metodik yordam berish ta‘lim samaradorligiga yuqori ta‘sir ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** mobil metodik guruh, tabiiy fan, diagnostika, metod, o‘zlashtirish.

**Annotation :** Today, many reforms are being carried out in our country to educate the younger generation and make them mature in all respects. In the education system, teacher exchanges and methodological support for teachers in secondary special schools with low enrollment rates in higher education have a high impact on educational effectiveness.

**Key words:** mobile group, science, diagnostics, method, skill.

**Аннотация:** Сегодня в нашей стране проводится множество реформ по воспитанию подрастающего поколения и взрослению его во всех отношениях. В системе образования большое влияние на эффективность образования оказывают педагогические обмены и методическая поддержка учителей средних специальных школ с низкими показателями приема в высшие учебные заведения.

**Ключевое слова:** мобильная группа, наука, диагностика, метод, навык.

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning „Xalq ta‘limi tizimini isloh qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 3-fevraldagi F-22-son farmoyishi hamda 2022-yil 28-yanvar kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 8-sonli bayonida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta‘minlash maqsadida Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi va Xalq ta‘limi Vazirligi bilan hamkorlikda umumta‘lim maktablarigametodik yordam berish maqsadida Toshkent shahar, viloyatlar va Qoraqalpog‘iston respubliksi kesmida hududdagi professor-o‘qituvchilar va akademik litsey o‘qituvchilardan tashkil topgan „mobil metodik guruh” tashkil qilindi. „Mobil metodik guruh”ning asosiy vazifalari umumta‘lim maktablarida faoliyat olib borayotgan ona tili va adabiyoti, chet tillari,, tarix,matematika, informatika, fizika, kimyo, biologiya va geografiya fanlari o‘qituvchilarini diagnostikadan o‘tkazish, diagnostika natijasidan kelib chiqqan holda bo‘shliqlarni bartaraf etishga qaratilgan mashg‘ulotlarni tashkil qilish, Xalq ta‘limi vazirligining „Uzluksiz kasbiy rivojlanish” platformasi orqali pedagogik kompetensiyalarning darajasini oshirish, ilg‘or metodikalar va innovatsiyalarga o‘rgatish tizimini yo‘lga qo‘yish, o‘quvchilar uchun tumanda ko‘chma „Ochiq eshiklar kuni”ni tashkil etish o‘quvchilarni kasbiy ta‘lim va oliy ta‘limga yo‘naltirishga qaratilgan targ‘ibot ishlarini yo‘lga qo‘yishdan iborat. [1]

Aprel oyida Angren shahar maktablari uchun TVCHDPI professor-o‘qituvchilaridan iborat „Mobil metodik guruh” tashkil qilindi. „Mobil metodik guruh” jamoasi biologiya, tarix, kimyo, fizika, matematika, informatika va ona tili va adabiyoti fanlari kesimidan tashkil topgan. Dastlab jamoa o‘qituvchilari maktab o‘qituvchilarining dastlabki diagnostika natijalari bilan tanishdilar.Maktab olis hududdagi maktablar ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, qo‘shni Tojikiston davlati bilan chegaradosh tog‘li hududda joylashgan.Maktabda surunkali ikki yil bitiruvchilar oliy ta‘limga yo‘naltirilmagan.Maktab jamoasi va maktabda o‘quvchilarga yaratilgan sharoitlar bilan tanishildi. Fan o‘qituvchilari bilan dastlabki diagnostika natijalari tahlil qilindi va „Mobil metodik guruh”ning maqsadi tushuntirildi. Ma‘lum bo‘shliqlar aniqlanib, ularga o‘quv mashg‘ulotlari uchun har bir fandan maxsus reja ishlab chiqildi.

Bugungi kunda o'quv mashg'ulotlari uchun offline va online ta'lim birgalikda olib borilmoqda va bu usul o'zining ijobiy samarasini bermoqda. „Mobil metodik guruh“ fan o'qituvchilari bilan an'anaviy shaklda va turli xil online platformalarda (zoom, telegram) tarzda darslarni tashkil etdilar. An'anaviy ta'limning kelib chiqishi uzoq tarixga borib taqaladi. Yuzma –yuz o'rganish va o'rgatish insoniyat paydo bo'lganidan buyon davom etib kelayotgan bo'lsada, oliy ta'lim misolida tarixdagi eng birinchi universitet sifatida 970-yilda Misrning Qohira shahrida tashkil etilgan Al-Azhar universitetini aytib o'tish mumkin. Shuningdek, „an'anaviy ta'lim“ atamasi ilk bor XVII asrda Ya.A.Komenskiy tomonidan o'zining „Buyuk didaktika“ asarida ta'limning sinf-dars tarzida tashkil etishi izohi sifatida keltirilgan. An'anaviy ta'lim maktab olis hududda joylashganligi uchun ko'plab qiyinchiliklar keltirib chiqaradi, lekin internet aloqasi bilan yaxshi ta'minlanganligi masalaga ancha yengillik va qulaylik tug'diradi. Online ta'lim shaklida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish ayniqsa, tabiiy fanlar biologiya, kimyo va fizika fanlarida ancha samaraliroq. Tabiiy fanlarni o'zlashtirishda fanga oid laboratoriya mashg'ulotlarida 3D texnologiyalar, multimedia vositalari, audio, videoroliklar, turli xildagi animatsiyalardan foydalanish yuqori samara beradi. Biologiya darslarida oqsillar biosintezi, moddalar almashinuvi, hujayraning mitoz va meyozi bo'linish, o'simliklarda qo'sh urug'lanish jarayonlari, barglarda fotosintez jarayoning sodir bo'lishi va laboratoriya mashg'ulotlarida multimedia vositalari o'zlashtirishda yuqori natija beradi. Fan o'qituvchilari bilan ikki xil shaklda dars mashg'ulotlarini olib borish „Uzluksiz kasbiy rivojlanish“ platformasi orqali pedagogik kompetensiyalarning darajasini oshirishda muhim sanaladi. [2]

Maktab biologiya o'qituvchisi bilan zoom platformasi (online meeting) da va telegram ijtimoiy tarmog'ida (vois chat, video chat) shaklida darslar olib borildi. Har bir darsda o'qituvchi uchun qiyinchilik keltirib chiqaruvchi mavzular yuzasidan muhokama va tushuntirish olib borildi. Maktab darsliklarida o'quvchilar uchun murakkab mavzular yuzasidan zarur tavsiya va ko'rsatmalar berildi. Darsda foydalanish uchun interaktiv metodlar tushuntirib berildi. O'quvchilar tabiiy savodxonligini baholovchi xalqaro baholash tizimlari haqida ma'lumot berildi. Biologiya o'qituvchisi bilan ishlash davomida ko'proq genetika ya'ni o'simliklarni chatishtirish, odamdagi ba'zi irsiy kasalliklarning avloddan avlodga o'tishdagi farqlarga urg'u berildi. „Mobil metodik guruh“ fan o'qituvchilari bilan fanlar kesimida mashg'ulotlarni olib bordi. Maktab tarix, fizika, matematika, ona tili va adabiyoti, informatika, biologiya, kimyo, geografiya fan o'qituvchilaridan „Mobil metodik guruh“ da tashkil qilingan darslardan so'ng yakuniy diagnostika test nazorati o'tkazildi. (1-jadval).

№	Fan nomi	Dastlabki natija	Yakuniy natija	O'zgarish ko'rsatkichi
1	Matematika	60	46,7	-13,3
2	Biologiya	23,3	80	56,7
3	Tarix	66,7	88,3	16,6
4	Matematika	26,7	60	33,3
5	Onatili va adabiyoti	63,3	90	26,7
6	Kimyo	53,3	86,7	33,4
7	Fizika	46,7	50	3,3
8	Onatili va adabiyoti	83,3	86,7	3,4
	O'rtacha ko'rsatkich	52,9	72,9	20

Ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki, olis hududlardagi bitiruvchilar oliy ta'limga yo'naltirilmagan maktablardagi o'qituvchilar bilan turli xil interfaol texnologiya, an'anaviy va online ta'limdan birgalikda foydalanib sezilarli natijalarga erishish mumkin. Hamkorlikda o'qitish metodikasi nafaqat darslarda balki oliy ta'lim muassasalari bilam umumiy o'rta ta'lim maktablarida ham samarali yo'ldir. Biologiya fanining yutuqlari ishonchli tarzda insoniyat yangi asrga –biologiya asriga kirib borganligi haqida dalolat bermoqda. Biologiya fanining yutuqlari ko'p jihatdan tabiiy fanlar fizika, kimyo, matematika, astronomiya sohasida erishilgan yutuqlar dan foydalanish natijasida yuz bermoqda.

Bu fanlarning yutuqlari va metodlari asosida elektron mikroskopiya, spektrokopiya, rentgenostruktura tahlili, hujayraning molekular, va submolekular darajada o'rganish imkonini beradi. [3] To'g'ri yo'lga qo'yilgan biologik ta'lim ilmiy dunyoqarashni tarbiyalashga imkon beradi, O'quvchilar biologik ta'lim olayotib, tabiat faktlari va hodisalarini o'zaro bog'lashda, harakat, o'zgarish va rivojlanish holatida tushunishga o'rganadilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. SH.M.Mirziyoyevning „Xalq ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida” 2022-yil 3-fevraldagi F-22-son farmoyishi.
2. Tolipova J.O., G'ofurov A.T .Biologiya o'qitish metodikasi.O'quv-uslubiy qo'llanma.Toshkent -2004.
3. H.T. Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov.Pedagogik texnologiyalar va pedagogic mahorat.Toshkent-2009.

## DORIVOR QASHQARBEDA EKILGAN PLANTATSIYALAR TUPROQ NEMATODALAR ANALIZI

*Sharipboyeva Yulduz Muzafarovna*  
*TVChDPI biologiya kafedrasi o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Dorivor o'simliklar farmatsevtika sanoati uchun asosiy xomashyo mahsuloti hisoblanadi. Har xil turga kiruvchi dorivor o'simliklardan farmakologiya uchun yuqori hosil olishda tuproq faunasini o'rganish, tuproq tarkibi, o'simliklar uchun optimal tuproq sharoitini to'g'ri tashkil etish muhim omillardan sanaladi. Dorivor qashqarbeda (*Melilotus Officinalis* Descr.) dan tibbiyotda yumshatuvchi va ta'sirlovchi sifatida (yaralarni so'rib olish)da qo'llaniladi. Qashqarbeda ekilgan plantatsiyalarda turli xil mikroorganizmlar, bakteriyalar va tuproq nematodalari o'simlik o'sishi, rivojlanishi va hosil berishga katta ta'sir ko'rsatadi. *Melilotus Officinalis* Descr. ekilgan dala tuproqlarida nematoda faunasida o'simlik ildizi va ildiz atrofi tuprog'ida uchraydigan nematodalar asosiy o'rinni egallaydi.

**Kalit so'zlar:** nematoda, tuproq, dorivor o'simlik, saprobiontlar, qishloq xo'jaligi.

**Аннотация:** Лекарственные растения являются основным сырьем для фармацевтической промышленности. Изучение почвенной фауны, состава почв и правильная организация оптимальных почвенных условий для растений являются важными факторами получения высоких урожаев для фармакологии от различных видов лекарственных растений. Лекарственные травы (*Melilotus Officinalis* Descr.) используются в медицине как смягчающее и смягчающее действие (рассасывание ран). На плантациях, засаженных *Melilotus Officinalis* Descr., различные микроорганизмы, бактерии и почвенные нематоды оказывают существенное влияние на рост, развитие и урожайность растений. *Melilotus Officinalis* Descr. в окультуренных полевых почвах в фауне нематод преобладают корни растений и нематоды, обитающие в почве вокруг корней.

**Ключевые слова:** нематоды, почва, лекарственные растения, сапробионты, сельское хозяйство.

**Annotation:** Medicinal plants are the main raw material for the pharmaceutical industry. The study of soil fauna, soil composition, and the proper organization of optimal soil conditions for plants are important factors in obtaining high yields for pharmacology from various types of medicinal plants. Medicinal herbs (*Melilotus Officinalis* Descr.) Are used in medicine as a emollient and effects (wound absorption). In the plantations planted in *Melilotus Officinalis* Descr., various microorganisms, bacteria and soil nematodes have a significant impact on plant growth, development and yield. *Melilotus Officinalis* Descr. in cultivated field soils, the nematode fauna is dominated by plant roots and nematodes found in the soil around the roots.

**Key words:** nematodes, soil, medicinal plants, saprobionts, agriculture.

**Kirish.** Bugungi kunda respublikamizda dorivor o'simliklarni yetishtirish, ular tarqalgan plantatsiyalarni ko'paytirish va turli xil dorivor o'simliklarni chet eldan olib kelib iqlimlashtirishga katta e'tibor berilmoqda. Prezidentimizning 2020-yil 26-noyabrdagi PQ-4901 sonli «Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug'chiligini yo'lga qo'yishni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori qabul qilinishi shifobaxsh o'simliklar plantatsiyalarini ko'paytirish va ularning tuproq analizini aniqlash dolzarb masalalardan biri ekanligini ko'rsatadi. Butunjahon Sog'liqni Saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, mavjud dori-darmonlarning 60% ni dorivor o'simliklar xom ashyosidan olingan preparatlar tashkil qiladi. Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasida 112 tur dorivor o'simliklar rasmiy tabobatda foydalanishga berilgan bo'lib, ushbu dorivor o'simliklarning 80% ni tabiiy holda o'suvchi o'simliklar tashkil etadi.



Tabiiy holda o'suvchi dorivor o'simliklarning ham xomashyo zaxirasi cheklangan bo'lib, ularni muhofaza qilish, bioekologik xususiyatlarini o'rganish, xomashyo zahirasidan to'g'ri foydalanish va ko'paytirishning ilmiy asoslangan usullarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunda dorivor ekinlar ekilgan dalalar tuproq faunasi o'rganish muhim masaladir.

Tuproqda mikroorganizmlar, viruslar, nematodalar yashab o'simlik organizmiga turli darajada ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatadi. Nematodalar tuproq qatlamlarida g'oyat ko'p miqdorda uchrab, ko'p hujayrali organizmlarning asosiy qismini tashkil etadi. Tuproqlardagi har qanday organik moddalarning chirish jarayoni nematodalar ishtirokida sodir bo'lib, tuproq organik va mineral moddalar bilan to'yinadi. Nematodalarning ko'pgina turlari odam, hayvonlar va o'simliklarning turli organlarida parazitlik qilib, inson va hayvon organizmlarida ko'pgina oqibati yomon bo'lgan, yuqumli kasalliklarni keltirib chiqaradi, o'simliklar hosildorligining kamayishiga olib keladi. Yumaloq chuvalchanglar tanasi pishiq kutikula qavati bilan qoplangan bo'lib, bu qavat ularni har qanday zararli moddalar ta'siridan himoya qiladi. Pishiq kutikula qavati asosiy himoya vositasi hisoblanib turli xil muhit sharoitlarida yashashga imkoniyat yaratadi. Nematodalarning harakatlanish tarzi ham o'ziga xos tarzda namoyon bo'lib, turli qatlamlarda turlicha harakatlanadi. . [2].

**Tadqiqot materiali va metodikasi.** Dorivor qashqarbeda plantatsiyalarida turli xil patogen mikroorganizmlarni aniqlash va ularga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Dorivor qashqarbeda (*Melilotus Officinalis* Descr.) ekilgan dalalardagi nematodalar o'simlik ildizi va ildiz atrofi tarkibi bo'yicha turli xil guruhlarga mansub turlardan iborat. Qashqarbeda ekilgan dalalar tuproq faunasini o'rganish qishloq xo'jaligi, farmatsevtika sanoati uchun nihoyatda muhimdir. Dorivor qashqarbeda – 2 yillik , bo'yi 50-100 sm ( ba'zan undan ham ortiq) dukkakdoshlar (*Fabaceae*)oilasiga mansub o'simlik. Ildizi sershox o'q ildiz. Bargi 3 bargchali murakkab barg, gullari mayda sariq shingil to'pgulga o'rmasgan. Mevasi –tuxumsimon , ko'ndalangiga burishgan , kulrang tusli, tuksiz, bir urug'li dukkak. O'zining yerusti qismi dorivorligi bilan ajralib turadi. [3].Tuproqdagi bir guruh nematodalar borki , ular tuproq holati yaxshilanishiga katta yordam beradi. O'simliklarni bevosita zararlantiruvchi nematodalar nafaqat o'zlari, balki o'zlari bilan olib keluvchi bakteriyalar, zamburug'lar va virus kasalliklari ham tarqatishda bevosita ishtirok etadi.

Tuproq nematoda faunasini o'rganishda turli xil metodikalardan foydalaniladi. Fitogelmintologiyada tuproqdan, o'simlikdan na'munalar olishda Berman usulidan keng foydalaniladi. Dastlab qashqarbeda (*Melilotus Officinalis* Descr.) ekilgan dala tuprog'idan konvert usulida tuproq na'munalari yig'ib olindi. Tadqiqot uchun tuproqlar O'zbekistonning shimoliy- g'arbiy qismi Xorazm viloyati Xiva Ma'mun Akademiyasi dorivor o'simliklar ekilgan yer maydonlaridan olindi. Joyning tuproqlari alluvial, o'tloqi, sho'rxok, taqir va cho'l tuproqlaridan iborat. Berman metodi fitonematodalarni zararlangan o'simlik na'munalariidan faol chiqishiga asoslangan bo'lib, suvga chiqqan nematodalar fistula-probirka tubiga cho'kadi. O'simlik organlaridagi fitogelmintlarning umumiy soni va turini aniqlash uchun diametric 12-15 sm li plastmassa yoki shisha voronkalardan foydalaniladi. Voronkaning ingichkalashgan keying qismiga 10-15 sm li rezina shlang kiygizib , qisqich purjina yordamida qisib mahkamlanadi. Rezina shlangning keyingi erkin qismiga esa fitonematodalar yig'iladigan entomologik probirka joylashtiriladi. Rezina shlang va probirka kiydirilgan voronkalar vertical holatda maxsus teshikchalarga ega bo'lgan yog'och shtativga joylashtiriladi. Voronkalarga diametri 10-12 sm , katakchalari esa 0,5-2 mm bo'lgan temir yoki plasmassadan tayyorlangan yassi sito joylashtiriladi. Voronka toza vodoprovod suvi yoki 0,15-0,3 % li vodorod peroksid eritmasi bilan shunday to'ldiriladiki, sito ustida joylashtirilgan o'simlik na'munalari to'liq suyuqlikka botgan holda bo'lishi kerak. Bundan tashqari, o'simlik na'munalari sut (paxtali) filtri yoki gigroskopik paxta ustiga qo'yilishi , probirkaga nematodalarni toza holda ajratib olish imkonini beradi. Voronkaga suv quyish jarayonida rezina shlangda havo qolib ketmasligiga e'tibor berish lozim. Qashqarbeda (*Melilotus Officinalis* Descr.) ekilgan dala tuprog'idan olingan na'muna raqami va qo'yilgan sanasi yozilgan etiketka voronka chetiga qo'yiladi.

**Natija va xulosalar.** Dorivor qashqarbeda tuprog'idan Berman usulida ajratib olingan nematodalar aniqlagichlar yordamida turlar tarkibi aniqlandi. Fitonematodalar entomologik ignalar orqali bir tomchi suv tomizilgan soat oynachasiga olinadi. Keyin ularga spirt-glitserin (bir qism spirt, bir qism glitserin) aralashmasi qo'yib, bir sutka qoldiriladi. Doimiy preparatlar tayyorlash uchun soat oynachasidan nematodalar glitserin-jelatinga olinadi. [1]. Fitonematodalarning morfologik tavsifi sistematik xarakterga ega. Nematodalarni turgacha aniqlashda ularning tan tuzilishini bilish shart, bunda de Man (1884) formulasi va Metlitskiy tomonidan modifikatsiya qilingan formulalardan foydalaniladi.

Qashqarbeda (*Melilotus Officinalis* Descr.) ning ildizi v aildizi atrofida 7 ta oila, 21 ta avlodga mansub 32 ta tur nematodalar aniqlandi. A.A.Paramonovning ekologik klassifikatsiyasiga ko'ra va unga qo'shimcha O.Z.Metlitskiy, T.V.Volkova, A.S.Eroshenko sistemikasiga asosan, nematodalar quyidagi 4 ta guruhga bo'lindi: pararizobiontlar, eusaprobiontlar, devisaprobiontlar, fitogementlar. [4]. Dorivor qashqarbeda o'simligi ildizi yuqori qatlamidan (0-30sm) 6 ta 3 turkumga mansub, ildizning chuqurroq qatlamidan (30-60sm) 15 ta 8 turga mansub nematodalar topildi. Ildiz atrofi tuprog'idan tuproq na'munalari yuqoridagidek 2 ta gorizont bo'yicha, ustki, ostki tuprog'idan olindi. Yuqori qatlamdan 5 ta 3 turga kiruvchi, ostki qatlamda 6 ta 3 turga kiruvchi nematodalar aniqlandi. Devisaprobiontlar yoki yarim saprozoy nematodalar chirindi yoki o'lik organik moddalar bilan oziqlanuvchi hamda tirik, sog'lom o'simlik to'qimalarida uchraydigan nematodalar bo'lib, tajribada quyidagilar uchradi: *Plectus geophilus*, *P. parietinus*, *P. cirratus*. [6].

Eusaprobiontlar haqiqiy saprobiontik nematodalar. Ular o'simlik to'qimalarining zararlangan saprobiontik markazlarda ko'p uchraydi va sog'lom o'simlik to'qimalariga kasallik tarqatuvchilarni faol tarqatadi. Bu guruhga mansub nematodalardan 3 ta oilaga mansub 11 ta tur (*Rhabditis brevispina*, *Rh. filiformis*, *Rh. oxycerca*, *Rh. intermedia*) aniqlandi. [5] Fitoparazitlardan 2 ta tur topildi. Bu guruhga o'simliklarga haqiqiy zarar keltiruvchi parazitlar nematodoz kasalliklarini keltirib chiqaradi. Tuproqdan olingan natijalarda pararizobiontlar uchramadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Azizova E.P., Abduraxmonova G. Fitogelmintologiya maxsus kursidan ma'ruzalar matni.- Toshkent 2000. 26-bet.
2. Dadayev S., Abduraxmonova G. Umumiy parazitologiya.- Toshkent-2013. 380-bet
3. Murdaxayev Y.M. O'zbekistonda vatan topgan dorivor o'simliklar.- Toshkent 1990.
4. Парамонов А.А. Основы фитогельминтологии. М., 1970. Т. 2. стр. 444.
5. To'laganov A.T., Usmonova A.Z. Фитонематоды Узбекистана. –Toshkent 1975, tom -1.
6. 5. To'laganov A.T., Usmonova A.Z. Фитонематоды Узбекистана. –Toshkent 1975, tom -2.


## PEROVSKIT QUYOSH ELEMENTLARINI YASASHNING ODDIY USULLARI

<sup>1</sup>Shaxobiddinova A.X., <sup>1,2</sup>Saparbayev A.A.

<sup>1</sup>Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti


<sup>2</sup>U.A. Arifov nomidagi Ion plazma va lazer texnologiyalari instituti.

So‘nggi paytlarda perovskit materiallariga asoslangan quyosh batareyalariga katta e‘tibor qaratilmoqda. Biroq, perovskit materiallarining cheklangan eruvchanligi tufayli perovskit plyonkalarining sifati hali ham qoniqarli emas. perovskit elementlarining samaradorligini oshirish uchun perovskit plyonkasini bir xilda qoplash zarur, buning uchun turli xil texnikalar ishlab chiqilgan, masalan, isitish, gaz purkash, vakuum, antisolvent, bir bosqichli qoplama, ikki bosqichli qoplama usullari, kimyoviy qo‘shimchalar qo‘shish, masalan, kislotaga qo‘shimchalari. Ushbu ishda noorganik seziiy qo‘rg‘oshin triiodid ( $\text{CsPbI}_3$ ) perovskit elementlari sintez qilindi va plyonka tayyorlash jarayonida oddiy spin coating usuli qo‘llanilishi bilan havo sharoitida antisolvent eritmasiz yuqori sifatli perovskit plyonkalarini olindi.  $\text{CsPbI}_3$  prekursorli eritmasini tayyorlash uchun CsI va  $\text{PbI}_2$  DMFda 1:1 M nisbatda (0,5 M) eritildi va xona haroratida havo sharoitida 12 soat davomida aralashtirildi, so‘ngra perovskit plyonkalarini tayyorlashdan 2 soat oldin 1 ml prekursor eritmasiga 66 ml gidroioidid (HI) kislotasi qo‘shildi. ITO bilan qoplangan shisha tagliklar aseton, deionizatsiyalangan suv (DI) va izopropil spirti (IPA) da ultratovush vanna yordamida har birida 13 daqiqadan tozalandi, so‘ngra yuqori sof azot gazini purkash orali tozalangan ITO shisha tagliklar quritildi. Keyinchalik, ITO shisha tagliklarga 6 daqiqa davomida kislorod plazmasi bilan ishlov berildi. Shundan so‘ng, ITO shisha tagliklarga 4000 ayl./min. bilan 20 sekund davomida spin coating usulida 40 nm qalinlikda PEDOT:PSS yotqizildi va keyin havo sharoitida 160 °C da 20 daqiqa davomida pechda PEDOT:PSS tarkida mavjud bo‘lgan suv molekulari bug‘lantiriladi. Shisha/ITO/ PEDOT:PSS struktura tayyor bo‘lgach, havo sharoitida yuqori sifatli perovskit plyonkalarini ishlab chiqarish uchun perovskit eritmasini “spin coating” usuli (4000 rpm, 10 s) qo‘llanildi va perovskit plyonkasi plita ustiga qo‘yilib 100 °C da 10 minut davomida qizdiriladi. Perovskit plyonkalarining rangi shaffof sariq fazadan qora fazaga o‘zgaradi (1-rasm).



1-rasm. (a)  $\text{CsPbI}_3$  perovskit faol qatlamini tayyorlash sxemasi va (b) perovskit quyosh elementining tuzilishi

2-rasmdagi yutilish spektrlari shuni ko'rsatadiki,  $\text{CsPbI}_3$  plyonkasi ishlov berishdan oldingisi sariq fazadir va termal ishlov berishdan keyin qora fazaga aylanadi. Sariq fazali  $\beta\text{-CsPbI}_3$  perovskitning ta'qiqlangan soha oralig'i  $E_g = 2,81 \text{ eV}$  ga teng bo'ib, yutilish spektrlari ultrabinafsha to'lqin sohasida yutilish spektriga ega va molekulyar strukturasi ortorombik shaklga ega bo'lganligi sababli [1] perovskit quyosh elementining fotovolatik parametrlari juda yomon (PCE 0,09%) [2]. Qizdirilgandan keyin perovskit plyonka strukturasi ortorombik shakldan kubik shaklga ya'ni qora fazaga  $\alpha\text{-CsPbI}_3$  o'zgaradi va taqiqlangan soha kengligi 1,72 eV ga teng bo'ladi.



**2-rasm. Ortorombik va kubik strukturaga ega perovskit plyonkalarining yutilish spektri**

Perovskit plyonkalari prekursor eritmasini 4000 rpm tezlikda spin coating qilish usuli orqali tayyorlandi. Plyonkaning sifati va qalinligini yaxshilash uchun tez tomchilab coating jarayoni yana bir marta takrorlandi. Teshiklar kabi nuqsonlarni antisolventli muhandisliksiz, tomchi miqdorini yanada oshirish bilan ikki marta tomchilash usuli bilan samarali ravishda yo'q qilish mumkin, bu esa perovskit plyonkalarida zaryadning rekombinatsiyasini sezilarli darajada kamaytiradi[3].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bu usul samaralimi yoki yo'qmi, quyosh elementlarining yutilish koeffitsienti va sirt morfologiyasi sezilarli daraja yaxshilandi. Ushbu ishda oddiy usul bilan perovskit plyonkasining optik xususiyatlarini va fotovoltaik parametrlarini samarali ravishda yaxshilashi mumkinligini ko'rsatdi. Tez ikki marta perovskit eritmasini tomchilatib spin coating usuli natijalari shuni ko'rsatadiki, bir marta tomchilatib plyonka olingach tezda yana ikkinchi marta tomchilatib plyonkalaridagi teshik kabi nuqsonlarni samarali ravishda yo'q qilish mumkin. Ularning zaryad rekombinatsiyasi ham sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Natijada, oddiy usulda tayyorlangan samarali noorganik  $\text{CsPbI}_3$  perovskit quyosh elementlari barcha yaxshilangan fotovoltaik parametrlari bilan 12% energiya o'zgartirish samaradorligiga erishdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

[1] Steele JA, Jin H, Dovgaliuk I va boshqalar. Chizilgan qora  $\text{CsPbI}_3$  yupqa plyonkalarining termal muvozanati. Fan: 2019, 365 (6454): 679-684.  
 [2] Choi H, Jeong J, Kim HB va boshqalar. Gibrid quyosh xujayralari uchun seziiy qo'shilgan metilammoniy qo'rg'oshin yodid perovskit yorug'lik yutgichi. Nano energiya: 2014, 7: 80-85.  
 [3] Ahmad V, Xan J, Niu G va boshqalar. Noorganik  $\text{CsPbI}_3$  perovskit asosidagi quyosh xujayralari: tandem qurilmasi uchun tanlov. Quyosh RRL: 2017, 1 (7): 1700048

## MILLIY MUDOFAA TIZIMIDA PROFESSIONAL HARBIY ALOQACHI OFITSER KADRLARNI TAYYORLASH TARIXI VA ISTQBOLI

*Shermatov Fayzullo Toshfillayevich*

*O'zbekiston Respublikasi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va Aloqa harbiy instituti boshlig'ining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), podpolkovnik.*

**Annatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada Mudofaa vazirligi tizimida professional aloqachi harbiy ofitser kadrlarni tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari va uning ahamiyati haqida fikrlar mantiqiy ketma-ketlikda bayon etilgan. Maqolada mualliflarning ko'p yillar davomida olib borgan amaliy tajribalariga suyangan holda o'tkazilgan tahlillar natijasida fikrlar atroflicha bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** robototexnika, modellashtirish, optik tola, radiolaksiya, raqamli radioaloqa, Radioxavaskor va radioelektronika, mustaqil bilim, zamonaviy ta'lim, ilmiy va ilmiy tadqiqot, loyihaviy-konstruktorlik.

**Annotation:** This scientific article provides a logical sequence of ideas about the specifics of training and its importance in the system of professional Signal officers in the system of the Ministry of Defense. The article provides an in-depth analysis based on the authors' many years of practical experience.

**Keywords:** robotics, modeling, optical fiber, radiolocation, digital radio communication, amateur radio and radio electronics, independent knowledge, modern education, scientific and research, design.

Bugungi kunda mamlakatimiz Qurolli Kuchlari oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga ta'sir etadigan omillardan biri – bu shartnoma bo'yicha harbiy xizmatchi ofitser va serjantlar tarkibining professional tayyorgarlik sifat holati muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, bugungi kunda armiyamizning jangovar shayligi, tayyorgarligi va qobiliyati eng avvalo, ofitser va serjantlardan yuqori kasbiy tayyorgarlikni talab etmoqda. Zero mamlakatimizda ta'lim tizimi, shu jumladan, harbiy ta'limni takomillashtirish, uni zamonaviy talablar va jahon standartlariga moslashtirish masalasiga davlatimiz rahbariyati tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda. [1]

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning "Barcha bo'g'indagi professional harbiy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish bizning e'tiborimiz markazida bo'lib qolishi zarurligi mazkur ustuvor vazifaning muhimligidan dalolat beradi. Bu esa, Vatanga sodiqlik, fidoiylilik va o'z kasbiga muhabbat hamda o'z burchini matonatli bajarishga tayyorligi bilan bevosita belgilanadi. Barchamizga ma'lumki, XXII asr ilm-fan, texnika taraqqiyoti soat va daqiqalar sayin rivojlanib bormoqda. Shu o'rinda xorijiy davlatlarning Qurolli Kuchlar va armiyalaridagi harbiy texnikalar, qurol-aslahalar, aloqa vositalari va uchish apparatlari ham zamon talablariga moslashib yangilanib bormoqda. Shu sababdan ham Mudofaa vazirligi qo'shinlarni zamon talablarga mos professional armiyani modernizatsiya qilish borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Hozirgi kunda barcha qo'shin turlarni doimiy jangovar shay holda ushlab turish va ularning harbiy qudratini yanada oshirish Mudofaa vaziriligi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. [2]

Shunday ekan, qo'shinlarni boshqarishning asosiy bo'g'ini bu hech shubhasiz harbiy aloqachi ofitser kadrlardir. Shulardan kelib chiqib, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutining rivojlanish tarixiga bir nazar tashlaymiz. Aloqa harbiy instituti quyidagi bosqichlarda o'z rivojlanish yo'lini bosib o'tgan.



**1-bosqich:** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1993 yil 13-maydagi 222-13-son Qaroriga binoan Toshkent elektro-texnika aloqa instituti maxsus fakulteti tashkil qilingan.

**2-bosqich:** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 12-avgustdagi 386-55-son Qaroriga asosan Toshkent elektro-texnika aloqa instituti maxsus fakulteti bazasida Havo xujumidan mudofaa zenit raketachilari va radiotexnika qo‘shinlari ofitser – kadrlarni tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan.

**3-bosqich:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 30 maydagi 3080-son Farmoni bilan Toshkent axborot texnologiyalari universiteti maxsus fakultetiga o‘zartirilgan.

**4-bosqich:** 2017 yilda Muxammad Al-Xorazimiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti maxsus fakultetiga o‘zartirilgan.

**5-bosqich:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbuslariga ko‘ra 2019 yil 17 yanvardagi PQ 4122-son Qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti tashkil etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1993-yil 13-maydagi 222-sonli Qarori bilan Toshkent elektrotexnika va aloqa instituti Maxsus fakultetning tashkiliy shtat tuzilmasi tasdiqlangan. 1993 yil 1-sentabr sanasiga kelib, Toshkent elektrotexnika va aloqa institutining Maxsus fakultetida “Xukumat aloqasi, maxfiy aloqa va Qo‘shinlarni avtomatik tarzda boshqaruvi”, “Radioaloqa va kanal hosil qiluvchi tizimlari” va “Taktik - maxsus va umumqo‘shin tayyorgarligi” kafedralari tashkil etilgan. 1998 yilda maxsus fakultetning yangi tarkibiy- shtat tuzilmasiga asosan “Radioaloqa va kanal hosil qiluvchi tizimlar” kafedrasida “Radioaloqa” hamda “Radioreley tizimlari va olis aloqa apparatlari” kafedralariga bo‘lindi.

Ikkinchi bosqich: 1999-2008 yillarda. Fakultetning shtat birligiga o‘zgartirishlar kiritilishi. Qurolli Kuchlar uchun ofitser kadrlarni tayyorlab berish tizimini takomillashtirishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999-yil 12- avgustdagi 386-95-son qarori bilan Toshkent elektrotexnika va aloqa instituti Maxsus fakulteti HHM zenit raketa qo‘shinlari va HHM Radiotexnika qo‘shinlari mutaxassislari bo‘yicha ofitser kadrlarni tayyorlash vazifasi yuklangan va Maxsus fakultet bazasida HHM zenit-raketa qo‘shinlari, HHM radiotexnika qo‘shinlari hamda Radoyelktron kurash va razvedka kafedralari tashkil topgan.

1999 yilda Chirchiq OTQMBYu ning “HXM Zenit raketa qo‘shinlari” yo‘nalishida tahsil olayotgan 3-bosqich kursantlari Maxsus fakultetga ta’lim olish uchun ko‘chirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2002 yil 30 maydagi 3080-son Qaroriga asosan, Toshkent elektrotexnika va aloqa instituti Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Maxsus fakulteti etib qayta tashkil etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 2004 yil 30 dekabrda 1020-son buyrg‘iga asosan 2005 yilda Toshkent axborot texnologiyalari universitetining maxsus fakulteti qoshida, aloqa va telekommunikatsiya texnologiyalari mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi tashkil topgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tashabbuslariga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvardagi PQ-4122 - son “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa sohasida ofitser kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori bilan Muhammad al-Xorazimiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Maxsus fakulteti Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti etib qayta tashkil etilgan.

Mazkur harbiy institut Mudofaa vazirligining davlat oliy harbiy ta’lim muassasasi bo‘lib, u quyidagi 8 ta yo‘nalish bo‘yicha taktik bo‘g‘indagi ofitser kadrlarni ikki yillik tayyorlashni amalga oshiradi: Harbiy institut bitiruvchilariga “leytenant” harbiy unvoni va davlat namunasidagi diplom beriladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 yanvardagi PF-5632m-son qaroriga asosan, Mudofaa vazirligi tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqani rivojlantirish bo‘yicha zamonaviy harbiy shaharcha barpo etilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti deya nomlanib, o‘zining yangi kampus usulida qurilgan o‘quv hududiga ega bo‘ldi va Toshkent viloyati Zangiota tumani Quyoshli aholi yashash punktida qad rostladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 26 dekabrda Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutiga amalga oshirilgan tashrif. Mazkur qaror asosida yangi "Axborot tizimlari va texnologiyalari taktik qo'mondonlik muhandisligi" mutaxassisligi joriy etilgan va bu keng tarmoqli mutaxassis ofitser kadrlarni tayyorlashga imkoniyat yaratadi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan mutaxassisliklar uchun davlat ta'lim standartlari va ikki yilga mo'ljallangan yangi o'quv rejalari va dasturlari ishlab chiqildi. Ushbu o'quv rejalari umumiy harbiy tayyorgarlikka yo'naltirilgan fanlardan tashqari barcha mutaxassisliklar uchun yangi fanlar kiritiladi. Jumladan, dasturlash texnologiyalari asoslari, kompyuter grafikasi va animatsiya, kompyuter tizimlari va tarmoqlarini loyihalash. Mavjud bo'lgan ixtisoslik fanlari qayta ko'rib chiqilib, zamonaviy texnologiyalar rivojlanishini inobatga olgan holda tubdan o'zgartiriladi. Bundan tashqari, ixtirochilikni rivojlantirish va yangi innovatsion g'oyalarni amalga tatbiq etish maqsadida quyidagi 6 ta zamonaviy o'quv laboratoriyalari tashkil etiladi.

Robototexnika va dron tizimlari o'quv laboratoriyasi;

"Cisco" bazasida ma'lumotlarni uzatish tarmoqlari va modellashtirish va simulyatsiya virtual jihozlari;

Optik tola aloqa linyasi o'quv laboratoriyasi;

Radiolaksiya o'quv laboratoriyasi;

Raqamli radioaloqa o'quv laboratoriyasi;

Radioxavaskor va radioelektronika o'quv laboratoriyasi.

Ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkillashtirish, o'tkazish va amaliyotga joriy etish maqsadida, Harbiy institutda Ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi tashkil etilgan va quyidagi vazifalar belgilangan:

fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkillashtirish va o'tkazish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi innovatsion loyihalarni keyinchalik ularni sinovdan o'tkazish va Harbiy institut o'quv jarayoniga hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari qo'shinlari faoliyatiga tatbiq etish yo'li qo'yish.

**Xulosa.** Qurolli Kuchlarimiz aloqa sohasida harbiy-ilmiy faoliyatni takomillashtirish, iqtidorli yosh ofitser kadrlarni harbiy-ilmiy faoliyatga keng jalb etish yo'li bilan ilmiy salohiyatini mustahkamlash hamda harbiy sohadagi ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarning yagona kompleksi tashkil etiladi. Ushbu ko'rilgan choralar aloqa sohasidagi harbiy kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini ham yanada takomillashtirish va rivojlantirish imkoniyatini beradi. Jahon standartlari va xorijiy tajribani inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasida yagona bo'lgan harbiy aloqachilarni joylashtirishning yangi Kampus usulidagi infratuzilma, ya'ni xarbiy shaharcha barpo etildi. Harbiy institutda amaliy mashg'ulotlar vaqtida kursantlarning to'g'ridan-to'g'ri foydalanishlari va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishlari nazarda tutilgan. Bunda ta'lim olayotgan kursantlar uchun bir vaqtning o'zida ham nazariy bilim olish va uni amaliyot bilan uzviy bog'lash imkoniyati yaratiladi. Barcha o'quv sinflari va laboratoriya xonalari interfaol ta'limda qo'llaniladigan zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlanishi ko'zda tutilgan. Hozirda malakali ofitser kadrlarni tayyorlash, yangi texnologiyalar ya'ni zamonaviy axborot-kommunikatsiya va harbiy texnologiyalar, ilmiy salohiyatli professor-o'qituvchilar yordamida nazariya, amaliyot va ishlab chiqarish uzviy bog'lanadi va amaliyotga joriy etiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobi 2021 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Qurolli Kuchlar tashkil etiganligining 29 yilligi bayramidan so'zlagan nutqi 2021 yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4 avgust 2018 yildagi PQ-3898-son Qarori "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida".
4. J.H.Ismoilova, L.G.Levteyeva larning "O'zbekiston harbiy sa'nati tarixi" kitobi 2013 yil.

## YUKSAK MA'NAVIYATLI AVLOD – UCHINCHI RENESSANS BUNYODKORLARI

**Shukurova Mahliyo Boqiyevna**

*Qarshi davlat universiteti Pedagogika fakulteti*

*Psixologiya yo'nalishi 4-bosqich talabasi.*

**Shukurova Mohigul Boqiyevna**

*Toshkent davlat agrar universiteti*

*Mevachilik mutaxassisligi bo'yicha 2 kurs magistranti.*

**Kalit so'zlar:** Renessans, Uyg'onish davri, sharq mutafakkirlari, ilm-fan, madaniyat, san'at, taraqqiyot, davlat, jamiyat, xalq, yangi avlod.

“Biz keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohatlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak. Tarixga nazar solsak, Buyuk ipak yo'lining chorrahasida joylashgan ona zaminimiz azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o'choqlaridan biri bo'lganini ko'ramiz. Xalqimizning boy ilmiy, madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, bebaho me'moriy obidalar, nodir qo'lyozmalar, turli asoriatqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat beradi” [1].

**Mirziyoyev Shavkat Miromonovich**  
**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.**

Ma'naviy barkamol shaxslarni tarbiyalashning eng muhim tamonlaridan biri, ma'naviy olami yetuk shaxs har qanday vaziyatdanni to'g'ri tahlil qila olish, ongli ravishda to'g'ri fikr yuritish qobiliyatiga ega bo'lgan, oqilona mustaqil qarorlarni qabul qila oladigan va eng asosiysi yurt kelajagi, Vatan ravnaqi, obodligi yo'lida kerak bo'lsa jonini ham ayamaydigan komil insonlarni yetishtirib chiqarishdir.

*Renessans o'zi nima?*

“Renessans” fransuscha qayta tug'ilish degan ma'noni anglatadi. Uning mazmuni keng tushuncha bo'lib, ilm-fanda, madaniyatda, san'atda, ta'lim-tarbiyada umuman jamiyat hayotidagi uzoq muddatli turg'unlikdan keyin qayta jonlanib, jadal rivojlanishni, jamiyatda ijtimoiy qadriyatlar va ong yangi bosqichga ko'tarilishini bildiradi. Renessans atamasi o'zbek tiliga Uyg'onish davri deb o'girilgan. Bu atama ilk bor Yevropada o'rta asrlar mutassibligidan keyin XV-XVI asrlardagi rivojlanish davriga nisbatan qo'llanilgan.

Atoqli sharqshunos Adam Metsning 1909-yilda “Musulmon Renessansi” nomli fundamental asari chop etilgan. Avstraliyalik olimning bu asari chop etilgandan buyon Renessans faqat Yevropaga oid hodisa emasligi, uni Sharq xalqlari yevropaliklarga qaraganda oldinroq boshdan kechirgani to'g'risidagi qarashlar va tatqiqotlar paydo bo'la boshlaganligi manbalarda qayd etilgan. Buyuk sharqshunos Rossiyalik akademik olim N.N.Konrad Renessans VII-VIII asrlarda Xitoyda boshlanib, VIII asrda Hindistonda davom etgani va IX-XII asrlarda islom mamlakatlari estafetani qabul qilib olgani, mo'g'ul istilosi tufayli ancha pasayib qolgan yuksalish Amir Temur va temuriylar davrida yana qayta gurkirab o'sganini ta'kidlaydi. Akademik olim O'rta Sharq Uyg'onish davrini Alisher Navoiy zamonasigacha bog'laydi.

Sharqning ulug' allomalari ilmiy salohiyati va izlanishlari o'z davrida yuksak rivoj topgan. Ular ilm-fanning barcha yo'nalishlarida ijod qilib, keng ko'lamli kattadan-katta ishlarga qo'l urishgan. Markaziy Osiyoda IX-XII asrlarda Birinchi Renessans davri bo'ldi va bu davr butun dunyo tan olgan Muhammad al-Xorazmiy, Abu-Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn-Sino, Ahmad Farg'oniy, Mahmud Zamaxshariy singari mashxur allomalarimizning beqiyos ilmiy-ijodiy kashfiyotlari insoniyat taraqqiyoti rivojiga mislsiz ta'sirini ko'rsatdi.

Bu davrda ona zaminimizdan yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Motrudiy, Burxoniddin Marg'inoniy, Abu Muin Nasafiy kabi ulug' ulamolarimiz islom madaniyatining oltin asri deb e'tirof etilgan davrda ijod qildi. Butun musulmon dunyosining faxri, iftixoridir ular. Muhammad al-Xorazmiyning bizgacha 10 ta asari (yarim, chala, qisman) yetib kelgan. Shu asarlarning o'zidan ko'rinib turganidek, Xorazmiyning butun insoniyat sivilizatsiyasiga mislsiz, buyuk hissa qo'shgan olimdir. Amerikalik tarixchi George Sarton Xorazmiyni "O'z zamonasining eng buyuk matematigi, agar barcha holatlar e'tiborga olinsa, barcha zamonlarning eng buyuk matematiklaridan biri" deb baholagan. Bugun biz taraqqiyotni, dunyo sivilizatsiyasini axborot texnologiyalarisiz, kompyuter, mobil telefon, dasturiy ta'minotlar va h.k.larsiz tasavvur qila olmaymiz. Har birimiz haqli ravishda qo'limizdagi mobil telefonda Muhammad al-Xorazmiy bobomiz borligidan faxrlanamiz.

Ikkinchi Uyg'onish ya'ni Ikkinchi Renessans davrini XV asrda Sohibqiron Amir Temur bobomiz asos solgan saltanat va uni munosib davom ettirgan avlodlari boshlab berdi. Ikkinchi Renessans davrida Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi, G'iyosiddin Koshiy kabi beqiyos olimlar, Abdurahmon Jomiy, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mutafakkir va mumtoz shoirlar maydonga chiqdi. Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib, Sharofiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir singari musavvirilar, tarixchilar, xattot va sozandalar, musiqashunos va me'morlarning dovrug'i dunyoga yoyildi. Ma'naviyat va ma'rifatning g'oyat gullab-yashnashi bu davr uchun xarakterli bo'lgan.

*Yuksak ma'naviyatli barkamol avlod – Uchinchi Renessans bunyodkorlari*

Mustaqillikdan so'ng O'zbekiston Respublikasining siyosiy maqomi o'zgarib, mamlakat uchun o'ziga xos taraqqiyot va rivojlanish yo'li tanlandi. Jamiyatni boshqarishda kadrlarga bo'lgan eskicha yondashuv tamoyillari, ma'muriy boshqaruv usullari yangi jamiyat qurish talablariga javob bermay qoldi. Yoshlarni yuksak ma'naviyatli, bilimli qilib tarbiyalash, ajdodlarga munosib avlod bo'lib kamol topishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish provard maqsadga aylandi. O'tgan davrda davlatimizning tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi barcha bo'g'inlari, davlat boshqaruvining tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy asoslari yaratildi. Respublikamiz hukumatining bugungi kun talablariga javob bera oladigan yuksak ma'naviyatli yosh avlodni tayyorlash masalasiga katta e'tibor berayotganligi evaziga yangicha fikrlovchi, yuqori bilimga ega bo'lgan yoshlar jamiyatda munosib o'rin egallab borishmoqda.

Yuksak ma'naviyatli, marifatli, bilimli yoshlarni tarbiyalash va barkamolligini shakllantirish bugungi davrning muhim masalalaridan biridir. Ma'naviyat – nur, ma'naviyatli shaxs – dilida haqiqat nuri aks etgan, o'zligini anglagan, o'zining borliqdagi o'rni va vazifasini tushinib yetgan, haqiqat oldidagi o'z maqomiga loyiq bo'lish va burchini bajara olish mas'uliyatini zimmasiga oladigan inson. Ma'naviyat benihoya keng va chuqur mazmun-mohiyatga ega tushunchadir.

Uchinchi Renessans g'oyasining Milliy g'oyamizga aylanishi zarur. Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlarida ajdodlarimiz erishgan yutuqlari, insoniyat sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini xalqimizga yetkasish borasida hujjatli filmlar tayyorlashni qo'llab-quvvatlash, ilmiy-ommabop maqolalarni keng yoritib borish orqali ko'proq faktli ma'lumotlarga ega bo'lishlariga erishish.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlarning tag zamirida Uchinchi Renessans poydevorini yaratish g'oyasi yotganini, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Taraqqiyot strategiyasi"da belgilangan provard vazifalar taraqqiyotimizni jadallik bilan yangi bosqichga olib chiqish, xalqimizning faravon yashashi, inson qadrini yanada ulug'lash, kelajak avlodni har tamonlama yuksak bilimli, ma'naviyatli qilib tarbiyalashga qaratilgan. Zamonaviy bilimli, ta'lim-tarbiyali avlod bilan Uchinchi Renessans poydevori barpo etiladi. "Maktabgacha ta'limga qamrash darajasini 80 % ga, oily ta'limga qamrash darajasini 50 % ga etkazish, umumta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya sifati va darajasini oshirishga birlamchi vazifa deb qaraymiz" [2]. Ta'lim sohasidagi islohatlar, Prezident maktablari, ijod maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatining yo'lga qo'yilmoqda. Birgina 2020 yilda matematika fani bo'yicha 56 ta, kimyo-biologiya fani bo'yicha 28 ta, informatika va axborot kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha 14 ta shunday maktablar tashkil etilgan.

Xalqaro fan olimpiyadalarida o‘quvchi-yoshlarning 30 ta medalni qo‘lga kiritgani, XXXII yozgi Olimpiya va yozgi Paralimpiya o‘yinlarida yoshlariizning munosib natijalar bilan qaytgani, xalqaro maydonda turli soha va yo‘nalishlarda yuksak marralarni, natijalarni egallayotganliklari islohatlarning natijasi, samarasidir. Shuningdek, yangicha fikrlaydigan zamon bilan hamnafas yangi avlod kadrlarini shakllantirish borasida ham salmoqli ishlarni olib borilayotganining ham guvohi bo‘lib turibmiz.

Xulosa qilib aytganda biz Birinchi Renessans davrida ham, Ikkinchi Renessans davrida ham dunyoning eng oldi taraqqiy etgan xalqlari qatorida bo‘lganmiz. Shu o‘rinda O‘zbekiston Qahramoni, atoqli shoir Abdulla Oripovning quydagi misralarini keltirib o‘tish o‘rinlidir.

Besh asrkim nazmiy saroyni,

Titratadi zanjirband bir sher.

Temur tig‘i yetmagan joyni,

Qalam bilan oldi Alisher.

Yana shunday butun dunyo tan oladigan yuksak darajalarga barcha sohalarda erishish uchun, dunyoning rivojlangan davlatlari qatorida bo‘lishimiz uchun, ajdodlarga munosib ilmiy avlod bo‘lishimiz uchun Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan ilgari surilgan Uchinchi Renessans poydevorini qurishda har birimiz kamarbasta bo‘lmog‘imiz zarur. Har qanday yangi Uyg‘onish davri poydevori, g‘oyalar, rejalar inson ehtiyojlari, erkinligi, qadri ortishi, turmush darajasi yaxshilanishi bilan bog‘liq holdagina hayotiylikni kasb etadi. Yurtboshimiz ta‘kidlaganlaridek, “Taraqqiyotimizning maqsadi Uchinchi Renessans bo‘lmog‘i lozim. Nihoyatda jozibali mazkur strategik g‘oya o‘zining ulug‘vorligi, milliy yuksalish barcha jabhalarda qanday umumiy maqsadmni ko‘zlamog‘i zarurligini ko‘rsatadi” [3].

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 1 oktabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 30 yillik bayramiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.
3. <https://uz.m.wikipedia.org>.



## I AM PROUD OF UZBEKISTAN

*Shukurova Makhliyo*

*Student of Uzbekistan State World Languages University*

**Annotation:** This article is devoted to contain information about culture, heritage, ancestors, development and all aspects of the country that lead to proud and honour of Uzbek people and mine. Dramatic changes having a huge influence on life that have occurred in Uzbekistan over years will be also mentioned. Our old traditions and customs making different from other countries have been our national proud since our ancient grandfathers lived. National mentalitet, heritage, cultural resources behavioural and religious traditions formulate sustainable chain of our country proud.

**Key words:** Independence, morality, cultural heritage, historical remembrance, opportunity and attention for the youth, national traditions, tolerance.

“Uzbekistan is a sovereign democratic republic. Both names of the state “the Republic of Uzbekistan” and “Uzbekistan” shall be equivalent”( article 1). To reach this situation, our country was demanded to undergo such difficulties that had continued for years, even centuries. The date, on August 31, 1991, was entered with the golden letters to our history. In this event, we attained our long-lasting dream – Independence! The Independence transformed the future of Uzbek nation. We were free to say “I am Uzbek”, to own nationality and to act as a real Uzbek. All the developments and changes that our minds can not absorb were acquired by the efforts of our first President, Islam Abduganiyevich Karimov. This person lives in our hearts and memories today and in the future – forever. Islam Karimov took courage to gain Independence, to introduce people as Uzbek ones and to make the country familiar to the world. We appreciate all works that he performed for us and Uzbek public owe this person forever. The great thing that the Independence taught us is to be able recover our national culture, upbringing the future generation and, the most crucial one, admit our national morality. Any nation without their own morality will experience failure and recession sooner or later. So, our big victory is recognizing national morality. “Who are we?”, “Who were our ancestors?”, “Why are we called Uzbeks?”. This kind of questions will find its answers by morality. As Islam Karimov mentioned, morality is an incomparable force making pure a person, urging sentimentally growing, making strong person’s inner world and persistence, making their beliefs whole and awaking their honest. Today, I can say confidently, our nation gained all of these and shaped as a whole nation. Morality and cultural heritage are comes in a harmony everywhere. The reason is that heritage also informs from all historical aspects contributed to the nation. Uzbekistan is rich in historical heritage. All the world have been aware of the sites, such as Samarkand, Bukhara, Khiva, Fergana and much more again to count. These places have been present for ancient times, the Great Silk Road period. That is why they talk more about our culture and history, such as how our ancestors lived or what they dealt with to survive. Shortly, they are crucial ones that help admit ourselves. These places were home to great grandfathers, namely, Amir Temur, al-Bukhari, al-Fergani, Alisher Navoi, Beruni, Ulugbek and Bobur. They play a main role not only in our culture but also in other country’s. Especially, in the terms of science, politics, poetry and astronomy. The proudest side is that European scientists have received examples from our ancestors’ works. The whole world has a strong interest and endless respect towards them. As an evidence, a number of international conferences and meetings are taking place for the honour of our ancestors. This aspect is channeled to make Uzbekistan more well-known and attractive. Indeed, we have ancestors contributed to the Renaissance of the world that we are proud of all the time. Throughout history, Uzbeks were not permitted to celebrate their national holidays, to practice their own traditions and customs. Thanks to the Independence, our national habits are taken back to the public. Navruz, our ancient and traditional holiday, is celebrated as a holiday of spring that is the sign of triumph of warmth and light over cold and darkness and the renewal of

nature. It is associated with the equinox of the day. On this day, people forget evil things and dissatisfaction, instead, they prepare national meals and visit their relatives or close friends. This holiday indicates how Uzbek people are kind and forgiving. The most highly valuable custom among people is making treatment well and with respect others. It can be seen when a person come across elder one, they greet with hands on their breast and let elder person go first. It is the only beautiful habit that is peculiar to the Uzbek nation. Treating with respect to the elder and getting their prayers have been turned into our tradition over years. It is believed that there is no any danger if there is a prayer. It keeps the peace of the country. One essential part of our traditions is family that is considered as a holy thing. Because everyone is brought up in family and so, who they will be, how well they shaped, all aspects are tied up with family. The elder people have their important roles making decisions for the family and they are always highly-respected ones in our lives. The family is a main part of building society. So, families, small or big, are appreciative that construct a strong and well-organized country. Our religious customs are regained after the Independence. We practice Islam and Islamic traditions without any restriction. Particularly, Eids are celebrated broadly in our country. It is also responsible for recognizing ourselves. Among Uzbekistan citizens there are people that practice different religions. In our country, there are rules defending their eligibility, respecting their religion and providing their religious freedom. It is done to make a strong bond with other nations and make them feel like Uzbekistan is their home.

Our government always take actions to make better facilities for the youth. This is because they are the future of the country. What level the country will reach during following years depend on only them. Education and upbringing of the young people are crucial points that have a huge affect on morality. Because who will keep them in practice? Undoubtedly, the young ones. Without developed and well-absorbed education, there is no way for the development of the country. These aspects are never separated, they are unique and originated philosophy of the Eastern countries. Every new reformation is created in the education system first and foremost. On a yearly basis, a high amount of investment is spent on the education. There are many partnerships with the top-rated world universities to study or train abroad. They all have been created to rise up the level of education. There are countless opportunities for us, but the only thing that is required is to use them and learn more and more knowledge. Because Uzbekistan is waiting for the good results from us – youth.

The days we are living in had seemed to be unreachible dreams of our nation during past periods. So, the Independence presented us such things that the Uzbek nation had always placed in their imagination and souls. It can be said that every inch of our country is worthy to be proud of. We are great nation, because we have great history, culture and ancestors that have always made us great.

I all the time loudly say, I felt, feel and will feel proud of being Uzbek, forever!!!

#### References:

1. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” maxsus kursidan ma’ruza matnlari. Q. Usmonov, - Toshkent, 2010. 2- 25b.
2. Uzbekistan political order, societal changes, and cultural transformations. M. Laurelle, - Washington, The George Washington University press, 2017. 5-15p.
3. Constitution of the Republic of Uzbekistan, - Toshkent, 1991. 1 p.
4. The economic Modernization of Uzbekistan. M. Tsereteli, - Central Asia, Silk Road paper, 2018. 7-12p.
5. Uzbekistan’s transformation. A. Schimitz, - Berlin, SWP Research Paper 12, 2020. 12p.

## TIBBIY REKLAMA MATNLARIDA GENDER XUSUSIYATLARNING VOQELANISHI

*Sobirova Dilnoza Rasulovna*

*Buxoro davlat universiteti o'zbek tili ixtisosligi tayanch doktoranti.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada adresatlarning ijtimoiy-demografik xususiyat-lari sirasiga kiruvchi gender xoslanishlarning tibbiyotga oid reklamalarda voqelanishi tahlilga tortilgan. Bunda televideniye orqali namoyish etilayotgan jami 200 ta tibbiy reklama matnlarida gender xususiyatlarning namoyon bo'lishi kuzatilib xulosalangan.

**Kalit so'zlar:** tibbiy reklama, gender, reklama matni, ayol, erkak, neytral tibbiy reklama.

**Kirish.** Pragmatikaning eng muhim jihatlaridan biri bo'lgan kommunikativ intensiya(maqсад)ga adresat omili, shu bilan birga, maqsadli auditoriya xususiyatlarini hisobga olgan holda erishiladi. Adresat matnni idrok etadi va uni o'zining dunyoqarashi bilan bog'laydi. Tibbiyotga oid mahsulotlarni reklama qilishda auditoriyaning ijtimoiy-demografik hamda psixografik xususiyatlari inobatga olinishi g'oyat muhim sanaladi. Ijtimoiy-demografik xususiyatlar deganda adresatning jinsi, yoshi, ta'lim darajasi, kasbiy faoliyati kabilar nazarda tutiladi. Psixografik xususiyatlarda esa adresatlarning yashash tarzi, kundalik hayoti birlamchi ahamiyat kasb etadi. Tibbiy reklama matnlarini yaratishda har ikkala tur xususiyatlaridan foydalaniladi. Quyida biz gender xoslanishlarning tibbiyotga oid reklamalarda voqelanishini ko'rib o'tamiz.

Manbalarda gender shaxs biologik jinsining ijtimoiy-madaniy namoyishi sifatida tavsiflanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ta'rifiga ko'ra: gender (jins) – bu ayollar, erkaklar, qizlar va o'g'il bolalarning xususiyatlarini bildiradi. Bunga ayol, erkak, qiz yoki o'g'il bo'lish bilan bog'liq me'yorlar, xulq-atvor va rollar, shuningdek, bir-biri bilan munosabatlar kiradi [4]. Sodda qilib aytganda, gender ikki xil ko'rinishga ega bo'ladi (erkak va ayol). Birinchidan, erkak va ayol fazilatlarini haqidagi gender g'oyalari lingvistik ongda, yana ham aniqrog'i, tilda mustah-kamlanadi. Ikkinchidan, erkaklar va ayollar nutqidagi farqlar gender farqlarining in'ikosidir. Genderga reklama matnlarining til xususiyatlarini belgilaydigan muhim identifikatsiyalash omillaridan biri sifatida qaraladi. Gender xususiyati birlamchi bo'lgan reklamalarda tibbiy vositalar ma'lum bir jins vakillari uchuniga mo'ljallangan bo'ladi. Bunday reklamalarda dori vositalari faqat «ayollarga mo'ljallangan», yoki aksincha, faqat «erkaklar uchun» qolipi ostida reklama qilinadi. Tadqiqot davomida televideniye orqali namoyish etilayotgan 200 ta tibbiy reklama roliklari (matnlari) bilan tanishildi. Kuzatilgan tibbiy reklamalarning 12 tasi, yana ham aniqrog'i, 6 %i aynan erkak adresatlarga mo'ljallangani ma'lum bo'ldi. Erkaklarga mo'ljallangan tibbiy reklamalarni quyidagicha guruhlash mumkin bo'ladi (1-rasmga qarang):



**1-rasm.** Erkaklarga mo'ljallangan tibbiy reklamalar tasnifi.

a) erkaklarga mo'ljallangan dori vositalari reklamasi:

*Prostata bezi adenomasida bovl qilish muammosini bartaraf etishda Prostamol uno yordam beradi. Prostamol Uno – erkaklar uchun dori vositasi. («Vitaprost» dori vositasi reklama matnidan)*

b) erkaklarga mo'ljallangan gigienik vositalar reklamasi:

*Har gal qo'llarimiz bilan sochlarimizga tekkanimizda biz ularga kir, yog' va changni surtamiz. Clear mentol bilan sochlaringizni tozalang! 48 soatlik musaffolik va toza qazg'oqsiz sochlarga ega bo'ling! Slear hech narsani yashirma! Clear. Erkaklar uchun («Clear mentol» shampuni reklama matnidan).*

v) erkaklarga mo'ljallangan tibbiyot klinikalari reklamasi:

*– Sog'lig'imda o'zgarishlar seza boshladim. Kechalari tez-tez turadigan bo'ldim. O'g'lim Urologik kompleks klinikasiga olib bordi. Menda prostata bezi adenomasi borligi aniqlandi. Lazer yordamida prostata bezi adenomasi olib tashlandi.*

*Urologik kompleks har bir bemor uchun qayg'uramiz! («Urologik kompleks» klinikasi reklama matnidan)*

Kuzatilgan tibbiy reklamalarning 14 tasi, yana ham aniqrog'i, 7 foizi aynan ayol adresatlarga mo'ljallangani ma'lum bo'ldi. Ye. Serdobinseva ham o'z tadqiqotida ayollarga mo'ljallangan reklamalar miqdor jihatdan erkaklarga mo'ljallangan reklamalardan ko'p ekanligini qayd etadi. Ommaviy axborot vositalarida e'lonlarni qabul qiluvchilar orasida ayollarning maqsadli auditoriyasi erkaklarnikiga nisbatan miqdoriy jihatdan ustunlik qiladi [3, 51].

Ayollarga mo'ljallangan tibbiy reklamalarni quyidagicha guruhlash mumkin bo'ladi (2-rasmga qarang):



**2-rasm.** Ayollarga mo'ljallangan tibbiy reklamalar.

a) ayollarga mo'ljallangan dori vositalari reklamasi:

*– Menda zamburug'li kasallik mavjud. Nima maslahat berasan?*

*– Futsis zamburug' kasalligiga qarshi preparat.*

*Futsis zamburug'siz qulaylikni his qiling! («Futsis» dori vositasi reklama matnidan).*

b) ayollarga mo'ljallangan gigienik vositalar reklamasi:

*– Biz ayollar bu kunlarda hech nimani his etishni istamaymiz!*

*– To'xta, nima deding?*

*– Biz ayollar gigienik vositasini bu kunlarda his etishni istamaymiz!*

*Yangi Always Platinum bilan buning imkoni bor («Always» gigienik vositasi reklama matnidan).*

d) ayollarga mo'ljallangan kosmetik vositalar reklamasi:

*Vernisaj kremi terini yaxshi oziqlantiradi. Men vernisajni tanlayman! («Vernisaj» kremi reklama matnidan).*

Ayollarga mo'ljallangan tibbiy reklamalarda ayollar (qizlar) uchun vosita, ayollarda uchraydigan kasalliklarga qarshi kabi birliklar faol qo'llanadi:



Shunday muammolar borki, ular haqida gapirilmaydi. Biroq ular aslida mavjud. Eng muhimi bu muammolarni yechish yo'lini topishdi. Futsis **ayollarda** uchraydigan zamburug' kasalligining davosi («Futsis» dori vositasi reklama matnidan).

Erkaklarga mo'ljallangan tibbiy reklamalarda **erkaklar uchun**, **erkaklarga xos** kabi birliklarga urg'u beriladi:

... *Prostamol Uno* **erkaklar uchun** dori vositasi. («Prostamol Uno» dori vositasi reklama matnidan).

Amerikalik tadqiqotchilar Uanda Leppard, Shirley Matile Ogletree, Emili Uallenlar o'z tadqiqotlarida erkaklarga mo'ljallangan tibbiy reklamalarda erkak adresantlar kuchli, jiddiy qiyofada, ayollar esa ko'proq yoqimli qiyofada ko'rinish berishini qayd etadilar [2, 829].

Reklama beruvchilar ayol auditoriyaning psixologik xususiyatlarini hisobga oladi, bu matnlar hissiylik, hissiyot ma'nosiga ega so'zlar bilan to'yingan: jozibali, muloyim tuyg'u, sezgir, hashamatli, yumshoqlik, sevikli, baxt, sezuvchanlik va boshqalar[3, 51]. Qayd etish lozimki, tibbiy reklamalar davrga hamohang yaratiladi. Ilgari reklamalarda ayol obrazi uy bekasi, g'amxo'r ona qiyofasida gavdalangan bo'lsa, bugun u go'zallikka intiluvchi, jamiyatning eng oldi vakilasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ayollarga mo'ljallangan tibbiy reklamalarda, ayniqsa, kosmetik vositalar reklamasida *betakror*, *go'zal*, *mayin*, *nafis*, *chiroyli* kabi sifatlar faol qo'llanadi:

– *Ishonmaysiz! Ajoyib silliqlik. Betakror, nafis* teri va hech qanday yopishqoqliksiz. Bularning barchasi qalin pudra niveya dezodarenti tufayli. Shuning uchun ham qizlar pudra effektiga ega dezodarentlarni nihoyatda yaxshi ko'rishadi. Niveadan. («Nivea care» reklama matnidan).

Erkaklarga mo'ljallangan tibbiy reklamalarda esa *kuch*, *g'alaba* kabi birliklar birlamchi o'rinda qo'llanadi:

*Qizil gigantga xos kuchga* ega bo'l. *Olivia Phanton antiperspirantlari*. («Olivia Phanton» antiperspiranti reklama matnidan).

Kuzatuvlarimiz davomida bir mahsulotning erkaklar uchun alohida, shuningdek, ayollar uchun alohida shaklda ishlab chiqarilgani, tabiiyki, bu holat reklamalarda aks etganining guvohi bo'ldik. E'tiborli jihati shundaki, bir mahsulotning erkaklar va ayollar uchun yaratilgan reklamalarida gender xususiyatlar yaqqol namoyon bo'lgan.

*Yangi afsonaviy Clear shampuni champion kuchi* va *g'alaba* hidi bilan to'la. *Qazg'oqni yo'qotadi va uzoq vaqtga soflik hissini bag'ishlaydi. Afsonaviy Clear shampuni bilan qazg'oq g'amini unuting. Krishtanu Ronaldu bilan yaratilgan. Erkaklar uchun*. («Clear» shampuni reklama matnidan).

Yuqorida keltirilgan reklama matnida ifodalangan *champion*, *kuch*, *g'alaba* kabi leksik birliklar erkak jinsi vakillari muloqotida faol qo'llanadi. Qolaversa, reklama roligida erkak jinsining tipik vakili sifatida futbol olamining qiroli – Krishtaniu Ronaldu ishtirok etgan. Shuningdek, *erkaklar uchun* tugallanmasi reklamaning erkak jinsiga mansub adresatlarga qaratilganiga urg'u bergan.



**3-rasm.** “Clear” gigiyenik vositasining erkaklar va ayollarga mo'ljallangan ko'rinishlari.

– *Har qanday vaziyatda ham faqat eng chiroyli sochlarmi?*

*Anna Sedokova:* – *Ha! Chunki qazg'oqdan himoya uchun mening tanlovim yangi Clear Sakura B3 vitamini bilan bosh terisini oziqlantiradi. Qazg'oq yo'q, sochlar uch karra mayin. Clear Sakura!* («Clear» shampuni reklama matnidan).



Ushbu reklamada ayol jinsining tipik vakili sifatida ukrainalik pop qo‘shiqchi, aktrisa, televizion va radio boshlovchisi – **Anna Sedokova** ishtirok etgan. **Eng chiroyli sochlar, mayin** kabi birliklar ayol adresatlar e‘tiborini jalb qilishga xizmat qiladi. Shuningdek, mahsulot nomlanishida ham gender xoslik ko‘zga tashlanadi. Sakura – Yaponiyada o‘sovchi, go‘zal gullari bilan barchani lol qoldira oladigan daraxt turi. U tabiatning go‘zalligi, **hayotning soddaligi, beg‘uborligi va o‘tkinchiligini ramziy ma‘noda anglatadi**. Ma‘lumotlarga qaraganda, qadimda yapon samuraylari go‘zallik timsoli bo‘lgan sakuraga sajda qilishgan ekan. S.A. Korochkova reklama tasnifida erkak, ayol va jinsga nisbatan neytral reklama turlarini ajratib ko‘rsatadi [1]. Kuzatishlarimiz davomida biz S.A. Korochkova tasnifiga qo‘shimcha ravishda erkaklarga xos tibbiy vositaning ayollarga xos tibbiy vosita bilan bir vaqtning o‘zida bitta rolikda reklama qilinganiga guvoh bo‘ldik (4-rasmga qarang). Bu o‘rganilgan reklamalarning 2 % ini tashkil etadi.

Doktor D (Dilmurod Ergashev): – *Homiladorlikka tayyorlashda (ayollar uchun) Mammolin va (erkaklar uchun) Sperolin mahsulotlarini tavsiya qilaman («Mammolin» va «Sperolin» dori vositalari reklama matnidan).*

**4-rasm.** Erkaklarga xos tibbiy vositaning ayollarga xos tibbiy vosita bilan bir vaqtning o‘zida reklama qilinishi



**Xulosa.** Gender reklama matnlarining til xususiyatlarini belgilaydigan muhim identifikatsiyalash omili hisoblanadi. Kuzatuvlarimiz o‘rganilgan 200 ta tibbiy reklamalarning 7 % ini ayollarga mo‘ljallangan tibbiy reklamalar, 6 % ini erkaklarga mo‘ljallangan tibbiy reklamalar, 2 % ini erkak va ayollarga mo‘ljallangan tibbiy vositalar bir reklama roligida berilgan tibbiy reklamalar, 85 % ini esa neytral tibbiy reklamalar tashkil etishini ko‘rsatdi (5-rasmga qarang). Xullas, reklama qilinayotgan mahsulot (xizmat)ga qiziquvchilar auditoriyasini kengaytirishda adresatlarning gender xususiyatlarini inobatga olgan holda reklama matnini tayyorlash reklamaning samarasini oshirishga xizmat qiladi.

**5-rasm.** Televideniye orqali namoyish etilgan tibbiy reklamalarning gender xususiyatlariga ko‘ra ulushi.



#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Корочкова С. А. Социоллингвистическая характеристика рекламных текстов в гендерном аспекте: На материале русскоязычных журналов. автореф. канд. филол.
2. Leppard W., Ogletree Sh. M., Wallen E. Gender Stereotyping in Medical Advertising: Much Ado About Something? // Sex Roles, Volume. 29, Nos. 11/12, 1993. – P. 829.
3. Сердобинцева Е. Структура и язык рекламных текстов. – Москва: Наука, 2010.
4. [https://www.who.int/health-topics/gender#tab=tab\\_1](https://www.who.int/health-topics/gender#tab=tab_1)

## O‘ZBEKISTON TARIXINING DOLZARB MASALALARI

*Sobirova Dilobar Rajapboyevna*

*Xorazm viloyati Hazorasp tumani 33-son umumiy  
o‘rta ta’lim maktabining Tarix fani o‘qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston tarixining dolzarb masalalari, O'zbekiston hududida istiqomat qilayotgan xalqlarning tarixi, O'zbek xalqining kelib chiqishi muammosi, O'zbek davlatchiligi haqida qisqacha ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** arxeologik qazilmalari, xalq og'zaki, buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, siyosatchilar, buyuk sarkardalar, Qal'aliqir, Ko'zaliqir.

**Аннотация:** В данной статье дается краткий обзор актуальных вопросов истории Узбекистана, истории народов, проживающих на территории Узбекистана, проблемы происхождения узбекского народа, узбекской государственности.

**Ключевые слова:** археологические раскопки, фольклор, великие ученые, дворяне, политики, великие полководцы, Калаликир, Козаликир.

**Annotation:** This article gives a brief overview of current issues in the history of Uzbekistan, the history of the peoples living in the territory of Uzbekistan, the problem of the origin of the Uzbek people, the Uzbek statehood.

**Keywords:** archeological excavations, folklore, great scholars, nobles, politicians, great commanders, Qalaliqir, Kozalikir.

O'zbekiston hududida istiqomat qilayotgan xalqlarning tarixi qadim o'tmishga borib taqaladi. Yashab turgan [hududimiz tarixiy manbalari](#), arxeologik qazilmalari, xalq og'zaki ijodi namunalari orqali umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganligini butun olam tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk zaminda buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, siyosatchilar, buyuk sarkardalar yashab o'tganlar. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu yerda yaratilgan, sayqal topgan. Milodgacha va undan keyin qurilgan [murakkab suv inshootlari](#), osori atiqalar dehqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, me'morchilik va shaharozlik san'ati yuksak bo'lganligidan dalolat beradi. Topilgan ko'plab qadimgi toshyozuvlar, bitiklar, kutubxonalarda saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo'lyozmalar, ijtimoiy hayotning turli sohalariga doir o'n minglab qimmatbaho asarlar o'lka xalqlari ma'naviyatining yuksakligini namoyon qilib turibdi. O'zbekiston tarixi umumjahon – insoniyat tarixining ajralmas qismi hisoblanadi. O'zbekiston tarixi fani xalqimizning mustaqil taraqqiyot yo'liga kirishi, mustaqillik yillarida milliy huquqiy davlatchilik qurilishi, demokratik fuqarolik [jamiyatni shakllantirish](#), erkin bozor iqtisodiyotini yaratish, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashish jabhalaridagi faoliyatini o'rgatadi. Shu bilan bir qatorda bu fan xalqimiz tarixini haqqoniy tasvirlovchi, aks ettiruvchi ko'zgu, ijtimoiy, siyosiy, tarbiyaviy, ma'naviy saboqlar majmuasidir. Odamzod va uning jamiyat tarixi juda qadimiy va murakkabdir. U bir necha yuz ming yilni o'z ichiga oladi. Ana shu ko'p ming yillik tarixiy davr ichida insoniyat ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy rivojlanish darajasiga ko'ra, qator tarixiy bosqichlarni bosib o'tdi. XX asrning 30 yillarida O'rta Osiyoda hali arxeologik izlanishlar izga tushib, kishilik jamiyati tarixini davrlashtirishda arxeologik manbalardan foydalanish amaliyoti shakllanmagan paytda V.V.Bartol'd yozma manbalar asosida O'rta Osiyo xalqlari tarixining davrlashtirish tizimini ishlab chiqqan. Bunga ko'ra, O'rta Osiyo xalqlari tarixi «Musulmonchilikka bo'lgan davr», «Mo'g'ullargacha bo'lgan davr», «Mo'g'ullar davri» va «Temuriylar davri» nomlari bilan davrlashtirildi. Biroq, 30-yillarning o'rtalariga kelib, V.V.Bartol'dning O'rta Osiyo xalqlari tarixi haqidagi kontseptsiyasida haqiqiy tarixiy jarayonlar o'z aksini topa olmaganligi ma'lum bo'lib qoldi. Masalan, V.V.Bartol'dning "Ahamoniylar va Iskandar Zulqarnayn davridagi ijtimoiy tuzum nafaqat milodiy VII-VIII asrlarda, balki arablar istilosidan keyingi bir necha asrlar davomida ham shundayligicha saqlanib

qolavergan", degan g'oyasi tarix haqiqatiga zid edi. O'zbek xalqining kelib chiqishi muammosini yoritishda kontseptsiyaga asoslanib, o'zbek etnogenezining ikki ming yillik tarixiy jarayonlarini ilmiy kuzatish mumkin bo'ldi, shu bilan birga, o'zbek xalqi nafaqat qadimgi turklardan, balki u ikki etnik qatlam — turkiy va sug'diy tilli xalqlarning qorishuvidan tashkil topganligi isbotlandi. Ushbu xulosa, o'zbek xalqining moddiy va ma'naviy madaniyatida hamda hozirgi zamon o'zbeklarining jismoniy qiyofasida ham o'z ifodasini topgan. Shu o'rinda taniqli elshunos arxeolog olim S.P. Tolstovning O'rta Osiyo xalqlari etnogenezi haqida aytgan fikrini keltirish joizdir: "Hozirgi zamon O'rta Osiyo xalqlarining birontasi ham qadimgi etnosga bevosita borib taqalmaydi, aksincha, ularning shakllanishida har xil miqdorda yerli tub axoli va tevarak-atrofdan kelib qo'shilgan xalqlar o'z aksini topgan". Barcha dalili ashyolar miloddan avvalgi so'nggi ming yillik boshlarida, aniqrog'i VIII-VII asrlarda ajdodlarimizning Vatanimiz hududlarida Xorazm va Baqtriya nomi bilan mashhur bo'lgan dastlabki davlatlarni barpo yetganidan, bu davlatlar o'ziga xos rivojlanish jarayonini bosib o'tganligidan guvohlik beradi. Xorazm davlati egallagan hududlar hozirgi Xorazm yerlari bilan chegaralanib qolmay, balki undan ancha janubga, ya'ni Marv (Turkmaniston), Hirot (Afg'oniston shimoli) atroflariga qadar ham yoyilgan. Miloddan avvalgi so'nggi ming yillikning boshlariga tegishli «Amirobod madaniyati», quyi Amudaryo havzasida yuzaga kelgan o'ziga xos sun'iy sug'orish inshooti tizimi hamda dastlabki shaharsozlik timsoli bo'lgan shahar-qal'alar-Qal'aliqir, Ko'zaliqir va boshqalar bular Xorazm vohasida davlat tuzilmalari mavjudligidan dalolat beradi. O'zbek davlatchiligining yana bir asosi-Baqtriya podsholigidir. Uning tarkibiga hozirgi Surxondaryo, Tojikiston janubi, Afg'onistonning shimoli-sharqiy qismi, shuningdek, Sug'diyona va Marg'iyona yerlari ham kirgan. Baqtriyadagi ko'pdan-ko'p yirik shaharlar orasida Baqtra mashhur shahar bo'lib, mamlakatning poytaxti hisoblangan. XX asr boshlarida hozirgi O'zbekiston xududi tarkibiga uch davlat birlashmasi: Rossiya O'rta Osiyoni zabt etganidan keyin tuzilgan va uning tarkibiga mustamlaka sifatida qo'shib olingan Turkiston general-gubernatorligi, shuningdek, yuzaki ravishda mustaqil bo'lgan, ammo Rossiyaga qaram hisoblangan Buxoro amirligi va Xiva xonligi kirar edi. O'sha vaqtda xududining kattaligi va aholisining ko'pligi jihatidan Turkiston o' lkasi yoki Turkiston deb atalgan Turkiston general-gubernatorli yirik sanalardi. Uning tarkibiga Samarqand, Sirdaryo, Fargona, Kaspiyorti va Yettisuv viloyatlari kirar edi. O'lkadagi besh milliondan ko'proq aholining asosiy, ko'pchilik qismini o'zbeklar, tojiklar, qirg'izlar, turkmanlar va boshqa yerli xalqlar tashkil etardi. Ularning xammasi islom diniga e'tiqod qiluvchi musulmonlar edi. Ko'pchilik aholi turmush darajasining pasayishi va uning qashshoqlashuvi bilan uyg'unlashib ketgan davomli turg'unlikka olib kelgan omillarni birinchi qatorida Turkiston jamiyatini g'arb usulida yangilash (zamonaviylashtirish) turardi. Mustamlakachilik usullari bilan tashqaridan amalga oshirilgan bu yangilanish jarayoni doimo qoloqlikda saqlash omiliga aylanib ketdi. Birinchidan, iqtisodiy ekspansiya (bosqinchilik) yillari mobaynida vujudga keltirilgan Turkiston xalq xo'jaligining yangi o'choqlari — zo'r berib rivojlanayotgan paxtachilik, paxta tozalash, paxta yog'i ishlab chiqarish, qazilma xom ashyolarni qazib olish (konchilik), temir yo'l transporti tarmoqlari va boshqa sohalar o'lka milliy xo'jalik majmuasining tarkibiy qismi emas edi. Bu tarmoqlar Rossiya markaziy sanoat rayonlarining talab-ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lib, bular mahsulotining Turkiston doirasidan chetga chiqarilishi uni olinadigan foydadan butunlay mahrum etar, bu esa ishlab chiqarishni kengaytirish imkonini barbod qilardi. Ikkinchidan, kapitalistik ishlab chiqarish o'choqlarining barpo etilishi o'lka iqtisodiyotini izdan chiqardi, ko'p ukladli ijtimoiy tuzilmani vujudga keltirdi. Bunda asosan hunarmandchilik va kosibchilik ishlab chiqarishi metropoliya sanoat tovarlarining raqobati sababli tobora ko'proq tushkunlikka uchrab, emirila bordi. Va, nihoyat, Rossiya iqtisodiyoti uchun ishlagan o'lka xo'jaligining dehqonchilik — xom ashyo yetishtirish yo'nalishida bo'lishi, donli ekin maydonlarining qisqartirilishi, hunarmandchilik-kosibchilik ishlab chiqarishining tushkunlikka uchraganligi o'lkaning iqtisodiy jihatdan tobeligini yanada kuchaytirdi. Ana shu tobelik halokatli oqibatlarining butun og'irligini Birinchi jahon urushi (1914-1917) yillarida xalq ommasini o'z gardanida sinab ko'rdi: muntazam harakatda bo'lgan temir yo'llar ishida uzilish va barbod bo'lish hollarining tez-tez sodir bo'lib turganligi sababli oziq-ovqat tangligi va ocharchilik surunkali tus oldi.

**Foydalangan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-T.: Sharq,1998.
2. Bobojonova D. O'zbekistonda demokratik jarayonlar va ularning xususiyati.-T, 1995.
3. Ishokov F. Proshloye glazami istorika.-T.: O'zbekiston, 1999
4. Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. -T. Sharq. 2001.
5. Mahmud Qoshg'ariy. Devoni lug'otut turk. 1-jild. –T.1963.
6. Ziyozamat. O'zbek davlatchiligi tarixi.-T.: Sharq, 2000.
7. Ziyoev X. Z. Turkistonda Rossiya tajovuzi va xukmronligiga qarshi kurash.-T., 1998.
8. Inoyatov X. Qo`qon xonligi Rossiyaga qo`shilish arafasida va 1875-1876 yillarda Qo`qon qo`zgaloni. - T., 1956.
9. Nabiev R.N. Iz istorii Kokandkogo xanstvo. - T., Fan, 1973.
10. O`zbekiston xalqlari tarixi. 2-jild. - T., Fan, 1993.

## ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA BLENDED LEARNING TEXNOLOGIYASI

**Sobirova Moxira Rasulovna**

*Buxoro davlat universiteti Pedagogika instituti*

*Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi 1-bosqich magistranti.*

**Annotatsiya:** Aralash ta'lim –bu an'anaviy va elektron ta'lim texnologiyalarini birlashtirish asosida o'quv jarayonini tashkil etish texnologiyasi bo'lib, AKT hamda zamonaviy o'quv vositalaridan foydalanish imkonini beradi. Ushbu maqolada aralash ta'lim texnologiyasi, an'anaviy ta'limda elektron vositalarni jalb qilgan holda integratsiyalashgan modelga o'tish haqida so'z boradi.

**Kalit so'z:** Blended learning, an'anaviy ta'lim, elektron ta'lim, masofaviy ta'lim.

Mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar o'qitish tizimini jahon andozalariga mos ravishda ko'tarishni va eng samarali usullardan foydalanishini taqozo etmoqda. Elektron ta'lim jarayonini tashkillashtirish esa bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Ta'lim faoliyati rivojlanishining zamonaviy bosqichida axborot –kommunikatsion texnologiyalari ustunligi bilan belgilanadi, bu esa ta'limga an'anaviy o'qitishning shakl va metodlarini intensivlashtirilishiga yo'l ochadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida: "ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, "blended learning", "flipped classroom" texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish" haqida so'z boradi.<sup>163</sup>

Blended learning- zamonaviy ta'lim texnologiyasi bo'lib, uning doirasida talaba yoki o'quvchi mustaqil ravishda ham on-line, ham o'qituvchi bilan yuzma- yuz (an'anaviy) holatda bilim olish imkoniga ega bo'ladi. Bu yondashuv vaqtni, materialni o'rganish joyi, sur'ati va usulini nazorat qilish, an'anaviy usullarning zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlikda o'rganishga xizmat qiladi. Aralash ta'lim har qanday boshqa innovatsion texnologiya kabi sinfda o'quv madaniyatini shakllantirish uchun o'qituvchidan vaqt va qo'shimcha kuch talab qilmaydi. Ko'p vaqt o'quv ko'nikmalarini shakllantirish va intizomni o'rnatishga sarflanadigan sinf tizimidan farqli o'laroq, aralash ta'limdan foydalanganda asosiy e'tibor mustaqil ishlash, guruhda ishlash, o'zaro yordam va kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratiladi.

Aralash ta'lim –rasmiy o'quv dasturi bo'lib, bunda talabalar qisman elektron, ya'ni on-line formatda o'qitiladi, vaqt va o'qitish tezligini nazorat qilishning ayrim elementlari mavjud bo'ladi; qisman o'rganish talabalarning uyidan tashqarida amalga oshiriladi. Bunday ta'limda turli xil usullardan foydalaniladi, natijada integratsiyalashgan ta'lim tajribasini taqdim etish imkoni yuzaga keladi (Staker/Horn, 2012).

Deklan Bern "Blended learning" haqida shunday deydi: "Blended learning boy pedagogik tajribadan samarali foydalanishga qaratilgan". Blended learning axborotni taqdim etishda turli usullardan foydalanishni, ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan yakka tarzda, guruhlarda esa an'anaviy faoliyatni tashkil etishga xizmat qiladi. Bu esa o'quvchi yoki talabani charchatmaydi va o'qishga bo'lgan motivini kuchaytiradi.

Aralash ta'lim – bu rejalashtirilgan hamda pedagogik ahamiyatga ega bo'lgan an'anaviy va elektron ta'limning integratsiyasi (Sloan Consortium).

Blended learning- bu shunday ta'lim metodi bo'lib, bunda an'anaviy hamda elektron ta'limning turli resurslarini o'zida uyg'unlashtiradi (MacMillan Dictionary). An'anaviy va elektron ta'lim metodlari hamda texnologiyalarini qo'llash bir vaqtning o'zida ushbu ta'lim shakllarining afzalliklaridan foydalanish imkonini beradi. An'anaviy ta'lim talabalarni motivatsiyalashda qo'llaniladi. Ta'limning an'anaviy shakli bevosita talaba va o'qituvchi muloqotiga asoslanadi.

<sup>163</sup> O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida <https://lex.uz/docs/-4545884>.



Elektron ta'lim texnologiyasi talabalarga vaqt va joydan tashqari foydalanish imkonini beruvchi multimedia kontenetlarini taqdim etadi. Onlayn hamda offlayn elementlarining uyg'unlashuvi ta'lim jarayoni samaradorligini oshiradi, iqtisodiy jihatdan tejamli va qulay, o'quv jarayoni esa interfaol, shaxsga yo'naltirilgan hamda ta'limga qiziquvchi tomonlar uchun moslashish imkonini beradi.

Masofaviy va elektron ta'limdan foydalanishning bir qator kamchiliklari mavjud:

- a. ta'limni boshqarishning samarali vositalarining yo'qligi;
- b. ta'lim mazmunini rivojlantirish uchun mablag'ning yetishmasligi;
- c. masofaviy ta'lim texnologiyalar sohasida pedagog kadrlarning yetishmasligi;
- d. ta'limning o'ziga xosligi;
- e. zamonaviy ta'lim vositalarining yetishmasligi;
- f. talabalarining texnik va dasturiy ta'minot bilan yomon ta'minlanganligi;
- g. o'quv dasturlarini haqiqiy hayotdan uzoqlashtirilganligi va h. k.

Yana shuni ham inobatga olish kerakki, internet yordamida o'rganish texnologiyasi yangi hodisa sanalanadi. O'quv jarayoniga aralash ta'limni joriy etish bir qator muammolarni hal qilish imkonini beradi:

### **1. Ta'lim oluvchilar uchun:**

- Talabalarining individual xususiyatlari (ta'lim olish ehtiyoji, o'quv materialini o'zlashtirish sur'ati hamda ritmi)ni hisobga olgan holda ta'limning mavjudligi va egiluvchanligini kengaytirish orqali ta'lim olish imkoniyatini oshirish;
- Fanlar tanlovining chegaralanmaganligi, ularni o'zlashtirish darajasi hamda ta'lim faoliyatini tashkil etishda o'quv rejalarini individual amalga oshirish;
- Ta'lim jarayonini shaxsiylashtiradi. Ta'lim oluvchi o'zining o'qish maqsadini, maqsadini amalga oshirish yo'llarini, o'zining ta'lim olish ehtiyoji, qiziqishi va qobiliyatidan kelib chiqqan holda mustaqil aniqlaydi;
- Maksimal darajada jarayonning obyektga qaratilganligi hamda natijalarning baholanishi;
- Ta'lim oluvchining subyektiv pozitsiyasini shakllantirishga yo'naltiradi: mustaqillikni, ijtimoiy faoliyatni, bilim olish motivatsiyasini oshiradi.
- O'quv materiallarini o'zlashtirishda va bo'shliqlarni bartaraf etishda qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun o'qituvchining shaxsiy maslahatlarini olish;

### **2. Ta'lim beruvchilar uchun:**

- Pedagog kadrlar malakasini oshirish;
- Yangi ta'lim natijalariga erishish maqsadida pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish;
- Pedagogik jarayonda yangi nazorat va aloqa turlaridan foydalanish;
- Motivatsiyasi yuqori bo'lgan talabalar bilan ustoz –shogirdlik ishlarini tashkil etish imkoniyati;
- O'qituvchining ish uslubini o'zgartirish: talabalarining bilimlarini tizimlashtirishga yordam beradigan interfaol metodlardan foydalanish;

### **3. Ta'lim jarayonini tashkil qilish uchun:**

- Pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish orqali mablag'larni tejash;
- Ko'p tarmoqli ta'limni tashkil etish orqali ta'lim oluvchilarning qo'shimcha tarkibini jalb qilish;
- Pedagog kadrlarning yetishmovchiligini hal qilish;
- Boshqa ta'lim va madaniy ehtiyojlarni ro'yobga chiqarish uchun vaqtni tejash maqsadida o'quv faoliyatini kuchaytirish imkonini beradi.

Aralash ta'limni tashkil etish uchun quyidagilar: elektron kurslar, amaliy mashg'ulotlar, muayyan loyihalar ustida ishlash, xizmatlar, elektron kitoblar, mobil ta'lim, kouching, podkastlar, kunduzgi kurslar, o'quv mashg'ulotlari va simulyatsiya va boshqalar kiradi.

Blended learning texnologiyasidan foydalanish va barqaror rivojlanish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan eng ilg'or ta'lim texnologiyalaridan biri sanaladi. Avvalo, bu to'g'ri va to'liq qo'llanilganda, aralash ta'lim shaxsning malakalari sifatida:

- muammoni kompleks hal etishning barcha jihatlarini hisobga olish qobiliyati;
- tanqidiy fikrlash, ishonchli ma'lumot manbalarini tanlash va muammoni hal qilish uchun zarur bo'lgan axborotni tanlash qobiliyati;
- ijodkorlik, mavjud axborotni ijodiy qayta ko'rib chiqish, yangi g'oyalar va yechimlarni sintez qilish qobiliyati;
- jamoaviy ish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish, o'xshash odamlarni qidirish va jamoalar yaratish qobiliyati;
- hayot davomida o'rganish qobiliyati va istagi;
- qaror qabul qilish va ular uchun javobgarlik kabi qimmatli fazilatlarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Blended learning ta'lim jarayonining eng yangi konsepsiyalaridan biridir. Ta'lim tizimida yangi texnologiyalarini joriy etish, maqsadga erishishning yangi usullarini o'rganish, barcha qatlam vakillari uchun sifatli ta'lim imkoniyatlarini yaratishga harakat qilish, yangi, gibrid ta'lim metodologiyasini yaratish uchun sinfda o'qitishning an'anaviy usullari va o'z-o'zini boshqarish usullarini birlashtirgan elektron ta'lim usulini tavsiflash maqsadida aralash ta'limni tobora ko'proq qo'llash zarur. Blended learningdan ta'lim jarayonida keng foydalanish orqali sohadagi bir qancha muammoli vaziyat va kamchiliklarni bartaraf etish bilan bir qatorda, ta'lim sifatini yanada oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirish, loyiha ishlarini himoya qilishlari, talaba hamda o'qituvchi o'rtasida mavzu yuzasidan bahs –munozaralar tashkil etishlari, ijodiy va amaliy vazifalar, nazorat testlarini topshirishlari mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida <https://lex.uz/docs/-4545884>.
2. Абрамова Я.К. Смешанное обучение как инновационная образовательная технология // Перспективы развития информационных технологий.
3. Абрамова С.В., Бояров Е.Н., Станкевич П.В. реализация смешанного обучения в современном образовательном процессе // Современные проблемы науки и образования.
4. Alammary A., Sheard J., Caebone A. Blended learning in higher education: Three different design approaches // Australasian Journal of Educational Technology. 2014.
5. Bonk C.J. & Graham C.R. Handbook of blended learning: Global Perspectives, local designs. – San Francisco, CA: Pfeiffer Publishing, 2005.
6. Means, B., Toyama, Y., Murphy, R., Bakia, M., & Jones, K. (2010, September). Evaluation of Evidence- Based Practices in Online Learning: A Meta-Analysis and Review of Online Learning Studies
7. Sobirova, Moxira Rasulovna “BLENDED LEARNING” – ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYASI // ORIENSS. 2022. №5-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/blended-learning-zamonaviy-ta-lim-texnologiyasi>

## P3HT VA PCBM MODDALAR ASOSIDAGI FAOL QATLAMLAR STRUKTURASINING SPEKTROKOPIK TAHLILI

<sup>1</sup>Sobirova N. M., <sup>2</sup>Nurumbetova L.R., <sup>2,3</sup>Saparbayev A.A.

<sup>1</sup>Namangan davlat universiteti.


<sup>2</sup>U.A. Arifov nomidagi Ion-plazma va lazer texnologiyalari institute.

<sup>3</sup>Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti.


Hozirgi vaqtda organik quyosh elementlari (OQE) sohasida dunyo bo'ylab keng ko'lamda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu tadqiqotlar yo'nalishlari OQE'larni tayyorlashda arzon va oddiy metodlar ishlab chiqish, ularning yaroqlik muddatini uzaytirish, OQE'larni tayyorlash uchun materiallarni to'g'ri tanlay olish va OQE'larda vaqt o'tishi bilan degradatsiya jarayoniga sabab bo'luvchi omillarni o'rganish kabi muammolar ustida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

OQE'larning degradatsiyasi odatda ulardagi fotovoltaik parametrlarning vaqt o'tgani sari pasayishi bilan tavsiflanadi. Bunday pasayishni ma'lum fizikaviy sharoitlarda o'rganish, degradatsiyaning asosiy sababi bo'lgan tashqi yoki ichki ta'sir omillarni, bunday jarayonlarning asosiy mexanizmlari va ko'lamini aniqlash imkonini beradi. Bu o'z navbatida, OQE'larning optik xarakteristikalari – yutilish va fotolyuminessensiya spektrlarida tegishli o'zgarishlarga olib kelishi mumkin [1]. OQE'larning optik xossalari va fotovoltaik parametrlaridagi bunday o'zgarishlarni aniqlab, qurilmaning degradatsiya darajasini son jixatdan baholash mumkin. Shu xolatdan kelib chiqib bizning bu ishda, P3HT:PCBM aralashmasi asosidagi yupqa faol qatlamlardan tayyorlangan OQE'ning yutilish va fotolyuminessensiya spektrlari o'rganildi [2].


P3HT:PCBM aralashmasidan tayyorlangan yupqa qatlamning sifat jihatdan farqi ularning optik xususiyatlarida ham aks etadi. P3HT:PCBM yupqa qatlamda optik o'lchovlarni amalga oshirishda va bu ma'lumotlarni ularni faol yupqa qatlam sifatida o'z tarkibiga oluvchi OQE strukturasi qo'shimcha yupqa metall qatlam – Alyuminidan iborat elektrodning mavjudligi Al molekularini faol qatlam ichida diffuziyasiga olib keladi. Bunday jarayon birinchi, tez degradatsiya bosqichiga sabab bo'ladi. Qiyosiy o'rganishlar o'rinli bo'lishi uchun (Al molekularining yupqa faol qatlamga diffuziyasini oldini olish uchun) tez oksidlanishni istisno qilishi kerak.



1-rasm. PCBM va P3HT yupqa qatlamlarining xususiy xoldagi yutilish spektrlari.



**2-rasm. P3HT:PCBM yupqa qatlamining vaqt o'tishi bilan yutilish spektrining o'zgarishi.** 1-rasmda P3HT:PCBM yupqa qatlamlarining yangi tayyorlangan vaqtdagi hamda bu yupqa qatlamni atmosfera sharoitida 10 va 30 sutka turgandan so'ng o'lgangan yutilish spektrlari keltirilgan. Yuqorida keltirilgan yupqa qatlamdagi yutilish spektrlarining vaqt o'tishi bilan o'zgarishi alyumini molekulalarining yupqa faol qatlama diffuziyasi va oksidlanish tufayli degradasiyasi natijalari ishchi rejimdagi OQElarning fotovoltaiik parametrlarida kuzatilganidek, bir necha soatlik xarakterli davri bo'lgan tezkor degradasiya komponentlari aniqlanmadi. 2-rasmdagi P3HT, PCBM moddalarining yutilish spektrlarini P3HT:PCBM yupqa qatlam yutilish spektrlari bilan solishtirganda P3HT:PCBM yupqa qatlam spektrida PCBMning yutilish spektri 400 nm atrofida, P3HT esa 450-550 nm to'lqin uzunligi oralig'ida yutilish koeffitsientining asta-sekin pasayishi kuzatilganligini ko'rishimiz mumkin. Ta'kidlash kerakki, yangi tayyorlangan



P3HT:PCBM yupqa qatlam yutilish spektrlarining vaqt o'tishi bilan o'zgarishida asta-sekin stabillashish holatini ko'rish mumkin: birinchi 10 sutkalik davrda katta o'zgarishlar kuzatilgan, undan keyin ya'ni 30 sutka o'tganda anchagina sust o'zgarishlarni namoyon qilgan.

**3-rasm. P3HT:PCBM yupqa qatlamning yangi tayyorlangan vaqtdagi va 30 sutkadan keyin o'lgangan fotolyuminessensiya spektrlari.**

P3HT:PCBM yupqa qatlamning vaqt o'tishi bilan bog'liq degradatsiya fotoluminessensiya intensivligini ortishiga olib keldi. 3-rasmdagi fotoluminessensiya spektrlarining vaqt o'tishi bilan o'zgarishi P3HT:PCBM yupqa qatlamidagi fotoluminessensiya intensivligini 35%ga, oshishi bilan xarakterlanadi.

Bu bayon etilgan eksperimental tadqiqotlar va ularning taxlilidan quyidagicha xulosalar qilish mumkin. OQEarning vaqt o'tishi bilan yutilish spektrlari kamayib borgan holda FL spektr intensivligi ortar ekan. Bunga sabab organik fotovoltaiq qurilmalarning atmosfera muhitida kislorod va namlik (suv molekulari) bilan ta'sirlashib tez degradatsiyaga (oksidlanish tufayli faol qatlamning ishchi strukturasi buzilishi) uchrashi bilan tushuntiriladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Deschler, F., et al., The effect of ageing on exciton dynamics, charge separation, and recombination in P3HT/PCBM photovoltaic blends. *Advanced Functional Materials*, 2012, 22 (7): 1461-1469.
2. Zakhidov, E., et al., Comparative study of absorption and photoluminescent properties of organic solar cells based on P3HT: PCBM and P3HT: ITIC blends. *Applied Physics A*, 2019, 125 (11): 1-7.



## OMONQO‘TON TOG‘ O‘RMON XO‘JALIGINING RIVOJLANISH TARIXI

*Sulaymonov Shahzod Azamat o‘g‘li*

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti*

*Geografiya va Ekologiya fakulteti talabasi.*

Insonlarning, hayvonlarning, mikroorganizmlarning mavjudligini havoni kislorod bilan ta‘minlovchi o‘simlik qoplamisiz tasavvur qilish mumkin emas. O‘simlik olami Yerdan moddalarning aylanma harakatida, insonni oziq-ovqat, sanoatni xom-ashyo bilan ta‘minlashda, kishilar sog‘ligini saqlashda va boshqalarda beqiyos katta ahamiyatga ega. O‘simliklarning tabiatdagi modda almashinuvidagi roli nihoyatda katta bo‘lib, bu jarayon birinchi navbatda, yashil o‘simliklarning fotosintezini orqali amalga oshadi. O‘simliklar atmosfera havosining gaz tarkibini boshqaradi. Atmosfera havosi tarkibida CO<sub>2</sub> kamligi (0,03%) o‘simliklar hayoti bilan bog‘liqdir ya‘ni, hozirgi atmosfera havosining tarkibi organizmlarning uzoq geologik davrlar mobaynidagi hayot faoliyatining natijasidir. Daraxtlar sayyoradagi uglerod siklini nazorat qilib, bir yilda taxminan 2,1 gigatonna uglerodni yutadi. O‘rmonlarda o‘sovchi har bir daraxt 95 foiz namlikni ehtiyoj bo‘lgan joyga yuboruvchi, kelib chiqishi tabiiy akveduk. Ular tuproqdagi namlikni saqlab, yemirilish jarayonlarining oldini oladi. Daraxtlar bug‘langan suvni atmosferaga chiqaradi, bu esa sovish effektini ta‘minlaydi. Mutaxassislar ta‘kidlashicha, daraxtlar eroziya va tuproqning sho‘rlanishini oldini oladi. Iqlim o‘zgarishi ta‘sirini yumshatadi. Bundan tashqari, o‘rmonlar odamlarni yoqilg‘i va oziq-ovqat bilan ta‘minlaydi. Ko‘pchilik uchun ular muhim daromad manbai hisoblanadi. Masalan, bugungi kunda o‘rmonlarda 86 milliondan ortiq yashil ish o‘rinlari tashkil etilgan. Kambag‘al aholi qatlamining 90 foizdan ortig‘i o‘rmonlarning yovvoyi mahsulotlari bilan oziqlanib kun kechirmoqda. Har yili Yerdagi o‘rmonlar yuz millionga yaqin daraxtni yo‘qotadi. Bir yilda bitta daraxt deyarli 100 kubometr kislorod beradi. O‘rmonlarning yo‘q qilinishi inson jamiyatining dastlabki davrlaridan boshlangan va hozirgi kunga qadar davom etmoqda. Ming yillar davomida o‘rmonlarning yo‘q qilinishi ko‘p joylarda yerlardan xo‘jalikda foydalanishga imkon bermay qo‘ygan, unumdor yerlar ishdan chiqib qolgan. O‘rmonlar Shimoliy Amerikada, ayniqsa uning g‘arbiy qismida ko‘p yo‘q qilingan. Keyingi yuz yildan ko‘proq vaqt ichida bu yerda 540 mln ga o‘rmon qirqib yuborildi. Bundan 300 yil ilgari AQSHda 366 mln ga o‘rmon bo‘lib, unda 1100 tur daraxt o‘sgan. Hozirgi vaqtda AQSHda qayta tiklangan o‘rmonlarni ham hisoblaganda 225 mln ga o‘rmon bor, unda 262 tur daraxt o‘sadi. Bunday ahvolni boshqa materiklarda ham ko‘rish mumkin. Madagaskar orolida keyingi besh asrda o‘rmonlar maydoni 90% ga qisqardi, Hindistonda o‘rmonlar maydoni 18% dan oshmaydi, Xitoyda esa bor yo‘g‘i 9%. Buyuk Britaniyada, dastlabki o‘rmonlarning faqat 5% i saqlanib qolgan. So‘nggi o‘ttiz yilda Yerdagi o‘rmonlarni yo‘q qilish tezligi sekinlashdi, shunga qaramay, 1990 yildan beri qariyb 420 million gektar o‘rmon yo‘q qilindi. Vaziyat juda ham og‘ir, chunki sayyoramizdagi barcha quruqlikdagi biologik xilma-xillikning asosiy qismi o‘rmonlarda yashaydi. 60 ming xil o‘simlik va daraxtlar, amfibiyalarning 80 foizi, qushlarning 75 foizi va sutemizuvchilarning 68 foizi shular jumlasidandir. O‘rmonlarning yo‘q bo‘lib ketishi ko‘plab yovvoyi flora va fauna turlarining ham yo‘q bo‘lib ketishiga sabab bo‘lmoqda. Agar biz o‘rmonlarni butunlay yo‘q qilsak, ekotizimni avvalgidek tiklashning iloji bo‘lmaydi. Biologik xilma-xillik - bu murakkab mexanizm, u sayyoramizdagi hayotni qo‘llab-quvvatlaydi. Kislorod ajratish, suvni tozalash, o‘simliklarning changlanishi bularning barchasi katta tizimning bir qismidir. Daraxtlarni yo‘q qilinishi oldini olish va ularni ko‘paytirish maqsadida 1878 yilda Turkiston o‘lkasining departamenti tog‘larda o‘rmon landshaftlarini tashkil etish uchun 1000 rubl ajratgan. Ushbu mablag‘ni Samarqand o‘rmonchilari Omonqo‘ton tog‘larini o‘rmon melioratsiyasi uchun sarf etgan va u O‘rta Osiyoda ilk bor o‘tkazilgan tajriba bo‘lgan. Bu katta ishni amalga oshirishda haqiqiy jonkuyar, mehnatsevar mutaxassislar, o‘rmonchilar, tabiatshunoslar va mahalliy aholi ishtirok etgan. Dastlab Darg‘om bo‘yidagi Bahrin qishlog‘i yaqinida 3 gektar lalmi yerda o‘rmon daraxtlarining ko‘chatlarini yetishtirish usullari o‘rganilgan, adir tuprog‘i va iqlimi sharoitida ko‘chatlar yetishtirish mumkinligi aniqlangan.

Shundan so'ng 4 yil davomida Evropadan keltirilgan va mahalliy tur buta va daraxtlarning ko'chatlari yetishtirilib sinovdan o'tkazilgan. Bu ko'chatlarni Omonqo'tonda ekish uchun mahalliy aholiga tarqatilgan. 1882-yil bahorida botanik olim N.I.Korolkov, M.I.Nevskiy va o'rmonchi S.A.Navroskiylarning rahbarligi va nazoratida Omonqo'ton tog'lari yonbag'irligi dastlabki daraxt va butalar ko'chatlari ekilgan. Ko'chatlar qatorda: akatsiya-yong'oq-akatsiya tarzida, terassalar bo'yicha esa akatsiya-yong'oq, gledichiya-aylant tartibida ekildi. Daraxtlar qator oralig'iga mahalliy butalardan itburun, olisha, do'lana, uchqat kabilar o'tqazilgan.

1883-yilda ilk bor Omonqo'tonda Qrim qarag'ayi, dengizbo'yi qarag'ayi sharq tuyasi(biota) ekilgan. Ularning qatoriga parallel holda issiqdan himoya etuvchilar tarzida yong'oq, akatsiya, qayrag'och kabi keng bargli daraxtlarning ko'chatlari o'tqazilgan. Ushbu usulda tog' yonbag'irlarini o'zlashtirish "**Omonqo'ton usuli**" nomi bilan mashhur bo'lgan va butun O'rta Osiyoda tavsiya etilgan. 1906-yilda Omonqo'tondagi sun'iy tog' o'rmonlari 950 gektarga etgan va 1933-yilda uning asosida Samarqand o'rmon xo'jaligi tashkil etilgan. Hozir o'rmon xo'jaligining maydoni 2300 gektarni tashkil etadi. 1883 yilda ekilgan Qrim qarag'ayzori 0,27 gektarni egallagan, 19-20 metr keladigan 117 tur qarag'aylar o'sib turipti, tabiiy urug'idan ko'payish kuzatilmoqda. 1898 yilda Gazarmasoyda ekilgan Qrim qarag'ayi va qayinlarining ham bir qismi saqlangan. Qarag'aylarning balandligi 28 metrga, poyasining diametri 70 sm keladi. Qumbelsoyda 1908 yilda ekilgan Qrim qarag'aylarining 17 tasi hozir mavjud tuplarining bo'yi 27 metr, tana diametri 50-60 santimetrga teng. 1939-40- yillarda Omonqo'ton o'rmon xo'jaligining Gazarmasoy va Qayrag'ochsoy hududlarida 150 tup qarag'aylar ekilgan. Hozir ularning bo'yi 10-15 metr, tana diametri 25 sm ga teng. So'ngi 20 yillar davomida Jiydasoyda 300 tupdan ko'proq qrim qarag'ayi ekilgan. Hozir hammasi bo'lib Omonqo'ton o'rmon xo'jaligida 340 tupdan ko'proq Qrim qarag'ayi o'sib turibdi. Sun'iy qarag'ayzorlar bilan bir qatorda, tabiiy archazorlar, qayin, akatsiya, jumtol, chinor, tol, terakzorlar, mavjud. Ular so'lim dam olish maskanlari, oromgohlar qursa bo'ladiga istiqbolli maydonlardir. Bulbulzorsoydagi 100 yillar muqaddam ekilgan va hozir barq urib o'sib turgan Qarag'ayzor Omonqo'tan tabiatining o'ziga xos yodgorligi hisoblanadi. Omonqo'tan o'rmon xo'jaligi esa, inson tomonidan tog' yonbag'irlarini o'rmonlashtirish yo'li bilan sel, tog' ko'chishi, suv eroziyasi kabi tabiiy ofatlarning oldini oladi. Biz o'rmon xo'jaligi haqida gapirganda, biz o'rmonlarni etishtirish va saqlash uchun mas'ul bo'lgan faoliyatni nazarda tutmaymiz. Uning asosiy maqsadi o'rmonlarni etishtirish orqali tabiiy muhitni saqlash, atrof-muhit sifatini yaxshilash va chorva mollari uchun yaylovlarni ishlab chiqarish va saqlash. Mamlakatimizda o'rmon xo'jaligi tabiiy ekotizimlarga zarar etkazmasdan juda katta miqdordagi yog'och va qo'ziqorin ekspluatatsiyasini keltirib chiqaradi.[1] O'rmon xo'jaligining asosiy foydaliligi o'rmonlar va o'rmonzorlarni boshqarishdir. Ushbu texnik va g'amxo'rlik bilan jamiyat talab qiladigan turli xil xizmatlar doimiy ravishda ishlab chiqarilishi mumkin. Ekotizim xizmatlari - bu taklif etadigan xizmatlar ekologik va iqtisodiy foyda keltiradigan tabiiy tizimlar. O'rmonlar va o'rmonzorlarni boshqarish ekotizimning sifati va tabiiy boyliklarning ekologik barqarorligi tamoyillariga asoslanadi. Buning uchun ular hosilni turli maqsadlarda va uzoq vaqt davomida ishlatishga imkon beradigan turli xil muolajalar va vositalardan foydalanadilar. Bu atrof-muhitning turli xil afzalliklariga yordam beradi, chunki u o'simliklarni fotosintez qilish orqali havoni yaxshiroq tozalashi mumkin.[4] Shuningdek, u daryolarni to'ydiradi va turli hududlarni ichimlik suvi bilan ta'minlaydi. O'rmon xo'jaligi eng tanazzulga uchragan hududlardan foydalanish va unga ijtimoiy, iqtisodiy va atrof-muhitdan foydalanish uchun mukammal vosita. Ushbu amaliyot tufayli tabiatni qayta baholash va resurslarni tejash qadriyatlarini o'rganish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alibekov L.A. Inson va Tabiat.-Samarqand,2020, 364 b
2. Muhammadiyev S. A.va boshqalar. Omonqo'ton-ona tabiat mo'jizasi. –Samarqand,2007, 88 b
3. Sulaymonov Sh.A. Omonqo'ton tog' landshaftlarining flora va faunasiga antropogen omillarning ta'siri. Yosh olimlar axborotnomasi. -Toshkent,2022, 40-43 b
4. Sulaymonov Sh.A. Omonqo'ton tog'larining ekoturistik salohiyati. Ilmiy Tadqiqotlar Sammiti. –Toshkent,2022, 831-833 b.

## PEDAGOG ODOBI HUSAYN VOIZ KOSHIFIY TALQINIDA

*Suyunov Sherzodbek Jamolovich*  
*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*  
*“Maktabgacha ta’lim” kafedrasini mudiri.*

Pir yozdir, o‘zgalar misli kuzak,  
Xalq tundur, pir misoli oy demak.  
**(Jaloliddin Rumi)**

**Annotatsiya:** Pedagog odobi umuminsoniy va milliy axloqning qonuniyatlari, vazifalari, tamoyillari, tushunchalari, talablari, mezonlarini ta’lim-tarbiya jarayonida oydinlashtirib, pedagogning ta’lim oluvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar, ta’lim muassasasi rahbarlari bilan munosabatlarida namoyon bo‘ladigan kasbiy-axloqiy xususiyatlari yig‘indisidir.

Pedagog odobi eng avvalo, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o‘zaro munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Biroq bunday yondashuv bir qadar cheklangan nuqtai nazar ekanligini ta’kidlash joiz. Zero, tarbiyachining kasbiy axloqi faqat tarbiyalanuvchilar bilan muloqoti jarayonidagina namoyon bo‘lmaydi, balki uning butun faoliyati davomida birinchi darajali ehtiyoj sifatida ifodalanadi. Boshqacha aytganda, pedagog odobi tushunchasi tarbiyachi dunyoqarashining hayotiy tizimini anglatadi. Pedagog odobi tushunchasining mazmuni axloqiylik bilan birga iqtisodiy, siyosiy, huquqiy jihatlarni ham o‘z ichiga qamrab oladi. Maqolada mazkur jihatlarni buyuk voiz, taniqli alloma Husayn Voiz Koshifiy talqinida muhokama qilingan.

**Kalit so‘zlar:** pedagog, odob, pir, murid, Koshifiy, talab, tarbiya, ta’lim, nazokat, etiket qoidalari.

Pedagog odobining mohiyati, asosiy mazmuni pedagogik faoliyat uchun muhim bo‘lgan axloqiy sifatlarda ifodalanadi. Umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlar barcha kishilar, hamma kasb egalari, jumladan, o‘qituvchi-tarbiyachilar uchun ham juda zarurdir. Bu zarurat barcha zamonlarda ham mavjud bo‘lgan. Xususan, XV asrda yashab ijod etgan atoqli olim va adib, axloq va ma’rifat targ‘ibotchisi Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiy ham o‘z asarlarida ustozlik odoblari haqida chuqur to‘xtalib o‘tgan. Fikrlar izohiga o‘tishdan oldin Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiy haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tish joiz. Husayn Voiz Koshifiy taxminan 1440-yillarda Sabzavor viloyatining Bayhaq nohiyasida tavallud topgan. Dastlabki ta’limni o‘z vatanida olgan bo‘lg‘usi olim keyinchalik Nishopur, Mashhad shaharlarida o‘qishni davom ettirgan. XV asrning ikkinchi yarmida Xurosonda Alisher Navoiy atrofida to‘plangan alloma, shoir va donishmandlar orasida mashhur va qomusiy talant egalaridan biri, ulug‘ alloma Hazrat Jomiyning nazariga tushgan Koshifiyning ilmiy qiziqishi va salohiyati bag‘oyat keng bo‘lib, u ilmi nujum, tafsir, falsafa, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, fiqh bo‘yicha xilma-xil asarlar yozib qoldirgan. Uning “Axloqi Muhsiniy”, “Anvori Suhayliy”, “Risolai Xotamiya”, “Tafsiri Husayniy”, “Javohir ut-tafsir”, “Futuvvatnomai sultoniyy yoxud javonmardlik tariqati”, “Ravzat ush-shuhado” (“Shahidlar bog‘i”), “Sahifai shohi” kabi asarlari xalq o‘rtasida keng tarqalgan. Kamoliddin Husayn – allomaning ism sharifi, voiz (notiq) – laqabi, Koshifiy (kashf qilmoq, yaratmoq) – adabiy taxallusidir. Husayn Voiz Koshifiy asarlarini o‘z davrining ilmiy tili – fors tilida yozgan bo‘lib, undan ko‘pgina ilmiy, badiiy tarjima asarlari ham meros qolgan. U falsafa, axloq, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, siyosat, tarix, kimyo, astronomiya, matematika, musiqa, voizlik, she’r san’ati, din tarixi, fiqh, tibbiyot kabi fanlarga oid 200 dan ortiq asar yozganligi manbalardan ma’lum. Koshifiyning O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik va H.Sulaymonov nomidagi Qo‘lyozmalar institutlarida 45 nomdagi asarlarining 197 qo‘lyozma va 75 tosh bosma nusxalari saqlanmoqda. Uning o‘ndan ortiq asari arab, tatar, eski o‘zbek, urdu, turk, nemis, ingliz, fransuz va boshqa tillarga tarjima qilingan.

Hozirgi kunda Koshifiy asarlari Parij, London, Berlin, Sankt-Peterburg, Moskva kabi shaharlarda, Iroq, Turkiya, Eron, Afg'oniston, Hindiston, Bangladesh va boshqa Sharq mamlakatlarining kutubxonalarida saqlanmoqda. Chet mamlakatlarda Koshifiy asarlariga qiziqish XVIII-XIX asrlardayoq kuchli bo'lib, G'arbiy Yevropaning X.G.Kin, M.Duayt, D.D.Donelson, E.Braun, A.A.Arberri, E.S.Kennedi, E.Rozental, X.Masse, K.S.Lambton, R.Levi, A.M.Shasteri kabi mashhur olimlari Markaziy Osiyo va Eronning XIV-XV asrlardagi madaniyati tarixini atroflicha o'rganishga harakat qilganlar va Koshifiyning ijodi, merosiga yuqori baho berganlar. Husayn Voiz Koshifiy Hirot madrasalarida talabalarga ta'lim-tarbiya bergan, Xuroson shaharlarida axloq-odobdan va'z aytgan. Koshifiy o'z asarlarida ijtimoiy-axloqiy hayot, ma'naviyat masalalariga katta o'rin ajratadi, siyosat, davlatni boshqarish, shoh bilan fuqarolar o'rtasidagi munosabat, jamoani idora etish, yetuk insonni tarbiyalash muammolari uning ijodida katta o'rin egallaydi. Ularda insonparvarlik, xalqparvarlik, yuqori ma'naviyatga ega bo'lish, madaniy yuksalish g'oyalarini ilgari suradi.

Pedagog odobi haqida Koshifiy "Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati" kitobining "Piru mudirlik va shunga aloqali narsalar to'g'risida" deb nomlangan 2-bobida quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi: "Agar komil ustoz kim, deb so'rasalar, u pok mazhabli, o'z aybini ko'radigan, dono va tamizli kishidir deb aytgil. Unda hasad, gin ava baxillikdan asar bo'lmaydi. "Agar shogirdlikning binosi nimaning ustiga quriladi, deb so'rasalar, irodad ustiga, deb javob bergil. Agar irodad nimadir, deb so'rasalar, samo va toatdir, deb aytgin. Agar samo (eshitish) va toat nimadir, deb so'rasalar, nimaiki ustoz aytsa, uni jon qulog'i bilan eshitish, chin ko'ngil bilan qabul qilish va vujud a'zolari orqali amalda ado etishdir, deb ayt. Agar shogird uchun nima yaxshi, deb so'rasalar, pok e'tiqod deb ayt, chunki faqat e'tiqod kishini murodga yetkazadi". Pedagog shaxsiga to'xtalar ekan, Koshifiy zamonasida mavjud bo'lgan shayxlik (pirlik) va muridlik an'anasiga alohida e'tibor qaratadi. Ta'lim berish va shogird tayyorlash ishida ham alohida me'yorlar borligi haqida fikr yuritar ekan quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi:

"Agar shayxlik shartlari va murid saqlash sharoiti nechta, deb so'rasalar, buning yigirmata sharti bor, deb ayt. Shu shartlarga rioya qilgan kishi komil pir hisoblanadi va u murid tarbiyalash huquqiga ega bo'ladi. Bu shartlar quyidagilardir:

**Birinchiidan, (shayxlikka da'vogar) odamning e'tiqodi pok bo'lishi kerak, toki murid uning aqidasi ergashib to'g'ri yo'ldan adashmasin.** Pedagogning shaxsiy sifatleri orasida demakki, poklik eng muhim mezon sifatida baholangan. Pedagogik insonparvarlik yo'nalishi ham asli shu jihatdan boshlanadi.

**Ikkinchiidan, zaruriy ravishda ilm egallagan bo'lishi lozim, faqr va taqriqat ilmini ham chuqur o'zlashtirgan bo'lsin. Muridda tariqatga taaluqli har qanday mushkul savol tug'ilganda, uni osonlik bilan hal qilib beradigan bo'lsin.** Hozirda biz bu talabni pedagogik mahoratning tarkibiy qismi bo'lgan kasbiy bilimdonlik sifatida qaraymiz. Chunki, pedagog nafaqat o'z fani, balki, yondosh fanlarning ham falsafasini egallagan bo'lishi zarur.

**Uchinchiidan, o'z ahdida ustuvor va tariqat qoidalarini saqlashda mustahkam turib kun kechiradigan bo'lsin, toki murid tarbiyasi shartlariga qat'iy amal qilsin.** Pedagogning qat'iyati va mas'uliyatligi hozir ham muhim omil. Pedagogning odob-axloq qoidalari bejizga ishlab chiqilmagan, nazdimizda.

**To'rtinchiidan, saxiy va javonmard bo'lsin, toki muridni ozuqa va kiyim-kechak zarurati tashvishlaridan xalos eta olsin.** Hozirda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan "Inson shaxsi va manfaatlari uchun" g'oyasining ham tub negizida shogirdga bo'lgan g'amxo'rlik ham mujassam.

**Beshinchiidan, odamlarning malomati va fitnasidan qo'rqmaydigan, ruhan shijoatli bo'lsin va har kimning so'ziga kirib, muridni rad etmasin.** Shogirdlar kamolga yetmaguncha, fidoyi pedagog o'zini zarrama-zarra o'z kasbiga sadoqati bilan namoyon etib kelaveradi. Kichik misrada aytilganidek,

Partalar oralab o'tkazar umr,

O'chirib, qoralab o'tkazar umr.

Bag'rini poralab o'tkazar umr,

O'zga hayoti yo'q o'qituvchining...



**Oltinchidan, pok va pokdoman, hayoli-diyonatli bo'lsin, nomahramlarga qaramasin, toki murid undan badgumon bo'lmasin.** Pedagogik etika qoidalari ayni shu jihatlarga tayanilib ishlab chiqilgan.

**Yettinchidan, olihimmat bo'lsin va murid molidan ta'ma qilmasin.** Bugun ustoz qadr-qimmatini oshib, iqtisodiy ta'minoti yaxshilangan bir davrda pedagoglarning shogirdlar moliga ta'ma qilishi mumkin emas. Bu huquqiy talab.

**Sakkizinchidan, mushfiq-mehribon bo'lsin, muridnan marhamatini darig' tutmasin.** Ustozning dilkashligi ta'lim oluvchining muvaffaqiyati kaliti sifatida pedagog olimlar tadqiqotlari natijalari Koshifiy fikrlarining isbotidir.

**To'qqizinchidan, halim bo'lsin, toki muridning har bir xatti-harakatidan jahli chiqmasin.** Pedagoglik odobida o'z emotsiyalarini jilovlay olish masalasi g'oyatda e'tiborli jihat. Chunki, pedagoglik kasbini tanlagan har bir shaxs, avvalo, o'z xarakteri tarbiyasi ustida ishlaydi lozim.

**O'ninchidan, kechirimli bo'lsin, mabodo murid tariqatga nomunosib harakat sodir bo'lsa, avf eta olsin.** Shogirdlar bir nihol. Nihol noto'g'ri novda chiqarishi uning yomon ekanidan dalolat bermagani kabi, shogirdning ham xatolarini tuzatib, unga to'g'ri yo'l ko'rsatish pedagogning vazifasi hisoblanadi.

**O'n birinchidan, xulq-atvori yoqimli, latif bo'lsin, toki murid uning suhbatida dag'al odamga aylanmasin.** Pedagogning kommunikativ qobiliyatini tahlil etish va o'rganish asnosida, bugungi pedagog muomala madaniyatini chuqur egallashi lozim. Bu nafaqat ustoz, balki shaxs sifatida ham zarurat hisoblanadi.

**O'n ikkinchidan, qo'li ochiq bo'lsin, o'zidan orttirib muridga yetkaza olsin. O'n uchinchidan, karamli bo'lsin, toki baland himmati orqali muridni o'zidan bahramand etolsin.** "Hunarni asrabon netgumdir oxir, olib tuproqqami ketgumdir oxir", - deganida Navoiy ham pedagogdan bor ilmini shogird keyinchalik o'zidan ilgarilab ketishidan hayiqmay berishini niyat qilgan. Pedagog imkon qadar o'z shogirdiga qo'li ochiqlik qilishi va uning ehtiyojlari bilan hisoblashishi berilayotgan ta'lim sifatiga ta'sir etishi haqida o'ylashi zarur.

**O'n to'rtinchidan, mohir murabbiy bo'lsinkim, muridni tarbiyalay olsin.** Birinchi Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu Sharqona qarash, Sharqona hayot falsafasi". Pedagog nafaqat ta'lim beruvchi, balki mohir tarbiyachi sifatida ham o'zini namoyon etishi shogirdida unga bo'lgan muhabbatni oshiradi.

**O'n beshinchidan, rizo va taslim (itoatkorlik)ni shior etsin, ortiqcha hirsu havasga berilmasin.** Pedagogning o'zi belgilangan qoida va talablarga itoat etishi orqali qolganlarni ham tarbiyalay oladi. O'zi amal qilmagan ish yoki vazifani keyinchalik shogirdlaridan talab etishga pedagogning ma'nau haqqi yo'q.

**O'n oltinchidan, viqorli, og'ir va tamkinli bo'lsin, toki muridlar ichida hurmati saqlanadigan bo'lsin.** Pedagogning o'zini tutishi va kiyinish odobi pedagogik texnikasida yaqqol seziladi. Shu sabab ham pedagogik texnikasi ustida ishlagan pedagog shogirdlar hurmatiga erishib keladi.

**O'n yettinchidan, xotirjam va osoyishta bo'lsin, shoshilinch ish qilmasin, muridga asta-sekin, ohista ta'sir etib, uni o'z irodasiga bo'ysundirsin.** Pedagogik faoliyatda shoshmashosharlik bilan xulosa chiqarish yoki ish qilish yaramaydi. Pedagogdagi mushohada ta'limdagi yuksalishning muhim shartidir.

**O'n sakkizinchidan, haybat va salobatni yo'qotmasin, toki shukuhu shavkati murid xotirasida saqlanib, uning kalomini shak-shubhasiz qabul etsin.** Pedagoglik odobida pedagogik parhezlar borligini bugun jamiyat ham e'tirof etmoqda. Pedagoglik kasbini tanlagan shaxs kelgusida pedagoglikning yozilgan va yozilmagan qoidalariga amal qilishni bo'yin olishiga to'g'ri keladi.

**O'n to'qqizinchidan, odobli bo'lsin, toki murid ham uning hoziru g'oyibida hurmatini birday saqlaydigan bo'lsin.** Pedagogning so'zi, kiyinishi, hatto kulgusi ham bolani tarbiyalaydi. Hurmat shunchaki berilmaydi. Hurmat qozoniladi, hurmatga erishiladi. Pedagog bolalar qalbidan shunday joy olishi kerakki, toki u xoh borligi, xoh bolaning yonida emasligidan qat'iy nazar bola ustozining qaytarganlaridan qaytib, aytganiday yo'ldan ketsin.



**Yigirmanchidan, komil murshidning xizmatini o‘tab, uning tarbiyasini olgan bo‘lsin, toki o‘z piridan olganlarini muridlarini sarflay olsin.** Tarbiyachi (pedagog) tarbiyalashi uchun, avvalo, uning o‘zi tarbiyalangan bo‘lishi zarur. Chunki har qanday pedagog - o‘z ustozining faoliyatining mahsuli bo‘ladi. Xalqimizda bejizga “Ustoz ko‘rmagan shogird ham maqomga yo‘rg‘alar”, - deyilmaydi.

Pedagog odobi birdaniga shakllanib qolmaydi, u yillar davomida pedagogik faoliyatda, ustozlar tajribasini o‘rganishda, dars va undan tashqari jarayonda takomillashib boradi. Pedagogik odobga ega bo‘lish pedagog uchun juda zarurdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonlaridan ham bugungi kun pedagogi shaxsiga qo‘yilgan quyidagi talablar ham xalqimizning mingyilliklar davomidagi pedagogik talablariga uyg‘undir: “... farzandlarimizga yuksak mezonlar asosida ta‘lim-tarbiya beradigan, yangicha, innovatsion fikrlaydigan muallim va o‘qituvchilarni tayyorlash – bu eng og‘ir vazifa bo‘lib, juda katta mehnat va mas‘uliyatni talab etadi. Shu ma‘noda, bugungi kun o‘qituvchisi universal mutaxassis, ham o‘rgatuvchi, ham o‘rganuvchi bo‘lishi, ya‘ni, o‘z ustida tinimsiz ishlashi, doimo izlanib yashashi kerak. Eng muhimi, o‘qituvchi chinakam vatanparvar inson bo‘lishi zarur. Qalbida o‘z kasbiga, Vatanga mehr va sadoqat kuchli bo‘lgan o‘qituvchigina haqiqiy vatanparvar shaxsni tarbiyalay oladi”.

Xulosa qilib aytganda, bundan besh asr muqaddam Koshifiy tomonidan aytilgan ushbu o‘g‘itlar doimo kun tartibida turgan, bizning zamonamizda ham dolzarb masaladir. Koshifiyning pedagog odobi haqidagi fikrlari muhokamalar markazida bo‘lib, asrlar osha o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. R.J.Mahmudov. Husayn Voiz Koshifiy / Ma‘naviyat yulduzlari. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001. 241-245-betlar.
2. B.Abdusalimov Axloqiy merosimiz va kitobat san‘atining noyob namunasi. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniy. Axloqi Muhsiniy. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashri, 2011. 122-bet.
3. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniy. Axloqi Muhsiniy. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashri, 2011. 33-38-betlar.
4. I.A.Karimov. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma‘naviyat, 2008.

## IMPROVING SPEAKING SKILLS OF EFL LEARNERS WITH INFORMATION GAP ACTIVITIES

*Suyunova Mohinur Ilhom qizi*

*MA student at Uzbekistan State World Languages University*

**Abstract:** Within English language teaching methodology, a number of new approaches have come into existence to teach four skills in integration. However, there are still some gaps to be filled to suggest methodologies to implement in different language environments. The purpose of the study is to investigate to what extent information gap activities can help to improve speaking skills of language learners. This research was conducted in classroom action research format and pre-designed pre-tests and post-tests were used together with mixed research methods. The research found that information gap activities can facilitate speaking skills when they are organized in the form of discussion and problem-solving. This research can be applicable for other language instructors to conduct a replication study and to follow some suggestions to organize speaking classrooms.

**Introduction.** Speaking is considered to be one of the most important skills in any language. Together with writing, speaking is considered to be necessary in order to provide communication. In most cases, people's knowledge of a foreign language is determined by their speaking abilities. Therefore, it is essential for both teachers and learners not to neglect the importance of speaking abilities in a foreign language, especially in the English language as it serves as lingua franca among speakers of other languages. On the other hand, speaking is often to difficult for learners to develop even though they have acquired grammar and vocabulary items of the language well. Speaking experts such as Harmer and Lawtie have suggested a few reasons for the importance of teaching speaking. Harmer (1990) suggests that training students for communication is the main of teaching. Therefore, speaking class activities should focus on individual language use. Also, it requires the teacher to create a humanistic classroom environment in which all students are actively involved into communication through interacting with peers. Lawtie (2004) illustrates some reasons why teachers teach speaking skills in the classroom. Firstly, students equate the ability to speak as knowing the language and therefore, see language learning as speaking the language. Moreover, students' inability to speak the language brings about demotivation for students. Within language teaching methodology, the problem of making learners communicatively competent in the target language has not been fully resolved since language instructors are still in need of different approaches and pedagogies to improve students' speaking skills. Even though new strategies have been found, the goal has always centered around reaching communicative competence in the target language and to make them strategic users in real-life situations (Nasri, Biria, & Karimi, 2018). Nowadays, EFL teaching and learning has greatly affected language teaching environment and a number of digital tools offered features that make communication outside the classes possible. Such digital tools have exposed language learners to real-life communication without teachers' control or guidance, thus making them more confident in communication. However, it does not necessarily mean that a language can be best learned through digital tools.

**Speaking skills.** Speaking skills are the most important among the four language skills as they bridge communication between speakers. However, mastering them is not always easy. According to Chaney, 1998, speaking is "the process of building and sharing meaning through the use of verbal and non-verbal symbols, in a variety of contexts". Levelt 1989 define that "we start learning this ability from infancy and develop it during childhood to maturity". Davies, 2000 state that one of the major goals behind teaching a foreign language is to teach them to use language effectively. According to Ranson 2000, proficiency in speaking skills offer students a wide range of opportunities not only in academic settings, but also in other fields. Besides, language abilities of students are commonly measured by their speaking abilities in the first

meeting with someone which also urges language learners to focus on developing this skill than other language skills. Similarly, Ur 2000 add that “of all the four skills, speaking seems intuitively the most important: people who know a language are referred to as speakers of the language as if speaking includes all other kinds of knowing”. Baker & Westrup (2003) also claim that knowledge of the English language creates an opportunity for further education together with bright career prospects and a possibility of promotion.

Celce-murcia, (2001) suggests that speaking ability makes one to seem as the user of the language. And there are two main norms to master speaking: fluency and accuracy. Language instructors, therefore, emphasizes fluency when teaching the language with an attempt to make them speak at ease. According to Segalowitz (2003), rapid, accurate and smooth utterances are considered as fluency in the language. Moreover, “Fluency is the ability to link units of speech together with facility and without strain, or undue hesitation” according to Tricia’s (2000). According Burns & Goh (2012), accuracy refers to correct grammar usage while speaking with correct pronunciation patterns. Or else, accuracy means correct grammar, vocabulary and pronunciation during communication.

**Speaking Difficulties in Foreign Language Learning.** Commonly, speaking is the most difficult aspect of a foreign language since it takes a lot of time to improve as well as confidence. One of the most common factors that hinder speaking improvement is inhibition. According to Ur, 2000, making mistakes and fear of criticism often prevent students utter something in the classroom. It combines their shy personality with fear of negative feedback or criticism. Another reason lies in imbalances in students’ participation in the activities. Therefore, teachers should create a collaborative environment where high and low performers work together to reach achievement. Among other mostly noticed factors, native language interference or lack of motivation are witnessed showing a scenario where students limit themselves with “No idea” or expressing opinions in their native language.

**Information gap activities.** Information gap activities have gained great popularity in language teaching methodology in recent years. According to Harmer (1991) information gap means “gap” between the two speakers’ information that they have, the conversation ends when both speakers have the same information. Additionally, Cavalho (1997) adds that information gap activities require task completion when the first group have the first half of the info and the other group has the other half and exchange all information to complete the task.

Moreover, Raptou (2002) suggests that one person has to information to share with group members to solve the problem or make a certain decision. This suggests that people are involved into real communication to get information and share it.

Another expert on speaking, Kayi (2007) adds that information gap activities are activities that require students to work in collaboration. One student will have the first half of the information while the other has the other half and they interact with each other to exchange information.

Zhang (2004) suggests some strategies to implement with information gap activities in speaking classrooms. They are as follows:

1. Pair work and group work-in which students spend most of their time working in pairs and groups, sharing information, eliciting it, exchanging it.
2. Personalization and individualization-information gap activities collect ideas from different speakers. Personalization activities offer learners an opportunity to express their own opinions, support them and share them.
3. Interest- To stimulate learners’ interest in language learning, it is important to design real life information gap activities or activities that are compatible with their learning goals.
4. Variety- Variety of information gap activities is especially important in order to accommodate variety of learning styles and individuals.

**Methodology.** This research is classroom action research (CAR) in nature and was conducted among foreign language and literature students of a language-oriented university during a month. The current research includes 20 research participants and it uses mixed research methods (qualitative and quantitative) in order to gain and discuss the data. Furthermore, it uses a quasi-experimental method in order to assess their speaking performance objectively.

Since the research aims at investigating the effectiveness of information gap activities in enhancing speaking skills, the quasi-experimental group was given treatment after the results of the pre-test. The results of both the pre-test and the post-test are analyzed after data collection. Their speaking performances are evaluated according to the speaking criterion of International English Language Testing System as it is the most reliable standardized test

**Research instruments.** A set of two tests (pre-test and post-test) is used in order to assess the participants' speaking performance and paired sample T-test is used in order to describe the data collected during the research period.

**Results and discussion.** The major findings were represented according to research questions. Other additional qualitative findings were also documented. The findings in this section were derived from pre-test and post-tests conduction during the research period. Both of the tests were conducted in the form of discussion and problem-solving and their performance were observed covertly in order not to hinder students' performance or not to evoke anxiety in students if they knew that they were being assessed. Their speaking score according to the criterion and the average score of the whole group are represented in the table below.

### Descriptive Statistics.

	Pre-T	Post-t
Valid	20	20
Missing	0	0
Mean	5.025	5.850
Std. Deviation	0.197	0.366
Minimum	4.500	5.000
Maximum	5.500	6.000

The research includes 20 research respondents and the table above illustrates the results of the pre-test and the post-test. The results of the pre-test show that the students' speaking scores averaged around 5.0 according to the speaking assessment criteria by IELTS. The post-test results show that the speaking level reached nearly 6.0 (5.850). It can be concluded that the implementation of information gap activities improved the students' speaking performance.

Independent variable is the use of information gap activities Dependent variable is students' speaking performance level. DV is at the same time continuous variable as its value is obtained by measuring and its numerical value can change between the highest and the lowest scores.

The assumptions for the paired sample t-test.

- 1) Is DV continuous-yes
- 2) Is data normally distributed-yes.


### Test of Normality (Shapiro-Wilk).

	W	p
Pre-T - Post-t	0.578	< .001

*Note.* Significant results suggest a deviation from normality.

As the deviation is seen from normality, data is normally distributed.

**Test of Normality (Shapiro-Wilk).**



The mean in the post-test is higher than that in pre-test and the differences are statistically significant. It means that the positive effect of information gap activities on students’ speaking performances has been outstandingly high.

**Frequencies for Pre-T.**

Pre-T	Frequency	Percent	Valid Percent	Cumulative Percent
4.5	1	5.000	5.000	5.000
5	17	85.000	85.000	90.000
5.5	2	10.000	10.000	100.000
Missing	0	0.000		
Total	20	100.000		

Measures of frequency are used to indicate how often a particular behavior or phenomenon occurs. The pre-test results indicate that scoring 5.0 in speaking performance is frequent among research participants (17/20).

**Frequencies for Post-t.**

Post-t	Frequency	Percent	Valid Percent	Cumulative Percent
5	3	15.000	15.000	15.000
6	17	85.000	85.000	100.000
Missing	0	0.000		
Total	20	100.000		

On the other hand, the frequency rate shows 6.0 in participants speaking performances which mean that the use of information gap activities has contributed to speaking development.

Measure 1	Measure 2	t	df	p
Pre-T	- Post-t	-11.000	19	< .001



P-value serves as an alternative to rejection points to provide the smallest level of significance at which the null hypothesis would be rejected. A smaller p-value means that there is stronger evidence in favor of the alternative hypothesis. The table illustrates that p-value stands at .001 which means that the alternative hypothesis in the research (information gap activities will help to improve speaking skills) is favored.

Measure 1	Measure 2	t	df	p	Cohen's d
Pre-T	- Post-t	-11.000	19	< .001	-2.460

The table above illustrates that Cohens' D stands at 2.460. Cohen's d is an appropriate effect size for the comparison between two means. Since Cohen's d identifies the effect size in the research, 2.460 refers to how well information gap activities facilitated teaching speaking skills. Cohen's d ranges from -0.43 through -2.13. Some minimal guidelines are that

- D=0.20 indicates a small effect
- D=0.50 indicates a medium effect and
- D=0.80 indicates a large effect.

And there we have it. As it is 2.460, the effect size is considered large (0.8). It can be interpreted that the implementation of information gap activities has been largely effective.

**Reliability of the assessment.**

Percentage agreement: Ratio of all coding agreements over the total number of coding decisions.

Total coding decisions: 20

Coding agreements: 16

Inter rater reliability = 16/20=0.8

For simple percentages, anything above 75 percent may be considered "good", although percentages over 90 are ideal. For Cohen's kappa, 0.81 to 100 is considered "excellent". It shows that the rating has been reliable. Conclusion and implications Improving speaking skills has always been a hard task for both teachers and students since it requires language practice in real

Student ID	1 <sup>st</sup> rater	2nd rater	3 <sup>rd</sup> rater
AA002	6.0	6.0	6.0
AA003	6.0	6.0	6.0
AAA004	6.0	6.0	6.0
AA005	5.5	6.0	6.5
AA006	5.5	6.0	6.0
AA006	6.0	6.0	6.0
AA007	5.0	5.0	5.0
AA008	6.0	6.0	6.0
AA009	6.0	6.0	6.0
AA010	6.0	6.0	6.0
AA011	6.0	6.0	6.0
AA012	5.0	5.0	5.0
AA013	6.0	6.0	6.0
AA014	5.5	6.0	5.5
AA015	6.0	6.0	6.0
AA016	6.0	6.0	6.0
AA017	6.0	6.0	6.0
AA018	6.0	6.0	6.0
AA019	5.0	5.0	5.0
AA020	6.5	6.0	6.0

life contexts more frequently than other language skills. The aim of the research was to find whether information gap activities can break traditional language learning and transforming boring classes into more interactive ones and, in turn, helping students to enhance their speaking skills. General findings of the study show that students feel motivated when their classes are organized collaboratively and they feel more freedom to use the language in real life communication. Furthermore, the variety of activities is especially important when learners are involved in communicative tasks. Since these tasks build self-confidence they also help to remove language barriers when using the target language. To sum up, language instructors should make up for enough time for students to practice their speaking skills and develop oral competence. The implementation of information gap activities in EFL or ESL contexts can not only make classes more interactive and collaborative, but also they are a great tool to improve language skills independently of their teachers.

**References:**

1. Biria, R., & Nasri, M. (2018). Operationalising the Concept of Mediation in L2 Teacher Education. *Journal of Language Teaching and Research*, 9(1), 132-140.
2. Burns, A. & Joyce, H. (1997). *Focus on speaking*. Sydney: National Center for English Language Teaching and Research. Retrieved July 27, 2019 from [http://www.cal.org/caela/esl\\_resources/digests/Speak.html](http://www.cal.org/caela/esl_resources/digests/Speak.html)
3. Celce-murcia. (2001). *Teaching Grammar*. 3, 251-66. (D. Larsen-Freemant, Ed.) Boston, MA: Thomson/ Heinle
4. Channey, A. L. (1998). *Teaching Oral Communication in Grades K-8*. Boston: Allyn & Bacon.
5. Davies, P. &. (2000). *Success in English teaching*. Oxford University press.
6. Harmer, J. (2003). *How to teach English*. New York: Longman Inc.
7. Lawtie, F. (2004). *Teaching speaking skills. Overcoming classroom problems*. [www.Teachingenglis.org.uk/think](http://www.Teachingenglis.org.uk/think). Retrieved on March 10. 2014.
8. Raptou, V. (2002). *Using information gap activities in the second language classroom*. <http://www.castl.org>. Retrieved on April 5, 2014.
9. Shumin, K. (1997). *Factors to consider: Developing adult EFL students' speaking abilities*. *English Teaching Forum*. 35 (3), 8. Retrieved from <http://eca.state.gov/forum/vols/vol35/no3/p8.htm>
10. Zhang, Y. (2009). *Reading to speak: Integrating oral communication skills*. *English Teaching Forum*, 47(1), 32-34. Retrieved from <http://exchanges.state.gov/englishteaching/forum/archives/2009/09-47-1.html>

## O‘ZBEK AYOLINING JAMIYATDAGI O‘RNI VA XALQ MAQOLLARIDA IFODALANISHI MASALASI

To‘rayeva Ferangiz

*Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti talabasi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ayollarning jamiyatdagi o‘rni, turli sohalarda ular uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, gender tenglik masalalari, xususan, o‘zbek xalq maqollarida ayol obrazining turli shakllarda va usullarda ifodalanishi xususida so‘z yuritilib, yuritilgan mushohadalar misollar asosida dalillangan.

**Annotation:** The annotation is based on the role of women in different fields of society and includes various opportunities, possibilities, created for their education and equality in gender which have been symbolized in Uzbek literature.

**Аннотация:** в данной статье рассматривается роль женщин в обществе, возможности, созданные для них в различных сферах, вопросы гендерного равенства, в частности, выражение образа женщины в различных формах и приемах в узбекских народных пословицах.

**Kalit so‘zlar:** ayol obrazi, gender tenglik, ayollar ta‘limi, jadidlar, jamiyat.

**Keywords:** female image, gender equality, women's education, jadids, society.

**Ключевые слова:** женский образ, гендерное равенство, женское образование, джадиды, общество.

Bugungi kunda ayollarni jamiyatning turli jabhalarida faol tadbirkor, jonkuyar rahbar, mehnatkash xodim, hokim, deputat sifatida ko‘rishimiz mumkin. Bu esa jamiyatimizda ayollarning ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy va tashkiliy faolligini oshirish, gender tenglikka erishish, ularning huquq hamda manfaatlarini har tomonlama himoya qilishga qaratilgan sa‘y-harakatlar natijasidir.

Ayni paytda davlatimizda xotin-qizlar va erkaklar tengligi, ular bandligini ta‘minlash, turli ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy zo‘ravonliklarni yo‘qotish kabi masalalar davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Buni oliy ta‘lim muassasalariga qabul qilishda xotin-qizlar uchun alohida grant kvotalarining ajratilishi, har bir mahallada “Ayollar temir daftari”ning tashkil qilinishi, ayol tadbirkorlar uchun ajratilayotgan imtiyozli kreditlar misolida ko‘rishimiz mumkin.

Binobarin, jamiyatda ayollar va erkaklar tengligi, ularning teng huquq asosida ta‘lim olishini ta‘minlash, ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy erkinligiga erishish uchun kurash masalalari kechagina paydo bo‘lgan jarayon emas. Buni jadidlar faoliyatida ham ko‘rishimiz mumkin. Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy kabi ziyolilar xotin-qizlarning ta‘lim olishi, ma‘naviyatli, bilimli, erkin va o‘z huquqiga ega bo‘lishi uchun kurashgan.

Xo‘sh, o‘sha paytda ayollar ta‘limi yo‘lga qo‘yilmagan edimi? Ularning haq-huquqlari nimalardan iborat edi? Bu kabi savollarga javob berishdan oldin jadidlar faoliyat olib borgan davrga nazar tashlaymiz. Xalqimiz mustamlakachilik zulmini boshdan kechirayotgan o‘sha davrda xotin-qizlar uchun ham ta‘lim olish imkoni mavjud edi. Qizlar alohida o‘qituvchilar yoki boylar tomonidan tashkil etilgan maktablarda otinoyi, otinbibi, bibiotin singari ayol o‘qituvchilardan tahsil olishgan. Ularga, asosan, uy yumushlari, pokizalik, odob-axloq qoidalaridan ta‘lim berishgan. O‘g‘il bolalarga esa bundan farqli ravishda dunyoviy bo‘lmasa-da kengroq bilim berilgan. Qiz bolalar va o‘g‘il bolalar ta‘lim olish jarayonidagi farqlarning o‘zi ham o‘sha davr jamiyatining ayollarga bo‘lgan munosabatini, gender tengsizlikni yaqqol ko‘rsatib bergan. Islom dinida ham ayollar va erkaklar haq-huquqlari ta‘lim olishda ham, oilaviy munosabatlarda ham, jamiyatda ham ularning tengligi ta‘kidlab o‘tilgan. Bunga misol tariqasida Mirzo Ulug‘bek tomonidan 1417-yilda Buxoroda barpo qilingan madrasa peshtoqiga “Ilm olish har bir musulmon erkak va ayol uchun farzdir”, – deb yozilgan hadis misol bo‘la oladi [1].

Ma'lumki, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy kabi jadidlarimiz asarlarida ayol timsoli o'ziga xos tarzda va ayni paytda o'sha davrning barcha muammolarini, og'riqli nuqtalarini ko'rsatib berish uchun vosita bo'lib xizmat qildi.

O'sha davrda ayollarning, hattoki, ko'chaga chiqishi ham taqiqlangan, xalqning ma'naviyati o'lib bo'lgan, hokimiyatimiz esa Chor Rossiyasiga mustamlaka bo'lgan XIX-XX asrlar edi. Cho'lpon o'zining "Kecha va kunduz" asarida o'sha davr xotin-qizlarining nihoyatda achinarli ahvolini real tasvirlab bergan. Adib birgina Razzoq so'fining quyidagi gaplari bilan butun jamiyatning ayollarga bo'lgan munosabatini yaqqol tasvirlab bera olgan: "U odam o'z tenglaridan hech birining hech qachon hech bir gapini tinglagan emasdi. Ayollardan maslahat, ayniqsa, o'z xotinidan bir taklif eshitmoq uchun Razzoq so'fining qayta boshdan bunyodga kelishi kerak bo'lardi", "Umuman, so'fining bu bobda o'ziga ko'ra asosli bir maslagi bor: u o'zi maqtanib aytganiday, xotin-xalaj oldida og'iz ochib til qaldiratishni ravo ko'rmaydi. "Bu til, – deydi so'fi, – doim Xudoning zikri bilan qaldiraydi. Bu og'iz hamma vaqt Xudoning zikriga ochiladi. Og'iz bilan til- bandaning jismida eng aziz va tabarruk a'zolar. Ularni xotin kishiday past maxluq oldida xor qilinadimi? Bo'lmasa, haq taoloning bandalari it bilan ham gaplasha bersin! Yo'q, xotin kishiga juda zarur gap aytiladi, u toifa bilan zarurat yuzasidangina gaplashiladi. Vassalom!

Ammo hamma davrda ham xotin-qizlarga bo'lgan munosabat salbiy bo'lmagan. Xususan, Amir Temur rafiqasi Saroymulkxonimni juda hurmat qilgan. U davlat ishlarida ham tadbirli ayol bo'lgan. Tarixchi olimlar fikriga qaraganda, hatto Amir Temur jang safarlarida bo'lgan paytda saltanat Saroymulkxonim tomonidan idora qilingan. U hukmdorga biror masala yuzasidan yozma murojaat qila olgan. Holbuki, bunday huquq faqatgina chet el hukmdorlariga berilgan. Ibn Arabshohning ma'lumotlariga ko'ra, Amir Temur qo'shini tarkibida ayollardan iborat jangchilar tuzilmasi ham bo'lgan. Bu esa uning davlatni boshqarishda ayollar va erkaklar tengligi prinsipiga amal qilganligidan dalolat beradi.

Mustaqillik jamiyatning barcha a'zolari singari xotin-qizlar hayotiga ham keng imkoniyatlar, huquq va erkinliklar bilan kirib keldi. Bugungi kungacha xotin-qizlar hayotiga oid yuzdan ortiq qonun, qaror, farmoyishlar qabul qilindi. Ayollarni jamiyatimizning turli sohalarida ko'rishimiz mumkin. Ayni paytda Oliy Majlis Senatida 17 nafar senator, Qonunchilik palatasida 21 nafar ayol deputat faoliyat olib bormoqda. Mahalliy kengashlarning 23 foizdan ortig'ini xotin-qizlar tashkil etadi. Mingdan ortiq ayollar esa mahalla fuqarolar yig'inida o'z faoliyatini olib bormoqda [2]. Shunday ijtimoiy-siyosiy sohada faol bo'lgan ayollar sirasiga Tanzilla Norboyeva, Svetlana Ortiqova, Dilorom Toshmuhammedova, Abira Huseynova,

asosidagi zo'ravonlikka qarshi 16 kunlik faol Maqsuda Vorisova kabilarni kiritishimiz mumkin. Tanzilla Norboyeva O'zbekiston Oliy Majlisi Senati raisi (2019-yildan), O'zbekiston velosport federatsiyasi prezidenti (2011-yildan), O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi raisi (2016-2019), Senat a'zosi (2019-yildan) sifatida faoliyat olib borgan. U o'z faoliyatida ko'proq xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, gender tenglikka erishish kabi dolzarb muammolar va ularning yechimiga doir bir qator ishlarni amalga oshirdi. "Gender harakatlar" har yili o'tkaziladigan xalqaro kampaniyadir. Ushbu kampaniya har yili "25-noyabr – Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikka barham berish" xalqaro kunidan boshlanib, "10-dekabr – Inson huquqlari kuni"ga qadar davom etadi. Ushbu kampaniyaning 2021-yilgi forumida so'zga chiqqan T.Norboyeva: "Gender zo'ravonlik geografik, ijtimoiy va iqtisodiy chegara bilmasligini ko'rib turibmiz. Rivojlanayotgan, rivojlangan mamlakatlarda ham bu muammoga barham berish jiddiy choralar ko'rishni talab qiladi. Mamlakatimizda ayollarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish, zo'ravonlik qurbonlarini reabilitatsiya qilish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirildi: 8 normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi. Shundan 2 tasi qonunlardir", – deya alohida ta'kidlagan edi [3].

Ko'rinib turibdiki, ayollar siyosiy maydonda ham juda faol. Yana shunday ijtimoiy-siyosiy faol ayol sifatida Maqsuda Vorisovani ayta olamiz. Ma'lumki, 2021-yil 24-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi prezidentligiga muqobilik asosida saylov bo'lib o'tdi. Ushbu saylovda prezidentlik uchun nomzod sifatida taqdim etilgan 6 ta siyosiy partiya ichida Maqsuda Varisovanning ham nomzodi bor edi.

E'tiborli tomoni shundaki, davlatchiligimiz tarixida prezidentlik saylovi uchun ilk marotaba ayol nomzod tavsiya etildi. 24-oktabr kuni bo'lib o'tgan saylovda XDPdan nomzod sifatida ko'rsatilgan Maqsuda Azizovna 6,6 foiz ovoz bilan ikkinchi o'rinni egalladi. Va bu ko'rsatkich shu paytgacha bo'lgan prezidentlik saylovlarida ikkinchi o'rinni qayd etgan ovozlarning eng yuqorisi edi [4]. Biz bu natijalarni xotin-qizlar sohasida o'tkazilayotgan islohotlar samarasi deyishimiz mumkin. Bugungi kunda ayollar jamiyatning turli sohasiga kirib kelmoqda. Shunday bo'lsa-da bu ko'rsatkich erkaklarga nisbatan juda past. Hukumat rahbarligida faoliyat olib borayotgan xodimlarning ko'p qismini erkaklar tashkil etadi. Ayol xodimlar esa ta'lim, sog'liqni saqlash kabi sohalarda yuqori o'rinni egallaydi.

Demak, bir so'z bilan ayollarni jamiyatning ajralmas qismi deb ayta olamiz. Qaysi bir sohani olmag, uni xotin-qizlar ishtirokisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Xalq og'zaki ijodi, xususan, maqollarning katta qismi ham bevosita ular bilan bog'liq. Biz maqollarni tahlil qilish natijasida 615 ta ayol obraziga aloqador maqollarni aniqladik va unga bildirilayotgan munosabatga ko'ra 3 turga: ijobiy, salbiy va neytral munosabatdagi maqollarga bo'ldik. Ayol timsoli ushbu maqollarda *ayol, xotin, qiz, kelin, qaynona, kundosh, qaynisingil, yanga, xola* singari obrazlar misolida ifodalangan. Ijobiy ma'nodagi maqollar soni 206 tani tashkil etib, *xotin, qiz, ona, kelin* kabi obrazlarga nisbatan ijobiy ma'no ifodalagan maqollar soni ko'proq. Bundan tashqari, qaynona obraziga nisbatan ijobiy munosabat ifodalagan maqollar ham anchagina. "Qaynonaniki – o'rtada, Kelinniki – xaltada", "Qaynota ham ota, Qaynona ham ona", "Uzoqdagi onadan yaqindagi qaynona yaxshi", "Qaynonalik kelin – qarqara kelin, Qaynonasiz kelin – masxara kelin" kabi maqollar misol bo'la oladi.

Salbiy ma'nodagi maqollarning umumiy soni 262 tani tashkil etdi. Bunday maqollarning katta qismi qiz, xotin, kelin, kundoshga qaratilgan. Ularda ko'pgina o'zbek oilalarida kuzatiladigan, er-xotin, qayn egachi, qayn singil va yanga, qaynona-kelin o'rtasidagi ziddiyatli munosabatlar o'z ifodasini topgan.

Masalan, "Kuzgi oftobga qizingni qo'y, Yozgi oftobga kelingni" maqoli salbiy obrazdagi qaynona tomonidan aytilgan. Bilamizki, kuzning oftobi iliq bo'lib, terini kuydirmaydi, inson husnini buzmaydi. Yozning oftobi esa jazirama bo'lib, terini kuydirib, qoraytirib yomon ahvolga solib qo'yadi. Shundan kelib chiqib ushbu maqol kelinini o'z farzandiday ko'rmaydigan yomon qaynonalar tilidan aytilgan. Neytral ma'nodagi maqollarda ishtirok etgan ayol obraziga nisbatan ijobiy ma'no ham, salbiy ma'no ham ifodalanmagan. Misol uchun "Xotinning yaxshi-yomoni mehmon kelganda bilinar" maqolida *xotin* obrazi yaxshi ham deyilmayapti, yomon ham deyilmayapti, ya'ni uning qandayligi, yaxshi-yomonligi mehmon kelganida bilinadi.

Maqollarni o'rganish natijasida e'tiborimizni tortgan yana bir narsa shu bo'ldiki, ayrim maqollarda ayol obrazi shaklan ifodalanmagan, bo'lsa-da, ma'nosi sezilib turadi. "Men kuyarman bolamga, Bolam kuyar bolasiga", "Erim urmaydi dema, Bolam siymaydi dema" maqollari ona tomonidan aytilgan bo'lsa ham, shaklan ifodalanmagan. "Erning yoshi ikki o'ttiz, Bittasini biz urdik", "Ko'rpa to'n bo'lmas, O'ynash er bo'lmas" xotin obraziga nisbatan, "Arava buzilsa, o'tin, Joningni fido qilsang, qil, Nomusingni fido qilma" umumiy xotin-qizlarga nisbatan aytilgan shu kabi maqollarda ham ayol obrazi shaklan ifodalanmaganligini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, ayol(qaynona, ona, kelin, xotin) tilidan aytilgan maqollar 22 tani, ayol(qiz, qaynona, kelin, ona, ayol, xotin)ga nisbatan aytilgan maqollar esa 21 tani tashkil etadi.

Ko'rinib turibdiki, ayol obrazi birgina maqollarda turli shaklda, turli ma'nolarni ifodalab kelgan holda aks etgan. Demak, biz ayollarni jamiyatning ajralmas qismi deb ayta olamiz. Qaysiki jamiyat ayolga ehtirom ko'rsatsa, uni e'zozlasa o'sha jamiyat o'z-o'zidan taraqqiy topa boshlaydi. Zero, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, "Onani, ayolni rozi qilsak, xalq bizdan rozi bo'ladi".

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Muhammadjonov A.R. O'zbekiston tarixi (7–sinf o'quvchilari uchun darslik) 2017. – B.146.
2. <https://www.uzbekistanmet.uz>.
3. <https://sputniknews-uz.com>.
4. <https://saylov2021.uz>.



## BIOLOGIYA FANINING YUTUQLARI, ZAMONAVIY TA'LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI

*To'rayeva Nigora Baxtiyor qizi*  
*Surxandaryo viloyati Termiz shahar*  
*13-maktab biologiya fani o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada biologiya fanining yutuqlari hamda zamonaviy ta'limning dolzarb muammolari alohida masala sifatida ko'rib chiqilgan. Shuningdek, maqolada biologiya fanini o'qitishda ahamiyat berilishi lozim bo'lgan masalalar haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Biologiya, ta'lim, muammo, rivojlanish, bilim, ko'nikma, faoliyat, mikrobiologiya, kamchilik.

### ДОСТИЖЕНИЯ БИОЛОГИЧЕСКОЙ НАУКИ, ЗАДАЧИ СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

**Аннотация.** В данной статье отдельно рассматриваются достижения биологии и актуальные проблемы современного образования. В статье также рассматриваются вопросы, которые следует учитывать при преподавании биологии.

**Ключевые слова.** Биология, образование, проблема, развитие, знание, умение, деятельность, микробиология, дефицит.

### ACHIEVEMENTS IN BIOLOGICAL SCIENCE, CHALLENGES OF MODERN EDUCATION

**Annotation.** This article discusses the achievements of biology and the current problems of modern education as a separate issue. The article also discusses issues that should be considered in the teaching of biology.

**Keywords.** Biology, education, problem, development, knowledge, skill, activity, microbiology, deficiency.

**Kirish.** Mustaqil Respublikamizda "Ta'lim to'g'risida", "Respublikada milliy kadrlar tayyorlash" to'g'risidagi qonunlarga asosan, endilikda yoshlarga ta'lim berishning yangi, samarali yo'llari, vositalaridan, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishga o'tish vazifalari ko'rsatilgan. Bu ulkan vazifalarni bajarishda umumta'lim, maxsus o'rta va oliy maktablar jamoalari oldida ta'lim berishning yangi, samarali yo'llari, vositalarini ishlab chiqish, uni amaliyotga kiritishdek dolzarb vazifalar turibdi. Undan tashqari, yoshlarimizga faqat fan asoslaridan bilimlar berish bilan cheklanmasdan ularni har tomonlama yetuk, ma'naviy barkamol qilib tarbiyalash zarur. XXI asr biologiya ta'limi oldida ham juda katta ulkan vazifalar mavjud. Ma'lumki, har bir davr ta'lim oldiga ayni davlatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy jihatlar bo'yicha yangi dolzarb vazifalarni qo'yadi. Bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib, xo'jalik yuritishning yangi-yangi samarali yo'llari, vositalarini ishlab chiqish, ulardan amaliyotda foydalanish zaruriyati kuchaymoqda. Bunday sharoitda inson omili hal etuvchi kuch sifatida maydonga chiqmoqda.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** Tadqiqotni yoritishda quyidagi adabiyotlar muhim manba bo'lib hizmat qildi. A.A.Gorelovning "Konsepsii sovremennogo yestestvoznaniya" va B.D. Komissarovlarning "Metodologicheskie problemi shkolnogo biologicheskogo obrazovaniya." Asarlarida tadqiqot mavzusi yuzasidan muhim ma'lumotlarni uchratish mumkin. Shuningdek, B.L.Farbermanning "Progressivnie pedagogicheskie texnologii" N.S.Sayidaxmedovning "Yangi pedagogik texnologiyalar", A.Hayitov, N.Boymurodovlarning "Ta'limda noan'anaviy darslar va interfaol usullardan foydalanish", N.N. Azizxo'jaevaning "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat", O.M.Mavlonov, S.Najimovaning "Zoologiyaning o'qitish metodlari va texnologiyalari, J.O.Tolipovanning "Biologiya ta'limi texnologiyalari" kabi asarlari ham tadqiqotni yoritishda asos bo'lib hizmat qildi.

**Tahlil va natijalar.** Insoniyat tarixida XX asr biologiya fanining nihoyatda rivojlanganligi bilan xarakterlanadi.

Agar XX asrning birinchi yarmida fizikadan olamshumul yutuqlar qo‘lga kiritilgan bo‘lsa, bu asrning ikkinchi yarmida biologiya sohasida qo‘lga kiritilgan yangiliklar kishilarning tabiatga bo‘lgan qarashlari, munosabatlarini keskin o‘zgartirib yubordi.

Xo‘sh, XX asr biologiyasida eng muhim kashfiyotlar nimalardan iborat bo‘ldi?

Ushbu savolga biologiya taraqqiyotidagi 4 xil yo‘nalishda bo‘lgan ishlarni misol tariqasida keltirish mumkin.[1,28] Ushbu yo‘nalishning ikkitasi fundamental, ikkitasi amaliy xarakterga ega bo‘lgan ishlardir. Fundamental xarakterga ega bo‘lgan ishlar asosan biofizika va bioximiya sohasida bajarildi.

Mendel qonunlarini kashf etilishi, uni zamonaviy ilmiy tekshirish ishlari bilan boyitish borasida ishlar amalga oshirildi. G.Friz, G.Korrens va G.Chermaklar tomonidan yaratilgan “Irsiyatning xromosoma nazariyasi” asrimizning o‘rtalariga kelib irsiy belgilarning namoyon bo‘lishida DNK ning tuzilishi haqida (Dj.Uotson va F.Kriklar) ta’limotini paydo bo‘lishiga olib keldi. Keyinchalik mazkur sohada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, fizika va kimyo fanlari yutuqlaridan foydalanish natijasida nuklein kislotaning tuzilishi, genetik kod aniqlanishi, oqsillarning biologik sintezining borishi mexanizmlarining ochilishiga sabab bo‘ldi. Turli darajada bo‘lgan oqsillar strukturalarini aniqlash imkoniyati tug‘ildi.

Bioenergetika biologiya fanidan o‘ziga xos yangi yo‘nalishlaridan biriga aylanadi. Tirik organizmlar hayotida mitoxondriyalarning ahamiyati (A.Lenindjer) aniqlandi.

Yadro fizikasidagi tadqiqotlardan biologiyada foydalanish radiatsion biologiya fanining paydo bo‘lishiga olib keldi. Sun‘iy mutagenез hosil qilish (G.S.Nadson, G.Fillionov) bo‘yicha ishlar boshlandi.[2,53]

Genetika va evolyutsion nazariyaning qo‘shilishi natijasida sintetik evolyutsiya nazariyasi yaratildi. Endilikda organizmlarning bioximik tuzilishlari, molekulyar genetik omillarga asoslanib tirik jonzoatlarning tarixiy rivojlanishini qayta o‘rganib chiqish ishlari qilinmoqda.

XIX asrning oxirida D.I.Ivanovskiy va N.Beyerlar infeksiyon kasalliklarini qo‘zg‘atuvchilari bo‘lmish viruslarini kashf etgan edilar. Hozirga kelib virusologiya eng rivojlangan fanlardan biriga aylandi.[3,25]

Zoologiya sohasida qilingan ishlarning ko‘lami ham ancha kengdir. Hozir zoologlar faqat hayvonlarning tuzilishi, hayotiy jarayonlari, tarqalish xususiyatlari, yashash muhitlari bilan aloqalari, foydali va zararli hayvonlarni o‘rganish ularni sistemaga solish, yangi turlarni aniqlash kabi ishlar bilan bir qatorda bu jonivorlarning bir-birlari bilan aloqalarini o‘rganish ishlari kuchaydi.

Hozirgi zamondagi eng muhim vazifalardan biri- biologik xilma-xillikni saqlash masalasidir. Ma’lumki, insonlarning tabiatga ta’sirining kuchayib borishi o‘z novbatida turli organizmlarni yashash sharoitlarini buzilishiga, ularning yashash joylarini ekologik xolatlarini yomonlashauviga ta’sir etmoqda. Bu o‘z novbatida tirik organizmlarning sonini kamayib ketishi, ba’zi turlarni umuman yo‘q bo‘lib ketishiga, “Qizil kitob” saxifalarini yana ko‘payishiga olib kelmoqda. Axvol shu darajada ketaversa tabiatdagi soni oz qolgan ayrim o‘simlik va hayvonlarni yo‘q bo‘lib ketish xavfini tug‘diradi. Shu boisdan endilikdagi dolzarb masalalardan yana bir-soni kamayib borayotgan o‘simlik va hayvonlarni saqlab qolishdek murakkab vazifani bajarishlikni taqazo etadi.

Bu vazifani bajarishni muhim shartlaridan biri- kishilarni biologik va ekologik savodxonliklarini oshirish orqali bajariladi.

Hozirga kelib biologiya fanlari va uni o‘qitish bo‘yicha birqancha muammolar bor. Biologiya fani oldida aholini mo‘l-ko‘l oziq ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash, xalq salomtligini saqlash, ekologiya muammolari shular jumlasidandir

Atrof muhitini ifloslanishi, urbanizatsiya, shovqin suronlar insonlar salomatligiga tobora ko‘proq ta’sir etmoqda. Xususan, qon-tomir tizimi, asab kasalliklari ko‘paymoqda. Undan tashqari turli dori-darmonlarning virus, mikroblarga qarshi turish xususiyatlari ortib bormoqda.

Yuqoridagilarni xisobga olgan holda insonlarni salomatliklarini muhofaza qilishda biologshlar oldida katta vazifalar turibdi.

Ma'lumki, insonlar avvalo nimalarni bilishi, qo'ldan qanday ishlar kelishi bilan tavsiflanadi. Binobarin, ilmi, ma'lum ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan, ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalash zamonamizning dolzarb vazifalaridan biriga aylanmoqda. Biroq, ta'lim da uzoq yillardan buyon qo'llanilayotgan an'anaviy ish uslublari o'quvchilarni dars materialini faqat yodlash, takrorlab berishga qaratilgan bo'lib, bu usul yoshlarni ijodiy bilim olishga, ma'lum yo'nalishlarda malaka va ko'nikmalar hosil qilishlariga yetarli imkon bermas edi.

Biologiya ta'limidagi bu muammolarni hal etish uchun amaldagi ish uslublarni qayta ko'rib chiqish, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ta'lim- tarbiya ishlarini zamon talablariga keltirish, ta'lim muassasalari uchun yuqori salohiyatga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlar tayyorlash, ta'limning material bazalarini yanada boyitish kabi ishlarni amalga oshirishlik zarur.

Keyingi yillarda ta'limdagi texnologiya masalalariga qiziqish tobora kuchaymoqda. Har qanday pedagogik texnologiyaning asosi uning maqsadlarni aniqlashdan boshlanishi kerak.

Texnologiya yunoncha «Texnos»-hunar, «logos»-fan so'zlaridan tashkil topgan.[4,14]

Texnologik jarayon- mehnat qurollari bilan mehnat vositalari (xom ashyo) yordamida mahsulot yaratishdir. Ishlab chiqarishdagi barcha faoliyat ishchi qo'li, mehnat vositalari va xom ashyo bilan turli tovarlar, mahsulotlar ishlab chiqishga qaratilgan jarayonlardir.

Darhaqiqat, ta'limda ham o'ziga xos texnologiyalar bo'lib, bu texnologiyalar orqali o'qituvchi o'quvchiga ta'sir etib, ularda ma'lum malaka va insoniy sifatlarni shakllantiriladi. An'anaviy texnologiyalar takomillashtirilib, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishga o'tilmoqda. Yangi pedagogik texnologiyalarning bir qancha tashkiliy shakllari paydo bo'lmoqda. Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish shaxsiy o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish qonunlarini o'zida aks ettiradigan va yakuniy natijani ta'minlaydigan pedagogik faoliyatdir.

Texnologiya tartibga solish kuchiga ega. U erkin ijod qilishga undaydi. Pedagogik texnologiya murakkab jarayon sifatida qator o'qitish bosqichlaridan, ayni bosqichlarni o'rganishga qaratilgan amallardan iborat bo'ladi. Pedagogik texnologiya tarkibiga:

- ta'lim maqsadlarini ishlab chiqish;
- ta'lim maqsadlari taksonomiyasini ishlash;
- ta'lim maqsadlarini sinov (test) topshiriqlariga aylantirish;
- maqsadga erishish yo'llarini aniqlash;
- maqsadga nechog'lik erishilganligini baholash kabilar kiradi.[5,33]

Ta'lim maqsadlarini to'g'ri aniqlash diagnostik tamoyil bo'yicha tashkil etilishi lozim. Ta'limning diagnostik maqsadlarini aniqlash ma'lum mezonlardan foydalanish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu mezonlar dars natijalaridan kelib chiqadigan bir qator tushunchalar guruhlaridan tuzilib, bularga: biladi-qandaydir fakt, hodisani, biladi-qoidani; ma'noni o'zgartiradi-suvni grafik shaklda ifoda qila oladi; tushuntira oladi-jadvalni, tajribani, voqeani; xulosa qiladi-faktlardan; foydalanadi-tushunchalardan, qoidalardan; namoyish etadi-ishning borishini; ajratadi-noaniq iboralarni; topadi-fikrlashdagi, ba'zi kamchiliklar kabi harakat fe'llari kiradi. Fan asoslaridan o'quvchilarga ta'lim berishda qo'llanilayotgan texnologiyalar bir tomondan o'quvchilarga ta'lim berish, ularda turli shaxsiy sifatlar hosil qilish kabi ilmi, bilim, zamon talablari asosida tarbiyalangan yoshlar tayyorlashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, bu texnologiyalar turli fanlarni o'qitish uslubiyoti fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shadi. Nazariy biologiya yutuqlari tibbiyotda keng qo'llaniladi. Bu biologiya fanining hozirgi darajasini belgilaydigan yutuqlar va kashfiyotlar. Shunday qilib, ushbu genetika irsiy kasalliklarni erta tashxislash, davolash va oldini olish usullarini ishlab chiqishga imkon berdi. Mikroorganizmlarni tanlash bir qator kasalliklarni davolash uchun zarur bo'lgan fermentlar, vitaminlar, gormonlarni olish imkonini beradi. Genetik muhandislikning rivojlanishi biologik faol va dorivor moddalarni ishlab chiqarish uchun keng istiqbollarni ochib beradi. Masalan, genetik muhandislik usullari yordamida insulin gormon geni olindi va keyin ichak tayoqchasiga o'rnatildi. Bunday ichak tayog'idagi shtamm, diabetli diabetni davolash uchun ishlatiladigan insulinni sintez qilishga qodir. Xuddi shunday, somatotropin (o'sish gormoni) va boshqa gormonlar, interfon, qimmatli preparatlar va vaktsinalar ham olinadi.

Sanoat, mexanik muhandislik, tirik mavjudotlarni tashkil etishning (bionikalar) tashkil etishning kemasozlik tamoyillari kelajakda muhim iqtisodiy samara beradi.

Fan va texnologiyalar taraqqiyoti, yangi texnologiyalarni yaratish va ulardan foydalanish biosfera (ba'zan tuzatib bo'lmaydigan) zarar etkazishi mumkin. Sanoat mahsulotlari tomonidan atrof-muhitning ifloslanishi omon qolish masalasini oshiradi va ko'pincha hayvonlar va o'simliklarning ko'plab turlari yo'q bo'lib ketishi. Ekologik ofatning ishtiroki sayyoradagi barcha jonzotlarga xavf guruhiga etkazadi. Tirik organizmlarni saqlash vazifalari, tabiiy yashash joyida aholisini tiklash butun dunyo biologlarini hal qiladi.[6,42]

Insoniyat yovvoyi hayotsiz mavjud emas. Bu yerdan uni "ish sharoitida" saqlash juda muhimdir. Afsuski, buni qilish juda oson emas. Sayyoramizning butun yuzasini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi, sanoat, o'rmonlar, materik va okeanlarning ifloslanishi, qo'ziqorin turlari, qo'ziqorinlar, hayvonlar er yuzidan g'oyib bo'ladi. Yo'qolgan ko'rinishi mumkin emas. Bu millionlab yillar davomida evolyutsiyaning mahsulidir va noyob genofondga ega. Mamlakatimizda, umurtqali hayvonlarning bir turi o'rtacha 3, 5 yilga g'oyib bo'ladi.[7,74] Ushbu tendentsiyani qanday o'zgartirish va "hayot miqdori" ning doimiy o'sishining doimiy o'sib borishi va evolyutsion oqlangan yo'lga qaytish kerak? Ushbu muammo butun insoniyatga tegishli, ammo uni na biologlarsiz hal qilib bo'lmaydi.

Zamonaviy voqelikda biologiyaning o'rni og'ir, chunki u o'zining barcha fenomenasida odamning hayotini diqqat bilan o'rganmoqda. Hozirgi vaqtda bu fan evolyutsiya, hujayralar nazariyasi, genetika, genetika va energiya kabi printsiplial tushunchalarni birgalikda ulaydi. O'z funksiyalarida, butun hayotning rivojlanishini rivojlantirish, xususan, organizmlar tarkibi, ularning xatti-harakati, shuningdek atrof-muhit bilan bog'liq.

Biror kishining hayotidagi biologiyaning qiymati, agar u shaxsning hayotiy faoliyatini, masalan, sog'liqni saqlash, oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy universitetlari o'rtasida parallel bo'lsa, aniq bo'ladi. Bugungi kunda biologiyadan ajralib turadigan va mustaqil bo'lish, zarur va mustaqil bo'lgan fanlar mavjud. Bunday masalan, zoologiya, botanika, mikrobiologiya, virologiya bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Eng muhimi, eng muhimi, ularning barchasi tsivilizatsiya tomonidan beriladigan eng muhim asosiy bilimlar majmuasini anglatadi.

Ushbu sohada bilimlar Klavdiy Galen, Gippokrat, Karl Linny, Charlz Daryin, Aleksandr Oparin, Ilya Mesnikov va boshqalar kabi taniqli olimlar tomonidan tadqiq etilgan.[7,9] Ularning kashfiyotlari tufayli, ayniqsa tirik organizmlarni o'rganish, morfologiya fanlari, shuningdek, tirik mavjudotlar tizimlari haqida bilimlar olib borilgan fiziologiya paydo bo'ldi. Genetika irsiy kasalliklarni rivojlantirishda bebaho rol o'ynadi.

Biologiya tibbiyot, sotsiologiya va ekologiyada kuchli poydevor bo'lib qoldi. Bu ilm, bu ilm, bu kabi fan, yangi bio nazariyalar va qonunlar shaklida o'zgargan yangi bilimlar bilan to'ldirilgan holda yangi bilimlar bilan to'ldirilgan.[8,27]

Zamonaviy jamiyatda biologiya va ayniqsa tibbiyotda biologiyaning o'rni, hech qanday narxga ega emas. Xususan, u bakteriologik va virusli kasalliklarni tezda targ'ib qilish usullari bilan topildi. Zamonaviy jamiyatda biologiya roli haqida o'ylaganimizda, ayniqsa, shifokor biologlari qahramonligi tufayli, sayyora, vabo, qorin bo'shlig'i yostiqlari, Sibirsk yaralari, chechagi va boshqa odamlarning hayoti kasalligi uchun ko'proq xavfli.

Siz ta'kidlashdan qo'rqib, zamonaviy jamiyatda biologiya roli beqiyos o'sib borayotganiga e'tibor qaratasiz. Zamonaviy hayotni selektsiya qilmasdan taqdim etish ilmiy-tadqiqot ishlari Yangi oziq-ovqat mahsulotlarini, shuningdek ekologik toza energiya manbalarini ishlab chiqarish.

**Xulosa.** Biologiyaning asosiy qiymati shundaki, bu ko'plab istiqbolli fanlar uchun asos va nazariy asosdir, masalan, genetika va bionika kabi. Bu ajoyib ochilishga tegishli - insoniyat genomini shifriflash. Biotexnologiya kabi bunday yo'nalishi biologiyada birlashma asosida ham yaratilgan. Hozirgi vaqtda, ayniqsa texnologiyalar sizning tanaga zarar etkazmaydigan profilaktika va davolanish uchun xavfli dori-darmonlarni yaratishga imkon beradi. Natijada nafaqat hayotning davomiyligini va uning sifatini rivojlantirish mumkin.

Zamonaviy jamiyatda biologiyaning asosiy roli shundaki, uning bilimlari shunchaki zarur bo'lgan soha, masalan, giyohvandlik, gerontika, krimologiya, qishloq xo'jaligi, qurilish va kosmosni rivojlantirish zarur.

Yerdagi beqaror ekologik vaziyat ishlab chiqarish faoliyatini qayta ko'rib chiqishni va inson hayotidagi biologiya eng yangi bosqichga ko'tarilishni talab qiladi. Har yili biz eng qashshoq mamlakatlarni ham hayratda qoldirgan va yuqori rivojlangan katta kattaxo'rga guvoh bo'lmoqdamiz. Axir, deyarli barchasida, zamonaviy jamiyatdagi mavjud iqtisodiy va ijtimoiy ziddiyatlar, shuningdek, energiya manbalarining asossiz joriy etilishi tufayli kelib chiqadi.

Tradus, bizga to'g'ri keladi, tsivilizatsiyaning eng yaqinligi faqat uyg'unlik mavjud bo'lganda bo'lishi mumkinligini anglatadi atrof-muhit. Faqat bio naqshlariga rioya qilish, shuningdek, ekologik fikrlash asosida progressiv biotexnologiyalarning keng joriy etilishi biz sayyoramiz aholisidan istisnosiz har kimga tabiiy ravishda xavfli bo'lmagan nomuvofiq yashashni ta'minlashga imkon beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Gorelov A.A. Konsepsii sovremennogo yestestvoznaniya, Moskva, 1999
2. Komissarov B.D. Metodologicheskie problemi shkolnogo biologicheskogo obrazovaniya. Moskva, 1991
3. Farberman B.L. Progressivnie pedagogicheskie texnologii T., 1999
4. Sayidaxmdov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2003
5. Hayitov A., Boymurodov N. Ta'limda noan'anaviy darslar va interfaol usullardan foydalanish.
6. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat – T:., 2006.
7. Mavlonov O.M., Najimova S. Nishonboeva M. Zoologiyaning o'qitish metodlari va texnologiyalari. Toshkent., 2005
8. Tolipova J.O., G'ofurov A.T. Biologiya ta'limi texnologiyalari Toshkent., 2005
9. G'ofurov A.T., Tolipova J. Biologiya o'qitishning umumiy metodikasi Toshkent., 2005
10. Saydaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2003
11. Farberman B.L. Progressivnie pedagogicheskie texnologii Tashkent, 1999.



## ЕР ОСТИ СУВЛАРИНИНГ ХЎЖАЛИҚДАГИ АҲАМИЯТИ: БУЛОҚЛАР ВА УЛАРНИНГ ТУРЛАРИ

*Суюнов Собиржон Эшбой ўғли*

*Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети  
Геология ва геоинформацион тизимлар факультети ўқитувчиси.*

*Тўхтаев Улуғбек Хусниддин ўғли*

*Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети  
Геология ва геоинформацион тизимлар факультети талабаси.*

**Аннотация:** Мақола ер ости сувларининг ҳозирги кунда хўжаликдаги аҳамияти ҳамда булоқлар ва уларнинг турлари бўйича ёритилган.

**Калит сўзлар:** Ер ости сув конлар, кузатув буғри кудуғи, ичимлик суви, ер ости сувлари сатҳи, булоқлар.

Ҳозирги кунда ичимлик сувларига бўлган талаб бутун дунёда глобал муаммо бўлиб қолмоқда. Шунинг учун ер ости сувларига бўлган талаб кун сайин ортиб бормоқда. Ичимликка яроқли ерости сувларини қидириб топиш, пайдо бўлиш омилларини, тарқалишини, таркибини ўрганиш ҳозирги замон талаби бўлиб қолмоқда. Республикамиз ҳудудида ҳам ер ости сувларига бўлган талаб ортиб борапти. Бунинг оқибатида охириги ўн йилликда лалмикор ерларда дала екинларини суғориш мақсадида бурғулаш ишлари жадал олиб борилди. Ер ости сув конлари захираси, ҳамда ерости сувларининг сатҳи сезиларли даражада пастлади. Қадимги даврларда сувларнинг ер юзига оқиб чиқишини илоҳий кучларнинг ҳосиласи, худонинг марҳамати деб қабул қилинган. Шунинг учун ҳам ер юзасига оқиб чиққан булоқлар илоҳий ва муқаддас ҳисобланиб, уни авайлаб асрашган. Сувни ифлос қилмаслик масаласи энг асосий масала бўлиб ҳисобланган.

М.Ш.Шерматовнинг “Гидрогеология ва муҳандислик геологияси асослари” дарслигида дунёдаги йирик булоқлар АҚШ, Жанубий Африка Республикаси, Ливия, Бирлашган Араб Амирликлари, Исроил, Греция, Италия, Чехия, Словакия, Венгрия, Туркия, Ҳиндистон, Австралия давлатлари ҳудудида мавжудлиги келтириб ўтилган.

Булоқлар ер ости сувлари оқимини ер юзасига, ёки дарё, денгиз, кўл сувларининг остки қисмидан табиий ҳолатда оқиб чиқиши натижасида пайдо бўлади.

Булоқлар ўзларининг оқиб чиқиш манбаларига қараб юқоридан пастга оқувчи ва пастдан юқорига отилиб чиқувчи гуруҳларга бўлинади.

Пастдан юқорига отилиб чиқувчи булоқлар музлаган қатлам ости сувларининг ер юзасига маълум босим остида отилиб чиқиши натижасида ҳосил бўлади.

Бундай булоқларга оқиб келаётган ер ости сувлари йил мобайнида музлаши ва яна сув оқимига айланиши мумкин. Шунинг учун улар вақт-вақти билан қуриб қолувчи, фасллараро ўзгарувчан, ўз оқиб чиқиш жойини ўзгартириб турувчи, доимий сарфли йил мобайнида оқиб турувчи ва доимий сарфга ега бўлмаган булоқлар турларига бўлинади. (Гидрогеология ва муҳандислик геологияси асослари) [1].

Шунингдек булоқларнинг ойлик, йиллик сув сарфининг литр миқдори атмосфера ёғинининг ойлик, йиллик миқдори билан боғлиқ ҳолда ўзгариб туради. Булоқларнинг сув сарфи сувли тоғ жинс қатламларининг ётиш ҳолатига, тўйиниш майдонининг ўлчамига қараб асосан секундига 0,1 дан 1,5 литрни ташкил етади. Лекин баъзи пастга оқувчи булоқларни сарфи секундига 100-700 литрга бориши ҳам мумкин. Жумладан, Жиззах вилоятидаги «Авлиёота» (100 л/сек), Фарғона вилоятидаги «Чашма» (700 л/сек) булоқлари шулар жумласига киради. Одамларнинг хўжалик ва инженерлик фаолиятлари бу хилдаги булоқ сувларини сарфига, физик ва химик хосса хусусиятларига жуда тез таъсир кўрсатиши мумкин. Шунинг учун эркин оқувчан булоқлар мавжуд майдонларни ниҳоятда эҳтиёт қилмоғи зарур. Чунки улар баъзи аҳоли яшайдиган ҳудудларда ичимлик ва хўжалик фаолиятида фойдаланишдаги бирдан-бир табиий сув манбаи ҳисобланади.

Ўрта Осиё худудида ер ости сувларини ўрганиш тўғрисидаги тажрибаларнинг шаклланиши табиий шароит билан бевосита боғлиқ. Чунки бу худуднинг катта қисми чўл ва чалачўл зонасидан ташкил топганлиги учун сув ресурслари тақчилдир. Шу сабабли ер ости сувларини зарурияти худуд учун жуда муҳим ва кераклидир.

Ҳозирги кунда Республикамиз худудида суғориш ишлари нотўғри олиб борилаётганлиги, зовур ва дренажларнинг яхши ишламаётганлиги сабабли суғориладиган худудларда ер ости сувларининг сатҳи кўтарилиб бормоқда. Бунинг натижасида ерларнинг унумдорлиги пасайиб, шўрланиш кун сайин ортиб бормоқда. Бу омил эса қишлоқ хўжалигида ҳосилдорликнинг камайиб кетишига сабаб бўлиб қолмоқда.

Юқоридаги фикрларни инобатга олган ҳолда қуйидаги омилларга кўпроқ эътибор қаратишимиз керак: ҳозирги кунда ичимлик сувининг танқислиги туфайли сувдан оқилона фойдаланиш; ер ости сув конларидан унумли фойдаланиш; ер ости сувларининг пайдо бўлишини, худудларда тарқалишини ҳамда хўжаликдаги аҳамиятини чуқурроқ ўрганишга эътибор қаратиш; Республикамиз худудида тарқалган булоқларнинг географик жойлашувини ўрганиш; булоқларнинг таркиби ва хосса-хусусиятларини аниқлаш.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

- 1.М.Ш.Шерматов. “Гидрогеология ва муҳандислик геологияси асослари” Ўқув қўлланма. Т.: ЎМКХТМ, «Билим» нашриёти, 2005. — 312 бет.
- 2.Волин С.Л. К истории древнего Хорезма, М., 1941., 196 б.

## АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ЁШЛАР МАЪНАВИЯТИГА ТАЪСИРИ

*С.Ҳ.Тожиёв*  
*ЎзМУ талабаси.*

**Аннотация:** Мазкур мақолада ахборот технологияларининг ёшлар маънавиятига таъсири, интернет ва ахборот технологияларнинг ёшлар томонидан эгалланиши, айнан интернетнинг ёшлар психологиясига таъсир этиш омилларининг таҳлилий жиҳатларига алоҳида эътибор қаратилган.

**Калит сўзлар:** Ахборот, интернет таъсири, ахборот технологиялари, ахборот хавфсизлик, шахс химояланиши.

Маълумки, ахборот хавфсизлиги феномени кенг қамровли тушунча бўлиб, унинг мазмунини таҳлил этиш психология, фалсафа, социология, сиёсатшунослик каби фанлардаги ўзаро алоқадорлик тамойилига асосланилади. Тарихан ҳар қандай давлатнинг шаклланиши ва жамиятда, сиёсий, ижтимоий иқтисодий манфаатлари ва уларнинг мафкуравий жабҳада ифодаланиши билан вужудга келади. Зотан, айнаи вақтдан барқарорлик, ривожланиш билан бирга, муайян характердаги ахборот-психологик хавф-хатар, маънавий таҳдидлар ҳам пайдо бўлади. Уларга асосланган ҳолда, миллий хавфсизлик концепциясини ишлаб чиқиш ҳамда амалга ошириш ахборот хавфсизлигини таъминлашнинг муҳим шартини ҳисобланади.

Ахборот термини бугунги кунда глобал аҳамият касб этмоқда. Чунки у тафаккуримизга турли йўналишларда таъсир ўтказувчи, ҳаёт ва ундаги минглаб тақдирларни у ёки бу томонга буриб юборувчи, гоҳ салбий, гоҳ ижобий моҳият касб этувчи кудратли қуролга айланди. Ҳозирги вақтда ахборотларни ҳосил қилиш, қайта ишлаш, сақлаш, кўпайтириш ва тарқатиш алоҳида илмий соҳа – информатикани ташкил этади. Умуман олганда, ахборот – моддий дунёнинг организмда ёки организмлар жамоасида акс этган ҳамда улар томонидан атроф-муҳит ўзгаришларига мослашиш учун фойдаланиладиган моддий дунё объектларининг аксидир.

Ахборот тафаккурнинг маҳсули ҳисобланиб, ақлий фаолият асосида мужассамлашади. Фанда, турли соҳага таллуқли бўлганлиги жиҳатидан ахборот (масалан, маиший, илмий ва бошқ.) соҳавий хоссаларга ажратилади. Ахборот ўз мақсадига эга бўлиб, инсон фаолиятида унинг тутган ўрнини белгилаб олиш учун, ахборотга оид илмий назарияларнинг ғояларини белгилашда лозим бўлади. Н.Винернинг таълимоти бўйича, ахборот ташқи дунёдан олинган ва унга мослашиш жараёнида мазмуннинг белгиланиши ҳисобланади [1; 343-б.]. К.Э. Шеннонэса, ахборот, бу коммуникация ва алоқа жараёнида баргараф этиладиган ноаниқликларни белгилаш деб таъкидлайди. И.М.Яглом, танловни эҳтимоллигини таъминловчи дея муносабат билдирган [2; 512-б.]. Кўриниб турибдики, ахборот ва унинг хавфсизлигини шахс хусусиятларини инобатга олган ҳолда таъминлаш фанда ўз тарихига эга эканлигини намоён этади.

Шуни таъкидлаб ўтиш жоизки ҳар куни миллионлаб одамлар интернетдан турли хил мақсадларда фойдаланади. Ўзбекистонда фойдаланувчиларнинг асосий қисми ижтимоий тармоқлар ва (ёки) электрон почтадан фойдаланиш учун Интернетни ишлатади. Интернет қиммат бўлмаган, журналистиканинг ривожини учун катта таъсир кўрсатаётган кучли тизимдир.

2005 йилнинг май ойида СНН телекомпанияси 400 нафар олим ва соҳа мутахассислари ўртасида “Сизнингча, сўнги чорак асрда қилинган энг муҳим ихтиро қайси?” саволи билан сўровнома ўтказди. Сўров натижаларига кўра, сунъий йўлдошлар, ҳарбий мудофаа технологиялари, биотехнологиялар, лазернури, инсон гени соҳасида эришилган улкан муваффақиятларни ортда қолдирган ҳолда биринчи ўринни интернет олишга муваффақ бўлди [166]. Ахборот макони – бу, кўзга кўринмайдиган бир вертуал омилдир.

Аниқроқ айтадиган бўлсак, у интеллектуал – маънавий ҳодисалар сирасига киради. У моддий ишлаб чиқариш эмас, балки билим ҳамда ақлнинг маҳсулидир.

Шу боисдан уни ижтимоий тараққиётдаги ўрнига кўра илм-фан билангина қиёслаш мумкин. Жисмга, умуман моддийликка адад, ҳажм, оғирлик, узунлик ва кенглик сингари ўлчовлар хос бўлса, ахборот эса аксинча ундай хоссаларга эга эмас. Бу жиҳатдан ахборот олами ҳадсиз ва ҳудудсиздир.

Статистик маълумотларга қараганда, ҳар куни 75 млн киши интернетда фақатгина e-mailдан фойдаланар экан. Интернетда қай мақсадда фойдаланаётганларни агар фоиз кўрсаткичида кўрсатсак, шундан:

74 % on-line аукциондан фойдаланади;

80 % диний маълумотлар олади;

95 % on-line ўйинлар ўйнайди, мусиқалар эшитади ва комьпютерга ёзиб олади;

56 % on-line хизматларидан фойдаланади ва ундан нарсалар харид қилади;

74 % янгиликлар олади;

80 % ўз хоббилари бўйича маълумотлар олади;

95% e-mail жўнатишади.

Ўзбекистонда интернетдан тўлақонли фойдаланиш имконияти камроқ. Чунки, уй шароитида интернетдан фойдаланувчилар озликни ташкил қилади. Аммо, кўп жойларда интернет-клублар фаолият юритади. У барча аҳоли учун мўлжалланган. Аммо, бу каби жойларда биз кўпинча вояга етмаган ёш болаларни учратамиз. Ўтказилган сўровномада маълум бўлишича, интернет-клубларига асосан 4-5 ёшдан 13 ёшгача бўлган ёш болалар on-line ўйинлар ўйнаш, 11-17 ёшдагилар “chat” ва “e-mail”да янги дўстлар орттириш, мулоқот қилиш ва мусиқа ёзиб олиш учун кирар эканлар.

Глобал тармоқ афзалликларини инкор этмаган ҳолда, унинг ёшлар маънавиятига таъсири, хавф-хатарлари тўғрисида ҳам сўз юритишга тўғри келади. Жаҳоннинг бир неча мамлакатларида уюшган жиноий гуруҳлар ва террорчи ташкилотларнинг сайтлари мавжудки, улар орқали нафақат ахборот алмашинуви, балки ёшларнинг турмуш тарзига, урф-одатларимизга мутлақо тўғри келмайдиган ёт ғоялар ва амаллар тарғиб қилиняпти. Интернетнинг ҳар юзинчи саҳифасининг порнографик мазмунга эга эканлиги ёш авлоднинг тарбиясига, ахлоқ-одобига зарар етказиши табиий. Чиқарилаётган on-line ўйинлардан ҳам манфаат фақатгина фойда олиш эмас, балки ёшларнинг маънавиятига таъсир кўрсатишидир. Интернетдан фойдаланувчиларнинг аксарияти бу каби сайтларга билиб ёки билмасдан кириб қоладилар. Умуман, нотаниш сайтларга кириб қолиш сабабларини фоиз кўрсаткичида олиб қарасак, шулардан:

1 % баннер, реклама орқали;

1,2 % e-mail адреслар орқали;

4,1 % ТВрекламалар орқали;

2,1 % тўсатдан;

4,4 % журналдаги рекламалар орқали;

20 % баъзи суҳбатлар таъсирида;

46 % интернетдаги қидирув тизимлар орқали амалга оширилади.

Шуни ҳам таъкидлаб ўтиш лозимки, замонавий ўсмир ёшларимиз орасида баъзилари, интернетга маълумот олишнинг асосий манбаи ва коммуникациянинг бош воситаси, деб ҳам қарайдилар.

Интернетнинг фойдаланувчилар учун яратиладиган қулайликларидан яна бири, бу – махфийликдир. Психологларнинг таъкидлашича, баъзи одамлар реал ҳаётда ўз хиссиётларини ошкор этишга тортинганидан интернетда ўтиришни маъқул кўришади. Статистик маълумотларга қараганда, блокларга (интернетда кундалик дафтар) ўз хиссиётларини киритаётганларнинг 52 % ни аёллар, 48 % ни эркеклар ташкил этар экан. Буларнинг кўпчилиги, интернет аддиклари (интернетсиз яшай олмайдиганлар) реал ҳаётдан сиқилгани учун виртуал ҳаёт – интернетга киришни маъқул кўрар эканлар. Психологларнинг фикрича, атрофдагилар билан муносабатга кириша олмайдиганлар компьютерда ўзларини эркин сезишар экан. Чунки уларга ҳеч ким тазйиқ ўтказа олмайди.

Хулоса қилиб айтганда, ёш болаларнинг интернетдан кўп фойдаланиши ижобий томон билан биргаликда бир қанча салбий жиҳатларни ҳам келтириб чиқаради.

Оддийгина мисол, телевизор орқали бирор бир ҳаёсиз ёки кўрқинчли кинолар берилса, ота-оналар фарзандларига буни кўришни тақиқлашади. Лекин компьютердаги “Fear.2”, “Doom3”, “Wanted” каби қонхўрликлар, отишмалар, қотиллигу-хунрезликдан иборат ўйинларни ўйнашга рухсат беришади. Вақт ўтган сайин бу ўйинлар болага ҳам физиологик ва психологик жиҳатлар салбий таъсир кўрсатишини кўпгина мутахассисларимиз таъкидлаб ўтишган. Психиатрларнинг фикрига кўра, бу касаллик фанда “лудомания” дейилади. Асосан, болалар ва ўсмирлар орасида учрайди. Уйқунинг бузилиши, хулқнинг ўзгариши, жиззакилик, кўнимсизлик, компьютер ўйинларига буткул қарамлик, ўқиш ва уй ишларидан бош тортиш каби аломатлар сезилади. Агар буни физиологик жиҳатдан олиб қарасак, нур таъсирида кўз хиралашиши, жисмоний ҳаракатларнинг сусайиши, танада қон айланиш тизимининг бузилиши, ҳаттоки наслга ҳам салбий таъсир қилиши эҳтимоли мавжуд.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Винер Н. Кибернетика, или управление и связь в животном и машине / Н. Винер; пер. с англ. И.В. Соловьёва и Г.Н. Поварова; подред. Г.Н. Поварова. 2-е изд. – Москва.
2. Яглом А.М., Яглом И.М. Вероятность и информация. – М.: Наука, 1973. – С.512
3. Выготский Л.С. Развитие высших психологических функций. -М., 1967. – 211 с.
4. М.Файзиева Шахнинг психологик ҳимоя механизмлари. Қарши-2020.



## DIYXANSHÍLÍQTÍN RAWAJLANIWINDA ÓNERMENTLER TÁREPINEN TAYARLANGAN BUYÍMLARDÍN ÁHMIYETI

*Toreniyazova Dilfuza Qulametovna*  
*Qaraqalpaq mamleketlik universiteti*  
*2-basqish tayanish doktoranti.*

Qaraqalpaqstan aymaǵında ótkerilgen arxeologiyalıq izertlewler nátiyjesinde Mizdahxan, Topiraq qala, Kerder h.t.b. eski qalalardan ónermentler tárepinen tayarlangan kóplep buyımları tabılǵan. Diyxanlarımız atızlarda ata babalarımız paydalanǵan ayırım miynet qurallardı elege shekem paydalanıp kelmekte. Bul miynet qurallardı ónermentler xalıq xojalıǵı ushın islep shıǵarıp, texnikalıq hám sapalıq jaqtan jetilistirip barǵan.

Sonı aytıp ótiw kerek, Qubla Aral boylarında orta ásirlerge tiyisli qalalarda ónermentshilik ustaxanaları máhalleleri anıqlanǵan. XIII-XIV ásirlerde qalıplesken Shexrlik qalası iri ónermentshilik hám sawda orayı esaplanǵan. Onıń aymaǵınıń shıǵıs tárepinde mıskeerler, al túslik shıǵıs bóliminde temirshiler jasaǵan. XIX-XX ásirlerde qaraqalpaq ónermentleri Shımbay, Qońırat, Xojelide jasaǵan. Sebebi bul qalalar sol dáwirdegi sawda-satıq jaqsı rawajlangan qalalar bolǵan. Sol dáwirde Shımbay qalasında ónermentlerdiń óz máhálleleri bolǵan. Shımbayda házirgi kúnde hám sol dáwirdegi sıyaqlı atamalar menen atalıwshı máhállelerdi ekspediciya waqtında ushıratıq. Misalı, úyshiler, tandırshılar.

Qaraqalpaq ónermentshiliginiń jáne bir ózgesheligi ónermentlerdiń óz ónimlerin tayarlaw menen birge, tikkeley úy xojalıǵı menen de shuǵıllanǵan. Kóp ónermentler tiykarǵı kásibinen tısqarı, ásirese awıl sharayatında (bazı waqıtları, qalada hám) diyqansılıq, baǵshılıq hám palız eginlerin egiw menen de shuǵıllanıp kelgen. Olardıń kópshilik bólegi óz ónimlerin jaqın bazarǵa shıǵarıp satqan. Islep shıǵarǵan ónimine qarap, natural formada yamasa aqshalay haqı alǵan. Bunday jaǵday awıl jámáátlik dástúrlerge baylanıslı bolıp, eń áweli awıllardıń zárurligin qanaatlandırǵan. Úy ónermentshiligi menen hayallar shuǵıllanǵan. Olar jip iyiriw, toqıw, kiyiz basıw sıyaqlı tarawlardı meńgergen. Toqımashılıqta gilem hám palas birinshi orında turadı. Jumis qurallarınıń ápiwayılıǵı, texnikalıq jaqtan artta qalıwına qaramastan qaraqalpaq ónermentshiliginiń kóp tarawları óz mútajliklerin qanaatlandırıw ushın jetkerip turǵan.

Ónermentshiliktiń erte dáwirlerden berli keń tarqalǵan túri temirshilik esaplanǵan. Bul tarawdıń rawajı shiyki zat hám awıllıq turmısına baylanıslı bolǵan.

XIX ásirdeń ortalarına shekem shiyki zattı awıllıq kánlerden alǵan, keyin Rossiyadan keltirilgen metallardan paydalanılǵan. Patsha Rossiyası Orta Aziyanı basıp alǵannan keyin xalıqtıń materallıq turmısında kóp ózgerisler kirip keldi. Ásirese 1874-1875-jıllarda Ámiwdárya bólimine ural-kazakları jer awdarılıp kelgennen keyin oǵada kúsheydi. Awıl xojalıǵına kerekli pulg, tırma, mala, orıs bel, orıs jaba, orıs balta sıyaqlı miynet qurallarında kirip keldi.

1885 jılǵı Ámiwdárya bólimi Shımbay uchastkasında alıp barılǵan statiskalıq maǵlıwmatqa tiykarlansaǵ ónermentshilik penen 275 er adam, 261 hayal adam, Shoraxan ushastkasında 34 er adam, 42 hayal adam, Petro Aleksandrovsk qalasında 14 er adam shuǵıllanǵan.

Ulıwma metall buyımlar islep shıǵarıw ónermentshiligi tiykarınan tórt belgili tarawǵa bólingen: temirshilik, zergerlik, misshilik hám qańıltırshılıq. Olardan eń eskisi hám barlıq metall islep shıǵarıw tarawlarına zárúr qurallar, xalıq xojalıǵı, ásirese diyqansılıq quralları, úy ruzger buyımların jetkerip berip turǵan kásip iyeleri – temirshiler bolǵan. Bel-Orta Aziya xalıqlarında uy hám atız jumıslarında paydalanatuǵın keń tarqalǵan miynet qurallarınan biri. Bel temirshi usta tárepinen polattan islengen. Sabı bekkem bolıwı ushın tut yamasa erik aǵashı menen saplanǵan. Ol jeńil hám juzi súyir formada bolǵan. Musılman beldiń eki qulaǵı hám qumrası boladı. Qumra bul sap penen beldiń basın bir biri menen bekkemlegen. Keyingi waqıtlarda beldiń de túrleri kóbeygen. Zavodta islengen beller kelgennen keyin buringi bellerge talap azayıp ketedi. Ruslar bastırıp kelgennen keyin orıs bel dep atalıwshı bellerde kirip kelgen dep eske tusiredi Quwatbay ata. Báhár máwsiminde kishi kólemdegi bellerge talap artadı. Oraq-oraqtıń da túrleri kóp.

Biraq kóleminiń úlken kishiligine qarap oraq hám keskirt dep ataladı. Oraq penen qaraqalpaqlar atızlarda biyday, arpa, juweri, tarı hám de basqada eginlerdi orıwda paydalanğan.

Oraqtıń zavodta islengen túrlerine qaraǵanda, báhár máwsiminde temirshilerdiń islegen oraqlarına talap kúshli boladı deydi shımbaylı temirshi usta Polat ata. Oraqtıń musılman oraq, orıs oraq dep atalıwshı túrleride bar. Musılman oraq oń qol menen uslap orıladı. Musılman oraqta tis shıǵarılıp, ústinen shar tas penen sharlanadı. Al orıs oraq shep qolda uslawǵa qolaylı bolıp, tis shıǵarılıp, astınan sharlanadı. Tisleri ótpey qalsa egew járdeminde egeledi. Oraqtıń eń kishkene forması keskirt dep ataladı. Keskirt penen pıyaz, geshir hám basqada eginler jabayı shóplerden tazalanğan. Shalǵı-arpa, biyday, sulı, jaylawlardagı jantaqtı orıwda paydalanğan. Sabı eki mertden kem bolmaǵan. Shalǵı polattan islenedi. Shalǵıǵa tis shıǵarılmaydı, tek sharlanadı. Hár bir temirshi usta óz talǵamı tiykarında oraqlardı jasaǵan. Shımbaylı temirshi usta Polat ata oraqqa «X» belgisin qoyatuǵının sáwbetlesiwimiz waqtında atap ótti.

Jáne bir diyqansılıqta qollanatuǵın qurallarda biri ketpen. Ketpenińde túrleri kóp. Jawınnan keyin qatıp qalǵan egin betindegi qatwashtı bosatıw maqsetinde kishi ketpenen paydalanğan bolsa, al toń jerlerdi, tomlardı shabıw ushın ulken ketpenlerden paydalanadı. Bul ketpenler temirshiler tárepinen kórikke salınıp, suwǵa taplanıp, tóste shókkishlenip bekkem etip islengen. Jáne bir diyqanlardıń quralı jaba hám tırma bulardıń da basları temirshiler tárepinen tayarlanıń aǵash ustaları tárepinen saplap bergen.

Juwmaqlap aytatuǵın bolsaq temirshiler tárepinen tayarlanǵan bul qurallardıń áhmiyeti házirge shekem diyqanlarımız ushın, úy xojalıǵı ushın eń kerelikli buyımlardan sanaladı. Sonlıqtanda temirshilik penen shuǵıllanıwshı ustalarımızdıń elede xalıq arasında qádirli abrayları joqarı bolatuǵını sóz.

#### **Paydalanǵan ádebiyatlar:**

1. Этнографии каракалпаков XIX—начало XX века. Ташкент, 1980.
2. Turenıyazova D. Dala jazıwları 1-dápter 2021j.
3. Óz MA I-1. op.1.d.2686. 133-134 b.

## SIRDARYO VILOYATI HUDUDIDAGI SHO‘RLANGAN TUPROQLARDA STEVIYA DORIVOR O‘SIMLIGINI YETISHTIRISH AGROTEXNIKASINI ISHLAB CHIQISH.

*J.SH Turdiqulova*<sup>1</sup>      *F.M Jo‘raboyeva*<sup>2</sup>      *A.A Ortiqov.*<sup>3</sup>

*GulDU talaba*<sup>1</sup>      *GulDU talaba*<sup>2</sup>      *GulDU o‘qituvchi*<sup>3</sup>

*Guliston davlat universiteti.*

**Annotatsiya:** Maqolada Guliston davlat universitetining Eksperimental biologiya ilmiy tadqiqot laboratoriyasi biotexnologiya bo‘limida olib borilayotgan izlanishlar va dorivor steviya o‘simligining yetishtirish agrotexnologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqot natijalari keltiriladi.

**Kalit so‘zlar:** dorivor o‘simliklar, dorivor steviya, steviosid, tarqalishi, o‘rganish, belgi, antitumor, Antiallergin, xususiyat, yetishtirish agrotexnologiyasi.

## РАЗРАБОТКА АГРОТЕХНИКИ ВЫРАЩИВАНИЯ СТЕВИИ НА ЗАСОЛЕННЫХ ПОЧВАХ СЫРДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ.

*Ж.Ш. Турдигулова*<sup>1</sup>      *Ф.М Жорабоева*<sup>2</sup>      *А.А Ортиқов*<sup>3</sup>

*Студент ГулДУ*<sup>1</sup>      *Студент ГулДУ*<sup>2</sup>      *ГулДУ учитель*<sup>3</sup>

*Гулистанский государственный университет.*

**Аннотация:** В статье представлены результаты исследований, проведенных отделом биотехнологии Научно-исследовательской лаборатории экспериментальной биологии Гулистанского государственного университета, и разработка агротехнологии выращивания стевии лекарственной.

**Ключевые слова:** лекарственные растения, стевия лекарственная, стевиозид, распространение, изучение, признак, противоопухолевое, противоаллергическое, свойства, технология возделывания.

## DEVELOPMENT OF AGRO-TECHNIQUES FOR GROWING STEVIA IN SALINE SOILS OF SIRDARYA REGION.

*J.SH Turdiqulova*<sup>1</sup>      *F.M Jo‘raboyeva*<sup>2</sup>      *A.A Ortiqov.*<sup>3</sup>

*GulDU student*<sup>1</sup>      *GulDU student*<sup>2</sup>      *GulDU teacher*<sup>3</sup>

*Gulistan State University.*

**Annotation:** The article presents the results of research conducted by the Department of Biotechnology of the Experimental Biology Research Laboratory of Gulistan State University and the development of agrotechnology for the cultivation of medicinal stevia.

**Keywords:** medicinal plants, medicinal stevia, stevioside, distribution, study, sign, antitumor, antiallergy, properties, cultivation technology.

O‘zbekistonda sog‘lom turmush tarzini to‘g‘ri tashkil etish va insonning barqaror salomatligini ta‘minlash uchun mahalliy sharoitda iqlimlashtirilgan dorivor, shifobaxsh hamda iqtisodiy samaradorligi yuqori bo‘lgan o‘simliklardan oqilona foydalanish dolzarb vazifa hisoblanadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida sungi yillarda O‘zbekistonda bir nechta qaror va farmonlar qabul qilindi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 maydagi "Dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 251-sonli qarori hamda "Dorivor o'simliklar xom-ashyo bazasidansamarali foydalanish qayta ishlashni qo'llab quvvatlash orqali qo'shmcha qiymat zanjirini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Ushbu qarorga muvofiq dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish hamda qayta ishlashni tashkil etish, dorivor o'simliklarning madaniy plantatsiyalarini barpo etishni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, kasalliklarning oldini olish va davolashda dorivor o'simliklarni keng qo'llash haqida bayon etilgan.

Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlashni yanada rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish, sohaning eksport salohiyatini oshirish, shuningdek, ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish jarayonlarini integratsiyalash maqsadida ilmiy tadqiqot ishlari boshlab yuborildi.

Xozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasida 112 tur dorivor o'simliklar rasmiy tabobatda foydalanishga ruxsat berilgan bo'lib, ushbu dorivor o'simliklarning 80%ni tabiiy holda o'suvchi o'simliklar tashkil etadi. Tabiiy holda o'suvchi dorivor o'simliklarning ham xom ashyo zaxirasi chegaralangan bo'lib, ularni muhofaza qilish, bioeklogik xususiyatlarini o'rganish, xom ashyo zaxirasidan to'g'ri foydalanish va ko'paytirishning ilmiy asoslangan usullarini ishlab chiqish dolzarb muammolardan biridir. Shuning uchun O'zbekistonda farmatsevtika sanoatining ehtiyojlarini dorivor o'simliklar xom ashyosi bilan ta'minlash, mahalliy floraniyangi introdutsent o'simlik turlari bilan boyitish va ularni yetishtirish agrotexnikasini ishlab chiqish muhim masalalardan biridir.

Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan Qishloq xo'jaligi vazirligi bilan birgalikda sertifikatlangan dorivor o'simliklarni urug'chiligi va ko'chatchiligini yo'lga qo'yish bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar hamda innovatsion ilmiy-texnik loyihalar bo'yicha grant tanlovlarini yosh tadqiqotchilar va tadbirkorlarga keng imkoniyatlar yaratildi.

**Geografik tarqalishi.** Hozirgi vaqtda 15 dan ortiq davlatlar (AQSh, Angliya, Frantsiya, Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Kanada, Rossiya, Ukraina va boshqalar) steviyani ko'paytirib, qandolatchilik, shirin ichimliklar, parhez taomlar, konservalar va dori-darmon tayyorlashda keng miqyosda foydalanib kelmoqdalar. Steviya dorivor o'simlikning vatani Paragvay davlati hisoblanadi.

Mazkur o'simlik O'zbekistonda dastlab, 1996 yilda O'zbekiston Milliy Universiteti va Toshkent davlat agrar universiteti olimlari tomonidan mahalliy lashtirilgan. Bugungi kunda Respublikamizda steviya o'simligi plantatsiyalari kengaymoqda. Misol uchun, Surxondaryo viloyati, Sho'rchi tumanida "Olloyoroxun" steviya eksperimental fermer xo'jaligi 7 gektar maydonda ekilgan. 2019 yil Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumanida «Healing Herbs and Organics» tashkiloti tomonidan 64 gektar ushbu o'simlik plantatsiyalarini tashkil etib, parvarish qilib kelmoqda.

Hozirgi kunda O'zbekistonda sho'rlangan hududlar ko'pligi sababli, biz Sirdaryo viloyati sho'rlangan yerlarga sinov asosida ekishni yo'lga qo'ydik.

**Agrotexnikasi.** Xususan, uning damlamasidan olinadigan steviozid moddasi shakardan 150 barobar shirin. Steviozidni qayta ishlash natijasida olinadigan rebadiozid moddasi 300 barobargacha totli. Shuningdek, u o'ta shifobaxsh hamdir.

Steviya issiqlikni, namlikni, past haroratga chidamlilikni, botqoqlanishdan qo'rqishni, doimiy suvga chidamliligini va qurg'oqchilikka chidamliligini yaxshi ko'radi, shuningdek, yorug'likka juda sezgir, shuning uchun maksimal yorug'lik vaqti o'n ikki soat. Asosiy o'g'it asosan organik o'g'it. Boshqa kimyoviy makro va mikro preparatlardan foydalanmaydi.

**Ishning borishi.** Steviya o'simligi Sirdaryo viloyatiga 2022-yil 18-may kuni ekildi. Uning o'sish tezligi meyorda ketmoqda. Steviya g'unchaga kirgan paytda o'rib olinadi. Chunki steivosid shirin ta'mga ega modda guliga yoki ildiziga o'tib ketishi mumkin. G'unchaga kirguncha davr 45-50 kunni tashkil qiladi. Uning bo'yi o'rtacha 40-70 sm bo'ladi. Hozirgi kunga qadar natijalar bilan tanishadigan bo'lsak, quydagi jadvalga e'tibor qarating.

**Jadval 1.**

Kun 7/1	Umumiy uzunlik (sm)	Barg uzunligi (sm)	Poyalar soni	O'lish jarayoni
7	3-5	1	1	-
14	10-15	1-2	2	-
21	18-20	2-3	3	-
28	25-30	2-3	3-4	-
35	30-40	2-3	4-5	-
42	45-60	3	5-6	-

Bu o'simlik olib kelinganiga 15-20 kun bo'lgan. Bugungi kungacha qilingan natijalar bilan yuqoridagi jadval va rasmlar bunga asosiy dalil hisoblanadi.

O'rtacha sho'rlangan yerga ekilgan bu o'simlik. Hozirgi paytda bu o'simlik 15-20 sm yetganligi sababli, onalik o'simligidan qalamchalar olinayapti. Buning uchun uni har bir shohida pastki ikki bo'g'imi qoldirilib, o'tkir lezviya yoki qaychi bilan kesib olinadi va o'sish nuqtasi yuqoriga qaratilgan holda chelakdagi sovuq suvga solinadi. Ekilgan qalamchalardan tezroq tomirchalar hosil bo'lishi uchun, ular maxsus o'stiruvchi moddalar (IUK-indoliluksus kislotasi) bilan ishlanadi va yashikdagi qumga 2-3 sm chuqurlikda 5x3 yoki 4x2 sm qilib ekiladi. Bu jarayon issiqxona sharoitida tashkil etiladi. U ekilgandan so'ng 18-20 kun ichida ildiz chiqaradi. So'ngra dalaga ushbu ko'chatlar ekiladi. O'sish suratlari shu tarzda davom etadi.

Bu o'simlikni yetishtirishda qayta ishlash natijasida 130 ga yaqin mahsulot olish mumkin. Misol uchun qadolatchilikda, farmaseftika, Textil mahsulotlarni bo'yashda, qishloq xo'jaligida, ipakchilik uchun qurtlarni boqishda yuqori natijalarga erishilmoqda.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida shuni aytish keraki steviya osimligini bioekologik xususiyatlardan kelib chiqib, faqatgina respublikaning Janubiy hududlari (Surxondaryo, Qashqadaryo) hamda Samarqand va Toshkent viloyatlarida emas balki Sirdaryo viloyatida ham madaniy plantatsiyalarini tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. [https://uza.uz/uz/posts/dorivor-osimliklarni-madaniy-holda-etishtirish-va-qayta-ishlash-hamda-davolashda-ular-dan-keng-foydalanishni-tashkil-etish-chora-tadbirlari-togrisida\\_374137](https://uza.uz/uz/posts/dorivor-osimliklarni-madaniy-holda-etishtirish-va-qayta-ishlash-hamda-davolashda-ular-dan-keng-foydalanishni-tashkil-etish-chora-tadbirlari-togrisida_374137)
2. [www.chamber.uz](http://www.chamber.uz) Savdo-sanoat palatasi Toshkent-2020
3. <https://hujayra.uz/uzbekistonda-mojizaviy-steviya-osimligini-ostirish-istiqbollari/>
4. <file:///C:/Users/User/Downloads/Telegram%20Desktop/ПІК-251.pdf>
5. [file:///C:/Users/User/Downloads/Telegram%20Desktop/ПФ-139%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/User/Downloads/Telegram%20Desktop/ПФ-139%20(1).pdf)
6. [Q'.Ahmedov], [A.Ergashev], A.Abzalov, M.Yulchiyeva S.Azimboyev Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi fanidan amaliy mashg'ulotlar: 0 'quv qo'llanma / Mualliflar jamoasi; - T.: "Iqtisod-Moliya", 2018. 172 b.



## XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA “AQLIY HUJUM” USULINING AHAMIYATI

*Turg'unboyeva Sug'diyona Sharofiddin qizi*

*O'ZDJTU Xorijiy til va adabiyoti fakulteti 1-kurs talabasi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz tilini chet tili sifatida o'rgatish jarayonida aqliy hujumning o'rni, shuningdek, aqliy hujumning ta'limdagi ta'siri ta'kidlangan. Bundan tashqari, aqliy hujumning afzalliklari ham tasvirlangan.

**Kalit so'zlar:** Aqliy hujum, qiyin jarayon, texnika, tartib, o'quvchilar, guruh, muhokama, paragraflar, interfaol fikrlash usullari, o'quv modullari, insholar.

Til o'rganish va o'qitish jarayonida o'quvchilarga fikrlarini jamlab olishga yordam beradigan, aniq bir mavzu bo'yicha atroflicha o'z bilganlari orasidan ma'lumot to'plashga yordam beradigan turli xil usullarni topish mumkin, lekin "aqliy hujum" bular orasidan eng samarali va foydalisidir. **Miya hujumi** ijodiy jarayon bo'lib, u odatda ma'lum bir muammoning mumkin bo'lgan yechimlarini yaratishda dastlabki qadam sifatida qaraladi. "Aqliy hujum" texnikasi bundan 70 yil avval kashf qilinganiga qaramay, u hozirgacha ta'limning barcha sohalarida keng qo'llanilmoqda. Til o'rgatishda aqliy hujumning ahamiyatiga o'tishdan oldin, keling, so'zning o'ziga aniqlik kiritaylik.

Aqliy hujum - bu guruhning barcha a'zolarining g'oyalari o'z-o'zidan qo'shishni o'z ichiga olgan guruh muammosini hal qilish usuli.

"Mana, toshbaqa. U faqat bo'yni tashqarida bo'lgandagina muvaffaqiyatga erishadi. Bu aqliy hujumning asosiy sababi, dramatik tarzda ifodalangan. (Klark, 1958) Bu eski iqtibos, ammo aqliy hujum odamlarni o'z texnikasidan foydalangan holda doimiy ravishda yangi g'oyalar ishlab chiqarishga undashini ko'rsatadi (Klark, 1958).

Aqliy hujum so'zi mavzu bo'yicha g'oyalarning tasodifiy ishlab chiqarilishini bildirganligi sababli, hech qanday tahrirlash yoki tartibga solishning hojati yo'q va ular keyinchalik insholar, paragraflar yoki muhokamalar yozish kabi boshqa faoliyat uchun asos sifatida ishlatilishi mumkin. Ushbu usulning samaradorligi jamoaviy munosabatlarni mustahkamlash bilan butun sinf faoliyati sifatida amalga oshirilganda kuchayadi.

Rao (2007) fikricha, aqliy hujum usullarini o'rgangan va o'n ikki oy davomida ulardan muntazam foydalangan talabalar yozma topshiriqlarni bajarishda sezilarli darajada yuqori natijalarga erishgan.

Bundan tashqari, aqliy hujum o'quvchilarni rejalashtirish mashqlarini bajarishdan ko'ra erkinroq va ijodiy fikrlashga undashi mumkin. Eng muhimi, ushbu protsedura til o'rganuvchilarga bilganlarini eslab qolish va bir vaqtning o'zida bir-biriga o'rgatish imkonini beradi. Ochiq va doimiy hamkorlikni yoki ijodiy fikrlashni rag'batlantirish talaba olishi mumkin bo'lgan afzalliklardan biridir.

"**Aqliy hujum nima uchun muhim?**" degan savolga javob beradigan bir qancha sabablar bor :

12. Bu o'qishdagi asosiy tushunchalarni **umumlashtirishga yordam beradi**
13. Bu o'quvchining o'qishga qiziqishini uyg'otgan **asosiy g'oyalarni ko'rishga yordam beradi**
14. Bu murakkab va qiyin jarayonni yanada **qulayroq qilishi** mumkin
15. Qog'oz mavzularining **ko'p tanlovlari** paydo bo'ladi

Til o'rgatishda aqliy hujumning maqsadi o'quvchilarni interfaol fikrlash usullariga yo'naltirish va an'anaviy o'rganish usulini shakllantirishdir. Bu, ayniqsa tinglash, o'qish, gapirish va yozishdan oldin o'rganilgan g'oyalarning boyligini oshiradi. Aqliy hujum usuli tajriba va mashg'ulotlarga ko'proq e'tibor beradi, shuning uchun o'quvchilarning xatti-harakatlarida kerakli o'zgarishlar tez sodir bo'ladi. Bundan tashqari, sinfdagi o'quvchilarga turli mavzular bo'yicha o'z fikrlarini, fikr-mulohazalarini, munosabatlarini bir-birlari bilan ifodalash va almashish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi, bu esa ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlik, muloqot va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Doktor Afaque Nadeem Khan va Doktor Shabana Ashraf (2013) fikriga ko'ra, bu usul talabalar, o'qituvchilar, o'quv dasturlarini ishlab chiquvchilar va tadqiqotchilar uchun foydali bo'lishi mumkin. Aqliy hujum o'quvchilarga o'z kuzatishlari orqali o'rganishga yordam beradi va ular o'z tushunchalari va fikrlarini erkin ko'rsatish uchun yetarli imkoniyatga ega bo'ladilar. Shuning uchun o'qituvchilar uchun aqliy hujumdan sinfda dars berishda qanday foydalanish bo'yicha o'quv modullariga ehtiyoj paydo bo'lmoqda. O'quvchilarning ilmiy yutuqlarini oshirish, til o'qituvchilarini dars davomida ushbu usuldan foydalanishni rag'batlantirish kerak.

Barchasini hisobga olgan holda, aqliy hujum o'quvchilarda ishtiyoq va qiziqishni shakllantirishning eng yaxshi usuli sifatida qaraladi va mavzuni yaxshiroq tushunish va g'oyalarni shakllantirishga olib keladi. Aqliy hujum - bu til o'rgatish yoki o'rganish jarayoniga osonlik bilan kiritilishi mumkin bo'lgan istiqbolli vosita bo'lib, talabalarga yaxshiroq o'rganishga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Rao Z. (2007) Aqliy hujum va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha trening, ELT Journal 2007 61(2) Oksford universiteti nashriyoti.
2. Khan, IA (2005). Ta'lim boshqaruvi, Nyu-Dehli: Akademik mukammallik
3. Baumgartner, J. (2005). Muvaffaqiyatli miya hujumining asosiy omillari.
4. Maricopa Community Colleges (2001). Aqliy hujum.
5. Braun, HD, (1994) Til o'rganish va o'qitish tamoyillari, Prentis Xoll Regents

## G‘AYBULLA AS-SALOM – O‘ZBEKISTONDA TARJIMASHUNOSLIK ILMINING QAROR TOPISHI VA TARAQQIYOTIGA KATTA HISSA QO‘SHGAN OLIM

*M.B. Tursunaliyeva*

*O‘zMU Xorijiy filologiya fakulteti 1-kurs talabasi.*

“Agar ikki kishi o‘zaro bittadan olma ayirboshlasa, har bir kishi bittadan olmaga ega bo‘ladi. Holbuki, ikki kishi o‘zaro bittadan yangi g‘oya ayirboshlasa, har bir kishi ikkittadan g‘oyaga ega bo‘ladi. Badiiy tarjima ana shu ikkinchi turdagi ayirboshlashga mansubdir.”

*(G‘aybulla as-salom.)*

Azaldan Markaziy Osiyo xalqlari ilm-fanda ko‘plab yutuqlarga erishganligi tarixdan ma‘lum. Xususan, XX asr ilm-fanida juda katta o‘ringa ega bo‘lgan Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti dunyo ilm fani beshigiga buyuk allomalarni yetishtirib bergan maskan hisoblanadi. Zotan, “Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti o‘z faoliyati davrida ta‘lim va ilm-fanni rivojlantirishga, shuningdek, respublika iqtisodiyotining turli tarmoqlari, ijtimoiy va ma‘naviy sohalar uchun kadrlar tayyorlashga salmoqli hissa qo‘shdi. O‘tgan davrda 100 nafardan ortiq akademik va 2,5 ming nafar fan doktorlari va nomzodlari tayyorlandi. T.Sarimsoqov, S.Sirojiddinov, M.Salohiddinovning matematiklar, J.Musayevning biokimyogarlari, H.Abdullayev, T.Dolimovning geologlar maktablari keng e‘tirof etildi. O‘zbekiston Qahramonlari A.Oripov, E.Vohidov, O.Sharafiddinov va S.G‘aniyeva universitetda ta‘lim-tarbiya oldilar”<sup>164</sup>. XX asr adabiyotida juda katta o‘ringa ega bo‘lgan va turli davrlarda “Turkiston xalq universiteti”, “Turkiston musulmon xalq dorilfununi”, “Turkiston davlat universiteti”, “O‘rta Osiy davlat universiteti”, “Toshkent davlat universiteti”, “O‘zbekiston Milliy universiteti”<sup>165</sup> nomlari bilan atalgan dargohda ko‘plab olim, yozuvchilar tomonidan tarixda o‘chmas iz qoldirgan asarlar yozildi, tarjima qilindi. Qolaversa, ushbu dorilfununda badiiy tarjima nazariyasi faniga asos solindi. Tarjima nazariyasi ilmining butun respublika bo‘ylab rivojlanishiga o‘zining asosiy hissasini qo‘shgan G‘aybulloh as-salom ushbu jabhada salmoqli o‘ringa egadir. Taniqli adabiyotshunos, tarjimashunos olim, filologiya fanlari doktori, professor, respublikada xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, katta qalb egasi G‘aybulla as-salom (taxallusi), asil ismi Salomov G‘aybulloh Tojiddinovich 1932-yilning 11-dekabr sanasida Samarqand viloyatining Xatirchi tumanida tavallud topgan (hozirda ushbu tuman Navoiy viloyatiga tegishlidir). Qizlari bo‘lmish Nazira Salomova otasi haqida shunday deydi: “Otam - G‘aybulla as-salom bolalik chog‘laridan boshlab ilm olishga o‘zgacha ixlos bilan ulg‘ayganlar. Arab va rus tillarini bilgan. Oilada yolg‘iz farzand bo‘lganligi bois 7-sinfligidanoq ishlay boshlagan. Bir vaqtning o‘zida ikki maktabni tamomlagan. Shundan so‘ng 1952-yili Samarqand davlat universitetining filologiya fakultetiga o‘qishga kirgan va 1956-yilda tamomlaganlar”<sup>166</sup>. G‘aybulla as-salomning otalari Tojiddin mulla - o‘z zamonasining yetuk shaxslaridan edi. Farzand tarbiyasida qattiqqo‘l, talabchan bo‘lgan. Ustoz ular haqida o‘zining “Ey umri aziz” kitobida quyidagilarni yodga oladi: “Padarimiz el-ulus orasida “mulla Toji” degan nom bilan mashhur edilar. Eski maktabda tahsil ko‘rgan, o‘qimishli va mo‘tabar zot bo‘lganlari bois. Lekin dadamiz “millatchi”, “xalq dushmani”, “quloq” bo‘lishdan bir umr cho‘chib yashadilar. “Zinhor mulla emasman, hoy musulmonlar, odamlar o‘zicha menga shunday laqab qo‘ygan” der edilar nuqul. “Mulla Toji degani bu nom emas, laqab, bizda, o‘zbekchilikda taomil shunday”, “o‘zbekchilik jonga balo, axir” deganlari-degan edi. Bilsa hazil, bilmasa chin ma‘nosida. Endi menga turib-turib alam qiladi. Aytasang - gap, aytmasang – dard”<sup>167</sup>.

<sup>164</sup> “2019 — 2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi PQ-4358-sonli qarori.

<sup>165</sup> A.Azlarov, H.Boltaboyev, H.Dadaboyev. Mo‘tabar ziyo maskani. (1918-2008). Toshkent, G‘.G‘ulom nashriyoti-2008. 9-b.

<sup>166</sup> G‘aybulloh as-salomning qizlari Nazira as-salom bilan 2022 yil 10 martdagi suhbat - audio zapis ma‘lumotlaridan.

<sup>167</sup> G‘aybulla as-salom. Ey umri aziz. Toshkent, 1997.”Sharq” Nashriyoti 8-b.

G`aybulla as-salom 1956-1967-yillar davomida O`zbekiston fanlar akademiyasi til va adabiyot institutida aspirant, ilmiy xodim, direktor o`rinbosari sifatida faoliyat yuritgan. 1967-1969-yillarda esa “O`zbek sovet ensiklopediyasi”da bosh muxarrir o`rinbosari, 1969-yildan boshlab Toshkent davlat univrsiteti tarjima nazariyasi kafedrasini mudiri sifatida ham ishlagan<sup>168</sup>. Mehnat faoliyatining asosiy qismini mana shu oliy dargohda davom ettirdi. Umrining so`ngi yillarigacha ushbu maskanda yoshlarga ilm-fan, tarjima nazariyasi, uni fan sifatidagi ahamiyati, uning tarixi masalasida ta`lim berdi va o`zining ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordi, ko`plab shogirdlarga ustozlik qildi. G`aybulla as-salomning ilmiy-ijodiy faoliyati ma`naviyat, madaniyat va ma`rifat masalalariga bag`ishlangan.

Mana shu ilmiy-ijodiy faoliyatining natijasida G`aybulla as-salom qator adabiyotlarni chop ettirdi. Uning birinchi tadqiqotlari hali Samarqand universitetida tahsil olayotgan yillari boshlangan edi. Ustozning 1961-yillarda “Maqol, matal va idiomalar tarjimasi”, “Badiiy tarjimaning leksik-frazeologik masalalari”, “Rus tilidan o`zbek tiliga maqol-matallar tarjimasi” kabi risolalari chop etildi. Shundan so`ng, “Til va tarjima” nomli salmoqdor monografiyasi 1964-yilda “Fan” nashriyotida bosilib chiqdi. Shu yillari u lug`atchilik va qomuschilik masalalariga doir yetuk ilmiy ishlar yozdi. Keyin ketma-ket “Tarjima nazariyasiga kirish”, “Tarjimon mahorati”, “Do`stlik ko`priklari” (N. Komilov bilan hammualliflikda), “Badiiy tarjima va adabiy tarix problemlari” “Adabiy an`ana va badiiy tarjima problemlari”, “Tarjima nazariyasi asoslari” nomli darslik va monografiyalari bosilib chiqildi<sup>169</sup>. Bu ishlarda badiiy tarjima, tarjimon mahorati va san`ati, tarjima aniqligi va milliy koloriti, ana o`sha davr ruhi, tarjima va uslub borasida toza va izchil nazariy fikrlar bayon etilgan. Bir necha tilda yaratilgan adabiyotlar tarjimalarni qiyoslab o`rganish asnosida dolzarb ilmiy muammolar yechilgan.

Albatta, ushbu adabiyotlar bilan bir qatorda ilmiy qo`llanmalarni respublika oliy o`quv yurtlariga dastur sifatida taqdim etgan. Xususan, 1973-yillarda “Tarjima tarixi kursi”, “Tarjima nazariyasiga kirish kursi programmasi”, “Umumiy tarjima nazariyasi asoslari kursi programmasi” kabi qator dasturlarni chop ettirdi.

G`aybulla as-salom “Umumiy tarjima nazariyasi asoslari kursi programmasi” dasturida tarjima va uslub mavzusida uslubning asosiy tushunchalariga quyidagi fikrlarni: “Uslub-inson tushunchasi. Yozuvchining qalbi – uslub. Uslub yozuvchining “o`z ovozi” ko`rsatkichidir<sup>170</sup>”, - deya ta`kidlaydi.

Ko`plab ilmiy asarlar bilan cheklanmagan ravishda, pand-nasihat ruhidagi kitoblarni ommaga taqdim etgan. Xususan, Ustozning “Bulbul xonishi va to`ti falsafasi” asarida bir muhim jihatga o`zining odilona fikrini shunday bayon etadi: “Mabodo, biron sababga ko`ra, bizning ayrim tilshunos, adabiyotshunos va tarjimashunos olimlarimizni... jazolash lozim bo`lib qolsa, ularni o`zlari yozgan kitoblarini ko`pchilik o`rtasida ovoz chiqazib o`qishga majbur qilish kerak. Bundan og`ir jazo bo`lmasa kerak jahonda! “O`quvchi” — zerikib o`ladi, tinglovchini esa qo`rg`oshinday og`ir mudroq bosadi...<sup>171</sup>”

Ustoz G`aybulla as-salom qalami o`tkir yozuvchiligi uning “Til va hayot” asaridagi fikr va zikr, til haqidagi mulohaza va mushohadalarida o`zining yorqin aksini topgan:

“Tilning g`aribligi — tafakkurning qashshoqligidan.

\* \* \*

Tiling bo`lmasa, gapirib nima qilasan?

\* \* \*

Ko`p tilshunos olimlarimizning bisoti — tili sanoqli atamalar majmuasidan iborat. Shu bisotdan tashqarida ular — yo`q.

\* \* \*

Bu ilmiy kitobni insoniy tilga «o`girilsa», butun ma`nosi va ta`siri yo`qoladi. Ilm bo`lmay qoladi. Vassalom.

\* \* \*

<sup>168</sup> “G`aybulloh as-Salom zamondoshlari xotirasida” Toshkent, 2002. «Toshkent islom universiteti» nashriyoti.

<sup>169</sup> “O`zbekiston adabiyoti va san`ati” gazetasining 2007-yil 41-soni.

<sup>170</sup> G`aybulla as-Salom. Umumiy tarjima nazariyasi asoslari kursi programmasi. Toshkent, 1973. 8-b.

<sup>171</sup> G`aybulla as-Salom. Bulbul xonishi va to`ti falsafasi. 1989.

Tilimiz ham, o‘z tarkibiga ko‘ra, «Paxtakor» komandasiga o‘xshab qolgan.<sup>172</sup>»

Bundan tashqari ustoz o‘zining “Bebaho narsaning bahosi” deb nomlangan risolasida ham bizlarga ibrat bo‘la oladigan chuqur ma‘noli g‘oya va fikrlarini ilgari surganlar:

\* Tug‘ilgan kunning esdan chiqsa chiqsinu, biroq nima uchun tug‘ilganing esdan chiqmasin.

\* Sassiqlik daraxtga qo‘nib, chah-chahlab sayrayotgan bulbulni kim ko‘ribdi?

\* Hayvonlar ham insoniy munosabatga muhtoj.

\* Siz vaqtni tejamasangiz, vaqt sizni tejaydi.

\* Odamlarni barcha kuchli va zaif tomonlari bilan, ular qanday bo‘lsalar shundayligicha qabul qilish kerak.

\* Agar sen halol mehnat qilsang, odamlar seni o‘zlari izlab topadi.

\* Ko‘rishni istasang, har qanday kimsada ham istagancha yaxshiliklarni ko‘rishing mumkin. Buning uchun nekbin ko‘z bo‘lishi kerak.

\* Olimning johilligi nima-yu, johilning olimligi nima?

\* Bilmaslik garchi ayb emas, illo fazilat ham emas.

\* Yuksalishni istasang – boshqalarni ko‘tar!

\* Boshqalarni pastga tortayotgan odam o‘zining yer qa‘riga kirib ketayotganini sezmaydi.<sup>173</sup>»

G‘aybullas as-salom ijodiy faoliyati mobaynida bir qancha shogirdlarni yetishtirib chiqardi. Ustoz bilan birgalikda o‘z zamonasining yetuk kishilari yelkama-yelka ijod payida bo‘lishdi. Shogirdlari orasidan ko‘plab akademiklar, professor va fan arboblari, fan doktorlari ilm fan rivojiga o‘z hissalirini qo‘shib kelmoqdalar.

Professor, Beruniy mukofoti sovrindori, filologiya fanlari doktori E.A. Karimov Ustoz haqida shunday fikr bayon qiladi: “G‘aybullas as-salom har tomonlama badastur ilm sohibi. Keng miqyosda e‘tirof qozongan maktabi, qobil shogirdlari, kitob, risola darsliklari, o‘z qo‘li bilan tashkil etgan minbargohi bor.

G‘aybullas as-salom sermahsul tarjimashunos olim. U yaratgan ilmiy tadqiqotlari hajmi 278.7 bosma taboqdan iborat (metodika, adabiy publitsistika, amaliy tarjimachilik hamda badiiy ijodga daxldor asarlari bu hisobga kirmaydi). Bu har biri 10 bosma taboqdan iborat, salkam 28 jilddan tashkil topgan ilmiy kitob (monografiya) majmuasi degan so‘z. Boshqacha aytganda, 1954-yildan buyog‘iga, muntazam ravishda, har yili, o‘rta hisobda, 9.6 bosma taboqda ilmiy mahsulot bergan. 1970-yildan buyon uning ilmiy rahbarligida (opponentligida) himoya qilingan dissertatsiyalar soni 63 taga yetadi. Bu ustoz olim har yili qariyb uchtadan fan doktori, professor va fan nomzodlariga ilmiy ham rasmiy kafolat bergan degani.<sup>174</sup>»

G‘aybullas as-salom o‘zining ijodiy yo‘liga shunday deya ta‘rif beradi: “nasib esta, bundan keyingi katta ilmiy va ijodiy ishlarimga bamisoli bir debocha bo‘ladi, xolos. Salmoqdor milliy-qomusiy nashr, ko‘p jildli turkiyazon lug‘at, tarjima darsligi, ko‘p tilli mag‘ribu mashriq devoni (antologiya), bir she‘riy majmua va Qur‘oni Karim tarjimalari tahliliga bag‘ishlangan tadqiqot yaratish orzusida yonaman...”

Ustoz mustaqillik yillarda 25 jildlik kitob yozishni maqsad qilgan edilar, va 1997-yillar mobaynida ushbu raqamlar orasidan ikkitasini, “Ey umri aziz” va “Ezgulikka chog‘lan, odamzod” deb nomlangan asarlari chop ettirishga ulgurdi xolos. Sababi, hozirgi Mirzo Ulug‘bek nomidagi Milliy universitetiga “Milliy” maqomi berilishi munosabati bilan o‘tkazilgan katta tadbirda, 2000-yil 31-yanvar sanasida yurak huruji tufayli ustoz o‘zining so‘nggi manziliga mana shu dargohdan kuzatildi.<sup>175</sup>

Biroq ko‘plab ijimoiy tarmoqlarda, xususan, You Tube hamda Google platformalarida ustozning vafoti sanasi 2003-yil deya ayrim xatoliklar bilan havola etilgan. Vaholanki, Mirzo Ulug‘bek nomidagi Milliy uniuersitetiga “Milliy” maqomi O‘zbekiston respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov tomonidan 2000-yil 28-yanvarda berilgan.

<sup>172</sup> G‘aybullas as-Salom. Til va hayot.

<sup>173</sup> G‘aybullas as-Salom. Bebaho narsaning bahosi.

<sup>174</sup> Professor G‘aybullas as-Salom/G‘aybullas Salomov/ ilmiy va ijodiy hayotiga oid ma‘lumotnoma. Samarqand, SamDD nashriyoti. 1992. Tuzuvchilar: filologiya fanlari doktori Muhammadjon Holbekov, filologiya fanlari nomzodi Salohiddin Hayitov, Poshali Usmon, Zohidjon Sodiqiy va Salim Jabborov.

<sup>175</sup> G‘aybullas as-salomning qizlari Nazira as-salom bilan 2022 yil 10 martdagi suhbat - audio zapis ma‘lumotlaridan.



Biz yoshlar G`aybulla as-salom yaratgan badiiy tarjima nazariyasi ilmiy maktabini davom ettirishimiz, yangi-yangi ilmiy yo`nalishlarni kashf qilishimiz lozim. Bugungi kunda G`aybulla as-salomning nomini abadiylashtirish muhim masalalardan hisoblanadi. Shu maqsadda, taklif sifatida Xorijiy filologiya fakultetida har yili muntazam ravishda G`aybulla as-salom tavalludiga bag`ishlangan iqtidorli talabalarning ilmiy-amaliy konferensiyasini tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “2019 — 2023 yillarda Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo`lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi PQ-4358-sonli qarori.
2. A.Azlarov, H.Boltaboyev, H.Dadaboyev. Mo`tabar ziyo maskani. (1918-2008). Toshkent, G`ofur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. 9-b.
3. G`aybullo as-salomning qizlari Nazira as-salom bilan 2022 yil 10 martdagi suhbat - audio zapis ma`lumotlaridan.
4. G`aybulla as-salom. Ey umri aziz. Toshkent, 1997.”Sharq” Nashriyoti 8-b.
5. “G`aybulloh as-Salom zamondoshlari xotirasida” Toshkent, 2002. «Toshkent islom universiteti » nashriyoti.
6. «O`zbekiston adabiyoti va san`ati» gazetasining 2007 yil 41-soni.
7. G`aybulla as-Salom. Umumiy tarjima nazariyasi asoslari kursi programmasi. Toshkent, 1973.
8. G`aybulla as-Salom. Bulbul xonishi va to`ti falsafasi. 1989.
9. G`aybulla as-Salom. Til va hayot.
10. G`aybulla as-Salom. Bebaho narsaning bahosi.
11. Professor G`aybulla as-Salom/G`aybulla Salomov/ ilmiy va ijodiy hayotiga oid ma`lumotnoma. Samarqand, SamDD nashriyoti. 1992. Tuzuvchilar: filologiya fanlari doktori Muhammadjon Holbekov, filologiya fanlari nomzodi Salohiddin Hayitov, Poshali Usmon, Zohidjon Sodiqiy va Salim Jabborov.

## BUXORO SHAHRIDAGI SHAXS BILAN BOG‘LIQ TOPONIMLAR (SHAHARNING ANTROPOGODONIMLARI MISOLIDA)

*Uchqunova Aziza Sulaymonovna*

*Buxoro davlat universiteti Lingvistika (o‘zbek tili)  
ta’lim yo‘nalishi, 1-bosqich magistranti.*

**Annotatsiya:** Mazkur axborotda Buxoro shahridagi shaxs nomi bilan bog‘liq toponimlar, nazarda tutilgan shaxslar haqidagi qisqacha ma’lumotlar, shuningdek, antropogodonimlar xususida misollarga asoslanib bayon etiladi.

**Kalit so‘zlar:** toponim, toponimiya, antropotoponim, antropogodonim, Buxoro shahar.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng toponimlarga munosabat tubdan o‘zgarganligini bu sohada amalga oshirilgan bir qator tadqiqotlar, ilmiy ishlar asoslay oladi. Zero, toponimlar nafaqat lisoniy material, balki xalq tarixi, madaniyati va ma’naviyatining nodir merosi sifatida ham e’zozlanadigan, alohida tadqiqot manbasi sifatida o‘rganiladigan bo‘ldi.

“Toponimika yunoncha *topos* — joy va *onoma* (yoki *onima*) — **nom** so‘zlaridan tarkib topgan. Joy nomlari, ya’ni **toponimiya** bir necha turga bo‘linadi. Bular: **gidronimiya** (yunoncha *gidro - suv*), ya’ni daryolar, ko‘llar, dengizlar, soylar, kanallar, qo‘ltiqlar, bo‘g‘ozlar; sharsharalar nomlari: **oronimiya** (yunoncha *oros — tog‘*), ya’ni yer yuzasining relyef shakllari — tog‘lar, cho‘qqilar, qirlar, vodiylar, tekisliklar nomlari; **oykonimiya** (yunoncha *oykos — uy*); **polinimiya** (yunoncha *polis — shahar*) yoki **urbanonimiya** (lotincha *urbos — shahar*), ya’ni qishloq hamda shaharlarning nomlari, **mikrotoponimiya** (yunoncha *mikros -kichik*), ya’ni kichik obyektlar: buloqlar, quduqlar, dalalar, o‘tloqlar, daraxtzorlar, jarlar, yo‘llar, ko‘priklar va hatto atoqli otga ega bo‘lgan ayrim daraxtlar nomlari. Bundan tashqari, turli xalq, urug‘-aymoq nomlari bilan atalgan toponimlar **etnotoponimlar** (yunoncha *etnos - xalq*) deyiladi. Kishi ismlari bilan yuritiladigan toponimlarni esa **antropotoponimlar** (yunoncha *antropos — odam*) deb atash mumkin” [2, 5].

Har bir hududda joy nomlarining vujudga kelishi shu joy hamda aholisining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Buxoro viloyati respublikamizning ana shunday o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan hududlaridan biridir. Shahar hududi esa qadimdan aholi manzilgohi sifatida muhim ahamiyat kasb etib kelgan.

Ma’lumki, Buxoro O‘rta Osiyoda vujudga kelgan ko‘plab davlat birlashmalarining poytaxti hamda madaniy-ma’rifiy markazi vazifasini o‘tab kelgan. Jumladan, buxorxudotlar, somoniylar, qoraxoniylar, shayboniylar, ashtarxoniylar, mang‘itlar davlatlarining poytaxti vazifasini o‘tagan. Balki shundanmi, shahar qadimiy, tarixiy yodgorliklarga boydir. Mashhur tarixchi - Narshaxiy Buxoroning “Numijkat”, “Bumiskat”, “Madinat us-Sufriya”, ya’ni “Mis shahar”, “Madinat o‘t-tujjor”, ya’ni “Savdogarlar shahri” degan nomlari borligini aytadi.

Buxoro shahrida taxminan uch yuzga yaqin ko‘cha mavjud. Har bir nom o‘ziga xos etimologiyaga ega. Kishi nomlari asosida shakllangan ko‘chalar nomlari **antropogodonim** deb atalib, Buxoro shahrida bunday turdagi ko‘chalar nisbatan ko‘proq uchraydi. Ushbu atama kishi nomlarining ko‘chalarga berilganligi bilan izohlanadi. Quyida biz Buxoro shahar hududidagi shaxs nomlari bilan bog‘liq **godonimlar** (godonim – ko‘cha nomi) xususida kengroq to‘xtalishga harakat qilamiz.

Dunyoga hamisha katta umid, yuksak ishonch bilan boqqan qadim Buxoro barcha davrlarda ham yuzlab iste’dodli olim va ijodkorlarni tarbiyalab voyaga yetkazgan. Ularning nomlarini abadiyatga muhrlashni maqsad etib, joy nomlariga berilishi esa e’tiborga molik.

Buxoro shahrida “Abduxoliq G‘ijduvoni” ko‘chasi mavjud bo‘lib, tasavvufning yirik namoyandasi, Xojagon nomi bilan shuhrat qozongan O‘rta Osiyo tariqatining asoschisi va rahnamosi, 1103-yilda Buxoro yaqinidagi yirik savdo-sotiq karvon yo‘llaridan bo‘lmish G‘ijduvon qishlog‘ida ma’rifatli oilada tug‘ilgan mashhur avliyo sharafiga qo‘yilgandir.

“Sayfuddin Boxarziy” ko‘chasi esa Buxoroda “Shayx-ul olam” taxallusi bilan mashhur bo‘lgan shayx, “Kubraviya” tariqatining vakili, Najmiddin Kubroning muridi bo‘lmish Sayfuddin Boxarziy sharafiga qo‘yilgan. Ushbu inson haqida Navoiyning “Nasoyim-ul muhabbat” tazkirasida iliqlik ma‘lumotlar berilgan. Shu asnoda yana bir narsani ta‘kidlash joizki, ushbu shayxning taxallusi, ya‘ni “Shayx-ul olam” ham Buxoro shahridagi ko‘chalardan biriga alohida nom sifatida berilgan.

Shahar ko‘chalaridan biri “Muhammad G‘azzoliy” deb nomlanib, Abu Homid Muhammad G‘azzoliy(1058-1111) atalmish mashhur ilohiyotchi, islom falsafasiga bag‘ishlangan “Kimyoyi saodat” asarining muallifi, islom olamida eng ko‘p asar yozgan olim nomini abadiylashtirish maqsadida qo‘yilgandir.

“Mironshoh” ko‘chasi ham mavjud bo‘lib, Amir Temurning uchinchi o‘g‘li, Eron, Ozarbayjon va Iroq hukmdori Mironshoh nomiga qo‘yilgandir.

Xoja Bahouddin Naqshband – islom olamining eng mashhur avliyolaridan biri, naqshbandiya tariqatining asoschisi. U milodiy 1318-yilning mart oyida Buxoro viloyatining Kogon tumanidagi Qasri Hinduvon qishlog‘ida tug‘ilgan. Xalq orasida Bahouddin, Bahouddinjon, Xoja Bahouddin, Bahouddin Balogardon, Balogardon, Xo‘jayi Buzruk, Shohi Naqshband nomlari bilan ham mashhur. Ushbu inson sharafiga qo‘yilgan “Bahouddin Naqshband” nomli ko‘cha uning ahli qalbida faxr uyg‘otsa, ajabmas.

Shahrimizda tibbiyot sohasida jahonga mashhur vatandoshimiz - Abu Ali ibn Sino nomi berilgan ko‘cha ham mavjud bo‘lib, ma‘lum va mashhur manzilgohlardan sanaladi.

Shahar ko‘chalaridan biriga ilohiyot nazariyasi sohasidagi xizmatlari evaziga Buxoro shahri “Qubbat-ul islom” unvonini olgan, sunniy mazhabi amaliyotini mahalliy urf-odatlariga moslagan va uyg‘unlashtirgan holda uning rivojiga katta hissa qo‘shgan alloma - Abu Hafsa Kabir nomi berilganiga ham duch kelamiz.

Shahar bo‘ylab kezarkanmiz, yassaviya tariqatining asoschisi, shayx, shoir, “Devoni hikmat” asarining muallifi – Ahmad Yassaviy nomi berilgan ko‘chaga ham duch kelamiz.

Shuningdek, Buxoro shahrida “Mahmud Qoshg‘ariy”, “Ahmad Donish”, “Imom Qozixon”, “Ro‘dakiy”, “Hazrati Qo‘chqor”, “Mirzo Ulug‘bek”, “Xo‘ja Nurobod”, “Xo‘ja Porso”, “Shoh Axi”, “Amiriy”, “Ahmad Donish”, “Afrosiyob”, “Xo‘ja Zayniddin”, “Imom Buxoriy”, “Xo‘ja Azizon”, “Xo‘ja Bulg‘or”, “Muhammad Xorazmiy”, “Zahiriddin Muhammad Bobur” singari tarixiy shaxs nomlari bilan bog‘liqlik toponimlar ham mavjud.

Nisbatan yaqin o‘tmishda yashab o‘tgan taniqli insonlar sharafiga qo‘yilgan ko‘cha nomlari ham talaygina. Bular sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

“Toji Qorayev”, “Mutavakkil Burxonov”, “Toshpo‘lat Hamid”, “Elbek”, “Abdulla To‘qay”, “Abay”, “Hamid Olimjon”, “Jalol Ikromiy”, “Levi Boboxonov”, “Shota Rustaveli”, “Hamza”, “Sadridin Ayniy”, “Zebuniso”, “Maksim Karim”, “Muxtor Ashrafiy”, “Ibrohim Mo‘minov”, “Zulfiya”, “Islom Karimov” kabi ko‘chalar shular jumlasidandir.

Buxoro shahrida shaxs nomi bilan bog‘liqlik toponimlar yuzdan oshiqni tashkil etadi va ularni o‘rganish mobaynida bir qancha nomlarning mazmuni, qo‘yilish sababi izoh talab etadigan holatlarga duch kelamiz. Bu esa bizdan ko‘plab izlanishlar olib borishni talab etadi. Kelgusi ishlarda ana shu jihatlarni qamrab olishga harakat qilamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. ЎзР Марказий давлат архиви хужжатлари.
2. Qorayev S. Toponimika. –T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.
3. Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары–1976.

## ЎЗБЕК ХАЛҚ МУСИҚА ИЖОДИНИ ЎРГАНИШ ЖАРАЁНИДА ИЛМИЙЛИК, ТИЗИМЛИЛИК МАСАЛАЛАРИ.

*М. Умаржонова*  
*ҚДПИИ Мусиқа таълими*  
*йўналиши 3-босқич талабаси.*

“Фольклор - инсониятнинг болалик кўшиғидир!”  
**Ш. Мирзиёев.**

**Аннотация:** Ушбу мақолада энг қадимий ҳаётбахш миллий қадриятларидан бири фольклор санъати ва ўзбек халқ мусиқа ижодини ўрганиш жараёнида илмийлик, тизимлилик масалалари ҳақида фикр юритилган.

**Калит сўзлар:** фольклор, бахши, лапар, маросим, этнография, қадрият, маънавият.

Халқ ижодиётида мужассамлашган юксак маънавий баркамоллик анъаналари бугунги кунда ёш авлодни тарбиялаб, вояга етказишнинг миллий негизи ҳисобланади. Халқимизнинг энг қадимий ҳаётбахш миллий қадриятларидан бири фольклор санъатидир. Бу санъат бадиий анъаналари тизими сифатида халқимизнинг илғор умуминсоний ғояларини такомиллаштириб, келажакка умид, эзгулик, меҳр-саҳоват, инсонийлик, ватанпарварлик билан боғлиқ миллий ва маънавий қадриятларни шакллантиришга хизмат қилмоқда. Халқ ижодиётида мужассамлашган юксак маънавий баркамоллик анъаналари бугунги кунда ёш авлодни тарбиялаб, вояга етказишнинг миллий негизи ҳисобланади. Шу боис ўзбек халқ ижодининг бой ва серқирра анъаналарини қайта тиклаб, кенг ривожлантириш, ёшларнинг бугунги кундаги ижодий салоҳиятини рўёбга чиқариш учун етарли даражада имкониятлар яратиш учун фольклор ва этнография бўйича мутахассисларини тайёрлаш амалий аҳамиятга эгадир. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури ва “Таълим тўғрисидаги” Қонун ҳам мамлакатимиз маънавий ҳаёти учун ғоят зарур бўлган малакали, интеллектуал салоҳияти юқори, маънавий олами теран мутахассисларни тайёрлаш лозимлигини тақазо этади. Фольклор ва этнография йўналиши бўйича мутахассислар тайёрлашнинг миллий негизи – халқимизнинг маънавий қадриятларини янада такомиллаштириш, омманинг ижодий иқтидорини ўстириш, ёш авлод онгига мустақиллик мафқураси ғояларини, миллий қадриятларни сингдиришдан иборат. Чунки бундай мутахассислар ажодларимиз ижодий салоҳиятининг энг яхши анъаналарини келгуси асрда ҳам давом эттиришни таъминлашга ўз ҳиссаларини қўшмоғи керак. Мусиқа жамият маънавий тараққиётида санъатнинг бошқа қирраларига нисбатан глобал таъсир қилиш қудратига эга бўлиб бормоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев таъбирлари билан айтаганда “Тенгсиз маънавий бойлигимиз бўлмиш мумтоз санъатни, халқ ижодининг нодир намуналарини асраб – авайлаш ва ривожлантириш, уни келгуси авлодларга безавол етказиш жаҳондаги илғор фикрли олимлар ва санъаткорларнинг, давлат ва жамоат арбоблари, барча маданият аҳлининг эзгу бурчидир”. Фолклор санъати, таъбир жоиз бўлса, бу – инсониятнинг болалик кўшиғидир. Энг муҳими, бугунги кунда мусиқа санъати навқирон авлодимизнинг юксак маънавият руҳида камол топишида бошқа санъат турларига қараганда кўпроқ ва кучлироқ таъсир кўрсатмоқда”, - деган эдилар. Мустақиллик йилларида, мусиқа санъатига миллий-эстетик қадрият сифатида ёндошиш, унинг гўзал анъаналарини ривожлантириш, мусиқанинг анъанавий ва замонавий йўналишларини янада ривожлантириш мақсадида бар қатор дастурлар ишлаб чиқилди. Шунингдек, фольклор ва замонавий мусиқий меросимизни асраб-авайлаш ва ўрганиш бўйича кўплаб илмий тадқиқот ишлари олиб борилди, халқ оғзаки ижоди қадриятларини қўллаб қувватлашга қаратилган анжуманлар ўтказилди.

Ўзбек мусиқа меросида тўрт асосий локал услуб мавжуд бўлиб, булар: Фарғона – Тошкент, Хоразм, Бухоро – Самарқанд ва Қашқадарё – Сурхандарё маҳаллий услубларидир. Уларнинг ҳар бири қадимдан кузатилиб келинган маълум этник яқинлик ва ҳудудлар аҳолиси ҳаётидаги умумийлик натижасида вужудга келган. Бизга халқимизнинг ижодидаги серкирра жиҳатларида мавжуд бўлган бой меросини ўрганиш имконияти яратилди. Айтиш мумкинки, фольклор санъатининг инсон дунёқарашига таъсири билан боғлиқ ишларнинг умумназарий масалаларига янгича ёндошувлар шаклланди. Эндиликда фольклор нафақат санъат тури балки, у тарбия воситаси, жамият барқарорлигини таъминловчи кучга айланди. Бу ҳолат: биринчидан, бугунги кун ўзбек фольклор санъатининг хусусиятларини илмий таҳлил этиш ва уни замонавий тамойиллари асосида бойитишни талаб этмоқда. Чунки, фольклор ҳам тарбия, ҳам ижтимоий тараққиёт жараёнларини барқарорлаштирувчи муҳим восита сифатида мафкуравий жараёнларнинг марказида туради. Иккинчидан, фольклор ижро санъатининг ёшлар тарбиясидаги аҳамиятини илмий тадқиқ этиш, унинг жаҳон мусиқий меросидаги ўрнини таҳлил қилиш орқали миллий кадрларимизнинг нафис ва гўзал жиҳатларини намоён эттириш ғоятда зарурдир. Учинчидан, бугунги кунда фольклор кўшиқларини ижро этиш жараёни ва амалиёти кескин ўзгариб бормоқда. Бироқ, уни фақат оҳанглар тизими сифатида ўрганиш бу борадаги бир томонлама ёндошишни келтириб чиқаради. Аслида фольклор кўшиқ оҳаниг, куй ва нолани уйғунлаштириши билан ўзининг гўзаллигини намоён эттиради ва инсонга эстетик завқ беради. Тўртинчидан, санъат турлари ичида ўзбек халқ фольклор кўшиқчилиги санъати ўзига хос шакл ва мазмунга эга. Унинг ўрнини бошқа санъат турлари босолмайди: у нодир ва бетакрордир. Унда оҳанг бирикмалари, шакл ва жанрлар, хилма-хил ва мураккаб усуллар мажмуаси, шунингдек, халқ поэтик ижодиётини, хилма-хил куйлар бойлигини муайян тартибга солади. Шунинг учун ҳам у халқ маданиятининг кўриниши сифатида намоён бўлади. Бешинчидан, ўзбек халқ анъанавий мусиқаси бўлмиш мақомлар, маросим мусиқалари, фольклор кўшиқлари ўзига хос бадиий-эстетик жанр тизимидир. Маълумки халқимиз азалдан маънавий дунёси бой, ижодкор халқ бўлган. Аждодларимиздан бизга меърос бўлиб келаётган урф-одатлар, маросимлар ва анъаналарга берилаётган эътибор, уларни тиклаш, сақлаш ва келгуси авлодга етказиш борасида қилинаётган саъий ҳаракатлар Мустақиллик туфайли эришган ютуқларимиз билан чамбарчас боғлиқдир. Зеро, юртимизнинг ворислари бўлган ёш авлодни энг аввало миллий урф-одат ва анъаналар, буюк ўтмишимизга ҳурмат, тарихимиз билан ғурурланиш руҳида тарбиялаш масалаларига ҳукумат томонидан эътибор берилиши, ана шу ишлар учун махсус қарорларнинг қабул қилиниши ва маблағлар ажратилиши бу соҳанинг мамлакат ва миллат учун нақадар муҳимлигини белгилайди.

Бугунги кунда бутун дунё бўйлаб кадрлар тайёрлашга бўлган эътибор кучайиб, бу борада янада юқори масъулият талаб этилмоқда. Шунингдек фольклор-этнографик жамоалари раҳбарларини тайёрлашда қўйиладиган талаблар ва уларнинг етук мутахассис бўлиб етишишида ҳудудий услублардан фойдаланиш йўллари ҳақида сўз борар экан қуйидагиларга эътибор қаратишимиз зарур бўлади. Бўлажак фольклор-этнографик жамоалари раҳбарлари республикадаги барча локал услублардан билим ва кўникмаларга эга бўлишлари мақсадга мувофиқдир. Фольклор санъатида ўзига хос хусусиятлари билан бир-биридан ажралиб турадиган локал услублар мавжуд: 1. Қорақалпоғистон республикаси 2. Хоразм 3. Зарафшон (Самарқанд-Бухоро-Навоий) 4. Сурхондарё-Қашқадарё 5. Фарғона-Тошкент услубларидир.

Юқорида қайд этилган услубларни талабаларга босқичма-босқич ўргатиш лозим. Мисол учун талабанинг ўзлаштириш қобилиятдан келиб чиқиб маълум вақт Самарқанд-Бухоро-Навоий, маълум вақт Сурхондарё-Қашқадарё, маълум вақт Фарғона - Тошкент, маълум вақт Қорақалпоғистон республикаси ва Хоразм ҳудудлари фольклорини ўргатилса мақсадга мувофиқдир. Ҳудудий услубларни ўргатиш жараёнида талабаларнинг тарқатма материаллар (ҳудудий услубларни акс эттирувчи кўшиқларнинг аудио тасмалари, фольклор-этнографик жамоалари дастурларининг видео тасмалари ҳамда фотосуратлари) асосида мустақил таълим олишини ҳам ташкил этиш лозим. Шунингдек талабаларнинг



ишлаб чиқариш амалиётини ҳам ўрганаётган ҳудудда ташкил этилиши янада самаралидир сабаби олинган назарий кўникмаларни амалиётда қўллашлари учун шароит яратилади. Маълумки ишлаб чиқариш амалиётининг вақти деярли барча курслар учун “Наврўз” сайллари ўтказиладиган вақтларга тўғри келади бу эса талабаларнинг ҳудудий услубларни ўрганишида янада қўл келади. Бойиси барча ҳудудларда “Наврўз” сайллари ташкил этилади сайиллар дастурларида эса асосан фольклор кўшиқлари, урф-одатлар намунаси, миллий либослар, миллий рақслар, халқ ўйинлари, миллий хунармандчилик намойиш этилади. Ҳудудий услубларни ўргатишда фольклор кўшиқларини турларга бўлиб босқичма-босқич ўргатилади масалан болалар фольклор кўшиқлари, меҳнат кўшиқлари, мавсум ва маросим кўшиқлари кабилардан намуналар ўргатиб талабаларда ҳудудлараро жанрларни фарқлай олиш кўникмасининг пайдо бўлишига эришилади. Шу йўсинда фольклор санъатининг бошқа жанрлари, тармоқлари ҳам босқичма-босқич ўргатилиши мақсадга мувофиқдир. Маълумки халқимизнинг номоддий-маданий меъроси яъни фольклор санъати ўзига хос хусусиятлари билан ажралиб туради. Ҳар бир ҳудуднинг фольклор кўшиқлари, урф-одатлари, миллий либослари, миллий рақслари ва хунармандчилиги ўша халқнинг тарихини, яшаш тарзини ва ушбу халққа тегишли бошқа жиҳатларини акс этиради. Яна шуниси этиборлики фольклор санъатининг баъзи намуналари бошқа ҳудудларда такрорланмайди ёки кўпроқ намуналар эса ҳар бир ҳудудда мавжуд бўлсада бири биридан фарқли ижро этилади. Масалан: Сурхондарё-Қашқадарё воҳаларида ижро этиладиган “суст хотин” ёмғир чақириш кўшиғи бошқа ҳудудларда кам учрайди ёки Тошкент-Водий ҳудудларидаги “катта ашулла” жанри бошқа ҳудудларда умуман учрамайди бу каби мисолар кўпроқ келтиришимиз мумкин. Шундай экан бўлажак фольклор-этнографик жамоалари раҳбарларига Сурхондарё- Қашқадарё фольклоридан воҳанинг дostonчилик мактабларини, меҳнат ва маросим кўшиқларини, Сурхон рақс услубини, халқ ўйинларини, воҳага хос миллий чолғу ижрочилик йўлларини, миллий либосларини, урф-одат ва маросимларини ўргатиш керак. Самарқанд-Бухоро-Навоий фольклоридан Бухоро мавригини, ушбу учала воҳанинг ўзига хос тожикча фольклор кўшиқлари ва рақсларини, миллий урф-одат ва маросимларини, миллий либосларини ва халқ ўйинларини ўргатиш лозим. Тошкент-Фарғона фольклоридан Фарғонанинг катта ашуласини, Андижоннинг рақсини, Кўқоннинг ёр-ёрини, Тошкентнинг ўланани, водийнинг меҳнат ва маросим кўшиқларини, миллий урф-одат ва маросимларини, миллий либосларини ва халқ ўйинларини ўргатиш лозим. Жиззах фольклоридан Зомин ва Ғаллаорол ҳудудларининг ўзига хос фольклор санъатини ўргатиш лозим. Қорақалпоғистон республикаси ва Хоразм фольклоридан эса Қорақалпоқча фольклор кўшиқларини, Қорақалпоқча ва Хоразмча рақс услубларини, Хоразм ҳазил кўшиқларини, Хоразм халфа кўшиқларини, иккала ҳудуднинг ўзига хос миллий урф-одатлари ва анъаналарини, миллий либосларини, миллий чолғу ижрочилик услубларини, миллий халқ ўйинларини ўргатиш керак. Ҳар бир ҳудуд халқининг фольклор ижодидаги маҳаллий шевадар, миллий либослар ва шу каби бошқа намунавий томонлари билан бўлажак фольклор-этнографик жамоалари раҳбарларини чуқурроқ таништириш ва бу борада билим ва кўникмаларни биринчи босқичда ўргатиш янада самаралидир. Шу тариқа ҳудудий услубларни мукамал ўргатиш асносида Фольклор-этнографик жамоаларига ҳар томонлама етук раҳбарларни тайёрлашга эришиш мумкин бўлади. Хулоса қилиб шуни айтиш жоизки ҳозирги замон ёшларини комил инсонлар қилиб тарбиялашда фольклор ижро санъатининг роли бениҳоя катта. Бизнинг ота-боболаримиз ўзларининг қалбидан ҳаётидаги қувончли онлар, эришган ютуқлар, бошларига тушган кулфату, дарду аламларни ўзида акс эттирувчи халқ кўшиқларига кенг ўрин ажратиб яшаганлар. Ҳозир ҳам мусиқасиз ҳаётимизни тасаввур этиш қийин. Шунинг учун ҳам фольклор мусиқий меросимизни асраб-авайлаш ва ўрганиш, уни ёшларимизга етказиш бизнинг бош мақсадимиздан бири бўлмоғи лозим. Маънавий меросимиз бўлган анъанавий ижрочилик санъатини баркамол авлод онгига сингдириш биз устозларнинг бурчи саналади. Бугунги жаҳоннинг глобаллашув даврида “оммавий маданият” таъсиридан ёш алодни ҳар томонлама муҳофаза қилишда фольклор кўшиқ ижрочиликнинг ўрни беқиёсдир.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев. Халқаро бахшичилик санъати фестивали очилишига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. (2019 йил 8- апрель, душанба. “АДОЛАТ” газетаси.№ 14 (1235).
2. У.Курбанова, Б.Кудайбергенова ва бош. Фольклор қўшиқ ижрочилиги. – 2014
3. Н.Қосимов. Фольклор мусиқа ижрочилиги. Ўқув қўлланма. – Т.: “Талқин”, - 2008.
4. О. Ҳайитова. Хоразм қўшиқчилилик санъати дурдоналари. – Т.: “Ношир”, - 2009.
5. Ў.Тошматов. Фольклор қўшиқлари. Ўқув қўлланма. – Т.: “Халқ мероси”, -2003.
6. “Танаворлар”. Т.: -2003. 66 б.
7. М. Жўраев, Ў.Тоҳиров. Остонаси Тиллодан. Т. 2003.
8. “Шода-шоода марварид”Ўзбек халқ қўшиқлари.Т.: “Шарқ”, - 2006. 416 б.
9. Алла қўшиғи - оналар орзуси. Т.: - 2001.
10. Бебаҳо маънавий мерос. Т.: «Камолот», - 1999.

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING AQLIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.

*Umarova Azizaxon Burxonovna*  
*Navoiy Davlat Pedagogika instituti*  
*Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti 2-kurs talabasi.*

Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat<sup>176</sup>.

**(O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev)**

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan buyon ulkan islohotlar va taraqqiyot bosqichini bosib o'tdi. Ushbu taraqqiyot va bunyodkorlik yo'lida barkamol avlodning o'rni juda katta. Mamlakatimiz rivoji taraqqiyotining asosi ta'lim tizimining sifatli va mukammalligi bilan ham bog'liq. Shu bois “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning maqsadi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdan iborat<sup>177</sup>. Ta'lim tizimining sifatini yanada oshirishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati kattadir. Innovatsion texnologiyalar bugungi zamon bilan hamnafas va o'quvchilarning aqliy qobiliyatini o'stirishda, ularning darsga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishda, dars jarayonida ularning diqqatini jamlashda qo'llash mumkin bo'lgan eng samarali usullardan biridir. Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilikdir. A.I. Prigojin innovatsiya deganda muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg'un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir.

Texnologiya (yun. “techné” - mahorat, san'at; “logos” - tushuncha, ta'limot) - ishlab chiqarishning biror sohasida xomashyo, material, yarim fabrikat va shu kabilarga ishlov berish yoki qayta ishlash, ularning holati, xossalari va shaklini o'zgartirishda qo'llaniladigan usullar (metodlar) majmui. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi. Interfaol metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi<sup>178</sup>.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

1. O'quvchilarning dars davomida befarq bo'lmasligiga, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish;
2. O'quvchilarning o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlash;
3. O'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;
4. Pedagog va o'quvchilarning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etilishi.

Ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalardan, turli xil interfaol metodlar foydalanish o'qish jarayonining samarali bo'lishiga va o'quvchilarning bilim salohiyatini oshirishda yaxshi natija beradi.

<sup>176</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi so'zlagan nutqidan.

<sup>177</sup>O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida”gi Qonuni. Barkamol avlod –O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: “Sharq”, 1998.

<sup>178</sup>Tolipov O'tkir. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat (o'quv qo'llanma)/ Dilnoz Ro'ziyeva / -Toshkent: “INNOVATSIYA-ZIYO”, 2019, 276 b.

Ayniqsa boshlang'ich o'quvchilarining o'quv dars jarayonlarida turli xil innovatsion texnologiyalardan foydalanish, ularning darsga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi, diqqatini jamlashda va mustaqil fikr yuritishda yaxshi yordam beradi. Ta'lim tizimida qo'llanadigan innovatsion texnologiyalardan eng samaralisi bu didaktik o'yin texnologiyalaridir. Bilamizki, didaktik o'yinlar qiziqarli va bolalarning diqqatini tezda jamlashga yordam beradigan innovatsion texnologiyalardan biridir. Ta'lim jarayonida didaktik o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda o'quvchilarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli o'quvchilarning ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deb ataladi. Inson hayotida o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi: O'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi; O'yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ – muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi; Shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi; Hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengish va mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi; O'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi; Shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi; Insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor qaratiladi; Birgina didaktik o'yinlar orqali o'quvchilarda ko'plab bilim- ko'nikma va axloqiy sifatlarni shakllantirish mumkin. O'quvchi faqatgina yangi bilim olib, yoki olgan bilimlarini mustahkamlab qolmasdan o'zida yaxshi insoniy hislatlarni ham rivojlantirib boradi. Didaktik o'yinlarni qo'llashdan maqsad o'yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi. O'qituvchi-pedagog avval o'quvchilarni individual (yakka tartibdagi), so'ngra guruhli o'yinlarga tayyorlashi va uni o'tkazishi, o'yin muvaffaqiyatli chiqqandan so'ng esa, ularni ommaviy o'yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki o'quvchilar didaktik o'yinli mashg'ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari, bundan tashqari, guruh jamoasi o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam vujudga kelishi lozim. O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini o'quvchilarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi. Ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun didaktik o'yinlar muhim rol o'ynaydi. Ularning xotirasini kuchaytirishda, darsda faolligini ta'minlashda va dars mavzularining yaxshi tushunilishi va ularning o'quvchilar xotirasida yaxshi saqlanishida, dars davomida o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishda va ularning darsda zerikishining oldini olishda yoki charchab qolmasligi uchun ham didaktik o'yinlardan foydalanish yaxshi samara beradi. O'quvchilar biror bir ma'lumotni eshitgandan ko'ra ko'rganlarida yoki o'zlari eshitgan ma'lumotlarini qayta takrorlaganlaridagina ularning xotirasida yaxshi saqlanadi. Bilamizki, didaktik o'yinlarning ko'p qismi ko'rgazmali ko'rinishda bo'ladi. Ko'rgazmali yoki tarqatma didaktik o'yinlar rang- barangligi bilan ham o'quvchilarning diqqatini tortadi. Qaysidir ma'noda ularning ijodkorlik qobiliyatlarini ham shakllantiradi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda ko'proq didaktik o'yinlardan foydalanish kerak. O'quvchilarning faolligini oshirishda va diqqatini jamlash uchun qo'llash mumkin bo'lgan bir nechta zamonaviy didaktik o'yinlardan keltirib o'tmoqchiman.

#### **“Begona so‘z” usuli.**

Bu usul uchun “O‘qish kitobi” da berilgan biror bir she‘r yoki matn asos qilib olinadi. O‘quvchilar berilgan vaqt ichida jadvalda berilgan 4 ta so‘zdan matn yoki she‘rda uchramaydigan so‘z yoki so‘zlarni topishi talab qilinadi.

Namuna

#### **“Oftob bobo ”.**

She‘r. Rauf Tolib 2-sinf

– Qarimas nega oftob,

Nega nuri bo‘lmas sob? –

Oftobning bag‘ri keng,

U hammani ko‘rar teng, (Rauf Tolib)

Oftob	Bag'ri
nur	barobar

**Begona so‘z: barobar.**

Natijaviyligi

- O‘quvchilardagi mantiqiy fikrlash ko‘nikmasi rivojlantiriladi;
- Matnni tahlil qila olish malakasi sinaladi;
- Mustaqil fikrlashga yordam beradi;
- Qiyosiy o‘rganishga o‘rgatadi.

**“Quvnoq kubikchalar” ta’limiy o‘yini**

Bu o‘yinda kubikning 6 tomoniga rasmlari harflar joylashtiriladi. O‘quvchilar guruhlariga bo‘linadilar. Guruhga kubikni aylantirish orqali tushgan harfni aniqlab oladilar. Har bir guruhda bu faoliyat tashkil qilinadi va guruhlar tanlab olgan harflarga mos so‘zlarni matndan topib yozadilar.

Bunda o‘quvchilarda o‘qish ko‘nikmasi, matn tarkibidagi tanlangan harfga oid so‘zlarni ajrata olish ko‘nikmasi va so‘zlar jamlanmasi hosil bo‘ladi.

**Quyosh – quvvat manbai.**


– Hoy, Robotjon, quyoshda sarg‘ayib nima qilib turibsan? – Men shunchaki turganim yo‘q. Quyoshdan quvvat olayman. – Bo‘lishi mumkin emas, qanday qilib? – Bosh qismimga nurni qabul qilib oluvchi uskuna o‘rnatilgan. Bu uskuna quyosh nurini elektr energiyasiga aylantirib beradi.

– Qoyil! Demak, Quyosh nuridan ham elektr toki olsa bo‘lar ekan-da?

– Albatta. Mana bu rasmga qarab bariga tushunib olasan.

– Ha, endi tushundim. – Aytgancha, quyosh tig‘ida ko‘p yuraverma. Bu odamlar uchun zararli<sup>179</sup>. “Gulxan” jurnali.

**Namuna: Q**-Quyosh, **K**-ko‘p, **A**- aytgancha, **B**- bu, **T**-tig‘, **M**-men.



Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, didaktik o'yinlar olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o‘qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, didaktik o'yinlar faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'rnini barqaror qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Didaktik o'yinlar ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi. O‘quvchilarning hayotda o‘z o‘rnini topishida ham didaktik o‘yinlarning o‘mi beqiyos.

<sup>179</sup> Ona tili va o‘qish savodxonligi. 2-qism[Matn]: darslik 2- sinf uchun / K.Mavlonova [va boshq.]. —Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021.-120 b.



## AMIR TEMUR — ILM-FAN VA MADANIYAT HOMIYSI

*Urunov Shoxijahon Jamshidovich*  
*Buxoro Davlat universitetining*  
*Pedagogika instituti 1-bosqich talabasi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Sohibqiron Amir Temurning ilm-fan va madaniyat sohasiga qo'shgan hissasi, Samarqand va boshqa shaharlarda qurdirgan madrasalari, obod qilgan shaharlari, bunyod ettirgan chorbog'lari, olim-u fozillarga bo'lgan munosabatlari haqida qisqacha ma'lumotlar beriladi.

**Kalit so'zlar:** Amir Temur, Samarqand, chorbog', madrasa, masjid, Klavixo, Bibixonim madrasasi, Shohizinda, darvoza, karvonsaroy.

Darhaqiqat, madaniyat tarixida shunday davrlar bo'lganki, Turkiston tuprog'i fozillari o'z kashfiyotlari bilan jahon fani taraqqiyotiga munosib hissa qo'shganlar. Turon tarixida madaniy uyg'onish davrlari ko'p bo'lgan. Ana shunday renessans davrlari ichida Amir Temur va temuriylar davri alohida o'rin tutadi. Alisher Navoiy Sohibqiron Amir Temur haqida mehr bilan yozadilar: "Muluk shajaralarining bo'stoni va salotin gavharlarining ummoni, hoqoni jahongir sohibqironi sohibi tadbir, ya'ni Amir Temur Ko'ragon, anarolloxu burhonahu, agarchi nazm ayturg'a iltifot qilmabdurlar, ammo bu nazmni xo'b mahalda o'qubdurlarkim, aningdek bayt o'qug'on ming yaxshi bayt aytg'oncha bor". Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, Amir Temur olim-u ulamolarni nihoyatda hurmat qilar, ularga nisbatan odob bilan muomalada bo'lgan. Sohibqiron donish ahlini o'z huzuriga yig'ib, poytaxtni ilm-u fan nuri bilan charog'on etish, ilm-u ma'naviyatga homiylik qilish orqali shukuh va saltanatlari dovrug'ini oshirishni maqsad qilgan. Barcha olimlarga maishati va ilmiy izlanishlari uchun yetarli darajada maosh va uy-joy tayin qilgan. Manbalarda qayd etilishicha, Amir Temurning olim-u fozillarga homiyligi, mamlakat obodligi uchun qayg'urishi, shahar hunarmandlariga keng imkoniyatlar yaratgani ul zotning o'gil va nabiralari davriga kelib madaniy uyg'onish jarayoni uchun imkon yaratdi. Shunday ekan, buyuk bobomizni temuriylar davri renessansining tamal toshini qo'yuvchisi deb qarashga to'la asos bor. Uzoq izlanishlar shu fikrga kelish uchun yetarli dalillar topishimizga imkon yaratdi. Amir Temur ko'p yillar davom etgan feodal tarqoqlik va urush-talashlar natijasida vayron bo'lgan xalq xo'jaligini tiklash, shaharlarni qayta qurish va mamlakatni obod qilish ishiga katta hissa qo'shdi. Ma'lumki, Movarounnahrning juda ko'p shaharlari Chingizxon istilosi davrida vayron qilinib, shu paytgacha tiklanmagan edi. 1371-1372 yillari poytaxt Samarqandning buzilib yotgan histori va uning devorlarini, Shahriston va uning olti darvozasi (Shahzoda, Ohanin, Feruza, So'zangaron, Korizgoh, Chorsu) ham tiklanib, obod qilindi. Temurning amri bilan Samarqand arki ichida to'rt qavatlik ikkita ulkan saroy—Ko'k saroy va Bo'ston saroy qurildi. Ko'ksaroyda davlat xazinasi, podshohga qarashli turli ustaxonalar va qamoqxona joylashgan. Bo'ston saroy esa podshohning asosiy qarorgohi bo'lgan. Temur davrida shahar ko'chalari qayta qurilib, bozorlar obod etildi. Klavixo yozadi: «Samarqand shahrida har yili Xitoy, Hindiston, Tatariston (Dashti Qipchoq — B.A) va boshqa mamlakatlardan, shuningdek, nihoyatda boy Samarqand saltanatining o'zidan keltirilgan mollar sotiladi. Shaharga olib kelingan mollarni bir yerda, tartib bilan joylashtirib, sotadigan joy yo'q edi shu paytgacha. Podshoh shaharda ikki tarafida qator do'konlar o'rnatilgan savdo rastasi bo'lgan ko'cha o'tkazishni buyurdi. Amir Temur shahardagi har bir mo'min-musulmon uchun muqaddas hisoblangan joylarni obod qilishga alohida e'tibor berdi. Shunday muqaddas joylardan biri Shohizinda bo'lib, Temur davrida O'lja oyim, Tug'luq tekin, hazrat sohibqironning opasi Qutlug' Turkan og'o, singlisi Shirinbeka maqbaralari qurdirilgan. Amir Temurning katta xotini Tuman og'o ham Shohizindada bir qator imoratlar (masjid, xonaqoh, maqbara, chortoq) va Samarqandning Chorsusida Tim qurdirgani ma'lum. Mashhur Ruxobod (Burhoniddin Sog'arjiy mozori), Shayx xoja Nuriddin Basir («Qutbi chahordahum» nomi bilan mashhur) maqbaralari, Go'ri Amir xilxonasi ham Temur davrida bino qilingan yodgorliklar jumlasiga kiradi.

Amir Temurning sa'y-harakati bilan Samarqandda birmuncha jamoat binolari (masjidlar, hammomlar, madrasalar, xonaqohlar va karvonsaroylar) ham qurildi. Shulardan XIV asr oxiri — XV asr boshlarida qurilgan Bibixonim madrasasi (1399-1404) shular jumlasiga kiradi. Amir Temur Samarqand atrofida yangi-yangi shaharchalar qurdi, ajoyib chorbog'lar bunyod etdi. Shaharchalarni Misr, Dimishq, Bag'dod, Sheroz va Sultoniya deb atadi. Buning tagida katta maqsad va siyosat yotardi.. Bu bilan Temur Samarqand va o'z saltanatini jahonning matkazi deb, boshqa poytaxtlar esa uning atrofida aylanuvchi yo'ldoshlar demoqchi bo'lgan. Hazrat Sohibqiron Samarqand va uning atrofida 1378-1404 yillar orasida Bog'i nav, Bog'i jahonnumo, Bog'i taxti qoracha va Bog'i davlatobod singari ajoyib chorbog'lar ham bunyod ettirdi. Ularning baland yerida muhtasham qasrlar, qasr oldida esa favvoralar o'rnatilgandi. Temur va Temuriylar qurdirgan chorbog'lar katta va mahobatli bo'lgan. Umuman, Samarqand Temur zamonida mustahkam va chiroyli shaharga aylandi. Hofizi Abruning so'zlari bilan aytganda, "Temur loydan bo'lgan Samarqandni qaytadan toshdan qurdi".

Sohibqiron Amir Temur davrida O'rta Osiyoning mustaqil bir davlat ostiga birlashtirilishi, mamlakat ichida tinchlik o'rnatilishi shubhasiz, mamlakatning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda ilm-fan, adabiyot va san'at, hunarmandlik va me'morchilik ravnaq topdi. Temur o'zi turli mamlakatlarda urush olib borgan bir vaqtda mamlakat va uning poytaxti Samarqandning obodonchiligiga katta e'tibor berdi. Buning uchun Movarounnahrning hamma joylaridan, Yaqin va O'rta Sharq o'lkalaridan, tobe mamlakatlardan juda ko'p fan va san'at ahllarini, iste'dodli sohibi hunarlarni, me'mor va musavvirlarni poytaxtga to'pladi. 1404-1406 yillarda Samarqandda bo'lgan Ispaniya elchisi Gonzales de Klavixo bu haqida o'z kundaliklarida Samarqandning benihoya obodligini, aholisi beqiyos ko'p va gavjumligini, Samarqandda yerli xalqdan tashqari xristianlar, yunonlar, eroniylar, turklar va arablar kabi turli qavm va turli mazhabdagi kishilar istiqomat qilishini, Temur tomonidan turli mamlakatlardan yuz mingga yaqin olimlar, hunarmandlar, me'morlar, san'atkorlar Samarqandga olib keltirilganini batafsil hikoya qiladi.

Arabshoh Sohibqiron Samarqandda to'plagan mashhur olimlar, munajjimlar, san'atkorlardan o'z xotirasida qolganlarini tilga olib, Tabrizlik mohir xattot Ibn Badgir, Tojuddin as-Salmoniy, munajjim va misgar mavlono Ahmad, Sherozlik zargarlardan al-Hoj Ali va al-Hoj Muhammad, Hofiz sangtarosh va naqqosh Oltunlar nomini alohida qayd qiladi. <<Uning (Temurning) naqqoshlari ko'p, ularning eng ustuni Abdulhay al-Bag'dodiy bo'lib, u o'z san'atida mohir edi; bog'bonlardan Shihobuddin Ahmad al-Zarkashiy; shisha va misga naqsh soladiganlar va ulardan boshqalar hisobsizdirlar. Ularning har biri o'z asrining allomasi, o'z davrining mo'jizakor kishilari edilar... Xullasi kalom, Temur har bir foydali jonni yig'ib, nimaiki bo'lsa sarasini Samarqandga keltirdi. Natijada Samarqandda har bir ajib fan ahli namoyondalaridan va san'atlar g'aroyib uslubidan, fazilatidan ustun turgan o'z sohasida alloma kishilar yig'ilgan edi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ryui Gonzales de Klavixo. «Jizni i deyaniya velikogo Temerlana; dnevnik puteshestviya po dvoru Temura v Samarkande 1403-1406»
2. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. Toshkent, "Mexnat", 1992-y., 86-87-betlar.
3. Ahmedov, Bo'ribov. Sohibqiron Temur: (Hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati). T-1996-y, 136-b.
4. Naim Norqulov "Temuriylar davri madaniyati tarixidan lavhalar", "Xorazm" nashriyoti. 1996.

## XITOIY TILIDA SINONIMLAR (同义词 SINONIMLAR)

*Uzaqboyeva Shahnoza Azamat qizi*

*Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti*

*Xitoyshunoslik fakulteti 3-kurs talabasi.*

*Ilmiy rahbar: Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti*

*Xitoyshunoslik fakulteti f.f.f.d PhD Sultanova Lola Akmalovna*

**Anotatsiya:** Sinonimlarni ilmiy o'rganish borasidagi xitoy tilshunoslari olib borgan ilmiy ishlarni tushuntirish; Xitoy tadqiqotchilarining sinonimlar haqidagi fikrlarini yoritib berish; sinonimiyaning asosiy tushunchalarini shakllantirish; sinonim so'zlarning xitoy tilidagi ahamiyatini tushuntirish; sinonimiya bilan tanishtirish.

**Kalit so'zlar:** sinonimlar, sinonimiya, semantika, bir-biriga yaqin ma'noli so'zlar, teng ma'noli so'zlar, bir-biriga aynan o'xshash so'zlar.

Sinonim so'zlar (同义词 tongyici) yoki ma'nodosh so'zlar bir xil yoki bir-biriga yaqin ma'nolarni anglatuvchi, lekin shaklan har xil bo'lgan so'zlardir. Sinonimlar semantik jihatdan yaqin, o'xshash, parallel hosil bo'ladigan so'zlardir. Ma'noviy yaqinlikka ega bo'lishiga qaramay ular semantik jihatlar orqali bir-biridan ham farqlanadi. Sinonimlar kelib chiqishining har xil sabablari bor. Xitoy tilida sinonimlarning bir nechta kelib chiqish sabablarini ko'rish mumkin. Ko'pgina leksik sinonimlar tilda nozik ma'noviy farqlarni yetkazib berish uchun ham kerakdir, shu tariqa ular hayotga tadbiiq qilingan. Qadimiy veynan va yangi bayxua tillari ham sinonimlarning paydo bo'lishining asosiy sabablaridan biridir. Yakka sinonimlarning ma'lum miqdorda ko'payishiga umumxalq putunxua tilida shevaga oid so'zlarning vujudga kelganligidir. Shu bilan birga boshqa tillarda o'zlashgan so'zlarining kirib kelishi ham sinonimlarning paydo bo'lishida katta ro'l o'ynaydi<sup>180</sup>. Tilning barcha boyliklarini rivojlantirish va undan foydalanish so'zning xususiyatlarini, uning ma'nolarini, boshqa so'zlar bilan qo'shib, sinonimik qator hosil qilish qobiliyatini chuqur o'rganmasdan mumkin emas. Biroq, so'z va uning xususiyatlari, shuningdek, tilning tuzilishini rivojlantirish bilan bog'liq ko'plab muammolar hali oxirigacha hal qilinmagan. Sinonimlar muammosi ham ana shunday muammolar qatoriga kiradi. Sinonimiya tilning turli darajalarida kuzatiladigan universal hodisadir. U nutqiy fikrlash faoliyatida muhim rol o'ynaydi, chunki u so'zlovchiga bir qator ma'no jihatdan yaqin leksemalar yoki sintaktik tuzilmalar ichidan optimal ifoda usulini tanlash imkoniyatini beradi. Sinonimik munosabatlar tahlili o'xshashlik va farqqa oid umumiy mantiqiy masalalarga oid savollarni yechish bilan chambarchas bog'liq. Sinonimik munosabatlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, agar sinonimiya faktining o'zi ikki yoki undan ortiq so'zlarning semantik o'xshashligi asosida aniqlansa, sinonimik qatorning har bir a'zosining xususiyatlari sinonimlar orasidagi farqlarni hisobga olgan holda beriladi<sup>181</sup>. Sinonimiyaning o'rganishda bir nechta yondashuvlar mavjud: birida asosiy e'tibor ma'nolarning o'ziga xosligi yoki o'xshashligiga qaratiladi, ikkinchisi asosan mantiqiy ekvivalentlikka, matnda ularning to'liq yoki qisman almashinishiga asoslanadi, uchinchisi, ularning baholovchi, xarakterlovchi, stilistik xususiyatlar. Sinonimiya haqida mos ravishda tor va keng tushuncha mavjud, chunki til birliklarining xususiyatlari ularning ma'nosida to'liq (tor) yoki qisman (keng) mos keladi. Birinchisi, gaplarni adekvat ifodalashda, ikkinchisi - belgilangan ob'ekt mazmunini oydinlashtirishda va uning turli tomonlarini ochib berishda katta ahamiyatga ega. Sinonimlar - bir xil yoki juda yaqin lug'aviy ma'noga ega bo'lgan, bir xil bo'lakdagi so'zlar yoki turli xil, lekin ma'nosi bir xil yoki juda yaqin bo'lgan so'zlar. Sinonimlar, bir xil narsani nomlash, har doim bir narsada farqlanadi. Biroq, bu farqlar sinonimlarning asosiy xususiyatini - ma'lum kontekstlarda bir so'zni boshqa so'z bilan almashtirish imkoniyatini aniqlaydigan ularning nominativ umumiyligini nazarda tutadi.

<sup>180</sup> Горелов В.И. Лексикология современного китайского языка. –М., 1984. –С. 122 б.

<sup>181</sup> Ahrens, Ketlin. Normallar va afaziyalarda klassifikator ishlab chiqarish. Xitoy tilshunosligi jurnali. 2017, 202–247 bb.

Sinonimlar ko‘pincha turli xil tovushlar va o‘xshash ma‘nolarga ega so‘zlar deb ta‘riflanadi. Bunday ta‘rif til tizimi hodisasi sifatida sinonimlarning mohiyatini noto‘g‘ri tavsiflaydi. Sinonimlar orasida faqat shunday so‘zlar borki, ular bir-biridan qo‘shimcha ma‘no ohanglari bilan ajralib turadi, lekin aslida shunday sinonimlar mavjud bo‘lib, ular orasidagi farq faqat ekspressiv-stilistik rang berish yoki qo‘llanishda va hokazoda ajralib turadi. Shuningdek, bir-birini almashtira oladigan sinonimlar yo‘q deb o‘ylayman (oxir-oqibat, sinonimlarning ma‘nolari faqat yaqin, bir xil emas), garchi aslida bu nisbatan yaqin ma‘nodan farqli o‘laroq, sinonimlarning eng muhim, eng xarakterli xususiyatidir, lekin baribir sinonim bo‘lmagan so‘zlar. Bu holda sinonimik kontekstlarning ikki turi mumkin: neytrallashtirish, bunda sinonimlarning farqlari nuqtai nazardan ahamiyatli emas. bayonot mazmuni va farqlash, bu yerda ularning farqlari diqqat markazida. Birinchi holda, mos kelmaydigan sinonimlar ishora qiluvchining qo‘shimcha belgilari sifatida "jamiqlanadi", ikkinchisida ular qarama-qarshi qo‘yiladi, fikr mazmunini oydinlashtiradi<sup>182</sup>. Tildagi sinonimiya hodisasi umumiy tilshunoslikning semantika, ya‘ni so‘zning ma‘nosiga oid masalalardan biridir. Semantika atamasining o‘ziga umumiy tilshunoslikda shunday ta‘rif beriladi: Semantika (yunon. semantikos belgilovchi, bildiruvchi) so‘z so‘zning bir qismi, so‘z birikmasining ma‘no tarafidir<sup>183</sup>. Sinonimiya hodisasi ma‘nosi bir-biriga yaqin bo‘lgan so‘zlarning shakl jihatidan turlicha bo‘lishidir<sup>184</sup>. Sinonimlarni aniqlashda ma‘no-mazmun me‘zonlari odatda, mazmun uyg‘unligi tahlili bilan to‘ldiriladi: qator matnlarda sinonimlar o‘rtasidagi mazmun farqi xiralashadi, bilinar-bilinmas holatga keladi va bunday matnlarda (ularni neytral qiluvchi deb ataydilar) so‘zni aytilgan umumiy ma‘nosini o‘zgartirmasdan o‘zaro almashtirish mumkin: Bola qumda kurak bilan chuqurcha kovladi (qazidi)<sup>185</sup>. Biroq, odatda, barcha matnlarda ham bunday almashtirish mumkin emas: Yumronqoziq shudgorda yer qazidi (kovladi emas).

**Xulosa.** Zamonaviy xitoy tilida mutlaq sinonimlar mavjud, ammo ularning soni oz. Sinonimlarning mutlaq ko‘pchiligi o‘ziga xos qo‘shimcha semantik, ekspressiv-emotsional-baholovchi, shuningdek, funktsional-stilistik turlari bilan ajralib turadi. Sinonimlarning asosiy qismi bir xil yoki mutlaq sinonimlardan farqli o‘laroq, ularga xitoycha so‘zni tongiyici atamasi bilan to‘g‘ri sinonimlar deb atash mumkin. Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, tilshunoslikda olib borilayotgan har bir izlanish nafaqat xitoy adabiy tilining boyib borishiga balki, shu tilda muloqot qiluvchi xalq ma‘naviyatiga ham ta‘sir ko‘rsatishiga aminmiz. Mana shunday mavzu va g‘oyalarni xitoy va boshqa xorijiy tillar bilan hamohang holda o‘rganish har bir tadqiqotchi va o‘quvchilar uchun asos vazifasini bajarib, o‘rganilayotgan obyektни yanada takomillashib, sayqallanib borishida muhim ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.L.A.Sultanova Xitoy tili leksikologiyasi Toshkent,2019.111b
- 2.刘月华《实用现代汉语语法》- 北京, 1986年。340页
- 3.Karimov A.A Xitoy tilining asosiy grammatik birliklari.Toshkent,2001 y.
- 4.王波“王力文集”，第三卷，山东教育出版社出版，1995，678页
- 5.孙常叙“汉语词汇”，吉林人民出版社，1996年，288页
- 6.张静“词汇教学讲话”，武汉：湖北人民出版社，1997年。178页
- 7.孙良明“同义词的性质和范围”，语文学习，1998年。
8. <http://www.baidu.com>.

<sup>182</sup> Biq, Yung-O. Klassifikator va konstruksiya: grammatik kategoriyalar va kognitiv strategiyalarning o‘zaro ta‘siri.

<sup>183</sup> XX asr Словарь иностранных слов. Москва, Русский язык, 1980.с.458

<sup>184</sup> Узбек тилининг изохлаи лугати.-Москва, Рус тили нашрийоти,1981,-52 б

<sup>185</sup> Ona tili.10-11-sinf. Darslik.T.,O‘qituvchi,1997 y.-23 b.



## SCIENTIFIC BASIS OF TOMATO SELECTION AND GENETICS

*Xakimov Shaxbozbek Shavkatbek ugli*

*Master of Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology.*

**Abstract:** The tomato is native to western South America. Wild versions were small, like cherry tomatoes, and most likely yellow instead of red. The Spanish first showed tomatoes to Europe, where they became used in Spanish and Italian food. The French and northern Europeans wrongly thought that they were poisonous because they are a member of the deadly nightshade family. The leaves and immature fruit contains tomatine, which in large amounts would be toxic. However, the ripe fruit contains no tomatine.

**Key words:** Breeding, domestication, genomics, *Solanum lycopersicum*.

At the end of the 19th century, numerous cultivars of tomato were available in different colours and for different purposes. These cultivars could be considered as landraces and products of domestication and some early breeding. Most of these cultivars require open pollination and the propagation was done by the farmers and growers who could easily obtain seeds from the fruits for the next generation. Because tomatoes do not naturally out-cross very often, seeds of a tomato produce plants resembling the parent. Due to this property, earlier tomato cultivars were selected and inherited in a family or community, thus earning the name heirloom. Heirloom tomato varieties are open-pollinated and are unique in size, shape and colour (Watson, 1996). Available in varieties with diverse characteristics, heirloom tomatoes tend to be prized for their distinctive flavours. At the beginning of the 20th century public institutes, mainly in the USA, became more involved in tomato breeding. Meanwhile, private companies were formed and commercial breeding has shifted open-pollinated cultivars to hybrids. Hybrids combine good characters from both parents that will segregate in the progeny, discouraging seed propagation by growers. The advantages of hybrid varieties over true breeding varieties were so great that the growers would buy hybrid seeds at higher prices. In 1946, the first hybrid tomato cultivar ‘Single Cross’ was released (Dorst, 1946). Eventually, nearly all tomato cultivars for the fresh market and an increasing number of cultivars using in processing are hybrids. Although the process of plant breeding is theoretically simple, it does create novelty. The art of tomato breeding is identifying and combining the specific traits for each market. The fresh product is sold in a wide range of shapes and sizes, from the small cherry tomato to very large beef tomatoes. Typically breeders are continuously improving their breeding lines, either by making new crosses with their own material or by using the cultivars of their competitors, which is allowed by breeders' law (UPOV Breeders Rights, 1961). Breeders in this fashion use naturally occurring recombinations to produce cultivars that combine favourable traits. New traits are rarely introduced from wild germplasm as it may take many generations to remove the deleterious genes that go along with the introduced genes due to linkage drag. When the parental lines are more fixed ( $F_4$  to  $F_6$ ), crosses are made to produce test hybrids. After several generations of testing at the breeders' site and eventually at the farmers' sites, the best hybrids are selected for commercial usage. Hybrids of tomato show some heterosis, but this is only selected for at the latest stage of the breeding programme, when test hybrids are generated. In earlier generations the parent lines are selected at a single plant basis but not for combining abilities or heterosis. So, recurrent selection programmes to select parents with the best combining abilities, like that used in field crops, is not a common practice in tomato breeding. Nowadays, there are a dozen tomato-breeding companies which are the main players in the world market. In order to survive, seed companies must continuously develop new cultivars with added value and hence commercial tomato breeding is very innovative. The average turnover time of commercial tomato cultivars is approx. 5 years. This system results in a very competitive breeding practice and breeding companies can only get return on their investments if they can get high prices for their seeds.



This is certainly true for the fresh tomato market, and less so for the tomato-processing industry where seed (and tomato fruit) prices are much lower and the volumes much larger. The annual value of the worldwide tomato seed market is about half a billion euros with the majority being for fresh market tomatoes. Tomato domestication and breeding: what have we gained and what can we gain in the future?

In this review, we have looked into the domestication and breeding processes in tomato and the new insights from recent developments in tomato genome research. We show that large variation is present and exploitable in the wild *Solanum* species. As a consequence of inbreeding during tomato domestication, the genetic diversity in cultivated tomato is now very narrow. Much of the genetic variation was due to spontaneously occurring mutations that were rapidly introduced into new cultivars if these had added value. Sooner or later, a ceiling of the potential of tomato breeding by only using the cultivated germplasm will be reached. To explore tomato biodiversity, ILs that carry small introgressed chromosome fragments from related wild species in a cultivated tomato background are most useful. However, it is virtually impossible to exploit all individual wild accessions by generating genetic libraries of ILs, considering >75 000 *Solanum* accessions are conserved in genebanks around the world (Larry and Joanne, 2007). It is expected that in the next decade the genome sequence of tomato, at least for the gene-dense regions, will be determined. With techniques like Eco-tilling, allele mining will greatly facilitate the identification of useful genes in the wild tomato germplasm (Comai *et al.*, 2004). Thanks to the synteny among the *Solanaceous* crops and even the microsynteny with *Arabidopsis* it is expected that our knowledge about the function of tomato genes will gradually increase. The increasing knowledge from tomato -omics will challenge traditional tomato breeding methodology. With all the genomics, expression and metabolite databases, breeders' capital will shift from the field to the computer. The breeder will select the best combinations of genotypes and design programmes to combine traits in new cultivars in a 'breeding by design' process (Peleman and Van der Voort, 2003).

#### Literature:

1. Watson B. *Taylor's guide to heirloom vegetables*. New York, NY: Houghton Mifflin Co; 1996.
2. Dorst JCEA (VW) Een en twintigste beschrijvende rassenlijst voor landbouwgewassen. Wageningen, Rijkscommissie voor de samenstelling van de rassenlijst voor landbouwgewassen. 1946:221.
3. Eshed Y, Zamir D. An introgression line population of *Lycopersicon pennellii* in the cultivated tomato enables the identification and fine mapping of yield associated QTL. *Genetics*. 1995;141:1147–1162.
4. Chetelat RT, Meglic V. Molecular mapping of chromosome segments introgressed from *Solanum lycopersicoides* into cultivated tomato (*Lycopersicon esculentum*) *Theoretical and Applied Genetics*. 2000;100:232–241.
5. Larry R, Joanne L. Genetic resources of tomato. In: Razdan MK, Mattoo AK, editors. *Genetic improvement of solanaceous crops*. Vol. 2. Enfield, NH: Science Publishers; 2007. *Tomato*.
6. Comai L, Till BJ, Reynolds SH, Greene EA, Codomo C, Enns L, et al. Large-scale discovery of natural polymorphisms by Ecotilling. *The Plant Journal*. 2004;37:778–786.
7. Peleman JD, Van der Voort JR. Breeding by design. *Trends in Plant Science*. 2003;8:330–334.

## CHAQALOQLAR HIS QILOLGAN QO‘SHIQ

*Xamraqulov Nuriddin G‘ulomjon o‘g‘li*

*“Sayyid Muhyiddin maxdum” o‘rta maxsus islom bilm yurti 4-kurs talabasi.*

**Annotatsiya:** Kimlardur - Ehtimol bu maqolamga qo‘yilgan mavzuni o‘qiboq biroz tajublanar balki hayratlanar, lekin erinmay aziz vaqtini qizg‘onmay maqolamni o‘qir ekan, haqiqatdan bu go‘zal qo‘shiq Onadek aziz zotning mehr to‘la qalbidan hali hechnarsani tushuna olmaydigan bu olamga endi tashrif buyurgan chaqalog‘iga bu ulkan yoruq olamni eng yoqimli tushuntira olgan tabir joiz bo‘lsa Onaning buyuk kashfiyoti haqidagi mavzuligini tushunib etadi. Bu kashfiyot Turkiy halqlar ichida “ONA ALLASI” nomi bilan mashxur bo‘lgan.

**Kalit so‘zlar:** Alla, ona, chaqaloq, bola, beshik, qo‘shiq, kuylar, tarbiya, ma‘naviyat, o‘zbek, oila, xalq, tinchlik.

Alla – umuminsoniy qo‘shiqdir. U turli tillarda aytilishi mumkin, ammo uning zamirida bir narsa onaning farzandiga cheksiz mehru muhabbati yotadi. “Alla” deb – go‘dakni uxlatishda yakka usulda, mayin ohang va past ovoz bilan aytiladigan qo‘shiqdir. Dunyodagi har bir xalqning o‘z allasi bor. Turkiy xalqlar, xususan o‘zbeklar ham qadim-qadimdan bolaning nafaqat tanasi, balki ruhiy olami – ma‘naviyati ham sog‘lom bo‘lishiga alohida e‘tibor qaratishgan. Ajdodlar bola ko‘nglining sog‘lom va toza bo‘lib shakllanishida beshikdalik paytida eshitgan allasi muhim o‘rin tutishini juda yaxshi bilishgan. Jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk siymolardan o‘rta osiyolik buyuk qomusiy olim. G‘arbda Avitsenna nomi bilan mashhur. Abu Ali ibn Sino Tabobatga oid mashhur asari „Kitob al-qonun fittibb“ („Tib qonunlari“) kitobida bola tarbiyasida allaning ahamiyati to‘g‘risida shunday yozadi: «Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun, unga ikki narsani qo‘llamoq kerak. Biri bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi uni uxlatish uchun odat bo‘lib qolgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badantarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo‘lgan iste‘dodi hosil bo‘ladi». Alla — beshik qo‘shig‘i, u xalq og‘zaki ijodi namunalarida ham keng kuylangan. Bolani yo‘rgaklash, beshikka solish, uxlatish, uyg‘ongan bolani yo‘rgakdan yechib olish singari mashg‘ulotlar kuylar, chiroyli ohangdor so‘zlar bilan bezalgan bo‘ladi... Bunday dilni erkalovchi qo‘shiqlar bolaga ham xush yoqqan – ana shu she‘riy to‘qimalar turli voqealarga, ayrim marosimlarga bog‘lab aytilgan bu qo‘shiqni alla qo‘shiqlari deyishgan. Alla aytishni o‘rgatuvchi, badihago‘y ayollar bo‘lgan. Bunday ayollarga enagalar ham kiradi. Alla bola tug‘ilgandan to beshikdan chiqquncha aytilgan. O‘zbek onalari tilidan aytilgan allalarda uning orzusi, to‘kis odam haqidagi ideali aks etgan deyish mumkin. O‘zbek allasida ona qalbining harorati, tilaklarining samimiyati va bolasiga chin insoniy sifatlar yor bo‘lishini istashidagi haqqoniyat mavjud. Alla matnini chaqaloq (bola) tushunmasligi mumkin, lekin alla mohiyatiga singdirilgan ona muhabbatini, undagi shukronalik tuyg‘usini ko‘ngli bilan his qiladi. Allada onaning mehr-muhabbati bilan birga uning quvonchi, g‘ururi, ayni chog‘da dardi, alami, o‘kinchi, orzu-armonlari ham o‘z ifodasini topishi mumkin. Ma‘lumki, har qanday ona oilasini farzandi uchun asraydi-ardoqlaydi. Ona qalbidagi shukronalik hissi bilan unga berilgan eng oliy ne‘mat – farzandi uchun Xudodan jamiki yaxshi sifatlarni so‘raydi va buni allasida mujassamlashtiradi.

Alla - bolani uxlatish jarayo-nida yakkaxonlik uslubida aytiladigan qo‘shiq.

Alla - beshik yoki belanchakni tebratish sur‘atiga mos ravishda ijro etiladigan qo‘shiq.

Alla- bulajak yigitga quvvat, qizga esa hayo va iffat bahsh etadigan qo‘shiqdir.

Alla- onalar aytgan millat hotirasini asraydigan qo‘shiqdir.

Alla -onaning bolaga bo‘lgan mehr-muhabbati, umid va orzulari, yaxshi niyat va tilaklarini anglatish bilan birga ruhiy kechinmalarini ham ifo-dalaydigan qo‘shiq.

Alla o‘z davrining lirik kayfiyatdagi ruhiy ko‘zgusi bolgan qo‘shiqdir.

Alla – hayot madhiyasi qo‘shig‘idir.

Bir soʻz bilan aytganda Alla tarbiya oʻchogʻi sanalgan oilaning ilk debochalaridandir.

Oilada amal qilinadigan tartib-intizom, maʼnaviy-axloqiy qadriyatlar bola ulgʻaygach jamiyat manfaatlari bilan uygʻunlik kasb etadi. Albatta, bunday mukammal tarbiya qanchalik erta boshlansa, samarasi shunchalik yuqori boʻladi. Oila tarbiya oʻchogʻi sifatida bolalarga maʼnaviy-axloqiy tarbiya berishda asriy tajribaga ega. Bular quyidagilar:

- oilada bolalarga alla qoʻshiqlari vositasida maʼnaviy axloqiy tarbiya berishning oʻz milliy tajribasi bor;
- oilada bolalarga alla qoʻshiqlari vositasida maʼnaviy axloqiy tarbiya berish muhim oʻrin tutadi;
- bolalarga maʼnaviy-axloqiy tarbiya berishda alla qoʻshiqlari tuganmas manba;
- bolalarning ilk nutqiy koʻnikmasi alla qoʻshiqlari vosiasida shakllanadi;
- oila manfaatlari jamiyat manfaatlariga mos keladi.

Aynan, oila maʼrifati bola shaxsining shakllanishida muhim rol oʻynaydi. Allalarda onaning mehr-u muhabbati, farzandiga yaxshi tilaklari, undan kutadigan umidlari aks etadi. Bolaning maʼrifatli allalar tinglab voyaga yetishi kelgusida uning maʼnaviy-axloqiy yetuk shaxs boʻlib kamol topishiga yordam beradi. Ona kuylaydigan alla qoʻshiqlarining oʻz oldiga qoʻygan maqsadi, faqat bolani uxlatish emas, balki uning ruhini, qalbini, ichki dunyosini uygʻotish hamdir.

Oyni olib beraymi, alla,  
Kunni olib beraymi, alla,  
Belanchaging boshiga, alla,  
Sara gullar teraymi, alla?  
Alla, deyin, oʻpayin, alla,  
Qiyosingni topayin, alla.  
Tiling chiqib «non» desang, alla,  
Kunda kulcha yopayin, alla.  
Oltin beshik oldiray, alla,  
Kumush beshik oldiray, alla.  
Bolaginam tagiga, alla,  
Baxmal toʻshak soldiray, alla.  
Onamanu onaman, alla,  
Bolam uchun yonaman, alla.  
Bolam tinchlikda oʻssa, alla.  
Orzularga qonaman, alla.  
Qizil gul novdasidan, alla.  
Kamar qilay belingga, alla.  
Sochlarim tolasidan, alla,  
Bogʻich qilay toʻningga, alla.  
U yonimga qoʻyayin, alla,  
Bu yonimga qoʻyayin, alla.

**Xulosa.** Allalarda onaning mehr-u muhabbati, farzandiga yaxshi tilaklari, undan kutadigan umidlari aks etadi. Bolaning maʼrifatli allalar tinglab voyaga yetishi kelgusida uning maʼnaviy-axloqiy yetuk shaxs boʻlib kamol topishiga yordam beradi. Oila muhitida bolalarga singdiriladigan axloq tamoyillarining asosiylari – odamlarga yaxshilik qilish, ezgu ishlar bilan nom chiqarish, dilozorlikdan yiroq boʻlishdir. Demak, ona farzandida ana shunday insoniy xislatlarni shakllantirishda pedagog vazifasini ham bajaradi. Allalarda tinchlik bevosita va bilvosita ulugʻlanadi. Ona tinchlikning qadrini, qimmatini, uning inson hayotidagi ahamiyatini oddiy soʻz bilan emas, balki alla qoʻshiqlarida ham ifodalaydi. Xalqimiz tinchlikni, millatlar, elatlar oʻrtasida oʻzaro totuvlik, doʻstlikni qadrlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abu Ali ibn Sino «Tib qonunlari» kitobi.
2. “Sogʻlom avlod uchun” jurnali – 2010.
3. Omonulla Madayev, “Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi”–2010 “Mumtoz soʻz”.

## ABDULLA SHER SHE'RLARIDA SHOIR XARAKTERI MASALASI

*Xamroyeva Dilnoza Jumanazarovna*  
*BuxDU Adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti*  
*mutaxassisligi I bosqich magistranti.*

**Annotatsiya:** Har bir she'riyat o'z muallifining tabiatini aks ettiradigan ilk manbalardan biri sanaladi. Shoirning fe'l-atvori yorqin aks etgan she'rlar bilan biografik she'rlar farqlanishi lozim. Ushbu maqolada serqirra ijodkor Abdulla Sher ijodidan bir nechta namunalar tahlilga tortilgan. Unda shoirning xarakteri masalasi, ijodkorning so'z qo'llash imkoniyati va badiiy mahorati tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** shoir xarakteri, qarluq-chigil lahjasi, mahurat, she'riyat, xarakter.

Ma'lumki, nasriy asarlardan farqli o'laroq, lirik asarlarda, asosan, lirik qahramon kechinmalari, his-tuyg'ulari ifoda etiladi. Demakki, o'z-o'zidan, she'rlarda shoirning tabiati aks etgan. Shu ma'noda o'zbekning iste'dodli shoiri Abdulla Sherning "Men shoirman..." deb boshlanuvchi she'rini qisman avtobiografik xarakterdagi she'r deb aytishimiz mumkin. Ushbu she'r 1981-yilda yozilgan bo'lib, unga o'tgan asrning 30-yillarida yashagan mashhur arman shoiri Yegishe Charentsning "Men shoirman, Yegishe Charents..."[1.3.] misrasi epigraf qilib olingan. She'rda nafaqat muallifning dunyosi, balki shaxsiy xususiyatlari ham o'z aksini topgan. Lirik boshlanma chaqmoqdek ko'zga tashlanadi:

Men shoirman, men – Abdulla Sher,  
Barloslarning sarkash farzandi.  
Osmon guvoh, guvoh ona Yer:  
Men asringa emas asrandi [1.3].

Shoir o'zini barlos urug'idan deb biladi. Bu urug' o'zbek xalqi tarkibiga kirgan qabilalardan biri. Ular Ili daryosi bo'ylarida va Qashqadaryo vohasida istiqomat qilgan. Shu o'rinda aytish joizki, Sohibqiron Amir Temur ham ushbu urug'dan edi. Abdulla Sher asli toshkentlik ekanligini eslagan holda bir ma'lumotni keltirish joiz. Barlos urug'i qarluq-chigil lahjasida so'zlashgani ma'lum. Qarluq-chigil til oilasiga Namangan, Toshkent, Andijon va bir qator hududlardagi aholi shevalari kirgan. Shoir o'zining qaysi urug'dan ekanini aytish orqali tabiatining ma'lum jihatini ham namoyon qiladi. Abdulla Sher o'zining sarkashligini ("sarkash" fors-tojikha so'z bo'lib, "bosh tortuvchi, bo'ysunmaydigan, mag'rur" degani [2.450]), asriga asrandi emasligini aytadi. Bu nasli-nasabi aniq, ko'ngli but inson ekanligini ta'kidlash istagida yuzaga kelgan satrlardir. Ushbu misralar orqali shoir xarakterining bir qismi ochilgan bo'lsa, ikkinchi badda yanada yorqinroq ifodalanadi:

Dedilarki: "Zo'rdir ganj kuchi  
Egilib ol, unda shon, mulk bor!"  
Egildim-u, qalamim uchi  
Yuraginga qadaldi ilk bor [1.3].

Demak, adolatli shoir halollikni ulug'laydi. Boylik to'plash, mol-mulk jamlash, ya'ni qalamni moddiy uchun harakatlantirish unga begona. Agar shu yo'lga kirsam qalami (shu o'rinda vijdon qalam timsolida gavdalanadi) tig' kabi yuragiga qadaladi. She'rdagi g'oya banddan-bandga o'sib boradi. Misralar bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Shu jihati bilan ushbu she'r mumtoz she'riyatga xos yakpora g'azallarga o'xshab ketadi.

La'nat aytib bunday ustozga,  
Tutdim shunda yo'llar baridan.  
Ko'klamlarni yetaklab yozga,  
Chiqmoq bo'ldim vaqtning qa'ridan [1.3].

Shoir xato maslahat bergan, aniqrog‘i, shogirdni nafs yo‘liga tortmoqchi bo‘lgan ustozga la‘nat aytadi. O‘zining to‘g‘ri deb bilgan yo‘lini – nafsni tiyishni tanlaydi. Bu she‘r shoir tabiatini aks ettirgani, avtobiografik xarakter kasb etgani uchun “Qadimgi kuy“ to‘plamidagi birinchi she‘r sifatida to‘g‘ri keltirilgan, bizningcha. Go‘yo shu she‘r orqali shoir kitobga kirish qiladi. To‘plamdagi oxirgi she‘r esa “ Bir kun sovub barlos qoni nogahon tanda” deb boshlanuvchi she‘rdir. Buni hech ikkilanmasdan xulosa deya olamiz. Shu o‘rinda aytish lozimki, shoir to‘plam tartib berishga alohida e‘tibor bergan va masalaga to‘g‘ri yondashgan.

Bir kun sovub barlos qoni nogahon tanda,

Kipriklarim panjaradek to‘ssa dunyoni.

Jon do‘stlarim, “Sarbozcha” ni chaling o‘shanda,

Men tulporlar dupurini tinglay so‘ng onim [1.157].

Shoir umrining poyoniga yetgan so‘nggi kunini ko‘z o‘ngiga keltiradi. “Sovub barlos qoni nogahon tanda” deyish bilan umrining oxirigacha tabiati asliligicha qolishini, o‘zgarmasligini ta‘kidlaydi. “Kipriklarim panjaradek to‘ssa dunyoni” deyish bilan o‘limning shafqatsizligi ifoda qilingan. Do‘stlaridan “Sarbozcha” kuyini chalishlarini iltimos qiladi. “Sarbozcha” mumtoz kuy bo‘lib, o‘zbek klassik musiqasida alohida ahamiyatga ega. Bu kuydagi ohang lirik qahramonga otlar dupurini eslatgan, demak, ayni damda, sevimli kuyi bo‘lgan. Shu sabab shoir umrining so‘ngida otlar dupurini eshitishni xohlaydi. Bobokalonlarimizdan Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Ulug‘bek singari ulug‘larimizni eslab, talmeh san‘atini yuzaga keltirish orqali xalqimizning shonli yo‘li xotirlangan. Shuning o‘zida shoirning elparvarlik, yurtparvarlik xususiyatlari namoyon bo‘lgani ko‘rinadi. Abdulla Sher kuyni tinglab xayolga sho‘ng‘ishni istaydi. Bolalik xotiralari, go‘daklik yillari bir-bir ko‘z o‘ngidan o‘tadi. Lolazorlar ichiga singib ketishni xohlaydi. Bu xotirotda shoir deyishga munosib SHAXS bor. U oxirgi nafasigacha ham Vatan, el ozodligini o‘ylaydi, tafakkur qiladi.

Keyin esa qor-qish o‘tib, go‘zal tong otib,

So‘ng manzilim nurga ko‘msin moviy osmon.

Va lolazor quchog‘ida, ufqni yangratib,

Ko‘klamlarga qo‘shiq aytsin bir tup yosuman [1.157].

Va nihoyat, shoir she‘rga ham, kitobga ham xulosa yasaydi. So‘nggi manzili nurga, lolalarga burkanishini iltijo qiladi. Bor-yo‘g‘i bir necha she‘rning o‘ziyoq shoir tabiati haqida ma‘lumot bera olgan. Chin shoirlar haqgo‘y, haqiqatgo‘y bo‘ladi. Ular hech bir qolipga sig‘maydi. Dilidagi gapni barilla aytadi va umrini halollik bilan o‘tkazadi. Jonini xalq baxti yo‘lidagi kurashlarga tikadi. Abdulla Sher ham shunday shoirlardan biri deb uning she‘rlari aytadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdulla Sher. Qadimgi kuy. – T.: Adabiyot va san‘at, 1987. – B.3.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. III jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2020. – B.450.



## ЯДРО ПОЛИЭДРОЗИ КАСАЛЛИГИГА ЧИДАМЛИ ТИЗИМЛАРНИ ЯРАТИШ

**УТТ:638.25 (575.3)**

*Д.Исматуллаева – ИИТИ лаборатория мудири.*

*Т.Бегматов – ИИТИ таянч докторанти.*

*У.Хақназарова. – ТошДАУ магистранти.*

Республикамизда ипакчилик соҳасини ривожлантириш ҳамда ипак қуртларидан мўл ва сифатли пилла ҳосили олиш, кўп жиҳатдан ипак қурти касалликларини олдини олиш билан чамбарчасть боғлиқ. Касалликлар тарқалишини олдини олиш ва сифатли пилла ҳосилини етиштиришда хўжаликларда боқиб парваришланаётган ипак қуртларидан тайёрланаётган уруғларни сифати муҳим омил бўлиб ҳисобланади. Парваришланган ипак қуртларини касалликлардан ҳолилигини аниқлаш зарур. Ҳозирги вақтда вирусли касалликлар (вирозлар, полиэдрозлар) ипакчиликка катта зарар келтирмоқда. Бу гуруҳдаги касалликларнинг номи, вирус билар зарарланган, оқсилли қобик билан ўралган ва кўп қиррали шаклга эга кристалл таначали вирус зарраларининг цитоплазмада ва айниқса хужайра ядросида ҳосил бўлиши билан боғлиқ. Бу ўзига ҳос шакл ҳашоротларда, шу жумладан тут ипак қуртида касалликни келиб чиқиши вирусли эканлигининг асосий белгиси бўлиб хизмат қилади (Е.Н.Троицкая,1981). Вирус латент ҳолатда бўлганда, у ҳашаротга зарар келтирмайди, касалликнинг кўринадиган белгилари намоён бўлмайди, яъни у личинка босқичидан имаго босқичига трансфаз-вертикал узатилади (Т.О.Femi-Ola, 2006). Турли хил ноқулай физик кимёвий таъсирлар қуртнинг латент вирусни фаоллашишини сусайтиради. Ҳашарот касалланиб ҳалок бўлади ва инфекцияни горизонтал йўл билан тарқатади, оқибатда қурт боқиш даврида уларни ёппасига ҳалок бўлишига олиб келади (С.Сабилов,2000). Ипакчилик илмий-тадқиқотлар олимлари ўз тадқиқотларида тут ипак қуртини такрорий боқиш учун мўжалланган ота ва оналик зотларини пилла маҳсулдорлигини оширишда ва генетик потенциалини тўлиқ намоён этишда лизин ва метионин аминокислоталарини ижобий таъсирга оид маълумотлар олганлар (Жуманиёзов М.Ш.,2017). Сунъий оқсилнинг 0,5 ва 1,0 % ли эритмасида бойитилган тут барглари билан боқилган қуртларнинг личинкалик даври 4-6 кунгача қисқариб, ҳаётчанлиги 2-3% га ва пилла ҳосилдорлиги 3-4 кг га ошганлиги ҳақида маълумот келтирган (Умаров,2010). Юқорида келтирилганларни инobatга олган ҳолда, биз олдимишга ядро полиэдрози касаллигига қарши курашнинг селекцион йўли билан ядро полиэдрози касаллигига чидамли тизимларни яратишни мақсад қилиб қўйдик. 2020 йилда тайёрланган Ипакчи 2 ва Я-120 зотларини (F<sub>3</sub>) қуймалари ҳар бири алоҳида саналиб, нормал тухумлар сони, физиологик брак, қуйма ва бир дона тухумни оғирлиги аниқланди. Зотларни ўртача репродуктив кўрсаткичлар 1-жадвалда келтирилган.

### 1-жадвал.

#### Тут ипак қуртининг зотларни репродуктив кўрсаткичлари (2022 й.)

№	Зотлар номи	Оилалар сони	Қуймадаги тухумлар сони, дона	Қуймадаги тухумлар оғирлиги, мг	Бир дона тухум массаси, мг	Физиологик брак, %
<b>Тажриба варианты</b>						
1	Ипакчи 2	30	604	327	0,541	0,8
2	Я-120	30	620	315	0,508	1,7
<b>Назорат варианты</b>						
1	Ипакчи 2	30	626	346	0,553	0,8
2	Я-120	30	632	340	0,538	1,7

F<sub>3</sub> қуймаларидаги оила-оила қилиб жонланишга қўйилди. Бунда ҳар бир қуймани алоҳида кичкина хажмдаги қоробкаларга уруғлар тўқилди. Қуйдагиларни жонлантириш учун инкубаторияга қўйилди ва хона ҳарорати 24-25<sup>0</sup>С ва нисбий намлик 65-70% ни оптимал шароит таъминланди. 10-12 кунда қуртлар жонланди ва сьемник ёрдамида уларни бошқа қоробкаларга қўтариб олинди ва қурт боқиш жараёни бошланди. Жонланмаган уруғларни сони саналиб, жонланиш фоизи аниқланди.

Тажриба учун ҳар бир зотнинг 30 тадан оилалари жонлантирилди. Жонланиш фоизи аниқланиб, энг юқори кўрсаткичга эга оилаларни боқиш бошланди, паст кўрсаткичга эгалари яроқсиз деб топилди. Бу жараён селекцияни танлаб олиш жараёни деб аталади. Қуртларни 2-ёшида вариантлари ва қайтаришлари шаклантирилди, бунда ҳар оиладан 250 дона қуртлар санаб олинди.

Қуртлик даврларида ҳам танлаб олиш селекция ишлари амалга оширилди. Бунда фақат энг яхшилари, яъни ривожланиши ва ҳаётчанлиги юқорилиги бўйича ҳам танлаб олинди.

Назорат вариантга эса фақат соғлом уруғлардан фойдаланиб, оддий усулда боқилди, танлов ишлари олиб борилмади.

Ипак қуртларни парваришlash жараёнида ёшма-ёш санаб борилади. IV-ёшнинг 1-кунида совуқ индукция орқали сариқ касаллигини кўзғатувчисини яширин ҳолатидан активлаштирилади. V-ёш давомида касалланган ёки ривожланишда орқада қолган қуртларни териб олиниб, микроскопик таҳлилдан ўтказилади. Я-120 ва Ипакчи 2 зотлари оилаларини тухумларни жонланиши, ҳаётчанлиги ва касалланган қуртлар сони 2-жадвалда келтирилган.

## 2-жадвал.

### Уруғларни жонланиши, қуртларнинг ҳаётчанлиги ва пиллалар таҳлили (2022 й.)

Т/р	Зотларни номи	Уруғларни жонланиши, %	Қуртлар ҳаётчанлиги, %	Касалланиш даражаси, %	Нормал пиллалар сони, дона	Қар пиллалар сони, дона
<b>Тажриба варианты</b>						
1	Ипакчи 2	80,4±3,5	81,4±2,7	5,2	152	9
2	Я-120	90,7±2,4	81,3±1,7	7,0	148	11
<b>Назорат варианты</b>						
1	Ипакчи 2	89,8±2,8	85,6±1,7	2,1	214	6
2	Я-120	92,3±1,6	86,4±0,9	1,8	216	8

Тажрибадаги зотларни ҳар бир оилаларининг уруғларини жонланиш фоизи аниқланди, бунда энг юқори кўрсаткичга Ипакчи зотини 8 та ва Я-120 зотини 4 та оилалари эканлиги аниқланди. Бунда уруғларни жонланиш кўрсаткичи (80,4%) Ипакчи 2 зотини оилаларида ва Я-120 зотида (90,7%) бўлгани маълум бўлди. Назорат вариантыда эса бу кўрсаткич бирмунча юқори эканлиги аниқланди, яъни Ипакчи 2 зотида 89,8 % ва Я-120 зотида 92,3 % ташкил этди. Туг ипак қуртларининг касалланиш даражаси эса Я-120 зотида (7,0%), Ипакчи 2 зотига (5,2%) нисбатан (1,8%) юқорилиги маълум бўлди.

Хулоса қилиб айтганда, адабиётлардаги маълумотлар (Е.А.Steinhaus, 1956) билан бизнинг қилинган тадқиқот натижаларимиз тўғри келмоқда, яъни ядро полиэдрози касаллиги билан касалланган қуртлардан ўраган капалакларни микроскопик таҳлил қилинганда фақат соғломларидан олинган бўлсада, улар ядро полиэдрози касаллиги билан зарарланган уруғлар қўйяр экан. Буни исботини фақатгина шу уруғларни жонлантириб, парваришlash жараёнларда касаллик пайдо бўлиши билан изохлаш мумкин.



**1-расм. Уруғларни жонланиши ва қуртларнинг ҳаётчанлиги.**

Агар тажриба вариантларидаги кўрсаткичларни назорат билан таққослаганда, уруғнинг жонланиши ва қуртларни ҳаётчанлиги ҳам тушиб кетган. Эслатиб ўтамиз, назорат вариантдаги уруғ ва қуртлар соғлом, ҳеч қандай таъсир этилмаган.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, тут ипак қуртига 3 генерация давомида ядро полиэдрози касаллиги билан кетма-кет совуқ индукция қилиш ва шу билан бир қаторда энг зўрларини танлаб олиш оқибатида 4-авлодда касалланган қуртлар сони камайишига эришилди. Лекин, уруғларни жонланиши ва қуртларнинг ҳаётчанлиги бир мунча тушиб кетиш ҳолати кузатилди.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Жуманиёзов М. Тут ипак қуртини такрорий боқишда пилла маҳсулдорлигига аминокислоталарнинг таъсири // “Сифатли ва рақобатбардош пилла хомашёси етиштиришнинг долзарб муаммолари” Илмий-амалий анжуман материаллари. Тошкент, 2017. – 33-37-б.
2. Сабиров С. Ипак қуртининг касалликлари ва зараркунандалари (бакалавр талабалари учун маъруза матнлари). Тошкент, 2000. 12-15-б.
3. Троицкая Е.Н. Биологическая оценка устойчивости пород тутового шелкопряда к инфекции вируса ядерного полиэдроза // Сб. научные основы развития шелководства. Ташкент, 1981.- Вып. 15. – С.83-87.
4. Умаров Ш.Р., Жуманиёзов М.Ш. Такрорий қурт боқишдаги барғни витаминлар билан бойитиш. // Агроилм. – Тошкент, 2010. -№3. 34-35-б.
5. Femi-Ola T.O. and Aderibigbe E.Y. Effects of seasonal changes on the micro flora in the hindgut of wood-eating termites // J.Entomol. №6. – 2006. – P. 67-71.
6. Steinhaus E.A. Hilgardia // 1956. – №2 (26). – P.129-130.

## “SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDA RAMZIY TIMSOLLAR TALQINI

*Xayrullayeva Sharofat Sayfullayevna*

*Sharof Rashidov nomidagi SamDU*

*O‘zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti magistranti.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Alisher Navoiy qalamiga mansub „Saddi Iskandariy“ dostonida keltirilgan ramziy timsollar talqiniga bag‘ishlanadi. Dostonda keltirilgan oyna, jom, sad kabi timsollar tahlil etiladi.

**Kalit so‘zlar:** timsol, ramz, majoz, obraz, Iskandar, ko‘ngil, jom, oyna, sad, ya‘juj-majuj, qo‘rg‘on, may.

Timsol – misol, tushuntirish uchun shartli olingan, majoziy va ramziy ko‘chma ma‘noda qo‘llanib obrazning xususiyatlarni, qirralarini ochib berishga xizmat qiladigan vosita hisoblanadi. Majoz va ramz esa ko‘chim turlaridan hisoblanib, ayni qo‘llangan matn doirasida amal qiladi. Ko‘chimda so‘zlar orasida o‘xshatish yoki ichki aloqadorlik asosidagi bog‘liqlik yotadi. Bu tashbehning yillar davomida sayqallanib an‘anaviy tarzda bir tushunchani nomlab kelishi natijasida u shu tushuncha doirasida timsolga aylanadi. Timsollar she‘riyatda azaldan foydalanib kelinayotgan tashbehga tayanishi sabadan timsol va u ishora qilib kelgan ma‘no o‘rtasida o‘xshashlikka asoslanadi. Shu tariqa timsol – obrazning ko‘zga ko‘rinmas, eng nozik jihatlarni hayolda va tasavvurda jonlantiradi.

Alisher Navoiyning epik asarlarida, xususan, “Xamsa” dostonlarining yagona sujet asosida uyushganlarida sayri-suluk sari yo‘lga chiqqan solikning ruhiy dunyosi, qoradan oqqa qarab borayotgan botinidagi ranglar timsollar yordamida izohlanadi. Solikning safoga to‘lib borayotgan qalbi, botini may, o‘t, partav, sad, jom, oyna, sarv timsollari yordamida ifodalanadi. Bu kabi timsollar va ular anglatayotgan tushunchalar o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishlar misralardayoq ko‘rinib turadi. Bu timsollar birgalikda bir obrazni shakllantiradi. Yozuvchi o‘zi idrok eta olgan borliq olam va odamni, g‘oyalarini obrazga singdiradi. Yozuvchining ma‘naviy va ruhoniylar dunyosidan oziqlangan obrazda “timsolning barcha xususiyati mujassam, ayni chog‘da timsol ham obrazning ma‘lum qirrasini aks ettiradi”<sup>186</sup>.

Navoiy ijodida lirik asarlarda bo‘lgani kabi epik asarlariga xos an‘anaviy timsollari mavjud. “Xamsa” dostonlarining dastlabki dostonida soliklik yo‘li dastur-ul amal sifatida talqin etilgan bo‘lsa, boshqalarida sulukning amaldagi ifodasini ko‘rishimiz mumkin. Bunda bizga jom, may, oyna, obi hayot kabi orifona va oshiqona timsollar ochqich vazifasini bajaradi. Bu kabi timsollar yordamida esa badiiy mushohada, tasavvufiy g‘oyalar anglashila boradi. Quyida ularni ko‘rib chiqamiz.

Jom – musaffo qalb ramzi. Qalbi safolangan, yorug‘langan odamgina jomga ega bo‘ladi. Jomning ko‘ngilni atab kelishi sabablaridan biri may timsolining ishqni anglatib kelishi bilan ham bog‘liq. May jomga quyilgani singari ishqning o‘rni ham qalb. Jom – orifning asosiy xususiyatini ifodalab keladi, shuning uchun Iskandarning suluk yo‘lida ma‘lum bosqichga yetishishi “Jom”ni qo‘lga kiritishi bilan yakunlanadi. Ungacha bo‘lgan yo‘lda solik o‘z botinidagi nafsning turli ko‘rinishlarining timsollari – dev, tilsim, sehrigar, ajdarholar bilan kurashishlari lozim bo‘ladi.

Iskandar obrazining suluk yo‘lidagi tadriji, ko‘nglining tiyradan xalos bo‘lishi va safolashib yuksalishi ham ayni shu jom misolida ochiladi. Bu o‘rinda jomga quyidagicha ta‘rif beriladi: “Ishrat jomi o‘ziga may tortuvchi moddadan tayyorlangan bo‘lib, undagi bag‘oyat go‘zal xursandchilik bag‘ishlovchi may qancha ichilsa ham kamaymaydi”. Qalb ilohiyot olamidan ajralib vujudga xibs etilgandan boshlab adoqsiz ishq va hijronga g‘arq bo‘lgan deyiladi. Yoki uni “Mutlaq ruh”, “Javhar” ning parchasi, uzvi ekanligi va uning Ollohga qaytib vosil bo‘lishi uchun intilishi haqida ham qaydlar bor. Bu yo‘lda esa ishq vosita bo‘ladi.

<sup>186</sup> N.Bozorova. Alisher Navoiy asarlarida ko‘ngil talqini. – Toshkent: Fan, 2009. – B.103.

Jom may uchun bo‘lib, uni o‘ziga tortganidek, qalb ham ilohiy fayziyot va ishqqa jozib bo‘lib o‘ziga tortadi va bu jomdagi ishq mayi qancha ichilsa ham tugamaydi, balki ortadi. Shu tariqa, Iskandar ko‘nglining safolanib jomga aylangani va uning ichiga ishq quyilganiga ishora qilib keladi.

“Saddi Iskandariy” dostonida inson nafsining timsollari dev ko‘rinishidagi maxluqlar, son-sanoqsiz chumolilar, ya’juj-ma’juj, sehrli tilsimlar, jodugarlar orqali ifodalangan. Iskandar botinining tadriji o‘shib borgan sari unga qarshi nafsning ham kuchayib borganini ko‘rishimiz mumkin. Dastlab uning oldiga sehr-jodu ahli uchraydiki, ular dunyoning sehrlovchi ro‘yo, yolg‘on, jodudek o‘ziga tortuvchi ohanrabolari timsoli hisoblanadi. Ulardan keyin uchragan chumolilar hayli o‘tkinchi havas, orzu, istak, hasad kabilarning timsoli bo‘lib ular behisob va dev sifat maxluqlarning qo‘riqchisi bo‘ladilar. Dev sifat maxluqlar inson botinidagi nafs timsoli bo‘lib, yuqorida keltirilganidek, chumolilar hayli bezovta qilinmasa uxlaydilar, ular uyg‘otilsa uyg‘onadilar. Ammo ularni toki vujud bor ekan tamoman mahv etishning iloji yo‘q, balki ulardan ulov sifatida foydalanib saodatga erishish mumkin. Bu timsollar ham o‘z o‘rnida ichki o‘xshashlik asosida qurilgan. Chumolilar mayda, ammo ko‘p sonli bo‘lgani kabi o‘tkinchi havas, orzular ham ko‘p va borgan sari kattalashib ko‘payib boradi. Nafsning ham kattalashishiga sharoit qiladi. Ammo botinda ulardan-da shafqatsizroq yana bir qavm borki, ular Xudoning g‘azabidan bunyod bo‘lgan deb ta’riflangan ya’juj timsoli orqali ifodalangan. Bu kabi nafi ammorlardan himoyalani uchun dostonga yana bir timsol “sad” kirib keladi. U komil inson zamirida iymon, islom, e’tiqod, iroda, sabr va bardosh jamiki xulqi hamidalardan bunyod bo‘lgan ezgulik devoridir. Chunki komil inson zamirida ham nafs dunyosi mavjud, ammo ruhoniya olami ezgulik devor bilan himoya qilingan. Bu kabi epik asarlarda yana qo‘rg‘on, qasr, hisor kabi so‘z va tushunchalarga ham duch kelamizki, ular o‘zlik vodiysini sayr aylayotgan solikning vujud dunyosi va uning ajoyib-g‘aroyiblarining timsoli. Qo‘rg‘onga olib boruvchi yo‘llar xavfli, uni har qadamda chalg‘ituvchidir. Solik “shu yo‘ldan hech yoqqa qaramay, tez yurib o‘tsagina” maqsad manziliga yeta oladi. Navoiyning epik asarlarida o‘zlik vodiysida sayrini boshlagan solikning vujud – qo‘rg‘on timsoli orqali ifodalangan. Chunki basirat ko‘zlari hali ochilmagan solik o‘z vujudidagi ajoyibotlardan, qo‘rg‘onning sir-asroridan bexabar. O‘z qo‘rg‘oniga ya’ni “vujud dunyosiga” kira olgan solikkina u yerdagi ganjina – oynani qo‘lga kiritadi. Oyna timsoli ham ko‘ngilni atab keladi. Ko‘ngilni safolantirgan solikning oynadek ko‘ngil ko‘ngillar ichra eng baland martabaga yetishgan, Haqning sifatlarini o‘zida jomdan ham ko‘ra ko‘proq tajalli ettirgan hisoblanadi. Shu sababdan, Iskandar jomni qo‘lga kiritish bilan cheklanmaydi.

Inson ko‘ngil oynadek safolansa, o‘z nuqsonlari unda ko‘rina boshlaydi. Chunki Oynaning vazifasi ham o‘ziga boqqan xilqatni ko‘rsatish. Ko‘ngilning oyna, jom, sirlar maxzani kabi timsollar orqali ifodalanishi tasavvuf ta’limotiga borib taqaladi. Shu sababdan bu kabi timsollar nafaqat shaklan, balki mohiyatan ko‘ngil uchun eng mos tashbehlar va ular asosida shakllangan timsollardir. Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, ko‘zgu timsoli ko‘ngilni eng yaxshi ochib beruvchi, sifatlovchi tashbehdir. Shuning uchun ham Haqning ma’rifatiga muyassar bo‘lgan va uning sifatleri bilan ko‘ngil tajalli etgan orifning safolangan ko‘ngil shu timsol orqali yoritiladi.

“Ko‘ngil dastlab tabiatdagi mavjud narsalar – o‘t, qush, g‘uncha, dengiz, tosh, shishaga qiyos etilgan. Islom dini, Qur‘on va hadislarning ta’siri tufayli ko‘ngil Arsh, Ka’ba, mehrob kabilarga o‘xshatilgan bo‘lsa tasavvuf ta’limoti tufayli qadah(jom), may(boda), butxona, vayrona, xazina va ko‘zguga nisbat etilgan<sup>187</sup>. Bu kabi timsollar adabiyotimizda keng qo‘llaniladi. Yozuvchi timsol orqali mavhum tushunchalarni ramziylik asosida ko‘pchilikka ma’lum bo‘lgan so‘zlar bilan ifodalab o‘z muddaosini bayon etadi. Adabiyotda ko‘ngilning ko‘zguga o‘xshatilishi ko‘p uchraydi. Sabab uning sofligi va aksni ko‘rsata olishi. Irfoniy istilohlar lug‘atlarida ham ko‘zguga quyidagicha izoh berilgan. “Oyna – xoslarning sayqallangan jismidir. Zavq ahli so‘zlarida oynadan maqsad zohir bo‘luvchi makon sababidan Komil Inson qalbidir.

<sup>187</sup> N. Bozorova. Alisher Navoiy asarlarida ko‘ngil talqini.- Toshkent: Fan, 2009. – B. 115.



Zero zot, sifot asmo (ismlar)ni oyna deyishadi va bu ma'nolar Komil Insonda, ya'ni butun mazhariyatga ega bo'lgan Komil insonda namoyon bo'ladi.<sup>188</sup>

Hujjat ul-Islom G'azzoliy aytganidek ibtidosi temir bo'lgan ko'ngildan har bir inson ko'zgu yasashi kerak.<sup>189</sup> Bu temirga ishlov berish va oyna yasash uchun ishq harorati kerak. Bu ishq va shu'la o'rtasidagi bir chiziq, yana biri ishqning ham olovning ham "ortiqcha" lardan tozalovchilik va shaklga solish xususiyati. Olov o'ziga tushgan oltinni o'zining darajasigacha qizdirib, eritib, keraksiz moddalardan tozalagani kabi ishq ham inson vujud oltinini - ko'ngilni nafsdan forig' aylab safolantiradi. "Saddi Iskandariy" dostonida yuqoridagi kabi timsollar Iskandar botinini tozalash va nafsini kuydirish uchun xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мухиддинов М.Комил инсон–адабиет идеали. –Тошкент:Маънавият,2015
2. Vozorova N. Alisher Navoiy g'azallarida ko'ngil obrazi. – Toshkent: Fan, 2009.
3. Иброхим Хаккул. Тасаввуф ва шэрият. –: Тошкент Гафур Гулом, 1991.
4. Иброхим Хаккул. Такдир ва тафаккур – Тошкент:Шарк, 2007.
5. Комилов Н.Тасаввуф. –Тошкент: Movarounnahr-O'zbekiston, 2009.
6. Abu Homid G'azzoliy. Kimyoi saodat. – Toshkent:Adolat,2005.

---

<sup>188</sup> Sayyid Jafar Sajjodiy. Irfoniy istilohlar va iboralar lug'ati.

<sup>189</sup> Abu Homid G'azzoliy. Kimyoyi saodat. – Toshkent: Adolat, 2005. – B. 28.

## XOJA SAMANDAR TERMIZIYNING “DASTUR UL-MULUK” ASARIDA AXLOQIY VA SIYOSIY QARASHLAR

*Xolboeva Muhabbat Tursunboevna*  
*O‘zbekiston Milliy universiteti 1-kurs magistranti.*

**Annotatsiya:** Butunjahon ilm-fan taraqqiyotiga xissa qo‘shgan buyuk allomalarimizdan bizga ulkan ilmiy, adabiy va badiiy meros qolgan. Dunyoning turli nufuzli muzeylari va kutubxonalarida saqlanayotgan ko‘plab qo‘lyozma asarlardan hali to‘lig‘icha o‘rganib chiqilmaganlari va ayrimlari topilmagan. Ilmiy jihatdan to‘la o‘rganib chiqilmagan asarlardan biri Xoja Samandar Termiziyning “Dastur ul-muluk” (Podshohlarga qo‘llanma) asaridir. Asar bugungi kunga qadar ayrim tarixchi olimlar tomonidan tarixiy qo‘lyozma asar sifatidagina o‘rganilgan. Lekin asar bilan tanishib chiqish jarayonida undagi fikrlar, hikmatlar va hikoyalar mazmuniga ko‘ra, “Dastur ul-muluk” tarbiyaviy-axloqiy mazmunda yozilganligini anglash mumkin. Ushbu maqolada “Dastur ul-muluk” asaridagi axloqiy va siyosiy qarashlar tahliliy – qiyosiy usulda yoritib berilgan. Asar tahlili jarayonida undan ayrim hikmatlar va she‘riy parchalar keltirilgan hamda boshqa mualliflarning shu asarlari bilan qiyosiy fikrlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** hukmdor, adolat, jasorat, rishvat, axloqiy illatlar, mulozim, teng huquqlilik, fazilatli kishi, axloq, siyosat, tarix.

1695-yilda yozilgan Xoja Samandar Termiziyning “Dastur ul-muluk” (“Podshohlar uchun qo‘llanma”) asari 1681-1694 yillarda hukmronlik qilgan Buxoroxoni Subxonqulixonga bag‘ishlab yozilgan bo‘lib, unda davlat boshqaruvi, hukmdorning axloqiy fazilatlarini, o‘ziga bo‘ysunuvchi kishilar va saroyamaldorlari bilan muomla qilishga oid qoidalar tarixiy hikoyatlar orqali bayon etilgan. Asardagi hikmat va hikoyalardan chiqarilgan xulosalar she‘riy usulda baytlar va to‘rtliklar orqaliberib borilgan.

“Dastur ul-muluk” asari bo‘yicha dastlabgi ilmiy o‘rganish ishlari tojik olimasi M.A. Salohiddinova tomonidan olib borilgan. Shuningdek akademik A. Mirzaev, akademik B.A. Ahmedov va Chexiyalik sharqshunos olimasi Irti Bechkalar tomonidan asosan yozma tarixiy manba sifatida o‘rganganlar. Ayni paytda “Podshohlar uchun qo‘llanma” asari undagi axloqiy va siyosiy qarashlar jihatidan ham ulkan tarixiy-didaktik qiymatga ega. Ushbu asar birinchi marta o‘zbek tiliga Jabbor Esonov tomonidan 1997-yilda fors-tojik tilidan erkin usulda tarjima qilinib, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyatida chop etilgan. “Dastur ul-muluk” asari 22 fasl va muloqotlar (yozishmalar) dan iborat. Asarning har bir fasli ma‘lum bir mavzuga bag‘ishlangan bo‘lib, muallif tilida juda ibratli va yumshoq usulda bayon etilgan hamda mavzuga mos keladigan hikoya va tarixiy voqealar, baytlar orqali yanada kengroq va atroflicha tushuntirib berilgan. Asarning birinchi fasli “Adolat”, ikkinchi fasli “Jasorat” deb nomlanib, unda odillik va jasurlik kabi yuksak axloqiy sifatlar hukmdor shaxsini bezashi lozimligi chiroyli va ibratli tarzda bayon etilgan. Jumladan, “Azizim, rahbarlik, yo‘lboshchilik shunday odamga munosibki, u xalq boshini mashaqqat giribonidan halos eta olsin va har bir kishi, hamma odam yo‘lboshchilik qilgan shunday ustuvor-mumtoz zamonda boshini rohat bolishiga qo‘yib farog‘atda yashasin”[1]. Ushbu axloqiy sifatlar insonda uchraydigan, befarqlik, boqimandalik, tadbirsizlik, maishatparastlik, qo‘rqoqlik, axmoqlik va manmanlik kabi illatlarga qarshi qo‘yiladi. “...Qo‘rqan kishi dushman havfini barataraf etmas ekan, omonlikda tinch yashay olmaydi, bir nafas ham farog‘atda bo‘lmaydi”. Asar yozilganiga uch yuz yildan ortiq vaqt o‘tgan bo‘lsada, undadagi fikrlar va hikmatlar bugungi kun uchun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Masalan muallif hukmdorning faoliyatida axborotning ahamiyati beqiyosligini ta‘kidlab shunday deydi: “Azizim, donishmandlar “Chashmi podshoh – go‘shi podshoh deydilar”. Buning ma‘nosi shuki, podshohning ko‘zi hamisha qulog‘ida bo‘lishi kerak. Chunki u mamlakatda bo‘layotgan voqealarning hammasini o‘z ko‘zi bilan ko‘rish imkoniyatiga ega emas.

Uning atrofini kamar singari o`rab olgan kishilar – hokimlar, mansab sohiblari shohni ranjitmaslik uchunmi, yoki biror qabih niyat bilanmi, mamlakatda sodir bo`lyotgan ko`ngilsiz, nobop holatlarni shohga xabar qilmaydilar. Shu sabab podshohning hech qanday mansab-martabaga ega bo`lmagan, nafsini tiygan darvishsifat ozod odamlari – do`stlari bo`lishi lozim. Chunki darvishsifat kishilar, olamni kezib, xalq orasida bo`lib, podshohning qaysi hokimi, qozisi, mirshabi adolatni o`ziga qaror qilib olganligi qaysi birlari rishvat olishi, adolatsizlikni o`ziga kasb-u kor qilib olganligini podshoh bilan bo`lgan suhbat jarayonida, hukmdorning erkin, ozod odamlari bo`lganliklari bois, hech tap tortmay, tortinmay, qo`rqmay aytish imkoniga ega bo`ladilar. Podshoh ushbu ozod erkin do`stlarining hikoyalarini o`z qulog`I bilan eshitib, adolatli hokimlar, qozilar, mirshablarga lutf-karam ko`rsatadi, rishvatga xirs qo`ygan, adolatsiz hokimlarni jazolaydi”

#### **Qit`a**

*Xolis-u sarbast do`st misli Iskandar jomi,*

*Oynai jahonnamodir misli alar, ey shoh.*

*Ushbu jom ichra ko`rubon saltanat ahvolini,*

*Bo`lg`aysen mamlakatning sirru asroridan ogoh.*

Uchinchi fasl “Mulozimlarga munosabat ” va to`rtinchi bo`lim “Mulozim saqlash” haqida. Ushbu fasllarda podshoh odamlarni ziyraklik bilan ajrata olishi va munosib muomala orqali o`ziga sadoqat bilan xizmat qildirishga oid hikmatlar berilgan. “Azizim, -deydi muallif, - baland ovozga, baquvvat jussaga ega bo`lgan har qanday odamni kuchli deb atash aqldan emas. Ko`rganmisan, qamish yo`g`on bo`lsa ham, u ingichka, quruq cho`p zarbidan sinadi ”

#### **Bayt:**

*Jussa zo`r bo`lsa-da pastkash aslo mashhur bo`lmagay,*

*Turna bo`yla bo`y bilan sor kabi yovqur bo`lmagay.*

Shuning uchun odamning tashqi qiyofasiga emas, balki ichki dunyosiga aqli, qobiliyati va shaxsiy xususiyatlariga qarab tanlash kerakligi haqida yozadi. Xususan: “Mardni to`n-u dastoridan emas, Shirin guftoridan taning”. Chunki “saltanat yumushi” bir kishi bjaradigan “yumush” emas, balki bir kishi boshqaruvida ko`pchilik tomondan amalga oshiriladigan vazifadir. Bu vazifalarni bajarishga layoqatli insonlarni to`g`ri tanlash va kerak bo`lsa “tarbiylab” olish kerak deyiladi asarda: “Azizim, o`z mulozimlaringni aslzoda, oli janob, vijdoni pok, himmati baland kishilardan tanla. Shunda Vatan siri saqlanadi, xalqing doimo himoyalangan bo`ladi, hech bir kishi ziyon ko`rmaydi...Agar xasis, past, boylikka, pul, mol-dunyoga o`ch odamlarga mansab supasidan joy berish ko`paysa, davlat tushkunlikka yuz tutadi, ya`ni o`z quvvatini yo`qota boshlaydi...Azizim, hunar ahlini tarbiyalashga sa`y-harakat qil. Hunarsiz kishilarni otasining hunari, xizmati uchun hurmat qilma. Odamning qimmatini otasining shuhrati bilan emas, balki o`z qobiliyati, hunari bilan belgilanadi”. Aqlli, tadbirli kishilar doimo yuksak qadrlanib kelgan. Bugungi kunda salohiyatli kadrlar, inson kapitali deb baholanayotgan jihatlar bundan bir necha asrlar oldin ham o`z ahamiyatiga ega bo`lgan. Jumladan aqlli kishilar haqida so`z yuritib shunday deydi: “Azizim, aqli, odobi, zakovati uning aqli va layoqati mezonidir. Kimning aqli Ravshan fikrlash qobiliyati yuksak bo`lsa, u eng past lavozimdan, eng yuqori, sharaflil mansab supachasiga ko`tariladi”

#### **Bayt:**

*Mulozim oqil ersa, bo`lmasa go`l,*

*Kamand tashlab falaklarga solur yo`l.*

Shubxa yo`qki, tadbirli, bilimli kishilar jamiyat taraqqiyoti va davlatning rivojini belgilab beradigan asosiy kuchdir. Tarixdan bugungi kungacha barcha hukmdorlar shunday kadrlarga ehtiyoj sezib kelgan. Zamonaviy huquqiy amaliyotda siyosiy huquqlar faqatgina o`zlari yashab turgan davlat bilan huquqiy aloqada bo`lgan kishilarga ya`ni mamlakat fuqarolarigagina beriladi. Siyosiy huquqlar[2] fuqaroning davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirokini ta`minlaydigan huquqlardir. Yuksak salohiyatli, qobiliyatli fuqarolar tomonidan boshqariladigan jamiyatda kishilar farovon yashaydilar. Teng huquq va erkinliklardan foydalanadilar.

Xoja Samandar davlat boshqaruvida mana shu jihatga ham e`tibor qaratgan. Ya`ni, kishilarni mol-mulki, mansab-lavozimiga qarab ularga yaxshi yoki yomon muomlada bo`lmaslik

kerakligini obrazli misollarda tushuntirib bergan: - "...Sen juda yuqori martabali kishi bo'lsang ham, past martabali, faqir odamlardan o'zingni olib qochma. Balki biror bir vazifani bajarishda ulardan ham foydalanish mumkin bo'lar. Ko'rmadingmi, mag'rur, o'tkir nayza bilan bajarib bo'lmaydigan ishni mo'jaz igna bilan bajarish mumkin. Eng muhimi shundaki ingichka qamishdan Qalam yasash uchun nozik, o'tkir pichoq turganida bu ishni o'tkir shamshir yordamida amalga oshirishning hojati yo'qku".

Muallif asari davomida "Yumshoq tabiatlilik va sabr-qanoat haqida", "Maslahatning foydasi haqida", "O'ylab gapirish haqida", "Hasadning zarari haqida", "Sabr-toqatning natijasi haqida", nomli alohida fasllarda ushbu axloqiy amallarning foydalari va undan chetlanishning oqibatlarini haqida fikr yuritgan va obrazli misollar yordamida ifodalab bergan. Masalan, "Maslahatning foydasi haqida"gi sakkizinchi bobda mushkul vaziyatda kengashib, maslahatlashib ish ko'rishning foydalari haqida quyidagi bayt keltiriladi:

Muammoni kengashsiz kimki hal etgay,  
Tugunlarni yecholmas, boz chigal etgay.  
Quloq sol keksalarga, shodliging ortgay,  
Xazon faslinda, ko'rkim suv tiniq tortgay.

Ushbu misralarda xalqimizdagi "Kengashli to'y tarqamas" degan hikmat o'z ifodasini topgan. Chunki, mamlakat va millat taqdiriga daxldor masalalar ko'pchilik bilan kengashib hal etiladi.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng milliy davlatchiligimiz an'analari asosida konstitutsiyaviy prinsiplar[3] ishlab chiqildi va davlat va jamiyat boshqaruviga oid muhim masalalar umumxalq muhokamasi asosida hal qilinishi qoidasi mustahkamlab qo'yildi hamda amaliyotda qo'llanilib kelinmoqda.

"Dastur ul-muluk" asarida "Mulozim saqlash haqida", "Elchining sifati haqida", "Vazir haqida", "Mulozimlarga munosabat haqida", "Dushman so'ziga ishonmaslik haqida"gi fasllar aynan davlat boshliqlari uchun hikmatli maslahatlardan iborat bo'lib, shu jihatdan Nikollo Makiavellining "Hukmdor"[4] asariga o'xshab ketadi. Makiavelli asosan asar yozilgan vaqtga va antik davr rim va yunoniston polislariga oid tarixiy-siyosiy voqealarni tahlil qilib yozadi va bu "Hukmdor"ning asosan siyosiy va strategik masalalarga oid asar ekanligini belgilasa, Xoja Samandarning asari yaxshi hukmdor, Arastu tili bilan aytganda "Fazilatli kishi"[5] bo'lishi kerakligi haqidagi g'oya asosida yozilgan. Bu esa "Dastur ul-muluk"ning axloqiy- tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi.

Ikkala muallif ham davlat boshqaruvida munosib odamlarni tanlash va tayinlashning ahamiyati haqida muhim fikrlarni bergan. Jumladan, Makiavelli: "Obod davlatlar, dono hukmdorlar zodagonlarni dushman qilmaslik va xalqning ko'nglini olish uchun barcha choralarni qo'llagan, chunki bu hokimiyat tepasidagilar uchun eng muhim masaladir". Ushbu fikrning asosli isboti sifatida Frantsiyada joriy etilgan tizimni yoqlagan: Qirolni aralashmagan holda kuchlilarni tiyib turadidan, zaiflarni himoya qiladigan sud mahkamsini tashkil qilgan edi. Bundan yaxshi va oqilona tartibni ham, qirol va qirollikning xavfsizligiga bundan ortiq garovni ham tasavvur qilish qiyin. [6]

"Dastur ul-muluk"da esa hukmdorning xizmatidagi kishilarga nisbatan quyidagi yondoshuv beriladi: "Azizim, podshoh xizmati va mol-mulkini ikki toifa odamlar boshqarishi amalda, tajribada isbotlangan. Birinchi toifa – bilimdon, so'zga usta, aqlli, ziyrak, shirin zabon bo'ladi. Ziyrak chaqqon odam dushmanning har qanday zarbasiga chap berib omon qoladi. Shirinzabon, so'z ustasi bo'lgan kishining dushmani bo'lmaydi. Ikkinchisi – aqli zaif kuchsiz odam bo'lib, muholifning qiynoqlariga odatlanib, zabunlik yukini zimmasiga oladi...". Yevropalik faylasuf hukmdorga ayrim ayyorona usullar siyosiy hiylalar orqali bo'lsada hokimiyatni tutib turishga oid maslahatlar beradi. Hoja Samandar esa, podshoh ziyraklik va shaxsiy fazilatlariga ega bo'lish orqali munosib hukmdor bo'lish yo'l-yo'riqlarini ko'rsatadi.

Shu jihatdan "Dastur ul-muluk"da Aristotelning axloqiy va siyosiy qarashlariga yaqinlik bor deb aytishimiz mumkin. "Aristotel siyosatda axloqning davomini ko'rgan va axloqni eng oliy siyosiy fan sifatida baholagan.

Siyosiy faoliyat- fazilatlarining namoyon bo`lishi va davom etishidir deb hisoblagan u.”[7] Asarning yigirma birinchi bobi Subxonqulixonning taxtga o`tirishi va hukmronlik davriga oid tarixiy ma`lumotlarni o`z ichiga oladi. Muallif Subxonqulixonning harbiy yurishlarida qatnashib tarixnavislik qilgan. Shuning uchun o`z asarini Subxonqulixonga bag`ishlagan. Qolaversa Xoja Samandar “o`z ideali”dagi hukmdorni aynan unda ko`rgandir. Shuning tarixiy voqealar ko`pincha bir tarafdin, “o`z hukmdorining manfaatlari” nuqtai nazaridan baho berib yozilgan bo`lishiga qaramay, o`sha davr tarixiga oid qo`lyozma asar sifatida ulkan tarixiy qiymatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Xoja Samandar Termiziy. “Dastur ul-muluk”. T; G`.G`ulom nashriyoti, 1997.
- 2.O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 32-35-moddalar.
- 3.O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.I bo`lim, I bob, 1-17-moddalar.
- 4.Nikolllo Makiavelli. Hukmdor. Jahon adabiyoti. T; 2002.
- 5.Guseynov A.A. Moral I politika: uroki Aristotelya, Vedomosti prikladnoy etiki. M;2004.
- 6.Nikolllo Makiavelli. Hukmdor. Jahon adabiyoti. T; 2002,45-bet
- 7.Guseynov A.A. Moral I politika: uroki Aristotelya, Vedomosti prikladnoy etiki.2004-110-bet.



## DINIY ZIYORAT DESTINATSIYALARI BO‘YICHA MARSHRUTLARNING TURIZM TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI

*Xoliqov Nodirjon Abduxalil o‘g‘li*

*“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti tayanch doktoranti.*

**Annotatsiya:** Ilmiy izlanishlarda mamlakatimizda turizm sektorini pandemiyadan avvalgi rivojlanish darajasiga yetkazish, zamon talabidan kelib chiqib, yangi turmahsulotlar yaratish, tur va sayohatchilar xavfsizligini ta‘minlash kabi ishlarda hamda sohani yangi, raqobatbardosh, zamonaviy kadrlar bilan ta‘minlash, ilmiy izlanishlar olib borish va uni amaliyotga tatbiq etish, taklif-tavsiyalar ishlab chiqish kabi mezonlarga alohida e‘tibor qaratgan holda ziyorat turizmini tivojlantirish masalalari bo‘yicha mulohazalar keltirilgan.

**Annotation:** In order to restore the tourism sector in the country, to create new tourism products in line with modern requirements, to ensure the safety of tours and tourists, as well as to provide the industry with new, competitive, modern staff, to conduct research and implement it, development of pilgrimage tourism with special emphasis on criteria such as the development of recommendations.

**Аннотация:** В целях восстановления сферы туризма в стране, создания новых туристических продуктов, соответствующих современным требованиям, обеспечения безопасности туров и туристов, а также обеспечения отрасли новыми, конкурентоспособными, современными кадрами, проводить исследование и его внедрение, развитие паломнического туризма с особым акцентом на такие критерии, как разработка рекомендаций.

**Kalit so‘zlar:** Ziyorat, diniy marshrut, turizm

**Keywords:** Pilgrimage, religious itinerary, tourism

**Ключевые слова:** Паломничество, религиозный маршрут, туризм

**Kirish.** Dunyo bo‘ylab xavfsiz turizmni qayta tiklash, ziyoratlarni qayta tashkil etish, turizmdan olinadigan daromadlarni va bu sohadagi ish o‘rinlarini ko‘paytirish borasida mamlakatlar tomonidan bir qancha salmoqli ishlar bajarilmoqda. O‘zbekistonda ham sohani rivojlantirish va mamlakat YaIM dagi ulushini oshirish borasida salmoqli ishlar bajarilmoqda hamda qonunchilikda ham kerakli bo‘lgan me‘yoriy hujjatlar qabul qilinmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi PF-5326-son “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, 2018-yil 6-fevraldagi PQ-3509-son “Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2018-yil 7-fevraldagi PQ-3514-son “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2019-yil 5-yanvardagi PQ-4095-son “Turizm tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori va shu sanadagi PF-5611-son “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni hamda 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-son “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni va sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni keltirishimiz mumkin.

**Asosiy qism.** Muqaddas joylar azaldan diniy va ma‘naviy sayohatlarning maqsadi bo‘lib kelgan. Diniy turizmning ixtisoslashgan bozor sifatida rivojlanishi bilan hukumatlar ularning nafaqat madaniy qiymatini, balki iqtisodiy salohiyatini ham anglay boshladilar. Shu tariqa ularni asrab-avaylashni ta‘minlash va yirik turizm yo‘nalishlariga kiritish choralari ko‘rildi. Hozirgi kunda diniy turizm jahon iqtisodiyotiga katta hissa qo‘shmoqda hamda uning yillik aylanmasi milliardlab dollarni tashkil etadi<sup>190</sup>, bu ko‘plab olimlarning qiziqishini uyg‘otdi hamda ular

<sup>190</sup> Stefkova, R. Kiralovab, A. and Mudrik, M. (2014) Strategic marketing communication in pilgrimage tourism.

ushbu bozorning hajmi va diniy joylardagi turizmni qayta tiklash va rivojlantirishdagi roli nuqtai nazaridan iqtisodiy ta'sirini tahlil qilishni boshladilar<sup>191</sup>. Bu boradagi qiziqishlar doirasida asosiy diqqat e'tibor ziyoratgohlarni tijoratlashtirishga, shuningdek, turizmning ushbu sohasiga jalb qilingan "diniy tadbirkorlik" shakllariga, diniy mavzudagi turar joy hamda suvenir xizmatlarini rivojlantirishga qaratildi<sup>192</sup>. Hozirgi vaqtda diniy yo'nalishlar va ularni ajratib turadigan elementlarni aniqlashda juda ko'p ishtirokchilar ishtirok etmoqda va hukumatlar tomonidan qishloq joylarda hamda kichik shaharlarda barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun turizm bilan bog'liq faoliyat va xizmatlarni ishlab chiqarish va taqdim etishda mahalliy ishtirok etishning yangi modellarini yaratish uchun ko'plab vositalar taqdim etilmoqda<sup>193</sup>. Diniy marshrutlar va yo'nalishlar ko'p ilmiy sohalarni o'z ichiga olgan transversal o'rganish konteksti sifatida millatlararo tadqiq qilish, albatta, ziyorat qilishning o'zgaruvchan usullarini ko'rib chiqishni talab qiladi<sup>194</sup>.

Bir joyda rivojlanayotgan diniy turizm va ziyorat, tashrif buyurilgan hududlarda turli xil munosabat usullarini ifodalaydi. Bundan kelib chiqadiki, ziyorat "masjidlar, cherkovlar va monastirlarda yuzaga keladigan diniy amaliyot, diniy turizm esa tashkil etilishi va targ'ib qilinishi kerak bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatdir"<sup>195</sup>. Shunday qilib, diniy turizmning yo'nalishlari kuchli diniy birlashmalarga ega bo'lgan joylar bo'lsa-da, uning motivatsiyasi aniq madaniy va/yoki ma'naviydir; ba'zi hollarda hatto bevosita etnik, naturalistik va axloqiy yoki ijtimoiy xarakterga ega<sup>196</sup>. Diniy turizm tarixiy xotira, bugungi kun, din, mintaqa va uning barcha murakkabligi uchun ochiqdir. Uning qadr-qimmati shundaki, u tashrif buyuruvchilarni mahalliy hamjamiyat tomonidan yaratilgan moddiy va nomoddiy merosda ifodalangan mintaqaviy ma'naviyat ko'rinishlariga jalb qiladi. Ma'naviyat va din tabarruk va mo'jizalar bilan bog'liq bo'lgan eng mashhur ziyoratgohlarni ziyorat qilish bilan cheklanib qolmaydi, balki jamiyat tomonidan namoyon bo'ladigan diniy elementlarni kashf qilish va tushunish, mahalliy bayramlar va ibodat shakllarini nishonlash usulini ifodalaydi. Bu diniy o'lchovni har bir hududning urf-odatlar va an'alarida singdirilgan ma'naviyatni ifodalash foydasiga muayyan hodisadan qanday ajratish mumkinligini ko'rsatadi<sup>197</sup>.

Shuning uchun biz diniy turizmning o'ziga xos tarkibiy qismiga duch kelamiz, uning ma'naviy motivatsiyasi sub'ektiv bo'lgani kabi global bo'lib, marshrutga kiritilgan jismoniy joylarda o'zini yangilaydi va mintaqaga teskari ta'sir qiladi. Diniy marshrut bo'ylab sayohat qilish, almashinuvni osonlashtiradigan va o'tmishdagidek, turli madaniyatlar qiymatini oshiradigan madaniy sinkretizm shakllarini yaratish mumkin bo'lgan jarayonga aylanadi.

Global va mahalliy birlashadigan joy sifatida, diniy marshrutlarni jismoniy joylashuvdagi "jamlanma" sifatida tushunish mumkin: (I) jamiyat faoliyat yuritadigan mintaqaning haqiqiy

---

Procedia - Social and Behavioral Sciences 175, 424-430.

<sup>191</sup> Vukonic, B. (2002) Religion, tourism and economics: a convenient symbiosis. *Tourism Recreation Research* 27(2), 59-64.

2. Briedenhann, J. and Wickens, E. (2004) Tourism routes as a tool for the economic development of rural areas - vibrant hope or impossible dream? *Tourism Management* 25, 71-79.

3. Brayley, R.E. (2009) Managing markets, managing meaning: the contribution of tourist accommodations at sacred sites to the visitor experience and to the local tourism enterprise. In: Trono, A. (ed.) *Proceedings of the International Conference Tourism, Religion & Culture: Regional Development through Meaningful Tourism Experiences*, Lecce, Poggiardo 27th-29th October 2009. Congedo, Galatina, Italy, pp.169-178

4. Trono, A. (2009) Turismo ed heritage religioso. Problemi e prospettive nel sud dell'Europa. In: Dallari, F., Trono, A. and Zabbini, E. (eds) *I viaggi dell'Anima. Societa, Culture Heritage e Turismo*. Patron, Bologna, Italy, pp. 83-100.

<sup>192</sup> 1. Shinde, K.A. (2010) Entrepreneurship and indigenous entrepreneurs in religious tourism in India. *International Journal of Tourism Research* 12, 523-535.

2. Shinde, K.A. (2012) Shifting pilgrim-trails and temple-towns in India. In: Daly, P. and Winter, T. (eds) *Routledge Handbook of Heritage in Asia*. Routledge, New York, USA, pp.328--338.

3. Trono, A. (2016) Managing logistics at holy sites. In: Leppakari, M.; Griffin, K. and Raj, R. (eds) *Pilgrimage and Tourism to Holy Cities: Ideological Perspectives and Practical Management*. CAB International, Wallingford, Oxfordshire, UK, pp. 113-128.

<sup>193</sup> Alecu, I.C. (2010) Epistemological aspects of religious tourism in rural areas. *International Journal of Business, Management and Social Sciences* 2(3), 59-65.

<sup>194</sup> Josan, J. (2009) Pilgrimage — a rudimentary form of modern tourism. *GeoJournal of Tourism and Geosites* 4(2), 160-168

<sup>195</sup> Costa, N. (1995) Il turismo religioso: definizioni e caratteristiche. *Anna italiani del Turismo internazionale* 1(2), 121-168.

<sup>196</sup> Nocifora, E. (2010) Turismo religioso e pellegrinaggio. Il caso romano ROTUR/Revista de Ocio y Turismo Coruna 3, 181.

<sup>197</sup> Piersanti, A. (2014) Il Turismo Religioso nei Borghi. *Rivista di Scienze del Turismo* V (2), 77-90.

maydoni; va (II) foydalanuvchilar vositachiligida amalga oshiriladigan o‘zaro aloqalar va almashuvlarning nomoddiy maydoni. Bundan tashqari, global o‘zgarishlar va mahalliy o‘ziga xosliklar o‘rtasidagi kelishuv joylari sifatida diniy marshrutlar "deterritorizatsiyalangan" bilimlar va joyning mahalliy ma‘nosi nuqtai nazardan birlashadigan joylar sifatida tushunilishi mumkin<sup>198</sup>. Ushbu mintaqaviy dinamizm madaniy, ekologik va turizm resurslarini integratsiyalashgan kontekstli targ‘ib qilish nuqtai nazaridan taklif etilayotgan turizm va madaniy xizmatlar turlarini birlashtirishga, shuningdek joylarni birgalikda yaratishda mahalliy hamjamiyatlarning ishtirokiga yordam beradi. Ziyorat turli darajadagi diniy amallardan kelib chiqsa, diniy turizm esa uyushgan va targ‘ib qilingan ijtimoiy-iqtisodiy tizim orqali tuzilgan. Bu farq diniy yo‘nalishlar evolyutsiyasini jismoniy, madaniy va semantik nuqtai nazardan tushunish uchun kalit bo‘lishi mumkin. Ziyorat qilish amaliyoti shuni anglatadiki, ilgari jalb qilingan hududlar faqat ziyoratchilarni kutib olish va ularga yordam berish uchun mo‘ljallangan joylar sifatida ko‘rilar edi: marshrutlar sayohatchilarning tanlagan manzillariga yetib borishlari uchun vosita edi. Shuning uchun ziyorat marshrutlari sayohat maqsadiga erishish uchun vosita sifatida ularning tabiatini aks ettiruvchi tovarlar va xizmatlarni taqdim etish tizimini ifodalaydi.

**Xulosa.** Ko‘pgina mamlakatlar o‘z hududida har xil cheklovlar joriy etgan bo‘lsada, asta-sekin talablarni yumshatib, ma‘lum bir qoidalar doirasida sayohat qilishga ruxsat etishmoqda. Xususan, Islom dinida ziyorat qilinishi kerak bo‘lgan Ka‘ba joylashgan Saudiya Arabistonida vaksina dozasini yetarli miqdorda olgan chet el fuqarolariga mamlakatni ziyorat qilishga ruxsat berilgan. Mamlakatimizda ham turizm sektorini diversifikatsiya qilish hamda raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida ziyorat turizmini takomillashtirish bilan bog‘liq taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish hozirgi oldimizga qo‘yilgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Sohada yuqori natijalarga erishish, turizm sektorini iqtisodiyot tarmoqlarining muhim drayverlaridan biriga aylantirish, mamlakatning yalpi ichki mahsulotida turizm ulushini oshirish hamda “ziyosat” turizmi orqali tashrif buyuruvchilar oqimini ko‘paytirish, ziyorat turizmi destinatsiyalarni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi. Buning uchun, avvalo, ziyorat turizmi destinatsiyalari tushunchasining iqtisodiy talqinini bilan tanishib chiqish zarur hamda turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarining xususiyatlari va ziyorat turizmiga oid destinatsiyalarni rivojlantirishning nazariy, amaliy jihatlari bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiqdir:

- Mamlakatdagi ziyorat turizmiga oid obyektlarni rivojlantirish holati hamda salohiyatini baholash;
- Respublikamizdagi ziyorat turizmi destinatsiyalarining foydalilik darajasini ko‘rib chiqish;
- Destinatsiyalarni rivojlantirishda xorij tajribasini qo‘llash amaliyotini joriy qilish;
- Amalga oshirilgan ishlar va yangiliklarni hududlar kesimida monitoring qilib boorish.

Yuqorida keltirilgan takliflar diniy turizm ya‘ni ziyorat turizmi rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6165-son Farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-fevraldagi “Ichki va ziyorat turizmni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 100-son Qarori.
3. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi “Z” harfi, Davlat ilmiy nashriyoti, TOSHKENT (www.ziyouz.com kutubxonasi).

<sup>198</sup> Villani, T. (ed.) (1994) Eterotopia. Luoghi e non-luoghi metropolitani, Mimesis, Sesto San Giovanni (Milano).

Italian translation from Foucault, M. (1984) Eterotopie. Des espaces autres, Conference at Cercle d’etudes architecturales, 14 March 1967, in Architecture, Mouvement, Continuete 5, pp.46-49.

4. Surayyo Usmanova. University of World Economy and Diplomacy. Ziyarah Tourism as a New Linkage for Tourism Development in Uzbekistan. // New Voices from Uzbekistan. NVFU ebook. Central Asia Program. The George Washington University. 2019. May 2019 In book: New Voices from Uzbekistan (pp.31-41)
5. Turdibekov Khasan Ibragimovich, Matlabov Sodik Norkulovich, Kholikov Nodirjon Abduxalil Ugli// Tourism Development In The Context Of Covid-19 Pandema: Opportunities And Risks. Vol. 12 No. 1 (2022) Page :8-14
6. Gibb, H. A. R.; Kramers, J. H.; Lévi-Provençal, E.; Schacht, J.; Lewis, B.; Pellat, Ch., eds. (1960). The Encyclopaedia of Islam, New Edition, Volume I: W–Z. Leiden: E. J. Brill. pp. 524, 533–39. ISBN 90-04-08114-3.
7. Kholikov Nodirjon Abduxalil ugli, Turdibekov Khasan Ibragimovich// Prospects of Development of Halal Tourism in Uzbekistan. Volume 3, February 2022. Page: 5-7
8. Daniel H Olsen, Anna Trono “Religious Pilgrimage Routes and Trails: Sustainable Development and Management” pp. 268, ISBN-1 397 8 178639 028 8.
9. “Ziyarah – Oxford Islamic Studies Online”. [www.oxfordislamicstudies.com](http://www.oxfordislamicstudies.com). Retrieved 2018-08-06. “Popular Religion – Oxford Islamic Studies Online”. [www.oxfordislamicstudies.com](http://www.oxfordislamicstudies.com). Retrieved 2018-08-06.
10. New Voices from Uzbekistan 2019 Marlene Laruelle, ed. Central Asia-Azerbaijan Fellowship Program
11. <https://en.wiktionary.org/wiki/destination>.
12. <https://yuz.uz/uz/news/ziyosat-turizmi-boyicha-oquv-dasturi-ishlab-chiqiladi>

**MADAMINBEK (MUHAMMAD AMINBEK AHMADBEK O‘G‘LI) FOJEASI**

*Xolliyev Dilmurod Mahmudovich*

*Qarshi Davlat universiteti Tarix fakulteti 3-kurs talabasi.*

**Annotatsiya:** XX asr milliy istiqlolchilik harakatining ahamiyati, Madaminbekning qo‘rboshilik faoliyati, o‘lka mustaqilligi uchun kurashgan qo‘rboshilar, madaminbekning hayotiy va harbiy faoliyati, Madaminbek jasorati va fojeasi, milliy tariximizda Madaminbekning tutgan o‘rni va roli.

**Kalit so‘zlar:** bosmachi, Madaminbek, Shermuhammadbek faoliyati, Xolxo‘ja Eshon xiyonati, rus manbaalari, tarixiy xilma-xillik.

Vatanimiz tarixiy ildizlari ko‘p mingyillikka borib qataladi. Bu tarixiy davr mobaynida yashab o‘tgan barcha ajdodlarimiz o‘z davrida, hayotlik paytidayoq, nomlarini tarix zarvaraqlariga muhrlashga ulgurishgan. Ba‘zilari “qon” bilan, ba‘zilari o‘z “jon”i bilan. Shunday shaxslardan biri Madaminbekdir. Sovet tarixchilari tomonidan bu shaxs o‘tgan asrda “Bosmachi” nomi bilan qoralangan. Xo‘sh tarixga yuzlansak “Bosmachi” atamasi qachon va qay tariqa paydo bo‘lgan? 1919-yil o‘rtalarigacha “Bosmachi” degan so‘z qo‘llanilmagan. Sho‘ro idoralarining maxsus yig‘ilishlarida harakatni qoralash uchun shu so‘z taklif etiladi. Sho‘ro axriv manbaalarida bu davrgacha “повстанцы”, “моджахеды”<sup>199</sup> degan so‘zlar ishlatiladi.[1] “Bosmachi” iborasini birinchi bo‘lib bolshovoy mafkurachilar qo‘lladilar. “Жизн национальности” (Moskva, 1920 yil iyun) jurnalida “Bosmachilik fronti” maqolasi e‘lon qilindi. Bu iborani 1921 yili 4 aprelda mazkur maqola muallifi Farg‘ona qo‘shinlari qo‘mondoni D.E.Konovalov ishlatdi. P.Kushnev esa “bosmachi” so‘zini qaroqchi ma‘nosida qo‘lladi. [2] O‘sha davr nuqtai nazaridan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, bu kabi “bosmachi”lardan biri Madaminbek edi.

Madaminbek (Muhammad Aminbek) Ahmadbek o‘g‘li 1892 yilda Marg‘ilonning So‘qchilik kasabasida qashshoqlanib qolgan bekozodalar xonadonida tug‘ilgan. Marg‘ilonda Madaminbekning avlod-ajdodlarining “Bekulug‘” deb yuritishardi. Bu bejiz emas. Asli hozirgi Toshloq rayonning Sadda qishloq sho‘rosi hududida joylashgan So‘xchilik qishlog‘ida 1892-yili tavallud topgan Madaminbek el-yurtga taniqli yigit edi. Madaminbek bekklik unvonini qo‘rboshilik faoliyatini boshlagidan so‘ng olgan emas. So‘qchilik qishlog‘idagi keksalar va Madaminbekning turmush o‘rtog‘i Saodat ayaningxotirlashicha, u nasl-nasbi jihatidan ham bek bo‘lgan. Ruslar Farg‘onani bosib olganlaridan so‘ng, Madaminbek ajdodlari o‘z mavqelarini yo‘qotadilar. Uning otasi Ahmadbek qoshiq, cho‘mich va boshqa ro‘zg‘or buyumlarini ishlab choiqaradigan kichik ustaxonaning egasi edi. Oz-moz savdogarchilik bilan shug‘illanar edi. Madaminbekning bir akasi va ikki opasi bo‘lgan. [3] Madaminbek yoshligida otasiga yordam berib, yog‘ochdan turli buyumlar yasab sotib yurdi, keyinchalik bozorda hammollik, do‘kondorlik, karvonlarda sarbonlik qildi. Savodi tuzuk bo‘lganligi uchun savdogarlar, zakunchilar, amaldorlar doiralariga ham kirib bordi.[4] Madaminbek Birinchi jahon urushi arafasida chor Rossiyasi hukmronligiga qarshi bosh ko‘taradi. 1914-yili qamoqqa olinadi. Sud madaminbekni o‘zi tan olmagan ayblar - qotillik va o‘g‘irlikni unga to‘nkab, 14 yilga Sibirdagi Nerchinsk degan joyga katorgaga hukm qiladi. 1917-yil Fevral inqilobidan keyin siyosiy mahbus sifatida Madaminbek ozodlikka chiqadi va Marg‘ilonga qaytib keladi.[5]

Madaminbek 1918 yil boshlarida Marg‘ilon militsiyasi boshliqligiga tayinlanadi. Muxtoriyat tugatilib, Qo‘qon qonga botirilgach, Madaminbek o‘z qo‘l ostidagi uch yuz yigit bilan milliy-ozodlik harakati yo‘liga o‘tadi. U Toshloq qasabasidagi G‘orbuvo qishlog‘ini o‘ziga qarorgoh qilib olib, qizil gvardiyachilar bilan dastlabki janrlarini boshlab yuboradi. Keyinchalik, G‘orbuvoni Shermuhammadbek ixtiyorida qoldirib, qarorgohini Baliqchiga ko‘chiradi. Baliqchi vodiyning qoq markazi bo‘lib, ikki ulug‘ daryo: Qoradaryo va Norin qo‘shilib, Sirdaryo hosil bo‘ladigan joydir. Bu kasaba vodiyning to‘rt yirik muzofoti — Qo‘qon, Namangan, Andijon, va

<sup>199</sup> Tarjima Ruscha: Isyonchilar, Mujohidlar.



Marg'ilon hududlari o'zaro tutashgan, butun vodiyni nazorat qilib turish mumkin bo'lgan, muhim strategik ahamiyatga ega joy edi. Tez orada uning qo'shini 4000 kishiga yetib qoldi. Unga Baliqchidan Boytuman hoji, Nayzaqayrag'ochdan Solih Mahsum, Oq yerdan Qozoqjonbek, Qorako'ldan Hoshim polvon, Buluqboshidan Mulla Juman, Valikdan Mirkarimboy, Nurulla Mahsum, Abdullajon, Uchqo'rg'ondan Nazriddin Mingboshi, Loshmondan To'xtaboy Ponsod, Qumariqdan Boltaboy Qo'rboshi, Yozyovondan Yusuf Polvon, Qoratepadan Qurbonboy, Varzikdan Abdullajon Mahsum o'z yigitlari bilan kelib qo'shildilar. Madaminbek o'zining o'sib borayotgan qo'shinida beboshlik, talonchilik va boshqa salbiy holatlarning oldini olish uchun qozi va muftiylar yordamida maxsus "Nizomnoma" tuzadi. Madaminbek yangi qo'shilgan har bir qo'rboshini mazkur Nizomnoma bilan tanishtirib, unga amal qilish uchun imzo qo'ydirib olgan. Afsuski, bu muhim hujjat moziy qa'rida qolib ketdi. Uning biror nusxasi na arxivlarda, na odamlar qo'lida saqlanib qolgan. Madaminbek qo'shinidagi yigitlar jasur, g'oyaga sodiq jangchilar bo'lsalarda, ularning aksariyati umrida pichoq, bolta-tesha, ketmon va panshaxadan boshqa qurol ishlatmagan, jang ko'rgan bo'lsada, katta harbiy operatsiyalarda ishtirok etmagan, jang taktikasidan bexabar bo'z yigitlar edi. Mahalliy millat vakillari ichida harbiy mutaxassislar yo'q hisobi. Shu tufayli Madaminbek o'ylab-o'ylab sobiq podsho Rossiya armiyasi zobitlaridan foydalanishga qaror berdi, illo, vodiya qizil hokimiyatni tan olmagan, ularga qo'shilmagani uchun ta'qibga uchragan harbiy mutaxassislar yetarli edi. Ular ham mavjud hokimiyatga qarshi kurashishni xohlar, vodiyning ruslar ko'proq istiqomat qiladigan sharqiy qismida (Jalolobod, O'zgan) o'z qo'shinlarini tashkil etgan, bunday imkoniyat bo'lmagan boshqa joylarda esa payt poylab yotar edilar. Madaminbek ularning huzurlariga odam yuborib, umumiy dushman, ya'ni, bolsheviklarga qarshi hamkorlikda jang qilish, birlashishni taklif qildi. Milliy-ozodlik harakati asosan islom bayrog'i ostida ish ko'rayotganligi rus ofitserlarini cho'chitib turardi. Shu tufayli Madaminbek o'z qo'shinida diniy erkinlik e'lon qildi. Shundan so'ng Osipov, general Muxanov, polkovnik Belkin (Kornilov), keyinchalik esa, Sharqiy Farg'onada tarkib topgan krestyanlar armiyasi qo'mondoni general Monstrov unga qo'shiladilar. Birinchi bo'lib esa qizil armiya tarkibidagi maxsus Pomir otryadi qo'shilgan edi. Bu otryad urushlarda chiniqqan, tog' sharoitida jang qilishga mohir yigitlardan iborat bo'lib, "Bo'ri galasi" degan nom orttirgan. Unga shtab-kapitan Plotnikov boshchilik qilgan. O'zi aslida qirg'iz bo'lib, ruslar ichida tarbiya olgan va polkovnik darajasiga erishgan Sulaymon Kuchukov esa o'z bo'linmasi bilan bek qo'shiniga kelib qo'shildi. Rus ofitserlari Madaminbek qo'shini shtabini boshqarganlar, yigitlarga zamonaviy jang usullarini o'rgatganlar. Madaminbekning dastlabki janglari Marg'ilon atroflarida, so'ngra esa Namangan va Baliqchi oralig'idagi Jiydakapa qishlog'ida bo'lib o'tdi. Bu jangda dastlabki xiyonat sodir etildi: Plotnikov boshchiligidagi Pomir otryadi qizillar bilan yarashish maqsadida ularga xat jo'natganligi ma'lum bo'lib qoldi. Qo'rboshi Boytuman hoji buni sezib qolib, Madaminbekka xabar beradi. Madaminbek yetib kelib, otryadni qurolsizlantiradi. Biroq Plotnikovning buyrug'i bilan qurshovdagi qizil gvardiyachilar Namangan tomon chekinishga muvaffaq bo'ladilar. Keyingi janglar esa muvaffaqiyatli o'tdi. Madaminbek Markaziy Farg'onaning qishloq hududlarida o'z hokimiyatini o'rnatishga muvaffaq bo'ldi. Marg'ilon shahri, garchi uning qo'l ostida bo'lmasada, bu yerga bemalol kelib ketadigan bo'ldi. Madaminbekning dovrug'ini yoygan katta, shiddatli janglar asosan 1919 yilda bo'lib o'tdi. Yil boshida u eng katta kuch — Safonov boshchiligidagi 20 ming kishilik jangchisi bo'lgan Skobelev (hozirgi Farg'ona) shahriga hujum qildi. Musulmon lashkarboshilarining navbatdagi qurultoyida harakati sustlashgan Katta Ergash Qo'rboshi o'rniga Madaminbek "Amir Al Muslimin" etib saylandi. Xafa bo'lgan Ergash Qo'rboshi qurultoy qaroriga bo'ysunmasligini e'lon qildi va o'z holicha, hech kimga itoat qilmay kurashni davom ettirishni ma'lum etdi. Obro'-e'tibor bilan birgalikda hasadguylar ham ko'paydi. Uning qo'l ostida jang qilayotgan To'ychi, Qoraboy, Xolxo'ja va yana ularga o'xshash bir necha qo'rboshilar qanday qilib bo'lsada, Madaminbekning o'rniga o'zlari o'tirishni, amiral muslimin bayrog'ini o'zlari tutishni orzu qilardilar va bu yo'lda yashirin yo'l tutganlar. 1919 yil 22 oktyabrda Pomirning Ireshtom (Ergashtom) ovulida Madaminbek rahbarligida Farg'ona Muvaqqat hukumati tuzildi. Madaminbek hukumat raisi va bosh qo'mondon qilib tayinlandi. 1920 yil fevralida sovet qo'shinlari Madaminbek, Shermuhammadbek qo'shiniga qarshi o'nlab

samolyot, bronepoezd, katta miqdordagi to'p pulemyotlar bilan hujumga o'tdi. Harbiy tashabbus qo'ldan ketganligini his etgan Madaminbek o'z qo'shini, yigitlarini saqlab qolish maqsadida yarash muzokaralarini taklif etdi, hamda u bilan diviziya boshlig'i Vervovkin-Raxal'skiy o'rtasida 1920 yil 6 martda Skobelev shahrida yarash bitimi imzolandi. Taslim bo'lganlarni avf etish haqidagi sovet hukumatining qarori chiqqan bo'lsada, bolsheviklar tomonidan o'ldirilgan Madaminbek o'limining ertasi kuniyoq boshqa istiqlochlilarni ham shafqatsiz qirish boshlandi. [6] O'sha davrda yurt o'zining eng katta fidoyi farzandidan ayrildi. Madaminbekning o'limi hozirgi paytgacha sirligicha qolib ketmoqda. Bunga doir bir nechta tarixiy faktlar mavjud. Lekin haligacha bir to'xtamga kelingani yo'q. Bu sirli fojea haqida turli xil manbaalar mavjud. Muhammadaminbek Shermuhammadbekning ko'rsatmasi bilan Xolxo'ja tomonidan qatl etilgan va uning boshi nayza uchiga o'rnatilib, ibrat va sazoyi qabilida Xolxo'ja tomonidan olib yurilgan. Xulosa yakdil bo'lsada, Muhammadaminbek qatl etilgan joy, vaqt va holat haqida katta tafovut bor. Qizil komandirlardan biri M.Polikovskiy esa o'zining "Madaminbekning tugatilishi" asarida quyidagicha hikoya qiladi: "Madaminbek Ko'rshermatga sulh masalasida uchrashish uchun bir necha marta taklif yuboradi. Nihoyat, Ko'rshermat uni G'orbuvoga taklif qiladi. Madaminbek o'zining polk komissari Suxov va yigirma to'rt yigiti hamrohligida G'orbuvoga yo'l oladi. Madaminbek Vodilga yetib kelganda Ko'rshermat uni o'rab oldi, jang paytida Madaminbek boshidan o'q yeb o'ldi. Uning boshi Xolxo'jaga sovg'a qilinadi". Madaminbekning taqdiri masalasida tarixiy manbaalarda bir biriga qarama qarshi malumotlar beriladi. Jumladan sovetlar davrida yozilgan adabiyotlarda Madaminbekni "sotqin" sifatida Shermuhammadbekning buyrug'i bilan qo'rboshi Xolxo'ja tomonidan otib tashlanganligi takidlanadi. Xuddi shu fikrni "O'zbekiston tarixi" (1917-1993-yillar) mualliflari ham ilgari suradilar. Ingiliz tarixchisi Glenda Frezer o'zining "Bosmachilar" asarida: "Madaminbek Shermuhammadbek oldiga tinchlik missiyasini jo'natadi. Shermuhammadbek Madaminni ayg'oqchi sifatida 14-may kuni otib tashlaydi", deb yozadi. [7] 1957 yilda nashr etilgan "Farg'ona vodiysida sovet hokimiyati uchun bo'lgan janglarda" deb nomlangan to'plamda Usmon Alievning "Mening xotiralarim" deb atalgan esdaliklari ham bor. Unda shunday parchani uchratamiz: "... To'ychi Qo'rboshi bilan muzokaralarni Paramonov, Chekmaryov va Oxunovlar olib bordilar. Har ikki tomon bir to'xtamga keldilar. Paramonov, Chekmaryov va Oxunov To'ychi Qo'rboshini M.V.Frunze o'z esheloni bilan turgan Serovo stantsiyasiga taklif etdilar. To'ychi rozi bo'ldi, biroq bir oz keyinroq borishini bildirdi. To'ychi o'zining So'xda turgan yigitlariga "Rishtonga kelib turinglar, men Serovoga, o'rtoq M.Frunze oldiga ketyabman", degan mazmunda xat yozadi. Xatni jo'natgach, sulh tuzish uchun yo'l oladi. Serovo yo'lidagi Zohidon qishlog'iga yetganida unga Madaminbekning boshini keltirib beradilar. Ma'lum bo'lishicha, sulh shartnomasi tuzilgandan so'ng M.V.Frunze tomonidan musulmon armiyasi qo'mondoni etib tayinlangan Madaminbek Qo'qonga kelgan paytda bir vaqtlar Xolxo'janing ukasini o'ldirgan (U.Aliev bir oz adashtirib yuborgan. Boshqa bir necha manbaga ko'ra To'ychi qo'rboshining ukasini o'ldirgan) Yorbek degan kishini Qo'qon qamoqxonasidan ozod qiladi va shu tariqa ular bir-biriga dushman bo'lib qolgan. Sovetlar bilan yarashtirish haqida muzokaralar olib borish uchun kelgan Madaminbekni Ko'rshermat hiyla bilan qo'lga tushurib, uning eski dushmani Xolxo'jaga topshiradi. Xolxo'ja, shu tariqa, ukasining qasdini olgan bo'lib, Madaminbekni o'ldiradi". [8] Xolxo'ja Eshon shunday mashhur shaxs bo'lgani bilan, uning 1917 yilgacha bo'lgan hayoti haqida hech qanday ma'lumot yo'q. Manbalarda, uning O'shlik ekanligi, Sharqiy Farg'onada faoliyat ko'rsatganligi, ayrim janglari tafsiloti yoziladi, xolos. Shuningdek, manbalarda Xolxo'ja Eshon Madaminbek fojiasining bosh qahramoni sifatida qalamga olinadi. [9] Turk adibi va jurnalist Ali Bodomchining "1917—1934 yillarda Turkistonda milliy istiqloq harakati va Anvar Posho" asarining I jildi shartli ravishda "Qo'rboshilar" deb nomlangan. Bu asarda yozuvchi Shermuhammadbek, Nurmuhhammadbek va chet elga qochib o'tishga muvaffaq bo'lgan qo'rboshilarning yozma va og'zaki xotiralaridan unumli foydalangan. Ali Bodomchi Madaminbek fojiasida nafaqat Shermuhammadbek balki, Xolxo'ja Eshonning ham qo'li bo'lishi mumkinligi haqidagi gumonlarni butunlay rad etadi. Bu masalaga u shunday yondashadi: "Qorovul mavzei atrofida bo'lib o'tgan janglar paytida... Bolsheviklar eng avvalo Xo'jag'ir darasi tomonidan hujumga o'tdi. Ularning soni 1000 dan oshiq bo'lib, Madaminbek ham o'z

yaqinlari bilan mana shularning ichida edi. Bu kuchlarning deyarli hammasi tatar va o'zbek qizil askarlari edi. Xo'jag'ir darasi qo'rboshilar rejasiga ko'ra, Xolxo'ja Eshonning yigitlari tomonidan ushlab turilardi. Shuning uchun ular 1000 kishilik dushmani qilich yalong'ochlab kutib oldilar. Xolxo'ja Eshon bolshevik kuchlari ustiga 9 aprel kuni ertalab yashin tezligida hujum uyushtirib, ilk bosqichda besh yuztasini asir oldi. Madaminbek ham shu asirlar orasida edi. Xolxo'ja Eshon 500 asirni Lutfulloh Maxsum va Soyib Qori boshchiligida qarorgohga yubordi. Madaminbek — sobiq qo'rboshilar qo'mondoni endi qo'rboshilarning qo'lida asir bo'lib qoldi. Madaminbek bilan tortishuv boshlagan qo'riqchi qo'rboshilar Soyib Qori va Lutfulloh Maxsum Madaminbekka oldin o'q otib, keyin bo'g'ib o'ldirdilar. Turkistonlik yozuvchi va olimlar Madaminbekni Xolxo'ja Eshon o'ldirgani yoki o'ldirtirib yuborganini yozganlar. Tatqiqotchi olim Mansurxo'ja Xo'jayevning so'rab-surishtirish va tadqiqotlariga ko'ra, Madaminbekni Xolxo'ja o'ldirmagan ham, o'ldirtirmagan ham. Chunki Madaminbek o'ldirilgan paytda Xolxo'ja urush jabhasida bo'lgan. Qotillar, yuqorida yozilganidek, Soyib Qori va Lutfulloh Maxsumlardir. Bular ikkalasi ham bir qancha vaqt g'oyib bo'lishgan. Buxoroga qochib borib, Madaminbekni o'ldirganliklarini tan olishgan. Ba'zi turkistonliklar esa Madaminbekni Shermuhammadbek o'ldirganini aytadilar. Bunday da'vo — iddao butunlay ehtimoldan holi. Qorovul jangidan keyingi maslahat majlisidayoq Shermuhammadbek Xolxo'jaga sabr qanoatli bo'lishni, biror yomon kor-holga yo'l qo'ymaslikni uqtirgan. Bu mavzudagi eng to'g'ri fikr Madaminbekni bolsheviklar tomonidan o'ldirilganidir. Chunki o'ldirganlar aniq, ammo o'ldirtirganlar noma'lum. Shermuhammadbek o'z xotiralarida bu mavzuga keng o'rin berib, shunday deydi: “Madaminbekning o'lganini men kech eshitdim. Karboboga qaytib kelgan paytimizda bildim. Urush chog'ida uning yuzini ko'rmaganman ham. Chunki biz jiddiy o'lish-qolish jangi ichida edik. Xolxo'ja Madaminbekni asir olgan paytda uning yigitlari Soyib Qori va Lutfulloh Maxsumga topshirgandi. Bu ikkisi Madaminbekni o'ldirib, Buxoroga qochib ketgan. Madaminbekni men yoki Xolxo'ja o'ldirgan degan iddao ruslar tomonidan bizga qarshi tuhmat targ'iboti edi. Xolxo'ja Madaminbekka kek saqlardi, ikki yil oldin oralari yaxshi bo'lmagani holda Madaminbek Xolxo'jani Marg'ilonga chaqirib, qurollarini olib qo'ygandi. Buni hamma bilardi. Men shaxsan Madaminbekning ruslar bilan kelishganiga g'azablanganimga qaramay, ilgari katta ishlarni bajargan, oydin fikrli bir qo'mondon ekanligini qadrlar edim. O'limi menga ko'p ta'sir qildi. Koshki mening qo'limga tushgan bo'lganda, men uni eski xizmatlariga binoan Afg'onistonga jo'natardim. Qotil aniq va bu dahshatli hodisada ruslarning qo'li bor. Bolsheviklar bu o'lim hodisasini bizning ustimizga to'nkashdi. Mening xulosalarim shunday. Soyib Qori va Lutfulloh Maxsum Madaminbekni o'ldirganlaridan keyin bu yerdan g'oyib bo'lishdi. Urush to'paloni ichida askar yigitlarning ko'pi Madaminbekning o'limidan xabarsiz qoldi. Germaniyada istiqomat qilgan marhum vatandoshimiz Doktor Boymirza Hayit o'zining “Bosmachi yoxud 1917—1934 yillarda Turkistondagi milliy kurash” kitobida Muhammadaminbek fojiasiga Shermuhammadbekning daxli yo'qligini ta'kidlagan holda, Xolxo'ja Eshon haqida ochiq yozmaydi, ishora qilib o'tadi, xolos: “... Madamin va Xolxo'ja o'rtasidagi mojarolar 1919 yildayoq yuzaga kelgan edi. Xolxo'ja Madamin yigitlari orasida qo'rboshi bo'lib yurgan kezlari Madamin uni axloqiy buzuqlikda ayblab, 4 oyga qamoq jazosiga hukm qilgan edi. Xolxo'ja Madamindan nafratlanar, shu bois 1919 yil oxirida uning yigitlaridan ajralib, Shermuhammadga kelib qo'shilgan edi. Madaminning jang maydonida paydo bo'lishi oliymaqom imkoniyat edi. Madamin va Suhev (Suxov – M.X.) 1920 yil 14 mayda o'ldirilganlar.” Boymirza Hayit yana shularni yozib o'tadi: “... Madamin Shermuhammad huzuriga tinchlik muzokaralari olib borish uchun kelayotganida Xolxo'ja yigitlari tomonidan qo'lga olinadi va qatl qilinadi. Soyib qori va Lutfulla Maxsum Madaminni o'ldirganlaridan keyin Buxoroga qochib ketadilar.”

Muhammad Aminbekni Shermuhammadbek hech qachon o'ldirishi mumkin emas edi, — deydilar Shermuhammadbek va Nurmuhhammadbek o'g'illari Davronbek va Anvarbeklar. Madaminbekka hurmat ramzi sifatida Shermuhammadbek nabirasiga Madaminbek deb ism qo'ygan. Madaminbekning jiyani Nurmuhhammadbekning umr yo'ldoshi edi, otamlar doimo Madaminbek amakimlarni milliy qahramon sifatida tilga olishar edi...

Darxaqiqat Shermuhammadbek va Madaminbek o'rtasidagi bunday aloqalardan so'ng ular o'rtasida dushmanlik kayfiyati bo'lganligi haqiqatdan yiroq. Muallif Mansurxo'ja Xo'jayev va Pyotr Yevdokimovich Bronislavskiy o'rtasidagi suhbatdan ushbu tafsilotlar namoyon bo'ladi. U iste'fodagi general, harbiy prokuror bo'lib, uzoq yillar O'zbekistonda xizmat qilgan, hozirgi paytda Moskvada istiqomat qilib, yoz mavsumida dala hovliga ko'chib chiqqan ekan. Yigirmanchi yilda Pyotr Yevdokimovich Bronislavskiy Farg'ona fronti maxsus bo'limiga tergovchi qilib yuborishdi. Rishton, Serovo, So'x oralig'ida harakat qilgan To'ychi va Qoravoy qo'rboshilar bo'lar edi. Ular bir necha marta qizil qo'mondonlik bilan sulh tuzishgan, lekin ko'p o'tmay yana bosmachilikka o'tib ketishgan. Nihoyat, to'rtinchi marta bosmachilar tomoniga o'tib ketayotganligi ma'lum bo'lib, hibsga olingan. Tergov bir necha oy davom etadi. Ularning aybini bo'yniga qo'yib, ishni sudga oshirish payti kelganda To'ychi bir vaqtlar sho'rolarga katta xizmat ko'rsatganman. Maxsus bo'lim ko'rsatmasi bilan Madaminbekni yo'q qilish ishida qatnashganman... [10] Sinchiliklab o'rganadigan bo'lsak, Rus manbaalarining barchasida Xolxo'ja Eshon va Shermuhammadbek tomonidan Madaminbek o'ldirilgani aytilgan. Lekin mahalliy manbaalarga asoslanadigan bo'lsa bu ruslar tomonidan uyishtirilgan qotillik sifatida ko'rsatiladi. Boshqa manbaalarda esa Xolxo'ja Eshon asosiy gumondor sifatida ko'rsatiladi. Sho'rolar davrida yozilgan "Sovet Turkistoni uchun" degan kitobda bunday bitiklar bor: "Madaminbek (1889-1920-y.) - Farg'ona vodiysidagi Bosmachilikning yirik boshliqlaridan biri. Savdogarning o'g'li. Bir ayolni o'ldirganligi uchun katorgaga jo'natilgan. 1917-yil oxirlarida u yerdan qaytgach, Eski Marg'ilon militsiyasiga ishga kiradi, otryad boshlig'i bo'ladi. 1918-yil yozida u sovet hokimiyatiga xiyonat qilib, otryadi bilan bosmachilarga qo'shiladi. 1920-yil martida bosmachi otryadi bilan asirga tushadi. Ko'rshe'rat bilan muzokaralar olib borishga ketganda o'ldiriladi. [11] Sovet qo'mondonligi tomonidan muzokaralar o'tkazish uchun qo'rboshilar orasiga yuborilgan Madaminbek Shermuhammadbekning roziligi bilan Xolxo'ja Eshon tomonidan 1920-yil 14-mayda qirg'izlarning Qorovul qishlog'i atrofida xiyonatkorona o'ldirildi. [12] Yarash bitimi hech qanday ahamiyatga ega bo'lmagani uchun boshqa beklar Madaminbekni xoinlikda qoralashdi. Xolxo'ja qo'rboshi Uchqo'rg'on tegarasida Madaminbek bilan jangga kirishib, uni qatl etadi. [13] Shu jumladan, Ibrohim Yorqin "Turkistonning buyuk mujohidi Shermuhammadbek" maqolasi, "Turk kulturi" jurnali, 95-son (1970 yil may oyi), 496 bet; Tohir Chig'atoy "Turkiston mujohidi Shermuhammadbekni yo'qotdik", maqolasi ("Davlat" majmuasi, 52-son (1970 yil, 30 mart), 6—7 betlar kabi asarlarda yuqoridagi fikrni tasdiqlab yozganlar. Boymirza Hayit "Turkiston Rusiya ila Chin orasinda" nomli asarining 284- betidagi 33 raqamli izohida shunday yozgan: "Madaminbek 1920 yil 9 aprelda bosmachilar tomonidan otilgan" deb turib, o'sha asarning 288 betida: "Madaminbek Xolxo'janing kuchlari tomonidan 1920 yil 14 mayda qatl qilindi", deydi. Adib Ibrohim Karimning kitobida keltirilishcha, Xolxo'ja Eshon tomonidan Madaminbek o'ldirilib, kallasini xo'rjingga solib, Nazar degan yigitdan uni To'ychi va Qoravoy qo'rboshilarga jo'natib yuboradi. Ruslarga sotilgan bu qo'rboshilar esa Madaminbekning kallasini ruslarga topshirishadi. Ruslar esa Madaminbek boshi solingan xo'rjingga 500 ta o'q solib Xolxo'ja Eshonga qaytarib yuborishadi. Madaminbekning boshini qirg'izlar Xolxo'ja Eshondan sotib olishga muvaffaq bo'ladilar. Qirg'izlarning Madaminbekka ixlosi baland edi. Uning kallasini tanasiga tikib, izzat-ikrom bilan Takatayloqdagi Shig'ay qishlog'i yaqiniga Isfayromsoy qirg'og'iga dafn etishadi. (Hozirgi Qirg'iziston Respublikasi.) [14] Ko'rilganidek ma'lumotlar ko'p lekin yakdil xulosa yo'q. Chunki o'sha davrda bizning tariximiz "g'oliblar" tomonidan yozilgan. Bu ma'lumotlar esa ba'zi bir mahalliy manbaalar ahamiyatini pasaytirmoqda. Yuqordan ko'rinadiki, Madaminbek ruslar buyrug'iga asosan mahalliy qo'rboshilar tomonidan xoinlarcha o'ldirilgan.

Xulosa o'rnida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning Madaminbek haqida fikrlariga to'xtalsak: "Madaminbek... ozodlik, adolat uchun kurashgan... Ushbu harakatning Madaminbek kabi nainki o'zining balki el-yurt or-nomusi va sha'nini o'ylab, o'z maslakdoshlari bilan shu kurashga otlangan bilimli, irodali namoyondalari... bo'lganligini unutmazlik lozim." Barcha davrning o'ziga xos xususiyati tarixni g'oliblar yozishi va mag'lublar qoralanishidir. Mamlakatimiz mustaqilligi sharofati bilan ushbu tarixiy shaxsning haqqoniy tarixini yoritish imkoni paydo bo'ldi.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Baxtiyor G'ofurov, Qo'rboshi madaminbekni kim o'ldirgan? 2020, 3-son
2. Красная звезда, Москва, 1928, 1-son.
3. Alisher Ibodinov, Qo'rboshi Madaminbek, Yozuvchi. 1993, B. 15
4. Mansurxo'ja Xo'jaev, Shermuhammadbek qo'rboshi, Sharq. T.:, 2008, B. 18.
5. Q.Rajabov, O'zbekiston adabiyoti va sanati gazetasi, 2002, 21-son.
6. Mansurxo'ja Xo'jaev, Ko'rsatilgan asar, B. 20.
7. R.Shamsuddinov, Sh.Karimov, Vatan tarixi, III qism. T.:Sharq, 2010, B. 124
8. Mansurxo'ja Xo'jaev, Ko'rsatilgan asar, B. 78.
9. Mansurxo'ja Xo'jaev, Ko'rsatilgan asar, B. 23.
10. Mansurxo'ja Xo'jaev, Ko'rsatilgan asar, B. 78.
11. Karim.I, Madaminbek, II nashr, T.:Sharq, 1999. 130-b.
12. Q.Rajabov, Ko'rsatilgan manbaa, 2002, 21-son.
13. Bosmachilik: Haqiqat va uydurma, Sharq yulduzi, 1991, 3-son.
14. Karim.I, Madaminbek, II nashr, T.:Sharq, 1999, B. 128.



## TARAQQIYOT STRATEGIYASI MENING TAQDIRIMDA

*Xolmirzayev Shavkat*

*Termiz davlat universiteti ijtimoiy fanlar fakulteti 2-bosqich talabasi.*

*Ilmiy rahbar: Boshlang'ich ta'lim kafedrasida o'qituvchisi Hayitva Feruza Abdullayevna*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mamalakatimiz hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan, biz yoshlarni har tomonlama kamol topishimizda mustahkam poydevor vazifasini bajarayotgan taraqqiyot strategiyasining ahamiyati va uning mening hayotimda, orzularim hamda maqsadlarimdagi ahamiyati yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Strategiya, rivojlanish, taqdir, mukammal, Yangi O'zbekiston, inson omili, islohot, manfaat, kelajak, xalq.

## СТРАТЕГИЯ РАЗВИТИЯ В МОЕЙ СУДЬБЕ

**Аннотация:** В данной статье подчеркивается важность стратегии развития, которая охватывает все стороны жизни в нашей стране, которая служит прочной основой для всестороннего развития нашей молодежи, и ее значение в моей жизни, мечтах и целях.

**Ключевые слова:** Стратегия, развитие, судьба, совершенство, Новый Узбекистан, человеческий фактор, реформы, интерес, будущее, люди.

## THE DEVELOPMENT STRATEGY IS IN MY DESTINY

**Annotation:** This article highlights the importance of the development strategy, which covers all aspects of life in our country, which serves as a solid foundation for the comprehensive development of our youth, and its importance in my life, dreams and goals.

**Keywords:** Strategy, development, destiny, perfection, New Uzbekistan, human factor, reform, interest, future, people.

**Kirish.** Bugungi kunda mamlakatimiz kundan-kunga chiroy ohib, yangilanib bormoqda. Yurtimizda amalga oshiriyotgan islohotlar “Inson qadri uchun” tamoili asosida olib borilmoqda. Barcha islohotlarning markazida inson manfaati yotibdi desam mubolag'a qilmagan bo'laman. Muhtaram yurtboshimiz Sh.Mirziyoyevning tashabbuslari bilan hayotga tadbiiq etilayotgan “Taraqqiyot strategiyasi” mamlakatimiz aholisi orzu-istaklarini ro'yobi bo'ldi. Yurtimiz bugun uchinchi ronessans tomon dadil va shaxdam odimlab bormoqda. Biz yangi jamiyat, inson manfaatlarining ulug'lanishi asnosida Yangi O'zbekistonni barpo etishimizda Taraqqiyot strategiyasini o'rni juda ham ahamiyatli bo'ldi. O'zbekistonda istiqomat qilayotgan har bir fuqaro singari mening ham ilm olishim, farovon hayot kechirish va bu orqali vatanimga o'zimning munosib hissamni qo'shishimda “Taraqqiyot starategiyasi” muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi “2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoniga muvofiq mamlakatimizning kelgusi besh yildagi rivojlanish strategiyasi belgilab berildi.[1,2] Ushbu strategiyada juda ham ko'plab va muhim masalalar bayon etilgan bo'lib, yurtimiz aholisining maqsadlari va farovon hayot kechirishlari uchun muhim tamal toshi bo'ib hizmat qildi.

**Tahlil va natijalar.** Maqolani abyon etish davomida avvalo stratega tushunchasini zohlab o'tish lozim. Xo'sh, strategiya nima? U xalqning maqsadlarini qanday ta'minlaydi? Tanlagan maqsadlarning istiqbollari nimalarda namoyon bo'ladi?

Strategiya — bu ta'limotni izlash, ifodalash va rivojlantirish tizimi bo'lib, u izchillik bilan va to'liq amalga oshirilganda uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta'minlaydi.[3,5]

Strategiyaning mohiyati taktik vazifalarni belgilashdan iborat.Siyosat, strategiya va taktika — strategik rahbarlik va boshqaruv jihatlari bilan bog'liq uchta mustaqil kategoriyadir.

Ularning farqi shundan iboratki, strategiya tasdiqlangan va amalga oshirish uchun qabul qilingan bo'lsa, uning joriy qilinishi strategiyalashtirilayotgan obyektning mayog'iga aylanadi. Taktika esa strategik vazifalarni amalga oshirish bo'yicha kundalik, oylik va yillik (joriy) rejalarni va ularning yechimi bo'yicha tadbirlarni taqozo etadi. Siyosat — bu strategiya va taktikani yagona samarali amal qiluvchi tizimga agregatsiya va integratsiya qilinishidir.

Ko'rib turganimizdek, strategiyaning asl mohiyatida xalqimizning orzu-umidlari yo'g'rilgan g'oyalardan tashkil topgan milliy mafkuraning ifodasi yotadi. Mafkuradan nusxa olib bo'lmaganidek, davlatning strategik maqsadlarini ham boshqa davlat va xalqlarning tarixiy tajribasidan o'zlashtirib yoxud nusxa olib bo'lmaydi. Zero, har bir xalqning o'ziga xos siyosiy-ijtimoiy, demografik, iqtisodiy, madaniy tarixi, tabiiy resurslari mavjud bo'ladi. Aynan shu omillar ma'lum ijtimoiy sharoit va imkoniyatlarni vujudga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi” Farmoni eng avvalo mamlakatimizda yaqin kelajakda amalga oshirilajak islohotlarning tub maqsadlari va ustuvor yo'nalishlarini, mazkur maqsad va yo'nalishlarning belgilanishiga asos bo'layotgan omillarni anglab olish imkonini beradi. Hujjatdan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston taraqqiyoti strategiyasining pirovard maqsadi xalq turmushi farovonligini yanada oshirish bilan bog'liq. Qo'yilgan maqsad yaqin besh yilda uch asosiy vazifaga diqqatni jamlashni taqozo qiladi. Xususan, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilmasdan va tadbirkorlikni jadal rivojlantirmasdan, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlamasdan, faol fuqarolik jamiyatini shakllantirmasdan turib, jamiyat a'zolari turmushining farovonligini oshirib bo'lmaydi. “Bizning vazifamiz – to'plangan tajriba va ilg'or xalqaro amaliyotga suyangan holda, o'zimizning taraqqiyot va yangilanish modelimizni qat'iy amalga oshirishdan iborat”[2,22] deganlarida Prezidentimiz ayni haqiqatni nazarda tutganlar. Strategik maqsad va vazifalarning bunday mazmunda belgilanayotgani bejiz emas. Farmonda ular jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni hamda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda aniqlangani alohida ta'kidlanadi. Darhaqiqat, jahon hamjamiyati bugun murakkab va ziddiyatlarga to'la davrni boshidan kechirmoqda. Jumladan, barcha mintaqalardagi iqtisodiy jarayonlar jadallashmoqda va keskinlashmoqda, iqtisodiy raqobat tobora jiddiy tus olmoqda. Mamlakatlardagi ijtimoiy hayotda transformatsion jarayonlar sodir bo'lmoqda. Dunyo geosiyosiy maydonidagi konfiguratsiya mutlaqo o'zgacha mazmun va shakl kasb qilmoqda. Hatto millat va elatlarning ma'naviy-madaniy hayoti ham tub o'zgarishlarga duchor bo'lmoqda. Bunday vaziyatda mamlakat taraqqiyotiga erishish, xalq farovonligini yuksaltirish uchun eng avvalo iqtisodiyotning uzluksiz va barqaror rivojini ta'minlash, uning raqobatbardoshligi va tahdidbardoshligini mustahkamlash, fuqarolik jamiyati institutlarini takomillashtirish, jamiyatda qonun va huquq ustuvorligini qaror toptirish taqozo qilinadi. Qo'yilgan strategik maqsad va vazifalar mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalari bilan ham uyg'undur. Masalaning mohiyati shundaki, o'tgan davrda davlat rahbarining rahnamoligi va tashabbusi bilan jamiyat hayotining turli sohalarida bag'oyat samarali islohotlar amalga oshirildi. Mazkur islohotlar mamlakat iqtisodiy qudratining oshishiga, ijtimoiy barqarorligining mustahkamlanishiga, siyosiy nufuzining oshishiga, ma'naviy makonining yangilanishiga olib keldi. Endilikda O'zbekistonda yangi marralarni egallash, fuqarolar turmushi darajasini yuksaltirish uchun barcha ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlar yuzaga kelib bo'ldi. Taraqqiyot strategiyasining xalq turmushi farovonligini oshirish bilan bog'liq maqsadi ana shu imkoniyatlardan kelib chiqib belgilanmoqda.

Taraqqiyot strategiyasining barcha ustuvor yo'nalishlari, ular miqyosida amalga oshirilishi rejalashtirilgan choralar strategiya maqsad va vazifalariga uyg'un holda belgilanganini, yaqin besh yilda ko'lamini keng va ijtimoiy ahamiyati salmoqli bo'lgan mexanizmlarni ro'yobga chiqarish ko'zda tutilganini alohida ta'kidlab o'tmoq lozim. Bu chora va mexanizmlar O'zbekistonda xalqparvar davlat barpo etish, adolat va qonun ustuvorligini qaror toptirish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, ijtimoiy siyosat adolatparvarligini yuksaltirish, ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash, mamlakat xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirishga xizmat qilishi shubhasiz. Bu esa biz yoshlarning taqdirida muhim ahamiyat kasb etadi.

Men kabi mamlakatimizning har bir yoshlari vatan ravnaqi yo'lida hizmat qilishimizda ushbu Farmonning ahamiyati yuqori bo'ldi. Yaqin kelajakda Yangi O'zbekistonni jahon maydonida kuchli salohiyat, munosib obro'-e'tiborga ega bo'lgan, har tomonlama obod va farovon, tinch va osoyishta mamlakatga aylantirishni maqsad qilgan mazkur tarixiy hujjatlar loyihalari bo'yicha fikr bildirish ertangi kuniga befarq bo'lmagan barchamiz uchun sharaflidir. Shuning uchun ham qalb amri bilan ushbu hujjatlarni diqqat va hayajon bilan o'qib, Harakatlar strategiyasi bilan solishtirib, tahlil qilib, o'z oldinga quyidagi savolni qo'ydim hamda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning asar va nutqlariga tayanib, imkon qadar javob berishga harakat qildim.

Taraqqiyot strategiyasi 100 ta milliy maqsadlarni qamrab olgan quyidagi yettita ustuvor yo'nalishdan iborat:[3,1]

**birinchi**, inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;

Bu bandning samarasi o'laroq davlat funksiyalarining katta qismi markazdan hududlarga o'tkazildi. Har bir mahallada hokim yordamchisi lavozimi joriy etildi. Tuman byudjeti qo'shimcha manbalar bilan ta'minlanib, mahallaning alohida jamg'armasi shakllantirildi. Markaziy idoralar transformatsiya qilinib, ixcham va samarali boshqaruv tizimi yaratildi, bir xil yo'nalishdagi vazifalarni amalga oshirayotgan idoralar optimallashtirilmoqda.

**ikkinchi**, mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;

Bu borada sudlov tizimi va advokatura instituti, huquq-tartibot organlari faoliyati takomillashtirilmoqda. Tadbirkor va mulkdorlar huquqlarining himoyasi kuchaytirilmoqda. Koruppsiyaga barham berish choralari ko'rilib, uning tag zamiriga alohida e'tibor berilmoqda.

**uchinchi**, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida ta'minlash;

Bu borada 2030-yilga borib, jon boshiga hisoblaganda, aholi daromadlari o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga chiqish maqsad qilingan bo'lib, bunga xususiy sektorni rag'batlantirish va uning ulushini oshirish hamda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hisobidan erishiladi. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlab, inflyatsiya darajasini belgilangan 5 foizgacha pasaytirish choralari ko'riladi.

Shuningdek, aholini uy-joy va toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, zamonaviy yo'l va kommunikatsiya tarmoqlarini barpo etish, jamoat transporti hamda hududlararo qatnovlarni yaxshilash bo'yicha ham yirik loyihalar amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

**to'rtinchi**, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;

Bu ustuvor yo'nalishning eng muhim omili hisoblangan sifatli ta'lim-tarbiya masalasi bundan buyon ham doimiy e'tibor markazida bo'lishi ta'minlanmoqda. Bu borada oliy toifali o'qituvchilarning oylik maoshini 2025-yilga borib, ekvivalent hisobida 1 ming dollarga yetkazish ko'zda tutilgan. Yangi maktablar qurish, mavjudlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, sohaning barcha bosqichlari o'rtasida uzviylikni ta'minlashga qaratilgan Milliy ta'lim dasturi ishlab chiqilib uni amalga tadbiq etish ishlari boshlab yuborilgan. Mamlakatda o'qituvchi maqomini oshirish bo'yicha barcha ishlar amalga oshirilmoqda.

Aholi salomatligini mustahkamlash uchun barcha sharoitlar yaratiladi. Kelgusi besh yilda oliy toifali shifokorlar maoshi ham ekvivalent hisobida 1 ming dollarga yetkaziladi. Viloyat, tuman va shaharlarda ixtisoslashgan tibbiy xizmatlar ko'lami kengaytirilmoqda. Davlat tibbiy sug'urta tizimi ishga tushirilib, mablag' aniq bemorga bog'langan holda ajratish ishlari boshlab yuborilgan. Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish muhim vazifa bo'lib qoladi.

**beshinchi**, ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash, ushbu sohani tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish;

Shu maqsadda "Yangi O'zbekiston-ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasi amalga oshirib kelinmoqda. Madaniyat va san'atni yuksaltirish, biz yoshlarni sog'lom e'tiqod ruhida tarbiyalash, millatlaro hamjihatlik va o'zaro hurmatni mustahkamlashga alohida e'tibor berib kelinmoqda.

**oltinchi**, umumbashariy muammolarga milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda yechim topish;

Jumladan Orol muammosi doimiy tarzda e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. Shuningdek, mamalakatimizda "Yashil makon" umummilliy harakatining yurtimiz bo'ylab keng quloch yozganligi yuqoridagi fikrlarning dalilidir.

**yettinchi,** mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq va pragmatik, faol tashqi siyosat olib borish.

O'zbekiston Qurolli Kuchlarining qudratini yanada oshirish, harbiylarning jangovar shayligi, jismoniy va ma'naviy tayyorgarligini kuchaytirishga e'tibor qaratiladi. Xalqaro hamkorlikda pragmatik va chuqur o'ylangan tashqi siyosat, iqtisodiy diplomatiya davom ettiriladi. Avvalo, qo'shni mamlakatlar va dunyoning barcha mintaqalaridagi sheriklar bilan o'zaro manfaatli va ko'pqirrali aloqalar kengaytiriladi.

Davlat va jamiyat qurilishi shunday bir murakkab tuzilmaki, uning tarkibidagi bir-biriga bog'liq bo'lgan va bir-birini to'ldiradigan soha va jabhalarni bir vaqtning o'zida jadal rivojlantirishni talab qiladi. Ularning har biri ikkinchisiga zamin yaratadi. Qaysidir asosiy soha avval rivojlanib, boshqa soha va tarmoqlar uchun lokomotiv vazifasini ham bajaradi. Albatta, bu jarayonda har bir sohaning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish, obyektiv tahlil qilish, o'z vaqtida tegishli chora-tadbirlar qabul qilish, ularni rivojlantirishning huquqiy asoslarini yaratish, samarali ishlash mexanizmlarini yangi texnologiyalar asosida tashkil etib berish kabi vazifalarni hal qilishni talab qiladi. Davlatning harakatlar strategiyasi yetaklovchi lokomotiv kuchi — bu davlat va uning organlari. Islohotlarning garovi va kafolati hokimiyatning samarali faoliyati bilan bog'liq hodisa. U boshqaruv mahorati bilan uzoqqa mo'ljallangan maqsadlarni rejalashtiradi, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni idora qiladi, aholini safarbar etadi, mavjud resurslardan oqilona foydalanish va uni odilona taqsimot qilish vazifalarini amalga oshiradi. Shunday ekan, davlat va jamiyat boshqaruvi tizimlarini takomillashtirmasdan turib mamlakat hayotini modernizatsiya qilib bo'lmaydi. Modernizatsiya o'z umrini poyoniga yetkazgan boshqaruv usullarini yangi sifat va talablar darajasiga ko'tarish bilan mamlakatni rivojlantirishga olib keladi. Bu jarayonlar bevosita mahalliy hokimiyatlarning hududlarni rivojlantirishga oid masalalarni hal etishda mustaqil qarorlar qabul qilishning huquqiy asoslarini shakllantirishni taqozo qiladi. Shu nuqtai-nazardan Prezidentimiz parlamentning muhim qarorlar qabul qilish va qonunlar ijrosini nazorat etish faoliyatini kuchaytirish, ijro hokimiyati tizimini optimallashtirish, ma'muriy islohotlarni davom ettirish va davlat boshqaruvida zamonaviy menejment usullarini keng qo'llash, davlat boshqaruvida samaradorlikni oshirish maqsadida davlat xizmatiga malakali mutaxassislarni jalb etishga qaratilgan yagona kadrlar siyosatini shakllantirish, mahalliy hokimiyat organlarining vakolat va mas'uliyatini qayta ko'rib chiqish, ularning mustaqilligini yanada oshirish vazifalarini belgilaydi. Boshqaruvda adolatli davlat idora tizimlari shakllanmas ekan, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari — ikkinchi uzviy bog'lanuvchi muhim tamoyil ta'minlanmaydi. Ular sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish orqali amalga oshiriladi. Bunday tizimning samarali faoliyati fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishning real imkoniyatlarini vujudga keltiradi. Oliy sud — oliy hakam sifatida jamiyatning yaxshi-yomoni, foyda-ziyonini belgilab beruvchi ma'naviy barometrqa aylanadiki, bunday ijtimoiy muhitda jinoyat qilishdan ko'ra bunyodkorlik qilish afzal bo'ladi. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash maqsadida sudyalikka nomzodlarni tanlash va tayinlash tizimini yanada takomillashtirish lozimligiga ahamiyat berishi strategik maqsadlarning izchil amaliyotini joriy etishga qaratilmoqda.[4,5] Jamiyatda adolatli boshqaruvning vujudga kelishi, shubhasiz, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlarini takomillashtirish imkoniyatini yaratadi. Ular makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlash, tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, uning raqobatbardoshligini oshirish, ayniqsa, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirishning yangi innovatsion texnologiyalarining tatbiq etilishi imkoniyatlarini yaratadi. Ya'ni rivojlanishning ichki qonuniyatlariga ko'ra, yangi sifat bosqichga ko'tarilishning murakkab, ammo takomillashgan shakllari paydo bo'ladi.



Bu, o'z navbatida, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni amalga oshiradi. Natijada mavjud salohiyatdan samarali foydalanish orqali joylarda mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish o'sish sur'atlari vujudga keladi. Jamiyatda ijtimoiy ongning o'zgarishi bilan ijtimoiy munosabatlar ham rivojlanib boradi. Jamiyat va uning holati aslida inson ongining in'ikosi. Fuqarolar qanday ezgu amallar ma'rifati bilan qurollangan bo'lsa, ana shu ruhiy qudrat istaklarining hosilasini oladi. Bu jarayon ulkan to'lqin sifatida millatning mushtarak maqsadlarida namoyon bo'ladi. U, o'z navbatida, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida yangi tarmoqlarning, ishchi o'rinlarning paydo bo'lishiga, aholining real daromadi va shunga muvofiq turmush darajasining o'sib borishiga xizmat qiladi.

Taraqqiyot strategiyasi loyihasida yana bir muhim maqsadlardan biri sifatida davlat boshqaruvi organlari faoliyatini "fuqaroga xizmat qilishga yo'naltirish" tamoyili asosida transformatsiya qilish vazifasi belgilangan. Bunda asosiy e'tibor vazirlik va idoralar faoliyatining barcha yo'nalishlarini "**Davlat – xalq xizmatchisi**" tamoyili asosida fuqaroga xizmat qilishga yo'naltirishga qaratiladi. Ushbu masala nihoyatda katta ahamiyatga ega ekanini hayotning o'zi yaqqol ifodalab turibdi. Buni Ombudsmanga kelib tushayotgan murojaatlar tahlilidan ham ko'rish mumkin. Murojaatlarda aholi tomonidan ko'tarilgan masalalarning ko'pchiligi aynan quyi ijro organlarining mas'uliyatsizligi va e'tiborsizligi oqibatida kelib chiqayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz. Jamiyat boshqaruvining tayanch bo'g'ini bo'lgan, islohotlar samarasi bevosita aks etadigan mahalla tizimini hokimliklar bilan bog'lash maqsadida har bir mahallada hokim yordamchisi lavozimi joriy etiladi. Hokim yordamchisi yangi ish o'rinlarini yaratish va kambag'allikni qisqartirishga mas'ul bo'ladi. Mahalla raisi esa ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirish, oila va mahallada sog'lom muhitni shakllantirishga javob beradi. Shu bilan birga, mahallalarda yoshlar masalalari bilan muntazam shug'ullanadigan Yoshlar ishlari agentligining vakili ham bo'ladi. Bundan tashqari, hokimliklar va mahallalarning moliyaviy imkoniyatini kengaytirish maqsadida tuman byudjeti qo'shimcha manbalar bilan ta'minlanib, mahallaning alohida jamg'armasi shakllantiriladi, - Shavkat Mirziyoyev.

Umuman olganda, Farmon qabul qilinishi bilan mamlakat o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga – Yangi O'zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini yaratish davriga qadam qo'yildi. Biz yoshlar ishonamizki, bu davr mamlakatda inson qadr-qimmatini ulug'lash, uning manfaatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarish, farovon turmushini ta'minlash davri bo'ladi.

Albatta, qo'yilgan salmoqli maqsad va vazifalar ijrosi Vatan taqdiriga befarq bo'lmagan barcha fuqarolarning, ayniqsa biz yoshlarning faol ishtirokini talab etadi. Jamiyat a'zolarining hamjihatlikdagi fidokorona mehnatigina ko'zlangan marralarga yetish imkonini beradi.

**Xulosa.** Fikrlarimning yakunida xulosa qiladigan bo'lsam, Taraqqiyot strategiyasi biz yoshlarning orzu-umidlarimizni, o'y-maqsadlarimizni tayanchi bo'ldi deyish mumkin. Muhtaram yurtboshimiz yuritayotgan siyosatlarini tufayli yurtimizdagi har bir o'g'il-qiz o'z kelajagini belgilashi, vatan taraqqiyotiga o'zining munosib hissasini qo'shish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Ushbu taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda avvalo, biz yoshlar bir yoqadan bosh chiqarib, dadil, qo'rqmasdan Prezidentimiz bildirayotgan ishonga munosib tarzda harakat qilmog'imiz lozim. Zero, bugungi kun va millat kelajagi biz yoshlar qo'lida. Shuning uchun har birimiz bizga berilayotgan imkoniyatlardan samarali foydalangan holda ilm olishimiz, o'z bilim va ko'nikmalarimizni rivojlantirib borishimiz va kelajakda egallagan bilimlarimizni vatanimiz ravnaqi yo'lida ishlatishimiz lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni.
2. Sh.Mirziyoyev "Erkin va varovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz", T.: "O'zbekiston", 2016-yil.
3. "Yangi O'zbekiston" gazetasi 254-son. 2021-yil 17-dekabr.
5. Pravda Vostoka gazetasi. 2022-yil, 31-yanvar.



## MATRITSALARNI AMALIY MASALALARGA TADBIIQI

**Xurramov Zuhridin Odilovich**

*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti assistenti.*

**Turaev Fozilzhon Jurakulovich**

*“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo`jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”*

*Milliy tadqiqot universiteti katta o`qituvchisi.*

**Gulmuhammedov Botirjon Bahodirjon o`g`li**

*Toshkent irrigatsiya va qishloq xo`jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”*

*Milliy tadqiqot universiteti talabasi.*

**Kirish.** Bu maqolada biz Oliy matematika fanida o`qitilayotgan mavzularning hayotiy masalalarga qo`llanilishini, xususan matritsalarini muhandislik va sodda iqtisodiy masalalarga tadbiiqlarini ko`rib chiqamiz. Oliy ta`lim muassasalarida nazariy bilimlarni bilish bilan birga uni amaliyotda keng foydalana oladigan mutaxassislar yetishtirish hozirgi dolzarb masalalardan biri bo`lib qolmoqda. Bu kabi mutaxassislarni tayyorlashda oliy ta`lim muassasasi o`qitiladigan Oliy matematikaning ahamiyati kattadir. Oliy matematikani o`rgatish talabalarni faqat qator matematik ma`lumotlar va formulalarni tanishtirishdan iborat bo`lmasdan, balki mantiqiy fikrlashga, olgan bilimlarini soha masalalariga tatbiq etishga ham qaratilgandir. Oliy matematika fani asosida talabalarga qishloq va suv xo`jaligi sohasida hamda iqtisodiy masalalarni yechish, o`qitilayotgan mavzularni amaliy masalalarga tadbiiqlari qiziq va muhim o`rin tutadi. Ma'lumki, matematika hech qachon yolg`iz qolmaydi, u doimo biror sohaga yoki ishlab chiqarishga tatbiq etiladi! Bu shuni ko`rsatadiki, boshqa fanlarni yoki sohalarni matematikasiz tasavvur qilish qiyin. Shuning uchun, agar insoniyat matematika dunyosini yaratmagan bo`lsa, hech qachon ILMga ega bo`lmagan bo`lar edi! Misol tariqasida *iqtisodiy prognozlarini* yoki texnika taraqqiyotni olaylik. Yangi apparat paydo bo`lishi uchun ko`plab olimlar va ishlab chiqaruvchilar kerak. Albatta ular orasida matematik ham bo`ladi, chunki bunga ehtiyoj borligi shubhasiz! Demak, bizni o`rab turgan dunyo va umuman insoniyat taraqqiyotida matematikaning muhim o`rni bor.

**Masalaning qo`yilishi.** Matematika har doim insoniyat madaniyatining ajralmas va muhim tarkibiy qismi bo`lib kelgan, u atrofdagi dunyoni anglashning kaliti, ilmiy-texnik taraqqiyotning asosi va insoniyat rivojlanishining muhim tarkibiy qismidir. Matematikada irodaviy faoliyat, spekulativ mulohaza yuritish va estetik barkamollikka intilish xususiyatlari mavjud. Uning asosiy va o`zaro qarama-qarshi elementlari mantiq va sezgi, tahlil va qurilish, umumiylik va konkretlilikdir.

**Tadqiqot usullari va yechim.** Matematika insoniyat uchun juda muhim va zarur fandır. Odamlar bu xulosaga uzoq vaqt davomida kelishgan, qachonki oddiy matematik hisob-kitoblar ularga tabiiy, ba`zan shafqatsiz muhitda omon qolishlariga yordam bergan bo`lsa. Matritsalar yordamida ba`zi iqtisodiy bog`liqlarni ifodalash mumkin. Masalan, iqtisodiyotning ba`zi tarmoqlari bo`yicha resurslarning taqsimotini quyidagicha ifodalaymiz.

Resurslar	Iqtisodiyot tarmoqlari	
	Qishloq xo`jaligi	Suv xo`jaligi
Suv	7,2	8,1
Mehnat	4,1	3,2
Elektr energetikasi	5,2	6,3

Ushbu jadvalni resurslar taqsimotining ixcham matrisasi ko`rinishida ifodalash mumkin:

$$A = \begin{pmatrix} 7,2 & 8,1 \\ 4,1 & 3,2 \\ 5,2 & 6,3 \end{pmatrix}$$

Endi matritsalar yordamida ba'zi amaliy masalalarni yechishni o'rganamiz.

**1-masala.** “IRRIGATOR” va “MUHANDIS” fermer xo'jaliklarida yetishtirilgan poliz mahsulotlari shahardagi KORZINKA, ISHONCH, AZIA.UZ supermarketlarga har kuni yetkazilib turiladi. Bu fermer xo'jaliklaridan kundalik poliz mahsulotlarining bir tonnasini KORZINKA - supermarketga yetkazib berish - 20 ming, ISHONCH - supermarketga yetkazib berish - 30 ming va AZIA.UZ - supermarketga yetkazib berish esa - 50 ming pul birligiga to'g'ri keladi. Har bir fermer xo'jaligining kundalik transport xarajatlarini hisoblang.

Fermer xo'jaliklari	Supermarketlarga kundalik yetkazilib berilgan poliz mahsulotlari (tonna hisobida)		
	KORZINKA	ISHONCH	AZIA.UZ
IRRIGATOR	2	3	1
MUHANDIS	3	1	4

**Yechish:** A – matritsa bilan har kuni fermer xo'jaliklaridan supermarketlarga yetkasib berilgan poliz mahsulotlari (tonna hisobida), B – matritsa esa fermer xo'jaliklaridan bir tonna mahsulotni supermarketlarga yetkazib berish uchun sarflanadigan transport xarajatlari (narxlari) bo'lsin:

$$A = \begin{pmatrix} 2 & 3 & 1 \\ 3 & 1 & 4 \end{pmatrix}, B = (20 \quad 30 \quad 50)$$

U holda, fermer xo'jaliklarining poliz mahsulotlarini supermarketlarga yetkazib berish uchun ketgan bir kunlik sarf xarajatlari matritsasi quyidagiga teng bo'ladi:

$$C = A \cdot B^T = \begin{pmatrix} 2 & 3 & 1 \\ 3 & 1 & 4 \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} 20 \\ 30 \\ 50 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 2 \cdot 20 + 3 \cdot 30 + 1 \cdot 50 \\ 3 \cdot 20 + 1 \cdot 30 + 4 \cdot 50 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 180 \\ 290 \end{pmatrix}$$

Demak, “IRRIGATOR” fermer xo'jaligidan poliz mahsulotlarini supermarketlarga yetkasib berish uchun kuniga 180 ming, “MUHANDIS” fermer xo'jaligidan esa 290 ming shartli pul birligi sarflanadi ekan.

**2-masala.** “MUHANDIS” Fermer xo'jaligida 10 tonna kartoshka, 3 tonna piyoz va 6 tonna sabzi yetishtirish rejalashtirilgan.  $X = (10 \quad 3 \quad 6)$  - fermer xo'jaligining rejasi;  $S = (1 \quad 1 \quad 3)$  -

resurslar narxi (har bir tonna uchun);  $P = (0 \quad 3 \quad 7)$  – transport xarajati (har bir tonna uchun).

1) Fermer xo'jaligi bo'yicha rejadagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish uchun sarflangan har bir resurslarning miqdorini aniqlang?

2) Mahsulotlar turlari bo'yicha bir tonna qishloq xo'jalik mahsulotini yetishtirish uchun sarflangan resurs xarajatlarini aniqlang?

3) Rejani bajarish uchun sarflangan jami resurs xarajatlari miqdorini aniqlang?

4) Fermer xo'jaligi bo'yicha resurs va transport xarajatlari umumiy yig'indisini toping?

**Yechish:** 1) 1 tonna mahsulotni yetishtirish uchun sarflanadigan resurslar miqdorini

$$A = \begin{pmatrix} 2 & 2 & 1 \\ 3 & 1 & 3 \\ 4 & 3 & 2 \end{pmatrix}$$

- matritsa bilan ifodalaylik. Bu yerda  $a_{ij}$  -  $i$ -turdagi qishloq xo'jalik mahsulotining bir tonnasini yetishtirish uchun sarflangan  $j$  turdagi  $T_j$  resurs miqdori.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari	1 tonna mahsulotni yetishtirish uchun sarflanadigan resurslar miqdori		
	$T_1$ suv (ming, litr)	$T_2$ mahalliy o'g'itlar (tonna)	$T_3$ mineral o'g'itlar (tonna)
Kartoshka	2	2	1
Piyoz	3	1	3
Sabzi	4	3	2

$$T = X \cdot A = (10 \ 3 \ 6) \cdot \begin{pmatrix} 2 & 2 & 1 \\ 3 & 1 & 3 \\ 4 & 3 & 3 \end{pmatrix} =$$

$$= (10 \cdot 2 + 3 \cdot 3 + 6 \cdot 4 \quad 10 \cdot 2 + 3 \cdot 1 + 6 \cdot 3 \quad 10 \cdot 1 + 3 \cdot 3 + 6 \cdot 2) = (53 \ 41 \ 31)$$

Demak, fermer xo'jaligi rejadagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishga sarflagan resurslar miqdori quyidagicha:  $T_1$  – 53 ming litr;  $T_2$  – 41 tonna;  $T_3$  – 31 tonna.

2) Bir tonna qishloq xo'jalik mahsulotini yetishtirish maqsadida foydalanilgan resurslar uchun ketgan sarf-xarajatlarni hisoblaymiz:

$$A \cdot S^T = \begin{pmatrix} 2 & 2 & 1 \\ 3 & 1 & 3 \\ 4 & 3 & 3 \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} 1 \\ 1 \\ 3 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 2 \cdot 1 + 2 \cdot 1 + 1 \cdot 3 \\ 3 \cdot 1 + 1 \cdot 1 + 3 \cdot 3 \\ 4 \cdot 1 + 3 \cdot 1 + 2 \cdot 3 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 7 \\ 13 \\ 13 \end{pmatrix}.$$

Demak, bir tonna qishloq xo'jalik mahsulotini yetishtirish uchun 1-turdagi mahsulotga - 7 ming, ikkinchi va uchinchi turdagi mahsulotlar uchun -13 ming so'm sarflanadi ekan.

3) Fermer xo'jaligining uch turdagi mahsulotlarni yetishtirish uchun resurslarga sarflagan harajatini aniqlaymiz:

$$X \cdot (A \cdot S^T) = (10 \ 3 \ 6) \cdot \begin{pmatrix} 7 \\ 13 \\ 13 \end{pmatrix} = (10 \cdot 7 + 3 \cdot 13 + 6 \cdot 13) = 187$$

Demak, fermer xo'jaligining rejadagi kartoshka, piyoz va sabzini yetishtirish uchun resurslarga sarflagan xarajatlari summasi – 187 ming so'mni tashkil qiladi ekan.

4) Resurslarni tashish uchun ketgan transport xarajatini hisoblaymiz:

$$T \cdot P = (53 \ 41 \ 31) \cdot \begin{pmatrix} 0 \\ 3 \\ 7 \end{pmatrix} = (0 + 3 \cdot 41 + 7 \cdot 31) = 340.$$

Demak, fermer xo'jaligining resurslar va transport xarajatlari umumiy yig'indisini quyidagiga teng:

$$X \cdot (A \cdot S^T) + T \cdot P = 187 + 340 = 527.$$

**3-masala:** "IRRIGATOR" ko'p tarmoqli fermer xo'jaligida tashkil etilgan kichik korxonada 2 xil qishloq xo'jalik xom-ashyo mahsulotlaridan uch turdagi konserva mahsulotlari ishlab chiqariladi. Qishloq xo'jalik xom-ashyo mahsulotlarining sarf rniqdori quyidagi matritsa ko'rinishida berilgan:

$$A = \begin{pmatrix} 2 & 1 \\ 3 & 2 \\ 1 & 3 \end{pmatrix}.$$

Bu yerda  $a_{ij}$  ( $i = 1, 2, 3; j = 1, 2$ ),  $i$  - turdagi birlik mahsulotga  $j$  - turdagi birlik xom ashyo sarflanishi. Korxonaning bir kunlik mahsulot ishlab chiqarish rejasi yo'l matritsa ko'rinishida berilgan:

$$C = (100 \ 50 \ 70)$$

Ikki turdagi qishloq xo'jalik xom-ashyo mahsulotlarining narxi ushbu matritsa ko'rinishida berilgan (bir kilogramm uchun):

$$B = \begin{pmatrix} 2 \\ 3 \end{pmatrix}.$$

- Korxonaning bir kunlik mahsulot ishlab chiqarish rejasi bajarilishi uchun qancha xom-ashyo mahsuloti kerak?
- Uch turdagi mahsulotlarning har donasi uchun ishlatilgan xom-ashyoning narxini toping?
- Korxonaning bir kunlik mahsulot ishlab chiqarish rejasini bajarish uchun sarflagan ikki turdagi xom-ashyoning narxi toping.

**Yechish:** 1) Bir kunlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan  $S_1$  - birinchi va  $S_2$  - ikkinchi turdagi xom-ashyo miqdorini aniqlaymiz

$$S_1 = 2 \cdot 100 + 3 \cdot 50 + 1 \cdot 70 = 200 + 150 + 70 = 420 \text{ kg},$$

$$S_2 = 1 \cdot 100 + 2 \cdot 50 + 3 \cdot 70 = 100 + 100 + 210 = 410 \text{ kg},$$

yoki, boshqa tartibda, ya'ni matritsa yordamida aniqlaymiz:

$$S = C \cdot A = (100 \ 50 \ 70) \begin{pmatrix} 2 & 1 \\ 3 & 2 \\ 1 & 3 \end{pmatrix} = (420 \ 410).$$

2) Uch turdagi tayyorlangan mahsulotning har bir donasiga ishlatilgan xom-ashyo narxini topamiz:

$$R = A \cdot B = \begin{pmatrix} 2 & 1 \\ 3 & 2 \\ 1 & 3 \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} 2 \\ 3 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 7 \\ 12 \\ 11 \end{pmatrix}.$$

3) Kunlik reja bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar uchun ishlatilgan 2 turdagi xom-ashyo mahsulotning umumiy narxi:

$$Q = S \cdot B = (420 \ 410) \cdot \begin{pmatrix} 2 \\ 3 \end{pmatrix} = (2 \cdot 420 + 3 \cdot 410) = 2070$$

ming so'm.

Kunlik ishlatilgan xom-ashyo mahsulotlarining narxini boshqa tartibda ham hisoblash mumkin:

$$Q = C \cdot R = (100 \ 50 \ 70) \cdot \begin{pmatrix} 7 \\ 12 \\ 11 \end{pmatrix} = (7 \cdot 100 + 50 \cdot 12 + 70 \cdot 11) = 2070000.$$

Yuqorida yechilgan masalalardan ko'rinadiki, matritsalarining iqtisodiyotda ahamiyati juda kattadir. Ulardan foydalanish hisobiga iqtisodchilar uchun muhim bo'lgan ko'pgina iqtisodiy masalalarni qulay va sodda yechish imkoniyati hosil bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo. U.Soatov Oliy matematika. Toshkent. 1993 yil.
2. B.A.Xudayarov, Oliy matematika. Toshkent-2020 yil.
3. Гатаулин А.М., Харинтова Л.А., Гаврилов Г.В. Экономико – математические методы в планировании сельскохозяйственного производства. –М.:Колос,1986;

## PSIXOLOGIK XIZMATDA PSIXOLOGIK MUAMMOLARI MAVJUD BO‘LGAN O‘QUVCHILAR BILAN OLIB BORILADIGAN ISHLAR

*Xurramova Mahbuba Ismatovna*

*Qashqadaryo viloyati Yakkabog‘ tumani 10-maktab psixologi.*

**Annotatsiya:** Shaxs tarbiyasi. uning ijtimoiy- psixologik kamolati har qanday davlatning bosh strategik maqsadlaridan biridir. Chunki shaxsni ma‘lum ezgu g‘oyalar, ijtimoiy psixologik va yuksak intellektual shaxs sifatida tarbiyalamay turib har jihatdan kamol topishga qodir jamiyatni qurib bo‘lmaydi.

**Kalit so‘zlar:** psixologik maslahat, shaxs, muloqot, autism, psixologik korreksiya, ahloq, suhbat.

Ayni dam maxsus maktab va maktab-internatlarda faoliyat ko‘rsatayotgan amaliyotchi psixologlarning faoliyatida o‘quvchilar ruhiy holatlarini o‘rganish. xulqatvoridagi —o‘g‘ishlarlni oldini olishga qaratilgan choralarni ko‘rish. stress. nizo va ko‘plab salbiy emotsional kechinmalarining oldini olish ishlarini to‘g‘ri tashkil qilish psixologik xizmatning samaradorligini oshirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Mana shunday muammoli holatlarni yo‘qotishda esa psixologik xizmat sohasida mavjud bir qancha yo‘nalishlar yordam beradi.

**1. Kirish qismi.** Shaxs shakllanishidagi —inqirozli davrlarning o‘quvchilar xulq-atvoriga ta‘siri. Shaxsning shakllanishi dunamik xususiyatga ega. Shuning uchun uning rivojlanishida goho igrilashib ketsa. goho taraqqiyotdan orqada qolib ketish holatlari kuzatiladi. Ba‘zan — inqirozlli davrlarni boshidan o‘tkazayotganlar esa o‘zlarini jismoniy va ruhiy salomatliklari bilan bog‘liq xotirjamlikni yo‘qotib qo‘yadilar. Ruhiy tushkunliklar natijasida o‘z istiqbol rejalarini tuza olmaydilar, xuddi shu bois, o‘zlarining ijtimoiy mavqelariga putur yetkazadilar. Mazkur holatlarni o‘rganar ekanmiz. bunda barcha yondashuvlarga. tamoyillarga. yo‘l-yo‘riqlarga zamon ruhi orqali nazar tashlash talab etiladi. Bizni qiziqtirayotgan psixik buzilishning boshlanishi va namoyon bo‘lish jarayoni. uni tashkil qiluvchi xususiyatlari hamdakechishining asosiy holatlarini chuqur tahlil qilish xulq-atvor rivojlanishining nazariy namunalarini tuzish va shakllantiruvchi tajriba majmuasini yaratish. Psixokorreksion ruhiy tuzatish zarur hisoblanadi. Xulq-atvor psixologiyasida, jumladan jahon psixologiyasi fanining asosiy tushunchalaridan hisoblanadi. Ko‘p hollarda esa bu psixologik kategoriya sifatida qaraladi. Inqirozlli davrlar orasida o‘smirlik davri o‘zining xilma-xilligi va murakkabligi bilan ajralib turadi. Hozirgi kunda o‘smirlarni voyaga yetkazishnin o‘ziga xos qonuniyatlari, xususiyatlari, imloniyatlari, xatti-harakat motivlarining ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari mavjud. O‘smirlik davri xususiyatlarini tadqiq qilgan D.B. Elkonin va T.V. Dragunovlarning ta‘kidlashicha. o‘g‘il-qizlarning bu davrda o‘rtoqlari bilan munosabatlarga intilishi tengdoshlari jamoasining hayotiga qiziqishi yorqin namoyon bo‘ladi. O‘smir o‘quvchilarning to‘g‘ri va to‘liq ta‘lim va tarbiya olishi uchun oila va maktabning o‘rni beqiyosdir.

**2. Muammoni bartaraf etishning asosiy yo‘nalishlari.** Mazkur muammoni bartaraf etishda quyidagi asosiy yo‘nalishlar mavjud:

- Xulqida og‘uvchanligi bo‘lgan o‘quvchilar, ularning sinf rahbarlari va ota-onalari bilan ishlash.
- Bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishining oldini olishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish.
- Psixologik profilaktika yo‘nalishi bo‘yicha olib boriladigan ishlarni maqsadli olib boorish.
- Psixologik diagnostika yo‘nalishi bo‘yicha olib boriladigan ishlar.
- Psixologik korreksiya yo‘nalishi bo‘yicha olib boriladigan ishlar,
- Psixologik maslahat yo‘nalishi bo‘yicha olib boriladigan ishlar.
- Psixologik pedagogik konsiliumlar va ularni o‘tkazish tartibi.
- Voyaga yetmagan bolalarni o‘z joniga qasd qilish holatlarining oldini olishni amaliyotga muntazam joriy etish.



Sinfidagi o'quvchilar sonining tobora ortib borishi maktabga jiddiy his-hayajon tangliklari bilan keladigan o'quvchilar sonining ortib borayotganligi va bilim va axloq darajalari turlicha bo'lgan o'quvchilardan iborat sinflar bilan ishlashga to'g'ri kelayotgan bir vaqtda. o'qituvchilar talabalarni rag'batlantirish va boshqarishning samaradorligini oshirishga tobora ko'proq ehtiyoj sezishmoqda. Turli xil jismoniy va ruhiy nuqsonlari mavjud o'quvchilarni sinflarga qo'shish harakatining kuchayib borayotganligi va sinflarda ta'lim borasida muammolari mavjud o'quvchilar sonining ko'payib borayotganligi va sinflarda ta'lim borasida muammolar mavjudligi o'quvchilar uchun psixologik muammo yaratishga sababchi bo'ladi. O'sib kelayotgan yosh avlod ertangi kunimiz. kelajagimizning davomchilari ekanligini hisobga oladigan bo'lsak o'quvchilardagi mavjud psixologik muammolarni. jumladan xulq-atvorida —og'ishli borlar bilan turli psixoprofilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish bugungi kunda o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

**3. Maktabda psixologik muammolari bor o'quvchilar bilan psixologik maslahat o'tkazish shartlari.** Psixologik maslahat psixologik xizmatning obyektiga qarab o'zgarib rivojlanib o'zgarib boradi. bu esa individuallik. shaxsga yo'naltirilganlik tamoyiliga asoslanadi.

Shuningdek. quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- Bola tarbiyasidagi qiyinchilikni bartaraf etishning optimal psixologik yo'llarini aniqlash.
- O'smirning ichki ruhiy holatini: maqsadi. hayotga munosabati. o'z-o'ziga ishonchi. irodaviy – hissiy o'zini boshqarishni tahlil etib. shularga mos ravishda maslahat berish.
- Maqsadga erishishda o'smir bilan psixologik birgalikda harakat qilishi.
- Psixologik qiyinlikni bartaraf etish orqali o'smir hayotidagi ijtimoiy. Shaxsiy vazifalarni hal etish.
- Ayniqsa. o'smirlar bilan ishlashda uning individual psixologik xususiyatlarini bilish. maslahat berishda aaniq maqsad qo'yish.

**4.Xulosa.** Hozirgi davrning muhim xususiyatlaridan biri bugungi zamon talablariga mos keladigan. yangicha fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalashdan iborat. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek : — Fikrlash. ishlash va yashash madaniyatiga ega bo'lgan mustaqil shaxsni voyaga yetkazishimiz kerak. O'zbekiston Respublikasining — Ta'lim to'g'risidagi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturitalablari asosida bolalarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy maqsadi yosh avlodni milliy istiqloq g'oyalari asosida sog'lom. har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalashdan iboratdir. Afsuski. bugun maktablarimizdagi bir qancha o'quvchi yoshlarimizning ruhiyatida. xulq-atvorida muammolar uchrab turibdi. Ularning kelib chiqish sabablarini esa biz yuqorida ko'rib chiqdik. Lekin ularni bartaraf etilmasligi oqibati ko'plab salbiy holatlarga olib keladi. bu ham o'ziga va o'zgalarga qolaversa. Butun jamiyatga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Shuning uchun bu jarayonda maktab amaliyotchi psixologi bir qator psixologik tadbirlar amalga oshirishi va mazkur o'quvchilar bilan ko'p suhbat uyushtirishi kerak. Shuning uchun biz ta'kidlaganimizdek maktab amaliyotchi psixologi psixologik xizmat sohasidagi bir qator yo'nalishlarini ishga solgan holda ruhiyatida buzilishlari bor o'quvchilar bilan birga psixokorreksion ishlarni amalga oshirishi va mavjud muammolarni bartaraf etishi kerak bo'ladi. Shuningdek. bu vazifalarni amalga oshirishda amaliyotchi psixolog bilan birgalikda sinf rahbari ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha director o'rinbosari. ota-onalar qo'mitasi. mahalla fuqarolar yig'ini. voyaga yetmagan yoshlar bilan ishlash inspektori. Yoshlar Ittifoqi. hududiy sport va madaniyat tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshirishi kerak. Shundagina psixologik xizmatni to'laligicha amalga oshirgan bo'lamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Adizova T.M.Psixokorreksiya. Toshkent. Tafakkur – 2010.150-b.
2. Mahmudova D.A. Psixokorreksiya asoslari. Toshkent – 2011. 128-b.
3. Nishonova Z.T. Psixologik xizmat. Toshkent. TDPU – 2006.128-b.

## QO'RQUV FENOMENINING SHAXS AXLOQIY TARBIYASIGA TA'SIRI

*Xursanoy Mamadjon qizi*

*O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti  
Falsafa mutahassisligi 1-bosqich magistranti.*

**Annotatsiya:** Maqolada qo'rquvning kelib chiqishi hamda qo'rquv - bu haqiqiy yoki o'ylab topilgan, yengib bo'lmaydigan vaziyatlarning boshlanishi yoki kutish natijasida yuzaga keladigan individual tuyg'u haqida batafsil yoritishga harakat qilindi. Zamonaviy psixologiya nuqtai nazaridan, qo'rquv har doim ham salbiy hissiy holat emas, garchi ko'pchilik tajribali holatni salbiy rang bilan ta'minlangan bo'lsada, uning ijobiy taraflari ham ko'rib chiqilgan. Shaxs axloqiy jihati va tarbiyasining asosiy omili sifatida ko'rib chiqilganda qo'rquvning nechog'lik ahamiyatlilik kasb etishi haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** qo'rquv, qo'rqish, sezgi, xavotir, tashvish, quvonch, hayrat, g'azab, adrenalin, axloqiy normalar, biokimyoviy, hissiy, ongsizlik, o'lim qo'rquvi.

Qo'rquv fenomeni olimlar shug'ullanadigan eng dolzarb muammolardan biridir. Chunki inson mavjud ekan, qo'rquv u bilan doim birga bo'ladi. Hech qachon qo'rquv tuyg'usini boshdan kechirmagan odamni topish mumkin emas. Qo'rquv kuchli va ibtidoiy insoniy tuyg'u. Bu bizni xavf-xatar borligiga ogohlantiradi va eng avvalo o'zimizni saqlab qolish va himoya qilish uchun juda muhimdir. Qo'rquv, aslida, ikki bosqichga bo'linishi mumkin: biokimyoviy va hissiy. Biokimyoviy javob universal bo'lib, hissiy kechinmaga va hissiyotga juda mos keladi. Biokimyoviy reaksiya - qabul qilingan xavfga duch kelganimizda, tanamiz o'ziga xos tarzda javob beradi.

Qo'rqishning fizik reaksiyasi terlash, yurak tezligini oshirish va yuqori adrenalin darajalariga ega. Bu jismoniy javob, ba'zan tananing jangga kirishi yoki qochib ketish uchun tayyorlanadigan "jang yoki parvoz" javobi sifatida ma'lum. Ushbu biokimyoviy reaksiya, ehtimol, evolyutsion rivojlanishdir. Bu avtomatik javob va omon qolish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Hissiy javob - qo'rquvga bo'lgan hissiyot juda moslashgan. Ba'zi odamlar ekstremal sport va boshqa xavf-hatarli vaziyatlarga duch keladigan adrenalin jodugarlari. Ba'zilari qo'rquv tuyg'usiga salbiy munosabatda bo'lib, har qanday vaziyatda qo'rqinchli vaziyatlardan qochishadi. Jismoniy reaksiya bir xil bo'lsa-da, qo'rquv ham ijobiy, ham salbiy deb hisoblanishi mumkin.

Shunga o'xshash vaziyatlarga takror ta'sir qilish tanishlikka olib keladi. Bu esa, qo'rquv va javobgarlikni kamaytirishga, adrenalindan kuch oluvchilarga yangi va katta qiziqishlarni izlashga yordam beradi.

Qo'rquv - bu haqiqiy yoki o'ylab topilgan yengib bo'lmaydigan vaziyatlarning boshlanishi yoki kutish natijasida yuzaga keladigan individual tuyg'u. Zamonaviy psixologiya nuqtai nazaridan, qo'rquv har doim ham salbiy hissiy holat emas, garchi ko'pchilik tajribali holatni salbiy rang bilan ta'minlaydi. Ushbu javobning paydo bo'lishi turli xil ichki va tashqi omillarga, irsiy yoki orttirilgan shaxsiy xususiyatlarga bog'liq. Qo'rquv belgilarining namoyon bo'lishi uchun stimuly quyidagilar bo'lishi mumkin: pastlik kompleksi, yolg'izlik hissi va jamiyat tomonidan rad etilishi, tushkunlik tuyg'usi, muqarrar fiasko tahdidi, aybdorlik hissi bosimi, qadrsizlik yoki nomuvofiqlik hissi<sup>200</sup>.

Psixologlarning aytishicha: qo'rquv tuyg'usi salbiy rangga ega bo'lsa-da, kichik miqdorda ham foydali bo'lishi mumkin. Va umuman olganda qo'rquv va fobiya bo'lishi tabiiydir. Bu degani, hech narsadan xalos etadigan qo'rquvga duch keladigan har bir inson qo'rquv ostida butun hayotini yashashi kerak degani emas.

<sup>200</sup> Shcherbatyx Yu.V. Qo'rquv psixologiyasi.- M.: Eksmo, 2007.- 512 b. ISBN 978-5-699-11053-7

Fobiya muammoga aylanganda, u bilan jang qilish kerak, ammo qo'rquvning har qanday ko'rinishini yo'q qilish tabiatga qarshi borishni anglatadi. Tarixiy jihatdan noaniqlik qo'rquvi insonlarni salbiy tashqi omillardan himoya qiladi<sup>201</sup>.

Barcha odamlar qo'rquvni boshdan kechirishga odatlangan shaklga qarab toifalarga bo'linishi mumkin. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, doimo nimadir haqida qayg'uradigan, o'zlarida tashvish hissini saqlaydigan odamlar bor. Boshqalar tashqi ko'rinishidan xotirjam bo'lib, ularni hech narsa bezovta qilmaydigan ko'rinishga ega bo'lishadi, lekin aslida ularning qo'rquvlari ularni hiyla-nayrang va sezilmas tarzda butunlay va to'liq o'zlashtiradi va yangi qo'rquvlarni keltirib chiqaradi. Hech narsadan qo'rqmayman, hamma narsaga qodirman, deb aytadiganlar ham bor, hatto qo'rquv ham ularni qo'rqitmaydi, ularni tushunishga, idrok etishga harakat qiladi. Bu usul erkinlik yo'li sifatida, o'zingizga va boshqalarga qanchalik qiyinligini isbotlashning bir usuli, bu, umuman olganda, allaqachon qo'rquvdir. Ammo shunday odamlar borki, qo'rquvdan shunchaki falaj bo'lib qolgan, hamma narsadan qo'rqadi: qorong'i tushganda ko'chaga chiqish, ishini yo'qotishdan qo'rqish, vaqtlari ham, pullari ham yo'qligidan, ularni hech kim sevmasligidan yoki kasal bo'lib qolishidan qo'rqishadi. Bunday odamlar uchun asosiy xavf shundaki, qo'rquv bashorat kabi haqiqatga aylanadi.

Har bir inson u yoki bu tarzda boshdan kechiradigan oltita asosiy qo'rquv mavjud:

1. Omon qolish qo'rquvi.
2. Noma'lum narsadan qo'rqish.
3. Tashlab ketilish qo'rquvi.
4. Xiyonat qilishdan qo'rqish.
5. Rad etishdan qo'rqish.
6. O'lim qo'rquvi.

Qizig'i shundaki, bu qo'rquvlarning har birida biz duch keladigan boshqa shubhalar mavjud. Shunday qilib, o'zgarish qo'rquvi, noma'lum qo'rquvning asosi sifatida, moliyaviy yo'qotish tajribasi omon qolish qo'rquidan, yolg'izlik qo'rquvi esa tashlab ketilish qo'rquidan kelib chiqadi. Agar inson sog'lig'i haqida qayg'ursa, oxir-oqibat u o'lim qo'rquvi haqida qayg'uradi. Hammaga ishonchsizlikning namoyon bo'lishi xiyonat qilishdan qo'rqishni anglatadi. Ya'ni, hayotda biz qo'rqadigan hamma narsani bir necha jihatdan tushuntirish mumkin<sup>202</sup>.

Ko'rinib turibdiki qo'rquv haqida psixologik nuqtai nazarlar, sotsiologik fikr mulohazalar va statislik ma'lumotlarga ko'plab duch kelishimiz mumkin. Lekin aynan qo'rquvning axloqiy jihati anchagina oqsoqlanib, e'tibordan chetda qolayotgandek. Aynan qo'rquv ortidan kelib chiqadigan oqibatlar, qo'rquv fobiyalar, nevrozlar, giyohvandlik va passiv-agressiv holatning manbai qo'rquvning axloqiy jihati bo'ladi. Bugungi kunda barchamizga ma'lumki, qo'rquv hissi tufayli yuzaga keladigan buzilishlar juda dolzarb muammodir. Tibbiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, psixologga bo'lgan barcha so'rovlarning uchdan bir qismi tashvish va qo'rquv hissi bilan bog'liq. Qo'rquv, shuningdek, gastroenterolog va nevrologga barcha tashriflarning 50%, kardiologga barcha tashriflarning 20% sababidir. Aholining aksariyati ekstremal vaziyatda yashashini hisobga olsak, bu holda qo'rquv hissi rivojlanishi mutlaqo normal reaksiya hisoblanadi. Ammo patologik tashvish bor, buning uchun maxsus sabablar yo'q, bu bizning hayotimiz ritmini buzadigan har qanday noadekvat vaziyatdan kelib chiqmaydi.

Inson faoliyati axloqiy baholash tushunchaga asoslanadi, nima yaxshi va nima yomon. Ma'lumki, huquqiy baho inson faoliyatining butun xilma-xilligini qamrab olmaydi, ko'p harakatlar faqat ma'naviy hukmga bog'liq. Axloqning maqsadi munosabatlarni tartibga solishdir inson inson bilan, inson jamiyat bilan. Axloqiy me'yorlarni buzishga jamoatchilik fikri bilan ziddiyatga olib keladi. Qachon shaxs o'z harakatlarini vijdon, uyat, burch kabi axloqiy kategoriyalar, huquqiy va diniy normalarga ko'proq ahamiyat berib yashasa uning ijtimoiylashuvi va madaniylashuvi yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

<sup>201</sup> Freyd A. "Men" psixologiyasi va mudofaa mexanizmlari - M.: "Ta'lim" 1993.

<sup>202</sup> <https://ief-usfeu.ru/uz/5-prichin-pochemu-strah-poleznoe-chuvstvo-chto-takoe-strah-i-chem-on/>

Ammo shuni yodda tutish kerakki, qo'rquvga javob - bu odamning ongsiz yoki oddiy kundalik harakatlari bo'lib, ular kuchli tashvishning namoyon bo'lishi bilan vahima qo'zg'atadi. Vaziyatga qarab, barcha odamlarda qo'rquv hissiyotining kechishi kuch va xatti-harakatlarga ta'sirida sezilarli darajada farq qiladi. Buning sababini o'z vaqtida aniqlash salbiy his-tuyg'ularni yo'q qilishni sezilarli darajada tezlashtiradi. Qo'rquv sabablari ham yashirin, ham aniq. Ko'pincha, odam aniq sabablarni eslay olmaydi. Yashirin qo'rquvlar bolalikdan kelib chiqadigan qo'rquvlar deb tushuniladi, masalan, ota-onalarning g'amxo'rligi, vasvasalar, psixologik travma oqibati; axloqiy ziddiyat yoki hal qilinmagan muammodan kelib chiqadigan qo'rquv. Qo'rquv tuyg'usi individual bo'lib, barcha irsiy xususiyatlarni, shuningdek, har bir shaxsning tarbiyasi va madaniyati, temperamenti, nevrologik xususiyatlarini aks ettiradi. Odamlarning qo'rquvini tuzatish juda qiyin. Zamonaviy jamiyatda sizning qo'rquingizni muhokama qilish odatiy hol emas. Odamlar ochiqchasiga kasalliklarni, ishga munosabatni muhokama qiladilar, lekin qo'rquv haqida gapirishlari bilanoq, darhol vakuum paydo bo'ladi. Odamlar o'zlarining fobiyalaridan uyaladilar. Qo'rquvga bunday munosabat bolalikdan singdirilgan.

Qo'rquv nafaqat muqarrar, balki zarurdir. Ma'lumki, qo'rquv bizni biron bir harakatga safarbar qilganda yoki bizni to'xtatganda ijobiy xususiyatdir. Yana bir narsa, qo'rquv bo'lishi mumkin va salbiy fazilatlar va odamlarning harakatlarini buzg'unchi tomonga yo'naltiradi. Masalan, tajovuzkorlik qo'rquvni bostirishning eng samarali usullaridan biridir. Agar odam qo'rquvning passiv holatidan hujumga o'tish uchun kuch topsa, unda og'riqli qo'rquv hissi yo'qoladi. Urushlar, qotilliklar sodir bo'ladi va hokazo. Qo'rquv inson hayotining turli jabhalariga kuchli ta'sir ko'rsatadigan asosiy his-tuyg'ularga tegishli. Ontogenezning dastlabki bosqichlarida shakllangan bu tuyg'u keyinchalik insonga butun hayoti davomida hamroh bo'ladi. Qo'rquv hayotimizning bir qismidir. Inson eng ko'p qo'rquvni turli vaziyatlar boshdan kechiradi, lekin bu holatlarning barchasida umumiy narsa bor: ular his qilinadi, inson tomonidan uning va unga yaqin bo'lganlarning tinchligi va xavfsizligiga tahdid soladigan vaziyatlar sifatida qabul qilinadi. Shaxsning ijtimoiy rivojlanishida qo'rquv tarbiya vositalaridan biri bo'lib xizmat qiladi: masalan, hukm qilishning shakllangan qo'rquvi xatti-harakatni tartibga solish omili sifatida ishlatiladi<sup>203</sup>. Jamiyat sharoitida shaxs huquqiy va boshqa ijtimoiy institutlarning himoyasidan bahramand bo'lganligi sababli, qo'rquvga moyillik o'zining moslashuvchan ma'nosini yo'qotadi va an'anaviy ravishda salbiy baholanadi. Tahlil qilish jarayoni qo'rquvning bir necha xil tasniflari mavjudligini ko'rsatdi. Bu haqiqiy qo'rquvlar va nevrotiklar; tabiiy qo'rquv va ijtimoiy; vaziyat va shaxsiyat bilan bog'liq, yoshga bog'liq qo'rquvlardir.

---

<sup>203</sup> Sher A. Axloqshunoslik T., O'AJBNT – Yangi asr avlodi, 2003.

## O'QUVCHILARNING PISA XALQARO BAHOLASH DASTURI TADQIQOTI YORDAMIDA MATEMATIKADAN O'QISH SAVODXONLIGINI BAHOLASH

*Do'stov Sunnatullo*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Oliy matematika" kafedrasi o'qituvchisi.*

*Xushboqova Saodat Qo'chqor qizi*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika institute 2-bosqich talabasi.*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'quvchilarning PISA xalqaro baholash dasturi tadqiqoti yordamida matematikadan o'qish savodxonligini baholash, o'quvchilarning ijobiy va salbiy fikrlashlarini shakllantirishda PISA xalqaro baholash dasturining o'rnini, PISA testlariga matematika yo'nalishi bo'yicha tayyorgarlik ko'rishda mantiqiy masalalarni yechishning o'rnini haqida batafsil bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** PISA, o'qish savodxonligi, informatsion texnologiya, tanqidiy fikrlash, xalqaro baholash dasturi.

**Kirish.** Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga alohida e'tibor qaratilib, farzandlarimizning jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallashi, jismonan va ma'nan yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi, ularning qobiliyat va iste'dodini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, yosh avlod qalbida Vatanga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini yuksaltirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi jadal rivojlanayotgan dunyoda o'quvchilar bilimini baholovchi PISA, PIRLS, TIMSS kabi xalqaro tadqiqotlarda munosib ishtirok etish mamlakatimiz xalq ta'limi tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Ushbu dasturlar orasida PISA tadqiqoti ta'lim jarayoniga zamonaviy metodlarni joriy etish, o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** O'qish savodxonligi – shaxsning o'z maqsadiga erishish uchun matnni tushunish va undan foydalanish, bilim va imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy hayotda ishtirok etish qobiliyatidir. O'qish bu shunchaki so'zlarga harf qo'shish yoki ovoz chiqarib o'qish emas, balki matn bilan chuqur ishlash, uni tushunishdir.

O'qish savodxonligida o'quvchilarda matndan ma'lumot topish va olish, izohlash, matndan tashqari bilimlarga tayanish, tushunish va baholash, matn mazmunini tushunish kabi ko'nikmalar shakllanadi. Umuman olganda, o'qish savodxonligi keng qamrovli tushuncha bo'lib, puxta tadqiqotga asoslangan maqsadga yo'naltirilganlikni bildiradi.

PISA - bu o'quvchilarning ta'limdagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur bo'lib, u butun dunyo bo'ylab maktab o'quvchilarining bilim va ko'nikmalarini sinovdan o'tkazadi.

Dasturning asosiy maqsadi 15 yoshli o'quvchilarning maktabda olgan bilim va tajribasidan ijtimoiy munosabatlar va inson faoliyatidagi turli hayotiy muammolarni hal qilishda foydalanish qobiliyatini baholashdan iborat. Ushbu test har uch yilda bir marta o'tkaziladi. O'zbekistonning ushbu tadqiqotlardagi ishtiroki va natijalari dunyo hamjamiyatida umume'tirof etilishi, yosh avlodni xalqaro tajribalardan kelib chiqqan holda yangi innovatsion usullarda ta'lim olishini ta'minlash hamda olgan bilimlarini amalda samarali qo'llay bilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

**Natijalar.** PISA testlari 5 ta yo'nalishda o'tkaziladi: o'qish, matematik savodxonlik, tabiiy fanlar, masalalarni hamkorlikda yechish va moliyaviy savodxonlik. 2021-yilda O'zbekistonda uchta yo'nalish: o'qish, matematika savodxonligi va tabiiy fanlar bo'yicha test sinovlari o'tkazish rejalashtirilmoqda. Hozirda dasturga qo'shilishga tayyorlanmoqda.

XXI asr axborot texnologiyalari asri. Bu asr o'zidan oldingi asrlardan butunlay boshqacha kompetensiyalarni talab qiladi. Yigirmanchi asrda va undan oldin kuchli xotira, qomusiy bilim, o'z sohasini imkon qadar ko'proq biladigan mutaxassislar yuqori baholangan bo'lsa, endi bu bilimlar hal qiluvchi ahamiyatga ega emas.



Qidiruv mexanizmlari, onlayn ensiklopediyalar va sohalar bo'yicha mukammal onlayn ma'lumotlar bazalari yaratilgan va bu ma'lumotlarni eslab qolish zarurati ikkinchi darajali bo'lib qoldi.

PISA dasturi ilk marta 2000-yil o'quvchi-yoshlar o'rtasida qo'llangan bo'lib, 2021-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan galdagi sinovlarda mamlakatimiz ham ishtirok etishga tayyorgarlik ko'rmoqda edi. Butun dunyoda hukm surayotgan pandemiya munosabati bilan bu tadqiqotlar 2022-yilda amalga oshiriladigan bo'ldi.

PISA dasturiga qatnashishdan maqsad yurtimizda testlarni o'tkazish emas, balki farzandlarimizda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish, intellektual kadrlarni tayyorlash uchun zamin hozirlashdir.

**Muhokama.** PISA – turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini hamda bilimni amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur bo'lib, u har uch yilda bir marta o'tkaziladi.

Tadqiqot mamlakatlarida maktab matematika va tabiiy fanlar ta'limi mazmuni va ta'lim jarayonining mohiyati, ta'lim muassasasi, o'qituvchilar, o'quvchilar va ularning oilalari bilan bog'liq omillar qo'shimcha o'rganiladi.

Xalqaro testdan tashqari, maktab ma'muriyati, tadqiqotda ishtirok etayotgan o'quvchilar va o'qituvchilar bilan suhbat o'tkaziladi. Olingan ma'lumotlar test natijalariga, ya'ni talabalar bilimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashga, tadqiqotda ishtirok etuvchi mamlakatlarda matematika va tabiiy fanlar holatini ko'rsatishga yordam beradi.

PISA o'quvchilarning maktab davomida olgan bilim va ko'nikmalarini aniqlash uchun o'quvchilarning o'qish (tushunish), matematika va tabiatshunoslik ko'nikmalarini baholashga mo'ljallangan baholash dasturidir.

Maktab ta'limi sifatini monitoring qilishga qaratilgan PISA dasturi uchta asosiy yo'nalish: o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik bo'yicha olib boriladi.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, talabalar savodxonligini aniqlash va baholash bo'yicha milliy attestatsiya platformasini yaratish vaqti kelgani zamon talabidan kelib chiqib isbot talab etmaydigan haqiqatdir. Yuqoridagilarni umumlashtirib shuni aytishimiz mumkinki, o'quvchilar bilan ko'proq mantiqiy va tanqidiy fikrlashni o'rgatuvchi masalalarni yechish, avvalambor, darsning qiziqarli o'tishiga va o'quvchilarda fanga nisbatan qiziqishi ortishiga, shuningdek, yuqorida aytganimizdek, teran fikrlay oladigan, innovatsion g'oyalarni ilgari suradigan kadrlar bo'lib yetishishiga xizmat qiladi va, albatta, PISA hamda boshqa turli xalqaro testlarda ham yuqori ko'rsatkichlarni qayd eta olamiz.

Ta'lim sifatini baholashga yo'naltirilgan PISA singari xalqaro baholash dasturlari O'zbekistonda ilk marta o'tkazilayotganligi sababli ularni shaffof va obyektiv o'tkazish soha xodimlari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.A.B.Radjiyev, A.A.Ismoilov... O'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi. – T.:2019. Elektron qo'llanma.
- 2.O'quvchilarning ta'limiy yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur (PISA) Toshkent, 2019.
- 3.Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ish sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash. Toshkent, 2019-yil. "Sharq" nashryot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati
- 4.O'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturi haqida qo'llanma.
- 5.Raxmonberdiyev Otabek "PISA dasturi haqida" 8.09.2019.
- 6.O'quvchilarning ta'limiy yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur (PISA) Toshkent, 2019.

## АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИДА СИНОНИМЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ

*Яхшиликova Наргиза*

*Жиззах давлат педагогика институти  
Чет тиллар факултети 2-курс талабаси.*

**Аннотация:** Ушбу мақолада Алишер Навоий асарларида қўлланилган манодош сўзларнинг ўзига хос жиҳатлари ақс еттирилган. Шоир асарларидаги айрим синоним сўзлар таҳлилга тортилиб, изоҳи берилган.

**Калит сўзлар:** манодошлик, соҳа, маънавият, қўзма, тарихийлик, лингвистика, синонимлар.

**Аннотация:** В данной статье отражена специфика синонимов, используемых в произведениях Алишера Навои. Проанализированы и прокомментированы некоторые синонимы в творчестве поэта.

**Ключевая слова:** семантика, поле, духовность, композиция, история, языкознание, синонимы.

**Annotation:** This article reflects the peculiarities of synonyms used in the works of Alisher Navoi. Some synonyms in the poet's works have been analyzed and commented on.

**Key words:** semantics, field, spirituality, composition, history, linguistics, synonyms.

Мустақилликдан кейин илм-фаннинг барча соҳалари қаторида ўзбек тилшунослигида ҳам туб ўзгаришларга замин яратилди. Миллий маънавиятимизнинг ажралмас қисми бўлган тилимиз тарихи, хусусан, буюк мутафаккир Алишер Навоий қолдирган улкан маънавий меросни тилшунослик нуқтаи назаридан чуқурроқ тадқиқ қилишга киришилди. Бу ҳолатни кейинги йилларда ўзбек тили тарихини ўрганишга оид изланишларнинг янги босқичга кўтарилгани, Алишер Навоий асарларининг муайян тузатишлар билан қайтадан нашр этилаётгани, адиб қаламига мансуб асарлар қўлёзмаларининг танқидий матнлари тузилиб, илм аҳлига тақдим қилинаётгани, шоир ижодига оид турли луғатларнинг яратилаётганини куриш мумкин. Айниқса шоир ижодида синонимлар алоҳида аҳамиятга эга. Алишер Навоийнинг бадиий матнда ўзига хос поэтик ақуаллашув воситаларидан бири – синонимлардан фойдаланиш маҳорати буюк ижодкор асарларини ўрганишга йўналтирилган илмий изланишларда, монографик тадқиқотларда ўз аксини топган.[1;345]Синонимлар тилда маълум лингвистик категория бўлиб, синонимик қаторлар ўзбек тилшунослигида ҳар томонлама чуқур ўрганилган парадигмалардан ҳисобланади.[2;34] Айни мана шу жиҳатдан синонимлар икки типга тақсимланади. Бунда қатордаги сўзлар маъносининг ўзаро қандай алоқада бўлиши муҳим ҳисобланади. Биринчи типга **мутлақ**, яъни **абсолют** синонимлар оид бўлиб, бунда қаторни шакллантирувчи сўзнинг маъно муносабати айнан бир хилликка асосланади. Баъзи асарларда **дублет** тарзида номланган бундай синонимлар Алишер Навоийнинг биз тадқиқот объекти қилиб олган тарихий асарларида ҳам кўп ўринларда қўлланилган. Маънолари бир-бирига тўлиқ мос келадиган мутлақ синонимларнинг асарларда мавжудлиги ижодкорнинг такрорларга йўл қўймасликка бўлган интилиши, ифода камбағаллиги ва рангсизлигини бартараф этиш[3;45] билан бир пайтда XIV-XV аср эски ўзбек адабий тили сўз бойлигининг ранг-баранглиги, турфалигидан далолатдир. Навоий асарлари лексикасида «Одамнинг бош терисида ўсадиган қил толалар қопламаси ва уларнинг ҳар бири» маъноси туркийча *saç* ва форсча-тожикча *gisu* мутлоқ синонимлари воситасида намоён бўлган: *Agar gisulariyni kesib, mänä bersänkim saçimgä uläsäm, munça bahäsän berurmän* [3;23].

«Аччик, нордон, шириннинг акси» маъноси туркийча *ačīy* ҳамда форсча-тожикча *talx* лексемалари ёрдамида ифодаланган: *Ul ačīy bolsa, bular ačīy; ul sāf bolsa, bular sāf* [4;21]... *nādān̄ya tavāzu' qilmaq hanzal̄ya suv bermākdürkim, nečä köp içsä, talxraq bolur.*

Диний ақидага кўра «беғуноҳ, такводор кишилар нариги дунёда яшайдиган роҳат-фароғатли жой» маъноси ТАҲ сўз бойлигида туркийча *učmoh*, арабча *jannat*, форсча-тожикча *bihišt* ўзлашмалари кўмагида қуйидагича ифодаланган: *Agarčī aṇa boldi učmah makān, Jahān ičrā xud qolmadī jāvidān* [5;706]; *Dedikim, čun sen nāšāyist iš qilib, nečuk teḡri taālādīn rahmat va jannat tama' qilursen* [6;723]; *Andin soḡra öz duāḡ bilä bihišt-i jāvidān̄ya kiyürgümdür* [8;726. Асар матнида форсча-тожикча *bihišt* лексемаси қўлланиш частотасининг юқорилиги билан характерлидир.

Алишер Навоий эски ўзбек, эски форс-тожик адабий ва халқ тилларининг сўз бойлигини мукамал билган ва ундан самарали фойдаланган. Айниқса, ҳаракатни ифодаловчи сўзлар синонимияси бунга яққол мисолдир.

Чунончи, «давлат бошқарувини қўлга олмоқ» маъносининг бир қанча бирикмалар билан англашилганини кузатамиз: *taxt̄ya oltur – saltanat̄ya oltur– taxt al – pādšāhliqq̄a oltur= pādšāh bol= taxtni egällä*[8;898] шулар жумласидандир. «Қурмоқ, солмоқ» маъноси туб *yasa= binā qil= imārat qil= bunyād qil*[9;729] қўшма феъллари билан ифодаланган. Рухий ҳолатга оид «хурсанд бўлмоқ, мамнун бўлмоқ» маъносини ифодаловчи *masrur bol= xursand bol= šādman bol=közi yoru*[9;899] қўшма феъллари маънодошликни ҳосил қилади.

«Шодлантирмоқ, хурсанд қилмоқ» маъноси эса *nišāt ayla= šād et= xušnud et*=[10;750] кабилар ёрдамида ифодаланган. Юқоридаги қўшма феълларни яшашга асос бўлиб хизмат қилган *masrur – šād – xušnud – xursand – mamnun* синонимик қаторининг «севинч-қувонч ҳолатида, кайфи чоғ» маъносини ифодалаши ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғатида таъкидланган бўлиб, *šād* жонли сўзлашувда *xursand* сўзига нисбатан кам қўлланилиши; *xušnud, mamnun* сўзларининг китобий эканлиги кўрсатилган.

Асарлар матнидан келтирилган юқоридаги мисолларда биз ном билдирувчи сўзлар гуруҳи, яъни от сўз туркумига кирувчи сўзлар ўртасидаги маънодошликни кузатдик. Асарларда бундай синонимик қаторлар кўп миқдорни ташкил этади. Ўтироф этиш лозимки, мутлоқ синонимлар ҳаракат-ҳолатни ифоловчи лексемалар сирасида ҳам ишлатилгани билан диққатни тортади. Асарлар тилида ҳаракат ва ҳолатни ифодаловчи сўзлар синонимияси алоҳида ўрин тутди. Феъл англаган маънолар қатор мазмуний гуруҳларга ажратилади, бунда ҳаракатга хос яратиш, бузиш, ўзгартириш, сўзлаш, психологик, иқтисодий, тафаккур билан боғлиқ жиҳатлар эътиборга олинади. Хуллас, кузатишларимиз эски ўзбек адабий тилида мутлоқ синонимларнинг нафақат от, балки сифат, сон, феъл туркумига оид сўзларда ҳам воқеланишини кўрсатди.

«Сўзларнинг маъно муносабати умуман бир хилликка асосланган синонимлар»,[11;34] яъни семантик синонимлар ҳам керакли ўринларда моҳирона қўллангани билан характерлидир. Маълум лексик маъноси бир бўлиш шартига асосланган семантик синонимлар сирасига асарларда қайд этилган баъзи ашъвий мисоларни келтириш ўринли. Тадқиқотларда сўзларнинг ўз маънолари билан синонимик муносабатда бўлиши лексик-семантик синоним, функционал маънолари билан синонимик муносабатга киришуви функционал-семантик синоним термини билан юритилган.

Синонимик муносабат тил тараққиётининг муайян бир босқичи доирасида белгиланади.[12;46] Лексик-семантик синонимияга асосланган парадигмани ташкил қилувчи айрим лексемалар архаиклашади. Давр ўтиши мобайнида синонимик парадигма янги лексемалар билан бойиб боради. Лексик-семантик синонимик парадигмани диахроник таҳлил орқали кузатиш мумкин. Лексик-семантик синонимлар муайян тушунчани ифодаловчи лексемалар парадигмасидир. Бундай парадигмани ҳосил қилувчи лексемалар матндан мустақил ҳолда ўзаро синонимик муносабатда бўлади.

Эски ўзбек адабий тили синонимларга бойлиги билан характерланади. Адиблар сўз такроридан қочиш, матннинг бадииятини ошириш мақсадида маънодош сўзлардан бир тушунчани ифодалашда фойдаланганлар.

Демак, ҳар бир тилда синоним сўзлар мавжуд бўлиб, улар маъно яқинлиги, баъзи ўринларда эса маъноларнинг тенг келиши билан маънодошлик қаторларини юзага чиқаради. Бу ҳодиса Алишер Навоийнинг тарихий асарларида ҳам кузатилди.

Қайд этилган манбалар бўйича олиб борилган изланишларимиз адибнинг синонимлардан моҳирона фойдаланиш маҳорати нақадар юксаклигини яна бир бор тасдиқлайди. Хуллас, Алишер Навоийнинг ушбу асарлари синонимларнинг икки типини воқелантирувчи лексемалар миқдоран кўплиги, морфологик қурилиши, генеалогик келиб чиқиши жиҳатдан ранг-баранглиги билан аҳамиятлидир.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусу-сиятлари. – Тошкент: Фан, 1984. – 160 б.
2. Муҳамедова С. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантикаси ва валентлиги. – Тошкент: Фан, 2005. – 122 б.
3. Норқулов Н., Жўраев У. Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 271 б.
4. Рустамов А. Навоийнинг бадий маҳорати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979.
5. Содиқов Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. – Тошкент: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2006.
6. Фозилов Э.И. Қадимги обидалар ва Алишер Навоий тили. Тошкент: Фан, 1969. 88б.
7. Шукуров Ш. Ўзбек тилида феъл майлларининг тараққиёти. – Тошкент: Фан, 1980.
8. Эгамова Ш. Д. Алишер Навоий асарлари тилидаги қадимги туркий лексик бирликлар. Фан ва технология. – Тошкент, 2010. – 50 б.
9. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати, I-IV.– Тошкент: Фан, 1983-1985. I – 1983, 646 б; II – 1983, 642 б; III – 1984, 622 б; IV – 1985, 636 б.

**TARBIYACHIM - DARDDIR MENING...**  
**(YOXUD XAYRULLA HAMIDOV SHE'RIYATIGA CHIZGILAR)**

*Yoqubov Jamoliddin Madamin o'g'li*  
*Andijon davlat universitetining Pedagogika instituti.*

Insonni kim yoki nima tarbiyalaydi? Aytish mumkinki, ota-onasi, yaqinlari, ta'lim dargohi va hokazo... Shular bilan birga insonni dard tarbiyalasa-chi? Natijasi qanday bo'ladi? Inson ruhiyati kechinma va hissiyotlar, to'lg'onishlar ummonida suzar ekan, turfa xil jumboqli savollarga javob izlay boshlaydi. Odam bolasi o'y-u kechinmalarini qog'ozga to'kib soladi. Dunyodagi ilk asar shu tarzda yaratilganligi sir emas. Kimdadir mazkur holat uzluksiz davom etadi, kimdadir, aksincha. Qalamkashning iste'dodi ham balki shu paytda namoyon bo'lar. Asl iste'dod o'zininggina va yo ma'lum bir qatlam hayoti, dardi bilan yashamaydi. U o'zligining buyukligi samarasida xalq, jamiyat va insoniyat dardini o'z dardi deb bilishi zarur bo'ladi. Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Omon Matjon, Shavkat Rahmon kabi shoirlar biz yuqorida aytgan asl iste'dodlar sirasiga kiruvchi ijodkorlardan edi.

Shukurki, o'zbek she'riyatida iste'dodli shoirlarimiz anchagina. Ulardan biri sport jurnalisti, sharhlovchi Xayrulla Hamidovdir. Muallifning she'riyatini dastlab diniy-ma'rifiy she'rlar tashkil etgan bo'lsa, keyinchalik uning she'riy auditoriyasi yanada boyiganini sezish mumkin. Fikrimizcha, shoirning diniy ruhdagi she'rlarining aksariyati badiiy jihatdan mukammal darajada emas edi. Biroq bu shoir iste'dodiga soya solmadi, aksincha, qalami yanada charxlanib bordi. Bunga avvalo, Xudo bergan ilhom va turli tashqi va ichki omillar sabab bo'lgan. Inson boshiga turli sinovlarning tushishi tabiiy. Bu sinovlardan qanday xulosa chiqarish inson irodasiga bog'liq. Xayrulla Hamidov umrining besh yilini panjara ortida o'tkazishga majbur bo'ldi. Albatta, inson uchun ozodlikdan mahrum bo'lish oddiy jazo emas. Ushbu yillarda muallif irodasini tarbiyalash bilan birga ijodini ham sayqallab bordi. Uning she'riyati o'ziga xos dardli, o'rni kelganda, tafakkurga chorlaydigan, ko'zga yosh keltiradigan, kezi kelganda, kuldiradigan satrlar bilan boyidi. Ma'lumki, eng dastlabki yaratilgan nazm namunalaridan to hozirgi kungacha bitilgan she'rlarda inson ruhiyati qirralari hali to'laligicha kashf etilgan emas. Quvonarlisi shundaki, shoir Xayrulla Hamidov she'rlarida inson ruhiyatidagi ta'sirli hissiyotlar, she'rxonni junbushga keltiradigan o'ziga xos inson o'zligi dunyosidagi ruhiyat jilolari o'z ifodasini topgan. Ijodkor ozodlikka chiqqach, uning "Suyanchiq", "Izsiz yo'llar" va "Yagona gul" nomli uchta she'riy to'plami nashrdan chiqdi. Ushbu maqolada uning "Suyanchiq" hamda "Izsiz yo'llar" kitoblaridagi ayrim she'rlar tahliliga to'xtalib o'tamiz. Shoir o'z she'rlarida tarix va bugungi davr, ta'bir joiz bo'lsa, kelajak haqida ham fikr yuritadi. Uning ash'orlari, asosan, qalb butunligi, dard, muhabbat, vatan, milliy g'urur singari tuyg'ularni tarannum etadi. Kitobxon qachon mutolaa qiladi? Qachon she'r o'qiydi? Qachonki, o'zining ruhiyatiga yaqin, qalb kechinmalariga hamohang she'rni topsa o'qiydi. Shoir she'rlarini o'qir ekansiz, lirik qahramon "men" idagi eng nozik va go'zal kechinmalar-u dardli iztiroblar kitobxon "men"iga hamohangligidan qalbg muhrlanib qoladi. Xayrulla Hamidov she'rlarida Mashrabona bir ruhni sezamiz. Ko'p she'rlarida unga murojaat qiladi. "Mashrabning duosini oling", "Dunyo", "Siz yig'lang" kabi she'rlarini olsak.

Ay dunyo, jodugar na ishlar etding,  
Maxliyolar etding, yurakni yirtding.  
So'zsiz sahrolarda tashlading ketding,  
Rosting yo'q, do'sting yo'q, aldoqchi dunyo.

Birda nomard bilan, birda mard bilan,  
O'tdim bu dunyoda og'ir shart bilan.  
Dardimni yamading boshqa dard bilan,  
Qo'lda xanjar tutgan yamoqchi dunyo.



Mazkur she’rda tasavvuf adabiyotining bosh me’zoni bo’lmish dunyo muhabbatidan yuz burushning badiiy tashbehtariga boy tasvirini ko’rish mumkin.

Nozik vujudimga toshqinlar toshdi,  
Fasod yengaversa, asabim oshdi.  
Haqiqat yanchilsa, yuragim shoshdi,  
Ko’zni yumub ketar go’l bo’lolmadim.  
Tilimni kesdilar, so’ylayverdim men,  
Devona qo’shig’im kuylayverdim men.  
G’urabo dillarni o’ylayverdim men  
Dedilar menga; ”Jim bo’l!” bo’lmadim men.

Albatta, Mashrab yetuk valiy edi. Shoirning Mashrabday bo’lishga, valiylikka da’vosi yo’q. Faqat uning Allohga e’tiqodi butun bo’lgan pok siyratiga oshuftalik hissi nihoyatda kuchli edi. Yuqoridagi “Mashrab nidosi” she’rida shoir Mashrabning tilidan adabiyotning yetakchi maqsadlaridan biri bo’lmish haqiqat tuyg’usini ulug’lamoqda. Uning Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf, Usmon Azim, Rauf Parpi hamda A’zam O’ktamga bag’ishlangan she’rlarini o’qib ko’ring. Ularda ulug’ ijodkorlar haqida birorta noto’g’ri so’zni uchratmaysiz. U o’zidan oldingilarga tosh otmaydi, aksincha, ularning xalq uchun, millat taqdiri uchun qilgan buyuk ishlaridan o’rnak olib, ularni kelajak avlodlarga yetkazishga harakat qiladi. X.Hamidovning she’rlari insonni mushohadaga, fikrlashga, hayotga yanada teranroq nazar solishga chorlaydi. U millatni sun’iy ravishda maqtamaydi. U o’zbekligidan, buyuk ajdodlarimiz siymosida namoyon bo’lgan ulug’lik sirlaridan ogoh etadi. Bunga uning “Tanishtiruv” she’ri misol bo’la oladi.

Ey sayyoh, ne yo’llar yurgansan?  
Kel, iymonni mendan o’rgan san-  
Bilmadim, sen kimni ko’rgansan,  
Buxoriyni ko’rgan o’zbekman.  
Zamaxsharning chekka elida  
Bir zot chiqdi irfon yo’lida-  
Arablarga arab tilida,  
Daqiq saboq bergan o’zbekman.

O’z tarixini, ota-bobolarini yaxshi bilgan inson bu satrlar orqali shoir ifodalamoqchi bo’lgan g’oyani idrok etish qiyin emas. Shoirning Vatan, milliylik va yoki insonlar haqidagi she’rlari bo’lsin, bari-barida o’zigagina xos bo’lgan ruhiy yo’nalish, badiiy ifoda manerasi va o’ziga tortuvchi bir estetik kuch mavjuddir. Ijodkorning ota-ona, ayollar mavzusidagi she’rlari haqida ham shunday fikrlarni aytish mumkin.

Onajon, tilimda yolg’on ehtirom,  
Roppa-rosa qirq yil oldin tug’ilib,  
E voh, yolg’izgina bir o’g’il bo’lib,  
Berganim dard ekan, olgan imorom.  
Olisda his qilib ulg’aydim biroz,  
Sizni sevardi deb aldagan ilhom.  
Ko’zingizdan nurni olganlarim rost,  
Mehrni berganim yolg’ondir, yolg’on!

Bu kabi she’rlarni o’qiganda qalb junbushga keladi. Bundan tashqari, u muhabbat haqida ham kuchli ehtiros bilan yozadi. “To’y tavsifi”, “Arifmetika”, “Izsiz yo’llardagi kutish”, “Hamon” kabi she’rlarini o’qib, ularda lirik qahramon qalbida betakror muhabbat xotiralari mavjudligini sezamiz.

Sizni kutar edim ko’zlarim giryon,  
Unutardim butkul holsizligimni.  
Yonimda sodiq do’st tutungan Armon,  
Hech-da sezdirmasdi yolg’izligimni.  
Ermak tutungandim xayollarim-la,  
Onging shuurimda nedur ustuvor.

Sizni kutar edim zavollarim-la,  
Hattoki umringa bermay e'tibor.  
Shu satrlar bilan birga shoir ijodida ko'zga tashlanadigan ayrim g'alizliklarni ham aytib o'tish zarur. Masalan, uning aruz vaznida bitilgan ayrim g'azallarida vaznning buzilish holatlari kuzatiladi. Ammo ular ko'p emas.

#### KEMTIKLIK

Hech kimdan yo'q mening aslo ortig'im,  
Shoirlik bobida uquvim kamroq.  
Bo'lsa ham bor faqat bitta yutug'im –  
Boshqalardan ko'ra ko'zlarim namroq!  
U qadar serobmas menda iqtidor,  
Birov she'rim o'qib qoyilman demas.  
Lekin bittagina fazilatim bor –  
Dardim soxta emas, zo'raki emas!  
Lug'atim boy emas, tan olay mening,  
Yangilik bo'lolmas o'ylasam neki...  
Ammo xislatim bor harqalay mening –  
Armonlarim shaxsan yuragimniki!  
Olmaganman ko'proq she'riy saboqdan,  
Tartib ham juda kam tizginlarimga,  
Nasiba olganman birgina baxtdan –  
O'zim ishonaman yozganlarimga!  
Qofiya bobida yurishmas ishim,  
Tafakkur yolqini yo'qdir baytimda.  
Faqat bir yutuqdan aylanar boshim –  
Qalbim taskin topar yozgan paytimda!  
Men hech kim emasman nazmiy olamda,  
Boshqalar men haqda ne desa derlar.  
Otamning tilida o'ylayman hamda  
Onamning tilida yozaman she'rlar!  
Balog'at bobida chiqolmam to'rga,  
Tugata olmayman she'rni ham noyob.  
Biroq qo'lim yozgan har bir satrga  
Bo'la olgay mening hayotim javob!  
Bir tomonda kemptik baytlarim nimta,  
Bir yonda mumkindir barin unutmog.  
Xullas, shu ozgina yozganlarimda  
Ko'rsangiz bo'ladi o'zimni mutloq!!!

Xulosa qilib aytganda, Xayrulla Hamidov she'riyatiga xos quyidagi xususiyatlarni ta'kidlab o'tish joiz:

1. X. Hamidovning Vatan mavzusida she'rlari yangicha tashbehlar bilan ziynatlangan.
2. Tarix, bugun va kelajak talqinida o'ziga xos badiiylikni inkishof etadi..
3. She'riy ifodalar uchun noan'anaviy o'xshatishlar topadi. His-tuyg'u va kechinmalarini ifodalashda ta'sirchan emotsiya yaratgan.
4. X. Hamidovni bugungi o'zbek she'riyatida o'z ovozigga, o'ziga xos uslubiga ega bo'lgan yangi iste'dodli shoir deb baralla aytish mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X. Hamidov "Suyanchiq". - Toshkent: "Navro'z" 2016.
2. X. Hamidov "Izsiz yo'llar". – Toshkent: "Navro'z" 2017.
3. X. Hamidov "Yagona gul". – Toshkent: "Qaqnus mediya" 2018.

## INFLAMMATION IN PERIIMPLANT TISSUES AND FACTORS AFFECTING IT

*Yuldashev Azizjon Muratbayevich*

*Private life clinic, Gurlan district center, Khorezm region, Uzbekistan.*

At present, reducing the number of complications after dental implantation remains a topical issue in dentistry. All risk factors can be divided into common factors - smoking, systemic pathology, condition after radiation therapy, etc, and local - poor oral hygiene, periodontal disease. Understanding the course of inflammatory and destructive processes around the tooth after implantation has led scientists and implant manufacturers to pay more attention to improving conservative and surgical methods already used in the treatment of these diseases, as well as prevention of this pathology. The development of new methods of surgical intervention and prosthetics, the creation of new systems of implants, will help to increase the service life of prostheses in implants, improve the quality of life of patients.

Although implantation has been characterized by high success in the postoperative period in recent years, it is associated with long-term complications, primarily with the development of inflammation of the tissues surrounding the osseointegrated implant. To find solutions to the problem, it is necessary to clearly understand the nature of the inflammatory process that occurs in peri-implant tissues. To date, it is common to distinguish between peri-implantation mucositis and peri-implantitis. Mucositis in the area of implantation is an inflammation of the surrounding soft tissues without disrupting osseointegration. Peri-implantitis is an inflammatory reaction of the tissues surrounding the osseointegrated implant, accompanied by loss of supporting bone. Gingivitis is associated with periodontitis, i.e. they have common etiological factors, similar pathogenesis, and essentially represent different stages of the same inflammatory process.

The most likely cause of the development of peri-implantitis may be the entry of an oral infection into the site of contact between the implant and the bone. The microbial composition of peri-implantitis is now known and represents a wide range of aerobes and anaerobes, the presence of which is characteristic of periodontal inflammatory processes - gingivitis and periodontitis (*Prevotella Intermedia*, *Porphyromonas Gingivalis*, *Treponema Denticola*, *Veillonella* spp, *Branhamella Catarr*). The specific causative agent of oral diseases has not been identified. Most of the identified microorganisms are opportunistic pathogens, some are saprophytes. Such a high percentage of anaerobic substances and their diversity make it difficult to identify the leading pathogenic microorganism that may be the “leader” of the infectious-inflammatory process. It can be seen that this is a combination of the most commonly diagnosed pathogens and the interaction of anaerobic agents of parasitocytosis, which in many ways can determine the nature of the inflammatory process in the peri-implant zone. while capable of destruction and resorption. If the bone tissue in the implantation area is not adequately treated, the mucosa will turn into peri-implantitis within five years, and the availability of maintenance therapy will reduce this frequency.

Thus, after the implantation of a tooth, it is necessary to monitor the progress of inflammatory processes around it and pay close attention to the improvement of surgical methods. It also focuses our focus on the prevention of this pathology and, accordingly, on the risk factors for its development.

All risk factors can be divided into general and local. Common ones include smoking, systemic pathology (diabetes mellitus, cardiovascular disease, cases of immunodeficiency), a condition identified by some researchers after radiation therapy. Poor local oral hygiene, history of periodontal disease.

Smoking is the most common and frequently identified risk factor for the development of peri-implantitis. There is a high rate of increase in peri-implant bone loss in smokers. In smokers, the rate and rate of implant osseointegration is also reduced, as well as the risk of developing peri-implantitis.

When talking about systemic pathology, first of all, it is necessary to pay attention to the presence of diabetes mellitus. It has become commonplace to put this disease at the top of the list of risk factors and contraindications to any surgery and periodontal intervention.

In short, it is recommended to undergo a general examination with a doctor before starting treatment. Decreased bone regeneration, severe heart disease, diabetes, high blood pressure, hormonal imbalance, as well as other diseases that may adversely affect implant treatment should be identified as diseases that may lead to implant contraindications. If there are any changes, regular monitoring should be carried out every six months to take the necessary measures. If all of the above conditions are met, the individual (depending on the state of health, physiological characteristics and the presence of bad habits) is guaranteed for implants.

**Literature:**

1. Influence of transcranial electrostimulation on the osseointegration of dental implant in the experiment / D. V. Mikhalchenko, A. V. Poroshin, V. F. Mikhalchenko, et al. // Research Journal of Pharmaceutical, Biological and Chemical Sciences. - 2014. - Vol. 5, № 5. -P. 705-711.
2. Korsch M, Obst U, Walther W. Cement-associated peri-implantitis: a retrospective clinical observational study of fixed implant-supported restorations using a methacrylate cement // Clin. Oral. Implants. Res. -2014. - Vol. 25 (7). - P. 797-802.
3. Systemic risk factors for peri-implant bone loss: a systematic review and meta-analysis / M. Clementini, P. H. Rossetti, D. Penarrocha, et al. // Int. J. Oral. Maxil-lofac. Surg. - 2014. - Vol. 43. - P. 323-334.

## TA'LIMDA RAQAMLI TEXNALOGIYARNI TADBIQ ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA RIVOJLANISH OMILLARI

*Yuldosheva Nozik Mirzo qizi*

*O'zbekiston davlat jahon universiteti 2-kurs talabasi.*

*Ilmiy rahbar: Madrakhimov To'laboy*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim jarayonlarida axborot texnologiyalarini tadbiq etish va bu orqali ta'lim sifatini yaxshilash borasida olib borilayotgan ishlar xususida so'z yuritiladi. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish natijalari haqida batafsil ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** axborot texnologiyalari, zamonaviy ta'lim, kommunikatsion vositalar, yuneset, telnet, lists, e-minbar, internet.

Keyingi 50 yil mobaynida axborot texnologiyalari rivojlanishi natijasida insoniyat hayotida tub burilish yasaldi. Mazkur texnologiyalar tufayli ta'limni samarali tashkil etish uchun turli usul va vositalardan foydalanish yo'lga qo'yila boshlandi. Bu borada sezilarli ishlar amalga oshirilgan bo'lsada, sohada xali anchagina ishlarni amalga oshirish zarurligini hayotning o'zi kun tartibiga qo'yimoqda. Endilikda zamonaviy ta'limni tashkil etishga to'sqinlik qiluvchi holatlar bartaraf etilayotgan bo'lsada quyidagilar hamon sohadagi ishlarni amalga oshirish jarayoniga salbiy ta'sir eryapti:

- o'qituvchilarning zamonaviy axborot kommunikatsion vositalar xaqida kam ma'lumotga ega ekanligi;
- ta'lim muassasalarining zamonaviy ta'lim berishga mo'ljallangan vositalar bilan ta'minlanish holatining talab darajasida emasligi;
- zamonaviy ta'limni tashkil etishga yordam beradigan internet tarmog'ining yetib bormaganligi yoki tezlikning pastligi;
- o'quvchilar yoki talabalarning ta'limni tashkil etishning zamonaviy vositalariga ega emasligi va hakazo.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda ta'limni axborot kommunikatsion vositalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi, bir qaraganda. Hozirgi kunda o'qituvchilarning katta qismi axborot kommunikatsiya vositalaridan, shuningdek, proyektordan unumli foydalanishni bilsada qolgan zamonaviy texnologiyalar haqida kamroq bilimga ega. Boisi, pedagoglarning katta qismi IT sohasi bilan yaqindann tanish emas. Bu esa ta'limni tashkil etishda turli muammolarga olib kelishi mumkin. Raqamli texnologiyalar xaqida gapirganda internet orqali tashkil etiladigan mailing lists, telnet, yuneset, e-minbar kabilar samarali natijaga erishishga katta ko'makchi bo'la oladi. . Barchaga ma'lumki, o'qitishning odatdagi an'anaviy usulida o'qituvchi faol, o'quvchi esa tinglovchiga aylanadi. Ma'ruza jarayonlari eskirgan ta'lim tizimida. Talaba uchun esa ijtimoiy va internet tarmoqlaridan olayotgan ma'lumotlari qiziqarli va tushunarli tuyulishi tabiiy. Chunki, ayni vaqtda internet olamida istalgan yangilik yoki narsa-buyum haqida batafsil ma'lumot joylashtirilgan bo'ladi.

Bunday hollarda ta'lim olish quruq yodlash va esda olib qolish uchun yo'nalgan bo'ladi. Bu esa ma'lum muddat saqlab olingan bilimning xotiradan o'chishiga olib kelishi tabiiy. Zamonaviy ta'lim jarayoni esa o'quvchiga o'z ustida ko'proq ishlash imkonini beradi. Ya'ni o'quvchining o'zi mavzuni o'qiydi, o'zlashtiradi, mustaqil yangi ma'lumotlar topadi va uni tahlil qila oladi. Zamonaviy ta'lim jarayonini tashkil etish katta kuch va salohiyat talab etadi. Buning uchun raqamli texnolgiyalarni amalga tadbiq etish yaxshi va samarali bo'ladi. Xususan, internet, telnet, e-minbar kabilar. Bu kabi texnologiyalar ta'limda quyidagi yengillik va samarali natijalarni beradi:

- o'quvchilar bilim olishining faollashishiga, modellashtirishga;;
- har qanday vositalarrdan kompleks foydalanishga;
- o'quvchilarning bilimlarni kompyuter orqali ob'yektiv baholanishiga imkon yaratadi.



Bundan tashqari raqamli texnologiyalardan foydalanish auditoriyaning to'liq qamrab olish va fanga nisbatan muhabbat uyg'otishga sabab bo'ladi. Shu bilan birga ta'lim muassasasida internet tarmog'ining bo'lishi va sifatli ishlashi ta'limni sifatini oshirishga juda katta xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar joriy etilgan ta'lim tizimi vostilari rolini multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Bugun ular bilan ta'lim tizimining qurollantirilishi o'quvchilarga dars mashg'ulotlarini sifatli o'tilishini hamda vaqtdan unumli foydalanishni ta'minlaydi. Pandemiya sharoiti ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar qo'llanilishi yaxshi samara berishini isbotladi.

Televideniya orqali berib borilgan onlayn darslar raqamli ta'limga o'tishning bir debochasi sifatida qabul qilsak bo'ladi. Bu jarayon o'quvchiga uydan chiqmay turib ham ta'lim olish mumkinligini isbotlab berdi. Aslida, ta'limning bunday usuli xorijda allaqachon amlda qo'llanilayotganiga bir necha yillar bo'lgan. Raqamli ta'limga o'tishning boshqa afzalliklari to'g'risida fikr yuritadigan bo'lsak ularga quyidagilarni kiritish o'rinlidir:

- darsliklar elektron holatda ekranlarga ko'chadi;
- o'quvchilar xohlagan joyida va xohlagan vaqtda ta'lim olish imkoniga ega boladi;
- o'quvchilar mutaxasis yetishmaydigan uzoq qishloqlarda ham fanlarni tanlash va uydan turib ta'lim olish imkoniga ega bo'ladi;
- internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi;
- ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'taradi, vaqt va mablag' sarfini keskin kamaytiradi;
- "raqamli dunyo"da yo'qolib qolmaslik va yaxshi ish topishda ustunliklarga ega bo'adi.

Bugun mamlakatimizning barcha xududlarida ham internet tezligi yetarli emas. Bu esa o'z navbatida raqamli ta'lim tizimiga o'tishga to'sqinlik qiladi. Buni bartaraf etish uchun esa hukumat darajasidagi katta ishlar amalga oshirish talab etiladi. Prezidentimizning Oliy Majlisga murojaatnomalarida ayni shu sohada ko'rsatmalar berilgani biz fikr yuritayotgan sohada sezilarli yuksalish yuz berishiga ishontiradi. WiFi zonalar IT parklar ochilishi raqamli ta'lim tizimini yuksalishiga turtki bo'ladi.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida aytish kerakki, ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bir tomondan muayyan qiyinchiliklar va muammolarni keltirib chiqarsada boshqa tomondan turli yutuqlarni qo'lga kiritilishiga sabab bo'ladi. Bu jarayon induvidial salohiyatli o'quvchilarning yanada rivojlanishi holatida yaqqol namoyon bo'ladi. Ayni, IT sohasi rivojlanayotgan bir vaqtda ta'limda uni qo'llamaslik mumkin bo'lmagan holat hisoblanadi.

MWM isolated from blood plasma and erythrocytes in rats modeled with diabetes mellitus by alloxan can activate LPO processes in the membranes of animal erythrocytes. The state of endointoxication is characterized, as a rule, by the activation of lipid peroxidation, and they also act as a factor in the aggravation of EI processes [7, 8]. Thus, judging from Table 3, high content of MWM products, which cause the development of endotoxemia, was found in the blood. It was revealed that at the beginning of the experiment, the content of MWM in blood plasma and erythrocytes in animals of both groups was approximately 1.7-2 times higher than in the intact group (see Table 3). It can also be said, reliably given by this table, that the numbers of the toxemia index in plasma and erythrocytes are higher than those in the intact group. The peptide component of MWM is represented by the content of oligopeptides in plasma and erythrocytes in both groups, which also significantly exceeded by 1.6–2.4 times the value in the group of relatively intact animals. This may indicate the activation of pathological proteolysis processes. After the use of reomannisol, the experimental group showed a tendency to reduce all indicators of endogenous intoxication. By the 7th day, the indices of MWM, OP of plasma (pl.) and erythrocytes (eryt.) in the control group were on average 1.2 times higher than those of the experimental group. At 10, 14 days in the experimental - fix the values of indicators corresponding to the intact group and the normalization of the pathological process in the body. Animals that received only traditional treatment, EI indicators remain elevated on average 1.2 times than in the experimental group, and the state of intoxication persists until the end of the experiment. **Table 3.** Dynamics of change in indicators of endogenous intoxication.

	Serum				Erythrocytes			
	Medium weight molecule (MWM) of plasma, conv. unit	Oligopeptides (OP) of plasma, g/l	Toxic index (TI) of plasma, conv. unit	Intoxication index (II) conv. unit	Medium weight molecules (MWM) of eryt., conv. unit	Oligopeptides (OP) of eryt., g/l	Toxic index (TI) of eryt, conv. unit	SCE, %
Intact group	3,6±0,24	0,45±0,04	1,81±0,20	3,57±0,36	3,5±0,21	0,68±0,04	2,28±0,40	7,8±0,43
Control group Day 1	6,1±0,22**	0,78±0,06**	4,41±0,55*	12,04±0,62*	7,3±0,25**	1,16±0,07**	7,79±0,62**	12,8±0,67**
Maingroup Day 1	6,1±0,17**	0,77±0,04**	4,20±0,21*	11,54±0,67*	7,0±0,16**	1,12±0,07**	7,44±0,36**	12,7±0,47**
Control group Day 3	5,6±0,16**	0,70±0,05**	3,73±0,45*	10,64±0,46*	6,4±0,19**	1,02±0,06**	7,21±0,22**	11,7±0,35**
Maingroup Day 4	5,3±0,09**	0,69±0,05**	3,36±0,28*	8,71±0,99***	5,9±0,08**	0,96±0,06**	5,54±0,65**	10,4±0,44**
Control group Day 7	5,3±0,11**	0,67±0,05**	3,09±0,22*	8,51±0,35***	5,6±0,11**	0,92±0,05**	5,79±0,32**	9,6±0,31**
Maingroup Day 7	4,0±0,11^^	0,58±0,02*	2,15±0,26^	5,61±0,62*^^	4,1±0,11*^^	0,78±0,04^	3,46±0,36*^^	8,3±0,17^^
Control group Day 10	4,9±0,10**	0,56±0,03*	2,83±0,23*	6,84±0,31***	5,2±0,11**	0,85±0,05*	4,64±0,23**	9,3±0,21**
Maingroup Day 10	3,7±0,14^^	0,48±0,05	1,86±0,22^^	3,65±0,24^^^	3,7±0,12^^^	0,72±0,05^	2,43±0,17^^^	8,0±0,23^^^
Control group Day 14	4,2±0,11*	0,52±0,03	2,39±0,15*	5,56±0,24***	4,2±0,10**	0,77±0,04	3,30±0,16*	8,7±0,17*
Maingroup Day 14	3,5±0,18^^	0,45±0,04	1,80±0,23^	3,55±0,37^^^	3,2±0,17^^^	0,68±0,02	2,30±0,22^^	7,8±0,43^

Note: \*- significantly compared with the intact group (\*-P<0,05; \*\*-P<0,01; \*\*\*-P<0,001)  
 ^ - significantly compared with the control group (^-P<0,05; ^^P<0,01; ^^P<0,001).

The study of the sorption capacity of erythrocyte membranes was carried out on erythrocytes from 10 practically healthy rats. The mean SCE in this group was  $7.8\% \pm 0.43$ . After the administration of alloxan to the body of rats, in both groups on the first days, a regular increase in SCE was observed on average by 1.6 times, intoxication index was 3.3 times that in the intact atop. The redistribution of the toxic load between plasma and blood erythrocytes is a necessary part of the body's natural detoxification [2, 10]. Endotoxins bind to the transmembrane protein of erythrocytes - glycophorin, and in this form are transported to the detoxification organs.

As a result, the use of reomannisol intraperitoneally in rats of the experimental group improved the condition of the animals, reduced the EI of the body. By 10, 14 days in the control group Intoxication index (II)  $6.84 \pm 0.31$ ;  $5.56 \pm 0.24$  and SCE  $9.3 \pm 0.21$ ;  $8.7 \pm 0.17$ , respectively, were, on average, 1.7 (II) and 1.1 (SCE) higher than the values of the experimental group - II  $3.65 \pm 0.24$ ;  $3.55 \pm 0.37$  and SCE  $8.0 \pm 0.23$ ;  $7.8 \pm 0.43$  (see table No. 3). This is due to the fact because the qualities of an antioxidant that improves blood rheology, a detoxifying effect (enterosorbent), and a diuretic, which have the effect of "biochemical sanitation" and restores the physiological functions of cells for the biotransport of endotoxins.

**Conclusions.** 1. The best option for creating an experimental model of a diabetic foot is the introduction of alloxan intraperitoneally in a single dose of 12 mg per 100 g, in which moderate diabetes develops. 2. After using the drug reomannisol intraperitoneally at a dose of 1 ml / 100 g 1 time per day for 5 days, there was a sharp decline in EI numbers. On the 10th day, the EI values in the experimental group returned to normal, similar to those in the intact group. The drug reomannisol performs "biochemical rehabilitation", due to its inherent qualities: antioxidant, improves blood rheology, detoxification, and diuretic. In rats of the control group, the EI numbers remain at high levels until the end of the experiment. 3. The results of biochemical studies demonstrate positive dynamics in experimental animals with a diabetic foot model when using the drug reomannisol. This was manifested by the fact that by the 10th day there was a decrease and normalization of the level of glucose in the peripheral blood, indicators of renal clearance (urea, creatinine), liver (ALT, AST, albumins). 4. An open, full-thickness wound of the foot, in rats with DM, had low blood circulation, prolonged inflammation, and was characterized by a violation of the inflammatory and proliferative phases of the healing process, which is associated with hyperglycemia. Thus, this model of the open foot in rats provides a good approach for studying the process of wound healing in DM, and this model can be regarded as creating an analog of the human diabetic foot syndrome in an experimental model of alloxan-induced diabetes mellitus.

**Ethical approval.** Operations and all manipulations with animals were carried out using general anesthesia, in compliance with the principles of humanity outlined in the directives of the European Community (86/609/EEC) and the Declaration of Helsinki, by the "Rules for working with experimental animals". The ethical approval for the study was granted by Tashkent Medical Academy and the Committee of Ethical Approval for Researches under the Ministry of Health of the Republic of Uzbekistan.

**Conflict of interest.** The authors declare that they have no competing interests.

**Funding.** No funding sources to declare.

#### References:

1. Volchegorsky I.A., Dolgushin I.I., Kolesnikov O.L., Tseylikman V.E. Experimental modeling and laboratory assessment of adaptive responses of the body. Chelyabinsk: Chelyabinsk State Pedagogical University Publishing House; 2000.
2. Gabrielyan N.I., Levitsky E.R., Dmitriev A.A. Screening method for average determinations of molecules in biological fluids: Method, recommendations. - Moscow, 1985. - 18 p.
3. WHO Fact Sheet No. 312, April 2016
4. Karyakina E.V., Belova S.V. // Wedge. lab. diag. 2004. No. 3. C. 3.
5. Kuzin M.I. Wounds and wound infection. M. Medicine, 1990, p. 258
6. Malakhova M. Ya. // Effer. therapy. 2000. N4. C. 3.



7. Marusanov V.E., Mikhailovich V.A., Demanchskaya I.A., Gulo S.L. //Effer. therapy. 1995.
8. Ryabinin V.E., Palimov A.G., Lifshits R.I. // Issues of biol. and medical chemistry. 1988.
9. Stalnaya I.D., Garishvili T.G. Method for the determination of malondialdehyde using thiobarbituric acid // Modern methods in biochemistry. - M.: Medicine, 1977. - S. 66-68.
10. Togaibaev, A. A. A method for diagnosing endogenous intoxication / A. A. Togaibaev, A. V. Kurguzkin, I. V. Rikun, R. M. Karibzhanova // Lab. a business. - 1988. - No. 9. - S. 22–24.
11. Behr G. A., da Silvaa E. G., Romanelli A. Pancreas b-cells morphology, liver antioxidant enzymes and liver oxidative parameters in alloxan-resistant and alloxan-susceptible Wistar rats: a viable model system for the study of concepts into reactive oxygen species. *Fundamental & Clinical Pharmacology*. 2008; 22:657-666. <https://doi.org/10.11/j.1472-8206.2008.00628.x>
12. Blakytyn, R. and Jude, E. 2006. The molecular biology of chronic wounds and delayed healing in diabetes. *diabetes. Med.* 23:594–608. [medline] [CrossRef]
13. Garwood CS, Steinberg JS, Kim PJ. Bioengineered ALternative tissues in diabetic wound healing. *Clin Podiatr Med Surg*. 2015; 32(1):121-133. <https://doi.org/10.1016/j.cpm.2014.09.004>
14. Gati M. A. Physiological and histological study of experimental diabetes mellitus by alloxan. *International Journal of Advanced Research*. 2016;4(3):1814-1818.
15. Guillemin, Y., Le Broc, D., Ségalen, C., Kurkdjian, E., and Gouze, J.N. 2016. Efficacy of a collagen-based dressing in an animal model of delayed wound healing. *J. Wound Care* 25: 406–413. [medline] [CrossRef]
16. ErgashevU. Y., ErnazarovKh. I., ZohirovA. R., AlzabniI. D. 2022. Complex Treatment of Experimental Model of Diabetic Foot Syndrome. *American Journal of Medicine and Medical Sciences* 2022, 12(5): 471-480. DOI: 10.5923/j.ajmms.20221205.05.
17. Ergashev U.Y., Mustafakulov G.I., Muminov A.T., Minavarkhujayev R.R., Yakubov D.R., ErnazarovKh.I., Zohirov A.R. 2021. THE ROLE OF MINIMALLY INVASIVE TECHNOLOGIES IN THE TREATMENT OF LIVER CAVITIES. *FrontiersinBioscience-Landmark*, 8, 82-89, DOI:10.52594/4945
18. Ernazarov Kh.I., Zohirov A.R., Ergashev U.Yu., Israilov R.I. PATHOLOGICAL PICTURE OF VITAL ORGANS IN AN EXPERIMENTAL MODEL OF DIABETIC FOOT. *Herald TMA* № 1, 2022. 74-79. e-mail: rio-tma@mail.ru. rio@tma.uz.

## БАНК СЕКТОРИДА ДАВЛАТ УЛУШИНИ КАМАЙТИРИШ, ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИ ТРАНСФОРМАЦИЯ ҚИЛИШ ВА ХУСУСИЙЛАШТИРИШ

*Абдивалиев Далер Юсупович*

*Термиз Давлат университети иқтисодиёт ва туризм факултети  
молия таълим йўналиши учинчи босқич талабаси.*

**Аннотация:** Ушбу тезисда ҳудудларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши асосида банк секторида давлат улушини камайтириш, шунингдек, тенглик ва барқарорликни таъминлаш учун тижорат банкларини трансформация қилиш ва хусусийлаштиришни таъминлаш учун банк секторида давлат улушини камайтиришнинг аҳамияти таъкидланган.

**Калит сўзлар:** давлат бюджети, банк тизими, банк сектори, даромадлар, харажатлар, бюджет тақчиллиги, инвестиция, кредит, фоиз ставкалари, молиявий хизматлар.

Бугунги кунда мамлакатимизда банк тизимини ислоҳ қилиш бўйича қатор ижобий ишлар олиб борилмоқда. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майда қабул қилинган “2020-2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида”ги Фармони<sup>204</sup> турли масалаларни ечишга қаратилган муҳим қадам бўлди. Шу билан бирга, банк секторида давлатнинг юқори даражадаги аралашуви, давлат иштирокидаги банкларда таваккалчиликларни бошқариш сифатининг етарли эмаслиги, иқтисодиётда молиявий воситачиликнинг паст даражаси каби банк секторини иқтисодий янгиланишлар ва жамият эҳтиёжларига мос равишда ривожлантиришга тўсқинлик қилаётган қатор тизимли муаммолар соҳа ривожланишига тўсқинлик қилаётган эди. Қайд этиш жоизки, бугунги кунда жами банк активларининг 15 фоизи хусусий банкларга тегишли бўлиб, 85 фоизи давлатнинг бевосита ва билвосита улуши бўлган банкларга тегишли. Дунёнинг барча мамлакатларида инвестиция жалб қилишда тижорат банклари муҳим ўрин тутди. Хорижий инвесторлар сармоя киритиши учун халқаро тоифадаги банкларнинг кафолатини тақдим этишини талаб қилади. Шу сабабли банк тизимида давлат улуши нуфузли хорижий банк холдингларига сотиш орқали камайтириш мақсадга мувофиқдир. Давлат улушини камайтириш орқали хусусий банклар ўртасида рақобат ривожланиб, хизматлар сифати яхшиланади, кредит фоиз ставкалари тушади ва омонат фоиз ставкалари кўтарилди. Давлат банкларининг ҳукумат кафолати остида олаётган қарзлари камади ва умумий ташқи қарз кўрсаткичига ижобий таъсир кўрсатади. Банклардаги давлат улушини хусусийлаштириш уларнинг корпоратив бошқарув тизимини такомиллаштириш, банк хизматлари сифатини ошириш ва замонавий ахборот технологияларини жорий қилиш ҳамда кадрлар салоҳиятини ошириш орқали амалга оширилади. Асосий эътибор банк кузатув кенгашларига банк соҳасида халқаро тажрибага эга бўлган мустақил аъзоларни киритган ҳолда мижозларга кенг қўламли хизматларни таклиф этиш, янги концепция ва технологияларни жорий қилиш (рақамли банк) ва кадрлар малакасини ошириш ва уларни қайта тайёрлашга қаратилган.

Рақамли иқтисодиётнинг ривожланиш жараёнида банк секторининг асосий муаммолари куйидагилардан иборат:

- Давлат ресурсларига юқори боғлиқлик ва имтиёзли кредитларнинг юқори улуши;
- Молиявий барқарорликнинг етарли эмаслиги;
- Давлатнинг доминант ўрни – активларнинг 85 фоизи;
- Молиявий хизматларнинг паст даражадалиги.

Стратегия 4 та асосий вазифаларни ҳал қилиш имконини беради ва улардан бири банк секторида давлат улушини камайтириш ҳисобланади.

<sup>204</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги ПФ-5992-сон фармонию

Бу бўйича молия вазирлиги ҳузурида тижорат банкларини давлат тасарруфидан ўтказиш ва хусусийлаштириш бўйича лойиҳалар ишлаб чиқилади ва офис очилади. Бу вазифаларни бажариш мақсадида дастлаб кредит ташкилотларини уларга хос бўлмаган функцияларни бажаришдан, шунингдек, ортиқча юктамалардан озод қилиш орқали маъмурий юкни изчиллик билан бартараф этиш, замонавий технологияларни кенг жорий этиш, масофавий банк хизматларини кенгайтириш учун зарур шарт-шароитлар яратиш, банк ишида юқори даражада тажриба, билим ва обрўга эга бўлган стратегик инвесторларни жалб қилган ҳолда қатор тижорат банкларида давлат улушини камайтириш, ҳисоботларни шакллантириш жараёнларини соддалаштириш ва автоматлаштириш орқали уларни тақдим этиш билан боғлиқ бўлган юкларни камайтириш муҳимдир.

Мамлакатимизда дастлабки трансформация қилинадиган ва хусусийлаштирилиши кўзда тутилган банклар қуйидагилар:

- 1) “Ипотека-банк” АТИБ ва “Ўзсаноатқурилишбанк” АТБни Халқаро молия корпорациясининг кўмагида;
- 2) “Алоқабанк” АТБни Европа тикланиш ва тараққиёт банки ҳамда Осиё тараққиёт банкининг кўмагида;
- 3) “Асака” АТБни Европа тикланиш ва тараққиёт банкининг кўмагида;
- 4) “Қишлоқ қурилиш банк” АТБ ва “Турон банк” АТБни халқаро молия институтлари ва консалтинг ташкилотларини жалб қилиш орқали уларни кўшиб юбориш масаласини кўриб чиққан ҳолда.

Аммо, банк тизимини ислоҳ қилиш даврида барча аҳоли қатламларининг молиявий хизматларга бўлган талабини қондириш, банк хизматларининг ҳудудий қамровини таъминлаш мақсадида давлат иштироки устувор равишда учта банкда – “Ўзбекистон Республикаси Ташқи иқтисодий фаолият миллий банки” АЖ (кейинги ўринларда – “Ўзмиллийбанк”), “Агробанк” АТБ ва “Микрокредитбанк” АТБда сақлаб қолиниши мақсадга мувофиқдир.

Яқин йилларда Ўзбекистонда банк секторининг хусусийлаштирилиши натижасида банкларнинг рақобатбардошлигини ошириш, молиявий хизматлар бозорида жиддий ўзгаришлар юз бериши ва хорижий инвестицияларни жалб этишга фаол ҳисса қўшиши кутилмоқда. Ўзбекистон Бош прокуратураси банклар фаолиятига давлат органларининг маъмурий аралашувиغا йўл қўймаслик қисми ижро этилиши устидан назоратни кучайтиради.

Хулоса ўринда шунини таъкидлаш жоизки юртимизда олиб борилаётган банк секторида давлат улушини камайтириш, тижорат банкларини трансформатсия қилиш ва хусусийлаштириш масалалари натижасида мамлакатимизда банк тизими юқори даражада шаклланиши, хорижий инвестицияларнинг кириб келиши ва рақобатнинг кучайиб бориши туфайли банк хизмат турлари ошиб бориши кўзда тутилмоқда. Ҳамда иқтисодиётимиз янада ижобий томонга ўзгаришида тижорат банкларини трансформация қилиш юқори даражадаги марказлашган хусусиятларга эга.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-5992-сон фармони.
2. Ш.Абдуллаева Банк иши дарслик Тошкент “Иқтисод-Молия” 2017.

## МАКТАБДА ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИ МАШҒУЛОТЛАРИ ЖАРАЁНЛАРИДАГИ МЕҲНАТ МУҲИТИ: ЭРГНОМИК АСПЕКТ

*Абдуллаев Сафибулло Хабибуллаевич*

*Наманган давлат университети технологик таълим кафедраси доценти.*

Мактаб технология фани машғулотларида меҳнат муҳити масалаларини эргономика ўрғанади, эргономика мутлақо мустақил илмий фан сифатида инсонни (ёки бир гуруҳ одамларни) ишлаш жараёнини кўриб чиқади. Эргономиканинг амалий вазифаларидан бири ҳар бир ишчининг жисмоний, физиологик ва психологик хусусиятларига мос келадиган меҳнат шароитларини яратиш ва таъминлашдан иборат бўлиб - ишчининг соғлиғи ва меҳнат қобилиятини имкон қадар узоқ вақт давомида сақлашга ҳисса қўшишдир. Эргономик талаблар, биринчи навбатда, меҳнатни муҳофаза қилиш бўйича талаблар ва қоидалар орқали намоён бўлади.

Эргономиканинг мактабда технология фани машғулотлари жараёнларида амалий қўлланилиши мураккаб тизим сифатида намоён бўлади, унинг мақсади ўқувчининг ижодий ривожланишига ёрдам берадиган ўқув муҳитини яратиш ва ривожлантиришни таъминлашдан иборат бўлиб, бу жараён айниқса ўқувчиларни ижтимоийлашуви учун муҳим ҳисобланади.

Технология фани ўқитувчилари ва ўқувчилар биргаликда ишлайдиган ўқув устахонаси иш муҳити қандай бўлиши керак, уларнинг ёши ва ҳаётий тажрибаси ҳамда иш муҳити учун талаблар бир биридан фарқ қилади. Биринчидан, ўқувчилар ва ўқитувчи иш кунининг муҳим қисмини бир хонада (шартли равишда – синф ёки ўқув устахонаси) бирга ўтказадилар, уларнинг ҳар бири ўзига хос, аниқ белгиланган вазифаларга эга (шартли: ўқитувчи дарс беради, ўқувчилар ўқийди). Иккинчидан, ўқитувчининг иш куни ўқувчилар билан бир вақтда бошланмайди ва унинг охириги дарси билан тугамайди. Учинчидан, меҳнат қонунчилигига кўра, фақат ўқитувчи ходим сифатида тан олинади ва у меҳнатни муҳофаза қилиш бўйича тегишли қонунга бўйсунди, унга кўра мактаб директори мактабда меҳнатни муҳофаза қилиш тизими талалабларини бажарилишига жавобгардир. Мактабда меҳнатни муҳофаза қилиш тизими ўқувчи учун амал қилмайди фақат ички тартиб қоидалар ва бошқалар амал қилади.

Бирок, эргономик нуқтаи назардан, ҳам ўқитувчи, ҳам ўқувчилар ишчилардир, яъни улар меҳнат қиладилар ва эргономиканинг барча тамойиллари ва қонунлари уларга бирдек таъсир қилади. Шу сабабли, мактаб технология фани машғулотларида иш муҳитига замонавий ёндашув, менежмент фанининг назарий ва амалий жиҳатларидан ташқари, нафақат эргономик таркибий қисмини ўз ичига олиши керак, балки фақат такомиллаштириш мақсадида эмас мактабдаги жисмоний муҳит, бу классик эргономика нуқтаи назаридан мақбул бўлади. Шу билан бирга, асосий эътибор маълум бир ўқув билиш муҳитида, айтайлик, мактаб технология фани ўқув устахонасида меҳнат хавфсизлигига эмас, балки келажакка қаратилган: мактабни эртанги битирувчиси яъни бўлажак ходим(ишчи) сифатида ҳаётга кириб, нафақат меҳнатни муҳофаза қилиш тамойиллари ва моҳиятини англайди, балки унинг ўзи иш жойи, иш муҳити учун масъулиятини тушунди.

Мактаб технология фани ўқув устахонасида эргономика - биринчи навбатда ўқув устахонасидаги умумий муҳит тушунилади, гарчи бу биринчи навбатда таълим мазмуни, тузилмаси каби омилларни ўз ичига олган ўқув билиш муҳити, макроэргономика сифатида белгиланиши мумкин бўлган ўқув жараёнини ташкил этиш. Аммо технология фани учун эргономиканинг энг муҳим жиҳатларидан бири бу эргономика масалаларини ўқув дастурларига, шу жумладан ўқитувчилар малакасини оширишга киритиш муаммосидир. Муаммони самарали ҳал этилишини таъминлаш мақсадида педагогик эргономикага мурожаат этамиз. Педагогик эргономика ўқитувчи ва ўқувчининг физиологик ва психологик меҳнат имкониятларини ўрғанади.

Биологик ресурслар, ақлий ва асаб қуввати, вақт ва моддий ресурсларни минимал сарфлаган ҳолда инсон саломатлигини асраш, меҳнат ва ўқишни жадал ва ишончли қилиш учун уларнинг фаолияти учун мақбул шарт-шароитларни яратиш, бу эса таълим жараёнининг барча иштирокчиларига касбий, маънавий шароитларни таъминлайди. Бироз соддалаштирилган ҳолда айтишимиз мумкинки, педагогик эргономика ўқувчи ва ўқитувчининг эргономик талабларига жавоб берадиган муҳитда тўлақонли педагогик жараёни таъминлашга қаратилганлигидир. Педагогик эргономика замонавий мактабларга хос бўлган педагогик, эргономик, ижтимоий ва иқтисодий муаммолар йиғиндисини ҳар томонлама кўриб чиқади. Ўқувчилар ва ўқитувчилар фаолияти учун мақбул шарт-шароитларни яратади. Педагогик эргономикани ўрганиш ва қўллашнинг жуда муҳим шarti - бу назария ва амалиётнинг бирлиги, чунки ўқувчилар меҳнат муҳитини ташкил қилиш ва унинг ўқувчилар соғлиги ҳамда ўқув натижалари таъсирига, ўз меҳнатидан қониқиш хосил қилишга йўналтирилганлигидир. Технология фани машғулоти жараёнида ўқитувчилар ва ўқувчиларнинг иш муҳитини баҳолашда статистик жиҳатдан сезиларли фарқлар мавжуд бўлиб бу технология таълими жараёнидаги ўқувчилар фаолиятини таҳлил қилишда ҳисобга олиниши керак. Ҳозирги вақтда энг кескин эргономик муаммолар технология фани машғулотида ишлатиладиган жиҳозлар ҳамда мебеллар ва ўқувчилар ишлатадиган асбоб-ускуналар билан боғлиқ. Бу эса эргономик талабларни ҳисобга олган ҳолда мактаб технология фани ўқув жараёнини лойиҳалашни ифодалайди; эргономик мезонлар нуктаи назаридан ўқитувчилар ва ўқувчилар фаолиятини ўрганиш ва лойиҳалаш; эргономик талаблар ва тавсиялар асосида ўқув муҳитини ташкил этиш демакдир. Ўқувчининг иш муҳитида таълим ва дастурларнинг мазмуни, таълим ресурслари (дарсликлар, аудиовизуал воситалар, оммавий ахборот воситалари) каби турли хил омилларнинг бутун мажмуаси таъсир қилади. Ўқув устахонаси ва мактаб биноларининг эргономикаси, таълим тизимининг макроэргономикаси, шунингдек, индивидуал (шахсий) омиллар, оилавий омиллар ва бошқаларни кўрсатиш мумкин. Албатта, бу омилларнинг барчаси бугунги кунда соф эргономик омиллар сифатида кўриб чиқилмайди, лекин бу фақат бир томондан замонавий эргономиканинг хилма-хил ва интеграл табиатини, иккинчи томондан, унинг мураккаблигини таъкидлайди. Педагогик эргономика орқали технология фани машғулотида хавфсизликни тушуниш ҳам кенгайиб бормоқда, биринчи навбатда иш жойида, балки умумий инсон хавфсизлиги учун ҳам муҳимдир. Ўқувчиларни мактабда технология фани машғулотида мақбул меҳнат муҳитини яратиш билан бир вақтда, нафақат ўқувчилар меҳнат муҳити ҳақидаги замонавий ғоялар билан таништирилади, балки ўқувчиларнинг ўз меҳнат муҳити учун масъулиятга муносабати ҳам ўзгариб боради, бу эса алоҳида ўринга масъуллик ўқувчининг ижтимоийлашуви жараёнидир. Технология фани машғулоти жараёнида ўқувчилар ва ўқитувчиларнинг энг яхши меҳнат натижасига эришишларида уларга мослаштирилган меҳнат муҳити катта рол ўйнайди. Бу эса технология фани ўқитувчиларининг ҳамда жамиятнинг бўлажак аъзолари сифатида ўқувчиларнинг эргономика ва педагогика талабларини инобатга олган ҳолда меҳнат шароитини яхшилашда иштирок этишлари зарурлигини тақозо этади.



## БОЛАЛАРДА ҲАЁТ ХАВФСИЗЛИГИГА ОИД БИЛИМЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ УСУЛЛАРИ ВА ВОСИТАЛАРИ

*Абдуллаева Гулруҳ Абдиазизовна*

*ФВВ Академияси ҳузуридаги Фуқаро муҳофазаси  
институтининг катта ўқитувчиси, доцент.*

Таълим жараёни самарадорлигини ошириш, таълим олувчиларнинг мустақкам назарий билим, фаолият, кўникма ва малакаларини шакллантириш, уларни касбий маҳоратга айланишини таъминлаш мақсадида ўқитиш жараёнида инновацион педагогик технологиядан фойдаланиш давр тақозоси ҳамда ижтимоий зарурият сифатида кун тартибига кўйилмоқда. Ўзбекистон Республикаси “Бола ҳуқуқлари тўғрисида”ги конвенцияси боланинг энг муҳим ҳуқуқларини, шу жумладан яшаш ҳуқуқини ўз ичига олади. Боланинг ушбу асосий ҳуқуқларидан келиб чиқиб, болалар хавфсизлигини таъминлаш ва уларнинг соғлигини сақлаш муҳим вазифадир. Ижтимоий мослашувчан шахсни шакллантириш бўйича ишлар мактабгача ёшдан бошланиши керак.

Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонунига мувофиқ, мактабгача таълим – бу таълим тизимининг биринчи босқичи бўлиб, унда нафақат ёш ва мактабгача ёшдаги болаларни тарбиялаш, уларни интеллектуал маънавий-ахлоқий, этик, эстетик ва жисмоний жиҳатдан ривожлантириш шунингдек, болаларни умумий ўрта таълимга тайёрлаш ҳамда қомил шахсни шакллантиришга ёрдам берадиган зарур шарт-шароитларни яратиш, уларнинг муҳим йўналишларидан бири соғлом турмуш тарзи ва ҳаёт хавфсизлигини таъминлашдир.

Дунё ҳақида билимга эга бўлмаган болалар кўпинча хавф-хатарга дуч келишади ва кўпинча улар беҳабарлиги сабабли бепарволик қурбонига айланишади. Улар хавфни тушунишга хисса қўшадиган тажрибага эга эмас, нарсалар билан хавфсиз ишлаш кўникмалари шаклланмаган ва катталарга хос бўлган таҳдидга қарши ҳимоя психологик реакцияси мавжуд эмас. Аксарият мактабгача ёшдаги болалар у ёки бу ўта оғир вазиятларда нима қилишни билишмайди. Оддий турмуш тарзидан ташқари бўлган ҳар қандай воқеа бола учун ғайриоддий бўлиши мумкин. Шу муносабат билан ҳаёт хавфсизлиги соҳасига оид масалалар бўйича болаларни ўқитиш учун таълим тизимининг роли ва масъулияти тобора ортиб бормоқда.

Ҳаёт хавфсизлиги асосларини шакллантириш бўйича мактабгача ёшдаги болалар билан ишлашда замонавий ахборот технологияларидан, хусусан, ўйин таълим ресурсларидан (ЎТР) фойдаланиш зарур. Бу орқали сўзнинг кенг маъносида биз мактабгача ёшдаги болалар учун ахборот ўйин фаолияти ёрдамида ишлаб чиқилган ва амалга оширилган ўқув қўлланмаларини тушунамиз.

Анъанавий дарслардан фарқли ўлароқ ўйин таълим ресурсларидан (ЎТР) фойдаланган ҳолда дарсларда ўқитиш тарбиячи тушунтирганда тўғридан-тўғри белгиланмайди, балки билвосита болалар ўйнаш орқали билимга эга бўладилар. Ахборот коммуникация технологиялари учун ўқув хонаси ўқувчиларни “ниқобланган” ҳолда бирлаштиради, бу мотивация- боланинг табиий ўйнаш ва аниқ ўйин ҳаракатларини бажариш истагидир. Бу ўйин жиддий ақлий меҳнатга ўтишни осонлаштиради. Ўйин таълим ресурсларидан бири бу электрон ноутбукдан фойдаланишдир.

Microsoft Power Point дастури ёрдамида яратилган электрон ноутбук (лепбук) интерактив тақдими, бу сизга маълум бир мавзу бўйича мактабгача ёшдаги болаларни шакллантириш ва бирлаштириш имконини беради. Электрон ноутбукнинг интерактивлиги “таълим мулоқоти”ни амалга оширишга имкон беради, унинг иштирокчиларидан бири ахборот технологиялари воситаси (компьютер, интерактив доска). Ўйин таълим ресурслари (ЎТР), қоида тариқасида, ўқувчи билан ўзаро муносабатда бўлиб (ўқитувчининг кўрсатмаси орқали) унга саволлар беради.

Компьютер экраннда бўлиб ўтадиган воқеалар жараёнида иштирок этишни, материални ўрганиш траекториясини танлашни таклиф қилади. Тарбияланувчилар ва компьютер ўртасида диалог мавжуд. Электрон ноутбук бир неча блоклардан иборат бўлиб, улар таркибига когнитив маълумотлар ва турли хил ўйин вазифалари киради.

“Йўл ҳаракати қодалари” электрон ноутбук тақдимидаги барча блоклар (“Мультфильм”, “Шеърлар”, “Ақли светафор”, “Жумбоқни йиғинг”, “Шаҳар бўйлаб саёҳат” ва б.) фаол, ҳар қандай блокни босганингизда иштирокчи бўлади, мос келадиган слайдга ва очиладиган маълумот ойналарига кўчирилди. Шундай қилиб, вазифаларни бажаринг.

Ўйин таълим манбаи сифатида электрон ноутбукдан фойдаланиш мактабгача ёшдаги болаларда ҳаёт хавфсизлиги асосларини шакллантириш жараёнини янада ҳаяжонли ва маълумотли қилишда имкон беради.

Болаларнинг оилада, кўчада турли нохуш ҳолатларга тушиб қолмасликлари, уларда ўз-ўзини муҳофаза қилиш қобилиятини шакллантириш мақсадида мактабгача таълим ташкилотларида ҳаёт хавфсизлиги курси алоҳида ўрин эгаллайди. Ҳаёт хавфсизлиги асослари курси:

-болаларни теварак атроф, табиат ҳодисалари билан таништириш, табиий офат ва хавф-хатарлар тўғрисида тушунча бериш;

-табиий офатларнинг зарарли оқибатларига онгли равишда муносабатда бўлишга тайёрлаш;

-болаларнинг ўз ҳаракатларидан келиб чиқадиган оқибатларни идрок этишга ўргатиш;

-болаларнинг жисмоний ва руҳий соғлиғини таъминлаш, тафаккурини ривожлантириш, ўзини фикрини мустақил ва эркин ифодалаш қобилиятини шакллантиришда муҳим рол уйнайди.

Бунинг асосий шарти фавқулодда вазиятлардан муҳофазаланишни болаларнинг онгига сингдиришдан иборат. Ҳар бир машғулотнинг мавзусига оид ўқув материални ўргатиш орқали болаларнинг маънавий дунёси бойитилади, уларда ҳаёт хавфсизлиги асосларига оид билимларни чуқурроқ ўрганишга эҳтиёж ҳосил бўлади.

Ҳаёт хавфсизлиги асослари курсини ўргатиш жараёнида болалар ҳар бир мавзуни бўйича кўникма ҳосил қилишлари, яъни ҳодисаларнинг моҳиятини англаб етишга эришишлари марказий ўринни эгаллайди. Ҳаёт хавфсизлиги асослари курсида ҳар бир машғулот болаларнинг ёши, қабул қилиш даражасига мослигига қараб турли хилда ташкил этилади. Шу билан бирга ҳодисалар таҳлили вақт ҳисобга олинган ҳолда ихчам шаклда уюштирилади. Мавзуни тўғри ва чуқур ўрганишнинг муҳим шарти – болаларнинг қизиқишини мунтазам суратда ривожлантириб боришдир.

Тарбиячи-педагог машғулот жараёнини ташкил этишда дастур йўналиши мақсадлари, вазифаларига қараб турли хил таълим методларини танлайди.

Болаларни ҳаёт хавфсизлигини ўргатишга йўналтирилган таълим жараёни икки томонлама характерга эга: педагог ҳаёт хавфсизлиги асосларига оид муаммоларни ечишни ўртага ташлайди, тарбияланувчи эса ҳодисаларни ўз нуқтаи назаридан таҳлил қилади ва ҳаёт хавфсизлигини таъминлашга оид кўникмаларни эгаллаб боради. Табиийки, тарбиячининг ҳам, тарбияланувчининг ҳам фаолиятида маълум мақсад бўлади.

Шунга кўра, тарбиячи машғулот ўтиш жараёнида англаш фаолиятини ҳосил қилиши, уларга маълумотни онгли ва чуқур қабул қилиш усулларини, мустақил вазифаларни бажаришда бу усуллардан фойдаланишни ўргатади. Ана шу педагогик тамойилларга таяниб болаларга ҳаёт хавфсизлиги асосларига оид билимларни ўргатишга интилдик.

Ҳаёт хавфсизлиги асослари курсини ўқув дастури сифатида ўрганишнинг биринчи босқичи – мавзуни ўзлаштириш ҳисобланади. Тарбиячи мавзу орқали болани ҳаётда содир бўладиган турли фавқулодда ҳодисалар билан таништиради, унда маълум бир шароитда, фавқулодда вазият содир бўлганда уни сезиш, англашга, ҳис этиш ва ўз вақтида тўғри ҳаракат қилишга ўргатади. Ҳаёт хавфсизлиги асослари курсини ўрганишнинг яна бир босқичи – фикрлашни ривожлантиришга, кўникмаларни эгаллашга қаратилган мустақил ишларни бажариш орқали мавзу моҳиятини очиш, таҳлил қилишдан иборатдир.

Ҳаёт хавфсизлиги асосларини бу тартибда ўрганишда тадқиқот методи юзага келади. Тадқиқот методидан кузатилган мақсад ҳаёт хавфсизлиги асослари курсининг хусусиятини кенгроқ ёритиш, болаларни ҳар бир мавзуни мустақил таҳлил қилишга ҳамда ундан тўғри хулоса чиқариб, ҳаракат қилишга тайёрлаш, уларда вазиятни баҳолаш кўникмасини шакллантириш ва такомиллаштиришдан иборатдир. Ҳаёт хавфсизлиги асослари машғулотида тарбиячи содир бўлаётган кўнгилсиз ҳодиса ҳақида ахборот тайёрлаб, уларни таҳлил қилишни болаларга уй вазифаси қилиб беради. Машғулотни бу усулда олиб бориш болаларни кўпроқ ўз устида ишлашга, ҳосил қилган кўникмасини расм чизишга, қирқиб ёпиштишга, ижобий ёки салбий рангли суратларни бир-биридан фарқлашга ўргатади. Олиб борилган тажрибалар асосида болаларга ҳаёт хавфсизлигини ўргатиш учун энг қулай тадқиқот методлари аниқланди:

-тарбиячи амалий машғулот учун мавзулар тавсия қилади ёки болалар ўзларига ёққан мавзуни танлаб оладилар;

-тарбиячи бутун гуруҳ олдида муаммони кўяди, болалар уни яқка ҳолда, жуфтлик ёки гуруҳ бўлиб уни ҳамкорликда ечадилар;

-тарбиячи дастурга киритилмаган, аммо энг муҳим бўлган мавзуни мустақил таҳлил қилиш учун болаларга топширади.

Тарбиячи болаларга берган вазифаларини қандай бажариш кераклиги ҳақида маслаҳат беради. Шу йўл билан болалар бажарадиган топшириқни мазмунли, тўғри, пухта билишлиги таъминланади.

Тадқиқот методларини амалга оширишда болалар фаолияти куйидаги шаклларда бўлади:

- кўникма ҳосил қилиш учун муҳим бўлган мавзуни тўғри танлаш;

- танланган мавзу моҳиятини англаш;

- кўникма ҳосил қилинган мавзуни таҳлил қила олиш маҳоратига эга бўлиш;

- таҳлил натижасида олган тушунчани олдиндан билганлари билан таққослаш;

- тўғри ва аниқ фикр баён қилиш;

- олган билимларини амалда тадбиқ эта олиш.

Болалар ўз фикр-мулоҳазаларини маъруза сифатида ёзиб, амалий машғулотларда ёки одатдаги гуруҳдаги машғулотларида, бошқа болалар ўртасида сўзлаб беришлари ҳам мумкин. Бу методларни ўзлаштириш жараёнида кўллаш билан болаларнинг ҳаёт хавфсизлигига оид тушунчаларини тўғри, тўлиқ таъминлаб бўлмайди.

**Биринчидан**, ҳаёт хавфсизлигига оид барча зарур кўникмаларни ўзлаштириш, машғулот режасида ажратилган соатга нисбатан кўп вақтни талаб қилади.

**Иккинчидан**, фикрлаш йўли билан эришиш мумкин бўлмаган айрим муаммолар (масалан, илмий, ижтимоий – сиёсий масалалар) борки, уларни билиб олишни болаларнинг ўзига топшириб қўйиш мақсадга мувофиқ эмас.

**Учинчидан**, ҳаёт хавфсизлигига оид материаллар турмуш ҳодисалари, тасодифий ҳолатлар, техника билан боғланган. Шунинг учун ҳам энг аввал болалар учун зарур бўлган махсус дастурга эҳтиёж туғилади.

Болаларнинг тушунчасини бевосита тарбиячи ёрдамида дастур ва бошқа ўқув қуролларидан олишларида репродуктив метод (эсда қолган нарсани тиклаш) қулай метод ҳисобланади. Болага ҳаёт хавфсизлиги асосларига оид таълим беришда унинг энг маҳсулдор методдан фойдаланиш зарур бўлади. Репродуктив метод ҳаёт хавфсизлигига оид материалларни оддий “ёдлатиш”дан иборат бўлмаслиги керак. Болаларга маълум қилинадиган тушунчани сунъий қайта эслашни эмас, балки онгли равишда, асосли ўзлаштиришни талаб қилади. Худди шунингдек, ҳаёт хавфсизлигига оид билимларни мустаҳкам эгаллаш фақат қайта эслашга эмас, балки эркин фикрлаш қобилияти, маҳорати, тезлигига ҳам боғлиқдир. Болаларда хавфсизлик тўғрисида билим беришнинг асосий мақсади-ҳар бир бола ҳаёт учун хавфли вазиятларга тушиб қолиши мумкинлиги тўғрисида тушунчалар бериш, хавфсизлик фақат олинган билимларнинг йиғиндиси эмас, балки турли вазиятларда тўғри ҳаракат қилиш қобилиятини ҳам талаб қилади. Шундай қилиб, бу йўналишда мактабгача ёшдаги болаларнинг ҳаётини фаолият хавфсизлиги

хақидаги асосий ғоялари, билим, кўникма ва малакаларини шакллантиришни мақсад қилганмиз.

Ушбу мақсадга эришиш учун қуйидаги вазифаларни ҳал қилинади:

- ҳаёт хавфсизлиги асослари тўғрисида билимларни ўзлаштириш;
- соғлом турмуш тарзини сақлаш, хавфли вазиятларда хавфсиз хулқ-атворни таъминлаш учун зарур бўлган шахсий сифатларни ривожлантириш;
- хавфсизлик бўйича жавобгарлик ҳиссини кучайтириш, соғлигини сақлаш ва ҳ.к;
- хавфларни олдиндан кўра билиш ва юзага келган тақдирда тўғри ҳаракат қилиш, шахсий ҳимоя воситаларидан фойдаланиш кўникмаларини ўзлаштириш;
- бегоналар билан муомала қилишда тўғри хатти-ҳаракатни амалга ошириш ва билимларини кенгайтириш, тизимлаштириш;
- болаларни ҳиссий ҳамда фаровон ривожланишини доимий рағбатлантириб бориш.

#### **Ўқув жараёнини ташкил этиш тамойиллари:**

- Кетма-кетлик - болани янги ўзлаштирган билими аввалги олган билими билан асосланади;
- Кўргазмал - болалар ўзларига тегишли ҳамма нарсани кўришлари, эшитишлари, ушлаб кўришлари, уларга бўлган қизиқиш ва интилишларини амалга ошириш лозим;
- Фаолият - боланинг ҳаёт фаолиятини рағбатлантириш мақсадида ўйин, билим, изланиши орқали қўшиб бориш;
- Интеграция-таълим жараёнида амалга ошириладиган барча турдаги болалар фаолиятининг интегративлиги.
- Табақалаштирилган ёндашув - болаларга ўз шахсини такомиллаштиришда самарали педагогик ёрдам кўрсатиш муаммоларини ҳал этади, тарбияланувчиларнинг психофизиологик, шахсий қобилият ва имкониятларини очиб беришга ёрдам берувчи махсус педагогик вазиятларни яратишга қўмаклашади.
- Ёшга хослик - бир хил мазмундаги турли ёш гуруҳларида болаларнинг ёш хусусиятларига мос келадиган асорат билан ишлаш учун қўлланилади.
- Таълим ташкилоти ва оила шароитида - бола билан ўзаро муносабатларнинг узлуксизлиги таъминлаш.

Дастурда белгиланган вазифаларни амалга ошириш учун қуйидаги иш шаклларида фойдаланилади: суҳбат, шеър, ҳикоя, эртақ ўқиш, топишмоқларни топиш, ўйинлар ўйнаш, расм чизиш, қўллаш, иллюстрацияларни кўриш, аниқ ҳаракат ва вазиятларни таҳлил қилиш, тақдиротлар ўргатиш ва мультфильм томоша қилиш, аудио эртақларини тинглаш, мақсадли экскурсиялар уюштириш ва ҳ.к. Бу усулларни машғулотлар жараёнида қўллаш болаларнинг ҳаёт хавфсизлигига оид билимларни босқичма-босқич эгаллашларига ёрдам беради. Тарбиячи машғулот мазмуни ва ўз олдига қўйган мақсадига қараб турли усулларни қўллайди. Ҳар бир усул машғулот мазмуни ва мақсадига мос равишда қўллангандагина яхши натижа беради.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 майдаги ПҚ-4312-сон [қарорига](#) 2-ИЛОВА Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини 2019 йилда амалга ошириш бўйича «ЙЎЛ ХАРИТАСИ».
2. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги ЎРҚ-637-сон Қонуни.
3. “Мактабгача таълим муассасаларида болаларнинг ҳаёти ва соғлигини муҳофаза қилишни ташкил этиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида” 30 апрель 2018 й. Ўзбекистон Республикаси Мактабгача таълим вазирлиги Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг қарори.
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 9 сентябрдаги “Аҳолини фавқулодда вазиятларда ҳаракат қилишга ва фуқаро муҳофазаси соҳасида тайёрлаш тартибини такомиллаштириш тўғрисида”ги 754- сонли Қарори.


## ULTRATOVUHLARNING OLINISHI VA ULARNING QO‘LLANILISH SOHALARI

*Abdullayeva Z.G‘*

*Bux MTI Akademik litseyi.*

Ultratovush to‘lqinlarining chastotasi 20 kHz dan yuqori bo‘lgani tufayli bu to‘lqinlarning to‘lqin uzunligi tovush to‘lqinlariga nisbatan qisqadir. Masalan, chastotasi 350 kHz bo‘lganda havoda ultratovush to‘lqinlarining uzunligi  $\lambda=1$  mm atrofida, chastotasi 3 MHz bo‘lganida to‘lqin uzunligi  $\lambda=0,1$  mm bo‘ladi. Havoda tovush to‘lqinlarining uzunliklari  $\lambda=15$  m dan  $\lambda=15$  mm gacha oraliqda yotadi. Suyuqlik va qattiq muhitlarda to‘lqin uzunligi yanada katta. Uzunliklari ancha kichikroq bo‘lgan ultratovush to‘lqinlarining bir tomonga yo‘nalgan dastasini (yorug‘lik dastasi kabi) hosil qilish mumkin. Masalan, agar ultratovush manbai bo‘lib turgan yassi plastinkaning o‘lchamlari to‘lqin uzunliklariga nisbatan katta bo‘lsa, u holda plastinkadan yassi to‘lqin tarqaladi. Bu to‘lqin projektordan yorug‘lik to‘lqini tarqalgani kabi, plastinka yuzidan tarqalayotgan parallel nurlar dastasiga o‘xshaydi. Ultratovushni olish uchun turli usullardan foydalaniladi. Har xil ilmiy - tekshirish ishlarida keng qo‘llaniladigan ultratovush generatorlari kristall jismlarda mavjud bo‘lgan pyezoelektrik va magnit hususiyatiga ega bo‘lgan jismlarda mavjud bo‘lgan magnitostriksion elektr asosida ishlaydi. Bu ikki effektning fizik mohiyati quyidagicha.

Pyezoelektrik xususiyatga ega bo‘lgan kristall jismlar – kvars, turmalin, signet tuzi, bariy titanat va boshqa jismlardan plastinka shaklida kesib olsak, va unga kuch bilan ta‘sir qilib, uni siqib yoki cho‘zsak elektr jihatdan qutblanadi. Qisqasi, deformatsiyaga uchragan kristall plastinka sirtiga elektr zaryad hosil bo‘ladi. Kristall jismlar deformatsiyalaganda ularda elektr zaryadlari hosil bo‘lishini ko‘ramiz. Quyida kesib olingan kvars plastinka deformatsiyalaganda bo‘ladigan hodisalarni ko‘ramiz.



Plastinkaga X o‘qi bo‘yicha kuch qo‘yib cho‘zsak BC tomoniga musbat, qarama-qarshi tomoniga unga teng manfiy ishorali elektr zaryad hosil bo‘ladi. Agar cho‘zishni siqish bilan almashtirsak, sirdagi zaryadlar ishorasi o‘zgaradi. Agar Y o‘qi bo‘yicha plastinkani cho‘zsak yoki siqsak, BC tomonida elektr zaryad hosil bo‘ladi. Lekin, bu zaryad ishorasi X o‘qi bo‘yicha siqilganda va cho‘zilganda BC sirtida hosil bo‘lgan zaryad ishorasiga qarama-qarshi bo‘ladi.

Plastinkaning boshqa tomonlariga zaryad hosil bo‘lmaydi. Agar plastinkaga Z o‘qi bo‘yicha ta‘sir qilib uni cho‘zsak yoki siqsak plastinkaning hech qaysi sirtida zaryad hosil bo‘lmaydi.

Agar plastinkani elektr maydonga joylashtirsak, yuqoridagi holga teskari jaroyon sodir bo‘ladi. Agar plastinka elektr maydonga joylashtirilsa, X o‘qi bo‘yicha kengayadi, Y o‘qi bo‘yicha torayadi. Agar kondensator plastinkalaridagi zaryad ishorasi o‘zgartirilsa, deformatsiya ishorasi teskarisiga o‘zgaradi.

Agar kondensator qoplamalaridagi zaryad  $q=q_0 \sin \omega t$  qonuniyat bo‘yicha vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib tursa, plastinka holati ham shu qonuniyatga mos ravishda o‘zgarib turadi. Natijada plastinka tebranish manbai bo‘lib qoladi va o‘zi tushirilgan muxitda to‘lqin tarqatadi. Agar kvars plastinkaning qalinligi  $d$  santimetrlarda olinayotgan bo‘lsa, bunday plastinkaning xucuciy chastotasi

$$v = \frac{284 \cdot 10^3}{d} \text{Gs}$$

formula bilan topiladi.



Plastinka xususiy chastotaga mos kelayotgan generator hosil qilayotgan elektromagnit to'liqlar to'liq uzunligi

$$\lambda = 107 \frac{d}{mm}$$

formula bilan aniqlanadi. Hozirgi vaqtda kvarts plastinkalar har xil shaklda qalinligi 1,3 sm dan 0,05 mm gacha tayyorlanadi. Kvarts plastinkalarning hususiy chastotasidan foydalanib, chastotasi  $220 \cdot 10^3$  Hz dan  $57 \cdot 10^6$  Hz gacha bo'lgan ultratovushlarni olish mumkin

Magnitostriksion effektning fizik mohiyati ferromagnit jismlar magnitlangan va magnitsizlanganda ularning o'lchamligining o'zgarishidir. Agar ferromagnit jismni o'zgaruvchan magnit maydonga joylashtirilsa, uning o'lchamligi o'zgaradi. Uning uzunligi ortadi yoki kamayadi. Agar magnitlanmagan sterjenni o'zgaruvchan tok o'tayotgan g'altak ichiga joylashtirsak uning o'lchamligi o'zgaruvchan tok chastotasiga qaraganda ikki marta katta chastota bilan o'zgaradi. Sterjenning uzunligi  $\ell$  ni santimetr hisobida olsak, uning hususiy chastotasi quyidagicha aniqlanadi:

$$\nu = \frac{2,5 \cdot 10^5}{\ell} \text{Gs}$$

Magnitostreksion effektida sterjenning uzunligining nisbiy o'zgarishi uncha katta bo'lmay sterjen moddasiga va magnit maydon kuchlanganligiga bog'liq bo'lib, taxminan  $10^{-6}$  ga teng.

Agar kvarts plastinka qirralari 1 sm va kondensator qoplamalari orasidagi potensial farq 1000 V bo'lsa, plastinka o'lchamligining o'zgarishi taxminan  $20 \cdot 10^{-8}$  sm ga teng.

Pyezoeffektidan foydalanib olinadigan ultratovushlarning intensivligi nisbatan kichik bo'lganligidan, bular moddalarning fizik-kimyoviy hususiyatini o'rganishda ko'proq qo'llaniladi. Magnitostreksion effektidan foydalanib olinadigan ultratovushlar intensivligi ancha katta bo'ladi, shu sababli ular texnikada, tibbiyotda, qishloq xo'jaligida va boshqa ko'pgina sohalarda qo'llaniladi.

Tovushlar uchun o'rinli bo'lgan qonuniyatlar ultratovushlar uchun ham o'rinlidir. Lekin ultratovushlarning to'liq uzunligi kichik bo'lganligi sababli, ularni ma'lum yo'nalishda yo'naltirish, ya'ni tor nurlar dastasini olish mumkin. Ultratovushlar havoda suvdagiga nisbatan juda kam, deyarli 1000 marta kam yutiladi. Shuning uchun ham ultratovush gidrolokatsiya va exolotlarda keng qo'llaniladi. Exolot dengiz va daryolarning chuqurligini o'lchashda ishlatiladi. Exolotlar suv kemalari ostiga o'rnatilib, ulardan ultratovushlar impulsleri vertikal ravishda pastga yuboriladi. Tovush suv ostidan aks sado sifatida yana qurilmaga qaytadi. Impulsni jo'natilgan va qaytgan vaqt oralig'ini hamda suvda tovushning tarqalish tezligini bilgan holda, dengiz yoki daryolarning chuqurligini bilish mumkin. Exolotlar baliq sanoatida baliqlar suvning qayerida ekanligini bilishda ham ishlatiladi. Gidrolokatorlar ultratovush dastasini (nurini) faqat vertikal pastga emas, har xil yo'nalishda ham tarqata oladi. Kemalarga joylashtirilgan gidrolokatorlar suv ostiga ko'zga ko'rinmas qoyatoshlar, suvosti kemalarning bir necha kilometr masofadan seza oladi. Ultratovush nuri yorug'lik uchun shaffof bo'lmagan qattiq jismlarni tekshirish uchun qulay. Rentgen nuri metallarda bir necha metrgagina singib, shu chuqurlikdagi defektlarni aniqlashga imkon bersa, ultratovush yordamida 10 m chuqurlikdagi o'lchamligi bir necha mm bo'lgan defektlarni ham sezish mumkin. Ultratovushning biologik va fiziologik ta'sirlari ham bor. Bundan tibbiyotda davolash maqsadida, sut maxsulotlari va dori darmonlarni soflashda, qishloq xo'jaligida ba'zi o'simliklar (kartoshka, no'xat, chigit va shunga o'xshashlar)ning urug'larini tez undirib olish va hosildorligini oshirishda va hokazolarda keng foydalaniladi. Tibbiyotda ultratovush yordamida yurak, ko'z va odam organizmidagi har xil shishlar o'rganiladi. Tishni davolashda ishlatiladigan mashina o'rnini bosa oladigan ultratovush mashinalar operatsiya o'tkazishda, singan suyaklarni bir-biriga ulashda ultratovush keng qo'llanilmoqda. Texnikada ultratovush yordamida ifloslangan detallarni tozalash, aralashmaydigan suyuqliklarni bir-biriga aralashtirish, aralashmaning tarkibini aniqlashda qo'llanilmoqda. Yaratilgan kesish va yo'nish stanoklari ultratovush yordamida eng qattiq va eng mo'rt jismlarni ishlashga va murakkab shakldagi detallarni yasashga imkon beradi.

Ultratovushning muhitda tarqalish tezligini, yutilish koeffitsiyentini aniqlash, hamda ularning muhit bilan ta'sirini o'rganish muhit to'g'risida to'la ilmiy tushuncha olishga imkon beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M.B.Dustmurotov “Fizika” Oliy ta’lim muassasalariga kiruvchilar uchun qo’llanma.2016 yil
2. M.X.O’lmasova “Mexanika va molekulyar fizika” 1-kitob “O’qituvchi nashriyoti”. Toshkent.
3. B.F.Izbosarov,I.R.Kamalov. “Mexanika”, “LIDER PRESS” Toshkent-2009 y.

## ТУЯБЎҒИЗ СУВ ОМБОРИ ГИДРОКИМЁСИ ВА ГИДРОЛОГИЯСИ

*Абдуллаева М.С. (Таянч докторант)*

*Тошкент давлат аграр университети.*

*Кузметов А.Р. (б.ф.д., профессор)*

*Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси  
Конструкторлик бюроси ва тажрибавий ишлаб  
чиқариш илмий-техник маркази.*

*Атамуратова М.Ш. (PhD)*

*ЎзФА Зоология институти*

*Еримбетова Ж.Б. (Ассистент)*

*Тошкент давлат аграр университети.*

Туябўғиз сув омбори— [Охангарон](#) дарёсининг ўрта оқидамида барпо этилган [гидротехника](#) иншооти. 1962 йилда қурилган. [Дарё](#) сувини мавсумий тартибга солади. Умумий ҳажми 250 млн. м<sup>3</sup>, фойдали ҳажми 224 млн. м<sup>3</sup> ни ташкил этади. [Сув](#) юзаси майдони 20 км<sup>2</sup>. Ўртача чуқурлиги — 12,5 м. Кўтарма [тупрок](#) тўғон, чап ва ўнг [қирғоқ](#) сув чиқаргичлар ва сув ташлагичдан иборат. Тўғоннинг узунлиги 2,4 км, икки чеккаси кумоқ тупрокдан қурилган. [Омбор](#) гидроузели 1,9 км узунликдаги дамбага туташган. [Тўғон](#) устидан [Тошкент](#) — [Бекобод автомобиль йўли](#) ўтади. 440 м [узунлик](#) ва сув сарфи 760 м<sup>3</sup>/сек бўлган [тезоқар](#) кўринишидаги сув ташлагич сувни 34 м пастликка узатади. Сув ташлагичнинг емирилишини бартараф этиш учун ундан 600 м узокликда умумий баландлиги 40 м бўлган очиқ типдаги икки босқичли [шаршара](#) қурилган. Сув омборидан [Корасув](#) дарёсига ва [Туябўғиз](#) чапқирғоқ каналига сув берилади.

Сув омборида организмларнинг ривожланиши асосан дарё тизимларининг гидрологик ва физик-кимёвий хусусиятлари билан белгиланади. Дарёда сув сатҳининг ошиши, оқим тезлиги ва лойқаликнинг кўпайиши билан бирга планктон организмлар сонининг камайишига олиб келади. Дарёнинг турли қисмларидаги оқим тезлиги турлича бўлиб, бу ўз навбатида зоопланктон организмларининг шаклланишига ҳам таъсир қилади.

Кескин ўзгаришлар ва сув омбори тубининг нотекислиги натижасида юқори сув ўсимликлари ассоциациялари тартибсиз ҳолда, 2-3 м чуқурликгача бўлган жойларда жойлашган. Дарё чўкиндилярининг энг кўп тўпланиши содир бўладиган юқори қисмлари ва кўрфазлари айниқса кучли даражада ўсимликлар билан қопланган. Макрофит ассоциацияларининг мўл-кўл ривожланиши ёзда қирғоқ минтақасида 80% гача эгаллаган, улар асосан гидрофитлар – рдестлар (*Potamogeton crispus* L., *P. pectinatus* L.), роғолистниклар (*Ceratophyllum demersum* L.) ва уруть (*Meriophyllum spicatum* L.) кабилардан иборатдир.

Баҳорги-ёзги даврда кузатилган паст даражадаги ҳарорат сув омбори туби бўйлаб дарё ва булоқ сувларининг оқиши билан боғлиқ. Ўрганилган давр мобайнида сувнинг туб қисмидаги сув ҳарорати 18,2°С дан ошмади.

Иссиқлик режими бўйича Туябўғиз сув омбори кўл типдаги ўртача илиқ сув ҳавзаларига тегишлидир.

Июнь ойида сув сатҳининг кескин пасайиши шароитида сув омборининг пастки қисмининг катта қисми қуриб қолади. Сувнинг оксидланиш даражаси сувнинг юзасида 4,0-5,6 мг/л, тубида 4,5-8,5 мг/л кислород оралиғидадир. Сув омборининг барча қисмларида сув бироз ишқорий реакцияга эга, рН қиймати 7.5. Тадқиқот пайтида сувнинг ранги яшил, шаффофлиги 2,5-3,5 м (Секки дискига кўра) бўлиб шаффофдир; қирғоқ бўйидаги туб чўкиндилярнинг табиати – тошлар, шағал, чуқурликда – кулранг лой. Тупроқлар аллювиал ётқизиклар – кум, гил билан ифодаланади.

Юқорида айтилганларнинг ҳаммасидан кўриниб турибдики, Туябўғиз сув омборининг газ режими ва сувининг кимёвий таркиби унда ихтиофаунани ривожланиши учун жуда қулайдир.

Катионлар	Литрдаги таркиби			Бошқа кўрсаткичлар
	мг/л	мг/экв/л	%-экв/л	
$Na^+$ .....	54	2,37	26	Қатиклик мг-экв/л Умумий <u>6,80</u>
$K^+$ .....	2	0,05	-	Карбонатли <u>3,30</u>
$NH_4^+$ .....	<01	-	-	Карбонатсиз <u>  </u>
$Ca^{2+}$ .....	88	4,40	48	pH <u>7,5</u>
$Mg^{2+}$ .....	29	2,40	26	$CO_2$ мг/л <u>  </u>
$Fe^{3+}$ .....				$CO_2$ агр мг/л <u>  </u>
$Fe^{2+}$ .....				
Итого		9,22	100	Оксидланиш мг $O_2$ /л <u>  </u>
Анионлар	Литрдаги таркиби			SiO <sub>2</sub> мг <u>  </u> H <sub>2</sub> S мг/л <u>  </u> F мг/л <u>  </u> Қуруқ қолдик Эксперим <u>574</u> мг/л <u>  </u> Хисобланган <u>548</u> мг/л <u>  </u> Физик хусиятлари: Шаффофлиги <u>шаффоф</u> Там <u>  </u> Ранг <u>  </u> <u>Хид</u> <u>хидсиз</u> Чўкма <u>  </u>
	мг/л	мг/экв/л	%-экв/л	
$Cl^-$ .....	35	1,00	11	
$SO_4^{2-}$ .....	224	4,66	50	
$NO_2^-$ .....				
$NO_3^-$ .....	16	0,26	3	
$CO_3^-$ .....	нет			
$HCO_3^-$ .....	201	3,30	36	
Итого		9,22	100	

## ТУРИЗМ НА СЕЛЬСКИХ ТЕРРИТОРИЯХ: ОПЫТ, ПРОБЛЕМЫ, ПЕРСПЕКТИВЫ

*Абдуллаева Нафиса Эльхамжановна*

*Ассистент кафедры «Агроэкономики и туризма» в ТашГАУ.*

<sup>223</sup> Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармони "2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси тўғрисида". 2022 йил 28 январь. // <https://lex.uz/docs/5841063>.

Бу даврга келиб дин ва замонавий илм-фаннинг ажралиши натижасида, Фарбда тиббиёт ва диннинг муштарак жиҳатлари йўқола борди. Асосий эътибор соф илмий тиббиётга қаратилиб, диннинг роли аҳамиятсиз даражага тушиб қолди. XIX аср охири – XX аср бошида, асосан Фарбда тиббиёт дин тазйиқидан узил-кесил қутулди, бироқ муаммонинг янги қирраси пайдо бўлди. Замонавий тиббиёт XXI асрга келиб ўзининг юксак чўққисига эришгани сир эмас. Гарчи планета бўйлаб кенг тарқалган COVID-19 пандемияси ҳали соғлиқни сақлаш ва тиббиёт соҳасида ечилмаган муаммолар анча эканини кўрсатган бўлса-да, бироқ эришилган ютуқлар ҳам талайгина. Ўз навбатида тиббиётнинг ўзида ҳам янги йўналиш пайдо бўлиб, тиббий илмларнинг диний асослари, тиббиёт тарихида диннинг тутган ўрнини ўрганиш соҳаси ҳам ривожланиб бормоқда. Биз ибтидоий динларнинг инсон соғлиғи ва касаллиги тўғрисидаги содда ва сохта тасаввурларини таҳлил қилиш вазифасини ўз олдимизга қўйганимиз йўқ. Лекин, таъкидлаш жойизки, уруғ-қабила даврида пайдо бўлган кўплаб диний тасаввур, ирим-сирим, урф-одамлар ҳозиргача яшаб келмоқда. Христианлик ҳам, ислом ҳам ўздан аввалги ирим-сирим ва урфларга қарши қанчалик курашмасин, улар ҳозиргача учраб туради<sup>224</sup>. Христианлик ва ислом дини шунчаки диний таълимот эмас, балки улар кундалик ҳаётнинг барча жабҳаларини қамраб олган ва ижтимоий-маданий, ахлоқий-маиший, тиббий-руҳий нормаларни белгилаб берадиган турмуш тарзи ҳисобланади. Шунингдек, тиббиёт ҳам дин таъсиридан холи бўлмаган, шу сабабли христиан ва ислом уламолари ҳамда тиббиёт ходимлари илоҳиётшунослик ва даволаш усулларини муштарак ҳолда ўрганганлар. Христианлик дини 2000 йилдан бери мавжуд бўлиб, Фарб оламида соғлиқни сақлаш ва тиббиёт билан муносабатларнинг ўзига хос шакллари ўрнатди. Христианликкача бўлган даврда Европада аҳоли жуда кам бўлиб, улар кичик жамоаларни ташкил этган. Шу сабабли, уларнинг турли касалликларга дуч келиш эҳтимоли кам бўлган, чунки улар зич жойлашган шаҳар жойларидаги каби касаллик тарқатадиган ҳашаротлар ва ҳайвонларни жалб қиладиган инсон чиқиндилари ёки ахлатларини чиқармас эдилар<sup>225</sup>. Христианликдан сўнг Европа тиббиёти турли диний асослар билан боғланса-да, таъбат христианликкача тиббий асосларнинг баъзи қисмларини ҳам ўзлаштирди. Соғлиқни сақлаш бўйича черковнинг руҳият билан ишлаши Ўрта аср тиббиёт олимлари учун фақат Муқаддас Инжил билан чекланмаган. Касаллик сабаблари ҳақидаги ғоялар турли мавжуд ёзувларда ҳам кенг тарқалган. Эссесиастисусда<sup>226</sup> 38 та гуноҳнинг алоқаси касаллик, жазо, оғриқ ва азоб деб белгилаш учун бошланғич нуқта сифатида белгиланган<sup>227</sup>. Христианлар гуноҳнинг касаллик билан бу алоқасини тиббиёт амалиётини ўрнатиш учун фойдаланганлар, кейинчалик Латеран кенгашлари ва расмий эълонлари тартибга солинган. Тўртинчи Латеран кенгаши касалликни гуноҳнинг маҳсули сифатида алоҳида кўриб чиқди ва касал бўлган киши шифокор томонидан ҳар қандай даволанишдан олдин ўз гуноҳини тан олувчи шахсни чақириши ва ҳар қандай шифокорга тана соғлиғи учун “гуноҳкор воситалар”ни тавсия этишини тақиқлашини талаб қилди<sup>228</sup>. Европада тиббиёт ва дин ўртасида христианлик таълимотлари бўйича ижтимоий зиддият янада кўпроқ бўлган. Ўрта асрларда Европада "Tres medici, duo athei"<sup>229</sup> деган ибора кенг тарқалган бўлиб, бу ибора “учта шифокор бор жойда иккита атеист бор”, деган маънони англатади. Ушбу ибора христианлар эътиқодида тиббий билим диний амалиётга қарши кучли зиддиятга эга деган хулосани беради. Христианликдан аввалги бутларга сиғинувчи эътиқоддаги тиббиётга нисбатан жамиятнинг ишончсизлиги, унинг ноаниқлиги, сеҳрга асосланганлиги, шунингдек самарасизлиги христианлик доирасидаги шифокорларнинг шубҳаланишига сабаб бўлди.

<sup>224</sup> Қаранг: Валиева Н. Диншунослик. Маърузалар матни. Наманган. 2020.

<sup>225</sup> William H. York, Health and Wellness in Antiquity Through the Middle Ages. Santa Barbara: Greenwood, 2012. --P. 1.

<sup>226</sup> Ecclesiasticus- 1. Ecclesiasticus – черковга оид (scriptores Hier), 2. Ecclesiasticus – черков ишларини бошқариш, шунингдек, бен-Сира(х)нинг бевосита Исодан ёзиб олган Библия китобларидан бирининг номи.

<sup>227</sup> Biller and Ziegler, ed. Religion and Medicine in the Middle Ages, P. 39.

<sup>228</sup> Marty and Vaux, ed. Health/Medicine and the Faith Traditions, P. 125.

<sup>229</sup> Ўша жойда, 120.



Валери Флинт айтганидек, “улар авлиёлик ва сеҳргарлик ўртасида шифо топадиган мавкега эга, лекин, уларнинг ҳар иккаласи ўртасида аниқ чегара йўқ”<sup>230</sup>. Ўрта асрларда тиббиёт ва илоҳиётнинг ўзаро таъсири асосларидан яна бири – бу тана ва қалбнинг икки алоҳида нарса сифатида олинганидир. Черков тарихчилари турли табиблар томонидан қўлланиладиган тиббиётнинг иккита алоҳида тури ҳақида ёзишган. Олий даражадагиси рух учун дори ҳисобланган ва руҳонийлар томонидан таъминланган, тиббиёт ходимлари эса тана учун керак пастроқ даражадаги дори-дармонларни тавсия қилганлар. Шу сабабли Ўрта асрларда касалликларга нисбатан тиббий ёки маънавий ёндошув ўртасида вужуд ва руҳни даволовчилар бир-бирини тўлдириб келишган, бироқ ўртада аниқ чегара бўлмаганлиги сабабли уларда баъзи ноаниқликлар юзага келган<sup>231</sup>. Исломгача бўлган Ўрта Шарқ аҳолиси фақат Искандария, Эдесса ва Константинополь каби бир неча йирик шаҳарлар билан бирга кўчманчи бадавийлар ҳам бўлган. Ушбу жамиятларга хос араб шеъриятида танани даволаш ва маънавий етуклик тўғрисида фикрлар оғзаки равишда етказилган. XV аср ислом тарихчиси Ибн Халдун ўзининг Муқаддима асарида шундай ёзган: “Маданиятли бадавийлар асосан индивидуал тажрибага асосланган тиббиёт турига эга. Улар ундан қандай фойдаланиш усуллари қабиланинг кекса эркак ва аёлларидан мерос қилиб оладилар”<sup>232</sup>. Араб бадавий қабилаларининг бу каби ўзига хос тиббиёти тажрибада ўрганиб чиқилмаган бўлиши мумкин, аммо у анатомияда ўз натижасини кўрсатган. Қадимги араб шеъриятида жигар, юрак, қора талоқ, ошқозон ва ичак каби муҳим ички органлар, шунингдек касаллик номлари зикр этилган<sup>233</sup>. Исломдан олдинги бадавийлар бу маълум касалликлар ёки дардларнинг номларини билишлари кўпинча кейинчалик ислом келганидан сўнг Тибб ан-Набавийда пайдо бўлган даволаниш усуллари билан уйғун бўлган. Араб бадавийлари маданиятидан ташқари араб дунёсининг марказлашган жойлашуви ислом тиббиётига алоҳида таъсир кўрсатган. Савдо йўллари, шунингдек, Осиё билан алоқалар мусулмон аҳолисига тиббий билим ва дори-дармонларни етказиб беришга имкон берган. Исломдан олдинги Шарқ империялари ва маданияти тиббий таъсирга эга бўлиб, ислом тиббиёти уларни қисман қабул қилган. Миср, Месопотамия, Ҳиндистон, Хитой ва қадимги Эрон тиббиёти юнон таъсиридан фарқли ўлароқ жарроҳлик ва гиёҳлар билан даволашга эътибор қаратган<sup>234</sup>. Сосонийлар империяси, Зардуштийлик эътиқодчилари ва христианлар Сосонийлар ҳукмронлиги даврида ўзларининг тиббий анъаналарини яратиб, уларга юнон асарларнинг паҳлавий таржималари ва кейинчалик ислом манбалари таржималари ҳам киритилган<sup>235</sup>. Қуръонда инсон ҳаёти тўғрисида жуда кўп саволлар муҳокама қилинган, инсон соғлиғи учун фойдали маҳсулотлар ва қоидалар берилган бўлсада, аниқ касалликка қарши дори воситалари ҳақида айтилмаган. Аммо, Муҳаммад(с.а.в.)нинг ҳадис ва суннатларида кўплаб касалликлар профилактикаси ва даволаш усуллари, шунингдек, шифокорлар ва беморларга қандай маслаҳат берилганлиги ҳақида маълумотлар мавжуд. Ушбу мавзулар ҳадис тўпламларининг “Тиб китоби” бўлимида жой олган. Шу билан бирга кейинчалик “Тибб ан-Набавий” деб номланган тиббиёт жанри юзага келиб, ҳар бир касаллик типологияга ажратилди, унинг келиб чиқиши, профилактикаси ва даволаш йўллари ҳадислар ва суннат орқали асослаб берилган ҳамда шарҳланган. Шу билан бирга тарихчилар томонидан Тибб ан-Набавий билан боғлиқ муаммолар манбалари таҳлилий ўрганилган. Натижада, Тибб ан-Набавий соғлиқни сақлаш ва даволаш учун энг муҳим қўлланма сифатида эътироф этилган<sup>236</sup>. Ҳадисларда кўп ўринда таъкидланган кундалик ҳаёт учун зарурий қоидалар, тозалик ва гигиена тиббий профилактиканинг асосини ташкил қилган.

<sup>230</sup> Biller and Ziegler, ed. Religion and Medicine in the Middle Ages, P. 22.

<sup>231</sup> Ўша жойда. - Б. 4.

<sup>232</sup> Ибн Халдун. Муқаддима: Тарихга кириш. Франц Розенталь томонидан таржима қилинган (Лондон: Роутлидж ва К. Пол, 1958), 150.

<sup>233</sup> Манфред Улманн, Ислом тиббиёти (Эдинбург: Эдинбург Университети Нашриёти, 1978), 2.

<sup>234</sup> Питер Э. Порманн ва Эмили Саваж-Смит. Ўрта аср Ислом тиббиёти (Эдинбург: Эдинбург Университети Нашриёти.

<sup>235</sup> Ўша жойда, 16.

<sup>236</sup> Ўша жойда, 7.

Тибб ан-Набавий араб ва юнон манбаларига асосланиб, ғайритабиий юнон тиббиёти деб қаралган тушунчаларга қарши туриш учун ишлатилган<sup>237</sup>. Тибб ан-Набавий асарларида ҳадислардан ташқари суннатга яқин бўлган тиббий масалалар, мисол учун минимал жарроҳлик муолажалар ҳам бўлиб, жуда оз миқдордаги инвазив усуллар, қон олдириш ёки банка қўйиш каби тиббий муолажаларнинг таърифи берилган. Парҳезни тартибга солишнинг профилактик ҳаракатлари, шунингдек, табиий дорилар, гиёҳлар даволаш билан биргаликда соғлиқ учун асос сифатида тавсифланган<sup>238</sup>.

IX-XI асрларга келиб мусулмон мамлакатларида тибб илми ўзининг энг юқори чўққисига эришди. Абу Али ибн Синонинг тиббиёт соҳасида эришган натижалари ҳам у томонидан ёзиб қолдирилган илмий адабиётлар кейинчалик бутун дунёда, хусусан Ғарбий Европа университетларида бирламчи манба сифатида қабул қилинди. Ибн Синонинг “Ал-қонун фит тиб” (“Тиб қонунлари”) асари 1473 йилда Европанинг Милан шаҳрида нашр этилган. 1500 йилга қадар ушбу асар ўн олти марта чоп этилган эди.

865 йилда Техрон яқинидаги шаҳарчада туғилган мусулмон табиб Абу Бакр Муҳаммад ибн Закариё Розийнинг “ал-Мансурий”, “ал-Ховий”, “Буръус соъба” ва каби 230 тага яқин китоблари ҳам тибб соҳасида катта муваффақиятларга эришган. Розийнинг “Тиббул фуқаро” асари 1498-1866 йиллар оралиғида қирқ марта нашр қилинган.

Хулоса ўрнида шунини айтиш мумкинки, ўрта аср даврида ислом олами ренессансига мусулмон табиб улармолари, энциклопедист олимлар ўзларининг катта ҳиссаларини қўшдилар. Хусусан, ибн Рушднинг “ал-Куллиёт”, Хунайн ибн Исҳоқнинг “Эсоғучи”, Али ибн Аббоснинг “Китоб ал-Малакий”, ибн ал-Жаззорнинг “Зодул мусофир”, ибн Жазланинг “Тақвиймул Абдон”, Абул Қосим аз-Заҳровийнинг “Ат-тасриф лиман ажаза анит таълийф”, ибн аз-Заҳрнинг “Ат-тайсир фил мудовоти ват-Тадбийр” каби тиббиёт илмига бағишланган асарлари қомусий асарлар сирасига киради. XIII асрнинг бошида яшаб ўтган ибн Абу Усайбиъа ўзининг “Уйюнул анбаа фии тобақати атиббаа” (“Табиблар табақалари ҳақида хабарлар булоғи”) асарида IX-XII асрларда яшаб, ижод этган 399 та мусулмон табибларнинг фаолияти ва асарлари ҳақида маълумот беради.

IX-XI асрларда Шарқнинг Искандария, Бағдод, Дамашқ, Қоҳира каби йирик шаҳарларида катта кутубхона, дорихона ва мактаблар барпо этилди. Бағдодда ташкил этилган Байтул ҳикмада “Мажлисул уламо” (Олимлар жамияти) ташкил қилиниб, унда Шарқ тиббиётига оид илмий асарлар яратилди ҳамда бошқа тиббиётга оид манбалар таржима қилинди. Абу Юсуф ибн Исҳоқ Киндийнинг (800-879) тиббиётга оид 30 та асари, Хунайн ибн Исҳоқнинг (810-873) юздан зиёд асарлари, Гиппократ ҳамда Гален асарларининг таржималари, Ғарбда Абдукасис номи билан танилган, ибн Сино замондоши машҳур хирург Абул Қосим аз-Заҳравийнинг 30 жилдли “Китоб ат-Тасриф”, Абу Бакр Муҳаммад ибн Закариё Розийнинг (865-925) тиббиётга оид 106 асари, 30 жилдли “Ал-Жомеъ ал-Кабир ва код урифа бил-Ховий” асарлари ушбу марказда ёзилди.

<sup>237</sup> Уллманн, Ислом тиббиёти, 5.

<sup>238</sup> Йорк, Ўрта асрлар орқали қадимги даврда саломатлик ва соғлом турмуш, 55.

## RIVOJLANGAN DAVLATLARDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TAJRIBALAR

*Alijonova Nurxon Sharifjon qizi*

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimi chuqur o'rganilib, bu sohadagi zamonaviy va yangi metodlar haqida so'z boradi. Shuningdek, O'zbekistonda ta'lim berish jarayonlarida qo'llangan va qo'llanilayotgan pedagogik usullar bevosita tahlil etiladi.

**Аннотация:** В данной статье подробно рассматривается система образования развитых стран и обсуждаются современные и новые методы в этой области. Также проводится непосредственный анализ педагогических методов, используемых и используемых в образовательном процессе в Узбекистане.

**Abstract:** This article examines the education system of developed countries in depth and discusses modern and new methods in this area. It also provides a direct analysis of the pedagogical methods used and being used in the educational process in Uzbekistan.

**Kalit so'zlar:** pedagog, innovatsiya, intensiv, kuzatish, induksiya, nazariy-tahliliy, litsey, gimnaziya, kollej, kasb-hunar, SAT (subject), ijtimoiy soha, iqtisodiyot tarmoqlari.

**Keywords:** pedagogy, innovation, intensive, observation, induction, theoretical-analytical, lyceum, gymnasium, college, profession, SAT (subject), social

**Ключевые слова:** педагогика, инновации, интенсив, наблюдение, вводный, теоретико-аналитический, лицей, гимназия, колледж, профессия, SAT (subject), социальная сфера, отрасли экономики. sphere, branches of economy.

*Ta'lim bilim miqdoridan iborat emas, balki hamma bilgan narsalarni to'liq tushunish va mohirona qo'llashdan iborat.*

**(G. Hegel)**

Har bir millatning davrlar osha ravnaq topishi, gullab-yashnashi, uning jahonda boshqa mamlakatlar orasida tutgan o'rni, mavqeyi, obro' - e'tibori shu xalq fuqarolarining aqliy salohiyati, ma'naviy potentsiali, ta'lim tizimidagi yutuqlariga qarab baholanadi. Shuning uchun ham, mamlakat kelajagi uning ta'lim tizimining rivojlanganligi darajasi bilan belgilanadi. Bugungi kunda qator mamlakatlarning ta'lim tizimlariga yangi-yangi o'zgarishlar kiritilib, jahon standartlariga mos ravishda maktab, kollej, litsey kabi o'quv dargohlarida intellektual salohiyati juda yuqori bo'lgan yoshlar tarbiyalanmoqda. Xususan, AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Rossiya kabi davlatlarda innovatsion texnologiyalar asosida pedagogik ishlar olib borilmoqda va pedagoglariga tajribalar o'tkazish va bilimni boyitishga keng imkoniyatlar ochib berilmoqda. Zero, buyuk nemis pedagogi A.F. Disterverg ta'kidlaganidek, "Noqobil o'qituvchi haqiqatni shunchaki aytadi-qo'yadi, yaxshisi esa uni topishga o'rgatadi"<sup>239</sup>. Quyida jahon ta'lim tizimining ilg'or metodlari bilan tanishib o'tamiz.

*Rossiya.*

Bugungi kunda o'z ta'lim tizimidagi katta-katta yutuqlar bilan dunyoni lol qoldirayotgan Rossiya diyorida dunyo fan olimpiadalari g'oliblari, IT sohasi bilimdonlari va o'z yo'nalishining ustasi bo'lgan mahoratli kadrlar chiqmoqda. Bunday muvafaqqiyatlar kaliti bo'lgan pedagogik soha Rossiya davlatida qanday ko'rinishga ega? Uning qanday ustunlik jihatlari mavjud?

Avvalo, Rossiyadagi ta'lim tizimiga diqqatimizni qaratsak. U besh bosqichni o'z ichiga oladi. Ular quyidagi strukturaviy elementlardan iborat:

- Bolalar asosan *bir yarim yoshdan* boshlab bog'chalarga borishni boshlaydilar va *olti yoshga qadar* u yerda qoladilar.

<sup>239</sup> Hikmatlar.uz

- *Boshlang'ich maktab. Oltidan o'ngacha* bo'lgan bolalarni o'qitish uchun mas'ul.
- Umumta'lim maktablari, litsey va gimnaziyalarda *to'liq bo'lmagan o'rta ta'lim besh yil* muddatga qabul qilinadi.
- Bundan keyingi ta'limni *o'rta ta'lim muassasalarida, kollej, litsey va boshqa kasb-hunar ta'lim muassasalarida* o'qishlari mumkin.
- Oliy ta'lim mutaxassis yoki magistr darajasini olish bilan bog'liq.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar orasida bolalarni bir yarim yoshdanoq bog'chalarga qatnashi biz uchun yangilik hisoblanadi. Psixologlarning ta'kidlashicha, bola o'z ongida boshlang'ich bilimni dastlabki 5 yoshda qabul qilgan ekan. Shunga mutanosib ravishda, Rossiyada bolaga nisbatan kichik-kichik pedagogik eksperimentlar bir yoshdan olti yoshgacha, aynan o'z shuurida boshlang'ich bilimni mustahkam shakllantira oladigan paytida o'tkazib boriladi. Bu juda katta yutuq bo'lib, bolalarning ong ostida bilimga bo'lgan intilishni hamda qiziqishni shakllantirib boradi. Bundan tashqari, bolalikdagi darslarni bajarishdagi dangasaliklarni oldini oladi. Yoshligidan yengil darajadagi bosimlar bilan bilimning zahmatini sezdirmay, uni ilm o'rganishning faol va harakatchan a'zosiga aylantiradi. Xalqimizda "Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir" deya aytilgan maqol bejiz emasligi shu yerda yaqqol o'z ifodasini topadi.

Pedagogik salohiyati yuqori bo'lgan o'qituvchilar dars jarayonida o'quvchilarda ajoyib taassurot qoldiruvchi, mavzuni mustahkam esda saqlashga yordam beruvchi, ularning dunyoqarashlarini kengaytiruvchi usullardan foydalanadilar. Masalan, kuzatish, eksperimental, so'rov, nazariy-tahliliy, sintez, modellashtirish, induksiya kabi metodlar juda keng ommalashgan.<sup>240</sup>

*Yaponiya.*

Boshqa mamlakatlar ta'lim tizimidan farqli o'laroq, Yaponiya yoshlari ta'lim sohasida bir vaqtning o'zida ajoyib imkoniyatlar bilan birgalikda o'ziga xos qiyinchiliklarga duch keladilar. Endi esa faqat yapon ta'lim tizimiga xos bo'lgan va boshqa mamlakatlar pedagogikasida takrorlanmaydigan usullarni keltirib o'tamiz:

- ✓ Yapon ustozlari o'quvchilarini toki ular mavzuni to'liq o'zlashtirmaganlariga qadar xonadan tashqariga chiqishiga yo'l qo'ymaydilar. Bunga ota-onalar ham ijobiy munosabatda bo'ladilar.
- ✓ O'quvchilar o'rtasida tenglik va do'stona muhit yaratish maqsadida, ularni barchasi birgalikda tushlik qiladilar va o'quvchilar o'zlariga – o'zlari xizmat ko'rsatadilar. Hattoki, sinfxonalarning o'zida ham o'qituvchilar bilan o'quvchilar taomlanishiga ruxsat berilgan.
- ✓ Eng qiziq tarafi shundaki, yapon o'quvchilari tartib-intizomda ham ajoyib o'rnatilgan bo'la oladilar. Bunga isbot tariqasida, yapon maktablarida farroshlarga ish o'rinlari ajratilmagan va bunga ehtiyoj ham sezilmaydi.
- ✓ Maktab ta'tillarida ham o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi aloqalar uzilib qolmaydi. O'qituvchilar hamisha o'z o'quvchilarini bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishlarini nazorat qiladilar.
- ✓ O'quvchilar orasida tabaqalanishni oldini olish maqsadida, ular maktab hududida bir xil sumkalar va oyoq kiyimlari kiyadilar. Bu kiyimlarni davlat tomonidan har yili taqdim etiladi.

*Amerika Qo'shma Shtatlari.*

1. Bolalar 5 yoki 6 yoshdan maktabga borishni boshlashadi va 17 yoki 18 yoshda tugatishadi.
2. Talabalar AQSHdagi ba'zi maktablarga o'qishga kirishdan oldin har qanday sog'lomlashtirish testlaridan o'tishlari kerak. Talabalar kasallikning oldini olish yoki yuqishini nazorat qilish uchun ba'zi tibbiy ko'riklardan o'tishlari kerak.<sup>241</sup>
3. 2021-yil uchun eng yaxshi mamlakatlar hisoboti eng yaxshi ta'lim tizimiga ega mamlakatlar ro'yxatini o'z ichiga oladi. Bu maktablar orasida birinchilikni AQSH egalladi.

<sup>240</sup> <https://boomstudy.ru/uz/sports/obrazovatel'naya-cistema-rossii-sistema-obrazovaniya-v-rossii-osobennosti/>

<sup>241</sup> <https://uz.alinks.org/education-system-in-the-united-states-of-america/>

4. Imtihon tizimlari mukammal tarzda tashkil etilgan. Misol tariqasida, o'quvchilar yil davomida egallagan barcha fanlardagi bilimlarini mustahkamlash maqsadida SAT(subject) imtihoni topshiradilar.

Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida to'lqinlanib so'zlamalikning iloji yo'q. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: *“Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi”*<sup>242</sup>.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

21. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.
22. Forum journal.
23. Pedagogika fani va tarbiyaning ahamiyati to'g'risida. K.D.Ushinskiy.
24. <https://uz.alinks.org/education-system-in-the-united-states-of-america/>
25. <https://boomstudy.ru/uz/sports/obrazovatelnyaya-sistema-rossii-sistema-obrazovaniya>
26. Hikmatlar.uz.

---

<sup>242</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqidan parcha.



ГУЛ УРУҒ КУРТАКЛАРИ СОНИНИНГ ЎРТА ТОЛАЛИ ҒЎЗА НАВЛАРИДА  
ФАРҚЛАНИШИ

**УДК: 579.8:582.288**

*Алиқулов Э.О., Эргашев О.Р., Азимов А.А., Мамадиёров Ш.Т.*  
*ЎзР ФА Генетика ва ўсимликлар экспериментал биологияси институти.*

**Аннотация:** Ғўзанинг *G. hirsutum* L. турига хос бўлган янги дурагайларни олиш мақсадида амалга ошириладиган генетик-селекцион тадқиқотларда бошланғич ашёлар сифатида олинган навларнинг гулларидаги уруғкуртаклар сонининг ўртача кўрсаткичларини 2021 йилнинг 1 июл куни аниқлаш натижалари мақолада ўз ифодасини топган. Ўрганилган навлардан С-8290, Меҳнат ва Келажак навларида гул уруғкуртакларининг сони бошқа навларга нисбатан юқори эканлиги маълум бўлган.

**Калит сўзлар:** Ғўза, бошланғич ашёлар, навлар, янги дурагайлар, гул, уруғкуртаклар сони, қиёсий фарқланиш.

Дунёда ғўза ўсимлигининг инсонлар ҳаётидаги ўрни ва аҳамияти катта эканлиги боис бу ўсимликнинг хусусиятларини чуқур ўрганиш, янги дурагайларини яратиш, ниҳолларини парваришlash ва сифатли ҳосилини етиштириш борасида кўплаб илмий тадқиқотлар олиб борилган. Ўзбекистон Республикасида ҳам мазкур соҳадаги илмий изланишларни доимий равишда ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилади. Ушбу ўсимликнинг биологияси, генетикаси, уруғшунослиги ва уруғчилиги, етиштириш агротехнологиялари, ҳосилини йиғиш, сақлаш ва бирламчи қайта ишлаш бўйича дунёнинг пахтачилик ишлаб чиқариш тизими билан шуғулланувчи бир қатор ривожланган мамлакатлари ҳам доимий равишда шуғулланиб кўплаб юқори натижаларга эришганлар. Таҳлил қилинган адабиётларда ҳам ғўза ўсимлиги гулларининг хусусиятларини ўрганишга алоҳида аҳамият қаратилган[1-5]. Мақолада тадқиқ этилаётган ўрта толали ғўза навлари Республиканинг катта майдонларида экилган ва экилаётган ҳамда сўнги йилларда истиқболли деб топилган ашёлар бўлиб, ушбу шакллар бир-биридан ўзига хос бўлган жиҳатлари билан ажралиб туради. Ушбу тадқиқот ашёларини атрофлича ўрганиб, аниқ хулосаларга эга бўлиш ҳам келгусида эришиладиган натижаларга замин ясайди. Ғўза шаклларининг гулларидаги уруғкуртаклари сони ҳам ҳосилдорликка таъсир этувчи омиллардан бири бўлиб, ушбу белги кўрсаткичларининг фенотипда намоён бўлишини ўрганиш муҳим вазифа ҳисобланади.

**Натижалар.** Таҳлилдаги ғўза навларининг битта гулдаги уруғкуртаклари сони бўйича бир-биридан фарқланиши қуйидаги жадвал маълумотларидан маълум бўлади:

**1-жадвал.** *Ўрта толали ғўза навлари ўсимликларининг гулларидаги уруғкуртаклар сони.*

№	Уруғкуртаклар сони, дона			
	Навлар	$\bar{X} \pm m$	$\sigma$	$v$
1	Меҳнат	34,38±0,31	2,04	5,95
2	Султон	33,63±0,38	2,50	7,43
3	Хоразм-127	33,31±0,39	2,57	7,72
4	С-8290	34,94±0,44	2,94	8,41
5	Бухоро-102	33,41±0,39	2,58	7,71
6	АН-Боёвут-2	32,66±0,34	2,25	6,90
7	С-6524	32,75±0,34	2,26	6,89
8	Наманган-77	33,69±0,23	1,51	4,49
9	ЎзФА-707	33,78±0,43	2,86	8,46
10	ЎзФА-710	33,19±0,39	2,60	7,82
11	Келажак	34,25±0,41	2,69	7,85
12	Юлдуз	33,13±0,37	2,47	7,46

1 – жадвалдан маълум бўлишича, С-8290, Меҳнат ва Келажак навлари популяцияларининг ўсимликлари гулларида энг кўп уруғкуртаклар мавжудлиги аниқланган. Таҳлилдаги бошқа шаклларда эса ўрганилаётган белгининг кўрсаткичлари 33,78 дан 32,66 донагача ташкил этгани кузатилган. Гулдаги уруғкуртаклари сони кўрсаткичлари бўйича ўзгарувчанлик кўлами ЎзФА-707 ва С-8290 навларида энг юқори, Наманган-77 навида эса энг паст ҳолатда намоён бўлган.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. А.Ғ. Абдуллаев “Хазмо ва Клейстогам гул белгиларини генетик назорат қилиш асослари” – Ғўза ва бошқа қишлоқ хўжалик ўсимликларида тезпишарликни ҳамда мослашувчанликни эволюцион ва селекцион қирралари мавзусидаги Халқаро илмий анжумани материаллари тўплами. 2005-й, 17-18 б.
2. И.Т. Қаҳҳоров, О.Р. Эргашев, А.Э. Ҳақимов “Ғўзанинг ЎзФА-710 нави ҳосилини етиштириш агротехникаси”. Агро Илм – Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали. 2016-й. Махсус сон, 6-8 б.
3. И. Қаҳҳоров, О. Эргашев, Ж. Дадажнов, А. Ҳақимов, М. Қодирова “Ғўзанинг янги ЎзФА-707 нави ва унинг хусусиятлари”. Агро Илм – Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали. 2017-й. 3 (47), 10 б.
4. С. Хонназаров “Ёш деҳқон энциклопедияси”. Тошкент – 2019 й. 318-319 б.
5. Х.А. Мўминов, З.А. Эрназарова “Эски дунё ғўза вакиллариининг хилма-хилликлари ва турлараро  $F_1$  ўсимликларининг битта тугунчадаги уруғкуртаклар сонининг ирсийланиши”. “Фундаментал фан ва амалиёт интеграцияси: Муаммолар ва истиқболлар” мавзусидаги Республика илмий-амалий анжумани материаллари тўплами. 2018-й, 35-36 б.

## КРИТЕРИИ ИДЕНТИФИКАЦИИ ВЗРЫВОВ И МЕТОДЫ АНАЛИЗА СЕЙСМИЧЕСКИХ СОБЫТИЙ.

**УДК 500.34.064**

*Курбанов Т.С., Алимов Б.Г.*

*Институт сейсмологии им. Г.А.Мавлянова АН.РУз. г.Ташкент, Республика Узбекистан.*

**Аннотация.** Эта статья посвящена визуальному и инструментальному анализу определения критерий различий между природными и техногенными факторами сейсмологических событий на основе анализа сейсмограмм. Проводилась работа по спектральной характеристике, обработке времен прихода волн, знаков первых вступлений, периодов поверхностных волн и форм записей.

**Ключевые слова:** землетрясение, взрыв, спектральный анализ, сейсмограмма, сейсмические волны.

**Введение.** В настоящий день, сейсмологический мониторинг районов оснащенных сетью сейсмических станций позволяют регистрировать колебания различного рода природного и техногенного характера. При обработке данных одной из наиболее важных задач является определения положения очагов землетрясений, возникающих не только в сейсмогенных зонах, но и возникающих в тектонически стабильных и слабоактивных районах. Интерпретаторы сталкиваются с трудностями распознавания слабых сейсмических событий, на пример взрывы, которые идентифицируется как сейсмическое событие. Для этого требуется тщательный анализ локаций, а также временных и амплитудных характеристик сейсмического источника.

## EXPLOSION IDENTIFICATION CRITERIA AND SEISMIC EVENTS ANALYSIS METHODS.

*Kurbanov T.S., Alimov B.G.*


*Institute of Seismology, Academy of Sciences. Tashkent, Republic of Uzbekistan.*

**Annotation.** This article is devoted to visual and instrumental analysis of determining the criteria for differences between natural and man-made factors of seismological events based on the analysis of seismograms. Work was carried out on spectral characterization, processing of wave arrival times, first break signs, surface wave periods and record forms.

**Key words:** earthquake, explosion, spectral analysis, seismogram, seismic waves.

**Цель исследований.** Использование различного рода подходов в качестве комплекса параметров распознавания взрывов и землетрясений. Рассматриваются следующие критерии: Спектральное отношение амплитуд в различных волновых группах, характеристики спектров разных волновых групп, координаты события и близость их к местоположению известных карьеров, глубина события, особенности волновой картины записей, время события в сутках, диапазон энергетических классов, наличие акустического сигнала;


**Методика исследований.** Отношение объемных волн S/P. Часто используемым сейсмологами критериям различия взрыва от землетрясения является отношение амплитуды объемных волн S/P. Исследуя волновую картину, можно предположить, что землетрясение представляют тектонические подвижки по разломам, которые в свою очередь могут породить сильные поперечные волны, а взрывы из-за сферической формы источника, и несимметричности источника на малых расстояниях практически не порождают поперечные волны. Проще говоря отношение амплитуд S/P для взрывов должно быть очень малое значение в отличие от землетрясений [1,2] (рис 1).



**Рис 1.** Распределение амплитуд значений продольных и поперечных волн S/P на разных частотах для взрывов и землетрясений. (где O-землетрясения, X-взрывы).


**Спектральные диаграммы.** Характеристики спектров

разных волновых групп. Спектральные признаки дают четкую визуальную различаемость, спектральные диаграммы (сонограммы), показывают иллюстрирующие изменение спектра событий во времени. Различие некоторых типов взрывов можно легко распознать по "полосам" на сонограммах. Наличие этих "полос" означает, что для взрывов в течении достаточно долго времени преобладают одни и те же частоты, а спектральная плотность меняется во времени медленнее, в отличие от землетрясений (рис 2)




**Рис 2.** Слева сонограмма – землетрясение, справа сонограмма – взрыв.

**Эпицентр событий.** Во время тщательного анализа выборки сейсмических записей, одним из факторов определения того, что произошел взрыв, является определение эпицентра события и если эпицентр совпадает с координатами известного карьера, то с большой долей вероятности, можно сказать что это взрыв. Однако, если эпицентр события находится в окрестности следует применять различные методы для выявления является ли это событие землетрясением или взрывом. (рис 3)



**Рис 3.** Эпицентр взрыва попадает на рудник.


**Время проведения взрывных работ.** Основным критерием определения взрывов, это утреннее и дневное время проведения взрывных работ. (рис 4)



**Рис 4.** Гистограмма времени проведения взрывов на карьерах.

**Энергетический класс событий.** Очевидно, что промышленные взрывы не могут быть мощными, как сильные землетрясения. На карьерах есть своя технология взрывов и максимально возможная энергетическая характеристика взрыва,

соответственно, максимальные магнитуды могут меняться со временем. (рис 5)



**Рис 5.** Гистограмма энергетических классов взрывов на карьерах.


**Наличие акустического сигнала.** Иногда, мощные карьерные взрывы могут порождать акустический инфразвуковой сигнал, и он может быть зарегистрирован на сейсмических датчиках. Появление акустической волны можно увидеть на сейсмограммах, которые рассчитываются по скорости прихода волны. Если азимут совпадает с азимутом взрыва, а скорость составляет  $V=0.33$  км/сек, то можно с уверенностью утверждать, что данный сигнал порожден взрывом. При этом оценки скорости пробега акустического сигнала, определенные ко времени события и расстоянию, оказываются несколько ниже, чем  $V=0.33$  км/сек до  $V=0.29$  км/сек. Если после сейсмического события мы наблюдаем акустический сигнал, это однозначно говорит нам о том, что событие – взрыв. (рис 6)



**Рис 6.** На рис видно, что после основного события идёт запись акустической волны.

**Глубина сейсмического события:** представляет собой параметр, который очень сложно оценить. Незначительные ошибки в определении времен вступления волн и в скоростной модели могут приводить к ошибкам вычисления глубины в десятки километров. Тем не менее, для некоторых событий оказалось возможным сделать достаточно грубую оценку с помощью годичных исследований с привлечением обширных сейсмических сетей с широкополосными сейсмометрами. Таким образом, можно сказать, что множество карьерных взрывов происходят на поверхности, на сейсмограммах видно отсутствия глубинных фазок. (рис 7)






**Рис 7.** Карьерный взрыв. На сейсмограммах видно, что отсутствуют глубинные фазы, отчетливо видны поверхностные волны.

**По первым вступлениям волн.** При регистрации взрывов на близком расстоянии, запись на сейсмограммах позволяет показать полярность первых вступления Р –волны, и если все три компоненты знака положительны (+), то

можно с уверенностью сказать, что это взрыв. Из этого следует понимание механизмов прихода волн сжатия. (рис 8)



**Рис 8.** На рисунке показан взрыв, вступление Р-волны где все три компоненты со знаком (+).

**Взаимосвязь отношения магнитуд ( $M_s$  и  $m_b$ ).** При выявлении микросейсмических событий, является важным распознавание и отличие взрывов от землетрясений, основываясь на отношении энергии продольных и поперечных волн и количестве энергии короткопериодных и длиннопериодных колебаний. Сейсмограммы взрывов имеют относительно более короткопериодную энергию чем сейсмограммы землетрясений. Относительный вклад разных частот в общую сейсмограмму зависит от природы источника. Простым и эффективным способом для сравнения количества энергии в низкочастотной области от энергии высокочастотной области – это сравнение двух разных магнитуд для события:

- 1) Магнитуды по объемным волнам ( $m_b$ )
- 2) Магнитуды по поверхностным волнам ( $M_s$ )

Так как поверхностные волны имеют более низкую частоту по сравнению с объемными волнами, их амплитуда зависит от количества энергии низкой частоты, генерированной источником. Объемные волны имеют более высокую частоту по сравнению с поверхностными волнами, их амплитуда зависит от количества энергии высокой частоты, генерированной источником [4,5].

**Выводы.** Интерпретация сейсмических записей техногенных катастроф позволяет достоверно определить место, точное время и хронологию событий. Визуальный анализ сейсмограмм позволяет сделать правильный подход к определению характера происхождения природного или техногенного характера. Разделение критериев на наличие поверхностных волн, расчет спектров Фурье, полярности первого вступлений Р-волн, отношение амплитуд сейсмических волн, фильтрация записей, а также спектрально временной анализ дают достаточное сопоставление для определения происходящего на исследуемой территории. Визуальный анализ и сопоставления спектров слабых землетрясений и взрывов показал, что для взрывов характерны спектры с максимумами в области низких частот, а при землетрясениях наоборот преобладание спектров в области высоких частот. Также можно судить о распределении интенсивности излучения по частотам и по времени.

**Список литературы:**

1. Асминг В.Э. Использование критериев идентификации взрывов и землетрясений для уточнения оценки сейсмической опасности региона / В.Э. Асминг, Е.О. Кременецкая, Ю.А. Виноградов, З.А. Евтюгина // Вестник МГТУ. 2010. т.13, №4/2. – С. 998–1007.
2. Годзиковская А.А. Местные взрывы и землетрясения. М.: Наука, 2000.–108с.
3. Ибрагимов А.Х. К вопросу о дискриминации слабых землетрясений и взрывов. Ўзбекистон Республикаси аҳолиси ва ҳудудининг сейсмик хавфсизлигини таъминлаш муаммолари (TASECO-2021).с.с.38-40
4. Lynn R. Sykes, Jack F. Evernden. «The Verification of a Comprehensive Nuclear Test Ban», 1982.
5. Денева Д.А. О распознавании промышленных взрывов и слабых землетрясений при помощи местных сейсмологических сетей / Д.А. Денева, Л.О. Христосков, Б.Е. Бабачкова и др. // Физика Земли. 1988. № 4. – С. 68–72.
6. <http://www.krsc.ru/?q=ru/Distinguishing>

## ҲАДИС ИЛМИ ТАРАҚҚИЁТИДА МОВАРОУННАХР МУҲАДДИСЛАРИ ИЛМИЙ МЕРОСИНING ЎРНИ

*Маҳфуза Алимова*

*ЎзХИА, “Дини унослик ва жаҳон динларини  
қиёсий ўрганиш ЮНЕСКО” кафедраси доценти, т.ф.н.*

Мовароуннахр худудида ўрта асрларда ислом илмларининг бошқа соҳалари каби ҳадис илми доирасида ҳам миллий кадриятлар ва ислом дини ғоялари орасида ўзаро таъсир, мулоқот жараёнлари кечган. Буюк муҳаддислар фаолияти натижасида кўплаб ҳадис тўпламлари тасниф этилди. Маълумки, VII асрдан бошлаб ислом дини турли минтақаларга ёйилиб, мазкур ўлкалар халқларида ислом илмлари ва шаръий аҳкомларни билиш ҳамда улар воситасида Қуръони карим маъноларини тушунишга эҳтиёж кучайди. Шу сабабли ислом илмларидан бири – ҳадис илмини ўрганиш, яъни уни айтувчиларни излаб топиш, аниқлаш мақсадида турли сафарлар кўпайди. Вақт ўтиши билан ҳадис илмини ўрганувчилар ҳадис ривоят қилувчи кишиларни аниқ билиш, *санадини* текшириш, улар ўртасидаги тафовутларни аниқлаб, тўғрилигига ишонч ҳосил қилиш, ҳадис матнини тўлиқ ўрганиш каби қатор масалаларни таҳлил қилиш кучайди ва пировард натижада “*улум ал-ҳадис*” яъни “*ҳадис илмлари*” пайдо бўлди. Шу билан бирга жамланган ҳадисларни турли усулларда тўплам ҳолига келтириш ишлари ривожланди. Ҳадислар тўпламларини таснифлаш усулларидан бири – “*Сунан*” дир. Бундай асарларда нафақат *сахих* ҳадислар, балки *заиф* ҳадислар ҳам келтирилган. Муҳаддислар “*Сунан*”ларда ҳар бир ҳадиснинг даражаларини кўрсатибгина қолмай, балки уларни фикҳ мавзулари бўйича бобларга ажратганлар. Ҳадислар деярли бирор фикҳий мазҳаб ёки фикр аралаштирилмаган ҳолда бобларга бўлиб жойлаштирилган бўлади. Мисол учун, “Таҳорат китоби”га таҳоратга тегишли ҳадислар жамланган, “Китоб ус-салот”да эса намозга тегишли ҳадислар келтирилади ва ҳоказо. Бу йўналишда Абу Довуд Сулаймон ибн Довуд ат-Тайолисий (ваф. 819 й.) “*Сунан*” ёзишни бошлаб берган. Ушбу муҳаддис Хуросон хофизлардан ҳадис ривоят қилган бўлиб [6:174], асарда 281 ровийдан 2 767 та ҳадис ривоят қилинган. Ушбу асар кейинги даврлар мобайнида асосан ҳадисларни қиёсий таҳлил қилишда катта аҳамият касб этди [5:185]. Сунанларни таълиф этиш йўналишда Мовароуннахрда IX асрда кўпгина муҳаддислар фаолият олиб бордилар. Улардан бири ҳадис, тафсир, осор каби илмлар соҳиби, етук муҳаддис Имом Абу Муҳаммад Абдуллоҳ ибн Абдурахмон Самарқандий Доримий (798-869) бўлса, яна бири Абу Довуд, Имом Доримий ва Имом Бухорийларнинг шогирди Муҳаммад ибн Исо Термизий (824-892) дир. “*Сунан*”ларининг тузилиши, мавзуларининг изчил тартибда жойлаштирилиши, ҳадисларнинг муайян мавзуларга оид бобларда тўғри, аниқ ва батафсил акс эттирилиши нуқтаи назаридан Имом Доримий ҳамда Имом Термизийларнинг асарлари мазкур услубда яратилган бошқа асарлардан ажралиб туради. Имом Термизийнинг ҳадис тўплами “*Сихоҳ ситта*”га кирган бўлса, Имом Доримийнинг “*Сунан*” асари олимлар томонидан Молик ибн Анаснинг “*ал-Муваддо*”, Аҳмад ибн Ханбалнинг “*Муснад*”и билан бир қаторда - “*Кутуб тис ‘а*” ёки “*Сихоҳ тис ‘а*” ишончли тўплам сифатида тан олинган. IX асрда тасниф этилган сунан туркумидаги ҳадис тўпламларининг умумий тузилиши бир-бирига ўхшаш. Уларнинг ҳаммаси ибодат ва муомалот масалалари акс этган китоблар, ҳар бир китоб эса боблардан ташкил топган. Бобларнинг таркибига мавзуга оид бўлган иснодли ҳадислар муаллиф-муҳаддисларнинг ўз қарашларидан келиб чиққан ҳолда киритилган. Имом Доримий ва Имом Термизийнинг “*Сунан*”лари қиёсий ўрганиш орқали муҳаддисларнинг ўзига хос услубларини таҳлил қилиш имконини беради. Бунда ҳар икки “*Сунан*”нинг таркибий тузилиши, ҳадисларнинг иснодига кўра турлари, бобларга ажратиш ва уларга ном беришдаги услублари эътиборга олинади. Ҳар икки “*Сунан*” умумий таркибий тузилиши жиҳатдан турли масалаларга бағишланган китоблар ва бобларга ажратилган. Имом Доримийнинг “*Сунан*”ида аввал Муқаддима

қисми берилиб, сўнгра асар 23 та китобга ажратилган. Унда ҳаммаси бўлиб 1306 бобда, 3503 та ҳадис келтирилган. Имом Термизийнинг “Сунан”и эса муқаддима қисмисиз, тўғридан тўғри “Таҳорат китоби”дан бошланиб, “Маноқиб китоби” билан якунланган. Тўпламда жами 46 китоб, 2036 бобда, 3965 та ҳадис берилган [5:1]. Имом Термизий “Сунан”ининг охириги китобидан сўнг муаллиф томонидан “Иллатлар” (Иллатли ҳадислар) китоби кўшимча қилинган. Ушбу китоб бобларга ажратилмаган, ривоят қилинган ҳадислар рақамланмаган. Имом Термизий асарни китобларга ажратишда масалаларга кенгроқ, батафсилроқ ёндошган. Жумладан, “Жума” китобини “Намоз” китобидан алоҳида, “Жиходнинг фазилатлари” ҳамда “Жиход” китоби алоҳида, “Фароиз” китобидан “Кулнинг мероси”га бағишланган китоб алоҳида ажратиб берилган. Имом Доримий эса масалаларга нисбатан аниқроқ ёндошиб, ушбу масалаларни умумий ном билан аталган бир китобга жамлаган. Шу билан бирга, Имом Термизийда келтирилган “Зухд”, “Қиёматнинг сифатлари, нозик масалалар ва тақво”, “Жаннатнинг тавсифи”, “Жаҳаннам тавсифи” каби китобларни Имом Доримий бирлаштириб “Нозик масалалар китоби” деб номлаган. Имом Доримийнинг “Сунан”ида жами туркумидаги ҳадис тўпламларига хос бўлган мавзулардаги 4 та китоб (“Сиярлар”, “Изн сўраш”, “Нозик масалалар”, “Қуръон фазилатлари”) ўрин олган бўлса, Имом Термизий асарида фикҳий масалаларга алоқаси бўлмаган 16 та китоб (“Эзгулик ва қариндошлик алоқалари”, “Тиб”, “Қадар”, “Зухд”, “Қиёматнинг сифатлари, нозик масалалар ва тақво”, “Жаннатнинг тавсифи”, “Жаҳаннам тавсифи”, “Имон”, “Илм”, “Изн сўраш ва одоб”, “Ахлоқ-одоб”, “Қуръон фазилатлари”, “Қироатлар”, “Қуръон тафсири”, “Даъватлар”, “Маноқиблар”) киритилган. Имом Термизийнинг “Сунан”и жами туркумидаги ҳадис тўпламларида мавжуд барча масалаларни қамраб олганлиги боис “ал-Жоми‘ ас-саҳих” номи билан ҳам танилган. Ушбу асарни тадқиқ қилган, шарҳ ёзган уламолар уни “Жоми‘ Термизий”, “ал-Жоми‘ ас-саҳих” деб номлаганлар [11].

“Сунан”даги ҳадисларнинг исноди бўйича турларига кўра, Имом Доримийнинг асарида 23 та, Имом Термизийда 55 та қудсий ҳадис ривоят қилинган. “Сунан Доримий”да 238 та мутавотир, 1983 та *марфу‘*, 571 та мавқуф, 790 та *мақту‘* ҳадислар, Имом Термизийнинг асарида 309 та мутавотир, 3736 та *марфу‘*, 84 та *мавқуф*, 16 та *мақту‘* ҳадис келтирилган. Ушбу маълумотлардан кўриниб турибдики, Имом Термизийнинг асаридаги ҳадисларнинг асосий қисми *марфу‘* ҳадислардан ташкил топган. *Мавқуф* ҳадисларнинг аксарияти “*Абодила*” томонидан ривоят қилинган ҳадислар бўлиб, улар орасидан Абдуллоҳ ибн Аббоснинг ҳадислари кўпчиликни ташкил этади. Сўнгра Абу Ҳурайра, Али, Анас ибн Моликлардан қилинган ривоятлар туради. Демак, Имом Термизий асосий эътиборни айнан Муҳаммад пайғамбардан ривоят қилинган ҳадисларга қаратган. Имом Доримий эса ишончли иснод билан саҳобий ва тобе‘ийлардан ривоят қилинган, фикҳий масалалар акс этган саҳобий ва тобе‘ийларнинг ривоятлар(*осор*)ига ҳам катта аҳамият берган. Эҳтимол, шунинг учун уламолар Имом Доримийни “Самарқандда осор илмининг асосчиси” деган шарафли ном билан тавсифлаганлар [3: 19-22; 2: 173-178].

“Сунан”ларини бобларга ажратиши ва уларга ном беришида муҳаддисларнинг услублари, уларнинг ўзаро фарқли ва ўхшаш жиҳатларини аниқлаш учун қуйидаги усулларга ажратиш мумкин:

а) Умумий хабар кўринишида - бунда муҳаддислар муайян масалани очишда далил сифатида бир ёки ундан кўп ҳадисларни ўзида жамлаган бобларни ўзига хос умумий ном билан атаб, “... масала ҳақидаги боб” сўзлари билан бошлаганлар. Масалан, “Закотнинг фазилати ҳақидаги боб” [1:293], “Садақанинг фазилатига оид боб” [4:49].

б) Махсус хабар кўринишида номланган боблар кўпинча умумий хабар кўринишида номланган боблардан сўнг келиб, масалага янада чуқурроқ ёндошилган ҳолда, уни аниқроқ ифодалаган ҳадислар жамланган бўлади. Масалан, “Бомдод намозининг азон вақти ҳақидаги боб”.

в) Савол кўринишида - ушбу ҳолатларда бобларнинг номи савол тарзида, сўроқ формасидаги иборалардан фойдаланилган ҳолда ифода этилади. Масалан, “Қандай садақа

энг афзал садақа эканлиги ҳақидаги боб” [1:302], “Пайғамбар с.а.в. неча марта ҳаж қилганликлари ҳақидаги боб” [4:178].

г) Бобдаги ҳадисдан иқтибос келтириш билан - бундай ҳолларда ҳадис тўлалигича ёки бир қисми (бўлаги) боб номида келтирилади. Масалан, “Киши мажлисдан чиқиб кетиб, сўнгра қайтса, у ўз жойига ўтиришга ҳақли” [1:225], “Тонг отгандан сўнг икки рақъатдан бошқа намоз йўк” [4:278].

д) Ҳукм кўринишида – бунда шариатда таъқиқланган ёки аксинча амал қилиш шарт бўлган масалаларга оид ҳадислар жамланган бобларнинг номи буйруқ тарзида ифодаланган. Кўп ҳолларда уларни ифодалашда “наҳий”, “манъ этиш”, “таъқиқлаш” ёки “кароҳият”, “қайтариш” ва бошқа сўзлар ишлатилган. Масалан, “Кишининг жами мол-дунёсини садақа қилиб юборишдан қайтариш боби”, “Ўнг қўл билан овқатланиш ҳақидаги боб”, “Рукуъ ва саждада кироат қилишдан қайтариш ҳақидаги боб” [4:49].

е) номаълум шахс (киши)ни назарга олиш йўли билан - бу ҳолларда боб кўпинча “...киши ҳақидаги боб” иборалари билан бошланади. Масалан, “Киши фалончига васият қилса-ю, у вафот этса, бошқага васият қилиши ҳақидаги боб” [1:315], “Намозни унутиб қўйган киши ҳақидаги боб” [4:335].

ж) Қуръон оятларидан парча келтириш билан бобни номлаш. Масалан, Таҳорат китобида Моида сураси 6-оятдан: “Намоз (ўқиш)га турар экансиз...” деган калимаси ҳақидаги боб” [1:111], “Мадори етмайдиганлар зиммасида...” [7] (Бақара, 184-ояти) ҳақидаги боб” [4:162].

з) Фақатгина “باب” - “боб” сўзини келтириш билан – унда бобга ҳеч қандай ном берилмай, ўзидан аввалги бобда келган ҳадисларнинг мазмунига боғланмасада, умумий маъноси шу бўлимга тегишли бўлган ҳадислар келтирилган боблар шу тарзда номланган. Имом Доримий ушбу услубни асарида фақат бир маротаба қўллаган [1:113]. Имом Термизийда “боб” сўзи, шу билан бирга, “аввалги бобдан” [ўзидан аввал келган бобда кўрилган масалага яқин бўлган ҳадислар жамланган боб] деб номлаш кўпроқ учрайди [4:269].

Имом Доримий ва Имом Термизий ривоят қилган юқоридаги икки ҳадис ҳам *марфу'* ҳадис бўлиб, Муҳаммад пайғамбардан саҳобий Абу Ҳурайра орқали ривоят қилинган. Лекин саҳобийдан кейин келган ровийлар силсиласидаги фарқ катта. Имом Доримий бу ҳадисни устози Муҳаммад ибн Касирдан (ваф. 831 й.), устози эса Махлад ибн Ҳусайн (ваф. 807 й.) дан, у эса Ҳишом ибн Ҳассон (ваф. 765 й.)дан, у эса ўз навбатида Анас ибн Моликнинг мавлоси Ибн Сийриндан, у Абу Ҳурайра (ваф. 677 й.)дан ривоят қилган. Имом Термизий эса ушбу ҳадисни устози Исҳоқ ибн Мусо ал-Ансорий (ваф. 858 й.) дан, устози Маънун (ваф. 814 й.)дан, у эса Молик ибн Анас (ваф. 798 й.)дан, у Язид ибн Абдуллоҳ (ваф. 756 й.)дан, у Муҳаммад ибн Иброҳим (ваф. 738 й.)дан, у Абу Салама (ваф. 713 й.)дан, у Абу Ҳурайрадан ривоят қилган.

Имом Доримий келтирган ҳадис иснодига кўра 5 та ровий орқали муҳаддисга етиб келган бўлса, Имом Термизий иснодида 7 та ровий мавжуд. Бунинг сабаби Имом Доримий Имом Термизийдан 24 ёш катта ҳамда у иснодни иложи борица қисқа (яъни, олий иснодли) бўлишига ҳаракат қилган.

Имом Термизийнинг “Сунан”ининг ўзи хос томони - унда бошқа ишончли ҳадис тўпламларида мавжуд бўлмаган услуб қўлланилган. Мазкур услубда муаллиф ҳадисларни тўплаб, ривоят қилиш билан чекланмай, уларнинг даражаларини, ровийлари борасида *жарҳ ва та'дил* уламоларининг фикрларини келтириб ўтган. У.Уватов таъкидлаганидек: “Асарга киритилган ҳадислар ишочлилик даражасига қараб, муаллиф томонидан саҳиҳ, ҳасан ва заиф каби гуруҳларга киритилганки, бу ҳадис илми соҳасидаги янгича ёндошиш деб изоҳланади” [9:34-35]. Имом Термизийнинг *жарҳ ва та'дил*нинг барча даражаларига оид қарашлари асарнинг 403 та жойида келтирилган. Бу эса Имом Доримийнинг асарида келтирилган изоҳлари, фикҳий қарашлари ҳамда *жарҳ ва та'дил*га оид фикрларидан анча кўп. Демак, Имом Термизий устози Имом Доримийдан иснодларни ўрганиш соҳада илм олиб [8:36], устозининг услубини янада ривожлантирган. Натижада ҳадис тўпламларини таълиф этиш бўйича янги бир услуб юзага келган.



Ушбу тўпламлардан ташқари муҳаддислар томонидан яна бир услубда ёзилган асарлар тури ҳам юзага келди-ки, у фақат шу асрга хос ва мос бўлган. Бу турдаги асарлар “Сулосийёт”<sup>243</sup> номи билан аталган. “Сулосийёт”ларда ўз номидан келиб чиқиб, фақат уч ровийлар томонидан ривоят қилинган ҳадислар жамланган. Бунда асар муаллифи ҳамда Расулulloх (с.а.в.) ўртасидаги ровийларнинг сони уч кишидан иборат бўлган. Манбаларда келтирилган маълумотларга кўра, бу услубдаги асарларни Имом ад-Доримий, Имом ал-Бухорий, Шайх Абу Исҳоқ, Абд ибн Хумайд<sup>244</sup>, Имом ат-Термизий каби муҳаддислар таълиф этганлар. Ҳожи Халифа Имом ад-Доримийнинг “Сулосийёт”ида 15 та<sup>245</sup>, Имом ал-Бухорийникида 22 та ҳадис ривоят қилинганлиги, ушбу ҳадислар муҳаддисларнинг ишончли ҳадислар тўпламлари ичига киритилганлигини қайд этади<sup>246</sup>. Уламолар ушбу асарларни ўрганиб чиқиб, улар орасида жамланган ҳадисларнинг ровийлари занжири - “олий иснод” сифатида эътироф этилган Имом ад-Доримийнинг асарини “энг сараси” деб топганлар.

Хулоса қилиб қуйидаги фикрларни келтириш мумкин:

- ҳадис иснодларини таҳлил қилиш Имом Доримий ва Имом Термизийнинг ҳадис илмига олиб кирган янги илмий услуби бўлди. Улар ўзларининг илмий сафарлари давомида энг муҳим вазифа қилиб, жамлаган барча ҳадисларнинг иснодини таҳлил қилишни белгиладилар. Сўнгра ҳадисларнинг матнини заиф ва ёлғонлардан тозаладилар. Алломаларнинг ҳадисларнинг даражалари, ровийларнинг мартабаларига нисбатан билдирилган фикрлари ҳам диққатга сазовор. Бу борада Имом Термизийнинг ҳадис тўпламини ёзишдаги ўзига хос услуби, асардаги ҳадисларнинг аксарияти ишончли *марфу* ҳадислардан ташкил топганлиги ва бошқа кўплаб жиҳатларини эътиборга олиб, уни “Олти ишончли ҳадис тўпламлари” сирасида учинчи ўринга лойиқ топилганлигидир.

Юртимиздан чиққан бу икки буюк муҳаддисларнинг илмий-маънавий мероси, шубҳасиз, XXI асрда ғоят долзарб аҳамиятга молик турли масалалар - миллатлар, халқларнинг тинч-тотувлигини мустаҳкамлаш, маънавиятини юксалтириш каби мақсадларига хизмат қилади. “Сунан”лардаги ҳадислар ислом дини таълимотига оид умумий қоидаларни акс эттириш билан чекланмай, меҳр-муҳаббат, саҳийлик, очиқ кўнгиллик, катталарга хурмат, етим-есирларга мурувват, фақир-бечораларга ҳиммат, ватанга муҳаббат, меҳнатсеварлик, ҳалоллик сингари чин инсоний фазилатларни ҳам улуғлайди.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Абдуллоҳ ибн Абдураҳмон ибн ал-Фадл ибн Баҳром ат-Тамимий ас-Самарқандий ад-Доримий. Сунан ад-Доримий. - Байрут: Дор ал-кутуб ал-илмийа, 1996.
2. Абу Абдуллоҳ Шамсуддин Муҳаммад ибн Аҳмад аз-Заҳабий. Сийар аълом ан-нубало. 17 жилдли. – Байрут: Муассаса ар-рисала, 1992. – Ж. 12. - Б. 550-572.
3. Абу Бакр Аҳмад ибн Али ал-Хатиб ал-Бағдодий. Тарих Бағдод. Ж.10. Байрут: 2006.
4. Абу Исо Муҳаммад ибн Исо ибн Савра. Ал-Жоми' ас-саҳиҳ ва хува сунан ат-Термизий. 5 жилдли. – Байрут: ал-Иҳйа ат-турос ал-арабий, 1995.
**Аннотация:** Мақолада рақамли иқтисодиётнинг раивожланиши натижасида барча соҳаларда рақобат ўсиб ва тобора глобаллашиб бориши, қоғозли технологиядан электрон бошқарув технологияси усул ва услубларига ўтиши янги имкониятлар, ҳаражат ва вақт тежалиши каби тизим фаолиятида қулайликларнинг яратилиши билан бирга тизимнинг хавфсизлигини таъминлаш борасида талабларнинг қўйилиши ҳақида атаб ўтиладди. Бу борадаги ишлар жумласида суд ҳокимияти органлари фаолиятини рақамлаштириш, судлар ўртасида ахборот алмашинувини яхшилашни таъминловчи муҳим қонун ҳужжатлари ҳам қабул қилинди. Мамлакатимизда "Е-экспертиза" ягона электрон ахборот тизими ишга туширилиши<sup>254</sup> суд экспертлари ва экспертиза тўғрисидаги маълумотларни тўплаш ва қайта ишлаш жараёнларини комплекс автоматлаштириш, суд-эксперт фаолияти соҳасида аҳоли ва ваколатли органларга ахборот етказиш, шунингдек, эксперт ҳаракатларини амалга оширишда иштирок этадиган ташкилотлар билан ахборот ҳамкорлигининг барча турларини таъминлаш имконини беришга мўлжалланган ишлар ҳам улар сирасида муҳим аҳамиятга эгаллиги берилган.

**Калит сўзлари:** иқтисодиёт, рақамли иқтисодиёт, рақамли технологиялар, Рақамли иқтисодиёт тамойиллари, электрон маълумотлар тизими, электрон ҳукумат, судлар фаолиятини, суд ҳокимияти органлари, суд ҳокимияти органлари фаолиятини рақамлаштириши, Е-экспертиза.

Рақамли иқтисодиёт рақамли технологияларга асосланган иқтисодий фаолият ҳисобланади. Маълумки, рақамли иқтисодиёт тушунчаси XX асрнинг сўнгги ўн йиллигида пайдо бўлган. Рақамли иқтисодиётнинг ўсиши бутун иқтисодиётга таъсир қилади. Рақамли иқтисодиётнинг тарқалиши натижасида барча соҳаларда рақобат ўсиб ва тобора глобаллашиб бормоқда. Рақамли иқтисодиёт икки муҳим тамойилга – ахборот ва тармоқ технологиясига қаратилган. Электрон маълумотлар рақамлаштиришнинг асосий стратегик ресурси. Ахборотдан фойдаланиш учун замонавий ИТ-воситалар, жумладан, бизнес-моделлар ишлаб чиқилмоқда ва ривожлантирилмоқда. Иштирокчилар ўртасида катта миқдордаги электрон ахборотни алмашиш механизмини тезлаштиришда рақамли иқтисодиётнинг моҳияти ва аҳамияти, мунтазам жараёнларни соддалаштиришдан иборат. Рақамли иқтисодиёт ижтимоий ривожланишга босқичма-босқич таъсир кўрсатади, барча иштирокчилар учун операцияларнинг қулайлигини оширади. Бу эса ресурслар ва вақтни тежайди. Ўзбекистон Республикаси Президенти 2020-йил 28-апрелда "Рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида" ги қарорни имзолади. Хусусан, Ўзбекистон ЯИМ даги рақамли иқтисодиётнинг улуши 2023 йилга нисбатан 2 баробар, электрон давлат хизматлари ҳажми эса 2022 йилга нисбатан 60 фоизга оширилиши режалаштирилган<sup>255</sup>. Шунингдек, қарорда рақамли тадбиркорликни ривожлантириш, бу соҳада хизмат кўрсатиш ҳажмини 2023-йилга 3 баробар ошириш ва уларнинг экспортини 100 млн. долларга етказиш кўзда тутилган бўлиб, 2022-йилга қадар мамлакатимизнинг барча ҳудудларида рақамли билимларни ўқитиш марказларининг очилиши, барча соғлиқни сақлаш муассасалари, мактаблар, мактабгача таълим муассасалари, қишлоқлар ва маҳаллалар эса 2020-2021-йилларда юқори тезликдаги интернетга уланиши кераклиги белгиланган. "Рақамли Ўзбекистон - 2030" стратегияси эса, 2020-йил 5-октябрдаги Президент фармони билан тасдиқланди. Унда

<sup>254</sup> <https://lex.uz/docs/5491507>

<sup>255</sup> <https://finance.uz/index.php/ru/fuz-menu-economy-ru/11083-uzbekistan-v-tsifrovoy-ekonomike>.



рақамлаштиришни ривожлантиришнинг мақсадли кўрсаткичлари ҳудудлар кесимида батафсил баён этилган. Бу борадаги ишлар жумласида суд ҳокимияти органлари фаолиятини рақамлаштириш, судлар ўртасида ахборот алмашинувини яхшилашни таъминловчи муҳим қонун ҳужжатлари ҳам қабул қилинди. Улардан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020-йил 24-июлда қабул қилинган "Судлар фаолиятини янада такомиллаштириш ва Одил судлов самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида" ги Фармонни ва 2020 йил 3-сентябрдаги "Суд ҳокимияти органлари фаолиятини рақамлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида" ги қарорни келтириб ўтишимиз мумкин. Шунингдек, Ўзбекистонда 2021-2025-йилларда суд-эксперт фаолиятини ривожлантириш концепцияси ва 2021-2023-йилларда уни амалга ошириш бўйича "Йўл харитаси" тасдиқланди. Шунингдек, 2022-йил 1-мартдан мамлакатимизда "Е-экспертиза" ягона электрон ахборот тизими ишга туширилиши<sup>256</sup> суд экспертлари ва экспертиза тўғрисидаги маълумотларни тўплаш ва қайта ишлаш жараёнларини комплекс автоматлаштириш, суд-эксперт фаолияти соҳасида аҳоли ва ваколатли органларга ахборот етказиш, шунингдек, эксперт ҳаракатларини амалга оширишда иштирок этадиган ташкилотлар билан ахборот ҳамкорлигининг барча турларини таъминлаш имконини беришга мўлжалланган. 2022 йил 1 апрелга қадар эса, Олий суд, Бош прокуратура, Ички ишлар вазирлиги, Соғлиқни сақлаш вазирлиги ва бошқа манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда «Суд экспертизаси тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг янги таҳририни ишлаб чиқиш ва Вазирлар Маҳкамасига киритиш белгиланган. Судлар фаолиятини рақамлаштириш фуқаролар ва тадбиркорлик субъектлари учун янада қулайлик яратиш билан бирга тизим фаолиятида ортиқча бюрократизмни чеклаш, олис туманларда яшаётган фуқароларга масофадан туриб суд жараёнларида иштирок этиш имкониятини таъминлаш, судлар фаолиятининг очиклиги ва ошкоралигини янада оширади. Бу эса рақамли иқтисодиётда тизимнинг ривожланишида яратилаётган қулайликлар, яъни ижобий томонларидан бўлсалар, иккинчи томондан салбий, яъни иқтисодий жиноят турлари ва унинг сони ҳам ортиб бормоқда. Улардан, иқтисодий жиноятлардан фирибгарлик жиноятнинг даражасини ошириши, бу эса - ахборот хавфсизлиги ҳуқуқий, техник, жисмоний ва криптографик маълумотларни ҳимоя қилиш нуқтаи назаридан таъминланиши кераклиги зарур. Бугунги ривожланишда иқтисодий бозор муносабатларида иқтисодий жиноятларга қарши курашиш, «хуфёна иқтисодиёт»нинг шаклланиш механизмларини, чет эл валютасининг назоратсиз чиқиб кетиш каналларини ўз вақтида аниқлашнинг шакл ва усулларини тубдан қайта кўриб чиқиш, шунингдек, тадбиркорлик субъектларини ҳимоя қилиш, импортни оптималлаштириш ва миллий товарлар экспортини рағбатлантириш бўйича тизимли ишларни кучайтириш муносабат билан, фаолияти иқтисодиёт ривожини, тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш, иқтисодий жиноятлар ва коррупцияга қарши курашишнинг замонавий воқеликка тўлиқ жавоб бермаётган Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси ҳузуридаги Солиқ, валютага оид жиноятларга ва жинорий даромадларни легаллаштиришга қарши курашиш департаментининг вазифалари, функциялари ва ваколатларини тубдан қайта кўриб чиқиш борасида ҳам «Бюджет маблағларидан фойдаланиш самарадорлигини тубдан ошириш ва иқтисодий жиноятларга қарши курашиш механизмларини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-5446-сонли фармони қабул этилиб, 24.04.2018 - йил кучга киритилган эди<sup>257</sup>. Бу ҳам иқтисодий жиноятларга қарши курашишда янгича услублардан бирин белгилаб берди. Рақамли иқтисодиётнинг ривожланишида иқтисодиётнинг барча тармоқ ва соҳаларининг рақамлаштирилиб боришида қоғозли технологиядан электрон бошқарув технологияси усул ва услубларига ўтиши янги имкониятлар, ҳаражат ва вақт тежалиши каби тизим фаолиятида қулайликларнинг яратилиши билан бирга тизимнинг хавфсизлигини таъминлаш борасида талабларни қўймоқда.

<sup>256</sup> <https://lex.uz/docs/5491507>

<sup>257</sup> <https://lex.uz/docs/3743214>

## ЭРКИН ВА КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИ КОРХОНАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ЧЕТ ЭЛ ВА МИЛЛИЙ ТАЖИРИБАЛАР

*Балташева Зухра Аденбаевна*

*Қорақалпоқ давлат университети, Иқтисодиёт факультети,  
Иқтисодиёт кафедраси доценти, иқтисод фанлари номзоди.*

*Ембергенова Анжум Айдосбаевна*

*Қорақалпоқ давлат университети, Иқтисодиёт факультети,  
Иқтисодиёт кафедраси ассистенти.*

*Хожанова Гульмира Гайратбай кизи*

*Қорақалпоқ давлат университети 2-курс магистранти.*

**Аннотация:** Иқтисодиётда саноатнинг ривожланиши, жумладан эркин иқтисодий ва кичик саноат зоналарининг ташкил этилиши, уларнинг самарали фаолият юритишларинг йўлга қўйилишлари, уларнинг муҳим аҳамиятлиги мамлакатимизда алоҳида эътибор қаратилиши бериб ўтилган.

Эркин иқтисодий ва кичик саноат зоналарининг назарий ва амалий тушунчалари, бу борада чет эл ва миллий тажрибалари бериб ўтилган. Шунингдек саноат зоналарини яратиш, замонавий талабларга жавоб берадиган янги техника ва технологияларни қўллаш юқори сифатли, рақобатбардош товарларни шакллантиришга ёрдам беради ва аҳоли фаровонлигини таъминлайди.

**Калит сўзлар:** Саноат зоналари, эркин иқтисодий ва кичик саноат зоналари, эркин иқтисодий ва кичик саноат зоналарини яратиш, ташкил этиш, уларни ривожлантириш, чет эл ва миллий тажрибалар, янги техника ва технологиялар, аҳолини иш билан таъминлаш, аҳоли фаровонлигини таъминлаш.

**Аннотация:** Развитию промышленности в экономике, в том числе созданию свободных экономических и малых промышленных зон, налаживанию их эффективного функционирования, их важному значению в нашей стране уделяется особое внимание.

Были приведены теоретические и практические концепции свободных экономических и малых промышленных зон, зарубежный и национальный опыт в этом отношении. Также создание промышленных зон, применение новых техники и технологий, отвечающих современным требованиям, поможет сформировать качественные, конкурентоспособные товары и обеспечить благосостояние населения.

**Ключевые слова:** промышленные зоны, свободные экономические и малые промышленные зоны, создание, организация, развитие свободных экономических и малых промышленных зон, зарубежные и отечественные эксперименты, новые техники и технологии, занятость населения, обеспечение благосостояния населения.

**Abstract:** The development of industry in the economy, including the creation of free economic and small industrial zones, the establishment of their effective functioning, their importance in our country is given special attention.

Theoretical and practical concepts of free economic and small industrial zones, foreign and national experience in this regard were presented. Also, the creation of industrial zones, the use of new equipment and technologies that meet modern requirements will help to form high-quality, competitive goods and ensure the well-being of the population.

**Keywords:** industrial zones, free economic and small industrial zones, creation, organization, development of free economic and small industrial zones, foreign and domestic experiments, new techniques and technologies, employment of the population, ensuring the welfare of the population.

Иқтисодиётда саноатнинг ривожланиши барча иқтисодий тармоқ ва соҳаларнинг ривожлантиришда аҳамиятли ўринни эгаллайди. Бу борада мамлакатимизда алоҳида эътибор қаратилмоқда, жумладан мамлакатимизда эркин иқтисодий ва кичик саноат зоналарининг ташкил этилиши, уларнинг самарали фаолият юритишларинг йўлга қўйилишлари муҳим аҳамиятли йўналишларнинг бири ҳисобланади. Бугунги кунда улар сони яънада ортиб бормоқда. «Бугунги ўзгарувчан шароитда иқтисодиёт барқарорлигини таъминлашнинг энг самарали йўли бу – ички имкониятларни ишга солиш, импорт бўлаётган айрим маҳсулотларни ўзимизда ишлаб чиқариш ва саноатни янада ривожлантириш. Бу миллий иқтисодиётимизнинг устувор йўналиши бўлиши керак»<sup>258</sup> – деб таъкидлаб ўтган эди Президентимиз Шавкат Мирзиёев ўз чиқишларида.

Саноатни, жумладан эркин иқтисодий ва кичик саноат зоналарини ривожлантириб бориш борасиди давлатимиз томонида бир қатор қонун ҳужжатлари ҳам қабул қилинди. Масалан, «Кичик саноат зоналари тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақи»да 2020 йили 9 март ойида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 134-сонли қарори қабул этилган бўлсалар, ривожланишлар натижасида ҳозирги кунда мазкур ҳужжатга ўзгартиришлар киритилмоқда. «Худудларнинг саноат салоҳиятини оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғриси»да 2021 йил 9 июн ойида эса, Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-6244-сонли Фармони қабул қилинган. «Республикада ишлаб чиқаришни ривожлантириш ва саноат кооперациясини кенгайтиришнинг самарали тизимини яратиш чора-тадбирлари тўғриси»да 2022 йил 24 январ ойида эса Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-99-сонли қарори қабул этилган. Бу қонун ҳужжатларининг барчаси мамлакатимизда саноатни ривожлантиришга асосланган ҳужжатлар ҳисобланади. Эркин иқтисодий ва кичик саноат зоналарини ривожлантириш, уларнинг ривожланишига сармояларни жалб қилиш, янги иш ўринлари яратиш ва аҳоли фаровонлигини оширишда ҳам аҳамиятли. Бу борадаги ишлар юзасида дунё тажрибаларида ҳам кенгдан ўрганиб, кўриб ўтишимиз мумкин. Уларда ҳам кенг муҳиёда қонун ҳужжатлари қабул қиланган ва амалга тадбиқ этилган. Жаҳон амалиётида махсус иқтисодий шароитларга эга бўлган зоналарнинг энг кенг тарқалган номи «Эркин иқтисодий зоналар» ибораси бўлиб, у умумий тушунча сифатида ишлатилади. Айнан шу ибора кўплаб Европа мамлакатлари, шу жумладан Беларусия Республикаси, Литва, Латвия қонунчилигида ҳам қўлланилади. Шунингдек, Польша ва Украинада улар «Махсус иқтисодий зоналар» деб аталади. Сербия, Македонияда эса «Эркин зона», Нидерландияда «Иқтисодий зона», Буюк Британия, Франция, Венгрияда «Бизнес зонаси», Чехия, Словакияда эса «Саноат зонаси» номлари ва умумий тушунчалар сифатида ишлатилади экан. Улар зоналарнинг ўзига хос турларини кўрсатади: эркин савдо зонаси, эркин порт, эркин омбор, саноат парки, илмий парк, технопарк ва бошқаларни<sup>259</sup>.

Махсус иқтисодий зоналар иқтисодиётнинг ишлаб чиқариш ва юқори технологияли тармоқларини ривожлантириш, янги турдаги маҳсулотларни ишлаб чиқариш ва транспорт инфратузилмасини ривожлантириш учун ташкил этилган. Шунингдек чет эл тажрибаларида тегишли зоналарни яратиш давлат ёки шаҳар мулкида бўлган 20 квадрат километрдан ошмайдиган ер участкаларида бўлиши кераклиги белгиланган ва қонун ҳужжатларига асосан ўз ҳудудида амалга оширилиши мумкин бўлган фаолият турларини белгилайди. Жаҳон тажрибаси бўйича дунёда мавжуд бўлган махсус (эркин) иқтисодий зоналарнинг аксарияти саноат типидagi зоналар экан. Бразилияда 1967 йилда майдони 3,6 миллион квадрат километр бўлган эркин зона - "Манаус эркин зонасининг саноат тумани" (Амазония) ташкил этилган. Худуд экспорти умумий ишлаб чиқаришнинг атиги 30-3% ини ташкил этган ва маҳсулотлари ички бозор учун зарур бўлган 5 та саноат корхонасини қамраб олган. Солиқ имтиёзлари бериш орқали ишлаб чиқаришни ривожлантиришни рағбатлантириш амалга оширилади.

<sup>258</sup> <https://www.uzavtoyul.uz/cy/post/sanoat-kooperatsiyasi-va-mahalliyashtirish-milliy-iqtisodiyotning-ustuvor-yonalishi>.

<sup>259</sup> [http://www.ossfb.ru/experts/otrasli\\_MB/economzone](http://www.ossfb.ru/experts/otrasli_MB/economzone)

Мексикада саноатни ривожлантириш дастурининг муваффақиятли амалга оширилиши туфайли саноат секторининг изчил диверсификациясига эришилган (чет эл таркибий қисмлари ва ярим тайёр маҳсулотларни йиғиш ёки қайта ишлаш билан шуғулланадиган саноат корхоналари вақтинча божсиз олиб келинган ва йиғиш, қайта ишлашдан кейин қайта экспорт қилинган). Мексика тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни энг муҳим рағбатлантирадиган нарсаларга алоҳида эътибор қаратган: камситмаслик ва миллий муомала. Хитойда 14 шаҳарда 1984 йилдан бошлаб хорижий инвестицияларни жалб қилиш сиёсати доирасида иқтисодий ва технологик ривожланиш зоналари ташкил этилган. Чет эл капитали иштирокидаги корхоналарга солиқ имтиёзлари берилган. Улардан 10 йил ва ундан ортиқ муддатга мўлжалланган инвестиция лойиҳаларини амалга оширишни амалга оширганлар фойда бошланишидан бошлаб икки йил давомида даромад солиғидан озод этилган. Кейинги уч - беш йил ичида улар белгиланган солиқ ставкасининг ярмини, тайёр маҳсулотларнинг 70% дан ортиғини экспорт қиладиган корхоналар эса белгиланган ставканинг атиги учдан бир қисмини тўлашади экан. Россия Федерациясида эса махсус иқтисодий зоналар узайтириш имкониятисиз 20 йил муддатга яратилади. Махсус иқтисодий зонани ташкил этиш тўғрисида Россия Федерацияси ҳукумати Фармони мавжуд бўлиб, шунга амал этади. Бундай зоналарни яратишнинг турли хил мақсадлари ва уларнинг ҳудудида бизнес юритишнинг турли хил қоидалари бундай зоналарни белгилаш учун турли хил атамаларни келтириб чиқаради ва уларнинг ҳуқуқий режимларини қиёсий таҳлилини мураккаблаштиради. Миллий тажрибамизда эса, бугунги кунда Ўзбекистон Республикасида ҳам эркин иқтисодий ва кичик саноат зоналари ташкил этилган. Жумладан, Қорақалпоғистон Республикасида эркин ва кичик саноат зоналари ривожланмоқда. Улардан, фармацевтика маҳсулотларини ишлаб чиқаришга ихтисослашган лойиҳаларни амалга ошириш учун мўлжалланган "Нукус-фарм" эркин иқтисодий зонасини яратилиши катта имкониятлар эшигини очди. Бундан ташқари, кичик саноат зоналарида Амударё, Беруний, Чимбой, Тахиаташ, Хожейли, Қўнғирот туманлари қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишлаш, қурилиш материаллари, темир буюмлар, трикотаж товарларини, тайёр кийим-кечак, спорт товарлари, мебель, ем-хашак, қурилиш материаллари ишлаб чиқариш бўйича истикболли лойиҳалар амалга оширилиши кутилмоқда. Шу билан бирга, экспортга йўналтирилган ва импорт ўрнини босувчи тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқарадиган тадбиркорлар фаолияти учун қулай шарт-шароитлар яратиш, ишлаб чиқариш инфратузилмасини (йўллар, ичимлик суви, электр энергия, табиий газ, алоқа билан таъминлаш) шакллантириш, ривожлантириш масалаларини кўриб чиқилмоқда. Бу борада эркин иқтисодий ва кичик саноат зоналарини ривожлантириб боришда, уларнинг фаолиятининг меъёрий-ҳуқуқий базасини такомиллаштириш, уни замонавий талабларга мослаштириш, ҳамма учун очиқ механизм яратиш, шунингдек ташкилий процедураларни соддалаштириш, инвесторлар ва тадбиркорларни жалб қилишни кенгайтириш масалалари белгилаб ўтилган. Аммо, бугунги кунда янги ишлаб чиқариш объектларини яратишда хорижий инвестицияларни жалб этиш ишлари талаб этилади. Республикада келажакда замонавий техника ва технологиялардан фойдаланган ҳолда босқичма-босқич эркин иқтисодий ва кичик саноат зоналарни ривожлантириб бориш белгиланган. У ўз ичига қўйидагиларни олган ва 2030 йилгача ривожлантириш истикболлига прогноз берилган (1 ва 2 жадваллар):

I - босқич (2018-2021 й.й.) - инвесторларни потенциал топиш, ҳудудда ишлаб чиқаришни жойлаштиришга тадбиркорларни жалб қилиш, тадбиркорлик фаолиятини ошириш учун бизнес-инкубаторлар яратиш, плантацияларни ташкил этиш, ҳудуднинг инфратузилмасини ривожлантириш орқали хом ашё базасини шакллантириш. Шунингдек ҳудудни электр энергияси, газ, сув билан таъминлаш, канализация иншоотларини қуриш, темир йўл инфратузилмаси ва автомобил йўллари лойиҳаларини амалга ошириш.

II - босқич (2022-2030 й.й.) - инновацион-индустриаль ривожлантириш босқичи бўлиб, ушбу босқичда технологияларни узатиш марказини яратиш, юқори технологияли маҳсулотлар ишлаб чиқариш истикболли белгиланган.

**1-жадвал.** Қорақалпоғистон Республикаси саноатини ривожлантириш истиқболлари.

Кўрсаткичлар номи	2017 й.	2021 й.	2030 й.	Мақсадлар
Саноат ишлаб чиқаришининг ўртача йиллик ўсиш суръатлари, %	109,4	110,5	112,0	
ЯРМ да саноатнинг улуши, %	30,2	31,0	32,0	даражасини сақлаб
Регион саноатида қўшилган қиймат улуши, %	37,5	38,5	41,0	ресурсларни тежайдиган техника ва технологияларни жорий етиш, ўртача республика параметрига келтириш (40%)
Худудий ишлаб чиқаришининг саноатдаги улуши, %	17,4	22,0	30,0	тадбиркорлик фаолиятини фаоллаштириш, ўртача республика параметрига келтириш (30%)
Регион саноатининг технологик таркибида юқори технологияли маҳсулотларнинг улуши, %	0,1	0,3	0,7	замонавий технологияларни жорий етиш, республика параметрига еришиш (1,5%)
Ўзбекистон саноатининг ривожланишида вилоятнинг улуши, %	4,6	4,8	5,0	5.0 дан паст эмас%

**Манба:** *Перспектива развития промышленности Республики Каракалпакстан.*

**2-жадвал.** Қорақалпоғистон Республикаси саноатини ривожлантириш истиқболлари.

Кўрсаткичлар номи	Факт	Прогноз			
	2017 й.	2019 й.	2023 й.	2025 й.	2030 й.
<b>Инерцион вариант</b>					
Саноат ишлаб чиқаришининг ўртача йиллик ўсиш суръатлари, %	109,4	109,5	109,0	108,5	108,0
ЯРМ да саноатнинг улуши, %	30,2	31,0	32,0	31,5	31,0
Регион саноатида қўшилган қиймат улуши, %	37,5	38,5	39,0	38,0	38,0
Худудий ишлаб чиқаришининг саноатдаги улуши, %	17,4	18,5	20,0	21,0	22,0
Регион саноатининг технологик таркибида юқори технологияли маҳсулотларнинг улуши, %	0,1	0,2	0,3	0,35	0,2
Ўзбекистон саноатининг ривожланишида Регионнинг улуши, %	4,6	4,0	4,0	3,5	3,0
<b>Тавсия этилган чора-тадбирларни амалга оширишни ҳисобга олган ҳолдаги фаол вариант</b>					
Саноат ишлаб чиқаришининг ўртача йиллик ўсиш суръатлари, %	109,4	110,5	111,0	112,0	113,0
ЯРМ да саноатнинг улуши, %	30,2	32,0	34,0	37,0	40,0
Регион саноатида қўшилган қиймат улуши, %	37,5	38,0	39,5	40,0	43
Худудий ишлаб чиқаришининг саноатдаги улуши, %	17,4	20,0	23,0	25,0	30,0
Регион саноатининг технологик таркибида юқори технологияли маҳсулотларнинг улуши, %	0,1	0,3	0,5	0,7	1,0
Ўзбекистон саноатининг ривожланишида регионнинг улуши, %	4,6	4,8	5,0	5,0	6,0

**Манба:** *Перспектива развития промышленности Республики Каракалпакстан.*

Минтақа саноатининг ўсиш истиқболлари инфратузилма таркибий қисмларини, айниқса қишлоқ жойларини янада ривожлантириш билан чамбарчас боғлиқ. Шу муносабат билан кичик бизнес ва маҳаллий ишлаб чиқарувчиларни фаоллаштириш, тадбиркорларни қўллаб-қувватлаш, уларнинг фаолиятининг дастлабки босқичида кичик бизнеснинг барқарор ривожланиши учун фаол бўлмаган ишлаб чиқариш объектлари ва майдонларидан самарали фойдаланиш асосида иқтисодий ва ташкилий шароитларни яратиш, мақсадли бўлган кичик саноат зоналари фаолиятини рағбатлантириш мақсадга мувофиқдир.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. <https://www.uzavtoyul.uz/cy/post/sanoat-kooperatsiyasi-va-mahalliyashtirish>.
2. [http://www.osspsb.ru/experts/otrasli\\_MB/economzone](http://www.osspsb.ru/experts/otrasli_MB/economzone)
3. СТРАТЕГИЯ РКІ и II часть. 09.08.2018. Из приложения Перспектива развития промышленности Республики Каракалпакстан.



## ШАЙЫР УЛМАМБЕТ ХОЖАНАЗАРОВ ДӨРЕТИЎШИЛИГИНИҢ ҮЙРЕНИЛИҰИ

*Баётдинов Мухаммеддин Казымбекович*  
*Қарақалпақ мәмлекетлик университети.*

Көркем әдебиетте дөретиўшиниң стили үлкен әҳмийетке ийе. Себеби, көркем әдебиетте дөретиўшиниң өз стилин жаратыўи шығармалардың оригиналлығын тәмийинлейди. Бул болса, өз гезегинде жанрлық, формалық, тематикалық, идеялық жаңаланыўлар шеңберин кеңейтеди. Әдебиеттаныўда да стиль мәселеси ҳәзирги ўақытта актуал мәселелердин бири сыпатында қаралады. Индивидуаль стиль мәселеси бойынша қарақалпақ әдебиеттаныўында да өз алдына илимий изертлеў жумыслары [1] алып барылды. Көркем әдебиетте, соның ишинде өз алдына әдебий түр болған лирикада индивидуальлықтың күшейиўи, яғный дараланыў лириканың ең раўажланған пайытына туўра келеди. Анықлап айтқанда, белгили бир халық поэзиясында дәўир талабы менен дөретиўши қатламның көбейиўи өз өзинен шайыр-жазыўшылардың алдына өзгелерге уқсамаў хәм оригинал болыў ўазыйпасын қояды. Өткен әсирдин 60-жылларында қарақалпақ әдебиятына, соның ишинде поэзияға бир топар шайырлар өзлериниң алдыңғы әўладты қайталамаған лирикасы менен кирип келди. Олардан Ш.Сейтов, Т.Мәтмуратов, У.Хожаназаров, У.Пиржанов, К.Рахманов, Теңелбай Сәрсенбаев хәм басқа да шайырларды атап өтсек болады. Солардың ишинде Өзбекстанда хызмет көрсеткен мәдениет хызметкери, Қарақалпақстан халық шайыры Улмамбет Хожаназаров поэзияда өзиниң индивидуал стили менен ажыралып турған шайырлардан болды. Оның «Әўелемен-дүўелемен» (1969), «Кеўил туйғылары» (1970), «Жылларым мениң» (1976), «Напевы Аму», «Кеўил қусым» (2010) атамасындағы топламлары баспадан шықты. Ол аўдармашы сыпатында А.Пушкин, Ю.Лермонтов, В.Маяковский, Р.Бабажан хәм А.Твардовскийдин айырым шығармаларын қарақалпақ тилине аўдарды. У.Хожаназаровтың лирикасында миллий колорит, жаңалықлар жаратыўға талпыныўшылық айрықша көзге тасланады. Ал, балаларға арналған қосықларын балалар әдебиятының ең жақсы үлгилери сыпатында қараў мүмкин. Қарақалпақ әдебиеттаныўында, соның ишинде әдебий сында Улмамбет Хожаназаров дөретиўшилиги бир қатар илимпазлардың мийнетлеринде атап өтилди. Атап айтқанда, С.Ахметов, К.Худайбергеновлар өзлериниң илимий мийнетлеринде хәм сын мақалаларында [2] шайыр лирикасының идеялық-тематикалық өзгешеликлери туўралы пикирлер билдирди. Сондай-ақ, шайыр хәм оның дөретиўшилиги ҳаққында айырым публицистикалық мақалалар да [3] жәрияланды. Деген менен, У.Хожаназаровтың лирикасы өз алдына илимий изертлеў объекти болған жоқ. Сонлықтан ҳәзирги әдебиеттаныў илими алдында шайырдың индивидуал стилин, дүньятанымын, лирикада дөретиўшиниң идеялық-тематикалық изленислерин, жанрлар көп түрлилигин, формалық өзгешеликлерин, көркем аўдарма хәм әдебий тәсир мәселелерин салыстырмалы үйрениў әҳмийетли ўазыйпалардан есапланады. «Көркем сөз устасының жеке өзине тән стилин анықлаў ушын еки жазыўшының дөретпелерин бир-бирине салыстырып үйрениў усылынан пайдаланыў мүмкин. Бундай салыстырыўлар нәтийжесинде еки жазыўшы шеберлигиниң уқсас тәреплери де, уқсамайтуғын тәреплери де анықланады» [4]. Дурысында да, шайыр У.Хожаназаров хәм оның менен заманлас шайырлардың шығармаларын салыстырып үйрениў арқалы шайырдың өзине тән стили көринеди. Әсиресе, өткен әсирдин 60-жылларындағы қарақалпақ шайырларының тематикалық жақтан бир-бирине жақын шығармалар дөреткенин, бирақ та хәр шайыр сол темаға өзинше, өз стили менен жантасқаны көринеди. Буны әдебиетши Камал Худайбергеновтың «Поэзияның жаңа толқыны» мақаласында [2,2] өткен әсирдин 60-жыллары кирип келген шайырлардың шығармаларына шолыў жасаўында көриўимизге болады. Онда илимпаз: «У.Хожаназаров турмыс картиналарын сезгирлик пенен илип алыўға ҳәрекет етеди» деген шайыр туўралы өз пикирин билдиреди.

Шынында да, шайырдың «Мениң әкем», «Қулын шаўып баратыр», «Ырғалады бир түп қаратал», «Жалынышлы еди көзлерин» сыяқлы қосықтарын оқыу арқалы бул пикирди түсиниўимиз мүмкин. Мақалада илимпаз «индивидуаль ҳаўаз» терминин жийи қолланады. Әлбетте, бунда индивидуальлыққа итибар қаратылғаны тәбийий. Себеби, әдебий процессте шайырлар санының көбейиўи олардан көркемлик сапа ҳәм индивидуальлықты талап етеди. Жуўмақлап айтқанда, У.Хожаназаров лирикасының өзгешеликлерин, соның ишинде мазмун ҳәм формалық өзгешеликлерди, сондай-ақ, шайырдың дүньятанымын үйрениў арқалы оның жеке стилин анықлаў өз алдына илимий изертлеўди талап етеди.

#### **Пайдаланылған әдебиятлар:**

1. Байниязов Қ. Аяпберген Муўсаевтың шайырлық стилинин өзгешеликлерин. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 1972; Нуржанов П. Хәзирги қарақалпақ романы поэтикасы (композициялық ҳәм жанрлық-стильлик өзгешеликлерин). – Нөкис: «Билим», 2008; Сагидуллаева Ж. Қарақалпақ қиссаларида услубий изланишлар (80 йиллар қиссалари мисолида). Филол.фан.номз.дис.автореферати. – Нукус: 2010; Тоқимбетова Г. Бердақнинг ижодий индивидуаллиги. Филол.фан.бўйича фалсафа докт.дис.автореферати. – Нукус: 2019.
2. Ахметов С. Қарақалпақ совет поэзиясы. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 1988, 263-264-бетлер; Худайбергенов К. Поэзияның жаңа толқыны. «Әмиўдәрья» журналы, №6-сан; Худайбергенов К. Жаслар поэзиясының желиси. «Совет Қарақалпақстаны» газетасы, 1972-жыл, №17-сан.
3. Сатбаев О. Қайта ертленген қаназат. «Устаз жолы» газетасы, 2006-жыл, сентябрь; Машарипова Т. «Кеўил қусым» ушып... ямаса Улмамбет шайырға хатлар. «Қарақалпақ әдебияты» газетасы, 2022-жыл, №1-2-санлар.
4. Járımbetov Q., Genjemuratov B. Ádebiyat teoriyası. – Tashkent: «Sano-standart», 2018-jıl, 86-bet.

## ТУПРОҚ УНУМДОРЛИГИНИ БОШҚАРИШДА ОРГАНИК ЎҒИТЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

**Бердиев Д.Х. Ғойибназарова М.У. Тойлоқова Ф.С.**

*Қарши давлат университети Агрохимё ва экология кафедраси ўқитувчиси  
Қарши давлат университети Агрохимё ва экология кафедраси магистрлари.*

Тупроқнинг озиқа режимини бошқаришда ҳар қандай минерал ўғит органик моддалар ўрнини босаолмайди. Шунинг учун ҳам халқимизда "Органик моддалар тупроқ бағрини иситади" деган ибора бор. Органик моддалар асосан тирик организмларнинг қолдиқлари бўлиб, агрономик тил билан айтганда тўлиқ ўғит ҳисобланади. Уларнинг таркибида ўсимлик ҳаёти учун зарур бўлган моддаларнинг деярли ҳаммаси бор [1]. Тупроқ ҳаётсиз субстрат эмас, у ўзига хос тирик организмдир. Бир грамм унумдор тупроқда 5-6 миллиарддан ортиқ микроорганизмлар яшайди, яъни уларнинг умумий массаси гектарига 30-40 ц ни ташкил қилади. Уларнинг ҳаёт фаолияти ва ривожланиши тупроқнинг органик моддалар билан қай даражада таъминланганлигига боғлиқ [2]. Маҳаллий ўғитлар ичида гўнг асосий ўринни эгаллайди. Унинг таркибида ўсимликлар учун энг зарур ҳисобланган азот, фосфор, калий моддалари, микроэлементлардан бор, марганец, кобальт, мис, рух, молибден кабилар, кальций, магний, олтингугурт каби энг зарур элементлар ҳам кўп миқдорда бўлади. Гўнг экинларга озиқ бўлишдан ташқари ундаги органик моддалар тупроқ структурасини сувга чидамлилигини оширади. Гўнг солинган ерларда тупроқнинг умумий ғоваклиги ошади, сув ва ҳаво ўтказувчанлиги нам сақлаш қобилияти яхшиланади [3]. Механик таркиби оғир, таркибида органик моддалари кам ерларга етарли даражада солинган гўнгнинг самарадорлиги жуда катта бўлади. Механик таркиби энгил тупроқларга солинган гўнг уларнинг қовушқоқлик хусусиятларини яхшилаб, нам сиғимини оширади. Гўнг ерга солинган минерал ўғитларнинг самарадорлигини оширишда ҳам муҳим омил ҳисобланади. Шунинг учун ҳам кўп ҳолларда минерал ўғитларни органик ўғитлар билан аралаштириб солиш тавсия қилинади. Чунки органик моддаларнинг парчаланиш жараёнида сувда қийин эрийдиган минерал бирикмалар (фосфатлар) ҳам емирилиб осон ўзлаштириладиган ҳолатга ўтади. Гўнгнинг сифати уни сақлаш усулига боғлиқ, унда тўшама ҳам катта аҳамиятга эга, чунки уни таркибида айниқса азот кўп бўлади. Гўнгларнинг самарадорлигини ошириш мақсадида уларни тўғри сақлаш муҳим аҳамиятга эга. Гўнг одатда уч хил усулда: иссиқ ёки юмшоқ ҳолда; совуқ (қаттиқ) ҳолда; иссиқ зичланган ҳолда сақланади. Гўнгларни тупроққа ва бошқа органик моддаларга аралаштириб компостлар тайёрлаш органик ўғит миқдорини кўпайтиради ва уларни гектарига 40-50 т солиш имконини беради.

### **Жадвал.**

Маҳаллий ўғитлар таркибидаги асосий озиқ моддалар миқдори (соф модда ҳисобида).

№	Маҳаллий ўғит турлари	1 т гўнг таркибидаги озиқ модда, кг		
		N	P <sub>2</sub> O	K <sub>2</sub> O
1.	Кўй, эчкининг қуруқ гўнгида	16	5	14
2.	От гўнгида	5	2.5	6
3.	Қорамол гўнгида	4	2.5	5
4.	Сомон	5	2	9
5.	Чучук сув лойқаси	8.3	1.8	10
6.	Компостланган нажасда	6	2	2
7.	Парранданинг қуруқ ахлатида	34	16	8
8.	Пилла қуртининг қуруқ ахлатида.	50	10	-
9.	Янги юлинган ғўзапояда	9.3	5.8	2.8
10.	Шаҳар қаттиқ чиқиндисиди	5	4.1	10

Тўлиқ ўғит сифатидаги самарадорлигини ошириш мақсадида гўнг обороти графигига катъий амал қилган ҳолда ҳар йили пайкалларнинг камида 20-25% гўнгланиши керак. Пахтачилик, ғаллачилик ва сабзавотчиликда органик ўғитлар самарадорлигини ошириш мақсадида гўнглاردан шарбат усулида фойдаланиш катта аҳамиятга эгадир. Чунки гўнг шарбати ўсимликнинг ҳосил тўплаш жараёнида озика элементлари ўсимликка тез сингиши натижасида ҳамда ажралиб чиқаётган карбонат ангидрид газининг фотосинтез жараёнини жадаллаштириши туфайли пайкал бирлигида ўсимликда органик модданинг тўпланишини тезлаштириши, тупроқда нам тўпланиши ҳамда унинг бошқа сув – физик хоссаларини яхшиланиши ҳисобида ҳосилдорликнинг ошишини илғор фермер деҳқонларимиз жуда яхши англаб етганлар. Суғориладиган деҳқончиликда ерлардан самарали фойдаланишнинг энг маҳбул усулларида бири оралик экинлар экишдир. Деҳқончиликнинг бу усулларида фойдаланган фермерларимиз асосан иккита муҳим масалани ечишга кўмаклашган бўладилар. 1. Эрта баҳорда чорва молларини ем-хашак билан таъминлаш. 2. Кўк масса ёки анғиз қолдиқлари билан тупроқни органик моддаларга бойитиш. Булардан ташқари эрозияга мойил ерларни ҳимоялашда ҳам сидератлардан фойдаланиш муҳим аҳамиятга эгадир. Асосий ва такрорий экинлар (ғўза, буғдой) йиғиштириб олингач, қишки қаттиқ совуқлар бошлангунча ҳамда келаси баҳорги асосий экин экилгунча деҳқон ихтиёрида кузда 2-3 ой ва баҳорда 1.5-2 ой қуёшли илиқ кунлар бўлади. Кўпгина тадбиркор фермерлар бу кунлардан ўсув даври қисқа сабзавотлар экиб жуда яхши даромад қилмоқдалар. Юқорида таъкидланганидек асосий экинлар гектар бирлигида юқори ҳосил берганлиги учун тупроқни “чарчатади”лар. Бундайшароитда тупроқни озика меъёрини бошқаришда, унинг сув-физик хоссаларини яхшилашда оралик экинлар яқин кўмакчилардир. Бу мақсадда фойдаланилаётган ўсимликларнинг асосий биологик хусусиятлари: уларнинг асосан тупроқ танламаслиги, тупроқдаги озик моддалардан тежаб фойдаланаолиши, паст ҳароратларга чидамлилиги тез ўсиб ривожланиши кабилардир. Қашқадарё вилояти шароитида оралик экинлардан фойдаланган ҳолда суғориладиган ерлардан самарали фойдаланиш соҳасида қимматли илмий маълумотлар тўпланган. Бу борада Ўзбекистон пахтачилик илмий тадқиқот институтининг Қашқадарё филиали (О.Раҳматов, Я.Бўриев) ҳамда И.Эрназаровларнинг хизматларини эътироф этиш лозим. Оралик экин сифатида ўстирилаётган бу ўсимликлардан жавдар, нўхатак (вика) рапс, шабдар кабилар бўлиб, етиштириш мақсади ва тупроқнинг унумдорлик даражасига қараб баъзан улар ўриб олинмасдан яшил ўғит сифатида майдаланиб баҳорда ҳайдаб ташланади, ёки ўриб олиниб анғизи ҳайдалиб асосий экин экилади. Лекин деҳқончилик амалиётида шу нарса исботланганки, ўсув даври қисқа бўлган бу ўсимлик қолдиқлари жуда тез парчланади. Айниқса Қашқадарё шароитида эрта баҳорда агротехника қоидаларига тўлиқ риоя қилмасдан ҳайдаб ташланган сидератлар микробиологик жараёнларининг жуда жадал кечиши оқибатида органик маҳсулотларнинг тез парчланиши натижасида ҳосил бўлган аммиак, карбонат ангидрид каби газларнинг асосий экин уруғларини униб чиқишига салбий таъсир этиши, асосий экин кўчатларини сийрак бўлиб қолиш ҳоллари исботланган (И.Эрназаров). Асосий экинларни экишдан олдин оралик экинлардан бўшаган ерларни ишлаш технологияси мукамал даражада ишлаб чиқилгани йўқ. Демак мутахассислар олдида оралик экинлардан бўшаган ерларнинг унумдорлигидан самарали фойдаланишнинг мукамал технологиясини ишлаб чиқишдек муҳим вазифа турибди.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Бозоров Т. Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерларнинг унумдорлигини ошириш. Илмий мақолалар тўплами. Тошкент-2012 35 б.
2. Махмудова Д.Г. Гумусообразование в основных почвах Каршинской степей. Автореф. дис.канд. с/х наук. Ташкент. 1974. с.24-25.
3. Хаидмухамедова З., Сатторов Ж., Қосимов У. Тупроқ унумдорлигини пасайиши сабаблари ва уни яхшилаш имкониятлари. Илмий мақолалар тўплами Тошкент-2012 170-173 б.

## ПОСТТРАВМАТИК ИВИГАН ГЕМОТОРАКСДА ВИДЕОТОРАКОСКОПИЯНИНГ ИМКОНИАТЛАРИ

*Беркинов Улуғбек Базарбаевич*

*Тошкент Тиббиёт Академияси 1-сон факультет  
ва госпитал жаррохлик кафедраси.*

*Рашидов Дилшод Абдунаби ўғли*

*Косонсой туман тиббиёт бирлашмаси.*

**Калит сўзлар:** кўкрак қафаси ёпик жароҳатлари, ивиган гемоторакс.

**Кириш.** Кўкрак қафаси жароҳатларининг асоратлари ичида гемоторакс энг кенг тарқалган бўлиб, бугунги кун кўкрак қафаси хирургиясининг жиддий муаммоси ҳисобланади. Олимларнинг фикрича ушбу асоратнинг учраши 26% дан 80% гача бўлиб, жароҳатнинг табиати ва беморнинг ёшига боғлиқ эмас. Ушбу тоифадаги беморларнинг 0,5-30%да кейинчалик ивиган гемоторакс (ИГ) ривожланади, бу эса ўз навбатида ўпка коллапсига ва кўкс ораллиғининг силжишига олиб келиб, нафас ва юрак етишмовчилигининг ривожланишига ҳисса қўшади. Кейинчалик ушбу бартараф этилмаган ИГ 50% ҳолларда плевра эмпиемасига сабабчи бўлади. Шунини таъкидлаш керакки, кўкрак қафаси травмасида йирингли-септик асоратларнинг сабаби бўлган, аммо клиник ва рентгенологик аломатларга эга бўлмаган кичик хажмдаги ИГ-нинг ҳақиқий частотаси ҳозирги кунгача тўлиқ аниқланмаган. Ультратовуш текшируви ва КТ кўкрак жароҳатларида ИГ аниқланишини осонлаштиради, аммо кўпчилик ҳолларда уларнинг имкониятлари чекланган. Кўкрак қафаси жароҳатланган беморларни ташхислаш алгоритмига видеоэндоскопияни киритилиши нафақат ИГ ташхисини яхшилашга, балки ижобий терапевтик самара олишга ҳам имкон берди. Шу сабабли жароҳатдан кейинги ИГ билан касалланган беморларни видеоторакоскопик амалиётлар ёрдамида даволаш натижаларини ўрганиш алоҳида қизиқиш уйғотади.

**Материаллар ва усуллар.** 2012 йилдан 2021 йилгача бўлган давр мобайнида кўкрак қафасида жароҳат олган 804 нафар беморлар Тошкент тиббиёт академиясининг кўп тармоқли клиникасига мурожаат қилишди. Уларнинг 179 нафари кесилган-санчилган жароҳат олганлар ва 625 таси ёпик кўкрак қафаси жароҳати билан қабул қилинган. Ушбу рақамдан 103 беморга ИГ ташхиси қўйилган.

Шунини таъкидлаш лозимки, кесилган-санчилган жароҳатлардан кейин ИГ юзага келиши юқори бўлиб, у 23,4% (42 беморда) ҳолатларда кузатилган. Ёпик жароҳатдан кейин эса ИГ 9,7% (61 беморда) ҳолатларда кузатилган.

Жабрланганларнинг ёши 16 дан 84 ёшгача бўлган. Шунини айтиб ўтиш керакки, 45 ёшгача бўлган беморларда ИГ асосан кўкрак қафасининг кесилган-санчилган жароҳатларидан кейин қайд этилган, ёпик шикастланишларда эса бу асорат асосан 45 ёшдан ошганларда кузатилган. Жабрланганлар орасида 89 (85%) эркек ва 14 (14,9%) аёл бўлган.

**Натижалар.** Кўкрак қафаси жароҳатланган беморларда ИГ юзага келишига сабаб бўлувчи асосий омиллардан бири кеч мурожаат қилиш (24 соатдан ортиқ).

Куйидаги қарамлик аниқланди: бемор касалхонага қанча кеч мурожаат этса, унда ИГни юзага келиш эҳтимоли шунчалик юқори бўлади. Шу билан бирга, кесилган-санчилган жароҳатлардан кейин ИГни биз бемор дарҳол мурожаат қилганда ҳам аниқлаганмиз. ИГ учраш частотасини беморларни мурожаат қилган вақтига ва жароҳат турига боғлиқлиги 1-жадвалда келтирилган.



**1-жадвал.** Жароҳатланишдан кейинги ИГ частотасининг беморларни мурожаат қилган қилиш вақти билан боғлиқлиги.

Мурожаат қилиш вақти	Кесилган-санчилган жароҳатлар		Кўкрак қафаси ёпиқ жароҳатлар		Жами ИГ
	Шикастланганлар сони	ИГ ривожланган беморлар сони (%)	Шикастланганлар сони	ИГ ривожланган беморлар сони (%)	
6 соатгача	129	16 (12,4%)	90	0	16 (7,3%)
1 кунгача	32	11 (34,4%)	377	16 (4,2%)	27 (6,6%)
3 кунгача	7	5 (71%)	67	5 (7,5%)	10 (13,5%)
5 кунгача	5	4 (80%)	42	11 (26,2%)	15 (31,9%)
10 кунгача	3	3 (100%)	28	14 (50%)	17 (54,8%)
10 кундан ортиқ	3	3 (100%)	21	15 (71,4%)	18 (75%)
Жами:	179	42 (23,4%)	625	61 (9,7%)	103 (12,8%)

Шуни таъкидлаш керакки, 3 кундан ортиқ вақт давомида кесилган-санчилган жароҳатланган беморлар бизга асосан бошқа клиникалардан қабул қилинган. У ерда жароҳатга бирламчи ишлов бериш мобайнида, жароҳатни кесиб кирувчи хусусияти аниқланмаган. Бизнинг фикримизча, ИГ ривожланишининг яна бир муҳим омили, плевра бўшлиғига ўрнатилган дренаж функциясининг бузилишидир. Кўкрак қафаси ёпиқ жароҳати сабабли гемоторакс ёки пневмогемоторакс туфайли плевра бўшлиғини дренажлашнинг 187 ҳолатидан 8 тасида узоқ муддатли пассив аспирация ёки дренажни ёпиқ туриши туфайли кейинчалик ИГ ривожланган. Шуни таъкидлаш керакки, кўкрак қафасининг ёпиқ шикастланишидаги кўплаб қовурғалар синишларида пневмоторакс ривожланиш эҳтимоли юқори бўлиб, ИГ юзага келиши кўпроқ кузатишган. Ёпиқ кўкрак қафаси жароҳатларида ИГ якка қовурға синганда ёки синиш кузатилмаганда 18(29,5%) беморда учраган бўлса, кўплаб қовурғалар синганда у 43 (70,5%) беморда кузатишган.

Шундай қилиб, бизнинг кузатишларимизда кўкрак қафаси жароҳатларида ИГ ривожланишининг асосий сабаблари беморларни кеч мурожаат этиши, плевра бўшлиғига ўрнатилган дренаж функциясининг бузилиши ҳамда кўплаб қовурға синишларнинг мавжудлиги бўлди. Кўкрак қафаси ёпиқ жароҳатларида, ҳамда кесилган-санчилган жароҳатланган беморларни кеч мурожаатида текшириш комплексли бўлиб, у умумий клиник кўрикдан ташқари, лаборатор, ноинвазив (ултратовуш текшируви, рентгенография, иложи бўлса кўкрак КТ) ва инвазив (плеврал пункция, видеоторакоскопия) усулларини ўз ичига киритган. 1 кунгача бўлган кесиб кирувчи жароҳатланганларнинг гемодинамикаси стабил бўлганда шошилишч видеоторакоскопия амалга оширилган. Шундай қилиб 161 беморда шошилишч видеоторакоскопия ўтказилган ва улардан 27 тасида ИГ аниқланиб видеоторакоскопик услуб билан бартараф этилган. Қолган 76 беморда ИГ ташхиси клиник ва рентгенологик жиҳатдан 28 ҳолатда тўғри аниқланган. Асосан ИГ тўғри аниқлаш унинг ҳажми 500 мл дан ортиқ бўлган ҳолларда бўлган. Бизнинг маълумотларимизга кўра ИГни аниқлашда бу усулнинг самарадорлиги 37% ни ташкил этди.

Ултратовуш текширувиге асосланиб 65 ҳолатда ИГни мавжудлигини тахмин қилиш мумкин эди ва ташхис унинг ҳажмидан қатъий назар тўғри аниқланган. Шу билан бирга, ултратовуш тери ости эмфиземаси мавжуд бўлганда самарасиздир. ИГни аниқлашда ушбу усулнинг аниқлиги 85,5% ни ташкил этди.

Юқорида айтиб ўтилган текширувлардан сўнг ИГ борлигини тасдиқлаш учун, плевра бўшлиғи пункция қилинган. Плевра бўшлиғи пункциясида, аспирация қилинган махсулотда қон қуйқаларини аниқлаш ИГни ишончли белгисидир. Ундан ташқари плевра пункцияси вақтида тахмин қилингандан анча камроқ қон аспирация қилиниши, ИГ мавжудлиги тўғрисида яна бир маълумотдир. Шубҳали ҳолатларда, шунингдек ИГ ҳажмини аниқлаш зарур бўлган ҳолларда кўкрак қафаси КТси амалга оширилган. Ушбу усул 32 ҳолатдан 31 беморда ИГни аниқлашга имкон берди. ИГни аниқлашда КТ сезгирлиги 97%ни ташкил этди. Шундай қилиб, жарроҳлик амалиётигача бўлган текширув усулларининг самарадорлигини таҳлил қилиш асосида, ИГни аниқлашда фақат КТ юқори самарадорликга эга деган ҳулосага келиш мумкин. Тери ости эмфиземаси йўқлигида ултратовуш текшируви унинг ташҳисидида скрининг усули бўлиши мумкин.

Операциядан олдинги текширув усуллари туфайли биз 76 ҳолатдан 75тасида ИГ мавжудлигини аниқладик. Бир ҳолатда ИГ ташҳиси фақат травматик гемотораксда ўтказилган видеоторакоскопия пайтида аниқланди. Ўтказилган текширув асосида 15 беморда кичик ҳажмли ИГ, ўртача ҳажмли 60 беморда аниқланган. Кузатишларимизда катта ИГ ҳолатлари кузатилмади. Бу беморларда даволаш тактикаси видеоторакоскопия амалиёти билан бошланди. Фақатгина 5 нафар кичик ҳажмли ИГ ва ўта оғир аҳволда бўлган беморларда консерватив даво ўтказилди, плевра бўшлиғини маҳаллий лаваж қилиш учун торакоцентезни қўллашдан иборат бўлди. ИГ лизиси учун антибактериал терапия фонида плевра бўшлиғига фибринолитиклар юборилди. Шундай қилиб, 98 беморда видеоторакоскопия амалга оширилди. Видеоторакоскопияни бажариш техникаси қуйидагича. Оптикани киритиш учун биринчи троакар ИГ локализациясидан энг узок зонага ўрнатилади. Уни ўрнатишда очик усулдан фойдаланилди. Фақат касалхонага ётқизишнинг дастлабки даврида (6 соатгача) кесиб кирувчи жароҳатланганларда, стандарт сифатида, троакар ўрта қўлтиқ ости чизиғи бўйлаб 5-қовурғалар аро, ёпиқ усулда киритилди. Кейин учбурчак принципига риоя қилган ҳолда иккита ишчи троакар ўрнатилади. Қон лахталари эндоскопик қисқич билан булакланади ва эндоотсос билан аспирация қилинади. Одатда, аспирация учун "Брюсан" мосламадан фойдаланилди. Ўпка ёки кўкрак қафаси деворида жароҳатлар аниқланганда қуйидаги видеоэндоскопик амалиётлар ўтказилган: қовурғалар аро артериядан қон кетишини видеоторакоскопик тўхтатиш (26 ҳолатда), ўпка жароҳатини тикиш (25 ҳолатда) ва бошқалар. Операция плевра бўшлиғини дренажлаш билан якунланади.

ВТА 98 ҳолатидан 86 беморда операция каминвазив тарзда давом эттирилди. 12 ҳолатда конверсияга эҳтиёж туғилди. Конверсия ҳолатлари ИГ ривожланишининг давомийлигига бевосита боғлиқ бўлди. Травмадан кейинги ИГ ларда амалга ошириладиган жарроҳлик амалиётлар турлари 2-жадвалда келтирилган.

**2-жадвал.** Посттравматик ИГнинг ривожланиш вақтига қараб амалга ошириладиган жарроҳлик амалиётларнинг турлари.

ИГ ривожланиш муддати	Видеоторакоскопик амалиётлар	Видеоассистент ёрдамида амалиётлар	Торакотомия	жами
1 кунгача	22	19	1	42
3 кунгача	8	1	1	10
5 кунгача	13	1	0	14
10 кунгача	12	2	0	14
10 кундан ортиқ	0	8	10	18
жами	55	31	12	98

2-жадвалдан кўриниб турибдики, 10 кунгача бўлган ИГда деярли барча ҳолларда ВТА каминвазив тарзда якунланган. Ушбу ҳолатларда конверсия медиастинал органларнинг жароҳатларини тикиш зарурати билан боғлиқ бўлган.

10 кундан ортиқ вақт давомида ивиган қонга инфекцион жараён қўшилиб, париетал ва висцерал плеврада фибрин ҳосил қилади. У эса ўз навбатида ажратиш қийин бўладиган кучли битишмали жараён ривожланишига олиб келади. Шу муносабат билан, бизда 18 ҳолатдан 10 тасида торакотомия ёрдамида қисман плеврэктомия амалга оширилди, 8 ҳолатда эса видеоассист амалиёти амалга оширилди. Интраоперацион асоратлар кузатилмади. Операциядан кейинги даврда 10 (10,2%) беморда асоратлар кузатилди. 1 ҳолатда плевра эмпиемаси ривожланди ва 9 тасида чегараланган плеврит кузатилди.

Плевра эмпиемаси ривожланган ҳолатда, кейинчалик торакотомия, плеврэктомия ва декортикация амалга оширилди. Чегараланган плеврит ҳолатлари консерватив усуллар билан бартараф этилди. Шуни таъкидлаш керакки, асорат ҳолатларининг аксарияти (10 дан бтасида) жароҳат олган пайтдан бошлаб 10 кундан ортиқ вақт ўтиб мурожаат қилганларда видеоассист ёрдамида амалга оширилди. Ўткир миокард инфаркти сабабли бир ҳолатда ўлим қайд этилди.

Шундай қилиб, бизнинг кузатишларимизга кўра кўкрак қафаси жароҳатларида ИГ ривожланишининг асосий сабаблари жабрланувчиларнинг кеч мурожаат этиши, плевра бўшлиғига ўрнатилган дренаж функциясининг бузилиши, кўплаб қовурғаларнинг ёпиқ синишлари мавжудлиги деган хулосага келиш имконини берди. Ноинвазив диагностика усуллари орасида МСКТ энг юқори диагностик эффективликка эга. Видеоторакоскопияни кўкрак қафаси шикастланган беморларда диагностика ва даволаш тадбирлари комплексига киритиш нафақат ИГ мавжудлигини тасдиқлаш имконини беради, балки уни бартарав қилишнинг энг самарали минимал инвазив усули ҳисобланади. Бу эса, бизнинг маълумотларимизга кўра, 88% ҳолларда торакотомиядан қочишга имкон берди. ИГни видеоторакоскопик бартараф қилишнинг мақбул шартларидан бири унинг ривожланиш вақти шикастланишдан 10 кунгача ҳолатлардир. Кейинчалик видеоторакоскопик амалиётларни амалга ошириш 10та (10,2%) ҳолатда асоратлар кузатилиши ва 12та (12,2%) конверсия ҳолатлари кузатилди.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Brunner R.J. The role of antibiotic therapy in the of empyema in patient with an isolated Chest Injury / R.J. Brunner // J. Trauma. – 2009. – Vol. 30. – № 9. – P.
2. Norton J.A. Surgery: basic science and clinical Evidence / J.A. Norton. – New York: Springer, Verlag, 2010. – P. 2170.
3. Inaba K., Lustenberger T., Recinos G., et al. Does size matter? A prospective analysis of 28-32 versus 36-40 French chest tube size in trauma. J Trauma Acute Care Surg. 2012; 72 (2): 422-427.
4. Boersma W.G., Stigt J.A., Smit H.J. Treatment of haemothorax. Respir Med. 2010; 104 (11): 1583-1587.
5. Ahmed N., Chung R. Role of early thoracoscopy for management of penetrating wounds of the chest. Am Surg. 2010; 76 (11): 1236-1239.

## СРАВНИТЕЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПЕРОКСИДАЗЫ У ХРЕНА И ПОДОРОЖНИКА

**З.А. Биназова**

<sup>1</sup>Чирчикский государственный педагогический институт  
Ташкентской области (ЧГПИ ТО), студент.

**Д.Т. Жавлиева**


<sup>2</sup>Преподаватель кафедры Чирчикского государственного педагогического  
Института Ташкентской области.

**Б.В. Файзиев**



<sup>3</sup>Заведующий кафедры биологии ЧГПИ ТО, доктор биологических наук, доцент.

**Аннотация:** Пероксидазы подразделяются на два семейства – животные и растительные [2]. Семейство растительных пероксидаз состоит из трех классов, выделяемых на основании исследований аминокислотных последовательностей ферментов [3]. К первому классу растительных ПО относятся внутриклеточные ферменты: аскорбатпероксидаза, бактериальная каталаза-пероксидаза и дрожжевая цитохром-с-пероксидаза, второй класс включает секретируемые грибные ферменты, а к третьему классу относятся секретируемые пероксидазы растений [4]. В данной статье обсуждается динамика фермента пероксидазы у хрена и подорожника на зараженных с X вирусом картофеля и здоровых растений.

**Литература.** Пероксидаза относится к классу оксидоредуктаз. Систематическое название фермента пероксидазы (1.11.1.7) — донор : H<sub>2</sub>O<sub>2</sub>- оксидоредуктаза.



Она катализирует реакцию где в качестве ROOH могут быть пероксид водорода HOOH или органические пероксиды, т. е. она высокоспецифична в отношении акцептора водорода и совсем не специфична в отношении донора водорода. Подвергаться окислению могут многочисленные полифенолы в свободном виде или в виде разнообразных производных — гликозидов, дубильных веществ, а также ароматические амины и некоторые аминокислоты. Указанные выше соединения пероксидаза окисляет с помощью пероксида водорода или любых органических пероксидов, в том числе пероксидов ненасыщенных жирных кислот и каротина. Пероксидаза — это двухкомпонентный фермент, простетическая группа которого содержит гем. Механизм действия пероксидазы может быть описан следующим образом:



где FeOH — железо (II), входящее в состав активной группы пероксидазы; AH<sub>2</sub> — субстрат, окисляемый пероксидазой. Пероксидаза является одним из ферментов, участвующих в регуляции роста и развития растительных организмов, поскольку катализирует защитные реакции от повреждений различного типа, а также участвует в формировании клеточной стенки и дыхании растений [5–7]. Доказана ее роль в образовании ауксина, этилена, восстановлении нитратов и нитритов, то есть в азотном обмене, ростовых процессах [8]. В присутствии ПО регулируется созревание и старение тканей, синтез лигнина [8]. ПО – наиболее часто изучаемый фермент при анализе соматической изменчивости, возникающей в культуре ткани в условиях *in vitro* [9]. Кроме того, энзим является чувствительным к разного рода неблагоприятным воздействиям и широко используется исследователями для оценки

чувствительности/устойчивости к стрессу [10–12]. ПО является индуцибельным ферментом, индуктором которого могут служить физические, химические и биологические факторы. Кислые и основные пероксидазы участвуют в ответных реакциях при стрессовом состоянии растительного организма. В самом начале активируются основные ПО, а изменения, связанные с метаболизмом ауксина и этилена, индуцируют усиление синтеза кислых ПО как более поздний шаг ответа или защиты.

**Цель работы.** Таким образом, целью нашего исследования является изучение активности пероксидазы на примере подорожника и хрена, у здоровых и заражённых с вирусом.

*PhD student, Ion-plasma and laser technologies Institute, Uzbekistan.*

**Ismailova Oksana**

*Uzbek-Japan Innovation Center of Youth, Tashkent, Uzbekistan.*

**Abstract:** The refractive indices of pure components and their mixture in the wide range of acetonitrile concentrations ( $\sim 0 \div 1$  mole fraction) in solutions at a room temperature were measured. Maximum values of refractive indices were detected at a concentration of 0.5 mole fraction. The deviation from the parabolic form of the dependence of the refractive index on the concentration occurs at a concentration of 0.2 mole fraction for tetrahydrofuran. To our knowledge, these deviations have been observed for the first time. The maximum is attributed to the stable heteromolecular complexes are formed in solutions, while the deviation is associated with the cluster formation of tetrahydrofuran in acetonitrile.

**Keywords:** Excess refractive indices, molecular interactions, tetrahydrofuran, acetonitrile.

**Introduction.** The thermodynamic properties of liquids and liquid mixtures have been used to understand the molecular interactions between the components of the solutions. Refractive index data of binary liquid mixtures are very important to understand solution theory. A refractometric method was used to determine self-assembly and its structural characteristics of concentration features of solutions. Tetrahydrofuran, acetonitrile and their solutions find applications as solvent in chemistry and modern technology [1-5]. A survey of literatures shows that there are very few reports on the refractive index of tetrahydrofuran + acetonitrile. In this work, we report experimental studies of structural characteristics of nonaqueous binary mixtures of tetrahydrofuran with acetonitrile over the entire composition range at a room temperature.

**Materials.** Tetrahydrofuran, acetonitrile (99.9%, Sigma-Aldrich, USA).

**Preparation of Solutions.** Solutions of tetrahydrofuran and acetonitrile were prepared by gravimetric method described in a paper [6].

**Table 1.** Experimental mole fraction  $x$ , refractive index  $n$ , excess refractive index  $n^E$  and excess refractive index for tetrahydrofuran and acetonitrile.

$x$ , tetrahydrofuran	$n$	$n^E$
0.0000	1.3439	0.00000
0.1	1.3529	0.00268
0.2	1.3609	0.00436
0.3	1.3681	0.00524
0.4	1.3760	0.00682
0.5	1.3829	0.00740
0.6	1.3887	0.00688
0.7	1.3938	0.00566
0.8	1.3990	0.00454
0.9	1.4033	0.00252
1.0000	1.4071	0.00000

**Measurements.** Refractive indices of pure liquids and their solutions were measured with the RX-7000-alpha digital refractometer with the temperature recording function (Atago, Japan). The measurement error  $n$  is less than 0.0001. For the refractive index measurements, tetrahydrofuran and acetonitrile solutions were prepared in a concentration range of 0 ÷ 1.0 mole fraction with step 0.1 mole. For each solution, several values (at least three) were measured at a fixed temperature of  $293 \pm 0.05$  K atmosphere pressure.

**Results and discussion.** Excess refractive index  $n^E$  values of the tetrahydrofuran and acetonitrile mixtures were calculated using the equation

$$n^E = n_{solution} - (x \cdot n_1 + (1-x) \cdot n_2) \quad (1)$$

where  $n_{solution}$  is the refractive index of the mixture and  $n_1$  and  $n_2$  are the refractive indices of pure components 1 and 2 of the mixture. These data at  $(293 \pm 0.05)$  K are presented in table 1 and displayed in figure 1.




Figure 1. Changes of excess refractive index  $n^E$  of freshly prepared tetrahydrofuran-acetonitrile at different initial concentrations of components.

Figure 1 shows the excess refractive index obtained experimentally from freshly prepared mixtures. The results show that the excess refractive index for the tetrahydrofuran and acetonitrile mixture is positive over the entire range. This suggests that intermolecular bonds are occurring between these two aprotic liquids. With a change in the concentration of tetrahydrofuran in acetonitrile solutions, a restructuring of the solution occurs. Maximum value of refractive index was detected at a concentration of 0.5 mole fraction. Strong specific interaction occurred between tetrahydrofuran and acetonitrile at this maxima. Self associations are formed between acetonitrile molecules at a concentration of 0.8 mole fraction of acetonitrile.

**Conclusion.** The maximum of excess refractive index deviations occur at 0.5 mole fraction of acetonitrile and tetrahydrofuran. This maxima shows heteromolecular structures are formed due to strong H-bonds between tetrahydrofuran and acetonitrile molecules. The presence of a significant dipole in the molecules of aprotic solvents suggests the formation of associates due to the interaction of molecular dipoles.

**Acknowledgements.** This investigation supported by grant MI-RAI and UZB-IND-83 and by a fundamental research of the Academy of Science of the Republic of Uzbekistan.

**References:**

1. Oswal, S. L., Gardas, R. L., Phalak, R. P. Densities, speeds of sound, isentropic compressibilities, refractive indices and viscosities of binary mixtures of tetrahydrofuran with hydrocarbons at 303.15 K. *J. Mol. Liq.*, 116, 109–118, 2005.
2. Suri, S. K. Excess volumes of binary mixtures of tetrahydrofuran with various hydrocarbons at 313.15 K. *Canadian Journal of Chemistry*, 59(19), 2839–2844, 1981.
3. Alonso V., Calvo E., Bravo R., Pintos M., Amigo A. Thermodynamic properties of tetrahydropyran + 1-alkanol Mixtures, *J. Chem. Eng. Data*, 39 (4), 926–928, 1994.
4. Saleh, M.A., Akhtar S., Ahmed M.S. and Uddin, M.H. Excess molar volumes and thermal expansivities of aqueous solutions of dimethylsulfoxide, tetrahydrofuran and 1,4-dioxane, *Phys. Chem. Liq.*, 40(5), 621–635, 2002.
5. Troncoso J., Valencia J.L., Souto-Caride M., González-Salgado D. and Peleteiro J. Liquid–Liquid equilibria for the ternary systems of (water + tetrahydrofuran + polar Solvent) at 298.15 K, *J. Chem. Eng. Data*, 49 (6), 1827 -1832, 2004.
6. Yang L., Gao D., Zhang Y., *Constr. Build. Mater.* 176, 652–664, 2018.

## ЭТЬЕН КОНДИЛЬЯКНИНГ ОНГ КОНЦЕПЦИЯСИГА СЕНСУАЛИСТИК ЁНДАШУВИ

*Бойдадаев Абдурахмон Толибжон ўгли*

*Ўзбекистон Миллий университети*

*Фалсафа ва мантиқ кафедраси мустақил изланувчиси.*

**Аннотация:** мазкур мақолада француз маърифатчиси Этьен Кондильяк фалсафасида онг концепциясига бўлган ёндашуви таҳлил қилинган. Онг масаласи фалсафа тарихида муҳим аҳамиятга эга ва уни тушунишда турли мутафаккирлар хилма-хил назарияларни илгари суришган. Кондильяк фалсафасида онг сенсуализм нуқтаи назариядан тушунилади ва унинг бу позициясига ундан олдин фаолият олиб борган файласуфлар, хусусан, Жон Локкнинг қарашлари катта таъсир ўтказган.

**Калит сўзлар:** онг, сезги, рефлексия, билиш, сенсуализм, солипсизм, идеализм.

Этьен Бонно дэ Кондильяк (1714-1780) француз маърифатчиси, Грекболда туғилган, католик рухонийси. Лекин ўз асарларидаги ғоялари билан ўша вақтдаги мутаассиб черков мафкурасига қарши қурашлар фалсафий муаммолардан бири бўлган билиш назариясида Жон Локк (1632-1704) нинг издоши. Аммо Локкдан фарқли равишда билимлар манбаи сезгилардан ташқари, иккиламчи «рефлексия»нинг мавжудлигини инкор этади. Аммо сезгиларнинг ташқи объектлар билан алоқадорлиги хусусиятини тушунмаслик, уларга хос бўлган субъектив жиҳатларнинг ошириб юборилиши Кондильякни субъектив идеализмга олиб келди. Унинг нуқтаи назарига кўра, сезгиларнинг кўзголишига ташқи предметлар сабаб бўлса-да, сезгиларнинг ташқи объектлар билан ҳеч қандай алоқаси йўқдир. Ақл олам билан фақат сезгилар орқали боғлиқ бўлганлиги сабабли, унинг предмети объектив олам эмас, балки сезгилар мажмуидир. Шундай бўлишига қарамай, Кондильякнинг сенсуализми Лейбниц Готфрид Вильгельм (1646-1716) идеализмига ва ҳар қандай спекулятив, ақл сотиш фалсафасига қарама-қарши мавқеда турган. Кондильяк XVIII аср француз фалсафасига жуда катта таъсир кўрсатган. У ўзининг «Системалар ҳақида трактат» (1754) ва «Савдо ва хокимият» (1776) асарларида илғор ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий ғояларни илгари сурди<sup>265</sup>. Файласуф 1780 йили «Мантик» асарини ёзди ва «Ҳисоблар тили» асарини ёзишга киришганида, бу асар тугалланмасдан вафот этади. Кондильяк фалсафий қарашларига Локкнинг сенсуализми жуда катта таъсир кўрсатган. Унинг фалсафий қарашлари кўпроқ билиш назариясининг методологик муаммоларига қаратилган. 40-50 йилларда француз маърифатчилигида катта аҳамиятга эга бўлган асарларида сенсуалистик-эмпирик (эмпирик-тажрибага асосланган) ғоялар илгари сурилган Локкнинг «Инсон ақли тўғрисида тажриба» (1690) асарига таянган ҳолда Кондильяк ўз қарашларини баён қилиб, “инсон билимлари фақат сезгилардан келиб чиқиши (Локка қараганда) изчилроқ намоён этилиши керак” дейди<sup>266</sup>. Унинг фалсафасида асосан «бизнинг барча билимларимиз ва салоҳиятимиз хиссиётдан, яна аниқроғи, сезгилардан келиб чиқиши»ни курсатиши катта аҳамиятга эга. Кондильяк фикрича, сезги аъзоларимизда вужудга келувчи хис этиш дастлабки идрок этиш бўлиб, хатто инсоннинг абстракт ғоялари, руҳий салоҳияти, объектдан ажралган мушоҳадаси, хис этиш қобилиятдан келиб чиқади. У ўзининг гносеологик назарияси (таълимоти) ни ҳақли равишда «сезгилар назарияси» деб номлаган, XVII асрда Декарт (1596-1650) дан бошлаб то Лейбницга қадар билим манбаи интеллектуал интуиция (лот. Intellectualis-ақлий ва лот. Intueri- сничиклаб қараш-мантиқий муҳокамасиз ҳақиқатни бевосита пайқаш қобилияти) деб ҳисоблаган рационалистик (лот. Rationalis-оқилона) қарашларга қарама-қарши

<sup>265</sup> Йулдошев С., ва бошқалар. Янги ва энг янги давр Ғарбий Европа фалсафаси. –Т.: Шарқ, 2002. – 234 б.

<sup>266</sup> Кондильяк Э. Трактат об ощущениях. – М.: Республика, 2019. – 20 б.



Кондильяк гносеологияси ривожланиб борди<sup>267</sup>. Шу билан бирга унинг сенсуализми Беркли Жорж (1685-1753) идеализми ва маълум маънода Юм Давид (1771-1776) агностицизмга (юнон. agnosis-билиб бўлмайдиган) қарама-қарши, мухолиф тарзда ишлаб чиқилган. Кондильяк фақат инсон онги таркиби ва унинг амал қилишини ўрганиш билангина чекланмоқчи, онг табиати, айниқса унинг ташқи олам билан алоқаси уни кизиқтирмаслиги тўғрисида гапиришга қарамай, унинг «сезгилар назарияси» инсон билиши табиатига йўналтирилганлиги оқибатида мунтазам равишда онгнинг борлиққа муносабати масаласини қўяр ва маълум маънода бу масала ечимига келар эди. Бу асосан муаммони ақл ёки тажрибага мувофиқ хал этиш бўлиб, объектив воқелиққа мос равишда содир бўлмаслиги мумкин эмас эди. «Инсон билимлари келиб чиқиши ҳақида тажриба» асарида Кондильяк «буюмлар ҳақида бизда мавжуд ғояларни билиш» вазифасини қўйган. қолаверса, у буюмларни механистик материализм руҳида тушунган – бу буюм, маълум қўламга эга, у ёки бу шаклда, фазода маълум бир жой эгаллайди, ҳаракатда ёки тинч ҳолатда. Бу сифат – хусусиятлар, Унинг фикрича, инсон сезгилари, умуман инсон онгига боғлиқ бўлмаган ҳолда реал мавжуд. Инсон онги фақат уларнинг тимсолини, сиймосини ифодалайди, аниқроғи, инъикос эттиради. Бу инъикос инсон онгида «руҳда» нарсаларнинг сезги аъзоларига таъсир этиб, уларда сезги уйғотиши натижасида вужудга келади. сезгиларни нарсаларнинг тимсоли, қиёфаси сифатида англаш предметларни идрок этишга олиб келади. Идрок этиш эса, «предметлар мавжуд бўлганида бизда туғилувчи таассуротдир». «Сезгилар ҳақида трактат» асарида Кондильяк буюмлар таъсирида вужудга келувчи сезгилар шу буюмлар тимсолига, улар тўғрисидаги ғояларга қай тарзда айланиши ҳақидаги ўз тушунчаларини баён қилди.<sup>268269</sup> Унинг томонидан билиш жараёнини бу тарзда тушунтириш амалда Берклининг субъектив идеализминини далиллар асосида инкор этиш эди. Гносеологик модель сифатида Кондильяк аста-секин жонланиб боровчи хайкални олади. Бу хайкалда изчиллик билан, бирин-кетин хид билиш, таъм билиш, эшитиш, қўриш ва ниҳоят тери сезгиси пайдо бўлади. Ва яна ҳулоса қилиб айтадики, дастлабки тўрт сезги, хох биргаликда ўз-ўзига, қанчалик турли-туман бўлишларидан қатъий назар буюмлар ҳақидаги ғояга айлана олмайди, яъни нарсалар ва уларнинг хусусиятлари ҳақидаги билимга олиб келмайди. Хусусан, агар «хайкал» фақат хид билса, «бу хид атиргул, чиннигул, ясмин, бинафша ва бошқа хид билиш аъзосига таъсир этувчи нарсага тегишли бўлиши мумкин». Бу хидлар амалда хидлар турли-туманлигини билдиради, холос. Беркли таълимотида «бор бўлмоқ-сезилмоқдир». Бу идеалистик-солипсистик дунёқарашдан Кондильяк «хайкал»ни тери сезгиси хусусиятига эга эканлиги холи қилади. Кондильяк фикрича тери сезгиси-бу «ташки буюмлар ҳақида ҳукм чиқара олувчи ягона туйғудир»<sup>270</sup>. Унинг бу сезгиси «хайкалга ўз вужудини сезиш, ўзга вужудларни хис этиш имконини беради. «Менинг қўл остимда, - дейди «хайкал», - ҳамма нарса маълум қаттиқликка эга», оқибатда сезилувчи сифатлар «менга тегишли бўлмай боради; мен улардан ўзимдан ташқари мажмуани вужудга келтираман; мен улардан ўзим танишаётган ҳамма предметларни шакллантираман»». Булардан Кондильяк ҳулоса қилиб айтадики, «фақат қаттиқликни хис этиш... бир вақтнинг ўзида ҳам сезги, ҳам ғоядир. У руҳиятга нисбатан сезгидир, у ташки нарсага нисбатан ғоядир»<sup>271</sup>.

Кондильяк «хайкал» ҳаракат билан ҳам таъминланади. Бу бетартиб ҳаракат бўлмай, маълум мақсадга йўналтирилган фаолият бўлиб, бу «хайкал» да инсонга хос хусусиятлар гавдаланади. Энди бу «хайкал» оддий мушоҳада қилувчи эмас, балки фаол субъект бўлиб, фақат шундагина унинг онги ва сезгисига боғлиқ бўлмаган объектив олам мавжудлиги тўғрисидаги ҳулосага келади<sup>272</sup>. «Мен, дейди «хайкал»-меваларни ва менинг истеъмол

<sup>267</sup> Кондильяк Э. Трактат об ощущениях. – М.: Республика, 2019. – 29 б.

<sup>268</sup> Йулдошев С., ва бошқалар. Янги ва энг янги давр Ғарбий Европа фалсафаси. – Т.: Шарқ, 2002. – 235 б.

<sup>269</sup> Кондильяк Э. Трактат об ощущениях. – М.: Республика, 2019. – 35 б.

<sup>270</sup> Кондильяк Э. Трактат об ощущениях. – М.: Республика, 2019. – 40 б.

<sup>271</sup> Кондильяк Э. Трактат об ощущениях. – М.: Республика, 2019. – 49 б.

<sup>272</sup> Йулдошев С., ва бошқалар. Янги ва энг янги давр Ғарбий Европа фалсафаси. –Т.: Шарқ, 2002. – 236 б.

қилишимга яроқли нарсаларни ўрганаяпман; мен ҳайвонларни ўрганаман; мен улар орасида зарари тегиши мумкин бўлганларини кузатаман; мен улар зарбасидан қутилишга ўрганаман; ниҳоят, мен ҳамма нарсани, менинг қизиқувчанлигимни оширадиган нарсаларни ўрганаман; ўз эхтиросларимга мувофиқ равишда буюмларнинг аслиги, тозалиги ва гўзаллиги тўғрисида шахсий қоидалар барпо этаман.”<sup>273</sup>. Тажрибага эга булгач, амалий ҳаракатдан олдин таҳлил қиламан, чуқур мулоҳаза юритаман». Шундай қилиб, Берклининг қарашларига муқобил равишда етарли даражада ишончли сенсуалистик таълимотни яратиш жараёнида Кондильяк материалистик («материалистик» сузини «ақл ва тажрибага асосланган», деб ўзгартирилса замон руҳига мос бўлади) гносеология тараққиётининг истиқболли йўларини аниқлаб борди. Кондильяк томонидан билиш қобилятининг вужудга келиши (генезиси) ҳақидаги тадқиқоти беркличиликни, шунингдек, янада кўпроқ XVII асрнинг рационалистик «метафизикасини танқид қилиш билан боғлиқ бўлган»<sup>274</sup>. XVIII аср ўрталарида бу тадқиқот материалистик фалсафий тафаккур билан асосланди. Бу тадқиқот картезиан (cartesius-декарт номининг лот. транскрипцияси) дуализмини бартараф этишда ҳам аҳамиятга эга бўлди. Бу соҳада Локк нисбатан илғорроқ бўлган Кондильякнинг ёзишича у, яъни Локк адашиб «кишининг ҳамма лаёқат-қобиляти... туғма», деб тушунди, «улар оддийгина сезгилардан вужудга келиши мумкинлигини гумон ҳам қилмайди». Бу қарашнинг амалга ошиши Беркли томонидан сенсуализмни идеалистик қайта идрок этишда фойдаланилган рефлексияни, яъни ўз руҳий ҳолатини таҳлил қилишни мустақил билим манбаи деб қарашни бартараф этди. Айни вақтда «метафизиклар» даъво қилган, хиссий билишдан алоҳида бўлган «соф ақл» тўғрисидаги қарашларнинг ҳам асоссиз эканлигини таъкидлайди. «Инсон билимлари келиб чиқиши ҳақида тажриба» асарида Кондильяк инсон билиш қобиляти келиб чиқишининг қўйидаги шаклини тасвирлайди. «Биз сезгидан бошлаймиз ва уларни идрок этамиз. Кейин биз айрим идрок этилган нарсаларни кучлироқ фахмлаб етамиз ва бу эътиборимиз марказида бўлади. Билишнинг рационал босқичларини таҳлил қилишда Кондильяк унга хос бўлган куйидаги амалларни таъкидлаб кўрсатади. Биринчидан, бу босқичда мураккаб ғоялар шаклланиши содир бўлади. Кондильяк уларни «ақл маҳсули - яъни, «тушунча» деб атайти. Унинг фикрича, тушунчалар пайдо бўлишида диалектик сакраш (ёки кескин ўзгариш) ва сифат ўзгаришлари содир бўлиши назарда тутилмаганда «кўплаб идроклар бирлашуви ёки йиғилиши» намоён бўлади. Бу ходисанинг билишга хос аҳамияти бетартиб хусусиятлар ғоялардан шу хусусиятларга эга бўлган буюмлар ғояларига айланишдадир. Иккинчидан, ғоялар билан рамзий шаклда ишлашга ўтиш хос деб ҳисоблайди. У шуни таъкидлар эдики, биз мулоҳаза юритадиган ғояларга эга бўлишимизда турли содда ғоялар йиғиндиси орасида алоқа вазифасини бажарувчи рамз, символ, белгиларни ўйлаб топишимиз зарур. Кондильяк фикрига кўра, ғояларнинг ақл билан алоқадорлиги олдиндан жорий этилган рамзлар билан алоқадорлиги асосида содир бўлиши зарур»<sup>275</sup>. Шундай қилиб, биз Кондильяк ижодида онгнинг рационал концепциясига қўшган муҳим ҳиссасини таҳлил қилиб унинг қарашларига сенсуалистик табиат хос бўлганини аниқладик.

#### **Список использованной литературы:**

1. Мир философии. В двух томах. – М: Мысль, 1989. – 125 б.
2. Кондильяк Э. Трактат об ощущениях. – М.: URSS, 2019г. – 219 б
3. История философии в кратком изложении/ Пер. с чеш. И.И. Богута 1995г. 590 б.
4. Йўлдошев С., Усмонов М., Каримов Р., Қобулниёзова Г., Рўзматова Г. Янги ва энг янги давр Ғарбий Европа фалсафаси. — Т.: Шарқ, 2002й. – 336 б.
5. Кузнецов В.Н. Французская буржуазная философия XX века. 1970г. – 318 б.
6. Кузнецов В.Н., Мееровский Б.В., Грязнов А.Я. Западноевропейская философия 18-го века. – М.: Высшая школа, 1981г. – 400 б.

<sup>273</sup> Скирбек Г., Гилье Н. История философии. – Т: Шарқ 2002. – 245 б.

<sup>274</sup> Скирбек Г., Гилье Н. История философии. – Т: Шарқ 2002. – 134 б.

<sup>275</sup> Мир философии. В двух томах. – М: Мысль, 1989. – 125 б.

## ЎСМИРЛАРДА СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИ КЎНИКМАЛАРИНИ ТАРКИБ ТОПТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

*Болтаев Фарход Курбонович*  
*Афшона Абу Али ибн Сино номидаги*  
*Жамоат саломатлиги технкуми директори.*

Ўсмирлар ўртасида соғлом турмуш тарзи кўникмаларини таркиб топтиришнинг асосий вазифаси таълим-тарбия узвийлиги асосида маънан ва жисмонан соғлом, ўз саломатлигини сақлаш ва кадрлай оладиган комил шахс этиб тарбиялашдан иборат. 2017 йил 19 сентябрда АҚШнинг Нью-Йорк шаҳрида бўлиб ўтган Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқида Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев, айни даврда инсоният тарихидаги энг кўп ёшлар қатлами билан яшаётганимизни инобатга олган ҳолда БМТ минбарида «Ёшлар ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенция»ни қабул қилишни таклиф қилди. Президентимиз бунга асос қилиб, ёшларнинг сони икки миллиарддан ортиб бораётгани, халқаро терроризм ва экстремизм шиддат билан ўсиб бораётган бир пайтда ёшларга ҳимоя зарурлигини муҳим омиллар сифатида кўрсатди. Президентимиз дунё ёшлари ўртасида зўравонлик ғояси тарқалишининг олдини олиш кераклигини, уларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини, турмушини ижтимоий ҳимоя қилиш учун дунё халқларидан кўп томонлама ҳамкорлик ташаббуси сўралишини айтиб ўтди. Ёшлар ҳуқуқларини бир меъёردа белгилаш ва уни ҳимоя қилиш глобаллашув ва ахборот технология ривожланиш даврининг муҳим шарти экани таъкидланди. «Шунингдек, ушбу конвенцияни имзолаган аъзо давлатлар мамлакат ижтимоий сиёсатида ёшлар масаласини муҳим йўналиш сифатида кўриб, зиммасидаги катта масъулиятни адо этиш керак», деб фикр билдиради. Мазкур зарурат ёшларни тубан оммавий маданият ҳуружларидан ҳимоя қилиш, уларни соғлом турмуш тарзи кўникмалари воситасида тарбиялаш муҳим вазифалардан саналади. Марказий Осиё дунёдаги энг ёш минтақа бўлиб, аҳолисининг ўртача ёши 27,6 ёшни ташкил этади. Минтақа аҳолисининг 50 фоизга яқини Ўзбекистон Республикасига тўғри келади. Келгуси беш йилликда ёшларнинг илмий, касбий ривожланиши, саломатлиги, иқтисодий имкониятларининг кенгайтирилиши, технология ва инновацияларни ривожлантиришга ажратиладиган сармоялар «демографик дивиденд»га эга бўлишга, яъни мамлакатнинг қисқа муддатда юқори иқтисодий тараққиётга эришишига замин яратади. Мамлакатда яқин ва узоқ истиқболга мўлжалланган ёшлар сиёсати самарадорлигини оширишга қаратилган стратегик вазифаларнинг амалга оширилиши Ўзбекистонда барқарорлик, тинчлик ва фаровонликни таъминлашга сезиларли даражада таъсир қилади. Мамлакатимиз тарихида илк мартаба Ўзбекистон Республикаси Президенти иштирокида 2020 йил 25 декабрь куни Ўзбекистон ёшлари форуми ўтказилди. Ўттиз мингдан ортиқ ёшлар иштирок этган форумда Давлат раҳбари томонидан ёшлар билан мулоқот қилиниб, уларнинг ғоялари, таклиф ва ташаббуслари қўллаб-қувватланди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномасида ёшларга оид давлат сиёсатини янги босқичга олиб чиқиш бўйича устувор вазифалар белгиланди. Ушбу вазифалардан келиб чиқиб, Концепция ёшларга оид давлат сиёсатини ривожлантиришнинг стратегик мақсадлари, устувор йўналишлари, беш йилга мўлжалланган вазифалар ҳамда ёшлар сиёсатини амалга оширишнинг миллий моделини белгилайди, соҳага оид дастурлар ва комплекс чора-тадбирларни ишлаб чиқиш учун дастуруламал бўлади. Концепция Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг «Ёшлар — 2030» стратегиясида белгиланган «Ёшлар манфаатларини кўзлаб, улар билан ишлаш» бош тамойилига асосланади. Концепция Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталари, Ёшлар парламентлари, Ёшлар комиссияси, ёшлар ташкилотлари, ёшлар сиёсати бўйича миллий ва хорижий экспертлар, халқаро ташкилотлар, давлат органлари, фуқаролик жамияти институтлари, фаол ёшлар ва бошқа кенг илмий доиралар ва жамоатчилик

вакилларининг муҳокамалари, таклиф ва тавсиялари асосида ишлаб чиқилди. Концепцияни ишлаб чиқишда 50 дан ортиқ мамлакатларнинг ёшлар сиёсатига оид қонун ҳужжатлари, 20 дан ортиқ ёшлар минтақавий бирлашмаларининг битим ва ҳужжатлари (Шанхай Ҳамкорлик Ташкилоти, Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги, Европа Иттифоқи, Ислом Ҳамкорлик Ташкилоти ва бошқалар), 30 дан ортиқ халқаро ташкилотларнинг умумий норматив-ҳужжатлари (Бирлашган Миллатлар Ташкилоти, Халқаро Меҳнат Ташкилоти, Жаҳон Соғлиқни Сақлаш Ташкилоти, Парламентлараро кенгаш ва бошқалар) ўрганилиб, таҳлил қилинди.

Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонунида соғлом авлодни тарбиялашга хизмат қилувчи муҳим шарт-шароитларни яратиш, болалар ва ўсмирларнинг яқка тартибдаги эҳтиёжларини қондириш, уларнинг бўш вақти ва дам олишини мазмунли ташкил этиш, шунингдек, кадрлар тайёрлаш тизимини шакллантириш ва ривожлантириш борасида куйидаги устувор йўналишлар белгилаб берилган:

- таълим муассасалари ва соғлиқни сақлаш органларининг болалар ҳамда ўқувчи-ёшларнинг соғлигини сақлаш ва мустаҳкамлаш учун зарур чора-тадбирларни кўриш;
- ўқув-тарбия жараёнини соғломлаштиришга қаратилган амалий ҳаракатларини ташкил этиш, СТТ меъёрларини ишлаб чиқиш учун бўлган шароитларни яратиш;
- таълим олувчиларнинг тиббий-гигиеник маданиятини ошириш, уларнинг жисмоний тарбия ва спорт борасидаги фаолиятларини кучайтириш ҳамда жисмоний камолот даражасини ошириш йўлида ташкилий-услубий ёндашувларини такомиллаштиришдан иборат.

Ўсмирларда соғлом турмуш тарзини таркиб топтириш жараёнининг ижтимоийлашувини талаб этади ва ёшларда юксак маънавий, онгли интизом, инсоний кадр-қиммат туйғуси, жамиятда белгиланган ижтимоий нормаларга асосланган хулқ-атвор, эстетик бой дунёқараш, мантиқий ва ижодий фикрлашни таркиб топтиришга замин яратади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Отамуротов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. – Т., Ўзбекистон, 2013.
2. Жамолдинова О.Р. Ёшлар соғлом турмуш маданиятини шакллантиришда узвийлик ва узлуксизлик / Монография. -Т.: «Янги аср авлоди», 2011ТДПУ, 1999.
3. Исмоилов И., Зиёдуллаев М., Исроилова Н., Азимова Ф.. Вояга етмаганлар назоратсизлиги ва ҳуқуқбузарлигининг олдини олиш. -Т.-2011.
4. Нурматова М. Ахлоқий ва эстетик маданият. – Тошкент, 2016.
5. Холматова М. Оилавий муносабатлар маданияти ва соғлом авлод тарбияси. – Т.: Ўзбекистон, 2000.
6. Қойилова М.Д. Соғлом турмуш тарзининг маънавий ва ҳуқуқий асослари. Ўқув қўлланма. “Дурдона”- 2016.
7. Қойилова М.Д. Девиант хулқли ўсмирлар ва соғлом турмуш тарзи /Монография. “Дурдона”- 2021.

## ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ДИАГНОСТИКА И ЕЁ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ

*Бурханов К.Т. – кандидат педагогических наук, доцент кафедры математики и естествознания, эстетического воспитания и методика их преподавания  
ГОУ «ХГУ имени академика Бободжона Гафурова».*

*Кодирова М.А. – ст. преподаватель кафедры теории и методики обучения родного языка ГОУ «ХГУ имени академика Бободжона Гафурова».*

Мы должны повышать уровень и качество образования в каждом образовательном учреждении, независимо от формы собственности и на всех уровнях образования.

**Эмомали Рахмон**

На современном этапе развития мирового общества, в том числе Таджикистана приоритет отдается науке и образованию, так как образование играет ключевую роль в укреплении основ демократического, правового и светского государства. Контроль за приобретение современных знаний, усиление контроля за подростками и молодежью в направлении их привлечения к чтению художественной и научной литературы, укрепление их творческих способностей и пробуждение их интереса к обучению естественным наукам, математике становится приоритетом для сотрудников образовательной сферы. [1.16] Современная педагогика рассматривает образование как процесс в рамках определенной системы, которая состоит из взаимосвязанных элементов: целей, содержания, методов, форм деятельности и, наконец, учащихся, учителей и других субъектов образования. Наука предполагает, что образовательный процесс должен быть организован как технологический процесс: «производство» выпускника можно сравнить с производством промышленного продукта, несмотря на то, что это невозможно. Безусловно, образование – очень чувствительный вопрос, ведь ни учитель, ни ученики не являются неодушевленными составляющими производства, однако идея технологизации образовательного процесса растет и развивается. Сегодня мы слышим от школьных учителей, что они используют определенные технологии или, наоборот, требуют внедрения новых технологий. Диагностика – это способ познания, изучения и установления взаимосвязей, ситуаций, качеств и характеристик различных объектов обучения. Анализ общей и педагогической литературы показывает, что диагностика широко применяется в различных сферах деятельности человека. Большинство исследователей-педагогов понимают под педагогической диагностикой сложный и специфический вид педагогической деятельности, динамичную систему сотрудничества педагогов и учащихся, содержанием которой является целенаправленное изучение и изменение учащихся. Важнейшим элементом диагностической деятельности учителя является педагогическая экспертиза. Педагогическая диагностика, как и вся педагогическая деятельность, существует уже много лет. Те, кто регулярно преподает, всегда старались определить результат своей работы, и это делалось на протяжении тысячелетий педагогической деятельности методами, которые в нашем современном понимании являются «донаучными методами». Только в последние два столетия стали использоваться все более прогрессивные и научно управляемые методы. Понятие «педагогическое обследование» было предложено К. Ингенкампом в 1968 г. в сравнении с медико-психологической диагностикой в рамках научно-исследовательского проекта. [8.56] В соответствии с целями, задачами и объемом ее проведения педагогическая экспертиза является независимой. Применяет на практике методы и приемы психической диагностики в связи с психиатрической экспертизой. Педагогическая диагностика сегодня представляет собой скорее дискуссионную и неоднозначную программу, чем научную. Неудивительно поэтому, что существуют разные концепции научной диагностики. Обсудите анализ обучения, последствия и результаты обучения.



Учебный тест имеет более широкий и глубокий смысл, чем традиционная проверка знаний и умений аудитории. В тесте только констатируются результаты без объяснения их происхождения. Диагностика с учетом результатов путей и средств их достижения выявляет тенденции, процесс формирования воспитательного эффекта дальнейшего развития событий. [3.14] Таким образом, педагогический анализ используется, во-первых, для оптимизации процесса индивидуального обучения, во-вторых, в общественных интересах для обеспечения точной идентификации результатов обучения и, в-третьих, с учетом разработанных критериев для минимизации ошибок при переводе обучающихся из одного вуза в другой. в планах отправить их на разные курсы и выбрать специализацию. Регулярное наблюдение учителя за учениками – это уже диагностическая деятельность. В то же время для обсуждения некоторых серьезных вопросов не столь важно, каким образом собираются диагностические данные: с помощью соответствующих методов (аудиторная работа, тесты, анкетирование и т. д.) или без такового (например, методом простого наблюдения). В диагностической деятельности, прежде всего можно выделить следующие аспекты:

- сравнение,
- анализ,
- прогнозирование,
- интерпретация,
- довести до сведения студентов результаты диагностической деятельности;
- проверить влияние различных методов диагностики на студентов

Важнейшими принципами диагностики и контроля обучения (успеваемости) обучающихся являются прозрачность, последовательность, ясность.

Объективность выражается в содержании научно обоснованных диагностических тестов (задач, вопросов), порядке диагностики, равно, доброжелательном отношении к учителю и всем учащимся, точной оценке знаний, умений и навыков в соответствии с установленными стандартами. На практике объективность экзамена означает, что оценки одинаковы независимо от методов и средств контроля и преподавателей, проводящих экзамен. Необходимость системного принципа заключается в необходимости диагностического контроля на всех этапах процесса обучения - от первоначального осмысления знаний до их практического применения. Также немаловажной задачей принципа дисциплины является регулярное проведение диагностики всех учащихся с первого и до последнего дня их обучения в образовательном учреждении. Школьные проверки должны проводиться часто, и все важные знания, которые учащиеся должны знать и уметь выполнять, должны проверяться в режиме реального времени.

Принцип последовательности требует общего или комплексного подхода к диагностике, при котором разные формы, методы и средства наблюдения, исследования, оценки используются в тесной связи и единстве в зависимости от одной цели. Такой подход исключает универсальность отдельных методов и средств диагностики.

Принцип наглядности, прежде всего, заключается в проведении открытого тестирования учащихся по одному критерию. Рейтинг каждого студента, который определяется при диагностике, нагляден и сопоставим. Принцип открытости также требует оглашения и поощрения оценок. Оценка - это мера, по которой учащиеся судят об уровне самооценки, а также об объективности учителя. Необходимым условием реализации этого принципа является оглашение результатов диагностики недостатков, их обсуждение и анализ с участием заинтересованных сторон, разработка перспективных планов по устранению недостатков. Понятие «диагностика» имеет более широкий и глубокий смысл, чем понятие «проверка знаний, умений и навыков учащихся». В ходе диагностики выявляются результаты с учетом путей их достижения, тенденций, динамики дидактического процесса. [8.67].

Современная педагогика рекомендует проводить диагностику в процессе обучения математике в начальной школе следующими способами:

- ❖ - индивидуальная тестовая работа;
- ❖ - диктант в двух формах: устной и письменной;
- ❖ - тесты
- ❖ - с помощью вопроса и ответами.

Можно сделать вывод, что воспитание наряду с образованием является одной из важнейших составляющих процесса общего среднего образования. Для развития полноценной и всесторонней личности важно понимать образование как партнерство между взрослыми и детьми.

Общеизвестно, что педагогика прошла большой путь в разработке эффективных теорий и методов обучения, воспитания и образования, и в современное время педагоги используют эти методы в процессе обучения подрастающего поколения. Без знания методов обучения невозможно совершенствовать и воспитывать педагогические умения в последовательности их реализации.

В современной школе под термином «метод обучения» понимают не только способ воздействия на ученика, но и способ их совместной работы, общий способ достижения желаемой цели обучения. Поэтому методы обучения можно трактовать как важнейшие способы связи деятельности педагогов и обучающихся, направленные на постижение сущности социальных ценностей, формирование положительного отношения к ним, умениям и навыкам, их коррекцию и совершенствование, личностное развитие.

Никакая система методов обучения не может быть вечной или неизменной. В зависимости от возраста и индивидуальных особенностей учащихся в условиях их жизни могут меняться не только отдельные методы обучения, но и вся система в целом. Развитие различных нравственных качеств влияет на сознание, чувства и поведение учащихся. Чтобы достичь хороших результатов необходимо использовать разные методы педагогической диагностики.

### **Библиография:**

1. Послание Лидера Нации, Основателя мира и национального единства, Президента Республики Таджикистан Эмомали Рахмона в Маджлиси Оли (22.12.2021)
2. Бордовская Н.В., Реан А.А. Педагогика. Учебник для вузов. СПб: Издательство «Питер», 2000
3. Педагогика: учебник / Л.П. Крившенко и др. / под ред. Л.П. Крившенко. М.: ТК Велби, изд-во Проспект, 2008
4. Педагогика / под ред. Ю.К. Бабанского. - М., 1988
5. Селиванов В.С. Основы общей педагогики: Теория и методика воспитания. - М., 2002
6. Харламов И.Ф. Педагогика. - М.: Гардарики, 1999
7. Аванесов В.С. Композиция тестовых заданий. М., 1996.
8. Ингенкамп К. Педагогическая диагностика: Пер. с нем. М., 1991.

## XIVA - IJOD SHAHRI

*Valiyeva Hilola*

*O'zbekiston Milliy universiteti 3-kurs talabasi.*

Ijod sohasi shunday keng tarmoqki, bu jamiyat ijtimoiy hayotining ko'p tarmoq va yo'nalishlarini o'z ichiga oladi. Masalan, she'riyat, musiqa, adabiyot, me'morchilik, qurilish, ilm-fan kabi tarmoqlarda go'zal ijod namunalarini yaratish mumkin. Ijod sohasi mahsullarining umri ham barhayotdir. Ijodkorlar, hukmdorlar vafot etganda ham ular yaratgan ijod namunalarining umri davom etaveradi. Kelajak avlod ham bu go'zallikdan bahramand bo'lib, ajdodlari qoldirgan merosdan qalblari doimiy g'urur va iftixorga to'ladi. Ajdodlariga munosib avlod bo'lish mas'uliyati o'sib kelayotgan yosh avlod qalbida paydo bo'ladi. Ijod sohasining asosiy o'ziga xosligi ham shundadir. Bundan tashqari, xalqlar, millat va elatlarni bir-biridan ajratib turuvchi soha ham aynan – inson qo'li bilan yaratilgan ijod mahsullaridir. Aynan shu orqali, inson badiiy tafakkuri, millatlardagi o'ziga xoslik yaqqol aks etadi. Bundan tashqari, ijod sohasi inson estetik g'oyalari va tasavvurlari ortishiga ham xizmat qiladi. Mana shu tarmoqlarda yuksak namuna ko'rsatgan Xiva hukmdorlarining ko'rsatgan jonbozliklari, yaratgan asarlari va qurdirgan mahobatli bino va saroylari orqali bugungi Xiva tarixi butun dunyoni lol qoldirib kelmoqda. O'tmishdan Xivada ijod va madaniyatning o'ziga xos tarmog'i va yo'li mavjud edi. Natijada, Xiva xonligi jumladan, Xorazm hududida siyosiy va iqtisodiy turmush tarzidan tashqari, madaniy jarayonlar ham yuksalib bordi. Madaniy hayot ravnaqi ta'lim-tarbiya, adabiyot, tarixnavislik, she'riyat, me'morchilik, hunarmandchilik sohasidagi yutuqlar evaziga yanada ravnaq topdi va yuksalib bordi. Bu esa ijod sohasining o'ziga xos bo'lgan Xorazm ijod maktabi shakllanishiga olib keldi. Bu kabi sohalarning rivojiga hukmdorlarning ham ko'rsatgan jonbozliklari Xiva tarixchiligida muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki, hukmdor yuritgan odilona siyosat va xalq ma'rifatchiligiga ko'rsatgan yordami tufayligina, jamiyatning muhim tarmoqlari yuksalib boraveradi. Oqil hukmdorlar yonida bilimli, teran fikrlovchi shaxslardan iborat muhit shakllanadi. Bu muhit hukmdorlar ko'rsatayotgan jonbozliklar tufayli yanada kengayib, oddiy xalq farzandlarini ham ijodkor va ma'rifatparvar bo'lishiga olib keladi. Xivada ijod sohasining barcha tarmoqlari birdek yuksalgan. Ayniqsa, me'morchilik avvalo, shaharlar rivoji bilan bog'liq ravishda taraqqiy etib bordi. Poytaxt shahar- Xiva xonlikdagi yirik shahar bo'lib, u 3 qismdan : xon qarorgohi, saroy ( Ichan va Dishan qal'a ) bevosita shahar va shahar atrofi- rabotdan iborat edi. Xivada bunyod etilgan imoratlar bizning davrimizgacha yaxshi saqlanib qolgan bo'lib, hozirgi paytda bu shahar vatanimizning “ Ochiq osmon ostidagi muzey shahar “ laridan biridir. Shuni yana bir karra ta'kidlash o'rinliki, Xiva shahrining Ichan qal'a qismi tarixiy-me'moriy obidalarining yaxlit tarzda saqlanib qolganligi bilan O'rta Osiyodagi qadimiy shaharlarning yagonasidir. 1967- yil 30 -noyabrda “ Xiva shahrining tarixiy-me'moriy yodgorliklarini saqlash, obodonlashtirish va qurilish ishlarini rejalashtirish ” haqidagi maxsus farmon e'lon qilindi. Shu qarorga ko'ra, Ichanqal'a O'rta Osiyoda ilk bor tarixiy-me'moriy qo'riqxonaga deb e'lon qilindi. 1990- yilda esa Kanadada bo'lib o'tgan YUNESKO ning XIV sessiyasida Xivaning Ichanqal'a qismi “ Jahon madaniyati va madaniy merosi” ro'yxatiga qabul qilindi. Ichanqal'a tarixiy-me'moriy yodgorliklarini mustaqillik yillardan boshlab yangicha e'tibor va qayta ta'mirlash va obodonlashtirish ishlariga katta ahamiyat berilmoqda. Xivada orazm me'morchilik muzeyini tomosha qilish uchun dunyoning ko'plab mamlakatlaridan sayyohlar tashrif buyurishadi. Ta'mirlanib, rekonstruksiya qilingan Xorazm obidalari o'zining ikkinchi umrlarini yashamoqdalar. Xiva shahrida hozirda 70 dan ortiq tarixiy-me'morchilik obidalari ro'yxatga olingan bo'lib, ularning 541 tasi Ichan qal'a hududida joylashgan. Xivada adabiy muhitning o'ziga xos yo'nalishi mavjud bo'lgan. Ya'ni shoir va olimlardan iborat guruhdan tashqari, hukmdorlar ham go'zal abyot-u g'azallar bitganlar. Natijada, Xorazmda o'tmishdagi ilg'or an'analarni davom ettirgan holda bir qancha taraqqiyparvar shoir va yozuvchilar yetishib chiqdi. Ular orasida Xiva xoni va tarixnavisi Abulg'oz Bahodirxon ijodini ta'kidlab o'tish joizdir.

XVII asrda Abulg‘ozi Bahodirxon (1605–1664) Xorazm tarixi bo‘yicha o‘zbek tilida tarixiy asarlar yozish ishini boshlab berdi. Keyinchalik XIX va XX asr boshlariga kelib, uning bu ajoyib ishini atoqli tarixnavislar Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy va Muhammad Yusuf Bayoniylar davom ettirdilar. Ular «Shajarayi turk», «Shajarayi tarokima», «Firdavs ul-iqbol», «Riyozi ul-davla», «Zubdat ut-tavorix», «Jomi’ ul-voqeoti sultoniy», «Gulshani davlat», «Shohid ul-iqbol», «Shajarayi Xorazmshohiy» va «Xorazm tarixi» nomli qator qimmatli tarixiy asarlarini yaratdilar. Xivada adabiyot va san‘atning rivojlanishiga shart- sharoit yaratgan, uni qo‘llab-quvvatlagan yana bir shaxs borki, busiz xonlik tarixi ham, adabiy muhiti ham yuksalmay qolaverardi. U shaxs o‘zining badiiy iqtidori, cheksiz imkoni, qudratli hokimiyati bilan ham butun bir davr yaratdi. Bu 1863-1910- yillarda Xiva xoni taxtida o‘tirgan Sayyid Muhammad Raximxon II — Feruzdir. Feruz tug‘ma iqtidorli shoir edi. Saroyda qirqdan oshiq adabiyot ixlosmandlarini to‘plab, adabiyotni rivojlantirdi, san‘at va madaniyat taraqqiyoti to‘g‘risida ham bosh qotirdi. O‘zi yozgan nafis g‘azallardan tuzilgan devon undan keyingi shoirlarga ilhom manbai bo‘lib xizmat qildi. Muhammad Rahimxon II 1874- yilda O‘rta Osiyoda birinchi marta Xivada toshbosmaxona tashkil qiladi. Shu davrgacha barcha kitoblar mohir xattotlar tomonidan qo‘lda ko‘chirilib, juda kam nusxani tashkil etardi. Ko‘hna Arkda toshbosmaxonning ishga tushirilishi bilan imkoniyat chegaralari kengaydi, mumtoz adabiyotimizning o‘lmas namunalarini ko‘p nusxada chop etish, o‘quvchilarga yetkazib berish mumkin bo‘ldi. Toshbosmada ilk bor eronlik Ibrohim Sulton degan kishi matbaachilik qilib, bu shu‘baning boshlig‘i shoir Tabibiy bo‘lgan. Chop etilgan kitoblar savdoga chiqarilmas, faqat olim, fuzalolarga, madrasalarga berilardi. Toshbosma 1908 yilda Tozabog‘ga ko‘chirilgan. Unga Otajon Abdalov matbaachilik qilgan. Bu yerda Navoiyning “Xamsa” si, Munisning “Devoni Munis”, Ogahiyning “Devoni Ogahiy”, Feruzning “Devoni Feruz”, shuningdek, Komil Xorazmiy, Muxammad Yusuf Rojiy, Muhammad Tabibiy, Muhammad Rasul Mirzo kabi iqtidorli shoirlarning bayoz va devonlari chop etilgandi. She‘rshunoslik xususida, Xiva xoni Olloqulixon ham mashhur nasriy asarlar yarata olgan. Bejizga, Ogahiydek zabardast adibning Olloqulixonni “she‘rshunos” deb atamagan. Bu ta‘rif uning shirin abyotiga berilgan ulkan bahodir. XIX asrning boshida she‘rshunos bo‘lish uchun albatta arab (aruz qoidalari), fors va turkiy tillarni mukammal bilish lozim bo‘lgan. Demak, Olloqulixon nozik ta‘b, bir necha tillarni o‘zlashtirgan ijodkor bo‘lgan. U nazm va nasrda qalam tebratgan bo‘lib, buni kelajakda tadqiqotchi olimlar tasdiqlasalar ajab emas. Ogahiyning bildirishicha, ”U (Olloqulixon) saxovat egasi bo‘lganligidan, saxiylik bilan katta dasturxonlar yozib, buyuk olimlar-u, mashhur shoirlar, o‘ta oqil, nozik did, ulug‘ martabali insonlarni chorlab, goh yechimi qiyin ilmiy munozaralar, goh tarix fanining yechilmay qolgan sirlari xususida suhbatlar o‘tkazib, barcha fuzalodan oldin idrok bilan hal qilardi. Va majlis ahlini turli qimmatbaho hadyalar bilan siylab ko‘ngillarini behad shod etardi”.

Yuqoridagilardan ma‘lum bo‘ladiki, Olloqulixon hukmronligi davrida xonlikning madaniy-ma‘rifiy tarixida o‘chmas iz qoldirgan, zamonamiz tili bilan aytilganda, olimlar shahodatini (attestatsiya) o‘tkazgan va ushbu tadbirdan ilm rivoj topgan, ilm ahli esa bundan manfaatdor bo‘lgan. Bir so‘z bilan aytadigan bo‘lsak, Xivada adabiyot va san‘at o‘z davriga nisbatan misli ko‘rilmagan tarzda rivoj topdi, shakllandi, har bir sohada o‘zining manguylikka daxldor ijodkorlarini dunyoga keltirdi.

Xulosa sifatida ta‘kidlash joizki, Xiva shahri o‘tmishdan hozirgi kunga qadar, ijodiyot yuksalgan moziy shahri sifatida nom qoldira olgan. Ijod sohasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ijodiyot tarmog‘i shunday bir ummonki, uning tarixi, umri necha asrlar o‘tsa ham boqiy yashayveradi. Nomi tillarda, surati siyratlarda saqlanib qolaveradi. Bejizga, har bir mamlakat va davrning siyosiy, iqtisodiy va ma‘naviy rivojlanish tarixi, adabiyot va san‘at taraqqiyoti bilan belgilanadi deyishmagan. Moziyning o‘tmishdagi buyuklarini kelajakdagi avlodlarga yetkazuvchi vositalardan asosiysi, ijod, adabiyot, san‘at, me‘morchilik asarlarining dunyoga kelishi va manguylikka daxldorligi bilan o‘lchanadi. Bunday sohalar yuksalishida nafaqat, xalq orasidan yetishib chiqqan ziyolilar balki, kuchli qobilyatga ega hukmdorlarning ko‘rsatgan tashabbuslari tufayli ham bugungi Xiva nomi, uning tarixi, ijod yo‘li doimiy tahsinga sazovor bo‘lib kelmoqda.

Kurrayi zaminning eng ko'hna shaharlaridan biri — Xiva o'zining boy tarixiga ega. Uzoq o'tmishning nodir yodgorliklarini asrlar osha bus-butun holda bizga qadar yetkazgan boboshaharni tomosha qilish, tavof etish uchun dunyoning barcha burchaklaridan hamisha minglab sayyohlar tashrif buyuradilar, uning mahobatli obidalarini tomosha qilib, hayratga tushadilar. Bejizga, yaponiyalik sayyoh S. Richigan Xiva haqida quyidagi fikrlarni bildirmagan: "Shaharni tomosha qilib olgan taassurotlarim cheksiz, hayajon va hayratlarimni qanday ifoda qilishni bilmayman. Umumiy olib qaraganda, **Xiva — bu buyuk mo'jiza!**" kabi e'tiroflari ko'pchilikning ko'ngil so'zlari singari yangraydi. Ushbu gaplar chin haqiqat. Xiva — mo'jizakor shahar. Undagi hukmdorlar farmoni, ziyolilarning kuchli tafakkuri natijasida qurilgan niliy gumbazlar, osmono'par minoralar, naqshinkor binolar, serjilo obidalar go'zallikka tashna har bir jonni o'ziga maftun etadi. Bu mo'jizalarga qarab turgan inson zoti, uning ijodkorlariga beixtiyor tahsinlar o'qiydi. Bu shaharning jahon madaniyati taraqqiyotida tutgan o'rni ham beqiyos bo'lib, bu e'tirof YUNESKO Bosh konferensiyasining 1995- yil oktabr-noyabr oylarida Parij shahrida bo'lib o'tgan 28- sessiyasida alohida qayd etib o'tilgan edi. Dunyoda mashhur bo'lgan yettita mo'jizaning biri, YuNESKO Bosh direktori Federiko Mayor Saragosaning ta'biri bilan aytganda, "Jahon shaharlari olmosi — Xivadir". Yer kurrasidagi mashhur bo'lgan Afina, Qohira, Rim shaharlarining tengdoshi bo'lgan bu shahar jahon madaniyat merosiga qabul qilingan 100-shahardir. Xiva — tarixiy o'tmishi, qurilishi, tuzilishi, obidalarining yaxlit saqlanganligi jihatidan ham mazkur qadimiy shaharlar orasida alohida o'rin tutadi. O'zbekiston hukumati tashabbusi bilan mazkur shaharga alohida e'tibor qaratilib, 1967- yilda O'rta Osiyoda ilk bor Xiva shahri tarixiy-me'moriy yodgorliklar qo'riqxonasi deb rasman e'lon qilindi. 1990- yilning dekabr oyida Xiva shahrining "Ichano'l" qismi Jahon Madaniyati va tabiat me'rosiga (YuNESKO) qabul qilindi. Natijada, shahar qiyofasi tubdan o'zgardi, ajdodlar yaratgan betakror obidalariga ikkinchi umr baxshida etildi. Ma'naviy qadriyatlarini qayta tiklash, uni to'laligicha kelgusi avlodga yetkazish zamondoshlarimizning vijdon amriga aylandi. Xiva shahar me'moriy yodgorliklaridan iborat "Ochiq osmon ostidagi muzey" tashkil qilindi. Shuning asosida alohida e'tirof etish joizki, bunday yuksalish zamirida ma'rifatparvar va oqil hukmdorlarning ko'rsatgan jonbozliklari hamda yuritgan odil siyosatlarining ta'siri yotadi.



## САМАРҚАНД АҲОЛИСИ ЭТНИК ТАРКИБИДА ТУРКМАН ХАЛҚЛАРИ ( XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошлари)

*Гадаев Омон Олимжонович*

*Самарқанд шаҳар 24-умумтаълим мактаби  
тарих фани ўқитувчиси.*

**Аннотация:** Ушбу мақолада Россия империяси даврида амалга оширилган этник масалаларга оид давлат сиёсатлари ва маҳаллий аҳолининг сунъий равишда аҳолини миллатларга бўлиб ташланиши, миллатлараро сиёсатда этник озчилик, кам сонли миллатлар, четдан кириб келган халқлар каби атамаларнинг жорий этилиши каби фикрлар ўз тасдиғини топган. Мазкур масалалар XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошларида Самарқанд вилоятида яшаган туркман халқлари мисолида таҳлил қилинган.

**Калит сўзлар:** Империя, миллий сиёсат, этник муносабатлар, миллатлараро сиёсат, этник озчилик, кам сонли миллатлар, четдан кириб келган халқлар.

**Кириш.** Россия империяси ҳарбий йўл воситасида Ўрта Осиё хонликлари ҳудудини забт этиб, ерли халқларга нисбатан миллатчиликнинг қадимий кўринишларини ўзида акс эттирган “бўлиб ташла, ҳукмронлик қил” сиёсатини янгича метод ва воситалар билан кенг жорий эта бошлади. Тарихан ягона геосиёсий майдонда бир бутун халқ сифатида яшаб келган туркий халқлар турли миллий гуруҳларга ажратиб ташлана бошлади. Россия империяси маъмурияти Туркистонда ўз ҳукмронлигини узоқ мўддатлар давомида сақлаб қолиш, ўлка миллий бойлигини ўзлаштириш, бир сўз билан айтганда, метрополия мавқеини Туркистонга нисбатан сақлаб қолиш учун ўлка аҳолисини ва уларнинг таркибини, миллий анъана ва урф- одатларини яхши ўрганиш зарурлигини яхши тушуниб етар эди. Шу боисдан, империя манфаатларидан келиб чиққан ҳолда турли этнографик тадқиқотларни амалга оширишга киришди. Ушбу тадқиқотлар натижасида юзага келган ҳисобот ва статистик тўпламларда этник озчилик, кам сонли миллатлар, четдан кириб келган халқлар каби атамалар кенг ишлатила бошланди.

**Асосий қисм.** Тадқиқот даврига оид манбаларнинг қайд этишича, туркман халқлари Бухоро, Хива, Қўқон хонликларидан ташқари ҳозирги Эрон ва Афғонистоннинг шимолий ҳудудларида истиқомат қилган. Хива хонлигида аҳоли нуфузи бўйича иккинчи ўринни эгаллаган. Россия империясининг Бухоро амирлиги билан олиб борган ҳарбий каманияси давомида Зарафшон округи юзага келди. Самарқанд вилоятининг этник таркиби бўйича дастлабки тадқиқотлар ҳам Зарафшон округи номи билан ёки Зарафшон водийси этник таркиби билан ҳужжатларда келтирилади. Самарқанд ҳудуди азалдан иклимининг қулайлиги, ички ва халқаро савдо йўллари чорраҳасида жойлашганлиги ҳамда бошқа қатор сабаблар туфайли аҳоли гавжум яшайдиган ҳудуд ҳисобланган. Тарихий манбаларнинг гувоҳлик беришича, Самарқанд ҳудудида ўзбекларнинг 92 уруғидан ташқари кўплаб чет элликлар: хинд, яҳудий, эрони, афғон[3,-50] ва бошқа кўплаб миллатлар истиқомат қилганлар. Рус босқини арафасида шаҳарда 17 хил миллат яшаганлиги манбаларда қайд этилган[5,-109]. Бунинг бир қатор сиёсий, иқтисодий сабаблари мавжуд, албатта. Сайёх Мейендорфнинг маълумотида, 1820 йилда шаҳарда 30 минг, шарқшунос Н.Ханиковнинг фикрича, 1841 йилда 25 минг, венгер сайёҳи А.Вамберининг фикрича, 1863 йилда 20 минг, шарқшунос В.В.Радловнинг маълумотларига кўра, 1868 йилда 10 минг, А.П.Федченко маълумоти бўйича, 1869 йилда 30 минг аҳоли яшаган[5,-110]. Самарқанднинг ўрганилаётган давр аҳолиси этник таркиби бўйича замонавий тарихшуносликда Курахмедов А.Э[2,-32], Ирискулов О.Ж.[1,-50], Нормуродова Г.Б.[4,-50] тадқиқотларида муфассал маълумот берилган. Туркман халқларининг Зарафшон воҳаси, хусусан, Самарқанд ҳудудида истиқомат қилишларининг бир қатор сиёсий ва ҳарбий сабаблари мавжуд эди. Хонликлар тарихига оид манбаларда

2. Герасимов А.Н. Медицинская информатика. Москва: Медицинское информационное агентство, 2018.- 324с.

## ЭЛЕКТР ЭНЕРГИЯСИНИ ТАРМОҚДАГИ РЕАКТИВ ҚУВВАТНИ КОМПЕНСАЦИЯЛАШ ОРҚАЛИ ИҚТИСОД ҚИЛИШ

*Давлетов Икрам Юсубович<sup>1</sup>, Ҳакимов Нemat Забибуллаевич<sup>1</sup>,  
Каримов Исломбек Равшан угли<sup>2</sup>, Ҳамраев Огабек Ойбек угли<sup>2</sup>,  
Бабажонов Юлдузхон Фахриддин қизи<sup>2</sup>  
Урганч давлат университети ўқитувчилари<sup>1</sup>,  
Урганч давлат университети талабалари<sup>2</sup>.*

Ҳозирги кунда электр энергиясидан унумли фойдаланиш долзарб масалалардан бири ҳисобланади. Бизга маълумки, реактив қувват компенсацияси энергия тежаш мақсадида ишлатилади. Бу масала, айниқса йирик саноат корхоналари учун жуда долзарбдир. Таъкидлаш жоизки, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015-йилнинг 5-майдаги ПҚ-2343-сонли қарорида иқтисодиёт тармоқлари ва ижтимоий соҳада энергия сифимини қисқартириш, энергияни тежайдиган технологиялар ва тизимларни жорий этиш вазифаси қўйилган эди. Қарор доирасида кейинги йилларда республикамизнинг иқтисодиёт тармоқлари ва ижтимоий соҳасида энергия тежамкорлигини таъминлашга қаратилган кенг қамровли чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Бутун дунё олимлари тамонидан ушбу муаммога бағишланган кўпгина илмий тадқиқот ишлари олиб борилмоқда, янги энергия тежамкор технологиялар ва қурилмалар яратилмоқда.

Тармоқдан истеъмол қилинадиган қувватни камайтиришнинг энг самарали усулларида бири, бу реактив қувватни автоматик компенсация (РҚАК) қилувчи қурилмалардан фойдаланишдир.

Реактив қувват - бу истеъмолчи тамонидан ўзлаштирилган электромагнит майдонларни ва двигателларни айланувчан моментини ҳосил қилувчи қувватдир. [1-2]


Қувват коэффициенти  $\cos\phi$  ўзгарувчан ток генератори тамонидан ишлаб чиқилган электр энергиянинг тўлиқ қувватидан фойдаланишнинг муҳим кўрсаткичидир.  $\cos\phi < 1$  бўлганда, генератор актив қувватдан ортиқроқ кучланиш ва ток ҳосил қилиши кераклигига алоҳида эътибор қаратиш лозим. Мисол учун, агар электр тармоғидаги актив қувват 1000 кВт ва  $\cos\phi = 0,8$  бўлса, у ҳолда умумий қувват қуйидагича бўлади:

$$S = \frac{P}{\cos\phi} = \frac{1000}{0,8} = 1250 \text{кВА}$$

Фараз қилайлик, бу ҳолда актив қувват 100 кВ кучланиш ва ток 10 А га тенг бўлсин. Бироқ, генератор тўлиқ қувватга эга бўлиши учун 125 кВ кучланиш ҳосил қилиши керак

$$S = 125 * 10 = 1250 \text{кВА}$$

Ҳозирги кунда амалда фойдаланилаётган электр тармоқларининг реактив қаршиликка эга бўлган қисмлари актив қаршиликка эга бўлган қисмларига ҳам кетма-кет, ҳам параллел равишда уланади. [2]




**1-расм.** Фақат реактив юклама тасиридаги ( $\phi=90^0$ ) кучланиш, ток кучи ва қувват.

Ушбу ишда “Кўнгирот сўда заводи” АЖ га қарашли сув ва қонолизация цехининг 14 пўстидаги 315 кВт ли ( $\cos\varphi=0,91$ ) асинхрон электр двигатели мисолида олиб борилган тажриба натижаларига тўхталамиз. Дастлаб электр двигателининг қувват коэффиценти, ундаги реактив ва актив қувват ҳамда киришидаги ва чиқишидаги ток ва кучланиш микдорлари аниқланди ва шунга мос реактив қувватни автоматик компенсациялаш қурилмаси лойиҳаланди. Натижада айнан ўрганилган асинхрон электр двигателга мос бўлган компенсациялаш қурилмаси яратилди ва занжирга ўрнатилди. 1-жадвалда қуввати 315 кВт ли асинхрон электр двигатели занжирига компенсация қурилмаси уланган ва уланмаган ҳолатдаги токнинг ўзгаришларини ўрганиш натижалари келтирилган.

№	РҚАК қурилмаси ҳолати	$I_1$	$I_2$	$I_3$	$I_{\text{ўртача}}$		$\Delta I$
1-чи тажриба натижаси	РҚАК қурилмасини уланмаган пайтдаги ток кучи қиймати	458А	460А	456А	458А		30А
	РҚАК қурилмасини уланган пайтдаги ток кучи қиймати	429А	425А	430А		428А	
2-чи тажриба натижаси	РҚАК қурилмасини уланмаган пайтдаги ток кучи қиймати	460А	457А	454А	457А		35А
	РҚАК қурилмасини уланган пайтдаги ток кучи қиймати	422А	422А	423А		422А	
3-чи тажриба натижаси	РҚАК қурилмасини уланмаган пайтдаги ток кучи қиймати	455А	456А	456А	456А		34А
	РҚАК қурилмасини уланган пайтдаги ток кучи қиймати	423А	422А	422А		422А	

Жадвалдан кўриниб турибдики, занжирга РҚАК қурилмаси уланмаган пайтдаги ток кучи уч нуктада ( $I_1, I_2, I_3$ ) ўрганилган ва унинг ўртачаси 457А га тенг бўлган. РҚАК қурилмаси улангандан сўнг ҳам ток кучи уч нуктада ( $I_1, I_2, I_3$ ) ўрганилган. Бунда эса ток кучининг қиймати 424А ни ташкил қилган. Демак ток кучининг қиймати 33А га камайган. 2-расмда асинхрон электр двигателига РҚАК қурилмаси улангандан сўнг ток кучини камайиши кўрсатилган.



**2-расм.** Ток кучини вақт бўйича ўзгариши.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, уч фазали ўзгарувчан ток занжиридаги актив қувватни “Ўздавэнергоназорат” инспексияси низомига асосан РҚАК қурилмаси уланмаганда ( $P_1, S_1$ ) ҳамда РҚАК улангандаги ( $P_2, S_2$ ) актив ва тўла қувват қийматларини қуйидагича ҳисоблашимиз мумкин.

$$P_1 = \sqrt{3} U_L I_L \cos\varphi = 1.71 \cdot 397 \text{В} \cdot 457 \text{А} \cdot 0.91 = 282,3 \text{кВт}$$

$$P_2 = \sqrt{3} U_L I_L \cos\varphi = 1.71 \cdot 397 \text{В} \cdot 424 \text{А} \cdot 0.98 = 282,0 \text{кВт}$$

$$S_1 = \sqrt{3} U_L I_L = 1.71 \cdot 397 \text{В} \cdot 457 \text{А} = 310,2 \text{кВА}$$

$$S_2 = \sqrt{3} U_L I_L = 1.71 \cdot 397 \text{В} \cdot 424 \text{А} = 287,8 \text{кВА}$$


$$\Delta S = 310,2 - 287,8 = 22,4 \text{кВА}$$

Реактив қувватни қуйидаги ифодадан аниқлаймиз.

$$Q_{kVar} = \sqrt{(S_2 kVA - P_2 kW)^2} = \sqrt{96224,04 kVA - 79636,84 kW} = \sqrt{16587,2 kVA} = 128,79 kVar$$

Тўла электр энергияни РҚАК улангандан кейинги фарқи  $\Delta S=22,4$ кВА, ФИК  $\eta= 22,4/315 = 7,1\%$  га тенг. Бундан кўринадики РҚАК қурилмаси 7,1% тўла электр энергияни иқтисод қилган. Бу дегани бир йил давомида:

Реактив энергия  $Q_{kVar} = 9,15$  кВар х 19,5 сўм х 24соат х 333кун = 1 425 051,56 сўм, актив энергия  $P_{kW} = 21,95$  kW х 450 сўм х 24соат х 333 кун = 78 940 980 сўм иқтисод қилинади. Демак, ушбу қурилма ишлаб чиқариш корхоналарига ўрнатилса икки ойда ўзини оқлаши мумкин экан. Ҳисоб китоблар шуни кўрсатмоқдаки ушбу қурилма ёрдамида энергиянинг актив қувватини соатига 21,95 kW га иқтисод қилиш, реактив қувватни эса соатига 9,15 кВар га компенсациялаш мумкин экан. Бу қурилмани энергия тежамкор ва иқтисодий самарадор эканлигини кўрсатади. Юқоридагиларнинг барчаси электр таъминоти корхоналарининг истеъмолчилардан тармоқдаги реактив қувват улушини камайтиришни талаб қилишнинг асосий сабабидир. Ушбу муаммони ечими сифатида реактив қувватни компенсациялаш - корxonанинг электр таъминоти тизимининг тежамкор ва ишончли ишлашининг муҳим ва зарур шартидир. 3-расмда электр таъминоти тизимларига РҚАК қурилмасини ўрнатишнинг тавсиявий схемаси келтирилган. Расмдан кўринадики амалиётда фойдаланилаётган электр таъминоти тизимларида генераторда ҳосил қилинган электр энергия хусусиятлари истеъмолчига боргунча тармоқнинг 3 та нуқтасида ўзгаришга учрайди яъни, электр энергияси генераторидан Tr-1 нинг биринчи паст кучланишли чўлғамигача бўлган оралиқда, Tr-2 нинг юқори кучланишли чўлғамигача бўлган оралиқда ҳамда истеъмолчининг бевосита ўзига бўлган оралиқларда ўзгаради. Шунинг учун ҳам электр энергияси тармоғининг индуктив боғланишли қурилмалари бор бўлган қисмларига РҚАК қурилмасини ўрнатиш орқали реактив қувватни самарали компенсациялаш мумкин бўлади. Тўла энергияни истеъмолчига ортикча йўқотишларсиз етказиш мақсадида 3 нуқтада компенсацияловчи қурилма ўрнатиш мақсадга мувофиқ бўлади.



**3-расм.** Электр таъминоти тизимларига РҚАК қурилмасини ўрнатишнинг тавсиявий схемаси.

Реактив қувватни тўғри компенсациялаш электр энергияга сарфланадиган умумий харажатларни ҳамда токнинг иссиқлик йўқотишларини камайтиради. Электр энергияси тақсимлаш тармоғи элементларига (таъминот линиялари, трансформаторлар ва коммутатор қурилмалари ва б.) юқламани камайтириш орқали уларнинг хизмат муддатини узайтиради. Бундан ташқари муайян турдаги қурилмалардан фойдаланганда пайдо бўладиган юқори гармоникалар даражасини пасайтиради, тармоқда пайдо бўладиган ҳалақитларни йўқотади ҳамда фазалар фарқини камайтиради. Электр энергиясини тақсимловчи тармоқларнинг ишончилиги ва самарадорлигини ошириш имкониятларини беради. Ҳозирги вақтда реактив қувватни компенсациялаш деярли ҳар қандай корхонада энергия тежаш масаласини ҳал қилиш имконини берувчи муҳим омил ҳисобланади. Маҳаллий ва етакчи хорижий мутахассисларнинг ҳисоб-китобларига кўра, ишлаб чиқариш таннархида энергия ресурслари, хусусан, электр энергиясининг улуши 30-40 фоизни ташкил этади.

Реактив қувватни компенсациялаш энергия тежаш масаласини ҳал қилишнинг калитидир. Шунга кўра, реактив қувват компенсацияланганда (РҚАК- автоматик бошқариладиган конденсатор блоклари ёрдамида) тармоқдан истеъмол қилинадиган тўқ  $\cos\phi$  га боғлиқ равишда 7-35% га ҳамда ўтказувчан симларнинг қизиши ва изоляциянинг эскириши камаяди.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ершов С.В., Поздновский В.В.. Система компенсации реактивной мощности для участка сети промышленных предприятий. Известия ТулГУ. Технические науки. 2012. Вып. 12. Ч. 3,
2. Баламетов А.Б., Мусаханова Г.С., Халилов Э.Д. Исследование решения задачи оптимизации режимов электрических сетей по напряжению и реактивной мощности методом последовательной линеаризации и линейного программирования. Электричество. 2003. №3.



## YARIMÓTKIZGISHLER FIZIKASI LABORATORIYALARINDA JUMIS ALIP BARIW TÁRTIBI

*A.Djubatov, D.Allamberganova*  
*Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik*  
*pedagogikalıq instituti 1-magistrantlari.*

Ózbekstan Respublikasında kadrlar tayarlaw milliy programması tiykarında, Joqarı Oqıw orınlarınıń tiykarǵı wazıypası hár tárepleme jetik, jámiyet turmısına maslasqan hám óz kásipi boyınsha pánni joqarı dárejede ózlestirgen kadrlar tayarlawdan ibarat esaplanadı. Házirgi waqıtta mámleket ulgileri (standartları ) tiykarında barlıq jónelisler boyınsha bakalavrlar tayarlaw ushın oqıw jobaları hám pánlerdiń úgili programmaları islep shigılıp atır. Ol jaǵdayda halqaro umum tálim ulgileriniń qollanıwı jaslardı oqıtıwda xalqımızdıń bay mánawiy miyraslarınan, hám de jáhánniń aldıńǵı tájiriyyelerinen keń paydalanıw imkaniyatın beredi. Ózbekstan Respublikası texnika joqarı oqıw orınlarınıń fizika kafedralarında uzaq jıllar dawamında toplanılǵan tájiriyyeler hám rawajlanǵan shet el mámleketler joqarı oqıw orınlarınıń keyingi jıllarda qollap atırǵan fizika pániniń programmalarınan paydalanıldı. Studentlerdiń fizika pánin ózlestiriw ushın oqıtıwdıń aldıńǵı hám zamanagóy usıllarınan paydalanıw, jańa informatsion pedagogikalıq texnologiyalardı nátiyjeni ámelde qollanıw qılıw zárúrli áhmiyetke iye esaplanadı. Laboratoriya sabaqlarında uyqas túrde aldıńǵı pedagogikalıq texnologiyalardan paydalanıladı. Texnika baǵdardǵı institutlardıń barlıq qánigelikleri boyınsha studentlerge usınıs atırǵan oqıw qóllanba avtorlardıń kóp jıllıq jumis tájiriyyesi nátiyjesi bolıp tabıladı. Avtorlar qóllanbanı tayarlawda, birinshiden, studentlerdi házirgi zaman fizikasi jetiskenliklerin esapqa alǵan halda tayarlanǵan laboratoriya shınıǵıwları boyınsha ózbek tilindegi zamanagóy qóllanba menen támiynlewdi, ekinshiden, bolajaq injenerlerdiń fizikalıq nızam, hádiyse hám processlerdi tereńrek úyreniwlerge, olardıń tájiriyye ótkeriw hám ólshewlerdiń ápiwayı usılların ózlestiriwlerine kómeklesiwdi óz aldılarına maqset etip qoyadı.<sup>[1]</sup> Házirgi waqıtta studentler ótilip atırǵan sabaqlardıń mazmunıń, maqsetin jetik tusine almay atır. Bunıń ushın yarım ótkizgishler fizikasın tolıq zamanagóy texnikalar menen támiylew kerek bolıp esaplanadı. Studentler ótilgen temanı tolıq túsiniw jetiw ushın olar sol tema boyınsha ámeliy orınlap kóriw kerek. Laboratoriya kabinetine studentler kirgende laboratoriya jumısların orınlaw ushın aldınan tayarlıq kóriw, tájiriyye ótkeriw, alınǵan nátiyjelerdi qayta islew, esabat dúziw hám qorgawǵa tayarlanıw processlerinde tómendegi ulıwma temalardı puqta ózlestirgen bolıwı kerek:

1. 1. Izertlew alıp barmaqshı bolǵan elektron ásbap (EÁ) haqqında ulıwma maǵlıwmatlar:

- EÁ wazıypası hám qollanıw tarawı ;
- EÁ elektrodlardıń atı hám wazıypası ;
- EÁ dıń sxemalarda shártli belgileniwı;
- EÁ túrleriniń belgileniw sistemaları ;
- EÁ tiykarǵı parametrleri mánisiniń tártibi.

1. 2. Ólshew sxeması :

- sxemanıń túrli shınjırlarınan tok ótiwi;
- ólshew ásbaplarınıń wazıypaları ;
- sxemanı elektr derekke jalǵaw hám uzatıw tártibi;
- jumis rejimin retlew usılları.

1. 3. Ólshewdi orınlaw usılı :

- xarakteristikalarda ólshew tártibi;
- xarakteristikalarda ólshewde jumis rejimi parametrleriniń shegaralıq ekspluatatsiya mánisi;
- EÁ parametrlerin tájiriyye usılında anıqlaw ;
- EÁ matematikalıq model parametrlerin tájiriyyede anıqlaw usılı.

1. 4. Teoriyalıq sorawlar :

- izertlew atırğan EÁ islew principini;
- izertlew atırğan EÁ jalğanıw sxeması : elektr derek polyusı, toklardın baǵdarı, elektrod toklarınıń oqıw ótiw shıńjırları hám olardıń qurawshıları, toklardın óz-ara baylanısıwı ;
- EÁ statikalıq xarakteristikaları hám basqa tájiriyyede alınǵan baylanıslılıqlardıń mánisi;
- EÁ matematikalıq modeli parametrlerin tájiriyye maǵlıwmatlarınan anıqlaw usılları hám olardıń fizikalıq mánisin túsindiriw;
- ostsilogrammalarǵa anıqlama beriw;
- izertlew atırğan EÁ shegaralıq parametrleriniń fizikalıq kózqarastan túsindiriw.

1.1.-1.3 - temalardıń derlik barlıq bántleri laboratoriya jumıslarına tayarlanıw processindegi úy wazıypasınıń mazmunın belgileydi hám olar usı jıyınқтаǵı hár bir laboratoriya jumıslarınıń xarakteristikalarında óz ańlatpasın tapqan. Eger student jumıs orınlawdan aldın yamasa jumıs orınlaw waqtında joqarıda aytıp ótken temalar boyınsha úy wazıypaların ózlestirmegani oqıtıwshı tárepinen anıqlansa, ol halda student jumıs orınlawına ruxsat etilmeydi yamasa jumıs orınlawdan shetlashtiriledi. Studentti 1.4 bántlerdi ózlestiriwi laboratoriya jumısın qorǵaw shıńǵıwlarında oqıtıwshı tárepinen tekseriledi.

1.2 - bántlerinde keltirilgen ólshew sxemaları hám ólshew usılları máseleleri usı qóllanbanıń tómede keltirilgen "Universal laboratoriya stendi (ULS) dıń xarakteristikası" berilgen.

Esabatlardı dúziw ushın 1.1 bantda keltirilgen sorawlarǵa juwaptı EA haqqındaǵı málimlemelerden izlew kerek.<sup>[2]</sup>



**Universal laboratoriya stendiniń ulıwmalıq kórinis.**

Studentler yarım ótkizgishler haqqında tolıq túsiniw jetiw ushın joqarıdaǵı kórsetilgen maǵlıwmatlardı ózlestiriw kerek. Házirgi waqıtta pán texnika rawajlanıwı hám de IT baǵdarı da tez pát penen rawajlanıp atırǵanıń esapqa alsaq hár bir joqarı oqıw orında virtual-laboratoriya xanaların ashıwdı usınıs etemen. Virtual-laboratoriyanı 3D yaki 5D ekranları menen támiyinlew laboratoriyalıq jumıslardıń anıq, túsiniwli qılıp programmaların islep shıǵıw kerek. Sebebi virtual-laboratoriya texnikalıq jaqtan qáwipsiz, studentlerge qiziqli hámde laboratoriyada baqlanıw atırǵan jumıstıń processin yaǵniy mikro bólekshelerdiń háreketlerin kóz benen kórip túsiniwi ańsatlasadı. Yarım ótkizgishler fizikası tiykarınan mayda bólekshelerdiń háreketi menen túsindiriledi. Egerde mámleketimizdiń joqarı hám orta arnawlı oqıw orınlarında bunday laboratoriyalar ashılatuǵın bolsa ilim pán, texnika tez pát penen rawajlanadı. Sebebi studentte qızıǵıwshılıq oyatıp oǵan motivaciya bersek, ol óz jolın tawıp fiizika aldına qoyılǵan mashqalalardı sheshiwge umtiladı.

**Ádebiyatlar:**

1. Yorqin Toshmurodov Qaxramonovich, Zamira Beknozaro va Farmanovna Fizikadan laboratoriya ishlari - T. TIQXMMI. 2019. - 180 b.
2. Aripov X.K., Alimova N.B., Bustanov X.X., Mirxabibova J.M., Alimova M.R. Elektronika. Laboratoriya ishlari uchun uslubiy ko'rsatmalar. TATU, 2008.
3. A.G. Morozov. Elektrotexnika, elektronika i impulsnaya texnika. – M.: Vo'sshaya shkola, 1987.
4. A.G. Aleksenko, I.I. Shagurin. Mikrosxemotexnika. – M.: Radio i svyaz, 1990.
5. D.V. Igumnov, G.V. Korolev, I.S. Gromov. Osnovo' mikroelektroniki. – M.: Vo'sshaya shkola, 1991.
6. Yu.F. Opadchiy, O.P. Gludkin, A.I. Gurov. Analogovaya i tsifrovaya elektronika. – M.: Goryachaya liniya – Telekom, 2003.
7. Stepanenko I.P. Osnovo' mikroelektroniki: Uchebnoe posobie dlya vuzov. – 2-e izd., pererab. i dop.- M.: Laboratoriya Bazovo'x Znaniy, 2001.
8. Yu.L. Bobrovskiy, S.A. Kornilov, I.A. Kratirov i dr.; Pod red. prof. N.F. Fedorova. Elektronno'e, kvantovo'e priboro' i mikroelektronika: Uchebnoe posobie dlya vuzov.- M.: Radio i svyaz, 2002.
9. Osnovo' elektroniki: Uchebnoe posobie G' X.K. Aripov, A.M. Abdullaev, N.B. Alimova; – Tashkent: IPTD im. Chulpana, 2007. – 136 s.

**ОЛТИН КОНЛАРИНИ ШАКЛЛАНИШИДА ГЕОФИЗИК МАЙДОНЛАРНИНГ  
ХУСУСИЯТЛАРИ (ТАМДИТАУ МАЙДОНИ МИСОЛИДА)**

**УДК 550.34**

*Т. О. Дониёров – «Ўзбекгидрогеология» Давлат унитар корхонаси инженер геофизиги.*

*М.Қодиров – ЎзМУ “Геофизикавий тадқиқот усуллари” кафедраси.*


*А.Р.Рахматов – Ўз.Р. ФА Сейсмология институти.*

**PROPERTIES OF GEOPHYSICAL FIELDS IN THE FORMATION OF GOLD  
DEPOSITS, (ON THE EXAMPLE OF TAMDITAU).**

**Аннотация:** Tamditauning North-West partial Altinskaya peak complex of geophysical geophysical methodics were restored. Research of in their work geophysicizing gravity and magnetic illumination methodicplanildi. Gravity exploration E. puhkstining geologist structure and mineral exploration geophysicist method. Chairman of the city of Khujand Rajabboy Ahmadzoda met with Chairman of the city of Khujand Rajabboy Ahmadzoda. Magnetoresistant geophysicist method Hawthorn, assistant Magnet field main researcher. Magnet field for harvesting and mining every hill in contrast to the magnetization. Magnet exploration is the most effective method in iron search and retrieval. The geologist mapping, structural geodesy and other minerals.

**Кириш.** Ўзбекистон олтин қазиб олиш бўйича дунёда етакчи давлатлар қаторига киради ва умумий захиралар бўйича тўртинчи, ишлаб чиқариш бўйича еттинчи ўринда туради. Олтин Ўзбекистоннинг асосий экспорт объекти ҳисобланади. Олтин 2020 йилда Ўзбекистон экспортининг 44% ини ташкил этган (35% 2019 йилда). Шу муносабат билан янги истиқболли олтин қазиб олиш жойларини қидириш, шунингдек уларни қидиришнинг янги усуллари ишлаб чиқиш катта аҳамиятга эга. Тамдитаунинг Шимолий – Ғарбий қисмида олтин конларини қидиришда комплекс геофизик усуллар қулланилди. Тадқиқот ишларида геофизиканинг гравиразветка ва магнитразветка усуллари қулланилди. Гравиразведка Ер пўстининг геологик тузилиши ва фойдали қазилмаларни қидиришнинг геофизик усулидир. Гравиразведка-оғирлик кучи майдонининг Ер юзасида тақсимланишини ўрганишга асосланган. Оғирлик кучи (гравитацион) майдони Ер ичидаги тоғ жинсларининг зичликлари фарқланиши билан боғлиқ. Гравитацион майдонни ҳавода ва космосда, Ер юзасида, денгиз ва океанларда, қудуқларда ва тоғ қазилмаларида кузатилади. Ернинг гравитацион майдони оғирлик кучининг тезланиши ва унинг ҳосилалари билан тавсифланади. Магниторазведка – бу геофизик усул бўлиб, Ер магнит майдонининг ўзгаришини ўрганишга асосланган. Магнит майдоннинг ўзгариши тоғ жинслари ва маъданларнинг ҳар хил магнитланганлиги билан боғлиқ. Магниторазведка темир маъданларини излаш ва қидиришда энг самарали усулдир. У геологик хариталашда, тузилмаларни тадқиқотларда ва бошқа фойдали қазилмаларни излашда кенг қўлланилади. Минтақавий тортишиш аномалияларида Тамдитау майдонини қамраб олади асосан уларнинг ижобий қийматлари (ДТ 0 дан 5 мГл гача). Манфий Гравитацион аномалиялари тамдитау бўйлаб қайд етилган ва тамдитау интрузив комплекси билан боғлиқ.


Расм-1. Маҳаллий гравитацион аномалиялари харитаси.



Тамдитаунинг Марказий ва жануби-Шарқий қисмлари мусбат аномалиялар қийматининг ошиши билан тавсифланади. Тамдитаунинг бутун майдони бўйлаб гравитацион аномалияларининг тарқалишида боғлиқлик кузатилмади. Тамдитаудаги гравитацион аномалияларининг ривожланиш схемасини унинг металлогеник хусусиятлари билан таққослаш шуни кўрсатдики, 44 дан 55 гача бўлган гравитацион аномалиялари бўлган жойларда 0 дан 4 мгл гача олтин руда объектлари ҳосил бўлган. Бешта олтин-руда объектлари 4-6 мгл гравитацион аномалияларнинг пайдо бўлиши билан тавсифланади. ва фақат тўртта объект фазовий равишда манфий аномалиялар билан чекланган. Тамдитау олтин рудаси намоёнларининг тахминан 93% мусбат гравитацион аномалиялари билан, тахминан 7% манфий аномалия билан боғлиқ. Гравитацион аномалияларини ҳисобга олган ҳолда, Тамдитауга туташган ёпиқ ҳудудларда бир қатор позициялар аниқланди, улар геофизик хусусиятларига кўра бу ерда янги руда объектларини топиш учун истиқболли.




Расм-2. Магнит майдон харитаси.



Тамдитау магнит аномалиялари харитасида 1:3000000 масштабда тузилди ва магнит аномалияларнинг кичик ўлчамлари белгиланади. Магнит аномалиялар ривожланишининг ўзига хос хусусияти шундаки, Тамдитау Марказий қисми манфий, Жанубий Тамдитауда баъзи фарқлар кузатилади. Бу ерда манфий ва мусбат орасида кичик аномалиялар сублатитудуал йўналишда чизиқли равишда чўзилган ҳолда ҳосил бўлади. Тамдитау асосий тектоник тузилиши билан солиштириш бўлса, синклинал тузилиши қанотлари магнит тубининг манфий кийматларга ега, деб айтиш мумкин, ядро қисмида мусбат кийматларга ега. Олтин минерализациясининг намоён бўлишини магнит аномалияларнинг катталиги билан таққослашнинг статистик таҳлили шуни кўрсатадики, 37 олтин рудаси объектлари фазовий равишда мусбат аномалияларга мойил. Бундай объектлар орасида Мурунтау, Тамдитау, Балпантау ва бошқалар киради.

Расм-3. Олтин конларини тақсимлашнинг гистограммаси.

Тамдитау магнит аномалиялари соҳаларида.



Мурунтау  
Тасказган  
Ташбак  
Балпантау  
Тамды

Далнее В.  
Мурунтау  
Джамантайтау

Кургантау  
Карашахо  
Кумбогут  
Косманачи  
С.Тасказган

Тадқиқот натижасида 25 га яқин объект-булар Кумбогут, Косманачи, Кургантау ва бошқалар., мусбат аномалиялар билан боғлиқ ва оралиқ аномалияларда фақат 4 та объект мавжуд. Олтин ва Тамдитау магнит аномалияларининг намоён бўлиши ўртасидаги муносабатлардаги ушбу қонуниятларга асосланиб, ёпиқ ҳудудларда ўхшашлик билан бир қатор позициялар аниқланди, бу уларнинг геофизик параметрларига кўра янги олтин рудаси объектларини очиш учун асос бўлади.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Бойцов В.Е., Вальков В.О., Фролов А.А. Факторы локализации и прогноз оруденения // М., Недра, 1991, 235 стр.
2. Бухарин А.К., Брежнев В.Д., Пятков А.К. и др. Тектоника Западного Тянь-Шаня // М, АН СССР, 1985, 153 стр.
3. Геология и полезные ископаемые республики Узбекистан ПТ., 1998,773 стр.
4. Гзовский М.В. Основные вопросы тектонофизики и тектоники Байджансайского антиклинория // М, АН СССР, 1963, 516 стр.

5. Гзовский М.В. Основы тектонофизики // М., Наука, 1975, 536 стр.

6. Золоторудное месторождение Мурунтау (Под ред. Шаякубова Т.Ш., Голованова И.М. и др.) // Т., «Фан», 1998, 539 стр.

7. Константинов М.М., Исакович И.З. и др. Методика локального прогноза скрытых месторождений золота и серебра // М, ЦНИГРИ, 1989, 161 стр.

**Отчёт:**

1. Афанасьев В.М. Поиски золота и других полезных ископаемых на Южно-Тамдытауской прогнозно-перспективной площади с оценкой прогнозных ресурсов по категориям P1-P2. ГГП «Кызылкумгеология», 1987, 207 стр.

2. Борисова С.А., Храмышкин Л.В. Отчет о результатах опережающих геофизических работ (грави-магнито-и сейсморазведка КМПВ, МТЗ, ЧЭЗ, МПП) м-ба1:100000- 1:50000 в перекрытой мезо-кайнозоем вост, части Тамдытаусского массива на площади 1661 кв.км, с целью подготовки геофизической основы для глубинного геологического картирования и поисков золотого и золото-сульфидного оруденения. ГГП «Кызылкумгеология», 1987, 275 стр.

3. Воронков А.К., Хон М.Т. Установление закономерности размещения золотого оруденения на северо-западном фланге Мурунтауского рудного поля. 1984, 79 стр.

## ЗАБОЛЕВАНИЯ КИШЕЧНИКА ПРИ БЕРЕМЕННОСТИ

**УДК: 578.835.1:611.655**

*Егамбердиева Алина Рахимжановна, Мамаражабова Бувзайнаб Абдуразаковна,  
Яхьяева Мавжуда Хайдаровна, Файзуллаева Замира Рахматовна  
Национальный университет Узбекистана имени М. Улугбека.*

**Ключевые слова:** беременность и здоровье (БЗ), амниотрофное питание (АП), заболевания кишечника (ЗК).

**Введение.** Питание беременной женщины должно быть правильно разделенным на протяжении дня, так как кроме самой женщины, питается и сам плод. Во время беременности нагрузка на организм матери увеличивается. Обостряются все хронические заболевания у беременных, что приводит к нарушению развития плода. Все заболевания кишечника у беременных женщин начиная с 1 месяца жизни внутриутробного развития плода, способствуют и в основном препятствуют правильному поступлению микроэлементов полезных веществ для плода в его развитии. Обеспечивает развитие плода это амниотрофное питание. В нынешнее время питания является одной из важной частью жизни людей, так как при питании происходят процессы поступления в организм пищи, а также её переваривания, всасывания и усвоения, которые необходимы для обеспечения протекания жизненных процессов и образования физиологически активных веществ. Питание людей, особенно беременных женщин, должно быть рациональным, то есть полноценным и разнообразным(1,2). Питание беременной женщины должно быть правильно разделенным на протяжении дня, так как кроме самой женщины, питается и сам плод. Правильное питание является важным фактором в предупреждении анемии, гипотрофии плода, аномалий родовой деятельности. При составлении рациона питания беременных женщины, нужно учитывать характер трудовой деятельности беременной, а также её рост, массу тела и срок беременности. Обычно рацион беременной женщины соответствует здоровому рациону взрослого человека(3-6). При неправильном питании развиваются различные виды заболеваний кишечника. Кроме этого, в возникновении и развитии заболеваний толстого кишечника как у людей, так и у беременных женщин играют роль многочисленные факторы такие, как наследственность, кишечные инфекции, нехватка витаминов и микроэлементов, в том числе из-за скудности и несбалансированности рациона, злоупотребление жирными и жареными блюдами, полуфабрикатами, плохо очищенная вода и т.д., а также недоедание и голодание, нерегулярность в приёмах пищи и перекусы на бегу. Не мало важное значение имеют также вредные привычки: злоупотребление алкоголем, курение и т.д. Кроме выше перечисленных, плохая экология, избыточная масса тела и стресс влияют на возникновение и развитие заболеваний толстого кишечника(5). Во время беременности нередко нарушается работа кишечника и изменяется течение патологического процесса в нем, беременность вносит коррективы в лечение заболеваний желудочно-кишечного тракта, поскольку многие лекарственные препараты оказывают повреждающее действие на плод или течение гестационного процесса.

**Цель работы:** Целью нашей работы является изучение заболевания толстого кишечника у беременных женщин и его действия для эмбриона при амниотрофном питании.

**Материалы и методы исследования:** Нами было изучено 52 беременных женщин разного возраста – жалобами были в боли кишечнике с различными локализациями.

Методы изучения - эпидемиологический анамнез и метод опроса (заполнение карты) беременных женщин сроком от 4 до 38 - 39 недели.



**Синдром раздраженного кишечника.** В основе заболевания лежат стрессовые факторы, хронические психические нагрузки, нарушения питания, гормональные расстройства. Клинически проявляется схваткообразными или тупыми, давящими, распирающими болями, чаще в нижних отделах живота, сочетающимися с метеоризмом, урчанием, переливанием, нарушениями стула (от поноса до запора). Боль усиливается после еды, перед дефекацией, прекращается после отхождения газов и опорожнения кишечника. Чрезмерное газообразование и запоры при беременности могут быть вызваны гормональными изменениями, например повышенной выработкой прогестерона. Встречается у 27 женщин.

**Метеоризм** — вздутие живота из-за скопления газов и неправильного питания. Синдром раздраженного кишечника классифицируется по изменениям характера дефекаций (запоры или диарея): Синдром раздраженного кишечника с диареей выражается тем, что желание опорожнить кишечник появляется сразу после приема пищи или во время еды, и такой неприятный дискомфорт больной может испытывать в течение всего дня. Наиболее часто позывы беспокоят в первой половине дня. Акты дефекации учащаются до 3-4 раз в сутки и более. СРК с запорами характеризуется задержкой стула до 3 и более дней. В этот период человек ощущает вздутие живота, метеоризм и периодические боли. Болезненные ощущения часто представляют собой «колики», реже — ноющий характер. Опорожнение кишечника немного притупляет боль, но болезненные ощущения могут не проходить еще долго. Встречается у 9 женщин.

**Болезнь Крона** – хроническое воспалительное заболевание кишечника, проявляющееся болями в животе, тенезмами, расстройством стула (от кашицеобразного до жидкого), наличием примеси крови в кале, симптомами кишечной диспепсии. Встречается у 6 женщин.

**Неспецифический язвенный колит** также относится к хроническим воспалительным заболеваниям кишечника и характеризуется кишечными кровотечениями, диареей, болями в животе, нередко внекишечные проявления. Встречается у 10 женщин.

Все заболевания кишечника у беременных женщин начиная с 1 месяцев жизни внутриутробного развития плода, способствуя и в основном препятствуют правильному поступлению микроэлементов полезных веществ для плода в его развитии. Обеспечивает развитие плода это амниотрофное питание.

**Результаты.** Таким образом, нами было методом опроса выявлена следующие заболевания беременных женщин: **Синдром раздраженного кишечника** – 27 женщин, **Метеоризм** – 9 женщин, **Болезнь Крона** – 6 женщин, **Неспецифический язвенный колит** – 10 женщин. Каждая беременность сопровождается неизбежными изменениями в работе системы пищеварения. Чаще их вызывают гормональные сдвиги и увеличенная нагрузка на органы, но также они могут быть связаны с образом жизни и состоянием здоровья. Основные заболевания кишечника наиболее часто встречающиеся: Синдром раздраженного кишечника или СРК — функциональное заболевание кишечника, которое сопровождается частыми болями в животе, нарушением перистальтики, вздутием, запорами или диареей.

Питание плода осуществляется через околоплодные воды или амниотическую жидкость желудочно – кишечного тракта плода, откуда многие компоненты её всасываются. Некоторые компоненты гидролазами содержимого желудочно – кишечного тракта и кишечных эпителиоцитов плода перевариваются и другие продукты всасываются в кровь. Включаются в метаболизм плода, в его кишечные эпителиоциты, используются как пластический и энергетический материал.

**Заключение.** Неправильное питание беременных женщин, является одной из главных проблем для акушер-гинекологов неонатологов, так как, от этого зависит рост и развитие плода. Во время беременности нагрузка на организм матери увеличивается. Телу требуется больше питательных веществ, организм вырабатывает дополнительные гормоны. Следует учитывать важность состояние беременной женщин на развитие плода и в дальнейшем после родовой период новорождённого, так как различные виды



заболеваний кишечника могут оказывать влияние не только на здоровье беременных женщин, но и непосредственно, на самого плода. Следовательно, каждая женщина должна внимательно следить за своим питанием во время беременности и соблюдать рацион питания, который составляется для каждой индивидуально.

#### **Список литературы:**

1. Бондаренко В.М., Мацулевич Т.В. Дисбактериоз кишечника как клиничко – лабораторный синдром: современное состояние проблемы. Москва: ГЭОТАР-Медиа 2007;
2. Бурков С.Г. Заболевания органов пищеварения и беременность. В кн.: Краткое руководство по гастроэнтерологии. Под ред. В.Т.Ивашкина, Ф.И.Комарова, С.И.Рапопорта. 2001; 397–405.
3. Munyaka P.M., Khafipour E., Ghia J. External Influence of Early Childhood Establishment of Gut Microbiota and Subsequent Health Implications. *Front Pediatr* 2014; 2: 109– 117. DOI: 10.3389/fped. 2014.00109
4. Qin J., Li R., Raes J., Arumugam M., Burgdorf K.S., Manichanh C. et al. A human gut microbial gene catalogue established by metagenomic sequencing. *MetaHIT Consortium. Nature* 2010; 464 (7285): 59–65. DOI: 10.1038/nature08821
5. Landman C., Quévrain E. Gut microbiota: Description, role and pathophysiologic implications *Rev Med Interne* 2016; 37 (6): 418–423. DOI:10.1016/j.revmed. 2015.12.012
6. Eckburg P.B., Bik E.M., Bernstein C.N., Purdom E., Dethlefsen L., Sargent M. et al. Diversity of the human intestinal microbial flora. *Science* 2005; 308 (5728):1635–1638. DOI: 10.1126/science.1110591/

### **ХОМИЛАДОРЛИК ДАВРИДА ИЧАК КАСАЛЛИКЛАРИ**

*Егамбердиева Алина Рахимжановна, Мамаражабова Бувзайнаб Абдуразаковна,  
Яхьяева Мавжуда Хайдаровна, Файзуллаева Замира Рахматовна  
Национальный университет Узбекистана имени М. Улугбека.*

**Таянч иборалар:** homiladorlik va sog'liq, amniotrofik ovqatlanish, ichak kasalliklari.

Homilador ayolning ovqatlanishi kun davomida to'g'ri ajratilishi kerak, chunki ayoldan tashqari, homila o'zi ham oziqlanadi. Homiladorlik paytida onaning tanasiga yuk oshadi. Homilador ayollardagi barcha surunkali kasalliklar yomonlashadi, bu esa homila rivojlanishining buzilishiga olib keladi. Homilador ayollardagi barcha ichak kasalliklari xomilalik intrauterin rivojlanishning 1 oyidan boshlab, uning rivojlanishida homila uchun foydali moddalarning iz elementlarini to'g'ri qabul qilishiga yordam beradi va asosan to'sqinlik qiladi. Homila rivojlanishini ta'minlaydi, bu amniotrofik ovqatlanishdir.

### **SUMMARY INTESTINAL DISEASES DURING PREGNANCY**

*Yegamberdiyeva Alina Rahimjanovna, Mamarajabova Buvzaynab Abdurazakovna,  
Yakhyayeva Mavjuda Haydarovna, Fayzullaeva Zamira Rahmatovna  
National University of Uzbekistan.*

**Key words:** pregnancy and health, amyotrophic nutrition, intestinal diseases.

The nutrition of a pregnant woman should be properly divided throughout the day, since in addition to the woman herself, the fetus itself also feeds. During pregnancy, the load on the mother's body increases. All chronic diseases in pregnant women are aggravated, which leads to a violation of fetal development. All intestinal diseases in pregnant women starting from 1 month of fetal development contribute to and mainly prevent the proper intake of trace elements of nutrients for the fetus in its development. This amyotrophic nutrition ensures the development of the fetus.

## KOREYS TILINI O'RGANUVCHILAR UCHUN KOREYS TILIDAGI OLMOSHLAR TASNIFI

*Yorbekova Mohidil*

*O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti  
Filologiya (koreys tili) yo'nalishi I-bosqich talabasi.*

**Annotatsiya:** So'nggi yillarda ilm-fan va ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilgani sababli tilshunos olimlarga bir qancha nazariy vazifalar belgilab qo'yildi. Bu vazifalardan biri, albatta, chet tillarini o'qitish va o'rganish masalasidir. Jumladan, koreys tilini har tomonlama o'rganish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biriga aylanib bormoqda. Tillar turli xil bo'lsa-da, ularning tizimidagi ma'lum toifalarni ifodalovchi birliklarda umumiy xususiyatlarni kuzatish mumkin. O'zbek va koreys tillaridagi olmoshlarning sintaktik vazifalarini turli darajalar asosida semantik va grammatik jihatdan solishtirish ushbu turkumlarning ifodalanishidagi farqlarni umumiy aniqlash va farqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tilning Grammatik qatlam birliklarini ikki misolda: koreys va o'zbek olmoshlarini chuqur anglash, ularning lisoniy mohiyatini tavsiflash, shuningdek, ularni turli matnlarda o'qib, ma'no nozikliklarini anglash jarayonida muhim ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** nutq daralari, namoyish olmoshlari, shaxs olmoshlari, prefiks, obyekt, joy.

**Annotation:** In recent years, special attention has been paid to the field of science and education, which has put linguists in a number of theoretical positions. One of these tasks, of course, is the issue of studying and teaching foreign languages. Including the comprehensive study of the Korean language should become one of the most pressing issues today. Although the languages are different, one can observe common features in the units representing certain categories in their system. The semantic and grammatical comparison of the syntactic functions of rhymes in the Uzbek and Korean languages on the basis of different levels provides the basis for general identification and differentiation of differences in the representation of these categories. Consideration of the units of the grammatical layer of the language on the example of two is of great importance in the process of deepening the understanding of Korean and Uzbek rhymes, describing their linguistic essence, as well as reading them in different texts and understanding of subtleties of meaning.

**Key words:** display pronouns, speech levels, person pronouns, prefix, object, place.

Koreys tilidagi olmoshlar murakkabligi tufayli o'zbek tilida so'zlashuvchilar uchun biroz qiyinchilikni yuzaga keltiradi. Koreys tilidagi nutq darajalari va faxriy yorliqlarda olmoshlardan keng foydalaniladi. Olmoshlar grammatikada so'zlovchi bilan suhbatdosh, shaxs yoki shaxslar o'rtasidagi ijtimoiy farqqa qarab o'zgaradi.

Umuman olganda, koreyslar, ayniqsa, hurmat kategoriyalardan foydalanganda, ikkinchi shaxs birlik olmoshlarini ishlatishdan qochishadi.

### **Olmoshlarga umumiy tavsif:**

Yagona

**Birinchi shaxs** - 저 (jeo), 나 (na)

**Ikkinchi shaxs** - 너 (neo), 자네 (jane),  
그대 (geudae), 당신 (dangsin)

Ko'plik

저희 (jeohui), 저희들 (jeohuideul),  
우리 (uri), 우리들 (urideul)

너희 (neohui), 너희들  
(neohuideul), 너네 (neone),  
너네들 (neonedaul),  
자네들 (janedeul), 그대들  
(nilufar), 당신들 (dangsindeul)

### Uchinchi shaxs

(Asosan, uchinchi shaxs olmoshlari mavjud emas, ammo quyidagilar ba'zi yozma janrlarda cheklovlardan foydalanadi.)

그, 그녀 (geu / geunyeo)

그들, 그녀들 (f) (geudeul / geunyeodeul)

Har bir olmosh uchun kamtarin / hurmat va birinchi hamda ikkinchi shaxslar uchun norasmiy shakl mavjud. Yuqoridagi jadvalda berilgan birinchi olmosh kamtarinlik ma'nosida bo'lib, uni yoshi kattaroq va ijtimoiy mavqeyi yuqori bo'lgan odam bilan gaplashganda ishlatiladi. *Dangsin* (당신) ba'zan manzil shakli sifatida, ba'zan esa <<azizim>>ning ekvivalenti sifatida ishlatiladi. Shuningdek, boshqa kamtarin shakllardan foydalanish to'g'ri, *dangsin* faqat muayyan ijtimoiy sharoitlarda, masalan, ikkita turmush qurgan sheriklar o'rtasida ishlatilishi kerak. Shu tarzda, u begonalar o'rtasida, odatda, tortishuvlar va qarama-qarshiliklar paytida ishlatilganda, istehzo ma'nosini ifoda etadi. Shuni ta'kidlash joizki, *dangsin* sharafli uchinchi shaxs olmoshi bo'lib, u mavjud bo'lmagan shaxsning ijtimoiy ustunligini anglatadi. Og'zaki va yozma aloqada uchinchi shaxslarga murojaat qilishda olmoshlar o'rniga shaxs nomlari, unvonlar yoki qarindoshlik atamaları qo'llaniladi. Shu sababli, nutqda ismlarni yoki sarlavhalarni takroran ishlatishga yo'l qo'yiladi, bu ingliz yoki boshqa tillardan farq qiladi. Tarjima va ijodiy ish yozish uchun uchinchi shaxs olmoshlari <<gen-nyeo>>(그녀) va <<geu>>(그) cheklovlardan foydalaniladi. Birinchisi, <<geu>>(그) [geu] “that” va 녀 (nyeu) “ayol” birikmalarida anafolik tarzda uchinchi shaxs ayolga murojaat qilish uchun yaratilgan. Gender-neytral uchinchi shaxs olmoshi, *geu* (그), bu dastlab namoyishkorona bo'lgan, ya'ni “bu” degani bo'lishi mumkin. Biroq u tobora ko'proq “erkak” olmoshi sifatida talqin qilinmoqda.

Garchi so'nggi yillarda olmosh *geu-nyeo* (그녀) asta-sekin ayol hamkasbi sifatida Yevropa tillaridan tarjimalar ta'sirida tobora ortib bormoqda. Bu deyarli yozma tilning o'ziga xos uslublari bilan cheklangan, chunki koreys tilida, odatda, subyektiv yoki o'zgaruvchi + ism konstruktsiyalari qo'llaniladi.

Koreys tilida shaxs olmoshlari birinchi va ikkinchi shaxslar uchun faxriy yorliqlar bilan ajralib turadi va namoyish olmoshlari yaqin, uzoq va ilgari aytib o'tilganlarni uch tomonlama farq qiladigan uchinchi shaxsdadir.

#### Shaxs olmoshlari:

	<b>yakka</b>	<b>ko'plik</b>
<b>1- kishi tanish</b>	나 (na)	우리 (uri) 우리들 (urideul)
<b>2-shaxs tanish</b>	너 (neo)	너희 (neohui) 너희들 (neohuideul)
<b>Uchinchi shaxs tanish</b>	그 (geu)	그들 (geudeul)
<b>1-kishi kamtar</b>	저 (jeo)	저희 (jeohui) 저희들 (jeohuideul)

#### 2/3 kishi hurmat qiladi.

Ko'plik qo'shimchasi -deul kabi kerak bo'lganda ham olmoshlar bilan ishlatiladi *geudeul* (그들, "ular"), ba'zan esa ba'zi hollarda, shunga o'xshash *urideul* (우리들), unda ortiqcha.

*Geu* (그) "u", ma'nosiga ega. Koreys tilining noaniqligi va olmoshlarni tushirish qobiliyati *geu* kamdan-kam hollarda o'z-o'zidan ishlatiladi, lekin yaqinda u Yevropa tillaridan tarjima qilingan asarlardagi tarjimasi sifatida qayta tiklandi.

Monosillabik olmoshlari *na*(나), *neo* (너) va *jeo* (저), qo'shish -men (이) yoki -men ga (이)가) kutilganidan ko'ra -ga (가) ni hosil qilish uchun nominativ ish. Bu shakllarni ishlab chiqaradi *nae* (내), *ne* (네) va *je*(제).

Bundan tashqari, ko'plab koreyslar unli tovushlarni ajratib qo'yganliklari sababli *ae* (애) va *e* (에), *ne* (네, "siz") bu tarqatish - *ni* (니).

Koreys tilida mavzu shakllanadi *naneun* (나는, "men") ko'pincha *neoneun* (너는, "siz") deb talaffuz qilinadi va ba'zan shunday yoziladi *nan* (난, "men") va *neon* (넌, "siz").

Xuddi shunday, ayblov shakllari *nareul* (나를) va *neoreul* (너를) bo'lishga moyil *nal* (날) va *neol* (널). The egalik *na-ui* (나의, "mening"), *neo-ui* (너의, "sizning") va *jeo-ui* (저의, "mening") muqobil shakllarga ega *nae* (내), *ne* (네) va *je* (제).

Tasniflovchi *jjog* (쪽, "side") odamlarga murojaat qilishda ham ishlatiladi. *Ijjog* (이쪽, "bu tomon") keyin "bu odam, bu odamlar" (ya'ni u, u yoki ular) degan ma'noni anglatadi, ammo "biz" yoki "men" uchun muloyim shakl sifatida "bizning tomonimiz" orqali kengaytiriladi.

### Namoyishchilar:

	Prefiks	Obyekt	Joy
<b>Yaqin</b>	men- 이	igot "Bu"	igot 이곳 yeogi Here "mana"
<b>Berilgan</b>	geu- 그	geugeot That "bu"	geogi There "u yerda"
<b>Uzoq</b>	jeo- 저	jeogeot That "bu"	jeogi Yon "yonida"
<b>Qaysi?</b>	eoneu 느느	mueot 무엇 "nima"	eodi "Qayerda?"

Og'zaki nutqda prefiksdan tashkil topgan ob'ekt so'zlari, keyin umumiy so'z ot klassifikatori *geos* (것) talaffuz qilinadi, taxminiy bilan *igeos* (이것) bo'lish *igeo* (이거). Bu nomlash shakli bilan klitikadan oldin ham sodir bo'ladi. *igeos-i* (이것이) bo'lish *ige* (이게), dolzarb *igeos-eun* (이것은) bo'lish *igon* (이건) va ayblovchi *igeos-eul* (이것을) bo'lish *igeol* (이걸, "bu").

Koreys tilida, so'roq qiluvchi *mu-eos* (무엇) ga shartnomalar *mwo* (뭐, "nima") (ko'pincha talaffuz qilinadi *meo*, kabi w keyin tushishga moyil m) va tushun kelishigi *mu-eos-eul* (무엇을) ga shartnomalar *mwol* (뭘, "nima"). Adabiyotda *mu-eos* uchun qisqarishning yana bir to'plami kekxa yoki arxaik ma'ruzachilar uchun mavjud: *mu-eos* uchun "*mu-eo*" (무어), *mu-eos-i* uchun "*mu-e*" (무 무). *-eol* ("무얼) *mu-eos-eul* uchun. Bundan tashqari, kamdam kam ishlatiladigan "*mwos*" (used).

"Kim?" so'zi *nugu* (누구) kimning nominativi *nuga* (누가). "Qancha?" *myeoch* (몇) uchun arxaik alternative *nuga* "nwi" (누이).

Qarindoshlik atamasidan foydalanish: *eonni* (eonni, "katta opa" agar so'zlovchi ayol bo'lsa), *nuna* (nuna, "katta opa" agar so'zlovchi erkak bo'lsa), *oppa* (oppa, "akasi" agar so'zlovchi ayol bo'lsa), *hyeong* (xyeong, "akasi" agar so'zlovchi erkak bo'lsa), *ajumma* (ajumma, "o'rta yoshli ayol"), *ajumeoni* (ajumeoni, shuningdek, "o'rta yoshli ayol", ammo muloyimroq), *ajeossi* (ajeossi, "o'rta yoshli odam"), *halmeoni* (" buvi ") ning *harabeoji* (harabeoji, "bobo"). Koreyada umuman, oilaviy bo'lmagan odamlar uchun qarindoshlik atamalarini ishlatish odatiy holdir. Term atamasi (agassi, "yosh xonim") yoshi noma'lum yosh qizga murojaat qilishda afzalroqdir. U, asosan, restoran kabi jamoat joylarida ishlatiladi, lekin ba'zida erkaklar ham undan foydalanadilar olish liniyalari. Ta'rifga ko'ra, *agassi* va *ajumma* o'rtasidagi haqiqiy farq yoshga emas, balki nikoh holatiga bog'liq.

Odatda, tugaydigan tegishli sarlavha yordamida *-nim*: *seonsaengnim* (선생님, "o'qituvchi", garchi u ko'pincha menejerlar kabi boshqa kasblar uchun umumiy sharafli atama sifatida ishlatilsa ham) yoki *gwajangnim* (과장님 "direktor") va boshqalar. Ko'plikdan foydalanish *yeoreobun* (여러분, "xonimlar va janoblar").

Usullar noaniq: ular uchinchi shaxsni ham, ikkinchi shaxsni ham ko'rsatishi mumkin. Hurmatli ism ikkinchi shaxs olmoshi sifatida talqin qilinishi uchun u fe'ning nutq darajasi bilan mos kelishi kerak: ishlatilgan hurmat darajasi butun jumla davomida izchil bo'lishi kerak.

Koreyscha fe'llar gaplashayotgan kishining ijtimoiy mavqeini aks ettiradi, shuning uchun agar jumlagi o'sha kishi yoki bir guruh tinglovchilar haqida ham so'z yuritilsa, hech qanday ma'lumot boshqa biridan yuqori bo'lmasligi kerak.

Yuqori nutq darajasi bilan ishlatiladigan past darajadagi ism yoki past darajadagi nutq darajasida ishlatiladigan sharaflı ism uchinchi shaxs olmoshi sifatida talqin qilinadi. Masalan, jane tanish nutq darajasida "siz" uchun ishlatiladi va faqat tanish nutq darajasining o'zi bo'lgan taqdirda mos keladi. Tanish nutq darajasi yoshroq yoki bo'ysunuvchi yaqin do'stlar va oila a'zolari bilan do'stona suhbatlashish uchun ishlatiladi. Ushbu nutq darajasi noo'rin yoki haqoratli bo'lishi mumkin bo'lgan holatlarda, jane ham.

Ishlatilgan olmosh va nutq darajasi mos kelganda ham, ba'zi bir noaniqliklar mavjud, ammo ularni kontekst orqali hal qilish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Byon A. S. Basic Korean: A grammar and workbook. – New York: Routledge, 2010.
2. Byon A. S. Intermediate Korean: A grammar and workbook. – New York: Routledge, 2009
3. Dong Jae Li. *Koreys tili olmoshlarini o'rganishda ba'zi muammolar, uning tuzilishi va ijtimoiy proektsiyasi*, Xo-min Sohn, muharrir. Gavayi: Gavayi universiteti, 1975.



## НЕЙРОН ТЎРИГА АСОСЛАНГАН ШАҲАР СВЕТОФОРЛАРИНИ БОШҚАРИШНИНГ ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ТИЗИМИНИ ЛОЙИХАЛАШ


*Р.М.Жалелов – Мирзо Улугбек номидаги  
Ўзбекистон миллий университети таянч докторанти.*

**Таянч сўзлар:** Чорраха, Интеллектуал тизим, Нейрон тўри.

**Ключевые слова:** Перекресток, Интеллектуальная система, Нейронная сеть.

**Key words:** Crossroad, Intelligent control system, Neural network


Катта шаҳарларнинг энг долзарб муаммоларидан бири бу транспорт воситалари ҳаракатини ташкил этиш муаммосидир. Транспорт оқимларини бошқаришда светофорни тартибга солиш алоҳида аҳамиятга эга. Кўпгина замонавий светофорларни бошқариш тизимлари олдиндан белгиланган вақт оралиғида ишлайди ва йўлда доимий ўзгарувчан вазиятга дош бера олмайди [1]. Муаммони ҳал қилиш учун чорраха йўналишлари ва кўшни чорраҳалардан келаётган йўлларнинг тирбандлигини акс эттирувчи маълумотлар асосида транспорт оқимларини бошқариш имконини берувчи светофорни бошқаришнинг интеллектуал тизимини ишлаб чиқиш вазифаси қўйилди. Ушбу муаммони ҳал қилишнинг истиқболли йўналиши сунъий нейрон тўрларидан фойдаланган ҳолда тизимни моделлаштириш бўлиб ҳисобланади. Моделлаштириш натижасида йўллардаги тирбандликлар, автомашиналарнинг чорраҳадаги бўш вақтлари тўғрисидаги маълумотларни, шунингдек, маълум бир вақтда йўл тирбандлиги тўғрисидаги статистик маълумотларни тўплашимиз мумкин бўлади. Маълумотни таҳлил қилиш асосида тизим автоматик равишда чорраҳада маълум бир светофорни ёқиш (ёки ўчириш) тўғрисида қарор қабул қилиши керак. Нейрон тўрлардан (НТ) фойдаланишнинг долзарблиги илмий тадқиқотларнинг турли соҳаларида муваффақиятли қўлланилиши билан тасдиқланади [3]. Шаҳар чорраҳалари хилма-хил бўлиб, ўрнатилган светофорлар сони ва ҳолатлари бўйича бир-биридан фарқ қилиши мумкин. Алоҳида шаҳар чорраҳасида светофорни бошқаришнинг интеллектуал тизимини яратишни кўриб чиқайлик (1-расм).



**1-расм.** Шаҳар чорраҳасига мисол.


1-расмда 1,2,...,8 рақамлари светофорни белгилайди, стрелкалар бурилиш имкониятини билдиради. Тахминларга кўра, интеллектуал тизим ушбу қурилмани ёқиш ёки ўчириш учун сигнал юборади (мас равишда 1 ёки 0) ва ўтиш ўртасидаги кечикиш светофорнинг ўзида ҳисоблаб чиқилади. Чорраҳада бир нечта светофорлар ўрнатилганлиги сабабли, йўлнинг ўтказувчанлигини ошириш вазифасидан ташқари, фавқулодда вазиятларни юзага келтирмаслик учун автомобиллар оқимини назорат қилиш масаласини ҳам ҳал қилишимиз керак.

Бунинг учун биз чорраха ҳолати тушунчасини киритамиз. Чорраха ҳолати деганда биз қатъий белгиланган ёник (яшил) ва ўчирилган (қизил) светофорлар тўпламини назарда тутамиз. 2-расмда чорраҳанинг ҳолати кўрсатилган, унда 2 ва 4-светофорлар яшил бўлиб, автомашиналарнинг чапга ўтишига имкон беради. Шу билан бирга, фавқулодда вазиятлар яратмасдан 5 ва 7-светофорларда ўнга бурилишга яшил рангда ёниши мумкин.



**2-расм.** Бошқа йўналишларда авариясиз ҳаракатланиш имконияти билан транспорт оқими чапга ўтгандаги транспорт ҳолати.

Чорраҳадаги светофорнинг барча мумкин бўлган ҳолатлари 1-жадвалда берилган. Жадвалнинг исталган элементи, агар светофор чорраҳанинг тегишли ҳолатида ёниши керак бўлса 1 га, светофор ўчирилган бўлса 0 га тенг.



**3-расм.** Чорраҳадаги светофорнинг барча мумкин бўлган ҳолатлари.

**1-Жадвал. Чорраха ҳолатлари.**


Чорраха ҳолати рақами	Чорраҳадаги светофорлар рақами (схемадаги рақамлаш билан мос келади)							
	1	2	3	4	5	6	7	8
Phase-1	0	0	0	0	1	0	1	0
Phase-2	0	0	0	0	0	1	0	1
Phase-3	1	0	1	0	0	0	0	0
Phase-4	0	1	0	1	0	0	0	0

Биз кўриб чиқиладиган чорраҳадаги ҳар бир светофорга нейрон ажратамиз ва чорраҳанинг барча светофорларини нейрон тармоққа бирлаштирамиз. Нейрон тўрининг ўзига хос хусусияти шундаки, у оптималлаштириш ва кластерлашнинг комбинацияланган муаммосини ҳал қилиши керак, кенг қўлланиладиган нейрон тармоқ моделлари эса оптималлаштириш ёки кластерлаш муаммосини ҳал қилиш учун мўлжалланган[4]. Шунинг учун лойиҳалаштирилган тармоқ икки қисмдан иборат бўлади. Нейрон тўрининг биринчи қисми оптималлаштириш муаммосини ҳал қилади, унинг чиқишлари тармоқнинг иккинчи қисми учун киришлар бўлади, у кластерлаш муаммосини ҳал қилиш учун мўлжалланган. Нейрон тўри моделларини яратишда биринчи қадам кутилган натижага таъсир қилувчи кириш маълумотларини танлашдир. Лойиҳалаштирилган нейрон тармоқ учун кириш маълумотлари ҳозирги вақтда ҳаракат йўналишларининг ҳар бирининг юкига қараб кўриб чиқиладиган ва қўшни чорраҳалардаги транспорт ҳолатини баҳолаш, шунингдек, куннинг маълум бир вақтида, ҳафтанинг маълум бир кундаги чорраҳадаги транспорт оқимларининг зичлиги бўйича статистик маълумотлар бўлади [1]. Тармоқнинг чиқиши сифатида кесим ҳолатининг рақамини олиш керак (1-жадвалга мос келади). Муаммони ҳал қилиш учун биз учта қатламдан иборат кўп қатламли нейрон тармоқдан фойдаланамиз [2].

Мастерская по техническому обслуживанию и учебный центр в Ташкенте © GIZ/Олег Досмухамедов. Это также помогло создать мастерскую по техническому обслуживанию и учебный центр в Ташкенте, сотрудники которого в конечном итоге возьмут на себя ответственность за OPEN MEDIS от имени Министерства здравоохранения. Технические специалисты мастерской выполняют определённые стандартные ремонтные работы, диагностируют проблемы, которые могут потребовать специализированного технического обслуживания, и служат посредниками между местными инженерами и зарубежными производителями оборудования и их местными или региональными агентами.

После завершения пилотного этапа и внедрения OPEN MEDIS в систему неотложной помощи планируется распространить его на региональные педиатрические и многопрофильные больницы, где в настоящее время при поддержке Германии через KFW осуществляются крупные инвестиции в современные технологии. С этой целью KFW уже начинает обучать инженеров больниц работе с OPEN MEDIS, чтобы в будущем они могли присоединиться к национальной системе инвентаризации и технического обслуживания. «Главное преимущество OPEN MEDIS заключается в том, что учреждениям легко проводить инвентаризацию и регулярно обновлять все требования к техническому обслуживанию и состояние оборудования», - говорит д-р Йоахим Шюрманн, старший консультант по здравоохранению KFW. «Это стоит не очень дорого, с ним легко обращаться, и он доступен со всех сторон».

#### **Впервые получить полную картину.**

«Нет никаких сомнений в том, что OPEN MEDIS - очень хороший инструмент для профилактики», - говорит Хикмат Анваров из Министерства здравоохранения. «Когда вы имеете дело с таким большим количеством активов, не так-то просто отслеживать все даты. OPEN MEDIS - это почти как дневник: он напоминает вам, что и когда делать».

Помимо этого, объясняет Анваров, это даёт Министерству полную картину того, что не работает в системе в любой данный момент. «Нам очень важно это знать, - продолжает он, - потому что крупные процессы закупок могут занимать много времени, и нам нужна информация, на основе которой можно планировать запросы на закупку, будь то запасные части или новое оборудование». OPEN MEDIS также способствует более тесным и эффективным связям между Министерством здравоохранения и учреждениями республиканской системы здравоохранения, в том числе расположенными на большом расстоянии от Ташкента. Чиновники министерства теперь могут отслеживать состояние



оборудования в режиме, близком к реальному времени, в то время как лица, ответственные за оборудование на уровне объекта, могут немедленно информировать своё начальство о возникновении проблем с жизненно важным оборудованием. Исломов Расулхон© GIZ/Якоб Штайгер «OPEN MEDIS удобен как инструмент инвентаризации, но он также очень полезен для общения с главной администрацией», - говорит Исломов Расулхон, заместитель директора по высоким технологиям Андижанского филиала скорой медицинской помощи, который уже более года работает с GIZ над внедрением OPEN MEDIS. «С помощью OPEN MEDIS мы можем немедленно сообщить в головной офис, когда нам нужно найти запасные части для важного оборудования, которое не работает».

**Ранний шаг в цифровизацию.**

Цифровые информационные системы пока не получили широкого распространения в системе здравоохранения Узбекистана. По словам Хикмата Анварова из Министерства здравоохранения, OPEN MEDIS представляет собой одну из первых крупномасштабных усилий по внедрению современных информационных технологий в медицинские учреждения. «Система OPEN MEDIS помогает нам отказаться от бумажных записей и телефонных звонков для управления информацией в системе здравоохранения», - говорит он. «Это первый шаг в направлении полностью электронной системы». Если подход окажется успешным, это может помочь проложить путь к оцифровке других ключевых функций.

## ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI MILLIY ETALONLAR BAZASI YNADA RIVOJLANTIIRISH BOSQICHLARI

**Исматуллаев П.Р.**

*Проф. “Метрология, техник жиҳатдан тартибга солиш,  
стандартлаштириш ва сертификатлаштириш” кафедраси  
Ташкент давлат техника университети.*

**Исаков А.Ф.**

*Магистрант. “Метрология, техник жиҳатдан тартибга солиш,  
стандартлаштириш ва сертификатлаштириш” кафедраси  
Ташкент давлат техника университети.*

**Рахимова Н.М.**

*Магистрант. “Метрология, техник жиҳатдан тартибга солиш,  
стандартлаштириш ва сертификатлаштириш” кафедраси  
Ташкент давлат техника университети.*

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Техник жиҳатдан тартибга солиш, стандартлаштириш, сертификатлаштириш ва метрология тизимларини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2018 йил 12 декабрдаги ПҚ-4059-сон [қарорини](#) бажариш, шунингдек, Ўзбекистон Республикасида ўлчашлар бирлигини таъминлаш тизимини янада ривожлантириш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси қарор қилади:

1. Қуйидагилар:

2019 — 2023 йиллар даври учун Ўлчашлар бирлигини таъминлаш миллий тизимини ривожлантириш ва такомиллаштириш концепцияси (кейинги ўринларда Концепция деб аталади);

2019 — 2023 йиллар даври учун Ўлчашлар бирлигини таъминлаш миллий тизимини ривожлантириш ва такомиллаштириш концепциясини амалга ошириш бўйича амалий чора-тадбирлар режаси (кейинги ўринларда Амалий чора-тадбирлар режаси деб аталади);  
Жамиятни тахминан 19% иш кучи ўлчашни бажаришга сарф қилинади. Ишлаб чиқарилаётган маҳсулотларнинг керакли сифатини, техникани, жумладан транспортларнинг, ҳавфсиз ва авариясиз ишлашини ҳамда ишончли тиббий ва экологик диагносларни таъминлашнинг асосларидан бири бу ишончли ўлчаш маълумоти ҳисобланади. Ишончли ўлчаш маълумоти – ҳар қандай бошқариш, таҳлил қилиш, олдиндан айтиб бериш (прогноз), режалаштириш ёки назоратнинг асоси ҳисобланади. Табиийки, фақатгина жуда аниқ ва қафолатли аниқликдаги ўлчаш натижалари тўғри қарор қабул қилиш имконини беради ва натижада керакли сифатдаги маҳсулот (хизмат) яратилади. Ҳар қандай ўлчашни бажариш албатта ўлчаш воситалари, яъни ўлчаш асбоблари, ўлчовлар, ўлчаш ўзгарткичлари, ўлчаш ускуналарини ўлчаш тизимлари ёрдамида бажарилади. Улар албатта ўлчашга яроқли ва аниқлиги қафолатланган бўлиши шарт. Республикамиз бўйича ишлаб чиқаришда, сертификатлаш синовларида, савдо сотиқда, ҳавфсизликни таъминлашда, соғлиқни сақлашда, газ, сув, электр энергиясини сарфини ҳисоблашда ва шунга ўхшаш қатор соҳаларда фойдаланиладиган ўлчаш ва синаш асбобларининг тўғри ишлашини таъминлаш, уларни аттестатлаш, сертификат бериш, уларни ўз вақтида (масалан бир ёки икки йилда бир марта) текшириб (қиёслаб) туриш ишлари «Ўзстандарт» агентлиги таркибидаги «Метрология хизматлари курсатиш маркази» ДК, «Республика синов ва сертификатлаштириш маркази» ДК ва унинг таркибига кирувчи ҳудудий синов ва сертификатлаштириш марказлар томонидан олиб борилади. Бу Марказлар республикамиздаги барча ўлчаш ва синаш асбобларини ўзининг аниқ асбоблари билан солиштириб (таққослаб, қиёслаб) кўриб уларни тўғрилиги, синовга ва ўлчашларга яроқли эканлигини аниқлаб шу тўғрисида сертификат берадилар. Марказларни ва унга ўхшаш бошқа ташкилотларнинг аниқ (намунавий) ўлчаш

асбобларини тўғри ишлашини текшириб туриш Ўзбекистон Республикасининг Миллий эталонлар Маркази (Ўз МЭМ)га юклатилган. Эталонлар маркази бу ишни ўзининг, янада аниқроқ бўлган ўлчаш асбоблари, яъни эталонлари ёрдамида амалга оширади. Эталонлар маркази Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 09.02.96 йилдаги «Ўзбекистон Республикаси Миллий эталонлар базасини шакллантириш ва метрологик таъминотни такомиллаштириш туғрисида» ги 53-сон Қарори асосида ташкил қилинган. Марказ 2001 йилнинг декабрь ойида ўз фаолиятини бошлади.[1]

Ҳозирги кунда Эталонлар марказида частота ва вақт, масса, электр токи кучланиши, босим, электр сифими, сув миқдори ва сарфи, индуктивлик, ва аммиак, синил кислотаси, азот диоксида, олтингугирт диоксида ва хлорнинг ҳаводаги массавий улуши бирликлари, узунлик, ўзгарувчан ток, келвин абсалут босим эталонлари мавжуд. Қупчиликга маълумки эталонлар бу жуда аниқ ўлчовчи қурилмалар. Шунинг учун ҳам эталон тарозилар ва тарозилар тошларини сақлаш шароитига, юқорида айтиб ўтилгандек, жуда қаттиқ талаблар қўйилади. Битта мақола ҳажмида ҳамма эталонларимиз туғрисида батафсил маълумот бериш албатта қийин. Ҳозирча қолган эталонларнинг ташқи қуриниши ва метрологик характеристикалари билан кифояланиб қоламиз.

№	Реестр рақами	Номи	Таркиби	Ўлчаш қўлами	Ишлаб чиқарилган йили	Ҳужжат рақами	Масъул бўлим бошлиғи	Эталон сақловчи Ф.И.Ш.
1.	Ўз МБЕТ 1:2015	Интерференцион узунлик бирлиги миллий бошланғич эталони	Кестерс туридаги интерферометр; Спектрал лампа Кр86 қувват манбаи билан; Харорат датчиги; ишчи тармоқ барометри БРС-1М;	100 мм гача	2005	№К-9 25.12.2015	“ЎзММИ” ДМ 06-бўлим Халилов Ойбек Юлдашевич	Юнусова Нозима Батирджановна
2.	Ўз МБЕТ 2:2015	Масса бирлиги миллий бошланғич эталони	Э1 синфига оид тарози тошлар тўплами, (1-500) мг; Э1 синфига оид тарози тошлар тўплами, (1-500) г; Э1 синфига оид тарози тош, (1 кг);.	1 мг дан 20 кг гача	1998	№К-9 25.12.2015	“ЎзММИ” ДМ 14-марказ Юнусов Марат Равилевич	Носиров Жавоҳиржон Собиржон ўғли
3.	Ўз МБЕТ 3:2015	Вақт ва частота бирлиги миллий бошланғич эталони	Водород вақт ва частота стандарти Ч1-75; Вақт ва частота стандарти СВЧ-74; Частота компаратори ЧЗ-77; Частотомер ЧЗ-77; Таксимловчи юқоричастотали кучайтиргич	1 Хз; 5 МХз; 100 МХз	2001	№К-9 25.12.2015	“ЎзММИ” ДМ 05-бўлим Исматуллаев Шероз Хамидуллаевич	Газиева Любов Борисовна
4.	Ўз МБЕТ 4:2015	Электр сифими бирлиги миллий бошланғич эталони	«Сибирячка» туридаги электр сифимли ишчи эталонларни солиштириш ва ўлчаш учун автоматлашган ўлчаш тизим;	0,001 пФ дан 10000 пФ гача	1999	№К-9 25.12.2015	“ЎзММИ” ДМ 07-бўлим Махмудов Равшан Якубович	Арифханов Джалалхан Тулаганович

5.	Ўз МБЕТ 5:2015	Индуктив лик бирлиги миллий бошланғи ч эталони	Индуктивлик ўлчови Л-2004-1 № 01 Индуктивлик ўлчови Л-2004-1 № 02 Индуктивлик ўлчови Л-2004-1 № 03 Индуктивлик ўлчови Л-2004-1 № 04 Индуктивлик ўлчови Л-2004-1 № 05	1 мХ дан 1 Х гача	1999	№К-9 25.12.201 5	“ЎзММИ” ДМ 07-бўлим Махмудов Равшан Якубович	Арифханов Джалалхан Тулаганович
6.	ИкЕТ 6:2015* **	Ортиқча босим бирлиги миллий иккиламч и эталони	Юк пистонли манометр платформаси 5301; Пистонлар: 0,1 МРа/кг, 1 МРа/кг; Махсус юк юклатиш ускунаси; Махсус юк тўплами 60 кг;	0,1 дан 60 МПа гача	1999	№К-9 25.12.201 5	“ЎзММИ” ДМ 14-марказ Юнусов Марат Равилевич	Усманов Бобир Анварходжа вич
7.	Ўз МБЕТ 7:2015	Ўзгармас кучланиш бирлиги миллий бошланғи ч эталони	ПНТЭ -10А №08 турдаги кучланиш конверторлари тўплами; ТДН - 4№08 ва ТДН - 5№08 кучланиш трансформаторлари ; Икки дона йилига 5 мкВ дан кўп бўлмаган беқарорликли ЭМФ (ЭДС) ўлчовлари; В1-9, № 09982 Ўзгарувчан ток вольтметрларини киёслаш ускунаси; Я1В-20, № 069 Кучайтиргич блоке; Г4-118, № 9044 Юқори частотали сигнал генератори; В1-13, № 0239 Дастурланадиган вольтметрларни киёслаш ускунаси;	1 мВ дан 1020 В гача	1983	№К-9 25.12.201 5	“ЎзММИ” ДМ 07-бўлим Махмудов Равшан Якубович	Арифханов Джалалхан Тулаганович
8.	Ўз МБЕТ 8:2015	Сувоқлик инг хажмий сарфи бирлиги миллий бошланғи ч эталони	ДОУН 150/200 МТ киёслаш қурилмаси	0,02 дан 200 м <sup>3</sup> /х гача	1998	№К-9 25.12.201 5	“ЎзММИ” ДМ 08-бўлим Холмирзаев Нуриддин Исмоилович	Зияев Абдулла Абдумалик ўғли

9.	Ўз МБЕТ 9:2015	Газ компонен ларининг хаводаги массавий улуши бирлиги миллий бошланғи ч эталони.	И разряд ГАК – 1 наъмунали газоаналитик қурилма; И разряд ГАУ – СО наъмунали газоаналитик қурилма.	$\text{NH}_3$ (0 ÷ 20) $\text{мг/м}^3$ $\text{ХСН}$ (0 ÷ 1,5) $\text{мг/м}^3$ $\text{NO}_2$ (0 ÷ 100) $\text{мг/м}^3$ $\text{CO}_2$ (0 ÷ 50) $\text{мг/м}^3$ $\text{Сл}_2$ (0 ÷ 20) $\text{мг/м}^3$	1997	№К-9 25.12.2015	“ЎзММИ” ДМ 09-бўлим Нажмутдино в Камолиддин Равшанович	Нишонов Қахрамон Қоилович
10.	Ўз МБЕТ 10:2017	Спектрал нур ўтказувча лик ва оптик зичлик бирлиги миллий бошланғи ч эталони	Юкори аниқликдаги спектрофотометр “УВ-3600 Плус”; Интеграллаш ускунаси ИСР- 1503Ф; Кўп функцияли кювета қисми МПС-603	175 дан 3300 нм гача	2017	№01 27.06.2017	ЎзММИ» ДМ 09-бўлим Нажмутдино в Камолиддин Равшанович	Қодиров Абдулазиз Абдулатипов ич
11.	Ўз МБЕТ 11:2020	Мутлақ босим бирлиги миллий бошланғи ч эталони	Пистонли манометр платформаси: ПГ7601; Пистонли силиндрилар: ПС- 7100/7600-10-Л, ПС-7100/7600-200; Махсус юк юклатиш ускунаси: МБ-7001-0.3; Махсус юк тўплами: МС-7001- 35; Пневматик калибратор 6270А босим ўлчаш модуллари: ПМ200-А100К, ПМ200-Г400К, ПМ200-Г7М билан	0,007 дан 7 МПа гача	2017	№К-8 08.06.2020	“ЎзММИ” ДМ 14-марказ Юнусов Марат Равилевич	Усманов Бобир Анварходжае вич
12.	Ўз МБЕТ 12:2020	Келвин – харорат бирлиги миллий бошланғи ч эталони (Ин, Сн, З н, Ал)	Платинали қаршилик эталон термометрлар; Халқаро харорат шкаласи (ИТС-90) нинг белгиланган нукталари ампулалар; Қаршилик ўлчами;	$\text{Ин}$ 156,598 $5^\circ\text{С}$ $\text{Сн}$ 231,928 $^\circ\text{С}$ $\text{Зн}$ 419,527 $^\circ\text{С}$ $\text{Ал}$ 660,323 $^\circ\text{С}$	2018	№К-8 08.06.2020	“ЎзММИ” ДМ 14-марказ Юнусов Марат Равилевич	Юсупов Бехруз Нормахмат ўғли



13.	Ўз МБЕТ 13:2020	Ортиқча босим бирлиги миллий бошланғи ч эталони	Пистонли манометр платформалар: ПГ7601-СЕ, ПГ7202-СЕ, ПГ7302-СЕ; Пистонли силиндралар: ПС- 7100/7600-10-Л, ПС-7100/7600-200, ПС-7200-500, ПС- 7300-200, ПС-7300- 1, ПС-7300-5; Махсус юк юклатиш ускуналари: МБ- 7001-0.3, МБ-7002- 0.8, МБ-7002-0.8;	0,007 дан 500 МПа гача	2019	№К-8 08.06.202 0	“ЎзММИ” ДМ 14-марказ Юнусов Марат Равилевич	Усманов Бобир Анварходжае вич
14.	Ўз МБЕТ 14:2020	Куч бирлиги миллий бошланғи ч эталони	Эталон куч ҳосил қилиш машинаси ДО-ИИ-5, зав. № 20; Эталон куч ҳосил қилиш машинаси МСВ-1000МГ4, № 028; -	1 дан 1000 кН гача	2019	№К-8 08.06.202 0	“ЎзММИ” ДМ 06-бўлим Халилов Ойбек Юлдашевич	Мухторов Зиёдуллаҳўж а Ахрол ўғли
15.	Ўз МБЕТ 15:2020	Узунлик бирлиги миллий бошланғи ч эталони	Ясси узунлик ўлчовларини текшириш ва калибрлаш учун компаратор	100 мм гача	2019	№К-8 08.06.202 0	“ЎзММИ” ДМ 06-бўлим Халилов Ойбек Юлдашевич	Халилова Фарзона Журъат қизи
16.	Ўз МБЕТ 16:2020	Ҳаводаги керма, экспозици он доза ва уларнинг рентген ва гамма- нурланиш куватлар и бирлиги миллий бошланғи ч эталони	Дозиметр Унидос Веблине 500 Дозиметр Унидос Веблине 501 Ионловчи камера ПТW 32002 Ионловчи камера ПТW 32003 Ионловчи камера ПТW 32005	ҳаводаг и керма қўлами $7 \cdot 10^{-9}$ дан $3 \cdot 10^6$ Г й гача; ҳаводаг и керма кувати $7 \cdot 10^{-10}$ дан 45 гача	2019	№К-8 08.06.202 0	“ЎзММИ” ДМ 05-бўлим Исматуллаев Шероз Хамидуллае вич	Ҳикматов Элёр Ўктамович
17.	ИкЕТ 17:2020 ***	Платинал и қаршилик термомет ри миллий иккиламч и эталони	Термометрик кўприклар; Қаршилик ўлчами; Қаршилик термометрлари	-80 дан 670 °С гача	2019	№К-8 08.06.202 0	“ЎзММИ” ДМ 09-бўлим Нажмутдино в Камолиддин Равшанович	Худайкулов Шахзод Шухратович

18.	Ўз МБЕТ 18:2021	Рангдорлик, нут ўтказувчанлик ва оптик зичлик бирлиги миллий бошланғич эталони	Юқори аниқликдаги спектрофотометр “Ламбда 1050”; Интеграллаш ускунаси 150 мм; Қўш апертура Л631 0202	185 дан 3300 нм гача	2020	№К-5 29.12.2021	“ЎзММИ” ДМ 09-бўлим Нажмутдинов Камолиддин Равшанович	Рустамов Жамол Жуманазарович
19.	Ўз МБЕТ 19:2021	Келвин – ҳарорат бирлиги миллий бошланғич эталони (Хг, Х <sub>2</sub> О, Га, Ин, Сн, Зн, Ал, Аг)	Платинали қаршилик эталон термометрлар; Халқаро ҳарорат шкаласи (ИТС-90)га мувофиқ белгиланган нуқталар ампулалари; Юқори аниқликдаги термометрик кўприк; Қаршилик ўлчами; Супертермометер	Хг - 38,8344 °С Х <sub>2</sub> О 0,01 °С Га 29,7646 °С Зн 419,527 °С Аг 961,78 °С	2021	№К-5 29.12.2021	“ЎзММИ” ДМ 14-марказ Юнусов Марат Равилевич	Юсупов Бехруз Нормамат ўғли
20.	Ўз МБЕТ 20:2021	Ёруғлик кучи, ёритилганлик ва равшанлик бирлиги миллий бошланғич эталони	СИС, СИП, ва Wи41/Г турдаги ёруғлик ўлчаш лампалари тўплами; ЛМТ турдаги фотометрик қурилма; ГЛ СПЕСТИС турдаги спектрометр; ЛС 150 ёркинлик эталони; ИСДД-500 турдаги ёркинлик манбаи эталони;	ёритилганлик: 0,1 дан 5000 сд гача ёруғлик кучи: 1 дан 5000 лх гача равшанлик:	2021	№К-5 29.12.2021	“ЎзММИ” ДМ 09-бўлим Нажмутдинов Камолиддин Равшанович	Рустамов Жамол Жуманазарович
21.	Ўз МБЕТ 21:2021	Оқимдаги суюқлик массаси бирлиги миллий бошланғич эталони	Ҳажм эталон баклари; Электромагнитли эталон сарф ўлчагичлари; Тензометрик тарозилар; Диаметри 10 дан 40 мм гача бўлган сарф ўлчагичларни калибрлаш ва қиёслаш учун ишчи йўли; учун ишчи йўли	0,02 дан 630 м <sup>3</sup> /х гача	2021	№К-5 29.12.2021	“ЎзММИ” ДМ 08-бўлим Холмирзаев Нуриддин Исмоилович	Қурбонов Фурқат Комил ўғли

22.	Ўз МБЕт 22:2021	Газ сарфи бирлиги миллий бошланғи ч эталони	Кўнғироксимон эталон газ ҳисоблагичларни қиёслаш қурилмаси; Критик соплалар тўплами; Диаметри 10 дан 80 мм гача бўлган сарф ўлчагичларни калибрлаш ва қиёслаш учун ишчи йўли;	1 дан 250 м <sup>3</sup> /х гача	2021	№К-5 29.12.202 1	“ЎзММИ” ДМ 08-бўлим Холмирзаев Нуриддин Исмоилович	Инагамджано в Дониёр Тухтамурастов ич
23.	Ўз МБЕт 23:2021	Ҳаво муҳитида паскал (Па) – овоз босими бирлиги миллий бошланғи ч эталони	9721А микрофон калибрлаш тизими: 4180 капсул лаборатор эталон микрофони; 4192 капсул лаборатор ишчи эталон микрофони; 4 каналли кириш + 2 каналли ЛАН-ХИ -3160 чиқиш модули; ЛАН-ХИ -3655 тизими учун микрофон калибрлаш тизими; 4231 акустик калибратор; 2284 пистонфон;	20 Хз дан 20 кХз гача	2021	№К-5 29.12.202 1	“ЎзММИ” ДМ 05-бўлим Исматуллаев Шероз Хамидуллае вич	Газиева Любов Борисовна

**Эталонлар марказининг ҳозирга кундаги асосий йўналишлари:**

- эталон базасини ривожлантириш ва такомиллаштиришнинг асосий йўналишларини аниқлаш;
- эталонларини сақлаш;
- эталонларини қўллаш (эталонлардан фойдаланиб ўлчаш воситаларини қиёслаш ва калибровкалашни бажариш);
- энг юқори аниқликдаги ўлчаш воситаларини яратиш бўйича илмий-текшириш ва тажриба конструкторлик ишларини бажариш;
- юқори ва энг юқори аниқликдаги ўлчаш воситаларининг ягона нусхаларини тайёрлаш;
- эталонларнинг минтақавий, давлатлараро ва ҳалқаро солиштирилишини ташкил қилиш ва ўтказиш;
- катталиқлар бирликларининг ўлчамларини қайта тиклаш, сақлаш ва узатиш соҳасида ҳалқаро ҳамкорлик бўйича ишлар бажариш;[2]

Эталонлар маркази республикамиздаги йирик корхоналардан ҳисобланган Навоий кон-металлургия комбинати, Фарғона ва Бухоро нефтни қайта ишлаш заводлари, «Узтрансгаз», ОАО Навоиазот, «АГМК», «НГМК» ва шунга ўхшаш 30 дан ортиқ корхоналар билан узлуксиз алоқада бўлиб, уларнинг намунавий ўлчаш асбобларини ўзини эталонларига таққослаб, фойдаланишга яроқлилигини текшириб келмоқда. Бундан ташқари юқорида айтганимиздек «Ўзстандарт» агентлиги таркибидаги «Метрология хизматлари курсатиш маркази», Республика синов ва сертификатлаштириш маркази ва унинг таркибига кирувчи ҳар бир вилоятнинг Синов ва Сертификатлаштириш Марказларининг ўлчаш воситаларини қиёслаб бермоқда.

Бу ташкилотлар ўз навбатида ўзларининг аниқ ва намунавий ўлчаш воситалари ёрдамида тегишли ташкилотлар ва корхоналарнинг ўлчаш асбоблари яроқлилигини текширадilar. Демак республикамизда бирор-бир ўлчашда фойдаланиладиган ўлчаш асбоблари йуқ-ки бевосита ё билвосита Ўзбекистон Миллий бошланғич эталонлари ёрдамида текшириб турилмаса. Марказдаги эталонларнинг ўз навбатида метрологик жиҳатдан яроқлилигини тасдиқлаб туриш ва улар ёрдамида бажарилган синов ўлчашлари натижасида бериладиган метрологик аттестатлаш ёки калибровка сертификатлари бошқа давлатлар учун ҳам юридик кучга эга бўлиши учун, эталонларимиз доимий равишда (кўпинча йилда бир марта) метрология бўйича минтақавий ташкилотлар тамонидан ташкил қилинадиган миллий эталонларни ўзаро таққослашларда қатнашиши лозим. Бундай таққослашларда фақат ўша минтақавий метрологик ташкилотларга аъзо давлатларнинг эталонлари қатнашиши мумкин. Буни ҳисобга олган ҳолда «Ўзстандарт» агентлиги Евро-Осиё метрологик муассасаларнинг ҳамкорлиги (КООМЕТ)га 2004 йилнинг Болгариянинг Албена шаҳрида КООМЕТ ташкилотининг Ҳамкорлик Меморандумини имзолади ва шу кундан «Ўзстандарт» агентлиги КООМЕТни ҳақиқий аъзоси бўлди ва бу соҳада ҳам катта аҳамиятга эга ишлар олиб борилмоқда. «Ўзстандарт» агентлиги 2001 йилдан Метрология бўйича Қонунлаштирувчи халқаро ташкилот (МОЗМ)га аъзо. Эталонлар маркази ходимлари метрология соҳасида юқори малакали кадрлар таёрлаш ва малакасини оширишда ҳам ўз ҳиссасини қўшиб келмоқда. Бу мақсадда улар Тошкент давлат техника университетининг «Метрология ва ўлчаш техникаси» кафедраси, Стандартлаштириш, метрология ва сертификатлаштириш илмий-тадқиқот институтининг Малака ошириш маркази ходимлари билан биргаликда фаолият курсатмоқда. Эталонлар – ҳар бир давлатнинг катта бойлиги ва ифтихоридир. Эталонлар ниҳоятда қиммат бойлик. Шунинг учун бўлса керак Қадимги Мисрда, вафот этган фиравнларни у дунёга кузатаётганда қабрга бошқа қимматбаҳо буюмлар билан бир қаторда узунлик ўлчови (эталони) нусхасини – «муқаддас тирсак»ни қўйганлар. Эталонлар ўлчаш аниқлигини оширишда катта аҳамиятга эга. Ўлчашлар аниқлигининг ошиши эса, кўпгина ижобий натижаларга олиб келади.[3] Жумладан, тиббиётда касалга аниқ, тўғри ва ишончли ташхис қўйишга, саноатда маҳсулотнинг сифатли бўлишига, инсонларнинг хавфсизлигини таъминлашга, фанда кашфиётга олиб келади. Аксинча ўлчашлардаги хатолик, уларнинг даражаларини пастлиги кўпгина бахтсизликларга ва катта иқтисодий зарарларга олиб келади. Мамлакат эталон базасининг даражаси охир оқибатда шу давлат маҳсулотларининг дунё бозорида рақобатбардошлигини, фан ривожини ва ҳаттоки давлат мавқеини белгилашини инobatга олиб, давлатимиз бу соҳада бекиёс каттадан-катта ишларни амалга оширди ва оширмоқда. Натижада юқорида номлари тилга олинган Эталонлар жуда катта маблағ эвазига харид қилинди ва ҳозирги кунда Ўзбекистон эталонлар базасини ривожлантиришга қаратилган ишлар олиб бориляпти.

Президентимизнинг 2017 йил 28 апрелдаги “Ўзбекистон стандартлаштириш, метрология ва сертификатлаштириш агентлиги фаолиятини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори билан Ўзбекистон миллий метрология институтининг ташкил этилиши метрологик текширувлар, соҳада илмий тадқиқотларни амалга ошириш, энг юқори аниқликдаги ўлчов воситаларини сақлаб туриш, уларни халқаро даражада солиштириш сингари бир қатор муҳим вазифаларни жадаллик билан амалга оширишда айни муддао бўлди. Соҳанинг қонуний-ҳуқуқий базаси эса янги таҳрирдаги “Метрология тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни билан мустаҳкамланди. Умуман олганда метрология “ўлчаш” маъносини англатиб, ўлчовлар, уларнинг бир хиллигини таъминлаш усуллари ва воситалари ҳамда талаб этилган аниқликка эришиш йўллари ҳақидаги фан сифатида тан олинган. У бирор объектнинг физик хусусиятлари бўлган узунлик, масса, зичлик, ҳарорат, куч ва бошқаларга нисбатан қўлланилади. Юртимизда мамлакатимиз раҳбарининг метрология тизимига бўлган эътибори натижасида 2018 –2022 йиллар давомида давлат бюджетидан 21 донга эталон харид қилиш учун 5,8 миллион доллар ажратилиб, миллий эталонлар базасини 33 тага етказиш режалаштирилди.

Тармоқ вакилларигагина таниш бўлган эталон тушунчаси катталиқ бирлигининг ўлчамини бошқа ўлчаш воситаларига ўтказиш мақсадида уни қайта ҳосил қилиш ва сақлаш учун мўлжалланган ўлчаш воситасини англатади. Миллий эталон эса ваколат берилган миллий органнинг қарори билан Ўзбекистон Республикаси ҳудудида ўлчаш бирлигининг ўлчами сифатида эътироф этилган намуна ҳисобланади. Айни пайтда республикада юқори аниқликдаги ўлчашларнинг кузатилувчанлигини таъминлаш мақсадида миллий эталонлар сони 9 тадан 21 тага етказилиб, 10 та калибрлаш лабораториялари ташкил этилган. Мазкур лабораторияларда ўлчаш воситалари калибрлашдан ўтказилади, яъни ўлчашларнинг ҳақиқий қийматини аниқлаш учун улар эталон билан солиштирилади. Кўзланган натижаларга эришиш учун институт фаолиятини янада такомиллаштириш, илмий тадқиқотлар сифатини оширишга ҳам алоҳида эътибор қаратиб келинмоқда. Шу мақсадда, 2017–2020 йилларда жами 5 миллиард сўмлик 133 дона ўлчаш ускуналари харид қилиниб, қиёслаш ва калибрлаш бўйича 45 та янги ўлчаш услуги ўзлаштирилди. Таҳлилларга кўра, ҳозирги кунда ишлаб чиқариш соҳасида ўлчашларнинг ягона бирликда бўлишини таъминлашга қаратилган ва уларни ўтказишга сарфланадиган харажатлар маҳсулотни тайёрлашга ишлатиладиган умумий сарф-харажатларнинг 20 фоизини ташкил қилмоқда. Боиси, қайси соҳани олмайлик, биргина нотўғри ўлчаш жиддий хатоликларга сабаб бўлиши мумкин. Масалан, ишлаб чиқаришда — сифатсиз маҳсулот, тиббиётда — нотўғри ташхис, қурилишда — аниқ асосга эга бўлмаган бино-иншоотлар, экологияда атроф-муҳитнинг заҳарланишига олиб келиши ҳеч гап эмас. Шу нуқтаи назардан, Ўзбекистон миллий метрология институти томонидан имзоланган Миллий ўлчаш эталонлари ҳамда миллий метрология институтлари томонидан бериладиган калибрлаш ва ўлчаш сертификатларининг ўзаро эътироф этилиши тўғрисидаги келишув доирасидаги жараёнларда тўлақонли иштирок этиш асосий вазифалардан бири саналади. Институт шунингдек, Халқаро тарози ва ўлчовлар бюроси (BIPM)нинг тенг ҳуқуқли аъзоси ҳисобланади. Бу келишув халқаро ва минтақавий ташкилотлар билан ҳамкорликни йўлга қўйиш, метрологик лабораториялар имкониятини дунё миқёсда кенгайтириш орқали Ўзбекистонда амалга ошириладиган ўлчашларнинг хорижда эътироф этилишига йўл очади. Бунинг учун қўшни давлатларда ўлчашларга бўлган эҳтиёжни таҳлил қилган ҳолда, метрологик хизматлар экспортини йўлга қўйиш, шунингдек, калибрлаш лабораторияларининг халқаро аккредитация соҳасини қўшимча 4 та (узунлик, физик-кимё, электр ва куч) ўлчаш турларига кенгайтириш лозим бўлади. Қайси соҳада бўлмасин, халқаро майдонга чиқиб, унда муносиб ўрин эгаллаш осон кечмайди. Бунинг учун малакали мутахассислар зарур. Шу боис, сўнгги уч йил ичида соҳага 10 дан ортиқ халқаро экспертлар жалб этилди. 50 нафардан зиёд мутахассисларимиз Германия, Туркия, Россия, Хитой, Молдова, Беларусь ва бошқа давлатларда малака ошириб қайтди. Олиб борилган саъй-ҳаракатлар натижасида юртимиздаги масса, ҳарорат ва босим лабораторияларининг ўлчаш имкониятлари халқаро даражада тан олинди. Калибрлаш ва ўлчаш сертификатларининг 102 та давлат томонидан ўзаро эътироф этилишини таъминлаш мақсадида Евросиё давлат метрология ташкилотлари ҳамкорлиги (КОOMET) доирасида 14 та солиштириш лойиҳалари бўйича яқин ҳамкорлик ўрнатилди.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. РМГ 29-99\* ГСИ. Метрология. Основные термины и определения.
2. Международный словарь основных и общих терминов в метрологии. «International
3. О.Ш. Хакимов Т.Б. Абдуллаев «Ўзбекистон Республикасида эталон базасини ривожланиши тўғрисида»
4. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 7 апрелдаги ЎРҚ-614-сонли «Метрология тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида»ги [Қонунига](#) асосан янги таҳрирда қабул қилинган.
5. WWW.lex .uz
6. WWW/stan/nim/uz.



## ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СИЁСАТИДА ХОТИН-ҚИЗЛАРНИНГ ҲУҚУҚЛАРИ ВА ГЕНДЕР ТЕНГЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ

*Ишмуратова Севара Шухратжановна*

*Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси  
Миллий марказининг Умумий бўлими бошлиғи,  
Ўзбекистон журналистика ва оммавий коммуникациялар  
университети магистранти.*

*Аёл шарофати билан меҳр ва муҳаббат маскани – оила,  
бебаҳо неъмат – фарзандлар бор. Аёлларимиз бахтли бўлса,  
оиламиз ҳам, жамиятимиз ҳам бахтли бўлади, албатта.*

*Шавкат МИРЗИЁЕВ  
Ўзбекистон Республикаси Президенти.*

*Халқаро хотин-қизларга нисбатан зўравонликка барҳам бериш учун бағишланади.*

Аслида гендер тенглик, яъни эркаклар ва хотин-қизлар тенглиги инсоннинг асосий ҳуқуқларидан бири ҳисобланади. Сўнги тадқиқотлар шуни кўрсатмоқдаки, бу омил энг юқори даражадаги иқтисодий, ижтимоий ва сиёсий тараққиётнинг ҳам негизидир. Чунки мутахассисларнинг фикрича, фақат эркаклардан иборат жамоага нисбатан 50/50 фоиз эркак ва хотин-қизлардан иборат меҳнат жамоалари, айниқса, агар улар аклий меҳнат билан банд бўлса, бир неча баробар юқорироқ натижа кўрсатар экан. Қолаверса, гендер тенглик – бу мамлакатнинг демократик тараққиёт даражасини кўрсатувчи индикатор. Демак, ривожланган мамлакатлар қаторига қўшилиш, юртимизга тобора кўпроқ инвестициялар жалб қилиш учун ҳам шу индикаторга етарлича аҳамият беришимиз керак. Таъкидлаш жоизки, эркак ва хотин-қизларнинг тенг ҳуқуқлилиги халқ фаровонлигида, жамият тинчлиги ҳамда иқтисодий барқарорликда муҳим ўрин тутди. Шундай экан, хотин-қизларнинг бандлигини таъминлаш, уларнинг ўз интилиш ва қобилиятларини тўлақонли рўёбга чиқара олишлари учун имкониятларни кенгайтириш масаласи давлатимизнинг доимий диққат марказида. Янги Ўзбекистонда хотин-қизларнинг жамиятдаги ўрни ва нуфузини юксалтириш, уларга муносиб меҳнат шароитини яратиш юзасидан кенг қамровли чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Хусусан, бугунги кунда турли даражадаги давлат ва жамоат ташкилотлари тизимида, жумладан, вазирлик ва идораларда, маҳаллий ижроия ҳокимияти органларида 1500 нафардан ортиқ хотин-қизлар раҳбарлик лавозимларида фаолият юритмоқда. Давлат бошқарувида хотин-қизлар иштирокини ошириш мақсадида 6 мингдан зиёд фаол хотин-қизлардан иборат кадрлар захираси шакллантирилди. Ҳозирги кунда уларни турли раҳбарлик лавозимларига тайёрлаш бўйича тизимли ўқувлар ташкил этилмоқда. Ички ишлар вазирлиги тизимида 16 нафар аёл раҳбарлик, 6 нафар аёл ҳокимлик лавозимини эгаллади. Турли даражадаги давлат мукофоти совриндорлари бўлган хотин-қизлар сони 2 минг 224 нафарга етди. Бугунги кунга қадар 577 нафар аёл “Мўътабар аёл” кўкрак нишони билан тақдирланди. Хотин-қизлар ва эркаклар ҳуқуқлари тенглиги мамлакатимизнинг Асосий қонуни – Ўзбекистон Республикаси Конституциясида мустақкам белгилаб қўйилган. Хотин-қизларнинг ҳуқуқларини таъминлаш борасида халқаро стандартларни ҳисобга олган ҳолда изчил давлат сиёсати амалга оширилмоқда. Айни пайтда мамлакатимиз аҳолисининг қарийб 50 %ини аёллар ташкил этиб, уларнинг барча соҳаларда, жумладан, сиёсий бошқарув, ижтимоий-иқтисодий ҳаётда самарали фаолият юритиши учун барча шарт-шароит яратилган. Янги Ўзбекистонда хотин-қизларнинг мамлакатимиз жамоат, сиёсий ва тадбиркорлик ҳаётидаги ролини тубдан ошириш борасидаги ишлар қонунчилик базасини такомиллаштириш соҳасида ҳам изчил олиб борилмоқда.

Шунингдек, хотин-қизларни ҳар қандай камситиш ва таъқиблардан ҳуқуқий, ижтимоий ва иқтисодий ҳимоя қилишни назарда тутувчи барча асосий халқаро шартномаларга қўшилган. Хусусан, инсон ҳуқуқларини таъминлаш соҳасидаги 80 та асосий халқаро ҳужжатга, жумладан, БМТнинг 1979 йилдаги “Аёлларга нисбатан камситишнинг барча шакллариغا барҳам бериш тўғрисида”ги конвенциясига қўшилди (Ўзбекистон ушбу Конвенцияни 1995 йилда ратификация қилган). Ўзбекистонда хотин-қизлар ҳуқуқларини таъминлаш ва ҳимоя қилишнинг ҳуқуқий асосларини янада такомиллаштириш мақсадида 2019 йилда “Хотин-қизлар ва эркеклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида”ги ҳамда “Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Қонунлар қабул қилинди. Шу тариқа давлатимизнинг инсон ҳуқуқлари соҳасида халқаро андозаларга амал қилиш, хусусан, хотин-қизлар ҳуқуқларини таъминлашга тайёрлиги жаҳон ҳамжамиятига эълон қилинди. Ўзбекистон тарихида илк маротаба миллий парламентда хотин-қизлар сони БМТ томонидан белгиланган тавсияларга мос даражага етди. Айнан шу кўрсаткич бўйича юртимиз топ-50 талиқдан ўрин олган. Шу ўринда давлат раҳбарининг нутқидан иқтибос келтиришни ўринли деб биламан: “Мени кишиларимизнинг онгида пайдо бўлган стереотип кўп ўйлантиради. Одатда биз аёлни авваламбор она, оила кўрғонининг кўриқчиси сифатида ҳурмат қиламиз. Бу, шубҳасиз, тўғри. Аммо бугун ҳар бир аёл оддий кузатувчи эмас, балки мамлакатда амалга оширилаётган демократик ўзгаришларнинг фаол ва ташаббускор иштирокчиси ҳам бўлиши керак”<sup>278</sup>. Сўнгги йилларда гендер тенглик масаласи давлат сиёсати даражасига кўтарилиб, соҳага оид 25 та қонун ҳужжати қабул қилинган. Мамлакатимизда, инсон ҳуқуқларини таъминлашга қаратилган салмоқли қатор қонун ҳужжатлари қабул қилинган бўлиб, бунда хотин-қизлар ҳуқуқлари ва эркеклар гендер тенглигини таъминлашга қаратилган 24 та ҳуқуқий ҳужжат, хусусан, 2 та қонун, 6 та Президент фармон ва қарори, 16 та Вазирлар Маҳкамасининг қарори қабул қилинди. Хотин-қизлар ҳуқуқлари ва эркеклар гендер тенглигини таъминлашга қаратилган конституциявий тамойилни амалга ошириш учун институционал муҳит яратилди, яъни Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Сенати таркибида аёллар ҳуқуқларини таъминлаш ва камситишнинг ҳар қандай шаклига барҳам бериш бўйича миллий қонунчиликда халқаро стандартларни уйғунлаштириш билан шуғулланувчи янги Хотин-қизлар ва гендер тенглик масалалари кўмитаси ташкил қилинган. Бундан ташқари, меҳнатга оид ҳуқуқларнинг кафолатлари ва қўллаб-қувватлашни янада кучайтириш, уйдаги зўравонлик қурбонларига ёрдам бериш мақсадида Зўрлик ишлатишдан жабр кўрган шахсларни реабилитация қилиш ва мослаштириш ҳамда ўз жонига қасд қилишнинг олдини олиш республика маркази ва Хотин-қизлар тадбиркорлиги маркази, Ҳукумат ҳузуридаги “Оила” илмий-амалий тадқиқот маркази каби янги тузилмалар ташкил топди. Мазкур янги ташкил этилган барча институционал механизмлар Ўзбекистон Хотин-қизлар кўмитаси билан биргаликда БМТ Конвенциясига мувофиқ аёллар ҳуқуқлари, гендер тенглиги ва хотин-қизларга нисбатан камситишларга барҳам беришнинг ягона яхлит механизмига айланиши масаланинг муҳим томонидир. Шунингдек, Сенатнинг 15-ялпи мажлисида Ўзбекистонда 2030 йилгача бўлган даврда БМТ Глобал кун тартибининг Барқарор ривожланиш мақсадларини изчил амалга ошириш бўйича тизимли ишларни ташкил этиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси “2030 йилгача бўлган даврда барқарор ривожланиш соҳасидаги миллий мақсад ва вазифаларни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” қарор қабул қилган. Мазкур Стратегия қарорлар қабул қилиш ва ижро этишнинг барча соҳаларида ҳамда даражаларида хотин-қизлар ва эркеклар ўртасида тенглик тамойилини татбиқ этишга кенг қамровли ёндашувни назарда тутди. Ҳужжат Пекин Декларацияси, Хотин-қизлар ҳуқуқлари камситилишининг барча шакллариغا барҳам бериш тўғрисидаги конвенция ҳамда БМТнинг Барқарор ривожланиш мақсадларини бажаришга кўмаклашади.

<sup>278</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис Сенатининг йигирманчи ялпи мажлисидаги нутқи // Халқ сўзи. 2019. 22 июнь.

Стратегия эркаклар ва аёлларнинг тенг ҳуқуқлари ва имкониятларини рўёбга чиқариш учун шарт-шароит яратиш ҳамда инсоннинг фундаментал ҳуқуқларига риоя қилиш мақсадида иқтисодий, сиёсий ва ижтимоий ҳаётда гендер тенглик тарғиб қилинишини таъминлашга хизмат қилади<sup>279</sup>.

Инсоннинг ҳар томонлама тенглиги – инсон ҳуқуқлари соҳасидаги муҳим принциплардан биридир. Жамият ҳаётининг барча соҳаларида аёллар билан эркаклар ўртасида тўлиқ тенгликка эришиш ушбу принципнинг асосий талаби ҳисобланади. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев таъкидлаганидек, “биз гендер сиёсати масалалари борасида мамлакатимизнинг ижтимоий-сиёсий ҳаётида ва ишбилармонлик соҳасида аёлларнинг ролини тубдан оширишга қаратилган ишларни қатъий давом эттираемиз”<sup>280</sup>.

---

<sup>279</sup> Кодирхонова М. Сенаторлар Ўзбекистон Республикасида 2030 йилга қадар гендер тенгликка эришиш стратегиясини тасдиқланди. // <https://www.gazeta.uz/uz/2021/05/28/strategy/>

<sup>280</sup> Президент Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Инсон ҳуқуқлари бўйича кенгашининг 46-сессиясидаги нутқи // <https://strategy.uz/index.php?news=1239>.

## СОҒЛОМ ЧАҚАЛОҚЛАР НАЖАСИДАН АЖРАТИБ ОЛИНГАН ФОЙДАЛИ БАКТЕРИЯЛАР ШТАММЛАРИНИ МОРФОЛОГИК КУЛЬТУРАЛ ХУСУСИЯТЛАРИНИ ЎРГАНИШ

*М.Б.Ишмуродов Н.И.Боймурзаев Г.С.Исроилова*

*Тошкент вакцина ва зардоблар илмий тадқиқот институти.*

**Кириш.** Бактериялар табиатда кенг тарқалган бўлиб, инсон организмида хилма-хиллиги билан ажралиб туради. Соғлом одам организмида жуда кўплаб сапрофит ва шартли патоген микроорганизмлар яшайди ва уларнинг асосий қисми овқат ҳазим қилиш тизимида мавжуд булади. Сут ачитувчи бактериялар табиатда ҳам кенг тарқалган бўлиб, ушбу бактериялардан бири бўлган бифидобактериялари ҳам инсон организмида ичак микрофлорасининг ҳам миқдорий  $10^9$ - $10^{10}$  ташкил қилиши мумкун булса сифат жиҳатдан ўзгариши (ёки бузилиши) организмда овқат ҳазим қилиши тизимида салбий ўзгаришларга сабабчи бўлади. Бифидобактериялар лактатция даврида эмизикли болалар ва ёш эмизувчиларнинг ичак микрофлорасининг 80-90%ни ташкил қилади. Бифидобактериялар турли хил чириш ва патоген микроорганизмларнинг ривожланишига тўсқинлик қилади ва углеводларнинг ҳазим бўлишига ёрдам беради .

**Тадқиқотнинг мақсади.** Соғлом одам организмдан сут-ачитувчи бактерияларни ажратиш ва уларнинг морфологик-культурал ҳамда физиологик-биокимёвий хусусиятларини ўрганиш.

**Текширув усуллари.** Кўкрак сути билан озикланадиган бир ёшгача бўлган 30 нафардан ортиқ чақалоқларнинг нажасидан умумқабул қилинган усуллар ёрдамида биоматериал намуналари олинди. Олинган нажас намуналаридан сут-ачитувчи бактерияларни ажратиш олиш учун махсус BD Bifidobacterium Agar, Modified озиқа муҳитларига умумқабул қилинган усулларда экилди ва Хавосиз шароитда ўстирилди. Микробиологик суюлтириш усуллари ёрдамида сут-ачитувчи бактерияларнинг 40 дан ортиқ соф ҳолдаги тоза культуралари ажратилди. Сут-ачитувчи бактерияларнинг соф ҳолда ажратиш олинган культураларнинг баъзи бир морфологик-культурал (колонияларнинг ташқи кўриниши, микроскопияси) ва физиологик-биокимёвий хусусиятлари (грам бўялиши, каталаза фаоллиги, углеводларни ўзлаштириши) таҳлил этилди.

**Олинган натижалар.** Сут-ачитувчи бактериялар BD Bifidobacterium Agar, Modified муҳитларда сферик, текис, унчалик тиник бўлмаган ўзига хос колонияларни ҳосил қилди. Соф культуралардан тайёрланган суртмалар микроскопик текширилганда уларнинг айримларида бактерияларнинг якка-якка ёки жуфт-жуфт иккига бўлинган, грам мусбат айри учли таёқчалар шаклида микроорганизмлар эканлиги аниқланди. Ушбу микроорганизмларнинг граммусбат, лекин ўстириш давомида вақт ўтиши билан айрим ҳолларда грамманфий бўлиши, споралар ҳосил қилмаслиги аниқланди. Тадқиқ этилаётган микроорганизмларнинг қуйидаги углеводлар: глюкоза, фруктоза, манноза, галактоза, лактоза, мальтоза ва сахарозани ўзлаштириши таҳлил этилди.

**Хулоса:** Шундай қилиб, олиб борилган микробиологик тадқиқотларда соф ҳолда ажратиш олинган сут-ачитувчи бактериялари Bifidobacteriaceae оиласига мансуб эканлигини кўрсатди.

## ЎЗБЕКИСТОННИНГ ХАЛҚАРО РЕЙТИНГЛАРДАГИ ТАҲЛИЛИ ВА ТАСНИФИ

*Камолова Гулҳаё Комиловна*

*Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги  
Давлат бошқарув академияси тадқиқотчи докторанти.*

Жорий йилнинг май ойида Президентнинг “Халқаро рейтинг ва индекслар билан ишлашда илмий салоҳият ҳамда амалий фаолият уйғунлигини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги [ПК-246](#)-сон қарори қабул қилинди. Унинг амалий жиҳати билан нималар ўзгаради...?

Таъкидлаш жоиз, бу ўринда Ўзбекистоннинг халқаро рейтинг ва индексларда юқори ўринларни эгаллашига эришиш муҳим аҳамият касб этади. Чунки халқаро рейтинг ва индекслар дунёдаги институционал муҳитнинг сифатини баҳолаш – иқтисодий ривожланишнинг асосий шарти сифатида дунёда умум қабул қилинган восита ҳисобланади. Бугунга келиб бу каби рейтинг ва индекслар нафақат экспертлар, балки давлатлар даражасида ҳам ислохотлар ва иқтисодий сиёсатнинг муваффақияти мезонлари сифатида қўлланила бошланди. БМТнинг Инсон камолоти индекси (Human Development Index), Жаҳон иқтисодий форумининг Глобал рақобатбардошлик индекси (Global Competitiveness Index), Жаҳон банкининг бизнес юритиш рейтинги (Doing Business) ва шу сингари бошқа қатор омиллар бўйича натижалар давлатларда, шу жумладан Ўзбекистонда турли даражадаги дастурлар ишлаб чиқилишида мақсадли йўналиш сифатида хизмат қилмоқда. Яқинда Ўзбекистон Республикаси инвестициялар ва ташқи савдо вазирлиги ҳузуридаги хорижий инвестицияларни жалб қилиш агентлиги эълон қилган маълумотларига кўра бир неча кўрсаткичлар бўйича рақамлардаги ўзгаришларни таҳлил қилиб кўрамиз:

### **Бизнес юритиш осонлиги рейтинги.**

Doing Business рейтинги кичик ва ўрта бизнес юритиш осонлиги даражасини ифодалайди. Ҳозирги пайтда бунда жами 11 индикатор баҳоланади: янги ишни ташкил қилиш, қурилишга оид рухсатномалар олиш, электроэнергияга уланиш, мол-мулкни рўйхатдан ўтказиш, кредит олиш, миноритар инвесторларни ҳимоялаш, солиқларни тўлаш, трансчегаравий савдо, шартномаларга риоя қилиш механизмлари, банкротлик, шунингдек меҳнат бозорини тартибга солиш осонлиги. Doing Business — мамлакатлар инвестициявий иқлим ҳолатини тавсифловчи энг оммавий рейтинглардан бири. 2019 йилда Ўзбекистонга 76-ўрин берилган эди. 2012 йилга таққослаганда Ўзбекистон 78 позицияга кўтарилди.

### **Иқтисодий эркинлик кўрсаткичи.**

Ўзбекистоннинг иқтисодий эркинлиги 53,3 баллга тенг бўлиб, 2019-йилги кўрсаткичга биноан 140-ўринда. Бизнес эркинлиги, меҳнат эркинлиги ҳамда инвестиция эркинлиги юқорилаб, Ўзбекистон иқтисодий эркинлиги умумий ҳисобда 1,8 баллга ўсган. Ўзбекистон Осиё-Тинч океани минтақасидаги 43 мамлакат орасида 36-ўринни эгаллаб турибди ва унинг умумий рейтинги минтақавий ва жаҳон ўртача кўрсаткичларидан паст.

### **Инсон тараққиёт индекси.**

Ўзбекистоннинг Инсон тараққиёти индекси қиймати 2017-йил учун 0,710 ни ташкил этди, бу мамлакат инсон тараққиётининг юқори тоифасига кириб, 189 та мамлакат ва ҳудуд ичида 105-ўринни банд этди деганидир. 2000-2007 йиллар оралиғида Ўзбекистоннинг Инсон тараққиёти индекси қиймати 19,3 фоизга ошган ҳолда 0,595дан 0,710 га кўтарилди.

### **Логистик фаолият кўрсаткичи.**

Ўзбекистон ҳар икки йилда нашр этиладиган Жаҳон Банкларининг логистик фаолият кўрсаткичи нашрида 2018-йилда 2016-йилдаги 118-ўрнидан 19 поғона юқорилаб олди. Логистик фаолият кўрсаткичи учун асосий мезонлар божхона, инфраструктура, халқаро юк ташиш, логистик маҳорат, ҳаракатланиш, кузатиш ҳамда даврийликни ўз ичига олади.



**Экологик самарадорлик индекси.**

Экологик самарадорлик индекси (The Environmental Performance Index) – Йель университети қошидаги Экологик сиёсат ва ҳуқуқ марказининг аралаш кўрсаткичиси бўлиб, у мамлакат ютуқларини экология ва табиий ресурсларни бошқариш нуқтаи назаридан ўлчайди. 2018 йилги рейтинг якунларига кўра Ўзбекистон 136-ўринни эгаллади.

**Дунё мамлакатларининг илмий-тадқиқот фаоллиги даражасига кўра рейтинги.**

Илмий-тадқиқот фаоллиги даражаси кўрсаткичи мамлакат илмий-техник ривожланишининг асосий кўрсаткичларидан бири ҳисобланади ҳамда илмий манбалар индекси тизимига киритилган таҳрир қилинувчи илмий журналлар ва нашрларда чоп қилинган илмий-тадқиқот материалларининг умумий сони сифатида ҳисоб-китоб қилинади. Дунё мамлакатлари илмий-тадқиқот фаоллиги кўрсаткичи ҳар йили АҚШ нинг «Science and Engineering Indicators» деб номланувчи Миллий илмий фондининг махсус ҳисоботида чоп қилинади. 2017 йилда Ўзбекистон дунёнинг 195 мамлакати ўртасида 82-ўринни эгаллади.

**Акт ривожланиши индекси.**

Индекс 2007 йилда Халқаро электралоқа иттифоқи томонидан АКТ ривожланишини баҳолашда фойдаланиладиган 11 кўрсаткич асосида амалга оширилади. Индекс ушбу кўрсаткичларни ягона мезонга бирлаштиради, ва ундан дунё мамлакатларнинг АКТ ривожланиши борасидаги ютуқларини таққослашга йўналтирилади, айти пайтда глобал, минтақавий ва миллий даражаларда қиёсий таҳлилни амалга ошириш воситаси сифатида фойдаланилиши мумкин. 2017 йилда ушбу индекс бўйича Ўзбекистон 95-ўринни эгаллади. Албатта бу кўрсаткичлар фақат рақамларда холос, уларнинг амалий натижалари энг муҳим омил ҳисобланади.

Шунингдек, 2022 йил 1 июндан бошлаб халқаро рейтинг ва индекслар бириктирилган илмий ташкилотлар 2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясини амалга оширишга оид давлат дастурларига таклифлар ишлаб чиқиши ҳамда тегишли вазирлик ва идораларга киритиб борилиш тартиби жорий этилади.

2022 йил 1 сентябрдан бошлаб Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академиясида давлат органларининг бошқарув кадрлари учун устувор халқаро рейтинг ва индекслар бўйича қисқа муддатли малака ошириш курслари жорий этилади. Қарор билан қуйидагилар белгиланди:

- ✓ Давлат хизматини ривожлантириш агентлиги ҳар йили 1 январга қадар устувор халқаро рейтинг ва индексларнинг таркибий индикаторлари доирасида баҳоланадиган соҳалар бўйича малака ошириш курсларида иштирок этадиган давлат хизматчилари контингентини Академияга тақдим этади;
- ✓ малака ошириш курсларининг ўқув-услугий материаллари Академия томонидан халқаро рейтинг ва индекслар бириктирилган илмий ташкилотлар билан ҳамкорликда ишлаб чиқилади;
- ✓ малака ошириш курсларига жалб этилган Академия профессор-ўқитувчилари ва илмий ходимлари илғор хорижий тажриба билан танишиш ва илмий салоҳиятини янада ошириш учун нуфузли хорижий университетлар, илмий марказлар ҳамда халқаро ташкилотларга малака ошириш курслари ва стажировкага юборилади;

Ҳужжат билан шунингдек Ўзбекистон Республикасининг устувор халқаро рейтинг ва индекслар, уларнинг паст кўрсаткичли индикатор ва субиндикаторларидаги ўрнини яхшилаш бўйича қуйидагини назарда тутувчи янги тартиб жорий этилди: халқаро рейтинг ва индекслар бириктирилган илмий ташкилотлар ҳар йили 1 январга қадар паст кўрсаткичли индикатор ва субиндикаторлар бўйича соҳа, тармоқ ҳамда ҳудудлардаги тизимли муаммоларни аниқлаш ва уларни бартараф этиш юзасидан илмий-тадқиқот лойиҳаларини амалга ошириш бўйича йиллик режаларни ишлаб чиқиб Республика кенгашининг ишчи органларига киритади. Бу эса ўз навбатида Янги Ўзбекистоннинг имиджи учун ҳам креатив ёндашув бўлади деб умид қиламиз.

**Фойдаланилган ҳаволалар:**

1. [www.president.uz](http://www.president.uz)
2. [www.norma.uz](http://www.norma.uz)
3. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
4. [www.standart.uz](http://www.standart.uz)
5. [www.invest.gov.uz](http://www.invest.gov.uz)
6. [www.asr.uz](http://www.asr.uz)
7. <https://hdr.undp.org/> Human Development Index
8. <https://www.weforum.org/> Global Competitiveness Index
9. <https://archive.doingbusiness.org/en/doingbusiness/Doing Business>.

## “МАНТИҚ УТ-ТАЙР” ШЕЪРИЙ ТАРЖИМАСИДА ВАЗН МУАММОСИ

**Камолова Умида Музаффаровна**

(Мустақил тадқиқотчи)

Бухоро шаҳар 8-умумий ўрта таълим мактаби

Она тили ва адабиёт фани ўқитувчиси.

**Аннотация:** Ушбу мақолада Фаридуддин Атторнинг “Мантиқ ут-тайр” достони мисолида вазн муаммоси ёритилган. Унда асар аслияти ва шеърий таржимаси киёсланиб, шакл ва мазмун бирлиги масаласига эътибор қаратилган.

**Аннотация:** В этой статье на примере поэмы “Мантик ут-тайр” Фаридиддана Аттара. В нём сопоставляется оригинальность произведения, стихотворный перевод и уделено внимание единство формы и содержания.

**Annotation:** In this article is opened the problem of rhythm in “Mantiq ut-tayr” of Fariduddin Attor. There is comparison of the original work and its poetical translation. Also paid attention to the unity of meaning and form.

**Таянч сўзлар:** вазн, аслият, шеърий таржима, таржимон, фонетик ўзгариш, ижодийлик, байт, шакл ва мазмун бирлиги

**Опорные слова:** рифмовка, оригинальность, стихотворный перевод, переводчик, фонетическое изменение, творчество, строфа единство формы и содержания.

**Keys words:** rhythm, originality, poetical, translation, phonetic changes creativity and the unity of meaning.

Мумтоз адабиётимиз дурдоналари орасида Шайх Фаридуддин Атторнинг “Мантиқ ут-тайр” достони алоҳида мавқега эга. Моҳиятан ахлоқий қарашларга йўғрилган мазкур асар ҳар қандай китобхоннинг кўнгил маҳзанини бойитиши табиий. Бугунги ўзбек ўқувчиларини шундай бетакрор ижодий мерос билан танишишларига моҳир таржимон Жамол Камолнинг хизматлари бекиёс. Айнан ушбу дoston таржимаси ҳам бошқалари сингари маромига етказиб амалга оширилган.

Кўплаб мумтоз ижодкорларга илҳом бағишлаган “Мантиқ ут-тайр” достони арузнинг рамал баҳрида – **рамали мусаддаси максур(маҳзуф)** тармоғида яратилган. Мутаржим асарни аслиятга мувофиқ ҳолда таржима қилиш орқали шеърий таржимада шакл ва мазмун бирлигини сақлай олган. Масалан:

То чу бар ту | айби ту о | яд гарон,  
Набудат пар | войи айби | дигарон[1,72].  
— V — — | — V — — | — V —

Фоилотун фоилотун фоилун  
Ушбу байтнинг ўбек тилидаги таржимаси шундай:

Кўз очиб кўр | сайдинг айбинг | ни агар,  
Ўзгалар ай | бига солмас | динг назар[2,108].  
— V — — | — V — — | — V —

Фоилотун фоилотун фоилун.

Тактеъдан аёнки, ҳар иккала матн ҳам “фоилотун” оҳангига мос. Бинобарин, рамал баҳрида. Байтларда олтига рукн мавжуд. Шунинг учун бу – мусаддас. Охирги устунлар зихофга учраган. Демак, умумий вазн тармоғи – рамали мусаддаси маҳзуф.

Шунингдек, таржимага диққат қилинса, арузга хос фонетик ўзгариш кўзга ташланади. Бунда **кўрсайдинг** сўзидаги **нг** товуши байтни ўқиш жараёнида **айбингни** сўзидаги **а** товуши билан биргаликда ўқилади, яъни бир ҳижони ҳосил қилади. Бу **васл** деб юритилади.

У “аруз тизими асосида яратилган шеърый асарларни ифодали ўқиш жараёнида вазн талаби билан айрим ёпиқ ҳижола охиридаги ундошни ундан кейин турган ҳамда унли билан бошланган ҳижога қўшиб талаффуз этиш ҳодисаси”[6,44] дир. Шу сингари ҳолат аслиятдаги баъзи мисраларда ҳам учрайди. Жумладан,

Худ футувват нест дар ҳар ду чаҳон,  
Бартар аз инсоф додан дар ниҳон[1,36].

Иккинчи мисрадаги **бар-тар аз** бирикмаси **бар-та-р аз** тарзида ўқилади. Бундан ташқари хашв рукнида ифодаланган **нест** сўзи ўта чўзиқ ҳижо саналади(нес-т(и)). Шунинг баробарида **инсоф** сўзи **ин-со-ф(и)** кабилида талаффуз қилинади. Бу арузшуносликда **имола** атамаси остида “вазн тақозоси билан таркибида чўзиқ унли бўлган айрим ёпиқ ҳижоларни, унлини чўзиб талаффуз қилиш ҳисобига ўта чўзиқ ҳижо қилиб ўқишни ифодалайди”[6,224]. Яъни:

Худ фу-тув-ват | нес-т(и) дар ҳар | ду чаҳон,  
Бар-та-р аз ин | со- ф(и) до-дан | дар ни-ҳон.  
— V — — | — V — — | — V —  
Фоилотун фоилотун фоилун

Мазкур байтнинг ўзбекча ифодаси куйидагича:

Бир эмас, ик | ки жаҳон ич | ра магар,  
Йўқ футувват | ўйлаким, ин | соф қадар[2,96].  
— V — — | — V — — | — V —  
Фоилотун фоилотун фоилун

Айтиш керакки, ўғирма матнда оригиналдаги шакл, моҳият сақланган. Эътиборли жиҳати, “футувват” сўзи аслиятнинг дастлабки сатрида, таржиманинг иккинчи мисрасида қўлланилган. Бу, ўз навбатида, шеърый таржимада эркинлик ва ижодийлик масаласи билан боғлиқ. Сабаби таржимон муаллиф ғоясини ўқувчига аниқ ва тўғри етказиши, шу мақсадда, таржима мезонларига амал қилган ҳолда, бирор сўзнинг, ҳатто мисралар ўрнини алмаштириши ҳам мумкин.

Шунингдек, “футувват” сўзи таркибидаги дастлабки “у” унлиси адабий тилда чўзиқ айтилган ҳолда, шеърда қисқа ўқилади. Чунки у “фоилотун” рукнининг қисқа ҳижоси **и** ўрнида келган. Мазкур ҳолат аруз назариясида **азл** дейилади. “Четлашиш маъносини ифодаловчи бу атама адабий тилда чўзиқ ўқилувчи унлиларни шеърый асарларда вазн талабига кўра қисқа унли тарзида ўқилишини ифодалайди”[6,7]. Шундай ҳодиса ҳар икки матнда ҳам учрайди.

**"Qaysi birlariga qiz (ko'rgani haqida) xushxabar berilsa, g'azabi kelib, yuzlari qorayib ketadi. U (qiz)ni kamsitgan holda, olib qolish yoki (tiriklay) tuproqqa qorish (to'g'risida o'y surib), o'ziga xushxabar berilgan narsaning «yomon»ligidan (oriyat qilib) odamlardan yashirinib oladi. Ogoh bo'lingizki, ularning bu hukmlari juda yomondir ("Nahl" surasi, 58-59 oyatlar).**[3.172.] Zardushtiylik dinining asosiy qomusi bo'lgan "Avesto"da oila erki,

xotin-qizlarning jamiyatda tutgan o'rni, onaning xonadondagi mavqei masalalari turli o'rinlarda har xil munosabatlar bilan qayd etilgan. Zardushtiylikda qiz bolaning tarbiyasiga alohida e'tibor berilgan. Bu ta'limotga muvofiq har bir ota-ona o'z qizini balog'at yoshiga yetguncha zamonasining barcha hunarlarini bilishini ta'minlashi, e'tiqodda bosiq, pokiza qilib tarbiyalashi zarur bo'lgan.[4.96.] Shuningdek, qadimgi yunon faylasuflari Suqrot, Arastu kabi olimlar o'z qarashlarida eng yuksak davlat sifatida jamiyatda tenglik va adolat hukm surgan, qonunlar nuqtai nazaridan ham hamma birdek tengligini kafolatlagan qonunlarni takomillashtirgan va targ'ib qilgan. Barcha erkak va ayollar tengligi g'oyasini yunon olimi Antifont o'z asarlarida qo'llagan holda: «Tabiat barchani: ayollarni ham, erkaklarni ham teng qilib yaratadi, lekin odamlar insonlarni tengsiz holatga soluvchi qonunlarni ishlab chiqishadi», deb ta'kidlagan.

Platon davlatni boshqarish to'g'risidagi qarashlarida “Ayollar erkaklar bilan teng huquqlidirlar. Barcha kishilar hamfikrdirlar, ular o'rtasida umumiylikni yemiruvchi yoki davlatni tanazzulga olib keluvchi fikrlarga yo'l qo'yilmaydi. Davlatni qo'llab-quvvatlash, umumiy ravnaqqa xizmat qilish barcha fuqarolarning burchidir”,- deya ta'kidlagan.[5.112.] Amerikalik faylasuf Jon Roulz adolatlilikning ikki tamoyilini ilgari suradi:

1. Har bir inson asosiy erkinlik sistemalari oldida teng huquqli bo'lishi kerak;
2. Ijtimoiy, iqtisodiy tengsizlik shunday tashkillashtirilishi kerakki, unda:
  - a) kam ta'minlanganlar manfaatiga ko'proq e'tibor berilishi kerak;
  - b) tashkilotlar va mansablar adolatli teng imkoniyatlar uchun ochiq bo'lishi kerak. [5.695.]

Xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini yanada kengaytirish, mustahkamligini ta'minlash, jamiyatning uzluksiz barqaror yuksalishiga sabab bo'luvchi nihoyatda muhim konsepsiyalardan biri. Har bir davlat va jamiyat butunjahon miqyosida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va harbiy sohalariga singari, mamlakatda erkaklar bilan bir qatorda ayollarning ham erki, huquqi, imkoniyatlari teng bo'lishi, ularga nisbatan e'tiborning yuqoriligi bilan o'z o'rniga va mavqeiga ega bo'la oladi. Afsuski, har bir jamiyatda ayol zoti muhim o'rin tutadi desak adashamiz. Shunday jamiyatlar borki, u yerda ayol bo'lib tug'ulishning o'zi bir achinarli holat. Ayollarga bo'lgan hurmatsizlik, kamsitish, qul sifatida tahqirlash qadriyat darajasida odatiy holga aylanib ulgurgan. Mashhur muhaddis olim Imom al Buxoriy ayollarga bo'lgan munosabatni quyidagicha izohlaydi, Ayollar borasida Allohdan qo'rqinglar. Chunki sizlar Allohning omonati ularni qo'lga kiritdingiz va Allohning kalimasi bilan ularning farjlarini o'zlarinigizga halol qilib oldingiz. (Buxoriy rivoyatidan) Atoqli fors-tojik shoiri, mutafakkiri Nosir Xisrav ayollar haqida shunday deydi:

Ayol, bil, lutfu himmatga sazovor,

Go'dakdek mehru shafaqatga sazovor. [6.110.]

“Ayol”,- deya qadrlanuvchi, “Ona”,- deya e'zozlanuvchi Allohning eng mo'tabar mo'jizalarini asrab-avaylash, ularning haq-huquqlarini ta'minlash har qaysi oliyanob jamiyat vakillarining eng oliy vazifalaridan biri bo'lmog'i lozim. “Guruch kurmaksiz bo'lmaydi “,- deganlaridek bizning jamiyatimizda ham hayot yo'llari chalkash, o'z yo'lini topa olmagan yolg'iz ayol va qizlar, yoshi ulug' bo'lishiga qaramasdan farzandlari tomonidan kamsitilayotgan onaxonlar, hammasini taqdir deya, barcha ko'ngilsizliklarga ham rozi bo'lib yashayotgan ayollarimiz ham yo'q emas. Bu bilan mamlakatimizda ayollar masalasi og'ir va yechimsiz deya olmaymiz, chunki mazkur muammoga siyosat muammosi kabi munosabatda bo'lib ham diniy, ham dunyoviy tomonlama keng qamrovli samarali islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida ko'rsatilganidek “ Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar” [7.17.], hamda O'zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 17-avgustda qabul qilingan, 23-avgustda ma'qullangan Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida qonun ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur qonun 7 bob, hamda 32 moddadan iborat bo'lib qonun mohiyati mazmunan quyidagicha sharhlangan, O'zbekistonda xotin-qizlarga nisbatan kamsitish, e'tiborsizlikni bartaraf etish, ularning huquq va erkinliklarini teng ekanligini ta'minlash asosiy ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bosh qomusimizda ko'rsatilganidek ayollar va erkaklarning teng huquqli ekanligi haqida alohida modda kiritilgan bo'lib, unga ko'ra, xotin-qizlarga ta'lim olish, kasbiy tayyorlanish, ish, mehnat uchun rag'batlantirish va xizmat yuzasidan ma'lum bir lavozimga ko'tarilishida teng huquqiy imkoniyatlar yaratilishi ta'kidlanadi. Vatanimizda ayollar va erkaklar huquqlarini tengligini ta'minlashning yana bir asosli dalili sifatida Xotin-qizlarning gender kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida

O'zbekiston Respublikasida Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiya tashkil etilib, komissiyaning asosiy maqsadi va vazifasi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish, ushbu sohada davlat dasturlarini, milliy harakatlar rejalarini va strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish, mazkur sohada olib borilgan va natijaga erishilgan ishlar bo'yicha har yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga axborot taqdim etish, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash va bu borada xalqaro



jahon standartlariga rioya etish borasida xalqaro tashkilotlar, xorijiy mamlakatlarning tegishli organlari bilan hamkorlikni amalga oshirishdan iborat. Mamlakatimizda ayollarga boʻlgan eʼtiborni yanada yuksaltirish maqsadida taʼlim va fan, sogʻliqni saqlash sohaslarida samarali islohotlar olib borilmoqda. Shu nuqtai nazardan olib qarasa, taʼlim va fan sohasida xotin-qizlar uchun alohida kvotalarning ajratilishi, fan va taʼlimda erishgan yutuqlari uchun mukofotlanishi, mehnat faoliyati darajasi yuqoriligi sababli erkaklar bilan bir qatorda lavozimga tayinlanishi, xotin-qizlarni ish bilan taʼminlash maqsadida turli xil ish oʻrinlarining yaratilishi, ayollar oʻrtasida tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida samarali islohotlar olib borilmoqda. Shu bilan bir qatorda kelajakning bunyodkori boʻlgan xotin-qizlar oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini yanada yuksaltirish maqsadida har oylik koʻriklar shakllantirilib, kerakli boʻlgan dori vositalari bilan taʼminlash tashkil etilgan. Dunyoda ayol, ona degan moʻtabar zot bor ekan jamiyat, davlat oz boʻlsada rivojlanishda davom etib boradi. Lekin ayol ulugʻlangan yurt yanada yuksaklikka erishadi, taraqqiy etishda davom etaveradi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ayollar haqida “Bundan buyogʻiga Oʻzbekistonda bironta ham ayol davlat va jamiyatning eʼtiboridan chetda qolmaydi”, -degan quvonchli xabari ila butun xalq ayollariga xursandchilik va baxt.

***Yuqoridagi fikr-mulohazalar yuzasidan quyidagi xulosaga kelimiz:***

**Birinchiidan.** Jamiyat va ayol bir-biriga uzviy bogʻlangan. Chunki, ayol bor ekan, kelajak shakllanib boraveradi. Sharqning buyuk mutafakkir, alloma va podshohlarini, ilm ahillarini ham dunyoga keltirgan va har tomonlama mukammal komil inson sifatida tarbiyalagan, ulgʻaytirgan zot bu ona yaʼni ayoligini anglashimiz, ularning yanada barkamolligini taʼminlashimiz lozim. Dunyoni, yoki butun bir davlatni ayollar boshqarsin demaymiz, lekin ayollarga boʻlgan hurmat, eʼtibor yuksak boʻlishini, huquq va erkinliklari teng boʻlishini, ayollarga biron-bir vositadek yoki quldek emas, balki qayta topish imkonsiz boʻlgan validamizdek munosabatda boʻlishimiz kerak. Ayollarni qadrlagan erkaklarga doimo yuksaladi va ulkan zafarlarga erisha oladi.

**Ikkinchiidan.** Kelajagimiz yaratuvchilarining erki va huquq, ulardagi muammolar oʻz yechimlarini topmas, ularni qiynayotgan masalalar jumboqligicha qolaversa, ular turmush tashvishlaridan ortib baxtiyor kelajak avlodlarimizni har tomonlama mukammal, intellektual salohiyatga ega boʻlgan yosh avlodni tarbiyalay olishi juda qiyin muammolarga aylanadi. Shunday ekan har bir ayolga imkoni boricha toʻliq sharoit yaratib bersa, ularga boʻlgan eʼtibor yuksak boʻlsa yuqoridagi muammolar bartaraf etiladi.

**Uchinchiidan.** Jamiyat yaralibdiki, Allohning moʻjizasi boʻlgan ayol zoti ulugʻlanib, qadrlanib kelinadi. Lekin ayol nomiga ega boʻlgan zot avvalo oʻzida onalik pozitsiyasi bilan bir qatorda insoniylikni ham oʻzida shakllantirishi lozim. Davlat, jamiyat ayolni qadrlayaptimi, ayol ham shunga munosib holda oʻz vazifalarini amalga oshirishi kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://xs.uz>. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Xalqaro xotin-qizlar kuniga bagʻishlangan tantanali marosimdagi soʻzlagan nutqidan. Chop etilgan vaqt. 07.03.2019y.
2. Oʻtkir Hoshimov. Daftari hoshiyasidagi bitiklar. T.: “Qaldirgʻoch”. 2019, -238b.
3. Abdulaziz Mansur. Qurʼoni Karim maʼnolar tarjimai. T.: “Toshkent islom nashriyoti”. 2004.
4. S. Karimov, SH. Oʻrozov, H. Samatov, S. Abduvohidov, A. Alimov. “Avesto” sharq ijtimoiy fikrlar manbai. T.: “Navroʻz”. 2016, -100b
5. Q. Nazarov. Gʻarb falsafasi. T.: “Sharq”. 2004, -716b.
6. A. Muhammad. Sharq haqni topdi. T.: “Sharq”. 2006, -124b.
7. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: “Oʻzbekiston”. 2018, -75b.

## TUT JIPEK QURTI TUQIMININ' MU'G'DARI HA'M SIPAT KO'RSETKISHLERINE SIRTQI ORTALIQ FAKTORLARININ' TA'SIRI

*Kuanishbaeva Xurliman*

*Qaraqalpaqstan awil xojalig'i ha'm  
agrotexnologiyalar instituti 1- kurs magistranti.  
Ilimiy basshi: A.x.i.p.p.d Oripov Otabek.*

**Annotatsiya:** Bul maqalada Qaraqalpaqstanda jergilikli ha'm sirt elden alip kelingan jipek qurti gibrid tuqimlarin janlandiriv ha'm sirtqi ortalıq faktorlari (temperatura , ig'allıq ,jaqtılıq , hawa almasıwi ,azıq mug'dari)nin' tasirin uyreniw. Tut jipek qurti gu'belekleri qoyg'an tuximlarinin' mug'dari ha'm sipat ko'rsetkishlerin aniqlaw usillari ilimiy maqalada jaritilg'an'.

**Gilt so'zler:** Tuxim lichinka ,jipek qurti, hawa ig'allıg'I, temperatura, qurtxana , azıq, tut japirag'I, pille, jipek qurti jsawshanlıg'I, sortlılıq, o'nimdarlıq.

**Kirisiw.** Respublikamızda búgingi kúnde tut jipek qurtınıń ósiwi, rawajlanıwı, kóbeyiwi hám o'nimdarlıg'in támiyinleytuǵın násilli populyatsiyalardı jaratıw, joqarı sapalı pille ónimin jetistiriw, jipek talasinin' texnologiyalıq kórsetkishlerin asırıw hám jetilistiriw boyınsha ilimiy-izertlewlerge jetkiliklishe itibar qaratılmag'an. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2017-jıl 29-mart daǵı PQ-2856 -sanlı «Ózbekipaksanoat awqamı iskerligin shólkemlestiriw ilajları tuwrısında» gi hám 2018 jıl 20 mart daǵı PQ-3616-sanlı «Pilleshılık tarmaǵın jáne de rawajlandırıw boyınsha qosımsha ilajlar tuwrısındaǵı» gi hám de Ózbekstan Respublikası Ministrler Mekemesiniń 2017-jıl 11-avgustdaǵı «2017-2021 jıllarda pilleshılık tarmaǵın kompleks rawajlandırıw ilajları programması tuwrısında» gi 616-san qararlarında jergilikli paroda hám gibrid tuximları hám de pille islep shıǵarıwdı asırıw, olardıń sapasın jaqsılaw, usınıń menen birge jipekshilik sanaatı kirip múmkinshiliklerin keńeytiw belgilep berilgen. Usı baǵdardaǵı barlıq normativ huqıqiy hújjetlerde belgilengen wazıypalardı ámelge asırıwda áwele jipek qurtı tuximin tayarlaw processlerin tuwrı jolǵa qoyıw, tuxim muǵdarı hám sapasın asırıw, sanaat tuximların tayarlawda taza jipek qurtı zatlarınan paydalanıw hám sanaat tuximin tayarlawshı kárxanalar sanın kóbeytiw kerek boladı. Házirde Respublikamızdin' wálayat hám qalalarında jipek qurtı tuximin tayarlawda 16 tuqımgershilik qánigelik kárxanaları hám 3 násilshilik stanciyaları iskerlik kórsetip mamleketimizdi jipek qurtı máyegine bolǵan zárúriyatın qandırıw ushın xızmet etip atır. Biraq mámleketimizdi jipek qurtı tuximı menen tolıq taminlew jumısları azmaz arqada qalıp atır. Buǵan tiykarǵı sebep, jipek qurtı tuximin tayarlap beretuǵın tuqımgershilik qánigelik kárxanalarında elita tuximların janlandırıw, qurt baǵıw, násilli pillelerdi tayarlaw, gúbelekler menen islew dáwirinde urǵashı gúbeleklerdi úlken - kishiligine qaray tańlawdı tuxim sapasına tásiiri tolıq úyrenilmegen. Sol sebepli tuqımgershilik qánigelik kárxanalarında sanaat tuximin tayarlawda olardıń sapa kórsetkishleri tómenlew. Bul bolsa alınatuǵın pille óniminin' muǵdarı hám sapasına óz unamsız tásin kórsetip atır. Ásirese jipek qurtı tuximnin' muǵdarın hám sapasın asırıw hám de sırtqi ortalıq faktorların oǵan tásinin úyreniw boyınsha islengen jumıslar alıp barılǵan tájiriybeler kemligi ushın boyınsha bul tema tańlanıp onı úyreniwdin' maqsetin qoydıq.

**Izertlew alıp bariw usillari.** Maqsetti ámelge asiriw Qıtay Respublikasınan keltirilgen tut jipek qurti parodasi tuqimlari alindi og'an salistiriwshi jergilikli Ipakchi-1 ha'm Ipakchi -2 paroda qurti tuqimınan paydalanildi. Izertlew jumislari Qaraqalpaqstan awil xojalig'I ha'm agrotexnologiyalar instituti "Jipekshilik" kafedrasi ha'mde ha'r turli klimat sharayatına iye wa'layatlarda alıp barildi.

Qaraqalpaqstan Respublikasınıń túrli ıqlım sha'rayatlarına iye rayonları tańlap alınadı hám de násilli jipek qurti baǵ'ilib násilli pilleler jetistiriledi. Násilli pilleden shıǵıs gúbeleklerge sırtqi ortalıq faktorların tuqim muǵdarı hám sapasına tásiiri uyreniledi.

Respublikamızda keń kólemde (60 -70%) bag'ilip atirg'an Ipakchi 1, Ipakchi 2 parodalarinan hám de salıstırılatusın Kitay Xalıq Respublikasınnan keltirilgen Shan-Tung parodalarinan paydalanıwdı maqsetke muwapıq dep bildik.

Izertlewlerdi orınlawdağı tiykarǵı ob'ektler:

1. Tut jipek qurtınıń tuqımları.
2. Tut jipek qurtınıń paroda hám gıbridleri
3. Tut japıraqları.
4. Etajerka hám sıpalar.
5. Tabiy hám jasalma dásteler.
6. Tiri hám qurǵaqalay pilleler.
7. Erkek hám urǵashı quwırshaqlar.
8. Erkek hám urǵashı gúbelekler.
9. Arnawlı qurtxanalar.
10. Tut jipak qurtı urıwları.

Tájiriybemizdi 3 varianda tiykarında alıp bardıq hár bir variantda 3 qaytarılıw tiykarında qalıplestirdik. Ipakchilik ilimiy-izertlew instituti ilimpazları tárepinen jaratılǵan jipek qurtınıń Ipakchi-1 parodası, Ipakchi-2 parodası hám de Qıtaydan keltirilgen Shan-Tung parodalarınıń urǵashı gúbelekleri taslaǵan máyek qoymalarınan birewden máyek qoyması alınıp janlandırıwǵa qóyıladı. Qoymalardaǵı máyeklerden qurttn' janlanıwına qaray tájiriybedegi zatlardıń hár birinen 3 den variant dúziledi.

Variantlar boyınsha tómendegi zatlardan paydalanıw múmkin:

Variant 1 - “Ipakchi-1” paroda tuqımları.

Variant 2 - “Ipakchi-2” paroda tuqımları.

Variant 3 - (Salıstırılatusın ) Qıtaydan keltirilgen “Shan-Tung” parodasınin' tuqımları.

**Keskin parq etiwshi temperatura hám hawa ıǵallıǵınin' jipek qurtınıń jasawshan'ǵına hám gúbelektiń o'nimdarligina tásiri.**

Variantlar	Qurtxanadag'i		Qurtlardin' pille oraw aldınan jasawshan'lig'i(%)	Pilleden gu'beleklerdin' shig'iwı(%)	1 dana gu'belektin qoyg'an tuxim sani
	temperatura 0C	Ig'allıq %			
B-1	26-27	70-75	96,6	91	678
B-2	26-27	70-75	94,8	93	630
B-3	26-27	70-75	94,2	87	585

Qaraqalpag'istan ıqlım sha'rayatında biologiyalıq (tuxımdı janlanıwi, qurtınin' jasawshańlig'i, qurtlıq dáwiri, qabıq taslawı, pille orawı hám taǵı basqa ), pilleniń o'nimdarlıq (pille zúraátliligi hám sapası, jipekshen'lik qásiyetleri) hám gúbeleklerdin' pushdarlıq (kóp máyek taslawı ) qásiyetleriniń ózgeriwi, sırtqı ortalıq, azıq hám bag'ıw shárt-shárayatları menen óz-ara baylanıslılıgı ilimiy tiykarda tastıyqlanıp, teoriyalıq tárepten maǵlıwmatlar alınadı.

Tut jipek qurtı tuqımınıń muǵdarı hám sipat kórsetkishlerine sırtqı ortalıq faktorlarınin' tásiri (Qaraqalpaqstan sha'rayatında ) teması boyınsha tájiriybeler 2022-2023 jıllarda atqarıladı.

Aymaqlar xarakteristikası : tájiriybe ótkerilgen birinshi aymaq Qaraqalpaqstan Respublikasınıń Nókis qalasınin' tábiyiy topıraq -ıqlım sha'rayatı bir qansha ózgeriwshen' bolıp, báhár máwsiminde násilli jipek qurtın bag'ip, sanaatbap tuqımlardı tayarlaw ushın jaqsı esaplanadı. Meteostantsiyalar bergen maǵlıwmatlarına muwapıq, kóp jıllıq ortasha kórsetkishi qalada temperatura báhár máwsiminde 24-260 S hawanın salıstırmalı ıǵallıǵı 58-60 % ni quraydı.

Tájiriye ótkerilgen ekinshi aymaq Qaraqalpaqstan Respublikasınıń Taxiatas rayonı awıl xojalıq ónimleri óndiriske qanıgelesken. Tábiyiy topıraq -ıqlım sha'rayatı bir qansha ózgeriwshen' bolıp, báhár máwsiminde násilli jipek qurtın bag'ıp, sanaatbap gibrıd tuxımlar tayarlaw ushın jaqsı esaplanadı. Meteostantsiyalar bergen maǵlıwmatlarına muwapıq, kóp jıllıq ortasha kórsetkishi, rayonda temperatura báhár máwsiminde 20 -220 S hawanıń salıstırmalı ıǵallıǵı 60 -65 % ni quraydı. Qaraqalpaqstan Respublikasınıń hár túrlı ıqlım sha'rayatına iye bolǵan rayonların tańlap alıw izertlewlerdi jáne de nátiyjeli hám isenimli bolıwın támiyinleydi.



Juwmaqlap aytqanda jipek qurtı tuqımının' muǵdarı hám sipatına sırtqı ortalıq faktorların ásirese temperatura hám ıǵallıqtın' tásiri joqarı eken. Násilli jipek qurtın baǵıwda bólme temperaturası hám ıǵallıǵı qurtın' jasawshańlıǵı hám na'silli pille muǵdarına unamsız tásir kórsetedi. Nasilli pilleler menen islewde sırtqı ortalıq faktorlarına itibar berilmese tuqım muǵdarı hám sapasına unamsız tásir kórsetedi. Jipek qurtı tuqımın tayarlawda, sırtqı ortalıq faktorları, temperatura hám ıǵallıqtı agrotexnikalıq talaplarınan joqarı yamasa tómen bolıwı jipek qurtı kapalagının' pushdarlıǵına tásiri úlken boladı. Gúbelekler menen islew waqtında bólme temperaturası hám ıǵallıǵın normada yaǵnıy temperatura 24-250 S ıǵallıq 65-75% átirapında bolıwı kerek.

#### **Paydalanılǵan adebiyatlar:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 29 мартдаги “Ўзбекипаксаноат уюшмаси фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2856-сон қарори.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 20 мартдаги “Пиллачилик тармоғини янада ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3616-сон қарори. - Тошкент, 2018. 1-4-б.
1. Абдуллаев У.А. Тутчилик: // Меҳнат, 1991. Б. 273-276.
2. Абдримова Г., Умарова С. Ипак қуртининг саноатбоп дурагайлари тайёрлаш. №3.
3. Абдримова Г., Салихова К. “Бомбикс-мори” ипак қурти озиқаси. //Фермер –Тошкент, 2013. №1-2. Б. 58-59.
4. Абдримова Г., Ипак қурти тухумларини жонлантириш жонланган қуртларни тарқатиш ва боқиш. //ККОАНРУз «Проблемы рационального использования охрана биологических ресурсов южного приаралья», Нукус, 2014, №7, Б. 217-218.
5. Алимова Х.А., Гуламов А.Э., Арипджанова Д.У., Ахмедов Ж.А. Мировое производство и потребление текстильного сырья.// Композиционные материалы. -2013. -№4. -С. 71-74.



## ПОЛУЧЕНИЕ ХИТОЗАНА ИЗ *APIS MELLIFERA* И ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИХ В ПРОЦЕССЕ КОЛОРИРОВАНИЯ ТКАНЕЙ

*Д.У.Кучкарова, А.С.Менглиев, Г.А.Ихтиярова*

*Ташкентский государственный технический университет им.Ислама Каримова.*

В последнее время в связи с ростом требований к качеству производимой продукции наблюдается тенденция создания экономичных и ресурсосберегающих технологий, позволяющих получать конкурентоспособную текстильную продукцию [1]. Для улучшения качества текстильной продукции можно использовать природный полимер хитозан, получаемый из полностью возобновляемого сырья – панцирей крылья, крабов и других ракообразных. Известно его применение при крашении хлопчатобумажных тканей прямыми и активными красителями для улучшения окрашиваемости текстильного материала [2]. Хитозан - биологически активный полисахарид природного происхождения, обладающий комплексом ценных в практическом отношении свойств и привлекающий все возрастающее внимание исследователей во всем мире. Интерес специалистов, работающих в области текстильной химии, к хитозану обусловлен такими его свойствами как биоразлагаемость, нетоксичность, хорошие пленкообразующие, загущающие свойства и способность безреагентно закрепляться на натуральных волокнах. Благодаря этим свойствам хитозан можно считать перспективным отделочным материалом для облагораживания текстильных изделий и придания им новых специальных свойств [3]. Хитозан является наиболее известным и изученным водорастворимым производным хитина. Хитин - природный биополимер животного происхождения, который по распространённости уступает только целлюлозе и воспроизводится из полностью возобновляемого природного сырья. Хитин входит в состав опорных тканей и внешнего скелета членистоногих (ракообразных, паукообразных), насекомых, водорослей, где находится в комплексе с минеральными солями [4]. Однако, несмотря на доступность, практическое использование немодифицированного хитина сдерживается его плохой растворимостью. Стандартного процесса деацетилирования хитина (ХТ) не существует, однако в большинстве традиционных способов используются концентрированные растворы гидроксида натрия в широком диапазоне концентраций от 35 до 50%, температур от 20 до 140 °С, гидромодулей от 3:1 до 10:1, времени обработок от 0,5 ч до 10 суток. Хитин можно получить различными способами: химическим, биологическим, электрохимическим и тд. Комплекс проанализированных источников позволяет получать природный полисахарид хитин с рядом уникальных свойств, благодаря тому, что является промежуточным полимером при синтезе широко распространенного производного хитозана (ХЗ), обладающий собственной биологической активностью, реакционной способностью и пленкообразующими свойствами. Процесс деацетилирования хитина имеет ряд особенностей. К примеру для синтеза высоко деацетилированного хитозана требуется десятикратный мольный избыток NaOH, причем процесс деацетилирования наиболее быстро проходит в течение первого часа реакции, когда степень ацетилирование (СА) достигает величины 0,15, далее реакция замедляется и достижение меньших значений СА требует дополнительных воздействий, или повторной обработки раствором гидроксида натрия. На сегодняшний день важность поиска новых усовершенствованных способов получения перспективного природного аминополисахарида – хитозана из местных ресурсов очевидна, открывает широкие горизонты для исследования его свойств и использования в текстильной промышленности в качестве загустки [5] при печатании и интенсификатора для крашения различных материалов [6]. В исследовании использован хитозан синтезированный из подмора пчёл *Apis Mellifera* в научной лаборатории ТГТУ [7,8], шелковая и хлопко-шелковая ткань (основа шелк, уток хлопок 55/45) производимой на совместном предприятии Бухара-



Китай АО “Bukhara Brilliant Silk”, а также анионный краситель “Активный ярко-голубой К (reactive blue K)”. В наших исследованиях мы использовали хитозан в качестве интенсификатора для крашения шелковых и смесовых тканей на основе хлопок-шелк.

В растворе хитозан приобретает положительный заряд за счёт аминогруппы, так как волокна и большинство красителя в растворе обладает отрицательным потенциалом. Изучение процессов, происходящих между водорастворимыми красителями и пленкой хитозана, а также возможности взаимодействия хитозановой пленки с тканью, имеет большое значение, так как позволяет судить о характере связей, возникающих в системе «ткань - хитозан - краситель», которые могут во многом определять качество окраски при колорировании текстильных материалов. Для растворения хитозана применяли 2%-ный раствор уксусной кислоты. В данной работе раствор хитозана (0,5-1,5г/л) использовали для обработки тканей перед процессом колорирования (табл 1).

**Таблица 1.**

Краситель Хитозан, г/л	Интен- сивность, K/S	Na <sub>2</sub> SO <sub>4</sub> , г/л	K/S	Температура, °К	K/S
2,0+1,5	<b>8</b>	20,0	7,5	303,0	8
2,0+1,0	<b>10</b>	15,0	10,3	313,0	10
2,5+0,5	<b>9</b>	20,0	10,2	323,0	9
3,0+0,5	<b>10</b>	15,0	10,9	333,0	10
<b>Na<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> - 15 г/л, T= 60<sup>0</sup>C</b>		<b>Краситель – 2 г/л, T= 60<sup>0</sup>C</b>		<b>Na<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> - 15 г/л, краситель – 2 г/л,</b>	

Известно, что активными красителями шелк окрашивается по кислотному и щелочному способу, в зависимости от природы красителя степень их фиксации зависит от выбранного способа. Крашение натурального шелка активными красителями проводится по периодической технологии по щелочному способу двух стадийно. Во второй стадии в слабощелочной среде (при pH 10,0-10,5) образуется ковалентная связь между красителем и фибриноим шелка, обеспечивающая высокую прочность окраски к стирке. Поэтому дальнейшие исследования проводили по этому способу. В качестве красителей были выбраны активный ярко-голубой К. Концентрация хитозана изменялась от 0 до 1.5 г/л. Раствор хитозана в уксусной кислоте (2%) наносили на ткань перед крашением и высушивали при температуре 100-110 °С до полного высушивания. Данные осуществления процесса и примеры результатов приведены в таблице 2.

Таким образом, можно заключить, что хитозан можно использовать в качестве интенсификатора, сокращая дорогостоящий краситель и электролит, а также температуру при крашения смесовых тканей активными красителями, потому что аминогруппы хитозана вступают в реакцию с активным красителем с образованием водородных связей, протонированные NH<sub>3</sub><sup>+</sup> - группы образуют ионные связи с анионным активным красителем и ОН-группы хитозана участвуют в образовании водородных связей с аминогруппой хлопко-шелковой ткани.

**Использованная литература:**

1. И.И.Клочкова, В.Сафонов. Крашение и печатание тканей из природных волокон, аппретированных хитозаном, водорастворимыми красителями Технология текстильной промышленности № 4 (292)2006. С.50-55.
2. Hudson S.M. Applications of chitin and chitosan as fiber and textile chemicals / S.M. Hudson // J. Macromol. Sci. C - 2003. - vol. 43. - №2. - P. 590-599.
3. Манюкова И.И. Применение хитозана в крашении и печатании текстильных материалов / И.И. Манюкова, В.В. Сафонов // III Междунар. науч.- технич. конф. «Достижения текстильной химии в производстве». - Иваново. - 2008. - С. 115.
4. Вахитова Н.А. Разработка научно-обоснованной технологии крашения хлопчатобумажных тканей водорастворимыми красителями с применением хитозана: автореф. дис.канд. техн. наук: МГТУ им. А.Н. Косыгина. Москва, 2005. - 16с.
5. Ихтиярова Г.А., Хазратова Д.А., Сафарова М.А. Разработка состава смешанных загусток на основе карбоксиметилкрахмала и узхитана для печатания хлопково-шелковых тканей //Universum: технические науки. – 2020. – №. 6-2 (75).
6. Ихтиярова Г.А., Менглиев А.С., Хазратова Д.А., Аюпова М.Б. Взаимодействие связи между хлопко-шёлковой тканью с хитозаном и активным красителем // Журнал “Известия вузов” – Иваново – 2021.-№3.
7. Хазратова Д. А., Ихтиярова Г.А. Интенсификация процесса крашения шелковых тканей активными красителями с хитозаном // Universum: технические науки. – 2021. – №. 4-3 (85). – С. 17-20.
8. Хазратова Д.А., Ихтиярова Г.А. Интенсификация процесса крашения хлопко - шелковых тканей на основе хитозана водорастворимыми красителями // Ташкент. Композиционные материалы. – 2021. -№3.

## НАВОИЙ ВИЛОЯТИ МАЪМУРИЙ БИРЛИКЛАРИ ЭКОЛОГИК ҲОЛАТИ ТАСНИФИ ВА АҲОЛИ САЛОМАТЛИГИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР

*Латинов Нормурод Фахриддин ўгли*

*Ўзбекистон Миллий университети*

*География ва табиий ресурслар факултети*

*Иқтисодий-ижтимоий география кафедраси таянч докторанти.*

**Аннотация:** Бугунги глобаллашув асрида ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг долзарб вазифаси инновацион, ижтимоий йўналтирилган ривожланиш модели доирасида барқарор иқтисодий ўсишни таъминлаш учун ҳудудларнинг салоҳиятини сафарбар қилишдир. Ҳудудлар давлатнинг асосий ривожланиш тамойилларидан ҳисобланади. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-йил 28-январдаги 60-сонли "2022-2026-йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида" ги фармони ҳудудларда иқтисодиётнинг юқори технологияли тармоқларини ривожлантириш ва меҳнат унумдорлигининг ўсишини, мавжуд экологик вазиятни оптималлаштириш ва аҳоли саломатлигига эътибор берилганлиги билан айниқса аҳамиятли ҳисобланади. Ушбу мақолада Навоий вилояти ва ундаги маъмурий бирликлар кесимида экологик ҳолат таҳлил қилинган ва уларни яхшилашга оид таклиф ва тавсиялар берилган.

**Калит сўзлар:** Экологик ҳолат, нозогеографик кўрсаткичлар, атмосфера ҳавосининг ифлосланиши, шовқин даражаси, ўлим кўрсаткичи.

**Кириш.** Ривожланаётган мамлакатларда саноат ишлаб чиқаришнинг улуши қишлоқ хўжалигидан устунлиги билан ажралиб туради. Ўзбекистон ривожланаётган давлатлар классификациясига мансублиги, ундаги маъмурий бирликда саноат кластери, технопарклари улуши нисбатан юқорилиги билан аҳамиятлидир. Таҳлилий маълумотларга эътибор қаратадиган бўлсак, бутун Республика бўйича умумий ялпи ички маҳсулот ҳажми 2017-йилда 317 476,4 млрд сўмни, 2019-йилда 529 391,4 млрд сўм, 2020-йилда эса ушбу кўрсаткич 605 551,3 млрд сўмни ташкил қилган. Ялпи ички маҳсулотнинг таркибида саноатнинг улуши мос ҳолда 23,5%, 31,4% ва 36% фоизни ташкил қилмоқда. Республика ҳудудида Тошкент, Фарғўна, Андижон, Самарқанд, Навоий, Қашқадарё каби саноат улуши юқори бўлган маъмурий бирликлар борлиги нафақат айни бир ҳудудда балки Республика миқёсида экологик муҳит ёмонлашувига, ҳудудлардаги аҳоли саломатлигига жиддий таъсир кўрсатмоқда. Шубҳасиз бутун дунёда бўлганидек экологик тангликни олдини олишда локал, регионал ҳамда халқаро ҳамкорлик асосий масала ҳисобланади. Биргина Навоий вилоятини оладиган бўлсак, ташкил этилганига ҳали унча кўп бўлмай туриб, биргина 2020-йилда Республика саноат маҳсулотларининг 18 фоизини беради, бу кўрсаткич бўйича маъмурий бирликлар орасида 3-ўринни эгаллайди. Лекин масаланинг иккинчи томони ҳам бор, бугунги кунда урбанизациялашган ва саноат юқори даражада ривожланган шаҳарларда экологик муҳит анча ёмонлашиб бормоқда. Бир муаммо иккинчи муаммони келтириб чиқарганидек, экологик танглик ҳудудда яшаётган аҳоли саломатлигига жиддий таъсир қилади, бу эса ўз-ўзидан ҳаёт даражаси ва умр давомийлигига ўз таъсирини ўтказди. Атроф-муҳитга антропоген таъсирнинг кучайиши экотизимлар ва умуман биосферанинг тузилиши, унумдорлиги ва фаолиятида салбий ўзгаришларга олиб келади. Ифлосланиш даражалари, биологик объектларнинг токсик моддалар таъсирига реакциясининг табиати ва интенсивлиги тўғрисидаги маълумотлар алоҳида аҳамиятга эга. Шунинг учун экотизимлардаги оғишларнинг кўрсаткичларини баҳолаш, башорат қилиш ва излаш мезонларини ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқдир.

Ушбу таъсир шаҳарлар ривожланишида, уларнинг барқарорлигини оширишда катта аҳамият касб этади. М.Лаппо айтганидек, „шаҳарлар ва унинг атрофини ўрганишда ёки режалаштиришда атроф-муҳитнинг ҳолати ҳисобга олинмас экан, ушбу ҳудуд ўрганилган ҳисобланмайди“.

Шаҳар атроф-муҳитнинг ифлосланишини мониторинг қилишда фойдаланиш учун турли муаллифлар томонидан таклиф қилинган усулларнинг хилма-хиллиги жуда кенг бўлиб, улар турли хил табиий зоналар ва шаҳарлар учун ишлаб чиқилган. Ушбу усуллар ўзининг кўлами, сифат ва миқдор кўрсаткичлари, аниқ натижалар ва хулосалар тақдим қила олишига қараб турлича бўлиши мумкин. Шунини алоҳида таъкидлаш керакки, бундай мониторингларни ўтказишни аввало кичик ҳудудлар кесимида, кейинчалик эса ареални кенгайтириш орқали амалга оширилса катта натижа олиш мумкин.

**Адабиётлар таҳлили.** Шаҳар ҳудудларини ташкил этиш масалаларига профессор Солиев А.С. алоҳида аҳамият берган ҳамда Навоий вилоятининг улкан иқтисодий салоҳиятини юқори баҳолаган. Келажакда Зарафшон иқтисодий географик раёнининг муҳим қисми бўлиши ҳақида фикр юритган. Халмирзаев А.А эса минтақада шаҳарлар тизимининг тез ривожланиши натижасида салбий ҳолатлар келиб чиқишига сабаб бўлади. Шаҳарларнинг тез ўсиши экологик жиҳатдан салбий оқибатларга олиб келишини, аҳоли саломатлиги мунтазам мониторинг қилиб турилмаса саноатлашган шаҳарлар нозогеографик ўчоққа айланиши мумкинлигини таъкидлаган. Профессор Комилова Н.К Зарафшон иқтисодий географик раёнининг нозогеографик ҳолатига экологик омилни асосий ўринга қўйган. Саноат ривожланган сари аҳолининг саломатлигига таҳдидлар кўпайишини эътиборга олиб, тиббий ва экологик мониторингни ўзаро уйғунликда олиб боришни тавсия этган. [7]

Навоий вилоятининг танатогоеографик таҳлили ва аҳоли саломатлигидаги муаммолар, ҳудудларни ўлим кўрсаткичларига кўра классификация қилишни Муҳаммедова Н.М ишларида кўриш мумкин. Ушбу бўлинишни таснифлашда аҳолининг репродуктив саломатлиги, болалар саломатлигини етакчи омил сифатида баҳолаш керак дея фикр билдирган. Х.Т.Тухтаеванинг тадқиқот ишларида Навоий вилояти мамлакатимизнинг табиий қазилма бойликларига бой бўлган йирик саноат корхоналари фаолият кўрсатаётган вилоят ҳисобланиши, вилоят ҳудудида фойдали қазилма конларининг 200 дан ортиғи аниқланган бўлиб, шундан 16 та уран кони, 37 та камёб металлар конлари ва 12 та минераллашган шифобахш сувлар манбаи мавжудлиги, ушбу аниқланган конларнинг 78 тасида қазилма бойликлар қазиб олинishi ҳақида маълумот берилган.

**Тадқиқот методологияси.** Қизилқум чўлини ўзлаштириш мақсадида 1982-йил 20-апрелда ташкил этилган лекин икки қадимий ва навқирон Бухоро ва Самарқанд вилоятлари орасида қад ростлаганлиги турли даврларда гоҳ Бухоро вилояти таркибига, гоҳида эса Самарқанд вилояти таркибида бўлишига сабабчи бўлган. 1992-йилда Навоий вилояти мақоми қайта тикланди ва республикамизнинг энг кенжа маъмурий бирликларидан бири сифатида эътироф этиб келинмоқда. Вилоят ҳудуди 111,1 минг км<sup>2</sup> бўлиб, Республика умумий майдонининг 24,7 фоизини, аҳолиси 1 033 869 киши ва аҳоли зичлиги ҳар км<sup>2</sup> майдонга 9,3 кишини ташкил этади, Республика аҳолисининг эса 2,9 фоизини ўзида жамлаган, бу жиҳатдан маъмурий бирлик „қутбилик“ характериға эға, яъни ҳудуд бўйича юқоридан иккинчи ўрин бўлса, аҳоли бўйича охиридан иккинчи. Маъмурий-ҳудудий тузилиш жиҳатдан 8 та туман, 7 та шаҳар ва 46 та шаҳарча, 579 та кишлоқ аҳоли пунктиға бўлинади. Ҳудуди жануби-шарқдан (денгиз сатҳидан баландлиги 2000 м гача боради) шимоли-ғарбға томон (90-100 м) пасайиб боради. [12]


Вилоят тоғ-кон саноатининг ривожланиши учун хизмат қиладиган минерал ресурсларға бой маскан ҳамдир. Бунға Учқудуқ уран кони, Мурунтогдаги олтин кони ва бошқалар яққол мисол бўла олади. Ана шу йирик конлар аҳолининг бандлиги ва турмуш тарзига, даромад манбаи сифатида эса турмуш даражасига ўз таъсирини кўрсатмасдан қолмайди. Конларнинг очилиши бевосита шаҳарларнинг пайдо бўлишиға олиб келди. Шаҳарларнинг шаклланишиға сув, иқлим ресурслари, транспорт географик ўрин омиллари билан бирға қазилма бойликларнинг таъсири ҳам каттадир. Жумладан, Зафаробод, Зарафшон шаҳарлари тоғ-кон саноати негизида юзаға келган. Бу ҳудудлар деҳқончилик учун унумдор тупроқ ҳамда қулай иқлимий шароитға эға эмас. Шунға қарамай, бу шаҳарларнинг шаклланиши конлар мавжудлиги ва кончилик саноатининг яхши йўлга қўйилганлигиға

асосланган. Масалан, Зафаробод шаҳри ва атрофларидаги тупроқ сарғиш қизғиш, деҳқончилик учун яроқли, лекин суғорма деҳқончилиқни йўлга қўйиш учун сув ресурслари мавжуд эмас, ундан фойдаланиш имконияти чегараланган. Ҳозирги шаҳридаги мрамар кони республикадаги энг йирик конлардан бири ҳисобланади. Ҳозирда мрамарнинг саноат йўли билан қазиб олиниши ҳамда ишлов берилишига ўтган асрнинг 30-йилларида асос солинган. Бугунги кунда фойдаланилмаётган 31,0 миллион метр куб мрамар ва 104,1 миллион метр куб гранит конларида камида 150 йилга етадиган захира мавжуд. Мазкур ҳолат аҳолини иш билан таъминлашда муҳим ўрин тутди. Вилоятнинг ҳозирги арид ландшафт комплексларида чўлланиш жараёнини жадаллашувида бошқа антропоген омиллар билан бир қаторда, йилдан-йилга кенгайиб бораётган тоғ-кон саноатининг таъсири каттадир. Марказий Қизилқумда чўлланиш жараёнининг авж олиши ландшафтлар биоресурслар ва уларнинг иқтисодий саҳиятининг пасайишига, экологик муҳит сифатининг, аҳолининг яшаш шароити ва саломатлигининг ёмонлашувига сабаб бўлмоқда [7]. Қазилма бойлиқларнинг очиқ усулда қазиб олиниши оқибатида тоғ-кон саноатининг таъсир ҳудуди ҳам кенгайиб, теварак атрофдаги арид ландшафтларнинг геозкологик шароитининг ёмонлашувига олиб келмоқда. Бу эса кон атрофидаги яйловларнинг бузилишига ва ўша ҳудудларда истиқомат қилувчи аҳоли саломатлигига катта таъсир кўрсатади. Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, тоғ-кон саноати ҳудудларида олинган фойдали қазилманинг ҳажмига нисбатан қайта ишланган тоғ жинсларининг ҳажми бир неча баробар кўп. Шу боисдан вилоят тоғ-кон саноати минтақаларидаги конлар атрофида тўпланган чиқинди ва тоғ жинслари суний тепаликликларни вужудга келтирган.

**Таҳлил ва натижалар.** Вилоят ҳудудида кўплаб оғир саноат корхоналарининг борлиги ва уларнинг аҳоли манзилгоҳларига жуда яқин жойлашганлиги аҳоли саломатлигига жиддий таъсир ўтказмоқда. 2018-йил умумий ўлим кўрсаткичи вилоят бўйича 4161 кишини ташкил этган бўлса, ушбу кўрсаткич 2019-йил 4378 кишини, 2020-йилда 5038 кишини, 2021-йилда эса 4988 кишини ташкил этди.

**1-жадвал.**

**Вилоят маъмурий бирликлари кесимида аҳоли ўлими (2017-2021-йиллар)**



Ушбу кўрсаткичларга кўра ҳудудий фарқларни уч гуруҳга бўлиш мақсадга мувофиқ:

- умумий ўлим кўрсаткичи **паст** бўлган ҳудудлар: Конимех, Томди, Учқудуқ, туманлари;
- умумий ўлим кўрсаткичи **ўртача** бўлган ҳудудлар: Нурота, Навбаҳор туманлари ва Навоий шаҳри;
- умумий ўлим кўрсаткичи **юқори** ҳудудлар: Кармана, Қизилтепа, Хатирчи тумани;



Томди, Учқудук, Конимех туманлари умумий ўлим кўрсаткичлари паст бўлиб, ушбу ҳудудларда охириги 10 йилда касалланиш ва ўлимнинг пасайиб бориши кузатилмоқда. Бу ҳолат умр давомийлигига ҳам сезиларли таъсир кўрсатди. Умумий ўлим кўрсаткичи ўртача ҳисобланган Нурота, Навбахор туманлари ва Навоий шаҳри аҳоли манзилгоҳларининг sanoat мажмуаларига яқин жойлашиши, Нурота тумани эса бундан мустасно бўлиб, унда қон айланиш тизими касалликлари сабаб ўлимнинг юқорилиги, ушбу ҳудудларда ўлим ҳолатини қисман ортиб боришини кўрсатади. Бу эса юқоридаги ҳудудларда ўз вақтида мавсумий ва доимий профилактик чора-тадбирларни кўришни тақозо этади.

Кармана, Қизилтепа, Хатирчи тумани аҳолининг умумий ўлим кўрсаткичи юқори бўлиб, бу эса олдинги йилларга нисбатан ортиб борганини кўриш мумкин. Бу ҳудудларда ошқозон-ичак касалликлари, сурункали камқонлик ва ўпка сили каби хасталикларнинг кўпайишига олиб келади. Бу ҳолатларни олдини олиш мақсадида туман тор ихтисосликка доир мутахассис шифокорлар билан таъминланиши зарур. Вилоят ҳудудида 2021-йилда 19,1 минг шифокор аҳоли саломатлигига жалб қилинган, бу олдинги йилга нисбатан 1800 тага кўп демакдир. Лекин шундай бўлсада, аҳоли орасида саломатликдаги муаммолар сабабли вафот этаётганлар кўпчиликини ташкил этмоқда. Вилоят аҳолисининг саломатлигига қуйидаги омиллар таъсир кўрсатади:

1. Атмосфера ҳавоси ҳолати
2. Ичимлик суви таркиби
3. Тупроқ қатламининг сифати
4. Шовқин даражаси

Олиб борилган тадқиқотлар шу кўрсатмоқдаки, атмосфера ҳавосининг ифлосланиши яшаш муҳитининг ҳолатини аниқлашдаги энг асосий омил ҳисобланади. Атмосферага чиқариладиган газлар умумий миқдори республикада 924,4 минг тоннани ташкил этиб, Навоий вилоятига ушбу газларнинг 48,8 минг тоннаси ёки умумий миқдорнинг 52,7 фоизи тўғри келади. Вилоятдаги йирик sanoat корхоналари аҳоли манзилгоҳларига яқин жойлашганлиги улардан чиқаётган захарли газлар аҳолига тўғридан-тўғри таъсир этиши натижасида ташқи нафас олиш, юрак-қон томир функциясининг бузилиши кабиларни келтириб чиқаради. Вилоятда нафас олиш органларида муаммо билан касалланган беморлар 2019-йилда 246 тани ташкил қилган бўлса, 2021-йилда бу кўрсаткич 277 тага, қон-томир касаллиги кузатилган беморлар эса мос равишда 17400 кишидан 18300 кишига етганлиги вилоятда атмосфера ҳавоси билан боғлиқ муаммоларга жиддий муносабатда бўлишни аниқлатади. Вилоят ҳудудида рангли металлургия, кимё, қурилиш sanoat тармоқлари айниқса ўз тақомилига етган, бу эса вилоят шаҳарлари ва шаҳар атрофи аҳоли пунктларидаги аҳоли саломатлигида ўз аксини топмасдан қолмайди. Масалан, металлургия sanoat тармоғи ривожланган шаҳарларда бошқа ҳудудларга нисбатан болалар жисмоний ва нейропсих суи ривожланади. [10]

Вилоят экологик ҳолатига атмосфера ифлосланиши билан бир қаторда ичимлик суви сифати, тупроқ қатламининг ҳолати каби омиллар ҳам таъсир кўрсатади. Ичимлик суви таркибининг сифати айниқса муҳим ҳисобланади чунки айнан сув таркибидаги инсон саломатлигига салбий таъсир қилувчи моддалар ошқозон ва урологик касалликларни келтириб чиқариши ҳақида фикрлар жуда кенг тарқалган. Вилоятда ҳазм қилиш органлари муаммолари билан мурожаат қилганларнинг умумий сони 2019-йилда 74700 та, 2020-йил давомида ушбу кўрсаткич 87600 кишига етган. Агар жараён ушбу тенденция билан давом этаверса, вилоят республиканинг нозогеографик ўчоғи мақомига асосий давогар бўлиш эҳтимоли ҳеч гап эмас.

Тупроқ қатламининг ифлосланиш ҳолати ҳам экологик вазиятининг муҳим омилдир чунки кенг истеъмол маҳсулотлари айнан тупроқ орқали етиштирилади. Тупроқнинг геохимик ҳолатининг ёмонлашуви жигар, буйрак ва асаб касалликларининг ўртасида боғлиқлик бор. Sanoatга ихтисослашган вилоятда бу ҳам ташвишли масала ҳисобланади, сабаби шундаки, шаҳардаги чанг тўзонлар нафақат шаҳар ҳудуди балки шаҳар атрофига ҳам ҳаракати натижасида шаҳарга туташ Кармана, Навбахор ҳудудларидаги тупроқнинг юза

катламига анча шикаст етказди. Юқорида номи келтирилган маъмурий бирликлар шаҳарни қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари билан таъминлайдиган биринчи рақамли ҳудудлар эканлигини ҳисобга олсак, кимёвий зарарланган қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари айланма занжир сингари яна шаҳар истеъмоли учун қайтиб келади ва бу шаҳар аҳолиси организмидаги функционал ўзгаришларга асос бўлиб хизмат қилади. [12]

Бир қарашда шовқин кўзга кўринмас омил ҳисоблансада, саноат корхоналари аҳоли яшаш манзилгоҳларига яқин жойлашганлиги ва транспорт тармоғи ҳаракати бизнингча айнан ушбу омилни алоҳида таҳлил қилишга етарли ҳисобланади. Таҳлиллар шуни кўрсатадики, йирик шаҳарларда шовқин даражасининг юқорилиги инсонлар асаб тизимига таъсир этади ва ходимларнинг ишчанлик қобилятини сусайишига, кун бўйи ҳорғин кайфиятда бўлишига асосий сабаб ҳисобланар экан.[8]

**Хулоса.** Таъкидлаш керакки, инсон саломатлигига, табиий муҳитга саноат ва ишлаб чиқариш корхоналари, транспорт ва бошқа омиллар салбий таъсирини камайтириш учун куйидагиларга амал қилиш керак:

1. Соғлом муҳит учун атмосфера ҳавосидаги ифлослантирувчи моддалар рухсат этилган миқдордан ошмаслигига катта эътибор қаратиш лозим;
2. Саноат корхоналари атрофида ҳаводаги чиқиндиларни ютувчи, манзара берувчи дарахт, бўта ва газонлардан санитар зона ҳосил қилишда фойдаланиш (1000, 500, 300 метр);
3. мавжуд тирасса, шоссе ёки бошқа йўлларнинг светофорлар жойлашган қисмларига юқори чангга чидамли дарахтларни ўтқозиш;
4. Ҳар бир ҳудуднинг табиий-экологик шароитидан келиб чиқиб, мазкур шаротга мос бўлган дарахтларни, яшил деворни ташкил этиш;
5. Зарарсиз транспорт турларига ўтиш;
6. Чиқинди сувларни турли йўллар билан тозалаб, сув ҳавзаларига қўшиш;
7. Атроф-муҳит мусаффолигини сақлашда замонавий технологияларни қўллаш;
8. Юксак маънавиятли ва экологик маданиятли кадрларни тайёрлаш-табиатни муҳофаза қилиб атроф-муҳит экологик ҳолатини яхшилаш;
9. Табиатни муҳофаза қилишда унинг аспектига(соғломлаштириш, иқтисодий, маданий, тарбиявий, эстетик) кенг жамоатчилик орасида эътибор қаратиш, тарғибот ишларини олиб бориш лозим.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Allaberdiyev, R., Rakhimova, T., Komilova, N., Kamalova, M., Kuchkarov, N. Study of Plant Adaptation to the Arid Zone of Uzbekistan based on System Analysis | Вивчення адаптації рослин до посушливої зони Узбекистануна основі системного аналізу Scientific Horizons, 2021, 24(10), стр. 52–57
2. Faxriddin o'g'li, L. N., & Erkaboevich, E. H. (2022). THE PROCESS OF URBANIZATION AND ITS RELATION TO THE ENVIRONMENT. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(3), 188-196.
3. Kalonov, B. H., & Latipov, N. F. (2021). Characteristics Of Geographical Location Of The Population Of Navoi Region. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 25(2), 477-479.
4. Kalonov, B. H., Latipov, N. F., & Shirinova, M. S. (2021). ENVIRONMENTAL PROBLEMS IN THE NAVOI REGION COTTON FIELD. *Мировая наука*, (4), 15-18.
5. Komilova, N.K., Rakhimova, T., Allaberdiyev, R.Kh., Mirzaeva, G.S., Egamberdiyeva, U.T. Ecological situation: The role of education and spirituality in improving health of population *International Journal of Health Sciences* 2021, 5(3), стр. 302–312
6. Komilova, N. K., Haydarova, S. A., Xalmirzaev, A. A., Kurbanov, S. B., & Rajabov, F. T. (2019). Territorial structure of agriculture development in Uzbekistan in terms of economical geography. *J. Advanced Res. L. & Econ.*, 10, 2364.

7. Komilova, N., Karshibaeva, L., Egamberdiyeva, U., Abduvalieva, Z., & Allanov, S. (2020). Study of nozogeographic situation and its study on the basis of sociological survey. *Indian Journal of Forensic Medicine and Toxicology*, 14(3), 2093-2098.
8. Komilova, N., Mukhammedova, N., Tojiyeva, Z., Nazarov, M., & Egamberdiyeva, U. (2019). Territorial definitions of population mortality in Uzbekistan. *Astra Salvensis*, 1, 619-640.
9. LATIPOV, N. FACTORS INFLUENCING THE TERRITORIAL DISTRIBUTION OF THE POPULATION. *ЭКОНОМИКА*, (9), 105-108.
10. Latipov Normurod Fakhridin Ugli (2019). Geourbanistic's role in socio-economic geography. *International scientific review*, (LXV), 47-50.
11. Latipov, N. (2022). Urboecology-Interdisciplinary Synthesis of Geography and Ecology. *Middle European Scientific Bulletin*, 24, 16-20.
12. Калонов, Б. Х., & Латипов, Н. Ф. (2018). GEOGRAPHICAL PECULIARITIES OF POPULATION IN NAVOI REGION. *Наука и мир*, (2-2), 79-80.

## БОЛАЛАРДА ЗАРАРЛИ ОДАТЛАРНИ КЕЛТИРИБ ЧИҚАРУВЧИ ОМИЛЛАР ВА УЛАРНИ КОРРЕКЦИЯ ҚИЛИШ (ОНИХОФАГИЯ МИСОЛИДА)

*Махмудова Мухтарам Валижон қизи*

*Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети  
Психология (фаолият турлари бўйича) 1-босқич магистранти.*

**Аннотация.** Ушбу мақолада болаларда учрайдиган зарарли одатларни шаклланиши, зарарли одатларни ривожлантирувчи ташқи таъсирлар, онихофагия сабаблари, ушбу невротик стереотип ривожланишининг бир нечта асосий сабаблари, зарарли одатлар диагностика, коррекция ва профилактикаси.

**Калит сўзлар:** Одат, онихофагия, стресс ва психологик травма, патологик ҳолатлар.

Бола улғайгани сари кўпингина одатлар характер хусусиятида кўрина бошлайди, агар эътибор бермасангиз, вақт ўтиши билан баъзи бир одатлар уларга зарарли бўлиб қолади ва нафақат болаликда зарар етказиши, балки инсонни онгли ҳаёти давомида таъқиб қилиши мумкин. Одат - бу инсон учун одатий ҳолга айланган, ҳаётда доимий бўлган хатти-ҳаракатлар, ҳаракат услуби, мойиллик. Шартли равишда одатларни яхши ва ёмон (зарарли) га бўлиш мумкин. Бундай зарарли одатлардан бири – онихофагия. Онихофагия фақат тирноқларни тишлаш одатидир. Тирноқ тишлаш (онихофагия) кўпинча препубертал ёшда учрайди, улар ўсиб улғайган сайин ўз-ўзидан йўқолади. [1] Аммо бу жуда ёқимли бўлмаган мойиллик катталарда ҳам учрайди. Онихофагия, биринчи қарашда, соғлиққа ҳеч қандай зарар етказмасдан тирноқларни бузадиган ёқимсиз, аммо хавфсиз кўринган одатдир. [2] Бунинг ҳеч қандай ёмон жойи йўқдек туюлади, аммо онихофагия баъзи исталмаган оқибатларга олиб келиши мумкин. Бу одат қаердан келиб чиққанлигини ва унга қарши қандай курашиш керак?

Онихофагиянинг сабаблари хилма-хилдир, аммо уларнинг барчаси психологик хусусиятга эга бўлганлиги билан ўхшашдир. Бу одат болаларда шаклланади ва кўпинча шунчалик сингиб кетадики, катталар ўз тирноқларини бепарволик билан тишлашда давом этадилар. Келинг, унинг шаклланишига олиб келиши мумкин бўлган асосий сабабларни кўриб чиқайлик. Боладаги стресс ва психологик травма. Фарзандингизга хотиржам ва бахтли болаликни таъминлашга қанчалик ҳаракат қилмасангиз ҳам, заиф психика атрофда содир бўлаётган ҳамма нарсага сезгир. Бу ота-оналарнинг жанжаллари, болалар боғчаси ёки мактабдаги болалар билан ёмон муносабатлар, ортиқча талаблар ва уларга дош бера олмаслик бўлиши мумкин. Тирноқ тишлаш одати қайердан келиб чиқади? Кўпинча одамлар онгсиз равишда тирноқларини тишлашади, бундай ҳаракат юзага келган стрессли вазиятдан ҳимоя вазифасини бажаради. Ажабланарлиси, бу ҳаракат тинчлантирувчи таъсирга эга. Кузатиш жараёни болалардаги ушбу одат онгсиз ҳолатда бўлишини кўрсатади: бола шунчаки дўстининг ҳаракатларига тақлид қилади. Бошланғич синф ўқувчилари учун дарсда 45 дақиқа жим ўтириш қийинчилик туғдиради ва бу яна бир шундай муаммо юзага келишига асос бўлиши мумкин. Баъзи болалар бошқа машғулотлар билан чалғишади, баъзилари эса шунчаки тирноқларини тишлайди. Бу зарарли одат гиёҳвандликка сабаб бўлиши мумкин. Ҳатто катталар ҳам бундай зарарли одатлардан воз кечишгани йўқ. Бироқ, бу одат ташқаридан жуда хунук кўринади.

Онихофагия билан оғриган катталар кўпинча ўзини паст баҳолайдилар, ҳиссий жиҳатдан чекланган ва асабийлашади. Тирноқларини тишлаб, улар ташвиш ва ҳаяжонни енгишга ҳаракат қилишади. Зигмунд Фрейднинг сўзларига кўра, “Исталмаган одат жуда эрта сутдан ажратилган болаларда ўзини намоён қилиши мумкин”. [3]

Онихофагия нафақат боланинг тирноқларини тишлаш ёмон одати эмас, балки физиологик ва психологик муаммоларга эътибор бериш керак бўлган кўнғирокдир. Нима сабабдан бу ёмон одат билан курашиш мумкин ва керак. Бу нафақат тирноқларга мутлақо эстетик бўлмаган кўриниш беради, балки кўпроқ нохуш оқибатларга олиб келиши мумкин.

Бундай ҳолда, бу муаммони ёши билан ўтиб кетишини кутиш ва зарарли одатга эътиборсиз бўлиш мумкин эмас. Бепарволик оилавий бахт, дўстлар билан мулоқот ва жамиятда ўз ўрнини топишда тўсиқ бўлади. Онихофагия - стресс омиллари таъсирида кўзғатилган маълум психологик хусусиятлар асосида юзага келадиган мажбурий тирноқ тишлаш билан тавсифланган патологик ҳолат. Мутахассислар ушбу невротик стереотип ривожланишининг бир нечта асосий сабабларини аниқлайдилар. Ташвиш. Ташвиш, ўзига ишончсизлик ва ўзини паст баҳолайдиган болалар учун тирноқ тишлаш ҳиссий стрессни қисқа вақт ичида енгиллаштиради. Айбдорлик. Бу ҳаракат ўзига зарар етказиш билан бирга келади ва қисман ўзини ўзи жазолашнинг маълум бир шаклидир.

Таълимнинг хусусиятлари. Онихофагиянинг пайдо бўлишига тез-тез танбеҳлар, сўзлар, катталарнинг ҳаддан ташқари талаблари, шунингдек, боланинг хатти-ҳаракати ва ташқи кўринишини салбий баҳолаш ёрдам беради. Ноқулай оилавий муҳит. Баъзида ушбу патологиянинг пайдо бўлишининг асосий сабаби оила аъзолари ўртасидаги тез-тез жанжал, оиладаги зўравонлик, ота-онанинг ажралиши, яқин кишининг ўлимидир. Ижтимоий ўзаро таъсир муаммолари. Тенгдошлар, ўқитувчилар билан яхши муносабатлар ўрнатишнинг иложи йўқлиги ёки эътироф ва маъқулланиш истаги ташвиш даражасининг ошишига ёрдам беради, бу эса мажбурий ҳаракатларни келтириб чиқаради. Кўтарилган юклар. Узоқ муддатли ортиб бораётган жисмоний, ҳиссий ва руҳий стресс тирноқ тишлаш орқали чиқарилиши мумкин. Нусха кўчириш одатлари. Ота-оналардан бири тирноқ тишлаш одатидан азоб чекаётган оилаларда болалар ҳам тирноқларини тишлашлари мумкин. Онихофагия ота-онанинг мерос бўлиб қолган деган тахминлар мавжуд. Патология ривожланишининг ирсий назарияси тасдиқланмаган. Аломатлар. Ташқи томондан, онихофагия бармоқларда қисқа, деформацияланган тирноқ плиталари мавжудлиги билан намоён бўлади. Қайта ўсган тирноқлар йўқ, чекка қисми нотекис бўлади. Баъзи ҳолларда тирноқ атрофидаги шикастланган юмшоқ тўқималарга кириб борадиган инфекция пайдо бўлади. Тирноқ пластинкаси ёнида жойлашган юмшоқ тўқималарнинг шикастланиши аниқланади: йиринглаш, кутикула яллиғланиши аниқланиши мумкин. Онихофагиянинг узоқ давом этиши шохли плиталарнинг қалинлашишига олиб келади - платонихия. Тирноқларнинг деформацияси юқори, юмшоқ, узунасига ва кўндаланг чизиклар шаклланиши билан намоён бўлади. Доимий травма инфекциянинг юқори хавфи билан боғлиқ бўлиб, у кучли оғрик, қичишиш ва гипертермия билан кечади. Замбуруғ инфекциялари билан тирноқларнинг ранги ўзгариши қайд этилади.

Кўпинча онихофагия билан оғриган болалар ўзига ишончсизлик, ҳаракатларнинг кўрқоқлиги, бошқаларни баҳолашга йўналтирилганлиги билан ажралиб туради. Катта ёшлиларнинг талаблари ва умидларини қондириш истаги тирноқларни, кутикуларни тишлаш, шохли пластинка парчаларини, юмшоқ тўқималарни ютиш билан намоён бўлади. Болаларнинг ҳиссий соҳаси кучланиш, ташвиш ва шубҳанинг кучайиши билан тавсифланади. Бундай болаларда кўпинча иккиламчи депрессив бузилишлар, уйқу бузилиши ва иштаҳани йўқотиш аниқланади.

Диагностика. Мутахассислар онихофагияни невроз, неврозга ўхшаш касалликлар доирасида кўриб чиқадилар. Онихофагия алоҳида ташхис сифатида ажратилмайди. Ташхисни тасдиқлаш учун болага бармоқларнинг ташқи текширувини, сўровни, клиник суҳбатни ва психодиагностикани ўтказиш керак бўлиши мумкин.

Даволаш. Онихофагияни, бошқа ҳар қандай одат каби, енгиш мумкин. Бундан ташқари, катталар, ақлий ривожланган одамга қараганда, болаларни тирноқларини тишлашдан ажратиш осонроқ. Касалликни даволаш комплекс ёндашувни талаб қилади. Бир томондан, терапевтик чора-тадбирлар тирноқ плиталари ва терининг яхлитлигини тиклашга, бошқа томондан эса мажбурий ҳаракатларнинг сабабларини бартараф этишга қаратилган.

Жуда камдан-кам ҳолларда, ёмон одатнинг сабаби бола соғлиғидаги бузилишдир. Аксарият ҳолларда психологик ва ижтимоий соҳаларни ҳисобга олиш керак. Ижодкорлик ҳам катта шифобахш ва тузатувчи кучга эга - агар бола ўз тасавури ва истеъдодини қўлласса яни ўз қизиқишини топа олса, ёмон одат тезда йўқолади.



Психотерапевт ёрдами. Муаммони ҳал қилиш учун сиз унинг манбасини аниқлашингиз керак. Баъзида одам буни ўзи ҳал қилади, лекин кўпинча ташвиш, кўркув ва ишончсизлик туйғуларини енгиш учун психотерапевтнинг ёрдами керак бўлади. Диққатни алмаштириш техникаси ҳам катта ёрдам беради. Мисол учун, нафас олиш машқлари. Оғизда кучли аччиқликни қолдирадиган махсус маҳсулотлар ёрдамида гигиеник маникюр. Бундай ҳолда, оддий алое шарбати билан даволаш кўпроқ мос келади. Тирноқ пластинкасини даволашда яллиғланишга қарши, антибактериал, замбуруғларга қарши препаратларни қўллаш мумкин. Ташвиш, зўриқиш, депрессия, транквилизаторлар, антидепрессантлар каби оғир ҳиссий бузилишлар кўрсатилади. Дори-дармонлар билан даволанишда тирноқларни тишлаш одатини йўқ қилиш учун когнитив-хулқ-атворли психотерапия қўлланилади.

Профилактика. Онихофагиянинг олдини олиш болани ҳар қандай ҳиссий ҳолатни бостириш ва танқид қилмасдан қабул қилишга ўргатишдир. Тери ва тирноқларни гидроксиди эритмалар билан тозалаш; сурункали касалликларни даволаш; ҳимоя организмларни ошириш; танадаги витамин етишмаслигини тўлдириш керак бўлади. [4]

Боланинг кундалик тартибини кўриб чиқинг. Нима учун тирноқ тишлаш ёмон одати пайдо бўлди? Болани тез-тез тоза ҳавода сайр қилишга одатлантириш, бола билан ўйнаш ва у билан доимий суҳбатлашиш керак. Қайфиятни яхшилаш ва психологик мувозанатни нормаллаштириш учун кунига камида бир неча соат ухлаши керак. Лекин, доимий қаттиқ режим болага салбий таъсир кўрсатади. Болани мустақил бўлишга ўргатиш, ҳатто онасидан қисқа вақт ажралса ҳам безовда бўлмаслиги керак. Бола зерикмаслик учун ўзи қарор қабул қилишни ўрганиши, ўзи учун сеvimли машғулотлар топа олиши лозим. Ушбу метод болага оғриқли бўлмаслиги учун, бир-икки соат давомида бувисига ёки болалар боғчасига олиб бориш керак.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Психиатрия детского возраста (руководство для врачей). В. В. КОВАЛЕВ. 1979, 608 с.
2. Странности нашего тела - 2020й Стивен Джуан - [283-б]
3. Фрейд З. Психоаналитические этюды-2015 г.
4. Семейная энциклопедия здоровья 2021 г.

## ЎЗБЕКИСТОН ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА КЛАСТЕРЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ ВА УЛАРНИНГ ТАРМОҚ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ

*Мадиев Шахзод Шодмон ўғли*

*Тошкент давлат аграр университети 4 босқич талабаси.*

**Аннотация:** Ушбу мақолада агрокластернинг иқтисодий моҳияти, ташкил этиш зарурияти ва ривожлантириш тамойиллари, шарт-шароитлари, босқичлари ва самарадорлигини аниқлашга оид назарий қарашларни ўрганиш, унинг умумий хусусиятларини тизимлаштириш асосида давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг асосий йўналишлари баён қилинган.

**Калит сўзлар:** трансформация, инновация, интеграция, агрокластер, технология, пахта-тўқимачилик кластери, тайёр маҳсулот, юқори қўшимча қиймат, сақлаш, қайта ишлаш, экспорт, фермерлик, халқаро сифат стандарти.

**Аннотация:** В статье описаны основные направления государственной поддержки на основе изучения теоретических взглядов на экономическую сущность агрокластера, необходимость организации и принципы развития, условия, этапы и эффективность, систематизация его общей характеристики.

**Ключевые слова:** трансформация, инновации, интеграция, агрокластер, технологии, хлопково-текстильный кластер, готовый продукт, высокая добавленная стоимость, хранение, переработка, экспорт, сельское хозяйство, международный стандарт качества.

**Annotation:** This article discusses the main directions of state support based on the study of theoretical views on the economic nature of the agro-cluster, the need for organization and principles of development, conditions, stages and effectiveness, systematization of its general characteristics.

**Keywords:** transformation, innovation, integration, agricluster, technology, cotton-textile cluster, finished product, high added value, storage, processing, export, agriculture, international quality standard.

Бугунги кунда қишлоқ хўжалигининг трансформацияси жараёнларида бир-бирига ўзаро боғлиқ бўлган ички ва ташқи тенденциялар - дунёда ва мамлакатларда озиқ-овқат муаммоларининг кескинлашуви шароитида қишлоқ хўжалиги ривожланиши стратегик аҳамиятининг ортиши, мустақиллик йилларида республикамизда ушбу тармоқда тўпланган ижобий тажрибаларни жаҳон хўжалигида эришилган сўнгги илмий-техник тараққиёт ютуқларидан фойдаланган ҳолда ривожлантиришни талаб этади.

Бунда миллий иқтисодиёт даражасида пировард маҳсулот ва хизматлар яратишда иштирок этувчи ҳудудий ёки тармоқлараро кесимдаги “ягона технологик занжир” га боғланган барча ишлаб чиқарувчи (хизмат кўрсатувчи) ларни ўз ичига олган “кластер” лар мавжуд бўлиши муҳимдир. Кейинги йилларда қишлоқ хўжалиги соҳасида узокни кўзлаган ҳолда амалга оширилаётган туб ислохотлар тизимда салмоқли натижаларга эришишда муҳим омил бўлмоқда. Бу йўналишдаги ишларни изчил давом эттирган ҳолда, қишлоқ хўжалиги агрокластерларида замонавий ва хорижий инновацияларни жорий этишга ҳам устувор аҳамият қаратилмоқда. 2021 йил апрель ойида Жаҳон банки ўз ҳисоботида Европа ва Марказий Осиё давлатларида иқтисодиётнинг ўсиш суръатларини таъминлайдиган асосий соҳалардан бири қишлоқ хўжалиги эканлигини эълон қилиб, бу борада Ўзбекистонда имкониятлар катталигига алоҳида эътибор қаратди. Президентимиз таъкидлаганидек: “Қишлоқ хўжалигидаги ислохотлар, ер майдонлари тўлиқ хусусий кластер ва кооперацияларга берилгани пахтачиликда ҳосилдорликни бир йилда ўртача 10 фоизга ошириш имконини яратди.

Мева-сабзавотчилик, ғаллачилик ва чорвачиликда ҳам 500 га яқин кластер ва кооперациялар фаолияти йўлга қўйилди. Бунинг натижасида, пандемиянинг салбий таъсирига қарамасдан, 1 миллиард долларлик мева-сабзавот экспорт килинди. Бу йил 91 минг гектар ер майдони қайтадан фойдаланишга киритилди. 133 минг гектар ёки ўтган йилга нисбатан 2 баробар кўп майдонда сувни тежайдиган технологиялар жорий этилди.<sup>282</sup> Маълумки, мамлакатимиз қишлоқ хўжалигида ғоят кенг қамровли ва жиддий ислохотлар олиб борилмоқда. Хусусан, пахта ва ғаллага давлат буюртмасидан воз кечилиб, нарх белгилаш эркинлаштирилди. Маҳсулот ишлаб чиқаришда кластер тизимига ўтилди ва уларнинг ривожланиши учун барча шароитлар яратилди. Бундан мақсад – маҳсулот ҳажмини кескин ошириш, юқори қўшилган қиймат ва янги иш ўринлари яратиш, энг асосийси – даромад ва манфаатдорликни оширишдан иборат.

Айни пайтда, амалга оширилган кенг қамровли чора-тадбирларга қарамай, қишлоқ хўжалиги озик-овқат маҳсулотларини керакли миқдорда ва сифатли тарзда аҳолига етказиб бериш учун ишлаб чиқариш, йиғиштириб олиш, ташиш, сақлаш, қайта ишлаш, қадоклаш ҳамда ички ва ташқи бозорда сотиш билан боғлиқ қатор камчиликлар, муаммолар ва номутаносибликлар сақланиб қолмоқда. Шунинг учун ҳам ушбу жараёнларнинг маълум даврдаги ривожланиш тенденцияларини комплекс тарзда чуқур таҳлил этиш, аниқ сабабларини ўрганиш ва бу борадаги мавжуд имкониятларни аниқлаш келажакда ушбу соҳа самарадорлигини ошириш ва ривожланишининг устувор йўналишларини белгилашда муҳим омил бўлиб хизмат қилади.

Бундай шароитда қишлоқ хўжалигини барқарор ривожлантиришнинг асосий омили бўлиб модернизациялашни амалга ошириш ҳисобланади. Модернизациялаш, ўз навбатида, қишлоқ хўжалигининг истиқболли рақобатбардош моделини яратишни, унинг мақбул ижтимоий таркиби ва қишлоқ хўжалиги субъектларини бозор тамойилларига мос ташкилий турларини шакллантиришни тақозо этади. Авваламбор, ушбу йўналишда давлатнинг қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқариш, қайта ишлаш ва сотиш жараёнларида фаолият юритаётган турли хўжалик юритиш субъектлари билан ўзаро ҳамкорлигини мустаҳкамлаш ва ролини оширишнинг янги институционал муҳитини яратишда агрокластерларни ташкил этиш муҳим омиллардан бири ҳисобланади.

Бугунги кунда кластерлар қишлоқ хўжалигида инновацион ғоялар ва тежамкор технологияларни жорий қилиб, иқтисодий самарадорликни таъминламоқда. Мисол учун, ўтган йили Қуйичирчиқ туманидаги “ТСТ кластер”, Дўстлик туманидаги “Сангзор текстиль” кластери пахтадан гектаридан ўртача 30-35 центнер хирмон кўтариб, ҳосилдорликни ундан олдинги йилга нисбатан қарийб 2 баробарга оширди. Қўрғонтепа туманидаги “Хан-текс” кластери томчилатиб суғориш жорий қилинган пахта майдонларида ўртача 70 центнергача ҳосил олди. Бу тизим қисқа вақтда катта ўзгаришларга замин яратди. Масалан, биргина ўтган йили пахтачиликда толани қайта ишлаш 2,5 баробарга ошиб, 100 фоизга етказилди. Шунингдек, ип-калава ишлаб чиқариш 2 баробарга, тайёр маҳсулот – 3 баробарга ортди, экспорт йил якунига қадар 3 миллиард долларга етди. Пахта хомашёсидан тайёр маҳсулотгача бўлган босқичларни қамраб олган 2 миллиард долларлик 125 та янги корхона ҳамда 150 мингта доимий иш ўрни ташкил қилинди. Кластерлар томонидан 5 мингдан ортиқ юқори унумли техникалар олиб келинди, 126 минг гектар майдонда сув тежаш технологиялари жорий қилинди.<sup>283</sup>

Бундай натижалар пахтачиликда ҳали резерв кўплигини яққол кўрсатиб турибди. Жумладан, қишлоқ хўжалигида ҳам улкан режалар белгиланган. Келгуси беш йилда ҳосилдорликни камида 2 баробар кўтариш, хомашёни чуқур қайта ишлаш, соҳа экспортини 7 миллиард долларга етказиш, аҳоли бандлиги ва даромадларини янада ошириш мақсад қилинган. Кластерлар бу имкониятлардан тўлиқ фойдаланиб, ўзи фаолият

<sup>282</sup> Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси, Халқ сўзи, 29.12.2020 йил.

<sup>283</sup> Президент Шавкат Мирзиёевнинг 2021 йил 27 октябрь кунги қишлоқ хўжалигида кластер тизимини ривожлантириш масалалари бўйича видеоселектордаги нутқидан.

юритаётган туманнинг ижтимоий-иқтисодий ривожига ҳисса қўшиши, одамларнинг онги ва турмуш тарзини ижобий томонга ўзгартириш кераклиги лозим. Бунда кластерлар асосий таянч ва етакчи бўлади.<sup>284</sup> Дарҳақиқат, бугун кластерларда далада амалга оширилаётган агротехника тадбирларини “online” кузатиб бориш имконияти мавжуд. Бунга Қуйи Чирчиқ туманидаги “ТСТ кластер” кўп тармоқли кластери фаолияти мисол бўла олади. Негаки, ушбу кластерда “CROPIO” тизими жорий этилган бўлиб, бу қишлоқ хўжалиги ишларини масофадан кузатиб бориш ва автоҳужжатлаштириш имконини берапти. Кластернинг Телематика ва аниқ деҳқончилик бўлими мутахассислари “CROPIO” тизими орқали чигит экиш ҳамда ғаллани озиқлантириш ишларини “online” кузатиб боришмоқда. Бу эса ёнилғи-мойлаш материаллари ва уруғлик чигит таъминотидаги узулишларнинг олдини олиш, техникалар кучидан унумли фойдаланиш имконини бермоқда. Бугунги кунда мамлакатимиз миллий иқтисодиёти учун замонавий бўлган, саноатнинг инновацион тури кластер механизидан фойдаланиш, хусусан, пахта-тўқимачилик кластерларида “пахта хомашёсини етиштириш - қайта ишлаш - тайёр маҳсулот” кўринишидаги 100 фоиз чиқитсиз ишлаб чиқариш объектлари ташкил этилмоқда. Чунки пахта-тўқимачилик кластерларида пахта хомашёсини етиштириш учун ерларни тайёрлаш, пахтани экиш, етиштириш, йиғиштириб териб олиш, қайта ишлаш ва бирламчи қайта ишлашдан олинган маҳсулотларни чуқур қайта ишлаш йўли билан халқаро стандартларга мос келувчи юқори сифатли маҳсулотлар ишлаб чиқариш ва уларнинг реализацияси билан шуғулланувчи корхоналар битта бошқарув тизимида бирлашади [4]. Республикамиз қишлоқ хўжалиги ва унга туташ тармоқларга хўжалик юритишнинг янги шакл ва усулларини қўллаш, сўзсиз бутун мамлакат иқтисодиёти ва, хусусан, унинг аграр тармоғининг кескин тараққиётига олиб келади. Қишлоқ хўжалигини жадал ривожлантириш, унинг иқтисодий самарадорлигини ошириш, қишлоқ аҳлининг турмуш шароитини яхшилаш, манфаатдорлигини таъминлаш масалалари соҳада ишлаб чиқаришнинг замонавий усули - кластерлар тизими билан жипс ҳолда амалга оширилмоқда. Бироқ ўтган даврдаги тажриба кластерларни ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солиш борасида қатор муаммолар борлигини ҳам кўрсатмоқда. Бу муаммоларнинг ечими сифатида бир қатор ишларни бажариш мақсадга мувофиқ. Жумладан:

- агросаноат кластерининг ҳуқуқий мақомини аниқ белгилаб олиш, яъни норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда агросаноат кластерининг мақоми, унинг мезонлари ва тугатиш асослари мавжуд бўлиши;
- агросаноат кластерларини ташкил этиш юзасидан ягона ёндашувни ишлаб чиқиш;
- агросаноат кластерлари ва давлат ўртасидаги муносабатларни тўлиқ тартибга солиш;
- фермер хўжаликларини агросаноат кластерларига мажбурий тартибда бириктирилиш амалиётидан бутунлай воз кечиш;
- агрокластерларда инновацияларни ва янги технологияларни жорий этишга тўсқинлик қиладиган қонунга зид аралашувларни тугатиш;
- ўзаро ҳамкорлик муносабатларини ўрнатиш ва эркин бирлашишга руҳий (психологик) жиҳатдан тайёр бўлиш, хўжалик юритишда ўз-ўзини бошқариш кўникмаларига эга бўлиш лозим.

Хулоса қилиб айтганда, пахта-тўқимачилик кластери услубида қишлоқ хўжалигида ишлаб чиқаришнинг ташкил этилиши тармоқнинг интеграциялашуви ва ишлаб чиқаришга янги инновацион ғояларни татбиқ этиш имкониятини беради. Бунинг натижасида эса меҳнат ва моддий ресурслардан самарали фойдаланиш, экспорт имкониятларини кенгайтириш, ижтимоий масалалар ҳал этилади. Зеро, агросаноат кластерлари қишлоқ хўжалиги тараққиётини белгилаб, фермер хўжаликлари фаолиятини замон талабларидан келиб чиққан ҳолда ривожлантиришга ёрдам беради.

<sup>284</sup> Раҳматов М.А., Зарипов Б.З. Кластер – интеграция, инновация ва иқтисодий ўсиш. Рисола. Т.: “Zamin Nashr” нашриёти, 2018 й.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси, Халқ сўзи, 29.12.2020 йил
2. Президент Шавкат Мирзиёевнинг 2021 йил 27 октябрь кунги қишлоқ хўжалигида кластер тизимини ривожлантириш масалалари бўйича видеоселектордаги нутқидан
3. Раҳматов М.А., Зарипов Б.З. Кластер – интеграция, инновация ва иқтисодий ўсиш. Рисола. Т.: “Zamin Nashr” нашриёти, 2018 й.
4. Ergashev R.Kh., Khamraeva S.N., Fayzieva Sh.Sh. Innovative development of agricultural infrastructure: problems and ways of its achievement // The phenomenon of market economy: from the origins to the present day. Partnership in the face of risk and uncertainty. – 2020
5. <http://www.lex.uz>. - Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.
6. <http://www.stat.uz>. - Ўзбекистон Республикаси давлат статистика маълумотлари базаси.



## ДИАБЕТИК РЕТИНОПАТИЯНИНГ ЯНГИ КЛАССИФИКАЦИЯСИДАГИ АФЗАЛЛИКЛАР

*Мамажанов Хурийд Халматжанович*

*Андижон вилоят эндокринология  
диспансерида врач ординатор.*

**Аннотация:** Қандли диабет касаллиги дунёда жуда тез тарқалаётган ноинфекцион касаллик бўлиб, диабетик беморлар холатини тўғри баҳолаш ва даволаш тактикасини тўғри белгилашда диабетик ретинопатия ташҳиси муҳимдир. Эндокринолог шифокор диабетик беморларга самарали даволаш муолажаларини белгилашда диабетик ретинопатияга эътибор қаратади. 2014 йилда тасдиқланган диабетик ретинопатия классификацияси тўр парда қон томирларида кечаётган патологик жараёнларни тўлиқ тасвирлайди. Биз мазкур масала юзасидан олиб борган текширувимиз жараёнида диабетик ретинопатияни охирги тасдиқланган классификациясининг афзалликлари ва олдинги классификациядан фарқларини келтириб ўтамиз.

**Калит сўзлар:** Қандли диабет, диабетик ретинопатия, классификация, непролифератив, препролифератив, пролифератив, кўз туби, кўриш ўткирлиги.

### ПРЕИМУЩЕСТВА В НОВОЙ КЛАССИФИКАЦИИ ДИАБЕТИЧЕСКОЙ РЕТИНОПАТИИ

**Аннотация:** Сахарный диабет это неинфекционное заболевание, которое очень быстро распространяется в мире, диагноз диабетической ретинопатии важен для правильной оценки состояния больных сахарным диабетом и правильного определения лечебной тактики. Врач эндокринолог уделяет особое внимание диабетической ретинопатии при назначении эффективных методов лечения пациентам с диабетом. Классификация диабетической ретинопатии, принятая в 2014 году, описывает патологические процессы в сетчатке. В ходе нашего исследования по данному вопросу мы приводим преимущества последней утвержденной классификации диабетической ретинопатии и отличия от предыдущей классификации.

**Ключевые слова:** сахарный диабет, классификация, диабетическая ретинопатия, непролиферативная, препролиферативная, пролиферативная, глазное дно, острота зрения.

### ADVANTAGES IN THE NEW CLASSIFICATION OF DIABETIC RETINOPATHY

**Annotation:** Diabetes mellitus is a non-infectious disease that spreads very quickly in the world, the diagnosis of diabetic retinopathy is important for the proper assessment of the condition of patients with diabetes and the correct determination of therapeutic tactics. The endocrinologist pays special attention to diabetic retinopathy when prescribing effective methods for treating patients with diabetes. The classification of diabetic retinopathy, adopted in 2014, describes pathological processes in the retina. In the course of our study on this issue, we give the advantages of the latest approved classification of diabetic retinopathy and differences from the previous classification.

**Keywords:** Diabetes mellitus, classification, diabetic retinopathy, nonpreproliferative, preproliferative, proliferative, eye bottom, visual acuity.

**Кириш.** Қандли диабет касаллиги бу одам организмидаги қонда қанд мидорининг нормага нисбатан бир неча баробар ортиб кетиши бўлиб, инсулин гормонининг нисбий ёки мутлоқ етишмаслиги билан характерланади. Касалликнинг энг хавфли асоратларидан бири диабетик ретинопатия бўлиб, дунё бўйича глаукома касаллигидан сўнг кўрликнинг келиб чиқишида асосий сабаблардан бири деб қабул қилинган.

Бунинг натижасида беморларнинг меҳнат фаолиятини чеклаиб, эрта кунда ногирон бўлиб қолишига сабаб бўлмоқда. Айрим ҳолатларда беморларнинг шифокор тавсиясиз дори препаратларни қабул қилиш ёки эндокринолог шифокорни офтальмолог консультациясиз дори препаратларни тавсия этилиши беморларда кўриш ўткирлигини пасайишига ёки қайтариб бўлмас кўрлик асоартларига олиб келади. Шунинг учун ҳам қандли диабет беморларни даволашда моддалар алмашинувига ижобий таъср этувчи препаратларни буюришда кўз тубидаги ҳолатга аҳамият берилади. Қандли диабет касаллиги қон томирлар патологияси билан боғлиқ касаллик эканлигини ҳисобга олсак, қон томирлар ҳолатига аҳамият берибгина тўғри тактик даволашни амалга ошириш мумкин ва қон томирлар фаолиятига таъср этувчи дори препаратлардан самарадорлик билан фойдаланишимиз мумкин. Организмдаги артерия ва вена қон томирларни кўриш учун тери ёки шиллик қаватни кесиб очиб кўриш мумкин, фақат кўз тубидаги артерия ва вена қон томирларни беморга ҳеч қандай жароҳат етказмаган ҳолда кўриш мумкин ва организмдаги бошқа тўқималарда жойлашган қон томирлар кечаётган жараёлар ҳақида дастлабки тасаввурга эга бўламиз. Яъни диабетик ретинопатия қайси босқичда ривожланаётганини билишда офтальмолог шифокор қўйган ташҳис муҳим аҳамиятга эга. Қандли диабет беморларни кўз тубини текшириб диабетик ретинопатияга ташҳис қўйишда ва унинг қайси босқичда ривожланаётганини ҳақида ахборот беришда диабетик ретинопатия классификацияси мукамал, максимал маълумотга эга бўлиши лозим.

**Тадқиқот мақсади.** Ҳозирги кунда қабул қилинган диабетик ретинопатия классификациясининг олдинги классификациялардан афзалликларини аниқлаш ва қандли диабет фонидаги беморларни даволашда аҳамиятини ёритиб бериш.

**Тадқиқот усуллари ва материаллар.** 20 аср охиригача диабетик ретинопатияга ташҳис қўйишда қуйидаги классификациядан фойдаланилган:

1. Диабетик ретинопатия I даража
2. Диабетик ретинопатия II даража
3. Диабетик ретинопатия III даража

Диабетик ретинопатия I даражасида беморлар одатда кўриш ўткирлигининг пасайишига шикоят қилмайдилар. Кўз тубини текширганимизда: кўрув нерв дискида патологик ўзгаришлар аниқланмайди, вена қон томирларида кенгайишларни, артериал қон томирларни торайиши кузатилади ва томирларда микроаневризмаларни аниқлашимиз мумкин.

Диабетик ретинопатия II даражасида бемор битта ёки иккала кўзида кўриш ўткирлиги кескин пасайишига шикоят қилади, одатда ҳеч қайси линзада коррекция бермайди. Кўз тубини текширганимизда: кўрув нерв диск соҳасида патологик ўзгаришлар учрамайди, айрим ҳолатларда қон қуйилган геморагик ўчоқлар кузатилади, вена қон томирларида кенгайишлар, кўп миқдорда микроаневризмалар, нуқтасимон ёки доғсимон геморагик ўчоқлар, қаттиқ ва юмшоқ экссудатив соҳалар, интратетинал микроваскуляр аномалиялар, тўра пардада шиш ҳам кузатилиши мумкин.

Диабетик ретинопатия III даражасида бемор кўриш ўткирлигининг кескин равишда пасайишига ёки кўрликка шикоят қилади, оптик линзалар орқали коррекция бермайди. Кўз тубини текширганимизда: юқоридаги ўзгаришлар миқдор ва сифат жиҳатдан орگانлигини аниқлаймиз, тўра парда ва кўрув нерви соҳасида янги ўсиб кирган қон томирлар – неовакуляризация жараёни, тўра пардада ва шишасимон танага фиброз тўқиманинг ўсиб кириши – пролиферация жараёни кузатилади, преретинал қон қуйилишлар, гемофтальм, тўра парданинг йиртилиши, тракцион кўчишлари, макула соҳасида деструктив ўзгаришлар аниқланади.

1992 йилда Кохнер ва Порта томонидан диабетик ретинопатияга ташҳис қўйишда янги классификация тавсия этилди:

1. Нопролифератив диабетик ретинопатия.
2. Препролифератив диабетик ретинопатия.
3. Пропролифератив диабетик ретинопатия.

Бу классификациянинг моҳиятида диабетик ретинопатияни ривожланиш жараёнида тўр пардага пролиферация жараёни яъни бириктирувчи тўқима ўсиб кириш ҳолати ҳисобга олинган. Нопролифератив диабетик ретинопатияда бемор кўриш ўткирлиги пасаяди ёки пасаймайди. Кўз тубида: кўрув нерв дискида патологик ўзгаришлар аниқланмайди, вена қон томирларида кенгайишларни, артериал қон томирларни торайиши кузатилади ва томирларда микроаневризмаларни, оз миқдордаги нуктасимон ва доғсимон геморрагик ўчоқларни, қаттиқ экссудатларни аниқлашимиз мумкин. Препролифератив диабетик ретинопатияда бемор кўриш ўткирлиги кескин равишда пасаяди. Кўз тубида: кўрув нерв диск соҳасида патологик ўзгаришлар кузатилади, қон қуйилган геморагик ўчоқлар, вена қон томирларида кенгайишлар, кўп миқдорда микроаневризмалар, нуктасимон ёки доғсимон геморрагик ўчоқлар, қаттиқ ва юмшоқ экссудатив соҳалар, интратетинал микроваскуляр аномалиялар, тўра пардада шиш ҳам кузатилиши мумкин.

Пропролифератив диабетик ретинопатияда бемор кўриш ўткирлигининг кескин равишда пасайишига ёки кўрликка шикоят қилади, оптик линзалар орқали коррекция бермайди. Кўз тубини текширганимизда: юқоридаги ўзгаришлар миқдор ва сифат жиҳатдан органлигини аниқлаймиз, тўр парда ва кўрув нерви соҳасида янги ўсиб кирган қон томирлар неовакуляризация жараёни, тўр пардада ва шишасимон танага фиброз тўқиманинг ўсиб кириши пролиферация жараёни кузатилади, преретинал қон қуйилишлар, гемофтальм, тўр парданинг йиртилиши, тракцион кўчишлари ва макула соҳасида деструктив ўзгаришлар аниқланади. 2014 йилда Бутунжаҳон Офтальмологлар Конгрессида(БОК) диабетик ретинопатиянинг янги классификацияси қабул қилинди. Аниқроқ айтганда, 1992 йили Кохнер ва Порта томонидан тавсия этилган классификацияга ўзгартиришлар киритилиб мукамаллаштирилди ва қуйидагича фарқ қилади:

<b>Кохнер ва Порта, 1992 йилдаги классификация</b>	<b>БОК, 2014 йилдаги классификация</b>
Нопролифератив диабетик ретинопатия	Бошланғич нопролифератив диабетик ретинопатия
	Ўртача нопролифератив диабетик ретинопатия
Препролифератив диабетик ретинопатия	Оғир нопролифератив диабетик ретинопатия
Пропролифератив диабетик ретинопатия	Пропролифератив диабетик ретинопатия

Бошланғич нопролифератив диабетик ретинопатияда беморни кўриш ўткирлигида ўзгариш йўқ ёки биров пасайган. Кўз тубида: кўрув нерв диски патологик ўзгаришсиз, вена қон томирлари кенгайган, томирларда ягона микроаневризмалар ва нуктасимон ёки майда доғсимон қон қуйилган геморрагик ўчоқлар аниқланилади. Ўртача нопролифератив диабетик ретинопатияда беморни кўриш ўткирлиги пасайган. Кўз тубида: кўрув нерв диски патологик ўзгаришсиз, вена қон томирлари кенгайган, артерия қон томирлар торайган, томирлар бўйлаб микроаневризмалар ва кўп миқдорда нуктасимон, доғсимон қон қуйилган геморрагик ўчоқлар, қаттиқ экссудатлар аниқланилади. Оғир даражали нопролифератив диабетик ретинопатия хусусияти препролифератив диабетик ретинопатия хусусияти билан бир хил. Пропролифератив диабетик ретинопатия ўзгаришсиз қолган.

**Олинган натижалар ва муҳокамалар.** Олиб борилган тадқиқот давомида қуйидагилар аниқланди: 2014 йилда қабул қилинган классификация ва эски қўлланилган классификациялар ўзининг клиник кўриниши жиҳатдан фарқлари мавжуд. Хусусан диабетик ретинопатия I даражасида фақатгина қон томирларда бўладиган ўзгаришлар ёритилган бўлиб, бошланғич нопролифератив диабетик ретинопатияга қисман мос келади. Диабетик ретинопатия II даражасида нуктасимон геморагик ўчоқлардан то йирик доғсимон геморагик ўчоқларни, қаттиқ ва юмшоқ экссудатларни, қон томирлар шаклининг деструктив ўзгаришларини, чегараланган тўр парда шишларини,

интраваскуляр қон томирлар аномалияларини ўз ичига олади. Диабетик ретинопатиянинг бу кўриниши ўртача непролифератив диабетик ретинопатия ва оғир даражали непролифератив диабетик ретинопатия анологик жихатдан мос. Диабетик ретинопатия III даражаси ва пролифератив диабетик ретинопатияларда клиник жихатдан бир хил. 1992 йилгача қўлланилган эски классификация ўзининг мукаммал эмаслиги ва кўз тубидаги диабетик ретинопатия ҳақида жуда ҳам кам маълумот берганлиги учун Кохнер ва Порта томонидан янги классификацияни тақдим этдилар. 2014 йилда Бутунжаҳон Офтальмологлар Конгрессида мазкур классификацига ўзгартиришлар киритилиб, янада мукаммал ҳолатга келтирилди. Юқоридаги жадвалдан кўриниб турибдики, непролифератив диабетик ретинопатия босқичи 2 фазага: 1) Бошланғич непролифератив диабетик ретинопатия, 2) Ўртача непролифератив диабетик ретинопатияларга бўлиб қўлланилмоқда. Мазкур классификация шифокорларга қандли диабет беморларда кўз тубидаги қон томирлар ва тўр парда тўқимасининг ҳолатини тўлиқ тасаввур этириб, келгусида қилиниши керак бўлаган даволаш тактикасини тўғри бегилашга ёрдам беради. Бошланғич непролифератив диабетик ретинопатия ташҳисида тўр парда қон томирлардаги патологик ўзгаришлар беморнинг кўриш ўткирлигига жиддий таъср этмаганидан далолат беради, диабетик ретинопатиянинг кейинги босқичига ўтмаслиги учун шифокордан керакли даволаш жараёнларини амалга оширишни талаб этади. Ўртача непролифератив диабетик ретинопатия ташҳисида гипергликемия жараёни тўр парда ва унинг тўқимасига деструктив таъср этаётганидан далолат бериб, офтальмолог шифокордан зудлик билан махсус даволаш жараёнларини амалга оширишни талаб этилади. Оғир непролифератив диабетик ретинопатия препролифератив диабетик ретинопатияга алмаштирилди, чунки препролиферация – бириктирувчи тўқима ўсиб кириши жараёнидан олдинги ҳолат деб тушунилади. Офтальмолог томонидан қўйилган бу ташҳис диабетик ретинопатиянинг пролиферация жараёни бошланаётганидан далолат беради ва беморга малакали тез тиббий ёрдам кўрсатиш заруриятини белгилайди. Пропролифератив диабетик ретинопатияда эса кўриш ўткирлиги яхши томонга тиклаш ва кўрлик келиб чиқмаслиги учун керакли муолажалар комплексини амалга оширишни талаб этади.

**Хулоса.** 1992 йилгача қўлланилган диабетик ретинопатия классификацияси қандли диабетик беморларни келгуси ҳаёт фаолиятини белгилашда ва тўғри даволаш тактикасини белгилашда самарасизлиги аниқланди. Хусусан мазкур классификация айрим ҳолатларда бошқа соҳа шифокорларга диабетик беморларни даволашда қийинчиликларни келтириб чиқаради, чунки кўз тубида ягона нуқтасимон геморрагик ўчоқ бўлганда ҳам, тўр парда катта соҳасини эгаллаган доғсимон ёки штрихсимон геморрагик ўчоқлар мавжуд бўлганда ҳам диабетик ретинопатия II даражаси ташҳиси қўйилади. Бу эса даволаш жараёнини белгилашда иккиланишларни келтириб чиқаради. Хозирда 2014 йилда тасдиқланган ва қўлланилиётган классификация мукаммал ҳисобланиб, қандли диабет билан хасталанган беморларда бошланғич ҳолатида диабетик ретинопатиянинг ривожланиш босқичини тўлиқ намоён этади, тўр пардадаги майда қон томирлардаги патологик ҳолатларни ифодалайди, кўз тубида кечаётган диабетик ретинопатия ҳақида тўлиқ маълумот беради. Бу эса офтальмолог, эндокринолог ва бошқа соҳа мутахасисларга қон томирлар ҳолатини ҳисобга олиб тўғри даволаш тактикасини белгилаш ва қандли диабет фонидаги беморларни ҳаёт фаолиятини ижобий томонга ўзгартиришга ёрдам беради.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Рахимова Г.Х. Стандарты по ведению и лечению сахарного диабета 2 типа (руководство для врачей). Ташкент. 2018г
2. Балаболкин М. И. Сахарный диабет,- М.: Медицина, 1994г.
3. Бахритдинова Ф.А. Гемореологические нарушения у больных с диабетической ретинопатией // Вестн. офтальмологии 1996г.
4. Беглярова А.С. Значение компенсации сахарного диабета в генезе диабетической ретинопатии // Вестн. офтальмологии,- 1985г.

**ЭКСПОРТНИ ОШИРИШ МАКРОИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛИКНИ  
МУСТАҲКАМЛАШ ОМИЛИ СИФАТИДА  
(Мева-сабзавот маҳсулотлари мисолида)**

*Маматов Баходир Қулдошович*

*Прогнозлаштириш ва макроиқтисодий тадқиқотлар  
институтини таянч докторанти.*

Пандемия даврида юзага келган жаҳон иқтисодиётидаги нобарқарор вазият мамлакатлар ўртасида озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашдек муҳим вазифани қўйди. Бунда ҳар бир мамлакат ўз иқтисодиётининг барқарорлигини сақлаб қолиш мақсадида, аҳолисининг озиқ-овқат маҳсулотларига эҳтиёжини қондириш ҳақида чуқур ўйлаб бошлади, ҳаттоки ривожланган озиқ-овқат маҳсулотлари экспорт қилувчи мамлакатлар ҳам. Бундан ташқари жаҳонда аҳоли сонининг ошириши ҳам озиқ-овқат маҳсулотларига бўлган талабни оширмоқда. Шунингдек, уни ишлаб чиқариш учун зарур бўлган ер ва сув ресурсларининг тақчиллигини эътиборга олган ҳолда, қишлоқ хўжалиги озиқ-овқат маҳсулотларини ишлаб чиқаришга бўлган муносабатни тубдан ўзгартириш давр тақозосига айланиб бормоқда.

Қишлоқ хўжалиги иқтисодиётнинг асосий тармоқларидан бири ҳисобланиб, қишлоқ жойлардаги аҳолининг аксарият қисми ушбу соҳа билан банд эканлиги, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари экспорти натижасида савдо ва валюта захирасининг соғлом мувозанатини сақлашга эришиш мумкинлигидан келиб чиқиб, эътиборни талаб қилади. Шунингдек, халқаро савдо нафақат самарадорликнинг ошишига олиб келади, балки мамлакатларни иш билан бандлик даражасини кўтарди, глобал иқтисодиётда иштирок этиш имконини беради. Бу эса, иқтисодий ўсишни таъминлашга олиб келади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2021 йил 23 ноябрдаги ПҚ-20-сонли “Мева-сабзавотчилик ва узумчиликда оилавий тадбиркорликни ривожлантириш, қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришида деҳқон хўжаликларининг улушини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорида ҳам аҳоли даромад топишга қаратилган тадбиркорлик ташаббусларини молиявий қўллаб-қувватлаш, аҳолига аграр тармоқда ўз бизнесини ташкил этишига қўмаклашиш, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштиришда деҳқон хўжаликларининг улушини ошириш ва қишлоқ хўжалигини диверсификациялаш орқали озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш мақсадида қатор чора-тадбирлар белгиланган.

Мамлакатимизда олиб борилаётган ислохотлар қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқариш ва уни экспорти соҳасида туб ўзгаришларни қишлоқ хўжалиги экин майдонларини экспортбоп маҳсулотлар ишлаб чиқариш ва сув тежамкорлигига асосланган мева-сабзавот маҳсулотлари тайёрлаш орқали амалга оширишни талаб қилмоқда. Таъкидлаш жоизки, ташқи бозорларга харидоргир ва рақобатбардош бўлган ҳўл ва қайта ишланган қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини экспорт қилиш, унинг ҳажми ва географиясини кенгайтириш бугунги кунда долзарб масала бўлиб қолмоқда.

Қуйидаги жадвалда Ўзбекистон Республикаси йирик миқдорда мева-сабзавот маҳсулотлари экспорт қиладиган мамлакатлар келтирилган бўлиб, уларнинг аксарияти мамлакатимиз билан йирик ташқи савдо алоқаларига эга мамлакатлардир. Юртимиз экспорт қиладиган маҳсулотлар гуруҳларидан энг йириклари булар: мева-сабзавот ва тўқимачилик маҳсулотлари саналади. Чунки бизда ушбу тармоқларда салоҳият мавжуд ва экспорт ҳажмини оширишда имкониятлар ҳали тўлиқ ишга солинмаган.



**1-жадвал. Ўзбекистон Республикасидан мева-сабзавотлар экспорти динамикаси.**

(млн. АҚШ доллариди)

№	Мамлакатлар	2017 й.	2018 й.	2019 й.	2020 й.	2021 й.
1	Россия	113,8	166,3	160,6	255,4	291,8
2	Қозоғистон	315,1	392,3	283,0	251,4	196,5
3	Қирғизистон	29,3	80,3	320,0	181,1	116,7
4	Хитой	17,4	46,2	48,5	70,1	111,7
5	Покистон	4,4	22,2	78,8	75,5	63,3
6	Афғонистон	43,8	53,2	57,5	49,4	26,9
7	Туркия	31,5	25,1	99,3	19,4	22,5
8	Украина	5,3	9,0	32,4	15,3	15,2
9	Эрон	10,8	10,0	12,4	2,7	11,7
10	Озарбайжон	4,5	4,9	7,3	6,2	11,6
11	Беларусь	4,6	7,7	10,6	10,6	11,0
12	Туркменистон	8,5	7,5	9,5	11,2	9,9
13	Германия	1,9	5,6	6,6	6,3	9,3
14	БАА	8,6	5,7	9,7	5,0	7,3
15	Ироқ	11,0	6,2	12,3	10,2	5,2

*Манба: Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси.*

Мамлакатимизнинг қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини экспорт салоҳиятидан янада тўлиқ ва самарали фойдаланиш учун жаҳон бозори талабларидан келиб чиқиб, маркетинг таҳлилини ўтказиш, шунингдек, чуқур тадқиқ қилиш асосида ташқи бозорларда харидоргир бўлган рақобатдош янги ва қайта ишланган мева-сабзавот маҳсулотларини экспортга етказиб бериш ҳажми ва турларини кўпайтириш, маҳсулотларни экспортга чиқаришнинг замонавий талабларга мос савдо-логистика инфратузилмасини жадал ривожлантириш зарур.

Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари савдосини охириги ўттиз йиллар ичида таркиби юқори калорияга эга бўлган чорва маҳсулотларидан истеъмолда биологик витаминларга бой бўлган мева-сабзавот маҳсулотлари томонга кескин ўзгариб бормоқда. Мева-сабзавот маҳсулотлари экспорти географиясини кенгайтириш мақсадида халқаро ташкилий, ҳукуқий ва фитосанитария масаласи бўйича давлатлар ўртасида икки ва кўп томонлама ҳукуматлараро келишувларга эришилмоқда.

Бугунги кунда Ўзбекистонда ҳар йили дунёнинг 80 дан ортиқ мамлакатига 180 дан ортиқ турдаги сархил мева-сабзавот ва уларни қайта ишлаш асосида тайёрланган маҳсулотлар экспорт қилинмоқда.

2-жадвал. Ўзбекистон мева-сабзавот маҳсулотларини экспорт қилиши мумкин бўлган мамлакатлар.

Т/р	Маҳсулот номи	Экспорт қилиш мумкин бўлган мамлакатлар
1	Пиёз	МДХ, ЕИ бир қатор мамлакатларига, Япония, Ж.Корея, АҚШ
2	Узум	МДХ, ЕИ, Ҳиндистон, Япония, Миср, Мьянма, Гана
3	Майиз	МДХ, ЕИ, Ҳиндистон, Япония, Ж.Корея, Хитой, Иордания, Таиланд, Покистон, Бангладеш, Марокаш, АҚШ, Б.Британия, Эрон, Миср, Исроил, Вьетнам
4	Хандон писта	Ҳиндистон, Ж.Корея, Япония, Филиппин, Бангладеш, Эрон, Марокаш, Покистон, Иордания
5	Лавлаги	МДХ, ЕИ, Ж.Корея, Япония
6	Мош	МДХ, ЕИ, Ж.Корея, Покистон, АҚШ, Марокаш, Япония, Иордания, Миср, Ҳиндистон, Эрон, Бангладеш, Вьетнам, Филиппин, Исроил, Хитой, Индонезия, Таиланд
7	Олхўри	МДХ, ЕИ, Ҳиндистон, Мьянма, Гана
8	Қовун	МДХ, ЕИ, Ҳиндистон, Япония, Хитой, Мьянма, Гана
9	Олма	МДХ, ЕИ, Мьянма, Гана
10	Хурмо	МДХ, ЕИ, Япония, Мьянма, Гана
11	Шафтоли	МДХ, ЕИ, Ҳиндистон, Мьянма, Гана
12	Ўрик	МДХ, ЕИ, Ҳиндистон, Мьянма, Гана
13	Тарвуз	МДХ, ЕИ, Япония
14	Бодринг	МДХ, ЕИ, Япония
15	Анор	МДХ, ЕИ, Хитой, Ж.Корея, Япония, Мьянма, Гана
16	Ерёнғок	МДХ, ЕИ, Эрон, Хитой, Исроил, Иордания, Бангладеш, Ҳиндистон, Ж.Корея, Япония, Покистон, Марокаш, Филиппин
17	Қулупнай	МДХ, ЕИ, АҚШ, Япония
18	Олча	МДХ, ЕИ, Ж.Корея, Япония, Эрон, Исроил, Покистон, Иордания, Марокаш, Бангладеш, Ҳиндистон, Филиппин, Таиланд
19	Лимон	МДХ, ЕИ, Ҳиндистон, япония, Хитой, Мьянма, Гана
20	Анжир	МДХ, ЕИ, Япония
21	Аччиқ қалампир	МДХ, ЕИ, Марокаш, Гана, Хитой, Мьянма, Иордания
22	Турп	МДХ, ЕИ, Ж.Корея, Япония

**Манба:** Ўзбекистон Республикаси Ўсимликлар карантини ва ҳимояси агентлиги сайти маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси. <https://karantin.uz/uz/menu/infografika>

Юқоридаги 2-жадвал маълумотларидан кўринадики, юртимизда етиштирилаётган кўплаб мева-сабзавотлар фитосанитар талабларига жавоб бермоқда ва экспорт қилиш имконияти ошмоқда. Бироқ экспорт ҳажми ва географиясини кенгайтиришда бошқа хорижий мамлакатларнинг ҳам фитосанитар талабларига жавоб беришга эришиш, бу орқали эса маҳсулотларимизнинг хорижда харидоргир бўлишига эришиш биз учун муҳим. Мева-сабзавот маҳсулотлари экспорти географиясини кенгайтириш масаласи халқаро ҳукуматлараро иқтисодий келишувлар ва бир неча вазирлик ва идоралар ўртасида музокаралар асосида ҳал бўладиган вазифа саналиб, уни мувофиқлаштириш учун тааллуқли вазирлик ва идоралар раҳбарлари ўртасида ушбу масала юзасидан келишувларни “Маҳсус комиссия” асосида ҳал қилишни тақозо этади. Буни амалга оширишда ташкилий, ҳуқуқий ва фитосанитария келишувлари ва экспорт географиясини кенгайтириш масалаларини ҳал этиш лозим.

Маълумки, мева-сабзавот маҳсулотларини экспорти географиясини кенгайтириш масаласи асосан иккита йўналишни – ҳўл мева экспорти ва қайта ишланган мева-сабзавот маҳсулотлари экспортини қамраб олади. Мева-сабзавот экспорти ташқи савдода муҳим ўсиб бораётган тармоқ. Бундан кўринадики, ушбу иқтисодий фаолият билан шуғулланадиган тадбиркорлар учун ҳал қилувчи кўплаб қарорларни услубий жиҳатдан таҳлил қилиш муҳим ўринга эга. Бу эса, қисман жараённинг мураккаблиги, кўплаб агентлар, танловлар, ахборот ва моделлаштириш воситаларининг етишмаслиги билан боғлиқ муаммоларнинг ечимига олиб келиши муқаррар. Мамлакатимизда қишлоқ хўжалигини ривожлантириш, соҳа маҳсулоти экспортини ошириш, соҳанинг истиқболда жаҳон бозорларида ўз ўрни ва мавқеига эришиши учун қишлоқ хўжалигига хизмат кўрсатувчи инфратузилмани янада янги техника ва технологиялар билан жиҳозлаш, хизмат кўрсатиш фаолиятини янада такомиллаштириш, янги инновацияларни соҳага тадбиқ этиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Мева-сабзавот маҳсулотларини экспорти географиясини кенгайтиришда куйидагиларни амалга ошириш лозим:

- жаҳон бозорида ҳўл ва қайта ишланган мева маҳсулотлари экспортини географик тарқалишини мақсадли сегментларини ўрганиб, салоҳиятли бозор “ниша”лари бўйича маҳсулотларини жойлаштириш бўйича маълумотлар базасини ташкил қилиш ва уни ўрта ва узоқ давр учун стратегиясини ишлаб чиқиш;
- мева-сабзавот маҳсулотлари экспорти ассортиментини кенгайтириш учун замонавий идиш (тара) ишлаб чиқиш, қадоқлаш ва белгиловчи (маркировка) технологияларини мамлакатимизга олиб кириш ва 5 йил муддатда фойдаланиш учун молиявий, божхона ва солиқлар масаласида имтиёзлар бериш ва рағбатлантириш ҳамда унга халқаро донорлар маблағлари, шунингдек, инвестицияларни жалб этиш лозим.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Отақулов М. Ўзбекистон Республикасида қишлоқ хўжалиги мева-сабзавот маҳсулотлари экспорт салоҳиятини ошириш йшллари. //Пути механизмы дальнейшего развития и либерализации экономики в свете реализации Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах: материалы IX Форума экономистов/ под общей редакцией к.э.н. Ахмаджанова Ш.Х./ Ташкент: IFMR, 2017. – 336-341 с.
2. Шамсиева Ф. Мева-сабзавот маҳсулотлари экспортини эконометрик моделлаштириш. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. – 267-274 б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Мева-сабзавотчилик ва узумчиликда оилавий тадбиркорликни ривожлантириш, қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришида деҳқон хўжаликларининг улушини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-20 сонли қарори. 23 ноябрь 2021 йил.
4. Содиқов З. Ташқи савдонинг ривожланиш тенденцияси ва унинг муаммолари. “Иқтисод ва молия” журнали, №12 (132), 2019. – 47-53 б.
5. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика кўмитасининг расмий сайти маълумотлари <https://stat.uz/ru/default/ezhekvtartal-nye-doklady/9389-2021#tab-4>.

## ТУРКИСТОН АФҒОНЛАРИ ФАОЛИЯТИНИНГ ИМПЕРИЯ СТАТИСТИК ТЎПЛАМЛАРИДА ЁРИТИЛИШИ

*Маттиев Уткир Бегматдулобович*

*СамДВМЧБУ академик лицейи  
тарих фани ўқитувчиси.*

**Аннотация:** Россия империяси Ўрта Осиё ҳудудларини забт этиш билан биргаликда, ўлка аҳолиси таркиби, турмуш тарзи, маданияти ижтимоий-иқтисодий ҳаётини яхши билиш мақсадида империя манфаатларидан келиб чиққан ҳолда географик маълумотлар билан бир қаторда, ўлка халқларига оид этнографик ва статистик маълумотларни тўплай бошладики, бу маълумотлар бугунги кун тадқиқотлари учун асосий манбалар қаторида хизмат қилмоқда. Бироқ, бундай тадқиқотларнинг империя фойдасини кўзлаб ўтказилганлиги мавжуд манбаларни қайтадан таҳлил қилишни ва уларни ҳолисона ёритиш эҳтиёжини юзага келтиради. Мазкур мақолада Туркистон этник таркибидаги афғонларнинг тарихини ёритишда “Каспийорти вилояти шарҳномаси” ўрни хусусида фикр юритилган.

**Калит сўзлар:** Туркистон генерал – губернаторлиги, Каспийорти вилояти, Статистик тўпламлар, Этник қатлам, Кам сонли халқлар, Четдан кириб келган халқлар.

**Кириш.** Ўтказилаётган тадқиқотларнинг ишончлилиқ даражасини ошириш талаби тадқиқот даврига дахлдор бўлган манбаларни синчиклаб ўрганишни, уларни илмийлик нуқтаи назаридан таҳлил этилишини талаб қилади. Хужжатларнинг даврийлик, муайян бир ҳудудга хослик, соҳавий (масалан сиёсий, иқтисодий, ҳарбий, этнографик) жиҳатдан тўпланиши тадқиқотга оид маълумотларни манбашунослик жиҳатларини янада кенгайтирибгина қолмасдан, уларнинг илмийлик хусусиятини ва қийматини оширишга хизмат қилади. Юқорида келтирилган фикрлардан келиб чиққан ҳолда, Туркистондаги афғонларнинг XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларидаги тарихини тадқиқ этиш жараёнида фойдаланилган манбаларни катта гуруҳини империя даврида тузилган статистик тўпламлар ташкил этишини эслатиб ўтиш мақсадга мувофиқдир. Туркман қабилалари яшайдиган ҳудудларнинг забт этилиши билан ушбу ҳудуд тарихига доир “Каспийорти вилояти шарҳи” статистик тўпламлари тузила бошланди. Шунини қайд этиш лозимки, ушбу йиллик тўпламлар подшо Россияси кўрсатмаси асосида Каспийорти вилояти ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий ҳаётини ўрганиш мақсадида ишлаб чиқилган. Ҳар бир тўпламда вилоятнинг чегаралари, аҳолиси ва унинг этник таркиби, турмуш тарзи, урф-одат ва анъаналари, суғориш тизими, қишлоқ хўжалиги, ҳунармандчилиги, балиқчилик, чорвачилик, ер тузилиши, шаҳарлар, кўчирилган аҳоли ва уларнинг турмуш тарзи, банк соҳаси ва кредитлаш тизими, мавсумий ишлаши, минерал хом-ашёси, савдо-сотик ишлари, ўлпон ва мажбуриятлар, соғлиқни сақлаш муассасалари, жазолаш ва халқ таълими тўғрисида қимматли маълумотлар бериб ўтилган. “Шарҳлар”нинг якуний қисмида кўплаб тегишли иловалар келтирилган.

**Асосий қисм.** “Шарҳлар”нинг тузила бошланиши Россия империясининг туркман қабилалари ерини забт этиши жараёни билан биргаликда олиб борилган. Дастлабки “Шарҳлар” 1882 йилдан бошлаб тузилган бўлса-да, унга 1890 йилгача бўлган маълумотлар киритилган ва 1892 йилда Ашхободда нашр этилган. Бу манбанинг биз учун аҳамиятли жиҳати шундаки, унда Каспийорти вилоятининг 1882-1890 йиллар оралиғидаги иқтисодий-ижтимоий ҳолати билан боғлиқ жиҳатлар умумлашган ҳолда ёритилган ва у вилоят тарихини ўрганиш бўйича биринчи манбадир. Каспийорти вилояти Россия империяси ва Афғонистон ўртасидаги асосий савдо-иқтисодий масканлардан бири бўлган. 1885 йилда Кушканинг босиб олиниши натижасида 1887 йилгача бўлган муддатда Россия империяси билан афғонлар яшайдиган ҳудуд билан оралиғида рус-афғон чегараси тортилди.

Натижада бу ерда чегара постлари ва божхона муассасалари ташкил этилиб, асрлар давомида эркин алоқалар олиб борган афғон ва туркман алоқаларига нуқта қўйилади. Лекин бу билан ҳар иккала ҳудуд алоқалари батамом тўхтаб қолмади, балки улар фақат чегара ҳамда божхона постлари орқали давом эттирила бошлади. Дастлабки вақтларда Россия империясининг ҳали чегараларни мустаҳкам ўрнатмаганлиги, ҳудуд географиясини яхши билмаганлиги боис яширин равишда алоқалар мавжуд бўлганлиги, яна чегара ва божхона постларини айланиб ўтиш, солиқ ва тўловлардан қочиш ҳолатлари ҳам учраб турган. 1890 йилга оид манбада келтирилишича, афғонлар туркманлар яшайдиган ҳудуд ва улар ўртасидаги савдо алоқаларда воситачилик қилганлар. Савдо алоқалари 11 та божхона пунктлари орқали амалга оширилган. Бу чегара божхоналари қуйидагилар: Ашхабад, Душак, Серахс, Артик, Тахта-бозор, Гаудан, Каахка, Чикишляр, Қрасноводск, Чақан қалъа ва Қизиларват. Савдо божи келтириляётган маҳсулотларнинг 5%и миқдорида белгиланган[3,-462]. “Шарҳлар”да келтирилган маълумотларнинг манбасига ҳам тўхталиб ўтилган ва улар 4 турга бўлиб кўрсатилган:

1. Каспийорти темир йўл идорасининг ҳисоботлари.
2. Божхона кўмитасининг тўлов қайдномалари.
3. Уезд бошлиқларининг йиллик ҳисоботлари.
4. Хуросондаги бош консуллик хизмати маълумотномалари[4,-137].

1897 йилга тегишли “Шарҳлар”да савдо алоқаларига алоҳида эътибор қаратилган. Унда Давлат банкининг Асхобод бўлими савдо айланмаси йилдан-йилга ошиб борганлиги қайд этилган. Масалан, банк статистик маълумотларида савдо айланмаси 1895 йилда 18,5 минг рубл. бўлган бўлса, 1896 йилда – 23,7 минг рубл, 1897 йилда – 32,4 минг рублни ташкил этган[5,-169]. Ушбу манбадан фойдаланганда алоҳида синчковлик билан ёндашиш зарур, чунки айрим ўринларда бошқа манбалар билан солиштирганда чалкашликлар борлиги, ҳисоб-китоб ишларининг мукамал олиб борилмаганлиги кўзга ташланади. Бу даврга келиб импорт товарлар рўйхати ҳам 10 тадан ошган эди. Шунингдек, Россия империясининг Эрондаги Турбет-Ҳайдар ҳудуди орқали Афғонистон билан савдоси ҳажми кўпайган[5,-183]. 1898 йилдан бошлаб “Шарҳлар”да афғон фуқаролари ҳақидаги маълумотлар учрай бошлайди. Жумладан, Марв ва Тахтбозор ҳудудларида яшовчи 20 нафар афғон фуқаролари доимий аҳоли сифатида тилга олинган, Афғонистондан жами 29 872 пудлик, 156 026 рубллик маҳсулот киритилганлиги маълум қилинган[6,-185]. Тўпلامнинг 1901 йилги нашридан бошлаб афғон фуқаролари тўғрисидаги статистик маълумотлар янада аниқлаштирилган ҳолда берилди бошланган. Жумладан, Тажан уездининг 48 та қишлоқчасида жами 70 та афғон ва араб қабиласига мансуб оила яшаётганлиги ҳақида сўз боради[7,-7]. Ушбу тўпلامда қайд этилишича, Россия империяси Эр-Ойлон кўлидан туз қазиб олиб, экспорт қилган[7,-86]. Умуман олганда, “Каспийорти вилояти шарҳлари”да келтирилган маълумотлар вилоят ҳудудида Россия империяси даврида яшаган афғон фуқароларининг ижтимоий-иқтисодий ҳаётига оид маълумотларни тўлдиришга хизмат қилади. Ўрганиляётган мавзунинг асосий маълумотлари кўпроқ Каспийорти вилояти мисолида келтирилди. Чунки тадқиқот натижасида илмий изланишимиз объектига дахлдор фикрлар асосан вилоят тарихи билан биргаликда талқин этилганлигига гувоҳ бўлдик. Қолаверса, вилоят афғонлар билан энг яқин ва энг катта чегарага эга бўлиб, айнан шу ҳудуд орқали уларнинг Туркистон заминига кириб келиши бошқа ҳудудларга нисбатан кўп кўзатилган. Шу сабабли ҳам илмий тадқиқотда вилоят тарихига тегишли бўлган, лекин афғонлар фаолияти билан боғлиқ маълумотларнинг бир қисмини тадқиқотнинг манбашунослик қисмида манбавий нуқтаи назардан таҳлил қилган ҳолда қолган маълумотларни эса эса тадқиқотнинг бошқа бобларида тарихийлик жиҳатидан ёндашган ҳолда келтиришни жоиз деб ҳисобладик. XIX аср ўрталарида Россия империяси ўз чегараларини жанубга қараб силжитиб борар экан, талофатларнинг олдини олиш мақсадида дипломатиянинг турли услуб ва воситаларини қўллар эди. Жўмладан, Ўрта Осиё хонлиқларини таркибига кирувчи қабила ва уруғ бошлиқларини турли йўллар билан сотиб олиб, уларни марказий ҳокимиятга қарши қўяр эди. Бу ҳолат нафақат хонлиқлар, балки қўшни афғон халқлари билан ҳам юз берган. Афғон шимолидаги



В экологически неблагоприятных условиях, когда растущий организм подвергается воздействию различных абиотических факторов сдвигаются механизмы регуляторных систем, в первую очередь нервной и эндокринной. Изменение функционального статуса регуляторных систем, в свою очередь, приводят к активации и/или напротив, репрессии функции органов-исполнителей, важнейшими из которых являются органы пищеварительной системы, принимающих участие в гидролизе нутриентов пищи [3].

Учитывая то, что гидролитические системы желудочно-кишечного тракта, в частности активность ферментов мембранного пищеварения особенно подвержена воздействию различных факторов в раннем онтогенезе [4], в настоящей работе сделана попытка изучить влияние экспериментальных гипотиреоза, гипoinsулинемии и хронического стресса, вызванного хроническим недоеданием крыс, на постнатальное становление механизмов полостного и мембранного пищеварения углеводов.

**Материалы и методы.** В опытах были использованы растущие беспородные белые крысы периода молочного питания. Потомство получали от крыс (самок и самцов) со средней массой  $200,0 \pm 20,0$  г. Животных делили на 4 группы – одну контрольную и три опытные. В первой опытной группе у крыс вызывали гипотиреоз ежедневным введением 0,02% раствора мерказолила в течение 2-недель, во второй опытной группе у крыс вызывали сахарный диабет 1 типа внутрибрюшинным введением аллоксана в дозе 150 мг/кг, а в третьей группе крысы находились на режиме недоедания, который вызывали увеличение количества крыс-сосунков в помете (16 крыс вместо 8). Контрольная группа крыс оставалась интактной. Растущие крысы содержались в условиях естественного свето-темнового режима с кормящей самкой до конца исследования. Животные находились на рационе вивария и обычной питьевой воде, которые получали без ограничения. Крысят в контрольной, первой и второй опытных группах после рождения распределяли по 8 особей на каждую лактирующую самку. В третьей опытной группе, с хроническим недоеданием в помете вместо 8 оставляли 16 крыс-сосунков. Фармакологическое угнетение функции эндокринных желез у крыс начинали с 14-го дня постнатальной жизни. Из каждой группы забивали по 8-10 особей на 14-й, 21-й и 28-й дни постнатальной жизни. После забоя вскрывали брюшную полость и в условиях холода отделяли поджелудочную железу и тонкую кишку от других отделов желудочно-

кишечного тракта. Далее определяли массу исследуемых органов и готовили гомогенаты нужного разведения в физиологическом растворе. В полученных гомогенатах биохимическим методом определяли специфическую активность пищеварительных карбогидраз. Панкреатическую  $\alpha$ -амилазную активность определяли методом Уголева (1969) [6], во убыли крахмала в субстрате. Активности энтеральной лактазы, сахаразы и мальтазы определяли глюкозооксидазным методом Далквиста (1968) [7]. Активность ферментов выражали в расчете на 1 г ткани в мг/мин расщепленного крахмала для  $\alpha$ -амилазы и в мкмоль/мин образовавшейся глюкозы для лактазы, сахаразы и мальтазы. Статистическую обработку проводили с использованием критерия Стьюдента-Фишера с определением коэффициента Стьюдента  $t$  и показателя достоверности  $P$ .

**Результаты и обсуждение.** Оказалось, что специфическая  $\alpha$ -амилазная активность как у контрольной, так и у опытных групп животных возрастала с 14-го по 28-й день постнатальной жизни. Сравнение результатов, полученных у контрольных и опытных групп показывает, что обработка крыс мерказолилом ингибирует синтез  $\alpha$ -амилазы поджелудочной железой у потомства крыс. Такой тормозящий эффект гипотиреозного состояния сохранялся до 28-дневного возраста.

Введение аллоксана, т.е. ингибирование  $\beta$ -клеток поджелудочной железы, напротив, приводило не к уменьшению, а к увеличению активности  $\alpha$ -амилазы поджелудочной железы. Длительное недоедание растущих крыс в период молочного питания существенно не изменяя специфической активности фермента, приводило к уменьшению её интегральной активности. Различные манипуляции над растущими крысами, связанные с ингибированием функций эндокринных желез, приводили к изменению специфической активности мембрано связанных карбогидраз, ответственных за мембранный гидролиз лактозы, сахарозы и мальтозы в тонком кишечнике у растущих крыс.

Так, специфическая активность лактазы у крысят контрольной группы была на высоком уровне в 14-дневном возрасте и прогрессивно снижалась до конца периода наших наблюдений, составляя  $17,1 \pm 1,0$  мкмоль/мин/г ткани в 21-дневном и  $4,4 \pm 0,2$  мкмоль/мин/г ткани в 28-дневном возрасте. Экспериментальный гипертиреоз приводил к заметному снижению энтеральной лактазной активности у потомства в 21- и 28-дневном возрасте. У животных с вызванным диабетом, равно как и у недоедавших крыс активность щеточнокмёмной лактазы не уменьшалась, а напротив, увеличивалась. Такой повышенный уровень лактазной активности у крыс с вызванным гипертиреозом наблюдался в этих группах крыс до конца опытов. Сахаразная активность, которая, по данным литературы, отсутствует у крыс в период собственно лактотрофного питания и внезапно появляется к моменту перехода на дефинитивную пищу [3, 4, 5], проявляла в наших экспериментах следующие изменения. Она отсутствовала на 14-й день жизни как у контрольной, так и у опытных групп крысят, резко появлялась у 21-дневных животных и прогрессивно возрастала к 28-му дню жизни.

Гипотиреоз приводил к резкому снижению уровня специфической активности сахаразы у 21- и 28-дневных крыс. Гипоинсулинемия и хроническое недоедание растущих крыс вызывали заметное увеличение активности фермента, которое особо отчетливо появлялось к периоду отнятия. Изменение гормонального статуса растущих крыс, отражалось и на ходе развития мальтазной активности. Удельная активность мальтазы несколько увеличивалась у контрольной групп животных с 14-го по 28-й день постнатальной жизни.

Гипотиреоз существенно угнетал синтез специфической активности фермента в слизистой оболочке тонкого кишечника растущих крыс до конца наблюдений. В опытных группах крыс с вызванной гипоинсулинемией и недоеданием специфическая активность мальтазы была выше, чем в контроле. Следует отметить, что гипотиреоз, гипонсулинемия и хроническое недоедание растущих крыс вызывали также гипотрофию поджелудочной железы и тонкой кишки у развивающихся крыс. Заметное снижение массы поджелудочной железы и слизистой тонкой кишки наблюдалось у всех опытных групп крыс на протяжении всего наблюдения.

Имеющая место гипотрофия поджелудочной железы и слизистой тонкой кишки не могла не сказаться на интегративной активности панкреатической  $\alpha$ -амилазы и энтеральных лактазы, мальтазы и сахаразы, отражающих гидролитический потенциал по отношению к соответствующим углеводам. Эти данные согласуются с данными других авторов, в которых показано, что неблагоприятные факторы окружающей среды в ранние сроки после рождения приводят к глубоким сдвигам морфофункциональных характеристик желудочно-кишечного тракта у млекопитающих [1, 4].

**Вывод.** Таким образом, полученные результаты показывают, что изменение гормонального статуса растущих крыс, вызванного фармакологическим угнетением или стрессовым состоянием эндокринных желез существенно отражается на темпах развития полостного и мембранного пищеварения. Эти результаты указывают на задержку структурно-функционального созревания поджелудочной железы и тонкой кишки у потомства, одним из показателей которого является снижение соотношения активности лактаза/сахараза [4]. Такой эффект в условиях наших экспериментов, очевидно, обусловлен сложными изменениями, происходящими на уровне нейрогормонального статуса растущего организма. Было показано, что гормональный статус у потомства является одним из существенных триггеров, изменяющих карбогидразный спектра поджелудочной железы и тонкой кишки [1, 2]. В частности, он связан с отставанием формирования гипоталамо-гипофизарно-кортикоидной и гипоталамо-гипофизарно-тиреоидной осей, имеющих место в ранние периоды онтогенетического развития [2; 4]. Первая из этих осей обеспечивает созревание активности дефинитивных карбогидраз (сахаразы, мальтазы,  $\alpha$ - и  $\gamma$ -амилазы, а вторая – снижение активности лактазы, которая имеет место у большинства млекопитающих ко времени перехода от лактотрофного на дефинитивное питание [1].

#### Литература:

1. Кучкарова Л.С., Каюмов Х.Ю., Бердиёрова С.Х. Роль факторов внешней среды в развитии кишечного пищеварения // Материалы международной научной конференции “Сахаровские чтения, 2019 год Экологические проблемы 21 века” – 23-24 мая, Минск, Республика Беларусь, 2019. – С. 96-99.
2. Тимофеева Н.М., Егорова В.В., Никитина А.А., Дмитрова Ю.В. Отдаленные последствия влияния сроков отнятия крысят от лактирующей самки и кормления низкобелковой диетой на активность ферментов пищеварительных и непищеварительных органов // Бюл. экспер. биол. и мед. -2008. -Т.145. -№6. -С.621-625.
3. Агаджанян Н.А. Основы физиологии человека / Н.А. Агаджанян, И.Г. Власова, Н.В. Ермакова, В.И. Торшин. М.: изд. РУДН, 2000. - 408 с.
4. Егорова В.В., Никитина А.А., Тимофеева Н.М. Функционирование ферментных систем пищеварительных и непищеварительных органов у взрослых крыс зависит от качества питания в раннем онтогенезе // Ж. эвол. биохим. и физиол. -2005. -Т.41. №6. - С.514-519.
5. Рахимов К.Р., Демидова А.И., Махмудов А.А. Возрастные особенности изменения активности ферментов полостного и мембранного гидролиза углеводов при стрессе // Физиол. журн. им. Сеченова. -1996. – Т.82. - №3.- С. 89-94.
6. Уголев А.М., Иезуитова Н.Н., Масевич Ц.Г. и др., Исследование пищеварительного аппарата у человека. 1969.-Л., Наука, 216 с.
7. Dahlqvist A. Assay of intestinal disaccharidases // Anal. Biochem. -1968. -V. 22. - P. 99-107.

## HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYAT

*Mirzakarimov Shahzodbek Dilshodjon o'g'li*

*Berdaq Nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti*

*Yuridika fakulteti Yurisprudensiya mutaxassisligi 3-bosqich talabasi.*

**Annotatsiya:** Huquq ijodkorligi, huquqni qo'llash faoliyati va boshqa yuridik hodisalarga o'ziga xos umumbashariy madaniyat yutug'i sifatida qarash mumkin bo'lib, ularni ifodalash uchun huquqshunoslikka maxsus tushuncha kiritilgan. Mazkur maqolada esa "huquqiy ong" kategoriyasi huquqiy voqelikning alohida o'lchovini ifoda etuvchi ana shunday tushuncha sifatida xizmat qilishi, uni yurtimiz fuqarolarining erkinligi, birodarligi, xalqlar va millatlararo do'stligi, insonning o'z xohish-irodasini erkin bildirishi hamda uni amalga oshirishida yaqqol ifodasini topayotgani chuqur yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** huquq, yuridik, ijtimoiy mafkura, axloqiy javobgarlik, ruhiyat, muhofaza, tarbiya, muhtoj, kategoriya, jamiyat, bunyodkorlik, insonparvarlik.

Huquq ma'naviy hayot hodisasi sifatida ijtimoiy ong sohasiga mansubdir. Huquq ijodkorligi, huquqni qo'llash faoliyati va boshqa yuridik hodisalarga o'ziga xos umumbashariy madaniyat yutug'i sifatida qarash mumkin bo'lib, ularni ifodalash uchun huquqshunoslikka maxsus tushuncha kiritilgan. "Huquqiy ong" kategoriyasi huquqiy voqelikning alohida o'lchovini ifoda etuvchi ana shunday tushuncha sifatida xizmat qiladi. Huquqiy ong jamiyat va davlatda serqirra hayotiy jarayonlarning barchasini tartibga solishga faol ta'sir ko'rsatadi, ommani bunyodkorlik ishlariga safarbar etadi, jamoat tartibini saqlash va mustahkamlashga ko'maklashadi. Jamiyat huquqiy ongining yuqoriligi, fuqarolarning qonunga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishi demokratik davlatning, siyosiy va huquqiy tizim samarali amal qilishining garovidir.

Huquqiy ong ijtimoiy ong turlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ijtimoiy ongning turli shakllari mavjud bo'lib, odamlar ular yordamida atrof-tabiatni, jamiyatni keng ma'noda anglaydilar. Siyosiy, axloqiy-ma'naviy, estetik, etik, diniy, huquqiy ong mavjud. Ammo real hayotda ko'pgina vaziyatlarga, shart-sharoitlarga faqatgina huquq, majburiyat, mas'uliyat nuqtayi nazaridan qaraladi. Huquqiy ong, birinchi navbatda, huquqni, odamlarning ham amaldagi, ham idealdagi huquqqa nisbatan munosabatini ifoda etuvchi tasavvurlar va his-tuyg'ular yig'indisidir. Huquqiy ong jamiyat a'zolarining huquq haqidagi, ijtimoiy hayotda real mavjud bo'ladigan huquqiy hodisalar haqidagi qarashlari, tasavvurlari, hissiyotlari, baholashlari, ruhiy munosabatlari yig'indisidir.

Shu nuqtayi nazardan mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida shakllangan huquqiy ongning tabiati va mohiyatiga yondashiladigan bo'lsa, uning mazmunida jamiyatda qaror topayotgan demokratik huquqiy qadriyatlar va tamoyillar, huquqiy tizimdagi islohotlar va modernizatsiyalash jarayonlari xususidagi fuqarolarning qarashlari, tasavvurlari, hissiyotlari, ruhiy kechinmalari majmui aks etadi. Huquqiy ong huquq bilan umumiy tabiatga ega. Huquqiy ong jamiyatning obyektiv ehtiyojlari va manfaatlari, turli ijtimoiy guruhlarning ta'siri ostida shakllanadi; o'zgarib boruvchi hayotiy shart-sharoitlar va jarayonlar ta'siri ostida jo'shqin rivojlanadi; ijtimoiy ongning tarkibiy qismi bo'lganligi bois falsafiy, mafkuraviy va siyosiy qarashlarning ta'siriga uchraydi. Huquq — erkinlik me'yorini belgilab yoki chegaralab, majburiyat yuklab va aniqlab, kishilar faoliyatini ijobiy yo'naltirish uchun ularning fe'l-atvoriga faol ta'sir ko'rsatadi. Huquqning tartibga soluvchi xususiyati, uning kishi ongiga ta'siri orqali yuzaga chiqadi. Huquqiy talablar dastlab ongda aks etib, shaxs tomonidan anglab yetiladi, tushuniladi va ruhan o'zlashtiriladi, insonning huquqqa munosabatini belgilovchi taassuroti va e'tiqodi murakkab bilimlar natijasida shakllanadi. Huquq ijtimoiy hodisa sifatida ongdan tashqarida mavjud bo'la olmaydi. U haqiqiy voqelikning boshqa barcha hodisalari kabi jamiyat ongida aks etib, nafaqat uning in'ikosi, balki bilish quroli yoki usuliga aylanadi. Ushbu murakkab ruhiy sohada kehadigan fikrlash va tafakkur jarayoni huquqiy haqiqatning ongdagi aksini tushunib yetish va huquq haqidagi bilimlarni shakllantirish bilan bog'liq.



Huquq va ong o'rtasida vujudga keladigan uzviylikni nazarda tutib, avvalo, huquqiy ong tushunchasini oydinlashtirib olish lozim. Huquqiy ong deganda, kishilarning huquq haqida tushuncha va bilimlarga ega bo'lishi, shuningdek, huquq borasidagi tasavvurlarning inson ongida aks etishi tushuniladi. Huquqiy ong ijtimoiy ong shakllaridan biridir. Demak, u ongning yagona shakli emas. Huquqiy talabni tushunishda, huquqiy bilim darajasi, yangiliklardan xabardorligi, umumiy va huquqiy madaniyatning saviyasi shubhasiz katta ahamiyatga egadir.

Huquq — qanday fe'l-atvor shaklida (qonuniy yoki qonunsiz) amalga oshirilmasin, u barcha hollarda, avvalo, insonning ongiga qaratilgan bo'lib, u orqali fe'l-atvorni tartibga solishga ta'sir ko'rsatiladi. Huquq va huquqiy ongning yuqoridagidek o'zaro ta'sirida, shu murakkab ijtimoiy hodisaning ijtimoiy munosabatlarga ta'sir kuchi va tartibga soluvchi ta'sirining mohiyati namoyon bo'ladi. Huquqiy ongning asosiy tarkibiy elementlari huquqiy ruhiyat (psixologiya) va huquqiy mafkura (ideologiya). Huquqiy ruhiyat (psixologiya) - bu alohida ijtimoiy guruh shaxs yoki butun jamiyatda stixiyali ravishda vujudga keladigan huquqiy tuyg'ular, hissiyotlar, kayfiyatlar, fikrlar yig'indisidan iborat bo'lgan huquqiy ongning tarkibiy elementi.[1] Huquqiy ruhiyat jamiyatdagi mavjud huquqiy muhitning bevosita ta'siri ostida vujudga keladi va huquqiy ongning boshlang'ich pog'onasi hisoblanadi. Huquqiy ongning aynan shu darajasidan huquqiy reallikni anglash u bilan dastlabki tanishuv boshlanadi. Huquqiy mafkura (ideologiya) bu muayyan ijtimoiy guruhlarning jamiyatning huquqiy qarashlari g'oyalari, tasavvurlari va talablarning ilmiy tizimlashtirilgan ifodasidir. Huquqiy mafkura g'oyalar, konsepsiyalar, huquqiy tamoyillar huquqni rivojlantirish istiqbollarini baholash, huquqiy aktlarni qabul qilishning maqsadlari vazifalari ko'rinishda namoyon bo'ladi.

**Huquqiy ongning turlari va darajalari.** Huquqiy ongni subyektlarga ko'ra (individual huquqiy ong, guruhiy huquqiy ong, ijtimoiy huquqiy ong) tasniflash mumkin. Individual huquqiy ong bu har bir shaxs, alohida insonga xos huquqiy bilimlar, baholar hissiyotlar va tuyg'ular majmuyi hisoblanadi. Har bir inson turli bilish qobilyatlari, shaxsiyatning turli psixologik ko'rinishlari oqibatida amaldagi huquqni o'zicha qabul qiladi, uni baholaydi, qonuniy yoki qonunga zid ravishda xatti-harakat qilish istagini bildiradi. Individual huquqiy ong fuqarolar tomonidan yuridik ahamiyatga molik xatti-harakatlar sodir etilganda, huquq va erkinliklar amalga oshirilganda, qonuniy manfaatlar himoya qilinganda, turli ko'rinishdagi huquqiy hujjatlar tayyorlashda namoyon bo'ladi.

Hozirgi jamiyatning asosiy huquqiy tamoyillari sirasiga mavjud imkoniyatlardan foydalangan holda fuqarolarning huquq va erkinliklarni himoya qilish, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ijodiy va boshqa faoliyat turlarining teng huquqliligi, insonparvarlik, erkinlik, qonun ustuvorligini tan olish kabilarni kiritish mumkin. Huquqiy saviyasiga ya'ni darajasiga ko'ra, **oddiy huquqiy ong, ilmiy huquqiy ong, professional (kasbiy) huquqiy ong**larga tasniflanadi. Odatiy huquqiy ong bevosita kishilarning hayotiy shart-sharoitlarni, ularning hayotiy tajribalari asosida shakllanadi. Unda ruhiy elementlar, ya'ni hissiyotlar, ehtiroslar muhim rol o'ynaydi. Professional (kasbiy) huquqiy ong huquqshunoslar, ya'ni maxsus yuridik ma'lumot va tayyorgarlikning amaliy tajribasi talab qilinadigan kasb egalari huquqiy ongidir. Huquqshunoslar uchun huquqiy bilimlarga ega bo'lish muhim ahamiyatga ega. Ushbu bilimlar fuqarolar darajasidan ancha yuqori bo'lishi, huquq tamoyillari va normalari yuzasidan ma'lumotlarning ko'lam qay darajada teranligi, rasmiylashtirilgan mohiyati bilan ajralib turishi, eng muhimi ular haqiqatan ham shu bilim va ko'nikmakarni amaliyotda qo'llay olish qobiliyatiga ega bo'lishlari lozim. Professional huquqshunoslar ongi, siyosiy huquqiy qarashlar, bilimlar his-tuyg'ular, qadriyatlar va huquqiy ongning boshqa tarkibiy qismlarini tashkil qiluvchi tizmlari sifatida namoyon bo'ladi.[3]

Ilmiy huquqiy ong – huquqni tizimga solib, nazariy o'zlashtirishda ifodalanuvchi g'oyalar, konsepsiyalar, qarashlardan iborat. Bunday huquqiy ongga ega shaxslar sifatida yuridik yo'nalishdagi ilmiy tadqiqot institutlari, oliy yuridik o'quv yurtlari tizimida faoliyat ko'rsatuvchi huquqshunos olimlarni ko'rsatib o'tish mumkin. Huquqiy ongning funksiyalari deganda, shaxsni huquqiy doirada ijtimoiy faol yurish-turishiga ta'sir etuvchi asosiy yo'nalishlar tushuniladi. Huquqiy ong funksiyalari tushunchasini uning subyekti faoliyati natijasida yuzaga keladigan tizimlashgan g'oyalar sifatida ta'riflash mumkin.



Huquqiy ongning huquqiy tartibga solish mexanizmdagi maqsadlariga ko'ra uning funksiyalarini quyidagicha tasniflash mumkin: rag'batlantiruvchi funksiyasi, ijtimoiy nazorat funksiyasi, tarbiyaviy funksiyasi, bashorat qilish funksiyasi va boshqalar. Muallif qo'shimcha tarzda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning zarur sharti ekanligini ta'kidlab o'tmoqchi. Misol uchun: huquqiy tarbiya – bu jamiyat a'zolarining yurish-turish madaniyatiga va ongiga huquq haqidagi bilimlarni doimiy ravishda maqsadga muvofiq ta'sir etish orqali singdirib berish jarayonidir. Huquqiy tarbiya – bu huquqiy tajriba almashish bo'yicha davlat, jamoat tashkilotlari, alohida fuqarolarning bir maqsadga yo'naltirilgan faoliyati huquqiy normalariga rioya qilish, ularni bajarish va bu normalardan foydalanishni ta'minlovchi muayyan ijobiy tasavvurlar, qarashlar, qadriyatlarni tushunish yo'l-yo'riqlarni shakllantirish maqsadida shaxs ongi va xulq-atvoriga doimiy ta'sir o'tkazib borishdir. Huquqiy targ'ibot, huquqiy ta'lim, yuridik amaliyot va o'zini o'zi tarbiyalash huquqiy tarbiya vositalariga kiradi. Huquqiy ta'sir mexanizmining tarkibiy elementi bo'lgan huquqiy tarbiyaga, shuningdek, huquqiy munosabatlarda subyektlarning axloqi va huquqiy ongiga ta'sir qiluvchi vosita sifatida ham qarash mumkin.

Muallif yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha vositalarni qo'llash asosida huquq haqidagi axborotlarni yetkazish, qabul qilish, o'zgartirish va undan foydalanish hamda uni amalda ro'yobga chiqarishni, ko'zda tutuvchi huquqiy xabardorlikni amalga oshirish masalalari yotadi. Huquqiy tarbiya bevosita huquqiy ong va huquqiy madaniyatning shakllanishi va o'zgarishida muhim vosita bo'lib hisoblanadi. Huquqiy tarbiya huquqiy bilimlarni yoyish, to'g'ri xulqning muhimligi va qimmatini, ularni qabul qilish va keyinchalik o'zlashtirib olish maqsadida shaxs va jamiyat hayotidagi qonuniylik va boshqa huquqiy holatlardan iboratdir. Huquqiy faoliyatni qadriyat sifatidagi anglanishi ta'siri ostida shaxsning muayyan harakat tarziga moyilligi yuzaga keladi. Binobarin, huquqiy ong nafaqat yuridik voqelikni, odamlarning huquq sohasidagi xulq-atvorini ifodalaydi, balki xulq-atvorni tartibga solishda, shuningdek, ijtimoiy hayotning obyektiv jihatdan huquqiy me'yorlashga muhtoj bo'lgan munosabatlarini belgilashda ham ishtirok qiladi. Shu ma'noda huquqiy ong huquqning g'oyaviy manbayidir. Fuqarolarning yuksak huquqiy ongi va huquqiy faolligi ma'rifiy jamiyatda huquq ustuvorligining, huquqiy davlatning poydevoridir. Fuqarolarning huquqiy ongini shakllantirish – huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashning zaruriy talabidir.

Huquqshunoslikda huquqiy ong, huquqiy tarbiya va huquqiy madaniyat kategoriyalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Ushbu tushunchalar bir-birini to'ldiradi va o'zaro chambarchas bog'liqdir. Huquqiy madaniyat — huquqiy ong va huquqiy tarbiyaning mahsuli. “Huquqiy madaniyat” tushunchasiga tavsif berishdan oldin “madaniyat” iborasining mazmun va mohiyatini tushunib olish maqsadga muvofiqdir, chunki huquqiy madaniyat “huquq” va “madaniyat” kabi tushunchalarning birlashmasi natijasida yuzaga kelgan va shakllangan. Madaniyatning umumiy ta'rifiga nazar tashlasak, bugungi kunda ijtimoiy fanlar doirasida “madaniyat” tushunchasi turli-tuman, qarama-qarshi talqin va fikrlarga boy bo'lgan boshqa ijtimoiy hodisani topish qiyin. Huquqiy madaniyat jamiyat va shaxsning huquqiy holati timsolida qabul qilinishi mumkin bo'lgan alohida ijtimoiy hodisadir. Huquqiy madaniyat nazariyasiga oid barcha muammolar atroflicha o'rganilishi zarur. Shu bilan birga, har bir muayyan holatda madaniyatning turlicha ko'rinishlarini tushunishdan qat'iy belgilanadigan u yoki bu jihati ustun bo'ladi. Huquqiy hayotda, ma'rifatparvarlikning shakllanishini ta'minlashda, inson omilini oshirish nuqtayi nazaridan yondashilganda, avvalambor, huquqiy madaniyatning mazmuniga e'tibor qaratish zarurligi namoyon bo'ladi. Huquqiy madaniyat deganimizda, avvalambor, jamiyatning qonunchilik darajasi, mavjud qonunlardan aholining xabardorlik darajasi, xalqning huquq normalariga rioya qilishi va ularni bajarmagan shaxslarga nisbatan murosasiz bo'lishi tushuniladi. Huquqiy madaniyat shartli ravishda jamiyat va shaxs huquqiy madaniyatiga ajratiladi. O'zbekiston qonunlarida xalqaro huquqning jahonda tan olingan prinsiplari va normalari o'z ifodasini topdi va mustahkamlandi. Ular rivojlangan mamlakatlar huquqiy tizimining ilg'or yutuqlarini davom ettirdi, qadimiy mamlakatimizning tarixiy-huquqiy tajribasini qamrab oldi. Huquq – huquqiy madaniyatning eng birinchi va asosiy tarkibiy qismi. Qonunlarda, davlat-huquqiy tuzilishida, huquqiy tartibga solish va huquqiy madaniyat institutlari

hamda mexanizmlarida ko'z o'ngimizda yuz berayotgan chuqur o'zgarishlar, huquqiy rivojlanishning olamshumul, strategik istiqbollari va maqsadlari to'g'risida o'ylash, mamlakatimizda yuz berayotgan huquqiy islohotlarni jahondagi[1] huquqiy rivojlanish jarayoni bilan "moslashtirish", unda O'zbekistonning o'rni hamda ushbu o'ringa mos islohotchilik yo'nalishlari va maqsadlarini aniqlash zarur. Huquqiy madaniyat betakror ijtimoiy voqelikdir. Bugungi kunda mustaqil O'zbekiston o'z taraqqiyotining butun asosi bo'lmish huquqiy madaniyatni qaytadan tiklamoqda. Xalqimizning teran ma'naviy-huquqiy merosi, uning boy tabiiy va ashyoviy imkoniyatlari, mustahkamlanib borayotgan xalqaro aloqalari huquqiy madaniyatni shakllantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib bermoqda. Yuksak huquqiy madaniyatga asoslangan demokratik jamiyatning xalqaro miqyosda e'tirof etilgan prinsiplari bor. Tenglik, erkinlik, birodarlik, xalqlar va millatlararo do'stlik, insonning o'z xohish-irodasini erkin bildirishi hamda uni amalga oshirishi, ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi, barcha fuqarolarning teng huquqliligi, davlat asosiy idoralarining saylanishi, ularning saylovchilar oldida hisob berishi, davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustunligi, tayinlash yo'li bilan shakllanadigan davlat idoralarining saylovchi tashkilotlar oldidagi javobgarligi va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Jahonning ma'rifiy rivojlangan mamlakatlari e'tirof etgan huquqiy madaniyat va davlat suverenitet, demokratiya va xalqaro huquqning ustunligi kabi umumbashariy qadriyatlar O'zbekiston davlatchilik manfaatlariga, xalqning o'ziga xosligiga, uning milliy an'ana va urf-odatlariga to'la mos keladi. huquqiy madaniyat O'zbekistonda Konstitutsiya va qonunlar bilangina emas, balki xalqning o'z ongi, uning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashi va huquqiy tajribasi, mehr-shafqati bilan mustahkamlanadi. "Mustaqil O'zbekistonning kuch-qudrat manbayi xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqdigidir. Huquqiy madaniyatning darajasi huquqiy tizimning rivojlanganlik darajasi, davlat va jamiyat institutlarining xalqchilligi, aholining bilim darajasi huquqiy ongi va jamiyatdagi huquqiy mafkura bilan uzviy aloqadorlikdadir[2]

Xulosa qilib aytganda, huquqiy ong va huquqiy madaniyatga egalik kishilik jamiyatining barcha darajadagi munosabatlarini qat'iy nazoratga oluvchi va tartibga soluvchi muhim mezondir. Ijtimoiy holati, mansabidan qat'iy nazar fuqarolarning teng maqomda bo'lishi, o'z huquqlaridan foydalanishi, mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy hayotida faol qatnashishini kafolatlovchi mustahkam tizim bu huquqiy ongning amaldagi ifodasi hisoblangan huquqiy madaniyatdir. Binobarin, demokratik davlatimizda erkin va farovon yashash fuqarolarning birligi va birdamligiga chambarchas bog'liq. Birlik va birdamlik esa bir-birini tushunish, mamlakat taraqqiyoti sari birgalikda odimlash, o'zini yurt taqdiriga dahldor deb hisoblash demakdir. Mustaqil O'zbekiston zaminida tug'ilgan, voyaga yetayotgan har bir yoshning huquqiy tarbiyaga ega bo'lishi g'oyat muhim. Ijtimoiy-huquqiy, siyosiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sohalarida kechayotgan o'zgarish va yangilanishlarga daxldorlik hissi bilan yashash, amaldagi qonun va qonunosti hujjatlarga hurmat, burchga sadoqat kabilarning barchasi aslida huquqiy tarbiya negizida vujudga kelgan huquqiy ong va huquqiy madaniyatning ifodasidir. Huquqiy tarbiya huquqiy ong va huquqiy madaniyatning asosidir. Kishilarning huquqqa, qonunga, odil sudlovga bo'lgan munosabatlarini ifodalaydigan qarashlar yig'indisi hisoblangan huquqiy ong huquqiy madaniyatga chambarchas bog'liq. Huquqiy tarbiya siyosiy yetuklikka yo'l ochadigan ta'limiy faoliyatning ajralmas qismidir. Inson huquq va erkinlilari ta'minlangan, himoya qilingan hamda kafolatlangan mustaqil O'zbekiston davlatining taqdiriga befarq bo'lmaslik har bir shaxsning fuqarolik burchi. Bu burchni anglash esa yuksak insoniy fazilatlar natijasi o'laroq yuzaga keladigan axloqiy jarayon ifodasidir. Fuqarolarning yuksak huquqiy ongi va huquqiy faolligi ma'rifiy jamiyatda huquq ustuvorligining, huquqiy davlatning poydevoridir. Fuqarolarning huquqiy ongini shakllantirish – huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashning zaruriy talabidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. 2009-yil X.T.Odilqoriyev. "Davlat va huquq nazaryasi". Darslik. "Sharq" nashriyoti.
2. 1998-yil U.Tadjixanov. A.Saidov. "Huquqiy madaniyat" 1-tom darslik. Akademiya nashriyoti
3. 2011-yil N.Saburov. Sh.Saydullayev. "Davlat va huquq nazariyasi" darslik TDYI nashriyoti.

## СЎЗ ЯСАЛИШИ МОТИВАЦИЯСИ ВА УНГА ЁНДОШ ҲОДИСАЛАР ХУСУСИДА

*Мирзоаҳмедов Мухтор Мавлонович*

*Тожикистон, Хужанд шаҳри, академик Б.Ғафуров номидаги  
Хужанд давлат университети, ўзбек филологияси факултети,  
ўзбек тили ва уни ўқитиш методикаси кафедраси доценти.*

**Аннотация:** Мақолада тилшуносликнинг сўз ясаши сатҳига хос марказий ҳодисалардан бири саналувчи сўз ясаши мотивацияси, сўз ясаши мотива цияси ва валентлик муносабати, мотивация ва номинация муносабати сингари масалалар ўрганилган.

**Таянч сўз ва иборалар:** Диахрон сўз ясаши, синхрон сўз ясаши, сўз ясаши мотивацияси, мотивация муносабати, валентлик, мотивация ва номинация муносабати, рамзий-ишоравий белги ва б.

Сўз ясаши мотивацияси лисоний-мантикий тушунча бўлиб, сўз ясашида марказий ўринда туради. Мотивация муносабати орқали тилнинг ҳар бир синхрон босқичида туб ва ясама сўзлар алоқадорлиги, ясалмани ташкил этувчи қисмлар орасидаги шакл ва маъно муносабатлари ўрганилади. Айнан мана шу муносабат доирасида ясама сўзнинг маъносига сабаб бўлувчи конкрет лисоний белги ва хусусиятлар аниқланади. Мотивация туфайли сўз ясашининг диахрон ва синхрон жабҳалари фарқ қилади. Шу боис мазкур мақолада айнан синхрон сўз ясашига хос мотивация муносабати, унга ёндош ҳодисалар ва унинг турларини ўрганишга эътибор қаратилди. Синхрон сўз ясаши ва унга хос мотивация жараёни валентлик тушунчаси билан ҳам алоқадордир. Валентлик тушунчасига 1948 йили Кацнельсон томонидан асос солинган. Тил бирликларининг бирикувчанлик лаёқати валентлик деб аталган. Шу боис валентлик синтагматиканинг асоси ҳисобланади. Ғарб тилшунослигида валентлик назарияси француз олими Л.Теньер томонидан ривожлантирилди. Л.Теньер таълимотида валентлик феълга нисбатланади. Феъл семантикасининг актантлар туфайли синтактик жабҳада кенгайиши (воқеланиши) валентлик деб қаралган. Шунга биноан, феъллар валентсиз, бир валентли, икки валентли ва ҳ.к. турларга ажратилган.

Хуллас, А.Теньер таълимотида валентлик тор доирада қаралган. Валентликка кенг маънода ёндашув ҳам йўқ эмас. Г.Хельбиг ва М.Д.Степановалар барча сўз туркумларига хос бирикувчанликка нисбатан валентлик атамасини ишлатганлар (1).

Дарҳақиқат, валентлик барча сатҳ тил бирликларининг синтагматик муносабатини рўёбга чиқарувчи кенг қамровли ҳодисадир. Уни сўз ясаши структураси ва унинг таркибий қисмлари муносабатида ҳам кўrsa бўлади, яъни мотивловчи асос ва мотивловчи формантларнинг ўзаро бирикуви ҳам валентликка асосланади. Ясовчи асос (мотивловчи асос) ва ясовчи формант (мотивловчи восита) ички мосликка - семантик мосликка эга бўлмаса, тилнинг амалдаги меъёрига мос янги ясалма ҳосил бўлмайди. Бу ҳол айниқса, аффиксал сўз ясашида фаолдир. Масалан, *ўт, гул, қамиш* сингари лексемалар ясовчи асос мақомида *-зор* аффикси билан бирика олади ва *ўтзор, гулзор, қамишзор* сингари ясалмаларни вужудга келтиради: ясовчи асос ва ясовчи формантлар ички (семантик) мосликка эга. Ўзбек тилида айрим ўринларда *-зор* аффиксининг маъно ва вазифаси *-лоқ* аффиксида ҳам мавжуд. Бу аффикс «*ўт*» ясовчи асосига кўшилиб, ўтлоқ ясалмасини ҳосил қилгани ҳолда, *гул, қамиш* каби лексемаларга ясовчи формант сифатида кўшила олмайди: қисмлараро ички (семантик) мослик йўқ; гул, қамиш ва *-лоқ* элементлариаро ҳам валентлик муносабати йўқ.

*Кашта-чи, тикув-чи, бичув-чи* ясалмалари ясовчи асос (*кашта, тикув, бичув*) ва ясовчи аффиксининг ички (семантик) мослигига, валентлигига асосланган, лекин ана шундай мослик (валентлик) *кийим-* ва *-чи* элементлари муносабатида мавжуд эмас.

Қисқаси, синхрон сўз ясалиши жараёни билан боғлиқ мотивация валентлик ҳодисаси билан муносабатдош бўлади. Сўз ясалишнинг синхрон жабҳасига хос асосий хусусият шундаки, унда сўз ясалишининг ҳар икки элементи – ясовчи асос ҳам, ясовчи восита ҳам шакл ва маъно жиҳатларидан аниқ тасаввур этилади, уларнинг лисоний мақомлари амалда бўлади. Бунда сўз ясалиши жараёнининг ясалма учун асос бўлувчи унсури мотивация манбаи вазифасини ўтаса, бошқа унсури - ясовчи воситаси (аффикс) мотивацияни рўёбга чиқарувчиси вазифасини ўтайди. Ясама сўз-янги номинантнинг ана шу икки элементи муносабатига асосланган бу лисоний жараён мотивация муносабати дейиладики, бунда ясама сўз билан у номлаган нарса-ҳодисалар муносабатида шартланган мантиқий-лисоний боғланиш вужудга келади. Ана шу мантиқий-лисоний алоқадорликнинг уқилиб, сезилиб туриши синхрон сўз ясалишига хос асосий хусусиятлардан ҳисобланади.

Диакрон жабҳага хос сўз ясалишида мотивация ўзгача характерда бўлади. Номинант-сўзнинг морфем ва фонетик қиёфасида содир бўлган лисоний ўзгаришлар мотивациянинг «сўниши»га, барҳам топишига сабаб бўлади. Натижада сўз билан у атаган нарса-предметлар ўртасидаги боғланишда бевоситалик барҳам топади. Масалан, *уйқу*, *сузмоқ*, *алла* сингари бир қатор номинантлар мавжудки, уларнинг ясалиши сўз ясалишининг тарихий жабҳасига кўчиб, маълум бир, бевосита мотивацияга асосланган тарихий-этимологик маънолари сўниб, шу даврга хос реал маъноларга эга бўлган. Лекин, шунга қарамай, уларнинг аниқ мотивацияга асосланган тарихий-этимологик маънолари шу сўзлар (семемалар) нинг маъно қурилишида сақланган. Тарихий сўз ясалишига дахлдор сўзларнинг қандай ясалганлигини илмий-этимологик кузатишлар орқали белгилаш мумкин. Умуман, мотивация муаммоси тилшуносликда, биринчидан, тилга хос лисоний рамзий-ишоравий белгилар системасини ёритиш ва, иккинчидан, сўзга тилнинг социал-структур жиҳатдан шартланган асосий рамзий-ишоравий белгиси сифатида қараш билан зич алоқадордир (2).

Рамзий-ишоравий белги масаласи билан дастлаб антик давр файласуфлари шуғулланган. XIX аср охирларидан бошлаб у тилшунослик фанига ҳам тадбиқ этила бошланди. Рамзий-ишоравий белгининг икки асосий хусусияти мавжуд: а) идрок қилинади; б) ўзи ва бошқа объект ҳақида маълумот беради. Демак, рамзий-ишоравий белги объектлар ўртасидаги сабаб-натижа ва шартли муносабатларни рўёбга чиқаради. Сабаб-натижага асосланган объектлар муносабати мотивланган, шартли муносабатга асосланган объектлар мотивланмаган бўлади (3). Маълум фикр бўлаги (тушунча) билан овоз бўлаги (акустик образ) бирлашмасини Ф.де Соссюр лисоний рамзий-ишоравий белги (знак) деб атади (4). Ф.де Соссюрнинг ёзишича, рамзнинг ифодаловчиси билан ифодаланувчиси орасидаги боғланиш табиий (яъни зарурий) боғланиш эмас. Масалан, «тош» тушунчасининг хусусиятларига қараб нима учун унинг ўзбек тилидаги ифодаловчиси т-о-ш, рус тилидаги ифодаловчиси к-а-м-е-нь, тожик тилидаги ифодаловчиси с-а-н-г эканлигини аниқлаш қийин. Бу ўринда шартлилик аломати яққол сезилиб турибди. Кўринадикки, шартлилик (ихтиёрийлик, эркинлик) лингвистик рамзнинг энг муҳим тамойилларидан ҳисобланади. Лекин бундан тилдаги рамзларнинг ҳаммаси (ёппасига) шартли бўлар экан, деган хулоса чиқармаслик керак. Шартлилик принципининг ўзигагина асосланган тил бўлмаганидек, мотивация принципининг ўзигагина асосланган тил ҳам бўлмайди. Масалан, ўзбек тилидаги эллик сўзи шартлилик принципага асосланган, лекин унинг рус тилидаги муқобили бўлган пятьдесят сўзида мотивация элементи бор. Бу сўзнинг рус кишиси онгида дарҳол ўз таркибий қисмлари, яъни синтагматик элементлари пять ва десять компонентларини, шунингдек, парадигматик эшдошлари - шестьдесят, семьдесят каби сўзларни кўзгатади. Шу далиллар асосида «эллик» тасаввурининг рус тилида пятьдесят акустик образи билан боғланганини билиб олиш қийин эмас. Ўзбек тилидаги чўпон сўзи тўла-тўқис шартлилик принципага асосланган, лекин қўйчи сўзида мотивация яққол сезилиб турибди. Келтирилган фактлар шуни кўрсатадики, шартлилик асосан қисмларга бўлинмайдиган туб сўзларга хос бўлса, мотивация ясама сўзларга хос бўлади.



Ф.де Соссюр «ифодаловчи» термини воситасида сўзнинг акустик образини, «ифодаланувчи» термини воситасида тушунчанинг ўзини тушунади (5).

Нарса ва ҳодисаларнинг номи уларнинг товуш томони билан боғлиқ эмас, аксинча, унинг мазмун томони билан боғлиқ. Сўзнинг мазмун томонига дахлдор нарса нима? Бу ўринда шуни айтиш мумкинки, сўз маълум даражада предмет билан алоқада бўлади, сўз мазмунида предметнинг асосий, энг муҳим белгиси маълум даражада ёритилган бўлади.

Сўз ясалиши, хусусан, унга хос мотивация ҳодисаси қонуний-лисоний жараён. Бу жараён тил таракқиётини белгиловчи ички омиллар, жумладан, лисоний тежамлилиқ ва лисоний ортиқчалиқ билан алоқадорликка эга. Мотивациянинг (сўз ясалишига хос) лисоний тежамлилиги унинг шаклий-маъновий мотивация деб аталмиш турига тегишли. Талабалиқ, замон-дош; англа, оқла ясалмалари лисоний тежамлилиқдан четда бўлганда эди, «талабалиқ даврига хос...», «бир замон//бир давр... кишилари», «онг билан иш тут», «оқ рангга бўя» сингари синтактик қурилмаларга мурожаат қилган ва талабалиқ, замондош; ўйла, оқла сўзларининг маъносини ана шу синтактик қурилмалар орқали ифодалаган бўлардик.

Сўз ясалиши туфайли лисоний ортиқчалиққа ҳам амалий йўл қўямиз. Айниқса, мотивациянинг шаклий турида лисоний ортиқчалиқ мавжуд бўлади. Қассобчилиқ ва қассобчилиқ, талабалиқ ва талабачилиқ, ўрмон//тўқай ва ўрмонзор//тўқайзор жуфтлигига хос луғавий бирликларда баъзи услубий-прагматик жиҳатларни ҳисобга олмаганда, семантик фарқ кўзга кам ташланади. «Талабалиқ»ни «талабачилиқ» тарзида устама таркибий унсурлар билан ифодалашда ана шундай «ортиқчалиқ» мавжуд. Табиб-табиблиқ-табибчилиқ—табибгарчилиқ ясалмаларида ҳам ана шу хусусиятни кўрамиз (6).

Лисоний рамзий-ишоравий белги саналувчи сўзга хос асосий вазифалардан бири унинг номинатив функцияси бўлиб, мотивация номинациянинг асосий принциpidир. Ҳар қандай номинация асосида мотивация туради. Предмет ва ҳодисаларга ном бериш жараёнида унга хос мавжуд белгилардан энг муҳими асос қилиб олинади. Кўзга ташланувчи бундай белги предметлардаги шакл, ранг ёки улар бажарадиган вазифа ва бошқалар бўлиши мумкин. Кўпгина сўзлардан инсоннинг диққат-эътиборини қозонган ва кўпгина предметлар номининг асосига қўйилган шу белгини осон билиб оламиз. Масалан, рус тилидаги медвед «айиқ» сўзи учун шу ном ифодалаган ҳайвоннинг асал ейиш хусусияти асос бўлган. Лекин ўзбек тилидаги айиқ сўзининг ана шундай образ марказини аниқлаб бўлмайди (7). Кўпгина номларнинг образ марказини топиб бўлмайди. Бу ҳолат сўздаги «ички форма» нинг унутилиши, барҳам топиши билан боғлиқ. Масалан, А.А. Потенбня: «балиқ» (рыба) сўзидаги мазмунни ҳеч қандай тасаввур қилиб бўлмайди. Чунки у ҳақдаги тушунча, тасаввур умуман йўқ, унутилган» (8) деб ёзади. Буни ўзбек тилидаги балиқ сўзига нисбатлаш ҳам мумкин. Балиқ сўзининг номинатив жиҳатдан образ маркази, сўз ясалиши жиҳатидан унинг қисмлари орасидаги мотивация муносабати унутилган. Сўздаги ушбу ҳодисалар барҳам топиши туфайли, ушбу лексема туб сўз ҳолига келган. Ясама сўз маъноси ҳамма вақт ясовчи асос орқали аниқланади. Масалан, балиқчи - балиқ овлаш билан шуғулланувчи киши. Шуни ҳисобга олиш керакки, мотивланиш (мотивланганлик) чекланган, нисбий характер касб этади. Қанчалиқ боғлиқ бўлишидан қатъий назар, мотивация ва номинация мутаносиб тушунчалар эмас. Номинативлик доимий, барқарор тушунча, у сўзда сўзнинг ифода, тасвир ва вазифа семалари билан биргалиқда, ҳамма вақт мавжуд бўлади. Мотивация эса сўз таркибининг барқарор бўлмаган, маълум даврда унутиладиган ҳодисалардан ҳисобланади. Масалан, ёноқ, дудоқ сўзларига хос мотивация ҳозир сўнган, лекин уларга хос номинативлик ҳамон амалда. Шуниси ҳам борки, сўзларга хос номинативлик ҳам, қанчалиқ барқарор бўлишидан қатъий назар, ўзгарувчандир. Айни бир тушунча олдинги даврларда дудоқ деб номланган бўлса, ҳозирда шу тушунчанинг номи лабдир. Яна шуниси ҳам борки, бир сўзда мотивация асоси битта бўлади. Лекин бир сўз айни бир пайтда бирдан ортиқ номинацияга эга бўла олади. Ўрик, олма, гилос, шафтоли сўзлари англатган номинация ана шундай: бу сўзлар ҳам мева ва унинг турини, ҳам дарахт ва унинг турини номлай олади. Бу жараён тил таракқиётининг айни бир даврида амал қилади.



Қисқаси, сўз ясалиши мотивацияси билан боғлиқ муаммоларни ўрганиш муҳим аҳамиятга эга. Бу мураккаб муаммонинг мақола доирасига киритилмаган қирралари кўп. Улар навбатдаги мақолалар учун мавзу бўлиши табиий.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Степанова М.Д., Хельбиг Г. Части речи и проблема валентности в современном немецком языке. М.: ВШ, 1978.
2. Медведова Л.М. Типы словообразовательной мотивации и семантика производного слова//ВЯ. М.: Наука. 1989, №1, -С, 86.
3. Нурмонов А.Лисоний белги хусусиятлари ҳақида. Андижон,1992,5-бет.
4. Ф.де Соссюр. Труды по языкознанию. М., 1977, ст. 100-101.
5. Қўчқортоев И. Ф.де Соссюрнинг лингвистик концепцияси (назария ва метод масалалари) Т., 1976. 12-бет. Ўқув қўлланмаси.
6. Маҳкамов Н. Адабий норма ва плеоназм. Т. : Фан,1988,60-бет.
7. Нурмонов А. Ўша асар. 25-бет.
8. Потевня А.А. Из записок по русской грамматике. В кн.: В.А. Звегинцев. История языкознания XIX-XX веков в очерках и извлечениях. Часть I, М., 1964. -С.146.

## HISTORY AND TODAY OF SERGEY PETROVICH BORODIN HOUSE MUSEUM

*Mirhakimova Feruza Kholdorjon qizi*

*Basic doctoral student of Namangan state university.*

**Annotation:** This article provides detailed information about the role of house museums in public life, the formation of the house museum of works by Sergei Petrovich Borodin, history, number of exhibits, the value of exhibits, the current activities of the house museum.

**Keywords:** house museum, law, exhibit, book, work, museum, exhibition, history, tradition, population, language, culture, monument.

## СЕРГЕЙ ПЕТРОВИЧ БОРОДИН УЙ-МУЗЕЙИ ТАРИХИ ВА БУГУНИ

*Мирҳакимова Феруза Холдоржон қизи*

*Наманган давлат университети таянч докторанти.*

**Аннотация:** Ушбу мақолада уй музейларининг жамият ҳаётида тутган ўрни, Сергей Петрович Бородин ёзилган асарлар нинг уй музейининг ташкил топиши, тарихи, экспонатлар томонидан сони, экспонатларнинг қимматлилик даражаси, уй музейининг бугунги кундаги фаолияти ҳақида батафсил маълумот берилган.

**Калит сўзлар:** уй музей, қонун, экспонат, китоб, асар, музей, намоиш, тарих, анъана, аҳоли, тил, маданият, ёдгорлик.

## ИСТОРИЯ И СЕГОДНЯ ДОМА-МУЗЕЯ СЕРГЕЯ ПЕТРОВИЧА БОРОДИНА

*Мирхакимова Феруза Холдоржон кызы*

*Базовый докторант Наманганского государственного университета.*

**Аннотация:** В данной статье дана подробная информация о роли домов-музеев в общественной жизни, становлении дома-музея произведений Сергея Петровича Бородина, истории, количестве экспонатов, ценности экспонатов, текущей деятельности дома-музея.

**Ключевые слова:** дом-музей, право, экспонат, книга, произведение, музей, выставка, история, традиция, население, язык, культура, памятник.

During the years of independence, attention to our national history, especially to museums, which are the most influential form of expressing it through concrete evidence, has increased to an unprecedented extent. In particular, the First President of the Republic of Uzbekistan Islam Karimov and the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev have paid great attention to all areas, including science, education and culture. Decree of the First President of the Republic of Uzbekistan Islam Karimov dated January 12, 1998 “On radical improvement and enhancement of museum activities” [1], September 20, 2008 Law “On Museums” [2] and President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev 2017 On February 7, 2013, Decree No. PF-4947 “On the Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan” was issued [3]. Clause 4.3 of this Decree also pays great attention to the issues of “development and improvement of museum activities, strengthening their material and technical base”. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 19, 2019 “ On approval of the activities of the Erkin Vahidov Memorial Museum and the Treasury House-Museum ” Resolution of the Cabinet of Ministers No. 630 [4] of May 30, 2019 No 1019 “On approval of the Program for improving the activities of museums in the Republic of Uzbekistan for 2020-2021” was approved.

In this regard, President Shavkat Mirziyoyev said, “If culture and art do not develop in the country, society will not develop. It is important to develop the field of culture and arts, to increase the prestige of the Uzbek national culture and art in the world, to realize the potential of young talents. Indeed, when art and culture live, the nation and the people, the whole of humanity, live in peace.” [5] As any state strives for development, it is natural that it should always look to history and strive to study and preserve existing customs, traditions and ancient monuments. The role of home museums, especially in this regard, is invaluable. Because a home museum is a cultural, state or public figure, dedicated to a historical figure, it is preserved and displayed as a memorial museum based on the house where that person lived.

Home museums - a memorial museum dedicated to a cultural figure, statesman or public figure, a historical figure, embodying the mysteries of history, and is a place where the culture and values of the memorial museum, established on the basis of the house where this person lived. At the same time, the role of museums in enriching the spiritual world of the people, educating the younger generation in the spirit of love and devotion to the Motherland is invaluable. Museums play an important role in studying the history, culture, way of life, national traditions and values of each nation, promoting them and passing them on to future generations. Today in our country there is a home museum of people working in various fields. These cultural sites are a scientific, spiritual and enlightenment treasure that will pass on to future generations the wealth inherited from our ancestors. One of these house museums is the Sergei Petrovich Borodin House Museum. According to the resolution of the Central Committee of the Communist Party of Uzbekistan dated August 23, 1978 “On the establishment of the Sergei Petrovich Borodin House-Museum in Tashkent” and the order of the Ministry of Culture No. 56 / P of February 8, 1979, Mirzo Ulugbek district, Lashkarbegi street 18. Sergey Petrovich Borodin House The main rooms of the museum building have 8 rooms, 6 of which are for a literary exposition dedicated to the life and work of the writer, 1 for (administrative) staff, 1 small (bathroom) room, 5 more in the backyard, 4 in the basement consists of one room.

The total area of the museum is 644 square meters, the total area of the building is 384 square meters, the exhibition area is 160 square meters. The museum's expositions tell about the life and work of the People's Writer of Uzbekistan S. Borodin. A bronze bust of Sergei Petrovich Borodin was installed in the courtyard of the museum building. Sergei Petrovich Borodin - Russian Soviet writer, author of famous historical novels. Until 1941, he worked under the pseudonym Amir Sargidjan. People's Writer of the Uzbek SSR (1973). Laureate of Stalin's Second Prize (1942). Member of the VKP (1943). S. Borodin was born on September 12 (25) 1902 in Moscow in a family of intellectuals. His father was a successor of the nobility, and his mother A.M. Ingalicheva was one of the nobles of the Tatar dynasty. He studied at the Belyov School from 1913 to 1920, and later collaborated with the local Proletkulta studio. He published his first essay in 1915 at the age of 12, and his first poem in 1922. Sergei Petrovich Borodin went to Bukhara in 1923 with an ethnographic expedition and in 1925-1926 to Samarkand. In 1926, V. Ya. He graduated from the Higher Literary and Artistic Institute named after Bryusova, specializing in Russian folklore.

He lived in the East for a long time in 1928, in Kazakhstan in 1929, in Tajikistan in 1931 and in Armenia in 1933. He worked for the Pereval Literary Association for a time and left in 1931. He came to Tashkent in 1951 and married philologist Roza Khasanova. He wrote stories and short stories in the 1930s based on materials collected from distant regions of the USSR. His first historical novel was Dmitry Donskoy, which chronicled the ancient Russians. The second historical novel is “Stars in the sky of Samarkand”, which reveals the detailed life of Central Asia and the Caucasus in the XIV-XV centuries, with Temurlan in the center. S. Borodin died on June 22, 1974 and was buried in Chigatay Cemetery.

The collection of furniture and items used by the author in the museum fund, souvenirs from different countries, ceramics and porcelain, copies of graphic works by the author himself and his son A. Borodin, tiles and historical monuments (Fragment), representatives of Russian and Uzbek, foreign literature works, journals and encyclopedias are preserved. The home museum employs 7 staff. 2 of them are researchers, 1 supervisor and chief accountant, 2 technical staff.

There are a total of 28,710 exhibits in the house museum fund, including: coins-7210; books-7665; photo documents-2443; archive materials-10687; exhibits 705 (equipment used by the author, souvenirs, etc.) 705 exhibits - a set of furniture and items used by the author, souvenirs brought and donated from different countries, ceramics and porcelain, copies of graphic works by the author himself and his son A. Borodin, tiles and fragments of historical monuments. The house museum has 7665 books of Russian and Uzbek, foreign, literary works, multi-circulation magazines, encyclopedias. 3102 in the author's library; 1980 in the study; 2583 (1097 magazines, 1476 books) are stored in the basement. The house has 10,607 archival materials stored in the basement of the museum. Among the 2443 photographs kept in the Sergei Petrovich Borodin House Museum Fund are photos of Sergei Petrovich Borodin with his family members and various government delegations, photos from newspapers and magazines, photos from the meetings of 1950-1965, bouquets of various cities and hotels. pictures, posters, newspapers, preserved for many years, lost quality, reflected in public celebrations and meetings. In conclusion, it can be said that the works of Sergei Petrovich Borodin House Museum, written by the author, serve as an important factor in the development of the spiritual level of the next generation by providing him with the appropriate material and spiritual wealth.

#### **References:**

- Профессиональные вредности (неблагоприятные условия труда во время беременности);
- Вирусные заболевания матери в период гестации. [3,4,5,6,7]

**Цель исследования.** ознакомление, анализ патологического влияния экстрагенитальных заболеваний при беременности на развитие плода. Изучение значимости профилактических и оздоровительных мероприятий на здоровье женщин фертильного возраста изучаемого региона, направленное на снижение патологического влияния этиологических факторов в гестационном периоде на развитие плода. Выявление наиболее часто встречающихся этиологических факторов, способствующих рождению детей с врожденными пороками сердца данного региона.

**Материалы и методы.** Ретроспективным методом было изучено 1023 истории болезней новорожденных по Бухарской области, госпитализированных в Бухарский областной детский многопрофильный медицинский центр, в отделении неонатологии, с 1.01.2021 по 1.11.2021, из них выявлено 61 новорожденных с ВПС (5,96%).

Критерии отбора: новорожденные с врожденными пороками сердца. Из общего числа госпитализированных с ВПС 32 мальчика и 29 девочек. Из 61 новорожденных с ВПС, ДМЖП выявлен у 3 новорожденных (4,91%), малая врожденная аномалия сердца у 46 (75,4%), ДМПП у 10 (16,39%), ТФ у 1 (1,65%) и ТМС у 1 (1,65%) ребёнка. (Рис.5).




**Результаты и обсуждение.** на основе изучения историй болезни новорожденных, анамнеза и анкетирования родильниц были выявлены следующие наиболее часто встречающиеся этиологические факторы, способствующие развитию врожденных пороков сердца: (Рис.7)

- ОРВИ: У 7 новорожденных с малой врожденной аномалией сердца и у 4 новорожденных с ДМПП при изучении анамнеза родильниц выявлены случаи, перенесенных ОРВИ во время беременности;

- Тяжелая форма анемии: частота рождаемости детей с различными формами ВПС у женщин с тяжелой степенью анемии: 10 новорожденных с малой врожденной аномалией сердца, 1 новорожденный с ТФ и 1 новорожденный с ДМПП;

- Родственные браки: у женщин, состоявшихся в родственных браках, были рождены: 3 новорожденных с малой врожденной аномалией сердца;
- При сочетании у беременных ОРВИ, тяжелой формы анемии и диффузного зоба: 24 новорожденных родились с малой врожденной аномалией сердца, 3 новорожденных с ДМЖП, 5 с ДМПП, 1 с ТМС;
- Одновременное протекание беременности на фоне тяжелой формы анемии с диффузным зобом: у 2 новорожденных обнаружена малая врожденная аномалия сердца.



**Рис.7** Этиология ВПС по Бухарской области. С целью изучения акушерского анамнеза, условий проживания матери во время беременности, экстрагенитальных патологий, вредных привычек и наследственного анамнеза было проведено анкетирование. (Рис.8)

**Рис.8.**

Анкетирование:

-Ваш возраст, когда вы были беременны данным ребенком?	До18	18-35	35-старше
-Роды:	1-3	4и более	
-Интервалы между родами:	год	2года	более2х
-Аборт, выкидыши:	да( кол-во)		нет
-Преждевременные роды:	да		нет
-Мертворождения:	да		нет
-Воспалительные заболевания половых органов:	да(какое _____)		нет
-Вирусные заболевания во время беременности: Грипп,ОРВИ:	да(какое _____)		нет
-Сердечно-сосудистые заболевания:(гипертоническая болезнь, ревмокардит)	да(какое _____)		нет
-Заболевания мочевыделительной системы:( цистит, пиелонефриты)	да(какое _____)		нет
-Было ли употреблении на протяжении беременности алкогольной и табачной, наркотической продукции?	да(какое _____)	нет	
- Есть ли в роду наследственные заболевания?	да(какое _____)		нет
-Принимали ли вы лекарственные средства во время беременности и какие?	_____		
-В каких экологических условиях протекала беременность?	_____		
-Со скольких недель беременности состоите на учете в женской консультации?	_____		
-Какими хроническими заболеваниями страдаете(диффузный зоб, туберкулез, бруцеллёз, анемия )?	_____		
- Состоите ли ВБ в близкородственном браке, или есть ли в роду близкородственные браки?	_____		
-Срок первого скрининг-обследования?	_____		

**Образец бланка анкетирования.** Вышеперечисленные наиболее часто встречающиеся этиологические факторы, экстрагенитальные заболевания беременных были одним из причин рождения детей с врожденными пороками сердца. В период с 1.01.2021 по 1.11.2021 в отделение неонатологии Бухарского областного детского многопрофильного медицинского центра проходили обследование, лечение и диспансеризованы 61 новорожденных с ВПС. В основе заболеваемости ведущими патогенетическими факторами были постнатальное поражение центральной нервной системы из-за гипоксии головного мозга, нарушение гомеостаза, высокая восприимчивость к инфекционным процессам, в связи со слабой иммунной системой, а также полиорганная недостаточность.

**Выводы.** На основе изученного материала, для охраны здоровья матери и ребенка, с целью улучшения здоровья детей данного региона необходимо придерживаться следующих профилактических и оздоровительных мероприятий:

- Укрепление здоровья женщин фертильного возраста;
- Планирование беременности;
- Соблюдения интервала между беременностями;
- Своевременная диагностика и лечение ЭГЗ(диффузный зоб, анемия, заболевания мочевыделительной, кровеносной систем ;
- Скрининг-исследование в 1 и 2 триместре;
- Ознакомления женщин о последствиях близкородственных браков;
- Соблюдение эпидемиологического режима при сезонных ОРВИ;
- Отказ от вредных привычек;
- Соблюдение режима сна и отдыха, сбалансированного питания;
- Переход в благоприятные условия труда;
- Возраст матери до 35лет. [3,4,5,6,7]

#### **Список литератур:**

- 1.Официальный сайт: <https://www.who.int/ru>.
- 2.Е.Е.Чепурных , Е.Г. Григорьев ( Иркутский государственный медицинский университет, ректор – д.м.н., проф. И.В. Малов; Научный центр реконструктивной и восстановительной хирургии СО РАМН, директор – чл.-корр. Е.Г. Григорьев) ВРОЖДЕННЫЕ ПОРОКИ СЕРДЦА, Сибирский медицинский журнал, 2014, № 3.
- 3.Ю.М. Белозеров, Л.В. Брегель, В.М. Субботин. Научно-исследовательский клинический институт педиатрии, Москва; Иркутская государственная медицинская академия последипломного образования . Распространенность врожденных пороков сердца у детей на современном этапе. Российский вестник перинатологии и педиатрии, 6, 2014 с.1-2.
4. А.С.Шарыкин. Кафедра социальной педиатрии ИУВ ФГБУ Национальный медико-хирургический центр им. Н.И.Пирогова Минздрава РФ. Врожденные пороки сердца: проблемы плода и новорожденного ребенка. Журнал «Consilium Medicum». с.54-58.
5. В.И. Бураковский, Л.А. Бокерия Сердечная и сосудистая хирургия. Медицина. М. 1989.
6. А.В.Мазурин., И.М.Воронцов, Пропедевтика детских болезней, Москва 1985.
7. Н.П.Шабалов, Детские болезни, Санкт-Петербург 2009.



## ЁШЛАРНИ МУСТАҚИЛ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШДА КРЕАТИВ ФИКРЛАШНИНГ ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ

*Нурмаматов Абдумалик Шерматович*

*Сурхондарё вилояти халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази катта ўқитувчиси.*

**Аннотация:** Мақолада ёшлар, асосан ўсмир ва ўспиринларда атроф муҳит, жамият ва келажак, оилавий муносабатга бўлган қарашларнинг шаклланишида оилавий муҳит ва унинг бола тарбиясига бўлган таъсири, уларда тафаккур қилишда креатив фикр қилишнинг ўзига хос психологик таъсирга эга эканлигини назарий ва ҳаётий тажрибаларга асосланган ҳолда ёритиб берилган.

**Калит сўзлар:** ўсмир, ўспирин, тарбия, мустақил ҳаётга тайёрлаш, креативлик, атроф муҳит, жамият, оилавий муносабатлар, тафаккур.

**Аннотация:** В статье освещается семейная среда и ее влияние на воспитание детей в формировании взглядов на окружающую среду, общество и будущее, семейные отношения у молодежи, особенно подростков и подростков, на основе теоретического и жизненного опыта.

**Ключевые слова:** подросток, подросток, воспитание, подготовка к самостоятельной жизни, творчество, среда, общество, семейные отношения, мышление.

**Abstract:** The article provides an overview of the environment, society and the future in youth, mainly adolescents and adolescents, the family environment in the formation of views on family relations and its impact on child education, the fact that creative thinking in contemplation has its own psychological effect, based on theoretical and life experiences.

**Keywords:** teenager, Capricorn, upbringing, preparation for an independent life, creativeness, environment, society, family relations, contemplation.

Ёшларни мустақил ҳаётга тайёрлашнинг психологиядаги ўрнини илмий ва назарий жиҳатларини ҳар томонлама ўрганиш таълим соҳасининг муҳим мавзу бўлган объектлардан саналади. Таъкидлаш жоизки, жамиятда – ёшлар, шу жумладан ўсмир ва ўспирин ёшдаги ўқувчиларнинг мустақил ҳаётга бўлган қарашларида ечимини топиши зарур бўлган муаммолари кўплаб ташвишли вазиятларга олиб келмоқдаки, улар оилавий ҳаётга ҳиссий кечинмалар асосида кириб келишмоқда[1]. Аслида, жамиятнинг тараққиёти ва маънавий салоҳияти кўп жиҳатдан ана шу ўсмир ва ўспирин ёшлар ўртасида юзага келадиган ўзаро муносабат ва руҳий кечинмалар мазмунига боғлиқ. Бугунги кунда ёшлар жамиятда ўзига хос ўрин ва мустақил мавқе эгаллашга интилади, шунинг учун у ўзига хос интилиш, лаёқат ва фаоллик намуналарини намоиш этади.

Кейинги йилларда кенг жамоатчилик ва олимларнинг диққатини ўзига жалб қилиб келадиган масалалардан бири шахс ва оила, оилавий муносабатлар муаммосидир[2]. Бу муаммони ўрганиш бугунги кунда ўзининг тарихий, маданий, миллий ва умумбашарий қадриятларини тиклаётган Ўзбекистон давлати равнақи учун ҳам катта аҳамиятга эга. Инсон маънавиятини шакллантиришнинг энг мақбул маскани оиладир. Оила қайси миллатга мансуб бўлса, ўша халқнинг маънавиятини ўзида мужассамлаштириб, бир неча асрлик тарихга эга бўлган анъаналар ва маънавий қадриятларни авлоддан-авлодга етказди. Агарда шахснинг шаклланишида биологик, табиий ва маданий муҳит, ижтимоий тажриба, одамлар билан муносабат каби омиллар муҳим аҳамият касб этишини инобатга олсак, буларнинг барчаси оилада мужассамлашгандир. Зеро, “шахс маънавияти, унинг дунёқараши, эътиқоди, ҳаётий тамойиллари, идеаллари, қадриятлари, кўникма ва одатлар мажмуи асосан оилада шаклланади” [3, 84].

Шу маънода, оила маънавият қўрғони ҳисобланиб, оила қайси миллатга тааллуқли бўлса, ўша миллатнинг маънавиятини ўзида акс эттиради. Шарқ миллат вакиллари оилаларида тарбияланган фарзандлар қатъиятли, матонатли, мақсадга интилувчан, масъулиятли ва ўзига нисбатан талабчанлиги, меҳнатсевар, дўстпарварлиги билан ажралиб туради. Уларга хиссиётларни бир маромда тутиш, мулоҳазалилик, содиқлик, турли қийинчиликларга чидамли бўлиш, хушчақчақлик, ҳар хил шароитларга тез мослашиш хусусиятлари хосдир[4].

Айнан шу ўзига хосликлар мажмуи этнопсихологик хусусиятлар сифатида эътироф этилиб, Шарқ халқлари оилаларини бошқа миллатга мансуб оилалардан ажратиб туради. Шу нуқтаи назардан китобхонларда табиий равишда янгилиниб, такомиллашиб бораётган, миллий хусусиятларни ўзида мужассам қилган замонавий Шарқ оиласи ҳақида илмий асосланган тасаввурни шакллантириш, Шарқ оилалари тўғрисида объектив тасаввур пайдо қилиш, уларда келажакдаги оилавий ҳаётлари давомида юзага келиши мумкин бўлган синовларни муваффақият билан бартараф этиш кўникмаларини шакллантириш ҳозирги куннинг долзарб ва аҳамият касб этадиган масалалардан бири бўлиб қолмоқда.

Оила ва оиланинг психологик муҳити соғлом бўлмас экан келажак ёшлар оилавий муносабатларида ҳам мутадилик ва соғлом муҳитнинг бўлиши мумкин эмас. Оилавий мутадилик муҳитини яратиш учун эса, ёшлар тафаккурида қуйидаги креативлик муҳим вазифаларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз:

1. Шарқона оилаларини Ғарб оилаларига қарши қўймаслик, бирини идеаллаштириб, иккинчисининг қадрий муносабатларини танқид қилмаслик, аксинча, муайян миллат, халқ оиласининг ўзига хос хусусиятларини очиб бериб, унинг тарихи, ҳудуди, менталитети, иқлим ва миллий маданияти бир-бири билан узвий боғлиқлигини ёшлар онгига сингдириш.

2. Замон ўзгариши, халқ ижтимоий-иқтисодий ривожланиши билан боғлиқ равишда ҳаёт тарзи юксалиб боришининг, урбанизация (шаҳарларнинг кўпайиши ва аҳоли ҳаёт тарзига шаҳарга хос унсурларнинг сингиб бориши), сиёсат ва бошқа омилларнинг оилавий ҳаётга таъсирини кўрсатиш.

3. Шарқона оилаларига хос ижобий миллий-психологик (этнопсихологик) хусусиятларни сақлаб қолиш, замон талаби билан миллат, халқ, оила манфаатига хизмат қилмайдиган жиҳатлар (қариндошлар орасидаги никоҳ, қизларнинг эрта оила қўриши, кўп болалилик ва бошқалар)дан халос бўлишнинг аҳамиятини очиб бериш.

4. Оила қуриш ёши ва унинг эр-хотин муносабатларига психологик таъсири борасида ёшларда ҳаётий тасаввурни шакллантириш.

5. Оилавий ҳаётга етуқлик мезонлари ҳақида ёшларни тегишли билимлар билан қуроллантиришдан иборат меъзонларга алоҳида эътибор қаратиш.

Шу сабабли ҳам ўзбекларда шахснинг хулқ-атвори ижтимоий назорат остига олинади. Яхши хулқ маҳаллада, кўни-қўшнилари томонидан рағбатлантирилиб «Отасига раҳмат», ёмон хулқ эгаси эса, танқидий муҳокама қилиниб, «Падарига лаънат» шаклида ифодаланиши мумкин. Шунинг боис «Одамлар нима дейди?» қобилидаги савол шахсни кўп ҳолларда ноҳуя хатти-ҳаракатлар, ёмон хулқ-атвордан сақлайди ва унинг психологиясига ўз таъсирини ўтказди.

Ғарб халқ миллат вакиллари оилаларида ҳам ижтимоий назорат мавжуд, бироқ унинг таъсир кучи ўзига хос ва бизнинг миллатимиз вакиллари учун ўта заиф ҳисобланади. Халқимиз «Бир болага етти кўшни ота-она» нақлида бола тарбияси учун барча масъулигини чуқур ифодалаб берган. Ғарб миллат халқ вакиллари оилаларида эса, бола тарбияси учун фақат ота-она жавоб беради. Яъни кўни- кўшнилари болага ақл ўргатиш, уни тўғри йўлга солиш, зарур бўлганда қойишдан ўзини сақлайди ва қўшнининг боласи тарбиясига аралашмайди.

Шарқ халқи вакиллари оилалари, шу жумладан, ўзбек хақи оиласига хос бўлган қуйидаги кадрий хусусиятлар ва креатив фикрлар мавжуд:

*биринчидан*, оилада эркак мавқеининг устунлиги;

*иккинчидан*, оила аъзолари орасида ёшига, жинсига, оиладаги мақоми (бува, буви, ота, она, ўғил, қиз, қайнона, қайнота, қайинсингил, қайинопа, овсин, келин, ака, ука, опа, сингил ва хоказолар)га кўра аниқ ифодаланган ва қатъий амал қилинадиган иерархиянинг мавжудлиги;

*учинчидан*, анъанавий оилаларда фарзандлар учун ота-она, айниқса, ота обрусининг юқорилиги;

*туртинчидан*, серфарзандлик, болажонлик, ёши улуғ авлод вакиллари хурмат қилиш каби кадрий сифатларнинг юқори даражада ифодаланиши;

*бешинчидан*, абхаз, осетин, кабардин-болқор сингари халқларга ҳам хос бўлган, хурмат юзасидан ота-онаси ва катта ёшдаги яқинлар олдида боласига меҳрини очик ифода этмаслик, ота томонидан ёш боласини одамлар олдида кўлга олмаслик, фарзандини кўтармаслик, у билан ўйнамаслик каби жиҳатларнинг бугунги кунда кўпчилик анъанавий ўзбек оилаларига ҳам хослигини кўришимиз мумкинлиги (бу билан эркаклар ўзларининг ҳиссий турғунлигини, ортиқча ҳиссиётга берилмаслигини, ҳақиқий эркак шахсига хос хислатларга эга эканлигини намойиш қилишга ҳаракат қилиш);

*олтинчидан*, оиладаги муносабатларнинг вертикал характерга эга эканлиги, яъни аёлнинг эрга, фарзандларнинг ота-онага, уканинг акага, сингилнинг опага бўйсиниши.

Ўз-ўзидан маълумки, одамнинг психик ривожланиши учун табиий, биологик имкониятлар ниҳоятда зарурдир. Инсон психик хусусиятлари меъёрида таркиб топиши ўчун муайян даражадаги биологик тузилиш, инсон мияси ва нерв системаси бўлиши шарт. Бу табиий хусусиятлар “психик ривожланишни ҳаракатта келтирувчи кучлар, омиллар эмас, балки фақат дастлабки шароитлардир, холос” [5, 24].

Табиий хусусиятлар тараққиётни ҳаракатта келтирувчи куч эмаслигига қарамай, инсоният психик тараққиётига ўз таъсирини кўрсатади. Жумладан, табиий хусусиятлар психик хусусиятлар тараққиётининг турли йўллари ва усуллари белгилаб беради. Инсон нерв системасининг хусусиятлари ўз-ўзига, шахснинг ҳеч қандай психик хусусиятларини белгиламайди. Ҳаётда ҳеч бир меъёрдаги бола дадил ёки қурқок, иродали ёки иродасиз, меҳнатсевар ёки ялқов, интизомли ёки интизомсиз бўлиб туғилмайди. Мазкур болада тарбия ўғитлари тўғри ташкил қилинса, боладаги нерв система меъёр даражадаги ривожланиш хусусиятига эга бўлса, болада характернинг барча ижтимоий қимматли хислатларини шакллантириш мумкин.

Масалан, сабот-матонат ва ўз-ўзини тута билиш хислатини нерв системасининг типичидатли бўлган болаларда ҳам, ёки нерв системасининг типичи вазмин бўлган болаларда ҳам тарбиялаш мумкин. Бироқ биринчи ҳолдаги болаларни тарбиялаш иккинчи ҳолатдаги болаларни тарбиялашга қараганда қийинроқ кечади. Аммо, ҳар иккала ҳолатда уларга хос керакли сифатларни тарбиялаш йўллари ва усуллари ҳам турлича бўлади.

Табиий хусусиятлар одамнинг бирор соҳада эришган ютуқлари даражасига ҳам таъсир қилиши мумкин [6]. Баъзи одамлар бошқа одамлардан маълум бир фаолиятни эгаллаш имконияти жиҳатидан устун туришади. Баъзида эса аксинча, бирор-бир фаолият турини эгаллаш имконияти жиҳатидан эса улардан ортда қолишлари мумкин.

Мана шу маънода олганда одамлар ўз қобилиятларини баравар ривожлантириш имкониятига эга эмаслар. Гарчи табиий кўникишлар ўқувчиларнинг психик ривожланиши учун маълум аҳамиятга эга бўлса ҳам (шу сабабли, масалан, таълим жараёнида айрим ўқувчилардан бошқа ўқувчиларга нисбатан кўпроқ - зўр бериш талаб қилинади, айрим ўқувчига ўқитувчи кўпроқ куч сарфлайди, эътибор беради ва кўпроқ вақт ажратади), бу кўникишларнинг ўзи психик тараққиётда ҳал қилувчи роль ўйнамайди, негаки, ҳар бир бола ўз индиидуаллигига эга.

Мазкур фикр ва мулоҳазалардан келиб чиқиб қуйидаги хулосаларни беришимиз мумкин:  
-ўсмир ўқувчиларнинг ақлий жиҳатдан ривожланишида назарий тафаккурнинг ўрни катта. Ўсмир адабий асарларни ўқиш ва тушунтириш орқали мустақил фикрлаш, мулоҳаза юритиш ва мунозаралар қилишни ўргана боради. Унда аста-секин табиат ва жамият ҳақида ўзининг нуқтаи назари ва эътиқоди шакллана боради. Маълумки, шахснинг ана шу фазилатлари унда фикрлаш, мустақил ўйлаш, тўғри ҳукм ва хулосалар чиқариш, қатъий қарорга кела олиши натижасидир.

- ўсмирларнинг адабий асарни баҳолаши, у ҳақда шахсий ўз фикрларни билдириши, муаммонинг томонлари юзасидан баҳслашуви инсоний хислатларнинг муайян даражада иштирок этиши тафаккур танқидлигининг айнан ўзгинасидир.

-ўқитувчининг асосий вазифаси ўқувчилар тафаккуридаги танқидийликни ҳаққонийлик даражасига кўтаришдан, уларга воқеликка одилона, оқилона, танқидий нуқтаи-назардан қарашни ўргатишдан иборат. Ўсмирларда моддий дунё тўғрисида шахсий фикрлар, мулоҳазалар, илмий дунёқараш таркиб топганидан кейингина тафаккурнинг танқидийлик хусусияти ривожлана бошлайди. Боладаги тафаккур танқидийлигининг ривожланиши ўқув материалларини пухта ўзлаштиришга, таълим жараёнида ташаббускорликка, воқеликни исботлаш ва асослаш кўникмалари таркиб топиш имкони яратади.

-ўспирин қобилияти ва истъедоди таълим жараёнида, меҳнат фаолиятида ривожланади. Қобилиятнинг ўсиши билимлар, кўникмалар, малакаларнинг сифатига боғлиқ бўлиб, шахснинг камол топиш жараёнига қўшилиб кетади. Буларнинг барчаси илмий-назарий тафаккурнинг шаклланишига, теварак атрофдаги воқеликнинг умумий қонуниятларини ўсишига, илмий имкониятларининг вужудга келишига, табиат ва жамият ривожланишининг қонунларини англашига муҳим шарт-шароит яратади.

Юқоридагилардан кўриниб турибдики, ўқувчиларнинг ўсмир ва ўспиринлик ёшида улар ақлий фаолиятнинг омиллари ва усуллари билан қуролланган бўладилар.

Ушбу хулосалардан келиб чиқиб қуйидаги тавсияларни беришни лозим топдик:

ўсмир ва ўспирин ўқувчилар ривожининг асоси ҳисобланган омиллар, шарт-шароитлар (ижтимоий, иқтисодий, сиёсий, ҳуқуқий, мафкуравий, педагогик ва психологик яшаш муҳити омиллари) мутадиллиги;

ўсмир ва ўспиринларга таълуқли асосий тавсифлар, унинг ички қонуниятлари ва ривожланиш босқичларининг ўзига хослиги;

ўсмир ва ўспирин муносабатлари шахснинг ташқи таъсирларга жавоби ва ўз муносабати тараққиёт жараёнида такомиллаша боради;

ўсмир ва ўспириннинг мақсадга қаратилган ижтимоий фойдали фаолияти жараёнида “ҳаётий” деб аталадиган механизмлари ва онгли фаолиятнинг функционал системасида юзага келади. Ана шулар туфайли ўсмир ва ўспирин ўқувчилар билимларни, кўникма ва малакаларни, кишининг ижтимоий тажрибаларни ўзлаштирибгина қолмай, балки ўзининг идроки, тафаккури, ҳаёли, ҳиссиётлари ва иродасини, бир сўз билан айтганда, воқеали бўлган онгли муносабатини ҳамда ўз ҳаракатлари ва хулқ-атворининг ички мотивларини таркиб топтиради.

ўсмир ва ўспиринларнинг барча хусусиятлари, муносабатлари ва хатти-ҳаракатлари шахснинг ҳаётий фаолиятида маълум ролни бажарувчи ва ҳар бири мураккаб қурилмадан иборат бўлган ҳамда шартли равишда таълим-тарбия билан мустаҳкам боғланган функционал босқичларга бирлашади ва шакллана боради.

Хулоса, ёшларни мустақил ҳаётга тайёрлаш амалиётида уларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш, ижодкорлик қобилиятларини янада ривожлантиришнинг энг мақбул йўли сифатида ижодий тафаккур ва креативлик муҳим аҳамият касб этади.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Халилова Н.И. Ўзини ўзи назорат қилишнинг индивидуал ва ёшга оид психологик хусусиятлари. Монография, Фан ва технология, 2016.
2. Акрамова Ф.А. ва бошқалар. Оғир вазиятга тушган оилалар билан ишлаш тажрибаси: тадқиқотлар, таҳлил ва тавсиялар. Монография. – Т.: “Ilm-ziyo-zakovat”, 2020. – 184 б.
3. Ғозиев Э. Онтогенез психологияси. Назарий-экспериментал таҳлил. Тошкент – 2010.
4. Ғозиев Э. Умумий психология. Психология мутахассислиги учун дарслик. Т – 2002.
5. Аъзамхўжаева Э.А. “Муомала маромининг ёш хусусиятлари ва динамикаси”. Т.:, 2002.
6. Гайнутдинов Р.З. Ўқитувчига тарбия психологияси ҳақида. -Т.:, 1995.



## ТУПРОҚ ЭРОЗИЯ ЖАРАЁНЛАРИНИ МАТЕМАТИК МОДЕЛЛАШТИРИШ БОСҚИЧЛАРИ ВА АҲАМИЯТИ

*Нуруллаев Азамхон Комилжон ўғли*

*ЎМУ Тупроқшунослик кафедраси  
(PhD) таянч докторанти.*

*Бўронов Мусулмон Нуралиевич*

*ТерДУ Тупроқшунослик  
таълим йўналиши 3 курс талабаси.*

**Аннотация:** Ушбу мақолада бугунги кунда дунё микёсида долзарб ҳисобланган тупроқ эрозия жараёнларини иқлим ва рельеф омилларига боғлиқ ҳолда деградацияга ўчраши характерларини замонавий геоахборот технологиялари(ГАТ) тизимларида математик моделлаштириш жараёнларининг шаклланиш босқичлари ва уларнинг аҳамияти баён этилган.

**Калит сўзлар:** Эрозия, тупроқ, иқлим, рельеф, қиялик экспозицияси, маълумотлар базаси, математик моделлар, географик ахборот тизими.

**Кириш.** Ҳеч кимга сир эмаски, бугунги кунда дунёнинг кўпгина мамлакатларида сув эрозияси шу қадар кенг тарқалдики, унинг салбий оқибатлари, тоғ ва тоғ олди худудларида, соҳил бўйи минтақаларида, айниқса, қишлоқ хўжалиги экинлари ва ерларига етказган салбий оқибатлари нуқтаи назардан кўпгина мамлакатларнинг миллий хавфсизлигини аниқ белгилаб берувчи иқтисодий ва экологик муаммолардан бирига айланиб қолди [1]. Сув эрозияси денудатсия жараёнларининг бир қисми бўлиб, ёмғир ва эр усти оқимлари таъсирида тупроқ ва тоғ жинсларини кўчириш, нуратиш, силжитиш, ювиб кетиш ва чўктириш каби жараёнларда намоён бўлади [2]. Эрозияга моил тупроқлар - табиий шароитларнинг (иқлим, геоморфология, тупроқ ҳосил қилувчи ва ётувчи жинслар, ёғингарчилик миқдори ва турли рельеф қонуниятлари) комбинатсияси тупроқлардан самарали фойдаланиш вақтида уларнинг эрозияланиш яни деградацияга учраш эҳтимолини оширади.

**Асосий қисм.** Бугунги кунга келиб, эрозияни баҳолаш учун ишлатиладиган математик формулалар сони ўнлаб ҳисобланади. А.А. Светличнийнинг маълумотларига кўра, тупроқ сув эрозиясининг математик моделларининг умумий қабул қилинган таснифи мавжуд эмас, бу эса тупроқ сув эрозияларини тадқиқ қилишхни мураккаблаштиради ва амалий муаммоларни ҳал қилишда адекват(аниқ) моделни танлашда қийинчиликлар туғдиради [3]. Тупроқ эрозияланиш жараёнларини моделлаштириш тадқиқотлари тарихи ҳақида батафсил маълумотлар А.А. Светличний олиб борган изланишларида учрайди. Муаллифнинг таъкидлашича, биринчи математик эрозия моделлари - тупроқни ювилиш (ёки йўқотишлар) моделларининг ривожланиши XX асрнинг иккинчи ярми - 30-йилларнинг охирига тўғри келади. Маълумотларга кўра қиялик чўкиндиларининг чиқиши моделлари Я.В. Корнев, В.А. Казаков формулаларида ва бирлик майдонга ўртача тупроқ йўқотишлари моделлари эса Ж.Х. Неал ва А.В. Зинг формулаларида акс этади ва асосий омиллар: қиялик, қиялик узунлиги ва ёғингарчилик (ёки сув оқими) интенсивлигига боғлиқ эди. Муаллиф XX асрнинг ўша йилларида ишлаб чиқилган сув эрозиясининг математик моделлари эрозия тадқиқотларининг замонавий даражасини амалиёт талабларига жавоб бермаслигини аниқлайди. Муаллиф жуда чекланган ахборот таъминоти ва жараён шаклланишининг жуда схематиклаштирилган назарий моделига асосланган тупроқ ювилишини ҳисоблаш учун биринчи формулаларни ишлаб чиқди. Бу формулалар ҳам эмперик, ҳам назарий математик моделлар гуруҳига киради, лекин уларнинг барчаси бирлаштирилган параметрларга эга моделлардир (нол ўлчовли, 2D), яъни уларга киритилган ўзгарувчиларнинг ўртача қийматлари ва модел параметрлари билан ишлайди. Қиялик ва симулятсия натижаси мос равишда тупроқнинг бутун қиялик

ювилиши (йўқотишлари) учун ўртача модул бўлиб хизмат қилади [4]. Кейинчалик А.О. Аввакумова тупроқ ва топографик хариталар, ерни масофадан туриб зондлаш маълумотлари асосида кенг кўламли тадқиқот ишлари олиб борди. Тадқиқотчи томонидан тупроқ эрозияси ривожланишининг математик моделлари ишлаб чиқилган бўлиб, уларда тупроқ эрозияси сифат характеристикаси (ювилиш тоифаси) билан ифодаланади, бу кўп вақтли кенг масштабли тупроқ хариталарида келтирилган катта ҳажмдаги маълумотлардан фойдаланиш имконини беради. Тадқиқотлар давомида муаллифлар ҳар бир ҳисобланган рельеф кўрсаткичларининг (қиялик, режали ва профил эгрилиги, экспозиция, оқимларнинг ўртача узунлиги, ўзига хос сув йиғиш майдони, рельефнинг эрозия потенциали (LS-омил) индекс, намлик (хўллик индекси), оқим қуввати индекси (нисбий) ҳиссасини баҳоладилар. Тадқиқот сўнгида муаллиф шундай хулосага келдики, тупроқ эрозиясининг бўлиш эҳтимоли, шунингдек, унинг ортиши куйидаги рельеф кўрсаткичларининг ўсиши билан ўсиб боради: нишаблик, қисман сув йиғиш жойлари, оқим конвергенцияси-дивергенция индекси, профилнинг эгрилиги ва эрозия потенциали. Баландлик белгилари тупроқ эрозияси эҳтимоллигининг ортиши билан тескари пропорционалдир, лекин ювилиш тоифасининг ортиши эҳтимоли билан тўғридан-тўғри пропорционалдир [5]. XX асрнинг охиридан бошлаб чет элда турли хил тупроқ эрозияси моделларидан фаол қўлланила бошланди, масалан, AGNPS (Қишлоқ хўжалигининг нуқта манбалари бўлмаган ифлосланиши модели), WEPP (сув эрозиясини башорат қилиш лойиҳаси), USLE (Универсал тупроқ йўқотиш тенгламаси), RUSLE (Қайта кўриб чиқилган универсал тупроқ йўқотиш тенгламаси) ва MUSLE (тупроқ йўқотишнинг универсал тенгламасини ўзгартириш) ва бошқалар [6]. GAT тизимларида - тупроқ эрозияси хавфи моделларини ишлаб чиқиш бўйича биринчи тажрибалар ўтган асрнинг 80 - йиллари бошларига тўғри келади. 1983 йилда АКШда VICAR/IBIS GIS тўплами ва тасвирни қайта ишлашдан фойдаланган ҳолда, Универсал тенгламанинг профил версиясини GAT тизимида амалга оширилди ва штатда жойлашган синов майдончаси учун тупроқ эрозиясини йўқотиш прогнози амалга оширилди [7]. Ҳозирги вақтда Умумжаҳон тупроқ йўқотиш тенгламасининг кўплаб фазовий татбиқлари ва унинг кейинги версиялари, жумладан, дунёнинг турли мамлакатларида IDRISI, ArcView GIS, ArcGIS Desktop, GRASS ва бошқалар GAT пакетлари ёрдамида бажарилганлар мавжуд. 90-йилларнинг ўрталаридан бошлаб геоахборот технологиялари сув эрозиясининг алгоритмик жиҳатдан анча мураккаб моделларини, шу жумладан динамик моделларни фазовий амалга ошириш учун ишлатилган. Масалан, Utrecht университетидан (Нидерландия) ишлаб чиқилган Лимбург сувли тупроқ эрозияси модели (LISEM) [8], GRASS GIS тўплами муҳитида диффузия тўлқин тенгламалари тизимининг рақамли интеграласияси асосида ишлаб чиқилган қиялик эрозияси жараёни модели ва бошқалар [9]. Бироқ, эрозия-тўпланиш жараёнининг батафсил динамик (физика-математик, назарий) моделларини яратишдаги муваффақиятларга қарамай, уларнинг таркиби ва ахборот таъминоти сифатига бўлган талабларнинг ортиши сабабли, ушбу гуруҳ моделлари ҳали ҳам ҳаётда қўлланилиш тадбиғини топмаган. Эрозияга қарши дизайн амалиёти. Биринчи гуруҳ моделларини (эмпирик ва концептуал) GATни жорий этишнинг мавжуд тажрибасини таҳлил қилиш уларни фазовий геоахборот моделлаштириш технологияларида ҳам, моделланаётган жараён ёки ҳодисани тавсифлашда ҳам янада такомиллаштириш зарурлигини кўрсатади. Эрозияни ўрганишда рельеф хусусиятларини ва унинг GATдаги хусусиятларини ўрганиш географик ахборот тизимларининг энг муҳим моделлаштириш функцияларидан бири бўлган рақамли рельеф моделлаштириш билан боғлиқ. Замонавий маънода, рақамли баландлик модели (DEM) баландлик белгилари (чуқурлик белгилари) тўпламини ташкил этувчи уч ўлчовли маълумотлар кўринишидаги уч ўлчовли фазовий объектларни (сиртларни, рельефларни) рақамли тасвирлаш воситаси сифатида ишлайди. DEM, тартибсиз учбурчак тармоқ (TIN) ҳосил бўлган оддий тармоқ тугунларида контурлар ёки бошқа қийматлар ёзувлари тўплами сифатида бошқа қўлланиладиган қийматлар (z-координаталар) киритилади [10]. Рақамли баландлик модели (DEM) таҳлили асосида геоахборот моделлаштириш усулларида фойдаланиш рельефни геометрик,

морфометрик ва гидрологик параметрлар бўйича ўрганиш ва тавсифлаш имконини беради. Бу ҳолда симулясия натижалари дастлабки маълумотларга ва DEM ни яратиш технологиясига қараб маълум бир аниқлик билан олинishi мумкин. Релефнинг морфометрик характеристикалари орасида энг кўп қиялик бурчаклари ва қияликларнинг экспозицияси, сиртнинг режали ва профил эгрилиги ишлатилади [11]. Ҳозирги вақтда эрозияни моделлаштиришда DEMдан фойдаланиш учун ягона стандартлар ва талаблар мавжуд эмас. Турли ишларда турли манбалар асосида қурилган, рельефни кўрсатишда ҳар хил даражадаги деталлар билан ажралиб турадиган турли ўлчамдаги DEMлар қўлланилади. Эрозияни ўрта ва кичик миқёсда моделлаштириш учун масофавий зондаш маълумотларидан олинган DEM лар қўлланилади, чунки катта майдонлар учун батафсилроқ DEM лар мавжуд эмас [12, 13]. Ҳақиқий вазиятни акс эттирувчи ва замонавий истеъмолчи талабларига жавоб берадиган тупроқлар тўғрисида қулай маълумот манбаларини яратиш ва ҳодисаларни қамраб олиш зарурати аллақачон пишиб етилган ва охириги пайтларда мамлакатда катта талаб мавжуд. Тоғларнинг тупроқлари ҳозирги кунга қадар кўп жиҳатдан ўрганилган, қисман турли масштабларда хариталанган ва турли, қисман ўрганилган мақсадлар учун рухсат берилган. Яъни, республикада жуда кўп турли хил маълумотлар мавжуд. Ҳар хил турдаги эр қоплами маълумотлари ўртасидаги боғловчи ва турли даражадаги экинлар тўғрисида зарур маълумотларнинг манбаи бўлган ягона тизимга интеграциялашувни талаб қилиш амортизация қилинади ва турли мақсадлар учун талаб қилинади.

**Хулоса.** Замонавий ГАТ тизимидан фойдаланиш турли муҳитдаги тупроқларнинг экологик вазиятининг ривожланишини моделлаштириш ва экотизим ҳолатининг метеорологик шароитларига, ифлосланиш манбаларининг хусусиятларига боғлиқлигини ўрганиш, макон ҳолатини ҳар томонлама баҳолаш имконини беради.

Эрозияга учраган ерлардан оқилона фойдаланишни таъминлаш нуқтаи назаридан, замонавий адаптив ландшафт деҳқончилик тизимларидан – ёғли-мелиоратив, ландшафт-экологик ва бошқалардан фойдаланиш имкониятларини ҳисобга олган ҳолда, тупроқларнинг сув эрозиясини математик моделлаштириш учун асосий талабларни шакллантиришга асос бўлиб хизмат қилади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Браун Л. Р. Предотвращение эрозии почвы // М. Прогресс, 1989. - С. 295-317.
2. Швобс Г. И. Формирование водной эрозии, стока наносов и их оценка. 1974. - 184 с.
3. Светличный А.А. Математическое моделирование водной эрозии: проблема классификации // Ж.: Вестник Одесского национального университета. – 2010. – Т. 15.
4. Светличный А. А. Математическое моделирование водной эрозии почв: результаты и перспективы // Вестник ОНУ. Сер.: Географические и геологические науки. 2014. Т.19.
5. Аввакумова А.О. 2020. Математическое моделирование факторов эрозии почв на пахотных землях (на примере территории Республики Татарстан). Региональные геосистемы, 44 (1), с. 5–15
6. Горбачева Е.Н. Применение универсального уравнения потерь почвы от эрозии (RUSLE) при оценке интенсивности водно-эрозионных процессов на основе ГИС // Почвоведение и агрохимия. 2011. № 2 (47). С. 42-51
7. Spanner, M.A., Strahler, A.H., Estes, J.E., 1983. Soil loss prediction in a GIS format. Proceedings of 17th International Symposium on Remote Sensing of Environment. Ann Arbor, MI, 9–13 May 1983, pp. 89–100
8. De Roo, A.P.J., Hazelhoff, L., Burrough, P.A., 1989. Soil erosion modelling using ANSWERS and GIS. Earth Surface Processes and Landforms 14, 517–533
9. Хофьерка, Ж., Митасова, Х. & Митас, Л., 2002: ГРАСС анд моделинг ландшапе процесес усинг дуалитий бетвеен партислес анд фиелдс. Ин: Сиолли, М. & Зателли, П. (Едс.), Просеедингс оф тхе “Опен Соурсе Фрее Софтваре ГИС – ГРАСС усерс конференсе 2002», 11–13 Септембер 2002, Тренто, Итали, СД-РОМ
10. Wilson J.P. Terrain Analysis: Principles and Applications, 2000. 520 p. 15; 1999.

## САМАРҚАНД ШАҲРИ АРИҚ ВА КАНАЛЛАРИ БАҲОРГИ БЕНТОС ОРГАНИЗМЛАРИ

**Олимова Д.**

*Самарқанд давлат университети таянч докторанти.*

**Иззатуллаев З.**

*Самарқанд давлат университети профессори.*

**Кузметов А.**

*ЎзР ФА Конструкторлик бюроси ва тажрибавий ишлаб чиқариш илмий-техник маркази профессори.*

Ҳайвонот оламини ўрганиш дунё илм фанига катта ҳисса қўшган буюк алломалардан Абу Райхон Беруний тиббиёт соҳасидаги асарларида 101 хил ҳайвон ва улардан олинган дори-дармонлар тўғрисида ёзиб қолдирган. Абу Али ибн Сино «Китоб аш-шифо» асарида одамларнинг ичагида паразитлик қилувчи чувалчанглар келтириб чиқарадиган касалликлар ва уларни даволаш тўғрисида жуда кўп маълумотлар келтиради. Ҳайвонот дунёси тўғрисида илмий маълумотлар Захриддин Мирзо Бобурнинг шох асари «Бобурнома» ҳам келтирилган. Марказий Осиё ҳайвонларини ўрганиш 20 асрнинг бошларида, айниқса жадал суръатлар билан олиб борилди. Ўтган асрнинг 20 ва 30 йилларида Марказий Осиё худудида яшовчи аҳоли ўртасида кенг тарқалган паразит касалликларига қарши курашни амалга оширишга катта эътибор берилган. Бунинг учун зоология фани олдида паразит ва касал тарқатувчи ҳайвонларни ўрганиш вазифаси қўйилган. Намуналар баҳор ойларида Самарқанд шаҳридан оқиб ўтувчи Сиёб коллекторидан (17°C), Оби Раҳмат каналидан (17° С), шагал кумли тошли Хўжа Ахрори Вали чашмасидан (15°C) [1], Сиёбча коллекторидан (20°C) ва Зарафшон дарёсидан (19°C) йиғилди. Бентос организмларни тадқиқ қилиш учун сув тагидаги лой ёки кумни драга ёки қирғич ёрдамида қириб олиниб, лой ва кумлардан тозалаш учун қирғичга тикилган махсус тўр ёрдамида петри товоқчасига кам-кам солиниб териб олинди. Яна бошқа усуллардан бири, организмларни тез териб олиш учун қириб олинган лой ёки кум солинган идишни силкитиб ош тузи эритмасига солинди, шунда сув юзига чувалчанглар, хашаротлар личинкалари, кичик моллюскалар сузиб чиқди. Каттароқ моллюскаларни йиғишда бошқа усуллар қўлланилди. Тирик организмларни териб олиш осонроқ. Намуналардан териб олинган организмлар йирик систематик гуруҳларга ажратилди. Сўнгра 10%-ли формалинда фиксация қилинди.

Қирғич – металдан ясалган хомут (*бўйинтириқ*) атрофига пишиқ қилиб ясалган кўзлари микроскопик кичик бўлган тўр тикилган бўлади. Хомут тутқичига 2 метрли соп ўрнатилади. Қарама қарши томонидаги пластинкаси 6-18 см атрофида ўткирланган бўлади. Қирғич сув тагидаги анча қаттиқ грунтдан ҳам намуна олиш учун мўлжалланган. Ундан ташқари сув таги биоценозини ўрганишда сув ҳавзасининг биотопи, сув ҳайвонлари кўп учрайдиган жойи аниқлаб олинди.

Ўзбекистоннинг бошқа катта шаҳарларидан оқиб ўтувчи ариқ ва каналлар қатори Самарқанд шаҳридаги ҳавзалар ҳам антропоген омилар таъсири натижасида ҳаддан ташқари ифлосланиб кетган. Ўрганилган сой, коллекторлар ва чашмаларнинг тез оқувчи ва қирғоқ бўйларини ўзига хос бенитофауна, юксак сув ўтлари, овланиш аҳамиятига эга бўлмаган балиқлар макон қилган. Бу сув типлари асосан, икки қанотлилар (*Diptera*), хирономидлар (*Chironomidae*), кунликлар (*Ephemeroptera*), ниначилар (*Odonata*), булоқчилар (*Hydropsyche*), олигахеталар (*Oligochaeta*), нематодалар (*Nematoda*) личинкалари, қўнғизлар (*Coleoptera*), қандалалар (*Heteroptera*), ёнсузарлар (*Gammarus*), зулуклар (*Hirudinidae*), ва моллюскалар (*Mollusca*) дан иборат [2,3].

Учраган организмлар асосини стенобионтлар ташкил қилди. Зулуклар бошқа организмларга нисбатан Самарқанд шаҳри ва шаҳар атрофи сув ҳавзаларида ўз ареалларини кенгайтириб боришлиги аниқланди.

Аниқланган организмларни индикатор сифатда қўллаш мумкин. Айрим организмлар ифлосланган сувларда ривожланса, икки паллали моллюскалар оиласининг баъзи вакиллари  $O_2$  кўп тоза сувларда яшовчи олигосапроб организмлардир.

Ушбу организмларнинг тарқалишига қараб канал, ариқ ва чашмаларнинг экологик ҳолати баҳоланади. Ўрганилган сувларнинг қирғоқ ва қирғоқолди қисмларида оддий қамиш (*Phragmites communis*), кўға (*Thypha latifolia*), рдест турлари (*Potamogeton crispus*, *P. pectinatus*, *P. perfoliatus*, *P. pusillus*), бошоқли уруть (*Myriophyllum spicatum*), роголистник (*Ceratophyllum demersum*), жеруха (*Nasturtium fontanum*) ва сув папоротниги (*Azolla caroliniana*), денгиз наядаси (*Najas marina*), сув мохи (*Fontinalis sp.*) ва киёкларнинг турлари (*Carex sp.*) учраши қайд қилинди. Баъзи жойларда, айниқса қирғоқбўйи қисмида юқори сув ўсимликларидан ряскалар (*Lemna minor*), сузувчи сальвиниялар (*Salvinia natans*) ва хара сувўтларининг ассоциациялари (*Chara vulgaris*, *Ch. fragilis*) яхши ривожланганлиги қайд этилди [4].

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Иззатуллаев З.И., Саидкулов Ж.Р. Дониёр Пайғамбар чашмаси ва унинг атрофидаги моллюскалар (*Mollusca:Gastropoda, Bivalvia*) фаунаси хусусида илк маълумотлар. Замонавий паразитологиянинг долзарб муаммолари мавзусидаги республика илмий-амалий анжуман материаллари. 2015 йил Қарши: ҚарДУ, 2015. 39-41 б.
2. Жадин В.И. Методика изучения донной фауны водоемов и экология донных беспозвоночных // Жизнь пресных вод. М.: Изд-во АН СССР. Т. 4. Ч. 1. С. 278-382.
3. Таубаев Т.Т. Флора и растительность водоемов Средней Азии. Ташкент: Фан, 1970.
4. Холмурадова Т.Н. Юксак сув ўсимликлари ва улардан фойдаланиш истиқболлари //Микроскопик сувўтлари ва юксак сув ўсимликларни кўпайтириш, уларни халқ хўжалигида қўллаш: рес.конф.мат.тўп. Бухоро: 2018. Б. 111-113.



## ТУПРОҚ КИМЁВИЙ ТАРКИБИНИНГ ҒЎЗА АГРОЦЕНОЗИДА ЎЗГАРИШИ

**Маҳаммадиев Самад Қиличевич**

*Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети*

*Тупроқшунослик кафедраси доценти в.б. қ.х.ф.ф.д.*

**Имомқўзиев Отабек Мўминжон ўғли**

*Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети магистри.*

**Абдуллаев Шохруҳ Зафарович**

*Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети магистри.*

**Олтибоева Ўзгилрой Ғанижон қизи**

*Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети талабси.*

**Аннотация:** Мақолада тупроқ кимёвий таркибининг ғўза агроценозида ўзгариши тадқиқ қилинган. Бунда тупроқ табиий унумдорлиги ҳисобига ғўза етиштирилганда суғориладиган типик бўз тупроқларнинг кимёвий таркибининг ўзгариши ҳақида лаборатория ва дала тажрибалари асосида тўпланган маълумотлар келтирилган.

**Калит сўзлар:** суғориладиган типик бўз тупроқ, ғўза, агроценоз, тупроқ кимёвий таркиб, атмофил, литофил, сидерофил, биофил ва халкофил.

**Аннотация:** В статье изучены изменения химического состава почвы в хлопковом агроценозе. В этом входят данные, собранные на основе лабораторных и полевых опытов по изменению химического состава орошаемых типичных сероземов, при возделывании хлопчатника, за счет естественного плодородия почвы.

**Ключевые слова:** орошаемый типичный серозем, хлопчатник, агроценоз, химический состав почвы, атмофильный, литофильный, сидерофильный, биофильный и халькофильный.

**Annotation:** The article studied the changes in the chemical composition of the soil in the cotton agrocenosis. This includes data collected on the basis of laboratory and field experiments on the change in the chemical composition of irrigated typical gray soils, when cultivating cotton, due to the natural fertility of the soil.

**Key words:** irrigated typical gray soil, cotton, agrocenosis, chemical composition of the soil, atmophilic, lithophilic, siderophilic, biophilic and chalcophilic.

**Мавзунинг долзарблиги.** Бугунги кунда дунё бўйича ғўза экиладиган майдон 29,2 млн. гектарни ташкил этиб, ҳар йили 22,8 млн. тоннадан ортиқ пахта толаси етиштирилади.

Ҳар бир кишлок хўжалиги экиннинг минерал озикланиш биологик назарий асоси ва амалий жараёнини ўрганиш, навларнинг озикланишдаги генотипик хусусиятини тўлиқ билиб олиш, уларнинг озикланиш амплитудаларини аниқлаш, юқори ҳосил шакллангандаги озик элементлар бўйича кимёвий таркибни ўрнатиш, қайси озик элементларни қачон, қанчадан бериш технологиясининг илмий асосини яратиш имконини беради [5; 6; 7; 8; 9].

Тупроқларнинг геохимёвий хосса- хусусиятларини аниқлаш, ғўза агроценозида содир бўлаётган биогеоимёвий ўзгаришларни таҳлил этиш, макро ва микроэлементлар миқдори, сифати ҳамда геоимёвий хусусиятларини тупроқ унумдорлигини белгилашда ҳамда муҳофаза қилишда муҳим аҳамият касб этади [1; 2; 3; 4].

Антропоген таъсирни ландшафт блокларига, хусусан тупроққа, ундаги кимёвий элементларнинг фон миқдорларини чуқур таҳлил қилмай туриб тўла тушуниш ва ижобий ҳамда салбий оқибатларини билиб олиш деярли мумкин эмаслиги кўпчиликка маълум. Экотизим, хусусан тупроқлардаги кимёвий элементларни фон миқдорларига “ЮНЕСКО” халқаро дастури “Инсон ва Биосфера”да алоҳида ўрин ажратилган [1; 2; 3; 4].

Бу ўринда тупроқ-ўсимлик мураккаб тизим эканлиги, вақт ва масофада ўзгариб туриши, бунинг сабабларидан бири тупроқдаги макро ва микроэлементларнинг миқдори ва сифатини ўзгариши ҳар бир ўсимлик ва тупроқ ўзига хос элемент таркибига ва хусусиятларига эгаллиги, ҳолатни индивидуал кўринишларда ўрганиш, уларда кимёвий элементларнинг миграция ва аккумуляция жараёнларини, провинция ҳолатларини, радиал миграциясини тадқиқ этиш долзарб муаммолар қаторидан жой олади [1; 2; 3; 4].

Шу мақсадда суғориладиган типик бўз тупроқларда тупроқ кимёвий таркибини ўзгаришини аниқ шароит ва аниқ навда ўрганиш учун изланишлар олиб борилди. Бунинг учун тупроқ табиий унумдорлиги шароитида, яъни ташқи томондан минимал таъсир этиш фонидида ғўза агроценозида тупроқ кимёвий таркибининг ўзгариши ўрганилди.

**Тадқиқотнинг объекти ва усуллари.** Дала ва ишлаб чиқариш тажрибалари «Методика полевого опыта» ва «Дала тажрибаларини ўтказиш услублари» услубиятлари бўйича ўтказилган. Тупроқ таркибидаги кимёвий таҳлили «Полуколичественного Спектрального анализа», «Руководство по химическому анализу почв» бўйича, иқтисодий самарадорлик кўрсаткичлари Баранов услуби асосида ҳамда тажрибадан олинган маълумотларнинг дисперсион-статистик таҳлили «Microsoft Excel» дастури ёрдамида Б.А.Доспехов услуби бўйича бажарилган.

Дала тажрибаси 2021 йилда ғўзани “С-711” нави устида олиб борилди. Дала тажрибаси ўтказилган худудининг тупроғи суғориладиган типик бўз тупроқ, ўрта кумоқ, ҳайдалма қатламининг ҳажм оғирлиги 1,20 г/см<sup>3</sup>; солиштирма массаами, 2,75 г/см<sup>3</sup>; дала нам сиғими 24,2%; ғоваклиги 56,4%; гумус 1,01%; умумий азот 0,077%; умумий фосфор 0,194%; умумий калий 1,86% ва ҳаракатчан азот, фосфор ва калийнинг миқдори мос равишда, 31,5 мг/кг, 31,3 мг/кг ва 187,3 мг/кг ни ташкил қилди. С:N нисбати эса 7,5 ни ташкил этганлиги маълум бўлди.

**Натижалар ва уларнинг таҳлили.** Қишлоқ хўжалик экинлари ҳосил шакллантириш учун маълум миқдорда озиқ элементларни олиб чиқиб кетиши кузатилди. Ер қобиғида O, Si, Al, Fe, Ca, Na, K, Mg устунлик қилади. Ҳозирда элементларнинг турли хил геохимёвий таснифлари, улар орасида энг кўп ишлатиладигани - Гольдшмидт таснифи ҳисобланиб, унга кўра ер қобиғининг барча элементлари биосферада тўпланиш қобилиятига кўра беш гуруҳга бўлинади: атмосфера, литофил, сидерофил, биофил ва халкофил.

Биз олиб борган тадқиқотларда ғўза агроценозида 14 та литофил элементларнинг ўзгаришини ўрганилди. Изланиш натижаларимиз 1-жадвал да келтирилган. Тадқиқотларимиз ўзининг пайдо бўлиш жихати бўйича ўзига хос бўлган суғорилган типик бўз тупроқлар шароитида олиб борилди.

**1-жадвал. Тупроқда литофил элементларнинг ғўза агроценозида ўзгариши.**

Намуна олинган вақт	Элементлар номи ва миқдори (%)													
	Al	Na	K	Fe	Mg	P	Ba	Sr	V	Ti	Cr	Be	Li	Zr
Вегетация бошида	8,0	2,0	0,8	4,0	0,5	0,06	0,02	0,02	0,015	0,3	0,002	0,0003	0,0005	0,003
Вегетация охирида	7,96	1,95	0,77	3,77	0,33	0,04	0,01	0,008	0,010	0,3	0,001	0,0003	0,0005	0,002

Бунда тупроқ табиий унумдорлиги шароитида қандай ўзгариши аниқланди. Вегетация бошида тупроқларимизда 2- 4% миқдорни темир ва натрий элементлари, 0,3-1 % орасидаги миқдорларни Ti, Mg, K элементлари, 0,02-0,015 % орасидаги миқдорларни B, Cr, Ba элементлари ва 0,0003- 0,002 % орасидаги миқдорни Be, Li, Zn, Sr элементлари ташкил қилди.

Ѓўза ўсиб ривожлангандан кейин тупроқда озик элементларида ҳам ўзгариш бўлди. Al- 7,96 %, Na- 1,95%, K- 0,7%, Mg- 0,2%, P- 0,04%, Ba- 0,01%, Cr- 0,018%, B- 0,01%, Ti- 0,3%, Sr- 0,00 1%, Be- 0,0003%, Li-0,0045%, Zr- 0,002% микдорда тупроқда қолганлиги аниқланди.

Вегетация боши билан вегетация охири солиштирадиган бўлсак Al- 0,05%, K- 0,1%, Fe- 3,93%, Mg- 0,3%, P- 0,02, Ba- 0,01%, Cr- 0,01%, B- 0,005%, Ti- ўзгармаган, Sr- 0,001%, Be- ўзгармаган, Li- 0,0005%, Zr- 0,001% камайиши маълум бўлган.

Бизнингча литофил элементларнинг бундай камайиши ўза ўсиб ривожланиши билан боғлиқ бўлса керак. Чунки, ўғит қўлланилмаган шароитда ўза максимал тупроқ кимёвий элементларидан фойдаланишга ҳаракат қилади.

Ѓўза агроценозида тупроқ халькофил 8 элементлар микдори ўзгариши аниқланди. Маълумотлар 2– жадвалда келтирилган.

### 2-жадвал. Тупроқда халькофил элементларнинг ўза агроценозида ўзгариши.

Намуна олинган вақт	Элементлар номи ва микдори (%)					
	Cu	Pb	Zn	Ni	Fe	Zr
Вегетация бошида	0,001	0,002	0,005	0,002	4	0,003
Вегетация охирида	0,0005	0,0015	0,001	0,001	3,9	0,002

Бизнинг тупроқларимиз таркибида бу гуруҳга кирувчи элементларимиз Cu, Pb, Zn, Ni, Fe, Zr кабилар киради.

Халькофил элементлар микдори вегетация даврида Fe- 4% ни ташкил этади, қолган элементлар 0,001- 0,005% ўзгаради. Бунда энг юқори кўрсаткичлар рух элементида кузатилган бўлса, энг паст кўрсаткич эса Cu микроэлементида кузатилган.

Вегетация охирига келиб Fe- 3,93%, Cu- 0,005%, Pb- 0,0015%, Zn- 0,001%, Ni- 0,001%, Zr- 0,002% ўзгариши аниқланган.

Вегетация боши ва охирида халькофил элементларни солиштирадиган бўлсак вегетация бошига нисбатан Cu- 0,0005%, Pb- 0,0005%, Zn- 0,004%, Ni- 0,001%, Fe- 0,07%, Zn- 0,001% да микдорда пасайиши маълум бўлди.

Биз тадқиқот олиб борган суғориладиган типик бўз тупроқларимиз таркибида ўза агроценозида C, Ni, Fe, P каби сидерофил элементлар микдори ўзгаришига гувоҳ бўлишимиз мумкин (3-жадвал).

### 3-жадвал. Тупроқда сидерофил элементларнинг ўза агроценозида ўзгариши.

Намуна олинган вақт	Элементлар номи ва микдори (%)					
	Co	As	C	Ni	Fe	P
Вегетация бошида	-	-	-	0,002	4,0	0,06
Вегетация охирида	-	-	-	0,001	3,9	0,04

Сидерофил элементлардан вегетация бошида Fe- 4%, Ni- 0,002%, C- 0,38%, P- 0,06% микдорни ташкил қилди. Вегетация даврини охирида эса Fe- 3,93%, Ni- 0,001%, C- 0,36%, P- 0,04% микдорларни ташкил қилди.

Бу сидерофил элементларни вегетация бошида ва охиридаги микдорларини солиштирадиган бўлсак, Fe- 0,07%, Ni- 0,001%, C- 0,02%, P- 0,02% ларга камайганини кўришимиз мумкин. Демак, C-711 ўза нави ўғит қўлланилмаган шароитда етиштирганимизда тупроқдаги кимёвий элементлар балансига ўз таъсирини кўрсатишини яққол кўришимиз мумкин. Бу атмофил элементлар 12 та элементни ўз ичига олади. Бу элементларни учувчи элементлар деб ҳам аталади. Бу атмофил элементлар ер юзасида газлар ёки суюқликларни ҳосил қилади. Бизнинг тупроқларимизда бу синфга 2 та элемент мавжудлигини 8- жадвалда кўришимиз мумкин.

**4-жадвал. Тупроқда атмофил элементларнинг ғўза агроценозида ўзгариши.**

Намуна олинган вақт	Элементлар номи ва миқдори (%)										
	N	C	He	O	Ne	Ar	Cl	Br	I	Kr	Xe
Веgetация бошида	0,06	0,38	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Веgetация охирида	0,05	0,36	-	-	-	-	-	-	-	-	-

Бу жадвалда вегетация бошида азот озик элементи 0,06%, углерод 0,38% ташкил қилди. Вегетация бошида ва охирида элементларимиз миқдорларини фарқини кўрадиган бўлсак азот ва углерод атмофил элементларимиз 0,02% миқдорни ташкил қилганини кўришимиз мумкин. Бу элементларимиз ғўза ўсимлиги учун муҳим элементлардан ҳисобланади. Ғўза ўсимлигимиз бу элементларни 0,02% миқдорини ўзлаштирганини айтишимиз мумкин. Биз биламизки, “био” сўзи ҳаёт деган маънони билдиради. Биофил элементлар эса тирик организмдаги элементлардир. Бу биофил элементларга 17 та элемент киради. Биз олиб борган тадқиқотларда 10 та биофил элементларнинг ўзгаришини ўргандим. Изланиш натижаларимиз 9- жадвалда келтирилган.

**5-жадвал. Тупроқда биофил элементларнинг ғўза агроценозида ўзгариши**

Намуна олинган вақт	Элементлар номи ва миқдори (%)													
	C	H	O	N	B	Ca	Mg	K	Na	Mn	Fe	Cu	Cl	S
Веgetация бошида	0,38	-	-	0,06	0,02	7,0	0,5	0,8	2,0	0,02	4,0	0,001	-	-
Веgetация охирида	0,36	-	-	0,05	0,018	6,5	0,2	0,7	1,95	0,017	3,93	0,0005	-	-

Бунда тажрибамизда ўғит қўлланилмаган шароитда қандай ўзгариш содир бўлиши аниқланди. Вегетация бошида тупроқларимизда Fe, Ca, Na элементлари миқдори 7- 4% миқдор орасида бўлган бўлса Mg, K, C элементлари эса 0,8- 0,38% оралиғида бўлган. Бундан ташқари N, B, Mn, Cu каби биофил элементларимиз 0,06- 0,001% миқдор орасида тупроғимизда бўлган. Ғўза ўсиб ривожлангандан кейин тупроқдаги биофил элементларда ҳам ўзгариш бўлди. Булар қуйидагилар: Ca- 6,5%, Na- 1,95%, Fe- 3,93%, K- 0,7%, Mg- 0,2%, C- 0,36%, N- 0,05%, B- 0,018%, Mn- 0,017%, Cu- 0,0005%.

**Хулоса.**

1. Вегетация охирида литофил элементлардан Al- 0,05%, K- 0,1%, Fe- 3,93%, Mg- 0,3%, P- 0,02, Ba- 0,01%, Cr- 0,01%, B- 0,005%, Ti- ўзгармаган, Cr- 0,001%, Be- ўзгармаган, Li- 0,0005%, Zr- 0,001% камайиши маълум бўлди.
2. Вегетация боши ва охирида хальофил элементлар Cu- 0,0005%, Pb- 0,0005%, Zn- 0,004%, Ni- 0,001%, Fe- 0,07%, Zn- 0,001% да миқдорда камайиши аниқланди.
3. Сидерофил элементларни вегетация бошидан ва охирига қараб, Fe- 0,07%, Ni- 0,001%, C- 0,02%, P- 0,02%га камайиши аниқланди.
4. Атмофил элементлар вегетация бошидан охирига томон 0,02% миқдорда камайиши маълум бўлди.
5. Биофил элементлар миқдорининг ўзгариши қуйидагича: Ca- 0,5%, Na- 0,05%, Fe- 0,07%, K- 0,1%, Mg- 0,3%, C- 0,02%, N- 0,01%, B- 0,002%, Mn- 0,003%, Cu- 0,0005% эканлиги маълум бўлди.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Виноградов А.П. Геохимия редких и рассеянных химических элементов в почвах. 1957.
2. Исағалиев М., Абдухакимова Х., Ражавалиева З., Холиқова М. Суғориладиган тупроқларда элементлар мониторинги // «Ҳозирги замон тупроқшунослик ва деҳқончилик муаммолари» республика илмий анжумани материаллари тўплами. Фарғона. 2019. 23-25.
3. Касимов Н.С. Геохимия степных и пустынных ландшафтов. - М.: 1988. -25 с.
4. Ковальский В.А. и др. Ртутно-сурьмяно-мышьяковые субрегионы биосферы и биогеохимические провинции Средней Азии. - Т.: 1982. 26 с. препринт ИЯФ, Р-3-81. 128
5. Кружилин А.С. Физиологическая роль семядольных листьев в онтогенезе некоторых двудольных растений // Физиология растений. –Т. 16. –вып.2.-1969, С. 21-25.
6. Sattarov J.S., Makhmadiyev S.Q. Abdushukurova Z. Morphological structure, physical, water and agrochemical properties of typical irrigated serozem soils. «Soil, climate, fertilization and yields: current problems and perspectives» Collection of Republic scientific-practical conference T., 4 dekabr 2018. 542-549 p.
7. Atoev B., Kaypnazorov J., Egamberdieva M., Makhmadiyev S., Karimov M., Makhkamova D. Technology of nutriating winter wheat varieties in variety-soil-fertilizer system. E3S Web Conf. 244 02040 (2021). DOI:10.1051/e3sconf/202124402040.
8. Makhmadiyev S., Sattarov D., Atoev B., Jabbarov Z., Jobborov B., Turgunov M.M., Muydinov K.G. (2021). The Formation of the Nutrient Medium in the Soil is Influenced by Varieties and Fertilizer and Its Impact on Grain Yield of Winter Wheat. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 5218–5230. Retrieved from.
9. Makhmadiyev S.K., Sattarov Dj.S. Interaction of winter wheat varieties and fertilizers on old-irrigated typical serozem soil / Makhmadiyev S.K., Sattarov Dj.S. // J. Pladorode. - Moscow, 2016. - No. 2 (89). -P. 12-16.



## ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ЗАРАРКУНАНДА АРВОҲКАПАЛАКЛАР ВА УЛАРНИНГ БИОЭКОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

**Омонов Шохрух Нормўминович**

ЎзМУ таянч докторанти.

**Раҳимов Матназар Шомуратович**

б.ф.д. проф. ЎзМУ.

**Аннотация:** Ушбу илмий мақолада арвоҳкапалаклар қуртларининг қишлоқ хўжалиги экинлари ва мевали дарахтларда зараркунандалик қиладиган турлари ва уларнинг биоэкологик хусусиятлари тўғрисида маълумотлар келтирилган.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются виды гусеницы бражников, вредители на сельскохозяйственных культурах и плодовых деревьях, и их биоэкологические особенности.

**Annotation:** This article discusses the species of hawk caterpillars, pests on crops and fruit trees, and their bioecological features.

Аграр соҳаларнинг муҳим вазифаларидан бири зараркунандаларга қарши курашиш саналади. Турли ўсимликларда турлича ҳашаротлар ёки бўғимоёқлиларнинг у ёки бу турлари зараркунандалик қилади. Шу ўринда боғдорчиликда ва қишлоқ хўжалигида етиштирилаётган экинларда зараркунандалик билан ҳаёт кечирувчи арвоҳкапалакларнинг ўрни ҳам талайгина. Маданий ўсимликларга арвоҳкапалакларнинг барчаси ҳам зарар келтирмайди, лекин барча турларининг қуртлари у ёки бу ўсимлик барглари билан озиқланади. Арвоҳкапалаклар орасида баъзи турлари олма (*Smerinthus ocellatus* L-баржаник глазчатого), ток, олхўри, олча дарахтлари баргалари ва ёш навалари билан ва яна баъзи турлари памидор, картошка, бақлажон, гармдори ва бошқа полиз экинлари барг ва новдалари билан озиқланиб қишлоқ хўжалигига ва боғдорчиликка катта зиён етказди. Уларнинг баъзи йилларда сонининг ортиб кетиши, сезирарли даражада зараркунандалик ҳолатига сабаб бўлиши мумкин. Олма ва олхўрида зараркунандалик қилувчи (*Smerinthus ocellatus*) арвоҳкапалаги қуртларининг бош қисми кўк-яшил рангда ва танасининг икки ёни бўйлаб кетган сариқ оқ рангли хошиялари билан бошқа турлари қуртларидан фарқ қилади. (1-расм.)

Барча арвоҳкапалаклар қуртларига хос равишда танасининг орқа қисмида жойлашган шохлари кўкиш рангда бўлади. Оч яшил рангли қуртларининг кейинчалик қўнғир жигарранг ва ҳатто қора тусга киришлиги ҳам мумкин. Танасининг 4- ва 5- бўғинларида оқ доирали маркази тўқ рангли кўз шаклини берувчи белгилари мавжуд. Бу турга мансуб қуртлар олма ва олхўри дарахтларидан ташқари тол, терак, қайин ва жука (липа) дарахтларининг барглари билан ҳам озиқланади. *Manduca quinquemaculata* арвоҳкапалаги қуртлари ўсимлик барглари билан тинимсиз озиқланади ва ўзларидан кейин шикастланган баргларни қолдиради ва бу албатта ўсимликлар вегетациясига салбий таъсир кўрсатади. [1,2]

Зарафшоннинг ўрта оқими ҳудудлари шароитида (Самарқанд вилояти) арвоҳкапалаклар баҳор фаслининг сўнгги кунларида ўсимликлар баргининг остки томонига ўз тухумларини қўяди. Тухумлардан 7-8 кундан кейин рангсиз шаффоф кўринишга эга бўлган дастлабки қуртлари чиқади. Қуртлари дастлаб тухум қобиғи билан озиқланади. Кейинчалик ўсимлик барглари билан озиқлана бошлайди. Ўсимлик барглари билан озиқланиши натижасида қуртларнинг ранги ҳам ўзгариб боради. Қуртлар 5-6 ҳафта мабойнида озиқланади. Бу давр мабойнида 3 марта туллади. Озукага тўйинган қуртлари тупроққа тушиб ғумбак ҳосил қилади. Ғумбак ҳосил бўлгунча тупроқда яна бир туллаш жараёни амалга ошади. Сўнгра ғумбаклик даври бошланади. Ғумбак дастлаб сарғиш кейинчалик тўқ қўнғир тусга қиради. Юмшоқ тупроқ қатламида ҳаво ҳарорати ва намлик муқобил бўлган шароитда 14-21 кундан сўнг ғумбакдан капалаклар учиб чиқади.



1-расм. *Smerinthus ocellatus* L.нинг капалаги ва қурти.



2-расм. *Manduca quinquemaculata* нинг памидор ўсимлиги барги билан.



3-расм. *Manduca quinquemaculata* қурти билан озикланаётган ари личинкалари.

Арвоҳкапалакларнинг кўпгина турлари мамлакатимиз шароитида бир мавсумда 1-2 марта авлод беради. Арвоҳкапалакларининг мевали дарахтлар ва полиз экинларига зарар етказадиган турларининг қуртларига қарши курашиш уларнинг сонига боғлиқ ҳолда амалга оширилади. Агар боғ ёки экин майдонининг ҳажми кичик бўлса қуртлар сони кам учраса қўл билан териб ташлаш тавсия этилади. Лекин баъзи йилларда уларнинг сонини ортиб кетиши ва боғ ва полиз майдонларининг катта майдонли эканлигини ҳисобга олган ҳолда уларга қарши инсектицидлар билан ишлов бериш тавсия этилади. Озиқ овқат хавфсизлиги ва маданий ўсимликларга безарар таъсир эттириш мақсадида инсектицидлардан фойдаланилганда асосан биоинсектицидлардан фойдаланилса мақсадга мувофиқ бўлади. Қуртларни қўл билан териб олинганда уларни совунли сувга солиш кифоя ва бу энг безарар усул саналади. Тажрибалар шуни кўрсатадики биоинсектицидлар билан баҳор ойларида экинзорлар тупроқларига ишлов берилишлиги натижасида ҳам арвоҳкапалаклар қуртларидан тўқсон фоизгача халос бўлиш мумкин. Шу билан бир қаторда арвоҳкапалак қуртларининг табиий қушандалари ҳам мавжуд. Масалан ариларнинг личинкалари *Manduca quinquemaculata* арвоҳкапалагининг қуртлари билан озикланиб уларнинг популяциясида табиий мувозанатни таъминлайди. (3-расм.) [2,3,4]

Ўсимликларни биологик ҳимоя қилиш мақсадида шивит (укроп) ва райхон ўсимликлари билан экинларга ишлов бериш ҳам арвоҳкапалаклар қуртларидан мевали дарахтларни муҳофаза қилади.[3,4] Бизнинг тадқиқотларимиз давомида асосан мевали дарахтларга зарар келтирадиган *Smerinthus ocellatus* арвоҳкапалаги бир мавсумда 2 марта авлод беради. Иккинчи авлоди ғумбак даврида қишлаб қолади. Полиз экинларига зарар келтирувчи *Manduca quinquemaculata* арвоҳкапалаги 2-3 марта авлод беради. Учинчи авлоди қуртлик даврида қишлаб қолади.

#### Фойдаланилган адабиётлар

1. Д.А. Азимов, А.А. Бикунин, А.Г. Давлетшина, М.К. Кадырова Насекомые Узбекистана. Ташкент-“ФАН”-1993 й.
2. Хўжаев Ш.Т. Ўсимликларни зарақунандалардан уйғунлашган ҳимоя қилиш, ҳамда агротоксикология асослари. – Тошкент: Навруз, 2014 й.
3. Ю.Л. Щеткин. Высшие чешуекрылые Вахшской долины. АН Таджикистан 1960 г.
4. Ўзбекистон республикасининг ҚИЗИЛ КИТОБИ II ЖИЛД. Тошкент 2019 й.

## МАНФААТЛАР ТЎҚНАШУВИНИ ОЛДИНИ ОЛИШ – КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШИШНИНГ НЕГИЗИНИ ТАШКИЛ ҚИЛМОҒИ ЛОЗИМ

*Отажонов Хайрулло Муродович*

*Фарғона вилояти Ўзбекистон туман ҳокимлиги бош юрисконсулти.*

“... коррупциянинг ҳар қандай кўринишига мурасасиз бўлиш кундалик ҳаёт тарзимизга айланиши шарт. Бу иллатга қарши курашишга барча давлат органлари, сиёсий партиялар, жамоат ташкилотлари, оммавий ахборот воситалари, умуман, ҳар бир фуқаро сафарбар этилиши зарур”

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг  
29.12.2020 йилдаги Олий Мажлисга Мурожаатномасидан.

Ҳозирги кунда жамиятдаги аксарият қатламнинг, яъни фуқаролар, ходимлар, оммавий ахборот воситаларининг луғатида **“ривожланиш, эркин фуқаролик жамияти, демократия, инсон ҳуқуқлари, сўз эркинлиги”**, каби энг кўп ишлатилаётган, фойдаланилаётган жумлалар қаторида **“коррупция, манфаатлар тўқнашуви”** деган иборалар ҳам алоҳида муҳим аҳамият касб этмоқда.

Шу муносабат билан, мен ушбу йўналишда яъни коррупция, хусусан манфаатлар тўқнашуви тўғрисидаги фикрларимни умумлаштирдим, ушбу ўрганганларимни бир тезис сифатида Сизларга ҳам тақдим қилмоқчиман.

**Коррупция** сўзи латинча **“corruptio”** сўздан олинган бўлиб, **“емирилиш”**, **“бузилиш”** деган маъноларни англатса, **“Коррупция”** сўзининг ижтимоий кўриниши **«ҳокимиятни бузиш, чиритиш орқали сотиб олиш»** деган маънони беради.

Энди **“Коррупция”**га амалдаги Ўзбекистон Республикасининг **“Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”**ги Қонунда берилган илмий-ҳуқуқий таъриф эса куйидагича. Яъни, **Коррупция - шахснинг ўз мансаб ёки хизмат мавқеидан шахсий манфаатларини ёхуд ўзга шахсларнинг манфаатларини кўзлаб моддий ёки номоддий наф олиш мақсадида қонунга хилоф равишда фойдаланиши, худди шунингдек бундай нафни қонунга хилоф равишда тақдим этиши**дир.

Коррупция барча замонларда, ҳар қандай жамиятда қаттиқ қораланган бўлиб, унга қарши Халқаро миқёсда кенг кўламли ишлар олиб борилганлиги, коррупцияга қарши кескин ва мурасасиз курашган давлатлар, жамиятлар жуда тез ривожланганлигига бир неча бор гувоҳ бўлганмиз.

Мисол учун, Исроил давлатининг Бош вазири бўлган Голда Меир хоним, **“...Агар Сиз ўғил-қизлари унга доимо қайтадиган, аҳолиси ундан фақат таътил мавсумидагина четга чиқадиган, унинг ҳудудида келажак учун қўрқув ҳисси бўлмайдиган Ватан қурмоқчи экансиз, қуйидаги икки қадамни қўйинг: яъни, **Биринчидан, коррупцияни ватанга хоинликка, коррупционерни эса энг ашаддий сотқинга тенглаштиринг; Иккинчидан, ҳарбийлар, ўқитувчилар ва шифокорларни энг катта маош тўланадиган касб эгаларига айлантиринг. Энг муҳими, меҳнат қилинг, меҳнат қилинг ва меҳнат қилинг. Негаки, Сизни ўзингиздан бошқа ҳеч ким ҳимоя қилмайди, боқмайди. Сизнинг Ватан ўзингиздан бошқага керак эмас. Агар, ана шу айтганларим оддий сўз ва шиор бўлиб қолмасдан, турмуш тарзингизга айланса, Сиз ўз мақсадингизга эришган бўласиз.**”**,-деб васият қолдирган бўлса, Сингапурда **“иктисодий мўъжиза асосчиси”** деб тан олинган, Сингапурни дунёнинг энг ривожланган давлатлари қаторига кўшган, **Ли Куан Ю, “Менда иккита йўл бор эди: Биринчиси – ўғирлаш ва дўстларим ҳамда қариндошларимни “Форбс” рўйхатига киритиш”, бу билан халқимни қуруқ ерда қолдириши; Иккинчиси – халқимга хизмат қилиш ва мамлакатни дунёнинг энг яхши давлатлари ўнлигига киритиши. Мен иккинчи йўлни танладим,...**”,-деган эди.

Коррупциянинг салбий оқибатлари нималарда намоён бўлади. Коррупция:

Биринчи, демократия ва инсон ҳуқуқлари институтларнинг мустақамланишига жиддий путур етказди;

Иккинчи, кенг жамоатчиликда ҳокимиятга бўлган ишончни сўндиради;

Учинчи, жамиятдаги тинчлик, осойишталик, адолат, қонун устуворлиги каби ижтимоий-ҳуқуқий кадриятларнинг бузилишига олиб келади;

Тўртинчи бозор иқтисодиёти қонуниятларининг бузилиши, яширин иқтисодиётнинг пайдо бўлиши ва ривожланишига замин яратади;

Бешинчи давлат бюджетига жиддий зарар етказди ва бошқалар.

Мени назаримда, умуман бевосита коррупцияни олдини олишда энг муҳим аҳамият касб этувчи омил бу **манфаатлар тўқнашувидир**.

Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги Қонунига кўра шахсий (бевосита ёки билвосита) манфаатдорлик шахсининг мансаб ёки хизмат мажбуриятларини лозим даражада бажаришига таъсир кўрсатаётган ёхуд таъсир кўрсатиши мумкин бўлган ҳамда шахсий манфаатдорлик билан фуқароларнинг, ташилотларнинг, жамиятнинг ёки давлатнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатлари ўртасида қарама-қаршилик юзага келаётган ёки юзага келиши мумкин бўлган вазият – бу “**Манфаатлар тўқнашувидир**”.

**Манфаатлар тўқнашувиде** келиб чиқишининг асосий сабаблари қаторида, қўйидагиларни ажратиш мумкин: яъни, **ходимнинг шахсий манфаатлари** (масалан, мансабпарастлик, кўраолмаслик, паст ниятлар, гараззўйлик ва бошқалар); ҳамда **ходимнинг яқин қариндошлари манфаатлари** (бирон-бир мавқега эга бўлиш, таниш-билишчиликни яратиш, наф кўриш ёки афзалликларга эга бўлиш ва бошқалар).

**Манфаатлар тўқнашувини** қўйидагича таснифлаш мумкин.

- **“қарама-қаршилик нуқтаи назаридан”**, яъни, меҳнат фаолиятининг асосий мақсадларига эришишига тўсқинлик қилувчи (ишчанлик обрўсига путур етказиш), ходимларнинг шахсий мақсадларига эришишига тўсқинлик қилувчи ва белгиланган одоб-ахлоқ меъёрларга номувофиқ хулқ-атворлар ва бошқалар бўлса, **таъсир йўналиши бўйича** “вертикал” тўқнашувлар (раҳбар ва ходим ўртасида), “горизонтал” тўқнашувлар (ходимлар ўртасида) ва “аралаш” тўқнашувлар (раҳбар, ходим ва ходим ўртасида).

**Манфаатлар тўқнашувининг бир неча кўринишлар мавжуд бўлиб**, уларни таъсир йўналиши бўйича қўйидагиларга ажратиш мумкин.

**Яъни, раҳнамолик, фаворитизм (фр. favorit)** химоя остидаги айрим ходимларни яқин олиш ва қўллаб-қувватлаш, **Непотизм (лот. nepos жиян)** қариндош-уруғчилик, ҳудудий ёки этник принциплар асосида давлат тузилмаларида ёки бошқа тузилмаларда тор гуруҳчилик манфаатлари билан иш кўриш, **Протекционизм (лот. кўмаклашиш)**- маълум бир шахсларни лавозимга тайинлашга кўмаклашиш, **Кронизм (инглиз. ҳамфикр, таниш билишчилик, гуруҳбозлик)** лавозимларни таниш-билишчилик асосида дўстларга бериш кабилардир. Хўш манфаатлар тўқнашувини олдини олиш учун нималарни амалга ошириш керак, яъни **манфаатлар тўқнашувининг** олдини олиш (бошқариш) учун қандай чора-тадбирлар белгиламоқ керак.

1) идора раҳбари ходимларга ҳурмат билан муносабатда бўлиш (исми, шариф билан мурувжаат этиш);

2) иш масалалари бўйича қарорлар қабул қилишида ва иш вазифаларини бажаришида раҳбар ва ходимлар ташилотнинг манфаатларини кўзлаб бошқариш;

3) техник воситалар, аппарат ва жиҳозлардан фақат идора манфаатларида фойдаланишни таъминлаш;

4) миллий, ирқий, этник ёки диний адоватни тарғиб қилувчи материалларни тарқатишни таъқиқлаш;

5) шахсий манфаатларини кўзлаб, идора манфаатларига зарар етказадиган фаолият билан шуғулланишига мойил бўлган ходимларни аниқлаш;

6) давлат хизматчиларининг тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланиши тақиқлаш.



**Манфаатлар тўқнашувини куйидагича бошқариш, яъни тартибга солиш лозим.**

- **Ходимнинг манфаатлар тўқнашуви бўйича қарорларни қабул қилиш ва муҳокама қилиш жараёнида қатнашишдан ихтиёрий равишда воз кечиб, ўз-ўзини рад этишини тасдиқлаш;**
- **Ходимнинг шахсий манфаатларига таъсир кўрсатиши мумкин бўлган маълумотлар ва ҳужжатлардан фойдаланишини чеклаш;**
- **Манфаатлар тўқнашувининг олдини олиш учун ходимнинг мансаб йўриқномаларини ўзгартириш ёки қайта кўриб чиқиш;**
- **Ходимни маълум бир давлат харид иштирокчиси билан ходим учун қарорларни қабул қилиш жараёнидан четлаштириш**
- **Ходимни маълум бир лавозим, вазифадан озод этиш**
- **Ходимни манфаатлар тўқнашуви билан боғлиқ бўлмаган меҳнат функцияларини бажаришини назарда тутадиган лавозимга ўтказиш** мақсадга мувофиқ бўлади.

**Айнан қонунчилигимизга юзланадиган бўлсак, манфаатлар тўқнашувини, жумладан уруғ-аймоқчиликни олдини олишда Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодексининг 79-моддаси (Қариндош-уруғларнинг давлат корхонасида бирга хизмат қилишларини чеклаш) аҳамият касб этади. Унга кўра: “Ўзаро яқин қариндош ёки қуданда бўлган шахсларнинг (ота-оналар, ака-укалар, опа-сингиллар, ўғил ва қизлар, эр-хотинлар, шунингдек эр-хотинларнинг ота-оналари, ака-укалари, опа-сингиллари ва болалари), баширти улардан бири иккинчисига бевосита бўйсуниб ёки унинг назорати остида хизмат қиладиган бўлса, бир давлат корхонасида бирга хизмат қилишлари тақиқланади**

**Эндиликда “манфаатлар тўқнашуви” алоҳида Қонун билан тартибга солинмоқда.**

Адлия вазирлиги томонидан ишлаб чиқилган манфаатлар тўқнашувининг олдини олиш тўғрисида қонун лойиҳалари жамоатчилик муҳокамасига қўйилди. Ва ушбу қонун билан куйидагилар назарда тутилмоқда:

- **манфаатлар тўқнашувини тартибга солиш бўйича махсус бўлинма сифатида давлат ташкилотларининг коррупцияга қарши ички назорат тузилмалари ва кадрлар билан ишлаш бўлинмалари белгиланмоқда;**
- **Давлат ташкилотининг манфаатлар тўқнашувининг олдини олиш соҳасидаги мажбуриятлари сифатида манфаатлар тўқнашуви тўғрисидаги декларациялар ва хабарноманинг белгиланган шаклини ўзининг расмий веб-сайтида жойлаштириш, манфаатлар тўқнашувига йўл қўйилган ҳолда қабул қилинган қарорларни белгиланган тартибда ўзгартириш ёки бекор қилиш ёхуд бундай битимларни ҳақиқий эмас деб топиш бўйича белгиланган тартибда судга даъво киритиш, аниқланган манфаатлар тўқнашуви бўйича хизмат текширувларининг холис ташкил этилиши ҳамда унинг натижаларининг одоб-ахлоқ комиссияси томонидан кўриб чиқилишини таъминлаш, шунингдек ўрнатилган кўрсатилган ходимларни рағбатлантириш чораларини кўриш ва бошқалар қайд этилмоқда.**

Хулоса ўрнида, **коррупция, манфаатлар тўқнашуви** борасида ҳар қанча фикрлашсак, уни олдини олиш юзасидан тарғибот ишлари кенг қўламда олиб борилиб, жамиятнинг ҳар бир қатламига, фуқароларнинг онгига таъсир қилиш йўли билангина кўзланган мақсадга эришиш мумкинлигини қайд этмоқчиман. Зеро, коррупцияни олдини олиш ва уни енгишда энг юқори натижаларга эришган ўша машҳур Сингапур Республикасининг **коррупцияга қарши кураш сиёсати** бир қатор **принципларга, хусусан жамоатчилик иззаси, жавобгарлик муқаррарлиги, давлат ва шахсий манфаатлар чекланиши, қонун устуворлиги мустаҳкамланиши, коррупцияга қарши Бюро ташкил этиши, раҳбарлар шахсий намуна кўрсатиши, лавозимга тайинланишида ҳалоллик ва мулк ва даромадларни декларация қилишга** асосланган эди.



## ВЫБОР ПРИЗНАКОВОГО ПРОСТРАНСТВА ДЛЯ КЛАССИФИКАЦИИ IP-ТРАФИКА СЕТИ МЕТОДАМИ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ

*Охундадаев Улугбек Рахимжон угли  
Национальный университет Узбекистана*

В настоящее время в корпоративных компьютерных сетях существует необходимость обеспечения защиты информационных ресурсов от несанкционированного доступа и мошенничества, как со стороны внешних злоумышленников, так и со стороны внутренних пользователей корпоративных сетей. IP-протокол и протоколы транспортного уровня (TCP, UDP) имеют множество различных параметров и характеристик, которые можно получить из как непосредственно заголовков пакетов, так и статистических наблюдений за потоками. Для решения задачи классификации сетевого трафика методами машинного обучения необходимо определить набор данных (признаков), которые целесообразно использовать для решения задачи классификации.

Выбор признаков зависит от требований к процессу классификации – скорости и точности классификации. В работах зарубежных авторов показано, что можно выделить до 248 различных атрибутов IP-трафика сети, которые потенциально можно использовать в методах машинного обучения для классификации или кластеризации IP-трафика по приложениям. Анализ показывает, что не все предложенные атрибуты одинаково влияют на точность и скорость классификации. Например, такие параметры как IP-адрес назначения или номер порта транспортного протокола дают больше информации, чем частота прихода пакетов. Для выбора оптимального числа и состава атрибутов, используемых при классификации IP-трафика, применяют либо скалярный метод отбора, в котором признаки отбираются независимо друг от друга, либо векторный метод отбора, в котором признаки выбираются на основе взаимной корреляции между ними. Скалярные методы отбора признаков для классификации могут быть неэффективными для наборов данных с взаимной корреляцией, но обладают меньшими вычислительными затратами по сравнению с векторными методами. Векторные методы отбора признаков можно разделить на оберточные методы и методы фильтрации. Как правило, оберточные алгоритмы показывают лучшие, по сравнению с фильтрующими методами, результаты классификации, так как атрибуты классификации оптимизируются под классификатор. Но при увеличении числа анализируемых атрибутов значительно возрастает вычислительная сложность оберточных алгоритмов. Одним из самых простых, быстрых и часто используемых фильтрующих методов отбора атрибутов является алгоритм InfoGain, в основе которого лежит вычисление приращение энтропии для каждого из атрибутов.

Таким образом, выбор атрибутов для классификации трафика компьютерной сети - это сложная задача, которая зависит от цели классификации. Если, например, классификация совершается в режиме реального времени для мониторинга уровня QoS, можно проверить только часть некоторых отдельных потоков из сети, что дает больше возможностей, чем классификация трафика для учета данных. Тем не менее, в обоих случаях можно использовать параметры, основывающиеся на размерах пакетов. В тоже время следует избегать использования каких-либо параметров, основывающихся на времени (продолжительность потока и другие параметры). В дальнейшем, как правило, полагается, что характеристики потоков, основывающихся на размере пакетов в сети, не зависят от текущих условий. Другие атрибуты содержат имя протокола транспортного уровня, удаленные номера портов, количество пакетов, имеющих набор TCP флагов или номера. Количество атрибутов для классификации трафика не так важно, как для техника кластеризации. Тем не менее, важно избегать атрибутов, которые содержат конкретные значения только для небольшого количества случаев, принадлежащих к конкретному классу. Это может привести к переобучению классификатора и, также, не будет возможности идентифицировать неизвестные случаи.

**Литература:**

1. Aamir, M., Zaidi, M.A., 2013. A survey on DDoS attack and defense strategies: from traditional schemes to current techniques. *Interdisciplinary Inf. Sci.* 19(2), 173-200.
2. Aamir, M., Zaidi, S.M.A., 2015. Denial-of-service in content centric (named data) networking: a tutorial and state-of-the-art survey. *Security Commun. Networks* 8 (11), 2037.
3. Hu, X., Knysz, M., Shin, K.G., 2011. “Measurement and analysis of global IP-usage patterns of fast-flux botnets”, in *INFOCOM. Proc. IEEE 2011*, 2633-2641.
4. Gao Y., Feng Y., Kawamoto J., and Sakurai K., “A machine learning based approach for detecting DRDoS attacks and its performance evaluation,” in *Information Security (AsiaJCIS), 2016 11th Asia Joint Conference on*, 2016, pp. 80-86.

## ТЭРРАКОТАЛАРДА ЧЎҚКИ ҚАЛПОҚЛАРНИНГ КЕНГ ТАРҚАЛИШИ

**Примова Ситора Ориф қизи**

*Ўзбекистон Миллий университети Тарих факультети,*

*Археология йўналиши 1-курс магистранти.*

*Илмий рахбар: Сулаймонов Р.Х.*

Бақтрияда милoddан аввалги II—I асрларда Юэджи қабилаларининг кириб келиши билан қўлдан ясалган terraкоталар кенг тарқалади. Terraкоталарда асосан эркаклар ёки отга минган ҳолда ясалган чавандозларни кўришимиз мумкин. Эркакларни бош кийимлари баланд учли қалпоқ тарзида берилган. Тадқиқотчиларнинг фикрича, бош кийимларнинг бундай кўриниши дашт аҳолисининг тасвирланганлигидан далолат беради. Бақтриянинг Герай ва Кадфиз I тангаларида тасвирланган эллин худоларини ўрнига эндиликда қиррали қалпоқ кийган чавандоз пайдо бўлади.<sup>290</sup> Васудева I нинг халқ тангасида ҳукмдорнинг қиёфаси, тик турган, боши чапга бурилган, учли бош кийимда.<sup>291</sup> Халчаённинг баъзи ҳайкалчаларида қирраси бўйлаб безакли учли қалпоқли бош кийимларни кўришимиз мумкин.<sup>292</sup> Худди шундай учиди тугмаси бўлган конус шаклидаги қалпоқ кийган шахзода ҳайкалчасининг бош қисми Далварзин ёдгорлигида топилган.<sup>293</sup> Шахзоданинг бошида сақланган қироллик бош кийими, овал шаклидаги қадама қимматбаҳо тошлар билан безатилган.<sup>294</sup> Шу билан бир қаторда Далверзин ибодатхонасидан топилган кўпгина ҳайкалчалар шунга ўхшаш бир қатор қизиқарли костюмлар ва бош кийимларни беради.<sup>295</sup> Бақтрия аҳолисининг маълум бир гуруҳи вакиллариининг "скиф қалпоқлари"даги тасвирлари эрамиздан аввалги VI-V асрларга оид Амударё хазинаси олтин пластинкаларида учратамиз [Ghirshman R. Perse. Proto-iranien, Medes, Achemenides, Paris. 1963, fig. 109. 120-121].<sup>296</sup> Худди шундай шаклдаги бош кийим Иссиқлик қабристонидан Олтин одамнинг бошига топилган (милoddан аввалги III аср).<sup>297</sup> Антик муаллифлар Ўрта Осиёнинг ғарбий қисмида *тиграҳуа* сакларни, яъни "ўткир учли қалпоқдор"ларни қайд этганлар.<sup>298</sup>

Хоразмдаги Кўйқирилган-қалъадан топилган милoddан аввалги III-II асрларга оид terraкотада учли қалпоқли чавандоз тасвирланган.<sup>299</sup> Парфиянинг Нисо шаҳри қолдиқларидан топилган милoddан аввалги II асрларга тегишли ритонларда тасвирланган ўсмирлар бош кийимларида ҳам учли қалпоқлардан иборат.<sup>300</sup> Сўғднинг илк антик коропастикасида "Чўпон Митра"нинг ҳайкалчаларида учли бош кийимлар кенг тарқалганлигини кузатишимиз мумкин.<sup>301</sup>

<sup>290</sup> Пугаченкова Г.А. Скульптура Халчаёна. Изд-во «Искусство». М. 1971. С.88.

<sup>291</sup> Пугаченкова Г.А. Халчаён. К проблеме художественной культуры Северной Бактрии. Изд-во «ФАН» Узбекской ССР. Ташкент. 1966. С.120; Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Э.В. Северная Бактрия-Тохаристан. Ташкент. 1990. С.37-38.

<sup>292</sup> Пугаченкова Г.А. Халчаён. К проблеме художественной культуры Северной Бактрии. Изд-во «ФАН» Узбекской ССР. Ташкент. 1966. С.229.

<sup>293</sup> Пугаченкова Г. А. Ртвеладзе Э. В. и др. Дальверзинтепе - кушанский город на юге Узбекистана. Ташкент, Изд-во «Фан» УзССР. 1978. С.40.

<sup>294</sup> Пугаченкова Г. А. Ртвеладзе Э. В. и др. Дальверзинтепе - кушанский город на юге Узбекистана. Ташкент, Изд-во «Фан» УзССР. 1978. С.203.

<sup>295</sup> Пугаченкова Г. А. Ртвеладзе Э. В. и др. Дальверзинтепе - кушанский город на юге Узбекистана. Ташкент, Изд-во «Фан» УзССР. 1978. С.96.

<sup>296</sup> Пугаченкова Г.А. Халчаён. К проблеме художественной культуры Северной Бактрии. Изд-во «ФАН» Узбекской ССР. Ташкент. 1966. С.184.

<sup>297</sup> Жертвоприношение: Ритуал в культуре и искусстве от древности до наших дней / *ΕΡΜΗΝΕΥΤΑ 2* / Научн. ред. Л. И. Акимова и А. Г. Кишин. М.: Языки русской культуры, 2000. С.373.

<sup>298</sup> Литвинский Б. А. Древние кочевники «Крыши мира». — М., 1972. С. 127, 172.

<sup>299</sup> Толстов С. П. По древним дельтам Окса и Яксарта, М., 1962, с. 125.

<sup>300</sup> Массон М. Е., Пугаченкова Г. А. Парфянские ритоны Нисы. ТЮТАКЭ, т. IV, Ашхабад, 1959. с. 197, табл. ХС, ХСІ, ХСІІ, ХСІІІ.

<sup>301</sup> Пугаченкова Г. А., Ремпель Л. И. Выдающиеся памятники изобразительного искусства Узбекистана, Ташкент, 1960, рис. 23-31, с. 47.

Холчоён ҳайкалчаларининг бош кийимлари юнон ҳайкалтарошлигининг "Фригия қалпоқчаси" ёки "скиф қалпоқчаси" турига яқин бўлиб, уларда кўпинча "варварлар", "скифлар", форслар ва баъзи худолар - Аттис ва Митра тасвирланган [Winter F. Die Antiken Terrakotten, Berlin und Stuttgart, 1903, s. 371-373].<sup>302</sup> Учили қалпоқ кийган отлик ҳайкалчаларнинг қолиплари Парфиянинг Ниппур шаҳридан топишган [Legrain L. Terracottas from Nippur. Philadelphia, 1930, N 148, 248, p. 23].<sup>303</sup>

Шу турдаги бош кийимни кийган маъбуда ҳайкаллари Самарқандда ва бошқа қадимги Сўғд сивилизацияси туманлари – Кашка-Дарин, Бухоро воҳаларида ҳам учрайди. Буюк маъбуда тасвирига Самарқанд терракоталари орасида эркаклар ҳамроҳ бўлишади. Эҳтимол, учинчи гуруҳ маъбудасининг эркак корреляцияси юмшоқ кигизли "скиф" типидagi бош кийим, узун кўйлак кийган ва иштони майин этикларга тиқилган йигитларнинг ҳайкалчалари бўлгандир. Бу Митра - дастлабки босқичда унинг иконагарафияси чўпон сифатида ифодалангани учун уни "сурув ҳомийси" деб ишонишади.

Саукеле (Сау - "қуёшли, чиройли", кел - "бош") ва юрта келиннинг энг қиммат буюмларидан бири бўлиб, бой безатилган саукеле қозоқ халқ амалий санъатининг энг яхши намуналарини ифодалайди. Тадқиқотчи А. Морозова "саукеле" атамасини икки сўз бирикмаси сифатида: "ша" – қирол ва "қуло" – шапка ёки "қалла" – бош деб изоҳлайди. Қорақалпоқ саукелеси — юмшоқ думалоқ кигиз қалпоқ бўлиб, қизил мато билан ўралган ва турлича безатилган. Саукелени безаш учун каштадўзлик ва кумушдан қилинган турли шаклдаги заргарлик тақинчоқлар ишлатилган.<sup>304</sup> Саукеле маросимли бош кийими бўлган.<sup>305</sup>

Чингизхоннинг тўнғич ўғли Жўчининг авлодлари бўлган қозоқ хонлари ва султонлари "саукеле қалпоқ" кийганлар.<sup>306</sup> Бундан ташқари, Ўрта Осиёда дарвешлар ҳам - сўфий биродарлик вакиллари учли бош кийим кийганлар.<sup>307</sup> Барча тасаввуфчилар сингари, улар ўзларининг диний ҳаётининг асосий мазмунини Худо билан яқин алоқага олиб келадиган йўлларни излашда кўрганлар".<sup>308</sup>

Ушбу қадимий миллий бош кийим кўп асрлар давомида ўзгаришларга учради: заргарлик буюмларини безаш учун саукеле, маржон ва сердоликдан ташқари, Хоразмда машхур бўлган фируза тошдан фойдаланила бошланди, бош кийимни кашталанган *алака* лентаси билан безашнинг янги усули жорий этилди. XIX асрнинг ўрталарига келиб, саукеле кундалик кийимга айланди. Маросим тўй либоси сифатида XX аср бошларида бутунлай кийилмайдиган бўлди.<sup>309</sup> Ҳозирда бу бош кийимни фақат музейларда кўриш мумкин.<sup>310</sup>

<sup>302</sup> Пугаченкова Г.А. Халчяан. К проблеме художественной культуры Северной Бактрии. Изд-во «ФАН» Узбекской ССР. Ташкент. 1966. С.184.

<sup>303</sup> Пугаченкова Г.А. Халчяан. К проблеме художественной культуры Северной Бактрии. Изд-во «ФАН» Узбекской ССР. Ташкент. 1966. С.231.

<sup>304</sup> Курбанова З.И. Головные уборы каракалпачек (конец XIX - середина XX в.) // Проблемы востоковедения. 2014/1 (63). С.39.

<sup>305</sup> Курбанова З.И. Головные уборы каракалпачек (конец XIX - середина XX в.) // Проблемы востоковедения. 2014/1 (63). С.40.

<sup>306</sup> Жертвоприношение: Ритуал в культуре и искусстве от древности до наших дней / ЕРМННЕГА 2 / Научн. ред. Л. И. Акимова и А. Г. Кишишин. М.: Языки русской культуры, 2000. С.375.

<sup>307</sup> Достоевский М. Старина и быт Средней Азии. — М., 1917. С.14; Сухарева О. А. Древние черты в головных уборах народов Средней Азии // Труды Института этнографии, нов. сер. — М., 1954. — Т. XXI. — С. 334.

<sup>308</sup> Сагадеев А. В. Очеловеченный мир в философии и искусстве мусульманского средневековья // Эстетика и жизнь. — М., 1974. — С. 460.

<sup>309</sup> Курбанова З.И. Головные уборы каракалпачек (конец XIX - середина XX в.) // Проблемы востоковедения. 2014/1 (63). С.42.

<sup>310</sup> Народы Средней Азии и Казахстана. I. /под редакцией С.П. Толстова, Т.А. Жданко, С.М. Абрамзона, Н.А. Кислякова. Изд-во Академии наук СССР. М.1962. С.483-484.

## ҲАДАҒУ ВАЗИҒАҶО ВА ПРИНЦИПҶОИ АСОСИИ ТАРБИЯИ ИҚТИСОДИИ ХОНАНДАГОНИ СИНҒҶОИ ИБТИДОИ

*Рабиев Сатторбердӣ Мавлонович – дотсент, МДТ*

*“Донишгоҳи давлатии Хуҷанд ба номи академик Бобочон Ғафуров” (Тоҷикистон).*

Дар ҷаҳони муосири зудтағирёбанда ҷамаи мо бо мушкилоти иқтисодӣ рӯ ба рӯ ҳастем. Дар ин робита, бояд соҷаи маорифу муассисаҳои таълимӣ дар самти тарбияи шаҳрвандони тафаккури ҳуқуқӣ ва иқтисодиашон тақомулёфта ғаъолияти густурда ба роҳ монда бошанд. Имрӯз, ба мисли пештара, дар назди мактаб ва тамоми ҷомае вазиғаи таълими иқтисодии хонандагон гузошта шудааст, ки дар онҳо ағзоиши доимии нақши арзишҳои иҷтимоӣ, аз қабилӣ салоҳият, дониш ва маҳорати баланди касбӣ ба талаботи замон ҷавобгӯ бошанд. Илова бар гуфтаҳои боло, таълими иқтисодӣ робитаҳои муоширатӣ, қобилиятҳои зехниро инкишоф медиҳад, ба тарбияи мустақилият, ташаббускорӣ, таҳаммулпазирӣ нисбат ба одамони дигар ва сифатҳои дигари инсонӣ мусоидат мекунад. Ҷама ин сифатҳои шахсӣ ҳанӯз дар синни ибтидоии мактабӣ ташаккул меёбанд, аз ин рӯ, ба андешаи мо, ташаккули салоҳияти иқтисодии хонандагон бояд аз ҳамин синну сол оғоз ёфта, дар тӯли тамоми солҳои таҳсил муттасилиро таъмин намояд. Мусаллам аст, ки таълими иқтисодии хонандагони синфҳои ибтидоӣ ба кӯдакон дар ташаккули тафаккури иқтисодӣ, азхуд кардани дастгоҳҳои концептуалӣ, ки барои тамоюл дар ҷаҳони муосири бозорӣ заруранд, кӯмак мекунад.

Ҷадафи таълими иқтисодӣ аз худ кардани малақаҳои ибтидоии рафтор дар шароити бозор, фароҳам овардани заминаи концептуалӣ барои омӯзиши минбаъдаи амиқии иқтисодӣ дар мактаби миёна хоҳад буд.

Ҷадафи асосии тарбияи иқтисодӣ рушди тафаккури иқтисодӣ мебошад. Барои ноил шудан ба ин ҳадаф, дар раванди таълим як қатор вазиғаҳоро ҳал кардан лозим аст:

- ташаккули пайвастаи шуури иқтисодии хонандагон;
- ташаккули ниёзҳои оқилона, қобилияти андозагирии онҳо бо имкониятҳои моддӣ, тарбияи кӯдакон бо тамоюли меҳнатӣ дар ҷустуҷӯи пурраи қоньгардонии ниёзҳои онҳо;
- мучаҳҳаз бо малақаҳои таҳлили иқтисодӣ, ташаккули одатҳои сарфаю сариштакорӣ, тарбияи фарҳанги меҳнати фикрӣ ва ҷисмонӣ, азхудкунии асосҳои ташкили илмии меҳнат;
- тарбияи муносибати таҳаммулнопазир ба бемасъулиятӣ, номуташаккилӣ дар қор, вобастагӣ, идоракунии нодуруст, исрофкорӣ, бепарвой ва ғайра.

Ин вазиғаҳо ташаккул додани дониш, маҳорат ва малақаи мувофиқи иқтисодии хонандагон, муносибат ва самти шахсият, сифатҳои он (ҷанбаи тарбиявӣ) -ро дар бар мегиранд, ки дар ҳаёти ояндаи онҳо заруранд.

Умуман, таълими иқтисодии хонандагон омодагии онҳо ба зиндагӣ ва қору ғаъолияти минбаъдаи мебошад, ки бояд вазиғаҳои зеринро пайгирӣ намояд:

- дар соҳаи маориф - азхуд намудани асосҳои дониш дар бораи иқтисоди муосир, принципҳо ва шакли ғаъолияти он, малақаҳои ғаъолияти иқтисодӣ;
- дар соҳаи ҳудогоҳӣ - дарки имкониятҳои инфиродии шахс, ташаккули рафтори бошууроноии иқтисодии шаҳрвандӣ;
- дар соҳаи ҳавасмандгардонӣ - ташаккул додани таваҷҷӯҳ ба мушкилоти иқтисодиёти кишвар ва оила, ниёзмандии доимӣ ба дониши нав, хоҳиши ифода ва худшиносӣ, ки бояд василаи ҳифзи иҷтимоӣ гарда, мутобиқшавӣ ба шароити бозор.



Татбиқи ҳадафу вазифаҳои болоиро бо роҳу усул ва василаҳои зайл амалӣ сохтан мумкин аст:

1. Интеграцияи иқтисодиёт бо математика ё технология, ки дар он донишҳои иқтисодӣ роҳи амалии беруншавӣ пайдо мекунад (ҳисобҳои математикӣ, ҳислатҳои шахсӣ - меҳнат, корхона, сарфакорӣ).
2. Дар доираи модулиҳои фанӣ ва метасубъектии шугли беруназсинфӣ ва беруназсинфии хонандагони хурдсол.
3. Дар доираи корҳои беруназсинфӣ.

Таълими донишҳои иқтисодӣ ба принципҳои зерини дидактикӣ асос ёфтааст:

**Омӯзиш дар сатҳи баланди душворӣ.** Сарфи назар аз шакли дастрас ва фароғатии пешниҳоди мавод, азҳудкунии категорияҳои иқтисодӣ вазифаи хеле душвор аст, ки барои ҳалли он кӯдак бояд сабӣ кунад. Ҳар як хонанда дар сатҳи гуногуни душвор кор мекунад. Аммо, яқдигарро мукамал карда, зиддиятҳоро бартараф намуда, кӯдакон бо эҳсосот ба корҳои умумӣ ҷалб карда мешаванд.

**Омӯзиши босуръат.** Дар ҳар як дарс хонандагон бо маводҳои нав ва ё назари нави васеътари маводи қаблан омӯхташуда рӯ ба рӯ мешаванд.

**Нақши пешбарандаи дониши назариявӣ.** Ин нақш аз муайян ва дарки моҳияти мафҳумҳо ва категорияҳои асосии иқтисодӣ иборат аст, ки асоси масъалаҳои омӯхташуда, инчунин гирифтани маҳорату малакаҳои зарурӣ мебошад.

Огоҳӣ аз чараёни таълим дар қобилияти дарёфти робитаи маводи омӯзишии иқтисодӣ бо дигар соҳаҳои дониш ва ҳаёти атроф амалӣ мешавад. Азҳудкунии мафҳумҳои иқтисодӣ ба принципи эҷоди муштарақ асос ёфта, тавассути таҷрибаи мавҷудаи инсоният амалӣ мегардад. Хонанда ҳолатҳои ба миён омадаистодаи иқтисодиро мушоҳидаву таҷриба намуда, фикру амалҳои худро бо афкор ва амалҳои персонажҳои пешниҳодшуда муқоиса мекунад. Чизи асосӣ дар раванди таълим на азҳудкунии далелҳо ва донишҳо, балки бедор кардани тавачҷӯҳ ба мавзӯ, огоҳӣ аз аҳамияти ҳаётан муҳими он, мусоидат ба рушди қобилияти эҷодии хонандагон, татбиқ намудани дониш дар фаъолияти амалӣ мебошад, ки тавассути истифодаи шаклу усулҳои гуногуни ташкили раванди таълим дар синф ва корҳои беруназсинфӣ ба даст меояд. Ғояи марказии таълими муттасили иқтисодӣ ин рушди муназзами инсон ҳамчун субъекти фаъолият дар тӯли тамоми ҳаёт, азҳудкунии шароити нави иқтисодӣ ва афзоиши қобилияти ҳозира ва оянда маҳсуб меёбад.

Таълими муттасили иқтисодиро ҳамчун раванди динамикӣ метавон ба марҳилаҳои зерин тақсим кард:

I. Дарки эмотсионалӣ-маҷозӣ. Ба синну соли томақтабӣ хос буда, кӯдак ғояҳои аввалро дар бораи ниёзҳо ва имкониятҳои қонеъгардонии онҳо, малакаҳои ибтидоии иқтисодӣ дар намудҳои фаъолияти барои ӯ дастрас ташаккул медиҳад.

II. Пропедевтика. Барои хонандагони синфҳои ибтидоӣ хос буда, ҳангоми шиносӣ бо мафҳумҳои маълуми иқтисодӣ, кӯдакон бо сарфаю сариштакорӣ шинос мешаванд, муносибати эҷодкорона ба истифодаи ҳама намудҳои захираҳоро нишон медиҳанд.

III. Марҳилаи ҷустуҷӯ ва санҷиш - ба хонандагони синфҳои V-VII хос буда, имкон медиҳад, ки ба ҳаёти иқтисодии оила, муҳити наздики худ даҳлат кунанд ва кӯшиш кунанд, ки мавқеи худро дар фазои иқтисодӣ муайян кунанд.

IV. Интиҳоби соҳаи фаъолият, ташаккул додани ҳудуди касбӣ - ба таълими иқтисодии хатмкунандагони мактабҳои миёна (синфи IX) як самти мантиқии системавӣ медиҳад: он онҳоро барои кор дар шароити намудҳои гуногуни моликият, шаклҳои гуногуни ташкил ва ҳавасмандгардонии меҳнат омода мекунад.

V. Аниқ кардани вазъи иҷтимоӣ ва касбӣ - омодагии пешакии касбӣ ё ибтидоии касбии иқтисодиро барои хонандагони синфҳои болоӣ (синфҳои X-XI) пешбинӣ мекунад. Дар ин давра хонандагон дар соҳаи интиҳобкардаи кор беҳтарин дониш ва малакаҳои иқтисодиро (барои синну соли муайян) азҳуд мекунанд, ба ҳаёти воқеии иқтисодӣ дохил карда мешаванд.

VI. Шомил шудан ба фаъолияти касбӣ ( хонандагони мактабҳои касбӣ ва хонандагони мактабҳои миёнаи махсус ва олий) дар асоси омӯзиши масъалаҳои умумии иқтисодӣ ва хусусиятҳои соҳаи интихобкардаи фаъолияти меҳнатӣ [2,с.72].

Фаъолияти амалии муассисаҳои таълимӣ муносибати эҷодкоронаро ба таҷрибаи таълими иқтисодӣ, ки дар сохторҳои гуногуни таълимӣ (асосӣ, параллелӣ ва иловагӣ) ва тичоратӣ амалӣ мешаванд, дар назар дорад.

Самаранокии таълими иқтисодии мактаббачагони ибтидоӣ бо як қатор шартҳои таъмин карда мешавад:

- шомил кардани кӯдакон ба намудҳои гуногуни фаъолият, ки меҳнат дар байни онҳо ҷойгоҳи махсусро ишғол мекунад;
- аз ҷониби муаллимон истифода бурдани имкониятҳои раванди таълим ва тарбия дар синфҳои ибтидоӣ;
- муайян намудани мафҳумҳои иқтисодии омӯхташуда, малакаҳои ташаккулёфтаи иқтисодӣ, сифатҳои оддии ахлоқӣ ва иқтисодии шахсияти хонандаи хурдсол;
- муайян кардани мундариҷа, шаклҳо ва усулҳои ташкили фаъолияти кӯдакони дорои тамоюли иқтисодӣ ва мувофиқи синну солшон;
- таъя ба таҷрибаи шахсии хонандагон;
- роҳнамоии педагогӣ, ки ташкили илмии меҳнати кӯдаконро таъмин мекунад.

Самаранокии раванди таълими иқтисодии хонандагони синфҳои ибтидоӣ дар сатҳи таълими иқтисодии онҳо, ки ба сифатҳои асосии ахлоқӣ ва иқтисодии шахс асос ёфтааст, ифода карда мешавад. Бо роҳнамоии мақсадноки педагогии ин раванд, кӯдакон мафҳумҳои иқтисодиро дар сатҳҳои гуногун меомӯзанд: аз идеяҳо то фаҳмидани моҳияти ин мафҳумҳо, малакаҳои иқтисодии дорои хусусияти пеш аз касбиро аз худ мекунанд, онҳо чунин хислатҳои шахсиятро, ба монанди сарфаю сариштакорӣ инкишоф медиҳанд [3,с.37]. Ҳамин тариқ, таълими иқтисодӣ дар синни ибтидоии мактабӣ, таҳти роҳбарии самарабахши педагогӣ, барои амалисозии таълими иқтисодӣ дар давраҳои минбаъдаи синну сол заминаи асосӣ мебошад. Дониш ва малакаҳои иқтисодии ба даст овардаи хонандагон дар синфҳои ибтидоӣ, ки барои ҳалли оқилонаи вазифаҳои маърифатӣ ва амалӣ имкон медиҳанд, заминаи зарурии рушди минбаъдаи таълими иқтисодӣ ва тарбияи фарзандон дар марҳилаҳои минбаъдаи таҳсилот мебошанд.

Дар асоси гуфтаҳои боло, тамоми системаи таълими иқтисодӣ дар мактаб бояд дар самтҳои асосии зерин инкишоф ёбад:

- аввалан, дар мактаббачагон малакаҳои ибтидоии тафаккури иқтисодиро инкишоф додан лозим аст, ки онҳо дар ибтидо дар муассисаҳои томактабӣ, дар оила ба даст овардаанд;
- дуввум, таҳсилоти иқтисодии мактаббачагон инкишофи унсурҳои тафаккури иқтисодӣ ва шуури онҳоро дар раванди зерин пешбинӣ мекунад:
- таълими иқтисодии хонандагон - аз худ кардани соддатарин мафҳумҳои иқтисодӣ то азхудкунии асосҳои назарияи иқтисодӣ ҳангоми омӯзиши фанҳои давраи мактаб;
- ба мундариҷаи фанҳои таълимӣ ворид сохтани мафҳумҳои иқтисодӣ (агар имконпазир бошаддарсҳои математика, табиатшиносӣ, хонишро бо падидаҳои иқтисодӣ, қонунҳои таъмин намудан);
- мунтазам маълумот додани хонандагон аз ҳаёти иқтисодии кишвар, ҷумҳурӣ, ҳудуд, шаҳр, ноҳия.
- сеюм, ташкили системаи таълими иқтисодии хонандагон пешбинӣ менамояд:
- дар амал таъмин намудани ягонагии меҳнат ва таълими иқтисодӣ, омезиши таълим бо меҳнати самаранок;
- бой гардонидани таълими меҳнатӣ, кори ғоиданоки ҷамъиятии хонандагон дар таътили тобистона бо мазмуни иқтисодӣ
- рушди қорҳои беруназсинфӣ, аз ҷумла ташкили сӯҳбатҳои маъмул дар бораи зарурати муносибати боғайратона ба арзишҳои моддии мактаб, гузаронидани

"Дарсҳои сарфакорӣ", озмунҳо барои ҳифзи беҳтарини китобҳои шахсӣ ва китобҳои дарсӣ.

- чорум, рушди худидоракунии мактаб ва паҳн намудани он ба масъалаҳои ҳаёти иқтисодии мактаб;
- панҷум, омодагии мувофиқи методии муаллимон ва волидон.

Дар раванди таълими иқтисодии мактаббачагон гузоштани пояҳои тафаккури иқтисодӣ муҳим аст. Аммо ин талаб мекунад, ки кӯдакон ба намудҳои имконпазири фаъолияти меҳнатӣ ва иқтисодӣ шомил карда шаванд.

**Пайнавишт:**

1. Самохина, А. Проблемы экономического образования / А. Самохина // Экономика в школе. 2001. - №1. - С. 5-7
2. Сасова, И. А. Вопросы повышения уровня экономического образования и воспитания дошкольников / И. А. Сасова. - М., 1987. С. 69-76.
3. Сасова, И. А., Аменд, А. Ф. Экономическое воспитание в процессе трудовой подготовки / И. А. Сасова., А. М. Аменд. М.: Просвещение, 1998. - 192 с.
4. Стандартҳои фанҳои зинаи таҳсилоти ибтидоӣ (синфҳои 1-4), Душанбе, 2016.
5. Стратегияи навсозии таҳсилоти умумӣ: мавод барои таҳиягарони ҳуҷҷатҳо оид ба навсозии таҳсилоти умумӣ. М.: Ҷаҳони китоб, 2001. 147 с.

## МИНИМАКСНЫЕ И МАКСИМИННЫЕ ЗАДАЧИ НЕГЛАДКОЙ ОПТИМИЗАЦИИ ДЛЯ КЛАССА КВАДРАТИЧНЫХ ФУНКЦИЙ

**Отакулов Салим**

*Доктор физико-математических наук, профессор  
Джизакский политехнический институт.*

**Равшанов Ислом Акмал ўгли**

*Самаркандский филиал Ташкентского Университета  
информационных технологий имени Мухаммада Ал-Хоразмий, магистрант.*

**Аннотация:** В работе изучены для класса квадратичных функций свойства решений минимаксных и максиминных задач негладкой оптимизации. Исследованы необходимые и достаточные условия оптимальности.

**Ключевые слова:** квадратичная функция, негладкая функция, минимаксная задача, максиминная задача, условия оптимальности.

### MINIMAX AND MAXIMIN PROBLEMS OF NONSMOOTH OPTIMIZATION FOR CLASS QUADRATIC FUNCTIONS

**Abstract:** In the paper for class quadratic functions the properties of solutions of the minimax and maximin problems of nonsmooth optimization is studied. The necessary and sufficient conditions of optimality is researched.

**Keywords:** quadratic function, nonsmooth function, minimax problem, maximin problem, conditions of optimality.

**Введение.** Математические модели многих задач принятия решения в экономическом планировании и организации производства, проектировании технических устройств, управлении технологическими процессами и др., приводят задачам математического программирования [1–3]. Такие задачи очень разнообразны и для их решения развиваются методы выпуклого, нелинейного, дискретного и динамического программирования. Методы математического программирования широко применяются в многошаговых процессах принятия решения и при разработке численных методов оптимизации в динамических системах управления [2, 3, 5, 7].

Задачи и методы оптимизации негладких (недифференцируемых) функций составляет развивающееся направление в современной теории оптимизации [4, 5, 6, 8]. В теории негладкой оптимизации введены классы субдифференцируемых и квазидифференцируемых функций. Для таких функций развивается теория необходимых и достаточных условий оптимальности. Разрабатываются методы и алгоритмы оптимизации негладких функций [4–12].

В практике негладкие функции часто возникают в виде функции максимума или минимума. Следует отметить, что одним из подходов, приводимых к недифференцируемой оптимизации, является принцип минимакса [7], используемый при принятии решения в условиях неполноты информации [10, 11]. Этот принцип основан на минимизации (или максимизации) гарантированного значения критерия качества управления, выражаемого через операции предварительной оптимизации. Негладкие задачи оптимизации возникают также в игровых задачах управления, когда стратегии игроков определяются по принципам минимакса или максимина.

**Постановка задачи. Методы исследования.** Экстремальные свойства негладких функций типа максимума и минимума существенно зависят от их структуры и специфики области определения. Оптимизация таких функций приводит к негладким минимаксным или максиминным задачам, методы решения которых разрабатываются с широким применением выпуклого и многозначного анализа [5, 6, 8, 9].

В работе будем рассматривать функции многих переменных  $x = (x_1, x_2, \dots, x_n) \in R^n$ , где

$$(x, y) = \sum_{i=1}^n x_i y_i$$

$R^n$  –  $n$ -мерное евклидово пространство со скалярным произведением

векторов  $x \in R^n$ ,  $y \in R^n$ , и нормой  $\|x\| = \sqrt{(x, x)}$  вектора  $x \in R^n$ . Один из широких классов функций многих переменных являются квадратичные функции. Пусть заданы квадратичные функции

$$f_i(x) = \frac{1}{2}(A_i x, x) + (b_i, x) + d_i, \quad i = 1, 2, \dots, m, \quad (1)$$

где  $A_i$  – симметрическая  $n \times n$ -матрица,  $b_i \in R^n$ ,  $d_i \in R^1$ ,  $i = \overline{1, m}$ . Введем функцию максимума:

$$\varphi(x) = \max_{i=1, m} f_i(x) = \max_{i=1, m} \left[ \frac{1}{2}(A_i x, x) + (b_i, x) + d_i \right]. \quad (2)$$

Рассмотрим задачу минимизации функции (2) на замкнутом множестве  $\Omega \subseteq R^n$ , т.е. задачу нахождения точки  $x_* \in \Omega$ , для которой имеет место равенство

$$\varphi(x_*) = \varphi_* = \inf_{x \in \Omega} \max_{i=1, m} f_i(x) = \inf_{x \in \Omega} \max_{i=1, m} \left[ \frac{1}{2}(A_i x, x) + (b_i, x) + d_i \right].$$

Для этой минимаксной задачи используем обозначение:

$$\max_{i=1, m} \left[ \left( \frac{1}{2} A_i x, x \right) + (b_i, x) + d_i \right] \rightarrow \min, \quad x \in \Omega. \quad (3)$$

Задача (3) относится к классу дискретных минимаксных задач математического программирования [4].

Используя функции вида (1) можно рассмотреть также задачу максимизации функции минимума

$$\psi(x) = \min_{i=1, m} f_i(x) = \min_{i=1, m} \left[ \frac{1}{2}(A_i x, x) + (b_i, x) + d_i \right], \quad x \in \Omega, \quad (4)$$

т.е. максиминную задачу

$$\min_{i=1, m} \left[ \frac{1}{2}(A_i x, x) + (b_i, x) + d_i \right] \rightarrow \max, \quad x \in \Omega, \quad (5)$$

в которой требуется найти точку  $x^* \in \Omega$ , такую, что  $\psi(x^*) = \psi^*$ , где

$$\psi^* = \sup_{x \in \Omega} \min_{i=1, m} f_i(x) = \sup_{x \in \Omega} \min_{i=1, m} \left[ \frac{1}{2}(A_i x, x) + (b_i, x) + d_i \right].$$

Для задач вида (3) и (5) важное значение имеют экстремальные свойства функций типа максимума (2) и минимума (4). Свойства этих функций изучаются с использованием методов математического, выпуклого и негладкого анализа. Для разработки численных методов оптимизации рассматриваемых функций необходимо научиться построению их направления спуска (или подъема). С этой целью будем исследовать необходимые и достаточные условия оптимальности для задач (3) и (5).

**Результаты исследования.** Сначала приведем некоторые свойства функций максимума и минимума. Функция максимума (2) и функция минимума (4) не обладают свойством дифференцируемости в некоторых точках области определения.

Введем обозначения:

$$J^*(x) = \{i \in I_m : f_i(x) = \varphi(x)\}, \quad J_*(x) = \{i \in I_m : f_i(x) = \psi(x)\}, \quad I_m = \{1, 2, \dots, m\}, \quad x \in R^n,$$

где функции  $f_i(x)$ ,  $\varphi(x)$  и  $\psi(x)$  определены формулами (1), (2) и (4) соответственно.



**Лемма 1.**[ 4.12 ] Функция максимума (2) и функция минимума (4) в каждой точке  $x^0 \in R^n$  имеют производную по произвольному направлению  $g \in R^n$ ,  $\|g\|=1$ , и справедливы равенства

$$\frac{\partial \varphi(x^0)}{\partial g} = \max_{i \in J^+(x^0)} (A_i x^0 + b_i, g), \quad \frac{\partial \varphi(x^0)}{\partial g} = \min_{i \in J_-(x^0)} (A_i x^0 + b_i, g) \quad (6)$$

Свойства функции максимума и минимума позволяют выяснить условия существования решений минимаксной задачи (3) и максиминной задачи (5).

**Лемма 2.**[12] Пусть среды матриц  $A_i, i = \overline{1, m}$  есть положительно определенная матрица  $A_i$ , т.е.  $(A_i x, x) > 0 \forall x \neq 0$  и  $\Omega$  – замкнутое подмножество  $R^n$ . Тогда решение задачи (3) существует. Если все матрицы  $A_i, i = \overline{1, m}$ , положительно определены,  $\Omega$  – выпуклое и замкнутое множество из  $R^n$ , то решение задачи (3) единственно.

**Следствие.** Пусть среды матриц  $A_i, i = \overline{1, m}$  есть отрицательно определенная матрица  $A_i$ , т.е.  $(A_i x, x) < 0 \forall x \neq 0$  и  $\Omega$  – замкнутое подмножество  $R^n$ . Тогда решение задачи (5) существует. Если все матрицы  $A_i, i = \overline{1, m}$ , отрицательно определены,  $\Omega$  – выпуклое и замкнутое множество из  $R^n$ , то решение задачи (5) единственно.

Необходимые и достаточные условия оптимальности для задачи (3) приведем в следующей теореме.

**Теорема 1.** Пусть точка  $x^0 \in \text{int } \Omega$  есть решение минимаксной задачи (3). Тогда справедливо неравенство

$$\inf_{\|g\|=1} \max_{i \in J^+(x^0)} (A_i x^0 + b_i, g) \geq 0 \quad (7)$$

Если матрицы  $A_i, i = \overline{1, m}$  знакоположительны и неравенство (14) имеет место при некотором  $x^0 \in \Omega$ , то точка  $x^0$  – решение задачи (3).

**Доказательство.** Предположим, что точка  $x^0 \in \text{int } \Omega$  является решением минимаксной задачи (3), т.е.  $\varphi(x^0) = \min_{x \in \Omega} \varphi(x)$ . Значит, для любого  $g \in R^n, \|g\|=1$  и достаточно малого

$\alpha > 0$  имеем:  $\varphi(x^0 + \alpha g) \geq \varphi(x^0)$ . Следовательно,  $\frac{\partial \varphi(x^0)}{\partial g} \geq 0$ . В силу (6) отсюда получим (7).

*1- Расм. Дунё бўйича мўйна турларининг тарқалиши.*

*1 — сувсар; 2 — қорақўзан; 3 — тулки; 4 — нутрия; 5 — қуён; 6 — қорақўл; 7 — шимол тулкиси; 8 — мерлушка.*

Мўйнабоп терилар - бу нафақат тузилиши, балки хусусиятлари билан ҳам ажралиб турадиган жун ва тери тўқимасидан иборат тизимдир. Мўйнали кийимлардан тайёр маҳсулотнинг ўзига хос хусусияти, уни ишлаб чиқариш жараёнида қўлланиладиган хом ашёнинг турли хил хусусиятлари ва сифат кўрсаткичлари, жумладан жун қоплама, тери тўқималари ва хом ашё турига боғлиқдир.

Ҳозирги вақтда ҳам Ўзбекистонда, ҳам хорижда маҳаллий ишлаб чиқаришга мўлжалланган териларга бўлган талабнинг юқори эмаслиги мўйнали яриммаҳсулотларни қайта ишлашнинг асосий муаммоларидан бири ҳисобланади. Бу ҳолат мўйнали териларга ишлов беришнинг анъанавий технологияларидан фойдаланиш, мўйнани тайёрлаш, пардозлаш ва бўяшнинг етакчи усулларининг мавжуд эмаслиги билан боғлиқ.

Республикамизда табиий мўйна етиштиришнинг ўзига хос долзарб муаммолари мавжуд бўлсада, аммо бу муаммоларни бартараф этишнинг истиқболли имкониятлари ҳам етарли даражадаки, бунда юртимиз фахри бўлмиш қорақўл терилари мисолида ушбу муаммолар ва уларнинг ечими сифатида тизимли ёндашишга ҳаракат қилдик (схема):



**Схема.** Қорақўл терилари ишлаб чиқариш сифатини ошириш бўйича тизимли ёндашув.

Юқоридагилардан келиб чиқиб айтиш жоизки, юртимизда олиб борилаётган ислохотлар, тармоқ соҳасида амалга оширилаётган ишлар билан мутаносибликда йўналтирилган бўлиб, бу соҳа мутахассисларига, қолаверса тадқиқотчиларга улкан маъсулият юклаб, табиий мўйнага ишлов бериш технологиясини такомиллаштиришга ундайди.

Мўйнабоп яриммаҳсулот буюм тайёрлаш вақтида чўзиш, сиқилиш ва бошқа турли хил таъсирларга дучор бўлади, бунда асосан унинг эксплуатацион даври ва хавфсизлиги белгиланади. Шунинг учун мўйнабоп териларига ишлов беришда технологик жараёнларни тўғри танлаган ҳолда рақобатбардош мўйна маҳсулоти ишлаб чиқаришда фойдали технологик хусусиятга эга бўлган, таннархи паст, экологик муаммоларни бартараф эта олувчи ҳамда тайёр маҳсулотлари сифат кўрсаткичларини оширувчи технологияларни қўллаш, сарфланаётган моддий ва энергетик харажатларни камайтиришни таъминлайдиган энергиятежамкор технологияларни яратиш ва такомиллаштиришни талаб этилмоқда. Замонавий технологиялар мўйнага ишлов беришнинг жуда кўп усулларини ўз ичига олади. Зеро, ҳар бир теридан мўйнабоп маҳсулот ва сифатли материал олиш мураккаб технологик жараёнлардан ўтади.

Мўйнага ишлов беришда терилар асосан 4 та босқичдан ўтади: ачитиш (пикеллаш), ошлаш, ёғлаш ва пардозлаш. Мўйна ишлаб чиқариш бўйича республикада хом ашё етарлича бўлиб, бироқ технологик жараёнларда ишлатиладиган кимёвий материалларнинг деярли барчаси импорт маҳсулоти ҳисобланади. Бу эса тайёр маҳсулот таннархисининг сезиларли даражада ошишига олиб келади. Шунинг учун бугунги кунда соҳа мутахассисларининг асосий йўналишлари чарм ва мўйна ишлаб чиқаришда қўлланиладиган янги кимёвий моддалар олиш ва уларни маҳаллийлаштиришга қаратилган [1-2].

Қорақўл яриммаҳсулотига ишлов беришнинг энг муҳим, суяқликда ишлов берувчи охириги жараёнларидан бири – ёғлантириш жараёнидир. Тадқиқот ишида қорақўл териларини ёғлантириш жараёни учун маҳаллий саноат иккиламчи, чиқинди маҳсулотларини қўллаш мақсад қилиб олинди. Дикқат-эътибор республикамизда мавжуд ёғ ва мой маҳсулотлари ишлаб чиқарувчи ва улардан фойдаланувчиларга қаратилди.

Табиий ёғловчи моддалар асосан озик-овқат саноатида қўлланилади. Табиий ёғловчи моддаларга ҳайвон ва ўсимлик ёғлари киради. Бу моддалар терининг дерма қисмига яхши тақсимланмайди. Бундан ташқари, табиий ёғлар оксидланиш хусусиятига эга бўлиб, иқтисодий жиҳатдан анча қиммат ҳисобланади. Аксарият, қорақўл мўйна ишлаб чиқарувчилар қорақўл териларини ёғлантириш жараёнида импорт маҳсулоти ҳисобланган балиқ мойидан фойдаланишади ва юқори сифатли маҳсулот олишга эришади ҳамда бу тайёр мўйна маҳсулот таннархисини ошишига олиб келади.

Кейинги йилларда юртимизда балиқчилик тармоғининг ривожланиши ҳамда халқимизнинг балиқ маҳсулотларига бўлган талабидан келиб чиқиб, кейинги тадқиқот ишлари балиқ қовуриш мобайнида ҳосил бўладиган чиқинди ёғни қайта ишлаб, техник мақсадларда қорақўл териларини эмульсион ёғлаш жараёнида қўллаш имкониятларини ўрганилди.

Чиқиндиларни қайта ишлаш, уларни қўлланилиш соҳасини кенгайтириш ҳамда атроф-муҳитга зарарини камайтириш учун, юртимизнинг умумий овқатланиш масканларидан чиқинди балиқ ёғи олиниб, уни техник мақсадда қўллашга яроқлилигини аниқлаш учун унинг таркиби ўрганилди. Тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, балиқ қовурилган чиқинди ёғ таркиби ҳам ўсимлик ёғи таркибида, ҳам балиқ ёғи таркибида учрайдиган ёғ кислоталаридан иборат бўлиб, бу ёғлантириш жараёнида муҳим аҳамиятга эга [3], чунки ёғловчи композиция таркибида ҳам ўсимлик, ҳам ҳайвон ёғларининг бўлиши бу ёғлантирилган яриммаҳсулотга комплекс хусусиятлар бера олишидан далолат беради.

Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, ушбу ёғ таркибида тўйинган ёғ кислотлари 14,43% ни ташкил этса, тўйинмаган ёғ кислоталари 85,57% фоизни ташкил этиб, ёғлантириш жараёнида тўйинмаган ёғ кислотларининг дерма таркибидаги коллаген билан кимёвий реакция кириш имкониятини 4,5 бараваргача оширади. Қолаверса, ёғ моддаси фақатгина дерма билан кимёвий боғ ҳосил қилибгина қолмай, балки қорақўл мўйнаси таркибидаги кератин билан ҳам боғланиш имкониятини беради. Ёғловчи моддаларнинг ёғ кислотлари коллаген ва кератиннинг аминогруҳлари, карбоксил груҳлари билан кимёвий боғланишини ҳосил қилишга қодир - хром, алюминий ва бошқа минераллар ошловчи моддалар билан донор-акцептор реакциялари орқали ўзаро таъсирлашади. Шу билан бирга, тўйинмаган ёғ кислоталари коллагеннинг фаол груҳлари билан водород боғларини ҳосил қилиши ҳам мумкин.

Хулоса қилиб айтганда, миллий фахрларимиздан бири саналган Бухоро қорақўли мавқеини тиклаш, унга ишлов беришни такомиллаштирган ҳолда ҳам иқтисодий, ҳам экологик жиҳатдан самарадор технологиялар ишлаб чиқиш, маҳаллий саноат иккиламчи ва чиқиндилардан фойдаланиб, уларни қайта ишлаб техник мақсадларда қўллаш натижасида халқимизни табиий мўйнага бўлган эҳтиёжини янада қондириш, шу билан бирга экспорт салоҳиятини ошириш орқалари иқтисодиётимизни кўтаришда муносиб ҳиссамизни қўшиш биз ёш мутахассисларнинг бош мақсадидир.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Shamsieva M., Abduqahhorova K. Stepwise Fattening of Natural Leather and Research of Their Properties. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. Vol 6, Issue 9, September 2019. 10887-10890.
2. М.Б.Шамсиева, Х.Н.Махаммадиева, А.А.Арипова. Мураккаб эфир синтези жараёнида қўлланиладиган кимёвий моддалар таснифи. Пахта тозалаш, тўқимачилик, енгил саноат, матбаа ишлаб чиқариш техника-технологияларни модернизациялаш шароитида иқтидорли ёшларнинг инновацион ғоялари ва ишланмалари. Република илмий-амалий анжумани. 2020. 248-250 б.
3. Bajza Z. The influence of fatliquor concentration on microwave drying kinetics. Journal of the society of leather technologists and chemists. 1997. Volume 81, pages 227-230.



## LIDERLIK MAHORATINI OSHIRISH YOHUD KELAJAK RAHBARI

*Rustamov Javlon Bozor o'g'li*  
*Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani.*

**Annotatsiya:** Kelajak rahbari bu insonga o'z atrofiga boshqa odamlarni to'plash, ularga rahbarlik qilish, o'z jamoasini yaratish va uni samarali boshqarish imkonini beradigan turli xil hayotiy sohalaridagi bilim, ko'nikma, qobiliyat va qobiliyatlarning kombinatsiyasi. Shaxsni darhol etakchiga aylantiradigan biron bir o'ziga xos xususiyatni aniq nomlab bo'lmaydi, etakchilik fazilatlarini aynan bir vaqtning o'zida mavjud bo'lgan ko'p sonli turli xil shaxsiy, psixologik va tashkiliy jihatlarning kombinatsiyasidir. Mazkur maqola Liderlik mahoratini oshirish va kelajak rahbari haqida bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** yetakchi, lider, rasmiy rahbar, muvaffaqiyat yo'li, kelajak rahbari, optimistik ruh.

Jamiyatimizda “rahbar”, “lider”, “yetakchi”, “sardor” kabi tushunchalar mavjud. Aslida ularning barchasi bir ma'noni anglatadi hamda bir maqsad yo'lida xizmat qiladi. Shuning uchun rahbar va lider tushunchalari o'rtasida katta tafovutni aniqlash mushkul. Ularning vazifasi ham, mas'uliyati ham, xususiyatlari ham teng. Shunday bo'lishiga qaramasdan ulardan biri rasmiy boshqasi esa norasmiy hisoblanadi. Rahbar rasmiy, ya'ni qonunga muvofiq shu lavozimga tayinlangan. Lider bo'lsa norasmiy, ya'ni biror bir guruh tomonidan ularning xohishiga binoan saylangan shaxsdir. Bular liderlikning ikki xil ko'rinishlari. Ko'p hollarda, rahbar dastavval lavozimga, so'ngra shu lavozimi ortidan hurmatga erishsa, lider aksincha hurmat ortidan lavozimga erishadi. Lavozimi yuqori shaxs, ya'ni rahbar o'z-o'zidan liderlikka erishadi va qo'l ostidagilariga nima qilish kerakligini ta'kidlab turadi. Haqiqiy lider, undan farqli o'laroq, o'zining ortidan ergashuvchilarga nima qilish kerakligini ko'rsatib va unda o'zi ham ishtirok etib boradi.

Kelajak rahbarlari avvalo o'z rivojlanishi ustida ishlaydi va shundan keyingina bu maqsadlarga erishish uchun boshqalarni tashkil qilishni boshlaydi. Qachonki inson o'zining kimligini tushunib, kim bo'lishni xohlayotganini aniq tushunsa, bu rahbar muvaffaqiyatga yo'lni boshlaydi. Biror kishi ushbu maqsadlarni to'liq amalga oshirmasdan oldin, agar u ularga erishish yo'lini yaratmagan bo'lsa, bu odam shunchaki "oqim bilan ketmoqda". Rahbar bo'lish uchun birinchi qadam hayotni o'z qo'lingizga olish va o'zingizni to'liq nazorat qilishdir. Tarix davomida buyuk rahbarlar har doim o'z-o'zidan yaratilgan. Liderlik sizning genetik xususiyatlaringiz yoki shaxsiyatingizning ma'lum bir turining natijasi emas. Liderlik ko'nikmalar yig'indisi bo'lib, ularning aksariyatini o'rganish, rivojlantirish va takomillashtirish mumkin.

Har bir buyuk rahbarning o'ziga xos hikoyasi bor, lekin ularni birlashtiradigan narsa bor: bu odamlarning barchasi o'zlarini yaratgan. Ular o'z ustlarida ishlab, maqsadlariga erishdilar va oxir-oqibat taniqli bo'lishdi. Etakchilik tug'ma fazilatlar yig'indisi emas; bu mashg'ulotlar va kundalik mashaqqatli mehnat natijasida olinishi mumkin bo'lgan liderlik qobiliyati va tajribasi.

Liderni boshqalardan ajratib turuvchi asosiy tomonlaridan biri - bu liderning eng avvalo, o'ziga va unga ergashayotgan safdoshlariga bo'lgan ishonchi. Buyuk allomalarimiz aytganidek, o'z kuchingni his etishing kuchingga kuch qo'shadi. Lider hamma vaqt biror bir ishni boshlashdan avval atrofida bilan maslahatlashishi va unga yuklatilgan topshiriqlarning bir qismini ularga ishonib topshirishi darkor. Bu bilan u o'z izdoshlariga bo'lgan ishonchi yuqorida darajada ekanligini isbotlab bergan bo'ladi.

Liderning o'ziga xos muhim jihatlardan biri – bu optimistik ruhda fikr yuritishida, ya'ni har bir ko'zlagan maqsadni faqat yaxshi tomonlarini o'ylab ish ko'rishidadir. Yana u to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatiga ega hisoblanadi. Ba'zilar uzoq o'ylab qarorlarini bir necha marta o'zgartirishsa, lider bir marotaba qaror qabul qiladi va o'z qaroridan hech qachon shubhalanmaydi. Shu sababdan liderlarni kelajakni ko'ra olish qobiliyatiga ega deyishadi. Ammo ular bunday kuchga ega emaslar.

Yetakchilar shunchaki o'zlari uchun kelajakni yaratishga intilishadi va ba'zida dunyoni o'zgartirishga qodir qarorlar qabul qilishadi. Lider o'zining kuchli va ustun jihatlarini yaxshi biladi hamda imkon qadar ulardan unumli foydalanishga intiladi. Shu bilan birga u o'zining kuchsiz tomonlarini ham tan ola biladi va ularni zaifligicha qoldirmaslik yo'lida to'g'irlashga harakat qiladi. Yetakchilar shunchaki o'zlari uchun kelajakni yaratishga intilishadi va ba'zida dunyoni o'zgartirishga qodir qarorlar qabul qilishadi.

Lider o'zining kuchli va ustun jihatlarini yaxshi biladi hamda imkon qadar ulardan unumli foydalanishga intiladi. Shu bilan birga u o'zining kuchsiz tomonlarini ham tan ola biladi va ularni zaifligicha qoldirmaslik yo'lida to'g'irlashga harakat qiladi. Lider atrofdagilarga ta'sir o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Unda boshqalarni o'z ortidan ergashtirish, to'g'ri yo'lga yetaklash, safdoshlariga o'z iste'dodini topishda va rivojlantirishda ko'maklashish, yordamini ayamalik kabi xususiyatlar jam bo'ladi.

Hozir kundan kunga rivoj topib kelayotgan davrda liderlarga bo'lgan talabning kuchayganligini tan olmasdan ilojimiz yo'q. Liderlik psixologiyasining zamonaviy va ko'p uchraydigan muammolari safiga muloqotga kirisha olmaslik, javobgarlik va mas'uliyat hissining yetishmasligi, kelishuv va murosa qila olmaslik, reja qilingan ishda qoniqarli natijaga erisha olmaslik, rag'batlantirish va jazolashning me'yori kabilarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Lider guruh a'zolari orasida kelishib ish ko'rishni ta'minlay olishi ham kerak. Undan guruhdagi har bir safdoshining fikri bilan qiziqish, ularni bir maqsad yo'lida murosaga keltira olish talab qilinadi. Zero, barcha bir maqsad yo'lida tirishar, hamfikir bo'lib ishlar ekan ularning marrani zabt etishi yo'lida duch keladigan qiyinchiliklari ham osongina yengib o'tiladi.

Guruhda yetakchilik qilayotgan shaxs har bir vazifani o'z vaqtida hamda tartib bilan bajarishi shart. Belgilab qo'yilgan maqsadlariga birma-bir sabr bilan erishishga intilishi kerak. Hamma narsaga erishishga harakat qilayotgan inson oxirida hech narsaga erisholmaydi. Shuni inobatga olgan holda, rejaga tayanib ish ko'rishni maslahat berardim.

#### **Foydanilgan adabiyotlar:**

1. Sevinch Sardorbek qizi Jangirova LIDERLIK PSIXOLOGIYASINING ZAMONAVIY MUAMMOLARI. MUVAFFAQIYATLI LIDER SIRLARI SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 3 | ISSUE 1 | 2022 ISSN: 2181-1601.
2. Hayitov O.E. Boshqaruv psixologiyasi. Chirchiq, 2020.
3. Robin Sharma. Muvaffaqiyatning 200 siri. Toshkent, 2017
4. <https://www.investopedia.com/articles/pf/12/leadership-skills.asp>.

## XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИДА ТУРКИСТОН МАТБУОТИДА ФАВҚУЛОДДА ВАЗИЯТЛАР МАВЗУСИНИНГ ЁРИТИЛИШИ

*Сағатов Джумадулла Турабекович*

*Ўзбекистон журналистика ва оммавий коммуникациялар  
университети мустақил изланувчиси.*

**Аннотация:** Мақолада XIX аср охири – XX аср бошларида Туркистон ўлкасида даврий матбуотнинг пайдо бўлиши, ривожланиш тенденциялари ёритилган. Шу билан бирга матбуот нашрларида Туркистонда содир бўлган фавқулодда вазиятлар, уларнинг оқибатлари ҳақида ёритилган материаллар ва уларда кўтарилган муаммолар таҳлил қилинган.

**Калит сўзлар:** фавқулодда вазият, даврий матбуот, публицистика, эпидемия, зилзила, вабо, ёнғин, аҳоли хавфсизлиги.

Ҳар бир даврда инсон ҳаётининг фаолият хавфсизлигини таъминлаш жамиятда олдида турган долзарб муаммоларидан бири бўлиб келган. Тарихга назар соладиган бўлсак, вақти-вақти билан содир бўлиб турадиган фавқулодда вазиятлар (зилзилалар, сув тошқинлари, қурғоқчилик, турли эпидемиялар) минглаб кишиларнинг ёстиғини қуритган. Ўша даврларда содир бўлган фавқулодда вазиятлар, уларнинг оқибатларига оид маълумотлар тарихнавис олимлар, шоирлар ва ўз замонасининг билимли кишилари томонидан ёритиб борилган. Журналистик нуқтаи назардан мазкур қимматли манбаларни публицистик материал сифатида эътироф этиш мумкин. Публицистика ҳаётдаги воқеа-ҳодисаларни акс эттиради ва уларни таҳлил қилиб, ижтимоий фикр уйғотиш, уни шакллантириш ва ҳужжатли факт-маълумотлар асосида воқелик манзарасини яратишдан иборат. Оммавий ахборот воситаларининг ривожланиши тарихи тенденцияларини ўрганар эканмиз, XIX асрнинг охирига келиб радио кашф этилди, “жонли фотография”, кино ва тележурналистиканинг “қуртак”лари юзага келди. Истиқболда эса оммавий ахборот воситаларини тез суръатлар билан ривожлантирган XX аср турарди... Туркистон (ҳозирги Ўзбекистон ҳам жойлашган ҳудуд)да журналистика тарихий тараққиётининг мана шу даврида, яъни XIX асрнинг 60-йилларининг охирида юзага келган. 1870 йилда ўлкада рус ва маҳаллий тилларда ҳукуматнинг расмий газеталари пайдо бўлди. XIX асрнинг 90-йилларига келиб рус тилида хусусий газета ва журналлар ташкил топди. XX асрнинг биринчи ўн йиллигида миллий газеталар, иккинчи ўн йиллигида журналлар юзага келди[1]. Туркистонда матбуотнинг пайдо бўлиш жараёни XIX асрнинг 60-йилларининг охирига тўғри келади. Туркистонда ilk газета 1870 йил 28 апрел (10 май)да рус тилида “Туркестанские ведомости” газетасининг 1-сони босилиб чиқди. “Туркестанские ведомости” ва “Туркистон вилоятининг газети”да ўша даврда Туркистонда содир бўлган фавқулодда вазиятлар ҳақида кўплаб маълумотлар ёритилган. Газеталарда Туркистон аҳолиси орасида кенг тарқалган касалликлардан бири безгак (малярия) билан касалланганлар ҳақида, улар орасида ўлим ҳолатлари ҳамда уларни даволаш усуллари тўғрисида батафсил маълумотлар келтирилади. Бу кўрсаткич ёз фаслига келиб, янада ошиб кетган. Баъзи вақтларда безгак эпидемияга айланиб, вабо ва ўлат (чума) касалликлари каби кўплаб инсонларнинг ёстиғини қуритган. Масалан, Сирдарё вилоятида 1891 йилда 44.004 бемордан 8.908 киши безгак (малярия) билан оғриган[2]. Мамлакатдаги оғир санитария ҳолати ҳамда фавқулодда вазиятларни бартараф этиш соҳасида етарлича эътибор берилмаган ва бу борада деярли иш олиб борилмаган. Шунга қарамай газеталарда турли касалликлар ва эпидемияларнинг олдини олиш борасидаги мақолалар чоп этиб борилган. Шу билан бирга ўша даврдаги Туркистонда содир бўлган фавқулодда ҳодисалар ёнғинлар ёки табиий офатлардан бири бўлган чигирткаларга қарши кураш бўйича материаллар чоп этилган[3].

XX аср бошида тарихга “Андижон фожиаси” деб муҳрланган Андижон zilzilasi 1902 йил 3 декабрда содир бўлган рўй берган. Бу zilzila ҳақида ҳам матбуотда кўплаб маълумотлар ёритилган. Андижонни ер билан яксон қилди. Ҳатто темир йўл изларидаги паровоз ва вагонларни ҳам улоқтириб ташлади, излар бўлса эгилиб-букилиб жойидан кўзғалиб кетди. Ҳатто адирлардаги ер ёрилиб, ундан бир неча дақиқа нефть, газ ва сизот сувлар кум аралаш отилиб турган. Zilzila оқибатида 50 минг киши яшайдиган Андижон бир неча сонияда вайронага айланди ҳамда табиий офат натижасида маҳаллий аҳолидан 4.570 киши, рус миллатига мансуб аҳолидан 6 киши қурбон бўлди[4]. Zilzila оқибатида жабрланган аҳолига тиббий ёрдамни ташкил қилиш ишлари ёмон аҳволда эди. Чор ҳукумати фавқулодда вазиятлар оқибатларини бартараф этиш ишларини ниҳоятда сусткашлик билан олиб бордилар. Аммо оддий рус врачлари ва ҳамширалари zilzilадан жабрланган аҳолига сидқидилдан ёрдам берганлар. Андижон фожиасини бошидан кечирган шоир Адойй бу воқеани қуйидагича тасвирлайди:

Тебраниб кўп ер, кўнгулга қўйди юз минг доғлар,  
Қолмади айвони, айвон ром ила равоқлар.  
Лоақал қолмади иморат тарихидан ўчоқлар,  
Сочиби бошига надоматдин ҳамма тупроқлар,  
Оламон ёраб на бу, на замон бўлди дариғ!

Адоййнинг шеърида келтирилган маълумотлар zilzila кучини аниқлашда катта ёрдам берди. Андижон zilzilасининг кучи IX баллга етган эди[5].

Россиядаги 1905 йилдаги инқилобий ҳаракатлардан ларзага келган Чор империяси Россияда фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари таъминлаш, сўз ва матбуот эркинлиги таъминлаш тўғрисидаги ҳужжатни қабул қилди. Мана шу сиёсий, ижтимоий вазият Туркистонда миллий матбуот соҳасининг пайдо бўлиши ва ривожланишига туртки бўлди. Ўша вақтларда жадидлар томонидан “Тараққий” (1905 й.), “Хуршид” (1906 й.), “Шухрат” (1907 й.), “Ойна” (1913 й.), “Самарқанд” (1913 й.), “Садойй Туркистон” (1914 й.) ва бошқа бир қанча даврий матбуот нашрлари ташкил қилиниб, фаолият олиб бора бошлади. Мазкур газеталарда ўша даврда Туркистондаги сиёсий, ижтимоий ҳаёт, ҳорижий мамлакатлардаги воқеалар, шу билан бирга асосан жамиятдаги ижтимоий муаммолар, уларни ҳал қилишда илм-фан ва маърифатнинг асосий восита эканлиги, халқнинг сиёсий онгини ривожлантириш каби масалалар ёритилган. Мазкур газета ва журналлар ичида айнан фавқулодда вазиятлар билан боғлиқ ҳодисалар “Садойй Туркистон” газетасида чоп этилганлигини кўриш мумкин. Газетанинг 1914 йил 20 майдаги 11-сонида “Пермь шаҳридаги диний мактаб бутхонасида кечки ибодат вақтида ўт чиқиб кўп одамларга зарар етибдур. 27 киши хастахонага солибдурлар, ўлганлар ҳам бор” деган хабар чоп этилган[6]. Туркистонда совет ҳокимияти (1917-1924 йилларда) ўрнатилгандан кейин октябрь инқилоби вақтида ўз фаолиятини тиклаган миллий матбуот нашрлари тўлиқ коммунистик мафкура қоидаларига бўйсундирилди. Ошкоралик, озодлик ва демократик тарзда фаолият олиб боришга ҳаракат қилган нашрларнинг барчаси “ёпилди”. Шундай сиёсий ва иқтисодий оғир вазиятларга қарамасдан миллий матбуотимиз ўша даврда жамиятдаги ижтимоий муаммоларни, хусусан, аҳоли хавфсизлигига хавф солувчи фавқулодда вазиятлар мавзусини ёритиб борган. Масалан, “Бухоро ахбори” -Бухоро Халқ Совет Республикаси ҳукумати газетаси. Газета Бухоро жадидларининг минбари бўлган. Газетага Фитрат, Чўлпон, Саид Аҳрорий, Зиё Усманий, Қори Йўлдош ва бошқа жадидчилик намоёндалари муҳаррирлик қилган. 1923-1930 йилларда “Озод Бухоро” номи билан чиқа чоп этилган. “Бухоро ахбори” ва “Озод Бухоро” газеталарида аҳоли турмуш даражаси ва ҳаётининг оғир аҳволи, ичимлик суви муаммоси, баҳор ва ёз ойларидаги ўта иссиқ гармселли об-ҳаво, кишда эса иситиш шароитларининг умуман йўқлиги, амирлик даврида соғлиқни сақлаш тизимининг умуман ривожланмаганлиги, сабабли Бухорода вабо, иситма, ришта (тери ости қуртлаши), безгак, чечак, бўғма каби касалликлар оқибатида кўплаб эпидемиялар ҳақида маълумотлар доимий ёритиб борилган.

Хулоса ўрнида шуни алоҳида таъкидлаш керакки, XIX аср охири – XX аср бошларида даврий матбуотда Туркистондаги сиёсий, иқтисодий, ижтимоий ва бошқа соҳалардаги ислохотлар, жамиятдаги мавжуд муаммолар, хусусан, ўлкада содир бўлган фавқулодда вазиятлар ҳақида кўплаб материаллар ёритиб борилганлигини кўриш мумкин. Фавқулодда вазиятлар мавзусидаги материалларда муаллифлар ўша даврдаги мавжуд тузумдан аҳолининг ҳаёти, соғлиғи, яшаш шароитларини яхшилашни, шу билан бирга фуқароларнинг турли фавқулодда вазиятлардан огоҳ бўлишига, соҳадаги муаммоларни бартараф этишда мамлакатда илм-фанни ривожлантиришга асосий эътибор қаратиш зарур эканлигини алоҳида таъкидлаб ўтганлар.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Дўстқораев Б. “Ўзбекистон журналистикаси тарихи” дарслик. 1 қисм. Тошкент-2009 йил. 8 б.
2. Гейер “От Ташкента до Гавы”. Туркестанские ведомости.1894 г.№ 92; И. Ковалевский “Борьба с малярией крупного скота в Ташкенте”. Туркестанские ведомости.1907 г.№ 124.
3. Нурматов А., Дўстқораев Б., Мўминов Ф., Саидов Ҳ., Тошпўлатова Н., Махсумова С. “Журналистика назарияси тарихи ва тараққиёти” Ж.1:-Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2019 й.139 б.
4. Русская мысль.1903. № 6-7.Туркестанский сборник.Т 438. С.126.
5. Абдуллабеков Қ., Ильясова З. Фавқулодда вазиятлар тарихидан: Зилзила. Т.: ФМИ, 2016.36-37 б.
6. Садои Туркистон, 1914, 20 май (С.Ҳалимованинг “Садои Туркистон” газетаси: тил йўналиши, тил, услуб, ва жанр хусусиятлари мавзусидаги ф.ф.н диссертацияси.Т.2007 й. 34 б.)



## PHASE BEHAVIOUR AND SURFACE-ACTIVITY OF SODIUM OCTYLENE HEXYL SUCCINATE/WATER SYSTEM

*Makhkamov R., Kurbanbaeva A., Saidkulov F.R.*

*Institute of General and Inorganic Chemistry, Academy of Sciences of Uzbekistan.*

**Abstract:** The surface activity of sodium octylene hexyl succinate (SOHS) at water-air interface has been studied. The obtained results showed a very good correlation between the surface activity of SOHS and concentration of water solutions and temperature of the system. The phase behaviour and structure of aggregates in SOHS /water binary system have been investigated. It has been established that due to the double hydrocarbon chain of the SOHS molecule, the lamellar liquid crystalline phase exists across a wide range of the phase diagram. In two-phase region of the phase diagram, lamellar liquid crystals coexist with water in the form of vesicles.

**Key words:** SOHS, surface activity, phase behaviour, lamellar liquid crystals.

Surface-active derivatives of alkylene succinic acid occupy a special place among new types of surfactants. Interest in surfactants based on alkylene succinic acid is due to their valuable colloidal-chemical properties and the possibility of obtaining model compounds with the required functional groups. They combine high surface-active properties, good biodegradability and low toxicity to warm-blooded animals. Alkylene succinate surfactants have a high adsorption ability in relation to interfaces of various natures and are able to associate in the liquid phase with the formation of micellar particles [1–4]. Due to above mentioned properties, alkylene succinic acid derivative surfactants have found wide application in different fields of industry [5–8]. In this regard, hexylene decyl succinates draw attention due to their practicality in both aqueous and nonaqueous solutions. The molecules of these surfactants have two hydrocarbon chains. The lengths of these chains are different ( $-C_6H_{11}$  and  $C_{10}H_{21}$ ), and one of them has an unsaturated bond. It is well-known that the chemical structure and length of hydrocarbon chains can affect the surface activity, micelle formation and structure of aggregates in surfactant solutions [9–13]. Many ionic surfactants with a double hydrocarbon chain have well-balanced hydrophilic-lipophilic properties and can form a micellar structure in both aqueous and oily media, depending on the concentration and temperature of the system. However, despite the many results of studies of dispersed systems containing ionic surfactants with one hydrocarbon chain, very few studies have been carried out on ionic surfactants with two lipophilic chains. Thus, it is of great interest to study the surface activity and micelle-forming ability of surfactants with two hydrocarbon chains in water, such as the surfactant potassium hexylene decyl succinate (SOHS). It is also important and useful to study the phase behaviour of the SOHS/water binary system and the structure of aggregates in this system.

**Materials and methods. Phase diagram of SOHS/water binary system.** The phase state of the binary system was determined directly by visual observations using polarizers. A polarised light microscope (ECLIPSE LV100N POL) and a small-angle X-ray scattering were used to determine the phase boundary.


**Determination of the type of liquid crystals.** The type of liquid crystals was determined based on the microscopic texture and the ratio of the peaks in a small-angle X-ray scattering spectrum of SOHS/water binary system. For such investigations, a polarizing microscope and a small-angle X-ray scattering were used.

**Results and discussions.** The surface-active properties of SOHS were studied based on the surface tension measurements of surfactant aqueous solutions. The results of the surface tension measurements of SOHS aqueous solutions are shown in Table 1.

**Table 1.** Surface tension of SOHS aqueous solutions at various concentrations and temperatures of the binary system.

T, K	Surface tension (mN/m) at various concentrations of SOHS in water ( $C \cdot 10^3 \text{ mol/m}^3$ )										
	0.01	0.02	0.05	0.12	0.22	0.45	0.90	1.83	3.64	7.23	14.4
293	69,8	66,8	62,9	56,9	52,9	40,6	35,7	33,8	30,5	30,4	29,3
303	68,6	64,6	61,4	56,3	47,9	39,6	32,8	32,7	29,6	29,6	28,3
313	67,8	63,8	58,8	53,6	44,7	38,8	31,6	31,7	28,4	27,8	27,8
323	66,3	61,8	57,6	51,8	43,3	37,5	30,9	29,9	27,9	26,5	26,2
333	64,8	59,8	56,3	49,8	42,7	37,3	30,3	29,6	27,4	26,1	25,8


As shown in Table 1, with the increase of the surfactant concentration in solutions, the surface tension of water decreased till 29-32 mN/m. An increase in temperature (from 293 to 333 K) also causes a depression in the surface tension of the surfactant solutions. The obtained results are associated with an increase in the adsorption capacity of amphiphilic molecules at the liquid-gas interface with the increase of surfactant concentrations and temperature of the system. At low concentrations, the surfactant molecules adsorb at the water-air interface and decrease the surface tension and free energy of the system. However, with a further increase in surfactant concentration, the surface layer becomes saturated, and then the system removes hydrophobic chains of surfactant molecules from water into a micelle, separating it by the hydrophilic shells of the polar surfactant groups. The formation of micelles leads to a maximum decrease in the total free surface energy and creates a stable system. The critical micelle concentration of SOHS obtained from surface tension results is  $9.4 \times 10^{-4} \text{ mol/l}$ . The process of micelle formation in SOHS solutions is determined both by the forces of cohesion between lipophilic groups and by that between the hydrophilic surfactant groups and water molecules. The phase behaviour of the binary SOHS/water system and the structure of aggregates in this system were investigated. The obtained phase diagram of the SOHS/water binary system depending on the temperature and surfactant concentration shown in Fig. 1. In the phase diagram, the SOHS concentration is shown along the horizontal line, and the system temperature is indicated along the vertical line.



**Fig.1.** Phase diagram of the SOHS/water binary system depending on the temperature (T) and surfactant mass fraction ( $M_s$ ); 1- micellar phase, 2- two-phase region (dispersion of liquid crystals in water), 3- liquid crystalline phase, 4- micellar phase.

As shown in Fig. 1, an isotropic aqueous micellar phase formed in the low surfactant concentration region of the phase diagram. It can be assumed that in aqueous solutions of SOHS at low concentrations, the most energetically favourable spherical micelles are present. As the concentration of the surfactant increases, the shape and size of micelles change in the binary system. From the data obtained, it appears that the configuration and conformational

transformations of the two hydrocarbon chains of SOHS play an essential role in the association processes of SOHS molecules. With the increase in the surfactant concentration, the micellar phase passes to an anisotropic liquid crystalline phase. As shown in Fig. 1, a two-phase region that contains dispersions of liquid crystals in water is formed between the water-micellar and liquid-crystalline phases. The types of liquid crystals were determined from the texture of the system and the ratio of the first and second peaks of the small-angle X-ray scattering spectrum. A microscopic image of the texture of the SOHS/water binary system at a surfactant concentration of 52.5% is shown in Fig. 2.



**Fig.2.** Microscopic picture of the texture of lamellar liquid crystals in the SOHS/water binary system at 20°C.

As shown in Fig. 2, the SOHS/water binary system formed a lamellar liquid crystalline texture. The spectrum of a small-angle X-ray scattering of the SOHS/water binary system at a surfactant concentration of 54.3% showed that the ratio of the first and second peaks is equal to 1:1/2 and the system has the texture of lamellar liquid crystals. Thus, the study confirmed that in the surfactant concentration range from 42.3% to 95.7%, lamellar liquid crystals formed in the SOHS/water binary system. The results of the presented study confirm the results of a number of studies [19-24]. At a surfactant concentration between 5.1 and 42.3% of the phase diagram (Fig. 1), lamellar liquid crystals coexist with water in the form of vesicles, which are very useful in many technological processes. As seen from the obtained phase diagram (Fig. 1), the lamellar liquid crystalline phase dominates over a wide concentration range of the phase diagram. This result is apparently due to the chemical structure of the SOHS, which has two different hydrocarbon chains. In the obtained phase diagram (Fig. 1), no significant changes in the hydrophilic-lipophilic properties of surfactant SOHS observed with the increase of the temperature of binary system, and therefore, at low temperatures, there is no phase transition. The lamellar liquid-crystalline phase melts and forms a micellar phase at a higher temperature in the system (around 95.8°C); this phase merges with the main micellar part of the diagram. Similar results were obtained in the studies of a number of authors in.

The interlayer distance of lamellar liquid crystals was investigated from the results of the small-angle X-ray scattering spectrum. The cross-sectional area of the surfactant molecule in lamellar liquid crystals was found from the interlayer distance of the lamellar phase in the SOHS/water system. The obtained data showed, that the interlayer distance of lamellar liquid crystals gradually increases when the value of the cross-sectional area of the surfactant molecule is almost constant with the dilution of the binary system with water. Since the hydrocarbon chains of the surfactant SOHS form a rigid and inflexible lipophilic layer, solvent (water) molecules cannot penetrate into it. Therefore, the distance between the lipophilic layers of the lamellar liquid crystals remains unchanged. In contrast, water molecules can easily penetrate into the hydrophilic surfactant bilayers. Consequently, with greater intrusion of water molecules into the interior of hydrophilic bilayers, the interlayer distance of lamellar liquid crystals increases with decreasing surfactant concentration. Accordingly, the cross-sectional area of surfactant molecules in lamellar liquid crystals remains almost constant.

**Conclusion.** The phase diagram of SOHS/water binary system has been constructed as a function of the temperature of the system and concentration of the components. At above the critical micelle concentration, SOHS forms a normal micellar solution. At higher concentrations of SOHS, a lamellar liquid crystalline phase dominates over a wide region through the formation of a two-phase region in the binary system. Due to the two hydrocarbon chains in surfactant SOHS molecule, a lamellar liquid crystalline phase prevails widely in the phase diagram in the binary system. A lamellar liquid crystalline phase coexists with water in the form of vesicles in the two-phase region, which was confirmed by video-enhanced microscopy.

#### References:

1. Mixed surfactant systems. Surfactant Science series. (2004) ed. Masahiko Abe, rev. and expanded second ed.).
2. Bhadani A, Hokyun J, Kafle A et al. (2020) Synthesis and properties of renewable citronellol based biodegradable anionic surfactant. *Colloid and Polymer Science* 298:(11)1543-1550.
3. Gemma C. Shearmana, Stephane Ugaziob, Laurent Soubiranb et al (2009) The lyotropic phase behaviour of ester quaternary surfactants. *Journal of Colloid and Interface Science* 331:(2)463-469.
4. Islam N, Kato T (2005). Effect of temperature on the surface phase behaviour and micelle formation of a mixed system of nonionic/anionic surfactants *J. of Colloid and Interface Science* 282(1)142-148.
5. Holmberg K, Jansson B, Kronberg B, Lindman B (2002) *Surfactants and Polymers in Aqueous Solution*. Second edition.
6. Avinash Bhadani, Ananda Kafle, Taku Ogura et al. (2019) Phase Behaviour of Ester Based Anionic Surfactants: Sodium Alkyl Sulfoacetates. *Ind Eng Chem Res* 58:(16) 6235–6242.
7. Karsa DR (1998). *New Products and Applications in Surfactant Technology*, 245 p.
8. Fang Fu, Yulin Fan, Langqiu Chen et al. (2020) Water Solubility and Surface Activity of Alkoxyethyl  $\beta$ -d-Maltosides. *Journal of Agricultural and Food Chemistry* 68:(31)8330-8340.
9. Moore JE, Thomas M. McCoy J, Marlow B et al. (2019) Rich liquid crystal phase behaviour of novel alkyl-tri(ethylene glycol)-glucoside carbohydrate surfactants. *Journal of Colloid and Interface Science* 540:410-419.
10. Chattopadhyay A, Mittal KL (1996). *Surfactants in Solution*, CRC Press.
11. Makhkamov R, Kim V, Aminov S, Sirazhiddinova D (1992) Correlation between the structure of a carbohydrate substituent and the adsorption ability in a series of the derivatives of hexylene-succinic acid. *Kolloid Journal* 54:(4)121-124.
12. Makhkamov R, Kim V, Aminov S, Sirazhiddinova D (1992) Correlation between the aggregative stability of emulsions and the hydration of an emulsifier cation. *Kolloid Journal* 54:(4)118-120.
13. Gurugea AG, Warren DB et al. (2021) Aqueous phase behaviour of the PEO-containing non-ionic surfactant C12E6: A molecular dynamics simulation study. *Journal of Colloid and Interface Science* 588:257-268.



**INCREASING THE EFFICIENCY OF NITROGEN FERTILIZERS ON  
AUTOMORPHOUS DIDROMORPHIC SOILS AND THEIR INFLUENCE ON  
ARTICHOKE PRICKLY (*Cynaras colymus* L.)**

***Pirakhunova Farida Nurmatovna***

*Candidate of Biological Sciences, Associate Professor, Professor of RAE  
Tashkent region of the Republic of Uzbekistan “Astrakhan State Texnika Universiteti”  
branch, “Aquatic bioresources and aquaculture” chair.*

***Sayfutdinova Nasiba Nurmatovna***

*Token State Pedagogical University named after Nizami Senior Lecturer of the  
Department of Clinical Foundations of Special Pedagogy.*

**Annotation:** According to the results of many years research authors ascertained that such perspective plant for pharmaceutical industry of Uzbekistan as artichoke prickly (*Cynaras colymus* L.), cultivated in conditions of typical sierozem of Uzbekistan (Tashkent and Samarkand regions), when applying nitric, phosphorus and potassium fertilizers, particularly with manure, accumulates more biological mass of harvest (over ground part of plants), and also intensively carries out biosynthesis of such biologically active substances as rutin and luteoline. It should be noted that during the process biomass amount of artichoke prickly overground part, and also content of biologically active substances in it is more than in plants which were grown in meadow soil than in typical sierozem. Thus, research revealed that applying full fertilizer with manure productivity of artichoke prickly is increased. In addition it is observed intensification of rutin and luteoline biosynthesis in artichoke prickly leaves.

**Key words:** nitrogen, phosphorus, potassium, rutin, luteoline, biomass, harvest.

**Objective.** Among mineral fertilizers the most important influence on productivity of artichoke prickly exert nitric fertilizers. With the use of the stable nitrogen isotope  $^{15}\text{N}$  it was found that on a typical grey soils cotton plant use nitrogen fertilizer not by 60-70%, as previously thought, but 40-42% [1,2]. The main reason for the incomplete use of nitrogen fertilizer plants - gas and other forms of losses occurring as a result of denitrification and leaching of nitrates in groundwater, such losses reach 40-45 percent or more. Development of methods for the effective use of nitrogen fertilizers under the artichoke is not only of scientific but also practical significance, as it provides high yields of high quality, as well as reducing environmental pollution. The transformation of nitrogen fertilizers in irrigated typical grey soils and meadow soil (automorphic and hydromorphic soils), and the use of it by plants depending on nitrogen nutrition regime has been insufficiently studied.

**Methods of research.** We have conducted field and vegetation experiments. In the first series of experiments we studied the transformation of nitrogen fertilizers under identical conditions of nitrogen nutrition, in the second year - due to the timing of nitrogen application. Vegetation experiments were carried out at an agricultural experimental station of the Tashkent State Agrarian University. Field experiments were founded on farms in the former collective farm named after A. Artykov of Zangiata district of Tashkent region in two different soils (typical grey soil and meadow), situated at a distance of 1-1.5 km from each other. Experimental area of each soil difference of 0.5 hectares. The soils - meadow and typical grey soil of old irrigation are medium clay. The depth of the groundwater in the meadow soil 1.2-1.5 m, on a typical sierozem - 12-13 m. In the mechanical part of both varieties predominate fraction of silt and fine dust. They are presented in approximately equal amounts. Agrochemical characteristics of arable and subsurface horizons of typical grey soils, respectively, the following: nitrogen, 0.10 and 0.07%;



Humus 1.0 and 0.7%; phosphorus and 0.09 0.16%; nitrates of 15 to 20 mg / kg; movable phosphorus and the exchange potassium, respectively 32 - 10.8 208 - 120 mg / kg of soil.

In the plowing and subsurface horizon of the irrigated meadow soils initial humus content was respectively 2.26 - 1.85% by weight of the soil; nitrogen - 0.125 - 0.080; P 0.160 and 0.100; potassium - 2,100 and 1,220%; nitrates 18.0 and 10.0 mg / kg soil mobile phosphorus - 33.7 and 4.0; exchangeable potassium - 200 - 120. The ratio of C: N 7,8: 1 in a typical grey soils and 11.7: 1 - in the meadow. Filling of vegetation vessels was conducted in the autumn with soil taken from a field experiment (the horizon of 0-50 cm), in view of its genetic horizons. The layout of the prickly artichoke plant 90 x 50 x 1, soil moisture was maintained at 70% of SSM.

**Results of research.** The results of research in the vegetative experiments ascertained that the content of fertilizer nitrogen compounds determined using the stable nitrogen isotope <sup>15</sup>N is dependent on soil differences (Table 1).

**Table 1.** Content change of organic and inorganic nitrogen fertilizer on a typical grey soils and meadow soil (mg per vessel).

Annual norm g/ vessel				2-3 true leaves			Budding		
N	p	K	manure	Total	Organic	Inorganic	Total	Organic	Inorganic
Typical sierozem									
6	5	2	-	1398	744	654	2876	1224	1652
6	5	2	400	1634	908	726	3018	1506	1512
Meadow									
6	5	2	-	1718	1076	642	3158	1566	1592
6	5	2	400	1706	1260	446	3578	1753	1825

In the first half of the growing season (until budding mass) the amount of nitrogen immobilization of fertilizers on meadow soil (or transition of inorganic nitrogen into the organic form of microorganisms in the body) is more intense than in the typical sierozem.

Adding manure enhances this process, especially in the meadow soil, which is associated with a different content in these soils of organic residues mass, as well as the ratio of C: N.

In connection with the immobilization of nitrogen the content of available to plants inorganic compounds in its early development phase, and the budding of plants is reduced, especially in the meadow soil.

With the applying manure further is reduced inorganic nitrogen fertilizer content of the unused nitrogen fertilizer by plants (at the end of its vegetation) on the meadow soil especially when manure is more than in a typical sierozem.

Based on the literature data and the results of our research on the balance sheet and the conversion of nitrogen fertilizer in the system soil - plant can be argued that in the meadow soil with high organic substance content and a wide ratio of C: N during the initial period artichoke is more demanding of nitrogen application than on typical sierozem.

Studies have shown that with the onset of flowering and ripening phase nitrogen supply of plants in the meadow soil is higher than on a typical sierozem, due to the release of previously absorbed nitrogen by soil microorganisms (table 2).

**Table 2.** The content of nitrogen fertilizer compounds in various soil conditions (mg/vessel).

Annual normg/ vessel				Flowering			Maturing		
N	P	K	manure	Total	Organic	Inorganic	Total	Organic	Inorganic
Typical sierozem									
6	5	2	0	1864	972	892	1394	1301	86
6	5	2	400	2014	970	1044	1744	1391	353
Meadow									
6	5	2	0	2424	1270	1154	1796	1574	222
6	5	2	400	2486	1396	1090	1912	1458	452

This makes it necessary to study the effectiveness of timing of nitrogen fertilizer based on the biological characteristics of the transformation of nitrogen and soil conditions.

**Conclusion.** Studies have found that artichoke prickly grown on a typical sierozem with applying of a complete fertilizer, particularly manure, contributes to the accumulation of a large crop and increased biosynthesis of such biologically active substances such as rutin and luteoline as well as medicinal plants weight. The number and value of artichoke in this process is more on the meadow soil than on a typical sierozem.

Thus, in relation to the control variant higher yield of artichoke is provided by making a complete fertilizer, especially with manure than on a typical sierozem.

**References:**

1. Rizhov S.N., Pirakhunov T.P., Tashkuziev M.M., Aliev A.T., 1979. The balance of nitrogen fertilizers in the sierozem for growing cotton plant (according to lysimetric experiments). Col.: Use of stable isotope <sup>15</sup>N in research on agriculture. IV All-union. coord. scient. method, conference. Tbilisi.
2. Khodzhiev T., Bairov A., 1992. Nitrogen and inhibitors of nitrification in cotton growing. Publishing house «Fan», Tashkent, p.118.

## QONUNLAR O‘ZGARISHGA MUHTOJMI?!

*Sattorov Azizbek*

*Namangan davlat universiteti*

*Yuridik fakultet 2-bosqich talabasi.*

Qonun (huquqda) — inson, jamiyat va davlat manfaatlari nuqtai nazaridan eng muhim hisoblanadigan ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash, rivojlantirish va tartibga solish vositasi. Qonun davlat oliy vakillik organlarining eng yuqori kuchga ega bo‘lgan hujjatidir. Qonun davlat huquq tizimining asosini tashkil qiladi, davlatning boshqa hamma organlarining normativ aktlariga nisbatan eng katta yuridik kuchga ega bo‘ladi. Qonun uchun uni qabul qilishning alohida tartibi. bir necha bosqichdan iborat maxsus qonun chiqarish jarayoni xosdir. Bu bosqichlar qonunchilik tashabbusi, qonun loyihasining muhokama qilinishi, Qonunning qabul qilinishi va uning e‘lon qilinishidan iborat. Qonunlar o‘zida mujassamlashgan normag larning mohiyati bo‘yicha konstitutsiyaviy. to‘g‘ridan-to‘g‘ri konstitutsiya talablari asosila qabul qilinadigan (organik) va oddiy Qonunlarga bo‘linadi. Oddiy Qonunlar, o‘z navbatida, kodifikatsiya qilingan va joriy Qonunlarga bo‘linadi. Federativ davlatlarda Qonunlar, shuningdek, federal va fede-ratsiya sub‘yektlari Qonunlariga ajratiladi. Qonunlarning alohida toifasini favqulodda Qonunlar tashkil etadi. Normativlik Qonunning muhim belgisi va xususiyati hisoblanadi. Huquqiy hujjatlarning boshqa shakllari ham normativ bo‘lishi mumkin, lekin ular Qonunchalik qat’iy kuchga ega bo‘lmay, qisqa muddat amal qiladigan yoki huquqni muhofaza etuvchi bo‘lishi mumkin. Qonunning normativligi uning bir xildagi qoidani barcha uchun norma, me‘yor, mezon darajasiga ko‘tarilishidadir. Qonunda mustahkamlangan qoida hamma o‘xshash hollarda bir xildagi talab sifatida takror-takror amal qiladi. Qonunning normativligi unda ifodalangan davlat irodasining qat’iyligi, ustunligi va oliyligi bilan chambarchas bog‘liqligidadir. Aynan shu irodaning imperativ (bo‘ysundiruv-chi) mazmuni Qonun vositasi bilan umumiy yurish-turish va xulq-atvor mezonlarini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1) asosiy qonun — Konstitutsiya;

2) Konstitutsiyaviy qonun;

3) Qonun (kodekslar va joriy Qonunlar);

4) Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasi va Qonunlari Qonunlar va boshqa normativ hujjatlar orasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosiy o‘rinni egallaydi. Ushbu hujjat davlat hokimiyatining tashkil etilishini va boshqaruv mexanizmini belgilaydi, konstitutsiyaviy tuzum asoslarini, jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy asoslari, siyosiy tizimini. insonlar va fuqarolarning huquq va erkinliklarini mustahkamlaydi. Konstitutsiya jamiyat huquqiy tizimining, butun qonunchilikning o‘zagini, yuridik zaminini tashkil etadi. Joriy Qonunlarning barchasi konstitutsiya qoidalari va prinsiplari asosida hamda ularning ijrosi manfaati yo‘lida chiqariladi. Qonunlar quyidagi hollarda kuchga kiradi: rasman e‘lon qilingandan 10 kun o‘tgach; Qonunda yoki uni amalga kiritish to‘g‘risida maxsus hujjatda ko‘rsatilgan vaqtdan boshlab. Qonun o‘zida ko‘rsatilgan muddat tugagan bo‘lsa yoki bekor qilinishi natijasida (ijtimoiy munosabatlarning shu sohasini tartibga soluvchi yangi Qonun qabul qilinishi munosabati bilan) o‘z kuchini yo‘qotadi. Qonun zamonda amal qiladi. Buning ma‘nosi shuki, ayrim Qonunlar orqaga qaytish kuchiga ega. Ya‘ni, Qonun e‘lon qilinmasdan oldin bo‘lgan ishlarga shu Qonun tatbiq etiladi. Jumladan, O‘zbekistonda jinoyat va ma‘muriy javobgarlikni yengillashtiruvchi Qonunlar orqaga qaytish kuchiga ega. Qonun makonda ham amal qiladi. Buning ma‘nosi Qonunlar mamlakatning barcha hududlarida amal qilishini bidsiradi. Davlat hududiga quruqlik, ichki suvlar va hududiy dengiz havzalari, ushbu hududlar ustidagi havo bo‘shlig‘i va davlat chegarasi doirasidagi yer osti kiradi. Odatda, Qonunlar ushbu hududdagi barcha sub‘yektlar, ya‘ni fuqarolar, yuridik shaxslar, davlat organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar uchun majburiydir.

Qonunning oliy yuridik kuchga egaligi quyidagilarda namoyon bo'ladi: Qonunni uni qabul qilgan oliy vakillik organidan boshqa hech kim o'zgartira olmaydi, bekor qila olmaydi yoki yangisiga almashtira olmaydi.

Lekin har bir narsa mukammal bo'lmaganidek O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi va Jinoyat-protsessual kodeksi ham o'zgarishlarga muhtoj. Chunki hozirgi shiddatli davrda eskilik sarqitiga suyanib yashash qiyin. Ayrim moddalar korrupsiyaning "eshigini" kalitsiz ochmoqda. Bunga misol qilib JPK ning 416-417-moddalarini olish mumkin. Tergovchi bir jinoiy ishni tergov qildi va ish praktura orqali sudga oshirildi. Sud jarayonida esa korrupsion holatlar aniqlandi ya'ni ushbu jinoyatchining yana boshqa jinoiy qilmishlari yoki sheriklari borligi ma'lum bo'ldi. Unda ish yana tergovga qaytadi. Ushbu holat qo'zichoq tirik qolgani uchun bo'riga yana qaytarib berilishdek gapku. Axir o'sha dastlabki bosqichlarda korrupsion holatlarga yo'l qo'yildiku.

Muhtaram prezidentimiz SH.M.MIRZIYOYEV takidlaganidek – ishni isbot qilishda faqat tergovchilar, prakurorlar surishtiruvchilar va himoyachilar emas, balki ekspertlar, mutahassislar, xolislar shuningdek boshqa fuqorolar ko'magidan foydalanish kerak. Bu esa JPK ning 86-87-moddalarida keltirib o'tilgan. Aksari hollarda esa 416-417-moddalar ro'kach qilinib 86-87-moddalar chetlanib o'tmoqda.

4. Каримов И. А. “Юксак маънавият – энгилмас куч” – Т.: “Маънавият”, 2016 йил.

## ТОШКЕНТ ШАҲРИ ФОЛЬКЛОР-ЭТНОГРАФИК ЖАМОАЛАРИНИНГ ТАРИХИЙ ТАРАҚҚИЁТ БОСҚИЧЛАРИ ВА РЕПЕРТУАРИ

*Суннатиллаев Асатилло Суннатович*

*Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти*

*“Фольклор ва этнография” кафедраси катта ўқитувчиси, мустақил тадқиқотчи.*

**Аннотация:** Сўнги йилларда ўзбек миллий фольклор ижрочилик санъати, фольклор-этнографик жамоаларининг ривожланиш ва тарихий тараққиёт босқичлари, жамоаларнинг репертуари, ижрочилик маҳорати бўйича соҳа мутахассислари, фольклоршунос олимлар томонидан илмий изланишлар олиб борилди. Аммо Тошкент-Фарғона вилоятлари фольклор-этнографик жамоалари, айниқса, Тошкент шаҳрида фаолият олиб бораётган фольклор-этнографик жамоалари тарихи, уларнинг репертуари билан боғлиқ томонлари тўлалигича ўрганилмаган. Ушбу мақолада Тошкент шаҳри фольклор-этнографик жамоаларининг тарихий-тараққиёт босқичлари ва репертуари илмий таҳлил этилган.

**Калит сўзлар:** Фольклор, фольклор-этнографик жамоалари, репертуар, этнография, ижрочилик санъати.

Халқ маданияти ва маънавиятининг энг қадимий кўриниши бўлган фольклор намуналарида ўша халқнинг турмуш тарзи, ҳаётий тажрибаси, ютуқ ва муваффақиятлари акс этади. Шу боис у асрлар оша авлоддан-авлодга ўтиб, ёшлар тарбиясида “ҳаёт мактаби” вазифасини ўтаб келмоқда. Халқона рух, бетакрор самимияти ва қадимий маданиятимизнинг гўзаллигини намоеън этувчи фольклор чинакам маънавий хазина, туганмас булоқ сингари асрлар давомида халқимиз маънавиятини бойитиб, онгу тафаккури ва ҳис-туйғуларини теранлаштириб келган. Аждодларимиздан қолган бу улкан мерос миллат қалбида эзгу ният ва улуғ мақсадларга интилиш, она ватанга муҳаббат ва эътиқод туйғуларини уйғотади.

Муҳтарам Президентимиз Ш.М.Мирзиёевнинг маънавият ва маърифат ҳамда маданиятимизни ривожлантириш йўлида олиб бораётган сиёсатидан келиб чиқиб, миллий руҳни ўзида асрлар бўйи ортмоқлаб келаётган, қадимий анъаналарни бугунги кунда кўз-кўз этаётган, ўз ортидан миллионлаб кишиларни эргаштираётган ҳар томонлама ибрат мактаби бўлиб, омма меҳрини қозонаётган, ёшлар қалбига маънавият уруғини сингдираётган ижодкорлардан бири бу - фольклор-этнографик жамоаларидир.

Бугунги кунда фольклор-этнографик жамоалари халқимизнинг қадимий анъаналари, халқ оғзаки ижодининг ноёб намуналарини сақлашда, уларга сайқал бериб, яна халқимизнинг ўзига қайтаришда жонбозлик ва фидойилик кўрсатувчи ижодий лаборатория вазифасини ўтаб келмоқда. Сўнги йилларда Тошкент шаҳрида фольклор-этнографик жамоалари фаолияти сезирарли даражада ўзгарди. Бир қатор фольклор-этнографик жамоалари ташкил этилди, улар орасида фаол ижодий фаолият олиб бораётган фольклор-этнографик жамоалари эса Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги томонидан “Халқ ҳаваскорлик жамоаси” унвонига сазовор бўлишди. “Гавҳар”, “Нодирабегим”, “Ўзбекойим”, “Ҳилола”, “Бувижонлар”, “Дурдона” каби фольклор-этнографик жамоалари шулар жумласидандир. Тошкент шаҳри фольклор этнографик жамоалар репертуарида миллий кадрятлар ва анъанавий маросимларнинг воситаси бўлмиш меҳр-мурувват, саховат ва инсоний фазилатларни акс эттирувчи саҳна кўринишлари шаклланди. Юзага келган ижодий эркинлик, руҳий янгиланиш фольклор асарларини ҳаётга янада кенг тарғиб қилиш жараёнини бошлади. Масалан, халқимиз бадий салоҳиятининг энг гўзал намуналарини ўзида мужассамлаштирган умумхалқ шодиёнаси – Наврўзи олам билан боғлиқ кўшиқлар, удумлар ва маросимлар қайта тикланди. Наврўз байрамининг келиб чиқиш тарихи, тараққиёт босқичлари, унинг таркибидаги фольклор асарларини бадий хусусиятлари, байрамни ўтказилиши билан боғлиқ локал белгилар рўёбга чиқди. “Бешик тўйи”, “Келин салом”, “Никоҳ тўйи”, “Сумалак сайли” “Болани бешикка белаш”, “Келин-



куёвни чимилдикка киритиш” билан боғлиқ урф-одатлар, “Суннат тўйи”, “Тул сайли” каби ўзлигимизни тараннум этувчи қадимий удумларимиз яна ҳаётга қайтди.

Истиклол йилларида ўзбек миллий фольклор ижрочилик санъати, этномаданий қадриятлари, фольклор-этнографик жамоаларининг ривожланиш ва тарихий тараққиёт босқичлари, жамоаларнинг репертуари, ижрочилик маҳорати бўйича соҳа мутахассислари, фольклоршунос олимлар томонидан илмий изланишлар олиб борилди. Аммо Тошкент-Фарғона вилоятлари фольклор-этнографик жамоалари, айниқса, Тошкент шаҳрида фаолият олиб бораётган фольклор-этнографик жамоалари тарихи, уларнинг репертуари билан боғлиқ томонлари тўлалигича ўрганилмаган.

XX асрнинг 80-йилларидан бошлаб республикамизнинг барча вилоятларида фольклор-этнографик жамоалар гуркираб ўса бошлади. Жойлардаги фаолият юритаётган илғор маданият ходимлари бўлган хонандалар, созандалар, раққосаларга услубий ва амалий ёрдам бериш учун пойтахтдан малакали мутахассислар, бастакорлар, балетмейстерлар таклиф қилинди. Улар янги жамоаларни ташкил этишда ва репертуарларини бойитишда ўз хиссаларини қўшдилар. Улар орасида Тамара Тошбоева, Саодат Йўлдошевларни алоҳида таъкидлаш лозим. Ушбу фидойи инсонлар сай-ҳаракати билан жойларда бир нечта фольклор-этнографик жамоалар ташкил этилди. (2, 18)

Ўзбек халқ оғзаки бадий ижодиётининг бугунги ҳолати ва тараққиётига назар соладиган бўлсак, унда кўплаб фидойи фольклоршунос олимлар, маданий-маърифий муассасаларнинг ходимлари, фольклор дурдоналарини ўз тафаккур бўстонида сақлаб, ривожлантириб келаётган чечан ижрочиларнинг ўрни яққол кўзга ташланади. Бу ўринда фольклор санъатининг энг яхши анъаналарини кўз қорачиғидай асрашдек шарафли, эзгу ва ўта масъулиятли соҳада узоқ йиллар меҳнат қилган иқтидорли олимларимиздан бири Саодат Назировна Йўлдошеванинг хизматларини алоҳида таъкидлаш лозим бўлади. (1, 36)

Саодат Йўлдошева биринчилардан бўлиб мамлакатимизда фольклор-этнографик жамоаларнинг ташкил топиши ва уларнинг репертуари хусусиятларини ўрганишга киришган олимадир. У ўз мақола ва китобларида йигирмадан ортиқ фольклор-этнографик жамоаларининг ижрочилик санъати, репертуари, кийим-кечаклари, тақинчоқлари ва ҳатто чолғу асбобларидаги ўзига хосликларни тавсифлаб берди, улар ижросидаги намуналар матнларини ёзиб олди ва эълон қилди. Характерли томони шундаки, олима ҳар бир жамоа ўзи ташкил топган ҳудуд аҳолисининг маиший ва фольклор ҳаёти, эстетик диди, урф-одатлари билан маҳкам бағлиқлигини, уларнинг репертуари ана шу ҳаёт тарзини ифодаси янлиғ шаклланганлигини таҳлиллар асосида исботлади. (1, 36)

Саодат Йўлдошева санъатда катта маҳорат ва тажриба ортирган санъаткор, фольклор халқ кўшиқларининг фоал тарғиботчиси, “Шухрат” медали совриндори Ойхон Ёқубова билан биргаликда 1988 йил Тошкент шаҳрида “Гавҳар” номли фольклор-этнографик жамоа ташкил этади. (2, 110) Бу Тошкент шаҳридаги биринчи этнографик жамоа эди. Бадий жамоага 8 ёшдан 80 ёшгача бўлган хотин-қизлар жалб этилади. Жамоа катта изланишлар, тинимсиз меҳнат эвазига 100 дан ортиқ халқ термалари, лапарлари, айтишувлари, яллалари, маросим ва урф-одатларни саҳналаштириб томошабинлар ҳукмига ҳавола этади. Республика миқёсида ташкил этилган байрам сайлларида, кўрик-танлов ва фестивалларда иштирок этиб совринли ўринларни қўлга киритади.

Ўз юртида шухрат топган “Гавҳар” фольклор-этнографик жамоаси кизиқарли, халқчил ижоди чет элларда ҳам ўз санъатсеварларига эга бўлган. Бадий жамоа Америка, Италия, Туркия, Ҳиндистон каби хорижий давлатларда бўлиб қайтган. Эришилган муваффақиятлар, кўрсатилган хизматлари эвазига жамоага Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги томонидан 2000 йилда “Халқ хаваскорлик жамоаси” унвони берилган. (2,111)

“Гавҳар” фольклор-этнографик халқ хаваскорлик жамоаси репертуарида “Келин салом”, “Бешик тўйи”, “Никоҳ тўйи”, “Наврўз сайли” каби маросим кўшиқлари, “Ака чекманг”, “Сочпопук”, “Абдуллажон” каби лапар ва айтишувлар кенг ўрин олган. Жамоа дастуридан жой олган “Болани бешикка солиш” маросими турли хил анъаналар билан боғлиқ саҳна кўринишлари оналаримиз учун ҳаёт мактабидир. (2,113) Гўдакни бешикка белашнинг ҳам



Ўзбекона расм-русумлари бор. Серфарзанд, сердавлат оиланинг онахони маросимда кайвонилик қилишдек фахрли бахтга муяссар бўлади. Бу эса катта бир бахт. Кайвони аёл удумга кўра чақалоқни чўмилтиради, сўнг унинг баданига тоза тандир тупроғини ва зиғир ёғини яхшилаб суртади. Қизил тупроқ куч-қувватга эга бўлиб, гўдак вужудини ярачақадан халос қилиб, терини мустаҳкамлайди. Она томонидан айтилган алла бола дунёқарашининг шаклланишида ватанпарварлик, инсонийлик, боланинг маънавий баркамол бўлиб етишишида муҳим тарбиявий аҳамиятга эга. Жамоа Тошкент шаҳрининг ўзига хос бичимдаги қадимий ва замонавий матоларини уйғунлаштирилган ҳолдаги кийимлари, сахна безакларидан фаол фойдаланган.

*Авжи саҳар бўлибди, боламов алла,  
Ичим ғамга тўлибди, алла-ё алла,  
Қаддим мени гулдай сўлибди-ё алла  
Жоним болам алла-ё алла. (2, 112)*

Халқ оғзаки ижодининг чинакам жанкуяри Ойхон Ёқубова бошқаларнинг ҳаёлига келмайдиган ажойиб мавзуларни топган. У киши халқдан олиб яна халққа берган. Маълумки, биз ҳар куни чой ичамиз. Лекин “чойхўрлик” билан боғлиқ удумларни кўз олдимизга келтирмаймиз. Бу - чой ҳақида айтишувлардир. Ойхон Ёқубова шу унитилаётган удум ва маросимларни сахна орқали ҳаётга қайтарган.

*Чой ичарлар ўзлари,  
Деразада кўзлари,  
Чой ичган йигитларнинг  
Мўлтирайди кўзлари. (2, 113)*

Халқимизнинг сеvimли санъаткори, миллий маданиятимизнинг толмас тарғиботчиси Ойхон Ёқубова 2008 йил оғир ҳасталиқдан вафот этди. Ойхон Ёқубова “Гавҳар” фольклор-этнографик халқ хаваскорлик жамоасини янги чўққилар сари етаклашга ўз хиссасини қўшган фидойи инсонлардан бири эди. Бугунги кунда у кишининг садоқатли шогирдлари устоз яратган сахна асарларини, фольклор санъати намуналарини изчиллик билан давом эттирмақдалар. Тошкент шаҳрида фаол фаолият кўрсатаётган жамоалардан яна бири “Нодирабегим” фольклор-этнографик жамоасидир. Жамоани ташкил этиб, шакллантиришда жонбозлик кўрсатган, фидойи саъаткорлардан бири Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист Райхон Тўраева ҳисобланади. Райхон Тўраевани кекса авлод вакиллари яхши танийди. Ёшлар эса уларни “Оқшом эртаклари” кўрсатувидаги эртакчи буви сифатида билишади. Узоқ йиллар Муқимий номидаги Ўзбек давлат мусиқали драма театрида фаолият юритган истеъдодли актриса 1995 йил Тошкент шаҳар Толибжон Содиков номидаги марказий маданият маркази (ҳозирги Тошкент шаҳар Марказий маданият маркази) қошида “Нодирабегим” фольклор-этнографик жамоасини ташкил этади ва жамоага раҳбарлик қилади. (2,115) Жамоага ўзбек миллий фольклор ижрочилик санъатига қизиқувчи хаваскор аёлларни жалб этиб уларга халқ кўшиқлари ва лапарларини ўргатади. Жамоа репертуари Тошкент шаҳрига хос удум ва маросимлар, халқ кўшиқлари, айтишувлар, яллалар билан бойитилади. Жамоа томонидан тайёрланган “Келин-куёвни чимилдикқа киритиш” билан боғлиқ урф-одатлар, “Наврўз сайли”, “Никоҳ тўйи”, “Бешик тўйи” каби оилавий-маиший маросим ва улар билан боғлиқ маросим кўшиқлари, лапарлар мавжуд.

“Нодирабегим” фольклор-этнографик жамоаси замон руҳига мос удум, маросимларида Наврўзни, она юртни мадҳ этувчи кўшиқлар бамисоли дарёдай жўшиб куйланади. Бу эса чечан ижрочиларнинг она-юртга унинг қадриятларига бўлган чексиз ҳурмат ва эҳтиромнинг намунасидир.

*Наврўз келади ўлкага наврўз келади  
Сер-файзу барокат сайли наврўз келади  
Борлиқни безаб шафтоли-олма гулидан  
Шабнам ўза баргида сарафроз келади  
Дехқон келади омоч, кетмон кўтариб  
Ошиқ боқади ёрига зимдан йўталиб  
Бол ол барака еринга берсин барака  
Пок меҳнатидан баҳра олинг жон ака (3)*

Жамоанининг фидойи хизматлари Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги томонидан муносиб баҳоланиб “Нодирабегим” фольклор-этнографик жамоасига 2003 йилда “Халқ хаваскорлик жамоаси” унвони берилган. Бугунги кунда “Нодирабегим” фольклор-этнографик халқ хаваскорлик жамоаси Тошкент шаҳридаги энг етакчи жамоалардан бири ҳисобланади. Ҳозирда жамоага устоз санъаткор Райхон Тўраеванинг сеvimли шогирдларидан бири Маъмура Авазова раҳбарлик қилиб келмоқда. Жамоа Республика ва халқаро миқёсда ташкил этилган фольклор кўрк-танлов ва фестивалларида муносиб иштирок этиб, юқори ўринларни қўлга киритмоқда.

“Гавҳар” фольклор-этнографик халқ хаваскорлик жамоаси бадий раҳбари Ойхон Ёкубованинг сеvimли шогирдларидан бири Маҳфуза Боймирзаева ташаббуси ва бошчилигида 2006 йил Тошкент шаҳрида “Дурдона” номли фольклор-этнографик жамоа ташкил этилади. Жамоа раҳбари Маҳфуза Боймирзаева устози Ойхон Ёкубовадан олган сабоқларини давом эттирган ҳолда жамоани янги кўшиқлар, лапарлар, удум ва маросим кўшиқлари билан бойитди. Жамоа томонидан оилавий-маиший маросимлар, Тошкент шаҳри удум ва маросимлари асосида дастурлар тайёрланиб халқимизга ҳавола этилди. Жамоанинг репертуар дастурида асосан “Наврўз” байрами билан боғлиқ маросим кўшиқлари, “Бешик тўйи”, “Келин салом”, “Никоҳ тўйи”, “Сумалак сайли” каби маросим кўшиқлари кенг ўрин олган.

*Дошқозонда сумалак  
Туни билан қайнайди  
Қизлар сочи жамалак  
Атрофида ўйнайди  
Қайна қозоним қайна  
Ўйна капкирим ўйна (4)*

Жамоа Республика ва халқаро миқёсда ташкил этилган барча кўрик-танлов ва фестивалларда муваффақиятли иштирок этиб, юқори ўринларни қўлга киритган. Жамоа асосан Тошкент шаҳрига хос удум ва маросимларни саҳнага олиб чиқишга ҳаракат қилади. Жамоа иштирокчилари томонидан худудга хос янги кўшиқлар ҳам яратилган. Масалан:

*Доирамиз жаранги Тошкентонадур,  
Қўлга олсак завқ берар кўнгил қонадур.  
Диёримиз пойтахтин саломини сизга,  
Яхши тилаклар айтмоқ насибдур бизга. (4)*

“Дурдона” фольклор-этнографик жамоасига Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги қарорига мувофиқ 2017 йилда “Халқ хаваскорлик жамоаси” унвони берилган. Ҳозирда жамоа янги маросим ва дастурлар устида изланишлар олиб бормоқда.

Тошкент шаҳридаги яна бир фаол фаолият кўрсатаётган жамоалардан яна бири “Ўзбекойим” фольклор-этнографик жамоаси ва “Ҳилола” болалар фольклор-этнографик жамоаларидир. Тошкент шаҳар Олмазор тумани 6-сон маданият маркази қошида исьтедодли санъаткор Жамила Ҳамидова ташаббуси билан 2008 йил бирданига ҳам катталар ва болалардан иборат “Ўзбекойим” фольклор-этнографик жамоаси ва “Ҳилола”

болалар фольклор-этнографик жамоалари ташкил этилди. Бугунги кунда “Ўзбекойим” фольклор-этнографик жамоасига ўн икки нафар турли ёшдаги хотин-қизлар ҳамда “Ҳилола” фольклор-этнографик жамоасига ўн беш нафардан ортиқ қизлар фаол иштирок этиб келмоқда. Жамолар репертуарларидан ўзлгимизни, миллийлигимизни, урф-одатларимизни, кадрятларимизни тараннум этувчи куй-қўшиқлар, удум ва маросимлар жой олган. “Ўзбекойим” фольклор-этнографик жамоаси 2013 йили Ўзбекистон Миллий телерадиокомпанияси томонидан ўтказилган “Кўҳна замин оҳанглари” номли фольклор жамоаларининг Республика тельефестивалида “Ҳилола” болалар фольклор-этнографик жамоаси билан биргаликда Тошкент шаҳрига хос “Мучал тўйи” маросими билан иштирок этиб, танлов “Фаҳрий ёрлиғи” билан мукофотланган.

*Оқ кўйлагим боро, кўк кўйлагим боро  
Набирамнинг тўйида бир ўйнагим боро  
Вой қани, вой қани оппоқ кўйлаги қани  
Мучал ёшли қизчани кўйлаги бодом гулли  
Боққа киргим келоди, гуллар тергим келоди  
Мучал ёшли қизчага гуллар бергим келоди. (5)*

“Ўзбекойим” фольклор-этнографик жамоаси ва “Ҳилола” болалар фольклор-этнографик жамоалари Республикамизда ташкил этилган барча маданий-маърифий тадбирларда, кўрик-танлов ва фестивалларда фаол иштирок этиб келмоқда. “Ўзбекойим” фольклор-этнографик жамоаси репертуаридан “Ажаб-ажаб”, “Дейдиё”, “Гул берди”, “Севсанг агар”, “О, лайли”, “Ўйнанг қизлар”, “Яло-ялў”, “Карима кўйлак киёди”, “Нозлигим”, “Шохчалаб”, “Очил-очил”, “Илилла ёр”, “Қорақош” каби кўпгина лапар ва айтишувлар ўрин олган. Жамоа Тошкент шаҳрига хос бўлган удум ва маросимлар, улар билан боғлиқ лапарлар, аллалар, айтишувлар асосида “Мучал тўйи”, “Бешик тўйи”, “Келин салом”, “Суннат тўйи”, “Гул сайли”, “Наврўз сайли”, “Сумалак сайли” каби удум ва маросимлар асосида томоша дастурларини тайёрлаб тумандаги маҳаллалар, мактаб ва мактабгача таълим муассасалари, меҳрибонлик уйларида намоёиш этиб келмоқдалар.

Гул – яхшилик, химмат, гўзаллик рамзидир. Гулни ҳурмат ва эҳтиром рамзи сифатида ёру-дўстларга такдим этиш, ўзаро бир-бирига бўлган меҳр-муҳаббатини гул билан изҳор қилиш анъанаси кишиларни эзгу ният, меҳр-оқибат, шафқат ва диёнат руҳида тарбиялашда катта аҳамиятга эгадир. Шунинг учун ҳам халқимиз этник маданиятида гул сайллари – “Бойчечак сайли”, “Бинафша сайли”, “Чучмомо сайли”, “Қизил гул сайли”, “Лола сайли” кенг ўрин олган. Тошкент атрофларида “Лола сайли”, “Гул сайли” сайли, “Бойчечак” сайли уюштирилган. Ушбу йўқолиб бораётган удум ва маросимларни тиклаш мақсадида “Ўзбекойим” фольклор-этнографик жамоаси ва “Ҳилола” болалар фольклор-этнографик жамоалари репертуарида “Гул сайли” маросими ҳам алоҳида ўрин тутди.

*О, лайли, лайли, лайли  
Бизда бугун гул сайли  
Ўзбек элида байрам  
Баҳор айём туфайли*

*Қизлар келар эшикдан  
Мўраламанг тешикдан  
Айирмасин онани  
Гўзал олтин бешикдан (5)*

Эришилган юқори натижалар, кўрсатилган фидойи ишлар эвазига “Ўзбекойим” фольклор-этнографик жамоасига Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги қарорига мувофиқ 2016 йил “Халқ ҳаваскорлик жамоаси” ва 2017 йил “Ҳилола” болалар фольклор-этнографик жамоасига “Намунали болалар жамоаси” унвонлари берилган.

“Ўзбекойим” фольклор-этнографик халқ ҳаваскорлик жамоаси ва “Ҳилола” намунали болалар фольклор-этнографик жамоаларининг асосий мақсади ўзбек миллий фольклор санъатини, урф-одат ва маросимларимизни, алла, лапар, айтишув, ўланларни тарғиб қилиш, ёш авлодга ўргатиш ва келажак авлодларга етказишга салмоқли ҳисса қўшишдир. Жамоа аъзолари халқимизнинг миллий урф-одатлари, анъаналарини, маросимларини, кадриятларимизни авлоддан-авлодга олиб ўтишни ўз бурчлари деб биладилар ва бу борада тинмай изланишдалар. Тошкент шаҳридаги яна бир жонкуяр ва фидойи иштирокчилардан ташкил топган жамоалардан бири бу “Бувижонлар” фольклор-этнографик жамосидир. “Бувижонлар” фольклор-этнографик халқ ҳаваскорлик жамоси 2014 йили Тошкент шаҳар Миробод тумани 1-сон Маданият маркази қошида фольклор санъатининг толмас тарғиботчилари Асатилла Суннатиллаев ва Дилшод Умаровлар ташаббуси ва бошчилигида ташкил этилган. Жамоага ўн беш нафардан ортиқ турли ёшдаги фольклор санъатига кизиқувчи ҳаваскор онахонлар жалб этилади. Жамоа репертуарларидан Тошкент шаҳрига хос урф-одат ва маросимлар асосида тайёрланган дастурлар, кадриятларимизни тараннум этувчи куй-қўшиқлар жой олган. Жамоа бадий раҳбари Асатилла Суннатиллаев ва мусиқа раҳбари Дилшод Умаров сай-ҳаракатлари билан жамоанинг репертуари янги-янги лапарлар, айтишувлар, маросим қўшиқлари билан бойитилган.

*Бўстон бўлсин ерингиз  
Достон бўлсин элингиз  
Юртда байрам тўй бўлиб  
Яинайверсин дилингиз  
Тошкент йўли тут экан  
Йигитлари ўт экан  
Қизлари қалам қошли  
Лаблари ёқут экан. (6)*

“Бувижонлар” фольклор-этнографик халқ ҳаваскорлик жамоаси 2018 йил Мустақиллигимизнинг 27 йиллигига бағишланган байрам тадбирларида, 2019 йил “Хумо арена” мажмуасида бўлиб ўтган “Наврўз” умумхалқ байрамининг асосий тантаналарида, Сайилгоҳ кўчасида ташкил этилган “Наврўз сайли”да ўзларининг байрам дастурлари билан иштирок этишди. Жамоа шу бугунги кунга қадар бир қатор кўрик-танлов ва фестивалларда фаол иштирок этиб келмоқда. 2019 йили Сурхондарё вилояти Термиз шаҳрида ўтказилган “Биринчи Халқаро бахшичилик санъати” фестивалида “Энг фаол жамоа”, Сурхондарё вилояти Бойсун туманида ўтказилган “Бойсун баҳори” очик фольклор фестивали ва Марғилон шаҳрида шаҳрида бўлиб ўтган “Буюк ипак йўли” Халқаро фольклор мусиқа фестивалларида иштирок этиб “Энг жозибали жамоа” дея эътироф этилган. Жамоа репертуарида ҳудудга хос урф-одат ва маросимлардан иборат “Бешик тўйи”, “Наврўз сайли”, “Тошкентнинг хунармандлари”, “Наврўз сайли анъаналари”, “Сумалак сайли” каби маросим ва улар билан боғлиқ қўшиқлар, лапар ва айтишувлар ўрин олган. Ўрта Осиёда хунармандчилик санъати алоҳида аҳамиятга эга. Юртимизда ҳам хунармандчилик кенг ривожланган. Бухоро, Самарқанд, Қўқон, Хива, Тошкент каби шаҳарларнинг ишлаб чиқариш муносабатларида хунармандчилик катта рол ўйнайди. “Бувижонлар” фольклор-этнографик жамоси томонидан тайёрланган “Тошкентнинг хунармандлари” деб номланган дастурида хунармандларнинг фаолияти жўшиб куйланади.

*Бир сиқим тупроқдан мўъжиза яратган  
Шу тупроқ довругин оламга таратган  
Қараган одамнинг кўнглини яйратган  
Тупроқдай ҳокисор нон каби ҳалол  
Кимдир-у, кимдир-у, кимдир-у, кимдир  
Шубҳасиз хунарманд хунарманд кулол. (7)*

“Тошкентнинг хунармандлари” дастурида асосан ўз касбининг фидойи инсонлари, уларнинг ҳалол меҳнати, устоз-шоғирд анъаналари халқ урф-одат ва маросимлар, кўшиқлар асосида сахнага олиб чиқилган.

*Тошкентни Тошкент қилган  
Бағрини осмон қилган  
Касбини дoston қилган  
Тошкентлик хунармандлар  
Кўкка етар ҳониши  
Эл юртим деб ёниши  
Донишмандлар дониши  
Тошкентлик хунармандлар. (7)*

Эришилган муваффақиятлар, кўрсатилган хизматлари эвазига «Бувижонлар» фольклор-этнографик жамосига 2017 йилда «Халқ ҳаваскорлик жамoаси» унвони берилди. Жамoа бир неча бор Ўзбекистон телевидениялари орқали чиқишлар қилиб ўз дастурини халққа намойиш этди.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, бугунги кунга қадар Тошкент шаҳри фольклор-этнографик жамoалари тўлиқ ўрганилмаган. Шунинг учун ҳам фольклор-этнографик жамoаларнинг тарихий тараққиёт босқичлари, репертуари, ижрочилик анъаналарини таҳлил этиш ва унинг ўзига хослигини кўрсатиб турувчи жиҳатларини ўрганиш муҳим ҳисобланади. Фольклор-этнографик жамoалар репертуарида асрлар давомида шакллантириб ва ривожлантириб келинган анъана ва маросимларда Ватанга муҳаббат, катталарга ҳурмат, ота-онага ва қарияларга ғамхўрлик, меҳмондўстлик, қон-қариндошлик ва ўзарo ёрдам, оила шарафини ва аёллар шаънини сақлаш, ҳаётдан кўз юмган узоқ-яқин кишилар хотирасини ёдга олиш каби ижтимоий хусусиятга эга бўлган қадриятлар мужассамлашган. Шу боис фольклор этнографик жамoалари ота-боболаримиз асрлар бўйи асраб-авайлаб келган қадриятлар орқали истиқлол мафқурасини яратишга, уни ёшлар турмуш тарзига сингдиришга ёрдам бериб, келажаги буюк ўзбек юртининг ҳақиқий эгалари бўлган ҳар томонлама етук комил инсонни тарбиялашга хизмат қилмоқда.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Масъул муҳаррир: Б.С.Сайфуллаев. Фольклор санъатининг фидойиси. Мақолалар тўплами. Т., Наврўз – 2017. – 140 б.
2. С.Н.Йўлдошева. Фольклор-этнографик жамoалари услубиёти. Т., Наврўз – 2014. 162 б.
3. “Нодирабегим” фольклор-этнографик халқ ҳаваскорлик жамoаси репертуаридан.
4. “Дурдона” фольклор-этнографик халқ ҳаваскорлик жамoаси репертуаридан.
5. “Ўзбекойим” фольклор-этнографик халқ ҳаваскорлик жамoаси репертуаридан.
6. “Ҳилола” фольклор-этнографик халқ ҳаваскорлик жамoаси репертуаридан.
7. “Бувижонлар” фольклор-этнографик халқ ҳаваскорлик жамoаси репертуаридан.



## АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИДА ҲОФИЗ ШЕРОЗИЙ АНЪАНАЛАРИ

*Суюнов Мавлонберди*

*Академик Бобожон Гафуров номидаги*

*Хўжанд ДУ доценти, филология фанлари номзоди*

*(Тоҷикистон)*

Навоий форс-тожик шоирлари асарларини ўқиб ва чуқур тушунибгина қолмай, ўз ижодида уларнинг анъаналарини давом эттиради. Бу нарса, хусусан, Навоийнинг дostonнависликда Аттор, Низомий, Хусрав Дехлавий, Хожу, Ашраф ва Жомий анъаналарини ривожлантиган бўлса, ғазалчиликда эса Ҳофиз Шерозий, Хусрав Дехлавий, Жомий, Саъдий, Котибий, Мир Шоҳий, Камол Хўжандий ва бошқа форс-тожик шоирлари анъаналарини давом эттирди. Навоий уларнинг барчасига ўзининг устозлари сифатида чуқур эҳтиром билан муносабатда бўлди. Бироқ Навоий улар орасида Ҳофиз Шерозийга қайта-қайта ўзининг юксак эҳтироми ва эътиқодини изҳор этади. Чунончи “Муҳокамат ул-луғатайн” асарида Ҳофиз Шерозийни “ягонаи аср”, яъни аср ягонаси дея улуғлар экан. “Насойим ул-муҳаббат”да ўзбек ўқувчиларига уни таништириб, янада юксак таъриф беради: “Алар (Ҳофиз Шерозий – С.М) лисон ул-ғайб ва таржумон ул-асрордурлар”<sup>314</sup>. Лисон ул-ғайб Ҳофиз Шерозийнинг адабий лақаби бўлиб, у ғайбдан келуви илҳом, илоҳий илҳом соҳиби маъноларини англатади. Таржумон ул-асрор ибораси эса илоҳий сирларни баён қилувчи демакдир.

Навоий лисон ул-ғайб ва таржумон ал-асрор ибораларини шарҳлаб, Ҳофиз Шерозий илоҳий ҳақиқат маънолари ва илоҳий ғайб сирларини мажозий тарзда бадиий талқин қила олган буюк шоир, дейди. Навоий Ҳофиз даҳоси ҳақида фикр юритар экан, бир ҳайратини яширолмади: “Агарчи маълум эмаски, алар иродат илики бир пирга бермиш бўлғайлар ва тасаввуф тариқида бу тоифадин бирига нисбат дуруст қилмиш бўлғайлар. Аммо сўзлари адоқ бу тоифа машраби била мувофиқ воқеъ бўлубдурки, хеж кишига иттифоқ тушмайдур”<sup>315</sup>. Бундан маълум бўладики, Ҳофиз бирор сўфиёна тариқатни қабул ҳам қилмаган, бирор тасаввуф пирига мурид ҳам бўлмаган. Аммо унинг шеърларида тасаввуф масалалари шу қадар кенг ва чуқур талқин этилганки, улар сўфийларнинг тасаввуфий фикрларига ғоятда мос келган. Навоий бундан ҳам ҳайратлананди, ҳам завқланади. Навоий бунда лисон ул-ғайблик ва таржумон ул-асрорлик ёрқин акс этган, деган фикрга келади. Навоий “Муҳокамат ул-луғатайн” рисоласида Ҳофиз асарлари ҳар қандай таърифдан устунлигини таъкидлаб, уларни таърифлаш оби ҳаётни ҳаётбахш дегандек бўлади, дейди. Навоий Саййид Қосим Анворнинг Ҳофиз девонини “Қуръони форсий” деганини келтириб, бу фикрга тўла кўшилади. Улуғ шоир “Муҳокамат ул-луғатайн” асарида Саййид Қосим Анвор фикрларига ҳамоҳанг мулоҳаза билдириб, Ҳофиз Шерозий томонидан яратилган асарлар муқаддас руҳ нафасининг ҳосиласидан нишона эканлигини ва ҳаётбахшлик қувватига эга бўлган Исо нафасидек таъсирчанлигини қайд этган эди: “Яна ҳақиқат аҳлининг сархайл ва сарафрози Хожа Ҳофиз Шерозий нуқот ва асроринки, анфоси руҳулқудсдин нишон айтур ва руҳуллоҳ анфосидин асар еткурур”<sup>316</sup>.

Навоий “Маҳбуб ул-қулуб” асарида ишқни таҳлил қилар экан. Ҳофиз Шерозийга ҳам маҳсус тохталади. Аввало қайд этиш лозимки, Навоий талқинича, ишқ уч қисмга бўлинади. Биринчи қисмдаги ишқ авом ишқи, яъни оддий халқ ишқидир. У икки босқичдан иборат бўлиб, унинг қуйи босқичида ҳайвоний хусусиятини ифодаловчи нафс шаҳвати акс этади. У фақат жисмоний лаззат билан боғлиқдир. Шу сабабли Навоий у ҳақда гапириш ҳам ноўрин, дейди.

<sup>314</sup> Навоий А. МАТ (Мукамал асарлар тўплами), 20 томлик, 17-том. – Тошкент: Фан, 2001, 479- бет.

<sup>315</sup> Навоий А. Уша асар, 479- бет.

<sup>316</sup> Навоий А. МАТ, 20 томлик, 16 – том. – Тошкент: Фан, 2000, 28- бет.

Авом ишқининг юқори босқичи шаърий никоҳдир. Ишқнинг бу босқичида одобсизлик юз бермаса-да, аммо у ҳам нафсоний ҳаракатлар билан вобастадир. Навоий ишқнинг иккинчи қисмини пок ишқ сифатида талқин этиб, уни “ҳаввос ишқи” дейди ва ёзади: “Иккинчи қисм хавосс ишқидурким хавосс ул ишққа мансубдурлар. Ул пок кўзни пок назар била пок юзга солмоқдур ва пок кўнгул ул пок юз ошубидин кўзғолмоқ ва бу пок мазҳар воситаси била ошиқи покбоз маҳбуби ҳақиқий (Аллоҳ – С.М.) жамолидин баҳра олмоқ”<sup>317</sup>. Навоий хавосс деганда хос кишилар, яъни пок зотларни назарда тутди. Улар доирасига буюк шоирлар, мутасаввиф донишмандлар киради. Булар қаторига сўфийлар кирмайди. Чунки сўфийларни Навоий ишқнинг учинчи қисми бўлган сиддиқлар ишқига киритади. Сиддиқлар ўзини Ҳаққа бағишлаган сўфийлар бўлиб, улар ўзлигидан тўла кечган кишилар ҳисобланади.

Хавосс ишқига мансуб мутасаввифлар эса покликда сўфийларга ўхшасалар-да, аммо ўзликларидан бутунлай воз кечмаган кишилардир. Улар мол-мулк, мансаб-мартаба соҳиби бўлишлари ҳам мумкин. Аммо уларнинг равиши фақат покликка йўналтирилганлиги сабабли улар хавосс аҳлига кирадилар. Навоий талқинича, хавосс ишқи фақат пок кишилар ишқи бўлиб, унда нафсоний интилишлар бўлмайди. Хавосс ишқига мансуб кишилар, Навоий таъкидлагандек, пок кўзини пок назар билан покиза, яъни гўзал юзга ташлаб, ўша чиройли қиёфа орқали Аллоҳ жамолидан баҳра олгандай бўладилар. Чунки Аллоҳ жамоли ўша гўзал қиёфада тажаллий этади. Хавосс аҳлининг пок қалби ана шу илоҳий тажаллиётдан ҳузур қилади.

Навоий фикрича, буюк шоирлар хавосс аҳлига мансуб бўлиб, ўзларининг пок кўзларини пок назар билан гўзал юзга ташлашларидан пок қалбларида жунбиш пайдо бўлади ва бундан илҳом юзага келади. Бунинг натижасида, у етук асарлар яратади. Навоий хавосс ишқига мансуб шундай шоирлар сифатида Хусрав Дехлавий, Шайх Ироқий, Абдурахмон Жомийларни тилга олиб, улар қаторига Ҳофиз Шерозийни ҳам кўшади.

Навоий ғазал жанрида ҳам Ҳофиз комил ижодкор эканлигини қайд этган. Навоий ўзининг “Фавойид ул-кибар” девонидаги қитъаларидан бирида Хусрав Дехлавий ва Абдурахмон Жомийни ғазалнависликдаги энг забардаст шоирлар сифатида тилга олар экан, улар қаторида Ҳофизни ҳам санайди. Чунончи, Навоий Ҳофиз ҳақида қуйдагича ёзади:

*Ғазалда уч киши тавридур ул навъ  
Ким, андин яхши йуқ назм эҳтимоли...  
Бири Исо нафаслик ринди Шероз,  
Фано дайрида масту лоуболи...  
Навоий назмига боқсанг, эмастур,  
Бу учнинг ҳолидин ҳар байти холи*<sup>318</sup>.

Навоийнинг Ҳофиз ҳақидаги фикрида уч жиҳат акс этган. Унинг биринчиси, Ҳофиз шеърятининг жонбахшлигидир. Бу Ҳофиз асарларининг бадий юксаклиги билан вобастадир. Иккинчиси, Ҳофизнинг риндлиги ва шеърятдаги чуқур риндона тасвирлар ҳисобланади. Учтинчиси эса, улуғ тожик шоирининг ўкинчи оламда ўзлигидан воз кечиб, Ҳақ ишқи билан мастлиги ва хотиржамлигидир. Биринчи жиҳат Ҳофиз шеърларида акс этса, кейинги икки хусусият унинг лирик қаҳрамони сиймосида ўзининг чуқур мужассамини топган.

Ҳофиз ижодидаги бу хусусиятлар Навоий асарларига ҳам кўчган. Чунки Навоий Ҳофизга издошлик қилиб, унинг ижодидаги энг муҳим жиҳатларни ўз фаолиятида давом эттирар экан, бу хусусиятларни ҳам мукаммал ўзлаштирган. Буни шоирнинг ўзи ҳам таъкидлаб, ҳар бир байти, яъни барча асарларида Ҳофиз таъсири борлигини юқоридаги қитъанинг охириги байтида маҳсус қайд этган эди.

<sup>317</sup>Навоий А. МАТ, 20 томлик, 14 – том. – Тошкент: Фан, 1998, 68- бет.

<sup>318</sup>Навоий А. МАТ, 20 томлик, 6- том. – Тошкент: Фан, 1990, 516- бет.

Навойнинг ғазалнависликда Ҳофизга эргашиши бежиз эмас. Чунки Ҳофиз ғазал жанрида форс – тожик шеъриятидагина эмас, балки умуман Шарқ шеъриятида ҳам юксак муваффақиятларни қўлга киритди. У аввало, ғазални жанр сифатида мукамал даражага кўтарди. Гарчи ғазал Рудакий ижодида анча шаклланган ва Саъдий ҳамда Хусрав Дехлавий фаолиятида такомиллашган бўлсада, унинг жанр сифатидаги етуклиги Ҳофиз билан боғлиқдир. Академик А.Мирзоев ҳам буни махсус таъкидлайди: “ Бу соҳада ( яъни ғазалнависликда – С.М.), айниқса, Шамсуддин Муҳаммад Ҳофиз Шерозийнинг тарихий хизмати ниҳоят даражада катта. Чунки ҳали X асрдаёқ устод Рудакий ва унинг замондошлари ташаббуси билан бошланган жараён – ғазалнинг мустақил шеър турига айланиш ҳолати XIV асрга келиб, хусусан, Ҳофиз ижодида ва унинг замондошлари фаолиятида ҳар тарафлама анжомига етди”<sup>319</sup>.

Ҳофизнинг ғазалнавислик маҳоратини чуқур ўзлаштирган Навоий ўз ижодий фаолиятида унинг бу борадаги анъаналарини изчил давом эттирди. Чунончи, Навоий Ҳофизнинг “кун” радибли мустақил байтлардан тузилган ғазалига боғлаган татаббуъсида устози анъаналарини ривожлантирганини кўриш мумкин:

*Май боядат ба дайри муғон ою нўш кун,  
Иймон фидои муғбачаи майфурўш кун.  
Дорам суҳан ба гўши ту пинҳон зи муддаи,  
Хон, эй ҷавон, насиҳати ин пир гўш кун.  
Дар хилвати висол пуропур бинўш май,  
То кас хабар бурун набарад тарки хуш кун.  
Дар гуфтугўи ишқ забони дигар бувад,  
Зоҳид, ту ин тарона надонӣ хамўш кун.  
Чун қавли пири дайр ба айшат далолат аст,  
Эй хоҷа, истимои нидои сурўш кун.  
Акси ту соқие, ба руҳат лоф зад зи ҳусн,  
Мунқир шавад бигир маю рӯ ва рӯш кун.  
Эй муғбача, кушо руҳу Фонисифат ба дайр,  
Урён зи сатри хуш дусад хирқапўш кун*<sup>320</sup>

Навоий татаббуъларида ҳам Ҳофиз ғазалларига қофия, радиф, вазн ва лирик қаҳрамонга муштараклик бор. Навоий ҳам Ҳофиз каби ғазали байтларни мустақил маъноли қилиб тузган. Аммо Навоий бунда Ҳофизни такрорламайди. Балки унинг фикрларини ижодийлик билан ривожлантирган. Дарвоқе, биринчи байтда лирик қарамон ёш дўстига, яъни соликка агар у илоҳий тажаллиётдан ҳузурланишни истаса, хонақоҳга боришини маслаҳат беради. Шоир буни мажозан майхона ва майфуруш муғбачаси билан боғлаб талқин этади. Иккинчи байтда лирик қаҳрамон кекса доно сифатида ёш дўстини насиҳат этишга даъват этса, учинчи байтда висол учун ўзликдан кечиш лозимлигини таъкидлайди. Тўртинчи байтда илоҳий ишқни тушинмаслиги айтилиб, зоҳидга танбеҳ берилади. Бешинчи байтда покланиш манзилини эгаллашга чорласа, олтинчи байтда илоҳий тажаллиётнинг мажозий кўриниши асосланади. Еттинчи байтда мажозан илоҳий жамол соҳибига мурожаат этилиб, ундан умидворлигини орзусига етказиш сўралади ва шу билан ғазал якунланади. Навоий татаббуъсидаги ижодийлик унинг Ҳофиз ғазали байтларидаги ботиний маънони кенг талқин этишида кўринади. Шу асосда Навоий ҳар бир байтда муайян тасаввуфий фикрни бериб, руҳий завққа, илоҳий висолга ва комилликка интилган инсоннинг кенг доирадаги фаолиятини чизади. Натижада, тасвирдаги илоҳий ишқ ёнига тасаввуфий-маърифий, ахлоқий-фалсафий масалалар ҳам қўшилиб, ғазал чуқур мазмунга эга бўлади.

<sup>319</sup>Мирзоев А. Рўдакий ва инкишофи ғазал дар асрҳои XV. – Сталинобод: Тоҷдавнашр, 1957, 62-саҳ..

<sup>320</sup>Навоий А. МАТ, 20 томлик, 19- том. –Тошкент: Фан, 2002, 382 – бет.

Шу билан бирга, Навоий ўзбек тилидаги ғазалларида ҳам Ҳофиз анъаналарини ривожлантирган. Акс ҳолда Навоий юқоридаги китъасида “Навоий назмига боқсанг эмастур. Бу учнинг ҳолидин ҳар байти холи” демаган бўларди. Навоийнинг бу фикрида Ҳофиз, Хусрав Дехлавий ва Жомийнинг ғазалнавислик анъаналари унинг фақат тожик тилидаги ғазалларидагина эмас, шунингдек, ўзбек тилидаги ғазалларида ҳам акс этганлигига ишора қилинмоқда.

Навоий ҳатто ўзининг ўзбек тилидаги шеърлари жамланган ва ўзи томонидан тузилган биринчи девони “Бадоеъ ул-бидоя”нинг дебوحасида девон тузишда форс-тожик шоирлари анъаналарини ривожлантирганини махсус таъкидлар экан, бу борада ҳам бошқа тожик шоирлари қатори Ҳофиз Шерозийни чуқур эҳтиром билан тилга олади: “Аммо ашъор тадвин қилғонлардин баъзиким, бақо мулкида фоний... Аввалғи зумрадин бовужуди... ..фано майхонасининг ринди хирқачоки ва бало паймонасининг масти бебоки, ишқу муҳаббат асрори аминларининг ҳамрози Хожа Ҳофиз Шерозий...”<sup>321</sup>. Навоий тожик тилида яратган шеърлар девонини ҳам асосан Ҳофиз Шерозийга эргашиб тузганлигини эътироф этган эди<sup>322</sup>.

Навоийнинг ўзбек тилидаги шеърлари жамланган тўрт девондан иборат “Хазойин ул-маоний”нинг илк ғазалида ҳам Ҳофиз Шерозий анъанаси мавжуд. Ҳофиз Шерозий девонидаги биринчи ғазалнинг биринчи байти муламмаъ шаклида бошланган. Байтнинг биринчи мисраси арабча бўлиб, иккинчи мисраси тожикчадир:

*Ало ё айюҳассоқӣ, адир каъсан ва новилҳо,  
Ки ишқ осон намуд аввал, вале афтод мушқилҳо*<sup>323</sup>

Таржимаси:

*Аё соқий, сунуб жоминг қил эҳсон яшнасин диллар,  
Кўрунди аввал ишқ осону сўнгра тушди мушқуллар.*

*(Хуриид таржимаси)*

Навоийнинг “Хазойин ул-маоний”сидаги биринчи девон “Ғаройиб ус-сиғар”нинг биринчи ғазали ҳам Ҳофиз услубида ёзилган. Ғазалнинг биринчи байти ҳам муламмаъ шаклида ёзилган бўлиб, унинг биринчи мисраси арабча, иккинчи мисраси эса ўзбекчадир:

*Ашрақат мин акси шамсил-каъси анворул-ҳудо,  
“Ёр аксин майда кўр” деб, жомдин чиқди садо*<sup>324</sup>.

Биринчи мисранинг мазмуни: май косанинг қуёш аксидан Ҳақ йўлининг нурлари порлади. Яъни, шуни билингки, Ҳақ йўлини мунаввар қилиб, ёритиб, унга тўғри олиб борадиган восита ишқдир. Иккинчи мисранинг мазмуни: ёр, яъни Ҳақ тажаллиётида унинг ҳусни намоён бўлиб, у нарсаларда акс этади. Аммо ишқ майи Ҳақни кўриш, яъни идрок этиш воситаси бўлиб, ишқ майнинг идиши бўлган жом, яъни кўнгил буни тасдиқлайди. Шундай экан, ошиқ ёрни ишқ орқали кўнглида идрок этиши мумкин. Жом кўнгилдан чиққан садода шу нарса акс этган.

Буларнинг ҳаммаси Навоийнинг Ҳофиз ва унинг ижодига муносабати тасодифий бўлмай, у чуқур адабий – илмий заминга эга эканлигини кўрсатади. Шунинг учун ҳам Навоий Ҳофиз шеърятига бадииятнинг тенгсиз намуналари сифатида қараб, улуғ тожик шоири ижодига ўзининг юксак эътиқодини ифода этди ва унинг адабий анъаналарини ўз ижодий фаолиятида изчил давом эттирди.

<sup>321</sup>Навоий А. МАТ, 20 томлик, 1- том. –Тошкент: Фан, 1987, 14 – бет.

<sup>322</sup>Навоий А. МАТ, 20 томлик, 16-том. – Тошкент: Фан, 2000, 32 - бет.

<sup>323</sup>Ҳофиз Шерозий. Куллиёт. – Техрон Нашри замон, 2001, 5 – сах.

<sup>324</sup>Навоий А. Хазойин ул – маоний. Биринчи девон. Ғаройиб ул- сиғар. –Тошкент: “TAMADDUN”, 2011, 21-бет.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Файзуллоев Б. Ўзбек шеърятда татаббуъ тарихи ва маҳорат масалалари. (XУ11-XX асрлар ва XX аср бошлари ғазалчилиги асосида) Монография/Тош/2002.
2. Навоий А. МАТ 20 томлик, 16-том. – Тошкент: “Фан”, 2000 .
3. Навоий А. МАТ 20 томлик, 19-том. – Тошкент: “Фан”, 2002.
4. Навоий А . Асарлар 20 томлик, 5-том. 2-китоб – Тош.Бадиий адабий нашриёти, 1965.
5. Навоий А. МАТ 20 томлик, 18-том. – Тошкент: “Фан”, 2002.
6. Навоий А. МАТ 20 томлик, 17-том. – Тошкент: “Фан”, 2001.
7. Навоий А. МАТ 20 томлик, 18-том. – Тошкент: “Фан”, 2002.
8. Навоий А. МАТ 20 томлик, 19-том. – Тошкент: “Фан”, 2002.
9. Навоий А. МАТ 20 томлик, 19-том. – Тошкент: “Фан”, 2002.
- 10.. Навоий А. МАТ 20 томлик, 18-том. – Тошкент: “Фан”, 2002.



## STRUCTURE OF ESSENTIAL SPECTRA AND DISCRETE SPECTRUM OF THE ENERGY OPERATOR OF FOUR-ELECTRON SYSTEMS IN THE IMPURITY HUBBARD MODEL. SECOND TRIPLET STATE

*S.M. Tashpulatov and R.T. Parmanova*

*Institute of Nuclear Physics of Academy of Sciences of Republic of Uzbekistan.*

In the early 1970s, three papers [1,2,3], where a simple model of a metal was proposed that has become a fundamental model in the theory of strongly correlated electron systems, appeared almost simultaneously and independently. In that model, a single nondegenerate electron band with a local Coulomb interaction is considered. The model Hamiltonian contains only two parameters: the matrix element  $t$  of electron hopping from a lattice site to a neighboring site and the parameter  $U$  of the on-site Coulomb repulsion of two electrons. In the secondary quantization representation, the Hamiltonian can be written as

$$H = t \sum_{m,\gamma} a_{m,\gamma}^+ a_{m,\gamma} + U \sum_m a_{m,\uparrow}^+ a_{m,\uparrow} a_{m,\downarrow}^+ a_{m,\downarrow}, \quad (1)$$

where  $a_{m,\gamma}^+$  and  $a_{m,\gamma}$  denote Fermi operators of creation and annihilation of an electron with spin  $\gamma$  on a site  $m$  and the summation over  $\tau$  means summation over the nearest neighbors on the lattice. The model proposed in [1,2,3] was called the Hubbard model after John Hubbard, who made a fundamental contribution to studying the statistical mechanics of that system, although the local form of Coulomb interaction was first introduced for an impurity model in a metal by Anderson [4]. We also recall that the Hubbard model is a particular case of the Shubin-Wonsowsky polaron model [5], which had appeared 30 years before [1,2,3]. In the Shubin-Wonsowsky model, along with the on-site Coulomb interaction, the interaction of electrons on neighboring sites is also taken into account. The Hubbard model is currently one of the most extensively studied multielectron models of metals [6]. But little is known about exact results for the spectrum and wave functions of the crystal described by the Hubbard model, and obtaining the corresponding statements is therefore of great interest. The spectrum and wave functions of the system of two electrons in a crystal described by the Hubbard Hamiltonian were studied in [6]. It is known that two-electron systems can be in two states, triplet and singlet [6]. It was proved in [6] that the spectrum of the system Hamiltonian  $H^t$  in the triplet state is purely continuous and coincides with a segment  $[m, M] = [2A - 4B, 2A + 4B]$ , and the operator  $H^s$  of the system in the singlet state, in addition to the continuous spectrum  $[m, M]$ , has a unique antibound state for some values of the quasimomentum. For the antibound state, correlated motion of the electrons is realized under which the contribution of binary states is large. Because the system is closed, the energy must remain constant and large. This prevents the electrons from being separated by long distances. Next, by essential point is that bound states (sometimes called scattering-type states) do not form below the continuous spectrum. This can be easily understood because the interaction is repulsive. We note that a converse situation is realized for  $U < 0$ : below the continuous spectrum, there is a bound state (antibound state are absent) because the electrons are then attracted to one another. For the first band, the spectrum is independent of the parameter  $U$  of the one-site Coulomb interaction of two electrons and corresponds to the energy of two noninteracting electrons, being exactly equal to the triplet band. The second band is determined by Coulomb interaction to a much greater degree: both the amplitudes and energy of two electrons depend on  $U$ , and the band itself disappears as  $U \rightarrow 0$  and increases without band as  $U \rightarrow \infty$ . The second band largely corresponds to one-particle state, namely, the motion of the doublet, i.e., two-electron bound states. The spectrum and wave functions of the system of three electrons in a crystal described by the Hubbard Hamiltonian were studied in [7]. In the three-electron systems are exists quartet state, and two type doublet states. The spectrum of the energy operator of the system of four electrons in a crystal described by the Hubbard Hamiltonian in the triplet state were studied in [8]. In the four-electron systems are exists quintet state, and three type triplet states, and two type singlet states. The spectrum of the energy operator of four-

electron systems in the Hubbard model in the quintet, and singlet states were studied in [9]. In the work [9] proved, that the spectrum of the system in a quintet state is purely continuous and coincides with the segment  $[4A - 8B\nu, 4A + 8B\nu]$  and the four-electron bound states or the four-electron antibound states is absent. The structure of essential spectra and discrete spectrum of the energy operator of five-electron systems in the Hubbard model in the fifth doublet state were studied in [10]. The structure of essential spectrum and discrete spectra of the energy operator of five-electron systems in the Hubbard model in the doublet state were investigated in [11] and [12]. The structure of essential spectra and discrete spectrum of the energy operator of five electron systems in the Hubbard model in a sextet and quartet states were studied in [13]. Here we consider of the energy operator of four-electron systems in the impurity Hubbard model and investigate the structure of essential spectra and discrete spectrum of the system for second triplet state of the system. Hamiltonian of the considering system has the form

$$H = A \sum_{m,\gamma} a_{m,\gamma}^+ a_{m,\gamma} + B \sum_{m,\tau,\gamma} a_{m,\gamma}^+ a_{m+\tau,\gamma} + U \sum_m \sum_{\gamma} a_{m,\uparrow}^+ a_{m,\uparrow} a_{m,\downarrow}^+ a_{m,\downarrow} + (A_0 - A) \times \quad (2) \quad \times$$

$\sum_{\gamma} a_{0,\gamma}^+ a_{0,\gamma} + (B_0 - B) \sum_{m,\tau} (a_{0,\gamma}^+ a_{\tau,\gamma} + a_{\tau,\gamma}^+ a_{0,\gamma}) + (U_0 - U) a_{0,\uparrow}^+ a_{0,\uparrow} a_{0,\downarrow}^+ a_{0,\downarrow}$ . Here  $A$  ( $A_0$ ) is the electron energy at a regular (impurity) lattice site,  $B$  ( $B_0$ ) is the transfer integral between (between electron and impurities) neighboring sites (we assume that  $B > 0$  ( $B_0 > 0$ ) for convenience),  $\tau = \pm e_j$ ,  $j = 1, 2, \dots, \nu$ , where  $e_j$  are unit mutually orthogonal vectors, which means that summation is taken over the nearest neighbors,  $U$  ( $U_0$ ) is the parameter of the on-site Coulomb interaction of two electrons in the regular (impurity) sites,  $\gamma$  is the spin index,  $\gamma = \uparrow$  or  $\gamma = \downarrow$ , and  $a_{m,\gamma}^+$  and  $a_{m,\gamma}$  are the respective electron creation and annihilation operators. In the four electron systems has a quintet state, and two type singlet state, and three type triplet states. Hamiltonian (2) commutes with all components of the total spin operator  $S = (S^+, S^-, S^z)$ , and the structure of eigenfunctions and eigenvalues of the system therefore depends on  $S$ . The Hamiltonian  $H$  acts in the antisymmetric Fock space  $\mathcal{H}_{as}$ . Let  $\varphi_0$  vacuum vector in the space  $\mathcal{H}_{as}$ . The second triplet state corresponds to the free motion of four electrons over the lattice and their interactions with the basic function  ${}^2t_{m,n,k,l \in Z^\nu}^1 = a_{m,\uparrow}^+ a_{n,\uparrow}^+ a_{k,\downarrow}^+ a_{l,\downarrow}^+ \varphi_0$ . The subspace  ${}^2\mathcal{H}_1^t$ , corresponding to the second triplet state is the set of all vectors of the form  ${}^2\psi_1^t = \sum_{m,n,k,l \in Z^\nu} f(m,n,k,l) {}^2t_{m,n,k,l \in Z^\nu}^1$ ,  $f \in l_2^{as}$ , where  $l_2^{as}$  is the subspace of antisymmetric functions in the space  $l_2((Z^\nu)^4)$ . We denote by  ${}^1H_1^t$  the restriction of operator  $H$  to the subspace  ${}^2\mathcal{H}_1^t$ . We let  $\varepsilon_1 = A_0 - A$ ,  $\varepsilon_2 = B_0 - B$ , and  $\varepsilon_3 = U_0 - U$ .

**Theorem 1.** The subspace  ${}^2\mathcal{H}_1^t$  is invariant under the operator  $H$ , and the restriction  ${}^2H_1^t$  of operator  $H$  to the subspace  ${}^2\mathcal{H}_1^t$  is a bounded self-adjoint operator. It generates a bounded self-adjoint operator  ${}^2\bar{H}_1^t$  acting in the space  $l_2^{as}$ . The operator  ${}^2\bar{H}_1^t$  acts on a vector  ${}^2\psi_1^t \in {}^2\mathcal{H}_1^t$  as  ${}^2H_1^t {}^2\psi_1^t = \sum_{m,n,k,l \in Z^\nu} ({}^2\bar{H}_1^t f)(m,n,k,l) {}^2t_{m,n,k,l \in Z^\nu}^1$ .

We call the operator  ${}^2H_1^t$  the four-electron second triplet state operator in the impurity Hubbard model. Let  $\mathcal{F}: l_2((Z^\nu)^4) \rightarrow L_2((T^\nu)^4) \equiv {}^2\mathcal{H}_1^t$  be the Fourier transform, where  $T^\nu$  is the  $\nu$ -dimensional torus endowed with the normalized Lebesgue measure  $d\lambda$ , i.e.  $\lambda(T^\nu) = 1$ . We set  ${}^2\bar{H}_1^t = \mathcal{F} {}^2\bar{H}_1^t \mathcal{F}^{-1}$ . In the quasimomentum representation, the operator  ${}^2\bar{H}_1^t$  acts in the Hilbert space  $L_2^{as}((T^\nu)^4)$ , where  $L_2^{as}$  is the subspace of antisymmetric functions in  $L_2((T^\nu)^4)$ .

In the impurity Hubbard model, the spectral properties of the energy operator of four-electron systems are closely related to those of its two-particle subsystems (one-electron systems with impurity). Therefore, we first study the spectrum and localized impurity electron states of the one-electron impurity systems. Subsequently, using tensor products of Hilbert spaces and tensor products of operators in Hilbert spaces and taking into account that the function  $f(\lambda, \mu, \gamma, \theta)$  is an antisymmetric function and using of results of investigation of spectra of one-electron systems with impurity, we describe the structure of essential spectrum and discrete spectrum of the energy operator of four electron systems in the impurity Hubbard model in the second triplet state.

**Theorem 2.** Let  $\nu = 1$ . Then

a). If  $\varepsilon_2 = -B$  and  $\varepsilon_1 < -2B$  (respectively,  $\varepsilon_2 = -B$  and  $\varepsilon_1 > 2B$ ), then the essential spectrum of the operator  ${}^2\tilde{H}_1^t$  is consists of the union of eight segments:

$\sigma_{ess}({}^2\tilde{H}_1^t) = [4A - 8B, 4A + 8B] \cup [3A - 6B + z, 3A + 6B + z] \cup [2A - 4B + 2z, 2A + 4B + 2z] \cup [A - 2B + 3z, A + 2B + 3z] \cup [2A - 4B + z_3, 2A + 4B + z_3] \cup [A - 2B + z + z_3, A + 2B + z + z_3] \cup [2A - 4B + z_4, 2A + 4B + z_4] \cup [A - 2B + z + z_4, A + 2B + z + z_4]$ , and discrete spectrum of the operator  ${}^2\tilde{H}_1^t$  is consists of a three eigenvalues:  $\sigma_{disc}({}^2\tilde{H}_1^t) = \{4z, 2z + z_3, 2z + z_4\}$ , where  $z = A + \varepsilon_1$ , and  $z_3$  and  $z_4$ , are same numbers, lying the below (respectively, above) of the essential spectrum of the operator  ${}^2\tilde{H}_1^t$ .

b). If  $\varepsilon_1 < 0$  and  $\varepsilon_2 = -2B$  or  $\varepsilon_2 = 0$  (respectively,  $\varepsilon_1 > 0$  and  $\varepsilon_2 = -2B$  or  $\varepsilon_2 = 0$ ), then the essential spectrum of the operator  ${}^2\tilde{H}_1^t$  is consists of the union of eight segments:

$\sigma_{ess}({}^2\tilde{H}_1^t) = [4A - 8B, 4A + 8B] \cup [3A - 6B + z, 3A + 6B + z] \cup [2A - 4B + 2z, 2A + 4B + 2z] \cup [A - 2B + 3z, A + 2B + 3z] \cup [2A - 4B + z_3, 2A + 4B + z_3] \cup [A - 2B + z + z_3, A + 2B + z + z_3] \cup [2A - 4B + z_4, 2A + 4B + z_4] \cup [A - 2B + z + z_4, A + 2B + z + z_4]$ , and discrete spectrum of the operator  ${}^2\tilde{H}_1^t$  is consists of a three eigenvalues:  $\sigma_{disc}({}^2\tilde{H}_1^t) = \{4\tilde{z}, 2\tilde{z} + z_3, 2\tilde{z} + z_4\}$ , where  $\tilde{z}$ , and  $z_3$  and  $z_4$ , are same concrete real number, lying the below (respectively, above) of the essential spectrum of the operator  ${}^2\tilde{H}_1^t$ .

Talaba mustaqil ishidan qo'yilgan maqsadga erishganlik, mavzuni o'zlashtirganlik darajasiga aniqlik kiritish maqsadida yakunlovchi nazorat kafedrada ishlab chiqilgan jadval asosida professor-o'qituvchilar tomonidan amalga oshiriladi. Talabalar mustaqil ishlarini nazorat qilish turlari va ularni baholash mezonlari o'quv yili boshlanishida ishlab chiqiladi va fakultet ilmiy kengashida tasdiqlanadi. Bugungi kundagi ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar talabalarni mustaqil fikrlashini rivojlantirish, individual ta'lim trayektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga oid muammolarni bartaraf etishga qaratilgan [5]. Biroq talabalar mustaqil ta'limida o'qituvchining jarayonni to'g'ri tashkillashtirishi, bu jarayonda talabalarga berayotgan motivatsiyasi va ularning faoliyatini nazorat qilishi juda muhimligini yoddan chiqarmaslik kerak. Shunday ekan avvalo, har bir professor-o'qituvchi talabalar mustaqil ta'limini fanning xususiyatidan kelib chiqib, innovatsion metodlar orqali tashkil qilish metodikasini yaxshi o'zlashtirishi va bu jarayonda talabaga yetarlicha yordam bera olishi kerak. Shu maqsadda, talabalar uchun eng asosiy bo'lgan **o'qituvchi rahbarligisiz talabaning mustaqil ta'limida** samaradorlikka erishish uchun, bugungi kunda o'qituvchi talabaga qanday aniq hujjatlarni, axbototlarni yetkazishi kerakligiga, ya'ni fanni mustaqil o'zlashtirmoqchi bo'lgan talaba qo'lida nimalar bo'lishi kerakligiga to'xtalsak.

— **Avvalo, talabaning qo'lida sillabus – fanning talaba uchun mo'ljallangan ishchi o'quv dasturi bo'lishi shart.** Chunki, talaba belgilangan fanni qachon, qancha muddatda, qanday adabiyotlardan foydalanib o'zlashtirishi mumkinligini bilish orqali fan haqida sirdan bo'lsada, umumiy tasavvurga ega bo'lishi kerak. Qolaversa, sillabusda bu kurs bo'yicha qachon, qanday nazoratlar bo'lishidan, o'qituvchidan qachon maslahatlar olsa bo'lishigacha, barcha-barchasi aks etgan bo'ladi.

— O'quv adabiyotlarning ro'yxati bilan birgalikda, hech bo'lmaganda asosiy adabiyotlarning elektron formati talabaga taqdim qilinishi kerak.

— Mazkur fanni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan, internet havolalar to'plami – dayjest ham o'qituvchi tomonidan talabalarga yetkazilishi kerak.

— Fan bo'yicha atamalarning qisqacha izohi – glossariylar o'qituvchi tomonidan tayyorlanib talabaga berilishi kerak. Shu bilan birga shu ko'rinishdagi ma'lumotnomalarning havolalari va kerak bo'lsa, ularning asosiylari elektron shaklda talabaga yetkazilishi maqsadga muvofiq.

— Topshiriqlar to'plami, ya'ni mashqlar (misol, masalalar) talabaning nazariy bilimni mustahkamlash bilan birga, bilimlarini amaliyotga joriy qilish ko'nikmasini shakllantirishi bilan juda muhim. Muammoli vaziyatlarga tegishli keyslar esa, bundan tashqari talabaning mustaqil va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

— Fan ichidagi ma'lum bir mavzularga doir mantiqiy, sifatli animatsiyalarga ega bo'lgan prezentatsiyalar yoki video materillar talabaning fanga qiziqishini oshiradi.

Talabalar fan yuzasidan o'zaro fikr almashishi uchun yaxshi imkoniyatlardan biri bu forumlar. Hozirgi kunda talabalar telegram guruhlarini orqali bir-biriga g'oyaviy va ma'lumotlar bilan yordam berishi orqali ham ma'lum bir kursni yaxshi o'zlashtirishlari uchun imkoniyatlar bor. Shu bilan birga hozirda jahonda keng tarqalgan mobil ilovalardan foydalanib talabalar mustaqil ta'limida yuqori samaradorlikka erishish mumkin va h.k.

Xulosa qilib aytganda, zamon talablariga javob beradigan, nafaqat zamonaviy bilimlarga ega bo‘lgan, balki qabul qilingan axborotlarni o‘zining rivojlangan tahliliy-tanqidiy tafakkuri orqali mustaqil tahlil qilish, saralash va sara axborotlarni ilm-fan rivoji, yurt ravnaqi, xalq farovonligi uchun ishlata oladigan, mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni reja qilgan ekanmiz, oliy ta’limda mustaqil ta’limni tashkillashtirishda ma’suliyat bilan yondashgan holda, bu jarayonda innovatsion texnologiyalardan foydalanmoq darkor. Shuningdek, mustaqil ta’lim zamona imkoniyati va ayrim vaqt zamona zaruriyati bo‘lgan, o‘qitishning juda qulay va samarali usullaridan biri - masofaviy ta’limning ham asosidir. Ha, “yaxshi o‘qituvchi biror ilmni yetkazadi, tushuntiradi, o‘rgatadi, zo‘r o‘qituvchi esa shu ilm mohiyatini ochib beradi, buyuk o‘qituvchi esa shu ilmni egallashi uchun talabani ruhlantiradi, ularga motivatsiya beradi, yo‘l ko‘rsatadi” – degan gap, ayniqsa, hozirgi davrda yanada qimmatliroqdir. Talabalar esa, avvalo zamona – axborot asri, qolaversa, hukumatimiz yaratib bergan va berayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanib hamda ustozlardan fan sirlarini o‘rganib, ularning qimmatli maslahatlarini olib, o‘z ustida ishlab ajoyib mutaxassislar bo‘lib yetishadi va yangi O‘zbekistonning 3-renessansiga munosib hissa qo‘shadi, deb umid qilamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Kredit-modul tizimi asosida ta’lim jarayonlarini tashkil etish. Oliy ta’lim professor o‘qituvchilari uchun masofaviy kurslar. <https://mt.bimm.uz>.
2. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-son [qaroriga](#) 1-ILOVA Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida NIZOM.
3. Turaev Shukhratjon. The role of independent education in teaching physics. Society and innovations Special Issue -12(2021). 115-121.
4. G’. Dadamirzayev, S.Vahobova. Modulli ta’lim mustaqil ish uchun maqsadga erishish vositasi sifatida. International Scientific Journal <http://www.inter-nauka.com>.
5. D.U.Yakubova. Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning zamonaviy shakllari pedagogic muammo sifatida. “SCIENCE AND EDUCATION” SCIENTIFIC JOURNAL /ISSN 2181-0842. DECEMBER 2021/VOLUME 2 ISSUE 12.




**НУРОТА ТОҒ ТИЗМАСИНИНГ *HYLES HÜBNER*, 1819  
(LEPIDOPTERA: SPHINGIDAE) АВЛОДИ *HYLES CENTRALASIAE*  
ТУРИНИНГ БИОЭКОЛОГИЯСИ.**

**О.С. Турғунбоев<sup>1</sup>., Б.Р. Холматов<sup>2</sup>.,  
И.Б.Амиров<sup>3</sup>., Д. Нақилев<sup>4</sup>.  
ЎзР ФА Зоология институти<sup>1,2,3</sup>.,  
Нурота давлат қўриқхонасинспектори<sup>4</sup>.**

Дунёда *Hyles Hubner* 1819 авлодининг тарқалиши бўйича ҳар хил маълумотлар бор: *Hyles* авлодининг дунёда тарқалган 29 турни ўз ичига олади[1]. *Hyles* авлодига кирувчи тахминан 30 турни ўз ичига олади (Kitching va Cadiou 2000), *Hyles* авлоди турлари Антарктидадан ташқари барча қиталарда, шунингдек Мадагаскар ва Гавайи оролларида учрайди[2]. *Hyles Hubner*, [1819] (Lepidoptera: Sphingidae) барча қитъаларда (Антарктидадан ташқари) ва кўплаб йирик оролларда (масалан, Мадагаскар) вакиллари билан глобал тарқалишга эга. 32 тур одатда қанот ва қориннинг нақш ва рангидаги белгилар ёрдамида рангли тасвирлар ёрдамида аниқланади[3]. Бироқ, ушбу морфологик хусусиятларга асосланган таксономия турларнинг сони ва уларнинг қандай боғлиқлиги бўйича келишмовчиликлар билан жуда зиддиятли (масалан, Meerman & Smid 1988; Speidel & Hassler 1989; Danner ва бошқ. 1998; Hundsdoerfer ва бошқ. 2005, 2009). Ғарбий палеарктиканинг дунё бўйлаб тарқалган *Hyles* (Lepidoptera: Sphingidae) узоқ вақтдан бери кенг кўламли молекуляр филогенетик тадқиқотлар мавзуси бўлиб келган. Ғарбий Палеарктикада тан олинмиши керак. Бироқ, марказий ва шарқий Палеарктикада, хусусан, Ўрта Осиёда яшовчи таксонларга камроқ эътибор берилган. Бу ҳудуд нафақат энг катта тур бойлигини, яъни минтақада тахминан 17 тур учрайди, балки энг катта ҳаёт тарихи ва морфологик хусусиятлар хилма-хиллигини ҳам ўз ичига олади. Бундан ташқари, яқинда ўтказилган тадқиқотлар шуни кўрсатдики, бу хилма-хиллик нисбатан ёши, 6,5 миллион ва турланиш жараёнлари ҳали ҳам давом этмоқда, бу бирлашиш ёки ажралиш жараёнида бўлган таксонларнинг мураккаб нақшига олиб келди[4].


*Hyles centralasiae* биологияси: *Eremurus olgae* ва бошқа ўсимлик турлари билан озикланади. Ривожланиши об-хаво шароитига қараб апрелнинг 3 чи декадасида ва июн ойининг 2 чи декадасигача ривожланиши учрайди.

**1- расм. *Hyles centralasiae* озуқасидаги тухуми.**



**Тухуми** 1 мм дан кичик, тухумини ўсимликнинг гулининг остки қисмига ва ўсимликнинг барг қисмига қўяди[5].

**Личинкалиги тўлиқ** ўзгариш билан ривожланади. Озуқага тўйгандаги личинкаси 70-80 мм катталиқда, асосан оч кулранг ёки оқ рангда бўлади. Тухумдан янги чиқан личинкаси 2.5 мм узунликда, хира қумли- тўқ сариқ рангга ега бўлиб, қора жигарранг шохи (калта ва вертикал), боши, ойқлари ва қалқони бор: танаси бир хил рангдаги белгиларни тузилган.



**2-Расм.** *Eremurus* ўсимлигида ва катта ёшдаги личинкаси.

Бош ва кўкрак сегментлари яшил рангга бўялган. Иккинчи поғонада тананинг асосий ранги зайтун яшил ёки тўқ кулранг, оч сариқ дорсо-латерал чизик билан ибтидоий кўз доғлари ва вентро-латерал чизик бир хил рангда. Қизил дорсал чизикнинг ишораси бор. Учинчи белгиси ўхшаш, гарчи асосий ранг хира кулранг яшилдан яшил зайтунгача деярли қора ранггача ўзгариши мумкин. Дорсо-латерал чизик янада аниқроқ, кўз доғлари тоза оқ ёки сариқ марказлари билан оқ рангга эга ва оқ вентро-латерал чизик ривожланади. Бош, анал қисқич ва дорсал чизик оч тўқ сариқ рангга эга. Тўртинчи инстарда ранг оч кулрангдан қора ранггача ўзгариб туради; иккала шакл ҳам оқ рангга бўялган ва думалоқ, қора ҳалқали, ҳайратланарли оқ кўз доғларининг дорсо-латерал қаторига эга. Дорсо-латерал чизик йўқ, лекин вентро-латерал чизик, айниқса қоронғу шаклда янада равшанроқ бўлади. Бош, оёқ, шох ва қалқони тўқ жигарранг ёки қора рангга эга[5].

**Ғумбак.** Ёлик ғумбак ҳолатда қишлайди. Ғумбака кетиш пайтида озуқага тўйган личинкаси тупроқ остига 10-15 см чуқурлика кириб, ғумбак ҳолатига кетади. Ғумбаги фаол ҳолатда бўлади, ташқи турли хил механик тасирларга жавоб қайтаради.

**3-расм.** *Hyles centralasiae* ғумбак ҳолати.



**Имаго.** Қанотининг ёйганда 6-7 см узунликда, танасининг узунлиги 3-4 см узунликда бўлади. Кўкрак қисмидаги оқ белгиси ва қанот қисмини чизиклари, оқ ва қора ранглариининг жойлашиш белгиларидан ажралиб туради.

**4-расм.** *Hyles centralasiae* имагоси (02.05.2022 й).

**Хулоса:** Тадқиқот давомида 2022- йил май ойи давомида Жиззах вилояти Фориш тумани Охум қишлоғи атрофида *Hyles centralasiae* турини света ловушка усули ёрдамида 2 та имаго ва 3 та личинка намунаси йиғилди (40°31'43.2"N 66°46'12.9"E).

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. A revised molecular phylogeny of the globally distributed hawkmoth genus *Hyles* (Lepidoptera: Sphingidae), based on mitochondrial and nuclear DNA sequences Anna K. Hundsdoerfer a,\* , Daniel Rubinoff b , Marc Attié c , Michael Wink d , Ian J. Kitching. <https://doi:10.1016/j.ympev.2009.05.023>
2. Kitching, I.J., Cadiou, J.-M., 2000. Hawkmoths of the World: an Annotated and Illustrated Revisionary Checklist (Lepidoptera: Sphingidae). Cornell University Press and The Natural History Museum, Ithaca and London.
3. Museum archives revisited: Central Asiatic hawkmoths reveal exceptionally high late Pliocene species diversification (Lepidoptera, Sphingidae) A.K. Hundsdoerfer, M. Packert, C. Kehlmaier, P Strutzenberger & Ian J. Kitching Accepted: 8 January 2017. <https://doi:10.1111/zsc.12235>
4. The Phylogenetics and Biogeography of the Central Asian Hawkmoths, *Hyles hippophaes* and *H. chamyla*: Can Mitogenomics and Machine Learning Bring Clarity? Franziska Patzold 1,\* , Eduardo Marabuto 1 , Hana Daneck 1 , Mark A. O'Neill 2 , Ian J. Kitching 3 and Anna K. Hundsdoerfer. <https://doi.org/10.3390/d13050213>
5. [https://tpittaway.tripod.com/sphinx/h\\_cen.htm](https://tpittaway.tripod.com/sphinx/h_cen.htm).

## МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ТЎҒРИСИДАГИ ИШЛАРНИ ЮРИТИШДА АДВОКАТ ИШТИРОКИНИНГ ҲУҚУҚИЙ МАСАЛАЛАРИ

*Тургунова Назокатхон Собиталиевна*

*Наманган Давлат университети юридик факультети магистратура тингловчиси.*

**Аннотация:** Ушбу мақолада маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишларни юритишда адвокат иштирокини тартибга солишчи қонунчилик нормалари таҳлил этилган. Бундан ташқари, маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги иш юритишда ҳимоячи иштироки билан боғлиқ процессуал қонунчиликни қўллаш жараёнида мавжуд муаммолар таҳлил этилган, шунингдек хорижий мамлакатларининг маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги қонунчилигида мавжуд ижобий нормалари асосида миллий қонунчиликни такомиллаштириш бўйича таклифлар келтирилган.

**Калит сўзлар:** маъмурий ҳуқуқбузарлик, маъмурий жазо, ҳуқуқий таъсир, адвокат, илтимоснома, маъмурий жавобгарлик, юридик ёрдам, маъмурий қамок.

## ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ УЧАСТИЯ АДВОКАТА В ПРОИЗВОДСТВЕ ПО ДЕЛАМ ОБ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ПРАВОНАРУШЕНИЯХ.

*Тургунова Назокатхон Собиталиевна*

*Магистрант юридического факультета Наманганского государственного университета.*

**Аннотация:** В данной статье анализируются правовые нормы, регулирующие участие адвоката в производстве по делам об административных правонарушениях. Кроме того, были проанализированы существующие проблемы применения процессуального законодательства об участии адвоката в административном производстве, а также предложения по совершенствованию национального законодательства на основе имеющихся положительных норм в законодательстве зарубежных стран об административных правонарушениях.

**Ключевые слова:** административное правонарушение, административное взыскание, правовое воздействие, адвокат, ходатайство, административная ответственность, юридическая помощь, административное задержание.

## LEGAL ISSUES OF PARTICIPATION OF A LAWYER IN PROCEEDINGS ON CASES OF ADMINISTRATIVE OFFENSES.

*Turgunova Nazokatkhon Sabitalievna*

*Master's degree student of the Faculty of law of Namangan State University.*

**Annotation:** This article analyzes the legal norms governing the participation of a lawyer in proceedings on cases of administrative offenses. In addition, the existing problems of the application of procedural legislation on the participation of a lawyer in administrative proceedings, as well as proposals for improving national legislation based on the existing positive norms in the legislation of foreign countries on administrative offenses, were analyzed.

**Keywords:** administrative offense, administrative penalty, legal influence, lawyer, petition, administrative responsibility, legal assistance, administrative detention.

Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексда маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишларни юритишда адвокатлик фаолиятини амалга оширишнинг бир нечта норматив асослари кўрсатилган. Гарчи маъмурий ҳуқуқбузарликка оид ишлар ижтимоий хавфлилиги жиҳатдан камроқ аҳамиятли, маъмурий жазо чоралари эса нисбатан енгилроқ бўлсада, шахснинг қонуний ҳуқуқ ва манфаатларига таъсир килувчи ҳуқуқ соҳаси ҳисобланади. Маъмурий ҳуқуқ соҳаси жамиятда тартибга соладиган ижтимоий муносабатларнинг кўлами жуда кенг ва кўпроқ ўзгаришларга учрайдиган соҳа деб айтсак тўғри бўлади. Аслида маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексдаги ҳуқуқбузарликлар назарда тутилган моддаларнинг, деярли кўпи ҳаволаки диспозицияга эги. Бу ҳолатда ҳуқуқбузарликлар таркибини тушуниш ва ўзини-ўзи ҳимоя қилиш, юридик билимга эга бўлмаган шахслар учун қийинчилик туғдиради. Қолаверса, жиноят кодексига назарда тутилган жиноятлар либераллаштирилиши муносабати билан, кўпгина жиноят таркибини берган қилмишлар маъмурий ҳуқуқбузарлик сифатида баҳоланиб, маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексга ҳуқуқбузарлик сифатида киритилганлиги ҳам, адвокатнинг маъмурий ҳуқуқбузарликларга оид ишларда иштирокининг аҳамияти юқори эканлигини тасдиқлайди.

Адвокатнинг маъмурий ҳуқуқбузарликларга оид иш юритувда иштирокчи сифатидаги мақоми Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги Кодекснинг 297-моддасида белгиланган бўлиб, ушбу моддага кўра, “Маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги ишни кўриб чиқишда шу ҳуқуқбузарликни содир этган шахсни ушлаб туриш пайтидан бошлаб адвокат қатнашиши мумкин. Адвокат ишга оид материаллар билан танишиб чиқишга, уни таклиф қилган шахснинг топириғига биноан ва унинг номидан илтимослар қилишга ва иш юзасидан чиқарилган қарор устидан шикоят беришга ҳақлидир”<sup>337</sup>.

Ушбу моддада маъмурий ҳуқуқбузарликка тортилган шахснинг қонуний ҳуқуқ ва манфаатларини таъминлаш учун адвокат иштироки этиши кўрсатилган. Бироқ ҳуқуқбузарликни содир этган шахсни қонуний ҳуқуқ ва манфаатларини бузилмаслигини таъминловчи процесс иштирокчисини адвокат деб эмас, ҳимоячи деб кўрсатилиши лозим деб ҳисоблаймиз.

Адвокат томонидан маъмурий ҳуқуқбузарликка оид ишларда қатнашиш адвокатлик фаолиятининг бир йўналиши ҳисобланади. Қолаверса, шахсга нисбатан маъмурий ҳуқуқбузарликка оид иш юритилганда бевосита унинг шахсий ҳуқуқ ва эркинлигига доир ҳуқуқий таъсир чоралари қўлланилади. Шундай экан маъмурий ҳуқуқбузарликка оид ишларда адвокатни ҳимоячи сифатида номланиши ҳуқуқий жиҳатдан тўғри бўлар эди деб ҳисоблаймиз. МДХ мамлакатларидан Қозоғистон Республикасининг Маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги кодексига “ҳимоячи” (защитник) тарзида, шунингдек Россия федерациясининг Маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги кодексда эса “ҳимоячи ва вакил” (защитник и представитель) тарзида кўрсатилганлиги ҳам юқоридаги фикримизни тасдиқлайди.

Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексига адвокатнинг иштирокчи сифатида ишга киришиши пайти шахсни маъмурий тартибда ушлаб қўйиш вақти деб кўрсатилган. Бироқ қонунчиликдаги ушбу норма адвокат иштироки бошланишини тўлалигича баён қилмаган деб ҳисоблаймиз. Ушбу нормада гўёки адвокат шахс ушланган пайтдангина ишга киришиши мумкин деб тушунилади. Ваҳоланки, адвокатнинг маъмурий ҳуқуқбузарликка оид ишда иштироки иш юритувнинг исталган босқичида бошланиши мумкин. Адвокатнинг маъмурий ҳуқуқбузарликка оид ишда иштироки Қозоғистон Республикасининг Маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги кодексининг 748-моддаси 3-қисмида қўйидагича кўрсатилган.

“Ҳимоячининг ишда иштирок этишига маъмурий жавобгарликка тортилган шахс маъмурий тартибда ушлаб қўйилган, маъмурий иш қўзғатилган пайтдан бошлаб,

<sup>337</sup> Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси, 22.09.1994 йилда қабул қилинган, 297-модда, <https://lex.uz/docs/97664>.



шунингдек маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги иш юритишнинг исталган босқичида рухсат этилади”<sup>338</sup>. Адвокатни маъмурий ҳуқуқбузарликка оид ишларда иштирокини бошланиши юқоридаги норма мазмунида тўлароқ ёритилган деб ҳисоблаймиз.

Бундан ташқари адвокатни маъмурий ҳуқуқбузарликларга оид ишда иштирокининг яна бир муҳим жиҳати, ҳимоячи иштирокини маън этувчи ҳолатлардан бири бўлган ўзаро манфаатлари қарама-қарши бўлган шахсларнинг ишларида фақат бир шахснинг манфаатлари бўйичагина адвокат иштирокига йўл қўйилишидир. Қозоғистон Республикасининг Маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги кодексининг 748-моддасининг 4-бандида мазкур ҳолат тартибга солинган. Унга кўра, “Бир шахс маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишлар бўйича иш юритишнинг икки иштирокчисига, агар улардан бирининг манфаатлари иккинчисининг манфаатларига зид бўлса, унинг ҳимоячиси бўла олмайди”<sup>339</sup>. Мазкур норма ҳам адвокат иштирокининг амалдаги ҳуқуқий тартибини белгилашда аҳамиятли деб ҳисоблаймиз. Адвокатнинг маъмурий ҳуқуқбузарликка оид ишларда мажбурий иштироки Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексда назарда тутилмаган. Ваҳоланки, худди жиноят процессидаги каби, баъзи шахслар маъмурий ҳуқуқбузарликка оид ишлар юритувида ҳам ўзини-ўзи ҳимоя қилишга етарлича имкон ва билимга эга эмас. Қозоғистон Республикасининг Маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги кодексда адвокат иштироки шарт бўлган ҳолатлар ҳам назарда тутилиб, тартибга солинган. Жумладан Қозоғистон Республикасининг Маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги кодексининг 749-моддасида адвокатнинг иштироки мажбурий бўлган ҳолатлар кўрсатилган. Ушбу моддага кўра қуйидаги ҳолларда маъмурий ҳуқуқбузарликларга оид ишларда ҳимоячининг мажбурий иштироки таъминланади:

- 1) маъмурий жавобгарликка тортилган шахс бу ҳақда илтимоснома берган бўлса;
- 2) жисмоний ёки руҳий нуқсонлари туфайли маъмурий жавобгарликка тортилган шахс ўзининг ҳимоя ҳуқуқини мустақил равишда амалга ошира олмаса;
- 3) маъмурий жавобгарликка тортилган шахс иш юритилаётган тилни билмаса;
- 4) маъмурий жавобгарликка тортилган шахс вояга етмаган бўлса.

Юқорида назарда тутилган ҳолатлар мавжуд бўлганда, маъмурий жавобгарликка тортилган шахс, унинг қонуний вакиллари, шунингдек унинг топшириғига кўра бошқа шахслар томонидан ҳимоячи таклиф этилмаган бўлса, судья, маъмурий ҳуқуқбузарликни кўриб чиқишга ваколатли орган (мансабдор шахс) иш юритишнинг тегишли босқичида ҳимоячи иштирокини таъминлашга мажбурдирлар ва бу ҳақда қарор чиқарадилар. Қарор ижро этиш учун республика аҳамиятидаги шаҳар, вилоят адвокатлар ҳайъатига ёки унинг таркибий бўлинмаларига юборилади ва у келиб тушган пайтдан эътиборан йигирма тўрт соатдан кўп бўлмаган муддатда ижро этилиши лозим”<sup>340</sup>.

Маъмурий ҳуқуқбузарликка оид ишларда адвокат иштирокининг мажбурийлигини талаб этувчи ҳолатларни қонунчиликка киритилиши, маъмурий ҳуқуқбузарликка оид ишни юритувчи орган мансабдор шахсларнинг қонунчиликка риоя этишини таъминлайди. Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексда адвокат иштироки мажбурий этиб белгиланган ҳолатлар қонунчиликка киритилмаганлиги сабабли, ҳимоячини тайинлаш ва унга ҳақ тўлаш тартиблари ҳам кўрсатилмаган.

Айрим ҳолларда шахсларни адвокатнинг юридик ёрдами учун тўлов қилишга молиявий аҳволи етарли бўлмаслиги мумкин. Бундай ҳолатларда маъмурий жавобгарликка тортилаётган шахс адвокатнинг юридик ёрдамига муҳтож бўлсада, адвокатдан воз кечишга мажбур, чунки Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексда мазкур ҳолат тартибга солинмаган. 2021 йил 28 октябрда норматив ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари муҳокамаси порталига “Бепул юридик ёрдам тўғрисида”

<sup>338</sup> Кодекс Республики Казахстан Об административных правонарушениях, 05.07.2014 год, статья-748, [https://kodeksy-kz.com/ka/ob\\_administrativnyh\\_pravonarusheniyah/749.htm](https://kodeksy-kz.com/ka/ob_administrativnyh_pravonarusheniyah/749.htm)

<sup>339</sup> Ўша жойда. 748-модданинг 4-қисми.

<sup>340</sup> Кодекс Республики Казахстан Об административных правонарушениях, 05.07.2014 год, статья 749, [https://kodeksy-kz.com/ka/ob\\_administrativnyh\\_pravonarusheniyah/749.htm](https://kodeksy-kz.com/ka/ob_administrativnyh_pravonarusheniyah/749.htm).

қонун лойиҳаси муҳокамага қўйилди. Мазкур қонун лойиҳасида маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги ишлар бўйича ҳуқуқбузар шахсга иккиламчи бепул юридик ёрдам кўрсатилиши назарда тутилди.<sup>341</sup> Иккиламчи бепул юридик ёрдам фақат реестрга киритилган адвокатлар томонидан кўрсатилиши қонун лойиҳасининг 17-моддасида белгиланди. Маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги ишларда иккиламчи бепул юридик ёрдам кўрсатиладиган ишлар тоифаси қонун лойиҳасининг 20-моддасида кўрсатилган бўлиб, унга кўра маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги ишлар бўйича иккиламчи бепул юридик ёрдам маъмурий жазо тури сифатида маъмурий қамоқ жазоси қўлланилган ва қўлланилиши мумкин бўлган ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишлар бўйича кўрсатилиши назарда тутилган.<sup>342</sup> Иккиламчи бепул юридик ёрдам кўрсатиш тўғрисида мурожаат қилиш тартиби ҳам қонун лойиҳасида белгиланган. Қонун лойиҳасининг 25-моддасида, маъмурий ҳуқуқбузарлик ишлари бўйича иккиламчи бепул юридик ёрдам олиш ҳуқуқига эга шахс, унинг яқин қариндошлари (ота-она, эр(хотин), болалар, ака-укалар, опасингиллар) ёки қонуний вакил бепул юридик ёрдам кўрсатиш тўғрисида мурожаат қилиш ҳуқуқига эгаллиги белгиланган.

Маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишларда бепул юридик ёрдам кўрсатиш маъмурий жазо тури сифатида маъмурий қамоқ жазоси қўлланилган ва қўлланилиши мумкин бўлган ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишлар бўйича кўрсатилиши назарда тутилган бўлсада, бу тартибда барча шахслар назарда тутилмаган. Қонун лойиҳасининг 27-моддасида бепул юридик ёрдам кўрсатиш тўғрисидаги мурожаатни кўриб чиқиш тартиби кўрсатилган бўлиб, унга кўра, агарда иккиламчи бепул юридик ёрдам кўрсатиш ҳақидаги мурожаат бўйича иккиламчи юридик ёрдам кўрсатилиши сўралган шахс ҳақидаги маълумотлар “Ижтимоий ҳимоя ягона реестри” ахборот тизими ҳамда Диспансер кузатувида турган руҳий ҳолати бузилган шахсларнинг ягона электрон реестридан электрон тизими орқали автоматик текширилганда шахс кам таъминланган ёки руҳий ҳолати бузилган шахс сифатида ҳисобда турган тақдирда, унинг мурожаати электрон тизимда қайд қилиниши қилинади. Шахс кам таъминланган ёки руҳий ҳолати бузилган шахс сифатида ҳисобда турмаган тақдирда, мурожаат электрон тизимда қайд қилиниши автоматик равишда рад қилинади.<sup>343</sup>

Қонун лойиҳасининг юқоридаги мазмунидан хулоса қилсак, маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишларда иккиламчи бепул юридик ёрдам адвокат томонидан икки тоифадаги шахсларга кўрсатилади. Яъни кам таъминланган шахслар ҳамда руҳий ҳолати бузилиб, диспансер кузатувида бўлган шахслар. Қонун лойиҳасида бепул юридик ёрдам кўрсатилувчи шахсларнинг тор доирада кўрсатилган деб ҳисоблаймиз. Ушбу рўйхатга 1-гурӯх ногиронлари ҳам қўшилса, маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги қонунчилик нормаларининг инсонпарварлик ва қонунийлик принциплари мустаҳкамланган бўлар эди, чунки мазкур тоифадаги шахслар ҳам ўзларининг қонуний ҳуқуқлари ва манфаатларини ҳимоя қилишда қийинчиликларга учрашлари мумкин деб ҳисоблаймиз.

Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексда адвокатнинг қуйидаги ҳуқуқлари, яъни ишга оид материаллар билан танишиб чиқиш; уни таклиф қилган шахснинг топшириғига биноан ва унинг номидан илтимослар қилиш; иш юзасидан чиқарилган қарор устидан шикоят бериш кўрсатилган.

Адвокатнинг юқорида кўрсатилган ҳуқуқлари уни маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги процесс иштирокчиси сифатидаги ваколатларини тўлақонли акс эттирмаган деб ҳисоблаймиз. Ўзбекистон Республикасининг “Адвокатура тўғрисида”ги қонунининг 6-моддасида адвокатнинг касбий фаолиятини амалга ошириш чоғидаги ҳуқуқлари кўрсатилган. Жумладан, мазкур модданинг 1-қисм 2-бандида адвокат терговга қадар текширув, суриштирув, дастлабки терговни ўтказиш ва ишни судда кўриб чиқиш чоғида

<sup>341</sup> “Бепул юридик ёрдам тўғрисида”ги қонун лойиҳаси ID-51721, 18-модда <https://regulation.gov.uz/uz/d/51721>

<sup>342</sup> “Бепул юридик ёрдам тўғрисида”ги қонун лойиҳаси ID-51721, 20-модда <https://regulation.gov.uz/uz/d/51721>

<sup>343</sup> “Бепул юридик ёрдам тўғрисида”ги қонун лойиҳаси ID-51721, 27-модда <https://regulation.gov.uz/uz/d/51721>

ёки маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишларни кўриб чиқаётган органларда ва бошқа ваколатли органларда маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги иш ёки жиноят иши материалларига кўшиб қўйилиши, шунингдек албатта баҳоланиши лозим бўлган далилларни тўплаш ва тақдим этиш ҳуқуқига эга эканлиги кўрсатилган. Адвокатнинг мазкур ҳуқуқи бевосита маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги ишлар жараёнига ҳам тааллуқли эканлиги қонунчилик нормаси мазмунида кўринган бўлсада, Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексга ушбу мазмунни баён этувчи ўзгартиришлар киритилмаган. Ваҳоланки, адвокат томонидан ҳимояга доир далиллар тўплаш ҳуқуқидан фойдаланиш маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишларни кўриб чиқиш ва ҳал этишда жуда катта аҳамиятга эга.

Бундан ташқари, “Адвокатура тўғрисида”ги қонуннинг 6-моддаси 1-қисми 5-бандида “ишга тааллуқли ахборотдан хабардор бўлган шахсларни сўровдан ўтказиш ва уларнинг розилиги билан ёзма тушунтириш олиш”<sup>344</sup> ҳуқуқи кўрсатилган. Мазкур ҳуқуқлар маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишларни юритишда адвокатлик фаолиятини ташкил этиш учун адвокатларга муҳим процессуал асос ҳисоблансада, ушбу ҳуқуқлар процессуал қонунчилик нормаларига киритилмаган.

Маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги қонунчилик нормаларида адвокатнинг ҳуқуқлари қайд этилиши бўйича қўшни давлатлар, жумладан Қозоғистон Республикасининг ижобий тажрибаси диққатга сазовор, чунки ушбу давлат маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги қонунчилигида адвокатнинг ҳуқуқлари кенгроқ кўрсатилган. Қозоғистон Республикасининг Маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги кодексининг 752-моддасида адвокатнинг ҳимоячи сифатидаги ваколатлари кўрсатилган бўлиб, унга кўра ҳимоячи қуйидаги ҳуқуқларга эга:

“ишнинг барча материаллари билан танишиш;- ишни кўриб чиқилишида иштирок этиш; далиллар тақдим этиш; илтимосномалар тақдим этиш ва рад қилиш; судья, ишни кўришга ваколатли орган (мансабдор шахс)нинг рухсати билан, ишни кўриш жараёнида сўроқ қилинаётган шахсларга саволлар бериш; иш бўйича иш юритишни таъминлаш чораларини қўллаш ҳақидаги ва иш бўйича қарор бўйича қарор устидан шикоят қилиш; қонун ҳужжатларида унга берилган бошқа ҳуқуқлардан фойдаланиш”.<sup>345</sup>

Адвокатнинг маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги ишларда иштирокчи сифатидаги ҳуқуқлари доираси қонунчиликда юқоридаги тарзда кенгроқ баён этилиши лозим деб ҳисоблаймиз. Зеро, барча қонун нормалари аввало мукамал бўлиши лозим, яъни ўзи тартибга солаётган муносабатларни тўлалигича тартибга солувчи нормаларни ифода этиши лозим деб ҳисоблаймиз.

<sup>344</sup> Ўзбекистон Республикасининг «Адвокатура тўғрисида»ги қонуни 27.12.1996 йил 349-1-сон <https://lex.uz/docs/54503>

<sup>345</sup> [https://kodeksy-kz.com/ka/ob\\_administrativnyh\\_pravonarusheniyah/749.htm](https://kodeksy-kz.com/ka/ob_administrativnyh_pravonarusheniyah/749.htm) Кодекс Республики Казахстан Об административных правонарушениях, 05.07.2014 год, статья 752.

## ЎЗБЕКИСТОН ЁШЛАРИНИ МИЛЛИЙ ВА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР РУҲИДА ТАРБИЯЛАШДА МИЛЛИЙ-ТАРБИЯ ВА ТАЪЛИМ ТИЗИМИДАГИ ЎЗГАРИШЛАРГА ДОИР

**Бабамуродов Эркин Хайитович**  
*ТерДУ Профессори, фалсафа фанлари доктори.*  
**Турсунов Отабек Тожиёвич**  
*ТерДУ 2-босқич магистранти.*

Ёшлар тарбияси ҳақида гап кетганда уни миллий ва умуминсоний қадриятларсиз тасаввур этиб бўлмайди. Қадим тарих саҳифаларида улуғ донишмандлар битикларида, халқнинг руҳи ва қалбини ифодаловчи ривояту ҳикоятларда, илғор ва хур фикрли ижодкорлар, санъаткорлар, сиёсат намояндаларининг маънавий-маърифий меросларида улуғ қадриятлар силсиласи намоён. Улар эзгулик ғоялари билан жилоланган дурдоналардир. “Бори яхшилиғ қилғилким, ондин яхши йўқ, Ким дегайлар даҳр аро қилди фалондин яхшилиғ” деган Бобурнинг эзгу қарашлари бутун-бутун авлодларга ибрат намунасидир. Яхшилик чинакам инсонийлик бўлиб, у халқимизнинг инсонпарварлик қарашларининг меҳр-оқибатлилик фазилатининг ифодасидир. Ота-боболаримиз ўз турмушларида доимо яхши ният билан, орзу-истакларини уларда жо қилиб яшаганлар, улар ўзларининг яхши номлари билан бутун жаҳонга донг таратганлар. Соҳибқирон Амир Темур “Яхшиларга яхшилик қилдим, ёмонларни эса ўз ёмонликларига топширдим. Ким менга дўстлик қилган бўлса, дўстлиги қадрини унутмадим ва унга мурувват, эҳсон, иззату икром кўрсатдим”, деган. [1].

Яхшилик комил тарбия кўрган кишиларга хос бўлиб, бу маънавият билан боғланади. Маънавиятлилик эса, аввало, ўзликни англаш билан боғланади. “Ўз халқи тарихини билмаган миллатлар хотира ва идрокларини йўқотиб қўйган довдирларга ўхшайди.” [2]

Демак, маънавият тўғрилиқка элтувчи йўл, аниқроқ айтганда, тўғрилиқ-ростликнинг ўзидир.

“Маънавият тушунчаси асосида ростлик, ҳаққонийлик, тўғрилиқ мужассамдир. Мисол: одамлар пайғамбаримиз Муҳаммад (с.а.в)ни “амин”, Амир Темур бобомизни дўстлари ва рақиблари “ростгўй” дейишган. Президентимиз Шавкат Мирзиёев ҳақида халқимиз “тўғри сўз”, “адолатли одам”, “сўзи билан иши бир одам экан” дейишмоқда. Ҳадисларда “Иймондан кейин келадиган, аммо иймон қадар азиз турадиган сўз борми?”- деб сўрашганда, Пайғамбаримиз: “Бор, у сўз лафздир”, деганлар. Лафз эса тўғрилиқдир. Биз тўғрилиқ замонида яшаймиз” [3].

Маълумки, инсон шахс сифатида тарбияланиб шаклланишида халқимиз томонидан яратилган бой маданий – маърифий қадриятлар муҳим ўрин тутаяди. Бунга илмий – техника ва ақлий имкониятлар, таълим – тарбия, тиббий хизмат, миллий мерос, миллий қадриятлар, турли шаклларда намоён бўладиган маданият дурдоналари, тил, адабиёт, санъат, халқ ҳунармандчилиги маҳсулотлари, ноёб тарихий ва маданий ёдгорликлар, архитектура ва бошқаларни киритиш мумкин. Президент Ш.Мирзиёев ўзининг сайловолди учрашувларида ва президентлик давридаги маърузаларида халқимизнинг тарихи ва маънавиятини безаб турган бундай ноёб ёдгорликлар, улуғ сиймолар ҳақида, уларнинг ёшлар тарбиясидаги ўрни ва роли ҳақида қайта – қайта таъкидладилар. Жумладан, андижонликлар билан бўлган учрашувда таъкидлаб айтдиларки, тарихга қарасак ҳам, бугунги кунга қарасак ҳам, Андижон заминидан кўп соҳалар бўйича кўплаб буюк, фидойи инсонлар етишиб чиққанига амин бўламиз. Чунки миллат, эл – юрт тақдири учун куйиш, миллий ғурур, ор – номус учун бел боғлаб майдонга чиқиш – Андижон аҳлига хос фазилат. Мана, улуғ аждодимиз Заҳриддин Муҳаммад Бобурни олайлик. Бу буюк зот ўн икки ёшидан бошлаб Темурийлар давлатинисаклаб қолиш учун ўзини ўқа ҳам, чўққа ҳам урди, ҳеч қандай душмандан ҳам, синовдан ҳам кўркмади. Қирқ олти

йиллик умри давомида бир зум ҳам ҳаловат билгани йўқ. Ўз авлодларига Ватанга бўлган буюк муҳаббатини, эзгу фазилатларини мерос қилиб қолдирди. Давлатимиз раҳбари фарғоналиклар билан сайловолди учрашувларида бу воҳанинг тарихига тўхталиб ўтдилар. Чунки Фарғонада, деганда, аввало, Кубо – ҳозирги Кува, Марғилон, Қўқон каби кўҳна цивилизация масканлари, буюк тарих ва маданиятга эга қадимий ва гўзал бир ўлка кўз олдимизда жилваланади. Бу фикрнинг тасдиғи сифатида Фарғона номини бутун дунёга таратган Аҳмад Фарғоний бобомизнинг ўн иккинчи асрадаёқ лотин ва яҳудий тилларига таржима қилинган “Астрономия асослари” китобини эшлаш кифоядир. Улуғ алломанинг лойиҳаси асосида Нил дарёси сувининг сатҳини ўлчайдиган иншоот “Миқёси Нил” Мисрда ҳозирги кунгача сақлашиб келмоқда. Ёки яна бир улуғ аждодимиз Бурҳониддин Марғинонийнинг “Ҳидоя” асари неча юз йиллардан буён мусулмон дунёсида ислом ҳуқуқи бўйича асосий қўлланма бўлиб келаётир. Булар бугунги авлодда ўзига хос ғурур ва ифтихор туғдириши табиий.

Президентимизнинг бухороликлар билан бўлган сайловолди учрашувда эслаб ўтган маданий мерос ҳақидаги далиллари ҳам қимматлидир. Чунки азим Зарафшон дарёси бўйида жойлашган бу гўзал воҳадаги Варахша ва Ниршах сингари қадимий цивилизация ўчоқлари, кўҳна Арк, Сомонийлар макбараси, чашмаи Аюб, Минораи Калон, Чор Бахр ва ўнлаб ноёб меъморий обидалар тарихимиз, маданиятимиз қандай чуқур излдизларга эга эканлигини яққол тасдиқлайди.

Бу кутлуғ заминдан етишиб чиққан Имом Бухорий, Абу Али ибн Сино, Муҳаммад Наршахий, Абдуҳолиқ Гиждивоний, Мир Саид Кулол, Хўжа Ориф Ревгарий, Баҳоуддин Нақшбанд каби буюк мутафаккирларнинг номлари, уларнинг бой мероси бутун Шарқ ва Ғарб оламида машҳурдир.

Шундай қилиб, халқимизнинг миллий қадриятлари, умуминсоний эзгу қадриятлар билан уйғунлик, ҳамоҳонлик касб этади. Буни миллий ғоямиз ва миллий мафкурамизнинг таркибий тушунчаси деб қарасак ўринли бўлади. Чунки миллий мафкура тушунчасидаги “миллий” аниқловчиси этник мансубликни билдирмайди, балки мамлакатга, муайян жамиятга мансубликни билдиради. Шу боис миллий ғоя ва миллий мафкура тушунчалари “миллий истиқлол”, “миллий бюджет”, “миллий ялпи маҳсулот”, “миллий хавфсизлик”, “миллий герб”, “миллий байроқ” тушунчалари каби Ўзбекистонда яшовчи барча халқларга тегишлидир. Халқ онгига миллий ғоя қанчалик чуқур сингса, унинг ўзлигини англаши, ички муштараклиги, миллати, тили ва динидан қатъи назар, ўзини ягона халқ-ўзбекистонлик деб ҳис қилиши шунчалик кучаяди. Миллий мафкура миллий ғоя теварагида шаклланади ва у ифодалаган олий мақсад йўлида жамият аъзоларининг этник мансублигидан, ижтимоий аҳволдан, жинси, ёши, тилидан қатъи назар, жишлаштиради. Бошқача айтганда, миллий ғоя миллий мафкураорқали халқнинг куч – ғайрати, иродасини, ақлий ва ҳиссий салоҳиятини белгиланган омололларга, орзу-умидларга эришиш томон йўналтиради, бу йўлда учрайдиган қийинчиликларни енгишга сафарбар этади. Маълумки, ўзбек халқи кўп қиррали бой маданиятга эга бўлган ва ўз мақсади билан жаҳон цивилизацияси ривожланишига муносиб ҳисса кўшиб келган. Халқимиз томонидан узоқ тарихий тараққиёт жараёнида яралган маданиятимиз ўзининг тарихий илдизларига, ўз қадриятларига эга.

Ёшларнинг комил инсонлар, мустаҳкам оила вакиллари бўлиб етишишида миллий ва умуминсоний қадриятларнинг ўрни бекиёс. Мустақил Ўзбекистоннинг куч-қудрат мабаи-халқимизнинг умуминсоний қадриятларга содиқлигидир. Халқимиз адолат, яхшилик, аҳил қўшничилик ва инсонпарварликнинг нозик куртакларини асрлар оша авайлаб келмоқда. Ўзбекистонни янгилашнинг олий мақсади ана шу анъаналарни қайта тиклаш, уларга янгича мазмун бағишлаш, заминимизда тинчлик ва демократия, фаровонлик, маданият, виждон эркинлиги ва ҳар бир кишининг камол топишига эришиш учун зарур шарт – шароит яратишда ўз ифодасини топмоқда.



Қадриятлар тарбиявий аҳамиятга эга бўлган маънавий омил саналади. Қадриятлар таълим - тарбиянинг муҳим воситаси сифатида инсон ҳаёти учун, вужуднинг тириклиги, сихат-саломатлиги, меҳнати, билими, муомаласи кабиларга жиддий таъсир этади. Ёш авлодда қадриятларга муносабатда бу хусусиятларни такомиллаштириш муҳим аҳамиятга эга. Жамият тараққий этган сари умуминсоний қадриятлар кўпайиб бораверади. Масалан, эркинлик, тинчлик, тенглик, маърифат, ҳақиқат, маънавият, гўзаллик, яхшилик, инсонпарварлик, ижтимоийлик, демократия, қонун устуворлиги ва бошқалар. Бу туйғулар мустақиллигимизнинг янги босқичга кўтарилиши жараёнида халқимизнинг онг ва шуурига тобора мустаҳкамланиб бормоқда. Шунинг учун ҳам муҳтарам Президентимиз “Наврўз фалсафасида, Наврўз қадриятлари-одамлар дардуташиши билан яшаш, кексаларни ҳурматлаш, муҳтож оилаларга эътибор ва ёрдам кўрсатиш, адолат ва халқпарварлик фаолиятимиз мезонига айланмоқда”, дейди. [4].

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Амир Темур ўғитлари. Т.: “Наврўз”, 1992.
2. Туркий халқлар мафкураси. ТУРОН. Т.: “Чўлпон” 1999 йил
3. Ҳаракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгиланишлар сари. Рисола. Нашрга тайёрловчилар: М. Бекмуродов, Қ. Қуранбоев, Л. Тангиров. Т.: Ғ. Ғуллом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи НМУУ, 2017.
4. Ш. Мирзиёев. Халқимиз розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Т.: “Ўзбекистон” НМУУ, 2018. II ТОМ.

## ТАЪЛИМ СУБЪЕКТЛАРИ ФАОЛИЯТИГА ҚЎЙИЛАДИГАН ПЕДАГОГИК КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ТАЛАБЛАР

*Турсунов Рахмонали Бозорбой ўғли*

*ЎзМУ таянч докторанти.*

**Аннотация:** Мақолада бугунги кунда таълим жараёни субъектлари фаолиятига қўйиладиган компетенциялар назарий таҳлил қилинган. Шу билан бирга пандемия шароитида педагог ва талабалар фаолиятида мавжуд муаммо ва камчиликлар ўрганилган. Медиакомпетентликни ривожлантириш борасида амалий таклифлар илгари сурилган.

**Калит сўзлар:** Масофавий таълим, медиа, медиакомпетентлик, рақамлаштириш, инновацион бошқариш ўқув субъектлари.

**Аннотация:** В статье проводится теоретический анализ компетенций, которые сегодня вливаются в деятельность субъектов образовательного процесса. При этом были изучены существующие проблемы и недостатки в деятельности преподавателей и студентов в условиях пандемии. Были выдвинуты практические предложения по развитию медиакомпетентности.

**Ключевые слова:** Дистанционное образование, медиа, медиакомпетентность, цифровизация, учебные дисциплины инновационного менеджмента.

**Abstract:** The article provides a theoretical analysis of the competencies that today are pouring into the activities of the subjects of the educational process. At the same time, the existing problems and shortcomings in the activities of teachers and students in a pandemic were studied. Practical proposals for the development of media competence were put forward.

**Key words:** Distance education, media, media competence, digitalization, academic disciplines of innovation management.

Дунёдаги глобал ўзгаришлар, фан-техника жадал ривожланиши ҳамда ахборот технологияларининг ривожига асосланган ахборотлашган жамият муҳити таълим тизимига кучли таъсир этмоқда. Бугунги мунтазам амалга оширилаётган таълим ислохотлари, инновацион жараёнларнинг асосий вазифалардан бири рақамлаштириш жараёни хусусиятларига тўла мослашиш ҳисобланади. Ҳалқаро миқёсда ижтимоий институтларнинг таълим тизими бошқарувидаги ўзаро ҳамкорлигини такомиллаштириш долзарблиги тобора аён бўлиб бормоқда. Шунинг учун ҳам Олий таълим муассасаларида ўқув жараёнларини ахборотлаштиришнинг интерфаол технологияларини ишлаб чиқиш, интегратив таълим муҳитини яратишнинг педагогик механизмларини такомиллаштиришга алоҳида эътибор қаратиш долзарб вазифалар қаторига киради.

Дунёнинг ҳозирги ривожланиш босқичи илмий ахборотлар ҳажмининг мутассил ўсиб бориши билан тавсифланади. Ўзбекистон Республикасининг “Ахборотлаштириш тўғрисида”ги Қонуни, 2012 йил 21 мартдаги “Замонавий ахборот-коммуникация технологияларини янада жорий этиш ва ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги, 2013 йил 27 июндаги “Ўзбекистон Республикаси Миллий ахборот-коммуникация тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Президент қарорлари, Ҳукуматнинг тегишли ҳуқуқий-меъорий ҳужжатлари ижросини таъминлаш, таълим тизимида ахборот-коммуникация технологиялари, интернет ва мультимедиа ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш орқали таълим-тарбия жараёни сифатини ошириш бугунги куннинг долзарб вазифасидир.<sup>346</sup>

<sup>346</sup> Фан, техника ва таълимда инфокоммуникацион ва ҳисоблаш технологиялари: монография халқаро конференция маърузалари ва тезислари. (М-во высш. и сред. спец. обр. РУз).

Қолаверса, 2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини «Илм, маърифат ва рақамли иктисодиётни ривожлантириш йили»да амалга оширишга оид Давлат Дастурининг бевосита 165-банди Олий таълим тизимини янада такомиллаштириш масалаларига оид бўлиб, унда таълим жараёнини ахборотлаштиришга доир вазифалар ҳамда таълим субъектларида замон талабларига мос медиакомпетентликни шакллантириш вазифалари белгиланган.

Таълим муассасасининг электрон ахборот таълим муҳитини яратиш соф техник масала бўлиб қолмасдан, балки бунинг учун муассасанинг илмий- методик, ташкилий ва педагогик имкониятларини тизимли ёндашув асосида ишга солиш талаб этилади.

Замонавий ахборот телекоммуникацион технологияларидан таълим тизимида фойдаланиш куйидаги йўналишларда амалга оширилади:

- ахборот-телекоммуникацион технологиялар ўрганиш объекти сифатида, яъни талабалар янги ахборот технологиялар, уларнинг таркибий қисмлар ва фойдаланиш соҳалари бўйича умумий тушунча ва малакаларга эга бўладилар;
- ахборот-телекоммуникацион технологиялар ўқитиш воситаси сифатида, яъни замонвий ахборот ва педагогик технологиялар асосида талабаларга билим берилади ҳамда маъруза, амалий ва лаборатория машғулоти компютерларнинг замонвий дастурий воситалари асосида ташкил этилади;
- таълим жараёнини бошқариш воситаси сифатида, яъни таълим муассасасининг барча иш фаолияти, шу жумладан ўқув, маънавий -маърифий ва илмий-тадқиқот ишлари самарадорлигини ошириш учун ахборотлаштириш, таҳлил ва башорат қилиш тизимини яратиш;
- талабалар ва профессор-ўқитувчиларнинг илмий-педагогик изланишларини амалга ошириш воситаси сифатида, яъни ўқув муассасасида ўқитувчи-профессор ва талабалар орасида илмий-тадқиқот ва педагогик изланишлар самарадорлигини ошириш учун замонвий ахборот тизимларини яратиш ва татбиқ этиш.

***Ахборот технологиялари воситалари билан ишлайдиган педагог куйидаги компетенциявий талабларга жавоб бериши керак:***

- Медиакомпетентлик сифатларини ўзида мужассамлаштирган бўлишиги;  
Медиакомпетентлик (media competence) таълим тизимимиздаги нисбатан янги атама ҳисобланиб, у медиа маълумотларни турли кўринишда узатиш ва баҳолаш, ўрганиш, етказа билиш каби маъноларни ўз ичига олади. Медиа таълим ҳозирги даврда шахснинг оммавий ахборот воситалари орқали ривожланиш жараёнини англатади. Профессор А.Б.Федоров замонвий оламдаги медиатаълимни оммавий ахборот билан мулоқот маданиятини шакллантириш мақсадида ижодий, коммуникатив салоҳиятлар, танқидий тафаккур, медиаматнларни тўлақонли идрок этиш, талқин қилиш, таҳлил қилиш ва баҳолаш медиатеchnика ёрдамида ўз-ўзини ифодалашнинг турли шаклларида ўқитиш мақсадида оммавий коммуникация(медиа) воситалари ва материаллари ёрдамида шахсни ривожлантириш жараёни сифатида кўради.

- Электрон дарсликлар ярата олиш ва улар билан эркин фаолият олиб бориш кўникмасига эга бўлиш;

- ZOOM, Google meet, Google disk, Camtasio studio каби дастурларда эркин ишлай олиш;

- Масофавий таълим платформасини креатив янгиликлар билан бойитиб бориш ва бошқалар.

Дунё миқёсида коронавирус пандемияси барча соҳалар сингари таълим тизимида ҳам жиддий таъсир кўрсатди. Карантин қодалари кўплаб анъанавий таълим шакллари ва методларини самарасиз ҳолатга солиб қўйди. Бу вазиятда куйидаги муаммо ва камчиликлар кўзга ташланди:

- Интернет алоқаси сифатининг нотекис тақсимланганлиги;

- АКТ мосламаларининг таълим субъектлари барчасида ҳам етарли эмаслиги;
- Таълим субъектларида медиа-ахборот қурилмаларидан фойдаланиш кўникмаси(медиясаводхонлик даражаси)нинг пастлиги;
- Масофавий таълим шаклида таълим субъектлари учун жавобгарликнинг тўлиқ таъминланмаганлиги каби бар қатор камчиликлар кўзга ташланди.

Таълимни ахборотлаштириш бўйича кадрлар тайёрлашнинг умумпедагогик тамойилларини қуйидагича келтириш мумкин:

- касбий йўналишга нисбатан базавий тайёргарликнинг инвариантлиги, унинг ахборот, коммуникация, умуммаданий жиҳатларга йўналтирилганлиги, ахборотлашган жамият ривожланишининг ҳозирги даражасига мослиги;
- педагог кадрларни тайёрлашни ихтисослаштириш, яъни аниқ бир фан бўйича ахборот коммуникация технологиялари воситалари имкониятларини жорий этишга йўналтирилганлик;
- педагог кадрлар тайёрлашнинг дифференциаллашгани, унинг шахсий афзаллигига, касбий эҳтиёжга ва талабаларнинг хусусиятларига йўналтирилганлиги.

Педагог кадрларни касбий ва ихтисослаштирилган тайёрлаш ҳамда дифференциаллашган ёндашув тамойилларини амалиётга жорий этиш учун ўқув дастурининг тузилмасини ишлаб чиқишда қуйидагилар ўз аксини топиши лозим:

- ўқув дастурларида жамиятни ахборотлаштириш жараёнининг ҳолати;
- таълимни ахборотлаштиришнинг назарий асослари;
- ўқув дастурларида аниқ бир фан бўйича ахборот коммуникация технологияларидан фойдаланиш бўйича педагог кадр фаолиятининг асосий ташкил этувчилари;
- мустақил таълим фаолиятининг методик таъминоти.

Мазкур талабларга жавоб бера оладиган ўқув дастурларининг кенг жорий этилиши юқорида кўрсатилган бир қатор камчиликларни бартараф этиш механизмини яратади, деб ҳисоблаш мумкин.

Ҳозирда компьютер технология имкониятларидан фойдаланмай таълим жараёнини ташкил этишни тасаввур қилиш қийин. Компьютер дастурий воситаларининг таркибига кирувчи интерфейснинг қулайлиги, педагогларга замонавий ахборот технологияларини самарали ўзлаштиришлари учун имконият яратади. Шундай қилиб, ахборот ва коммуникация технологияларининг имкониятларидан шахсга йўналтирилган таълимни ривожлантиришда, талабаларнинг ижодий қобилиятларини шакллантиришда самарали фойдаланиш мумкин.


Компьютер технологияларини ўқув жараёнида асосли қўллашнинг яна бир муҳим жиҳати – реал жараёнлар ва экспериментларнинг компьютер моделини яратишдан иборат. Компьютер ёрдамида маълумотларни қайта ишлаш, модель ва натижаларнинг намоиши, кўп ҳолда, қиммат турадиган экспериментал қурилмаларга бўлган эҳтиёжнинг ўрнини босади, айрим ҳолда (атом ва квант физика, яримўтказгичлар, кимё, биология, астрономия, тиббиёт каби фанларга тегишли жараёнларни моделлаштириш) эса, мазкур жараёнларни намоиш этишнинг ягона усули саналади.

Замонавий ахборот технологиялари микро ва макродунёдаги, мураккаб қурилмалар, биологик тизимлардаги ҳодиса ҳамда жараёнларни компьютер графикаси ва моделлаштиришдан фойдаланиш асосида ўргатиш, жуда катта ёки кичик тезликда содир бўладиган физик, астрономик, кимёвий, биологик жараёнларни қулай вақт ўлчамида тақдим этиш каби янги дидактик масалаларни ечишга ёрдам беради.

Шу боис, таълимда замонавий ахборот технологияларини жорий этишнинг истикболли йўналишларидан бири – ҳодиса ва жараёнларни компьютерда моделлаштиришдир. Компьютер моделлари анъанавий дарснинг таркибига ҳамоҳанг бўлиши ва ўқитувчи учун компьютер экранда, кўп эффектларни намоиш этишига, ўқувчиларнинг янги, ноанъанавий ўқув фаолиятини ташкил этишга катта ёрдам беради.

Мамлакатимизда олиб борилаётган таълим ислохатлари жараёнида замонавий ахборот-коммуникация технологиялари воситаларини таълим жараёнида қўллаш, олий таълим муассасалари профессор-ўқитувчилари ва ёш тадқиқотчиларининг жаҳон таълим ресурслари, замонавий илмий адабиётларнинг электрон манбалардан фойдаланиш шунингдек, замонавий педагогик технологияларни амалиётга жорий этиш ҳамда олий таълим муассасалари ўқув жараёнларини ахборотлаштириш тамойиллари билан боғлиқ муаммоларни ўрганиш бўйича социологик тадқиқотлар олиб бормоқда. Хусусан, пандемия шароитида Олий таълим тизимидаги вазият ҳақида бевосита таълим субъектлари ўртасида сўровнома ўтказилди. Мазкур сўровнома турли ОТМ ларининг 62 нафар педагог ходимлари ва 112 нафар талабалари ўртасида ўтказилиб, унинг натижаларини таҳлил этсак.


1. Сўровномада иштирок этган педагог-ходимларнинг ёш категориялари:



2. Сўровномада иштирок этган педагог-ходимларнинг ОТМ даги АКТдан фойдаланиш имкониятлари даражасига муносабатлари:

5. Бугунги кунда сиз фаолият юритаётган ОТМда профессор-ўқитувчиларнинг педагогик ва замонавий АКТдан фойдаланиш имкониятини қандай деб ўйлайсиз?


62 ответа





3. Иштирокчи педагогларнинг ахборот ресурс манбааларидан фойдаланишлари тўғрисида:


9. Сизнингча, ўқув жараёнида АКТни қўлланилишининг асосий мақсадлари нималардан иборат? (0-умуман таъсири йўқ, 1- паст даражада, 2-жавоб беришим қийин, 3-ўрта даражада, 4-яхши таъсир этади, 5-ижобий таъсир этади)



4. Иштирокчиларнинг ўқув жараёнида АКТ ларидан фойдаланиш мақсадлари борасидаги фикрлари:

7. Педагогик фаолиятингизда АКТдан самарали фойдаланиш бўйича маълумотларни қаердан оласиз? (жавобларнинг бирини қатъий танланг ва белги қўйинг):


62 ответа



5. Электрон таълим тизимининг айнан қандай шаклларидадан фойдаланилса мақсадга мувофиқ бўлади? деган саволга муносабатлари:

Клинический симптомокомплекс и основная причина тяжелого состояния и смерти больных при ОП обусловлена главным образом развитием тяжелой эндогенной интоксикации, зависящей от циркуляции в крови продуктов протеолитического и липолитического некроза, а также гнойного и гнилостного распада, как самой железы, так и забрюшинной клетчатки (6,8,11). Полиэтиологичность, полиморфизм клиники, трудности диагностики, большое число неудовлетворительных непосредственных и отдаленных результатов лечения диктует необходимость поиска новых более совершенных методов диагностики и эффективных способов лечения ОП не за счет расширения показаний к экстренной операции, а за счет совершенствования методов консервативной терапии (9,12). В последние годы при эндогенных интоксикациях с целью детоксикации организма стали широко применять энтеросорбцию. Но до настоящего времени не имеется убедительных данных об эффективности энтеросорбции при лечении панкреатогенной токсемии, не произведен подбор наиболее эффективных сорбентов, не определены рациональные дозировки, сроки лечения.

**Материалы и методы.** Изучены результаты лечения 73 больных с различными формами острого панкреатита в возрасте от 18 до 79 лет. На основании клинической картины заболевания, лабораторных данных и результатов инструментальных методов исследования отечная форма панкреатита обнаружена у 41 больного (легкое и среднетяжелое течение), деструктивная – у 32 больных (тяжелое течение), из них у 23 диагностирован панкреонекроз, у 9 геморрагический панкреатит. Обычно клинические признаки болезни появлялись внезапно, чаще всего после приема обильной жирной пищи, нередко с употреблением спиртных напитков. До 6 часов от начала заболевания госпитализировано лишь 18 (24,6%) больных, до 1 сут - 36 (52,1%), спустя 24 часа - 19 (26,3%). Поздняя госпитализация объясняется тем, что у многих больных в начале отсутствовали патогномичные симптомы ОП. Нередко клиника была стертой, либо симулировала другие заболевания. Возможно, поэтому врачи скорой помощи правильный диагноз установили только у 53,4% больных, у 15,7% панкреатит лишь заподозрили. В 30,9% случаев были допущены диагностические ошибки. В приемном отделении больницы, где обычно дежурили опытные хирурги, диагноз панкреатита был установлен у 87,4 % больных, а 12,6% - госпитализированы в связи с подозрением на острую патологию органов брюшной полости. У всех больных с ОП в комплексном лечении проводили энтеросорбцию. В качестве сорбента применяли разработанный Узбекским химико-фармацевтическим научно - исследовательским институтом энтеросорбент АУ-К — препарат, изготовленный на основе гранулированного активированного угля, который за счет сорбции обеспечивает эффективное связывание токсичных соединений, поступающих из крови в кишечник либо образующихся в самом кишечнике, с последующим их удалением из организма с сорбентом в составе кишечного содержимого. АУ-К не подвергается метаболическим превращениям и полностью выводится из организма в течение 36–48 ч.

В нашей практике мы впервые разработали и внедрили в практику методику применения энтеросорбента АУ-К в комплексе лечебных мероприятий по борьбе с эндогенной интоксикацией, возникающей при остром панкреатите.

Всем больным при поступлении, а также в динамике производились изучение клинических признаков интоксикации (частота пульса, дыхания, состояние кожных покровов и т.д.), определялся уровень амилазы, липазы, трипсина, лейкоцитарного индекса интоксикации (ЛИИ), индекса эндогенной интоксикации (ИЭИ), уровень молекул средней массы (МСМ), активность компонентов калликреин – кининовой системы.

**Результаты и их обсуждение.** Курс лечения энтеросорбции составлял в среднем 5-7 дней. Дальнейшее продолжение курса лечения проводилось по показаниям и обосновывалось течением болезни и биохимическими показателями. Сорбент АУ-К назначали в дозировке 1г/кг массы тела в сутки и производили прием 3 раза в день внутрь. Больным с тяжелым течением заболевания, сопровождающимся многократной рвотой и после операции сорбент в первые дни вводили через назогастральный зонд сразу же после аспирации и промывания желудка. Однократный прием 20-30 г сорбента хорошо переносился больными и не вызывал побочных явлений. Важно сохранять интервал между приемом медикаментозных препаратов и энтеросорбента. Этот период должен быть достаточным для всасывания лекарственных средств и соответствовать по меньшей мере 30- 40 мин. В ином случае энтеросорбция может нарушать фармакотерапию и вызывать нежелательные осложнения. Для компенсации увеличивали дозировку лекарств с учетом их частичной сорбции или отдавали предпочтение парентеральному способу введения препаратов.

Изучение в динамике общего состояния больных показало, что проведение энтеросорбции на фоне комплексной терапии оказывает благоприятное влияние на течение заболевания. При этом быстрее исчезали явления интоксикации, отмечалось раннее снижение интенсивности болевого синдрома, ликвидация явлений метеоризма и восстановление кишечной перистальтики. Тяжесть состояния больных острым панкреатитом, особенно деструктивных форм, в основном определялась выраженностью эндогенной интоксикации. Первым, и наиболее ранним этапом развития интоксикации являлась интоксикация специфическая, т.е. ферментативная. Об этом свидетельствовали клинические исследования, указывающие на резкое повышение в крови активности агрессивных ферментов поджелудочной железы. Было отмечено повышение активности трипсина, липазы, калликреина от 2,5 до 6 раз. Именно этими ферментами вызывается первая фаза развития острого панкреатита в виде местного отека и геморрагии, а также ряд общих явлений, связанных с ферментативным поражением жизненно-важных органов и систем. При сопоставлении биохимических данных со степенью выраженности клинических проявлений синдрома панкреатогенной токсемии выявлена прямая зависимость между тяжестью прогрессирующего течения панкреонекроза и активностью калликреин-кининовой системы. Так если при умеренной степени токсемического синдрома повышение активности калликреин-кининовой системы не выходило за пределы физиологической нормы, то при средней и тяжелой степени токсемии происходила значительная активация этой системы: в 4,6 раза повышалась активность калликреина, в 3,6 раза снижался уровень кининогена, на 23% прекалликреина. Эти данные позволяют утверждать, что тяжесть панкреатогенного токсического синдрома коррелирует с уровнем активности калликреин-кининовой системы.

Полученные данные свидетельствуют о выраженной активации калликреин – кининовой системы крови при остром панкреатите и являются критерием тяжести течения болезни. При отечной форме с быстрокупирующимся процессом показатели кининовой системы мало отличались от нормы, умеренную активность кининовой системы крови наблюдали у больных при затяжном течении заболевания, выраженную – при деструктивном панкреатите.

На 5 сутки от начала энтеросорбции отмечено снижение активности амилазы в крови в 2,4 раза, а в моче – 2,7 раза, липазы в 1,2 раза, но оно не достигало достоверных значений. Наблюдалось повышение активности ингибитора трипсина на 35 %.



Процесс нормализации показателей кининовой системы крови был более длителен при панкреонекрозе, чем при отеке поджелудочной железы и изучаемые показатели нормализовались на 16 – 18- й день от начала лечения. Некротический процесс в поджелудочной железе и забрюшинной клетчатке, как вторая фаза развития острого панкреатита возникал только на основе триптического эффекта и зависел от действия других ферментов. При этом в кровь поступало значительное количество продуктов протеолитического и липолитического переваривания элементов поджелудочной железы и других тканей, а также продуктов гнойно-гнилостного воспаления. Это выражалось достоверным повышением лейкоцитарного индекса интоксикации, индекса эндогенной интоксикации и содержания молекул средней массы. Таким образом, при некротических и гнойных формах острого панкреатита наступал второй этап в развитии интоксикации, обусловленный циркуляцией в крови указанных токсических продуктов.

Под влиянием энтеросорбции количество лейкоцитов на 5 –6 сутки уменьшилось в 1,8 раза. Уровень ЛИИ к этому сроку составил 1,09 ед, что в 2,8 раза меньше, чем при поступлении, уменьшение концентрации МСМ в 2,4 раза. При включении в комплекс лечебных мероприятий энтеросорбции с АУ-К отмечалась более отчетливая положительная динамика общего состояния больных. Побочных явлений мы не наблюдали. У некоторых больных на 3-4 сутки от начала приема сорбента появлялась склонность к запорам. Таким больным мы назначали очистительные клизмы и слабительные средства. Летальность уменьшилась на 6,7%. Оперативные вмешательства эти больные переносили легче, чем пациенты леченные традиционным способом.

**Заключение.** Таким образом, применение сорбента АУ-К является простым, эффективным и вместе с тем, доступным и физиологичным методом детоксикации, который способствует уменьшению токсической и метаболической нагрузки на основные, жизненно - важные органы, помогая в купировании синдрома полиорганной недостаточности в комплексном лечении ОП. Полученные данные позволяют считать, что энтеросорбция с АУ-К при лечении острого панкреатита имеет определенные перспективы, являясь целесообразным методом детоксикации. Она не требует особых условий и аппаратуры и может быть применена в условиях общехирургических стационаров. Ценность метода возрастает из-за его простоты, доступности и отсутствия осложнений. Энтеросорбция с использованием АУ-К, как патогенетически обоснованный метод сорбционной детоксикации может получить широкое применение в комплексном лечении больных с ОП.

### Литература:

1. Белый И.С., Десятерик В.И., Вахтангишвили Р.Ш. Деструктивный панкреатит. БПВ. Хирургия. Киев. “Здоровье”, 1986, 128 с.
2. Бойко Ю.Г. Актуальные аспекты острого деструктивного панкреатита, “Архив патологии” № 1, 1998
3. Иванов Ю.В., Чудных С.М., Ерохин М.П., Тувина Е.П. Новые подходы к фармакотерапии острого панкреатита “Лечащий врач” № 1, 2000.
4. Назиров Ф.Г., Ваккасов М.Х., Акилов Х.А., Мамадумаров Т.С. Пути улучшения хирургического лечения деструктивного панкреатита. «Вестник хирургии».2004.- Т-163, №1. с. 51-55.
5. Охлобыстин А.В., Ивашкин В.Т. Алгоритмы ведения больных острым и хроническим панкреатитом. Consilium medicum., том 2 № 7, 2000 г
6. Ташев Х.Р., Аваков В.Е., Сафаров Х.О. Эндогенная интоксикация у больных с острым распространённым перитонитом и проблемы её коррекции. / Хирургия. 2002. №3. С.38-41.
7. Цымпилова Т.Д., Мавродий В.М., Олейник Н.Н., Годлевский Л.С. К патогенезу острого экспериментального панкреатита.”Вестник научных исследований” № 5,
8. Шапкин Я.В. Полиорганная недостаточность в послеоперационном периоде. / Хирургия. 1999. №12. с.46-49.
9. Ghattas Khoury, Pancreatitis. Etiology, pathogenesis, natural history, and treatment of biliary acute pancreatitis. In: The Pancreas. Oxford: Blackwell Science 1998; 521-47.
10. Ranson J.H.S. Acute pancreatitis Current Surgical Therapy. J.L. Cameron Ed., St.Louis, Mosby, 1995; 408-18.
11. Sarles H. Pancreatitis. Arnette, Paris, 1991; 424.
12. Steinberg W., Tenner S. Acute pancreatitis. N Engl J Med 1994; 330 (17): 1198-210.
13. Widmaier U., Rau B., Beger H.G. Surgical treatment of necrotizing pancreatitis. Анн. хир. гепатол. 1997; 2: 47-57.

### \*Р Е З Ю М Е.

#### ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЭНТЕРОСОРБЦИИ В КОМПЛЕКСНОМ ЛЕЧЕНИИ ОСТРОГО ПАНКРЕАТИТА

*М.И.Умархўжаева., Х.Т.Мусаиайхов., О.О.Эшонхўжаев., И.Й.Садикова.  
Андижанский государственный медицинский институт.*

**Введение.** острый панкреатит занимает одно из первых мест по распространенности среди всех острых заболеваний органов брюшной полости. Несмотря на все достижения остается высокой летальность. Одной из отягощающих течение заболевания причин является развивающаяся эндогенная интоксикация.

**Материалы и методы.** Авторы в комплексе лечения острого панкреатита применили у 73 больных в возрасте от 18 до 79 лет энтеросорбцию углеродным сорбентом «АУ-К».

**Результаты и их обсуждение.** В результате лечения быстрее исчезали явления интоксикации, ликвидация явлений метеоризма, восстановление кишечной перистальтики. Количество лейкоцитов на 5 –6 сутки уменьшилось в 1,8 раза, уровень ЛИИ к этому сроку составил 1,09 ед, что в 2,8 раза меньше, чем при поступлении. На 5 сутки от начала энтеросорбции отмечено снижение активности амилазы в крови в 2,4 раза, а в моче – 2,7 раза. Наблюдалось повышение активности ингибитора трипсина на 35 %, уменьшение концентрации МСМ в 1,8 раза ( $p < 0,05$ ).

**Выводы.** Применение энтеросорбции позволило значительно снизить смертность при данной патологии, улучшить как ближайшие, так и отдаленные результаты лечения.

**Ключевые слова:** Энтеросорбция, острый панкреатит, эндогенная интоксикация, полиорганная недостаточность.

**\*R E S U M E.**

**PROSPECTS OF USE OF INTESTINAL CLARIFICATION  
IN COMPLEX TREATMENT OF THE ACUTE PANCREATITIS**

*M.I.Umarkhujaeva., H.T.Musashajhov., O.O. Eshonkhujaev., I.Y.Sadikova.  
The Andizhan State medical institute.*

**Introduction.** the acute pancreatitis borrows one of the first places on prevalence among all acute diseases of bodies of a belly cavity. Despite of all achievements there is high a death rate. One of burdening current of disease of the reasons is developing internal the intoxication.

**Materials and methods.** Authors in a complex of treatment of a acute pancreatitis have applied at 73 patients in the age of from 18 till 79 years internal clarification by carbon sorbent "AU-C".

**Results and their discussion.** As a result of treatment the phenomena of an intoxication, liquidation of the phenomena a swelling of intestines, restoration of intestinal activity faster disappeared. The quantity of leukocytes has decreased for 5-6 day in 1,8 times, the level leukocytes to this term has made an index of an intoxication 1,09 ed., that in 2,8 times it is less, than at receipt. For 5 day from the beginning of intestinal clarification decrease in activity amylase in blood in 2,4 times, and in urine - 2,7 times is marked. Increase of activity inhibitions tripsin on 35 %, reduction of concentration MCM in 1,8 times ( $p < 0,05$ ) was observed.

**Conclusions.** Application of intestinal clarification has allowed to lower considerably death rate at the given pathology, to improve both the nearest, and the remote results of treatment.

**Key words:** Intestinal clarification, a acute pancreatitis, an internal intoxication, insufficiency of many bodies

## ЦЕМЕНТ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ УЧУН МАХАЛЛИЙ БАЗАЛТ ХОМАШЁСИДАН ЧАНГТУТГИЧ ФИЛЬТРЛАРИ

**З.А. Умирзақов**

*Фарғона политехника институти*

*“Био ва иншоотлар қурилиши” кафедраси таянч докторанти.*

**Аннотация:** Цемент ишлаб чиқариш ҳавони энг катта техноген ифлослантирувчи соҳалардан бўлиб, бу жараёни тахлилий ҳолати келтирилган. Чанг йиғиш мосламасининг конструкциялари, ҳолати ва мато филтрларини қайта ишлаш усуллари, ишлатилган филтр материаллари ҳақида маълумотлар келтирилган. Республикада ишлаб чиқарилаётган базальт ровингининг физик, механик ва давомий хоссаларини ўрганиб, чангтутгич энгли филтрлар учун ундан фойдаланиш мумкинлигини асослашга ҳаракат қилинган. Чанг ва газ оқимидан ҳаво тозалаш мосламаларига ўрнатилган базальт матодан энгли филтрларнинг ҳолатини ўрганиш бўйича экспериментал иш натижалари келтирилган. Стандарт ўлчам, дизайн ва керакли микдордаги мато энгли филтрлар учун танланди. Техник ва иқтисодий сабабларга кўра, филтрни регенерация усули ва режими мавжуд, бунинг натижасида техник хизмат кўрсатиш учун қиммат тўхташсиз филтрларнинг ишлаш муддати сезиларли даражада ошади.

**Калит сўзлар:** цемент ишлаб чиқариш, чанг йиғувчилар, энгли филтрлар, регенерация, чанг ва газ оқими, чангни тозалаш, ҳаво тозалагичлар, филтрлар учун базальт матолар, экология.

Ўзбекистон қурилиш индустриясини ривожлантирилишига ҳозирги кунда катта эътибор қаратилиб, йил сайин қурилишлар ҳажми ошиб бормоқда. Бунинг натижасида республикамиз ҳудудида қурилиш материаллари ва буюмлари маҳсулотларини ишлаб чиқариш корхоналари қурилиб, фойдаланишга қабул қилинмоқда. Ушбу корхоналарни фаолияти давомида атроф-муҳитга ишлаб чиқаришдан ҳосил бўлган турли хилдаги газ ва чанглар руҳсат этилган меъёрлардан ортиқча ташланиш ҳолатлари кузатилмоқда. Бундай ҳолатлар давом этиши натижасида атмосфера ҳавосининг ифлосланишига олиб келади.

Расмий маълумотларга кўра [1], ҳозирги вақтда Ўзбекистон Республикасида 22 та цемент ишлаб чиқариш заводи йилига қарийиб 11 млн. тонна цемент ишлаб чиқарилмоқда. Сўнгги 4 йил ичида қурилишни ривожланиши цементга бўлган талабни ҳам ички бозорда, ҳам ташқи бозорда кескин ошириб юборди. Агарда амалдаги заводларнинг ўртача йиллик ишлаб чиқариш ҳажмини ҳисобга олиб айтилса, яна қарийиб 20 тадан ортиқ цемент ишлаб чиқариш заводлари қурилиши лозим. Фарғона вилоятида бугунги кунда 7 та завод цемент ишлаб чиқармоқда, 3 тасида қурилиш ишлари тамомланиш арафасида ва 2 тасида қурилиш ишлари бошланган. Бу заводлар фаолиятида ажраладиган газ-чанг чиқиндиларини тозалаш учун ўтган асрни 80–йиллардан буён мураккаб филтрли тизимлар қўлланилади. Уларни тузилиши, шакли, конструкциялари ва ишлаш принциплари дунё бўйича такомиллаштирилиб келинмоқда. Масалан, мавжуд чангтутгич филтрлари шакли бўйича турли конфигурация ва параметрларга эга. Иш вазифасини бажариши бўйича турли принципларга эга. Энгли филтрларнинг матоси турли материаллардан бўлиб, улар доимий такомиллаштириб келинмоқда.

Бунинг учун ишлаб чиқариш корхоналари учун арзон ва самарали чанг ва газ ушлаш қурилма (ЧГУК) ларини қўллашимиз лозим бўлади.

Ушбу қурилмани барча турдаги ҳавони ифлослантирувчи ишлаб чиқариш корхоналари учун тадбиқ қилиш мумкин. Бизнинг изланишлар асосан цемент ишлаб чиқариш корхоналарида қўлланиладиган синтетик матодан ясалган энгли филтрларни базальт матосидан таёрланган энгли филтрларга алмаштиришга қаратилган.

Ўзбекистон Республикасининг Президентининг 23.05.2019 йилдаги ПҚ-4335 сонли “Қурилиш материаллари саноатини жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-

тадбирлар тўғрисида”ги қарорида замонавий қурилиш материаллари саноатидаги таркибий ўзгартиришларни янада чуқурлаштириш юзасидан тизимли ишлар амалга оширилиши кўрсатилган. Қарори билан 2025 йилгача Республика бўйича ишлаб чиқариладиган цемент ҳажми 21 млн. тоннага етказиш вазифаси қўйилган. Бундан ташқари қарорнинг тегишли бандларига асосан базальтдан тайёрланадиган маҳсулотлар бўйича-3 баробарга ва цемент бўйича-2 баробарга ошириш белгилаб қўйилган.

Қарорнинг

- 1–иловасига кўра базальт қазиб олиш ва қайта ишлаш ҳажми 293,5 минг тонна 2025 йилга қадар;
- 2–иловасига кўра энергия тежамкор технология асосидаги, шу жумладан юқори маркали ва махсус турдаги цемент ишлаб чиқариш 20260 минг тонна 2025 йилга қадар;
- 3–иловасига кўра базальт асосидаги материалларни ишлаб чиқаришни ташкил этиш учун 15 млн. долл. истикболли лойиҳа 2021 йилга қадар;
- 8–иловасига кўра “Базальт асосидаги қурилиш маҳсулоти (арматура, иссиқликни сақловчи материаллар ва бошқалар)нинг таркибларини ишлаб чиқиш ва ушбу маҳсулотларни синовдан ўтказиш мақсадида уларнинг тажрибавий намунасини ишлаб чиқариш” йўналишида илмий тадқиқотларни ривожлантириш ва уларнинг самарадорлигини ошириш каби муҳим вазифалар бажарилиши белгиланган [2].

Ушбу изланишлар чанг ва газ ушлаш қурилмаси қурилиш материаллари ва буюмлари ишлаб чиқариш жараёнлари давомида ҳосил бўлган чанг ва газларни атроф-муҳитга таъсирини камайтириш ҳамда энг асосийси энергия сарфини камайтириш натижасида, юқори иқтисодий самарадорликка эришиш вазифасини бажаради. Қурилма орқали ишлаб чиқаришдан ҳосил бўлган чанг ва газлар ушлаб қолинади ҳамда тозаланган ҳаво турғун манбалар орқали атмосфера ҳавосига чиқариб юборилади. Мамлакатимизда табиатни муҳофаза қилиш ва экологик хавфсизлик муаммолари алоҳида аҳамият касб этади. Бу аҳоли зич жойлашган минтақалардаги қониқарсиз, инқирозли экологик вазият ва унинг ўзгаришидаги салбий тенденциялар билан белгиланади. Юқоридагилар асносида, цемент ишлаб чиқариш саноатида қўлланилаётган синтетик матоларни, импорт ўрнини босувчи, базальт толасидан тайёрланган матога алмаштиришни ва шу орқали ресурс тежамкорликка эришишни асосий мақсад қилиб олинган.

Бу мақсадга эришиш учун қуйидаги вазифалар қўйилган:

- энгли фильтрларни юқори ҳароратга чидамли материалларини ва уларни регенерациясини излаш;
- чанг ва газ ушлаш қурилмасини конструкциясини такомиллаштириш;
- юқорида белгиланган омиллар асосида қурилма ва энгли фильтрлар ичидаги чанг-газ-ҳаво оқим динамикасини ўрганиб, натижа ва хулосаларини амалий ишда қўллаш [3].

Тадқиқотни олиб боришда аэродинамика, физика, кимё, математик статистиканинг қонун ва қоидалари, экспериментларни математик режалаштириш усуллари ҳамда мавжуд меъёрий ҳужжатларда белгиланган усуллардан фойдаланилди [4]. Илмий янгилик сифатида қуйидагилар келтирилган:

- чангли ҳавони қуруқ усулда тозаловчи энгли фильтр энгини базальт толасидан тайёрланган матони қўллаш орқали такомиллаштирилган;
- энгли фильтрнинг аэродинамик режимлари тадқиқ қилинган;
- фильтрловчи материаллар юзаларининг турли ўлчамларида чангли газлар тезликлари аниқланган;
- энгли фильтрнинг қаршилик коэффициенти фильтрловчи материаллар юзасининг турли қийматлари учун аниқланилган ва тўғрилаш коэффицентлари киритилган;
- энгли фильтрга берилаётган чангли ҳаво тезлигига боғлиқ ҳолда аэродинамик қаршиликлар аниқланган;



- энгли фильтр аэродинамик қаршилигининг тозалаш самарадорлиги ва энергия истемолига таъсири тадқиқ қилинган;
- математик режалаштириш усулини қўллаб энгли фильтрнинг мақбул параметрлари асосланган;
- олинган натижалар асосида чангли газларни тозалашнинг самарали усули ва қурилмаси такомиллаштирилган.


Натижа сифатида эса ушбулар келтирилган:

- фильтрловчи материал юзларининг турли ўлчамларида газ ҳаракат тезликлари реологик хоссалари кўрсатилган;
- энгли фильтрнинг қаршилиқ коэффиценти фильтрловчи материаллар юзасининг турли қийматлари учун математик тенглама ва коэффицент ишлаб чиқилган;
- чангли ҳавони қуруқ усулда тозаловчи энгли фильтрнинг энгини базальт толасидан тайёрланган матони қўллаш орқали такомиллаштирилган;
- фильтр матосининг юқори ҳароратга чидамлилиги оширилганлиги туфайли совутишдаги энергия сарфининг камайиши илмий асосланган.

Ишлаб чиқариш базаси сифатида «TERRANOVA CEMENT» МЧЖ ва «ФАРҒОНА ИЗЛАНИШ ИХТИРО ТЕХНОЛОГИЯ» МЧЖлар хизмат қилиб келишмоқда.

Тадқиқот усули уч йўналишда давом этди: 1-цемент чангини дисперстик таркибининг параметрларини ўрганиш; 2-базальт ровингидан мато тўқиб, иккала юзасига базальт момиғини игна бостириш усулида қоплаб, у матони чангсиз ва чангли аэродинамикасини ўрганиш; 3-базальт матодан ясалган энгли фильтрни физик-механик ва кимёвий хоссаларини белгилаб, самарасини аниқлаш [5].

Дастлабки босқичда «TERRANOVA CEMENT» МЧЖ мисолида ишлаб чиқариш батафсил ўрганилиб, атрофлича таҳлил қилиб чиқилди. Сўнг барча амалдаги чанг тутгичлар таснифи таҳлил қилинди (Расм 1). Ушбу таҳлиллардан қилинган хулоса шу бўлдики – қуруқ усулдаги технологияда энгли чангтутгичларни қўллаш энг мақбуллигини кўрсатди. Бирок, барабанлардан чиқадиган тайёр цементни ҳарорати 1200<sup>0</sup>С дан юқори бўлиб, у ердан ажровчи чанг-газ қоришмани ҳарорати шунга тенг ва фильтрларга келгунча 180-220<sup>0</sup>С гача пасайтирилиши шарт, чунки қўлланиб келаётган синтетик мато ортик ҳароратга чидамай қўяди. Базальт материални жозибадорлиги–унинг ҳарорат диапазони - 250<sup>0</sup>С дан +850<sup>0</sup>С гача.



Расм 1. Chanг тутуш аппаратларини классификацияси.

Жадвал 1 да “TERRANOVA CEMENT” МЧЖ да қўлланилаётган филтрлаш курилмаларини техник таснифлари келтирилган.

**Жадвал 1.**

Курилмалар	ФР-1	ФР-2	ФР-3
Модуллар сони, дона	1	1	1
Филтрловчи юзанинг майдони, м <sup>2</sup>	4550	2060	1310
Габарит ўлчамлари, м	8x15x13	7x13x9	6x10x10
Вазни, т	71,5	37,5	27,5
Модулдаги секциялар сони, дона	20	22	14
Секциядаги ячейкалар сони, дона	65	78	78
Узунлиги, L мм	7000	3000	3000
Диаметри, d мм	165	135	135
Енг узунлигини диаметрга нисбати	42-1	22-1	22-1
Филтр материали	Полипропилен синтетик мато		

Тўлиқ курилмадаги филтрлар сони:  $(20 \times 65) + (22 \times 78) + (14 \times 78) = 4108$  дона, буларга зарур бўлган матони умумий майдони эса  $7920 \text{ м}^2$ . Баъзи қувватлироқ заводларда бу рақам  $10\,000 \text{ м}^2$  гача боради. Барча амалдаги заводларни курилмаларига бир марталик жихозлаш (заправка) учун  $200\,000 \text{ м}^2$  матога эҳтиёж мавжуд. Йилига бундай жихозлаш камида икки марта амалга оширилади. Агар 2025 йилга цемент ишлаб чиқариш хажми юқорида келтирилганидек 21 млн. тоннага етказилса заводлар сони 40 тагача боради ва уларни эҳтиёжига  $16 \text{ млн. м}^2$  енг матоси зарур бўлади [6].

Филтрланувчи юза  $F_{\phi}$  куйидаги ифода билан аниқланади (топилади):

$$F_{\phi} = \left[ \frac{(V_n - V_p)}{60q} \right] + F_p, \quad (1)$$

бу ерда  $V_n$  – тозаланишга келаётган газ хажми, м<sup>3</sup>/с;  
 $V_p$  – матони регенерация қилувчи ҳавони хажми, м<sup>3</sup>/с;  
 $q$  – филтрлаш пардасидаги бўлинган газ юкламаси, м<sup>3</sup>/(м<sup>2</sup>·мин);  
 $F_p$  – регенерация учун ўчириладиган филтрлар юзаси 1 соат мобайнида, м<sup>2</sup>.  
 $F_p$  ифодаси боғлиқлик орқали куйидагича ҳисобланади:

$$F_p = N_c \cdot F_c \cdot \tau_p \cdot m_p, \quad (2)$$

бу ерда  $N_c$  – филтрдаги секциялар сони, дона;  
 $F_c$  – секциядаги филтрловчи юза, м<sup>2</sup>;  
 $\tau_p$  – секция регенерация вақти, сек;  
 $m_p$  – бир соат давомидаги регенерациялар сони.

Импульсли пуфлашда регенерация жараёни қисқа муддатлиги муносабати билан  $F_p$  ҳисобга олинмаслиги мумкин.

Енгли филтрлар учун филтрловчи пардадаги  $q = 0,3$  дан  $6 \text{ м}^3/(\text{м}^2 \cdot \text{мин})$  атрофида ўзгариб туради. Бундай ўзгариш турли омилларга боғлиқ бўлади, яъни

$$q = q_n \cdot c_1 \cdot c_2 \cdot c_3 \cdot c_4 \cdot c_5, \quad (3)$$

бу ерда  $q_n$  – бўлинган меъёрий юклама (махсус жадвалдан топилади ва цемент учун  $2,0 \text{ м}^3/(\text{м}^2 \cdot \text{мин})$ );

$c_1$  – филтрловчи унсурларни регенерацияланиш қобилятини ҳисобга олувчи коэффициент;

$c_2$  – чанг концентрациясини бўлинган меъёрий юкламага таъсирини ҳисобга олувчи коэффициент, шакл 1 дан топилади;


$c_3$  – газдаги чангни дисперсли таркибини таъсирини ҳисобга олувчи коэффициент;

$c_4$  – газ ҳарорати таъсирини ҳисобга олувчи коэффициент;

$c_5$  – тозалаш сифатига талабларни ҳисобга олувчи коэффициент.

Базавий вариант сифатида импульсли пуфланувчи матодан тайёрланган енгли филтрлар учун  $c_1 = 1$ . Нотўқима матоларга 5 – 10 % қўшилади, яъни 1,05 – 1,1 %. Агар регенерация

жараёнида тескари пуфлаш билан бирга силташ ёки чайқалиш усулида қўлланса  $c_1 = 0,70 - 0,85$  атрофида. Қалинроқ ва зич матолар учун ва фақат тескари пуфлаш қўлланганда  $c_1 = 0,55 - 0,70$ . Фильтрланиш назариётида “тозалаш самараси” деган мазмунга тескари “ўтиб кетиш” тушунчаси мавжуд.



**Расм 2.** Коэффициент  $c_2$  ни филтрга киришдаги чанг концентрацияси  $c_{ex}$  дан боғлиқлиги.

Фильтрлаш ускуналарини лойиҳалаш жараёнида тозалаш жараёни ҳисобланмайди, улар ишлаб чиқарувчи заводларни каталогларида келтирилади ва шу миқдорлар баҳоловчи сифатида кўрилади. Фильтрни ишлатишда “ўтиб кетиш” миқдори вақт ўлчамида доимий бўлиб келмайди. Регенерация цикли оралиғида чанг тўпланиши билан “ўтиб кетиш” максималликдан минималликга тушади. Умуман қўллаш даврида (бир неча минг циклда) “ўтиб кетиш” пасайиб боради ва матони эскириши туфайли яна ошиб кетади. Чанг концентрацияси (коэффициент  $c_2$ ) филтрлаш циклини давомийлигига таъсирини ўтказди. Концентрация 1 дан  $30 \text{ г/м}^3$  гача бўлган ораликда ўзгариши кўринади (расм 2). Бундан ортиқ кўрсаткичларда чанг зарраларининг каогуляцияси кучайиб боради ва агломерат шаклида филтрларда тугилмай бункерларга тўкилади. Чангнинг дисперс ҳолатини ҳисобга олувчи коэффициент  $c_3$  ни ўлчамлари жадвал 1 да келтирилган.

**Жадвал 2.** Коэффициент  $c_3$  ни зарра диаметрига боғлиқлиги.

$d_m, \text{мкм}$	< 3	3 – 10	10 – 50	50 – 100	> 100
$c_3$	0,8	0,9	1,0	1,1	1,3
N	1 – 5	6 – 10	11 – 15	16 – 20	> 20

Газ ҳароратини таъсирини ҳисобга олувчи коэффициент  $c_4$  ни ўлчамлари жадвал 2 да келтирилган.

**Жадвал 3.** Коэффициент  $c_4$  ни газ ҳароратига боғлиқлиги.

$t, ^\circ\text{C}$	20	40	60	80	100	120	140	160
$c_4$	1	0,9	0,84	0,78	0,75	0,73	0,72	0,7
N	1 – 3	4 – 7	8 – 10	11 – 14	15 – 18	19 – 22	23 – 27	> 28

Тозалов сифатига қўйиладиган талабларни ҳисобга олувчи коэффициент  $c_5$  тозаланган газдаги чангни миқдори (концентрацияси) билан баҳоланади. Чиқиб кетувчи газлардаги чангни миқдори  $30 \text{ мг/м}^3$  бўлганда  $c_5 = 1$  га тенг,  $10 \text{ мг/м}^3$  бўлганда  $c_5 = 0,95$  га тенг.

Тозалаш жараёнини самараси ва энергетик сарф–харажатлар айнан филтрловчи қатлам, яъни мато ва автокатлам (матого ўрнаган чанг қатлами) ҳосил қиладиган қаршиликка боғлиқ.

Энгли филтрлар танлашнишда муҳими филтрларни энергетик сарфини белгиловчи–кутилаётган гидравлик қаршиликка баҳо бериш.

Фильтрнинг гидравлик қаршилиги (Па ўлчамида) корпус қаршилиги  $\Delta P_k$  билан филтрловчи парда қаршилиги  $\Delta P_n$  ларни йиғиндисидан иборат:

$$\Delta P_{\phi} = \Delta P_{\kappa} + \Delta P_{\pi}, \quad (4)$$

Умумий ҳолатда гидравлик қаршилик аппарат корпуси қаршилик коэффициентини газни кириш бўғзи (патрудкаси) даги тезлигига нисбати  $\xi_{\kappa}$  билан баҳоланади:

$$\xi_{\kappa} = \Delta P_{\kappa}^2 / (\vartheta_{\text{вх}}^2 \cdot \rho_{\Gamma}), \quad (5)$$

бу ерда  $\vartheta_{\text{вх}}$  – газни кириш бўғзидаги тезлиги, м/с.

Фильтрлар тузилмаси лойиҳаланишда  $\xi_{\kappa}$  миқдори одатда 1,5–2,0 га тенг қабул қилинади.

Фильтрловчи парданинг гидравлик қаршилиги пардани ўзи ҳосил қилган босим ( $\Delta P'_{\pi}$ ) ва пардага ўрнаган чанг ҳосил қилган босим ( $\Delta P''_{\pi}$ ) ларни йиғиндисини ташкил қилади:

$$\Delta P_{\pi} = \Delta P'_{\pi} + \Delta P''_{\pi}, \quad (6)$$

$\Delta P'_{\pi}$  ни (Па ҳисобида) қуйидаги ифода орқали ҳисоблаш қулайлик келтиради:

$$\Delta P'_{\pi} = K_{\pi} \cdot \mu \cdot \vartheta^n, \quad (7)$$

бу ерда  $K_{\pi}$  – фильтрловчи парда ыаршилигини ифодаловчи коэффициент, м<sup>-1</sup>;

$\mu$  – газни динамик чщзилувчанлиги, Па·с;

$\vartheta$  – филтрланиш тезлиги, м/с;

$n$  – газни пардадан ўтиш тартибига боғлиқ кўрсаткич даражаси (ламинар ҳолат учун  $n = 1$ , турбулент ҳолат учун  $n > 1$ ).

$K_{\pi}$  коэффициенти экспериментал йўл билан аниқланади. Цемент чангини тутиб қоладиган медиан диаметри 10–20 мкм бўлган синтетик (лавсан) матолар учун  $K_{\pi} = (1100 - 1500) \cdot 10^9 \text{ м}^{-1}$  га тенг. Зичроқ матолар учун айнан шу чанглар учун  $K_{\pi}$  1,2...1,3 баробарга ошиб боради. Бироқ, чангда намлик ўрин эгаллаган ҳолда юқорида келтирилган коэффициент кўрсаткичлари эхтимол ошиши назарда тутилмайди.

Пардага ўрнаган чанг ҳосил қилган қаршилик қуйидаги тенглама орқали ҳисобланади:

$$\Delta P''_{\pi} = \mu \cdot \tau \cdot c_{\text{вх}} \cdot \vartheta^2 \cdot K_1, \quad (8)$$

бу ерда  $\tau$  – филтрлаш циклини давомийлиги, с;

$c_{\text{вх}}$  – филтрга киришдаги чанг концентрацияси, кг/м<sup>3</sup>;

$K_1$  – чанг қатламини қаршилик қаршилик параметри, м/кг.

$K_1$  ни қиймати чангни хоссаларига ва пардада ушланиб қолган чанг қатламига боғлиқ бўлади. Зарраларнинг медиан диаметри  $d_m = 12-20 \text{ мкм}$  бўлганда  $K_1 = (6,5 - 16) \cdot 10^9 \text{ м/кг}$  бўлади. Формула (8) ёрдамида чанг қатламини белгиланган гидравлик қаршилигида филтрлаш циклини давомийлигини топиш мумкин:

$$T = \Delta P''_{\pi} / (\mu \cdot c_{\text{вх}} \cdot \vartheta^2 \cdot K_1), \quad (9)$$

Енгли филтрларни умумий қаршилиги 2500 Па дан ва пардадаги чанг қатламини қаршилиги 600 – 800 Па дан ошмаслигини инобатга олишимиз лозим бўлади.

Хулоса. Шу ҳолатдаги қаршиликни “қолдиқ қаршилик” деб юритилади. Бу ҳолатда қатор регенерациялардан кейин белгиланган миқдорда чанг қолади ва “мувозанат” деб аталадиган ҳолат бўлади. Лекин қолдиқ чанг миқдорига яна кўп сабаблар таъсир қилиши мумкин. Шунинг учун ҳам қолдиқ қаршилик регенерациядан сўнг керакли кенг чегараларда ўзгариши мумкин [7]. Гидравлик қаршиликни ҳисоблаганимиздан сўнг қатор параметрларга эга бўлган аэродинамик қаршиликларни экспериментнинг математик режалаш усулида ҳисобладик. Ҳисоблов натижаларининг хажмини ушбу мақолага сиғдириб бўлмаслиги туфайли, CONMECHYDRO–2021 нинг тахририятини ижозати билан иккинчи босқичга тақдим қилишни режалаштирдик.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. [www.uzsm.uz](http://www.uzsm.uz)

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 23 майдаги ПҚ-4335-сон «Қурилиш материаллари саноатини жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги қарори.

3. Абдуллаев И.Н., Умирзаков З.А. Оптимизация конструкции пылеуловителей цементного производства. Тошкент темир йўл мухандислари институти "Қурилишда иновацион технологиялар" Республика илмий-амалий конференцияси материаллари, 169-170 бетлар.

4. ГОСТ 31826-2012. Оборудование газоочистное и пылеулавливающее. Фильтры рукавные. Пылеуловители мокрые. Требования безопасности.–Москва: Стандартинформ, 2019.–С.27.

5. Абдуллаев И.Н., Умирзаков З.А. Development and research of an effective dust collector for cleaning gas streams from fine dust from cement production. "International Journal of Economic Growth and Environmental Issues" Volume:8, Issue:3, October 2020, 59-62 p.

6. Абдуллаев И.Н., Умирзаков З.А. Research on the operation of bag filters for dust and gas cleaning in cement production (on the example of factories in the ferghana region of the republic of Uzbekistan). «The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research» (TAJIIR) SJIF-5.498, DOI-10.37547/tajir, Volume 2 Issue 11, 2020

7. И.Н. Абдуллаев, Э.М. Юнусалиев, Б.К. Рахманов, З.А. Умирзаков Оптимизация конструкций рукавных фильтров (на примере цементных заводов ферганской области). Современные ресурсосберегающие материалы и технологии: перспективы и применение : материалы Международного симпозиума. – Новосибирск : НГАСУ (Сибстрин), 2020. – 283, [1] с. ISBN 978-5-7795-0923-7. стр 212-216.



## ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН – ЯНГИ ТАЪЛИМ: ФИКР ВА МУЛОҲАЗАЛАР, ИСТИҚБОЛЛАРИ

*Аминжон Мавлянов*

*(ф.-м.ф.н., доцент)*

*Уринбаев Сагинбай*

*(катта ўқитувчи)*

*Астрахань давлат техника университети*

*Тошкент вилояти филиали.*

Олий таълим муассасаларида таълим сифатини тубдан такомиллаштириш, уларнинг мамлакатда амалга ошириладиган ислохотларда фаол иштирокини таъминлаш, шунингдек, 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг 5 та устувор йўналиши бўйича **Ҳаракатлар стратегиясида** асосий вазифалар сифатида таълим жараёнини такомиллаштириш бўйича таклифлар тайёрлаш, инновацион ва технологик ғояларни ҳар томонлама ривожлантириш учун зарур шарт-шароитлар яратиш, ўқув машғулотларини таълим оловчиларни инновацион фикрлашга йўналтирадиган ўқитиш технологиялари ва интерфаол усулларни жорий этиш асосида ташкил этиш, асосий эътиборни таълим оловчиларнинг мустақил таълим олиши билан боғлиқ механизмларни амалга оширишга қаратиш қаб ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 21 сентябрдаги **“2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”**ги ПФ-5544-сон фармонида илм-фан ва техника ютуқларини кенг қўллаган ҳолда иқтисодиёт тармоқларига, ижтимоий ва бошқа соҳаларга замонавий инновацион технологияларни жорий этиш, мамлакатимизнинг жаҳон цивилизацияси етакчилари қаторига кириш йўлида сифатли илгариланишни таъминлайдиган замонавий инновацион ғоялар, ишланмалар ва технологияларни ишлаб чиқишга ҳамда таълим сифатини ошириш, илмий тадқиқотларнинг илмий салоҳияти самарадорлигини ошириш, натижаларини кенг жорий этиш учун таълим, илм-фан ва тадбиркорликни интеграция қилишнинг таъсирчан механизмларини яратиш, ўқув жараёнига янги вариатив таълим дастурларини, инновацион педагогик технологияларни жорий этиш орқали таълим муассасаларида ўқитиш сифатини янада яхшилашга алоҳида эътибор қаратилган.

Албатта, республикамизнинг ҳар томонлама ривожланиши **таълим сифатига боғлиқ**. Бугунги кунда таълимнинг сифат ва самарадорлигини ошириш энг долзарб масалалардан бири бўлиб қолмоқда. Инновацион технологияларнинг жорий этиладигани таълим сифатини ошириш, илм-фаннинг энг сўнги ютуқларини амалиётга жорий этиш орқали ижодкор, касб-ҳунарли, мустақил фикрлайдиган, ташаббускор ва тадбиркор, ўз жавобгарлигини ҳис этадиган ёшларни тайёрлаш вазифаларини амалга оширишни тақозо этади. Ушбу вазифаларни самарали ҳал этиш таълим жараёнидаги муаммолар, уларни бартараф этиш йўллари аниқлаш ва истиқболларини белгилашни назарда тутати ҳамда қуйидаги вазифаларни амалга ошириш келажакда албатта таълим сифатини оширишга хизмат қилади;

- ўқув дастурлари структурасини оптималлаштириш ва такомиллаштириш;
- фан ва соҳалардан келиб чиққан ҳолда фан, техника, технология ва ишлаб чиқаришнинг энг сўнги ютуқларини ўзида акс эттирган ўқув ва услубий қўлланмаларнинг янги авлодини яратиш;
- ўқув жараёнини ташкил этиш, бошқариш, лойиҳалаш ва моделлаштириш механизмларини ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий этиш;
- ўқув машғулотларини “Таҳлил-Муаммо-Ечим-Натижа” структурали кластер асосида ташкил этилишини йўлга қўйиш;
- педагогларнинг ўз устида ишлаш механизмларини такомиллаштириш;

- таълим олувчиларнинг касбий сифатлари (мустақиллик, ижодкорлик, тадбиркорлик, ташаббускорлик) ҳамда фикрлашнинг алгоритмик усуллари (тахлил қилиш, солиштириш, таққослаш, классификациялаш, умумлаштириш, хулоса чиқариш, амалиётга жорий этиш каби)ни ҳисобга олган ҳолда уларнинг малака талабларини ўзлаштирганлик даражаларини аниқловчи мезонлар ва кўрсаткичларни ишлаб чиқиш;

- илмий-тадқиқот ишлари билан шуғулланувчилар фаолиятидаги турли муаммо, қийинчилик ва тўсиқларнинг олдини олиш мақсадида диссертация структурасини оптималлаштириш;

- таълим олувчиларнинг билимларини баҳолаш тизими такомиллаштириш.

Ушбу вазифаларни амалга ошириш билан қуйидагиларга эришишимиз мумкин:

**Биринчидан**, ўқув дастурлари структураси қайта кўриб чиқилади. Унга ўқув жараёнини лойиҳалаш, мустақил таълим боби киритилиб, барча мустақил таълим шакллари (семинар, лаборатория ва амалий ишлар каби) ўтказилади.

**Иккинчидан**, таълим олувчиларнинг ўқув-билиш компетенциясини, мустақил фикрлаш ва ижодий қобилиятларини ривожлантириш мақсадида фанлар ўртасидаги интеграцияни йўлга қўйишга йўналтирилган, педагог маърузаларини амалиёт билан боғлайдиган, фан, техника, технология ва ишлаб чиқаришнинг энг сўнгги ютуқлари, янгиликларини ўз ичига оладиган ўқув ва услубий қўлланмаларнинг янги авлоди яратилади. Ҳар бир ўтиладиган фан – ҳаёт, турмушдаги янгиликлар ва ўзгаришлар, воқеа ва ҳодисалар, жараёнлар билан боғлиқ ҳолда ўтилиши амалга оширилади. Албатта, бунда таълим олувчиларнинг фанга бўлган мотивацияси, педагогга бўлган ҳурмати, келажакка бўлган ишончи ўсади ва такомиллашади. Фанлардан соҳалардан келиб чиқиб, масалан, физика бўйича: тиббиёт-физикаси, транспорт физикаси, енгил саноат-физикаси каби ўқув ва услубий қўлланмалар яратилади. Афсуски, бундай қўлланмалар бугунги кунда деярли йўқ.

**Учинчидан**, ўқув жараёнини ташкил этиш, бошқариш, лойиҳалаш ва моделлаштириш механизмларини такомиллаштирилади. Бу ўз навбатида ўқув жараёни сифати ва самарадорлигини оширишга хизмат қилади. Фанлардан ўтиладиган мавзулар лойиҳаланиб, модулларга ажратилиб, сўнгра муаммоли ўқитиш технологиялари асосида таълим олувчиларга етказилади. Мавзуни лойиҳалаш: умумий мақсадлар (давлат таълим стандартлари ва ўқув дастурларига мос ҳолда); педагог мақсадлари (таълимий, тарбиявий ва ривожлантирувчи); ўқув мақсадлари соҳалари (когнитив, психомотор, аффектив)ни ўз ичига олган таълим олувчи мақсадлари; асосий вазифалар; ўқитиш шакли (жамоавий, гуруҳли, жуфтли); ўқитиш технологиялари (лойиҳалаш, модулли, муаммоли); интерфаол усуллар (ақлий хужум, кейс-стади, Т-схема, фаоллаштирувчи саволлар ва б.к.); ўқитиш воситалари (машғулот, педагог ва таълим олувчилар учун); ўқитиш жойи (жиҳозланган, компьютерли аудиториялар); топшириқ турлари (оғзаки, ёзма ва тест); назорат турлари (кузатиш); баҳолаш турлари (яхши ўзлаштирган, ўртача ўзлаштирган, паст ўзлаштирган); дарс босқичлари (ташкилий, асосий, якуний); мустаҳкамлаш; уйга вазифа - структураси бўйича амалга оширилади.

**Тўртинчидан**, ўқув машғулотларини “Таҳлил-Муаммо-Ечим-Натижа” кластери асосида ташкил этиш таклиф этилади. Бунда педагог ўз фанидан келиб чиқиб, мавзу бўйича таҳлилий маълумотларни беради, долзарблигини асослайди, муаммоларни аниқлайди, уларнинг ечимини тушунтиради, қандай натижалар олинишини кўрсатиб беради. Шундагина дарс таълим олувчи учун қизиқарли бўлади.

**Бешинчидан**, педагогларнинг ўз устида ишлаш механизмларини такомиллаштирилади, уларнинг ортиқча ишлар билан банд бўлиб қолиши олди олинади. Педагогнинг касбий билимдонлиги ва қобилияти мезонлари (ижтимоий, услубий, ихтисослик, билиш, тушунтира олиш, кузатувчанлик, нутқ, ташкилотчилик, ташаббускорлик, келажакни кўра билиш каби қобилиятлари)ни аниқлаш механизмлари такомиллаштирилади ҳамда унинг мониторинги олиб борилади.

**Олтинчидан**, таълим олувчиларнинг малака талабларини ўзлаштирганлик даражаларини аниқловчи мезонлар ва кўрсаткичлар ишлаб чиқилади ҳамда бунда уларнинг касбий сифатлари (мустақиллик, ижодкорлик, тадбиркорлик, ташаббускорлик) ҳамда

фикрлашнинг алгоритмик усуллари (тахлил қилиш, солиштириш, таққослаш, классификациялаш, умумлаштириш, асослаш, хулоса чиқариш, амалиётга жорий этиш каби) каби омилларга алоҳида эътиборни қаратилади.

**Еттинчидан**, илмий-тадқиқот ишлари билан шуғулланувчилар ишини енгиллаштириш мақсадида диссертация структурасини оптималлаштириш таклиф этилади. Натижада, илмий-тадқиқот ишлари билан шуғулланувчилар фаолиятидаги муаммо, қийинчилик ва тўсиқлар олиб ташланади. Бунда диссертация структураси қуйидагича бўлиши таклиф этилади: тадқиқот ишининг таҳлили; таҳлил асосида аниқланган муаммолар; муаммони ечишга қаратилан мақсад ва вазифалар; мақсад ва вазифаларни амалга оширишга йўналтирилган метод, технология ва воситалар; тадқиқотнинг илмий янгилиги; тадқиқотнинг амалий аҳамияти; олинган натижалар ва уларнинг амалиётга тадбиғи; илмий хулосалар ва таклифлар.

Шу билан бир қаторда фойдаланилган адабиётлар рўйхатига 10-15 йил деб чегара қўйиш бекор қилинади. Чунки, бугунги кунда барча соҳалар бўйича, айниқса, педагогика соҳасида алломаларимизнинг, буюк мутафаккурларимизнинг ўз замонларида амалга оширган ишларидан фойдаланмасликнинг иложи йўқ.

**Саккизинчидан**, таълим олувчиларнинг билимларини баҳолашда барча баҳолаш тизимларидан воз кечиб “яхши ўзлаштирган, ўртача ўзлаштирган, паст ўзлаштирган” тизимни киритиш таклиф этилади (Изоҳ: аъло бу идеал тушунча. 2 баҳо қўйиш ёки ўзлаштиради дейиш нотўғри, чунки биз мактабгача таълимда, умумий ўрта таълимда, профтаълимда, қолаверса олий таълимда ёшларни шунча йиллар нимага ўқитдик).

Юқоридаги вазифаларни самарали ҳал этишда замонавий таълим технологияларидан фойдаланиш муҳим ҳисобланади. Уларни қўллаш, аввало, педагогик муносабатларни инсонпарварлаштиришни талаб этади. Чунки, уни амалга оширмай туриб қўлланган ҳар қандай технология қутилган самарани бермайди. Таълим сифатининг ошиб бориши машғулот жараёнида қўлланилаётган инновацион педагогик технологияларни турли йўналиш ва мақсадларда қўлланилаётганлигига боғлиқ. Бу технология ҳар томонлама пухта ўйланган педагогик лойиҳалаштириш, таълим жараёнини ташкил қилиш ва албатта талаба ҳамда педагог учун қулай шарт-шароит яратиш орқали ҳамжиҳатликда ишлаб чиқилган моделдир. Бу технологиянинг асосийлари сифатида лойиҳалаш, модулли ва муаммоли ўқитиш технологияларини олиш мумкин. Лойиҳалаш ва модулли ўқитиш технологиялари ўқув жараёнида “воситачи” технология сифатида иштирок этади. Билимларни таълим олувчиларга бериш учун эса муаммоли ўқитиш технологияларидан фойдаланилади. Буни тўғри тушунишимиз лозим. Шунини алоҳида таъкидлаш лозимки, муаммоли ўқитиш технологиялари таълим олувчи фаолиятини фаоллаштиришда, ижодий тафаккур ва қобилиятни ўстиришда, билимлардан амалий фаолиятда самарали фойдаланишда, муаммоларни еча билишда, мустақил изланишга ўргатишда, эгалланган янги билимлардан келажакдаги вазиятларда унумли фойдаланишда муҳим. Муаммоли ўқитиш усуллари сифатида: тадқиқотчилик, ижодий қобилиятларни ривожлантиришга йўналтирилган эвристик ва муаммоли вазиятлар яратиш усуллари кўриб чиқилади. Натижада ўқув-билиш компетенцияларининг ижодий ўзлаштирилиши ва ривожланишига эришилади. Эвристик технологияда таълим олувчида ижодкорлик, янгилик яратиш қобилиятини ривожлантириш ғояси етакчилик қилади. Аниқроғи, эвристик технология негизини савол-жавоб шаклидаги суҳбатлар ташкил этиб, бунда педагог таълим олувчиларга тайёр билимларни бермай, балки уларнинг аввал эгаллаган билимлари, ҳаётий тажрибалари, кузатишларига таянган ҳолда, оқилона саволлар орқали уларга янги тушунчалар, хулоса ва қоидаларни ўзлари кашф қилишларига шароит яратади.

## ВАСИЙЛИК ВА ҲОМИЙЛИКНИНГМОҲИЯТИ

*Урманбаева Ферузахон Саттаровна*  
*Наманган давлат университети магистри.*

Бугунги кунда мамлакатимизда ёшларга қаратилаётган алоҳида эътибор, уларнинг давлат ва жамият эътиборидан четда қолдирмаслик, ёшларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, уларнинг тарбиясида нафақат ота-оналар, қонуний вакиллар, тегишли муассасалар балки маҳалла, турли жамоат ташкилотларининг иштирокини таъминлаш муҳим аҳамиятга эга. Бинобарин ёшлар турли жамоат ташкилотлари, маданий марказлар, давлат ва нодавлат ташкилотлари ишида иштирок этиш орқали ўзларининг ижтимоий фаоллигини намоён қилишга интилади<sup>347</sup>. Шу жиҳатдан ҳам ёшлар билан боғлиқ сиёсатнинг ҳуқуқий асосларини белгилаш ва улар иштирокидаги муносабатларни ҳуқуқий тартибга солиниши мустақкамлаш муҳим аҳамиятга эга. Ҳозирда мамлакатимизда вояга етмаган болалар ҳамда ёшларнинг манфаатларини ҳимоя қилиш, уларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини амалга оширишнинг ҳуқуқий асослари яратилган бўлиб, бир қатор қонун ва қонун ости ҳужжатлари қабул қилинган. Бу борада Ўзбекистон Республикасининг “Бола ҳуқуқлари тўғрисида”ги, “Ёшларга оид давлат сиёсатининг асослари тўғрисида”ги, “Васийлик ва ҳомийлик тўғрисида”ги Қонунлари ва шу каби бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни келтириб ўтиш мумкин. Зеро, мустақиллик эълон қилинган дастлабки даврдан Ўзбекистонда фуқароларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш, хусусан, шахс ҳуқуқининг ажралмас таркибий қисми саналган болалар ҳуқуқини таъминлаш давлат сиёсати даражасидаги устувор вазифалардан бири сифатида белгиланди<sup>348</sup>. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва оила қонунчилигида ҳам, вояга етмаган болалар бир қатор мулкӣ ва шахсий-номулкӣ ҳуқуқларга эга бўлиб, ушбу ҳуқуқлар қонун асосида ҳимоя қилиниши ва қаролатланиши белгиланган. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 65-моддасида “фарзандлар ота-оналарининг насл-насабидан ва фуқаролик ҳолатидан қатъи назар, қонун олдида тенгдирлар. Оналик ва болалик давлат томонидан муҳофаза қилинади”, деб белгилаб қўйилган. Давлат ва жамият етим ҳамда ота-оналарининг васийлигидан маҳрум бўлган болаларни боқиш, тарбиялаш ва ўқитишни таъминлайди, болаларга бағишланган хайрия фаолиятини рағбатлантиради. Албатта, Асосий қомусимизда ушбу нормаларнинг мавжудлиги бошқа қонун ҳужжатларини ҳаётга татбиқ этишда дастуриламал бўлиб хизмат қилади<sup>349</sup>. Мазкур қонунлар вояга етмаганлар ва ёшларнинг ҳуқуқларини умумий жиҳатдан ҳимоя қилишга оид қоидаларни белгилаш билан бирга, ота-она қарамоғидан маҳрум бўлган болаларнинг манфаатларини ҳимоя қилишнинг ҳуқуқий усул ва воситаларини ҳам назарда тутди. Бунда вояга етмаган болаларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилишда васийлик ва ҳомийлик институтининг мақсад ва вазифалари, уни тайинлаш тартиби билан бирга, васийлик ва ҳомийликни юритишга оид алоҳида қоидаларнинг белгиланганлиги, васийлик ва ҳомийликнинг ота-она қарамоғидан маҳрум бўлган болаларнинг ҳуқуқларини таъминлашдаги энг мақбул ва самарали усул эканлигини кўрсатади<sup>350</sup>.

<sup>347</sup> Ёдгоров Ш. Истиқбол эгалари ёшларга оид давлат сиёсати ва унинг мазмун-моҳияти ҳақида мулоҳазалар // Ҳуқуқ ва бурч. 2013. - №6. – Б.37.

<sup>348</sup> Қодиров Р. Умумий ўрта ва ўрта-маҳсус, касб-хунар таълимининг мажбурийлиги баркамол ёш авлодни тарбиялашнинг муҳим омилдир // Ҳуқуқ ва бурч. 2013. -№7. – Б.2.

<sup>349</sup> Дадабоева Ж.А. Фарзандликка олишни ҳуқуқий тартибга солиш муаммолари: Юрид. фан. номз. дис....Автореф. – Тошкент: 2011. – 3 б.

<sup>350</sup> Ётироф этиш лозимки, вояга етмаганларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилишнинг самарали ва мақбул усуллари билан бири сифатида фарзандликка олиш ҳам ётироф этилади. Бу борада М.М.Мамасиддиковнинг куйидагиларни билдириб ўтади: фарзандликка олиш ота-она қарамоғидан маҳрум бўлган болаларга қўмаклашиш, ҳаётини йўлга қўйишнинг энг қулай шакли ҳисобланади. Қолаверса, бу фарзанд кўрмаган оилаларнинг ҳаётига мазмун киритиши ҳам ҳеч кимга сир эмас / Мамасиддиков М.М. Фарзандликка олиш: уни суд тартибидан амалга оширишнинг ўзига хос жиҳатлари // Ҳуқуқ ва бурч. 2013. - №6. – Б. 7.

Хуқуқшунос мутахассислар васийлик ва ҳомийликнинг моҳиятига тўхталиб ўтиб, мазкур институтнинг энг муҳим жиҳати вояга етмаганларнинг манфаатлари учун энг мақбул ҳуқуқий механизм эканлигини эътироф этишади. Ҳ.Р.Раҳмонкуловнинг фикрича, васий ва ҳомийларни ҳуқуқ ва мажбуриятларини белгилашда асосий эътибор вояга етмаган болаларни тарбиялашга, уларнинг таъминоти, саломатлиги, жисмоний, руҳий, маънавий ва ахлоқий камолоти ҳақида ғамхўрлик қилишга қаратилади. Васийлар ўз номидан уларнинг манфаатларини кўзлаб барча зарур битимларни тузадилар. Ҳомийлар ўз қарамоғидаги шахсларга улар ўз ҳуқуқларини амалга оширишда ва мажбуриятларини бажаришда кўмаклашадилар, шунингдек уларнинг ҳуқуқлари учинчи шахслар томонидан суиистеъмол этилишидан ҳимоя қиладилар<sup>351</sup>.

“Васийлик (ҳомийлик)” атамаси қонун чиқарувчи томонидан турли маъноларда қўлланилади. Васийлик ва ҳомийлик биринчидан, фуқароларнинг ҳуқуқлари ва манфаатларини ҳимоя қилиш шакли (ҳуқуқий ёрдам кўрсатиш тури); иккинчидан, шахсларнинг ҳуқуқий алоқалари, ҳуқуқий муносабатлари тизими (қонун “васийлик ўрнатилади” атамасини қўллайди); учинчидан, қонунчилик институти сифатида қўлланилади. Васийлик (ҳомийлик) – ўзларининг ҳуқуқларини мустақил амалга ошириш ва мажбуриятларини ижро этиш имкониятига эга бўлмаган фуқаролар (муомалага лаёқатсизлар ёки қисман муомалага лаёқатлилар)нинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш шаклларида биридир<sup>352</sup>.

Мутахассисларнинг фикрича, васийлик ва ҳомийлик бир нечта маънода талқин этилиши мумкин<sup>353</sup>. Аввало, фуқаролик-ҳуқуқий тартибга солиш мақсади учун васийлик қонуний вакилликни, ўз муомала лаёқатини тўлиқ намоён эта олмайдиган шахсларнинг муомала лаёқатини тўлдириш воситасини ифодалайди. Васий ўз навбатида, васийликдаги шахсларнинг ўрнини босмайди, бироқ, у ўз ҳаракатлари билан васийликдаги шахсларнинг ҳаракатларини тўлдирди.

Бироқ оила ҳуқуқида васийлик ва ҳомийлик (оила ҳуқуқи бўйича фақат вояга етмаганларга нисбатан татбиқ этилиши мумкин) – ота-она қарамоғидан маҳрум бўлган болаларни жойлаштириш шаклларида бири саналади.

Шу билан бирга, васийлик ва ҳомийлик нафақат вояга етмаганларга нисбатан белгиланиши, балки вояга етганларга нисбатан ҳам қўлланилишидан келиб чиқиб, васийлик ва ҳомийликни шундай ижтимоий ҳамхўрликка муҳтож бўлган болаларга ҳамда вояга етганларга нисбатан жойлаштириш шакли сифатида талқин этиш мақсадга мувофиқдир.

Васийлик ва ҳомийлик фуқароларни жойлаштиришнинг шундай шакли сифатида намоён бўладики, бунда васийлик ва ҳомийлик фақат муомалага лаёқатсиз ёки қисман муомалага лаёқатли фуқароларга муайян жисмоний шахс томонидан кўрсатиладиган ёрдамни, ғамхўрликни ва васийликни индивидуал амалга оширишни ифодалайди.

М.В.Антокольская “васийлик ва ҳомийлик кенг маънода муомала лаёқатининг етишмаётган қисмини тўлдириш ва вояга етмаган фуқаролар ва муомалага лаёқатсиз шахсларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш усули сифатида, тор маънода эса муомала лаёқатининг етишмаган қисмини тўлдириш, ота-она қарамоғидан маҳрум бўлган вояга етмаган болаларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш усули”дир деган нуқтаи назарни илгари суради<sup>354</sup>.

“Васийлик ва ҳомийлик тўғрисида” ги Қонуннинг 3-моддасига кўра, васийлик — ўн тўрт ёшга тўлмаган етим болаларни ва ота-онасининг қарамоғидан маҳрум бўлган болаларни, шунингдек суд томонидан муомалага лаёқатсиз деб топилган фуқароларни уларга таъминот, тарбия ва таълим бериш, уларнинг мулкӣ ва шахсий номулкӣ ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш мақсадида жойлаштиришнинг ҳуқуқий шакли;

<sup>351</sup>Раҳмонкулов Ҳ.Р. Фуқаролик ҳуқуқи субъектлари. –Тошкент: ТДЮИ, 2008. - 37 б.

<sup>352</sup> Правовые проблемы института опеки и попечительства в гражданском праве Республики Казахстан.

<sup>353</sup>Угрюмов А. Постатейный комментарий к Закону Об опеке и попечительстве, раскрыты тонкости и детали опеки и попечительства- М.: 2011. – 7 с.

<sup>354</sup>АнтокольскаяМ.В.Семейное право : учебник. 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Юристъ, 2000. - С. 306.



ҳомийлик — ўн тўрт ёшдан ўн саккиз ёшгача бўлган етим болаларни ва ота-онасининг қарамоғидан маҳрум бўлган болаларни, шунингдек суд томонидан муомала лаёқати чекланган фуқароларни уларга таъминот, тарбия ва таълим бериш, уларнинг мулкӣ ва шахсий номулкӣ ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш мақсадида жойлаштиришнинг ҳуқуқӣ шаклидир.

Таъкидлаш лозимки, ҳуқуқӣ адабиётларда васийлик (ҳомийлик) тушунчасини аниқлашга нисбатан ягона ёндашув мавжуд эмас. Илгариги адабиётларда васийлик ва ҳомийлик оила ҳуқуқи ва оилавий муносабатлар узвий боғлиқ категория сифатида қаралган. Хусусан, М.Ф.Владимирский-Буданов васийликни “оила устидан сунъий ҳокимият” сифатида таърифланган бўлса<sup>355</sup>, Г.Ф.Шершеневич – “сунъий оила” деб атаган<sup>356</sup>, В. И. Синайский – васийликни “болалар, уларнинг шахси ва мол-мулкига нисбатан ота-она васийлигининг суррогати”<sup>357</sup> сифатида талқин этган. Бунда дастлаб васийлик ва ҳомийлик институти етим болалар ва ота-она қарамоғидан маҳрум бўлган болаларни жойлаштириш шакли сифатида юзага келган<sup>358</sup>. Васийлик кичик ёшдаги бола ота-онасиз қолганда ёки отасиз қолиб, онаси турмушга чиққанда белгиланган<sup>359</sup>.

Васийлик ва ҳомийликнинг тушунчасини кенг тадқиқ этган Л.Ю.Михеева ушбу институтни ижтимоий ғамхўрлик тури, ҳуқуқӣ муносабатлар тизими ва қонунчилик институти сифатида талқин этади<sup>360</sup>.

Фикримизча, васийлик ва ҳомийлик фуқаролик ва оила ҳуқуқининг институти сифатида алоҳида ғамхўрликка, шунингдек ўз ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатлари ҳимоя қилинишига муҳтож бўлган етим болалар ва ота-онасининг қарамоғидан маҳрум бўлган болалар, ота-оналик ҳуқуқидан маҳрум этилмаган ота-онаси бўлган ҳамда болаларнинг ҳаёти ёки соғлиғига бевосита таҳдид туғдираётган ёки уларнинг таъминоти, тарбия ва таълим олишига доир талабларга жавоб бермайдиган шароитда яшаётган болалар, соғлиғининг ҳолатига кўра ҳомийликка муҳтож бўлган вояга етган муомалага лаёқатли фуқаролар, муомалага лаёқатсиз ёки муомала лаёқати чекланган фуқароларнинг қонуний вакилликдир.

**Калит сўзлар:** васийлик, ҳомийлик, вояга емаганлар, вакил, ваколат, муомала лаёқати, битимлар, шартномалар, мол-мулкни бошқариш.

**Ключевые слова:** опека, попечительство, несовершеннолетние, представитель, полномочие, дееспособность, сделки, договора, управление имуществом.

**Keywords:** trusteeship, guardianship, underage, delegate, competency, capacity, deal, contract, estate administration.

**Аннотация:** Ушбу мақолада вояга етмаганларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятларини таъминлашда васийлик ва ҳомийликнинг вазифалари, бу борада васийлик ва ҳомийликни тайинлашдан мақсад, васий ва ҳомийларнинг хатти ҳаракатлари нимага қаратилиши каби масалалар таҳлил этилади. Муаллиф амалдаги қонун ҳужжатларини таҳлил қилиш асосида васийлик ва ҳомийликнинг моҳиятига оид қонун нормаларини такомиллаштиришга оид фикрларни илгари суради. Шунингдек, ушбу қонун ҳужжатларида васий ва ҳомийнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари нимадан иборат эканлигига ҳам тўхталиб ўтган.

<sup>355</sup>Владимирский-Буданов М.Ф. Обзор истории русского права. – Ростов н/Д, 1995. - С. 457.

<sup>356</sup>Шершеневич Г.Ф. Курс гражданского права. – Тула : Автограф, 2001. - С. 601.

<sup>357</sup>Синайский В.И. Русское гражданское право. – М. : Статут, 2002. - С. 529.

<sup>358</sup>Макарова С.В. Институт опеки и попечительства над несовершеннолетними детьми: история его становления в России // Вопросы ювенальной юстиции. 2006. - № 1.

<sup>359</sup>Загорский А.И. Об опеке над несовершеннолетними // Русская мысль. 1902. Кн. 4. - С. 52–53.

<sup>360</sup>Михеева Л. Ю. Опека и попечительство: правовое регулирование : учеб.-метод. пособие / под ред. Р. П. Мананковой. – М.: Палеотип, 2002 ;Ее же. Проблемы правового регулирования отношений в сфере опеки и попечительства: автореф. дис. ... д-ра юрид. наук, Томск, 2003. С. 7–8.

**Аннотация:** В данной статье анализируются задачи органов опеки и попечительства по обеспечению прав и обязанностей несовершеннолетних, в связи с этим действия, направленные на решение данных задач, целью которых является установление опеки и попечительства. Автор выдвигает мнение по совершенствованию норм, касающихся задач опеки и попечительства на основе анализа действующих законодательных актов. В нем также рассматриваются права и обязанности опекунов и попечителей в этих законодательных актах.

**Annotation:** This article analyzes the problem of the guardianship authorities to ensure the rights and duties of minors in connection with this action to address these problems, the aim of which is to establish a guardianship and trusteeship. The author suggests his opinion on developing norms which concern the problems of wardship and guardianship on the basis of analyses of present legal documents. It also deals with the rights and obligations of guardians and trustees in these pieces of legislation.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ёдгоров Ш. Истиқбол эгалари ёшларга оид давлат сиёсати ва унинг мазмун-моҳияти ҳақида мулоҳазалар // Ҳуқуқ ва бурч. 2013. - №6.
2. Қодиров Р. Умумий ўрта ва ўрта-маҳсус, касб-хунар таълимнинг мажбурийлиги баркамол ёш авлодни тарбиялашнинг муҳим омилдир // Ҳуқуқ ва бурч. 2013. - №7.
3. Дадабоева Ж.А. Фарзандликка олишни ҳуқуқий тартибга солиш муаммолари: Юрид. фан. номз. дис.... Автореф. – Тошкент: 2011.
4. Мамасиддиқов М.М. Фарзандликка олиш: уни суд тартибда амалга оширишнинг ўзига хос жиҳатлари // Ҳуқуқ ва бурч. 2013. - №6.
5. Раҳмонқулов Ҳ.Р. Фуқаролик ҳуқуқи субъектлари. – Тошкент: ТДЮИ, 2008.
6. Правовые проблемы института опеки и попечительства в гражданском праве Республики Казахстан.
7. Угрюмов А. Постатейный комментарий к Закону Об опеке и попечительстве, раскрыты тонкости и детали опеки и попечительства- М.: 2011.
8. Антокольская М.В. Семейное право : учебник. 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Юристъ, 2000.
9. Владимирский-Буданов М.Ф. Обзор истории русского права. – Ростов н/Д, 1995.
10. Шершеневич Г.Ф. Курс гражданского права. – Тула : Автограф, 2001.
11. Синайский В.И. Русское гражданское право. – М. : Статут, 2002.
12. Макарова С.В. Институт опеки и попечительства над несовершеннолетними детьми: история его становления в России // Вопросы ювенальной юстиции. 2006.
13. Загоровский А.И. Об опеке над несовершеннолетними // Русская мысль. 1902. Кн. 4.
14. Михеева Л. Ю. Опека и попечительство: правовое регулирование : учеб.-метод. пособие / под ред. Р. П. Мананковой. – М.: Палеотип, 2002.

## POLY (3- HEXYLTHIOPHENE- 2,5- DIYL) POLIMERINING ABSORBSIYA VA FOTOLYUMINESTSENESIYA XOSSALARI

*Sh.Z. Urolov<sup>1,2</sup>, R.R. Jalolov<sup>1</sup>, I.G. Tursunov<sup>2</sup>, D.O. Nabiyev<sup>3</sup>*


- 1. O'R FA Ion- plazma va lazer texnologiyalari instituti.*
- 2. Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti.*
- 3. O'zbekiston Milliy Universiteti fizika fakulteti.*

Hozirgi davrda organik yarim o'tkazgich polimerlardan foydalanib organik quyosh elementlari, fotodiodlar yaratishga qaratilgan tadqiqotlar jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Bu boradagi tadqiqotlarda Poly (3- alkyl thiophene) (P3AT) elektr o'tkazuvchi polimerlari katta qiziqishlarga sabab bo'lmoqda. P3AT elektr o'tkazuvchi polimerlari quyosh spektrining ko'zga ko'rinuvchi sohasida keng yutilish polosasiga ega ekanligi [1], kichik taqiqlangan zona energiyasi (~2 eV) egaligi va asosiy zaryad tashuvchilar harakatchanligining yuqoriligi va issiqlikka chidamliligi sabab nafaqat organik quyosh elementlarida, balki unipolyar tranzistorlar, yorug'lik diodlarida [2] keng qo'llanilmoqda. P3AT elektr o'tkazuvchi polimerlari oilasiga mansub Poly (3- hexylthiophene- 2,5- diyl) ( $C_{10}H_{14}S \rightarrow$  (P3HT)) polimeri eng ko'p o'rganilayotgan material hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, P3HT elektr o'tkazuvchi polimerining optik xossalarini tadqiq etish nafaqat fundamental, balki muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ushbu ishda P3HT elektr o'tkazuvchi polimerining toluoldagi turli konsentratsiyali eritmalarining absorbsiya va fotolyuminesentsiya (FL) xossalari tadqiq qilingan. Tadqiqotlar ko'rsatdiki, eritma tarkibidagi polimerning konsentratsiyasi ortib borishi bilan uning absorbsiya spektrida fundamental yutilish polosasining tikligi ortib, uning maksimumi katta to'lqin uzunligi tomonga siljidi. Shuningdek, konsentratsiya ortishi bilan namunalarning FL spektrlarining maksimumlari katta to'lqin uzunligi tomonga siljib, spektrning formasi ham sezilarli o'zgardi. Bu o'zgarishlar P3HT polimerining erish jarayonida monomer dimer va trimer molekulalarga parchalanish darajasi hamda ularning o'zaro ta'sirlashuvi natijasida yuzaga kelishi bilan izohlandi.

Tadqiqotlarda P3HT elektr o'tkazuvchi polimerining toluoldagi turli konsentratsiyali eritmalarini maxsus kvarts kyuvitaga quyilib, UV/Vis 5100 spektrofotometri yordamida yutilish spektrlari o'lchandi. Namunalarning fotolyuminesstsiyasi azot lazeri ( $\lambda = 337.1 \text{ nm}$ ,  $P \sim 15 \text{ kWt}$ ) yordamida uyg'otilib, MDR- 23 monoxromatori va impulsli elektr signallarini stroblab integrallovchi BCI-280 bokskar-integratoridan foydalangan holda qayd qilindi.

Tadqiqot obyektlarining absorbsiya va FL spektrlari 1- rasmda keltirilgan. Grafiklardan




**1-rasm.** P3HT polimerining toluoldagi turli konsentratsiyali eritmalarining yutilish va FL spektrlari: a) 0,1 ; b) 1 va c) 10 mg/ml konsentratsiyali eritma.

ko'rinadiki, kichik konsentratsiyali eritmaning yutilish spektrining maksimumi  $\sim 435 \text{ nm}$  to'lqin uzunligiga to'g'ri keladi (1a- rasm). Adabiyotlar tahlili ko'rsatadiki, P3HT elektr o'tkazuvchi polimeri eritmasining bu sohadagi yutilish polosasi polimer materialning monomer molekulariga tegishli [4]. Ayni konsentratsiyadagi eritmaning fundamental yutilish polosasi  $\sim 450\text{-}550 \text{ nm}$  oralig'ida joylashgan bo'lib, nisbatan yotiq shaklda. Kichik konsentratsiyali eritmaning FL spektrining maksimumi  $\sim 575 \text{ nm}$  to'lqin uzunligida joylashib, nurlanish polosasining katta to'lqin uzunligi sohasidagi qanoti nisbatan yotiq shaklga ega (1a- rasm). Bu esa polimer materialning erish jarayonida faqatgina monomer molekularga parchalanmaganligidan dalolat beradi.

Tadqiqotlar ko'rsatdiki, eritma tarkibidagi polimer materialning konsentratsiyasi ortib borishi bilan yutilish polosasining maksimumi katta to'lqin uzunligi tomonga siljib va fundamental yutilish polosasining tikligi ortishi kuzatildi (1b va 1c -rasmlar.). Eritma tarkibidagi polimer materialning konsentratsiyasi  $10 \text{ mg/ml}$  ga teng bo'lganida yutilish polosasining maksimumi  $\sim 510 \text{ nm}$  da kuzatildi. Shuningdek, fundamental yutilish polosasining tikligi ortib, uning davomida  $\sim 600 \text{ nm}$  to'lqin uzunligida yangi yutilish polosasi namoyon bo'ldi. Bu yangi yutilish polosasi eritma tarkibidagi trimer makromolekular konsentratsiyasi ortishi hisobidan yuzaga kelgan deyish mumkin [3]. Kichik konsentratsiyalarda eritmaning yutilish spektrida asosan eritmada monomer molekular dominantlik qilsa, katta konsentratsiyalarda polimer materialning dimer va trimer molekulari dominantlik qiladi.

Tadqiq etilayotgan P3HT elektr o'tkazuvchi polimerining toluoldagi turli konsentratsiyali eritmalarining FL spektrlari murakkab spektr ekanligidan ularni Gauss tashkil etuvchilarga ajratgan holda chuqurroq tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Shuning uchun, turli konsentratsiyali eritmalarining FL spektrlari Gauss tashkil etuvchilarga



**2-rasm.** P3HT polimerining toluoldagi turli konsentratsiyali eritmalarining FL spektrlarining Gauss tashkil etuvchilarga ajralishi: a) 0,1 ; b) 1 va c) 10 mg/ml konsentratsiyali eritma.

spektr uchta tashkil etuvchilar yig'indisidan iborat (2c- rasm). Bular maksimumi ~570 nm, ~627 nm va ~660 nm to'liq uzunliklarida joylashgan tashkil etuvchilardir. Fl spektrida ~627 nm va ~660 nm to'liq uzunliklarida joylashgan Gauss tashkil etuvchilar keskin dominantlik qilishi kuzatildi. Yuqorida ta'kidlanganidek, Gauss tashkil etuvchilar maksimumlarining katta to'liq uzunligi tomonga siljishi konsentratsiyaning ortishi ham dimer va trimer molekularning o'zaro ta'sirlashuvidan yuzaga keladi.

ajratildi (2- rasm). Grafiklardan ko'rinadiki, 0,1 mg/ml konsentratsiyali eritmaning FL spektri Gauss komponentalarga ajratilganda uchta xarakteristik polosalar yig'indisidan iborat ekanligi aniqlandi (2a- rasm). Bular maksimumlari ~570 nm, ~612 nm va ~625 nm to'liq uzunliklarida joylashgan tashkil etuvchilardir. Spektrning kichik to'liq uzunligi sohasida maksimumi ~570 nm da joylashgan birinchi nurlanish polosasi elektr o'tkazuvchi polimerning yakka monomer molekulasiga tegishli ekanligi haqidagi nazariya ilgari suriladi [4]. Qolgan nurlanish polosalarining tabiati haqida hozirgacha tugal fikr mavjud emas. Ilmiy adabiyotlar tahlil qilinganda, ushbu nurlanish polosalari P3HT ning dimer va trimer molekulariga tegishli bo'lishi taxmin qilinadi.

Eritma tarkibidagi polimer materialning konsentratsiyasi 1 mg/ml bo'lganida qayd qilingan FL spektri Gauss tashkil etuvchilarga ajratilganida maksimumlari ~570 nm, ~615 nm va ~652 nm to'liq uzunliklarida joylashgan tashkil etuvchilar ajraldi (2b- rasm). Maksimumi ~570 nm da joylashgan birinchi nurlanish polosasining intensivligi ~30% ga kamayib, ikkinchi tashkil etuvchining maksimumi katta to'liq uzunligi tomonga ~3 nm ga siljib, uning intensivligi ~75% ga ortdi. Shuningdek, uchinchi tashkil etuvchining maksimumi katta to'liq uzunligi tomonga ~27 nm siljishi kuzatildi. Gauss tashkil etuvchilarning intensivliklari va maksimumlarining holatidagi o'zgarishlar konsentratsiyaning ushbu qiymatida polimer material dimer molekulariga parchalanish darajasi yuqori bo'lishidan hamda dimer va trimer molekularning o'zaro ta'sirlashuvidan yuzaga keladi.

Yuqori konsentratsiyali (10 mg/ml) eritmaning FL spektri Gauss tashkil etuvchilarga ajratilganda ma'lum bo'ldiki,



Shuningdek, birinchi Gauss tashkil etuvchining maksimumi konsentratsiya ortib borishi bilan o'zgartirilishi tadqiqotning asosiy natijalaridan biri hisoblanadi. Negaki, adabiyotlar tahlili ko'rsatadiki, P3HT elektr o'tkazuvchi polimerining turli erituvchilardagi eritmalarining FL spektrlarida maksimumi ~570 nm to'lqin uzunligida joylashgan Gauss tashkil etuvchining holati konsentratsiyaga bog'liq bo'lmaydi [4].

P3HT elektr o'tkazuvchi polimerining toluoldagi turli konsentratsiyali eritmalarining absorbsiya va FL xossalari tadqiq qilinganda ma'lum bo'ldiki, eritma tarkibidagi P3HT elektr o'tkazuvchi polimerining konsentratsiyasi ortib borishi bilan eritmaning yutilish spektrining maksimumi katta to'lqin uzunligi tomonga siljib, fundamental yutilish polosasining tikligi ortib boradi. Namunalarning FL spektrlari tahlili ko'rsatadiki, eritma tarkibidagi P3HT elektr o'tkazuvchi polimerining konsentratsiyasi ortib borishi bilan FL spektrlarining Gauss tashkil etuvchilarining intensivliklari o'zgarib boradi. Gauss tashkil etuvchilar tahlili ko'rsatadiki, FL spektrlarida maksimumi ~570 nm to'lqin uzunligida joylashgan Gauss tashkil etuvchining intensivligi konsentratsiyaga bog'liq bo'lib, maksimumining holati konsentratsiyaga bog'liq bo'lmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M. Campoy-Quiles, T. Ferenczi, T. Agostinelli, P.G. Etchegoin, Y. Kim, T.D. Anthopoulos, P.N. Stavrinou, D.D. Bradley and J. Nelson. (2008) *Nat. Mater.* 7 158–64.
2. J.A. Bjorgaard and M. E. Köse. (2014) *RSC Adv.* 5 8432–45.
3. Y.D. Park, D.H. Kim, Y. Jang, J.H. Cho, M. Hwang, H.S. Lee, J.A. Lim and K. Cho (2006) *Org. Electron.* 7 514–20.
4. W.L. Xu, X.Y. Yang, F. Zheng, H.D. Jin and X.T. Hao. *Journal of Physics D: Applied Physics.* 48 (2015) 485501 (6pp).

## ХОРАЗМ ВОҲАСИ НЕОЛИТ ДАВРИ УРУҒ ЖАМОАЛАРИ ТАРИХИ МОДДИЙ МАНБАЛАРДА АКС ЭТИШИ

**Қ. Собиров**

*Урганч давлат университети Тарих кафедраси профессори.*

**И. Усманова**

*Археология йўналиши магистранти.*

**Аннотация:** Мақолода Қуйи Амударё хавзаси, Сарикамишбўйи сарҳадларида неолит даври жамиятида иқтисодий- этномаданий муносабатлар ривожланиши манбаларда ёритилиши қараб чиқилган.

**Калит сўзлар:** Баратов П, Виноградов А.В, Итина М.А, Кесь А.С, Мамедов Э.Д, Толстов С.П, Бижанов Е.Б, Вайнберг Б.И, Оқчадарё, Сарикамиш, Узбой, Султон Увайс тоғи, Ёнбош-4, Толстов манзили, Танирқозиғон, Қушқалъа, Султон Санжар, Қарриқизил.

**Аннотация:** В статье рассмотрены отображение на основе археологических источниках общественно-экономических и этнокультурных отношении неолитического периода на территории Низовья Амударьи и Сарыкамыш.

**Ключевые слова:** Баратов.П, Винорадов А.В, Итина М.А, Кесь А.С, Мамедов Э.Д, Толстов С.П, Бижанов Е.Б, Акчадарё, Сарыкамыш, Узбой, Султон Увайс горы, Жанбас-4, стоянки Толстов, Танирказиган, Кушқалъа, Султон Санжар, Карриқизил.

**Annotation:** This article examines the territorial boundaries and cartography of ethnic processes in the Lower Amudarya basin, Sariqamishboy Neolithic paleography

**Keywords:** Baratov.P, Vinoradov A., Itina M.A., Kes A.S., Mamedov E.D., Tolstov S.P., Bizhanov E.B., Akchadaryo, Sarykamish, Uzboy, Sul-ton Uvays mountain, Zhanbas-4, Tolstov sites, Tanirkazigan, Kushkal'a, Sul-ton Sanjar, Karrikizil.

**Кириш.** Географик адабиётларда қайд қилинган маълумотларга кўра, Амударё Сурхон воҳасидан чиққанидан шимоли-ғарбий томон денгизи Қорақуми шимолидан мавжуд бўлган ботиқ орқали Каспий денгизига йўналган бўлиб, мазкур ботиқ тарихий адабиётларда Узбой топономикаси билан маълум. Тарихий маълумотларга кўра, ер геологиясининг учлачи давр ўрталаридан Амударё асосий сувини Қорақумни икки қисмга ажратган ҳолда, шимолий томон Орол ботиғига йўналиши баробарида асрлар мобайнида сув таркибидаги лойқа қатламларини ётқизиши натижасида Турон пасттекислиги шимоли-ғарбий қисмида шаклланган Қуйи Амударё хавзаси худудида тўлқинсимон кум уюмлари оралиғидаги майдончалар ёйилма сув хавзаларига айланганлиги боис, уларни этакларида ҳосил бўлган антропоген ландшафт таъсирида вужудга келган табиий иқтисодий манбалар одамзотни касби-корини белгилаб, уни ривожлантириш имкониятини ҳосил қилган.<sup>361</sup> ХАЭ ходимлари нашрларида қайд қилинган маълумотларга кўра, мил авв V минг йиллик охири-IV мингйилликлар биринчи ярмида одамзот томонидан Оқчадарё хавзаси Ёнбошқалъа баландлиги теварак-атрофлари илк бор ўзлаштирилган.

Мил авв IV минг йилликлар иккинчи ярми III минг йилликлар биринчи ярмига келганда Ёнбошқалъа баландлиги атрофларида ўрнашиб олган овчи-термачиларини авлодлари вужудга келган озиқ-овқат муаммосини яхши англаган ҳолда, Туямўйин, Сарикамишбўйи ва Узбой худудлари сари миграцион сиёсатни олиб бориб, касби-корларни янги географик шароитда олиб борганлар. Қуйи Амударё хавзаси овчи-термачилар манзилгоҳларида кенг қамровли тарзда олиб борилган қазишма ишлари

<sup>361</sup> Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1996. –Б. 283.

натijasida олинган моддий ашёлар неолит даври жамиятини ыамраб олган ижтимоий-иктисодий ва этник-маданий муносабатлар тарихини ёритишга хизмат қилади.

**Тадқиқот методологияси қуйидагилардан иборат.** Илмий холислик, тарихий – тахлил, хронологик изчиллик, назарий-қиёсий тахлил, асослаш, умумлаштириш, археология этнография, география ва геология фанлари натижаларидан фойдаланиш.

**Натижалар.** Хоразм воҳаси ва унга уланиб кетган Сарикамиш ва Узбой худудларида неолит даври уруғ жамоалари турар-жойларида археологик изланишлар натижалари қайд қилинган.

**Мулоҳазалар.** Қуйи Амударё, Сарикамишбўйи ва Узбой худудларида неолит даври уруғ жамоаларининг табиий шароит, географик мухит таъсида вужудга келган антропоген ландшафт таъсирида олиб борган хўжалик услублари тўғрисида мулоҳазалар илгари сурилади.

**Хулоса.** Неолит даври уруғ жамоалари турар-жойларида олиб борилган археологик изланишлар натижалари асосида иқтисодий-этник муносабатлар умумлаштирилган.

Тадқиқотчилар қайд қилган маълумотларга кўра, мил авв 4-3 мл йиллар Қизилқум-Орол оралиғи текислик бўлган.<sup>362</sup> Археологик адабиётларда ўрин олган маълумотлардан маълумки, Шахпахта ҳавзасида жойлашган Есен-2,3, Қорақудук, Чурук-12 манзилгоҳлар маданий қатламларидан олинган моддий ашёлар ашель даврига тегишли бўлган.<sup>363</sup> ХАЭ ходимлари асарларида Қуйи Амударё ҳавзасида илк тош даври овчилари манзилгоҳлари тўғрисида маълумотлар акс этмайди. Е.А. Виноградова Султон Увайс тоғи этагида Бурли-3 манзилгоҳида қазилма ишлари натижасида сўнгги тош даврига оид бўлган.<sup>364</sup> Султон Увайс тоғи сўл соҳили этакларида кечган жараёнлар қайси худуд овчиларига оидлиги тўғрисида Е.А.Виноградова мулоҳазаси қайд қилинмайди, Назаримизча, уруғ жамоаси раҳбари “Она” раҳномалигида Чурук-12 манзилгоҳи овчилари аҳоли сони ошганлиги, камсонли меҳнат қуроллари ҳамда экология захираси чекланганлиги туфайли Султон Увайс тоғи сўл соҳили этакларига келиб жойлашиши натижасида этник жараёнлар географик кенгликни ҳосил қилган. Қайд қилиш керакки, Устюрт чинки уруғ жамоалари ва Султон Увайс тоғи этаклари аҳолисини бир-бири билан боғлаган алоқ йўлига асос солинган, бу эса ўз навбатида қон-қориндошлик муносабатларини йўлга қўйганлигини қайд қилиш жоиз.

Мезолит даври(ХII-VII минг йилликлар)га келганда Устюрт чинкида ва Султон Увайс тоғи ўнг ва сўл этакларида этник муносабатлар давом этган. Тарихий маълумотларга кўра, Устюрт чинки жануби-шарқий ва шимоли-ғарбий худудлари мезолит даври географик холатини Жаринқудук, Айдабол-16,25 манзилари намоеън қилиб, уларнинг маданий қатламларидан мезолит даврига тегишли манбалар олинган.<sup>365</sup> Неолит даври(VI-IV минг йилликлар) даври уруғ жамоалари Устюрт чинки ва Султон Увайс тоғ этакларида этник муносабатлар давом этган. Е.Б. Бижанов қайд қилишича, Устюрт чинки жануби-шарқий ва шимоли-ғарбий худудларида мезолит даври овчилари манзилгоҳларидан мезолит жамиятида рўй берган жараёнларни ўрганишга хизмат қиладиган манбалар олинган.<sup>366</sup> С.П.Толстов хулосасига кўра, VI-V минг йилликларда Оқчадарё, Сарикамишбўйи ва Узбой соҳили атрофлари қумтепаликлари оралиғидаги ҳажми катта ва кичик майдонлар ёйилсимон сув ҳавзаларига айланиб, уларнинг этаклари

<sup>362</sup> Виноградов А.В, Итина М.А, Кесь А.С, Мамедов Е.Д. Палеогеографическая обусловленность расселения древнего человека в пустынях Средней Азии //Первобытный человек, его материальная культура и природная среда в плейстоцене и голоцене.- М.: Наука, 1974.- С. 290-291.

<sup>363</sup> Бижанов Е.Б. О находках памятники каменного века в районе впадины Шахпахты на Устюрте //Вестник Каракалпакского филиала АН УЗССР.- Нукус.; №1, 1983. - С.74-77

<sup>364</sup>Виноградова Е.А. Первые палеолитические находки в Султануиздаге//Приаралье в древности и средневековье. - М., Наука., 1998.-С. 74-78

<sup>365</sup> Бижанов Е.Б. Открытые памятники мезолита на юге-восточном Устюрте//Вестник Каракалпакского Филиала АН УЗССР.-Нукус, Вып-3, 1982.-С. 61-65. Ўша муаллиф. Мезолитические и неолитические памятники северо-западного Устюрта//Археология Приаралья. – Ташкент, Вып-1, 1982,-С. 14-38.

<sup>366</sup> Бижанов Е.Б., Виноградов А.В. Неолитические памятники Каракалпакского Устюрта(сообщение второе)//Вестник Каракалпакского филиала АН УЗ ССР-Нукус, -№3, 1965.-С. 63-69. Бижанов Е.Б. Новые данные о неолите юго-западного Устюрта//Вестник Каракалпакского филиала АН УЗ ССР.- Нукус, Вып-3, 1980.- С.70-75.

иктисодий ва экологик манбаларга эга бўлганлиги боис, одамзотнинг келиб жойлашиши натижасида овчилик ва термачилик йўналишларини олиб боришга кенг истиқболли имкониятни ҳосил қилган.<sup>367</sup> Устюрт платоси географик ҳолатида ўзгаришлар рўй бермайди.

Н. Холматов асарида Оқчадарё ҳавзаси неолит даври жамиятида содир бўлган ижтимоий-иктисодий ва этномаданий муносабатлар Ёнбош-4, Толстов манзили маданий қатламларидан олинган моддий ашёларни айнан такрор ыилган манбалар Зарафшон дарёси қуйи ҳавзаси ва Қизилқумни географик хусусиятини намоён қилган сув ҳавзалари соҳили этакларида овчи-термачилари Дарвозақир-1,2, Оғалиқ, Сазаған-11, Жангал-11, Тепакул-3,4,5, Лолаб ва Очилғор манзилгоҳларидан олинганлигини қайд қилиб, маҳаллий хусусиятига эга эканлигини қайд қилган.<sup>368</sup> Археологик адабиётларда қайд қилинган маълумотларга кўра, марказий ва жанубий Оқчадарё, Туямўйин, Сарикамишбўйи жануби-ғарбий ва Узбой худудларида неолит даврига оид манзилгоҳлар уй-хоналаридан (Параллелрамм ва учбурчак шаклда микролит қуроллар, ўқ-ёйлар, қиғич, тешгич, тошболта) қаби иш қуроллари олинган. Ёнбошлиқлар ва унинг ворислари кундалик ҳаётида қўлга киритган буюк ихтиролардан қулолчилик билими бўлган. Қулолчилик билим асосида ясалган сопол идиш-тавоқлари ташқи деворида геометрик чизиқлар билан бирга, тўлқинсимон, тўғрибурчакли, тирноқсимон, арча барги, тарақсимон ва панжарасимон безаклар тасвир этилган.


Неолит даври сўнгги босқичи уруғ жамоалари томонидан ишлаб чиқилган баъзи идишлари гардишида рангли гул нақшлари мавжуд. Тухумсимон идиш-тавоқлар ўрнига туваксимон шакли, таги текис сопол идишлар ишлаб чиқарилган. Идиш-тавоқлар шакли бўйига чўзинчоқ, идиш оғиз қисми девори сезиларли равишда ташқи томон бироз ўгирилган, уларни таги айланасимон текис, ўрта қисми ярим сферасимон идишлар ясалган.<sup>369</sup> Оқчадарё ҳавзасида касби-корини белгилаб олган ўрта неолит даври уруғ жамоалари янги авлодлари Ёнбошқалъа баландлиги ғарбида Танирқозигон, Куняк-1, Туямўйин атрофида Қушқалъа, Султон Санжар ва Қарриқизил ҳамда Амударё Довдон ирмоғи жануби-ғарбий қисмида Қуйисой баландлигида фаолият олиб борган сўнгги неолит уруғ жамоалари манзилгоҳларидан моддий ашёлар олинган. Айниқса, Қуйисой баландлиги кундалик фаолиятларини олиб борган уруғ жамоалари томонидан қолдирилган Тумек-Кичиджик дафн иншоотидан (жами 30 қабр) олинган антропологик ашёлар неолит даври сўнгги босқич уруғ жамоалари оламдан ўтганларни жойлаштириш масаласида урф-одатларини ўрганишда муҳим аҳамият касб этади.<sup>370</sup>

<sup>367</sup> Толстов С.П. Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции в 1949-1953 гг. // ТР ХАЭЭ, М, Наука, 1958.

<sup>368</sup> Холматов. Н. Оқчадарё ҳавзаси неолит даври хусусида // Хоразм тарихи. Замонавий тадқиқотларда. - Тошкент-Урганч, Наврўз, 2019. - Б.180-182.

<sup>369</sup> Гулямов, Я.Г, Исламов У, Аскарлов А. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зарафшана. Ташкент, Фан, 1966. –С. 5. Холматов Н,У. Ўзбекистон неолит даври жамоаларининг моддий маданияти. – Тошкент, Фан, 2008. - С. 24-48.

<sup>370</sup> Виноградов. А.В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского Междуречья. // -М, Наука, 1981, Вып-Х111. - С.104-107, Рис. 44, . Итина М.А. Памятники эпохи неолита и бронзы // Древности Южного Хорезма. –М, Наука, 1991. С.66-67.



Шу тариқа, юқорида келтирилган мулоҳазалар куйидаги якуний хулосани қайд қилишни тақоза этди:

- Устюрт чинки сарҳади даставвал ашель даври овчилар томонидан ўзлаштирилиши натижасида этник муносабатлари объекти бўлган.

- Устюртда ашель даври овчиларини бир гуруҳ вакиллари ўрта тош даври экологик вазият кулай бўлганлиги боис, касби-корларини давом эттирганлар.

- Устюртда ўрта тош даври охиридаги овчиларни бир гуруҳ аъзолари сўнгги тош даврида аҳоли сони ошганлиги ҳамда озик-овқат захираси камайганлигини назарга олиб, Султон Увайс тоғи этагига келиб жойлашиб этник муносабатлар географиясини кенгайтирган.

- Султон Увайс тоғи сўнгги тош даври овчилари мезолит даврида ўнг ва сўл соҳил худудини қамраб олган жараёнлар географик худуд доирасида давом этган.
- Мил авв V минг иккинчи ярми-IV минг йиллик биринчи ярмида Султон Увайс тоғи этакларида касби-корларини белгилаб олган овчилари Ёнбошқалъа баландлиги теварак-атрофларида мавжуд бўлган сув ҳавзалари соҳили этагига уланиб кетган худудларни ўзлаштириб, этник муносабатлар географияси ҳолатини намоён қилган
- Мил авв. IV минг йиллик иккинчи ярми-III минг йилликлар биринчи ярмида Устюрт чинки, Оқчадарё ҳавзаси, Туямўйин ва Сарикамишбўйи жануби-ғарбий худудларида касби-корларини давом эттирган уруғ жамоалари уюшмалари этник жараёнларни олиб борганлар. Бу эса, ўз навбатида уруғ жамоалари ўртасида иқтисодий-маданий муносабатларни олиб боришда алоқа йўли муҳим аҳамият касб этган.



## АДАБИЙ АЛОҚАЛАР ТАДҚИҚОТЧИСИ

**Файзуллоев Бахтиёр Бобожонович**

*Академик Бобожон Фафуров номидаги Хўжанд ДУ доценти,  
филология фанлари номзоди (Тожикистон).*

**Аннотация:** Мақолада адабиётшунос А.Абдуқодировнинг ўзбек ва тожик адабий алоқаларига доир кузатишлари хусусида фикр юритилган.

**Аннотация:** В статье обсуждаются наблюдения литературоведа А.Абдукадырова над узбекскими и таджикскими литературными отношениями.

**Annotatio:** The article discusses the observations of the literary critic A. Abdukodirov on Uzbek and Tajik literary relations.

**Таянч сўз ва иборалар:** анъана, таъсир, ўзига хослик, маҳорат, таржима, адабий алоқа, татаббу, талқин, табдил, таҳлил.

**Ключевые слова и выражения:** традиция, влияние, своеобразие, талант, перевод, литературное отношение, татаббу, интерпретация, преобразование, анализ.

**Key words and phrases:** tradition, influence, originality, talent, translation, literary attitude, tatabbu, interpretation, transformation, analysis.

Азалдан илм ва маърифат ўчоғи ҳисобланган Хўжанд шаҳрида ярим асрдирки, ўзбек адабиётшунослиги мактаби ҳам амал қилиб келади. Ушбу илм масканида камолга етган олимлардан бири таниқли навоийшунос, тасаввуфшунос, ўзбек ва тожик адабий алоқалари ривожига муносиб ҳисса қўшган мумтоз адабиёт тадқиқотчиси ҳамда тарғиботчиси, филология фанлари доктори, профессор Абдусалом Абдуқодировни етук адабиётшунос сифатида нафақат Тожикистода, балки кўшни давлатларда ҳам яхши билишади.

Истиклол шарофати билан тарихимизга, узоқ асрлик меросимизга соғлом назар билан қараш кайфияти вужудга келган бир даврда Абдусалом Абдуқодиров Навоий ва тасаввуф мавзусига доир ҳали тўла ўрганилмаган мураккаб мавзу тадқиқига киришади. Мустақилликнинг дастлабки йиллари-даёқ олимнинг «Навоий ва тасаввуф», «Навоий ва нақшбандийлик» (Хўжанд, 1991) деб номланган янгича мазмундаги мақолалари «Адабий мерос» журналда эълон қилиниди ва таниқли олимлар назарига тушди.

Ўша йиллар тасаввуф ҳақида ёзиш анъанага айланган бир давр бўлиб, кўплаб қалам аҳли бу фалсафий таълимот ҳақида ёзишда гўёки мусобақага киришган эдилар. Аммо истиклол мафқураси эса тасаввуфга доир янгича мазмундаги тадқиқотларни кутмоқда эди. Ўзбекистонда Нажмиддин Комилов, Иброҳим Ҳаққулов, Султонмурод Олимов каби таниқли олимлар шу йўналишда илмий изланишлар олиб бораётганда Тожикистонда Абдусалом Абдуқодиров улар билан бир вақтда ишга киришиб, муҳим мавафқиятларга эриша олган эди. Унинг дастлабки кузатишлари сифатида нашр қилинган “Навоий ва тасаввуф” (Хўжанд, 1994), “Навоий ва нақшбандийлик” (Хўжанд, 1994) рисоалари ҳамда «Тасаввуф истилоҳ-ларининг қисқача изоҳли луғати» (Хўжанд, 1997, 2002) номли иккита луғат китоби ўша давр илмий ва адабий ҳаётида муҳим янгилик сифатида эътироф этилган эди.

А.Абдуқодировнинг илмий кузатишларида ўзбек – тожик адабий алоқалари йўналиш доирасида бўлиб, Навоий ва мумтоз тожик шоирлари ижоди билан бевосита боғлиқ бўлиб, асосан анъана ва янгилик ва маҳорат масалаларига эътибор қаратилганлиги билан илмий қимматга эга. Олимнинг “Тасаввуф ва Алишер Навоий ижодиёти (*Ваҳдат ул-вужуд проблемаси бўйича*)” мавзусидаги докторлик диссертациясида (Тошкент, 1998) Навоий ижодида тасаввуфнинг ўрни масаласи атрофлича тадқиқ этилиб, унда Аллоҳ, олам ва одамнинг ягоналиги ифодаланган ваҳдат ул-вужуд (борликнинг яхлитлиги) таълимоти

ишқ, фақру фано ва комил инсон масалалари билан боғлаб тадқиқ этилган янгича йўналишдаги кузатишлар сирасига киради.

Профессор Абдусалом Абдуқодиров илмий кузатишларининг асосий қисми Алишер Навоий ҳаёти ва ижодий фаолияти билан бевосита боғлиқ. Унинг «Амир Алишер Навоий» (2003; тўлдирилган иккинчи нашр - 2013), «Тасаввуф ва Алишер Навоий ижодиёти» (Хўжанд, 2005), «Амир Алишер Навоий ва тожик мумтоз шоирлари» (Хўжанд, 2007), «Мавлоно Абдурахмон Жомий ва Амир Алишер Навоий» (Хўжанд, 2014) каби монографиялари шулар жумласидандир. Айниқса, сўнги икки тадқиқотдан аввалгисида форс-тожик мумтоз шоирларидан: Низомий Ганжавий, Жалололдин Румий, Амир Хусрав Дехлавий, Ҳофиз Шерозий ва Абдурахмон Жомий анъаналари қиёсий – типологик нуқтаи назардан биринчи марта илмий таҳлил этилган бўлса, кейинги монографияда эса Мавлоно Абдурахмон Жомий ва Амир Алишер Навоийнинг ҳаёти ва ижоди ва уларнинг ўзаро адабий ҳамкор-ликлари кенг режа асосида ёритилган бўлиб, у ўзбек ва тожик адабий алоқалари силсиласидаги долзарб тадқиқотладан бири дейиш мумкин. Мазкур иш ўзбек ва тожик адабиётшунослигидаги таҳлилий мазмундаги янгича руҳдаги кузатиш эканлигини алоҳида таъкидлаш лозим.

Профессор А.Абдуқодировнинг илмий кузатишлари Алишер Навоий асарларидаги тасаввуфий масалалар тожик мумтоз адабиёти вакиллариининг асарлари билан қиёсий нуқтаи назардан тадқиқ этилганлиги билан адабий алоқаларга доир мавжуд ишлардан алоҳида ажралиб туради.

Профессор А.Абдуқодиров ўзбек ва тожик адабиётининг ҳар бир даври бўйича теран мушоҳада юрита оладиган синчков ва нуктадон олим эди. Жумладан, унинг Алишер Навоий ижоди бўйича хорижий мамлакатларида амалга оширилаётган ишлар бўйича ҳам ўз муносабатини билдира олиганлигини кузатиш мумкин. Жумладан, таниқли эронлик адабиётшунос Зебеҳулло Сафонинг кейинги сўнги йилларда Тожикистон Республика-сининг пойтахти Душанбе шаҳрида нашр қилинган «Таърихи адабиёти Эрон» («*Эрон адабиёти тарихи*») китобида Навоий «Хамса»си ва ундаги дostonларни Низомий «Хамса»сидаги дostonларга тақлид сифатида яратилган деган фикр баён қилинган эди [ 6, 171].

А.Абдуқодиров З.Сафонинг бундай хулосалари нотўғри эканлигини илмий нуқтаи назардан асослаб, икки шоир асарларини матн асосида қиёсий йўналишда кузатиб, қуйидаги муҳим хулосаларини билдирган эди: «Албатта, бу фикрлар ( Яъни З.Сафонинг фикрлари – Б.Ф.) илмий асосга эга эмас. Чунки, биринчидан, З.Сафо Низомий ва Навоий «Хамса»сидаги дostonлар ҳақида етарлича маълумотга эга эмаслиги сезилади. Буни шундан билиш мумкинки, у ҳатто Навоий дostonларининг номларини тўғри келтирмайди. Воқеан, «Ҳайрат ул-аброр»ни у «Ҳаёт ул –аброр», «Лайли ва Мажнун»ни «Мажнун ва Лайли» тарзда ёди... [ 6, 13 ]. Шунингдек, З.Сафо Абдурахмон Жомий, Давлатшоҳ Самарқандий ва Хондамирларнинг Навоийнинг «Хамса»-сининг яратилишига доир ўз давридаёқ ёзиб қолдирган қимматли маълумотлардан мутлақо хабарсиз экани таъкидланиб, ҳар икки шоирнинг асарлари бадиий матн асосида қиёсланиб, Навоийни оригинал шоир эканлигини аниқ далиллар билан илмий жиҳатдан исботлаб берилганки, бундай ишончли, илмий асосга эга хулосалар Алишер Навоий меросини жаҳон миқёсида мукамал даражада ўрганишга ва уни янада теранроқ англашга яқиндан ёрдам бериши шубҳасиз.

Истиқлолдан кейин профессор А.Абдуқодировнинг тожик ва ўзбек адабий алоқаларига доир муҳим ишларидан яна бири - таржима ва табдил борасидаги самарали фаолиятини таъкидлаш мумкин. Жумладан, унинг «*Тожик пандномалари*» рукнида тожик адабиётидан бир қатор намуналарни ўзбек тилига таржима қилиб, уларнинг ҳозиги ўзбек адабий тилидаги табдил вариантлари билан нашр қилиниши адабий алоқаларга доир муҳим ишлардан яна бири дейишимизга имкон беради.

Тожик алломаларидан Абумансур Мотуридий Самарқандийнинг «*Панднома*»си, Хожа Абдуллоҳ Ансорийнинг «*Низомнома*»си ва «*Табоқат ул – сўфия*»(Сўфийлик табақалари) тазкира ҳамда маноқиблари, «*Юз майдон*» номли диний-тасаввуфий

пандномаси, Хожа Абдулхолик Гиждувонийнинг “Васиятнома”си, Ҳусайн Воиз Кошифийнинг “Ахлоқи мусҳсиний” пандно-маси, Абдурахмон Жомийнинг “Хирадномаи Искандарий” достонидан олинган панду ўғитлари шунингдек, Убайд Законийнинг “Сад панд” (Юз панд)“Шужо Шерозийнинг “Анис ун-нос”(“Инсоннинг дўсти”), Сирожиддин Сидкийнинг “Жавоҳир ул-панд” (“Қимматбаҳо пандлар”) каби панднома-лардан танлаб олинган қисмалар ўзбек тилига эркин йўлда таржима ҳамда табдил этилганлиги билан эътиборга лойиқ<sup>371</sup>.

Профессор А.Абдуқодировнинг юқорида келтирилган таржималари-нинг фазилати шундаки, улар ҳар қандай китобхон учун ҳеч ҳам мушкуллик туғдирмайди. Ўзбек тилига қилинган таржималар содда, услубий жиҳатдан равои куринишда ўзбек тилига ўғирилган бўлиб, ҳар қандай китобхон учун тушунарлидир. Энг асосийси, ўзбек тилидаги таржималарда алломаларнинг панду ўғитлари ҳар бир давр талабларига тўла жавоб бера оладиган бадиий жиҳадан етук намуналар дейиш мумкин. Уларнинг ҳар бири кенг китобхонларга айниқса ёшларга, уларнинг тарбияси учун беминнат хизмат қиладиган муҳим адабий манбалар сифатида кўп йиллар давомида ўз аҳамиятини йўқотмасдан, миллат маънавиятини кўтаришга хизмат қиладиган қимматли манбалар ҳисобланади.

Хуллас, истиқлолдан сўнг ўзининг узоқ асрлик тарихига эга бўлган ўзбек ва тожик адабий алоқалари бўйича янги ривожланиш босқичи сари дадил қадамлар қўйилди бу икки қардош - ўзбек ва тожик халқлари адабий алоқаларининг истиқболидан шаҳодат беради. Профессор Абдусалом Абдуқодировнинг бу борада амалга оширилган илмий кузатишлари ҳамда таржима ва табдиллари адабий алоқаларга доир муҳим ишлардан бири сифатида ўз аҳамиятига эгадир.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Хондамир. Макорим ул- ахлоқ.-Қайта ишланган ва тўлдирилган учинчи наشري. - Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1967, 205-бет.
2. Навоий А. Хазойин ул- маоний, Биринчи девон .- Тошкент: “Тамаддун”, 2011, 16 - бет.
3. Абдуқодиров А. “Сабъаи сайёр”: адабий анъана ва янгиликлар//Ўзбек тили ва адабиёти, 2017, 2- сон, 19-20-бетлар.
4. Абдуқодиров А. “Ҳайрат ул – аброр”: адабий анъана ва бадиий маҳорат // Ўзбек тили ва адабиёти, 2016, 1-сон, 12-13-бетлар.
5. Абдуқодиров А. Адабиёт, 10 – синф дарслиги. – Душанбе: “Шарқи озод”, 2012.
6. Сафо З. Таърихи адабиёти Эрон. Ҷилди 3. – Душанбе: Сино, 2011, 171- бет.
7. Абдуқодиров А. Тасаввуф, навоийшунослик ва адабий таълим масалалари. – Ҳужанд: “Нури маърифат”, 2019, 296 – бет.

---

371. Абдуқодиров А. Тожик пандномалари. 1,2,3,4,5,6,7,8,9,10- китоблар. – Ҳужанд: “Нури маърифат”, 2012 – 2022.

## ПАХТАНИ ЙИРИК ИФЛОСЛИКЛАРДАН ТОЗАЛАГИЧНИНГ ТАКОМИЛЛАШТИРИЛГАН НАМУНАСИНИ ИШЛАБ ЧИЫАРИШ СИНОВ НАТИЖАЛАРИ

*А.Ф.Хайдаров – мустақил изланувчи  
“Пахтасаноат илмий маркази” АЖ.*

Пахтани йирик ифлосликлардан тозалаш ПТ-10 русумли машинасининг тозалаш самарасини ошириш бўйича бажарилган такомиллаштириш ишлари асосида олиб борилган тажрибалар натижасида узун қозикли барабан кожухи билан илдирувчи колосникли мослама оралик масофаси 80 мм, аррали барабаннинг айланиш тезлиги 500 айл./дақ. ва тозалагичнинг иш унумдорлиги 6,0 т/соат га тенг бўлиши мақсадга мувофиқ эканлиги аниқланди [1, 2]. Оптимал ўлчамларга эга бўлган намунадаги пахта тозалагич Фарғона вилояти Боғдод туманидаги «FERGANA SPINNING» МЧЖ. КК кластерига қаршли пахта тозалаш корхонасининг пахтани йирик ифлосликлардан тозалаш технологик машиналари тизимига ўрнатилди 1-расм. Пахта тозалагичининг биринчи ва иккинчи аррали барабанларидаги тозаловчи колосниклари орасидаги масофа 50 мм га тенг бўлишини таъминланди.



**1-расм.** Пахта тозалаш корхонасида ўрнатилган такомиллаштирилган пахта тозалагичининг умумий кўриниши.

Такомиллаштирилган пахта тозалагичи пахтани қуритиш барабанидан қуритилган пахтани пневматранспорт қузури орқали сўриб олувчи пахта сепаратори СС-15 нинг таг қисмида пахтани тақсимлаб берувчи шнекнинг таг қисмига ўрнатилган (1-расм). Пахта тозалагичининг технологик иш жараёни куйидагича: пахта сепаратори СС-15 дан пахта шнегига тушган пахта тозалагичнинг шахтасига унинг таъминлагичи ёрдамида ўрнатилган керакли иш унумдорлигида тушади. Шахтадаги пахта тозалагичнинг юқори қисмидаги узун қозикли барабанда титилиб, аррали барабанларга тушади. Такомиллаштирилган пахта тозалагичида узун қозикли барабан кожухи билан биринчи аррали тозалаш цилиндрининг илаштирувчи колосникли мосламалари орасидаги масофа 80 мм га тенг қилиб ўрнатилганлиги сабабли тозаланадиган пахтанинг 50-60 % биринчи аррали цилиндрга, қолган 40-50 % иккинчи аррали цилиндрга бўлиниб кетади. Тозаланган пахта ажратувчи планкали барабанлар ёрдамида тозалагичнинг чиқиш патрубogi орқали машинадан ташқарига чиқарилади.

Синов вариантларини давомийлиги бир соат бўлиб, такрорланишлар сони 3 мартага тенг бўлди. Пахтани ифлосликлардан тозалаш самарадорлигига пахта тозалагичининг иш унумдорлиги тескари таъсир этиши маълум. Чунки тозалагичнинг иш унумдорлиги қанчалик юқори бўлса унинг тозалаш самарадорлиги камайиб бораверади. Шу сабабли бизнинг вариантдаги пахта тозалагични параметрларини математик режалаштириш усули билан оптималлаштириш ишларида пахта тозалаш корхоналарида кўлланилиб келинаётган ЧХ-5 русумли пахта тозалагичини асос қилиб олганмиз.

Лекин Боғдод пахта тозалаш корхонасида ПТ-10 русумли пахта тозалагичи жорий қилинганлиги [3] учун таққослаш синовларини шу тозалагичга нисбатан ўтказилди.

ПТ-10 русумли пахта тозалагичини иш унумдорлиги 8 т/соат тавсия этилгани сабабли, такомиллаштирилган пахта тозалагичининг биринчи навли пахтани тозалашдаги иш унумдорлигини 8 т/соатга ростланиб, тўртинчи саноат навида эса 6 т/соатга ростланиб ўтказилди.

Таққослаш тажрибаларини ўтказиш вақтида пахта тозалаш корхонасида 2021 йил хосилдан жамғарилган наманган-77 селекцион навли пахта хом ашёсидан фойдаланилди. Пахтанинг 2-саноат навини қуритиш барабанидан кейинги намлиги 9,2 % ни, ифлослиги эса 10,3 % ни ташкил этди. Жумладан, иккинчи вариантдаги таққослаш вариантда қайта ишланган Наманган-77 селекцион нав, 4-чи саноат навининг қуритиш барабанидан кейинги намлиги 9,6 % ни, ифлослиги эса 11,4 % ни ташкил этди. Тажриба натижалари 1-жадвалда келтирилган.

**1-жадвал. Таққослаш тажриба натижалари.**

Саноат нави	Амалдаги ПТ-10 тозалагичини ўртача тозалаш самарадорлиги, %				Такомиллаштирилган пахта тозалагичини ўртача тозалаш самарадорлиги, %			
	тозалашгача		Тозалашдан кейин		тозалашгача		Тозалашдан кейин	
	Ифлослик, %	Намлик, %	Ифлослик, %	Тозалаш самарадорлиги, %	Ифлослик, %	Намлик, %	Ифлослик, %	Тозалаш самарадорлиги, %
I	10,3	9,2	2,2	78,6	10,3	9,2	1,4	87,4
V	11,4	9,6	2,9	74,5	11,4	9,6	1,85	83,7

1-жадвалда келтирилган тажриба синов ишлари натижаларидан кўриниб турибдики, такомиллаштирилган пахта тозалагичининг юқори ва паст навли пахта хомашёсини тозалашда тозалаш самарадорлигининг ошиши ПТ-10 тозалагичнинг мавжуд конструкциясига нисбатан 8,8-9,2 % га юқори. Пахта хомашёсини тозалаш самарадорлигининг ошиши туфайли ундан олинadиган тола махсулотининг сифат кўрсаткичлари 0,2% абс га яхшиланди.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Djamolov D.K., Khaydarov A. F. Development of a Cotton Cleaner Machine Collected. Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 18 Nov 2021.
2. Р.К.Джамолов, А.Ф.Хайдаров. Усовершенствование конструкции очистителя хлопка-сырца машинного сбора. «Kimyo, oziq-ovqat hamda kimyoviy texnologiya mahsulotlarini qayta ishlashdagi dolzarb muammolarni yechishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati». Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. 2021 yil 23-24 noyabr, Namangan-2021. 340-341 б.
3. Кулиев Т.М. и др. Совершенствование эффективных, ресурсосберегающих конструкций и научные основы расчета параметров очистителей хлопка-сырца и волокна. Монография. Ташкент, 2020, -52-56 с.



## ИЗУЧЕНИЕ АНТИБАКТЕРИАЛЬНЫХ СВОЙСТВ КОМПОЗИЦИИ НА ОСНОВЕ ХИТОЗАНА *APIS MELLIFERA*

УДК.677.027.513.

<sup>1</sup>А.А.Хайдаров, <sup>2</sup>Х.А.Хайдарова, <sup>3</sup>Г.А.Ихтиярова

<sup>1</sup>Бухарский инженерно-технологический институт, <sup>2</sup>Бухарский государственный университет, <sup>3</sup>Ташкентский государственный технический университет.

**Аннотация:** В статье приводятся данные о разработке нового состава композиционной загустки для печатания ткани хлопок-шелк, обладающим антибактериальными свойствами на основе биоразлагаемых полимеров. Хитозан синтезированный из подмора пчёл *Apis Mellifera* с КМЦ (Узхитан) с добавлением КМК и гидролизованного акрилового эмульсии. Изучены фунгицидные свойства разработанной смешанной загустки для активных красителей используемые для печатания ткани.

В результате наблюдений выявлено, что новые загустители проявляют выраженную антимикробную активность по отношению к грибам *Aspergillus terreus*. Оптическая плотность образцов показывают, что эти загустки устойчивы. Среди загусток наиболее выраженной бактерицидной активностью обладали загустители на основе Узхитан-КМК-ГАЭ, Узхитан -КМК и эти загустки более устойчивы, их можно использовать на следующий день для печатания смесовых тканей.

**Ключевые слова:** хитин, хитозан, биополимер, загусток, подмор пчел, фунгицид.

**Аннотация:** Мақолада *Apis Mellifera* жонсиз асаларидан ажратиб олинган хитозан биополимери билан КМЦ (Узхитан), КМК ва гидролизланган акрил эмульсияси асосида композицион куюкловчининг янги таркиби яратилган ва пахта-ипак толали матоларини гул босиш жараёнида ишлатилиши келтирилган. Полимерлар асосида олинган композициянинг фунгицид хоссалари ўрганилган. Олиб борилган тадқиқотлар натижасида ушбу куюклаштирувчи композициянинг *Aspergillus terreus* мицелиал замбуруғга нисбатан антимикроб фаолликни намоён этиши кўрсатилган. Науналарнинг оптик зичлиги ўрганилганда ҳам бу куюклаштирувчиларнинг мицелиал замбуруғга нисбатан чиддамлилиги намоён бўлган. Тажриба натижасида куюклаштирувчи композициялар орасида Узхитан-КМК-ГАЭ асосидаги куюклаштирувчилар юқори бактерицид таъсирга эгаллиги ва барқарорлиги аниқланган. Бу куюклаштирувчи композицияларни иккинчи куни ҳам матоларга гул босиш жараёнида ишлатиш мумкинлиги асослаб берилган.

**Калит сўзлар:** хитин, хитозан, биополимер, куюклаштирувчи, жонсиз асалари, фунгицид.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномасида «Ахборот ресурслари орқали тарқатилаётган бузғунчи ғояларнинг олдини олиш мақсадида ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари таркибида алоҳида бўлинмалар ташкил этиш зарур» эканлигини таъкидлаган. Марказий Осиё давлатлари учун тайёрланаётган ахборотларнинг аксарияти бу ҳудудда яшаётганлар дунёқарашига психологик таъсир этишни мақсад қилган мафкуравий марказлар томонидан молиявий қўллаб-қувватланмоқда. Бу эса ёшларда ўз турмуш маданиятини ўрганишга иштиёқнинг сусайтирилиши, оммавий маданият таъсирида маънавий-мафкуравий қашшоқлашишга имконият яратади. Ахборот тармоғининг энг муҳим қисмларидан бири интернет маълумотлари орасида порнографик мазмунга эга ахборотларнинг мавжудлиги ёш авлоднинг хулқ-атворида чексиз зарар етказди. Бу, ўз навбатида, жаҳонафкор оммасини ташвишга солиб, миллат ва элатларнинг ахборот-руҳий хавфсизлигини таъминлаш масаласини кун тартибига олиб чиқмоқда.

Интернет сайтларида ёшлар дунёқарашига ижобий таъсир қилувчи ахборотлар оқимидан ташқари бузғунчи ғоялар асосида шакллантирилган материаллар ҳам учраб туради. Бундай ахборотлар қаторига ёт, бузғунчи яъни диний экстремизм ва террорчилик ғояларини, шунингдек, миллатчилик, ирқчилик, садизм кабиларни киритиш мумкин. Бундай ахборотларнинг яна бир тоифасини Ғарб ҳаёти тарзига хос, ўзбек менталитетига зид одат ва кўникмаларни тарғиб этиш ташкил этади. Бу, айниқса, ғарб ёшларининг кийиниши, одатларини тарғиб қилувчи мақола, клип ва фильмларда яққол намоён бўлади. [3]

Ҳозирги даврда ёшлар дунёқарашининг шаклланишига телевидениенинг таъсири кучли, шунинг учун ҳам хорижий каналлардан мамлакатимизга кириб келаётган “ахборотлар”га ҳозир жавоб бўлишга қаратилган миллий телевидение кўрсатувларининг мазмундорлигини тубдан оширишимиз лозим. Бундай ёт ғояларни сингдириш воситалари турли-туманлиги билан ҳам ажралиб туради. Жумладан, сўнгги пайтларда кўпайиб кетган турли клублар, дискотека ва кафелар ҳам бундан мустасно эмас. Бундай муассасалар одатда ўз фаолиятини тижорат асосида амалга ошираётганликлари учун ҳам уларнинг мақсади, табиийки, фақат даромад олишдан иборатдир. Бу каби масканларда тадбирларнинг мазмуни ва тарбиявий жиҳатларига умуман эътибор берилмайди. Қолаверса, кўнгилочар жойлар кўпинча спиртли ичимликларни истеъмол қилиш ва наркотик моддаларни тарқатиш манбалари эканлиги ҳам ҳеч кимга сир эмас. Шунинг учун ҳам ўсмирлар тарбиясини ўз ҳолига ташлаб қўйиш улар ҳулқининг маънавий жиҳатларининг бузилишига, ўз келажагини барбод қилишга олиб келиши мумкин. Ҳар хил ғояларни тарғиб этишда замонавий мобил телефонларининг ҳам “ҳиссаси” катта бўляпти. Телефон аппаратларига ёзилган бузуқлик, ёвузлик ёки бирон-бир ташкилот, гуруҳнинг фаолиятини тарғиб этувчи ролик ва клипларнинг кўпайиб кетаётгани ёшларнинг тарбияси, ахлоқи бузилишига олиб келмоқда.

Жумладан, бундай ахборотлар ёшларда миллий қадриятларимиз, турли байрамларимизга нисбатан шубҳа уйғотишига ҳам сабаб бўлаётгани ачинарли ҳол ҳисобланади. Бу каби ахборот оқимлари уларга ҳеч қандай маънавий озуқа бермайди,

балки онгини ёт ғоялар билан заҳарлайди. Бу соҳада ижобий ўзгаришларга эришиш учун матбуотнинг жамият томонидан баҳоланиш мезонларини ишлаб чиқиш, эълон қилинаётган материалларга нисбатан жамоатчилик фикри таъсирини ошири зарур бўлади. Бугун биз ахборот алмашинуви жадаллашган, тинимсиз янгиланиб бораётган даврда яшаймиз. Ахборотлашув жараёни илм-фан, техника тараққиёти билан биргаликда инсон маънавиятига ҳам ўзининг сезиларли таъсирини кўрсатмоқда.

**Хулоса қилиб айтганда,** ўсиб келаётган ёш авлодни ахборотлашувнинг ижобий ва салбий жиҳатларидан хабардор этиб боришимиз шарт. Бу эса бизнинг келажак авлод олдидаги ва дунёга бўй чўзаётган мамлакатимиз олдидаги олий бурчимиздир. Бугунги кунда халқаро майдонда иқтисодий ва ахборот потенциалининг ўрни ва унга бўлган талаб ошиб бормоқда. Сўнги йилларда Ўзбекистонда замонавий технологияларни ривожлантиришга йўналтирилган миллий қонунчилик асослари яратилди, у давлат ахборот инфраструктурасининг шаклланишида ижобий роль ўйнамоқда. Шунга қарамадан ахборотни қабул қилиш, қайта ишлаш, сақлаш ва узатиш тизимларидан фойдаланишда ҳимоя ва киришни чеклаш воситаларидан минимал ҳолда фойдаланилмоқда. Шунинг учун ҳар бир соҳа фаолияти йўналишида ишни махсус ташкиллаштириш, ахборот хавфсизлиги ҳолатига таъсир қилувчи ўзга омилларни ҳисобга олган ҳолда уни таъминлаш, шакл ва усулларидан фойдаланиш талаб қилинади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 14 сентябрдаги ЎРҚ-406 “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги Қонуни.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар маҳкамасининг 2022 йил 7 июндаги “2022-2023 йилларда Ўзбекистон Республикаси ёшларга оид давлат сиёсатини амалга ошириш дастурини тасдиқлаш тўғрисида”ги 310-сон Қарори
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи, 2017 йил 23 декабрь.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Муражаатномаси. Халқ сўзи газ. 276 - сони. 2020 йил 30.12.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ташкил этилганининг 29 йиллиги ва Ватан ҳимоячилари куни муносабати билан байрам табриги. Ватанпарвар газ. 2 - сони. 2021 йил 15.01.
6. Ўрта асрлар Шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривожига роли ва ахамияти. - Т.: “Ўзбекистон”, 2014.
7. Кодиров Б., Жуманиёзов Х., Глобаллашув шароитида ёшларда ватанпарварлик ва дахлдорлик туйғусини тарбиялаш масалалари. - Т., 2015.



## O‘ZBEKISTON CHORVOQ SUV OMBORINING TA‘SIR HUDUDIDAGI GEOLOGIK MUHIT HOLATI

YDK 551.3:550.3 (575.1)

*Xamidov L.A., G‘aniyeva B.R., Anvarova S.G., Baxriddinova D.X.  
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Seysmologiya instituti.*

**Kirish.** Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ekspluatatsiya qilinayotgan yirik suv omborlarining ta‘sir zonalaridagi geologik va geofizik maydonlarni aniqlash, ularni tahlil qilish va ular asosining deformatsiyalanish chegaralarining dastlabki va keyingi holatini baholash ob‘ektning atrof-muhitga ta‘siri shakllanishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan suv omborlari gidrologik rejimining atrof-muhitning seysmik holatiga ta‘sirini aniqlash, aholi faoliyati, hayoti va sog‘lig‘iga tahdid soluvchi tabiiy va texnogen omillarni ajratishda muhim o‘rin tutadi.

**Tadqiqot hududi.** Chorvoq suv omborining ta‘sir hududida eng seysmik faol tektonik tuzilmalar Karjantau fleksura-yoriq hududi, Karjantau er yorig‘i va Kumbel-Ugam er yoriqlaridir [1,2,3,4]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatgaki, Karjantau fleksura-yoriq hududi shimoli-sharqiy yo‘nalishdagi eng uzun yoriqlardan biridir. Uning yuzasi yotish burchagi shimoli-g‘arbga  $40^{\circ}$  dan  $70^{\circ}$  gacha burchak ostida egilgan. Yoriq bo‘ylab harakatning maksimal vertikal amplitudasi ma‘lum bir davr uchun 3000 m dan oshadi. Uning bo‘ylab harakatlanishlar to‘rtlamchi davrda davom etgan va bu Karjantau terrasini yotqizishlarining 100 m gacha siljishi bilan qayd etilgan [5,6]. Bu  $2,2 \times 10^{-7}$  1/yil gacha bo‘lgan nisbiy deformatsiyalarga to‘g‘ri keladi. Karjantau yorig‘i Toshkent depressiyasining tegishli geologik konlari qoplami ostida janubi-g‘arbga cho‘ziladi va Toshkent fleksura-yoriq hududi deb ataladi. Bu zonaning seysmik faolligi 1966-yil 26-apreldagi Toshkent zilzilasidan oldin ham qayd etilgan, epitsentri u bilan chegaralangan edi. Toshkent fleksura-yoriq hududi mavjudligi geologik va geomorfologik ma‘lumotlar bilan tasdiqlangan. Uning shimoli-g‘arbiy qanoti ko‘tarilgan. Eng yangi bosqich uchun harakatlar amplitudasi 3500 m ga etadi. Karjantau ark-blok ko‘tarilishining vertikal neotektonik harakatlarining umumiy qiymati o‘rtacha 0,2-0,4 mm/yil tezlik gradyentlari qiymatlari bilan ta‘kidlangan. Hozirgacha Kumbel yoriqlari zonasi kuchli zilzilalar sodir bo‘ladigan joy emas va seysmik rayonlashtirishda sakkiz balli tranzit silkinish zonasiga kiradi, deb ishoniladi. Kumbel yoriqlarining rivojlanish tarixini tahlil qilish ularning kaynozoy davrida faol bo‘lganligini ko‘rsatdi. Batafsil seysmogeologik tadqiqotlar ushbu zonadagi so‘nggi tektonik harakatlardan dalolat beradi. «Olmashox», «Kaltako‘l» va «Qorabuzuk» paleoseysmik tuzilmalari u bilan chegaralangan - 9 ball intensivlikdagi kuchli zilzilalar bilan genetik bog‘liq bo‘lgan Yer yuzasining qoldiq deformatsiyalari, aynan shu strukturalarga to‘ri keladi. Yoriqning oraliq mahalliy qismlarida nisbatan yuqori miqdorlardagi kuchlanish paydo bo‘lganda (yil ichida siqilish deformatsiyasining  $2-3 \times 10^{-12}$  1/yil gacha sekin o‘sishi bilan), ayniqsa katta masshtablarda va intruziv jinslarda chegara qiymatlariga erishish ehtimoli ancha yuqori bo‘ladi.

**Usul va natijalar.** O‘zbekistondagi Chorvoq suv omborining ta‘sir zonasidagi geologik muhit holatiga oldindan yuklangan muhitda kichik deformatsiyalar chegarasida, uning ishlashidan kelib chiqadigan kuchlanishlar sezilarli qiymatlarga yetishi mumkin. Bunday holda, muhit buzilmaydi, garchi laboratoriya sinovlarida bunday yuk ostidagi muhit uchun bu qo‘shimcha kuchlanishlar havifli yuqori chegaradan ortib ketganda ham. Asosiy kuchlanishlarning yo‘nalishi shimoli-g‘arbiy bo‘lsa, ushbu mintaqada va turli yoriqlar qo‘shilish zonalarida yaqinida kesish kuchlanishining o‘rtacha qiymatlari, qoida tariqasida, biroz yuqori baholanadi. Xususan, bu, ayniqsa, Ugom yorig‘ining janubi-g‘arbida va uning Karjantau egilishi bilan kesishgan joyi yaqinida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Ugam va Pskom tizmalariga subparallel joylashgan yoriq zonasida asosiy kuchlanishlar yoʻnalishida katta oʻzgarishlar kuzatiladi (1-jadval). Aytish mumkinki, har bir seysmik jarayon va suv havzalaridagi suv hajmining oʻzgarishining maksimal oshishi Chorvoq suv omborining taʼsir zonasidagi kuch maydoni va geologik muhit holatini mos ravishda oʻzgartiradi.

**1-jadval** - Kuchlanishlarning hisoblangan qiymatlari va ularning yoʻnalishlarini miqdoriy modelda hisoblash va empirik maʼlumotlar bilan taqqoslash.

No	Er yorigi	Modelda hisoblangan miqdori, MPa	Empirik hisoblangan miqdori, MPa	Asosiy kuchlanishlar yoʻnalishi
1	Kumbel	68	53	Shimoli-gʻarbiy
2	Ugam	76	59	Shimoli-gʻarbiy
3	Chotqol	106	87	janybi-gʻarbiy
4	Karjantau	61	52	Shimoli-gʻarbiy
5	Pskom	95	77	Shimoli-gʻarbiy
6	Toshkent	63	42	Shimoli-gʻarbiy

Kuchli zilzilar vaqtidagi deformatsiyalar hamda oʻchoqdan olib tashlanadigan kuchlanish miqdorlari dunyoning turli hududlarida boʻlib oʻtgan yirik zilzilalar boʻyicha jaxonning yetakchi olimlari tominidan aniqlangan empirik formulalar asosida hisoblandi (2-jadval).

**2-jadval** - Jaxonning yetakchi olimlari tominidan aniqlangan empirik formulalar.

No	Эмпирик формула	Муаллифлар	No	Эмпирик формула	Муаллифлар
1	$\Delta\sigma = c \left( \frac{M_0}{R^{3/2}} \right)$	Aki (AQSh zilzilalari)	5	$\lg\Delta\sigma = 0,198M + 0,360$	Ulomov (1966 yilgi Toshkent zilzilalari)
2	$\Delta\sigma = \frac{7}{54} \left( \frac{M_0}{R^3} \right)$	Randal (Yangi Zelandiya zilzilalari)	6	$\Delta\sigma = \frac{2\mu\Delta W}{3\tau V}$	Yamashita (Yaponiya zilzilalari)
3	$\Delta\sigma = \frac{2\mu E_p}{M_0}$	Kostrov (Nazarii model)	7	$\lg\Delta\sigma = 0,649M - 7,4 - 1,539 \lg\varepsilon_0$	Xamidov (Miqdoriy model va syv omborlari atrofidagi zilzilalar)
4	$\Delta\sigma = \frac{\mu D}{S}$	Riznichenko (Rossiya zilzilalari)			

Jadvalda:  $\Delta\sigma_i$ - oʻchoqdan olib tashlanadigan kuchlanish;  $M$ -zilzila magnitudasi;  $R$ -ochoq radiusi;  $M_0$ -seyismik moment;  $\mu$ -elastik silgish moduli;  $E_0$ -energiya miqdori;  $D$ -oʻchoq siljish tekisligi;  $S$ -oʻchoq hajmi;  $\Delta W$ - oʻchoqdagi harakat maksimal miqdori;  $\tau$ -siljishning Kulon miqdori;  $V$ -pkestoseyst hudud hajmi;  $\varepsilon_0$ -miqoriy hisoblangan oʻrtacha deformatsiya.


Geologik muhit sharoitlari uchun Chorvoq suv omborining seysmik faol yoriqlar bilan chegaralangan taʼsir zonasida zilzilalar natijasida chiqarilgan ustama kuchlanishlarni hisoblab chiqdik. 3-jadvalda ushbu kuchlanish va deformatsiyalarning qiymatlari koʻrsatilgan.

4-jadvalda  $\Delta\sigma_i$  ning uchta ekstremal va oʻrtacha kattalikdagi qiymatlari koʻrsatilgan,  $\Delta\sigma_i$  esa  $\text{kg}/\text{sm}^2$  oʻlchamga ega.

**3-jadval** - Chotqol-Qurama tog' zonasining Karjantau egilishining ta'sir qilish hududida kuchli zilzilalar uchun hisoblangan ortiqcha kuchlanish va deformatsiyalar.

Hisoblash uchun ishlatilgan formulalar tartibi (1-jadvalda sariq rang bilan ajratilgan)	Chorvoq suv ombori ishga tushirilgunga qadar (1974 yilgacha)		Chorvoq suv omboridan foydalanish davrida (1975 yildan 2021 yilgacha)		
	Burchmulla 1959 yil, M= 5,8; H= 15 km;	Toshkent 1966 yil, M= 5,3; H= 8 km;	Tovoqsoy 1977 yil, M= 5; H= 15 km;	Nazarbek 1980 yil, M=5,2; H= 10 km;	Toshkent 2008 yil, M= 4,8; H= 8 km;
1	$\epsilon_0 = 4,6 \times 10^{-4}$ $\Delta\sigma = 31$ бap	$\epsilon_0 = 1,9 \times 10^{-4}$ $\Delta\sigma = 28$ бap	$\epsilon_0 = 1,1 \times 10^{-4}$ $\Delta\sigma = 26$ бap	$\epsilon_0 = 1,9 \times 10^{-4}$ $\Delta\sigma = 27$ бap	$\epsilon_0 = 0,6 \times 10^{-4}$ $\Delta\sigma = 22$ бap
2	$\epsilon_0 = 4,6 \times 10^{-4}$ $\Delta\sigma = 38$ бap	$\epsilon_0 = 1,9 \times 10^{-4}$ $\Delta\sigma = 35$ бap	$\epsilon_0 = 1,1 \times 10^{-4}$ $\Delta\sigma = 32$ бap	$\epsilon_0 = 1,9 \times 10^{-4}$ $\Delta\sigma = 34$ бap	$\epsilon_0 = 0,6 \times 10^{-4}$ $\Delta\sigma = 26$ бap
3	$\epsilon_0 = 4,6 \times 10^{-4}$ $\Delta\sigma = 6,6$ бap	$\epsilon_0 = 1,9 \times 10^{-4}$ $\Delta\sigma = 6,1$ бap	$\epsilon_0 = 1,1 \times 10^{-4}$ $\Delta\sigma = 5,7$ бap	$\epsilon_0 = 1,9 \times 10^{-4}$ $\Delta\sigma = 5,9$ бap	$\epsilon_0 = 0,6 \times 10^{-4}$ $\Delta\sigma = 4,5$ бap
4	$\epsilon_0 = 4,6 \times 10^{-4}$ $\Delta\sigma = 23,2$ бap	$\epsilon_0 = 1,9 \times 10^{-4}$ $\Delta\sigma = 21,2$ бap	$\epsilon_0 = 1,1 \times 10^{-4}$ $\Delta\sigma = 20,0$ бap	$\epsilon_0 = 1,9 \times 10^{-4}$ $\Delta\sigma = 20,8$ бap	$\epsilon_0 = 0,6 \times 10^{-4}$ $\Delta\sigma = 16,5$ бap
5	$\epsilon_0 = 4,6 \times 10^{-4}$ $\Delta\sigma = 29,0$ бap	$\epsilon_0 = 1,9 \times 10^{-4}$ $\Delta\sigma = 25$ бap	$\epsilon_0 = 1,1 \times 10^{-4}$ $\Delta\sigma = 20,4$ бap	$\epsilon_0 = 1,9 \times 10^{-4}$ $\Delta\sigma = 22,3$ бap	$\epsilon_0 = 0,6 \times 10^{-4}$ $\Delta\sigma = 18$ бap
6	$\epsilon_0 = 4,6 \times 10^{-4}$ $\Delta\sigma = 68,0$ МПа	$\epsilon_0 = 1,9 \times 10^{-4}$ $\Delta\sigma = 44$ МПа	$\epsilon_0 = 1,1 \times 10^{-4}$ $\Delta\sigma = 31,3$ МПа	$\epsilon_0 = 1,9 \times 10^{-4}$ $\Delta\sigma = 37,0$ МПа	$\epsilon_0 = 0,6 \times 10^{-4}$ $\Delta\sigma = 26,5$ МПа
7	$\epsilon_0 = 4,6 \times 10^{-4}$ $\Delta\sigma = 87,1$ МПа	$\epsilon_0 = 1,9 \times 10^{-4}$ $\Delta\sigma = 50,5$ МПа	$\epsilon_0 = 1,1 \times 10^{-4}$ $\Delta\sigma = 38,5$ МПа	$\epsilon_0 = 1,9 \times 10^{-4}$ $\Delta\sigma = 45,95$ МПа	$\epsilon_0 = 0,6 \times 10^{-4}$ $\Delta\sigma = 31,3$ МПа

**4-jadval** - Turli formulalarda hisoblangan olib tashlangan kuchlanish va ularning  $\Delta\sigma_8$  o'rtacha miqdorlari.



**Tahlil.** Ko‘rinib turibdiki har bir deformatsiya va kuchlanish qiymatiga kux yuklanish tushish qiymatlari jiddiy nomuvofiqlikka ega emas. Belgilangan  $3 \leq M \leq 6$  doirasida seysmologik ma’lumotlarga ko‘ra kuchlanish pasayishini baholash  $0,1 \div 110 \text{ k}\bar{\text{z}}/\text{cm}^2$  ichida o‘zgarib turadi.

Boshqa tomondan,  $15\text{-}30 \text{ km}$  chuqurlikdagi maksimal siljish kuchlanishlarini baholash. Belgilangan  $828 \div 1320 \text{ k}\bar{\text{z}}/\text{cm}^2$  oraliqda bu [6] va [7] ma’lumotlariga to‘g‘ri keladi, bunda u  $1100 \div 2200 \text{ k}\bar{\text{z}}/\text{cm}^2$  o‘zgarishlarni tashkil qiladi. Agar Moxorovich chegarasi yaqinida er qobig‘ining pastki qismidagi kuchlanishlar  $2200 \div 4400 \text{ k}\bar{\text{z}}/\text{cm}^2$  [8,9] deb baholanishini hisobga olsak, ortiqcha kuchlanishlarning chegaraviy qiymatlari mavjudlaridan taxminan  $8 \div 11\%$  qismni tashkil qiladi.

**Xulosa.** Chorvoq suv ombori ta‘sir hududidagi geologic muhitni miqdoriy model tuzilayotganda tutash muhit deb qabul qilingan edik. Shuning uchun, to‘plangan elastik potentsial energiyaning sarflanishi barcha bo‘shatilgan kuchlanishlarning umumiy qiymatini aks ettirishini hisobga olsak, magnitudasi katta bo‘lgan zilzila paytida pasayadigan kuchlanishlarning aniqlangan miqorlari yuqoriligi fizik jihatdan tushunarli deb qabyl qilsak bo‘ladi.

Olingan natijalarga muvofiq bu holda qo‘shimcha yuklar rezervuar eng yaqin bo‘lgan faol yoriqning kuchlanish holati muvozanat darajasini o‘zgartiradi. Natijada, u yoki bu faol yoriqning biror qismidagi kuchlarni zilzila tufayli yukizlanishi, muhitning makroskopik tutashligi va uning shaklining o‘zgarishi konservativligidan uning boshqa qismini zilzila hosil qiladigan kuch yuklanishiga olib keladi. Bunda harakatga qarshilik aniq ko‘rinadi.

Faol yoriqning kuch maydonidagi ushbu o‘zgarishlarning xarakterli asosi zilzila manbasida kuchlanishning pasayishi yoki kuchlanishning chiqishidir, ya‘ni yuksizlanish zonasida bu kuchlanishlarning statik ortiqcha bo‘lishi, yuklanish zonasida esa qo‘shimcha ichki kuchlarning to‘planishidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ташкентское землетрясение 1966 года. - Ташкент: Фан.- 1970.- 370с.
2. Ярмухамедов А.Р. Морфоструктура Срединного Тянь-Шаня и ее связь с сейсмичностью. – Ташкент. Фан, 1988. – 164 с.
3. Уломов В.И. Глобальная упорядоченность сейсмогеодинамических структур и некоторые аспекты сейсмического районирования и долгосрочного прогноза землетрясений // Сейсмичность и сейсмическое районирование Северной Евразии. – М.: ИФЗ РАН, 1993. –№.1. – С. 26-45.
4. Абдуллабеков К.Н., Бакиев М.Х., Ярмухамедов А.Р, Рейгбер Х. Постановка и некоторые результаты космогеодезических исследований по изучению современных тектонических движений земной коры Республики Узбекистан // Теория и практика прогноза землетрясений на территории Тянь-Шаня: Тез. докл. Казахстанско- Китайского симпозиума. – Алматы, 1996. – С. 122-124.
5. Хамидов Л.А. Внутренние усилия тектонических структур от вариации техногенной нагрузки. // Доклады АН РУз - Ташкент. - 2017. - N3. - С.56-59.
6. Lutfulla Hamidov, Local Seismicity of Reservoir Areas Based on Digital Seismometric Observations //J.Problems of Cybernetics and Informatics, 2012.-vol. III.- Baku, Azerbaijan.
7. Хамидов Л.А. Оценка НДС зон разрывообразования вблизи водохранилищ при докритических деформациях //Проблемы сейсмологии в Узбекистане - Ташкент: ИС АН РУз, 2016. -№13. - С.100-107.
8. Lutfulla Khamidov, Mahmud Turapov, Soqijon Mahkamov, Farkhod Artikov and Shavkat Suyunov Tracking the local seismicity level in the active influence zone of the southern Uzbekistan.// J.E3S Web of Conferences 264, 02043 (2021) .
- 9.Хамидов Х. Л., Ганиева Б. Р., Анварова С. Г., Жураев Ф. У Квазистатическая количественная модель для расчета напряжений и деформаций земной коры основания крупных резервуаров.// XXII Уральская молодёжная научная школа по геофизике. г. Перми 15-19 марта 2021 года С.27-33.

## СИРКА КИСЛОТАНИНГ П-ТОЛУИДИН БИЛАН РЕАКЦИЯЛАРИ

*Хамидова Мафтуна Халил қизи*

*ЎзМУ органик кимё кафедраси стажёр-тадқиқотчиси.*


*Х.С.Тоғжимуҳамедов*

*ЎзМУ органик кимё кафедраси профессори, к.ф.д.*

Саноат, қишлоқ хўжалиги ва фармацевтикада ароматик аминларнинг ҳосил қилган тузлари ва анилидлари кенг қўлланилади. Бу бирикмаларнинг сувда эрувчанлиги юқори бўлиши уларнинг ишлатилиш имкониятларини кенгайтиради. Бу бирикмалар бир пайтнинг ўзида ўсимликни касалликлардан ҳимоялаш, ўсимлик ўсишини бошқариш (стимулятор), ҳосилдорликни ошириш хоссаларига эгадир.

Шу мақсадда сўнгги йилларда ЎзМУ органик кимё кафедраси ходимлари томонидан асослилиги бирмунча паст бўлган ароматик аминларнинг карбон кислоталари билан реакцияларини ўрганиш бўйича кенг миқёсда илмий изланишлар олиб борилмоқда. Ушбу иш шу йўналишдаги изланишларнинг давоми бўлиб, п-толуидиннинг сирка кислотаси билан реакцияларини ўрганишга бағишланган.

Толуидинлар анилин молекуласининг бензол ҳалқасидаги водород атомининг  $-CH_3$  гуруҳига алмашинишидан ҳосил бўлган бирикмалар ҳисобланади. Бундай алмашинган анилинлар кимёвий хоссалари бўйича анилинга жуда ўхшаш бўлиб, ҳалқадаги электронодонор гуруҳнинг таъсири ҳисобига анилинга нисбатан кучлироқ асослилиқни намоён қилади.



$-CH_3$  гуруҳининг ароматик ҳалқага боғланган ҳолатига боғлиқ ҳолда икки хил таъсири кузатилади: агар бу гуруҳ ароматик ҳалқанинг орто- ҳолатида бўлса электроноакцептор индуктив эффекти кузатилиши натижасида кислоталиқни оширади, пара- ҳолатда бўлганда электронодонор резонанс эффектини беради ва асослилиқни оширади.

Ушбу ишнинг моҳияти шундан иборатки, амин билан кислота орасидаги реакциясида дастлаб олинаниган тузни ажратиб олиш, унинг физик-кимёвий хоссаларини аниқлаш, тузилиши ва таркибини замонавий физик-кимёвий тадқиқот усуллари ёрдамида ўрганишга бағишланган.


Шу билан биргаликда ароматик аминларнинг карбон кислоталар билан реакциясидан ҳосил бўлган амид боғли бирикмалар полиморф ҳолатда бўлиши адабиёт маълумотларида таъкидлаб ўтилган.

Шу муносабат билан олинган амид боғли бирикмаларнинг тузилишини ўрганиш ушбу турдаги бирикмалар кимёсини янада бойитишга хизмат қилади. п-Толуидиннинг сирка кислотаси билан реакциялари ўрганишда дастлабки изланишлар туз ҳосил қилиш реакцияларига қаратилди.


Бунда п-толуидиннинг сирка кислотаси билан реакцияси хона ҳароратида реагентларнинг 1:1 моль нисбатида этилацетат эритувчисида реакция олиб борилганда 94% унум билан п-толуидиний ацетат тузи синтез қилинди.




Реакция тенгламаси:




p-Толуидиннинг сирка кислотаси билан о-ксиллда 3 соат давомда қиздириш орқали олиб борилган реакциядан 73% унум билан N-п-толилацетамиднинг олинди. Реакция тенгламаси қуйидагича:



Ушбу реакцияни Zn кукунлари иштирокида реагентларнинг 1:2,5 моль нисбатида сув йиғич билан жиҳозланган тескари совутгичга уланган колбада 1,5 соат давомда қиздириб олиб борилди ва 96% унум билан N-п-толилацетамид олинди. Реакция тенгламаси:



Бунда дастлаб рух реакцияга олинган кислота билан тегишли туз ҳосил қилади. Сўнгра ҳосил бўлган туздаги карбонил углерод атомига амин молекуласидаги азот атомларининг бўлинмаган электрон жуфтлари ҳисобига нуклеофил хужум қилади. Тегишли қайта гуруҳланишлар натижасида амид боғли бирикма, рух эса оксид холида ва ортикча микдорда олинган кислота ҳосил бўлади:



p-Толуидиннинг сирка кислотаси билан реакциялари натижасида олинган туз ва амидларнинг индивидуаллиги юпқа қатлам хроматография усулида аниқланди, тузилиши ИҚ- спектри ёрдамида ўрганилди ва тасдиқланди.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Травень В.Ф. Органическая химия. Том 1 и 2. М.: Академкнига, 2004. Том 1. –С. 462-464, 485-486. Том 2. -С. 294, 402, 430-431.
2. Моррисон Р., Бойд Р. Органическая химия. Пер. с англ. Демьянович В.М., Смита В.А. М.: Мир, 1974.
3. У.Ч. Ахмедов, К.Н. Ахмедов, Х.С. Таджимухамедов, Э.Н. Хуррамов, М.Т. Хонкелдиева, С.А. Талипов. "Ацилирование анилина гликолевой кислотой" O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining MA'RUZALARI: № 2 (2015) 57-60.
4. Абдушукуров А.К., Хуррамов Э.Н., Нурматов Д.У. "Синтез четвертичных ариламмониевых солей салициловой кислоты" Universum: технические науки: электрон. научн. журн. № 7 (2020) 76-80.

## ҚАНДЛИ ДИАБЕТДА ДАВОЛАНИШГА МУНОСАБАТНИНГ МОТИВАЦИОН-ҚАДРИЯТЛИ ХУСУСИЯТЛАРИНИ ТАДҚИҚОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ

**УДК: 159.9.072:616-08**

*Хасанова Нозимахон Абдугафур қизи*

*Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон миллий университети  
Умумий психология кафедраси илмий изланувчиси, Ўзбекистон.*

**Аннотация:** Касалликка бўлган муносабат одамни беморлик ҳолатига мослашиб боришида муҳим аҳамиятга эга. Бу беморнинг (ўқиш, иш, даволаш жараёни ва б.) турли вазиятларда яқинларига, тиббиёт ходимларига ва ижтимоий вазиятга бўлган муносабатларни ўз ичига олади. Бошқа сўз билан айтганда, касалликка бўлган муносабат бу беморнинг аввало ўз-ўзига, атрофдагилар ва муҳитга бўлган танланган алоқалар тизимининг мажмуасидир. Беморнинг даволанишга бўлган муносабати касаллик профилактикаси ва даволаниш самарадорлигига таъсир кўрсатади. Айниқса, даволанишга бўлган муносабат сурункали касаллик қандли диабет билан оғриган беморларда жуда долзарб масала ҳисобланади.

**Калит сўзлар:** саломатлик, касаллик, муносабат, алоқа, тизим, қандли диабет, даво, профилактика, мотивация, қадрият.

## МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ МОТИВАЦИОННО-ЦЕННОСТНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ОТНОШЕНИЕ К ЛЕЧЕНИЮ У ДИАБЕТИКОВ

**Аннотация:** Отношение к болезням важно, чтобы помочь человеку адаптироваться к своей болезни. Это включает отношение пациента к родственникам, медицинскому персоналу и социальный статус в различных ситуациях (учеба, работа, процесс лечения и т. Д.). Другими словами, отношение к заболеванию представляет собой совокупность системы избранных отношений пациента в первую очередь с самим собой, с окружающими и с окружающей средой. Реакция пациента на лечение влияет на профилактику заболеваний и эффективность лечения. Подход к лечению является очень актуальной проблемой, особенно у пациентов с хроническим сахарным диабетом.

**Ключевые слова:** здоровье, болезнь, отношение, общение, система, диабет, лечение, профилактика, мотивация, ценность.

## METHODOLOGY RESEARCH MOTIVATIONAL-VALUE CHARACTERISTICS ATTITUDE TO TREATMENT IN DIABETICS

**Annotation:** Attitudes toward disease are important in helping a person adapt to their illness. This includes the patient's attitudes toward relatives, medical staff, and social status in a variety of situations (study, work, treatment process, etc.). In other words, the attitude towards the disease is a set of the system of selected relationships of the patient primarily to himself, to those around him and to the environment. The patient's response to treatment affects disease prevention and treatment effectiveness. The approach to treatment is a very topical issue, especially in patients with chronic diabetes mellitus.

**Keywords:** health, disease, attitude, communication, system, diabetes, treatment, prevention, motivation, value

**Муаммонинг долзарблиги.** Қандли диабетда даволанишга бўлган муносабатни мотивацион-қадриятли хусусиятларини ўрганишнинг тадқиқот методологияси ва уни ташкил этиш масалалари психология фанининг долзаб масалаларидан бири ҳисобланади. Шунинг учун ҳам, шахснинг даволанишга бўлган муносабатини мотивацион-қадриятли хусусиятларини ўрганишда уни ҳар томонлама ва кўп қиррали таҳлил қилишга амал қилинади.

Саломатлик – нафақат инсон учун балки жамият учун ҳам бебаҳо бойлик. Бу инсоннинг меҳнат қобилиятини аниқловчи ва баркамол ривожланишини таъминловчи биринчи эҳтиёждир. Ўзбекистонда инсониятнинг энг асосий қадриятларидан бири бўлмиш фуқаролар саломатлигига катта эътибор берилади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев социал соҳада ҳал қилиниши лозим бўлган масалалардан бири сифатида қуйидагиларни ажратади: «Халқимиз генофондини мустаҳкамлаш мақсадида тиббий хизматлар сифатини яхшилаш ва кўламини кенгайтириш лозим. Бизнинг бош мақсадимиз – нафақат касалликни даволаш, балки унинг олдини олишдан иборат» [1].

Психология фанида инсоннинг саломатлик билан боғлиқ индивидуал ҳулқ-атвори «саломатликга муносабат», «саломатликнинг ички сурати», «касалликга муносабат» ва «касалликнинг ички сурати» тушунчалари билан қаралади. Диабет – бу ошқозон ости безининг инсулин ишлаб чиқариш етишмовчилиги ҳолатида пайдо бўладиган сурункали касаллик бўлиб, у организм томонидан ҳосил бўлган инсулинни самарасиз ўзлаштирилиши туфайли ривожланади [2]. Бутун жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилотининг (БЖССТ) 2018 йил 30 октябрда берган маълумотида кўра қандли диабет билан хасталанганлар дунё бўйича 422 миллионга яқин кишини ташкил этади. Ушбу касаллик кўрлик, инфаркт, буйрак етишмовчилиги, инсулт ва оёқлар ампутациясига асосий сабаб бўлади. Шундан келиб чиқиб, 2016 йилда қайд этилган 1,6 миллион ўлим ҳолати айнан қандли диабет боғлиқ бўлган. ЖССТнинг маълумотида кўра Ўзбекистонда 2017 йилда қандли диабетдан ўлим ҳолати умумий ўлим кўрсаткичининг 5.636 ёки 3,34%ни ташкил этади [4].

Диабетни даволаш мумкин, унинг асоратларини олдини олиш, чекишдан воз кечиш, жисмоний фаоллик дорилар билан мунтазам равишда даволаниш ёрдамида бартараф этиш мумкин. Бу ҳаракатлар даволанишга содиқлик билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, даволанишга муносабатнинг муҳим компонентларидан бири ҳисобланади.

Инглиз тилидан таржима қилинганда compliance сўзи «келишув, мослашув, содиқлик, қарашларнинг фарқланиши, мос келишга интилиш» каби маъноларни ифодалайди. Ниҳоятда кўп ишлатиладиган бу «даволанишга содиқлик» иборасидир, инглиз тилида бу ибора “*adherence to therapy*” «шифокор кўрсатмасига амал қилиш» сўзи билан ифодаланади. «Даволанишга содиқлик» ибораси шифокор тавсиясига мос равишда беморнинг даволаниш билан боғлиқ бўлган ҳулқ атворига аниқлик киритиш билан ҳам характерланади (масалан: дорини ўз вақтида қабул қилиш, парҳезга риоя этиш, ҳаёт тарзини ўзгартириш, клиникага ташриф буюриш ва х.к.).

Бироз фарқланишига қарамасдан «даволанишга содиқлик» ибораси маъно ва мазмунига кўра «комплаентлик» иборасига мос келади ва клиник амалиётда кўп қўлланилади (Р. В. Кадыров, О. Б. Асриян, С. А. Ковальчук, 2014). Даволанишга содиқлик бу беморнинг нафақат шифокор ва тиббиёт ходимлари тавсияларига риоя этишини, балки унинг даволаш жараёнида фаол иштирокини назарда тутаяди.

Қандли диабет асоратларини бартараф этиш чора-тадбирлари ва даволаш самарадорлигини таъминлашда айниқса инсулинга қарам бўлган (1-тур диабетда) ва инсулинга қарам бўлмаган (2- тур диабетда) турли шароитларини инобатга олганда содиқлик масаласи калит ҳисобланади. Бу ўз навбатида шахснинг даволанишга муносабатининг психологик омилларини, жумладан, унинг мотивацион қадриятли хусусиятларини ўрганишни талаб этади [5].

**Тадқиқот объекти ва предмети.** Тадқиқотнинг объекти қандли диабет билан касалланган беморлар. Пилотаж тадқиқотда 10 та респондет иштирок этди. Психодиагностик босқичда 22-80 ёшгача бўлган 100 та синалувчи (50 та аёл ва 50 та эркак, 1-тур қандли диабет 51 та синалувчи, 2-тур қандли диабет 49 та) иштирок этди. Ўртача ёш –  $47,42 \pm 13,27$ . Жами тадқиқотда 110 та респондент иштирок этди. **Ўзбекистон Республика** ихтисослашган эндокринология илмий амалий тиббиёт маркази тадқиқотнинг базаси этиб белгиланди. Тадқиқотнинг предмети шахснинг даволанишга муносабати ва содиқлиги, унинг мотивацион (ўз самарадорлик, локус назорати, ўз-ўзини бошқариш стили) ва қадриятли (хаёт мазмуни) хусусиятлари ҳисобланади.

**Тадқиқот мақсади ва вазифалари.** Шахснинг даволанишга бўлган муносабатини мотивацион-қадриятли хусусиятларини ўрганиш ва уни ҳар томонлама ва кўп қиррали таҳлил қилиш. Мақсадни амалга ошириш учун - биринчидан, тадқиқот ўтказиш жараёнида даволанишга бўлган муносабатнинг когнитив, эмоционал ва содиқликнинг ҳулқ компонентларини ўз ичига олган хусусиятлари аниқланди. Иккинчидан, тадқиқотда қандли диабет билан оғриган беморларда даволанишга бўлган муносабатнинг мотивацион-қадриятли хусусиятлари аниқланди. Учинчидан, беморларда даволанишга бўлган муносабатнинг мотивацион-қадриятли хусусиятлари ва содиқлик кўрсаткичлари ўртасидаги мумкин бўлган алоқадорлик ўрганилди.

**Натижалар ва муҳокама.** Қўйилган мақсад ва вазифаларидан келиб чиқиб, эмпирик тадқиқотнинг методологик асослари сифатида Дж.Энджелнинг тизимли биопсихосоциал ёндашуви, В.Н.Мясищевнинг муносабат назарияси ва содиқликнинг коммуникатив, когнитив ва ўз-ўзини бошқариш моделлари танланган. Ушбу тадқиқот учун юқорида келтирилган замонавий тадқиқотлар, ёндошувлар ва назарияларга асос сифатида қараймиз.

1. *Дж. Энджелнинг тизимли биопсихосоциал ёндашувига* асосланиб, айтиш мумкинки, одамнинг саломатлиги ва беморлигига биологик, психологик ва социологик омиллар катта таъсир ўтказиши. Касалликлар нафақат биологик омиллар таъсирида пайдо бўлади, балки инсон фаолияти тизими натижасида, биологик элементлардан ташқари психосоциал тизим ҳам бунга дахлдор бўлади (шахсий, диадик, оилавий ва социал муносабат). Дж. Энджел таъкидлайди, саломатлик ва касаллик кўплаб бир-бирига таъсир этувчи омиллар туфайли аниқланади [6]. Бошқа сўз билан айтганда Дж.Энджелнинг қарашларига асосланиб, саломатлик ва касалликнинг тиббий концепцияси кўпинча шахснинг диққат эътибори, қайғуриши ва мотивациясини четда қолдиради [7]. Бизнинг олиб борган тадқиқотларимиз доирасида, даволанишга бўлган муносабат ва юқори даражадаги содиқликни нафақат биологик ва социал (социо-иқтисодий) омиллар билан, балки бутун қатор психологик омиллар билан ҳам белгилаш мумкин.

2. *В.Н. Мясищевнинг муносабат назариясига* асосланиб, муносабатнинг психологик маъноси шундан иборатки, атрофидаги борлиқнинг одам ҳулқ ановида акс этишининг бир шакли ҳисобланади [8]. Жамиятдаги муносабатлар тизимига одам туғилгандан то ўлимига қадар аралашади ва борлиққа нисбатан ҳар томонлама унинг субъектив муносабатини шакллантиради. Ушбу тизим одамнинг ташқи оламга ва ўз-ўзига муносабатини белгиловчи ихтисослашган компонентлардан иборат: характер, темперамент, қобилият.

В.Н.Мясищевнинг муносабатлар назарияси саломатликка муносабатнинг кўпкомпонентли таҳлил этишга асосланганлигини инобатга олиб, бизнинг тадқиқотлар доирасида даволанишга бўлган муносабатни учта компонентга бўлиш мумкин [9]. Шундай қилиб, даволанишга муносабат деганда биз даволанишга содиқликнинг когнитив, эмоционал ва ҳулқ компонентларининг ўзаро таъсирини, айнан ҳаракатлар жисмоний фаолликка, рационал овқатланиш ва ушбу жараёнда кечувчи мотивларни тушунаемиз.

*Даволанишга содиқликнинг коммуникатив, когнитив ва ўз-ўзини бошқариш моделлари.* Даволанишга содиқликнинг коммуникатив моделини асосий ғоялари бу тиббиёт ходимларининг ўзаро ҳаракатлари стилининг аҳамиятини тушуниш ҳисобланади. Беморлар билан ўзаро ҳамкорлик, тиббиёт ходимларини тушуниш ва самарали мулоқот



хамда беморлар ва шифокорлар ўртасидаги муносабатларнинг барқарорлиги даволанишга содиқликни кучайтирувчи омил ҳисобланади [10]. Даволанишга содиқликнинг *когнитив моделида* ижтимоий-когнитив омиллар доирасида саломатлик билан боғлиқ бўлган ишонч модели, ижтимоий-когнитив назария ва режалаштирилган хулқ назарияси аҳамиятга эга [11].

Ўз-ўзини бошқариш назариясида содиқлик когнитив-концептуализация беморнинг касаллиги ёки саломатлиги учун хавф сифатида намоён бўлади. Беморлар соғлигига бўлган хавфга ва касаллик моделига ва даволанишга нисбатан шахсий тасавурга эга, бу тасавурлар беморни қарор қабул қилишга ва ўзини тутушга йўналтиради. Шундай қилиб мажбурият маҳкумлиқка боғлиқ, бу билан атрофдагиларни ва ўзини тутишни бошқариш мумкин. Тадқиқотнинг мақсад ва вазифалари нуқтаи назаридан келиб чиқиб, юқорида келтирилган методика ва ёндошувларни хусусиятларини ва уларнинг қўлланилишини сўнгра кўриб чиқамиз.

«Шахснинг касалликга муносабат тури» (Л.И.Вассерман ва б.) [12]. Шахснинг касалликга муносабат тури (ТОБЛ) методикаси сўровнома шаклида тузилган бўлиб, беморнинг ҳаёт муаммолари ва вазиятларга у учун аҳамиятли бўлган ҳолатларга бевосита ёки билвосита муносабати ҳақидаги ахборотлар асосида касалликга муносабат турини ташхислайди. Р.Б.Кадыровнинг «Содиқлик даражаси» сўровномаси [13]. Сўровнома уч таркибдан иборат бўлган комплаентлик даражасини аниқлашга қаратилган.

Н.А.Маматова ва М.Х.Карамян «Қандли диабетда даволанишда содиқлик» сўровномаси. «Қандли диабетда даволанишда содиқлик» сўровномаси даволанишга муносабатнинг уч компоненти (хулқ–атворий, эмоционал, когнитив) асосланиб тузилган. Ушбу сўровнома орқали қандли диабет билан оғриган беморларда даволанишга содиқликнинг қайси компоненти устунлик қилишини аниқлаш учун тузилган [14]. «Ўз самарадорлик шкаласи» R.Schwarzer, M. Jerusalem [15]. Ушбу методика синовдаги респондентларни ўз самарадорлик умумий даражасини баҳолаш имкониятини беради. В.И.Моросанованинг «Хулқнинг ўзини бошқариш стили» сўровномаси. Россия таълим академиясининг Психология институти ўзини бошқариш психологияси лабораториясида 1988 йилда яратилган. Тасдиқланган саволнома ҳаётини вазиятларга асосланиб тузилган ва бевосита махсус қандайдир касб ёки ўқув фаолияти билан боғлиқ эмас [16]

Ушбу методика индивидуал ўзини бошқаришни ривожлантиришнинг имкониятлари билан боғлиқ тарзда танланган [17]. Муаллиф одамнинг ўзини бошқаришни мақсадга эришига йўналтирилган психик жараён бўйича тузиб, уни қўллашни ва бошқаришни барча турларини ва шакллари ташқи ва ички фаоллик орқали аниқлаган. Методика 7 та шкаладан иборат:

- «Режалаштириш» шкаласи одам қанчалик даражада онгли равишда ўз фаолиятини режалаштиришни шакллантирганини аниқлайди;
- «Моделлаш» шкаласи мақсадга эришишда аҳамиятга эга бўлган шароитларни қанчалик даражада ривожланганини ташхислаш имкониятини беради;
- «Дастурлаш» шкаласи белгиланган мақсадга эришиш учун ўзининг ҳаракатлари ва хулқини усуллари ҳақида ўйлаб кўриш эҳтиёжини аниқлайди;
- «Натижаларни баҳолаш» шкаласи синовдаги одамни ўзини баҳолашни аниқлайди;
- «Эпчиллик» шкаласи қутилмаган ҳолатларга муваффақиятли мослашиш қобилиятини ташхислайди;
- «Мустақиллик» шкаласи мақсадга эришиш бўйича ишларни ташкил этиш, хулқ ва фаолиятни мустақил режалаштириш қобилиятини аниқлайди; Д.А. Леонтьевнинг «Ҳаёт маъноси ориентациясига йўналтирилган тести» (Purpose-in-Life Test, PIL) Джеймса Крамбо ва Леонарда Махоликанинг «Ҳаётдаги мақсад» тестининг мослаштирилган варианты ҳисобланади. Ҳаёт маъноси ориентацияси тестининг асосида Виктор Франклиннинг логотерапия ва маънога интилиш назарияси ётади. Фикр юритувчи, аниқ йўналтирилган, етук ва мақсадли назар билан ҳаётга қарайдиган дунёқараши кенг одамларда даволанишга содиқлик юқори даражада бўлиши аниқ [18].

Р.В.Кадыров сўровномаси ёрдамида комплаентлик даражасини ўрганиш бўйича олинган натижалар (1-жадвал) кўрсатадики, тадқиқот иштирокчиларида комплаентликнинг паст даражаси 52% ни, юқори даражаси 48% ни ташкил этади.

**1-жадвал.** Қандли диабетнинг турига қараб комплаентликнинг даражаси, N=100.

Комплаентлик параметрлари	Диабет тури				Жами	
	Қандли диабет 1-тур		Қандли диабет 2-тур			
	N	%	N	%	N	%
Умумий комплаентликнинг паст даражаси	28	54,9	24	49,0	52	52
Умумий комплаентликнинг юқори даражаси	23	45,1	25	51,0	48	48

Қандли диабетнинг 1-турида умумий комплаентликнинг паст даражаси 54,9% ни, юқори даражаси 45,1% ни ташкил қилади. Қандли диабетнинг 2- турида умумий комплаентликнинг паст даражаси 49 %ни, юқори даражаси 51% ни ташкил қилади.

Муаллифлик сўровномаси бўйича содиқликни ўрганиш бўйича олинган натижалар унинг даражаларини аниқлаш (2-жадвал) имконини берди. Маълумотларнинг ўртача аҳамияти сифатида медиана ёрдамида паст ва юқори даражалар аниқланди.

**2 - жадвал.** Қандли диабетнинг турига қараб содиқликнинг даражаси (муаллифлик сўровномаси бўйича), N=100.

Содиқлик даражаси	Диабет тури				Жами	
	Қандли диабет 1-тур		Қандли диабет 2-тур			
	N	%	N	%	N	%
Паст даражаси	24	47,1	32	65,3	56	56,0
Юқори даражаси	27	52,9	17	34,7	44	44,0

Қандли диабетнинг турига қараб содиқликнинг паст даражаси 1-тур диабетда 47,1%, 1-тур диабетда 65,3%. Содиқликнинг юқори даражаси 1-тур диабетда 52,9%, 2-тур диабетда 34,7% ни ташкил этди.

Муаллиф сўровномаси бўйича натижаларни таҳлил қилиш тадқиқот иштирокчиларида содиқликнинг когнитив, хулқ-атворий, эмоционал-когнитив, эмоционал-хулқ-атворий, когнитив-хулқ-атворий компонентларини устунлигини аниқлаш имконини берди (3-жадвал).

**3-жадвал.** Содиқликнинг устунлик қилувчи компонентлари бўйича тадқиқот иштирокчиларини тақсимлаш, %.

Содиқлик компонентлари	Жами	
	N	%
Когнитив компонент	58	58,0
Когнитив-хулқ-атворий компонент	20	20,0
Компонентларнинг тенг намоён бўлиши	15	15,0
Хулқ-атворий компонент	3	3,0
Эмоционал-когнитив компонент	2	2,0
Эмоционал-хулқ-атворий компонент	2	2,0

3-жадвалда тадқиқот иштирокчилари содиқлигининг устунлик қилувчи компонентлари бўйича когнитив компонент 58 фоизни, когнитив-хулқ-атворий компонентлар 20 фоизни ва ушбу компонентларнинг тенг намоён бўлиши 15 фоизни ташкил этди.

В.И. Моросанованинг «Ўз-ўзини бошқариш хулқи услуги» сўровномаси ўз-ўзини бошқариш даражасини умумий кўрсаткичлари уч даражага бўлинган: паст, ўрта ва юқори (4-жадвал).

**4-жадвал.** Танлов бўйича шахсни тўлиқ ўзини бошқариш даражасига тадқиқот иштирокчиларини тақсимлаш.

Паст даража		Ўрта даража		Юқори даража	
N	%	N	%	N	%
8	8	81	81	11	11

4-жадвалга биноан асосан беморларнинг ўз-ўзини бошқариш ўртача даражасини (81%) кўрсатмоқда. Бу инсоннинг онгли равишда индивидуал тизимини яратиш даражаси хақида маълумот беради.

Тадқиқот катнашчиларида ўз-ўзини бошқаришни юқори даражаси 11% кузатилди. Инсон янги фоаллик тури билан онсонрок киришади, у нотаниш вазиятларда ўзига ишонган ҳолда тутади, унинг муваффиқиятлари одатий фаолиятларидан кўра стабилроқ бўлиши мумкин. Ўзини бошқаришнинг паст даражасида (8%) ўзининг хулқини онгли равишда режалаштириш ва дастурлаш эҳтиёжи шаклланмаган. Бундай инсонлар вазиятга ва атрофдаги одамларнинг фикрига қарам бўлади. Бу каби синовдагиларнинг қўйилган мақсадга эришишда салбий шароитларни енгиб ўтишда шахсий хусусиятларининг компенсатор имкониятлари, ўзини юқори даражада бошқара оладиганларга нисбатан солиштирилганда анча паст бўлади.

Олинган натижаларни қайта ишлаш ва таҳлил қилишда миқдор ва сифатни баҳолаш методларидан фойдаланилди. Маълумотларни статистик қайта ишлаш методларининг ичида дескриптив статистика, частотали таҳлил, индуктив статистика (Манн-Уитни ва Краскел-Уоллис мезонлари), корреляцион таҳлил (Спирмен мезони бўйича) қўлланилди. Маълумотларни статистик қайта ишлаш SPSS 14.0. дастури ёрдамида амалга оширилди. Колмогоров-Смирнов тестлари ёрдамида тадқиқотда қўлланилган миқдорий кўрсаткичлар тақсимланишининг меъёрий тақсимланишдан фарқи аниқланди. Бу текширув индуктив статистика ва корреляцион анализнинг нопараметрик методларидан фойдаланишга асос бўлди.

#### Хулосалар.

1. Тадқиқотнинг методологияси сифатида даволанишга содиқликнинг когнитив ва хулқ модели сифатида Дж. Энджелнинг тизимли биопсихосоциал ёндошувлари, В.Н. Мясищевнинг муносабатлар назарияси ҳамда комплаентликни ўрганиш бўйича замонавий тадқиқотларнинг натижалари танланган. Ушбу методологик ва назарий ҳолатларнинг асосида қуйидагилар: беморларнинг даволанишга содиқлиги нафақат социодемографик ва ижтимоий-тиббий омиллар билан, балки қатор психологик омиллар, жумладан, шахснинг мотивацион-қадриятли хусусиятлари билан боғлиқ эканлиги аниқланган.
2. Мазкур тадқиқот доирасида шахснинг даволанишга муносабати аниқ сурункали касалликларда тиббиёт ходимларининг тавсияларига риоя этиши билан боғлиқ ҳаракатлари яъни содиқлик ва комплаентлик орқали аниқланган.
3. Ушбу тадқиқот доирасида қандли диабетда даволанишга бўлган содиқликка когнитив, эмоционал ва хулқ компонентларининг ўзаро мураккаб таъсири сифатида қаралади, бу беморнинг тўғри овқатланиш, даволаниш методлари хақидаги билимида, касалликка қайғуриши туфайли келиб чиқадиган эмоцияларида ва шифокор тавсияларига риоя қилиш ҳаракатларини реализация қилишида намоён бўлади.
4. Тадқиқотда қандли диабетда даволанишга содиқликни аниқловчи омиллар сифатида тадқиқот иштирокчиларига оид ижтимоий-тиббий омиллар (ёши, жинси, маълумоти, қандли диабет тури, инсулин қабул қилиши) ва уларнинг мотивацион-қадриятлари (касалликнинг локус назорати, ўз самарадорлик, ўз-ўзини бошқариш ва ҳаёт мазмуни қадриятлари) инобатга олинган.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Мирзиёев Ш. М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 28.12.2018// Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий веб-сайти. URL: <https://president.uz/uz/lists/view/2228> (дата обращения: 15.04.2019).
2. Вопросы здравоохранения. Диабет//Официальный сайт Всемирной организации здравоохранения: URL: [https://www.who.int/topics/diabetes\\_mellitus/ru/](https://www.who.int/topics/diabetes_mellitus/ru/) (дата обращения: 12.03.18)
3. 10 фактов о диабете//Официальный сайт Всемирной организации здравоохранения: URL: <https://www.who.int/features/factfiles/diabetes/ru/> (дата обращения: 12.03.18).
4. Узбекистан. Сахарный диабет// Сайт «World health rankings live longer live better». URL: <https://www.worldlifeexpectancy.com/ru/uzbekistan-diabetes-mellitus> (дата обращения: 12.03.18); Профили сахарного диабета в странах. Всемирная организация здравоохранения, 2016. //Официальный сайт Всемирной организации здравоохранения: URL: [https://www.who.int/diabetes/country-profiles/uzb\\_ru.pdf](https://www.who.int/diabetes/country-profiles/uzb_ru.pdf) (дата обращения: 18.01.19).
5. Кадыров Р.В. Опросник «Уровень комплаентности» [Текст]: монография / Р. В. Кадыров, О. Б. Асриян, С. А. Ковальчук. Владивосток : Мор. гос.ун-т, 2014. 74 с.
6. Лифинцев Д. В., Анцута А. Н. Социальная реабилитация в контексте биопсихосоциальной модели здоровья// Вестник ПСТГУ IV: Педагогика. Психология. 2013. Вып. 4 (31). С. 50-60.
7. Борелл-Каррио Ф., Сачмен Э. Л., Эпстайн Р. М. Биопсихосоциальная модель 25 лет спустя//Отечественные записки. 2006. № 2(29). С. 133-145.
8. Мясичев В. Н. Психология отношений: Избранные психологические труды (под ред. Бодалева А. А). М.: Модэк МПСИ, 2004.
9. Никифоров Г.С. Психология здоровья. СПб, 2006.
10. Leventhal H., Cameron L. Behavioral theories and the problem of compliance//Patient Education and Counseling. 1987. № 10. P. 117 - 138.  
Adherence to long-term therapies, evidence for action. World Health Organisation, 2003. URL: <http://apps.who.int/medicinedocs/pdf/s4883e/s4883e.pdf> (дата обращения: 12.11.2018).
11. Карамян М. Х. Психология здоровья. Ташкент.: MUMTOZ SO'Z, 2010. 116 с.; Карамян М.Х. Приверженность лечению в контексте изучения ценностного отношения личности к здоровью// Человек в пространстве возможностей: Материалы Междунар.научно-практ.конф., посвящ.20-летию образования кафедры психологии КРСУ, памяти проф.А.А.Брудного и проф.Н.Н.Палагиной. Бишкек: КРСУ, 2015. 279 с. С.250-256.
12. Вассерман Л.И., Иовлев Б.В., Карпова Э.Б., Вукс А.Я. Психологическая диагностика отношения к болезни: пособие для врачей. СПб.: НИПНИ им. В.М.Бехтерева, 2005. 33 с.
13. Карамян М.Х. Ценностное отношение к здоровью: монография/М. Х. Карамян; Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека; отв. ред.В. А. Токарева. Ташкент: Navro'z, 2018. 208 с.
14. Кадыров Р.В. Опросник «Уровень комплаентности»: монография // Р. В. Кадыров, О. Б. Асриян, С. А. Ковальчук. Владивосток: Мор. гос. ун-т, 2014.
15. Шварцер Р. Русская версия шкалы общей самоэффективности Р. Шварцера и М. Ерусалема / Р. Шварцер, М. Ерусалем, В. Ромек // Иностранная психология. 1996. № 7. С. 46–56; Self-efficacy measurement: Generalized self-efficacy scale (GSES)//Jonhston, M., Wright, S., Weinman, J. Measures in Health Psychology: A User's Portfolio. NFER-NELSON, 1995.
16. Моросанова В.И. Опросник "Стиль саморегуляции поведения"//Журнал практической психологии и психоанализа. 2004. №2: <http://new.psyjournal.ru> (дата обращения: 19.05.2017).
17. Моросанова В. И. Индивидуальные особенности осознанной саморегуляции произвольной активности человека// Вестн.Моск.ун-та. Сер.14. Психология. 2010. №1.
18. Леонтьев Д. А. Тест смысложизненных ориентаций. 2-е изд. М.: Смысл, 2000. 18 с.

## УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ САМООЦЕНКИ

*Хидайходжаева Хилола Тахировна*

*УзГУМЯ преподаватель кафедры «Педагогика и психологии».*

*Мирзалиева Мухаббат Махамаджановна*

*магистр НУУ им. М. Улугбека.*

Формирование самооценки проходит под влиянием многих факторов, в том числе важно отношение к окружающей действительности, отношение общества к личности и наоборот, взлеты и падения, победы и поражения.

Само понятие самооценка сейчас довольно распространено. Родители всегда задумывались и задумываются над вопросом воспитания детей. Как воспитать ребенка так, чтобы у него сформировалась адекватная самооценка!? Прежде всего – счастливая семья, как фундамент создания и формирования здоровой психики. В процессе формирования личности большую роль играют детские годы. С самого начала у ребенка уже есть свои требования и установки. Все зависит только от принятия или непринятия их родителями. Формирование самооценки – процесс, который начинается в раннем детстве и продолжается до того времени, когда человек почувствует себя самодостаточным, когда его не будет трогать мнение окружающих, когда он будет максимально привлекательным в своих собственных глазах.

«Я» растет, и предполагается, что оно должно стать здоровой личностью. В детском возрасте очень важно, чтобы сами родители относились к себе и друг к другу с уважением, так как передают свое отношение через воспитание. Формирование самооценки продолжается всю жизнь. Становление самооценки происходит наряду с развитием личности, то есть с раннего детства. Этот процесс происходит под влиянием оценок окружающих и личных достижений человека. Ребёнок исследует этот мир и свое место в нем, определяет свои способности и возможности, на основании чего и складывается его самооценка. Формирование адекватной самооценки происходит еще в период внутриутробного развития при условии желанной беременности. Тогда ребенок еще до рождения ощущает свою нужность в этом мире и подсознательно приходит к высокой самооценке.

По мнению М. Кляйн потребность в самооценке формируется в период грудного вскармливания. В этом возрасте складывается индивидуальная психическая реальность младенца, частью которой являются его образы и переживания от взаимодействий с частями материнского тела. Первое, с чем ребенок начинает выстраивать отношения – это материнская грудь. С возрастом при благополучном течении развития образ матери усложняется и превращается в целостное представление о ней как об отдельном человеке. Из отношений с матерью складывается образ собственного Я ребенка. Если мать с любовью и заботой относится к потребностям ребёнка, у него складываются адекватные представления о "хорошести" и "плохости".

Если ребенок нежеланный, то он ощущает себя лишним и ненужным в человеческом мире. Особенно это усиливается, если родители говорят ребенку о его несвоевременном появлении. Низкая самооценка и особенности детского возраста приводят к тому, что он начинает видеть у себя несуществующие недостатки, считая себя обузой для родителей и изгоем в обществе и соответственно взаимодействовать с этим миром. По мнению Карла Роджерса, самооценка личности всегда формируется на базе отношения к нему окружающих людей. Кроме того, важную роль играет сопоставление образов "Я": "Я-реального" (кто я есть на самом деле) с "Я-идеальным" (каким я хочу быть). Самооценка не является величиной постоянной, так как она подвержена влиянию жизненных обстоятельств и активных действий со стороны самой личности. При этом ее роль очень велика, т.к. самооценка – это основа дальнейших жизненных успехов или неуспехов человека.



Особенности самооценки. Изучение особенностей самооценки началось с трудов американского психолога и философа Уильяма Джеймса. Он считал, что самооценка человека может быть двух видов:

- Самодовольство, которое выражается в гордости, высокомерии, заносчивости и тщеславии;
- Недовольство, проявляющееся в скромности, смущении, стыде, неуверенности, раскаянии, отчаянии, униженности и осознании своего позора.

С.Л. Рубинштейн считал, что самооценка – это основа личности, которая складывается из отношения других людей, и оценивании самим человеком окружающих. Особенность самооценки, по мнению Рубинштейна, заключается в том, что она основывается на ценностях человека. От этих ценностей зависит выбор и построение механизмов саморегуляции и самоконтроля поведения и деятельности. Известный исследователь генезиса самооценки Аида Захарова видела в ней ядро личности. Самооценка служит определенной призмой, через которую пропускаются и преломляются все линии психического развития и формируется личность. Схожей точки зрения придерживался А.Н. Леонтьев, который считал, самооценку необходимым условием, обеспечивающим возможность индивиду стать личностью. Курт Левин, представитель гештальт-психологии, связывал самооценку с уровнем притязаний личности. Переживание человеком своих достижений как успешных или неуспешных напрямую влияет на его уровень притязаний в будущем. Повышение этого уровня, соответственно вызывает и повышение самооценки. Анализ основных теоретических подходов к изучению самооценки позволяет выделить следующие ее особенности:

- Самооценка – один из компонентов "Я-концепции" личности (самосознания), напрямую связанный с другими ее частями (самоотношение, самопознание и саморегуляция);
- В основе понимания самооценки лежат оценки самого человека и окружающих людей и эмоциональное отношение к этим оценкам;
- Самооценка неотделима от мотивов личности, ее целей, убеждений, ценностей и ценностных ориентаций;
- Самооценка выполняет функцию саморегуляции поведения и деятельности человека;
- Самооценку можно рассматривать и как процесс, и как результат.

Изучение самооценки. В практической психологии разработано немало методик изучения самооценки. Большинство исследований опираются на общие критерии:

- Компетентность;
- Принятие себя;
- Реакция на обратную связь;
- Чувство вины;
- Оптимизм;
- Внутренний диалог;
- Самодостаточность.

Каждый из этих компонентов оценивается исходя из ответов на специальные вопросы. Глубокое исследование самооценки проводится с помощью методики Дембо-Рубинштейна. Она оценивается, исходя из следующих показателей: ум, здоровье, характер, авторитет у сверстников, практические умения (умелые руки), внешность, уверенность в себе. Основными параметрами для определения результатов являются высота, устойчивость и реалистичность. Методика исследования самооценки, предложенная А.И. Липкиной, называется "Три оценки". С ее помощью можно определить уровень, устойчивость/неустойчивость и аргументацию самооценки. Еще один известный тест "Оцени себя сам" позволяет определить, каким уровнем самооценки обладает человек: адекватной, неадекватной завышенной или неадекватной заниженной.

Все теоретические взгляды на самооценку можно разделить на три группы, согласно тому, какой аспект или функция самооценки берется за основной. Структура самооценки. Самооценка человека имеет две основные составляющие – когнитивную и эмоциональную. Первая – это знания человека о самом себе, второй – его отношение к себе. Оба эти компонента неразрывно связаны между собой и не могут быть представлены в чистом виде. Знания о себе человек получает через общение с другими людьми, и оно неизбежно обрастает эмоциями, интенсивность которых зависит от значимости этих отношений для человека. Когнитивный компонент самооценки – совокупность убеждений о себе, которые могут соответствовать реальности или противоречить ей. Критерии когнитивного аспекта самооценки: мера реалистичности, способ обоснования самооценки, разнообразие и широта самооценочных суждений, форма (проблематичная или категоричная) выражения суждений о себе. Эмоциональный компонент самооценки – эмоциональное отношение к этой совокупности убеждений (оценочные характеристики когнитивных аспектов самооценки). Качественное своеобразие когнитивного и эмоционального компонентов придает их единству внутренне дифференцированный характер, непосредственно влияющий на развитие каждого из них. Конкретный аспект самовосприятия и самопознания выражается в самооценке. Основой самооценки является система личностных смыслов (т.е. воспринимаемая значимость для субъекта тех или иных предметов и явлений, определяемая их истинным местом и ролью в жизнедеятельности субъекта, их жизненной значимостью для него) индивида, система принятых им ценностей. Самооценка выражается в восприятии важности и значимости собственной деятельности в обществе и оценке собственной личности, своих качеств и чувств, достоинств и недостатков. Основным критерием оценки является система личностных смыслов субъекта. Самооценка имеет регулирующую функцию (является основой для решения проблем личностного выбора) и защитную функцию (обеспечивает относительную стабильность и независимость личности). В отечественной литературе можно встретить характеристики самооценки по следующим параметрам:

- в зависимости от уровня — высокая, средняя, низкая самооценка;
- по соотношению с реальным успехом — адекватные и неадекватные (преувеличенные и преуменьшенные);
- особенностями структуры — конфликтной и бесконфликтной (причем конфликтность самооценки может быть как продуктивной, так и дезорганизованной)
- Стабильность — стабильная и нестабильная;
- по степени стабильности — стабильная, нестабильная; по степени временной связи — прогностическая, текущая и ретроспективная самооценка.

Для развития полноценного субъекта эффективно, когда достаточно высокая общая самооценка сочетается с адекватной, дифференцированной парциальной самооценкой разного уровня. Стабильная и в то же время достаточно гибкая самооценка (которая может меняться по мере необходимости под влиянием новой информации, опыта, оценок окружающих и т.д.) является оптимальной для развития и продуктивной деятельности. Самооценку субъекта нельзя считать продуктом только самопознания или только аффективной подструктуры самовосприятия, поскольку она содержит как когнитивные, так и аффективные компоненты. В то же время не совсем корректно рассматривать самооценку как абсолютно самостоятельный компонент самосознания, стоящий в одном ряду с Я-концепцией и самоотношением. Мы считаем, что самооценка — это обобщенный продукт процессов самопознания и самооценки, который не может быть сведен ни к одному из них. Когда у субъекта есть знания о себе, о своих личностных качествах, то на основе этих знаний и самооценки формируется эмоционально-оценочное отношение к себе. Указанные внешние проявления характеризуют поведенческий компонент профессиональной уверенности учителей. Указанный компонент самосознания характеризуется степенью саморегуляции субъектом своей деятельности, общения и личностного развития.

**Литература:**

1. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии / С. Л. Рубинштейн; сост., авторы коммент. и послесл. А. В. Брушлинский, К. А. Абульханова-Славская. – СПб.: Издательство "Питер", 2002. – 712 с.
2. Эйestad Г. Самооценка у детей и подростков : Книга для родителей / Гюру Эйestad; пер. Н. Шинкаренко. – М.: Альпина Паблишер, 2014. – 294 с.
3. Ковалев С. В. Подготовка старшеклассников к семейной жизни / С. В. Ковалев. – М.,
4. Бэндлер Р. Рефрейминг: ориентация личности с помощью речевых стратегий / Р. Бэндлер, Д. Гриндер; перев. с англ. – Воронеж: НПО «МОДЭК», 1995. – 256 с.
5. Дилтс Р. Стратегии гениев: [в 3 т.] / Р. Дилтс; пер. с англ. Е. Н. Дружининой. – М.: Независимая фирма «Класс», 1998. – Т. 3 : Зигмунд Фрейд, Леонардо да Винчи, Никола Тесла. – 384 с. – (Библиотека психологии и психотерапии).

## ЃЎЗАНИНГ ПОЛИПЛОИД ДУРАГАЙЛАРИДА МОЛЕКУЛЯР МАРКЕРЛАР ЁРДАМИДА ГУЛЛАШ ГЕНЛАРИНИНГ ИРСИЙЛАНИШИ ВА ФИЛОГЕНЕТИК МУНОСАБАТЛАРНИ АНИҚЛАШ

**М.Т.Хидиров**

ЎзРФА Генетика ва ўсимликлар  
экспериментал биология институти.

**Д.Қ.Эрназарова**

М.Улугбек номидаги  
Ўзбекистон миллий университети.

**М.Қ.Қудратова**

ЎзРФА Генетика ва ўсимликлар  
экспериментал биология институти.

**Ф.Н.Кушанов**

ЎзРФА Генетика ва ўсимликлар  
экспериментал биология институти.

**М.М.Хидирова**

Низомий номидаги  
Тошкент давлат педагогика университети.

*Goossypium* L. ғўза турлари дунёда иқтисодий жиҳатдан муҳим бўлган ўсимликлар ва шу билан биргаликда табиий тола, ёғ ва оқсил манбаи бўлиб ҳисобланади. Морфологик жиҳатдан ғўза *herbaceous perennials* кенжа турлари 10 м гача бўлган дарахлардир. Янги дунё полиплоид ғўза навлари эвалютция жараёнида ташки муҳитга мослашган. Ғўза геноми таққосланганда тахминан 45 та диплоид ( $2n=2x=26$ ) ва 7 та тетраплоид ( $2n=4x=52$ ) турлари мавжуд [1; 516–528-б.]


*Goossypium* L. ғўза турларида гуллаш ва фотопериодизмга сезувчанликнинг бошқарилишида жуда ахамиятли асосий генларни ўрганиш борасида ҳам кўплаб тадқиқотлар олиб борилган. *G. hirsutum* турида аниқланган FLOWERING PROMOTING FACTOR1(FPF1) гомологи GhFPF1 арабидопсисда оверэкспрессия қилинганда PHYV мутантларидаги каби гуллаш муддати ўзгарганлиги кузатишган. Айнан, *G. hirsutum* ва *G. darwinii* турлараро популяциясидан фойдаланиб гуллаш билан боғлиқ генларни ва QTL-локусларни карталаштириш амалга оширилган [2; 197–201-б.]

Вегетатив ўсиш фазасидан генератив ўсиш фазасига ўтиш даврида гулли ўсимликларнинг кўртак меристемаси вегетатив тўқималарни эмас, балки гул ҳосил қилувчи флорал меристемани ривожланишини таъминлайди. Бу ўз навбатида гуллашни тартибга солишчи генлар фаолияти асосида бошқарилади. SUPPRESSOR OF OVEREXPRESSION OF CONSTANS 1 (SOC1) гуллашни фаоллаштирувчи ва репрессор вазифасини бажарадиган иккита антагонистик гуллаш регулятори, CONSTANS (CO) ва FLOWERING LOCUS C (FLC) томонидан тартибга солинади. CO гени SOC 1 генини асосан FT (FLOWERING TIME) орқали фаоллаштиради, FLC генининг промоторга тўғридан-тўғри боғланиши SOC1нинг фаоллигини пасайтиради [3; 20231–20235-б.]

**Тадқиқот материаллари. Ғўза намуналари.** Тадқиқотда ғўзанинг *G. mustelinum* Miers ex Watt, *G. herbaceum* L. кенжа тур ва шакллари: ёввойи форма subsp. *africanum* (Watt) Mauer, ярим ёввойи subsp. *pseudoarboreum* Mauer, subsp. *pseudoarboreum* f. *harga*, маданий тропик subsp. *frutescens*, subsp. *euherbaceum* A-833 навлари ва *G. herbaceum* L. туричи хильма-хилликлари билан *G. mustelinum* Miers ex Watt турларининг полиплоид дурагай авлодлари вакилларида фойдаланилди.

**Микросателлит маркерлар.** Тадқиқотда 9 жуфт гуллаш генларига жавоб берувчи маркерлардан фойдаланилди. Инсон моддий эхтиёжларини қондиришда экспериментал полиплоидиянинг ахамияти жуда катта. Хромосомаалар сонининг карра ортиши ундаги деярли барча белги-хусусиятларнинг карра ортишига сабаб бўлади.


Бу ҳодисани ҳозирги кунда турли усуллар билан текшириб намуналардаги полиплодиянинг хусусиятлари кенг очиб берилмоқда. Шу усуллардан бири МАС (маркерларга асосланган селекция) технологияси бўлиб, бунда молекуляр маркерлар ёрдамида геномдаги ўзгаришлар аниқланиб келинмоқда. Шу мақсадда биз ҳам ғўзанинг диплоид ва триплоид турларига колхицин таъсир эттириб, уларнинг геномидаги белги-хусусиятлар қай даражада наслга берилганлигини молекуляр маркерлар ёрдамида текшириб кўрдик. Ота-она ва колхицин таъсир эттириб олинган дурагай намуналар ёш баргларида СТАВ усулида геном ДНК ажратилиб, 0.9% агароза гелида текширилди. Ажратиб олинган геном ДНК си тўлиқ текшириб олинганидан кейин ПЗР (полимераза занжир реакцияси) таҳлили амалга оширилди. Бунда 9 жуфт гуллаш генларига жавоб берувчи маркерлардан фойдаланилди. Ушбу маркерлар ёрдамида биз намуналардаги белги-хусусиятларнинг қай даражада наслга берилишини текшириб кўриш имкониятига эга бўлдик. ПЗР таҳлили ўтказилгач 2.5% ли агароза гелида натижалар текшириб кўрилди. Бунда ота-она намуналари ва дурагай намуналар ўртасидаги полиморфизм аниқланди. (1-расм)



**1-расм.** Гуллаш билан боғлиқ локусларнинг ирсийланиши.

Текшириб олинган гелдаги гуллаш билан боғлиқ локуслари асосидаги тасвирни компьютер хотирасига сақлаб, Gel Analyzer таҳлилий дастури ёрдамида ПЗР таҳлили жараёнидаги синтез бўлган мос нуклеотидлар узунлиги аниқлаб олинди ва Microsoft Excel дастурига киритилди. NCSS статистик дастури ёрдамида филогенетик шажараси схемаси яратилди. Ушбу схема орқали намуналарнинг филогенетик жиҳатдан қай даражада яқин ёки узоқлиги кўрсатиб берилди.





**2-расм.** Ота-она ва  $F_1C$  полиплоид дурагай намуналарнинг гуллаш билан боғлиқ локуслари асосидаги филогенетик таҳлили.

Тетраплоид: 1. *G. mustelinum* Miers ex Watt; Диплоид: 2. *G. herbaceum* L. subsp. *frutescens*, 3. *G. herbaceum* L. subsp. *pseudoarboreum*, 4. *G. herbaceum* L. subsp. *africanum*, 5. *G. herbaceum* L. subsp. *pseudoarboreum* f. *harga*, 6. *G. herbaceum* L. subsp. *euherbaceum* A-833; Гексаплоид: 7. *G. herbaceum* L. subsp. *frutescens* x *G. mustelinum*, 8. *G. herbaceum* L. subsp. *africanum* x *G. mustelinum*, 9. *G. herbaceum* L. subsp. *pseudoarboreum* f. *harga* x *G. mustelinum*; Автополиплоид: 10.-13. *G. herbaceum* L. subsp. *pseudoarboreum* f. *harga*-C., 14.-20. *G. herbaceum* L. subsp. *africanum*-C, 21.-23. *G. herbaceum* L. subsp. *frutescens*-C, 24.-25. *G. herbaceum* L. subsp. *pseudoarboreum*-C, 26.-30. *G. herbaceum* L. subsp. *euherbaceum* A-833.

Тадқиқот намуналари филогенетик муносабатларига кўра  $F_1C$  *G. herbaceum* L. subsp. *frutescens* x *G. mustelinum*, *G. herbaceum* L. subsp. *africanum* x *G. mustelinum*, *G. herbaceum* L. subsp. *pseudoarboreum* f. *harga* x *G. mustelinum* дурагай авлодлари бири-бирига жуда яқинлиги аниқланди ва *G. herbaceum* L. туричи хилма-хилликлари билан узоқлиги ва *G. mustelinum* турига яқинликдалигини яъний ота-она ўсимликларидаги белгиларнинг  $F_1C$  дурагай авлодларда ирийлангалигини кўрсатади.

*G. herbaceum* L. туричи хилма-хилликларига экспериментал полиплоидия услубини ёрдамида олирган автополиплоид намуналари гуллаш билан боғлиқ локуслари асосидаги филогенетик муносабатлар турли хиллиги аниқланди натижаларга қараб шуни айтиш мумкинки мутация кенжа турларга хар-хил таъсир кўрсатганини кўришимиз мумкин. Хулоса ва тавсиялар ўрнида шуни айтиш мумкинки, ғўза намуналарида гуллашнинг молекуляр механизмларини ўрганилди, тетраплоид *G. mustelinum* туридаги гуллаш хусусиятига эга бўлган донор генотиплар  $F_1C$  полиплоид дурагайларга ирсийланиши натижалар асосида гуллаш генларининг молекуляр филогениясига аниқлик киритилди.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Guan, X., Song, Q., and Chen, Z.J. (2014). Polyploidy and small RNA regulation of cotton fiber development. *Trends Plant Sci.* 19:516–528. doi: 10.1016/j.tplants.2014.04.007.
2. Zhang S., Lan Q., Gao X., Yang B., Cai C., Zhang T. and Zhou B. 2016 Mapping of genes for flower-related traits and QTLs for flowering time in an interspecific population of *Gossypium hirsutum* × *G. darwinii*. *J. Genet.* 95, 197–201. doi: 10.1007/s12041-016-0617-2.
3. Franklin, K. A.; Lee, S. H.; Patel, D.; Kumar, S. V.; Spartz, A. K.; Gu, C.; Ye, S.; Yu, P.; Breen, G.; Cohen, J. D.; Wigge, P. A.; Gray, W. M. // PHYTOCHROME-INTERACTING FACTOR 4 (PIF4) regulates auxin biosynthesis at high temperature // *Proceedings of the National Academy of Sciences* // (2011) 108(50), 20231–20235. doi:10.1073/pnas.1110682108.

## TRANSLATION ISSUES OF PHRASEOLOGICAL UNITS USED WITH BODY PARTS FROM ENGLISH INTO UZBEK

*Khidirova Makhfuza Amirkulovna*

*Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, teacher.*

*Eshdavlatova Mastura Jurayevna*

*Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, student.*

**Abstract:** Translating and analyzing semantic peculiarities of English idioms have always become one of the most challenging issues in linguistics. This article discusses translation issues of phraseological units used with body parts from English into Uzbek language, their semantic peculiarities in different systematic languages. While discussing, some examples are also given for analysis. We draw upon conveying their connotative and denotative meanings from English into Uzbek language.

**Key words:** idioms, translation, meaning, change, equivalent, connotation, denotation, negative and positive meanings, idioms, metaphors, similes, literal and figurative meaning.

According to the definition taken from Wikipedia, an idiom is a phrase or expression that typically presents a figurative, non-literal meaning attached to the phrase; but some phrases become figurative idioms while retaining the literal meaning of the phrase. Categorized as formulaic language, an idiom's figurative meaning is different from the literal meaning. Idioms occur frequently in all languages; in English alone there are an estimated twenty-five million idiomatic expressions.

Many idiomatic expressions were meant literally in their original use, but sometimes the attribution of the literal meaning changed and the phrase itself grew away from its original roots—typically leading to a folk etymology. For instance, the phrase "spill the beans" (meaning to reveal a secret) is first attested in 1919, but has been said to originate from an ancient method of voting by depositing beans in jars, which could be spilled, prematurely revealing the results.

Other idioms are deliberately figurative. For example, "break a leg" is an ironic expression to wish a person good luck just prior to their giving a performance or presentation. It may have arisen from the superstition that one ought not utter the words "good luck" to an actor because it is believed that doing so will cause the opposite result.

There is nothing easy or simple about translation, even as there is nothing easy or simple about any human activity. It only looks easy because you are used to doing it. Anyone who is good at a certain activity can make it appear easy, even though, when we pause to think, we realize there is nothing easy about it. Translation in the formal sense deals with human language, the most common yet the most complex and hallowed of human functions. Language is what makes us who we are.<sup>372</sup>

According to the Cambridge Advanced Learner's Dictionary, "idiom" is a group of words in a fixed order that has a particular meaning that is different from the meanings of each word on its own:

To "have bitten off more than you can chew" is an idiom that means you have tried to do something which is too difficult for you.

Obviously, an idiom is a widely used saying or expression that contains a figurative meaning that is different from the phrase's literal meaning.

For example, if you say you are feeling "under the weather", you do not literally mean that you are standing underneath the rain. "Under the weather" is an idiom that is universally understood to mean sick or ill.

---

<sup>372</sup> Khidirova M., Eshdavlatova M. Translation problems of proverbs used with the word "money" from English into Uzbek language. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Scientific Journal Impact Factor VOLUME 1 | ISSUE 11 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423. P 48-52.*

Idioms often summarize or reflect a commonly held cultural experience, even if that experience is now out of date or antiquated. In addition, an idiom is a phrase or expression that typically presents a figurative, non-literal meaning attached to the phrase, but some phrases become figurative idioms while retaining the literal meaning attached to the phrase. Categorized as formulaic language, an idiom's figurative meaning is different from literal meaning.

One can use idioms to express complex ideas in a simple way. They can help express a large or abstract idea in a way that is easy to understand. For instance, you could say that two things are impossible to compare to another, because they possess different traits or meanings. Or you could simply say that it is like "comparing apples to oranges". In this case, the use of an idiom helps you to express the same idea in a much simpler way.

Idioms establish a point of view. Since idioms are often used to express commonly shared or universal ideas, there are often dozens of idioms that apply to the same concept. However, depending on which idiom you choose, you convey an entirely different attitude about the subject about which you are writing. Idioms add humor to your writing. Idiomatic expressions can help transform flat description with the help of a funny turn-of-phrase. For instance, rather than describing someone as being not very smart, you could say that he is "not the sharpest tool in the shed" or "not the brightest star in the sky." In addition to conveying that the subject in question is not intelligent, the inherent comparison of a person's brain to a toolbox or a star is unexpected and humorous.

**Below, there are some idioms with the body parts.**

1) To be up in arms about something.

- Expressing that you are very angry or upset about something.
- Nimadandir juda xafa bo'lmoq.

• Example:

1) The local residents have been up in arms about the tax increase.

2) I was up in arms about my friend's behavior at the party.

2) Bare your heart.

- To reveal your secret, thoughts and feelings to someone.
- Sirlaringiz, fikrlaringiz va hissiyotlaringizni kimgadir oshkor qilmoq.

• Example:

1) She decided to bare her heart through text messages to her closest friends.

2) Jasur is too shy to bare his heart to his girlfriend.

3) Cost an arm and a leg.

- To be very expressive.
- Juda qimmat.

• Example:

1) The attire is so fashionable and attractive, but the price costs an arm and a leg.

2) The car costs him an arm and a leg.

4) Eyes are bigger than one's stomach.

- To take more food than you can possibly eat.
- Ko'zi och.

• Example:

1) I am afraid that your eyes are bigger than your stomach. You can not eat all this.

2) I was excited that Ali's eyes were bigger than his stomach.

5) Find one's feet.

- To become confident or comfortable in a new situation.
- Yangi joyga, vaziyatga ko'nikmoq, moslashmoq.

• Example:

1) When I began my new job as a teacher, it took me several weeks to find my feet in my job.

2) It was tough to interact with candidates when I participated in the international conference, but I eventually found my feet.

6) Give someone a hand.

- To give someone help or assistance.
- Yordam bermoq.

• Example:

1) Could you give me a hand to carry a suitcase? Because it is so heavy to carry for myself.

2) I gave one of my friends a hand to do the homework which was so difficult.

7) Hit the nail on the hand.

- To say something that is precisely correct or completely true.
- Haqiqatni so'zlamq

• Example:

1) At last, he's hit the nail on the head.

2) She hit the nail on the head when she used idioms in the IELTS speaking test.

8) Has a heart of gold.

- Friendly, sincere, generous.
- Do'stona, sofdil, saxiy.

• Example:

1) Honestly, my father is a man with a heart of gold.

2) My foreign friend is so nice. He must have a heart of gold.

9) Have an eye for something.

- The ability to do something well.
- Nimanidir yaxshi bajarish uchun qobiliyat.

• Example:

1) I have an eye for antique furniture.

2) He has an eye for doing math problems.

10) Have/get/feel butterflies in my stomach.

- To feel very nervous or anxious about something.
- Juda jahli chiqmoq yoki nimadir haqida xavotirlanmoq.

• Example:

1) I felt butterflies in my stomach before a final test at the university last year.

2) My sister always has butterflies in her stomach, before her big speech among candidates.

11) Lend an ear.

- To listen to someone's problems in a sympathy way.
- Kimningdir muammolarini hamdardlik bilan eshitish.

• Example:

1) He lent a sympathetic ear while I told him my problems.

2) I lent him an ear when he needed advice on a personal situation.

12) To lend someone a hand.

- To help someone.
- Yordam bermoq.

• Example:

1) My father is so generous because he lends his siblings a hand when they are in trouble.

2) I have friends who lend me a hand when I have problems.

13) To lose one's head.

- To lose control and become so upset quickly.
- Nazoratni yo'qotmoq va juda tezda xafa bo'lmoq.

• Example:

1) My mother lost her head and started yelling at me.

2) Madina lost her head and said some things she regrets.

14) To set eyes on.

- To see (someone or something), usually for the first time.
- Birinchi marta kimnidir ko'rmoq.



•Example:

1)He told me that he loved his girlfriend the minute he said eyes on her.

2)My daughter has not set eyes on her new school yet.

15)Keep your chin up.

•To try to stay positive when things seem negative.

• Narsalar salbiy bo‘lsada ijobiy holatda turish.

•Example:

1) Keep your chin up! All of the problems will be solved soon.

2)My elder brother always keeps his chin up, although he encounters different difficulties during his life.

**Conclusion.**In conclusion, we can say that the present day any language cannot be considered full of value without idiomatic usage, as the use of phraseological units is the first sign of a certain language developing. Idiomatic sentences enrich vocabulary as well as the correct acquisition of them signals that the speaker knows the language on the level of a native speaker. Idioms can be treated in translation as culture-specific elements or a universal phenomenon across languages. The analysis and discussion above showed that idioms carry characteristics peculiar to the language and culture in which they have emerged. The fact that in most cases literal translation does not work verifies this claim. Therefore, when translating idioms, translators should not restrict themselves to the literal meaning or formal aspects, but rather opt for idiom counterparts that are natural and familiar in the culture, regardless of the form.

**Bibliography:**

1. Khidirova M., Eshdavlatova M. Translation problems of proverbs used with the word “money” from English into Uzbek language. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Scientific Journal Impact Factor VOLUME 1 | ISSUE 11 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423. P 48-52.
2. Smith W.G. The Oxford Dictionary of English Proverbs. –Oxf., 1970. The Oxford Dictionary of Current English. Revised second edition, edited by Della
3. Thompson. Oxford University press,1996.
4. Abdurahmanova X, Arkadyeva S. Ingliz tili tarjima nazariyasi. –T., 2005.
5. Karomatova K, Karomatov H. Proverbs, maqollar posловици(инглиз,ўзбек ва рус мақоллари) –Т. Меҳнат, 2000.
6. Salomov G'. Rus tilidan o'zbek tiliga maqol va matallarni tarjima qilish masalasiga doir. – T., 1961.
7. Sh. Mirzo. English – Uzbek proverbs and sayings. – T., 2000.
8. Frazeologik uslubiyat asoslari. B.Yo'ldoshev. Samarqand – 1999.
9. G'aybulla Salomov. Maqol va idiomalar tarjimasi. Toshkent – 1961.

## DUNYO BOQIY TURSA, UL ZOT HAM MANGU...

*Xidirova Saodat Allayorovna*  
*Chiroqchi tumani 191-maktab.*

Benazir inson daho shoir, davlat arbobi, munaqqad, faylasuf, tarixchi, ilm-fan homiysi, ma'naviyat va ma'rifat targ'ibotchisi' millatimizning g'ururi, sha'ni sharafi dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkori Nizomiddin Mir Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Amir Temurning to'rtinchi o'g'li SHohrux Mirzo shohligi davrida Hirotga tug'ildi. Bu shahar hozirgi Afg'onistonning markaziy shaharlaridan. Alisher otasi G'iyosiddin Muhammad edi. Uni "Kichkina bahodir" ham der edilar. Onasi Halimabonu amirzoda Shayx Abusaid Changing qizi bo'lgan. Amir Temur vafoti, ya'ni 1405 yildan keyin valiahd Shohruh Mirzo markaziy davlatni Samarqanddan Hirotga ko'chiradi. Andijonlik Isomiddin polvon 2000 suvoriyga boshliq bo'lib, Hirotga borgan. Shohruh Mirzo uning jasur va pahlavonligini qadrlab, lashkar boshi Amir Buxaning Shahribonu qiziga uylantirgan. Vaqti-soati yetib o'g'il farzand ko'rishadi va G'iyosiddin deb ism qo'yishadi. G'iyosiddin balog'atga yetgach, otasi kabi mard jangchi bo'ladi, ikki qo'llab qilich urgan. Bu yigit ya'ni G'iyosiddin Said Chang qizi Halimabonuga uylanadiva bu oilada Alisher dunyoga keladi.

Alisher saroy muhitida yashaganligi uchun alohida tarbiya va nazoratda o'sdi. Kichiklik chog'idan she'r va musiqaga ishq tushdi. Olim-u fozillar davrasida bo'ldi. Uch-to'rt yoshlarida davrining mashhur shoiri Qosim Anvorning bir she'rini yod aytib, mehmonlarni hayratga soldi. Bir yildan so'ng uni maktabga berdilar. U bo'lajak sulton Husayn Boyqaro bilan birga o'qidi.

1447-yil Shohrux Mirzo vafot etib, temuriy shahzodalar orasida taxt uchun kurash boshlandi. Hirot notinch bo'lib qoladi. Alisherlar oilasi Iroqqa yo'l oladi. Yo'lda, Taft shahrida Alisher zamonasining mashhur tarixchisi "Zafarnoma"ning muallifi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi.

Alisherlar xonadoni 1451-yilda Hirotga qaytadi 1452-yilda Abulqosim Bobur Mirzo Xuroson taxtiga o'tiradi, notinchliklar bosiladi. G'iyosiddin Muhammad Sabzavorga hokim qilib tayinlanadi. Alisher esa o'qishni davom ettiradi. Maktab yosh Alisherni she'riyat, adabiyot olamiga olib kirdi. Bo'lajak shoir Sa'diy She'roziyning "Guliston" va "Bo'ston" asarlarini, Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" (Qush nutqi)ni so'ngsiz ishtiyoq bilan o'qidi. Ayniqsa, qushlar tilidan keltirilgan hikoyatlar va ularning chuqur mazmuni Alisherning o'y-xayolini tamoman egallab oldi. "Mantiq ut-tayr" xayoli Alisherga bir umr hamroh bo'ldi. Umrining so'ngida esa "Lison ut-tayr" nomi bilan kitob yozdi.

1453-yilda Alisherning otasi G'iyosiddin Muhammad vafot etdi. Alisher Abulqosim Bobur xizmatiga kirdi. Avval Sabzavorda, so'ng Mashhadda yashadi. Ikki maktabdosh do'st – Husayn va Alisher yana birga bo'ldilar. Bu yillar ham yosh Alisher uchun o'qish va ilm egallash yillari bo'ldi. Bir munosabat bilan 50 bayt, 100 ming misra she'r yod olganini aytadi.

She'rga muhr Alisherni ijodga undadi. U 7-8 yoshida she'r yozgani ma'lum. U "turk alfozi bila", ya'ni turkcha she'rlariga "Navoiy", forchasiga "Foniy" taxallusini qo'ydi. "Navoiy"ning bir ma'nosi-kuy, ohang yana dard, g'ammi ham "navo" deganlar. "Foniy" esa o'tkinchi degani.

Navoiy 15 yoshlarida o'z she'rlari bilan zamonasining mashhur shoirlari diqqatini tortdi. Tarixchi Xondamirning yozishicha, she'rlari bilan endigina tanilib kela boshlagan Alisher o'z davrining dongdor shoiri Mavlono Lutfiy xizmatiga boradi. Mavlono undan she'r o'qishni iltimos qiladi. Alisher o'zining

Orazin yopg'och, ko'zimdin sochilur har lahza yosh,

Bo'ylakim, paydo bo'lur yulduz nihon bo'lg'och quyosh-  
matla'i bilan boshlanadigan g'azalini o'qiydi. She'rdan hayratga tushgan kekxa shoir bunday deydi: "Valloh, agar muyassar bo'lsa edi, o'zimning forsiy va turkey tillarda aytgan o'n-o'n ikki ming baytimni shu g'azalga almashtirardim va buni o'zimni kata yutug'im deb hisoblar edim". Bu turkiy she'riyatga juda kata iste'dod kirib kelayotganidan nishona edi.

1457-yilda Abulqosim Bobur vafot etdi. Hokimiyat tepasiga Abusaid Mirzo keldi. Husayn Boyqaro taxt uchun kurashga sho'ng'ib ketdi. Navoiy esa Mashhad madrasalarida o'qishni davom ettirdi va do'stlar ortirdi.

Shoir 1464-yilda Hirotga qaytadi. Biroq poytaxtda uni noxushliklar kutar edi. Abusaid Mirzo u bilan taxt talshayotgan Husayn Boyqaroning yaqin kishilarini ta'qib va tazyiq ostida olgan, jumladan tog'alari iste'dodli shoirlar Mirsaid Kobuliy va Muhammad Ali G'aribiylarni oldinma – keyin qatl ettirgan edi. Alisherning ota mulkimusodara qilingan, hatto yashab turgani boshpana ham qolmagan edi. U shaharda uzoq qololmadi. Samarqandga ketishga majbur bo'ldi. U yerda din huquqshunosi va faylasuf Fazlulloh Abullays qo'lida o'qidi. Samarqand hokimi Ahmad Hojibek rag'bat va homiylik ko'rsatdi. 1465-1466 - yillarda uning muxlislari she'rlarini to'plab "Devon" tuzdilar. Bu kitob bugun "Ilk devon" nomi bilan mashhurdir.

1468-yil oxirida Eronni egallash uchun bo'lgan jangda Abusaid Mirzo halok bo'ladi. Husayn Boyqaro 1469-yilning boshida Hirotni qo'lga oladi va Samarqandga xat yo'llab Navoiyni o'z yoniga chaqiradi. Alisher voqeadan xabar topishi bilan Hirotga do'sti huzuriga qaytadi. Unga bag'ishlab yozgan "Hiloliya" qasidasini taqdim etadi. Husayn Boyqaro uni davlat ishlariga jalb etadi. Muhrdor qilib tayinlaydi.

Alisher Navoiy 1469-1472-yillarda muhrdor, 1472-1476-yillarda vazir bo'lib ishladi. 1487-yillarda Astrobodga hokimlik qildi. Husayn Boyqaro uni o'ziga g'oyat yaqin tutar, har bir narsada u bilan maslahatlashar va buni nihoyatda qadrlar edi. Navoiy vazirlik yillar Hirotida obodonlik ishlari avj olgan madaniyat gullab – yashnagan davr bo'ldi.

Navoiy ilm va san'at ahlining homiysi, madadkori edi. Alisher Navoiy she'rni, shoirlikni hamma narsadan baland tutdi. Ulug' shoirning ilk she'riy devonini muxlislari tuzgan bo'lsalar, birinchi devoni "Badoye ul-bidoya" (Badiiylik ibtidosi)ni 1472-1476-yillarda shohning amri va istagiga ko'ra o'zi kitob qildi. 1476-1483-yillarda ikkinchi devoni "Navodir un-nihoya" (Nihoyasiz nodirliklar) maydonga keldi. 1481-1482-yillarda "Vaqfiya" asarini yozdi. Navoiyning eng katta orzusi dostonlar yozish birinchi navbatda, XII asrning buyuk shoiri Nizomiy Ganjaviy dan keyin shoirlik qudratining mezoniga aylanib qolgan "Xamsa" yaratish edi. Navoiy maslahatga ustoz Jomiy huzuriga boradi. Shoir ustozidan oq fotiha olib, og'ir, mashaqqatli ishga kirishadi. Navoiy besh dostonni ikki yilda yozib tamomlaydi. 1483-yilda o'z "Xamsa" sini yoza boshlab, 1485-yilning boshida tugatadi. Shoir ishlagan kunlar hisobga olinsa 54ming misralik ulkan obida 2 yilda bitkaziladi. Turkiy tilde birinchi marotaba "Xamsa" yaratiladi.

1480-1490-yillar Navoiy uchun badiiy ijodda samarali davr bo'ldi. Shoir "Xamsa" dan keyin ko'p o'tmay, ketma-ket nasriy kitoblar yaratadi. U 1488 - yilda yozgan "Tarixi mulki Ajam" (Ajam shohlari tarixi) kitobida podshoh kishining darvesh xulqli bo'lishini, har qanday holda ham kichik fe'l, kamtarin bo'lib qolishini istaydi.

1480 - yillarning oxiri, 1490-yillarning boshida Navoiyning yaqin do'stlari, ustozlaridan Sayyid Hasan Ardasher, Abdurahmon Jomiy, Pahlavon Muhammad ketma-ket vafot etdilar. Navoiy ularga bag'ishlab "Holati Pahlavon Muhammad", "Holoti Sayyit Hasan Ardasher", "Xamsat ul- mutahayyirin" asarlarini yozdi. Bu asarlar nasriy bo'lib, shoirning bu ulug' zamondoshlari haqidagi memuar xotiralaridan tashkil topgan edi.

1491 - yilda shoir muammo janriga bag'ishlangan "Risoi muammo" (ikkinchi nomi "Mufradot") risolasini yozdi. Hadislar asosidagi 40 ruboiyni o'z ichiga olgan "Arbain" mashhur hazrat Alining "Nazm ul-laoliy" asarining she'riy tarjimai 266 ruboiydan tashkil topgan "Nazm ul-javohir" ham shu yillar yuzaga keldi.

Navoiyning 1490 - yillardagi eng katta xizmatlaridan biri "Xazoyin ul-maoniy" (Ma'nolar xazinasi) ni tuzishi bo'ldi. 1492-1498 - yillarda tartib qilingan 4 qism devondan iborat bu ulkan kulliyot shoirning turkey tilde yozilgan deyarli barcha lirik she'rlarini qamrab olgan edi. Navoiy arab, fors tillarini mukammal bilgan va ularda ham ajoyib asarlar yozish qudratiga ega edi. Shoirning 12 ming misra forsiy she'rlarini o'z ichiga olgan "Devoni Foni" bunga dalildir. Navoiy barcha fanlar bilan shug'ullangan edi. Hatto, o'q otish haqida "Risoiyi tir andoxtan" lug'atshunoslik borasida esa "Sab'atu abhur" (Yetti dengiz) nomli kitob yozgan. U 1490 – yillarda "Majolis un-nafois" (Nafis majlislar) nomli o'zbek tazkirachilikning ilk namunasini

yaratdi. “Mezon ul- avzon” (Vaznlar o’lchovi) asarlarini yozib, o’zbek aruz she’rining bir necha asrlik tajribasini umumlashtirdi. 1495-1496 – yillarda “Nasoyim ul-muhabbat” (Muhabbat shabodalari) ni yozib tugatdi. 750 shayx haqida ma’lumot berdi.

1498 - yilda “Majolis un-nafois” qayta ko’zdan kechirib, to’ldirdi. Shoirlar adadini 459 taga yetkazdi. Shu yili yoshligidan qalbida muhrlanib kelgan “Mantuq ut-tayr”ga javob yozadi. Buyuk shoir 1498-1499 - yillarda xatlarni to’plab “Munshoot” (Xatlar) tuzdi. Unda 88 ta xat jamlangan bo’lib, ularning aksari yati shoh va shahzodalarga yozgan maktublari edi. Shoirning 1500 - yilning oxirlarida yozib tugatgan “Mahbub ul-qulub” (Ko’ngillarning sevgani) asari uning so’nggi asari bo’lib qoldi.

Alisher Navoiy 1501-yilning 3-yanvarida vafot etadi. Bu shaxslar, dunyoning mohiyatini tushungan odamlar mayda-chuyda gaplarni emas, insoniyatning baxt-saodatini o’ylaydi. Bu borada Hazrati Navoiy ham shunday yozganlar:

Odamiy ersang, demagil odami

Onikim yo’q xalq g’amidin g’ami.

Mir Alisher Navoiy bobomizning ijodidan bahra olsangiz hayot yo’lingiz charog’on bo’ladi.

## ЖАНУБИЙ СЎҒД ЖАМИЯТИДАГИ ЗАРДУШТИЙЛИК ДИНИ, ВА ЮМОЛОҚТЕПА ОССУАРИЙСИ.

*Холматов Ойбек Илҳомович*

*Ўзбекистон Республикаси Туризм ва маданий мерос вазирлиги ҳузуридаги  
Маданий мерос агентлиги Археология тадқиқларини мувофиқлаштириши  
ва археология ашёлари давлат каталогини юритиши бошқармаси бошлиги ўринбосари.*

**Аннотация:** Ушбу мақолада Сўғджамятидаги Зардуштийлик динининг ўзига хос дафн маросимлари мисолида ўша давр диний мафкураси ҳақида, шу ўринда Қашқадарё вилоятининг Шаҳрисабз туманидан топилган Юмолоқтепа оссуарийларининг бой композициясини батафсил ўрганиш, Чинвад кўпригида майитнинг суд қилиш жараёни ва маъбудаларнинг майит руҳи тақдирини ҳал этиш сюжетлари таҳлил қилинади.

**Калит сўзлар:** Сўғд, зардуштийлик, урф - одат, дафн-маросимлар, оссуарий.

**Кириш.** Бугунги кунда халқимиз орасида тарихимизни билишга бўлган қизиқишнинг кескин ортиши туфайли, аждодларимизнинг қадим урф-одатлари, диний эътиқоди, маданий, маънавий меросини ўрганиш тарих илмининг долзарб масаласи бўлиб қолмоқда. Турли эътиқодлар ва динларнинг биргаликда бўлиши шубҳасиз Қашқадарё воҳаси учун ҳам хос хусусият бўлган. Ҳозирги кунда биргина Қашқадарё воҳасида исломгача бўлган даврига оид хилма хил ёдгорликлар, жумладан, турли диний эътиқод ва ранг-баранг диний урф-одатлар акс этган ёдгорликлар ўрганилганки, улар ҳақида илмий адабиётларда жуда қисқа, зарурий ҳолатлардагина маълумотлар берилган. Аммо, бу исломгача бўлган аждодларимизнинг диний-маънавий ҳамда этномаданий ҳаёти билан боғлиқ жуда катта қатлам маълумотлар ҳозиргача яхлит бир илмий тизимга солиниб, таҳлил этилмаган ва тегишли илмий хулосалар асосида умумлаштирилмаган.

**Асосий қисм.** Энди, зардуштийлик динининг тарихига назар ташлайдиган бўлсак, унинг заминидан оташпарастлик ғоялари ётади. Оташпарастлик эса Ўрта Осиёда жуда қадимий илдизларга эга. Археологик тадқиқотларга кўра, оташпарастликнинг аниқ бир система кашф этган излари энеолит даврига бориб тақалади. Буни Саразм ёдгорлигида олиб борилган археологик тадқиқотлардан билиш мумкин. Бронза даврида эса оташпарастликнинг маълум бир қадимги деҳқончилик воҳалари миқёсидаги протозардуштийлик ибодатхоналари шаклланган.

Оссуарийлар<sup>373</sup> Ўрта Осиё халқлари ҳаётида, уларнинг оташпарастлик диний дунёқарашлари асосида шаклланган, кўмиш маросимининг бир кўринишидир. Бундай кўмиш урф – одатининг пайдо бўлишини махсус илмий адабиётларда Қадимги Хоразмнинг антик даври билан боғлаб келинади. Қадимги Хоразмда олиб борилган археологик изланишларга кўра, майитдан тозаланган одам суяқларини сопол идишларга солиб кўмиш одати милоддан аввалги V асрдан бошланади. Бироз кейинроқ археологик адабиётларда оссуарийлар деб аталган махсус сопол суякдонлар пайдо бўлди. Милоддан аввалги III асрдан бошлаб ичи бўш ҳайкалсимон оссуарийлар келиб чиқди. Одатда бўлар ҳар хил шаклдаги яшиқ устида ўтирган эркак ва аёл фигуралари шаклида ишланган оссуарийлар бўлиб, улар ичига этидан тозаланган одам суяқлари жойлаштирилган. Хоразмда от устида ўтирган суворий, минора ва мавзолей шаклидаги оссуарийлар ҳам учрайди.

<sup>373</sup>Оссуарий—тошдан, лойдан ясалган ва турли-туман кўринишда (ўтов, қаср, ҳайкал ва б.) ишланган бўлиб, илк бор зардуштийлик динига (оташпарастлар дини) мансуб бўлган қавмлар орасида милоддан аввалги бир минг йилликни иккинчи ярмида шаклланган ва мураккаблашиб борган. Зардуштийлар таълимотича марҳумни ерга кўмиш гуноҳ ҳисобланган. Шу сабабли улар марҳумни аввал махсус жойларда суяқларни авайлаб йиғиштириб олиб тайёрлаб кўйилган остодонга солиб кўмганлар.



Тахминан милодий эранинг III асридан хайкалли оссуарийлар ўрнини қопқоғидақуш фигурали саркафаксимон, аркали ва тўғри бурчакли яшик шаклида ишланган оссуарийлар эгаллайди. Илк ўрта асрларга келиб эса, Хоразм ва Ўрта Осиёнинг барча минтақаларида тўғри бурчакли яшик шаклидаги оссуарийлар кенг тарқалади.

Кейинги йилларда Жанубий Ўзбекистонда олиб борилган археологик тадқиқотларга кўра, оссуарийларнинг энг қадимги илдизларини Қадимги Бактриядан кидиришни тақозо этмоқда. Масалан, одам жасадини хумларга солиб кўмиш одати Жанубий Ўзбекистонда бронза давридан маълум (Сополлитепа ва Жарқўтан). Сополли маданиятининг сўнгги босқичи – Бўстон этагида майитидан тозаланган одам суяқларини сопол идиш ёки оссуарийларга эмас, балки қабрга буйра тўшаб, унинг устига бетартиб тахлаб кўмиш ҳолларитез – тез учраб туради. Шундай мазорларда митти оссуарийчалар учрайди. Уларнинг сиртига тўқ қизил ранг суртилган. Бу митти оссуарийчалар Сополли маданияти идишларида тубдан фарқ қилиб, цилиндрконус шаклида, яъни улар икки қисмдан (асоси цилиндр, қопқоғи конус) таркиб топган. Ушбу митти оссуарийчалар ичида 3 – 4 тадан микромитти идишчалар учрайди. Бироқ, Жанубий Ўзбекистон сарҳатларида оссуарийларнинг бронза давридан кейинги ривож кузатилмайди. Қўшни Сўғдда эса зардуштийларни оссуарийларда кўмиш милодий IV асрнинг охири ва V аср бошларидан удумга айланди ва VI – VII асрларга келиб Сўғдиёнинг барча ҳудудларига кенг ёйилди. Қашқадарё вилоятида турли хил диний тасавурларнинг элементлари кўпгина моддий маданият наъмуналарида акс этган. Ана шундан моддий маданият наъмуналаридан бири дафн маросимлари билан боғлиқ оссуарийлар бўлиб, одатда улар сопол ва тошлардан ясалган. Қашқадарёда олиб борилаётган илмий тадқиқотларда, кўплаб археологик ва этнографик экспедицияларда топиб ўрганилган оссуарийлар “Шаҳрисабз” давлат музей – кўриқхонасида сақланиб келинмоқда. Музей фондидаги қадимги осори-атиқалар орасида Китоб туманига қарашли Севаз қишлоғидан археолог Н.И.Крашенникова томонидан топилган оссуарий синиқлари (сопол тобут) жаҳон аҳамиятига эга маданий мерос ҳисобланади. 2000 йили Санъатшунослик институтининг таъмиршуноси Ш.Илҳомов томонидан оссуарий синиқлари ўрганилиб, унинг 2 та эканлиги аниқланди ва тиклаш натижасида аниқ тасвирлар намоён бўлди. (Мазкур оссуарийнинг иккинчиси Ўзбекистон тарихи музейида намоёиш этилмоқда) Мутахассисларнинг фикрича, таъмирланган оссуарийда Зардуштнинг Бактрия ҳокими Кави-Виштасп томонидан қабул қилиниш жараёни тасвирланган. Бу талқинни ёзма манбалар ва этнографик жиҳатдан қиёсий таҳлил тасдиқлади. Шуниси қизиқарлики, Зардушт тирсақлари остида Авесто китоби ҳам тасвирланган. Жаҳон маданияти тарихида Зардушт ва Авесто китоби акс этган сопол тобут ҳали ҳеч бир мамлакатда учрамагани билан ҳам жуда ноёбдир. Оссуарий Авестонинг 2700 йиллик юбилеи муносабати билан Хоразмда бўлиб ўтган «Авестога тенгдош - Шаҳрисабз» номли махсус экспозицияда намоёиш этилди [1, С.2(30)].

Оссуарийларда майитнинг суяқлари этдан тозаланган ҳолда қўйилиб, суяқларни этдан тозалаш одати майитнинг қайта дунёга келишига ёрдам беради, деб ҳисобланган. Оссуарийларнинг барча деворларида кўпинча ўсимликсимон безаклар чизилган бўлиб, айрим ҳолларда турли хил сахна кўринишлари акс этади. Оссуарийлардаги безаклар ва сахна кўринишларини талқин этиш, турли хил афсоналар билан боғлиқ ҳолда ифодалаш ва тасвирланган мабудалар ҳамда санамларни аниқлаш Ўзбекистон ҳудудида шаклланган халқлар маданияти тарихини ёритишда катта ёрдам беради.

2012 йили Шаҳрисабз шаҳридан 5 км жанубий-шарқий қисмида жойлашган Юмолоқтепадан VI-VII-асрларга оид босма тарзда безатилган (штампланган) оссуарийларнинг бўлақлари топилди. Тепа кўринишидан кичик қишлоқ кўрғони қолдиқларидан иборат. Оссуарий бўлақлари бирлаштирилиш орқали тикланганида уларнинг иккитаси бутун оссуарий ва биттаси яримта экани аниқланди<sup>374</sup>. Уларнинг барчаси қизил лойли, шакли ва безаклари жиҳатидан бир хил композицияга эга, ҳамда ташқи томони ёрқин рангда англоланган.

<sup>374</sup> Ушбу ноёб оstadон ҳозирда “Шаҳрисабз” давлат музей –кўриқхонасида кургазма қилинмоқда.

Юмолоктепа оссуарийлари тўғри бурчакли, паст пештоқсимон яшик тарздаги шаклга эга. Оссуарийни ясада техник жихатдан 5 та плиткалар бирлаштирилган ва плиткаларнинг 3 тасини қалинлиги 1,3 дан 1,8 см.гача узунчоқ шаклда, 2 таси эса трапециясимондир. Тўрттасида турли хилдаги безаклар ва композициялар йирик босма тарзда (штамп) чизилган. Идишнинг юқори қисмида лой лентасимон тарзда ёпиштирилган ва пештоқсимон қопқоқ ўрни яратилган. Пештоқнинг бир қисми кесилган холда қопқоқни жипс ёпилишига мослаштирилган. Қопқоқнинг марказида кўзиқоринсимон даста (ручка) ўрнатилган ва марказида тешикчалар ҳосил қилинган. Идишнинг тўрта бурчагида ҳам столбалар ўрнатилган бўлиб, столбаларнинг тепа қисми тешикчалар балдахин ўрнатишга мослаштирилган.

Ҳар учала оссуарий деворларининг ташқи томонида бир хил типдаги одам ва хайвон фигурасидан босма тарзда композициялар яратилган бўлиб, рельефи юпқа. Композицияда 13 та фигура мавжуд, шундан 10 таси (баландлиги 9 дан 14 см. гача) одамлар бўлса, 3 таси турли хил хайвонлар образидир. Уларнинг барчаси 2 ярусда (регистрда) ва турли сахна кўринишида жойлаштирилган бўлиб, бу жихатдан Сўғд санъатининг характерли жихати бўлган линиялар орқали ажратилмаган. Ушбу композиция Китоб туманидаги Севаз қишлоғидан топилган оссуарийларга жуда ўхшаш, аммо айрим деталлар ва образлар тасвири жихатидан ажралиб туради, стилистик ва сюжети билан бир-бирига жуда ўхшашдир.

Юмолоктепа оссуарийларида композиция унгдан чапга қараб бошланади. Унда сўғдийларнинг майитни руҳи ва у дунёдаги тақдири ҳақидаги тасавурлари акс этган. Тасвирда 2 та сахна мавжуд (улар навбатма-навбат ён томондан бошлаб жойлаштирилгани тасодиф эмас) ва улар унг томондан чапга қараб чизилган тасвирларда сўғдийларнинг майитни у дунёдаги руҳи тақдирини кўрсатишга бағишланган.

Биринчи сахнада 5 та шахс иштирок этмоқда. Йирик шахс баланд тахтда ўтирибди, унинг оёқлари чалкаштирилган холда гилам билан ёпилган. Афсуски, кийимлар ва юз қиёфаси ёрқин эмас. Шахснинг бир қўли пастга тушган, иккинчиси эса кукрак даражасида кўтарилган бўлиб, қандайдир имо ёки кўрсатма бераётгандек. Кукрак даражасида кўтарилиб букилган қўлда қандайдир буюм мавжуд, эҳтимол бу калта дастали ёлпиғич бўлиши мумкин. Тахтнинг ён томонларида иккита ёш йигитча жойлашган, улар фахрий қоровул ёки хизматчи вазифасини бажармоқда. Тахтга ўтирган шахснинг чап томонида битта эркак тасвирланган, у бир қўли билан тарози ушлаб турибди, тарозининг чап палласи сифатида иккита энсиз шарф осилган. Энсиз шарфда яланғоч одам ётган холда ифодаланган. Зорастийларнинг фикрича, одам улганидан кейин унинг руҳи майитнинг ёнида туради. Дастлаб рух янги туғилган болага, иккинчи куни эса етти ёшли болага ва учинчи куни ун беш ёшли усмирга ухшатилади. Яланғоч одамни ёш эканини кўрсатиш учун иккита соч боғичлари бошнинг орқа томонда битта қилиб тутилган.

Сахнанинг пастки қисмида кохин юзида “падам” ниқоби билан тасвирланган. Унинг вазифаси нафаси билан муқаддас олов ёки олдида жойлашган алтарни булғамасликдир. У композицияда алтар қаршисида қандайдир диний удумни бажармоқда. Кохиннинг чап қўлида узун ингичка калтак мавжуд. Сиваздан топилган оссуарийда ҳам кохиннинг орқа томонида айнан шундай предмет мавжудлиги учун профессор Ф. Грене ушбу шахсни кохин сифатида талқин этган. Шуни таъкидлаш керакки, гоҳида диний иморатларнинг капеллаларида, бадавлат шаҳарликларнинг уй-жойларида ҳам алтар ёнида эса тўғрибурчакли буюм мавжуд бўлиб, бу жой қурбонлик учун стол вазифасини бажарган[2,С.172-173].

Композицияда эгарланган қурбонликка аталган от ҳам жойлашган. Отнинг жуганлари бўйнига ташланиб юришга тайёрланиб турибди. Отнинг боши эгилган, устида ёпинчиқ бўлиб, эгарда камон ва унинг калта уқлари осилган.

Иккинчи сахна оссуарийнинг чап томонини тўлиқ эгалаган. Сахнанинг марказида қандайдир мабуда ёки подшо тасвирланган бўлиб, у баландликда гилам устида ўтирибди. Бир оёғи тиззасидан белигача букилган бўлса, иккинчи оёғи пастга осилиб турибди.

Унг қўли белига тиралган ва хассанинг пастки қисмидан ушлаб турибди, иккинчи қўли елка баландлигида кўтарилган бўлиб қандайдир буйруқ ёки имо қилмоқда. Унинг атрофида мусиқачилар фигураси жойлашган. Улар узун энгли кийим кийишган. Улардан бири XVI асрларгача машхур бўлган бурчакли арфа-чанг ушлаб турибди. Иккинчи мусиқачи танаси аниқ эмас, аммо унинг қўлида уд асбоби мавжуд бўлиб, ушбу мусиқа асбобининг давомчиси барбаддир, мазкур мусиқа асбоблари тик турган холда чалинган. Маъбуданинг пастида иккита тоғ қўйлари жойлашган булиб, уларнинг елкаси билан бири-бирига қараб турибди. Уларнинг олдида гуллар очилиб турибди, орасида эса аниқлаш қийин булган қандайдир буюм мавжуд. Саҳнанинг пастки қисмида тиз чукиб турган аёл танаси тасвирланган. У юқоридаги тахтга утирган маъбудага қараб турибди, бир кули пастга тушган бўлса, иккинчиси юзи даражасига кўтарилган, иккита бармоқлари билан қандайдир думолок буюм-ойна ёки қандайдир мева ушлаб турибди.

Биринчи саҳнанинг асосий ғояси маълум, яъни у дунёдаги Чинвод кўпригида илохий суд қилиш маросими бўлиб, бу судни маъбудалар Михр ва Рашн бошқариб “тана рухи бажарилган ишларни кўради”. Тарози ушлаб турган образ Рашн бўлиб, у адолат маъбудаси ҳисобланади. У илохий тарозида майитнинг яхши ва ёмон ишларини тортмоқда, “у ҳеч қайси яхшилик, ёмонлик, насабининг катталиги, тарозининг палласини соч қалинлигича ҳам ён босмасдан ва зарар етказмасдан, барчага унинг насаби, хукмронлиги ва қуллигига қарамасдан бир хил ёндошади”. Уни Вираз Чинвад кўпригида олтиндан ясалган тарозиси билан кўрган эди[3,С.189].

Юмолоттепа Оссуарийсида майит ёш боланинг руhini тарозидан ўтказиш саҳнаси тасвирланган. Тахтда ўтирган маъбуда Михрнинг вазифаси у дунёда адолатли суд қилишдир. Саҳнада айнан майитни сўроқ қилиш, унинг тақдирини белгилаш ва айблари учун жазо белгилаш акс эттирилган.

Саҳнада от тасвири тасодиф эмас. Оқ от Михра-Митра инкарнациясидир. Бундан ташқари от майитни у дунёда олиб ўтувчи сифатида ҳам талқин этилади. Аррианнинг ёзишича, Камбиз Кирнинг ўғли ва валиахди отасининг қабрига унинг рухи учун ҳар куни қўй қурбонлик қилиш билан биргаликда ҳар оёи от қурбонлик қилишни одат қилган бўлиб, от қуёшга бағишланган қурбонлик деб ҳисоблаган[4,С.67].

Авестода Митра шартномалар маъбудаси деб тарифланса-да, илк ўрта асрлардаги манбаларда у куёш маъбудаси сифатида таърифланади. Бу ердаги композицияда майит Митрага сиғиниб, ўзини қайта дунёга келишидан умид қилган саҳнаси тасвирланган бўлиши мумкин. Кўринишидан илк ўрта асрлардаги туркларнинг диний қарашлар натижасида Зорастизмда диний анахронизм қайта вужудга келган бўлиши мумкин. Ҳатто гоҳида оссуарийлар ҳам хайвонлар (от) шаклига ўхшаш шаклга келтирилган[5,С.140]. Бу анъаналарни сақланиб қолганлиги ҳақида К. А. Иностранцев форсларнинг дафн одатларини чизган ва бу урф-одатлар Арта-Вират китобининг гузаратча вариантларига хос деб ёзган эди. Унинг дафн маросимига бағишланган расмларнинг бирида одам (кохин) отнинг етакламасдан олдида бормоқда. Дафн маросими ҳақидаги яна бир расмда эса икки киши байроқ кўтарган ҳолда ва орқасидан эгарланган от кетмоқда. Демак эгарланган от маъбуда Михрга майитнинг рухи учун қурбонлик сифатида бағишланган, ритуалнинг бажараётган шахс-Срош эса майит ва маъбудалар орасидаги даллол сифатида тасвирланган бўлиб, кўпинча у рухларнинг химоячи кохини сифатида тасвирланади. Кўринишидан Шимолий Хитойдаги Ан Жуан қабристонидеги тошда ҳам кохин Срош таомни муқаддаслаштираётганлиги тасвирланган.

Иккинчи саҳна-рух тақдири сайёҳатининг кульминацион нуқтаси бўлиб, у жаннатда қайта туғилишини кутиши тасвирланган. Тахминан у тиз чўккан аёл образи сифатида тасвирланган. Ушбу аёл тасвирининг талқини бошқача ҳам бўлиши мумкин, яъни аёл кохинга бағишланган бўлиши ҳам мумкин. Бизнинг фикримизча, жезл ўшлаб турган шахс Вахман яхшилик илоҳасидир. ”Кичик Авесто”да Вахман-мустақил илоҳа бўлиб ҳисобланади ва у подалар химоячисидир. Манбаларда Вахманнинг яшаш жойи жаннатнинг тоғлари ҳисобланади.

Арта-Виразнинг сайёҳатида ҳам айнан у Виразни Ормузднинг олдига олиб боради. Вахманнинг тоғда яшашини кўрсатиш учун оссуарийнинг пастки саҳнасида тоғ кўйлари акс эттирилган. Сиваздан топилган оссуарийда ҳам айнан шу саҳна кўриниши акс эттирилган бўлиб, уни тадқиқотчи Франц Грене зорастризм урф-одатлари буйича қурбонликка олиб келинган кўйлар деб талқин этган. Ҳақиқатдан ҳам яқин вақтларгача эронлик зорастрийларда қурбонлик қилиш одати сақланиб қолган эди. Лекин одатда эронликлар қурбонлик учун эчкини танлашган. Б. А. Литвинский Бундахишнада таъкидланган “қурбонлик қилиш охирзамон учун” деб ҳисоблайди [6, С.77]. Яъни қурбонлик қилиш охирзамондаги кулфатлардан кафолатлайди. Шу билан биргаликда ҳайвонларнинг фигураси тахтнинг асоси ва ёғи сифатида ҳам чизилган бўлиши мумкин. Ҳайвонларнинг фигураси орқали тахтнинг оёғини яратиш санъат асарлари кўплаб учрайди. Масалан, Эрмитажда сақланаётган VI-асрга оид мис идишда Хусрав I қанотли отлар фигураси билан оёғи яратилган тахтда ўтирибди. Яна бир идишда подшонинг базм маросими акс эттирилган бўлиб, тахтнинг оёқлар шернинг фигурасидан ясалган. Панжакентдаги 2-ибодатхонадаги деворий расмларда илоҳ қанотли ҳайвон фигурасидан оёғи ясалган тахтда ўтирибди. Ҳайвонлар фигурасидан тахт ясаш одати ёзма манбаларда ҳам учрайди. VII асрда Сўғдиёнага ташриф буюрган сайёҳатчи Сюан Цзяннинг ёзишича, Кушон хукмронининг тахти кўй шаклида бўлса, Бухоро хукмдориники туя шаклидадир. Бу фактлар кўй фигурасини тахтнинг элементларидан бири деб талқин қилиш имконини беради. Юмолоктепадан топилган оссуарийда тасвирланган тоғ кўйлари Вахман тахтининг оёқ қисми бўлиб, Вахман маъбудаси подалар ҳимоячиси ва жаннатдаги тоғда яшовчи илоҳа бўлиши мумкин. Оссуарий композициясида тасвирланган мусиқачилар ва гуллар “жаннатнинг хушбуй хиди ва садоси”ни англатади. Жаннат эгаларидан бири – (garōdmān) - “мусиқа маскани”, ширин мусиқа манбаи сифатида талқин этилиб, жаннатга тушган рухлар ундан ором оладилар. Топилманинг энг муҳим жихати Сўғд жамиятидаги Зороастризм дини бўйича майит рухининг сўнгги тақдири ҳақидаги тасавурлари акс этган.

**Хулоса.** Хулоса қилиб шуни айтишимиз мумкинки, Юмолоктепадаги оссуарийнинг бой композициясини батафсил ўрганиш Китоб туманига қарашли Севаз қишлоғидан топилган оссуарийсида акс этмаган ёки тахмин қилинган элементларни тўлдиради. Топилманинг энг муҳим жихати Сўғд жамиятидаги Зороастризм дини бўйича майит рухининг сўнгги тақдири ҳақидаги тасавурлари акс этганлигида. Семантик жихатдан эса Юмолоктепа оссуарийсида Чинвад кўпригида майитнинг суд қилиш жараёни ва маъбудаларнинг майит руҳи тақдирини ҳал этиш сюжети тасвирланган. Шуниси қизиқарлики, уша даврнинг моҳир ҳунармандлари кулол бўлиши билан бир қаторда беназир рассом ҳам бўлишган. Бу сўзимизни Юмолоктепа оссуарийсига ишланган композиция тасдиқлайди. Сўғднинг марказида жойлашган Шахрисабздаги тарихий маданиятнинг географик ҳудуди нафақат Марказий Осиё балки ғарбу – шарққа кенг тарқалган. Изланишлар шуни тасдиқлайдики, Шахрисабз Зардуштийлик дини мафкураси марказларидан бири эканини ва Зорастризм динининг ҳақиқий уламолари шу заминда истиқомат қилганлигини, исботлайди.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Хушвақтов Н. “Амир Темур номидаги Шахрисабз шаҳар Моддий маданият тарихимузейи”. *Moziydan sado*. 2 (30) 2006.
2. Бердимуратов А.Э. Богомолов Г.И. Образ птичеловека на рельефах погребальных сооружений согдийцев в Северном Китае. История материальной культуры Узбекистана. Выпуск 36, Ташкент, 2008.
3. Чунакова О.М. Пехлевийский словарь зороастрийских терминов, мифологических персонажей и мифологических символов. Москва, 2004.
4. Бойс М. Зороастрийцы. Верования и обычаи. Перевод с английского и примечания И.М. Москва, 1987.
5. Юсупов М.С., Скиндер С.И. Оссуарий из Тургай-мазара. // Труды САГУ, вып. Т-1956.
6. Литвинский Б.А. Семиречинские жертвенники (индоиранские истоки сакского культа огня). – Проблемы интерпретации памятников культуры Востока. Москва, 1991.



## ТАИНСТВЕННАЯ ТЕНЬ МЕДИЦИНЫ: ИСТОРИЯ ЛЕЧЕНИЯ НА ОСНОВЕ МУЗЫКАЛЬНОГО «РЕЦЕПТА»

УДК/UDC 534.292

*Хошимова (Турсунова) Лазиза Акбар кизи<sup>1</sup>, Хошимов Диёр Эгамкулович<sup>2</sup>*

*<sup>1</sup>Джиззакский государственный педагогический институт.*

*<sup>2</sup>Ш.Рашидовское районно-медицинское объединение.*

**Аннотация:** Значение музыки в медицине огромно. Однако в нашей стране лечение с помощью интеграции медицины с музыкой, к сожалению, до конца не установлено. Во-первых, необходимо разработать основы музыкотерапии, согласовать ее с медициной нашей страны, а во-вторых, провести ряд экспериментов по выработке критериев оценки значимости музыкотерапии и ее реализации на практике. Для этого необходимо сначала иметь достаточные знания об истории музыкальной терапии и ее современных проблемах. В данной статье представлена краткая история музыкотерапии в мире и в нашей стране, современное состояние и перспективы, существующие проблемы и пути их научного решения. Устная музыкотерапия – древний метод, но до сих пор метод, который необходимо изучать как новый метод лечения для медицины нашей страны, обогащать его различными методами и средствами.

**Ключевые слова:** музыкальная терапия, психические и сердечно-сосудистые заболевания, нервная система, психология, мелодия, звук.

**Annotation:** The importance of music in medicine is immense. However, in our country, the treatment using the integration of medicine with music, unfortunately, is not fully established. First, it is necessary to develop the basics of music therapy, to harmonize it with the medicine of our country, and secondly, to conduct a series of experiments to address the criteria for assessing the importance of music therapy and its implementation in practice. To do this, you must first have a sufficient knowledge of the history of music therapy and its current problems. This article provides a brief history of music therapy in the world and in our country, the current state and prospects, existing problems and their scientific solutions. Music therapy is an ancient method, but it is still a method that needs to be studied as a new treatment method for the medicine of our country, to enrich it with various methods and resources.

**Keywords:** music therapy, mental and cardiovascular diseases, nervous system, psychology, melody, sound.

**Материалы. Краткий экскурс в историю музыкальной терапии.** Человечеству веками были известны возможности, заложенные в музыке, различные психофизиологические реакции, протекающие у человека под ее влиянием. Очевидно, история показала, что многие люди использовали методы музыкальной терапии. Основываясь на учении Пифагора (древнегреческий философ, 570-490 гг. до н.э.), он знал, что музыка принадлежит числам и неразрывно с ними связана. Сохранились сведения, что Пифагор первым составил «целebную книгу музыкальных рецептов», где каждая болезнь имела свой тон. Он разработал теорию музыкально-числового строения мироздания и предложил использовать музыку в лечебных целях. Великий ученый использовал музыкальную медицину в лечении пассивности души, чтобы не терять надежды в своем гневе и ярости, вводить в заблуждение, развивать свой интеллект, учить своих учеников урокам под музыку. Когда наш соотечественник, великий ученый Абу Абдуллах Мухаммад ибн Муса аль-Хорезми (780-850) прибыл в Багдад по приглашению халифа Маъмуна, видные ученые и ученые города обследовали его: «В медицине есть три вида лечения. Какой тип будильника вам больше нравится?» Они спросили.



Ученый аль-Хорезми сказал: «У нас есть четыре вида лечения, а не три:

- Одно слово, одно лекарство, один острый нож, а мне нравится четвертый вариант, слово «музыкальная терапия», — ответил он.
- В истории не только аль-Хорезми, но и такие мыслители, как Фароби, Ибн Сино, Навои, Махтумкули говорили о секретах музыкотерапии в своих произведениях. Отсюда следует, что издавна популярен метод лечения больных макомными мелодиями, музыкальными тонами.

Ученый-энциклопедист и мыслитель Абу Наср аль-Фараби (ум. 873-950) однажды оценил влияние музыки на организм человека: «Музыка воздействует на организм человека через мозг». Великий энциклопедист, ученый, врач Ибн Сина (980-1037) написал не только «Законы медицины», но и множество трудов по теории музыки, некоторые из которых сохранились до нашего времени. В частности, в «Книге медицины», «Музыкальном сборнике в науке», в «Книге спасения», «Кратком описании музыки», в «Книге знаний», «Музыкальном разделе» музыка не только мелодия или звук, но и его воздействие на организм человека, и его научные взгляды на ущерб сыграли значительную роль.

Теоретически Ибн Сина включал музыку в разряд математических знаний согласно средневековым традициям. Музыка он видел как «изучение звуков, науку о создании мелодий в результате их уравновешенного сопровождения».

Ибн Сина первым в истории заложил прочную научную основу для истории музыки, рассматривая музыку не только с точки зрения математики, но и с точки зрения социологии, психологии, поэтики, этики и физиологии. Великий ученый также изобрел гиджак — смычковый инструмент, распространенный в Средней Азии.

**Методы.** Ведущая роль в музыкальной терапии заключается в том, чтобы знать, как выбрать правильную музыку. В 1916 году В. М. Бехтерев писал: «Музыкальное произведение, в зависимости от состояния людей, производит на них различное впечатление, одни вызывают у них расслабление, другие не только не нравятся, но и раздражают человека. Это зависит от психики человека. Частота сердечных сокращений и частота дыхания варьируются в зависимости от музыки [1].

Известный французский психиатр, автор первого руководства по психиатрии Жан-Этьен Доминик Эшироль (1772-1840, Париж) был одним из первых ученых, применивших музыкотерапию в психиатрических учреждениях. Применение музыки в медицине во многом носит эмпирический характер, и каждая из психотерапевтических школ Европы имела свое основное учение. Например, в Нидерландах и Франции распространено применение музыкотерапии в хирургии, причем вид музыки подбирается индивидуально в зависимости от особенностей человека, его заболевания и физиологического строения. Правильно подобранная классическая музыка положительно влияет на сердечно-сосудистую систему человека, улучшает самочувствие человека и помогает бороться с одиночеством [2]. Музыкальная терапия стала популярной в США после Второй мировой войны, когда ее начали успешно применять при лечении эмоциональных и психических заболеваний ветеранов. А уже в 1950 году в США была основана Национальная ассоциация музыкальной терапии.

В Германии 1980-х годов область применения музыкотерапии не ограничивалась лечением депрессии и неврозов, а использовалась в самых разных областях: от детской и общей психиатрии до невропатологии и педиатрии. Таким образом, ученые пришли к выводу, что музыка является эффективным лекарством в борьбе с различными заболеваниями. Интерес к музыке в отечественной науке возник в начале 20 века. В 1913 г. В.М. По инициативе Бехтерева была создана комиссия для изучения музыкальных и лечебных эффектов. К этому времени ученым удалось определить положительное влияние музыки на различные системы организма человека: сердечно-сосудистую, опорно-двигательную, центральную нервную систему и др. [2]. Особое место в развитии музыкальной терапии занимает Парижская школа профессора Альфреда Томатиса.

Особое внимание он обращал на замечательную целебную эффективность музыки Моцарта, ее способность возбуждать разум и излечивать человека от неизлечимых болезней [3]. Музыкальной терапии посвящены многочисленные статьи нашего соотечественника, академика Международной академии информации при Организации Объединенных Наций по вопросам образования, науки и культуры (ЮНЕСКО), ученого-международника Худоёра Оллаёрова (Худаяр Аллаяров в источниках), опубликованные за рубежом. Его докторская диссертация, которую он защитил в МГУ, называется «История среднеазиатской народной медицины», и значительная часть этого исследования посвящена музыкотерапии. Ученый изучал наследие ученых прошлого и в своем жизненном опыте лечил этим методом многих больных. Полевые этнографические исследования ученого показывают, что в Хорезмской области лечением занимались врачи, специализирующиеся на лечении голосовых структур (аппаратов) певцов и музыкантов, т.е. народные фонологи, музыкотерапевты. Это наблюдение является еще одним свидетельством тактильного синкретизма знаний у представителей среднеазиатской народной медицины. С точки зрения практики, эти врачи были знакомы с работами Ибн Сины и использовали их для обобщения работ древнегреческих и римских ученых-медиков по музыкальной терапии.

**Вывод.** Целесообразно также включить высшие и медицинские учебные заведения как отдельную и неотъемлемую часть медицины в учебники и литературу по педагогике и психологии, неврологии, наркологии, педиатрии, геронтологии и суицидологии.

#### **Использованная литература:**

1. Основы психокоррекции. Методическое пособие. Д.А. Махмудова. Ташкент, 2007. 90 с;
2. "Научная Россия". <https://scientificrussia.ru/articles/musykoterapiya>), 23 февраля 2021 г.;
3. Кэмпбелл, Дон. "Эффект Моцарта: древние и новейшие методы использования таинственной силы музыки для исцеления тела и разума". Д. Кэмпбелл. М.1999. 162 с.;
4. История народной медицины Средней Азии. Автор научной работы: Аллаяров Худаяр Аллаярович. Ученая степень: доктор медицинских наук. Москва, 1993.

## UMUMTA'LIM MAKTAB O'QITUVCHILARINING AXBOROT-KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MOBIL ILOVALARDAN FOYDALANISH

*Nurislom XUDOYBERDIYEV*

*Surxondaryo voliyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash  
va ularning malakasini oshirish hududiy markazi katta o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Maqolada umumta'lim maktab o'qituvchilarining axborot kompetentligini takomillashtirishda mobil ilovalardan foydalanish haqida so'z yurutiladi. Umumta'lim fanlarini o'qitishda samaradorlikga erishish uchun mobil ilovalardan foydalanish va ularning turlari haqida qisqacha tushuncha berilgan.

**Kalit so'zlar:** Axborot kompetentligi, mobil ilova, kahoot, plickers, quizlet, class dojo, zipgrade, padlet, prezi, canva, survio, duolingo.

**Аннотация:** В статье рассматривается использование мобильных приложений в повышении информационной компетентности учителей общеобразовательных школ. Краткий обзор использования мобильных приложений и их видов для повышения эффективности обучения в общем образовании.

**Ключевые слова:** Информационная компетентность, мобильное приложение, kahoot, plickers, quizlet, class dojo, zipgrade, padlet, prezi, canva, survio, duolingo.

**Annotation:** The article discusses the use of mobile applications in improving the information competence of teachers in general education schools. A brief overview of the use of mobile applications and their types to improve the effectiveness of learning in general education.

**Key words:** Information competence, mobile app, kahoot, plickers, quizlet, class dojo, zipgrade, padlet, prezi, canva, survio, duolingo.

Respublikamiz umumta'lim maktablaridagi ta'lim sifatini rivojlantirish maqsadida, <sup>375</sup>2022-yil 28-yanvar kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida umumta'lim maktablarini rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilandi. Ushbu ustuvor vazifalardan biri, har bir viloyatda pedagogika institutlari, universitetlar, akademik litsey va ixtisoslashgan maktablar o'qituvchilaridan iborat "mobil metodik guruhlar" tashkil qilinadi. Ushbu "mobil metodik guruhlar" ta'lim sifati past bo'lgan maktablarga borib, pedagoglarga yangicha o'qitish uslublarini tushuntiradi va ko'maklashishi haqidagi o'z fikrlarini bildirdi. Bu tajribani biz bugungi kunda rivojlangan mamlakatlardan Norvegiya, AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Finlyandiya, Estoniya, Daniya, Ispaniya, Germaniya, Rossiya va boshqa ko'plab mamlakatlarda eng dolzarb tadqiqot usuli sifatida qo'llanilib kelinganini ko'rishimiz mumkin. Mamlakatimizda ham Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan, <sup>376</sup>2019-yilning 21-noyabr kuni "Bir Million O'zbek Dasturchilari" loyihasi ishga tushirilgan edi. "Bir Million O'zbek Dasturchilari" loyihasi O'zbekiston Respublikasi va Birlashgan Arab Amirliklari hukumati bilan hamkorlikda amalga oshirildi. Ushbu loyihaning maqsadi, o'zbek tilidagi onlayn platforma kurslari orqali o'zbek yoshlariga axborot texnologiyalarini o'rgatish, yosh dasturchilar yetishtirishdir. Onlayn platformada 4 ta ta'lim yo'nalishi bo'yicha kurslar tashkil etilmoqda, bular:

- Android dasturlash;
- Full-Stack Development;
- Frontend Development;
- Ma'lumotlar tahlili;

<sup>375</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2022/01/28/mirziyoyev/>

<sup>376</sup> <https://www.texnoman.uz/post/bir-million-ozbek-dasturchilari-loyihasi-ishga-tushirildi.html>

Bu kurslar Umumta'lim maktablari o'qituvchilari va o'quvchi yoshlarimizni mobil dasturlash sohasidagi bilimlarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bizning maqsadimiz umumta'lim maktablarida olib borilayotgan dars mashg'ulotlarini mobil ilovalardan foydalangan holda sifatli, qiziqarli, baholashning holisligini ta'minlashdan iboratdir. Shu o'rinda umumta'lim maktablari o'qituvchilariga, quyidagi mobil ilovalardan foydalanishni tavsiya etamiz:

- Kahoot, <http://kahoot.com>;
- Plickers, <http://plickers.com>;
- Quizlet, <http://quizlet.com>;
- Class Dojo, <http://classdojo.com>;
- ZipGrade, <http://zipgrade.com>;
- Padlet, <http://padlet.com>;
- Prezi, <http://prezi.com>;
- Canva, <http://canva.com>;
- Survio, <http://survio.com>;
- Duolingo, <https://duolingo.com>;

**Kahoot** mobil ilovasi bu – baholash, anketalarni yaratish uchun bepul ilova. O'qituvchilar yangi mavzularni tushuntirish va mustahkamlash uchun sinfda tanlov o'tkazadigan mobil ilova hisoblanadi. O'quvchilar tanlov ishtirokchilari sifatida ishtirok etishadi, masalan, telefon orqali bir qator savollarga javob berishadi. O'qituvchilar tomonidan yaratiladigan baholash testi, bilimlarni sinab ko'rish viktorinalari, fikrlarni to'plash so'z buluti, ma'lumotni taqdim etish slaydlar va anketalar kabi usullar taqdim etiladi.

**Plickers** mobil ilovasi bu – test tayyorlash va o'quvchilarni bir vaqtning o'zida umumiy baholash uchun bepul ilova. O'qituvchi o'quvchilar uchun kartochkalarni tayyorlaydi, so'ngra test savollarini ekranda ko'rsatiladi va o'qituvchi plickers ilovasi orqali javoblarni skanerlaydi. Ilovaning afzalliklari shundaki, o'quvchilarga mobil telefon yoki internet tarmog'iga kirish talab etilmaydi, o'qituvchi esa bir zumda ekranda test natijalarini ko'rishi mumkin.

**Quizlet** mobil ilovasi bu – yangi so'zlarni yodlash uchun ajoyib bepul ilova. Siz tayyor kartalar to'plamidan foydalanishingiz yoki o'zingizning so'z ma'lumotlar bazangizni yaratishingiz mumkin. Ilovada shuningdek, turli testlar, so'z topish o'yinlarni va qo'shimcha funksiyalarni taklif etadi. Siz interfaol doskada butun sinf bilan ishlashingiz yoki havola orqali virtual sinfingizdagi har bir o'quvchiga individual topshiriqlar berishingiz mumkin.

**Class Dojo** mobil ilovasi bu – tasodifiy o'quvchilarni doskaga chiqarish kabi ilg'or xususiyatlarga ega sinf jurnali. O'quvchilarni baholashda qiziqarli yondashuv: har bir o'quvchining o'z profili, avatarlari bor va u yordamida ma'lum miqdordagi ball to'plashi mumkin.

**ZipGrade** mobil ilova bu – bir soniyada testlarni tekshirish imkonini beruvchi dastur. Buning uchun o'qituvchi javoblar varaqlarini chop etishi, o'quvchilar javob varaqlarini to'ldirishi va o'qituvchi smartfonidan skanerlash orqali natijani aniqlashi mumkin. Natijalar avtomatik ravishda foizlarga aylantiriladi va ilova xotirasida saqlanadi, tahlillar amalga oshiriladi.

**Padlet** mobil ilovasi bu – onlayn doska bo'lib, bu ilovadan o'quvchilarga ko'proq o'z – o'zini rivojlantirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini ta'minlash uchun foydalanish mumkin, masalan, uy vazifalarini onlayn tekshirish. O'qituvchilar tomonidan postlar, havolalar, fotosuratlar va videolarni baham ko'rishi va sharhlar qoldirishi mumkin.

**Prezi** mobil ilovasi bu – ajoyib taqdimotlar yaratish uchun ilova. Shuningdek, masalan, axborot texnologiyalari, grammatika mavzulari bo'yicha tayyor taqdimotlarning katta ma'lumotlar bazasi mavjud. Ushbu ma'lumotlar bazasidan foydalanib, o'qituvchilar o'z dars mashg'ulotlari uchun yangi animatsiya va dizaynga ega bo'lgan taqdimot shakllarini tayyorlashi mumkin.

**Canva** mobil ilovasi bu – grafik dizayn platformasi bo'lib, taqdimotlar va boshqa vizual ishlarni yaratishda foydalaniladi. Ilovada tayyor dizayn shablonlar, o'rnatilgan tasvirlar, videolar va grafik resurslar bankiga ega, shuning uchun fotosuratlar, videolar, shakllar, piktogramma va illyustratsiyalar qo'shish uchun bepul shablonlar mavjud. Ilovaning qo'shimcha imkoniyatlaridan foydalanish uchuun pullik obunalar ham mavjud.

**Survio** mobil ilovasi bu – onlayn so‘rovnoma, onlayn ma’lumotlarni taqdim etishda grafiklarni yaratish imkonini beruvchi ilova. Kichkina-tadqiqot ishlari yoki sinfda suhbatlar o‘tkazish uchun foydalanish mumkin. Onlayn so‘rovnomalarni yaratishda quyidagi imkoniyatlar mavjud: so‘rovnomalarni filtrlash, haqiqiy vaqt statistikasi, avtomatik javoblarni yig‘ish, yakuniy hisobotlar, rasm va videolar qo‘shish, jadvallar va grafiklar kabi imkoniyatlari mavjud.

**Duolingo** mobil ilovasi bu – onlayn til o‘rganish ilovasidir. Ilovani smartfonga yuklab olgandan so‘ng, siz kuniga bir necha daqiqada ingliz tilini, rus tilini va boshqa ko‘plab tillarni tez va oson o‘rganishingiz mumkin. Dastur bepul. Ilova orqali quyidagi amaliyotlarni bajarishingiz mumkin: o‘qish, gapirish, tushunish va yozishni. Bu ishlarning barchasi o‘yin shaklida amalga oshiriladi. Qiziqarli topshiriqlar o‘quvchilaringizning so‘z boyligini oshirishga va bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qathiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: “O‘zbekiston”. – 2017.– 102-b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488-b.
3. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2022-yil 28-yanvar kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida umumta’lim maktablarini rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalar.
4. Informatika va axborot texnologiyalari: umumiy o‘rta ta’lim maktabining 9-sinfi uchun darslik: M.R. Fayziyeva, D.M. Sayfurov, N.S. Xaytullayeva-Toshkent: Tasvir, 2020.-112 b.

#### **Elektron ta’lim manbalar:**

1. <https://uzbekcoders.uz/login>.
2. <https://www.eduneo.ru/10-prilozhenij-dlya-proaktivnogo-pedagoga>.
3. <https://appsgeyser.com/>- android ilovalarni yaratish sayti.
4. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Mobil\\_ilova](https://uz.wikipedia.org/wiki/Mobil_ilova).
5. <https://www.youtube.com/watch?v=ikghEMRfxqI>.
6. <https://www.techopedia.com/mobile-application-mobile-app>.



## CRITICAL THINKING: A MODEL OF INTELLIGENCE FOR SOLVING REAL-WORLD PROBLEMS

*Xujamshukurov Tolibnazar*

*National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek  
faculty of social sciences 3rd year student of applied psychology*

**Abstract:** Most theories of intelligence do not directly address the question of whether people with high intelligence can successfully solve real world problems. A high IQ is correlated with many important outcomes (e.g., academic prominence, reduced crime), but it does not protect against cognitive biases, partisan thinking, reactance, or confirmation bias, among others. There are several newer theories that directly address the question about solving real-world problems. Prominent among them is Sternberg’s adaptive intelligence with “adaptation to the environment” as the central premise, a construct that does not exist on standardized IQ tests. Similarly, some scholars argue that standardized tests of intelligence are not measures of rational thought—the sort of skill/ability that would be needed to address complex real-world problems. Other investigators advocate for critical thinking as a model of intelligence specifically designed for addressing real-world problems. Yes, intelligence (i.e., critical thinking) can be enhanced and used for solving a real-world problem such as COVID-19, which we use as an example of contemporary problems that need a new approach.

**Key words:** critical thinking, intelligence, real-world problems.

**Introduction.** For the most part, we identify high intelligence as having a high score on a standardized test of intelligence. Like any test score, IQ can only reflect what is on the given test. Most contemporary standardized measures of intelligence include vocabulary, working memory, spatial skills, analogies, processing speed, and puzzle-like elements (e.g., Wechsler Adult Intelligence Scale Fourth Edition). Measures of IQ correlate with many important outcomes, including academic performance, job-related skills, reduced likelihood of criminal behavior, and for those with exceptionally high IQs, obtaining a doctorate and publishing scholarly articles summarized these effects when she said the “predictive validity of g is ubiquitous.” More recent research using longitudinal data, found that general mental abilities and specific abilities are good predictors of several work variables including job prestige, and income. Although assessments of IQ are useful in many contexts, having a high IQ does not protect against falling for common cognitive fallacies (e.g., blind spot bias, reactance, anecdotal reasoning), relying on biased and blatantly one-sided information sources, failing to consider information that does not conform to one’s preferred view of reality (confirmation bias), resisting pressure to think and act in a certain way, among others. This point was clearly articulated by Stanovich when he stated that, “IQ tests measure only a small set of the thinking abilities that people need.”

One definition of intelligence that directly addresses the question about intelligence and real-world problem solving comes from [Nickerson](#): “the ability to learn, to reason well, to solve novel problems, and to deal effectively with novel problems—often unpredictable—that confront one in daily life.” Using this definition, the question of whether intelligent thinking can solve a world problem like the novel coronavirus is a resounding “yes” because solutions to real-world novel problems are part of his definition. This is a popular idea in the general public. For example, over 1000 business managers and hiring executives said that they want employees who can think critically based on the belief that CT skills will help them solve work-related problems.

We define CT as the use of those cognitive skills or strategies that increase the probability of a desirable outcome. It is used to describe thinking that is purposeful, reasoned, and goal directed—the kind of thinking involved in solving problems, formulating inferences, calculating likelihoods, and making decisions, when the thinker is using skills that are thoughtful and effective for the particular context and type of thinking task. International surveys conducted by the [OECD](#) established “key information-processing competencies” that are “highly transferable,

in that they are relevant to many social contexts and work situations; and ‘learnable’ and therefore subject to the influence of policy.” One of these skills is problem solving, which is one subset of CT skills.

The CT model of intelligence is comprised of two components: (1) understanding information at a deep, meaningful level and (2) appropriate use of CT skills. The underlying idea is that CT skills can be identified, taught, and learned, and when they are recognized and applied in novel settings, the individual is demonstrating intelligent thought. CT skills include judging the credibility of an information source, making cost–benefit calculations, recognizing regression to the mean, understanding the limits of extrapolation, muting reactance responses, using analogical reasoning, rating the strength of reasons that support and fail to support a conclusion, and recognizing hindsight bias or confirmation bias, among others. Critical thinkers use these skills appropriately, without prompting, and usually with conscious intent in a variety of settings.

One of the key concepts in this model is that CT skills transfer in appropriate situations. Thus, assessments using situational judgments are needed to assess whether particular skills have transferred to a novel situation where it is appropriate. In an assessment created by the first author, short paragraphs provide information about 20 different everyday scenarios (e.g., A speaker at the meeting of your local school board reported that when drug use rises, grades decline; so schools need to enforce a “war on drugs” to improve student grades); participants provide two response formats for every scenario: (a) constructed responses where they respond with short written responses, followed by (b) forced choice responses (e.g., multiple choice, rating or ranking of alternatives) for the same situations.

There is a large and growing empirical literature to support the assertion that CT skills can be learned and will transfer (when taught for transfer). concluded from a meta-analysis that “there are effective strategies for teaching CT skills, both generic and content specific, and CT dispositions, at all educational levels and across all disciplinary areas.” Abrami, included 341 effect sizes in a meta-analysis. They wrote: “findings make it clear that improvement in students’ CT skills and dispositions cannot be a matter of implicit expectation.” A strong test of whether CT skills can be used for real-world problems comes from research by Butler. Community adults and college students (N = 244) completed several scales including an assessment of CT, an intelligence test, and an inventory of real-life events. Both CT scores and intelligence scores predicted individual outcomes on the inventory of real-life events, but CT was a stronger predictor.

A pandemic occurs when a disease runs rampant over an entire country or even the world. Pandemics have occurred throughout history: At the time of writing this article, COVID-19 is a world-wide pandemic whose actual death rate is unknown but estimated with projections of several million over the course of 2021 and beyond. Although vaccines are available, it will take some time to inoculate most or much of the world’s population. Since March 2020, national and international health agencies have created a list of actions that can slow and hopefully stop the spread of COVID (e.g., wearing face masks, practicing social distancing, avoiding group gatherings), yet many people in the United States and other countries have resisted their advice.

Could instruction in CT encourage more people to accept and comply with simple life-saving measures? There are many possible reasons to believe that by increasing citizens’ CT abilities, this problematic trend can be reversed for, at least, some unknown percentage of the population. We recognize the long history of social and cognitive research showing that changing attitudes and behaviors is difficult, and it would be unrealistic to expect that individuals with extreme beliefs supported by their social group and consistent with their political ideologies are likely to change. For example, an Iranian cleric and an orthodox rabbi both claimed (separately) that the COVID-19 vaccine can make people gay. These unfounded opinions are based on deeply held prejudicial beliefs that we expect to be resistant to CT. We are targeting those individuals whose beliefs are less extreme and may be based on reasonable reservations, such as concern about the hasty development of the vaccine and the lack of long-term data on its effects. There should be some unknown proportion of individuals who can change their COVID-19-related beliefs and actions with appropriate instruction in CT. CT can be a (partial) antidote for the chaos of the

modern world with armies of bots creating content on social media, political and other forces deliberately attempting to confuse issues, and almost all media labeled “fake news” by social influencers (i.e., people with followers that sometimes run to millions on various social media). Here, are some CT skills that could be helpful in getting more people to think more critically about pandemic-related issues.

**Conclusion.** We believe that teaching CT is a worthwhile approach for educating the general public in order to improve reasoning and motivate actions to address, avert, or ameliorate real-world problems like the COVID-19 pandemic. Evidence suggests that CT can guide intelligent responses to societal and global problems. We are NOT claiming that CT skills will be a universal solution for the many real-world problems that we confront in contemporary society, or that everyone will substitute CT for other decision-making practices, but we do believe that systematic education in CT can help many people become better thinkers, and we believe that this is an important step toward creating a society that values and practices routine CT. The challenges are great, but the tools to tackle them are available, if we are willing to use them.

**Reference:**

1. ALEXANDER, W. P. Intelligence, concrete and abstract. *Brit. J. Psychol.* 1935, 6, No. 19.
2. BBOWN, W. M. Character traits as factors in intelligence test performance. *Psychol.*, 1923.
3. CATTELL, R. B. Temperament tests. I. Temperament, *Brit. J. Psychol.*, 1933, 23, 308-29.
4. FLANAGAN, J, C. Factor analysis in the study of personality. Stanford Univ. Press, 1935.
5. LORGE, I. Intelligence: Us nature and nurture. 39th Yearbook. National Society for Study of Education, 1940, Part I, 275-81.


## ТАСҚАЗҒОН МАЙДОНИ АСОСЛИ ДАЙКАЛАРИНИНГ ПЕТРОГРАФИК ВА ГЕОКИМЁВИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ (ҚУЛЖУҚТОВ ҒАРБИЙ ҚИСМИ)

*Ҳамраев Аҳмадали Хурром ўғли*

*Давлат Геология ва минерал ресурслар қўмитаси  
Геология фанлари университети Ҳ.М. Абдуллаев номидаги  
Геология ва геофизика институти таянч докторанти.*

Белтов (Тасқазғон) габбро-перидотит массиви Марказий Қизилқум маъданли-магматик концентрациясининг жануби-ғарбий қисмида, Қулжуктов тоғ тизмасининг ғарбий қисмида жойлашган. Массив юқори силур ва ўрта девон даврининг доломтлашган, мрамрлашган оҳактошлар, доломитлар ва кремний-карбонатли жинслар орасида (Дженгелди свитаси - *S2dz*, Башгужумди свитаси - *S2bd*, Туркментов свитаси - *D1tr*, Султонби свиталари - *D2sb*) да жойлашган [1].

Белтов (Тасқазғон) габбро-перидотит массивининг асос таркибли дайкалари долерит, оливинли долерит, плагиодолерит, камдан-кам ҳолларда плагиодиабаз, лампрофир диорит-порфиритлар дайклари билан ифодаланади. Дайкаларнинг қалинлиги 1-3 м, узунлиги 5 м дан 500 м гача [2].



**1-расм.** Тасқазғон майдони.  
Долерит дайкасининг  
структура ва текстураси.

Rx–пироксен, Pl–плагиоклаз,  
Rm–маъданли минераллар.  
Шлиф №Ах-46, а-,в-,д –  
параллел николлар, б-,г-,е –  
кесишган николлар.

а-б – афит структура, в-г –  
пойкилитли структура.

Дайкаларнинг катта қисми  
субмеридиалдан шимолий-  
шимоли-шарқий йўналишга  
хосдир. Улар асосий габброид  
массивининг шимоли-ғарбий  
қисмида ривожланган, аммо

унинг марказий қисмида ва жануби-шарқий қисмида қайд етилган. Шунингдек, габброидларга хос оҳактошлар билан контакт зонасида дайкаларнинг ривожланиши характерлидир [3]. Тоғ жинси тўлиқ кристаллашган кучсиз порфир тузилишга эга 1-расм. Ички тузилишида офитли ва пойкилоофитли структуралар устунлик қилади. Офит структура плагиоклазнинг йирик чўзиқ доналари мавжудлиги билан ифодаланади.

Пойкилоофит структура пироксеннинг чўзиқ донаси ичида плагиоклазнинг калта устунсимон қўшимталари пойкилитлари мавжудлиги билан ифодаланади. Бу ҳолат плагиоклазни пироксендан эрта кристалланганидан далолат беради. Тоғ жинси кучсиз катаклазлашга учраган, буни плагиоклазнинг чўзиқ кристалларига деярли перпендикуляр ўтган дарзликлари мавжудлиги. Тоғ жинси 60% га яқини плагиоклаз, 30-35% пироксен 3-4% маъданли минераллари борлиги аниқланди. Пироксен асосан авгит ва диопсидлардан иборат. Пироксен кучсиз ўзгаришга учраган ажралиш дарзликлари қорамтир тусли темир иккиламчи оксидлари билан тўйинган. Баъзан пироксен ва қорамтир маъдан минераллари (магнетит, илменит ва б. ) минерал уюмлари шпир куринишидаги минерал парагенезларини ҳосил қилади.



**Тасқазғон майдони асос дайқаларининг геохимёвий ихтисосохлашуви.** Тасқазғон майдони асос дайқаларининг геохимёвий ихтисосохлашувини таснифлаш учун ICP масс-спектрометрик тахлиллар ўтказилиб, аниқланган элементларнинг миқдорлари қиёсланди (уларнинг натижалари 1-жадвал ва 2-расмда келтирилган). Натижада Тасқазғон майдони долерит ва диорит-порфирит дайқаларида қуйидаги хромнинг миқдори кларкидан яққол юқорлиги аниқланди: долерит дайқасида (Cr – 350 г/т), диорит-порфирит дайқасида (Cr – 400 г/т). Карбонатлашган дииабаз ва ишқорли лампрофир (камптомончикит) дайқаларида унинг миқдорлари мос равишда 200-250 г/т ни ташкил этади, аммо габбро-долерит дайқасида у кларки қийматига яқин (72 г/т). Долерит дайқасида (Ti – 5700) габбро-долерит дайқасида (Ti – 16000) майдондаги бошқа турдаги дайқаларга нисбатан титандорлиги билан ажралиб туради. Шунингдек, ваннадий ушбу дайқаларда деярли барча ҳолатда кларкиниқидан юқорилиги аниқланди (V – 110-260 г/т). Темирнинг миқдори асосли дайқаларнинг барчасида кларки қийматидан юқори, унинг максимал миқдори камптомончикитларда (Fe – 81000 г/т) аниқланди.


**1-жадвал.** Тасқазғон майдони асосли дайқаларининг ICP масс-спектрометрик тахлил натижалари, г/т.

Элементлар	Элементлар кларк миқдори [4]	Долерит	Карбонатлашган дииабаз дайқаси	Камптомончикит	Габбро-долерит	Диорит-порфирит дайқаси
		Ах-46/20	Ах-47/20	Ах-48/20	Ах-49/20	Ах-50/20
		1	2	3	4	5
Ti	4500	3000	5700	4200	16000	2300
V	90	150	97,0	260	110	130
Cr	83	350	200	250	72,0	400
Mn	1000	1100	1000	1600	1100	730
Fe	46500	65000	48000	81000	59000	36000
Co	18	38,0	22,0	40,0	29,0	30,0
Ni	58	75,0	25,0	36,0	21,0	57,0
Cu	47	62,0	84,0	130	72,0	42,0
Zn	83	94,0	75,0	92,0	100	45,0
Pb	16	5,80	13,0	8,80	13,0	8,90
As	1,7	15,0	19,0	19,0	29,0	20,0
Se	0,05	4,70	4,80	3,60	4,60	4,50
Sb	0,5	0,800	0,470	0,520	0,850	3,70
Te	0,001	1,10	0,720	0,720	0,720	0,720
Bi	0,009	0,067	0,160	0,170	0,091	0,140
Ag	0,07	0,100	0,230	0,130	0,190	0,120
Zr	170	12,0	120	52,0	81,0	37,0
Hf	1	0,380	3,30	1,50	2,10	1,10
Nb	20	1,40	5,80	2,40	8,00	2,10
Ta	2,5	0,780	0,460	0,520	0,660	0,210
Mo	1,1	3,50	4,20	3,10	3,60	2,40
W	1,3	0,760	1,80	1,20	2,30	2,70
Re	0,0007	0,01	0,01	0,01	0,01	0,01
Th	13	1,20	6,70	4,40	4,40	3,60
U	2,7	0,810	5,50	2,10	2,20	1,30
Ba	650	170	55,0	490	170	370
Sr	340	330	110	300	420	340
Sc	10	26,0	16,0	43,0	30,0	17,0



Y	20	10,0	24,0	20,0	23,0	10,0
La	29	5,80	15,0	12,0	12,0	7,30
Ce	70	12,0	37,0	26,0	28,0	16,0
Pr	9	1,70	4,80	3,60	3,60	2,00
Nd	37	7,50	19,0	15,0	16,0	8,70
Sm	8	2,00	4,60	4,00	4,20	2,10
Eu	1,3	1,50	1,50	1,20	1,60	0,890
Gd	8	1,90	4,50	3,60	4,20	2,00
Tb	4,3	0,330	0,750	0,600	0,700	0,340
Dy	5	2,10	4,70	3,90	4,50	2,20
Ho	1,7	0,440	0,870	0,780	0,880	0,400
Er	3,3	1,20	2,40	2,20	2,50	1,10
Tm	0,27	0,180	0,350	0,320	0,350	0,170
Yb	0,33	1,20	2,40	2,30	2,40	1,10
Lu	0,8	0,170	0,350	0,320	0,330	0,160

Мис майдонда ривожланган базит дайкаларида диорит-порфирит дайкаларига нисбатан микдорларининг юқорилиги билан ажралиб туради (Cu – 62-130 г/т). Бу каби геохимёвий хусусият рух мисолида ҳам такрорланади, яъни базит дайкаларида унинг микдорлари 75-100 г/т бўлган ҳолда, диорит-порфиритларда 45 г/т ни ташкил этади. Ўрганилган дайкалар учун умумий геохимёвий хусусиятлардан бири сифатида улар билан эҳтимолли олтин-кумушли маъданлашув учрашидан дарак берувчи уларнинг йўлдош элементлари – маргимуш, селен, сурма, телур ва висмут ушбу дайкларнинг барчасида геохимёвий фонининг юқорилиги диққатга сазовор (1-жадвал ва 2-расмга қаранг).



**2-расм.** Тасқазгон майдони асосли дайкалари учун кўп элементли спайдер диаграммаси. Расмдаги рақамлар: 1-долерит, 2-диабаз, 3-камптомончикит, 4-габбро-долерит, 5-диорит-порфирит.

Нодир ва радиоактив элементлар – Zr, Hf, Nb, Ta, Mo, W, U, Th – гранофил элементлар бўлгани учун ушбу дайкалар уларга геохимёвий ихтисослашмаган ва уларнинг микдорлари деярли кларклариникига яқин. Аммо скандийнинг микдори кларкиниқидан габбро-долерит ва камптомончикитларда кларкиниқидан бир неча марта куп булиб, мос равишда 30-40 г/т ни ташкил этиши аҳамиятли. Бу каби ҳолат Қулжуктовнинг бошқа ҳудудларида ривожланган асосли дайкаларда ҳам скандийдорлиги аниқланган [5]. Камёб ер элементлари микдорлари умуман олганда бу дайкаларда салбий курсаткичга эга, кларклариникидан кам. Аммо уларнинг кларк-концентрацияларини ифодаловчи график чизиқларидаги “максимум” ва “минимум”лари (2-расм) бир-бирига мослиги ушбу дайкаларни шакллантирган магма суюқликларининг генетик табиати бирлигидан далолат беради.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Айсанов Я.Б. К истории геологического развития Кульджуктау в палеозое. "Узб. гаол. ж.", №1, 1969.
2. Мамарозиков У.Д. Геолого-петрографические особенности Бельтауского габбро-перидотитового массива (Центральные Кызылкумы) // Геология и минеральные ресурсы, 2020. № 1. – С. 3-15.
3. Мамарозиков У.Д. Минералого-геохимические критерии рудоносности Бельтауского габбро-перидотитового массива (Центральные Кызыл-Кумы) // Геология и минеральные ресурсы, 2020. № 2. – С. 3-20.
4. Виноградов А.П. Средние содержания химических элементов в главных типах изверженных пород земной коры // Геохимия, 1962, № 7. – С. 555-571.
5. Мамарозиков У.Д., Норматов У.А., Хамраев А.Х. Диабаз-лампрофировая формация Кульджуктау (Центральные Кызылкумы): геолого-петрографические особенности, минералогия и геохимическая специализация // Геология и минеральные ресурсы, 2020.

## ЎЗБЕК МИЛЛИЙ РАҚС САНЪАТИ ТЕРМИНЛАРИ ШАКЛЛАНИШИНИНГ ЛИСОНИЙ ОМИЛЛАРИ

*Ҳамроева Хулқар Ҳамидуллаевна – филология фанлари доктори (DSc)  
Ўзбекистон давлат хореография академияси катта ўқитувчиси.*

**Аннотация:** Мазкур мақолада ўзбек миллий рақс санъати терминларининг шаклланиш жараёнлари ва лексик-семантик хусусиятлари тадқиқ қилинади.

**Калит сўзлар:** Илмий мулоқот, луғат майдони, рақс санъати, ҳаракат, тақинчоқ, онамастик макон.

Терминлар ва терминология тизими муайян соҳа, фан ва техникага оид илмий назариялар, қонуниятлар, қоидаларни шакллантириш учун зарур лисоний воситалар бўлиб, мазкур йўналишнинг ажралмас қисми сифатида белгиланади. Ж.Г. Жигунова терминологияни ўзлаштириш ҳар қандай илмий билимни англашда асосий муаммо, деб ҳисоблайди, чунки терминологик бирликлар профессионал ва илмий мулоқот жараёнида муҳим роль ўйнайди<sup>377</sup>. Дарҳақиқат, маълум бир соҳада ишлайдиган мутахассис атамаларни ўзлаштирмасдан ўз соҳаси доирасидаги имкониятларини рўёбга чиқариш, профессионал фаолиятини амалга оширишда мақсадига тўлиқ эриша олмайди.

Маълум бир соҳа терминологияси ёпиқ луғат майдони сифатида, фақат муайян соҳа вакиллари учун тушунарли бўлиб, уларни ўзлаштириш инсон касбий ва илмий фаолиятининг энг муҳим шартларидан биридир.

Замонавий рақс терминологияси – бу рақслар, рақс ҳаракатлари, ҳолатлар учун номларнинг очиқ, мослашувчан тизими. У умумдабий тил ҳамда бошқа терминологик тизимлар билан лексик ва семантик муносабатларда тавсифланади. Луғат таркибидаги ассоциатив муносабатларни ўрганиш ва хореографик терминологиянинг ўзига хос хусусиятларини аниқлаш катта аҳамиятга эга. Ўзбек рақс санъати терминларини ҳар томонлама ўрганиш лексикология соҳасидаги терминология тизими ривожини таъминловчи муҳим омиллардан биридир. Рақс санъати атамаларига оид сўз бойлигини жамлаш, мазкур тил бирликларининг лексик-семантик хусусиятларини диахрон ва синхрон тарзда ўрганиш давр талабидир. Терминлар ё тилимиздаги мавжуд сўзлар асосида пайдо бўлади ёки бошқа тиллардан муайян тушунча номи сифатида ўзлашади. Шундай қилиб, тил ўзининг номинатив функцияси ёрдамида янги пайдо бўлган тушунчаларни номлаш вазифасини амалга оширади. Ўзбек тили луғат таркибининг бойишида ички имкониятлар муҳим манба ҳисобланади. Хусусан, рақс санъатига оид лексик қатлам, асосан, ана шу тамойил асосида шаклланади..

Сўзнинг асл маъносини ўзгартириш, янги маънода қўллаш орқали қайта номлаш жараёни мавжуд тушунча асосида янги номинатив бирликнинг шаклланишига хизмат қилади. Ўзбек тили касб-ҳунар терминологияси, хусусан, рақс санъати соҳасида бу усул самарали воситалардан биридир.

Ўзбек тили рақс атамаларини лексик-семантик жиҳатдан 3 гуруҳга ажратиш мумкин (бундай тасниф биринчи марта белгиланмоқда):

- 1) рақс номлари – ономастик номлар;
- 2) рақс ҳаракатларини билдирувчи номлар;
- 3) рақс кийимлари, тақинчоқлар ва буюмлар номлари.

**Рақс номлари – ономастик номлар.** Ўзбек рақс санъати терминологиясининг бир қисмини рақс номларини ифодаловчи атоқли отлар ташкил этади. Шундай экан, уларнинг лексик-семантик, морфологик ва услубий хусусиятларини ўрганиш талаб этилади.

<sup>377</sup>Жигунова Ж.Г. Английская терминология социальной работы в диахронии и синхронии [Текст]: дисс. ... канд. филол. наук. – Омск, 2003. – С. 155.

**Ономастика** - (юн. *onomastika* - ном қўйиш санъати). Тилшуносликнинг атоқли отларни ўрганувчи бўлими. 2. Атоқли отлар мажмуи (тизими)<sup>378</sup>. Ономастика термини “оним” (юнонча *ὄνομα* – исм, сарлавҳа) сўздан ясалган атама сифатида бирор предметни индивидуаллаштириш ва идентификациялаш учун, бир қатор ўхшаш нарсалар орасидан номланган объектни ажратиш учун хизмат қиладиган сўз, сўз бирикмаси ёки жумла.

Атоқли отлар (онимлар) ономастиканинг ўрганиш объекти ҳисобланади. Ономастик олимлар диққат-эътиборни ўзига хос исм ва умумий ном ўртасидаги фарқ, ономастик макон ва майдонларнинг чегаралари каби муаммоларга қаратадилар. Ономастик маконнинг барча тоифаларини ўрганишга тизимли ёндашиш ономастиканинг устувор йўналишига айланди<sup>379</sup>. Ўрганилаётган объектнинг тўлиқлиги билан боғлиқ ҳолда, барча ономастик бирликлар гуруҳларини қамраб олишнинг “қолдиқсиз” бажарилиши ва синфларнинг ўзаро кесишишидан қочиш керак бўлган мукамал таснифни шакллантириш жуда мураккаб вазифадир. Ваҳоланки, ҳар қандай ономастик қатлам учун бўлинишнинг асосий тамойилини аниқлаш жуда қийин. Шунинг учун таснифлаш борасидаги изланишлар давом этмоқда<sup>380</sup>. Хусусан, рақс номларини ифодаловчи атоқли отлар рақс прагматикасининг воқеланишида йўналтирувчи элемент сифатида муҳим аҳамиятга эга бўлиб, коммуникатив ва эмоционал-экспрессив вазифа бажаради, услубий хусусиятларни ифодалашга хизмат қилади.

К.С.Федотовага кўра, В.М.Калинкиннинг тавсифи асосида “оним” ва “поэтоним” тушунчалари ажратила бошланди. Шундай қилиб, агар “оним” атамаси орқали тил факти сифатида, умуман, атаб қўйиладиган номлар тушунилса, “поэтоним” тушунчаси фақат бадиий матн доирасида чекланган<sup>381</sup>. “Поэтонимнинг оддий атоқли отлардан асосий фарқи шундаки, қоида тариқасида, реал эмас, балки номланаётган хаёлий ёки ҳақиқий объектларнинг муаллиф онгида ва (асар матни орқали) ўқувчи (китобхон, томошабин)лар онгида шаклланадиган идеал суратларидир”<sup>382</sup>. Дарҳақиқат, рақс номлари ҳам томошабин онгида ана шундай реал ёки хаёлий тушунчаларни гавдалантиради. Масалан, “*Шоли байрами*”, “*Хоразм қовун байрами*”, “*Сумалак сайли*” каби рақс номлари хаёлимизда ўша воқеликларнинг реал тасвирини гавдалантирса, бу номдаги рақслар ижросида байрам, сайл жараёнларига ишоравий хатти-ҳаракатлар жамланади. Шу маънода рақсларни **пантомимик метафора** дейиш мумкин. Чунки ёзувчи сўз орқали, рассом ранг-тасвир орқали образ яратса, раққос(а) гавда ҳаракатлари орқали фикр (ахборот) узатади, муайян образлилик ҳосил қилади.

Яна шуни ҳам таъкидлаш лозимки, айрим рақс номлари ана шу рақсда ифодалаётган ҳолатларнинг ихчамлашган мазмуни сифатида муайян воқеликка ишора қилади (метафора орқали) ёки муайян бир предмет ёки тушунчага боғлиқликни ифодалайди (метонимия). Масалан, “*Хўроз*”, “*Чагаллоқ*”, “*Кундошлар*”, “*Нон ёпиш*”, “*Пилла*” артионимларида метафора орқали ўхшаш ҳолатлар тасвирига ишора қилинади. “*Пиёла ўйини*”, “*Пичоқ ўйини*”, “*Чўғирма ўйини*”, “*Қайроқ Лазгиси*”, “*Дутор Лазгиси*”, “*Сурнай Лазгиси*”, “*Гармон Лазгиси*”, “*Кўза рақси*” каби номларда эса метонимия асосида предметлар билан боғлиқлик ҳолати ифодаланади.

Ўзбек рақслари номлари ифодалаётган семантик мазмун нуқтаи назаридан ушбу атоқли отларни қуйидаги маъно гуруҳларига ажратиш мумкин:

**1. Миллий-маданий урф-одатлар, этнонимлар билан боғлиқ номлар:** “*Келин салом*”, “*Шоли байрами*”, “*Хоразм қовун байрами*”, “*Сумалак сайли*”, “*Ашшадарози*”, “*Бешик тўйи*”, “*Кундошлар*”, “*Олти халфа*” каби.

<sup>378</sup>Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т.: ЎзМЭ давлат илмий нашриёти, 2002. – Б. 75.

<sup>379</sup>Совершаева Л.Г., Павловская М.А. Идеонимы в ономастическом пространстве // Международный научный журнал “Инновационная наука”. №11-2/2016. – С. 131-132.

<sup>380</sup>Мезенко А.М., Генкин В.М., Деревяго А.Н. Ономастика. – Витебск: ВГУ, 2012. – С. 87.

<sup>381</sup>Федотова К.С. Поэтонимология как новое направление авторской лексикографии // Языкознание и литературоведение. 2017. DOI: 10.17223/22274200/11/3. – С. 39-52.

<sup>382</sup>Калинкин В.М. Поэтонимология: из заметок о метаязыке науки. 2008. № 2. – С. 96-101.

2. **Меҳнат жараёнлари ва касб-кор билан боғлиқ номлар:** “Нон ёпиш”, “Балиқчи ва балиқ”, “Масхарабоз лазги”, “Чўпон”, “Сартарош”, “Этикдўз”, “Қиморбоз ўйини” каби.
  3. **Кийимлар билан боғлиқ номлар:** “Лачак ўйини”, “Чўғирма ўйини” каби.
  4. **Ҳайвон ва паррандалар билан боғлиқ номлар:** “Маймун ўйини”, “От ўйини”, “Қаптар”, “Тўрғай”, “Ғоз”, “Чорлоқ ўйини”, “Эчки ўйини”, “Юмронқозиқ ўйини”, “Хўроз”, “Чағаллоқ” каби.
  5. **Ўсимликлар билан боғлиқ номлар:** “Норим-норим”(анор), “Узум”, “Пахта” каби.
  6. **Предметлар билан боғлиқ номлар:** “Лаган ўйини”, “Кўза рақси”, “Таёқ ўйини”, “Чойнак ўйини”, “Пиёла ўйини”, “Пичоқ ўйини”, “Қошиқ ўйини”, “Қайроқ”, “Қайроқ лазгиси”, “Қайроқ ўйини”, “Қайроқ сўзлаганда”, “Қайроқ уфори” каби.
  7. **Куй ёки кўшиқлар номлари билан боғлиқ номлар:** “Гулузорим баёти”, “Лазги афсонаси”, “Мавриги”, “Оразибор”, “Танавор”, “Соқийномаи баёт”, “Савти сарвиноз”, “Равона”, “Уфарлар”, “Уфори баёт”, “Ротолло”, “Елтасаланди”, “Муножот”, “Дилхирож” каби.
  8. **Муסיқа асбоблари билан боғлиқ номлар:** “Дутор лазгиси”, “Сурнай лазгиси”, “Доира рақси”, “Гармон лазгиси” каби.
  9. **Жой номлари билан боғлиқ номлар:** “Бухоро бўй-бўйи”, “Бухоро ларзони”, “Бухорча”, “Мавриги”(Марв шаҳри), “Орол фарёди”, “Хива лазгиси”, “Андижон полькаси”, “Фаргона рубойиси”, “Наманганнинг олмаси” каби.
  10. **Рақс унсурлари билан боғлиқ номлар:** “Жахува”, “Занг рақси”, “Зикр”, “Катта ўйин”, “Зангбанди”, “Ларзон”, “Кўшқарсак”, “Баҳор вальси” каби.
  11. **Рақс ҳаракатларини билдирувчи номлар:** барг тўкилиши, бармоқ ўйин, гардиш, гавда тебранишлари, гавда тўлқини, гул барги, елка қоқиши, енг тортиши, елка тебраниши, ёғду сочмоқ, жайрон шохи, ёқа ўйин, зарб, илон изи, интилиши, ияқ ҳаракати, кафтлар ўйини, лаби шакар, лачак, лола, мендан кетма, мени унут, нигоҳ отиши, нилуфаргул, парвона, саломлашиши, сув мавжи, тарози, тақя, уфори, хаёл, чақирши, чалмаи уфори, шаршара, эркаланиши, эзма юрагим, этак билан ўйин, юрагим сенда, қайроқ, қайчи, қанотлар, қарсак, қоши камон, қушча, қуёшдан нур олиши, қўлдаста, қўлибанд, гунча, гул барги, баргнинг тўкилиши, лола, нилуфар, гардиш, қуёш нурлари, қуёшдан нур олиши, ойнага қараш, парвона, қоши камон ва ҳоказо. Рақс ҳаракатлари билан уларни номловчи терминлар маъноси ўртасидаги мутаносибликни англаш учун Хоразм рақс мактабига оид айрим атамаларнинг изоҳини келтирамиз.
- Елка тебраниши.** Бу ҳаракат фақат юриб ижро этилади. Елка олдинга ва орқага, бош ва гавда олдинга эгилганроқ. Ҳар бир ҳаракатни “елка титрама” ва “елка тебраниши” ишораси билан ижро этиш мумкин.
- Ғунча** [форсча – куртак, шона; лаб, дудоқ] Ҳали очилмаган, гулбарглари ҳали ёзилмаган гул; ўсимликнинг гул куртаги. (ЎТИЛ, 5-жилд. 460-б.) Орқароққа эгилган қўлдасталар бир-бирларига рўпара ҳолдаги кўринишда бўлади. Бармоқлар кафтларга эгилган ҳолатда, учлари юқорига майин қаратилган. Раққосанинг чеҳрасида очилмаган ғунчадек сирли табассум.
- Рақс кийимлари, тақинчоқлар ва буюмлар номлари:** безакли тақя (тақя) дудорли тақя, парли тақя, попукли тақя, шавкала (тақинчоқ) кундал, адрас, кимхоб, камзул, зардўзи ятак, салла, бахмал этик, кўйлак, нимча, ятак, шалвор, этик, дўппи, хонатлас, беқасам, крепдешин, шитон, рўмол, туфли, олача, бўз, жанда, зебигардон, зафабанд, шодамаржон, билакузук, зирак, нозигардон, кифтак, кўкрактумор, мунчоқ, қўлтиқтумор, шолвор, мукки (енгил тери чориқ), баргак, боло абру, осматузи, тиллақош нозигардон, жига ва ҳоказо.
- Ушбу гуруҳга оид атамалар таркибини турли жиҳатдан изоҳлаш мумкин:
- умумадабий ёки шевага хос сўз ва сўз бирикмалари:
- а) ятак, салла, бахмал этик, кўйлак, бўз, тиллақош, дўппи, хонатлас, беқасам, крепдешин, шитон, рўмол, адрас, кимхоб;
  - б) тақя, шавкала (тақинчоқ), кундал, осматузи, жига, мукки;



- ўз қатлам ва ўзлашма қатламга оид сўз ва сўз бирикмалари:

а) кўйлак, бўз, тиллақош, дўпти, хонатлас, этик, адрас, кимхоб;

б) нозигардон, зебигардон, зафабанд, боло абру;

Юқорида таъкидлаб ўтилганидек, ўзбек рақс санъати ҳудудий рақс мактаблари асосида шаклланган. Бундан келиб чиқадики, ҳудудий мактабларга оид атамаларда ҳам диалектал тафовутлар мавжуд бўлиши табиий. Бугунги кун нуқтаи назаридан олиб қаралганда, умуммиллий рақс мактабини яратиш ва умуммиллий профессионал раққос, раққоса ва балетмейстерларни тайёрлаш зарурати эса ана шу тафовутларни бартараф этиш, тизимлаштирилган рақс атамалари луғатини яратиш вазифасини кўндаланг қилиб қўймоқда.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Жигунова Ж.Г. Английская терминология социальной работы в диахронии и синхронии [Текст]: дисс. ... канд. филол. наук. – Омск, 2003.
2. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т.: ЎЗМЭ давлат илмий нашриёти, 2002.
3. Совершаева Л.Г., Павловская М.А. Идеонимы в ономастическом пространстве // Международный научный журнал “Инновационная наука”. №11-2/2016.
4. Мезенко А.М., Генкин В.М., Дервяго А.Н. Ономастика. – Витебск: ВГУ, 2012.
5. Федотова К.С. Поэтонимография как новое направление авторской лексикографии // Языкознание и литературоведение. 2017. DOI: 10.17223/22274200/11/3.
6. Калинин В.М. Поэтонимология: из заметок о метаязыке науки. 2008. № 2.
7. Матёкубова Г.Тохтасимов Ш. Ҳамроева Ҳ. Хоразм “Лазги” рақси: тарихи ва тавсифи. Т.: 2022.

## ПОИСК ПУТЕЙ ПОВЫШЕНИЯ ПОТЕНЦИАЛА УСТОЙЧИВОСТИ СРЕДНЕВОЛОКНИСТОГО ХЛОПЧАТНИКА К ВОДНОМУ ДЕФИЦИТУ

*Набиев С.М., Шавкиев Ж.Ш., Азимов А.А.*

*Хамдуллаев Ш.А., Матниязова Х.Х.*

*ИГиЭБР АН РУз*

Происходящие в последние годы глобальные изменения климата, динамичное повышение температуры воздуха и расширение территорий с нехваткой воды ставят перед сельским хозяйством задачи по эффективному и экономному использованию имеющихся запасов воды, усиленной разработке водосберегающих технологий и их внедрению в производство. Это проблема является особенной для Узбекистана, который имеет ограниченные ресурсы воды и где земледелие основано на искусственном орошении возделываемых сельскохозяйственных культур. Нужно отметить, что основной объем водных ресурсов используется именно для орошения растений. Поэтому, в последние годы Президентом и правительством республики предпринимаются необходимые меры по эффективному водопользованию в сельскохозяйственном секторе - принимаются соответствующие Указы и Постановления, способствующие решению этой острой экологической и социальной проблемы, так как это непосредственно касается и продовольственной безопасности нашей страны.

Урожайность растений является сложным признаком, фенотипическое выражение которого зависит от функционирования и взаимодействия многих физиологических, биохимических, морфологических и генетических систем и определяется как их генетическим потенциалом, так и экологическими факторами. Внешние факторы через регуляцию ядерных и цитоплазматических генов определяют клеточную дифференциацию, морфогенез и биологию развития растений [1]. Потенциальная продуктивность и экологическая устойчивость управляются разными системами генов, в связи с чем, их можно сочетать в одном генотипе. Установление характера адаптации по отдельным признакам и оценка диапазона их изменчивости в экстремальных условиях способствуют выявлению потенциала продуктивности создаваемого сорта [2]. Так как селекция сельскохозяйственных культур, в том числе хлопчатника, базируется на знании генетических закономерностей наследования признаков, проблема исходного материала стала особенно актуальной в настоящее время в связи с необходимостью значительного увеличения потенциала устойчивости хлопчатника. В этом плане, определенный научный и практический интерес вызывает выяснение вопроса влияния условий водообеспеченности при формировании семян на продуктивность растений следующего поколения при их возделывании в условиях водного дефицита. Материалом наших исследований служили местные средневолокнистые сорта хлопчатника - Келажак, Гульбахор-2, Ишонч, Бухара-102 и их гибриды F<sub>1</sub>, полученные по полной диаллельной схеме. Полевые эксперименты были проведены на опытном поле Зангиатинской экспериментальной базы Института генетики и экспериментальной биологии растений (ИГиЭБР) АН РУз. Семена сортов и гибридов F<sub>1</sub> были посеяны в третьей декаде апреля месяца на двух фонах водного режима - в условиях оптимальной водообеспеченности, при схеме полива 1:2:1 и в условиях недостаточной водообеспеченности, при схеме полива 1:1:0. Моделируемая засуха была создана сокращением количества поливов в период вегетации. Почва опытного участка относится к типичным сероземам давнего орошения с низким содержанием гумуса. Глубина грунтовых вод 8,0 и более метров. Предельная полевая влагоемкость почвы составляет 22%, а ее объемный вес – 1,32-1,33 г/см<sup>3</sup>. Помимо водного режима, остальные агротехнические мероприятия были одинаковыми для обоих фонов. На обоих фонах исследований материал был высеян в 3-х кратных рендомизированных повторениях, на двух рядах в каждом повторении и по 25 растений в каждом ряду, по схеме посева 90x20x1.

**Опыт был проведен по следующим вариантам:**

I-вариант – семена сортов и гибридных коробочек  $F_0$  были получены в условиях оптимальной водообеспеченности и в следующем году были посеяны в этих же условиях (контроль);

II-вариант – семена сортов и гибридных коробочек  $F_0$  были получены в условиях оптимальной водообеспеченности и в следующем году были посеяны в условиях недостаточной водообеспеченности;

III-вариант – семена сортов и гибридных коробочек  $F_0$  были получены в условиях недостаточной водообеспеченности и в следующем году были посеяны в этих же условиях;

Основной хозяйственный показатель - продуктивность растений был рассчитан в граммах хлопка-сырца на одно растение. Анализ полученных данных показал, что в условиях оптимальной водообеспеченности (I-вариант) среди исходных сортов наиболее продуктивным был сорт Ишонч (82,5 г), а в группе гибридов  $F_1$  - растения комбинации Гульбахор-2 х Бухара-102 (97,4 г). Сравнительно высокой продуктивностью отличались также прямые гибриды сорта Келажак с сортами Ишонч и Бухара-102 (соответственно, 89,6 г и 89,1 г), комбинации Гульбахор-2 х Келажак и Ишонч х Гульбахор-2 (соответственно, 87,9 г и 84,2 г). Данный признак гибридами  $F_1$  наследовался в основном, по типу сверхдоминирования, в единичных случаях отмечено неполное доминирование одного из родительских форм. У таких комбинаций, как Келажак х Бухара-102 и Гульбахор-2 х Келажак положительный гетерозис по продуктивности растений достиг до уровня 121,2% и 122,1%, а у Гульбахор-2 х Бухара-102 до 132,5%. Отрицательный гетерозис был отмечен у комбинации Ишонч х Келажак -86,4% .

Во втором варианте, в условиях ограниченной водообеспеченности изученные исходные сорта имели близкие значения по продуктивности, которая колебалась в пределах 48,4-54,4 грамм на растения. В этих неблагоприятных условиях водного режима, среди гибридов сравнительно продуктивными были реципрочные гибриды сорта Гульбахор-2 с Ишонч (соответственно, 62,8 г и 61,8 г), а также комбинация Бухара-102 х Ишонч (65,3 г). В этих условиях продуктивность наследовалась гибридами  $F_1$  по типу сверхдоминирования и только в одном случае отмечено неполное доминирование. Адаптивный гетерозис отмечен в комбинациях Бухара-102 х Ишонч (120,0%), Гульбахор-2 х Ишонч (115,4%), Келажак х Гульбахор-2 (114,5%), Ишонч х Гульбахор-2 (113,6%) и Бухара-102 х Келажак (111,6%).

По сравнению с контролем, т.е. I-вариантом, во II-м варианте продуктивность растений уменьшилась в группе исходных сортов на 9-34,1%, а в группе гибридов  $F_1$  на 10,6-54,4% в зависимости от генотипической реакции изученных генотипов на водный дефицит. Так как, с хозяйственной точки зрения засухоустойчивость в условиях недостаточной водообеспеченности определяется по проценту снижения продуктивности по сравнению с данными оптимального фона водообеспеченности, в качестве сравнительно засухоустойчивых сортов можно выделить сорта Келажак и Гульбахор-2, у которых продуктивность при недостатке почвенной влаги снизилась соответственно, на 9,0 % и 19,0%. У сортов Бухара-102 и Ишонч снижение продуктивности составило по 34,1%

В третьем варианте наиболее продуктивным оказались сорт Келажак (70,0г) и гибридные комбинации Ишонч х Гульбахор-2 (80,5г), Бухара-102 х Ишонч (75,3 г) и Гульбахор-2 х Ишонч (73,2 г). Как и в предыдущих вариантах, признак продуктивности растений наследовался гибридами  $F_1$  по типу сверхдоминирования и только в одном случае – по типу полного доминирования лучшего родителя. Эти данные указывают на сверхдоминантный характер генетического контроля данного признака у хлопчатника.

Из изученных 12-ти диаллельных комбинаций  $F_1$ , реципрочные гибриды сорта Ишонч с Гульбахор-2 и комбинация Бухара-102 х Ишонч проявили адаптивный гетерозис по продуктивности, степень которого достиг соответственно 128,2%, 116,6% и 115,5%. Отрицательный гетерозис был отмечен только у комбинации Келажак х Бухара-102

(82,5%). И в третьем варианте, как во втором, большинство изученных генотипов имели более низкую продуктивность, чем в контроле, а у ряда исходных сортов и гибридов в F<sub>1</sub> разница по этим фонам была несущественной. Также было установлено, что большинство сортов и гибридных комбинаций F<sub>1</sub> имели более высокую продуктивность при формировании семян в условиях недостаточной водообеспеченности и при дальнейшем их посеве и выращивании растений на фоне недостаточной водообеспеченности, чем при формировании семян в условиях оптимальной водообеспеченности и при дальнейшем их посеве и выращивании растений на фоне недостаточной водообеспеченности. Эти полученные нами данные показывают на включение защитно-приспособительных механизмов уже в период формирования семян растений хлопчатника в условиях водного дефицита и их предварительной закалки, что в дальнейшем при их посеве в условиях недостаточной водообеспеченности приводит к более высокой продуктивности, чем у растений, полученных из семян, сформировавшихся в условиях оптимальной водообеспеченности.

Таким образом, исходя из полученных нами данных, рекомендуем заготовить в определенном объеме посевной материал возделываемых сортов хлопчатника в условиях недостаточной водообеспеченности, что даст возможность получить высокий и стабильный урожай растений в зонах с недостатком поливной воды, а также в маловодные годы, которые в последние годы часто наблюдаются в нашем регионе.

#### **Список использованной литературы:**

1. Насыров Ю.С. Генетика фотосинтеза и пути дальнейшего повышения урожайности хлопчатника.- Ташкент, Фан, 1983,-С.126-134.
2. Экологическая генетика и эволюция (под ред. Жученко А.А.) // Кишинёв “Штиинца” 1987 стр. 50-73.

## ДИАГНОСТИКА ДМЖП С ПОМОЩЬЮ МУЛЬТИПАРАМЕТРИЧЕСКОЙ ПРЕНАТАЛЬНОЙ ЭХОКАРДИОГРАФИИ

*Г.А.Юсупалиева, И.А.Шамансурова*  
*Тошкент педиатрия тиббиёт институти.*

**Актуальность.** Высокие показатели смертности детей от ВПС как во всем мире, так и в нашей стране связаны с трудностями пренатальной диагностики этих пороков, поэтому ранняя диагностика ВПС плода имеет важную медицинскую и социальную значимость. Показатели пренатального эхокардиографического обследования значительно отличаются в разных странах, и варьирует по данным различных авторов в очень широких пределах от 5% до 63%. Лучшие показатели дородовой диагностики ВПС имеют страны с высоким уровнем организации службы пренатальной диагностики.

Внедрение в клиническую практику оценки четырехкамерного среза сердца плода и срезов главных артерий позволило увеличить дородовую диагностику ВПС более чем в 2 раза от 23 до 52%. Особенные трудности представляет пренатальная ультразвуковая диагностика ДМЖП, т.к. при оценке четырехкамерного среза необходимо добиваться четкого изображения перегородок на всем протяжении. Сложности диагностики межжелудочковой перегородки обусловлены положением плода во время исследования. Для точной диагностики необходимо обнаружить дефект в двух плоскостях, одна из которых должна проходить под прямым углом к перегородке. Принимая во внимание высокую частоту встречаемости ДМЖП до 33%, из которых 15% подлежат хирургическому лечению, а также выявление данного порока при хромосомных aberrациях и экстракардиальных пороках развития **целью нашего исследования** явилось совершенствование пренатальной ультразвуковой диагностики ДМЖП с помощью трансабдоминальной эхокардиографии в II триместре беременности.

**Материалы и методы.** Настоящее исследование выполнено в Республиканском центре «Скрининг матери и ребенка», показаниями для обследования в РСЦ явились: возраст матери младше 19 лет и старше 35 лет, ВПР у детей/плодов в анамнезе, хромосомные аномалии у детей/плодов в анамнезе, перенесённые острые инфекционные заболевания в I триместре беременности, ультразвуковые маркеры ВПР и хромосомных аномалий по результатам обследования в I триместре беременности в анамнезе, невынашивание беременности в анамнезе, лекарственная терапия в ранние сроки беременности, тяжелая экстрагенитальная патология. Эхографическое исследование проводилось на ультразвуковом диагностическом аппарате «PhilipsHD 11» широкополостными датчиками С5-2 с диапазоном частот 2,0-5,0 МГц и 3D8-4 с диапазоном частот 4,0-8,0 МГц. Результаты исследования заносились в протокол II триместра, включающий описания измерений всех параметров плода: копчик – теменного размера, оценку ультразвуковой анатомии плода, основные структуры головного мозга, к ости носа, позвоночник, желудок, передняя брюшная стенка, мочевого пузыря, кости конечностей по общепринятой методике. У всех плодов проводилось изучение четырехкамерного среза сердца и среза через 3 сосуда при поперечном сканировании грудной клетки в В-режиме. При выявлении изменений этих срезов дополнительно проводили изучение срезов через аорту и основной ствол легочной артерии с помощью двухмерной эхографии как в В-режиме, так и в режиме цветового доплеровского картирования. Среди ДМЖП в 27% (10) случаев был выявлен как изолированный порок и в 29,7% (11) случаев с экстракардиальными пороками.

**Результаты** пренатальной диагностики исследуемой нозологической формы ВПС выявили различные эхографические маркеры и их сочетания, зарегистрированные у 8 из 10 (80%) плодов с ДМЖП, которое проявлялись кистами сосудистого сплетения боковых желудочков (2), ЗВУР (3), маловодием (2) и многоводием (1).



**Заключение.** Таким образом, трансабдоминальная эхография в сроках 16-20 недель гестации позволяет диагностировать изолированные ДМЖП у женщин высокого риска по ВПС плода. Особое значение имеет сбор семейного и акушерского анамнеза. Оценка состояния плода при расширенном эхографическом исследовании и выявление отклонений в развитии плода диктуют необходимость проведения расширенного эхокардиографического исследования.

## ЎЗБЕКИСТОН ХУДУДИДАГИ ҚУРИҚ-ИССИҚ ИҚЛИМ ШАРОИТИДАГИ, АҲОЛИ ЯШАШ ТУРАР УЙ-ЖОЙЛАРИНИ ТАБИИЙ ИҚЛИМГА МОСЛАШУВИ ВА ЎЗИГА ХОСЛИГИ.

*Шамахмудова М.Х.*

*Тошкент Архитектура қурилиш институти  
“Архитектуравий лойиҳалаш” кафедраси ўқитувчиси.*

*Турдиев А. А.*

*Тошкент Архитектура қурилиш институти  
“Архитектура тарихи ва назарияси” кафедраси доценти.*

**Аннотация:** Мақолада Ўзбекистон Республикаси худудидаги Турар жойлар, худудлардаги иқлим-шароитига кўра яшаш жойларини келиб чиқиши, вилоятлар турар жой уйлари, “ичкари” ва “ташқари” ҳовлили уй жойлари ҳақида маълумотлар келтирилган.

**Abstract:** The article provides information about housing on the territory of the Republic of Uzbekistan, the origin of settlements in the regions according to climatic conditions, regional housing.

**Аннотация:** В статье приведены сведения о жилище на территории Республики Узбекистан, происхождении населенных пунктов в регионах по климатическим условиям, региональном жилище.

**Калит сўзлар:** хом ғишт, сомонли лой сувоқ, ёғоч элементлар, ташқи ва ички ҳовли.

**Keywords:** raw brick, straw clay plaster, wooden elements, outer courtyard, inner courtyard.

**Ключевые слова:** сырцовый кирпич, соломенная глиняная штукатурка, деревянные элементы, внешний двор, внутренний двор.

**Кириш.** Миллий маданият ва урф одатлари ҳам турар уй-жойларининг тузилмасига ва хилларига таъсир қилади. Шунинг учун иқлими бир бўлган жанубдаги уй - жойлар бири-бирига ўхшаб кетса ҳам улар шу ердаги ерли халқнинг тарихий ва урф-одатларига қараб ўзгариб боради. Шунинг учун ўзбек халқининг анъанавий турар-жойлари ўзининг иқлим-шароитига маданият даражасига ва урф одатларига ва бадий анъаналарига мослашган бўлган. Турар жой халқ меъморчилигининг асосий иншооти бўлиб, у аҳоли меҳнаткаш халқнинг диди ва эҳтиёжларини тўлиқ акс эттиради, шаҳар ва қишлоқлар қурилишининг асосини ташкил этади.


**Асосий қисм.** Уй-жойлар меъморчилиги жамиятнинг иқтисодий шароитига вақтнинг руҳига ва бошқа шарт-шароитларга мослаша борган. У оддий чайла ёки ғордан бизнинг давримизга келиб ҳозирги замон турар - уй жойига яъни ҳозирги мавжуд жиҳозлар билан такомиллашган объектга айланди. Ҳар қандай турар-уй жойининг шаклланишига географик муҳит албатта катта таъсир кўрсатган. Масалан, шимол томонидан қўрилган уйларда хонадонларнинг ички қисмини ташқи муҳитдан сақлашга ҳаракат қилинган, чунки бу ерда энг асосий талаб, ёз вақтида уйларни иссиқдан ва уларни қизиби кетишдан сақлаш керак бўлган. Шунингдек уйнинг ичкари қисмини ташқари муҳит билан ҳамоҳанг боғлаш керак бўлган. Ўзбекистон иқлим-шароитида бу уйларнинг тарҳига албатта катта - катта айвонларни боғларга қаратилган ҳолда қуришга ҳаракат қилинган. Бундай уйларнинг деворлари 80-90 см бўлиб, хом ғишдан терилган ва уйнинг ичида ёзда салқин ва қишда иссиқ бўлишига сабаб бўлган. Республикамизда қуёш нурларини ёрқин сочади ва муддатли қуёшли ҳолат ўз ҳукмини ўтказди. Қуёшли онларнинг ўртача йиллик соатлар сони 2700 дан 2900 соатга, худуднинг шимолий қисмида бу кўрсаткич 2800 дан 3100 гача соат атрофида тебранади. Бирок, қуёш нурларининг чексиз таралиши ва иссиқ об-ҳаво кўп вақт давом этишига қарамасдан, бу ерда қиш анча совуқ кечади, ҳаттоки абсолют ҳарорат жанубда 25-30 ҳароратгача, шимолий-ғарбда эса 35-38 ҳароратгача

пасайиши кузатилади. Ёзда ўртача ойлик ҳарорат текисликлар ва тоғ ён бағирларида 25-30 ҳароратни ташкил этса, алоҳида ойларда кўрсаткичлар 40-42 ҳароратгача етади. Ўзбекистонда шамолли шароит ҳам ўзига хос характерга эгадир. Йилнинг иссиқ даврида ўлка ҳудудининг катта қисмида шимолий ва шимолий-ғарбий йўналишда шамол эсиб туради, лекин бу шамол кучсиз бўлиб, унинг тезлиги 2-5 м/сек ораликда ўзгариб туради. Бироқ, баъзи пайтларда, айниқса баҳор фаслида шамол анча тўзонли тус олиб, ёмғир ва дўллар ёғини остида эсади. Анча кучли бўлган шамол тоғли ва тоғ олди районларининг катта қисмида ва Устюрт кенгликларида эсади, бу ҳудудларда шамолнинг тезлиги 30-40 м/сек гача етади.


Меъморчилик тарихида **Бухоро, Самарқанд, Тошкент, Хива ва Фарғона** турар жой уйлари хиллари мавжуд. Буларнинг ҳар бири маҳаллий халқ меъморчилик мактаблари махсули бўлиб, аини вақтда умумий муштарак белгиларга эга.

Ташқари - ташқи ҳовли. Марказий Осиё халқ меъморлигида уй-жойнинг махсус бир бўлаги, кўча дарвозага яқин томондаги холи қисми. Мехмонхона, хўжалик учун учун зарур хоналар, отхона ва бошқа бинолардан иборат. *Зоҳидов.*

Ичкари ҳовли- Марказий Осиё халқ меъморлигида уй-жой тузилишининг ажралмас қисми. Кенг тараққий этган композицион шакл. Ташқари ҳовлининг давоми. *Зоҳидов. 28 б.*




1-расм. Ичкари ва ташқари ҳовлили уй. 28 бет Зоҳидов. Меъмор олами.




2- расм. Хива. Чодра ҳовли (чапда). Хива турар жой уйлари турлари (ўнгда).

**Хоразм турар-жойлари.** Бу ўлка яшаш уйлари турар-жойларининг ажралиб турадиган жиҳатлари уларнинг ёруғлик тушиш томонлари бўйича пухта ориентация қилинишида, фазовий муҳитнинг мақбул ечимини ҳал қилинишида ва конструкцияларнинг оддийлигида ўз ифодасини топади. Шу билан биргаликда улардаги ёғоч элементларининг иштиёқ билан пардозланганлиги, уйларга архитектуравий-бадий жиҳатдан тўлиқ ишлов берилганлигидан далолат беради. Характерли Хоразимча уй тўғри бурчакли тўртбурчак

шаклидаги майдонни эгаллаб, шимол-жануб ўқи бўйича чўзилган бўлади. Бу ўқда Хоразмдаги барча яшаш уйлари учун характерли бўлган ядро жойлашади. Бу ядро иккита турли катталиқдаги айвонлар, кенг меҳмонхона ва яшаш хоналаридан ташкил топади. Тўғри бурчакли тўртбурчак шаклидаги ёпиқ ҳовли устига “ҳукмрон” тарзда шимол томондан эсадиган шамолга очик қаратилган ҳолатда “тарс” айвон кўтарилади. Айвоннинг орқа томонига йўлакга эга бўлган яшаш хонаси қурилади, йўлак орқали ошхонага, омборхонага ва уйнинг шимолий қисмида жойлашган хўжалик ҳовлисига ўтилади. Кичик айвон ортида меҳмонларга мўлжалланган хона жойлаштирилади. Уйнинг деворлари ташқи ва ички томондан сомонли лой билан сувалади ва яшаш хоналарининг поли ёғоч тахталардан ишланади. Яшаш уйлари бўйича Хоразм меъморчилик мактаби учун ҳовлининг ҳар бир қарич еридан унумли фойдаланиш ўта характерлидир.



**3- расм.** Иссиқ - қуриқ иқлимли ерларда (Хоразм мисолида) турар жойлардаги шамол айланиш тизими. Қирқим.




**4-расм.** XVIII асрда қурилган Тошкентдаги турар жой ҳовлисини ички кўриниши (қирқими билан) тарх ва тарз кўриниши.

**Тошкент уйлари.** Тошкент турар-жойларида одатда, уйнинг жануб томонида ташқари ва ичкарига элтадиган иккита ёпиқ кириш бўлади. Уйнинг “ташқари” деб аталувчи шимолий ярим қисми периметр бўйича қурилган. Бу қисмда бир нечта яшаш хоналари ва ғарбга очик ҳолатда қаратилиб қурилган айвон жойлашади. Уйнинг “ташқари” деб номланувчи жанубий иккинчи ярми икки қаватдан иборатдир. Пастки қаватда ёпиқ кириш жойи, ошхона ва иккинчи қаватга чиқадиган зинапоя қурилган бўлиб, уларнинг устига П-шаклида учта яшаш хонаси ва айвон жойлашган. Улар орасида баланд очик фонарли тархий кўриниши квадрат бўлган ҳовли-соябон жойлашган.

**Тошкент тоғ тураржой** меъморчилигига бир устунли катта хоналар билан бир қаторда “П”, “Г” оддий айвонли, ҳамда чуқур айвонга эга тархлар кўп учрайди.

**Фарғона тураржой уйлари** - меъморчилигида бир устунли катта хона пойгоҳ, пешгоҳдан ташкил топган. Хонанинг пойгоҳ қисмида ўчоқ жойлаштирилган. Бу ерда марказий чуқур ва оддий айвоннинг икки томонида турар хоналар жойлаштирилган тарх кенг қўлланинган. *Нозилов Д.А.*



**5-расм.** Фарғона услубида қурилган турар жой биносига намуна.

С. Абдуллаев чизмаси. 1-18 Аў г. ТАҚИ

а) ташқи ховли, б) ички ховли. 1-отхона, 2-айвон, 3-мехмонхона, 4- қашқарча айвон, 5- умумий хона, 6- номозхона, 7- ошхона, 8- ётоқхона, 9- кичик ётоқхона, 10-омбор, 11-хожатхона.

Ховлилар ташқи ва ички ярмларга (ташқари ва ичкари) бўлинади. Биринчисида уй эгаси ташриф буюрувчиларни қабул қилиб, ҳунармандчилик билан шуғулланган, бу ерда мехмонхона, отхона, ем-хашак омбори; иккинчидан, оилавий ҳаёт оқарди, турар-жойлар - хона, уй ва хизматлар - ошхона, омборхоналар ва бошқалар бирлаштирилди. Баъзан махсус ёрдамчи ховли ажралиб турарди ва баъзи шаҳарларда ховли худудининг катталиги боғ этиштиришга имкон беради.

**Хулоса.** Кўплаб турар-жой табиий-иқлим шароитларининг бевосита таъсири остида шаклланган, бундай турар-жойлар республиканинг алоҳида регионларида учрайдиган ўзига хос хусусиятлар билан бир-бирларидан ажралиб туради. Бу таъсир турар жойларнинг фазовий ва функциональ ташкил этилишида қурилиш материалларини ҳамда конструкцияларни танлашда ўз аксини ифода этади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Аҳмедов М.Қ. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи. – Т. 1995.
2. Воронина В.Л. “Народные традиции архитектуры Узбекистана.”
3. Зоҳидов П.Ш. МЕЪМОР ОЛАМИ. Тошкент 1996 й.
4. Нозилов Д.А. марказий Осиё меъморчилигида интерьер. Т. 2005 й.
5. Убайдуллаев Х.М., Иноғомова М.М. « Турар ва жамоат бинолари типологик асослари» тошкент 2009 й.



## ОСНОВНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ УРАНОВЫХ РУД МЕСТОРОЖДЕНИЯ КОХИНУР

*Шаназаров Суннат Ихтиёр ўғли*

*Национальный университет Узбекистан*

*факультет Геология и геоинформационных систем  
кафедра “Геохимия и минералогия” учитель-стажер.*

*Шодмонов Ойдин Одилевич*

*ТГТУ Факультет Геология поиски и горно-металлургия*

*кафедра “Геология, поиски и разведка месторождений полезных ископаемых”.*

**Аннотация:** В данной статье дан краткий обзор минералого-геохимического строения Кохинурского уранового месторождения, пород, минералов и количества элементов в нем.  
**Annotation:** This article provides a brief overview of the mineralogical and geochemical structure of the Kokhinur uranium deposit, the rocks, minerals and the amount of elements in it.

**Ключевые слова:** Кохинурское урановое месторождение, минералогический состав, разведочная стадия, добыча урана, вышележащие породы, мощность пласта, предполагаемые ресурсы, категория запасов.

**Keywords:** Kokhinur uranium deposit, mineralogical composition, exploration stage, uranium mining, overlying rocks, reservoir thickness, inferred resources, category of reserves.

Кондиционное урановое оруденение в водоносных горизонтах обоих ритмов коньяк-сантона и Маастрихтапространственно связано с областью выклинивания ЗПО и локализуется в сероцветных породах на границе с окисленными. В процессе изучения гидрогенных урановых месторождений на всех стадиях - от поисков до детальной разведки и эксплуатации - сформировались специфические термины, позволяющие последовательно ранжировать объекты изучения. По качественным показателям оруденения выделяются рудоносные и продуктивные зоны, а по условиям, принятым ГПО “Геологоразведка” для месторождения Кўхинур - продуктивные залежи и их основные части - рудные блоки. В рудоносные зоны по обе стороны от границы выклинивания ЗПО объединены отложения рудовмещающих горизонтов с установленными в них концентрациями урана не менее 0,01%, откартированные на поисковой стадии.

Продуктивные зоны выделены внутри рудоносных и представляют собой водопроницаемые рудовмещающие отложения с суммарным метроп-роцентом по пересечениям не менее 0,040. В плане это прерывистые ленты протяженностью от 7 до 35 км и шириной в первые сотни метров, являющиеся объектом оценочных работ. В продуктивные залежи на стадии разведки (сеть 400x50 м и детальнее) геометризованы обособленные участки продуктивных зон, представляющие увязанные между собой, сближенные в пространстве кондиционно-рудные тела.

Ввиду предполагаемой отработки месторождения способом ПВ, при котором выщелачивающими реагентами прорабатывается весь объем пород, обладающих определенной рудонасыщенностью, в контур рудных залежей включены, в соответствии с временными условиями, участки и прослои безрудных пород. Таким образом, продуктивные залежи представляют в плане извилистые лентовидные полосы (длиной 1-10 км и шириной 50-600 м), имеющие более простую морфологию, чем составляющие их элементы из рудных тел и безрудных участков. Продуктивные блоки оконтурены внутри залежей по однотипным морфологическим элементам рудных тел и определяют отработку последних способом ПВ как единое целое. В настоящее время на месторождении оценены 3 продуктивные зоны и в их контурах разведаны 6 продуктивных залежей.

Соотношение ресурсов кат. P1 и суммы запасов C1+C2 составляет 52% : 48%. Масштабы изученности комплексного оруденения в каждом рудовмещающем горизонте приведены.[3] Продуктивная зона N1 расположена в юго-восточной части месторождения Кўҳинур и приурочена к проницаемым отложениям верхнего турона. Продуктивная зона N2, локализованная в песках нижнего ритма коньяк-сантона, является ведущей по запасам урана на месторождении Кўҳинур. В ней заключено 79 % всех запасов урана на месторождении.

Рудоконтролирующая граница выклинивания ЗПО характеризуется сложной заливообразно-извилистой морфологией общего северо-западного, реже субширотного направления, с учетом установленных изгибов и безрудных участков имеет общую протяженность порядка 35 км. На востоке площади продуктивнается среди красноцветных отложений горизонта, на юге уходит за контур горного отвода месторождения Букинай.

#### **Список литература:**

- 1.Разведка месторождений урана для отработки методом подземного выщелачивания М. В. Шумилин , Н. Н. Муромцев , К. Г. Бровин и др.—М. , Недра, 1985.
- 2.Металлогения артезианских бассейнов Средней Азии. / Р. И. Гольдштейн , К. Г. Бровин , Б. И. Натальченко и др. -Т. , Фан, 1992.
- 3.Об оценке попутных компонентов на пластово-инфильтрацион-ных урановых месторождениях . / М. И. Файзуллин , В. Д. Чекушкин , Г. Ф. Пудан и др. г Разведка и охрана недр , 1992 , N 12 .

## QORA SEDANA (NIGELLA SATIVA) O‘SIMLIGI YOG‘I TARKIBI VA BIOLOGIK AHAMIYATINI O‘RGANISH

*Шерматов Акрамжон Ҳабибжон ўғли*

*Наманган муҳандислик-қурилиш институти ассистенти.*

*Хусанбоев Зиёвуддин Умматали ўғли*

*Наманган муҳандислик-қурилиш институти талабаси.*

**Annotatsiya:** Ushbu izlanishda qora sedana (*Nigella Sativa*) o‘simligining yog‘ tarkibining biologik qiymatini baholash uchun zamonaviy xromatografiya va analiz usullaridan foydalanildi. Mikroelement analizi ICP-MS AT 7500 “*agilent technologies*” qurilmasida o‘tkazildi. Yog‘dagi vitamin tarkibini HP-LC qurilmasida aniqladik.

**Kalit so‘zlar:** Yog‘ kislota, mikroelement, vitamin, xromatografiya.

**Kirish.** Hozirda Mahalliy hom ashyolar asosida yuqori samarali dori vositalarini yaratish masalasi O‘zbekistonda jadal rivojlanmoqda. Shuning uchun, ekologik jihatdan sof va tabiiy bo‘lgan dori vositalarini izlash, ilmiy jihatdan o‘rganish va tibbiy amaliyotga tatbiq qilish lozim. Qora sedana (*Nigella Sativa*) ning xalq tabobatida shifobaxsh o‘simlik sifatida o‘rganilish tarixi qadim zamonlarga borib taqaladi. Jumladan uni organizm sovuq qotganda isitish imkoniyatiga ega vosita sifatida qo‘llashgan. Shunidek yana o‘pkaning shamollashida, bronxidlarda, sariq kasallikda, bronxial astmada, ko‘ngil aynishida va qora taloqni davolashda keng qo‘llashgan. Yuqoridagi kasalliklarni davolashda asosan qora sedana urug‘larini maydalab suv yoki asal bilan aralashtirib ichilgan. Shu maqsadda bizning laboratoriyamizda qora sedana (*Nigella Sativa*) o‘simligining yog‘i tarkibining biologik qiymati o‘rganilmoqda.

**Asosiy qism.** Tadqiqot ishimizning dastlabki qismida «qora sedana» tarkibidagi yog‘ kislotalarning tarkibi va miqdori aniqlashga muvaffaq bo‘lindi. Bunda olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirib o‘tilgan (1-jadval).

**1-jadval.** Qora sedana urug‘i yog‘ining yog‘-kislota tarkibi.

N <sub>0</sub>	Yog‘-kislotalar	yog‘-kislota miqdori, %
1	Palmitin kislota	5,21
2	9-geksadekan kislota*	2,46
3	Geptadekan kislota	4,81
4	9,12-oktadekan kislota*	16,87
5	Stearin kislota	
6	9,12,15-oktadekatrien kislota*	26,51
7	7-geksadekan kislota*	15,04
8	Linolen kislota	8,09
9	16-oktadekan kislota*	
10	13,16-oktadekadien kislota*	18,65
11	9-oktadekan kislota*	
12	6,9,12-oktadekatrien kislota*	

Yuqoridagi jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki qora sedana urug‘ining yog‘i to‘yinmagan yog‘-kislotalarga boy, di- va tri- to‘yinmagan yog‘ kislotalariga ega ekanligini ko‘ramiz Keyingi bosqichda biz qora sedana urug‘ining yog‘i tarkibidagi mikro elementlarni aniqlaymiz. Buning uchun 0.1 gr qora sedana o‘simligi yog‘ini nitrat kislota bilan aralashtiriladi va 100 ml gacha deionlangan suv bilan suyultiriladi. Buni ICP-MS AT 7500 “*agilent technologies*”, induksion masspektrometriyani plazma bilan bog‘lab analiz o‘tkazamiz.

Qora sedana urug'i yog'i ekstraksiya benzinda eritiladi. (2-jadval)

**2-jadval.** Qora sedana urug'i yog'idagi mikroelementlar tavsifi.


Mikroelementlar	Qora sedana urug'i yog'i, mg/g yog'						
	Mg	K	Ca	Fe	Mn	Zn	J
	0,0089	0,0542	0,0021	0,1702	0,00045	0,00055	0,00185

Bu jadvalda qora sedana yog'idagi hayotiy muhim elementlar ko'rsatib o'tilgan va analizdan olingan ma'lumotlari bu yog'ning afzal tomonlari va foydalilik jihatlari aniqroq ko'rsatib beradi. Yog'ning biologik aktivligini aniqlovchi mikroelementlar tarkibi va yog' kislotalar tarkibini o'rganish bilan bir qatorda undagi vitaminlar tarkibi va miqdori o'rganish ham muhim hisoblanadi. Vitaminlar-bu organizmning o'sishi va sog'ligini nazorat qiluvchi vositalar kabi ta'sir qiluvchi biologik aktiv brikmalar hisoblanadi. Qora sedana yog'ini biologik qiymatini baholash maqsadida biz bu ishda uning vitaminlarning sifat va miqdori aniqladik. Yog' erituvchi vitaminlarni yuqori effektli suyuq xromatografiya usuli bilan aniqlandi. Xromatografiya jarayonini 50 °C da Hypersil ODS –C 3 µm, ( 2x125) kolonkasida o'tkazdik. Harakatlanuvchi faza sifatida A: suv va B: metanol eritmalari ishlatilgan (5:95). Elyutsiyani 0.25 ml/min oqim tezligida olib borildi va o'rganilayotgan moddalarni doimiy-matritsali detektorda aniqlashdi. Olingan natijalar 3-jadvalda keltirib o'tildi.

**3-jadval.** Qora sedana urug'i yog'idagi vitamin analizi.

Vitaminlar	100gr yog'da miqdori(mg)
Vitamin A	26,1
Vitamin E	155
Vitamin B <sub>1</sub>	3,476
Vitamin B <sub>3</sub>	78,676
Vitamin B <sub>6</sub>	9,987
vitamin PP	7,727

Olingan natijalar 1 gr yog'da mos ravishda vitamin A va vitamin E 26.1 mg va 155 mg bo'lishini ko'rsatadi. Bundan tashqari elektroforez kapilyar metodida B<sub>1</sub>, B<sub>3</sub>, B<sub>6</sub> va PP vitaminlar borligi aniqlandi. Bu 100 gr yog'da B<sub>1</sub> (3.476 mg), B<sub>3</sub> (78.676 mg), B<sub>6</sub> (9.987 mg) va PP (7.727 mg) dan tashkil topadi. Qora sedana o'simligi yog'i tarkibidagi glitserin tarkibini aniqlash uchun HP-LC metodidan foydalandik. Buning uchun qora sedana urug'idan ajratib olingan yog'dan 100 ml olib, uni 900 ml aseton, asetonitril bufer eritmasida eritildi. Bu eritmani erimaydigan moddalardan tozalash uchun 700 aylana/min tezlikda 4°C haroratda, 10 minut davomida sentrafugalandi. Nihoyat ajratilgan eritmadan alikvota olib HP-LC da tahlil qildik. Biz bu ishni aniqligini oshirish maqsadida ikki marta takrorladik va natijalarni o'rtachasini hisoblab oldik. Olingan natijalar quyidagi jadvallarda keltirilgan (4-jadval).



Qora sedana o'simligining triglitserid tarkibini yuqoridagi rasmdagi piklar bo'yicha 4-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

**4-jadval.** Qora sedana o'simligining triglitserid tarkibi.

No	Triglitserid brikmalar	min	Foiz %
1	L <sub>2</sub> O*	7,004	11,6348
2	LO <sub>2</sub> *	7,906	24,9844
3	O <sub>3</sub> *	8,951	18,6250
4	LOS+ PO <sub>2</sub> *	10,277	5,1684
5	L <sub>2</sub> O*	11,802	0,6401

**Xulosa.**

1. Qora sedana urug'idan ajratilgan yog'ning ekstraksiyalanish sharoitlari optimallashtirildi. Aniqlangan optimal sharoitlarga ko'ra 50 gr maydalangan urg'ning tarkibida 28,76% yog' ajralishi aniqlandi.
2. Mass-spektrometrik tahlillarga ko'ra, ajratilgan yog'ning tarkibida palmitin, 9-geksadekan, 7-geksadekan, geptadekan, 9,12-oktadekan, 9,12,15-oktadekatrien, 16-oktadekan, 13,16-oktadekadien, 9-oktadekan kislotalarinig bo'lishi aniqlandi.
3. Qora sedana urug'idan ajratilgan yog'ning vitamin tarkibini tahlil qilish natijalariga ko'ra unda quyidagi: A (26.1 mkg), E (155 mkg), B1 (3.476 mkg), B3 (78.676 mkg), B6 (9.987 mkg) va PP (7.727 mkg) vitaminlarinig bo'lishi aniqlandi.
4. Qora sedana o'simligi urug'i yog'ining 100 mkl miqdorida L<sub>2</sub>O 11,71275 mkl, LO<sub>2</sub> 25,12815 mkl , O<sub>3</sub> 18,73345 mkl, LOS+ PO<sub>2</sub> 5,22245 mkl, L<sub>2</sub>O 0,7146 dan bo'lishi aniqlandi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Гомеопатические лекарственные средства, разрешенные в Российской Федерации для применения в здравоохранении и ветеринарии / А.В. Патудин, В.С. Мищенко, Л.И. Ильенко и др. М.: Знак, 2011, 352с.
2. Дикорастущие полезные растения России / под ред. А.Л. Буданцева, Е.Е. Лесиовской. – СПб.: СПХФА, 2001. – С. 465-466.
3. Маширова, С.Ю. Изучение компонентного состава липидов чернушки посевной и чернушки дамасской / С.Ю. Маширова, Т.В. Орловская // Научные ведомости Белгородского государственного университета. Серия. Медицина. Фармация. – 2012. – Вып. 17. – № 4(123). – С. 223-226.



## ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОЙ ҲИМОЯ КОНЦЕПЦИЯСИНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ АЙРИМ ХУСУСИЯТЛАРИ

*Шоимов Қобил Қосимович*

*Давлат хавфсизлик хизмати “Темурбеклар мактаби”  
ҳарбий академик лицейи ўқитувчиси.*

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг Муқаддимасида кўрсатилганидек, ўзбек халқи халқаро ҳуқуқнинг умум эътироф этган қоидалари устунлигини тан олган ҳолда республика фуқароларининг муносиб ҳаёт кечиришларини таъминлаш мақсадини ўз олдига қўяди. “Ижтимоий ҳимоя” тушунчаси кенг маънода аҳолининг барча қатламларига (касбий, тармоқ, минтақавий ва бошқа белгилари бўйича) нисбатан қўлланиладиган ҳамда ижтимоий хатар (риск) юз берганда моддий ва бошқа ёрдам кўрсатишга қаратилган чора-тадбирлар (масалан, давлат хизматчиларини ижтимоий ҳимоялаш, экологик ҳалокат зонасида истиқомат қилувчиларни ижтимоий ҳимоялаш ва бошқалар) йиғиндисидан иборат. Шунингдек, уни тор маънода ижтимоий заиф қатламларга (қариялар, ногиронлар, кўп болалилар ва бошқаларни) моддий ҳимоялашни кўзда тутди<sup>383</sup>. Мазкур сиёсатни изчил давом эттириш, унинг самарадорлиги ва таъсирини ошириш кўп жиҳатдан аҳолини ижтимоий ҳимоялаш тадбирларини амалга оширишдан иборат бўлиб, бу жараён мамлакат ижтимоий барқарорлиги, миллий хавфсизлигини таъминлашнинг бош мезонидир. Аҳолини ижтимоий муҳофаза қилишни янада кучайтириш бўйича аниқ мақсадга йўналтирилган чора-тадбирлар комплексини амалга ошириш, жамиятда эзгулик, меҳр-мурувват ва ҳамжиҳатлик, тинчлик ва осойишталик муҳитини янада мустаҳкамлаш мақсадида, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 17 февралда “2021–2030 йилларда Ўзбекистон Республикаси аҳолисини ижтимоий ҳимоя қилишнинг миллий стратегияси концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармойиши қабул қилинди<sup>384</sup>.

Ижтимоий ҳимоя деган тушунчани кенг маънода англаш, юртимиздаги ҳар қайси хонадон, ҳар қайси маҳалла, шаҳар ва қишлоқда маънавий-руҳий муҳитнинг барқарорлигини таъминлаш, оилани, соғлом турмуш тарзини мустаҳкамлаш, ибратли анъана ва урф-одатларимизни тарғиб этиш вазифаси ҳам концепциянинг мақсадига айланди. Ижтимоий ҳимоя ва аҳолининг ижтимоий муҳофазасини кучайтиришга қаратилган концепцияда белгиланган тадбирларнинг амалга оширилиши янги ҳаёт, янги жамият барпо этиш йўлидаги мақсад ва интилишларимизни рўёбга чиқариш учун муҳим омил бўлди, бу борадаги қилинган ижобий ишларни янги босқичга кўтариш имконини берди. Бир сўз билан айтганда, фуқароларимизни ижтимоий муҳофаза қилишга оид давлат сиёсати замирида жамиятимизда ҳеч ким ўзини ёлғиз сезмаслиги, ҳеч ким эътибордан четда қолмаслиги керак, деган эзгу ғоя мужассамдир. Шунингдек, аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш кўламларини янада кенгайтириш ва кучайтириш, аҳолининг муҳтож тоифалари ва оилаларга, ногиронлар ва ёлғиз кексаларга аниқ, табақалаштирилган тарзда ёрдам кўрсатиш самарадорлигини ошириш, аҳоли даромадлари даражасидаги фарқларнинг кескин ошишига йўл қўймаслик, жамиятда ҳамжиҳатлик, эзгулик ва меҳр-шафқат муҳитини қарор топтириш бўйича аниқ мақсадга йўналтирилган чора-тадбирлар комплекси амалга оширилмоқда. Ўзбекистон Республикасида 2020 йил аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш борасида туб бурилиш йили бўлди. Аввало, аҳолининг муайян қатлами ўртасида камбағаллик мавжудлигини биринчи марта тан олиниб, уни

<sup>383</sup>Ижтимоий ҳимоя: атамалар изоҳли луғати /Тузувчилар: М. Х. Саидов ва бошқ.; — Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 121 б.

<sup>384</sup> “2021–2030 йилларда Ўзбекистон Республикаси аҳолисини ижтимоий ҳимоя қилишнинг миллий стратегияси концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармойиши. Ф–5634-сон, 17.02.2021.

қисқартириш бўйича кенг камровли ишлар бошланди<sup>385</sup>. Шу даврда республикамиз барча маҳаллаларидаги аҳолининг ижтимоий ҳимояга муҳтож оилалар, эҳтиёжманд аёллар ва ёшларни аниқлаб, улар билан манзилли ишлайдиган “темир дафтар” тизими жорий этилди. Бугунги кунда давлатнинг миллий хавфсизлиги ва ижтимоий ҳимоя сиёсатининг ўзаро алоқадор ва бир-бирини тақозо этиши ҳеч кимда шубҳа уйғотмайди. Олимлар, сиёсатчи ва амалиётчилар ҳам, “агарда катта миқдордаги кишилар ўзларини ҳимояланган деб ҳисобламасалар, норозилик ва ижтимоий эътироз потенциали ўсиб борса – жамият ўз хавфсизлигини таъминлаб, барқарор бўлиши, мустаҳкам тараққиётни амалга ошириши мумкин эмаслиги”ни тан оладилар<sup>386</sup>.

Ижтимоий ҳимоя мамлакатда бирдамликни мустаҳкамлаб, ижтимоий муаммоларни қамайтирувчи ижтимоий ҳаётнинг муҳим омилларидан биридир. У иқтисодий янгиликлар ва таркибий ўзгартиришларнинг ўзига хос амортизатори сифатида намоён бўлади<sup>387</sup>. Ижтимоий ҳимоя қилишнинг моҳияти самарали тизим сифатида замонавий иқтисодиётга хос хусусият ҳисобланади. У ҳар бир кишининг ижтимоий-иқтисодий мақомидан қатъий назар, меҳнат имкониятларидан тўлароқ фойдаланиш ва айни вақтда жамиятдаги барқарор ҳолатни кафолатлаш, “инсон салоҳияти”ни ривожлантириш имкониятларини яратади.

Ҳозирги шароитда инсон салоҳиятидан самарали фойдаланишга ҳамда жамиятда ижтимоий танглик юзага келишига йўл қўймасликка айнан шундай йўл билан эришиш мумкин. Бундай муҳофаза таъминланмас экан, кишиларни қайта ўқитиш, янгиликни ўзлаштириш, ижод қилиш каби меҳнат имкониятларидан фойдаланиш мумкин бўлмай қолади. Жамиятда муносабатларни уйғунлаштириши ёки таҳдид солиши мумкин бўлган ижтимоий хавфсизликка таъсир қилувчи омиллар куйидагилардир:

1. Интеграция ва дифференциация (Г.Спенсер);
2. Бирдамлик (Э.Дюркгейм);
3. Иқтисодий ишлаб чиқаришнинг янги технологиялари ва усуллари (Г. Ленский ва Ж. Ленский, К. Маркс);
4. Иқтисодий ва ижтимоий-маданий диффузиялар, бунда маданий хусусиятлар бир ижтимоий тизимдан иккинчисига тарқалади (П.Сорокин, О.Шпенглер);
5. Жамиятнинг табақаланиши, стратификацияси ва ижтимоий ҳаракатчанлиги (Т. Парсонс, Р. Белла, П. Сорокин). “Ҳар қандай жамиятда, ҳар қандай вақтда табақаланиш ва тенглаштириш кучлари ўртасида кураш кетади. Биринчиси доимий ва барқарор ишласа, иккинчиси - тартибсиз, импульсив, зўравонлик усуллари кўллайди»;
6. Ижтимоий субъектлар мавжудлиги ижтимоий-маданий босқичларининг табиий ўзгариши (П.Сорокин, О.Шпенглернинг культурологик концепцияси). “Маданият ҳам худди инсон ҳаётида бўлгани каби тараққиёт ва таназзул босқичларини босиб ўтади: ривожланиш даври, ундан сўнг етуклик, сўнгра таназзул ва ниҳоят, ўлим” (О. Шпенглер “Европанинг таназзули”, 1918);
7. Ижтимоий тизимларнинг ташқи таъсирларга жавоб бериш ва мувозанатни сақлаш қобилияти даражаси (Т.Парсонс). Мувозанат нафақат ўз-ўзини сақлаш, балки ривожланиш тамойилини ҳам ўз ичига олади. Мувозанатли ижтимоий тизим хатарли таъсирларга мослашади, шунинг учун жамият ўзгарганда ҳам, у ижтимоий интеграциянинг янги шакллари орқали барқарор бўлиб қолади;
8. Ижтимоий институтлар ўзгарувчан технология даражасидан орқада қолганда юзага келадиган “ижтимоий тартибнинг бузилиши” (Уилям Ф. Огборн)<sup>388</sup>.

<sup>385</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 29.12.2020 й. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>


<sup>386</sup> Социальная политика: учебник / Под общ.ред. Н.А. Волгина. М.: Издательство «Экзамен», 2002. -С.736.

<sup>387</sup> Социальная защита населения: учебно-практическое пособие. М.: Издательство РГСИ, 1993. -С.69.

<sup>388</sup> Теоретические аспекты социальной безопасности. О.И. Кашник, А.А. Брызгалова. Инновационные проекты и программы в образовании. 2014/4.

Ижтимоий сиёсатни шакллантиришнинг асосий омиллари макроиқтисодий шароитлар, демографик вазият, тарихий ва миллий анъаналар асосида амалга оширилади. Ижтимоий соҳанинг моддий базасини ривожлантириш ва мустаҳкамлаш, ижтимоий хизмат кўрсатиш турларини кенгайтириш ва яхшилаш, кишилар учун муносиб яшаш шароитларини яратиш, халқ фаровонлигини барқарор, муттасил ошириш, аҳолини ижтимоий ҳимоялашни кафолатлайдиган муҳим устувор йўналишдир<sup>389</sup>.

Аҳолининг ижтимоий масалаларга қараб давлат сиёсатига баҳо бериши, бу борадаги муаммоларнинг олдини олишга эътибор қаратилмаса, ижтимоий норозилик, таранглик кучайиб, сиёсий масалага айланиб кетиши мумкинлигини доимий диққат марказида ушлаб туриш талаб этилади. Ушбу муаммолар аҳолида, жамиятда ижтимоий адолатсизлик мавжудлиги тушунчасини ҳосил қилиб, уларда давлатга нисбатан норозиликларнинг кучайиши, унга қарши ҳаракатларга интилиш ва албатта, маълум ҳокимиятга интилувчи деструктив кучлар томонидан ўз мақсадларида фойдаланиш учун объектга айланиб қолиши мумкинлигини ҳам унутмаслик лозим. Раҳбар фаолиятига муносабат билдиришда ҳам айнан унинг жамиятдаги ижтимоий муаммоларни ечишга қай даражада аҳамият бераётганлиги ва уларни қандай ҳал этаётганлиги билан ҳам асослаш мумкин. Ижтимоий соҳадаги таҳдидлар кўп томонлама характерга эга бўлиб, уларни вужудга келтирувчи умумий бўлган бир қатор омиллар мавжуд. Бу омиллар биринчи навбатда, иқтисодий имкониятларнинг паст суръатларда ўсиши, технологик ривожланишдан орқада қолиш, аҳолининг турмуш даражаси ва сифатининг пастлиги, ресурслардан оқилона фойдаланмаслик, шу билан бирга глобализациянинг янги воқеликлари замирида вужудга келган чақирувларга тегишли тарзда қарши тура олмаслик шароитлари билан боғлиқдир<sup>390</sup>. Ижтимоий соҳадаги таҳдидлар Ўзбекистон Республикасининг миллий хавфсизлик концепциясида ҳам аниқ кўрсатилган бўлиб, улар қуйидагилардан иборат<sup>391</sup>:



<sup>389</sup>Абулқосимов Ҳ.П. Ҳасанов Р.Р. Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий ислохотлар. —Т.: Akademiya, 2010. -64 б.

<sup>390</sup> Национальная безопасность и геополитика России. № 3-4 2006, с.30.

<sup>391</sup> А.Турсунов, Р.Нурназаров. Ўзбекистон Республикасининг миллий хавфсизлиги ва уни таъминлашнинг қонуний асослари. Т.: 2004, 11-б.

Албатта, санаб ўтилган ҳолатлар расмий доирада қабул қилинган таҳдидлар бўлиб, назарий жиҳатдан, шунингдек бугунги жамиятимиз ривожланишининг янги босқичида ижтимоий соҳадаги таҳдидларни бир қанча турини кўрсатиш мумкин.

Фикримизча, таҳдидларни санаб ўтишдан олдин улар вужудга келадиган доира чегарасини белгилаб олиш даркор. Бу бизга таҳдидларни етишиб чиқиш маконини тасаввур қилиш, уларни ҳаракатлантирувчи кучлар хусусиятини аниқлаш ва умуман таҳдидни таҳдид сифатида баҳолашга имкон берувчи мезонларни белгилаб олишга ёрдам беради. Бу доира ижтимоий соҳа тармоқларининг таркибий қисмларида жойлашган бўлиб, уларнинг асоси аҳоли даромадлари, бандлик, аҳолининг ижтимоий хизматлар (таълим, соғлиқни сақлаш, ижтимоий таъминот ва бошқ.) билан таъминланганлик характери ва демографик мезонлар билан белгиланади.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, юртимизда ижтимоий хавфсизликни самарали таъминлаш ва унинг барқарор тизимини яратиш мақсадида бандлик ва реал даромадларни изчил ошириш, аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш ва соғлиқни сақлаш тизимини такомиллаштириш, хотин-қизларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш, арзон уй-жойлар барпо этиш бўйича мақсадли дастурларни амалга ошириш, йўл-транспорт, муҳандислик-коммуникация ва ижтимоий инфратузилмани ривожлантириш ҳамда модернизация қилиш, мактабгача таълим муассасаларининг қулайлигини таъминлаш, умумий ўрта таълим, ўрта махсус ва олий таълим сифатини яхшилаш ҳамда ёшларга оид давлат сиёсатини такомиллаштириш каби чора-тадбирлар изчил амалга оширилмоқда.

## К ВОПРОСУ О СОЗДАНИИ ДОСТУПНОЙ СРЕДЫ В ГОРОДАХ УЗБЕКИСТАНА

*Шоумарова Ойдин Аббос қизи*

*магистрант 1-курса по специальности*

*Градостроительство и ландшафтная архитектура,  
Ташкентского архитектурно-строительного института.*

**Аннотация:** В статье рассматриваются проблемы формирования доступной среды с целью повышения качества жизни маломобильной группы людей в городе.

**Ключевые слова:** Доступная среда, маломобильные группы населения, безбарьерная среда, инфраструктура, пандус, тактильные плиты, городская среда.

Доступная среда - это жизненно важный вопрос для каждого жителя. Бесшовные переходы, открытые двери, просторные общественные пространства часто воспринимаются трудоспособными людьми как должное. Большинство из них считают эти вещи очевидной константой, которая всегда была и будет рядом с ними, фактом жизни. Однако для людей с ограниченными физическими возможностями, маломобильной группе населения доступность - это нечто, стоящее на первом месте в их жизни, требующее тщательного продумывания каждый день.

**Доступная среда** — это физическое окружение, объекты транспорта, информации и связи, дооборудованные с учётом потребностей, возникающих в связи с инвалидностью, и позволяющая людям с ограниченными физическими возможностями вести независимый образ жизни.

**Маломобильные группы населения** - люди (граждане), испытывающие затруднения при самостоятельном передвижении и ориентировании в пространстве, получении необходимой информации и услуг. К маломобильным группам отнесены: дети до 14 лет и люди старшей возрастной группы (60 лет и более), временно нетрудоспособные с травмами и другими нарушениями здоровья, инвалиды, беременные женщины, люди с маленькими детьми и детскими колясками[1].

История доступной среды началась более полувека назад — после Второй мировой войны. Именно тогда в Европе впервые задумались о создании нового городского планирования для маломобильных граждан. Так, сначала была создана комиссия, защищающая права инвалидов, а после и законодательство, регламентирующее нормы, по которым проектируются здания. В СССР первые рекомендации по созданию доступной среды разрабатывались в начале 80-х, а затем в ООН приняли Конвенцию о правах инвалидов. Сейчас считается, что наличие безбарьерной среды — чуть ли не главный признак цивилизованного общества[2]. В РУз все нормы и требования о доступности заложены в Законе РУз № 162 “ О Социальной Защищенности Инвалидов В Республике Узбекистан” от 11 июля 2008 года, а также ШНК 2.07.02-07 ПРОЕКТИРОВАНИЕ СРЕДЫ ЖИЗНЕДЕЯТЕЛЬНОСТИ С УЧЕТОМ ПОТРЕБНОСТЕЙ ИНВАЛИДОВ И МАЛОМОБИЛЬНЫХ ГРУПП НАСЕЛЕНИЯ. Но, мониторинг прав инвалидов на доступ к транспортным услугам от ПРООН показал, что наличие нормативных документов, гарантирующих людям с инвалидностью доступность инфраструктуры, не гарантирует наличия доступности инфраструктуры, поскольку различные органы и структуры, не обеспечивают их последовательного исполнения. Анализ статистических данных показывает, что в Республике Узбекистан проживает более 780 тыс. людей с инвалидностью. Из них инвалиды I группы составляют 8,5%, II группы – 71% и III группы – 20,5%. Среди лиц с инвалидностью дети до 16 лет составляют 97 тысяч человек. В частности, в городе Ташкент проживают пятьдесят тысяч лиц с инвалидностью и семьсот тысяч пенсионеров[3]. Известно, что 85 процентов зданий и объектов социальной инфраструктуры в городе Ташкент не приспособлены для пользования лицами с инвалидностью.





С какими же “барьерами” в городе сталкивается маломобильная группа населения:

1. *Общественный транспорт во многих городах не отвечает критериям доступности для маломобильной группы населения, что приводит к серьёзным физическим трудностям и дискомфорту при передвижении, а также социально-экономическим последствиям. Для решения этой проблемы необходимо предусмотреть следующую минимальную оснастку автобусов, которая должна состоять из:*

- Рампы или подъёмного устройства;
- Поручней для комфортного перемещения;
- Специального места для инвалидов.

Желательно чтобы в автобусах были кнопки вызова водителя, ремни безопасности. Доступность Ташкентского метрополитена тоже является сомнительной. Были приняты меры в виде освобождения места для людей в колясках. Но в сами станции они не смогут попасть самостоятельно.



Это обуславливается полным отсутствием пандусов при входе на станции или зачастую устанавливаются пандусы с крутым наклоном. Отсутствуют тактильные дорожки для незрячих и информационное табло для глухих пассажиров. Рекомендуется установка лифтов на платформу. Это является самым удобным и безопасным способом обеспечения доступности, тогда как высокие подъёмы и крутые лестницы для входа в метро представляют опасность для здоровья маломобильных пассажиров.



2. *Отсутствие пандусов в городе и при входных группах здания. Так как большинство ташкентцев живет в многоэтажных домах без лифтов, людям с ограниченными возможностями сложно даже выйти из дома – подъезды не оборудованы пандусами.*

Городские социальные объекты (аптеки, поликлиники, Омахаллинские комитеты) оборудованы пандусами. Но часто они не отвечают нормам. Многие из них не имеют поручней, либо настолько круты, что по ним не подняться даже здоровому человеку.



2. *Пешеходные дорожки.* Некоторые пешеходные дорожки, переходы через проезжую часть заканчиваются арками, которые очень тяжело преодолевать инвалидам-колясочникам, незрячим, маломобильной группе населения. Зачастую именно боязнь предстоящего арка мешает им переходить дорогу.

3. *Парковка машин вдоль дорог.* Это вынуждает не только маломобильных групп людей, но также и обычных людей выходить на проезжую часть, так как водители часто паркуются слишком близко к арке. Это также обуславливается отсутствием нормальных тротуаров в городе.



4. *Затруднительный переход дороги.* Короткий цикл загорания светофора для пешехода. Даже если водители пропускают пешеходов, не только маломобильные люди, да и многие трудоспособные люди пешим ходом зачастую не успевают перейти дорогу за один цикл светофора. Также, этому способствует чрезмерная ширина проезжей части. Переход дороги через нерегулируемый пешеходный переход, без посторонней помощи, является очень опасным.

Таких проблем существует очень много. Но следует отметить, что в стране в настоящее время предпринимаются меры и действия по устройству безбарьерной среды. Тем не менее до полной реализации программы ещё далеко. Какие же минимальные меры нужно предпринять для создания комфортной среды в городе для людей с ограниченными возможностями:

- а) Установка тактильных плит в центре города, а также в общественных зданиях. Имея большую площадь тактильного пространства, это отличный вариант для организации пешего пути незрячего на протяженной территории. За счет рисунка рельефной поверхности (конусы и полосы) плитка помогает незрячему «увидеть» свой путь движения и возникающие препятствия, а так же тактильные указатели информируют человека с ограничениями зрения о расположенных впереди специальных стендах [4].
- б) Оснащение пешеходных светофоров звуко-вибрационными модулями. Такие светофоры информируют слабослышащих и слабовидящих пешеходов о том, можно ли переходить дорогу. Модуль будет представлять собой единый блок, в котором размещаются громкоговоритель и вибрационный механизм.



с) Таким образом, при включении зеленого сигнала будет работать вибрационное и звуковое оповещение[5].



с) Автоматическая система открывания дверей. Самая обычная распашная дверь может быть автоматизирована при помощи автоматического привода. Он устанавливается на механическую дверь как обычный дверной доводчик с наружной или внутренней стороны, включается в розетку — и дверь становится автоматической. Возможны несколько вариантов открывания:

- нажатием кнопки;
- движением руки перед сенсорным переключателем;
- при помощи пульта;
- автоматическое открывание (датчик движения)[6].

d) Установка специальных тактильных мнемосхем, которые позволяли бы инвалидам ориентироваться в пространстве, и понимать в каком направлении им двигаться. В настоящее время существует большое количество разновидностей данного оборудования, но все они преследуют только одну цель. [7].

Создание необходимых условий для обеспечения без барьерной, дружелюбной городской



среды способствует включению и вовлечению лиц с инвалидностью во все сферы жизнедеятельности общества. Хотелось бы особо подчеркнуть, что доступность физической среды на самом деле служит интересам всех горожан, так как всё, что удобно для лиц с инвалидностью удобно для всех.

### Литература:

1. Шнк 2.07.02-07 проектирование среды жизнедеятельности с учетом потребностей инвалидов и маломобильных групп населения.
2. Георгиева, Лидия. Не только пандусы: как работает безбарьерная среда [Электронный ресурс] /Л. Георгиева. – Электрон. текстовые дан. – Мегабайт, 2019. – Режим доступа: <https://mbradio.ru/publication/3417>, свободный.
3. Юсупов, Дильмурод. Невидимые люди [Электронный ресурс] /Д. Юсупов. – Электрон. текстовые дан. – Газета.уз, 2018.
4. <https://xn----7sbaba3anergfqi8bwck5o8b.xn--p1ai/tactile-tile.php>
5. <https://www.m24.ru/articles/dorogi/07092015/84070>
6. <https://dostsreda.com/avtomaticheskaya-sistema-otkryvaniya-dverey>
7. <https://invateh-group.ru/category/taktilnye-tablichki-znaki-i-mnemosxemy/>

**БИР КЎСАКДАГИ ПАХТА ВАЗНИ КЎРСАТКИЧЛАРИНИ ЎРТА ТОЛАЛИ  
ЎЗАНИНГ НАВ ВА ТИЗМАЛАРИГА ХОС ИККИ АВЛОД ПОПУЛЯЦИЯЛАРИ  
ФЕНОТИПИДА НАМОЁН БЎЛИШНИ ЎРГАНИШ бўйича таҳлиллар.**

**УЎК: 633.853.52**

**Эргашев О.Р.**

*ЎзР ФА Генетика ва ўсимликлар  
экспериментал биологияси институти.*

**Аннотация:** Мақолада ўзанинг *G. Hirsutum* L. турига хос бўлган янги дурагайлари ажратиб олиш мақсадида амалга оширилаётган тадқиқотларда бошланғич ашёлар сифатида олинган нав ва тизмаларнинг бир кўсақдаги пахта вазни белгиси кўрсаткичларини икки авлод ўсимликларида намоён бўлишини ўрганиш натижалари қиёсий таҳлил қилинган. Аниқланишича, ўрганилган ҳар иккала йилда ҳам популяцияларнинг ҳосили намуналари бўйича Бухоро-102, Султон, АН-Боёвут-2 навлари, Т-1278 ва Т-1391 тизмаларида энг юқори кўрсаткичлар кузатишган.

**Калит сўзлар:** Ўза, дурагай, ота-она шакллари, бир кўсақдаги пахта вазни, кўрсаткичлар, икки авлод, қиёсий таҳлил.

Ўзбекистон Республикасида ўза ўсимлиги узоқ йиллардан буён асосий техник экин сифатида суғориладиган майдонларнинг катта қимида экилиб парваришланади. Чунки мазкур ўсимликнинг халқ хўжалиги олдида тутган ўрни ва аҳамияти катта. Шу сабабли ҳам унинг олдингиларига нисбатан ижобий тусланувчи турли нав ва дурагайлари яратишга қаратилган генетик-селекцион тадқиқотларни мунтазам олиб борилишига давлат даражасида эътибор берилади. Илмий жиҳатдан ўза дурагайлари хосилдорлигини белгиловчи белгилардан бири сифатида таърифланадиган бир кўсақдаги пахта вазнининг бир неча авлод ўсимликлари фенотипида намоён бўлиши, кўрсаткичларнинг йиллар давомида тебраниши сабабларини чуқур ўрганган ҳолда хулоса ва тавсиялар ишлаб чиқиш навдорликни таъминлаб туриш имконини беради. Ўрганилаётган белгининг умумий ўртача кўрсаткичларини авлодлар генотипида ирсийланиши, ўзгарувчанлиги, шаклланиб бориши, барқарорла-шуви, турғунлиги, йиллар бўйича тебранишини фенотипида намоён бўлишини ўрганиш мақсадида кўплаб генетик тадқиқотлар олиб борилган[1-6]. Ташқи муҳит омиллари таъсирида кўсақ вазнининг қайси томонга силжишидан қатъий назар кейинги авлодларда нав популяциясининг генотипидаги генларнинг назорати остида яна ўзига хос бўлган хусусиятларни намоён этиши тадқиқотларда кузатишган[5].

**Тадқиқот мақсади.** Янги тадқиқотларда ота-она шакллари сифатида танланган ашёларнинг икки авлод популяцияларидан териб олинган ҳосил намуналарининг минг дона чигити вазни кўрсаткичларини аниқлаш.

**Тадқиқот ашёлари.** Наманган-77, С-6524, Султон, С-8290, Бухоро-102, Хоразм-127, Келажак, ЎзФА-707, ЎзФА-710, Мехнат, АН-Боёвут-2, Юлдуз навлари ва Т-1278, Т-1326, Т-1336, Т-1391, Т-1470, Т-1477, Т-8588 тизмаларининг бир кўсақдаги пахта вазни кўрсаткичларини акс эттирувчи маълумотлар.

**Тадқиқотни ўтказиш услублари.** Мазкур тадқиқотларни олиб боришда генетиканинг популяцион таҳлил услубидан фойдаланилди. Маълумотларга математик статистик ишлов бериш Б.А.Доспехов услуби бўйича (М. 1985) амалга оширилди.

**Натижалар.** Таҳлилдаги ўза навларининг ўсимликларидан 2020-2021 йилларда йиғиштириб олинган ҳосили намуналарининг бир кўсақдаги пахта оғирлиги кўрсаткичлари қиёсий ўрганилганда қуйидаги маълумотлар олинди(жадвал):

**Жадвал.** Нав ва тизмаларнинг бир кўсакдаги пахта вазни кўрсаткичлари.

№	Тадқиқот ашёлари номи	Хўжалик белгиси	
		Бир кўсакдаги пахта вазни (гр)	
		2020 йил	2021 йил
1	Наманган-77 (андоза)	5.6	5.4
2	С-6524 (андоза)	5.8	5.7
3	Султон	6.2	5.9
4	С-8290	6.4	6.4
5	Бухоро-102	7.3	6.9
6	Хоразм-127	6.1	6.3
7	Келажак	6.3	6.3
8	ЎзФА-707	6.1	5.6
9	ЎзФА-710	5.8	6.1
10	Меҳнат	6.7	6.3
11	Юлдуз	6.5	5.8
12	АН-Боёвут-2	6.1	6.1
13	Т-1278	6.8	7.1
14	Т-1326	6.1	6.3
15	Т-1336	6.1	6.1
16	Т-1391	6.8	7.1
17	Т-1470	5.5	5.2
18	Т-1477	6.1	6.5
19	Т-1777	6.1	5.9
20	Т-8588	6.5	6.3

Келтирилган жадвалга кўра, таҳлил қилинган йиллар давомида тадқиқот ашёларидан ҳисобланмиш ўрта толали ғўзанинг Бухоро-102, Султон, АН-Боёвут-2 навлари, Т-1278 ва Т-1391 тизмаларида андоза ва бошқа шаклларга нисбатан юқори кўрсаткичлар кузатишган. Айрим ғўза навларининг бир кўсакдаги пахта ва чигитлари вазни камайиши толасининг чиқими ҳамда сифати кўрсаткичларининг ортишига ижобий таъсир этиши бир қатор адабиётларда келтириб ўтилган[2-4].

Хулоса ўрнида таъкидлашимиз мукинки, келгусида ғўзанинг бир кўсак-даги пахта вазни белгиси бўйича юқори кўрсаткичли дурагайлар ажратиш олиш учун олиб бориладиган генетик-селекцион тадқиқотларда Бухоро-102, Султон, АН-Боёвут-2 навлари ва Т-1278 ҳамда Т-1391 тизмаларидан бошланғич ашёлар сифатида фойдаланиш ижобий натижалар бериши мумкин.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Жўрақулов Ғ.Н., Мамажоов А.А. “*G.hirsutum* L. ғўза навларида битта кўсакдаги пахта вазни билан қимматли хўжалик белгилари ўртасидаги корреляцион боғлиқлик” – Ғўза ва бошқа экинлар генофонди биохилма-хилликларини ўрганиш, ривожлантириш, сақлаш ва самарали фойдаланиш истиқболлари мавзусидаги Республика илмий-амалий анжумани материаллари тўплами. 2020-й, 255-257 б.
2. О.Р. Эргашев “Ғўзанинг янги ЎзФА-710 нави популяциясида тола чиқими белгиси кўрсаткичлари бўйича уч йиллик таҳлилий натижалар”. Агро Илм – Ўзбекистон кишлок хўжалиги журнали 2019 йил, 3 сон, 8-9 б.
3. О.Р. Эргашев “*G.hirsutum* L. турига мансуб янги ғўза навида айрим хўжалик белгиларининг бир неча авлодларда фенотипик намоён бўлиши”. 2020. 2 (65) сон, 7-8 бет.
4. О.Р. Эргашев *G.hirsutum* L. тури янги навида хўжалик белгилари-нинг шаклланиши ва барқарорлашуви. // Ўзбекистон аграр фани хабарномаси 5 (83) 2020. 73-55 б.
5. Эргашев О.Р., Қаҳҳоров И.Т., Қодирова М.Р., Ҳакимов А.Э. Генетика, геномика ва биотехнологиянинг замонавий муаммолари мавзусидаги Республика илмий анжумани тўплами. 18.05.2017. 18-20 б.



## ЭЛЕКТРОН ҲУКУМАТ – ДАВЛАТ БОШҚАРУВИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ВА УНИНГ УСТИДАН ЖАМОТЧИЛИК НАЗОРАТИНИ КУЧАЙТИРИШ ВОСИТАСИ

*Эркинов Илхомжон Элмуроджон ўгли*

*Ўзбекистон Миллий университети таянч докторанти.*

Бугунги кунда дунёдаги барча ривожланган давлатлар ўз тараққиётига давлат бошқарувидаги самарадорлилик туфайли эришганликлари эътироф этилади. Давлат бошқарувидаги самарадорлик эса кўп жиҳатдан электрон ҳукуматнинг шаклланиши ва хизмат кўрсатишига боғлиқдир. Илк бор Билл Клинтон АҚШга Президентлик қилган даврда маъмурий бошқарув соҳасига оид тушунча сифатиқўлланилган “электрон ҳукумат” категорияси, интернет ва ахборот технологияларининг ривожлантириш ва бу воситалардан давлат бошқарувида фойдаланиш маъносини ўзида акс эттирган.

Республикада “электрон ҳукумат” тушунчаси илмий нуқтайи назардан ҳам, ҳуқуқий нуқтайи назардан ҳам “давлат органларининг жисмоний ва юридик шахсларга ахборот-коммуникация технологияларини қўллаш йўли билан давлат хизматлари кўрсатишга доир фаолиятини, шунингдек идоралараро электрон ҳамкорлик қилишни таъминлашга қаратилган ташкилий-ҳуқуқий чора-тадбирлар ва техник воситалар тизими”<sup>392</sup> маъносида қўлланилади.

Умумжаҳон миқёсида кенг қўлланиладиган мазкур тушунчанинг ҳажми бир мунча кенг бўлиб, унинг мазмуни кўп қийматли маъно касб этади. Бугунги кундаги халқаро-ҳуқуқий ҳижжатлар, хусусан инсон ҳуқуқлари бўйича Европа судлари қарорларида ҳукумат тушунчасига марказий бошқарув аппарати билан биргаликда қонун чиқарувчи, ижро этувчи ва суд ҳокимиятларини ҳам қамраб олувчи яҳлит тизимга эга сиёсий институт сифатида қаралади<sup>393</sup>.

Бундан келиб чиққан ҳолда e-government тушунчаси интернет тармоғи орқали маълумотлар ва хизматларни тақдим этиш ҳамда ахборот ва хизматлани кенг аҳоли оммасига етказишни таъминлаш усули сифатида талқин қилинади. Шу маънода электрон ҳукумат тушунчаси ўз мазмунида ҳукумат фаолиятининг мустақил субъекти эмас, айна фаолиятни амалга оширишнинг шакл ёки усулини назарда тутлади.

Юқоридаги таҳлилларни умумлаштириб, соддароқ қилиб айтганда electronic government бошқарув жараёни, хусусан, давлат бошқарувининг электрон шаклда амалга оширилишини англатади. Инглиз тилидаги government тушунчаси ўзбек тилига ҳукумат ёки давлат ҳокимияти бошқаруви<sup>394</sup> маъноларида таржима қилинганлиги туфайли давлат бошқарувининг электрон шаклини назарда тутувчи electron government тушунчаси ҳам электрон бошқарув эмас, электрон ҳукумат кўринишида илмий-ҳуқуқий исътемолга киритилган<sup>395</sup>.

Одатда электрон ҳукумат деганда “электрон давлат”, “электрон давлат ва унинг аппарати”, “электрон инфратузилмаси”, “ахборотлашган жамиятдаги давлат” ва айнан мазкур ахборотлашиб бораётган ҳамда ўзига хос, олдин кузатилмаган жиҳатларга эга бўлиб бораётган жамият феномени назарда тутилади<sup>396</sup>. Юқоридаги мулоҳазадан келиб чиққан ҳолда шуни айтиш мумкинки, халқаро миқёсда қўлланиладиган инглизча electronic government категорияси билан ўзбек тилидаги “электрон ҳукумат” тушунчаси тўлалигича айнанлик касб этмайди. Буни шу билан ҳам изоҳлаш мумкинки, электрон ҳукумат тушунчаси борасида етарли тасаввурга эга бўлмаган кишиларда айна тушунча билан

<sup>392</sup> <https://www.lex.uz/acts/2833860>

<sup>393</sup> Туронок С.Г. Интернет в политике: Политические аспекты новых информационно-коммуникативных технологий. Курс лекций. - М.: Международный университет (в Москве), 2003.

<sup>394</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Б-560.

<sup>395</sup> Ulug'bek Isaqov ... [et al.] ; Brian Patrick Tuers таҳрири остида. Инглизча-збекча луғат. Т.: Янги аср авлоди. 2004.

<sup>396</sup> Электронное правительство//Твоя война, -www.warweb.ru.

биринчи марта юзлашганда унинг мазмунига кирмайдиган белгиларни ҳам мазкур категорияга хос хусусиятлар сифатида тавсифлаш ҳолати кузатилади<sup>397</sup>. Электрон ҳукумат тушунчасининг илмий истеъмолга кирган дастлабки даврлардан то бугунги кунга қадар трансформациясига диққат қаратилса, у турли омиллар таъсирида ҳажм ва мазмун жиҳатидан кўп марта ўзгаришларга учраганини кузатиш мумкин. Буни айни феноменнинг турли соҳалар, ҳаттоки, соҳалараро тадқиқотлар предмети сифатида ўрганилганлиги, қолаверса, хилма-хил мамлакатлар бошқарув жараёнларида локал хусусиятлардан келиб чиққан ҳолда тадбиқ қилиниши сингари омиллар билан изоҳлаш мумкин. “Электрон ҳукумат” тушунчасини давлат бошқаруви самарадорлигини ошириш нуқтайи назаидан таърифланган талқинлари унинг “технологик” маънодаги талқинларига нисбатан мукамалроқдек туюлиши мумкин. Аммо мазкур ёндашувнинг нисбий тўлиқлик характери ҳам унда e-government билан боғлиқ барча жиҳатлар қамраб олинганлигини англамайди. Бундан келиб чиққан ҳолда шуни айтиш мумкинки, электрон ҳукумат тушунчасининг кенг маъноли нисбий тўлиқ таърифини ишлаб чиқиш жамиятда информацион технологиялар имкониятларининг тадбиқ қилиниш даражасига боғлиқ бўлади.

Электрон ҳукумат тобора жадаллик билан тадбиқ қилиниб бораётган Ўзбекистонда у информацион технологиялар имкониятларидан кенг фойдаланган ҳолда давлат бошқаруви самарадорлигини ошириш ва унинг устидан жамотчилик назоратини кучайтириш воситаси сифатида қаралмоқда. Аммо электрон ҳукумат тушунчасининг таърифлашга оид ёндашувлар уни тушуниш билан боғлиқ хилма хил ҳатто мазкур феноменни айни “электрон ҳукумат” номи билан аташ ноўринлигини илгари сурувчи ғоялар ҳам мавжудлигини кўрсатмоқда. Жумладан, бу борадаги кўплаб таърифларда электрон ҳукумат информацион технологиялар имкониятларига таянган ҳолда давлат бошқаруви самарадорлигини ошириш воситаси сифатида таърифланмоқда. Масалан, Россия ҳукумат ахбороти департаменти бошлиғи Андрей Коротковнинг фикрича, “бу (электрон ҳукумат) ноаниқ атама, биз электрон ҳукумат тўғрисида эмас, балки ахборот технологиялари хизматидан фойдаланувчи ҳукумат тўғрисида, ахборот технологияларидан фойдаланувчи Федерал мажлислар тўғрисида, ахборот технологияларидан фойдаланувчи Судлар тўғрисида ва умуман давлат ҳамда фуқаролик жамияти тузилмалари шунингдек тадбиркорлар учун ўзаро бир-бирларини тушуниш, қолаверса, ягона стандарт асосида алоқага кириши олиш имконини берувчи коммуникатив мулоқот муҳити ҳақида гапиришимиз керак”<sup>398</sup>. Айни ўринда юқорида ҳам айтилганидек, электрон ҳукумат реал ҳукумат билан айний бўлган унинг вертуал шакли эмас, балки давлат бошқарувини амалга оширишнинг замонавий воситаларидан бири сифатида талқин қилинмоқда. Шу маънода, бундай ёндашувларда электрон ҳукумат тушунчасининг ўрнига давлат бошқарувини электронлаштириш атамасини кўллаш таклиф қилинади.

Умуман олганда, бундай ёндашувларда электрон ҳукумат мавжуд давлат бошқаруви аппарати тузилмаларини тубдан трансформация қилиш соддароқ қилиб айтганда қайтадан ташкил қилишни эмас, балки информацион технологиялар имкониятларига таянган ҳолда модернизациялашни назарда тутаяди.

Бу тизим ахборот алмашинуви, фуқароларда уйдан чиқмасдан туриб зарур ҳужжатларни расмийлаштира олишлари, давлат харидлари очиқ электрон савдо порталлари орқали ўтказилишига имкон бериши учун турли давлат ташкилотларининг маълумотлар базалари бири бири билан ўзаро мувофиқлаштирилган ва интеграциялашган бўлиши лозим. “Электрон ҳукумат” тушунчаси бир мунча кенг қамровли бўлиб, у кенг маънода замонавий компьютер ва коммуникация технологиялари орқали самарадор давлат бошқарувини амалга оширишни англатади. Электрон ҳукумат тушунчасининг илмий тадқиқотларда турлича талқин қилинишига қарамасдан у давлат бошқарувини

<sup>397</sup> Процесс Консалтинг. Мониторинг и оценка "электронных правительств".

<sup>398</sup> Ландэ Дмитрий. E-Government - лозунг или технология?//Информационный центр ElVisti. -www.visti.net, 11.06.2003.

модернизациялаш воситаси сифатида ҳукумат органлари фаолияти самарадорлигини ошириш давлат ва фуқаролар ўртасидаги ўзаро мулоқотни янги сифат даражасига кўтариш, иқтисодий тараққиётни рағбатлантириш ҳамда ижтимоий муносабатларни янги механизмлар асосида тартибга солиш функцияларини бажаради. Масалан, “электрон ҳукумат”нинг жорий қилиниши давлат бошқарувининг тузилмаларини ислоҳ қилиш, хусусан давлат органлари функцияларининг миқдори ва характерининг ўзгариши, шунингдек, улар фаолиятига оид маъмурий электронрегламентларни амалиётга жорий қилиниши сингари омиллар билан боғлиқ.

Шундай қилиб, e-government – ахборотлашган жамият шароитида давлат бошқаруви органларининг давлат ва жамият ҳаётидаги ўрнини қисқа ва замонавий ёндашув асосида тавсифлашга хизмат қилмоқда. Бу атама давлат бошқарувининг янгича ташкиллаштириш ва ривожлантириш усулларини, шунингдек, халқ билан мулоқот тизимини такомиллаштиришга оид янгича механизмлар ишлаб чиқишни, фаолиятнинг муайян соҳасидаги фойдали натижаларга эришиш кўрсаткичларини тубдан янгилашни, унинг камчиқимлигини ва давлат органлари масъулиятини қисқартиришни ҳам ўз ичига олади. Электрон ҳукумат восита сифатида давлат бошқаруви функцияларини амалга оширишда мақсадли, мувофиқлаштирилган янги инфорацион технологияларни узлуксиз тарзда тадбиқ қилиб боришни талаб қилади.

Ўзбекистонда рационал бюрократия асосида электрон ҳукуматни жорий қилиш жараёнларини такомиллаштиришда амалга оширилаётган ўзгаришларнинг барчаси электрон маъмурий регламентларнинг ягона тизимини яратиш асосида амалга оширилиши керак. Бу давлат функцияларини бажарилишини таъминлайдиган барча жараёнларнинг амалга ошириш тартиб таомилларини белгилаб беради. Бу эса Ўзбекистон Республикасида ҳукуматнинг ҳукумат ташкилотлари билан, фуқаролар билан ҳамда бизнес вакиллари билан бир қийматли конструктив мулоқотга киришиш имкониятини юзага келтиради. Айниқса, регламентларнинг бир хиллиги талқинлар хилма-хиллигига йўл қўймасдан мулоқотга киришувчи ҳар икки тараф олдига бир хил ҳуқуқ ва мажбуриятларни қўйган ҳолда шаффофликнинг ошишига хизмат қилади. Бошқа томондан эса инсон омилининг минималлашиб, барча жараёнларнинг автоматик тарзда амалга ошишига олиб келади. Бу эса ўз навбатида манфаатлар тўқнашуви ҳамда коррупция эҳтимолларининг минималлашишига сабаб бўлиши мумкин.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. <https://www.lex.uz/acts/2833860>
2. Туронок С.Г. Интернет в политике: Политические аспекты новых информационно-коммуникативных технологий. Курс лекций. - М.: Международный университет (в Москве), 2003.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Б-560.
4. Ulug'bek Isaqov ... [et al.] ; Brian Patrick Tyers таҳрири остида. Инглизча-збекча луғат. Т.: Янги аср авлоди. 2004.
5. Электронное правительство//Твоя война, -www.warweb.ru.
6. Процесс Консалтинг. Мониторинг и оценка "электронных правительств".
7. Ландэ Дмитрий. E-Government - лозунг или технология?//Информационный центр ElVisti. -www.visti.net, 11.06.2003.
8. Яковлева Е., Электронное правительство - трансформация идей электронного бизнеса для правительственных и государственных организации/Материалы форума «Время молодых: государственное управление в XXI веке». - М., 28.05.2004.

## ТАЛМИХ САНЪАТИНИНГ ПАЙДО БЎЛИШ ИЛДИЗИ ВА ОМИЛЛАРИ

*Эрмухамедов Абдусамод Норматович*  
(филология фанлари номзоди, доцент)  
“Академик Б.Гафуров номидаги  
Хўжанд давлат университети” ДТМ.  
Тожикистон Республикаси.

Шарқ бадий санъатларини ўрганиш миллий адабиётшуносликда кундан-кунга долзарб масалага айланиб бормоқда. Баъзи миллий адабиётшуносликда алоҳида олинган бадий санъатларнинг келиб чиқиш илдизлари, омиллари, тараққиёт ва такомиллари атрофлича ўрганилмоқда. Хусусан, алоҳида муаллиф ижодида бадий санъатларнинг кўлланиш доираси, такомил ва тараққиёт тамойиллари, услубий йўналишлари тадқиқ қилинмоқда. Бугунги шеършунослик ҳар бир тимсол, ҳар бир шеър санъатининг пайдо бўлиш илдизларини тадқиқ қилишга чуқур эътибор бермоқда. Ҳар бир ҳодиса, воқеа, назариянинг илк ибтидоий илдизини ўрганмасдан туриб, унинг такомил ва тараққиёт босқичлари, келажагини мукамал ўрганиш ва аниқлаш мумкин эмас. Жумладан, назмшуносликда кенг ўрганилаётган талмих ва унинг моҳият илдизи аниқланмас экан, у ҳақида тўлиқ ва ҳаққоний назарий-амалий фикр айтиш ноимкондир.

Баъзи талмихлар замирида бир бутун сюжет ёки ривоят мазмуни ётади. Чунончи, Яъқуби Канъон, Ҳусни Юсуф, Юсуф кўйлаги. Баъзи талмихлар маъно жиҳатидан “Инжил”, “Қуръони Карим”даги Юсуф қиссаси билан бевосита боғлиқдир. Яна шундай талмихлар мавжудки, улардаги ишора маънолар билан таниш бўлмай туриб, унинг матндаги бадий эстетик маъно қирраларини аниқлаш ғайриимкондир. Зеро Жамшид тарихисиз Жоми Жам, базми Жамшид; Сулаймон тарихисиз тахти Сулаймон, тахти Билқис; Исо ва Марям тарихисиз Исо игнаси ва Марям риштаси каби талмихларнинг шарҳу изоҳини бериш ва тушуниш асло мумкин эмас. Шунинг учун ҳам талмихнинг умумий-назарий масалаларигина эмас, балки унинг бевосита пайдо бўлиш илдизларини тадқиқ қилиш ва ўрганиш тақозоси ўз-ўзидан келиб чиқади. Бадий санъатларнинг келиб чиқиши ҳаётни мўъжаз ифодалаш шакли, қолаверса, бевосита бадий сўз табиати ва тараққиёти билан боғлиқ бўлса-да, янада бошқа қатор омилларга ҳам асосланади. Биринчидан, бир қатор бадий санъатларнинг келиб чиқиши ибтидоий турмуш кўрнишлари ва тақозоси, бевосита тарихий шароитнинг меваси, яъни тарихий воқеа ва ҳодиса, тарихий шахс ҳаётида юз берадиган муҳим ҳодиса сифатида юзага келади. Иккинчидан, баъзи бадий санъатлар сўзнинг кўчимга айланиши ёки сўз маъноларининг кенгайиши ёхуд торайишига асосланади. Учунчидан, баъзи санъатлар ҳарфий ифода шаклига асосланиши билан пайдо бўлади. Жумладан, талмих биринчи гуруҳ сирасига киради. Жаҳон адабиётида бирор асотир ва назмий тимсол йўқки, у ўзининг илк асосларини ибтидоий ҳаёт кўринишларидан олиб, замонлар оша маъно оҳанглари тадрижланиб, тараққий этиб бормаган бўлсин.

Талмих ҳам худди шундай ҳаёт ўзгаришлари билан чамбарчас боғлиқ ҳолда юзага келади, тараққий этади ва янги маъно қатламларига эга бўлиб боради. Ҳаёт ва тарих бардавом экан, унинг бадий кўзгуси адабиёт ва унинг тимсоли ҳам шунчалик боқийдир. Шу маънода ҳаёт ва тарих – талмих хазинаси. Шу билан бирга у берган мазмун талмихни ўрни билан саралайди. Баъзилари бадий тафаккур истеъмолидан тушиб қолади ва баъзилари ҳатто тамомила унутилади. Ҳар қандай унутилган талмих ҳам тарихнинг тақозоси, ҳаётнинг талаби билан яна қайталанаяди, аниқроғи яна ифодага тортилади. Чунки ўша унутилган талмихда ташбихий қиёс асл моҳият сақланади. Янги давр ва ҳаётнинг талаби ҳамда тақозоси билан ўша моҳият, ташбихий қиёс яна янги ҳаётий мазмун олади. Шу маънода талмих ҳаёт сингари ўзгарувчан ва бардавомдир.

Талмиҳнинг илк ибтидоий илдизини миф-асотирдан излаш барча жаҳон миллий адабиёти учун хос умумий қонуниятдир. Ибтидоий турмуш ва меҳнат инсониятнинг мифологик қараш ва фикрига асос бўлган. Чунки инсон ўзининг тарихий тараққиётининг муайян даврида коинот ва табиат ҳодисалари, ҳатто ибтидоий одам руҳига сиғинган. Уларга сажда қилинган сайин турмуш мушкулотлари осонлашади, кутилмаганда, фавқулодий эҳсонлар кўпроқ ато қилинади, деган тушунча инсон шуурига кундан-кун сингиб борган. Осмон жисмлари қанчалик сирли кўрингани сайин Ахура Мазда, Аҳриман, Митра, Анахито, Ййма, Оша ва бошқалар ҳам шунчалик илоҳий куч деб анланган. Улар қуй, кўшиқ, ҳикоя ва ривоятларда сиғиниш даражасида ардоқланган. Кенг сюжетли, мифик дostonлар яратилган. Даврлар ўтиши билан бадий тафаккур бора-бора қисқаликка интила борган. Эзгулик ва ёвузлик мифлари ҳақидаги нақл, ҳикоя-ривоятлар махсус эпик дostonларда ифодаланмасдан, улар воқеа, нақл сирасида имо-ишора шаклида эсга олинган. Натижада мифологик дoston ва ҳикоя, саргузашт воқеа ва қаҳрамонлар баёнида қисқаликка учраб мифологик талмиҳга кўчган.

Талмиҳни ифода манбаига кўра қуйидагича таснифлаш мумкин:

1. Жаҳон тарихи, маданияти ва адабиёти намояндalари: Александр Македонский, Юлий Цезарь, Афлотун, Арасту, Лукмони Ҳаким, Хусрав, Кайхусрав.
2. Афсонавий ва тарихий шахслар: Искандар Зулқарнайн, Маҳмуд Ғазнавий, Соҳибқирон, Сухайл, Сурайё, Салмон, Жамшид.
3. Фавқулодий воқеалар: Нуҳ тўфони, Бобил қалъаси, Ҳорут, Морут.
4. Пайғамбарлар ва анбиёлар: Нуҳ, Сулаймон, Довуд, Исо, Шаддод, Од, Юнус, Юсуф, Яъқуб, Иброҳим Халилуллоҳ, Иброҳим Адҳам, Хизр, Одам Ато, Ҳотам Той, Аёз, Ҳабиб.
5. Тасаввуф таълимотининг пешволари: Мансур Ҳаллож, Ғаззолий, Кубро, Нақшбандий, Бистомий.
6. Машҳур илмий китоблар: «Ал-қонун», «Осор-ул-боқия», «Зижи Кўрагоний», «Ҳиндистон».
7. Машҳур шарқ дostonлари ва уларнинг қаҳрамонлари: «Фарҳод ва Ширин», «Лайли ва Мажнун», «Вомиқ ва Узро», «Юсуф ва Зулайҳо», Мажнун, Фарҳод, Ширин, Лайли, Вомиқ, Узро, Юсуф, Зулайҳо.
8. Афсонавий шаҳар, жой, тоғу маконлар: Қоф, Бесутун, Карбало, Саҳрои Кабир.
9. Афсонавий нарса-предметлар: Жами Жам, Юсуф кўйлаги, Юсуф қадахи, Сулаймон мулки, Сулаймон узуги, Сулаймон тахти, Сулаймон ва мўрча, Мусо ҳассаси, Мусо кўли, Иброҳим нори, Иброҳим каъбаси, Исо дами.
10. Муқаддас жой ва тушунчалар: Байт-ул-муқаддас, Каъба, Меърож, Хизр, Оби ҳаёт, Нуҳ умри, Юсуф дostonи, Юсуф ҳикояти, Юсуф чоҳи, Юсуф нархи, Юсуф ҳусни, Мусҳаф, Яъқуб сабри, Аюб сабри.
11. Куръон ояти ва суралари: «Мим», «Вал зуҳо», «Вал-лайл», «Ояти Раҳмон», «Сураи Юсуф», Юсуф сўзи.

Юқоридаги тасниф ва мисолларнинг ўзиёқ талмиҳнинг энг кўп қўлланувчи ҳамда фаол санъат эканлигини кўрсатади. Талмиҳ ҳамма давру замонларда фаол, долзарб тасвир воситаси вазифасини ўтаб келган. Умуминсоний, яъни башарий фикр, фалсафий маънолар жавоҳирдек латиф ва мағзи тўқ талмиҳларда ўз ифодасини топди. Жумладан, адабиётшунос олима Барно Абдурахмонова “Қутадғу билигда”да талмиҳ санъати” илмий мақоласида бу борада ибратли фикр билдиради: “Адабиёт тарихида шоирнинг ижодкорлик даражасини белгиловчи омиллардан бири сифатида бадий санъатлардан моҳирона фойдаланиши ҳам кўрсатилган. “Қутадғу билиг”да қўлланган кўплаб тасвир воситалари ҳам муаллиф бадий маҳоратининг юксаклигини кўрсата олади. Дostonда энг фаол қўлланган маънавий санъатлардан бири талмиҳ ҳисобланади.



Асардаги мавжуд талмихларни куйидагича таснифлашни маъкул кўрдик.

1. Мифологик образлар. 2. Афсонавий қахрамонлар образлари. 3. Пайғамбарлар образлари. 4. Тарихий шахслар образлари”<sup>399</sup>. Инсон фазилати, башарий улуғлиги, барча мавжудотларга нисбатан баркамоллиги, Нух умри, Сулаймон тахти, Сулаймон узуги, Қорун тахти, Жами Жам, Аюб сабри, Яъқуб сабри, Юсуфнинг кечиринч роҳати каби талмихларда улуғланади. Инсоннинг эзгулик олами сари интилиши, кураши, ғоявий нияти, сайёралар ҳаракатлари, Хизр, Иброҳим нори, Искандар ойнаси, Искандар оби ҳаёти, Жами Жам, Нух умри, Нўширавони одил, Боғи Эрам қабилидаги талмихларда ўз ифодасини топди. Ўрни билан инсон руҳий кечинмалари Намруд, Шаддод, Қорун сингари талмихлар бағридан жой олди.

Ошиқ дарду алами, ўтли изтироблари, ёхуд кўкси чок қалбининг алам ва ситамлари, Аюб сабри, Нух тўфони, Юсуф чоҳи, Юсуф нархи, Иброҳим байтул ҳазани, Яъқуб ҳажри, Кўҳкан Фарҳод, Жунун водийсининг шоҳи Мажнун, остонага бош кўйиб висол кутган Вомиқда талмихланган. Ошиқ учун маъшуқасиз, унинг ойдек юзи ва нигоҳининг бутун дунёси қоронғи. Қоронғилиқда айни орзу қилинган мўъжиза ёки маъшуқа яширинган бўлади. Худди шунингдек, Хизр ҳам умрбоқийлик сирини ато қилувчи тириклик суви – оби ҳаётни ер ости қоронғилигидан топган. Унга бориш йўли ниҳоятда хатарли. Боришга йўл олганлар хатарга учраб, ҳалок бўлганлар. Фақат Одам зурриётидан Хизргагина тириклик сувини топиш, уни тановул қилиш насиби рўзи қилган. Умрбоқийликка эришган, шу билан бирга башар оламига тириклик суви воситасида эзгулик ҳидоят этган. Биринчи босқич ўзбек дунёвий шеърятда зим-зиё қоронғуликдан ёрни истаб топишга интилган ошиқ Хизр талмиҳига нисбат берилган. Тириклик суви эса бемадор ошиқни мадорга, шол жуссасига ҳаёт, оромбахшлик киритади. Гўё ошиқ учун худди маъшуқанинг ўзи Хизр.

Ошиқ сабри тоқати, куйиб кул бўлиш ҳолати ва яна ўз ҳолига қайтиши, ҳар қандай дарду ситамга бардош бериш сабри Аюб, Юнус, Яъқуб сабрига, ўлмаи туриб ўлиш, дорга осилиб ёр висолига етиш, Мансур Халлож талмиҳида назокат билан ифодаланади. Талмиҳ тарихий воқеа, тарихий сиймо, машҳур қисса ва байтга ишора қилиш, фикрга кенглик бериш санъати ҳамда, энг аввало, у маҳорат ва сўз сеҳри, сўзнинг маъзини тўқ қилиш санъати ҳамдир. Шу маънода талмиҳ - шеърятдаги энг қисқа сўз, аммо сеҳрли сўз. Унинг сеҳрида янги мазмун жило топади, кенг маъно сиқик шаклда ифодаланади. Бунда ижодкор таланти ва маҳорати бош омил ва калитдир.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Б.Абдурахмонова. “Қутадғу билиг”да талмиҳ санъати. // 2022, 2-сон, 53-бет.
2. Зеҳний Т. Санъати суҳан. – Душанбе: Ирфон, 1979.
3. Мирҳайдаров Ҳ. Шеърят фасоҳати. – Хужанд: 1987.
4. Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Тошкент: Ёзувчи, 2001.

<sup>399</sup> Б.Абдурахмонова. “Қутадғу билиг”да талмиҳ санъати. // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2022, 2-сон, 53-бет.

**МАТЕМАТИКА ФАНИНИ ЎҚИТИШДА КУРСЛАРАРО  
УЗВИЙЛИКНИ ТАЪМИНЛАШДА САМАРАДОРЛИККА ЭРИШИШ  
ТАМОЙИЛЛАРИ**

**Эшматов Ботир Ёкубович**

*Қашқадарё вилояти Деҳқонобод тумани  
71-сонли ўрта мактаб директори.*

**Мавлянов Аминжон**

*(ф.-м.ф.н., доцент)*

*АстДТУ Тошкент вилояти филиали.*

**Ахмедов Абдурахмон Паттахович**

*(ф.-м.ф.н., доцент.)*

*Тошкент давлат транспорт университети.*

Узлуксиз таълим жараёни илмий-педагогик тамойилларга амал қилгандагина ўз олдига қўйган мураккаб муаммоларни еча олади. Таълим жараёнини мақсадга мувофиқ ташкил қилиб, дарс самарадорлигини ошириш учун эса муҳим аҳамиятга эга бўлган тамойилларни белгилаб олиш зарур. Бу тамойиллар таълим-тарбиянинг давр талабига мослиги, педагогик жараёнда объектив ва субъектив жараёнларнинг уйғунлиги, таълим-тарбияда мақсад, мазмун, метод ва воситаларнинг бир-бири билан боғликлиги каби педагогиканинг умумий қонуниятлари ҳамда маълум принципларидан фойдаланиб, тадқиқотнинг методологик асослари, математика таълимнинг ўзига хос хусусиятлари ҳисобига олинган ҳолда аниқланди.

Натижада, математика таълимида курслараро узвийликни таъминлаш воситасида таълим самарадорлигини ошириш учун қуйидаги тамойилларни муҳим деб ҳисоблашга имкон берди:

- математикани курслараро боғлаб ўрганишнинг таълим оловчилар ёши, психологик хусусияти ва савиясига мослиги тамойили. Бу тамойил математика материални таълим оловчилар томонидан тўлиқ ўзлаштиришлари нуктаи-назардан уларнинг индивидуал ва ёш хусусиятлари, билим даражаси доирасидан келиб чиқиб иш олиб боришга имкон беради. Чунончи, 11-13 ёшли болалар ақлий фаолиятида билишнинг зарурий шарт-шароитларидан бири ҳисобланган аниқ математик тасаввур устунлик қилиши педагогик тадқиқотларда аниқланган. 1-курс таълим оловчилари индуктив, дедуктив хулосалар чиқаришни яхши уддалай олади. Шу билан бирга мустақил мантиқий хулосалар чиқариш қобилиятлари чекланган бўлишини ҳисобга олиб, математика материални боғлаб ўрганишда улар савиясини юксалтириб боришнинг дидактик принципларига амал қилишни тақозо этади. Бинобарин, иккала математика курсидаги математик топшириқларни боғлаб олиб бориш, математик билимларни онгли ва пухта ўзлаштириш, таълим оловчиларда ижобий ҳиссиётлар уйғотиш шартларидан биридир. Бу эса ўз навбатида таҳлилнинг олий шакли - абстракт мушоҳадаги ўтиб бориш учун шарт-шароит яратади. Абстракциялаш орқали, яъни ҳодисаларнинг умумий белгиларини фикран ажратилиб, шу ҳодисанинг муҳим бўлмаган хусусиятлари ва белгиларидан айрим ҳолда тасаввур этиш йўли билан синтезлашнинг олий шакли - умумлаштириш сари борилади. Белгилар ва хусусиятларни умумлаштириш асосида математик тушунчалар таркиб топади. Булар дарсда фойдаланиш зарур булган математика оид манба, атама, тушунчаларни танлашда муҳим;

- математика узвийлиги ва узлуксизлиги тамойили математика фани мазмунининг узвийлигини ўрнатишда муҳим. Бу тамойил дидактиканинг оддийдан мураккабга, номаълумдан маълумга қараб боришда ва олдинги ўзлаштирилган билимларга таянган ҳолда кейингиларини ўзлаштиришга тайёрлаш омили сифатида кириш, умумлаштирувчи-такрорлаш дарсларини ўтказишга масъулиятни оширади. У ДТС, ўқув режалари, дастурлар, дарсликларда материалларнинг бир-бири билан мантиқий боғлиқ бўлишини,

таълимнинг ҳар бир босқичида маълум даражада билим кўникма ва малакаларни шакллантиришни талаб қилади ҳамда ёшлар математик онгининг шаклланишига мувофиқ тарзда фан ютуқларини ўзлаштириб боришни таъминлайди. Маълумки, математика фани чизикли принцип асосида ўқитилади, яъни ҳар бир мавзу бир марта ўқитилиб, юқори босқичларда такрорланмайди. Умуман, математикага оид материални изчилликда баён қилиниши таълим олувчи билимларини системалаштириб, унинг узвийлигини таъминлаш билан бирга янги материални ўзлаштиришга хизмат қилади. Бу тамойил иккала курсни ўзаро алоқадорликда ўрганишда математик материаллар бир-бирини такрорламаган ҳолда, узвий равишда бир-бирини тўлдиришини назарда тутади;

❖ математикани ўқитишда интеграцион ёндашишнинг муҳим тамойилларидан бири илмийлик, холислик тамойилидир. Унга амал қилинмаса математик тушунчаларни тўғри идрок қилиб бўлмайди. Натижада таълим олувчиларнинг математикага оид билими сохталашади. Шунинг учун ўрганиладиган математикага оид материал илмий асосланган, ишончли ва аниқ бўлиши зарур;

- илмий дунёқарашни шакллантириш тамойили. Дунёқараш инсоннинг дунёни маълум даражада тушуниши, англаши, билиши, баҳолаши кабилар асосида амалий ўзлаштириши бўлиб, у инсонни дунёни бир бутун ёки турли ҳолда кўриши, идрок этиши, тасаввур қилиши, инсоннинг дунёдаги ўз ўрин ва ролини белгилашидир. Жамиятнинг ривожланиб бориши билан инсоннинг амалий билиш фаолияти ҳам ривожланиб боради. Дунёқараш бутун инсоният ҳаёти шароитини англаб олишини ҳам, бутун қадриятлар системасини ҳам, келажакнинг мўлжалларини ҳам ўз ичига олади. Ҳар бир кишининг ўз ҳаётий фаолияти ва тараққиётида маълум дунёқараш шаклланиб, тўлиқ ташкил топган пайтдагина у шахс бўла олади. Ўзбекистоннинг янгиланган таълими мустақил фикрлайдиган, етук шахс, комил инсонни шакллантиришга қаратилган бўлиб, юртбошимиз ибораси билан айтганда “Бизга битирувчилар эмас, мактаб таълим ва тарбиясини кўрган шахслар керак”;

❖ тарихийлик тамойили. Таълим жараёнининг қонуний боғланишлари жамият эҳтиёжи, ижтимоий жараёнлар билан боғлиқ равишда содир бўлади. Бу тамойил таълим жараёнининг асосий қонуниятини, яъни таълимни жамият эҳтиёжига боғлиқлиги қонуниятидан келиб чиқади. Унга амал қилиш натижасида ўқув материали бойитилади ва таълим олувчиларнинг илмий дунёқарашини шаклланиб, ахлоқий сифатлари тарбияланади. Мазкур тамойил ҳар бир нарса ёки ҳодисага мукамал ёндашиш кўникмасини ҳосил қилади. Бунинг учун махсус савол ва топшириқлар воситасида доимо таълим олувчида воқеаларни кўрилаётган давр билан солиштириш талаб қиладиган вазиятни ҳосил қилиш муҳим. Шунинг учун курслараро боғланишни қўллаш билан ўқитувчи биринчидан таълим олувчиларга математика оид тушунчаларни таққослаш лозимлигини кўрсатса, иккинчидан ўзига хос хусусияти эътиборга олинишини уқтиради;

❖ математикани инсонпарварлаштириш тамойили, эски қарашларга чек қўйиб, ўқув материални умуминсоний характердаги мазмун билан бойитиш, таълим олувчилар шахси, ахлоқий сифатларини шакллантириш билан инсоний фазилатларини камол топтиришни кўзда тутади;

- математикани ўрганишда ўқув материалнинг таълим-тарбиявий жиҳатдан муҳимларини ажратиш тамойили. Таълим олувчиларнинг билиш фаолиятини ривожлантирувчи ҳамда тарбиявий жиҳатдан муҳим ҳисобланган математикага оид тушунча, атама кабиларни ажратиш олиш кўникмасини шакллантириш уларда математика фанига бўлган қизиқишларини кучайтириб, билимларини интеграцион тарзда пухта ўрганишларига ёрдам беради. Улардан муҳим фикрни муҳим бўлмаган фикрдан ажратиш кўникмасини шакллантириш бир қатор дидактик шароитлар: ўқитувчининг ушбу фаолият тарзи, моҳияти, тузилиши ва мезонлари бўйича мавжуд билимлари; ўқув материали ва дарс мақсадининг хусусиятлари; таълим олувчининг ўқув-билув имкониятлари билан боғлиқ. Бу тамойил асосида ўқитиш уларни ортиқча ўқув юкидан ҳоли қилиш билан бирга тегишли

маълумотни улар хотирасида узок сақлаш қобилияти ҳамда дарслик матни бўйича оддий режа тузиш малакасини ривожлантиради.

- математика таълимига табакалаштирилган тарзда ёндашиш тамойили. Таълим олувчиларнинг қобилиятлари ва имкониятларига мувофиқ равишда мазкур фанга бўлган қизиқишларини ошириш ва у билан шуғулланишнинг ўзига хос йўллари ривожлантириш курслараро узвийликни таъминлашда муҳим. Уларнинг билим олишга бўлган эҳтиёжларини янада тўлиқроқ қондиришга йўналтирилган дидактик чоралардан бири математика таълими мазмунини табакалаштириш деб ҳисоблаш мумкин. Бундай ёндашув асосида таълим олувчилар математик билимларининг узвийлигини таъминлаш учун курслараро боғланишга оид амалий топшириқларни бажаришда турли тайёргарликка эга бўлган таълим олувчининг ҳар бирида мавжуд бўлган ўқув имкониятлари ҳисобга олиниши зарур. Ўз билимларини қўллаш орқали индивидуал ютуқларга эришганларни рағбатлантириш кўзда тутилиши лозим. Бу соҳада математикадан олиб бориладиган дарсдан ташқари ишлар ҳам ўқитишни табакалаштириш учун катта имкониятларни очиб беради;

❖ таълим ва тарбия бирлиги тамойили. Таълим олувчида ватанпарварлик ва миллий ғурур ҳиссини тарбиялашда математика таълимининг роли бекиёс. Ватанимиз умумжаҳон цивилизацияси бешикларидан бири бўлиб, аждодларимизнинг барча жабҳадаги яратувчанлик фаолияти дилларни ғурурга тўлдиради. ДТС ва фан дастури талаблари математикага оид материалларни ўрганиш ва улардан ўринли фойдаланиш масаласини ўқитувчининг ўзи ҳал этишини кўзда тутади;

- ўқитувчи, тарбияловчи, ривожлантирувчи таълим тамойили – математика курслариаро алоқалардан мақсадга мувофиқ фойдаланиш, ўқитишнинг таълим берувчи, тарбияловчи ва ривожлантирувчи вазифаларини чамбарчас боғлиқ ҳолда олиб боришга хизмат қилади. Ўқитишнинг таълим берувчи вазифалари таълим олувчилар қандай билим, тушунча ва хулосаларни ўзлаштиришлари зарурлигини белгиласа, тарбияловчи вазифалар улар шахсининг маълум эътиқод ва ахлоқий сифатларини шакллантиришга қаратилган. Ривожлантирувчи таълим эса математикага оид материални ўрганиш муносабати билан уларда қандай кўникма ва малакалар шаклланиши ҳамда умумий тафаккурнинг қайси жиҳатларини ривожлантиришга эътибор беради. Шунингдек, билимларни эгаллаш ва таълим олувчиларни ҳар томонлама камол топтириш жараёнлари орасида узлуксиз алоқалар ўрнатилишини талаб қилади. Ўзлаштириладиган билимлар ҳосил қилинадиган кўникма ва малакалар учун асос бўлиб хизмат қилади. У юқорида қайд қилинган интегрatív дарсларда таълим олувчиларда мустақил фикр юритиш, материални таҳлил қилиш, ўхшашлик ва фарқ қилувчи хусусиятларига қараб таққослаш, фактлар ўртасида мавжуд бўлган сабаб-натижали боғланишларни аниқлаш каби кўникма ва малакаларни ҳосил қилишга кўмаклашади;

- кўрсатмалилик тамойили. Ўқитишнинг оғзаки, амалий, кўрсатмали методлари нафақат математика фанига балки, барча фанлар учун баробар хизмат қилади. Шу билан бирга математика таълимида кўргазмали идрок катта имкониятларга эга. Эслаб қолишда кўргазмалиликнинг ўзи эмас, балки уларнинг амалий фаолият билан бириктирилиши юқори самарадорликка эга бўлади. Кўпинча бу тамойилни ўқув-билиш фаолиятидаги хусусийдан-умумийга, аниқдан мавҳумга ўтишни, бошқа ҳолларда эса мавҳумдан муайян тушунча ва фактларга ўтиш тарзида талқин қилинади. Математика таълимида асосан иллюстрация методи - плакатлар, стенд, чизмалар, расмлар, фотосуратлар, жадваллар кабиларни кўрсатишни ўз ичига олса, намоёиш этиш методларига - дарс жараёнида техник намоёиш, яъни янги педагогик технологияга мувофиқ замонавий компьютер ва ахборот коммуникация тармоқлари ёрдамида компакт дискда электрон китоблардаги мавзуларни экранда ёритиш, мавзуга оид видеоматериаллар киради. Мазкур тамойил кўрсатмали методни танлашда унинг илмий-дидактик вазифаларини назарда тутиб, мақсадга мувофиқ фойдаланишга диққатни қаратади.

Умуман, юқоридаги тамойиллар математикадан курслараро алоқаларни ўрнатиб таълим узвийлигини таъминлаш ва уни амалга жорий қилишнинг методик шароитларини ишлаб чиқишда таянч ҳисобланади. Бундан ташқари турли синов материаллари - методик тавсиялар, дарс ишланмалари, чизма, жадваллар, бошкотирмалар, назорат ва бошқа дидактик материаллар ва қўлланмаларни тайёрлашда ҳам ушбу тамойилларга суянилади.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Абдуллаева К. Таълимда узлуксизликни таъминлаш // «Маърифат». -2000.
2. Бабанский Ю.К. Х,озирги замон умумий таълим мактабларида уқитиш методлари. -Т.: Уқитувчи, 1990. -229 б.
3. Рыбинцев П. Межпредметные связи - основа повышения качества знаний // ж. Советская педагогика. -1984. -№ 7. -С. 141-542.
4. Тўлаганов Т., Аширов М. Фанлараро алоқа билимларни бойитиш омили // ж. Халқ таълими. -2000. -№1. -25 б.
5. Шодиев Д. Таълим тизимида узлуксизлик ва узвийлик // ж. Таълим тараккиёти. -2001. - №4. -Б. 39-44.



## ДАРС ЖАРАЁНИДА КУРСЛАРАРО УЗВИЙЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ АСОСИДА ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИГА ЭРИШИШНИНГ ШАКЛИ ВА УСУЛЛАРИ

*Эшматов Ихтиёр Ёкубович*

*Астрахань давлат техника университети  
Тошкент вилояти филиали.*

*Ёкубов Бехрузбек Ихтиёр ўғли*

*Тошкент давлат транспорт университети талабаси.*

Физика фанини ўқитишда курслараро алоқаларнинг шаклланиши ва уни амалга ошириш билан боғлиқ узвийликни таъминлашнинг ўзига хос хусусияти фан асослари, фаннинг тузилиши ва мазмуни, унинг ДТС, дастур, ўқув режасидаги мақсади ва ўрни билан белгиланади. Ҳар бир ўқув фани, шу жумладан, физика алоҳида билимлар тизими - тушунчаларнинг ўзига хос мантикий боғлиқлигидан иборат. Талабалар уларни ассоциацияларнинг (объектив воқеликни ақс эттиришнинг барча шакллари ўртасидаги боғланиш) ички тизимини ҳосил қилиш йўли орқали ўзлаштиради. Бундай ассоциацияларни яратишда ўзаро алоқалар асосий рол ўйнаши узлуксиз таълимда алоҳида долзарблик касб этмокда. Чунки, талабаларнинг йилма-йил олган билимлари бир-бири билан мантиқан боғлаб борилмаса, улар бўш, билим, кўникма ва малакалар билан таълим муассасасини тугатиши мумкин.

Илмий-методик адабиётларни таҳлил қилиш, педагогик амалиётни кузатиш, курслараро боғланишнинг қуйидаги шакллари ажратиб кўрсатишга асос беради:

- **хронологик (ретроспектив) алоқалар:** янги мавзуни тушунтиришда физика курсидан илгари маълум бўлган ўқув материалга таяниб талабаларга мурожаат қилиниши;
- **перспектив алоқалар:** келгусида системали ўрганиш кўзда тутилган материалларга олдиндан мурожаат қилиш;
- **синхрон алоқалар:** физикаа курсларида мазмунан яқин бўлган икки мавзуни ўрганишнинг бир вақтга тўғри (мос) келиши;
- **ахборот берувчи алоқалар:** назария, физикаага оид тушунчалар даражасидаги алоқалар.
- **физика фактлар:** билимларнинг оддий туридан ҳамда таҳлил қилиш ва умумий хулоса чиқариш учун манба материал ҳисобланиб, мураккаброқ билимлар таркиби бирликлари - физика тушунча, назария, қонуниятларни ўзлаштиришда асос бўлиб хизмат қилади;
- **физика тушунчалар:** инсон тафаккури шаклларида, фанларнинг умумлаштириш усулларида бири бўлиб, унинг ёрдамида нарсаларнинг умумий, муҳим белгилари билиб олинади;
- **методологик характердаги алоқалар.** Бу алоқалар талабаларнинг физикаага оид тушунчаларини ўрганиши натижасида оламни англаш, жамият тараққиётининг яхлит моҳиятини тафаккур орқали идрок этиши билан шаклланган, умумлашган аниқ тасаввурлари, тушунчаларида ҳамда дунёқарашга оид тамойилларда ақс этади;
- **фаолият йўсинидаги алоқалар.** Булар кўникма ва малакалар системасида амалга оширилади. (масалан, ижодий фикрлаш, ўқув-коммуникатив, ташкилий каби кўникма ва малакалар). Мазкур ривожлантирувчи таълимнинг марказида шахсни таълим-тарбия воситасида мақсадга эришишга йўналтирилган умумий ва интегратив қобилият, тафаккурини шакллантириш ётади. Шунингдек, талабаларнинг курслараро физика билимларни тезлаштиришларида бир қатор ушбу фанга хос бўлган кўникмалар, материални таҳлил этиш, таққослаш қабиларни ривожлантириш назарда тутилади. Талабаларни қисқа вақт ичида курслараро боғланиш ёрдамида фаол равишда билимларини жалб қилиб, материални идрок этишлари учун педагог оддий методик усулларни қўллашдан мураккабга қараб бориши лозим бўлади.

Булар жумласига қуйидагилар киритиш мумкин: эслатиш (мисоллар, далиллар келтириш кабилар), топшириқ ва саволлар (мантиқий, муаммоли кабилар) бериш, таққослаш, турли жадваллар тузиш, мавзуларни бирлаштириб интеграцион дарс ўтиш, янги ўрганилаётган материални бошқа курсдан маълум бўлган материал билан боғлаш орқали таҳлил қилиб умумлаштириш, янги педагогик технология асосида дарс ўтиш, қўшимча манбалардан фойдаланиб дарс ўтиш, умумлаштирувчи-такрорлаш дарсларида курслараро алоқалардан фойдаланиш.

Қуйида ушбу қўлланилган методик усулларнинг ҳар бирини дидактик жиҳатдан кўриб ўтамиз: физика курсидан талабаларга илгари маълум бўлган ўқув материалларига муружаат қилиб эслатиш асосан умумлаштирувчи-такрорлаш дарсларида қўлланилади. Бу уларнинг янги материални ўзлаштиришини осонлаштириш билан бирга билимларини янада мустаҳкамлайди. Шунини таъкидлаш керакки, ўтилган материални уларнинг ёдига тушириш билан муаммоли вазият яратиш орқали, улардаги мустақил мушоҳада ривожлантирилиб, янги материални узвий боғлаган ҳолда пухта ўзлаштиришга замин тайёрлаш мумкин. Турли топшириқлар ва саволлар ёрдамида ўзаро боғланишлардан фойдаланишда ўқув қўлланмадаги савол ва топшириқларни келтириш мақсадга мувофиқ. Чунончи, талабаларнинг физикага оид материални таҳлил қилиб, хулосаларини асослаш кўникмасини ривожлантиришга қаратилган. Ўйлаб кўриб хулоса чиқаринг рўқни остида берилган қуйидаги савол ва топшириқларга эътибор қаратилади: .... боиси нимада деб ўйлайсиз? .... нималарда кўринади? ... иборани шарҳлаб беринг. Таққослаш усули талабаларнинг ўз тасаввурларини ҳосил қилишда, уларни жараёнларнинг моҳияти, сабаблари ҳамда натижаларини тушунишга олиб келишида муҳим.

Ўтмишга саёҳат қилишни физика ўқув ўйинлари воситасида амалга ошириш яхши самара беради. Ушбу такрорлаш дарсида қуйидаги ўқув ўйини таклиф қилинади: “Учар гилам”да мозийга саёҳат. Физикани ўқитишнинг шакл ва усуллари тизимида ўқув ўйинлари алоҳида ўринни эгаллайди. У янги педагогик технологиянинг таркибий қисмларидан бири. Ўқув ўйинларидан фойдаланиш талабаларнинг мустақил мантиқий фикрлаш қобилиятини ривожлантиради ва билимини пухта бўлишига замин яратади. Физика ўқув ўйинларини икки гуруҳга бўлиш мумкин. Биринчи гуруҳга 2-6 талабага мўлжалланган кичик физика ўйинлар: муаммонома, чайнворд, топшириқнинг жавобини топиш, турли викторина саволларига тўғри жавоб бериш кабиларни киритиш мумкин. Иккинчи гуруҳга эса барча талабаларни, баъзида бир неча гуруҳ талабаларининг иштирокини талаб этувчи конкурслар, ишчанлик, тимсолли ўйинлар киради. Уларнинг ичида физика тимсолли ўйинлар талабаларнинг билиш фаолиятини жамоа тарзида ташкил қилиш шакли ва ўзига хос хусусиятларга эга бўлган ўқув ўйин туридан биридир. Жумладан, мазкур ўйин мобайнида талабалар ўйин сюжети ҳамда ўзларига тақсимланган тимсоллар асосида тасаввур қилинган воқеаларни аниқ мақсадга қаратилган ўйин ҳаракатлари орқали амалга оширади. Талабаларда физикани яхши билиши, ўрганилаётган топшириқларнинг аҳамиятини таҳлил қилиш ҳамда моҳиятини тушуниш кўникмасининг шаклланганлиги ушбу ўйин муваффақиятини таъминлайдиган муҳим омилдир. Шу билан бирга педагог талабаларни ўйинга психологик жиҳатдан тайёрлаши ҳам муҳим. Мазкур ўйинни физика фанидан умумлаштирувчи дарсларда қўллаш мақсадида талабаларга қуйидаги топшириқ берилади: ҳозирги фантастик ёзувчилар келажакда истаган мамлакатга етказадиган учувчи вақт аппарати - учар гиламни яратиш ғоясини илгари сурмоқда. Фараз қилинг, сизлар вақт аппаратида хоҳлаган мамлакатингизга саёҳат қилиш имкониятига эгасиз. Шундай экан, учувчи вақт аппаратида учини дастурини тузинг. Талабалар бу каби топшириқларни қизиқиш билан қабул қиладилар ва бажарадилар.

Физика таълимида синхрон (бир вақтда, ўзаро мос равишда) алоқаларни турли йўллар билан амалга ошириш мумкин. Жумладан, синхрон ва узвий хронологик жадвалларни талабаларнинг педагог топшириғига кўра тўлдиришлари физика курсларида мавжуд бўлган бир турдаги фактлар ҳақидаги билимларини тизимлаштиради.

Ўзаро боғланган ва бир-бири ўртасида нисбат аниқланган хронологик саналар тизими талабалар онгида хронологик асос яратиб, физикага оид топшириқларни пухта

бажаришга ёрдам беради. У каби топшириқлар талабаларнинг хронологик билимини мустақкамлаб, физика материални таҳлил қилиш кўникмасини ривожлантиради. Бу борада хронологик бошқотирмаларни ечиш уларда физикага бўлган қизиқишларини оширади. Илмий муаммони амалиётга жорий қилишнинг самарали шаклларида бири ҳам физика курсининг айрим мавзуларини бирлаштирган ҳолда махсус дарслар ташкил қилишнинг йўллари ва усуллари билан тажриба ўтказётган педагогларни қуроллантириш талабалар билим сифатини ошириш омили деб қаралади. Дарснинг тарбиявий вазифаси: ... ҳаёти ва ижоди мисолида унинг тараққиётни ҳар томонлама қарор топтириш йўлидаги мислсиз матонатини кўрсатиш орқали талабаларда фахрланиш туйғусини камол топтириш билан Ватан, халқ жамият равнақи йўлида фидойилик ҳиссини тарбиялаш. Дарснинг таълимий вазифаси: .. нинг қўшган ҳиссаси бекиёс эканлиги, у бугунги кунда ҳам ҳаётимизда улкан аҳамият касб этиб, Ўзбекистоннинг халқаро обрўсини ошириш йўлида хизмат қилаётганини кўрсатиш билан талабалар билими ва тушунчаларини шакллантириш. Дарснинг ривожлантирувчи вазифаси: илм, фан ва маданиятининг оламшумул аҳамиятини асослай олиш, таҳлил қилиш асосида индуктив ва дедуктив хулосалар чиқариш, манбалар билан мустақил ишлаш кўникма ва малакаларини ривожлантириш.

Физика фани асосларини қиёслаб, интеграцион ёндашиш асосида ўрганиш шубҳасиз, талабаларнинг физикага оид билимини шакллантириб, уни пухта бўлишида муҳим ўрин тутаяди. Уларга янги мавзунини баён қилишнинг турларидан (муҳим жиҳатларини ажратган ҳолда баён қилиш, тушунтириш) фойдаланиш мақсадга мувофиқ. Муҳими, дарс жараёнида уларга бошқа физика курсидан маълум бўлган назарий материалларни ҳисобга олиш зарур. Педагог дастлаб кўрилатган физика каби дунёвий илмлар ўқитилгани, илм-фан ривожланганлигини таъкидлайди. Талабалар томонидан мавзу мазмунини кенгроқ ёритувчи дидактик материаллар ва физикага оид манбалардан самарали фойдаланган ҳолда жавоб берилиши шубҳасиз, уларнинг тафаккурини ривожлантиради. Ёзма топшириқ ишларининг айримларини текшириб, уни талабалар ўртасида муҳокама қилинган, шарҳлангандан сўнг мавзунини мустақкамловчи қўшимча савол-жавоблар билан дарс якунланади. Уларнинг билимларини узвийлигини таъминлашда бундай курслараро алоқалар муҳим ўрин тутаяди. Физика таълимида асосий тушунчалар ва уларни шакллантиришнинг узвийлигини таъминлаш масаласи тушунчаларининг мазмуни ва мураккаблигига боғлиқ бўлиб, курслараро алоқаларда муҳим рол ўйнайди. Таълимда тушунча тайёр ҳолда пайдо бўлмайди, балки у ривожланади, шаклланиб такомиллашиб боради. Тушунчаларни шаклланишида сўз, расм, жадваллар, атамалар таянч вазифасини ўтайди. Шу сабабли, дарслик ва ўқув қўлламадаги ушбу жиҳатларга алоҳида эътибор бериш зарур. Тушунчаларнинг курслараро узвий равишда шакллантириш ишларини янги материални ўрганиш ва мустақкамлаш жараёнида ҳамда такрорлаш дарсларида қўллаш мумкин. Талабалар физика курсларини боғлаб ўрганишлари натижасида илгари шаклланган билим ва кўникмалари асосида ушбу тушунчалар моҳиятини янги материал билан боғлиқ равишда атрофлича шарҳлаб бера олади. Физика тушунчалар ўртасидаги боғланиш ва муносабатлар ҳар томонлама очиқ берилиб, уларнинг маъноси чуқурроқ тушуниб етилган сари физикавий билимлар шунчалик юқорида даражада тизимлашиб, ҳар бир жараённинг ўрни шунчалик аниқроқ англаб борилади. Бундай алоқаларни амалга ошириш ва мустақкамлашда умумлаштирувчи - такрорлаш дарслари алоҳида ўрин тутаяди. Унда нафақат ўтилган ўқув материаллари фактлари хотирага туширилади, балки улар ўртасида мавжуд бўлган алоқалар ва муносабатларни вужудга келиш манбаи ва ривожланиш йўллари очиқ берилади. Бу каби айрим фактларни келтириш орқали талабалар номаълумдан маълумга қараб бориб, индуктив яъни, умумий хулосага келади. Пировардида физика курсидаги жараён ўртасидаги изчиллик, узвийлик таъминланади. Булар талабалар тафаккурини шакллантириш билан уларда келажакка хизмат қиладиган амалий хулосалар чиқаришга ўргатади.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 23 сентябрдаги “Таълим тўғрисида”ги Қонун”. ЎРҚ-637-сон. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон).
2. Абдуллаева К. Таълимда узлуксизликни таъминлаш // «Маърифат». - 2000.
3. Рыбинцев П. Межпредметные связи - основа повышения качества знаний // ж. Советская педагогика. -1984. -№ 7. -С. 141-542.
4. Сайидахмедов Н. Янги педагогик технология моҳияти // ж. Халқ таълими. -1999. -№1. - Б. 97-102.

## БАРКАМОЛ АВЛОД ВА БАХТЛИ ИНСОН: ДИАЛЕКТИК БОҒЛИҚЛИК

*Эшонкулова Нуржаҳон Абдужабборовна*

*Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)*

*Навоий давлат кончилиги ва технологиялар университети.*

Бахтли инсон ва баркамол авлод диалектик боғлиқ воқеликлардир. Ижтимоий-фалсафий асарларда бахтли инсон - баркамол авлоднинг пировард мақсади сифатида талқин қилинади. Шунинг учун ҳам гоҳо “баркамол инсон” категорияси ишлатилади, яъни бахтли инсон деганда, баркамол авлод ёки комил инсон назарда тутилади. Бизнинг фикримизча, улар ўртасида социоантропологик моҳиятда уйғунлик мавжуд. Бу уйғунлик аввало, уларнинг ижтимоий аҳамиятга эга воқеликлар эканида кўзга ташланади. Аждодларимиз азалдан комилликни бахт, омад, иқбол маъноларида тушунганлар. Улар учун комиллик бахт-саодат тимсоли, ифодасидир. “Комил инсон, - деб ёзади Н.Комилов, - тасаввуфий ахлоқий қарашларни умумлаштириб, бир идеал, барча дунёвий ва илоҳий билимларни эгаллаган, руҳи Мутлақ руҳга туташ, файзу кароматдан сероб, сийрату сийрати саранжом, қалби эзгу туйғуларга лиммо лим покиза зот... Унда тўрт малак Жабройил, Мекоил, Исрофил ва Азроилнинг (Азроиллиги нафсининг қотили эканлиги), Хизрнинг пайғамбарлиги, офтобнинг саховати мавжуд. Унинг кўнгли жоми гетинамодай (дунёни кўрсатувчи жом қадах) етти фалак ва ўн саккиз минг оламни акс эттириб, ғайб асроридан хабар бериб туради. Уни яна Одил, Оқил, Фозил, Фақр хазинаси, Иксири Аъзам (Улуғ малҳам), Қибрити Аҳмар (мисни олтинга айлантирувчи жавҳар) сифатлари билан тавсиф этадилар. Комил инсон, шундай қилиб одамзод орзу қилган жамики эзгу хислатларнинг ифодачиси, у гўё Мутлақ илоҳ билан инсоният ўртасида восита бўлувчи муқаддас хилқат. Бундай мартабага мушарраф инсонларни валиуллоҳ, қибла, қутб, ғавс (мададкор), автод (устунлар), абдол (бадал қилинган) деб ҳам улуғлаганлар”[1]. Кўриниб турибдики, Н.Комилов таърифида трансцендентал, диний ёндашув устун туради. Унинг ўзи “одамийлик илоҳийликда”[1], деб даъват этади. Ҳа, тасаввуфий таълимотларда комиллик, аввало, илоҳийликда экани таъкидланади. Нақшбанд “Дил ба ёр, даст ба кор” (“Дил ёр билан, қўл иш билан банд бўлсин”) ёки “Дил ба ҳақ, худ ба халқ” (“Дил яратувчи билан, ўзинг эса одамлар билан”) деган ғояни илгари суриб [2], тасаввуфий қарашларга реал ҳаётиликни олиб кирган бўлсада, узоқ вақтларгача динийлик устун бўлиб келди. Натижада комиллик ноёб, реал ҳаётдан узоқ, оддий кишиларга мавҳум тушунча, даъват бўлиб қолди.

Аммо Азизиддин Насафий комилликни реал ҳаётга талаблар, инсоний фазилятлар билан боғлиқлигини фалсафий илмий асослашга интилагани билан мутасаввуфлардан фарқ қилади. Унинг ёзишича “комил инсон халқ орасида ростликни қарор топтириш ва ёмон расму-одатларни халқ орасидан кўтариш ва халқ орасида яхши, хайрли қонун- қоидаларни жорий этиш ва одамларни Худога даъват қилиш ва охиратни мадҳ этиш ва дунёни ёмонлаш ва дарвешликнинг фойдасини кишиларга тушунтиришдан кўра афзалроқ тоатни билмайди. Шу йўл билан одамлар қалбида дарвешликка меҳр уйғотади ва бойлик билан шаҳватга нафрат пайдо қилади... халқни бир-бирига мушфиқ меҳрибон қилади, токи одамлар бир-бирларига озор бермасинлар ва бир-бирларини суясинлар. Ва одамларга бир-бирларининг тинчлиги, омонлигини сақлашни буюрсин, токи одамлар ҳам тил билан, ҳам қўл билан бир-бирларини қўлласинлар ва бунга аҳд қилсинлар, бу аҳдни бузмасинлар ва агар бузсалар иймонсиз бўладилар.”[1] Насафий сўзларидан комиллик социумда, инсонлар даврасида, “яхши сўз, яхши феъл, яхши ахлоқ ва маориф”ни эгаллаган кишилар комилдир[1]. Шу билан бирга, мутафаккир биз учун ўта муҳим бўлган бир масалани айтиб ўтади. У ёзади: “комил инсон шунча камолот ва улуғлиги билан қудратсиздир ва у номурод бахтсиздир, у муросасозлик билан умр ўтказади. У илм, ахлоқ жиҳатидан комилдир, аммо қудрат ва мурод жиҳатидан ноқисдир... Баъзи комиллар одам боласи орзу мурод билан қудрат ҳосил қилолмагани, ҳаракат қилиб, истагига етолмаганини кўриб,



бунинг иложини тополмай, ахири тарки дунё қилдилар ва таот билан фароғат топдилар...” [1] Кўриниб турибдики, Насафий комилликни маънавий руҳий хислатлардан қидиради, шу билан бирга дунй ташвишларига боғлангани, умрининг қисқалиги ва истакларининг барчасига етолмагани учун “номурод бахтсиздир” дейди. Баркамол авлодни тарбиялаш эса инсоннинг ҳам жисмоний, ҳам маънавий комил бўлишига эришишни мақсад қилиб кўяди. Президентимиз Ш.М.Мирзиёевнинг “халқимиз эртага эмас, бугун бахтли, фаровон яшашни истайди”, деган сўзларида баркамолликка ҳам тааллуқли даъват бор. У қўл қўйган илк қонун ҳам “Давлат ёшлар сиёсати ҳақида”ги Қонундир. Унда давлатнинг вазифаси “соғлом ва гармоник ривожланган ёш авлодни тарбиялаш” экани таъкидланади[3].

Бугунги кунда жамиятимизда баркамол авлодни шакллантиришга қаратилган барча чора-тадбирлар ёшларни интеллектуал ва ахлоқан етук, жисмонан бақувват, жамият ва келажак учун масъуллиқ ҳисси шаклланган, ватанпарвар ва элпарвар, бахтли инсонлар бўлиб етишишини назарда тутди. Бу аслида ота-боболаримиз, буюк аجدодларимиз орзу қилган инсонлардир. Таълим-тарбия ва маърифат соҳаларида ҳам ошкоралиқ, танқидий таҳлил руҳида эришган нарсаларни баҳолаш, халқ ва инсон манфаатларига хизмат қилишни олий мақсадга айлантириш ҳаёт тарзимизга айланиб бормоқда. Шунинг учун ҳам тарбия масалаларига ҳаётдаги социодинамик ўзгаришлар, халқ ва инсон манфаатлари нуқтаи назаридан ёндашиш талаб этилади, барпо этилган билим юртлирининг сони эмас, балки таълим-тарбия сифати муҳимдир. Рақобатга қурилган глобал дунё ёшларимизни шундай мураккаб вазиятда халқ, миллат манфаатлари билан яшашга ундайди [4]. Ватанга хизмат қилиш шунчаки шиор эмас, у шахснинг ҳам, халқнинг ҳам фаровон, тинч ва бахт - саодатли яшаш кафолатидир.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. Тошкент: Ёзувчи, 1996. -143 ; 148- 149 ; 147;150 б.
2. Қаюмов А. Бу оҳанг ила бўлғасен Нақшбанд... Тошкент: 1993. - 4
3. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. Давлат ёшлар сиёсати тўғрисида.//Халқ сўзи, 2016, 15 сентябрь.
4. Eshonkulova N.A. Philosophical study of socio-anthropological aspects of the index of individual happiness//cyberpsychology, behavior, and social networking. - Volume 24, Number 12, 2021

## DENTAL IMPLANTATION CARE PROCESS

*Yuldashev Azizjon Muratbayevich*  
*Private life clinic, Gurlan district center,*  
*Khorezm region, Uzbekistan.*

Currently, dental implantology is one of the most relevant fields of dentistry. In recent years, there has been an increase in the number of patients suffering from partial or complete absence of teeth. The method of dental implantation is a priority method of restoration of dental defects, which greatly helps to solve the problem of rehabilitation of patients with dental diseases accompanied by tooth and periodontal tissue disorders. Currently, dental implants are widely used in surgical dentistry. With an increase in the number of implanted patients, the number of complications increases proportionally at all stages of treatment, including bone grafting, implant prosthesis, alveolar process of the jaw before implantation. At present, implant surgery has a consistently positive result, but in some cases a complication in the form of peri-implantitis can occur, which in some cases leads to malfunction of the installed implants and deterioration of the quality of life of patients.

The manufacturer's lifetime warranty on successful implants and dental structures sometimes reassures patients, making them feel that implants do not need care. No special procedures are really required. But the myth that nothing can happen with implants that are not subject to caries is a myth.

There are two phases of dental implant care: the postoperative period and normal care.

- Mild swelling may occur within 2-3 days after implant placement. It is therefore recommended to use cold compresses to prevent swelling and bruising. Apply ice to the cheek for the first 24 hours after tooth implantation.

- Artificial teeth need to be relieved of the burden of chewing. Chewing food with back tooth implants is strictly prohibited for the first three days.

- After implantation, you should eat foods rich in minerals and nutrients or crushed foods. The food should not be too hot or too cold. Do not eat hot food or drink hot beverages for 3-4 hours after surgery. Then, the anesthetic effect may last for several hours after the implantation procedure is completed. As a result, the lips and tongue become sensitive. There is a high risk of injury when chewing food. Second, the postoperative wound takes several hours to "collect" well with blood clotting. While eating, you can touch the wound, which causes bleeding and increases swelling. It is recommended to exclude hard and spicy foods from the diet for several days to prevent postoperative wound and damage to the surrounding mucous membrane.

Eliminate physical activity for at least 3 days. Physical activity increases heart rate, blood pressure, and body temperature. As a result, local blood flow in the wound area is increased, i.e. there is an increased risk of bleeding and suture separation due to swelling.

- You should avoid the implant site to avoid mechanical damage when brushing your teeth.

- Avoid smoking for the first three days after implantation. Exclude alcohol. Brush your teeth with an antiseptic solution after each meal.

- It is important to carefully remove food debris between teeth using special brushes or floss.

- Make sure you come to the implantologist for a dental checkup.

- If there is tumor growth and severe toothache, consult a doctor immediately.

Hygienic care of dental implants. We clean our teeth to prevent caries and the need for dental implants - to remove contamination from the enamel and restore its original color, and most importantly, to prevent the accumulation of bacteria in the gum area. It is very important to take care of dental implants to prevent the development of periodontal disease.

The development of periodontal disease after implantation leads to the impact of the cervical part of the implant, which leads to inflammation and rejection of the artificial tooth. It is recommended to clean your teeth once every six months with an ultrasound or airflow procedure. Airflow cleaning is done by applying pressure to the teeth with a special fine and non-abrasive

powder air-water mixture based on sodium bicarbonate. Each tooth and crown is not only cleaned, but the surface is smoothed, which resists bacterial colonization. If the patient is unable to follow the doctor's instructions, it is better to resort to traditional prostheses. Preparation for surgery a mandatory procedure before implantation is a deep cleaning of the oral cavity. Subsequent treatment of periodontal tissue will vary depending on the diagnosis. Periodontitis often requires: antibiotic therapy, taking anti-inflammatory drugs, rinsing the mouth with antiseptic to remove the infection that caused the inflammatory process. Surgical treatments are used with advanced periodontitis: reduction of the gum pocket, gum transplantation, bone grafting. In the case of periodontitis, a detailed history should be obtained, as the disease is often associated with diabetes, heart disease, and respiratory disease.

Diseases:

- diabetes mellitus;
- smoking, alcoholism;
- diseases of the immune system;
- allergies;
- severe stress;
- bruxism (grinding of teeth during sleep).

The control of the chronic diseases listed above requires the cooperation of the periodontologist with the primary care physician. the physician's primary goal will be to determine the condition of the patient's gums and jaw bones, whether bone grafting or gum transplantation is necessary. If these surgeries are needed, then implant placement is delayed from a few months to a year, depending on the complexity of the situation. When positive results are achieved, the doctor proceeds to dental implantation, which consists of the following steps: Placement of titanium screws (implants) in the jaw at the same time as removing the teeth. Prior to implantation of the rods, complete curettage (cleaning) of the tooth sockets is performed. Abutment and gingiva former installation. Depending on the type of implant, this may be on the day of implantation or 3-6 months after surgery. After 10 days - the installation of a temporary prosthesis (crown) on pre-prepared plaster.

A few months later - the installation of a permanent prosthesis. Decreased bone mass; existing bone tissue loosens, which prevents osseointegration of the artificial root and creates deep periodontal pockets. Under such conditions, implant placement is very dangerous. It is more likely to loosen and this leads to an inflammatory process, infection, peri-implantitis and consequent structural rejection. Of course, in the acute phase of the disease, no implantologist will perform the operation. First, existing diseases of the oral cavity should be treated, and then directly implanted. Sufficient time should be set aside for treatment procedures. How long it takes for periodontal tissue to recover depends on the stage of the disease. The sooner the disease is controlled, the easier and faster the treatment will be.

In summary, in severe forms of periodontitis, it is not possible to save your teeth, so implantation is the best treatment. However, the success of prosthetic implants largely depends on high-quality preparation before implantation and compliance with all recommendations for patient care of the oral cavity. Given the high risk of infection with implantation technologies for periodontitis and periodontal disease, it is advisable to perform as few surgeries as possible in periodontal tissue disease.

#### **Literature:**

1. Исследование микрофлоры в области соединения дентального имплантата с абатментом / А. Т. Яковлев, Е. Ю. Бадрак, Д. В. Михальченко и др. // ВНМЖ. -2015. - № 1.
2. Повышение эффективности остеоинтеграции дентальных имплантатов путем воздействия на организацию периимплантатной кости транскраниальной электростимуляцией в эксперименте / А. В. Порошин, В. И. Шемонаев, В. Ф. Михальченко и др. // ВНМЖ. -2014. - № 4 (44). - С. 34.

## МАҲАЛЛИЙ БЕНТОНИТЛАР АСОСИДА ЎРАМА ИЗОЛЯЦИОН МАТЕРИАЛЛАР СИНТЕЗ ҚИЛИШ ИМКОНИАТЛАРИ

**Юлдашев М.Х.**

*Урганч давлат университети магистранти.*  
+998999663731

**Жуманиязов М.Ж.**

*Урганч давлат университети профессори.*

**Аитова Ш.К.**

*Урганч давлат университети PhD.*

Ушбу илмий ишда изоляцион материалларни маҳаллий бентонитлар асосида ишлаб чиқариш имконини берадиган, турли усуллар ва моддалар ёрдамида фаоллаштирилган ва модификацияланган бентонитларни олиш, аввалдан белгилаб берилган техник-эксплуатацион ва сифат кўрсаткичларига эга товар маҳсулотини олиш маҳаллий бентонит асосида ўрама изоляцион материал олиш имконини берувчи тадқиқодлар натижалари келтирилган.

Дастлаб тажриба намуналари ҳўл усул билан тайёрланган, яъни аввал шихта тайёрланиб, компонентлар биргаликда шарли тегирмонда майдалаб, ҳосил бўлган шликерни қуритиш ва пресс-кукун тайёрлаш, пресс-кукунни тиндириш ва пресс кукундан ярим курук усулда пресс-қолипларда намуналарни қолиплаш йўли билан тайёрланган [2]. Тажриба намуналарини юқори ҳароратларда қиздиргичли лаборатория печларида 800-1150°C ҳарорат оралиғида қуйдириш йўли билан амалга оширилган.

Ўзбекистондаги мавжуд бентонит конларидаги бентонит гилларининг кимёвий ва минералогик таркиблари ва физик-кимёвий хусусиятларини ўрганиш натижалари, намуналарининг бўқиш коэффициентлари келтирилган ва қуйидаги усул билан аниқланган. Бентонит гилларининг бўқиш коэффициенти бентонит гилларининг асосий физик хусусиятларидан биридир [1]. Лаборатория шароитида бентонит гилининг бўқиш коэффициентини аниқлаш учун Қорақалпоғистон Республикаси Қушканатау кони бентонит гилидан намуналар олинган, уларнинг ўртача кимёвий таркиби қуйидаги жадвалда келтирилган.

### **Қушканатау кони бентонит гилининг кимёвий таркиби.**

SiO <sub>2</sub>	Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	Fe <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	TiO <sub>2</sub>	P <sub>2</sub> O <sub>5</sub>	CaO	MgO	SO <sub>3</sub>	Na <sub>2</sub> O	K <sub>2</sub> O	п.п.п
61.38	15.90	3.27	0.49	0.06	1.40	1.52	0.10	2.00	2.80	10.28


Бентонит гилларининг бўқиш коэффициенти [3] манбада келтирилган усул ёрдамида ўрганилди. Синов намуналари лаборатория печида 1 соат давомида 105-110 °C ҳароратда қуритилган, шундан сўнг улар хона ҳароратига қадар совутилгандан сўнг лаборатория чинни ҳавончасида майдаланган. 100% гача 100 лик тўрли стандарт элакдан ва камида 65% гача 200 лик стандарт элакдан ўтказилди. Печда яхшилаб қуритилиб, синов намунасини алоҳида идишга жойлаштирилди. Лой намунаси солинган идишни қуритиш печига қўйиб, 105 °C да доимий массагача қуритилади. Қуритилган ва майда майдаланган минерални тортиш қоғозига солиб 2,00 г лойни ўлчаб 100 мл лик цилиндрга тоза 90 мл сув қўшилади. 0,1 г дан ортиқ бўлмаган лойни тарози идишидан олиб 30 сония давомида аралаштирилди. Лой минералининг намланишига, бўқишига эътибор бериб ва ўлчов цилиндрининг пастки қисмига жойлаштиришни кузатилди, минемал вақт - 10 минутни ташкил этди. Лой минимал кукунининг қолган қисмини ҳам 10 дақиққалик даврлардан кейин 2,00 г намуна барчаси қўшилади. Шиша тиқин билан цилиндрни ёпиб камида 16 соат давомида бузилмаган ҳолда сақланди. 16 соатлик гидрация давридан кейин, бўқиш даражасини миллилитрда (мл) ёзиб, чўкма лой минералининг юқори қисмида 0,5 мл гача юқори юзада чўкма лой минералидан ташқи кўринишдаги аниқ ўзгаришларни кузатдик.

Хар қандай паст зичликдаги флокуляцияланган материал бу ўлчов учун (баъзан очдан ок ранггача) эътиборга олинмайди.

**Кушканатау бентонит гили дастлабки намуналарининг бўкиш коэффициентлари.**

Намуна №	Намунанинг бўкиш коэффициенти, 2г/мл	Изоҳ
1	10	Эритманинг чўкма қисми чегараси яққол намоён бўлади
2	7	Эритманинг хира қатлами, ундан юқорида эса энг майда заррачали қатлам кузатилади
3	10	Эритманинг чўкинди қисми яққол чегарада ажралиб туради
4	10	Эритманинг хира қатлами, ундан юқорисида эса кузатилади, ундан юқорида эса энг майда заррачали қатлам жойлашади

Олинган натижаларга асосан бентонит гилини ўрама изоляцион материалнинг сув ўтказувчанлигини камайтириш учун фойдаланиш мумкинлиги бўйича баҳолаш мумкин.



**Кушканатау кони бентонит гилининг микроскопик таҳлили.**

Кушканатау кони бентонит гиллари асосида ўрама изоляцион материалларининг янги таркибий қисмларининг технологик ва эксплуатацион хусусиятлари ўрганилган. Кимёвий, оптик, электрон микроскопик таҳлиллари олинди.

Хулоса ўрнида, кенг қамровли тадқиқотлар ва саноат синовлари натижасида ўрама изоляцион материаллари ишлаб чиқаришда бентонит гилларидан оқилона фойдаланишнинг амалдаги имкониятлари ишлаб чиқариш ҳажмини ошириш имкониятларини оширади.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

- 1.Сабилов Б.Т., Намазов Ш.С., Пулатов Х.Л., Таиров С.С., Мадатов Т.А., Пардаев С.Т. Комплексное исследование бентонитовых глин перспективных месторождений Узбекистана Журнал: «Universum: технические науки», Вып. 8 (77), август, Часть 3, Москва, 2020, стр.46-54.
- 2.Ниязов А.А., Мухамедьяров К.С., Сабилов Б.Т. Экологически чистый гидроизоляционный рулонный материал «UZBENT». //Архитектура и строительство Узбекистана, 2011. № 4-5. - С. 97-98. (05.00.00, №4).
- 3.Сабилов Б.Т, Эминов А.М. Исследование бентонитовых глин Узбекистана для получения гидроизоляционных материалов. Вестник Гулистанского Государственного Университета, г.Гулистан, № 1.,2013 г, стр. 41-48.



## АХБОРОТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

*Махфуза Юлдашева Қобилжоновна*  
*Сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD).*

**Анотация:** Ушбу мақолада глобаллашув жараёнлари даврида жамият, шахс ва давлат манфаатларига хизмат қиладиган соҳага оид янги тадқиқотлар ўтказиш, муаммонинг илмий, амалий ечимига доир хулоса ва таклифлар берилган.

**Калит сўзлар:** ижтимоий масофа, глобализация, ижтимоий иммунитет, ахборот макони, ахборот мониторинги, ахборот фильтри.

**Аннотация:** В данной статье представлены новые исследования в сфере, которая служит интересам общества, личности и государства в эпоху процессов глобализации, выводы и предложения по научному, практическому решению проблемы.

**Ключевые слова:** социальная дистанция, глобализация, социальный иммунитет, информационное пространство, информационный мониторинг, информационный фильтр.

**Annotation:** This paper presents new research on the sphere that serves the interests of society, individual and state in the era of globalisation processes, conclusions and suggestions on the scientific, practical solution of the problem.

**Keywords:** social distance, globalization, social immuneitet, information space, information monitoring, information filter.

Бугун илм фан тараққиёти тезкор равишда тараққий этиб бормоқда. Замоनावий цивилизация шароити эса кўплаб соҳаларда янгидан-янги илмий тадқиқотлар ўтказиш эҳтиёжини туғдиради. Жумладан, ахборот хавфсизлигини таъминлаш соҳасида. Қундалик ҳаётимизга кириб келган ижтимоий тармоқлар давлат, жамият, шахс учлигига ўз таъсирини ўтказиб келмоқда. Бунда табиий равишда ахборот хавфсизлигини таъминлаш масаласи кун тартибидаги долзарб ва муҳим аҳамият касб этиб боради. Хўш бугун илм-фан ривожидида ахборот хавфсизлигини таъминлашга доир тадқиқотлар керакми? Ушбу саволга илмий қарашларимиз, таҳлилларимиз доирасида жавоб беришга ҳаракат қиламан. Ахборот соҳасининг ривожланиши билан боғлиқ зиддиятлар глобал ахборот жамияти шаклланишининг мураккаблиги ахборот муносабатлари билан боғлиқлик ҳалқаро ва миллий хавфсизлик муаммоларига янада жиддий эътибор беришни талаб қилади. Маълумки, ҳар бир фуқаро ўз шахсий нуқтаи назари, ўз қарашлари, маънавий-маърифий, ахлоқий-руҳий имкониятлари доирасидагина фаолият кўрсатади. Ўз олами худудида яшайди ва ташқи оламга ўз ақли доирасида шахсий муносабатини билдиради. Ҳар бир индивид мустақил инсон сифатида табиий-биологик камолотидан ва руҳий эҳтиёжидан келиб чиқиб ўзига мос ахборотни қабул қилади, уни таҳлил этади. Унинг атрофида мушоҳада юритади, фикрлайди ва ана шу таҳлиллар асосида ўзининг шахсий хулосасига эга бўлади. Натижада у ёки бу тарздаги ўз нуқтаи назарини шакллантиради.

Инсоният тақдири ва истикболи, ахборот технологияси, жумладан уяли телефон, унинг тараққиёти, инсон ва инсоният ҳаётига таъсир ўтказиши омилларини чуқур ўрганишни тақозо этади. Инсониятнинг глобал муаммолари, глобаллашувнинг реал жараёнлари ва шакллари аниқлашда, биринчи навбатда, жамиятнинг асосий қисмини ташкил этувчи ёшлар параметри туради.

**Биринчидан,** аввало, ёшлар янгиланиб бораётган дунёвий этикани пухта эгаллаб, унинг асосида яшашни ўрганишлари керак. Мустақил ҳаётга кириб келаётган ёшларимиз тинчлик маданиятини англашлари ва тушуниб етишлари, глобализация жараёнига ижтимоий масофадан қарашлари муҳим аҳамият касб этади.

**Иккинчидан,** Ғарб турмуш тарзи турли ахборот воситалари орқали ҳаётимизга бостириб кираётган, болалар ва ёшлар онгига кучли таъсир ўтказётган бир пайтда шарқона тарбия мактабига эҳтиёж тобора ошиб бормоқда. Демак тафаккур тарзи теран, маънавий соғлом фуқаролар оилада шаклланад экан, ҳар бир ота-она фарзандига ахборот маконидаги меъёр ва мувозанат тушунчасини ҳам сингдириб бориши зарур.

Дунё глобаллашув жараёни ва жамиятда фуқароларга ҳар хил таъсир этади ва ахборий этика маданиятига кучли эҳтиёж сезилади Америкалик олим доктор Бразелтон Ғарб турмуш тарзидан келиб чиқиб “Меҳр-муҳаббат – бирламчи, одоб – иккиламчи”, дейди [1]. Унингча ҳис-туйғунинг чегараси йўқ, унга барча эшиклар очик бўлмоғи ва ҳар қандай ҳиссиёт ҳеч тўсиқсиз амалга ошмоғи лозим. Муаллиф одоб, ахлоқ, маънавият ҳақида ўйламасликни, кўнгил тусаганича яшашни, ақлни ишлатмасликни тарғиб қилмоқда. Бу эса инсондаги инсоний фазилатларни ўлдирадиган ҳолат. Айни пайтда бу Шарқ маънавий қарашларига зид ҳодиса. Одоб, ахлоқ, маънавият ҳар нарсадан устун ва инсон моҳиятини белгилувчи асосий омил бўлмоғи лозим.

Ахборот тармоқларидан истеъмолчи сифатида ахборот олаётган ҳар бир шахс ахборотни филтрлаб ўтказа олиш кўникмасини шакллантиришлари лозим. Бу энг аввало, ахборот манбаи минимал (телевидение, радио), айримларда эса кенг (интернет, янги телекоммуникациялар тизими) бўлиши мумкин. Шу нуқтаи назардан мутахассислар фикрига кўра, бугунги кунда жамиятда айнан ахборотни олиш, унга йўл топиш соҳасида кескин бўлиниш, табақалашув содир бўлмоқда. Бу борада интеллектуал салоҳиятли, шахслар, ўзининг ҳаракатчанлиги ва янгиликка интилувчанлиги ҳамда ахборот ўз ҳамиша ресурсига эгаллиги туфайли юқори даражада коммуникатив фаоллик кўрсатишади. Аммо ушбу коммуникатив фаоллигидан фойдаланиб, жамиятни енгил-елпи, маънавий ахлоқий талабга жавоб бермайдиган, ёинки давлатлараро муносабатларга ҳам ўзининг салбий таъсирини ўтказадиган ахборотлар билан таъминлаб қўйсачи?

Жамоатчилик фикрининг қай даражада шаклланишига, жамиятнинг сиёсий онги, ҳуқуқий билимлар савияси, маънавий-маърифий даражасига қараб жамиятнинг тараққиётга ёки таназзулга юз тутиши муқаррар. Бу ўринда эса ахборот хуружлари ва таҳдидига нисбатан ижтимоий иммунитетни шакллантириш масаласи долзарб аҳамиятга эга. Ўзида ахборотга нисбатан ижтимоий иммунитетга эга бўлган ҳар бир фуқаро ўз олдига қўйидагича савол қўя олади:

-бу керакли ахборотми?

-бу ахборотни тарқатиш, сақлаш ва узатиш кераклими?

-Ушбу ахборот менинг интеллектуал салоҳиятимга ёки инсоний фазилатларимга қандай таъсир кўрсатади?

Мана шу саволларни ўз олдига қўйган ва теран таҳлилий фикрлаш тарзига эга бўлган фуқароларни ахборот шаклида узатилаётган, аслида манбасида таҳдид ва хуружлардан иборат ғоя ортидан ҳеч ким эргаштира олмайди. Жамият шу даражада шаклланиши лозимки, унинг аъзолари тифиз ахборотлар бозоридан умуммиллий манфаатга хизмат қиладиган, унинг тараққиётига ёрдам берадиган ахборотни танлай олсин. Ахборот олиш кафолати бу бевосита шахсий манфаатдан устун турадиган, умуммиллий манфаатга дахлдор бўлган кадриятга айланмоғи шарт.

Глобаллашув жараёнининг ахборот технологиялари билан уйғун равишда турли соҳа доиралари бўйлаб кириб келиши ижтимоий тараққиётнинг янгича йўналишини белгилаб берди. Ахборот маконининг глобаллашуви шароитида хавфсизликнинг техник, технологик таркибий қисмлари билан бир қаторда ахборот хавфсизлигини таъминлаш муаммоси тобора ижтимоий- сиёсий мазмун касб этиб бормоқда. Одамлар, яъни «инсон омили» ахборот хавфсизлигининг ҳал қилувчи омили бўлиб қолмоқда. Глобаллашув объектив воқелик бўлиб, уни на тўхтатиб, на кечиктириб бўлади. Ҳозирда жаҳоннинг етакчи давлатлари ахборот оқимлари устидан ҳукмронлик қилиш мақсадида ахборот технологияларини шиддат билан инсоният фаолиятининг барча соҳаларига олиб киришга улгурган бир пайтда хавфсизликни таъминлаш кун тартибидеги энг муҳим долзарб масаладир.

Ўзбекистонда ёшлар масаласи давлат эътиборидаги асосий масалалардан бирига айланган. Ана шундай шароитда ҳар бир талаба, ёшлар қатламлари олдига юксак маънавий вазифаларни кўяди. Яъни қандай мазмундаги ахборотни тарқатиш ман этилади, жамиятнинг психологик ҳолатига салбий таъсир этувчи, ижтимоий, миллий, этник, диний тафовут ва келишмовчиликларни кучайтирувчи, зўравонлик ва урушни тарғиб этувчи, порнография, маиший бузуқлик, шахслар мавқеига, обрўсига ва шаънига салбий таъсир этувчи ахборотларни чегаралашда норасмий, виждон билан боғлиқ бўлган, соғлом ақл ва юксак тафаккурга таянган маънавий-руҳий меъёрлари вужудга келади. Ахборот хавфсизлиги муаммолардан бири ахборотлашган жамиятда ахборот орқали замонавий руҳий таъсир технологияларининг тобора ривожланиб бораётганлиги шахс ва жамият тафаккурининг шаклланишига у ёки бу тарзда кучли таъсир ўтказишидир[2]. Демак, ахборот хуружи тобора авж олиб бораётган, яқка тартибда ҳар бир фуқаро, ҳар бир инсон онгига кучли таъсир ўтказаетган, кенг миқёсда олганда жамият тараққиёти ва миллат тақдирини ҳал қилишга қодир бўлган, глобал миқёсда эса бутун инсоният ҳаётини кафолатлайдиган, унинг тараққиёти ёки таназзулини белгилашга қодир бўлган тифиз ахборот тизимини бошқариш, тартибга солиш, ундан фойдаланиш меъёрларини ишлаб чиқиш ҳозирги замоннинг энг долзарб муаммоларидан биридир. Бугунги тезкор технологиялар даврида эса виртуаллашув жараёнларини кескин суръатларда ўсиб бораётганлигини кузатишимиз мумкин. Бугун онлайн ҳаётда виртуал дунёда ўз борлиг дунёсини маънавий оламини унутиб қўйиб радикаллашув таъсирига тушиб қолаётган фуқароларимизни ҳам кўришимиз мумкин. Виртуал оламнинг афзалликлари нимада? Кибер макондаги виртуал хатти-ҳаракатларнинг ижобий жиҳатлари қуйидагилардан иборат: а) мавжуд дунёдаги макон ва вақтинчалик тўсиқларни баратараф эта олиши; б) нисбатан анонимлиги; в) айнанликни тасаввур қилиш, танлаш имкониятига эга эканлиги; д) тўғридан-тўғри таъсир этиши ёки алоқа ўрнатиши ва мақомли иерархиянинг мавжуд эмаслиги; г) ўзини-ўзи ифодалашнинг кенг имкониятига эгаллиги [3]. Албатта бундан оммавий фойдаланиш жараёнида фуқароларимиз унумли фойдаланиши эса шахсда ахборот борасида истеъмом маданиятининг мавжуд эканлигидан далолат беради.

#### **Аниқ натижаларга эришиш учун қуйидагиларни таклиф қиламан:**

-инсоннинг шахс ва фуқаро сифатидаги имкониятларни руёбга чиқариш ва уни шакллантириш;

-замонавий жамият тобора ривожланаётганлиги боис, инсоннинг ўзини ўзи ҳимоя қила олиш инстинктини, ўзини ўзи бошқариш салоҳиятини шакллантириш;

-ижтимоий ҳаётда ахборот жамиятининг хусусиятларини эътиборга олиб алоҳида одамлар, гуруҳлар, қатламлараро муносабатларни янада барқарорлаштириш;

-ижтимоий тараққиётнинг ахборот компоненти ижтимоий-иқтисодий тараққиётнинг энг муҳим воситаси эканлигини инobatга олиб ахборот хуружлари, таҳдидлари манбалари ва йўналишларини, уларнинг ривожланиш омилларини ва динамикасини доимий тарзда, узлуксиз равишда ўрганиб бориш.

Берилган таклифлар йўналишлар доирасида тадқиқ этилиши, жамиятда ижтимоий сўровномалар ўтказиш, илмий тадқиқот институтлари, ижтимоий-сиёсий марказлар ҳамкорлик дастурини ишлаб чиқиши шунингдек Олий таълим ва ҳалқ таълими вазирлиги “Ижтимоий фанлар” доирасида “Ахборот хавфсизлигини таъминлаш” бўйича янги замонавий фанларни ўқув режасига киритиши, ушбу масалада назарий ва амалий билимлар шаклланиб, тажрибаларнинг ортишига олиб келади.

**Хулоса ўрнида.** Мақола аввалидаги саволимга, аниқ жавоб- ахборот хавфсизлигини таъминлаш бўйича илмий тадқиқотлар бугун жуда ҳам зарур. Бугунги замонавий технология ютуқларини инкор қилмаган ҳолда ахборот хавфсизлигини таъминлаш муаммосини интеграциялашган тарзда соҳаларга оид бўлиб ўрганиш ва илмий тадқиқотлар ўтказиш лозим деб ҳисоблайман. Ушбу муаммонинг тадқиқот майдонини изчил кенгайтириш мақсадга мувофиқ бўлади. Бу борадаги тадқиқот ишларининг амалиётга жорий этилиши эса жамият хавфсизлиги, барқарорлиги, давлат тараққиётига хизмат қилади.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Клинтон Х. “Бир болага етти маҳалла ота-она”. Т.: “Ўзбекистон”. 2007. .
2. М.Юлдашева. Ахборотлашган жамият: меъёр ва мувозанат. Т.: “Венстром” 2018.
3. Больш Н. Албука медиа. –М.: Европа, 2011.-С.23-24.
4. Северцев И.А., Дедков В.К., Системный анализ и моделирование безопасности. - М.: Высший школа. 2006.

## ANTIOXIDANT AND ANTIMICROBLE ACTIVITY OF *FERULA FERGANENCIS* ROOT

**UDK:547.918:547.926**

*N.M. Yuldasheva*<sup>1</sup>, *A.U. Babekov*<sup>2</sup>, *A.M. Ismailova*<sup>2</sup>, *B.D. Mamarasulov*<sup>3</sup>, *K.A. Eshbakova*<sup>1</sup>

1) Acad. S.Yu. Yunusov Institute of Chemistry of Plant Substances,  
Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan,

2) Osh State Pedagogical University named after

A.Zh. Myrsabekova, Kyrgyzstan.

3) Institute of Microbiology<sup>3</sup>

**Annotation:** *F.ferganensis* Lipsky ex Korovin is a new carotene type sesquiterpenol isolated from Ferganol root. The structure of ferganol was established based on the analysis of 1H and 13C NMR spectra, DEPT, HSQC, and HMBC experiments. Antioxidant and antimicrobial activity showed results above the standard. According to the results obtained, *Ferula ferganensis* extracts and fractions showed higher than standard activity against? *Bacillus subtilis*, *Pseudomonas aeruginosa*, *Escherichia coli*, *Staphylococcus aureus* and *Candida albicans* (fungi). According to the results obtained, the antioxidant properties of *Ferula ferganensis* extracts and fractions showed higher activity than the standard.

**Key words:** *Ferula ferganensis*, sesquiterpenol, carotan, ferganol, exomethylene, endemic plants.

**Introduction.** Attention to the development of medicinal plants in our country is growing every year. In the further development of the production of effective drugs to replace drugs imported into the country, one of the priorities in the development of the pharmaceutical industry is the search for medicinal plants and the study of their chemical composition. It is expedient to meet the demand of the pharmaceutical industry for medicinal plant raw materials and expand the production of modern medicines based on plant raw materials.

It is planned to use in the pharmaceutical industry, export the product. There are 10-12 thousand species of medicinal plants on earth, and the chemical, pharmacological and medicinal properties of more than 1000 plant species have been studied. There are 577 species of medicinal plants in Uzbekistan, of which 250 species are currently used in scientific medicine. The effect of medicinal plants on the body depends on the amount of compounds in their composition. These compounds accumulate in different amounts in different parts of the plant.

*Ferula ferganensis* has been used as a medicinal plant for centuries. In folk medicine, an alcoholic and aqueous tincture of *F.ferganensis* is prepared and used to kill worms. In medicine, bile is used as a driver. Decoction of the flower of *F.ferganensis* is used in abdominal pain, respiratory diseases. *F.ferganensis* root is used in human poisoning, metabolic diseases, neuroses, eye diseases, tumors. In Chinese and Indian medicine, *F.ferganensis* is prescribed in various diseases. In modern medicine, extracts from the leaves of *Ferula ferganensis* enhance the activity of the gastrointestinal tract through reflexes. In addition, the seeds of *F.ferganensis* have diuretic effects and antimicrobial properties. Relieves pain, has been used as a means of relaxing compressed and contracted muscles.

**Materials and methods.** The *Ferula ferganensis* plant was extracted in 96% and 70% alcohol. The resulting alcohol extract was divided into fractions. The antioxidant and antimicrobial activity of extracts and fractions was prepared and studied.

### **Experiment part:**

**Antioxidant Activity.** The DPPH was used to determine free radical scavenging activity as previously described by Shimada et al. [4]. About 3.94 mg of DPPH was first dissolved in 100 mL of ethanol to a concentration of 0.1 mL. About 1 mL of DPPH solution was added to 3 mL of the samples with different concentrations (250, 125, 62.5, 31.25, and 15.62 µg/mL).



For the control test, the same amount of ethanol was added. All the mixture was mixed well by shaking vigorously and left to stand for 30 minutes at a room temperature. After that, the UV-Vis spectrophotometer was used to measure the value of absorbance of each mixture at 517 nm. The calculation for the percentage of inhibition (*I*%) of the DPPH radical is as follows:


$$\% \text{ Inhibition} = (A - B) / A \times 100\% \quad (1)$$

Note: A = blank absorption B = absorption of test material.

**Results and discussion.** According to the results obtained, the antioxidant properties of *Ferula ferganensis* extracts and fractions showed higher activity than the standard.

**Table-1. Antioxidant activity of extract and fractions of the aboveground part of the plant *Ferula ferganensis*.**

Sample	DPPH scavenging activity(%)	Sample
1	<i>Ferula ferganensis</i> – 96% extract	84,34±0.36
2	<i>Ferula ferganensis</i> – 70% extract	73,96±0.57
3	<i>Ferula ferganensis</i> – petrol ex fraction	49,23±0.54
4	<i>Ferula ferganensis</i> – Chloroform fraction	63,73±0.43
5	<i>Ferula ferganensis</i> – Ethylacetate fraction	71,34±0.36
6	<i>Ferula ferganensis</i> – Butanol fraction	83,46±0.84



**Diagram -1.** According to the study, the fractions and extracts of the *Ferula ferganensis* plant have high antioxidant properties as shown in the diagram below.

**Materials and methods. Antimicrobial activity of the *Ferula ferganensis* plant.**


**Test culture.** The antimicrobial activity of plant extracts was determined by the honeycomb diffusion agar method. Gram-positive bacteria *Staphylococcus aureus*, *Bacillus subtilis*, gram-negative bacteria *Escherichia coli*, *Pseudomonas aeruginosa*, microscopic fungi *Candida albicans* test cultures were used for antimicrobial screening. 96% and 70% of the extracts showed above-standard results for *Candida albicans* fungus. The following diagram is shown in -2.

**Antimicrobial bioassay procedure.** Suspensions of all test cultures were set at  $1.5 \times 10^8$  KOE / ml according to the McFarland Standard. Test cultures were incubated on a surface of Nutrient agar medium for 15 minutes in a thermostat at 37 ° C. The extracts are diluted with DMSO to a concentration of 50 mg / ml. DMSO was taken as a negative control. Extracts diluted with DMSO were placed at 100 µl in the pits formed in the Petri dish. Petri dishes in which test cultures were planted and plant extracts were infused were incubated for 24 h in a thermostat at 37 ° C after incubation, the diameter measuring range of the inhibition zone rings was determined as follows.

**Results and discussion.**

**Table-2. Antibacterial activity inhibition of *F.ferganensis* plant extracts and fractions zone diameter (mm)**

Name extr	<i>E. coli</i>	<i>B. subtilis</i>	<i>P.aureginosa</i>	<i>S. aureus</i>	<i>C.albicans</i>
<i>F.ferganensis</i> 96% ex	4 mm	7 mm	14 mm	15 mm	29 mm
<i>F.ferganensis</i> 70% ex	-	5 mm	10 mm	15 mm	18 mm
<i>F.ferganensis</i> petrol frac	-	-	4 mm	10 mm	12 mm
<i>F.ferganensis</i> chloroform frac	-	7 mm	10 mm	9 mm	14 mm
<i>F.ferganensis</i> ethylacetatefrac	10mm	7 mm	16 mm	15 mm	19 mm
Standart ( <i>Ampicillin</i> )	14mm	9 mm	6 mm	4 mm	0




**Diagram -2. Extraction and fraction of *Ferula ferganensis* plant has a dual effect on bacteria and fungi. The highest results of antibacterial activity of extracts and fractions of type *Ferula ferganensis* are clearly shown in the following diagram.**



**1-Fig. *Pseudomonas aeruginosa***



**2-Fig. *Bacillus subtilis***



**3-Fig. *Escherichia coli***



**4-Fig. *Candida albicans* (fungi)**

**Conclusions.** Samples prepared from plant extracts and fractions show high efficacy against fungi. It binds to sterols in the cell membranes of fungi, resulting in the membrane being selectively blocked and unable to perform its function, leading to the loss of key components of the cell. According to the results obtained, *Ferula ferganensis* extracts and fractions showed higher than standard activity against? *Bacillus subtilis*, *Pseudomonas aeruginosa*, *Escherichia coli*, *Staphylococcus aureus* and *Candida albicans* (fungi).

In addition to its biological activity, the chemical composition of the root part of the *Ferula ferganensis* plant was also studied. Sesquiterpenol, carotene, ferganol, exomethylene were isolated from the root composition and established based on the analysis of 1H and 13C NMR spectra, DEPT, HSQC and HMBC experiments.

**Acknowledgments.** The work was supported financially by the International Program for Scientific Research (grants MUK-2021-38 and MUK-2021-39).

**References:**

1. Antimicrobial activity of the plant *Inula caspica* N. M. Yuldasheva, B. J. Komilov, K. A. Eshbakova, B. D. Mamarasulov. 14<sup>th</sup> International Symposium on the Chemistry of Natural Compounds, 7-8 October, 2021, Tashkent, P.77
2. Antimicrobial activity of the aerial part of *Inula multicaulis* N. M. Yuldasheva, B. J. Komilov, K. A. Eshbakova, B. D. Mamarasulov. 14<sup>th</sup> International Symposium on the Chemistry of Natural Compounds, 7-8 October, 2021, Tashkent, P.108
3. Antimicrobial activity of the plant *Inula caspica* N.M.Yuldasheva, B.J.Komilov, K.A.Eshbakova, B.D.Mamarasulov. 14<sup>th</sup> International Symposium on the Chemistry of Natural Compounds, 7-8 October, 2021, Tashkent, P.77
4. Antimicrobial activity of the aerial part of *Inula multicaulis* N.M.Yuldasheva, B.J.Komilov, K.A.Eshbakova, B.D.Mamarasulov. 14<sup>th</sup> International Symposium on the Chemistry of Natural Compounds, 7-8 October, 2021, Tashkent, P.108

## МАМЛАКАТИМИЗ ИҚТИСОДИЁТИДА ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ ШЕРИКЧИЛИКДАГИ ИНФРАТУЗИЛМА ЛОЙИХАЛАРИ

*Юлдошев Улузбек Асқар ўғли*

*Ўзбекистон давлат жисмоиний тарбия ва спорт университети таянч докторанти.*

**Аннотация:** Ушбу мақолада мамлакатимизда давлат-хусусий шерикчиликдаги инфратузилма лойиҳаларнинг аҳамияти, бугунги кунда бу лойиҳаларнинг иқтисодиётимиз ривожланишидаги муҳимлиги келтирилган, таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

**Калит сўзлар:** давлат-хусусий шерикчилик, инфратузилма лойиҳалари, хусусий шерик, лойиҳа, хусусий сектор.


Мамлакат иқтисодиётини ривожлантиришда давлат-хусусий шериклик муносабатлари орқали йирик инфратузилма лойиҳаларини самарали амалга оширишда ривожланган давлатлар тажрибасини ўрганиш ва улардаги амалиётларни мамлакатимизга жорий этиш муҳим вазифалардан бири ҳисобланади. Мамлакатимизда ҳам инфратузилма лойиҳаларига сарфлаши мумкин бўлган маблағлари чекланган, хусусий сектор капитали ва тажрибасини тадбиқ қилиш орқали мамлакат йирик инфратузилма лойиҳаларини ривожлантиришни рағбатлантириши ва шу билан бирга бизнес муҳити ва аҳолининг турмуш сифатини яхшилаши мумкин. Ўзбекистонда давлат-хусусий шериклик механизмининг асосий мақсади – инфратузилма лойиҳаларида хусусий секторнинг иштирокини рағбатлантиришга қаратилган замонавий сиёсат ҳамда аниқ белгиланган ҳуқуқий ва институционал асосларни яратишдир.

Иқтисодчи олимларнинг тадқиқотларидан кўришимиз мумкинки, давлат-хусусий шериклиги механизми олимларнинг, экспертларнинг, етакчи халқаро ташкилотларнинг олдида турган долзарб мавзуларидан бири ҳисобланади. В. Варнавский, А. Клименко ва В. Королев ҳаммуаллифлигидаги “Давлат-хусусий ҳамкорлиги. Назария ва амалиёт” номли ўқув қўлланмасида “Давлат-хусусий шериклик - давлат ва жамоатчилик мулки объектлари, шунингдек, кенг доирадаги иқтисодий фаолият турларида ижтимоий аҳамиятга молик лойиҳаларни амалга ошириш мақсадида давлат ва жамоатчилик идоралари, муассаса ва корхоналари томонидан ижро этилувчи ва кўрсатилувчи хизматларга нисбатан давлат ва хусусий сектор ўртасидаги ўзаро таъсирнинг юридик жиҳатдан мустаҳкамланган шаклини намоён этади” деб таъкидлашади [1].

Халқаро Валюта жамғармаси томонидан берилган таърифда эса “Давлат-хусусий шериклик - давлат томонидан анъанавий тарзда таъминланадиган инфратузилмавий активлар ва хизматларни хусусий сектор томонидан тақдим этишга қаратилган келишувдир” деб таърифланади [2]. Жаҳон банкининг таърифида кўра эса, “Давлат-хусусий шерикчилиги ишлаб чиқариш ва инфратузилма хизматлари кўрсатиш борасида жамоат ва хусусий томонлар ўртасидаги келишув бўлиб, қўшимча инвестицияларни жалб этиш ва бюджетли молиялаштириш самарадорлигини ошириш воситаси сифатида тузилади” [3].

Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори билан Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ҳузурида Давлат-хусусий шерикликни ривожлантириш агентлиги ташкил этилди. Ўз навбатида агентликка давлат-хусусий шериклик лойиҳаларини тайёрлаш ва амалга оширишда идоралараро мувофиқлаштиришни таъминлаш, ўрнатилган тартибда лойиҳа концепцияси, лойиҳа баҳолаш ҳужжатлари ва давлат-хусусий шериклик тўғрисидаги битимни ишлаб чиқиш ва келишишда вазирликларга, давлат қўмиталарига, идораларга, шунингдек давлат-хусусий шерикликнинг бошқа иштирокчилари билан ҳамкорликни ташкил этиш ва бошқа бир қатор вазифалар юкланди.

Давлат-хусусий шерикликни ривожлантириш агентлиги томонидан республиканинг масъул вазирлик ва идоралар билан бигаликда 2019-2021 йилларда умумий қиймати 2,9 млрд.доллар бўлган жами 265 та давлат-хусусий шериклик лойиҳалари бўйича ишлар олиб борилди.



**1-расм. Давлат-хусусий шериклик асосида 2019-2021 йилларда амалга оширилган лойиҳалар сони**

*Манба: Давлат-хусусий шерикликни ривожлантириш агентлиги маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси.*

Давлат-хусусий шерикликни ривожлантириш агентлиги томонида 2019-2021 йилларда қуйидаги соҳаларда лойиҳалар амалга оширилди. Жумладан, энергетика соҳасида 5 та, коммунал хизматлар соҳасида 3 та, соғлиқни сақлаш соҳасида 30 та, сув хўжалиги соҳасида 105 та, экология соҳасида 54 та, таълим соҳасида 36 та, ҳунармандчилик саноати соҳасида 13 та, маданият соҳасида 15 та ҳамда транспорт, ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш, ахборот технологиялари ва ҳуқуқни муҳофаза қилиш соҳаларида 1 тадан лойиҳаларни ташкил этади [4]. Давлат-хусусий шерикликни ривожлантириш зарурати Ўзбекистонда давлат-хусусий шериклик лойиҳаларини амалга ошириш мамлакатимизда инфраструктурани яхшилаш, коммунал соҳа, транспорт, энергетика тармоқларини ривожлантириш, пировардида мамлакат иқтисодиётини тараққий этиш имконини беришини ривожланган мамлакатлари тажрибасида исботлашмоқда.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, мамлакатимизда давлат-хусусий шериклик соҳасини ривожлантиришда, қонун билан мустаҳкамлашда, тендер савдоларини ўтказишда, давлат-хусусий шериклик лойиҳаларини тузиш ва бошқаришда алоҳида эътибор берилса, соҳада амалга оширилаётган лойиҳаларимизнинг самарадорлигини ошириш бўйича таклиф ва тавсияларимиз қуйидагилардан иборат:

- йирик лойиҳаларни амалга оширишда давлат томонидан хусусий шерикни қўллаб-қувватлаш мақсадида бюджетдан маблағлар ажратиш тизимини жорий қилиш;
- давлат томонидан хусусий шерикни қўллаб-қувватлаш мақсадида бюджетдан субсидиялар ажратиш тизимини жорий қилиш;
- давлат-хусусий шериклик лойиҳаларида хусусий шерикка тижорат банклари имтиёзли тарзда кредитлар ажратиш ва х.к.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

- 1.Варнавский В.Г., Клименко А.В., Королев В.А. Государственно-частное партнерство: теория и практика: учебное пособие. - М.: ГУ-ВШЭ, 2010.
- 2.Public-Private Partnerships. International Monetary Fund, 2004.
- 3.Всемирный банк. URL:<http://www.worldbank.org/en/topic/publicprivatepartnerships>;
4. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ҳузуридаги Давлат-хусусий шерикликни ривожлантириш агентлиги [www.pppd.uz](http://www.pppd.uz) сайти маълумотлари.



## МУНОСИБАТИ БОСАЛОҲИЯТ ДАР ТАЪЛИМИ ОСОРИ НАСРИИ САДРИДДИН АЙНИ ДАР КУРСИ ХОНИШИ ЭЗОҲӢ

*Сатторов Ў.А. – доцент, МДТ «ДДХ ба номи академик Б.Ғафуров»*

*Юлдошева З.И. – докторант PhD, ДДОТ ба номи С.Айни.*

*Ҷумҳурии Тоҷикистон.*

Курси хониши эзоҳӣ (синфҳои 1-4) зинаи аввали омӯзиши адабиёт буда, дар шаклгирии тафаккури хонандагон нақши муҳим дорад. Методистон вазифаи асосии хониши эзоҳиро омӯзонидани дурусту огоҳона хондани матни бадеӣ медонанд. Дар давоми ҷаҳор сол хонандагони синфҳои ибтидоӣ бояд матнҳои бадеиро мустақилона хонда тавонанд, мазмуни матни хондашонро фаҳманд ва «дар баровардани хулосаҳои оддӣ малака ҳосил намоянд» [2,78]. Аммо дар усули муносибати босалоҳият ба таълим мақсади курси хониши эзоҳӣ бо инҳо тамом намешавад. Дар низоми таълими босалоҳият, пеш аз ҳама, ташаккули салоҳиятҳо ба назар гирифта мешавад ва «таълими хонандамеҳвар» ё худ таълиме, ки ба ташаккули шахсияти хонанда нигаронида шудааст, маҳаки асосии таълимро ташкил медиҳад. Вазифаи омӯзгор дар низоми босалоҳият танҳо ба фаҳмондани мавзӯю пурсидани он маҳдуд намегардад. Вазифаи омӯзгор дар ин низоми таълим аз он иборат аст, ки дар ҷараёни дарс имконият ва муҳити созгор барои азхудкунии малака ва ташаккули салоҳиятҳову инкишофи қобилияти фардии хонандагон фароҳам оварад. Омӯзгор бояд қобилият ва таҷрибаи маърифатии хонандагонро ба назар гирад, зеро ҳар як хонанда қобилияти фаҳмидан ва сарфаҳм рафтани ин ё он мавзӯро дорад.

Мураттибони барномаҳои таълимӣ ва муаллифони китобҳои дарсии «Забони модарӣ» барои синфҳои 1- 4 ҳам аз осори мансур ва ҳам осори манзуми Садриддин Айни намунаҳои зиёдеро барои омӯзиш пешниҳод кардаанд, ки агар вобаста ба низоми босалоҳият таълим дода шаванд, дар ташаккули салоҳиятҳои маънавии хонандагон нақши муассир бозида метавонанд. Масалан, муаллифони китоби дарсии «Забони модарӣ» барои синфи 3 порчаеро аз «Мактаби кӯҳна»-и Садриддин Айни бо унвони «Мактаб» барои омӯзиш пешниҳод кардаанд:

«Дар синни 6 -солагӣ маро падарам ба мактаб бурд. Модарам гуфт: – Туро дар вақти 4-сола, 4-моҳа, 4-ҳафта ва 4-рӯза буданат ба мактаб фиристода будем. Он вақтҳо ту бисёр хурд будӣ. Дили ман ба ту месӯхт, ки дар мактаб азоб мекашӣ. Бинобар ин туро аз мактаб гирифтем. Акнун хуб кӯшиш карда хон, то ки ба ҳамсолонат баробар шавӣ. Ба ман ин тавсияи модарам хуш омад. Ман кӯшиш мекардам, ки ҳар чӣ зудтар сабақ омӯхта, бо ҳамсолонам баробар шавам ва ҳатто аз онҳо гузарам. Ман ба мактаб даромадам. Дар як синфхона бачагони аз 4-сола то 12- сола ҷамъ шуда буданд. Пас, омӯзгор маро рӯ ба рӯи худ дузону шинонда, тахтачаро наздам гузошту ба ман гуфтани “Аъзу биллоҳ” ва “Бисмиллоҳ”-ро супорид. Азбаски падарам пешакӣ ба ман ёд дода буд, бедушворӣ талаффуз кардам. Омӯзгор хурсанд шуд. Бо ҳамин падарам ба хона баргашт ва ман дар мактаб мондам...

Ман дар дарсҳо мунтазам иштирок намуда, то ба абҷадҳои расидам. Рӯзе падарам ба ман гуфт:

– Акнун ки ту абҷадхон шудӣ, ман ба ту ҳисоби абҷадро ёд медиҳам. Падарам тахтачаи абҷад навишташударо ба пешам гузошт. Аз он тахтача ҳарфҳоро ба ман нишон дода мепурсид:

– Ин чист? Инаш-чӣ? Ман ба пурсишҳои падарам ҷавоб дода натавонистам, зеро чӣ будани он чизҳоро касе ба ман нишон надода буд. Падарам гуфт:

– Охир, ҳамин рӯзҳо ту дар мактаб чӣ хонда истодаӣ? Халифаат ба ту ҳар чизро тўтивор ёд кунонидаанд, аммо ҳеч чизро ёд надодаанд. Имрӯз ту ба мактаб нарав!...

Рӯзи дигар маро модарам ба мактаби духтарона бурд. Ман дар ин мактаб “Ҳафтяк”-ро тамом кардам. “Қуръон”-ро хатм намудам, “Ҷаҳор китоб”-ро ҳам хондам.

Вале хатнависиро бошад, ҳеҷ наметавонистам. Он вақт ман даҳсола будам. Ҳисоби абҷадро ба ман падарам ёд дод» [1,42]. Дар китоби дарсӣ баъд аз ин матн муаллифон калимаҳои душворфаҳм, монанди тавсия – маслиҳат; абҷадхонӣ – алифбохонӣ; сабақ – дарс, вазифа; халифа – ба маънои омӯзгор; мунтазам – ҳамеша шарҳ дода, баъд чанд саволу супориш додаасту бас. Ин китоб дар асоси талаботи низоми анъанавии таълим таҳия шуда, ки ба талаботи муносибати босалоҳият ҷавобгӯ нест. Аммо матни пешниҳодшуда, ки ба синнусоли хонандагони синфи 3 ҷавобгӯст, метавон вобаста ба талаботи муносибати босалоҳият таълим дод.

Мутахассисони низоми муносибати босалоҳият ҳангоми таҳлили матни бадеӣ иҷроӣ ҷаҳор марҳила (дарки матн, баҳодихӣ ба матн, тағйири матн ва таҳияи матни худ) ва ҷаҳор шарт (хонанда донанд, тавонад, аз худ кунанд ва дар амал татбиқ намояд)-ро пешниҳод кардаанд [3, 63]. Матни болоро вобаста ба талаботи низоми босалоҳият ба таълим таҳлил менамоем. Дар зинаи аввал омӯзгор бояд таъин намояд, ки доир ба матни «Мактаб»-и С.Айнӣ хонандагон бояд чиро донанд? Чиро аз худ кунанд? Чиро иҷро карда тавонанд ва чиро дар амал татбиқ кунанд, ки дар оянда ба онҳо зарур бошад? Ба таъбири дигар, омӯзгор бояд пешакӣ мушаххас намояд, ки баъд аз омӯхтани «Мактаб»-и С.Айнӣ хонандагон чиро бояд донанд, ин дониши гирифтааш барои чӣ лозим мешавад ва онро дар кучо истифода мебаранд? Иҷроӣ ҷаҳор марҳала ҳангоми таълими матн ба ин саволҳо ҷавоб меғӯяд.

Дар марҳалаи аввал, ки «дарки матн» аст, бояд матни бадеӣ дурусту беҳато қироат гардад. Мутахассисон бар он андешаанд, ки матн бояд аз тарафи хонандаи ғаёлол қироат гардад, зеро хонандамеҳварӣ маҳаки асосии муносибати босалоҳият аст, ин амал имкон медиҳад, ки хонандагон бештар ғаёлол бошанд. Озмоишҳо дар мактабҳои таҷрибавӣ нишон дод, ки дар оғози татбиқи низоми босалоҳият иҷроӣ ин амал аз тарафи хонандагон самарави хуб намедиҳад. Хонандагон ҳанӯз бо шеваи нави таълим ноошноянд, ба иҷроӣ талаботи он тайёр нестанд. Яъне дар оғози қор муаллим бояд ташаббусро худ ба даст гирад ва хонандагонро бо шеваи нави таълим ошно созад. Вақте ки ду-се дарс бо усули нав ба роҳ монда шуд, хонандагон то андозае аз талаботи шеваи нави таълим оғох мегардан, ба иҷроӣ талаботи он омода мешаванд. Дар дарсҳои аввал омӯзгор худ матнро қироат мекунад ва барои он ки хонандагон ғаёлол бошанд, қироати такрори матнро аз хонандае хоҳиш мекунад. Қироати такрори матн гарчанде чанд дақиқаи вақти дарсро мегирад, аммо барои дарки матн ва омодашавии хонандагон барои фаҳмидани матн зарур аст. Агар қироати матн бо навбат аз тарафи хонандагон сурат гирад, беҳтар аст. Ҳар хонанда бояд омода бошад, ки матнро баъд аз омӯзгор ӯ меҳонад. Ин амал имкон медиҳад, ки тавачҷуҳи хонандагон ба матн ҷалб шавад ва онҳоро ба фаҳмидани мазмуни матн омода месозад.

Баъд аз қироати матн шарҳи калимоти душвор пеш меояд. Хонандагони синфи 3 ҳанӯз бо китобҳои луғат қор қарданро ёд нагирифтаанд, аммо аксари калимаҳои душвор дар хошияи китоби дарсӣ оварда шудааст. Омӯзгор шеваи ёфтани луғатро ба хонандагон меомӯзад, вале набояд ба шарҳи кӯтоҳи калимаҳо дар хошияи китоб қаноат кунанд. Ҳар калимаи душвор бояд бештар вобаста ба матн тавзеҳ дода шавад, то хонандагон маънии ҳар калимаро дар хотир доранд. Масалан, дар китоби дарсӣ калимаи «абҷадхонӣ» - алифбохонӣ шарҳ шудаасту бас. Ҳол он ки абҷадхонӣ танҳо ба маънии алифбохонӣ нест, балки тартибу таркиби қадими алифбои арабӣ аст, ки онро «ҳисоби абҷад» меғӯянд, ки ҳар як ҳарф ададеро мефаҳмонад. Ҳамчунин, калимаи «халифа» дар китоби дарсӣ ба маънии омӯзгор омадааст, ки чандон дуруст нест. Халифа аслан ба маънии ҷонишин аст. Дар мактабҳои кӯҳна домуллои мактабдор аз бачагони ғаёлолу нисбатан донишманд халифа – ҷонишини худ интиҳоб мекард, ки сабақи додаи ӯро бо бачагони дигар тақор мекард.

Марҳалаи дуюми муносибати босалоҳият ба таълим «баҳодихӣ ба матн» аст. Дар марҳалаи аввал, ки хонандагон бо қироат ва шарҳи калимаҳои душвори онро дарк қардан, фаҳмиданд, дар марҳалаи дуюм бояд ба он баҳо диҳанд. «Баҳодихӣ ба матн» на ба он маънист, ки ҳусну кубҳи онро муайян кунанд, балки таҳлили матни бадеист, ки

боиси инкишофи қобилияти зеҳнӣ ва ташаккули салоҳиятҳои хонандагон мегардад. Методистон тавсия додаанд, ки дар ин марҳала бояд хонандагон бо ёрии омӯзгор матн бадеиро ба қисматҳо ҷудо кунанд ва ба ҳар қисмат саволҳо гузоранд. Методи суҳбат, ки бештар бо воситаи саволу ҷавоб сурат мегирад, на танҳо дар низоми анъанавӣ, балки дар низоми босалоҳият ба таълим низ нақши муҳим бозида метавонад. Яке аз шартҳои муҳими методи суҳбат масъалагузорию. Омӯзгор бояд дар омӯзиши ҳар як ҷузъиёти матн масъалагузорию намояд. Ҳар як саволи пешниҳодшуда бояд ҳадафи муайян дошта бошад. Ба таври намуна доир ба матн бадеии «Мактаб»-и С.Айнӣ метавон чунин саволҳо мураттаб намуд:

1. Садриддинро дар чандсолагиаш падараш ба мактаб бурд?
2. Шумо дар чандсолагиатон ба мактаб рафтаед?
3. Шуморо кӣ аввалин бор ба мактаб овард?
4. Оё дар 4-солагӣ ҳам ба мактаб мераванд?
5. Модараш ба Садриддин чӣ маслиҳат дод?
6. Оё Садриддин ба гуфтаҳои модараш амал кард?

Хонандагони синфи 3 рӯзи нахустӣ ба мактаб омаданашонро ба хотир меоваранд ва медонанд, ки дар ҳафтсолагиашон аввалин бор ба мактаб рафтаанд. Саволҳои боло, ки вобаста ба матн дар бораи он чи ки ҳуди хонандагон аз сар гузоронидаанд, мураттаб шудааст, тавачҷуҳи онҳоро ба худ ҷалб мекунад ва ҳар яки онҳо меҳомад, дар бораи аввалин бор ба мактаб омаданаҳ ҳикоя кунанд. Хонандагон рӯзи аввалин бор ба мактаб омаданашонро ба мактаб омадани Садриддин муқоиса мекунанд. Ин амал имкон медиҳад, ки салоҳият ё худ малакаи андешидан ва муқоиса кардан дар хонандагон шакл гирад ва оҳиста – оҳиста ташаккул ёбад.

Методистон саволҳоро ба ду намуд ҷудо мекунанд: гурӯҳи аввали саволҳо ба мақсади ёрӣ расондан ба шогирдон пешниҳод мешаванд, то ки мазмуну мундариҷаи матнро фаро гиранд, пайдарҳамӣ ва робитаи воқеаҳои тасвиршавандаро риоя намоянд. Гурӯҳи дуюм «бо нияти муайян намудани хислати қаҳрамонони асари бадеӣ, робитаи байни онҳо, хусусиятҳои ғоявӣ ва воситаҳои тасвири бадеӣ гузориш меёбанд» [2,122]. Дар курси хониши эзоҳӣ (синфҳои 1-4) гузориши саволҳо аз курси хониши адабӣ ва таърихи адабиёт фарқ мекунад: Аввалан, саволҳо бояд барои хонандагон фаҳмову равшан бошанд ва ба синну соли онҳо мувофиқат кунанд. Дуюм, дар асоси матн ва аз муҳити ихотакардаи бачаҳо бошад. Сеюм, ҳар саволи навбатӣ бояд идомаи саволи пешин бошад, то хонандагонро ба мақсади ниҳии дарс раҳнамоӣ кунанд. Омӯзгор ҳангоми мураттаб намудани саволҳо бояд дақиқ муайян созад, ки ин саволҳо хонандагонро то чӣ андоза ба дарки комили матн мерасонад. Саволҳое, ки пешниҳод намудем, ба гурӯҳи аввал дохил мешаванд ва зина ба зина хонандагонро ба фаҳмиши пурраи матн мерасонанд. Риояи принсипи аз сода ба мураккаб ҳангоми тартиб додани саволҳо дар курси хониши эзоҳӣ ҳатмист.

Зинаи сеюми таълими босалоҳиятро мутахассисон «тағйири матн» муқаррар кардаанд. Дар курси хониши эзоҳӣ хонандагон малакаи онро надоранд, ки матн комилан нав эҷод кунанд, аммо метавонанд баъд аз дарки комили матн фикру андешаи худро баён кунанд. Мавзӯи матн мактаб аст, ки муаллиф Садриддин Айнӣ перомуни нахустин бор ба мактаб рафтани худ сухан мегӯяд. Ин мавзӯё барои хонандагони синфҳои ибтидоӣ ошноӣ ва метавонанд дар бораи аввалин бор ба мактаб рафташон нақл кунанд. Вазифаи марҳалаи сеюм ташаккул додани салоҳияти эҷодкории хонандагон ва инкишоф додани малакаи суханронӣ дар нутқи шифоҳии онҳост. Хонандагон бо воситаи матн «Мактаб» дар бораи мактабравии Садриддин Айнӣ шинос шуданд, омӯзгор дар марҳалаи сеюм аз хонандагон талаб мекунад, ки ҳар кас дар бораи аввалин бор ба мактаб рафтани нақл кунанд. Озмоиш дар мактаби таҷрибавӣ нишон дод, ки хонандагон бешуворию дар бораи аввалин бор ба мактаб рафтани худ сухан мекунанд ва баъзе мактаби худро ба мактаби кӯхнаи Садриддин Айнӣ муқоиса мекунанд. Ҳамин тариқ, марҳалаи сеюми муносибати босалоҳият иҷро мегардад.

Дар марҳалаи ҷаҳорум, ки «таҳияи матни худ» аст ва вазифаи он ташаккул додани салоҳияти эҷодкорӣ, мустақилият ва инкишоф додани нутқи хаттии хонандагон мебошад, аз шогирдон талаб карда мешавад, ки рӯзи нахуст ба мактаб рафтанишонро ба таври хаттӣ пешниҳод кунанд. Озмоиш нишон дод, ки дар дарсҳои аввал хонандагон душворӣ мекашанд, ҳаттои зиёде дар навиштаҳоиашон ҷой дорад. Омӯзгор бояд босаброна иштибоҳи онҳоро нишон диҳад ва онҳоро ба навиштан омода кунад. Дар дарсҳои минбаъда, ки хонандагон аз иштибоҳоти худ огоҳанд, хубтару беҳтар андешаҳоиашонро хаттӣ пешниҳод мекунанд. Муҳокимаи навиштаҳои шогирдон, агар дар ҳамон дарс вақт нарасад, бояд дар дари дигар ҳатман сурат гирад. Ҳамин тавр, марҳалаи ҷаҳоруми муносибати босалоҳият иҷро мегардад.

Арзёбӣ ё худ тафсири дараҷаи иҷро, яъне сатҳи ноилшавии хонандагон ба салоҳиятҳо дар низомии босалоҳият яке аз вазифаҳои асосии омӯзгор мебошад. Баъд аз иҷрои ҷаҳор марҳала омӯзгор бояд зинаи қобилияти маърифатии хонандагонро муқаррар намояд. Методистон бар он андешаанд, ки омӯзгор метавонад бо воситаи саволнома онро амалӣ гардонад. Саволнома бояд саволҳои, ки ҳангоми таҳлили матн пешниҳод шуда буданд, муқаммал намояд.

Агар ин супоришҳо дар вақти дарс иҷро шаванд, хонандагон дар гурӯҳҳо иҷро карда метавонанд, аммо агар вазифаи ҳонагӣ бошад, ҳар хонанда ҷудоғона иҷро мекунанд. Иҷрои ҳар як супориш ба омӯзгор имкон медиҳад, ки зинаи қобилияти маърифатӣ ва дараҷаи ноилшавӣ ба салоҳиятҳои ҳар хонанда муайян намояд. Ҳамин тавр, метавон матнҳои насри дар китобҳои дарсӣ омадаро дар асоси талаботи муносибати босалоҳият таълим дод.

#### **Пайнавишт:**

1. Абдуллоев И. ва диг. Забони тоҷикӣ. Синфи 3\И. Абдуллоев ва диг.- Душанбе, 2018. 272 с.
2. Аҳмадов М. Таълими адабиёти тоҷик. \М.Аҳмадов. - Хучанд: Нури маърифат, 2016.-290 с.
3. Мухторӣ Қ. Махсусияти ташкили таълими босалоҳият дар дарсҳои адабиёти тоҷик дар муассисаҳои таҳсилоти миёнаи умумӣ./Татбиқи муносибати босалоҳият ба таълим дар муассисаҳои таълимӣ : Маводи конференсияи илмӣ-амалӣ бахшида ба Рӯзи Ваҳдати миллӣ, Душанбе, 29 июни соли 2018. - Душанбе, “Ирфон”-2018, с.58-66.

## МАҲАЛЛАДА ИЖТИМОЙ БОШҚАРУВ ИНСТРУМЕНТЛАРИ

*Юнусова Манзурахон Пазлитдиновна*  
*Сиёсий фанлари номзоди, доцент.*

Маҳалла ўзида мужассам этган функцияларни амалга оширишда жамоатчилик бошқаруви инструментларидан фойдаланди. Маҳаллада камбағалларга ёрдам бериш, оммавий миллий ва диний маросимларни ташкил этиш ва ўтказиш, ҳудудни ободонлаштириш ва кўкаламзорлаштиришда инсоний ресурсларни сафарбар қилиш зарур. Бундай сафарбарлик учун эса маъмурий бошқарувдан тубдан фарқ қиладиган жамоатчилик бошқаруви намоён бўлади. Давлат институтлари ҳақидаги жуда кўп назариялар ва қарашлар шаклланиб улгурган бир шароитда жамоатчилик бошқаруви ҳақидаги илмий концепциялар унчалик оммавий эмас. Аслида маъмурий ёки давлат бошқарувининг асосини ташкил қилган жамоатчилик бошқаруви кейинчалик давлат институтларини қудрати ошиб борган сари аҳамият пасайиб кетган. Мамлакатимиздаги демократик тараққиётнинг ҳозирги босқичи ва Тараққиёт стратегиясидан келиб чиқадиган вазифалар асосида жамоатчилик бошқарувини кучайтириш вазифаси қўйилди.

Ўзбекистон Республикасининг Тараққиёт стратегияси биринчи мақсадида “Маҳалла институти фаолиятининг самарадорлигини ошириш, уни жамоатчилик бошқаруви ва назоратининг таянч бўғинига айлантириш.” белгилаб қўйилган.[1] Жамоатчилик бошқарувининг таянч бўғини – аҳолининг юксак сиёсий ва ҳуқуқий маданияти, фаровонликнинг манбаси сифатида ўзини ўзи бошқарув органларининг ижтимоий-фалсафий хусусиятларини тадқиқ этиш муҳим аҳамиятга молик масалалардандир. Тараққиётнинг турли босқичларида ижтимоий ресурсларни йўналтириш ва бошқариш учун турли институтлар вужудга келади. Ана шундай институтлар тарихий тараққиётнинг маълум бир босқичида ўзига юклатилган функцияларни ўтаб, келгусида йўқолиб кетиши ҳам мумкин. Айримлари эса ҳар қандай шароитда ҳам, гарчи минимал юкламалар билан бўлсада яшаб кетаверади. Улар ҳам маълум бир шарт-шароитда таъсир этувчи кучларнинг муносабатидан келиб чиқиб келгусида янада кенгайиши, ривожланиши ва кўшимча функцияларни ўзига қабул қилиб олиши мумкин. Зеро, жамият тараққиётида ижтимоий институтларнинг роли ҳар доим ҳам юксак даражада бўлиб келган. Маҳалла институти ҳам узок йиллар давомида гоҳ жамоатчилик бошқаруви институти, гоҳида эса давлат институти сифатида фаолият кўрсатиб келмоқда. Маҳалла трансформацияси жараёнида эса жамоатчилик бошқаруви функциялари маҳаллага янгитдан юклатилаётгани йўқ. Маҳалланинг хусусиятлари ўзгариб, унга замон талабларидан келиб чиқиб кўшимча вазифалар юклатилабди холос. Рус олими Ю.Волков таъидлаганидек “Бошқарув субъекти бўлган инсонлар томонидан ўзгаришларнинг мақсадга мувофиқлиги белгилаб берилади.”[2] Зеро бирор бир жамият институти фаолиятини белгиловчи қатъий қонунлар бўладими ёки бошқа манбаларми, маълум бир шарт-шароитда улар ўзгариши табиий ҳолдир.

Ҳозирги кунда ижтимоий бошқарув тушунчасига қатор олимлар томонидан таърифлар берилган ва бу борадаги тадқиқотлар давом этмоқда. Социолог олим Г.Шекиннинг “Социальная управления как система” мақоласида ижтимоий бошқарув тушунчасига инсонларни бошқариш ёки жамиятни бошқариш сифатида қарайди ва ижтимоий бошқарувнинг икки кўриниши – инсонларни бошқариш ва жамоаларни бошқариш ҳақида ёзади.[3] Қайд этиб ўтиш керакки ижтимоий бошқарув жараёнини илмий тадқиқ этишнинг объекти сифатида маълум бир ижтимоий тизимни, бизнинг тадқиқотда эса маҳаллани белгилаб олиш мумкин. Ижтимоий бошқарувнинг предмети эса уни амалга оширишнинг турли хил усул ва услублари, яъни маҳаллада фаолият кўрсатадиган ижтимоий ва ҳуқуқий нормалар, комиссиялар ва гуруҳлардир.



Маҳаллада ижтимоий бошқарувни амалга оширишнинг икки кўриниши ҳақида тўхталиб ўтсак. Биринчидан, моддий ресурсларни бошқариш. Иккинчидан эса маънавий ресурсларни бошқариш. Маҳаллада моддий ресурсларни бошқариш жараёни жуда кенг қамровли бўлиб, улар ҳам маҳалланинг ижтимоий тараққиётига йўналтирилган бўлади. Маҳалла бюджети мазкур институт томонидан бошқариладиган моддий ресурсларнинг марказида туради. Маълумки маҳалла бюджети тушунчаси ҳозирги кунга қадар қонун йўли билан тартибга солилмаган бўлиб асосан энг қуйи даражадаги ижтимоий муаммоларни маҳалла аҳлининг моддий ресурсларидан фойдаланилган ҳолда ҳал қилишга қаратилган. Бу эса маҳалладаги камбағалларга ёрдам бериш, турли хил дафтарларни юритиш ва шу орқали аҳоли фаровонлигини таъминлаш. Маҳаллага ёрдам сифатида ташкил этилган темир дафтарларга моддий ва маънавий жиҳатдан қийналиб қолган ёшлар ва аёллар киритилади. Ушбу рўйхатнинг мавжудлиги эса моддий ресурслардан оқилона фойдаланиш, коррупция ва таниш-билишчиликка йўл қўймасликнинг гаровидир. Бу ўринда темир дафтарларга нафақат маҳалла ҳудудида яшаётган ҳомийларнинг, балки давлат ресурсларини ҳам йўналиштириш кўзда тутилган. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармонида мувофиқ темир дафтарга киритилган фуқароларга 400 мингдан ортиқ оилалар, улардан 1,7 миллион нафар фуқаролар яшаган давлат бюджетидан бир марталик ёрдам пули ажратилди.[4] Пандемия шароитида аҳолининг 5 фоизи атрофидаги контингентни қамраб оладиган ёрдам акциясини муваффақиятли ўтказишда маҳалла фуқаролар йиғинининг алоҳида ўрни бўлганини таъкидлаб ўтиш лозим. Бу эса маҳалла тимсолидаги ижтимоий бошқарувнинг Ўзбекистонда маълум бир тажриба тўплаганини, инқироз шароитида давлат ва жамият институтларининг муваффақиятли ҳамкорлиги йўлга қўйилганидан далолатдир.

Маҳалладаги моддий ресурсларни бошқаришда фуқароларнинг ташаббускорлиги ҳам муҳим ўрин тутди. Ўзбекистон Республикасининг ““Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонунига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақида”ги қонунига мувофиқ ўзини ўзи бошқариш органлари “ижтимоий инфратузилмани ривожлантириш, тегишли ҳудудни ободонлаштириш, кўкаламзорлаштириш ва санитария жиҳатдан тозалаш, кам таъминланган оилаларга уларнинг уйлари ва квартираларини таъмирлашда, шунингдек коммунал хизматлари ҳақини тўлашда ёрдам кўрсатиш учун ихтиёрийлик асосида жисмоний шахслардан маблағ йиғиш, юридик шахсларнинг маблағларидан шартнома асосида фойдаланиш тўғрисида қарорлар қабул қилади.”[5] Маҳалла нафақат ижтимоий институт, балки ўзига яраша молиявий институт ҳамдир. Ўз олдида турган муаммоларни ҳал этишда энг асосий эътибор жамоатчилик ресурсларини сафарбар этишга қаратиши лозим. Чунки, маҳаллани жамоа деб олсак, унинг аъзолари томонидан маълум бир муаммони ҳал этишга йўналтирилган маблағларнинг сарфланиши қатъий назоратда бўлади ва бу борадаги молиявий қоидабузарликларнинг эҳтимоли кам. Иккинчидан жамоа аъзолари ўзларининг ижтимоий муаммоларига маблағ йўналтирар экан, бу орали келгусида шу каби масалаларни яна ўртага чиқмаслигини ҳам таъминлашга интилади. Мисол учун, давлат ресурсларига қурилган кўприкнинг сақланиши билан, маҳалла пулига қрилган кўприкнинг сақланиши ўртасида жуда катта фарқ бор. Шу сабабли бўлса керак маҳалла фуқаролар йиғини маблағларига бунёд этилган иншоотлар – масжидлар, чойхоналар ва қабристонлар кўпинча обод ва покизадир.

Шу ўринда ижтимоий бошқарув жараёнида жамоанинг иқтисодий ресурсларини мувофиқлаштириш жараёнида трансформациянинг элементлари кўзга ташланади. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 июндаги ““Ҳар бир оила – тадбиркор” дастурини амалга ошириш тўғрисидаги қарорига[6] мувофиқ маҳаллага қуйидаги имкониятлар берилди.

Биринчидан, маҳалла ҳудудида истиқомат қиладиган маълум бир тажрибага эга тадбиркорларни доимий ишга эга бўлмаган маҳалладошларига бириктириш ва шу орқали миникластерлар ташкил қилиш белгилаб берилди. Бунинг натижасида камбағал ёки темир дафтарда рўйхатда турган фуқаролар бизнес-мураббийлар ёрдамида ўз фаолиятини

ташқил қилиш ва доимий даромадга эга бўлиши мумкин. Маълумки, мураккаб бозор конъюктураси ва кучли рақобат шароитида маҳсулотларни ишлаб чиқариш ҳамда уни реализация қилиш жуда катта билим ва тажрибани талаб қилади. Миникластерлар эса тажрибасиз ёшлар учун бозорга аста-секинлик билан кириб бориш ва ўзининг муқим ўрнини эгаллаш учун қўшимча имкониятдир. Масаланинг нафақат иқтисодий балки ижтимоий-маънавий жиҳатлари – маҳалладошлар ўртасидаги барқарор муносабатлар, ҳудуддаги ижтимоий муҳитни яхшилашга қаратилган биргаликдаги саъй-ҳаракатлар ва энг асосийси маҳалла олдидаги бурч натижасида ижтимоий тадбиркорликнинг ушбу шакли вужудга келишини тушунтириб бера олади. Қайд этиб ўтиш керакки ушбу ижтимоий эксперимент ўз натижасини бериб аҳолини иш билан таъминлаш ва шу орқали давромадларини оширишга ижобий таъсир кўрсатган. Ушбу дастур Андижон вилоятида бошланган бўлиб, унинг дастлабки натижалари ҳақида Трастбанк қуйидагиларни маълум қилган эди: “Андижон шаҳридаги 6836 та хонадон ўрганилиб, 2019 йилнинг 1 июль ҳолатига қуёнчиликка 415 млн. сўм, асаларичиликка 393 млн. сўм, аёллар тадбиркорлигини ривожлантириш ва молиявий қўллаб-қувватлаш мақсадида тикувчиликка 3 млрд. 15 млн. сўм, хунармандчиликка 47 млн. сўм, иссиқхона қурилиши учун 635 млн. сўм, ишлаб чиқариш соҳасини қўллаб-қувватлаш мақсадида 2 млрд. 700 млн. сўм, хизмат кўрсатиш ва сервис соҳасини ривожлантириш учун эса 1 млрд. сўм миқдорида имтиёзли кредитлар ажратилди. Бунинг натижасида эса вилоятда 350 та янги иш ўрни яратилишига эришилди.”[7] Дастлабки муваффақиятлар маҳалланинг имкониятлари ҳисобига бошланган ушбу жараёни янада ривожлантириш, соҳадаги муаммо ва ютуқларни чуқур ўрганиш орқали тизимни янада такомиллаштиришни талаб қилади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. <https://lex.uz/docs/5841063> – Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон.
2. Волков Ю.Е.. "Сущность социального управления общее понятие об управлении" Социология власти, по. 3, 2005, pp. 3-24.
3. Қаранг: Шекин Г. Социальное управление как система. Сайт для профессионалов местного самоуправления. [http://vasilieva.narod.ru/20\\_2\\_97.htm](http://vasilieva.narod.ru/20_2_97.htm)
4. <https://lex.uz/docs/4922155> - Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 30 июлдаги ПФ-6038-сон Фармони. Коронавирус пандемияси даврида ижтимоий ҳимояга ва ёрдамга муҳтож аҳоли қатламларини моддий қўллаб-қувватлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида.
5. <https://lex.uz/docs/2156899> Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. «Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида.
6. <https://lex.uz/ru/docs/3772869> Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори, 07.06.2018 йилдаги ПҚ-3777-сон
7. [https://trustbank.uz/oz/press\\_center/news/prees\\_ru\\_250719/](https://trustbank.uz/oz/press_center/news/prees_ru_250719/) Қарор ва ижро: “Ҳар бир оила - тадбиркор”

## XXI-AXBOROT ASRIDA GLOBAL AXBOROT PSIXOLOGIK XAVSIZLIGI MASALALARI.

*Yusupova Y.M.*

*ADU Umumiy psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi.*

Jahon hamjamiyati XXI asrga 20-asrning hal etilmagan muammolari yuki bilan kirib keldi. Bularga bugungi kun muammolari ham qo'shiladi. Ulardan asosiysi axborot va psixologik xavfsizlik muammosidir. Axborot va psixologik xavfsizlikka yangi chaqiriq va tahdidlar – axborot urushlari, axborot qarama-qarshiligi, psixotronik qurollar, xalqaro terrorizm va boshqalar. Bu inson va insoniyat sivilizatsiyasining mavjudligi yoki o'limi haqidagi savol. Ushbu dahshatli qurollarni yaratgan odam ularning garoviga aylanadi. G. V. Grachev va I. K. Melnik o'z monografiyalarida ushbu muammoni ko'rib chiqqan holda, mualliflar axborotning maqsadli funksiyasini, agar u odamlarning ruhiyatiga ta'sir qilish va ularning xatti-harakatlarini boshqarishning o'ziga xos vositasi bo'lib xizmat qilsa, "Ehtimol, mutaxassislarda "axborot-psixologik ta'sir" tushunchasi ortiqcha emasmi degan savol tug'iladi", deb ta'kidlaydilar.

Globalashuv kishilik jamiyatidagi mahalliy ahamiyatga molik madaniy, axborot, iqtisodiy, nosiyosiy makonlarning bir tizimga birlashuvi jarayonidir. Yer kurrasining turg'un transport marshrutlari bilan birlashtiriluv, migratsiya oqimlarining kuchayishi, axborot texnologiyalarining taraqqiy etishi va hokozolar shakllanayotgan globalashuvning bosqichlaridir. O'tgan asrning oxiri bu jarayon misli ko'rilmagan darajada jadallashuviga olib keldi va globalashuv davri nomini oldi. Hozirgi davrda globalashuv jarayoni tobora kengayib bormoqda va bu jahon siyosiy makoning yangicha ko'rinishi va taraqqiy etishiga ta'sir qildi. Jahon siyosiy makonida davlatlarning global rivojlanishi bu avvalambor, dunyoning barcha davlatlari va xalqlarining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik, psixologik jihatdan birgalikdagi yangicha taraqqiyotidir. Globalashuv sharoitida avj olgan muammolarning yechimi hamkorlikdagi harakatlarni talab qiladi. Ushbu integratsion jarayonlar doirasida quyidagi maqsad va vazifalarning amalga oshirilishi izohlanadi. Bular :

1) Xalqaro ijtimoiy – siyosiy muammolar:

- yadro urushining oldini olish;
- qurollanishi poygasi darajisini pasaytirish;
- mintaqaviy va davlatlaroro mojoralarni hal qilish;
- umumjahon havfsizlik tizimining mustahkamlanishi;
- xalqlar o'rtasidagi ishonchni takomillashtirish.

2) Xalqaro ijtimoiy – iqtisodiy va ekologik muammolar:

- kam rivojlanganlik va u bilan bog'liq bo'lgan qashshoqlik hamda madaniy qoloqlikni bartarf etish;
- energetik, xomashyo, mahsulot inqirozlarini hal etish yo'llarini qidirish;
- tinch maqsadlar uchun koinot makonini va jahon okeanini o'zlashtirish;
- ishlab chiqarish jarayonini ekologik xavfsizlikni ta'minlash;
- tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash.

3) Inson muammolari:

- asosiy huquq erkinliklariga rioya qilish;
- inson hayoti uchun muhim bo'lgan sharoitlarni ta'minlash, ijtimoiy munosabatlarni demokratlashtirish, madaniyatni rivojlantirish va saqlash;
- inson va tabiat, jamiyat, siyosat va xalqaro munosabatlar o'rtasidagi muvozanatni uyg'unlashtirish.

Jahon hamjamiyati tajribasi insoniyat taqdiriga ta'sir etuvchi muammolarni faqatgina birlashgan holda hal etish mumkinligini ko'rsatadi. Axboriy-psixologik xavfsizlik borasidagi bunday tahdidlarga qarshi kurashishda eng avvalo, huquqiy asosni mustahkamlash lozimdir. Bu boradagi tahdidlar doim ham mamlakat ichkarisidan chiqavermasligini, ularning chetdan turib tashkillashtirishga urinish hollari mavjudligini ham unutmaslik zarur.

Har bir jamiyatda axborot – psixologik xavfsizlik tushunchasi ko‘p ishlatiladi. Bu tushuncha avvalo qanday paydo bo‘ldi? Uning hayotiyliigi insoniyat taqdiriga dahldorligi nimada? Ana shunday savol tug‘ilishining o‘zi muammolarning dolzarbligi va o‘ta keskinligini ko‘rsatadi. Bizningcha, axborot-psixologik havfsizlik tushunchasi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- 1) Axborot-psixologik havfsizlik bu bevosita inson ruhiyatiga ta’sir o‘tkazishi orqali uni o‘z aqidalaridan, muqaddas ideallaridan, e’tiqodlaridan ayiradigan buzg‘unchi g‘oyalardan asrashdir.
- 2) Axborot-psixologik havfsizlikka rioya qilinmasa, uning ta’sirchan choralari ko‘rilmasa, buzg‘unchi g‘oyalar milliy qadriyatlarni barbod etish orqali tarixan mavjud bo‘lgan xalqlar va millatlarni genotsidga olib kelishi muqarrar.
- 3) Tig‘iz axborotlashgan jamiyatda axborot orqali zamonaviy ruhiy ta’sir texnologiyalarining tobora rivojlanib borayotganligi shaxs va jamiyat tafakkurining shakllanishiga u yoki bu tarzda kuchli ta’sir o‘tkazadi. Jamoatchilik fikrining qay darajada shakllanganligiga, jamiyatning siyosiy ongi, huquqiy bilimlar saviyasi, ma’naviy-ma’rifiy darajasiga qarab, jamiyatning taraqqiyotiga yoki tanazzuliga yuz tutishi muqarrar.
- 4) Ijtimoiy fikrni shakllantirishda axborot ta’sirini, axborot texnologiyalaridan foydalanish usullari va uslublarning tobora kengayib borayotganligini nazarda tutsak, axborot – psixologik havfsizlik muammosi yana ham keskinlashib qoladi

Axborot va psixologik xavfsizlik muammosi axborot xavfsizligi muammosining bir qismi xisoblanadi. Axborot va psixologik xavfsizlik sohasidagi qonunchilik konsepsiyasini ishlab chiqish 1990 yilda SSSR Oliy Kengashining milliy xavfsizlik masalalari bo‘yicha parlament komissiyasida boshlangan edi. Biroq, 2000 yildan keyin qonun loyihasi muhokamadan olib tashlandi va uning o‘rniga boshqa so‘z kiritildi, unda so‘zning ikkinchi qismi - psixologik - yo‘qoladi. Faqat birinchi qism qoladi - axborot xavfsizligi. Xuddi shu narsa xalqaro, mintaqaviy va milliy hujjatlarga ham tegishli. Hamma joyda faqat axborot xavfsizligi haqida aytiladi, bu esa, bizningcha, inson va butun jamiyat xavfsizligi muammosining psixologik tomonining zaiflashishiga olib keladi. Manipulyatsiya xarakterining axborot-psixologik ta’siri inson nazoratining o‘ziga xos shaklidir. Va bu shakl yashirin ravishda amalga oshirilganda xavflidir. Shaxsga ma’lumot va psixologik ta’sir ko‘rsatishning manipulyatsiya texnologiyasini bilish shaxsni ruhiy himoya qilish yo‘lidagi birinchi qadamdir. “Ijtimoiy ta’minotning dolzarb muammolari” ijtimoiy-siyosiy loyihasida axborot-psixologik ta’sirning quyidagi batafsil ta’rifi berilgan: bashorat qilinadigan fikr va munosabatlar, xulq-atvor reaksiyalari, psixologik munosabat. Shu o‘rinda axborot psixologik xavfsizlik o‘zi qanday tushuncha degan savol paydo bo‘ladi. Axborot - psixologik xavfsizlik bu - fuqorolar, ularning alohida guruhlar va ijtimoiy qatlamlari, umuman olganda aholini salbiy axborot - psixologik ta’sirlardan muhofaza qilinganlik holati.[2] Axborot xavfsizligi:

- ✚ Axborotning uning egasiga zarar keltiradigan tasodif yoki qasddan qilingan tahdidlarga chidamliligining umumlashgan xossasi.
- ✚ Axborotning holati. Bu holat axborot tashuvchisining (axborotlashtirish ob’ekti, ma’lumotlarni uzatish tarmog‘i va boshqalarni) uni qayta ishlash, saqlash va uzatishda axborotning konfidentsiallik, butunlik va kirishimlilik kabi xususiyatlarga ega bo‘lib qolishini ta’minlash qobiliyati bilan tavsiflanadi.
- ✚ Axborotning chiqib ketishi, soxtalashtirilishi, nusxa olinishi, o‘zgartirilishi, oshkor bo‘lishi, buzilishi, qamal qilinishiga olib keluvchi beruxsat tasodifan yoki qasddan qilingan amallardan muhofazalanganligi. Konfidentsiallik, butunlik va kirishimlilik axborot xavfsizligining tavsifnomasi bo‘lib hisoblanadi.
- ✚ Axborot munosabatlari sub’ektiga zarar etkazish mumkinligi bilan bog‘liq bo‘lgan xavf ehtimolining yo‘qligi. Jismoniy va yuridik shaxslar hamda davlatning axborot sohasida muhofaza qilinganlik holati.
- ✚ Axborot va qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmaning muhofaza qilinganligi. Bunda tasodifan yoki atayin qilingan, tabiiy yoki sun’iy tavsifga ega bo‘lgan va axborot va qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilma egasi yoki foydalanuvchilariga zarar etkazish mumkin bo‘lgan ta’sirlardan muhofazalash nazarda tutilgan.

Hozirgi kunda ko'pchilik axborot olish manbai sifatida murojaat qiladigan, hayotimizning ajralmas tarkibiy qismiga aylanib ulgurgan internet xususida ba'zan kishilar bir yoqlama fikr yuritayotganini kuzatamiz. Ayrimlar uning ijobiy tomonlari, imkoniyatlarini haddan tashqari yoqlab, ashaddiy tarafdor sifatida internetni qo'llab-quvvatlasalar, boshqalar esa ko'proq foydalanish jarayonida inson oladigan negativ, salbiy ta'sirlarga e'tibor qaratadilar. Ayni nuqtai nazardan internetning funksiyalari, vazifalari, imkoniyatlarini to'g'ri anglash va undan maqsadga muvofiq foydalanishni har bir fuqaro uddalashi lozim, deb o'ylaymiz. Ba'zi yoshlarning internetga mukkasidan ketishini esa sabab emas, oqibat sifatida baholagsh mumkin. Xulosa kilib aytadigan bo'lsak, har bir axborot mazmuni, mohiyati, ta'sir etish darajasi, jamiyatga foydali yoki zararliligi, kishini ezgulikka yoki yovuzlikka da'vat etishi bilan "shaxs – jamiyat – davlat" mutanosibligiga ijobiy yoki salbiy ta'sir etadi. Ana shu jihatdan qaraganda milliy manfaatlarni asrash, rivojlantirishda axborot - psixologik xavfsizlikni ta'minlashning roli juda muhimdir. Demak, yoshlarimizda bu g'oyani to'g'ri talqin qilish, fikr-mulohazalarini boyitish uchun ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar tashkil qilinishi, soha bo'yicha turli ilmiy kitoblar yaratilishi davr talablaridan biri hisoblanadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Amirov D.M, Atadjanov A.Y, Atadjanov D.Y va boshqalar. Axborot- kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati. Qayta ishlangan, to'ldirilgan ikkinchi nashr. B 28, 31
2. Abduazizova N. Milliy mafkura va axborot makoni. // O'zbekiston matbuoti, 2006. 5-son, 12-b.
3. Musaxoniy A.. Axborot makoni paydo bo'lishi mumkinmi? // Jamiyat va boshqaruv, 2006 y.
4. Mo'minov F.A. Ommaviy axborot vositalari va axborot qarama-qarshiligi. / O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi joriy arxivi, 2006
2. Rashidova D. Muratova. N. Internet jurnalistikasi T.: 2007 y. 9-bet
3. Safaev S.S. «Globallashuv sharoitida milliy xavfsizlikni ta'minlashning dolzarb masalalari».
4. Safaev S.S. / Tarkatma material/ «Globallashuv sharoitida milliy xavfsizlikni ta'minlashning dolzarb masalalari» T. 2005 2-3-betlar



## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ИДЕИ И.КАНТА В КОНТЕКСТЕ ЕГО ЭТИКО-СОЦИОЛОГИЧЕСКОГО УЧЕНИЯ

*Юсунова Феруза Зойировна*

*Навоийский государственный горный и технологический университет.*

Иммануил Кант - великий педагог и просветитель, родоначальник немецкой классической философии. Весьма оригинально и этическое учение И.Канта. Он утверждал автономию человеческой воли и абсолютные нормы, коренящиеся в субъекте нравственного самосознания. Согласно основному моральному закону («категорическому императиву») И.Канта, человек должен руководствоваться принципами, способными быть основой всеобщего законодательства, и никогда не относиться к другому человеку лишь как средству достижения своих целей. По существу, И.Кант перевел в план нравственного сознания требование всеобщего правового равенства и поставил вопрос о личности как высшей ценности [1,с.161].

И.Кант исходил из идеи воспитуемости человека. Просвещение выводит человека из природного состояния, делает его моральным существом, приобщает к свободе, научая пользоваться разумом. Образование и воспитание - главные средства осуществления этих целей. Они должны вооружать человека знаниями и готовить к жизни и практической деятельности. Основные задачи образования, по И.Канту, - воспитание социальной дисциплины, привитие навыков, приобщение к культуре, моральное воспитание. Придавая важное значение духовному развитию личности, И.Кант указывал и на важность физического воспитания. Он высказывал мысль о необходимости сочетания академического и трудового обучения. Особенностью педагогических научных изысканий И.Канта является то, что они не носили изолированного, автономного характера. Разумеется, И.Кант не создавал стройную педагогическую систему и не рассматривал свои образовательные концепции как самостоятельную теоретическую дисциплину. Педагогические идеи И.Канта органически связаны с его философским мировоззрением, в особенности с пониманием природы человека и решением проблемы человеческой свободы. Они явились своеобразной отражением из его этико-социологического учения и четко воплотили в себе ряд сильных сторон кантовской философии [1,с.467].

Будучи поборником теоретической глубины и противником практицизма, И.Кант всегда рассматривал академическое образование как предварительное познание мира, придающее наукам и искусствам практический смысл, «вследствие чего они становятся пригодными не только для школы, но и для жизни и благодаря чему ученик выходит на арену своего призвания... вполне подготовленным» [2, с.462]. Одним из основоположений педагогики И.Канта является убежденность в принципиальной воспитуемости человека. По рождению люди не являются ни злыми, ни добрыми, они «внеморальны». Формирование моральности, опирающееся на развитие интеллекта, совпадает у И.Канта с движением к свободе, т.е. человеческой зрелости. «Просвещение - это выход человека из состояния своего несовершеннолетия... Несовершеннолетие есть неспособность пользоваться своим рассудком...» [3,с.27] - писал И.Кант в работе «Ответ на вопрос: что такое просвещение?».

Термин «просвещение» употреблен здесь в широком смысле - как духовное созревание человека под влиянием всей социально-культурной среды. Образование и воспитание выступают как важнейший фактор просвещения, причем его действительность находится в прямой зависимости от того, насколько оно отвечает требованиям человеческого естества. «Мы принадлежим к животному царству и становимся людьми только через образование. Вот почему мы могли бы в короткое время увидеть вокруг себя совершенно других людей, если бы получил всеобщее применение тот метод воспитания, который мудро выводится из самой природы..» [2, с.467].

Верный своим философским принципам, И.Кант считал, что и в области образования главным стимулом для педагога и воспитуемого должен выступать не материальный выигрыш, а цель более высокого порядка, которая ассоциируется с моральными идеалами и осуществление которой и представляет собой совершенствование природы человека. «...В воспитании кроется великая тайна усовершенствования человеческой природы... Заманчиво представить себе, что благодаря воспитанию человеческая природа будет развиваться все лучше и лучше и что ей можно придать такую форму, которая соответствовала бы идеалу человечности» [4, с.21]. Реализация этой цели составляет основную задачу педагогической деятельности, которая через воспитание человека служит делу общественного благоденствия.

И.Кант справедливо рассматривал образование как активный социальный процесс. Ребенок становится человеком только через направленное воспитание, его задатки не могут раскрываться сами собой, «всякое воспитание есть искусство» [4, с.25].

Таким образом, основные направления и задачи образования И.Кант сводил к следующему:

во-первых, привитие дисциплины как средства преодоления дикости в человеке (оно должно начинаться с самого раннего возраста);

во-вторых, привитие культуры (понимался И.Кантом как «сообщение навыков»);

в-третьих, приобщение к цивилизации путем развития ума и воспитанности;

в-четвертых, моральное воспитание.

Ощутимой целью и одновременно критерием продуктивности педагогической деятельности является всестороннее развитие личности, под которым И.Кант понимал гармоническое сочетание природного и общественного начала в человеке, знания и воспитанности, и в особенности духовного и физического развития.

#### **Литература:**

1. Кант И. О педагогике/П.Тешендорф (предисл.), А.Х.Саидов (Вступит. статья); Пер. с нем. М.Акбаров. - Ташкент: Национальный центр Республики Узбекистан по правам человека, 2013. С.- 161, 467.

2. Кант И. Сочинения в шести томах. Т.2. - М.: 1964. С.462.

<https://www.philosophy.ru/library/sochineniya-v-6-ti-tomakh-t-2/>

3. Кант И. Сочинения в шести томах Т.6. - М.: 1966. С. 27.

<https://www.philosophy.ru/library/sochineniya-v-6-ti-tomakh-t-6/>

4. Кант И. О педагогике/Пер. с нем. С.Любомудрова. –2-е изд., 1907. <https://kant-online.ru/o-kante/bibliografiya/trudy-kanta/>.

## ИСТИФОДАИ ВОСИТАҲОИ ИННОВАТСИОНИИ ТАЪЛИМ ДАР РУШДИ МАЛАКАҲОИ НАВИШТИ ХОНАНДАГОНИ ХУРДСОЛ

*Юсуфҷонова Дилбар Холиқҷонова – номзади илмҳои педагогӣ, сармуаллимаи кафедраи назария ва методикаи таълими забони модарии МДТ “Донишгоҳи давлатии Хучанд ба номи академик Б.Ғафуров”. Ҷумҳурии Тоҷикистон, шаҳри Хучанд.*

*Бобоева Инобат Солиҷонова – муаллимаи кафедраи назария ва методикаи таълими забони модарии МДТ “Донишгоҳи давлатии Хучанд ба номи академик Б.Ғафуров”. Ҷумҳурии Тоҷикистон, шаҳри Хучанд.*

Пешрафти илму техника ва инкишофи муносибатҳои ҷамъиятӣ аз хонандаи имрӯза заковат, бориқбинӣ, мушоҳидакорӣ, босалоҳиятӣ, фаъолиятнокӣ ва дарки амиқи воқеоти рӯзмарраро талаб мекунад. Мусаллам аст, ки беҳбудии муносибати босалоҳияти мақсаднок бо дарс, донишу малака ва эҷодкории омӯзгорону хонандагон алоқаи ногустастанӣ дорад. Муассисаи таълимии муосир бояд ба макони муқаддаси таълиму тарбияи насли наврас ва инкишофу ташаккули неруи зеҳнӣю ақлонӣю онҳо мусоидат кунад. Салоҳиятнокӣ мақсаднокӣ эҷодкорона тақозо менамояд, ки омӯзгори замони истиқлол барои амалӣ шудани он аз тозақорию навоарӣ, эҷодқорию навҷӯӣ ва дигар тарзҳои пурсамари таълим самаранок истифода намояд.

Яке аз роҳҳои самарабахши таълими муносибати салоҳиятнокӣ дар синфҳои ибтидоӣ истифодаи адабиёти таълимӣ ба шумор рафта, дарёфти роҳҳои инноватсионӣ дар раванди дарсҳо яке аз масъалаҳои муҳими рӯз ба шумор меравад. Асосҳои истифодаи технологияи инноватсионӣ дар таълим ва татбиқи он дар дарсҳо дар замони муосир масъалаи мубрам ба ҳисоб рафта, таҳлили ҳамаҷонибаро талаб менамояд, зеро навъу шаклҳои гуногуни аёнӣю ғайрӣю имконияти фароҳии истифодаи он дар таҷрибаи ҷаҳонӣ ба вуҷуд омадааст.

Истифодаи воситаҳои таълимӣ яке аз роҳҳои самарабахши рушди малакаҳои хониш ва навишт дар синфҳои ибтидоӣ ба шумор рафта, дарёфти роҳҳои инноватсионӣ истифодаи он дар ҷараёни дарсҳо яке аз масъалаҳои муҳими рӯз ба шумор меравад.

Мақсади асосии технологияҳои инноватсионӣ таълим омода намудани шахс ба ҳаёт дар ҷаҳони доимо тағйирёбанда мебошад, яъне

- фароҳам овардани шароит барои тарбияи ахлоқию ҳуқуқӣ, эмотсионалӣ ва эстетикӣ, зеҳнӣ, иттилоотӣ ва коммуникатсионӣ, инчунин фарҳанги солимӣю хонандагони хурдсол;
- инкишоф ва баланд бардоштани қобилияти фикрии хонандагон тавассути ҷорӣ намудани технологияҳои нави педагогӣ дар раванди таълим.

Талаботи имрӯзаи ҷомеа нисбат ба омӯзгор чунин аст, ки омӯзгор бояд пайваста ба худомӯзӣ машғул бошад, худуди имкониятҳои худро васеъ намояд. Вай бояд зуд тағйир дода тавонад ва дар дарс усули технологияҳои навро татбиқ карда тавонад. Хулласи калом, муаллим бояд бо замон ҳамқадам бошад.

Дар назар бояд дошт, ки маълумоте, ки дар мактаби ибтидоӣ гирифта шудааст, барои рушди минбаъдаи дониш ҳамчун асос ва таҳкурсии хизмат мекунад. Дар мактаби ибтидоии муосир ба кӯдак танҳо хондан, ҳисоб кардан ва навиштанро ёд додан кифоя нест. Он бояд бо малакаҳои нав таъмин карда шавад. Инҳо амалҳои гуногунранги тарбиявӣ мебошанд, ки асоси қобилияти омӯхтан, инчунин ҳавасмандии бошууроноӣ ташаккулёфтаи омӯзиш, худташаккул ва рушди худ мебошад.

Аз ин лиҳоз, шароите фароҳам овардан лозим аст, ки шавқу ҳаваси бачаҳоро ба хониш зиёд кунад, бо онҳо робитаи мутақобиларо ба роҳ монда, ҳамкориро дар ирзаминаи рушд диҳад, ҷири норавшанро омузонад ва дар ниҳоятӣ кор ба онҳо тарзи аз худ карданро омузонад. Ва он гоҳ хонанда дар раванди фаъолияти мустақилона ва натиҷаи кори хеш бештар масъулиятшинос мегардад.

Моҳият ва мақсади таълиму тарбия ин инкишофи ҳаматарафаи қобилиятҳои умумии инсон, азхуд намудани тарзу усулҳои гуногуни фаъолият ва тафаккур мебошад.

Шахси муосир бояд:

- тамаркуз ба дониш ва истифодаи технологияи нав;
- барои васеъ кардани самти ҳаёти худ фаъолона кӯшиш кунад;
- вакти худро самаранок истифода барад ва ояндаи худро тарҳрезӣ карда тавонад;
- саводи молиявӣ дошта бошад;
- пешбурди тарзи ҳаёти солим ва беҳатар қодир бошад

Мақсади нави таълим тарбия, дастгирии иҷтимоию педагогӣ барои ташаккул ва камолоти шаҳрванди дорои ахлоқи баланд, масъулиятшинос, эҷодкор, ташаббускор, қобилиятнок мебошад. Имрӯз бе омӯхтани тамоми доираи васеи технологияҳои таълимӣ мутахассиси босалоҳияти педагогӣ шудан имконнопазир аст. Технологияҳои муосири педагогиро танҳо дар мактаби муосир бо истифодаи технологияҳои навини инноватсионӣ амалӣ кардан мумкин аст. Навгонӣ ё навоарӣ ҳоси ҳама гуна фаъолияти касбии инсон буда, табиист, ки мавзӯи омӯзиш, таҳлил ва амалӣ мегардад. Навоарӣ худ аз худ ба вучуд намеояд, онҳо натиҷаи тадқиқоти илмӣ, таҷрибаи пешқадами педагогии муаллимони алоҳида ва тамоми коллективҳо мебошанд.

Вазифаи муаллим аз он иборат аст, ки ёрдамчии боандеша бошад, талабагонро ба бемайлони таълим додан ва ба инкишоф додани малакаҳои тафаккури пурмаҳсул ёрӣ расонад. Имрӯз муҳим аст, ки ба кӯдакон омӯзонидани таҷриба, дониш, малака ва хислатҳои шахсияти худ барои ҳалли масъалаҳои мушаххас, ташаккул додани манзараи илмии ҷаҳон, омӯзонидани онҳо аз тавсифи илмӣ то қобилияти паймоиш дар мушаххас падидаҳо. Дар мактаби ибтидоӣ аз рӯи барномаи забони модарӣ омӯзиши ҳатмии калимаҳое пешбинӣ шудааст, ки имлои онҳо бо қоидаҳо санҷида нашудааст. Яке аз вазифаҳои асосие, ки дар назди муаллим меистад, ба бача беҳато навиштани калимаҳоро ёд додан аст. Самаранок гардондани раванди азхудкунии калимаҳои мушқил кори душворест, ки аз муаллими муосир меҳнати зиёди эҷодиро талаб мекунад. Барои хонанда бо чунин зухуроти грамматикӣ шинос шудан кофӣ нест. Дар натиҷаи системаи машқҳо оид ба калимаи луғавӣ талабагон маъноҳоро чунон азхуд мекунанд, ки дар онҳо малака ва қобилияти зуд ва дуруст татбиқ намудани дониши дар бораи калима гирифташуда дар амал ташаккул меёбад. Бо ёрии машқҳо дониши бачагон на танҳо мустақкам мегардад, балки аниқ мегардад, маҳорати кори мустақилона ташаккул меёбад, маҳорати фаъолияти фикрӣ мустақкам мегардад. Кӯдакон бояд ҳамеша бо таҳлил, муқоиса, тартиб додани ибораҳо ва ҷумлаҳо, кори лоиҳавӣ ва умумӣ машғул шаванд. Тавассути машқҳо дониш систематикӣ ва автоматӣ карда мешавад.

Инчунин бедор намудани шавқи китобхонӣ дар тарбия, таълим ва камолоти мактаббачагон нақши бузург дорад. Хондан на танҳо фанест, ки кӯдак бояд бомуваффақият аз худ кунад, балки мавзӯест, ки тавассути он ӯ дигар фанҳоро аз худ мекунад. Аз ин рӯ, яке аз мавзӯҳои мубрами синфҳои ибтидоӣ ташаккули малакаи хониши дуруст, равон, бошууроно, ифоданок мебошад.

Фаъолияти бозиҳои таълимӣ барои пешбурди маҳорати хондан, мустақкам гардонидани маводи таълим, ба ташаккули малакаҳо мусоидат мекунанд. Онҳо бояд ба мавзӯ ва мақсади таълимии машғулият мувофиқ бошанд. Асоси бозиҳои таълимиро мақсади таълимии он ташкил мекунад. Бояд омӯзгор дар раванди таълим ниёзу қобилият ва имкониятҳои хонандаро ба инобат ва эътибор гирифта, таълимиро ба роҳ монанд. Бозиҳои гуногуни таълимӣ шавқу ҳаваси хонандагонро нисбат ба фанни таълимӣ бедор карда, қобилияти донишандӯзии хонандагонро дар раванди таълим зиёд мегардонад.

Масалан: Бозӣ “Хуб ё бад?” Бо мақсади инкишофи фикронӣ ва санҷиши дониши хонандагон, ки оё онҳо дар ҳолатҳои гуногуни ҳаётӣ аз вазъиятҳои мухталиф баромада метавонанд ва донишу малака, маҳорати худро истифода бурда метавонанд. Барои хонандагон ҳолат ё вазъиятеро баён намуда, хоҳиш менамоем, ки ҷиҳати манфӣ ва мусбии онро баён намоянд.

Я

хмос – хуб, барои он ки бомазза, ширин.

Яхмос – бад, барои он ки аз бисёру бемаврид хӯрдани он, гулӯдард мешавем.

М

еваҳо – хуб аст, барои солиму бардам гаштан истеъмоли зиёди мевачот муфид аст, зеро витаминҳои А, В, С дорад.

Меваҳо – бад аст, агар онро ношуста истеъмол намоем, аз ҳад зиёди он ба касалии дарди шикам оварда мерасонад.

Д

арзмол -хуб аст, зеро аз истифодаи он либосҳои мо шинаму зебост.

Дарзмол – бад аст, агар ҳангоми истифода беаҳамияти намоем, дар натиҷа сӯхтор ба амал меояд.

Бозии “Сайри олам меравем”

Дар бозӣ мо ба хонандагон супориш медиҳем, ки “Биёед, бачаҳо бо ҳам сайри шаҳри дигаре меравем, ҳангоми сайр кардан дар шаҳрҳои дигар мо бояд чӣ гуна рафтор намоем. Ва ҳангоми ҳаракат дар кӯчаҳои шаҳрҳои ба мо ношинос ба кадом аломатҳо бояд риоя кард ва чӣ хел аз он истифода бурд. Аз аломатҳои зерин истифода бурда, дар кӯчаҳои шаҳр сайр мекунем.”

-хонандагонро ба гурӯҳ ҷудо намудан.

-ба ҳар гурӯҳ 3-тоғӣ додани аломатҳои роҳ.

-аз рӯи аломатҳо навиштани ЭССЕ.

-барои навиштани ЭССЕ додани вақт.

**Бозӣ “Музояда”. (Кӣ зиёд медонад?)**

Мақсади гузаронидани ин санҷиш ва инкишофи дониши луғавии хонандагон. Хонандабаранда интиҳоб мекунед, боқи интиҳобан 4-5 нафар шунаванда, дигарон ҳамчун доварназоратчи шуда метавонанд.

- Хонанда- баранда аз хотираи худ калима мегӯяд, гурӯҳи интиҳоб шуда бояд ба ҳарфи охири он калимае гӯянд ва онро шарҳ диҳанд.
- Намуна;
  1. Хонанда -баранда: Анис-ҳамдам, ғамхор
  2. Хонанда дар гурӯҳ: саришта – саранҷом,
  3. Хонанда -баранда: андеша – фикр,
  4. Хонанда дар гурӯҳ: ахтар- ситора, кавкаб,
  5. Хонанда -баранда: армон-орзу,
  6. Хонанда дар гурӯҳ: навбол- навпарвоз,
  7. Хонанда -баранда: алфоз - сухан,
  8. Хонанда дар гурӯҳ: зулол- оби бисёр соф,.....
  9. Ҳангоми иҷроиши ин фаъолият хонанда калимаҳои азхудкардаи худро ба хотир оварда, дар нутқ истифода мебарад, захираи луғавии худро бой мегардонад.

**Кори гурӯҳӣ.** Хонандагонро ба гурӯҳҳо ҷудо кунед. Он хонандагоне, ки дар гуфтани саволҳо мушкилӣ кашиданд, онҳоро гурӯҳи хидоятшуда намуда, бо он гурӯҳ ҳамроҳ кор кунед. Ба гурӯҳҳо супориш диҳед, ки ба ҷумлаи зерин савол тартиб диҳанд.

Кӣ?                      Чӣ?                      Чӣ хел?                      Чӣ кор мекард?.....Кай?



**Баъзан гунҷишк ягон дона гелоси ҳил-ҳил пухтаро гирифта меоварад.**

**Ҷавобҳои эҳтимолии хонандагон.**

**Кай** гунҷишк ягон дона гелоси ҳил-ҳил пухтаро гирифта меовард?

Баъзан **кӣ** ягон дона гелоси ҳил-ҳил пухтаро гирифта меовард?

Баъзан гунҷишк **чӣ** гирифта меовард?

Баъзан гунҷишк гелоси **чӣ хелро** гирифта меовард?

Баъзан гунҷишк **чӣ кор** мекард?



Пас аз иҷрои супориш аз гурӯҳҳо хоҳиш кунед, ки саволҳои худро хонда намоиш диҳанд. Истифодаи маҷмуи васеи технологияҳои инноватсионии таълим ба педагог имкон медиҳад, соати дарсиро самаранок истифода барад ва натиҷаҳои баланди саводнокии хонандаро дар маҷмӯъ, аз ҷумла, рушди салоҳиятҳои самти навишти хонанда ноил мегардад.

Таҳқиқоти гузаронидаи мо тамоми маҷмӯи масъалаҳои марбут ба истифодаи технологияҳои инноватсионии таълимро дар рушди ҷаҳонбинии илмии хонанда фарогир нест. Дар оянда зарур аст, ки ба шартҳои педагогӣ бунёди сохтори ягонаи тайёр кардани омӯзгорон ба истифодаи технологияҳои инноватсионии таълим дар рушди ҷаҳонбинии илмии хонандагони муассисаҳои маориф бо фарогирии тамоми хонандагони синну солашон гуногун эътибор дода шавад.

#### **Пайнавишт:**

- 1) Банақшагирии дарс дар асоси стандартҳо, китоби дарсӣ ва замимаҳо. Модули 2. (Мураттибон: Ниёзов Ф., Алиев А. ва дигарон). – Душанбе, 2016.
- 2) Выготский Л.С. Воображение и творчество. - М.: Просвещение, 1966.
- 3) Выготский Л.С. Мысль и речь / Выготский Л.С. Избранные психологические этюды. —М., 1956. - 392 с.
- 4) Зиёев М. Н., Мирзоматов Н., Бадалова М., Роҳнамои муаллимони синфҳои ибтидоӣ оид ба истифодаи барномаҳои нави таълими «Забони модарӣ» ва «Математика». – Душанбе, 2008.
- 5) Коменский Я.А. Великая дидактика // В кн.: Хрестоматия по истории зарубежной педагогики. Сост. А.И. Пискунов. 2-е изд., перераб. - М., 1981.
- 6) Лутфуллоев М. Равиши дарси забони модарӣ дар синфҳои ибтидоӣ. -Душанбе, 1986.
- 7) Лутфуллоев М. Асосҳои таълими ибтидоии забони модарӣ. - Душанбе, 2007.
- 8) Текучев А.В. Методика преподавания русского языка в средней школе. Изд. 2-е, перераб. и доп. -М.: Просвещение, 1986. - С.297-356

## СЎРОҚ ЖАРАЁНИНИНГ САМАРАДОРЛИГИДА ПСИХОЛОГИК БИЛИМЛАРНИНГ ЎРНИ.

*Якубова Биби-Марьямхон Абудахалимовна*

*Ўзбекистон Республикаси Бош Прокуратура Академияси  
Психологик таъминлаш бўлим прокурори.*

Сўнги йилларда мамлакатимиз ҳаётида рўй бераётган ислохотлар барча жабҳаларни камраб олмакда. Тергов жараёнини ҳолислик, объективлик ва адолатлилик тамойилларига таянган ҳолда олиб бориш, демократик қонун-қоидаларга амал қилиш, айбланувчи, гумондор ва гувоҳларнинг ҳуқуқлари ва нафсониятини ҳимоя қилган равишда сўроқ қилиш, тергов жараёнини тамомила янги босқичда олиб чиқмоқда. Бунда психологик билимларнинг ўрни бекиёсдир. Терговчи психологик билимларга эга бўлиши, тергов жараёнини тўғри ташкил этиш, тергов жараёни иштирокчиларини психологик портретини аниқлаш, ҳар бирига индивидуал ёндашиш, вербал ва новербал нутқни талқин қилиши жиной ишни фош этишда катта аҳамиятга эга.

Бугунги кунда тергов жараёнини терговчидан юқори профессионал-касбий ҳислат ва сифатларни талаб этади. Сабаби, бир жиной ишни тергов қилишда жуда кўп сонли инсонлар билан мулоқотда бўлади. Кўрсатма берувчиларнинг айримлари адолатни тиклашга ва айбдорни топишга терговга ҳайрихоҳ бўлишса, айрим тоифа инсонлар, қилмишларини яшириш, терговга тўсиқлар яратиш ва ёлғон гапириш билан банд бўладилар. Бунинг учун ҳатто маҳсус “афсоналар” тўқиб чиқариб, шу ҳиқояни барча сўроқларда гапираверади. Аммо, сўроқ қилинувчи шахс “ёлғон афсонасини” батафсил ҳар бир сўзини ёдлаб олиши мумкин, бироқ хулқий белгилар: мимика, қарашлар, ҳаяжонни ўхшатиш жуда мураккаб. Айнан шундай вербал ва новербал белгиларни маъносини таҳлил қилиш, терговчи сўроқ қилиш жараёнини янада самаралироқ ва вақт жиҳатидан тезроқ яқунлаши, жиноятларни тоифасидан келиб чиқиб, ёш омилига эътибор бериб тергов қилиш психологик усуллар ва тактикалардан фойдаланиши лозим.

Сўроқ жараёнини муваффақиятли бўлишида алоҳида аҳамиятни унинг коммуникатив томони касб этади, яъни мулоқот учун тергов ҳаракати давомида қулай психологик муҳит ва психологик контакт ўрнатиш зарур ҳисобланади. Психологик контакт бу — сўроқ давомида ўрнатилган ўзаро муносабат бўлиб, ундаги иштирокчилари бир-биридан қабул қилаётган маълумотларни идрок эта олади. Психологик контактни ўрнатиш бу – тергов ҳаракати учун қулай шароит яратиш, унда сўроқ қилинувчи терговчини изоҳларини идрок этиш, ҳатто, ҳақиқатни яширмоқчи бўлганда, ёлғон кўрсатмалар бермоқчи бўлган пайтда ҳам руҳан мулоқот қуришга тайёрлиги ҳисобланади. Психологик контакт ўрнатишда терговчининг коммуникабеллиги (мулоқотчанлиги) катта аҳамиятга эга, яъни одамларни ўзига жалб эта олиш, шахсга индивидуал психологик хусусиятларидан (ёши, характери, кизиқишлари, руҳий ҳолати, ишга таалуқлилиги ва ҳ.к.) келиб чиқиб муомала қила олиши, ҳақиқатни гапиришга ундай олиши, ҳатто овоз оҳангини тўғри танлай олиши лозим. Шунингдек, психологик контакт ўрнатишда терговчи ўзини душман эмаслигин кўрсатиш, тўғрилиқ, объективлиқ, ҳолислиқ тамойилларига амал қилиш, сўроқ қилинаётган шахсни эътибор билан тинглай олиши, мулоқотда зўриқишни еча олиш малака кўникмалари катта аҳамият касб этади. Сўроқ қилинувчи қаршилиқ кўрсатиш ва психологик кураш ҳолатларида бўлиб, ўзи билган маълумотларни яшириб, ёлғон кўрсатма бериб терговга тўсиқ яратганда психологик таъсир қўлланилади. Психологик таъсирнинг моҳияти — фойдаланаётган усуллардан иборат бўлиб, мавжуд ашёвий далилий маълумотлардан фойдаланиш, сўроқ қилинаётган шахсни психик жараёнларини, субъектив позициясини ўзгартиришга, рост гапиришга, терговчига ҳақиқатни ва адолатни ўрнатишга кўмак беришга ундаши керак.

Психик таъсир жиноий-процессуал қонунда белгиланган даражада қўлланилади. Умумий қоидага кўра, кўрсатмаларни зўравонлик, қўрқитув, шантаж ва бошқа ноқонуний ҳаракатлардан фойдаланиш мумкин эмас (ЎзР ЖК 5 моддаси). Алдаш, ёлғон кўрсатма бериш, шахвоний ҳирсларидан фойдаланиш ҳам қатъий мумкин эмас. Сўроқ жараёнида алоҳида аҳамияти ишонтириш усули касб этади. Унинг моҳияти шахс онгиги унинг шахсий танқидий таффақури орқали мурожаат этиш. Дастлабки саралаб олиш, мавжуд фактларни мантиқий тартибга солиш, уларни самарали ва эмоционал шаклда тактик шартланган кетма-кетликда тақдим этиш психик таъсир муваффақиятини белгилайди.

**Тергов кузатуви.** Терговчининг сўроқ вазифаларини самарали бажариш учун тактик заҳирасида терговни *кузатув услуги бўлиб*, бу усул, кенг тарқалган, осон ва самарали усуллардан ҳисобланади. Бунда терговчидан кузатувчанлик ва объектив таҳлил кўникмасини талаб қилади. **Кузатиш-ахборот олиши ва уни амалий фаолиятда қўллаш мақсадида объектни субъект томонидан визуал ёки ўзга усуллар билан кузатиш.**

Тергов кузатуви атроф-муҳитни пассив томоша қилиш эмас, балки фаол, мақсадга йўналтирилган конструктив-тафаккурли фаолиятдир. Кузатувни олиб боришда амал қилиниши лозим бўлган энг **аҳамиятли тамойилларини** ажратамиз:

1. Кузатувни бошлашдан аввал турли манбалардан таянган ҳолда, имкон қадар объект ҳақида кўпроқ маълумотга эга бўлиш.

2. Кузатувда аниқ мақсадлар ва вазифаларга таяниб, ҳаёлий бўлса ҳам режа ишлаб чиқиш.

3. Кузатилаётган объектни нафақат тахмин қилинаётган маълумотларни қидириш, балки аксини ҳам кўра билиш зарур. Шунингдек, кузатиш жараёнида қуйидагилар муҳим:

-кузатув объектини *ҳаёлан қисмларга ажратилиш* (бош, кўкрак қафаси, қўллар ва ҳ.к.), ҳар бир лаҳзада диққат майдонида ўз эътиборини яхлит кўринишни назоратдан четда қолдирмай, қисмларни ўрганиш;

-бир маротабалик кузатишга *ишонмаслик*, объектни турли вақт оралиқлари, шароит ва вазиятда кузатиш;

- махсус намоён қилиш мумкин бўлган ҳолатларни, қабул қилинаётган белгиларни *шубҳа остига* олиш;

- барча қисмлар, элементлар ва белгиларни *солиштириш* улар орасида ўхшашлик, алоқа ва тафовутларни қидириб топиш.

Шунингдек, муҳим тамойиллардан бири, бир объектни тергов фаолиятини ўзга иштирокчилари томонидан олинган кузатишлар натижаларини таққослаш.

Тергов жараёнида терговчи нафақат вербал (оғзаки, езма), кузатишлар орқали олинган маълумотларга эга бўлади, балки новербал маълумотлар ҳам оғзаки кўрсатмалардан кўра, сўроқ қилинаётган субъект ҳақида кўпроқ ахборот беради:

Сўроқ қилинаётган шахс ҳақида **новербал маълумот манбаи** бу:

- *ташқи кўриниши*, кийим кечак ва бошқа йўлдош буюмлар, яшаш, ишлаш ва бўш вақтларни ўтказиш микро муҳитидаги барча моддий буюмлар (қизиқишлар, хоббилар, спорт, медицинага муносабати, уйнинг ва иш жойининг (мавжуд бўлса) тартиби, интернет саҳифаларини таҳлили, ижтимоий тармоқлардаги қизиқишлари (лайклар ва изоҳлар) бош саҳифага қўйилган статуслар ва суратлар, кийиниш услуги, баданда чизмаларнинг мавжудлиги, субмаданият аъзоси бўлишлиги, қандай кинофильмларни томоша қилиши, алкоголь ва наркотик моддларга муносабати);

- *паралингвистик хулқ-атвор* (маконда ҳаракатланиш, тана ҳолатини ўзгартириши, мимика, жестлар ва ҳ.к.);

- *ҳатти-ҳаракатлар* норасмий, расмий, криминал, ноқриминал ва бошқа вазиятларда ўзини тутиши; *объектлар*– воситалар, меҳнат ва ўзга фаолият маҳсулотлари; *график*, топографик ва ёзма нутқининг мазмун-моҳиятига эътибор қаратиш лозим. Терговчи томонидан идрок этилаётган маълумот сўроқ қилинаётган шахснинг ҳолати, унинг асл мақсадларини, режаларини ва бошқа вазифаларни ечишга ёрдам беради. Демак, кузативни амалга оширишда, унинг қонун-қоидаларига амал қилиш, турли ахборот манбаларини мажмуавий кўриб чиқиш, олинган маълумотларни таққослаш, вазиятни ўзига хослигини эътибордан четда қолдирилмаса, ҳатоликка йўл қўйиш эҳтимоли жуда паст бўлади.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Антонян, Ю.М., Еникеев, М.И., Эминов, В.Е. Психология преступника и расследования преступлений – М., 1996.
2. Белкин, Р.С. Профессия – следователь / Р.С. Белкин. – М. 1998.
4. Васильев, В. Л. Юридическая психология / В.Л. Васильев. – М., 1991
5. Громов, Н.А. Уголовный процесс. – М. 1998 – 552 с.
6. Еникеев, М.И. Основы общей и юридической психологии/М.И. Еникеев. – М., 1999.
7. Еникеев, М.И. Психологический энциклопедический словарь / М.И. Еникеев. – М., 2010.
8. Кони, А.Ф. Память и внимание / А.Ф. Кони.– Петроград, 1922 – 312 с.
9. Криминалистика/ Под Ред. Н.П. Яблокова М. 2001 URL <http://bibliotekar.ru/criminalistika-3/index.htm>
10. Психология допроса / Планета земля. М., 2011.
11. Овчинников, А.И. Юридическая аргументация в судебном процессе: теоретико-методический аспект/ А.И. Овчинников, И.А. Стеценко, В.И. Фатхи // Юрист правовед. – № 5 (72). – 2015.
12. Простяков, В. В. Психологические требования к личности и профессиональной деятельности сотрудника органов внутренних дел/В.В. Простяков // Юридическая психология. – 2012. – № 1.
13. Романов, В.В. Юридическая психология/В.В. Романов. – М.: Юристь, 2006.
14. [http://bookap.info/okolopsy/psihologiya\\_doprosa/](http://bookap.info/okolopsy/psihologiya_doprosa/)
15. Руководство для следователей / Под ред. Селиванова Н. А. – М., 1998.
16. Сухарев, А.Я., Попов, И.А. Руководство по расследованию преступлений: Учебное пособие. – М., 2002.
17. Черечукина, Л.В. Организация досудебного расследования: Учебное пособие / Луган. гос. ун-т внутр. дел. – Луганск, 2005.
18. Шумилин, С.Ф., Завидов, Б.Д., Методологические, тактические и юридические проблемы допроса. М.: Эксмо.

## ЎЗБЕКИСТОН ҚОНУНЧИЛИК ТИЗИМИДА ЮРИДИК-ТЕХНИК НОРМАЛАРНИНГ ИФОДАЛАНИШИ ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС АҲАМИЯТИ

*Яшнарбеков Анвар Яшнарбекович*

*Тошкент давлат юридик университети мустақил изланувчиси.*

**Аннотация:** Мақолада Ўзбекистон қонунчилик тизимида юридик-техник нормаларнинг ифодаланиши ва унинг ўзига хос аҳамияти илмий таҳлил қилинган. Жумладан, юридик-техник нормаларнинг Ўзбекистон Республикаси Конституциясида, қонунларида, Ўзбекистон Республикаси Президенти фармон ва қарорларида, Хукумат қарорларида, шунингдек қонун ости ҳужжатларида ифодаланиши илмий жиҳатдан очиб берилган.

**Калит сўзлар:** ижтимоий нормалар, юридик-техник нормалар, техник нормалар, конституция, қонун, фармон, қарор, йўриқномалар, қўлланмалар, техник стандартлар, қоидалар.

Республикамызда юридик-техник нормаларни шартли равишда бир неча гуруҳларга бўлиб ўрганишимиз мумкин, масалан биринчи гуруҳга “инсон ва техника”, “инсон ва ишлаб чиқариш” муносабатларини тартибга солишга йўналтирилган юридик-техник нормаларни, иккинчи гуруҳга эса, “инсон ва табиат”, “инсон ва атроф-муҳит” муносабатлари, учинчи гуруҳга “инсон ва қурилиш муносабатлари”, тўртинчи гуруҳга “инсон ва тиббиёт” муносабатларини тартибга солишга йўналтирилган юридик-техник нормаларни киритишимиз мумкин. Қайд этиш жоизки республикамыз ҳуқуқ тизимида амалда бўлган юридик-техник нормалар жуда кенг қамровли бўлиб, ҳар бир тармоқда бир қатор норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинган. Республикамызда амалда бўлган юридик-техник нормаларнинг қонунчилик тизимида ифодаланишини тадқиқ қилишда, бизнингча, конституция, кодекслар, қонунлар, Президент фармонлари ва қарорлари, Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари, вазирлик, қўмита ва давлат идораларининг норматив ҳужжатлари каби гуруҳларга бўлиб, тизимли равишда ёритиш мақсадга мувофиқ.

Энг аввало, **Конституциямызда** қайд этилган юридик-техник нормалар хусусида тўхталиб ўтиш лозим. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси асосий қомус сифатида давлатимизда ишлаб чиқиладиган барча норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга асос бўлиш баробарида юридик-техник нормалар соҳасидаги сиёсий-ҳуқуқий фаолият йўналишларини ҳам белгилаб берган. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 49-моддасига мувофиқ, фуқароларнинг Ўзбекистон халқининг тарихий, маънавий ва маданий меросини авайлаб асрашга мажбур эканликлари; 50-моддасига мувофиқ, атроф табиий муҳитга эҳтиёткорона муносабатда бўлишга мажбур эканликлари; 54-моддага мувофиқ, мулкдор мулкига ўз хоҳишича эгаллик қилиши, ундан фойдаланиши ва уни тасарруф этиши, шунингдек мулкдан фойдаланиш экологик муҳитга зарар етказмаслиги, 55-моддага мувофиқ ер, ер ости бойликлари, сув, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси ҳамда бошқа табиий захиралар умуммиллий бойлик бўлиб, улардан оқилона фойдаланиш зарурлиги, улар давлат муҳофазасида эканлигига оид қоидалар юридик-техник нормалар туркуми ҳисобланади<sup>400</sup>. Мазкур нормаларга оид муносабатларда инсон субъект бўлса, инсон таъсир кўрсатадиган ер, сув, бино-иншоот, обидалар, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси объект сифатида намоён бўлади. Юқорида қайд этиб ўтганимиздек, ушбу конституциявий нормалар умумийўналтирувчи қоидалар бўлиб, уларда қайд қилинган ҳар бир масала алоҳида қонунларда муфассал баён қилинган.

**Кодекслар.** Ўзбекистон Республикасининг бир қатор кодексларида юридик-техник нормалар у ёки бу даражада қайд қилинган. Кодексларда қайд қилинган юридик-техник нормаларни шартли равишда умумий ва махсус гуруҳларга бўлиш мумкин.

<sup>400</sup> Ўзбекистон Республикасининг конституцияси / Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 06.03.2019 й., 03/19/527/2706-сон.



Биринчи гуруҳга юридик-техник нормалар орқали белгилаб қўйилган умумий қоидаларни киритсак, иккинчи гуруҳга давлатнинг мажбурлов чоралари назарда тутилган нормаларни киритамиз. Масалан, Ўзбекистон Республикасининг “Ер кодекси”, “Ҳаво кодекси”, “Уй-жой кодекси”, “Шаҳарсозлик кодекси” каби кодексларида қайд этилган юридик-техник нормалар умумий қоидалар бўлиб, улар муайян тартиб-таомилларни белгилаб беради. “Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекс”, “Жиноят кодекси”да эса юридик-техник нормаларда белгилаб қўйилган қоидаларнинг бузилишига нисбатан муайян жавобгарликлар назарда тутилган бўлади. Ўзбекистон Республикасининг “Ер кодекси” орқали инсон ҳамда унинг ерга муносабатлари тартибга солинган. Ушбу кодексга мувофиқ, ер умуммиллий бойликдир, Ўзбекистон Республикаси халқи ҳаёти, фаолияти ва фаровонлигининг асоси сифатида ундан оқилона фойдаланиш зарур ва у давлат томонидан муҳофаза қилинади. Ер тўғрисидаги қонун ҳужжатларининг асосий вазифалари ҳозирги ва келажак авлодларнинг манфаатларини кўзлаб ердан илмий асосланган тарзда, оқилона фойдаланиш ва уни муҳофаза қилишни, тупроқ унумдорлигини тиклаш ва оширишни, табиий муҳитни асраш ва яхшилаш, шунингдек бу соҳада қонунийликни мустаҳкамлашдан иборат. Ер тўғрисидаги қонун ҳужжатлари энг муҳим табиий ресурс, фуқаролар ҳаётий фаолиятининг асоси тариқасида ер фондини асраш, тупроқ сифатини яхшилаш ҳамда унинг унумдорлигини ошириш, ерлардан оқилона, самарали ва белгиланган мақсадда фойдаланишни таъминлаш, қишлоқ хўжалиги учун мўлжалланган ерларнинг, энг аввало, суғориладиган ерларнинг алоҳида муҳофаза этилишини, кенгайтириб борилишини ҳамда улардан қатъий белгиланган мақсадда фойдаланишни таъминлаш, қишлоқ хўжалиги ерларининг унумдорлигини ошириш, ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш ҳамда ерларни муҳофаза қилиш тадбирларини амалга оширишни давлат йўли билан ва бошқа тарзда қўллаб-қувватлаш, ерга ва бутун атроф табиий муҳитга зарар етказилишининг олдини олиш, экологик хавфсизликни таъминлаш каби принципларга асосланиши белгилаб қўйилган<sup>401</sup>.

Ўзбекистон Республикасининг “Ҳаво кодекси”да инсон ва техника муносабатларининг шу соҳага оид қисмларини, “Уй-жой кодекси” турар жойлар, уларга нисбатан мулк ҳуқуқи, уй-жой фондларига оид юридик-техник нормаларни, “Божхона кодекси”да шу соҳада қўлланиладиган техника ва улардан фойдаланишга доир юридик-техник нормалар, “Шаҳарсозлик кодекси”да қурилиш соҳасидаги юридик-техник нормалар тартибга солиб қўйилган.

Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси ҳамда Жиноят кодексларида эса юридик-техник нормаларга тааллуқли бўлган қоидаларнинг бузилиши учун муайян жавобгарликлар қайд қилинган<sup>402</sup>. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 266-моддасида эса транспорт воситасини бошқарувчи шахс томонидан транспорт воситалари ҳаракати ёки улардан фойдаланиш хавфсизлиги қоидаларини бузиш учун жиноий жавобгарлик белгиланган<sup>403</sup>.

**Қонунлар.** Республикада шундай қонунлар мавжудки, уларда айнан юридик-техник нормалар қонуннинг асосий предметини ташкил қилади. Ўзбекистон Республикасининг “Стандартлаштириш тўғрисида”ги, “Маҳсулотлар ва хизматларни сертификатлаштириш тўғрисида”ги, “Лицензиялаш, руҳсат бериш ва хабардор қилиш тартиб-таомиллари тўғрисида”ги, “Техник тартибга солиш тўғрисида”ги қонунлари шулар жумласидан ҳисобланади. Ҳар бир қонун муносабатнинг бир томонида субъект сифатида инсон, иккинчи тарафда эса инсоннинг фаолияти қаратиладиган объект ўртасидаги муайян техник, юридик-техник муносабатларни тартибга солишга қаратилган.

<sup>401</sup> Ўзбекистон Республикасининг Ер кодекси / Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1998 й., 5-6-сон, 82-модда.

<sup>402</sup> Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси / Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон.

<sup>403</sup> Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси / Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон.

Масалан, Ўзбекистон Республикасининг “Стандартлаштириш тўғрисида”ги Қонунида қуйидаги муҳим мақсадлар кўзда тутилган, яъни маҳсулотлар, жараёнлар, ишлар ва хизматларнинг аҳолининг ҳаёти, соғлиғи ва мол-мулкига, атроф муҳит учун хавфсизлиги, ресурсларни тежаш масалаларида истеъмолчилар ва давлат манфаатларини ҳимоя қилиш, фан ва техника тараққиёти даражасига, шунингдек аҳолининг ҳамда халқ хўжалигининг эҳтиёжларига мувофиқ ҳолда маҳсулот сифатини ҳамда рақобат қила олиш имконини ошириш, барча турдаги ресурслар тежалишига кўмаклашиш, ишлаб чиқаришнинг техник-иқтисодий кўрсаткичларини яхшилаш, табиий ва техноген фалокатлар ҳамда бошқа фавқулодда вазиятлар юзага келиш хавф-хатарини ҳисобга олган ҳолда халқ хўжалиги объектларининг хавфсизлигини таъминлаш ва бошқалар<sup>404</sup>.

Ўзбекистон Республикасининг “Лицензиялаш, рухсат бериш ва хабардор қилиш тартиб-таомиллари тўғрисида”ги Қонуни эса интеллектуал мулк объектларидан фойдаланиш, аккредитация қилиш, сертификатлаштириш, стандартлаштириш, метрология ва техник жиҳатдан тартибга солиш, давлат экологик экспертизаси, атом энергиясидан фойдаланиш соҳасидаги фаолият мезонларини белгилаб берган<sup>405</sup>. Ўзбекистон Республикасининг “Техник жиҳатдан тартибга солиш тўғрисида”ги Қонуни эса юридик-техник нормалар қайд этилган энг муҳим қонунлардан биридир. Мазкур Қонуннинг мақсади маҳсулотлар, ишлар ва хизматлар хавфсизлигига доир мажбурий талабларни белгилаш, қўллаш ва бажариш соҳасидаги муносабатларни тартибга солишдан иборат<sup>406</sup>. Мазкур қонунда **техник жиҳатдан тартибга солиш соҳасидаги норматив ҳужжатларга** техник регламентлар, стандартлаштиришга доир норматив ҳужжатлар, санитария, ветеринария, ветеринария-санитария, фитосанитария қоидалари ва нормалари, шаҳарсозлик нормалари ҳамда қоидалари, экологик нормалар ва қоидалар тааллуқли эканлиги қайд этилган.

**Техник жиҳатдан тартибга солишнинг асосий мақсади инсон ҳаёти ва соғлиғи, юридик, жисмоний шахсларнинг ва давлатнинг мол-мулки хавфсизлигини, шунингдек атроф муҳит муҳофаза қилинишини, табиий ресурслардан оқилона фойдаланилишини таъминлаш ҳисобланади.** “Инсон ва табиат” муносабатларига доир юридик-техник нормалар тартибга солинган қонунларни алоҳида гуруҳга киритишимиз мақсадга мувофиқ. Бундай қонунлар туркумига “Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида”ги, “Сув ва сувдан фойдаланиш тўғрисида”ги, “Муҳофаза этиладиган табиий ҳудудлар тўғрисида”ги, “Ер ости бойликлари тўғрисида”ги, “Ўсимлик дунёсини муҳофаза қилиш ва ундан фойдаланиш тўғрисида”ги, “Ҳайвонот дунёсини муҳофаза қилиш тўғрисида”ги, “Атмосфера ҳавосини муҳофаза қилиш тўғрисида”ги, “Чиқиндилар тўғрисида”ги, “Ўрмон тўғрисида”ги қонунлар тааллуқлидир.

**Фармон ва қарорлар.** Бизнинг фикримизча, юридик-техник нормаларни қайд этиш ва уларни амалга татбиқ қилиш икки бир-бири билан узвий боғлиқ жараёндан иборат. Биринчи ҳолатда қонун чиқарувчи ҳокимият норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда техник рецептларни, юридик-техник нормаларни, техник тартиб-таомилларни белгилаб берса, иккинчи бўғинда эса, мазкур нормаларни ҳаётга изчил ва жадал татбиқ қилиш масалалари бажарилади. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармонлари ва Қарорлари, Вазирлар Маҳкамасининг Қарорлари мавжуд юридик-техник нормаларни ҳаётга изчил татбиқ қилинишининг янада аниқ бўлган механизмларини белгилаб беради. Маълумки, мамлакатимизда атроф муҳитни муҳофаза қилиш, табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш, санитария ва экологик ҳолатни яхшилашни таъминлаш долзарб масалалардан бири ҳисобланади. Ушбу соҳадаги юридик-техник нормаларни такомиллаштириш ва ҳаётга изчиллик билан жорий этиш масаласида Ўзбекистон

<sup>404</sup> Ўзбекистон Республикасининг “Стандартлаштириш тўғрисида”ги Қонуни / Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон.

<sup>405</sup> Ўзбекистон Республикасининг “Лицензиялаш, рухсат бериш ва хабардор қилиш тартиб-таомиллари тўғрисида”ги Қонуни / Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 15.07.2021 й., 03/21/701/0674-сон

<sup>406</sup> Ўзбекистон Республикасининг “Техник жиҳатдан тартибга солиш тўғрисида”ги Қонуни / Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон.

Республикаси Президентининг 2019 йил 30 октябрда қабул қилинган “2030 йилгача бўлган даврда Ўзбекистон Республикасининг атроф муҳитни муҳофаза қилиш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” ПФ-5863-сон Фармони<sup>407</sup> юридик-техник нормаларнинг янги саҳифасини очиб берди. Фармонда бу борада ўтказилган таҳлил натижалари атроф муҳитни муҳофаза қилиш соҳасида давлат функцияларини амалга оширишда комплекс ёндашув ва стратегик режалаштиришнинг мавжуд эмаслиги, шунингдек, қўйилган вазифаларни самарали бажариш учун табиатни муҳофаза қилиш органининг ваколатлари етарли эмаслиги қайд этилди.

Атроф муҳитни муҳофаза қилиш соҳасида давлат сиёсатининг устувор йўналишларини белгилаш, табиатни муҳофаза қилиш соҳасидаги қонун ҳужжатлари бузилишлари профилактикаси, уларни аниқлаш ва олдини олишнинг самарали механизмларини жорий этиш, республика аҳоли пунктларининг санитария ва экологик ҳолати учун давлат органлари, хўжалик юритувчи субъектлар раҳбарлари ва фуқароларнинг шахсий жавобгарлигини кучайтириш, шунингдек, 2030 йилгача бўлган даврда барқарор ривожланиш соҳасидаги Миллий мақсад ва вазифаларга эришишни таъминлаш вазифалари белгиланди. Жумладан, атроф муҳит объектларини (атмосфера ҳавоси, сув, ер, тупроқ, ер қаъри, биохилма-хиллик, қўриқланадиган табиий ҳудудлар) антропоген таъсир ҳамда бошқа салбий таъсир қилувчи омиллардан сақлаш ва сифатини таъминлаш, экологик жиҳатдан энг кам хавф туғдирувчи материаллардан, маҳсулотлардан, ишлаб чиқариш объектлари ва бошқа объектлардан устувор даражада фойдаланиш, қўриқланадиган табиий ҳудудларни кенгайтириш, захарли кимёвий ва радиоактив моддалардан экологик хавфсиз фойдаланишни таъминлаш, чиқиндилар билан боғлиқ ишларни амалга оширишнинг экологик хавфсиз тизимини такомиллаштириш вазифалари белгилаб берилди.

Бундан ташқари, юридик-техник нормалар Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 2 июндаги “Техник жиҳатдан тартибга солиш соҳасида давлат бошқарувини тубдан такомиллаштириш тўғрисида” ПФ-6240-сон Фармони<sup>408</sup> билан янада ривожлантирилди. Мазкур Фармонда техник жиҳатдан тартибга солиш, стандартлаштириш, сертификатлаш ва метрология соҳаларида таркибий ислоҳотларни янада чуқурлаштириш, соҳани халқаро андозаларга мослаштириш, стандартлардан кенг фойдаланиш муҳитини яратиш, мувофиқликни баҳолаш жараёнларига замонавий услубларни жорий қилиш масалалари аниқ белгиланди. Фармонга кўра, Инвестициялар ва ташқи савдо вазирлиги ҳузуридаги Ўзстандарт агентлиги тугатилиб, **Техник жиҳатдан тартибга солиш агентлиги** ташкил этилди ҳамда озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги маҳсулотларига мувофиқлик сертификати олиш ихтиёрий ва соддалаштирилган ҳолатга келтирилди. [Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 12 декабрдаги «Техник жиҳатдан тартибга солиш, стандартлаштириш, сертификатлаштириш ва метрология тизимларини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида» ПҚ-4059-сон қарорига](#)<sup>409</sup> мувофиқ мавжуд Стандартлаштириш, метрология ва сертификатлаштириш илмий-тадқиқот институти ва “Ахборот-маълумот маркази” давлат корхонаси негизда [“Стандартлаштириш, сертификатлаштириш ва техник жиҳатдан тартибга солиш илмий-тадқиқот институти” давлат муассасаси](#) (Стандартлар институти) ташкил этилди. Ушбу қарорига асосан “Стандартлаштириш, сертификатлаштириш ва техник жиҳатдан тартибга солиш илмий-тадқиқот институти” давлат муассасаси стандартлаштириш бўйича

<sup>407</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 30 октябрдаги «2030 йилгача бўлган даврда Ўзбекистон Республикасининг атроф муҳитни муҳофаза қилиш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги ПФ-5863-сонли Фармони / Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.10.2019 й., 06/19/5863/3979-сон

<sup>408</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 2 июндаги “Техник жиҳатдан тартибга солиш соҳасида давлат бошқарувини тубдан такомиллаштириш тўғрисида”ги ПФ-6240-сонли Фармони / Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 03.06.2021 й., 06/21/6240/0514-сон

<sup>409</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 12 декабрдаги «Техник жиҳатдан тартибга солиш, стандартлаштириш, сертификатлаштириш ва метрология тизимларини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-4059-сонли қарори / Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 13.12.2018 й., 07/18/4059/2299-сон.

тармоқ техник кўмиталарининг фаолиятини мувофиқлаштириш, стандартлаштириш бўйича норматив ҳужжатларни, шу жумладан, шартнома асосида хўжалик юритувчи субъектлар ва бошқа ташкилотларнинг аризалари бўйича ишлаб чиқиш ва реализация қилиш, шунингдек, техник жиҳатдан тартибга солиш, стандартлаштириш, сертификатлаштириш ва метрология соҳасида кадрларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш бўйича базавий ташкилот этиб белгиланди. Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил, 26 февралдаги “Техник жиҳатдан тартибга солиш соҳасидаги норматив ҳужжатларни тизимлаштиришга доир ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги 110-сон қарори<sup>410</sup> асосида эса **техник жиҳатдан тартибга солиш соҳасида махсус комиссия** тузилган бўлиб, унинг таркибига Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги, Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги, Қурилиш вазирлиги, Соғлиқни сақлаш вазирлиги, Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш давлат кўмитаси, Саноат хавфсизлиги давлат кўмитаси, Ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш давлат кўмитаси, Ўзбекистон стандартлаштириш, метрология ва сертификатлаштириш агентлиги, Ўсимликлар карантини давлат инспекцияси, Монополияга қарши курашиш кўмитаси ҳамда Савдо-саноат палатаси киритилган. Мазкур комиссиянинг асосий вазифалари сифатида техник жиҳатдан тартибга солиш соҳасидаги норматив ҳужжатларни тизимлаштириш, таҳлил қилиш, қайта кўриб чиқиш ва заруратга қараб янгилаш учун қулай шарт-шароитлар яратиш, техник жиҳатдан тартибга солиш соҳасидаги ваколатли давлат органларининг маҳсулотлар, ишлар ва хизматлар хавфсизлигига доир мажбурий талабларни белгилаш, қўллаш ва бажариш билан боғлиқ фаолиятига кўмаклашиш ҳам юклатилган.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан 2021 йил 5 майда қабул қилинган “Муҳофаза этиладиган табиий ҳудудларнинг кўриқланма зоналарини белгилаш бўйича кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” 282-сонли Қарорида<sup>411</sup> “инсон ва табиат” соҳасига доир юридик-техник нормалар янада аниқ қилиб белгиланди. Мазкур қарор билан тасдиқланган Низомнинг 4-5-бандларида кўриқланма зона ҳудудидаги ер эгалари, ердан фойдаланувчилар, ижарачилар ва мулкдорлар ер майдонларидан фойдаланишда кўриқланма зона режимига риоя этишлари шарт эканлиги қайд этилган.

Муҳофаза этиладиган табиий ҳудуд кўриқланма зонасида ер эгалари, экология ва атроф муҳитни муҳофаза қилиш ёки ўрмон хўжалиги органлари томонидан қуйидагилар таъминланади, яъни муҳофаза этиладиган табиий ҳудудларнинг табиий объектлари ва мажмуаларига ҳар қандай салбий таъсирнинг олдини олиш ва камайтириш, муҳофаза этиладиган табиий ҳудуднинг алоҳида қисмлари ўртасидаги алоқани таъминлаш орқали ҳайвонларнинг яшаш шароитлари ва миграциясини яхшилаш, уларни муҳофаза қилиш, муҳофаза этиладиган табиий ҳудудда етарли самарага эришилмаган ҳолатларда уларнинг сонини кўпайтириш ва тиклаш, муҳофаза этиладиган табиий ҳудудда муҳофаза остига олинган ўсимлик ва ҳайвон турлари учун тегишли биотехник тадбирларни амалга ошириш, ўсимлик ва ҳайвонот дунёсидан фойдаланиш, муҳофаза қилиш, қайта тиклаш, бошқа табиий объектлардан барқарор фойдаланиш ҳамда уларни санокдан ўтказишнинг энг оқилона усуллари ишлаб чиқиш ва синовдан ўтказиш, антропоген таъсир доирасидаги ҳудудлардан хўжалик мақсадларида фойдаланишда муҳофаза этиладиган табиий ҳудуд табиий объектлари ва мажмуаларини сақлаш бўйича илмий тадқиқотлар ўтказиш; табиий объектлар ва мажмуаларга зарар етказмайдиган, бошқариладиган экологик туризмни амалга ошириш. Алоҳида муҳофаза этиладиган ҳудудлар деганда ерлар ва сув кенгликлари (акваториялар)нинг устувор экологик, илмий, маданий, эстетик, санитария соғломлаштириш аҳамиятига молик

<sup>410</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Техник жиҳатдан тартибга солиш соҳасидаги норматив ҳужжатларни тизимлаштиришга доир ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори / 2021 йил, 26 февраль, 110-сон.

<sup>411</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 5 майдаги “Муҳофаза этиладиган табиий ҳудудларнинг кўриқланма зоналарини белгилаш бўйича кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” 282-сонли Қарори / Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 06.05.2021-й., 09/21/282/0425-сон.



қисмлари тушунилиши лозим. Бу ҳудудлар ноёб ўсимлик ва ҳайвонот дунёсини, минерал сувлар ҳамда табиат ёдгорликларини сақлаш учун ўта экологик, илмий, маданий, эстетик, санитария соғломлаштириш аҳамиятига эга ҳисобланади.

**Низомлар, қоидалар, йўриқномалар.** Ўзбекистон Республикасининг «Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида»ги Қонунининг 12-моддасига мувофиқ, вазирликлар, давлат қўмиталари ва идоралар ўз ваколатлари доирасида буйруқлар ва қарорлар шаклида норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилади. Низомлар, қоидалар ва йўриқномалар тарзида қабул қилинадиган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар буйруқ ҳамда қарорлар билан тасдиқланади. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ўз хусусиятига кўра, ўзига нисбатан юқори турувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг ижросига нисбатан яратилган бўлса-да, бошқарув фаолияти ва ижтимоий муносабатларни тартибга солиш функцияси борлиги сабабли, муайян янги қоидаларни ҳам ўрнатиши мумкин. Масалан, ёнғин хавфсизлигига оид қоидаларни келтириб ўтишимиз мумкин.

Мақоламизнинг хулоса қисмида хориж олимларидан **О.Ф.Скауннинг** қуйидаги фикрини келтириб ўтиш мақсадга мувофиқ. Муаллиф нормаларнинг барча турлари икки гуруҳга, яъни **ижтимоий** ҳамда **техник нормалар** гуруҳига бўлинишини қайд этиб, **техник нормалар инсоннинг табиат ресурсларидан ва меҳнат қуролларида фойдаланишига оид муносабатларни, ижтимоий нормалар эса инсонларнинг ўзаро муносабатларини тартибга солишини таъкидлаб ўтган**<sup>412</sup>.

Дарҳақиқат, мақола давомида қайд этиб ўтилган маълумотлар, юридик-техник нормалар жуда кенг қамровли эканлигини тасдиқлайди. Шундан келиб чиққан ҳолда республикаимиз қонунчилик тизимида юридик-техник нормаларнинг ифодаланиши хусусида қуйидаги хулосаларга келинди:

- юридик-техник нормалар конституциявий-ҳуқуқий асосга эга, конституциявий нормалар юридик-техник нормаларга оид умумий қоидаларни ўзида мужассам этган;
- юридик-техник нормалар республикаимизда амалда бўлган кодексларда, қонунларда, фармон ва қарорларда, фармон ва қарорлар билан тасдиқланган низом ва йўриқномаларда мустаҳкамланган;
- юридик-техник нормалар норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар воситасида муайян қоидалар шаклида қайд этилиб, уларда инсоннинг табиат, ундаги ресурслар, техника, иш ва меҳнат қуролларига нисбатан муносабатлари тартибга солинган;
- юридик-техник нормаларда қайд этилган қоидалар инсон саломатлиги, унинг хавфсизлиги, фаровон ҳаёти асосларини таъминлайди, шу нуқтаи-назардан уларга риоя қилмаслик учун муайян юридик жавобгарликлар белгиланган;
- юридик-техник нормалар норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар воситасида изчил тартибга солинган, ҳар бир йўналишга оид муайян нормалар қабул қилинган.

<sup>412</sup> Скаун О.Ф. Теория государства и права: Учебник. – Харьков: Консум, 2000. Стр.-283. (704 стр)



## OILAVIY POLIKLINIKALARI FAOLIYATIDA MOBIL ILOVALARDAN FOYDALANISHNING ASOSIY O‘RNI

*Primova Xolida Anorboyevna*  
*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi*  
*Toshkent axborot texnologiyalari*  
*universiteti Samarqand filiali.*  
*Qarshiboeva Madina O‘ral qizi*  
*Samarqand davlat tibbiyot*  
*instituti talabasi.*


Bugungi kunda tuman, shahar ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikalari, shahar va qishloq oilaviy poliklinikalarida mobil ilovalar xizmatidan foydalanish asosiy o‘rinlarda bo‘lishi kerak va bu umumiy muammolarini hal qilishda asosiy mezon hisoblanadi. Shu sababli hozirgi zamon talablaridan kelib chiqqan holda Tibbiy axborot tizimlari faoliyatini baholash va tahlil etish uchun patronaj mobil ilovasini ishlab chiqish amalda tadbiq etish kerak. Tibbiyot yutuqlarini shahar ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikalari, shahar va oilaviy poliklinikalarida mobil ilovalar xizmatidan foydalanishni joriy etish og‘ir kasalliklarning oldini olish, kasalliklarga tez va aniq tashxis qo‘yish tizimini yaxshilash, inson manfaatini muhofazalashda muhim yutuqlar omili bo‘ladi.

Ilg‘or xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki umumiy amaliyot shifokorini haqiqiy oilaviy shifokorga aylantirish choralari muhim omil hisoblanadi. Ularga yordam berish uchun terapiya, pediatriya, akusherlik va patronaj bo‘yicha tibbiy yordam berigadalari tashkil etiladi. Bu xodimlar o‘zlariga biriktirilgan oilalar kesimida “tibbiy xarita”lar shakllantirib, manzilli ish olib boradi. Aholining salomatlik holati baholanib, elektron bazasi yaratiladi. Buning uchun tibbiyot xodimlari planshet, mobil diagnostika vositalari bilan ta‘minlanadi. Ammo patronaj va hamshira faoliyati to‘liq manzilli amalga oshirilyapti va u o‘z samarasini beryapti, deya olmaymiz. Ushbu sohada ham yechimini kutayotgan bir qator masalalar mavjud. Shu sababli ushbu tanlangan mavzu o‘z navbatida shahar va qishloq oilaviy poliklinikalari hamda vrachlar va o‘rta tibbiyot xodimlari faoliyati samaradorligini oshirishda xalqmizga xizmat qiladi. Xususan, uy xo‘jaliklarining tibbiy ijtimoiy holatini o‘rganish maqsadida mobil ilovalar oyiga juda keng qamrovli xonadonlarini kuzatish imkonini beradi va natijalarini tahlil etish uchun xizmat qiladi. Bu esa, ayrim ahvoli og‘ir bemorlar holidan xabar olishni va kerakli imkoniyatlarni ko‘payishiga sabab bo‘ladi [1-4]. Yurtimizda mobil ilovalardan foydalanish ancha vaqtni tejab inson salomatligini yaxshilashga sabab bo‘lib imkoniyatlari esa har tomonlama tahlil qilishga zamin yaratadi. Mobil ilovalar muammolarni tushinish va to‘g‘ri qaror qabul qilish uchun imkoniyatlardan biri hisoblanadi. Umumjahon model sifatida qarayotgan bo‘lsak mobil ilovalar dunyo salomatligiga munosib o‘rin olayotgan model deb qarash mumkin [5].

### ***Yangi mobil ilovalar va an‘anaviy modellar o‘rtasidagi farq***

1. Vaqtdan unumli foydalanish va insoniyat salomatligiga befarq bo‘lmaslik;
2. Muammoni aniq va sifatli tahlil qilish; “xavfni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish yoki sezirarli darajada kamaytirish”;
3. Son emas sifat e‘tibor talabi birinchi o‘rinda, “Inson qadri uchun barchasi”;
4. Tibbiy, ijtimoiy, ta‘lim kompleksiga e‘tibor nafaqat kasalliklarni aniqlash uchun, balki sog‘liqni saqlashning boshqa choralari muammolari [6].

Tibbiyotda kasalliklarni erta aniqlash uchun klinik belgilarini shakllantirish va uning matematik bayoni muhim hisoblanadi. Tibbiy ma‘lumotlarni qayta ishlash hamda masalani yechishning matematik usul va algoritmlarini shuningdek sog‘liqni saqlash muammolarini tadqiqot obektlarining holatini aniqlashda baholash algoritmlarini qo‘llash zarur hisoblanadi.



**1-rasm. Mobil ilova sxemasi.**

Ko'pchilik bemorlar transport yo'qligi, sog'liq uchun ziddiyat, COVID-19 xavfi yuqoriligi va boshqa sabablar tufayli ambulatoriyalarga bora olmaydi. Tibbiy xodimlar hozirda jamiyatda yordam ko'rsatuvchi turar-joy binolari bilan ham ishlamoqda va Medicare B bo'limida qamrab olingan boshqa bemorlarni davolashga intilmoqda. Superior Outcomes jamoasi jamiyatdagi ko'proq odamlarga foyda keltirishi uchun ushbu mobil ilova dasturni yaratishini intilqlik bilan kutmoqda!

Mazkur ilova qismida oline ariza va online potranaj qismidan iborat bo'lib. Online portanaj faoliyatining qaralayotgan sohalari aniqlangan odatiy axborot ob'ektlari asosida qurish amalga oshirilgan.


Oilaviy poliklinikalarda tibbiy yordam monitoringi uchun ilova Flutter dasturlash tili yordamida, Android, iOS, Windows, Mac, Linux, Google Fuchsia dasturlash tilidan foydalangan holda ishlab chiqilgan. Ushbu dasturlash muhitlari kabi operatsion tizimlar uchun bir xil manba kodini kompilyatsiya qilish imkonini beradi.

2-rasmda elektron patronaj mobil ilovasi keltirilgan bo'lib ushbu ilova orqali 3-rasmga kiriladi.



**2-rasm. Online mobil ilova.**

3-rasm 3 ta bo‘lim mavjud bo‘lib, online ariza, online potranaj, E-hujjatlar bilan tanishish mumkin va xar bir bo‘limning o‘z vazifasiga ega.



**3-rasm. Online patronaj ilova interfeysi.**

Qishloq vrachlik punktlarida tibbiy yordamni monitoring qilish uchun platformalararo ilova quyidagi funksiyalarni bajarishi kerak:

- fuqarolarni ro‘yxatdan o‘tkazish (ID, User mane (Phone Numb), Password Full Name, Sity, District, Address);
- Oline ariza berish;
- E-hujjatlar haqida ma’lumotlar;
- Shifokorlar ( F.I.O., Qabul vaqti, Vrachga qarashli hudud), hamshira (login, paroll) tahlili olib boriladi;
- Fuqarolarni ko‘rikdan o‘tkazish jadvali bo‘yicha ma’lumotlarni filtrlash, filtrlash: sana, viloyat, Oilavi polikilinka va qishloq vrachlik punktlari bo‘yicha amalga oshiriladi;
- Topilgan ma’lumotlarni ko‘rish, ma’lumotlar qisqa shaklda ko‘rsatiladi;
- ro'yxatdan o'tgan vakil nomi bo'yicha yakka tartibdagi uyni qidirish;
- topilgan uy ma'lumotlarining batafsil ko'rinishi;
- ko‘rik o‘tish: ID, Pr-date, End-date, Status, Xulosa
- Sozlamalar, ma’lumotlarni sinxronlashtirish. Ushbu maqolada birinchi navbatda mobil ilovalar tahlil qilindi. Elektron raqamli texnologar va tibbiy mobil ilovalarning rivojlanishini o‘rganish va so‘nggi yangiliklardan xabardor bo‘lish uchun mobil ilova juda ham keng miqiyosda foydalaniladi. Mobil ilovalar yangi axborot texnologiyalari boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshirishga va ixtisoslashtirilgan ma’lumotlar bazalariga tezkor kirishga va murakkab sog‘liqni saqlash muammolarini hal qilish imkonini beradi

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Emelin IV On Standards for Electronic Exchange of Medical Documents // Computer. technology. in medicine - 1996.-№ 1.-S. 44-47.
2. Dussere P., Allaert F. A., Dussere L. The Emergence of International Telemedicine: No Ready Solutions available // MEDINFO 95 Proc. - Page 1475
3. Kaudewilz G „Schulte A. Avoidance of errors in the implementation of local networks in a hospital setting // MEDINFO 95 Proc. page 445.
4. Michel A., DieJenbacli M., Riesaclier A., et al. Transfer of hospital information system to client server architecture// MEDINFO 95 Proc IMIA. - 1995. - P. 450.
5. H.A. Primova, T.R. Sakiev and S.S. Nabieva Development of medical information systems// Journal of Physics: Conference Series. 1441 (2020) 012160 IOP Publishing doi:10.1088/1742-6596/1441/1/012160
6. Vaydullaeva M.F., Qarshiboeva M.U. Tibbiy axborot tizimlari faoliyatini baholash va tahlil etish // “Zamonaviy axborot, kommunikatsiya texnologiyalari va AT-ta’lim tatbiqi muammolari” respublika ilmiy-amaliy anjumani, Samarqand. 2021yil. 95-97 betlar.

## QORAMOLLAR TUYOQ KASALLIKLARI (Adabiyotlar tahlili bo'yicha)

*Ernazarov Daniyoz Alisherovich*

*SamDVMCHBU Nukus filiali tayanch doktoranti.*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada qoramollar orasida uchrovchi tuyoq kasalliklarining uchrash darajasi, etiologiyasi, patogenezi, davolash va oldini olish bo'yicha malumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** tuyoq, matsion, podadermatit, abses, laminit, yiring, yiringli yalig'lanish, yalig'lanish, nekrobakterioz, stafilakok, streptokok, mortellaro, dermatit, jaroxat.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947–son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida» gi, 2019 yil 28 martdagi PF–5696–son «Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora–tadbirlari to'g'risida» gi Farmonlari va 2019 yil 28 martdagi PQ–4254–son «O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qumitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» gi va 2020 yil 29 yanvardagi PQ–4576–son «Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarorlari hamda mazkur sohaga doir boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqotlar muayyan darajada xizmat qiladi.

Bugungi kunda dunyoning aksariyat mamlakatlarida qoramollar orasida oyoqlarning distal bo'limi kasalliklari keng tarqalishi kuzatilmoqda. «Chorvachilik komplekslar va fermalari sharoitlarida saqlanayotgan qoramollar jarrohlik kasalliklarining 90%-ini oyoq kasalliklari tashkil etadi va bunday kasalliklar jarohat, bo'g'im-pay cho'zilishlari, tuyoqlarning yiringli-nekrotik zararlanishi ko'rinishlarida namoyon bo'ladi.» Shu sababdan yuqori maxsuldor qoramollardagi tuyoq kasalliklari barmoqlarning yiringli-nekrotik zararlanishlari qoramolchilik xo'jaliklariga keltiradigan iqtisodiy zararni oldini olish hamda yangi zamonaviy spetsifik va nospetsifik davolash choralarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biridir.

**Tadqiqotning maqsadi.** Tadqiqotning asosiy maqsadi qoramollar tuyoq kasalliklarini etiopatogenezi, diagnostikasi hamda davolash va oldini olishni yangi dori vositalarini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifasi.** Tadqiqotning asosiy vazifasi shundan iboratki qoramollarda uchrovchi tuyoq kasalliklarini davolashda yangi ekologik toza dori vositalarini yaratish.

**Adabiyotlar tahlili.** Qoramollar orasida Mortellaro kasalligini birinchi marta Italiyada 1974 yilda Cheli va Mortellaro tomonidan kashf etilgan. Ushbu kasallik anaerob bakteriyalar, shu jumladan spiroxetalar turkimiga oid treponema infeksiyasi bilan bog'liqligi aniqlangan. Mahsuldorligi yuqori bo'lgan hayvonlarda tuyoqning shikastlanishi jami oyoq kasalliklarining 50-60 % ni yoki jarrohlik patologiyasining 14-17 % ni tashkil etadi (A.F.Burdenyuk, G.S.Kuznetsov, 1976). Keyingi yillarda oyoq kasalliklari oqibatida muddatidan oldin hisobdan chiqariladigan sigirlar 4-15,3 % ni tashkil etmoqda (Ulimbashev M. B., 2007). Rossiya va boshqa xorij mamlakatlarida yirik shoxli hayvonlarda oyoq kasalliklarining ancha ko'payganligi qayd etilmoqda (Distl, Koorn D. S., Mc Daniel B. et al.). Shvetsiya va Angliyada 74 % va 55 % hayvonlarning oyoq kasalliklari oqibatida so'yilishi qayd qilingan (Politiek R.D, Distl O., Fjeldaas T. et al., 1990; Bowey R., 1993). Ayrim mualliflar (Veremey E.I., Jurba V.A., 2003) ayrim Yevropa mamlakatlarida hayvonlarning hisobdan chiqarilishining asosiy sabablaridan biri oyoq kasalliklari ekanligini ta'kidlaydilar. Niderlandiyada oyoq kasalliklari mastit va bepustlikdan keyin uchinchi o'rinda turadi. Irlandiya chorvachiligida ilg'or texnologiyaning kiritilishi hayvonlar o'rtasida oqsashning (54 %) oshishiga sabab bo'ldi. Shvetsiyada oqsash oqibatida 4 %, Germaniyada 3 % va Niderlandiyada 2 % dan ortiq sut beradigan sigirlar hisobdan chiqarilmoqda. Keyingi 10-15 yil ichida Janubiy Ural, Rossiyaning Chelyabinsk, Kurgan viloyatlari, Qozog'istonning Kustanay viloyati ferma va komplekslarida sigir sonining kamayishiga qaramasdan tuyoq shikastlanishi 20-50 % ga oshganligi qayd qilindi



(V.A.Molokanov idr.,2001). I.S. Panko, V.A. Lukyanov (2003) ma'lumoti bo'yicha har uchta sigirdan bittasi tuyoq deformatsiyasi yoki oqsash oqibatida hisobdan chiqariladi. Tuyoq deformatsiyasi va uning kasalligi oqibatida har kunlik sut 3,3-4,5 kg kamayadi va hayvonlarning umumiy ahvoli yomonlashadi (I.S.Panko, V. A. i dr., 2003). Chet el tadqiqotchilarning ma'lumotiga ko'ra, tuyoqlari yiringli jarayonga chalingan sigirlardan laktatsiya davrida o'rtacha 1000 kg sut kam olinadi, ular 100 kg gacha tirik massasini yo'qotadi, davolashga esa 1000 marka sarflanadi. Molokanov V.A. Prognozirovanie i profilaktika bolezney kopytes u korov (Tekst) / V.A.Molokanov, V.M,SHeglov, M.T.Baykenov // Veterinariya, 2001. -№7.-S.38-40

Xirurgik kasalliklar orasida oyoqlar distal qismi tuyoqlarning kasalliklari bo'rdoqichilik va sutchilik xo'jaliklarida keng tarqalgan (K.I.Shakalov, 1981, , X.B.Niyazov va boshqalar 1996, N.Sh.Davlatov va boshqalar 1996) bo'lib, bu patologiyaning kelib chiqishiga asosan hayvonlarni saqlash va oziqlantirishdagi yetishmovchiliklar (hayvonlarni tiqis saqlash, matsion va to'shamalarning yetishmasligi, pollarning notekisligi va ifloslanganligi, tuyoqlarni o'z vaqtida tozalab va kesib turmaslik, terining matsratsiyasi), ratsionlarning oqsillar, uglevodlar, vitaminlar va mineral moddalar bo'yicha nomutanosibliigi sabab bo'ladi. A.Ya.Batrakov (1980) ma'lumotiga ko'ra oyoq kasalliklari sutchilik xo'jaliklarida sog'in sigirlarning barcha yuqumsiz kasalliklarining 20 foizini tashkil etadi.

N.Sh.Davlatov va boshqalarning (1996) ma'lumotlariga ko'ra, xo'jaliklarda yirik shoxli hayvonlarning 20 foizdan ko'prog'ida tuyoq va bo'g'implarning yiringli xarakterdagi patologiyasi uchraydi va katta iqtisodiy zarar keltiradi. Shunga qaramasdan bu patologiyaning tarqalishi, keltirib chiqaruvchi omillar, rivojlanish xususiyatlari, diagnostikasi, davolash va oldini olish usullari to'lig'icha o'rganilmagan. Organizmga patogen ta'sir etishi va jarohatning turiga ko'ra travmalar turlicha bo'lishi mumkin. K.I.Shakalov. (1987 ) ma'lumotlariga ko'ra, hayotiy muhim to'qima va a'zolarining shikastlanishi ko'p mikdorda qon yo'qotish bilan rivojlanib, o'tkir holda kechadigan travmalar hayvonning hayoti uchun xavf tug'dirishi mumkin. To'qimalarning keng ko'lamdagi yopiq shikastlanishlari va to'qimalarning parchalanishidan xosil bo'lgan zaxarli moddalarning qonga jadal so'rilishi natijasida, hayvonlarning travmatik zararlanishi vujudga keladi. Mexanik omillarning o'ta kuchli ta'siri natijasida xosil bo'ladigan travmalar oqibatida, jigar, oshqozon, ichaklar, siydik pufagi va a'zolari yorilib ketishi mumkin, xamda shikastlangan to'qimalarga patogen mikroorganizmlarning tushishi natijasida, ko'plab hollarda travmalarning asorati sifatida podadermatit, abstsess, flegmonalar, nekrobakterioz, aktinomikoz kabi patologik jarayonlar rivojlanishi mumkin.

Ko'pincha, tuyoq kasalliklarining rivojlanishida asosiy etiologik omillar o'tkir - o'tmas jismlarning urilishi natijasida kelib chiqqan yopiq va ochiq turdagi mexanik shikastlanishlar hisoblanadi (I.Ya.Tixonin, M.A.Feldshteyn, 1971).

Tuyoqlarning jarohatlanishlari kechish darajasi, davolash jarayonining murakkabligi va oqibatining turli xilda bo'lishiga qarab, bir-biridan farqlanadi (I.V.Shabolaev,1989).

Tuyoqlarning shikastlanishidan keyin ularda "postravmatik", yallig'lanish jarayoni jadal rivojlanib, kasallikning kechishini sezilarli darajada og'irlashtiradi va ko'p hollarda uning oqibatini belgilab beradi M.A.Teresning (1985) fikriga ko'ra, tuyoq patologiyasida asosiy o'zgarish yallig'lanish paytida tuyoq kapsulasida suyuqliklarning me'yorda xosil bo'lishidan farq qilishi hisoblanadi.

Yirik va mayda qon tomirlarning jarohatlanishi bilan kechadigan tuyoqlarning kuchli shikastlanishlarida yallig'lanish jarayoni tuyoq kapsulasining hamma qavatlarida, eng avvalo uning teri asosida bo'ladi. M.V.Plaxotin (1977) ma'lumotlariga ko'ra, tuyoqlarning yiringsiz yallig'lanishlarida kasallikning kechish hususiyatlariga qarab tashhis qo'yiladi, ya'ni: kasallikka xos bo'lgan mahalliy simptomlarning namoyon bo'lishi (kuchli og'riq, oqsoqlanish, tuyoqning hajmiga yiriklashishi va shishi, yumshoq to'qimalarning taranglashishi, tuyoq konturining o'zgarishi) va ularning namoyon bo'lishi darajasiga ko'ra tashxis qo'yiladi. Tuyoqlarning yiringli yallig'lanishlarida punktatni bakteriologik va sitologik tekshirish natijalari katta ahamiyat kasb etadi. Qondagi gemoglobin va eritrotsitlar miqdorining kamayishi, eritrotsitlar cho'kishi tezligining (EChT) oshishi yiringli asoratlar rivojlanayotganidan dalolat beradi (H.Karatias et al., 1986; K.Dale, 1987).

Tuyoqlarning shikastlanishidan keyin ularda “postravmatik”, yallig’lanish jarayoni jadal rivojlanib, kasallikning kechishini sezilarli darajada og’irlashtiradi va ko’p hollarda uning oqibatini belgilab beradi M.A.Teresning (1985) fikriga ko’ra, tuyoq patologiyasida asosiy o’zgarish yallig’lanish paytida tuyoq kapsulasida suyuqliklarning me’yorda xosil bo’lishidan farq qilishi hisoblanadi. Yirik va mayda qon tomirlarning jarohatlanishi bilan kechadigan tuyoqlarning kuchli shikastlanishlarida yallig’lanish jarayoni tuyoq kapsulasining hamma qavatlarida, eng avvalo uning teri asosida bo’ladi. S.T.Shitov (1973) yiringli podaartiridlarni gidrokartizon preparatidan 0,3-0,4mg/kg dozada bo’g’im bo’shlig’iga 3 kunda bir marta, jami 2-3 marta yuborish bilan samarali davolashga erishgan.

Gidrokartizonni yuborishdan oldin bo’g’im bo’shlig’i novokain-antibiotik eritmasi bilan yaxshilab yuviladi. Muallif davolashning 10-12 kunlariga kelib bo’g’im funktsiyalarining tiklanishini, 25 va 30-kunlarida sinovial suyuqlik tarkibining maromlashishini ta’kidlaydi. Bo’g’imlarning suyak-tog’ay elementlarida va paraartikulyar to’qimalarda yiringli yallig’lanish jarayonlari oqmalar xosil qilish bilan kechadi. B.S.Semenov (1981) yiringli sinovitlar va kapsulyar flegmonalarda proteolitik fermentlar, antigistamin preparatlarni qo’llashni va antibiotiklarni 10-15 ming TB/kg dozada muskul orasiga ineksiya qilishni tavsiya etadi. A.V.Matveev (1968) barmoqlar qismidagi yiringli-nekrotik jarayonlarda sulfanilamid preparatlaridan foydalangan holda umumiy davolash usullarini qo’llashni lozim topadi.

**Xulosa.** Adabiyotlar taxlili shuni ko’rsatdiki qoramollar orasida tuyoq kasalliklari keng tarqalgan bo’lib tuyoq kasalliklarini davolash usullari yetarlicha o’rganilmagan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Кузнецов Г.С., Шакалов Н.И. Хирургическая патология и терапия сельскохозяйственных животных – Москва, Колос 1980.
2. Плахотин М.В., Белов А.Д., Есютин А.В. и др. Общая ветеринарная хирургия – Москва Колос 1981.
3. Davlatov N.Sh., Niyozov X.B. va Yu.N.Xudoklinova. Yoppasiga uchraydigan bo’g’im kasalliklarida buqachalar qonining ayrim biokimyoviy o’zgarishlari.Samarqand-1996.

## THE CHALLENGES AND SOLUTIONS TO ARABIC FOR LEARNING ARABIC LANGUAGE AS A FOREIGN LANGUAGE; SUGGESTED STRATEGIES FOR BOTH TEACHERS AND STUDENTS TO GAIN PRACTICAL KNOWLEDGE

*Khakimova Dilshoda Oybek qizi*

*Faculty of English philology and teaching,  
Uzbekistan State World Languages University.*

**Abstract:** Students who learn Arabic as a foreign language usually face difficulties to achieve proficiency in the language. This is because of the lack of Arabic authentic resources. However, there are a group of outstanding students who achieve fluency in Arabic by using their own methods. The effective methods used by outstanding students should be used as a guideline for other students to be more proficient in Arabic Language. In this article, the survey conducted in Malaysia can be a clear example and results from that research are written with useful steps of methods.

**Key words:** Arabic language, storytelling, religion, Semitic, lexical meaning, immersion, pedagogical approach, presenting, acting, doing role play, survey, interaction, referring.

**Проблемы и решения арабского языка для изучения арабского языка как иностранного; предлагаемые стратегии как для учителей, так и для студентов, чтобы получить практические знания**

*Хакимова Дильшода Ойбековна*

*Факультет английской филологии и преподавания,  
Узбекский государственный университет мировых языков.*

**Аннотация:** Аннотация: Студенты, изучающие арабский язык как иностранный, обычно сталкиваются с трудностями при достижении уровня владения языком. Это связано с отсутствием аутентичных ресурсов на арабском языке. Однако есть группа выдающихся студентов, которые свободно владеют арабским языком, используя свои собственные методы. Эффективные методы, используемые выдающимися учащимися, должны использоваться в качестве руководства для других учащихся, чтобы они лучше владели арабским языком. В этой статье обзор, проведенный в Малайзии, может быть ярким примером, и результаты этого исследования описаны с использованием полезных шагов методов.

**Ключевые слова:** арабский язык, рассказывание историй, религия, Семитский язык, лексическое значение, погружение, педагогический подход, презентация, игра, ролевая игра, опрос, взаимодействие, обращение.

**Arab tilini xorijiy til sifatida o'rganish uchun arab tilidagi muammolar va yechimlar; ham o'qituvchilar, ham talabalar uchun amaliy bilim olish uchun taklif etilgan strategiyalar**

*Xakimova Dilshoda Oybek qizi*

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,  
Ingliz filologiyasi va o'qitish fakulteti.*

**Annotatsiya:** Arab tilini chet tili sifatida o'rganayotgan talabalar, odatda, tilni bilishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Buning sababi arabcha asl manbalarning yetishmasligidadir. Biroq, o'z usullaridan foydalangan holda arab tilini ravon o'rganishga erishadigan bir guruh ajoyib talabalar bor. Bilimli talabalar tomonidan qo'llaniladigan samarali usullar boshqa talabalarning arab tilini yaxshi bilishlari uchun qo'llanma sifatida ishlatilishi kerak. Ushbu maqolada Malayziyada o'tkazilgan so'rov aniq misol bo'lishi mumkin va ushbu tadqiqot natijalari foydali usullar bilan yozilgan.

**Kalit so'zlar:** Arab tili, hikoya qilish, din, semit, lug'aviy ma'no, suvga solish, pedagogik yondashuv, taqdim etish, harakat qilish, rol o'ynash, so'rov, o'zaro ta'sir, murojaat qilish.

## **I. Introduction.**

In the last 10 years, the Arabic language and the demand for learning it have increased significantly. The magic, the way of speaking and the charm of the Arabic language attract the attention of anyone at once. If someone learns this language for its charm and miracle, someone else will do it for educational purposes. Why has Arabic developed so rapidly in recent years? There are reasons for this that have been studied worldwide. Today, Arabic is one of the most widely spoken languages. In particular, the fact that Arabic differs from other world languages in tone, style, and pronunciation enhances its status and prestige in the world. Demand for Arabic and Arabic speakers are increasing day by day. Arabic is a Semitic language originating from the Arabian Peninsula. When the Muslim World expanded, Arabic started to spread into Africa and Asia. The distribution of the Arabic language began within the seventh century throughout the Islamic conquests which expanded Arabic's reach from the Middle Eastern countries into Northern Africa. However, it took some time for Arabic language to blossom and prosper, since scientists and linguistics spent time on discovering words and terms. Arabic is one of the oldest languages in the world with a wealth of knowledge that Archeologists to this day are still trying to discover and is the fifth most spoken world language. Roots of Arabic belonged to the sixth century. The Middle East has a rich storytelling history that has produced some of the most remarkable and famous stories such as the 'Arabian Nights', 'Ali Baba', and "Aladdin". Arabs have also made significant contributions in the areas of mathematics, navigation, astrology, architecture and so on.[1]

## **II. Literary review.**

Today Arabic is the official language of 26 Countries of the world and spoken by more than 280 Million people worldwide. Factually, one of the United Nation's Six official languages. (Chinese, Arabic, English, French, Russian and Spanish). Here are some countries where the official language is Arabic: Egypt, Iraq, Israel, Kuwait, Morocco, Oman, Qatar, Saudi Arabia, Sudan, Syria, Tunisia, United Arab Emirates, Yemen.

Let's explore why Arabic language is important to learn:

### **1. Language of Islam Religion**

Arabic plays an integral role in the Islamic faith as Arabic is the language of the Holy Quran. Muslims appreciate the importance of Arabic language in very high esteem with most of their beliefs. Muslims consider Arabic as the divine gift and a sacred part of their customs. They perform five daily prayers in Arabic. Muslims believe that Arabic will be the mother of all languages in the world, is the very first language taught to Adam.

### **2. Business of Arabic**

Arabic business is trying to break into foreign international markets. So learning that language opens opportunities to employment possibilities in the number of many industries like oil, finance, energy, translation and government.

### **3. Rising demand for Arabic**

While Arabic is one the world languages, there are still very few Arabic translators available in the western world. Now there is a very high demand currently for more and more Arabic translators and interpreters are needed by government departments, agencies as well as corporations, organizations and even private sectors striving to enter the global arena.

### **4. Educational studies for Arabic Studies**

Because of the high demand for people speaking Arabic, many of the world's governments and agencies are offering many scholarships and other opportunities for individuals, especially, students and teachers who are interested in learning Arabic .

### **5. Rich History of Arabic**

Many Arab countries played a huge part in the advancement of architecture, navigation, astronomy, mathematics or literature. By speaking Arabic, it is easy to be closer to the minds of some of the most important inventors and researchers of the whole world.[1]

**General about Arabic.** In the beginning, scholars struggled to define and form Arabic as a language, because Arabic language is the Semitic language spoken in a large area including North Africa, Arabian Peninsula, and other parts of the Middle East. On the one hand, one can refer to the language of the Holy Qur'an as the ideal archetype whereas Classical Arabic closely approaches that language. Modern Standard Arabic that differs from Classical Arabic in stylistic and lexical considerations is commonly used in most publications from newspapers to novels and in formal broadcasts like news programs and political speeches.[2] On the other hand, spoken varieties of Arabic differ from each other significantly. While some varieties tend to exhibit a number of common features, including the definite article \*al- and the paradigmatic maf'ūl passive participle, these features are problematic in defining Arabic either because they are not found throughout all varieties of the language or because they can be found in other languages. Arabic shows the fullest development of typical Semitic word structure. An Arabic word consists of two parts: the root - which generally includes three consonants and provides the basic lexical meaning of the word and then the pattern - which consists of vowels and gives grammatical meaning to the word. Thus, the root /k-t-b/ combined with the pattern /-i-a-/ gives kitab - 'book,' whereas the same root combined with the pattern /-a-i-/ gives katib 'one who writes' or 'clerk.' The language also makes use of prefixes and suffixes, which act as subject markers, pronouns, prepositions, and the definite article. Verbs in Arabic stay regular in conjugation. There are two tenses in Arabic, and they are: the perfect, formed by the addition of suffixes, which is often used to express past time and the imperfect, which is formed by the addition of prefixes and sometimes containing suffixes indicating number and gender, which is often used for expressing present or future time. Additionally, there are imperative forms, an active participle, a passive participle, and a verbal noun. Verbs in Arabic are inflected for three persons, three numbers such as singular, dual, and plural, and two genders. There are also forms for the passive voice. However, there is no dual form and no gender differentiation in the first person, and the modern dialects have lost all dual forms. There are three cases - nominative, genitive, and accusative - in the declensional system of nouns; however, these cases have largely disappeared from the spoken dialects, and they are often omitted in spoken Modern Standard Arabic.[2] Basically, there are some effective ways to learn Arabic, and each of these ways involves a different approach to language learning. These approaches may include learning through complete immersion, learning by translation, grammar-based learning, communication-based learning, and vocabulary-based learning.[3]

### III. Methodology and empirical analysis.

Students who learn Arabic as a foreign language in foreign countries usually face difficulties to achieve proficiency in the language or it takes a lot of time to be fluent in Arabic. This is mainly because of the lack of Arabic language resources, but this reason does not hamper the emergence of a group of intelligent students who achieve fluency in Arabic by applying their own methods. Students who learn Arabic as a foreign language in a foreign country usually face difficulties to achieve proficiency in the language. This is primarily because of the lack of Arabic language resources. However, this situation does not hinder the emergence of a group of outstanding students who achieve fluency in Arabic by using their own methods. This study investigated the methods used by these students to be used as a guideline for other students. To collect the data, a set of questionnaire was developed from the Imitation Strategy Instrument introduced by Rosni Samah (2014). The questionnaires were distributed to 50 outstanding final year students from the Arabic language department, Faculty of Major Languages, Islamic Science University of Malaysia. The results showed that effective strategies for learning Arabic language as a foreign language were gathering, enhancing and applying. The targets are new vocabulary and sentence. The tools to perform the strategies were Arabic materials and language activities. This study recommends that in learning Arabic language as a foreign language, the three methods mentioned above should be applied. The Arabic materials should be provided and language activities should be organized effectively.[4] Many students who learn Arabic as a second language face a variety of challenges. And the reason for this can be interpreted differently. There are two main reasons for this: the first is the lack of textbooks and materials



for learning Arabic, and the second is the lack of knowledge and skills of Arabic language specialists and their poor teaching methods. The teaching and learning of Arabic language in Malaysia at this present moment is facing an enormous challenges. The main problem is the pedagogical approach usually employed by most Arabic language teacher who use the traditional method in teaching. According to the research conducted by Azhar et al. (2008) and Abdul Halim (2005) some Arabic language teachers prefer to use a teaching method which concentrates more teacher's role and has less students' involvement. However, it is obvious that some teachers rarely contribute to the student's achievement. That's to say, the problem can be originated from the students themselves. They are weak in their Arabic proficiency and also use the traditional method in learning Arabic. [4] During the research it is explained that most students prefer to just sit and listen to the teacher in learning the Arabic language. Moreover, they feel afraid to speak and be involve in activities in the Arabic Language class. As a result, Syakirah (2004) found that students face difficulties in understanding the Arabic Language subject. However, Rosni b. Samah (2013) expressed that the weakness actually comes from the students' personality or passive attitudes. This attitude also can be seen through the actions of the students during the class. It happens, because they rarely apply proper learning strategies and tactics.

**IV. Results.**

By contrast, there are groups of students who showed excellence in their Arabic Language experience; the survey conducted in Islamic Science University of Malaysia reveals that students had two main instruments in learning Arabic language and they are Arabic materials and language activities. The Arabic materials were text books, dictionaries, magazines, newspapers, advertisements, internet, cartoon materials, radio programs, TV programs, recorded materials, friends, teachers, and Arabic speakers. The language activities are reading, listening, interaction, and writing activities. The success of using those materials has been proven by many language specialists. For these students, their goals were to memorize usually new vocabularies and sentences. To be successful, they have planned a way of learning method such as gathering, enhancing and applying. In implementing their way of learning, they had named the steps for each method.

No.	Steps	Targets	Activities	Materials
1	searching	New vocabulary and sentence	reading, listening	text books, dictionaries, magazines, newspapers, advertisements, internet, cartoon materials, radio programs, TV programs, recorded materials
			interaction	friends, teachers, and Arabic speakers
2	recording		reading, listening and interaction	text books, dictionaries, magazines, newspapers, advertisements, internet, cartoon materials, radio programs, TV programs, recorded materials, friends, teachers, and Arabic speakers
3	asking		reading, listening, writing and interaction	friends, teachers, and Arabic speakers
4	referring		reading, listening, writing and interaction	Dictionaries, friends, teachers, and Arabic speakers

As it can be seen from the table that the first step is called – ‘Searching’ and in this process doing reading and listening activities with the help of textbooks, publishing materials, internet and online resources is advisable in order to know new vocabulary and sentence structure. Next, doing recording, asking and referring activities with the role of cartoon materials, radio and TV programs, teachers, friends and Arabic speakers. In every language learning process happen with authentic materials and innovative materials, likewise, usage of Arabic material is considered as one of the tools to acquire new vocabularies and sentences. In gathering new vocabularies and sentences, outstanding students applied searching, recording, asking and referring methods to acquire new vocabularies and sentences.

To perform the four steps in gathering new vocabularies and sentences, the outstanding students used the language activities as a medium in learning Arabic language. The language activities provided opportunities for reading, listening, writing and speaking or interaction.

In order to apply the methods above, firstly, teachers and specialists should create an atmosphere for students to put the method into practice. Those methods can be seen in many types of exercises like:

- ✓ communicating,
- ✓ interacting,
- ✓ presenting,
- ✓ acting,
- ✓ doing role play,
- ✓ translating,
- ✓ writing,
- ✓ listening,
- ✓ reading in learning Arabic language.[5]

#### **V. Conclusion.**

Overall, learning Arabic as a second language requires more effort from not only students, but also teachers. Applying methods into practice and doing activities in everyday learning do a lot for them. However, it is clear that the outstanding students have their own methods in learning Arabic language as a foreign language, additionally, they build their own situations in acquiring the new language. Moreover, they possess their own methods and steps to be applied in language activities. Methods and useful steps can be a guideline for those who learn Arabic as a second language in far areas.

#### **Reference:**

- 1.Sally Morgan. – Importance of the Arabic Language Guide.  
<https://www.importanceoflanguages.com>, July 17, 2018.
- 2.<https://www.britannica.com/topic/Arabic-language>
- 3.<https://www.rocketlanguages.com/arabic/ways-to-learn-arabic/>
4. <https://www.researchgate.net/publication>
- 5.Dr. R. Samah, F. Puteh-Behak. Mediterranean Journal of Social Sciences. Italy, 2016.

## MUNDARIJA – CONTENTS

<b>№</b>	<b>Mualliflar (authors)</b>	<b>Maqolasi (article)</b>	<b>Sahifasi (pages)</b>
1.	Abdiravidov S, Kamalova Z.	PSIXOLOGIYADA MOTIVATSIYA MUAMMOSINI O'RGANILISHI	4
